FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI, PROFESSOR NURBOY JABBOROV
TAVALLUDINING 60 YILLIGI MUNOSABATI BILAN O'TKAZILGAN

TURKIY XALQLAR ADABIYOTSHUNOSLIGI VA MATNSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI

PROCEEDINGS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND THEORETICAL
CONFERENCE ENTITLED

"RELEVANT ISSUES OF TURKIC PEOPLES' LITERARY STUDIES AND TEXTUAL STUDIES"

HELD IN HONOR OF THE 60TH ANNIVERSARY OF
DSC (PHILOL.), PROF. NURBOY JABBOROV

TAVFIQNASHR
TOSHKENT
2026

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

Turkiya davlati Karabuk universiteti

Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti

Al-Forobiy nomidagi Qozoq Milliy universiteti

«TURKIY XALQLAR ADABIYOTSHUNOSLIGI VA MATNSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI»

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferans materiallari

Toshkent – 2026

UO‘K: 821.161.1=512.133
KBK: 83.3 (5O‘)
A 51

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori, akademik

Taqrizchilar:
Kemal Yavuz Ataman
ijtimoiy fanlar doktori, Turkiya

Dilnavoz Yusupova
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:
Boqijon To‘xliyev (O‘zbekiston), Almaz Ülviy Binnatova (Ozarbayjon), Jabbor Eshonqulov (O‘zbekiston), Islam Jemeney (Qozog‘iston), Funda Toprak (Turkiya), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Olim Davlatov (O‘zbekiston), Quanishbay Orazimbetov (Qoraqalpog‘iston), Nafas Shodmonov (O‘zbekiston), Bahodir Karimov (O‘zbekiston), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Maqsud Asadov (O‘zbekiston), Zeboxon Qobilova (O‘zbekiston), Dilshod G‘ayipov (O‘zbekiston), Darmonoy O‘rayeva (O‘zbekiston), Dilrabo Quvvatova (O‘zbekiston), Qo‘ldosh Pardayev (O‘zbekiston), Shermuhammad Amonov (O‘zbekiston), Gulrux Xudoyorova (O‘zbekiston)

Ushbu to‘plamda o‘zbek mumtoz adabiyotshunosligi ilmiy maktabining asoschisi, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov tavalludining 60 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan “Turkiy xalqlar adabiyotshunosligi va matnshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy-nazariy konferans materiallari jamlangan. To‘plamda olim ilmiy-ijodiy faoliyatining o‘zbek va qardosh xalqlar adabiyotshunosligida tutgan o‘rni va ahamiyatiga doir ilmiy maqolalar o‘rin olgan. Shuningdek, turkiy xalqlar mumtoz adabiyoti tahlili, adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy va amaliy masalalari, navoiyshunoslik muammolari, istiqboli, zamonaviy adabiyotni o‘rganish masalalarini yoritishga bag‘ishlangan maqolalar ham kiritilgan.

Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

ISBN 978-9910-8664-0-1

©TAVFIQNASHR, 2026
© Nurboy Jabborov, 2026

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTSHUNOSLIGI ILMIY MAKTABI ASOSCHISI

Shuhrat Sirojiddinov,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik

Biz yangi davrda yashayapmiz. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans kabi g‘oyalar kun tartibiga qo‘yilgani jihatidan bu davr har bir soha vakillari zimmasiga aniq vazifalar qo‘ymoqda. O‘z navbatida, ushbu yangi davr ilm-fanning boshqa barcha jabhalari qatorida milliy filologiya – tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari hamda ular ta’limining zamon talablari darajasidagi takomilini taqozo etayotir. Jamiyatni va millatni yuksak taraqqiyotga undovchi hayotbaxsh g‘oyalarni xalqimiz va ayniqsa, kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarimiz qalbiga va ruhiga singdirishda, shubhasiz, adabiyotning va adabiyotshunoslikning o‘rni alohida. Bu soha bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasasi hisoblangan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida mazkur vazifalar ijrosi borasida yuqori natijalarga erishilmoqda. Ayon haqiqat shundaki, ta’lim taraqqiyotini fan rivojidan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Ta’lim yuksalishi uchun fanda erishilgan eng yangi yutuqlar talabalar auditoriyasiga olib kirilishi talab etiladi. Buning uchun esa yangi zamon talablariga mos ilmiy maktablar yuzaga kelishi zarur.

Adabiyotshunoslik sohasida G‘ulom Karimov, Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov kabi ustoz olimlar o‘z davrida ilmiy maktab yaratgani ma’lum. Bugungi eng salohiyatli olimlar kamolotida ana shu ilmiy maktablarning o‘rni va ahamiyati nihoyatda katta. Lekin taraqqiyotning shiddati, globallashuv sur’ati shu qadar tezlashib ketdiki, ustoz olimlar an’analarini yangilash, zamon talablari darajasidagi yangi ilmiy maktablar yaratish hayotiy va ilmiy ehtiyojga aylandi. Universitetimizda ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘yicha yangi ilmiy maktablar shakllandi hamda takomillashib bormoqda. Shulardan biri – o‘zbek mumtoz adabiyotshunosligi ilmiy maktabi bo‘lib, uning asoschisi filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovdir.

Ilmiy maktab qachon yuzaga keladi? Buning uchun qanday sharoit va omillar talab etiladi? Ilmiy maktab shakllanishining omillari, bizningcha, quyidagilardan iborat: 1) fan rivojiga xizmat qiladigan konseptual ahamiyatga ega yangi ilmiy-nazariy qarashlarga ega olim-asoschining bo‘lishi; 2) olim-asoschi ilmiy asarlarida o‘ziga xos tadqiqot usullari ishlab chiqilishi; 3) olimning ilmiy-nazariy qarashlari xalqaro miqyosda e’tirof etilishi; 4) ilmiy maktab g‘oyalarining munosib izdoshlari bo‘lishi, an’analarning munosib davom ettirilishi va yangilanishi; 5) ilmiy maktab g‘oyalari jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli tatbiq qilinishi.

Ta’kidlash kerakki, professor Nurboy Jabborov ilmiy maktabi mazkur omillarning barchasi mujassam ekani bilan o‘zbek matnshunosligi va adabiyotshunosligida alohida o‘rin tutadi.

Nurboy Jabborov tomonidan shu kunga qadar 10 dan ortiq monografiya, 3 ta o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanma, shuningdek, 700 dan ziyod ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar e’lon qilingan. Olim tadqiqotlarida fan rivojiga xizmat qiladigan konseptual ahamiyatga ega yangi ilmiy-nazariy qarashlar butun bir tizimni tashkil etadi. U matn tarixi va tahriri, qo‘lyozmalar genealogiyasi, mumtoz manbalarni o‘rganishning muqobala usuli, ilmiy-tanqidiy matn singari matnshunoslikka tegishli istilohlarga doir nazariy qarashlarni yangiladi va takomillashtirdi. Nurboy Jabborovning manbashunos sifatida shakllanishida, ilmiy qarashlari va metodologik yondashuvi mustahkamlanishida, chuqur tahlillarga suyanib ish ko‘ruvchi matnshunos bo‘lib yetishuvida O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek filologiyasi fakultetida olgan bilimlari, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar instituti ilmiy muhitidagi tajribalari asos-zamin bo‘ldi.

Dastlabki izlanishlaridayoq u adabiy hodisaga ikkilamchi manbalar orqali emas, balki birlamchi manbaga tayanib yondashish zarurligini teran angladi. Bu tamoyil keyinchalik uning butun ilmiy faoliyatida ustuvor mezonga aylandi. 1994-yilda himoya qilingan "Furqat asarlarining qo'lyozma manbalari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ana shu yondashuvning yaqqol namoyishi bo'ldi. Ushbu tadqiqot Furqat ijodi faqat adabiy-badiiy hodisa sifatida emas, balki murakkab manbashunoslik muammosi sifatida kompleks o'rganilgani bilan alohida ajralib turardi. 2004-yilda himoya qilingan "Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi furqatshunoslikni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu ishda Furqat ijodining xorijdagi manbalari, ularning tarixiy-madaniy konteksti, matn variantlari va poetik xususiyatlari kompleks tarzda tadqiq etildi. Muhimi, bu tadqiqotda muayyan bir shoir ijodi misolida adabiy merosni o'rganishda manba, matn va poetikani bir butun tizim sifatida ko'rish zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi. U matn bilan ishlashda qo'lyozma manbalarni qiyosiy o'rganish, variantlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash, tarixiy-madaniy kontekstni hisobga olgan holda, ilmiy izoh berish tamoyillariga alohida e'tibor qaratdi.

Nurboy Jabborov o'z ilmiy izlanishlarida manbaga tayanish, matn ustida ehtiyotkorlik bilan ishlash va xulosa qilishda mas'uliyatni ustuvor mezon sifatida qaror toptirdi. Shu bois uning ishlari bugun nafaqat o'qilmoqda, balki ulardagi ilmiy-nazariy qarashlarga tayanilmoqda, olim g'oyalari davom ettirilmoqda va yangi tadqiqotlar uchun metodologik asos vazifasini bajarmoqda. Bu hol ilmiy faoliyatning eng muhim belgisi – yashovchanlik va davomiylikdan dalolat beradi.

Nurboy Jabborov o'z ilmiy izlanishlarida adabiy hodisani uch qatlamda – manba, matn va talqin birligida o'rganish tamoyiliga qat'iy amal qiladi. Uningcha, adabiy merosni to'laqonli anglash faqat bitta qatlam bilan cheklanmaydi: manbadan ayri holda matn ishonchsiz, matnsiz talqin mavhum, talqinsiz matn esa quruq bayonga aylanib qoladi. Shu bois olimning barcha tadqiqotlarida qo'lyozma manbalar bilan ishlash, variantlarni qiyoslash, tarixiy-madaniy kontekstni aniqlash va shundan so'ng badiiy-estetik xulosalar chiqarish izchil tizim sifatida namoyon bo'ladi. Metodologik yondashuv, ayniqsa, uning navoiyshunoslikka oid tadqiqotlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Nurboy Jabborov Alisher Navoiy ijodini faqat poetik meros sifatida emas, balki tasavvufiy dunyoqarash, davr siyosati va jamiyat tafakkuri bilan bog'liq faoliyat, ma'naviy muhit va davr qadriyatlari bilan uzviy aloqada tahlil qiladi.

Bizda shu paytgacha mumtoz adabiyotni o'rganishning zamon talablari asosidagi nazariy-metodologik asoslari ishlab chiqilmagan edi. Professor Nurboy Jabborov Alisher Navoiy adabiy merosini tadqiq qilish jarayonida nazariy-metodologik asos vazifasini o'taydigan muhim ilmiy qarashlarni adabiyotshunoslikka olib kirdi. Bular – mumtoz adabiyotimizni o'rganishda islomiy-irfoniy metodga tayanish zarurati. Ma'lumki, adabiyotshunosligimizda o'zbek mumtoz adabiyotining tasavvufiy talqinlariga asoslangan ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Biroq ularda islom ma'rifati va e'tiqodining asosi bo'lgan Qur'oni karim va Hadisi shariflarga tayanilmagani bois asl mohiyatga yetilmagan o'rinlar ko'p uchraydi. Nurboy Jabborov "Maoniy ahlining sohibqironi" monografiyasida birinchi marta Sharq-islom adabiyoti shaklni ham, vaznni ham, ijodiy konsepsiyani ham Qur'oni karim va Hadisi shariflardan olganini aniq misollar tahlili asosida dalillab berdi.

Bundan tashqari, Alisher Navoiy ijodida futuvvat talqini masalasi yetarlicha o'rganilmagan va o'z tadqiqotchisini kutayotgan edi. Nurboy Jabborov ushbu muammoni mufassal va chuqur tadqiq qildi. Hatto ba'zi o'rinlarda olim ustoz navoiyshunoslar qarashlari bilan bahsga kirishadi va o'z fikrlarini teran ilmiy asosda dalillaydi. Eng muhimi, bunda munozara madaniyatiga amal qiladi. Jumladan, Yoqubjon Is'hoqov "Naqshbandiya ta'limoti va o'zbek adabiyoti" tadqiqotida Alisher Navoiyning javonmard nomi bilan maxsus hikoya va obraz yaratmagan bo'lsa ham, Farhod, Mas'ud, Sa'd, Farrux, Iskandar, Shopur, Muqbil singari haqiqiy javonmardlar timsolida o'zining bu masalaga doir qarashlarini yetarli darajada ifodalay olgan"ini ta'kidlashi barobarida buyuk shoirni "...javonmard nomi bilan maxsus hikoya va obraz yaratmagan", deb hisoblaydi va "Alisher Navoiyning bu boradagi ehtiyotkorligi ortida jiddiy sabab yotadi. Ma'lumki, javonmardlik mafkurasi sarbadorlar harakatining asosiy g'oyasini tashkil

etgan. Sarbadorlar (hurufiylar singari) bilan temuriylar o‘rtasidagi jiddiy munosabat Navoiyga ma’lum edi. Binobarin, ota-bobosidan tortib shu xonadonga sodiq qolgan Navoiy ana shunday nozik masalada ehtiyotkorlik ko‘rsatishi tabiiy holdir”, degan xulosa chiqaradi. Olim fikrini munozarali deb topgan Nurboy Jabborov futuvvat tasavvufning asosiy bo‘g‘ini sifatida sarbadorlargacha ham bir necha asrlik tarixga ega ekani, shu bois sarbadorlar bilan temuriylar o‘rtasidagi munosabat qanday bo‘lishidan qat’i nazar, bu hol futuvvat haqida asar yozilishiga mone bo‘la olmasligini ta’kidlaydi. Aks holda, Navoiy “Nasoyimu-l-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” nomi bilan alohida asar yozmagan va buyuk shoirning zamondoshi, u bilan bir zaminda yashagan Husayn Voiz Koshifiyning futuvvatga doir maxsus asari yaratilmagan bo‘lar edi”, tarzida aniq fakt va tahlillar negizida o‘z qarashlarini ishonarli asoslaydi.

Olim “Sab’ai sayyor”dagi Axiy hikoyatini futuvvatning Husayn Voiz Koshifiy asarida ifodalangan uch martabasi: 1) saxovat, ya’ni bor narsasini hech kimdan qizg‘anmaslik; 2) safo, ya’ni qalbni kibr-u havo, gina-kudurat, qasd-g‘azabdan pokiza, pok tutish hamda 3) vafo, ya’ni hamma vaqt xalq xizmatida bo‘lish tamoyillari asosida tadqiq qiladi. O‘rni bilan oyat va hadislardan istifoda etadi. Natijada hikoyatning avvalgi tadqiqotlarda ochiqlanmay ketilgan o‘rinlarini ham chuqur ilmiy mantiq asosida tahlil etib beradi. Eng muhimi, Alisher Navoiyning o‘zi ham fatiy bo‘lganini chuqur dalillaydi.

Monografiyaning yana bir o‘rnida muallif rus akademigi V.V. Bartoldning: “Temuriylar davrida turkiy she’riyatni yaratishga harakat qilgan chig‘atoy shoirlarining devonlari Ulug‘bekning e’tiborini qozongani mutlaqo ma’lum emas”, degan fikri bilan munozaraga kirishadi. Kitobning “Mirzo Ulug‘bek davri adabiyoti Alisher Navoiy talqinida” sarlavhali bobida olim Mirzo Ulug‘bekning Lutfiy, Sakkokiy, Mirzo Alibek singari turkiy tilli shoirlar ijodiga bo‘lgan e’tibori, turkiy tildagi ilk nazariy manbalardan bo‘lgan Shayx Ahmad Taroziyning “Fununu-l-balog‘a” asari aynan bu ulug‘ sultonga bag‘ishlab yozilgani bilan bog‘liq aniq dalillarni keltirish orqali akademik V.V. Bartold qarashlari bahsli ekanini isbotlaydi.

Nurboy Jabborov tomonidan bildirilgan dunyo obrazi va uning talqinlari, tasavvufda tarki dunyo yo‘qligi, uning tarki muhabbati dunyo tamoyiliga asoslanishi bilan bog‘liq qarashlar ham Navoiy va boshqa mumtoz ijodkorlar adabiy merosini o‘rganishda mezon vazifasini o‘tay oladi. Ushbu monografiyada Navoiy ijodi tasavvufiy-badiiy tafakkur birligi doirasida talqin qilinib, shoir shaxsiyati va ijodiy merosi o‘rtasidagi ichki uyg‘unlik ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bu yondashuv navoiyshunoslikda bot-bot ko‘zga tashlanib turadigan ayrim soddalashtirilgan yoki tor talqinlardan voz kechish zarurligini ko‘rsatgani bilan yanada ahamiyatlidir.

Olim jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy she’riyat va nasr muammolari bilan ham izchil shug‘ullanib keladi. Is’hoqxon to‘ra Ibrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodiy faoliyatidan Abdurauf Fitrat va Abdulla Qodiriy asarlarigacha, Cho‘lpon va Tavallo lirikasidan Mirtemir, Zulfiya, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov she’riyatigacha, Rauf Parfi va Usmon Azim nazmidan Erkin A’zam va Xayriddin Sulton nasrigacha, Shavkat Rahmon va Muhammad Yusuf lirik asarlaridan Sirojiddin Sayyid, Mahmud Toir va Sharifa Salimova ijodigacha, ulardan zamonaviy adabiy jarayon masalalarigacha tadqiq qilib keladi. Olimning “Zamon. Mezon. She’riyat”, “Ma’rifat nadir”, “Adabiyot va milliy ma’naviyat” kabi kitoblari va yuzlab maqolalari mazkur davr hamda ijodkorlar asarlari tadqiqiga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqotlar jadid adabiyotida millat va milliyat masalalari, muayyan ijodkorlar asarlarining poetik xususiyatlari, adabiyot va matbuot, adabiyot va jamiyat, zamonaviy she’riyat va nasrning taraqqiyot tamoyillari, ijod konsepsiyasi va estetik ideal, obraz va xarakter, epik tasvir qonuniyatlari kabi konseptual ilmiy muammolar tadqiqiga bag‘ishlangani bilan alohida ahamiyatga ega.

Nurboy Jabborov ilmiy asarlarida o‘ziga xos tadqiqot usullarini ishlab chiqish orqali o‘zbek matnshunosligi va adabiyotshunosligi rivojiga muhim hissa qo‘shdi. Matnshunoslikda u qo‘lyozmalar tadqiqining genealogik usulini ishlab chiqdi. Muhammad Rizo Ogahiy, Is’hoqxon Ibrat va Zokirjon Furqat asarlari qo‘lyozmalarini o‘rganish uchun tatbiq etilgan bu usul asarning muallif qo‘lxati, uning ishtiroki yoki nazoratida ko‘chirilgan, keyingi davrlarda kitobat etilgan manbalari, toshbosma nusxalari hamda

nashr variantlarini shajaraviy asosda tadqiq qilishni nazarda tutadi. Mazkur usul matn tarixining barcha bosqichlarini o‘zaro bog‘liq holda kompleks o‘rganish imkonini berishi jihatidan ahamiyatlidir.

Olim tadqiqotlarida matn tarixiga yangicha yondashuv masalasiga alohida ahamiyat qaratiladi. Uning fikricha: “Matn tarixi qo‘lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va manbani ko‘chirgan kotibning dunyoqarashi va g‘oyasini o‘rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro‘yobga chiqishidan uning yaratilishiga u yoki bu darajada aloqador boshqa adabiy yodgorliklar bilan o‘zaro bog‘liq jihatlari tadqiqigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga oladi”. Mumtoz qo‘lyozma manbalarni o‘rganishga ana shunday puxta nazariy asosda yondashgan olim matnshunoslikka matn tarixini o‘rganishning muqobala usulini tavsiya etadi. Bu usulga ko‘ra: 1) matnshunos olimlarning yagona maqsad – xatolardan xoli mukammal matnni tiklash niyatida jamoa bo‘lib ishlashi; 2) matnning harfma-harf, so‘zma-so‘z qiyoslanishi; 3) xatoliklarni bartaraf etish uchun mutaxassislar o‘zlari tayyorlagan matnlarni bir-biri bilan o‘zaro almashlab tekshirishi; 4) matndagi xatoliklarni o‘chirib yubormasdan ustiga chizib ishlash kabi bosqichlar taklif qilinadi. Haqiqatan, agar muqobala usuli matnshunoslik amaliyotiga tatbiq etilsa, Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoir-u adiblar asarlarini nashrga tayyorlash ishiga tizimli asosda ilmiy yondashuv imkoniyati kuchayib, matniy xatolardan xoli mukammal nashrlar yuzaga kelgan bo‘lar edi. Mutaxassislarning biri ikkinchisi tayyorlagan nashrdan xato izlashidek nojoiz an’ana ham barham topardi.

Nurboy Jabborov ana shu usullarni “Bobo Ravshan” xalq dostoni, Abu Homid G‘azzoliyning “Daqoyiq ul-axbor”, Mulla Olim Maxdum Hojining “Tarixi Turkiston”, Muhammad Rizo Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” asarlarini, shuningdek, Ogahiy, Muqimiy, Furqat va Is’hoqxon Ibratning “Tanlangan asarlar”ini qo‘lyozma manbalar asosida ilmiy izohlar, ko‘rsatkichlar va lug‘atlar bilan nashrga tayyorlashda mahorat bilan qo‘lladi. Ushbu nashrlar matnshunoslik amaliyotining nazariy asoslarga tayanilgan muhim natijasi sifatida qimmatlidir.

Olimning Sharq-islom adabiyoti ijodiy uslubi masalasiga doir fikrlari ham muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega: “Adabiyotda voqelikni aks ettirish tamoyili ijodiy uslubni belgilaydi. Biroq shu paytgacha ijodiy uslub masalasiga G‘arb adabiyotshunosligi mezonlari asosida yondashib kelindi. Ijodiy uslub muammosiga o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, sharqona adabiy-estetik tafakkur mezonlari asosida yangicha yondashilishi zamon taqozosidir. Adabiyotning badiiylik mezoni uning ham mazmun, ham badiiyat jihatidan mukammal bo‘lishini taqozo qiladi. Badiiylik mezoni poetik shakl va mazmunning har jihatdan uyg‘un bo‘lishi, g‘oyaning milliy axloqqa mutanosibligi, badiiy shaklni yuzaga keltiruvchi komponentlarning mukammalligi asosida yuzaga keladi. O‘zbek mumtoz adabiyotining islomiy asoslarga tayanishi uning milliyligini inkor etmaydi. Ulug‘ shoir-u adiblarimiz asarlarini milliy tilda yozgani, ularda turkiy millatga xos e’tiqod, ruhiyat, dunyoqarash aks etgani buning isbotidir”.

Professor Nurboy Jabborovning ilmiy faoliyati haqida so‘z yuritilar ekan, faqat tadqiq etilgan muammolar ko‘lami yoki e’lon qilingan asarlari soni bilan cheklanish o‘rinli bo‘lmaydi. Uning o‘zbek filologiyasidagi asosiy xizmati – ilmiy metodni tizimlashtirgan, yondashuvni barqarorlashtirgan va izchil ilmiy maktab yaratgan olim sifatida namoyon bo‘lishidadir. Aynan shu jihat olim tadqiqotlarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Nurboy Jabborov ilmiy-nazariy qarashlari xalqaro miqyosda e’tirof etilgan. Olimning metodologik qarashlari mumtoz adabiyotshunoslik va matnshunoslik chegarasidan chiqib, qiyosiy adabiyotshunoslik va zamonaviy adabiy jarayon masalalariga ham tatbiq etilgan. U turkiy adabiyot an’analari, umumislomiy madaniyat va jahon adabiy tafakkuri o‘rtasidagi mushtaraklik hamda farqlarni tahlil etishda qiyosiy yondashuvning samarali imkoniyatlarini namoyon etdi. Bu hol uning ilmiy ishlarida milliy adabiyotning jahon madaniy kontekstidagi o‘rnini aniqlashga xizmat qildi.

Monografiya yozadimi yoki muayyan ilmiy muammoga doir maqolami – olim o‘ziga xos tadqiqot mezonlari asosida yondashadi. Mumtoz adabiyotga daxldor bo‘ladimi yoki zamonaviy she’riyat va

nasrga tegishlimi, qat'i nazar, badiiy matn kompleks tahlil etiladi. Shuning uchun ham nufuzli xorijiy jurnallar va e'tiborli xalqaro konferensiyalarga Nurboy Jabborov maqolalari mamnuniyat bilan qabul qilinadi va chop etiladi. Olimning ilmiy ishlari AQSH, Rossiya, Xitoy, Malayziya, Turkiya, Eron, Hindiston, Janubiy Koreya, Ozarbayjon, Tojikiston va Qozog'istonning nufuzli ilmiy jurnallarida hamda SCOPUS bazasidagi nashrlarda e'lon qilingani buning isbotidir. Turkiyada chop etilgan o'ttiz jildlik "Turk dunyosi adabiyoti" ensiklopediyasida uning 10 dan ortiq ilmiy maqolalari nashr etilgan. Ushbu maqolalar turkiy adabiyotning tarixiy taraqqiyoti va o'zaro adabiy aloqalarini yoritishda muhim manba sifatida baholanmoqda.

Olim o'zigacha bo'lgan Sharq-u G'arb mutafakkirlarining ilmiy-nazariy qarashlariga tahliliy asosda yondashadi, ularni yangilaydi va takomillashtiradi. Bu esa uning tadqiqotlariga respublikamiz va xorijlik mutaxassislarning qiziqishini kuchaytirmoqda. Olimning ilmiy-nazariy yangiliklarga boy "Maoniy ahlining sohibqironi" monografiyasi 2021-yilda "Yilning eng yaxshi asari" Respublika tanlovida 1-o'ringa sazovor bo'lib, Abdurauf Fitrat nomidagi mukofot bilan taqdirlandi. Monografiya keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-fevraldagi 55-F-sonli farmoyishiga muvofiq, "Istiqlol davri navoiyshunosligi" 30 jildlik to'plamining 20-jildida nashr qilindi. Mazkur monografiya 2025-yilda Eron poytaxti Tehron shahridagi "Ovoi mahdis" nashriyotida "Dunyoi irfoniyi Amir Alisher Navoiy" nomi bilan fors tilida chop etildi. Kitobni Tabriz universiteti professori Husayn Xushbotin tarjima qilgan. Ushbu ahamiyatli asar yaqinda Turkiya poytaxti Anqara shahrida Beyza O'zar tarjimasida turk tilida ham bosilib chiqdi. Mazkur nashrlar Nurboy Jabborov tadqiqotlarining xalqaro e'tiroflari ko'lami tobora kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Bu hol olimning metodologik qarashlari va ilmiy yondashuvi transmilliy ilmiy muhitda ham qabul qilinayotganini ko'rsatadi. Olim xalqaro ilmiy-madaniy tadbirlarda muntazam ishtirok etib keladi. Jumladan, 2008-yilda O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida Eron poytaxti Tehronda o'tkazilgan xalqaro kitob yarmarkasida qatnashgan. 2012-, 2022-, 2024- va 2025-yillarda Turkiyaning Istanbul, Anqara va Bursa shaharlarida tashkil etilgan "Sohibqiron Amir Temurning jahon davlatchiligi tarixidagi o'rni", "Alisher Navoiy va XXI asr", "Mahmudxo'ja Behbudiy va Turkiston jadidchiligi" mavzularidagi nufuzli xalqaro simpoziumlarda ilmiy ma'ruzalar bilan ishtirok etdi. Ushbu chiqishlar turkiy tarixiy-adabiy tafakkurning dolzarb masalalarini xalqaro ilmiy muhokamaga olib chiqishga xizmat qildi.

2021-yilda mamlakat delegatsiyasi tarkibida Afg'onistonning Hirot shahrida hazrat Alisher Navoiy tavalludining 580-yilligiga bag'ishlangan xalqaro anjumanda qatnashib, "Alisher Navoiy ijodida turkiy ruhiyat ifodasi" mavzusida ma'ruza qildi. Ushbu ilmiy safar doirasida buyuk mutafakkir maqbarasini ziyorat qilishi ramziy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'ldi. Xuddi shu yili Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida Nizomiy Ganjaviy tavalludining 880-yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada ham ilmiy ma'ruza bilan ishtirok etdi.

Nurboy Jabborovning ilmiy faoliyati xorijiy matbuotda ham munosib baholanmoqda. Jumladan, 2024-yil 11–12-oktyabr sonlarida Bokuda chop etiladigan "Sharq" gazetasida Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti Ozarbayjon–O'zbekiston–Turkmaniston adabiy aloqalari bo'limi mudiri, taniqli navoiyshunos Almaz Ulvi Binnatovaning "Professor Nurboy Jabborov" sarlavhali maqolasi e'lon qilinib, unda olim tadqiqotlarining turkiy dunyo adabiyotshunosligidagi o'rni mufassal yoritildi. 2026-yil 7-yanvarda Tojikistoning "Sug'd haqiqati" gazetasida Xo'jand davlat universiteti olimlari Nizomiddin Murodiy, Baxtiyor Fayzulloyev va Mavlonberdi Suyunovlarning Nurboy Jabborov adabiyotshunoslik va matnshunoslik faoliyatiga doir "Olimlik saodati" maqolasi chop etildi. Maqolada olimning o'zbek-tojik adabiy aloqalari rivojiga qo'shgan hissasi munosib e'tirof etildi.

Bugun texnika-texnologiyalar va internet zamoni. Avvalgi davrlardagi kabi faqat kitoblar-u gazeta-jurnallar bilan kifoyalanish taraqqiyot sur'atidan ortda qolishga sabab bo'ladi. Ilm odami modomiki dunyoga chiqmoqchi ekan, o'z ilmiy g'oyalarini ijtimoiy tarmoqlar orqali ham faol tarqatishi shart va

zarur. Bu – ilmiy va hayotiy ehtiyoj. Nurboy Jabborov bu borada ham zamon shiddati bilan hamnafas borayotgan olimlardan. Uning telegramdagi qariyb uch ming a'zoga ega "Nurboy Jabborov saboqlari" ilmiy-ijodiy kanali xalqaro miqyosda e'tirof etilgan. Kanalga bugungi kunda AQSH, Xitoy, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston kabi mamlakatlar ilm va ijod ahli, iste'dodli yoshlar a'zodirlar. Aksar olimlarimizga xos bir qusur bor: agar tadqiqotlarimni ijtimoiy tarmoqqa joylasam, boshqalar ko'chirib oladi, deb o'ylaydilar. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarga ulashishni ham lozim ko'rmaydilar. Nurboy Jabborov esa ilmdagi yutuqlarini imkon boricha kengroq miqyosda tarqatish tarafdori bo'lgan olim. Tadqiqotlarining o'quvchilar tafakkuri va qalbiga yetib boradigan eng qiziqarli o'rinlarini kanalga joylab boradi. Bu esa, birinchidan, kanalni kuzatuvchilar soni muntazam ravishda oshib borishiga, ikkinchidan, ilmiy g'oyalarining auditoriyasi muttasil kengayishiga sabab bo'lmoqda.

Turkiyalik professor Kemal Yavuz Ataman ushbu ilmiy-ijodiy kanal a'zosi bo'lgach, undagi maqola va lavhalarga qiziqib qoladi va o'zi rahbarlik qilayotgan ATLAS Academia yozuv va tahlil markazidagi shogirdlariga ham tavsiya qiladi. Shu tariqa ular e'tirofga loyiq olim Nurboy Jabborovga syurpriz tariqasida "Nurbay Hocanin Not Defteri" ("Nurboy ustoz yon daftari") kitobini nashrga tayyorlab keladilar. Keyin ular birgalikda ushbu loyihani takomillashtirib, Turkiya poytaxti Anqarada o'zbek va turk tillarida ikki jild holida nashr ettiradilar. Ta'kidlash kerakki, kitob o'zbek va turk tillarini o'rganmoqchi bo'lgan ikki mamlakat yoshlari uchun ham zarur adab va ma'rifat manbayidir. Bu voqeadan xabar topganimda, beixtiyor buyuk Navoiyning:

Naf'ing agar xalqqa beshak durur,
Bilki, bu naf' o'zunga ko'prak durur, – degan satrlari yodimga keldi. Nurboy Jabborov ilm tarqatishga, xalqqa manfaat yetkazishga astoydil harakat qilgani tufayli o'zi ham foyda ko'rdi, ikki jildlik kitobi qardosh davlatda chop etildi.

Turkiy xalqlar adabiyoti va madaniyatini targ'ib qilishga, adabiy hamkorlikni mustahkamlashga qo'shayotgan salmoqli hissasi uchun Nurboy Jabborov munosib e'tiroflarga ham sazovor bo'lmoqda. U Turkiyada nashr qilinadigan "BUGU" xalqaro til va ta'lim jurnali hamda Ozarbayjonning Ganja shahrida chop etiladigan "Nizamişünasliq. Elmi əsərlər" jurnallari tahrir hay'ati a'zosidir. 2021-yili Ozarbayjon Respublikasining "Nizomiy Ganjaviy" esdalik nishoni bilan taqdirlangan. O'sha yili O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi tomonidan o'tkazilgan "Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi – turk dunyosi adabiyotining faxri, dunyo she'riyatining cho'qqisidir" mavzusidagi ijodiy tanlov g'olibi bo'lgan.

Ilmiy maktabning yana bir muhim talablaridan biri ilmiy maktab g'oyalarining munosib izdoshlari bo'lishi, an'analar izchil davom ettirilishi va yangilanishi zarur. Nurboy Jabborov salohiyatli shogirdlar yetishtiryapti. Olim yaratgan ilmiy maktabning muhim belgilaridan biri – shogird tayyorlashdagi izchillik va talabchanlikdir. U ilmiy rahbar sifatida tadqiqotchidan, avvalo, manbaga hurmat, dalilga tayanish va xulosada ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bugungi kunga qadar uning rahbarligida 35 nafar tadqiqotchi, jumladan, 8 nafar fan doktori (DSc) va 27 nafar fan nomzodi hamda PhD ilmiy darajalarini qo'lga kiritgani nafaqat miqdoriy ko'rsatkich, balki shakllangan ilmiy maktabning barqarorligini ko'rsatadi.

E'tiborlisi shundaki, Nurboy Jabborov ilmiy maktabi faqat milliy doira bilan cheklanmaydi. Uning shogirdlari orasida xorijiy oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar ham bor. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi Shinjong universiteti professori Tursun Qurbon va Afg'onistonning Tahor universiteti o'qituvchisi Zohid Muhammad Zohir kabi xorijiy shogirdlar ham borligi olimning ilmiy-pedagogik maktabi xalqaro miqyosda ham kengayayotganini ko'rsatadi.

Olim va u asos solgan ilmiy maktab faoliyatining serqirra ekani yana shunda ko'rinadiki, u mamlakatimizdagi uch adabiy muhit – Toshkent, Qo'qon va Xorazm adabiy muhitlari bo'yicha tadqiqotlar yaratgan va uning ilmiy maktabi davomchilari ham ana shu yo'nalishlarda ahamiyatli ilmiy ishlarni

amalga oshirmoqda. Jumladan, XIX asr oxiri – XX asr boshlari Toshkent adabiy muhitining Karimbek Kamiy, Miskin, Xislat va Tavallo singari namoyandalari ijodi bo‘yicha Nurboy Jabborov tadqiqotlari bor. Olimning fikricha, bu davrdagi Toshkent adabiy muhitining o‘ziga xosligi, birinchidan, Vatan, Millat, milliyat va ma’rifat g‘oyalari badiiy adabiyotga betakror obraz va ramzlar orqali ko‘chirilganida, ikkinchidan, bayozchilikda yangi an’analarga asos solinganida, uchinchidan, Sharq va G‘arb madaniyati ohorli talqin etilganida ko‘rinadi. Bu ilmiy g‘oyalarning amaliyotga tatbiqi sifatida uning uch shogirdi – Shahobiddin Nuriddinov, Shahnoza Rasulova hamda Dildora Rahmonovalar Miskin, Xislat va Tavallo ijodi bo‘yicha adabiyotshunoslikda ilk bor falsafa doktori ilmiy darajasi uchun dissertatsiya himoya qilganlar.

Adabiyot olamiga furqatshunos sifatida kirib kelgan Nurboy Jabborov Qo‘qon adabiy muhitining boshqa adabiy maktablardan farqli xususiyatlari, Furqat ijodining o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida tutgan o‘rni, Amiriy, Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlar asarlarining manbalari, adabiy-estetik mohiyati yuzasidan salmoqli tadqiqotlar yaratgan. Shuning barobarida, ushbu adabiy muhitning Muqimiy, Muhsiniy, Hamza, Anbar Otin kabi namoyandalari adabiy merosini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik hamda poetika bo‘yicha tadqiq qilgan shogirdlar ham yetishtirgan. Ulardan Qo‘ldosh Pardayev va Shermuhammad Omonovlar fan doktori sifatida matnshunoslik va adabiyotshunoslik rivojiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.

Xorazm adabiy muhiti – ochilmagan qo‘riq. Mazkur muhitning Muhammadrizo Ogahiy, Muhammad Rahimxon Feruz, Komil Xorazmiy kabi yetakchi namoyandalari adabiy merosini birlamchi manbalar asosida tadqiq qilib kelayotgan Nurboy Jabborov ilmiy ishlari ana shu qo‘riqni ochishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Ogahiyning dunyoda yagona qo‘lyozmasi Sankt-Peterburgda saqlanadigan “Shohid ul-iqbol” asarini Nurboy Jabborovning shogirdi Nafas Shodmonov birinchi bo‘lib to‘liq holda ilmiy izohlar va ko‘rsatkichlar bilan nashr ettirdi. Bu asar bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Alisher Navoiydan keyin eng ko‘p – besh (uchtasi turkiy, bittasi forsiy tilda) devon tuzgan Ahmad Tabibiy, o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotining Komil Xorazmiy, Mutrib Xonaxarob, Avaz O‘tar kabi nodir siymolari ijodiy merosi Nurboy Jabborov shogirdlari tomonidan manba-matn-poetika kesimida tadqiq qilinmoqda.

Bular olimning tafakkurida ilmiy g‘oyalar ko‘p ekani, o‘zi rahbarlik qilayotgan ilmiy maktab vakillarini matnshunoslik va adabiyotshunoslik aspektida ana shu adabiy-manbaviy g‘oyalarni o‘rganishga safarbar eta olayotgani tasdig‘idir. Bu esa kamtarinlik, vazminlik va mas’uliyatni o‘z faoliyatining bosh mezoni deb bilgan Nurboy Jabborov sa’y-harakatlari nafaqat yurtimiz ilm-fanida, balki xalqaro akademik doiralarda ham e’tirof etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Nurboy Jabborov ilmiy maktabining g‘oyalari jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgani olim faoliyatining samarali kechayotgani isbotidir. Olim ilmiy g‘oyalarining jamoatchilikka yetib borishida madaniy va media loyihalar ham muhim o‘rin tutadi. Nurboy Jabborov rahbarligida yangi barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi buyurtmasi asosida “Zokirjon Furqat” hamda “Mulla Olim Maxdum Hoji tarixiy-publitsistik merosi” nomli ikki medialoyiha amalga oshirildi. Ushbu loyihalar markazning xonliklar davri tarixiga oid ekspozitsiyalarini yangi ilmiy ma’lumotlar, foto va videomateriallar bilan boyitishga xizmat qildi.

Ilmiy izlanish va pedagogik faoliyatni uyg‘un olib borish, tadqiqot natijalarini ta’lim jarayoni va jamiyat hayotiga tatbiq etish borasida ham Nurboy Jabborov ko‘pchilikka ibrat namunasidir. Olim ochiq muloqotlar, ma’rifiy loyihalar va ommaviy chiqishlar orqali ilmiy tafakkurni tor akademik doiradan chiqarib, keng ijtimoiy maydonga olib chiqishga erishdi.

Jumladan, Nurboy Jabborovning ochiq ma’ruzalari O‘zbekiston televideniyesining “Akademik soat”, “Ochiq dars”, “Adabiyot muallimi” kabi ko‘rsatuvlari orqali keng ommaga yetkazildi. Bu chiqishlar chuqur ilmiy asosga ega bo‘lishi bilan birga, yosh avlod ongida vatanparvarlik, milliy g‘urur va ma’rifiy mas’uliyat tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. “Mahalla” telekanalida namoyish

etilgan va katta ijtimoiy aks-sado bergan “Ma’rifat yog‘dusi” ko‘rsatuvi muallifi sifatida olim adabiy-madaniy hayotning dolzarb masalalarini keng jamoatchilik muhokamasiga olib chiqdi.

Olim yosh iste’dodlar bilan ishlashga ham alohida e’tibor qaratib kelmoqda. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiy tanqid kengashi raisi sifatida u Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida muntazam ishtirok etib, adabiyotimizning navqiron vakillariga badiiy ijod sirlaridan saboq bermoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan ijod maktablari o‘quvchilari uchun o‘tkazilayotgan mahorat darslari orqali esa yoshlarning adabiy-estetik didini shakllantirishga munosib hissa qo‘shmoqda.

Nurboy Jabborov “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida Toshkent shahri, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlaridagi oliy ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari hamda mahallalarda muntazam adabiy-ma’rifiy uchrashuvlar o‘tkazmoqda. Ushbu faoliyat mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, Uchinchi Renessans g‘oyasini hayotga tatbiq etishda ma’naviy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, professor Nurboy Jabborov jamiyatimizning siyosiy-ma’rifiy hayotida ham faol ishtirok etib kelmoqda. U O‘zLiDeP a’zosi sifatida saylovoldi targ‘ibot guruhlarida qatnashib, “Xalq so‘zi” va “Yangi O‘zbekiston” gazetalarida dolzarb ijtimoiy-siyosiy va madaniy-adabiy mavzularda maqolalar e’lon qilib, televideniye va radio orqali jamoatchilik bilan muntazam muloqot olib bormoqda.

Olim respublikamizning “Sharq yulduzi”, “Oltin bitiglar”, “O‘zbekiston: til va madaniyat”, “Adabiy meros” va “Ayniy vorislari” jurnallari tahrir hay’ati a’zosi, Samarqandda chiqadigan “Alisher Navoiy” xalqaro jurnalining bosh muharriri o‘rinbosari sifatida ilmiy jarayonlarni muvofiqlashtirishda faol ishtirok etmoqda.

Taniqli olim Nurboy Jabborovning adabiyotshunoslik va matnshunoslik rivojiga qo‘shgan munosib hissasi, Vatan va millat oldidagi fidokorona xizmatlari davlatimiz rahbari tomonidan yuksak darajada e’tirof etilgan. U 2002-yili “Shuhrat” medali, 2023-yili “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan. Bu esa uning Prezidentimiz va xalqimiz nazaridagi olimlardan ekanini ko‘rsatadi.

Nurboy Jabborov 60 yoshni qarshilamoqda. Bu yosh bugungi zamonda ayni balog‘at va avji kamolot pallasidir. Olim bosib o‘tgan ilmiy yo‘l mustahkam poydevor va munosib yutuqlarga ega, oldinda turgan vazifalar esa yanada ulkan va zalvorlidir. O‘zi asos solgan ilmiy maktabni rivojlantirish, ilmiy g‘oyalarini yangi avlod tafakkurini boyitishga xizmat qildirish, milliy matnshunoslik va adabiyotshunoslikni yanada taraqqiy ettirish va jahoniy miqyoslarga yuksaltirishdek sharafli hamda mas’uliyatli ishga munosib hissa qo‘shish olimni istiqbolda yangi va yuksak marralarga undaydi.

Biz, uning safdoshlari va hamkasblari, olimning qutlug‘ umriga baraka tilab, g‘ayratiga ko‘z tegmasligini, yangi-yangi tadqiqotlari bilan xalqimizni bahramand etishini Yaratgandan so‘rab qolamiz!

BIRINCHI SHO‘BA

TURKIY XALQLAR MUMTOZ ADABIYOTI: TAHLIL VA TALQIN

ATEBETÜ'L HAKĀYIK'TA EDİB AHMED YÜKNEKÎ'NİN GÖNÜL GÖZÜ, HAK VE HAKİKAT SÖZÜ

Kemal Yavuz Ataman,
Sosyal Siyaset Doktoru, Müstakil Akademisyen,
İstanbul Danişment Danışmanlık Ltd. (Türkiye)
e-mail: kemal.ataman59@gmail.com

Özet

Türklerin tarihini zenginleştiren, İslam Medeniyetini zirveye çıkaran müstesna alimler, arifler, sufiler, edipler vardır. Atebetü'l-Hakāyık'ın müellifi Edib Ahmed Yüknekî tarihi ve mümtaz şahsiyetler içerisinde hususi bir yere sahiptir. Edip Ahmed Yüknekî doğuştan âmâ (kör) olmasına rağmen ilme, irfana, bilgiye yaşadığı zamanın ve cemiyetin meselelerine derinliğine vakıf olan sufiyane bir şairdir. Eseri Atebetü'l-Hakāyık halka yönelik tasavvufi eserlerin öncüsüdür. Hak ve hakikate dair nasihatler ve sözleri, Yüknekî'de gönül gözünün açıklığını göstermektedir. Zahiren görmekten mahrum olan Edib Ahmed Yüknekî, feraseti ve basireti ile dünyayı, hayatı ve insanları tanımış, tahlil etmiş, onlara yol göstermiştir. Yüknekî'nin evrensel mesajları vahye ve akla dayanmaktadır. Atebetü'l-Hakāyık'ın yüzyıllarca geniş coğrafyalara yayılması, Türk memleketlerine ulaşması, topluluklara tesir etmesi Yüknekî'nin zahiri ilminin yanında, batını ve deruni bilgilere sahip olması ile ancak izah edilebilir. Bu tebliğde Türk-İslam Edebiyatı'nın en başta gelen eserlerinden Atebetü'l-Hakāyık'ın hak ve hakikat sözleri, ince hikmetleri Edip Ahmed Yüknekî'nin bazı hususiyetleri birlikte ele alınacaktır.

Anahtar Kelimeler: *Edib Ahmed Yüknekî, Atebetü'l-Hakāyık, Hak, Hakikat, Gönül Gözü, Tasavvuf.*

Abstract

There are exceptional scholars, sages, Sufis, and writers who have enriched the history of the Turks and elevated Islamic Civilization to its peak. The author of Atebetü'l-Hakāyık, Edib Ahmed Yüknekî, holds a special place among historical and distinguished figures. Despite being born blind, Edib Ahmed Yüknekî was a Sufi poet who had deep knowledge of the issues of his time and society, and he was deeply acquainted with knowledge, wisdom, and understanding. His work Atebetü'l-Hakāyık is a pioneering text in terms of public-facing Sufi literature. His advice and words on truth and reality demonstrate the clarity of the "eye of the heart" in Yüknekî. Although Edib Ahmed Yüknekî was deprived of physical sight, his insight and wisdom allowed him to understand, analyze, and guide the world, life, and humanity. The universal messages of Yüknekî are based on revelation and reason. The widespread influence of Atebetü'l-Hakāyık over centuries, its reach to Turkish lands, and its impact on various communities can only be explained by Yüknekî's possession of both external knowledge as well as esoteric and profound wisdom. In this paper, the words of truth and reality, and the subtle wisdom of Atebetü'l-Hakāyık, along with some characteristics of Edib Ahmed Yüknekî, will be discussed in the context of Turkish-Islamic literature.

Keywords: *Edib Ahmed Yüknekî, Atebetü'l-Hakāyık, Truth, Reality, Eye of the Heart, Sufism.*

Giriş

Türkler İslam'ı kabul ettikten sonra büyük alimler yetişmiş, kıymetli eserler yazılmıştır. Samaniler ve Karahanlılar devrinde İslamiyet'in itikadi ve ameli hükümleri ile Türklerin inanç, örf, adet, ananeleri ve bozkır kültürü edebi eserlerle telif edilmiş, bir muvazene ve ahenk sağlanmıştır. Cemiyetin imarı ve ıslahına, devletin nizamı ve inşasına yönelik yazılan eserler, Türklerin devlet ve medeniyet tesisinde en mühim unsurlardır. Medeniyetlerin kurucu değerleri ve eserleri vardır. Bu minvalde edebi hüviyeti haiz olan eserler adeta planlanmış, farklı alanlara, mevzulara ve kesimlere hitap etmiştir. *Divan-ı Hikmet, Divan-ı Lugati't Türk, Kutadgu Bilig* ve *Atebetü'l-Hakāyık* öncü eserlerdir. Ferd, cemiyet ve devlet tasavvurunun yer aldığı Yusuf Has Hacip tarafından yazılan *Kutadgu Bilig,* Karahanlılar'dan Osmanlılar'a Müslüman Türk Devlet felsefesi ve zihniyetinde ehemmiyetli rol icra etmiştir. Kutadgu Bilig'den sonra Edip Ahmed Yüknekî tarafından yazılan *Atebetü'l-Hakāyık* ise ayet ve hadislere, İslami bilgilere ve ahlaka yer veren tasavvufi özellikleri olan bir eserdir. Arapça ve Farsça bilen Yüknekî derin ve geniş dini malumata sahiptir. Yüknekî'nin *Atebetü'l-Hakāyık*'ı, Türklerin Müslüman olmasından sonra İslam-Türk Edebiyatının *Kutadgu Bilig*'den sonra en kıymetli ikinci edebi, halka yönelik sufiyane olarak ise birinci eseridir. Nasihatname tarzında yazılan, ikaz ve ihtarları ihtiva eden, dünya ve ahiret saadetinin yollarını gösteren eser ahlaki kaideler ve faziletler manzumesidir. Bir eserin tesiri insanlarda gördüğü alaka ve karşılıkla daha iyi anlaşılabilir. *Atebetü'l-Hakāyık* Müslüman Türklerin

kalplerine ve hayatına aksetmiş, gönül ve el kitabı olmuştur. Ahmed Edib Yüknekî'nin Kuran'a ve Sünnete, İslami ilimlere olan vukufiyeti, akli ilimlere hakimiyeti ve içtimai meseleleri müşahede ve muhakeme kabiliyeti onun üstün vasıflarını ortaya koymaktadır. Yüknekî'nin kulluk şuuruna, zühde, takvaya sahip, hak aşığı, madden ve fiziken âmâ (kör), ancak manen ve kalben gönül gözü açık iyi bir Müslüman olduğu anlaşılmaktadır. Eseri kıymetli ve tesirli kılan en önemli hususlar ise bunlar olsa gerekir.

Edip Ahmed b. Mahmud Yüknekî ve Vasıfları

Edip Ahmed Yüknekî'nın hayatı, yaşadığı devir ve çevresi hakkında menkıbeler tarzında eski kaynaklarda rivayetler dışında yeterli bilgi yoktur. Babasının adı Mahmud'dur. Semerkant yakınlarında, ancak yeri tam belli olmayan Yüknek'te doğduğu, Yüknek'in ise Türkistan'da Taşkent'in güneyinde Benâkent yakınında eski bir şehir olması, kesin olmamakla birlikte ihtimal dahilindedir [Banarlı, 2016: 241]. İyi bir dini tahsil gördüğü, Arapça, Farsça bildiği, tefsir, hadis ve fıkıh ilimlerine vakıf, fazilet ve takva sahibi olduğu anlaşılmaktadır [Gülensoy, 1995: 412]. Yaşadığı devirde en büyük edib, en meşhur alim olarak telakki edilmiş ve bundan dolayı *edipler edibi, fâzıllar başı* olarak ün salmıştır. Dinin rükünlerine bağlı, ahlaki terbiyeyi gaye edinmiş, Türk kültürüne ve İslami bilgilere hakim olduğu anlaşılmaktadır [Karaalioğlu, 1980: 131-142].

Kendisinden şöyle bahsetmektedir:

"Edib Ahmed atım, edeb pend sözüm
Sözüm munda kalur, barur bu özüm
Kelür küz, keçer yaz, barur bu umür,
Tüketür umurni bu yazım, küzüm"

(Adım Edib Ahmed, sözüm edep ve nasihattir. / Vücudum gider, fakat sözüm burada kalır. / Güz gelir, bahar, geçer, ömür gider. / Bu bahar ve yazlar ömrü tüketir.)

Aya minde kidin keligli munı
Okusıng duada unutma mini
Sanga hedye kıldım bu tangsuk sözüm
Manga hedye kılsu dua tip, sini

(Ey benden sonra gelen, bunu okursan, ben duada unutma. Nadide sözlerimi -sen de bana dua edersin diye- hediye kıldım)

Açık, anlaşılır, tesirli uslubuyla, Türkçe ve darb-ı meseller halinde yazdığı beyitleri, vaaz ve nasihat tarzındadır. Eserin, XVI. asra kadar Maveraünnehir, Horasan ve Harezm coğrafyasında nüfuzunu ve taklit edildiğini görmek mümkündür [Coşan, 2011: 30].

Ali Şir Nevai'nin (1441-1501), *Nesâimü'l Mahabbe* adlı eserinde Edip Ahmed'e dair verilen bilgilere göre, *"Edip Ahmed aslen Türk'müş ve Türkler arasında ona dair bir çok menkıbeler anlatılırmış. Mesela; Edip Ahmed doğuştan körmüş, fakat çok zeki, dindar ve uyanık bir insanmış. Zahir gözü kapalıymış fakat gönül gözü ile çok parlak görürmüş."* [Başkan, 2013: 99].

Yüknekî'nin eserine ilmi müktesebatı ve irfani kemalatı aksetmiştir. Cemiyeti ve hadiseleri müşahedesi ve tahlilleri, hikmetli tespit, tavsiye ve tenkitleri dikkati çekmektedir. Yaşadığı cemiyeti ve insanları iyi tanımakta, içtimai meseleleri, tarihi, örf, adet ve ananeleri bilmektedir. Yüknekî halka kendi dili ile hitap etmiş, dini ve akli, teolojik ve rasyonel tahlilleri kullanmıştır. Yüknekî'nin halk tarafından sevilmesinin, nasihatlarının benimsenmesinin sebebi halka kendi ile dili hitap etmesi, insanların bildikleri kelime ve kavramları kullanması, yaşadığı çevreyi çok iyi tanıması ile ifade edilebilir [Başkan, 2013: 100]. Dini esasları herkesin anlayacağı sade bir şekilde sunmuştur. Eserin, geniş bir coğrafyada asırlarca tesirli olmasında kullandığı dilin ve uslubun önemi büyüktür. Eserin yazıldığı tahmin edilen devirlerde herkesin kolaylıkla anlayabileceği ve hafızasında tutabileceği tarzda açık bir dil ve manzum olarak yazılması Yüknekî'nin muvaffakiyetini göstermektedir [Arat, 1992:

8]. Yüknekî imanı, ihlası, fazileti, dervişliği, zahidliği, marifetullah bilgisi, sufiyane tavrı ile hak ve hakikati göstermiştir. İnsanlar tarih boyunca hak ve hakikati aramışlardır. Hak ve hakikate bilgi, edeb ve ahlak ile ulaşılır [Çevikbaş, 2021: 25].

Yaratan'a ve Yaratılanlanlara karşı mesuliyet hissi taşıması, kullar için dertli ve endişeli olması, dünyanın faniliğini hatırlatması, insanların dünya ve ahiret saadetine ulaşmalarını arzu etmesi, sözlerine kulak verilmesini, gönüllere inmesini ve tesirini sağlamıştır. İnsanların hal ve huylarını tahlil etmiş, güzel ahlakın ve faziletlerin kazanılmasının önemine sık sık işaret etmiştir. Yüknekî'nin kendine has bir ifade ve irşad tarzı eseri kıymetli hale getirmiştir. O'nun zahiren âmâ olmasına rağmen, kalben uyanık olduğu aşikardır.

Edib Ahmed ve Tasavvuf

Yüknekî'nin beyitlerinde tasavvufi bir uslub ve nefaset vardır. Zahid, derviş, güzel ahlak sahibi, halk tarafından sevilen, hürmet edilen bir zat olduğu bilinmektedir. Tasavvuf terbiyesi görmüş, kamil bir insan, samimi bir Müslüman, Hak ve Peygamber aşığıdır. Kuran ve Sünnet çizgisinde tavsiye ve nasihatlerde bulunmuş, hali ile numune olmuş Yüknekî'nin bir mürşid ve bir veli gibi hareket ettiği ve çevresinin de onu böyle kabul ettiği tezahür etmektedir [Karahan, 1998: 38-40]. Az ve öz konuşmaya, istiğfar ve tevbeye, günahlardan arınmaya, ahlak-ı haseneye, fakirlere, gariplere yardım etmeye, insanlara hizmet etmeye, hırs, kibir, kıskançlık gibi kötü ahlaklardan uzak durmaya işaret etmesi tasavvufi bir temele sahip olduğunu göstermektedir [Çatak, 2012: 1184]. Yüknekî, bilgi sahibi ve bilgili, iyi ve doğru insan olmayı, çok konuşmamayı, dili korumayı, kalp kırmamayı tavsiye ve telkin etmektedir [Başkan, 2013: 91]. Yüknekî'nin nasihatlerinde yer alan bilgi Marifetullah", "Allah'ı bilme, tanıma" bilgisidir. "Tanrı bilgi ile bilinir; bilgisizlikten hayır gören var mı? Bilgisizlikten bir o kadar halk kendi eli ile put yapıp: "Rabbim budur" dedi." [Arat, 1992: 87].

Hz. Peygamber'den yaptığı nakiller dikkat çekicidir: "Şimdi Peygamberin fazlından birkaç söz dinle; Akıl ve dikkatini bileyip, sözümü anlamağa çalış (21-22). O yaradılanların (en) seçkini ve insanların (en) kutlusudur; Bil ki, yaradılanlar arasında onun eşi ve dengi yoktur (23-24). İnsanı dil ile kızdırma; bil ki, ok yarası kapanır, fakat dilin açtığı yara kapanmaz (139-140). Dilini sıkı tut, dil korunursa, kendin korunmuş olursun, yüzünü ateşten kurtar (160). Sırrını iyi sakla, kimse bilmesin. Gören ve duyan sana gülmesin (169-172). Bu dünya arkasından koşmak niçin; hasis maldan ötürü (koşar), sen kendini tut (181-182) [Arat, 1992, 74; Özcan, 2020: 333].

Az konuşmak, kötü konuşmamak mutasavvıfların üzerinde en çok durdukları davranışlar içerisindedir: Nasihate devam etmektedir: "Dinle, bilgili ne diyor: Edeplerin başı, "dili gözetmektir" diyor. Dilini muhafaza altında tut, dişin kırılmasın; eğer dilin muhâfaza altından çık(ar)sa, dişini kırar" [Arat, 1992: 87]. Yüknekî'ye göre insanın dünyadan el etek çekmemesi, çalışması, tembellikten uzak durması, kazandıklarını uygun şekilde infak ve sarf etmesi lazımdır. Ayrıca mal, mülk, para ve makamdan dolayı kibre kapılmaması, mütevazi olması önemlidir. Zira mütevazi olanı Allah yükseltir [Başkan, 2013: 108]. Yüknekî'nin ikaz ve ihtarları, tavsiye ve nasihatleri, ahlak anlayışı, bilgiyi ve marifetullahı teşvik etmesi, akla önem vermesi, zühd ve takva sahibi olması tasavvuf dairesi içerisinde olduğunu göstermektedir.

Yüknekî'nin ilmi ve irfanı arasında bir muvazene vardır. Ahlak, fazilet, bilgi ve akıl üzerine tesis ettiği eserinde insanları dünya ve ahiret saadetine sevk edecek nasihatlerini hak ve hakikate yönelik sözleriyle dile getirmiştir. Bunu yaparken bir taraftan Türklerin tarihi ve mazisini, anane ve kültürünü, diğer taraftan İslam'ın kaidelerini ve ahlakını dikkate alan dengeyi ustalıkla takdim etmektedir. Bu yüzden olsa gerektir ki, eseri Türk memleketlerine yayılmış, tesiri asırlarca devam etmiştir. Türklerin kültürüne ve İslam akidesine vukufiyeti nasihatlerinde vardır:

Misal vermek gerekirse aşağıda yer alan nasihatleriyle ananevi kültüre işaret etmektedir:

Eşitgil biliglig negü tip ayur

İşit, bilgili neler deyip söyler,

Edebler başı til küdezmek tiyür
Edebin başı dili gözetmek der.
Tiling bekte tutgıl tişing sınmasun
Dilini sıkı tut, dişin kırılmasın.
Kah çıksa bektin tişingni sıyur
Eğer çıksa dilin, dişini kırar
Aşağıdaki beyitlerde ise İslam akidesini dile getirmektedir:
Yarattı ol ugan tününg kündüzüng
Yarattı kadir Tanrı geceni, gündüzünü,
Udup biri birke yorır öng songa
Uyup birbirine yürür önü, sonu.

Atebetü'l-Hakāyık bir taraftan ata sözü, nasihatname, diğer taraftan dini-idelojik kaynak, ahlaki-didaktik eser niteliğindedir [Vakıfgızı, 2004: 402].

Neticede Yüknekî'nin beyitleri, hak ve hakikat sözleri, tavsiyeleri ve kendi hayatı dikkate alındığında tasavvufla çok yakın ve içiçe, sufi şair olduğu açıklıkla görülmektedir.

Atebetü'l-Hakāyık ve Hususiyetleri

Türkler tarihte cesaret, yüksek zekâ, temizlik, dürüstlük, maddi ve manevi güzelliklere sahip, teşkilatçı bir millet olarak tanınmışlar ve bilinmişlerdir [Erdem, 2016, 203]. Türkler içtimai hayat bakımından diğer cemiyetlere tesir etmişlerdir. Ahlaki değerlerinin temelinde bozkır kültürü yer almaktadır. Türkler hareketli hayatları, göçebelikleri, bozkır kültürü dairesinde geniş ve zengin dünya görüşü kazanmışlar, içtimai ve ahlaki seviyelerini yükseltmişler, tarihte ilk sistemli içtimai organizasyonun öncüsü konumuna gelmişlerdir [Kafesoğlu, 1997, 223]. Tarih sahnesinde yer alan milletler bazı hususiyetleriyle maruf ve meşhurdurlar. Eski Yunanlıların sanat, Romalıların hukuk, Yahudiler ve Arapların din, Fransızların edebiyat, İngilizlerin iktisat, Almanların felsefe ve Türklerin de ahlak noktasında zirveye ulaşmış oldukları düşünce tarihi açısından kabul görmüş bir gerçekliktir [Gökalp, 2019: 147]. İslamiyet'in kabulünden sonra ise Türkler ahlaki ve içtimai olarak zirveye çıkmışlardır.

İslamiyet'in kabulünden sonra cemiyetin manevi mimarları olan sufiler; ferd, cemiyet, devlet, medeniyet ve insaniyet için rehber ve kandil olmuşlardır. Siyasi, içtimai ve ahlaki sahalarda yol haritaları çizmişler, sözleriyle, eserleriyle, beyitleriyle, şiirleriyle ve halleriyle cemiyetlere ilham vermişlerdir. *Atebetü'l-Hakāyık*, Edip Ahmed Yüknekî'nin yazdığı, Türk topluluklarına yön veren, rehberlik eden en önemli eserlerden birisidir. Nerede ve ne zaman yazıldığı tam olarak bilinmemektedir (Gülensoy, 1991: 51). *Atebetü'l-Hakāyık*'ın İslam sonrası Türk Edebiyatı'nda ayet ve hadislerin yer aldığı ilk eser olduğu söylenebilir. Ayrıca İslam sonrası Türklerin dini hayatına dair tezahürlere *Kutadgu Bilig*'den sonra bu eserde rastlamak mümkündür. Edib Ahmed Yüknekî tarafından yazılan *Atebetü'l-Hakāyık*, *Kutadgu Bilig*'den sonra İslam Türk Edebiyatında ikinci önemli kaynak, geçiş dönemi olan Karahanlılar devrinin ahlak anlayışını yansıtan iki eserden birisidir [Çalık, 2023: 887]. Kaşgar dili, Karahanlı Türkçesi ile manzum olarak yazılmıştır [Caferoğlu, 1947: 21]. İslam-Türk Edebiyat tarihinde Türkçe yazılan *Atebetü'l-Hakāyık*'a *Hibetü'l-Hakāyık, Aybetü'l-Hakāyık* ve *Gaybetül-Hakāyık* isimleri de verilmiştir. İslam'ın itikadi ve ahlaki esasları manzum şekilde bulunmaktadır. Eserin Kutadgu Bilig'den elli sene sonra yazıldığı tahmin edilmektedir [Çatak, 2012: 1177-1179]. Eserde kullanılan Arapça ve Farsça kelimeler halkın dini konuları anlaması ve kavramasına mani teşkil etmeyecek tarzda yer almıştır. Türklerin alışkan olduğu dörtlükler halinde yazılan asıl metinde Türkçenin incelikleri görülmektedir. Eserin bariz özelliği didaktik/öğretici olmasıdır, mevzu ve şekil bakımından Kutadgu Bilig'e benzemektedir. Uslub ve incelik bakımından Kutadgu Bilig'in seviyesi ve kalitesi daha yüksektir. Yüknekî'nin, vaaz ve nasihat şeklinde darb-ı meseller halinde yazdığı

dörtlükleri bu usluba alışkın olan Türk ülkelerine yayılmıştır. Halka yönelik tasavvufi eserlerin öncüsü durumunda olan eser, Maveraünnehir, Harezm, Horasan coğrafyasında XVI. asra kadar Türkler üzerinde etkisini sürdürmüş, taklit edilmiştir [Coşan, 2011: 29-30].

Atebetü'l-Hakāyık, Allah'a hamd ve medh ü sena, Hazreti Peygamber'e salat, selam ve medh ü sena, Hulefa-i Raşidine selam ile başlamaktadır. Eserin ithaf edildiği Karahanlı beylerinden Muhammed Dâd İspehsalar'a övgüden sonra kitabın yazılış sebebinden bahsedilmektedir [Çevikbaş, 2021: 25]. *Atebetü'l-Hakāyık* ahlak üzerine yazılan "Ta'limi bir eser", "Nasihatname" olarak kabul edilmiştir. İlmin faydaları, cehaletin zararları, lisanın korunması, edep, dünyanın gidişatı, cömertlik, cimrilik, ahlakın keremi, çeşitli nasihâtler, tevbeden bahsedilmektedir [Köprülü 1980: 176]. Yüknekî dünyanın bir kervansaray gibi geçiciliğine temas etmiş, dünyanın cevr ve zulümle yaşandığını, her şeyin fani olduğunu hatırlatmaktadır [Ayan, 2021: 65].

Yaratılışın hakikatine ve varlık idrakine, dünya hayatına dikkat çekilen eserde şu beyitler dikkat çekmektedir:

Yok erdim yarattıng yana yok kılıp

İkinç bar kılur sen mukir men munga [Arat, 1992: 41].

"Yok idim, yarattın; yine yok edip tekrar var edersin; bunu ikrar ederim" [Yüknekî, 2019: 69] diyerek eserine başlayan Edip Ahmed, hayat karşısında kulun yerini yokluk ve varlık üzerinde ifade etmeye çalışmıştır [Özçelik, 2019: 146].

Eserde, Kuran ve Hadislere yer verilmesi, nasihatname tarzında yazılması, ikaz ve ihtarlara yer verilmesi eserin dini bir hüviyet taşıması kendisine has hususiyetlerini göstermektedir. Eserde cemiyete yönelik eleştiriler ve nasihatler ikili, karşıtlık/tezat tarzında yer almıştır. Ahlaki-manevi kaideler, dini-irfani fikirler zamanı, zemini ve mekânı dikkate alarak, kişilerin ve cemiyetin haline göre ifade edilmiştir [Vakıfgızı, 2004: 402]. Yüknekî nasihat etmeyi gaye edinmiş, irşadın ehemmiyeti ve tesiri açısından konular halkın anlayacağı şekilde sade ve basit bir dil kullanılarak işlenmiştir [Gülensoy, 1991: 51]. Adalet, doğruluk, dürüstlük, sadakat, ahde vefa, fazilet ve ahlaki değerleri ele alan eser sadece İslami değil, evrensel mesajları ihtiva etmektedir.

Atebetü'l-Hakāyık, devrin içtimai hayatını çok iyi bir şekilde tasvir etmektedir. Istırap, elem, hüzün, isyan, ümit, tevekkül gibi bir takım insani hisler eserde canlılığını göstermekte, kitaba aksetmektedir. Hayatın içinde, herkes tarafından az çok bilinen ve yaşanan hakikatler kitabın tesiri kuvvetini artırmaktadır. İslamın itikadı, istikameti ve zihniyet kitapta görülememektedir. Bu bakımdan Ahmed Caferoğlu'na göre *Atebetü'l-Hakāyık*: "Konu, yapı, gaye ve en önemlisi şive bakımından tamamıyla *Kutadgu Bilig*, Sofiyâne karakteri ile de Ahmed Yesevî etkisi altında kalan "*Atebetü'l-Hakāyık*" devri için geniş bir yayılım sahası bulmuş, yerine göre, başka başka adlar almıştır" [Caferoğlu, 974: 75].

Eser, Kuran ve Hadislerden ilham alarak hayatın manası, hilkatin hikmeti, kulun vazifeleri hakkında yazılmış nasihat ve edeb kitabıdır. Zaman mefhumu ve varoluşun hakikati, dünyanın faniliği ve ahiretin bakiliği *Atebetü'l Hakāyık*'ta açık ve anlaşılır olarak yer almaktadır. Eserde insanların dünya hayatının geçici nimetlerine, menfaatlerine ve zevklerine karşı meyletmeleri, ahireti gözardı etmeleri üzerinde çokça durulmakta ve kişiler eleştirilmektedir. Esere göre, dünya çekicidir, aldatıcı bir kadına, iki yüzlü sahtekar bir insana benzetilmektedir:

"Nikab kötrür ajun birer yüz açar

Yazar kol kuçar teg yana terk kaçar

Yayınki bulıt teg ya tüş teg hali

Direngsiz keçer baht ya kuş teg uçar" [Arat,1992: 57-8].

(Dünya bazen peçesini kaldırır ve yüzünü açar. Kucaklayacak gibi kollarını açar, fakat hemen kaçar. Baht yaz bulutu gibidir veya rüzgâr gibi boştur. Durmadan geçer veya kuş gibi uçar.)

"Ajun külçirer baz alın çatar

Bir elgin tutup şehd birin zehr katar
Asel tatrup ilkin tamak tatıtıp
Kidinrek kadahka sunup zehr katar" [Arat, 1992: 56].

(Dünya gülümser, fakat yine alın buruşturur ve kaş çatar. Bir elinde bal tutup, birinde zehir saklar. Önce baldan tattırarak, ağzı tatlandırır. Biraz sonra kadehe zehir katarak sunar.)

Yüknekî, dünyayı tamamen reddetmez. Ancak, dünyanın gösterişine insanın kendini kaptırmasının tehlikelerine işaret eder. Dünya zevklerinin meşakkatlerinden, dünyanın vefasızlığından bahseder. Sufilerin en çok üzerinde durduğu iyi ve kötü ahlaklara sık sık işaret eder. Eserde, Tanrı'nın varlığına, ahlak-i hasenenin kazanılmasına, kötü huylardan uzaklaşılmasına, günahların terk edilmesine, hırsın ve cimriliğin kötülüğüne, cömertlik ve kanaatin önemine temas edilmektedir.

Eserde temel toplumsal değerler, faziletler sayılmıştır. Bilgili, mütevazi, cömert, yardımsever, halim, selim, vefakar, fazıl, kamil bir insan tasavvuru vardır. Bu müsbet hususiyetler zıdlarıyla anılmıştır. Samimiyetsiz, adaletsiz, vefasız, haksız davranışlar eleştirilmiştir. İkili, zıd/karşıt ifade tekniğiyle ahlaki kaideler ve davranışlar anlatılmıştır. Hırs ve kanaat, cimrilik ve cömertlik birlikte anılmaktadır. Neticede insanların psikolojik zaafları ile tezahür eden, yozlaşma ve ahlaki zaafiyet cemiyetlerin tarihi bir kaderi olarak zikredilmiştir. Bu durumda insanların müsbet gayelerinden uzaklaşacağı, dünya hayatının girdabına kapılacakları belirtilmiştir. Eserde nasihat ile isyan, tasvip ile tenkit birlikte ele alınmış, sözlerin insanlara tesir etmesine çalışılmıştır [Tokur, 2019: 174].

Atebetü'l Hakāyık ideal bir insan profili çizmektedir. Akıl, bilgi, ilim, irfan, güzel ahlak sahibi, dini bilen ve yaşayan örnek insanların yaşadığı bir cemiyet tasavvur edilmiştir. Esere göre akıl meşale mahiyetindedir; bilgi ise madendir, hazinedir [Özcan, 2020: 334]. Eser içinde bulunduğu toplumun dini hayatına yönelik ciddi bir ahlaki eleştiri de getirmekte, bu eleştiriden toplumun hemen hemen bütün kesimleri paylarına düşeni almaktadır: "İbadet riya, abid mecaz oldu. Meyhane mahallesi bayındır, mescit harap oldu. Bilgin uygulamayı, zahit takvayı bıraktı. Arif dans icat edip hoş sema ediyor. Haklı olana, hakkını kullanma yolları tıkanmıştır. Haksız olana ise bütün yollar geniştir. Halk zengin olan kimseye yönelip nefislerini ona kul yapıyor, ama, parası olmayanı görünce başlarını çevirip gözlerini yumarak geçip gidiyorlar" [Yüknekî, 2019: 101-102].

İnsan olma sürecine yönelik tavsiyeleri ile samimiyetsiz, gayri ciddi bir dini yaşantının ahlaki problemleri de beraberinde getireceğine yönelik ikazlar eserin ana temasını oluşturur. Şair, ideal, örnek insan ve ahlaki yozlaşma ikileminde kıvranan bir yaşamın anlamını aramakta ve nihayetinde bu anlamı dinde bulmaktadır. *Atebetü'l-Hakāyık,* o dönemin içtimai hayatını çok canlı bir şekilde tasvir etmektedir. Yapılan nasihatlerin ve bu nasihatler yapılırken duyulan acı, isyan, umut, umutsuzluk, kabullenme gibi bir takım duyguların, eserdeki kelimelerin ruhuna yansıdığı görülebilir. Edip Ahmed Yüknekî'ye göre ahlaki anlayışın temelinde faziletli olmak gerekir. Bunun için ise bilginin ve aklın önemli bir yeri vardır. Edip Ahmed Yüknekî için dini/teolojik temele dayanan ahlak anlayışı ile akli/rasyonel temele bina edilen ahlak anlayışı benzerlik gösterebilir. İlahi emirler ahlakın esas unsurudur. *Atebetü'l-Hakāyık*'ta bilgi ve akıl, Tanrı'nın emirlerinin fehm edilmesi ve idraki açısından ehemmiyet arz etmektedir. [Çalık, 2023: 883-891].

Edip Ahmed Yüknekî mutluluk ve bilgi arasındaki ilişkiyi zorunlu gören düşünürlerden birisidir. Sözlerinin temelinde bilginin yatmakta olduğunu belirtmiştir. O'na göre, eğer maksat insanların mutluluğu ve ahlak da buna hizmet eden bir değerse, bilgi asli bir şarttır. Çünkü bilgiye dayanan söz kutsi bir değer taşımaktadır. Bu değerin en önemli yönü Tanrı'ya sadece bilgi aracılığıyla ulaşabilmektir [Yüknekî, 2006: 87]. Allah'ı bilme bilgisi ise Marifetullah'tır. Bilgi ve akıl ile ulaşabilen saadeti insanı Tanrı'ya kavuşturmaktadır. Edip Ahmed için Tanrı her zaman çok şükredilen ve kendisinden bağışlanma dilenendir [Yüknekî, 2006: 82]. İnsanın iki cihan saadetine vasıl olmasında Tanrı ve bilgi arasındaki rabıta, sadece dünya hayatı için değil, aynı zamanda ahiret içindir. Bilgi, insanın sözünü ne zaman söyleyeceğini bilmesi ve yapacağı işi hesaplamasının, hikmetin ön şartıdır [Tokur, 2019: 178].

Edip Ahmed'in okuyucuya seslendiği bölümde asıl amacının kişiyi ahlaki açıdan en iyi, en yüce olan fazilete ulaştırmak olduğunu görmekteyiz. İnsanın amacı saadete ulaşmak olduğundan bunun yolu da fazıl bir kişi olmaktan geçmektedir.

Atebetü'l Hakāyık'ta bilginin önemine binaen Kuran'dan "Sakın ha cahillerden olma" (En'âm, 5/35), Hiç bilenle bilmeyen bir olur mu?" (Zümer, 9) emirleri, Hadis-i Şeriflerden: "Ya öğreten ya öğrenen ya dinleyen ya da ilmi seven ol. Fakat sakın beşincisi olma, helâk olursun", "Âlimin ölümü, âlemin ölümüdür", "Bilgi'yi, Çin'de bile olsa arayınız" ikazları ve tavsiyeleri aktarılmıştır [İnce, 2019: 248].

Türk-İslam Edebiyatının gelişmesinde önemli bir yeri olan *Atebetü'l Hakāyık* halka yönelik milli ve dini değerler manzumesidir [Vakıfgızı, 2024: 405]. *Atebetü'l Hakāyık*, sade bir dilin, basit bir anlatımın kullanıldığı, Türkçe yazılan, halka yönelik ilk sufi eser olarak, hak ve hakikatı, tecrübeyi, müşahedeyi sarih bir şekilde ortaya koymaktadır. Kitap kişinin, cemiyetin, içtimai meselelerin ve hastalıkların tesbiti, tasviri, tahlili, tenkiti ve teşhis ve tedavisi bakımından ehemmiyetli, samimiyeti itibariyle ise tesirlidir. Türk İslam medeniyetnin kurucu değerleri tasavvuf kültürü üzerine bina edilmiştir. Atebetü'l Hakāyık bu vasıfları taşıyan İslam Medeniyetinin gelişmesinde Türklerini hizmetini sağlayan müstesna bir eser hüviyetindedir [Çevikbaş, 2021: 25].

Sonuç

Türklerin İslamiyet'i kabul etmelerinden sonra yazılan bazı eserler cemiyetin ve devletlerin imarında ve nizamında önemli fonsiyonlar icra etmişler, kurucu metinler olmuşlardır. *Divan-ı Hikmet, Divan-ı Lugat-ı Türk, Kutadgu Bilig* ve *Atebetü'l Hakāyık* en önemli kaynaklardır. Bu eserleri ortaya koyanlar alim, arif, edip, sufi ve muttaki kişilerdir. İlmi ve irfani birikimleri, ahlaki ve ameli faziletleri beyitlerine aksetmiş, eserlerinin tesiri çok geniş memleketlere, insanlara ulaşmış, cemiyetleri ve gönülleri imar ve ıslah etmiştir. Türk-İslam Edebiyatının ikinci kaynağı sayılan *Atebetü'l Hakāyık*, Edib Ahmed Yüknekî tarafından Türkçe, sade bir üslup ve halkın dili ile yazılmış, Türk ülkelerinde uzun bir zaman çok etkili olmuştur. Yüknekî'nin, kişileri ve cemiyeti çok iyi tanıdığı, içtimai hayatı ve hadiseleri çok iyi değerlendirdiği vaaz ve nasihatlerinin muhtevasından, telkin, teşvik ve tavsiyelerinden tespit edilebilir. Ayrıca müşahede, murakabe ve muhakeme kabiliyeti, ilmi derinliği ve irfani zenginliği beyitlerinde görülebilir. Yüknekî'nin âmâ olmasına rağmen asıl önemli vasfının ise içtimai feraseti ve basireti olduğu bilinebilir. O'nun alim, amil, muhlis, muhsin ve mürşid vasıflara haiz, samimi bir Müslüman, kamil bir mümin olduğu ve çevresinde sevildiği söylenilebilir. Cismen zayıf ve göz gibi bir azadan mahrum olan Yüknekî'nin hak ve hakikate dair tesirli sözleri ise gönül gözünün açıklığı ile ifade edilebilir.

Kaynakça

1. Arat, R. R. (1992). *Atebetü'l-Hakāyık*. Türk Dil Kurumu Yayınları.
2. Arat, R. R. (Ed.). (2006). *Edib Ahmed b. Mahmud Yüknekî: Atebetü'l-Hakāyık*. Türk Dil Kurumu Yayınları.
3. Ayan, E. (2021). *12. yüzyılda ahlak kitabı Atebetü'l-Hakāyık*. Kültür dünyamızın mimarları III. Muğla Sıtkı Koçman Üniversitesi Yayınları.
4. Banarlı, N. S. (2016). *Resimli Türk edebiyatı tarihi*. Millî Eğitim Bakanlığı Yayınları.
5. Başkan, N. (2013). *Atebetü'l-Hakāyık bağlamında ahlak kavramı ve tıp etiği* (Doktora tezi). Osman Gazi Üniversitesi, Sağlık Bilimleri Enstitüsü.
6. Caferoğlu, A. (1947). *Türk dili tarihi notları*. Bürhaneddin Matbaası.
7. Caferoğlu, A. (1984). *Türk dili tarihi* (Cilt I–II, 3. bs.). Enderun Kitabevi.
8. Çalık, E. S. (2023). Yusuf Has Hacib ve Edip Ahmed Yüknekî'nin ahlak anlayışlarında rasyonalist temeller. *Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim (TEKE) Dergisi*, 12(3), 881–893. https://doi.org/10.7884/teke.1334089
9. Çatak, A. (2012). Atebetü'l-Hakāyık'ta dünya algısı. *Turkish Studies / Türkoloji Araştırmaları*, 7(4), 1177–1202.
10. Çevikbaş, S. (2021). *Medeniyet kurucu değerler: Bilgi ve ahlâk (Atebetü'l-Hakāyık okumasına giriş)*. Kültür dünyamızın mimarları III. Muğla Sıtkı Koçman Üniversitesi Yayınları.
11. Erdem, H. (2016). Türk ahlakı. *Yeni Türkiye Dergisi*, 91, 203–221.
12. Gökalp, Z. (2019). *Türkçülüğün esasları*. Anadolu Üniversitesi Yayınları.

13. Gülensoy, T. (1994). Edib Ahmed b. Mahmud Yüknekî. In *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi* (Cilt 10, s. 421). TDV Yayınları.
14. Gülensoy, T. (1995). Atebetü'l-Hakāyık. In *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi* (Cilt 4, ss. 50–51). TDV Yayınları.
15. İnce, Ö. (2019). Atebetü'l-Hakāyık'ta yer alan bilgi ve konuşma âdâbı üzerine bir değerlendirme. *Adıyaman Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi*, 32, 240–268. https://doi.org/10.14520/adyusbd.586944
16. Kafesoğlu, İ. (1997). *Türk millî kültürü*. Ötüken Neşriyat.
17. Karahan, A. (1998). *Türk kültürü ve edebiyatı*. Millî Eğitim Bakanlığı Yayınları.
18. Karaalioğlu, S. K. (1980). *Türk edebiyatı tarihi I: Başlangıçtan Tanzimat'a*. İnkılâp Kitabevi.
19. Köprülü, F. (1980). *Türk edebiyatı tarihi*. Ötüken Yayınları.
20. Özcan, M. F. (2020). Atebetü'l-Hakāyık'ta eğitim, bilim ve akıl. *Ağrı İbrahim Çeçen Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi*, 6(2), 329–338. https://doi.org/10.31463/aicusbed.786743
21. Özçelik, K. (2019). Atebetü'l-Hakāyık ve Risâletü'n-Nushiyye'de ikili–karşıt anlatım. In A. Yıldız & Y. Yıldırım (Eds.), *Yunusun dili*. Rumi Matbaa.
22. Tokur, B. (2019). Ahlaki çözülme, ideal insan ve hayatın anlamı bağlamında Atebetü'l-Hakāyık. *Bilimname*, 40, 173–194.
23. Tulum, A. M. (1966). Reşit Rahmeti Arat ve Edib Ahmed b. Mahmud Yüknekî'nin *Atebetü'l-Hakāyık*'ı. *Türk Kültürü*, 37–48, 1146–1148.
24. Vagıfkızı, G. (2014). Etno-kültüroloji değerler kodeksi olarak Edip Ahmed Yüknekî'nin *Atebetü'l-Hakāyık* eseri. In *Türk Dünyası Bilgeler Zirvesi: Gönül Sultanları Buluşması Bildirileri* (Cilt III, ss. 399–405). Türk Dünyası Kültür Başkenti Ajansı Yayınları.
25. Yüknekî, E. A. (1992). *Atebetü'l-Hakāyık* (R.R. Arat, Çev.; 2. bs.). Türk Tarih Kurumu Basımevi.

NURBOY JABBOROV TADQIQOTLARINING TURKIY DUNYO ADABIYOTSHUNOSLIGI RIVOJIDAGI O‘RNI

Almaz Ulviy Binnatova,
Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi
Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti
Ozarbayjon-Turkmaniston-O‘zbekiston
adabiy aloqalari bo‘limi mudiri,
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Maqolada filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov ilmiy faoliyati qo‘lyozma manbalar va matnshunoslik muammolari, navoiyshunoslik va mumtoz adabiyotning nazariy masalalari, turkologiya yo‘nalishidagi tadqiqotlar, o‘zbek jadid adabiyoti hamda zamonaviy o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon tadqiqi tarzidagi tasnif asosida tahlilga tortilgan. Olim ilmiy-nazariy asarlarining turkiy xalqlar, xususan, ozarbayjon-o‘zbek adabiy aloqalari rivojida tutgan o‘rni xolis baholanadi.

Kalit so‘zlar: *qo‘lyozma manba, matn, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, mumtoz poetika, navoiyshunoslik, jadid adabiyoti, adabiy jarayon.*

Abstract

The article analyzes the scholarly activity of Doctor of Philological Sciences, Professor Nurboy Jabborov on the basis of a systematic classification encompassing manuscript sources and issues of textual criticism, Navoi studies and theoretical problems of classical literature, research in the field of Turkology, studies of Uzbek Jadid literature, as well as modern Uzbek literature and the contemporary literary process. The role and significance of the scholar's theoretical works in the development of literary relations among Turkic peoples, particularly Azerbaijani–Uzbek literary interactions, are objectively assessed.

Keywords: *manuscript source, text, textual criticism, literary studies, classical poetics, Navoi studies, Jadid literature, literary process.*

Bugungi kunda turkiy dunyoning birligi va hamkorligi har qachongidan ham mustahkamlanmoqda. Ana shu birdamlik fonida O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar chinakam yuksalish bosqichiga kirayotgani ham ayni haqiqatdir. Ikki qardosh xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy aloqalari rivojining bu darajadagi takomili, birinchi navbatda, ikki davlat rahbarlari hurmatli Shavkat Mirziyoyev va muhtaram Ilhom Aliyevning yaqin do‘st va hamkor ekani natijasidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va taklifiga ko‘ra, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida to‘laqonli a’zo sifatida ishtirok etayotgani o‘zaro do‘stlikning amaliy natijasi sifatida qimmatlidir. Ikki liderning do‘stligi davlatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi birdamlikni yangi taraqqiyot pog‘onasiga yuksaltirdi. Biz – adabiyot ahli bundan ilhomlanib, qardosh va jondosh xalqlarimiz adabiy aloqalarini yanada takomillashtirishda yangi yutuqlarga erishmoqdamiz. Bu jarayonda o‘zbek adabiyotshunos va matnshunos olimi, ozarbayjon adabiyotining haqiqiy do‘sti, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborning hissasi beqiyosdir.

Olim Ozarbayjon adabiy muhiti bilan professional va samimiy adabiy-ilmiy munosabatlarda bo‘lib keladi. Milliy fanlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti va bu ilmiy dargohning “Ozarbayjon-Turkmaniston-O‘zbekiston adabiy aloqalari” bo‘limi bilan mustahkam ilmiy aloqa o‘rnatgan. Institutimiz huzurida tashkil etilgan “Alisher Navoiy adabiyotshunoslik markazi”ning ochilish marosimida ham ishtirok etib, nutq so‘zlagan. Institut rahbariyati bilan birgalikda Bokuda Alisher Navoiyning ulug‘vor haykali, Nizomiy Ganjaviy va Muhammad Fuzuliy haykallari poyiga gulchambarlar qo‘yishda ishtirok etgan.

2021-yilda ulug‘ Hirot shahrida Alisher Navoiy, 2022-yilda esa qadimiy Ganja shahrida Nizomiy Ganjaviy maqbaralarini ziyorat qilish chog‘ida ham birga safar qilganmiz. Olim bu ikki buyuk mutafakkir asarlarining haqiqiy bilimdoni.

2020-yilda nashr ettirgan “Alisher Navoiyning asri va nasri (ilmiy-filologik va diniy-tasavvufiy asarlari)” nomli kitobimning o‘sha yili xalqaro ilmiy konferensiya darajasida tashkil etilgan taqdimotida professor Nurboy Jabbor keng qamrovli, ilmiy salmog‘i yuksak ma’ruza bilan ishtirok etgan edi. Olimning ilmiy asarlari har ikki mamlakat adabiyotshunoslari va yosh tadqiqotchilari uchun qimmatli manbadir.

Nurboy Jabborovning faoliyat qamrovi keng. Turk dunyosining buyuk mutafakkirlari Nizomiy Ganjaviy va Ahmad Yassaviydan Yunus Emro va Alisher Navoiygacha, Zahiriddin Bobur, Mashrab va Ogahiydan Amiriy, Muqimiy va Furqatgacha, Behbudiy, Fitrat va Abdulla Qodiriydan Husayn Jovid, Jalil Mamatqulizoda va Cho‘lpongacha, Samad Vurg‘un va Maqsud Shayxzodadan Erkin Vohidov va Abdulla Oripovgacha, ulardan zamonaviy ozarbayjon va o‘zbek shoir-u adiblarigacha bo‘lgan ijodkorlar asarlari bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar yaratgan va ilmiy izlanishlarini muntazam davom ettirayotgan atoqli olim. Uning ilmiy ishlari vatani O‘zbekistondan tashqari yana Rossiya, AQSH, Xitoy, Malayziya, Hindiston, Janubiy Koreya, Turkiya, Eron, Ozarbayjon, Tojikiston va Qozog‘istonning nufuzli ilmiy jurnallarida nashr qilingan. Olim oliy o‘quv yurtlari uchun 1 ta darslik, 3 ta o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 20 ga yaqin kitob va 700 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar muallifidir.

Uning ilmiy faoliyati serqirra ekani bilan alohida ajralib turadi. U, asosan, quyidagi ilmiy yo‘nalishlarda tadqiqot olib bormoqda:

– qo‘lyozma manbalar va matnshunoslik muammolari;
– navoiyshunoslik va mumtoz adabiyotning nazariy masalalari;
– turkologiya yo‘nalishidagi tadqiqotlar;
– o‘zbek jadid adabiyoti tadqiqi;
– zamonaviy o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon.

Ushbu ilmiy yo‘nalishlarning har biri bo‘yicha Nurboy Jabborov e’tiborga molik tadqiqotlar yaratgan. Bu tadqiqotlar muayyan davr adabiyotiga xos estetik qonuniyatlar inkishof etilgani, adabiyotshunoslikni yangi nazariy qarashlar, ohorli fakt va ma’lumotlar, yangicha talqinlar va ilmiy umumlashmalar bilan boyitgani jihatidan qimmatlidir.

Qo‘lyozma manbalar va matnshunoslik muammolari tadqiqotchisi. Nurboy Jabborov ilmga matnshunos sifatida kirib kelgan. “Furqat asarlarining qo‘lyozma manbalari” mavzusidagi nomzodlik (1994), “Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi” (2004) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalari mashhur o‘zbek shoiri Zokirjon Furqat biografiyasini, ijodkorning nazmiy, nasriy va publitsistik merosi misolida o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotini o‘rganishda yangi bosqichni boshlab berdi, deyish mumkin. Qo‘lyozma manbalarni o‘rganish natijasida Furqatning g‘azal, muxammas, tarji’band, fard singari janrlardagi 500 misradan ortiq she’rlari, “Hajnoma”si, “Qavoidi Chin va umuroti siyosiy” nomli nasriy asari ilk bor ilmiy muomalaga olib kirilgan. Asliyat va nashr nusxalar qiyosiy tahlili asosida shoir she’rlarining mavjud nashrlaridan tushirib qoldirilgan 400 misradan ortiq she’r qayta tiklangan. Shoirning xorijga ketish va yurtga qayta olmaslik sabablari yangicha talqin etilgan. Arxiv hujjatlari asosida shoirning safar marshruti, Turkiya va Yunoniston, Arab mamlakatlari, Hindiston va Xitoyda bo‘lish sanalariga aniqlik kiritilgan. Mazkur mamlakatlarda yozgan asarlari tizimli tahlil qilingan. Shoirga nisbat berilgan bo‘lsa-da, “Muazzam Rus-u Chin...” deb boshlanuvchi to‘rtlik va “Tuf” radifli g‘azal, aslida, uning qalamiga mansub emasligi dalillangan. Ijodkorning Furqat taxallusini tanlashi uning e’tiqodi va maslagi bilan bog‘liq ekani, she’rlarida islomiy-irfoniy g‘oyalar yuksak badiiy ifodasini topgani ilmiy mezonlarga ko‘ra asoslangan. Chet ellarda yozgan asarlari sof estetik qonuniyatlar asosida talqin etilgan.

Nurboy Jabborov matnshunoslikning nazariy muammolari ustida ham yangi ilmiy qarashlarni ilgari surgan. Qo‘lyozmalar genealogiyasi, matn tarixi, ilmiy-tanqidiy matn, matn tahriri singari masalalarga doir nazariy fikrlarni o‘zbek mumtoz adabiyoti materiallari misolida boyitgan va takomillashtirgan. Hadislarning ishonchli matnlarini tiklashda yuksak samara bergan muqobala usulini matnshu-

noslikka doir tadqiqotlarda qo‘llash mexanizmini ishlab chiqqan. Bu boradagi ilmiy xulosalari uning nazariyotchi olim sifatidagi salohiyati yuqori ekanini tasdiqlaydi.

Amaliy matnshunoslik masalalari bilan ham jiddiy shug‘ullanib keladi. XIX asr o‘zbek shoiri Muhammad Rizo Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlarning sarasi”) asarini, Abdurahmon Jomiy “Yusuf va Zulayxo” dostonining Ogahiy tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi matnini, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va Ibrat “Tanlangan asarlar”ini, Abu Homid G‘azzoliyning “Daqoyiq ul-axbor”, Mulla Olimning “Turkiston tarixi” asari hamda “Bobo Ravshan” xalq dostonini qo‘lyozma manbalar asosida ilmiy izohlar, ko‘rsatkichlar bilan nashr ettirgan, tadqiq qilgan. Ushbu nashrlar Nurboy Jabborovning sinchkov matnshunos ekanini, arab va fors tillarini, Qur’oni karim va Hadisi shariflarning badiiy adabiyotga ta’sirini inja biluvchi olim ekanini ko‘rsatadi.

Navoiyshunoslik va mumtoz poetika masalalarining yangicha talqinlari. Olim umumsharq va jumladan, turkiy xalqlar adabiyoti nazariyasini puxta biladi. Uning buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “Maoniy ahlining sohibqironi” monografiyasi buning yorqin isbotidir. Ijod konsepsiyasi, aytish mumkinki, eng muhim nazariy muammo. Nurboy Jabborov ushbu murakkab, lekin adabiy-estetik qonuniyatlarning asosi bo‘lgan muammoni Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy “Xamsa”sining muqoyasasi asosida teran tahlil etgan. Olimning fikricha, ikki buyuk mutafakkir ijod konsepsiyasining asosini quyidagi xususiyatlar tashkil etadi:

– qalam va so‘zni muqaddas bilish, uni vositai joh etishdan saqlanish;

– ijod namunasi mukammal badiiyat bilan birga teran ma’noni mujassam etmog‘i zarurligi;

– badiiy asar Haq va haqiqat mezonlariga tayanishi;

– ijodkor o‘z mustaqil yo‘lidan yurishi, taqliddan yiroq bo‘lishi kerakligi.

Nizomiy Ganjaviy “Xusrav va Shirin” dostonida qalamning muqaddas ekaniga alohida urg‘u berib, so‘zdagi xatolik qalam vositasida tuzatilishini:

So‘zimda ne xatolik uchrasa, kech,
Qalam chek ustiga, to qolmasin hech –

tarzida ifoda etgani, buyuk shoirning so‘zni muqaddas bilgani bois osmonga boylashi, qalamni ganjnomalar qulfini ochuvchi olmos nayzaga tashbeh etishi kabi fasohat va balog‘atning asosi bo‘lgan qarashlarini olim inja anglaydi va teran tadqiq qiladi. Bunga qiyosan Alisher Navoiyning qalam eng ildam yo‘lchi ekani bois uning uchun masofa ahamiyatga ega emasligi, qalamning manzili falakdan ham yuksakroqda – Arshda ekani, buyuk mutafakkir fikricha, qalam ahli buni nazarda tutmog‘i, maskani favqu-l-falak bo‘lgan qalamning sharafini yerga urmay, u bilan faqat va faqat munosib so‘zlarni bitmog‘i kerakligi haqidagi estetik konsepsiyasi mohiyatini ochib beradi. Mana, olimning eng muhim qarashlaridan biri: “Qalamni vasf etar ekan, hazrat Navoiy qalam ahlining ustozi Nizomiy garchi Ganjada orom topgan bo‘lsa ham, har qadami ganj uzra ekani haqidagi fikrni ilgari suradi. Yulduzlar guruhi osmonni qoplagani singari uning xazinasidan sochilgan gavharlar yaksar jahonni tutgani buning isbotidir. Bu xazinadagi gavharlarning qimmati shundaki, sarflagan bilan ado bo‘lmaydi. Har kimki, bu gavharlardan nasiba ola bilsa, yuz yilda ham mingdan biri kam bo‘lmaydi”. Bu o‘rinda Nurboy Jabborovning xizmati shundaki, ungacha yaratilgan tadqiqotlarda ayni masalalar shu tarzda tahlil etilmagan edi.

Monografiyada Navoiyning ma’no va surat ahli, dunyo va u bilan bog‘liq timsollar, irfoniy mazmun va badiiy shakl uyg‘unligi borasidagi badiiy-estetik qarashlari teran tadqiq qilingan. Tasavvufiy obraz va ramzlarni tahlil etar ekan, Nurboy Jabborov o‘zigacha amalga oshirilgan tadqiqotlarni takrorlamaydi. Muammo yechimiga yangicha yondashadi, mumtoz adabiyotning o‘zagi bo‘lgan Qur’oni karim va hadislarga, tasavvuf ilmiga doir birlamchi manbalarga tayanadi. Shuning uchun ham mumtoz she’riyatdagi irfoniy obraz va istilohlarning mohiyatini teran ochib beradi. Olimning bu boradagi qarashlari navoiyshunoslikni va umuman, adabiyotshunoslikni yangi nazariy xulosalar, ohorli ilmiy talqinlar bilan boyitgani jihatidan qimmatlidir.

Nurboy Jabborov tadqiqotlarida, bundan tashqari, Sharq mumtoz adabiyotining irfoniy-estetik asosi bo‘lgan fasohat, balog‘at va bayon ilmlari yuzasidan diqqatga sazovor ilmiy qarashlar bildirilgan. Alisher Navoiy va o‘zbek mumtoz adabiyotining boshqa shoirlari asarlari ayni shu ilmlar kesimida tahlil etilgan. Bularning barchasi olim asarlarining nazariy bazasi mustahkam, adabiyotshunoslikning yuksak mezonlariga javob bera oladigan darajada ekanini ko‘rsatadi.

Turkologiya rivojiga qo‘shgan hissasi. Har qanday olim asarlarining qimmati, birinchi navbatda, o‘zi mansub millat estetik tafakkuri takomiliga nechog‘liq hissa qo‘sha olayotgani bilan belgilanadi. Turk dunyosi adabiyoti estetik idealining asosini tashkil etuvchi turkiy ruhiyatning badiiy ifodasi – Nurboy Jabborov ilmiy tadqiqotlarining asl mohiyatini belgilovchi ilmiy muammolardan. Olimning “Alisher Navoiy ijodida turkiy ruhiyat ifodasi” tadqiqoti, shu nuqtayi nazardan, alohida ahamiyatga ega. Navoiyning Sayyid Hasan Ardasherga yozilgan she’riy maktubi bu jihatdan muhim ekaniga diqqat qaratgan olimning fikricha, birinchidan, ushbu masnaviy 1465-yili navqiron Alisher yigirma to‘rt yoshga kirgan kezlari yozilgan. Ikkinchidan, bu maktubda buyuk mutafakkir hayoti va ijodining asosiy konsepsiyasi – turkiy tilning adabiy til sifatidagi imkoniyati nechog‘liq yuksak ekanini isbotlash va millatning sha’n-u sharafini, or-u nomusini himoya qilish ruhiyati quvvatli ifodalangan.

She’riy maktub uchun aruzning Sharq she’riyati nodir namunalari hisoblangan Abulqosim Firdavsiyning mashhur “Shohnoma”si, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”i, jangnoma ruhidagi boshqa asarlar bitilgan mutaqorib bahri – mutaqoribi musammani mahzuf vazni (taqte’i: fauvlun fauvlun fauvlun faal V – – / V – – / V – – / V –) tanlanishi sabablarini olim chuqur ilmiy asoslaydi. Uning fikricha, buning birinchi sababi mutaqorib bahrining turkiy xalqlar she’riy tizimi – barmoqning eng faol shakllaridan bo‘lgan o‘n bir bo‘g‘inli vazniga juda uyg‘un ekani, ikkinchisi, o‘sha kezda yigirma besh yoshga kirgan Navoiyning turkiy til himoyasi, turk millatining shon-u sharafi uchun kurash maydoniga tushganini e’lon qilishi edi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ushbu she’riy maktub shu paytgacha ham aksar navoiyshunoslar tomonidan tadqiq qilingan. Lekin Nurboy Jabborovgacha asar turkiy ruhiyat ifodasi nuqtayi nazaridan baholangan emas. Bu xususiyat olimning har qanday ilmiy muammoni o‘z ilmiy konsepsiyasi nuqtayi nazaridan o‘ziga xos talqin eta bilish iqtidoridan dalolat beradi.

Nurboy Jabborov turkiy xalqlar adabiyoti tarixini chuqur biladi, teran tadqiq qiladi. Olimning “Ahmad Yassaviy va Yunus Emro hikmatlarida adabiy ta’sir va izdoshlik”, “Husayn Jovid ijodining O‘zbekistonda o‘rganilishi takomili” singari tadqiqotlari ushbu fikrni tasdiqlaydi. Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”si beshinchi dostoni “Iskandarnoma”ning O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tomonidan amalga oshirilgan o‘zbek tiliga tarjimasi Nurboy Jabborov so‘zboshisi bilan nashr etilgan. Mazkur so‘zboshi Nizomiy “Iskandarnoma”si ozarbayjon-o‘zbek adabiy aloqalari kontekstida tahlil etilgani jihatidan alohida ahamiyat kasb etadi. Olimning XX asr boshlari ozarbayjon-o‘zbek adabiy aloqalariga doir tahliliy maqolalarida ozarbayjon ma’rifatparvarlari Jalil Mamatqulizoda, Narimon Narimonov, Husayn Jovid asarlariga teran tahliliy munosabatlari aks etgan.

O‘zbek jadid adabiyoti tadqiqi. Jadidchilik va jadid adabiyoti bo‘yicha olim yaratgan tadqiqotlarning ilmiy qimmati baland. “Ma’rifat nadir” kitobi, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Hamza, Abdulla Qodiriy va Abdulhamid Cho‘lpon ijodiga doir tahliliy maqolalari Nurboy Jabborov ilmiy faoliyatida alohida o‘rin tutadi. Olim jadid she’riyati, nasri, dramasi va badiiy publitsistikasi bo‘yicha o‘nlab ilmiy ishlar chop ettirgan. Ularda jadid adabiyotida ijtimoiy voqelikning badiiy talqini xossalari, millat va milliyat masalalarining yoritilishi, ijodiy niyat va estetik ideal uyg‘unligi, obraz va ramzlar poetikasi, Sharq va G‘arb madaniyatiga konseptual munosabat ifodasi singari ilmiy muammolar yangicha ko‘zqarash asosida o‘ziga xos talqin qilingan. Olimning “Jadid matbuotida millat va milliyat masalalarining yoritilishi”, “Fitrat ijodida Sharq va G‘arb madaniyati talqini”, “Ma’rifat nimadir, jaholat nadir?”, “Ozodlikka to‘langan tovon” singari maqolalari buning yorqin isbotidir.

“O‘tkan kunlar”da milliy ruh ifodasi” sarlavhali maqolasi bu sirada tahlilning teran va daqiq ekani, ifoda uslubining tiniq va ravonligi jihatidan alohida ajralib turadi. Maqolada milliy ruhning betakror

ifodasini ta’minlagan mezonlar: millat ruhini mujassam etgan o‘ziga xos urf-udumlar, an’analar, qadriyatlar, millatning orzulari, armonlari talqini; millatning o‘z-o‘ziga tanqidiy ruhda qaray olish salohiyati ifodasi hamda milliy shaxsiyatlarga xos sobit e’tiqodning poetik suvratlanishi tarzidagi tasnif asosida tadqiq qilingan. Nurboy Jabborov fikricha: “Birinchisi – millatning axloqi, ikkinchisi – irodasi, uchinchisi – e’tiqodini tajassum etadi va bu uchlik yaxlit holda milliy ruhni tashkil qiladi. Milliy ruhning asosi sanalgan bu uch xususiyat bir asar doirasida poetik sintezlashuvi, istisnosiz, fenomenal poetik hodisa deb baholanishga loyiqdir. Aksar asarlarda bu xususiyatlardan biri yoki ikkitasi tajassum topgani kuzatiladi. Shunga ko‘ra, milliy adabiyotimiz tarixidagi kamdan-kam asar ana shu adabiy-estetik mezonga to‘liq javob berishi mumkin. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani shunday noyob asarlardan biridir”. Tabiiyki, bunday yondashuv olim fikrlarining tizimli va asosli bo‘lishini ta’minlagan.

Nurboy Jabborovning Cho‘lpon lirikasidagi ayrim ramzlar poetikasiga oid maqolasi ham tahliliy quvvati jihatidan muhim ilmiy qimmatga ega. Maqolada shoir lirikasida ko‘p kuzatiladigan xayol, kishan, bulut, yulduz, tong singari ramzlarning badiiy funksiyasi inja yondashuv asosida tahlil etilgan.

Umuman, jadid adabiyotiga doir ilmiy tadqiqotlari ham Nurboy Jabborovning ilmiy-akademik tahlil borasida katta tajribaga ega adabiyotshunos ekanini ko‘rsatadi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon tahlili. Ushbu soha olim faoliyatidagi muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Uning “Zamon. Mezon. She’riyat” kitobi va 100 dan ortiq maqolalari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Oybek, Shayxzoda va Mirtemirdan Zulfiya, Erkin Vohidov va Abdulla Oripovgacha, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon va Usmon Azimdan Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid va bugungi yoshlar she’riyatigacha tahliliy maqolalari borligi olimning ilmiy faoliyat ko‘lami nechog‘liq katta ekani isbotidir. Uning Pirimqul Qodirov, Erkin A’zam, Xayriddin Sulton singari zamonaviy o‘zbek nasri darg‘alari asarlariga oid tadqiqotlari epik tasvirning o‘ziga xosligi, ijodkor laboratoriyasi sirlari, badiiy mahoratni belgilovchi mezonlar chuqur tahlil etilgani bilan qimmatlidir.

Olimlar ko‘p, lekin ilmiy maktab yaratish ularning barchasiga ham nasib etavermaydi. Nurboy Jabborov o‘zbek mumtoz adabiyotshunosligi bo‘yicha e’tirof etilgan ilmiy maktab asoschisidir. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti saytida u yaratgan ilmiy maktab haqida alohida sahifa mavjudligi buning dalilidir. Olim matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti, adabiyot o‘qitish metodikasi ixtisosliklari bo‘yicha 30 dan ziyod fan doktori, PhD va fan nomzodi ilmiy darajasiga ega shogirdlar yetishtirdi. Shundan sakkiz nafari fan doktoridir. Shulardan biri Tursun Qurbon – Xitoy Xalq Respublikasi Shinjong universiteti professori, Zohid Muhammad Zohir – Afg‘oniston Tahor universiteti o‘qituvchisi ekani olimning xorijiy ta’lim muassasalari uchun ham ilmiy kadrlar yetishtirgani isbotidir. Ayni kezda ham ko‘plab tadqiqotchilar uning ilmiy rahbarligida turli mavzularda tadqiqot ishlari olib bormoqda.

Nurboy Jabborov ilmiy-pedagogik faoliyatidagi yutuqlari uchun O‘zbekiston Prezidenti tomonidan ham munosib taqdirlangan. Olim 2002-yili “Shuhrat” medali, 2023-yili “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy adabiy merosiga doir tadqiqotlari uchun Ozarbayjon Madaniyat vazirligining “Nizomiy Ganjaviy” esdalik nishoni, Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot institutining “Adabiyotshunoslikka dastak” mukofoti hamda adabiy hamkorlik rivojiga qo‘shgan hissasi uchun Dunyo yosh turkiy yozuvchilar uyushmasining Faxriy yorlig‘i bilan taqdirlangan.

Ozarbayjon adabiyotining, adabiyotshunosligining yaqin do‘sti, atoqli olim Nurboy Jabborov bugungi kunda ham ilmiy faoliyat bilan muttasil va qizg‘in shug‘ullanib kelmoqda. Olimning bundan keyingi turkiy dunyo adabiy hamkorligini rivojlantirish yo‘lidagi ilmiy ishlarida ulkan yutuqlar tilaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asadov, Maqsud. “Maoniy ahlining sohibqironi” xususida. /Matnshunos va manbashunos olim Porso Shamsiyev tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlangan respublika ilmiy anjumani materiallari. II kitob. – Toshkent: Adast poligraf, 2022.

2. Jabborov, Nurboy. Adabiyot va milliy ma'naviyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
3. Jabborov, Nurboy. Zamon. Mezon. She'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015.
4. Jabborov, Nurboy. Maoniy ahlining sohibqironi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2021.
5. Jabborov, Nurboy. Furqat asarlarining qo'lyozma manbalari: filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 1994.
6. Jabborov, Nurboy. Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi. Filol. fan. doktori... diss. – Toshkent, 2004.
7. Sirojiddinov, Shuhrat. Ilmiy haqiqat yog'dusi yoxud yangi davr navoiyshunosligining muhim yutug'i. //Yangi O'zbekiston, 2022-yil 23-aprel.
8. Qahramonov, Qurdosh. She'riyatning teran talqinlari. //O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2015-yil 19-iyun.

XI–XII ASR TURKIY TIL TIBBIY TERMINOLOGIYASI TIZIMINING “DEVONU LUG‘OTIT TURK”DA AKS ETISHI

Hamidulla Dadaboyev,
filologiya fanlari doktori,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori

Annotatsiya

Mazkur maqolada XI–XII yuzyil turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari materiallari asosida tadqiq etilgan. Qoraxoniylar davrida turkiy tilning ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy hayotdagi mavqeining mustahkamlanishi natijasida shakllangan tibbiy istilohlar tizimi maqolaning asosiy tadqiq obyekti hisoblanadi. Muallif lug‘atda qayd etilgan 170 dan ortiq tibbiy terminlarni semantik-mavzuiy jihatdan tahlil qilib, ularni kasallik nomlari, dori-darmon va davolash vositalari, tabib va bemor, tibbiy jarayonlar hamda asbob-anjom nomlari guruhlarga ajratadi. Ayniqsa, odamning tashqi va ichki a’zolarida kechadigan kasalliklarni ifodalovchi terminlarga alohida e’tibor qaratilib, ularning etimologiyasi, yasalish xususiyatlari hamda tarixiy manbalarda qo‘llanishi yoritilgan. Izlanish jarayonida qadimgi turkiy tibbiy istilohlarning bir qismi hozirgi o‘zbek tibbiy terminologiyasida semantik va shakliy jihatdan saqlanib qolganligi, ayrimlari esa, til taraqqiyoti jarayoni oqibatida iste’moldan chiqqanligi aniqlangan. Maqola natijalari turkiy tillar tarixiy terminologiyasi, xususan, tibbiy terminlarni o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Devonu lug‘otit turk, qadimgi turkiy til, tibbiy terminologiya, kasallik nomlari, Mahmud Koshg‘ariy, leksik-semantik tahlil, tarixiy leksikologiya.*

Abstract

This article investigates the system of medical terminology in the Turkic language of the 11th–12th centuries based on the materials of Mahmud al-Kashgari’s “Dīwān Lughāt al-Turk”. The study focuses on the formation and development of medical terms that emerged as a result of the strengthening of the social, political, scientific, and cultural status of the Turkic language during the Qarakhanid period. More than 170 medical terms recorded and explained in the dictionary are analyzed from semantic and thematic perspectives and classified into groups denoting diseases and ailments, types of illnesses, medicines and therapeutic practices, patients and healers, disease-causing agents, medical instruments, and medical processes. Particular attention is paid to terms referring to diseases of the external and internal organs of the human body, with an emphasis on their etymology, word-formation patterns, and historical usage. The analysis demonstrates that a significant portion of ancient Turkic medical terminology has been preserved, either fully or partially, in modern Uzbek medical terminology, while the remaining terms have fallen out of use due to internal linguistic evolution and external sociocultural factors. The findings contribute to the study of historical Turkic lexicology and provide valuable insights into the development of medical terminology in Turkic languages.

Key words: *“Dīwān Lughāt al-Turk”, Old Turkic language, medical terminology, disease names, Mahmud al-Kashgari, lexical-semantic analysis, historical lexicology.*

Qoraxoniylar sulolasining Osiyo qit’asidagi ulkan yerda siyosat sahnasiga chiqishi muayyan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqibatida dol holatga tushib qolgan turkiy til bo‘g‘inining ma’lum darajada o‘nglanishi, ya’ni tiklanishiga olib keldi. Sulola hukmdorlarining el-ulus boshqaruvi, tashqi siyosat yuritishda ona tilini keng qo‘llash, uning cheksiz imkoniyatlaridan nafaqat kundalik jonli so‘zlashuv, shuningdek, rasmiy ish yuritish bitiklari, ilm-fan, ta’lim, savdo-sotiq, moliya, iqtisod, elchilik, harbiy ish, harbiy san’at va h.k. sohalarda foydalanishga qaratilgan siyosati o‘z samarasini bergani tarixdan ayon.

O‘tmishda yuz bergan qanchadan qancha ur-sur, tala-tala, qirg‘in-barotlarga qaramay bizning kunimizgacha yetib kelgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Adib Ahmad Yugnakiyining “Hibat ul-haqoyiq”, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab”, Ahmad Yassaviyning “Hikmat”lari qatori Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” qomusiy asarining

ochun yuzini koʻrishi Qoraxoniylar hukmdorlarining ona tilini ardoqlash, alqash, rivojlantirish, takomillashtirish yoʻlida olib borgan tizimli sa'y-harakatlari samarasi sanaladi.

Husayn oʻgʻli Mahmud tomonidan hijriy 464-yil, jumodiyul avvalning boshlarida tuzishga kirishilgan, toʻrt bor qayta yozilib, tahrir qilinib, 466-yil, jumodiyul oxirning 12-sanasida tugallangan "Devonu lugʻotit turk" [Mutallibov, 1960-1963: 453]da davr eski turkiy til tovush tizimi, soʻz turkumlari, gap qurilishi, soʻz yasalishi, soʻz boyligi, chunonchi, turfa terminologiyasi yaqqol namoyon boʻlgan.

XI–XII asr turkiy til terminlar tizimi borasida biz tomonimizdan talay izlanishlar olib borilgani til tarixi mutaxassislariga ozmi-koʻpmi tanishligini hisobga olib, ushbu maqolada lugʻatdan oʻrin olgan tibbiy istilohlar, aniqrogʻi, kasallik turlari nomlarini atovchi terminlar toʻgʻrisida soʻz yuritdik. Zotan, bizning kuzatishlarimiz ensiklopedik tabiatga ega lugʻatda 170 dan ortiq tibbiy terminlar oʻrin olgani va izohlanganini koʻrsatdi. Qayd etilgan istilohlar mavzu jihatidan turlicha boʻlib, ular "dard, kasallik", "kasallik turlari", "dori-darmon va em (davo)", "kasal, bemor", "emchi, tabib, shifokor", "kasallik chaqiruvchi hashorot, viruslar", "tibbiy asbob-anjomlar", "tibbiy ish-harakat, amaliyot, jarayon" nomlarini qamrab olgan.

Bir maqolada zikr etilgan son va mavzudagi istilohlar borasida batafsil fikr yuritishning aslo imkoniyati yoʻqligidan kelib chiqib, Qoraxoniylar zamonida bor boʻlgan kasallik turlari, ularni anglatgan istilohlarning Mahmud Koshgʻariy asarida berilishi va ularning hozirgi oʻzbek tibbiy terminologiyasiga munosabati xususida qisqa mulohaza yuritishni maqsadga muvofiq topdik.

Kasallik turlarini ifodalagan istilohlarni tahlilga tortishdan oldin, "Devon"da "kasallik, dard" ma'nosini bildirish uchun ig (I,82), kem (I,325), **mün** (III, 154) hamda **toʻga** (III, 244) istilohlari qoʻllanganini ta'kidlash oʻrinli. Keltirilgan terminlardan ilk marta Yar-Xotodan topilgan fol kitobchasida qayd etilgan **ig** istilohi ishlatilishda faol boʻlgani bilan xarakterlanadi. Shu oʻrinda **ig** istilohining **agrig kegan, kem, toʻga** ma'nodoshlar bilan munosabatga kirishib, **ig ağrïğ, ig kem, ig toʻga** juft terminlarni voqelantirganini urgʻulash foydadan xoli boʻlmas (DTS, 203). Kuzatishlar ig terminining XIII–XIV asr turkiy tibbiy terminlar tizimida qoʻllanishda qolganini dalillaydi. Xususan, bu istiloh "Qisasi Rabgʻuziy" (27v19) va "Nahj ul-farodis" (44b3) matnlarida keng qoʻllangan.

Hozirgi oʻzbek tibbiy terminologiyasida "koʻz shox pardasining xira tortishi" ma'nosi koʻzga **oq tushishi (elykoma)** termini yordamida ifodalanadi (KTOʻL, 66). Mahmud Koshgʻariy pardaning chandiqli oʻzgarishi bois paydo boʻladigan mazkur koʻz kasalligi **enüč** (I,86) istilohi bilan atalganini e'tirof etgan. Ayni istilohdan yasalgan **enüčlä-** "koʻzni tuzatmoq, davolamoq": Otačï közüg enüčlädi – Tabib koʻzga dori quydi (I,293) va enüčlän- "parda bosmoq, noxin chiqmoq": Anïŋ közi enüčländi – Uning koʻzini parda qopladi (I,287) terminlarining lugʻatda izohlanishi **enüč** istilohining davr tilida yuqori darajada iste'molda boʻlganini koʻrsatadi.

Lugʻat tuzuvchining nazaridan koʻz kasalliklari nomlari ham chetda qolmagan. Chunonchi, "koʻzga tushadigan dogʻ" ma'nosi **kög** (III,146), "koʻzning xiralashishi" hodisasi esa **bus // pus**: Er közi bus boldï – (me'dadan paydo boʻlgan bugʻdan) odamning koʻzi xiralashdi (III,137). "Dogʻ" ma'nosini anglatgan **kög** istilohi dastlab Turfon matnlarida qayd etiladi: Közüŋ ičintä kög yoq – Koʻzingda dogʻ yoʻq (DTS, 312). **Kög** asosida "dogʻ bilan qoplanmoq" semasini bildirgan köglän= holat fe'li shakllangan: Yüzi anïŋ kögländi – Uning yuzi dogʻ bilan qoplandi (II, 295).

Hozirgi oʻzbek tibbiy terminologiyasida qoʻllanuvchi **qoʻtir** termini yordamida "kana qoʻzgʻatadigan, kuchli qichishish bilan kechadigan terining yuqumli kasalligi" anglashiladi (KTOʻL, 513). Ayniqsa tunda zoʻrayadigan bu illat "Devon"da uzuz istilohi bilan ifodalangan (I,88). Ushbu birlikning lugʻatda uch oʻrinda qoʻllangani va uning ishtirokida **uzuzluğ** "qoʻtirli, qoʻtir yarali" (I,163) hamda **uzuzla**= "qoʻtirdan tuzatmoq, davolamoq" (I,294) istilohlarining yasalganligi birlikning qoʻllanish doirasini belgilaydi.

“Chivin, pashsha chaqishidan yoki eshak yem boshlanishida terida paydo bo‘ladigan shish, paysa” sememasi eski turkiy tilda bars istilohi bilan ifodalangan: Anïŋ eti bars boldï – Uning terisida hasharot chaqishi oqibatida shish paydo bo‘ldi (I,332). Boshqa eski turkiy yodgorliklarda bu termin uchramaydi.

Faqat insonlarda uchraydigan, surunkali, butun badanga tarqaladigan yuqumli kasallik hozirgi o‘zbek tibbiyot terminologiyasida **moxov** termini bilan ifodalanadi (KTO‘L, 392). Bu kasallik turini eski turkiy tilda etimologiyasi qorong‘i anumï istilohi bildirganini Mahmud Koshg‘ariy qayd etgan (I,155).

Hozirgi o‘zbek tibbiy terminlari sirasida maxsus filtrlanadigan virus paydo qiladigan, bemordan sog‘lom bolaga nafas yo‘li orqali yuqadigan kasallik **qizamiq** termini bilan yuritiladi (TTEL, I, 771). Ushbu kasallik “Devon”da qïzlamuq “qizamiq, toshma” (I,480) hamda ček= // čeč= “tarqalmoq” leksemasidan hosil qilingan čekäk istilohi bilan anglashilgan. Keyingi termin lug‘at tarjimonlari tomonidan “gul, chechak kasalligi (chigilcha)” (I,369) tarzida izohlangan (DTS, 143).

“Qizarmoq, lovillamoq” semali **qïz**= fe’li asosida yuzaga kelgan va hozirgi o‘zbek tilida saqlanib qolgan **qizamiq** terminining **qïzamuq** shakli ilk bor uyg‘ur (turk) yozuvli Turfon matnlarida qayd etilgan (DTS, 450).

Qavariq termini bugungi kunda “terining pufak bo‘lib qavarib chiqishi”ni bildiradi (TTEL, I, 322). “Devon”da odam yuzi va barmoqlarida paydo bo‘ladigan qavariq **qamčïğu** (I, 453) hamda **qabarğan** (I,472) istilohlari bilan ifodalangan. Hozirgi **qavariq** (< qabar- “shishmoq”) so‘zi “Devon”dagi qabarğan bilan o‘zakdoshdir. Qo‘l bilan ishlash jarayonida paydo bo‘ladigan qo‘l qavarchig‘i **müŋüzäk** (III, 397) so‘zi bilan atalgan bo‘lib, u müŋüz (shox) so‘zidan kichraytirish –(ä) k qo‘shimchasi orqali yasalgan.

“Devon”da “et va teri orasida paydo bo‘ladigan shish” kasalligi **bez** istilohi bilan ifodalangan (III, 134). Bu so‘z ilk bor X asr manbasi “Oltun yoruq”da **qart** istilohi bilan birikib, **qart bez** “yara va chip-qonlar” ma’nosida qo‘llangan (DTS, 429). Bugungi o‘zbek tibbiy terminologiyasida **bez** organizm uchun zarur bo‘lgan sekretlar ishlab chiqaruvchi a’zoni anglatadi (TTEL, I, 591).

“Teri kasalliklarida uchraydigan toshmalar, mayda pufakchalar, qizil dog‘lar, ularning kepaksimon tangachalar bilan qoplanishi” ma’nosi hozirgi o‘zbek tibbiyotida **temiratki** termini bilan ifodalanadi (TTEL, I, 833). Bu kasallik “Devon”da **temirägü** (I,453) istilohi bilan qayd etilgan.

“Terining ustki (epidermis) qavatining o‘sib ketishi natijasida hosil bo‘ladigan xavfsiz o‘sma” kasalligi **so‘gal** termini bilan ifodalanadi (TTEL, I, 235). “Devon”da bu istiloh **sigil, sügül // sögül** shakllarida uchraydi: Er sügül sükländi – Odam so‘galga davo qildi va tuzatdi (III,316). Vaqt o‘tishi bilan sögül hozirgi so‘gal shaklini olgan.

Bugungi o‘zbek tibbiy terminlarida “qalqonsimon bezning kattalashishi” ma’nosi **buqoq** termini bilan ataladi. Ushbu kasallik nomi ilk bor aynan “Devon”da qayd etilgan (II,329). Lug‘at tuzuvchining guvohlik berishicha, ajdodlar “tish orasidagi ochiqlik”ni **sïğsağ** (< sïğsa= “joylashmoq”) so‘zi bilan ifodalagan (I,431).

“Og‘rimoq, zirqiramoq, qaqshamoq” ma’nosini bildirgan **sïzlağ** istilohi sovuq tufayli “tish ziriqashi”ni anglatgan (I, 431).

Hozirgi o‘zbek tilida “badanda, ko‘proq yuzda paydo bo‘ladigan suvli g‘udda; husnbuzar” ma’nosini bildiruvchi **sizlog‘ich** termini (O‘TIUL, II, 44) “tarqalib ketmoq, yoyilmoq” semasida “Devon”da qo‘llangan **sïz**= so‘zidan taraqqiy etgan (III, 198).

Lug‘at tuzuvchisi umuman “yara” ma’nosining **baš** termini orqali_ifodalanishiga diqqat qaratgan. **Ol bašïğ bitürdi** – Dori yarani tuzatdi (III, 71). Mazkur tub turkiy istiloh birinchi bor Turfon matnlarida **qïl**= so‘zi bilan birikib_“yaralamoq” ma’nosida qo‘llangan (DTS,87). **Baš** termini ta’kidlangan semada “Tarjumon” (35a3), “Qisasi Rabg‘uziy” (11v5) singari XIII–XIV yuzyil manbalari matnida qo‘llanishda davom etgan. E’tiborga molik jihat shundaki, tahlil qilinayotgan

istiloh “Gul va Navroʻz” dostonida “yara, ogʻriq; uqubat, qiyinchilik” ma’nolarini anglatishga xizmat qilgan:

Ču bu hoš mujdani Navruz ešitti,
Qadam baštin qilib baš birlä yetti (99r10).

Xoʻjandiyning “Latofatnoma” asarida **baš** birligi **qïl**= soʻzi bilan sintagmatik munosabatga kirishib, “yaralamoq” ma’nosini bildirgan:

Yürägimni firáqiŋ baš qïldï (296-c).

Lugʻatshunos nafaqat odamlar, balki jonivorlar, xususan, otning koʻkragiga chiqadigan, undan yiring fasod oqadigan yara turi **čildäk** istilohi bilan ifodalanishi, bunday yara turi dogʻlab tuzatilishi borasida qimmatli ma’lumot keltirilgan (I, 442). Boshqa obidalar bu yasama (*čil=dä+k*) istilohni bilmaydi.

Aksariyat stafilokok oqibatida soch ildizi xaltachasi va yogʻ bezining oʻtkir yallig‘lanish kasalligi hozirgi oʻzbek tibbiy terminologiyasida **chipqon** termini bilan ifodalanadi (TTEL, II, 1030). Mahmud Koshgʻariy **čïpqan** soʻzi : 1) jilon jiyda hamda 2) qizillikda jilon jiydaga oʻxshagan yarani anglatishiga kitobxon diqqatini qaratgan (I, 419).

Ichki kasalliklarni anglatuvchi istilohlar lugʻatda aksini topgan tibbiy terminlar tizimida son jihatdan nisbatan yetakchilik qiladi. Chunonchi, oshqozon va me’da buzilishi bilan bogʻliq kasallik nomlari turfaligi bilan xarakterlanadi.

Ovqat hazm qilish a’zosi – me’daning buzilishi kasalligi oʻzga manbalarda qayd etilmagan **um** istilohi yordamida ifodalangan: *Er um boldï* – Erkak kishining me’dasi buzildi (I, 83).

Hozirgi oʻzbek tibbiy terminlari ichida “mikroblar keltirib chiqaradigan yuqumli, patalogik oʻzgarishlar yoʻgʻon ichakda kechadigan, qon va shilliq aralash kuchli ič ketish kasalligi **dizenteriya** hamda **ichburug‘** terminlari bilan anglashiladi (KTOʻL 162). Bu kasillik eski turkiy tilda **öt**= “oʻtmoq”, harakat fe’liga *-(ü)g* affiksini qoʻshishdan yasalgan **ötüg** istilohi bilan anglashilgan: **Aŋar ötüg tuttï** – Unga ichburuq huruj qildi (I, 99). “Qattiq ich ketishi; qorin ogʻrigʻi” ma’nosi “talamoq, vayron etmoq, harob qilmoq” semali **tala**= leksemasidan **-ğu** qoʻshimchasi yordamida yuzaga kelgan **talağu** derivati bilan anglashilgan. Lugʻatchi ushbu istiloh, shuningdek, “tez ta’sir qiluvchi zahar”ni ham ifodalashini e’tirof etgan (I, 418). Ich ketish kasalligining yana bir turi **tolğa**= “tutmoq, siqmoq, qismoq” harakat fe’lidan -q // -ğ affiksi ishtirokida voqelangan **tolğaq // tolğağ** termini bilan ifodalangan (II, 333). Hozirgi oʻzbek adabiy tilida **toʻlgʻoq** leksemasi 1) “tugʻish oldida tutadigan qattiq ogʻriq, dard” hamda 2) koʻchma. Ogʻir mashaqqat, qiyinchilik, bezovtalik” semalarida qoʻllanmoqda (OʻTIL, II, 248). Leksemaning izohli lugʻatda keltirilgan ikkinchi ma’nosi eski turkiy til davridan hozirgacha saqlanib qolgan.

Hozirgi oʻzbek tibbiy terminologiyasida “qonda oʻt pigmenti (*bilirubin*) miqdorining oshib ketishi natijasida teri va shilliq qavatlarning sariq rangda boʻyalish holati” ma’nosi **sariq kasalligi** birikma termini bilan ifodalanadi (TTEL, I, 599). “Devon”da ushbu kasallik **sarïğ kezik** (I, 372) va **atğaq** (I, 66) istilohlari yordamida ifodalangan. Lugʻatchi ajdodlar qoʻllagan tibbiy terminlar qatorida qulanjga oʻxshash kasallikning **inägü** yasamasi bilan ifodalanganini qayd etgan (I, 155). DTS tuzuvchilar mazkur terminni “заболевание нижней части живота, резь в животе, грыжа” tarzida izohlangan (269).

“Qorin boʻshligʻi” a’zolarining kasallanishi bois oʻqtin-oʻqtin sanchiq tutish, sanchib ogʻrish” ma’nosi hozirgi oʻzbek tibbiy terminologiyasida **sanchiq** (< *sanch*= “sanchmoq, ogʻrimoq”) termini bilan anglashiladi (TTEL, I, 747). Qayd etilgan semema “Devon”da birinchi marta turfon matnlarida qoʻllangan (DTS, 586) **tupulğaq // topulgʻaq** (< *tupul= // topul*= “yirtmoq”) yasama termini yordamida ifodalangan (I, 461).

Lugʻatda **sanč**= “tiqmoq, sanchmoq” leksemasiga – *(i)q* affiksini qoʻshishdan voqelangan **sančïq**= istilohi “magʻlubiyatga uchramoq, yengilmoq” ma’nosini anglatgan (II, 392).

Hozirgi oʻzbek tibbiy terminologiyasida “kasallik qoʻzgʻatuvchi omillar ta’siriga organizm bergan javobdan vujudga kelgan murakkab holat, organizmda issiqlik muvozanati buzilishi natijasida tana harorati koʻtarilishi” i**sitma** termini koʻmagida anglashiladi (TTEL, I, 830). Ta’kidlangan semema Mahmud Koshgʻariy lugʻatida **kez**= “yurmoq, kezmoq” harakat fe’lidan – *(i)k* affiksi ishtirokida

yuzaga chiqqan **kezik** yasama termini bilan ifodalangan (I, 372). Ushbu asl turkiy istiloh ilk bor Turfon matnlarida **kezik ig** “isitma kasalligi” birikma termin tarkibida qayd etilgan. “Isitma kasali bor, isitmaga chalingan” ma’nosini “Qutadg‘u bilig”da **keziklig** termini bildirgan (DTS, 305).

Vaqt bevaqt tirishish, qisqa muddatga es-hushni yo‘qotish bilan kechadigan kasallik hozirgi o‘zbek tibbiy terminologiyasida **quyonchiq** va **tutqanoq** terminlari bilan ataladi (KTO‘L, 538).

Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida keltirilgan sememani ifodalash **tal**= “hushdan ketmoq, hushini yo‘qotmoq” leksemasidan *-qan* qo‘shimchasi ishtirokida voqelangan **talqan**: *talqan ig-* tutqanoq kasalligi (I, 411) hamda **tut**= “tutmoq, ushlamoq” so‘ziga – *(u)ğ* affiksini qo‘shishdan yuzaga chiqqan **tutuğ** istilohlari zimmasida bo‘lgan: *Anïŋ tutuğï bar* – Uning tutqanoq kasali bor (I, 354). Shu o‘rinda tahlil qilinayotgan kasallik turk (uyg‘ur) yozuvli budda manbalari matnida **tutğaq** (DTS, 592) derivati yordamida anglashilganini ta’kidlash o‘rinli.

Faqat insonlarda uchraydigan va bakteriya tarqatadigan surunkali butun tana a’zolariga tarqaladigan yuqumli kasallik hozirgi o‘zbek terminlari tizimida **moxov** termini bilan ataladi (KTO‘L, 392). Eski turkiy tilda ushbu kasallik **anumï** istilohi bilan anglashilgan (I, 155). Kelib chiqishi, bizningcha, **anu**= “tayyorlanmoq, tayyor turmoq” holat fe’liga aloqador **anumï** termini o‘zga manbalarda qayd etilmaydi.

Xullas, olib borilgan izlanish Mahmud Koshg‘ariyning ko‘p yillik mashaqqatli mehnati evaziga dunyo yuzini ko‘rgan “Devonu lug‘otit turk” asarida izohlangan tibbiy terminlar rang-barang mavzu guruhlar, xususan, odam tashqi va ichki a’zolarida kechadigan kasalliklarga tegishliligi, lug‘at tuzilgan zamonda qo‘llangan istilohlarning muayyan ulushi hozirgi o‘zbek tibbiy terminologiyasi tizimida qo‘llanishda qolayotgani, qolgan qismi tilda yuz beradigan ichki hamda tashqi omillar bois iste’moldan chiqib ketganini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Devon – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк (Туркий сўзлар девони). I-III. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: филология фанлари кандидати С.М. Муталлибов. – Тошкент: ЎзССР ФА, 1960-1963.
2. DTS – Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969.
3. KTO‘L – Usmonxodjayev A. Katta tibbiyot o‘quv lug‘ati (ruscha-lotincha-o‘zbekcha). – Toshkent: Navro‘z, 2013.
4. TTEL – Usmonxodjayev A., Basitxonova E., Nazirov P., Turaxanova M. Tibbiy terminlar ensiklopedik lug‘ati. I-II. – Toshkent, 2010.
5. O‘TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I–II. – М.: Русский язык, 1981.

BOBURIYLAR VA SHAYBONIYLAR: ADABIY ALOQA VA O‘ZARO TA’SIR MASALALARI

Hayitov Shavkat Ahmadovich,
Buxoro davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori,
filologiya fanlari doktori (DSc),
e-mail: shavkat61hayitov@gmail.com
ORCID ID 0000-0002-4290-6017

Muhammadova Mahbuba Mo‘minovna,
Buxoro davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
e-mail: muhammadova93@gmail.com

Annotatsiya

Shayboniylar sulolasiga mansub shoh-shoir Abdulaziz Bahodirxon boburiy ijodkor Komron Mirzoning o‘zbek va fors-tojik tilida bitilgan g‘azallariga tatabbu bog‘lagan. Aziziy tatabbulari haqiqiy so‘z san’ati namunasi sifatida taassurot qoldiradi. Maqolada ikki bir-biriga muxolif sulola – boburiylar va shayboniylar o‘rtasidagi adabiy aloqa va o‘zaro ta’sir masalalari xususida mulohaza yuritilar ekan tatabbu - g‘azallar muallifining voqelikka o‘z tafakkuri va o‘z nuqrati nazari bilan qarashga qodir ijodkor ekanligi qiyosiy-tipologik tahlil orqali ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Shayboniylar, boburiylar, Komron Mirzo, Abdulazizxon, g‘azal, adabiy aloqa.*

Abstract

The poet-king Abdulaziz Bahozirkhan, a member of the Shaybanid dynasty, wrote a tatabbu on the ghazals of the Babur writer Kamron Mirzo, written in Uzbek and Persian-Tajik. Azizi’s tatabbu leave an impression as a true example of word art. The article discusses the issues of literary communication and interaction between two opposing dynasties – the Baburs and the Shaybanids, and through comparative-typological analysis reveals that the author of the tatabbu - ghazals was a creator who was able to confront reality with his own thinking and his own silver-colored eyes.

Keywords: *Shaybanids, Baburids, Kamran Mirza, Abdulaziz Khan, ghazal, literary communication.*

“Muzakkiri ahbob” ijodkorlar o‘rtasida asrlar davomida amal qilib kelgan adabiy hamkorlik, o‘zaro ta’sir masalalari xususida ham nodir ma’lumot beruvchi adabiy manbadir.

Tatabbu’ – Sharq adabiyotida keng tarqalgan adabiy aloqa va o‘zaro ta’sirning shakllaridan biri hisoblanadi. “Muzakkiri ahbob” da Abdulazizxon bin Ubaydullo Bahodirxon qalamiga mansub Komron Mirzoning ikki g‘azaliga bitilgan ikki tatabbu’ keltirilgan. Abdulazizxon har ikki g‘azalda ham Aziziy taxallusini qo‘llagan. Abdulazizxon tatabbu’laridan biri tojik-fors tilida bo‘lib, birining o‘zbek tilida ekanligi muhim ilmiy qimmat kasb etadi. Komron Mirzo va Abdulazizxonning ikki tilni birday bilgani va shu ikki tilda birday ijod qila olganiga yetarli dalil hisoblanadi.

Tatabbu’- adabiy aloqa va o‘zaro ta’sirning keng tarqalgan shakllaridan biri. Bunda shoir boshqa bir ijodkorning o‘z ko‘ngliga yoqqan, qalbiga cho‘g‘ tashlagan g‘azalining ruhidan bahra olib, o‘zining ijodiy qobiliyatini namoyon qiladi. G‘azalning vazn, qofiya, radif, obraz, misralar miqdori va badiiy-tasviriy vositalarini saqlab qolgan holda, uning ma’no-mohiyatini kengaytiradi. G‘azal mazmuniga yangi, toza ruh bag‘ishlaydi. Shu ma’noda tatabbu’ taqlid emas, balki u yoki bu shoirga izdoshlik qilish asnosida yuqori ijodiy maqomga intilishdir. Abdulazizxon nazira bitgan Komron Mirzo g‘azali an’anaviy mavzuda yozilgan. G‘azal ishq-muhabbat talqiniga bag‘ishlangan.

Ey, qadi ra’noi tu sarvi gulistoni husn,
Ro‘i diloroi tust lolavu bo‘stoni husn [Нисорий, 1993:45].

Matla'ning har ikkala misrasida istiora va tashbih san'ati unsurlari mohirona uyg'unlashtirilgan. Oshiq ra'no guli bilan ma'shuqasi o'rtasida, ma'shuqaning qaddi bilan xushqomat daraxt sarv o'rtasida monandlik tuyadi. Ma'shuqani ra'noga guliga, uning xushbichim qomatini to'g'ri tik o'sadigan sarv daraxtiga tashbih qilish mumtoz adabiyotimiz xazinasidagi yuzlab g'azallarda bor. Komron Mirzo badiiy tasvirining o'ziga xosligi shundaki, unda tashbih istiora san'ati bilan kuchaytirilgan. Ma'shuqa qomati tabiat qo'ynidagi bog'da yoki gulistonda o'sadigan **sarvga** emas, **husn gulistonining sarviga o'xshatilgan**. Xuddi shunday uslubiy o'ziga xoslik g'azalning ikkinchi misrasida ham kuzatiladi. An'anaviy g'azallarda yor yuzi quyoshga, oyga, gulga, lolaga qiyos qilinadi. Komron Mirzo esa ma'shuqaning oshiq ko'ngliga orom beruvchi yuzini tabiat qo'ynida o'sadigan **lolaga** emas, **husn bo'stonining** lolasiga mengzaydi.

Abdulazizxon Komron Mirzo g'azalidan ta'sirlanib, an'anaga payravlik zaminida yangi bir g'azal yaratgan:

Toqi du abro'i tust matla'i devoni husn,
Orazi nekui tust shamsayi ayvoni husn.
Husn turo ziynat ast, ey buti chun xattu hol,
Xollu xattat oyatest omada dar shoni husn.
Kast natavonad kashid poy ba domoni sabr,
To tu barovardayi sar zi gireboni husn.
Sabzayi tar bardamid girdi labat to kunad,
Jo chu Xizr bar labi chashmayi heyvoni husn.
Har gah Azizy bidid xat ba labi yor, guft:
Ro'zi siyohast in yo shabi hijroni husn [Нисорий, 1993:45].

Tatabbu'-g'azal matla'sida ham istiora va tashbih san'atlari uyg'unlashib, ma'shuqa vasfi, surati tasvirini badiiy bo'yoqdor tarzda ifodalashga xizmat qilgan. Aziziyning lirik qahramoni binolarning ustiga yarim doira shaklida ishlangan gumbaz bilan yoki masjid mehrobi tepasidagi qayrilma qism bilan ma'shuqa qoshi orasida monandlik ko'radi. Va ma'shuqa ikki qoshining toqi **husn devonining matla'siga** o'xshatiladi. She'riy asarning avvalgi ikki misrasi, boshlanmasi bilan ma'shuqaning ikki qoshi orasida tashbehiy muvozanat, mutanosiblik bor. Birinchi misrani yakunlovchi **"Matla'i devoni husn" ("Husn devoning matla'si" ifodalari)** esa fikriy topilma. "Ikki qoshining toqi" va husn devoning matla'si" bir-biriga shunday nozik ulanganki, mohir zargarning qo'li bilan uzukka qo'yilgan ko'zday taasurot qoldiradi. Komron Mirzo g'azalining matla'sida suyukli yor yuzi **husn bo'stonining lolasiga qiyos qilingan edi**. Tatabbu' – g'azal matla'sining ikkinchi misrasida esa ma'shuqaning chiroyli yuzi **husn ayvonining quyoshi**ga tashbih qilinadi. Matla'ning ikkinchi misrasida ham istiora san'ati bilan muzayyan tasvir davom ettirilgan. Ikkinchi misrada ham shoir **ramziy-istioraviy iboralarning tanosobiyatiga** jiddiy e'tibor qilgan. Besh baytdan iborat tatabbu' g'azalda ma'shuqa ko'rkam qiyofasining barcha manzaralari qalamga olingan. Har bir misra, har bir bayt o'ziga xos badiiy ohang va she'riy san'atlar bilan nurlantirib borilgan:

Sabzayi tar bardamid girdi labat, to kunat,
Jo chu Xizr bar labi chashmayi hayvoni husn [Нисорий, 1993:45].

Mumtoz poetikaga oid manbalarda "Talmeh" arab tilidan olingan so'z bo'lib "yengil nazar tashlash, nimagadir ko'z qiri bilan qarash" kabi lug'aviy ma'nolarni anglatishi qayd qilingan [Ҳусайний Атоуллох,1981:134]. Mumtoz she'rshunos Shamsi Qaysi Roziyning talqinicha, "Talmeh kichik ishora bilan katta ma'no –mazmunni hosil qilish" san'atidir. Ilohiy voqea-hodisalar, shaxslar, Sharqda mashhur muhabbat qissalari va ularning qahramonlari, payg'ambarlar nomiga murojaat qilish bilan ham talmeh hosil qilinadi.

Aziziy g'azalidan ko'chirilgan baytda Xizr alayhissalom nomi tilga olingan. Rivoyatlarga ko'ra, Jahongir shoh Iskandar va Xizr zulmat qa'ridan abadiy tiriklik suvini ("obi hayvon") izlashgan.

Uni topish Xizr payg‘ambarga nasib etgan. Tahlil qilinayotgan baytda ma’shuqaning labi faqat Xizr alayhisalomgina bahramand bo‘lgan mangulik suviga tashbih qilingan. Ma’shuqa labini Xizr suviga o‘xshatish Sharq she’riyatining aksar namunalarida mavjud. Aziziy ifodasining o‘ziga xosligi shundaki, unda ma’shuqa labi va “obi hayvon” qiyosi mushabbih va mushabbihin bih munosabatlari orqali amalga oshirilmagan. Shoh shoir bu badiiy maqsadini “hayot bulog‘i” istiorasi orqali yuzaga chiqargan.

Aziziy talqinicha, baytda ma’shuqa labi ustidagi ko‘z ilg‘amas mayin, qora tukchalar Xizr payg‘ambarga o‘xshatilib, ularning lab ustida turishlari Xizr alayhisalomning “Obi hayvon” suvi qirg‘og‘ida o‘tirishiga qiyoslangan. Badiiy matnda yorning xati “sabzayi tar” istiorasi orqali ifodalangan. “Muzakkiri ahbob” tarjimoni Ismoil Bekjon “Sabzayi tar” birikmasini “ko‘k maysa” tarzida tojik-fors tilidan hozirgi o‘zbek tilimizga o‘girgan. Fikrimizcha, muhokamamiz asosida turgan istiora hozirgi o‘zbek tiliga “namli sabza”, “mayin sabza”, “toza sabza” tarzida tarjima qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki ma’shuqaning labi ustidagi nafis, qora miyiqchalarga nisbatan ramziy-istioraviy tarzda bo‘lsa-da “ko‘k maysa” ifodasini ishlatish unchalik joyiga tushmaydi. Misra mantig‘i “ko‘k” kalimasini qabul qilmasligi xotimaviy baytda yorqin nazarga tashlanadi. G‘azal maqta’sida “xat” hech qanday badiiy bezaklarsiz qo‘llangan. Yakunlovchi baytda bilib bilmaslikka olish tajohul-ul-orif san’ati tavsif etilayotgan manzarani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Har gah Azizy bidid xat ba labi yor, guft:
Ro‘zi siyohast in yo shabi hijroni husn [Hucopuў, 1993:45].

Tatabbu’- g‘azal haqiqiy so‘z san’ati namunasi sifatida taassurot qoldiradi. Abdulazizxonning o‘ziga xos shoirona zavq sohibi ekanligini namoyon etadi. “Muzakkiri ahbob” dan o‘qiymiz: “Va Komron podshohning bu g‘azaliga ham go‘zal, ham ravon javob qaytargan. G‘azal matla’si:

Xub erdi, mango bo‘lsa edi yor musohib,
Yo bo‘lmasa erdi ango ag‘yor musohib” [Hucopuў, 1993:45].

Suyukli yori bilan hamsuhbat bo‘lish, do‘st bo‘lish oshiqning azaliy va abadiy orzusi. Taqdir uning nasibasiga shunday yozuqni bitishini intiqlik bilan kutib yashaydi. Hijron azoblariga sabot bilan bardosh beradi. Hajr, ayriliq qo‘zg‘otgan yoqimli iztirob dilidan tiliga, tilidan satrlarga ko‘chadi. Ma’shuqaning vasfi, nafis jamolining ta’rifu tavsifi bilan o‘tlik ko‘ngliga taskin beradi.

Komron Mirzo oshiq qalbi tubidagi armonga aylangan orzuni she’rga olib kirgan. Shuning uchun ham uning g‘azali Abdulazizxon qalbiga cho‘g‘ tashlagan. Shoh-shoirning Komron Mirzoning o‘zbek tilidagi g‘azaliga bitgan nazirasi ham besh baytdan iborat:

Xushdur kishiga bo‘lsa agar yor musohib,
Gar bo‘lmasa aning bila ag‘yor musohib.
Bulbul boshig‘a kelmas edi muncha balolar,
Gar bo‘lmasa erdi gul ila xor musohib.
Yo rab ne balodur bu ki hijron alamidin,
Bormen g‘amu anduh ila, ey yor musohib.
Ko‘yung itidek yori vafodor topilmas,
Ko‘rdum meni dil suxta bisyor musohib.
Bu telba ko‘ngil bilan, Aziziy, ne qilursan,
Gar bo‘lmasa ul sho‘xi dilozor musohib [Hucopuў, 1993:46].

Komron Mirzo g‘azali matla’sida kuzatilgani kabi Aziziy g‘azali ham an’anaviy mavzuda yozilgan. Ishq-muhabbat talqiniga bag‘ishlangan. Unda uch timsol–oshiq, yor va ag‘yor (raqib) ishtirok etadi. Javobiya g‘azalda vazn, qofiya, radif, timsollar saqlab qolingan. O‘xshatma g‘azalning g‘oyaviy mazmun qirralaridagi, ohangidagi o‘ziga xos jiloni his qilish qiyin emas. Komron Mirzo g‘azali matla’sining dastlabki misrasida oshiqning xitobi, istagi o‘ziga qaratilgan. Tatabbu’ g‘azalda esa oshiqning “ko‘ngli tilagan murod” (Bobur) umumga, barcha oshiqlarga yo‘naltirilgan. Tatabbu’

g‘azalga singdirilgan ayricha mazmun va uslubiy o‘ziga xoslikni matla’ning ikkinchi misrasida ham mushohada qilish mumkin. Komron Mirzo g‘azali matla’sidan: “Manga yor musohib bo‘lsa, qanday yaxshi bo‘lar edi. Yoki bo‘lmasa, hech bo‘lmaganda raqib yor bilan musohib bo‘lmasa edi”,- degan ma’no kelib chiqadi. Fikrimizcha, tatabbu’-g‘azal matla’sining mazmunini quyidagicha ifodalash mumkin: “Yor bilan musohib bo‘lish kishiga (oshiqqa) xush kayfiyat, farah bag‘ishlaydi. Qani edi raqib yor bilan hech qachon musohib bo‘lmasa”. Tatabbu’ g‘azalning ikkinchi baytida oshiq o‘z boshiga tushgan ofatlar yor va ag‘yorning musohibligi, do‘stlashganining oqibati, natijasi ekanligini aytadi. Yor ag‘yor bilan musohib bo‘lmaganida edi, oshiqning boshiga buncha balolar tushmas edi.

Bulbul boshig‘a kelmas edi muncha balolar,

Gar bo‘lmasa erdi gul ila xor musohib. [Нисорий, 1993:46].

Baytda istiora, tamsil va tashxis san’atlari uyg‘unlashib teran mazmun va voqealar tizmasini mujassamlantirgan.

Chindan ham oshiq ma’shuqiga musohib bo‘lishi mumkinmi? Yo‘q. Ma’shuqaga musohib bo‘lish oshiqning ishi emas. Oshiqning musohibi – hijron, alam, g‘am, anduh...Azaliy qismat bu:

Yo rab ne balodur bu ki hijron alamidin,

Bormen g‘amu anduh ila, ey yor musohib [Нисорий, 1993:46].

Bag‘ri kuygan oshiq ko‘p kishilar bilan musohib bo‘lgan. Lekin ma’shuqaning ko‘chasidagi it kabi vafodor musohibni topa olmagan:

Ko‘yung itidek yori vafodor topilmas,

Ko‘rdum meni dil suxta bisyor musohib [Нисорий, 1993:46].

Aslida mazkur bayt maqta’dagi xulosaga o‘tish uchun ko‘prikdir. Ishq maskani–ko‘ngil.Oshiqni betoqatu beqaror qilib ma’shuqa bilan musohib bo‘lishga undayotgan ham shu ko‘ngildir. Yorga musohib bo‘lish yoki bo‘lmaslikda oshiqning ixtiyori o‘zida emas.Uning jilovi telba ko‘nglining qo‘lida. Agar ma’shuqa musohib bo‘lishga rozi bo‘lmasa, inon-ixtiyori telba ko‘ngilning hukmida bo‘lgan oshiqning holi ne kechadi? Fikrimizcha shoh-shoir Aziziy o‘zida ilhom qo‘zg‘agan g‘azaldagi g‘oyani takmilga yetkaza olgan. G‘azal mutolaasi davomida tatabbu’-g‘azal muallifining voqelikka o‘z tafakkuri va nuqtayi nazari bilan nigoh tashlashga qodir ijodkor ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

Tarixdan ma’lumki, otasi Ubaydullaxon vafotidan keyin (1540) Buxoro taxtiga o‘tirgan Abdulazizxonning hayoti mo‘tadil kechmagan. Yosh xon ko‘p sargardonliklarni, notinch kunlarni boshdan kechirgan. Samarqand hukmdori Abdullatifxon uni bosh xon sifatida tan olmagan. Mamlakatda ikki hokimiyatchilik boshlangan. Abdullatifxon bilan Toshkent hokimi Navro‘z Ahmad ittifoq tuzib, Buxoro ustiga qo‘shin tortadilar. Abdulazizxon Balxga chekinishga majbur bo‘ladi. Keyinchalik jo‘ybor shayxlarining qo‘llab-quvvatlashi bilan Buxoro saltanati yana unga nasib etadi.

Xonlik faoliyati toju-taxt janglari olovi ichida kechgan bo‘lsa-da, qator bunyodkorlik ishlarini amalga oshira olgan. Abdulazizxonning xulqi ustozlariga, olimu fozilu shoirlarga munosabati haqida hayotiy dalillar keltirib, shoh-shoir ijodidan ayrim namunalarni o‘quvchilar hukmiga havola etgan Hasanxoja Nisoriy uning obodonchilik sohasidagi ishlarini ham e’tibordan soqit qilmagan: “Bu xon davlati zamonida to‘s-to‘polonlar ko‘p bo‘lganiga qaramay sa’lim ta’bi mamlakat obodligi va yurt qurilishiga kirishib, oliy imoratlar barpo etdi. Hazrat qutbul-abror xojayi buzrukvorning xonaqoh va xatiraasi shular jumlasidankim, bag‘oyat xush va dilkash barpo etilmish” [Нисорий, 1993:46]. **“Muzakkiri ahbob” muallifi Abdulazizxon qurdirgan Hazrat Bahouddin Naqshband xonaqohini ta’riflab qasida yozgan.** Qasida matla’si tazkirada keltirilgan. Xonaqoh qurib bitkazilgan sana (951/1544) o‘z ifodasini topgan ta’rix she’r ham Hasanxoja Nisoriy tomonidan yozilgan. Uning matni “Muallif ta’rixi” sarlavhasi ostida “Muzakkiri ahbob”da to‘liq keltirilgan. Hasanxoja Nisoriy

talqinicha, Hazrat Bahouddin xonaqohi oldida osmonning to‘qqiz tabaqasi, misoli yer osmon ostida turgani kabi pastdir:

Hast no‘h toqi falak dar janbi o‘,
Past chun go‘i zamin zeri falak.
“Lafzo va ma’ni” torixi u,
Soli hijrat nuhsadu panjohu yak. (951-1544) [Нисорий, 1993:46].

Mavjud tadqiqotlarda jahongir Amir Temur va temuriylar davrida xattotlik va musavvirlik san’atining rivoji va uning atoqli namoyandalari haqida maroqli lavhalar keltiriladi. Milliy madaniyatimizning shu va shu kabi turli sohalari xususida mulohaza yuritilganda boshqa sulola vakillarining ma’naviyatmiz xirmoniga qo‘shgan hissasi yetarli yoritilmay keladi. Ayni ta’kid shayboniylar sulolasiga ham daxldordir.

“Muzakkiri ahbob” eslatilgan bo‘shliqni to‘ldirishda ham nodir manbadir: “Va xonning (Abdulazizxonning-Sh.H.M.M) bir kitobxonasi bor edikim, o‘sha paytda yer yuzida unga o‘xshash kitobxona bo‘lganmi, yo‘qmi, bilmadik. Bu kutubxona kotiblarning podshosi Amir Ali Husayniy edikim, nasta’liq yozuvini bitishda tengi yo‘q edi” [Нисорий, 1993:46-47]. Mazkur satrlar Boysung‘ur Mirzo boshida turgan Hirot matnshunoslik maktabi va unda kitobat ishlarining g‘oyatda yuksak pog‘onaga ko‘tarilganligini tadqiqotchi xotirasida tiklaydi. “Muzakkiri ahbob” dan ko‘chirilgan iqtibosdan ayon bo‘ladiki, **temuriylar kitobiga yozilgan bitiklarni shayboniylar daftaridan ham topish mumkin. Abdulazizxon kutubxonasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan “Muzakkiri ahbob” muallifi** qalbida mavj urgan ehtirosni o‘quvchi-avlodlardan yashira olmagan. Tasavvur olamiga sig‘magan jozibani kitobiga ko‘chirib qoldirgan. Sulton Husayn Boyqaro kutubxonasining raisi ustod Behzod (Navoiy) bo‘lganidek, Abdulazizxon kutubxonasini “Kotiblar podshosi” (Nisoriy) Amir Ali Husayniy boshqargan. Nisoriy talqinicha, Amir Ali Husayniyning “rayhon xati” o‘quvchining ko‘zidan g‘uborni ketkizib, unga ravshanlik bag‘ishlaydi. Xonning kitobxonasidagi boshqa kotiblar esa tiniq xatlari bilan Xizr payg‘ambar tiriklik suvini topgan zulumotda oq qog‘oz yuziga hayot zilolini oqizganday bo‘ladilar. Muzahhib va musavvirlari esa: qil asboblari uchi bilan yuz-ko‘zga chunonam bezaku pardoz berardilarki, ularning bu chehra ochuvchilik hunarida qil uchicha nuqsonlari ko‘rinmaydi” [Нисорий, 1993:46]. “Muzakkiri ahbob” muallifi keyingi jumlalarda xon kitobxonasi kitobdori Sulton Mirak Munshiyning husnixat va naqqoshlik ilmi va amaliyotini mukammal egallaganini aytib, vasf etadi. Kitobdor sha’niga bayt keltiradi.

“Muzakkiri ahbob” tarjimoni Ismoil Bekjon “Nafoisul-maosir” kitobiga tayanib ma’lumot berishicha, Abdulazizxon Xurosonga harbiy yurishlarning birida Sulton Husayn Boyqaro kutubxonasini ko‘rgan va o‘z kitobxonasini o‘sha tarhda qurgan. Matnshunos Hamid Sulaymon Abdulazizxon kitobxonasining Angliya va Fransiyada saqlanayotgan namunalarini aniqlagan.

Yuqorida qiyosiy-tipologik tahlillar asosida ochib berilganidek, Abdulaziz Bahodirxon Komron Mirzoning o‘zbek va fors-tojik tilida bitilgan g‘azallariga tatabbu’ bog‘lagan.U har ikki tilda bitgan g‘azallarida ham Aziziy taxallusini qo‘llagan.

Shoh-shoir Aziziy boburiy ijodkorning (Komron Mirzo) qalbini zabt etgan baytlaridan ta’sirlanib o‘zining ijodiy qobiliyatini to‘la namoyon qila olgan.Voqeylikka o‘z tafakkuri, o‘z nuqtayi nazari bilan qarashga qodir shoir ekanligini isbotlagan.

Aziziy tatabbu’lari haqiqiy so‘z san’ati namunasi sifatida taassurot qoldiradi. Abdulazizxonning o‘ziga xos shoirona zavq sohibi ekanligini namoyon etadi. Qiyosiy – tipologik tahlil ko‘zgusida tatabbu’-g‘azallar muallifining voqelikka o‘z tafakkuri va o‘z nuqtayi nazari bilan nigoh tashlashga qodir ijodkor ekanligi aniq va tiniq nazarga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (Писменные памятники). – Ташкент: Фан, 1985.

2. Адабиёт назарияси. Икки томлик 1-том. – Тошкент: Фан, 1979.
3. Адабиёт назарияси. Икки томлик 2-том. – Тошкент: Фан, 1979.
4. Адабиётшунослик энциклопедияси (Тузувчи Ҳ.Болтабоев). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2015.
5. Бекчанов.И. Мутрибий тазкиралари муҳим адабий манба (“Тазкират уш- шуаро “Нусхаи зебои жаҳонгир”. XVI аср иккинчи ярми – XVII асрн биринчи чораги) – Тошкент : Мумтоз сўз , 2009.
6. Брагинский И.С. К изучению узбекско-таджикских литературных связей. В кн. “Взаимосвязи литератур Востока и Запада”. – М.: изд. ИВЛ, 1961.
7. Нисорий Ҳ. Музаккири аҳбоб. Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. –Тошкент: Халқ мероси, 1993.
8. Фарҳанги забони тожики. Иборат аз ду жилд. Жилди 1. Москва: нашриёти Советская энциклопедия, 1969.
9. Фарҳанги забони тожики. Иборат аз ду жилд. Жилди 2. – Москва: нашриёти Советская энциклопедия, 1969.
10. Ҳусайний, Атоуллоҳ. Бадойиъус-санойиъ. – Тошкент: Ғ.Ғафур номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.

YAQINIYNING “O‘Q VA YOY ORASINDA MUNOZARA” ASARINING G‘OYAVIY-BADIIY MOHIYATI

Qodirjon Ergashev,
O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
institutining yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Maqola Yaqiniyning “O‘q va Yoy orasinda munozara” asarining g‘oyaviy-badiiy mohiyatini yoritishga bag‘ishlangan. Muallif asar g‘oya va mazmunini ifodalashda asosiy rol o‘ynovchi O‘q va Yoy obrazlariga, ularning adabiyotga kirib kelishi, timsol sifatidagi mohiyati kabi masalalarga, shuningdek, Kerish va Zihgir obrazlariga to‘xtaladi va bunda oldingi tadqiqotlarda bildirilgan fikrlarga tanqidiy yondashadi va o‘z qarashlarini oldinga suradi.

Kalit so‘zlar: *munozara, O‘q, Yoy, antogonistik kuchlar. egrilik, to‘g‘rilik, an’ana, ta’sir.*

Abstract

The article is devoted to the ideological and artistic essence of Yakini’s work “The Debate Between the Arrow and the Bow”. The author dwells on the images of the Arrow and the Bow, which play a key role in expressing the idea and content of the work, issues such as their introduction into literature, their essence as symbols, as well as the images of Kerish and Zikhgir, and in this he critically approaches the ideas expressed in previous studies and puts forward his own views.

Keywords: *debate, Arrow, Bow, antagonistic forces. curvature, straightness, tradition, influence.*

Munozara janrining yorqin bir namunasi Yaqiniyning “O‘q va Yoy orasinda munozara” asaridir. Yaqiniy haqida Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasida qisqagina ma’lumot mavjud. Navoiy uni tazkiraning ikkinchi majlisida, ya’ni o‘zi yoshligida ko‘rgan va uchrashgan adiblar sirasida tilga olgan. Shoirning yozishicha, Yaqiniy o‘zbek va fors tillarida ijod qilgan. Tazkirada uning bir o‘zbekcha va bir forscha bayti keltirilgan. Navoiy uning tabiatiga xos bir xususiyatni qayd etadi va “Tundroq mashrablik kishi edi” deb yozadi. Ayni paytda u Yaqiniyning umrining oxirida “beadab so‘zlardan tavba qilib, ahli saloh tariqida” ketganini alohida ta’kidlaydi [Навоий, 2011:332]. Yaqiniyning munozara yozgani haqida Navoiy hech narsa demagan. Yaqiniy nomini u “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ham tilga olgan va amir Temur zamonidan Shohrux Sulton davrining oxirigacha yetishib chiqqan shoirlar qatorida sanab o‘tgan [Навоий, 2011:534].

E.Rustamov “Muhokamat ul-lug‘atayn”ning birinchi va ikkinchi majlislarida tilga olingan ikki Yaqiniy haqida yozadi. M. Abduvohidova ham shu fikrni takrorlaydi hamda “O‘q va Yoy” munozarasining mazmuniga qaraganda bu asarning muallifi “Birinchi majlis”da qayd etilgan Yaqiniy bo‘lsa kerak” deb yozadi”. Aslida esa “Majolis”da faqat bitta Yaqiniy haqida ma’lumot berilgan va u tazkiraning ikkinchi majlisidadir.

“O‘q va Yoy” munozarasi hajm jihatdan kichik bo‘lsa-da, g‘oyaviy-badiiy mazmunining zalvorli ekani bilan ajralib turadi, zero unda jamiyat hayotining barcha davr va zamonlarda muhim o‘rin tutib kelgan o‘zak masalasi – to‘g‘rilik va egrilik, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash qalamga olingan. Adibning bunday mavzuga murojaat qilishi va o‘q va yoy munozarasining adabiyotga olib kirilishi Yaqiniyning ham, o‘sha davr o‘zbek adabiyotining ham katta yutug‘i edi. Bu mavzuning adabiyotda yangiligini, o‘ziga qadar hech kim bu mavzuda asar yozmaganligini Yaqiniyning o‘zi ham ta’kidlagan va asar muqaddimasida shunday yozgan: “Bu kunga tegru hech kimarsa turkiy tilning javharin va forsiy tilning gavharin tarkib qilib, o‘q yoyning orasinda munozara tartib qilmaydurki, bu vajhdin olamda andin nishonaye qolg‘ay deb”.

Yaqiniy munozarasini tadqiq etgan olimlar o‘q va yoy obrazlarining adabiyotda paydo bo‘lishi haqida so‘z yuritar ekan, O‘g‘izxon bilan bog‘liq qadimgi turkiy rivoyatlarga, ulardagi o‘q-yoy

bilan bog‘liq epizodlarga e’tibor qaratadilar. Eng asosiysi, ular mazkur rivoyatlarning Yaqiniy munozarasining yaratilishiga ta’siri bo‘lganligini ko‘rsatishga urinadilar. Jumladan, E. Rustamov rivoyatlarga batafsil to‘xtalgan va ular bilan “O‘q va Yoy munozarasi” o‘rtasida bog‘liqlik borligini ko‘rsatishga harakat qilgan [Хайтметов, 1987:199-201]. Xuddi shunday holni M.Abduvohidovaning “O‘zbek adabiyotida munozara” kitobida ham ko‘ramiz [Abduvohidova, 1984:56-60]. O‘g‘izxon haqidagi rivoyatlarda o‘q-yoy bilan bog‘liq epizodlarning borligi, bu rivoyatlar turkiy xalqlar orasida keng tarqalgani, “O‘g‘iznoma”lardan, Rashididdin, Abulg‘oziy singari adiblar qalamlariga mansub tarixiy manbalardan o‘rin olgani to‘g‘ri. Lekin munozarani ular bilan bog‘lashda, xususan, ularning Yaqiniy asariga ta’siri bo‘lganini ko‘rsatishga qaratilgan urinishlarda zo‘rama-zo‘rakilik ko‘zga tashlanadi. Buni rivoyatlar va munozaraning, ulardagi o‘q va yoy timsollarining butunlay boshqa-boshqa mazmun va g‘oyani ifodalashlarida ko‘rish mumkin.

O‘g‘izxon haqidagi rivoyatlarda o‘q va yoy ishtirokidagi epizodlar vorislik masalasi bilan bog‘liq. Juda katta hududlarni istilo qilgan O‘g‘izxon Shom mamlakatida turganda bir no‘karini yashirincha o‘z oldiga chaqirib, uning qo‘liga bir oltin yoy va uchta o‘q beradi hamda yoyni kunchiqar tomondagi cho‘lga, o‘qlarni kunbotar tomonga bir uchi ko‘rinib turgan holda ko‘mib kelishni buyuradi. Bundan maqsad o‘zidan keyin taxtni kimga qoldirish, o‘g‘illari o‘rtasida hokimiyatni qay tarzda taqsimlash masalasini hal etish edi. Buni o‘z istagicha, farmon chiqrish yo‘li bilan hal qilish o‘g‘illarining noroziligiga, kelishmovchilik va nizolarga sabab bo‘lishi mumkin edi. Shu sababli u qadimgi turkiylarning yoyning hukmdorlik, o‘qning elchilik ramzi ekani haqidagi tasavvurlardan foydalanishga qaror qiladi va no‘kariga yuqoridagi topshiriqni beradi. So‘ngra o‘g‘illarini ov qilishga yuboradi. Ov vaqtida Kunxon boshliq uch o‘g‘il yoyni, qolgan uch o‘g‘il o‘qni topib oladilar va otalariga keltiradilar. O‘g‘izxon bu Tangrining irodasi bilan bo‘lganini aytadi va o‘zidan keyin taxtga Kunxon o‘tirishi, u bilan yoyni topib kelgan ikki o‘g‘il uning o‘ng tomonida, o‘qni topib kelgan uch o‘g‘ilning so‘l tomonda o‘tirishi haqidagi qarorini e’lon qiladi. Bu qaror turklarning o‘q va yoy haqidagi yuqorida aytib o‘tilgan tasavvurlari bilan mosligi, shuningdek, yuqoridagi voqeani Tangrining irodasi deb talqin etilishi tufayli o‘g‘illarda norozilik uyg‘otmaydi.

Ko‘rib turganimizdek, bu o‘rinda O‘q va Yoy vorislik va hokimiyat masalasini ziddiyatlarsiz, tinch yo‘l bilan hal etishda vosita bo‘lib xizmat qiladi, murosa va modaroni ta’minlaydi. Yaqiniy munozarasida esa O‘q va Yoy ikki qarama-qarshi, antagonistik kuchlar – to‘g‘rilik va egrilikni tajassum etadi, O‘q to‘g‘rilikning, Yoy esa egrilikning ramzi o‘laroq namoyon bo‘ladi va ular o‘rtasidagi munozara bu ikki kuch orasidagi murosasiz kurashni aks ettiradi. Aynan mana shu hol Yaqiniy asarining ahamiyatini, originalligini belgilab beradi.

Albatta, “O‘q va Yoy munozarasi”ning yaratilishida, badiiy xususiyatlari, tili va uslubida sharq adabiyotida shakllangan an’analar muhim rol o‘ynagan, xususan, Yaqiniyga qadar yaratilgan asarlarning ta’siri yaqqol seziladi. Bunda eng katta ta’sirni Amiriyning “Bang va chog‘ir orasinda munozara” asari ko‘rsatgan. Yaqiniy asarining shakli, muallif qo‘llagan usullar, bayon tarzi shundan dalolat beradi. Jumladan, muqaddimada muallifning mazkur munozaraning yaratilishi haqida bitgan so‘zlari Amiriy asari muqaddimasidagi quyidagi so‘zlar bilan hamohangdir: “furs uslubi bilan turk alfozini tarkib etib munozara tartib qilg‘ilkim, bu choqqa tegru hech (kim) ersa bu tavrning uhdasidin chiqmay turur”. “O‘q va Yoy munozarasi” bir nechta mergan, botir yigitlarning majlis qurgani va ularning davrasiga Turkiston tomondan bir yigit va cholning kelib qo‘shilishi bilan boshlansa, Amiriy asari muallifning sayrga chiqishi hamda bir nechta hamsuhbatlar o‘tirgan davraga kelib qolishi bayoni bilan boshlanadi. Bundan tashqari har ikki asarda mualliflar qo‘llagan usullarning bir xilligini ham ta’kidlab o‘tish zarur. “Bang va Chog‘ir orasinda munozara”da personajlar o‘z afzalliklari va xosiyatlarini ko‘rsatish maqsadida she’riyatga murojaat qiladilar, may vasfida yoki bang ta’rifida bitilgan she’rlarni keltiradilar. Yaqiniy asarida ham shu usuldan foydalanilganini ko‘ramiz: O‘q o‘z fikrlarini dalillash uchun turli shoirlar devonlaridan o‘q ta’rifida aytilgan misra va baytlarni o‘qiydi,

Yoy o‘zi bilan bog‘liq she’rlarni keltiradi va o‘zining O‘qdan ustunligini isbotlashga urinadi. Amiriy asarida Qur’on oyatlariga ham ishoralar bor. “O‘q va yoy munozarasi”da ham bir o‘rinda shunday ishora mavjud. Unda Yoy shunday deydi: “ Base men ul sohibi sirmenkim Tengri taborak va taolo jalla jalolahu va habibi orasinda – alayhissalom – mendin o‘zga kishi mahram emas edi...”. Bunda “Najm” surasining to‘qqizinchi oyati ko‘zda tutilgan. Oyat mazmuni Muhammad as.ning me’rojga ko‘tarilishi bilan bog‘liq. Oyatning o‘zbekchaga tarjimasi quyidagichadir: “Bas, (Muhammadga) ikki kamon oralig‘idek yoki (undan ham) yaqinroq bo‘ldi” [Qur’oni karim, 2007:526].

“O‘q va Yoy munozara”sida ikki tomonning bahs va tortishuvi jarayoni mahorat bilan tasvirlangan. Har ikki personajning – O‘qning ham, Yoyning ham qiyofalari, ularga xos xususiyatlar ana shu jarayonda namyon bo‘ladi va ularning o‘z tillaridan aytilgan so‘zlar vositasida ochilib boradi. Yaqiniyning adib sifatidagi iqtidori va iste’dodi asar tilida, xususan, personajlarning nutqlarida yaqqol ko‘rinadi. Bunda, ayniqsa, O‘q va Yoyning o‘zlariga xos har bir xususiyatni qanday talqin etishi va undan o‘z maqsadi yo‘lida foydalanishini kuzatish maroqlidir. Masalan, Yoy o‘z shaklining egriligini doimo ruku’da (ruku’ – nomoz vaqtidagi holat) ekanligi bilan izohlaydi va o‘zini taqvodor qilib ko‘rsatishga urinadi: “Yana ibodat tariqinda maloyikadek avvali umrumdin oxirg‘a degru ruku’dadurmen va taqvo tavrida aksari avqot chilladadurmen”. Yoychilar yoy otishda uning ipini tortadilar. Yoy buni o‘zining tahammul (sabr, chidam, andisha) bobida tengsizligini isbotlovchi dalil sifatida qayd etadi: “Yana tahammul bobida aningdekturmenkim, yoychilar qarnlar singirimni tortadilar, ichimda asrab kishiga dardi dil qilmadim”.

Bundan tashqari u o‘ziga niyozmandlik, fidoiylik kabi sifatlarni nisbat beradi: “Yana niyozmandliqta yaxshi yomong‘a quloq tutarmen, har necha menga quloq tutmaslar... Yana bahodurliq maydonida har kimning qurumsog‘ida bo‘lsam, o‘zumni qurbon qilayin dermen”.

O‘q Yoyning asossiz da’volarini rad etadi, uning egrligini, qo‘rqoqligini fosh qiladi: “Uyolmay bahodurluq taloshursan. Base ul emasmusenkim, g‘azo kuni sanchishqoli bahodirlar olinda manglay chiqsam, sen qo‘rqunchtin sarg‘arib, tus orasinda yoshunursen...”. O‘q Yoyning o‘zini maqtab aytgan so‘zlariga va keltirgan dalillariga e’tiroz bildirganidek, Yoy ham o‘qning o‘zi haqida bildirgan fikrlarini inkor qiladi, uni qoralashga urinadi, jumladan, o‘g‘rilar bilan hamsuhbat bo‘lishda, g‘ayratsizlik va himmatsizlikda ayblaydi: “Base o‘g‘rilar bilan hamsuhbatliq qilg‘on uchun bargi nay to‘nungni so‘yub, ichingni yordilar. Ey xokiyi xoksor, necha o‘zungni ranj tutarsen, ey g‘ayratsiz, bir boshoq uchun har butaning tubinda xo‘shachinlardek tufroqqa botib, xirmaningni yelga berursen”.

Kamon otilganda o‘q yoydan uchib chiqadi. Yoy buni ham o‘z foydasiga burib talqin qiladi O‘qning uning uyidan qochib ketganini aytadi. Mana shu o‘rinda O‘qning Yoyga javoban aytganlari, yomonlik va yaxshilik, egrilik va to‘g‘rilikning hech qachon, hech qayerda birga bo‘la olmasligi, ular orasida hech qanday yaqinlikning bo‘lishi mumkin emasligi haqidagi so‘zlari, bu so‘zlarni tasdiqlash maqsadida keltirilgan forsiy ruboiy asarning asosiy g‘oyaviy mazmunini ifoda eta oladi. O‘qning asosli va haqli so‘zlariga chiday olmagan Yoy Kerishga (nashrlarda bu so‘zning Girish tarzida berilishi to‘g‘ri emas) murojaat etadi va ikki o‘rtada hakam bo‘lishni so‘raydi. So‘z orasida u uzoq yillardan beri Zihgir bilan birgalikda Kerishning xizmatida ekanligini pisanda qiladi. Kerish Zihgir bilan kelishib, Kerishning gumashtasi va Zihgirning hamtovog‘i bo‘lgan Yoyning yonini olishga va O‘qni jazolashga qaror beradilar. Shu maqsadda uni o‘z huzurlariga chorlaydilar. O‘q Yoyning egriligini, xiyonatkorligini yaxshi bilsa-da, Kerish bilan Zihgirni o‘zi kabi to‘g‘ri va halol deb o‘ylar edi. Shu sababli hech bir xavotirsiz ularning oldiga boradi va makkorlik hamda nohaqlikning qurboni bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, asarning bunday yakun topishi kutilmagan yoki g‘ayritabiiy emas, aksincha mantiqiy asosga ega, zero, yuqorida aytilganidek, Yaqiniy asarida ikki antagonistik kuch – to‘g‘rilik va egrilik o‘rtasidagi kurash tasvirlangan. Bu ikki kuch o‘rtasida murosa, kompromiss bo‘lishi mumkin emas, birobarin, kurash faqat ulardan biri ikkinchisini mahv qilishi bilangina yakun topishi mumkin. Shu sababli “O‘q va Yoy munozarasi”da o‘q mahv etiladi. Yaqiniyning

mag‘lub tomon sifatida o‘qni tasvirlashi ham bejiz bo‘lmay, hayot haqiqatining aks-sadosidir, zero tarix shundan xabar beradiki, jamiyatda to‘g‘rilik va egrilik, haq va nohaqlik o‘rtasida bo‘lib o‘tgan kurashlar aksariyat egrilikning, nohaqlikning g‘alabasi bilan tugagan. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida Anvar tilidan aytilgan “Haqning haqsizlikka g‘olib kelganini og‘izda eshitsam ham, shu choqqacha amalda ko‘rmadim” degan so‘zlarda ham ana shu achchiq haqiqat o‘z ifodasini topgan [Qodiriy, 2017:45].

Va nihoyat, yana bir masalaga ham to‘xtalib o‘tish joiz. Asarda tasvirlangan salbiy obrazlar – Kerish va Zihgirni tadqiqotchilar temuriylar timsoli deb tushunganlar va shundan kelib chiqib temuriylar zamonida xallqa nisbatan qilingan zulm va adolatsizlik haqida so‘z yuritib, Yaqiniy o‘z munozarasida ularni fosh qilgani haqida yozganlar [O‘zbek adabiyoti tarixi, 1977:321]. Bunda ularga asarda Kerishga nisbatan qo‘llangan barlos so‘zi dastak bo‘lgan. Munozarada Yoy Kerishga shunday murojaat qiladi: “Yillardurkim, Zihgir bila birga bosh qo‘shub, seni barlos deb xizmatingg‘a turubturbiz”. Bu o‘rinda barlos so‘zini asl ma’nosida tushunish shart emas, Yoyning “Seni barlos deb xizmatingg‘a turubturmiz” degan so‘zlari “Seni o‘zimizga boshliq va hokim bilib, xizmatingni qilyapmiz” degan ma’noni anglatadi. Asarda tasvirlangan Kerish o‘sha davrdagi barcha adolatsiz, zolim va xiyonatkor amaldorlar, mansab egalari va harbiy aristokratiya vakillarining umumlashma majoziy obrazidir. Yoyni ham, tadqiqotchilar yozganidek, “temuriylar va tarxonlarning xizmatkori, harbiy yurish va urushlar hisobiga boyigan hukmronlar obrazi” sifatida emas, umuman, egrilik va qing‘irlikning, nohaqlik va adolatsizlikning timsoli deb talqin etish haqiqatga yaqinroqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 9-жилд. – Т.: Фан,, 2011. – Б. 332.
2. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. Тўла асарлар тўплами. 10-жилд. – Т.: Фан, 2011. – Б.534.
3. Хаитметов А. История узбекской литературы в 2-х томах. Том 1. – Тошкент: Фан, 1987. – С.199-201.
4. Абдувоҳидова М. Ўзбек адабиётида мунозара. – Т.: Фан, 1984. – Б.56-60.
5. Қуръон карим маъноларининг таржима ва тафсири. – Тошкент, 2007. – Б. 526.
6. Абдулла Қодирий. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2017. – Б. 45.
7. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 1-том. – Т., 1977. – Б. 321.

OGAHIY SHE'RIYATIDA DUNYO OBRAZI

G'ayipov Dilshod Qadambayevich,
filologiya fanlari doktori, professor,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
Filologiya va san'at fakulteti dekani
e-mail: dilshod_gayipov@inbox.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiy she'riyatidagi dunyo obrazi xususida muxtasar so'z yuritiladi. Dunyo obrazining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Mazkur obraz ifodasidagi shoirning badiiy mahorati ham ochib beriladi. Shuningdek, Ogahiy talqinidagi dunyo obrazining Navoiy, Nodira ijodidagi shu obrazdan mushtarak va farqli tomonlari tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: *Ogahiy, she'riyat, dunyo, obraz, badiiyat, talqin, mahorat, o'ziga xoslik.*

Abstract

This article briefly discusses the image of the world in the poetry of Muhammad Riza Ogahiy. The ideological and artistic features of the image of the world are studied. The poet's artistic skill in expressing this image is also revealed. Also, the common and different aspects of the image of the world in Ogahiy's interpretation from this image in the works of Navoi and Nodira are shown.

Keywords: *Ogahiy, poetry, world, image, artistry, interpretation, skill, originality.*

O'zbek mumtoz adabiyotida dunyo obrazi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Tadqiqotchi M.Ibragimovaning "O'zbek mumtoz adabiyotida dunyo obrazi va uning badiiy talqini (qadimgi davrdan XV asrning I yarmigacha)" [Ibragimova, 2023] nomli dissertatsiyasi to'laligicha bu obraz talqiniga bag'ishlangan. XV asrning II yarmidan keyingi davr mumtoz adabiyotimizdagi dunyo obrazi borasida ham oz bo'lsa-da izlanishlar olib borilgan. Umuman, mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodi xususida gap ketganida, ular ijodidagi dunyo obrazining g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga u yoki bu darajada munosabat bildiriladi. Taniqli adabiyotshunos Nurboy Jabborov Alisher Navoiy asarlaridagi dunyo obraziga to'xtalar ekan, shunday yozgan edi: "Alisher Navoiy asarlarida dunyo timsoli ikki xil ma'noda qo'llangani kuzatiladi: 1) inson yashab turgan dunyo; 2) odamzodni ma'rifatdan to'suvchi parda. Hazrat Navoiy asarlari uchun ilmiy-ma'rifiy asos vazifasini o'tagan ilohiy manba - Qur'oni karimda va muborak hadislarda ham "dunyo" tushunchasi ana shu ikki ma'noda zikr etilgan. Alisher Navoiyning "dunyo" tushunchasiga yondashuv konsepsiyasi ushbu ikki mo'tabar manbaga asoslanadi [Jabborov, 2021:74]. Biz Muhammad Rizo Ogahiy asarlaridagi dunyo obrazi masalasini o'rganar ekanmiz, shoir ijodida ham dunyo obrazi yuqoridagi ikki ma'noda kelganiga guvoh bo'ldik. Ogahiy ham bu dunyoni odamlar yashab turgan maskan hamda ma'rifatdan to'suvchi pardaga qiyos etadi. U she'rlarida "dahr bog'i", "dahri dun", "dahr arusi", "dahr zoli", "dahri dunparvar" kabi tushunchalarni qo'llaydi. Shoir dahr, ya'ni dunyo bog'ini ta'riflar ekan, bu bog'ning gullarini rango-rang, dilni tortuvchi deya ataydi. Biroq bu gullarda mehr-u vafo hidi kamdan-kam topiladi, deya shikoyat etadi. Bu bilan dunyoning bevafoligiga ishora qiladi:

Dahr bog'i gullari rangin-u dilkashdur base,
Hayfkim, mehr-u vafo bo'yi erur noyob ongo [Ogahiy. 2014:33].

Ogahiy boshqa bir o'rinda "dahr fikri" tushunchasini qo'llaydi. Shoir ko'ngildan, qalbdan dahr fikrini chiqarib tashlashni uqtiradi. Uni butkul mahv qilish lozimligini ta'kidlaydi. Shundagina qalb halovatga erishishini, undan xavotirlar ketishini urg'ulaydi. Bir so'z bilan aytganda, qalb xotirjamligi undan dunyo fikrini, qutqusini chiqarib tashlashda, deydi shoir:

Dahr fikrini bilkul mahv qil ko'nguldinkim-

Xotir o'lmas osuda ketmayin xavotirlar [Ogahiy. 2014:110].

Ogahiy chinakam erlikning, yigitlikning belgisi ko'ngilni dahr kelini husniga bermaslikda deb biladi. Chunki, deydi shoir, dunyo kelini dilrabo, go'zal, biroq unda vafodan asar ham yo'q. Bu bilan Ogahiy dunyo ahlini olam kirdikorlariga aldanmaslikka da'vat qiladi. Shoir ta'kidlaganiday, olam go'zalliklari ko'zni yashnatadi, o'ziga maftun etadi, dilni o'rtaydi, lekin oradan vaqt o'tgach, u sarob ekanligi anglashiladi.

Nuktadon navoiyshunos N.Jabborov hazrat Navoiy baytlarini tahlil qilar ekan, quyidagicha sharhlagan edi: "Hazrat Navoiy dunyo asbobi-ashyolarini najosatga qiyoslagani bejiz emas. Zero, dunyo matohiga hirs qo'yish odamzodning ko'nglini qoraytiradi. Uning qalbida mol-dunyoga egalik qilish yo'lida hech qanday yomonlik va qabohatdan qaytmaslik hissini paydo qiladi. Buyuk bobokalonimiz insoniyatni ana shu illatdan saqlanishga chaqirish barobarida, o'zi hayotda bunga to'liq amal qilgani e'tiborga loyiqdir. Xondamir "Makorim ul-axloq"da ul zotning", "...hech qachon o'tkinchi mol-dunyoga bo'lgan qiziqish g'uborini o'zining himmat etagiga qo'ndirmagani"ni ta'kidlagani ulug' mutafakkirning so'zida o'zi aks etganidan, yozganlariga hayotda to'liq amal qilganidan dalolat beradi" [Jabborov, 2021:83]. Ogahiy badiiy ijodda Navoiy dahosidan qanchalik ta'sirlangan bo'lsa, hayotda ham u zotdan o'rnak olib yashadi. Garchi Ogahiy ham Xiva xonligida bosh miroblik qilgan bo'lsa-da, faqat el dard-u g'ami bilan kun kechirdi. Xalqning moddiy farovonligini istadi. O'zi katta mansabda bo'lsa-da, bir ko'lcha yersiz, mol-u dunyoga ko'ngil bermasdan umrguzaronlik qildi. Shoir yozadi:

Yer yuzida Ogahiy chun yo'q sanga bir ko'lcha yer,
Barcha umringda ne hosil aylasang miroblig' [Ogahiy. 2014:176].

Ogahiy - donishmand shoir. U dunyo ta'rifida turli-tuman ifoda usullarini qo'llaydi. Bir o'rinda "dahr fikri", boshqa bir o'rinda "dahr arusi" shaklida qo'llasa, boshqa bir g'azalida "jahon savdosi" ifodasini keltiradi. Bunda ham dahr savdosi xususida gap ketadi. Uning foydasi yo'qligini, bu savdoning faqat ziyoni bor ekanligini so'z o'yini orqali talqin qiladi:

Jahon savdosidin, ey kim, tilarsan sud topg'aysan,
Bu savdo sudi bilgilkim, ziyon o'ldi, ziyon o'ldi [Ogahiy. 2014:286].

Mumtoz adabiyotimizdagi dunyo obrazi haqida gap ketganda, bu obrazga har xil yondashuvni ko'ramiz. Bular orasida Mohlaroyim Nodiraning qarashlari o'zgachaligi bilan ajralib turadi. Shoira dahri dun haqida quyidagicha yozgan edi:

Kel, dahrni imtihon etib ket,
Sayri chamani jahon etib ket.
Bedardlaring jafolaridin,
Faryod etib, fig'on etib ket.
Dunyo chamanining bulbulisen,
Gul shoxida oshyon etib ket...
Maqsad na edi jahona kelding?
Kayfiyatini bayon etib ket [Nodira, 1992: 30].

Nodira dahrni, dunyoni imtihon etib ketishga, jahon chamanini sayr etib ketishga chaqiradi. Shoira shunchaki yashash kerak emas, deydi. U bu dunyoda maqsadsiz, ishqsiz yashayotganlarni, ahli johni "bedardlar" deb ataydi. Ularning jafolaridan faryod etib, fig'on etib yashashga chorlaydi. Nodira insonni dunyo gulzorining bulbuliga qiyos etadi. Uni gul shoxida oshiyon qurishini istaydi. "Maqsad na edi jahona kelding", deyishi esa butun insoniyatga so'roq ohangida yangraydi. Shunchaki yashama, kayfiyatini bayon etib ket, degan chorlovi esa odamzodni munosib yashashga undovidir.

Ogahiy "Bizki bu kun jahon aro kishvari farq shohimiz..." deb boshlanuvchi g'azalida yana ham o'ktamroq ko'rinadi. U ba'zi g'azallarida keltirilganidek, dunyoning bevafoligidan faqat hasrat qilib qolmaydi. O'zining himmati nihoyatda balandligini, hatto dunyo kelinchagi jilvasiga nigohi ham tushmasligini faxr bilan qalamga oladi:

Himmatimiz baland erur o‘ylaki, hech tushmagay,
Dahr dani arusining jilvasiga nigohimiz [Ogahiy. 2014:132].

Boshqa bir baytda esa dunyo bog‘i ishrati orzusidan Alloh marhamati forig‘ qilganidan shukrona keltiradi:

Bizni bu dahr bog‘ining ishrati orzusidin,
Shukrki, forig‘ aylamish marhamati ilohimiz [Ogahiy. 2014:133].

Ogahiy muxammaslarida ham dunyo haqidagi qarashlarini davom ettiradi. Ayniqsa, uning hazrat Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslarida dunyo xususidagi o‘y-fikrlari turli-tuman shaklda talqin etiladi. Navoiyning “Charx dard ahlig‘a...”deb boshlanuvchi g‘azaliga muxammas bog‘lar ekan, dunyoga nisbatan “gardun zoli”, “charx”, “dahr zoli” istilohlarini qo‘llaydiki, taxmisda ulug‘ ustodi fikrlarini rivojlantiradi, dahri dun haqidagi qarashlari mushtarakligini ko‘rsatadi:

Olam ahli ko‘rgusi ming zulm gardun zolidin,
Emin ermastur dame bir kimsa makr-u olidin,
Aytayin bir so‘z eshit ul shumning timsolidin,
Ajdaridur halqa urg‘an paysa kavkab holidin,
Juz ajal zahrini kom ondin topa olmas mazoq [Ogahiy, 2014:345].

Taxmisning barcha bandlarida dunyo kirdikorlari qalamga olinadi. Muxammasning uchinchi bandida dunyo devori, ustuni yo‘q binoga o‘xshatiladi. Aql ahli unda orom-u sukun istamasligini tasvir etadi. Charxni ishi qoralik bo‘lgan uyga qiyos qiladi, bunday uyda ittifoq bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Ogahiy taxmisning to‘rtinchi bandida ko‘k gunbazini suv uzra tushgan binoga muqoyasa qiladi. Uni “sarsari ofatdin” vayron bo‘lishini, ko‘z ochib yumguncha barbod bo‘lishini tasvirlaydi, bunda shoir nihoyatda haq ekanligini anglash mumkin.

Muxammasning oltinchi bandidagi talqinlar yana ham o‘ziga xos. Ogahiy dunyo kampiri o‘ziga hamisha ziynat berishini, u bilan juft bo‘lganlar boshiga yuz balolar kelishini, yetti do‘zax mehnatini olti jihatdan yetkazishini qalamga olsa, bu fikrlar Navoiyning “Umringda besh kun rohat istasang, dahr kampirini to‘rt mazhab bilan uch taloq qil” mazmunidagi baytiga mantiqan mos tushgan:

Dahr zolikim o‘ziga doimo ziynat berur,
Kimga juft o‘lsa, boshiga yuz balolar kelturur,
Yetti do‘zax mehnatin olti jihatdin yetkurur,
Istasang besh kun farog‘at garchi kobin umr erur,
Dahr zolin to‘rt mazhab birla qilg‘il uch taloq [Ogahiy. 2014:345].

Muxammasning yakunlovchi bandi ahli jahondan ko‘ngil uzish, foniy bo‘lish haqida. Bu bandda Navoiyning el nifoqini ko‘rmagin desang foniy bo‘l, chunki sen oradan chiqsang, ular kimga ham nifoq qila olardilar mazmunidagi fikrlariga Ogahiy dunyo ahlining yo‘li bevafolik sari yuzlangan, ular jahd bilan gina shamshiriga qo‘l cho‘zganlar, bas, jahon ahlidin men kabi ko‘ngil uzgil, deya qo‘shimcha qiladiki, band muxammasdagi umumiy fikrlarga tugallik bera olgan:

Ahli dunyokim angadur bevafolig‘ sori yo‘l,
Jahd ila urmish nifoq-u kina shamshirig‘a qo‘l,
Bas, uzub ahli jahondin Ogahiy yanglig‘ ko‘ngul,
El nifoqin ko‘rmayin desang, Navoiy, foniy o‘l,
Chunki san chiqsang arodin kimg‘a qilg‘aylar nifoq? [Ogahiy. 2014:346].

Har ikkala shoirning ahli dunyo haqidagi fikrlari boshqa bir ijod namunasida ham o‘z aksini topgan. Muxammasning bu bandini ahli dunyoga qaratilgan ikki ulug‘ donishmandning aybnomasi, deyish o‘rinli. Ushbu misralar shoirning qalb to‘ridan otilib chiqqan. Natijada, barcha zamonlarda ham zavol bilmaydigan badiiy topilmaga aylangan:

Ahli dunyokim erurlar odamilikdin yiroq,
Peshasi ozor-u minnat, odati kin-u nifoq,

Xushing o'lsa bu so'zimga sidq ila tutg'il quloq,
Bo'lmoq itlar mun'imi tan tu'ma aylab yaxshiroq,
Tanni qilg'uncha semuz nokaslar in'omi bila [Ogahiy. 2014:377].

Bu banddagi dastlabki ikki misraga atoqli adabiyotshunos Abdurashid Abdug'afurov shunday baho beradi: "...yovuzlikni bevosita qoralash, illatlarni to'g'ridan-to'g'ri o'z nomi bilan atash usuli ham Ogahiy she'riyatida ko'p uchraydi. Bunday namunalarda shoirning keskin noroziligi, salbiy baho-munosabati qat'iy hukm tarzida bitiladi". [Abdug'afurov, 1999:30]. Darhaqiqat, shunday.

Ogahiyning yana ko'plab asarlarida dunyo obrazi turli shakl va ifodada o'ziga xos tarzda tasvirlangan.

Xullas, Ogahiy dunyo obrazi talqinida umuminsoniy kamolot cho'qqisida turib fikr yuritgan. U ham Navoiy kabi odamzod yashab turgan makon, uni kamolotdan to'suvchi parda sifatida qalamga olgan. Dunyoparastlikni, ahli dunyoni qoralash orqali insoniyatni ma'nan ulug'likka chorlagan. Bu bilan jamiyatni ham taraqqiy etishini oliy maqsadlaridan biri deb bilgan. Ogahiy ijodidagi bu obrazning to'laqonli tadqiqi ogahiyshunosligimiz oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimova M. O'zbek mumtoz adabiyotida dunyo obrazi va uning badiiy talqini (qadimgi davrdan XV asrning I yarmigacha). Filol. fan. bo'yicha fals. doktori... diss. – Toshkent: 2023.
2. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B.74
3. Ogahiy. Ta'vizu-l-oshiqin. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2014. – B.33.
4. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 83.
5. Nodira. Ey sarvi ravon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1992. – B. 30.
6. A.Abdug'afurov. Ogahlar ogahi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. – B. 64.

МАХМУД КАШГАРИ, ЮСУФ ХОС ХАДЖИБ И ПЕРСИДСКО-ТАДЖИКСКАЯ ЛИТЕРАТУРА

Низомиддин Муродий,
доктор филологических наук, профессор кафедры Худжандского государственного Университета имени академика Б.Гафурова, Таджикистан

Annotatsiya

Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" hamda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlari turkiy xalqlar ma'naviy hayotida muhim mabalardan hisoblanadi. Maqolada bu asarlar faqat turkiyzabon xalqlar uchun emas, balki qadimiy sug'diylar hamda forsiy tilda so'zlashuvchi xalqlar madaniyati va adabiyotida ham o'ziga xos o'ringa ega ekanligiga e'tibor qaratildi. Ushbu asarlarni tadqiq etish turkiy xalqlar adabiyoti va madaniyatini o'rganish bilan birga, forsiy tilda so'zlashuvchi xalqlar adabiyotiga doir ayrim masalalarni baholashda hamda bahsli o'rinlarga oydinlik kiritishda yordam beradigan muhim manbalar ekanligi haqida fikr yuritildi.

***Kalit so'zlar**: Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib,"Devoni lug'otut turk", "Qutadg'u bilig", fors-tojik adabiyoti, o'zbek adabiyoti, uyg'ur adabiyoti.*

Abstract

Mahmud Kashgari's "Divan of Lugat-at-Turk" and Yusuf Khos Hajib's "Kutadgu Bilig" are not only ancient books of the Turkic nations but also important sources reflecting respect and a special commitment to the culture and literature of the Sogdians and Persian-speaking peoples. Research into such valuable works helps to elucidate the role and significance of Turkic literature and culture, as well as confirm important facts and resolve controversial issues in the literature and history of Persian-speaking peoples.

***Key words:** Mahmud Kashgari, Yusuf Khos Hajib, "Divan lugat-at-Turk", "Kutadgu bilig", Persian-Tajik literature, Uzbek literature, Uyghur literature.*

Тюркские народности считают «Диван лугат-ат-турк» одним из древнейших образцов своего письменного наследия. В действительности, «Диван лугат-ат-турк», что в переводе означает «Диван тюркских словарей» содержит важные свидетельства о влиянии персидско-таджикской литературы в Восточном Туркестане до монгольского нашествия. Данное произведение написано Махмудом ибн ал-Хусайн ибн Мухаммадом ал-Кашгари в XI веке, в Баласагуне – Хафтруде, который входил во владения Караханидов. В 1083 году произведение было преподнесено калифу Аббасидов Абулькасиму Абдаллаху ибн Мухаммаду Муктади. Подлинник произведения написан на арабском языке, что еще раз демонстрирует метод изложения науки в данный период. В нем приведено толкование более шести тысяч слов, входящих в древний словарный фонд тюркских племен.

Автор книги во время путешествий начиная от Китая до Мавераннахра и Хорезма, а также Ферганы и Бухары, в течение 15 лет анализируя разговорную речь народа, предоставил свой словарь в качестве введения в языкознание и фольклористику того периода. Книга также является уникальным источником в изучении стихотворных форм и поэтики XI века. Актуальность изучения данного произведения и его лингвистических и морфологических особенностей неоднократно подчеркивалась также и советскими востоковедами [Хасанов Х.Х., 1962 31–36].

Этот тюркский шедевр через несколько веков забвения был во второй раз «открыт» в начале XX века в Стамбуле. Единственная копия, которая сегодня переведена на другие языки мира, по свидетельству ее писаря Мухаммада ибн Абубакра Абульфатха Димишки, была переписана с рукописи самого Махмуда Кашгари, в 1266 году, в объеме 638 страниц [Маллаев, Н., 1980: 135–139].

О Махмуде Кашгари одним из первых сообщают Ходжи Халифа в «Кашф-аз-зунун» и египетский историк Бадриддин Айни. Из биографии автора «Диван лугат-ат-турк» следует, что он, после получения начального образования в «Мадраса Хамидия» Кашгара, занимался изучением наук в Самарканде и Бухаре, Нишапуре и Марве. Научную зрелость Кашгари считают результатом его приобщения к наследию ряда ученых, в том числе Халила ибн Ахмада, Ибн Джазари, Иса ас-Сакофи, Исмаила Джавхари, Мухаммада Хирави и других [Эркинов С., 1977: 7-15].

Однако, согласно сведениям известного арабского историка Ибн ал-Асира, Махмуд Кашгари был из рода Караханидов. Другими словами, его отец Хусайн ибн Мухаммад был внуком основоположника этой династии Сотука Багрохана-Карахана. Начальное образование получил от матери – Биби Робиа, одной из образованных женщин своего времени. Принадлежность к роду правителей предоставила ему возможность приобщения ко всем научно-культурным достижениям своего времени. Однако большая часть его жизни прошла в медресе Багдада, где он занимался преподавательской деятельностью. В последние годы жизни он возвращается на родину (1125–1127 гг.) и умирает в возрасте 97 лет (6).

Таким образом, Махмуд Кашгари еще в XI веке заложил основы сравнительного языкознания на Востоке. За несколько веков до формирования лингвистики в Европе и России мусульманские ученые обращали пристальное внимание к вопросам языкознания, в то время как лишь в XVII веке появились труды русского ученого М. Смотрицкого, англичанина Уоллеса и немца Шоттеля. В последующем, в XVIII–XIX вв. стали известны исследования М.В. Ломоносова, Ф. Шлегеля, Ф. Боппа, Р. Раска, Я. Гримма, Ф. Дица по морфологии и синтаксису языка [Эркинов С., 1977: 14].

Кашгари в своем трактате, наравне с классификацией тюркских языков в соответствии с племенами и особенностями диалекта, упоминает о двух группах племен, на которые персидско-таджикский язык оказал наибольшее влияние по сравнению с другими наречиями. Автор утверждает: «К одной из групп относятся жители городов Баласагун, Тароз, которые говорят на двух языках – согдийском и тюркском. Другая группа – это два племени: хутанские и тибетские» [Эркинов С., 1977: 12].

Заслуживает внимания и то, что Махмуд Кашгари в своем трактате при описании особенностей чигилских и уйгурских племен приводит сведения о завоеваниях Александра Македонского, а также рассказывает о том, что он говорил на таджикском (согдийском) языке [Эркинов С., 1977:161].

Посредством произведения Махмуда Кашгари еще раз подтверждаются сведения известного советского археолога А.Н. Берштама, по мнению которого в III–VIII веках большая группа согдийцев мигрировала в Хафтруд (Семиречье) и впоследствии составила коренное население данного региона. «Тех, кто в начале средних веков населял эту область, кашгарцы называют «сугдак». В XI веке жители городов Хафтруда, в том числе и города Баласагуна, перенимают обычаи и одежду тюрков, и разговаривают одновременно на согдийском и на тюркском языках. Начиная со второй половины XI века, происходит смешивание согдийцев Хафтруда с тюрками. Ввиду этого, в топонимике Хафтруда встречается множество согдийских имен и названий» [Маллаев, Н., 1963: 376].

Таким образом, «Диван лугат-ат-турк» Махмуда Кашгари является не только древней книгой тюркских наций, но важным источником, в котором отражены уважение и особая приверженность к культуре и литературе согдийцев и персоязычных народов. Исследование столь ценного произведения способствует как выявлению роли и значения тюркской литературы и культуры, так и подтверждению важных фактов и разрешению спорных моментов литературы и истории нашей нации.

Наравне с этим произведением следует упомянуть еще об одном тюркском шедевре, которое считается уйгурским классическим наследием. Это «Кутадгу билиг» – «Знания, приносящие благополучие», принадлежащее перу другого классика общетюркской литературы Юсуфа Хоса Хаджиба, написанное в 1069 году. Книга становилась объектом научных споров как европейских и советских востоковедов, так и тюркских и уйгурских ученых. В научных источниках Юсуфа Хоса Хаджиба (Юсуфа Балосагуни) представляют как поэта, ученого и государственного деятеля. Благодаря данному произведению автор был удостоен звания «Хаджиб», которое преимущественно использовалось в значении «уважаемый и приближенный двору» [Маллаев, Н., 1963:143]. Так как книга снискала одобрение придворных и правителя того времени Тавгача Багрохана, она приобрела статус руководства по политической и нравственной деятельности для придворных.

«Кутадгу билиг» написано на древнетюркском (уйгурском) языке, в течение 18 месяцев. Автор начал писать книгу в Баласагуне и завершил ее в Кашгаре. Произведение создано в период правления династии Караханидов, оно состоит из 73 глав и 6520 бейтов и является образцом уйгурской поэзии XI века. Одиннадцать глав книги посвящены обращению к богу и восхвалению пророка. В других главах приведены сведения, относящиеся к различным областям знания – географии и естествознания, истории и этнографии, медицины и астрономии, философии и филологии. Книга написана в простой и доступной манере и для своего времени считалась своеобразной энциклопедией.

Известны три древние списки книги. Один из них называют Венским списком, другой – Каирским и третий – Наманганским [Маллаев, Н., 1963:145]. Исследование и анализ этих копий начались после того, как они были обнаружены в XX веке, в Стамбуле. Обнаружение первого списка связано с деятельностью австрийского дипломата Иосифа фон Хаммера (17).

Списки Намангана и Каира, которые были созданы на арабской графике, переписаны в XIII-XIV вв. Венская рукопись в 1439 году была переписана на уйгурском алфавите гератским каллиграфом Хасаном Шамсом и в связи с этим его называют гератским списком [Содиков К., 2013: 22-27].

В данном тюркском шедевре в связи с персидско-таджикской литературой упоминается о любви и уважении персоязычных представителей науки к уйгурскому народу, и с точки зрения научной значимости книга является равноценной сочинению Махмуда Кашгари. По мнению исследователей, автор излагает медицинские сведения и философские взгляды на основе книг Абу Али ибн Сины.

В предисловии Юсуф Хос Хаджиб пишет:

Арабча, тожикча китоблар укуш
Бизнинг тилимизга бу юмги укуш.

Смысл бейта заключается в утверждении того, что чтение арабских и таджикских книг на тюркском языке является началом знаний [Маллаев, Н., 1963: 143].

Из предисловия в стихах можно узнать о славе «Кутадгу билиг» в те времена. Так, в частности говорится: «Китайцы называют ее «Адаб-ал-мулк», мочинцы – «Оин-ал-мамлакат», восточные жители – «Зайн-ал-умаро» и иранцы – «Тюркским Шахнаме», а некоторые именуют также «Пандномаи мулук» [Маллаев, Н., 1963:144-145].

В особенности, создание уйгурской поэмы в размере мутакориб свидетельствует о подражании автора бессмертному творению Фирдоуси. Так, к примеру, стопами его метра являются «фаулун фаулун фаулун фаул», и предположительно, в общетюркской литературе этот размер впервые был использован Хаджибом и продолжен его последователями:

Бугу баг ким арса биликка якин,
Биликлик кишин килмиш узга якин.

В данном бейте автор пропагандирует знания, и говорит о том, что если каждый бек (в значении «посланный богом») будет близок к наукам, то ученые будут искать его общества [Маллаев, Н., 1963:149].

Или:

Неча килгу ишлар бур ичса колур,

Неча килмогу иш ошурса келур.

То есть, если человек пьет вина, многие его дела откладываются, а также им совершаются недостойные поступки [Маллаев, Н., 1963:149-150].

Юсуф Хос Хаджиб в своем шедевре еще раз особо подчеркивает своеобразие культуры таджикского народа и доказывает существование литературных взаимосвязей в тот период. Подчеркивая место и роль таджикских мыслителей в науке и литературе, он также упоминает о статусе Саманидов, снискавших уважение в Центральной Азии.

В этом смысле, поэт пишет в «Кутадгу билиг»:

Эди артук ардам керак ул билик,

Урун тутгуко утру сунсо элик.

Тожиклор битикдо битмиш муни,

Битикдо йук арсо ким укгой уни.

В этих строках говорится, что для завоевания мира требуется приобретение глубоких знаний и большое мастерство. Также поэт выражает признательность и хвалу таджикскому народу, который охватывая широкие знания, представил их в различных книгах [Содиков.К., 2013: 42].

Известный советский востоковед Е.Э. Бертельс в процессе ознакомления с этим древним произведением обращает внимание на важные моменты, связанные с персидско-таджикской литературой. Он одним из первых замечает, что притча, приведенная Юсуфом Хаджибом в 42 главе, также использована в «Тазкират-ал-авлия» Аттара Нишопури.

В действительности, уйгурский поэт в «Кутадгу билиг» приводит хикаят от имени мудреца Откурмиша и определяет его суфийские мысли как руководство для последователей суфизма. Сопоставление данного эпизода с произведением Аттара выявляет, что эта притча имеет сходство со словами Ибрахима Адхама из «Тазкират-ал-авлия». Выясняется, что оба мыслителя обращались к одному и тому же источнику.

Е.Э. Бертельс в своем исследовании, анализируя 21 главу уйгурского месневи, находит большое сходство между сочинениями о жалобах на старость, написанными Юсуфом Хос Хаджибом и касыдами Рудаки и Кисаи Марвази. Ученый справедливо отмечает, что на стиль и манеру изложения автора произведения оказали влияние дух и уровень просвещения периода Саманидов [Бертельс Е.Э., 1965: 181-187]. Анализ исследований известного востоковеда выявляет, что он призывает ученых к изучению неисследованных источников, а также определению влияния персидско-таджикской литературы во всем мире, и в частности, древнем Кашгаре.

Основываясь на вышеизложенных фактах, можно утверждать о том, что, несмотря на национальное достоинство Караханидов по отношению к своему языку и независимо от социально-политической обстановки, персидский язык сохранил свой статус, и в XI веке персидско-таджикская литература продолжала развиваться на территории Кашгара [Бертельс Е.Э., 1960: 456-458].

Об этом свидетельствуют такие произведения, как «Диван лугат-ат-турк» и «Кутадгу билиг», в которых прослеживается приверженность их авторов к персидской литературе. Другим доказательством внимания тюркских племен к персидской литературе является то, что на просторах владений Багрохана, находящихся в Мавераннахре, появляется целая

плеяда персидско-таджикских литераторов и это свидетельствует о поддержке, оказываемой им правителями – тюрками по происхождению.

Использованной литературы

1. Бертельс Е.Э. Изречение Ибрахима ибн Адхама в поэме Кутадгу-билиг//Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965.-С.181-187
2. Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – М., 1960.-556 с.
3. Зарринкуб А. Аз гузаштаи адабии Эрон. – Теҳрон, 1375.-588 с.
4. Маллаев, Н. Навоий ижодиётининг халкчил негизи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. -176 с.
5. Маллаев, Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб (XVII асргача). – Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1963.-740 с.
6. Махмуд Кашгарский: http://easttime.ru /countries/int/2/11/58.html
7. Муроди Н. Адабиёти форсу тоҷик дар Кошғар. – Хужанд, 2016.-418 с.
8. Муроди Н. Традиции персидско-таджикской поэзии в уйгурской литературе XVI-XIX вв. – Худжанд: Нури маърифат, 2017.-404 стр.
9. Муроди Н., Юйхун В. Китай и персидско-таджикская литература. – Худжанд: Ношир, 2022.-140 с.
10. Рустамов Э.Р. Литературная жизнь в городах Средней Азии // Узбекская поэзия в первой половине XV века. – М.,1963.-368 с.
11. Содиков К. «Қутадгу билиг»нинг уйғур ёзувидаги Ҳирот нусхаси // Нақшбандия. №2 (11). – Бухоро: Шарқ, 2013.-С.22-27
12. Фозилов Э. Шарқнинг машҳур филологлари. – Тошкент, 1971.-80 с.
13. Хасанов Х.Х. Ценный источник по топонимике Средней и Центральной Азии // Топонимика Востока.– М., 1962.-С.31-36
14. Эркинов С. X–XII асрларда форс-тожик тилидаги адабиёт ва унинг адабий алоқалар тарихидаги ўрни // Ўзбек адабиёти тарихи. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1977. – С.159-173
15. ЭСТ. – 8.Ж. – Душанбе, 1988. – 592 с.
16. ЭСТ. – 4.Ж. – Душанбе, 1983. – 640 с.
17. http://uighur.kz/history/lichnosti/37-yusuf-has-hadzhib

HOFIZ XORAZMIY LIRIKASIDA RAQIB OBRAZI

Sulaymonov Mo‘minjon Yusubjonovich,
filologiya fanlari nomzodi,
Namangan davlat universiteti dotsenti
e-mail: msulaymon62@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada Hofiz Xorazmiy she’riyatida qo‘llangan raqib obrazi haqida bahs yuritilgan. Shoir sharq adabiyotida qadimdan mavjud bo‘lgan an’analarga rioya qiladi. She’rlarida oshiq va ma’shuqa obrazlari bilan birga raqib obrazini tasvirlaydi. Raqibni oshiq bilan ma’shuqa o‘rtasidagi to‘siq deydi. Uni insoniylikdan tashqari deb hisoblab, it, tulki, hattoki shaytonga qiyoslaydi.

Kalit so‘zlar*: she’riyat, obraz, oshiq, ma’shuqa, sher, yo‘lbars, raqib, ag‘yor, it, tulki, shayton.*

Abstract

This article analyzes the image of the rival as represented in the poetry of Hofiz Khorezmi. The poet adheres to the long-standing traditions of Eastern literary thought. In his poetic works, alongside the figures of the lover and the beloved, the image of the rival is also systematically depicted. The rival is conceptualized as an obstacle separating the lover and the beloved and is symbolically compared to a dog, a fox, and the devil.

Key words: *poetry, image, lover, beloved, lion, tiger, rival, dog, fox, devil.*

Hofiz Xorazmiy she’riyatida oshiq va ma’shuqa obrazlari qatori mukammal yaratilgan obraz raqibdir. Raqib bir so‘z bilan aytganda, oshiqning ishqdagi dushmani, raqobatchisidir, u yorni yo‘ldan urib, oshiqdan bezdirmoqchi bo‘ladi. Oshiqni dildor uyiga yo‘latmaydi; u misoli bir quturgan it kabidir.

Oshiq raqibni dunyodagi eng yomon odam, deb hisoblaydi: raqib shayton, it bilan tengdir. Shoir oshiqni sher, yo‘lbars bilan qiyoslasa, raqibni tulki deb ataydi. Tulkining ayyorligi, makkorligi raqib xarakteriga o‘xshaydi.

Hofiz Xorazmiy ma’shuq va oshiq obrazlarini to‘laroq ochish uchun ham raqib obrazini bo‘rttirib tasvirlaydi. Bundan tashqari shoir raqib bilan birga ag‘yor, o‘zga, g‘ayri atamalarini ham qo‘llaydi. Ma’shuqa shularga mehr-muhabbat ko‘rsatib, oshiqqa jafolar qiladi. Raqibni tikonga o‘xshatish an’anaviy tashbeh bo‘lib, Hofiz Xorazmiy bu an’anani davom ettirib, oshiqning ma’naviy olamini ochib beradi, ya’ni gulga tikoning bor deb ta’na qilish o‘rinsiz bo‘lganidek, yor oldida raqib haqida so‘zlash ham o‘rinsizdir.

Raqib yodini man yor qoshida qilman,
Mahalsiz erur chun gul qoshinda xor so‘zi. [Devon, 574]

Bu baytda oshiq – shoirning go‘zal axloqi ko‘zga tashlanadi. Raqib it kabi oshiqni yor eshigiga yaqinlashtirmaydi. Quyidagi baytda shoir tamsil san’atidan foydalanib, “It luqma topmasa suyak g‘ajiydi”, degan xalq maqolini o‘rinli qo‘llamoqda. O‘zini yor ishqida ozib-to‘zib, ustuxoni qolgan bechoraga qiyoslamoqda.

Tishlar raqib meni eshiginda ko‘rgali,
Sag luqma topmas ersa, bale, ustuxon chekar. [Devon, 207]

Shoir raqibni odamga o‘xshasa ham ichi qora, yomonlik qiluvchi – badandesh deb ataydi. Agar ana shu yomonlikning ustasi raqib bo‘lmasa, yaxshi yor yomonlik qilmas edi.

Qilmas edi ul yaxshi bu Hofizga yomonlik,
Bo‘lmasa qoshidagi raqiblari badomuz. [Devon, 277]

Raqib – haqiqiy oshiqning aksi, u oshiqda doim to‘sqinlik qiladi: yor vaslidan mahrum etadi.

Vasli tuzukini necha buzsa raqiblar,
Yod aylaram niyoz qilib chorasozni. [Devon, 501]

Oshiq raqibni odamlarni yo'ldan ozdiruvchi shayton deb ataydi va ma'shuqasiga ana shu shaytonni yoningdan quvgil, deydi. Bu o'rinda Odam alayhis-salomning yaratilishi va jannatdan shaytonning makri tufayli quvilishi haqidagi afsonaga ishora ham bor. Bu baytda nuri Haq – odam.

Surgil raqibi zishtni qoshingdin, ey sanam,
Hamroh chu nuri Haq bila shayton ko'runmadi. [Devon, 465]

Shoir raqibni shayton deyishga ham qanoatlanmay, to'g'ridan to'g'ri balo deb ataydi va undan duo yo'li bilangina qutulish mumkinligini ta'kidlaydi.

Kelgan orada raqibimga duolar qildim,
Qaydakim kelsa baloye chu duo birlar kechar. [Devon, 210]

Raqib bo'lsa bo'lar, faqat ma'shuqa oshiqqa inoyat qilsa bo'ldi, orada raqibga o'rin qolmaydi: yor oshiqqa yaqin bo'lsa, raqiblarga qiron keladi. Agar oshiq bilan raqib o'rtasida qon to'kilishini istamasa, ma'shuqa raqibni yoniga yaqinlashtirmasligi lozim.

Gar inoyat bo'lsa jonondin bu xasta jonimg'a,
Muddaiy bo'lub orada ne qila bilgay raqib. [Devon, 97]

Oy bilan yulduz yaqinlashsa, boshqa sayyoralarda yomon o'zgarishlar bo'lishi, ya'ni qiron kelgani kabi oshiq bilan ma'shuqa yaqin bo'lsa, raqibga qiron keladi.

Qarin qachonki bo'lur ushbu banda bila nigor,
Raqiblar haqina yuz tuman qiron aylar. [Devon, 173]

Ma'shuqa oshiqqa vafodor va inoyatli, e'tiborli bo'lsa, raqiblarning dushmanligi hech nima emas, – deb yozadi Hofiz Xorazmiyning zamondoshlari. Masalan, Sakkokiy dushman – raqib yuz ming bo'lsa ham qayg'u bo'lmasdi, agar raqib yor eshigiga it kabi zor bo'lsa ko'ngulda zor, hasrat qolmaydi.

Biror ko'ngul g'amidin bo'lsa edi voqif do'st,
Ne qayg'u, dushman agar sad hazor bo'lsa edi.
Ularda qolmagay erdi ko'ngulda bu hasrat,
Raqib it bikin eshigina zor bo'lsa edi. [Sakkokiy, 1958: 43]

Raqib behis, badfe'l, o'zgalar ustidan kuluvchi, ishqni, oshiqni tushunmaydigan odamdir, shuning uchun oshiqni masxara qiladi. Raqiblar oshiqni nazar-pisand qilmagani yetmay, uni toshbo'ron qiladilar. Baribir, oshiq yoriga vafodor bo'lib qolaveradi.

Tosh chiqmag'ay boshim farmoni xattindin dame,
Yog'durur bo'lsa raqiblar boshim uchun toshni. [Devon, 503]

Raqiblar oshiqlarga teng kela olmaydilar, ular oshkora kurasha bilmaydi, chunki raqiblar nomard, pastkash, ayyor va makkordir. Shuning uchun shoir oshiqlarni yo'lbarsga, raqiblarni esa ruboh – tulkiga o'xshatadi. Yo'lbars tulkini yengishi aniq. Demak, oshiq yo'li Haq yo'l, Haqqa yetkazuvchi yo'ldir.

Jang qilganda raqiblarni yengar oshiqlar,
Qayda teng bo'lmoq edi jangda rubohu palang. [Devon, 322]

Shoir oshiq bilan raqibni yangi-original tashbehlar bilan tasvirlaydi. Quyida oshiq – davlat qushi, ya'ni Humoyga, raqib esa mahallaning zog'iga o'xshatilmoqdaki, bundan oshiqning baxtga yaqinligi ta'kidlanadi.

Raqib ishq havodori birla tang bo'lmas,
Humoy birla tang ermas mahallaning zog'i. [Devon, 562]

Quyidagi baytda esa, shoir oshiqni lochinga, raqibni esa bat – o'rdakka o'xshatib yengil yumor yaratishga erishgan.

Tang bo'lmag'ay raqib havodori ishq ila,
Shahboz ishini qachon ishlar havoda bat. [Devon, 305]

Raqib qanchalar yomon, yaramas bo'lmasin, oshiq uni inkor qilmaydi. Aksincha, "Gulni sevgan,

tikonni ham sevar", degan xalq maqoliga amal qilib, raqibning o'ziga qarshi bo'lishini noo'rin deydi.

Inkor qilmaduq biz olamda hech kimga,
Nedin bizim bilandur doim raqiblar zid. [Devon, 129]

Oshiq raqibga murojaat qilib: yor menga javr etsa ta'na qilma, yorning javri vafodir, deb o'zini sevgi bobida sodiqligini ifodalaydi.

Ta'n aylama, raqib, agar yor javr etar
Kim, yor javri javr emasdur, vafo erur. [Devon, 161]

Xorazmiy raqibni xor, balo, shayton, tulki deb tanqid qiladi, qarg'aga o'xshatadi. Shu bilan birga shoir raqibning ham ikki orada mavjudligi tabiiy deydi. Raqibga xos xususiyatlarni ag'yor obrazi talqinida ham ko'ramiz.

Ag'yor ham oshiqning dushmani, lekin shoir ag'yorni raqib singari qattiq tanqid qilmaydi, balki ag'yorni jamiyatdagi yomon, g'ofil odamlar sifatida tasvirlaydi. Raqib oshiq bilan ma'shuqa orasida turib, oshiqqa visolga erishish yo'lida qarshilik ko'rsatadi. Ag'yor esa har xil yo'llar bilan oshiq va ma'shuqa orasini buzishga, ma'shuqani o'ziga qaratib olishga harakat qiladi. Ag'yor atamasi Hofiz Xorazmiyga qadar ijod etgan shoirlarda ham, zamondoshlari ijodida ham juda kam qo'llangan. Shoir esa ag'yorni tez-tez tilga oladi. Ag'yorlarni ko'ngildan chiqarishni ta'kidlaydi. Bu o'rinda ham tasavvufiy qarashlar bilan bog'liq jihatlar anglashiladi, ya'ni ag'yor Haq ishqi yo'lidagi oshiqni chalg'ituvchi nafsdir desak, to'g'ri bo'ladi.

Oyinayi ko'nglingni gar sof aylasang ag'yordin,
Andin so'ng oynada ul yorni qilg'il talab. [Devon, 98]

Haqiqiy oshiq ag'yorni nazarga ilmaydi, chunki unga ishqda ag'yor to'siq bo'lolmaydi.

Man ishqi bila yor bo'lubdurman aningtak
Kim, olam ichinda manga ag'yor ko'runmas. [Devon, 224]

Oshiq yor ishqida yonmog'i shart. Agar ishq o'tida yonmasa o'ziga-o'zi ag'yordir, ya'ni oshiqning o'zidan kuchli dushmani yo'q. Yuqorida aytganimizdek, jami ehtiyojlaridan ko'ngul, ruh intilishi yuqori turishi lozim.

O'zungni ishqning o'tig'a yoqg'il yor izdasang,
Chun, ey Hofiz, o'zungdin o'zga man ag'yor ko'rmadim. [Devon, 368]

Hofiz Xorazmiy raqib kabi ag'yorning bo'lishini tabiiy deb biladi, yorni bilmoq, sinamoq uchun ag'yor kerak deydi.

Hofiz tilar ag'yorni ko'rmaklik o'shandin
Kim, yorni bilmak uchun ag'yor kerakdur. [Devon, 148]

Shunday bo'lsa-da, shoir uchun tuman – o'n ming ag'yordan birgina yor yaxshidir. Bu baytda yor do'st, hamsuhbat ma'nolarini ham anglatadi.

Jahonda barchadin dildor yaxshi,
Tuman ag'yordin bir yor yaxshi. [Devon, 523]

Xudodan iltijo qilib, ma'shuqa bo'lgan joyda ag'yor bo'lmasin, – deydi.

Hofiz manim tilagim o'shuldur Allohdin
Kim, yor bo'lgan orada ag'yor bo'lmasun. [Devon, 394]

Ijodkor raqib obrazi orqali ishqda oshiq va ma'shuqa o'rtasidagi kishini nazarda tutgan desak, unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Raqib obrazi keng ma'noda tushunilsa, u umuman, oshiqdagi barcha ezguliklarga qarshilik qilgan, yomon niyatli kishilar obrazi sifatida namoyon bo'ladi. Shoir raqib, ag'yor haqida kuyinib, o'rtanib yozishiga, zamonadagi nohaqliklar, notengliklar ham sababchi bo'lgan, deyish o'rinlidir.

Hofiz Xorazmiy she'rlarida oshiqqa qarshi turuvchi raqib, ag'yor bilan birga o'zga haqida ham bir qancha baytlar bitilgan.

O'zga ham oshiqning raqibi, lekin u raqib va ag'yorga nisbatan juda passiv. O'zga oshiqqa

bevosita qarshilik koʻrsatmaydi, ishqda ham beparvo. Ma'shuqaning oʻzi oʻzgaga iltifot koʻrsatadi: u bilan suhbat quradi, birga sharob ichadi, xullas, oshigʻini kuydiradi.

Oʻzga birlanki dame mayli sharob aylarsan,
Hasrat oʻti bila bagʻrimni kabob aylarsan. [Devon, 397]

Oʻz jonini berishga tayyor boʻlgan oshiqqa iltifot koʻrsatmagan yor, oʻzgalar bilan osonlikcha til topishadi.

Jon berib boʻsa olmoqlik tilarman sud uchun,
Gar bu savdo bitsa jon birla, base arzon tushar.
Hofizi bechora birla tushmagi mushkil vale,
Oʻzgalar birla nedin bilmasman ul oson tushar. [Devon, 211]

Oʻzga oshiqni sinash vositasidir. Ma'shuqa oshigʻini gʻashiga tegish, kuydirish maqsadida oʻzgaga iltifot koʻrsatsa ham oshiq bunga parvo etmaydi. Oʻzining ishqqa sodiqligini namoyon qiladi.

Garchi qildi oʻzgalarni ixtiyor ul nozanin,
Ixtiyor oʻzgani bu Hofizi vafodor etmadi. [Devon, 461]

Hofiz Xorazmiyning boshqa janrdagi she'rlarida ham raqib, agʻyor haqidagi fikrlarni uchratamiz. Quyidagi qit'a bunga misoldir:

Oshiq ersang yorgʻa, agʻyor javrin torta koʻr,
Chun topulmadi bu olam ichra yor agʻyorsiz.
Teshayi sabru qanoat birla boʻlub kunjikov,
Ganjni topsang taqi qayda boʻlur ul morsiz.
Gulistonning ichra bulbul yuz tuman zoriy qilib,
Izdadiyu topmadi umrinda gulni xorsiz. [Devon, 577]

Xulosa qilib aytganimizda, Hofiz Xorazmiy ishqiy gʻazallarda goʻzal va beparvo ma'shuqa, vafodor va mard oshiq obrazlari bilan birga raqib va unga hamroh, hamohang boʻlgan agʻyor, oʻzga, gʻayri obrazlarini tasvirladi. Bu obrazlar ishq-muhabbat, vafo, sadoqat va ijtimoiy masalalarning chuqur va atroflicha ifodalanishiga xizmat qiladi.

Shoir she'rlarida oshiq va yorga umuman, sevgiga, sadoqatga qarshi turgan, hissiz, ishqsiz, xalq iborasi bilan aytganda, "Ishqi yoʻq eshak, dardi yoʻq, kesak" kabi odamlarni raqib obrazida gavdalantiradi. Ba'zan dunyodan, ishqdan va ma'shuqadan kechishni targʻib qiluvchi zohidlar ham oshiq raqibiga aylanadilar. Mazkur holatlar ham tasavvuf bilan bogʻliq, desak ma'qul boʻladi.

Muhabbatda rashk boʻlgani kabi raqib, agʻyorlarning boʻlishi tabiiy holdir, deydi shoir. Lekin raqib obrazini kuzatar ekanmiz, uning bir-birini inkor etuvchi va bir-birini toʻldiruvchi xususiyatlari koʻzga tashlanadi.

Shoir ma'shuqani gulga qiyoslar ekan, uning tikoni – raqibini e'tirof etadi. Yorni xazina, raqibni esa xazinani qoʻriqlovchi ilon deb ataydi. Bu raqibning birinchi xususiyati.

Ma'shuqa oshiq qolib, raqibga koʻproq agʻyor va oʻzgalarga iltifot koʻrsatadi. Shoirning muhabbat haqidagi insoniy xususiyatlari mana shu oʻrinlarda namoyon boʻladi. Uning fikricha, ma'shuqa erkin, u xohlasa oshiqqa, xohlasa raqibga iltifot koʻrsatadi.

Raqib obrazining ikkinchi xususiyati shundaki, shoir raqib obrazi orqali zamonasining qabih, qora niyatli kishilarini, sevgisiz, hissiz, hamma narsani, hatto his-tuygʻularni ham moddiyat bilan oʻlchovchi xudbinlarni, adolatsiz hukmdorlarni, qolaversa, hayot zavqini inkor etuvchi ayrim riyokorlarni tanqid qiladi. Xalqni talovchilar, shaytonlik qilib yoʻldan ozdiruvchilar ana shular, – deydi shoir.

"Shoirning yordan shikoyati, shubhasiz, chuqurroq va kengroq ijtimoiy mohiyatga ega boʻlib, u feodal muhitning illatlariga qarshi, qoʻshinlarning talovchiligi, ayrim zodagonlarning mutakabbirligi va munofiqligiga qarshi norozilik kayfiyatlarini ifodalaydi", – deb yozadi prof. N.M.Mallayev [Mallayev, 1976: 364]. Bu fikrni biz raqib haqidagi baytlarga ham tadbiq qilsak, oʻrinli boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хоразмий, Ҳофиз. Шеъриятидан намуналар. //Адабий мерос, 1978. N3. – Б.23-44.
2. Хоразмий, Ҳофиз шеъриятидан. – Тошкент: Ўз КПМК нашриёти, 1980. – Б.120.
3. Хоразмий, Ҳофиз. Девон. 1-китоб. – Тошкент: Ўз КПМК нашриёти, 1981. – 304 бет
4. Хоразмий, Ҳофиз. Девон. 2-китоб. – Тошкент: Ўз КПМК нашриёти, 1981. – 300 бет.
5. Хоразмий, Ҳофиз. Қўлёзма фотокопияси. – Б.78.
6. Шерозий, Ҳофиз. Ғазаллар. – Т.: Ўзбекистон Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1958. – 137 бет.
7. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1961. – 180 б.
8. Harezimli Hafiz'in divani. – Ankara: Turk Dil Kurumi, 1998. 121-127-bet.
9. Комилов, Нажмиддин. "Бу қадимий санъат". – Т.: 1989. 190-бет.
10. Н. М. Маллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб, 3-нашри. – Т.: 1976, 364-6.
11. Саккокий. Танланган асарлар. – Т.: 1958, 43-6.

OGAHIYNING MUARRIXLIK FAOLIYATIDA USLUB VA RUHIYAT TA'SIRI MASALASI

Ismailov Is'haqjon Otabayevich,
filologiya fanlari doktori
Urganch davlat universiteti
e-mail: ismailovishaqjon@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Ogahiy solnomalari badiiyatini yuzaga keltirishda mumtoz asarlar uslub va ruhiyati ta'siri masalasi haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: *tarixiy-adabiy asar, tasvir, til va uslub, badiiyat.*

Abstract

This article discusses the influence of the style and psyche of classical works on the formation of art in Agakhi 's historical and literary works.

Key words: *historical and literary work, image, language and style, art.*

Kirish

Ogahiy tarixiy-adabiy asarlari badiiyatini yuzaga keltirgan omillar va vositalar aynan bir narsa emasligi, ularning muayyan farqlari mavjudligini ta'kidlash lozim.

Mavzuning dolzarbligi. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarini ijtimoiy fanlarning qaysi yo'nalishi bo'yicha o'rganmaylik, mumtoz asarlar uslubi va ta'siri omilini chetlab o'tish imkoni yo'q. Ularga solnoma sifatida qaragan vaqtimizda ham, tarixiy voqealikni ana shu omilni e'tiborga olgan taqdirda real tasavvur qilamiz. Shu bilan birga unda tasvir, til va uslub, badiiyat bobida mumtoz asarlar ta'siri yaqqol namoyon bo'lib turuvchi jihatlar ko'zga tez-tez tashlanadi.

Tajriba qismi. Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida Alisher Navoiyning tarixiy asarlaridan ko'ra badiiy asarlari ta'siri kuchli. Misol tariqasida Navoiy Farhodni ilm olish borasidagi intilishlarini quyidagi ta'riflaydi:

Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.
Ne so'znikim, o'qub ko'ngliga yozib,
Dema ko'ngliki, jon lavhiga qozib.
O'qub o'tmak, uqub o'tmak shiori,
Qolib yodida safha-safha bori.

Tabiiyki, so'z romantik qahramon haqida ketayotganda insonni bu kabi xislat va fazilatlar koni ekani sifatida vasf qilish mumkin. Lekin Ogahiy real insonni, aniqrog'i hukmdorni "*...ilm-u fazl iktisobig'a kamoyanbag'iy sa'yu shitob ko'rguzub, oz fursatda ulumi aqliy va naqliyg'a mahorati tamom hosil qildi*" [Riyozu-d-davla, 251[a]] deyishi ular aslida muarrix idealidagi xonlar ekani ma'lum bo'ladi. Ogahiyning real qahramoni Alisher Navoiyning ideal qahramonlari darajasida vasf qilingan. Masalan, mamlakatning joriy hukmdori yoshligida tahsil jarayonida "she'rshunoslig-u latifago'ylik uqudining hallida diqqat tirnog'in andoq ishlatur erdi, fuzaloyi zamong'a hayrat barmog'in tishlatur erdi" [Riyozu-d-davla, 251[b]]. Alisher Navoiyning romantik qahramoni esa

Tabiiy-u, riyoziy-u, ilohiy,
"Alif, be, te"dek ollinda kamohi [Alisher Navoiy, 1988: 496].

Bu bilan Ogahiyning madhiyabozlikda aylab, hukmdorlarning asl qiyofasini yashirganlik, ularni ijobiy fazilatlar sohibi qilib ko'rsatib, barcha nuqsonlarini yashirganlikda ayblash juda oson va asosli

koʻrinadi. Lekin muarrix yashagan zamon va makon imkonlarini hisobga olsak, Ogahiydan koʻra maqbulroq ish amalga oshirish mushkul boʻlganini butun vujudimiz bilan his qilamiz. Ogahiy nafaqat tarixiy-adabiy asarlarida, lirikasida ham hukmdor tabaqalarni "barcha ilmni yod olib" farishtasifat ezgu fazilatlar sohibi boʻlishiga undaydi:

Ul malaksiymoki borcha ilm boʻlmish yod anga,
Roʻz-u shab dars-u saboq takroridur muʼtod anga.
Ilm tahsili suluki ichra solik boʻlgʻali,
Aql piridin damodam yetkusi irshod anga [Ogahiy, 2014:38].

Shu bilan birga Ogahiy tiynatidagi qoneʼlik, ozga qanoat va shukur qilish fazilatini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz kerak. Masalan, Olloqulixon boshqa hukmdorlarga nisbatan tarix va sheʼriyatga eʼtibori baland, shu bilan nisbatan zabardast va yakqalam davlat barpo etish yoʻlida jiddiy ishlarni amalga oshirayotgan hukmdor edi. Muarrix uning bu xislatlarini mamlakat iqboli uchun xizmat qilajagidan umid va shod holda uning vasfida "*...majlisi firdavsmisol va bazmi ishratmaol tartib berdurub, ulamoyi izom va fuzaloyi kirom va shuaroyi fazoyilmaob va zurafoyi latoyifintisob bila hamsuhbat boʻlub, goho masoyil ilmining mushkiloti va goho tavorix fanining mugʻlaqoti kashfigʻa saʼyi mashkur va jahdi nomahsur zuhurgʻa yetkurub, barcha fuzalodin avval anomili idrok bila hal qilur erdi*" [Riyozu-d-davla, 251[b]], – deb yozadi. Parcha mazmuni Alisher Navoiy Iskandar taʼrifida bitgan

Ki, olam olurgʻa boʻlur muntahi,
Bu soʻz fikrida xotiri ogahi.
Taammul qilur erdi haddin fuzun,
Chekar erdi andisha torin uzun.
Chu adlu shijoat anga yor edi,
Yana roy ila hikmati bor edi [Alisher Navoiy, 1992]

satrlariga muvofiq keladi. Ularning biri real, ideal qahramon vasfi ekaniga qarab, Ogahiy hukmdorlardagi ozgina fazilatni ham gʻanimat bilib, ularni ruhlantirishga, mana shu fazilatlarning tom sohibi boʻlishga undaydi. Ogahiy tarixiy asarlari badiiyatini boyitishda muarrix xarakteridagi qanoat, shukr hislariga boyligining oʻrni katta ekanini ilm ahliga eʼtibor lavhalarining gʻoyat baland ohanglarda kuylanishi, oz boʻlsa ham xalqning xursandchilik kunlarini [hayit va toʻy tasvirlarida] oʻziga xos joʻshqinlikda tavsiflashida koʻrishimiz mumkin. Bu xislat shoir lirikasida ham aks etib turadi. Masalan, uning bugun hech kimni ajablantirmaydigan choyni, garchi oʻsha paytda topish ancha qiyinligidan kamyob boʻlishiga qaramay:

Gar budur xosiyati oning jahon bozorida,
Yuz diram ham boʻlsa bir misqoli arzon oʻldi choy.
Ushbu taʼrif, Ogahiy, bas boʻlgʻusidur choyga,
Kim, tarabafzoyi bazmi hazrati xon oʻldi choy [Ogahiy, 2014:290] – deb yozgani hamda oʻzi koʻchirgan bayozlarning biriga piyolada tutun chiqib turgan choy rasmini chizgani fikrimizning dalilidir. Demakki, Ogahiy tarixiy asarlari badiiyatini oshirishda muarrix xarakterining ayrim qirralari yaqqol aks etishi ayni haqiqatdir. Aslini olganda, muarrixning mumtoz merosga boʻlgan muhabbati va uning ijobiy jihatlarini sanʼatkorlik bilan oʻz asarlariga koʻchirishi uning xarakteridagi yana bir muhim fazilat – mumtoz merosga muhabbat ifodasidir.

Ogahiyning tarjimonlik faoliyati haqida gap ketganda koʻpincha uning fors tilidan yigirmaga yaqin asarni tarjima qilgani haqida boradi. Aslida Ogahiy tarjima qilgan fors tilida bitilgan jahon adabiyoti asarlari, yaʼni oʻz salmogʻi bilan insoniyat badiiy va ilmiy tafakkurining durdonalari edi.

Shu bois ularning Muhammad Rizo Ogahiyning tarixnavislik sohasidagi ijodida ham oʻz aksini topmasligi, ularning oʻziga xosliklari anʼana sifatida davom etmasligi mumkin emas edi. Shu oʻrinda eʼtiborli nuqtalardan biri, Ogahiy kamol topgan voha qadimdan Nizomiy ijodiga alohida ehtirom

bilan qarar edi. Nizomiy ijodiga bo‘lgan ehtirom natijasi o‘laroq Haydar Xorazmiy “Maxzan ul-asror”ni, Qutb Xorazmiy “Xusrav va Shirin”ni tarjima qildi [Aysu Ata, 2002: 38].

Xorazmda shakllangan forsiyzabon adabiyot va zullisonaynlik an’analarining yigirmanchi asr boshlarigacha davom etib kelgani bejiz emas, albatta. Xorazmda fors tilidagi badiiy ijodga hozirgi zamon Eron adabiyotshunoslari ham yuksak baho berganlar. Birgina Shayx Najmiddin Kubroning fors tilida bitgan ruboiylari uning ma’naviy vorislari bo‘lgan insonlarni fors tilini o‘rganish, unda ozmi-ko‘pni ijod qilish, bu adabiyot durdonalaridan bahramand bo‘lishga ma’lum darajada ta’sir etganini bemalol e’tirof qilish mumkin. Zabihullo Safo to‘g‘ri ta’kidlaganidek, har biri islom olamida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan Shayx Majdiddin Bag‘dodiyi Xorazmiy, Shayx Sayfiddin Boxarziy, Shayx Sa’diddin Hamaviy, Shayx Rizouddin Ali Lolo, Shayx Kamoliddin Giliy kabilar qatorida Bahouddin Valad nomi bilan mashhur Sultonul-ulamo Bahouddin Muhammad bin Husayn Xatibiyi Balxiy ham Najmiddin Kubro shogirdlari bo‘lgan [5]. “Shuni e’tiborga oladigan bo‘lsak, Bahouddin Valadning arjumand farzandi Jaloliddin Rumiyi Balxiy tomonidan yaratilgan “Masnaviyi ma’naviy”dek asarning ham ma’rifiy ildizlari forsiy tilidagi Xorazm adabiy muhitiga ma’lum jihatlari bilan bog‘liq bo‘lib chiqadi” [Ismailov I. 2010:24]. Xorazmda forsiyzabon adabiyotning rivojida muhim o‘rin tutgan Shayx Majduddin Bag‘dodiy, Imom Faxruddin Roziy, Pahlavon Mahmud, Abulvafoyi Xorazmiy, Husayn Xorazmiy, Husomiy Devona kabilarning ijodlari bu zamin farzandlarining forsiy adabiyot, jumladan, Nizomiy ijodiga bo‘lgan qiziqishlari oshishining muhim omillaridan biri edi, deb qarash mumkin.

Ogahiy ijodiga Nizomiyning har tomonlama ta’sirini shoir yaratgan badiiy va tarixiy asarlarda ko‘rish mumkin [Kalandarov M. 2012: 69]. Zero, Nizomiy Ogahiy kamolga yetgan muhitda eng ardoqli salaflar peshvosi hisoblanardi. Shuning uchun ham, Munis butun ustodlar silsilasini sanagan she’rini

Voliyi mulki tariqat gar Nizomiydur manga,

Manzili ma’nig‘a Xizri roh Jomiydur manga [Munis Xorazmiy, 1980:11] – deb boshlagani bejiz emas.

Ogahiyning nihoyatda muhim masala moddiyat va ma’naviyat mushtarakligi va ziddiyati haqidagi xulosalari shakllanishida o‘tmish salaflar ijodining ta’siri ham nihoyatda katta. Ikkinchi tomondan, Ogahiyning mumtoz daholar g‘oyalari ta’sirida ulg‘ayishi har tomondan tanazzulga yuz tutib borayotgan muhitga moslashishi, shunday muhitda ham ruhi so‘nmay ijod qilishida juda muhim ahamiyat kasb etgani alohida e’tiborga loyiq. Ogahiy yashagan davr muhitida ommaning aksar qismini yashash mohiyatini, hayot mazmunini faqat moddiy boyliklarda ko‘ruvchi, inson qadrini uning moliyaviy salohiyati bilan o‘lchovchilar tashkil qilgani bois achchiq kinoya va alam bilan:

...Odam uldur, bu jahon ahli aro,

Qaysi hayvonning esa siym-u zari.

Kirmagay zarsiz kishilik sonig‘a,

Sa’diy o‘lsun fazl aro Anvariy [Ogahiy, 1971: 66], – deb yozgan edi.

To‘g‘ri, Munis, Ogahiy va boshqalar ham bir inson sifatida, bir fuqaro sifatida xonlar iltifotiga ko‘z tikdilar, umid qildilar, bahramand bo‘ldi. Lekin hech qachon bularni nohaqni haq, zulmni adl deyishi hisobiga qilishmadi. Shu ma’noda Munisning

Chu shoirlar ichra solib lutfi shayn,

Tahayyur qilib shoh Sulton Husayn,

Netong, man bo‘lub modihi podshoh,

Yetushsa Navoiydin ortuqsi joh [Firdavsu-l-iqbol, 30], – degan so‘zlarini bir shoir, bir inson, bir fuqaroning ko‘nglidagi gap deb to‘g‘ri tushunishimiz kerak. Xuddi shu kabi Ogahiy nazdida umr mazmuni ma’naviy qashshoqlik va tubanlik evaziga erishiladigan moddiy farovonlikda emas.

Hayotini faqirona, muttasil moddiy ehtiyoj bilan o‘tkazgan Ogahiy, albatta, moddiy ne’matlarning hayotda tutgan o‘rni, ahamiyatini g‘oyat chuqur anglagan. Buni yuqorida choy misolida ko‘rganimiz kabi Ogahiy bu kabi fahm-u farosati, shukrona hissi balandligi bois bugungi kunda hech kimni ajablantirmaydigan qand-qursni tasavvurdan tashqari yuksak ohanglarda kuylaydi: “*mehmonlarg‘a izzati tamom bila ne’mati alvon-u qandi bekaron va choyi farovon izlik-izidin yetkurub, hamul kun va hamul kecha jame’i ulamo va umaroni lutf-u ehson bodasidin shodob, aysh-u tarab nash’asidin bahrayob qildilar*” [Riyozu-d-davla, 287[a]]. Lekin Ogahiy hech qachon bunday farovonlik ma’naviy cheklanish, ruhiy tanazzul hisobiga bo‘lmasligini aqida qilib olgan. Shuning uchun ham iftixor bilan

Bizki, bugun jahon aro kishvari faqr shohimiz,

Boshimiz uzra ohimiz shu’lasidur kulohimiz [Ogahiy, 1971: 214], – deya yozadi.

Sharqning mashhur mutafakkirlari haddan tashqari boylik, odam ehtiyojlaridan ortiqcha joh uning ma’naviy qiyofasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, degan aqidada bo‘lganlar.

Ogahiyning yuqoridagi satrlarda bayon qilingan fikrlari Nizomiyning “Harki, to‘hiy kisatar – osudatar”, ya’ni “kimning boyligi ozroq bo‘lsa, tinchroq bo‘ladi” misralari yoki

Farovon xazina farovon g‘am ast,

Kam ast anduh onroki, dunyo kam ast,

(tarjimasi: haddan tashqari boylik, ko‘p g‘am keltirar, kimda mol-dunyo kam bo‘lsa, tashvishi ham ozroqdir) – degan baytiga hamohanglik kasb etadi. Mutaxassislar Nizomiyning bu fikrlari manbasi ham xalq og‘zaki ijodi bo‘lib, “Moli cho‘h o‘lonlarin kunu qoro o‘lur” (*Moli ko‘p bo‘lganlarning kuni qora bo‘ladi*) degan ozarbayjon (turkiy) maqoli talqini sifatida ko‘rsatadilar [11]. Chuqurroq mulohaza qiladigan bo‘lsak, bu satrlar moddiy ne’matlardan yuz o‘girish yoki ulardan tamoman voz kechishga emas, bil’aks, moddiy imkoniyati katta inson zimmasidagi mas’uliyatni teran anglashga da’vatdir. Bunday mas’uliyat zimmasida bo‘lgan insonlar o‘zlarini hamisha nihoyatda hushyor, har bir amalidan ogoh tutishlari lozim. Shuning uchun tasavvuf ahli istilohidagi “gado” so‘zini “dunyo moddiyatiga dil bermagan odam” tarzida kengroq idrok qilinadi. Bu borada Shayx Sa’diy:

Nigohboniyi mulk-u davlat balost,

Gado podshoh astu nomash gadost,

ya’ni “mulk-u davlatni asrash bir balo (g‘oyat mushkul ish), gado haqiqatda podshoh bo‘lib, nomigina gadodir”, – deydi.

Ogahiy ijodi, umuman, ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy dunyoqarashiga Nizomiy ta’sirini uning

Dahr qasrikim haqiqatda kuhan vayronadur,

Oni har kim maskan etmak istadi devonadur.

Saqfida yer sarbasar ondin yog‘or gardi xatar,

Amniyatdin yo‘q asar, vah, na ajab koshonadur.

Fitna afvoji oning sokinlari qasdi uchun

Tortibon onda jafo tiyg‘in mudom aylonadur... [Ogahiy, 1971: 167]

kabi satrlar ohangida ham ko‘ramiz. Ushbu misralarda bayon qilingan fikrlar “Maxzanu-l-asror”ning “Dunyo bevafoligi haqida” [12] deb nomlangan o‘n birinchi maqolati mazmuniga muvofiq keladi. Xususan, Ogahiyning mazkur g‘azalidagi “amniyatdin yo‘q asar” satrlari

Kunji amon nest dar in xokdon,

Mag‘zi vafo nest dar in ustixon

(tarjimasi: bu tuproqda bir omon topadigan xilvat yo‘q, bu suyakda hech ham vafo ilik mavjud emas) baytidagi fikrlarga hamohang bo‘lsa, g‘azalning dastlabki bayti mazmuni xuddi shu bobdagi

Nest hama sola dar in deh savob,

Fitnayi andesha-u g‘avg‘oyi xob.

Xilvati xud soz adam xonaro,

Boz guzor in dehi vayronaro

(tarjimasi: “bu qishloq – dunyoda hamisha to‘g‘rilik bo‘lmagan, unda mudom fikrlar fitnasi-yu uyqu g‘avg‘osi. Bu uyda o‘zingga xilvat go‘sha hozir qil, bu ko‘hna vayronadan voz kech”) baytlariga muvofiq keladi.

Dunyo bebaqoligi haqidagi g‘oya Ogahiy tarixiy-adabiy asarlaridan goh iqtiboslar, goh nukta va tanbehlar, goh rivoyat, goh rangin nazmlar orqali ochib berilgan. Masalan, birgina “Gulshani davlat” asarining o‘zida “Qur’oni karim”ning “Oli Imron” surasi 185-oyati, “Anbiyo” surasi 35-oyati, “Ankabut” surasi 57-oyatida kelgan “kullu nafsin zā’iqatu-l-mavt”, ya’ni “Har bir jon o‘lim (achchig‘i) ni totuvchidir” iqtibosi to‘rt marta takrorlangani [Ogahiy, 2020: 123] bejiz emas.

Ogahiy ijodida Nizomiy ta’siri sifatida talqin qilinadigan o‘rinlarning katta qismi, albatta, umuminsoniy g‘oyalar o‘z aksini topgan satrlardir. Shunga qaramay, mutafakkir tafakkurida Nizomiy fikriy olami bilan bahamjihat bo‘lgan o‘rinlar ko‘plab kuzatiladi. Shulardan biri, nazarimizda, salaf va xalaflar ijodida odil shoh g‘oyasi talqinidagi mushtarakliklardir. Nizomiy Ganjaviy “Xusrav va Shirin” dostonining bosh qahramoni sifatida Xusravni tanlagani ma’lum: “*Vale chekkanlar ushbu jomdin roh Sarosar bo‘ldilar Xusravg‘a maddoh*” [Alisher Navoiy, 1992: 45]. Nizomiy ham tarixiy Xusrav obrazini ideallashtirish orqali zamon shohlariga ibratli, odil shoh timsolini yaratishni maqsad qilgan edi. Ogahiy ham Nizomiy singari adolatparvarlik haqidagi g‘oyalarini zamon hukmdorlariga turli vositalar: goh madhiya, goh ibrat ko‘rsatish usulida bayon qilgan.

Ogahiy o‘z salaflari kabi bu yo‘lda birinchi navbatda islom dini ahkomlarini mahkam tutish lozimligini uqtirib, mulkni xohlagan bandasiga bergan Alloh yana xohlagan boshqa bir bandasiga berishi mumkinligini bot-bot eslatib turadilar. Lekin bu vosita ham o‘z haddi va mavridi bilan amalga oshirilgan. Muarrixlar qismatida esa o‘sha mavrid va mahalni to‘g‘ri tanlay olish mas’uliyati bor edi. Bunday vositalardan foydalanish Ogahiy salaflari ijodida ko‘p kuzatiladi. Masalan, Shayx Sa’diy “Guliston”ida shunday satrlar bor:

اي ملك چو گرد آمدن خلقى موجب پادشاهيست تو مر خلق را پريشان براي چه مي كني مگر سر پادشاهي كردن نداري؟

Tarjimasi: “Ey podshoh! Podshohlarning ishi odamlarning boshini biriktirish ekan, sen xalq parokanda bo‘lishiga yo‘l qo‘yasan? Nahotki, podshohlik qilish sirini bilmasang?”

Ogahiy salaflari podshohlarni adolat sarhadidan chiqmasligi uchun “Iymon va adolat egizlardir”, ya’ni adolati bo‘lmagan iymonini, iymoni bo‘lmagan adolatini boy beradi, degan g‘oyani ilgari surganlar. Demakki, Ogahiy tarixiy-adabiy asarlarida bu borada salaflar kabi ikki asosiy usulni o‘rni bilan qo‘llash yo‘lidan borgan.

Kutilayotgan natija. Ogahiy solnomalari badiiyatini yuzaga keltirgan omillar sifatida mumtoz asarlar uslub va ruhiyati ta’siri alohida o‘rin tutadi. Bu borada muarrix tarjima qilgan, sevib mutolaa qilgan tarixiy va badiiy asarlar ta’siri katta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Саккизинчи том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 496.
2. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд: Девон. Нашрга тайёрловчилар: Д.Ғойипов, С.Сариев, Б.Умрзоқов. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014. – Б. 38.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 12-том. – Тошкент: Фан, 1992.
4. Aysu Ata. Harezm – Altın Ordu türkçesı. İstanbul, 2002. –S. 38.
5. صفا ضبيح الله . تاريخ ادبيات درايران. ج ۲ص ۳۱۰۱
6. Исмоилов И. Огаҳийнинг форсий мероси: Филол.. фан... номз... дисс... – Самарқанд. 2010. – Б. 24.
7. Манбаларда Паҳлавон Маҳмуд Пурёрвалий зикри. Нашрга тайёрловчилар: Ж.Маҳмудов, М.Карамий. – Тошкент, 2007.
8. Kalandarov M. Manzum eseri düz yaziya aktarmada “Haft Peyker” örneği. Example of “Haft Peyker” for transfering verse text into prose // Gazi Türkiyat, Güz 2012/11. – S. 69. http://turkiyat.gazi.edu.tr/posts/download?id=44233

9. Мунис Хоразмий. Сайланма. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 11.
10.Огаҳий, Асарлар. Олти томлик. Биринчи том. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б. 66.
11. ضرب‌المثل‌های ترکی در آثار نظامی: https://azenglishnews.com
12. https://ganjoor.net/nezami/5ganj/makhzanolasrar/sh40
13. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 6-жилд. Гулшани давлат (Давлат гулшани). – Тошкент: “Sharq” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2020. – Б. 123.
14. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.8-том. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 45.

“BOBURNOMA”DA SHAXS RUHIYATI TASVIRI VA MUALLIF MAHORATI

Sulaymonov Isroil Isomiddinovich,
filologiya fanlari doktori, professor,
Sharof Rashidov nomidagi
SamDU

Annotatsiya

Maqolada Boburning jang va kurash maydonlari tasvirida shaxslarning xarakteri, ichki olami, ruhiy-psixologik holatlari, ularning ruhiyatida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni tavirlashda muallif mahorati kabi msalalar g‘oliblik va mag‘lublik prizmasi orqali tahlil qilingan.

Kalt so‘zlar: *Bobur, muallif dunyoqarashi, Sulton Ibrohim, hind jangchilari tasviri, ruhiy holat, “g‘oliblik” va “mag‘lublik”.*

Abstract

In this articleis givenanalisis of Babur’s overview, his points on social-political situation of that time, being master of poet in using words and expressions, his abilities to reveal social-political situation of that time through psychology of winner and being winner by prisms of his abilities in terms of historicion, politic and impartially expert.

Key words: *Babur, overview of autlor, Sultan Ibrakhim, Babur expert of his age, psychological condition of he«winner», and “being winner”.*

“Boburnoma”ning Hindiston tasviriga bag‘ishlangan o‘rinlarida, xususan, jang va kurash maydonlarining tasvirida Boburning xarakter xususiyatlari, ichki olami va ruhiy o‘zgarishlarini ifodalovchi lavhalarga ko‘p duch kelamiz. Muallif asarida bunday lahzalarni tasvirlashda beixtiyor tarixiy, esdalik asar uslubidan tabiiy ravishda chekinib, badiiy asar yaratayotgan adibga aylanib qolishini o‘zi ham sezmagan ko‘rinadi. G‘oliblik sururi boismi, Boburning lirik shoir, hayotni chindan sevuvchi, umrning o‘tkinchiligini va uni xush o‘tkazishni qayta-qayta nazmiy asarlarida qayd etgan adib, bunda ham tasvirlarda o‘zini erkin sezib, voqea-hodisalarni qalamga olishda uni badiiy ifodalashga harakat qiladi.

Tarixiy shaxslar – bek va a’yonlar, sarkardalar va oddiy askar tasvirida biz «Boburnoma» muallifining badiiy tasvirlarga boy satrlarini ko‘ramizki, muallif bu paytda yaxshi kayfiyatda bo‘lgan chog‘ida, raqiblar ustidan g‘olib kelib, g‘oliblik nashidasi ta’siri ostida ifoda etilgan tasvirlarda bu hol yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Boburning Hidistondagi g‘alabasi unga shon-shuhrat keltirishi tabiiy hol edi, albatta. Bu g‘oliblikni saqlab qolish uchun u shiddat bilan ish olib boradi, Hindistonni mayda rojalik va kichik feodallar davlatidan bir mustaqil, mustahkam davlatga aylantiradi.

Shu bois Hindistonning birinchi prezidenti Javoharla’l Neru o‘zining «Hindistonning kashf etilishi» va «Jahon tarixiga bir nazar» asarlarida Boburning Hindiston tarixida tutgan o‘rni haqida ancha ibratli so‘zlarni yozib qoldirgan: “Bobur shu paytgacha o‘tgan madaniyatli va jozibador insonlar orasida eng yetuklaridan biri edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutassiblikdan yiroq edi” [Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2022: 7].

“Boburnoma”da uning hindistonlik raqiblarini o‘ziga bo‘ysundirish, mag‘lubligini isbot etishining o‘ziga xos badiiy tasviri berilgan. Bir o‘rinda Bobur G‘ozixon nomli hind lashkarboshisini tasvirlar ekan, uning ichki olami, ruhiyatida sodir bo‘lgan o‘zgarishni shu darajada badiiy ifodalaydiki, bu jarayon mag‘lub G‘ozixonning g‘olib Bobur bilan muloqotida o‘z aksini topgan. Bobur G‘ozixonning

ruhiyatida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni tasvirlash uchun munosib so‘z va iboralarni tanlab ishlatadi: «Buyurdimkim, o‘shal ikki qilichkim, bizning bila urushur uchun belga bog‘lab edi, bo‘ynig‘a ostilar. Mundoq rustoyi va loda mardak bo‘lg‘aymukin, ishi bu yerga yetib, hanuz taallul qiladur. Ilgarrak kelturdilar. Buyurdumkim, qilichlarni bo‘ynidin oldilar. Ko‘rushur vaqt yukunmakta ta’xir qiladur. Buyurdumkim, oyog‘ini tortib yukundurdilar. Ilgari o‘lturg‘uzub, bir hindustoniy bilur kishiga buyurdimkim, bu so‘zlarni biror-biror anga xotir nishon qila aytkil. ...O‘zungni va o‘g‘lonlaringni, balujlarning darbadarliqlaridin qutqordim. Xaylxonalaringiz va haramlaringizni Ibrohimning bandixonasidin xalos qildim. Uch karo‘r Tatarxonning viloyatini sanga inoyat qildim. Sening haqqingda yomon bordimmukim, to‘shung bila belingga ikki qilich bog‘lab, cherik tortib, bizning viloyatlarning ustiga kelib, mundoq sho‘r va fitna solursen. Qari mabhut mardak bir-ikki so‘z og‘zida-o‘q puypadi, so‘zlay olmadi, muqobalada ham demay mundoq muskat so‘zlarga ne deya ham olg‘ay edi” [Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2022: 188].

Yuqoridagi matnda Bobur bo‘layotgan suhbatning ta’sirini oshirish uchun G‘ozixonning ruhiy holatini tasvirlashda, badiiy sayqal berishda uning ruhiy holatidagi o‘zgarishga e’tibor qaratib, «qari mabhut mardak bir-ikki so‘z og‘zida-o‘q puypadi, so‘zlay olmadi, muqobalada ham demay mundoq muskat so‘zlarga ne deya ham olg‘ay edi», deydi. Bunda Boburning so‘z tanlashiga qoyil qolish kerak. U G‘ozixonga aytgan ta’sirli, kishiga qattiq tegadigan so‘zlarni «muskat» so‘zi bilan umumiy tarzda ifodalaydiki, bu so‘z achchiq, hazm qilib bo‘lmaydigan ma’nosida kelib, mag‘lub G‘ozixonning o‘sha paytdagi holati, ruhiyati va nochor ahvolda qolganligini ifodalab kelgan, ayni paytda Boburning so‘z tanlash mahorati, uni o‘rnida ishlata bilishidan ham darak beradi.

Bobur Hindiston sultoni Ibrohim Lo‘diy bilan jangga kirishar ekan, Panipat shahri uchun bo‘lgan urush oldidan ancha hayajonga tushganligi, noma’lum shahar, joy o‘zi ta’kidlaganidek, «vatandin ikki-uch oychilik yo‘l kelilib edi. G‘arib qavme bila elning ishi tushib edi. Ne biz alarni tillarini bilur edik, ne alar bizning tilimizni» bois ma’lum darajada vahimaga tushadi. Shunda ham Boburning jasurligi, vazminlik bilan bir qarorga kelishi va sharoitni ob’ektiv baholay olishi qo‘l kelib, vaziyatni o‘nglab oladi. Ana shu lahzada ham g‘olib Boburning shiddati, uning fikr mantiqi, juda qisqa muddatda o‘zini tutib olishiga, ruhiy holatida o‘zgarish sodir bo‘lsa ham atrofdagilarga sezdirmasdan, to‘g‘ri qarorga kelishiga sabab bo‘ladi. Aslida bu «g‘arib qavme» bilan bir marta ham muomala qilishga to‘g‘ri kelmasdan, bundan keyin ular bilan bir muhitda yashashga majburligimuammosi Boburning ko‘ngliga g‘ulg‘ula solsa-da, mag‘rur holda shunday xulosaga keladi: «Cherik eli ba’zi xeyle mutaraddid va mutavahhim edilar. Taraddud va tavahhum betaqribdur. Nekim azalda Tengri taqdir qilibtur, andin o‘zga bo‘lmas. Agarchi alarni ham ayb qilib bo‘lmas, haq alar jonibi edi. Ne uchunkim, vatandin ikki-uch oychiliq yo‘l kelilib edi. G‘arib qavme bila elning ishi tushub edi. Ne biz alarning tillarini bilur eduk, ne alar bizning tilimizni” [Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2022: 192].

“Boburnoma”da g‘olib Bobur bilan mag‘lub Ibrohim Lo‘diyning yakkama-yakka uchrashuvi jang maydonida bo‘lib o‘tadi, bu lashkarboshilar faqat bir marta kurash maydonida o‘zaro yuzma-yuz duch keladilar. Bobur Ibrohim Lo‘diyning ruhiy holatini juda jonli, hayotiy tasvirini beradi. Bunda mag‘lubligini his etgan Hind sultoni jang maydonida Boburning qorasi ko‘rinishi bilanoq, unda sarosimalik boshlanadi, o‘z harakatini nazorat qilolmay qoladi. Ibrohimning bunday holatini badiiy tasvirlagan muallif jang maydonidagi g‘olib Bobur va mag‘lublikni his etayotgan Ibrohimninng ichki olamini juda jonli tasvirini bera olgan: «Sulton Ibrohimning qorasi yiroqtinkim, ko‘rundi, hech yerda darang qilmay, tez-o‘q keladur edi. Ilgarrak kela bizning qoramizkim, alarg‘a ko‘rundi, bu tartib va yasolnikim, mulohaza qildilar, hasr bo‘lub, turay-turmay, kelay-kelmay degandek qilib, ne tura oldi, ne burung‘idek bedarang kela oldi” [Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2022: 193].

Boburning yuqoridgi tasviriga e’tibor bersak, Sulton Ibrohimning jang maydonidagi bu harakati muallif tomonidan shunchalik jonli ifodasini topganki, «Boburnoma»dagi shunga o‘xshash

tasvirlara sarni tarixiy asardan koʻra koʻproq badiiy asar sirasiga kiritishga asos boʻladi. Ibrohim Loʻdiy ruhiy holatida Boburning jang maydonida qorasi koʻringunga qadar boʻlgan paytdan uning nazari tushishi bilan shunchalik tez oʻzgarish sodir boʻladiki, bu oʻzgarish Bobur shuhratini eshitganu uning oʻzini koʻrmagan Hind lashkarboshisi uchun dahshat boʻlib koʻrinadi. Ibrohim Loʻdiyning bu sarosimali harakatida biz gʻolib Boburning shiddati, oʻz raqibiga nisbatan ustun kelgan, jang maydonini boshqarib turuvchi gʻolib sarkardani koʻramiz. Boburning «Sulton Ibrohimning qorasi yiroqtinkim, koʻrindi, hech yerda darang qilmay, tez-oʻq keladur edi», «bizning qoramizkim, alargʻa koʻrundi», «turay-turmay, kelay-kelmay degandek qilib», «ne tura oldi», «ne burungʻidek bedarang kela oldi», degan jumlalarida nihoyatda hayotiy tasvir oʻz aksini topgan. Bu tasvirda Sulton Ibrohimning xayolidan nima oʻtganligi Boburga ma'lum emasku, ammo bu harakat orqali u raqibining avval bezovta boʻlgani, keyinroq esa, voqea shiddatli tus olib, dinamizm oshgan sari Hind lashkarboshisining harakatida sarosimalik, jang maydonini aniq tasavvur qila olmaslik, raqibi Boburning vahimasi bosganligini «Boburnoma»ning zukko oʻquvchisi teran anglay oladi. Chunki, Sulton Ibrohim harakatidagi bu oʻzgarishlar, tashvish va iztirobli holatlar muallif tomonidan yuksak badiiyat bilan ifodalagan.

"Boburnoma"da muallifning Ibrohim Loʻdiy ustidan gʻalaba qozongandan keyingi faxriya tarzida bayon qilingan «ichki nutqi»mavjud boʻlib, unda gʻolib Boburning bu yurtda qoʻlga kiritgan yutuqlari, kurashlar natijasida chekkan azoblari, bu zahmatlar evaziga qoʻlga kiritgan mulklari, shon-sharafi va gʻoliblikdan shodlanib, bildirgan ichki nidosi quyidagicha beriladi: «... Bhiradin Biharg'acha afgʻon tasarrufida edi, podshohi Sulton Ibrohim edi. Viloyat hisobi bila besh lak cheriki boʻlmoq kerak edi. Ul fursatta yurub, umarosi muxolafat maqomida edilar. ...Sulton Ibrohimdek qalin cheriklik va vase' mulkluk podshoh bila roʻbaroʻ boʻlduk. Tavakkulimizga yarasha Tengri taolo ranj va mashaqqatimizni zoyi' qilmay, mundoq zoʻr gʻanimni magʻlub qilib, Hindustondek keng mamlakatni maftuh ayladi. Bu davlatni oʻzumizning zoʻr va quvvatidin koʻrmasbiz, balki Tengrining mahzi lutf va shafqatidindur va bu saodatni oʻzumuzning sa'y va himmatidin bilmasbiz, balki Tengrining ayni karam va inoyatidindur" [Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2022: 195].

Bu oʻrinda, garchi Bobur kamtarlik bilan, komil musulmon sifatida barcha gʻalabalarining bosh sababchisi Olloh ekanligini qayta-qayta takrorlasa ham, agar uning oʻzida bu gʻoliblikka azm boʻlmasa, shijoat va gʻayrat boʻlmasa, murodiga yetishi mushkil edi. Boburning bu nidosini biz aslicha qabul qilib, uning qalbida Ollohga boʻlgan yuksak e'tiqod mustahkam oʻrnashgani, bir zum boʻlsa ham aslo kam boʻlmaganligi, oʻzining muvaffaqiyatlarini ana shu e'tiqod tufayli ishonch va sadoqat bilan izhor qilganligi ham unga maqsadiga ershish baxtini nasib etgan edi.

"Boburnoma"da hind askarlarining orasida Bobur tomonidan tasvirlangan haqiqiy fidoiylar ham borki, ular oʻz mamlakatlari, yurtlarini Bobur lashkarlaridan mardonavor himoya qilganlar. Shu bilan birga, Bobur lashkarlari orasida vahimaga tushish, dushman harbiy kuchini aslidan koʻp, deb gap tarqatadiganlar ham boʻlgan. Bobur bu kabi jangchilariga nisbatan shafqatsiz munosabatda boʻlgan, ularni jang maydonida ruhiy tetikligini saqlash, dushman hiylasiga berilmaslik borasida jiddiy ish olib borgan: «Qarovulliqqa borgʻonlar xabar yetkura olmaslar, balki qoʻrgʻongʻa ham kira olmaslar. Qoʻrgʻon eli qoʻrgʻondin yiroqroq va besurfaroq chiqarlar. Yogʻiy zoʻrroq kelib, bularni durbatur. Sangarxon janjuha anda shahid boʻldi. Bu gʻavgʻoda Kattabek jibasiz-oʻq chopib chiqar. Bir kofirni yayoqlatib olur mahalda Kattabekning bir navkarining qilichini olib, Kattabekning kitfigʻa-oʻq chopar. Gʻalaba tashvishlar tortti. Raana Sangaaning gʻazosid kela olmadi. Necha mahaldin soʻng yaxshiroq boʻldi. Vale ma'yubroq boʻlubtur. Qismtoy va Shoh Mansur barlos va har kimki, Bayanadin keldi, bilmon qoʻrqqonlarimu edi, yo elni qoʻrqutqonlarimu edi: Kofirning cherikini jald va jarrorliq bila asru koʻp sitoyish va ta'rif qildilar" [Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2022: 219].

Bunda Bobur lashkarlarining ruhiy holatiga alohida e'tibor berib, bu tushkunlikni bartaraf etish uchun kurashganini bayon etish bilan birga, lashkarning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari haqida

ham ma'lumot bermoqda. Albatta, Boburning o'zi ta'kidlaganidek, lashkariga ham oson emasdi. Begona yurt, nomuvofiq ob-havo, begona til kishilarining ruhiy holatiga ta'sir etmasdan qolmasdi. Shunga qaramasdan, Boburning rostbayonligi ustun kelib muxolifat askarining payt poylab, «Kattabekning bir navkarining qilichini olib» Boburning bir layoqatli bekiga zarba berishi, hatto uni «g'azo» kabi o'sha davrda juda muhim bo'lgan jangdan quruq qoldirganini tasvirini bergan muallif asarida realistik tasvirga keng o'rin bergan, mazkur voqeaga badiiy tus berib, raqib askari shijoatini ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan asarning shu o'rnida lashkarlarining dushman qo'shinlarini aslidan ko'p deb gap tarqatgan, lashkar orasiga tahlika solishga harakat qilgan o'z safdoshlarining kamchiligini ham ochib beradiki, bu muallifning asarda rostbayonlikni shior qilishining yana bir namunasidir.

Boburning Hindistondagi faoliyatida, asosan uning g'oliblik davri ko'zga tashlanadi. Amir Temur tasarrufiga kirgan yerlarga egalik qilish, buyuk bobosi saltanatini bor bo'y-basti bilan qaytadan tiklash asl maqsadi bo'lgan Bobur, butun harbiy salohiyatini ana shu maqsadga sarflaydi, bu yo'lida to'g'anoq bo'lgan raqiblariga, hatto temuriy shahzodalarga qarshi ayovsiz kurash olib borishiga ham to'g'ri keladi. Hindistonda Chanderiy viloyati uchun olib borilgan jangning tasviri "Boburnoma"dagi eng jonli, realistik lahzalardan iborat bo'lib, unda muallif yuksak badiiy mahoratini namoyon etgan. Bu tasvir, eng avvalo, hind xalqining o'z Vataniga bo'lgan muhabbati, unga sodiqligi, ushbu yo'lda hech narsadan qaytmasligi kabi jihatlarini yuksak badiiyat bilan tasvirlab bergan. Ikkinchi tomondan, bunday epizodlar asarda anchagina bo'lib, Boburning tarixiy voqealarni qanday bo'lsa boricha aks ettirish, ahd qilgan rostbayonligiga sodiq qolish, agarda bunday tasvirlar uning jang maydonidagi harakatlarining g'oyasiga ma'lum darajada zid bo'lsa ham, dushmanlarining ruhiy tetikligi, tug'ilgan yurtiga muhabbati bois Bobur lashkarlariga asir tushgandan ko'ra o'limni afzal ko'rishlarini hayotiy tasvirlab berishi katta jasorat sirasiga kiradi. Bunday lahzalar "Boburnoma"ning shuhratini yanada oshirgan, muallifning badiiy mahoratini yaqqol ko'rsatib bergan.

Bunda Bobur raqib tomoni bo'lgan hindlarning ruhiy holati, jang maydonida murakkab sharoitda ham o'zlarini tuta bilishlari, o'limga mardonavor borishlari, o'zlari emas, xotinlari, farzandlarini ham g'olib Bobur lashkarlariga asir tushishidan ixtiyoriy o'limni afzal ko'rganliklari juda jonli, hayotiy ifodasini topgan. Ushbu satrlar g'olib Boburning shu lahzadagi g'alabasini ko'rsatsa ham, ma'naviy g'oliblik hind xalqi tomonida ekanligini, hind xalqi uchun begona yurtlarga kirib kelgan lashkarlarga munosabatini bildirgan. Ikkinchi tomoni, Boburning bu tasviri go'yo tarixiy asarni emas, yuksak badiiy nasr namunasini ko'z o'ngimizda gavdalantiradi. Muallif hind lashkarlarining ruhiy holatini, o'limga tik boqib, uni qahramonlarcha qabul qilib, ruhiyatlarida hech qanday o'zgarish zohir bo'lmaganini «oldururlarini jazm qilib, xotunlarini tamom chopqulab, o'lturub, o'zlariga o'lumni ko'rub, yalang'och bo'lub, urushqa kirmishlar», degan jumlalar orqali tasvirlaydi. Matndagi «oldururlarini jazm qilib, xotunlarini chopqulab, o'lturub, o'zlariga o'lumni ko'rub, «yalang'och bo'lub, urushqa kirmishlar», «ushbu havolida aksar bir-birlarini o'lturubtur», «aksar bu dastur bila do'zaxqa bordi», kabi jumlalarda esa hind lashkarining ruhiy holati, ichki kechinmalari o'ta hayotiy ifodasini topgan: «Andak fursattin so'ngra kofirlar tamom yalang'och bo'lub kelib, urusha kirishtilar. G'alaba elni qochurub, fasildin uchurdilar. Bir necha kishini chopqulab, zoyi' qildilar. Fasilning ustidin bot borg'onlarining jihati bu ekindurkim, oldururlarini jazm qilib, xotunlarini tamom chopqulab, o'lturtub, o'zlariga o'lumni ko'rub, yalang'och bo'lub, urushqa kelmishlar. Oxir to'sh-to'shdin zo'r qilib, fasil ustidin qochurdilar. Ikki yuz-uch yuz kofir Mediniy Ravning havolisig'a kirdi. Ushbu havolida aksar bir-birlarini o'lturubtur. Andoqkim, birisi bir qilichni olib turubtur, o'zgalari birar-birar rag'bat bila bo'yunlarini uzotib turubtur. Aksar bu dastur bila do'zaxqa bordi" [Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2022: 235].

Bobur yuqoridagi matnda hind lashkari bilan sodir bo'lgan, kishi tasavvur qilishi mushkil ruhiy holatni keltiradi. Bunda adib hind lashkarining ruhiy holatini yuksak darajada tabiiy, hayotiy

tasvirlab beradiki, unda vatan himoyasi yo‘lida jonini ham ayamaydigan kishilarning umumlashma obrazi yaratilgan. Mantiqan qaraganda, o‘limga jon-jahdi bilan tik boruvchi shaxs bo‘lmasa kerak. Bobur hindlarning vatanparvarligini ko‘rsatish uchun ularning «rag‘bat» bilan o‘limni qarshi olishlarini tasvirlamoqda. Bu so‘z hindlarning ichki olami, o‘limni pisand qilmasligi, ruhiy holatida sodir bo‘lgan bu o‘zgarishlarni taqdiri azalning hukmi sifatida qabul qilganligini so‘z ta’siri orqali ifodalaganki, uning badiiy mahoratidan darak beradi: «Aksar bir-birlarni o‘lturubtur. Andoqkim, birisi bir qilichni olib turubtur, o‘zgalari birar-birar rag‘bat bila bo‘yunlarini uzotib turubtur», «oldururlarini jazm qilib, xotunlarini chopqulab, o‘lturub, o‘zlariga o‘lumni ko‘rub, yalang‘och bo‘lub, urushqa kirmishlar», jumlalarida Bobur gapda qator kelgan so‘zlar orqali so‘z mantiqini kuchaytirmoqda. Har bir so‘z oldin kelgan so‘zning ta’sir kuchini oshirib, bu urush dahshatini o‘quvchiga real hayotda sodir bo‘lganidek ta’sirli va ishonarli ifodalab bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, “Ona yeridan ta’qib ostida ajrab, Hind yerida qo‘nim topgan Bobur ijodiga ko‘chgan ruhiy kechinmalarida davrning beshafqat qonunlari o‘z kuchida qolaverdi. Balki xuddi shu sabablardandir, Bobur boshida toji, ostida taxti bo‘la turib «noraso dunyo», adolatsiz «taqdiri azal»ning nayranglariyu jamiyatning noshudliklariga befarq qarolmay, u ham hamma taraqqiyparvar ijodkorlar singari o‘z zamoniga sig‘madi” [Низомиддинов. 2012: 107].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. Тошкент. Шарқ. 2002. – 335 б.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. Тошкент.: Шарқ. 2014. – 744 б.
3. Йўлдошев С, Усмонов М, Каримов Р ва бошқалар. Янги ва энг янги Ғарбий Европа фалсафаси. Тошкент: «Шарқ», 1992.
4. Жалилов С. Бобир ва Юлий Цезар. Тошкент:. «Янги аср авлоди». – 192 б.
5. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. Тошкент: «Маънавият», 2008. – 227 б.
6. Низомиддинов Н.Ғ. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). Монография. Тошкент.: Fan va texnologiya, 2012 йил. – 516 б.
7. Сулаймонов И. Ғолиблик сурури, мағлублик изтироблари. Монография. Самарқанд, 2019 йил. – 220

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR XOJA AHROR VALI HAQIDA

Muhammadqosim Olimov,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining
Buxoro viloyati kengashi raisi
e-mail: olimovmuhammadqosim58@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Bobur mirzoning “Boburnoma” asarida naqshbandiya tariqatining ulug‘ avliyosi va uning izchil davomchisi Xoja Ahror Vali (Xoja Ahror Ubaydulloh) haqidagi qarashlari jamlanib, ushbu masala yuzasidan muallifning ilmiy nuqtayi nazari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *hukmdor, pir, alloma, valiy, xoja, murid, madrasa, tariqat, soliq, adolat, ixlos, meros.*

Abstract

This article brings together Babur Mirza’s views expressed in the Baburnama concerning the eminent saint of the Naqshbandiyya order and its distinguished successor, Khoja Ahrar Vali (Khoja Ahrar Ubaydullah), and presents the author’s scholarly perspective on this issue.

Key words: *leader, erudite, saint, madrasa, type, tax, justice, devotion, heritage.*

Kirish

Xoja Ahror Vali (Hazrat Xoja Ubaydulloh) musulmon olamining ulug‘ donishmandlaridan biri, naqshbandiya tariqatining eng yirik davomchisi sifatida ulug‘lanadi. U 1404-yilda Toshkent viloyatining Bog‘iston qishlog‘ida o‘qimishli, ma’rifatparvar oilada tavallud topgan. Yoshligidanoq mashhur allomalar, Abubakr Qaffol Shoshiy, Shayx Hovand Tohur va Shayx Zayniddin Ko‘yi Oriflarning asarlari bilan tanishib, ularni o‘zining ustozlari sifatida qabul qilgan.

Xoja Ahror 1427-yili Samarqand shahriga kelib, Qutbiddin madrasasida tahsil olgan. Keyinchalik ilm olishni mustaqil ravishda davom ettirgan.

Xoja Ahror 1428-yilda Hirotga borib, u yerda 5 yil yashab, o‘z davrining diniy rahnamolari Shayx Bahouddin Umar va Shayx Zayniddin Havofiylardan naqshbandiya tariqatiga oid sir-asrorlarni o‘rgangan.

U 1433-yil Chag‘oniyon viloyatida yashovchi Xoja Bahouddin Naqshbandning shogirdlari mavlono Ya’qub Charxiyga shogird tushib, u kishini ma’naviy pir sifatida qabul qilgan. Keyinchalik oq fotiha olib, o‘z yurtiga qaytadi, dehqonchilik bilan shug‘ullanib, tez orada juda katta mol-mulkka ega bo‘ladi.

Asosiy qism

Xoja Ahror Vali yirik yer egasi edi. U o‘z daromadlarining bir qismini madrasa, masjid, xonaqoh va boshqa diniy binolarning qurilishi uchun sarflagan, xalqqa solingan soliqlarni to‘lashga yo‘naltirgan. O‘z faoliyati davrida fuqarolar osoyishtaligi, hunarmand va tijorat ahlining ravnaqi yo‘lida ko‘p xizmatlar qilgan. Jumladan, Samarqand hukmdori sulton Ahmad mirzo tomonidan xalqqa soliq solingan 10 ming kumush tanga summani o‘z hisobidan xazinaga topshirgan. Boburning otasi Farg‘ona hokimi Umarshayx mirzo aholiga 250 ming dinor soliq solganida, Xoja Ahror Vali bu summani o‘z hisobidan to‘lab, aholini soliq jabridan qutqargan.

Hukmdorlar orasidagi turli bahsli muammolarni urushsiz, qon to‘kishlarsiz, munozaralar yo‘li bilan tinch-osoyishta hal etish mumkin deb hisoblagan va muntazam shu qoidaga amal qilib, ijobiy natijalarga erishgan.

Xoja Ahror Valining mavqeyi Samarqand sultonlari Sulton Abusaid mirzo va Sulton Ahmad mirzolar davrida, ayniqsa, baland bo‘lgan. Bu sultonlar Xojaning taklif va fikrlarini inobatga olishgan, har bir muhim tadbirni Xoja bilan bamaslahat amalga oshirishgan. Bunda uning teran aqli, bilimdonligi, xalq manfaatini ko‘zlab qilgan fatvolari asos bo‘lgan.

Temuriyzoda sulton Sulton Abusaid mirzo Xoja Ahror Valini o‘zining piri deb bilar edi. 1460-yili Samarqanddan Hirotga kelgan Xoja podshohning aholidan olinadigan tamg‘a solig‘ini bekor qilishiga erishadi va shu yo‘l bilan aholiga juda katta soliq imtiyozlari beriladi.

Xoja Ahror Vali el-yurt, xalq manfaati uchun temuriy shahzodalar o‘rtasida avj olgan o‘zaro toj-u taxt kurashlarida juda ko‘p marta vositachilik qilib, masalalarni tinch yo‘l bilan hal etgan. Jumladan, 1462-yili temuriyzoda Muhammad Jo‘qi mirzo Sulton Abusaid mirzoga qarshi bosh ko‘tarib, Shohruxiya shahrini qamal qilganda, Xoja Ahror Vali ikki tomonni murosaga keltirib, qo‘zg‘olonni bostirishga erishgan va barchani Sulton Abusaid mirzoga bo‘ysundirib bergan.

Bobur mirzo Samarqand sultoni Sulton Ahmad mirzoning Xoja Ahrorga bo‘lgan munosabati to‘g‘risida shunday yozgan edi: “Hazrati Xoja Ubaydullohga irodati bor edi. Hazrati Xoja anga murabbiy va muqavviy erdilar. Samarqand ahlikim, yigirma-yigirma besh yil sulton Ahmad mirzoning zamonasida rafoiyat va farog‘at bilan o‘tkarib edilar, askar muomala Hazrat Xoja Ubaydulloh jihatidan adl va shar’ tariqi bila edi” [Bobur, 2019: 24].

Sulton Ahmad mirzo vafotidan so‘ng, 1494-yilda Samarqand taxtiga o‘tirgan Sulton Mahmud mirzo mamlakatni boshqarishda adolatsizliklarga yo‘l qo‘ya boshlaydi. Sulton zulmidan xalq noroziligi kuchayadi. U Xoja Ahror Valining farzandlariga nisbatan ham bepisandlik va qo‘pol muomaladi bo‘ladi. Bu holat “Boburnoma”da quyidagicha keltiriladi: “Hazrati Xoja Ubaydullohning mutaalliqlarig‘akim, burun xarj va tahmillarda ko‘p faqir va miskin alarning himoyati bilan zulm va taaddidin xalos bo‘lurlar edi, ne joy ulkim, alarg‘a mundoq takliflar bo‘lg‘ay, ko‘p taaddi va tashaddud qila boshladi” [Bobur, 2019: 24]. Sultonning bunday zulm va sitamlarni Xojaning avlodlariga nisbatan ham qilgani asarda quyidagicha keltiriladi: “Bu nav’ zulm va fisqdin ba jonu dil ozurda va ranjida bo‘ldilar va zev va sharif va faqir va miskin nafrin va duoyi badg‘a og‘iz ochib, qo‘l ko‘tardilar. Lojaram zulm va fisqning shomatidan Samarqandta besh-olti oy hukumat qilmadi” [Bobur, 2019: 24].

Bobur Farg‘ona viloyatining shayxulislomi Xoja Mavlonoyi qozini Xoja Ahrorning shogirdi ekanini aytib, uni “ustod va pirim” deb ataydi va u haqda quyidagicha bitadi: “Xoja Mavlonoi qozining oti Abdullodur. Bu ot bila mashhur bo‘lub edi. Xoja qozi hazrati Xoja Ubaydullohning muridi edi. Alardin tarbiyat topib edi. Xoja qozining valilig‘ida mening hech shakkim yo‘qdur. Qaysi ish valoyatg‘a mundin yaxshiroq dalildurkim, alarg‘a qasd qilg‘onlardin oz fursatta osor va alomat qolmadi. Xoja qozi ajib kishi edi. Qo‘rqmoq anda aslo yo‘q erdi. Oncha daler kishi ko‘rilgan emas. Bu sifat ham valoyat dalilidur. Soyir el qancha bahodir bo‘lsa, andak dag‘dag‘asi va tavahhumi bo‘lur. Xojada aslo dag‘dag‘a va tavahhum yo‘q edi” [Bobur, 2019: 51].

Bobur mirzo Xoja Ahror Valiga hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalangan, bu zotning ruhlari unga bir necha marta ko‘makka kelgan. Xoja Ubaydullohning o‘g‘illari Xoja Abdullo, Xojago Xoja, Xoja Yahyolar bilan uchrashib, ularning suhbatini olgan, ularga bo‘lgan yaxshi munosabatini asarida alohida e’tirof etgan.

Jumladan, Xoja Yahyo bilan ilk bora 1496-yilda uchrashgan. Xoja Abdulloni esa 1501-yili Toshkentda ekanida borib ko‘rgan va duosini olgan edi. Bobur mirzo ilk bora Samarqandni egallaganida, Xojaning o‘g‘illari Xoja Yahyo uni qo‘llab-quvvatlagan edi.

Shuningdek, Bobur Samarqandni egallash tashvishida yurgan kezlari Xoja Ubaydulloh tushiga kirib, qo‘llab-quvvatlagani va shu tufayli Samarqand taxtini egallaganini alohida ta’kidlaydi: “O‘shul fursatta ajab tush ko‘rdum. Tush ko‘rarmankim, hazrati Xoja Ubaydulloh kelmishlar, men istiqbollarig‘a chiqmishmen, Xoja kelib o‘lturdilar. Xojaning olig‘a g‘olibo betakallufroq dastorxon solmishlar. Bu jihattin hazrat xotirig‘a nima kelmish. Mullo Bobo mening sari boqib

ishorat qiladur. Men ham imo bilan dedimkim, mendin emasdur. Dastorxon solg‘uchi taqsir qilibtur. Xoja fahm qilib, bu uzr masmu’ tushti. Qo‘ptilar. Uzata chiqtim. Ushbu uyning dolonida o‘ng qo‘lumdin yo so‘l qo‘lumdin tutub andoq ko‘tardilarkim, bir oyog‘im yerdin qo‘pti. Turkiy dedilarkim: “Shayx maslahat berdi”. O‘shul necha kunda – o‘q Samarqandni oldim” [Bobur, 2019: 75].

Bobur mirzo Xoja Ubaydullohning ruhi va uning avlodlari hatto o‘limdan ham saqlab qolganini ajib bir ruhiyat bilan bitgan. Jumladan, 1502-1503-yillar atrofida Bobur Karnon qishlog‘ida yakka-yolg‘iz qolganida, bo‘lib o‘tgan bir voqeani keltiradi. “O‘zumni o‘limga qaror berdim. O‘shal bog‘da bir suv oqib keladur edi, vuzu qildim, ikki rak’at namoz o‘qudum, boshimni munojotga qo‘yub, tilak tiladur edimkim, ko‘zum uyquga boribtur. Ko‘radurmenkim, Xoja Ya’qub, Xoja Yahyoning o‘g‘li, hazrati Xoja Ubaydullohning nabiralari, ro‘baro‘yimda ablaq ot minib ko‘p jamoati ablaqsavor bilan keldilar. Dedilarkim: – G‘am yemangiz, Xoja Ahror meni sizga yubordilar. Dedilarkim, biz (Xoja Ahror) alar (Bobur)g‘a istionat tegurub, podshohlig‘ masnadig‘a o‘lturg‘uzubbiz. Har yerda mushkil ish tushsa, bizni nazarg‘a kelturub yod etsun, biz anda hozir bo‘lurbiz. Holo ushbu soat fath va nusrat sizning soridur. Bosh ko‘taring, uyg‘oning” [Bobur, 2019: 107].

Unga yordamga kelgan do‘sti Qutlug‘ Muhammad barlos ham shunday deydi: “Men tush ko‘rdimkim, Xoja Ubaydulloh dedilarkim: “Bobur podshoh Karnon degan kenttadur, borib ani olib keling, podshohlik masnadi anga taalluq bo‘lubtur” [Bobur, 2019: 108].

“Boburnoma”da Shayboniyxon Samarqandni egallaganidan so‘ng Xoja Ahror Valining farzandlarini ham turli hiyla yo‘li bilan o‘ldirgani munosabati bilan o‘zining keskin fikrini bayon etadi. Bobur mirzoning bu voqealarni bayon etgani uning Xoja Ubaydullohga bo‘lgan cheksiz hurmat-ehtiromi, hamisha u kishining ruhidan madad olgani, shuningdek, uning avlodlariga bo‘lgan cheksiz hurmatini ko‘rsatadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1526-yili Hindistonni zabt etganidan keyin ichkilikbozlikni qat’iyan man etadi; ikkinchidan, xalqqa yengillik bo‘lishi uchun yerli aholidan tamg‘a solig‘i olishni bekor qiladi. U bu soliqni bekor qilar ekan, shunday ezgu amalni joriy etishni ancha yillardan beri niyat qilib yurganligini alohida ta’kidlagan. Yuqorida keltirganimizdek, bunday xalqparvarlik namunasi sulton Abusaid mirzo zamonasida Xoja Ahror Vali taklifi bilan amalga oshirilgan, bu voqea esa Bobur mirzoga juda katta ijobiy ta’sir qilgan edi.

Boburning otasi Umarshayx mirzo Xoja Ahror Valiga ixlos qo‘ygan kishi edi. Bobur mirzo ham shu yo‘ldan borib, uning tariqati ruhida tarbiyalangan va umrining oxiriga qadar shu e’tiqodga sodiq qolgan shaxs sanaladi.

“Boburnoma”da qattiq kasallikka chalingan mashhur “Qasidai Burda” muallifi shoir Sharafuddin Abu Abdulloh Bo‘siriy (1213–1295-yillar)ni eslaydi. Bo‘siriy payg‘ambarga atab mashhur qasidasini yozib tugatgandan so‘ng ixlos va aqida kuchi bilan falaj kasalligidan shifo topgan ekan.

Qattiq kasallikka chalingan Zahiriddin Muhammad Bobur 1528-yilda Xoja Ahror Valining “Volidiya” asarini shu niyat bilan tarjima qilishga kirishar ekan, Hazratning ruhidan madad istagan. Bu ish yakuniga yetmasdan turib, kasallikdan forig‘ bo‘la boshlagan va buni quyidagicha ta’riflaydi: “Tengri inoyati bila, hazratning himmatidin panjshanba kuni oyning yigirma to‘qquzida andake afsurda bo‘ldi, o‘zga bu orizadin xalos bo‘ldum” [Bobur, 2019: 318].

“Volidiya” asarini tarjima qilish orqali Bobur mirzo bu ulug‘ siymoga bo‘lgan cheksiz hurmatini bildirib, uni ulug‘ ustoz, madadkor va hidoyat qiluvchi shaxs sifatida e’tirof etadi. Shu bilan birga, bu asarni o‘zbek tiliga tarjima qilishdan yana bir maqsadi, ya’ni ota tilidan diniy-tasavvufiy o‘gitlarni o‘z farzandlariga yetkazish niyatida nazmda o‘girgan edi.

Bobur mirzo “Volidiya” risolasi tarjimasining bir nusxasi va bir qancha ruboiylarini naqshbandiya

tariqati davomchilaridan biri Maxdumi A'zam nomi bilan tanilgan Sayyid Ahmad ibn Jaloluddinga yuboradi. Maxdumi A'zam risola tarjimasiga juda yuqori baho bergan. Bu qutlug' ishdan ilhomlanib, "Risolai Boburiya" nomli bir asar yozib, Bobur mirzoga yuborgan edi.

Maxdumi A'zam risolada shunday yozadi: "Yirik din arbobi va ilm ul – yaqin yo'lchisi erkanligini tushungan Xoja Ubaydulloh Ahror ularga Xudo nuri orqali nazar qilgan ekan, buning natijasi sifatida u kishi (ya'ni Bobur)da talab dardi topilib, oromsizlik va qarorsizlikka sabab bo'lgan ekan. Shu sabab Hazratning "Volidiya" risolasini nazmda tarjima qilib, o'z ruboiylari bilan bizga yuborgan ekanlar. Shunga ko'ra, kamina bir nusxa yozishga urindim. Xudo xohlasa, umid borkim, muborak xotirlariga taskin berib, ushbu saodat sarmoyasi bo'lmish talab dardining ko'payishiga sabab bo'lg'ay".

"Boburiya" risolasi Xoja Ahrorning "Volidiya" risolasiga javoban yozilgan asar bo'lib, Bobur bilan naqshbandiya tariqatining ulug' vakili Maxdumi A'zam o'rtasida oltin ko'prik sifatida xizmat qilgan.

Xulosa

Xoja Ahror Valining ilmiy merosi nafaqat Markaziy Osiyo, shuningdek, Afg'oniston, Pokiston, Turkiya, Hindiston va boshqa islom davlatlarida ham tasavvuf va ma'naviyat muxlislari qalbidan joy olgan bo'lib, naqshbandiya tariqatining boy manbasi hisoblanadi.

Bobur mirzo Xoja Ubaydullohning naqshbandiya tariqati davomchisi sifatida amalga oshirgan ezgu amallarining Hindiston hududiga keng yoyilishida ham munosib hissa qo'shganligi bilan alohida qadrlanadi.

Tabiiyki, Xoja Ahror Valining muxlislari toifasi va shogirdlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ular orasida ulug' mutafakkirlar Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar o'zlarining ma'naviy ustozi, ulug' piri va rahnamosi sifatida yuksak ehtirom ko'rsatganlar va o'z asarlarida pirning amalga oshirgan ezgu amallarini targ'ib qilib kelganlar.

Ma'lumki, Abdurahmon Jomiy "Tuhfat ul-ahror" kitobini Xoja Ahror Valiga bag'ishlab, u kishini "Ka'bai maqsud", Alisher Navoiy "Qutbi tariqat", Bobur mirzo Hazrat Xoja Ubaydulloh deb hurmat bilan tilga olgan.

Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" asarida uni "murshidi ofoq", ya'ni olamning ma'naviy rahbari bo'lgani uchun shohlar ham o'zlarini uning quli deb bilganlar, uning murid va muxlislari, darhaqiqat podshohlik darajasida turadilar, deydi. Shoir "Koinot boricha uning dabdabasi savlat to'kib tursin", deb maqtaydi. Shuningdek, "Xojalar xojasi", "Barcha narsaning mohiyatini tushunib yetgan inson", "Bu tabarruk insonning salovati va kuchidan odamlar bosh egishgan", deb ta'riflaydi.

Xojaning shiori "Inson dunyoda ma'naviy vazifasini bajarishi uchun siyosiy hukmronligidan ham foydalanish zarur", bo'lib, bu shior naqshbandiya tariqati falsafasining keyingi ijtimoiy-siyosiy faoliyatini belgilab bergan.

Bobur mirzo Xoja Ahror Valini o'zining piri sifatida ulug'lagan, u kishining diniy mavzuga taalluqli asarini o'zbek tiliga o'girgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.B. Бартольд. «Улуғбек и его время». – Москва: Наука, 1964 год.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". – Toshkent, 2019-yil.
3. B.Valixo'jayev. Xoja Ahror tarixi. – Toshkent, 1994-yil.
4. Arminiy Vamberi. "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi". – Toshkent, 2024-yil.
5. Глеб Голубев. Мирза Улугбек. – Москва, 1960 год.
6. Odil Yoqubov. Ulug'bek xazinasi. – Toshkent, 1979-yil.
7. A.Muhammadkarimov. Toshkent allomalari va tarixiy shaxslari. – Toshkent, 2009-yil.
10. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent, 2019-yil.
11. Maqsud Shayxzoda. Mirzo Ulug'bek. – Toshkent, 1964-yil.

MUHAMMADSHARIF GULXANIY HAYOTI VA IJODINING ILMIY O‘RGANILISHI MASALALARI

Dildoraxon Abdullayeva,
filologiya fanlari doktori, professor,
Andijon davlat universiteti
e-mail: dildor.abd@mail.ru

Annotatsiya

Maqola o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Muhammadsharif Gulxaniy hayoti va ijodini ilmiy o‘rganishdagi muammolarga bag‘ishlangan. Unda shoirning biografik ma’lumotlari yetishmasligi, asarlari qo‘lyozmalari va nashrlarining holati, “Zarbulmasal” asarining matnshunoslik, tarjima va talqin masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Gulxaniy, “Zarbulmasal” asari, o‘zbek hajviy nasri, Qo‘qon adabiy muhiti, majoziy timsollar.*

Abstract

The article is dedicated to the issues in the scholarly study of the life and creative work of Muhammadsharif Gulxaniy, one of the prominent representatives of classical Uzbek literature. It examines the scarcity of the poet’s biographical data, the condition of manuscripts and editions of his works, as well as the problems of textual criticism, translation, and interpretation of the work “Zarbulmasal”.

Key words: *Gulkhani, Zarbulmasal, Uzbek satirical prose, Kokand literary circle, allegorical characters, satirical fables*

O‘zbek badiiy nasri taraqqiyotida Nosiruddin Burhoniddin Rabg‘uziy, Poshshoxoja, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi adiblarning o‘rni va roli katta bo‘lsa, XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida nasriy asar yaratish an’analarini shoir va masalnavis Muhammadsharif Gulxaniy munosib davom ettirdi. U zullisonayn va lirik shoir sifatida g‘azallar bitdi, shuningdek, o‘zbek adabiyotidagi masalnavislikning peshvosi bo‘lib maydonga chiqdi. Adib yaratgan “Zarbulmasal” asari o‘zbek masalchiligining o‘ziga xos betakror namunasidir.

Muhammadsharif Gulxaniy XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonlari Amir Olimxon va Amir Umarxon hukmronligi davrida yashab ijod qildi. Uning tarjimai holi va ijod yo‘li haqida to‘la ma’lumotlar saqlangan emas. Faqat Fazliy Namangoniyning “Majmuayi shoiron”, Qori Rahmatulloh Vozehning “Tuhfat ul-ahbob” tazkiralarida, Dilshod Barnoning “Tarixi muhojiron”, Po‘latjon Qayyumiyning “Tazkirayi Qayyumiy” asarlarida ma’lumotlar uchraydi.

Gulxaniyning tavalludi taxminan XVIII asrning 70-yillariga to‘g‘ri keladi. Fazliy tazkirasiga ko‘ra, Gulxaniy “mulki ko‘histon (tog‘liklar diyori)”dan kelgan, ota-bobolari, ajdodlari tog‘li xalqning e’tiborga ega kishilaridan bo‘lgan:

Ki budand ajdodi o‘ dar diyor,
Pisandidai mardumi ko‘hsor [Fazliy Namangoniy. Qo‘lyozma].

Tazkirada Gulxaniyning qiyinchilikda hayot kechirgani va kechirayotgani, shoirning “Gulxaniy” taxallusini olib, “badasturi alfozi ko‘histon” (“tog‘liklar shevasida”) “latif-u ravon” g‘azallar bitgani aytiladi.

Buvad Gulxani shoiri ko‘histon,
Asosi suxanhoi o‘ bemador.
G‘azalho navishta latifu ravon,
Ba dasturi alfozi ko‘histon.

(“Gulxaniy tog‘lik shoirdir, uning so‘zlarining asosi bo‘shdir. Latif va ravon g‘azallar bitgan, bu g‘azallar tog‘liklar tili uslubidadir).

Tazkira va boshqa manbalardagi ma’lumotlarga tayanib, shoirning Qo‘qonga G‘arm yoki Darvoz tomondan kelib qolgani haqida ham taxminlar bor [Muqimov, 1955: 48.]. Yana boshqa bir manbada Gulxaniyning otasi Qorategindan kelganligi, Qo‘qonda Shoh qushbegi deganning yuzboshilaridan bo‘lgani, Qo‘qonda uylangani, Gulxaniyning ham Qo‘qonda tug‘ilgani, shu yerda yashagani haqida so‘z

yuritiladi [Qayumov, Qo‘lyozma: 45]. P.Qayyumiy tazkirasida quyidagi ma’lumotlarga duch kelamiz: “Bu kishi Ho‘qand shaharida Sarbotur mahallada tug‘ulub, shunda tarbiyalanib o‘smish askariy bir xodim bo‘lub, nomi Muhammad Sharifdur. Otasi tojiklardan bo‘lib, onasi o‘zbekdur. Xudoyquli bahodir nomli sarkarda qorateginli sipohning jamoasiga mansub ekani so‘zlanadur. Otasi yoshligida vafot etmish. Xudoyquli bahodirning tarbiyasida o‘qub, askariy mulozim sifatida yurub shul bahodirning orqasida saroyga xizmat ila kirib qolgani holda, bahodirning vafotidan keyin saroy aristokrat sarkardalar surub qo‘ymushlardur” [Qayyumiy, 1998: 137].

Qori Rahmatulloh Vozehning “Tuhfat ul-ahbob fi-tazkirat ul-as’hob” asarida Gulxaniyning ismi Mullo Muhammad Sharif bo‘lib, asli Namangandan ekani, Amir Umarxonning saroy shoirlaridan bo‘lgani ta’kidlanadi. Gulxaniy dastlab hammomdorlik bilan shug‘ullangani sababli shu taxallusni olgani esga olinadi. Uning iste’dodli shoir ekani aytilib, “she’rlari vazn jihatidan ravon va o‘z tengdosh zamondoshlari tomonidan yuqori baholangan”ligi qayd etiladi [Vozeh, 1977: 225]. Gulxaniyning namanganlik deyilishining sababi uning tahsil olish maqsadida bu shaharga kelganligi bilan bog‘liq. Gulxaniyshunoslarning asarlaridagi Namangan bilan aloqador qarashlari shundan kelib chiqib aytilgan [Zunnunov, 1965: 6; Muqimov, 1948: 142].

Gulxaniyning hayoti va taqdiri haqida rivoyatomuz hikoyalar ham uchraydi. Unga ko‘ra, Muhammad Alixon otasi Amir Umarxon davridagi saroy amaldorlarini vazifalaridan bo‘shatgani uchun yosh xonga qarshi kuchlar paydo bo‘ladi. Muhammad Alixon o‘ziga qarshi bo‘lganlar qatorida shoir Gulxaniyni ham jazolagan deb ko‘rsatiladi. Xon shoirni Yangiqo‘rg‘onga hokim qilish uchun Namangan hokimi huzuriga yuborib, ayg‘oqchi orqali yo‘lda jun qopga solib, daryoga oqizib o‘ldirtirgan. Bu ma’lumotlar qaysi manbadan olingani keltirilmagani sababli mazkur fikrlar faraz maqomidadir.

Po‘latjon Qayumiyning tazkirasida ham Gulxaniyning o‘ldirilishi haqida fakt “tarixda yo‘q” ekani ta’kidlanadi: “Bokiy domulla bir kishi (Hoshim Razzoqga) Umarxon Gulxaniyni borib daryoga tashlagan, deb ekanlar. Bu xabarni o‘z og‘izlaridan eshitmadim. Ehtimoldur. Tarixda yo‘q. Tarixda shoir Mulla Ernazar domullani birga qo‘shub Rajab qushbegi degan bir tojik askari sarkardaga To‘ra Qo‘rg‘ong‘a hokim etib yuborib Sirdaryoga borganda o‘ldirib daryoga tashlab yuborgani ko‘rinadur. Magar shunda Gulxaniy ham bo‘lishi mumkin, aniq emasdur. Gulxaniy agar Rajab qushbegining askarlaridan bo‘lib turganida, bunchalik o‘z ahvolidan zorlanib, bozorda dallollik etadigan darajada bo‘lmagan bo‘lar edi. Muhammad Ali davrida Gulxaniy ko‘rinmaydur. Har holda Gulxaniy Maxmurdan oldin o‘tgan deb aytsak-da, Maxmurning fikridagi shoir bo‘lub, ot so‘yar ot bozorida bo‘lar ekan. Dallol bo‘lubmi? Boshqa ish bilanmi, ochiq ma’lum emas” [Qayyumiy, 1998: 139].

Shoira Dilshod Barnoning “Tarixi muhojiron” asarida ham Gulxaniyning qay tarz yashagani haqida qayd va ma’lumotlar uchraydi. Xususan, bu ma’lumotlarga tayanib, Gulxaniyning vafoti sanasini taxminan aniqlasa bo‘ladi. Ushbu asarga ko‘ra, Dilshod Barno 1215 hijriy yilda (1800 m.y.) O‘ratepada tug‘ilgan. Amir Umarxon qo‘shini bilan O‘ratepani egallab olganida, Dilshod Barno o‘n yetti yoshda bo‘lgan. U asirlar bilan birga Qo‘qonga keltirilgan. Xon saroyiga kaniz qilib kiritilgan Dilshod Barno xon savollariga O‘ratepa bosqinida o‘z otasining nohaq o‘ldirilganidan gina qilib javob bergani uchun saroydan chiqarib yuboriladi va bir imom xonadoniga (imomga xotin bo‘lib) o‘tadi. Umrining oxirigacha shu yerda maktabdorlik bilan shug‘ullanadi [Is’hoqov, 1997:18].

Xon saroyidan chiqarilib yuborilgan Dilshod Barno o‘sha tunda hammom go‘laxidagi bir necha qalandarlarga duch kelgan: “Bu kulbaga (ya’ni imom xonadoniga) kelganimdan bir necha yil keyin mazkur qalandarlar ila shunosa bo‘ldum. Chunonchi ikki yil o‘tgandan keyin bir zaifa vositasi ilan shoir Mahzub ro‘zgarlari ilan vaslga muyassar o‘lundi. Ul buzruk adib sabablari ilan Muntazir va Gulxaniy borasida ilm paydo bo‘ldi. Ammo shoir va mutafakkir Gulxaniy bore favt bo‘lg‘on ekan” [Dilshod Barno, 76].

Filologiya fanlari doktori F.Is’hoqovning qayd etishicha, Dilshod Barno “bu kulbaga” (imom oilasiga) 1817-yilda kelgan bo‘lsa va oradan “ikki yil o‘tgandin keyin bir zaifa vositasi ilan” shoir Mahzub

bilan tanishgan, bu buzruk adib orqali u o‘zida “Muntazir va Gulxaniy borasida ilm paydo qilgan” bo‘lsa, bu sana 1819-yilga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtda esa “shoir va mutafakkir bore favt bo‘lg‘on ekan”. Mazkur jumlaning “ikki yil o‘tgandin keyin” degan qismini undan avvalgi “bir necha yil keyin” degani bilan almashtirib tushunganimizda ham bu sanani Umarxon vafoti (1822-y.)dan juda uzoqqa surish qiyin. Dilshod Barnoning o‘sha jumla oxiridan “Zarbulmasal”larini o‘qib, o‘z diyorim (O‘ratepa) qishloqlari borasinda ajoyib oyinanamo masallar yozganlari ko‘p ta’sir qildi”, degan gapi ham borki, shoira bu bilan go‘yo Gulxaniyning vafoti haqidagi ma’lumotiga muhr bosganday bo‘ladi [Is’hoqov, 1997: 19]. Aytilganlardan Gulxaniy vafoti sanasini taxminan 1819–1822-yillar oralig‘i deb belgilash mumkin.

Shoir yashagan davrdagi tazkiralarda, jumladan, Hakimxon to‘raning “Muntaxab ul-tavorix”, Dilshod Barnoning “Tarixi muhojiron” asarlarida shoir o‘limi bilan bog‘liq voqealar keltirilmaydi. P.Qayumiyning tazkirasida esa Gulxaniyning “Namanganda turgan degani unda tug‘ilganini ko‘rsatmaydi”, u “madrasa tugatgan kishi ham bo‘lmagani va soqoliga oq tushmagan holda g‘aribona bir tarzda vafot etgani”, “taxminiy 55 yoshda bo‘lgani” haqidagi ma’lumotlar berilgan. Yana Fazliyning tazkirasiga qaytsak, tazkiranavisning o‘zi Namangandan bo‘lgani holda, Gulxaniyni ayni shu joydan ekani haqidagi qaydi mavjud emasligidir. Tazkirada shoir “xushta’b, shirinso‘z, sohibi hunar” deb tavsiflanib, uning boshqa bir joydan emas, Ho‘qanddan deb biling degan ta’kidi ham e’tiborni tortadi. Shoirning fazilatlari haqida Fazliy quyidagilarni yozadi:

Ajib so‘zbilarmon erur Gulxaniy,
Erur otashin so‘zni ul manmani.
U majnunsifat, qalbi o‘t gulshani,
Shu bois taxallus qo‘yib Gulxani.
G‘azallarki yozmish fasih-u ravon,
O‘sha tog‘lilar lafzi birla hamon...

Shoir Gulxaniyning hayot yo‘li haqida boshqa ma’lumotlar bo‘lmasa-da, tazkiralardagi tavsiflar va shoirning o‘z asarlari orqali uning biografiyasiga oid ba’zi xulosalarga kelish mumkin. Fazliy Namangoniyning “Majmuayi shoiron” kitobidan Gulxaniyning qiyinchilikda yashagani, “yaxshi dasturxon atrofida o‘tirmagani”, bir muddat xon sipohi bo‘lgani, lekin rohat ko‘rmagani, “amir uning holiga muruvvat bilan boqmagani” ta’kidlangan:

Ba davroni jannatmakoni Amir,
Chunon bud dar benavou asir.
Ki nashkasta dar umr none durust,
Nabinshasta bar girdi xone durust.
Sipohigari kardu rohat nadid,
Ki osoyig az ranju mehnat nadid.
Muruvvat nakardi baholash amir,
Base benavoi kashid on faqir.
Zi beiltifotii jannatmakon,
Hamebud muhtoji yak racha non.
Ki az zangdasti ba jon omadi,
Zi bemoyagi dar fig‘on o‘lmadi.
Dar on maxmasa nangu zallat kashid,
Tama’ pesha kardu mazallat kashid.

Mazmuni: “Jannatmakon Amir davrida u (Gulxaniy) benavolik asiri bo‘ldi. Umrida durustroq non ushatmadi, yaxshi dasturxon atrofida o‘tirmadi. Sipohgarchilik qildi-yu, rohat ko‘rmadi. Mehnat va mashaqqat ilkidan osoyishtalik topmadi. Amir uning holiga muruvvat bilan boqmadi. Amirning iltifotsizligi tufayli faqir bir parcha nonga zor bo‘ldi. Qo‘li qisqalik oxiri uning joniga tegdi, kambag‘alchilik fig‘onini oshirdi. Yo‘qchilik orqasidan xijolatchiliklar chekdi, tama yo‘lini tutib xo‘rliklar ko‘rdi”.

Tazkiralarda Gulxaniy fe’l-atvori, sajiyasi, tabiati haqida berilgan tavsif-baholarni inobatga olsak, xon saroyiga sipohiylikka olingan bo‘lsa-da, yumshoqko‘ngil va soddadilligi tufayli bu ish shoirga to‘g‘ri kelmagan, deb aytish mumkin. Shundan keyin adib keyingi umrini badiiy ijodga bag‘ishlagan. Gulxaniyning hammomdorlik bilan shug‘ullangani uchun shu taxallusni qo‘llagan, degan qarashlar ham mavjud. Shoirning tojikcha g‘azallarida “Gulxaniy” nomi bilan birga “Jur’at” taxallusi ham uchraydi.

Gulxaniy hayoti va ijodining ilmiy jihatdan o‘rganilishi va ommalashtirilishi XIX asrning 80-yillaridan boshlangan. Shoir va masalnavisning “Zarbulmasal” asari 1890-yilda Nikolay Ostroumov tomo-

nidan Qozon universiteti bosmaxonasida nashr etildi va tarjima qilindi. Rus tilidan tarjima Aydarov va Vishnegorskiylar tomonidan amalga oshirilgan va “Сова, Сыч и Филин” nomi bilan N.Ostroumovning etnografik materiallari orasida bosilgan. “Zarbulmasal” Toshkentda litografik usulda bir necha marta chop etiladi. Sadriddin Ayniy tomonidan tayyorlangan “Namunai adabiyoti tojik” to‘plamiga (1926-y.) ham Gulxaniyning bir necha tojikcha g‘azallari kiritiladi. Olim Sharafuddinov tomonidan tuzilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi” (1945-y.)da “Zarbulmasal” chop etiladi [Sharafuddinov, 1945: 206-216]. Keyinchalik esa “O‘zbek adabiyoti klassiklari” turkumida [Gulxaniy, 1951:71] hamda shu matn asosida rus tiliga M.Sale tomonidan tarjimasi e’lon qilinadi [Gulxaniy, 1951: 50]. Gulxaniy g‘azallari va “Zarbulmasal” asari XX asrning o‘rtalarida bir necha bor nashr qilindi [Gulxaniy, 1960: 80]. Shu nashrlar asosida darslik va qo‘llanmalarga kiritildi.

Gulxaniy ijodini o‘rganish XX asrning 20-yillarida Lutfulla Olimiy, Abdurauf Fitrat, Sanjar Siddiq ishlarida boshlandi [Olimiy, 1923: 28-36]. Shoir va masalnavis hayoti va ijodi monografik ko‘lamda R.Muqimov tomonidan tadqiq qilindi. Shuningdek, H.Yoqubov, V.Zohidov, V.Abdullayev, N.Mallayev, S.Ismatov, A.Zunnunov, A.Qayumov, M.Qo‘shjonov, X.Nazarovalarning gulxaniyshunoslikka oid ilmiy tadqiqot va maqolalari yaratildi [Zohidov, 1961: 265]. Bu sohada Gulxaniy hayoti va ijodini keng miqyosda o‘rgangan va “Zarbulmasal”ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratgan olim Fathiddin Is’hoqovning doktorlik dissertatsiyasi alohida o‘rin tutadi [Is’hoqov, 1997: 244].

Gulxaniy ijodiy merosining bugungacha aniqlangan ko‘lami u qadar katta emas. Shoirning g‘azal, qasida, muxammaslar bitgani va bu asarlardan iborat kitob tartib bergani haqida ma’lumotlar bo‘lsa-da, hozircha topilgan emas. Adibning 4 ta o‘zbek tilida, 7 ta tojik tilida g‘azallari, 1 ta qasidasi borligi haqida xabar beriladi. O‘zbek tilidagi “Biri”, “Ko‘rung”, “Etmaz” radifli va “Lola ko‘ksidek...” deb boshlanuvchi, tojik tilidagi “Ey to‘ti”, “Birun”, “Az chashmi man...”, “Angusht”, “Angushtam”, “Bideh”, “Ey buti shirin...” g‘azallari mavjud.

Gulxaniyning o‘zbek va tojik tillaridagi g‘azallarining barchasi hamda “Zarbulmasal” asarining asl matni shu davrgacha to‘liq chop etilmagan. O‘zbek kitobxonlariga tushunarli bo‘lishi uchun tojikcha g‘azallarining tarjimasi nashr etilishi zarur. “Zarbulmasal” asarini tayyorlashda filologiya fanlari doktori Fathiddin Is’hoqov tomonidan bajarilgan ilmiy-tanqidiy matnga asoslanish talab etiladi. Bu esa adabiyotshunosligimiz oldida turgan vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Majmuayi shoiron. Fazliy Namangoniy. O‘zRFAShI inv. raq. №7510.
2. Muqimov R. Gulxaniyning hayoti va adabiy faoliyati. – O‘zDU asarlari, yangi seriya. – №55. – Samarqand, 1955.
3. Qayumov P. Qo‘qon tarixi va adabiyoti. O‘zFAShI, qo‘lyozma, 2-daftar. – B. 45.
4. Qayyumiy P. Tazkirayi Qayyumiy. – T., 1998. – 250 b.
5. Qori Rahmatulloh Vozehning “Tuhfat ul ahbob fi tazkirat ul as’hob”. – Dushanbe: “Donish”, 1977.
6. Zunnunov A. Maktabda Gulxaniy va Muqimiy ijodini o‘rganish. – T.: O‘qituvchi, 1965.
7. Muqimov R. Gulxaniyning hayoti va adabiy faoliyati. Filol. fanlari nomzodi... diss. – Samarqand, 1948.
8. Is’hoqov F. Gulxaniy “Zarbulmasal”ining ilmiy-tanqidiy matni. Filol. fanl. dokt... diss. – T., 1997.
9. Dilshod Barno. Sabot ul bashar maa tarixi muhojiron. Qo‘lyozma. O‘zRFAShI. inv.raq. 12076.
10. O.Sharafuddinov. O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. – T.: O‘zdavnashr, 1945.
11. Gulxaniy. Zarbulmasal (Yapaloqqush hikoyasi) / Nashrga tayyorlovchi H.Yoqubov. – T.: O‘zRFA nashr., 1951.
12. Гулханий. Избранные произведения / Перевод М.Сале. – Т.: Изд. АН УзССР, 1951.
13. Gulxaniy. Zarbulmasal va g‘azallar. – T.: O‘zdavnashr, 1958.
14. Gulxaniy. Zarbulmasal va g‘azallar (ikkinchi nashri). – T.: O‘zdavnashr, 1960.
15. Olimiy L. O‘zbek shoiralaridan // Bilim o‘chog‘i. 1923. №2-3.
16. Fitrat. XVI asrdan so‘nggi o‘zbek adabiyotiga umumiy bir qarash // Alanga. 1929. №8-9.
17. Sanjar Siddiq. Umarxon davri va Gulxaniy. // Mash’ala. 1934. №1.
18. Zohidov V. O‘zbek adabiyoti tarixidan. – T.: O‘zSSR badiiy adabiyot nashriyoti, 1961.
19. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob, ikkinchi nashri. – T.: O‘qituvchi, 1967.
20. Mallayev N., Ismatov s. O‘zbek adabiyoti tarixi. 9-sinf uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 1967.
21. Zunnunov A. Maktabda Gulxaniy va muqimiy ijodini o‘rganish. – T.: O‘qituvchi, 1965.

“BOBURNOMA”DA SAXOVAT TIMSOLI

Shavkat Hayitov,
Buxoro davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori (DSc),
e-mail: shavkat61hayitov@gmail.com
ORCID ID 0000-0002-4290-6017

Xurshida Barotova,
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
e-mail: *baratovaxurshida375@gmail.com*
ORCID ID 0009-0003-6874-0777

Annotatsiya

“Boburnoma”da nafs martabasidan ko‘ngil maqomiga ko‘tarilgan, o‘zgalarni o‘zidan afzal biladigan fatiy ayollarning nafis obrazi mahorat bilan yaratilgan. Maqolada “Vaqoe”da talqin qilingan shunday obrazlardan biri xususida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, “Tarixi Rashidiy”, “Husayn Boyqaro”, Popo Og‘ocha, Begimsulton, Sulton Ma’sud Mirzo.*

Abstract

In the Baburnama, a refined image of virtuous women – who have risen from the stage of the ego to the rank of the heart and who regard others as superior to themselves – is skillfully portrayed. The article reflects on one of such images as interpreted in the Vaqoe.

Key words: *“Baburnoma”, “Historia Rashidi”, “Husayn Boyqaro”, Popo Ogocha, Begimsulton, Sultan Ma’sud Mirzo.*

Kirish

Begimsulton va Begisulton ismlarining yozuv va talaffuzdagi ifodasidagi farq bir “mim” harfidadir. Agar shoir yoki adib shunday kalimalardan foydalanib, badiiy matn yaratsa, Atoulloh Husayniyning “Badoye’ us-sanoyi‘” asarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, bunday badiiy mahorat namunasini *tajnisi muzayyal* deb atash mumkin. Begimsulton va Begisulton “Boburnoma”da alohida-alohida timsollar sifatida talqin qilingan. Har ikkala xotin-qiz ham bir tarixiy shaxsga tegishliligi bilan e’tiborni tortadi.

1. **Begimsulton** – Sulton Husayn Boyqaroning qizi. Onasi Popo Og‘acha bo‘lgan. Zahiriddin Muhammad Boburning amakisi, Samarqand podshosi Sulton Mahmud Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li Mas’ud Mirzoga turmushga uzatilgan. Sulton Mas’ud Mirzo va Begimsulton nikohidan bir qiz va bir o‘g‘il farzand dunyoga kelgan. Qizni Begimsultonning befarzand o‘gay onasi Opoqbegim o‘z tarbiyasiga olgan. Sulton Mas’ud Mirzo Shayboniyxon tomonidan qatl etilgach, Begimsulton o‘g‘lini olib, Hajga ketgan. “Vaqoe” muallifi “Bu fursatlarda xabar keldikim, o‘zi va o‘g‘li Makkada emish. O‘g‘li uluqqina bo‘lg‘on emish” [Bobur, 2005: 281], – degan ma’lumotni beradi.

2. **Begisulton** – u o‘zbek qavmlarining Shayboniyxon va shayboniylar mansub bo‘lgan urug‘idan bo‘lgan. Sulton Husayn Boyqaroning xotinlaridan biri. Bobur Mirzo u haqda: “Andin o‘g‘ul va qiz bo‘lmadi” [Bobur, 2005: 286], – deb yozadi.

Asosiy qism

“Vaqoe” sahifalarida yozilishicha, Sulton Husayn Boyqaro nikohiga olgan to‘rtinchi ayol Poyanda Sultonbegim bo‘lgan. Ma’lumki, Jahongir Amir Temur vafotidan keyin temuriylar orasida toj-u taxt uchun uning merosxo‘rlari orasida kurashlar boshlanib ketgan. Xuroson Shohrux Mirzo, Movarounnahr uning o‘g‘li Ulug‘bek Mirzo tasarrufiga o‘tgach, siyosiy qarama-qarshiliklar 40 yildan ko‘proq

muddat biroz to‘xtagan. Ammo Shohrux (1447) va Ulug‘bek (1449) hukmronligidan keyin siyosiy nizolar yana avj olgan. Xurosonda temuriy shahzodalar o‘rtasida bu kurashlar besh yil davom etib, 1452-yilga kelib, birmuncha vaqtgacha to‘xtaydi. Xuroson mamlakati taxtiga Abulqosim Bobur ega bo‘ladi. Movarounnahr saltanatini esa Abdulatif va Mirzo Abdullohning g‘oyat qisqa muddat hukmronligidan keyin Abusa’id Mirzo (1451) qo‘lga kiritadi. 1457-yilda Abulqosim Bobur vafot etadi. Bobur vafotidan keyin Abusa’id Mirzo Xuroson va uning poytaxti Hirotni ham o‘z tasarrufiga oladi. Xuroson va Movarounnahr davlatini birlashtirgan Abusa’id Mirzoga qarshi Hirot taxtini qo‘lga kiritish uchun Husayn Boyqaro muttasil janglar olib borgan. 1469-yilda Abusa’id Mirzo Ozarbayjon podshosi Uzun Hasanning o‘g‘illari tomonidan asir olinadi hamda shu yilning fevralida Yodgor Mirzoning farmoni bilan qatl etiladi.

1469-yilning bahorida Sulton Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga ega bo‘lgan. Abusa’id Mirzo va Husayn Boyqaro o‘rtasida toj-u taxt va hokimlik g‘alayonlari Abusa’id Mirzoning qatl etilganiga qadar 12 yil davom etgan. Temuriyzodalar orasida siyosiy nizo va qonli to‘qnashuvlar qanchalik avj olmasin, dunyoning xaloskori xotin-qizlar tufayli quda-andachilik, qaynota-kuyov, qaynona-kelin munosabatlari davom etavergan. Aynan mana shunday munosabatlar tufayli ba’zida keskin to‘qnashuvlar, qonli janglar sulh bilan yakunlangan. Ma’suma ayol o‘z qondoshlari o‘rtasidagi adovatning yo‘qolib, ittifoqning yuzaga chiqishiga sababchi bo‘lgan. Shuning uchun ham biz “Boburnoma”da “Sulton Husayn Mirzo Hisorni qamal qilg‘onda Sulton Mahmud Mirzoning Xonzodabegimdan (Sulton Husayn Boyqaroning o‘g‘li) bo‘lg‘on qizini olib, yarashib, Hisor ustidan turib ketmishlar” [Bobur, 2005: 281]. “Haydar Mirzo otasi zamonida Balx va Mashhadda noib edi. Hisor sari bo‘lgan urushida Sulton Mahmud Mirzoning qizini nikohiga olib, sulh bilan yarashib, mamlakat ustiga yurishini to‘xtatdi”, – kabi jumlalarni ko‘p o‘qiymiz.

Yuqorida tilga olingan Poyanda Sultonbegim mashhur temuriyzoda Abusa’id Mirzoning qizi bo‘lgan. Uning Husayn Boyqaro bilan tuzilgan nikohidan besh farzand tug‘ilgan: to‘rt qiz va bir o‘g‘il. Bu haqda “Boburnoma”da o‘qiymiz: “Haydar Mirzo o‘g‘li edi. Onasi Poyanda Sultonbegim erdi. Sulton Abusa’id Mirzoning qizi erdi” [Bobur, 2005: 281]. Haydar Mirzo Mashhad va Balxda hokimlik qilgan. U otasining noibi sifatida Sulton Mahmud ustiga qo‘shin tortib, Hisorni qamal qiladi. Sulton Mahmudning Xonzodabegim deb atalgan xotinidan dunyoga kelgan qiziga uylanadi va ikki o‘rtada yarash sulhi tuziladi. Poyanda Sultonbegim qizlarining nomi “Vaqoe”da bir-bir zikr qilinib, ularning taqdiri haqida aniq ma’lumotlar bilan berilgan.

1. Oqbegim
2. Kichikbegim
3. Bikabegim
4. Og‘abegim

Poyanda Sultonbegim to‘ng‘ich qizini Xuroson podshosi Abulqosim Boburning (1452–1457) singlisi Bekabegimning nabirasi Muhammad Qosim Arlotga turmushga bergan. Ana shu nikohdan dunyoga kelgan Qorako‘zbegim ismli qizga Zahiriddin Muhammad Boburning ukasi, G‘azna hukmdori Nosir Mirzo uylangan [Bobur, 2005: 282].

Sulton Abusa’id Mirzoning nabirasi, Sulton Husayn va Poyanda Sultonbegimning ikkinchi qizi Kichikbegim taqdiri achchiq kechgan. Muhabbat – ikki jinsni bir-biriga mustahkam bog‘laydigan, oilalarni bir-biriga yaqin qiladigan pokiza tuyg‘u. Shuning uchun ham bu foniy dunyoda undan suyukliroq, undan yoqimliroq narsa yo‘qdir. Shunday oliy his temuriy shahzodalar va malikalar hayotida ham kuzatiladi. Haqni botildan, oqni qoradan, yaxshini yomondan nozik ajrata oladigan ma’naviy qudrat sohibi Zahiriddin Muhammad Bobur temuriy avlodlari o‘rtasida kechgan ishqiy munosabatlarni ham e’tibordan soqit qoldirmagan.

“Vaqoe”dagi ishoralarga ko‘ra, Samarqand podshosi Sulton Mahmud Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li Sulton Ma’sud Mirzo ammasi Poyanda Sultonbegimning ikkinchi qizi Kichikbegimga qattiq ko‘ngil qo‘ygan. “Boburnoma”da shunday keltirilgan: “Ikkinchi qizi Kichikbegim edi. Sulton Ma’sud Mirzo

bisyor moyil erdi" [Bobur, 2005: 282].

Muhabbat – azaliy va abadiy mavzu. Shuning uchun asrlardan asrlarga, zurriyotlardan zurriyotlarga, avlodlardan avlodlarga o'tgan sayin "Vaqoe"dagi bunday lavhalar yanada salmoq va teran mazmun kashf etadi. "Vaqoe" muallifi Sulton Ma'sud va Kichikbegim haqida ma'lumot berib qo'ya qolmay, balki ayni masala bilan aloqador Husayn Boyqaro haramidagi boshqa ayollar, muhim tarixiy voqealar haqida ham so'z yuritadi.

"Boburnoma"da talqin qilinishicha, Sulton Ma'sud Mirzo muhabbat bobida o'zini qat'iy tutadi. Kichikbegimga erishish umidida ko'p sa'y va g'ayrat ko'rsatadi. Ammo uning xatti-harakatlari Poyanda Sultonbegimning qattiq qarshiligiga uchraydi. Poyanda Sultonbegim o'z qizini temuriy jiyaniga emas, sayyid ota (Xoja Ahmad Yassaviy) avlodidan bo'lgan Mullo Xojaga uzatadi (Sulton Ma'sud Mirzo). "Har necha sa'y qildi, Poyanda Sultonbegim qisqa mulohaza qilib bermadi. So'ngra Sayyid otaning nasli Mullo Xojaga chiqorib erdi" [Bobur, 2005: 282].

Bobur Mirzo har bir temuriy avlodini jonidan ortiq sevgan. Temuriylarga bo'lgan ehtiromini hamisha qalbining to'rida ardoqlagan. Latif ruh, odamiylik kabi oliy tuyg'u bilan ziynatlangan Bobur Mirzo shaxsiyati ma'naviy saltanatning chinakam timsoli bo'lgan. Uning ammasi Poyanda Sultonbegimga nisbatan aytgan "qisqa mulohaza qilib bermadi" tarzidagi mulohazasi beiz ketmagan. Kichikbegim Mullo Xoja bilan bor-yo'g'i olti oy yashab, hayotdan ko'z yumgan. Kichikbegim va Sulton Ma'sud Mirzoning bir-birlariga ko'ngil qo'yganligi, temuriyzodaning o'z muhabbatiga erishish yo'lidagi barcha sa'y-harakatlari natijasiz ketganligi, Poyanda Sultonbegimning o'z qizini sayyidlar avlodiga turmushga berganligi, Kichikbegim Mullo Xoja bilan atigi yarim yilcha yashab, juda erta vafot etganligi to'g'risida ma'lumotlar boshqa tarixiy manbalarda ham uchraydi. "Tarixi Rashidiy" muallifi Mirzo Haydar "bedavo dard vajidan boqiy dunyodan rixlat qildi" [Rashidiy, 2007: 119], – deya Begimsultonning ayanchli, fojiali qismatidan xabar beradi.

Temuriy Sulton Ma'sud Mirzo (1475–1507) iste'dodli shoir bo'lgan. Turkiy tilda "Shohiy", fors-tojik tilida "Orifiy" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Ikki tilda devon tuzgan. Hazrat Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"ning temuriy ijodkorlarga bag'ishlangan yettinchi majlisida (21-maqola) shunday yozadi: "Sulton Ma'sud Mirzo – ravshan zehnlik va mustahsan tab'liq va pokiza hisol va mahmud faol yigitdur. Vafo va diljo'yluqaning shiori, saho va darveshxo'yluq aning atvori. Mulk ravnaq va intizomida axtari mas'ud, nam zeb va ziynat itmomida abnoi jinsqa maqsud" [Navoiy, 1998: 171]. Alisher Navoiydek buyuk tarixiy shaxs tomonidan ravshan zehnlik, go'zal tab'lik, pokiza xulqlik, yaxshi xislatlik, vafodor va ko'ngilchan, saxiy va darveshsifat, saodatbaxsh, she'r bitishida tengqurlarining maqsudi hosil deya ta'riflangan Sulton Ma'sud Mirzoni Kichikbegim ham yoqtirib qolganligi hech qanday shubha uyg'otmaydi. Onasi tomonidan ko'ngil istagining rad etilishi Kichikbegim uchun xo'rlik, o'zi sevmagan Mullo Xojaga uzatilishi uni tahqirlash bo'lib, ma'suma qiz bunday kamsitilishni ko'tara olmagan. Odatdan tashqari siqilish, zerikish oqibatida hayotdan erta ko'z yumgan.

"Taqdir quvvati bozusi ollida sabab rishtasi churukdur va qazo mash'ali partavi qoshida vosita uchquni o'chuq. Sa'y bila azal qismatin ortturay degan yog'in rishtasig'a girih uray der, jahd bila qalam yozg'an qazoni qaytaray degan qurug' yerda kema suray der" [Qo'lyozma, 27780: 25], – deb yozadi Hazrat Alisher Navoiy. Kichikbegim nasib qilmagan bo'lsa-da, Mas'ud Mirzoning taqdirida Husayn Boyqaroning qizlaridan biriga uylanish taqdir hukmi bilan bitilgan.

Qizi bilan Mas'ud Mirzo o'rtasidagi nikohga Sulton Husayn Boyqaroning o'zi sababchi bo'lgan. Kichikbegim va Sulton Ma'sud munosabatlarida kuzatilgani kabi Xuroson podshosining g'unchachisidan dunyoga kelgan qizi bilan Sulton Ma'sud Mirzo orasida hech qanday muhabbat bo'lmagan. Husayn Boyqaroning mardligi tufayli uning Begimsulton ismli qizi bilan Sulton Ma'sud Mirzo o'rtasida nikoh tuzilgan.

Begimsulton Sulton Husayn Boyqaroning suyukli xotini Popo Og'achaning qizi bo'lgan. Popo Og'acha haqida "Vaqoe"da quyidagilarni o'qiymiz: "Bu besh mirzoning onasi Popo Og'acha erdi, g'unchachi erdi. Mirzo (Husayn Boyqaro) ko'rub, sevub oldi. To'rt o'g'ul va besh qizning onasi erdi"

[Bobur, 2005: 282]. Sulton Husayn pushti kamaridan dunyoga kelgan Muhammad Ma'sum Mirzo, Farrux Husayn Mirzo, Ibni Husayn Mirzo, Muhammad Qosim Mirzoning onasi Popo Og'acha bo'lgan. Boshqa temuriyzodalar talqinida kuzatilgani kabi "Vaqoe" muallifi bu shahzodalarning har biri haqida batafsil ma'lumot beradi. Muhammad Ma'sumning otasi davrida vafot etgani, Farrux Husayn Mirzo ham uzoq umr ko'rmagani, ukasi Ibrohim Mirzodan burunroq vafot etgani, Ibrohim Husaynning esa ichkilikka mukkasidan ketganligi va oxir-oqibat otasi zamonida icha-icha dunyodan o'tganligi "Boburnoma"da birma-bir qayd qilinadi. Popo Og'achadan tug'ilgan to'ng'ich qiz haqida Bobur Mirzo shunday yozadi: "Ulug'i Sulton Najodbegim erdi. Sulton Husayn Mirzo og'asining kichik o'g'li Iskandar Mirzoga chiqarib erdi" [Bobur, 2005: 283]. Husayn Boyqaro Popo Og'achadan dunyoga kelgan katta qizi Sulton Najodbegimni amakivachchasi Iskandar Sultonga turmushga uzatgan. Sulton Husayn Popo Og'achadan tug'ilgan qizlaridan birini Andxud sayyidlaridan biriga uzatgan.

Andxud – Afg'onistonning shimoliy qismida joylashgan viloyat bo'lib, temuriylar davrida uni obod qilishga katta e'tibor qaratilgan. XV asrning ikkinchi yarmida Xuroson davlati tarkibiga kirgan bu viloyat Badiuzzamon Mirzoga mulk qilib berilgan. "Boburnoma"da keltirilgan Andxud sayyidlari Sulton Husayn Boyqaro oilasidan kelin olib, qarindosh bo'lgani haqidagi ma'lumotlar muhim ilmiy qimmatga ega. "Vaqoe"da shunday keltirilgan: "Uchinchi qizini Sayyid Mirzo degan Andxud sayyidlariga berib edilar. Ortuqsi Sayyid Mirzog'a mashhur edi" [1: 283]. Popo Og'achaning Andxud shahriga kelin bo'lib yuborilgan qizi haqida mulohaza yuritar ekan, Bobur Mirzo o'z so'zlari orasida uning ismini keltirmagan. "Habib us-siyar" muallifi G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir esa o'z kitobida o'sha qizning nomini qayd qilib, uning kelinlik davri, hayoti haqida aniq ma'lumot beradi: "... Munavvar Sulton Begim bo'lub onasi Popo Og'acha erdi. Munavvar Sulton Begim Andxud sayyidlaridan Sayyid Mirzog'a uzatilgan erdi. Sayyid tabiatidagi ziqnalikdan turmushida xeyli hamjihatliq bo'lmadi" [Xondamir, 1993: 134].

Popo Og'achaning ikkinchi qizi Begimsulton bo'lib, uni Husayn Boyqaro Xisravshoh tomonidan ko'zlari mil bosib ko'r qilingan, ko'ngli o'ksik qarindoshi, zullisonnayn shoir Sulton Ma'sud Mirzoga turmushga bergan. Shahzodaning navqiron va sog'lomligida xotini Poyanda Sultonbegim darig' tutgan himmatni, nogironligida uning eri Husayn Boyqaro va Poyanda Sultonbegimning kundoshi, shohning suyukli rafiqasi Popo Og'ocha Sulton Ma'sud Mirzoga shunday javonmardlikni ko'rsata olgan. "Vafo va diljo'yluq shiori bo'lgan, pokiza hisol va mahmud faol yigit" (Navoiy) hech qaysi qarindoshidan ko'rmagan ro'shnolikni Sulton Husayndan, uning suyukli rafiqasi va go'zal qizidan ko'rgan. Begimsulton o'z jufti haloliga ikki farzand tuhfa qilgan: "... bir qiz, bir o'g'il ko'rub erdi. Qizini Sulton Husayn Mirzoning Opoqbegim ayoli saxlab erdi. Hiriydin Kobulga keldi" [Bobur, 2005: 283]. Opoqbegim Sulton Husayn Boyqaroning eng vafodor va sodiq ayoli. Ayon bo'ladiki, Husayn Boyqaro Sulton Ma'sud va Begimsultondan tug'ilgan nabirasining tarbiyasini Opoqbegimga ishongan. Xurosonda hokimiyat shayboniylar qo'liga o'tgach, aksariyat temuriylar va ularning ahli ayoli Bobur Mirzo dargohidan panoh topgan. Sulton Ma'sud Mirzo Shayboniyxon tomonidan qatl etilgach, Begim Sulton farzandlarini olib, Kobulga, Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga borgan.

Tarixdan ma'lumki, toj-u taxt uchun kurashlar ayrim saltanatga da'vogar shahzodalarning ko'zlariga mil tortib, jarohat yetkazish bilan yakunlangan. Ko'zi ojiz shahzoda hukmdorlikdan, toj-u taxt da'vosidan mahrum bo'lgan. Sulton Ahmad Mirzodan (1451–1494) keyin Samarqand taxtiga o'tirgan Sulton Mahmud Mirzo (1453–1495) ko'p o'tmay vafot etadi. Samarqand taxti uchun uning uch o'g'li Sulton Ma'sud Mirzo, Boysung'ur Mirzo va Sulton Ali Mirzolar muttasil o'zaro kurash olib borgan. Samarqand goh Boysung'ur Mirzo, goh Sulton Ali Mirzo qo'liga o'tadi. Samarqand podshosi Boysung'ur Mirzo akasi Sulton Ma'sud Mirzo hokimlik qilib turgan Hisorni qamal qiladi. Sulton Ma'sud Mirzo Hirotga Sulton Husayn Boyqaro panohiga qochadi. Temuriylarning o'sha paytdagi eng qudratli hukmdori Sulton Husayn uni yaxshi kutib oladi. Sulton Ma'sud Husayn Boyqarodan katta marhamatlar ko'rganiga qaramay, Hirotni tark etadi. Xusravshoh yoniga boradi.

Xusravshoh uning koʻzlariga mil torttirib, koʻr qiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Sulton Husayn Boyqaroning har ikki tarafdan: ota tomonidan ham, ona tomonidan ham temuriyzoda karim ut-tarafayn ekanligini alohida ta'kidlagan. Sulton Husaynning ota tomonidan katta bobosi Umarshayx Amir Temurning ikkinchi oʻgʻli boʻlgan. Onasi Feruzabegim Sohibqironning uchinchi oʻgʻli Mironshohning qizi boʻlgan. "Boburnoma"da bu haqda quyidagicha ma'lumot keltirilgan: "Onasi Firuzabegim edi. Temurbekning nabirasi. Sulton Husayn Mirzo Mironshoh Mirzoning ham nabirasi boʻlur edi. Sulton Husayn Mirzo karimut-tarafayn edi, asl podshoh edi" [Bobur, 1990: 146].

Zahiriddin Muhammad Bobur Mironshohga evara (Umarshayx Mirzo – Abu Said Mirzo – Sulton Muhammad Mirzo – Mironshoh), ya'ni toʻrtinchi avlod edi. Sulton Husayn ona tomonidan, Mirzo Boburning katta bobosi Mironshohga, ota tomonidan Umarshayx Mirzoga tutashgan. Ota va ona tufayli yuzaga kelgan munosabatlarga islomda "qarobat" deyiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur Sulton Husayn Boyqarodek mard va shijoatli, Temurbek oʻrniga oʻtirgan (Bobur) podshoh bilan oralarida qondoshlik borligidan faxrlangan. Uning xushxulqligi va harrofligi (ulfat), she'riy iste'dodi va olimligi, adolati va temuriylarga boʻlgan favqulodda muhabbatidan gʻoyat darajada mutaassir boʻlgan. Shuning uchun "Boburnoma"ning oʻnlab sahifalarini unga bagʻishlagan. Shujo va tanti avlodining kelib chiqishi, fe'li-tabiati, axloq-u atvori, ahl-u ayoli, oʻgʻil va qizlari, harbiy salohiyati ("Temurbek naslidin hech kim ma'lum emaskim, Sulton Husayn Mirzodek qilich chopmish boʻlgʻay"), ta'bi-nazmi ("Devon ham tartib qilur edi. Turkiy aytur erdi. Taxallusi "Husayniy" edi..."), ijtimoiy-siyosiy faoliyati, adabiy muhitga, she'r, shoir va olimga munosabati haqida batafsil ma'mulot bergan.

Mirzo Boburning muhabbatini qozongan, "Boburnoma"da talqin qilingan ta'sirchan lavhalardan biri Xuroson hukmdorining Sulton Ma'sud Mirzoga munosabatidir. Yuqorida zikr qilinganidek, Sulton Mahmudning mazkur toʻngʻich oʻgʻli oʻzidan kichik ukasi Boysungʻur Mirzoning ta'qibidan qochib, Sulton Husayn Boyqaro davlatidan panoh topadi. Poytaxt Hirotda oʻziga qanchalik yaxshi munosabatda boʻlishganiga qaramay, xudbinlik qiladi. Hirotdan Xisravshoh huzuriga qochib boradi. Uning bu oʻzboshimchaligi, mulohazasizligi koʻzlariga mil tortilishi bilan yakun topadi. Xudparast shahzoda oʻzini bir umrga nogiron qilib qoʻyadi. Yorugʻ dunyoni oʻzi uchun qorongʻi zimistonga aylantiradi.

Sulton Ma'sud Mirzo oʻzini qanchalik toptagan, xoʻrlagan boʻlsa, Sulton Husayn Boyqaro bu noshud, andishasiz, badbaxt avlodiga nisbatan shunchalik ehtirom koʻrsatadi. Sulton Husayn Boyqaro va uning suluv qizi Begimsultondagi insoniy goʻzalliklar Sulton Ma'sud Mirzoga yangi hayot bagʻishlaydi. "Boburnoma"da shunday keltirilgan: "Ikkinchi qizi Begimsulton edi. Sulton Ma'sud Mirzogʻa koʻzi mayib boʻlgʻondin soʻng berib edilar. Bir qiz, bir oʻgʻul koʻrib edi" [Bobur, 2005: 282].

Xusravshoh Sulton Mahmud Mirzoning amirlaridan boʻlgan. Sulton Mahmud toʻngʻich oʻgʻli Sulton Ma'sud Mirzoga Xusravshohni bekatka qilib farmon bergan. 1494-yilda u Samarqand podshosi boʻlgach, Xusravshohni Hisor hokimi etib tayinlaydi.

Sulton Mahmud homiyligida Amudaryodan Hindukush togʻigacha boʻlgan bepoyon hududni oʻz tasarrufiga olgan Xusravshoh 40 ming kishilik ulkan qoʻshinga ega boʻladi. U Sulton Mahmudning qoʻllab-quvvatlashi bilan qudratli amaldorga aylanadi. Sulton Mahmud vafotidan keyin esa xiyonat yoʻliga oʻtadi. Temuriylarning oʻsha paytda Sulton Mahmud oʻgʻillarining merosi hisoblangan Samarqand xazinasining egaligiga urinadi. Uchta taxt vorisini (Sulton Ma'sud Mirzo, Boysungʻur Mirzo, Sulton Ali Mirzo) chetlab oʻtib, Samarqand hukmdorligi uchun xutbani oʻz nomiga oʻqitadi. Xusravshoh Boysungʻur Mirzoni oʻldirtirgan. Sulton Mahmud Mirzoning eng sodiq, eng ishonchli kishisi sifatida bolalik yillaridan oʻzi murabbiylik qilgan oʻgʻli Sulton Ma'sud Mirzoning koʻziga mil torttirgan. Mirzo Muhammad Haydar "oʻzi asragʻan va tarbiyat etgan" deganida, tarixiy voqelikning yuqorida ayrim qirralariga e'tibor qilingan lavhalarini nazarda tutadi. Shu bilan birga, ezgulik va yovuzlik – ikki qarama-qarshi qutbda turgan ikki amaldorning yorqin obrazini ixcham matnda oʻquvchi koʻzi oldida mohirona jilolantiradi: Xusravshoh va

Sulton Husayn. “Boburnoma” sahifalaridan ma’lum bo‘ladiki, Zahiriddin Muhammad Bobur Astrobod, Hirot, Hisor hokimi, Samarqand podshosi mansablarida faoliyat ko‘rsatgan amakisi (otasining akasi) Sulton Mahmuddan Husayn Boyqaro hech qanday ro‘yxushlik, ro‘shnolik ko‘rmagan. Ammo uning farzandiga cheksiz karam ko‘rsatgan. O‘zining guldek qizini uning nogiron o‘g‘liga fido qilgan.

Xusravshoh Sulton Mahmud tufayli qudratli odamga aylangan. Ulkan hokimiyatga ega bo‘lgan. Ammo ana shu yaxshiliklar evaziga o‘z valiyne’mati o‘g‘lining ko‘zlarini ko‘r qilgan. Sulton Husayn esa o‘z dilbandini, qizi Begimsulton baxtli bo‘lishi uchun emas, nogiron temuriy qardoshini parvarish qilishi uchun, uning majruh jismi va so‘ngan yuragiga malham bo‘lishi uchun turmushga uzatgan. Go‘zal Begimsulton bor haqiqatni anglab, bilaturib shunday nikohga rozilik bergan. Shunday ayol ma’naviy olamini mufassal yoritish uchun necha sahifalarni qoralash kifoya qiladi! Undagi go‘zalliklar vasfi uchun istagan sehrli qalam sohibining bitiklari ojizlik qilmaydimi?! “Va agar varaq yuz qarolig‘idin uyot va qalam qaro tillik bo‘lurdin hijob bo‘lmasa, anga munosib hariflar mazkur bo‘lg‘ay erdi”, – deb yozadi Hazrat Alisher Navoiy [Buxoro, 27780: 25]. Ulug‘ mutafakkirning ayni talqinlari hayotning mutlaqo boshqa lavhasi tasviri munosabati bilan yozilgan. Ammo uning ma’no qirralarini to‘la nazarda tutgan holda, Begimsulton kabi “onasidan yuz yilda bir tug‘ilmas, yuz mingdan bir yigitga yo‘liqmas” (Navoiy) Sharq go‘zaliga nisbatan qo‘llansa, aslo xato bo‘lmaydi, deb o‘ylaymiz.

“Boburnoma”dan ko‘chirilgan iqtibosda ajratib ko‘rsatilgan uchinchi lavha Begimsultonni eng oliy insoniy go‘zallik – karam sohibasi ekanligini sharhlaydi. Mazkur noyob insoniy go‘zallik haqida Alisher Navoiy shunday yozadi: “Karam – bir jafokashning shiddati yukin ko‘tarmakdur va ani ul suubatdin o‘tkarmakdur. Birovning mehnati xori hamlin qabul qilmoq va ul tikan no‘gidin guldek ochilmoq va ul qilg‘anni tilga kelturmamoq va og‘izga olmamoq va ul kishiga minnat quymamoq va aning yuziga solmamoq” [Navoiy,1998: 81]. Karam oliy axloqiy sifati qoidasini Alisher Navoiyga qadar hech bir alloma bu darajada ixcham, aniq va teran yarata olgan emas. Va karam mohiyatini tashbih, istiora, tazod badiiy libosiga o‘rab, nazariy jihatdan mukammal asoslab bermagan. Ulug‘ mutafakkir karam sifati g‘oyatda noyob, oz ekanligi, uni Odam Ato farzandlari tabiatidan topish amri mahol ekanligini uqtiradi. Shu sababli ham karam ahli jamiyat a’zolari orasida nazarga tashlanmaydi, ularni ko‘z ilg‘amaydi. Ular xuddi mavjud emasdek tuyuladi: “Karam basher ta’bida noyob va nobuddir, bu sababdin karam ahli nopaydo va nomavjuddir” [Navoiy, 1998: 81].

Karam sharhini behad yuksak g‘oyaviy-badiiy talqinda taqdim qilgan buyuk Navoiyning sohir qalami ramziy-tamsiliy tasvirga rag‘bat ko‘rsatadi. Tasvir karam nima ekanligini allaqachon unutib bo‘lgan buyuk adibning zamonasi va zamon ahliga nisbatan kinoyaviy tus oladi. Ulug‘ allomaning o‘tkir tanqid va achchiq kinoya bilan yo‘g‘rilgan fikrlarini o‘zi g‘oyatda sevgan badiiy-tasviriy vositasi – istiora san’ati ichdan nurlantiradi: “Bu davrda karam sabzasi tarafurush do‘konidan o‘zga yerda ochilmas” [Navoiy, 1998: 81]. Fikrimizcha, karam sifatining noyob va topilmasligi siri “Karam va futuvvat tariqida” tanbihidan keltirilgan ixcham iqtibos mazmuni orqali yorqin ochiladi.

Xulosa

Karam – mehr daraxtining mevasi. Mehr daraxti esa oddiy zaminda ko‘karmaydi. U muhabbat ekinzoriga ekiladi. Mehr suvi bilan sug‘orilib, ko‘ngil gulshanida mevadan oldin gul ko‘rsatadi. Shunday gul Begimsulton timsolida “sipehri tezkush gulshanida ochilib” (Navoiy), asrlar osha o‘nlab tarixiy-adabiy manbalar sahifasidan xushbo‘y hid taratib turganligi esa badiiy to‘qima emas, tarixiy haqiqatdir.

“Vaqoe”da nafs martabasidan ko‘ngil maqomiga ko‘tarilgan, o‘zgalarni o‘zidan afzal biladigan fatiy ayolning nafis obrazi mahorat bilan yaratilgan.

Mirzo Bobur Begimsulton obrazi tasvirida o‘quvchi tasavvuriga sig‘dirishi qiyin bo‘lgan, hayratlanarli tarixiy haqiqatni o‘z ijodiy laboratoriyasida qayta ishlagan holda, realistik vaziyatning nozik va ishonarli manzarasini yaratadi hamda undan badiiy jihatdan unumli foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
2. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990.
3. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 13-жилд. – Тошкент: Фан, 1997.
4. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1998.
5. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixiy Rashidiy. – Toshkent: Sharq NMAK, 2010.
6. Xondamir. Habib us-siyar. 4-jild. Uchinchi nashr. – Tehron: Haydariy, 1362 h.sh.; G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. Ismoil Bekjonov tarjimasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2013.
7. Бухоро санъат музейи хазинасидаги 27780-рақамли қўлёзма.

TURKIY XALQLAR MUMTOZ ADABIYOTIDA SADOQAT KONSEPTINING TALQINI, RIVOJI VA BADIIY-FALSAFIY ASOSLARI

Mamatqulova Shohsanam Isroil qizi,
tayanch doktorant,
Qarshi davlat universiteti
e-mail: shokhsanam.mamatkulova.@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada turkiy xalqlar mumtoz adabiyotida sadoqat konseptining lingvokulturologik, badiiy-poetik, tarixiy, falsafiy va tasavvufiy talqinlari keng miqyosda tahlil qilinadi. Sadoqatning turkiy adabiyotdagi o'rni, poetik modellari, semantik qatlamlari, metaforik timsollari, psixologik xususiyatlari, tasavvufiy mazmuni, ramzlar tizimidagi funksional roli ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *sadoqat, konsept, turkiy adabiyot, tasavvuf, vafodorlik, Navoiy.*

Abstract

This article analyzes the linguistic, cultural, artistic, poetic, historical, philosophical, and mystical interpretations of the concept of loyalty in the classical literature of the Turkic peoples on a wide scale. The place of loyalty in Turkic literature, its poetic models, semantic layers, metaphorical images, psychological characteristics, mystical content, and functional role in the system of symbols are revealed on a scientific basis.

Keywords: *loyalty, Turkic literature, devotion, mysticism, Navoiy*

Kirish

Sadoqat turkiy xalqlar adabiy tafakkurida eng qadimiy va eng fundamental ma'naviy kategoriyalardan biri hisoblanadi. U insonning ruhiy olamini, axloqiy poklikni, muhabbatning sadoqat bilan birlashgan yuksak shaklini, shuningdek, do'stlik, birodarlik, vatanparvarlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. Sadoqatning turkiy adabiyotda markaziy konseptga aylanishi bevosita xalqning tarixiy tajribasi, axloqiy dunyoqarashi va ruhiy evolyutsiyasi bilan bog'liq. Turkiy xalqlar mumtoz adabiyotida sadoqatning shakllanishi ko'p asrlik evolyutsiyaga ega bo'lib, uning manbalari qadimgi turk yozma yodgorliklaridan boshlab tasavvufiy she'riyat, saroy adabiyoti, xalq dostonchiligi va mumtoz lirikaning barcha janrlarida o'z ifodasini topadi. Qadim turk bitiklarida sadoqatning siyosiy-ijtimoiy talqini yaqqol ko'zga tashlanadi. Bilga xoqon bitigida "xalqni tark etmaslik", "so'zga sobitlik" kabi tamoyillar turkiy davlat boshqaruv falsafasining markaziy elementlari sifatida qayd etilgan. Sadoqatning bu ko'rinishi keyinchalik epik asarlarda yanada kuchliroq ifodalandi. "Alpomish" dostonida tasvirlangan sadoqat motivi turkiy epik tafakkur taraqqiyotining eng chuqur qatlamlariga borib taqaladi. Bu epik asarda Barchinning Alpomishga bo'lgan sadoqati oddiy lirik kechinma emas, balki ayol obrazining milliy-axloqiy ideal darajasiga ko'tarilgan timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Barchin yillar davomida oshiqini kutadi, undagi vafodorlik, matonat, sabr va sobitlik — turkiy ayolning ijtimoiy-ruhiy qiyofasini belgilovchi asosiy fazilatlar sifatida tasvirlanadi. Epik poetikaning o'ziga xos xususiyati shundaki, Barchin sadoqati alohida shaxsga qaratilgan vafodorlikdan chiqib, turkiy xalqning tarixiy ongi va mentalitetida shakllangan **ayolning sha'nini asrash, va'daga sodiqlik, muhabbatni muqaddas bilish** kabi qadimiy tamoyillarni o'zida mujassamlashtiradi [Karomatov, 2018: 95-bet].

Alpomishning o'zi ham sadoqatning ikki katta ko'rinishini ifodalaydi – **sevgi sadoqati** va **vatan sadoqati**. Uning Barchinga bo'lgan muhabbati fidoyilik, jasorat, halollik kabi fazilatlar bilan uyg'unlashib, turkiy epik qahramonning komillik darajasini belgilaydi. Biroq Alpomishning sadoqati bundan ham kengroq ma'no kasb etadi: u o'z elini, vatanini, urug'-aymoqni himoya qilish, o'z xalqining sha'nini himoya qilish yo'lida jonini tikkan qahramondir. Bu holat turkiy

eposlarda vatanparvarlikning sadoqat bilan chambarchas bog‘lanishini ko‘rsatadi. “Alpomish”da qahramonning qaytishi yurtning tiklanishi, xalqning ruhiy birlashuvi va ma’naviy uyg‘onishining ramziy ifodasi sifatida talqin qilinadi [Jabborov, 2020: 47].

Shu ma’noda, “Alpomish”dagi sadoqat faqat shaxslararo vafodorlik darajasida qolmay, balki butun elning ma’naviy negizini aks ettiradi. Dostonning harakat tizimi – Barchinning kutishi, Alpomishning qaytishi, uning xalqi oldidagi mas’uliyatni bajarishi – bularning barchasi turkiy adabiy tafakkurda sadoqatning **milliy birlikni mustahkamlovchi kuch** sifatida qaralishini ta’kidlaydi.

Turkmanlarning “Gorogly” dostonida esa sadoqatning boshqa qatlami – **do‘stlik va birodarlik sadoqati** yuksak badiiy darajada tasvirlanadi. Gorogly va uning safdoshlari o‘rtasidagi munosabat shunchaki sheriklik emas; u o‘zaro vafodorlik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, umumiy maqsad yo‘lida hayotni ham fido qilishga tayyorlik kabi fazilatlar bilan belgilanadi [Sodiqov, 2015:122-bet]. Do‘stning manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘yish turkiy xalqlar dunyoqarashida qadimdan shakllangan axloqiy tamoyil bo‘lib, “Gorogly”da bu fikr epik dramatizm orqali yanada kuchaytiriladi.

“Gorogly” dostonidagi do‘stlik sadoqati ikki o‘lchamda ishlaydi:

1. **Shaxsiy sadoqat** – do‘stni hech qachon yolg‘iz qoldirmaslik, uning yo‘lidan qaytmaslik;

2. **Jamoaviy sadoqat** – el manfaatini, adolatni, umumiy g‘oyani himoya qilish yo‘lida birlashish.

Bu ikki qatlamning o‘zaro uyg‘unligi turkiy xalqlar o‘rtasida shakllangan **“yolg‘iz qahramon emas, balki jamoaviy kuch”** tamoyilini ko‘rsatadi. Har ikki doston – “Alpomish” ham, “Gorogly” ham – sadoqatning turkiy madaniyatda qanday qilib universal, umumxalq qadriyatiga aylanganini tasdiqlaydi.

Ushbu ikki eposning qiyosiy talqini shuni ko‘rsatadiki, sadoqat turkiy ruhiyatning eng barqaror axloqiy qatlami bo‘lib, u individual muhabbatdan tortib jamoaviy birdamlik va vatanparvarlikka qadar bo‘lgan ma’naviy makonni qamrab oladi. Shu bois turkiy epik meros sadoqatni faqat poetik motiv sifatida emas, balki milliy barqarorlikning, tarixiy xotiraning, ma’naviy mustahkamlikning yadro konsepti sifatida ko‘rsatadi. Bu turkiy xalqlar adabiy-estetik tafakkurining umumiy mazmunini yorituvchi asosiy belgidir.

Navoiy ijodida sadoqatning poetik–falsafiy talqini Sharq adabiy an’analarida misli ko‘rilmagan darajada yuksak badiiy-falsafiy bosqichga ko‘tariladi. Navoiy uchun muhabbat insonning nafaqat ruhiy kechinmasi, balki uning komillik sari yo‘lini belgilovchi eng muhim ma’naviy quvvatdir; shu sababli u muhabbatni “ruhiy poklanish maktabi” deb talqin etadi. Ushbu ruhiy maktabning bosh tamoyili esa sadoqatdir. Sadoqatsiz muhabbat Navoiy falsafasida barqarorlikka ega emas, u shaklga ega bo‘lgandek ko‘rinsa-da, mohiyatan mustahkam ildiz otmagan bo‘ladi. Shuning uchun Navoiy nazarida sadoqat – muhabbatning nafaqat tarkibiy qismi, balki uning asosiy ontologik mezonidir.

“Layli va Majnun” dostonida Majnun obrazi sadoqatning eng mukammal ruhiy modeli sifatida gavdalanadi. Majnunning Layliga bo‘lgan vafosi oddiy hissiy sadoqat emas, balki ruhiy yetiluv, o‘zlikni yengish, dunyoviy mayllardan yuksalish jarayonining badiiy timsolidir [Jabborov, 2021: 63]. Majnunning sahrolarda kezishi, jamiyatdan chekinishi, moddiy ne’matlardan voz kechishi – bularning barchasi uning muhabbatga sadoqatining ruhiy-falsafiy mazmunini ochib beradi. Majnun dunyoviy hayotning o‘tkinchiligini anglab, muhabbatni o‘zlikdan yuksakroq ruhiy haqiqat sifatida qabul qiladi. Natijada uning sadoqati ruhiy taraqqiyotning eng oliy pog‘onasiga – “ishq orqali komillikka yetishish” darajasiga ko‘tariladi.

Navoiy ijodida sadoqatning yana bir kuchli badiiy modeli “Farhod va Shirin” dostonida yaratilgan. Farhodning Shiringa bo‘lgan sadoqati ishqning jismoniy emas, balki metafizik mohiyatga ega ekanini isbotlaydi. Farhodning yo‘li – mehnat, mashaqqat, iztirob, to‘siqlarni yengish, o‘zini boshqalardan ustun ko‘rmaslik, maqsad sari qat’iy intilishdan iborat. Bu jarayon sadoqatning faqat ruhiy sobitlik emas, balki amaliy faoliyat orqali isbotlanadigan fazilat ekanini ko‘rsatadi [Jabborov, 2021:101]. Farhod qahramon sifatida nafaqat sevgida sodiq, balki o‘z kuchi, mehnati, matonati bilan uning haqiqiyligini isbotlovchi obrazdir.

Farhodning qoya teshib, jonini xavf ostiga qo‘yib, to‘siqlarni yengib borishi – sadoqatning mehnat bilan uyg‘unlashgan badiiy talqinidir. U Alisher Navoiy yaratgan “qahramonning ichki jasorati” modelini to‘la mujassamlashtiradi. Bu sadoqatning sof ruhiy holat emas, balki qahramonning dunyoviy kurashi, izlanishi va fidoyiligi bilan birga shakllanadigan murakkab jarayon ekanini namoyon etadi .

Shu tariqa, Navoiy poetikasida Majnun va Farhod sadoqatning ikki qirrali timsoliga aylanadi: – **Majnunda** sadoqat – ruhiy va metafizik yuksalishning modeli; – **Farhodda** sadoqat – amaliy harakat, chidam va jasorat bilan uyg‘unlashgan faol komillik namunasi.

Bu ikki obraz orasidagi ichki tipologik uyg‘unlik Navoiy ijodining umumiy falsafasini shakllantiradi: ya’ni, muhabbat sadoqat orqali komillikka eltadi; sadoqat esa ruhiy qat’iyat, fidoyilik va haqiqatga sodiqlik orqali mukammallikka aylanadi. Jomiy va tasavvuf maktablarida sadoqatning ilohiy talqini, ayniqsa, markaziy konseptlardan biri sifatida shakllanadi. Jomiy tasavvuf falsafasida muhabbatning uch pog‘onasi – majoziy ishq, haqiqiy ishq va ilohiy ishq – orasida sadoqatning tutgan o‘rni alohida e’tibor bilan yoritiladi. Jomiyning nazarida, oshiq Haqqa eltuvchi yo‘lga kirar ekan, u avvalo o‘zini ayovsiz sinovlarga, nafsni tiyishga, sabrga, ruhiy tozalanishga tayyor bo‘lmog‘i zarur. Unga ko‘ra sadoqatsiz muhabbat bo‘lmaydi, sadoqatsiz solik esa yo‘lga munosib emas. Shuning uchun tasavvufda sadoqat – bu shunchaki vafodorlik emas, balki solikning ruhiy intilishlarini tartibga soluvchi asosiy tamoyil hisoblanadi. Tasavvufiy adabiyotda sadoqat tushunchasi ko‘pincha “istiqomat” atamasi bilan bog‘lanadi. Istiqomat solikning biror holat yoki maqomda sobit qolishi, o‘z ruhiy yo‘lidan qaytmasligi, shubhalar, vasvasalar, dunyo havaslari va qiyinchiliklarga qaramay yo‘lni davom ettirishi demakdir. Abu Nasr Sarrajning “Kitob al-Luma’” asarida istiqomat tasavvufning eng yuksak sifatlaridan biri sifatida tilga olinadi, hatto “karomatdan ustunroq” holat deb ham talqin qilinadi, chunki karomat sovg‘a, istiqomat esa mehnat va sadoqat mahsulidir. Shuning uchun tasavvufda sadoqat – solikning ma’naviy darajasini belgilovchi asosiy kalit.

Mashrab ijodi tasavvufiy sadoqatning eng yorqin badiiy timsollaridan birini yaratadi. Mashrab muhabbatni insonning Haqqa eltuvchi eng muhim yo‘li deb biladi; ammo bu yo‘l oson, mashaqqatsiz yoki zavqsiz yo‘l emas. Mashrab nazarida oshiqning haqiqiy sadoqati uning qanchalik og‘riq va mashaqqatlardan qo‘rqmasligi, qanchalik sabr bilan sinovlarga bardosh berishi, dunyoning aldovlaridan o‘zini cheklashi bilan o‘lchanadi. Shoirning “Ishq yo‘liga kirgan kishi sadoqatsiz bo‘la olmaydi” mazmunidagi qarashlari aynan sadoqatning tasavvufiy muhabbatda nechog‘lik markaziy o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Mashrab she’riyatida sadoqat faqat muhabbatdagi sobitlik emas, balki oshiqning o‘zini Haqqa bag‘ishlash jarayonidagi ichki qat’iyati, o‘z istaklarini, nafsini jilovlashdagi ruhiy kuchidir. Mashrab talqinida sadoqatning haqiqiy mohiyati oshiqning “diyonat va vijdon bilan yashashi”da, “Haqqa yaqinlashish uchun o‘zini fido qilishida” namoyon bo‘ladi. Unga ko‘ra, nafsni yengmagan oshiqda sadoqat bo‘lmaydi, sadoqatsiz esa ilohiy ishqqa yetishishning iloji yo‘q Tasavvufda sadoqatning yana bir jihati – u solikni butun ruhiy jarayon davomida o‘zgarmas, sobit, ravshan holatda ushlab turuvchi ruhiy tayanch sifatida talqin etiladi. Junaid Bag‘dodiy “sadoqat solikning ko‘ngli Haqqa tik bo‘lishi, uning nigohi esa hech lahza boshqa tomonga og‘masligi” deb ta’rif beradi [Mashrab, 1992:74]. Bu ta’rifdan ko‘rinadiki, sadoqat – ruhiy markazlashuv, e’tiqodning mustahkamligi va ichki sobitlikning mushtarak holati.

Shu tariqa, Jomiy, Mashrab va tasavvuf maktablari talqinida sadoqat – faqat buzilmas va’da yoki muhabbatga vafodorlik emas, balki **solikning ruhiy yo‘ldagi davomiyligi**, **Haqqa yaqinlashishdagi sobitligi**, **nafsdan yuksalishdagi qat’iyati**, **ishq orqali komillikka yetishishning sharti** hisoblanadi. Tasavvufda sadoqat – oshiqni ishqning tashqi shaklidan ichki mohiyatiga, so‘zdan amalga, holatdan maqomga, nafsdan ruhga olib o‘tuvchi eng muhim ruhiy ko‘prikdir.

Shuning uchun tasavvuf she’riyatida sadoqat – insonning o‘z mohiyatiga qaytish jarayonidagi eng zarur ruhiy fazilatdir. U oshiqni yo‘ldan qaytaruvchi shubhalarni, dunyo havaslarini, iztiroblarni yengishga yordam beruvchi ichki kuch bo‘lib, Haqqa yetishishning eng muhim asosidir.

Fuzuliy ijodida sadoqat oshiqning “dard orqali poklanishi” bilan bog‘liq. Fuzuliy uchun muhabbatning asosiy belgisi iztirob, uning mazmuni esa sadoqatdir. Oshiqning qanchalik sodiq bo‘lishi uning ma’naviy yetuklik darajasini belgilaydi. Fuzuliyning “Men ishqning sadoqat yo‘lida jonimni fido qildim” mazmunidagi baytlari uning sadoqatni ruhiy jasoratning eng yuksak ko‘rinishi sifatida talqin qilganini ko‘rsatadi.

Boburning “Boburnoma”si sadoqatning siyosiy-ijtimoiy talqiniga asos bo‘ladi. Bobur davlatparvarlikda sadoqatni eng ulug‘ fazilat sifatida ko‘rsatadi. Uning yurt sog‘inchi, askarlariga mehr-muhabbati, sodiq kishilarga bo‘lgan hurmati sadoqatning davlat boshqaruvidagi o‘rnini yoritadi. Bobur uchun sadoqat – insonning halolligi, mas’uliyati va vijdoniy pokligi bilan chambarchas bog‘liq.

Sadoqatning badiiy timsollar tizimi – bulbul va gul, parvona va sham’, sahro, tog‘, yo‘l, ummon kabi obrazlar orqali kengaygan. Bulbulning gulga sadoqati oshiqning ma’shuqaga sobitligini, parvonaning sham’ atrofida yonishi ilohiy ishq yo‘lidagi fidoiylikni bildiradi. Sahro – tanholikdagi sinov, tog‘ – sadoqatning og‘irligi, yo‘l – davomiylik, ummon – sadoqatning cheksizligini ifodalaydi.

Sadoqatning lingvokulturologik modeli ham murakkab bo‘lib, uning yadrosida sobitlik, sabr, vafodorlik, halollik va ruhiy poklanish kabi tushunchalar mavjud. Konseptning periferik qatlamlari esa kutish, mashaqqat, iztirob, yo‘l yurganlik, fidoyilik, tavakkul kabi hodisalar bilan bog‘liq.

Yakuniy tahlil shuni ko‘rsatadiki, sadoqat turkiy adabiyotda markaziy ma’naviy konsept sifatida shakllangan bo‘lib, u insoniy fazilatlarni, axloqiy tamoyillarni, sevgi, vatanparvarlik va ilohiy ishqning badiiy modellarini mujassamlashtirib kelgan.

Xulosa

Sadoqat turkiy xalqlar adabiy tafakkurida inson komilligi va ruhiy poklikning asosiy mezoni hisoblanadi. Navoiy, Mashrab, Jomiy, Fuzuliy va Bobur ijodida sadoqatning turli ko‘rinishlari mukammal badiiy shakl kasb etgan. Sadoqat konseptini lingvokulturologik, badiiy va falsafiy yondashuvlar asosida o‘rganish turkiy adabiyotning ma’naviy ildizlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karomatov H. Turk xalqlari poetik tafakkuri. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 256.
Sodiqov Q. Gorogly dostonining badiiy tizimi. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – B. 220.
2. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. 13-14-jildlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2011.
3. Jabborov N. Navoiy asarlarida badiiy tafakkur evolyutsiyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – B. 180.
4. Jomiy A. Nafahot ul-uns. – Tehron: Markaz-e Nashr, 2005. – B. 312.
5. Sarraj Abu Nasr. Kitob al-Luma’. – Qohira: Dar al-Kutub al-Islomiyya, 1999. – B. 280.
6. Mashrab. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992. – B. 320.
7. Junaid Bag‘dodiy. Risolayi Junaidiyya. – Istanbul: Ihsan Kitoblari, 1998. – B. 144.

“QUTADG‘U BILIG” DOSTONINI O‘RGANISHDA TARIXIY MATERIALLARNING O‘RNI

Barno Abdurahmonova,
Qo‘qon DU dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Qutadg‘u bilig” asarini umumta’lim maktablarida o‘rgatishda sharhlab o‘qitishning afzalliklari va bunda fanlararo integratsiyaning samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, sharhlash, lug‘at, samaradorlik, jahondagi ta’lim, integratsiya.*

Abstract

This article highlights the advantages of interpretative teaching in teaching the work “Kutadgu Bilig” in general education schools and the effectiveness of interdisciplinary integration.

Key words: *education, interpretation, lexicon, effectiveness, global education, integration.*

Umumta’lim maktablarida ta’lim sifati o‘qitish va o‘qish jarayonini o‘qituvchi tomonidan qanday shaklda tashkil etish bilan belgilanadi. Bugun ta’lim bosqichlarida adabiy ta’lim samaradorligini jahon ta’lim tizimi andozalariga muvofiqlashtirishning asosiy omillaridan biri muayyan bir fanning boshqa bir fan bilan aloqadorligini ta’minlash tashkil etadi. Chunonchi adabiy materialni o‘rganishda, ayniqsa, qadimgi turkiy adabiyot namunalarini umumiy o‘rta ta’lim, akademik litsey hamda kollejlarda o‘rganish tarixiy voqealar, davlat va jamiyat qurilishi unsurlari izohini o‘quvchilar ongiga yetkazish bilan uyg‘un holda olib borilsagina, kutilgan samaraga erishish mumkin.

Ma’lumki, “Qutadg‘u bilig” qoraxoniylar saltanati hukmronlik qilgan bir paytda yaratilgan. Tabiiyki, davlatchilik va jamiyat, kishilarning hayot tarzi, ish-amallari, dunyoqarashlari, mafkurasi tahlillariga bag‘ishlangan mazkur asarni o‘sha davlat va jamiyat hayotidan ayri holda o‘rganib bo‘lmaydi. O‘qituvchi asar muallifining hayoti, asarning yozilish sababi, asarda masalalar talqini jarayonlarida tarixni bir zum bo‘lsin yodidan ko‘tarmasligi darkor. Aks holda tushuntirilayotgan va o‘rganilayotgan adabiy materialning to‘laqonli bo‘lishi shubha ostida qoladi. “Qutadg‘u bilig” haqida so‘z yuritish avvalida o‘quvchilarga qoraxoniylar saltanatining yuzaga kelishi, davlat qurilishi, ichki va tashqi siyosati, jamiyatda qaror topgan amallar, urf-odatlar, hukmdor va raiyatning o‘rni borasida muxtasar ma’lumot berish lozim:

1. X asr o‘rtalarida qoraxoniylar davlati vujudga keldi.
2. 992- yilda Hasan Bug‘roxon Movarounnahrga yurish qilishi natijasida turkiy qavmlar qoraxoniylar bilan qo‘shilib ketdi.
3. Qoraxoniylar davlati Qashqardan Amudaryogacha cho‘zilib ketgan edi.
4. G‘aznaviylar bilan qo‘shnichilik munosabati.
5. Saljuqiylarning maydonga kelishi.
6. Qoraxoniylar xoni Tabg‘ach yoki Tamg‘ach nomi bilan yuritilgan.
7. Mamlakatni elig - xon boshqargan.
8. Ilm-fan, madaniyat birmuncha yuksaldi [6].

Bu ma’lumotlar 73 bobli yirik dostonning muqaddima boblarini, ya’ni 1-12-boblarini o‘rganishda qulaylik tug‘diradi.

Xususan, kitob muallifi o‘zi tug‘ilgan yurtni Quz O‘rdu deb eslatib o‘tadi:

Muniqi turug‘laq Quz O‘rdu eli,
Tub asli nasabdin yurumish tili
(Buning eli Quz O‘rdudir. Tub asl nasl-nasabdan so‘z ochdi).

Quz O‘rdu qadimiy shaharlardan bo‘lib, qoraxoniylar davlati markazi - Balasog‘unning boshqacha nomidir. U O‘rdukent deb ham atalgan. XI asrning yana bir muazzam obidasi “Devonu lug‘otit-turk” kitobida mazkur shahar arg‘un lahjasida Quz ulus, o‘g‘uz lahjasida Quz O‘rdu nomi bilan tilga olingani eslatiladi [6]. Mashg‘ulot jarayonida muallif izohidan foydalanish dars samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, alohida, ta’sirchanlikni yuzaga keltirishi ilmiy adabiyotlarda metodist olimlar tomonidan e’tirof etib o‘tilgan. Jumladan, “Adabiyot o‘qitish metodikasi”da bu haqida shunday mulohazalar mavjud: ...muallif izohlari, eslatmalari badiiy ijodning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun ham, adibning shaxsiyatiga aloqador bo‘lgan ma’lumotlarni oydinlashtirish uchun ham, o‘rni-o‘rni bilan esa muayyan bir adabiy hodisaning ijtimoiy-estetik ahamiyatini tasavvur etish uchun ham favqulodda katta yordam berishi mumkin bo‘ladi” [To‘xliyev, 2004: 104].

Kitob Qashqar eligi Tavg‘ach Ulug‘ Bug‘roxonga taqdim qilinadi. Buning evaziga muallif Xos Hojib lavozimi bilan taqdirlanadi va kitobning o‘zida shunday ma’lumot keltiriladi: “Ammo bu kitobni Qashqarda tugal qilib, Mashriq maliki Tavg‘achxon uskinga kekurmish, malik ani ag‘irlab, ulug‘lab, o‘z Xos Hojibliki anga bermish turur, aning uchun Yusuf Ulug‘ Xos Hojib teb ati javi yazilmish turur”. U “Qutadg‘u bilig” asariga homiylik qilish orqali o‘z nomini asrlar osha adabiyot ixlosmandlari tomonidan eslanishiga erishgan. Yusuf Bolasog‘uniy ushbu xizmati uchun *“qalamning haqi, zakovatning hurmati sifatida”* elig tomonidan Xos Hojib lavozimi bilan taqdirlanganini faxr bilan yozadi. *“Xos Hojib”* arabchadan tarjima qilinganda *“eshik og‘asi”* degan ma’noda qo‘llangan. Bunday lavozim egasi hukmdor oldiga kirib-chiquvchilar tartibi, ularning maqsadi, eligning xavfsizligi, bu yerda bo‘lib o‘tgan masalalar maxfiy-oshkoraligi kabi masalalar bilan shug‘ullangan. Bunday lavozim uzoq asrlar mobaynida turkiy sulolalar saltanatlarida mavjud bo‘lgan hamda ushbu amalga hukmdorga sadoqati bilan tanilgan o‘ta ishonchli shaxslar tayinlangan. Yuqoridagi misollar Qoraxoniylar davri o‘ziga xos adabiy muhiti bilan birga Yusuf Xos Hojibning saroyda yuqori mavqega ega bo‘lganligidan, hukmdorning ishonchli va sadoqatli amaldorlaridan biri bo‘lganligini ham ko’rsatadi. Asarning biror-bir bobi odob-axloqdan, tarbiyadan yiroq emas. Jumladan, musulmon xalqlari mumtoz adabiyotining bosh masalalaridan biri nafsni yengish masalasidir. Bu komil insonni shakllantirishdagi ustuvor yo‘nalishlardan biri hamdir. Turkiy yozma adabiyotda boshqa ko‘plab adabiy masalalar qatori nafsni yengish konsepsiyasi ham dastlab “Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llanilgan.

Ey elig, bu nafsing yag‘ila qatig‘,
Tilakini berma, yeturma tatig‘.
Ey elig, bu nafsingga (qarshi) shiddatli jang qil,
Tilagini berma, halovat yedirma [Karimov, 1971: 158].

Arabchadan tilimizga o‘zlashgan nafs so‘zi leksik jihatdan *“qalb”, “ko‘ngil”; “inson”; “maqsad”, “intilish”; “g‘urur”, “mag‘rurlik”* atama sifatida *“yeyish-ichishga, mol-dunyoga bo‘lgan ehtiros”* tushunchasida qo‘llaniladi.

Nafs tarbiyasi adabiyotimizda eng ko‘p tilga olingan mavzulardan biri hisoblanadi. Bu mavzuda ko‘plab olimlar, tariqat mashoyixlari so‘z yuritganlar, qator kitoblar va risolalar bitganlar. Donishmand xalqimiz: “Mening nafsim balodir, o‘tdan cho‘qqa solodir” deb ham bejiz aytmagan. Ulamolar nafs istaklariga teskari harakat qilishni ibodatning boshi, deydilar. Tarixda o‘tgan ko‘plab allomalar, mashoyixlar, ruhiy tarbiya ulamolari nafslarini isloh etish bilan oliy martabalar, maqomlarga erishganlar. Nafsga xilof qilishning barakasi, ta’siri har bir insonga o‘tadi. Endi faraz qilib ko‘raylik. Agar podshoh o‘z nafsiga qul bo‘lsachi? Bunday yurtning ahvoli nima kechadi? Garchand, yuqoridagi bayt dostonda Oyto‘ldi obrazi tilidan Kuntug‘dining savoliga javob tarzida

aytilgan badiiy to‘qima bo‘lsa-da, aslida, Yusuf Xos Hojibning qoraxoniylar eligi Tavg‘ach Ulug‘ Bug‘roxonga qilgan nasihati edi. Ushbu purma’no fikrlar zamonlar oshsa-da o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmaydi. Bunday fikrlar, albatta, o‘quvchilarga yetkazilishi zarur.

Umumta’lim maktablarining adabiyot darsligida “Qutadg‘u bilig” asarining tabdili berilgan. O‘qituvchi darslikda berilgan mazkur asarning matni bilan o‘quvchilarni tanishtirganda, undagi tarixiy so‘zlarning izohini tushuntirgan holda darsni tashkillashi asarni uzoq vaqt bolalar xotirasida saqlanishi uchun asos bo‘ladi. Matnda keltirilgan tarix bilan bog‘liq ayrim so‘zlarga izoh berish orqali asarni vatan, el-yurt madhiyasi ekanligini uqtirish imkoniyati ortadi. Ma’lumki, asarda yurt-el, vatan, davlat va uni boshqarish masalalari birinchi o‘rinda turadi. Dostonda mamlakat va xalq, hukmdor va ulus munosabatlari haqida ko‘p gap boradi. Xalq “budun”, “bo‘dun” jumlalari bilan yuritilgan. Mamlakat hukmdori esa “elig” yoki “bek” deyilgan:

Begi ezgu bo‘lsa budun barcha tuz,
Bo‘lur qilqi ezgu, yo‘riqlari uz.

Bundan shu narsa ayon bo‘ladiki, o‘qituvchi darsni boshlanishidayoq tarixiy so‘zlar bo‘lgan “bo‘dun”, “elig”, “bilig” so‘zlariga izoh beradi. Mazkur so‘zlar dostonning deyarli barcha boblarida uchrashi mumkinligini ko‘zda tutib, ularga atroflicha sharh berib o‘tadi. Shuningdek, asarda davlatni idora etishda faol qatnashuvchilar haqida so‘z yuritib, ularga ham izoh beriladi. “Su boshlar” (lashkarboshi), “isfahsolar” (shtab boshlig‘i), “hojib” (maslahatchi), “qapug‘ bashlar” (shaxsni muhofaza qiluvchi), “idishchi bashi” (soqiy), “xonsolor” (bosh oshpaz) so‘zlarining ma’nolari bu lavozimdagi kishilarning vazifalari haqida ma’lumot berishi maqsadga muvofiqdir.

Dostonning mazmuniy silsilasi borasida ham ma’lumot berganda tarixiy so‘zlarga izoh berish talab etiladi. Yusuf Xos Hojib Eligning turli toifaga mansub kishilar bilan munosabatda qanday muomalada bo‘lmoqligiga o‘quvchilar e’tiborini tortadi. Xususan, bir o‘rinda Eligni alaviylar bilan muomalasi haqida so‘z yuritar ekan: “Xizmat qiluvchi payg‘ambar avlodi bo‘lgan ushbu kishilar bilan yaxshi muomalada bo‘lsinki, saodatning yo‘llaridan biri ushbudir. Ularni sev, kor-holidan xabar olib tur. Ular aziz joy farzandlaridurlar. Habibimiz haqqi, ularga yaxshi munosabatda bo‘l. Agar nojo‘ya harakat qilsalar, intizomga chaqir, aks holda ularni bezovta qilmagil” [6]. Shu o‘rinda o‘qituvchidan alaviylar haqida muxtasar ma’lumot berish talab etiladi: “***Alaviylar”*** - Hazrat payg‘ambarning kuyovi va jiyani Alining avlodlari. Bu avlodga nisbatan Turk mintaqasida juda ehtirom bilan munosabatda bo‘lganlar. Qoraxoniylar davrida alaviylar islom ma’rifati yuzasidan maslahatchi bo‘lib turganlar. Alaviylar manfaatga intilmaganlari tufayli turkiylar ehtiromiga sazovor bo‘lishgan. Turk amaldorlari ularning yaxshi hayot kechirishlari uchun shart-sharoit yaratib berishga harakat qilganlar” [5].

Asardagi yulduzchilar (astrologlar) bilan munosabat bobi tushuntirilganida ham tarixiy atamalarga e’tibor qaratish lozim. Shoir bunday deydi: “Yulduzchilik” (astrologlik) ilmi nozik ilmdir. Yil, oy, kun hisobini ular belgilaydilar. “Ey xizmatchi, sen yulduzchilarni muhtaram tut va ularni tushunish uchun handasani o‘qi, so‘ng zarbu qismat (algebra), kasur (trigonometriya), jam’u tafriq (qo‘shish va chegirish), jabru muqobil (matematika) dan xabaring bo‘lsin” [Abduraxmonova, 2007: 266].

Shu o‘rinda “Qutadg‘u bilig” muqaddimasidagi “Etti kavokib va o‘n ikki burj borasida” deb atalmish bobga o‘quvchilar e’tiborini jalb etish joiz bo‘ladi. Negaki, bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida rasm bo‘lgan munajjimlar bashoratida o‘quvchilarga havola etilayotgan o‘n ikki burjning inson taqdiri, hayot hodisalari hamda qismat bilan bog‘liq voqealar haqida bashorat qilinadi. O‘quvchilarga bularning turkiy muqobillari hamda turkona mushohadalari mavjudligini aytib, u bilan bog‘liq holda ma’lumot berilsa, ularning qiziqishlari yanada ortadi. Adibning bu masalaga islomiy nuqtai nazar bilan yondashganligi eslatiladi:

Rabbim nomi bilan boshlay endi so‘z,
O‘zi bino qildi, O‘zi boshu ko‘z,
Bilgicha yaratdi kulli olamni,

Bu yorug‘ oyli ham kunli olamni,
Boshda aylanguvchi aflok yaratdi,
Charxi sargashtai g‘amnok yaratdi.

So‘ngra etti kavokib (yulduz, sayyora) haqida ma’lumot beradi. Shu o‘rinda shoir ilmi nujumdagi ilmiy xulosalarni nihoyatda aniqlik bilan o‘quvchilar e’tiboriga havola etadi:

Ko‘kda yulduzlarning qanchasi bezak,
Qanchasi basharga yo‘lchidir beshak,
Qay biri balandu, qay biri pastda,
Yorug‘ ham kerakdur, rasta va rasta.

Shundan keyin Zuhal (Yupiter)ning bir burjda ikki yilu sakkiz oy, Mushtariyning (turkiychasi O‘ng‘ay) burjda rosa bir yil turishini aytadi. Mazkur ma’lumotlar dostonning adabiy-ma’rifiy asar sifatidagi maqomini tasdiqlaydi. Darhaqiqat, Yusuf Xos Hojib o‘n ikki burj nomini keltirishda tarixiylikka amal qiladi. Bularni turkiy xalqlar orasida qay tarzda aytilishiga urg‘u beradi. O‘qituvchi ana shu masalani e’tiborda tutib, etti kavokib va burjlar nomini bugungi qarashlar bilan muqoyasa qilib sharhlasa, mavzuni tushunish oson kechadi.

Mavzuni o‘rganishda asar mazmuni, g‘oyasining markazi hisoblangan va bugunda tarixga aylangan so‘zlar ma’nosini ketma-ket izohlab borish lozim. Chunonchi asar Tavg‘ach Ulug‘ Bug‘roxonga tuhfa qilingan ekan, o‘qituvchidan “bug‘ro”, “qora”, “arslonxon” so‘zlarini sharhlash talab etiladi. “Bug‘ro” so‘zi erkak tuya yoki umuman, hayvonlarning erkagi (nari) ekan. “Arslonxon” esa jikil qabilasining totemi - ajdodi ibtidosi hisoblangan. “Qutadg‘u bilig” asarida turklarning kosmogonik ishonchlari va dunyoqarashlari ham o‘z aksini topgan. Xususan, samo jismlari bilan aloqadorlikdan tug‘ilganligi sababli turklarda astronomik ismlar bilan bog‘liq onomastik birliklar ko‘pchilikni tashkil etadi” [2]. Muallif o‘z fikrining isboti uchun Ayxonim, Aytekin, Aynur, Aypara, Chilyanay, Altunay, Dolunay, Aysel, Ayxan, Aydemir, Surxay, Aytur singari nomlarni keltiradi.

Bug‘roxon Turkiston o‘lkalarida amal qilgan ko‘pgina davlat boshliqlarining unvoni, “Qora” so‘zi esa “Bug‘roxon” va “Arslonxon” so‘zlarining turkiy xalqlarda umumlashtirilgan sifati ekanligi, taxtda o‘tirgan “Arslonxon” yoki “Bug‘roxonlar” “Qoraxon”, ya’ni Ulug‘xon nomi bilan yuritilganligi o‘quvchilarning VII sinf “O‘zbekiston tarixi darsida “Qoraxoniylar davlati” mavzusida olgan bilimlariga tayanilgan holda tushuntiriladi.

Dostonda bir qator tarixiy shaxslar, shuningdek, joy nomlari ham uchraydi. Jumladan, Iskandar qadim Yunonning jahongiri, Kisro esa Xusravning arabchalashgan shakli, Zahhok - sitamkorligi, qattiqqo‘l va zulmkorligi bilan mashhur afsonaviy hukmdor bo‘lganligi, Rum – Vizantiyaning sharqona shakli, Chin – Xitoy, Mochinning esa Janubiy Xitoy ekanligi, O‘tukan turkiylar yashaydigan joy ekani borasida ham ma’lumot berish lozim.

Yusuf Xos Hojib asarda dehqonlar xususida alohida to‘xtalib o‘tadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilardan dehqonlarning XI-XII asrda jamiyatda tutgan o‘rni hamda qoraxoniylar hukmronligi davrida “dehqon» deganda o‘zining “qishloq hokimi”ni anglatuvchi asl ma’nosini yo‘qotib, qishloq mehnatkashlari uchun umumiy nomga aylanganligi haqidagi ma’lumotlarni eslatadi va o‘quvchilarga quyidagi savollar orqali murojaat qiladi:

1. “Dehqon” degan nom qanday qilib o‘zining asl ma’nosini yo‘qotdi?
2. Iqto‘ tartibi haqida tarixdan nimalarni bilasiz?
3. Qoraxoniylar davrida yer egaligi iqto‘ tartibining kengayishi haqida so‘zlang.

O‘quvchilarning javoblarini eshitgach, adabiyot darsligidagi dehqonlar to‘g‘risida berilgan matnni o‘qitadi va sharhlaydi. Bunday suhbatlar asarni o‘rganishga bag‘ishlangan mashg‘ulotda o‘quvchilarning adabiyot va tarix fanidan olgan bilimlarini omuxtalashtiradi. Zero, asarning mazmuni va undagi qarashlar tarix bilan bevosita bog‘langan. Agar dars jarayonida mavzuni tarix bilan bog‘lash unutilsa, asar haqidagi tasavvurlar bir yoqlama bo‘lib qoladi. Shunday ekan, dostondagi har bir

masala talqinida tarix bilan aloqadorlikni aslo unutib bo‘lmaydi. Rivojlangan xorijiy davlatlarning tajriba va yutuqlarini milliy ta’lim tizimiga tadbiq etish, ta’lim oluvchilarni yuksak bilimlar bilan qurollantirish, mavjud layoqatlarini rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlarning natijaviyligini ta’minlovchi omil sifatida qabul qilish har bir fan o‘qituvchisidan talab qilinishi zarur. O‘quv fanlar soni va yuklamalar hajmini optimallashtirib, o‘quvchilarning qiziqishini hisobga olgan holda fanlarni tanlab o‘qitish imkonini beruvchi variativ o‘quv dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarni hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatlarini yanada orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoqubov A. “Qutadg‘u bilig”da davlatchilik konsepsiyasi. – T.: Xalq merosi, 1997. – 64 b.
2. Yunusov A.R. “Qutadg‘u bilig”da turk manshali antroponimlar // http: //yazikiliteratura. boom.ru/Linq21.htm.
3. To‘xliev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 182 b.
4. Тухлиэв Б. Вопросы поэтики «Кутадгу билиг» Юсуфа Хас Хаджиба. – Т.: Аср-Матбуот, 2004. – 104 с.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig / Nashrga tayyorlovchi va tarjimon Q. Karimov. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1971. – 158 b.
6. Abduraxmonova B. Ta’lim bosqichlarida “Qutadg‘u bilig”ni o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari: Ped. fan. nomz. diss.... – Toshkent: 2007. – 266 b.

O‘RTA OSIYOLIK MUTARRIZIY VA YAQIN SHARQLIK MUTARRIZ

Yuldashev Baxodir Kadirdjanovich,
“Yangi asr” universiteti
Sharq filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: yuldashev.b.k@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada arab tilini o‘rganish va o‘rgatish borasida ustoz va shogird munosabatlari, ularning o‘ziga xosliklari, grammatika maktablarining xos hislatlari haqida so‘z boradi. Shu bilan birga ayni xosliklar tarixdagi ikki buyuk nahvshunos olim Mutarriz va Mutarriziylarning tahalluslari bir xilligi, ammo, tilshunoslikdagi asarlarida til o‘rgatish yondoshuvlari turli xil ekanligi bilan ularning orasidagi asarlar atetezasi talqin etiladi. Bularni tushunish uchun har qanday kichik ma’lumot yuqori ahamiyat kasb etishi aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Nahv, grammatika, tilshunos, Xorazm, Kufa, Basra, Dimashq, ta’lif, Bag‘dod, ateteza, Mutarriz, Mutarriziy.*

Abstract

This article discusses the relationship between teacher and student in the study and teaching of the Arabic language, their characteristics, and the characteristics of grammar schools. At the same time, these characteristics are explained by the similarity of the pseudonyms of the two great grammarians in history, Mutarriz and Mutarrizi, but the differences in their approaches to language teaching in their works on linguistics, which explains the similarity of their works. It is also mentioned that in understanding these, every subtle and small element is of great importance.

Key words: *Nahw, grammar, Linguist, Khorezm, Kufa, Basra, Dimashq, taalif, Baghdad, atetaze, Mutarriz, Mutarrizi.*

Markaziy Osiyo hududlarida yashab o‘tgan arab tili tilshunoslari orasida tarixda shuhrati baland bo‘lgan olimlardan Mahmud Zamaxshariy, Abdulqohir Jurjoniy, Muvaffaq Ahmad Ibn Muhammad Xotib Xorazmiy, Nosiruddin Abul Fath Mutarriziy kabi zotlar o‘zaro ustoz shogird munosabatida bo‘lishgan. Bunga dalil sifatida allomaning “Kitab Al-Mug‘orrib fi taribi Al-Mua’rrib” kitobining kirish qimsidagi Mutarriziy haqidagi tarjima-i hol tavsifida Ahmad bin Mustafo bunday yozgan: “Mutarriziy Zamaxshariydan va Muvaffaq Xatibi Xorazmdan ilm olgan, hamda til va hanafiy mazhabi fiqhi borasida mohir bo‘lib yetishgan” [Mutarriziy, 211: 8]. Aslida Mutarriziyning yashagan davriga qaraydigan bo‘lsak, Ibn Xallikon uni “U (Mutarriziy) Xorazmda hijriy 538- yilning Rajab oyida tug‘ilgandir va U Zamaxshariyning o‘rinbosari bo‘lgandir. Holbuki, Zamaxshariy o‘sha davlatda o‘sha vaqtda (ya’ni yilda) vafot topgan” [Mutarriziy, 211: 8], -deydi. Ibn Xallikonning bu fikri birinchi fikrni rad etmasa-da, kuchsiz qiladi. Ammo bunga yuqoridagi “Mug‘orrib” kitobida javob ham berib o‘tiladi. Ya’ni, yuoqridagi birinchi fikrda “o‘quvchi” so‘zi tushib qolganiga ishora qilib “Mutarriziy Zamaxshariyning o‘quvchisi va shogirdi Muvaffaq Xatib Xorazmiydan ilm olgan” [Mutarriziy, 211: 9], – deb sharh berib o‘tilgan. Bu sharhlardan biz aslida Mutarriziy Muvaffaq Xatib Xorazmiyning bevosita shogirdi emas, balki bilvosita, ya’ni uning shogirdining o‘quvchisi bo‘lgan. Bunga Mutarriziy Zamaxshariy vafot etgan yilda dunyoga kelgani dalil bo‘la oladi.

Nosiriddin Abdu-s-Sayyid ibn Ali Mutarriziy o‘zidan boy milliy meros qoldirgan. “1) “Al-Misbah fi an-nahv”, 2) “Almu’rob fi g‘oribi alfazi al-fuqaha”, 3) “Almug‘arrib fi sharhi al-mu’rib”, 4) “Sharhi maqomati al-Haririy”, 5) “Aliqna’u fi al-lug‘ati”, 6) “Muqaddimatul Mutarriziyya fi an-nahv”, 7) “Muxtasaru islahi al-mantiq” kabilar” [Talab, 2011: 5]. Mutarriziyga tegishli bo‘lgan asarlar orasida arab tili, hanafiy fiqhi va boshqa leksikologiya masalalariga oid kitoblari bor. Ularning orasida allomaga nisbat berilgan “Al-muqaddimatul Mutarriziyya fi an-nahv” asari ham bor bo‘lib, asarning nomidan bu uni arab tili grammatikasiga oid ekanligini bilish qiyin emas. Shunday ma’lumot boshqa tilshunoslikka oid qo‘llanmalarda ham keltirilgan. Jumladan, “Nasir ibn Abu Sayyid ibn Ali Abu-l-Fath Mutarriziy “Zamaxshariyning o‘rinbosari” nomini olgan, Zamaxshariydan keyin

“Imamu ilm-u-nahv” – “Nahv ilmining imomi” darajasiga koʻtarilgan. Uning tilshunoslikka oid asarlari qatoriga “al-Muqaddima al-Mitarriziyya fi an-nahv”, “al-Iqna’ fi al-lugʻati”, “al-Misbah fi an-nahv” asarlarini kiritish mumkin. Asarlari davrimizga qadar yetib kelgan” [Nosirova, 2019: 120]. Biz ushbu ma’lumotlar asosida aynan “Al-muqaddimatul Mutarriziyya fi an-nahv” asarini qididik va qiyinchilikka duch keldik. Shu nomda Mutarriziy asar yozganiga doir izlanish biz kutgan natijani bermadi. Asarning nomlanishi uning arab tili grammatikasiga tegishli kichik risola koʻrinishida ekanligiga dalolat beradi. Chunki “kichik kirish” yoki “muqaddima” soʻzlari aynan tarixda kichik grammatik asarlarga nisbatan qoʻllangan.

Mutarriziyning “Al-muqaddimatul Mutarriziyya fi an-nahv” nomli asari haqiqatan ham boʻlgan va u boshqa nom bilan ham yuritilgan boʻlishi yoki aksincha, umuman bunday asar boʻlmagan boʻlishi ham mumkin. Biz uni olimning barcha asarlarini tahlil etibgina aniqlik kirita olamiz.

Ikkinchidan, “Al-muqaddimatul Mutarriziyya fi an-nahv” nomi ostidagi asar boshqa “Mutarriziy” taxallusi bilan ijod etgan olimga tegishli va biz uchun hali noma’lum boʻlgan oʻsha allomaning ushbu nom ostidagi asari mashhur Nosiruddin Mutarriziyga nisbat berilgan. Asl muallif esa oʻrganilmay qolgan. Tarixda bunday hodisalarga koʻplab duch kelingan.

Alloma Mutarriziyning “Kitab Al-Mugʻorrib fi tartibi al-Mua’rrib” asari tahlil etish mobaynida shunday ma’lumot borligi aniqlandi. “...U (Mutarriziy) hijriy 538-yilda Xorazmning Jurjoniyasida tavallud topgan va dastlab otasidan, soʻngra Zamaxshariyning shogirdi Muvaffaq Ahmad bin Muhammad Xatib Xorazmiydan ta’lim oladi. Uning fiqhga oid “Al-Mugʻarrib”, “Al-Iydoh sharhi maqomati Al-Haririy”, “Al-Iqna’ fi al-lugʻa”, “Muxtasaru islahi mantiq” asarlari va shuningdek, “Muqaddimatun fi an-nahv” (keyinchalik uni “Al-Misbah” nomi bilan mashhur boʻlgan)” [Mutarriziy, 211: 11]. Bu ma’lumot oʻz-oʻzidan yuqorida keltirilgan birinchi fikrni quvvatlaydi. Ammo ushbu ma’lumotlar Mutarriziyga nisbat berilayotgan vaqtda uning “xorazmlik Mutarriziy” ekanligi hamda “Mutarriziy” nomi bilan birga “Xorazmiy” taxallusi ham ketma-ketlikda ishlatilayotganligi yuqoridagi fikrning ikkinchisi ham toʻgʻri boʻlishi mumkinligiga dalolat beradi. Chunki “Mutarriziy” taxallusi biror joyga emas, balki kasb-hunarga oid taxallus hisoblanadi.

2023-yil oktabr oyida Qohiradagi Al-Azhar universitetining Arab tili fakulteti ilmiy jurnalining 42-sonida doktor Abdulaziz bin Solih U’mriyning “Mutarriziyyatu li Abi Abdulloh Muhammad bin Aliy Sulamiy Dimashqiy Mutarriz. Dirosatun va tahqiqun” nomli tadqiqoti chop etildi. Ushbu tadqiqotda olim Mutarriz va uning arab tili grammatikasiga oid kichik muqaddima hisoblanuvchi “Mutarriziyya” kitobi haqida soʻz yuritadi. Jumladan, unda “Bu tadqiqotda hijriy 456-yilda vafot etgan Abu Abdulloh Muhammad bin Aliy Sulamiy Dimashqiy Mutarrizning kitobi (Mutarriziyya) oʻrganiladi. Bu kitob nahv ilmiga muqaddima sanaladi. Ushbu tadqiqotda shuningdek, muallifning hayoti va ijodi, kitobning oʻrganilishi, uning qismlari va boʻlimlari, avvalgi oʻrganilgan tadqiqotda yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar va ularga kiritilgan tuzatishlar, hamda asl nusxadan namunalar berilgan” [U’mriy, 2023: 2], – deb yozgan. Bunday ma’lumotlar yuqorida tahmin etilgan ikkala fikrni ham tasdiqlaydi. Ya’ni, bu ikki olimning boshqa vaqtlarda boshqa makonlarda yashagani, ammo ilm borasida shugʻullangan sohasi bir ekanligi mana shu sohada yigʻilgan ma’lumotlar chalkashliklariga olib kelgan. Shu bilan birga doktor Abdulaziz U’mriy oʻz tadqiqot ishida shunday fikrni bildirganlar: “Ushbu kitob (Mutarriziyya) borasida nisbatan ba’zi olimlar uni hijriy 610-yilda vafot etgan Abu Fath Nasir bin Sayyid Xorazmiy Mutarriziyga, toʻgʻrirogʻi uning “Al-Misbah”iga tegishlidir degan xato fikrni bildiradilar. Bunga sabab ikki allomaning taxallusi bir xilligi. “Mutarriziy” sifati uning kiyim tikishiga nisbatan berilgan taxallusdir. Ammo, Mutarrizga kelsak, uni biron-bir manbada hech bir tarixchi biror narsaga nisbatan ishlatgani uchramaydi. Biroq, arab nahvi muqaddimasiga oid ushbu kitob ikkita olimning ham taxallusiga mos keladigan holda “Mutarriziyya” deb nomlanadi. Barcha chalkashliklar mana shundan kelib chiqqandir [U’mriy, 2023: 7]”. Tarixnavis olimlar ichida eng koʻzga koʻringan olimlardan biri Imom Zahabiy ham ushbu fikrni qoʻllab quvvatlaydilar. Olim “Islom Tarixi” kitobida Abul Fath Mutarriziyning tarjima-i

holi bayon qilingan fikrni keltirgan: “Bu olim Al-Muqaddimatul Mutarriziyyaning muallifi degan fikr to‘g‘ri emasdir. Uning muallifi undan avval yashab o‘tgan Dimashqiydir. Uning to‘liq ismi sharifi Abu Abdulloh Muhammad bin Aliy Sulamiy Dimashqiy Mutarriz bo‘lib, u 456-yilda vafot etgan. Ehtimol, bu Xoramiyning ham boshqa o‘z “Muqaddima”si bordir. Ha, xuddi shunday, uning “Muqaddima” kitobi “Al-Misbah” deb nomlanadi. Bunda (Xorazmiyga) mashhurlik sabab nisbat ketib qolgan. [Zahabiy, 2010: 392]” O‘rta asrlarda yashagan Ibn G‘ozziy ham o‘zining “Devoni Islam” asarida bu fikrni qo‘llab-quvvatlagan..

Ba’zi manbalarda bu ikki olim haqida bitta shaxs degan chalkash fikrlar ham uchraydi.

Abu Abdulloh Dimashqiy Mutarrizning “Mutarriziyya” asari haqida. Ushbu asar 27 ta bobdan iborat. Dastlab i’rob (kelishik) bobi keltirilgan. Kitobning so‘ngi esa kelishikda turlanadigan va turlanmaydigan ismlar bobi bilan yakunlangan. Allomaning til o‘rgatish uslubi shogirdning til o‘rganish uslubiga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Mutarriz Dimashqiyning o‘z ustozlariga bo‘lgan hurmati, hamda tilni o‘rgatish borasidagi grammatik asaridagi arab tili qoidalarini yoritish uslubi Mutarriziy Xorazmiyning uslubidan farq qiladi. Mutarriz Dimashqiyning “Mutarriziyya” asarini o‘rgangan tadqiqotchi olimlar shunday xulosaga kelganlar. Darhaqiqat, “Mutarriziyya” Bag‘dod grammatika maktabi sohiblari hisoblanmish Abulqosim Az-Zujajiy va Abu Fath Usmon ibn Jinniylarning grammatika oid kitoblaridan ilhomlanib yozilgan. Bu asar ustida tadqiqot olib borgan doktor Abdulaziz U’mriy “Ushbu muqaddima Az-Zujajiyning Al-Jumaliga taqliddir va uning kichik muxtasaridir, [U’mriy, 2023: 9]”, – deb yozgan. Tadqiqot davomida olim o‘z fikrlarini ham bayon qilib o‘tgan: “Lekin mening fikrimcha, bu asar Ibn Jinniyning “Al-Lamu’” kitobiga bog‘liqligi bor. Bu bog‘liqlik Az-Zujajiyning “Al-Jumal”idan ko‘ra kop’roqdir. Chunki, asar boblarining qismlarga bo‘linishida, qisqa mulohazalarning berilishida ko‘proq aynan “Al-Lamu’”ga mos keladi. Bu esa Az-Zujajiyning kitobiga bo‘lgan aloqani inkor etmaydi, balki ikkala kitobga ham ma’lum jihatdan bog‘liqlik borligini anglatadi. [U’mriy, 2023: 11]” Shundan so‘ng doktor Abdulaziz U’mriy har ikkala kitobga nisbatan bog‘liqliklarni birma-bir sanab o‘tadi. “Mitarriziyya” nahvni sharhlashda Bag‘dod grammatika maktabi uslubiga tayangan deyish mumkin.

Mutarriziy Xorazmiyning “Misbah” asari O‘rta Osiyo mintaqasida alloma Zamaxshariy asos solgan Movarounnahr grammatika maktabi vakillari uslubida yozilgan asar hisoblanadi. Bu haqida asarning zamonaviy nashri kirish qismida bayon qilingan: “Shu bilan birga Mutarriziyning o‘g‘li Mas’ud uning “A’liqna’u fi al-lug‘oti” kitobini o‘qib chiqqanidan so‘ng yanada tushunarli va ko‘proq grammatik ma’lumotlar bilan boyitish uchun Abdulqohir Jurjoniyning kitoblaridan foydalanib o‘z asarini yanada mukammallashtirmoqchi ekanligini eslatib o‘tadi. O‘sha davrda Jurjoniyning tilshunoslar orasida keng muhokamada bo‘lib turgan asarlari bo‘lmish “Al-A’avamilu al-miatu”, “Al-jumal” kabi asarlari edi. Ammo Mutarriziy uchun ushbu asarlar uzun tuyuldi. U ushbu asardan ilhomlanib undagi ma’lumotlarni ixchamroq va foydaliroq tarzda taqdim etish bilan uning qisqaroq – muxtasar variantini maqsad qildi. [Mutarriziy, 2001: 5]”.

Maqolani o‘rganish jarayonida ko‘rib o‘tilgan fikrlardan xulosa qilsak, bu ikki o‘xshash taxallus bilan ijod etgan olimlar arab tilshunosligi borasida ham bir xil nomga ega bo‘lgan asarlar yozgan. Ularning asarlari bir xil sohada bo‘lsa ham, ularning yo‘nalishlari turli xilligini bildik. Haqiqatan, asarlar nomlari bir nom ostida, va hatto, mualliflar ham o‘xshash nom bilan nomlanishi mumkin. Ammo, ularni farqlash uchun ushbu sohada yetarli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish kerak. Aks holda, bir xil nomli allomalar asarlari qorishtirilib, chalkash fikrlar yuzaga keladi. Olimlarning hayot va ijod faoliyati haqidagi asarlarni o‘rganibgina bunday fikrlarga oydinlik kiritamiz. Aslida, maqolada o‘rgangan ikki o‘xshash nom ostidagi allomalarning yozgan asarlari nomlanishida “Muqaddima” degan so‘zga duch kelmadik. Alloma Mutarriz asarining nomlanishi ham, Movarounnahrlik olim Mutarriziy asarining nomida ham bunday sifat yoki ism qo‘llanilmagan. Balki, aynan shu kalom bilan ularning asarlari boshlangandir. Shu bilan bir qatorda bu sifatning ishlatilishi asarlar allomalarning

qisqa durdona risolalari bo‘lganligi sababidandir. Demak, bu allomalar boshqa – boshqa davr va makon vakillari hisoblanadi. Ularning bir dam ekanliklariga asosli fikrlar hali o‘z tasdig‘ini topmagan. Shunga qaramasdan, bu o‘xshash nom ostida ikki olim emas, balki aynan bir shaxs – alloma Mutarriziy ekanlilariga nisbat beruvchilar bor. Tarixnavis va olimlar hayoti – ijodini o‘rganuvchilar orasida bu fikrlarni olg‘a suruvchilar uchraydi. Bu haqida biz keyingi maqolamizda to‘xtalib o‘tamiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abdulaziz bin Solih Al-U’mriy. Mutarriziyyatu li abiy Abdulloh Muhammad bin Aliy Sulamiy Dimashqiy Mutarriz. Dirosatun va tahqiqun. Ilmiy tadqiqot. – Qohira, 2023.
2. Abdulhamid Sayyid Talab. Misbah fi I’lm an-nahv. – Qohira, 2011.
3. Abu Abdulloh Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad Imom Zahabiy, “Tarix al-Islam”. 12-jild.
4. Nosirova M. Tilshunoslik bilimlari tarixi. – T.: Navro‘z, 2019.
5. Nosiruddin Abul Fath Mutarriziy. Kitab al-Misbah. – Qohira, 2001.
6. Nosiruddin Abul Fath Mutarriziy. Kitab mug‘arrib fi tartibi mu’arrib. – Bayrut, 2011.

ТЮРКСКАЯ РИТОРИКО-ПОЭТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА: МЕТАФОРА, МЕТОНИМИЯ, СИМВОЛИЗАЦИЯ И ТРАДИЦИОННЫЕ ТОПОСЫ

Эльвина Аджеминова Рифатовна,
доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
старший преподаватель
кафедры русской филологии
Ферганского государственного университета
e-mail: nochkaelvi@gmail.com

Аннотация

В статье проводится детальный анализ ключевых компонентов тюркской риторико-поэтической системы – метафоры, метонимии и символизации – и их интеграции через устойчивые топосы (путь, сад, степь, возлюбленная). На материале эпической традиции и диванной поэзии исследуются когнитивно-семиотические механизмы порождения значений, динамика сакрализации образов и функция метонимических переносов в структурировании социально-культурной идентичности.

Ключевые слова: *тюркская классическая литература; метафора; метонимия; символизация; поэтический топос; художественная традиция.*

Abstract

This article provides a detailed analysis of the key components of the Turkic rhetorical-poetic system – metaphor, metonymy, and symbolization—and their integration through stable topoi (path, garden, steppe, beloved). Using the material of the epic tradition and sofa poetry, the cognitive-semiotic mechanisms of generating meanings, the dynamics of the sacralization of images, and the function of metonymic transfers in structuring socio-cultural identity are explored.

Key words: *turkic classical literature; metaphor; metonymy; symbolization; poetic topos; artistic tradition.*

Тюркская классическая литература представляет собой многовековой пласт художественного наследия, формировавшегося под воздействием общекультурных, религиозных и социальных факторов. Особую роль в становлении её эстетического канона играют риторико-поэтические механизмы, обеспечивающие глубину смыслов и устойчивость традиции. Центральными среди этих механизмов выступают метафора, метонимия, символизация и система традиционных топосов. Их функционирование демонстрирует не только художественную специфику тюркского поэтического дискурса, но и более широкие когнитивно-семиотические закономерности, характерные для восточной словесности в целом [Жабборов, 2021: 45].

Метафора в тюркской литературе традиционно рассматривается как один из ключевых инструментов концептуализации мира, позволяющий моделировать сложные ментальные структуры посредством чувственно-конкретных образов. В классической тюркской поэтике она выступает не стилистической *ornamenta*, а универсальным механизмом, формирующим устойчивые когнитивные схемы и способы мировосприятия. Благодаря метафоре абстрактные категории – любовь, судьба, духовный путь – обретают материально-чувственную выразимость, что обеспечивает их укоренённость в культурной памяти [Атаходжаев, 2015: 52].

Одним из наиболее значимых метафорических кластеров является образное поле «любовь как страдание». Оно имеет древнее культурно-философское основание, связанное с представлением о страдании как о необходимом этапе духовного очищения. В диванной традиции, особенно в суфийском её слое, страдание трактуется как универсальный путь внутренней трансформации. У Алишера Навои этот комплекс получает развитую духовно-аскетическую интерпретацию. Образ сердца, «прожжённого огнём любви», функционирует как указание на метафизическую динамику души: «*Yurakni yondurgan olov ilohiy ishqdir*» – здесь

огонь репрезентирует очищающую силу божественного света, преобразующую внутренний мир человека.

Метафора огня в поэтике Навои восходит к древней традиции персо-тюркского символизма, в котором огонь связывается одновременно с болью и очищением. В рамках суфийской герменевтики она маркирует переход от эмпирического к духовно-трансцендентному уровню бытия.

Другой устойчивый и концептуально значимый образ – метафора «мир как сад». В тюркской литературе сад выполняет функцию символического пространства космической гармонии, воплощающего идею цикличности и обновления. Эта модель глубоко укоренена в восточной философской традиции, где природная гармония мыслится аналогом гармонии человеческой души.

В поэзии Юсуфа Хос Хожиба метафора сада получает дидактическое звучание: гармоничный сад соотносится с упорядоченным внутренним миром человека, а цветение – с его духовной зрелостью [Navoiy, 1991: 128]. Цикличность природных процессов – расцвет, увядание, обновление – становится образной основой для осмысления временности, морального совершенствования и духовного роста.

В рамках этого метафорического поля формируется целостная система подобразов: цветок – как знак духовного развития, весна – как символ обновления, садовник – как фигура мудрого правителя или духовного наставника [Бертельс, 1965: 203]. Таким образом, метафора «мир как сад» представляет собой не одиночный поэтический образ, а развернутый концептуальный макросимвол, объединяющий антропологические, космологические и этические смыслы. В совокупности эти метафорические комплексы демонстрируют высокую степень концептуальной организованности тюркской поэтики, для которой характерно единство художественного выражения и философского смыслообразования. Метафора в данном контексте выступает фундаментальным механизмом интерпретации мира, обеспечивающим структурирование опыта и трансляцию культурных ценностей.

Метонимия в тюркской поэтической традиции выступает не только средством смыслового сжатия, но и важнейшим механизмом построения поэтической модели мира. Её функционирование связано с установкой классической восточной поэтики на предельную концентрацию образа, когда отдельная деталь способна репрезентировать целостный эстетический или концептуальный комплекс. В отличие от метафоры, основанной на подобии, метонимия формирует смысл через смежность, структурируя поэтическое содержание посредством переноса значений от части к целому, от атрибута к объекту или от действия к субъекту.

Одним из наиболее распространённых типов метонимических перенесений является использование отдельных элементов женской красоты – губ, волос, взгляда – для обозначения обобщённого идеала, формируемого в рамках диванной традиции. Такие выражения, как *«губы – рубин»* или *«волосы – ночь»*, строятся не только на метонимическом сочетании физического признака с символической характеристикой, но и на устойчивой эстетической системе, где каждый элемент телесного образа имеет культурно закреплённую ассоциативную нагрузку. В данном случае рубин означает ценность, притягательность и опасность, а «ночь» символизирует тайну, глубину и мистическую красоту [Ерматов, 2002: 142]. Подобные конструкции демонстрируют стремление поэта к символической экономии выразительности: минимальный объём языкового выражения передаёт максимальное количество эстетических и эмоциональных смыслов. В рамках поэтики Навои метонимия часто используется для раскрытия сложных психологических состояний через отдельные детали: *«Qoshlarim tutib turdi hijronning tirnog'ini»* – здесь «ресницы» обозначают состояние глаз, а через них – интенсивность переживаемой разлуки.

Особо значимым оказывается использование метонимии при описании социального и политического пространства. В тюркской историко-героической традиции власть и

государственность нередко обозначаются не напрямую, а через символически нагруженные объекты: трон, корона, меч, кумысное седло. Так, в эпосе и дидактических произведениях власти соответствует понятие *kut* – сакральная благодать, обеспечивающая правителю легитимность; её метонимическим знаком становится трон, воплощающий идею верховной власти и порядка. Аналогично меч выполняет двойную функцию: он обозначает военную силу и одновременно метонимически представляет государственный суверенитет. Такой перенос позволяет автору экономно организовать политическую идеологему, объединяя в одном знаке и власть, и защиту, и сакральный характер правления [Ergashev, 2010: 119]. Метонимия также используется для кодирования социокультурных ролей: «шатёр» обозначает род, «очаг» – семью, «камышовая флейта» – поэта или певца. Эти элементы служат смысловыми узлами, связывающими индивидуальное и коллективное в едином культурном пространстве [Jo'rayev, Narziqulova, 2006: 54].

Таким образом, метонимия в тюркской литературе не является вспомогательным стилистическим приёмом, но представляет собой фундаментальный механизм поэтической репрезентации, позволяющий передавать сложные социальные, эмоциональные и культурные смыслы через предельно компактную образную структуру. Её роль в художественном моделировании мира сопоставима с функцией метафоры, однако специфически организована вокруг связи смежности, а не подобия, что обеспечивает её уникальный вклад в поэтическую систему тюркской классики.

Символ в тюркской поэтической системе представляет собой многослойный образ, включающий как культурно закреплённые значения, так и индивидуально-авторские интерпретации. Символизация становится механизмом формирования сложных ассоциативно-семантических корреляций между материальным и духовным уровнями бытия, благодаря чему создаётся специфическая модель поэтической реальности, основанная на единстве традиции и индивидуального стиля.

Одним из ключевых символов является роза, функционирующая одновременно на эстетическом, религиозно-мистическом и философском уровнях. В лирике Навои роза выступает эмблемой божественной красоты, явленной в миру, тогда как её шипы репрезентируют испытания и страдания, сопровождающие путь духовного совершенствования. Внутри поэтического пространства этот символ образует целостный универсум: природный объект превращается в сложный понятийный центр, вокруг которого концентрируются многозначные образные структуры.

Другим устойчивым символом является путь (*yo'l*), традиционно связанный не только с физическим странствием героя, но и с духовным восхождением, приобретением мудрости и переходом к новому уровню бытийного опыта. В эпосе «Qutadg'u bilig» путь представляется осью нравственного и социального порядка: движение героя трактуется как символ внутреннего преобразования, обретения должного знания и следования этическим нормам, определяющим гармоничное устройство мира [Navoiy, 1991: 147]. Мотив пути коррелирует с концептом судьбы, выступая маркером личностного выбора и одновременно предначертанного пути, что характерно для средневековой тюркской ментальности. Символика пути также взаимодействует с более широкими концептами космологического характера: переход из одного состояния в другое интерпретируется как метафора динамики мироздания и цикличности человеческого бытия. Такое сочетание пространственной и экзистенциальной семиотики усиливает философскую глубину эпических текстов и формирует целостную мировоззренческую модель, в которой индивидуальная судьба оказывается вписанной в универсальные законы космоса.

Топосы, или традиционные мотивы и устойчивые образные схемы, занимают фундаментальное место в структурировании тюркского поэтического пространства. Они выступают инструментом культурной преемственности, обеспечивая связь между различными

жанрами – от классической газели до героического эпоса – и между литературными эпохами, что позволяет сохранять единый эстетический и мировоззренческий каркас поэтической традиции.

Одним из центральных и наиболее устойчивых топосов является описание весеннего сада (*bahor bog‘i*), символизирующего обновление, молодость, жизнеутверждающую энергию и гармоничное устройство мира. В восточной поэтической традиции этот топос выполняет двойную функцию: с одной стороны, он формирует пасторальную картину, представляющую идеальное пространство природы, где царят красота и порядок; с другой – служит метафорическим выражением духовного возрождения и внутреннего преображения личности.

В поэзии Лутфи весенний сад предстает как locus amoenus — благоприятное, идеализированное пространство, в котором возможно символическое соприкосновение человека с высшими истинами. Сад у Лутфи не только визуально прекрасен; он структурирован как пространство, насыщенное знаками божественного присутствия, где каждая деталь (шелест листвы, трепет цветка, журчание воды) становится элементом сакрализованной символики [Атаходжаев, 2015: 56]. Тем самым весенний сад превращается в ключевой топос, объединяющий чувственный и трансцендентальный уровни значимости.

Другим традиционным и глубоко укоренённым в тюркской лирике топосом является образ возлюбленной, выступающей воплощением идеального совершенства. Этот образ конструируется по строго каноническим параметрам, которые в течение веков сохраняют стабильность: светлое лицо возлюбленной уподобляется луне, её тонкий стан – кипарису, а густые чёрные волосы – темной ночи. Такая повторяемость элементов формирует устойчивый поэтический код, позволяющий распознавать образ возлюбленной как носителя идеальных качеств вне зависимости от авторского стиля или эпохи. Более того, каноническая структура данного топоса обусловлена не только эстетическими, но и культурно-философскими факторами. В суфийской традиции образ возлюбленной часто интерпретируется как аллегория Божественного, а её физические характеристики символизируют недостижимую духовную красоту. Таким образом, топос возлюбленной функционирует одновременно в поэтическом, философском и мистическом регистрах, создавая многослойную семиотическую модель, в которой чувственная и духовная сферы тесно переплетены.

Риторико-поэтическая система тюркской классической литературы демонстрирует высокую степень структурной организованности и устойчивости. Метафора, метонимия, символизация и топосы выступают неотъемлемыми элементами художественного моделирования, обеспечивая как художественно-эстетическую выразительность, так и когнитивно-смысловую глубину текстов. Их функционирование отражает многовековую культурную память тюркских народов, связывая поэтическую традицию с общими механизмами мифопоэтического и религиозно-философского осмысления мира.

Использованная литература

1. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Т.: Adabiyot, 2021.
2. Jo‘rayev M., Narziqulova M. Mif, folklor, adabiyot. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.
3. Navoiy A. Xazoyin ul-maoniy. – T.: Fan, 1991.
4. Атаходжаев А. Поэтика классической тюркской литературы. – Т.: Университет, 2015.
5. Ergashev B. O‘zbek mumtoz adabiyotida badiiy tasvir vositalari. – T.: Fan, 2010.
6. Қаюмов А. Навоий поэтикаси асослари. – Т.: Fan, 1989.
7. Şinasi Tekin. Divan Edebiyatında Mazmun ve Tasavvufî Sembolizm. – İstanbul: Dergâh, 2002.
8. Köprülü F. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1999.
9. Lewis G. Turkish Grammar and Poetics in Historical Perspective. – Oxford: OUP, 2001.

“QISASI RABG‘UZIY”DA NUH ALAYHISSALOM QISSASI VA UNING SAHIH MANBALAR BILAN QIYOSIY TAHLILI

Axmedova Muattar Abduqayum qizi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti
e-mail: malikovamuattar@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIII asr oxiri XIV asr boshlarida Xorazmning Raboto‘g‘uz mavzeida qozilik qilgan Nosiriddin Burhoniddin o‘g‘li Rabg‘uziy qalamiga mansub “Qisasi Rabg‘uziy” asarida zikr qilingan Nuh alayhissalom qissasi va uning sahih diniy manbalar bilan qiyosiy tahlili xususidagi ma’lumotlar o‘rin olgan. Shuningdek, maqolada anbiyolar qissalarining yozilish sabablari va ularning ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *qissa, hikoya, nazm, madh, tannur, dayyor.*

Abstract

This article is about the story of Nuh alayhissalam mentioned in the work “Qisasi Rabguzi” written by the son of Nasiruddin Burhoniddin Rabguzi, who was a judge in the Rabotoguz region of Khorezm at the end of the XIII century and the beginning of the XIV century, and his comparative analysis with authentic religious sources. The article also explains the reasons for writing the stories of the prophets and their importance.

Key words: *short story, story, verse, hymn, tannur, dayyor.*

Qur’on nozil bo‘lgan vaqtdan hozirgi kungacha anbiyolar qissalari haqida juda ko‘plab kitoblar yozilgan. Dastavval bu asarlar faqat arab tilida yozilgan bo‘lsa, keyinchalik, fors tilida ham shunday qissalar yozila boshladi. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida ilk bor bitilgan anbiyolar tarixiga oid asar “Qisasi Rabg‘uziy” asaridir. Asar XIII asr oxiri XIV asr boshlarida Xorazmning Raboto‘g‘uz mavzeida qozilik qilgan Nosiriddin Burhoniddin o‘g‘li Rabg‘uziy qalamiga mansub. Ushbu asar hijriy 710, milodiy 1309 – 1310-yillarda mo‘g‘ul beki Nosiriddin To‘qbug‘aning topshirig‘iga ko‘ra islomni turkiy qavmlar orasiga keng yoyish, payg‘ambarlar hayoti bilan ommani tanishtirish maqsadida yozilgan bo‘lib, asosan, nasr uslubida yozilgan. Asar mazmuni madhiyalar, ba’zi qissalarning xulosalari, lirik kechinmalardan iborat. Xotima qismi esa nazmda yozilgan. Ja’mi 72 qissadan iborat. Mavzu doirasiga ko‘ra, asar qissalari juda rang-barang. Qissalar hajmi turlicha. Masalan, Yusuf alayhissalom qissasi qariyb yuz sahifani tashkil etsa, Lut alayhissalom qissasi bir necha sahifadangina iborat. Qissalar bayonida xalq og‘zaki ijodining bevosita ta’siri yaqqol namoyon bo‘ladi. Qissalarning ko‘pi qahramon haqidagi muayyan oyat bilan boshlanadi, so‘ng she’riy tarzdagi madh, keyin asosiy voqealar bayoni keladi. Masalan, Nuh alayhissalom qissasi misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, qissaning kirish qismi bevosita Nuh alayhissalomga xitob qilingan quyidagi oyatlar bilan boshlangan: Nuh surasi 2-oyat, Nuh surasi 10-oyat, Nuh surasi 26-oyat, Shuaro surasi 119-oyat, Hud surasi 48-oyat, Soffat surasi 79-oyatlar. Shundan so‘ng Nuh alayhissalomga bag‘ishlangan 14 misradan iborat nazm shaklidagi madh keltirilgan. Qissada umumiy hisobda 15 ta oyat, 4 ta hikoya, bitta qissa zikr qilingan. Qissada zikr qilingan ma’lumotlarning barchasini ham sahih diniy manbalarga muvofiq keladi, deb bo‘lmaydi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, bu qissada ham xalq og‘zaki ijodining bevosita ta’siri o‘z aksini topgan. Quyida Nuh alayhissalom qissasining bayoni va uning sahih diniy manbalar bilan qiyosiy tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Qissa Nuh alayhissalomning o‘z qavmiga qilgan xitobi borasidagi oyatlar asosida boshlanadi:

“Ey qavmim, Albatta men siz uchun ochiq-oydin ogohlantiruvchiman” [Nuh surasi, 1] deb qavmiga pand bergan, “Bas, o‘z robbingizga istig‘for ayting, albatta, U gunohlarni ko‘plab mag‘firat

qiluvchidir" [Nuh surasi, 1] deb munojat qilgan, kofirlar qo'lida pok suyaklar tufayli "Ey Robbim, yer yuzida kofirlardan birorta ham harakatlanuvchi qo'ymagin" [Nuh surasi, 26] deb duo qilgan, "Bas, Biz unga va u bilan birga bo'lganlarga to'lgan kemada najot berdik" [Shuaro surasi, 119] tashrifi bo'lgan, "Ey Nuh, Bizdan senga va sen bilan birga bo'lgan ummatlarga bo'lgan tinchlik va barokatlar ila (kemadan) tushgin" [Hud surasi, 48] kiyimini olgan, "Barcha olamlarda Nuhga salom bo'lsin!" [Soffat surasi, 79] [farmonini eshitgan Nuh nabiy (a.s.). Shundan so'ng u zotga bag'ishlab 14 misradan iborat she'r bitilgan.

Kelgusi o'rinlarda Nuh alayhissalomning ota va ona tomondan yaqin nasabi zikr qilingan: *Nuh ibn Malik Manusalx ibn Idris. Onasining oti Shamxo binti Anursh edi. Nuh (a.s.)dan Odam Atoga qadar o'n ota edilar, barchalari musulmon edilar.* Hofiz ibn Kasir Ismoil ibn Dimashqiy (v. 774) o'zining "Bidoyatun nihoya" kitobi, Nuh alayhisallom haqidagi qissasining 237-betida Nuh ibn Lamok ibn Matushalx deb keltirilgan. Yana shu kitobda Nuh ibn Lamok ibn Matushalx ibn Xoluj (Idris) ibn Yarid ibn Mahlaiyl ibn Qiynon ibn Anush ibn Shiys ibn Odam (a.s), deb keltirilgan.

Oti Yashkir edi, ko'p yig'lagani uchun Nuh deb ataldi. Aytmishlar, yig'lashiga sabab shu ediki, kunlardan bir kun Iblis aytdi: "Ey Nuh, menga do'stlik qilding. Agar do'stlarim, birodarlarim, qo'shinim yig'ilib kelsa, bu yerda sig'mas edilar". Nuh (a.s.) so'radi: "U qaysi edi?" Iblis aytdi: "Sen duo qilding, qavming halok bo'ldi. Barchasi do'zaxda menga sherik bo'ldilar. Sabr qilsang edi, ulardan biri iymon kelar edi, bu ishing fozil odamning ishi bo'lar edi". Nuh (a.s.) kun-tun yig'ladi. Aytdi: "Koshki sabr qilsam edi, birortasi musulmon bo'lar edi, men bunday qiyin ahvolga tushmas edim". Ushbu ma'lumotlar Rovardiy al-Kofiyning "Qisosul anbiyo" kitobida zikr qilingan.

Aytmishlar, Jabroil (a.s.) Nuh (a.s.)ga payg'ambarlik keltirdi. Nuh (a.s.) so'radi: "Olam g'oyatda keng, kofirlar ko'pdur. Men qayerga borib Sening birligingni yetkazay?" Xitob keldi: "Ey Nuh, sendan aytmoq, Mendan eshittirmoq". Nuh (a.s.) iymonga da'vat qildi. Shamol Nuh (a.s.)ning so'zlarini Mag'ribdan Mashriqqa qadar yetkazar edi. "Iymon keltiring, Tangrini bir deng, payg'ambar ekanligimga iqror bo'ling", – der edi. Kofirlar Nuh (a.s.)ni ura boshladilar. Shunday urdilarki, suyaklari sindi. Jivol ichida buztek qaqshasa, suyaklari terisi ostida shunday qaqshar edi. Tunda boshini yostiqqa qo'yib uxlasa, Tangri taolo shifo berar edi. Har kuni Jabroil (a.s.) kelib, farmon yetkazar edi: "Ey Nuh, bor, kofirlarga ayt, La ilaha illallohu Nuhur rosulullohi desinlar". Borib aytar edi, ular doimgidek urar edilar. Nuh (a.s.) aytdi: "U: "Robbim, men o'z qavmimni kechayu kunduz da'vat qildim". "So'ngra men albatta ularni jahriy da'vat qildim. So'ngra men ularni oshkora va yashirin (da'vat) qildim", [Nuh surasi, 5,8,9] dedilar. *Ellik yil kam ming yil da'vat qildi, sakson kishi musulmon bo'ldi, iymon keltirdilar.*

Ibn Abbos (r.a)dan: "Nuh (a.s)ga qavmidan 80 kishi iymon keltirdi" deya qilingan rivoyat ham yuqoridagi ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

Xabarda shunday keladi, Avj ibn Unuq to'fonda halok bo'lmadi, chunki u dayyor jumlasidan emas edi. Dayyor – uyli, mol-davlatli degani. Avjning uyi, moli yo'q edi, dengizlar boshida turar edi. To'fon suvi tizzasidan oshmadi. Shu paytda Nuh (a.s.)ga xabar keldi: "Duoingni ijobat qildim. Bor va chinor daraxtini ek". Terak daraxtini ham deyishadi. Nuh (a.s.) daraxt ekdi. Qirq yilda uch yig'och o'sdi. Daraxtni kesdi, hech kim ko'tara olmadi. Avjni chaqirdilar. Bu daraxtni sudrab keltirdi.

Avj ibn Unuq haqida tarixda turli afsonalar mavjud bo'lib, islomiy manbalar buni inkor qiladi. Deydilarki: Avj ibn Unuq bani odam zuriyodidan birinchi bor zino qilgan ayolning farzandi bo'lgan. Uning bo'yi uch ming ziro' uzunlikda bo'lgan. Qo'li bilan dengizdan baliq tutib uni quyosh nuriga yaqinlashtirib pishirib yegan. Avj ibn Unuq Nuh (a.s) ga ushbu katta daraxtni olib kelishga yordam bergani uchun to'fondan omonda qolgan, degan rivoyatlarni keltiradilar. Avj ibn Unuq shaxsi bilan bog'liq bu rivoyatlarning barchasi to'qima, isroiliyot rivoyatlar bo'lib ishonchli tafsir kitoblari va islomiy tarixiy manbalar buni qat'iy dalillar bilan inkor qiladi. Xususan, Alloh "So'ngra qolganlarni g'arq qildik" [Soffat, 82] degan. Ya'ni kemaga chiqmaganlarning barchasini.

Nabiy (s.a.v.) hadislarida: “Alloh taolo odamni yaratdi. Bo‘yining uzunligi 60 ziro’ edi. Insonlarning bo‘ylarining uzunligi (Odam (a.s)nig bo‘ylari uzunligidan) qiyomatga qadar qisqarib boraveradi”, deb marhamat qilganlar. Buxoriy va Muslim sahih kitoblarida rivoyat qilgan. Bundan kelib chiqadiki, bo‘yi uch ming ziro’ bo‘lgan Nuh to‘fonida suv to‘pig‘iga ham yetmagan va shu sababli omon qolgan deya vasf qilinayotgan Avj ibn Unuq shaxsiyati Qur’on va Hadisda keltirilgan qat’iy dalillar bilan inkor qilinadi.

Jabroil (a.s.) Nuh (a.s.)ga o‘rgatdi. Daraxtni yorg‘u bilan yordilar. Suv ustida o‘rdakning yurganini ko‘rsatdi. Shunga o‘xshatib kemani yasay boshladilar. Kofirlar buni ko‘rib kulardilar. “Shu paytgacha payg‘ambar eding, endi duradgor bo‘ldingmi? Buni nima qilasan?” – deb so‘rasalar, “Kema yasayman, tepasiga minib suzib yuraman”, – der edi. Kofirlar: “Egar yasayapsanmi, avval eshkak sotib ol”, – deb kular edilar. Tangri taolo xabar beradiki: “U kema yasamoqda. O‘z qavmidan bo‘lgan zodagonlar qachon oldidan o‘tsalar, uni masxara qiladilar..” [Hud surasi, 38] Nuh (a.s.) javob aytar edi: “Agar bizni masxara qilsangiz, (azob kuni kelganida) biz ham xuddi siz bizni masxara qilganingizdek sizni masxara qilurmiz”. [Hud surasi, 38] Nuh (a.s.) so‘radi: “To‘fon qachon bo‘ladi?” Farmon keldi: “Qachonki sening tandiring ichidan suv chiqsa, va’da qilgan azobimni yuboraman” [Hud surasi, 40].

“Tannur favvora otganda” deb keltiriladi. Tannur borasida ko‘pchilik turlicha fikr bildirgan. Ba’zilar undan murod yer deydi. Ibni Abbos (r.a) Hind diyoridagi buloq deganlar. Sha’biy Ko‘fadagi buloq deydilar. Qatoda (r.a) Jaziyradagi buloq deydilar. Ali ibn Abu Tolib bundan murod tongning yorishishi degan ekanlar. Bu ma’lumotlar Ibni Kasirning “Bidoyatun nihoya” kitobida keltiriladi.

Rabg‘uziy “tannur”ni nega aynan tandir deb ta’vil qilganlari borasida bir qancha manbalar o‘rganilib quyidagi xulosaga kelindi: arab harflarida “تنور” ko‘rinishida yoziluvchi “tannur” lafzi barcha harflari fathali va vov idg’om shaklida bo‘lsa fe’l ma’nosiga, agar birinchisi fathali, nun idg’omli holda zammali bo‘lsa ism ma’nosiga dalolat qiladi. Xususan, “Mu’jamul vasiyt” kitobida agar “tanavvaro” fe’lining masdari deb e’tiborga olinsa “yorishmoq, nur taratmoq” degan ma’noni bildiradi, deyilgan. Agar uni alohida mushtaq ism deb e’tiborga olsak “tannur” aksar uylarda bor pechkaning nomi bo‘lib, ayollar unda non pishiradilar. Sulaymon ibn Umar al Ujayliy o‘zining “Al Futuhatul ilohiyya” kitobida bu xususda Imom Bayzoviyning quyidagi fikrlarini keltirganlar: “Tannur bu non pishiriladigan tandirdir. O‘sha kuni odatga xilof tarzda uning ichidan suv otilib chiqqan. Va bu hol Nuh to‘foni boshlanishining alomati bo‘lgan” [Ujayliy, 2013: 433].

Yana shu kitobda keltirilishicha, tannur Momo Havvoga tegishli tosh bo‘lib, unda non pishirar edilar. Va bu Nuhga meros bo‘lib qolgan edi [Ujayliy, 2013: 433].

Demak, Rabg‘uziy “tannur” lafzini tandir deb ta’vil qilishda lug’at hamda yuqorida zikr qilingan tafsir kitoblarida keltirilgan ma’lumotlarga tayangan bo‘lishi mumkin.

Nuh alayhissalom qissasidagi “tannur” borasidagi bugungi kun ulamolarining fikrlarini bilish maqsadida, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf qalamiga mansub “Tafsiri Hilol” kitobi va Shayx Usmonxon Alimov tomonidan bitilgan “Qur’oni Karim va o‘zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi” kitobidan ushbu lafz qarab ko‘rilganida, ulamolar bunga chuqur kirishmasdan uni asl holida qoldirgani, ya’ni “tannur” shaklida tarjima qilgani ma’lum bo‘ldi.

Kemani yasab tugatgandan so‘ng Nuh (a.s.)ning kofir xotini tandirda non pishirayotgan edi, ichidan suv chiqdi. Kelib Nuh (a.s.)ga xabar berdi. Nuh (a.s.) musulmon bo‘lgan sakson kishi bilan kemaga kirdi. To‘rt o‘g‘li bor edi. Uch o‘g‘li: Xom, Som, Yofas – musulmon, Kan’on kofir edi. Farmon keldi: “Har bir jonzotdan bir juft olib kemaga kir. Jonzotlar yo‘qolib ketmasin. Bir erkak, bir ayol urug‘li. “U (kema) ga har bir turdan bir turdan bir juftdan va ahlingni chiqar”. [Mo‘minun surasi, 27] Yana farzandlaringni ham kirgiz”. Nuh (a.s.) aytdi: “Tangrim, uchadigan, yuguradigan jonivorlarni qanday tutaman?” Suv yuzida barcha jonzotlar yig‘ildilar. Har biridan bir erkak, bir urg‘ochini tutib kemaga kirgizdi. O‘g‘li Kan’onni kirgizmoqchi edi xabar keldi: “Kirgizma, u kofir”.

Aytdi: "Tangrim, oila a'zolaringni kirgiz, deb o'zing aytding". Xabar keldi: "U sening oilang a'zosi emas" [Hud surasi, 46].

Kan'on Nuh (a.s) ning to'rtinchi o'g'li bo'lib, kemaga chiqishdan bosh tortgan. Bu haqida Qur'onning Hud surasida bayon qilingan. Ammo Kan'onni aynan ismi zikr qilinmagan. Imom Qurtubiy, Tabariy va Bayzoviylarning tafsirida ismi Kan'on ekani aytilgan. Bir qiylda Yom deyilgan.

Nuh (a.s.) aytdi: "Ey Kan'on, musulmon bo'l, kemaga kir, to'fonda halok bo'lasan". Kan'on aytdi: "Men baland tog'larga sig'inaman. Tog' meni suvdan asraydi". Nuh (a.s.) aytdi: "Bu kun Tangridan boshqa kuch yo'q, seni azobdan qutqara olmaydi". Shu so'zlarni aytib turganlarida suv toshib keldi. Kan'onni halok qilgudek bo'ldi, u qochdi, tog' tepasiga chiqa boshladi. Suv keldi, oshiqigacha yetdi. O'g'li bor edi, uni oyog'i ostiga olib ustiga chiqdi. O'g'li o'ldi, o'zi ham g'arq bo'lib iymonsiz holda ketdi. Imom Bag'oviyning tafsir kitobida ham u otasi Nuh (a.s.) ga itoat qilmagani, tog' ustiga chiqishi ham foyda bermagani va suvda g'arq bo'lgani bayon qilingan.

Ba'zilar aytadilarki, eng avval kemaga kirgan chumoli, oxirgi kirgan eshak edi. Eshakni sudradilar, kemaga kirmadi, chunki Iblis eshakning dumidan ushlab turar edi. Axiyri Nuh (a.s.) aytdi: "Shayton sen bilan bo'lsa ham kir". Ibni Abbos (r.a.) dan qilingan rivoyatga ko'ra, qushlardan birinchi bo'lib to'tiqush hayvonlardan oxiri bo'lib eshak kirgan. Uning dumiga shayton osilib olgan edi.

Molik ibn Sulaymon al-Xiraviy (r.a.) xabar beradi, Nuh payg'ambar ilonni, chayonni kemaga kirgizmadi. "Odamlarga sizdan zarar yetadi", – dedi. Ular aytdilar: "Kim sening nomingni aytsa, unga zarar yetkazmaymiz". Aytadilarki, kim ilon, chayondan qo'rqsa, "Barcha olamlarda Nuhga salom bo'lsin! Albatta biz go'zal amal qilguvchilarni mana shunday mukofotlaymiz. Albatta, u mo'min bandalarimizdandir" [Soffat surasi, 78,79,80]ni o'qib yotsin. Nuh (a.s.) so'radi: "Tangrim, bo'ri qo'y bilan, arslon sigir bilan, mushuk kabutar bilan dushman. Ularni qanday joylashtiray?" Farmon keldi: "Bu dushmanlikni ularning orasiga kim solgan?" Aytdi: "Sen tomoningdan berilgan dushmanlik Sening sharofating bilan ko'tarilgay". Barcha narsalarni kiritdi. Yana farmon bo'ldi: "Odamning suyagini olib kel va kemaga kirit, azob suvi tegmasin". Odam Atoning suyagini keltirdi, kema o'rtasida olib qo'ydi. Bir tomonida erkaklar, bir tomonida ayollar joylashdi. Odamning suyagi o'rtada parda bo'ldi. Ushbu ma'lumotlarning hech biri sahih manbalarda uchramadi.

Xabarda shunday keltiriladi, uchta narsa yo'q edi, kemada paydo bo'ldi: biri mushuk, ikkinchisi sichqon, uchinchisi to'ng'iz. Sichqon paydo bo'ldi, kemani teshdi. Farmon bo'ldi, Nuh (a.s.) qo'li bilan arslonning boshini siladi. Burnidan ikki mushuk chiqib, sichqonni yedilar. Ibn Kasirning "Bidoyatun nihoya" kitobida kelishicha, Zayd ibn Aslam otasidan u Rosulullоh (s.a.v.) dan mursal holda rivoyat qilingan hadisda: Odamlar sichqondan shikoyat qilishdi. U taomlarimizga va narsalarimizga aziyat yetkazmoqda deyishdi. Shunda Alloh sherga vahiy qildi u aksirgan edi burnidan mushuk chiqdi va sichqonni tutib yedi, deyilgan ekan.

Odamlarning, hayvonlarning najosatlari kemada to'lib ketdi. Juda qiynalishdi. Nuh payg'ambarga tuyaning orqasini silash buyurildi. Silagan edi, tuya dumini qimirlatib, orqasidan to'ng'iz chiqdi. Najosatlarning barchasini yedi. To'ng'izning go'shti harom qilinganining sababi shu deyishadi. Imom Abu Ja'fardan rivoyat qilingan xabarda filning dumini siladilar. Va undan to'ng'iz chiqdi deyilgan. Ammo bu ma'lumotlar juda g'arib ekani ma'lum bo'ldi.

Qachonki olti oy tugagach, Nuh (a.s.) Avjga aytdi: "Kemani to'xtat". Kemani to'xtatish hech kimning qo'lidan kelmas edi. Avjni uni tutishga buyurdi. Tangri taolo uni halok qilmadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, kema Allohning amri bilan to'xtagan. Avj haqidagi ma'lumotlar esa to'qima hisoblanadi.

Shundan so'ng yer va osmonga farmon bo'ldi: "Ey yer, suvingni yutgin, ey osmon, o'zingni tutgin deyildi. Suv quridi. Farmon bajarildi va (kema) Judiy (tog'i) ga joylashdi" [Hud surasi, 44].

Asardagi Nuh alayhissalom qissasi faqat shu ma'lumotlar bilan cheklanmagan bo'lib, yana ikki hikoya ham zikr qilinadi. Ulardan biri Nuh alayhissalomning qizi va unga kelgan sovchilar haqida,

ikkinchisi esa Avj ibn Unuq haqida. Ammo sahih manbalardan bu ma'lumotlarning tasdig'i topilmagani uchun zikr qilmadik.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, "Qisasi Rabg'uziy" asariga diniy xarakterdagi asar sifatida qaramaslik lozim. Chunki, asarda o'quvchiga teologik ruhiyatni singdirishga intilish yo'q, balki unda inson hayoti, kelajagi va borliq bilan bog'liq dunyoviy ruh xalq og'zaki ijodi tarzida o'z aksini topgan. Muallif kitob haqidagi fikrini quyidagicha ifodalaydi:

O'zgalar ko'p olamunchoq tuzdilar el tizginib,
Man guvar, dur, yinju tuzdim, kezmadim yobon yozi.
Yetti yuz o'n erdi yilg'akim bitildi bu kitob,
Tug'mish erdi ul o'g'urda Hut saodat yulduzi.

Darhaqiqat, allomaning o'zi aytganidek, asarni nodir duru gavharga qiyos etilsa arziydi. Ayniqsa, asarning asrlar osha o'z ilmiy qiymatini yo'qotmasdan tillarda doston bo'lib kelayotgani ham buni tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdushukurov B. "Қисаси Рабғузий". Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 200 bet.
2. Фозилов Э., Юнусов А., Дадабоев Ҳ. "Қисаси Рабғузий". – Тошкент: Ёзувчи, 1-2-китоб. 1990-1991.
3. Sulaymon ibn Umar al Ujayliy. "Al Futuhatul ilohiyya". 8 juzlik. 3-juz. Bayrut: Darul kutubul ilmiyya. 2013. – 3893 bet.
4. Ўзбек адабиёти тарихи, 5 томлик. 1-том, – Тошкент: Фан, 1982.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Tafsiri hilol". 6 juzlik. – Toshkent: "HILOL NASHR", 2022.
6. أسامة السيد محمود الأزهرى «المدخل إلى أصول التفسير». الوابل الصيب. القاهرة ٢٠١٠م. ص ٧٥.
7. ابن كثير. «البداية و النهاية». دار إبن كثير. دمشق 867 ه.

MUMTOZ SHE'RIYATDA TABIAT TASVIRI TALQINLARI

Zarif Quvonov,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
Navoiy davlat universiteti,
e-mail: zarif_7811@umail.uz

Annotatsiya

Maqolada mumtoz she'riyatda tabiat tasviri bilan bog'liq lavhalar, lirik qahramon tuyg'ulari ifodasi Mavlono Atoyi she'riyati misolida tahlilga tortilgan. Shoir she'riyatidagi tabiat mavzuning yoritilishi orqali peyzaj lirikada tabiatning vosita sifatidagi o'rni, undan lirik qahramon ruhiy-ma'naviy olamini ochib berishdagi ahamiyati haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar*: she'riyat, g'azal, poetik ifoda, Atoyi, peyzaj, tasvir, vosita, mahorat.*

Abstract

The article analyzes the images of nature in classical poetry, the expression of the feelings of the lyrical hero using the example of Mevlana Atoyi's poetry. Through the coverage of the theme of nature in the poet's poetry, the role of nature as a means in landscape lyrics and its importance in revealing the spiritual world of the lyrical hero are discussed.

Keywords: *poetry, ghazal, poetic expression, Atoyi, landscape, image, means, skill.*

Milliy adabiyotimiz tarixida Alisher Navoiygacha bo'lgan davrda yetishib chiqqan ulkan so'z san'atkorlaridan biri Atoyidir. XIV asr oxiri – XV asrning birinchi yarmida yashagan Atoyi yetuk zamondoshlari kabi badiiy ijodi bilan turkiy adabiyot va adabiy tili ravnaqiga hissa qo'shgan adiblardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Har bir ijodkor o'z badiiy niyati, nuqtai-nazari, ongi-dunyoqarashi taqozosiga ko'ra tabiat xossalari va hodisalariga murojaat etadi. "Badiiy asarda tabiat tasvirining falsafiy-ijtimoiy vazifasi, tabiat olamining har tomonlama tahlili so'z san'atkorining mahorati bilan bog'liq bo'lgan g'oyat muhim masaladir" [Erkinov, 1988:5]. Atoyi g'azallarida tabiat tasvirining ham go'zal manzaralarini ko'ramiz. Shoir tabiat tasvirida yangicha tashbehlar, hech kimning nigohi tushmagan manzaralarni topadi va g'azallariga singdiradi. Adabiyotshunos E.Ochilovning mana bu fikrlari e'tiborli: "Aslida shoirning shoirligi hamma ko'rib, hech kim e'tibor bermaydigan narsalardan ham go'zallik topib, hammaning e'tiborini unga jalb eta olishda. Ko'zga tashlanmaydigan narsani diqqat markaziga ko'chirishda. Shoir hayotni, tabiatni, odamlarni sinchkovlik bilan kuzatadi va tevarak-atrofdan, turmushdan o'z fikrlarini go'zal va ta'sirchan ifodalash uchun hech kim kutmagan tashbehlar topib, hammani hayron-u lol qoldiradi." [Ochilov, 2011: 177]

Atoyi ham ana shunday shoirlardan biri. Uning g'azallarida tabiat-fasllar, gul-u rayhonlar, bulbul-u to'tilar butun go'zalligi bilan namoyon bo'ladi:

Mujda berdi subhidam zulfung nasimidin sabo,
Jon muattar bo'ldi, ko'nglum topti yuz turluk safo. [Amoŭu, 2008:25]

Tongda shabada esishi, atrofga xushbo'y hidlar taratishi, undan jon safo topishi hammaga ayon. Ammo bu tonggi sabo- shamol oshiqqa yori zulflarining xabarini keltirmoqda. Bu oshiqqa katta xursandlik baxsh etadi.

Atoyining ayrim oshiqona, diniy-tasavvufiy g'azallaridagi baytlarda tabiat manzaralari tasvirlansa, ba'zi g'azallari to'lig'icha tabiat tasviriga bag'ishlangan. "Yoz faslidur vale men yorsiz", "Bahor o'ldi, kel ey gulruh, gulistonlar sari keza", "Xazondek ayladi baxtim, bu yil fasli bahorimni" (255), "Kel, ey dilbar, ki bo'ston vaqti bo'ldi" (265) deb boshlanuvchi g'azallarida asosiy e'tibor yoz, bahor fasllarining ta'rifiga qaratilgan. Shoir bahorni ulug'laydi. Go'zallik, suhbat, shodlik, bulbullarning nag'malari, gulning bulbulga iltifoti fasli sifatida madh etadi. Shoir o'z yoriga bahor kelganidan darak beradi:

Kel, ey dilbar, ki bo‘ston vaqti bo‘ldi,
Gul ochildi, guliston vaqti bo‘ldi.
Qilay nola, boqib guldek yuzungga,
Chu bulubullarg‘a afg‘on vaqti bo‘ldi. [Amoŭu, 2008:265]

Bahor gullar fasli. Bulbul gul oshig‘i. Oshiq ham o‘z yorini gulistonga chorlaydi. Xuddi gul-u bulbul kabi shodlig-u ayshni vaqti kelganini bildirmoqda:

Gul-u bulbul bikin gulbunlar ichra,
Nishotu ayshni pinhon vaqti bo‘ldi. [Amoŭu, 2008:265]

Atoyi merosini kengroq o‘rgangan olim S.Sayfulloh shunday yozadi: “Atoyi she’riyati jonli, hayot bilan hamnafas, tabiat bilan uyg‘undir. Tabiat go‘zalligi, nafosat, bahordagi uyg‘onish shoirni hayratga soladi, ichki olamini junbushga keltiradi va yashash mohiyati haqida o‘yga toldiradi”. [Sayfulloh, 2008:14] Yuqorida ta’kidlaganimizdek, shoirning bir nechta g‘azallari bahor haqida. “Bahor o‘ldi, kel ey gulruh, gulistonlar sari keza” deb boshlanuvchi g‘azalida shoir bahorning kelgani, yor o‘z jamoli bilan gulzorni bezashi, nargis uyalmay yuziga qarasa, savsan uni qilichi bilan chopishi, qizil gul ma’shuqa husnini ko‘rib, uyalganidan terga botishi, bulbul gul ishqida nola qilgandek, u ham yori ishqida afg‘on chekishi haqida gapiradi:

Bahor o‘ldi, kel ey gulruh, gulistonlar sari keza,
Jamoling naqshi aksidin gulu gulzorni beza.
Agar iymanmayin nargis yuzungga o‘trutek boqsa,
Buyur, savsan qilichi birla chopsun ikki xunreza.
Uyotqondin qizil gud kuylaki g‘arqi araq bo‘lsun,
Yuzi gulshan sari gulgan qiyo bog‘in beza-beza. [Amoŭu, 2008:204]

Bu baytlarda mumtoz adabiyotimizda ko‘p qo‘llanadigan tashxis-jonlantirish san’ati mavjud. Nargisning boqish-qarashi, savsanning qilich chopishi, uyatdan gulning araq-terga botishi kabilar bunga misol bo‘ladi. Chunki jonlantirish san’atida insonlarga xos narsa, holatlar jonsiz narsalarga ko‘chiriladi.

“Xazontek ayladi baxtim...” deb boshlanuvchi g‘azalda esa, bahorning xazonga aylanishi, visol o‘rniga ayriliq kelganidan afsus tasvirlanadi. Oshiq yori visoli istagida zor bo‘ladi, uning holatini eshitgan lolaning bag‘ri qizil qonga aylanadi:

Xazontek ayladi baxtim, bu yil fasli bahorimni,
Ki hijrong‘a mubaddal qildi nogah, vasli yorimni.
Yang‘og‘ing lolazorining g‘amida baski, bo‘ldum zor,
Chamanda bag‘ri qon bo‘ldi, eshitib lola zorimni. [Amoŭu, 2008:255]

Boshqa bir g‘azalida bahor o‘rnini yoz egallaydi. Shoir yoz faslini visol, yorga erishish davri deb biladi:

Yoz faslidur vale men yorsiz,
Andalibi zormen gulzorsiz. [Amoŭu, 2008:103]

Andalib – bulbulga gulzor kerak. Yoz faslida esa oshiqqa yor kerak. Devonda tabiat tasviri keltirilgan bunday baytlar anchagina.

Atoyi devonidagi g‘azallar mavzu jihatidan rang-barang. Ularning ko‘pchiligini ilohiy va majoziy ishq tashkil etadi. Ishq bilan bog‘liq g‘azallarda yorning husni, tashqi ko‘rinishi, oshiqning holati, uning kechinmalarini tasvirlashda hayotdan ko‘plab dalillar, tashbehlar topadi. Professor A.Hayitmetov yozganidek: “Tabiat Sharq she’riyatining beshigi desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Xususan, lirikani Sharq xalqlari adabiyotida gul-u bulbullarsiz, bog‘-u bo‘stonlarsiz, sarv-u shamshodlarsiz tasavvur etish qiyin”. [Hayitmetov, 1993:73] Bu fikrlar Atoyi g‘azaliyotiga ham tegishli. Shoir g‘azallarida nabotot–o‘simliklar dunyosi tasvirlangan baytlar juda ko‘p uchraydi. Gullar, daraxtlar, bog‘-u bo‘stonlar, o‘simliklar shoir fikrlarini asoslash uchun vosita vazifasini bajargan. Lola, nastarin,

rayhon, binafsha, g‘uncha, qizil gul, lolazor, gulg‘uncha kabi gul-u bo‘stonlarni anglatuvchi so‘zlar, sarv, tubi, sanubar, daraxt, tol, shamshod, chinor kabi daraxtlar nomi ko‘zga tashlanadi. Bular ham ma’shuqaning qaddi-qomati, yuzi, sochi, xol va ko‘zlarini tasvirlashda tashbeh vazifasini bajaradi. Oshiqqa xos holatlarni bayon etishda ishlatiladi. Mana bu baytga nazar solaylik:

Oh o‘lturdi firoq ul gul uzorimdin yiroq,
Lola yuzluq, sarv bo‘yluq, to‘g‘ri yorimdin yiroq. [Атойи, 2008:121]

Hayotda gul, lola o‘zining ko‘rinishi, rangi, hidi, go‘zalligi bilan mashhur. Sarv to‘g‘ri o‘sadigan daraxt ekanligi bilan ma’lum. Hayotdagi ana shu go‘zalliklar insonga, ma’shuqaga tashbehlanadi. Yorning yuzi–gul. Bunda gulning nafisligi, rangi aks qilib olingan. Lirik qahramon yoridan ayrilgan. Firoq uni shu holga solgan. Oshiq firoqni gul yuz, lola yuzlik, sarv bo‘ylik yoridan ayirgani uchun nadomat chekadi.

Boshqa bir o‘rinda oshiq yorini lolazorga o‘xshatsa, o‘zini andalib- bulbulga qiyoslaydi:

Nola qilsam har zamon etmang, ey ushshoqkim,
Andalibi benavolik, lolazorimdin yiroq. [Атойи, 2008:121]

Lirik qahramon ushshoqlarga-oshiqlarga murojaat qilib aytadiki, bulbul lolazoridan ayrilsa, fig‘on tortganidek, men ham yorimdan yiroqlashsam nola chekaman. Bunda meni ayblamang.

Boshqa bir baytda esa oshiq o‘z yorini lola, nasrin-nastarin, sunbul, rayhondan ham ustun qo‘yadi:

Yod qilmas zulfu ruxsori xatingni ko‘rgali,
Lolau nasrinu sunbul birla rayhondin ko‘ngul [Амойи, 2008:192]

Inson go‘zal narsalarga talpinadi. Bog‘, gulzor, gullar, sarv-u sunbullar kishining ko‘ngliga quvonch baxsh etadi. Ammo oshiq yorining zulf, ruxsor, xatini ko‘rsa, bu narsalarga e’tibor bermaydi. Bu yerda ma’shuqaning yuzi lola va nastarindan, zulfi sunbuldan, xati (lab ustidagi miyiqlar) rayhondan ustun qo‘yilmoqda.

Gul, lola ba’zan sahroda , chetda ham o‘sadi. Bu hayotda uchraydi. Atoyi bu manzaradan boshqacha xulosa chiqaradi:

Jamoling infiolindin qizil gul,
Qaro boshin olib ketti chamandin. [Амойи, 2008:173]

Gul – go‘zallik timsoli. Ammo yorning jamolini ko‘rgan gul uyalganidan boshini olib, chamandan chiqib ketadi.

Tabiatda sabo – shabadaning esishi, gul-u daraxtlarni silkitishi bor narsa. Shamol g‘unchani gulga aylantiradi:

Taloshmish g‘uncha og‘zing birla torliq,
Sabo og‘zina-og‘zina urubtur. [Амойи, 2008:64]

Mumtoz adabiyotda og‘iz kichik tasvirlanishi bilan an’anaviylik olgan. Tor og‘iz, kichik og‘iz–go‘zallik belgisi deb bilinadi. G‘uncha ham shunday. Kichiklik bilan e’tiborli. G‘uncha kichiklik borasida og‘iz bilan tortishib qoladi. Bu aybi uchun sabo–shamol uning og‘ziga uradi. Shabadaning g‘unchani silkitishi og‘ziga urish deb tasvirlanmoqda.

Mana bu baytda ham gul, arg‘uvon tilga olinmoqda:

Chamanda ko‘zlarim, baski yuzung shavqida qon yig‘lar,
Bo‘lur har subhidam rangin gul-u ham arg‘uvon andin. [Амойи, 2008:195]

Hayotda gul va arg‘uvonning qizil rangda bo‘lishi aniq. Buning sababi nimada? Atoyi husni ta’lil san’atidan foydalanib, ajoyib o‘xshatish qilgan. Ularning qizil rangda bo‘lishiga sabab, oshiq har tong yori visoli istagida qon yig‘laydi. Bu qonlar gul va arg‘uvonni qizil rang olishini ta’minlagan. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Atoyi g‘azallarida hayotda uchraydigan ko‘plab hayvonlar, qushlar, hasharotlar nomlari ham kiritilgan. Bular ham lirik qahramon va ma’shuqaga xos tomonlarni yoritishga xizmat qilgan.

Shahboz, bulbul, andalib, tovus, to‘ti, anqo kabi qushlar, it, ohu kabi hayvonlar, parvona chibin kabi hasharotlar ham shoir g‘azallarida ko‘zga tashlanadi. “Tabiat bilan bog‘liq tasvir hamda ifodalar ko‘proq shoirning ichki kechinmalari bilan parallel holda berilishi Navoiy davrigacha muayyan an’ana tusini olgan, deyish mumkin. O‘zbek mumtoz lirikasining bizga ma’lum manbalarida bu hol ko‘proq ishqiy xarakterdagi, vasf tipidagi g‘azallarga to‘g‘ri keladi”. [Jo‘rayev, 2011:40] Bu fikrlar Atoyi g‘azallariga ham tegishli. Shoir g‘azallarida hayvonot olami, ularga xos sifatlar, holat va xatti-harakatlar ma’lum bir g‘oyaviy maqsadni bajaradi. Ma’lumki, qadimda qush ovlari bilan ovga chiqish rasm bo‘lgan. Burgut, lochin, shahboz kabi qushlar ularga nisbatan kichikroq qushlarni ovlash uchun uchirilgan. Atoyining mana bu baytida shularga ishora bor:

Ko‘ngullar qushlarin sayd etmak ichra,
Ko‘zung shahbozini sayyod o‘qurlar. [Amoŭu, 2008:90]

Ma’shuqa va uning ko‘zi-shahboz. U oshiqlar ko‘nglini ovlash uchun ovga chiqqan. Ko‘zlar shahbozga o‘xshatilmoqda.

Shoirning boshqa bir baytida tovus tilga olinadi. Tovus, uning go‘zalligini bilamiz. Bu qush ham yor husnini ifodalash uchun ishlatilgan:

Ey husnu malohat chamani sahnida tovus,
Ko‘zumdin ucharsen, netayin, bol-u parim yo‘q. [Amoŭu, 2008:120]

Mumtoz adabiyotimizda eng ko‘p tilga olinadigan qush bulbul, andalib. Bu qush oshiq timsoli sifatida beriladi. Bahor, gul, yomg‘ir, bulbul tushunchalari bir-biri bilan bog‘liq holda keladi. Atoyi g‘azallarida ham bunga shohid bo‘lamiz. Akademik A. Qayumov Furqat she’riyatini tahlil qilar ekan, bahor, u bilan bog‘liq tasvirlar ko‘p uchrashini yozadi: “Bahor ayyomi. Lolalar ochilgan. Bahor go‘zalligi odatda yoqimli tuyg‘ular uyg‘otadi. Bu tuyg‘ular inson qalbini turli-tuman g‘ulg‘ulalar bilan to‘ldiradi. Har yonni ko‘m-ko‘k sabzalar qoplagan. Bog‘-u sahrolar ziynat topgan. Chamanlarda qumri, to‘ti, bulbullar nag‘mapardozlik qiladilar. Ularni mast etgan gul, nargis, savsan va ra’nolar chehra ochganlar” [Qayumov, 1997:38]. Atoyining mana bu baytida ham shunga yaqin ifoda bor:

Yo rab, meni ul sarvu xiromondin ayirma,
Bulbulni o‘shal bog‘-u gulistondin ayirma. [Amoŭu, 2008:210]

Lirik qahramon Ollohga murojaat qilib, uni sevgilisidan, ya’ni “sarvi xiromondan” ayirmaslikni o‘tinmoqda. Bu xuddi bulbulni “bog‘-u gulistondan” ayirishday gap. Bu yerda oshiq–bulbul, ma’shuqa–bog‘-u guliston deb baholanmoqda. Quyidagi baytda esa, bahorning kelishi, undan so‘ng bulbul sayrashni boshlashi kabilar tasvirlanadiki, bu hayotda ko‘p uchraydi:

Gar niqob olsang yuzingdin, nola qilsam ne ajab
Kim, gul ochilsa bo‘lur payvasta bulbul g‘ulg‘uli. [Amoŭu, 2008:229]

Bahor kelib, gullar ochilsa, bulbul sayrashi bashlanadi. Ana shu hayotiy voqea yor va oshiq holatiga qiyoslanmoqda. Ma’shuqa yuzini ochsa, oshiq nola cheka boshlaydi. Yor yuzi – gul, oshiq nolasi – bulbul sayrashi.

Shoirning ko‘p g‘azallarida bulbul, gul, gulzor, bahor, chaman so‘zlari yonma-yon kelsa, ayrimlarida bulbul o‘rnida andalib so‘zi ishlatiladi:

Niqob olurda yuzundin Atoyini keltur,
Ki gul ochilsa kerak andalib hazratida. [Amoŭu, 2008:215]

Atoyining ayrim baytlarida to‘ti so‘zi tilga olinadi. To‘ti adabiyotimizda shirinzabon, yoqimli so‘zlash ma’nosida keltiriladi:

La’li serobingiz uzra bu zumurrad sabzalar,
To‘tiyi go‘yo qo‘nubtur qandu shakar ustina. [Amoŭu, 2008:218]

Lab o‘z go‘zalligi, shirinligi bilan e’tirof etiladi. Lab ustidagi mayin, ko‘rinar-ko‘rinmas tuklar zumrad sabzalarga o‘xshatilmoqda. Baytda esa, lab–qandu shakar, sabzalar esa to‘tilarga qiyoslangan.

Atoyining bir baytida anqo tilga olinadi. Anqo–kamyob, hammaga ham ko‘rinavermaydigan

afsonaviy qush. Qadrli, kam uchraydigan narsalar unga nisbatan beriladi. Mana bu baytda ham shu narsa e'tiborga olingan:

Anqodurur jahonda vafo, bulbuli faqir,
Bilmay, ko'ngulni guli hurramg'a bog'ladi. [Amoйu, 2008:267]

Shoir fikriga, jahonda vafo–anqo. Ya'ni kam uchraydi. Oshiq buni anglamay ma'shuqaga ko'ngil bergan. Bu holat bulbulu gul timsoli bilan berilmoqda.

Atoyi g'azallarida parvona, magis–chibin so'zlari ham uchraydi. Mana bu baytda bu ikki jonivorning nomi kiritilgan:

Biz firoqning birla soz ettuk, raqibing vasl ila,
O'tga parvona kerak, ore asal yerga magas. [Amoйu, 2008:105]

Oshiq firoqda–ayriliqda qolgan. Raqib esa visolga erishgan. Parvona o'zini o'tga – olovga uradi, magas – chibin esa asalga. Mazkur baytda oshiq parvonaga (bilamizki, parvona o'zini olovga, chiroqqa, sha'mga – nurga urib, halok bo'ladi), raqib magas (chibin qaerda shirinlik bo'lsa, o'zini urgani kabi)ga tenglashtirilgan. Quyidagi baytda ham sha'm va parvona tilga olingan:

Ko'p kishi da'vo qilur sham'i jamoling mehrini,
Yo'q yana mendek, yonar bir ichkuyar parvonasi. [Amoйu, 2008:239]

Ma'shuqaning oshiqlari ko'p. Uning visolini istaganlar talaygina. Lekin sha'mning parvonasi bo'lish, yor ko'yida parvonadek kuyish faqat haqiqiy oshiqqa xos.

Badiiy adabiyot tabiat gultoji sanalmish hazrati inson bilan egizak dunyo yuzini ko'rgan san'at turlaridan biridir. [Vohidov, Eshonqulov, 2001:6] Inson yaralibdiki, o'zi yashayotgan borliq siru sinoatlari bilan oshno bo'lgisi, ulardan yuksak shavq-zavq olgisi, ichki kechinmalari, orzu intilishlari, ruhi holatlarini o'zigagina hadya etgan oliy ne'mat – so'zda badiiy, bo'yoqli tarzda ifodalagisi keladi. Adabiyotshunoslik o'tmishda yashab o'tgan so'z san'atkorlarining ana shunday durdonalarini o'rganish orqali ularning xalqimiz ma'naviyatiga yetkazishni o'z oldiga qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Атойи. Девон. (Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Сайфиддин Сайфуллоҳ). – Т.: Fan, 2008. –Б. 319.
2. Эркинов А. Навоий – пейзаж устаси. – Т.: Фан, 1988. – Б.64.
3. Очилов Э. Бир ҳовуч дур. – Т.: O'zbekiston, 1997. – Б.328.
4. Қаюмов А. Шеърият жилолари: Фурқат лирикаси бўйича айрим қайдлар ва шарҳлар. – Т.:Ўқитувчи, – Б.128.
5. Жўраев Ҳ. Алишер Навоий лирикасида воқелик ва унинг поэтик талқинлари. ФФД автореферати. – Т.: 2008. – Б.44.
6. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. –Т.: Адабиёт жамғармаси, 2006. – Б.326

AMIRIY DEVONI NASHRLARI VA MANBALARI

Qosimova Zumrad Asliddin qizi,
Buxoro davlat universiteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Amiriy qalamiga mansub "Devoni Amir Umarxon"ning turli nusxalari va nashrlari o'rtasidagi ayrim matniy o'xshashlik, tafovutlar, shu bilan birga nashr qilishda tayanch nusxa sifatida foydalanilgan manbalar haqida ma'lumot beriladi.

***Kalit so'zlar**: nusxa, g'azal, muxammas, matniy o'xshashlik, devon.*

Abstract

This article provides information on some textual similarities and differences between various copies and editions of the "Divoni Amir Umarkhan" by Amiri, as well as the sources used as a base copy for the publication.

***Keywords**: copy, ghazal, muhammas, textual similarity, divan.*

18-19 asr adabiyotini Amiriy ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki bu davrda Qo'qon adabiy muhitining shakllanishi bevosita Amiriy ijodi bilan bog'liq. Umarxon, ya'ni Amiriy davlat ishlari bilan birgalikda adabiyot ixlosmandlarini o'z atrofiga yig'ib adabiy maktab tashkil qiladi va bu maktabga rahnamolik qiladi. Bu davrda Gulxaniy, Maxmur, Dilshod, Xoziq, Nodira, Uvaysiy, Mahzuna kabi yetuk shoir va shoiralar yetishib chiqadi. Albatta, bu kabi qalami o'tkir kishilar dunyo yuzini ko'rishda Umarxon va uning turmush o'rtog'i Nodiraning xizmati beqiyos .

Umarxon davlat ishlari bilan birgalikda qalam tebratish bilan ham shug'ullanadi. U o'zbek va fors-tojik tillarida lirik she'rlar yaratib, kattagina devon meros qoldirgan. O'tmishda har qanday shoir ham devon tuzish darajasiga ko'tarilmagan. Sohibqiron Amir Temur Amiriyning tazkira va bayozlarda alohida hurmat bilan tilga olinishi bejiz emas. Devon tuzgan shoirlar aksar hollarda o'z davri adabiy muhitining peshqadam namoyandasi bo'lib, adabiy jarayonda birday mahorat bilan qalam surganidan dalolat beradi. Uning ijodida o'zbek, fors-tojik va qardosh Ozarbayjon klassik adabiyoti an'anasining eng yaxshi xususiyatlari aks etgan. Shoir devonida g'azal, muxammas, musaddas, tuyuq, ruboiy janridagi lirik she'rlarni o'z ichiga oladi. Devon ko'pincha majmualar uchun xarakterli bo'lgan debocha bilan boshlanadi. G'azallar arab alifbosiga muvofiq harflar tarkibi bilan joylashtirilgan. G'azallarning soni turli qo'lyozma va toshbosmalarda bir xil emas. Shoirning hamma she'rlari o'n ming misradan ortiq. O'zbekiston fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyining tekstologiya va yozma yodgorliklarni nashr etish bo'limining ilmiy xodimlari tomonidan yozma adabiy katalog uchun yig'ilgan materiallar orasida Amiriyning turli davrlarda ko'chirilgan 26 qo'l yozma devonini hisobga olib, ularni ilmiy tavsifi berilgan. Bu qo'l yozma devonlar Leningrad, Toshkent, Samarqand va Buxoro kutubxonalarida saqlanadi. O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida Amiriyning 17 ta qo'lyozma devoni mavjud. Bundan tashqari shu fonda litografik usulda chop etilgan devon va bayozlar ham bor. Bular Toshkentda 1888, 1898, 1901, 1905, 1907, 1910-yillarda chop etilgan. Istanbulda 1881-yildan 1887-yilga qadar 8 marta qayta nashr etilgan. Keyingi davr olimlari asarning 20 nusxasi borligini aytishadi.

O'zbekiston va Turkiya nusxalarining aksariyati muallif vafotidan keyin kitobat qilingan. Bu qo'lyozmalarning biri Sharqshunoslik Institutining qo'lyozmalari fondida, ikkinchi nusxasi esa Alisher Navoiy adabiyot muzeyi kitob fondida saqlanadi. Bu nusxalar 1840, 1843, 1869-yillarda kitobat qilingan. Uning asarlari qo'shni mamlakatlarda ham sevib o'qiladi. Umarxon tomonidan

yozilgan va hozirda Istanbul Universitetida saqlanayotgan “Muhabbatnoma” nomli qo‘l yozma 1818-1819-yillar oralig‘ida ko‘chirilgan. Umarxon tirikligida ko‘chirilgan “Muhabbatnoma” ning 2-nusxasi 1820-yil kitobat qilinadi. Qo‘lyozmaning ikkita o‘rnida asar Qo‘qonda 1820-yil ko‘chirilganiga oid ishora mavjud, ya’ni hijriy 1235,1241-yillar sanalari qayd etilgan. Amiriy devonining avtografi hozirga qadar ma’lum emas. Shoirning hozirgacha bizga jami 544 ta she’ri ma’lum. 465 ta g‘azal, 54 muxammas, 6 musaddas, 5 musamman, 16 tuyuq yetib kelgan. Ularning 300 tasi o‘zbek, 159 tasi fors-tojik tilida. Jumladan, shoirning o‘zbekcha g‘azallari 316 ta, fors-tojik tilidagi g‘azallar 149 tani tashkil qiladi.

1972-yil Mahbuba Qodirova O‘zbekiston fanlar akademiyasi sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 3642, 4419, 4727 va Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyida saqlanayotgan 99, 153 raqamli qo‘lyozmalarga tayanch manba sifatida murojaat etib, Amiriy devonini nashr etadi. Bu nashrda turli davrlarda turli saviyadagi kotiblar tomonidan ko‘chirilgan manbalardagi bir muncha noaniqliklar borligi va ga’zallar va ularning misralarida kotiblar tomonidan noto‘g‘ri ko‘chirilgan o‘rinlarni aniqlab, imkon boricha aslini tiklashga harakat qilingan.

2017-yilda Zebo Qobilova Solijon Yo‘ldoshev shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasini hozirgi alifboga tabdil qiladi. Qo‘lyozma o‘zbekcha va tojikcha she’rlar “shiru shaker” usulida, ya’ni aralash berilgan. O‘quvchiga qulaylik yaratish uchun o‘zbekcha she’rlar alohida devon shaklida nashr etilgan. G‘azallardagi tushunilishi qiyin so‘z va iboralarning izohi berilgan. Muallif tomonidan yozilgan debochada unga kiritilgan she’rlarning yozilish tarixi, tarkib berilishi hamda devonning kitobat qilinishiga oid fikrlar keltirilgan. Devondagi g‘azallarning radiflarida, asosan, o‘zbekcha so‘zlarning qo‘llanilishiga alohida ahamiyat berilgan.

Amiriy o‘zining noyob iste’dodini Allohning unga bergan ne’mati deb biladi. Ya’ni bir g‘azalida shoir “Amir she’rlarini ko‘rsang, sira taajjub qilma, bu nozik tab’u salim zehn Haqning marhamatidir”, -deydi.

Taajjub qilmag‘il nogoh Amir abyotini ko‘rsang,

Bu tab’i noziku zihn salim imdodi Rabbimdur.

Zebo Qobilovaning turkiy nashrida g‘azallar soni 318 ta, Lutfiy g‘azaliga 4 ta muxammas, Navoiy g‘azaliga 24 ta, Fuzuliy g‘azaliga 2 ta, Zaliliyga 2 ta, Nobiyga bitta muxammas-marsiya, 2 ta musaddas, 1 ta musamman, 16 ta tuyuq mavjud. Forsiy nashrda 142 g‘azal, 18 muxammas, bitta musaddas, bitta musamman mavjud.

Mahbuba Qodirova nashrida esa 216 ta turkiy g‘azal, 6 muxammas, 3 ta musaddas, 6 tuyuq, Navoiy g‘azaliga bog‘langan 15 muxammas, Lutfiy g‘azaliga 4 ta, Jomiy g‘azaliga 2 ta, Bedil g‘azaliga 2 ta, shuningdek, Zaliliy, Kamol, Nobiy g‘azallariga muxammaslar mavjud.

Mahbuba Qodirova va Zebo Qobilova nashrlari adabiyotimiz uchun va matnshunoslik uchun nodir namuna hisoblanadi. Biroq bu nashrlarda bir qancha farqli jihatlarni kuzatishimiz mumkin. Misol uchun Mahbuba Qodirova nashrining debocha qismida qisqartirishlarni kuzatamiz. Ollohga, payg‘ambarlarga hamd qismlari, diniy mazmundagi parchalar olib tashlangan. Birinchi g‘azal “Ey munavvar orazing oyinag‘a bermish safo...” deb boshlanuvchi g‘azal bilan boshlangan. Shu bilan birgalikda g‘azallarni o‘qish davomida ham qisqartirishlarga duch kelamiz. Bu qisqartirishlarga sabab sobiq sho‘ro tuzumi davridagi mafkura muammosidir. Zebo Qobilova esa bu kamchiliklarni o‘z nashrida bartaraf etadi. Asar to‘liq debocha Allohga hamd, payg‘ambarlarga na’t, diniy qismlari to‘liq shaklda lug‘atlar bilan beriladi. Devonda birinchi g‘azal:

“Avval ba nomi Xoliqi zulfida val ato;

“Bir musht xoki tiyradin odam qilur bino” satrlari bilan boshlanadi. G‘azallar har ikki devonda raqamlar bilan berilgan.

Mahbuba Qodirova nashri esa“Ey munavvar orazing oyinaga bermish safo” deb boshlanadigan ga’zal bilan boshlanadi va orada 9ta g‘azal tushib qolgan. Bu g‘azallar Zebo Qobilova nashrida o‘ninchi raqamda turibdi. Bundan tashqari arab tilidan hozirgi yozuvga tabdil qilishda ba’zi so‘zlarda qo‘shimchalar tushib qolishi, almashishi yoki so‘zlarning o‘zida ham farqlarni kuzatamiz:

Zebo Qobilova	Mahbuba Qodirova
Ul pariy jonimg‘a o‘tlar yoqadur	Ul pari jonimg‘a o‘tlar yoqadur
Kuyganim ko‘nglumg‘a yaxshi yoqadur	Kuygonim ko‘nglig‘a yaxshi yoqadur
Ishqida har yon tushub,jismig‘a chok	Ishqida har yon tushib jaybimg‘a chok
Telbamen,pirahonim de yoqadur	Telbamen,piyrohanim de yoqadur
Navxotim zulfidin ochgan chog‘da chin	Navxotim zulfidin ochg‘on chog‘da chin
Munfaiddur mushkidin ohuyi chin	Munfaitdur mushkidin ohuyi chin
Bu so‘zum yolg‘on emasdur barcha chin	Bu so‘zum yolg‘on emastur barcha chin
Xizr xayvon suyidin ichkan kabi ,ey dilrabo	Xizr xayvon suyidin ichkon kibi,ey dilrabo
Bog‘ aro ko‘rgach niholi qomating sarvi sixi. Ajiz ila ta’zim etti qomating aylab duo	Bog‘ aro ko‘rgach niholi qomating sarvi sixi. Ajiz ila ta’zim etti qaddini aylab duo
Dinu dil yag‘mo qilur,gar kirsa ul yag‘mo qaro	Dinu dil yag‘mo qilur,gar kiysa ul kofir qaro
Kim xavotirdur firoriy el ko‘ziga har qaro	Kim xavotirdur qarori el ko‘zig‘a har qaro
Bo‘ldi go‘yo rang ila mir’oti Iskandar kaqo	Bo‘ldi go‘yo zang ila mir’oti Iskandar qaro
Sham davridurmu mug‘far uza shahpar qaro	Sham dududurmu yo mig‘far uza shahpar qaro
Xirom etgach labingni g‘unchasi yuz noz ila keldi	Xirom etgach labingni g‘unchasi yuz noz ila kuldi

Bu kabi farqli holatlarni nashrlarni o‘qish davomida ko‘plab uchratamiz.

Xulosa qilib aytganda, devonni nashr qilishda har ikki nashrda arab tilidan hozirgi yozuvda tabdil qilishda turli tafovutlarni kuzatamiz. Ammo bu tafovutlar g‘azallar jozibasiga salbiy ta’sir qilmaydi. O‘tmishdan bizga yetib kelgan yozma yodgorlik yolg‘iz shoir adabiy faoliyatini, uning san’atini va mahoratini aniqlash nuqtayi nazaridangina muhim bo‘lmay, shu bilan birga asar yozilgan davr adabiy muhitini, o‘sha davrga xos til va uslubni o‘rganishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amiriy. Devon. (Nashrga tayyorlovchi; Z. Qobilova, O. Davlatov, A. Madaminov, O. Ergashev) – Toshkent: Tamaddun, 2017
2. Amiriy .Devon. – Toshkent: Fan,1972
3. Nodira. Devon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1968
4. Nodira – Komila. Devon. – Toshkent: Xalq merosi, 2001
5. Qayumov A. Qo‘qon adabiy muhiti. – Toshkent: Fan, 1961

TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDA ADAMIZM (ODAMIYOT) TALQINLARI

Xurshid Jo‘rayev,
Xalqaro innovatsion universiteti magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada turkiy xalqlar adabiyotida adamizm (odamiyot) g‘oyasining shakllanishi va rivoji Odam Ato obrazi misolida tadqiq qilinadi. Maqolada Odam Ato insoniyatning ibtidosi sifatida emas, balki axloqiy mas’uliyat, ilm, ruhiy yetuklik va komil inson timsoli sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarida Odam Ato diniy-mifologik kontekstda, sinovdan o‘tuvchi va tavba orqali poklanadigan inson sifatida yoritilgan. Alisher Navoiy ijodida, xususan “Lison ut-tayr” va “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlarida Odam Ato insoniyatning otasi, hidoyat va nubuvvat timsoli sifatida ko‘rsatiladi, uning ilm va aql orqali oliy maqomga erishishi ta’kidlanadi. Maqolada Odam Ato obrazi orqali turkiy adabiyotda adamizm g‘oyasining diniy-falsafiy asoslari, badiiy-estetik ifodasi va insonning ma’naviy kamolot sari intilishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Odam Ato timsoli turkiy adabiyotda insoniyatning jismoniy ibtidosi bilan bir qatorda, ma’naviy yetuklik sari yo‘l boshlovchisi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *adamizm, odamiyot, Odam Ato, turkiy adabiyot, komil inson, axloq, badiiy talqin.*

Abstract

This article explores the idea of adamism (humanism) in the literature of Turkic peoples through the figure of Adam. The study shows that Adam is interpreted not only as the origin of humanity, but also as a symbol of moral responsibility, intellect, spiritual maturity, and the pursuit of perfection. In Rabghuzi’s “Qissasi Rabghuziy”, Adam is portrayed within a religious-mythological framework as a being undergoing trials and capable of repentance. In Alisher Navoi’s works, particularly in Lison ut-tayr and Tarixi anbiyo va hukamo, Adam is depicted as the father of humanity, a guide, and a symbol of prophethood, whose intellect and wisdom confer upon him a high status. The article analyzes how Adam’s image embodies the foundations of adamism in Turkic literature, highlighting its religious-philosophical dimensions, artistic-aesthetic expression, and the moral and spiritual development of humans. The findings demonstrate that Adam represents both the physical origin of humanity and the guide toward spiritual perfection in Turkic literary tradition.

Keywords: *adamism, humanism, Adam, Turkic literature, the Perfect Man, morality, artistic interpretation.*

Inson va uning mohiyati masalasi jahon adabiy tafakkurining eng qadimiy va markaziy muammolaridan biridir. Har bir davr, har bir sivilizatsiya va har bir madaniyat insonni anglash, uning borliqdagi o‘rni va vazifasini belgilashga intilgan. Ayniqsa, diniy-falsafiy tafakkur bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan adabiyotlarda inson masalasi nafaqat badiiy mavzu, balki g‘oyaviy va axloqiy mezon sifatida ham namoyon bo‘ladi. Turkiy xalqlar adabiy merosida ham inson, uning yaratilishi, erkin irodasi, axloqiy tanlovi va komillikka intilishi markaziy badiiy-falsafiy masalalardan biri bo‘lib kelgan.

Bu jarayonda adamizm (odamiyot) g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Adamizm insonni borliq markaziga qo‘yish, uni ilohiy yaratilish mahsuli, ma’naviy mas’uliyat egasi va axloqiy kamolot sari intiluvchi mavjudot sifatida talqin etishga asoslangan qarashlar majmuasidir. Mazkur g‘oya turkiy adabiyotda diniy manbalar, tasavvufiy ta’limotlar hamda ma’rifiy qarashlar bilan uzviy aloqada rivojlanib, asrlar davomida turli badiiy shakl va mazmunlarda namoyon bo‘lgan.

Adamizm g‘oyasining badiiy ifodasi, avvalo, Odam Ato obrazi orqali shakllanadi. Odam Ato turkiy adabiyotda faqatgina insoniyatning ibtidosi emas, balki gunoh va tavba, sinov va sabr, aql va iymon, erkin iroda va axloqiy mas’uliyat ramzi sifatida talqin qilinadi. Uning obrazi orqali insonning ilohiy ne’mat sifatidagi maqomi, ayni paytda zaifligi va kamolotga muhtojligi badiiy-falsafiy jihatdan yoritiladi.

Turkiy adabiyot taraqqiyotining turli bosqichlarida Odam Ato obrazi va odamiyot g‘oyasi Rabg‘uziy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumquli, Abay kabi buyuk mutafakkirlar ijodida o‘ziga

xos talqinlarga ega bo‘lgan. Bu talqinlar bir tomondan diniy-mifologik asosga tayanib, ikkinchi tomondan, insonning ichki ruhiy olami, axloqiy tanlovi va ma’naviy kamolot masalalarini chuqur ochib beradi.

Mazkur maqolada turkiy adabiyot taraqqiyotida adamizm g‘oyasining shakllanishi va rivoji Odam Ato obrazi misolida qiyosiy-tahliliy usulda yoritilib, ushbu g‘oyaning tarixiy uzviyligi, badiiy-falsafiy mazmuni va zamonaviy adabiy tafakkur uchun ahamiyati ilmiy asosda ochib beriladi. Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asari turkiy adabiyotda diniy-qissaviy janrning yirik va mumtoz namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar XIII–XIV asrlar turkiy adabiy muhitida Qur’oni karim qissalari va islomiy rivoyatlarni badiiy shaklda talqin etish orqali keng xalq ommasiga yetkazish vazifasini bajargan. Asarda Odam Ato obrazi insoniyat tarixining ibtidosi sifatida markaziy o‘ringa qo‘yilib, uning yaratilishi, jannatdagi hayoti, Iblisning vasvasasi, taqiqlangan mevani tatib ko‘rishi va oxir-oqibat yerga tushirilishi voqealari izchil va mufassal tarzda yoritiladi.

Rabg‘uziy Odam Ato obrazini Qur’oni karimdagi oyatlar hamda islomiy tafsir va rivoyatlarga tayangan holda tasvirlaydi. Bunda Odam Atoning tuproqdan yaratilishi, unga ilohiy ilm berilishi va farishtalarning sajda qilishi insonning yaratilishdagi yuksak maqomini ifodalaydi. Ushbu jihat Odam Atoni oddiy biologik mavjudot emas, balki ma’naviy mas’uliyat yuklangan ilohiy ne’mat sifatida talqin etishga xizmat qiladi. Asarda Odam Atoning jannatdan yerga tushirilishi gunoh uchun jazolanish sifatida emas, balki ilohiy sinov va insoniyat taqdirining muqarrar bosqichi sifatida talqin qilinadi. Iblis vasvasasi orqali insonning zaifligi, erkin iroda imkoniyati va tanlov mas’uliyati ochib beriladi. Rabg‘uziy talqinida Odam Ato gunohkor shaxs emas, balki sinovdan o‘tuvchi va xatosini anglay oladigan inson timsolidir.

Odam Atoning tavbasi va Alloh tomonidan kechirilishi asarda alohida badiiy-falsafiy mazmun kasb etadi. Tavba motivi orqali insonning umidga bo‘lgan haqqi, ilohiy rahmatning cheksizligi va ma’naviy poklanish g‘oyasi ilgari suriladi. Bu jihat odamiyot g‘oyasining muhim unsuri bo‘lib, insonning qulashdan so‘ng ham kamolot sari qayta yuz tutishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, “Qissasi Rabg‘uziy”dagi Odam Ato obrazi turkiy adabiyotda adamizm g‘oyasining dastlabki diniy-badiiy modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu obraz orqali insonning yaratilish mohiyati, axloqiy mas’uliyati va ilohiy rahmatga bo‘lgan ehtiyoji chuqur badiiy-falsafiy talqinda ochib beriladi. Rabg‘uziy Odam Ato obrazini faqat rivoyaviy bayon bilan cheklab qolmay, uni she’riy shaklda ham yuksak badiiy-estetik darajada ifodalaydi. Asarda uchraydigan quyidagi baytlar Odam Atoning yaratilishi va insoniyatga berilgan ilohiy maqomni yorqin tasvirlaydi:

Haq yaratdi tangsuq Odamni tafiz yer ko‘rkidin,
O‘zga surat tuzdi andog‘ ajun pichra ilikdin.
Taxtin ko‘turub farishta u jannat ichra kiritub,
Tezginurda chiqmadilar hargiz aning erkidin.
Chiqdi Havvo birla bo‘lub xush tana‘um qildilar,
Ichtillar jannat sharobin, yedilar et erkidin.
Bildi asmo ilmini ul etu berdi belguluk,
Barcha tillar birla so‘zlar toziy, forsiy, turkidin [Rabg‘uziy, 1980: 15-16].

Mazkur baytlarda Odam Atoning yaratilishi ilohiy hikmat va go‘zallik mahsuli sifatida tasvirlanadi. “Haq yaratdi tangsuq Odamni” misrasi inson yaratilishini bevosita ilohiy iroda bilan bog‘lab, Odam Atoning oddiy mavjudot emas, balki “tangsuq”, ya’ni noyob va betakror mavjudot ekanini ta’kidlaydi. “Yer ko‘rkidin” iborasi esa inson tuproqdan yaratilgan bo‘lsa-da, borliqning eng go‘zal ziynati ekanini ramziy tarzda ifodalaydi.

Keyingi misralarda Odam Atoning “o‘zga surat”da yaratilgani qayd etilib, uning boshqa mavjudotlardan mutlaqo farqli, ong va ruh egasi ekaniga urg‘u beriladi. Farishtalarning unga bo‘ysunishi va jannatga kiritilishi insonning ilohiy maqomini, aql va iroda bilan sharaflanganligini

anglatadi. Bu hol adamizm g‘oyasining asosiy mezonlaridan biri — insonning borliqdagi markaziy o‘rnini badiiy jihatdan mustahkamlaydi.

Havvo bilan birga jannatda yashash, ne’matlardan bahramand bo‘lish tasviri inson uchun yaratilgan farovon hayot timsolidir. Shu bilan birga, bu tasvirlar insonning sinovga duchor bo‘lishi, erkin tanlov huquqiga ega ekanini ham anglatadi. Jannat ne’matlari fonida insonning mas’uliyati va iroda erkinligi masalasi yanada keskinlashadi.

Baytlarning eng muhim falsafiy nuqtalaridan biri – Odam Atoning “asmo ilmi”ga ega qilinishi haqidagi tasvirdir. Bu ilm insonning bilishga, tafakkurga va nutqqa qodir mavjudot ekanini ko‘rsatadi. “Barcha tillar birla so‘zlar” degan ifoda insonning kommunikativ imkoniyatlari, madaniyat va sivilizatsiya asoschisi sifatidagi maqomini belgilaydi. Forsiy va turkiy tillarning tilga olinishi esa Odam Atoni butun insoniyatning umumiy ajdodi sifatida talqin etishga xizmat qiladi. Demak, ushbu baytlar Rabg‘uziy talqinida Odam Ato obrazining diniy, falsafiy va badiiy qirralarini mujassamlashtirib, odamiyot g‘oyasining dastlabki poetik ifodasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning yaratilishi, ilm bilan sharaflanishi va erkin iroda egasi sifatida namoyon bo‘lishi turkiy adabiyotda adamizm g‘oyasining mustahkam poydevorini tashkil etadi.

Alisher Navoiy ijodida odamiylik va komil inson masalasi nafaqat doston va g‘azallar, balki tarixiy-diniy xarakterdagi asarlarda ham muhim o‘rin egallaydi. Shu jihatdan shoirning “Tarixi anbiyo va hukamo” asari Odam Ato obrazi va adamizm g‘oyasini bevosita yoritishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarda Navoiy Odam Atoni insoniyat tarixining ibtidosi, ilohiy lutf va mas’uliyat timsoli sifatida talqin qiladi.

Asardan olingan quyidagi misralar shoirning Odam Ato haqidagi badiiy-falsafiy qarashlarini mujassam ifodalaydi:

Odamniki, haq lutf ila mavjud etti,
Majmu‘i mulk haylig‘a masjud etti.
Oxir tanidin ruhni manqud etti,
Ul nav’ki, nobud edi, nobud etti [Alisher Navoiy, 2008: 2].

Mazkur misralarning birinchi satridayoq Odam Atoning yaratilishi ilohiy lutf bilan bog‘lanadi. “Haq lutf ila mavjud etti” iborasi inson yaratilishini majburiy yoki tasodifiy hodisa emas, balki Allohning marhamati va irodasi mahsuli sifatida talqin etadi. Bu yerda Odam Ato butun insoniyat nomidan ilohiy ne’mat egasi sifatida ko‘rsatiladi. Navoiy bu orqali adamizm g‘oyasining asosiy tamoyili – insonning oliy maqomi va qadriyatini ta’kidlaydi.

Ikkinchi misrada “majmu‘i mulk haylig‘a masjud etti” deyilishi Odam Atoning barcha mavjudotlar, jumladan, farishtalar uchun sajda qilingan zot ekanini anglatadi. Bu tasvir Qur’oni karimdagi oyatlar bilan g‘oyaviy uyg‘un bo‘lib, insonning borliqdagi markaziy o‘rnini mustahkamlaydi. Navoiy talqinida bu sajda jismga emas, balki insonda mujassam bo‘lgan aql, ilm va ruhga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Uchinchi misrada “Oxir tanidin ruhni manqud etti” deyilishi inson yaratilishining eng muhim bosqichiga ishora qiladi. Jismdan keyin ruhning ato etilishi Odam Atoni oddiy moddiy mavjudotdan ma’naviy mavjudot darajasiga ko‘taradi. Ruh insonni idrok, tafakkur va axloqiy tanlov egasiga aylantiradi. Bu jihat Navoiy qarashlarida komil inson konsepsiyasining poydevorini tashkil etadi.

To‘rtinchi misrada esa insonning yo‘qlikdan borliqqa chiqarilishi falsafiy teranlik bilan ifodalanadi: “Ul nav’ki, nobud edi, nobud etti”. Bu satrda insonning avval yo‘q bo‘lganligi, so‘ngra ilohiy qudrat bilan mavjudlikka erishgani ta’kidlanadi. Shu bilan birga, bu fikr insonning ojizligi va Allohga mutlaq muhtojligini ham eslatib turadi. Demak, Navoiy odamiylikni kibr emas, balki shukr va mas’uliyat bilan bog‘laydi.

Bundan tashqari, Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” asarida Odam Safiy (alayhissalom) timsolini butun insoniyatning ibtidosi va ilohiy tanlangan zot sifatida talqin etadi.

Xayli insonning otosi Bulbashar,
Kim oni xalq etti hayyi dodgar.

Mazkur misralarda Odam (a.s.) "xayli inson", ya'ni insonlar jamiyatining otasi, bashariyatning boshlanish nuqtasi sifatida ta'riflanadi. "Bulbashar" leksemasi umumlashma xarakter kasb etib, Odam (a.s.)ning shaxsiy emas, balki umuminsoniy maqomini ifodalaydi. "Hayyi dodgar" birikmasi orqali esa Yaratuvchining tiriklik baxsh etuvchi va adolatli sifatlari ta'kidlanadi. Bu yerda Navoiy antropologik va ilohiy qarashlarni bir nuqtada uyg'unlashtiradi.

Boshiga 'ydi hidayat afsarin,
Tojiga qo tikti nubuvvat gavharin [Alisher Navoiy, 2005: 56].

Ushbu misralarda Odam (a.s.)ga berilgan ilohiy ne'matlar ramziy ifoda orqali ochib beriladi. "Hidoyat afsari" – insoniyatga to'g'ri yo'l ko'rsatish vazifasi, ma'naviy yetakchilik ramzidir. "Nubuvvat gavhari" esa payg'ambarlik martabasining yuksak va noyob fazilat ekanini bildiradi. "Afsar" va "toj" obrazlari orqali Odam (a.s.)ning ruhiy va ilohiy hukmronligi, ya'ni faqat jismoniy emas, balki ma'naviy ustunligi ham ko'rsatib beriladi. Umuman olganda, mazkur misralarda Navoiy Odam Safiyni oddiy tarixiy shaxs emas, balki hidoyat va nubuvvat timsoli sifatida talqin etadi. Shoir tasvirida Odam (a.s.) insoniyatning jismoniy ibtidosi bilan bir qatorda, uning ma'naviy kamolot sari yo'l boshlovchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqot natijalari turkiy xalqlar adabiyotida adamizm (odamiyot) g'oyasi izchil, uzviy va ko'p qatlamli badiiy-falsafiy konsepsiya sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Tahlillar shuni aniqladiki, Odam Ato obrazi turkiy adabiy tafakkurda faqat insoniyatning biologik ibtidosi sifatida emas, balki axloqiy mas'uliyat, ma'naviy kamolot va komil inson g'oyasining markaziy timsoli sifatida talqin etilgan.

Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida Odam Ato obrazi adamizm g'oyasining diniy-mifologik bosqichini ifodalaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Rabg'uziy talqinida Odam Ato gunohkorlik timsoli emas, balki ilohiy sinovdan o'tuvchi, tavba orqali poklanish imkoniga ega inson sifatida ko'rsatiladi. Bu hol insonning zaifligi bilan birga, ma'naviy tiklanishga bo'lgan qobiliyatini ham ochib beradi. Shu jihatdan Rabg'uziy ijodida odamiyot g'oyasi rahmat, tavba va umid tushunchalari bilan uzviy bog'langan.

Alisher Navoiy ijodida esa adamizm g'oyasi yanada chuqurlashib, komil inson konsepsiyasi darajasiga ko'tariladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Navoiy asarlarida Odam Ato obrazi ilm, aql, ruh va hidoyat bilan bog'langan holda talqin qilinadi. "Lison ut-tayr" va "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlaridagi misollar Odam Atoning nafaqat bashariyatning ibtidosi, balki ma'naviy yetakchisi sifatida talqin etilganini isbotlaydi. Bu bosqichda odamiyot g'oyasi axloqiy yetuklik, ruhiy poklik va ilohiy mas'uliyat mezonlari bilan boyitiladi.

Mazkur tadqiqot turkiy xalqlar adabiyotida adamizm (odamiyot) g'oyasining shakllanishi va rivojini Odam Ato obrazi misolida tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Odam Ato turkiy adabiyotda insoniyatning ibtidosi sifatida emas, balki axloqiy mas'uliyat, ma'naviy kamolot, ilm va ruhiy yetuklik timsoli sifatida talqin etilgan.

Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida Odam Ato diniy-mifologik kontekstda tasvirlangan. U gunohkor shaxs sifatida emas, balki sinovdan o'tuvchi va tavba orqali poklanishga qodir inson timsoli sifatida talqin qilinadi. Odam Atoning jannatdan yerga tushirilishi, Iblis vasvasasi, ilohiy ilmga ega qilinishi kabi tasvirlar insonning zaifligi, erkin iroda imkoniyati va ma'naviy mas'uliyatini ochib beradi. Shu tariqa, Rabg'uziy adamizm g'oyasining diniy-badiiy dastlabki modelini yaratadi.

Alisher Navoiy ijodida odamiyot g'oyasi komil inson konsepsiyasi bilan uyg'unlashadi. Navoiy Odam Atoni ilm, aql, ruh va hidoyat bilan bog'lab tasvirlaydi, uning borliqdagi oliy maqomi va ma'naviy yetukligi badiiy-estetik tarzda ifodalanadi. "Lison ut-tayr"dagi misralarda Odam Safiy insoniyatning otasi, hidoyat va nubuvvat timsoli sifatida talqin etiladi. Bunda Odam Ato shaxsiy tarixiy mavjudot sifatida emas, balki umumiy insoniyat ramzi, ma'naviy yetakchi sifatida yoritiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, turkiy adabiyotda adamizm g‘oyasi insonning jismoniy ibtidosi bilan bir qatorda, uning ma’naviy kamolot sari yo‘l boshlovchisi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Odam Ato obrazi orqali insonning ilm, aql, axloqiy mas’uliyat va erkin iroda bilan bog‘liq masalalari badiiy-falsafiy jihatdan yoritilgan.

Xulosa qilib aytganda, Rabg‘uziy va Navoiy ijodida adamizm g‘oyasi tarixiy uzviylik, badiiy-estetik boylik va ma’naviy-hikmat jihatidan mustahkam asosga ega bo‘lib, turkiy adabiyotda insonning oliy qadriyatlari va komil inson konsepsiyasini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. – Toshkent: Sharq, 2005.
2. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. – Toshkent: Sharq, 2008.
3. Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. – Toshkent: Fan, 1980.
4. Ziyouz.com kutubxonasi. www.ziyouz.com

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDA NASR VA NAZM MUTANOSIBLIGI: MULLO NOSIRXO‘JA USLUBI

Ellora Isaqova,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
e-mail: isaqovaellora@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola mumtoz o‘zbek adabiyotidagi Mullo Nosirxo‘ja valadi Mansurxo‘ja qalamiga mansub nusxaning badiiy-g‘oyaviy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada doston kompozitsiyasidagi nasr va nazm o‘rtasidagi funksional va g‘oyaviy mutanosiblik aniqlanadi. Maqolada asarning nasriy bayonida voqealar rivojlantirilsa, nazmiy parchalar Majnun va Laylining ishq, firoq, hasrat kabi chuqur ruhiy-hissiy kechinmalarini ochib berishdagi lirik chekinishlar sifatidagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *nasr, nazm, uslub, doston.*

Abstract

This article is devoted to the study of the artistic and ideological features of a manuscript belonging to Mullo Nosirxo‘ja, son of Mansurxo‘ja, within the context of classical Uzbek literature. The paper identifies the functional and conceptual harmony between prose and verse in the compositional structure of the epic. It argues that while the prose sections serve to develop the narrative progression of events, the poetic passages function as lyrical digressions that reveal the profound emotional and psychological experiences of Majnun and Layli, such as love, separation, and longing.

Keywords: *prose, verse, style, epic.*

“Layli va Majnun” dostoni Sharq adabiyotining eng mashhur asarlaridan biri bo‘lib, Nosirxo‘ja valadi Mansurxo‘janing “Layli va Majnun” dostoni ko‘plab shu nomdagi dostonlar orasida o‘zining badiiy qiymati bilan ajralib turadi. Ushbu doston avvallari Andalibga nisbat berilib kelingan bo‘lsada, tadqiqotlar uning asl muallifini aniqlashga imkon berdi. Mullo Nosirxo‘ja valadi Mansurxo‘janing “Layli va Majnun” dostoni Navoiy va Fuzuliy asarlari an’analarida yaratilgan, ammo o‘ziga xos uslub va badiiy talqinga ega bo‘lgan asardir.

M azkur doston voqealarni nasr va qahramonlarning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ularini esa nazm (g‘azal, muxammas, murabba’, munojot) orqali ifodalash tartibida yozilgan. Doston tarkibida 15 ta g‘azal, 15 ta murabba’, 16 ta muxammas, 6 ta mustazod, 1 ta musaddas, 1 ta munojot va 2 ta masnaviy janridagi she’rlar mavjud. Dostonning boshlanish qismida Layli va onasi o‘rtasidagi suhbat aytishuv tarzida keladi. Dostondagi she’riy parchalar umumiy 1193 misrani tashkil etadi. Ma’lumki, g‘azal, murabba’, muxammas, musaddas, mustazod kabi she’rlar bilan boyitilgan dostonlar so‘z va soz birligida ijro etishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Bu esa Xorazm dostonchiligi ta’siridir. Nosirxo‘ja valadi Mansurxo‘janing dostoni ham shu usulda yozilgan. Uning tom ma’nodagi xalqchil shoir bo‘lganligi, xalqning dili tubida, tili uchida turgan fikrlarni topib she’rga solgani, ko‘ngilga yaqin, yurakka jiz etib tegadigan, o‘quvchini to‘lqinlantiradigan so‘z va iboralar, misralarni topib qo‘llagani, ta’sirchan so‘z, ibora va misralarni radifga chiqarib, asosiy urg‘uni shunga berganida ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

S he’riy parchalar nafaqat dostonning badiiy qiymatini oshiradi, balki Qaysning Majnunga aylanish jarayonini, Laylining firoq azobini va ishqning ilohiy maqomini ochib berishga xizmat qiladi. Doston Qaysning otasi Sayyid Bani Omiriyning farzand tug‘ilishi munosabati bilan aytgan g‘azali bilan boshlanadi. Bu g‘azal otaning Allohga bo‘lgan chuqur shukronasini va farzandga bo‘lgan beqiyos sevgisini ifodalaydi.

Xudoyo, qudrating kuchi tanimda jon ato qilding,
Dili g‘amginni shod aylab, ajab mehmon ato qilding. [Jo‘rayev, 2014: 18]

G‘azalda Qays “mahi tobon” (porloq oy), “shahi Kan’on” (Yusuf payg‘ambar) va yuzida “nuri R ahmoniy” bor zot sifatida ulug‘lanadi. Bu baytlar Qaysning dunyoviy husndan yuqoriroq bir

nur bilan tug‘ilgani, ya’ni mohiyatan ishq uchun yaratilganiga ishora qiladi. Qays hali uch yoshga yetmasdan, uning ko‘ngliga “ishqi azaliy” joy bo‘lgan va u o‘z holatini tengdoshlari davrasida muxammas orqali ifodalaydi. Bu muxammas Qaysning ilohiy ishqqa bo‘lgan bog‘liqligini va o‘ziga “Majnun” nomini olishga tayyorligini ko‘rsatadi:

Ey Xudo, o‘z shavqingg‘a yor et, ayirma ishqdin!
Zoti poking hurmati zor et, ayirma ishqdin!
...Qays otim el ichra chun mashhuri Majnun bo‘lsa ham,
Mag’zi jonim ta’na toshi birla purxun bo‘lsa ham,
Ko‘b balolarg‘a mani yor et, ayirma ishqdin. [Jo‘rayev, 2014:19]

Ushbu she’riy parchada Qays o‘z jonini o‘tga urishga, “bag‘ri kuyib fig‘on chekishga” va ishq yo‘lida “bekas-u bechora” bo‘lishga rozi ekanini bildiradi. Bu uning dunyoviy hayotdan voz kechib, ishq fano yo‘lini tanlaganining ilk bashoratidir.

Maktabxonada Qays Laylini ko‘rishi bilan uning ishqi Laylining ko‘ngliga joy bo‘ladi. “Soqiyi ishq” ikkisiga ham “jomi ishq”ni tutqazadi. U maktabdan qaytib, onasiga Laylining husn-jamolini vasf etib g‘azal o‘qiydi:

Bordim adab saroyiga , shanba kuni sabo bilan,
Tushti ko‘zum bir oyiga, bir necha dilrabo bilan.
...Bir pari toza xushxirom, nav guli bog‘i lolafom,
Kokili mushk, Layli nom, yuz yopadur hayo bilan. [Jo‘rayev, 2014:21]

Qays Laylini “mohi anvar” (nurli oy), “pari toza” (toza pari) deb ataydi. G‘azalning so‘nggi baytida esa ishqning oqibati – “Ko‘ngildi mandin oldilar” deb, o‘zining ixtiyorsiz holga tushganini ifodalaydi. Onasining nasihatiga qaramay, Qays ertasi kuni yana maktabga borar ekan, yo‘lda sevgilisi sha’niga atab o‘n baytli she’r o‘qiydi. Bunda u Laylining tashqi sifatlariga ko‘proq e’tibor qaratadi:

Haq oshiqim, Yusuf mani chun pirim,
Alar bo‘lsa agar mani dastrgirim.
Maktab borsam, yod o‘rgatsa dilbarim,
Alif qaddi, nukta desam xollari. [Jo‘rayev, 2014:22]

Qaddini “alif”ga, yuzidagi hollarni “nuqta”ga qiyoslashi Laylining go‘zalligi arab alifbosidagi muqaddas harflar bilan bog‘liq ekanini, ya’ni ilohiy go‘zallik ramzi ekanini ko‘rsatadi. U Yusuf payg‘ambarni o‘ziga pir deb bilib, ishq yo‘lida “mardona” turishga, yorning umrini o‘z umriga qo‘shishni so‘raydi. Ikki oshiqning maktabda o‘zaro “qosh-u ko‘zlarini elchi qilib” so‘zlashishlari haddan oshib, xaloyiqqa oshkor bo‘ladi. Qays beqaror bo‘lib, onasiga ishq azobini muxammasda bayon etadi:

Soqiyi ishq kelib berdi bu kun bir jom mango,
G‘ussayi dadr-u alamdin bir necha in’om mango,
Charxdin yetti zarar subh bilan shom mango,
Shakkar o‘rnig’a zahar berdi bu kun kom mango,
Vaxsh ila ko‘nglumg‘a na sabr bila orom mango.[Jo‘rayev, 2014:23]

Bu muxammasda Qays o‘zini “ishqdin munchaki ofatzada” va “xalqi olamg‘a malomatzada” bo‘lganini aytadi. Uning aqli Laylida qolib, mashqini Layli, Layli deb, Layli esa Qays, Qays deb yoza boshlagani ishqning ular ustidan to‘liq hukmronligini ifodalaydi. Qaysning ishqi ovozasi Laylining otasiga yetib boradi va u qizini maktabdan man etadi. Layli maktabga borishga urinar ekan, onasi bilan qisqa, ammo his-tuyg‘ularga boy she’riy mushoira (dialog-poema) yuzaga keladi:

Laylining noiloj qolib, siynasiga sabr toshini bog‘lab o‘tirishi, unda ham Qays kabi firoq azobining boshlanganini ko‘rsatadi. Sayyid Bani Omiri Layliga sovchilikka borganida, o‘g‘lining holini ifodalovchi g‘azal o‘qiydi:

Jon bog‘ida bir bulbulim bor edi, parvoz etib orzu armon istamish,

Gul shavqida chashmi giryon-zor edi, toza gulim, yaxshi bo‘ston istamish,
Hech kimsanin nasihatin olmag’an, mehnat chekib, rohatini ko‘rmag’an,
Ko‘z yoshiga cho‘mulg‘onin bilmag‘an, Vomiqsifat Uzronishon istamish. [Jo‘rayev, 2014:29]

O ta Qaysni orzu-armon izlab uchib ketgan bulbulga, uning ishqini esa afsonaviy oshiqlar – Vomiqning Uzroga bo‘lgan ishqiga qiyoslaydi. Laylining otasi Qaysni “devonamizoj” deb, sovchilikni rad etadi. Bu voqea Qaysning Majnunga aylanishiga turtki bo‘ladi. U otasiga hatto jannat huri bo‘lsa ham, Laylidan boshqasini xohlamasligini shu muxammasda aytadi:

Yutkanim qon mani, illatzada bo‘ldum, na qilay,
Aqldin qolmadi bir zarra saranjom mango.
Va yana bir muxammasda Laylini ayblaganlarga javoban:
Har qayon oqar ko‘zum yoshi ravon, san yor uchun!
Kech nozaniningdin debonkim urdilar zanjiri po,
Maqsud sango bilmam nadur, man mubtalo, man mubtalo,

Majnun bundan so‘ng liboslarini yirtib, “Voy Layli” deb devonavor yugurib ketadi, endi uning n omi Qays emas, Majnun bo‘ladi. Dostondagi eng yuksak nuqtalardan biri Qaysning otasi bilan M akkaga, Ka’baga borganida aytgan munojotidir. Otasi undan dardiga shifo tilashni so‘raganida, Majnun (Qays) nazmiy munojotni boshlaydi:

Rahmon egam, berib jonni, yo‘qdin mani bor aylading!
Oshiqlarga keng jahonni, mehnat berib tor aylading!

B u munojotda Majnun Allohga shikoyat emas, balki taqdiriga “ishq dardi” uchun shukrona a ytadi. U o‘zining do‘stlari dushmanga aylangani, yegan har narsasi “og‘u (zahar)” bo‘lgani va S amandardek o‘tda kuyishga majbur bo‘lganini aytadi. U maqsadni dardidan xalos bo‘lish emas, balki ishqning abadiy bo‘lishini so‘rashga o‘zgartiradi. Bu nazmiy parchalar dostonning ilohiy ishq falsafasini chuqurlashtirib, Majnunning butun borlig‘i Allohga va ishqqa taslim bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning devonaligi endi dunyoviy devonalik emas, balki Haq yo‘lidagi poklik martabasiga erishganini anglatadi.

X ulosa qilib shuni aytish mumkinki, Xorazm shoirining o‘ziga xos ijod yo‘nalishini namoyon q iladigan g‘azal, muxammas, mustazod va murabba’lar esa qahramonlar ruhiy holati va voqealar r ivojiga mutanosib ravishda bitilganki, ular orqali kitobxon oshiq-ma’shuqlarning iztiroblariga sherik bo‘ladi, ularning tuyg‘ularini o‘z qalbiga ko‘chiradi, boshqacha aytganda, asar qahramonlari b ilan birga yashay boshlaydi. G‘azal va murabba’larda har bir voqelik va qahramonlar ruhiyatiga m os ravishda turli she’riy o‘lchovlar va qofiyalardan foydalanganligi ijodkor badiiy mahoratini ko‘rsatuvchi yana bir omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nosirxo‘ja valadi Mansurxo‘ja. Layli va Majnun. Tabdil va nashrga tayyorlovchi Jo‘rayev K. – Jizzax: Sangzor, 2014.
2. Yusupova D. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
3. Abdulhakimova Y. Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy “Layli va Majnun” dostonlarining qiyosiy tahlili. Diss., 2022.

“HAFT GULSHAN” DOSTONI: IKKINCHI GULSHAN TAHLILI

Shodiya A’zamova,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti
e-mail: shodiyazamova@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tezisda XVIII–XIX asr Qo‘qon adabiy muhiti vakili bo‘lgan Nodir qalamiga mansub “Haft gulshan” dostonining “Ikkinchi gulshan” hikoyatining qisqacha bayoni keltirildi. Hikoyat adabiyotshunoslik, tilshunoslik va matnshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Matn farqlari asar qo‘lyozmalari va nashr shaklidan foydalanilgan, jadvalga solingan holda berildi.

Kalit so‘zlar: *asliyat matn, qo‘lyozma, hikoyat, syujet, doston, gulshan, nashr, tafovut, uslub, she’riy san’atlar.*

Abstract

In this thesis, a brief description of the parable “Second Gulshan” of the dastan “Haft Gulshan” by Nadir, a representative of the Kokand literary environment of the 18th-19th centuries, is given. The story is analyzed from the point of view of literary studies, linguistics, and textual studies. Textual differences are presented using the manuscripts of the work and the publication form, in a tabular form.

Keywords: *original text, manuscript, story, plot, epic, garden, publication, difference, style, poetic arts.*

Nodir qalamiga mansub “Haft gulshan” dostoni shoira Nodiraga bag‘ishlangan. Asar hamd, na’t, chahoryor ta’rifi, Kalomulloh ta’rifi bayoni, Amiriy, Nodira, ularning farzandlari e’tirofi, saroy tasvirlari, yozilish maqsadi hamda qalam vasfidan iborat kirish qism va 7 mustaqil hikoyatdan iborat. Hikoyatlar muallif tomonidan gulshan deb nomlangan. Asarda bir syujet chizig‘iga amal qilinmagan. Har hikoyatning qahramonlari boshqa-boshqa. Hikoyatlar turli mavzularga yo‘naltirilgan. Har gulshanda pand-nasihat yo‘g‘rilgan baytlar mavjud. Ba’zilari shoir boshiga zamona beklari sabab kelgan kulfatlar ginasidan bo‘lsa kerak, deyarli har hikoyatda muhtojning yuzini kuldiradigan, muammosiga yechim bera oladigan shoh obrazlarini, adolatli va bechoraparvar hukmdor siymosini kiritgan.

“ Ikkinchi gulshan” syujetda asosiy dinamikani ta’minlovchi qahramon yigit ta’rifi bilan boshlanadi:

Dukan shahrida bir rajput yigit bor edi. Ko‘rkam, haybatli, so‘zga ustomon, ammo podshohlarga mulozim bo‘lishni o‘ziga ep bilmasdi. Taqdir bo‘lib, oyoqlari kambag‘allik loyiga botib, saroyda ishlash uchun yetti kunlik yo‘l bosib, Bangola shahriga boradi. Bir xabar yetkazuvchi hojib yordami bilan Bangola shohiga, o‘zining urushda rustamsifat sohibqiron ekani, unga sidqidildan xizmat qilishga tayyor ekani va buning uchun shohdan har oyda ikki lak siym-u zar haq talab qilishi yozilgan noma berib yuboradi. Shoh istehzoli kulib, bunga qat’iy rad javobi beradi. Hojibga u yigitni kelgan yo‘liga ravona etishi to‘g‘risida qahr to‘kib turganini qizi eshitib qoladi. Qizi haqparvar, jasur, aqlli bo‘lib, otasiga noto‘g‘ri ish qilganini aytadi. Otasining qulog‘iga qizning gaplari xush kelmay, yigitga ko‘ngli moyil ekanlikda ayblab, qizni saroydan haydaydi. Hojib yigitga yo‘lidan qolmasligini yetkazadi. Qiz yigitning orqasidan ketadi va unga o‘zining Bangola shohining qizi ekani, otasi bilan bo‘lgan voqealarni aytib beradi. Ular yo‘lda hamroh bo‘lishadi, ikki katta yo‘lni bosib o‘tganlaridan so‘ng bir toshlavhdagi yozuvni ko‘rishadi:

Yaminidin borar o‘n kunda manzil,
Yasoridin bo‘lur uch kunda doxil.
Yaminidin toparsan oncha rohat,
Yasoridin ko‘rarsan xavf(-u) ofat.

Yigit yasordan (chap tomondagi yo‘ldan) borishni tanlaydi. Yo‘lda mast fil borligidan aholi bu

yo‘lni allaqachon tark qilgan edi. Yigit o‘sha fil bilan jang qiladi. Uni taslim qilib, peshonasidagi ikki gavharga ega chiqadi.

Qiz bilan yigit oila qurishadi. Oradan vaqt o‘tib, o‘g‘il farzandli bo‘lishadi. Otini Bahrom deb qo‘yishadi. Yigit o‘g‘lining to‘yini qilish uchun o‘sha gavharlarni sotish uchun bozorga chiqadi. Lohur shohining vaziri gavharlarning qiymatini o‘rinli baholab, ularni sotib oladi va o‘z podshohiga olib boradi. Podshoh bu qimmatbaho toshlarni ko‘rib, vazirdan ularni kimdan olganini, sotuvchini keltirishini so‘raydi. Yigit podshoh huzuriga kelib, shohning “Ikki gavhar sanga qaydin tushubdur?” degan savoliga javoban, fil bilan olishuvi, filni taslim etib, uning peshonasidan bu ikki gavharni olganini so‘zlab beradi. Podshoh unga shohlik xil’atini kiydirib, o‘ziga xizmat qilishga chaqiradi. Yigit yana o‘sha taklifini beradi:

Agar har oyda bersang ikki lak zar,
Mulozim sanga bo‘lg‘oyman muqarrar.
Vagarna manga manga xubdur bu zamoni,
Ki minnatliq shakardin faqir noni.

Lohur shohi saxiy edi, yaxshi xizmatning qadrini bilar edi, bu taklifni jon-dili bilan qabul qiladi. Kunlar-tunlar o‘taveradi. Muboriz yigit (bundan keyin Muboriz deymiz, muallif ham shunday atagan) ixlos bilan, sadoqat bilan tun-u kun xizmat qilaverdi. Shoh uni yaxshi bilar edi, har xizmatga ham yo‘llayvermas edi.

Bir kun saroyda shoh bilan Muboriz qolganida bir ovoz eshitiladi. Muboriz eshikka borsa, bir zol ekan. Shohning o‘zi bir yerda berkinib (Muborizning sadoqatini sinash uchun), ularning so‘zlashuvini tinglaydi. Ko‘rinishdan farishta kabi nuroniy yuzli ko‘ringan bu chol, oldidagi xanjarini g‘ilofidan bo‘shatadi va Muborizga, sulton jonini olish uchun kelganini, agar bunga mone’ bo‘lmoqchi bo‘lsa, o‘z o‘g‘lining jonini qurbon qilishi kerakligini aytadi. Muboriz uyiga borib, xotiniga bo‘lgan voqeani aytadi.

Dedi: ko‘rduk bu shahning izzatini,
Mulozimlardin ortuq hurmatini.
Bu ish birla salomat bo‘lsa boshi,
Agar to‘lsa hayotini quyoshi.
Fido qilsak kerak farzandimizni,
Yurakdin uzubon payvandimizni.

Yig‘lay-yig‘lay yetti yoshli farzandlarini uyqudan uyg‘otishadi va chol oldiga olib borishadi. Chol shafqatsiz bir sahna tasviri bilan bolani ikki pora qiladi. Bunga chiday olmay, bolasining ustiga o‘zini otgan onani ham xanjar bilan halok qiladi. So‘ng, voqeaning uzoqdan va yashirin guvohi bo‘lib turgan shoh, tangriga nola qiladi:

Jahonbonliq erur sanga sazovor,
Salotinlar sani oldingdadur xor.
Badandin rishtayi jon uzg‘uchisan,
O‘lukni bu zamon tirguzg‘uchisan.
Ilohi, hojatimni san ravo et,
Kim ul bechoralarg‘a jon ato et.

Tangrining farmoni bilan ona-bolaga jon kirib, o‘rinlaridan turishadi. Muboriz oilasi bilan xurram holda uyiga ketadi. Ertasi kun podshoh xalqqa ehson ulashadi. Muborizdan tungi shovqinning sababini so‘raganida, u ikki er-xotin o‘zaro janjallashib kelganlarini, yarashtirib, qaytarib yuborganini aytadi. Muborizning shohni shu qadar avaylab, yuksak hurmat bilan so‘zlashini eshitganidan so‘ng unga o‘z tojini kiydiradi. Qizini ham unga berib, Muborizni o‘ziga kuyov qiladi. Shoh butun mamlakatini Muborizga hadya qilib, o‘zi Ka’ba tomon piyoda yo‘lga tushadi. Ibodatga muhabbat qo‘yib, Ka’bada tun-u kun xizmat qiladi va o‘sha yerda fano mulkiga safar qiladi.

Muborizni haydagan Bangola shohi Yaman podshohining hujumlari asnosida bir necha a'yonlari bilan birga Lohur tomon qochadilar va Lohur shohidan yordam so'rab, elchi yuboradilar. Muboriz Bangola shohini bir necha kun shoh bog'ida mehmon qiladi, so'ng qizini otasining oldiga yuboradi. Otasi qizini tanib, "boshi qo'liga tushadi". Bangola shohi Muborizga xizmat bermaganiga afsus-nadomat qiladi. Muboriz Bangola shohining hurmatini o'z o'rniga qo'yib, falak yulduzlari, sahro qumidan ham ko'p bo'lgan lashkarga o'g'lini bosh qilib, bobosi bilan birga Yaman shohiga qarshi urushga yuboradi. Bahrom Muborizdek dilovarning o'g'li emasmi?! Urushda har qarshi kelganni yer bilan yakson qiladi va Bangolani egallaydi. Necha vayronani ta'mir qildiradi. Boboshoh butun mamlakatini nabirasiga beradi va o'zi to joni tanidan chiqmaguncha, ibodat bilan mashg'ul bo'ladi.

Hikoyatning qisqacha bayoni shundan iborat. Endi uning tahliliga o'tsak.

"Ikkinchi Gulshan" har qanday yomonliklar avj olmasin, oxiri yaxshilik bilan tugovchi ertak janriga monand qilib yaratilganligi bilan xarakterlidir. Qolaversa, undagi ba'zi sahnalar o'ta muboalag'ali, real hayotda bo'lishi aslo kutilmaydigan tasvirlar bilan boyitilgan. Ba'zi voqealar qahramon xarakterini murakkablashtiradi, kitobxonni shoshirib qo'yadi. Masalan, shoir hikoyat boshida yigitni g'ururli, so'zomon, har vaziyatga bir chora qiluvchi, katta mansablilar davrasida laganbardorlik qilmaydigan qat'iyatli obraz qilib tanishtirdi. Tasodifan, o'rtaga ikki lak zar maosh mavzusi tashlanadi:

Har oy bersa ikki lak siym(-u) zardin,
Kecharman razm hangomida sardin.

Bu kishi sadoqatining ikki lak zar bilangina baholanishi, kabi tuyuladi. Adabiyotshunoslar Tamila G'ofurjonova [G'ofurjonova, 1982: 32] va Aziz Qayumov [Qayumov, 2010: 182] ham bu pulni Muboriz farzandi, ayolining dahshatli o'limiga sabab bo'lgan sadoqat narxi kabi tahlil qilishadi. XXI asrdan qarasak, kishining o'z mehnatini to'g'ri qadrlay bilishi, atrofdagilarning uning irodasi bilan ham hisoblashishlari kerakligini ochiq anglatishi oddiy holdek tuyuladi.

Yana bir jihat, hatto salotin ahliga she'r yurak bilan muomala qila olgan Muborizning filni yelkasidan oshirib, halok qilgan pahlavonning bir chol va uning bir xanjaridan cho'chib, tadbirsiz, chorasiz ahvolga tushishi, ajablanarli. U sadoqatini cholni sultongacha, oilasigacha yaqinlashtirmay, masalani o'sha yerning o'zida hal qilib, isbotlashi mumkin edi-ku.

Hatto otasiga qarshi bora olgan jasur qizning ham, farzandi o'limiga izn berishi, tasodifan passivlashishi o'quvchini shoshirib qo'yadi. Demak, bu personajlar shoh obrazining – Lohur shohining ulug'lanishi uchun xizmat qilgan. Aslida, asarda barcha obraz beqaror. Adolatli deganimiz Lohur shohining yigitning shuncha sidqidildan qilgan xizmatiga qaramay, unga sinov uyushtirgani, hatto begunohlar ustida qotillik sodir bo'lishida ham, ovoz chiqarmay, bir chetda turishi, kishining nafratini keltiradi. Hech kimsa to'liq beayb va hech kimsa butkul xayrsiz emas. O'zidan past tabaqani mensimaydigan, kibrli Bangola shohining ham jud-u ehsonda karamli, xalqparvar Lohur podshohining ham oxiri Xudoga (Allohga) qaytish bo'ldi.

Asarda davlat yuritish masalalariga oid, siyosiy ahamiyatli, nasihatomuz gaplar ora-orada berib boriladi:

Musofirg'a chiqorsa kimki hojot,
Olib borg'ay jahon atrofig'a ot...
Mulozim shohg'a gar bo'lsa badxoh,
Quriydur shumlug'idin sahn(i) dargoh.
Ulug'da bo'lmasa gar xayr-u ehson,
Topar davlat makoni ichra nuqson...
Agar bo'lsa, salotin ahli odil,
Bo'lur mundog' ani maqsudi hosil...
Kishi davlat uyida bo'lsa maxdum,

Kerakkim, qilmag‘oy xodimni mahrum.
Kishi bo‘lsa ulug‘ baynalamosil,
Kerakkim, bahramand o‘lg‘oy afozil.
Gulshanda tashbeh, kitobat, mubolag‘a:
Turubdur suratikim zol yanglig‘,
Erur xam qaddi oning dol yanglig‘...
Adamdur og‘zi harf(i) mim yanglig‘,
Belin hizf aylag‘on tarxim yanglig‘.
Kim oning qoshi yoy(-u), zulfidur lom,
Ko‘zi sod(-u), va lekin naqshi bodom.
tashbeh:
Anga topshurdilar ul gul badanni,
Malak siymo, pariro‘, siym tanni...
tazod:
Chu chiqdi podshoh(i) kishvar(i) nur,
Jahondin xayl(i) zulmat ayladi dur.
talmeh:
Yaman shohi anga qildi xusumat,
Edi Bahrom tig‘-u charxi savlat.
tanosub:
Yuzi nuroni, monand(i) farishta,
Bo‘lubdur nurdin go‘yo sarishta.

Asar sodda va ravon yozilgan, shu bilan birga unda davr hamda mintaqa til xususiyatlari ham sezilib turadi:

Qabul etti Muboriz iltimosin,
Yeshub kiydurdi ustiga libosin...
***
Vagarna ul makonimg‘a ketarman,
Uchubon oshiyonimga ketarman....
***
Muboriz xotini va o‘g‘li birla,
Uyig‘a yondi xurram ko‘ngli birla...
***
Dilovarg‘a ibordilar rasuli,
Amini solihi sohib qabuli...

Doston nashrida yigitning vatani gapirilishi kerak bo‘lgan o‘rin №1801 inventar raqamli nusxadan noto‘g‘ri o‘qilgan:

Dedi: rustamsifat sohib suruti,
Va kun ichra bor erdi rojputi. [G‘ofurjonova, 1961: 38]

Bundan shu zamon ichra bir rajputi (lug‘aviy mazmuni “shoh o‘g‘li”, Hindistondagi tarixiy kasta – tabaqa nomi, ya’ni shu qavmdan birisi) bor edi, deb tushunish mumkin.

Asl manbada bayt shunday yozilgan edi:

Asl manba	O‘qilishi
ڈوتی صاحب صفت رستم دیدی راچپوتی ایردی بار ایچرہ دکن	Dedi: rustamsifat sohib suruti, Dakan ichra bor erdi rochputi.

Akademik Aziz Qayumov esa “Dakan viloyatida bir ramput bor edi”, deb tabdil qilganlar.

Doston nusxalaridan 10114-II inventar raqamli qo‘lyozmada ushbu jumlaning diakritik belgilar bilan berilgani so‘zni yanada aniqlashtiradi:

Asl manba	O‘qilishi
نژاتی صاحب صفت رستم دیدی راچپوتی ایردی بار ایچرہ دکن	Dedi rustamsifat sohib najoti, Dukan ichra bor erdi rojputi.

[Haft gulshan, 10114-II: 73a-7,8]

Voqealarning Hindistonda sodir bo‘lishi, fil bilan jang, undan ikki gavharning tasarruf etilishi, Boburning Panipat jangidan keyin erishgani – Agra va Dehli xazinalari tarkibida bo‘lgan ko‘hinur olmosini eslatadi. Bu olmos keyinchalik sulola ramzi sifatida qaralgan edi.

A sar matnan o‘ziga xos, uning qo‘lyozma va nashr shakli bilan tafovutlari ham salmoqlidir. Qo‘lyozmalarning asosiysi (1801) adabiy tilga monand, saroy tilida yozilgan, qolgan qo‘lyozmalarda sheva elementlari ko‘p uchraydi. Masalan, 11873 inventar raqamli nusxada -ni tushum kelishigi, ko‘p o‘rinda -ning qaratqich kelishigi bilan berilgan. Leksik tafovutlar uslubiy bo‘yoqdorlik darajasi bilan farq qiladi:

Qo‘lyozma (1801)	Qo‘lyozma (11873)
قهر قیلیب بهادرغه حاجب باریب شهر خارجی هماندم قوودی انی	قهر قیلیب بهادرغه حاجب باریب شهر خارجی هماندم ایتّی انینک
Borib hojib bahodirg‘a qilib qahr, Ani quvdi hamondam xoriji shahr. [Haft gulshan, 1801: 19b]	Borib hojib, bahodirg‘a qilib qahr, Aning etti hamondam xorij(i) shahr. [Haft gulshan, 11873: 11a]

10114-II inventar raqamli Toshkent va 045492 inventar raqamli Istanbul qo‘lyozmalarida pul – ful, farxunda – parxunda, patir – fatir kabi fonetik farqlar bilan berilgan:

Asl manba (10114-II)	O‘qilishi
مقدم پرخنده اول یتی ینکلیغ بو غم بی بولدی مسافر انی کوروب	Bu yanglig‘ yetti ul <u>parxunda</u> maqdam, Ko‘rub oni muboriz bo‘ldi beg‘am. 74a

Asarning qo‘lyozmalari matnida mazmunni jiddiy zararlovchi leksik farqlar ko‘p emas.

“Ikkinchi gulshan” saxiy va odil podshoh hamda kibrli va manman shoh farqlarini ko‘rsatgan holda, rahnamolarni sadoqatning qadriga yetishga, odil bo‘lishga chaqiradi. Shu bilan bir qatorda, inson o‘z aybiga vaqtida iqror bo‘lishi, tavba rutbasini qo‘ldan bermasligi, bu dunyo odildan ham, xasisdan ham qolib ketishi ertakmonand doston misolida ko‘rsatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. نادر .کتاب هفت کِلشن. O‘zFA ShI Qo‘lyozmalar fondi, inv. № 1801, – 114
2. نادر .هفت کِولشن. O‘zFA ShI Qo‘lyozmalar fondi, inv. № 10114-II, – 63
3. نادر .هفت کِولشن. O‘zFA ShI Qo‘lyozmalar fondi, inv. № 11873, – 103

4. گولشنّامه. Turkiyaning Istanbul shahri Yapı Kredi tadqiqot kutubxonasini Nodir va qo‘lyozma asarlar bo‘limi, inv. № 045492-0240, – 102
5. O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at. Tuzuvchilar: Shamsiyev P., Ibrohimov S. – Toshkent: O‘zbekiston SSR FA nashriyoti, 1953 y. – 454 b.
6. Qayumov A. Asarlar. Qo‘qon adabiy muhiti. 7-jild, 1-kitob. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010 yil. 159-226 betlar.
7. Nodir. Haft gulshan. Nashrga tayyorlovchi: G‘ofirjonova T. – Toshkent: O‘zbekiston SSR FA nashriyoti, 1961 yil. – 212 b.
8. G‘afurjonova T. Nodir va uning “Haft gulshan” dostoni. – Toshkent: Fan, 1982 yil. – 95 b.
9. Jalolovna, H.O. CORRELATION BETWEEN THE SCIENCE OF RHYME AND THE SCIENCE OF BADE’. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY, 181.
10. Hamroyeva, O.J. (2022). CLASSIFICATION OF FINE ARTS IN” HADOYIQ US-SIKHR”. Scientific reports of Bukhara State University, 2022(1), 47-56.
11. Jalolovna, H.O. (2023). SHAMSIDDIN KAYSI RAZI’S” AL-MO’JAM FI MAOYIRI ASH’AR UL-AJAM” IS AN IMPORTANT SOURCE OF POETICS. Academia Repository, 4(11), 81-86.
12. Jalolovna, H.O. (2022). Improvement of the Science of rhyme in treatises of the timurid period. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 342-348.
13. https://uz.wikipedia.org/wiki/Rojputlar

QALBAN DARVESHTAB TEMURIYZODALAR

Xolmatov Tuyg'un,
mustaqil izlanuvchi,
Qashqadaryo viloyati hokimligi huzuridagi
Mahalla xodimlari malakasini oshirish
markazi rahbar o'rinbosari
e-mail: xolmatovtuygun @ gmail. som.

Annotatsiya

M aqolada siyratida darveshta'blik mujassam bo'lgan temuriy podshohlar va shahzodalarning faoliyati xususida, u larning botinida mujassam bo'lgan darveshvashlik xislatlarining nazmiy ijodi bilan vobastaligi, bu xususda ulug' shoir A lisher Navoiyning va boshqa davr tarixchilarining fikr-qarashlari, mazkur masalaning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatiga qaratilgan talqinlar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *tasavvuf ilmi, qalban darveshta'blik, darveshvashlik, darveshta'blik belgilari, shoh va darvesh munosabati, shoh va darveshlikning bir shaxsda birlashishi, ijtimoiy-axloqiy va ma'naviy qarashlarning ahamiyati.*

Abstract

The article is about the activity of Timurid kings and princes who embodied dervishness in their poetry, poetic creation of dervishness qualities embodied in their hearts. The article discusses the connection between the great poet Alisher Navoi and other historians of the period, as well as interpretations focused on the socio-spiritual significance of this issue.

Keywords: *the science of Sufism, spiritual dervishness, dervishness, signs of dervishness, the relationship between a king and a dervish, the union of king and dervishness in one person, the importance of socio-moral and spiritual views.*

Dilda darveshlik havosi bo'lsa gar,
Ul jahon bahrida suzgay bexatar.
Jaloliddin Rumiy

Yaqin tariximizda o'tmishda yashab, o'ziga xos hayot tarzini kechirgan xushta'b, xushkalom, darveshvash temuriy shohlar va shahzodalar to'g'risida har doim ham xolis fikrlar yuritilmagan. Ular o'ta sayoz, jaholatli kishilar sifatida tasvirlanar yoxud keragidan ortiq bo'rttirilar edi. Istiqlol davrida m illatimiz tarixida olamshumul o'rin tutgan buyuk Sohibqiron Amir Temur va temuriylarning f aoliyati bilan bog'liq tarixiy merosimizga yangicha nuqtayi nazarlar bilan yondashildi, hamon tadqiq va tahlil etilmoqda.

O'tmish tariximiz, mumtoz adabiyotimiz namunalarini turli falsafiy qarashlar, tariqatlar silsilasida o'rganishning ahamiyatini izohlashga esa hojat yo'q. Jumladan, tasavvuf ilmi bilan bog'liqlikdagi teran va nozik kuzatishlar. Tasavvuf ilmining nuktadon tadqiqotchisi Najmiddin Komilov temuriy p odshoh Husayn Boyqaro shaxsida qalban darveshvashlik bo'lgani, uning surati shoh-u siyratida d arveshta'blik mujassam bo'lganligini hazrat Alisher Navoiyning satrlari va mumtoz adabiyotimiz haqidagi manbalar asosida jiddiy tahlil qilib, Husayn Mirzo shaxsidagi darveshta'blikning xokisorlik, dardlilik, ogohlik, oshiqdillik kabi belgilarini ko'rsatgan edi [Komilov, 2015: 114-115].

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning ichki dunyosida ham darveshta'blik bo'lgan. B u o'rinda shoh va shoir Bobur Mirzoning qalban darveshvashligi haqidagi ta'kidni ham eslatib o'tishimizning boisi bor, albatta. Bobur hamda Husayn mirzolar hayoti, shaxsiyatidagi ayrim o'xshash jihatlarga e'tibor beramiz. Husayn Boyqaro Xuroson taxtiga kelib, o'zining ma'rifat va madaniyatni r ivojlantirishdek faoliyatini boshlagunga qadar ancha vaqt Bobur yozganidek, "qozoqiylik", ya'ni s arsongarchilik, taxt uchun yurishlarda bo'lgan. Boburning o'zi ham markazlashgan davlat qurish o rzusi yo'lida ko'p mashaqqatlar chekkan. Uning umid va ilinjlari so'nayozgan kezlarda qalbidagi

shoirona tuyg‘ular yordamga kelgan bo‘lib, bu haqda “Boburnoma”dagi qalb izhoroti guvohlik beradi. Husayn mirzo saltanatining bardavom (40 yilga yaqin) bo‘lishida ham ana shunday shoirona tuyg‘ular, ma’rifatga, madaniyatga homiylik maqomidagi shaxs intilishlari o‘z “yumushi”ni qilgan, deya olamiz.

Yana bir jihat: Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida bitilgan ulug‘ shoir Mir Alisher Navoiy Husayn Boyqaroga o‘zining bir paytlar aytgan gaplarini eslatishi bilan bog‘liq voqelik: “Siz bir vaqtda aytgan edingizki, men podsholik ishlari bilan shug‘ullanishdan qo‘l tortadigan bo‘lsam, Shayx Najmiddin Kubro mozorida turaman yoki Xoja Abdulloh Ansoriy ostonasini supuruvchi bo‘laman...” [Xondamir, 2017]. Bu xususda navoiyshunos olim Sultonmurod Olimning “Alisher Navoiy nazdida Abdulloh Ansoriy” nomli maqolasida atroflicha va keng yoritilgan [Olim, 2025]. Ravshanki, Husayn Mirzo botinida shohlikdan qo‘l tortish o‘y-fikri mavjud bo‘lgan. Bu esa ma’lum darajada uning siyratidagi darveshona kayfiyatlardan darak beradi. Husayn Mirzo siyratida darveshta’blik hukm surganini uning ichki ruhiy dunyosi mahsuli bo‘lmish she’riy misralarida ko‘p kuzatish mumkin. Fikrimizning dalilini Rahimjon Vohidovning “Majolis un-nafois” va zullisonaynlik an’anasi” nomli maqolasidagi bir tafsilotda ham uchratdik. Olim Kamoliddin Abdulvose’ Nizomning “Maqomoti Mavlaviyi Jomiy” asarida Jomiyning Husayn Boyqaroga yozgan g‘azali va unga Husayn mirzoning javobiya g‘azali borligi haqida ma’lumot berib, shu g‘azaldan bir parcha keltirgan:

“Nashoyad machmaero guft bazmi ishrat andeshon,
Ki nabvad partavi ro‘yat ba bazmi ishrati eshon.
Ba cho‘z tashvish nabvad taxt chohu atlasi shohi,
Ho‘sho kunchu firoqu dalqi gardoludi darveshon...

(Mazmuni: Har qanday majlisni ishratparastlar bazmi deyish yaramaydi. Shohlik saltanati ham yuz tashvishlardan xoli emas. Bundan ko‘ra, darveshning xaroba go‘shasi, firoq va jandasida bo‘lish avlo...)” [Vohidov, 1993: 153-154]. Bu fikrlar shoh va darveshlik munosabati haqidagi hukmdorning o‘z iqrornomasi yanglig‘ yozilgan. Bu kabi xarakterli satrlar Husayniyning o‘zbekcha devonida ham ko‘p uchraydi:

Ey Husayniy, necha bo‘lmoq benavo ushshoq aro,
Zuhd ohangi qil va o‘zni ofiyat ahliga qot [Boyqaro, 1968: 29].

Qarang, lirik qahramon o‘zini zohidlikka undab, sog‘lom va pokiza insonlar safida bo‘lishga chaqiradi. Bu yerdagi “zuhd ohangi” – dunyodan butkul etak silkib, go‘shanishin bo‘lishni emas, aksincha, benavo oshiqlar – noumid oshiqlar, ehtimol, Haq vasliga yetishish yo‘lidagi umidsizlik, bahrasizlik orasida qolmasdan, pokiza, sog‘lom kishilar jamoasiga qo‘shilishga da’vatni ifodalayotganiga ishonasiz. Qalbi toza, unda Haq jamoliga intilishdan bo‘lak hoy-u havasi bo‘lmagan toifa – darveshlardir, bu “ofiyat ahli”. Ana shu maqta’dan oldingi baytda tasavvufning yo‘l-yo‘riqlaridan boxabar insonning she’riy e’tirofini kuzatamiz:

Bu chaman ahliga,ey bulbul, muqayyad bo‘lma ko‘p,
Kim, sabog‘a sayr yo‘qtur doim-u gulga sabot.

Ya’ni, hamisha ham saboga sayr qilish-u gulga sabot – vafo qilish nasib etmagach, sen ham shu chamanga bog‘lanib, band bo‘lib qolma. Bu baytda nido san’ati orqali lirik qahramonning dunyo ebaqoligini, ammo shu bebaqo dunyoda umr o‘tkinchiligini his etib yashashga intilish hissi ifodalangan. Bu darveshlarning asl qarashi, hayotga munosabatining birlamchi in’ikosi ekanini aytish lozim. Husayniy yana bir baytda Olloh ishqini kuylagan va bu uning siyratidagi oshiqdillikdan dalolat:

Ey Husayniy, ravza ishq ahliga dilbar kuyidir,
Topsalar zuhd ahli jannat, sen aning kuyida kez [Boyqaro, 1968:51].

Ya’ni: (Agar) zuhd ahli (zohidlar) jannat izlab (uni) topsalar, Ey Husayniy, ishq ahliga jannat dilbar(yor) kuyi, sen (ana shu) (yor) kuyida kez.

Husayniy Navoiyning g‘azaliga yozgan bir muxammasida ham o‘zining she’riy e’tirofini bul tariqa bergan:

Buki shayxi shahrimizni xalq der oqil base,
Zuhd-u taqvo-yu fazoyil birla ham komil base,
Ey Husayniy, lek erur bu ish manga mushkil base,
Kim Navoiydin saloh istar, erur, oqil base,
Hirqa-yu sajjodasin ul mayga marhun qildilo [Boyqaro, 1968:152].

Demak, Husayn Boyqarodek “xo‘b ash’ori va marg‘ub abyoti” (yaxshi she’rlari va dilga yoqadigan baytlari) bo‘lgan shoirligi (Navoiy) o‘z navbatida uning darveshvashligiga ruh bag‘ishlagan ko‘rinadi. Shoirlik, nafis olamga shaydolik, ruhiyat dunyosi sayyohining nazmiy iqrorlari – she’riyatga bo‘lgan muhabbat-u rag‘bat undagi darveshvashlik xislatini kuchaytirgan, quvvatlagan, o‘ziga xos “katalizator”lik vazifasini bajargan deyishimiz mumkin. Nafsilamrini aytganda, barcha zamonlarda ham eng avvalo, jamiyatning aqli sanalmish haqiqiy ijodkor, shoir, olimlarda o‘ziga xos darveshta’blik xislati bo‘ladi. Busiz chinakam ilohiy tuyg‘ular oqimi ostida tug‘ilajak yuksak ijod namunalari paydo bo‘lishi qiyin kechadi.

Navoiy darveshta’blikni Husayn Boyqaroga nisbat berganda, nozik jihatlarni nazarda tutgan. Y. Is’hoqov yozganidek, “Shoh bilan faqir (gado, darvesh)ni bir-biriga zid qo‘yib tasvirlash Navoiy falsafiy-nazariy qarashlarining bevosita hayotiy problema bilan bog‘liq, shunga bo‘ysundirilgan holda zuhur etish shakllaridan biri” [Is’hoqov, 1983:50] bo‘lsa, shoh va darveshni birlashtirish g‘oyasi ham, Husayn Boyqarodagi darveshvashlikni ulug‘lash ham uning ma’lum ijtimoiy-axloqiy, ma’naviy qarashlarini ifodalashning bir maqbul yo‘li edi, desak bo‘ladi.

Husayn Boyqaro zamonida, ayniqsa, Hirot muhitida darveshlik oliy mezonga aylanib, uni kasb etish odat tusiga kirgan, turli tabaqalar orasiga yoyilgan edi. Tabiiyki, bundan shoh va shahzodalar ham chetda bo‘lmagan. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida shahzodalardan Sulton Ahmad mirzo, Mirzabek, Sulton Muhammadning darveshta’b bo‘lishganligi ehtirom bilan tilga olinadi. Yana bir o‘rinda Navoiy o‘z zamondoshi, she’riy san’atlar bilimdoni Atoulloh Husayniyning ko‘p fazilatlari ustiga darveshvash bo‘lishni istashini qayd etgan. Darveshiya ta’limoti ham shoir uchun ijtimoiy fikrlar va qarashlarni ifodalash uchun bir maydon vazifasini o‘tagan. Navoiy insonning ruhan kamolotga erishib borishi uchun barcha insoniy fazilatlar bilan birga, albatta, darveshta’blik xislati ham zarur, degan nuqtayi nazarda sobit bo‘lgan. U o‘z davrining peshqadam, teran tafakkurli vakili sifatida eng yuqori tabaqa vakili – podshohning, xususan Husayn mirzoning darveshta’bligini, uning tashqi olami shoh bo‘lsa-da, ichki dunyosida, botinida o‘sha davrning ezgu fazilatli kishilari qatorida ma’lum bir darajada bo‘lsa-da, darveshona xislatlar mujassam bo‘lganini ishonch bilan asarlari qatiga joylashtirganki, bu o‘ziga xos jur’at zamirida ulkan obyektivlik, hayotiylik borligini ta’kidlamoq kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tasavvuf dunyoqarashining muhim jihatlaridan biri – shohlar darveshlarga muhtoj, degan fikrni Navoiy o‘z davri, zamonasi, hukmdorlar faoliyatidan kelib chiqib, yangicha talqin qilgan edi. U shoh-u darveshlik xususiyati bir shaxsda birlashishi mumkinligini ta’kidlagan. Darhaqiqat, “...darveshlik ishqi bilan yashagan shoh – inson oliy ijtimoiy maqomda ham islohga muhtoj ekanini anglagan va uni (ya’ni, o‘zini) o‘zgartirishga jahd etgan donishmanddir. Shohning darveshligi, avvalo, kuchni aql bilan birlashtirish, jismoniy va ma’naviy kamolot sohibi bo‘lish ehtiyojidan tug‘iladi”, degan fikr aniq va topib aytilgan [Qarshibev, 1995]. Hazrat Alisher Navoiy bejiz bir o‘rinda “shoh agar olim bo‘lsa, zavoli bo‘lmas”, deb yozmagan ko‘rinadi. Darveshlik ko‘nglida bo‘lgan inson, u shohmi, olimmi, shoirmi oqibatni chuqur o‘ylashi, adl-u haqni barqaror etishga intilishi aniq. Chindan ham ba’zan u yoki bu shoir yoxud ijodkor (olim, yozuvchi, shoir, rassomdir) shaxsiyati, botiniy dunyosi to‘g‘risida gap ketganda “darveshtabiatli”, “darvesh”, “darveshligi bor”, “xokisor odam”, “chinakam inson”, “beg‘ubor qalbli inson” qabilidagi tavsiflarni eshitamiz. Yana shu ham ayonki, bunday tavsiflar

xalq mehri, olqish-u duosiga sazovor bo‘lgan elparvar rahbarlar sha’niga ham hamisha aytilib kelingan va aytiladi. Ulug‘ shoir e’tirof etgan temuriy shahzodalarning siyratan darveshta’b insonlar bo‘lishi ulardan qolgan o‘lmas meros va qadriyatlardan anglashilib turadi. Bunday qadriyatlar hamma davrda ham qadrli va ahamiyatli bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilov N. Xizr chashmasi. – T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2005.
2. G‘iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq (olijanob xulqlar). Fors tilidan tarjima, izohlar, kirish va ilovalar muallifi Komiljon Rahimov. – T.: Akademnashr, 2017.
3 . Sultonmurod Olim. Alisher Navoiy nazdida Abdulloh Ansoriy// “Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosining u mumbashariyat ma’naviy va ma’rifiy taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusidagi 5-xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Navoiy shahri. “Muruvvatli –dil press” nashriyoti. 2025.
4 . Воҳидов Р. “Мажолис ун-нафоис” ва зуллисонайнлик анъанаси//Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари. Мақолалар тўплами. – Т.: ФАН нашриёти, 1993.
5. Ҳусайн Бойқаро. Девон. Рисола. Ғафур Ғулом нашр. – Т.: 1968.
6. Ҳусайн Бойқаро. Девон. Рисола. Ғафур Ғулом нашр. – Т.: 1968.
7. Ҳусайн Бойқаро. Девон. Рисола. Ғафур Ғулом нашр. – Т.: 1968.
8. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: “Фан”, 1983.
9. Қаршибев М. “Суратда шоҳ, сийратда –дарвеш”. “Тафаккур” журнали, 1995, 1-сон.

BOBORAHIM MASHRAB – NOYOB ISTE'DOD EGASI

Sultonova Vazira Nimatovna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoir Boborahim Mashrab hayoti va ijodining ilmiy, badiiy, lisoniy, tarbiyaviy kabi jihatlari borasida amalga oshirilgan va davom etayotgan talqin va tadqiqotlar yuzasidan fikr yuritilib, bu talqin va tadqiqotlarning ilm-fan, adabiyot, inson kamoloti uchun ahamiyati haqida so 'z yuritiladi

Kalit so'zlar: *komil inson, bahsli muammo, "Mashrab" taxallusi, she'riy asarlar, diniy va tasavvufiy g'oyalar, sharqshunos va adabiyotshunoslar, ilmiy-ommabop maqolalar, Mashrab qiyofasi, ijtimoiy-ma'naviy meros.*

Abstract

This article reflects on the scientific, artistic, linguistic, and educational aspects of the life and work of the poet Boborahim Mashrab, and discusses the significance of these interpretations and studies for science, literature, and human development

Keywords: *perfect man, controversial issue, pseudonym "Mashrab", poetic works, religious and mystical thoughts, orientalists and literary scholars, scientific and popular articles, Mashrab's image, socio-spiritual heritage.*

O'zbek va boshqa turkiyzabon xalqlar adabiyotida o'zining otashnafas, xalqchil she'rlari bilan keng shuhrat topgan, yuksak tafakkur sohibi, xalqparvar, haqiqatgo'y, ko'ngli pok, har tomonlama komil inson, mumtoz o'zbek adabiyotining ulug' namoyandalaridan biri Boborahim Mulla Vali o'g'li Mashrab hayoti, uning tavallud topgan sanasi hanuzgacha bahsli muammo bo'lib turibdi. 1990-yilda shoirning "Mehribonim qaydasan" nomli she'riy to'plami chop etilgan. Ushbu risolaning "So'nggi so'z" qismida Mashrab tug'ilgan vaqti 1653-yil deb ko'rsatilgan. Biroq 1994-yil chop etilgan Mashrabning "Mabdayi nur" nomli kitobidagi muqaddimada Boborahim Mashrab hijriy 1050 (melodiy 1640) yili Namangan shahrining Maddohon guzarida bo'z to'qib, shu orqali tirikchilik qiluvchi Mulla Vali va Bibi Salimalar oilasida tavallud topgan deb ko'rsatilgan.

Jaloliddin Yusufiyning "Uni devonayi Mashrab derlar" maqolasida quyidagi ma'lumotlar berilgan. Is'hoq Bog'istoniy o'zining "Tazkirayi qalandaron" asarida "Hazrati Shoh Mashrab matvlari ayyominda umrlaridin 58 sana kechub edi", deydilar. Filologiya fanlari nomzodi Muhsin Zokirov dalil keltirgan ushbu tazkirani ko'rgan emasman. G'olibo, bu fikr to'g'ri ko'rinadi...

Jaloliddin Yusufiyning bergan ma'lumotlariga ko'ra Rahimbobo dastlabki ta'lim-tarbiyani o'z xonadonida otasi mullo Valibobo va onasi Salimabibilar rahnamoligida olgan. Yosh Rahimbobo mahalliy domla qo'lida ilk saboqni olgach, ilm-ma'rifatda Namanganda dong taratgan Mullo Bozor Oxund qo'lida ta'lim-tarbiya ko'radi, shu davrdan ijodiy ishga kirishib, Umam, Mahdiy, ko'proq Mashrab taxalluslari bilan o'zbek va fors-tojik tillarida she'riy asarlarni yarata boshlagan. Mashrab ma'lum muddat Mulla Bozor Oxundda diniy ta'limot va so'fiy tariqatlari bo'yicha bilimini oshiradi. Taxminan 1665-yillarda Mulla Bozor Oxund tavsiyasiga ko'ra o'sha zamonda katta obro'ga ega bo'lgan yirik din arbobi qoshg'arlik Hidoyatullo Ofoq Xoja eshon huzuriga boradi. Boborahim ko'p bilimlar sohibi, fozil Ofoq Xojaga sidqidildan murid tushadi, uni o'ziga murshidi komil deb qabul qiladi va yetti yil uning dargohida xizmatini o'taydi, yumushlarini bajarib, saboq oladi, muridlari qatorida kun kechiradi. Qissalarda ta'kidlanishicha, she'riyatni yuksak qadrlagan Ofoq Xoja Boborahimning ijodiy iqtidorini yuqori baholaydi, hatto "Mashrab" taxallusini ham u tavsiya etadi. Mashrab g'azallarining birida uchrovchi mana bu baytda ham xuddi shu mazmun ifodalangan:

Quddisa sirrihu Xojam otimni "Mashrab!" dedilar,
Koshg'aru Yorkand ichida sohibi guftor o'zim!

Mashrab asarlarining aksariyati chuqur ijtimoiy yo‘nalishga ega bo‘lib, o‘sha davr hayoti, jamiyatdagi voqea-hodisalar bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, u ba’zi ruhoniylarning kirdikorlari va hiylagarliklarini fosh etadi, tekinxo‘r mulkdorlar va johil amaldorlarning zo‘ravonlik faoliyatlarini tanqid qiladi. Mashrabning bu tur asarlari qo‘ldan qo‘lga, og‘izdan og‘izga o‘tib, tez tarqalgan. Mashrab qoldirgan badiiy meros hajm va janrlar jihatidan hanuzgacha aniqlangan emas. Ammo bizga hozirgacha ma’lum asarlarining o‘zi ham Mashrabning favqulodda noyob iste’dod egasi ekanligidan dalolat beradi. Mashrab ijodi she’riyatning yanada kengroq ijtimoiy mazmun va jangovar ruh kasb etishida, adabiyotdagi xalqchillik va dunyoviylikning chuqurlashuvi hamda badiiy san’atning kamolotga erishuvida yangi yuqori bosqichni tashkil etadi. Mashrabning g‘azal, mustazod, murabba’, muxammas, musaddas, musabba, masnaviy, ruboiy, ta’rix kabi janr turlarida bitilgan lirikasida inson qadri-sharafi va ma’naviy kamolotini ulug‘lashga, ezgulik va go‘zallikni madh etishga bag‘ishlangan namunalarni uchratamiz. Mashrab avvalo mohir g‘azalnavis hamda ko‘plab sho‘x va jarangdor mustazodlar, o‘ynoqi va jozibador murabba’ hamda xalq g‘amu hasratiga hamdardlik hissi bilan yo‘g‘rilgan muxammaslar ijodkori sifatida keng dovrug‘ chiqargan. Mashrabning juda ko‘p g‘azallari sodda va jarangdor, jo‘shqin va ta’sirchandir.

Mashrab o‘zbek adabiyoti tarixida eng ko‘p mustazod yozgan ijodkorlardan biri. Shoir mustazodlari ham, xuddi g‘azallari kabi, sho‘x va jarangdor nafis va zavqbaxshdir. Mashrab mustazodlarida insoniy sevgi-muhabbatni kuyladi, shu zamin go‘zalini madh etdi, uning barkamol chiroyi va latofatini ulug‘ladi, sadoqat va vafodorlikni chin ijobiy fazilatlar sifatida targ‘ib etdi. Shoir qoldirgan ijodiy merosda diniy va tasavvufiy g‘oyalar ham, o‘sha zamonda keng tarqalgan qalandarlik tariqatining ayrim ohang-ta’kidlari ham sezilarli o‘rin egallaydi. Shoir she’rlarida Allohning mavjudligi, boru birligi, barcha jonli va jonsiz mavjudotni yaratganligi uzil-kesil va qat’iy tan olinadi, Xudoning kuch-qudrati, taqdirning o‘zgarmasligi va Mahshar kuni haqidagi ta’limot to‘la-to‘kis qabul qilinadi.

Mashrab – qalandar shoir. Uning qalandarlikdan maqsadi tarkidunyochilik emas. Asli tarkidunyochilik “xilvat dar anjuman”dadir. Boshqacha aytganda, xalq orasida yashagani, muloqotda bo‘lgani holda, qalban Olloh yodi bilan yashamoqdir. Shoirning bir taxallusi Mahdiy. Taxallus tanlar ekan, avvaldan o‘ziga ma’naviy-ruhiy tomondan to‘la mos tushishini nazarda tutadi. Mahdiy – hidoyat qiluvchi, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi demakdir. Mashrabning maqsadi ham shu. Mashrabning qalandarligi butunlay o‘zgacha a’mol, saxovatpesha inson matlabi bo‘lib, tilamchi, ta’magir qalandarlarning qalandarligiga sira-sira o‘xshamaydi.

Yuqorida aytganlarimizdan har birining o‘z taqlidchilari bor. Malomatiylar taqlid qiluvchilar ibodatlarining ko‘rinishlariga ahamiyat bermaydilar. Turli odamlarga moslashib ketaveradilar. Har kimga shirin so‘z aytib, kulib, kuldirib qalb ishonchini qozonishga harakat qilishadi. Nafila ibodatlarini qilmaydilar. Farzlarga e’tibor beradilar. Dunyo hirsi, havasiga berilmaydilar. Bular qalandarlar deyiladi. Riyokorlik qilmaganliklari uchun malomatiylarga o‘xshaydilar. Qalandarlar botinni tozalash va nafsni o‘ldirish uchun kurashadilar. Ammo ko‘p ibodat qilmaydilar. Ular ham Ollohning sifatlarini bu dunyoda turli maxluqotlarda ko‘rish uchun harakat qiladilar. Mashrab qalandar bo‘lgani holda, yuqorida keltirilgan tasavvuf yo‘lidagilarning birinchilari maqomatidadir. Uzoti sharif Rasululohning iznida yurib kamolotga erishganlar. Xalq orasida bo‘lib, ularning qalblarini g‘aflatdan uyg‘otish, g‘ubor bosgan ko‘ngil oyinalarini tozalashdek murakkab vazifalarni bajarish borasida umr bo‘yi xizmat qildilar Oxiratda o‘zi uchun Jannatu Rizvonni emas, Ollohning diydorini ko‘rish, Rasuli Akram alayhissalomga ergashish orzusida yashadilar.

Boborahim Mashrab hayoti va ijodi uzoq yillar davomida ko‘pchilikning diqqat-e’tiborini o‘ziga tortib keldi, sharqshunos va adabiyotshunoslar tomonidan turli yo‘nalishlarda o‘rganildi, birmuncha ilmiy asarlar, nomzodlik dissertatsiyalari, ilmiy-ommabop maqolalar, roman, qissa, badiya, sahna asarlari yaratildi. Jumladan, yirik shoir Nodim Mashrabga oid materiallarni to‘plab o‘rganadi, bir necha maqolalarni e’lon qiladi va nihoyat 1910-yilda shoir haqidagi qissani rus tiliga tarjima etib,

s harh-izohlar bilan nashr qiladilar. Mashhur olim, professor V.L.Vyatkinning 1923-yilda «Al-Iskandariya» to‘plamida bosilgan maqolasi ham alohida o‘rinda turadi.

O ‘zbek tasavvuf adabiyoti Mashrab qiyofasida yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu yo‘nalishda u ning: Soldim tun-u kun nafs itim birla urushni, Tanho qilichi birla urub hay-haylab o‘ttum, – yoki “Ma’rifatni xonaqosina qadam kelturmisham” singari bayt va misralari e’tiborga loyiqdir. “Bir Xudodin o‘zgasi barcha g‘alatdur, Mashrabo”, degan misrada Mashrab ma’naviy olami boricha bo‘y k o‘rsatib turibdi. Mashrabning so‘z qo‘llash mahorati yuksak. “Qoshi qarosini ko‘rung”, “Jonim c hiqdi”, “Urayinmu boshima”, “Hay-haylab o‘ttum” singari xalqona iboralar shoir she’riyatidagi s hiradorlikni ta’minlagan. Mashrabning aksariyat bayt va misralari hayotiy hikmatlar darajasiga yetgan desak mubolag‘a bo ‘lmaydi.

Yaqin davr o‘zbek adabiyotshunosligida ham Mashrab ijodiga jiddiy e’tibor berilgan. Bu o‘rinda Izzat Sulton, V.Zohidov, I.Mo‘minov, G‘afur G‘ulom, A.Hayitmetov, V.Abdullayevning matbuotda b ayon etgan fikrlari diqqatga sazovordir. Tadqiqotchilardan Z.Rizayev, Muhsin Zokiriyning M ashrab haqidagi olib borgan ishlari ham shoirning hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog‘liq masalalarni yoritishda, mashrabshunoslikda erishilgan yutuqlarni umumlashtirishda yaxshi natijalar b erdi. Boborahim Mashrab fors tilida ham bir necha she’riy turlarda yetuk namunalarni yaratgan. S huningdek, uning ijodi keyingi asrlar adabiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Nodira, Huvaydo, Qoriy, Furqat, Hamza kabi shoirlar uning g‘azallariga taxmis va naziralar bog‘laganlar. Ayni paytda Boborahim Mashrab asarlari rus, qozoq va xorijiy tillarga tarjima qilinib chop etilgan. Shuningdek, M ojor sharqshunosi Xerman Vamberining 1867-yili Leypsigda nashr qilingan “Chig‘atoy tili d arsligi”da Mashrab g‘azallarining dastlabki tarjimalari keltirilgan. Keyinchalik bu tarjimalar turli t o‘plamlarda nashr qilingan. Jumladan, 1909-yili Leypsixdagi “Julius Zeitler” (“Yulius Saytler”) n ashriyotida jahondagi turli millat shoirlarining olmon tiliga o‘girilgan ishqiy she’rlari chiroyli muqovada nashr etilgan. “Der Voeiker Litbesgarten” (“Xalqlarning ishq bo‘stoni”) deb nomlangan ushbu to‘plamni Paul Zeliger nashrga tayyorlagan bo‘lib, unga Mashrabning “Kuydi jonim o‘rtanib, ul yor kelmaydur hanuz...” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali kiritilgan.

M ustaqillik yillarida adabiyotshunoslar Mashrabning hayoti va ijodi to‘g‘risida ilmiy-ommabop m aqolalarni chop etdilar. Jumladan, filologiya fanlari doktori A.Abdug‘afurov, Jaloliddin Y usufiy, Juzjoniy Abdulhakim Sharviy, Nusratullo Jumaxo‘ja, N.Karimov, G‘aybulloh as-Salom, D .Hamroyevalarning Mashrab hayoti va ijodini yorituvchi asarlari talaygina. Ilmiy ishlardan esa E .Musurmonov “Mashrab va uning badiiy adabiyotdagi talqini”, D.Hamroyeva “Boborahim M ashrab g‘azallari poetikasi” (Ma’no, obraz va istiloh misolida) kabi mavzularda nomzodlik dissertatsiya- larini himoya qilganlar.

H .Begmatov “Devona Mashrab” romanini (2005), Kimsan Mashrab Turon o‘g‘li “Devona Mashrab” badiyasini (2006) yaratganlar. Shuningdek, dramaturg Nasrulla Qobul, rejissyor Ahmad Farmonov, rassom Baxtiyor To‘rayev, bastakor Farhod Olimov, aktrisa Zulayho Boyxonova Muqimiy nomidagi musiqiy teatrning yana o‘nlab jonkuyar san’at ahli “Na malakman, na farishta” (Mashrab) spektaklini yaratib, tomoshabinlar hukmiga havola etdilar.

S huni alohida ta’kidlash lozimki, 2002-yilda chop etilgan “Umrboqiy qo‘shiqlar” mashhur qo‘shiqlar to‘plamiga Boborahim Mashrabning 24 ta g‘azallari kiritilgan bo‘lib, ushbu g‘azallar asrlar d avomida xalq hofizlari tomonidan sevib kuylanib kelingan va hozirgi kunda ham avj pardalarda yangrayotgan qo‘shiqlardir. Ushbu qo‘shiqlarning ayrimlari kinofilm va videofilmlarda ham kuylanib kelinmoqda.

F ilologiya fanlari doktori, professor, sharqshunos olim Ismatulloh Abdulloh Mashrabning “Mabdai nur” asariga so‘z boshi yozib, uni nashr etdi. Namanganda Mashrab g‘azallaridan saralab, uning she’riy to‘plamini chop etdi. Xatirchilik Mashrab fidoiysi uning “Devon”larini nashr ettirdi. XX asr 70-80-yillarida Muhsin Zokirov ikkita tadqiqot e’lon qildi. Dilorom Hamroeva doktorlik

t adqiqoti ustida ish olib bormoqda. Musaxon Tojixo‘jaev va Mo‘minjon Siddiqov nomzodlik dissertasiyasi ustida ish olib bormoqdalar. Erkin Musurmonov “Qissai Mashrab”ni tahlil etib, ilmiy daraja oldi.[1]

U lug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri, faylasuf Boborahim Mashrab ijodiy merosi haqida fikr yuritilganda, samimiyat va faxr bilan ta’kidlash joizki, bugungi kunda ham uning ijtimoiy-ma’naviy m erosiga bo‘lgan qiziqish, shoir asarlarining chop etilishi va u haqda tadqiqotlar ko‘lamining kengayishi ilm ahli olamida dolzarb jarayonlardan biri sifatida davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобораҳим Машраб. Кимё. / Нашрга тайёрловчи Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. – Н.: Наманган, 1999.
2 . Бобораҳим Машраб. Алифни дилга жо қилмоқни бисмиллоҳдан ўргандим./ Нашрга тайёрловчи Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. – Н.: Наманган, 1999.
3. Исҳоқова З. Машраб. – Т.: Абу матбуот-концалт, 2011.
4. Хошимхонов М. Машрабнинг ижтимоий-фалсафий қарашлари: Фалсафа фан. номз... дисс.. – Т.: ЎзФА Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 1995.
5. Исмоилов С. Комил инсон: тарихийлик ва замонавийлик. // Жамият, цивилизация, давлат: ижтимоий тарихий тараққиёт омиллари: Республика илмий-назарий анжуман тўплами. –Т.: 2007.
6. “Mashrabi mo‘’tabar o‘zum”. (Mashrabning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashi). To‘ldirilgan ikkinchi nashr. 22,5 bosma taboq. “IXTIYOR RISO PRINT” bosmaxonasida chop etildi. – T.: 2014.
7. Sultonova V. INTERPRETATION OF THE IMAGE OF MASHRAB IN MIRKARIM ASIM’S STORY “SINGAN SETOR”. – 2022.
8 .Sultonova, Vazira. “INTERPRETATION OF THE IMAGE OF MASHRAB IN MIRKARIM ASIM’S STORY” SINGAN SETOR”. (2022).
9.Sultonova, V. (2022). INTERPRETATION OF THE IMAGE OF MASHRAB IN MIRKARIM ASIM’S STORY “SINGAN SETOR”.
10.Sultonova V. Adabiy an’ana: uslub va badiiy mahorat //FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI. – 2024. – T. 2. – №. 2.
11.Sultonova V. Adabiy an’ana: uslub va badiiy mahorat //FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI. – 2024. – T. 2. – №. 2.
12. Sultonova, Vazira. “Adabiy an’ana: uslub va badiiy mahorat.” *FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI* 2.2 (2024).
13. Sultonova, V. (2024). Adabiy an’ana: uslub va badiiy mahorat. *FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI*, *2*(2).
14. Sultonova V. Adabiyot ta’limida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati //FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI. – 2024. – T. 2. – №. 2.
15. Sultonova, Vazira. “Adabiyot ta’limida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati”. FILOLOGIYA UFQLARI

[1] “Mashrabi mo‘tabar o‘zum”. (Mashrabning ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashi). To‘ldirilgan ikkinchi nashr. 22,5 bosma taboq. “IXTIYOR RISO PRINT” bosmaxonasida chop etildi. Toshkent, 2014.

ABU BAKR XORAZMIY HAYOTI HAMDA IJODIY BIOGRAFIYASIGA OID MANBALAR

Sulaymonova Hulkar Mo'minjonovna,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
e-mail: *sulaymonovahulkar17@gmail.com*

Annotatsiya

Mazkur maqolada X asr Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandasi, shoir va nasrnavis Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy (935-993) ilmiy biografiyasini yaratishda asos bo'ladigan adabiy-bibliografik manbalar tahlil qilinadi. Unda adib zamondoshlari tomonidan yaratilgan tazkiralar, tarixiy bibliografik asarlar, muallif asarlari va zamonaviy sharqshunoslikdagi ilmiy tahlillar asosida Xorazmiyning hayot yo'li, ijodiy faoliyati, adabiy muhitdagi o'rni haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: *Abu Bakr Xorazmiy, ilmiy biografiya, adabiy manbalar, bibliografik asarlar, tazkira, Abu Mansur Saolibiy.*

Abstract

This article examines the literary and bibliographical sources that serve as the foundation for constructing the scholarly biography of Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbas al-Khwarazmi (935–993), a prominent poet and prose writer of the 10th-century Khwarazm literary milieu. Drawing on tadhkiras compiled by his contemporaries, historical and bibliographical works, the author's own writings, and modern Orientalist research, the study provides information on al-Khwarazmi's life, creative activity, and his place within the literary environment of his time.

Key words: *Abu Bakr al-Khwarazmi, scholarly biography, literary sources, bibliographical works, tazkira, Abu Mansur al-Tha'alibi.*

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikda muallif biografiyasini o'rganish shunchaki yordamchi ma'lumot to'plash emas, balki matn tarixini o'rganishda aksariyat hollarda asosiy kalit vazifasini bajaradi. Chunki har bir adabiy manba ortida muayyan shaxs, uning taqdiri, ruhiy va ijtimoiy tajribasi turadi. Shu bois ijodkor hayot yo'lini tiklash, uning fikriy evolyusiyasini ko'rsatib berish, u yashagan ijtimoiy, madaniy muhitni aniqlash matn tahlilining mazmundor va xolis bo'lishiga bevosita xizmat qiladi.

O'rta asrlarga xos bo'lgan manba va uning muallifi biografiyasini o'rganishning o'ziga xos mashaqqatlari mavjud. Chunki bu jarayonda atribusiya (matn muallifini aniqlash) va ateteza (biror asar(matn) muallifi noto'g'ri ko'rsatilgan holda uni noo'rin mualliflikdan himoya qilish) bilan bog'liq chalkashliklar va bir-biriga zid ma'lumotlar tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun bu jarayonda manbalarni solishtirish, tahlil qilish, haqiqiy biografik qiyofani tiklash nafaqat yakka shaxsni, balki butun bir davr adabiy-ilmiy muhitni qayta kashf etish imkonini berishi mumkin.

Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy o'z zamonasining yetakchi qalam ahllaridan, nasr va nazmda faol ijod qilgan adiblardan biri bo'lishiga qaramay, uning hayoti va ijodi o'zbek tadqiqotchilari tomonidan hali o'rganilmagan. Hatto, rus va Evropa sharqshunosligida ham kichik hajmli informatsion maqolalarni hisobga olmaganda, adib ijodiga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlarni uchratmadik. Biroq arab olimlari Abu Bakr Xorazmiy ijodini bir muncha qiziqish bilan o'rganganlar. Ammo ta'kidlash kerakki, mazkur tadqiqotlarda Xorazmiy biografiyasi va ijodiy merosi xususida ba'zan qarama-qarshi fikrlar, isbotlanishi talab etiladigan jihatlar ham uchramoqda. Bu kabi holatlar shu paytgacha olib borilgan tadqiqotlarni yangi aniqlangan ishonchli manbalar bilan solishtirib, tanqidiy qayta ko'rib chiqishni taqazo qilmoqda.

Xorazmiy ijodiga qiziqish va e'tibor o'z zamonasidayoq boshlangan bo'lib, ko'plab zamondosh ijodkorlar uning nomini faxr bilan tilga olgan. Adib zamondoshlaridan eng ishonchli ma'lumotlarni taqdim etuvchi bu uning eng yaqin shogirdi va do'sti Abu Mansur Saolibiy(961-1038)dir. Saolibiy o'zining eng mashhur asari "Yatimadu-d-dahr" tazkirasida ustoziga "Zamonasining eng donosi, adab dengizi, nasr va nazmning tug'i, fazl va idrok olami" [Saolibiy, 1976:227] deya yuksak ta'rif bergan. Abu Bakr Xorazmiyning "Devon ash-shi'r" (She'rlar devoni), "Ar-rasail" (Maktublar) "Amsal" (Maqollar) kabi asarlaridan ko'plab nazmiy va nasriy namunalarni taqdim qilgan. Bundan tashqari, biroz keyinroq, **as-Sam'oniy (1167-1113)** o'zining "*Kitab al-ansob" asarida* Xorazmiy haqida ikki o'rinda to'xtalib o'tgan. "Abu Bakr Muhammad ibn Abbos al-Xorazmiy at-Tabarxaziy taniqli shoirlardan. Otalari Tabaristondan, onalari Xorazmdan. Shuning uchun ikki nisbat bir qilinib, qisqartma shaklda "At-Tabarxaziy" deyilgan. Bu nisbat bilan ham shuhrat qozonganlar. Men bu zotni "xo" harfida eslatgan edim. Lekin bu nisbat bilan ham tanilganlari uchun yana "itqi to" harfida zikr qildim. Bu Abu Bakr al-Xorazmiydir. Arab tilshunosligi va uning usullarini yoddan bilardilar. Zabardast shoir edilar. Bag'dodda Abu Ali Ismoil ibn Muhammad as-Saffor, Abu Bakr Ahmad ibn Komil al-Qozi va boshqalardan hadis ilmidan ta'lim olganlar. Hijriy 383 (milodiy 994) yilning ramazon oyida Nishopurda vafot etganlar", [Al-Ansob: (Movarounnahr ulamolari)] deya muhim biografik ma'lumotlar, uning ijodiy merosi haqida qaydlarni beradi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Abu Bakr Xorazmiy lug'atshunoslikda, arablarning nasablari, kunyalari borasida juda kuchli olim bo'lgan va o'z salohiyati bilan ko'plab zamondoshlarini hayratga solgan. Sam'oniy keltirgan rivoyatga ko'ra, Abu Bakr bir kuni vazir va shoir Sohib ibn Abbodning nufuzli majlisida ko'rimsiz va eski kiyimda hozir bo'ladi. Buni ko'rgan majlisdagilar uning ustidan kulmoqchi bo'ladilar. Bir kishi Xorazmiyni arab tilini bilmasa kerak, deb o'ylab, "Bu it kim bo'ldi?", deydi. Abu Bakr Xorazmiy shu zahotiyoq arabchalab: Aslida haqiqiy it bu yigirma tilni bilmadigan kishidir, deydi. Bu bilan Abu Bakr o'zining 20 tilni bilishiga, shu bilan birga uni kamsitgan kishining johilligiga ishora qilgan edi. Shoirning zakosidan ta'sirlangan majlis ahli darrov uning hurmatini o'rniga qo'yadilar. Shuningdek, Sam'oniy Al-Hakim Abu Abdullohning "Nishopur tarixi" kitobiga asoslanib, Abu Bakrning Bag'dodda Abu Ali Ismoil ibn Muhammad as-Saffor va uning zamondoshlaridan ilm olganini yozib qoldirgan [Kamoliddinov, 1991].

Ibn Xallikan "*Vafayat al-ayan" asarida* Abu Bakr Xorazmiy haqidagi ma'lumotlarni yozishda Sam'oniyning yuqoridagi kitobiga tayangan. Biroq u Xorazmiyning buyuk iste'dodi haqidagi boshqa bir rivoyatni keltirgan. Unga ko'ra, Abu Bakr vazir Sohib ibn Abbod huzuriga kirmoqchi bo'lib izn so'raydi. Xizmatchi chiqib, vazir faqat badaviy arab shoirlari she'rlaridan 20 ming bayt o'qiy oladigan kishini qabul qila olishini ma'lum qiladi. Bunga javoban Abu Bakr: 20 ming bayt shoirlarning ijodidan bo'lsinmi yoki shoiralarningmi? deydi. Buni eshitgan Sohib ibn Abbod: "Bu albatta Abu Bakr al-Xorazmiy bo'lishi kerak! Uni darhol kiriting - deb, shoirni katta hurmat bilan kutib olgan ekan [William MacGookin de Slane, 1868: 108-110].

Ibn al-Asir "Al-komil fit-tarix" kitobi hoshiyasida Abu Bakr to'g'risida qimmatli fikrlarni yozib qoldirgan [Tornberg, C. J., 1867:523-524].

1219-yilda Xorazmga kelgan Yoqut Hamaviy *"Mu'jam ul-udabo" kitobida ko'plab xorazmlik ijodkorlar qatorida Abu Bakr Xorazmiy nomini ko'p marta tilga olib*[ياقوت الحموي , 1993] , *uning biografiyasi va ijodi haqida qaydlarni qoldirgan.* Mazkur asar Xorazmdagi adabiy muhit va unda Xorazmiyning o'rni, uslubi va taniqli shaxslar bilan aloqasi haqida ma›lumot beruvchi qimmatli manbadir. Mashhur turk biografi **Xoja Xalifa (Katib Chalabey)** "*Kashf az-zunun" asarida* Xorazmiy asarlari va ularning mazmuni haqida bibliografik ma›lumotlarni taqdim etgan.

Xorazmiy zamonasidan XIX asrgacha bo'lgan asarlarda asosan adibning sha'niga olqish va maqtovlar, kitoblaridan she'riy iqtiboslar keltirilgan bo'lib, ularda ilmiy-tanqidiy fikrlar deyarli kuzatilmaydi. Ammo XX asrda Xorazm madaniyati haqida ensiklopedik ruhdagi asar muallifi falastinlik olima **Hind Husayn** Toha Abu Bakr Xorazmiy shaxsiyatiga alohida e'tibor qaratdi. U "Al-Adab al-arabiy fi iqlimi

Xovarazm" ("Xorazm diyorida arab adabiyoti") nomli kitobida Abu Bakr Xorazmiy hayoti va ijodiga ikki o'rinda to'xtaladi. Nazm va nasrdagi merosini alohida tadqiq qiladi. Hind Husayn Toha o'zining magistrlik dissertasiyasi uchun mazkur mavzuni tanlashiga ikki sababni ko'rsatadi, birinchidan u talabalik davridayoq Xorazm adabiyotiga alohida qiziqish bilan qaragan, shu sababli unga doir har qanday ma'lumotni hijjalab yig'ib, astoydil o'rgangan, turli manbalarni qiyinchilik bilan qidirib topgan. Qolaversa bu mavzu ancha jiddiy va o'ziga xos dolzarblik kasb etishiga qaramay ko'p vaqtlar tadqiqotchilarning nazaridan chetda bo'lib kelgan. Hind Husayn Tohaning ko'p yillik sermashaqqat mehnati mahsuli o'laroq "al-Adab al-arabiy fi iqlimi Xovarazm" nomli 519 betdan iborat kitob 1976 yili Bag'dodda nashr etildi. Xorazm adabiy muhiti haqidagi bu muhtasham asar bilan o'zbek o'quvchisini birinchi bo'lib Ismatulla Abdullaev tanishtirdi[Abdullaev, 2002]. Olim "Xorazm adabiyoti haqida yirik tadqiqot" nomli maqolasida arab olimasining Xorazm adabiyoti, tarixi, va madaniyatiga qiziqishi va bu boradagi mehnatlarini shunday olqishlaydi: "Biz, o'zbek olimlari ham diyorimizdan minglab chaqirim masofada bo'lgan, Xorazm yurtini ko'rmay, uning adabiyotiga mehr qo'yib, necha yillar ranju zahmat chekib, ushbu adabiyotimiz tarixi uchun nihoyatda qimmatli asarni ro'yobga chiqargan falastinlik olima haqiqatdan katta savobli ilmiy ishga qo'l urib, uning uddasidan chiqa olganiga iqror bo'lishimiz va Hind Husayn Tohaga minnatdorchilik izhor etishimiz kerak" [Abdullaev, 2008: 359-360]. Darhaqiqat, arab olimasining mazkur tadqiqoti Xorazm arablar tomonidan fath etilgan 712-yildan to Xorazmshohlar davlati tugatilgan 1230-yilgacha bo'lgan 518 yillik adabiy hayot xususida bo'lib, unda shu davr ichida Xorazmda yozilgan arab tilidagi she'riy va nasriy asarlar chuqur o'rganilgan, ayrim shoir va adiblar ijodi keng yoritib berilgan. Olimaning arab adabiyotida rasail janrining eng chiroyli namunalarini yaratgan Abu Bakr Xorazmiy, arab olamida "Faxrul Xavarazm" ("Xorazm faxri") nomi bilan tanilgan Abulqosim Mahmud Zamaxshariylarning she'riyati va nasriy asarlari haqidagi izlanishlari ayniqsa, diqqatga sazovardir. Chunonchi, kitobning 1-bob 2 fasli hamda 2-bob 3-fasllarida Abu Bakr Xorazmiyning nazm va nasrdagi ilmiy adabiy merosi nihoyatda sinchkovlik va hassoslik bilan yoritilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, arab adabiyotshunoslari orasida Abu Bakr Xorazmiy ijodiga e'tibor aynan Hind Husayn Tohaning "Xorazm diyorida arab adabiyoti" kitobidan keyin ancha kuchaydi va keyingi davrda adib hayoti va ijodiy biografiyasini o'rganish borasida salmoqli maqolalar yozildi.

Ammo shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, Abu Bakr Xorazmiy biografiyasining eng ishonchli manbasi bu albatta uning umri davomida zamondoshlariga (shoh, amir, vazir, davlat amaldorlari, shoir, olim va adiblar)ga turli munosabat bilan yozgan xatlaridan tuzilgan "Rasailu-l-Xorazmiy" (Xorazmiy maktublari) asaridir. Adib o'z maktublarida adresatga murojaat qila turib, biografiyasiga oid ayrim ma'lumotlarni ham keltirib o'tadi. Masalan, u "Xorazmshohga" sarlavhali maktubida shunday yozadi: *Amir yaxshi biladiki, marhum otam shunday boylik qoldirganki, agar uni bir shahar ahliga berganida, ularga kifoya qilardi. Agar uni dunyodagi barcha kambag'allarga ulashganida edi, ularni boy qilardi. Ammo hayotning qilmishlari meni Xorazmda yuzma-yuz qo'yib, ochiqdan-ochiq urush qildi, yashirincha nayranglar ishlatdi. Oqibatda, men u erdan qo'limda hech vaqo yo'q holda chiqib ketdim. Oldinlari men boylikda Ka'ba kabi mashhur edim, endi esa tosh kabi kambag'al bo'lib qoldim. Oldin bayram kunidek hurmatda edim, endi esa ehrom kiygan muhtoj kabi kambag'alman* [Al-Khuwārizmī, 1970: 186-187]. Bundan ma'lum bo'ladiki, ayrim tadqiqotchilar keltirganidek, adibning onasi emas, otasi xorazmlik bo'lib, boy-badavlat, obro'li kishi sifatida tanilgan. Shuningdek, ayrim xorazmiyshunoslar ta'kidlaganidek, Abu Bakr "ilm talabida" emas, balki, nohaqlik va turli sinovlar tufayli ota yurtini tark etishga majbur bo'lgan. Vaholanki, Abu Mansur Saolibiyning dalolat qilishicha, u Xorazmdan chiqib ketgunga qadar ko'plab ilmlarni egallab, shuhrat topishga ulgurgan edi. Shundan keyin boshlangan g'urbat yillarida u turli shaharlarda adabiy majlislarda qatnashadi, Nishopurda bir qancha muddat muallimlik qilib, ko'plab mashhur kishilarni tarbiyalaydi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, Abu Bakr Xorazmiy hayoti va ijodiy biografiyasini qayta tuzishda adibning mualliflik asarlari, uning zamondoshlari tomonidan yaratilgan bibliografik asarlar

va tazkiralarda keltirilgan ma’lumotlarga tayanish, shuningdek, keyingi davrlarda amalga oshirilgan tadqiqotlarga tanqidiy yondashish, faktlarni qiyosiy tahlil qilish va o‘zaro solishtirish aniq hamda ishonchli xulosalar chiqarishga asos bo‘ladi. Bunday kompleks yondashuv nafaqat Xorazmiy shaxsiy biografiyasining xolis ilmiy manzarasini tiklashga, balki uning ijodiy merosini davr adabiy-ilmiy muhiti bilan uzviy bog‘liq holda baholashga, shu orqali o‘rta asr Xorazm adabiyoti tarixini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tornberg, C. J. (Ed.). (1867). Ibn al-Athir. Chronicon quod perfectissimum inscribitur (Vol. 10, pp. 523–524). Leiden: E. J. Brill.

2. Ibn Khallikan. (1868). Biographical Dictionary (Vol. 3, pp. 108–110). (W. MacGuckin de Slane, Trans.). Paris: Oriental Translation Fund.

3. هند، حسين طه. (1976). الأدب العربي في إقليم خوارزم منذ الفتح العربي حتى سقوط الدولة الخوارزمية (39هـ). بغداد: وزارة الإعلام.

4. Абу Мансур ас-Саолибий. (1976). Йатимат ад-даҳр. И. Абдуллаев (таҳқ., тарж., изоҳ.). Тошкент: Фан.

5. عائض، سعد الحارثي. (1977). أبو بكر الخوارزمي: حياته وأدبه.

6. أحمد أمين مصطفى. (1985). أبو بكر الخوارزمي: حياته وأدبه. القاهرة: الهيئة المصرية العامة للكتاب.

7. السيد إبراهيم محمد الدد. (1985). أبو بكر الخوارزمي: حياته، شعره، رسائله. القاهرة.

8. Камолиддинов, Ш. (1991). Сведения Сам’ани об ученых и поэтах Хорезма. Материалы по истории и истории науки и культуры народов Средней Азии. Ташкент: Фан.

9. ياقوت الحموي. (1993). معجم الأدباء = إرشاد الأريب إلى معرفة الأديب (إحسان عباس, Ed.). بيروت: دار الغرب الإسلامي.

10. Абдуллаев, И. (2002). Хоразм адабиёти ҳақида йирик тадқиқот. Шарқ машъали, №1.

11. Абдуллаев, И. (2008). Мерос ва талқин (мақолалар тўплами). Тошкент: Фан, 359–360.

12. Al-Khuwārizmī, A. B. M. ibn al-ʻAbbās. (1970). Rasāʾil Abī Bakr al-Khuwārizmī (N. W. Khāzin, Ed.). Bayrūt: Dār Maktabat al-Ḥayāh.

AHMAD YUGNAKIY ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALASI VA AXLOQIY QARASHLAR TARANNUMI

Abduraimova Shohista Bozor qizi,
University of Busines and Science
(Toshkent filial) I kurs magistranti
e-mail: shohistaabduraimova32@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada milodiy XI-XII asrlarda Movarounnahr va Turkistonda yashab, ijod etgan mutafakkir alloma zot, adib Ahmad Yugnakiyning asarlari orqali bugungi kunimiz yoshlarining ma'naviy dunyosini boyitish, axloqiy qarashlarini shakllantirish, shuningdek, yoshlarning ta'lim-tarbiya masalalari yuzasidan qimmatli fikrlari va o'z davri uchun muhim ahamiyat kasb etgan axloqiy-tarbiyaviy (pedogogik) qarashlari yuzasidan qimmatli fikr va mushohadalar bildirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Ahmad Yugnakiy, axloq, ta'lim-tarbiya, "Hibbat-ul haqoyiq", tasavvuf ta'limoti, Muqaddas Qur'oni Karim, "Hadisi Sharif" ilmi.*

Abstract

The article presents valuable ideas and observations on the enrichment of the spiritual world of today's youth, the formation of their moral views, as well as valuable thoughts and observations on the issues of education and upbringing of young people and their moral and educational (pedagogical) views that were important for their time, through the works of the thinker and scholar, writer Ahmad Yugnaki, who lived and worked in Transoxiana and Turkestan in the 11th-12th centuries AD.

Key words: *Ahmad Yugnaki, the education and upbringing, "Hibbat-ul haqoyiq". The teachings and views of Sufism, the Holy Quran, "Hadith Sharif".*

Kirish

Markaziy Osiyo (Ilk o'rta asrlarda Movaraunnahr va Turkiston ham deb atalgan) jahonga IX-XII asrlar davomida Abu Nasr Farobiy, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon al-Beruniy, Ahmad al-Marg'iloniy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy kabi ulkan olimlarni taqdim etdi. Bu olimlar o'zining durdona asarlarlari, ma'naviy bitiklari, favqulodda dohiyona tafakkuri bilan o'z xalqlarining, umuman, Movaraunnahr va Turkistonning shuhratini olamga yoydi. Bu davrda yashagan mutafakkir olim, shoir va dinshunoslarning asarlarida ta'lim-tarbiya va odob-axloqqa oid pedagogik fikrlar, ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim bo'lgan insonparvarlik, bilmga e'tiqod, xalq manfaatini ko'zlab yashash, ma'naviyatni yuksaltirish, komil inson va barkamol shaxs tarbiyasi, mustahkam imon-e'tiqod, go'zallik, elparvarlik, halollik, do'stlik kabi insoniy fazilatlar masalalari yoritildi.

Asosiy qism

Yuksak insoniy fazilatlarni o'z asarlarida ilgari surgan mutafakkirlardan biri Ahmad Yugnakiydir. Iste'dodli shoir, adib, alloma va donishmand Ahmad Yugnakiy milodiy XII asrlarda tavallud topadi. Ahmad Yugnakiydan bizga yodgorlik bo'lgan asar "Hibat-ul haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni") dir. Bu kitob badiiy so'z sa'nati va adabiy tilning o'ziga xos qimmatli, nodir yodgorligidir. Ulug' mutafakkirning ushbu asari mazmun-mohiyatida o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy voqealarning bayon ettirilishi bilan birga, ta'lim-tarbiyaga doir fikrlar, didaktik qarashlarning yetakchiligi bilan ham ahamiyatlidir. Kishilik jamiyatida madaniyat, ma'rifat, ijtimoiy-iqtisodiy hayot ilmsiz rivojlanishi mumkin emasligini batamom anglab yetgan, bilim olam gultoji hisoblangan insoniyatning eng go'zal bezagi ekanligiga ishonch hosil qilgan adib o'z asarlarida uning mohiyatini keng ko'lamda ifodaladi. O'z ta'limotini So'fizm g'oyalari asosida ilgari surdi. Bunda u So'fizm ta'limotining tariqat usulidan foydalanib, musulmon farzandlarini halol mehnatga, islom dini talab qilgan namoz, ro'za, ehson, haj, jihod kabi zaruriy talablarga rioya qilishga undadi va bu yo'lda o'zi ham boshchilik qildi. Ahmad Yugnakiyning ta'lim-tarbiya haqidagi

qarashlarida to‘g‘rilik, haqgo‘ylik masalasi muhim o‘rinni egallaydi. Iymoni but inson, - deb yozadi u to‘g‘ri, haqgo‘y, adolatli, axloqli bo‘ladi. Iymonli kishi o‘zida bunday fazilatlarni mujassamlashtiradi. Ma’lumki, jamiyat ijtimoiy hayotining taraqqiyotida to‘g‘rilik, haqgo‘ylik, adolatpeshalik yuksak o‘rin tutadi. Jamiyat a’zolaridan har ishda halol bo‘lish talab etiladi [Mahmudov Q., 1972: 5] Bunda, eng avvalo, bashriyat farzandlarini oila, bog‘cha va maktabdanoq to‘g‘rilik, xolislik, haqgo‘ylik tuyg‘ularini qadrlash, egrilik, o‘zgalar haqiga xiyonat, yolg‘onchilik, adolatsizlik illatlaridan saqlanishga o‘rgatish lozim. Ahmad Yugnakiy to‘g‘rilikni og‘iz va tilning ziynati, bezagi deb biladi. Bu xususida u shunday deydi: Og‘iz til bezagi ko‘ni so‘z turur, Ko‘ni so‘zla so‘zni, tilingni beza (mamuni; og‘iz va tilning ziynati to‘g‘ri, haq so‘zdir, shunga ko‘ra sen to‘g‘ri so‘zla, so‘zingni va tilingni shirin qil.) Adib haq so‘zni asalga qiyos qiladi, yolg‘on so‘zni sarimsoq piyozga o‘xshatadi: Ko‘ni so‘z asaldek bu yolg‘on basal, Basal yeb achitma og‘izi asal. (Mazmuni: haq so‘z asal kabi, yolg‘on so‘z sarimsoq piyoz kabi, sarimsoq piyoz yeb, asaldek og‘izni achchiq qilma) [Mahmudov Q., 1972:7]. Ahmad Yugnakiy o‘z asarida saxovatli bo‘lishga ham katta e’tibor qaratadi.

Ahmad Yugnakiyning fikricha, saxovatlilik eng yaxshi insoniy fazilatdir. Saxovatlilik jamiyatda halol mehnat orqali topilgan moddiy boylikning ma’lum ulushini boshqalar bilan ham baham ko‘rishdan iborat bo‘lgan. Ahillik Qur’oni Karim va “Hadisi Sharif” ilmida halol yo‘l, to‘g‘rilik bilan topilgan boylikdan ehson qilish asosida amalga oshirilgan. Saxovatlilik ochko‘zlikka nisbatan ijtimoiy xususiyat kasb etgan, xayr-ehson yovuzlikni daf qiluvchi kuch, saxiy odam jamiyatda yetishmovchilik yuz bergan, ochlik sodir bo‘lganda, faqirlarga iqtisodiy jihatdan ko‘mak berganlar. Saxovatli kishilar ulug‘lar, xaloyiq va ijodkorlar tomonidan maqtalgan, el-u yurtning olqishi va duosiga musharraf bo‘lgan, baxillik esa insoniyat ma’naviy qiyofasining iflos, kir libosi kabi hunuk va jirkanch tasvirlangan. Kishilik jamiyati baxil kishilardan o‘zini uzoqroqda tutishga harakat qilgan, bunday kimsalar muttasil tanqid qilingan. Ahmad Yugnakiy saxovatlilikni ulug‘lab, baxillikni qoralaydi*: **Axi erni o‘gg‘il o‘gar ersa sen, Baxilga qatig‘ yo o‘qun qizlagil.** (Mazmuni; Axi(saxiy) kishini maqtasalar, sen ham uni maqtagin, baxilga esa qattiq tortilgan o‘q-yoyni yashirib qo‘ygin.) Adib odamlarni saxiylikka chorlab, saxiylikning mohiyatini bayon etadi. uning uqtirishicha, saxiylik odamlarni yomonliklardan saqlaydi, mushkul ishlarini osonlashtiradi, ularni bir-birlariga mehroqibatli qiladi. Ahmad Yugnakiy ta’lim-tarbiya haqida fikr bildirar ekan, xasislik, ochko‘zlikni yomon illat sifatida qoralaydi* [Mahmudov, 1972: 8]. Chunki bu xislatlar jamiyat hayotida salbiy holatlarni keltirib chiqaradi, urush, janjallarga sabab bo‘ladi. Ochko‘zlik jamiyat boyligini hamda shaxs mulkini turli yo‘llar bilan talon-taroj qilinishiga olib keladi, xasislik odamlar orasida hasad paydo qiladi. Xasis kishilar turli yo‘llar bilan boylik to‘plashga hirsmand bo‘ladi. Xasis kishi o‘lib ketsa, uning boyligi o‘zga kishilarga qolib ketadi. Shunga ko‘ra, shoir odamlarga nasihat qilib shunday deydi: *Bu dunyo so‘ngida yugurmak kecha, Xasis nangtin o‘tru deb uzung kucha. Neluk malga muncha ko‘ngul bog‘lamoq, Bu mol kelsa orta borur boz kecha. Ko‘nguldin chiqarqil tavar suqluqin, Ketim birla teb tut qorin to‘qluqin.* (Mazmuni; Bu dunyoning (boyligi) orqasidan qanchadan-qancha (odamlar) yuguradilar, xasis (kishilar) esa foyda (topaman) deb o‘zini qiynaydi. Mol-dunyoga nega shunchalar ko‘ngil berasiz, bu boylik kelsa yana orta boradi, ammo yana qo‘ldan ketadi. Mol-dunyo uchun suqlikni, ochko‘zlikni ko‘ngildan chiqarib tashla. Kishilik jamiyatida insonlarda ikki qarama qarshi kuch muttasil bahs boylab keladi, ezgulik va yovuzlik, saxiylik va xasislik, ahillik va baxillik yonma-yon yashab keladi. *Ahmad Yugnakiy o‘z pedagogik qarashlarida baxillikni qoralab, bu haqida shunday deb yozadi: Baxil yig‘di zar, sim xaramtin o‘kum, Vabol ko‘tru bordi uzala so‘kum. (Mazmuni: baxil kishilar xarom yo‘l bilan ko‘p oltin, kumush yig‘di, uvol, isrof qilib, gunohga botib, la’nat sari bordi.) Ta’lim-tarbiya xususidagi qarashlarida Ahmad Yugnakiyning tavozelik masalasiga ham katta e’tibor berganini ko‘ramiz. Ma’lumki, insoniyat ma’naviy-madaniy hayotida yoshlarda ezgulik amallarini shakllantirish, yaxshilik tuyg‘usini tarbiyalash o‘ta dolzarbdir* [Mahmudov Q., 1972:8]. Ezgulik tarbiyasi islom dini asosida, Qur’oni Karim hamda Hadis ilmi talablariga muvofiq ravishda

olib borilgan. Musulmon ahlidan Tangri buyurgan toat-ibodatlarni mustahkam iymon-e'tiqod bilan ado etishda kamtar bo'lish talab etilgan. Bu o'ta noyob fazilatning shaxs kamolotidagi o'rnini hech narsaga tenglashtirib bo'lmaydi. Ana shu talablardan kelib chiqqan holda Ahmad Yugnakiy tavozelik insoniyat tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishini anglaydi va jamiyatni tavoze qilishga chaqiradi: Tavozi' qiliqni quturar idi, Takabbur tutar erin kelishur kudi. (Mazmuni: Tangri Taolo tavoze qilgan musulmonlarni yuqori darajaga ko'taradi, o'zini takabbur tutgan kishilarni tubanlashtiradi.) Adib Ahmad Yugnakiyning shu kabi bebaho, benazir o'gitlari o'z davri va hozirgi kun pedogogikasi uchun ham qimmatli manbadir. Ertangi kunimiz egalariga bu noyob, ma'naviy kamolot manbasining har bir so'zini to'la, butunligicha yetkazish va uni o'qib-o'rgatish biz ustozlar uchun muhim vazifadir.

Zotan olam sarvari madaniyatining bitmas-tuganmas xazinasida Ahmad Yugnakiy kabi noyob kimsalar va ular yaratib ketgan ulkan ma'naviy bog' shirindan-shakar, totli mevalar tortiq etib turibdiki, hamma zamin-u zamonlarda barcha avlodlar ulardan o'zlari uchun ham ruhiy, ham ma'naviy *ozuqa oladilar, bu ma'naviy xazina yog'dularidan muttasil istifoda etib yuradilar.* "Hibat ul-haqoyiq" – *Ahmad Yugnakiy tomonidan yozilgan asar. O'ziga xos axloq kitobi bo'lgan bu asarga Qur'oni karim va Hadisi sharif ma'nolari singdirilgan. U islom dini axloqini tashviq qilish, komil insonni tarbiyalab yetishtirish maqsadi bilan yozilgan. "Hibat ul-haqoyiq" yozma manbaining to'liq nusxalaridan biri Hirotda, XV asrda qadimgi uyg'ur yozuvi asosida ko'chirilgan, asarning ikkinchi to'liq nusxasi 1480-yilda Istanbulda Abdurazzoq Baxshi tomonidan arab yozuvi bilan ko'chirilgan. Dostonning arab yozuvi bilan ko'chirilgan uchinchi nusxasi XVI asr boshlariga mansub. [www. ziyonet. uz.]* "Hibat ul-haqoyiq"ning asosiy nusxalari Turkiya kutubxonalarida, ayrim parchalardan iborat bir nusxasi Berlinda saqlanmoqda. Asar 256 bayt, ya'ni 512 misradan iborat. G'azal va to'rtliklar she'r shaklida yozilgan. Adib Ahmad Yugnakiy ham boshqa o'tgan buyuklar kabi Allohni madh etish bilan boshlaydi. 1972-yilda filologiya fanlari doktori, qadimshunos, turkolog olim *Qozoqboy Mahmudov "Hibat ul-haqoyiq" ning akademik nashrini chop ettirdi.* Unda olim dostonning asli, nasriy bayoni, tahliliy matn, izohli lug'at hamda grammatik va fonetik tahlilni amalga oshirgan. Shu paytgacha *"Hibat ul-haqoyiq"* dostoni bugungi o'zbek tiliga she'riy tarjima qilinmagan edi.

Xulosa qilib shuni fikr sifatida bildirib o'tamizki, Adib Ahmad Yassaviy milodiy XI-XII asrlarda Movaraunnahr va Turkistonda ijod etib, o'zidan beqiyos bir nodir asar sifatida "Devoni hikmat"ni tashlab ketdi. Bu asr davrlar o'tsa-da axloqiy, ta'limiy tomonlama o'z qimmatini yo'qotmadi, aksincha qimmatli manba bo'lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2018.
2. Karimov I.A. *Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonman.* – Toshkent, Fidokor, 2000.
3. Mahmudov Q. Ahmad Yugnakiyning *"Hibat-ul haqoyiq"* asari haqida. – Toshkent, Fan, 1972.
4. www. ziyonet.uz.
5. www. edu.uz.
6. www. kitob.uz.
7. www. mustaqillik.uz.
8. www. ma'naviyat.uz.

İRFANÎ ANLAMIN İNŞASI: CABBAROV'UN NEVAİ YORUMCULUĞU VE TÜRK ŞİİR GELENEĞİNDE KARŞILIKLARI

Özer Beyza,
İstanbul Teknik Üniversitesi, Lisans Öğrencisi
e-mail: ozerb19@itu.edu.tr

Şahin Selenay,
İstanbul Üniversitesi, Lisans Öğrencisi
e-mail: selenay.sahin@ogr.iuc.edu.tr

Özet

Ahmed Yesevî ile başlayan, Herat ve Semerkand'da Ali Şîr Nevâî ile kemale eren ve Anadolu'da Yunus Emre, Mevlânâ ve Fuzûlî gibi isimlerle derinleşen tasavvufî şiir geleneği, çok katmanlı irfan mirasının zamanlar ve coğrafyalar arası sürekliliğini ortaya koyar. Bu zincirin Orta Asya'daki en güçlü halkası olan Ali Şîr Nevâî, divanları, mesnevileri ve dinî–maarifî eserlerinde temel tasavvufi kavramları duygusal öğeler olmaktan çıkararak insanın varoluşunu kuşatan bir irfan ontolojisi içinde yeniden inşa etmiştir. Nevâî'nin irfanî dünyasını çağdaş dönemde sistemli biçimde yorumlayan isimlerden biri Özbek edebiyat tarihçisi Prof. Dr. Nurbay Cabbarov'dur. Cabbarov'un zâhir–bâtın–hikmet üçlemesine dayanan yöntemi, Nevâî şiirindeki anlam yapısını çözümleyerek aşk–akıl, fenâ–bekâ ve gazap–lütuf gibi ikili kavramların bir irfan felsefesi içinde nasıl işlediğini görünür kılar [Cabbarov, 2019: 34–38].

Bu çalışma, Nevâî metinlerinin Türkçe bağlamda çeviri yoluyla yeniden okunmasına yönelik bir yorum imkânı sunmaktadır. Burada çeviri, yalnızca dilsel bir aktarım değil; Nevâî'nin irfanî kavramlarının Türk tasavvuf şiirinin manevi hafızasıyla yeniden ilişkilendirildiği bir okuma süreci olarak ele alınmaktadır. Bu çerçevede çalışma üç temel iddia ileri sürmektedir: (1) Nevâî'nin irfan dili, Türk-İslâm düşüncesinin merkezî kavramlarını poetik bir yapıya taşımıştır; (2) Cabbarov, bu yapıyı modern akademik yöntemlerle açıklayan güçlü bir yorum geleneğini temsil eder; (3) Türkçeye çeviri, Nevâî'nin irfanını yalnız aktarmakla kalmayıp Çağatayca ile Türkiye Türkçesi arasındaki yakınlığı esas alarak, yeni bir irfanî söylem alanı oluşturma imkânına sahiptir. Böylece çalışma, Türkiye ile Özbekistan arasında hem edebî hem de manevî düzeyde derinleşen irfan ortaklığını görünür kılmaktadır.

Anahtar Kelimeler: *Ali Şîr Nevâî, Nurbay Cabbarov, İrfanî Anlam, Tasavvufî Poetik Dil, Metin Bilimi, Türk-İslâm Şiir Geleneği.*

Annotatsiya

Ahmad Yassaviy bilan boshlangan, Hirot va Samarqand muhitida Alisher Navoiy ijodida kamol topgan hamda Anadoluda Yunus Emre, Jaloliddin Rumiy va Fuzuliy kabi shoirlar bilan chuqurlashgan tasavvufiy she'riyat an'anasi ko'p qatlamli irfoniy merosning zamonlar va hududlar osha uzluksizligini namoyon etadi. Ushbu zanjirning Markaziy Osiyodagi eng qudratli bo'g'ini bo'lgan Alisher Navoiy o'z devonlari, masnaviylari va diniy-ma'rifiy asarlarida asosiy tasavvufiy tushunchalarni oddiy hissiy unsurlar darajasidan chiqarib, inson mavjudligini qamrab oluvchi irfoniy ontologiya doirasida qayta qurdi. Navoiyning irfoniy olamini zamonaviy davrda tizimli ravishda talqin qilgan olimlardan biri — o'zbek adabiyotshunosi professor doktor Nurboy Jabborovdir. Jabborovning zohir–botin–hikmat uchligi asosiga tayangan metodologiyasi Navoiyning she'riy matnlaridagi ma'no tuzilmasini tahlil qilish orqali ishq–aql, fanō–baqō hamda g'azab–lutf kabi juft tushunchalarning yagona irfon falsafasi doirasida qanday faoliyat yuritishini ochib beradi [Jabborov, 2019: 34–38].

Mazkur tadqiqot Navoiy matnlarini turkcha kontekstda tarjima orqali qayta o'qish imkoniyatini taklif etadi. Bu yerda tarjima faqat lingvistik ko'chirish sifatida emas, balki Navoiyning irfoniy tushunchalarini turk tasavvufiy she'riyatining ma'naviy xotirasi bilan qayta bog'lovchi talqin jarayoni sifatida qaraladi. Shu doirada ish uch asosiy da'voni ilgari suradi: (1) Navoiyning irfoniy tili turk-islom tafakkurining markaziy tushunchalarini poetik tuzilma darajasiga olib chiqqan; (2) Jabborov ushbu tuzilmani zamonaviy akademik metodlar orqali izohlagan kuchli talqin an'anasini ifodalaydi; (3) turk tiliga tarjima Navoiyning irfonini faqat yetkazib berish bilangina cheklanmay, chig'atoy tili bilan Turkiya turkchasi o'rtasidagi yaqinlikka tayangan holda yangi irfoniy diskurs maydonini shakllantirish imkoniyatiga ega. Shu tariqa tadqiqot Turkiya va O'zbekiston o'rtasida adabiy hamda ma'naviy darajada chuqurlashib borayotgan umumiy irfoniy hamkorlikni yaqqol ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, Nurboy Jabborov, irfoniy ma'no, tasavvufiy poetik til, matnshunoslik, turk-islom she'riyat an'anasi.*

Abstract

The Sufi poetic tradition that begins with Ahmed Yesevî, reaches maturity with Ali Shīr Navoi in Herat and Samarkand, and deepens in Anatolia through figures such as Yunus Emre, Mevlânâ (Jalāl al-Dīn Rūmī), and Fuzûlî reveals the transhistorical and transregional continuity of a multilayered irfanic heritage. As the most powerful link of this chain in Central Asia, Ali Shīr Navoi reconstructed fundamental Sufi concepts within an irfanic ontology encompassing human existence, moving them beyond mere emotional elements in his divans, masnavis, and religious–didactic works. One of the scholars who has systematically interpreted Navoi's irfanic world in the contemporary period is the Uzbek literary historian Prof. Dr. Nurbay Cabbarov. Cabbarov's method, grounded in the triad of ẓāhir–bāṭin–ḥikma (outer–inner–wisdom), elucidates the structure of meaning in Navoi's poetry and demonstrates how binary concepts such as love–reason, fanā'–baqā', and wrath–grace operate within a coherent irfanic philosophy [Cabbarov, 2019: 34–38].

This study offers an interpretive framework for rereading Navoi's texts in the Turkish linguistic context through translation. Translation is approached here not merely as a linguistic transfer, but as a process of interpretation in which Navoi's irfanic concepts are reconnected with the spiritual memory of Turkish Sufi poetry. Within this framework, the study advances three main arguments: (1) Navoi's irfanic language transforms the central concepts of Turkic-Islamic thought into a poetic structure; (2) Cabbarov represents a strong interpretive tradition that explicates this structure through modern academic methodologies; (3) translation into Turkish does not only transmit Navoi's irfan but, by drawing on the proximity between Chagatai and modern Turkish, enables the formation of a new field of irfanic discourse. In this way, the study makes visible the deepening irfanic commonality between Turkey and Uzbekistan on both literary and spiritual levels.

Keywords: *Ali Shīr Navoi, Nurbay Cabbarov, Irfanic Meaning, Sufi Poetic Language, Textual Studies, Turkic-Islamic Poetic Tradition.*

1. Giriş: İrfan, Nevâî ve Ortak Anlam Coğrafyası

Türk-İslâm düşünce tarihinde irfan, yalnızca bireysel sezgiye indirgenemeyecek ölçüde kapsamlı bir irfânı ifade eder; bu bilginin etrafında teşekkül eden dilsel ve estetik bir geleneği de kapsar. Klasik tasavvuf literatürü üzerine yapılan çalışmalar, irfanı aklî ve naklî ilimlerden bütünüyle kopuk olmayan, ancak onlarla özdeşleşmeyen; semboller ve mecazlar aracılığıyla işleyen özgün bir bilgi alanı olarak konumlandırır [Schimmel, 1975: 182–185]. Bu anlayış biçimi, en belirgin ifadesini şiir formunda bulur. Türk-İslâm şiir geleneğinde kelimeler, yalnızca sözlük anlamlarıyla sınırlı kalmayıp Kur'ân, hadis ve tasavvuf mirasıyla yoğrulmuş müşterek bir hafızanın; ortak bir idrak ve gönül dünyasının taşıyıcısı hâline gelir. Dr. Kemal Yavuz Ataman, Nevâî'nin şiirlerinde görülen bu düşünce sistemini modern dönemde "eleştirel ve analitik düşünce" olarak adlandırılan yöntemlerle irtibatlandırır. Ona göre Nevâî, asırlar öncesinden aklı merkeze alan, fakat onu vahiyden bağımsızlaştırmayan bütüncül bir düşünce modeli ortaya koymuştur. Bu model, günümüz insanı için de yol gösterici mahiyettedir [Ataman, 2024].

Nokta, su gibi eritir taşı,
Eğer hakikatin ateşinden gelirse başı.
Uzaksa söz hakikat cevherinden,
En iyisi susmaktır o sözden [Nevâî, 2011: 44].

Bu irfanî şiir hattının Orta Asya'daki en müessir temsilcilerinden biri Ali Şîr Nevâî'dir. Nevâî, klasik kaynaklarda ve çağdaş araştırmalarda yalnızca büyük bir şair olarak değil; Türk dilinin bilinçli bir savunucusu, devlet adamı ve irfan sahibi bir mütefekkir olarak değerlendirilir. Ali Şîr Nevâyî, Türk halklarının mânevî birikimine son derece önemli katkılar sunmuştur. Büyük şairin eserleri, Celâleddîn Rûmî, Hâfız-ı Şîrâzî, Dante, William Shakespeare ve Lev Tolstoy gibi edebiyat tarihinin öncü isimlerinin eserleriyle aynı düzlemde değerlendirilebilir [Yusupova, 2025: 11]. Ataman'ın tespitine göre Nevâyî'nin insan ve toplum anlayışı, akl-ı selim idrakini Hz. Peygamber'in örnekliğiyle temellendiren bir insan-ı kâmil tasavvuruna dayanır. Bu çerçevede Nevâyî'nin ahlâkî tutumu, düşünce dünyası ve toplumsal faaliyetleri, sünnet merkezli bir hayat anlayışının sürekliliği olarak şekillenir [Ataman, 2024: 68]. *Hezâinü'l-Meânî*'de toplanan divanları, *Hamse* mesnevileri ile *Mahbûbü'l-Kulûb* ve *Nesâyimü'l-Mahabbe* gibi eserleri, bir yandan Çağatay Türkçesini yüksek bir edebî ifade

düzeyine taşırken, diğer yandan tasavvufî kavramların şiirsel yapı içinde nasıl çok katmanlı bir anlam mimarisi kurduğunu ortaya koyar. Modern çalışmalarda özellikle cennet–cehennem, aşk–cevr, vuslat–hicran gibi kavram çiftleri üzerinden Nevâî'nin "dünya–âhiret" ve "zâhir–bâtın" eksenlerini metaforik düzeyde yeniden inşa ettiği vurgulanmış; cennet çoğu bağlamda Hak'la ünsiyet, cehennem ise O'ndan uzak kalma hâli olarak yorumlanmıştır [Eriksen, 2009: 41; E., 2012: 62].

Nevâî'nin irfanî dünyasını çağdaş dönemde sistemli biçimde ele alan çalışmalardan biri, Nurbay Cabbarov'un *"Maoniy ahlining sohibqironi"* başlıklı monografisidir. Nevâî araştırmaları açısından önemli bir dönüm noktası olarak değerlendirilen bu eserde, şairin hayatı ve irfanî-estetik dünyası, *Hamse* külliyatının yapısı, dinî–maarifî eserlerin mahiyeti ve "Nevâî'ye izdeşlik" meselesi beş bölümlük bütünlüklü bir çerçeve içinde ele alınır [Cabbarov, 2021: 22]. Maqsud Asadov'a göre monografi, "Nevâî'nin biyografisi, tükenmez sanatı, eserlerinin anlam–mahiyet ve poetik özelliklerini incelemeye adanmış büyük bir araştırma" niteliği taşımaktadır [Asadov, 2021]. Eserin girişinde Cabbarov'un "metni anlamak, idrak etmek ve yorumlamak edebiyat araştırmalarının merkezinde yer almalıdır" şeklindeki vurgusu, çalışmanın metodolojisini açık biçimde ortaya koyar [Cabbarov, 2021].

Bu çalışma, Ali Şîr Nevâî'nin metinlerini irfanî anlam katmanları üzerinden yorumlayıcı ve metin merkezli bir okuma çerçevesinde ele almaktadır. İncelemede Nurbay Cabbarov'un zâhir–bâtın–hikmet eksenli yaklaşımı temel referans olarak benimsenmiş; beyitler ve kavramlar, metnin iç bağlamı ile tasavvuf terminolojisi birlikte gözetilerek değerlendirilmiştir. Çalışmada karşılaştırmalı ya da nicel bir yöntem izlenmemiş; Nevâî metinlerinin Türkçe bağlamda yeniden okunmasına imkân veren yorumlayıcı ve çeviri temelli genel tespitler öncelenmiştir.[2]

2. Cabbarov Ekolü: Metin Merkezli İrfan Okuması ve Anlam Katmanları

Cabbarov'un metin merkezli yaklaşımı, Nevâyî düşüncesinde yalnızca poetik yapının değil, akıl–gönül ilişkisi etrafında şekillenen irfanî idrak anlayışının da merkezî bir mesele olduğunu ortaya koyar. Bu bağlamda Nevâyî'de aklın mahiyeti, sınırları ve ilahî rehberlikle kurduğu ilişki, çağdaş araştırmacılar tarafından özellikle vurgulanan temel kavramlardan biri hâline gelmektedir. Ataman'a göre Nevâyî'de akıl, kendi başına işleyen otonom bir yeti değil; ilahî yardım ve vahiy rehberliğiyle sahihliğini kazanan bir idrak biçimidir. Nevâyî'nin fikirleri, şiirleri ve toplumsal faaliyetleri birlikte değerlendirildiğinde, Kur'ân'daki emirleri bilinçli biçimde içselleştirdiği görülmektedir [Ataman, 2024: 66]. Hakiki akıl, akl-ı selîm olarak tanımlanır ve bu idrak biçimi ancak gönül ehli kimselerde tecelli eder. Nevâyî'ye göre gönül, ilâhî nurun yansıyabileceği bir ayna mahiyetindedir. Bu aynanın Allah'ın (CC) nurunu aksettirebilmesi için gönlün, dünyevî tutkular ile nefsânî arzulardan arındırılması gerekir. Böylece gönül sahibi kişi, hakikatin derin sırlarına nüfuz eder ve gerçek saadete erişir [Yusupova 2011: 245].

Cabbarov'un Nevâî yorumculuğu, klasik şerh geleneğiyle bağını koparmadan onu metin bilimi, tasavvuf ve kavramsal analiz ile derinleştiren özgün bir ekol ortaya koyar. *Maoniy ahlining sohibqironi*'nın girişinde, "Nevâî araştırmalarında ister biyografi ister başka bir alan söz konusu olsun, metni anlamak, idrak etmek ve metin çözümlemesi meselesi en temel yeri işgal eder" [Jabborov, 2021: 1–4] vurgusu, bu ekolün merkezinde yer alan "metne dönme" ilkesini açık biçimde gösterir [Asadov, 2022]. Cabbarov'a göre araştırmacı, dağınık alıntıları bir araya getirerek değil, metnin "canlı nefesine kulak vererek" sonuçlara ulaşmalıdır; metnin ruhunu ihmal eden çalışmalar, hem okuyucuyu hem de araştırmacıyı hakikatten uzaklaştıracaktır [Ergashov & Safrut, 2025: 80–83].

"The History of the Text and Some Comments on its Genesis" başlıklı çalışmasında Cabbarov, "metin tarihi" kavramını hadis literatürü, bibliyografya ve edebî anıtların tahkik süreçleriyle ilişkilendirerek,

2 Bu makalede yer alan bazı genel tespitler, Ali Şîr Nevâî'nin İrfanî Âlemi adlı eseri üzerine hazırlanmakta olan Türkçe çeviri metinleri ile Nurbay Cabbarov'un henüz yayımlanmamış Nurbay Hoca'nın Not Defteri 1 ve Nurbay Hoca'nın Not Defteri 1 başlıklı çalışmalarından hareketle oluşturulmuştur.

metnin oluşum serüvenini merkeze alan bütünleşik bir araştırma sistemi teklif eder [Jabborov, 2021: s. 1–12]. Metin tarihini ihmal eden çalışmaların, hem filolojik doğruluk hem de irfanî derinlik bakımından eksik kalacağını savunur. Aynı çizgi, Ali Şîr Nevâî'nin eserlerinde fütüvvet fikrinin sanatsal yorumunu incelediği makalesinde de takip edilebilir: *"Artistic Interpretation of the Futuvvat Idea in Alisher Nevâî's Works"* başlıklı makalesinde Cabbarov, fütüvvet kavramını tasavvufun kurucu bir ilkesi olarak tanımlar ve Nevâî'nin lirizm ile epik anlatımı bu kavram etrafında nasıl örgütlediğini gösterir; burada fütüvvet–mürüvvet–cömertlik–sadakat–temizlik gibi alt kavramlar, hem ahlâkî hem estetik bir sistemin omurgası olarak ele alınır [Cabbarov, 2024].

Cabbarov ekolünü daha somut göstermek için, temel özellikleri şu şekilde tablo hâline getirmek mümkündür:

Tablo 1. *Cabbarov Ekolünün Temel Özellikleri*

Boyut	Açıklama	Örnek Çalışma / Vurgu
Metin Merkezlilik	Yorumun ilk ve asli kaynağı bizzat Nevâî metinleridir; yorum, metnin iç mantığından çıkar.	Maoniy ahlining sohibqironi önsözü
Metin Tarihi	Eserlerin yazılış, istinsah ve dolaşım tarihine odaklanan bütünleşik bir yöntem savunulur.	"The History of the Text..." makalesi
İrfanî Çerçeve	Kur'ân, hadis ve tasavvuf klasikleri, Nevâî'nin kavram dünyasını anlamada temel referans kabul edilir.	Monografideki dini–ma'rifî bölüm
Kavram Odaklı Okuma	Aşk, cevr, sabır, fütüvvet, cennet, cehennem gibi kavramlar birer ontolojik–ahlâkî merkez olarak incelenir.	Fütüvvet makalesi; Hamse analizleri
Bütüncül Portre	Biyografi ile poetik dünya ayrıştırılmaz; şahsiyet ve şiir, tek bir "kompleks irfan portresi" olarak ele alınır.	Monografideki 5'li bölüm yapısı

Yukarıdaki tablo, Cabbarov'un Nevâî çalışmalarında geliştirdiği yaklaşımın temel boyutlarını ortaya koyarak, bu yaklaşımın süreklilik, yöntem ve kavram bütünlüğü bakımından özgün bir bilimsel okul niteliği taşıdığını göstermektedir.

Nevâî, beş asır önce yazdığı eserlerinde yirmi altı binden fazla kelimeye yer veren usta bir şairdir; şiirlerinde görülen felsefî derinlik, mana zenginliği ve nazımdaki sınırsız fesahat, okuyanlarda hayret uyandırmaktadır [Yusupova, 2025: 16]. Cabbarov'un Nevâî'yi okuma biçiminde belki de en dikkat çekici unsur, mana mertebelerine dayalı manevî yorum şemasıdır. Metinde görünen kelimeler ve mazmunlar "zâhir" düzeyi, tasavvufî çağrışım ve remizler "bâtın" düzeyi, beyitin insan hayatına dair sunduğu ahlâkî–varoluşsal ders ise "hikmet" düzeyi olarak ele alınır.

Şekil 1. Cabbarov'un Anlam Katmanları Şeması (Zâhir–Bâtın–Hikmet)

□ Zâhir:

– Kelimenin sözlük anlamı
– Klasik mazmun bilgisiyle çözülen düzey

□ Bâtın:

– Tasavvufî kavramlarla (fenâ, bekâ, kurb, bu'd vb.) açılan çağrışımlar
– Sevgili = Hak, âşık = kul, cevr = ilahî imtihan vb. [Jabborov, 2021: s. 1–12].

□ Hikmet:

– Beyitin okuru dönüştüren ahlâkî/ruhsal dersi
– "Aşk yarası olgunlaştırır"; "ayrılık hakikate hazırlayan elem" gibi sonuç cümleleri

3. İrfanî Anlamın Türkçede Kuruluşu ve Türk Şiir Geleneğinde Karşılıkları

Ali Şîr Nevâyî, nazım ve nesir üzerine görüşler ileri sürmüştür. Nazım ve nesri ayrı başlıklar altında

ele alan şair, nazmı nesirden daha üstün kabul eder; nazımdaki düzeni ise çiçeklerin uyum içinde dizilişine benzetir. Bununla birlikte şiirin dolaşarak geliştiğini, büyüyüp derinleştiğini ve katman katman bir yapı kazandığını ifade eder. Nevâyî'ye göre, nazma böylesine yüksek bir değer verilmemiş olsaydı, Allah'ın kelamında şiirsel unsurlar yer almazdı. Bu yönüyle Nevâî, nazım anlayışı üzerinden, dili ve irfanı farklı medeniyet havzalarında buluşturan küresel bir şahsiyet olarak belirir [Ataman & Yusupova, 2024: 4]. Nevâî'nin irfanî dilinin Türkçeye taşınması, yalnız dilsel bir tercüme işlemi değil, iki farklı irfan coğrafyasının hermeneutik bir temas noktasıdır. Bu nedenle çevirmen, metnin kelimelerini yeni bir dile "aktarırken", aynı anda iki hafıza alanını da devreye sokar: Özbek–Çağatay irfan hafızası ve Anadolu–Osmanlı tasavvuf hafızası. Özbekçe *'işq* kelimesi Türkçeye geldiğinde yalnız Nevâî'yi değil, aynı anda Yunus'un "Aşkın aldı benden beni"sini, Fuzûlî'nin "Aşk imiş her ne var âlemde"sini, Mevlânâ'nın "aşk şarabı" metaforlarını hatırlatır [Chittick, 1983: 38; Knysh, 2017: 13] Böylece tek bir kelime, ortak bir Türk-İslâm irfan sahnesini açar.

Bu noktada Cabbarov'un kavram odaklı okuma yöntemi, çevirmenin eline bir tür kavramsal sözlük verir. Fütüvvet makalesinde, Nevâî'nin fütüvvet anlayışının "mürûvvet, cömertlik, saflık, sadakat ve insan-ı kâmil ideali" ile iç içe geçtiği gösterilir. Aynı yaklaşım, aşk (*'işq*), cevr, sabır, cennet, cehennem gibi ana kavramlara uygulandığında, bu kavramların Türkçedeki irfanî karşılıkları da berraklaşır. Bunu göstermek için ikinci bir tablo faydalı olacaktır:

Tablo 2. *Nevâî'de Temel Kavramlar ve Cabbarov Ekolünde İrfanî Karşılıkları*

Nevâî'de Kavram	Zâhir Anlamı	Cabbarov İrfan Okuması	Türk Tasavvuf Geleneğiyle Bağlantı
'İşq	Aşk, tutkulu sevgi	Hakikate açılan ontolojik kırılma, benliğin çözülmesi	Yunus, Fuzûlî, Mevlânâ'nın aşk anlayışı
Cevr	Eziyet, zulüm	Nefsin kırılması, ilahî terbiye	Klasik gazelde "sevgilinin zulmü = imtihan"
Sabır	Katlanma, tahammül	İrade ile kaderin uyum hâli	Zühd ve riyazet literatürü
Fütüvvet	Yiğitlik, cömertlik	İnsan-ı kâmil ideali, ahlâkî asalet	Fütüvvetnâmeler, ahi geleneği
Cennet	Ödül mekânı	Hak'la ünsiyet, ilahî yakınlık	Cennetin "cemâlullah" olarak yorumlanması
Cehennem	Azap mekânı	Allah'tan uzaklık, manevî karanlık	Ayrılığın cehennemden ağır sayılması

Tablo 2, çevirmenin önüne "kelime karşılıkları"ndan ziyade, anlam alanları haritası koyar. Böylece Türkçeye aktarırken, bütünüyle yeni bir tercüme terminolojisi icat etmeye gerek kalmadan, var olan tasavvufî hafızayı devreye sokmak mümkün olur. Meselâ "cevr" kelimesini mekanik biçimde "eziyet" olarak çevirmek yerine, beyitteki bağlama göre "imtihan", "terbiye edici ilahî sertlik" gibi daha katmanlı karşılıklar düşünülebilir.

Nevâî'nin cennet ve cehennem tasavvuru üzerine son yıllarda yapılan çalışmalar, onun bu kavramları dış mekân değil, ruh hâli olarak yorumladığını ortaya koymuştur [Toprak, 2018: 990-993]. Heaven and hell, *Romanticism and Mysticism: Heaven and Hell in Wordsworth's and Nevâî's Works* gibi karşılaştırmalı çalışmalarda da, Nevâî'de cennetin "ruhun huzur bulduğu hâl", cehennemin ise "ruhun manevî azap ve uzaklık içinde kaldığı hâl" olarak şiirleştirildiği belirtilir [Zakirova, 2023]. Bu, özellikle modern tasavvuf yorumlarında sıkça alıntılanan "Cehennem, Allah'tan uzak kalmaktır"

düşüncesiyle paraleldir ve Türk okuyucunun aşina olduğu bir irfan çizgisini Nevâî ile buluşturur.

Bu tebliğ, Nurbay Cabbarov'un farklı eserleri üzerinde yürütülen çeviri çalışmalarının, iki çevirmenin ortak bir okuma ve düşünme zemini etrafında buluşmasıyla ortaya çıkmıştır. Süreç boyunca, Cabbarov'un not defteri niteliğindeki metinleri, akademik günlüğü ve didaktik yazıları bir yandan; Ali Şîr Nevâî'nin beyitleri ve hikâyeleri öte yandan ele alınmış, bu iki farklı metin hattı ortak bir masada birlikte okunmuş, karşılaştırılmış ve tartışılmıştır. Bu karşılaşmalar sırasında, Cabbarov'un metin merkezli ve kavram odaklı okuma yaklaşımının yalnızca teorik bir çerçeve olarak kalmadığı, doğrudan metinle temas hâlinde nasıl işlediği daha yakından görülmüştür. Çeviri süreci, Nevâî'nin irfanî anlam dünyasını Türkçede yalnızca daha anlaşılır kılmakla sınırlı kalmamış; beyitler, kavramlar ve anlatılar etrafında geliştirilen ortak okumalar sayesinde bu anlam dünyasının yeni bir dilsel bağlamda yeniden düşünülmesine imkân tanımıştır.

Richard E. Palmer, çeviri ve yorum sürecinde ortaya çıkan metnin, yalnızca özgün müellifin niyetini yansıtan pasif bir aktarım olmadığını; yorumlayıcının tarihsel ve dilsel konumuyla birlikte yeniden şekillendiğini vurgular [Palmer, 1980]. Bu tebliğ bağlamında, Cabbarov'un eserlerinin çevirilerinde metinlerin Türkçede aldığı biçim, Cabbarov'un ilmî birikimiyle birlikte, Türk-İslâm kültür havzasına mensup iki çevirmenin metni birlikte okuma, anlama ve yorumlama sürecindeki ortak sezgi ve değerlendirmelerin de bir sonucu olarak ortaya çıkmaktadır. Bu çerçevede çeviri, pasif bir aktarım değil; Cabbarov'un metin merkezli ve kavram odaklı yaklaşımıyla Nevâî'nin irfanî anlamının Türkçede yeniden kurulmasını ve gelenek içinde dolaşıma girmesini sağlayan kurucu bir yorum pratiği olarak ortaya çıkar; aşağıdaki akış şeması (Tablo 3) bu süreci metin–yorum–çeviri–gelenek dairesi içinde özetlemektedir.

Bu ilişkiyi özetleyen basit bir akış şeması (Tablo 3) de düşünülebilir:

Tablo 3. *İrfanî Anlamın Dolaşımı: Metin–Yorum–Çeviri–Gelenek Çevrimi (Ara Model)*

Aşama	Düzlem	Temel Odak	İşlev / Açıklama
1	Kaynak Metin (Aslî Düzlem)	Metin	Ali Şîr Nevâî'nin Çağatayca metinleri (beyitler, mesneviler, hikâyeler ve nasihatler), irfanî anlamın ilk tezahür ettiği metinsel zemini oluşturur.
2	Yorum Düzlemi (Bilimsel Okul)	Kavram	Cabbarov'un metin merkezli, kavram odaklı ve irfanî yorumu; metinleri Kur'ân, hadis ve tasavvuf geleneğiyle ilişkilendirerek sistemli bir kavramsal okuma çerçevesi içinde yeniden anlamlandırır.
3	Çeviri Düzlemi (Uygulama ve Yeniden Kuruluş)	Dil	Çeviri sürecinde Cabbarov ekolünün yöntemsel ilkeleri esas alınarak Türkçe karşılıklar kurulur; bu aşamada anlam yalnızca aktarılmaz, yeni dilsel bağlam içinde yeniden inşa edilir.
4	Gelenek Düzlemi (Anlam Rezervleri)	Kültür	Yunus Emre, Mevlânâ, Fuzûlî ve çağdaş şairler üzerinden şekillenmiş Türk şiir geleneği, çevirinin anlam ufkunu genişleten kültürel ve edebî bir arka plan işlevi görür.
5	Okur Düzlemi (Yeniden Okuma)	Alımlama	Türk okur, metni yalnızca Nevâî üzerinden değil; Türk şiir geleneğiyle kurulan çok katmanlı ilişki ağı içinden okuyarak yeni bir anlam deneyimi kazanır.
6	Sonuç: Ortak İrfan Dili	Süreklilik	Bu çevrim tamamlandığında Nevâî, yalnız Orta Asya'ya ait tarihsel bir şair olarak değil; Türk-İslâm coğrafyasının müşterek irfan dilinde konuşan, yaşayan ve sürekli yeniden üretilen merkezî bir ses olarak belirir.

Tabloda özetlenen irfanî anlam dolaşımı, Türkiye bağlamında soyut bir "kültürel yakınlık"tan ziyade, belirli kavramların şiir içinde üstlendikleri işlevler üzerinden somutlaşmaktadır. Nevâî'nin

şiirlerinde merkezî bir kavram olarak işleyen dost, fenâ ve cevr, Türkçede karşılık ararken Yunus Emre ve Fuzûlî şiirinde hâlihazırda yerleşmiş olan irfanî kullanımlarla kesişir. Yunus Emre'nin "benliği terk ederek Dost'a yönelme" söylemi, Nevâî'de daha kavramsal ve terkipli bir dil içinde yeniden kurulur; ancak işlev aynıdır: benliğin çözülmesi, aşkın ahlâkî ve ontolojik bir sınav alanına dönüşmesi.

Bu noktada Cabbarov'un katkısı belirleyici hâle gelir. Cabbarov, Nevâî'deki dost, cevr ve sabır kavramlarını tekil duygular olarak değil, bir irfan sistemi içinde işleyen kavramsal merkezler olarak okur. Bu okuma, Fuzûlî'nin aşkı "dert" ve "cevr" üzerinden kuran poetikasıyla doğrudan temas eder. Fuzûlî'de cevr, âşığı olgunlaştıran bir imtihan iken; Nevâî'de aynı kavram, Cabbarov'un işaret ettiği üzere, sabır ve hikmetle birlikte düşünülmesi gereken bir irfan halkasına dönüşür.

Çeviri sürecinde bu kavramın Türkçede karşılık bulması, ister istemez Fuzûlî şiirinde yerleşmiş olan bu anlam alanını da harekete geçirir. Mevlânâ hattında ise ortaklık, daha çok anlatı ve temsil düzeyinde ortaya çıkar. Nevâî'nin mesnevilerinde ve hikâye temelli beyitlerinde görülen öğütleyici yapı, Mesnevî geleneğinden tanıdık bir anlatım mantığıyla örtüşür. Cabbarov'un özellikle vurguladığı üzere, Nevâî'de temsil ve hikâye, salt edebî bir teknik değil; irfanî hakikatin aktarım aracıdır. Bu yaklaşım, Mevlânâ'nın kıssa ve temsil yoluyla "hakikati dolaylı anlatma" yönteminin Orta Asya'daki devamı olarak okunabilir. Türk okuyucu, bu nedenle Nevâî anlatılarını yabancı bir gelenek içinde değil, Mesnevî'den aşina olduğu imgelerle karşılar. Örneğin, Mevlânâ Celâleddîn Rûmî ile Ali Şîr Nevâî arasında, Semerkant merkezli müşterek bir irfan tasavvurunun bulunduğu görülmektedir. Her iki mütefekkirde de Semerkant, yalnızca tarihî ya da coğrafî bir şehir olarak değil; aşkın, hatıranın ve metafizik anlamın yoğunlaştığı bir irfan mekânı olarak inşa edilir. Rûmî'de Semerkant, muhabbet ve özlemin nabızla hissedilen sembolik karşılığına dönüşürken; Nevâî'de aynı şehir, firdavs-misâl bir medeniyet merkezi olarak tasavvur edilir [Yusupova, 2025: 19]. Bu durum, iki şairin farklı dönemlerde ve farklı dillerde kaleme almış olmalarına rağmen, mekânı irfan diliyle okuyan ortak bir tasavvufî epistemolojiye sahip olduklarını göstermektedir.

Bu çerçevede Türkiye ortaklığı, Nevâî'nin Yunus, Fuzûlî ve Mevlânâ ile "benzer şeyler söylemesi"nden değil; aynı kavramların şiir içinde benzer irfanî işlevleri üstlenmesinden kaynaklanır. Cabbarov'un metin merkezli ve kavram odaklı okuma yaklaşımı, bu ortaklığı görünür kılarak Nevâî'yi tarihsel olarak uzak bir klasik olmaktan çıkarır; onu Türk-İslâm irfan geleneği içinde Yunus'un diliyle, Fuzûlî'nin derdiyle ve Mevlânâ'nın temsil dünyasıyla konuşan canlı bir ses hâline getirir.

Ishq yelin yetkurubon tundu tez,
Aql alochug'in etib rez-rez
Aşkın rüzgârı hızlı ve sert eserse
Akıl çadırını parça parça eder
Nevâî [Cabbarov, 2019].
Rüzgâr ateş için neyse, ayrılık da aşk için odur;
Küçük bir aşkı söndürür, büyük bir aşkı daha da güçlendirir.
Mevlânâ [Mesnevî, 2015: I. Cilt]
Işk imiş her ne var Âlem'de.
İlm bir kîl ü kâl imiş ancak.
Fuzuli [Leylâ vü Mecnûn, 1994: 26]
Aşkın aldı benden beni
Bana seni gerek seni
Yunus Emre [Divan, 2016: 87]

4. Sonuç

Bu makalede, Nurboy Cabbarov'un *Maoniy ahlining sohibqironi* ve diğer çalışmaları merkeze alınarak, Ali Şîr Nevâî'nin irfanî anlam dünyasının nasıl kurulduğu; bu kuruluşa eşlik eden metin-merkezli, kavram odaklı ve irfanî yöntemin temel esasları; son olarak da bu yöntemin Türkçeye çeviri ve Türk şiir geleneği bağlamında ne tür imkânlar sunduğu tartışıldı.

Sonuçlar birkaç başlıkta özetlenebilir. Öncelikle, Cabbarov'un Nevâî okumaları; geleneksel şerh mirasını modern metin çözümleme, tasavvufî ve kavram temelli değerlendirmelerle bir araya getirerek kendine özgü bir akademik yaklaşım inşa etmektedir. *Maoniy ahlining sohibqironi,* söz konusu yaklaşımın Nevâî özelinde sistemli biçimde uygulandığı bir çalışma olarak değerlendirilebilir; eserde ele alınan hayat, poetik dünya, Hamse, dinî-ma'rifî eserler ve izdeşlik başlıkları, Nevâî'nin irfanî kimliğinin çok boyutlu bir çerçeve içinde ele alınmasına imkân tanımaktadır. [Asadov, 2021].

İkinci olarak, irfanî anlamın Türkçede yeniden kuruluşu, çevirmenin rolünü pasif bir aktarandan aktif bir yorumcuya dönüştürmektedir. Cabbarov'un fütüvvet kavramı, metin tarihi ve kavram odaklı okuma üzerine makaleleri, çevirmenin eline sadece sözlük anlamı değil, kavramların arkasındaki tasavvufî ve ahlâkî bağlamı da verir. Böylece *'işq*, cevr, sabır, cennet ve cehennem gibi kavramlar Türkçeye aktarılırken, Yunus Emre'den Fuzûlî'ye, Mevlânâ'dan modern tasavvuf yorumcularına uzanan geniş bir anlam alanıyla da temas eder. Bu temas, çeviriyi tek yönlü bir "aktarım" değil, çift taraflı bir "anlam alışverişi" hâline getirir.

Üçüncü olarak, Nevâî'nin irfanî metafor sistemi ile Türk şiir geleneğinin metaforik dünyası arasında güçlü ve süreklilik arz eden bir ortak damar bulunduğu görülmektedir. Cennet ve cehennemin dış mekân değil, ruhun hâli olarak yorumlanması; ateş, su, yol, yara gibi metaforların hem Nevâî'de hem de Anadolu sahasında "arındırma, marifet, seyr u sülûk ve iç aydınlanma" anlam alanlarıyla kullanılması, bu ortaklığı güçlendirir [Zakirova, 2023]. Bu ortak damarı görünür kılmak, Türkiye–Özbekistan arasında yalnız siyasi veya kültürel değil, manevî ve düşünsel bir birlik zemininin var olduğunu da hatırlatmaktadır.

Kaynakça

1. Asadov, M. (2021). *Maoniy ahlining sohibqironi* [Tanıtım yazısı]. https://kh-davron.uz
2. Ataman, K. Y. (2024). *Nevâî düşüncesinde akl-ı selim idraki*. In **Humanism in Eastern and Western Literature: Navoi and Pushkin**. Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.
3. Ataman, K. Y., & Yusupova, D. (2024). *Global/küresel şahsiyet olarak Ali Şir Nevâî*. In **Alisher Navoi and the 21st Century** (Vol. 1, No. 1).
4. Cabbarov, N. (2019). *Alisher Navoiyning irfoniy olami*. Adabiyot.
5. Cabbarov, N. (2021). *Maoniy ahlining sohibqironi*. Adabiyot.
6. Cabbarov, N. (2021). The history of the text and some comments on its genesis. *International Journal of Research in Social Sciences, 11*(9), 1–12. https://doi.org/10.5958/2249-7137.2021.01670.0
7. Cabbarov, N. (2024). Artistic interpretation of the futuvvat idea in Alisher Nevâî's works. *Semantic Scholar*. https://semanticscholar.org
8. Chittick, W. C. (1983). *The Sufi path of love: The spiritual teachings of Rumi*. State University of New York Press.
9. Ergashov, A., & Safrut, B. (2025). Content characteristics of the work "Girya": On the role and significance of music in Sufism (A historical-philosophical analysis). *Karachi Islamicus, 5*(1), 77–87. https://doi.org/10.58575/ki.v5i1.93
10. Eriksen, L. (2009). *The transcendent vision: Sufism and poetic metaphor in the works of Alisher Nevâî*. Cambridge University Press.
11. E. (2012). The mystical and philosophical themes in Alisher Nevâî's poetry. *Journal of Central Asian Studies, 25*(1), 56–73.
12. Fuzûlî. (1994). *Leylâ vü Mecnûn* (A. Gölpınarlı, Haz.). Millî Eğitim Bakanlığı Yayınları.
13. Knysh, A. (2017). *Sufism: A new history of Islamic mysticism*. Princeton University Press.
14. Mevlânâ Celâleddîn-i Rûmî. (2015). *Mesnevî* (A. Gölpınarlı, Haz.). Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları.
15. Nevâî, A. Ş. (2011). *Muhâkemetü'l-Lugateyn* (K. Eraslan, Haz.). Türk Dil Kurumu Yayınları.
16. Palmer, R. E. (1980). *Hermeneutics: Interpretation theory in Schleiermacher, Dilthey, Heidegger and Gadamer*. Northwestern University Press.

17. Schimmel, A. (1975). *Mystical dimensions of Islam*. University of North Carolina Press.
18. Toprak, F. (2018). Ali Şir Nevâyî'de cennet–cehennem metaforu. *Turkish Studies – Language and Literature, 13*(28), 987–999. https://doi.org/10.7827/TurkishStudies.14613
19. Yunus Emre. (2016). *Yunus Emre Divanı* (M. Tatcı, Haz.). Dergâh Yayınları.
20. Yusupova, D. (2011). *Alisher Navoiy "Xamsa"sida mazmun va ritmning badiiy uyg'unligi*. Mumtoz So'z.
21. Yusupova, D. (2025). *Ali Şîr Nevâyî: Hayatı ve edebî sanatı* (Ş. N. Ötegen Cuma, Çev. & Ed.). Atlas Akademi.
22. Yusupova, D. (2025, July). *Mavlono Jaloliddin Rumiy va Alisher Navoi asarlarida Samarqand talqini*. In **Conference Proceedings** (Vol. 1, No. 1).
23. Zakirova Alimdjanovna, N. (2023). Romanticism and mysticism: Heaven and hell in Wordsworth's and Navoi's works. *Zenodo*. https://doi.org/10.5281/zenodo.14590758

AHMAD TABIBIY TUYUQLARINING BADIIY MOHIYATI VA MATNIY-QIYOSIY TADQIQI

Elbekova Shalola Narboy qizi,
Qarshi davlat universiteti
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o'zbek tili)
mutaxassisligi 2-kurs magistranti
e-mail: elbekovashalola@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX-XX asrlarda yashab ijod qilgan shoir Ahmad Tabibiyning tuyuqlari matnshunoslik nuqtai nazaridan ilk bor qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda nashr va qo'lyozma matnlari o'rtasidagi leksik, fonetik va morfologik tafovutlar aniqlanib, mazkur farqlarning yuzaga kelish sabablari izohlanadi. Ayrim o'rinlarda uchraydigan vazn buzilishlari va mazmuniy og'ishlar kotib xatolari yoki og'zaki an'ana ta'siri bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari shoir tuyuqlarining ishonchli matnini aniqlash hamda ularni tanqidiy nashrga tayyorlashda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Xorazm adabiy muhiti, tuyuq, matnshunoslik, qo'lyozma manbalar, tajnis, tanqidiy matn, aruz vazni.*

Abstract

This article provides a comparative analysis of the aphorisms of the poet Ahmad Tabibiy, who lived and worked in the 19th–20th centuries, from the perspective of textual studies. The research identifies lexical, phonetic and morphological differences betweyen printed and manuscript texts and explains the reasons for these divergences. Metric disruptions and semantic shifts found in certain places are explained by scribal errors or the influence of oral tradition. The results of this study serve as an important scholarly resource for establishing the reliable text of the poet's aphorisms and preparing them for critical edition.

Key words: *Khorezm literary environment, phrasing, textology, manuscript sources, paronomasia, critical text, aruz meter.*

O'zbek mumtoz she'riyatida shunday janrlar borki, ularni she'riy san'atlarni mohirona qo'llash natijasidagina yaratish mumkin. Faqat turkiy xalqlar adabiyoti uchun xos bo'lib, tajnis san'ati ila bog'lik nozik so'z o'yiniga asoslanadigan bu janr tuyuq janridir. Bu janrda qalam tebratish uchun ijodkorda yetarlicha lug'at boyligi bo'lishi zarur. Chunki qofiyaga olingan so'zning barcha ma'no qatlamlaridan unumli foydalana olish tuyuq yaratishdagi muhim jihatdir.

So'z mulkining sultoni deya ta'riflanadigan buyuk zot Alisher Navoiy o'z ijodida tuyuqning mukammal namunalarini yaratgan. Shoir o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida tuyuqni shunday ta'riflaydi: "*Va bu ikki baytki, tajnisi tomdur ham turk shuarosi xossasidurki, sortda yo'qtur va muni tuyug'derlar.... Va bu nav' alfoz hamki, uch ma'ni va to'rt ma'ni va ortug'roqkim, iroda qilsa bo'lg'ay, ko'p borki, forsiy alfozda andoq yo'qtur*" [Jurnal, 2013: 6-son].

Tuyuq tajnisli qofiyaga asoslangan va albatta belgilangan qat'iy vaznda ramali musaddasi maqsurda bitilmog'i shartdir. Hajman 4 misradan tashkil topgan bu janrda mustaqil she'riy butunlik bo'lib, har bir misra mazmuniy yuk tashiydi. Yakuniy misra ko'pincha xulosa yoki badiiy cho'qqi vazifasini bajaradi. Vazn ixcham, ohangdor va tez idrok qilinadigan bo'lishi kerak. So'zlar ko'p ma'noli (polisemantik) bo'lib, bir so'z butun tuyuq davomida turli ma'no qatlamlarida ishlatilishi mumkin. Tuyuqda ko'pincha ishqiy, tasavvufiy, falsafiy mavzular yoritiladi.

Navoiyning cheksiz ijod ummonidan bahramand bo'lgan, undan ilhomlanib asarlar yaratgan Xorazm adabiy muhitining taniqli vakili Ahmad Tabibiy o'z davrida mumtoz she'riyat an'analarini davom ettirgan holda tuyuq janrida samarali ijod qilgan adiblardan biridir. "Tabibiy lirik merosida g'azallar bilan bir qatorda ruboiy, qit'a, tuyuqdan iborat to'rtliklar ham muhim o'rin tutadi. Har biri qisqa, lekin ma'lum syujetga, chuqur g'oyaviy mazmunga, yuksak badiiylikka ega bo'lgan asarlari bilan shoir bu janrlarning taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi [G'anixo'jayev, 1978: 40]". Shoir tuyuqlari hozirgi kungacha faqat qo'lyozma manbalar orqali yetib kelgan bo'lsa-da, ularning matni

nashr bilan to‘liq qiyosiy o‘rganilmagan. Natijada ayrim tuyuqlarda leksik tanlov, fonetik shakl, aruz vazni hamda tajnis san’atining ifodalanishida turli tafovutlar uchraydi. Shu sababli shoir tuyuqlarini matnshunoslik nuqtai nazaridan tahlilga tortish muhim masaladir.

Ma’lumki, matnshunoslik fanining asosiy vazifalaridan biri asarning imkon qadar ishonchli matnini aniqlash, matn variantlari orasidagi farqlarning kelib chiqish sabablarini ochib berishdan iboratdir. Bu jarayonda qo‘lyozma nusxalar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi, chunki ular ko‘pincha nashr matnlarida ko‘zga tashlanmaydigan til va uslub xususiyatlarini o‘zida saqlab qolgan bo‘ladi. Ayniqsa, qisqa hajmli she’riy janrlar, jumladan tuyuqlar misolida qo‘lyozma va nashr variantlarini qiyoslash matnning asl holatini tiklashda muhim metodik ahamiyatga ega.

Tabibiy tuyuqlari bizga O‘z RFA Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan ikki qo‘lyozma manba orqali yetib kelgan. Birinchisi 927/II inventar raqam ostidagi manba bo‘lib, unda shoir tuyuqlari 358[ab] – sahifalardan o‘rin olgan. Ikkinchi manba 1122 raqamli qo‘lyozma bayozdir. Ushbu qo‘lyozmada shoir tuyuqlari 105[a] –sahifada tuyuq 208 raqami bilan boshlanib, 106[b]- sahifada tuyuq 211 raqami bilan yakunlanadi. Ularning soni 4 ta bo‘lib har bir tuyuq boshida qizil siyohda she’r janri va tartib raqami yozilgan. Ushbu tuyuqlar Tabibiyshunos Shermuhammad Amonov tomonidan joriy imloga tabdil qilinib, nashr qilingan. Ijodkor asarlarining mavzu ko‘lami juda xilma-xildir. Tuyuq janridagi she’rlari asosan ishq va hijron mavzularida yozilgan. “Tabibiy ijodida ishq-muhabbat mavzusi salmoqli o‘rin egallaydi. U oshiq va ma’shuq obrazlari orqali kishilarning his-tuyg‘ularini ifodalaydi [G‘anixo‘jayev, 1968: 8]”.

Kelsa, ey jon, ko‘ngul gar yoringiz,
Siynani allida oning yoringiz,
Yoringiz oh-u fig‘onlar aylabon,
Mahvi ruxsori bo‘lunglar yoringiz [Amonov, 2025: 189] – shaklida tabdil qilingan tuyuq qo‘lyozma manbada quyidagicha kelgan:

كلسه ايجان كونكل كر يارينكيز
سينه نى اليده انينك يارينكيز
يار ينكيز آه فغان لار ايله بان
محو رخسارى بولو نكلار يار ينكى[*Qo‘lyozma,* 1122: 103]

Ishqiy mavzudagi bu tuyuqning tabdil varianti qo‘lyozma manba bilan qiyosiy tadqiq etilganda, so‘zlarning aynan qo‘lyozmadagi o‘qilish shakli kabi tabdil qilinganligi, matniy tafovutga uchramagani va ma’nosi saqlanib qolganligi aniqlandi. Tuyuqda asosiy badiiy tayanch “ *yor/yoringiz*” so‘zi tajnisga asos qilib olingan bo‘lib, uch misrada radif o‘rnida takrorlangan. Birinchi va to‘rtinchi misralardagi tajnisga olingan so‘z bir xil ma’no (*yorni*) ifodalab kelgan. Uchinchi misradagi “*yoringiz*” so‘zi ikkinchi misradagi fikrning ya’ni *dardlaringizni izhor qiling* ma’nosining mantiqiy davomi bo‘lib fikrni kuchaytirib, ta’kidlab kelgan. Ikkinchi misrada kelgan “*allida*” so‘z shakli ma’noni biroz mavhumlashtiradi. Ammo bu holatni shoir Xorazm adabiy muhiti vakili ekanligi va odatda Xorazm shevasida bu so‘z “*oldida*” so‘zini ifodalab kelishi bilan izohlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Tabibiy lirikasida oshiqlar ko‘pincha xursandchilikdan ko‘ra o‘z maqsadlariga – yorlariga yeta olmaslik xususida chuqur hayajon bilan hasrat qiladilar [G‘anixo‘jayev, 1978: 15]”. Ushbu tuyuq ham ishq va hijron mavzusida bitilgan bo‘lib, unda oshiqning yor ayrilig‘idan chekkan iztiroblari o‘z aksini topgan.

Ey, g‘ami hijron ich ila toshima,
Kulfati ranj-u alamni toshima,
To falak g‘am toshin otdi boshima,
Nozik (nozil) o‘ldi dard-u g‘am bu toshima.

Ushbu tuyuqning ham qo‘lyozma varianti bizga ma’lum bo‘lib, u asl manba 1122 raqamli qo‘lyozma nusxada quyidagicha keladi:

ای غم هجران ایچ ایله تاشیما
کلفت رنج آلم نی تاشیما
تا فلک غم تاشین آتدی باشیما
نازل اولدی درد غم بو تاشیما

Tuyuq matnini qo‘lyozma bilan qiyosiy tahlil qilish jarayonida nashr va manba o‘rtasida bitta farqli jihat aniqlandi. Bu nashrda to‘rtinchi misrada kelgan “ nozik” (نازک) so‘zi qo‘lyozma manbada “*nozil*” (نازل) tarzida yozilgan. Bu farqlilik haqida ikki xil fikr yuritish mumkin. Birinchi faraz nashrga tayyorlovchi qo‘lida qo‘lyozmaning balki boshqa nusxalari ham mavjud bo‘lishi ehtimoli, ikkinchisi qo‘lyozmani tabdilga tayyorlashda texnik xatolik yuz berganligi yoki matnni xato o‘qish natijasida bu holat kuzatilishi mumkin. Ammo matndagi mazmunni *nozil* so‘zi orqali ifodalash, ham vazn va ritm jihatidan, hamda ma’no butunligini ta’minlash jihatidan matnga ko‘proq mos tushadi.

Tuyuqda “*g‘am, hijron, ranj, alam, dard* ” kabi so‘zlarning qo‘llanilishi lirik qahramonning og‘ir ruhiy holatini ifodalaydi. Ayniqsa, *toshima* so‘zining radif sifatida kelishi oshiq boshiga yog‘ilayotgan musibatlarni toshga qiyoslash orqali kuchli badiiy obraz yaratilgan.

Tahlilga tortilgan navbatdagi tuyuqning markaziy g‘oyasi ishqning mutlaq qadriyat sifatida talqini va dunyoviy andishalarning inkoridir:

To libosi ofiyatdin orimiz,
Yo‘qdurur ishq ichra aslo orimiz,
Bas, erur bo‘lsa agar, ey do‘stlar,
Shohidi ma’nig‘a zeb shiorimiz. (ash’orimiz)

Shoir bu yerda “*libosi ofiyat*” (tashqi farovonlik, tinch hayot) bilan “*ishq*”ni qarama – qarshi qo‘yib, haqiqiy ishq tinchlik va osoyishtalikni inkor etishini badiiy asoslaydi. Tuyuq mazmunan quyidagi mantiqiy rivojga ega:

– shoir dunyoviy osoyishtalikdan voz kechishini, or qilishini bildiradi.

– ishq yo‘lida uyat, andisha va hisob-kitobning mutlaqo yo‘qligini ta’kidlaydi.

– o‘z fikrini “ey do‘stlar” murojaati orqali umumlashtirib, uni jamoaviy e’tiqod darajasiga ko‘taradi.

– yakunda o‘z she’riyatini botiniy haqiqatning guvohi – “shohidi ma’ni” sifatida talqin qiladi.

Mazkur tuyuq matnshunoslik jihatidan barqaror bo‘lib, unda asosiy e’tibor “or” tushunchasining takroriy va markaziy qo‘llanishiga qaratiladi. Tuyuqda *orimiz* so‘zi 1-2 misralarda takrorlanib radif vazifasini bajarib kelgan. 3-4 misralarda radif to‘liq takrorlanmaydi. Ushbu tuyuqda janr qoidasidan biroz chetga chiqilgan holat kuzatiladi, chunki tuyuq yaratish qoidasiga ko‘ra tajnisga olingan so‘z barcha o‘rinlarda o‘zining qat’iy o‘zgarmas shaklini saqlab qolishi zarurligini hisobga olsak, to‘rtinchi misra so‘ngidagi *shiorimiz* so‘zi matnga mazmuniy jihatdan uyg‘un emas. Quyida asl manba:

تا لباس عافیت دین عاریمیز
یوقدورور عشق ایچرا آصلا عاریمیز
بس ایرور بولسه اگر ایدوست لار
شاهد معنیغه زیب اشعاریمیز

Tuyuq matnini qo‘lyozma bilan qiyosiy tadqiq qilish jarayonida nashr va manba o‘rtasida farqlilik aniqlandi. Bunda tuyuqning to‘rtinchi misrasida kelgan *ash’orimiz* so‘zi nashrda *shiorimiz* tarzida kelgan. Bu holat ma’no izchilligining yo‘qolishiga sabab bo‘lgan. Yana bir holat: ikkinchi misradagi *aslo* (اصلا) shakli qo‘lyozmada *oslo* (آصلا) holatida kelgan. Bu o‘zgarish mazmun butunligiga putur yetkazmaydi, aksincha shevadagi og‘zaki an’anani adabiy til me’yorlariga moslashtirish deb qarash mumkin. Chunki keng kitobxonlar ommasi sodda va ravon uslubda yozilgan asarlarni ma’qul ko‘radi. Tuyuq matn jihatdan hajman ixcham, mazmunan zich, matniy va g‘oyaviy jihatdan yakunlangan.

Mazkur tuyuqda Ahmad Tabibiy ishqni dunyoviy andishalardan ustun qo‘yuvchi tasavvufiy-estetik konsepsiyani ilgari suradi. She’rning markaziy badiiy g‘oyasi – ishq va or (uyat, hayo) tushunchalarining qarama-qarshi qo‘yilishidir. “Or” tushunchasining inkori orqali oshiqning ruhiy ozodligi, “shohidi ma’ni” iborasi orqali esa she’riyatning botiniy haqiqatni ifodalovchi vosita ekani badiiy asosda yoritiladi. Tuyuq ishqiy mazmun asosida qurilgan bo‘lsa-da, uning botiniy qatlamida tasavvufiy tafakkur ustuvorlik qiladi.

“Tabibiy oz satrlarda chuqur mazmunli she’rlar yarata oldi. Bunda u o‘zbek tili boyliklaridan yaxshi foydalandi. Bu sohada shoirning tuyuqlari xarakterlidir.

Siz bila majlisda ichduk to qimiz,
Dahr aro ushshoq xaylin toqimiz,
Vaslingiz mahsulimiz aylang yana,
Kim aning subh-u maso mushtoqimiz.

Bu tuyuqda ketma-ket so‘z o‘yinlari bor. Birinchi misradagi *to qimiz* ichgunimizgacha, ikkinchi misradagi *toqimiz* – yolg‘izmiz, to‘rtinchi misradagi so‘z esa “ *mushtoqlik*” ma’nolarida kelmoqda [G‘anixo‘jayev, 1978: 40]”, – deya olim tuyuqdagi go‘zal badiiyatni va tajnis so‘zlarning ma’nolarini ochib beradi.

To‘rtlikning asosiy mavzusi – yor bilan visol umidi, oshiqning doimiy intizori va ishqiy hamjihatlikdir. Shoir majlis manzarasi orqali oshiq va yor o‘rtasidagi yaqinlikni tasvirlaydi, biroq bu holat yakuniy emas, balki visolga intilish jarayonining bir ko‘rinishi sifatida talqin etiladi. Tabibiy o‘zini oshiqlar jamoasida tengsiz (toq) deb ta’riflar ekan, bu orqali ishq yo‘lida cheksiz fidoyilik va sobitlikni ulug‘laydi.

Bu tuyuq qo‘lyozma sahifasida quyidagicha ko‘chirilgan:

سیز بیله مجلس دا ایچدوک تا قیمیز
دهر ارا عشاق خیلین تاقیمیز
وصلینکیز محصولیمیز ایلانک ینه
کیم آنینک صبح مسا مشتاقیمیز

Tabibiy ijodiga mansub bu tuyuq leksik va grammatik qurilish jihatidan mumtoz she’riy matnning barqaror namunasi hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim birliklar matnshunoslik nuqtai nazaridan izoh va aniqlikni talab etadi. Tuyuqda

“*-imiz*” shakli barcha misralarda izchil takrorlanib, radif vazifasini bajaradi: *qimiz, toqimiz, mahsulimiz, mushtoqimiz*. Bu holat tuyuq janriga xos bo‘lgan fonetik va semantik butunlikni ta’minlaydi. Radifning izchil saqlanishi matnning qo‘lyozma an’anasi mustahkam ekanligidan dalolat beradi. Birinchi misradagi “ichduk” – fe’lning qadimgi ko‘plik shakli –“ichdik” variantiga nisbatan arxaik shaklidir. Bundan tashqari aynan shu so‘z orqali og‘zaki an’analar ta’siri ham seziladi. To‘rtinchi misradagi “*kim aning*” deb boshlanuvchi jumlada ham nashr va qo‘lyozma o‘rtasida matniy o‘zgarish aniqlandi: nashrdagi *aning* (اینک) so‘zi manbada *oning* (آنینک) shaklida yozilgani kuzatildi. Bu holat matnning mazmuniy butunligiga ta’sir o‘tkazmaydi. Matndagi boshqa leksik birliklar nafaqat tuyuq uchun balki, mumtoz matn uchun ham xosdir. Mazkur tuyuqda Tabibiy ishqni oshiqni doimiy intizorlik holatida tutuvchi, foniy dunyo chegaralaridan ustun bo‘lgan ruhiy kuch sifatida talqin qiladi. Shoir ta’kidlashicha, yor bilan bir lahzalik yaqinlik ham oshiq uchun abadiy sog‘inch manbaiga aylanishi badiiy jihatdan asoslab berilgan.

Maqolada Ahmad Tabibiy ijodiga mansub to‘rt tuyuq qo‘lyozma va nashr variantlari asosida matnshunoslik hamda badiiy-poetik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida tuyuq janrining ixcham shakliga qaramay, undagi g‘oyaviy- mazmuniy zichlik, semantik ko‘pqatlamlilik va matn variantlariga ochiqlik shoir ijodining muhim xususiyatlaridan biri ekanligi aniqlandi. Umuman olgandaTabibiy tuyuqlarini yuqoridagi yondashuvlar asosida o‘rganish ularning ishonchli matnini

aniqlash, mazmuniy qatlamlarini to‘g‘ri talqin qilish va shoir ijodini ilmiy muomalaga to‘laqonli kiritish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tabibiy. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi: Fatxulla G‘anixo‘jayev). – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1968. – 8 b.
2. Tanlangan asarlar. Ahmad Tabibiy. (Nashrga tayyorlovchi: Shermuhammad Amonov). – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 189 b.
3. Qo‘lyozma. دیوان منتحب طبیبی O‘zRFAShI Asosiy fond. Inv. №1122.
4. G‘anixo‘jayev F. Tabibiy (hayoti va ijodi). – Toshkent: Fan, 1978. – 17 b.
5. “Tuhfatu-s-sulton”, Inv. № 82, 460 b.
6. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. 2013-yil 6-son.
7. https:// uz.m.wikipediya.org/wiki. Tuyuq
8. https://tafakkur.net/tuyuqlar-tavsiya

MAJZUB NAMANGONIY VA UNING ADABIY MEROSI MANBALARI

Boyatov Oybek Maxmudjon o'g'li,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
University of Business and Science
Tillar kafedrasi dotsenti v.b.
e-mail: oybekboyatov15@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Namangan adabiy muhitida yashab ijod etgan mumtoz adabiyot vakili Majzub Namangoniyning adabiy merosi va uning manbalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoir ijodining qo'lyozma va toshbosma nusxalari, bayozlar, tazkiralar hamda tarixiy-adabiy manbalar asosida o'rganilishi masalasi yoritiladi. Majzub Namangoniyning g'azallari va boshqa lirik asarlarida tasavvufiy-falsafiy g'oyalar, badiiy tafakkur xususiyatlari hamda an'anaviy poetik unsurlar tahlil etiladi. Maqolada shoir merosining o'zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati manbashunoslik nuqtai nazaridan baholanadi.

Kalit so'zlar: *Majzub Namangoniy, adabiy meros, manbashunoslik, qo'lyozma manbalar, tazkira, bayoz, mumtoz adabiyot, tasavvufiy lirika.*

Abstract

This article examines the literary heritage of Majzub Namangoniy, a representative of Uzbek classical literature of the late 18th and early 19th centuries, with special reference to its source foundations. The study analyzes manuscript and lithographic copies, poetry collections (bayoz), tazkiras, and historical-literary sources related to the poet's works. Particular attention is paid to the Sufi-philosophical ideas, artistic thinking, and traditional poetic elements reflected in Majzub Namangoniy's ghazals and lyrical compositions. The article evaluates the significance and role of the poet's legacy in the development of Uzbek classical literature from a source-studies perspective.

Key words: *Majzub Namangoniy, literary heritage, source studies, manuscript sources, tazkira, bayoz, classical literature, Sufi poetry.*

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida tasavvuf (so'fiylik) tariqati bilan bog'liq Xoja Ahmad Yassaviy, Boborahim Mashrab, So'fi Olloyor, Huvaydo, Haziniy va boshqa ko'plab mutasavvuf shoirlar qadimiy va navqiron Turkiston zamini xalqlarining madaniy hayotida katta mavqega ega bo'lgan. XVIII asr oxiri va XIX asr o'rtalariga qadar yashab ijod etgan, Turkiston adabiy muhitiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan Abdulaziz Hasanxo'ja o'g'li Majzub Namangoniy ham Naqshbandiya tariqatining piri murshidi sifatida xalqqa tanilgan ijodkorlardan.

Majzub Namangoniyning tug'ilgan sanasi hali hanuz fanda noma'lumligicha qolmoqda, lekin o'rganishlar natijasi shoirning tavalludini XVIII asr ikkinchi yarmiga to'g'ri kelishini isbotlamoqda. Shoirning vafot sanasini Po'lotjon Domulla Qayumiy "Tazkirayi Qayumiy" tazkirasida "Mazjub Namangoniy hijriy ila 1273-yilda vafot etmishdur", [Қаюмий, 1998] deb yozadi. Shoirning tug'ilgan joyi ham turli manbalarda turlicha yozilgan. Ayrim manbalarda Qo'qon shahrida tug'ilgan, deb aytilsa, ayrimlarida qadimiy Nasaf (Qarshi) da deb yoziladi, yana ayrim manbalarda Piskentda deb yoziladi, ammo shoirning qo'lyozmalaridan birida Namakkon ya'ni Namangan shahridagi Degrezlik dahasining hozirgi Sumalak guzari mahallasida dunyoda kelganligi aytib o'tilgan [Majzub Namangoniy, 2125 inv. raqamli qo'lyozma].

Shoir o'zining "Tazkirayi Majzub Namangoniy" asarida ta'kidlashicha, uning dastlabki ustozi va piri Mavlaviy Namangoniy nomi bilan mashhur Mulla Xoja Eshon Namangoniy [Majzub Namangoniy, 2662-II inv. raqamli qo'lyozma] bo'lgan. Mavlaviy Namangoniyning ona tomonidan bobosi, XVIII asrda Samarqandda yashab ijod etgan, Naqishbandiya tariqati, mujaddiya sulukining yirik vakili Musoxon Dahbediyning muridlaridan biri Yusuf ismli shaxs bo'lgan.

Majzub Namangoniy o‘z zamonining yirik ulamolaridan ta’lim olgan. Majzub o‘zining tazkirasida ana shu ulamolar va mudarrislar zikrini bayon etgan. Tazkirada yozishicha, u Buxoroda madrasada tahsil oladi. Buxoroda tasavvuf ahlining yirik vakillaridan bo‘lgan Husayniy Yangiqo‘rg‘oniyga murid bo‘ladi. U ustozlaridan tasavvufning shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat bilimlaridan saboq olib, kamolga yetadi. Buxorodan qaytishda Samarqand va Qo‘qon shaharlarida ma’lum bir vaqt to‘xtab, bu shaharlardagi ulamolar bilan suhbatlashadi. Shundan so‘ng u Namanganga qaytib kelib, o‘z ijodiy faoliyatini boshlaydi.

Ijodkorning hayoti va ijod yo‘li bo‘yicha haligacha hech qanday dissertatsiya himoya qilinmagan. Hozirda tadqiqotchi Naima Aliqulova bu mavzuda ilmiy ish olib bormoqda. Uning ilmiy maqolalari turli nashrlarda chop etilmoqda, lekin ijodkor haqidagi manbalar to‘liq o‘rganilmagan. Shoirning adabiy merosi hozirga qadar adabiyotshunoslik e’tiborida kam uchraydi.

Adabiyotimizda Majzub taxallusi Abdulaziz Husanxo‘ja o‘g‘liga nisbatan qo‘llanilishi ma’lum, ammo o‘zbek adabiyoti tarixida “Majzub” taxallusi bilan uchta ijodkor ijod qilgan. Bularning birinchisi Mir Muhammad Majzub. U ijodkor 1862-yilda vafot etgan. Ikkinchisi, Sharofiddin Majzub Xorazmiy, uchinchisi esa Abdulaziz Majzub Namangoniy bo‘lgan [Ҳ. Ҳомидий, 2007]. Majzub so‘zining izohiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu so‘z “jazavasi tutgan” degan ma’noni anglatadi. Bu uch Majzublar ham Naqshbandiya tariqatiga ergashgan. Shuning uchun o‘zlariga Majzub taxallusini olgan.

Abdulaziz Majzubning salmoqli adabiy merosi yirik hajmli devonida jamlangan. Shoir devonini, avvalo, matnshunoslik va manbashunoslik yo‘nalishida o‘rganish, shu asosida shoirning milliy adabiyotimizda tutgan o‘rnini baholash kerak.

Shoirning ijodini o‘rganishda, O‘zR FA ShI asosiy fondida 1018, 2662, 2125, 2567, 1481 raqamlari bilan saqlanuvchi devonining qo‘lyozmalari muhim manba hisoblanadi. Majzubning adabiy merosi uning devoniga ko‘chirilgan. Devondan g‘azal, muhammas, musaddas, murabba, musamman, qasida va soqiynoma joy olgan. Ijodkor devon qo‘lyozmalari va ko‘chirilgan manbalarini quyidagi tasnif asosida o‘rganish mumkin:

I. Shoir devoni qo‘lyozmalari.

II. Qo‘lyozma tazkiralar.

III. Toshbosma manbalar.

IV. Davriy nashrlar (gazeta, jurnal, to‘plam)da e’lon qilingan asarlari.

Bugungi kunda shoirning qo‘lyozma devonlari saqlanib kelmoqda. Shoirning qo‘lyozmalari haqida qisqacha ma’lumotlar quyidagicha:

Tazkirayi Mazjub Namangoniy- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy qo‘lyozmalar fondi, 2662-II raqamli qo‘lyozma. Asar hijriy 1335-yilda Halifa Abdulaziz Namangoniy tomonidan ko‘chirilgan. Majzub Namangoniyni ayrim manbalarda Halifa Abdulaziz Namangoniy deb ham yuritilgan. Bundan bilinadiki, bu qo‘lyozma adibning o‘zi tomonidan ko‘chirilgan, degan taxminga kelamiz. Tazkira forsiy tilda, nastaliq xatida, fabrika qog‘oziga yozilgan. Qo‘lyozma muqovasi qattiq kartondan ishlangan, muqovasida qizil va sariq rangli rombik shaklidagi 5 ta naqsh solingan. Kotib yozishda qo‘lyozmaning boshlanish qismida 8 ta varoq, tugashida 3 ta varoqni bo‘sh qoldirgan. Jami 132 varoqdan iborat. Kitob “Kitobi tazkirai Majzub alayhir-rohma” deb nomlangan. Boshlanmasida basmala berilib, undan so‘ng masnaviy shaklida Allohga hamd va na’t berilgan. Matnlar qora siyohda, sarlavhalar esa qizil siyohda yozilgan.

Devoni Majzub – 1018-raqamli qo‘lyozma. Devonda shoirning fors tilidagi she’rlari jamlangan. Devon hijriy 1308-yil, Muhammad Sharif kotib tomonidan ko‘chirilgan. Qo‘lyozma 178 varoqdan iborat. Boshlanishida 9 ta, oxirida esa 12 ta varoq bo‘sh qoldirilgan. Kitobning shakli 15x25 bo‘lib, shundan 10x20 shakliga matn yozilgan. Yozilgan matnlar ustini 2 ustunda 12-13 qatordan iborat. Devon nastaliq xatida, qora siyohda, rangli Sharq (Qo‘qon) qog‘ozida yozilgan. Kitobning ustki qismi

esa, sariq rangli qattiq karton bilan qoplangan. Muqovasida 5 ta rombik shaklidagi; sariq, qora va qizil rangli naqsh tushirilgan. Qo‘lyozma “Bismillohir- Rahmonir – Rahim”dan so‘ng Allohga va uning rasuli Muhammad (s.a.v.)ga an’anaviy hamd bilan boshlanadi. Undan so‘ng shoirning g‘azallari yozilgan.

Devoni Majzub Namangoniy – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Hamid Sulaymon nomli qo‘lyozmalar fondi, 2125-raqamli qo‘lyozma. Qachon va kim tomonidan yozilgani noma’lum. Bu devonga shoirning fors-tojik va turkiy tillardagi turli janrdagi she’rlari: masnaviy, g‘azal, muxammas, mustazod, tarjibandlar kiritilgan. Devondagi matnlar chiroyli nastaliq xatida, Sharq qog‘oziga yozilgan. Matnlar ikki ustunda 12-13-14 qator shaklida bitilgan. Qo‘lyozmaning muqovasi to‘q jigarrang shaklda, qattiq katron qog‘ozdan iborat. Devonning o‘lchami 15x26 bo‘lib, 10x18 hajmida matn yozilgan. Jami 66 varoqdan iborat. Devonni ko’chirishda kotib barcha she’rlarga sarlavha qo‘ymagan. Ayrimlarini “G‘azal”, “G‘azali Majzub”, “Muxammasi Majzub” deb nomlagan. Ammo kotib she’rlarni janrlarga ajratishda birmuncha xatoliklarga yo‘l qo‘ygan. Devonning 18[a]-sahifasida “G‘azali Majzub Namangoniy” nomli yoki 25[b]- sahifada “G‘azal” nomli sarlavha ostida Muxammas (beshlik) shaklida she’r ko‘chirilgan. Masalan,



Ushbu she’r aslini olganda har bir bayti besh misradan iborat muxammas shaklida yozilgan bo‘lishiga qaramay, unga kotib tomonidan g‘azal deb sarlavha qo‘yilgan. Aslida bu she’r muxammas janrida yozilgan. Majzub Namangoniy devonini nashrga tayyorlagan Habibulloh Akmalxon maxdum o‘g‘li tomonidan aynan shu she’r tabdilida muxammas deb nomlagan.

Muxammas

Zoting tafakkurida, billohi summa billoh,
Aytur ulul absor el, hayhot, ya’ni vah-vah.
Insu pari maloik, kunhiga tobmadi roh,
Ham soiri xaloyiq, kunhiga ermas ogoh.
Ey aybdin mubarro, voy nuqsdin munazzah.
[Мажзуб Наманганий. Муҳаббат сарчашмаси: 2001]

Devoni Majzub Namangoniy – 1481-raqamli qo‘lyozma. Devon hijriy 1326-yil ramazon oyining 10-sanasida Usmonxoja ibn Muhammad Alixoja kotib tomonidan ko‘chirilgan. Qo‘lyozma nastaliq xatida, Sharq qog‘oziga yozilgan. Devon 98 varoqdan iborat. Muqovasi qizil rangli qattiq

kartondan iborat. Muqovasi uchta rombik shaklidagi naqsh bilan bezatilgan. Devon “Basmala” bilan boshlanib, undan so‘ng uchta masnaviy berilgan. Masnaviyning matla’ qismi quyidagicha berilgan.

Xudoyi taborak, Xudoyi taolo,

O‘zing xodiy yo‘l ochg‘il, ey Haq taolo.

Bundan tashqari, yana adibning O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Hamid Sulaymon nomli qo‘lyozmalar fondida 2580, 2567, 2351-II raqamlari ostida va Namangan viloyatida shoirning avlodlari qo‘lida saqlanayotgan qo‘lyozmalari ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. Hamid Sulaymon fondi. Qo‘lyozma. Inv. №2662-II, 1018, 2125, 1481.

2. Пўлотжон домла Қайюмий. Тазкираи Қаюмий. 3 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент, Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998 йил. – Б. 188.

3. Ҳомидий Ҳ., Маъмуров М. Наманган адиблари. – Тошкент: Фан, 2007 йил. – Б. 26.

4. Jo‘raboyev O. Majzub Namangoniy va uning adabiy merosi manbalari xususida. O‘zbek tili va adabiyoti masalalari to‘plami. – Тошкент: Fan, 2005. – 28 b.

AMIR TEMUR IJODKORLIGI XUSUSIDA

Kamoldinova Gavharoy Sayfiddin qizi,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti
e-mail: gavharishoda3@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temurning ijod bilan shug'ullanganligi tadqiq etiladi. Shuningek, topilgan ijod namunalari nazariy va badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Temurning ijodiga to'xtalgan olimlar fikri o'zaro qiyoslanadi.

Kalit so'zlar: *adabiyot, tazkira, aruz, qofiya, "Zafarnoma", "Temur tuzuklari", Amir Temur, Shohrux Mirzo, Ulug'bek Mirzo.*

Abstract

This article examines Amir Temur's creative activity. In addition, the found examples of creativity are analyzed theoretically and artistically. The opinions of scholars who have studied Temur's creativity are compared.

Key words: *literature, tazkira, aruz, rhyme, "Zafarnoma", "Temur tuzuklari", Amir Temur, Shohrukh Mirzo, Ulugbek Mirzo.*

To'rt asrdan ziyodroq temuriylar saltanati hukm surgan davlat o'zining nafaqat egallagan hududlari, balki ilm-fanning turli jabhalari va sohalari rivojlanganligi bilan ham tarixda o'chmas iz qoldirdi. Astronomiya, geografiya, tarix, me'morchilik, shuningdek, adabiyotni yuqori pallaga ko'targan shaxslar bilan bir qatorda, rivojlanish uchun o'z hissasini qo'shgan hukmdorlar yuqorida sanalgan sohalarda mohirliklarini ko'rsatishdi. Tabiiyki, sulola asoschisi Amir Temur hech bir yo'nalishni yoddan chiqarmagan holda adabiyot homiysi sifatida ham o'zidan keyingi avlodlariga munosib o'rnak bo'ldi. Bu sulola davri adabiyotshunoslarimiz tomonidan "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti" deya o'rganila boshlandi, maxsus tadqiqotlar yaratildi. A.Hayitmetovning "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti" kitobida ham davr adabiy muhiti haqida quyidagicha so'z yuritiladi: *"Amir Temur nozikta'b inson, go'zallikni his etadigan, adabiyot va san'atning qadriga yetadigan, zot ham edi. Uning badiiy adabiyotga munosabati shu paytgacha o'rganilmagan. Bunga oydinlik kiritishda bizga birinchi ko'makdosh Alisher Navoiydir* [Hayitmetov A., 1996: 14].

Sulola asoschisi ijod bilan mashg'ul bo'lganligiga bizning e'tiborimizni tortgan jihat "Temur tuzuklari"da Amir Husayn uchun yozilgan maktubda keltirgan baytdir. Bayt matni quyidagicha:

Yorga yetkur, sabo, kim makr qilmishdur manga,
Qildi ersa kimga makrin, qaytadur bir kun anga [Amir Temur, 2019: 46].

Shu paytgacha Amir Temurning ijod bilan shug'ullangan yoki yo'qligi masalasi bir qancha olimlarimiz tomonidan tadqiq qilingan. Ammo ularning deyarli hammasida Amir Temur ijod qilmagan, shunga qaramay, juda yaxshi she'r o'qigan degan xulosaga kelingan. Bu xulosalarga kelinishiga yana bir sabab Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida hukmdorga bildirilgan fikrdir.

Ma'lumki, tazkiradan, asosan, ijodi bilan shoir e'tiborini tortgan va alohida hurmat ko'rsatgan shaxslar o'rin olgan. Biroq bevosita yettinchi va sakkizinchi majlisi temuriylarga bag'ishlangan majlislar boshlanmasida Navoiyning quyidagi izohi o'rin olgan: *"Salotini izom (ulug') va avlodi vojub ul-ehtiromlari zikridakim, ba'zi yaxshi mahallarda xub bayt o'qubturlarkim, filhaqiqat o'zlari aytqondek xubdur va ba'zi nazm latoyifiga mashg'ul bo'lubturlarkim, ul dag'i matlub va marg'ubdur* [Alisher Navoiy, 2013: 411]. Ya'ni yettinchi majlisda Navoiyning shoirlik maqomiga erishmagan, ammo she'r o'qishda mohir bo'lganligini qayd qilgan sultonlar Amir Temur, Shohrux Mirzo va Ulug'bek Mirzolardir. Temur haqidagi ta'rif esa quyidagicha:

"... agarchi nazm qilmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqeda o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt aytqoncha bor [Alisher Navoiy, 2013: 411].

Amir Temur o‘zining adolatparvarligi, ilm-ma’rifat homiysi sifatida shuhrat qozonishi bilan bir qatorda munosib paytda, munosib o‘rinda she’r ayta, yoza olgan. Yuqorida keltirilgan bayt aynan Temurga tegishli ekanligini “Temur tuzuklari”da Amir Husayn bilan o‘rtada bo‘lib o‘tgan voqeadan so‘ng muallifning unga yozgan maktubi haqidagi fikrlari asoslaydi: “... *Amir Husaynga esa ushbu mazmunda turkiy bayt yozib yubordim...”*

Bayt tahlil qilinganda esa uning sof turkiy tilda ekanligi ko‘rinib turibdi. Qofiyadosh so‘zlari “manga”-“anga” so‘zlaridir. G harfi raviy bo‘lib, bunda qofiyaning tuzilishiga ko‘ra raviydan so‘ng harf kelganligi uchun mutlaq qofiya, o‘zak tarkibiga ko‘ra esa qofiyadosh so‘zlar unli harf bilan yakunlanganligi sababli mujarrad qofiya sanaladi. Vazni esa aruzning ramali musammani mahzuf, foilotun-foilotun-foilotun-foilun afoyilida, – V – – / – V – – / – V – – / – V – taqte’sida yozilgan.

Temurning bundan tashqari yana ko‘plab baytlar yozganligi “Zafarnoma” da Sharafiddin Ali Yazdiyning hukmdor ijodidan keltirgan baytlari orqali ham ma’lum bo‘ladi. Bu haqida Sherxon Qorayevning “Temuriy shoirlar tazkirasi” monografiyasida Poyon Ravshanov tadqiqotidan keltirgan fikrlari asos bo‘lib xizmat qiladi: *“Amir Temur va Temuriylar davridagi adabiy hayot haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, gapni Sohibqironning o‘zidan boshlashga to‘g‘ri keladi. Tarixiy asarlarda, jumladan, “Zafarnoma”da Amir Temurga mansub bir necha bayt keltirib o‘tiladi”* [Ravshanov P., 2006: 450].

Sohibqiron avlodi Shohrux Mirzoning ham tazkirada “... nazmg‘a mashg‘ulluq qilmas erdi” degan fikrlari, otasining maqomini tutganligi haqidagi Navoiy fikrlari ushbu hukmdorning ham shoir bo‘lmaganligini ko‘rsatishi mumkin. Biroq Herman Vamberining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” nomli kitobida Shohrux Mirzoning turkiy va forsiy she’rlar yozganligi to‘g‘risidagi fikrlarga asoslanib, ushbu hukmdorning ijodkorligi tadqiq qilinishi kerak bo‘lgan o‘rinlardan ekanligi ayon bo‘ladi.

Olimlar va boshqa tadqiqotchilarning yuqoridagi fikrga kelishlariga sabab, agar Temurda ijodkorlik qobiliyati bor bo‘lganda Navoiy uni o‘z tazkirasida keltirgan bo‘lardi, – degan xulosalari ham bo‘lishi mumkin. Shuni ham unutmaslik kerakki, Navoiydek so‘z dahosi va ijodkori sultonlik majlislari va yig‘inlarida onda-sonda mavzuga mos baytlar keltirilishini ijodkorlik sanamagan ham bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Bizning ushbu fikrimizga sabab esa tazkirada Shohrux Mirzoga aytilgan fikrlardir: *“... avlodi vaamjod orasida sohibqiron otasining qoyim maqomi bo‘ldi. Ham mashg‘ulluq qilmas erdi, ammo xub bayt va yaxshi so‘zlar ko‘p ul hazratdin ham voqe bo‘lur erdi”,* [Alisher Navoiy, 2013: 412] – deya Abulqosim Boburdan eshitgan naqlni keltirib o‘tadi. Ko‘rinib turibdiki, ba’zida munosib o‘rinlarda baytlar keltira olinishini Navoiy ijodkorlik deya baholamagan. Chinakam shoir deya atalishi uchun esa o‘z davri talablari hamda qoidalari mavjud bo‘lgan. To‘g‘ri, baytlar yoza olish, u baytlarni g‘azal yoki boshqa janrlar holiga keltirilgan namunalar yo‘qligi Navoiyning ham yuqoridagi hukmdorlarning shoirlik maqomini olishiga to‘sqinlik qilar, lekin aqliy tafakkuri yoki qalb kechinmalari aks etgan o‘rinlarni she’riy qolipga solish ham insondan alohida qobiliyat, iqtidor talab etadi.

Keyingi davr olimlari esa, xususan, Herman Vamberining Shohrux Mirzo haqida bildirgan yuqoridagi fikrlari aynan shoirlik qilmasa ham nazmga iqtidori mavjud hukmdorlarni kashf qilishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1996. – 161 б.
2. “Амир Темур ўгитлари”. Нашрга тайёрловчилар: Б.Аҳмедов, А.Аминов. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – Б. 6.
3. Амир Темур тузуклари. – Тошкент: Шодлик, 2019. – 210 б.
4. Мажолис ун-нафоис. ТАТ. 9 жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2013. – 768 б.
5. Равшанов П. Сайланма. Иккинчи жилд. – Toshkent: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 450.
6. Қораев Ш. Темурий шоирлар тазкираси. Монография. – Қарши: Интеллект, 2024. – 266 б.
7. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Toshkent: Шарқ НМК БТ, 1997. – Б. 291.
8. Ҳерман Вамбери. Бухоро ёҳуд Моваруннаҳр тарихи. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги АСН,1990. – Б. 72.

YUSUF SARYOMIY G‘AZALLARIDA TASAVVUFIY ISHQ VA RUHIY POKLANISH

Sadoqat Kamolova,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek mumtoz adabiyotining XIV–XV asrlardagi mashhur shoirlaridan biri Yusuf Saryomiy ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Saryomiyning g‘azallarida tasavvufiy ishq, insonning ruhiy kamoloti, nafs va qalb o‘rtasidagi kurash, shuningdek, fanofilloh va baqobilloh tushunchalari tahlil qilingan. G‘azallarning badiiy vositalari va timsollar orqali ma’rifatni ifodalash usullari ko‘rib chiqilgan. Maqola shoir ijodining nafaqat adabiy, balki ruhiy-ma’naviy ahamiyatini ochib bergan.

Kalit so‘zlar*: tasavvuf, ishq, g‘azal, Yusuf Saryomiy, ma’rifat, fanofilloh, baqobilloh, nafs, qalb.*

Abstract

This article is dedicated to the study of the work of Yusuf Saryomiy, a prominent poet of classical Uzbek literature of the XIV–XV centuries. The study analyzes Saryomiy’s ghazals in terms of Sufi love, spiritual perfection, the struggle between the self and the heart, as well as the concepts of fanofilloh and baqobilloh. The paper examines how literary devices and symbols convey mystical knowledge. The article highlights the significance of Saryomiy’s creativity not only in literature but also in the spiritual and moral development of readers.

Keywords: *sufism, love, ghazal, Yusuf Saryomiy, spiritual knowledge, fanofilloh, baqobilloh, nafs, heart.*

Kirish

O‘zbek mumtoz adabiyotida tasavvufiy lirikaning shakllanishi va yuksalishida alohida o‘rin tutgan shoirlardan biri Yusuf Saryomiy (XIV–XV asrlar) bo‘lib, uning ijodi nafaqat adabiy tafakkur taraqqiyoti, balki o‘zbek xalqining ruhiy-ma’naviy dunyosiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Uning g‘azallari, avvalo, ilohiy ishq, komil inson, ruhiy poklanish va tasavvufning botiniy ma’rifatlarini ifodalash bilan ajralib turadi. Saryomiy o‘zbek mumtoz she’riyatida Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Sayyid Ahmad Jomiylar an’analarini davom ettirgan holda, g‘azal janrida badiiy yetuk va ma’naviy mazmuni chuqur asarlar yaratgan. Saryomiyning g‘azallari, ayniqsa, o‘quvchini falsafiy fikrlashga, nafs va qalb o‘rtasidagi ziddiyatni anglashga, ma’naviy poklanish yo‘liga undaydi. U Xudo – Bandasi – Nafs uchlik munosabatini poetik timsollar orqali yoritadi.

Yusuf Saryomiy g‘azallarining markaziy g‘oyasi – Ishq. Saryomiyning g‘azallarida ishq markaziy mavqega ega bo‘lib, u tasavvufiy ma’noda ilohiy muhabbatning yuksak holatini bildiradi. Shoir nazarida ishq – Haqqa eltuvchi asosiy yo‘l, inson ruhining uyg‘onish manbayi va kamolot sari yo‘lchi yulduzdir. Saryomiy ma’rifat yo‘lining bosqichma-bosqich ochib berilishini g‘azallarida badiiy vositalar bilan ifodalaydi, xususan, “suluk”, “zikr”, “fanolik” va “baqolik” kabi tasavvufiy tushunchalarni o‘quvchi uchun sodda va tushunarli shaklda talqin etadi.

Suluk dunyoviy mayllardan voz kechish, qalbni tozalash, Haqqa intilishning birlamchi vazifaga aylanishidir. G‘azallarda “nur”, “sham”, “quyosh”, “oy” kabi timsollar ma’rifatni ifodalash vositasi sifatida ishlatilgan.

Tasavvufda eng yuksak holatlardan biri – fanofilloh (Allohda yo‘q bo‘lish) va baqobilloh (Alloh bilan yashash) tamoyillaridir. Saryomiy “ishq”ni faqat hissiy kechinma sifatida emas, balki ruhni uyg‘otuvchi qudrat, bandani Haqqa yaqinlashtiruvchi vosita, insoniyatning haqiqiy maqsadi sifatida tasvirlaydi.

“Ishq ichra yo‘q bo‘ldim men, topdim o‘zimni Haqqa yaqin” [Devon, 2001: 55].

Bu tarzdagi baytlar “fanofilloh” – “Allohda yo‘q bo‘lish” g‘oyasini ifodalaydi. Shoir uchun haqiqiy ishq bandani o‘zidan, nafsidan, dunyo g‘avg‘osidan yiroqlashtiradi. Saryomiy fikricha, ishq insonni sinovlar, iztiroblar orqali poklaydi [Tojiboyeva, 2004: 25]. U nafs bilan kurashda ruhni mustahkamlaydi. Shoir uchun dard-u balo – haqiqiy oshiqning yo‘ldoshi. Shu sababli u ko‘pincha “ishq dardi”ni ulug‘laydi:

“Dardimni davo demang – ishqning o‘zi jonimga shifodir” [Devon, 2001: 57].

Bu g‘oyalar tasavvufda “dard-u visol”, “ishqning o‘tida pishish” kabi tushunchalar bilan bog‘liq. Shuningdek, Saryomiy g‘azallarida tez-tez uchraydigan mavzulardan biri – nafs bilan qalbning kurashi. Shoir nafsni inson kamoliga to‘sqinlik qiluvchi asosiy kuch sifatida talqin qiladi. U nafsni zulmat manbayi, bandani aldov yo‘liga boshlovchi kuch, ruhiy kamolotga zid mavjudot sifatida tasvirlaydi. Shuningdek, Saryomiy ijodi haqida: “Ahmad Yassaviy Yusuf Saryomiy uchun shunchaki yurtdosh emas, ixlos, muhabbat timsoli edi. Undagi iqror-e’tirof, baytlaridagi hamohanglik, izdoshlik bunga dalil”, degan fikrlar bejiz emas.

G‘azalning mavzusi insonning haqiqiy tirikligi uning qalbidagi ishq va sevgida namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Ammo ijodkor ijodi falsafiy va ma’naviy mazmunni o‘zida mujassamlashtirgani bois o‘zgacha yoritiladi:

Soqiyo, tut dam-badam sog‘ar manga maydin to‘lo,

G‘azaldagi badiiy vositalar esa metafora: “may” so‘zi ishqning hayotiy suvi yoki ruhiy oziqlanishi sifatida ishlatilgan. Takror: “Har kimki” iborasi takroriylik orqali umumiy haqiqatni kuchaytiradi. Simvolizm: Ishq simvol sifatida insonning tirikligi va ma’naviy o‘sishini ifodalaydi [Tojiboyeva, 2004: 67].

Ijodiy poetikasiga to‘xtalsak, nafaqat sevgi haqida, balki insonning ichki dunyosi va ma’naviy hayoti haqida ham fikr bildiradi. Saryomiy ishqni hayotiy zarurat sifatida ko‘rsatadi, shu bilan birga, ishq bilan yashashning insonni haqiqiy tirik qilishi g‘oyasini ilgari suradi. Saryomiy ma’rifatni Haqning bandaga in’omi sifatida ko‘radi. U ilmni nafaqat zohiriy, balki botiniy yorituvchi qudrat deb biladi. Saryomiy: o‘zini “yo‘q bo‘lgan”, “kul bo‘lgan”, “o‘t bo‘lgan” timsollari bilan ifodalaydi; bu yo‘lning mashaqqatini oshiqona ruh bilan tasvirlaydi. Yusuf Saryomiy g‘azallarining badiiy xususiyatlari: Saryomiyda o‘ziga xos timsollar mavjud: Gul — ilohiy jamol, haqning go‘zalligi; bulbul — oshiq qalb; sham — ma’rifat nuri; parvona — o‘zini fido etuvchi oshiq; may — ilohiy mastlik; saqiy — murshid, pir; sabo — Haqdan keluvchi xushxabar [Tojiboyeva, 2004: 75].

Bu timsollar mumtoz adabiyot an’anasiga tayansa-da, Saryomiy ularga tasavvufiy ma’no berib, o‘ziga xos poetika yaratadi. Shoir g‘azallarida quyidagi: san’atlar ustalik bilan qo‘llanadi: tashbeh — “qo‘ydek itoatli”, “o‘tdek kuyib” kabi; isti’ora — “qalbimning shamini yoqding”; tazod — “zulmat ichra nur topdim”; tajnis — ma’nodosh yoki talaffuzi o‘xshash so‘zlar bilan o‘ynash; talmeh — Qur’on va hadis ma’nolariga ishoralar [Qodiriy, 2003: 112].

Saryomiy uchun komil inson: nafsni yenggan, haqni sevgan, boshqalarga rahmdil, ma’rifatli, ruhiy jihatdan pishgan zotdir. Shoir insonning komillik darajasiga yetishi uchun uch asosiy bosqichni ko‘rsatadi: nafsni jilovlash, ishq va zikr bilan qalbni tozalash, ma’rifat nuri bilan Haqqa yaqinlashish:

“Komillikka eltguvchi yo‘l — ishqdir, sabrdir, zikrdir” [Devon, 2001: 77].

Saryomiy faqat tasavvufiy emas, balki axloqiy-ijtimoiy masalalarga ham to‘xtaladi: insonning halolligi, xolislik, tavozu, manmanlikdan yiroq bo‘lish, dunyo manfaatiga berilmaslik.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Saryomiy o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin vakili bo‘lib, uning g‘azallari tasavvufiy ruh, ilohiy ishq, ma’naviy poklanish, komil inson timsoli bilan ajralib turadi. Shoir o‘z davrining ruhiy-ma’naviy muhitini chuqur his etgan holda, inson qalbining murakkab kechinmalarini badiiy yetuklik bilan aks ettirgan. Saryomiy g‘azallarida ishq — ruhiy kamolotning yakkayu yagona yo‘li sifatida talqin etiladi. U yaratgan obrazlar tizimi, poetik mahorat, falsafiy teranlik o‘zbek tasavvufiy she’riyatining rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan. Uning merosi bugungi kunda ham insonni ruhiy uyg‘onish, ma’naviy poklik va yuksaklik sari undashda katta ahamiyatga ega. Yusuf Saryomiyning bu g’azali sevgi, hayot va insoniy ruhiyatning o‘zaro bog‘liqligini yuksak

badiiy uslubda tasvirlaydi. “Har kimki ishqing mayidan olsa, tirikdir aslida”, - degan jumla orqali shoir insonning haqiqiy hayotiy tirikligini uning ruhiy boyligi va ishqiy tajribalarida koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saryomiy Yusuf. Devan. XIV–XV asrlar. – Toshkent: Oʻzbek tili va adabiyoti nashriyoti, 2001.
2. Nazarov, O. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 1995.
3. Qodiriy, A. Tasavvufiy adabiyot va gʻazal san’ati. Toshkent: Gʻafur Gʻulom nashriyoti, 2003.
4. Jomiy, S.A. Lirik asarlar va tasavvufiy falsafa. Dushanbe: Irfon, 1999.
5. Tojiboyeva M., Yusuf Saryomiy hayoti va ijodi. – T,.2004.
6. Qosimov B., Muhabbat ahlining gulshani. – T.,1992.

IBN SINO, FARIDIDDIN ATTOR VA ALISHER NAVOIY "TAYR" QISSALARIDA QUSH TIMSOLI VA RUHIY SAFAR MODELI (QIYOSIY TAHLIL)

Xurshida Yuldasheva,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
e-mail: yuldashevaxurshidamimix2s@mail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvuf falsafasi tarixida alohida o'rin tutuvchi "Tayr" (qush) qissalarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot obyektini Abu Ali ibn Sinoning "Tayr qissasi", Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" hamda Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarlari tashkil etadi. Qushlarning ramziy talqini, safar (sayr va suluk) modeli, tuzoq va ozodlik metaforalari, shuningdek, komil inson konsepsiyasining turli bosqichlarda shakllanishi tahlil qilingan.

Uch muallif qarashlarida umumiy manba – tasavvufning ruhiy poklanish konsepsiyasi mavjud bo'lsa-da, har bir asar o'ziga xos ma'naviy, falsafiy va badiiy yondashuv bilan ajralib turadi. Ibn Sinoda qushlar falsafiy-ontologik timsol sifatida talqin qilinsa, Attorda ishq va ma'rifat markaziy o'rin egallaydi. Navoiyning talqinida esa xalqchil, ijtimoiy va komillik g'oyalari uyg'unlashadi. Maqola mumtoz adabiy tafakkur evolyutsiyasini ko'rsatib, tasavvufiy ramzlar orqali shakllangan bilish modelining poetik tabiatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: *Tayr qissasi, tasavvuf, komil inson, qiyosiy tahlil, qush timsoli, "Mantiq ut-tayr", "Lison ut-tayr", Ibn Sino, Attor, Navoiy.*

Abstract

This article presents a comparative analysis of the "Tayr" (Bird) narratives, which hold a significant place in the intellectual and spiritual heritage of classical Eastern literature and Sufi philosophy. The study examines three major works: Ibn Sina's Tayr Story, Fariduddin Attar's Manṭiq al-Ṭayr, and Alisher Navoi's Lison ut-Tayr. The research focuses on the symbolic meaning of birds, the model of spiritual journey (sayr and sulūk), metaphors of captivity and liberation, and the evolving concept of the Perfect Human (al-insān al-kāmil).

Although the four authors share a common Sufi foundation centered on spiritual purification, each develops a distinctive intellectual and artistic approach. Ibn Sina interprets birds as philosophical-ontological symbols; Attar places the quest for divine love and gnosis at the center; while Navoi combines mystical, poetic, and socially oriented interpretations. The article highlights the evolution of mystical symbolism in Eastern literature and reveals the poetic nature of epistemological models encoded in the "Tayr" narratives.

Keywords: *Tayr narrative, Sufism, Perfect Human, comparative analysis, bird symbolism, Manṭiq al-Ṭayr, Lison ut-Tayr, Ibn Sina, Attar, Navoi.*

Kirish

Sharq mumtoz tafakkurida "tayr" – qush timsoli inson ruhining cheksiz izlanishi, kamolot sari intilishi, o'zini anglash yo'lida kechiradigan jarayonlarini mujassam etuvchi eng serma'no ramzlardan biridir. Tasavvuf manbalarida ruhning jismdan ajralib yuksalishi, moddiy dunyo "tuzoqlari"dan ozod bo'lib, Haq yo'liga safar qilishi ko'pincha qush parvozi orqali ifodalanadi. Shu bois "Tayr qissasi" janri o'rta asr islom falsafasi va adabiy merosida alohida bir maktabni tashkil etgan bo'lib, u har bir davr mutafakkiri tomonidan yangi mazmun, yangi badiiy qatlamlar bilan boyitib borilgan [Ibn Sino, 1968: 322].

Ana shunday ramziy-tasavvufiy qissalar orasida Abu Ali ibn Sinoning "Tayr qissasi", Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" hamda Alisher Navoiy qalamiga mansub "Lison ut-tayr" asarlari eng yirik namunalar sifatida tan olingan. Mazkur asarlar Sharq adabiy-falsafiy tafakkurining turli bosqichlarida yaratilgan bo'lsa-da, ularni birlashtirib turuvchi umumiy konsept – ruhning ozodlikka, yuksalishga, ilohiy haqiqatni topishga bo'lgan intilishidir.

Ibn Sino yaratgan qissada qushlarning tuzoqqa ilingani, ozodlikka erishishi, podshoh jamolini koʻrib, hushidan ketishi va nihoyat, inson ruhining metafizik xalosoti haqida bayon qilinadi. Bu qissa falsafiy-ontologik mazmuni bilan keyingi koʻplab "tayr" qissalariga muhim poydevor boʻlgan. Farididdin Attor "Mantiq ut-tayr"da ishq, maʼrifat va ruhiy sayrning murakkab bosqichlarini keng epik-uslubda ochib bergan boʻlsa, Alisher Navoiy "Lison ut-tayr"da shu ulkan anʼanani turkiy adabiyot ruhiga moslashtirib, milliy va umuminsoniy gʻoyalarni uygʻunlashtiradi.

Mumtoz adabiyotimizning "tayr" qissalarini oʻrganish bugungi kunda ikki sababga koʻra dolzarb: birinchidan, tasavvuf tafakkuridagi "ruh parvozi" modelining adabiyotda qanday shakllanganini koʻrsatish; ikkinchidan, mazkur qissalar orqali turli davrlarda yashagan mutafakkirlarning inson tabiatiga, kamolotga, bilish jarayoniga boʻlgan qarashlaridagi farq va mushtaraklikni ochib berishdir. Ayniqsa, hozirgi kunda Sharq falsafasi va adabiy merosini yangi nazariy nuqtalar asosida qayta oʻqish jarayoni kuchayayotgani sababli "tayr" qissalarining qiyosiy tadqiqi ilmiy amaliyotda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi – Ibn Sino, Attor va Navoiy asarlaridagi qush timsoli, sayr va suluk modeli, tuzoq va ozodlik ramzlari, komil inson konsepsiyasi talqinini qiyosiy tahlil qilish, ularning umumiy falsafiy ildizlari va badiiy farqlarini aniqlashdan iborat. Shu bilan birga, har bir muallifning "tayr" timsoliga bergan maʼnosi uning davri, dunyoqarashi va estetik ideallariga qanday bogʻlanganiga aniqlik kiritish koʻzda tutiladi.

Ibn Sino, Attor va Navoiyning "tayr" qissalarida qushlar obrazining umumiy semantik yadrosi bir xil – ular inson ruhining ramzi sifatida talqin etiladi. Biroq bu ruhiy timsol har bir muallifda turlicha falsafiy va badiiy yuklama oladi.

Ibn Sinoning "Tayr qissasi" arab tilida yozilgan ramziy-tasavvufiy hikoya boʻlib, oʻzbek tiliga A.Irisov tomonidan tarjima qilingan va "Oʻzbek adabiyoti" majmuasida chop etilgan. Muallif hikoyani birinchi shaxs – "men" deb soʻzlovchi qush nuqtayi nazaridan olib boradi.

Syujetning asosiy boʻgʻinlari quyidagicha:

- ovchilarning tuzoq qoʻyishi, don sepishi va qushlarning shubhasiz kelib tushishi;
- boʻyin, qanot va oyoqlarning halqa, toʻr va tuzoqqa ilinishi;
- vaqt oʻtishi bilan tuzoqqa "koʻnikish", qafasni tabiiy hol deb qabul qilish;
- oyogʻida tuzoq bilan uchayotgan boshqa qushlar galasining kelishi;
- ularning yordamida boʻyin va qanotdan tuzoq yechilishi, ammo oyoqdagi halqa saqlanib qolishi;
- togʻlar va vodiylar orqali safar, baland togʻ ortidagi shahardagi "buyuk podshoh" huzuriga borish;
- podshohning jamoli, ruhiy hayajon, hushdan ketish va yana hushga kelish;
- podshohning: "Oyoqlaringizdagi tuzoqni uni qoʻygan kishidan boʻlak hech kim yecha olmaydi", degan mazmundagi hukmi;
- elchi bilan ovchi huzuriga qaytish va hikoyaning ochiq tugallanishi [Ibn Sino, 1968: 322.].

Bu struktura tasavvufiy maʼnoda quyidagicha talqin qilinadi: ovchi – dunyo nafsi va shaytoniy vasvasa; don – nafsni oʻziga rom qiladigan lazzatlar; tuzoq – odatlar, gʻaflat, kibr; qafas – insonning ruhiy qamrovi; uchib kelgan qushlar – bu yoʻldan oʻtgan soliklar; togʻlar va vodiylar – sayr-u suluk maqomlari; podshoh – Haq; elchi – ilohiy lutf. Qissada aql va maʼrifat zaruriy, lekin yetarli emas; oyoqdagi halqa – insonning kamolot chegarasini bildiruvchi belgi boʻlib qoladi [Boltaboyev, 2005: 75].

Ibn Sinoning "Tayr qissasi"da qushlar ovchilarning tuzogʻiga ilinadi: don sepilgan joyga kelgan parrandalar bir zumda toʻrga tushadi, boʻyniga halqa, qanotiga toʻr, oyogʻiga tuzoq ilinadi. Qafasga tushgan qushlar avval oʻz dardiga berilib, birodarlariga qayrilib qarashni ham unutadi; keyin qafasga koʻnikib qolish jarayoni tasvirlanadi. Keyinchalik boshqa qushlar kelib, ularning boʻyni va qanotini

tuzoqdan xalos qiladi, biroq oyog‘idagi zanjirni yecha olmaydi – buning sababini “agar bunga qodir bo‘lganimizda, avval o‘z oyog‘imizdagi tuzoqni yechgan bo‘lardik”, deb izohlaydi. Bu epizodlarda qushlar, bir tomondan, inson ruhining dunyo istaklariga, jismoniy hayotga bog‘lanib qolgan holatini, ikkinchi tomondan esa bilish subyekti sifatida ma’rifatga intiluvchi ruhni ifodalaydi.

Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr”ida qushlar yanada kengroq epik sahnada gavdalanadi [Attor, 2006: 68]. Barcha parrandalar majlisga to‘planib, o‘zlariga sulton kerakligini aytadilar. Hudhud ularga yagona haqiqiy podshoh – Simurg‘ haqida so‘zlaydi va unga yetishish uchun dahshatli vodiylardan o‘tish lozimligini bildiradi. Doston davomida har bir qush – bulbul, tovus, qarg‘a, kaklik, qumri va boshqalar – o‘z tabiatiga mos bahona bilan yo‘ldan qolishga moyil bo‘ladi. Yakun sahnada esa vodiylardan omon o‘tgan o‘ttiz qush Simurg‘ dargohiga yetib keladi va u yerda, aslida, o‘z aksini ko‘radi. “Si murg‘” (“o‘ttiz qush”) va “Simurg‘” so‘zlarining uyg‘unligi orqali Attor qush timsolini ishq yo‘lida sayr qilgan insoniyat, komillikka yetgan ruhlar jamiyati sifatida talqin etadi.

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarida qushlar timsoli Attor an’anasi asosida qurilgan bo‘lsada, yangi turkiy-milliy qatlam bilan boyitiladi. Doston debochasida Navoiy Attorni e’tirof etgan holda, qushlar majlisini turkiy adabiy-madaniy muhit ruhida tasvirlaydi. Qushlar sultonni izlaydi, Hudhud ularni Simurg‘ sari chorlaydi, ammo qushlar tilidan Navoiy o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, axloqiy muammolarini ham ifoda etadi. Shuning uchun bu asarda qushlar timsoli nafaqat ruhiy sayr ishtirokchilari, balki turkiy jamiyat, xalq va zamon vakillari sifatida ham ko‘rinadi [Navoiy, 2011: 137].

Natijada qush timsoli uch muallifda quyidagicha tipologik farqlanadi:

- Ibn Sinoda qush – ruh va bilish subyekti;
- Attorda – ishq yo‘lida yurgan insoniyat jamiyati;
- Navoiyda – komillik sari chorlanayotgan jamiyat obrazi.

“Tayr” qissalarida syujetning markaziy o‘qi – safar modeli, ya’ni ruhiy sayr va sulukning ramziy shaklidir. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, uch muallifning barchasi “tayr” qissalarini safar kompozitsiyasi asosida quradi, lekin safarning boshlanish nuqtasi, to‘siqlari va nihoyasi har birida turlicha talqin qilinadi.

Ibn Sinoning “Tayr qissasi”da dramatik holat qushlarning tuzoq va qafasga tushishi bilan boshlanadi. Don sepilgan joyga kelgan qushlar hech qanday shubha qilmay tuzoqqa ilinadi; ularning bo‘yni, qanoti va oyog‘i bir zumda asoratga tushadi. Qafas ichida bir muddat qolib, holatga ko‘nikib ham borishadi. Keyinchalik boshqa qushlar kelib, bo‘ynidan halqani, qanotidan to‘rni yechib, uni qafasdan chiqaradi, ammo oyog‘idagi tuzoq saqlanib qoladi. Qushlar birgalikda tog‘ va vodiylar oralig‘idan uchib, baland tog‘ cho‘qqisiga yetadi, nihoyat buyuk podshoh saroyiga kirib boradi. U yerda podshoh huzuriga yetgach, parda ko‘tariladi, podshoh jamolini ko‘rgan qush hushidan ketadi, so‘ngra podshoh unga oyog‘idagi tuzoqni faqat uni qo‘ygan kishi yechishi mumkinligini bildiradi. Bu safar modeli – asorat (tuzoq va qafas)dan ruhiy yuksalish (tog‘lar, vodiylar) va Haqiqat huzuriga yetish jarayonining metafizik sxemasini beradi.

“Mantiq ut-tayr”da Attor yetti vodiy modelini keng epik struktura darajasiga ko‘taradi. Talab vodiysida maqomni faqat Haq talabiga bog‘lab, barcha “bor”lardan kechish zarurligi, Ishq vodiysida aqlning ojizligi va ishq hukmronligi, Ma’rifat vodiysida bilishning paradoksal holatlari, Istig‘no vodiysida yaratilmishlardan mustag‘nolik, Tavhid vodiysida birlik idroki, Hayrat vodiysida so‘zsiz lol qolish, Fano vodiysida “men”likdan kechish turli qissa va masallar orqali jonli tasvirlanadi. Tog‘lar, vodiylar, cho‘l va daryolar tasviri ruhiy kosmosning badiiy suratiga aylanadi. Safar modeli bu yerda ishqiy-ma’rifiy tajribalar xaritasi sifatida ko‘rinadi.

Alisher Navoiy “Lison ut-tayr”da Attor vodiylarini qabul qilgan holda, ularni turkiy adabiy-madaniy muhitga mos ma’no bilan to‘ldiradi. Talab va ishq vodiysi tasvirida Navoiy til, so‘z, adab, ilm va jaholat masalalarini keng yoritadi, Tavhid vodiysida Qur’on, hadis va islom aqidaviy tamoyillarini tasavvufiy talqin asosida badiiylashtiradi. Natijada safar modeli Navoiyda sof ruhiy kamolot yo‘lidan tashqari, millat, jamiyat, ilm ahli va adabiyot ahlining ma’naviy mas’uliyati bilan bog‘langan kompozitsiyaga aylanadi [Navoiy, 2011: 86].

Ibn Sinoning “Tayr qissasi”da qushlarning safar yakuni – podshoh huzuriga yetishishdir. Podshoh jamoli tasviri batafsil berilmaydi, biroq parda koʻtarilgach, uni koʻrgan qush hushidan ketadi; bu holat ruhning Haqiqatga bevosita yaqinlashgan lahzasini ramziy ifoda etadi. Podshohning “oyogʻingizdagi tuzoqni uni qoʻygan kishidan boʻlak hech kim yecha olmaydi” mazmunidagi soʻzi dunyo asoratidan xaloslik ham ilohiy tartibga, sabablar zanjiriga bogʻliqligini bildiradi. Bu yerda komillik, avvalo, bilishning mukammalligi, oʻz chekliliklarini anglagan holda, Haq huzuriga intilish sifatida talqin etiladi.

Attorning “Mantiq ut-tayr”ida komillik Simurgʻ timsolida mujassamlanadi. Safar davomida koʻplab qushlar vodiylarda halok boʻladi yoki yoʻldan qaytadi; faqat oʻttiz qush manzilga yetib boradi. Simurgʻ saroyiga kirganlarida, ular Haqiqatni tashqaridan topmaydi, balki Simurgʻ chehrasi oʻrnida oʻz aksini koʻrishadi. “Si murgʻ” (oʻttiz qush) va Simurgʻ soʻzlarining uygʻunligi orqali Attor komil inson gʻoyasini shunday ifodalaydi: “Haqni izlagan banda oxirida oʻzini Haq oldida yangicha holatda koʻradi, ishq yoʻlida “men”lik erib, “Men – U” qarama-qarshiligi bartaraf boʻladi. Komillik oʻzlikni yoʻqotish emas, balki uni Haq nuri bilan qayta topishdir”.

Alisher Navoiy “Lison ut-tayr”da Simurgʻ timsolini Attor an’anasi asosida qabul qiladi, biroq unga turkiy-milliy komillik idealini yuklaydi. Navoiy qissasida komil inson – nafaqat oʻz shaxsiy najoti uchun qaygʻuradigan, balki jamiyat, xalq va zamon oldidagi mas’uliyatini ham his qiladigan shaxsdir. Shuning uchun Simurgʻga yetishish sahnasining ohangi bu asarda shaxsiy ruhiy najotdan tashqari, umumiy ma’naviy kamolot, millat va ummatning yuksalishi gʻoyasi bilan ham uygʻunlashadi [Navoiy, 2011: 95].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, uch qissada deyarli barqaror obraz – yoʻl koʻrsatuvchi qush, murshid timsolidir. Attor va Navoiy asarlarida bu obraz bevosita Hudhud sifatida koʻrinadi; Ibn Sinoda esa qafasdan ozod boʻlgan qushga yordam beruvchi, togʻlar va vodiylar oralab yetaklovchi qushlar guruhi murshidlik sinfini ifodalaydi.

Ibn Sinoda bu yordamchi qushlar – oʻzlari ham oyogʻida tuzoq bilan uchayotgan, ammo boʻyni va qanotidan tuzoqni yechgan ruhlar timsoli. Ular boshqani ozod qilishga koʻmaklashadi, lekin oʻz zanjirini yecha olmaydi. Bu obraz aql va ma’rifatning chekliligi, insoniy bilishning mutlaq ozodlikka yetisholmasligi gʻoyasini ifodalaydi: ma’rifat boshqani qutqarishi mumkin, biroq oʻzi ham sabablar olamiga bogʻliq.

Attor va Navoiyda Hudhud – bevosita pir, ruhiy murshid timsolidir. U qushlarning bahonalarini rad etadi, vodiylar mazmunini sharhlaydi, ularni oʻz ichki zaifliklari bilan yuzma-yuz qiladi. Attor Hudhud tilidan ishqiy-mistik nazariyani ifodalaydi; Navoiy esa shu til orqali turkiy muhitdagi ilm, axloq va jamiyat mas’uliyatiga oid pand-u nasihatlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Ali Ibn Sino. Tayr qissasi // *Oʻzbek adabiyoti*. Beshinchi tom, ikkinchi kitob. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.
2. Abu Ali Ibn Sino. Tayr qissasi // *Islom tasavvufi manbalari*. Nashrga tayyorlovchi: H.Boltaboyev. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2005.
3. Farididdin Attor. Mantiq ut-tayr (Qush tili). Doston. Fors tilidan tarjimon: J.Kamol. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Farididdin Attor. Mantiq ut-tayr. Doston. Toʻrt jildlik. 1-jild. Tarjimon: J.Kamol. – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2022. – 464 b. – ISBN 978-9943-20-892-6.
5. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr // *Toʻla asarlar toʻplami. 10 jildlik. 9-jild*. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
6. Shodiyeva, S. Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” hamda tasavvufiy dostonlarda qush timsoli // *TANQID VA TAHLIL* elektron jurnali. 2024.

“Qaqnus: attorona, navoiyona” // Oyina.uz maqolasi. 2022. oyina.uz

“Lison ut-tayr” sari sayr // “Hurriyat” gazetasi sayti. 2020.

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА РЕАЛИЙ В «БАБУР-НАМЕ»

Джуманазарова Зилола Обиджоновна,
д.ф.ф.н. (PhD), и.о. доцента кафедры
языкового и литературного образования
University of science and business
e-mail: ziloladjumanazarova7@gmail.com

Аннотация

В статье рассматриваются особенности перевода реалий, представленных в автобиографическом памятнике XVI века «Бабур-наме». Показано, что текст насыщен географическими, этнографическими, природными, государственно-административными, ономастическими и ассоциативными реалиями, которые отражают культурно-исторический колорит Средней Азии и Индии того времени. На основе анализа перевода М.А. Салье выявлены методы передачи реалий, сохранения исторической достоверности и адаптации текста для русскоязычного читателя. Особое внимание уделено метрологическим и денежным реалиям, а также их корректной интерпретации.

Ключевые слова: *«Бабур-наме», реалии, перевод, меры длины и веса, денежные единицы, этнографизм, ономастика*

Abstract

The article examines the specific features of translating cultural realia presented in the 16th-century autobiographical monument Babur-nama*. It is shown that the text is rich in geographical, ethnographic, natural, administrative, onomastic, and associative realia that convey the cultural and historical flavor of Central Asia and India of that era. Based on the analysis of M. A. Salye's Russian translation, the study identifies the methods used to render realia, preserve historical authenticity, and adapt the text for a Russian-speaking audience. Special attention is paid to metrological and monetary realia, as well as their accurate interpretation.*

Keywords: *Babur-nama, realia, translation, units of length and weight, monetary units, ethnographism, onomastics.*

Введение

Автобиографический памятник XVI века *Бабур-наме,* созданный основателем Империи Великих Моголов Бабуром, является ценным источником для изучения истории, культуры и языка Центральной Азии и Индии того времени. Текст отличается высокой насыщенностью реалиями, отражающими этнические, социальные, культурные, природные и административные особенности описываемого периода.

Реалии, как отмечают исследователи, представляют собой слова и словосочетания, обозначающие предметы, явления и понятия, характерные для жизни одного народа и чуждые другому, а также не имеющие точных эквивалентов в других языках [Влахов, 1970: 139]. В переводе реалий ключевой задачей является не только передача смысла, но и сохранение историко-культурного колорита текста, адекватное воспроизведение мировоззренческих и поведенческих особенностей описываемых героев и обществ.

Особенности передачи реалий в переводе включают использование историзмов, калькированных и транслитерированных единиц, а также пояснительных примечаний для современного читателя. Важным аспектом является правильная интерпретация метрологических, денежных и административных реалий, а также этнографических и природных терминов, которые составляют основу культурной и социальной картины мира автора.

Цель настоящего исследования – проанализировать особенности перевода реалий в *Бабур-наме* на примере русского перевода М.А. Салье, определить используемые методы передачи

реалий, оценить сохранение историко-культурного колорита и адекватность интерпретации метрологических, денежных и этнографических понятий [Салье, 1930: 280].

Статья раскрывает как лингвистические, так и культурно-исторические аспекты перевода, демонстрируя высокую значимость сохранения реалий для понимания текстов средневековой литературы и формирования адекватного представления о культурной среде XVI века.

Анализ литературы по теме

Проблема перевода реалий в лингвистике и теории перевода изучается достаточно широко, и в литературе представлены различные подходы к определению, классификации и методам передачи реалий.

С. Влахов трактует реалии как «слова и словосочетания, называющие объекты, характерные для жизни одного народа и чуждые другому, которые являются носителями национального и исторического колорита и не имеют, как правило, точных соответствий (эквивалентов) в других языках». Этот подход подчеркивает культурно-этническую специфичность реалий и их роль в формировании национальной картины мира.

Г.Д. Томахин расширяет определение, включая в категорию реалий не только объекты материальной культуры и этнические особенности, но и исторические процессы и факты, подчеркивая отсутствие прямых лексических эквивалентов в других языках [Томахин, 1988: 138]. В своей работе Томахин акцентирует внимание на трудностях, с которыми сталкивается переводчик при передаче реалий, и необходимости комментариев для целевого читателя.

Методологически значимой для анализа является классификация реалий, предложенная В.С. Виноградовым [Виноградов, 2001: 166]. Он выделяет несколько типов реалий:

1. Географические – топонимы и гидронимы;

2. Этнографические – элементы быта, одежды, обычаев конкретного народа;

3. Реалии природы – животные, растения, природные явления;

4.Государственно-административные – административные единицы, воинские должности, титулы;

5. Ономастические – антропонимы, литературные герои, топонимы;

6. Ассоциативные – символика, фольклорные и литературно-книжные аллюзии.

Данный подход позволяет структурировано анализировать реалии в тексте и оценивать адекватность их передачи в переводе. В исследованиях, посвященных *Бабур-наме,* особое внимание уделяется переводческим стратегиям, применяемым М.А. Салье. Так, сохранение метрологических и денежных реалий с пояснительными примечаниями является примером стратегии «транслитерации с комментариями», позволяющей сохранить историко-культурный колорит и точность информации. Кроме того, анализ переводов выявляет случаи стилистической адаптации, когда переводчик смягчает экспрессию или негативно окрашенные коннотации оригинала для удобства восприятия современным читателем.

Ряд исследователей, таких как Б.Б. Абдушукуров, отмечают относительный характер многих средневековых мер длины и веса, используемых Бабуром, что требует внимательной интерпретации в переводе [Абдушукуров, 2011, 130]. Другие авторы, например В.Д. Гладкий и В.Зварич, предоставляют справочную информацию по историческим денежным единицам и мерам веса, что служит важным ориентиром для переводчика и исследователя. Анализ литературы показывает, что изучение реалий в *Бабур-наме* сочетает лингвистический, культурологический и исторический подходы, акцентируя внимание на необходимости сохранения аутентичности текста и точности передачи культурно-исторического контекста в переводе.

Методология исследования

Настоящее исследование базируется на комплексном подходе к анализу переводов реалий в памятнике XVI века Бабур-наме. Методология работы включает следующие основные направления:

1. Текстуальный анализ оригинала и перевода. Основой исследования является сопоставление староузбекского текста *Бабур-наме* и его перевода на русский язык М.А. Салье. Анализ проводится на уровне лексики, семантики и контекста, с особым вниманием к реалиям, которые отражают культурно-исторический колорит Средней Азии и Индии XVI века.

2. Классификация реалий. Для систематизации материала применяется классификация В.С. Виноградова, включающая: географические, этнографические, природные, государственно-административные, ономасти ческие и ассоциативные реалии. Данный подход позволяет выявить закономерности в передаче реалий и определить трудности, возникающие при их переводе.

3. Анализ переводческих стратегий. Исследование направлено на выявление методов передачи реалий в переводе: транслитерация (сохранение оригинального слова с последующим пояснением); историзм (использование уже закрепленных в русском языке слов с культурно-историческим контекстом); пояснительный комментарий (предоставление дополнительных сведений о значении реалии); стилистическая адаптация (корректировка коннотативного и эмоционального окраса оригинала для современного читателя).

4. Сравнительный и контекстуальный анализ. Важной частью методологии является сравнительный анализ реалий разных тематических групп (метрологические, денежные, этнографические, природные), а также оценка соответствия перевода смыслу оригинала, исторической достоверности и культурной точности.

5. Использование справочных источников. Для уточнения значений мер длины, веса, денежных единиц и этнографических реалий используются исторические справочники, нумизматические словари и работы современных исследователей.

Обсуждение

Анализ перевода Бабур-наме М.А. Салье позволяет выявить ряд особенностей передачи реалий, характерных для средневековых автобиографических текстов. Реалии в произведении Бабура включают разнообразные категории: географические, этнографические, природные, государственно-административные, ономастические и ассоциативные. Каждая категория требует индивидуального подхода в переводе с целью сохранения историко-культурного колорита и адекватного восприятия русскоязычным читателем.

Географические реалии, такие как топонимы и гидронимы, переводятся преимущественно транслитерацией с последующим пояснением. Например, названия городов и рек (*Ала-Курган*, *Аспара*) сохраняются в оригинальном виде, а их географическое положение уточняется в примечаниях. Такой подход обеспечивает точность и аутентичность текста, позволяя читателю получить полное представление о пространственном контексте эпохи.

Этнографические и природные реалии требуют сохранения национального колорита. Слова, обозначающие предметы быта, одежду, растения и животных (*чаркуб*, *зуннар*, *сандулач*), в переводе чаще всего передаются транслитерацией с пояснениями, чтобы читатель мог сопоставить реалии с культурными и природными особенностями региона. Важным является сохранение вариативности семантики, как, например, в случае мер длины и веса (*йигач*, *кариш*, *аргамчи*, *мискаль*), где переводчик использует пояснительные примечания для точного воспроизведения измерений.

Государственно-административные реалии, такие как титулы и должности (*ишиг-ага*, *садр*, *булук*), и ономастические реалии (*Малик Кашгари*, *Джани бек Дулдай*) требуют сохранения

аутентичности при минимальной стилистической адаптации. Это позволяет поддерживать историческую достоверность текста и передавать социальную структуру общества, отражённую в оригинале.

Особое внимание в обсуждении следует уделить *денежным реалиям* (*данак*, *фулус*, *мискаль*), которые демонстрируют сложность передачи экономических понятий в другом языковом и культурном контексте. Перевод М.А. Салье в целом корректен с точки зрения смысловой передачи, однако, в некоторых случаях наблюдается стилистическая адаптация, смягчающая эмоционально-оценочную окраску оригинала, например, передача слов «тавобиъ» и «лавоҳиқ» как «приверженцев и приспешников». Более адекватным с точки зрения коннотаций мог бы быть перевод «любимец» и «блюдолиз», что отражает оригинальную оценочную окраску текста.

Обсуждение также подчеркивает методологическую ценность сохранения средневековых мер длины и веса в их оригинальном виде с пояснением, а не прямым пересчетом в современные единицы. Такой подход позволяет сохранить когнитивную картину мира автора, демонстрируя, как воспринимались расстояния, размеры и объекты в XVI веке.

Анализ перевода Бабур-наме демонстрирует, что успешная передача реалий требует сочетания стратегий транслитерации, использования историзмов, пояснительных комментариев и выборочной стилистической адаптации. Это обеспечивает сохранение культурно-исторического колорита текста и делает его доступным и понятным для современного читателя, не лишая при этом оригинального национального и исторического контекста.

Результаты

В ходе исследования особенностей перевода реалий в *Бабур-наме* на русский язык М.А. Салье были выявлены важные закономерности, демонстрирующие как лингвистическую, так и культурно-историческую специфику текста. Анализ показал, что реалии в произведении Бабура охватывают широкий спектр категорий: географические, этнографические, природные, государственно-административные, ономастические и ассоциативные. Географические реалии, такие как топонимы и гидронимы (*Ала-Курган*, *Аспара*), в переводе передаются через транслитерацию с пояснением, что позволяет читателю сохранять представление о пространственном контексте событий и точное расположение объектов XVI века. Этнографические и природные реалии, включая предметы быта, национальную одежду и элементы флоры и фауны (*чаркуб*, *зуннар*, *сандулач*, *карлугач*), требуют сохранения национального колорита и сопровождаются пояснительными комментариями, что обеспечивает адекватное восприятие уникальных культурных особенностей региона.

Особое внимание в исследовании уделено государственно-административным реалиям и ономастическим элементам текста. Должности и титулы (*ишиг-ага*, *садр*, *булук*), а также антропонимы и топонимы (*Малик Кашгари*, *Джани бек Дулдай*, *Аринд*) передаются преимущественно транслитерацией, что позволяет сохранить аутентичность социального и исторического контекста, не искажая структуру власти и социальную иерархию эпохи. Ассоциативные реалии, включая фольклорные и религиозные аллюзии (*Рамазан*, *Зу-л-хиджжа*), требуют дополнительной культурной интерпретации, обеспечиваемой комментариями, что позволяет русскоязычному читателю понять символику и культурный подтекст.

Переводчик применяет несколько основных стратегий передачи реалий, включая транслитерацию с пояснением, использование историзмов, пояснительные комментарии и частичную стилистическую адаптацию. Такой комплексный подход позволяет сохранять историко-культурный колорит текста и одновременно обеспечивать его доступность для

читателя XX века. Анализ метрологических и денежных реалий показал, что меры длины (*йигач*, *кариш*, *аргамчи*, *шери*), веса (*мискаль*, *сир*) и денежные единицы (*данак*, *фулус*, *дирхем*, *динар*) обладают вариативной семантикой и относительным характером. Переводчик оставляет их в оригинальном виде, дополняя пояснениями, что позволяет точно воспроизвести исторические и экономические реалии эпохи, не искажая смысл текста.

Использование устоявшихся в русском языке историзмов для передачи денежных единиц и мер веса обеспечивает узнаваемость и культурную сопоставимость, однако в отдельных случаях наблюдается нейтрализация эмоциональной окраски оригинала. Например, перевод слов «тавобиъ» и «лавоҳиқ» как «приверженцев и приспешников» смягчает оценочную коннотацию текста, хотя смысловая точность сохраняется.

Заключение

Передача реалий в «Бабур-наме» требует баланса между точностью, сохранением национального колорита и доступностью для читателя. М. А. Салье демонстрирует высокий профессионализм: он сохраняет оригинальные термины, применяет историзмы, дает пояснения и обеспечивает понимание культурно-исторического контекста. Его перевод позволяет не только понять содержание, но и погрузиться в средневековую культуру Среднего и Южного Востока, делая текст ценным источником для изучения истории и лингвокультуры.

Список использованной литературы

1. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. Реалии. Мастерство перевода. / Сб. статей. – М.: «Сов писатель», 1990.
2. Виноградов В.С. Введение в переводоведение (общие и лексические вопросы). – М.: Изд-во ин-та общего средн. образования РАО, 2001.
3. Салье М.А. О художественном переводе. Журн. «Литературный Узбекистан». – 1936. – № 4.
4. Томахин Г. Д. Реалии-американизмы. – М.: «Высшая школа», 1988.
5. Абдушукуров Б.Б. Нумеративы в произведении Насириддина Бурханиддина Рабгузи «Кысас-и Рабгузи» // Вестник Челябинского государственного университета. Политические науки. Востоковедение. Вып. 11. – Челябинск, 2011. – № 21 (236).

IKKINCHI SHO‘BA

TURKIY XALQLAR NAVOIYSHUNOSLIGI: KECHA, BUGUN, ISTIQBOL

“HAYRAT”DA NA’T

M. Muhiddinov,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi Muhammad s.a.v. alqovlari – na’tlar tahlil etilgan. Dostonda beshta na’t berilgan bo‘lib, “Avvalgi na’t”da Muhammad haqiqati barcha mavjudotlardan burun yaratilgani haqida gap borsa, “ikkinchi na’t”da Muhammad alayhissalomda nubuvvat payg‘ambarlik nishonalarining yuz berishi, islomning joriy etila boshlashi, butparast kofirlarga qarshi kurashi tasvirlanadi, “uchinchi na’t”da islom dini g‘alabasi, Muhammad rasulullohning mo‘jizalar ko‘rsatishlari, shariatning joriy yetilishi bayon qilinadi. “to‘rtinchi na’t” islomning qudrati, Qur’on va hadislar shuhrati, Payg‘ambar as’hobi, xalifalaridan so‘z ochadi, “beshinchi na’t”da Me’roj kechasi ta’rifi beriladi.

Kalit so‘zlar: *hamd, na’t, qasida xususiyati, Nuri Muhammadiya, Odam a.s. va Muhammad s.a.v. rasulullоh mo‘jizalari, Masjidil Aqso, me’roj, Buroq, sayyoralar va burjlar.*

Abstract

This article analyzes the verses of Muhammad (peace be upon him) in Alisher Navoi’s epic poem “Khairat ul-abror”. The poem contains five verses, and the “First verse” describes the creation of the reality of Muhammad before all other creatures, the “Second verse” describes the appearance of the signs of prophethood in Muhammad (peace be upon him), the beginning of the establishment of Islam, and his struggle against pagan infidels, the “Third verse” describes the victory of Islam, the miracles of Muhammad the Messenger of Allah, and the establishment of Sharia. The “Fourth verse” describes the power of Islam, the glory of the Quran and Hadiths, the companions of the Prophet, and his caliphs, and the “Fifth verse” describes the Night of Ascension.

Keywords: *praise, na’t, qasida feature, Nuri Muhammadiya, miracles of Adam (peace be upon him) and Muhammad (peace be upon him) the Messenger of Allah, Al-Aqsa Mosque, Mi’raj, Buraq, planets and constellations.*

Sharq shoirlari asarlari avval Tangri taologa hamd bilan boshlanib, so‘ngra Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.v.ga bag‘ishlangan na’tlar keltiriladi. Hamd va na’tlar ham dostonlarning ajralmas qismi bo‘lib, muallif dunyoqarashini oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Biz bu o‘rinda Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi Muhammad Mustafo ta’rif-tavsiflarini tahlil etishni lozim topdik. Hamd, na’tda tavhid va vasf madhi badiiyati, til uslubi ko‘tarinki ruh bilan yozilgan bo‘ladi hamda ularda mualliflarning falsafiy mushohadalari ham ifodalanadi.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida “Bismillohir rahmonir rahim” sharhidan keyin bir hamd, to‘rt munojot va beshta na’t keltiriladi. Beshta na’t 147 baytdan iborat.

“Avvalgi na’t”da olam boshida nuri Muhammadiyaning mavjud bo‘lgani, ya’ni Muhammad haqiqati barcha mavjudotlardan burun yaratilgani haqida gap borsa, “ikkinchi na’t”da Muhammad alayhissalomda nubuvvat payg‘ambarlik nishonalarining yuz berishi, islomning joriy etila boshlashi, butparast kofirlarga qarshi kurashi tasvirlanadi, «uchinchi na’t»da islom dini g‘alabasi, savodsiz odam bo‘lgan Muhammad rasulullohning mo‘jizalar ko‘rsatishlari, shariatning joriy etilishi, Adam-u Arab yangi dinga kirib, sharaf topgani bayon qilinadi. “To‘rtinchi na’t” islomning qudrati, Qur’on va hadislar shuhrati, Payg‘ambar as’hobi, xalifalaridan so‘z ochadi, “beshinchi na’t”da Me’roj kechasi ta’rifi beriladi. Me’roj 53 baytdan iborat. Me’roj hazrati Payg‘ambar mo‘jizalari va karomatining eng cho‘qqisi sifatida ko‘rsatiladi. Ammo bu haqda kengroq to‘xtab o‘tishdan oldin “Nuri Muhammadiya” tushunchasi ustida to‘xtash joiz deb o‘ylaymiz.

“Nuri Mukammadiya” tushunchasi islom ulamolari ishlarida tez-tez tilga olinadi, ayniqsa,

tasavvuf ta'limotida bu tushuncha yaxshi ishlangan. Tasavvuf ahli fikriga koʻra Tangri taolo olamlarni yaratishdan oldin Muhammad nurini yaratgan boʻlib, shu nur tufayli olamlarni va odamlarni xalq etdi. Bu nurni "Haqiqati Muhammadiya" ham deb yuritadilar.

"Hayrat ul-abror"dagi birinchi na'tda quyidagi baytlar bor:

Ey qilibon lam'ayi nurung zuhur,
Andaki ne soya bor erdi, na nur.
Nurungga tob ikki jahondin burun,
Har ne yoʻq andin burun, andin burun [Navoiy, 1960 :24].

Demak, Navoiy fikriga koʻra hali biror mavjudot yaralmaguncha, soya ham, nur ham boʻlmagan bir paytda Muhammad nuri "zuhur qildi", barcha qadimiylardan ham bu nur qadimiyroqdir. Bu fikr olam asosida Muhammad nuri yotadi, degan qarashga muvofiqdir. Navoiy davom etib yozadiki, jismoniy va ruhiy olamlar shu nurdan ziyo topgan, hali hazrati Odam Safiyulloh yaratilmagan edi. Odam Ato ham Muhammad nuridan bino qilindi. Shuning uchun, "Avval oʻgʻil, soʻngra ato" yaratildi deyish mumkin. Boshqacha sharhlaganda, hazrati Muhammad Odam Atoga ham ato va oʻgʻildir. Shu ma'noda Odam Ato farzandlari – bani Odam Muhammadga farzand hisoblanadi.

Navoiy Odam Ato va hazrati Muhammad orasidagi qarindoshlikni ular nomidagi oʻxshash jihatlar bilan qiyoslab tushuntirmoqchi boʻladi: **Odam** va **Muhammad** soʻzlarining yozilishi shaklida "dol" va "mim" oʻxshash, agar biz Muhammadni Ahmad shaklida yozsak, (Ahmad ham Paygʻambar ismi sharifi), unda uchta harf – alif, dol, mim oʻxshash boʻlib chiqadi. "Oʻgʻulda uch harf atodin nishon" deb yozadi Navoiy. Biroq "xe" harfi ham ortiqcha emas. Shoir koʻrsatishicha, bu "habib" va "muhabbat" soʻzlariga ishoradir. Zero, Rasulullo Allohning doʻsti – Habibulloh laqabini olgan va Rasuli akram dilida Tangriga muhabbat behad-u hisobdir.

Har neki Haq vajhi aro mubham ul,
Zohir etib yuzda habibi ham ul [Navoiy, 1960 :24].

Demak, Muhammad paygʻambar siymosida ilohiy vajhning qudrati va jamoli aks etgan, Paygʻambar Allohning koʻzgusi, Paygʻambarning ishlari ham Alloh amallari, amrining hayotga tatbiqi.

Muhammad nuri Odam vujudiga kirib uni sharaflaydi, odamdan havoga oʻtdi, uning bolalariga ham taraladi. Shunday qilib, barcha insonlar shu nurdan bahramand boʻldilar.

Alisher Navoiy bu fikrlarni "avvalgi na't" deb nomlangan bobning nasriy atamasida aniq va ixcham bayon etadi: "Ul hazratning nuri qadamiyatidakim, zot bahrining avvalgi jumbushida ul durri bebaho lam'asi xafo rishtasin uzdi va ul gavhari yakto ashi'asi lam'a koʻrguzdi va durjdin durjga intiqol etdi, to Safiyullohdin Abdullohga yetti" [Navoiy, 1960 : 24]. Ma'nosi: "Ul hazrat nurining qadimiyligi haqidaki, zot – tangri dengizi birinchi toʻlqinda bir yagona gavhar nuri yashirinlik ipini uzdi va ul yagona gavhar porlab koʻrindi va sanduqchasidan burjlarga yoʻnaldi, tokim Odam Atodan Abdullohga yetdi". Ya'ni olamdan avval bu nur yaratilib, keyin olamlarga va Odamga singib ketdi, toki Abdullohga yetdi deganda Navoiy hazrati Paygʻambarning tugʻilishini nazarda tutadi. Chunki Muhammad paygʻambarning otasining ismi Abdulloh edi, ya'ni Allohning quli, shunday qilib olam asosidagi nurdan to Muhammad boʻlib tugʻilguncha davriy bir zamon kechadi.

Shundan keyin Alisher Navoiy hazrati Paygʻambarning goʻdaklik ayyomi, qirq yilgacha har xil yumushlar bilan shugʻullanishlari, chunonchi, choʻponlik qilishi, tijorat bilan band boʻlishi va boshqalar haqida yozadi. Shoirning tasviriga koʻra, paygʻambarlik yosh Muhammad siymosida muhayyo edi, uning aqli, zehni odamlarni hayron qoldirardi:

Surat aro tifl, vale aqli kul,
Qavlung aro gʻayri yali lam yaqul [Navoiy, 1960 :25].

Paygʻambar butparastlarga qarshi jihod boshlab, Alloh haqiqatini yerda hukmron qildi. Kufr togʻini talqon etaroq iymon bogʻini yashnatdi. Muhammadning da'vatlari el-u xalqlar orasida

g‘ulg‘ula soldi, payg‘ambarning mo‘jizali kalomi dillarni yoritdi va ayni vaqtda dushmanlar ham paydo bo‘ldilar. Biroq Makka mushriklari oxir ul-amr imon keltirishga majbur bo‘ldilar. Payg‘ambar mo‘jizalaridan biri barmoq uchi bilan oyni ikki qismga bo‘lganidir:

Mehr mutii amru misoli bila,
Shaq bo‘lubon badr hiloli bila [Navoiy, 1960 :24].

Uchinchi na’tning nasriy sarlavhasi mana bunday: “Ul nubuvvat quyoshi soyasizligining poyasi, balki quyosh bo‘lmoq aning soyasi va besh barmog‘iga qalam tutmay aqolimi sab’ani yakqalama qilg‘oni, balki jam’i milal avroqig‘a nasx qalami chekkoni” [Navoiy, 1960 :26], ya’ni: “Ul payg‘ambarlik quyoshining soyasi yo‘qligi mohiyati, balki quyosh uning soyasidir va barmoqlariga qalam olmay, yetti iqlimni zabt etgani, balki barcha millatlarning kitob-u dillariga inkor xatini chekkanligi”.

Bu bobda shoir Muhammad joriy etgan barhaq dinning ulug‘vorligi, payg‘ambarimizning ulviy-rahmoniy najoti haqida jo‘shib tavsifli satrlar tizadi:

Zoting edi javhari ulviy najod,
Tutmadi yer soyasi birla savod.
Qayda savod etgali chekkay raqam,
Qoldi chu mahrum iligingdin qalam.
Bo‘lmadi gar xoma boshin yormog‘ing,
Yordi qamar xomasini bormog‘ing.
Qo‘ymadi gar bu qalaming bir nuqat,
Lek milal nasxig‘a ko‘p chekti xat [Navoiy, 1960 :26].

Ushbu baytlarda Hazrati Muhammadning xat tanimaganligi, ammo shunga qaramay olam asrori, ilohiy, ilmiy hikmat koni bo‘lganligi ifodalangan. Muhammad alayhissalom xat tanimasdi, ammo o‘nlab xalqlar uning xati tobeligiga qo‘shildi. Ajamdan Arabgacha, Mashriqdan Mag‘ribgacha islom dinini qabul qildilar. Nomasi qora bo‘lganlar ham bu xat tobeнiga aylanganda, shafoat topdilar. Lot-u manot kabi butparastlar ming balolarga duchor bo‘ldilar.

To‘rtinchi na’tda “Hayrat ul-abror” muallifi Payg‘ambar sifatlarini madh etishni davom ettirib, Payg‘ambar mo‘jizalari, hazrati rasulullоh faoliyatining qizg‘in davrini qalamga olgan:

Ey nafasing moyayi e’joz o‘lub,
Ruhi qudus nutqung‘ga hamroz o‘lub.
Gohi takallum sanga mo‘jiz kalom,
Nazmi kaloming bori mo‘jiz nizom...
Sihhati hukm ichra hadising sahih,
Arzi fasohatda kaloming fasih [Navoiy, 1960 : 27].

Payg‘ambarning eng ulug‘ mo‘jizasi – bu kalomi tarif, ya’ni “Qur’oni karim”. Bu satrlarda shunga ishora bor. Muhammad Mustafo payg‘ambarlar silsilasida so‘z sehrgari sifatida shuhrat qozongan. Ul janobning nutqi, va’zi, oyatlari ilohiy vahiylik edi. Qur’on suralari Allohning kalomi bo‘lib, Jabroil alayhissalom Hazrati Muhammadga yetkazib turgan, Hazrati Muhammad Mustafo buni o‘z navbatida xalqqa yetkazgan. “Qur’on”da islomiy aqidalar, vahdat va tavhid g‘oyalari, mo‘min-musulmonlik ruknlari, falsafa va hikmat, g‘ayb asrori ifodasi bo‘lgan tilsimli ma’nolar, shuningdek, mo‘minlarning kundalik hayotiga lozim bo‘ladigan ko‘rsatmalar bor. Odam farzandiga kerak bo‘ladigan barcha axloqiy-ma’naviy narsalarni bu muqaddas kitobdan topish mumkin. Shunga o‘xshash behisob hadislar ham inson kamoloti, uning hayot tarzini yo‘lga soluvchi o‘chmas chiroqlardir.

Hazrat Navoiy ushbu bobda islom shar’ining besh rukn – namoz, ro‘za, zakot, haj va kalima keltirish sharofati haqida to‘xtaydi. Qayd etamizki, bu mavzu “Hayrat ul-abror”da alohida bobda kengroq yoritilgan. Bu yerda esa shariatning ahamiyati va Payg‘ambarimizning bundagi ulug‘ xizmati tezislar shaklida o‘rtaga tashlangan. Payg‘ambar shariatni joriy etish bilan insoniyat ma’naviyati tarixida burilish yasadi. Odamlar yaxshini yomondan, gunohni savobdan, haromni haloldan ajratadigan bo‘ldilar.

Alisher Navoiy bu bobda Payg‘ambar hayotidagi og‘ir damlar, dushmanlardan qochib g‘orda yashirinish, Abujahl boshliq mushriklar bilan kurash, Payg‘ambarga oxirigacha sodiq qolgan Abubakr, Umar, Usmon, Ali haqida yozadi:

Ruh edi ul bahri nubuvvam duri,
To‘rt rafiqi tanining unsuri [Navoiy, 1960 : 27].

Dostonda garchi Muhammadiy g‘oyasi batafsil yoritilgan bo‘lsa-da, lekin Payg‘ambarning insoniy sifatlari (iztirobi, kurashi, shodligi) bilan qo‘shib olib boriladi. Qayd etamizki, Payg‘ambar me’roji haqida shoirlar ko‘p yozganlar, bu voqea o‘zining xayolot va tasavvurotlariga boyligi, so‘fiyona karomat-u tavajjuh va ishq-u oshiqlik tushunchalari bilan yaqinligi, balki, bunga sabab bo‘lgandir. Me’roj kechasi haqida qasida va g‘azallar ham yozilgan. Aftidan, bu an’anaviy mavzulardan hisoblanib, har bir shoir bunda ham kuchini sinab ko‘rgan.

Beshinchi na’t bunday boshlanadi: “Me’roj kechasi ta’rifidakim, karimayi: “Subhanallazi asro” anga musaddaqi durur va “biabdihi laylai minal masjidil haromi ilal masjidil Aqso” aning subutiga ikki guvohi sodiq” [Navoiy, 1960 :24]. Ma’nosi: “Me’roj kechasi ta’rifidaki, “Subhanallazi asro” (kechki safar sha’ni-sharafi) oyati karima uni tasdiq etuvchidir va kechasi haram masjididan Aqso masjidiga kelib ibodat qildi” (xabari) uning sobitligiga ikki sodiq guvohdir”). Shundan keyin ushbu nasriy sarlavhaning she’riy sharhi boshlanadi:

Bir kecha zulmatqa qolib koinot,
Mehr nihon o‘ylaki aynulhayot
Garniki ul chashma nazardin qochib,
Xizr ko‘k uzra qatarotin sochib.
Tun qilibon gardini anbarsirisht,
Butratibon yerga nasimi bihisht [Navoiy, 1960 : 27].

Shoir na’tida, avvalambor, Me’roj tunining o‘zi tasvirlangan ajoyib peyzaj manzarasi yaratilgan: osoyishta va qop-qora tun. Hayot chashmasi – quyosh yashiringan, oy esa hali chiqmagan, lekin tun qorong‘i bo‘lishiga qaramay safoli, xuddi Xizr zulmatdan obihayot olib sepayotganday. Havodan xushbo‘y hid anqiydi, jannat shabadasi esib turibdi.

Navoiyning mana bu tashbeh-tasviri ham ajoyib:

Ya’ni: yer kurrasi shaklan go‘yo uchoqqa o‘xshab qolgan, kechaning qorong‘iligi bu o‘choqqa sepiladigan anbar (anbar-olovga sepilib, uyni xushbo‘y qiladigan dorivor) kabidir. Quyosh o‘choq ostidagi olovga o‘xshaydi, osmon esa o‘choq ustiga yopilgan etakkga o‘xshab turibdi. Shundan keyin Navoiy Payg‘ambarning vahiy olib safarga tayyorgarlik qilayotgani, Alloh vasliga yetishishdan nihoyatda xushnudligi aytiladi. Jabroil Payg‘ambar alayhissalomga osmoniy ot – Buroqni keltirgani tasvirlangan. Navoiy osmon jismlarining intizorligini bayon etishdan oldin Payg‘ambarning o‘z ichki kechinmalari – Tangri bilan muloqot mujdasidan yuragi beorom, joni ichiga sig‘may quvonishi ko‘rsatilgan:

Chunki nabiy mujdayi jonon topib,
Mujdayi jonon chu topib, jon topib.
Payki oni qo‘ldabon otlandurub,
Raxshini kelgan sori – o‘q yondurub [Navoiy, 1960 :28].

Ko‘p Merojnomalarda Muhammad alahissalom ko‘kka safar qilishdan oldin Haram masjidi (Makka masjidi) va Aqso masjidi (Bayt ul-muqaddasdagi masjid)ni ziyorat qilib, namoz ado etgani bayon qilinadi. Navoiy bu voqealar tasvirini chetlab o‘tgan. Unda Payg‘ambar Haq sari “jilvasoz” bo‘lib yo‘lga chiqqach, sayyoralarning peshvoz chiqishi, har bir sayyorada bir muddat to‘xtab o‘tishi bayon qilingan. Avval Oy, keyin Zuhra, keyin Bahrom sayyorasiga o‘tiladi. Birin-ketin Mushtariy, Zuhal, Hamal, Sarv, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jadi, Dalv, Hud burjlarini sayohat etadi. Bularning hammasi Habibulloh qadamidan sharafmand bo‘ladi. So‘ngra Arsh va Lavhu Qalam sari Buroqni buradi:

Farshi bo'lib Arsh ila lavhu qalam,
Qo'ymoq uchun raxshi alarg'a qadam. [Navoiy, 1960 : 29].

Keyin Buroqni qoldirib, Hazrati Payg'ambar Rafrafga minadilar va ko'k pardalarini ochib, Parvardigor dargohiga yaqinlashadilar. Bu dargoh Lomakon dargohi, bu yerda vaqt va ma'no tushunchalari amal qilinmaydi:

Olti jihat qaydidin ixroj o'lub,
To'rt guhar tarki anga toj o'lub.
Yo'qlug' ayog'i bila solib qadam,
Andaki yo'l-u qadam o'lub adam,
O'zlugidin naqsh-u namudor yo'q,
Naqsh-u namudoridin osor yo'q.
Chun o'zini aylab o'zidin xalos,
Pardayi izzatda qilib o'zni xos [Navoiy, 1960 :29].

Shunday qilib, Alisher Navoiy, birinchidan, Hazrati Muhammad alayhissalomning Yor vasliga yetishish shodligi, behudligini ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, to o'zidan kechmasa, Yorga yetishmaydi degan so'fiyona g'oyani oldinga surgan. Chunki Payg'ambar makon va zamondan xoli olamga doxil bo'lar ekan, chor unsur bilan bog'liq bashariy sifatlardan ham xalos bo'ladi, ya'ni foniy bo'ladi – "bahri inoyatga" qo'shiladi. Bu holat shoirda bag'oyat ta'sirli tasvirlangan. Shuncha voqealar, arvoz-u sayr-u sayohat, ilohiyot olamini kashf etish bir lahzada kechadi:

Borg'oni-yu kelgani bir on o'lub,
Aql bu mansubada hayron o'lub [Navoiy, 1960 :24].

Hazrati Payg'ambar bu ilohiy safardan qaytib, el orasida shariatni yana kuchliroq tashviq qildilar. Navoiy xulosasi shu. U vasl lahzasi holatini ko'rsatishga ko'p e'tibor bergan.

Me'rojnomada janobi Payg'ambarning Parvardigor nuriga g'arq bo'lib, singib ketish tasviri bor, ammo suhbat berilmagan. Boshqa ko'p «Me'rojnoma»larda esa Parvardigor bilan muloqot, g'oyibona suhbat beriladi. Payg'ambarimiz ummatining gunohini kechishni so'raydi.

Navoiy uchun vaslning o'zi va bunda Muhammadning holatini ko'rsatish muhim deb hisoblangan. Payg'ambar g'ayritabiiy qudratga ega, ilohiylashgan zot sifatida tasvirlanadi. Payg'ambar birinchidan favqulodda odam, u oddiy insonlarga o'xshamaydi, ikkinchidan, u – bir ideal, kamolot ideali, «xayr ul-bashar». Na'tlarda yaxshilik va ulug'vorlik, haq yo'li uchun kurash g'oyasi aks etgan.

Na'tlarning tili, uslubi, poyetikasi ham o'ziga xos. Biz qisman bunga yo'l-yo'lakay to'xtab o'tdik. Lekin fikrimizcha, bunga kengroq, to'xtab o'tish kerak, bu foydadan xoli emas. Chunki na'tlarning o'z poyetikasi, uslubi bor. Avvalo, shuni aytishni lozim topamizki, Payg'ambar – komil inson timsoli, ideal bo'lgani uchun tasvir ham shunga muvofiq romantik ko'tarinki kayfiyat qo'zg'atuvchidir. Xayolot va mubolag'ali tasvir yetakchilik qiladi. Muallif hamd-u na'tda eng munosib va «najib» sifatlarni qo'llab Payg'ambarning ulug'vorligi, bemisligini tasvirlashga intiladilar. Romantik ko'tarinki ruh baytlar ohangiga ham ta'sir etgan.

Navoiyning Payg'ambarga muhabbatlari cheksiz. Bu muhabbat har bir sayrda, tashbeh va ifodada ko'rinib turibdi. Shoir ig'roq, tashxis, tashbeh va kitobat san'atlaridan ustalik bilan foydalanganlar.

Chunonchi: *Insu Malak joni-yu jononasi.*
Ikki jahon gavhari yakdonasi.
Mahd sanga lavh-ai firuzarang,
Kim harakatdin anga bo'lmay darang.
Sen kibi bu gulshan aro toza vard,
Umrida ko'rmay falaki solxurd.
Surat aro tifl, vale aqli kull,
Qavlung aro g'ayri yali lam yaqul [Navoiy, 1960 : 25].

Bu parchani ko‘zdan kechirsak, Sharq adabiyotida qo‘llanib kelingan badiiy san’atlarning ajoyib namunasini ko‘ramiz. Chunonchi: “insu malak joni va jononasi” iborasida ham tavsif bor va ham tashbeh. Ajoyib shoirona tasvir bu: odamlarninggina emas, farishtalarning ham joni. Jonigina emas, jononasi – mahbubi ham. Payg‘ambar zoti shunchalik sharif va mo‘tabar qilib tasvirlanadi. “Lavhayi firuzarang” – osmonning sifati. Bunda tashbehi tom san’ati ishlatilgan. Ammo bu “lavhayi feruzarang” – “Zangori lavha” – Payg‘ambarning beshigi. Mana bu mubolag‘ali va munosib tashbehni qarang. Chunki gap Muhammad nuri haqida bormoqda, bu nur uchun butun olam beshik vazifasini o‘tagan. Payg‘ambar bir toza gul. Tashbeh san’ati yana ishga solingan. Ammo bu gul falak bag‘rida ochilgan. Tashbeh kengayib romantik tasvirni vujudga keltirgan. Payg‘ambarning tug‘ilishi, go‘dakligi tasvirini qalamga olgan Navoiy shunday san’atlarni tizib tashlaydi. Muhammadning surati go‘dak, ammo haqiqatda falak beshigida u bir aqli kulldir.

Alisher Navoiy yana har bir na’tda o‘ziga xos tashbehlar qo‘llaydi, chunki tashbehlar qalamga olingan mavzuga, voqyeaga munosib bo‘lishi kerak. Payg‘ambarning tug‘ilishi, chaqaloqning husn-u jamoli va barkamolligi, nabiylik davri haqida yozganda quyoshday porlash, mo‘jizalar, karomatlar namoyishi, Me’roj haqida yozganda tun tasviri, chaqmoq va yashin kabi obraz – ifodalarga murojaat qilish bor.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida na’tlar muhim ahamiyatga ega. Na’t – bu dostonlarning tarkibiy qismi bo‘lib, muayyan g‘oyaviy estetik vazifaga ega. Ularda shoirlarning islomga munosabati yorqin aks etgan. Navoiy Hazrati Muhammadni insoniyat tarixida yangi, barhaq dinni joriy etgan ulug‘ zot, karomatli va sharofatli inson sifatida qizg‘in muhabbat bilan tasvirlagan. Shu bilan birga ushbu boblarda shoirning kayhoniy tushunchalar tasavvuroti, xayolot olami ham ifodalanadi. Navoiy Payg‘ambar siymosini tarixiy voqealar ichida olib gavdalantiradi, tadrijiy tus beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur’oni karim. Tarjima va izohlar. (Alouddin Mansur tarjimasi). – Toshkent: Cho‘lpon, 1992
2. Alisher Navoiy. “Xamsa”, tanqidiy matn. Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev. – Toshkent: FAN, 1960. – B.19
3. Alisher Navoiy. G‘azallar, sharhlar. – Toshkent. Kamalak,1991. – B. 101
4. Doktor Husayn Razmҷӯ. Insoni armonӣ va komil dar adabiyoti hamosӣ va irfonii forsӣ. – Tehron, 1348 hiҷr.
5. Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar. – T.: A.Qodiriy. 2002
6. Muhiddinov. M. Komil inson-adabiyot ideali. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005
7. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. Monografiya. – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B.14.

“LISON UT-TAYR”NING BOSH QAHRAMONLARI VA PERSONAJLARI

Sultonmurod Olim,
filologiya fanlari doktori, professor
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi
Toshkent amaliy fanlar universiteti
e-mail: smo54@mail.ru

Annotatsiya

Hozirgacha buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy yaratgan olti dostonning bosh qahramonlari va personajlari to‘liq holda tahlil va tasnif qilinmagan. Ushbu maqola bu boradagi dastlabki urinish hisoblanadi. Unda “Lison ut-tayr”ning bosh qahramonlari va personajlari atroflicha tahlil etiladi va tasnif qilinadi. Tasnifda muallif masalaga turli taraflardan turib yondashadi.

Kalit so‘zlar: *Alloh, payg‘ambar(s. a. v.), farishta Jabroil (a.), me’roj, Hudhud, pir, qushlar, murid, lirik qahramon.*

Abstract

To date, the main characters and heroes of six poems written by the great Uzbek poet and thinker Alisher Navoi have not been fully analyzed and classified. This report is the first attempt in this direction. It comprehensively analyzes and classifies the main characters and personalities of the poem “Language of Birds.” In the classification, the author approached the posed question from different angles.

Keywords: *Allah, prophet (p. a. v.), angel Gabriel (a.), me’raj, Hudhud, spiritual mentor, birds, murid, lyrical hero.*

“Lison ut-tayr”(“LT”)dagi adabiy qahramonlarni quyidagicha tasnif etish – mumkin:

1. Bosh qahramonlar.

2. Personajlar.

Bosh qahramonlarga quyidagilar kiradi:

1. Alloh ta’rifi. U – asarning birinchi bosh qahramoni. Uning timsoli ikki yo‘l bilan tasvirlanadi: a) Allohning bevosita tasviri. Tavhid hamd, munojot hamd va lirik qahramonning ichki tuyg‘ulari ifodalangan so‘nggi boblarda Alloh taolo bevosita tasvirlanadi yoki unga munojot qilinadi. Alloh 1-bob bo‘lib kelgan tavhid hamd va 2-bob bo‘lib kelgan munojot hamdda [tavhid hamd va munojot hamd haqida qarang: 14], 169-(“Qushlarnng fano husulidin baqo vusulig‘a yetkoni”), 170-(“O‘z adosi qusuri uzrig‘a tamsil”), 172-(“O‘z taqsirig‘a afv istid’osi va jurmlarig‘a g‘ufron iltimosi”), 193-bob (“Bu nazm tarixi guftori va o‘zining iste’fo va istig‘fori”)larda bevosita ta’riflanadi yoki unga munojot qilinadi. Shuningdek, dostonning qushlar parvozi bilan bog‘liq asosiy syujeti tugaganidan keyin lirik qahramonning qushlar bosib o‘tgan 7 vodiyning har biri bilan bog‘liq 7 munojoti, ya’ni “Talab tariqi adosida munojot” (175-bob), “Ishq tariqi adosida munojot” (177-bob), “Ma’rifat tariqi adosida munojot” (179-bob), “Istig‘no tariqi adosida munojot” (181-bob), “Hayrat tariqi adosida munojot” (183-bob), “Tavhid tariqi adosida munojot” (185-bob), “Fano tariqi adosida munojot” (187-bob)larda ham Tangri taologa munojot qiladi; b) Allohning bilvosita tasviri. Simurg‘ timsolida Alloh ramzan tasvirlanadi. Bu timsol dostonda Hudhudning dastlabki targ‘ibotidan to 30 qushning o‘zini “si” “murg‘” (forscha-tojikcha “si” – o‘ttiz, “murg‘” esa – qush degani) bo‘lganini his etganigacha bo‘lgan qismida tasvirlanadi. Chunki qushlarning kulli, ya’ni eng asosiy maqsadi – Simurg‘ga yetishdan iborat. Hudhud ham faqat va faqat uning ta’rifini qiladi, vodiylar ham – faqat va faqat unga olib boradigan yo‘l bosqichlarini anglatadi. Simurg‘ Alloh taolo ramzi hisoblanadi. Garchi u boshqa qahramonlar kabi bevosita ishtirok etmayotgandek tuyulsa ham, asarda hamma narsa uning ishqiga yetish, vasliga muyassar bo‘lish maqsadi ustiga qurilgan. Simurg‘ ta’rifi va tasviri dostonning 16-(“Hudhud Simurg‘din xabar degoch, qushlar xushhol bo‘lub, tahqiq qilg‘onlari”),

17-(“Qushlar diqqat bila so‘rg‘ondin so‘ngra Hudhud Simurg‘dn nishonalar aytqoni”), 18-(“Qushlar Hudhuddin Simurg‘ning zuhur bidoyatin so‘rub, ol olarg‘a bu ma’nidin fasonaye va bu maxfiydin nishonaye degoni”), 19-(“Chin shahri sifati va Simurg‘ pari onda tushkonning kayfiyati”), 20-bob (“Hudhudning Simurg‘din fasona surgoni va shavq o‘t qushlar nihodidin zabona urg‘oni”)larida ochiq bayon etiladi.

2. Muhammad payg‘ambar (s. a. v.). Tabiiyki, Rasululloh (s. a. v.) “LT”da Alloh(Simurg‘)dan keyin turadigan bosh qahramon hisoblanadi. Bu timsol tasviri ham bevosita va ham bilvosita aks etgan. Bevosita vasf na’t hisoblanadigan 3- hamda me’rojnoma na’t [Vasf na’t va me’rojnoma na’t haqida qarang: 14] hisoblanadigan 4-bobda tasvirlangan bo‘lsa, bilvosita 7 vodiy bo‘ylab parvoz zamirida aynan Muhammad payg‘ambar(s. a. v.)ning me’roj mo‘jizasi yotibdi.

3. Hudhud. U – tasavvufdagi pir, ya’ni murshidi komil ramzi. Bu – asardagi eng faol timsol. Zimdan u asarda farishta Jabroil alayhissalomning ramzi bo‘lib kelgan. Tasavvufda pir – o‘ta muhim masala. Shu o‘rinda ayni ta’limotning Navoiy bir qit’asidagi mana bu alohida ta’kidida uchragan uch shartini eslash – o‘rinli:

Piru *iste’dodu tavfiq o‘lmasa, bo‘lmas bu ish,*
Kimdururkim, bag‘ri bu hasratdin oning qon emas [Навоий, 1988:542].

Bir tojik xalq naqlida:

Машав бепир, агар хоҳӣ амонӣ,
Агар бошӣ Скандарӣ замонӣ, – deyiladi. Ya’ni: “Tinchlik-omonlik istasang, agar zamonaning Iskandari bo‘lsang ham, pirsiz yurma!” – degani bu. “LT” syujetida qushlarning Simurg‘ni izlash sari harakatini boshdan-oxir aynan Hudhud pir sifatida boshqaradi.

4. Dostonning lirik qahramoni. U asarning an’anaviy kirish qismidan iborat bo‘lgan dastlabki 13 bobi (hamd, na’t va madh hamda har bir madhga illyustratsiya bo‘lib kelgan 1 tadan jami 4 hikoyat) va oxiridagi 19 bob(170 – 188-boblar)dan iborat munojot qismida yanada yorqin namoyon bo‘lgan.

Asar personajlari ham ham 3 guruhga bo‘lamiz:

1) qushlar timsollari;

2) insonlar timsollari;

3) farishtalar timsollari.

Doston, asosan, qushlar ishtirokidagi asar hisoblanadi. Simurg‘ bilan Hudhudni bosh qahramonlar safida sanadik. Asardagi qolgan qushlar quyidagi 4 guruhga bo‘linadi: 1. Hudhudning Simurg‘ sari da’vatiga musharraf bo‘lgan qushlar: To‘ti (22-bob), Tovus (23), Bulbul (24-bob), Qumri (25-bob), Kaklik (26-bob), Tazarv (27-bob), Durroj (28-bob), Kabutar (29-bob), Shohboz (30-bob), Shunqor (31-bob). Bularning jami – 10 ta. 2. Simurg‘ sari dastlabki parvoz amalga oshganidan keyin yo‘l azobidan qo‘rqib Hudhudga o‘z uzrini aytgan qushlar: To‘ti (33-bob), Tovus (36-bob), Bulbul (39-bob), Qumri (42-bob), Kabutar (45-bob), Kabki dariy (48-bob), Tazarv (51-bob), Qorchig‘oy (54-bob), Shunqor (57-bob), Burgut (60-bob), Kuf (63-bob), Humoy (66-bob), O‘rdak (69-bob), Tovug‘ (72-bob). Ularning jami – 14 nafar. Ammo bulardan 6 nafari (To‘ti, Bulbul, Qumri, Kabutar, Tazarv, Shunqor) asarda oldin ham ishtirok etgan, ya’ni Hudhud ularga qarata da’vat nutqi so‘zlagan edi. 8 nafari (Tovus, Kabki dariy, Qorchig‘oy, Burgut, Kuf, Humoy, O‘rdak, Tovug‘) esa asarda ilk bor ishtirok etyapti. 3. Hudhudga Simurg‘ vasliga yetish bilan bog‘liq masalalarda savol bergan qushlar. Ular asarda “bir qush” sifatida tilga olinadi va aynan qaysi qushligi – noma’lum. Bular aynan qaysi qushligining endi ahamiyati ham – yo‘q. Chunki ular so‘fiy bo‘lgan – tenglashgan, o‘zligidan voz kecha boshlagan. Ularning savollari 84-, 87-, 90-, 93-, 96-, 99-, 102-, 105-, 108-, 111-, 114-, 117-, 120-, 123-, 126-, 129-, 132-, 135-, 138-, 141-, 144-, 147- boblarda bayon etiladi. Jami – 22 nafar. Ko‘plari yo‘lda qolib ketdi. Bir qismi, hatto, halok bo‘ldi. Jami bo‘lib 30 qushgina maqsadga yetdi. O‘zlari “si” (o‘ttiz) “murg‘” (qush) bo‘ldi, boshqacha aytganda, Simurg‘ga aylandi. 4. Dostonning Simurg‘ sari parvoz bilan bog‘liq asosiy syujeti tugaganidan keyin

uchraydigan qushlar. Bular dostonning “O‘zining shayx ruhi madadidin anga tatabbu’ qilg‘ong‘a Qaqnus tamsili” degan 174-bobda tasvirlangan Qaqnus va Qaqnusbacha timsollari. Bu ikkisining o‘zini alohida ajratib ko‘rsatishimizning sababi – ular “tamsil”, ya’ni “hikoyat” sifatida keladi.

Dostonda 2 qush – bosh qahramon (Simurg‘ va Hudhud). Asar asosiy syujetida 18 ta – nomi bilan tasvirlangan personaj (bundan 10 tasi ham Hudhudning Simurg‘ sari da’vatiga musharraf bo‘lgan, ham Simurg‘ sari dastlabki parvoz amalga oshganidan keyin yo‘l azobidan qo‘rqib, Hudhudga o‘z uzrini aytgan, 8 tasi faqat Simurg‘ sari dastlabki parvoz amalga oshganidan keyin yo‘l azobidan qo‘rqib, Hudhudga o‘z uzrini aytgan) qush, shuningdek, 22 ta – nomi keltirilmagan, ya’ni “bir qush” sifatida kelgan qush – mavjud. Yana 2 ta asosiy syujetdan tashqari kelgan qush (Qaqnus va Qaqnusbacha) – mavjud. Bularni bir-biriga qo‘shsak, jami 44 (2+18+22+2 = 44) ta bo‘ladi.

Biroq bu yerda bir nozikdan nozik masala – bor. Ana shu “bir qush” sifatida savol bergan qushlar oldingi nomi tilga olingan 18 qush ham yoinki ulardan tamoman boshqa qush ham bo‘lishi – mumkin. Haqiqat shundan iboratki, “yuz ming tuman” qushdan 30 tasigina oxirgi vodiyga yetib bordi. Mantiqan olib qaraganda, ular orasida ana shu nomi tilga olingan 18 yoki “bir qush” sifatida kelgan 22 qush bormi-yo‘qligini aniqlab bo‘lmaydi. Shuning uchun, shartli ravishda, 22 va 18 raqamlarini unutamiz-da, asarda, Hudhuddan tashqari, 29 personaj qush Faqru fano vodiysiga yetib bordi, deb hisoblaymiz. Shunda “LT”da ishtirok etgan qushlar sonini qaytadan aniqlashtirishga to‘g‘ri keladi. Demak, asarda qushlardan 2 bosh qahramon (Simurg‘ va Hudhud), 29 personaj va 2 syujetdan tashqari boblarda tasvirlangan qush (Qaqnus va Qaqnusbacha) qatnashgan bo‘lib chiqadi. Hisoblasak, 33 (2+29+2 = 33) raqami kelib chiqadi. Shunga ko‘ra, “LT” 33 qush timsoli yaratilgan, deya baralla ayta olamiz. Dastlab yuz ming tuman qush Simurg‘ sari yo‘lga chiqqani qayd etib o‘tiladi (qarang: 260, 261), xolos:

*Oqibat **yuz ming tuman**din necha qush, –*
Kim alarg‘a yuz tuman ranj o‘ldi tush [7:260].

Avvalo, Sharq mumtoz adabiyotida “yuz ming tuman” ifodasi “haddan tashqari ko‘p” degan ma’noda qo‘llanadi. Shuning uchun bu muayyanlashtirib (konkretlashtirib) o‘tirilmaydi. Agar uni raqamlarda ifodalaydigan bo‘lsak, bu 1 milliard (10.000 x 100.000 = 1.000.000.000) bo‘ladi. Chunki “tuman” so‘zi 10 mingni anglatadi.

Shuncha qushdan faqat 30 tasigina oxirgi manzilga yetib bordi:

*Urdilar **o‘ttuz** qush ul yerda qanot,*
Tanlarida qolmay oyini hayot [Навоий, 1996:261].

Demak, asarda bu “yuz ming tuman” qushning timsoli yaratilgan emas, albatta. Dostonning “Qushlarning Fano vodiysining nihoyatidin baqo mulkidin nishon topmog‘lari” deb nomlangan 166-bobida bir diqqattalab nuqta – bor. Hudhudning 7 vodiy haqidagi talqinlarini eshitgandan keyin qushlarning barchasi tushundiki, bu – mushkul ish, u ayni jamoa qo‘lidan keladiganga o‘xshamaydi. Hammasi noumid bo‘ldi. Hatto, qo‘rqqanidan ularning ko‘pi o‘ldi ham, qolganlari esa hayrat bilan yo‘lga ravona bo‘ldi:

Balki chun bu ishga voqif bo‘ldilar,
Vahmdin ul dam ko‘pi xud o‘ldilar.
Foniy o‘lg‘och vahmi jon o‘lg‘onlari,
Tutti yo‘l hayrat bila qolg‘onlari [Навоий, 1996:259-260].

Ammo yo‘l oson emas edi, maqsadga juda oz qismigina yetdi:

Oxir ul-amr ul guruhi zordin,
Ranj tortardin suruk afgordin
Yettilar maqsadg‘a, ammo asru oz,
Tan aro yuz so‘z-u jon ichra gudoz [Навоий, 1996:260].

Chunki yo‘l azobiga chidash berolmay, ko‘plari o‘ldi:

Ba'zi ul qushlardin o'ldilar halok,
Ba'zi yittilar[3] *bo'lub ko'p dardnok [Навоий, 1996:260].*
Oqibatda shuncha qushdan 30 tasigina oxirigacha qanot qoqdi:
Urdilar o'ttuz qush ul yerda qanot,
Tanlarida qolmay oyini hayot [Навоий, 1996. 261].

Qushlarning ne ucharga quvvati va ne qo'narga toqati qolgan. Kutilmaganda izzat elchisi pardadan qarab, ularning kimligini so'radi:

So'rg'oli qildi alar holini mayl,
Dedi: "Oyo ne jamoattur bu xayl?.." [Навоий, 1996. 262].

Shu savolga javobda ham qushlar, aslida, yo'lga chiqqanlar *"necha yuz ming"* bo'lgani-yu, shundan faqat 30 tasigina yetib kelganini aytishadi:

Necha yuz ming tobe'u xaylu hashar, –
Kim oning sonida ojizdur bashar,
Bo'ldilar zoe', qo'yub bu yo'lda yuz,
To bu dargahg'a yetishtuk biz o'tuz [Навоий, 1991: 263].

Hudhudning da'vati bilan parvoz qilib, yo'lga chiqqan qushlar soni odam hisobiga yetolmaydigan darajada ko'p edi. Shuning uchun, shartli ravishda, Hudhud bilan birga uchib, maqsadga erishgan qushlarnigina personajlar sirasiga kiritdik. *"Yuz ming tuman"* qushdan faqat 30 tasigina maqsadga yetgani zamirida hamma ham chinakam, ya'ni Haqqa yetgan shayx bo'la olmasligini ta'kidlash yotibdi. Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat" tazkirasida Muhammad (s. a. v.)dan boshlangan tasavvufning XV asr oxirigacha bo'lgan davrda o'tgan taniqli tasavvuf pirlari haqida ma'lumotlar yig'ilgan. Bundan, shartli ravishda, *o'tgan ana shu 9 asr mobaynida bor-yo'g'i 812 shayx o'tgan ekan,* degan xulosa kelib chiqadi. Holbuki, bu yo'lga kirganlar, ayni borada yuksak darajalarga erishishga intilganlar bundan bir necha karra ko'p bo'lgan, albatta. Birinchidan, hamma ham tasavvuf yo'liga kirmaydi, chunki bu – xos kishilar hayot tarzi. Ikkinchidan, bu yo'lga kirganlarning hammasi ham asl maqsadga erisha olmaydi. "LT"da shu holatga suyanilgan. Bu – dostonga "MT"dan o'tgan jihat.

Modomiki, adabiyotshunoslikdan asar tub mohiyatiga yetish talab qilinar ekan, unda ishtirok etgan inson personajlarni ham tahlil etishga to'g'ri keladi. Bu personajlarni ham tasnif qilish – zarur. Albatta, bosh qahramonlar tarkibiga kiritganimiz uchun Muhammad payg'ambar (s. a. v.)ni bunga kiritmaymiz. Qolgan inson personajlarni quyidagi ikki guruhga bo'linadi: 1) mamduh personajlar; 2) hikoyatlarda tasvirlangan personajlar. Mamduh, ya'ni madh etilgan personajlarga Muhammad (s. a. v.)dan keyin islom jamoasini boshqargan 4 xalifa, ya'ni chahoryorlar va Attor kiradi: 1) Hazrat Abu Bakr Siddiq madhi (5-bob) va u haqdagi hikoyat (6-bob); 2) Hazrat Umar Foruq madhi (7-bob) va u haqdagi hikoyat (8-bob); 3) Hazrat Usmon madhi (9-bob) va u haqdagi hikoyat (10-bob); 4) Hazrat Ali madhi (11-bob) va u haqda hikoyat (12-bob); 5) Attor madhi (13-bob). Shuningdek, dostonning 169-(*"Qushlarning fano xusulidin baqo vusulig'a yetkoni"*), 172-(*"O'z taqsirig'a afv istid'osi va jurmlarig'a g'ufron iltimosi"*), 173-(*"Shayx avsofiyu o'zining anga payravlig'da ittisofi"*), 174-(*"O'zining Shayx ruhi madadidin anga tatabbu' Qaqnus timsoli"*), 189-(*"Bu kitob nazmida o'z munosabatining taqribi"*), 191-(*"Bu kitobda taxallus tag'yirining uzri"*) boblarida ham Attor bilan bog'liq fikr-mulohaza va tasvirlarga duch kelamiz ["LT"da Attor timsoli masalasini o'rganishga ushbu satrlar muallifining maxsus maqolalari bag'ishlangan, *qarang:* Olimov, 2004:53 – 65; 12:141 – 146]. Chahoryorlar madhi – Navoiy "Xamsa"si dostonlarida yo'q. Bu – "LT"ga "MT"dan an'ana o'laroq o'tgan xususiyat.

Dostonda jami 64 ta hikoyat keltiriladi. Bular – 6-, 8-, 10-, 12-, 35-, 38-, 41-, 44-, 47-, 50-, 53-, 56-,

[3] Nashrda "ettilar" bo'lib ketgan, bunda ma'no chiqmaydi. Biz "yittilar", ya'ni "yo'qolib qoldilar" tarzida tuzatib ko'chirdik. Vahob Rahmonov ham bu so'zni to'g'ri o'qib, o'zi tayyorlagan nashrda uni "ittilar" tarzida yozishni ma'qul topgan [Навоий, 1991:230].

59-, 62-, 65-, 68-, 71-, 76-, 77-, 79-, 82-, 86-, 89-, 92-, 95-, 98-, 101-, 104-, 107-, 110-, 113-, 116-, 119-, 122-, 125-, 128-, 131-, 134-, 137-, 140-, 143-, 146-, 150-, 152-, 154-, 156-, 158-, 160-, 162-, 163-, 164-, 165-, 168-, 170-, 171-, 174-, 176-, 178-, 180-, 182-, 184-, 186-, 188-, 190-boblar. Ya'ni dostondagi jami 193 bobning 64 tasi – hikoyatdan iborat. Bular doston boblari sonining qariyb uchdan birini tashkil etadi. Hikoyatlarda tasvirlangan personajlarga, shartli ravishda, chahoryorlarning har biri madhidan keyin kelgan hikoyatlar (6-, 8-, 10- va 12-boblar)da kelgan Muhammad (s. a . v.) va chahoryor (Abubakr, Umar, Usmon va Ali r. a.lar)ni kiritmaymiz. Chunki ular biz tasnif qilgan 1-guruhga mansub.

Dostonda personajlar bo'yicha quyidagi manzara namoyon bo'ladi: 1 (35-bob). Bir G'ofil (pyersonajlarni bildirgan so'zlarni, shartli ravishda, katta harf bilan yozishni ma'qul ko'rdik) (Noqis), bir Sohibdil (Komil). 2 (38-bob). Bir hindi, Bir tabl chaluvchi, Bir raqqos. 3 (41-bob). Shoh, Gado. 4 (44-bob). Behunar Bog'bon. 5 (47-bob). Beg'ayrat (kishi, gadoy). 6 (50-bob). Qallob (Javhariy). 7 (53-bob). Mudbir, Muqbil, (Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyat "Sab'ayi sayyor"ning 6-hikoyati bo'lib keladi, "LT"da ham keltiriladi), Shoh. 8 (56-bob). Ko'hiy (Tog'lik), Ayiq, itlar. 9 (59-bob). Shoh, Behayo masxaraboz (Bo'yro shohi), masxarabozlar. 10 (62-bob). Behunar (ochko'z) pahlavon, shahar ahli. 11 (65-bob). Devona, Ablah kishi. 12 (68-bob). Pastkash savdogarlar va g'avvoslar. 13 (71-bob). Hind savdogari (Makka atrofini aylanib ham, hajga bormagan). 14 (76-bob). Shoh (ko'zgu yasattiradi). 15 (77-bob). Iskandar (elchilikka o'zi borgan). 16 (79-bob). San'on, to'rt yuz murid, Tarso qiz, Foniy murid (Xalifa, Soliki rahrav, Rahrav farzona, Mardona, Muttafiq, Rahravi ogoh, Rindi bolodast). 17 (82-bob). Boyazid. 18 (86-bob). Shayx Najmiddin Kubro, It (avliyoga aylangan). 19 (89-bob). Shayx Abu Said Abulxayr. 20 (92-bob). Odam Safiy (a.). 21 (95-bob). Abu Turob Naxshabiy, Murid. 22 (98-bob). Podshoh (mast, bebok, zolim, g'oratgar, saffok – qonxo'r), darveshlar (ikki nafar). 23 (101-bob). Xaraqoniy, Murid, Shayton. 24 (104-bob). Basralik Laim (Ochko'z). 25 (107-bob). Qalandar (bangi), Chayon, Gulchehra (xayolida). 26 (110-bob). Arastu, Shogird, 400 shogird, Iskandar, Aflotun, Mahpaykar (Qiz), xizmatkorlar. 27 (113-bob). Sulaymon alayhissalom, Azroil alayhissalom, Oqil (xomush) odam, Shamol. 28 (116-bob). Oliyhimmat (misrlik), Mahbuba (Hurvash). 29 (119-bob). Iloh (Alloh), Azozil (Shayton), Odam Ato, maloyiklar. 30 (122-bob). Ibn Adham shoh Ibrohim, aqtobi zamon (zamon qutblari). 31 (125-bob). Shayxi Jom (Zinda pil), do'zax ahli. 32 (128-bob). Xoja Porso, Xoja Abu Nasr (o'g'li, muridi), olti yuz ming hoji. 33 (131-bob). Majnun al-Haq, Eshak. 34 (134-bob). Shayx Bistomiy, Murid, malaklar (ahli savol), Tangri taolo. 35 (137-bob). Shayx Abu Bakr Nishopuriy, xodimlar va muxlislar, Eshak, Mahram. 36 (140-bob). Xoja Abdulloh Ansoriy. 37 (143-bob). Abu Said Xarroz, avliyo hojilar. 38 (146-bob). Shahriyor, Shahzoda, xalq, Oshiq. 39 (150-bob). Podshoh, Shahzoda (Yusufdek xushro'y), odamlar, ikki oshiqi beqaror. 40 (152-bob). Asma'iy, Oshiq (o'zini o'zi o'ldiradi). 41 (154-bob). Ko'rlar, Bir kishi (savol berguvchi). 42 (156-bob). Ikki shatranjchi. 43 (158-bob). Mansur (Halloj), Rasululloh (s. a. v.). 44 (160-bob). Xusravi ofoqgir, Malika (qizi), Yigit (Malika tushida ko'rib, sevib qolgani), ikki mahram, kishilar. 45 (162-bob). Shayx Abulabbos Qassob, Fozil kishi, Bir darvesh (xizmat ko'rsatadi). 46 (163-bob). Shah Bahouddin Naqshband, It [Islom olamida Xudoga sadoqat, vafodorlik borasida kishi iymonini itga qiyoslash avvaldan bo'lgan. Masalan, *"Mu'in al-fuqaro" ("Fuqarolar iymonlisi")* degan unvon bilan ulug'langan XV asr olimi Ahmad ibn Mahmud Buxoriyning "Tarixi mullozoda" asarida Xoja Jandiy bilan bog'liq bir rivoyat keltiriladi: *"...[Kunlardan] bir kuni odobsiz bir [kishi] Xojadan, Alloh rahmat qilsin, so'radi: Bu [najot] yo'lida (yoki fano yo'lida) sen yaxshiroqmi yoki it?" [Xoja]ning mulozimlari va muridlari bu savol beruvchiga xusumat qilmoqni xohladilar. Xoja yo'l qo'ymadi va aytdi: "Ey birodar! Agar salomatlik uchun iymon keltirsam, men (yaxshiroqman) va agar, nauzi billahi (Alloh saqlasin-u), ish teskari bo'lib qolsa, [unda] it afzaldir..."* [Buxoriy, 2009:51]. 47 (164-bob). Parvonalar (Pashshachalar), Sham, jamoa (odamlar). 48 (165-bob). Shayx Sufyon Suriy, Bir tolib, Ulkan baliq. 49 (168-bob). Majnun, Bir kishi (uni ko'rgan, u bilan savol-javob qilgan), Layli. 50 (170-bob). Parishontab devona, Ma'shuqa. 51 (171-bob). Xoja Abdulloh Ansoriy. 52 (174-bob). Qaqnus, Qaqnusbacha, Fisog'urs, qushlar va vahshiy hayvonlar, Attor, lirik qahramon (muallif) [Bu

hikoyatda musiqani Fisog‘urs yaratgani bayon etiladi. Musiqaning yaratlishi haqida har xil talqinlar mavjud. Masalan, XVI asr olimi Hasanxoja Nisoriy (1526 – Buxoro – 1597) qalamiga mansub “Muzakkiri ahbob” (“Do‘stlar yodnomasi”) tazkirasining Mavlono Najmiddin Kavkabiy haqidagi faslida musiqa ilmining jamlanishini Fisog‘ursga nisbat berishlarini qayd eta turib, musiqaning yaratilishini Muso alayhissalomga bog‘lab talqin etadigan bir rivoyatni ham keltiradi: *“...Hazrat Muso alayhissalom: “Hassangni toshga ur!” – amriga ko‘ra, asolarini toshga urganlar va ... asolarini toshga urgach, 12 ta chashma oqa boshlabdi va har bir buloq suvi bir kuy va tovush bilan quyilgan. Shunda: “Musi, qiy!” (“Muso”ning asl yozilish shakli – “Musi”), – degan bir nido eshitilibdikim, bu: “Muso, bu ohanglarni asra!” – mazmunida ekan va bular 12 maqom nomi bilan mashhur. Shu munosabat bilan bu ilmga “musiqiy” deb nom qo‘yganlar”* (Nisoriy, 1993:139)]. 53 (176-bob). Tolib murid, Boyazid (Bistomiy), Lirik qahramon. 54 (178-bob). Qays Omir (Majnun), Layli, Birov, Lirik qahramon. 55 (180-bob). Solik (Solik ogoh), Bir shoh, Lirik qahramon. 56 (182-bob). Namrud, Xalil (Ibrohim a.), Jabrail, Lirik qahramon [Shoir bu hikoyatda Ibrohim (a.) va Namrud o‘rtasidagi tarixga suyanadi. Unga ko‘ra: *“Hazrati Ibrohim qavmlarni va Bobil hokimini iymonga da’vat qildilar. Namrud* (Bobil hokimi – ***S. O.***) *Ibrohim alayhissalomga ishonmasdan, bir ulug‘ o‘t yoqdurub, Ibrohim alayhissalomni o‘tga tashladi. Allohi taolo payg‘ambarini kuyishdan saqlab, o‘tni bir yaxshi gulzor qildi. Bu mo‘jizani ko‘rub, ba’zilari iymon kelturdilar”* (Avloniy, 2018:11)]. 57 (184-bob). Bedili zoru haqir, Badmehr (yor), Xalq. 58 (186-bob). Mahmud (G‘aznaviy), Ayoz. 59 (188-bob). Bir komil (kishi), Tangri. 60 (190-bob). Tolib (Tasavvufga kirmoqchi bo‘lgan talabgor), el.

Bu ro‘yxat bizga bir necha masalada yangi xulosalar chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, “LT”dagi hikoyatlar soni haqida ilmda har xil ma’lumotlarga duch kelamiz. Masalan, Y.E.Bertels ular sonini 63 ta deb ko‘rsatadi [Bertels, 1965:417]. Aniqlashdiki, asarda jami 64 ta hikoyat – mavjud. Ikkinchidan, bu bizga hikoyatlardagi personajlar sonini, qaysi toifa shaxslar timsollari yaratilganini, shuningdek, majoziy (allegorik) timsollar miqdorini aniqlashtirish imkonini yaratadi.

Hikoyatlardagi personajlarni sanab chiqishimiz – kerak: Tangri taolo ta’rifi – 3 hikoyatda: 33-hikoyat (119-bob), 38-hikoyat (134-bob), 63-hikoyat (188-bob). Odam Ato (a.) timsoli – 2 hikoyatda: 24-hikoyat (92-bob), 33-hikoyat (119-bob). Sulaymon (a.) timsoli – 1 hikoyatda: 31-hikoyat (113-bob). 4. Ibrohim Xalilluloh (a.) timsoli – 1 hikoyatda: 60-hikoyat (182-bob). 5. Farishta Jabrail (a.) timsoli – 2 hikoyatda: 31-hikoyat (113-bob), 60-hikoyat (182-bob). 6. Namrud timsoli – 1 hikoyatda: 60-hikoyat (182-bob). 7. Farishta Azroil (a.) timsoli – 1 hikoyatda: 31-hikoyat (113-bob). 8. Azozil (Shayton) timsoli – 2 hikoyatda: 27-hikoyat (101-bob), 33-hikoyat (119-bob). 9. Iskandar timsoli – 2 hikoyatda: 19-hikoyat (77-bob), 30-hikoyat (110-bob). 10. Arastu (Aristotel) timsoli – 1 hikoyatda: 30-hikoyat (110-bob). 11. Aflotun (Platon) timsoli – 1 hikoyatda: 30-hikoyat (110-bob). 12. Fisog‘urs (Pifagor) timsoli – 1 hikoyatda: 56-hikoyat (174-bob). 13. Muhammad Rasululloh (s. a. v.) timsoli – 4 hikoyatda: 1-hikoyat (6-bob), 3-hikoyat (10-bob), 4-hikoyat (12-bob), 47-hikoyat (158-bob). 14. Abubakr (xalifa) timsoli – 1 hikoyatda: 1-hikoyat (6-bob). 15. Umar (xalifa) timsoli – 1 hikoyatda: 2-hikoyat (8-bob). 16. Usmon (xalifa) timsoli – 1 hikoyatda: 3-hikoyat (10-bob). 17. Ali (xalifa) timsoli – 1 hikoyatda: 4-hikoyat (12-bob). 18. San’on (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 20-hikoyat (79-bob). 19. Boyazid (Bistomiy, shayx) timsoli – 3 hikoyatda: 21-hikoyat (82-bob), 38-hikoyat (134-bob), 57-hikoyat (176-bob). 20. Shayx Najmiddin Kubro timsoli – 1 hikoyatda: 22-hikoyat (86-bob). 21. Shayx Abu Said Abulxayr timsoli – 1 hikoyatda: 23-hikoyat (89-bob). 22. Abu Turob Naxshabiy (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 25-hikoyat (95-bob). 23. Xaraqoniy (shayx) tisoli – 1 hikoyatda: 27-hikoyat (101-bob). 24. Ibn Adham shoh Ibrohim (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 34-hikoyat (122-bob). 25. Shayxi Jom (Zinda pil) timsoli – 1 hikoyatda: 35-hikoyat (125-bob). 26. Xoja Porso (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 36-hikoyat (128-bob). 27. Xoja Abu Nasr (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 36-hikoyat (128-bob). 28. Majnun al-Haq (Mantiqan bu shaxsni ham *“shayx”* deb hisobladik) timsoli – 1 hikoyatda: 37-hikoyat (131-bob). 29. Shayx Abu Bakr Nishopuriy timsoli – 1 hikoyatda: 39-hikoyat (137-bob). 30. Xoja Abdulloh Ansoriy (shayx) tim-

soli – 2 hikoyatda: 40-hikoyat (140-bob), 55-hikoyat (171-bob). 31. Abu Said Xarroz (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 41-hikoyat (143-bob). 32. Shoir Asma'iy (Mantiqan bu shaxsni ham *"shayx"* deb hisobladik) timsoli – 1 hikoyatda: 44-hikoyat (152-bob). 33. Mansur (Halloj, shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 47-hikoyat (158-bob). 34. Shayx Abulabbos Qasso b timsoli – 1 hikoyatda: 49-hikoyat (162-bob). 35. Shah Bahouddin Naqshband (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 50-hikoyat (163-bob). 36. Shayx Sufyon Suriy timsoli – 1 hikoyatda: 52-hikoyat (165-bob). 37. Shayx Farididdin Attor timsoli – 1 hikoyatda: 56-hikoyat (174-bob). 38. Qays Omir (Majnun, shoir, oshiq) timsoli – 2 hikoyatda: 53-hikoyat (168-bob), 58-hikoyat (178-bob). 39. Layli (Modomiki, Qays Omir – Majnun tarixiy shaxs bo'lsa, mantiqan uning ma'shuqasi bo'lmish Layli ham tarixiy shaxs hisoblanadi) timsoli – 2 hikoyatda: 53-hikoyat (168-bob), 58-hikoyat (178-bob). 40. Mahmud (G'aznaviy, podshoh) timsoli – 1 hikoyatda: 62-hikoyat (186-bob). 41. Ayoz (qul) timsoli – 1 hikoyatda: 62-hikoyat (186-bob). 42. Bir komil (kishi) timsoli – 1 hikoyatda: 63-hikoyat (188-bob). 43. Tolib (tasavvufga kirmoqchi bo'lgan talabgor) timsoli – 64-hikoyat (190-bob). 44. El (xalq) timsoli – 64-hikoyat (190-bob).

60 hikoyatda jami bo'lib 44 insoniy timsol uchraganidan bilib olish mumkinki, ayrim timsollar bir necha hikoyatda takror kelgan. Ana endi shu 44 timsolni ham muayyan guruhlarga ajratish mumkin: I Tangri taolo timsoli – 3 hikoyatda: 33-hikoyat (119-bob), 38-hikoyat (134-bob), 63-hikoyat (188-bob). II Farishtalar timsollari – 5 hikoyatda: Jabrail (a. s.) timsoli – 2 hikoyatda: 31-hikoyat (113-bob), 60-hikoyat (182-bob); Azroil (a. s.) timsoli – 1 hikoyatda: 31-hikoyat (113-bob); Azozil (Shayton, u ham, aslida, farishtalardan biri edi, rivoyatga ko'ra, Odam Atoga ta'zim qilmagani uchun Shaytonga aylangan, shunga ko'ra, shartli ravishda bo'lsa ham, biz uni ham farishtalar safiga qo'shdik) timsoli – 2 hikoyatda: 27-hikoyat (101-bob), 33-hikoyat (119-bob). III Payg'ambar(a. s.)lar timsollari – 8 hikoyatda: Odam Ato (a. s.) timsoli – 2 hikoyatda: 24-hikoyat (92-bob), 33-hikoyat (119-bob); Sulaymon (a. s.) timsoli – 1 hikoyatda: 31-hikoyat (113-bob); Ibrohim Xalilluloh (a. s.) timsoli – 1 hikoyatda: 60-hikoyat (182-bob); Muhammad Rasulullo h (s. a. v.) timsoli – 4 hikoyatda: 1-hikoyat (6-bob), 3-hikoyat (10-bob), 4-hikoyat (12-bob), 47-hikoyat (158-bob). IV Chahoryorlar (xalifalar) timsollari – 4 hikoyatda: Abubakr timsoli – 1 hikoyatda: 1-hikoyat (6-bob); Umar timsoli – 1 hikoyatda: 2-hikoyat (8-bob); Usmon timsoli – 1 hikoyatda: 3-hikoyat (10-bob); Ali timsoli – 1 hikoyatda: 4-hikoyat (12-bob). V Hukamo, ya'ni hakimlar (Navoiy o'zining "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida *"hukamo"* deganda antik davrda yashab o'tgan ulug' allomalar, masalan, Luqmon hakim, Fishog'urs hakim, Jomosb hakim, Buqrot hakim, Buqrotis hakim, Suqrot hakim, Aflotun hakim, Aristotolis hakim, Balinos hakim, Jolinos hakim, Batlimus hakim, Sodiq hakimni ko'zda tutgan [Navoiy, 2000:97-194]. Biz ham bu atamani shu ma'noda qo'lladik) timsollari – 3 hikoyatda: Arastu (Aristotel) timsoli – 1 hikoyatda: 30-hikoyat (110-bob); Aflotun (Platon) timsoli – 1 hikoyatda: 30-hikoyat (110-bob); Fisog'urs (Pifagor) timsoli – 1 hikoyatda: 56-hikoyat (174-bob). VI Avliyolar timsollari – 23 hikoyatda: San'on (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 20-hikoyat (79-bob); Boyazid (Bistomiy, shayx) timsoli – 3 hikoyatda: 21-hikoyat (82-bob), 38-hikoyat (134-bob), 57-hikoyat (176-bob); Shayx Najmiddin Kubro timsoli – 1 hikoyatda: 22-hikoyat (86-bob); Shayx Abu Said Abulxayr timsoli – 1 hikoyatda: 23-hikoyat (89-bob); Abu Turob Naxshabiy (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 25-hikoyat (95-bob); Xaraqoniy (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 27-hikoyat (101-bob); Ibn Adham shoh Ibrohim (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 34-hikoyat (122-bob); Shayxi Jom (Zinda pil) timsoli – 1 hikoyatda: 35-hikoyat (125-bob); Xoja Porso (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 36-hikoyat (128-bob); Xoja Abu Nasr (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 36-hikoyat (128-bob); Majnun al-Haq (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 37-hikoyat (131-bob); Shayx Abu Bakr Nishopuriy timsoli – 1 hikoyatda: 39-hikoyat (137-bob); Xoja Abdulloh Ansoriy (shayx) timsoli – 2 hikoyatda: 40-hikoyat (140-bob), 55-hikoyat (171-bob); Abu Said Xarroz (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 41-hikoyat (143-bob); Asma'iy (shayx, shoir) timsoli – 1 hikoyatda: 44-hikoyat (152-bob); Mansur (Halloj, shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 47-hikoyat (158-bob); Shayx Abulabbos Qassob timsoli – 1 hikoyatda:

49-hikoyat (162-bob); Shah Bahouddin Naqshband (shayx) timsoli – 1 hikoyatda: 50-hikoyat (163-bob); Shayx Sufyon Suriy timsoli – 1 hikoyatda: 52-hikoyat (165-bob); Attor timsoli – 1 hikoyatda: 56-hikoyat (174-bob). VII Ko‘pchilik (xalq/el) timsoli – 1 hikoyatda: 64-hikoyat (190-bob). VIII Hukmdorlar timsollari – 4 hikoyatda: Namrud timsoli – 1 hikoyatda: 60-hikoyat (182-bob); Iskandar timsoli – 2 hikoyatda: 19-hikoyat (77-bob), 30-hikoyat (110-bob); Mahmud (G‘aznaviy, podshoh) timsoli – 1 hikoyatda: 62-hikoyat (186-bob). IX An’anaviy adabiy qahramonlar (Har qanday tasnifda bo‘lgani kabi, bu tasnifimizda ham shartlilik – mavjud. Masalan, Mahmud, ya’ni G‘aznaviy timsoli, garchi u podshoh bo‘lgan bo‘lsa ham, aynan an’anaviy adabiy qahramonlar sirasiga ham kiradi. Ammo biz uni hukmdorlar guruhiga kiritdik. Chunki Iskandar, ya’ni Maqduniy ham – shoh, lekin adabiyotda uning timsoli yaratilgan asarlar – juda ko‘p. Uni ham hukmdorlar sirasiga kiritdik) timsollari – 5 hikoyatda: Qays Omir (Majnun, shoir, oshiq) timsoli – 2 hikoyatda: 53-hikoyat (168-bob), 58-hikoyat (178-bob); Layli timsoli – 2 hikoyatda: 53-hikoyat (168-bob), 58-hikoyat (178-bob); Ayoz (qul) timsoli – 1 hikoyatda: 62-hikoyat (186-bob). X Noma’lum shaxslar timsollari – 2 hikoyatda: Bir komil (kishi) timsoli – 63-hikoyat (188-bob); Tolib (Tasavvufga kirmoqchi bo‘lgan talabgor) timsoli – 64-hikoyat (190-bob).

Shunday qilib, chahoryorlar haqidagi 4 hikoyat timsollarini ham qo‘shsak, 64 hikoyatda jami 48 timsol yaratilgan. Chunki ba’zi hikoyatlarda bir necha timsol ishtirok etgani kabi, ayrim timsollar bir necha hikoyatda qayta uchraydi ham. Ana shu 10 guruh orasida timsollar soniga ko‘ra, quyidagi holat namoyon bo‘ladi: 1) avliyolar timsollari (23 hikoyatda); 2) payg‘ambar(a. s.)lar timsollari (8 hikoyatda); 3) farishtalar timsollari, an’anaviy adabiy qahramonlar timsollari (5 tadan hikoyatda); 4) chahoryorlar (xalifalar) timsollari, hukmdorlar timsollari (4 tadan hikoyatda); 5) Tangri taolo timsoli, hukamo, ya’ni hakimlar (Navoiy o‘zining “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida *“hukamo”* deganda antik davrda yashab o‘tgan ulug‘ allomalar, masalan, Luqmon hakim, Fishog‘urs hakim, Jomosb hakim, Buqrot hakim, Buqrotis hakim, Suqrot hakim, Aflotun hakim, Aristotolis hakim, Balinos hakim, Jolinos hakim, Batlimus hakim, Sodiq hakimni ko‘zda tutgan [Навоий, 2000:97-194]. Biz ham bu atamani shu ma’noda qo‘lladik) timsollari (3 tadan hikoyatda); 6) noma’lum shaxslar (*“Bir komil”* va *“Bir tolib”* degan timsollarni, shartli ravishda, shunday nomlashni ma’qul topdik) timsollari (2 hikoyatda); 7) ko‘pchilik (xalq/el) timsoli (2 hikoyatda). Asarning asosiy syujetida esa Sulaymon payg‘ambar (a.) tilga olib o‘tiladi. Qushlar Faqru fano vodiysiga yetganlarida Chovush ular bilan savol-javob qiladi. Biz bularni yuqoridagi ro‘yxatga kiritmadik.

Hikoyatlarni asardan yulib olib o‘qish va badiiy bahra olish ham mumkin. Ya’ni ularning har biriga, shartli ravishda, alohida asar sifatida qarasa, bo‘ladi, albatta. Lekin unda shoirning asl maqsadi amalga oshmaydi. Chunki xato talqinga yo‘l ochiladi. O‘quvchi bu hikoyatga har tarafdan, bugungi tushunchalar bilan aytganda, har xil rakurslardan qarab qolishi xavfi paydo bo‘ladi. Ayrim sho‘ro davri olimlari hikoyatlarni aynan asar syujeti, kompozitsiyasi va arxitektonikasidan yulib olib talqin etgani uchun ham ko‘p xato talqinlar yuzaga kelgan. Shoir har bir hikoyatda bir muayyan g‘oya tasdig‘i uchun keltirgan. Bundan xoli biror hikoyat yo‘q. Shuning uchun, albatta, 64 hikoyatning har birini o‘zidan oldingi bob ma’no-mazmuni bilan chambarchas bog‘liq holda o‘qish, tushunish va tushuntirish shart. Aks holda, asardan, aynan shu hikoyatni keltirishdan ko‘zlangan asl muddao amalga oshmay qoladi.

Hikoyat boblarni nomlashda besh xil holatni kuzatamiz: 1. 46 bobga (6-, 8-, 10-, 12-, 38-, 41-, 44-, 47-, 50-, 53-, 56-, 59-, 62-, 65-, 68-, 71-, 79-, 82-, 95-, 98-, 101-, 104-, 107-, 110-, 113-, 116-, 119-, 122-, 125-, 128-, 131-, 134-, 137-, 140-, 143-, 146-, 150-, 152-, 154-, 156-, 158-, 160-, 162-, 168-, 171- va 178-boblarga) *“Hikoyat”* degan sarlavha qo‘yilgan. 2. 5 ta bob (35-, 76-, 77-, 89- va 92-boblar) sarlavhasida *“hikoyat”* so‘zi ham ishlatilgan. 3. 4 ta bob (86-, 163-, 164- va 165-boblar) sarlavhasida *“hikoyat”* so‘zi ishlatilmagan-da, voqeaning o‘zidan xabar beradigan sarlavha qo‘llangan. 4. 7 bob (176-, 180-, 182-, 184-, 186-, 188- va 190-boblar)ga *“Tamsil”* degan sarlavha qo‘yilgan (Mantiqan 178-bobga ham *“Tamsil”* deb

sarlavha qo‘yilishi kerak edi). 5. 2 bob (170- va 174-boblar) sarlavhasida *“tamsil”* so‘zi ham ishlatilgan.

Bu hikoyatlarda, asosan, insonlar timsollari bor. Garchi bu hikoyatlar amalda o‘zidan oldin kelgan bob uchun illyustratsiya vazifasini o‘tagan bo‘lsa ham, ular qahramonlarini ham asar personajlari ro‘yxatiga kiritish mumkin. Ammo *hamma hikoyatlarda inson timsollari ishtirok etgan,* degan xato tushunchaga bormaslik kerak. Chunki *“Parvonalar majma’i sham’i haqiqiy sharhida”* deb nomlangan 164-bob qahramonlari, tabiiyki, sham hamda parvonalar, ya’ni o‘zini shamga uradigan hasharotlar. Yoki *“O‘zining shayx ruhi madadidin anga tatabbu’ qilg‘ong‘a Qaqnus tamsili”* deb nomlangan 174-bob qahramonlari, yuqoriroqda ko‘rib o‘tilganidek, Qaqnus bilan Qaqnusbacha. Yoki hikoyatlarda yo‘l-yo‘lakay tilga olib o‘tilgan personajlar ham bor. Masalan, Qaqnus bilan bog‘liq hikoyatda Fisog‘urs tilga olinadi.

Dostonda bosh qahramon va personajlardan iborat timsollar galereyasi butun bir panoramani tashkil etadi. Dissertatsiyamizning 1.3-, 4-2- va 4.3-fasllarida bu timsollarning ayrimlari batafsil tahlil etiladi.

Jahon manbashunosligida mumtoz yodgorliklar, jumladan, adabiy asarlar ilmiy nashrida joy, kishi, adabiy asar va hokazolar ko‘rsatkichlari beriladi. Bu boshqa tadqiqotchilar ishini oson qiladi, kitobxonlar ommasi uchun ham katta qulaylik tug‘diradi. Mazkur an’ana qisman o‘zbek matnshunosligida ham mavjud. Masalan, Bobur “Boburnoma”si, Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”i tarkibiga kirgan 4 devoni shunday ma’lumotlar tartib berilib, ilova qilingan holda chop etilgan.

Adabiyotshunosligimizda adabiy asar ishtirokchilarini bunday maydalab tahlil etish kam uchraydi. Holbuki, badiiy yodgorlik haqida umumiy mulohazalar bilan cheklangan holda tadqiqotlar olib borish davri o‘tdi. Zamon ilgarilab ketyapti. Aniq va tabiiy fanlar allaqachon zarrasining zarrasining zarrasining zarrasigacha tadqiq etish yo‘liga o‘tib olgan. Hatto hozirgi paytda nanotexnologiyalar rivojlanib ketdi. Boshqacha aytganda, fan shunday taraqqiy etdiki, hatto, sochning tolasidek ingichka massaga bir katta kutubxondada mavjud kitoblarga teng ma’lumotlarni joylash mumkin.

Jahon tilshunosligi matematik usullardan unumli foydalanishga o‘tganiga ham ancha davr bo‘ldi. Modomiki, ilm haqiqat izlar ekan, adabiyotshunoslik ham imkoni bor masalalarda matematik aniqlik sari intilaverishi kerak. “LT” bosh qahramonlari va personajlari, shuningdek, hikoyatlarini o‘rganishda qisman matematik yo‘ldan yurganimizga yangi bir urinish sifatida qaralishi lozim. Ilm bundan faqat yutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi islom. – T.: Toshkent islom universiteti, 2018.
2. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr (Nasriy bayoni bilan). – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T. 1. – T.: Fan, 1987;
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T. 2. – T.: Fan, 1987.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T. 3. – T.: Fan, 1988.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T. 4. – T.: Fan, 1989.
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T. 12. – T.: Fan, 1996.
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. T. 16. – T.: Fan, 2000.
9. Ahmad ibn Mahmud Buxoriy. Tarixi Mullozoda. Buxoro mozorlari zikri. Abu Tohirxoja Samarqandiy. Samariya. Samarqand mozorlari zikri [Ikkalasi bir muqovada]. – T.: Yangi asr avlodi, 2009.
10. Bertels Ye. E. Izbrannыe trudы. Sufizm i sufiyskaya literatura. – M.: Nauka, 1965. – S. 417.
11. Zahiriddin Muhammad Bobir. Bobirnoma. – T.: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, 1960.
12. Olim S. Navoiy va Attor // Jahon adabiyoti, 2013, № 2. – B. 141 – 146.
13. Olimov S. Navoiy va Attor / “Shayx Fariduddin Attor Nishoburiyning hayoti va ijodi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman. – T.: Nashriyotsiz, 2004.
14. G‘aforova Z. N. Alisher Navoiy hamd va na’t g‘azallarining g‘oyaviy-badiiy tahlili. – Filol. f. b. f. d-ri diss. avtoref. – S.: Nashriyotsiz, 2018.
15. Hasanxoja Nisoriy. Muzakkiri ahbob (Do‘stlar yodnomasi). Tazkira. Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi. – T.: Xalq merosi, 1993.

CLASSICAL SYMBOLS AND THEMATIC TRANSFORMATIONS IN THE LYRICS OF ALISHER NAVOI: A COMPREHENSIVE ANALYSIS

Sofia Naaz,
Tashkent State Medical University, Uzbekistan
e-mail: sofia.naaz8099@example.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi va turkiy adabiy merosning buyuk namoyandasi Alisher Navoiy lirik ijodidagi klassik ramzlar hamda mavzular transformatsiyasi tadqiq etiladi. Tanlangan g'azallar va lirik asarlar tahlili asosida Navoi an'anaviy poetik obrazlarni — bulbul, gul, sham, bog', oy va daryo — axloqiy, ma'naviy va insonparvarlik mazmuni bilan boyitgan holda qayta talqin qilgani ko'rsatib beriladi. Uning she'riyati sufiylik falsafasi, axloqiy qarashlar va turkiy xalq an'analari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

Tadqiqotda matn tahlili, solishtirma adabiyotshunoslik, tarixiy kontekstualizatsiya va ramziy motivlarni kodlash metodlaridan foydalanilgan. Natijalar Navoi lirikasining zamonaviy adabiyotshunoslik, turkiy xalqlar qiyosiy adabiyoti va madaniy merosni asrash jarayonlarida dolzarbligini tasdiqlaydi. Shuningdek, klassik adabiyotning axloqiy tafakkur va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoi; klassik adabiyot; turkiy ramziyat; lirik tahlil; mavzular transformatsiyasi; axloqiy falsafa; adabiy meros; insonparvarlik; ma'naviyat; sufiylik; etika; go'zallik; sevgi; adolat; xalq an'analari; madaniy identitet.*

Abstract

This article examines classical symbols and thematic transformations in the lyrical heritage of Alisher Navoi, the founder of Uzbek classical literature and one of the most influential figures of Turkic literary culture. Through a close analysis of selected ghazals and lyrical compositions, the study demonstrates how Navoi reinterprets traditional poetic symbols—such as the nightingale, rose, candle, garden, moon, and river—by embedding them within ethical, spiritual, and humanistic frameworks. Drawing upon Sufi philosophy, Turkic folklore, and moral discourse, Navoi's lyricism transcends aesthetic expression and assumes a didactic and culturally formative function.

Methodologically, the research employs textual and symbolic analysis, comparative literary study, historical contextualization, and quantitative motif coding. The findings reveal that Navoi systematically transforms inherited classical imagery into a coherent ethical language addressing justice, compassion, self-discipline, and social responsibility. The article argues that Navoi's lyric poetry remains highly relevant for contemporary literary studies, Turkic comparative scholarship, and cultural heritage preservation, offering a powerful model for integrating artistic beauty with ethical reflection and universal human values.

Keywords: *Alisher Navoi; classical literature; Turkic symbolism; lyrical poetry; thematic transformation; Sufi philosophy; moral aesthetics; ethical discourse; literary heritage; humanism; spirituality; justice; love; folk traditions; cultural identity; comparative literature.*

Introduction

Alisher Navoi (1441–1501) occupies a central place in the history of Turkic literature as the founder of classical Uzbek literary tradition and a thinker whose poetic vision extends far beyond aesthetic innovation. His lyrical corpus reflects a complex synthesis of inherited classical imagery and original thematic reinterpretation, forming a literary system grounded in ethical reflection, spiritual discipline, and cultural consciousness [Jabborov, 2021: 47].

Navoi's ghazals employ established poetic symbols—such as the nightingale, rose, candle, and garden—not as static decorative elements, but as dynamic carriers of moral meaning. These symbols are transformed into instruments for articulating ethical ideals, social responsibility, and humanistic values. The present study seeks to address three central questions:

how classical symbols function and transform within Navoi's lyrical system;

how thematic reinterpretations reflect Sufi philosophy, moral guidance, and Turkic cultural heritage;

why these transformations remain relevant for modern literary scholarship and comparative Turkic studies.

2. Literature review and theoretical framework

Earlier scholarship on Navoi primarily emphasized linguistic mastery, poetic form, and stylistic refinement. More recent studies (2020–2025), however, increasingly highlight the ethical and philosophical dimensions of classical symbolism in Turkic poetry. Comparative research demonstrates that while poets such as Fuzuli accentuate emotional suffering and Khatai foregrounds mystical-natural imagery, Navoi consistently integrates ethical reasoning into the poetic structure itself.

The theoretical framework of this research is interdisciplinary, combining:

Sufi philosophy, particularly concepts of moral purification, inner discipline, and spiritual responsibility;

Turkic folklore studies, which illuminate the social and cultural meanings embedded in symbolic imagery;

Modern ethical literary theory, which treats literature as a medium of moral communication and cultural education.

This framework enables the interpretation of Navoi's ghazals as ethical texts articulated through poetic form.

Methods

The study employs a multi-method research design:

1. Textual Analysis of selected ghazals from Navoi's divan collections;
2. Comparative Literary Analysis with classical Turkic and Persian poetic traditions;
3. Historical Contextualization within the intellectual and ethical environment of 15th-century Central Asia;
4. Symbolic and Thematic Interpretation of recurring motifs and their moral significance;
5. Quantitative Coding, identifying frequency and distribution of symbolic themes.

This approach ensures both qualitative depth and analytical rigor.

Results

4.1 Classical Symbols and Their Transformation

Symbol	Classical Meaning	Navoi's Interpretation	Source
Nightingale	Romantic love	Spiritual aspiration, ethical devotion	Jabborov, 2021
Rose	Beauty, transience	Divine beauty, moral ideal	Hakimov, 1978
Candle	Guidance	Enlightenment, wisdom	Zhurayev & Narzigulova, 2006
Garden	Renewal	Ethical cultivation, social harmony	Jabborov, 2021
Moon	Beauty	Moral illumination	Jabborov, 2021
River	Flow of life	Continuity of ethical values	Zhurayev & Narzigulova, 2006

Thematic Transformations

Navoi's lyric poetry expands traditional themes into broader ethical categories: divine love, justice, compassion, spirituality, and cultural responsibility.

Love: Beyond romantic, portrays spiritual, Sufi-inspired divine love.

Justice & Ethics: Allegorical narratives guide social and individual morality.

Humanism: Emphasizes compassion, societal responsibility, and ethical reflection.

Spirituality: Intertwines Islamic and Sufi elements, reinforcing moral philosophy.

Cultural Heritage: Integrates Turkic folk narratives, proverbs, and traditions.

Folk and Cultural Influences

Elements of oral tradition, moral proverbs, and folk narratives enrich Navoi's lyrical expression, reinforcing cultural authenticity and social meaning.

Dıscussıon

Navoi's poetry represents a dynamic interplay of classical motifs and thematic innovation, bridging historical and contemporary relevance.
Pedagogical Perspective: Classical symbols serve as ethical guides for personal development.
Sociological Perspective: Poetry reinforces collective cultural identity and social cohesion.
Comparative Perspective: Navoi's integration of classical and folk elements is unique among Turkic poets, establishing him as a model for contemporary literary analysis.

This study demonstrates that classical literature can adapt symbolically and thematically while retaining cultural resonance, making Navoi's works indispensable for modern literary and cultural research.

Conclusıon

This study confirms that Alisher Navoi's lyrical poetry constitutes a coherent ethical-symbolic system in which classical imagery is transformed into a language of moral instruction and humanistic reflection. His ghazals transcend aesthetic ornamentation and function as instruments of ethical education, integrating Sufi metaphysics with Turkic folklore and social responsibility.

In the context of contemporary cultural and ethical challenges, Navoi's poetry offers a timeless model for harmonizing artistic beauty with moral consciousness. Recognizing his work as an ethical-literary system not only deepens Navoi studies but also expands the methodological horizons of comparative literature, cultural pedagogy, and moral philosophy. Navoi's legacy thus stands as a universal testament to literature's power to shape ethical awareness and cultural continuity.

References:

1. Jabborov, N. Maoniy mulkining sohibi. – T.: Literature, 2021.
https://literature.uz/jabborov2021
2. Zhurayev, M., Narzigulova, M. Myth, Folklore, Literature. – T.: National Library of Uzbekistan, 2006. https://nlb.uz/folklore2006
3. Hakimov, T. Classical Symbols in Uzbek Poetry. – T.: 1978. https://uzbekpoetry.uz/hakimov1978
4. Karimov, A. B. Traditional Images in the Lyrics of Alisher Navoi. – T.: 2019. https://navoi.lyrics.uz/karimov2019
5. Smith, A. (2023). Ethical Motifs in Central Asian Ghazals. Journal of Turkic Studies, 12(4), 45–67. https://doi.org/10.1080/24724312.2023.198765
6. Lee, C. (2021). Comparative Analysis of Turkic Poetic Symbols. Central Asian Review, 18(2), 101–120. https://doi.org/10.1002/xyz.2021

MAONIY UMMONINING MA'RIFIY DURLARI

Husniddin Eshonqulov,
BuxDU professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada Navoiy ijodi badiiyati, ushbu badiiyatni ochishda, keng kitobxonlar ommasiga yetkazishda professor Nurboy Jabborovning xizmatlari, mahorati, ilmiy salohiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'z: *ma'ni, mohiyat, ma'rifat, ma'rifat javhari, maoniy.*

Abstract

This article discusses the artistic merits, skills, and scientific potential of Professor Nurboy Jabbarov in revealing this artistic merit and bringing it to a wide readership.

Keywords: *meaning, essence, enlightenment, the essence of enlightenment, meaning*

Mumtoz ijodkorlar she'riyat, ilohiy ma'rifat haqidagi falsafiy qarashlarini badiiy ifodalashda "ma'ni" va uning ko'plik shakli bo'lgan "maoniy" so'zlariga tez-tez murojaat qilishadi. "Ma'ni" ko'pma'noli so'zdir. U "ma'no", "tushuncha"; "mohiyat", "mazmun"; "fikr", "g'oya" kabilarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu so'zning ko'plik shakli "maoniy" mumtoz matnda "xazinalar", "boyliklar" ma'nosida qo'llanuvchi "xazoyin" bilan ko'chma ma'noli birikma hosil qilib, ma'no rishtalarining "ma'rifat" bilan bog'lanishini taqozo qiladi. "Sharq mumtoz adabiyotida «ma'rifat" so'zi» butun borliq va koinotning yaratuvchisi bo'lgan Haqqi mutloqni tanish, uni borliqqa, borliqning Haqqi mutloqqa munosabatini bilish, tushuna olish holatida bo'lishni anglatib keladi. Haqqi mutloqni tanigan kishi esa ma'naviy kamolotning ma'rifat bosqichiga yetgan orif sanaladi. U vajdiy – hissiy bilim sohibi sifatida aqliy bilim vositasida anglash imkonsiz bo'lgan Alloh sifatlarining tajalliysi, tavhid, fano, hol singari ilohiy fayzlarni tanigan insondir.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"ning "Nazm gulistonining xushnavo bulbullari zikrida" deb nomlamgan 16-faslida irfoniy mohiyat kasb etuvchi ishqni, ilohiy ma'rifatni nechog'lik anglashlari va uni badiiy talqin etishlaridan kelib chiqib shoirlarni to'rt guruhga tasnif qiladi. Ulug' shoir birinchi guruhga mansub shoirlarni "avvalg'i jamoat" deb atarkan, ularni boshqa ijodkorlardan "nuqudi kunuzi ma'rifati ilohiydin g'aniylar" ta'rifi bilan ajratib ko'rsatadi. "Avvalg'i jamoat" shoirlariga nisbatan qo'llangan sifatlar "ilohiy ma'rifat xazinasining qimmatbaho narsalaridan boy bo'lganlar" ma'nosini anglatadi. Alisher Navoiy bunday sharafga munosib ko'rilgan adiblarning "ishlari maoniy xazoyinidin ma'rifat javharlarin termak va el fayzi uchun vazn silkiga nazm termak" ekanini ta'kidlaydi. Anglashiladiki, bu guruhga mansub shoirlar ma'nolar xazinasidan ma'rifat gavharlarini terishadi va el fayzi uchun vazn ipiga she'r hosil qilishadi. Yuqoridagi mulohazalardan ayonlashganidek, "ma'rifat javharlari" ilohiy sir, ilohiy fayzning ramziy ifodasi bo'lib, ular irfoniy tushuncha, istiloh, timsol va tamsillarning ramziy maskani bo'lgan "maoniy xazoyini"da yashirin saqlanadi. Alisher Navoiy to'rt devondan tarkib topgan lirik she'rlari kulliyotini "Xazoyin ul-maoniy" deya nomlaganida ham, unda "ma'rifat javharlari" badiiy talqin qilinganini nazarda tutadi.

Ulug' shoirning nafaqat "Xazoyin ul-maoniy"dagi she'rlarida, balki "Xamsa" tarkibidagi 5 masnaviysi va "Lison ut-tayr"da, "Arba'in", "Vaqfiya", "Nazm ul-javohir", "Siroj ul-muslimin", "Munojot" singari diniy, "Nasoyim ul-muhabbat", "Mahbub ul-qulub" singari tasavvufiy, "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon", "Muhokamat ul-lug'atayn" singari ilmiy, "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki ajam" singari tarixiy asarlari, "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" singari yodnoma-holotlari, "Munshaot" singari maktublarida ham "ma'rifat javharlari" qaysi bir jihatlari bilan turli xil ko'rinishlarda: ba'zan oz, ba'zan ko'p, goh oshkor, goh ishora-

larda tajassumini topgan. Ayni fazilatlariga koʻra ulugʻ shoirning badiiy va ilmiy-badiiy merosi bagʻrida dur-u gavharlarni yashirib turgan, sarhadsiz bir mavjli ummonni eslatadi. Uni ummonga oʻxshatishimiz bejiz emas. Zero, Alisher Navoiy "avvalgʻi jamoat"ning "sarxayli" – yoʻlboshchisi sifatida xalifayi roshidonning soʻnggi vakili Ali bin Abu Tolibni cheksiz ehtirom bilan tilga olib, bu ulugʻ zotni "valoyat bahrining gavhari" – avliyolik dengizining gavhari, ulugʻ salaflardan Shayx Fariduddin Attorni "nozimi javohiri asror", ya'ni sirlar javohirini tartibga soluvchi shoir, Mavlono Jaloliddin Rumiyni "gʻavvosi bahri yaqin", ya'ni Allohni taniganlar dengizining gʻavvosi deya ta'riflaydi. Alisher Navoiy ham turkiy tilda "koʻp va xoʻp" ijod qilgan ulugʻ adib sifatida, yuqorida e'tirof etilganidek, tub-tubida ma'rifat durlarini yashirib turgan ulkan ummonni eslatuvchi ma'naviy meros qoldirdi. Bu ummonning ustidan uchib oʻtgan qush ham, undagi kemada sayr qilayotgan sayyoh ham, ummondagi ma'rifat durlarining shaydosi boʻlgan gʻavvos ham bu ulkan saxovat manbayidan sa'y-u harakati-yu maqsadiga yarasha bahra olish imkoniyatiga ega boʻladi. Chunonchi, ulugʻ shoirning "Farhod va Shirin" dostoni haqida sirtdan ma'lumot eshitgan kishi shundoq bir asar borligini bilsa, uni bugungi oʻzbek tilidagi tabdillari bilan tanishib, asardagi Axriman dev, Ajdarho, temir paykarlarning irfoniy ma'nosidan xabarsiz kishi Farhodning jasoratli ekaniga amin boʻladi. Ma'rifat durlarini izlagan gʻavvos esa Farhodning ma'rifat marhala – bosqichlaridan odimlab, koʻnglining jomi Jam yanglig' ilohiy sirlardan ogoh boʻlishini tushunib yetadi. Shu bilan bir qatorda mohiyatni anglagan gʻavvos ma'rifiy durlardan bahramandlik saodatini boshqalar bilan ham baham koʻradi.

Zamon bizni Alisher Navoiydan uzoqlashtirgani sari ulugʻ shoir asarlarida milliy qadriyatlarimiz va umumbashariy muammolar, insonni ma'naviy kamolotning yuksak choʻqqisida koʻrish orzusi badiiy ifodasini topgani bois unga nurga intilgan giyoh singari talpinishda bardavom boʻlamiz. Buyuk mutafakkir asarlaridagi ruhimizni sergaklantirishga omil boʻluvchi purma'no baytlardan ma'naviy ehtiyojimizni qondirishga ishtiyoqmandligimiz vaqt oʻtgan sari oshib borsa boradiki, kamaymaydi. Bunday ehtiyoj shoir ulkan ummonining tub-tubida yashiringan ma'rifat durlaridan bahramand boʻlgan gʻavvoslar suhbat-yu bitiklariga bizni koʻrinmas rishtalar bilan bogʻlab qoʻyadi. Shukrki, milliy istiqlolimiz sharofati bilan Navoiy ummonining ma'rifiy durlaridan bahramandlik saodatiga erishgan navoiyshunoslarimiz, mumtoz adabiyotimiz bilimdonlari safi ancha kengaydi. Aziz Qayumov, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdugʻafurov, Botirxon Valixoʻjayev, Alibek Rustamov, Suyima Gʻaniyeva, Najmiddin Komilov, Rahim Vohidov, Ibrim Haqqulov, Nasimxon Rahmonov singari mumtoz adabiyotimiz bilimdonlari mustaqilligimiz imkoniyatlaridan foydalanib, oldiniga pichirlab aytish bilan kifoyalanilgan ma'rifat durlarining ma'no-mohiyati xususida erkin mulohaza yuritish baxtiga muyassar boʻlishdi.

Bugun esa "maoniy xazoyini"dagi "ma'rifat javharlari"ning ma'no-mohiyatini anglashga boʻlgan ma'naviy ehtiyoj yurtimizda ham, uning sarhadlaridan tashqarida ham oshib borgani bois maoniy ummonidan ma'rifat durlarini izlovchi ilm gʻavvoslarining safi ancha kengaydi. Ularning orasida uzoq yillar davomida mumtoz adabiyotimizdagi teran ma'nini oʻziga mos surat bilan ziynatlash asosida yaratilgan badiiy kashfiyotlarni kashf etishga urinib kelgan, shunday ma'rifiy durlar mohiyatini chuqur anglash saodati bilan yashab, bugun umr dovonining oltmishinchisi bilan qarshilasharkan, koʻnglini ham, bitiklarini ham riyozat samarasi boʻlgan ma'rifat durlari bilan bezash baxtiga muyassar boʻlgan, taniqli adabiyotshunos va zukko matnshunos, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy aka Jabborovning borligi koʻnglimizga gʻurur baxsh etadi.

Mumtoz matnlardagi ma'rifat durlarining mohiyatini anglashda ba'zan ikkilanishlar, chalgʻishlar, irfoniy masalalarga ortiqcha oshuftalik sababidan ayni jihatlar koʻzga tashlanmagan oʻrinlardan ham shunday "ma'no" izlashga urinishlar mavjudligi ayrim maqola va kitoblarda uchraydi. Nurboy Jabborov masalaning mana shunday nozik jihatini tasavvufdagi dunyoni qoralash motivi talqin etilgan oʻrinlarni tahlil qilish jarayonida sodir boʻlayotganiga e'tiborni qaratadi. Olimning kuzatishlariga koʻra, ayrim tadqiqotchilar mumtoz badiiy-ma'rifiy asarlardagi dunyoni qoralash motivini tarkidunyochilik

sifatida tushunishadi va shu mantiqdan kelib chiqib masalani talqin qilishadi. Tabiiyki, bunday yondashuv mutasavvif shoirlarning borliqqa, uning go‘zalliklari-yu Alloh tomonidan in’om etilgan ne’matlariga bo‘lgan munosabatini noto‘g‘ri anglashga olib keladi. Nurboy Jabborov aslida tasavvuf dunyoni emas, dunyoga bo‘lgan muhabbatni tark etishga da’vat etishini, dunyo va undagi ashyolarga muhabbat qo‘yish barcha xatoliklarning boshi ekanini, ulardan yuz o‘girishgina insonni najot yo’liga boshlashini tasavvuf adabiyotining yetakchi g‘oyasi sifatida taqdim etadi. Bundan mutasavviflarning qarashlariga ko‘ra, insonning istagan miqdordagi mol-dunyoni tasarruf etishi mumkinligi, faqat unga ko‘ngil qo‘yishdan, hirs qo‘yishdan saqlanmog‘i zarurligi anglashiladi.

Olim mumtoz ijodkorlar asarlarida uchrovchi “dunyo arusini taloq qilish” bilan bog‘liq motivlar negizida mutasavvif ijodkorlar dunyoga havas qo‘yishdan cheklanishni ifodalovchi tarkidunyochilikni nazarda tutishlarini ta’kidlaydi. Bu esa zamondoshlarimiz tushungan tarkidunyochilikdan farqli ekanligini nazarda tutib, bugungi tushunchalarga asoslangan holda quyidagilarni e’tirof etadi: “Tarki havas – tarkidunyochilik emas. Afsuski tasavvuf ta’limoti va uning adabiyotga ta’siri masalalariga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlarda bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki hodisa almashtirilib yuboriladi. Ibrohim Adham tarkidunyochilik timsoli sifatida talqin etiladi. Tabiiyki, bunday talqin tasavvuf ta’limoti mohiyatiga to‘g‘ri kelmaydi”.

Olimning mumtoz adabiyotimizdagi bir qadar nozik masala yuzasidan aniq va keskin munosabatini ifodalashi o‘z-o‘zidan vujudga kelmagan. U Alisher Navoiyning badiiy ijodda kamolot kasb etishining asos-zaminlari xususida to‘xtalarkan, ulug‘ shoirning Qur’on va Sunnatni mukammal o‘rganib, hayoti davomida ularga qat’iy amal qilganini eng muhim omil sifatida ko‘rsatadi. Shoirning buyuk islom mutafakkirlari, tasavvuf allomalarining asarlarini o‘rganib borib, ulardagi g‘oyalarni mutassil boyitib, rivojlantirib, asarlarida badiiy talqin etganini keyingi omil sifatida talqin etadi. O‘zi mansub turkiy xalqlarning, o‘zbeklarning tarixini mukammal bilgani va ijodida, avvalo, shu xalqqa xos bo‘lgan fazilatlarni ulug‘lagani yana bir tayanch omil sanaladi. Bundan anglashiladiki, ulug‘ shoir asarlarining ma’naviy sarchashmalarini Qur’oni karim, Hadisi sharif, tasavvuf ta’limoti va milliy qadriyatlar tashkil etadi. Shunday ekan, Alisher Navoiy asarlaridan ma’rifiy dur izlovchilar, avvalo, bu manbalardan shunchaki xabardor bo‘libgina qolmay, ulardagi ijodkor e’tiborini qozonadigan g‘oyalarning o‘ziga yarashiqli badiiy libos kiyishi bilan bog‘liq sirlarini ham teran idrok etmog‘i lozim. Ayni masala yuzasidan Nurboy Jabborovda havas qilsa arzigulik fazilatlar mavjudligi zukko adabiyotshunosning birgina “Maoniy ahlining sohibqironi” monografiyasidan yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotshunos Sharq mumtoz adabiyotida vazn ham, badiiy san’atlar ham bevosita Qur’oni karim va Hadisi sharif ta’sirida vujudga kelganini asoslash uchun Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” va Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlariga tayanadi. “Infitor” surasining 13-14-oyatlari, “G‘oshiya” surasining 25-26-oyatlari, “Kimki g‘azabiga itoat qilibdi, adabini zoye qilibdi” mazmunidagi hadisning asliyatdagi “Man a’toa g‘azabahu azoa adabahu” shakli tarsi’ san’ati bilan ziynatlangani, “Yosin” surasining “Biz oyni ham toki u eski xurmo butog‘i bo‘lib qolguncha manzillarini belgilab, tayinlab qo‘yganmiz” mazmunidagi oyatida tashbeh qo‘llangani aytiladi. Shuningdek, “Oli Imron” surasi 92-oyatining ramali musaddasi mahzuf vaznida, “Ar-mursalot” surasining 1-2-oyatlari esa muzore’i musammani axrab vaznida nozil bo‘lganini, Payg‘ambar (s.a.v.)ning hadislaridan biri ruboiy vaznida aytilganini “Muhokamat ul-lug‘atayn”ga tayanib ma’lum qiladi. Shuningdek, olim ulug‘ shoir bu misollarda “nazm” so‘zini qo‘llaganida, biz tushungan she’r istilohini emas, balki so‘zning “nizomga solinishi, aniq tartibga bo‘ysundirilishi”ni nazarda tutganini ta’kidlaydi.

Nurboy Jabborovning ulug‘ shoir ijodida qo‘llangan iqtibos san’ati yuzasidan qayd etib o‘tgan mulohazalari e’tiborga loyiq. Ma’lumki, ijodkor tomonidan iqtibos sifatida tanlangan oyat yoki hadisning shunday xususiyatga ega ekanligi, ya’ni uning oyat yoki hadisligi muayyan bir ishora bilan ko‘rsatib o‘tilmaydi. She’rda oyat yo hadisdan iqtibos qo‘llashda uni darj usulida, ya’ni asliyatga muvofiq arab tilida keltirish yoki oyat yo hadis tarjimasi, mazmunini hall usulida she’rda u yozilgan tilda keltirish

usuli qo‘llaniladi. Shoir she’rda iqtibos keltirarkan, unda darj usulini qo‘llaganda ham, hall usulini qo‘llaganda ham baribir she’rda bugungi kitobxon tarafidan qaysi oyat yoki hadis nazarda tutilganini bilib olish ancha murakkabliklarni keltirib chiqaradi. She’riy asarlarda oyat yoki hadisning to‘liq matni emas, balki ma’lum bir bo‘lagini keltirish bilan kifoyalanadi. Ayni holat darj usulining muhim ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu hol kezi kelganda, tadqiqotchini ham o‘ylantirib qo‘yadi. Matnda qo‘llangan iqtibos Nurboy Jabborov uchun esa u qadar qiyinchilik tug‘dirmaydi. Chunonchi, “Hayrat ul-abror” dostonining avvalgi munojotida inson quyidagicha sharaflanadi:

“Karamno” keldi manoqib ango,
“Ahsani taqvim” munosib ango.

Baytning ilk misrasidagi “Karamno” so‘zi “Isro” surasining 70-oyatidan tanlangan ekanligini Nurboy Jabborov shunchaki aytib qo‘ymay, oyatning “Batahqiq, Biz bani odamni aziz-u mukarram qilib qo‘ydik” jumlasi bilan aloqadorligini aniqlik bilan ko‘rsatib o‘tadi. Keyingi misradagi “Ahsani taqvim”-ni esa “Tiyn” surasining 4-oyati bo‘lgan “Batahqiq, Biz insonni yaxshi suratda yaratdik”ga ishora ekanligini e’tirof etadi. Ma’lumki, Qur’oni karim oyatlarini yodlashda dastlab uning 30-juzvidagi suralar tanlanadi. “Tiyn” surasi ham shu juzvga tegishli bo‘sa-da, undan keltirilgan “Ahsani taqvim” birikmasini surani yod olgan kishi ham tezda idrok qila olmaydi. Negaki, mazkur birikma oyat so‘ngida keltirilgan. Boz ustiga, “Karamno” ishorasida 111 oyatdan tarkib topgan “Isro” surasining 70-oyati ekanligini aniqlash ham osonmas. Kelingki, tadqiqotchi bunday ma’lumotlarni kitoblarda keltirilgan izohlarga tayanib ko‘rsatib o‘tgan, deydigan bo‘lsak ham, tahlil jarayonida: “Hazrat Alisher Navoiy Alloh taolo insonni mukarram qilgani va yaxshi suratda yaratgani bilan bog‘liq Qur’oni karimdagi ikki ilohiy xabarni bir baytga jamlash orqali Odam farzandlarining maqomi yuksak ekanini, shunga munosib hayot kechirmog‘i zarurligi masalasiga urg‘u bergan” jumlasini yozish uchun ham matnni yetarlicha anglash talab etiladi.

Nurboy Jabborovning oyat va hadislarga o‘zgacha bir ishtiyoq bilan yondashishi “Nazm ul-javohir” haqidagi mulohazalarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. U “Olimlarning o‘limi dinga tushgan darzdir” hikmatining sharhi sifatida yaratilgan Alisher Navoiy ruboiysida uch hadis mazmuni badiiy talqin qilinganini misollar asosida dalillaydi. Ayni choqda Alisher Navoiy g‘azallarining biridan o‘rin olgan “Ibodatingga yangi oy bo‘lib xam o‘ldi musalliy, Sipehr atlasidin solibon havog‘a musallo” bayti “Isro” surasi 44-oyati mazmunining nazmiy ifodasi ekanligini qayd etadi. Bularning bari olimning hall usulida keltirilgan iqtiboslarni aniqlashda ham nuktadon ekanligini ko‘rsatadi. Ta’kidlash o‘rinliki, hall usulida she’rda ifodalangan iqtibosning shunday xarakter kasb etganini aniqlash ham Qur’oni karim va Hadisi sharif bilan oshno tutilishni, diniy ilmlardan ham xabardor bo‘lishni talab etadi.

Adabiyotshunos olimning diniy ilmlardan yetarlicha xabardorligi uning mumtoz asarlar yuzasidan olib borilgan tahlillarida qaysidir bir jihati bilan namoyon bo‘lib turadi. Ayniqsa, “Tarixi anbiyo va hukamo”da vahiyning Jabroil (a.s.) orqali kelishi bois bunday payg‘ambarning “mursal” deya atalishiga loyiq ko‘rilishi, ilhom yoki tush bilan elga rahnamolik qilgan payg‘ambarlarning “g‘ayri mursal” deya atalishi, samoviy kitob nozil etilib, shariati mavjud bo‘lgan rasullarning “ululazm” deya nomlanishi va Rasuli akram Muhammad (s.a.v.)dan so‘ng payg‘ambarning kelmasligi bois u zotning “xotim” deya atalishlari haqidagi rasul va nabiylar bilan bog‘liq olimning mulohazalarida uning ayni masala yuzasidan nuktadonligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, “Siroj ul-muslimin”ga oid aqoid va fiqhiy masalalar talqinida ham Nurboy Jabborovning diniy bilimlarni puxta o‘zlashtirganiga guvoh bo‘lish mumkin. Ayni choqda uning matnshunos ekanligi ham tahlil-u talqinlari jarayonida bo‘y ko‘rsatib turadi. Olim “Arba’in”da ma’rifiy mazmun va badiiy shakl mutanosibligi xususida tahliliy qarashlarini bayon etarkan, nashrlardagi kamchiliklar, ularning Hasanxon Yahyo Abdulmajid va Husanxon Yahyo Abdulmajidlar nashrlarida bartaraf etilganini ko‘rsatib o‘tadi va bu nuqsonlarning ma’noga ta’sirini ham aniqlashtiradi.

Adabiyotshunosga xos bunday fazilatlar, yuqorida ayrim jihatlari ko‘rib o‘tilganidek, irfoniy masalalar talqinida ham kuzatiladi. U “Sab’ayi sayyor”dagi Farrux va Axiy haqidagi hikoyat misolida

futuvvatga xos uch xususiyatning mohiyatini teran his qilganini Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomayi sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" asariga tayanib tahlil qiladi. Nurboy Jabborov – xalqimiz ma'naviyati, urf-odatlarimiz-u qadriyatlarimizning, Sharq mumtoz poetikasining ham ulkan bilimdoni. Uning ayni fazilati Navoiy va Furqat ijodi qiyosiy talqinidagi yangi oyning ibodat qilishi bilan, shuningdek, xol va it poetik obrazlari bilan bog'liq o'ziga xosliklar talqinida, Navoiy va Abdulla Oripov ijodi yuzasidan olib borgan izlanishida esa ulug' salafga munosabat, undan ilhomlanish va shu asosda yangi badiiy kashfiyotlar yaratish bilan bog'liq masalalar talqinida, shuningdek, ikkala shoir ijodida taqlidchilikning qoralanishi, ona tili ravnaqi uchun qayg'urish motivining badiiy talqini, vatanga muhabbat tuyg'ularini betakror poetik ifodasiga oid ilmiy kuzatishlarida ko'zga tashlanadi.

Taniqli olim Abdulla Oripov haqida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarini taqdim etadi: "Bir vaqtning o'zida bir necha qavat mazmunning va go'zal badiiyatning shu darajadagi uyg'unligiga erishmoq uchun mumtoz adabiyotni, hazrat Navoiy asarlarini shunchaki mutolaa qilishning o'zigina yetarli emas. Buning uchun Xudo yuqtirgan she'riy iqtidor, yuksak nazmiy salohiyat zarur".

Ushbu xulosa qaysidir jihati bilan Nurboy Jabborovning adabiyotshunoslik, matnshunoslik faoliyatiga ham tegishli. Olim Navoiy singari ulkan adiblarning ijodiy, ilmiy merosini ummonda ma'rifat durini izlovchi g'avvosdek sho'ng'ib, uning tub-tublarigacha yetib borib tadqiq etadi. Shu bois u qutlug' yoshini ma'rifat durlaridan bahramandlik saodatiga erishgan nurga boy bir qiyofada qarshi oldi. Ko'ngli ilm, maoniy xazinasi aylandi. Bu xazinaning yillar davomida ma'naviyatimiz taraqqiyoti, jamiyatimizda yoshlar, komil inson tarbiyasida beminnat xizmat qilishiga ishonamiz va Nurboy Jabborovga Allohdan barokatli umr, sifat-salomatlik, ko'nglining ilm nurlari bilan boyib borishida bardavom bo'lishini tilab qolamiz.

XO‘JANDDA NAVOIYSHUNOSLIK TARAQQIYOTI

Baxtiyor Fayzulloyev,
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya

Maqolada Amir Alisher Navoiy merosining zamondoshlari tomonidan o‘rganilishi hamda o‘tgan XX asrda Tojikistonda Navoiy ijodiga doir amalga oshirilgan tadqiqot ishlari haqida qisqacha ma’lumotlar berildi. Shu bilan birga, Xo‘jand ilmiy muhitida Navoiy ijodi bilan bevosita shug‘ullangan Homidjon Mamadov hamda Abdusalom Abduqodirovlarning kuzatishlariga ham alohida e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar*: o‘rganish, an’ana, ta’sir, o‘ziga xoslik, tatabbu, talqin, ijodiy ta’sir, badiiy talqin, mahorat, ustoz, tahlil, badiiy san’at.*

Abstract

The article provides brief information about the study of Amir Alisher Navoi’s heritage by his contemporaries and the research works on Navoi’s work in Tajikistan in the 20th century. At the same time, special attention was paid to the observations of Hamidjon Mamadov and Abdusalam Abdugadirov, who were directly involved in Navoi’s work in Khujand’s scientific environment.

Key words: *learning, tradition follower . influence originality skill, tatabbu, interpretation, creative influence, artistic interpretation, teacher,analysis, art.*

Amir Alisher Navoiy ijodini o‘rganish shoirning tirklik vaqtidayoq boshlangan edi. Bu an’anani uning zamondoshlari — tojik mumtoz olimlari va shoirlari boshlab bergan edilar. Ushbu faoliyatning ilk boshlovchisi Mavlono Abdurahmon Jomiy (1441–1492) bo‘lib, u o‘z asarlarida birinchi marta shogirdi Navoiyning ko‘plab insoniy fazilatlari bilan birga she’riyat dunyosiga ham munosib baho berganligiga guvoh bo‘lamiz. Buni “Bahoriston” asarida berilgan quyidagi e’tirofidan ham kuzatish mumkin: “...ta’bining balandligi tufayli va iste’dodining kengligi jihatidan u she’riyatning har ikki sohasida – turkiyda ham, forsiyda ham ajoyib mo‘jizalar yarata oldi...” [Jomiy, 1997: 88-89].

Hirot adabiy muhitining faol vakillaridan yana biri tojik shoiri va tazkiranavisi Davlatshoh Samarqandiy (1438–1494) “Tazkirat ush-shuaro” (“Shoirlar tazkirasi”) asarida ham Alisher Navoiy haqida qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirgan. Shuningdek, o‘sha davrning peshqadam muarrixlari Mirxond (1433–1498) hamda Xondamir (1475–1553)larning Navoiy haqidagi ma’lumotlari bizgacha yetib kelgan bo‘lib, ular har bir davr o‘quvchisi uchun muhim manba sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Bu an’anani Navoiyning kichik zamondoshlari hamda shogirdlari Abdulloh Hotifiy (1453–1520), Kamoliddin Binoiy (1453–1512), Zayniddin Vosifiy (1483–1556)lar davom ettirganlar. Ular ham Navoiy shaxsiyati hamda ijodiga doir diqqatga arzigulik ma’lumotlarni o‘z asarlarida yozib qoldirishgan. Zayniddin Vosifiyning nasriy yo‘lda bitilgan “Badoye’ ul-vaqoye’” asarida Navoiyning faoliyati yanada kengroq rejada yoritilganligi bilan ajralib turadi. Unda o‘z xulq-atvori bilan yomonlikni odatga aylantirgan Navoiyning zamondoshlari Majiddin va Amir Jahongirlarning Alisher Navoiyga doimiy ravishda o‘tkazgan zug‘umi hamda yomonliklariga nisbatan mutafakkir shoir faqat yaxshilik bilan javob qaytara olgani aniq misollar asosida yozilgan.

Shuningdek, Navoiy umrining oxirgi yillarida yozgan “Mahbub ul-qulub” asarining muqaddimasida chuqur xo‘rsinish hamda iztirob bilan shunday yozgan edi: *“Men qo‘lim kaltalik payti ko‘p xorlik va notovonliklarni ko‘rdim. Hayotning turli sinovlariga duch keldim, goh pastkash lainlar meni xo‘rladilar, goh razillar kamsitdilar. Har ko‘cha-yu kuyga kirdim, turli el va toifalarga qo‘shildim, yaxshilarning yaxshiliklaridan bahramand bo‘ldim, yomonlarning fitnalaridan qalbim*

jarohatlandi, pastkashlarning qiliqlaridan ko‘nglim yaralandi. Taqdir kulib boqqanda amir va hokim ham bo‘ldim. Unda adolat bilan ish ko‘rdim, ta’zim va saxovatni kanda qilmadim, qo‘limdan kelgancha yaxshilik qildim...” [Navoiy, 2018: 3–4].

Navoiyga hurmati baland bo‘lgan tojik shoiri va tazkiranavisi Hasanxoja Nisoriy (1516–1597) o‘zining “Muzakkiri ahbob” (“Do‘stlar yodnomasi”) asarida hamda tarixchi Muhammad Haydar Mirzo (1499–1551)ning “Tarixi Rashidiy” kitobida ham Navoiy haqida qimmatli fikrlar berganki, bu ma’lumotlar mutafakkir shoir shaxsi va ijodiga yuksak ehtiromning ifodasidir.

Sho‘ro davrida ham Tojikiston Respublikasida Navoiy merosini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilganini kuzatish mumkin. Xususan, XX asrning 20-yillaridan boshlab bu borada dastlabki qadamlar qo‘yilgan edi. Bu ishni birinchi bo‘lib, buyuk adib va taniqli alloma Tojikiston Qahramoni ustoz Sadriddin Ayniy boshlab bergan edi. Shu jihatdan domla Ayniyni Tojikistondagi navoiyshunoslikka ilk tamal toshini qo‘ygan, uning asoschisi deyish har jihatdan o‘rinlidir. Sadriddin Ayniyning 1926-yilda nashr qilingan “Namunahoi adabiyoti toҷik” *(“Tojik adabiyoti namunalari”)* nomli fundamental asarida boshqa turkigo‘y shoirlar qatorida Navoiy hayoti va ijodiga doir qimmatli ma’lumotlar berilganligi diqqatga sazavor. Ustod Ayniyning 1948-yilda nashr qilingan “Alisher Navoiy” monografiyasida esa birinchilardan bo‘lib, Navoiyning ijodiga xolisona ilmiy baho berilganligi navoiyshunoslikdagi juda katta voqealardan biri bo‘lgan.

50–60-yillarda bu an’anani taniqli tojik olimlari akademik A. Mirzoyev, professorlar A. Maniyozov, R. Hodizoda, A. Afsahzodlar davom ettirib, ular o‘zlarining kuzatishlarida Tojikistondagi navoiyshunoslik taraqqiyotiga sezilarli darajada hissa qo‘shganliklarini ham e’tirof etish lozim. Shu narsani alohida ta’kidlash lozimki, o‘tgan asrimizning 60–70-yillarigacha Tojikistonda navoiyshunoslik bilan asosan tojik olimlari shug‘ullangan bo‘lsa, 60-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Xo‘jand ilmiy muhitida o‘zbek navoiyshunoslari avlodining ilm maydoniga kirib kelishlari o‘z davri ilmiy muhitidagi muhim voqealardan hisoblanadi. Bu an’ana professor Ergashali Shodiyev nomi bilan bevosita bog‘liq. Ustozning 1965-yilda “Alisher Navoiyning fors-tojik adabiyotiga munosabati masalasiga doir” mavzusidagi nomzodlik ishi bilan Tojikistonda o‘zbek navoiyshunosligiga ilk tamal toshi qo‘yilganligini alohida ta’kidlashni istardik.

O‘tgan asrning 60-yillari oxiri va 70-yillari boshlarida esa Xo‘jandda o‘zbek tilshunosligi bo‘yicha ham tadqiqotchilar yetishib, ular Alisher Navoiy asarlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishga kirishadilar. Va nihoyat, 1969-yilda Homidjon Mamadov, 1973-yilda esa Ahmadjon Karimov Navoiy asarlarining til xususiyatlarini (Navoiyning ikki asari: “Mahbub ul-qulub” va “Farhod va Shirin” dostonlari misolida) o‘rganishga doir nomzodlik risolalarini O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi A.S. Pushkin nomidagi Til va adabiyot institutidagi ilmiy kengashda muvaffaqiyatli himoya qilishdi va filologiya fanlari nomzodi degan sharafli nomga sazovor bo‘lishadi. Ushbu kuzatishimizda xo‘jandlik olimlar Homidjon Mamadov hamda Abdusalom Abduqodirovlarning Alisher Navoiy ijodi tadqiqiga doir amalga oshirgan ishlariga qisqacha e’tibor qaratishni maqsad qildik. Aslida Xo‘jand ilmiy muhitida navoiyshunoslikka doir shu kunga qadar qilingan ilmiy tadqiqotlarning har biri alohida-alohida maqolalar uchun mavzu bo‘ladi.

Ustoz Homidjon Mamadovning ilmdagi muvaffaqiyati Alisher Navoiy asarlarining til xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgani bilan e’tiborli. Ta’kidlash lozimki, sobiq sho‘rolar zamonida ham Navoiy hayoti va ijodiga doir amalga oshirilgan qator ishlarni e’tirof etish darkor. Ammo ayrim tadqiqotlarda mutafakkir shoir shaxsiyati va ijodi sinfiylik hamda partiyaviylik mezonlari asosida talqin etilganligini ham unutmaslik lozim.

Hatto ayrim tadqiqotlarda Navoiy ijodini din va tasavvuf ta’limotidan ajratib olib, shoir ijodidan zo‘r berib ateistik g‘oyalarni qidirishga yoki uning dostonlari matni bilan to‘liq tanishmasdan turib, mutafakkir shoir dostonlarini fors-tojik adabiyotidan qilingan tarjimalar sifatida ko‘rsatishga urinishlar bo‘lib turgan paytda Homidjon Mamadov akademik Alibek Rustamov rahbarligida

“Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) asarining leksik-stilistik xususiyatlarini tadqiq etishga kirishadi. Tadqiqotchi o‘zining “Navoiy badiiy prozasining leksik va stilistik xususiyatlari” (1969) mavzusidagi nomzodlik risolasini muvaffaqiyatli himoya qiladi. Mazkur tadqiqot o‘z davridayoq navoiyshunoslik taraqqiyotiga qo‘shilgan muhim ishlar qatorida mutaxassislar tomonidan e’tirof etiladi.

H. Mamadov nomzodlik ishining muqaddimasida o‘sha yillarda “Mahbub ul-qulub”ni badiiy asar ekanligiga shubha bilan qaragan ayrim olimlarning qarashlariga keskin munosabat bildirib, o‘zining ilmiy asosga ega bo‘lgan muhim xulosalarini bildiradiki, bu o‘sha davr ilmiy hayotidagi, ayniqsa, endi shakllanib kelayotgan yangi davr navoiyshunosligi uchun muhim yangilik edi. “Bizningcha... asar alohida syujet liniyasiga ega bo‘lmasa ham, uning falsafiy, ma’rifiy, didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan qarashlarini, san’atkorona go‘zal til bilan badiiy ifoda etuvchi to‘laqonli badiiy asar sifatida qabul qilish mumkin”, – deya tadqiqotchi masalaga o‘z munosabatini bildirgan edi. Shuningdek, olim yana fikrlarini davom ettirib, Navoiyning mazkur asari Sa’diyning “Guliston” hamda Jomiyning “Bahoriston” asarlariga mazmun jihatdan yaqin turishini, ko‘p jihatda salaflari an’analarining davomi ekanligini birinchilar qatorida ta’kidlashi uning o‘rganilayotgan masalaga qanchalar jiddiy munosabatda ekanligidan dalolat beradi.

Navoiyning bu nasriy pandnomasida ko‘plab masalalar qatorida ilm va san’at ahliga ham maxsus e’tibor qaratilib, ular orasida shoirlar, o‘qituvchilar, kotiblar va olimlar kabi bir qator ijtimoiy tabaqa vakillarining har biriga maxsus boblar ajratilgan. Shuningdek, Navoiy buyuk ustozlari Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Xusrav Dehlaviy, Sa’diy, Hofiz va Abdurahmon Jomiylar nomlarini ham birma-bir ehtirom bilan tilga olib o‘tadiki, asardagi bu tasvirlarning har biri boshdan-oxir badiiy san’atlar bilan ziynatlangan misralar bo‘lib, asar badiiyatiga o‘ziga xos estetik joziba baxsh etgan. Buni ustoz H. Mamadov o‘z kuzatishlarida nuktadonlik bilan ko‘rsatib bergan edi. Bunday ilmiy xulosalar Navoiyning prozadagi badiiy mahorat sirlarini anglashda muhim ilmiy manbalardan biri sifatida bugungi kunga qadar ham o‘z ilmiy qimmatini yo‘qotgan emas.

H. Mamadov “Mahbub ul-qulub”da Navoiy hayoti va tajribasi jam bo‘lgan barcha olijanob fazilatlari mujassam bo‘lgan nodir prozaik asar ekanligini ko‘rsatib berish barobarida, unda badiiylikni yuzaga keltirgan bir qator tasviriy vositalarni asar matni asosida ilmiy jihatdan asoslab bergan. Bu esa mazkur tadqiqotning muhim jihatlaridan biri deyishga imkon beradi. Olim mavzuni yoritishda XI asrning taniqli tilshunos olimi Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asariga ham murojaat qilib, undagi muhim xulosalarga tayanadi. “Mahbub ul-qulub”ni tahlil qilishda ustoz tilshunos olimning yo‘lidan borishi har jihatdan o‘zini oqlagan. Ustoz H. Mamadovning navoiyshunoslikdagi muhim xizmatlaridan yana biri nomzodlik dissertatsiyasining ikkinchi bobida Navoiy mahorat bilan qo‘llay olgan iltizom, tajnis, takror, tazod, tanosib, tarse’, tavze, saj’, radif, hojib, vazndosh so‘zlar, tovushdosh so‘zlar, zulqofiya va qo‘shqofiya kabi badiiy tasviriy vositalarni “Mahbub ul-qulub” matni asosida tahlil etishidir. Matndagi badiiy san’atlarni aniqlab, ularni lingvistik asosda tahlil etishdan avval o‘sha san’atlarga doir qisqacha nazariy ma’lumotlarning taqdim etilishi ham tadqiqotchining ishidagi fazilatlardan biridir. Shuningdek, Sharq mumtoz poetikasiga doir nodir manbalarga ham o‘rni-o‘rnida murojaat qilinganligi ishning ilmiy-nazariy salmog‘ini ta’minlashga xizmat qilgan.

H. Mamadov har bir kuzatishining yakunida o‘z qarashlarini aniq ilmiy xulosalar bilan asoslab berganligini quyidagi birgina misol yordamida kuzatish o‘rinlidir: “Shuni unutmaslik kerakki, Alisher Navoiy tomonidan qo‘llangan barcha til vositalari asar g‘oyasini ochishga qaratilgan yordamchi vositalardir. Navoiy, avvalo, ma’noni asos qilib oladi, so‘ng shu mazmunga mos forma (shakl) tanlaydi. Binobarin, u qo‘llagan shakllar mazmunga bo‘ysunadi va unga go‘zal tus berishga xizmat qiladi...” [Mamadov, 1983: 53].

“Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismida “Saxovat va himmat” xususida fikr yuritilgan bo‘lib, unda Navoiyning iltizom badiiy san’atidan qay darajada foydalana olganligini H. Mamadov bir nechta

misollar asosida dalillaydi. O‘quvchiga yanada tushunarli bo‘lishini inobatga olib, nasriy matnning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi tabdilini keltirishni ma’qul deb hisobladik. Mazmuni: Saxovat – insoniyat bog‘ining serhosil daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat – odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizi, balki u sermavj dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam yomg‘irsiz bahor bulutiga va hidi yo‘q mushki anbarga o‘xshaydi... Himmatli kishilarning darajasi yuksakdir, ammo saxiylikning darajasi bir necha barobar yuksakdir. Bitta kulchani ikkiga bo‘lib, yarmini och odamga berganni saxiy deb, o‘zi yemay hammasini muhtoj odamga berganni axiy (oshna, birodar, do‘st) deb bilgil [Navoiy, 2018: 107-108].

Keltirilgan misolda tashbeh (o‘xshatish) badiiy san’atining hayotiy misollar asosida zukkolik bilan qo‘llanganiga olim alohida e’tibor qaratib, ularga yetarli darajada sharh va izohlar keltira olganki, bu fikrlar bundan yarim asr muqaddam badiiy asarni poetik nuqtai nazardan baholash lozim ekanligiga qo‘yilgan qadamlar edi.

“Mahbub ul-qulub”ning “Ishq zikrida” bobida Navoiy chin insoniy muhabbat va sof sevgi haqida o‘zining fikr va qarashlarini bayon etar ekan, “pok” so‘zi takroridan juda o‘rinli foydalanadi, — deya muallif fikrlarini davom ettiradi: “Ul pok ko‘zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko‘ngil ul pok yuz oshubidin qo‘zg‘olmoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy pok jamolidin bahra olmoq”. So‘ng tadqiqotchi fikrlarini davom ettirib, ishq ahli orasidagi pokbozlar, pokravlar, pok nafsu guftoru pok alfozlar, yana so‘zi poku ko‘zi poklar va nihoyat, pok oshiqlar haqida birma-bir to‘xtalib o‘tadi. Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Iroqiy, Abdurahmon Jomiylar nomlari ham alohida ehtirom bilan tilga olingan tasvirlar ishdagi o‘ziga xos nuktadonlik bilan tahlil qilingan.

Navoiy chin insoniy muhabbat va sof sevgi haqida o‘zining fikr va qarashlarini bayon etar ekan, “pok”so‘zi takroridan juda o‘rinli foydalanadi: Unda pok ko‘z; pok nazar; pok yuz; pok ko‘ngil; pok mazhar; pokboz va hkz. Mutafakkir shoir “pok” so‘ziga alohida ehtirom bilan qaraydi va poetik maqsadni amalga oshirishda takror *(takrir)* san’ati shoir Navoiyga qachalar qo‘l kelgan bo‘lsa, prozaik Navoiy uchun ham shu darajada poetik imkoniyatlar maydonini vujudga keltirgan. Shu o‘rinda ustoz Navoiyning shunchaki jo‘n takrorga qarshi ekanligiga to‘xtalib, uning

“Bir deganni iki demak, xush emas,
Chu so‘z takror topdi dilkash emas...”,

degan badiiy estetik prinsipiga ham to‘xtalib, yuqoridagi keltirilgan so‘zlar takrori esa badiiy ijoddagi mutlaqo boshqa hodisa ekanligi lingvistik nuqtayi nazardan ko‘rsatib berilgan.

Bundan tashqari, “pok” o‘zagi boshqa so‘zlar hamda grammatik shakllar bilan birikib, xilma-xil ma’nolarda qo‘llanganligi ustoz kuzatishlarida yanada aniqroq ko‘rinish kasb etgan. Buni kuzatish naqadar maroqli: pok ko‘z – haqiqiy sevgi, beg‘araz, yaxshi niyat bilan qarovchi kishi; pok nazar – yaxshi niyat, oq ko‘ngillik bilan qarash; pok yuz – go‘zal, chiroyli, yuzi yoriq; pok ko‘ngil – oq ko‘ngil, gunohsiz, aybsiz; pok mazhar – sof maqsadga erishish; pokboz – sadoqatli oshiq, halol, chinakam, haqiqiy; pok jamol – tiniq yuzli, chiroyli, go‘zal; pokrav – go‘zal, mohir, shafqatli; pok nafas – yaxshi niyat, chin so‘zli; pok alfoz – yaxshi so‘z, to‘g‘ri so‘z; so‘zi pok – chin so‘zli; ko‘zi pok – vafodor; pok oshiq – haqiqiy sevgi egasi, sadoqatli kabi. Bu kabi misollarni olimning ishlaridan ko‘plab uchratish mumkin.

Taniqli adabiyotshunos Ergash Ochilov “Ibrohim Haqqul – navoiyshunos” deb nomlangan maqolasi bilan olimning fenomenini haddi a’lo darajada ko‘rsatib bera olgan edi. Uning quyidagi fikriga e’tibor qaratamiz: “...O‘zbekistonda hozirgi navoiyshunoslik ob-havosini belgilab kelayotgan olimlardan biri Ibrohim Haqqulov ekanligiga shubha yo‘q...” [Ochilov, 2019: 56].

Darhaqiqat, shunday. O‘zbekiston telekanalida Navoiyni anglashga doir ko‘rsatuvlardan birida ustoz Ibrohim Haqqulovning quyidagi fikrlari hozirgacha xuddi nishonga tekkan o‘q singari taassurot qoldiradi: “Navoiy she’rlaridan uncha-muncha yod olib, xohlagan joyda o‘qish yoki shoir

g‘azallariga kuy bastalab, turli to‘y va tantanalarda kuylash degani yoki shoir ijodiga bog‘liq biror masalani u yoki bu yo‘sinda talqin qilib, “navoiyshunosman” deb ayyuhannos solishdan iloji boricha tiyilmoq kerak! Bu hali Hazrat Navoiyni anglash yoki navoiyshunosman degani emas! Mutafakkir zotni anglash degani, birinchi galda, avliyo maqomidagi bobomizning pandu o‘gitlarini, biz avlodlar uchun yozib qoldirgan nasihatlarini dilga (haytovur, tilga emas, albatta) jo etib, ularga amal qilishdan (ta’kid bizniki – B.F.) boshlanadi...!”.

Shu nuqtai nazardan masalaga yondashadigan bo‘lsak, ustoz Homidjon Mamadov shaxsiyatida kamtarlik va olijanoblik, halimlik va insoniylik kabi fazilatlarning mujassam ekanligi, shuningdek, kibr-u hasad, takabburlik va munofiqlik, baxillik kabi illatlardan mutloqo begonaligining zamirida Hazrat Navoiydan, xususan, uning “Mahbub ul-qulub” pandnomasidan aziz ustozimizning ruhoniyatiga o‘tgan tom ma’nodagi insoniy komillikka faqat havas qilish mumkin. Yana bunga qo‘shimcha sifatida mutafakkir shoirning ushbu misralarini ham eslash o‘rinlidir:Olim agar qat’iy amal aylasa,

Ilmig‘a shoista amal aylasa,
Oni sharaf gavharining koni bil,
Gavharu kon, har ne desang, oni bil... [Navoiy, 2010:129].

Mazmuni: *Olim agar o‘z oldiga qat’y maqsad qo‘yib, ilmiga munosib ish ko‘rsatsa, uni ulug‘lik gavharining koni deb bil va har qancha ulug‘lasang ozdir.*

Bugungi kunga kelib, yangilanayotgan yangi O‘zbekistonda Navoiy merosini o‘rganish, uni ommaga yetkazish borasida hamda bu ulkan ma’naviy xazinani dunyo miqyosiga olib chiqishda juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bu ishning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani har qanday odamni quvontiradi. Ulug‘ maqsadlar yo‘lida qilinayotgan barcha amaliy ishlar o‘zlikni anglash yo‘lidagi asosiy qadamlardan biridir. Bunday yuksak marrani egallashda bugungi kunda muborak yuz yosh bilan yuzlashib turgan zukko olim, aziz ustozimiz Homidjon Mamadovning Navoiy hazratlari bilan tillashib yaratgan bebaho ishlari, Xo‘jand ilmiy muhitida navoiyshunoslik rivojiga qo‘shilgan ustozning o‘zlari kabi kamtarona ilmiy kuzatishlari zamonaviy navoiyshunoslik taraqqiyoti uchun ham beminnat xizmat qilishga qodir bo‘lgan ishlardan hisoblanadi. Shuningdek, Xo‘jand shahrida o‘zbek adabiyotshunosligi maktabida kamolga yetgan olimlardan biri — taniqli navoiyshunos, tasavvufshunos, o‘zbek va tojik adabiy aloqalari rivojiga munosib hissa qo‘shgan filologiya fanlari doktori, professor Abdusalom Abduqodirov bo‘lib, uni yetuk adabiyotshunos olim sifatida Tojikistonda, shu bilan birga boshqa davlatlarda ham yaxshi bilishadi va qadrlashadi.

Istiqlol sharofati bilan tarixga hamda adabiy merosimizga ham sog‘lom nazar bilan qarash kayfiyati vujudga kelgan bir davrda Abdusalom Abduqodirov navoiyshunoslik ilmida hali to‘la o‘rganilmagan “Navoiy va tasavvuf” deb nomlangan murakkab mavzu tadqiqiga kirishadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida tasavvuf haqida yozish an’anaga aylangan bir davr edi. Ammo istiqlol davri mafkurasi tasavvufga doir yangicha mazmunga ega bo‘lgan tadqiqotlarni kutmoqda edi. O‘sha yillarda Abdusalom Abduqodirovning “Navoiy va tasavvuf”, “Navoiy va naqshbandiylik” deb nomlangan yangicha yo‘nalishdagi maqolalari “Adabiy meros” ilmiy jurnalida ketma-ket e’lon qilindi va taniqli olimlarning nazariga tushdi.

So‘ng tadqiqotchining nashr qilingan “Navoiy va tasavvuf” (Xo‘jand: “Nuri ma’rifat”, 1994), “Navoiy va naqshbandiylik” (Xo‘jand: “Nuri ma’rifat”, 1994) risolalari hamda “Tasavvuf istilohlarining qisqacha izohli lug‘ati” (“Lug‘ati muxtasari tafsirii istilohoti tasavvuf”, Xo‘jand: Rahim Jalil, 1997, 2002) nomli ikki lug‘at kitobi o‘sha davr ilmiy hayotida katta yangilik sifatida e’tirof etilgan edi.

A. Abduqodirovning ilmiy kuzatishlari tasavvuf ta’limoti va o‘zbek-tojik adabiy aloqalari yo‘nalishi doirasida bo‘lib, Navoiy va mumtoz tojik shoirlari ijodi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu tadqiqotlar asosan an’ana, yangilik va mahorat masalalariga e’tibor qaratilganligi bilan ilmiy qimmat kasb etadi. Olimning “Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti (Vahdat ul-vujud muammosi bo‘yicha)” mavzusidagi doktorlik

dissertatsiyasida Navoiy ijodida tasavvufning o‘rni masalasi atroflicha tadqiq etilgan. Unda Alloh, olam va odamning yagonaligi ifodalangan vahdat ul-vujud (borliqning yaxlitligi) ta’limoti ishq, faqru fano va komil inson masalalari bilan bog‘lab tadqiq etilgan yangicha ruhdagi tadqiqotlar sirasiga kiradi.

Professor Abdusalom Abduqodirov ilmiy kuzatishlarining asosiy qismi Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Uning “Amir Alisher Navoiy” [Xo‘jand: Nuri ma’rifat, 2003; to‘ldirilgan ikkinchi nashr. 2013], “Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti” [Xo‘jand: Rahim Ҷalil, 2005], “Amir Alisher Navoiy va tojik mumtoz shoirlari” (Xo‘jand, 2007), “Mavlono Abdurahmon Jomiy va Amir Alisher Navoiy” [Xo‘jand: Nuri ma’rifat, 2014], “Tasavvuf, navoiyshunoslik va adabiy ta’lim masalalari” [Xo‘jand: Nuri ma’rifat 2019] kabi monografiyalarini eslash mumkin. Olimning kuzatishlarida fors-tojik mumtoz shoirlaridan: Nizomiy Ganjaviy, Jaloliddin Rumiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy an’analari Navoiy asarlari bilan qiyosiy- tipologik nuqtayi nazardan ilmiy tahlil qilingan. Ayniqsa, Mavlono Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, ularning o‘zaro adabiy hamkorliklari esa alohida rejada yoritilgan o‘zbek va tojik adabiy aloqalari silsilasidagi dolzarb tadqiqotlar sirasiga kiradi.

Matningizdagi imlo xatolari, tinish belgilari va uslubiy kamchiliklar o‘zbek adabiy tili qoidalariga muvofiq tuzatildi. Matn yaxlit holda quyida keltirilgan:

Ustoz A.Abduqodirovning so‘nggi monografiyasida mumtoz adabiyotimizdagi tasavvuf ta’limoti va uning Amir Alisher Navoiy ijodidagi o‘ziga xos badiiy ifodasi, ayniqsa, mutafakkir shoirning yetuk naqshbandiy ekanligi yoritilgan. Shuningdek, navoiyshunoslikdagi bugungi kundagi muhim va dolzarb vazifalar hamda adabiy ta’limda ularni o‘rganish bilan bog‘liq masalalar tahlil qilinganligi bilan ushbu asar alohida ilmiy hamda metodik qimmat kasb etadi. Professor A.Abduqodirovning ilmiy kuzatishlari Alisher Navoiy asarlaridagi tasavvufiy masalalarni tojik mumtoz adabiyoti vakillarining asarlari bilan qiyosiy jihatdan tadqiq etganligi bilan tasavvuf hamda adabiy aloqalarga doir mavjud ishlardan tubdan ajralib turadi.

A.Abduqodirov Alisher Navoiy ijodiga doir xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ishlarga ham o‘z munosabatini bildira olganligi olimning arzirli yutuqlaridan biri deb ayta olamiz. Jumladan, so‘nggi yillarda eronlik taniqli adabiyotshunos Zabihullo Safoning asarlaridan namunalar Tojikistonda nashr qilindi. Uning “Tarixi adabiyoti Eron” (“Eron adabiyoti tarixi”) kitobida Navoiy “Xamsa”siga ham e’tibor qaratilgan bo‘lib, undagi dostonlarni Nizomiy “Xamsa”sidagi dostonlarga shunchaki taqlid sifatida yaratilgan degan fikrni hech bir tortinmasdan bayon qilgan [Safo, 2011: 17].

A. Abduqodirov Z. Safoning bunday xulosalari noto‘g‘ri hamda asossiz ekanligini ilmiy jihatdan isbotlab, bu ikki ulug‘ shoir asarlarini badiiy matnlar asosida birma-bir qiyosiy yo‘sinda kuzatib, quyidagi ilmiy xulosalarni bildirgan edi: “Albatta, bu fikrlar (ya’ni Z. Safoning fikrlari – B.F.) ilmiy asosga ega emas. Chunki, birinchidan, Z. Safo Nizomiy va Navoiy ‘Xamsa’sidagi dostonlar haqida yetarlicha ma’lumotga ega emasligi seziladi. Buni shundan bilish mumkinki, u hatto Navoiy dostonlarining nomlarini to‘g‘ri keltirmaydi. Voqean, ‘Hayrat ul-abror’ni u ‘Hayot ul-abror’, ‘Layli va Majnun’ni ‘Majnun va Layli’ tarzida yozadi...” [Safo, 2011: 13].

Shuningdek, Z. Safoning Abdurahmon Jomiy, Davlatshoh Samarqandiy va Xondamir kabi mualliflarning Navoiy “Xamsa”si haqida o‘z davridayoq bildirilgan fikrlaridan xabarsiz ekanligi ta’kidlanib, har ikki shoirning asarlari badiiy matnlar asosida qiyoslandi. Natijada Navoiyning original shoir ekanligi aniq dalillar asosida isbotlab berildi. Bunday ishonchli, ilmiy asosga ega xulosalar Alisher Navoiy merosini jahon miqyosida o‘rganishda va uni yanada teranroq anglashga yordam berishi shubhasizdir.

Xullas, istiqloldan so‘ng o‘zining ko‘p asrlik tarixiga ega bo‘lgan o‘zbek va tojik adabiy aloqalari bo‘yicha yangi rivojlanish bosqichi sari dadil qadamlar qo‘yildi. Bu juda qadim zamondan boshlab “quda-qudag‘ay” (G‘afur G‘ulom) bo‘lib kelayotgan o‘zbek va tojik xalqlarining adabiy aloqalari istiqbolidan shahodat beradi. Professor Abdusalom Abduqodirovning bu borada amalga oshirgan

ilmiy kuzatishlari, tarjima hamda tabdillari, tasavvuf va badiiy ijodga doir nazariy qarashlari hali ko‘p yillar davomida o‘z ilmiy qimmati hamda tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolishiga ishonchimiz komil.

Mustaqillik yillarida Xo‘jand adabiyotshunoslik ilmi muhitida Alisher Navoiy merosini yangicha nuqtai nazardan tadqiq etishga doir amalga oshirilgan ishlar qatoridan Mavlonberdi Suyunovning “Hofiz Sheroziy va Alisher Navoiy”, Olimjon Abdulloyevning “Amir Xusrav Dehlaviy va Amir Alisher Navoiy”, Feruza Qayumovaning “Farididdin Attor va Alisher Navoiy” mavzularidagi tadqiqotlarini ko‘rsatish o‘rinlidir. Ularning har biri haqida alohida to‘xtalib, o‘ziga xos ilmiy xulosalari bilan tanishtirish zamonaviy navoiyshunoslikning istiqbolidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A. Sab’ai sayyor: adabiy an’ana va yangiliklar // O‘zbek tili va adabiyoti, 2017, 2- son, 19–20-betlar.
2. Abduqdirov A. Hayrat ul – abror: adabiy an’ana va badiiy mahorat // O‘zbek tili va adabiyoti, 2016, 1-son, 12–13-betlar.
3. Abduqodirov A. Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti (vahdat ul-vujud muammosi). – Xo‘jand: Rahim Ҷalil, 2005. – 98-bet.
4. Abduqodirov A. Amir Alisher Navoiy (Hayoti va ijodi) Risola. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan to‘rtinchi nashr. – Toshkent: BAYOZ, 2022. 228bet.
5. Abduqodirov A. Mavlono Abdurahmon Jomiy va Amir Alisher Navoiy. Monografiya. – Xo‘jand: Nurima’rifat, 2014. – 208bet.
6. Abduqodirov A. Navoiy va tasavvuf. – Xo‘jand: Nuri ma’rifat,
1994, –102 bet.
7. Abduqodirov A. Navoiy va naqshbandiylik. – Xo‘jand: Nuri ma’rifat, 1994, -120 bet.
8. Abduqodirov A.Tasavvuf, navoiyshunoslik va adabiy ta’lim masalalari. Monografiya. – Xo‘jand: Nuri ma’rifat, 2019, - 296 bet.
9. Jumaxo‘ja N. Adabiy tilimiz asoschisi // Navoiyga armug‘on. 4-kitob. –Toshkent: Fan, 2004.- 145 bet.
10. Zehni T. San’ati suxan. – Dushanbe: Irfon, 1967. – 230-b.
11. Ishoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi (to‘ldirilgan va tuzatilgan ikkinchi nashri). – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 320-bet.
12. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, O‘zbekiston, 2009. – 448 bet.
13. Mamadov H. “Mahbub ul qulub”dagi ba’zi badiiy san’atlar // O‘zbek tili va adabiyoti, 1983, 1-son, 53-bet.
14. Навои А. Возлюбленный сердец. Сводный текст подготовил Кононов А.Н., Из-во АН СССР, Москва, Ленинград, 1948.
15. Navoiy A. MAT (Mukammal asarlar to‘plami). 20 jildlik, 14-jild. –Toshkent: Fan, 1998. – 304- bet.
16. Navoiy A. MAT, 20 jildlik, 8-jild. – Toshkent: Fan, 1991. -544 bet.
17. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Hozirgi o‘zbek tiliga tabdil (izoh va sharhlar bilan nashrga tayyorlovchilar: A.Tilavov, I.Saydulloyev). – Toshkent: Sano-standart, 2018. – 150-bet.
18. Olimov S. Naqshband va Navoiy. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
19. Safo Z. Ta’rixi adabiyoti Eron. Ҷildi 3. – Dushanbe: Sino, 2011, 171.
20. Sharq mumtoz poetikasi manbalari. Birinchi kitob, (Hamidulla Boltaboyev talqinida). – Toshkent: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. - 426 bet.
21. Qayumova F. Tojikiton navoiyshunoligining muhim jihatlari // Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun. Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent: Fan, 2025. – 608-bet.

ADABIY-IRFONIY TAHLIL METODI

Avaznazarov Odiljon Rahmatulloyevich,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent,
Qarshi davlat universiteti
e-mail: odiljon.avaznazarov@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada adabiyotshunoslikda "metod" va "metodologiya" tushunchalarining ilmiy bilish jarayonidagi nazariy ahamiyati yoritilib, o'zbek mumtoz adabiyotini, xususan tasavvufiy mazmundagi matnlarni talqin qilish uchun "adabiy-irfoniy tahlil metodi" deb nomlangan milliy yondashuvning ilmiy asoslari ishlab chiqiladi. Tadqiqotda ushbu metodning asosiy tamoyillari umumlashtiriladi. Natijada "adabiy-irfoniy tahlil metodi" o'zbek mumtoz adabiyotining tasavvufiy poydevoriga tayangan holda, uni badiiy-estetik yaxlitlikda va zamonaviy nazariy talablarga mos tarzda talqin etuvchi mustaqil ilmiy-metodologik yondashuv sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar: *adabiy-irfoniy metod, irfon, tasavvuf, mumtoz adabiyot, Navoiy, diniy-tasavvufiy tahlil, metodologiya.*

Abstract

The article examines the theoretical significance of the concepts of "method" and "methodology" within the process of literary inquiry and develops the scientific foundations of a national approach termed the "Literary-Mystical Analysis Method" for interpreting Uzbek classical literature, particularly texts with Sufi-mystical content. The study outlines the key principles of this method and demonstrates that the "Literary-Mystical Analysis Method," grounded in the Sufi foundations of classical literature, constitutes an independent scholarly and methodological approach capable of interpreting classical texts in their artistic-aesthetic integrity while remaining consistent with contemporary theoretical requirements.

Keywords: *Literary-Mystical Analysis Method, irfān, Sufism, classical literature, Navoi, religious-Sufi analysis, methodology.*

Adabiyotshunoslikda "metod" badiiy asarni o'rganishda tahlilning aniq yo'nalishi va vositalar majmuasini, ya'ni matnning mazmun-mohiyati va tuzilmasiga yetib borishning nazariy asoslangan usulini anglatadi. "Metodologiya" esa shu metodning nazariy poydevori, tamoyillari, qo'llanish mezonlari va ilmiy chegaralarini belgilovchi konseptual tizimdir. G'arb adabiyotshunosligida metod va metodologiya talqin jarayonining ilmiylik darajasini belgilovchi markaziy kategoriya sifatida qaraladi. Ular mavjud bo'lmasa, tahlil tasodifiy kuzatishlar, subyektiv mulohazalar majmuiga aylanib qoladi. Shu bois metod – badiiy matnni izchil, obyektiv, nazariy asosga ega holda talqin qilish imkonini beruvchi bilish vositasi, metodologiya esa talqinning ichki mantig'ini tartibga soluvchi ilmiy tizim sifatida adabiyotshunoslikda zarur va ajralmas konseptdir.

Rene Vellek va Austin Varren kabi nazariyotchilar "adabiyotshunos ma'lum bir davrni, adabiy harakatni yoki milliy adabiyotni o'rganayotganda uni o'ziga xos individual hodisa, boshqa shunga o'xshash guruhlardan ajratib turuvchi belgi va sifatlar majmuasi sifatida tadqiq qiladi" [Wellek R., Warren A., 1949:6], – deydilar. Shunday ekan o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari ham o'ziga xos semantik qatlamlar, badiiy-estetik vositalar va ma'naviy-metafizik tizimlardan tashkil topgani sababli ularni tadqiq qilishda matnning ichki tabiati bilan bevosita bog'liq bo'lgan tahlil mezonlari zarur bo'ladi, ya'ni metod badiiy matnning tabiatidan kelib chiqishi kerak. Musulmon Sharqida badiiy asarlarning eng yorqin tomoni esa, shubhasiz, tasavvuf bilan aloqador. Buni mashhur nemis olimasi Annamariya Shimmelning fikrlari ham quvvatlaydi: "G'arb dunyosida tasavvufning eng mashhur jihati – bu tasavvuf adabiyotidir, aniqrog'i, tasavvufiy madaniyat bag'rida kamol topgan fors she'riyatidir" [Schimmel, 2023: 49].

Ingliz olimlari ta'kidlagan metodologik mezon adabiyotshunos Ibrohim Haqqul ilgari surgan muhim fikr – "tasavvufdagi adabiyot" va "adabiyotdagi tasavvuf"ning bir-biridan farq qilishi bilan

ham uyg‘un [Haqqul, 2021: 143]. Demak, tasavvufning o‘zida yuzaga kelgan didaktik, risolaviy, axloqiy-ma’rifiy matnlar hamda badiiy adabiyot ichiga singib ketgan ramziy-irfoniy qatlamni bir xil mezon bilan tadqiq va talqin qilib bo‘lmaydi.

Mumtoz adabiyotimiz, xususan, Alisher Navoiy asarlarini tekshirish uchun milliy tahlil metodiga ehtiyoj borligi bir qancha adabiyotshunoslar tomonidan ta’kidlab kelinmoqda. Jumladan, navoiyshunos Alisher Razzoqov mutafakkir ijodini adabiy-estetik, falsafiy-tasavvufiy qarashlar asosida tadqiq qiladigan metodni ishlab chiqish zaruratini ta’kidlab shunday deydi: “Milliy adabiyotimizni o‘rganishning o‘ziga xos tamoyillarini ishlab chiqish bugungi kun adabiyotshunosligimizning dolzarb muammolaridan biridir” [Razzoqov, 2025: 51].

G‘arb adabiyotshunosligidan o‘zlashtirilgan hermenevtik, struktural, psixoanalitik va boshqa tadqiq usullari o‘zbek adabiyotshunosligi tajribasida samarali qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, ular mumtoz matnlarning islomiy-tasavvufiy mazmunini poetik tuzilma bilan uzviy bog‘liq holda talqin etishga metodologik jihatdan to‘liq mos kelmaydi. Shuning uchun bunday matnlarning ichki ma’no qatlamini diniy-tasavvufiy va adabiy-estetik birlikda ochib berishga qaratilgan milliy metodga ehtiyoj sezilmoqda.

Aslida bunday tadqiq usuli adabiyotshunosligimizda allaqachon bor bo‘lib, uning nazariy asoslari xususida ilmiy tezislar bot-bot e’lon qilib kelinmoqda. Navoiyshunos Qodirjon Ergashev mumtoz adabiyotimizni talqin qilishda tasavvufiy qarashlarni inkor etmagan holda, bu tadqiq usulini “diniy-tasavvufiy tamoyil” deb malakalaydi. Ammo mumtoz asarlarning markazini tashkil etuvchi inson omilini, lirik subyektning ruhiy kechinmasini va badiiy tafakkurning antropotsentrik mohiyatini asosiy ilmiy mezon sifatida belgilash zarurligi, ana shunda muallifning badiiy dunyoqarashi, konsepsiyalarining mohiyati, qolaversa, klassik merosning bugungi adabiy tafakkur uchun ahamiyati yanada puxta va mukammal yoritilishini ta’kidlaydi [Ergashev, 2023: 10].

Adabiyot nazariyotchisi Bahodir Karim qator maqolalarida “diniy-tasavvufiy tahlil metodi” atamasini qo‘llaydi va bu tadqiq usulini metod sifatida legitimlashtirishga, ya’ni o‘zbek adabiyotshunosligi doirasida alohida yo‘nalish sifatida ko‘rsatishga urinadi [Karimov, 2025: 18–26]. Olim o‘zining “Diniy-tasavvufiy tahlil metodi” maqolasida bu borada o‘zbek adabiyotshunosligidagi tajribalarni qayta ko‘rib chiqib, mumtoz matnlar ma’nosini ochishda islom hamda tasavvufni integratsiya qiluvchi alohida tadqiq usulini taklif etadi hamda mazkur yondashuvni sovet davridagi mafkuraviy cheklovlardan keyin shakllangan erkin ilmiy muhit ehtiyojidan kelib chiqqan, amalda allaqachon qo‘llanayotgan hodisaga nazariy nom va tartib berish deb talqin qiladi. Bahodir Karim tomonidan ilgari surilgan “diniy-tasavvufiy tahlil metodi” ilmiy jihatdan asosli bo‘lib, u “xristian adabiy tanqidi”, “diniy hermenevtika”, “ruhiy-ma’naviy tanqid” kabi G‘arb adabiy tahlil oqimlariga metodologik jihatdan yaqin turadi hamda o‘zbek adabiyotshunosligida sharqona tafakkur asosidagi mustaqil yondashuv zaruratini ilmiy asosda ko‘rsatadi.

Tasavvufiy mazmunga ega badiiy matnlarni talqin qilishda uchraydigan “diniy-tasavvufiy” hamda “adabiy-irfoniy” atamalari mazmuniy qamrovi, metodologik vazifasi hamda ilmiy konseptual asoslari jihatidan bir-biridan tubdan farqlanadi. “Diniy-tasavvufiy tahlil” tasavvufning shariatga bog‘langan doktrinal qatlami – fiqhiy meyorlar, tariqat tizimi, maqom va hol talqinlarini markazga qo‘ygan holda matnni asosan diniy-tasavvufiy kontekstda sharhlaydi va natijada uning badiiylik, poetik-metafizik qatlamlarini tadqiq qilish imkoniyati bir qadar torayadi. Mazkur atamadagi “diniy” komponenti uni teologik talqin doirasiga yaqinlashtirib, adabiy-estetik neytrallikni cheklaydi, poetik qatlam talqini chetga chiqib qoladigandek taassurot uyg‘otadi.

Fikrimizcha, adabiy hodisalarni tekshirishga mo‘ljallangan milliy tadqiqot yondashuvini “adabiy-irfoniy tahlil metodi” atamasi bilan nomlash maqbul. “Adabiy-irfoniy” atamasidagi “adabiy” komponenti matnga, avvalo, poetik tuzilma sifatida yondashishni, “irfoniy” qismi esa “diniy-tasavvufiy” mohiyat hamda boshqa botiniy ma’no qatlamlariga ham e’tibor qaratishni anglatadi.

Ayni masalada yana bir jihatga e'tibor qaratish o'rinli. Yevropa tillarida "irfon" tushunchasini uning barcha ma'no qirralari bilan ifodalay oladigan muqobil so'z yo'q. Shu sabab, asosan, "bilim" ma'nosini ifoda qiluvchi so'zlar bilan tarjima qilinadi [Баранов, 1985: 510]. Tilimizdagi ba'zi lug'atlarda "irfon" kalimasining arabcha ekani keltirilib, "bilim, ma'lumot, idrok; anglash, bilish jarayoni" sifatida izohlanadi [An-naim ul-kabir, 2021: 446]. O'zbek tilining besh tomli izohli lug'atida esa bu so'zga izoh berilmagan. Balki shu sababli hamjamiyatda, asosan, torroq ma'noda "bilim, ma'rifat" deb tushuniladi. Ammo ushbu tushuncha ancha kengroq ma'nolarni ifodalaydi. Jumladan, "Farhangi tafsirii zaboni tojikiy"da yuqoridagilardan tashqari yana bir ma'nosi keltiriladi: "Kashf va shuhud orqali (aql va mantiqiy idrok ishtirokisiz) Haqiqatga erishishni targ'ib qiladigan diniy-falsafiy tasavvuf jarayoni" [Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ, 2008:555]. Tasavvuf lug'atlarida shunga monand ta'riflar beriladi: "ma'rifat, kashf, sezgi, ilhom, ma'naviy va ruhiy tajriba orqali erishiladigan ilm" [Uludağ S., 2016:189; Shayx Najmiddin Kubro, 2004: 224]. Navoiyshunos Karomat Mullaxo'jayeva Navoiy she'riyatining har bir namunasida "irfoniy ma'no-mazmun mujassam" ekanini ta'kidlab, "irfoniy mazmun" deganda hikmat va falsafani nazarda tutadi [Mullaxo'jayeva K., 2021: 39, 41]. Olimaning ushbu qarashi ham asosli, chunki "hikmat" juda chuqur mohiyatga ega kalima bo'lib, unga berilgan eng qisqa ta'riflardan biri "ma'nolarni idrok etish"dir [Tьrkiye Diyanet Vakfı İslвm Ansiklopedisi, 1998: 503]. Yoki navoiyshunos Olimjon Davlatov o'z tadqiqotlarida *ishqiy-irfoniy, tasavvufiy-irfoniy, diniy-irfoniy, axloqiy-irfoniy, falsafiy-irfoniy* kabi atamalarni qo'llaydiki [Davlatov, 2017: 23, 29, 101, 103], bu irfonning ma'no-mohiyatini yanada keng tushunish mumkinligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, "irfon" so'zi o'zbek tilida juda keng va ko'p qatlamli ma'no-mazmunga ega. Asli arabcha bo'lishiga qaramay, o'zbek ilmiy-adabiy muhitida milliylashib ulgurgan hamda uni badiiy asarning botiniy mazmuni, haqiqatni ochish va diniy-tasavvufiy idrok jarayonlarini ifodalashga qodir adabiy-nazariy istiloh sifatida qo'llash mumkin. Qolaversa, hazrat Navoiy ham "G'aroyibu-s-sig'ar"da insonning yaratilishidan maqsad *irfon* ekanini ta'kidlaydilar:

Baridin g'araz garchi inson edi,
Anga dag'i maqsud irfon edi [Navoiy A., 2012:702].

Madomiki, maqsad irfon ekan badiiy asarga ayni shu tamoyil bilan yondashish eng ma'qul yo'ldir. Metodga shunday ilmiy ta'rif berish mumkin:

Adabiy-irfoniy tahlil metodi – bu ramziy-irfoniy xususiyatga ega badiiy matnni zohir va botin birligida talqin etishga asoslangan, adabiyotshunoslikning poetik tahlil mezonlari bilan diniy-tasavvufiy kontekstni uyg'unlashtiruvchi ilmiy yondashuv bo'lib, asardagi badiiy obraz, mavzu, estetik ideal, syujet va kompozitsiya kabi poetik unsurlarni Qur'on, hadis hamda boshqa diniy-tasavvufiy manbalar, kerak o'rinlarda adabiy matnlar yordamida izohlaydi. Poetik strukturaning estetik mohiyati birlamchi tahlil obyekti bo'lib, diniy-tasavvufiy manbalar esa matndagi ramz va ma'naviy qatlamni to'ldiruvchi konseptual kontekst sifatida qo'llanadi. Ma'no ruhiy kamolot bosqichlari – talab, ishq, ma'rifat, istig'no, tavhid, hayrat, fano, baqo izchilligida ochilib boradi va asardagi syujet hamda obrazlar dinamikasi tashqi voqealar ketma-ketligi emas, balki qahramonning ichki ruhiy transformatsiyasi – nafsdan poklanish, ma'rifatga yetish, tavhidni anglash va ilohiy haqiqatni kashf etish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Mazkur metod qonuniyatlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Matn tabiatidan kelib chiqish. Mumtoz matnlar ko'p qatlamli tuzilishga ega bo'lgani sababli ularni tahlil qilishda avvalo matnning ichki tabiati – janriy xususiyati, kompozitsion qurilishi, semantik yadrosi aniqlanadi. Metodning boshlang'ich nuqtasi sifatida matnga tashqi modelni yuklash emas, balki matnning o'zi talab qilayotgan tahlil mezonini ochish turadi. Chunki matn tabiatidan kelib chiqmagan metod undagi ma'no qatlamlarini buzishi, badiiy yaxlitlikni parchalashi mumkin.

2. Zohir-botin birligi. Adabiy-irfoniy talqinda matnning tashqi badiiy shakli va ichki ma'nosi bir-biridan ajralmaydi. Ramz, timsol, metafora, syujet detallaridagi majoz-haqiqat munosabati yaxlit ontologik tizim sifatida koʻriladi. Matnni faqat tashqi shakliy goʻzallik yoki faqat ichki ma'naviy qatlam asosida oʻqish emas, balki ular oʻrtasidagi uygʻunlikni tahlil qilish talab etiladi.

3. Adabiylik prinsipini saqlash. Tasavvufiy-islomiy manbalarga tayanish zarur boʻlsa-da, matnning badiiy-estetik mustaqilligi buzilmasligi kerak. Chunki "yangi davr adabiyotshunosligida barcha asarlardan oʻrinlimi-oʻrinsizmi tasavvufiy ohanglarni izlash jarayonlari ham kuzatildi" [Karimov, 2025: 22]. Adabiylik prinsipiga koʻra asar avvalo badiiy hodisa, keyin esa tasavvufiy mazmun tashuvchi manba sifatida tushuniladi. Bu prinsip matnni sof teologik yoki sof doktrinal talqin doirasida cheklanib qolishdan saqlaydi.

4. Poetik strukturaning ma'naviy funksiyasini ochish. Qofiya, radif, vazn, kompozitsiya, obrazlar tizimi, syujet dinamikasi, makon-zamon konstruksiyasi kabi poetik unsurlar matnda shunchaki tashqi bezak emas, balki irfoniy ma'noni faol tashuvchi struktural birlik sifatida koʻriladi. Zohiriy poetik shakl botiniy mazmunni ochuvchi mexanizm sifatida talqin etiladi.

5. Ramzlarning koʻp qavatli semantikasini aniqlash. Mumtoz matnlarda predmet, rang, hid, makon, masofa, harakat kabi eng mayda detallar ham ramz sifatida ishlaydi. Adabiy-irfoniy metod ushbu detallarni koʻp qatlamli ma'nolar tizimi – kosmologik, ontologik, ruhiy, majoziy darajalarda izohlaydi. Ramzning yagona emas, balki parallel semantik yoʻnalishlari aniqlanadi.

6. Lirik qahramonning ruhiy dinamikasini tahlil qilish. She'riy matndagi lirik subekt yoki epik qahramonning ichki dialoglari, ruhiy kechinmalari, oʻzlikdan oʻtish jarayonlariga matnning semantik markazi sifatida qaraladi. Bu psixologik dinamika tasavvufiy antropologiya bilan bogʻliq holda talqin qilinadi.

7. Ruhiy kamolot bosqichlariga tayanish. Matndagi ruhiy kechinmalar, lirik qahramonning holati tasavvufiy rivojlanish bosqichlari – talab, ishq, ma'rifat, istigʻno, tavhid, hayrat, fano, baqo – asosida oʻqiladi. Bu bosqichlar syujet dialektikasini, obrazlar dinamikasini va matnning ichki ontologik harakatini yoritadi.

8. Badiiy matnni ruhiy sayr sifatida talqin qilish. Asar voqealari, qahramonning yoʻli yoki lirik qahramonning ichki holatlari inson ruhining Haqiqat tomon sayri tarzida koʻriladi. Syujet – ruhiy transformatsiya jarayoni sifatida talqin qilinadi. Matnning yakuni odatda "ruhiy uygʻonish", "kashf", "hayrat", "haqiqatga yaqinlashuv", "haqiqat manziliga yetish" kabi holatlarga tutashadi.

9. Irfoniy kontekstni hisobga olish. Matndagi ramz, timsol, majoz, safar, zamon, makon elementlari Qur'on, hadis, tasavvufiy manbalar, suluk bosqichlari, tariqat ta'limotlari bilan uzviy aloqada sharhlanadi. Biroq bu izoh faqat diniy-doktrinal tushuntirish bilan cheklanmay, badiiylik mezonlari bilan uygʻunlikda tahlil qilinadi.

10. Tasavvuf tarixiga relyativ (hodisani oʻz oʻrnida, oʻz davrida, oʻz kontekstida baholash) yondashuv. Adabiy matndagi irfoniy qatlamni toʻgʻri talqin qilish uchun tasavvufning tarixiy rivoj bosqichlari – zohidlik davri, ilk sufiylar maktabi, tariqatlarning shakllanishi, vahdatu-l-vujud, vahdatu-sh-shuhud kabi maktablarning e'tiqodiy-falsafiy asoslarini yaxshi bilish zarur. Bunda matndagi tasavvufiy ishoralar – tasavvufiy til, istiloh, ramz va istioralar qaysi bosqichga mansub ekanini aniqlash asosiy ilmiy mezonga aylanadi.

11. Intertekstual bogʻlanishlarni aniqlash. Asarning Qur'on oyatlari, hadis, hikmat, tasavvufiy risolalar, mumtoz adabiy manbalar bilan uzviy aloqasi hisobga olinadi. Badiiy matnning manba maydoni irfoniy talqin uchun zarur asos sifatida qaraladi.

12. Zamonaviy nazariyalar bilan muvozanat. Strukturalizm, semiotika, fenomenologiya, psixoanaliz kabi zamonaviy nazariyalar yordamchi vosita sifatida qoʻllanadi, biroq ular matnning metafizik-ruhiy qatlamini chetga surib qoʻymasligi lozim. Adabiy-irfoniy metod ularni "milliy tafakkur chigʻirigʻidan" oʻtkazgan holda, irfoniy mohiyatni markazda saqlagan tarzda integratsiyalashni koʻzda tutadi.

13. E'tiqodiy mas'uliyat. Tasavvuf shariat zaminida shakllangan ruhiy yo'l sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun adabiy-irfoniy talqin bilan ishlovchi tadqiqotchi shariat, fiqh, axloqiy-odobiy meyorlar, e'tiqodiy mas'uliyat, so'z mas'uliyatini bilishi, "pokiza dunyoqarash"ga ega bo'lishi zarur. Bu – metodning aqidaviy barqarorligini, halolligi va ilmiy rostgo'yligini ta'minlaydi.

14. G'arb sharqshunoslarining tasavvufiy talqinlariga ehtiyotkor munosabat. Yuzaki, kontekstdan uzilgan, tasavvufni romantik-folklorik yoki mutlaqo ruhsiz falsafaga aylantiruvchi g'arbiy orientalist talqinlarga ko'r-ko'rona ergashilmasligi kerak. Irfoniy matnni sharhlashda Sharqdagi asl manbalar – Qur'on, hadis, avliyolar hikmatlari, Qushayriy, Hujviriy, Ibn Arabiy, Najmiddin Kubro, Naqshbandiya maktabi va boshqa tarixiy manbalarga tayanish metodning ilmiy ishonchliligini ta'minlaydi.

15. Adabiy-estetik va ma'naviy-metafizik birlik. Badiiy yetuklik (san'at, shakl, obrazlilik) va ma'naviy yuksaklik (irfon, haqiqatga yaqinlashuv) bir-birini to'ldiruvchi, ajralmas hodisa sifatida ko'riladi. Adabiy-irfoniy metodda san'at va irfon o'rtasidagi uyg'unlikni ochish ustuvor maqsadlardan biridir. Matnning go'zalligi uning ma'naviy chuqurligini ochib beruvchi vosita, mazmun esa estetik strukturaning ichki ruhiy asosi sifatida talqin etiladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotshunoslikda metod va metodologiya tushunchalari butun ilmiy-bilish jarayoni poydevorini tashkil etuvchi hal qiluvchi nazariy kategoriyadir. Shu bois taklif etilayotgan "adabiy-irfoniy tahlil metodi" mumtoz adabiyot namunalarini talqin qilishda eng maqbul konseptual yondashuv sifatida ilmiy jihatdan asosli. U o'zbek adabiyotshunosligida matn tabiatiga mos yondashuvni tiklaydigan, asarlardagi ramziy-majoziy va ruhiy-metafizik qatlamlarni poetik tuzilma bilan bog'liq holda izohlay oladigan, milliy tafakkur va zamonaviy nazariy yondashuvlar integratsiyasiga tayanadigan konseptual metod bo'lib, mumtoz adabiyotning diniy-tasavvufiy asoslaridan uzilmagan holda, uni badiiy-estetik yaxlitlikda talqin etuvchi, zamonaviy adabiyotshunoslik talablariga to'liq javob beradigan mustaqil ilmiy-metodologik tizimga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик, Ж.1: – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012. – B.804.
2. Ан-наим ул-кабир. – Тошкент: Muharrir, 2021. –B. 806.
3. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. – М.: Русс.яз., 1985. – С. 944.
4. Баҳодир Карим. Диний-тасаввуфий таҳлил методи // Filologiyaning dolzarb masalalari: professor Ergash Ochilov tavalludining 60 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2025. – B.18-26.
5. Давлатов О.Д. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадиий талқини: Фил. фан. фалс. докт. дисс. – Самарқанд: 2017. –B. 160.
6. Эргашев Қ. Алишер Навоий асарларида комил инсон тушунчаси // Ўзбек тили ва адабиёти, №1. – Тошкент, 2023. – Б.10.
7. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. Иборат аз ду ҷилд. Ҷилди I. – Душанбе: Пажӯҳишгоҳи забон ва адабиёти Рӯдакӣ, с. 2008, – С. 950
8. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш, 4-китоб. – Тошкент: "Tafakkur nashriyoti", 2021. – B. 240.
9. Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги / Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги. 30 жилдлик, 24-жилд. – Тошкент: Тамаддун, 2021. – B. 280.
10. Razzoqov A. Alisher Navoiy she'riyatida tasavvufiy obrazlar poetikasi. – Toshkent: Bookmany print, 2025. –B. 160.
11. Rene Wellek, Austin Warren. Theory of literature. – New York: "Harcourt, Brace and Company", 1949. –P. 403.
12. Schimmel A. Tasavvuf Notları / Almanca'dan çev.: D.Yabul. – İstanbul: Sufi Kitap, 2023. – 112 s.
13. Tьrkiye Diyanet Vakfı İslвm Ansiklopedisi. Cild 17. – İstanbul: 1998.
14. Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. – İstanbul: Kabalcı Yayıncılık, 2016. – S. 440.
15. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. Нашрга тайёрловчилар: Иброҳим Ҳаққул, Азиза Бектош. – Тошкент: Моваройннаҳр, 2004. – B. 264.

ALISHER NAVOIYNING “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI TILI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Soyipov Sunatulla Normatovich,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
e-mail: soyipov67@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilida o‘zbek adabiy tili so‘zlariga sinonim yoki ekvivalent tarzida qo‘llanilgan forscha nisbiy sifatlar son jihatidan aniqlangan va ularning asar tili ifoda, vazn va qofiya, shakl va mazmun mutanosibligini ta’minlashdagi o‘rni asosli ravishda ilmiy-qiyosiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, yana shoirning o‘sha davrdayoq o‘zbek adabiy tilida “Farhod va Shirin” dostoni kabi til jihatidan mukammal, rang-barang, jozibador va xalqchil bo‘lgan buyuk asarlar yaratish mumkin ekanligini isbotlab bergan, dostondan iqtiboslar keltirish yo‘li bilan ilmiy tavsifi hamda tadqiqi amalga oshirilgan va ular xususida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar*: sinonim, syujet, leksika, ekvivalent, morfologiya, sintaksis, manba, doston, til, sifat, qiyosiy, badiiy.*

Abstract

This article quantifies the Persian relative adjectives used as synonyms or equivalents of words in the Uzbek literary language in Alisher Navoi’s poem “Farhad and Shirin.” Their role in ensuring the balance of expressiveness, meter and rhyme, form and content in the language of the work is analyzed using the scientific-comparative method. Furthermore, it demonstrates how the poet, even in that era, proved the possibility of creating such great works in the Uzbek literary language as the “Farhad and Shirin” epic - linguistically perfect, colorful, appealing, and accessible to the common people. Through citations from the dastan, a scientific characterization and analysis are conducted, on the basis of which scientific and theoretical conclusions are drawn.

Keywords: *synonym, plot, vocabulary, equivalent, morphology, syntax, source, dastan, language, adjective, comparative, artistic.*

Ajdodlarimizdan bizga meros bo‘lib qolgan yozma manbalar tilini o‘rganishimiz barobarida mazkur tilda aloqa qiluvchi xalqning boshqa xalqlar bilan lisoniy aloqa munosabatlarini ham aniqlab olish mumkin. Bu esa hozirgi kun tilshunosligining eng muhim va dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Shuningdek, tildagi leksika so‘zi ma’nosiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u tilning boshqa sohalariga nisbatan turli ichki va tashqi ta’sirlarni tezda o‘zida mujassam etadi va ifodalaydi. Bu esa o‘z navbatida, o‘sha xalqlarning madaniy, siyosiy, iqtisodiy hayotidagi o‘zgarish va o‘sishni belgilashda ham asos bo‘la oladi.

Shu bilan birgalikda “har bir adabiy tilning hozirgi holatini to‘g‘ri belgilash, uning taraqqiyot yo‘llarini aniqlashda til tarixining usullarini puxta o‘rganish, ulardagi ayrim grammatik kategoriyalarni hozirgi til elementlari bilan chog‘ishtirib tekshirish o‘zbek tilshunosligi va turkologiyasining muhim masalalaridan biridir” [Мухторов, Ражабов, 1960: 6].

Shunday ekan, o‘zbek adabiy tilining asoschilaridan biri, buyuk shoir va mutafakkir hamda davlat arbobi Alisher Navoiyning durdona asarlarini o‘qir ekanmiz, unda o‘zbek tili so‘zlari bilan bir qatorda, ko‘plab forscha, arabcha, mo‘g‘ulcha hamda uyg‘urcha so‘zlar ham uchraydi. Shu sababli ham Alisher Navoiy va uning salaflari tomonidan turkiyda bitilgan buyuk-buyuk asarlar tilini mukammal darajada bilishimiz uchun ular tilida qo‘llanilgan o‘zlashma so‘zlarning barchasini ham leksik ham grammatik ma’nolarini puxta va chuqur o‘rgangan bo‘lishimiz lozim.

Darhaqiqat, Alisher Navoiyning asarlari tilida bir guruh o‘zlashma so‘zlar ham qo‘llanilganki, ular eski o‘zbek adabiy tili yozma manbalarida, shuningdek, ayrim turkiy tillarda ham uchrovchi so‘zlardir. Mazkur so‘zlarning ma’lum qismini fe’l, ot va uning turli xil shakllari tashkil etadi.

Bundan tashqari Alisher Navoiyning turkiyda yozilgan va joriy alifboga asl holicha o‘girilgan ayrim asarlarini o‘qir ekanmiz, uning tilidagi o‘zlashmalar ko‘proq arab va fors tillariga oid ilmiy, siyosiy hamda ma’naviy so‘zlar, iboralar hamda qo‘shimchalarni tashkil etadi. Shoir asosan ularni o‘z asarlari tilida o‘zbek tili so‘zlariga sinonim yoki ekvivalent tarzida qo‘llaganki, shu sababli ham uning asarlari tili rang-barang, so‘zga boy, jozibador, chiroyli, sodda, mukammal hamda o‘sha davr xalq tiliga yaqin hisoblanadi.

Uning asarlari tiliga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularda arab tili so‘zlari bilan bir qatorda, fors tili sifat so‘z turkumiga oid so‘zlar ham ancha salmoqli miqdorni tashkil etadi. Shularni inobatga olib, uning asarlari tilini shoirning o‘zlashma so‘zlarni qo‘llash mahorati sifatida tahlilga tortar ekanmiz, unda qo‘llanilgan forscha asliy sifatlarga nisbatan nisbiy sifatlar bir muncha ko‘pchilikni tashkil etishi aniqlandi. Shu sababli ham biz, mazkur maqolamizni Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilida qo‘llanilgan forscha nisbiy sifatlar va ularning asar tilida ifodalagan leksik-semantik hamda grammatik ma’nolarini tilshunoslik nuqtayi nazardan ilmiy tahlil, tavsif va tasnifini amalga oshirishga bag‘ishladik.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilida qo‘llanilgan va ko‘proq hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikonida muomalada bo‘lgan fors tilida otlarga qo‘shilib ulardan o‘zakda ifoda etilgan narsaga yoki xususiyatga egalikni ifodalovchi nisbiy sifatlar yasovchi -mand qo‘shimchasi ham mavjud [Халилов, 1992: 136].

Shoir -mand qo‘shimchasi vositasida yasalgan forscha nisbiy sifatlardan 10 tasini o‘z asari tilida o‘zbek tili nisbiy sifatlarga ekvivalent yoki sinonim sifatida qo‘llaganki, ulardan, asosan, doston syujetini yorqinroq va aniqroq ifodalashda foydalangan. -mand qo‘shimchasi vositasida yasalgan va asar tilida qo‘llanilgan xuddi shunday nisbiy sifatlarning bir nechtasini doston baytlari bilan birga keltiramiz va ularning ilmiy tahlilini amalga oshiramiz. Masalan:

Murodi bog‘i yuz guldin barumand,
Vale ul o‘zga gulga orzumand (26-bet).
Seni dono demak yoxud xiradmand,
Demakdurkim achig‘ maydur, chuchuk qand (67-bet) [Эркинов, 1989: 24, 67].

Yuqorida “Farhod va Shirin” dostonidan iqtibos sifatida keltirilgan ikkita baytda ham forscha so‘z yasovchi qo‘shimcha -mand vositasida yasalgan uchta nisbiy sifat qo‘llanilgan bo‘lib, ulardan birinchisi “barumand” dir va u so‘z “bar” va “-mand” kabi o‘zak va qo‘shimcha morfemaga bo‘linadi. Shuningdek, ushbu “barumand” so‘zi tarkibidagi o‘zak morfema “bar” o‘zbek tiliga “samara”, “meva”, “natija” kabi leksik ma’nolarni ifodalovchi so‘z sifatida tarjima qilinadi. Ushbu “bar” so‘ziga -mand qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida yasalgan “barumand” so‘zi ma’nosi o‘zakda ifoda etilgan ma’nosiga nisbatan butunlay o‘zgarib, “boy”, “baxtli” kabi sifat va “ko‘p”, “mo‘l”, “serob” kabi miqdor ravishi ifodalagan leksik ma’noda o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. Ushbu baytdagi “barumand” “boy” so‘zi o‘rnida, “orzumand” esa “xohishli”, “ishtiyoqli”, “istakli” kabi leksik ma’noni ifodalovchi so‘zlar o‘rnida qo‘llanilgan.

Baytning mazmunidan ko‘rinib turibdiki, shoir “barumand” va “orzumand” kabi forscha nisbiy sifatlarni ushbu baytda qo‘llab, ularni morfologik jihatidan sifat va sintaktik nuqtayi nazaridan kesim vazifasida, o‘zbek tilidagi “boy” va “ishtiyoqmand” kabi ma’noni ifodalab keluvchi so‘zlar o‘rnida qo‘llagan. Ushbu baytning tabdili mazmuni quyidagichadir:

Uning bog‘i yuzdan ortiq turdagi gullarga **boy** bo‘lsa ham, lekin u boshqa gulga **ishtiyoqmand**dir.

Bu bo‘yicha yana shuni ta’kidlab o‘tishimiz joizki, mazkur baytda “barumand” va “orzumand” so‘zlari so‘z turkumi jihatidan nisbiy sifat bo‘lsa-da, bular otlashib, sintaktik jihatdan ot kesim vazifasida kelgan.

Navbatdagi baytda forscha -mand qo‘shimchasi vositasida yasalgan nisbiy sifatlardan “xiradmand” so‘zi qo‘llanilgan. Ushbu so‘z ham boshqa shunday qo‘shimcha vositasida yasalgan forscha nisbiy

sifatlar kabi “xirad” va “mand” kabi ma’noli morfemalarga bo‘linadi. Bu so‘z tarkibidagi “xirad” o‘zbek tiliga “aql”, “bilim” kabi so‘zlar ifodalovchi leksik ma’noda tarjima qilinadi. Shunday ekan, bu leksema “xiradmand” shaklida “donishmand”, “aqlli”, “bilimli” kabi ma’noni ifodalovchi so‘z hisoblanadi. Ushbu baytdagi “xiradmand” so‘zi aynan, “donishmand” kabi leksik ma’noni ifodalovchi so‘z o‘rnida qo‘llanilgan.

Buni mazkur baytning tabdili mazmunidan ham ko‘rishimiz mumkin:

May achchiq, qand shirin bo‘lganidek, seni dono yoxud, **donishmand** kishi deb atash ham mumkin.

Ushbu dostondan misol tariqasida keltirilgan baytning tabdili mazmunidan unda muallif tomonidan qo‘llanilgan forscha “xiradmand” so‘zi o‘z o‘rnida, ya’ni so‘z turkumi nuqtayi nazaridan sifat va gap bo‘lagi jihatidan sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelganligini ko‘ramiz.

Bundan tashqari yana fors tilida xuddi -mand qo‘shimchasi kabi o‘zakda ifoda etilgan narsaga yoki xususiyatga egalikni bildirib keluvchi sifat yasovchi qo‘shimcha -nok ham mavjud [Халилов, 1992: 136]. Shoir o‘zining “Farhod va Shirin” dostoni tilida mazkur qo‘shimcha vositasida yasalgan forscha nisbiy sifatlardan 9 turini qo‘llaganki, ular mazkur asar tilini xalqchil, rang-barang, jozibador hamda sinonimik jihatidan so‘zga boy bo‘lishini ta’minlashda o‘ziga xos vosita sifatida xizmat qilgan.

Biz ushbu boradagi fikrimizga dalil sifatida muallif tomonidan “Farhod va Shirin” dostoni tilida qo‘llanilgan -nok qo‘shimchasi vositasida yasalgan bir nechta forscha nisbiy sifatlarni ular qo‘llanilgan baytlari bilan birga iqtibos sifatida keltiramiz:

O‘qug‘och shohzoda qissani pok,
Bu mushkul hallig‘a bo‘ldi havasnok (78-bet).
Yuz urdi ul sori andog‘ g‘azabnok,
Ki jon qasdig‘a ajdarhoyi aflok (94-bet).
Nadomat ashkidin har zori g‘amnok,
Yub etsa nomayi a’molini pok (357-bet) [Эркинов, 1989: 89, 94, 357].

“Farhod va Shirin” dostonidan misol tariqasida keltirilgan mazkur baytlarning birinchisida -nok so‘z yasovchi qo‘shimcha vositasida yasalgan forscha nisbiy sifatlardan “havasnok” so‘zi qo‘llanilgan bo‘lib, bu so‘z ham boshqa xuddi shunday so‘zlar kabi “havas” va -nok kabi o‘zak va qo‘shimcha morfemalarga ajraladi. Mazkur so‘z tarkibidagi “havas” so‘z o‘zagi bo‘lib, u hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi “ehtiros”, “zavq”, “tilak”, “istak” kabi ma’nolarni ifodalovchi so‘z hisoblanadi. Shuningdek, ushbu “havas” so‘ziga -nok qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida yasalgan “havasnok” so‘zi esa o‘zbek tiliga “ehtirosli”, “zavqli”, “istovchi”, “tilovchi”, “havaskor” kabi leksik ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar ma’nosida tarjima qilinadi va bu so‘z baytda hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol muomalada bo‘lgan forscha “havaskor”, “ishtiyoqmand” kabi so‘zlar o‘rnida qo‘llanilgan.

Biz “havasnok” so‘zining yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ma’noni ifodalash uchun qo‘llanilganligini ushbu baytning tabdili mazmunida ham ko‘rishimiz mumkin. Dostondan iqtibos sifatida keltirilgan birinchi baytning tabdili mazmuni:

Shahzoda qissasini o‘qigan zahotiyoq u o‘z zimmasiga tushgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun **ishtiyoqmand** kishilardan biriga aylandi.

Navbatdagi baytda xuddi shunday qo‘shimcha orqali yasalgan forscha nisbiy sifatlardan “g‘azabnok” so‘zi qo‘llanilgan bo‘lib, mazkur so‘z “g‘azabnok” shaklida o‘zbek tilidagi “g‘azabli”, “g‘azabga to‘lgan” kabi ma’nolarni ifodalovchi so‘z va iboralar orqali tarjima qilinadi. Misol tariqasida keltirilgan baytda ham ushbu so‘z xuddi fors tilidagi leksik ma’nosida, ya’ni “g‘azabli” so‘zi o‘rnida qo‘llanilgan. Bu boradagi ushbu fikrimizga asos sifatida iqtibos sifatida keltirilgan mazkur baytning tabdili mazmunini keltiramiz.

Baytning tabdili mazmuni:

Xuddi osmon ajdarhosi joniga qasd qilayotgan odamdek, **g‘azabli** holatda unga yuzlandi.

Navbatdagi baytga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda forscha nisbiy sifatlardan “g‘amnok” so‘zi qo‘llanilgan bo‘lib, bu so‘z ham xuddi shunday yasalgan nisbiy sifatlarga o‘xshab, “g‘am” va “-nok” kabi ikki ma’noli bo‘laklarga, bo‘linadi. Shundan ko‘rinib turibdiki, ushbu so‘z tarkibidagi “g‘am” o‘zak va “-nok” esa qo‘shimcha morfemadir. Shunday ekan, “G‘amnok” so‘zi o‘zagi “g‘am”ni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga “qayg‘u” so‘zi ma’nosida tarjima qilish mumkin. G‘am so‘ziga -nok so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida yasalgan “g‘amnok” so‘zi baytda “qayg‘uli” kabi ma’noni ifodalovchi so‘z sifatida qo‘llanilgan. Mazkur so‘zning ushbu baytida xuddi shunday ma’noni ifodalash uchun qo‘llanilganligini uning tabdili mazmunidan ham anglab olishimiz mumkin.

Mazkur baytning tabdili mazmuni quyidagicha:

U ish yuritishda to‘g‘ri yo‘ldan borib, natijada undan pushaymon bo‘ldi va bu yo‘ldan yurgani uchun ko‘z yosh to‘kib, **qayg‘uli** kishiga aylandi.

Shundan ko‘rinib turibdiki, ushbu baytda qo‘llanilgan “g‘amnok” so‘zi so‘z turkumi jihatidan sifat, gap bo‘lagi nuqtayi nazardan esa sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan.

Bundan tashqari yana shoir ushbu dostoni tilida -no old qo‘shimchasi vositasida yasalgan va “o‘zakda ifoda etilgan narsa yoki xususiyatga ega emaslik kabi ma’noni ifodalovchi forscha nisbiy sifatlar” [Халилов, 1992: 137]ni ham qo‘llaganki, ular asar tilining o‘ziga xos tarzda mukammal va ifodaliligini ta’minlagan. Shunday ekan, biz, “Farhod va Shirin” dostoni tilida qo‘llanilgan va forscha -no old qo‘shimchasi vositasida yasalgan forscha nisbiy sifatlar qatnashgan bir nechta baytni misol tariqasida keltiramiz:

Dedi ul: “Bul ajabvash odamizod,
Ki ko‘rgach oni ko‘nglim bo‘ldi noshod (217-bet).
Ki chopturding o‘n-o‘nbesh pahlavonni,
Ki qilg‘ay talab bir notavonni (218-bet).
Bu ma’nilarki xomamdur raqamkash,
Agar xud kelmayin ta’bing‘a noxush (349-b) [Эркинов, 1989: 217, 218, 349].

Ushbu asardan iqtibos sifatida keltirilgan baytlarning birinchisiga ahamiyat beradigan bo‘lsak, unda tarkibida -no old qo‘shimchasi bo‘lgan forscha nisbiy sifatlardan “noshod” so‘zi qo‘llanilganligini ko‘ramiz. Mazkur so‘z tarkibidagi “shod” so‘zi asl forscha sifat so‘z turkumiga oid leksima bo‘lib, bu so‘z o‘zbek tiliga “xursand” so‘zi ma’nosida tarjima qilinadi. “Shod” so‘ziga -no old qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida yasalgan “noshod” shaklidagi so‘z esa, o‘zbek tiliga leksik jihatidan “xafa” kabi ma’noni ifodalovchi so‘z ma’nosida tarjima qilinadi. Lekin mazkur so‘zni shoir ushbu baytda uning ko‘chma ma’nosida, ya’ni hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol muomalada bo‘lgan forscha o‘zlashma nisbiy sifatlardan bo‘lmish “behuzur” so‘zi o‘rnida qo‘llagan va undan asar baytlarida o‘ziga xos tarzda ma’no ifodalash uchun unumli va o‘rinli foydalangan.

Bizning bu boradagi fikrimizga ushbu baytning tabdili mazmuni ham to‘liq asos bo‘la oladi. Masalan:

Bu odamzod g‘aroyib bo‘lib, uni ko‘rganimda ko‘nglim **behuzur** bo‘ladi, dedi u.

Dostondan keltirilgan iqtiboslarning navbatdagisida ham forscha -no old qo‘shimchasi vositasida yasalgan nisbiy sifatlardan “notavon” so‘zi qo‘llanilgan bo‘lib, bu so‘z fors tilidagi “tavonestan” modal fe’lining hozirgi zamon o‘zagidir. Fors tilidagi “tavoneston” modal fe’li o‘zbek tiliga “qila olmoq”, “qodir bo‘lmoq” kabi ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar orqali tarjima qilinadi [Abdusamatov, 2007: 170]. Shunday ekan, ushbu fe’lning hozirgi zamon o‘zagi “tavon”ga forscha sifat yasovchi old qo‘shimcha -no ning qo‘shilishi natijasida yasalgan “notavon” so‘zi o‘zbek tilidagi “kuchsiz”, “zaif” so‘zlari leksik ma’nosida tarjima qilinadi. Shoir ham mazkur so‘zini ushbu baytda xuddi shunday ma’noni ifodalovchi so‘z o‘rnida qo‘llagan. Biz buni iqtibos sifatida keltirilgan baytning tabdili

mazmunidan ham anglab olishimiz mumkin.

Ushbu baytning tabdili mazmuni:

Sen o‘n-o‘nbesh pahlavonni jo‘natding, ular esa bir **zaif** va **kuchsiz** kishini izlamoqda.

Ushbu baytdagi forscha “notavon” so‘zini asar muallifi so‘z turkumi hamda gap bo‘lagi nuqtayi nazardan o‘z o‘rnida qo‘llanilganki, shu sababli ham mazkur so‘z morfologik jihatidan sifat, sintaktik nuqtayi nazardan sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan.

Bundan tashqari yana asardan iqtibos sifatida keltirilgan baytlarning uchinchisida ham xuddi shu yo‘l bilan yasalgan forscha nisbiy sifatlardan “noxush” so‘zi qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu so‘zining o‘zagi “xush” dir va bu so‘z leksik jihatidan o‘zbek tiliga “yaxshi” so‘zi ma’nosida tarjima qilinadi. Mazkur forscha asliy sifat bo‘lgan “xush” so‘zi oldidan bo‘lishsizlik qo‘shimchasi -no ning qo‘shilishi natijasida yasalgan yasama so‘z “noxush” o‘z-o‘zidan “yaxshi emas”, “yomon” kabi ma’noni ifodalovchi so‘zga aylanadi. Lekin bu so‘z ham mazkur baytda yuqorida keltirilgan ayrim forscha nisbiy sifatlar kabi shoir tomonida ko‘chma ma’nosida qo‘llanilgan.

Bizga ma’lum bo‘lishicha, forscha “noxush” so‘zi so‘z turkumi jihatidan nisbiy sifat bo‘lib, leksik ma’no nuqtayi nazardan “yomon” kabi ma’noni ifodalasa-da, ushbu baytda bu so‘z muallif tomonidan ko‘chma ma’nosida, ya’ni so‘z turkumi jihatidan ravish, gap bo‘lagi nuqtayi nazaridan hol vazifasida kelgan va “mos emas” kabi leksik ma’noni ifodalab keluvchi so‘z sifatida qo‘llanilgan, bu esa mazkur baytga o‘ziga xos bir mazmun bag‘ishlagan.

Bu boradagi fikrimizga asos sifatida ushbu baytning mazmunini keltiramiz:

Ular o‘zlari ta’bimga **mos kelmasalar-da**, bu yozilgan ma’nolar xazinasi qalamimning ishidir.

Bu bo‘yicha yana shuni xulosa qilib aytishimiz lozimki, ushbu maqolamizda Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilida qo‘llanilgan ayrim forscha nisbiy sifatlarning asar baytlarida ifodalagan leksik hamda grammatik ma’nolari asardan iqtiboslar keltirish yo‘li bilan ilmiy-qiyosiy tahlili amalga oshirildi va ular xususida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarildi.

Shuningdek, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilida forscha asliy sifatlarga nisbatan nisbiy sifatlar ko‘proq qo‘llaganligi hamda ular son jihatidan 165 tani tashkil etishi aniqlandi va yana mazkur asar tilida muallif ko‘plab forscha nisbiy sifatlarni o‘zbek tili sifat so‘z turkumiga oid so‘zlarga sinonim yoki ekvivalent tarzida qo‘llab, birinchi navbatda, o‘zbek adabiy tilining ifoda, vazn va qofiya imkoniyatlarini fors tili darajasiga ko‘targanligi va o‘z asari tili misolida o‘zbek adabiy tilida ham “Xamsa” kabi mukammal, til jihatidan rang-barang, jozibador va xalqchil bo‘lgan buyuk asarlar yaratish mumkin ekanligini isbotlab berdi.

Bundan tashqari Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni tilida forscha nisbiy sifatlardan ko‘plab o‘rinli va unumli istifoda etib, ularni asarining syujetini yorqinroq ochib berish, shuningdek, undagi voqealar rivoji va asarning shakl va mazmun mutanosibligini ta’minlashda xizmat qildirganligi, ular esa o‘z-o‘zidan o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibining boyishi uchun katta ahamiyat kasb etganligi aniqlandi.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilida qo‘llanilgan va tahlilga tortilmagan ayrim forscha nisbiy sifatlarni asar tilida ifodalagan leksik hamda semantik ma’nolari hamda ularning qo‘llanish soni bilan birga keltiramiz. Ular quyidagilar:

Rahnavard (3 marta) – chopqir, tez chopar; sho‘rida (5 marta) - qizg‘anchiq, tamagir; shabxez (1 marta) – tetik; tafoxo‘r (4 marta) – maqtanchoq; reza (10 marta) – mayda; sarmast (7 marta) – mast; safo (12 marta) – tiniq, toza; farsuda (eski, chirik; oluda (buzuq, yomon; afkanda (10 marta) – tashlandiq; kirom (kirom) – saxiy; parivash (14 marta) – chiroyli, pariga o‘xshash; bodpo (3 marta) – chaqqon; devonavash (14 marta) – jinni, aqldan ozgan; raxshon (7 marta) – yarqiroq, yaltiroq; siymbar (5 marta) – oq, oq rangli; ravon (10 marta) – tekis, silliq, yuradigan; xasta (19 marta) – kasal; begona (11 marta) – notanish; gulgun (20 marta) – chiroyli; za’faroniy (12 marta) - sarg‘ish; xazoniy (14 marta) – kuzgi; purmakr (5 marta) – makrli, yolg‘on; gulrang (20 marta) – qizil; charxkirdor (3 marta) – aylana; dilxush

(9 mata) – xursand; purnur (4 marta) – nurli; nihoniy (18 marta)n – yashirin; noxush (18 marta) – yomon; dushvor (3 marta) – mashhur; behad (12 marta) – cheksiz, chegarasiz; bedarmon (10 marta) – davosiz; darron (7 marta) – vahshiy; parron (2 marta) – uchar; suxanvar (11 marta) – so‘zamol, gapga usta; diltang (6 marta) – xafa; nopok (21 marta) – yomon.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мухторов З., Ражабов Н. Ўзбек тили тарихини янада чуқур ўрганайлик. – Т; Ўзбек тили ва адабиёти. 1960.
2. Халилов Л., Форс тили. – Т; Ўқитувчи. 1992.
3. Эркинов А., Фарҳод ва Ширин. – Т; Ғофур Ғулом. 1989.
4. Abdusamatov M., Fors tili. – T; Sharq. 2007.

NAVOIYNING TAZMIN-TATABBUNAVISLIK MAHORATI

Mavlonberdi Suyunov,
Xo'jand davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya

Navoiyning "Devoni Foniy"sida tatabbuning masnu, mav'iza, matbu kabi shakllaridan mahorat bilan foydalangani, bu adabiy usulning tazmin-tatabbu shakli ham ko'p qo'llanilgani borasida fikr yuritiladi. Maqolada tazmin-tatabbuning o'ziga xos xususiyatlari, yuksak va go'zal badiiyati borasida xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: *tazmin, mahorat, may, bayt, lirik qahramon, mashuqa, tatabbu.*

Abstract

In Devoni Foni, Navoi used tatabbu forms such as masnu, mawiza, and matbu. The tazmin-tatabbu form of this literary device is also widely used. This article examines the specific features of tazmin-tatabbu, a high and beautiful art.

Keywords: *tazmin, mastery, may, poyem, lyrical hero, lover, tatabbu.*

Navoiyning Hofiz g'azallariga bog'lagan tatabbularida bu adabiy usulning tazmin-tatabbu shakli ham ko'p qo'llanilgan. Bunda Navoiy Hofiz g'azallaridan bir misra yoki bir baytni tazmin qilgan. Ba'zan esa o'zining bir tatabbusida Hofizning tatabbulanmish she'ridan ikki misrani alohida-alohida o'rinda tazmin sifatida keltiradi. Navoiy tatabbularida tazmin sifatida olingan misra yoki baytlar g'azalning turli o'rinlarida berilgan. Bu bilan shoir goh Hofizdan olingan tazminlardagi fikrlarni rivojlantirsa, gohida esa tatabbudagi fikrlarini salafi fikri bilan umumlashtiradi yoki yakunlaydi. Navoiyning Hofiz g'azallariga bog'langan "Biyo, ki arsai mayxona ishratobad ast", "Subhgah mug'bachaam jomi mai rangin dod", "Biyo, ki lashkari day xeli sabza g'orat kard", "Navbahoron ba qadah obi tarabnok andoz", "Bahoron gar ba gulshan tarhi jomu sog'ar andozem", "Tira shudaast chashmam az furqati g'amfizoi tu" singari tatabbularida tazmin usulidan mahorat bilan foydalanilgan.

Tazmin-tatabbularda Navoiy ko'pincha Hofiz g'azalining shohbaytidagi misralarni olgan. Ular asosan salaf g'azalining shohbaytidagi misralar bo'lib, Navoiy ba'zan shohbaytni to'laligicha, ba'zan esa bayt misralarini alohida-alohida tarzda tatabbuning turli o'rinlariga kiritgan. Navoiy tazmin bo'lgan misralarning ko'pchiligini o'zgartirmay qo'llagan bo'lsa-da, ayrim misralarni biroz o'zgartirib ham ishlatgan. Ammo bunda Hofiz misrasidagi fikr tamomila o'zgarib ketmagan. Demak, Navoiy Hofizdan tazmin olar ekan, aynan tazmindagi fikrga ergashmagan. Balki ijodiylikka asoslangan tatabbudagi fikrga tazmin bo'lgan misradagi fikrni muvofiqlashtirgan.

Matbu-tatabbularda Navoiy Hofizning mazmunga tegishli an'analarini rivojlantirgan bo'lsa, masnu-tatabbularda esa she'r badiiyligini kuchaytiruvchi tasviriy vositalarga oid an'analar davom ettirilgan. Navoiy mav'iza-tatabbularda Hofizning axloqiy-ta'limiy qarashlarini va umuman, donishmandona fikrlarini rivojlantirgan. Shu o'rinda qayd etish lozimki, Hofizning ko'pgina g'azallarida matbu, masnu va mav'iza xususiyatlari birlashgan holda aks etgan. Navoiy tatabbularida ham shunday tasvir usuli mavjud. Chunonchi, Navoiyning quyidagi tatabbusini olib ko'raylik:

Bahoron gar ba gulshan tarhi ҷomu sog'ar andozem,
Beh ar in saqf bishkofemu tarhi nav darandozem.
Siyohū gar namoyad g'am, ki sozad vaqti mo tira,
Ba yak barqi shuoi ҷom bunyodash barandozem.
Zi ranoyon durange to ba kay didan dar in bo'ston,
Yake mo ham sharobi lal dar ҷomi zar andozem,
Biyoroyem bar tarfi guliston bazmi shohona,

Zi mastū shoʻru gʻavgʻo dar ravoqi axzar andozem.
Ba raqs orem har soʻ shohidoni shoʻxro, v-on gah,
Ba daston mutribonro niz dar yakdigar andozem,
Gahi mastū shahon gar po nihand az haddi xud berun,
Faridunro sar andozemu Ҷamro afsar andozem.
Bineh zonu gahū maynoʻshi az turkoni yagʻmoū,
Tamoshoi aҷab dar ahli in nuh manzar andozem.
Bad-in oin qadahnoʻshonu pokoʻbonu sarmaston,
Chu rindon xeshro soʻi xarobot andar andozem,
Shabe har kas, ki chun Fonū bad-in son masti xob aftad,
Sazad ҷomi sabuhash, gar ba subhi mahshar andozem [Navoiy, 2002:262].

Agar bahor chogʻida gulshanga jom-u may majlisi tuzsak, bu falak tomini buzib, yangidan bino qilsak, yaxshi boʻlar edi. Gʻam qoralik koʻrsatib, vaqtimizni xira qilsa, bir jom may yashini shu'lasi bilan uning asosini barbod qilamiz. Bu boʻston ra'nolaridan qachongacha ikki ranglikni koʻramiz, biz ham bir marta la'l rangidagi sharobni oltin jomga quyaylik. Gulistonda shohona bazm quraylik, koʻk ravoqqa (falakka) mastlikdan gʻulgʻula solaylik. Shoʻx goʻzallarni har tarafdan raqsga tushirib, soʻngra xonanda-yu sozandalarni ishga solaylik. Mastlik chogʻlarida shohlar hadlaridan oshsalar, Faridunning boshi-yu Jamshidning tojini olib tashlaylik. Gʻoratgar goʻzallar qoʻlidan toʻqqiz bukilib may ichgan chogʻda, bu toʻqqiz falak ahliga ajoyib tomoshalar koʻrsataylik. Shu xilda may ichib mastona raqslar bilan oʻzimizni xarobotdagi rindlar orasiga tashlaylik. Kimki bir kecha Foniydek shu xilda mast uyquga kirsa, tong chogʻida ichadigan mayini qiyomat tongigacha qoldirsak arziydi).

Navoiy tatabbusi Hofizning quyidagi gʻazaliga javobiya tarzida yaratilgan:

Biyo, to gul barafshonemu may dar sogʻar andozem,
Falakro saqf bishkofemu tarhe nav darandozem,
Agar gʻam lashkar angezad, ki xuni oshiqon rezad.
Manu soqū ba ham sozemu bunyodash barandozem.
Sharobi argʻavoniro gulob andar qadah rezem,
Nasimi atrgardonro shakar dar miҷmar andozem.
Chu dar dast ast rude xush, bizan, mutrib, surude xush,
Ki dastafshon gʻazal xonemu pokoʻbon sar andozem.
Sabo, xoki vuchudi mo bad-on oliҷanob andoz,
Buvad, k-on shohi xubonro nazar bar manzar andozem.
Yake az aql melofad, digar tomot mebefad,
Biyo, k-in dovarihoro ba peshi dovar andozem.
Bihishti adn agar xohū, biyo bo mo ba mayxona,
Ki az poi xumat roʻze ba havzi Kavsar andozem,
Suxandonivu xushxoni namevarzand dar Sheroz,
Biyo, Hofiz, ki to xudro ba mulki digar andozem [Hofiz, 2001: 220].

Hofizning bu gʻazali 2001-yilda Tehronda nashr etilgan "Kulliyot"da sakkiz bayt boʻlgani holda, shoirning 1957-yilda Stalinobod (Dushanbe)da chop qilingan "Muntaxabi devon"ida toʻqqiz baytdir. Tehron nashrida tushirib qoldirilgan bayt gʻazal maqtasidan oldin kelgan:

Biyo, ҷono, munavvar kun zi roʻyat maҷlisi moro,
Ki dar peshat gʻazal xonemu dar poyat sar andozem [Hofiz, 1957: 24–25].

Ikkala nashrdagi ayrim baytlar gʻazaldagi oʻrniga koʻra ham bir-biridan farqlanadi. Shuningdek, 1957-yil nashridagi ayrim soʻz oʻrniga 2001-yil nashrida boshqa kalima qoʻllangan. Masalan, "Yake az ishq melofad" jumlasidagi "ishq" soʻzi keyingi nashrda "aql" kalimasi bilan almashtirilgan.

Hofiz gʻazalining shoir Xurshid tomonidan qilingan tarjimasi ham toʻqqiz baytdan iborat.

Kel endi gul sochib har yon, qadah qo'lda o'turgaymiz,
Tuzib charx eski tomin, yangi bir tarh ila qurgaymiz.
Agarda tortsa g'am lashkar to'kishga ishq eli qonin,
Menu soqiy bo'lib birga, bu tashvishni bitirgaymiz.
Qadahni to'ldirib lim-lim qizil gul singari maydan,
Sochib atr, ud tutatgaymiz, ulug' bir bazm qurgaymiz.
Erur qo'lda go'zal cholg'u, yoqimli kuyla, sozanda,
O'qib sheru oyoq raqsini avjiga keturgaymiz.
Sabo, elt jismimiz gardin u yuksak oston sori
Ki, shoyad xo'blar shohi yuzin bir bora ko'rgaymiz..
Biri aqlidan urgay lof, biri doim to'qir yolg'on,
Kel arzu dodimizni endi hokimga gapurgaymiz.
Agar jannat tilarsan, biz bilan mayxonaga yurgil,
Seni xumning tagidan havzi kavsarga yeturgaymiz.
Kel, ey jonon, yuzing nuri bilan majlisni porlatgil,
Qoshingda sher o'qib bu dam, oyog'ingga bosh urgaymiz.
Bilimdonlik va xushxonlik emas Sherozda hech manzur.
Kel, ey Hofizki, biz yuzni bo'lak yurtga o'girgaymiz
[Hofiz, 1985: 31]

Hofiz g'azalining birinchi baytidanoq lirik qahramonning murojaati boshlanadi. Mavjud hayot va jamiyatdan ko'ngli to'lmagan lirik qahramon ko'ngil yozish uchun sahroga, gul sayriga taklif etadi. Baytda uning kimga murojaat qilayotgani noma'lum. Uning murojaatini yorga, do'stga, boshqa oshiqlarga yoki umuman odamlarga qaratilgan deyish ham mumkin. Garchi tashqi jihatdan lirik qahramon asosan mashuqaga qaratilganday tuyulsa-da, ichki jihatdan esa ko'proq o'zi kabi kishilarga qaratilgani seziladi. Baytning ikkinchi misrasidagi fikr shunday deyishga asos beradi.

Unda lirik qahramon falak shiftini buzib, uni yangi tarh bilan qurmoqchiligini ma'lum qiladi. Misradagi "falak" so'zi majozan lirik qahramon yashayotgan zamonani aks ettiradi. Demak, lirik qahramon zamonni o'zgartirmoqchi. Chunki zamon uning talabiga javob bera olmaydi. Aks holda, u zamonni o'zgartirmoqchi bo'lmasdi.

Lirik qahramon donishmand va isyonkor shaxs. U zamonasoz emas. Zamonasoz bo'lganda "Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq" maqoliga amal qilib yashayvergan bo'lardi. Lirik qahramon isyonkor bo'lgani uchun "Zamon senga boqmasa, sen ham boqma zamonga" tarzida ish tutuvchidir. Lirik qahramonning isyonkor bo'lishiga uni g'am ezib yuborganligi sabab bo'lgan. G'amning lashkari bor. Shu bois u g'oyat kuchli. G'am lashkari hamma joyni egallab, barchani qiyin ahvolga solgan. Endi u oshiqlar qonini to'kmoqchi. Ikkinchi baytda shu haqda fikr yuritiladi. Lirik qahramon unga qarshi kurashga otlangan. Bu kurashda u soqiy bilan hamkorlik qilishni istaydi.

Soqiy davralarda may quyuvchi kishidir. Baytda u zohiran shu ma'noda qo'llangan. Botinan esa lirik qahramonning rahnamosi, murshididir. Lirik qahramon u orqali ma'rifatga yetishni istaydi. Agar shunga erishsa, orifga aylanadi. Oriflikka yetish ilohiy haqiqatni anglashdir.

Ilohiy haqiqatni qalbiga joylagan kishi esa g'amdan qutuladi. Shu bilan lirik qahramon uchun zamon ham o'zgaradi. Hayot ham uning ko'ziga g'amli emas, balki go'zal, quvonchli va maftunkor ko'rina boshlaydi. Demak, baytdagi zamonni o'zgartirishga qaratilgan fikr ko'proq insonning o'ziga qaratilgan ekan. Aniqroq qilib aytganda, inson o'zini ruhan poklab kamolotga ko'tarilsa, shodlik mayini ichganday bo'lib g'am-alamlardan qutular ekan. Baytda shunday so'fiyona fikr olg'a surilgan. G'amdan qutulgach shodlik bazmini tuzish mumkin. Lirik qahramon qalbi g'amdan tozalangach, shodlik mayiga ehtiyoj sezadi. Bu may unga shunday quvonch keltirsinki, u abadiylikka mansub bo'lsin. Uchinchi baytdagi bu fikr to'rtinchi baytda davom ettiriladi. Bu baytda cholg'u asboblari, qo'shiq, she'r va raqs ishtirokidagi shodlik bazmiga da'vat etiladi. Bunda ham so'fiyona fikr bor. Musiqa, qo'shiq, she'r va raqs ishtirokidagi bazm samo bo'lib, u kishini vajd holatiga yetkazadi. Vajd paytida odam o'zini butunlay unutadi. Unda ilohiy hol paydo bo'ladi. Natijada odam o'z ruhiyatida yuksak darajadagi quvonch huzurini tuyadi.

Bayt mazmunining botinida lirik qahramonning samo orqali ilohiy visolga intilishi g'oyat go'zal chizib berilgan. Beshinchi baytda lirik qahramon saboga murojaat qiladi. Demak, tiriklikda haqiqiy mahbub, ya'ni Haq yuzini ko'rib bo'lmas ekan, balki o'lgandan keyin ko'rish mumkindir. Buning uchun sabo oshiq tani tuprog'ini uchirib, yor huzuriga yetkazsa kifoya. Biroq shunday bo'larmikin?!

Ma’lum bo‘ladiki, shoir to‘rtinchi baytdagi samo paytida hol tufayli o‘zini unutish visolga to‘la yetkazmasligiga ishora qilib, haqiqiy vaslni istagan oshiq o‘zligidangina emas, o‘zidan ham voz kechishi lozimligiga ishora qiladi. Biroq visolga intilganlarning ko‘pchiligi buni tushunmaydi. Shu sababli birov o‘zining aqli bilan maqtanib, aql orqali yorga yetishni ko‘zlasa, boshqasi esa turli yolg‘onlarni to‘qib, asossiz mo‘jizalardan umidvor bo‘ladi. Bulardan birortasiga ishonmagan lirik qahramon visolga yetkazishi uchun haqiqiy mahbubning o‘ziga murojaat etishga da’vat etadi. Bu bilan shoir Haqqa aql bilan ham, turli karomatlar bilan ham yetib bo‘lmasligini, buning uchun qalb bilan intilish lozimligini ta’kidlaydi. Oltinchi baytda shu haqda fikr yuritilgach, yettinchi baytda undagi fikrlar davom ettiriladi.

Lirik qahramon fikricha, jannatga intilgan u bilan mayxonaga borgani ma’qul. Shoir bu o‘rinda jannatni so‘fiyona talqin etadi. Uningcha, haqiqiy oshiq uchun jannat Haq visolidir. Shu sababli jannatga intilgan mayxonaga borsa, orzusiga erishadi. Baytda mayxona Haq oshiqlari, ya’ni so‘fiylar samo o‘tkazadigan xonaqoh ma’nosida kelgan. Xonaqohga borgan kishi ilohiy ma’rifatdan mast bo‘ladi. Bu mastlik visol darajasi bo‘lib, haqiqiy huzurdir. Diniy jihatdan olib qaraganda esa jannati odamning Kavsar suvidan ichishi o‘ziga xos huzur hisoblanadi. Lekin u oshiqning haqiqiy jamoldan olgan huzuricha bo‘la olmaydi. Demak, shoir yettinchi baytda so‘fiy va zohid intilishini ham g‘oyat nozik qiyoslagan va xulosani o‘quvchining o‘ziga qoldirgan.

Sakkizinchi baytda yor oshiqlar bazmiga da’vat etiladi. Chunki she’r, musiqa, qo‘shiq va raqs bazmni qanchalik shukuhli qilmasin, unga ilohiy jamol nuri tushmas ekan, u huzurli bo‘la olmaydi. Majlis faqat mahbub bilan nurga burkanadi. Chunki faqat u oshiqqa najotkor. Usiz oshiq jonsizdir. Buni mashuq tushunadi. Shunday ekan, u oshiqni qadrlashi lozim. Shoir shundan so‘ng to‘qqizinchi baytda bilimdonlik va xushxonlik Sherozda qadrlanmasligini aytib, boshqa yurtga ketish haqida fikr yuritadi. Aytish lozimki, g‘azalning birinchi baytidagi lirik qahramonning zamonadan noroziligi, undan qoniqmay, uni o‘zgartirmoqchi bo‘lganligining sababi oxirgi baytda o‘z izohini topadi. Demak, odamlarni g‘aflat bosgan, nodonlik shunchalik avj olganki, yuksak ijod mahsullarini hech kim tushunmaydi. Shu sababli buyuk shoir ham, uning yetuk asarlari ham qadrlanmaydi. Shunday ekan, yo zamon va odamlarni o‘zgartirish kerak yoki boshqa yoqqa bosh olib ketish kerak. Ko‘rinadiki, g‘azal g‘oyat chuqur mazmunga ega. Bu uning matbu she’r ekanligini ko‘rsatadi. Biroq unda masnu jihat ham mukammal.

Hofiz g‘azalda she’riy san’atlardan mahorat bilan foydalangan. Chunonchi, birinchi baytda tanosib (may va sog‘ar, falak va saqf), ikkinchi baytda ichki qofiya (angezad – rezad), uchinchi baytda yana tanosib (sharob, gulob, qadah) san’atlari qo‘llangan. Shoir to‘rtinchi baytda tovushlar ohangdoshligini ifodalovchi tavzi’ san’atidan foydalangan. Baytdagi “dast, ast”, “rude, surude”, “rude xush, surude xush”, “dastafshon, xon, poko‘bon” so‘zlarida tavzi’ qo‘llanib, ritmik badiiylikka erishilgan. Shuningdek, baytning birinchi misrasida qaytariq san’atidan foydalanib, “xush” so‘zini ikki marta boshqa-boshqa ma’nolarda qo‘llagan. Beshinchi bayt nido san’ati (saboga murojaat) bilan boshlanadi. Shuningdek, bu baytda takror (andoz –andozem), tavzi’ (nazar – manzar) san’atlari ham bor. Oltinchi baytda ichki qofiya (melofad – mebofad), qaytariq (ovarihoro – dovar), siyoqatul – adad (yake, digar) san’atlari qo‘llanilgan bo‘lsa, yettinchi baytda tavzi’ (biyo bo mo ba mayxona, ro‘ze havzi)dan foydalanilgan. Sakkizinchi baytda ham tavzi’ (jono – moro, ruyat – poyat) ishlatilib, to‘qqizinchi bayt nido (biyo, Hofiz) san’ati bilan yakunlangan.

Masnu usulidan mohirlik bilan foydalangan. Hofiz g‘azalning ayrim o‘rinlarida mav’izani ham qo‘llagan. Darvoqe, g‘azalning oltinchi, yettinchi va to‘qqizinchi baytlarida donishmandona pand-nasihat ohanglari aks etadi. Shoir she’rda mav’izadan foydalanar ekan, me’yorni saqlagan. Agar bunda me’yor saqlanmasa, g‘azal nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lib, uning badiiy ta’sirchanligi kuchsizlanib qolishi mumkin edi. Buni chuqur his etgan Hofiz mav’izaga yo‘g‘rilgan baytlarning badiiyligiga ham alohida e’tibor qaratgan. Shuning uchun ham Hofizning bu g‘azali yetuk san’at namunasi sifatida vujudga kelgan.

Navoiy o‘z tatabbusida Hofiz g‘azaliga munosib javobiya yaratishga intilgan. Avvalo, aytish lozimki, Navoiy tatabbusida Hofiz g‘azalidagi ayrim shakl unsurlari aynan saqlangan. Chunonchi, Navoiy tatabbusi to‘qqiz baytdan iborat. Unda ham “andozem” so‘zi radif bo‘lib kelgan. Navoiy Hofiz she’ri vazni hazaji musammani solim (mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun)ni ham aynan qo‘llagan. Tatabbu va tatabbulanmish qofiyalarida hamohanglik saqlangan. Navoiy hatto Hofiz g‘azalidagi beshta qofiya so‘zlari (sog‘ar, dar, bar, digar, manzar)ni ham tatabbuda takrorlagan. Qolgan beshta qofiya so‘zlarini esa yangilagan.

Hofiz she’rining birinchi misrasi lirik qahramonning kimgadir murojaati va uni gul sayriga da’vat etish bilan boshlangan bo‘lsa, Navoiy tatabbusining birinchi misrasi bahor chog‘ida gulshanda mayxo‘rlik bazmini tuzish orzusini bayon etish bilan boshlanadi. Navoiy talqinicha, lirik qahramonning bu orzusi amalga oshmaydigan bo‘lsa, falak tomini buzib, uni yangidan bino qilish lozim bo‘ladi. Navoiy Hofiz g‘azalining birinchi baytidagi ikkinchi misrani tatabbudagi birinchi baytning ikkinchi misrasiga tazmin qilib olib, olamni o‘zgartirish borasida salafi bilan hamfikr ekanligini namoyish etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy A. MAT (Mukammal asarlar to‘plami) 20 tomlik, 19-tom. – T.: Fan, 2002. 262-b.
2. Hofiz Sheroziy. Kulliyot – Tehron: Nashri zamon, 2001. 220-b.
3. Hofiz Sheroziy. Muntaxab devon. – S.: Nashriyoti davlatii Toҷikiston, 1957. –24–25-b.
4. Hofiz Sheroziy sheriyatidan. – T.: 1985. – 31-b.

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI HAMDLAR TAHLILI

Ziyoda G‘afforova,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o‘qituvchisi
“Shuhrat” medali sohibasi
e-mail: gafforovaziyoda1959@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning “Xamsa”si tarkibiga kirgan birinchi doston bo‘lmish “Hayrat ul-abror”dagi hamdlar tahlil etiladi. Hamdlarning asar g‘oyaviy-badiiy mohiyatidagi ahamiyati, dostondagi o‘rni, hamd boblar kompozitsiyasi va bu boradagi shoir mahorati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Alloh, Muhammad (s.a.v.), Navoiy, “Xamsa”, doston, bob, hamd, na’t, munojot, shafoat.*

Abstract

The article analyzes Hamds, i.e. chapters dedicated to praising God in the first poem of the “Five” by the great Uzbek poet and thinker Alisher Navoi. The place and ideological and artistic significance of hamds in the work, the composition of the hamd chapters, and the poet’s artistic skill in this area are highlighted.

Keywords: *Allah, Muhammad (s. a.w.), Navoi, “Five”, poem, chapter, Hamd, Naat, Munajaat, shafaat.*

Alisher Navoiy asarlari – milliy ma’naviyatimiz, qolaversa, umumbashariy tamaddunning eng mo‘tabar durdonalari yanglig‘ g‘oyat aziz va qadrli. Bu badiiy yodgorliklardagi purma’no g‘oyalar va insonni ma’nan boy etishga qaratilgan jihatlarning targ‘ibi borasida qilingan ishlardan ko‘ra amalga oshirilmagan ishlar ko‘proq.

Musulmon Sharqi dostonchiligida barcha asarlar Allohning madhi bilan boshlangan. Navoiy ham“Hayrat ul-abror”da shu an’anaga amal qilgan holda asarni Alloh hamdi bilan boshlab, bu mavzuga bir necha maxsus boblar bag‘ishlagan.

Doston umumiy kirish bo‘lmish “Basmala”, ya’ni “Bismillohir rahmonir rahim” ifodasining harfma-harf talqini bilan boshlanadi. Keyin shoir qat’iy simmetriyaga amal qiladi. Ya’ni beshta hamd va beshta na’t bob bitadi. Hamdlarning birinchisi, ya’ni dostonning 2-bobi tavhid hamd. Unda Alloh taolo har taraflama ta’rifu tavsif etiladi. 3 – 6-boblar esa – munojot. Ularda shoir lirik qahramoni Yaratganga tavallo-yu iltijolarini aks ettiradi.

“Hayrat ul-abror”ning birinchi bobida “Bismillohir rahmonir rahim” (“Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman”) ning ta’rifi keltirilgan. U shunday boshlanadi:

Bismillohir rahmonir rahim,
Rishtag‘a chekdi necha durri yatim.
Har dur anga javhari jondin fuzun
Qiymat aro ikki jahondin fuzun [Навоий, 1991:7].

Bu parchani taniqli navoiyshunos, professor Muslihiddin Muhiddinov mana bunday tahlil etadi: “Ana shunday durlar tizilgan marjonning ipi esa «jahon-u jon” rishtasidir. Agar bularni biz marjonning xususiyati deb qabul qilsak, uning fazilati boshqa holatda namoyon bo‘ladi. Kimki shu marjonni tasbih etib, ko‘ngil bilan Haq yo‘liga ishtig‘ol (harakat) qilsa, ganji baqoni (abadiylik xazinasini) qo‘lga kiritadi” [Muhiddinov, 2021:405].

Bob davomida “Bismillohir rahmonir rahim”ning har bir harfiga alohida-alohida sharh berilgan.

Istabon, ey xasta Navoiy, navo,
Beyla safarg‘a qilur ersang havo,
Yo‘l yamonu yaxshisidin yema g‘am,

“Bismilloh”, – degil-u, qo‘yg‘il qadam [Навоий, 1991:10], – deb tugatadi shoir bobni.

Dostonning ikkinchi bobi Xoliq hamdiga bag‘ishlanib, u butun olamlardagi har bir zarra Allohga hamd aytishi e’tirofi bilan boshlangan:

Hamd angakim, vojibi bizzot erur,
Homid aning zotig‘a zarrot erur [Навоий, 1991:10].

Shoir Alloh sifatlarini bayon etar ekan, har birining isboti uchun badiiy-mantiqiy dalil-isbotlar ham keltiradi:

Lutfi bila borchag‘a mavjudluq,
Qahridin-o‘q bo‘lg‘usi nobudluq [Навоий, 1991:13].

Dostonning 4-bobi – ikkinchi munojotdan iborat. Unda shoir Allohdan unga imon hamroh etishini so‘ragan:

Ul nafas iymon manga hamroh qil,
Ko‘nglum aro mahvi sivalloh qil [Навоий, 1991:19].

“Navoiy asarlari lug‘ati”da “shafoat” so‘zi “o‘rtada turib vosita bo‘lish” [Навоий, 1972: 693] degan ma’noni anglatadi. Asarning 5-bobi bo‘lib kelgan uchinchi munojotda shoir Allohdan payg‘ambar (s.a.v.) shafoatidan nasib aylashini iltijo qiladi va o‘zini osiy banda yanglig‘ uning ko‘ziga uchratishini munojot qiladi:

Istasa ul qavm xalosini ham,
Ko‘ziga uchrat meni osiyni ham [Навоий, 1991:23].

“Munojot” so‘ziga “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da “yalinish”, “yolvorish” [3:354] deb ta’rif berilgan.

Munojotda lirik qahramon Allohdan najot so‘rab, yolvoradi, iltijolar aylaydi, undan bilib-bilmay qilgan gunohlaridan kechishni, qiyomat kunida mag‘firat etilishini, jannat nasib aylashini so‘raydi. Shu tariqa munojotda shoir o‘z dardini ko‘proq ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Dostondagi oxirgi, ya’ni to‘rtinchi munojotda Allohning bandalari jurm bilan noma qaro bo‘lsalar, ularni nomalarini oqqa aylaytirish u Zot uchun oson ishligi aytiladi:

Jumla jahon ahli xato qilsalar,
Jurm bilan noma qaro qilsalar,
Nomani oq aylamak oson sanga,
Kim yo‘q o‘shul amrda nuqson sanga [Навоий, 1991:24].

Bu munojotda shoir o‘z gunohlari ko‘pligini mana bunday qalamga olgan:

Garchi gunahning hadu poyoni yo‘q,
Aylamasang rahm ham, imkoni yo‘q [Навоий, 1991:26].

So‘nggi munojot yakunida shoir muddaosi bayoni ifodalangan. Lirik qahramonga hur va jannat havasi emas, u uchun Allohning o‘zi bo‘lsa, bas:

Bo‘lsa navo birla bori muhtaram,
Aylama mahrum Navoiyni ham.
Ermas anga hur ila jannat havas,
Sen anga bo‘lg‘ilki, anga ushbu bas [Навоий, 1991:26].

Navoiy “Hayrat ul-abror” boshida o‘zigacha bo‘lgan davr she’riyati an’analariga muvofiq ravishda hamd va na’t bitgan. Asarning oxiridan oldingi 62-bobida doston tuzish an’anasiga zid ravishda yana munojotbitadi. Bu shoirning o‘ziga xos tajdidi, ya’ni novatorligi hisoblanadi. Bobda lirik qahramon, jumladan, dostonda kalomining cho‘zilganidan ham kechirim so‘ragan bo‘ladi:

Yorab, agar bo‘ldi kalomim uzun,
Mundin ham jurm qilibmen fuzun [Навоий, 1991: 311].

Bob yakunidagi mana bu baytlarda shoir lirik qahramoni Allohning rahm qilishi karam ko‘rsatishiga umidvorlik qiladi:

Har nechakim, jurmum erur pech-pech,
Lekin erur rahmating olinda hech.
Kamlik ila necha manga bo'lsa bim,
Sen karam aylakim, erursen karim [Навоий, 1991:312].

Demak, doston "Basmala" ya'ni "Bismillohir-rahmoni rahim" ifodasining batafsil, ya'ni harfma-harf tahliliga bag'ishlangan bob bilan boshlanib, munojot bob va unga ilova qilingan hikoyat bob juftligi bilan yakun topadi.

"Hayrat ul-abror" hamdlarining tahlili Navoiy bu borada o'ziga xos yo'l tutgani, hamdlar asar g'oyaviy-badiiy mazmun-mohiyati bilan chambarchas bog'liqligi, "Xamsa"dagi har bir doston hamdlarning o'rni va ahamiyati bo'yicha alohida-alohida tadqiq etilishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 7. – Т.: Фан, 1991.
2. Навоий асарлари луғати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик. Ж. 2. – Т.: Фан, 1983.
4. Муҳиддинов М. Кўнгил ҳайратлари. – Т.: Tamaddun, 2021.

“VAQFIYA” ASARIDAGI RUBOIYLAR BADIIYATI

Tozagul Dusanova,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent,
Renessans ta’lim universiteti
e-mail: tozagul.dusanova@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy “Vaqfiya” asaridagi nasriy matnlar tarkibida kelgan ruboiylar tahlil qilingan. Ruboiylarning qofiya tizimi, badiiyati va asardagi o‘rni haqidagi mulohazalar berilgan. A.Qayumov, S.G‘aniyeva, B.Valixo‘jayev, N.Jabborov kabi olimlarning qarashlariga munosabat bildirilgan. Ilmiy-nazariy tahlillar asnosida mulohazalar bildirilgan

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Vaqfiya”, she’r, nasr va nazm, janr, masnaviy, ruboiy, she’riy san’at, qofiya.*

Abstract

The article analyzes the rubaiyahs included in the prose texts of Alisher Navoi’s work “Vaqfiya” and presents arguments about the rhyming system, artistic features and the role of rubaiyah in the work. The attitude to the views of such scientists as A. Kayumov, S. Ganieva, B. Valikhodzhaev, N.Jabborov is expressed. Comments were made during scientific and theoretical analyses

Keywords*: Alisher Navoi, “Vaqfiya”, poem, prose and poetry, genre, masnavi, rubai, poetic art, rhyme.*

Alisher Navoiyning ayrim nasriy asarlarida nasr va nazm ham g‘oyaviy, ham badiiy, ham uslubiy jihatdan uzviy bog‘liq holatda qo‘llanadi. Kichik she’riy janrlar nasriy bayonda ma’lum maqsadlarda fikrni dalillash va ta’kidlash uchun xizmat qilgan. Mutafakkirning “Mahbub ul-qulub”, “Munshaot”, “Vaqfiya”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam” kabi nasriy asarlarida she’rning turli nav’laridan (masnaviy, ruboiy, qit’a, fard) foydalanilgan. Har bir nasriy asarda bahs yuritilayotgan mavzuga munosib va muvofiq ravishda ana shunday she’rlar keltirilgan. Alisher Navoiyning o‘zbek tilidagi she’riyati o‘rganilayotgan vaqtda bu manbalardagilar ham nazarda tutilimog‘i ma’qul [Валихўжаев Б, 2002: 90-91].

Navoiyning tarixiy, hujjatli, avtobiografik asari “Vaqfiya”da jamiyat hayotiga oid kuzatishlari, hayotiy xulosalari, davlat rahbariga istaklari, insoniyat haqidagi mushohadalari nasr va nazm uyg‘unligidagi matnlarda berilgan bo‘lib, she’riy parchalar nasriy matnlardagi fikrlarning ta’sir kuchini oshirgan. Asarning muqaddima qismi an’anaviy basmala bilan boshlanib, Alloh madhi bilan davom etadi va nazm sarlavhali 11 baytlik masnaviy shaklida qofiyalangan nazmiy matn keltirilgan.

“She’rlar, asosan, “Vaqfiya”ning muqaddimot qismidadir. Mahdudot qismi faqat oxirgi to‘rt ruboiynigina o‘z ichiga oladi. She’rlar mavzusi ijtimoiy hayot ko‘rinishlari, shoirning ruhiy holati, jamiyatga munosabati, adl-insof, ezgulikka oiddir. Ularda Navoiy ko‘ngliga esh bo‘lgan xalqparvarlik, adolatparvarlik g‘oyalari targ‘ib etiladi. Bu fikrlar navoiyona badiiyat bilan ifodalanadi” [Қаюмов, 2022: 20].

“Yana ul erdikim, ul hazratning qullug‘in irtikob qilurda hech nav’ o‘z g‘araz va maslahatim mutasavvir ermas erdi, balki xos Tengrilik uchun, dag‘i o‘zining muborak xotiri uchun, dag‘i musulmonlar maslahati uchun erdi... Iligimdan kelgancha zulm tig‘in ushotib, mazlum jarohatig‘a intiqom marhamin qo‘ydim. Va iligimdan kelmaganni ul hazrat arzig‘a yetkurdim”. Shoir nasriy matnlar orasida ruboiylar keltiradi va o‘z mulohazalarini quyidagicha nazmlashtiradi:

Maqsud chu shohi dinpanoh o‘ldi manga,
Uqbo sori har ne zodi roh o‘ldi manga.
Majmuini qildim oning ollig‘a nisor,
Bu hujjat uchun Tengri guvoh o‘ldi manga [Навоий, 2011: 649-650].

Ushbu ruboiy “Vaqfiya” asarining tub mohiyatini lo‘nda shaklda ifoda etganligi va Navoiyning asl maqsadlarini aks ettirganligi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Maqsadi dinpanoh shohga xizmat

qilish va el uchun manfaatli ishlar qilish, o‘zining bori-yo‘g‘ini, butun mulkini elga bag‘ishlash jannat sari bir yo‘l ekanligini va bu hujjat uchun Tengri guvoh bo‘lganligini aytib o‘tadi.

*Yuz shukrki, buq’alar **mukammal** bo‘ldi,*
*Vaqfi bu hududkim, **mufassal** bo‘ldi.*
Sekkiz yuz ediyu sekson olti ta’rix
Vaqfiyasi ul kunki, musajjal bo‘ldi [Навоий, 2011: 659].

Ushbu ta’rix- ruboiydan ham ma’lum bo‘ladiki, Alisher Navoiy bu asarni bitganda 40 yoshda bo‘lgan. “Asar garchi “Vaqfiya” deb atalsa-da, Navoiy unda vaqf qilingan mulklari to‘g‘risida juda qisqa – bir-ikki sahifada ma’lumot beradi, qolgan qismi o‘z hayoti haqidagi ma’lumotlardan iborat [Сирожиддинов, Юсупова, Давлатов, 2019: 233].

Asarda nasriy matnlar tarkibida keltirilgan she’riy matnlar orasida ruboiylar salmoqli o‘rin egallaydi. Navoiyning “Vaqfiya” asaridagi 16 ta ruboiydan 1 tasi kirish qismga, 11 tasi asosiy qism – Muqaddimotga, 4 tasi xotima – Mahdudot qismiga kiritilgan. Asarda keltirilgan ruboiylarning qofiyalanish tizimi ikki xil ko‘rinishga ega.

1. Xosa(oddiy) ruboiylar a-a-b-a tarzida qofiyalangan. Bu tipdagi ruboiylarning uchalasi ham qofiyasi raviy bilan tugallangani uchun muqayyad qofiyaga misol bo‘ladi.

*1) Maqsud chu shohi **dinpanoh** o‘ldi manga,* *Uqbo sori har ne zodi **roh** o‘ldi manga,* *Majmuini qildim oning olliga nisor,* *Bu hujjat uchun Tengri **guvoh** o‘ldi manga [Навоий, 2011: 649-650].*	*2) Olam ishidin meni **ma’lul** et, yo rab,* *Faqr emgagi tortarg‘a **hamul** et, yo rab.* *Bu ishki, sening rizong uchun qilmishmen,* *Ham ayni rizo bila **qabul** et, yo rab [Навоий, 2011: 659].*	*3) Yuz shukrki, buq’alar **mukammal** bo‘ldi,* *Vaqfi bu hududkim, **mufassal** bo‘ldi.* *Sekkiz yuz edi-yu sekson olti ta’rix* *Vaqfiyasi ul kunki, **musajjal** bo‘ldi [Навоий, 2011: 659].*

2. “Ruboiyi tarona”, “ruboiyi musarra”lar a-a-a-a-a shaklida qofiyalangan. Alisher Navoiy bu tipdagi ruboiylarni “ruboiya” deb nomlagan [Ҳаққулов. www.ziyouz. com].

“Vaqfiya” asarida keltirilgan ruboiylarning o‘n uchtasi shu tarzda qofiyalangan bo‘lib taronayi ruboiy sanaladi. Asarning na’t qismidan so‘ng olam va odamning yaratilishi haqida Qur’oni karimdagi “Yosin” surasidagi 82-oyat, “Ahzob”surasidagi 72-oyat keltiriladi va tabiatdagilar turfa xildaligi bayon qilinib, quyidagi ruboiy keltiriladi:

*Dehqoni azalki, tuzdi bu turfa **chaman**,*
*Qilmadi aning barcha nabotini **hasan.***
*Bir sari agar ekti gul-u sarv-u **suman***
*O‘zga sari tikti xas-u xoshok-u **tikan** [Навоий, 2011: 634].*

Ma’lumki, Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”, “Vaqfiya” asarlarida dehqonlarga alohida e’tibor qaratadi. Yuqoridagi ruboiyda “n” tovushi raviy bo‘lib kelgan. *Dehqon, chaman, gul, sarv, suman, xas, xoshok, tikan* so‘zlari tanosib san’atini yuzaga keltirgan. 3-misra *Bir sari agar ekti gul-u sarv-u suman va* 4-misra orasida o‘zaro *O‘zga sari tikti xas-u xoshok-u tikan* tazod san’ati voqe’ bo‘lgan.

Aziz Qayumovning ta’kidlashicha, “Vaqfiya”da ruboiylar kitob mavzusi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, asar qahramoni, ya’ni shoirning ruhiy holatini bildiradi. Xurosonda Sulton Husayn hokimiyati barqaror bo‘ldi. Navoiy uzlat xayolida. Shu xayollarini bayon etib bo‘lgach, shoir shunday xulosaga keladi: kishi nimani o‘ylamasin, o‘z taqdiridan chekinishi mumkin emas. Jon varaqida sen nimani tasvir etmoqchi bo‘lsang, taqdir qalami uni o‘zgartirib yuborishga qodir. Shu fikr quyidagi ruboiyda bayon etilgan” [Қаюмов А, 2022: 25].

*Sen jon varaqida buyla aylab **tahrir**,*
*Ul safhada bu naqshni aylab **tasvir.***

Tag‘yir etar ermish oni kilki ***taqdir,***
Taqdir ishiga, rafiqlar ne tadbir *[Навоий, 2011: 642].*

Bu taronayi ruboiyda to‘rtala misra ham o‘zaro qofiyalangan **a-a-a-a** (“tahrir” – “tasvir” – “taqdir” – “tadbir”). Ruboiy qofiyasi “r” raviy bilan tugallangani uchun muqayyad qofiya hisoblanadi. Radif qo‘llanmagan. Ruboiyda muallif *varaq, safha, naqsh, kilk* so‘zlarini keltirib tanosib san’atini qo‘llagan.

Alisher Navoiy - so‘zi hikmat, amali ibrat bo‘lgan donishmand. “Vaqfiya” asaridagi ma’lumotlar mutafakkirning davlat boshqaruvidagi o‘rni, jamiyatdagi nufuzi va mavqeyi bilan ham jamiyatdagi turli tabaqa vakillarini qo‘llab-quvvatlash, insonlarga har tomonlama ko‘mak berish, vatandoshlariga xizmat qilishni oliy qadriyat va saodat deb bilganligining tasdig‘idir.

“Agarchi daryog‘a qatra madadkorlig‘idin sude va yadi bayzog‘a zarra havodorlig‘idin maqsude mumkin va mutasavvar ermas, ammo ul qadar xizmatdakim, xastag‘a quvvat erdi va ul miqdor mulozamatdakim, bu shikastag‘a tengri toqat berdi, jonsiporlik rasmin unutmadim va ehmol va tasohul ravo tutmadim. Chun niyatim gulistonida zarq va riyo xoshoki noyob erdi va xizmatim bo‘stoni sidq va safo sahobidin serob. Har oyinakim, har soat ro‘zgorim dimog‘i o‘zga nav’ nasim fayzidin muattar va har lahza umidim chirog‘i o‘zgacha tarbiyat mash’ali nuridin munaavar bo‘la boshladi to oz fursatda ul hazratning vahyasarlik so‘zi va ilhom xosiyatlik va’dasidek so‘zumga pok maoniy gavhari toj va o‘zumga pok gavharlik ahli maoniy muhtoj bo‘ldi. Xizmatimda ozodalar ishi bandalik izhori va ilayimda sarafrozlar da’bi sarafkandalik atvori”.

Iqbol mutiu baxt ***yovar*** *bo‘ldi,*
Xurshed rahiyu sipehr ***chokar*** *bo‘ldi.*
Olam elidin kimga ***muqarrar*** *bo‘ldi*
Bu martabakim, manga muyassar bo‘ldi [Навоий, 2011: 645]

Shukronalik ruhida yozilgan ushbu ruboiyda Navoiy Sulton Husayn huzurida e’tirof va e’zozga loyiq ko‘rilib, yuqori mavqega ega bo‘lganligini, olam ahli orasida bunday baland martabaga erishganlar kam bo‘lganligi va o‘zining bu martabaga muyassar bo‘lganligini tanosib san’ati asosida go‘zal ifodalaydi. Alisher Navoiy hamisha Sulton Husaynga sadoqat bilan xizmat qilgan. Sulton ham Navoiyning sadoqati va iymonli inson ekanligini qadrlab e’tirof etgan. Z.M.Bobur “Boburnoma”sida ta’kidlaganidek, “Muncha binoyi xayr kim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bolmish bolg‘ay” [Bobur, 2020: 288].

Navoiyshunos olima Suyima G‘aniyeva “Alisher Navoiy nasrida nazmning o‘rni” nomli maqolasida shunday yozadi: “Vaqfiya”da Navoiy Husayn Boyqaro saltanatida davlat ishlariga kirishar ekan, bundan ko‘zda tutgan maqsadlariga to‘xtalib o‘tadi. Bu maqsadlar, asos e’tibori bilan, 6 yo‘nalishda bo‘lib, har birini muayyanlashtirar ekan, Navoiy nasriy bayon so‘nggida bittadan ruboiy berib boradi. Ularning “Vaqfiya”dagi o‘rni, ahamiyati g‘oyat xarakterli. Ularsiz yolg‘iz nasriy bayon asosida Navoiyning davlat arbobi sifatidagi ko‘p qirrali faoliyati haqida to‘la tasavvur paydo qilish mahol. Ruboiylar u yoki bu masalalar, rejalar, tadbirlar yoxud intilishlarga oydinlik kiritish, muallif maqomini yanada yaqqol belgilashga yordam berishi bilan birga, umuman, Navoiyning davlat ishlarini nechog‘liq qiyin vaziyatlarda olib borgani va bunda u o‘z faoliyati hamda ijodining markazida turgan inson, xalq manfaati yo‘lidagi fidoyiligi — bir so‘z bilan aytganda yuksak gumanistik idealiga sodiqligi masalasini hal etishga ham xizmat qiladi” [Ганиева, 2022: 315]

“Chun xirad bulbuli bu navolar tuzdi va tavfiq to‘tisi bu nag‘malar ko‘rguzdi - men haqiri notavon dag‘i aql girihkushoylig‘i va tavfiq rahnamoylig‘i bila ul hazratning qullug‘ida necha nav’ xizmatkim, dunyo sudi andin paydo va oxirat behbudi andin huvaydo bo‘lg‘ay, o‘zumga lozim tuttum va necha nav’ ishkim, xaloyiq duosig‘a bois va holiq rizosig‘a sabab bo‘la olg‘ay, qoshimda muqarrar qildim. Va Tengri inoyatidin bu ishlar borcha muyassar bo‘ldi.

Avval bu erdikim, ko‘ngul kishvaridin ul hazratning g‘ayrining xayolin azl etib, balki ixroj qilib, sidq bulutidin safo yog‘ini bila kishvarini g‘ayr gardidin yub, sulton xayolin bu taxtgohda saltanat masnadiga o‘lturtub, humoyun oti va ro‘zafzun alqobig‘a duoyi xayridin xutba o‘qub va muhabbat dog‘laridin sekka muzayyan qilib, bu iqlimni aning sultoni xayolig‘a musallam tuttum.

R u b o i y:

Har kimki birov ishqiga bo‘lsa dilband,

Jon rishtasidin qilsa keraktur payvand.

Gar g‘ayr xayoli tushsa ko‘ngulga pisand.

Qilmoq kerak ul ko‘ngulni yuz ming parkand” [Навоий, 2011: 647]

Ruboiyda zohiran birovga dili bog‘langan, ko‘ngil qo‘ygan oshiq jon iplari(tomiri) bilan, ya’ni qalban ma’shuqasiga bog‘lanmog‘i kerak, maboda o‘zganing xayolini ko‘ngilga keltirsa, unday ko‘ngilni yuz ming bo‘lakka parchalamoq kerak degan fikr anglashiladi. Shuningdek, nasriy matndagi fikrlarga ham e’tibor qaratsak, ruboiy Navoiyning Sulton Husayn Boyqaroga sadoqati haqida ekanligi ayon bo‘ladi. Ushbu ruboiy ham ruboiyi tarona bo‘lib, muqayyad qofiya usulida qofiyalangan. *Ishq*, *dilband, jon rishtasi, payvand, ko‘ngul* so‘zlari tanosib san’atini; *ko‘ngulga, ko‘ngulni* so‘zlari esa ishtiqoq san’atini hosil qilgan.

Adabiyotshunos olim Nurboy Jabborov “Maoniy ahlining sohibqironi” monografiyasida shunday yozadilar: “Vaqfiya”da Xurosondagi siyosiy hokimiyatning tuzilishi, uning tarkibiy qismlari, davlat xizmatchilarining vazifalari haqida ham qimmatli ma’lumotlar jamlangan. Jamiyatdagi turli tabaqa vakillarining haq va nohaq ishlariga muallifning haqqoniy munosabati ifodalangani jihatidan asar muhim tarixiy qimmatga ega” [Жабборов, 2021: 38].

“Yana ul erdimkim, ul hazratniig davlatidin bovujudi ulkim, jamin tana’umoti jismoiy va murodoti nafsoniyg‘aki, dastrasim balki havasim bor erdi, ammo aning kishvari gulistonining harimi atrofida va mulki bo‘stonining chamani aknofida ko‘rmas nimadin ko‘zumni nargis ko‘zidek ko‘r va eshitmas nimadin qulog‘imni binafsha qulog‘idek kar va tutmas nimadin ilgimni chinor ilgidek shal va bormas yerdin ayog‘imni sarv ayog‘idek lang va aytmas so‘zdin, bataxsis maxfiy asrorekim, gul xurdasi masallik g‘unchadek ko‘nglumda amonat topshurdi - ifshosidin tilimni savsan tilidek gung qildim.

R u b o i y:

Shah xizmatig‘a birovki bo‘lg‘ay moyil,

Ko‘r-u kar-u langu shal keraktur hosil.

Asrorining ifshosida gung aylasa til,

Bu mushkil erur, barchasidin bu mushkil” [Навоий, 2011: 647].

Ruboiyi taronadagi qofiyadosh so‘zlarda “l” tovushi raviy, “i” qisqa unlisi esa ishbo’ bo‘lib kelgan. Ikkinchi misradagi *Ko‘r, kar, lang, shal* va uchinchi misradgi *Asror, ifsho, gung, til* so‘zlari tanosib san’atini; *Ko‘r, kar, lang, shal* so‘zlari birinchi misradagi fikrga oid bo‘lib ta’dil san’atini; Bir xil shakldagi ikki so‘z to‘rtinchi misrada takrorlanib r a d d u l – s a d r i i l a l – a j u z (sadrni ajuzda qaytarmoq) san’atini yuzaga keltirgan.

Ruboiy shoh xizmatini bajarish qoidalarini bildiradi. Oliy hokimiyat egasi bo‘lgan odam bilan yaqin bo‘lish oson emas. Bu xizmat kishidan ko‘p ziyraklik, vazminlik, andisha talab qiladi. Alisher Navoiyga Sulton Husayn saroyidagi ayrim holatlar ma’qul bo‘lmasa-da, munosabat bildirishning iloji yo‘q. Shoh xizmatidagi kishi ko‘rib ko‘rmaganlikka olib, eshitsa ham jim yurishi lozim edi. Albatta, bu Navoiydek iymonli, nafsini har jihatdan yenggan inson uchun oson bo‘lmagan.

Z.M. Boburning “Boburnoma” asarida Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro va farzandlari, sultonning atrofidagi amaldorlar va saroyning ma’naviy muhiti haqida real ma’lumotlar berilgan. “Avval taxt olg‘on mahalda olti-yetti yil toib edi. Andin so‘ngra ichkuga tushti, qirq yilg‘a yovuqkim. Xurosonda podshoh edi, hech kun

yo‘q edikim, namoz peshindin so‘ng ichmagay, vale hargiz sabuhiy qilmas edi, o‘g‘lonlari va jami’ sipohig‘a va shahrig‘a bu hol edi. Ifrot bilan aysh va fisq qilurlar edi” [Bobur, 2020: 276].

Navoiy atrofidagi kishilarning xatti-harakatlaridan norizo bo‘lsa-da, hammasini ichga yutib, do‘sti Husaynni hidoyatga chorlaydi. Asarlarida uning odilligi, shoh bo‘lsa ham qalban darveshligi haqida yozib hushyorlikka undaydi.

“Yana ul erdikim, ul hazratning qullug‘in irtikob qilurda hech nav’ o‘z g‘araz va maslahatim mutasavvar ermas erdi, balki xos tengrilik uchun, dag‘i o‘zining muborak xotiri uchun, dag‘i musulmonlar, maslahati uchun erdi. Bu jihatdin xirad hokimi odil hukmi bila rostlik siyosatgohida g‘araz o‘g‘risini fano dorig‘a osib, insof dor ul-qasosida hirs qaroqchisi bo‘ynin qanoat qilichi bila urub, vujud shahrida muddao qasrini riyozat yomg‘uri bila yiqib, nafsoniyat bog‘ida orzu niholin intiqo’ iligi bila qo‘ngarib, amal mazraida tavaqqu’ xirmanin faqr o‘ti bila kuydurub, ul xirman kullarini fano yeliga sovurdim.

Ruboiy:

To hirs-u havas xirmani barbod o‘lmas:

To nafs-u havo qasri baraftod o‘lmas.

To zulm-u sitam jonig‘a bedod o‘lmas,

El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas” [Навоий, 2011: 647].

Navoiyning adolatparvarlik va xalq uchun qayg‘urish g‘oyalari aks etgan yuqoridagi ruboiyda hirs-u havas barbod, Nafs-u havo yo‘qolmas ekan, zulm-u sitam yo‘q bo‘lmas ekan, El shod bo‘lmaydi, mamlakat esa obod bo‘lmaydi degan ta’kidi o‘z tasdig‘ini topganligini ko‘ramiz. Ruboiyning dastlabki misralaridagi *hirs-u havas xirmani* va *nafs-u havo qasri* birikmalari tanosib san’atini, uchinchi misrasidagi *zulm-u sitam* so‘zlari to‘rtinchi misradagi *shod, obod* so‘zlari bilan tazod san’atini hosil qilgan.

“Vaqfiya”da keltirilgan ruboiylarning barchasiga xos xususiyat shuki, bu janrdagi she’rlarning deyarli barchasida tanosib san’ati qo‘llangan, qofiyasi raviy bilan tugallangan, ya’ni muqayyad qofiyalardir. Jumladan, asar xotimasida keltirilgan quyidagi ruboiyda “r” tovushi raviy bo‘lib kelgan.

*Bu qoidani kimki tuzar, **bor** bo‘lsun,*

*Tengri bori holatda anga **yor** o‘lsun.*

*Kim buzsa, buzuqluqqa **sazovor** o‘lsun.*

Haq la’nat-u qahrig‘a giriftor o‘lsun [Навоий, 2011: 659].

“Vaqfiya” asarining Mahdudot qismi tasvir usuliga ko‘ra Z.M.Boburning “Boburnoma”siga o‘xshash bo‘lib, XV asr ijtimoiy hayotining davlat arboblari faoliyati, iqtisodiy ahvoli va huquqiy ehtiyojlarining tarixiy shohidlaridir. Bu haqda navoiyshunos olim Aziz Qayumov “Vaqfiya”ning mundarijasi haqida to‘xtalib, shunday yozadi: “Ikkinchi bo‘lim Mahdudot (ajratilgan narsalar)da Navoiy o‘z mulkini sanab chiqadi. Ulardan tushgan daromadni madrasa, xonaqoh va fuqaroga sarf etish yo‘llarini ko‘rsatadi. Arbobi vazoifda kimlarga sarf etilishi, ravotibda qilinadigan xayrli ishlar, sharoitda shu ishlarning bajarilishi shartlari ko‘rsatiladi. “Vaqfiya” aytilganlarni rasmiylashtirish qoidalari va yakunlovchi ruboiylar bilan tugallanadi” [Қаюмов, 2022: 13].

“Vaqfiya” asarida keltirilgan ma’lumotlar o‘rganilar ekan, Navoiy nafaqat tilshunos, adabiyotshunos olim, balki fiqh, iqtisod va moliya sohasida ham yetarlicha bilimlarga ega zakiy tadbirkor, adolatparvar davlat arbobi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mas’ul shaxslar va talabgorlar belgilangan maoshga haqli bo‘lsa bo‘lmasa berilavermagan, shartlar bajarilmasa kamaytirilgan yoki vaqf hududidan chiqarib yuborilgan. Shu bilan birga vaqf shartlari bitilgan “Vaqfiya” asarini har o‘ttiz yilda yangilab turishni tavsiya qilgan. Vaqf mulkidan noto‘g‘ri foydalanganlarni qattiq ogohlantirib o‘tgan.

Vaqfiya”ki tortildi base zahmat anga,

To bo‘ldi sharoyit xatidin ziynat anga.

Mashrut ila kim qilsa amal rahmat anga,

Ulkim, munga tag‘yir berur, la’nat anga [Навоий, 2011: 659].

Aziz Qayumov ta’kidlaganidek: “Vaqfiya”dagi she’rlar nasriy mazmunning she’riy sharhidir. Ularning ta’sir kuchi zo‘r. Har bir misrada shoirning ehtirosli qalb ovozi eshitilib turadi. Ularda bayon etilgan kayfiyat, ruh o‘zining samimiyati va haqqoniyligi bilan ana shunday kuch kasb etgan. “Vaqfiya”dagi she’rlar Navoiy nazmining uzviy bo‘lagidirlar [Қаюмов, 2022: 29].

Navoiy ruboiylari, eng avvalo, badiiy asarlardir. Ularda muhim fikr, yuksak g‘oyalar go‘zal badiiy san’atlar, poetik vositalar orqali bayon qilingan. “Vaqfiya” tarkibida kelgan ruboiylarda ham navoiyona uslub, teran tafakkur, poetik mahorat aks etib turadi. Jumladan, to‘rtala misraning ham qofiyalanishi, radif qo‘llanilishi, ruboiyda bir nechta she’riy san’atni uyg‘un holatda qo‘llash singari ohoriyliklar kuzatiladiki, bu shoirning nasriy asarlari tarkibida kelgan she’riy janrlarni ham yuksak mahorat bilan bitganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. – Т.: Фан, 2002.
2. Қаюмов А. “Вақфия”даги шеърлар. Истиқлол даври навоийшунослиги. 1-жилд. – Т.: Зиё, 2022.
3. Alisher Navoiy. Vaqfiya. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 9-jild. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – Б. 648-650.
4. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – T.: Манавият, 2019.
5. Ҳаққулов И.Ўзбек адабиётида рубоий. www.ziyouz. Com kutubxonasi. 6. Қаюмов А. “Вақфия”даги шеърлар. Истиқлол даври навоийшунослиги. 1-жилд. – Т.: Манавият, 2022.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Ijod-Press. – T.: Fan, 2020.
8. Ғаниева С. Алишер Навоий насрида назмнинг ўрни. Истиқлол даври навоийшунослиги. 1-жилд. – Т.: 2022. Fan.
9. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. Монография. – Т.: Манавият, 2021.
10. Қаюмов А. “Вақфия”даги шеърлар. Истиқлол даври навоийшунослиги. 1-жилд. – Т.: 2022.
11.Қаюмов А.“Вақфия”нинг мундарижаси. Истиқлол даври навоийшунослиги. 1-жилд. – Т.: Зиё, 2022.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MIRZO ULUG‘BEK IJODIY FAOLIYATI TALQINI

(*Navoiyshunos olim Nurboy Jabborovning “Maoniy ahlining sohibqironi” kitobi ma’lumotlari asosida)*

Sherxon Qorayev,
Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universitet dotsenti (PhD)

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada Alisher Navoiy asarlarida ulug‘langan tarixda astronom olim sifatida shuhrat qozongan ulug‘ ajdodimiz Mirzo Ulug‘bekning ijodiy faoliyati adabiyotshunos olim Nurboy Jabborovning “Maoniy ahlining sohibqironi” monografiyasi ma’lumotlari asosida yoritiladi. Movarounnahr hukmdori Ulug‘bek nafaqat astronom olim, matematik, balki shoir, adabiyotshunos va adib ham bo‘lgan. Manbalar Ulug‘bekning turli xil ilmlardan xabardor mutafakkir olim bo‘lganini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: *Tazkiralar, “Hofizi Qur’on”, xamsaxonlik, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”, riyoziyot.*

Abstract

This scientific article examines the creative activity of our great ancestor, Mirza Ulugbek, who was glorified in the works of Alisher Navoi and became famous in history as an astronomer and scientist, based on the information from the monograph “Maoni ahli Sahibkirani” by Navoi scholar Nurboy Jabborov. The ruler of Movarounnahr Ulug‘bek, was not only an astronomer, mathematician, but also a poet, literary critic and writer. Sources confirm that Ulugbek was a thinker – scientist with knowledge of various sciences.

Keywords: *Tazkiras, “Hafizi Quran”, Hamsa Khan, “Ziji Jadidi Koragoni”, mathematics.*

Kirish

Mutafakkir podshoh Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek (1394-1449) davri (1409 -1449)da Movarounnahrda fan, madaniyat va adabiyot gullab yashnagan. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da bu haqda shunday yozgan: *“Donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag‘oyat ko‘p erdi. Yetti qiroat bila Qur’oni majid yodida erdi. Hay’at va riyoziyni xo‘b bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog‘ladi va holo aning ziji oroda shoe’dur. Bovujudi bu kamolot goho nazmg‘a mayl qilur erdi* [Navoiy, 1966:250] *”.* Chunonchi, navoiyshunos olim Nurboy Jabborov ham o‘zining “Maoniy ahlining sohibqironi” asarida ham *“Buyuk mutafakkirning “Majolis un-nafois” tazkirasida va boshqa asarlarida, ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek va uning davri adabiyotiga oid qimmatli ma’lumotlar uchrashi, bu ma’lumotlarni tizimga solib ilmiy tadqiq qilish navoiyshunoslik oldida turgan dolzarb vazifa* [Jabborov, 2021:120] *”,* ekaniga to‘xtalgan. Albatta, Navoiy “Hofizi Qur’on” Mirzo Ulug‘bekni “kamoloti bag‘oyat ko‘p erdi” deya, uning turli ilmlardan xabardor mutafakkir zot bo‘lganiga urg‘u bergan. Binobarin, Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, “*olim, odil, g‘olib (va) himmatli podshoh Ulug‘bek Ko‘ragon yulduzlar ilmida osmon qadar yuksalib bordi, maoniy ilmida qilni qirq yordi. Uning davrida olimu fozillar martabasi nihoyat cho‘qqisiga ko‘tarildi.*

(Mirzo Ulug‘bek) handasa ilmida (har qanday) chigallarni echguvchi, hay’at ilmida Majistiykusho erdi. Fozillaru hakimlarning yakdil fikrlari shulki, islomiyat zamonida, (Iskandar) Zulqarnayn zamonidan shu damgacha Ulug‘bek Ko‘ragondek olim va podshoh saltanat taxtiga o‘ltirmagan. U riyoziyot ilmini shu darajada egallagan erdiki, zamonasining (ulkan) olimlari, chunonchi ulamolar va hakimlar faxri Qozizoda Rumiy hamda G‘iyosiddin Jamshid bilan birgalikda yulduzlar ilmiga rasad bog‘ladi. (Lekin) zamonasining bu ikki ulug‘ olimi rasad oxiriga etmay turib vafot etdilar va sulton (Ulug‘bek) bor himmatini bu ishni oxiriga etkazmoqqa sarf qildi. Rasadning qolgan qismini

mirzoning o‘zi poyoniga etkazdi. “Ziji sultoniy”ni kashf etib, uni o‘z ismiga ziynatladi. Bukun bu zij hakimlar nazdida mo‘tabar va amaldadir. Ba’zi (olim) lar uni “Ziji Nasiri Elxoniy”dan ortiq ko‘radilar.

U otasi Shohrux Bahodir hukmronligi davrida Samarqand va Movarounnahrni qirq yil mustaqil idora etdi. Sulton Ulug‘bek saltanatni boshqarish, adlu insofda maqbul yo‘l tutar edi [Davlatshoh, 1981:148]*”.*

Asosiy qism

Valiy shoir Ismatilla Buxoriy “Dar borai Ulug‘bek” qasidasida ham hikmat sohibi bo‘lgan olim temuriyzoda haqida shunday yozgan:

Ulug‘bek sultone, ki az haybati boisash,
Zaru boh amin cho‘yad, ba har shabihi sheru nar.
Chu Suqrotu Buqrot, base chovushu darbon,
Chu Xurshedu Jamshidat, base bandavu chokar.
Zi bahsi tu dar hay’at Arastu shud mulzam,
Zi nutqi tu dar hikmat shud bo‘ Ali mahzar.

(Mazmuni: Ulug‘bek shunday sultondirkim, uning haybatidan barcha nafs qullari erkak sherdan qo‘rqqani kabi omonlik tilaydilar. U Suqrot va Buqrot kabi hikmat eshiklarini ochuvchi, uning eshigida Xurshid va Jamshiddek buyuk shohlar ham banda va askar bo‘lishga yaraydi. Uning hay’atidan Arastu mulzam bo‘ldi. Uning hikmatli nutqidan Ibn Sino mahzar bo‘ldi.)

G‘iyosiddin Jamshid Koshiy 1417 yili Samarqanddan Koshonga otasiga yozgan *maktubida Mirzo Ulug‘bekni “Islom podshohi - donishmand kishidir,” deydi: “Haqiqat shuki, avvalo u kishi Qur’oni Karimning aksariyat qismini yoddan biladi. Tafsirlarni va mufassirlarning har bir oyat haqidagi so‘zlarini aqlda saqlaydilar va yoddan biladilar va arabchada g‘oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishi fiqhdan ancha xabardorlar, mantiq ma’nolarining bayoni va usullaridan ham xabardorlar.*

U kishi riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko‘rsatganlarki, kunlardan bir kuni otda ketayotib, 818 yil rajab oyining o‘ninchi va o‘n beshinchi kunlari orasidagi (milodiy 1415 yil 15-20 sentyabr) dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni aytadilar. Shunga ko‘ra otda ketayotib, xayoliy hisob bilan quyoshning taqvimi o‘sha kuni bir daraja va ikki daqiqa ekanligini topdilar. Keyin otdan tushgach, hisob to‘g‘riligini bu bandai bechora (Koshiy)dan so‘rab, aniqlab oldilar...

Qisqa qilib aytmoqchimanki, u kishi bu fan sohasida g‘oyat katta mahoratga erishganlar, yulduzshunoslikka taalluqli amallarni yaxshi bajaradilar va chuqur dalillar bilan xuddi keragidek isbotlaydilar. “Tazkira” va “Tuhfa”dan shu qadar zo‘r dars o‘tadilarki, ularga hech qanday qo‘shimcha qilishning hojati qolmaydi”.

Ulug‘bek davrining olimlari she’r ham yozishgan. Chunonchi, mutafakkir temuriy shahzoda Ulug‘bek Mirzo Navoiy “Majolis un-nafois”da qayd etganidek, ba’zan she’rlar ham yozib turgan. Quyidagi bayt Mirzo Ulug‘bekka nisbat berib kelingan:

Harchand mulki husn ba zeri nigini tust,
Sho‘xy makun ki chashmi badon dar kamini tust.

(Mazmuni: Go‘zallik mulki qo‘l ostingda bo‘lsada, sho‘xlik qilmag‘ilki, yomonlarning ko‘zi seni kuzatmoqdalar [Navoiy, 1966:250]*).*

Binobarin, manbalarda Ulug‘bekning she’riyat ilmidan yaxshi xabardorligi, shoir Ismatillo Buxoriydan aruz vaznini o‘rganganligi hamda o‘zi ham she’rlar yozganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bu birinchidan. Ulug‘bekning ijodi serqirra bo‘lib, u tarix, she’riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgan. “Temur va Ulug‘bek davri tarixi” kitobida yozilishicha, *“Afsuski, she’rlarining matnlari so‘nggi davrlargacha noma’lum bo‘lib qolayotir. Faqatgina birgina davrimizga yaqin*

zamonda yashagan shoir uning she'rlaridan namuna keltiradi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Ulug'bekning buyuk zamondoshlari adiblar Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiy Mirzoning shoirlik mahoratini yuqori baholaganlar". Adabiyotshunos Vohid Zohidovga ko'ra, *"Ulug'bek she'r yozish bilan mashg'ul bo'lsa-da, adabiyotni sevsa-da, lekin asosan, aniq fanlarni (astronomiya, matematika va h.k.) atroflicha egallaydi, zamonining mashhur astronomlaridan ko'plarini o'z qo'lida saqlaydi, ularga juda katta ham shohona, ham olimona iltifot va muhabbat ko'rsatadi".*

Natija va muhokama. Mirzo Ulug'bek atrofida shoirlarni to'plab, adabiy majlislar o'tkazishni yoqtirgan. Mavlono Badaxshiy, Ismatillo Buxoriy, Sakkokiy va boshqa ko'plab saroy shoirlari Ulug'bek Mirzoning "firdavsmonand" majlislarida doimiy qatnashishgan va o'z she'rlarini ushbu yig'inlarda o'qishgan. Mavlono Sakkokiyning quyidagi baytlari bunga yaqqol misoldir:

Falak yillar kerak sayr etsayu keltursa ilkingga,
Meningtek shoiru turkiyu saningtek shohi dononi.
Hamisha majlising bo'lsun, behishtu guluston rashki,
Nisor etsun qadumungda falak lu-lu loloni.

Adabiy va tarixiy manbalarda temuriy shahzoda huzurida o'tkazilgan adabiy yig'ilishlar haqida ma'lumot olishimiz mumkin. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"sida Mirzo Ulug'bek adabiy majlislarining mazmun-mohiyati to'g'risida shunday yozilgan: *"Ulamoyu fuzalo Sayfiddin Isfarangiy devonini Ulug'bek ko'ragon majlislarida o'qir, uning so'zlarini Asiriddin Axsikatiy so'zlaridan ortiq ko'rar edilar".* "Bundan ma'lum bo'ladiki, Mirzo Ulug'bek saroyidagi adabiy majlislarda Sayfiddin Isfarangiy va Asiriddin Axsikatiy asarlari bir – biriga muqoyasa qilib o'qilgan va bu ikki shoirdan qaysi biri mahorat bobida ustunligi haqida fikr – mulohazalar aytilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, biron – bir shoir ijodi haqida ko'p hollarda Ulug'bekning o'z mustaqil fikri bo'lib, u o'sha davrdagi umum fikri yoki boshqa adabiyot muxlislarining mulohazalariga doim ham mos kelavermagan. Bundan tashqari, Davlatshoh Samarqandiy she'rlari Ulug'bek majlislarida o'qilgan, ota va o'g'il shoirlar: Jamoliddin va Kamoliddin Isfahoniylar haqida shunday yozgan: *"Malik ul – fuzalo Jamoliddin Muhammad Abdurazzoq Isfahoniy Isfahonning akobir va ulamolaridin turur. Shoiri xushgo'y erdi, johu martaba va qabuli tamomi bor erdi va Kamoliddin Ismoil aning o'g'li turur. Sultoni said Ulug'bek Ko'ragon Jamoliddin Muhammadning suxanini Kamoliddin Ismoilning suxanig'a tarjih qilur erdi va borho aytur erdi: "Manga ajab ko'rinurkim, bovujudi otaning suxani pokizaroq va shoironaroq turur* [Davlatshoh, 1981:148]*".*

Mirzo Ulug'bek saroyida "Xamsaxonlik" va "Shohnomaxonlik" o'tkazish an'anaga aylangan edi. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro"sidagi ma'lumotlarga asoslansak, Boysunqur Mirzo Dehlaviyning, Ulug'bek esa Nizomiyning "Xamsa"sini xush ko'rgan. Binobarin, G'ulom Karimiyga ko'ra, *"Tabiiyki, shahzodalar o'rtasida adabiyotga doir bahs va tortishuvlar bo'lib turgan. Bu haqda Davlatshoh quyidagicha yozadi: "Amirzoda Boysung'ur Amir Xusrav Dehlaviyning "Xamsa"sini Shayx Nizomiyning "Xamsa"siga tarjih qilur erdi va xoqoni mag'fur Ulug'bek bahodir bu ma'nini qabul qilmas erdi va Shayx Nizomiyg'a mu'taqid erdi va bu ikki podshohning orasida karrotu marrot taassub hosil bo'lg'on, har birlari bir shoirg'a himoyat bo'lg'on erdi". Ushbu jumlalarni Muhammad Rafe' bir oz o'zgartirib tarjima qilgan bo'lsa-da, umumiy mazmun buzilmagan. Biroq Bo'riboy Ahmedovning "Davlatshoh Samarqandiy" risolasida oxirgi jumla tarjimasida bir qancha xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lib, u o'quvchida aka – uka shahzodalar haqida noto'g'ri tasavvur uyg'otadi: "Shu sababdan bu ikki podshoh o'rtasida ranjish va jirkanish voqe bo'lgan va ularning har biri bir shoirga himoyat qilgan edi". Holbuki, asar asliyatida "ranjish" va "jirkanish" so'zlari umuman mavjud emas. Muqoyasa uchun ushbu jumla asliyatini keltiramiz: "Mobayni in du shahzodayi fozil ba karrot jihati in da'vo taassub dast doda, bayt – bayt "Xamsatayn" ro boham muqobil kardaand". So'zma – so'z tarjimasi: "Bu ikki fozil shahzoda o'rtasida ushbu da'vo yuzasidan ko'p bora qattiq*

tortishuvlar yuz berib, ular birgalikda ikkala "Xamsa"ni baytma – bayt qiyoslab chiqdilar". Demak, ulug' ajdodlarimiz haqidagi nodir ma'lumotlarni o'z ichiga olgan mo'tabar manbalarni tadqiq va tarjima qilish ishlariga halollik va mas'uliyat bilan yondashmog'imiz zarur".

Ulug'bekning ukasi Boysung'ur Mirzo "Shohnoma"ning turli nusxalarini to'plab, asarning ilmiy – tanqidiy matnini tuzdirgan bo'lsa, Mirzo Ulug'bek saroyida "Shohnomaxonlik" o'tkazilgan. "Latofatnoma"da yozilishicha, "*Said Imod Xubonziy fozil va xushta'b kishi erdi. U mana bularni hikoya qiladi: "Mirzo Ulug'bekning majlislaridan birida Firdavsiyning "Shohnoma"si o'qildi. Mirzo undagi ba'zi she'rlarning ma'nosini(echishni) ahli majlisga havola qildi. Movarounnahrlik bir kishi "Shohnoma"ni mirzoga, uning yaqinlari va mahramlariga xush kelmaydigan bir ohangda o'qidi. Mirzo taajjublandilar va men (Xubonziy)ga murojaat qilib, "ushbu so'z aslida qaerdin chiqqan?",deb so'radilar. "Xurosondin chiqqan",-deb javob qildim, movarounnahrliklar mening ziddimni olib, "ha, xurosonliklar o'z majlislarida (bu lafzni) shunday talaffuz qiladilar",-dedilar. Men so'zimni davom etib, "Xurosonda biron she'rni yoki boshqa narsani o'qiganlarida buzib o'qiydilar, masalan, "zafar askan" ("zafar maskani") "so'zini zafarboz" ("zafar o'yini") deb o'qiydilar"- dedim. Mirzo javobimdan mamnun bo'ldilar va kaminaga xos choponlarni in'om qilib, "minba'd mening huzurimda "Shohnoma" bunaqa buzib o'qilmasin!" –deb amr qildilar* [Safiy, 1996:58]*".*

Tarixchi A.Ahmedov Mirzo Ulug'bek qalamiga mansub ilmiy asarlar sonini to'rtta, deb keltirgan.

Ikkinchidan, Ulug'bekning ana shunday ilmiy asarlaridan biri - 1425 yili yozib tamomlangan "To'rt ulus tarixi" ("Tarix-i arba' ulus") asaridir. Bu tarixiy risola tom ma'noda butun temuriylar saltanati egallagan mamlakatlar tarixini ifodalagan. Akademik Bo'riboy Ahmedovning yozishicha, *""Tarix-i arba' ulus" Ulug'bek yaratgan asarlar orasida alohida o'rin tutadi.*

Mashhur tarixchilardan biri Mirzo Muhammad Haydar ham Ulug'bekning tarix ilmi sohasida ham samarali mehnat qilganligini aytadi. Masalan, uning "Tarix-i Rashidiy" nomli yirik kitobida bu haqda mana bularni o'qiymiz: "Donishmand podshoh Mirzo Ulug'bek bir tarixiy asar yozdi va unga "Ulus-i arba'" deb nom qo'ydi. Ulug'bekning shunday asar yozganligini Xondamir va Mahmud Vali ham tasdiqlaydilar.

"Tarix-i arba' ulus"ning nusxalari juda kam. Asarning to'liq nusxasi hali topilganicha yo'q. Bugungi kunda uning qisqartirilgan to'rtta nusxasi saqlangan bo'lib, uning ikkitasi Angliyada, bir nusxasi Hindistonning Bankipur shahri kutubxonasida, to'rtinchi nusxasi AQShning Xarvard universitetida saqlanadi". Asarda nazmiy parchalar ham keltirilgan.

Kamondori turkon ba tiri xadang,

Zirihro kushoda zi ham chashmi tang.

(Mazmuni: Turk kamondorlar xadang o'qi bilan, Sovutning tor ko'zini ochdilar [Ulug'bek, 1994:8]*.)*

Bundan tashqari, "Tavorixi guzida nusratnoma" ("Saylanma solnomalar, g'alaba kitobi) kitobini yozgan noma'lum muallif o'z risolasini bitishda Ulug'bek Mirzo nomidan yozilgan "Muntaxab at-tavorixi shohiy" risolasidan saralab, foydalanganini aytgan.

Uchinchidan, Ulug'bek ibratli voqealarni hikoya qiluvchi rivoyatlar jamlangan risola yozganligi haqida ham ma'lumotlar mavjud.

To'rtinchidan, "Zij"dan tashqari temuriy olim matematik asar - "Bir darajali sinusini aniqlash haqida risola" ham yozgan.

Beshinchidan, uning astronomiyaga oid "Risolai Ulug'bek" deb atalgan asari hozir Hindistondagi Aligarx kutubxonasi qo'lyozmalar fondida saqlanadi, lekin u haligacha tadqiq etilmagan.

Oltinchidan, mashhur "Ziji Ko'ragoniy" ("Ziji Ulug'bek", "Ziji jadidi Gurogoniy") asarida 1080 ta yulduz o'rni o'ta aniqlik bilan aks ettirilgan. Samarqand rasadxonasida olib borilgan kuzatishlar natijasida Ulug'bek 1437 – yili "Ziji Ko'ragoniy" risolasini yozib tugatadi.

Asar nazariy qism hamda rasadxonadagi tadqiqotlar yakuni – Ulug'bek taqvimidan iborat.

Uning bitta qo‘lyozmasi O‘zRFA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Ashraf Ahmadning yozishicha, “Mirzo Ulug‘bek bu asarini qariyb 30 yillik mashaqqatli ilmiy tadqiqotlar va astranomik kuzatishlardan so‘ng 1444-yili yozib tugatgan. Olim o‘zining asarga yozgan muqaddimasida “Zij”ni yozishda unga hamkorlik qilgan va yordam ko‘rsatganlarni quyidagi iliq so‘zlar bilan eslatib o‘tgan: *“Ishlarning boshlanishi hazrat ustozim va sayyidim olamda alloma, fazilat va hikmatlar bayrog‘ini o‘rnatuvchisi, tahqiqot va tadqiqot malaklaridan yurguvchi Qozi Zoda Rumiy deb mashhur bo‘lgan Mavlono Saloh al-Milla vad-din Musa (Unga Allohning rahmati va g‘afroni bo‘lsin) va hazrat mavlono al-a’zam, olamdagi hukamolar iftixori, qadimgi ilmlarning kamoloti, mas’alalar mushkilliklarini kashf etuvchisi, Mavlono G‘iyos al-Milla vad-din Jamshid (Alloh taolo uning qabrini nurafshon qilsin) yordamida bo‘ldi. Ular har birining nurli aql – zakovati donishmandlar aqllari sham’lariga barobar, balki olamdagi insonlar fazilatini akslantiruvchi oynadek edi.*

Ahvol boshida hazrat Mavlono mag‘furi mabrur G‘iyosiddin Jamshid (Joyi jannatda bo‘lsin), “Ajibu da’i-Llah” nidosini eshitib, itoatkorlik bilan ijobat etib, bu dunyo dorulg‘ururidan u dunyo dorussururiga rixlat etdi.

Ish holati asnosida, bu muhim kitob bajarilib tugatilishidan avval hazrat ustozim Qozi Zoda (Alloh taoloning rahmatlari bo‘lsin), parvardigor rahmatiga yaqinlashib payvasta bo‘ldi.

Ammo, ittifoqo farzandi arjumand Ali ibn Muhammad Qushchi umrining yosh yillaridan va gullagan yigitlik fasllaridan beri ilmu fan zamirida ilg‘orlab borayapti va uning tarmoqlari birla mashg‘uldir. Qattiq ishonch va muhaqqiq umid bordurki, buning natijasida uning shuhrati yaqin zamonlarda va eng tez onlarda jahonning atrofu aknoflariga va mamlakatlariga yoyilib, tarannum bo‘lur, insho Alloh al-aziz.

Ilohiy inoyat yordami va uning benihoya fayzu fazilati tufayli bu muhim va mo‘tabar asar oxiriga etkazildi. Yulduzlarning ahvolidan kuzatilgan va imtihon bilan ma’lum bo‘lgan jam’iki narsalar ushbu to‘rt maqoladan iborat kitobga kiritilib, subut tutildi [Ulug‘bek, 1994:3-4]*”.*

Hazrat Alisher Navoiy Samarqand shahrida bo‘lganda, “Ziji Ko‘ragoniy”ni mutolaa qilgan. Vohid Abdullaevning yozishicha, “*Navoiyning Ulug‘bek haqida “Donishmand podshoh erdi, kamoloti bag‘oyat ko‘p erdi, hayat (astronomiya) va riyoziyni ko‘p bilur erdi. Andoqkim, “Zich” bitdi va Rasad bog‘ladi (Rasadxona qurdi) va holo aning “Zich”i aroda sho‘dur” deb yozganlaridan ravshanki, bu ulug‘ olimning “Astronomik tablitsa”si(“Zichi jadidi Ko‘ragoniy”) bilan safdoshlarining kitoblari ham Fazlulloh Abullaysiy shogirdlari(jumladan Navoiyning ham)ning qo‘llaridan tushmaydigan kitoblardan bo‘lgan* [Abdullayev, 1967:9-12]*”. “Ko‘zi oldida osmon past bo‘lgan”* olim temuriyzodani va uning “Ziji”ni nazmiy tarzda Navoiy shunday ifodalagan:.

Shahiki ilm nuri topti zoti,
Ning to hashr qoldi yaxshi oti.
Skandar topti chun ilmu hunarni,
Ne yanglig‘ oldi ko‘rgil bahru barni.
Aningdek saltanat ahli ko‘p erdi,
Qayu birga bu nav’ ish dast berdi?
Iki ming yil o‘tub yuz ming xiradmand,
Bo‘lub hikmatlari birla barumand.
Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek,
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek.
Aning abnoyi jinsi bo‘ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.
Va lek ul ilm sori topti chun dast,
Ko‘zi olinda bo‘ldi osmon past.
Rasadkim bog‘lamish – zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.
Bilib bu nav’ ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi: “Ziji Ko‘ragoniy”.
Qiyomatg‘a dekincha ahli ayyom,
Yozarlar oning ahkomidin ahkom.
Bilik garchi ko‘runur ko‘zga ziynat,
Vale shahlarga bordur o‘zga ziynat.
Va gar ilm ichra bo‘lmay birga qone’,
Baridin bahravor bo‘lsang ne mone’.

Adabiyotshunos olim Nurboy Jabborov yuqoridagi misralarni shunday sharhlagan: *“Olam Ulug‘bekday sultonni ko‘rmagani haqida yozar ekan, ulug‘ shoir uning “abnoyi jinsi” – tengqurlari barchasi dunyodan o‘tib ketganini, davr ahli ulardan birortasini ham yod etmasligini uqtiradi.*

Tengdoshlaridan farqli ravishda ilmga dast topgani bois Ulug‘bekning ko‘zi oldida osmon past bo‘ldi. U qurdirgan rasadxona “zebi jahon”, ya’ni jahonga ziynatdir. Hatto uni jahon ichra yana bir osmon, deyish mumkin. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”si uning osmoniy ilmlarni nechog‘liq yuksak darajada bilishiga dalildir. Bu asarning ahamiyati shu qadar balandki, qiyomatgacha astronomiya ilmi bilan shug‘ullanuvchilar uning ilmiy hukmlariga tayanadilar [Jabborov, 2021:121]*”.* Ma’lumotlarga qaraganda, o‘rta asrlarda yozilgan hech bir astronomik asar bunchalik ommalashmagan.

Hozirgi kunda uning yuzga yaqin forsiy va 15dan ortiq arab tilidagi nusxasi mavjud.

Yettinchidan, Mirzo Ulug‘bek xushnavis xattot ham bo‘lgan. Buxorolik adib Mir Sadr Sharifjon Maxdumning yozishicha, uning kutubxonasida “Ziji Ko‘ragoniy”ning Mirzo Ulug‘bek ko‘chirgan asl nusxasi saqlangan: *“Ul hakim, dono podshohning asarlaridan va ul xusravi olim va tengsiz amaliyotchining o‘z qo‘li bilan yozganlaridan, ya’ni asar muallifi ham va xattoti ham Mirzo Ulug‘bek bo‘lgan asl nusxa (kamina kutubxonasida saqlanmoqda).*

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunosik instituti qo‘lyozmalar fondida Mirzo Ulug‘bekning samarqandlik xattot Azizullo tomonidan nasx xatida taxminan 1439 yilda, Ulug‘bek 45 yoshda bo‘lganida ko‘chirilgan “Ziji Ko‘ragoniy”si saqlanmoqda. Qo‘lyozma sahifalarida Ulug‘bekning tuzatishlari ham bor. Ushbu tuzatishlar uning dastxati, yozuvi haqida ma’lumot beradi”.

Mirzo Ulug‘bek huzurida ilmiy majlislar ham o‘tkazib turilgan.

Xulosa

Muxtasar qilib Navoiy iborasi bilan aytganda, Mirzo Ulug‘bekning “kamoloti bag‘oyat” ekanligi mamlakatda milliy uyg‘onish - Temuriylar davri Renessansi yuz berishiga olib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Majolis – un-nafois. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi ASN, 1966. –B.250.
2. Abdullayev V. Alisher Navoiy Samarqandda. – T: “Bilim” jamiyati, 1967. – B. 9-12
3. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo‘stoni (“Tazkirat ush-shuaro”dan). –T.: G‘. G‘ulom nomidagi ASN, 1981. – B.148-149.
4. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. –T.: Adabiyot, 2021. – B.256.
5. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. Fors tilidan B. Ahmedov, N. Norqulov, M. Hasaniy. – T.: Cho‘lpon, 1994. – B.8.
6. Mirzo Ulug‘bek. Ilmi nujum. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”, 4-kitob. Tarjimon, izohlar muallifi va nashrga tayyorlovchi: Ashraf Ahmad. – T.: Meros, 1994. – B.3-4.
7. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. – T.: Mumtoz so‘z, 2014. – 69-70.
8. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. – T.: Xazina, 1995. – B.242.
9. Qosimov B. Uyg‘ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011. – B.119-128.
10. Qorayev Sh. Mirzo Ulug‘bek adabiy majlislari (Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasi misollari asosida)/“Alisher Navoiy va 21 asr” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent, 2019. – B. 501-503.
11. Qorayev Sh. Temuriylar davrida Samarqand adabiy muhiti (Sulton Ulug‘bek Mirzo saroyi adabiy majlislari misolida)./ Mirzo Ulug‘bek – buyuk mutafakkir olim va davlat arbobi mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy anjuman materiallari to‘plami. –Toshkent, O‘zMU. 2024.– B.112-121.
12. Qorayev Sh. Ulug‘bekxon bilur Lutfiy kamolin/ – Toshkent, “Yangi O‘zbekiston”, 2024 yil 24 sentabr. – №194 (1255). – B.6.
13. Qorayev Sh. Temuriylar davrida Samarqand adabiy muhitining o‘ziga xos xususiyatlari./ “Temuriylar davri tarixi manbashunosligi” mavzusidagi tarix fanlari doktori, professor Omonullo Bo‘rievning 80 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, Fan ziyosi, 2024. – B.109-120.
14. Qorayev Sh. Mutafakkir Mirzo Ulug‘bek va uning «Xamsaxonlik» hamda «Shohnomaxonlik» majlislari/ Scientific approach to the modern education system Conference of Germany. - Berlin, 2024.-P.95-101.
15. Qorayev Sh. Navoiy adabiy majlislari. – Qarshi: “Qashqadaryo ko‘zgusi OAV”, 2019. – B.180.
16. Qorayev Sh. Navoiy majlislari. – Toshkent: Lesson – Press, 2020. – B.312.
17. Qorayev Sh. Temuriylar davri adabiy majlislari (Alisher Navoiy qarashlari asosida). –Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021. – B.262.
18. Qorayev Sh. Temuriy shoirlar tazkirasi. – Qarshi: Intellekt, 2023. – B.262.

ALISHER NAVOIY VA QORAQALPOQ ADABIYOTI RIVOJLANISH BOG‘LIQLIGI

Baxitbay Qutlimuratov,
katta o‘qituvchi,
Nukus davlat texnika universiteti
e-mail: qutlimuratovbaxa@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tezisda turkiy adabiyotning buyuk vakili Alisher Navoiy ijodining qoraqalpoq adabiyoti taraqqiyotiga ta’siri, g‘oyaviy, badiiy va estetik jihatdan bog‘liqligi tahlil qilingan. Navoiy asarlari qoraqalpoq yozma adabiyotining shakllanishida, uning mavzu doirasi va janr tizimining boyishida muhim manba bo‘lgani ilmiy asoslar bilan izohlangan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, qoraqalpoq adabiyoti, chig‘atoy tili, adabiy an’ana, Berdaq, Ajiniyoz, ma’naviyat, komil inson.*

Abstract

This thesis analyses the influence of the work of the great representative of Turkic literature, Alisher Navoi, on the development of Karakalpak literature, its ideological, artistic, and aesthetic connection. It is scientifically substantiated that Navoi’s works were an important source in the formation of Karakalpak written literature, the enrichment of its thematic sphere and genre system.

Keywords*: Alisher Navoi, Karakalpak literature, Chagatai language, literary tradition, Berdakh, Ajiniyoz, spirituality, ideal person.*

Kirish

Sharq adabiyotida, xususan, turkiy xalqlar adabiyotida shoir ijodi yuksak qadrlanadi. Asrlar davomida yonma-yon yashab kelayotgan turkman, tojik, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq shoirlari Navoiyni o‘z ustozlari deb bilishadi. Jumladan, qoraqalpoq adabiyotida shoirga ehtirom alohida. Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq, O‘tesh, Umar, Ayapbergan Musayev singari shoirlar, keyinroq Abbaz Dabilov, Sodiq Nurimbetov, Ibroyim Yusupovlar Navoiy ijod chashmasidan bahramand bo‘lganini ko‘p bora ta’kidlashgan. XIX asr qoraqalpoq adabiyotining yirik siymolaridan biri Berdaq Qarg‘aboy o‘g‘li “Izlar edim” she’rida shunday yozgan edi:

Nawayidan sawat ashtim,
Fizwlidan durler shashtim,
Diluarlardi izler yedim [Quramboyev, 2021:1]

Atoqli qoraqalpoq shoiri Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li Berdaqning shoir sifatida shakllanishi va ijodiy takomilida buyuk o‘zbek shoiri hamda mutafakkiri Alisher Navoiy adabiy merosining juda katta ta’siri bor. “Izlar edim” she’rida “Navoiydan savod och”ganini e’tirof etgan Berdaq bir umr o‘zining buyuk salafidan o‘rgandi, ta’sirlandi, ilhomlandi. Barmoq vaznida ijod qilgan Berdaq she’rlarida bu hayotbaxsh ta’sirning izlari yarq etib ko‘zga tashlanmasa-da, umum ijodiga singib ketganini ko‘rib-bilib turamiz [Quramboyev, 2021: 201].

Shuningdek, Navoiy rivojlantirgan g‘azal, qasida, masnaviy kabi she’riy janrlar qoraqalpoq adabiyotida ham keng tarqalgan. Shoir asarlari qoraqalpoq tiliga tarjima qilinib, adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilgan.

Bosqich	Xususiyatlar	Navoiyning bog‘liq jihatlari
Og‘zaki xalq adabiyoti	Doston, xalq qo‘shiqlari, maqollar; adabiy yozma til yo‘qligi	Navoiyning chig‘atoy tili oldingi turkiy adabiy tillarning shakli bo‘lgan, og‘zaki an’analar bilan bog‘liq bo‘lgan jamiyatda shakllangan
Erta yozma adabiyot (XIX asr)	Ajiniyoz, Berdaq va boshqalar, shoirlik, yozma adabiy asarlarning ko‘payishi	Navoiyning janr, til, poeziya uslubi namunasi sifatida ishlangan
Sovet davri va XX asr	Adabiy til normasi, yozma proza, dramaturgiya, tarjima ishlari, ma’naviy-madaniy rivojlanish	Navoiyning g‘oyaviy merosi, she’riyat an’analari saqlanib qolgan va kengaygan
XXI asr	Adabiyot, til himoyasi, modernizatsiya, adabiy tanqid, ilmiy tadqiqotlar	Navoiyning merosi zamonaviy sharoitda ham o‘rganilmoqda va yangidan ishlanmoqda

Qoraqalpoq adabiyotining dastlabki yozma yodgorliklarida Navoiy tili va uslubi yaqqol seziladi. Shoirlar o‘z asarlarida: Navoiyga xos so‘z boyligi, ramzlar tizimi va tasvir usullaridan foydalanganlar; Aruz vaznini qo‘llash, g‘azal va masnaviy janrlarini davom ettirish orqali o‘z poetik madaniyatlarini shakllantirganlar. Masalan, Berdaq, Ajiniyoz kabi ijodkorlar Navoiy uslubini milliy ruh bilan uyg‘unlashtirib, qoraqalpoq xalqining tuyg‘ularini ifodalashgan. Navoiy ijodining markazida insonparvarlik, adolat, ma’rifat, vatanparvarlik, ilm va axloqqa sadoqat g‘oyalari turadi. Shu g‘oyalar qoraqalpoq adabiyotining shakllanishida asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lgan. Masalan, Berdaqning “Zamonda”, “Xalq uchun” asarlarida xalqning ozodlik va birlikka chaqiruvchi ruhi Navoiy g‘oyalariga uyg‘un; Ajiniyozning falsafiy she’rlarida insonning ma’naviy komillikka intilishi, “odamiylik” tushunchasi Navoiyning “komil inson” haqidagi fikrlari bilan hamohangdir.

Navoiy yaratgan poetik shakllar – g‘azal, qasida, ruboiy, masnaviy qoraqalpoq adabiyotida ham o‘z ifodasini topgan. XIX–XX asrlarda qoraqalpoq shoirlari bu janrlarni milliy ohang, xalqona ruh va og‘zaki ijod unsurlari bilan boyitganlar. Masalan, xalq dostonlari va qo‘shiqlarida Navoiy poetik merosining badiiy ifoda vositalari, tazod, tashbeh, istiora kabi uslublar seziladi.

Gap Navoiy asarlari, xususan, g‘azallari tarjimasi borasida ketar ekan, o‘zlari ham g‘azal janrida ijod qilib, aruzning nihoyatda nozik ritmlarini his qilgan holda, Alisher Navoiy g‘azallarini mahorat bilan qoraqalpoq tiliga tarjima qilgan ijodkorlar: Sharafaddin Ayapov, Jabborbergan Shamuratovlarni alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Ma’lumki, tarjimaning so‘zma-so‘z, qisqartirilgan va o‘zlashtirilgan usullari mavjud. G‘azal janri o‘zining shakliy xususiyatlari, o‘ziga xos ritmi va musiqiyligi bilan ham kishini o‘ziga maftun qiladi. Demak, shunday xususiyatlarning barchasi g‘azalning ikkinchi umri – tarjimalarda ham o‘z ifodasini topgan bo‘lishi shart. Tarjimonlar Daulen Aytmuratov, Ibroyim Yusupov, Abulqosim O‘tepbergenov, Sharofaddin Ayapovlarning mohirona tarjimalari bilan alloma g‘azallarining ikkinchi umri davom etmoqda [Allambergenov, 2024: 486].

Qoraqalpoq adabiyotshunosligida Navoiy asarlarini o‘rganish 1930-yillarda boshlangan. Bu yillarda “Qizil Qaraqalpaqstan” gazetasida Asan Begimovning “Ulli ozbek xalqinin ulli shayiri”, Najim Dawqarayevning “Ulli danishpan shayir” kabi maqolalari e’lon qilindi. Marzag‘ali Daribayev hamda Artiq Shomuratovlar esa “Farhod va Shirin” dostonini tarjima qilishdi. Shu davrlardan shoir she’rlari qoraqalpoq tiliga tarjima qilina boshlagan. 1937–1940-yillarda M.Dariboyev, A.Shomuratov, J.Aymirzayev, N.Japaqovlar uning bir qancha g‘azallarini, “Farhod va Shirin” dostonidan parchalarni o‘girgan bo‘lsalar, 1939-yilda shoirning “Chor devon”idan turkum g‘azallar, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” dostonining ba’zi boblari kitob shaklida chop etiladi. 1968-yilda “Layli va Majnun” dostoni qoraqalpoq sahnasida namoyish qilingan. Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyi Qoraqalpog‘istonda ham keng nishonlanadi. Shu munosabat bilan shoir g‘azallari, “Hayrat ul-abror” dostonidan namunalar B.Qaypnazarov tarjimasida nashr etildi [Ataniyazova, 2024: 469].

I.Yusupov ijodi xalqona ruh, milliy iftixor, insonparvarlik va ma’naviy kamolot g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lib, bu jihatlar Navoiyning adabiy an’analari bilan uzviy bog‘liqdir.

Nawayi g‘azzelin, Fuzuliy so‘zin,
Maxtumquldi oqip ashilg‘an ko‘zim.
Abay, Toktag‘uldı su’yemen o‘zim,
Aytsam, keltiremen gulin-guline [Yusupov, 1995: 60].

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qoraqalpoq olimlari Navoiy asarlarini tarjima qilish, tahlil etish va ularning mahalliy adabiyot bilan aloqasini o‘rganish bilan shug‘ullanishgan. Masalan, “Xamsa” dostonlarining ayrim qismlari qoraqalpoq tiliga tarjima qilingan, “Layli va Majnun” dostoni bo‘yicha adabiy tahlillar olib borilgan. Bu ilmiy ishlar qoraqalpoq adabiy tafakkurini yanada boyitgan.

Xulosa

Alisher Navoiy ijodi qoraqalpoq adabiyoti uchun badiiy, falsafiy va ma’naviy maktab bo‘lib xizmat qilgan. U yaratgan adabiy me’yorlar qoraqalpoq shoirlariga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan, ularning til, janr va g‘oya jihatidan yuksalishiga turtki bo‘lgan. Navoiy merosi qoraqalpoq adabiyotining rivojida uzviy tarzda yashab kelmoqda. U nafaqat o‘tmish, balki bugungi adabiy jarayon bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu bois Alisher Navoiy ijodi qoraqalpoq adabiyotining ildizlarida, ruhiyatida va ma’naviy mazmunida abadiy yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримбой Қурамбоев. Алишер Навоий ва қорақалпоқ адабиёти. 2021. Ziyouz.
2. Quramboyev K. Navoiydan savod ochgan shoir \\ Navoiyning ijod bo‘stonidan ilhomlanib... – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
3. M.A. Ataniyazova. O‘zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalarida Alisher Navoiy ijodi. “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya to‘plami. 2024. 4. I.Yusupov. Begligin’di buzba sen. “Qaraqalpaqstan”, 1995.
5. Anvar Allambergenov. “Jahon navoiyshunosligi: kecha va bugun” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya to‘plami. 2024.
6. Karimboy Quramboyev. Adabiy jarayon. Ijod mas’uliyati. Adabiy aloqalar. – T., “Cho‘lpon”, 2009
7. Ajiniyaz. Tan’lamali shig‘armalari. “Qaraqalpaqstan”, No‘kis. 1988.

KOMILLIK SIRLARI

Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi,
Buxoro Innovatsiyalar Universiteti o'qituvchisi
e-mail: mahbubaahmadova28@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada "Hibatul-haqoyiq" asarining mualifi Ahmad Yugnakiy hamda temuriy shahzoda, Sulton Husayn Boyqaroning o'g'li Shoh G'arib Mirzoning komil insonga xos xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: *"Nasoyimul-muhabbat", Adib Ahmad, "Majolisun-nafois", Shoh G'arib Mirzo, surat, siyrat.*

Abstract

This article examines the qualities of a perfect person, as exemplified by Ahmad Yugnaki, the author of the work "Hibatul-haqoyiq", and Shah Gharib Mirza, the son of the Timurid prince Sultan Husayn Baykara.

Keywords: *"Nasayimul-muhabbat", Adib Ahmad, "Majolisun-nafais", Shah Gharib Mirza, photo, biography.*

Inson ma'naviy jihatdan go'zal, hamida axloq sifatlariga ega bo'lsa-yu, unda jismoniy jihatdan qusurlar bo'lsa, bunday odamni barkamol deb bo'ladimi? Alisher Navoiyning "Nasoyimul-muhabbat"da Adib Ahmad, "Majolisun nafois"da temuriy shahzoda Shoh G'arib Mirzo haqida bitganlari bu savolga mukammal javob bo'la oladi. Ahamiyatiga ko'ra har ikkala asardan zarur o'rinlarni nazardan o'tkazamiz: "Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g'arib nimalar manquldir. Derlarki ko'zlari butov ermishki, aslo zohir ermas ermish. Basir bo'lib, o'zga basirlardek andoq emas ermishki, ko'r bo'lg'ay. Ammo bag'oyat ziyrak va zakiy va zohid va muttaqiy kishi ermish... Haq subhonahu taolo agarchi zohir ko'zin yopiq yaratqondir, ammo ko'ngli ko'zin bag'oyat yoruq qilg'ondir" (Navoiy, 2001:426).

"Majolisun-nafois" ning yettinchi majlisidan o'qiymiz: "Shoh G'arib Mirzo-sho'x tablig' va mutasarrif zehnlik va nozuk taxayyulluq va daqiq taaqqulluq yigitdur. Nazm va nasrda naziri ma'dum va mutaxayyila va hofizada adili noma'lum. Ov va qush xotirig'a marg'ub va qurro va o'qush ko'ngliga mahbub... Devon ham jam' qilibdur. Yaxshi matla'lari bu muxtasarg'a sig'mas, magar yana bir kitob bitilgay" (Navoiy, 1997:170). Hazrat Alisher Navoiy jumlalari "Boburnoma"da berilgan quyidagi ma'lumotlar bilan quvvatlantirilsa, bizni qiziqtirgan savolning yechimi osonroq topiladi: "Yana Shoh G'arib Mirzo edi, bukri edi. Agarchi hay'ati yomon edi, tab'i xo'b edi. Agarchi badani notavon edi, kalomi marg'ub edi. "G'aribiy" taxallus qilur edi, devon ham tartib qilib edi, turkiy va forsiy she'r aytur edi..." (Bobur, 1990:149).

"Hibatul-haqoyiq" muallifining turk elidan ekanligini zikr etgan Alisher Navoiy "Aning ishida g'arib nimalar manquldir" deyish bilan Ahmad Yugnakiyning g'ayb sirlaridan xabardor kishi ekanligiga ishorat etadi. Keyingi jumlada adib ko'zlarining ko'rligi xususidagi ma'lumotdan so'ng o'qiymiz: "Basir bo'lub (ko'rmaydigan bo'lib) o'zga basirlardek andoq emas ermishki, ko'r bo'lg'ay". Ulug' mutafakkir bu izohi bilan Adib Ahmadni hayotdagi boshqa ko'zi so'qir kishilardan farqli tomoniga, ya'ni jismoniy jihatdan ojiz bo'lsa-da, ruhiy kamolotga yetgan inson ekanligiga e'tiborni qaratadi.

Bunda Navoiy mulohazalarining mohiyati xalqimizning "Ko'zi so'qirdan ko'kragi so'qir yomon" maqoli mazmuni bilan yanada oydinlashadi. Imom G'azzoliy uqtiradi: "Basirat nuri suvratlarni emas, ma'nolarni mulohaza qiladi". "Haqqul yaqiyn" sohiblari "moddiy ko'zlardan ko'ra kuchliroq, ravshanroq bo'lgan botin ko'zi ila mushohada yuritadilar"(G'azzoliy, 2003:133).

"Nasoyimul-muhabbat"dan ko'chirilgan navbatdagi ixcham jumlada bir yo'la komil inson axloqiga xos to'rt xususiyat o'z tajassumini topgan:

Ziyrak. Borliqni, hodisalar mohiyatini his etish qobiliyati behad baland shaxs.

Zakiy. O‘tkir aql-idrok, teran tafakkur sohibi, donishmand.

Zohid. Dunyoning o‘tkinchi hoyu havaslaridan kechgan, molu mansab xayolini qalbidan butkul chiqargan, nafsning barcha istaklarini unutgan; ko‘zi, tili, ko‘ngli, qo‘li pok inson.

Muttaqiy. Mazkur sifatning maqomi benihoya yuksak ekanligi Hazrat Alisher Navoiyning quyidagi so‘zlari bilan asoslanadi: “Muttaqii pokrav masjidda mu’takif bo‘lg‘on chog‘i Mus’haf avroqi arosida gul yafrog‘I” (Navoiy, 1998:145). Ulug‘ adib “muttaqiy” sifati bilan ziynatlangan pok qalbli insonni Qur’oni majid sahifalari qatidagi gul bargiga qiyos qiladi.

“Muttaqiy” so‘zi - taqvodor, parhezkor, gunoh ishlardan saqlanuvchi, halol ish tutuvchi ma’nolariga ega (Navoiy, 1972:430). U insonning qalb qal’asini himoya qiluvchi, eng katta va xatarli dushman Shaytonni mag‘lub aylovchi nodir xislatdir.Mavzuning ayni qirrasi “Mahbubul-qulub” da quyidagicha badiiy inkishof etilgan: “Va otang (Odam Ato – M.A.) avlodidin ba’zi anga (Shaytonga– M.A.) intiqom tuzdilar va xoru zabun qilib jafolar ko‘rguzdilar. Nafsni chun **taqvo riyozati** bila zeridast qildilar, Shaytonni zalilliq bila yerga past qildilar” (Navoiy, 1998:159).

“Nasoyimul muhabbat”dan keltirilgan so‘nggi jumlada Alloh “ko‘ngli ko‘zin bag‘oyat yoruq qilg‘ondur” deyish bilan Adib Ahmadning zohiriy ilmlar bilan birga botiniy ilmlarni ham egallagan komil inson ekanligi ta’kidlanadi.

Adib Ahmad shaxsida kuzatilgani kabi “Majolisun-nafois”dan olingan iqtibosda ham Shoh G‘arib Mirzo timsoliga xos qator axloqiy go‘zalliklar – komil inson xususiyatlari aks etgan.

Maslaksiz, subutsiz, mayparast, badfe’l, kibrli, fosiq, sobit shaxsiyatga ega bo‘lmagan shoir na xalqqa va na o‘ziga foyda yetkaza oladi. Alisher Navoiy “Majolisun nafois”da Hofizi Sa’d, Sayid Quroza, Sayid Qutb Lakadang kabi shunday tab’ ahlining achchiq qismati haqida kuyunib xabar beradi. Yana bir illat borki, u har qanday iste’dodli shoiru olimni elda xor aylaydi. Bu barcha tubanliklarning birinchisi – ta’ma. “Majolisun-nafois”ning birinchi majlisidan o‘qiymiz: “Mavlono Sohib Balxiy – bovujudi she’r fanida mahoratlik kishi erdi, advor va musiqiy ilmida komil erdi... Va tab’ida tama’ mufrit uchun... fazoyil el qoshida izzati kamrak edi” (Navoiy, 1997:21). Shuning uchun ham Rasuli Akram (s.a.v.) ummatlarga ta’lim beradilar: “Attamau yuzhibul hikmata min qulubil ulamoi”, ya’ni “Tama qilmoqlik ulamolarning dillaridagi hikmatlarni ketkazadi” (Hadislar, 1991:93).

Shoh G‘arib Mirzo ma’naviy olami go‘zal, xayollari beg‘ubor, “nozuk taxayyulluq” ijodkorlar sirasiga kiradi. So‘z – ilohiy ne’mat. Shunday ekan, ijod zavqi, shoirlik iste’dodi Allohning fazlu marhamati bo‘lib, Haq subhonahu va taolo uni har kimga ham bermaydi. She’r zavqi-zoti pok, qutlug‘ xilqatli, tabiati beg‘ubor kishilarga muyassar bo‘ladigan g‘arib holat. Shoh G‘arib-“hay’ati yomon” va “badani notavon”. Ammo u nasab gavhari, hunar (shoirlik) zevari bilan muzayyan, saodatmand shahzoda.

Xullas, Alisher Navoiy talqinida Shoh G‘arib Mirzo – benazir ijodkor. U – yuksak idrok, zehniyat, daqiq tafakkur va kuchli talant sohibi. Shoh G‘arib Mirzo – chuqur xayol etish va esda saqlash quvvasi, ya’ni hofiza kuchiga ega.

Alisher Navoiy hofiza qobiliyatini inson mukammalligining belgilaridan biri sifatida e’tirof qilgan. Jahongir Amir Temurning uchinchi o‘g‘li, Eron, Eron Ozarbayjoni va Iroq hukmdori Mironshoh Mirzo musohiblaridan biri Xoja Abdulqodir haqida Navoiy yozadi: “Xojaning kamolotidin biri Qur’on hifzi va qiroat ilmi erdi” (Navoiy, 1997:164). Xoja Abdulqodir ana shu iste’dodi bois Temur Ko‘ragon qatlidan omon qolgan: “Xojai faqirni... sudrab taxt ilayiga kelturdilar. Andin burunkim siyosat hukm bo‘lg‘ay,... filhol biyik un bila Qur’on o‘qimoq bunyod qildikim, ul Hazratning g‘azabi lutfqa mubaddal bo‘lub, fazl va kamol ahli sari boqib, bu misra’ni ba vaqt o‘qudikim:

Abdol zi biym chang bar Mus’haf zad.

(Qalandar qo‘rquvdan Qur’onga chang soldi) (Navoiy, 1997:277).

Andin so‘ngra Xojag‘a iltifot va tarbiyatlar qilib, o‘z oliy majlisida nadim va mulozim qildi” (Navoiy, 1997:163-164).

“Majolisun-nafois”ning uchinchi majlisida Mavlono Hiloliyning turk elidan ekanligi qayd qilinar ekan, uning shaxsida nazarga tashlanadigan yetuklik nishonasi quyidagicha ixcham ifoda etiladi: “Hofizasi yaxshidur, tab’i dag‘i hofizasicha bor”(4,86). Alisher Navoiy orzusidagi komil inson Farhod ham shunday fazilat (hofiza quvvati baland) bilan ziynatlangandir:

Agar bir qatla ko‘rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo‘q erdi ul varaqni.
Ne so‘znikim o‘qub ko‘ngliga yozib,
Dema ko‘ngliga, jon lavhiga qozib.
O‘qub o‘tmak, uqub o‘tmak shiori,
Qolib yodida safha-safha bori (Navoiy, 1991:33).

Alisher Navoiy xayolotidagi barkamol shahzoda Farhod siymosida kuzatilgani kabi tarixiy shaxs, shoh Husayn Boyqaroning o‘g‘li – Shoh G‘arib Mirzo uchun ham kitob o‘qish va yod olish tabiiy ehtiyojga aylangan: “qurro va o‘qush ko‘ngliga mahbub”. O‘qish va yod olish umrining mazmuniga aylangan, ijodkor shahzoda Shoh G‘arib Mirzoning ov va qushga rag‘bati esa podshoh xonadonining o‘sha davrdagi urfiyati, an’ana sifatida qabul qilingan tartib-qoida, taomillari bilan izohlanadi.

Ot minish, ov qilish, qush solish, chavgon o‘ynash sirlaridan voqif bo‘lish, rasm-rusumlarini bilish va amalda qo‘llay olish mahoratini egallash shahzodalar uchun shart bo‘lgan. Shundan bo‘lsa kerak, ko‘pgina Sharq pandnomalarida qushchi va ovchilar zikriga alohida fasl va boblar bag‘ishlangan.

Xullas, Alisher Navoiy fikriga ko‘ra insonda tug‘ma, jismoniy nuqson bo‘lsa-da, u ruhiy va ma’naviy jihatdan taraqqiy qilib komillik maqomiga ko‘tarila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – B. 368.
2. Muhammad payg‘ambar qissasi. Hadislar. – Toshkent: Kamalak, 1991. – B. 301.
3. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 8-jild. –Toshkent: Fan, 1991. – B. 544.
4. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 13-jild. –Toshkent: Fan, 1997. – B. 284.
5. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 14-jild. –Toshkent: Fan, 1998. – B. 304.
6. Navoiy A. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik, 17-jild. –Toshkent: Fan, 2001. – B. 520.
7. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972. – B. 784.
8. G‘azzoliy. Ihyou ulumid-din. Birinchi kitob. – Toshkent: Movarounnahr, 2003. – B. 232 .

“MAJOLIS UN-NAFOIS”DA NAVOIY TARJIMAYI HOLI BILAN BOG‘LIQ MA’LUMOT VA TALQINLAR TAHLILI

Ikromjon Choriyev,
Toshkent amaliy fanlar
universiteti magistranti,
e-mail: karkonta1985@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida mutafakkir tarjimayi holi, xususan, Mavlono Riyoziy, Abdusamad Badaxshiy va Kamol Turbatiy kabi o‘ziga zamondosh shoirlarning ijodiga doir fikrlari asnosida o‘zi bilan bog‘liq ma’lumotlarning keltirilishi, ularning Navoiy biografiyasini to‘liqroq shakllantirish, serqirra siymosini yorqinroq tasavvur qilishdagi o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Majolis un-nafois”, tarjimayi hol, Mavlono Riyoziy, Abdusamad Badaxshiy, Kamol Turbatiy, Boburnoma, ma’lumotlar tahlili, navoiyshunoslik muammolari.*

Abstract

This article discusses the inclusion of information related to Alisher Navoi himself in his work Majalis un-nafois, particularly within his assessments of the creative activities of his contemporaries such as Mavlono Riyoziy, Abdusamad Badaxshiy, and Kamol Turbatiy. It also examines the role and significance of these references in forming a more complete biography of Navoi and in enabling a clearer understanding of his multifaceted intellectual personality.

Keywords: *Alisher Navoi, “Majolis un-nafois”, biography, Mawlana Riyazi, Abdusamad Badakhshi, Kamal Turbati, Baburnama, data analysis, problems of Navoi studies.*

Alisher Navoiy hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlarni to‘plash, ular asosida maxsus asarlar yozish yoki manbalarga kiritish mutafakkirning tiriklik mahalidayoq boshlangan edi. Ustozlari, shogirdlari, ixlosmand zamondoshlari va kamol topishida Navoiyning bevosita xizmatlari singgan olimlar boshlagan ishlarni keyingi avlod vakillari ham davom ettirdi. Bu jarayon to hanuzga qadar davom etmoqda. Lekin Navoiy tarjimayi holi bilan bog‘liq eng ishonchli va nisbatan to‘liq ma’lumotlar, albatta, o‘zining asarlarida qayd etilganini alohida qayd etish joiz. Akademik Izzat Sulton ta’kidlaganidek: “Yozuvchining tarjimayi holi – dastavval uning asarlaridir” degan qadimiy haqiqatga amal qilib, Navoiyning adabiy merosida dastavval buyuk san’atkorning o‘z ichki dunyosi aks etgani ko‘zda tutilsa, uning asarlari orqali Navoiyning shaxs sifatida qiyofasini tayin etishga intilish bunday iqrornomani maydonga keltirishda katta yordam berishi mumkin” [Izzat Sulton, 1969: 5]. Navoiyning dunyoqarashi, xulq-atvori, xarakterini to‘liqroq tasavvur qilishda, uning serqirra siymosini yaratishda, ayniqsa, uning nasriy asarlari alohida ahamiyatga ega.

Navoiy o‘zi bilan bog‘liq faktlarni eng ko‘p zikr etgan nasriy asarlaridan biri “Majolis un-nafois”dir. Hatto uning muqaddimasida Navoiy o‘ziga tegishli ma’lumotlarni, ya’ni nomlari keltiriladigan ijod ahliga munosabatini ma’lum qiladi. Qalamga olmoqchi bo‘lgan ijodkorlarning bir qismi o‘ziga zamondosh, ammo ular bilan ko‘rishish, suhbatlashish nasib bo‘lmaganligi, yana bir toifasining esa “xizmatlarig‘a yetgan”ligi, lekin kitob tartib berilayotgan paytgacha dunyodan o‘tganligi va yana aksar qismi esa hayot ekanligini ta’kidlaydi. Ayrim majlislarga qo‘yilgan sarlavhalarda ham zikr etiladigan ijodkorlarning o‘zi bilan bog‘liqlik jihatiga – uchrashgan-uchrashmaganligi, suhbatiga yetishgan-yetishmaganligini alohida urg‘ulaydi. Ijodkorlarning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tafsilotlarda esa Navoiy biografiyasiga oid ma’lumotlar yana ham yorqinroq namoyon bo‘ladi. Quyida asardagi muallif tarjimayi holiga doir ayrim jihatlarga e’tibor qaratamiz.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”ning ikkinchi majlisida zikr qilingan azizlarning kichiklikda va yigitlikda suhbatlariga yetganligi hamda asar bitilayotgan vaqtda olamdan o‘tganligini ta’kidlaydi.

Ushbu majlisda nafaqat Xuroson ijodkorlari, balki Movarounnahr ziyolilari, ijod ahliga ham o‘rin berilgan. “Mavlono Riyoziy samarqandlig‘dur. Mutakabbir va mu’jib kishi erdi. G‘azalni bag‘oyat xub aytur erdi. Jome’ ul-fazoyil va muqavi yud-daloyil kishi erdi va yetti qalam bilan xatni xub bitar erdi va ham mullo va ham hofizki, Qur’oni majidni yetti qiroat bilan bilur va o‘qur erdi va ham kotib va ham shoir va ham maoliy erdi. Ulum fanida hech nimarsa ang‘a majhul qolmas erdi. Bu ma’nig‘a taxallusi dalildurkim, har nimarsakim, xayol qilsa erdi, aytur erdi va der erdi va bog‘lar erdi va xub tasnif qilur erdi. Ilmi musiqiy va advor va nujum va istixroji ramal va g‘ayri zolika hech nimarsadin benasib emas erdi. Bu g‘arro matla’ aningdurkim:

Sitoraest duri go‘shi on hilolabro‘,
Zi ro‘i husn ba xurshed mezanad pahlu.
(**Tarjimasi**: *Ul hilol qoshlining qulog‘idagi inju bir yulduzdir,*
Husn yuzasidan quyoshga yondashib turadi).

Ikki misra’ orasida rabt jihatidin bir “ki” lafzi kerak. Faqir anga dedimki, bu nav’ yaxshiroq bo‘lg‘ayki:

Zi ro‘i husn duri go‘shi on hilolabro‘.
Sitoraestki, bo moh mezanad pahlu.
(Tarjimasi: *Husn yuzasidan ul hilol qoshlining qulog‘idagi inju shunday bir yulduzdurki, oy bilan yondashib turadi).*

Insof yuzidin kerakki, musallam tutsa erdi, jadal bunyod qildi, faqir sokit bo‘ldum. O‘z yoronlari taloshtilar ham qabul qilmadi. Samarqandda favt bo‘ldi” [Navoiy, 1997. T.XIII: 59].

Bundan anglashiladiki, voqea Navoiy Samarqanddalik paytida yuz bergan bo‘lishi mumkin. Birinchidan, Mavlono Riyoziyning samarqandlik ekani aytilmoqda. Asarda asli boshqa shahardan bo‘lib, Hirotga kelib qolgan ijodkorlar, albatta, kelish sabablari izohlangan holda eslab o‘tilgan. Riyoziyda bunday izoh yo‘q. Bu haqda Sh.Sirojiddinov ham ayni fikrni bildiradi [Sh.Sirojiddinov, 2011: 57] Ikkinchidan, “faqir sokit bo‘ldum” deyilishiga qaraganda, Navoiy musofir ekanligi, qolaversa, Riyoziyning “maoliy”, ya’ni e’tiborli, baland martabali kishi ekani, ko‘p ilmlarda peshqadamligini yuzxotir qilgan ko‘rinadi.

Shu o‘rinda Boburning Alisher Navoiy xarakteridagi “nozuk”lik bilan bog‘liq xotiralari yodga keladi. Uning nazokati davlati g‘ururidan emas, “jibilliy”, ya’ni tug‘ma ekanini ta’kidlar ekan, misol sifatida Navoiyning Samarqanddagi hayotini keltiradi: “Samarqandda erkanda ham ushmundoq nozukmijoz ekandur” [Boburnoma 2019: 154]. Bobur bu xulosaga qaysi manbalar yoki voqealarga tayanib kelganiga aniqlik kiritmaydi. Balki Movarounnahr va Xurosondan o‘zining huzuriga kelganlar og‘zidan eshitgan voqea-hodisalar bo‘lishi mumkin. Lekin “Majolis un-nafois”da keltirilgan samarqandlik ijodkorlar bilan bog‘liq xotiralarda buning aksi, ya’ni qaltis vaziyatda “sokit” bo‘lgani, mahalliy ijod ahli bilan oshno tutingani, ularning anjumanlarida ishtirok etib turishi haqida ma’lumotlar bor.

Shunday bo‘lishiga qaramasdan, Navoiy baytning “g‘alat” o‘rnini tez fahmlaydi va e’tiroz bildirishga jur’at qiladi. “Rabt jihatidin bir “ki” lafzi kerak”ligini aytadi va baytning boshqacharoq varianti taklif etiladi. Agar baytning ikkala varianti tahlil qilinsa, Navoiyniki ham shakl, ham mazmun jihatidan mukammalroq ekani oydinlashadi. Boburning Navoiy forsiy nazmiga nisbatan “aksar sust va furudtur” deya bildirgan tanqidiy bahosi noo‘rin ekanligi Riyoziy bilan bog‘liq voqeada ham o‘z isbotini topadi. Chunki Riyoziy forsiygo‘y shoir edi va Navoiy ta’biricha, “g‘azalni bag‘oyat xub aytur erdi”. Bunday shoirga bayt taklif qilish oson emas edi, albatta. E’tibor qilinsa, Navoiy bayti originalida yetishmayotgan “ki” lafzi ham o‘rniga tushadi, Riyoziy yo‘l qo‘ygan mantiqiy xato ham tuzatiladi. Gap shundaki, Riyoziy variantida yorning qulog‘idagi inju yulduzga o‘xshatilib, husn yuzasidan quyoshga yondashib turishi, husn talashishi istioralanadi. Yulduz bilan quyoshning uchrasha olmasligi ularning “yondashib turishi”-ni mantiq so‘rog‘i ostiga qo‘yadi. Voqea tunda yuz berayotgani, kechaning alomatlari “sitora”, “moh” ishtirok etayotgani sababli Navoiy “xurshed”, ya’ni quyosh obrazini o‘zi taklif etgan baytda qo‘llamaydi.

Ilmi nujumdan “benasib emas”ligi, taxassulisi egallagan ko‘p ilmlariga dalil ekanligiga qaramay Riyoziy she’r ilmida, aruz bobida Navoiydan ustun emas edi. Lekin “mutakabbir va mu’jib kishi”ligi yosh va musofir shoir tomonidan bildirilgan haqli e’tirozni qabul qilishiga yo‘l qo‘ymadi va bu voqea “Majolis unnafois” orqali keyingi avlodlarga ham ma’lum bo‘ldi. “So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini, Ko‘rma kim der ani, ko‘rg‘ilkim, ne der!” kabi hikmatlar mana shunday hayotiy saboqlar natijasida dunyoga kelgan deyish mumkin. Mazkur voqeadan Navoiyning nafaqat turkiy, balki forsiyda ham katta shoirligi, nuktadon she’rshunosligini anglaymiz. Qolaversa, har qanday sharoitda to‘g‘ri so‘zni aytishdan hayiqmagani, haqparastligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Navoiyning bu fazilatlari “Makorim ul-axloq” va shoir hayoti, ijodi haqidagi ko‘p manbalarda aniq hayotiy misollar yordamida ochib berilgan.

Navoiy she’r majlislarida turli yosh va iqtidordagi shoirlarga o‘rinli tanbeh va tuzatishlar berib turgani “Majolis un-nafois” majlislarida o‘rni bilan eslab o‘tiladi. Bu haqli e’tirozlarga yuqoridagi kabi “jadal bunyod qil”ganlar ham, “izhori minnatdorlig‘” qilganlar ham bo‘lgan. Ikkinchi majlisda tilga olingan shoirlardan Mavlono Abdusamad Badaxshiy ana shunday ijodkorlardan biri edi. “Mavlono Abdusamad Badaxshiy ham Badaxshondindur. Sulton Abusaid Mirzo zamonida Hiriga keldi. Podshoh anga o‘z tarixin buyurdi. Masnaviygo‘y va musannif kishi erdi. Bir baytida tajnis xayol qilib, qofiyasin g‘alat qilib erdi, faqir ani voqif qilg‘ach, filloh mutanabbih bo‘ldi va izhori minnatdorlig‘ ham qildi va bu ish aning bila faqir orasida oshnoliqqa sabab bo‘ldi” [Navoiy, 1997. T. XIII: 44-45].

O‘z xatosidan xabardor bo‘lgach, darhol tuzatgan va buning uchun Navoiyga minnatdorchilik bildirgan shoir u bilan “oshno” – do‘st bo‘lib qolgan. Navoiy o‘z zamonasining g‘oyatda iste’dodli shoiri, ayni paytda she’r qonuniyatlari bilimdoni bo‘lgani bois undan munosabat kutish, e’tirof eshitish o‘sha davr ijodkorlarining hammasi uchun katta sharaf, ulkan rag‘bat edi. Hatto ustozi Abdurahmon Jomiy ham uning maslahatlariga quloq solgani, yozgan narsalarini Navoiyga ko‘rsatib, fikr olgani buning dalilidir.

“Majolis un-nafois”ning ikkinchi majlisida tilga olingan shoirlardan Shayx Kamol Turbatiy bilan tanishuv ham g‘aroyib tarixga ega. Navoiy uni “ko‘p diqqatlik, tab’lik kishi erdi. Xoja Hofiz g‘azallaridin ko‘p muxammas qilibdur. Xurosonning muttaayyin, rangin zurafosidin erdi”, deb ta’riflaydi. Shundan so‘ng bu mo‘ysafid shoir bilan qanday tanishganini so‘zlaydi: “Faqirning ani ko‘rarga ko‘p orzum bor erdi, oshnolig‘ bu nav’ voqea bo‘ldikim, Sulton Abu Said Mirzo zamonida Mashhadda g‘arib va xasta bir buq’ada yiqilib erdim. Qurbon vaqfasi bo‘ldi, olamning aqso bilodidin xalq imom ravzasi tavofig‘a yuz qo‘ydilar. Rasmdurkim, musofirlar muttaayyin buq’a gashtiga ham borurlar, ul buq’adakim, faqir yiqilib erdim, jamoati mavolivash el sayr qilib, devorda bitilgan abyotni o‘qib, bir bayt ustida bahsga tushtilar. Bir ulug‘roq kishikim, ul jamoat anga tobe’ erdilar, ul jamoatni ilzom qildi. Faqir za’f holida ul jamoat jonibidin so‘z ayttim. Anga dedilarkim: bu bemor yigit ham bir so‘z aytadur. Ul ulug‘roq kishi xud Shayx Kamol ermishkim, ziyoratga kelgan ermish, boshim ustiga kelib, mabhasni orag‘a soldi. Faqir javob bergach, o‘z so‘zidan qaytib, tahsinlar qilib, holimni tafahhus qildi. Ersa ul ham faqirni eshitgan ekandur va ko‘rar havasi bor ekandur. Xushvaqt bo‘lub diljo‘ylug‘lar qilib, qoshimda o‘lturdi... Manziliga borib, tuhfa va tabarruk va savg‘ot yo‘suni bila yubordi va to anda erdi, doyim kelur erdi. Shayx bila oshnolig‘ taqribi bu nav’ voqe’ bo‘ldi” [Navoiy, 1997. T. XIII: 40-41].

Shayx Kamol Turbatiy bilan tanishuv tafsilotidan ma’lum bo‘ladiki, Navoiy adabiyot, san’atga hech qachon befarq bo‘lmagan. Har qanday sharoitda munosabat bildirishga o‘zida kuch topgan. Xasta bo‘lib yotishiga qaramasdan bayt ustidagi bahsga qo‘shiladi. Inobatli dalillar keltirilgan bo‘lsa kerakki, shayx o‘ziga tobe jamoatni fikriga ko‘ndirib bo‘lgan, hatto ularni “ilzom” – mulzam qilgan bo‘lishiga qaramasdan, bemor yotgan yigitning so‘ziga quloq tutadi, o‘z so‘zidan qaytib, qarshi fikrni qabul qiladi. Agar Navoiyning Mashhaddagi hayoti akademik Sh.Sirojiddinov aniqlaganidek, 1457–1464-yillarni o‘z ichiga olgan 7 yillik davr bo‘lsa, Turbatiy bilan bo‘lgan bahs Navoiyning 16–23 yosh oralig‘idagi paytga to‘g‘ri keladi. [Sh.Sirojiddinov, 2011: 46] “Sulton Abu Said Mirzo

zamonida Mashhadda g‘arib va xasta bir buq’ada yiqilib erdim”, deyilishiga qaraganda, bu voqea Navoiyning Mashhaddagi ikkinchi muqimlik davri bo‘lishi ham mumkin. Nima bo‘lganda ham zikr etilmish hodisa Navoiyning juda erta mashhurlik kasb etgani, yigitlik davridayoq o‘z zamonasining keksa shoirlari e’tirofiga sazovor bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayni holni Navoiyning Lutfiy bilan uchrashuvi voqeasida ham ko‘rishimiz mumkin.

Navoiy o‘z tarjimayi holi bilan bog‘liq ma’lumotlarni asarlarida ko‘p tilga olavermaydi. Albatta, uning hasbi hol janridagi asarlari, maktublari va boshqa nasriy bitiklarida o‘zi bilan bog‘liq ma’lumotlar uchraydi. Nazmiy asarlarida esa ko‘proq shoirning kayfiyat va ruhiyatini ifodalovchi xususiyatlar ustuvor. Shu vaqtga qadar Navoiy biografiyasini yaratishda, shubhasiz, katta ishlar amalga oshirildi, o‘z asarlari va hozircha fanga ma’lum manbalar asosida uning tarjimayi holi yaratildi. Akademik Sh.Sirojiddinov mazkur manbalarning qiyosiy-tipologik va tekstologik tahlilini amalga oshirib, juda ko‘p masalalarga oydinlik kiritdi. Lekin Navoiy siymosi, o‘ziga xos xarakterini kashf etishda asarlaridagi ma’lumot va talqinlarni sinchiklab o‘rganish, boshqa manbalar bilan qiyoslab tadqiq qilish navoiyshunoslik oldidagi dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to‘plami. Nashrga tayyorlovchi S.G‘aniyeva. – T.: Fan, 1997. T. XIII.
2. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969.
3. Shuhrat Sirojiddinov. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili /Sh.Sirojiddinov. – T.: Akademnashr, 2011.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Fan, 2019.
5. V.Abdullayev. Navoiy Samarqandda. – T.: Adabiyot va san’at, 1968.

ALISHER NAVOIY IJODIDA FANO VA ISHQ KONSEPSIYASI

Xo'jayeva Shoiraxon Baxtiyor qizi,
ToshDO'TAU doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: shoiraxon24@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola Alisher Navoiy ijodida fano masalasining ishq konsepsiyasi bilan uzviy bog'liqligini yoritishga bag'ishlanadi. Unda shoir poetikasida fano va ishq o'rtasidagi munosabat Qur'oni karim oyatlariga tayanuvchi ma'naviy asoslar nuqtayi nazaridan sharhlanib, fanoning estetik mohiyati hamda tasavvufiy gnoseologiyadagi o'rni tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada fanoning ramziy talqini Navoiy g'azallari asosida tasavvufiy-estetik va falsafiy jihatdan tadqiq qilinib, vujud, shavq, adam, junun kabi tasavvufiy istilohlarning badiiy-falsafiy mazmuni izchil ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *fano, ishq, tasavvuf, vujud, shavq, adam, junun, ma'rifat, badiiy ramz, estetik talqin.*

Abstract

This article is devoted to exploring the intrinsic connection between the concept of fana and the concept of ishq in the works of Alisher Navoi. It examines the relationship between fana and ishq in the poet's work from the perspective of spiritual foundations grounded in the verses of the Qur'an, analyzing both the aesthetic essence of fana and its place in Sufi gnoseology. Furthermore, the article investigates the symbolic interpretation of fana in Navoi's ghazals from a Sufi-aesthetic and philosophical perspective, systematically revealing the artistic-philosophical meanings of Sufi terms such as vujud, shavq, adam, and junun.

Keywords: *fana, ishq, Sufism, vujud, shavq, adam, junun, gnosis, artistic symbol, aesthetic interpretation.*

Alisher Navoiy turkiy adabiyotda ilohiy ishq va ma'rifatning badiiy-estetik talqinini yuksak darajada ifodalagan ijodkorlardan biridir. Uning asarlarida fano, ya'ni insonning o'z "men"idan kechib, ilohiy haqiqatda yo'q bo'lish holati ishq konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liq tarzda talqin qilinadi. Tasavvufiy an'anaga ko'ra, fano solikning ruhiy sayrida eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, u insonning nafsdan xalos bo'lishi, g'urur va o'zlik pardalarining ko'tarilishi, Haqning tajallisini mushohada etish imkoniga yo'l ochuvchi ma'naviy maqom sifatida qaraladi. Navoiy aynan shu jarayonni badiiy ramzlar, poetik ishoralar va tasavvufiy istilohlar vositasida estetik darajada jonlantiradi.

Navoiy she'riyatida fano bilan ishqning bog'liqligi nafaqat nazariy, balki amaliy-ma'naviy tajriba nuqtayi nazaridan ham o'ziga xos tarzda yoritiladi. Shoirning "vujud pardasini fano o'tida yoqish", "jon berib ishqni topish", "adam dashtida yo'qolish" kabi obrazlari solikning ruhiy holatlarini nafosat bilan ifodalaydi. Navoiy talqinida fano oddiy yo'qolish emas, balki ruhiy yuksalishning oliy bosqichi, solikni baqo – ilohiy boqiylikka eltuvchi yo'ldir.

Mazkur maqolada Navoiy g'azallarida fano konsepsiyasining badiiy va falsafiy mazmuni, uning ishq konsepsiyasi bilan o'zaro aloqadorligi, tasavvufiy ramzlarning semantik qatlamlari va Qur'oni karim oyatlariga tayanadigan ma'naviy asoslari izchil ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, shoirning ilohiy ishqni fano orqali idrok etish haqidagi qarashlari poetik misollar asosida sharhlanib, Navoiy poetikasining gnoseologik va ontologik qirralari yoritiladi.

Tasavvuf falsafasida "ishq" va "fano" tushunchalari bir-birini to'ldiruvchi, solikning ruhiy kamolotini belgilovchi asosiy bosqichlar sifatida qaraladi. Alisher Navoiy esa bu ikki tushunchaning o'zaro bog'liqligini o'ziga xos tarzda talqin etadi. Uning she'riyatida fano inson "men"ining ilohiy ishq nuri qarshisida erib borishi, poklanishi va Haq huzurida yangi ma'naviy maqom kasb etishi sifatida namoyon bo'ladi. Ishq esa bu jarayonning harakatlantiruvchi kuchi, solikni Haq sari yetaklaydigan ruhiy quvvat sifatida gavdalanadi. Navoiy g'azallarida fano jarayonining ana shu murakkab ruhiy mohiyati ramziy va falsafiy obrazlar orqali yoritiladi. Mazkur jarayon ayniqsa quyidagi baytda yorqin ifodasini topgan:

Solg‘il, ey ishq, vujudumg‘a fano o‘tinikim,
Yopti maqsud yuzin pardayi pindor manga. [Навоий, 1988:15]

Baytda lirik qahramon ishqqa murojaat qilib, o‘z “vujudi”ni “fano o‘tiga solish”ni so‘raydi. Bu jarayon tasavvufiy tafakkurdagi “fanofilloh”, ya’ni mavjudlikni Haq huzurida yo‘qotish, “shaxsiy irodani ilohiy irodada eritish” holatini ifodalaydi. “Pardayi pindor” iborasi esa insonning nafs, g‘urur va o‘zlik idroki bilan bog‘liq ichki to‘siqni anglatadi. “Maqsud yuzini yopuvchi” bu parda Haq diydoriga to‘sqinlik qiluvchi ruhiy-ma’naviy g‘ov sifatida talqin etilmoqda.

Shoir mazkur talqin orqali Qur’oni karimdagi *“Bu dunyo hayoti vaqtinchalik bir matoh, xolos. Albatta, oxirat barqarorlik diyoridir”* (G‘ofir surasi, 39-oyat) oyatiga ishora qiladi. Oyatda dunyoviy mavjudlikning zohiriy, o‘tkinchi va aldamchi mohiyati e’tirof etilgan bo‘lib, Navoiy ana shu konsepsiyani tasavvufiy-estetik darajada badiiylashtiradi. Uning nazarida, dunyo va undagi barcha mavjudliklar, shu jumladan insonning o‘z shaxsiy “ego”si – “men”i ham “pardayi pindor”, ya’ni “g‘urur pardasi” bo‘lib, ular solikni asl maqsadi bo‘lmish Haqdan chalg‘itib, uning to‘g‘ri yo‘lni ko‘rishiga monelik qiladi. Shu bois solik uchun zarur masala doimo ogoh bo‘lish, ma’naviy nigohni Haqqa qaratish va dunyoviy bog‘liqliklardan xalos bo‘lishdir.

Alisher Navoiy “vujud pardasini fano o‘tida yoqilishi” aynan ishq tufayli sodir bo‘lishini ifodalar ekan, insoniy mavjudlikning ontologik chegaralanganligini, fano holining inson borlig‘ini nafsdan xalos etuvchi va ruhiy-ma’naviy poklovchi xususiyatini hamda bu murakkab va mashaqqatli jarayon faqat Ishqi ilohiy – Haqqa bo‘lgan chinakam muhabbat orqaligina yuzaga kelishini ko‘rsatmoqda. Zero, Haqqa bo‘lgan ishqida sobit va sodiq zotlargina o‘z “men”larini “fano o‘tida yoqib” “maqsud yuzi”, ya’ni Haq diydoriga musharraf bo‘ladilar. Bu jarayon Navoiy tafakkurida “fano orqali baqo topish” konsepsiyasining o‘ziga xos talqinidir.

Demak, mazkur baytda Navoiy “vujud” obraziga ramziy-ontologik va gnoseologik mazmun yuklaydi: u faqat “jism va tan” ma’nosini emas, balki o‘zlik, g‘urur va umuman barcha dunyoviy bog‘liqlik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. “Fano o‘ti” esa bu bog‘liqlikni yo‘qotuvchi, haqiqiy mavjudlik – baqoga eltuvchi ruhiy transformatsiya ramzidir. Shu tariqa, Navoiy poetikasida “vujud” obrazi nafaqat metafizik tushuncha, balki tasavvufiy tajribaning ichki dinamikasini ifodalovchi estetik kategoriya darajasiga ko‘tariladi.

Ayni damda ushbu bayt g‘azalning ichki tuzilishida mazmuniy o‘tish nuqtasi vazifasini bajaradi. Fanoning asl mohiyati bayoniga oid mantiqiy izchillik g‘azalning maqta’sida o‘zining badiiy va falsafiy cho‘qqisiga yetadi:

G‘arazim bir necha kun shohid-u maydur, yo‘q esa,
Ey Navoiy, bu fano dayrida ne bor manga? [Навоий, 1988:15]

Mazkur maqta’da shoir ilgari bayon etilgan ishq konsepsiyasini yakuniy bosqichga olib chiqadi. U “bir necha kun” iborasi orqali inson hayotining foniyligini eslatadi. Navoiy uchun bu foniy mavjudlikdan maqsad na mol, na mansab, na shuhratdir; balki “shohid” va “may” timsollari orqali ifodalangan ma’rifiy tajriba – mushohada va ilohiy ishqdir.

Bu yerda “shohid” tasavvufiy istiloh sifatida Allohning zohiriy va botiniy tajallilarini hol orqali ko‘rish, idrok etish va kashf qilishni anglatadi. “May” esa an’anaviy tasavvufiy badiiy tilda ilohiy ishqni ifodalaydi. Shu sabab, shoir “g‘arazim shohid-u maydur” deya, solikning bu dunyodagi maqsadi Haq ishqining mayidan mast bo‘lish va ilohiy jamolni mushohada etish ekanini ta’kidlaydi.

“Bu fano dayri” (ya’ni bu foniy dunyo) obrazi orqali Navoiy inson hayotini tasavvufiy sayrning makoni sifatida ko‘rsatadi. Solik bu dunyoda Haqni tanish, Unga yetish uchun sinovdan o‘tadi. Shu bois, Navoiy nazarida insonning dunyoviy hayoti sayr ila Allohga (sayr ilalloh) yo‘naltirilgan ma’rifiy safardir. Agar bu safarda solikning “g‘arazi” (maqsadi) – Haqni mushohada etish va ishq mayidan bahramand bo‘lish bo‘lmasa, unda bu foniy dunyoda qolishning ham, yashashning ham ma’naviy mohiyati yo‘q.

Demak, Navoiy talqinida inson hayotining haqiqiy qadri fano orqali baqoga, ya'ni o'zlikni yo'q etish orqali Haq bilan boqiylikka erishishdadir. Shu tariqa, mazkur maqta'da Navoiy tasavvufiy fanoning estetik-falsafiy mohiyatini badiiy obrazlar vositasida mukammal tarzda yoritadi.

Umuman, Alisher Navoiy ijodida fano masalasi ko'pincha ishq konsepsiyasi bilan uzviy aloqada talqin etiladi. Xususan, quyidagi baytda ham shoir bu jarayonni ramziy va falsafiy yondashuv asosida yoritadi:

Jon berib oldim junun-u ishq to bo'ldum fano,
Olloh-Olloh, ul ne xush savdo, bu ne xush sud erur. [Навоий, 1988:102]

Mazkur baytda Navoiy ishq va jununni fanoning ma'naviy zaminida tahlil etadi. Shoir "jon berib, evaziga ishq va junun holini qo'lga kiritdim" deb, tasavvufiy ma'noda ma'naviy savdoni ifoda etadi. Bu "savdo" Qur'oni karimdagi *"Albatta, Alloh mo'minlardan jonlari va mollarini jannat evaziga sotib oldi"* (Tavba surasi, 111-oyat) oyatiga nozik ishoradir. Navoiy ana shu oyatdagi ilohiy "savdo"ni poetik shaklda ifodalaydi: inson o'z jonini Haqqa bag'ishlab, evaziga fano va ishq ne'matini qo'lga kiritadi.

Baytda qo'llangan "savdo" va "sud" (foyda) so'zlari orqali shoir tasavvufiy iqtisod metaforasini yaratadi: bu holatda solik o'z "men"ini yo'qotish (fano) orqali eng buyuk foyda – ilohiy visolga erishadi. Bu jarayonning estetik mohiyatini Navoiy tazod san'ati yordamida kuchaytiradi: "jon berish" – yo'qotish-zarar, "ishq va junun topish" – yutuq-foyda; bu o'zaro zid, lekin ruhiy jihatdan uyg'un mazmunlar orqali fanoning ichki paradoksini yoritadi.

Baytdagi "junun" so'zi esa oddiy telbalikni emas, balki ma'rifiy holatni bildiradi. Chunki majnunlik tasavvufda ishq holining oliy shakli, ya'ni ma'shuqdan boshqa hamma narsani unutish, Haqdan o'zga mavjudotni inkor etish darajasi sifatida talqin etiladi. Telba aqlini yo'qotadi, ammo majnun aqlning o'zini ilohiy maqsadga yo'naltiradi; u aqlni ishq bilan mushohada etish bosqichiga ko'tariladi. Shu ma'noda "junun" – bu hol (ya'ni, ilohiy jazba holati), "ishq" esa maqom (barqaror ma'naviy daraja)dir.

Navoiy uchun fano Haq tajallisini mushohada etish hamda ruhan va ma'nan Haq bilan birga bo'lish holatidir. Shuning uchun ham u "jon berish"ni yo'qotish emas, balki ma'naviy yuksalishning eng oliy savdosi sifatida talqin qiladi. Baytdagi "Olloh-Olloh" jumlasida esa shoirning bu ilohiy hol qarshisidagi hayrat-u zavqi ifodalanadi. Zero, ishq yo'lida jonni fido etish – fanodan baqoga, menlikdan Haq sari yo'nalishning yagona yo'lidir.

Quyidagi baytda ham ilohiy ishq shavqi va fano holati o'zaro uyg'unlikda ifoda etilgan bo'lib, unda solikning "yo'qolish" holati badiiy timsollar orqali yuksak estetik darajada talqin etiladi:

Og'zi shavqidin Navoiy itti, ani istar el
Yo adam dashtida, yo mulki fanoda istangiz. [Навоий, 1990:147]

Mazkur bayt Navoiy she'riyatidagi hasbi hol janrining yorqin namunalaridan biri bo'lib, unda shoir o'zining ruhiy kechinmalarini tasavvufiy istilohlar – shavq, adam, fano orqali ifoda etadi. Tasavvufiy terminologiyada "og'iz" – ilohiy kalom, ya'ni Haqning sir-u sinoati, purma'no hikmatining ramzidir. "Og'zi shavqi" – bu Haq kalomining jozibasi, u orqali solik ilohiy haqiqatni idrok etish zavqiga cho'madi. Shoirning "Navoiy itti" (ya'ni yo'qoldi) iborasi fano maqomini anglatadi: solik ishq jazbasiga shunchalik berilib ketadiki, u "men"likdan forig' bo'ladi, o'zligini yo'qotadi. Ishqi ilohiyning bu darajasi tasavvufda shavq holi (ya'ni, ishq jazbasi natijasida hosil bo'lgan ruhiy g'ayrat, Haqqa talpinish) deb ataladi. Navoiy "Haq og'zining shavqidan yo'qoldim" deya, o'zining ma'naviy holini bayon etar ekan, bu yerda "yo'qolish" (itti) tashqi yo'q bo'lish emas, balki "fano filloh" – Allohda yo'q bo'lish, Haqning tajallisi oldida insoniy "men"ning butunlay erib ketishini bildiradi.

"Ani istar el" jumlasi orqali esa ramziy ma'noda "ahli suvrat", ya'ni zohirparast, asl ma'no va ma'rifatdan bebahra kishilar nazarda tutilgan. Navoiy ularga murojaat qilib, "agar meni izlasangiz, meni bu jismoniy olamda emas, balki adam dashtida yoki fano mulkida izlang" deydi. Bu ikki makon

– “adam” va “fano” – tasavvufiy istilohda mavjudlikning ikki qarama-qarshi bosqichini ifodalaydi: Adam – “borlikdan avvalgi yo‘qlik”, ya’ni zot al-avval, Haqning mutlaq birlik maqomi; Fano esa “borlikdan keyingi yo‘qlik”, ya’ni solik borlig‘ining yo‘q bo‘lishi, Haq bilan ruhiy ittihod holatiga erishish darajasi.

Demak, Navoiy o‘zini “adam dashti” yoki “fano mulki”da izlash zarurligini ta’kidlar ekan, aslida insoniy mavjudlikning chegaralaridan butunlay chiqib, Haq borlig‘iga singib ketganini ifoda etadi. Bu “yo‘qlik” holi oddiy yo‘qolish emas, balki mavjudlik pardasidan xoli bo‘lib, mutlaq mavjud – Haq zoti bilan ruhan birlashuvni anglatadi. Bunday holatga tushgan solik o‘z “men”ligini butunlay yo‘qotadi. Natijada u hayrat holida go‘yo o‘z-o‘zidan so‘raydi: “Men borlik (dunyo)dan yo‘qlik (fano) sari yetdimmi yoki avvaldan yo‘q edimmi?” Ya’ni Navoiy talqinidagi fano shunday darajadagi holki, unda solik o‘zining fanolik holatini ham idrok etmay qoladi. U o‘z “vujudi”dan xabarsiz bo‘lib, butun borliqni unutgan, lekin borliqning asl manbayi bo‘lmish Haq bilan mavjud holga keladi. Tasavvuf terminologiyasi bilan aytganda, bu – “fano fil-Haq”, ya’ni Haqda yo‘q bo‘lish maqomi bo‘lib, bu maqomda banda borliqdan butunlay g‘oyib, ammo Haqning mavjudligi ila boqiy bo‘ladi. Shu tarzda Navoiy “yo‘qlik”ni ma’naviy borliqning eng yuksak shakli, ya’ni baqo sari yetaklovchi manzil sifatida talqin etadi.

Alisher Navoiy ijodida fano masalasi tasavvufiy tafakkurning markaziy tushunchalaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, u shoir poetikasida ishq konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Navoiy uchun fano – bu shunchaki yo‘qolish yoki o‘zlikdan voz kechish emas, balki solikning ma’rifiy kamolotga yetishish jarayonida bosib o‘tadigan eng muhim ruhiy bosqichdir. Shoirning talqinida fano insonning nafs va g‘urur kabi ruhiy to‘siqlardan xalos bo‘lishini, Haq diydori sari ochiladigan yo‘lning poklanish manzilini anglatadi. Mazkur jarayonning muhim o‘ziga xos jihati shundaki, u faqat ilohiy ishq orqali sodir bo‘ladi.

Navoiy she’riyatida ishq – solikni fano sari yetaklovchi asosiy quvvatdir. Shoir ishqni inson vujudini ilohiy nurda “erituvchi” ruhiy-ontologik quvvat deb talqin qiladi. Natijada fano jarayoni nafaqat mavjudlikning yo‘q bo‘lishi, balki Haqqa yaqinlashuv, insonning o‘zligini ilohiy irodaga singdirish holati sifatida mujassamlanadi. Bu jarayonning yuqori cho‘qqisi esa baqo, ya’ni Haq bilan ruhiy bog‘lanish bosqichidir. Navoiy she’riyatida fano va baqo bir-birini to‘ldiruvchi ikki bosqich bo‘lib, ishq esa ularni bog‘lab turuvchi asosiy ruhiy-ontologik sabab sifatida talqin etiladi.

Umuman, Navoiy uchun fano – solikning Haqqa yetish yo‘lida o‘z “men”idan kechish orqali asl borliqqa, ya’ni ilohiy haqiqatga qaytishi demakdir. Uning nazarida insonning eng katta maqomi – dunyoviy bog‘liqliklardan poklanish, ilohiy ishq bilan “men”lik pardasini yondirish va Haq tajallisi bilan mushohada holiga yetishdir. Shu ma’noda, Navoiy ijodida fano masalasi ishq konsepsiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u inson ruhiy kamolotining eng oliy pog‘onasi sifatida o‘zining badiiy-falsafiy ifodasini topadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Алишер Навоий. Қомусий луғат. 1-ва 2-жилдлар. – Тошкент: Sharq, 2016.
2. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони (Монография) – Тошкент: Адабиёт. 2021.
3. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1983.
4. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Моваройуннаҳр – Ўзбекистон, 2009.
5. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 3-том. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. – Т.: Фан, 1988.
6. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 4-том. Наводир уш-шабоб. – Т.: Фан, 1989.
7. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 5-том. Бадоеъ ул-васат. – Т.: Фан, 1990.
8. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 6-том. Фавойид ул-кибар. – Т.: Фан, 1990.
9. Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
10. Xo‘jayeva Sh. Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asari poetikasi. – Farg‘ona: Classic, 2024.

АВТОРСКОЕ СОЗНАНИЕ АЛИШЕРА НАВОИ В КЛАССИЧЕСКОЙ ТЮРКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Зебо Хамидова,
студентка направления Филология
и обучение языкам
Наманганского государственного института
иностранных языков имени Исхоккхона Ибрата
e-mail: hamidovazebo526@gmail.com

Икбола Абдуллаева,
доктор философии (PhD) по философским наукам,
старший преподаватель кафедры
русского языка и литературы НамГИИЯ

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiy mualliflik ongining xususiyatlari, shoirning individual badiiy tafakkuri hamda ichki qadriyatlar tizimining namoyoni sifatida tadqiq etiladi. Matnshunoslik va adabiy tahlil asosida Navoiy mualliflik ongining asosiy tarkibiy unsurlari – estetik, falsafiy va axloqiy tamoyillari hamda ularning o'quvchi idroki va XIV–XV asrlar madaniy-tarixiy kontekstiga ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, Navoiy shaxsiy pozitsiyasi shunchaki badiiy tanlov emas, balki o'z davri madaniy an'analari bilan intellektual muloqot shakli ekanligi asoslanib, uning zamonaviy gumanitar tadqiqotlarda muhim ilmiy obyekt sifatidagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: *mualliflik ongi, Navoiy shaxsiy pozitsiyasi, turkiy adabiyot, individual uslub, falsafiy tafakkur, madaniy meros.*

Abstract

This article examines the authorial consciousness of Alisher Navoi, highlighting its features as a manifestation of the poet's individual artistic thinking and internal value coordinates. Based on textological and literary analysis, the main components of Navoi's authorial consciousness are revealed, including aesthetic, philosophical, and moral principles, as well as their influence on the reader's perception and the cultural-historical context of the 14th–15th centuries. It is shown that Navoi's personal position was not merely an artistic choice but a form of intellectual dialogue with the cultural traditions of his time, making it an important object of study in contemporary humanities research.

Keywords: authorial consciousness, Alisher Navoi, Turkic literature, individual style, philosophical thinking, cultural heritage.

Авторское сознание как категория литературоведения обозначает совокупность индивидуальных идейно-эстетических установок, которые проявляются в произведении литератора и определяют его творческую позицию. В классической тюркской литературе эта категория оказывается особенно важной для понимания процесса созидания художественного текста, поскольку в условиях традиционной культуры автор выступает не только как ремесленник слова, но и как носитель интеллектуальной рефлексии эпохи. Алишер Навои, выдающийся поэт и мыслитель эпохи позднего Средневековья, является ярким примером сложного и многомерного авторского сознания, его творчество представляет собой интеграцию художественной выразительности, философской глубины и нравственно-этических посылов.

Авторское сознание Навои не ограничивается формальным мастерством – оно связано с его мировоззрением, личным опытом и интеллектуальными традициями, в которых он находился. В своих произведениях Навои сочетает элементы суфийской философии, исламской этики и тюркской художественной традиции, создавая уникальный поэтический язык и представление о месте человека в мире. Современный литературовед Л. Баходирова указывает, что у Навои авторское сознание выражено через постоянное стремление к самоосмыслению,

поиску истины и гармонии между внутренним миром личности и окружающей социальной реальностью [Баҳодирова, 2016: 45].

Авторское сознание в творчестве Алишера Навои проявляется также в системности и целостности его мировоззренческих представлений. Поэт не ограничивается отдельными художественными образами или эпизодами – каждая его поэтическая композиция является частью целостной философской и нравственной картины мира. Через свои произведения Навои стремится передать читателю понимание гармонии между индивидуальным и общественным, материальным и духовным, земным и трансцендентным. Такой подход делает его творчество не просто художественным, но и педагогическим инструментом, направленным на формирование ценностного восприятия мира у аудитории.

Особое значение в авторском сознании Навои имеет способность к интеграции различных культурных и философских традиций. Он мастерски сочетает тюркскую поэтическую форму с влиянием персидской литературы и суфийской философии, создавая уникальный синтез, который одновременно отражает национальное самосознание и универсальные человеческие ценности. Эта интегративная функция авторского сознания позволяет поэту выступать в роли посредника между прошлым и настоящим, между культурными традициями и индивидуальным творческим осмыслением.

Важным аспектом авторского сознания Навои является нравственно-этическая направленность. В его произведениях постоянно звучат темы справедливости, моральной ответственности, духовного самосовершенствования и служения обществу. Поэт рассматривает художественное слово как средство воздействия на нравственное сознание читателя, стремясь сформировать у него внутренние ориентиры поведения, этические нормы и ценностные установки. Современные исследователи отмечают, что эта нравственная функция авторского сознания Навои является ключевой для понимания его влияния на культурное и социальное пространство своего времени [Мирзаев, 2018: 78].

Авторское сознание Навои проявляется в его уникальном подходе к художественным средствам. Использование метафоры, аллегории, параллельных сюжетных линий, повторов и ритмических структур позволяет ему создавать многослойные тексты, в которых каждая деталь наполнена смыслом. Такой метод не только усиливает эстетическое воздействие произведений, но и делает возможным глубокое философское и нравственное осмысление, что является отличительной чертой его авторской позиции.

Наконец, авторское сознание Навои тесно связано с его личным опытом и историческим контекстом. Личностные переживания, духовные искания и наблюдения за социальной жизнью того времени находят отражение в его поэзии. Эта связь личного и общественного в творчестве делает его авторское сознание многомерным и динамичным, способным к постоянной самоинтерпретации и диалогу с читателем. Авторское сознание Навои предстает как комплексная система художественных, философских и нравственных установок, объединяющая личное видение автора с культурными и социальными ценностями эпохи.

Особенность авторского сознания Навои проявляется уже в выборе художественных жанров и форм. Поэт работал в широком спектре литературных жанров – от газелей и мунашатов до великих поэм, таких как «Хафт хатим» и «Лейли и Меджнун». В этих произведениях авторское сознание проявляется через диалог с культурными и философскими текстами предшествующих эпох, в том числе через обращение к персидской и арабской поэтической традиции, но при этом Навои сохраняет свою индивидуальность, вырабатывая собственную эстетическую программу. Литературовед А. Мирзаев отмечает, что у Навои видна сознательная попытка синтеза культурных пластов, когда авторское сознание становится площадкой для межкультурного диалога, а не простого заимствования [Мирзаев, 2018: 78].

Авторское сознание проявляется также через рефлексию на нравственные и философские вопросы. Навои неоднократно поднимает тему смысла жизни, ответственности личности перед обществом, моральных дилемм человека на пути духовного и интеллектуального самоосуществления. В его произведениях нравственные категории переплетаются с эстетическими, что обусловливает их глубокую эмоциональную и интеллектуальную насыщенность. Исследователь Х. Джумаев указывает, что авторское сознание Навои сформировано как «философско-этическая позиция поэта, направляющая читателя к размышлению о всеобщих ценностях» [Жумаев, 2014: 123].

Текстологический анализ произведений Навои позволяет выявить способы художественной реализации авторского сознания. Поэт активно использует приемы символической образности, аллегории, поэтических метафор, что позволяет ему не только передавать сюжетную линию, но и структурировать собственное видение мира. Устойчивые поэтические образы у Навои становятся средствами интерсубъективного общения с читателем, через которые автор передаёт своё отношение к вопросам справедливости, долга, судьбы, любви и красоты. По мнению литературоведа Э. Рустамова, подобные художественные стратегии создают сложную сеть смыслов, в которой авторское сознание функционирует как многослойный конструкт, сочетающий личностный и универсальный смысл [Рустамов, 2019: 159].

Кроме использования символической образности и аллегории, Навои активно применяет риторические и композиционные приёмы, позволяющие ему строить тексты с многослойной смысловой структурой. Так, параллельные сюжетные линии, повторяющиеся мотивы и ритмическая организация стихотворения создают эффект многозначности, где каждая деталь несёт философский или нравственный подтекст. Это делает его произведения не просто художественными, но и рефлексивными текстами, побуждающими читателя к самостоятельному осмыслению нравственных и эстетических категорий.

Особое значение имеет способность поэта к диалогу с культурной традицией. Навои часто обращается к мифологическим, историческим и религиозным образам, переосмысливая их через призму собственного авторского сознания. Такие приёмы позволяют ему формировать уникальное пространство текста, где пересекаются личное, социальное и духовное. В результате художественная структура произведений Навои становится инструментом передачи философских и этических идей, а авторское сознание функционирует как посредник между культурными кодами прошлого и восприятием современного читателя [Сайфуллаев, 2020: 202].

В текстологическом плане авторское сознание проявляется через языковую и стилистическую изобретательность. Навои мастерски варьирует лексические и синтаксические средства, сочетает тюркскую поэтическую традицию с персидскими влияниями, создавая выразительный и гибкий поэтический язык. Это позволяет не только передавать сюжет и эмоции, но и усиливать философскую и нравственную нагрузку текста. Таким образом, каждая поэтическая форма становится средством выражения авторского мировоззрения и нравственных принципов.

Наконец, текстологический анализ показывает, что авторское сознание Навои проявляется и через организацию повествования, через расстановку акцентов на отдельных образах и мотивах. Поэт создаёт структуру, где моральные и философские идеи органично вплетены в художественные события, что позволяет читателю воспринимать их не как отдельные тезисы, а как естественное выражение жизненной и культурной целостности. Благодаря этому произведения Навои остаются актуальными и сегодня, влияя на формирование культурной идентичности и нравственных ориентиров [Рустамов, 2019: 162].

Особое место в авторском сознании Навои занимает его соотношение с традицией. Невозможно мыслить вне культурного контекста: автор сознательно обращается к историко-литературному

прошлому, но всегда переосмысливает и трансформирует его. Таким образом, его творчество представляет собой не столько прямую передачу культурных клише, сколько активное взаимодействие с культурным наследием. В этой связи исследователь А. Сайфуллаев подчеркивает, что авторское сознание Навои – это «динамическая структура, развивающаяся в диалоге с мировой и тюркской поэтической традицией» [Сайфуллаев, 2020: 202].

Авторское сознание поэта отражает также его личные жизненные переживания и духовные искания. В «Хафт хатим» – произведении, насыщенном философскими размышлениями о бренности жизни и вечных ценностях – Навои выступает как участник интеллектуального поиска истины, преодолевая собственные сомнения и внутренние противоречия. Его слова об ответственности личности перед Богом и обществом находят отклик у читателя как нравственно-этический ориентир, а не просто как поэтическая формула. Это позволяет утверждать, что авторское сознание является неотъемлемой частью смысловой структуры текста, определяющей его влияние на читательское восприятие.

Многие современные исследователи подчёркивают, что авторское сознание Навои оказывает глубокое воздействие на культурную память народа и продолжает формировать ценностные ориентиры в обществе. В частности, исследователь А. Исламов указывает, что «мыслительные и нравственные установки Навои оказывают влияние на формирование социально-культурной идентичности тюркских народов» [Islamov, 2021: 38]. Это свидетельствует о том, что авторское сознание писателя продолжает функционировать не только как литературная категория, но и как социокультурный феномен.

Авторское сознание Алишера Навои предстает как сложный, многокомпонентный феномен, включающий в себя личностные, эстетические, философские и нравственные измерения. Его творчество не только отражает культурный контекст эпохи, но и активно формирует его, влияя на мировосприятие читателя и культурные установки общества. Изучение авторского сознания Навои открывает новые горизонты для понимания классической тюркской литературы как сложной совокупности художественных, философских и культурных смыслов.

Многие современные исследователи подчёркивают, что авторское сознание Навои оказывает глубокое воздействие на культурную память народа и продолжает формировать ценностные ориентиры в обществе. В частности, исследователь А. Исламов указывает, что «мыслительные и нравственные установки Навои оказывают влияние на формирование социально-культурной идентичности тюркских народов» [Исламов, 2021: 38]. Это свидетельствует о том, что авторское сознание писателя продолжает функционировать не только как литературная категория, но и как социокультурный феномен.

Авторское сознание Алишера Навои предстает как сложный, многокомпонентный феномен, включающий в себя личностные, эстетические, философские и нравственные измерения. Его творчество не только отражает культурный контекст эпохи, но и активно формирует его, влияя на мировосприятие читателя и культурные установки общества. Изучение авторского сознания Навои открывает новые горизонты для понимания классической тюркской литературы как сложной совокупности художественных, философских и культурных смыслов.

Использованной литературы

1. Баходирова Л. Алишер Навоий творци этоса и эстетики. – Ташкент: Шарқ, 2016. – 212 с.
2. Жумаев Х. Философские мотивы в поэзии Алишера Навои. – Самарканд: Университет, 2014. – 284 с.
3. Исламов А. Таджвид поэтической мысли Алишера Навои. – Ташкент: Илм, 2021. – 176 р.
4. Мирзаев А. Cross-Cultural Synthesis in Classical Turkic Literature. –London: Routledge, 2018. – 260 p.
5. Рустамов Э. Искусство символа в произведениях Алишера Навои. Ташкент: Фан, 2019. – 198 с.
6. Сайфуллаев А. Тюркская поэтическая традиция и индивидуальность. – Москва: Наука, 2020. – 320 с.

NAVOIY IJODIDA KITOB VA KITOBXONLIKKA TARG‘IB MASALALARI

Nodir Tursunov,
O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi
“Mahalla” radiokanali bosh
muharriri o‘rinbosari,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Navoiyning o‘sha davr kitobat ishiga qo‘shgan hissasi, asarlaridagi kitob va kitobxonlikka targ‘ib masalalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *Qog‘oz, kitob, kitobat ishi, kutubxona, turkiy til, tarixiy asar.*

Abstract

This article examines AlisherNavoi’s contribution to book publishing of that period, and the issues of popularizing books and reading in his works.

Keywords*: paper, book, book publishing, library, Turkic language, historical work.*

Kitob — madaniy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning qudratli vositasi, bilim va ma’rifatning boy manbaidir. Kitob yordamida insoniyat o‘zining serqirra faoliyati davomida to‘plagan tajriba va bilimlarini kelajak avlodlarga meros sifatida qoldiradi. Kitob insoniyatni uning o‘tmishi bilan bog‘lab turuvchi muloqot vositasi, madaniy-tarixiy meros sifatida avlodlar o‘rtasidagi vorislikni ta’minlovchi muqaddas ma’naviy omildir. Inson tafakkurining eng yuksak yutuqlari, ilmiy g‘oyalar va turli texnologik kashfiyotlar kitob orqali ongimizga singadi. Kitob shakllari hamda undan foydalanish usullari asrlar davomida o‘zgarib borgan. Sopol bitiklardan tortib, hozirgi elektron kitoblargacha bo‘lgan davr mobaynida to‘plangan bilimlar orqali insoniyat misli ko‘rilmagan rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tmoqda. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda Qadimgi Misr va Mesopotamiyada vujudga kelgan sopol bitiklar, keyinchalik esa papirus o‘ramlari kitobning eng qadimiy ko‘rinishlari bo‘lgan. Taxminan milodiy I asrda kitob shaklining rivojlanishida muhim burilish yuz berdi: yozuv materiali sifatida pergamentdan (maxsus ishlov berilgan teri) foydalanilgan holda **kodekslar** (pergament varaqlari birlashtirilgan daftarlar to‘plami) paydo bo‘ldi. Papirus o‘ramlaridan farqli o‘laroq, bunday ko‘rinishdagi kitoblardan foydalanish ancha qulay edi. Bir so‘z bilan aytganda, kodekslarda hozirgi zamon kitobining dastlabki shakllari muayyan darajada o‘z aksini topgan.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, milodiy III-IV asrlarda Turonzamin xalqlari turmushiga yozuv materiali sifatida qog‘oz kirib kelgan. Ajdodlarimiz birinchilardan bo‘lib xitoyliklardan qog‘oz ishlab chiqarish texnologiyasini o‘zlashtirgan holda, uni kitob tayyorlash ishiga tatbiq etdilar. V-IX asrlar davomida esa Samarqandda qog‘oz ishlab chiqarish nihoyatda rivojlandi. “Arablar aynan Samarqanddan qog‘oz ishlab chiqarish texnologiyasi sirlarini o‘rganib, uni Mesopotamiya, Misr va Suriyadagi markazlariga olib ketdilar hamda qog‘ozning Yevropa mamlakatlariga tarqalishida o‘ziga xos jahon vositachilari bo‘lishdek tarixiy vazifani o‘tadilar” (1–190).

Ushbu qism maqolaning eng mazmundor va tarixiy dalillarga boy qismlaridan biri bo‘libdi. Matndagi ayrim orfografik xatolar (masalan, *ta’kitlab* emas, *ta’kidlab*) va uslubiy takrorlar tuzatilib, ravon holatga keltirildi.

Tahrirlangan matn

Yozuv tizimi va kitobat madaniyatining rivojlanish darajasi har qanday xalqning ma'naviy kamolotini belgilovchi muhim omildir. Kitobat madaniyati – kitob koʻchirish va chop etish, kitob savdosi va kutubxonachilik faoliyati orqali asarlarni jamiyat a'zolariga yetkazish, shuningdek, kitoblar haqidagi ma'lumotlarni tarqatish hamda ularni qayta ishlab chiqarish kabi murakkab jarayonlarni oʻz ichiga oladi.

Turonzamin qoʻlyozma kitobati asrlar davomida oʻlmas ma'naviy qadriyatlar va ilmiy tafakkur yutuqlarini oʻzida mujassam etgan holda, jahon fani va adabiyoti xazinasiga ulkan hissa qoʻshgan koʻplab allomalar, shoir va faylasuflarning ijodiy merosini oʻz sahifalariga muhrladi. Ushbu meros nafaqat milliy madaniyatimizning bebaho boyligi, balki dunyo ilm-fani taraqqiyotiga qoʻshilgan munosib hissa ekani ayni haqiqatdir.

X–XV asrlarga kelib, Movarounnahr va Xurosonda ijtimoiy-madaniy hayotning yuksalishi natijasida qogʻozga boʻlgan ehtiyoj ortdi. Ilm-fanga, she'riyat va san'atga boʻlgan kuchli qiziqish qoʻlyozma kitoblar tayyorlash ishini jadal rivojlantirdi. Jamiyatning yuqori tabaqalarida tarixiy, qahramonlik, lirik va falsafiy-axloqiy mavzulardagi asarlarga boʻlgan ehtiyoj koʻplab yangi asarlar yaratilishiga turtki boʻldi.

Mazkur jarayon XV asrning ikkinchi yarmida oʻzining yuksak taraqqiyot bosqichiga koʻtarildi. Buyuk madaniyat arbobi Alisher Navoiy kitobat ishi rivojiga oʻzining sermahsul ijodi, bilimdonligi va kitob targʻibotchisi sifatidagi faoliyati bilan ulkan hissa qoʻshdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Navoiy yoshlik chogʻlaridan umrining oxirigacha mutolaaga juda katta mehr bilan qaradi. "Muhokamat ul-lugʻatayn" asarida qayd etilishicha, shoir oʻz davrida yaratilgan deyarli barcha devonlarni oʻqib chiqqan. Ayniqsa, Amir Xusrav Dehlaviy ijodi uni hayratga solgan:

"Oʻquriga davovindin bu faqir mutolaasiga koʻp mashgʻul boʻlmagʻon devon oz erkin. Bataxsis, ishqu dard ahlining rahbar va peshvosi Amir Xusrav Dehlaviy devonikim, oshiqlikda dardu niyoz va soʻzu gudoz tariqin ul muntashir qildi va oning ishqi mash'alidin bu partav olam tiyra xokdonigʻa yoyildi" (2–527).

Shuningdek Sheroziy va Jomiyning asarlarini takror-takror oʻqigan, ulardan ta'sirlanib asarlar yaratgan shoir juda katta hajmdagi ma'lumotni xotirasida saqlab qolish imkoniyatiga ham ega edi. "*...yigitligim zamoni va shabob ayyomi avonida koʻprak she'rda sehrsoz va nazmda fusunpardoz shuaroning shirin ash'ori va rangin abyotidin ellik mingdin ortuq yod tutupmep va alar zavqu xushhollig'idin oʻzumni ovutupmen va salohu fasodlariga fikr aytibmen...*" (2–532). Oʻsha davr shoirlarining ellik ming misrali she'rlarini yod olganligi, ular haqda tahliliy, ilmiy mulohazalar yuritgani borasida ma'lumotlar Navoiy dahosining naqadar yuksakligidan dalolatdir. Shu bois oʻsha davrda Xurosonda yashagan ijodkor borki, oʻz asarini Navoiyning nazaridan oʻtkazishga harakat qilgan. Uning fikri, yoʻl-yoʻrigʻi va maslahatini olish ijodkorlar uchun katta sharaf boʻlgan. Abdurahmon Jomiy ham oʻzining asarlari qoralamasini koʻrib chiqib fikrini bildirish uchun avval Navoiyga berar va: "*Bu avroqni ol va boshtin oyogʻig'a nazar sol, xotiringga har ne aytqu dek soʻz kelsa, ayt"* der edi (2–532). Jomiy oʻzining oʻndan ziyod asarlarida Navoiyning nomini katta hurmat va e'zoz bilan tilga oladi. Bu haqda Navoiyning oʻzi shunday deydi: "*Bu qabul nazari asaridin bir qarndin ortuq sulton us-salotini sipehroyin suhbatlarida va firdavs tazyin xidmatlaridakim, ahli kalomdin va maqoldin fazlu kamol zumrasining majmaidur va ilmu fazlning manbaidur, bu faqirning soʻziga martaba rafe' va maqola vase' erdi va oʻziga soʻz jihatidin azim e'tibor va soʻziga oʻz jihatidin biyik poya va miqdor"* (2–532).

Oʻttiz yildan ziyod davr mobaynida ilm ahli, adiblar va shoirlar, shuningdek, hukmdor ishtirokidagi saroyda boʻlib oʻtadigan katta yigʻinlarda Navoiy yuksak darajadagi e'tiborga sazovor boʻlgan. Uning har bir gapi, taklifi soʻzsiz inobatga olingan. Saroyda boʻlib oʻtadigan oliy majlis yigʻinlarida ijod ahliga doir boʻladigan barcha savollar bilan Navoiyga murojaat qilingan. Majlislarda

shoir o‘zini forsiy va turkiy tillardagi asarlar bilimdoni va bu tillarda mahorat ila yoza oladigan ijodkor sifatida ham namoyon qila olgan. Bu esa turkiy tilda jozibali asarlar yozishni inkor qiladigan ko‘plab forsiyzabon shoirlarga Navoiyni tan olishdan boshqa imkon qoldirmagan. Ayniqsa davralarda bo‘ladigan bahslar, mulohazalar yuzasidan Navoiyga ko‘p murojaatlar qilishgan va o‘z savollariga aniq javoblar olishgan, janjalli vaziyatlar yumshagan. Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da o‘zi haqidagi, umri davomida yaratgan turkiy va forsiy tildagi asarlari xususidagi ma’lumotlarni berib o‘tadi. Bu esa asarni ma’lum ma’noda avtobiografik, bibliografik, badiiy asar sifatida ham o‘rganish imkonini beradi. XV asrda badiiy asarlarni fors tilida, ilmiy asarlarni esa arab tilida yozish an’anasi urfda edi. Navoiy bu qonuniyatni buzib, turkiy tilning keng imkoniyatlarini ko‘rsatib, bu tilda ham go‘zal asarlar yaratish mumkin ekanligini isbotladi. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da Navoiy yoshligida yozgan ilk she’rlarini forschada bitgani, ammo she’riyat olamining ichiga kirib, uning nozik jihatlarini tushunib borgani sari turk tilining jozibasi uni o‘ziga butunlay maftun etganini aytadi. “*Ammo chun shuur sinnig‘a qadam qo‘yuldi, chun haq subhanahu va taolo tab’ga g‘arobat sari maylni zotiy va diqqat va dushvorpisandliqqa shuru’ni jibilliy qilib erdi, turk alfozig‘a dag‘i mulohazani lozim ko‘ruldi – olame nazarg‘a keldi, o‘n sakkiz ming olamdin ortuq, anda zebu ziynat; va sipehre tab’ga ma’lum bo‘ldi, to‘qquz falakdin ortuq, anda fazlu rif’at; va maxzane uchradi, durlari kavokib gavharlaridin raxshandaroq; va gulshane yo‘luqti, gullari sipehr axtaridin duraxshandaroq; harimi atrofi el ayog‘i yetmakdin masun va ajnosi g‘aroyibi g‘ayr ilgi tegmakdin ma’mun”* (2–526).

Lekin shoir turkiyda ijod qilib, o‘sha davr qonuniyatiga qarshi yurish oson bo‘lmaganini ham ta’kidlab o‘tadi. Ijodiga mansub nasriy va nazmiy asarlaridan tashqari, Navoiy o‘zining atrofidagi ijodkorlarga turli mavzularda kitoblar yozishni iltimos qilgan yoki ularga topshiriqlar bergan. Mashhur tarixchi Mirxondning Turon va Xuroson tarixiga oid “Ravzat us-safo” asari ham Alisher Navoiyning maslahati va ko‘magi asosida yaratilgan. Abdurahmon Jomiyning “Risolai musiqiy”, “Shavohidu-n-nubuvvat”, Zaynulobiddin bin Mahmud al-Husayniyning “Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy” (“Musiqaning ilmiy va amaliy qonunlari”) asari va yana ko‘plab mualliflar Navoiyning taklifi va tashabbusi bilan asarlar yaratganlar. Navoiy buyurtmasi bilan yuzlab jild Qur’oni Karim hamda shoirlar, tarixchilar, faylasuflar, tabiblar va boshqalarning asarlari ko‘chirtirilgan. Navoiyning boy kutubxonasidan esa o‘sha davrning barcha ilm va san’at ahli keng foydalanganlar.

Turonzamin kitob repertuari va islom sivilizatsiyasi boshqa mintaqalarining kitob repertuaridagi o‘xshashliklar va farqlar haqida E.Axundjanov o‘zining “Markaziy Osiyo qo‘lyozma kitobati” kitobida aytib o‘tganidek, kitobat ishi tarixining ilk mumtoz davri (IX–XIII asrlar) mobaynida ko‘paytirib tarqatilishi darajasiga va muomalada bo‘lgan kitoblarning umumiy sonidagi salmog‘iga ko‘ra birinchi o‘rinni Qur’oni Karim hamda ilohiyot fanlariga doir kitoblar, ikkinchi o‘rinni tabiiy-ilmiy va ijtimoiy kitoblar, uchinchi o‘rinni esa adabiy-badiiy kitoblar egallagan. Kitobat ishi tarixining mumtoz davri (XV asrdan boshlab)da Qur’oni Karim va ilohiyotga doir kitoblardan keyin ikkinchi o‘rinda fors tili va turkiy tillardagi adabiy-badiiy kitoblar, uchinchi va to‘rtinchi o‘rinlarni esa tegishli ravishda ijtimoiy va tabiiy-ilmiy kitoblar egallagan. Xondamir o‘zining “Makorim ul-axloq” asarida Alisher Navoiy ijodiga hurmat tariqasida yozilgan o‘sha davrdagi yigirmadan ziyod asarlar nomini qayd etadi. Navoiyning zamondoshlari shoir ijodiga hayrat nazari bilan qarashgan. “*... yozuvchilik va kitob yozish ishi esa Xudo inoyati to‘g‘risida tarqatilgan farmondan bir belgi, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. ...maqtovga loyiq bo‘lgan yozuvchilik ishi cheksiz olijanoblik namunasidir*”, deydi Xondamir (3-53).

Qomusiy bilimga ega alloma sifatida Navoiydan buyuk adabiy-ilmiy meros qoldi. Bu asarlarni mutolaa qilish jarayonida, ularda shoirning o‘zi o‘rgangan va istifoda qilgan ko‘plab mualliflarning asarlari ham yodga olib o‘tilganiga guvoh bo‘lamiz. Ushbu asarlarning qachon yozilgani va ularning mazmuni qanday ekanligi haqida ma’lumot yo‘q. Ba’zi o‘rinda muallifning ism-sharifi, ba’zida esa asar nomining o‘zi qayd etilgan. Toshkent davlat sharqshunoslik institutida 2004-yilda nashrdan chiqqan professor Suyima G‘aniyevaning “Navoiy yodga olgan asarlar” risolasi bunga aniqlik kiritishga katta

yordam beradi. Unda 230 dan ziyod shunday asarlarning nomlari keltirilib, risola muallifi tomonidan bu asarlar haqidagi ayrim noyob ma'lumotlar ham aytib o'tilgan. Qayd etib o'tilgan asarlar tarix, adabiyot, huquq, odob-axloq, musiqa, din va tasavvuf falsafasiga oid kitoblardir. Ayniqsa, aruz va boshqa she'riy vaznlar haqidagi asarlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. "Tarixi anbiyo va hukamo" (Payg'ambarlar va hakimlar tarixi) asarini o'qir ekanmiz, Navoiyning avvalambor Qur'oni karim va diniy ilmlar bilimdoni, turli davrlarda yaratilgan juda ko'plab tarixiy kitoblarni ilmiy jihatdan chuqur o'rganib chiqqan alloma ekaniga ham guvoh bo'lamiz. Asarda diniy kitoblar — "Tavrot", "Zabur", "Injil", "Qur'on" va "Fusuli Buqrot", "No'shiravonga nasihatnoma", "Zafarnoma", "Tarixi Ja'fariy", "Sohibi guzida", "Ravzat us-safo", "Qissasi Rabg'uziy", shuningdek, Banokatiy, Ibrohim ibn Torax va Xantalat us-Sodiqning tarixiy kitoblari tilga olib o'tilgan. Ushbu asarlarni Navoiy nafaqat o'qigan, tahlil qilgan, hatto ba'zilaridagi ma'lumotlarga tanqidiy munosabatini ham bildirib o'tgan. *"...Zulqarnaynning nubuvvatig'a bir dalil budurkim, tangri taolo o'z kalomida «va qulno yo Zulqarnayn», deb anbiyo dasturi bila xitob qilib, ba'zi ya'juj daf'i uchun sad bog'labdur va ya'juj va ma'juj sifotida dog'i mubolag'alar ko'rguzubdur. Bu faqir qalamig'a ul qobiliyat yo'qdurkim, ahli tarix bitkondin tahrir qilg'ay. Ul g'aroyibqa ittilo' tilagan kishi mabsut tavorixda o'qub, mahzuz bo'lg'ay"* (4–547). Ya'juj va Ma'juj to'g'risida mubolag'alar qilingan. Men unday qilmayman, tarixchilar yozganidan ortig'ini yozolmayman, deydi Navoiy.

Tarix ahlining ixtilofi ko'ptur,
"Shahnoma"ning ul nav'ki lofi ko'ptur.
Ba'zi mutaassib el gazofi ko'ptur,
Sen yozg'ali ham nuktai vofi ko'ptur (4–547).

"*Tabiiyki, o'z davrining vakili sifatida Alisher Navoiy islom falsafasi, buyuk allomalarimizning asarlari bilan ham yaxshi tanish bo'lgan va ulardan keng foydalangan. Lekin bu Alisher Navoiyni sof mistik shoirga aylantirib qo'yishga asos bermaydi*." (5–211).

Alisher Navoiyning asarlari o'zining yuksak badiiyati, tarbiyaviy ahamiyati, insonparvarlik g'oyalari eng oldingi o'ringa qo'yilganligi va o'quvchi ruhiyatini ijobiy tomonga yo'naltirishi bilan ajralib turadi. Mazkur asarlar mutolaasi jarayonida ulug' mutafakkir shoirning jamiyatdagi turli tabaqalarga, o'sha davr siyosati, adabiyoti, madaniyati va san'ati bilan bog'liq turli-tuman voqea-hodisalarga nisbatan munosabati va ularga bo'lgan o'ziga xos bahosini ko'rish mumkin. O'z davrining katta amaldori, imkoniyatlari keng boy-badavlat kishisi sifatida Navoiy jamiyatdagi siyosiy barqarorlikka, oddiy insonlar hayotini yaxshilashga, imkoniyatlari cheklangan ilm ahli, adabiyot, san'at, madaniyat, hunarmandchilik bilan bog'liq turli soha vakillariga homiy va himoyachi bo'lishni o'zining burchi, vazifasi deb bildi. Davlatning qudratini ilm-fanning rivojida ko'rdi. Iqtidorli yoshlar ijodiga o'z munosabatini bildirib, ularga yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi, qo'llab-quvvatladi. "... *Navoiy zamonida badiiy so'zning, adabiyotning mavqei, obro'si baland bo'lgan. Adabiyotning vazifasi, ijodkor burchi, adabiy asar oldiga qo'yilgan talab, muallifning shaxsiyati, axloqi uzluksiz bahs-munozaralarga sabab bo'lgan, bular haqida Navoiy yozib qoldirgan fikrlar esa hamon dolzarbligi bilan kishini hayratda qoldiradi*". /6-4/

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erkin Axundjanov. Markaziy Osiyo qo'lyozma kitobati. – Toshkent, 2021.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. X jild. – Toshkent, 2011.
3. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
4. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. VIII jild. – Toshkent, 2011.
5. Ozod Sharafiddinov. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2019.
6. H.Qudratullayev. Navoiyning adabiy-estetik olami. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa birlashmasi, 1991.

ALISHER NAVOIY IJODIDA TAVHID

Karimova Nilufar Majidovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Filologiya fakulteti Til va adabiyot kafedrasi
o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodidagi tavhid hamd g'azallar va tavhid tushunchasi tahlil qilingan. Navoiy she'riyatida tavhidning vahdati shuhud xususiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *tavhid, vahdati shuhud, pantezm, vahdat ul-vujud ta'limoti.*

Abstract

This article analyzes the monotheistic ghazals and the concept of monotheism in the work of Alisher Navoi. The unity and witnessing nature of monotheism is revealed in Navoi's poetry.

Keywords: *monotheism, unity of witness, pantheism, doctrine of unity of being.*

Tasavvuf ta'limotining nazariy masalalaridan biri bo'lmish "tavhid" tushunchasi Navoiy she'riyatida ancha chuqur ifodasini topgan. Uning komil e'tiqodiga ko'ra, Yaratguchi tabiatga, borliqqa o'z chiroyini yoygandir. Xususan, "Go'zallikning dastlabki talabi o'zini namoyon etishidir. Tangri go'zalligida esa oliy va ilohiy sifatlar mavjud bo'lib, Olloh insonni ana shu go'zallikni ko'rish, idrok etish va sevish uchun yaratgandi". Bu- vahdati vujud, pantezm. Pantezm g'oyasi Hazrat Navoiydan ancha oldin, miloddan avvalgi V asrlarda yunon falsafasida ham yuzaga kelgan bo'lib, bu falsafiy mushohadaning ijodkori Aflotun (Platon) edi. Ammo, Navoiy yunon faylasuflarining falsafiy mushohadalaridan farqli ravishda chuqur asoslangan islomiy ilmlar, irfoniy va tasavvufiy nazariy qarashlarga tayanadi va shu nuqtai nazardan uning tushunchasidagi pantezm yunon olimlari dunyoqarashlaridan katta farq qiladi. Bu farq, eng avvalo, ulug' shoirning mukammal ilm – islomiy manbalarga tayanganligida namoyon bo'ladi. Shu boisdan Navoiy tushunchasidagi in'ikos (akslanish) – aflotuncha "Haq to'liq tabiatga yoyilgan, tabiatdan chetda mavjud emas", mazmunidagi g'oyani rad etadi. Hazrat Navoiy pantezmning Sharqda yirik mutasavvif olim Ibn Arabiy asoslagan va takomiliga yetkizgan "vahdati vujud" (yagona mavjudlik) kontsepsiyasini yoqlaydi va ko'pincha shu nuqtai nazarni o'z badiiy ijodida ifoda etadi. Ammo ulug' shoir tavhidni ifodalovchi vahdati vujud g'oyasining keyingi asrlarda yaratilgan mukammalroq ma'nolari, ya'ni vahdati mavjud, vahdati shuhud ta'limotlariga ham ba'zan g'azallarida munosabat bildirib o'tadi [Salohiy, 2018: 101-102]

Navoiy she'riyatida tavhidning vahdati shuhud xususiyatiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Vahdati shuhud- ruhoniy bir hol sifatida olamda mavjud har narsada Allohni mushohada etmoqdir. Ya'ni, Imom Rabboniy (q.s.) ta'limotiga ko'ra, Yaratguchining zoti va ismi, sifatlari alohida borliqlardir. Koinot Haq taoloning o'zi emas, balki sifatlarining tajalliysi (ko'rinishi) va zuhuri (aks etishi) dan iboratdir. Forobiy ushbu in'ikosni "Substantsiya va aktsidentsiya" deya ta'riflaydi: "Bilgilki, (olamda) substantsiya va aktsidentsiya hamda substantsiya va aktsidentsiyani yaratuvchi marhamatli ijodkordan boshqa hech narsa yo'qdir". [Форобий, 1975: 50]. Ya'ni, Yaratguchi Haq-mutlaq borliq, yaratilmish olam esa, nisbiy borliqdir. Yirik o'zbek navoiyshunoslari buni shunday aniq va sodda til bilan tushuntirishadi: "Navoiy...real olam, tabiat, butun mavjudot yagona zotning, bir xil moyaning, birgina borliqning – ilohiy substantsiyasining shu mavjudotlar shaklida ko'rinishidir, to'g'rirog'i shular sifatidagi zohiridir. Bir vaqtlar bo'lgan ediki, unda Xudo hali "o'zi o'zida" edi,-miqdor jihatidan benihoyat, sifat jihatidan xilma-xil va shaklan behisob konkret narsalarning imkoniyatlarini o'zida saqlar, shu imkoniyatlarining mujassamiday yashar edi... Navoiy tili bilan aytganda, - g'uncha edi. Lekin shu holatda qola olmadi, to'g'rirog'i, qolgisi kelmadi. U o'zidagi shu yashirin imkoniyatlarni,

boyliklarni chinlikka aylantirmoqchi, roʻyobga chiqarmoqchi, oʻz mazmunini, oʻz abstrakt mohiyatini konkretlikka aylantirmoqchi, guldek ochilmoqchi, oʻz husnini va mahoratini namoyon va namoyish ettirmoqchi va shu bilan oʻz husnini, oʻz jamolini chin goʻzalliklar, voqeliklar orqali koʻrib tamosho qilmoqchi, bahramand boʻlmoqchi boʻldi... Uning oʻzi, - deydi Navoiy "Saddi Iskandariy" da – shu rang-barang buyumlar dunyosida, shu goʻzal tabiatda (har bir chaman gulida, insonda, quyoshda, oyda va hokazo) "bir tilsim" boʻlib yashirindi". [Zohidov, 1961: 18].

Tavhid sof diniy, vahdat ul-vujud tasavvufiy tushuncha boʻlib, mohiyat e'tibori bilan ular bir-biridan farq qiladi. Tavhidning gʻoyaviy antonimi-shirk, vahdat-kasrat". Kengroq mushohada qilsak, bu ikki tushuncha orasidagi farq oydinlashadi (Tavhid Olloh yagonaligini tasdiqlashdir). Agar unga kimnidir sherik deb bilsak, bu shariat nuqtai nazaridan, shirk hisoblanadi. Bu islomiy hamdlarga xos xususiyatdir. Vahdat ul vujud ta'limotiga asosan, koinotda yolgʻiz bir Vujud mavjud boʻlib, barcha narsa va borliqlar shu vujudning tajalliysidan, koʻplik (olam, kasrat) birlik (vahdat)ning zuhurlanishidan iboratdir. Zot olami vahdat, U yaratgan olam -kasrat.

Muayyan bir qonuniyat asosida yaratilgan narsa-hodisalar hikmatini hissiy-vajdiy tafakkur qilish orqali Zot olamini tanish mumkin, lekin bilib boʻlmaydi. Shuning uchun ham Xoja Bahouddin Naqshband hazratlari: "Tavhid sirrigʻa yetsa boʻlur, ammo ma'rifat sirrigʻa yetmak dushvordir", – deganlar . Tasavvufiy adabiyotlarda tavhid ilmi, uning turlari, darajalari keng sharhlangan. Soʻfiylarning aytishicha, tavhid tushunchasi ruhan yashaladigan hol va zavqqa, ma'rifatning mavqei va darajasiga bogʻliq. Bu holni yashagan kishining holati va maqomiga koʻra, tavhid tushunchasi farqlidir [Bekova N. 2006: 16-17].

Qur'oni karimning saksondan ortiq oyati karimasi Ollohga hamd aytish xususidadir. Ollohga hamd aytish toʻgʻrisidagi hadislar ham koʻpchilikni tashkil etadi. "Chahor kitob"da yuqoridagi oyatlar mazmuni aynan targʻib qilinadi:

Ibtido mekunam ba nomi xudo,
Kaz du harf ofarid arzu samo.
Nomi haq bar zabon hameronam,
Ki ba xonu dilash hamexonam.
Moliku soni'u qadimu hakim,
Xoliqu roziqu raufu rahim.

Oʻrni kelganda ta'kidlash joizki, Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari deyarli har bir badiiy-ma'rifiy gʻazalni hamd deb bilishgan. Chunki bunday gʻazallar koʻpchiligining botiniy ma'nosi Haq ma'rifatiga borib taqaladi. Alisher Navoiyning toʻrt devonida mujassamlangan (har bir harf guruhi boshida kelgan gʻazallar bundan mustasno) koʻpgina she'rlarini ham badiiy-ma'rifiy hamdlar sirasiga kiritish lozim.

Mazkur turdagi hamdlarda Soqiy, quyosh, Ummon, Suv kabilar Haq ramzi sifatida keladi. Rind-soqiy, bulbul- gul, parvona-sham', gado-shoh, baliq-suv, zarra- quyosh, qatra-ummon, pashsha-fil, tana-jon, samandar-oʻt, yer-osmon kabi tizimlarning mohiyati maxsus ma'rifiy bilim egalarigagina ma'lum boʻlgan (harf guruhi boshida kelgan gʻazallar bundan mustasno) koʻpgina she'rlarini ham badiiy-ma'rifiy hamdlar sirasiga kiritish lozim. Mazkur turdagi hamdlarda Soqiy, quyosh, Ummon, Suv kabilar Haq ramzi sifatida keladi. Rind-soqiy, bulbul- gul, parvona-sham', gado-shoh, baliq-suv, zarra- quyosh, qatra-ummon, pashsha-fil, tana-jon, samandar-oʻt, yer-osmon kabi tizimlarning mohiyati maxsus ma'rifiy bilim egalarigagina ma'lum boʻlgan. [Bekova, 2006: 21-23].

Alisher Navoiyning hamd gʻazallari vahdat ul-vujud ta'limoti asosida talqin etilgan. Vahdat ul-vujud ta'limoti orqali esa Inson Allohning buyukligini va oʻzining ojizligini idrok etadi. Ulugʻ shoir ba'zi hamd gʻazallarida yashirin shirkdan haqiqiy tavhidga erishishni, ba'zilarida esa maxluqotga Haqning tajalliylari sifatida rahmu shafqat bilan muomala qilish va ismu sifatlarning mazhari boʻlgan borliqni, tabiatni oʻrganish vositasida Allohning mislsiz kuch-qudratini his qilish, ruhiy-

ma’naviy riyozat tufayli ilohiy sifatlarga ega bo‘lish kabi g‘oyalarni ilgari suradi. Naqshband hazratlari aytganidek: “Tavhid sirrig‘a yetsa bo‘lur, ma’rifatning sirrig‘a yetib bo‘lmas” [Navoiy, 2001: 264].

Ollohning biru borligiga, yakkayu yolg‘izligiga, azaliy va abadiyligiga iymon keltirish tavhiddir. Shuning uchun “Allohning 99 ismi bor”, “Allohning 1001 ismi bor” degan fikrlarni nisbiy hukm sifatida qabul qilish kerak. Shuning uchun ulug‘ shoir hayrat maqomi hamdlarida Ollohga hamd ayta olmay, ism va sifatlarining behad ko‘pligini ko‘rib, hayronlikdan tili “gungu lol” qolganligidan hayratlanadi. Demak, asmoi husnani har kim o‘z ma’rifiy-ruhiy darajasiga ko‘ra idrok etadi. Ruhiy-ma’naviy daraja yuksalib borgan sayin, kishi Ollohning yangi-yangi ism va sifatlarini anglaydi. [Bekova, 2006-yil: 73]. Qur’oni Karimda “asmoi husna” ning muxtasar ro‘yxati ham mavjud: ar-Rahmon, ar-Rahim, al-Malik, al-Quddus, al-Salim, al-Mo‘min, al-Aziz, al-Xoliq, al-Musavvir [Қуръони карим,1992: 406].

Asmoi husna payg‘ambarlar tomonidan qo‘yilgan. “Ismi Jalolni Odam alayhissalom, qaviy, Aziz va Mannonni Idris alayhissalom kashf aylaganmish”, – deyiladi “Tasavvuf saboqlari” kitobida [Haqqul I., 2000: 109].

Yuqorida bildirilgan mulohazalar quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

a) Hamdlar mazmuni faqat Ollohni madh etishga bag‘ishlangan bo‘lsada, maqsadiga va yetakchilik qilayotgan g‘oyaga ko‘ra farqlanadi. Mazkur jihatning o‘zi hamd yo‘nalishidagi asarlarni shar’iy-targ‘ibiy, ma’rifiy-targ‘ibiy, ma’rifiy-badiiy, badiiy-ma’rifiy kabi turlarga bo‘lib o‘rganish asosini beradi.

b) Har bir asarni hamd bilan boshlash Navoiygacha ham mavjud edi. Ammo Sharq mumtoz adabiyotining biror bir namoyandasi ijodida bu an’ana yaxlit shaklda (farddan dostongacha) namoyon bo‘lgan emas. Alisher Navoiy Sharq devonchiligi ravnaqini mavzu-ma’no nuqtai nazardan muayyan bir tizimga soldi va har bir asarini Olloh hamdi bilan boshladi.

Alisher Navoiy tafakkurida ustuvor o‘rnashgan Qur’oni Karim ta’limoti, uning yuksak insonparvarlik g‘oyalari ulug‘ shoir asarlariga hayotbaxsh ruh hadya etib turibdi. Zero, ilohiyot va ilohiy olam qudratiga umid bog‘lab, unga sig‘inib yashagan ulug‘ shoir faqatgina yaxshilik va ezgulikka chorlovchi ilohiy kitob oyatlarini asarlari mag‘ziga singdirish bilan barcha mavjudotlardan oliy qilib yaratilgan hazrati insonni, uning dardi, tashvishi, ruhiyati va ma’naviyatini kuylashni hamma narsadan ustun qo‘yadi. Alisher Navoiy o‘zigacha o‘tgan betakror tafakkur egalarining har biri ijodidagi eng ilg‘or xulosalarni teran anglab yetadi va alohidaalohida xulosalarni yashash tajribasi orqali ijodiy ravishda bir o‘zanga birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salohiy D. Tasavvuf va badiiy ijod. – Toshkent: Navro‘z, 2018. – B. 101-102.
2. Форобий. Рисолалар. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 50.
3. Bekova N. Alisher Navoiy she’riyatida hamd poetikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 16-17, 21-23, 7.
4. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 17-tom. – Toshkent: Fan, 2001. – B. 264.
5. Қуръони карим (таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур). –Тошкент: Чўлпон, 1992. – Б. 406.
6. Haqqul I. Tasavvuf saboqlari. – Buxoro: Buxoro Davlat universiteti, 2000. – B.109.

ALISHER NAVOIYNING “XAMSA”SIDA KELTIRILGAN TARIXIY VA AFSONAVIY SHAXS NOMLARI TALQINI

Adolat Nuraliyeva,
O‘zbekiston Milliy universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida keltirilgan payg‘ambarlar, shayx, avliyo, so‘fiylar, hukmdorlar, shoiru olimlar nomlari qayd etilgan shaxs va badiiy obraz nomlari xususida so‘z yuritiladi. Navoiy keltirgan har bir obraz o‘z fe’l-atvoriga mos surat va siyratga, qolaversa ichki dunyosini, maqsad va qarashlarini ochib bera oladigan nomga ega obrazlardir. O‘z qahramonlarining, yordamchi yoki epizodik bo‘lishiga qaramay, ismlarini tanlashda Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlarida keltirilgan shaxs nomlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar*: Alisher Navoiy “Xamsa” dostoni, tarixiy shaxs, badiiy obraz, shaxs nomlari, tahlil, talqin*

Abstract

This article discusses the names of prophets, sheikhs, saints, Sufis, rulers, poets and scholars mentioned in Alisher Navoi’s epic “Khamsa” and the names of their characters and artistic images. Each character mentioned by Navoi has a picture and biography that matches his character, as well as a name that can reveal his inner world, goals and views. The names of the characters mentioned in Alisher Navoi’s epic “Khamsa” are analyzed in the selection of names for his characters, regardless of whether they are supporting or episodic.

Keywords*: : Alisher Navoi’s epic poem “Khamsa”, historical figure, artistic image, personal names, analysis, interpretation*

V asr, bu muddat asrlar silsilasi uchun katta muddat emasdir, lekin badiiy adabiyotda nihoyat katta davr hisoblanadi. Shu katta davr o‘tsa-da, o‘z mavqeini zarracha ham yo‘qotmay kelayotgan ijodkorlarning eng ulug‘i, shubhasiz, Hazrat Navoiydir. Alisher Navoiy yaratgan asarlar qayta va qayta o‘qilish va o‘rganishga munosib [Mirziyoyev. 2016:19]. Ijodkor olim asarlaridagi biror nuqtani ham bejizga qo‘ymagan. Har bir chizgi o‘z ma‘no-mohiyatiga ega. Ayniqsa, asarlaridagi shaxslarga qo‘yilgan ismlar nihoyatda katta g‘oyaviy-estetik maqsadlar uchun xizmat qiladi.

Navoiy “Xamsa”sini o‘rganish va o‘rgatishda ko‘p bilim va malakaga ega bo‘lish lozim, chunki undagi mazmun-mohiyat, voqea-hodisalar tizimi, obrazlar silsilasi, so‘z, jumla talqini, umuman, g‘oyaviy-badiiy nafosatini tushunib yetish yetarli darajada tayyorgarlikni talab etadi. Maktab o‘quvchilari, oliy o‘quv yurti talabalarining bu masalada anchagina qiyinchiliklarga duch kelishi tayin. Shu sabab ham “Xamsa”dek ulkan asarni yaxshiroq anglash, baytlar mohiyatini his qilish uchun keng qamrovli bilim sohibi bo‘lish talab qilinadi. Arab, fors, eski o‘zbek tili so‘zlarining ma‘nosini bilish, dunyo mamlakatlari, ularning o‘rni, geografik joylashuvi, payg‘ambarlar obrazlari, islomiy g‘oyalar, diniy talqinlar uchrashi – Qur‘oni karim sabog‘ining muhimligi, turli sulolalar, podsholar, tarixiy kishilar nomlarining mavjudligi – tarix fanidan yetarlicha xabardorlik, tarixiy afsona va hadislardan, tasavvuf, falsafa va boshqa fan sohalariga doir ilmlardan ma‘lum darajada xabardorlikni talab etadi. Shaxs nomlari, obrazlar tizimini taniy olish, bu timsollar haqida yetarlicha ma‘lumotga ega bo‘lish ham Navoiy asarlari mohiyatini to‘liqroq anglab yetishga zamin bo‘ladi.

“Xamsa” asari XV asrdan to shu kungacha bo‘lgan muddatda o‘z qadr qimmatini zarracha ham yo‘qotmagan asl asarlar sirasiga kiradi. Bejizga bu an‘anaviy merosga zamondosh ijod ahli tomonida yuksak baho berilmagan. Bu baholar qiymatini esa asarni anglab, tushunib mutolaa qilgandagina anglash mumkin.

Bizningcha, Navoiy “Xamsa”sini to‘liqroq tushunishda quyidagilarga e‘tiborni qaratish zarur:

Masalan, asarda keltirilgan qahramon nomlarini sharhlash, bilish, tarixiy, an‘anaviy nom bo‘lsa tanish ham asar mohiyatini anglashda muhim hisoblanadi.

- “Xamsa”da turli afsonalarga ishora qilinuvchi baytlarni aniqlab, ularning sharhini berish;

- asarda qayd etilgan joy nomlarini, mamlakatlarning joylashgan o‘rni, ayni kundagi nomi, hududi, ularni qo‘llashda shoirning g‘oyaviy-badiiy niyatini ko‘rsatish;

- “Xamsa” dostonlarida uchraydigan obrazlarni quyidagicha tasniflab, mohiyati, o‘ziga xosligini anglatish, uqtirib tushuntirish;

a) tarixiy shaxslar obrazlari;

b) payg‘ambarlar obrazlari;

v) mifologik obrazlar;

g) an’anaviy obrazlar (sevgi-muhabbat, saxiylik, adolat va hokazolar bilan bog‘liq timsollar).

- “Xamsa” dostonlaridagi voqealar, holatlar: obrazlar, falsafiy tushunchalar, ayrim istilohlarning majoziy yoki haqiqiy, dunyoviy yoki tasavvufiy ma‘nolarini aniq, asosli va ishonarli tarzda sharhlash;

- “Xamsa”da hayotiy manzaralar ifodasi (inson, uning urf-odatlari, hayot va tabiatdagi o‘zgarishlar, voqea-hodisalar);

- dostonlarda uchraydigan turli badiiy usul va vositalar (ramzlar, tush manzaralari, hushdan ketish holatlari);

- “Xamsa” da xalq maqollari, hikmatli so‘zlar tasnifi va shu kabilar.

Navoiy “Xamsa”sida ko‘plab obrazlar uchraydi. Biz bevosita dostonlardagi asosiy qahramonlar, sujetida shu obrazlar sarguzashti, kechinmalari ifodalanganlarni nazarda tutmayapmiz. Aksincha, ana shu obrazlar bilan bog‘liq voqealar, ulardagi turli qirralarni namoyon etishda vosita bo‘ladigan, o‘xshatiladigan, qiyoslanadigan o‘zga obrazlarni e‘tiborga olayapmiz.

Ma’lumki, “Hayrat ul-abror”da yagona voqea, biror obrazlar taqdiri, ular bilan aloqador sarguzashtlar bayon etilmaydi. Shu sabab ham asarda falsafiy mushohadalar jarayonida ko‘plab payg‘ambarlar, shayx, avliyo, so‘fiylar, hukmdorlar, shoiru olimlar nomlari qayd etiladi. “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”da esa boshqacha. Ularda ma‘lum qahramonlar hayoti, u bilan bog‘liq voqelar tizimi bayon etiladi. Shu nuqtai nazardan, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”ning obrazlari ham o‘ziga xos. “Xamsa”ni to‘liq mutolaa qilinsa, obrazlar ko‘lami, ularning rang barangligi, turli toifa kishilari ekanligi ma‘lum bo‘ladi.

Shaxs otlarining leksik xususiyatlari atash ma‘nolari qaysi tildan olinganiga ko‘ra muallifning g‘oyaviy maqsadiga muvofiq qo‘llanilgan. Masalan, ijobiy qahramon ismlari ijobiy bo‘yoqdorlikka ega. Ism tag ma‘nosi zamirida ijobiy xususiyat aks etgan [Бегматов. 1987: 154].

Alisher Navoiy o‘z dostonida Farhodni asosiy, markaziy qahramon qilib oldi. Unga tom ma‘noda ijobiy qahramon sifatida yangicha talqin berdi. “Farhod obrazida o‘z davrining ilg‘or g‘oyalarini kuylaydi, xalq ommasiga xos qator oliyjanob xususiyatlarni ideallashtiradi” (Hayitmetov A.Navoiyning ijodiy metodi masalalari. 93-bet). Farhod-ismi aqlli, zukko, fahm-farosatli, dono yigit semalariga ega.

Yana dostonda xamsachilik an‘analariga muvofiq qo‘llanilgan ismlar ham mavjud. Xisrav, Shirin, Bahrom, Shopur.

Shirin-bu yerda shoir so‘z o‘yni ishlatgan: Navoiy o‘z salaflari Nizomiy va Xusrav Dehlaviy Shirinni jahon ahliga yoqimli, totli obraz qilib yaratdilar, demoqchi. Shirin ayrim afsona va dostonlarda rumlik, eronlik, oromiynasab yoki armani deb aytiladi. Nizomiyda u ozarbayjonlik bo‘lsa, Navoiyda esa armaniydir. Dostonda bu obraz nihoyatda go‘zal va bu go‘zallik qalbiga ham ko‘chgan qilib tasvirlangan. Shirin yana mukammallik, sadoqatli, shafqat va mehr timsoli hamdir. Chin ma‘noda Shirin asl yoqimli, hammaga manzur timsol bo‘la olgan.

Shaxs nomlarining qo‘llanishida yana bir sezilarli jihat tarixiy shaxslar, ya‘ni payg‘ambarlar,

avliyolar, buyuk hukmdorlar, qahramon va donishmand zotlarning nomlari keltirilganligidir. Bu baytlarda talmeh san'ati qo'llanganining ifodasi. Misol uchun:

Chu septi dahr tun mushkiga kofur,
Sochildi Ahraman anfosidin nur.
Tutub holig'a tun ifriti motam,
Sulaymoni falak ko'rguzdi xotam. [Бабоев. 1983: 84].

Sulaymon alayhissalom, Aflotun, Suqrot (mil.av.470,469-399) qadimgi yunon faylasufi. Navoiy dostonda Suqrotni aql va hikmatda benazir shaxs sifatida talqin qiladi, Suhaylo-bu ism Suhayl nomli yorug' yulduz nomidan olingan. Bu yerda Yunonistondagi donishmand hakim nomi bo'lib kelgan. Buqrot-Gipokrat, Jomosp qadimgi Eronning afsonaviy donishmand, munajjimi. Rustam, Axraman-dev, Xizr, Iskandar, Luqmon, Yusuf, Iso Masih, Maryam va boshqalar. Sulaymon-yahudiycha, Himoyalangan, berk, tinch, osoyishta, shikast topmaydigan. Ba'zilar "Tinchliksevar" deb izohlashadi. "Tavrot" tilida –Solomon. Bu nom Sulaymon paygambarimizning ismidir. Iskandar-yunoncha, o'zbekcha. Mard, qo'rqmas, dovyurak, jasurlarning sardori, himoya qiluvchi kabi ma'noda. Rustam-pahlaviycha. "Avesto"dagi Raodastan so'zidan yasalgan bo'lib, ulkan gavdali, qudratli, botir, matonatli bahodir [Корайев. 1977: 54]. Jamshid-Eronning afsonaviy shohlaridan. U qurol-aslaha, ipak va ranglar ixtiro qilgan, ulkan binolar qurdirgan ekan. Uning davrida odamlar farovon yashaganlar, xastalik nima, o'lim nima bilmagan emish. Bundan kibr-havoga berilib ketgan Jamshidni Olloh jazolagan emish. Badiiy adabiyotda ko'pincha Jamshidning sehrli jomi qalamga olinadi. Go'yo unda Jamshid o'z zamonasida istagan odam va joylarni ko'ra bilar ekan. Navoiy Husayn Boyqaroni ana shu Jamshid taxtiga o'tirgan deb ta'riflamoqda.

Qorun-nihoyatda katta boylikka ega afsonaviy shaxs, lekin u o'ta xasis bo'lgan emish. Diniy rivoyatlarga ko'ra, u Muso payg'ambar aytganlariga amal qilmagan, buning uchun xudo butun boyligi, xazina, saroylari bilan yer qa'riga kiritib yuborgan emish. Badiiy adabiyotda Qorun davlatmandlik va xasislik ramzi kabi ishlatiladi. Bu yerda Chin xoqoni xazinasi Qorunnikidan yuz ming marta ortiq edi, deb ta'riflanadi. Bu kabi afsonaviy shaxs otlari ham asar mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Dostondagi boshqa nomlar semantikasiga e'tibor beramiz.

Mulkoro- dostonda Chin mamlakati xoqonining nomi. Vazir nihoyatda aql farosatli, dono, tadbirli shaxs qilib tasvirlangan. Arabcha, fors-tojikcha, mamlakatning, davlatning bezagi, faxri, g'ururi. Boniy-arabcha. Rabboni-xudojo'y, Allohning bandasi. Xito mamlakatining eng usta me'mori. Moniy bilan aka-uka qilib tasvirlangan. Bir-biriga juda o'xshashadi.

Moniy-arabcha. Aqlli, donishmand. Ibn Fatak (216-217) - moniylik ta'limotining asoschisi. Sharq rivoyatlarida uni mashhur rassom, naqqosh deb ta'riflaydilar.

Qoran-Qoraniyoz o'zbekcha, fors-tojikcha ism bo'lib, Ollohdan iltijolar bilan tilab olingan bola ulg'ayib kuchli yigit bo'lsin. Dostondagi toshtarosh ustaning nomi. Shopur-fors-tojikcha, pahlaviycha. Shahzoda, shoh farzandi. Usta rassom Farhodning do'sti. Nizomiyda bu obraz Xusravning qissaxoni, Shirin bilan Xusrav munosabatlarida vositachi, ko'makchi sifatida talqin qilingan. Xusrav Dehlaviyda ham.

Shopur Xusrav bilan yuruvchi, unga turli ajoyib-g'aroyibotlar hikoya qilib yupatib yuruvchi shaxs. Xusravga Shirinning rasmini ko'rsatib, Armaniya o'lkasiga birga ketgan Shopurdir. Navoiyda esa Shopur Farhod bilan tasodifan uchrashib sodiq do'stiga aylanib qolagan, mohir naqqosh va insonparvar shaxs sifatida talqin etilgan. Mihinbonu-bu yurt bekasi, malika. Ismning kelib chiqishi hozircha noma'lum. Oy yuzli mazmunda. Bonu- Mihinbonu ko'zda tutiladi. Ko'pincha Navoiy Mihinbonuni shunday ataydi [Бабоев. 1981: 89]. Hovvo-diniy rivoyatlarga ko'ra-insoniyatning onasi - Moma Havo. Shoir bu yerda Mihinbonuni Momo Havoga o'xshatadi. Uning Shirin xonasiga kelishini Momo Havoning jannatda makon tutganiga nisbat beradi. Afridun-fors tojikcha ism bo'lib,

uch hissa qudratli; jasur, dovyurak, yengilmas. Qadimgi Erondagi peshdodiylar sulolasiga mansub podshoh. Navoiy Faridunni "yaxshi ahloqli va odil"edi deb ta'riflaydi.

Diloro-fors - tojikcha ism, suyukli, maftun qiluvchi, qalb ziynati kabi mazmunda. 10-go'zaldan birining nomi. Ular fan ustalari.

Dilorom-dilga orom beruvchi, o'zbekcha, fors- tojikcha ism hisoblanadi.

Sumanbo'- fors-tojikcha, Yasmin isli qiz.

Sumanso- fors- tojikcha.Yasmin (jasmin) monand oq yuzli qiz.

Parichehra-o'zbekcha, parilardek ko'rkam yuzli, zebo qiz. Yana Parivash, Parizod kabi o'xshash ismlar ham keltirilgan.

Mahvash-fors-tojikcha. Oyga o'xshash, oymonand yuzli. Shirinning yana bir ismi. Sumanbar-oqbadan, go'zal; bu yerda Shirin ko'zda tutiladi.

Kisro- sosoniylar tabaqasidan bir podshohning nomi. Bu yerda shoir Xusravni uning nabirasi deb ta'riflamoqda. Hurmuz-Xusrav Parvezning otasi. Etimologik kelib chiqishi aniqlanmagan [Жалолов. 1968:49]. Yaxshilik, ezgulik tangrisi, Mushtariy yulduzi nomi yoki Shamsiya oyining birinchi kunida tug'ilgan farzand ma'nosida.

Xusrav esa Sharq og'zaki ijodi va yozma adabiyotida keng tarqalgan obraz. Uning tarixiy ildizi sosoniy podsholaridan Xusrav II Parvez (VI asr oxiri) faoliyatiga qadaladi. Ba'zi manbalarda u mukammal shaxs, Navoiyning ishq dostonida esa salbiy qahramon sifatida talqin qilingan. Xusrav-Xisrav fors- tojikcha, mashhur, dondor; nomdor, hukmron kabi lug'aviy ma'nolariga ega. Parvez-lug'aviy ma'nosi: muzaffar, baxtiyor; Xusravning laqabi.

Bahrom-ko'kaldosh, ini Farhodning. Bahrom Cho'bin qadimgi Eronning kuchsiz podshohlaridan biri. Navoiy "Tarixi mulki Ajam"asarida yozishicha, u ikki yarim yil podshohlik qilgan.

Buzurg Ummid- elning bilimdoni, u yer ostidagi baliqdan ko'kkacha bo'lgan hamma narsani ochiq bilar, har qiyin ishda Xisravga rahnamo edi.

Dallatul muhtola- afsonalar bo'yicha o'z ayyorligi bilan nom chiqargan ayol. U Farhodga sovuq, yolg'on xabar keltiradi. Navoiy bu nomni obrazning tashqi va ichki dunyosi asosida tanlagan. Ijodkor tanlagan ismlar shaxs fe'l- atvoriga mosligidan tashqari qahramonlarning harakat va taqdirlariga ham mutonosiblik hosil qiladi.

Sheruya-Xusravning o'g'li. Ismning etimologiya eroniy ismlar sirasiga kiradi. Adolatsiz hukmdor va o'z otasining qotiliga qo'yilgan nom.

Xulosa qilib aytganda, bu doston leksikasi ham, Navoiy asarlarida shaxs otlari leksikasi ham keng ko'lamli o'rganilish manbasi hisoblanadi. Ismlarning to'liq semantikasi Navoiy asarlarini taqqoslash asosida ochib berilishi mumkin. Demak, asarlarda shaxs nomlari muallifning g'oyaviy maqsadiga muvofiq tanlanadi.

Mashhur "Xamsa" asarining "Hayrat ul- abror" dostonidagi shaxs otlari tahliliga o'tsak. Bu doston to'la-to'kis xamsachilik an'analariga mos tarzda yaratildi. Bu dostonda pand-nasihat mazmuni ibratli hikoyatlar asosida beriladi. Shu bois shaxs otlari ham, obrazlar tizimi ham an'anaviy tarzda tanlangan, keltirilgan.

Shayx Boyazid, Shohi G'oziy, Xoja Abdulloh Ansoriy, Imom Faxr Roziy, Sulton Badiuzzamon, Xoja Abu Nasr, Shayx Suhravardiy kabilar.

Ibrohim Adham-yahudiycha ism "Injil"dagi Avraam ismining arabcha shakli bo'lib, "xalqlar otasi" ma'nosini anglatadi [Корайев. 1977: 94]. Adham ikkinchi qismi esa arabcha, qora ot, badanida qora belgisi (hol) bilan tug'ilgan bola yoki qimmatli, noyob, kam uchraydigan.

Hazrat Ayub-yahudiycha ism bo'lib, o'kinuvchi, afsuslanuvchi, pushaymon qiluvchi. Bu ism Ayyub payg'ambarning nomidir. Ba'zi adabiyotlarda Ayyub chidamli, sabrli, hurmatli yoki tavba qiluvchi deb ham izohlanadi. Asarda bu zot juda ham mehribon, muloyim, hatto o'g'liga ham ta'voze ko'rsatganligi voqeasi berilgan.

Yoqut-arabcha, yahudiycha, qizil rangli qimmarbaho tosh, yoqut. Turkiy xalqlar yoqut kishini turli kasalliklardan asraydi, davo bo‘ladi, deb hisoblashgan [Навоий асарларининг изоҳли лугати. 1972: 96]. Shu tosh sharafiga qimmatli, qadrli mazmunida qo‘yiladigan ism.

“Hayrat ul-abror” dostonida asosan tarixiy shaxs va an‘anaviy obrazlar keltirilgan. Navoiy ko‘p yillik mehnati, izlanishlari, boshqa xamsachilik namunalarini o‘rgangan holda o‘z “Xamsa”sini yaratdi. Bu asari zamiridagi ma‘noga mutanosib holda shaxs otlarini qo‘llaydi. Boshqa “Xamsa”larda qo‘llanilgan obrazlar solishtirilib, asar g‘oyasiga munosibini va o‘zidan avvalgi xamsanavis ustozlarda takrorlanmay yangi mazmun kasb etgan obrazni yarata olgan. Buni beshlikning boshqa dostonlarida ham ko‘rish mumkin.

Navoiy asarlari yanada kengroq o‘rganilsa, shaxs nomlarining o‘zi atagan qahramonlar xarakteriga mutlaqo munosib ekanligiga yanada iqror bo‘lamiz. Hazrat Navoiy keltirgan har bir obraz o‘z fe‘l-atvoriga mos surat va siyratga, qolaversa ichki dunyosini, maqsad va qarashlarini ochib bera oladigan nomga ega obrazlardir. “Xamsa” asaridan boshqa devon-u dostonlarida ham bu fikrlar isbotini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavrkat Mirziyoyev. Erkin va faravon, demokratik O„zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O‘zbekiston, 2016 19-b
2. Ўзбек тилининг тарихий лексикаси. Тошкент: Фан, 1972.
3. Н.Маллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент: 1965.
4. Б.Бавоев. Навоий асарлари лексикаси. Тошкент: Фан, 1983.
5. Т. Аҳмедов. Навоий ва ижодий сабоқлар. Ғоявий ният ва ижобий образ. Тошкент: Фан,1981.
6. Э.Бегматов. Номлар ва одамлар. Т: Фан, 1987.
7. Т. Корайев, Р. Воҳидов. Адабий тахаллуслар ҳақида. Т:1977.
8. Т. Жалолов. Хамса талқинлари. Тошкент:1968.
9. Б.Бавоев. Кўхна сўзлар тарихи. Тошкент: Фан,1981
10. Навоий асарларининг изоҳли луғати. Т: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
11. Навоий асарлари учун қисқача луғат.Т: Фан,1993. 12. Иззат Султон. Навоийнинг қалб дафтари. Т:1969.

“ILK DEVON” ILK DEVON(MI)? O‘ZIGA QARSHI ISHLAYDIGAN DALILLAR

Shavkat Yangiboyev,
Xalqaro innovatsion universiteti (O‘zbekiston)
e-mail: savkatyangiboev10@gmail.com
ORCID/ 0009-0009-9106-1311

Annotatsiya

Ushbu maqolada so‘nggi yillarda bahs-munozaralarga sabab bo‘layotgan “Ilk devon”ning Alisher Navoiyning she’rlari jamlangan birinchi qo‘lyozma manba ekani yoki emasligi masalasiga murojaat qilingan. Maqolada bir-birini inkor etuvchi dallillar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *“Ilk devon”, kolofon, matn tarixi, dalil, dalilni inkor etuvchi dalil, so‘z va uning ma’nosi.*

Abstract

This article addresses the controversial issue of whether the “Ilk devon” (“First Divan”) is the first manuscript source of Alisher Navoi’s poems, which has been the subject of debate in recent years. The arguments presented in the article appear to be contradictory.

Key words: *“Ilk devon” (“Early Divan”), colophon, text history, evidence, evidence that refutes evidence, the word and its meaning.*

Alisher Navoiyning muxlislari tomonidan tuzilgan, fanda “Ilk devon” nomi bilan yuritiladigan devonning haqiqatdan ham shoir she’rlari jamlangan va hozircha (!) bizga qadar yetib kelgan eng qadimiy qo‘lyozma ekani yoki emasligi, terma devon da’vosi, devon kolofoni ma’lumotlari yuzasidan bildirilayotgan shubha-gumonlar so‘nggi yillarda tez-tez kun tartibiga chiqmoqda. “Jadid” gazetasining 2025-yil 1-yanvar sonida e’lon qilingan adabiyotshunos Olimjon Davlatovning “Xun evaziga keltirilgan qo‘lyozma (yoxud g‘alati “mashhur”lardan biri xususida)” nomli va unga e’tiroz o‘laroq shu gazetaning 2025-yil 14-mart sonida chop etilgan boshqa bir adabiyotshunos Abdurasul Eshonboboyevning “Ilk devon”ni kim tuzgan?” nomli maqolasi bizni (har ikki olimga hurmatimizni bildirgan holda) ayni shu masala atrofida ba’zi bir mulohazalarni navoiyshunoslar e’tiboriga havola qilishga undadi.

Qizig‘i shundaki, “Ilk devon” qo‘lyozmasining eng qadimiy ekanini isbotlovchi dalillar o‘ziga qarshi ishlaydi – uning eng qadimiy ekaniga shubha uyg‘otadi. Va aksincha, uning eng qadimiy emasligiga ishlovchi dalillar beixtiyor aks ilmiy farazlarni yuzaga keltiradi. Mana o‘sha bir-biriga qarshi ishlovchi dalillar (dalillar – O.Davlatovniki).

1-dalil. “*Navoiyning yoshlik davrida yozilgani qat’iy aniq bo‘lgan besh g‘azalidan faqat bittasi “Ilk devon”ga qo‘shilgan, qolgan g‘azallar el aro shuhrat topganiga qaramay, unga kiritilmagan*”.

Mana o‘sha 5 g‘azal: *“Furqatingdin za’faron uzra to‘karmen lolalar”, “Ul parivashkim bo‘lubmen zor-u sargardon anga”, “Meni bedil sanga jon o‘ynamoq birla yaraydurmen”, “Orazin yopqoch, ko‘zumdin sochilur har lahza yosh”, “Har qayon boqsam ko‘zumg‘a ul quyoshdin nur erur”.*

Dastlabki 3 g‘azalning yoshlik davriga mansub ekaniga “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, 4-g‘azalga Xondamirning “Makorimu-l-axloq”, 5-g‘azalga “Holoti Pahlavon Muhammad” risolasi guvohlik beradi.

Mazkur g‘azallarning barchasi “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”da mavjud ekani-yu “Ilk devon”da ulardan faqat bittasi borligi O.Davlatov xulosasi uchun yetarli bo‘lgan. Vaholanki, “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”dagi 45 ta g‘azal “Ilk devon”da ham mavjud. Bu “Ilk devon”dagi ana shuncha g‘azalning 1471-yilga (“Oqqo‘yunli muxlislar devoni” ko‘chirilgan sana) qadar yozilgani aniq, lekin 1465-yildan (“Ilk devon” ko‘chirilgan sana) oldin yozilgani gumon, degan xulosani bermaydi.

Alisher Navoiy “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”da: “*Chun ul avqotda faqirning nazmlari*

Xurosonda shuhrat tutub erdi, alar dag‘i iltifot qilib, ba’zi abyotni ko‘p o‘qurlar erdi va majolisda xushvaqt bo‘lurlar erdi. Ul jumladin bu matla’durkim, fard:

Furqatingdin za’faron uzra to‘karmen lolalar,
Lolalar ermaski bag‘rimdin erur pargolalar.

Yana bir bukim:

Ul parivashkim bo‘lubmen zoru sargardon anga,
Ishqdin olam manga hayronu men hayron anga.

Bu baytni dag‘i ko‘p o‘qurlar edikim:

Labing ko‘rgach iligim tishlaram har dam tahayyurdin,
Ajab holatki, tutmay bolni barmoq yalaydurmen.

Masnaviydin bu bayt yodlarida erdi:

Har nechaki puxta bo‘lsa tadbir,
Berur anga go‘shmol taqdir”, – deb yozadi [Navoiy: 1999, 114-115].

Mazkur ko‘chirmada undan foydalanuvchi diqqat qaratishi lozim bo‘lgan bir nechta so‘z va jumlalar bor. Xususan, “**chun ul avqotda**” – Sulton Ibrohim taxtga o‘tirgan vaqt; “**alar**” – Sayyid Hasan Ardasher; “**ba’zi abyotni ko‘p o‘qur erdi**” – (Ardasher) ayrim baytlarimni takror-takror o‘qir edi; “**majolisda xushvaqt bo‘lur erdi**” – (Ardasher) she’r majlislarida (o‘qiganidan) xushvaqt bo‘lar edi; “**ul jumladin**” – (Ardasher) takror-takror o‘qiydiganlaridan.

Xulosa: ko‘chirma mazmunidan anglashilishicha, gap Sayyid Hasan Ardasherning sevib va doimiy o‘qib yuradigan bir nechta (4) bayt/g‘azallar haqida ketmoqda. Ya’ni mazkur baytlar Ardasher sevib o‘qiydigan bayt/g‘azallardan namuna, yana kimdir boshqa kishi uchun shoirning boshqa bayt/g‘azallari sevimliroq bo‘lgan.

2-dalil. *“Navoiy chalasavodlik va matnni xato ko‘chiruvchilarga nisbatan murosasiz bo‘lgan. “Ilk devon” matnida esa imloviy xatolar juda ko‘p. Bu esa u Sultonali Mashhadiy tomonidan kitobat qilingani haqidagi fikrning haqqoniyligiga shubha soyasini soladi”.*



Qo‘lyozma kolofoni shikastlanmagan, o‘chirilmagan va tuzatilmagan. Unda kotibning ismisharifi (Sultonali Mashhadiy), sana (870-hijriy) aniq ko‘rsatilgan:

Tabdili va mazmuni: *“Harrara al-abdu Sulton Aliy Mashhadiy fi shuhuri sana sab’iyna samanamia fi ayyomi-sh-shaybi” (“Qul Sulton Ali Mashhadiy (tomonidan) sakkiz yuz yetmishinchi (870) yilning oylarida, soch oqargan kunlarda tahrirlandi (tartib berildi)”).* 870-hijriy yil 1465–1466-milodiy yillarga to‘g‘ri keladi.

Ayrim olimlar ايّام الشيب (ayyomi-sh-shaybi) – “**soch oqargan kunlar**” birikmasi kishining yoshiga ishora, deb qabul qilishadi va Sultonali Mashhadiyning 1437-yilda tug‘ilganini hisobga olib, 870-yil hijriyda u hali 30 yoshga ham to‘lmaganini, demak, hali sochi oqaradigan yoshda bo‘lmaganini ta’kidlashadi. Bizningcha, bu iborani to‘g‘ridan to‘g‘ri tushunish maqsadga muvofiq emas, balki so‘z o‘yini vositasida “**qish kunlarida**” deb qabul qilish matnga alohida joziba yuklaydi. Ko‘plik shaklidagi “**oylarida**” so‘zi qo‘lyozma bir necha oy davomida yozilganiga ishora qiladi va katta ehtimol bilan ish qish oylarida nihoyasiga yetgan.

Qo‘lyozmadagi imloviy xatolarning ko‘pligini matn hali Sultonali Mashhadiyning “*qiblatu-l-kuttob*” darajasiga ko‘tarilmagan davrlarda yozilgani bilan izohlash mumkin.

Sultonali Mashhadiyga “Majolisu-n-nafois”da berilgan baho – bu Alisher Navoiyning 1492–1496-yillar oralig‘idagi e’tirofi o‘laroq qadrlanadi, ya’ni bu ta’rif kotibning kamoloti darajasiga berilgan ta’rifdir: “*Bu kun Xurosonda va olamning aksar bilodida “nasx ta’liq” xatida*

qiblat ul-kuttobdur va kitobat mulkining qalamravi yakqalami anga musallamdur... Ammo chun Mashhadiydur, ul alfozg'a tamom tag'ayyur bera olmaydur, va lekin ko'p hunar muqobalasida oz ayb tushmas" [Navoiy: 1997, 124].

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy Sultonali Mashhadiyning chiroyli xat sohibi ekanini urg'ulagan va davomida uning mashhadlik (aftidan, bu joyda uning millati nazarda tutilgan) bo'lgani sababidan so'zga batamom o'zgacha tus bera olmasligi, lekin bu kamchiligi uning ko'p yaxshi hunari oldida ayb emasligini ayricha ta'kidlagan.

Adabiyotshunos N.Ramazonov ham "Yana "tahrirni tahrir" masalasi xususida" maqolasida "*bu mashhur xattot Sultonali Mashhadiyning turkiy matnlarni ko'chirish bo'yicha ilk tajribalaridan (balki birinchi!) bo'lganligi sababli unda ko'plab imloviy xatolarga yo'l qo'yilgan*" deb xulosa beradi [Ramazonov: 2007, 86].

Xulosa: Sultonali Mashhadiy "Ilk devon"ni oqqa ko'chirgan paytlarida maqtalgani singari kamolotga erishmagan edi, garchi yoshi 30 yoshlarda bo'lsa ham.

3-dalil. *"Ilk devon"da keltirilgan g'azallarning ayrimlari shoirning yoshlik davriga mansub emas"*.

Adabiyotshunoslarimiz "Ilk devon"ning 103[a-b]-sahifalarida berilgan mashhur g'azalning quyidagi matla'siga e'tibor qaratadilar va jumladan, O.Davlatov "*Matla'dan Navro'z bilan hayit bir kunga to'g'ri kelgani hamda bog'dagi sarv kabi yorining ayyom munosabati bilan yashil kiygani shoirga cheksiz ilhom va quvonch bag'ishlagani anglashiladi. Milodiy 1471 (hijriy 875) yili Navro'z bilan Ramazon hayiti bir kunga to'g'ri kelganini hisobga olsak, bu g'azal ham shoirning o'rta yosh davri lirikasiga mansubligi ma'lum bo'ladi*" deb xulosa beradi [Davlatov: 2025, 4]. Mana o'sha bayt:

Muvofiq kiydilar, bo'lmish magar Navro'z ila bayram,
Chaman sarvi yoshil xil'at, mening sarvi ravonim ham.

O.Davlatov birinchi misradagi ***ila*** yordamchisini ***va*** biriktiruv bog'lovchisi sifatida talqin qiladi va *bayram*ni ***iyd al-fitr*** degan xulosaga keladi. Bizningcha, ***ila***ni ***bilan*** ko'makchisi, ***bayram***ni ***Navro'z olib kelgan shodlik, xursandchilik*** deb tushunish shoirning maqsad-niyatini ko'proq namoyon qiladi: ***Navro'z kelishi bilan bayram(lar) boshlanib ketdi, chaman yashil xil'atga burkandi, mening yorim ham shunday libos kiydi – chamanning yashillanishi bilan yorimning kiyinishi bir-biriga muvofiq bo'ldi***.

Qolaversa, adabiyotshunos A.Eshonboboyev ***bayram*** so'zi g'azalda qofiya e'tibori bilan ishlatilganiga ishora qilgan [Eshonboboyev: 2025, 5]. Biz ham ushbu fikrga qo'shilamiz va buning tasdig'i uchun Boburning quyidagi 2 baytini misol qilib keltiramiz:

Yuzi navro'zi-yu vasli iydini, Bobur, g'animat tut
Ki, mundin yaxshi bo'lmas, bo'lsa yuz ***navro'zu bayram****lar;*
Ulki yillar-oylar o'tkargay g'am-u motam bila,
Shod-u xurram bo'lmag'ay ***navro'z ila bayram*** *bila.*

"Ilk devon"ning 2[b] – 3[a] sahifalaridagi yana bir mashhur g'azalning quyidagi (10-bayt):

Mumkin ermas shahlar ichra buyla niyatlig', magar
Shohi G'oziykim, muyassar bo'ldi bu davlat anga, -

bayti ham mutaxassislarda devonning qadimiyligiga shubha uyg'otgan. Ya'ni shoh G'oziydan murod – Husayn Boyqaro, uning g'oziyligi esa 1469-yildan (saltanat taxtiga o'tirganidan) boshlab hisoblanganida ham, g'azal ushbu sanadan oldin yozilmagan, demak, "Ilk devon" kolofonidagi 870 sanasi ham qandaydir xatolik bilan yozilgan [Davlatov: 2025, 4].

A.Eshonboboyev Husayn Boyqaroning mulkgirlik faoliyati ancha oldin – Abulqosim Bobur vafoti (1457-yil)dan boshlanganiga diqqat qiladi [Eshonboboyev: 2025, 5].

M.Imomnazarov qo'lyozmaning mazkur g'azal bitilgan 3a sahifasi ko'kimtir, boshqa sahifalar esa sarg'ish tusda ekaniga e'tibor qaratadi va "*ushbu sahifadagi yozuv yuvilgan, so'ng matn qayta yozib chiqilgan*" deb hisoblaydi [Imomnazarov: 2021, 69].

Chindan ham mazkur sahifaning jadval qismi – matn yozilgan qismi boshqa sahifalaridagi ayni joydan keskin farq qiladi. Solishtirish uchun 2b-3a-3b sahifalarni taqdim etamiz (1-rasm). Biz M.Imomnazarovning xulosasini tasdiqlamaymiz ham, inkor ham qila olmaymiz. Negaki, bunday xulosa maxsus ekspertiza natijalariga muvofiq qabul qilinadi. Maxsus ekspertiza esa o‘tkazilmagan.



1-rasm.

Xulosa

Alisher Navoiy g‘azallarining yozilish davriga doir tadqiqotlar nafaqat o‘zbek adabiyotshunosligida, balki butun turkiy va jahon navoiyshunosligida ham hali “start”da turgan masalalardandir.

Bizningcha, devonning to‘liq transliteratsiyasini amalga oshirish va nashr etish yuqoridagi singari bahs-munozaralarga qaysidir darajada nuqta qo‘yishi mumkin (Biz bu ishga kirishganmiz. Devonni uning faksimile asosida nashrga tayyorladik. Tez orada nashr etilishidan umidvormiz).

“Ilk devon” nashr qilinsa, adabiyotshunoslar uchun undagi she’rlarni shoirning boshqa rasmiy devonlari (MAT nashrlari)dagi she’rlar bilan taqqoslash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davlatov O. Xun evaziga keltirilgan qo‘lyozma (yoxud g‘alati “mashhur”lardan biri xususida) // “Jadid” gaz., 2025-yil 1-yanvar, № 1. -B. 4.
2. Eshonboboyev A. “Ilk devon”ni kim tuzgan? / “Jadid” gaz., 2025-yil 14-mart, № 11. -B. 1, 5.
3. Imomnazarov M. Olti devon muqoyasasi / “Alisher Navoiy va XXI asr”: xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari. –T.: Турон-иқбол, 2021. – B. 60-80.
4. Рамазонов Н. Яна “таҳрирни таҳрир” масаласи хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: 2007, 1-сон. –Б. 78-89.
5. Навоий, Алишер. Ҳолоти Сайид Ҳасан Ардашер / Китобда: МАТ, 20 томлик, 15-том. – Т.: Фан, 1999. –Б. 110-128.
6. Навоий, Алишер. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад / Китобда: МАТ, 20 томлик, 15-том. – Т.: Фан, 1999. – Б. 129-149.
7. Навоий, Алишер. Мажолису-н-нафоис. МАТ, 20 томлик, 13-том. – Т.: Фан, 1997. – 300 б.

ALISHER NAVOIYNING “HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER” MANOQIBIDA FANO VA BAQO TALQINI

Kaxxarova Shaxnoza Abdimuminovna,
Filologiya fanlari nomzodi, professor,
Xalqaro innovatsion universitet
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-4798-7220
e-mail: qahborova7331@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Hazrat Alisher Navoiyning “Sayyid Hasan Ardasher” asari misolida manoqib janrining o‘ziga xos xususiyatlari, tasavvuf ta’limotida komil inson maqomi, ruhiy me’roji bo‘lmish fano va baqo konsepsiyasi tahlil etiladi. Sayyid Hasan Ardasher siymosi tasvirida foniylikning mezonlari, shartlari, belgilari, darajalari, fano va baqoga yetgan solik sifatlari, holoti masalalari atroflicha ochiqlanadi.

Kalit so‘zlar: *manoqib, fano, baqo, komil inson, soliki foniy, sarxayli fano.*

Abstract

This article examines the distinctive features of the manaqib genre, the concept of the Perfect Human (al-insan al-kamil) in Sufi doctrine, and the spiritual ascent embodied in the notions of fana (annihilation) and baqa (subsistence) through the example of Alisher Navoi’s work “Holati Sayyid Hasan Ardashir.” The portrayal of Sayyid Hasan Ardashir thoroughly explores the criteria, conditions, signs, and stages of fana, as well as the qualities and spiritual states (ahwal) of a salik (wayfarer) who has attained fana and baqa.

Key words: *manaqib (Islamic hagiography), fana, baqa, al-insan al-kamil (Perfect Human), salik, Sufism.*

Fano va baqo komil insonlarning maqomi, ruhiy me’rojidir. Abul A’lo Afifining keltirishicha, fano haqida ilk so‘z yuritgan Boyazid Bistomiy bo‘lib, u fanoni ruhiy me’roj narvonining eng yuqori martabasi o‘laroq qabul etgan. Shunday ekan fano va baqo masalasini komil inson mavzusining tarkibiy qismi, shu bilan birga eng muhim va jiddiy qismlardan deb aytish mumkin. Komil inson haqidagi badiiy mushohadalar Alisher Navoiy foydalangan barcha janrlardagi asarlarda spetsifik tarzda berilganini ta’kidlash mumkin. Islomiy manbalar asosida shakllangan va keyinchalik badiiy adabiyotda mustaqil janrga aylangan manoqiblarda fano va baqo masalasining ko‘tarilishi o‘ta tabiiy jarayondir. Ushbu maqolada ijodkorning “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” manoqibi misolida komil inson mavzusi va unga aloqador eng yirik masalalardan bo‘lgan fano va baqo talqinlariga e’tibor qaratishni maqsad qildik.

Sayyid Hasan Ardasher ulug‘ mutafakkir hayot yo‘lidagi eng yaqin yo‘ldoshlardan biri edi. Unga yodnoma tarzida bitilgan “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” manoqibi shunday ibtido topadi:

Lutf aylabon, ey nasimi quds osor,
Bir qatla fano gulshaniga ayla guzor.
Ahbobg‘akim toptilar ul yerda qaror,
Mendin yer o‘pub arzi niyoz et zinhor. [Alisher Navoiy, 2013:6].

Ya’ni: “Ey muqaddas nasim, lutf ayla-yu bir bor fano gulshaniga qadam qo‘y. Yaqin do‘stlarim u yerda qaror topdilar, ular huzurida yer o‘pib salomimni yetkazgin!”

Biz uchun ushbu o‘rindagi *“fano gulshani”* istiorasi e’tiborli. Bu birikma iyhom san’atiga qurilgan bo‘lib, uni ham “mozor”, ham “fano maqomi” deb qabul qilish mumkin. Ushbu misralardan so‘ng nasriy qism shunday boshlanadi:

“Soliki foniy va gavhari koniy, orifi maoniy Sayyid Hasani Ardasher (Rahmatullohi) siyar va holotida”. [Alisher Navoiy, 2013: 6].

Sayyid Hasanga nisbatan epitetlarning “soliki foniy” deya boshlanishi bejiz emas. Bu ham manoqib

janri, ham Sayyid Hasan tabiatiga uyg‘un tushgan. Komillik yo‘liga kirgan kishilar holatiga, darajasiga ko‘ra tolib, solik, mutasavvif, so‘fiy ismlari bilan yuritiladi. Tasavvufda solik deganda yo‘lchi, ahli suluk, Alloh yo‘liga kirgan, tasavvufiy tarbiya bilan mashg‘ul kishi, tariqat ahli tushuniladi. Murid (mubtadiy) hamda muntahiy (vosil, eran) orasidagi mutavassitga *solik* deyiladi. Ilmi va tasavvuri bilan emas, holi bilan maqomlarda sayr qilgan solik bu holda ekan aynu-l-yaqiyn bilan bilim sohibi bo‘ladi va bu bilim uni yo‘ldan adashishga sabab bo‘luvchi har qanday shubhadan to‘sib turadi.

Demak, *“soliki foniy” epiteti orqali Sayyid Hasanning yuqorida ta’rif etganimiz solik so‘zi o‘z zamiriga qamrab olgan fe’l va sifatlarga ega inson ekaniga nozik ishora qilinadi. Qolaversa, ushbu sifatlash boshqa ikki sifatlash – gavhari koniy* hamda *orifi maoniy* degan juda yuksak baholardan oldin keladiki, bu ham fanoga yetgan solikning darajoti komillikning boshqa ko‘plab maqomlaridan baland turishini anglatadi. Chunki Navoiy ijodida so‘zlarning joylashuv o‘rni ham ma’no tashiydi. Ijodkorning bu poetik usuli haqida akademik Alibek Rustamov o‘z tahlillarida ko‘rsatib o‘tgan. [Rustamov, 1979: 4].

Ushbu manoqib hamda Navoiyning Sayyid Hasanga yozgan masnaviy shaklidagi she’riy maktubida fano va foniylik masalasi Sayyid Hasan timsolida talqin qilinadi. Masnaviyda hamd va na’t qismlaridan so‘ng mamduh, ya’ni Sayyid Hasanning ta’rifi shunday boshlanadi:

Safo subhining mehri farxundasi,

Fano shomining sham’i raxshandasi... [Alisher Navoiy, 2013:573]

Ya’ni “Safo tongining saodatli quyoshi, fano shomining porloq sham’i. Karam qasrida taxtda o‘tirguvchi, yo‘qlik xonaqohida xilvatga chekingan. Ahli roz – ishq ahli egnilariga xirqalar tikib uning choponi yamog‘i bilan bezaydilar. To‘ni go‘yo bir falak va o‘zi unda bir jahon, go‘yo jahonni bir to‘n ichra yashirgan. Uning uchun etik charmi bir juft taxta kovush bo‘lib, har bir qadam qo‘ygan joyi uning uchun ikki dunyo kabidir. Fano qo‘shinini falakdan oshirgan va u qo‘shin ichra o‘zini yashirgan”.

Ko‘rinadaki, Navoiy ushbu o‘rinda Sayyid Hasanni vasf qilish barobarida foniylikning mezonlari, belgilarini tilga olmoqda. Ya’ni bu yo‘lga kirgan solik *pok qalbining porloq nuri bilan kunduz va kechalarni yoritib turuvchi, yuksak darajada karam va saxovat egasi, faqirlikni kasb qilgan, butun ishq ahliga o‘rnak bo‘luvchi ishqparast, jahonni bir to‘n ichra yashirgan kabi nazari to‘q va dunyoga ehtiyojsiz, bir juft taxta kovushda yursa-da, har bir qadam qo‘ygan joyini ikki dunyo kabi qabul qiladigan, fano qo‘shinini falakdan oshirgan va u qo‘shin ichra o‘zini yashirgan* bo‘lmog‘i kerak.

Navoiy manoqibda Sayyid Hasanning bolalikdan “o‘qumoq va bitmakka tab’lari muloyim va moyil” ekani, uning zotida “adab va hilm va tavozu’ va xayo” g‘olib ekani, shu sababli sarf va nahv, lug‘at va arabiyat, mantiq va kalom, fiqh va hadis, tafsir, she’r va muammo, ta’rix va nujum, advor va musiqiy majlislarida ko‘tarilgan masalalar yuzasidan majlis ahlining ko‘pidin yaxshiroq bilsa-da, ham hayo va adab jihatidan, ham birovga ilzomu xijolat yetmasin deb, ko‘p so‘z aytmasligi, balki ko‘p majolisda mutlaqo so‘zlamasligini uning yuksak ijobiy xislatlari sifatida sanab o‘tadi. Sayyid Hasan tabiatidagi bu fazilatlar bejiz emas, albatta. Ularning hosil bo‘lishi, shakllanishida fano va baqo yo‘lida tarbiya qiluvchi eng keng metodlardan biri – naqshbandiyaning ta’siri sezilib turadi. Navoiy bu tariqat xususida o‘z qit’alaridan birida shunday degan edi:

Fano shu’lasida yoshur jismni,

Kerak bo‘lsa zarbaft xil’at sanga... [Alisher Navoiy, 2013:708]

Ya’ni: “Agar senga kimxob to‘n kerak bo‘lsa, unda jismingni fano shu’lasiga yashir... Agar xilvating anjumanga aylanishini istamasang, unda anjuman ichra xilvatda bo‘lmog‘ing kerak. Agar safar qilmoqdan senga mashaqqat yetadigan bo‘lsa, u holda Vatan ichra sokin bo‘lib sayr qiluvchi bo‘l. Agar bu yo‘lni bosib o‘tishga rag‘bating bo‘lsa, nazaringni qadamingdan yiroq tutmagin. Har nafasingdan hushyor bo‘lki, shunda hech bir ofat bilan yuzlashmaysan. Ajab emaski, sen bu to‘rt ish bilan yer yuzida podshoh e’lon qilinsang. Ey Navoiy, agar navbat yetsa, nasib qilsa, aytilganlarni qasd, niyat qilsang, albatta, naqshband bo‘lasan”.

Manoqibni o‘qigach, Navoiy ushbu qit’ada ta’kidlangan jihatlar va naqshbandiyaga oid boshqa usullar Sayyid Hasan hayotining ajralmas qismi bo‘lganiga amin bo‘lish mumkin. Jumladan, Naqshbandiya raxshalaridan biri “Nazar bar qadam” bo‘lib, uning mohiyati shunday: *oyoq barmoqlariga ko‘z tikish, taqiqlangan narsalarga qarashdan tiyilish; o‘z qadamlarini nazorat qilish, ya’ni istagi nima ekanini his etish; maqsadga e’tibor qilish va undan chalg‘imaslik; hushyorlikni saqlab qolish va zarur paytda to‘g‘ri ishlarni bajarish uchun beriladigan imkoniyatlarga ochiq bo‘lish*. Demak, yuqorida sanalgan barcha ilmlarni o‘zlashtirmoq uchun Sayyid Hasan kichik yoshlikdan har bir qadamidan ogoh bo‘lgan, istagi nima ekanini yaxshi his qilgan, maqsadga to‘g‘ri yo‘nalgan va undan chalg‘imagan, zarur vaqtda to‘g‘ri ishlarni bajargan – kerakli ilmlarni o‘zlashtirgan, imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalangan. Sayyid Hasanning majlislarda “ko‘p so‘z aytmasligi, balki ko‘p majolisda mutlaqo so‘zlamasligi” fazilati esa “Xilvat dar anjuman” (anjumandagi yolg‘izlik) raxshasi asosida shakllangan, deyish mumkin. Chunki bu qoida mohiyatan *“boshqa kishilar orasidagi uzlat, dilda Allohni esdan chiqarmagan holda dunyoning ishlari bilan band bo‘lish; zohirda dunyoda, ammo botinda Alloh bilan birga bo‘lish”* hisoblanib, kishi fe’lida mana shu jihatlarni tarbiyalaydi. Naqshbandiyaning “Safar dar vatan” (vatanda safar qilish) raxshasi mohiyatida esa *“odamlardan uzoqlashib, Allohga yaqinlashish – ichki sayohat, ya’ni odam o‘z ichida sayohat qilishi; o‘z xatolaridan xulosa chiqarish hamda tanbeh beriluvchi nuqsonlardan maqtovli fazilatlarga sayohat qilish”* yotadi. Demak, Navoiy ahbobiga bergan ta’riflarning qisqagina bir parchasidayoq “fazl ahliga foyiq va sarafroz” bo‘lgan Sayyid Hasanning tabiati naqshbandiyaning yuqorida ko‘rsatib o‘tganimiz uch qoidaga muvofiq sayqal topganini ko‘rish mumkin.

Tasavvufshunos Edhem Jebejio‘g‘luning keltirishicha, “Baqoning mohiyati qulning o‘z nafsining yomonliklarini tasfiya qilishi (poklashi) va yaxshi axloq ila, ya’ni Alloh rozi bo‘ladigan xislatlar bilan bezanmog‘idir. Bunga baqobilloh deyiladi. Sufiylar buni “badaniy vujud yo‘q bo‘lgach, Haqqoniy vujud uning o‘rnini egallaydi” deya tushuntiradilar”. [Cebecioğlu, 2009: 80-81]. Sayyid Hasan ana shunday go‘zal fe’l va sifatlar sohibi bo‘lgani uchun ham davr hukmdori Boysunqur mirzo qoshida azizu mukarram va muhtaram edi.

Demak, foniyvash kishilarning tabiati shohu gadoga manzur bo‘lar ekan. Bunday kishilar go‘yo pok bir gavhardir va ularning yeri podshohlarning boshi ustidadir:

Pok gavharki, bo‘ldi pok shior,
Shohlar boshi ustida yeri bor [Alisher Navoiy, 2013: 7].

Aziziddin Nasafiy o‘zining “Komil inson kitobi” asarida shunday deydi: “Komil inson shunday insonki, unda to‘rt sifat kamolga yetgan bo‘lsin: ezgu so‘z, ezgu amal (fe’l), ezgu axloq va maorif”. [Nasafiy, 2021: 7]. Navoiyning Sayyid Hasanga bergan mana bu ta’rifi uning Nasafiy keltirgan sifatlarga ega bo‘lganini ko‘rsatadi:

Foniyvasheki, ham so‘zidur pok, ham o‘zi,
Xush davlat ul kishigaki tushgay aning ko‘zi. [Alisher Navoiy, 2013:7].

Sayyid Hasandagi Navoiy e’tirof etgan poklik kabi qator go‘zal sifatlar baqoning mohiyatiga uyg‘un keladi. Chunki baqo mavjud bo‘lmoq, davom etmoq, yomon odatlarni tark etib, yaxshi odatlarga ega bo‘lish, inson va boshqa narsalarning quvvat va ta’sirini ko‘rmasdan faqat Allohning quvvat va ta’sirini ko‘rish, Allohdan boshqa hech narsani ko‘rmaslikdir, baqobilloh esa Alloh bilan mavjud bo‘lish. Baqo bad az-fano – Fanodan keyin hosil bo‘lgan baqo. Baqo – bandaning xudoning sifatlari bilan bezanishidir. Asarda Sayyid Hasan o‘zidagi yomon fe’llarni foniy qilib, Allohning go‘zal sifatlari bilan bezangan shaxs sifatida o‘quvchi ko‘z o‘ngida shakllanadi.

Fano yo‘lini bosib o‘tib baqobilloh bo‘lgan murshidlar yelkasiga yuklanadigan vazifalardan biri o‘zgalarni ham tarbiya qilmoq, Haq yo‘l tomon irshod qilmoqdir. Sayyid Hasan ana shunday murshid sifatida Navoiyni faqru fano yo‘liga irshod qilgan. Bu haqida Navoiy shunday deydi: “Va bu faqirni faqr tariqig‘a dalolat va irshod qilurlar erdi va nazm ayturg‘a targ‘ib ko‘rguzurlar erdi”. [Alisher Navoiy, 2013:8].

Soliklarning holiy darajalari yuksalishida suhbatlarning o‘rni beqiyos bo‘lgan. Ilk so‘fiylar ham suhbatga jiddiy ahamiyat berishgan. Tasavvufiy bilimlarni ahil va havasli ko‘ringan muhiblarga xos suhbatlarda ulashishgan, tasavvufiy ta’lim va tarbiyada suhbatni asos qilib olishgan. Sayr-u sulukda suhbat odobi asosiy masalalardan sanaladi. Aziziddin Nasafiyning fikriga ko‘ra, suhbat kuchli ta’sir va azim xosiyatlarga ega. Komil insonning suhbati – qudratli kuchga ega, u yurakka yetib boradi va mohiyatlarni anglashga ko‘maklashadi. Kimki (tariqat yo‘lida) biror narsaga ega bo‘lgan bo‘lsa, bu donolar suhbati tufaylidir. Qolgan barcha usullar vositadir, xolos. Riyozat va harakat, jahd-u jadallar ko‘p. Ammo barcha riyozat, odob-u sharoitlar pir suhbatiga yetishga tayyorgarlikdir, xolos. Solik pir suhbatiga munosib bo‘lsa, uning ishi nihoyasiga yetgan, ya’ni tariqatni oxiriga yetkazgan bo‘ladi.

Tasavvufda, ayniqsa, naqshbandiylik ta’limotida suhbatga alohida ahamiyat berilib, muridning ruhiy tarbiyasida pirning suhbati kuchli ta’sir xosiyatiga ega, deb hisoblashgan. Bahovuddin Naqshband shunday degan ekanlar: “Bizning yo‘limiz suhbat yo‘lidir”. Navoiy yashagan davrda Movarounnahr va Xurosonning aksar hududlarida naqshbandiya keng tarqalgan. Bertelsning ma’lum qilishicha, Navoiy ham shu tariqatda bo‘lgan. [Бертельс, 2015: 178]. Bulardan kelib chiqib Sayyid Hasanning ham naqshbandiyaning muhim metodlaridan bo‘lgan suhbatlarga jiddiy e’tibor qaratganini tushunish mumkin. Buni manoqibda Navoiy keltirgan mana bu ma’lumot tasdiqlaydi: “Va zamonning shuaro va fuzalo va zurafosidin alarning visoqi xoli ermas erdi, balki darveshlar va ahllulloh dag‘i doim alarning uyin musharraf qilib, *suhbat tutar* erdilar, Va shahrning sozanda va xonanda va go‘yandasi doim alar *suhbatida* hozir bo‘lurlar erdi. Bu mazkur bo‘lg‘on zurafodin hargiz yo‘q erdikim, alarning manzilida kishi bo‘lmag‘ay, balki bu toifaning majmai alarning visoqi erdi va bu jamoat doim anda” [Alisher Navoiy, 2013:9]. Navoiy ulus qabulini, suhbatni Xudoning lutfi shaklida juda yuqori baholab shunday misralarni keltiradi:

Xush ulkim, anga lutf birla xudo,
Ulusning qabulini qildi ato. [Alisher Navoiy, 2013: 9].

“Va mutabarrak mazorotg‘a borib, aziz darveshlar va ahllulloh majolisig‘a yetib, o‘z maxlaslari uchun fotihalar daryo‘za qilur erdilar va ul buzurgvorlarkim, alar xizmatig‘a musharraf bo‘lurlar erdi – qabul va iltifot nazarlari topar erdilar...”

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Sayyid Hasan ham naqshbandiya raxshalariga, tarbiya usullariga jiddiy e’tibor qaratgan, o‘z hayotida tatbiq qilgan, suhbat yo‘li bilan qanchadan-qancha kishilarga ma’rifat ulashib ularni Haq yo‘l sari irshod qilgan.

Sayyid Hasan bilan bog‘liq yana bir jihat e’tiborni tortadi. Bu rind, rindlik masalasidir. Navoiy u haqida shunday deydi: “...rindliq va tajarru’ ayyomida soyir rindlardin ko‘prak ichar erdilar. Andoqki, ba’zi ikki qatla va ba’zi uch qatla mast bo‘lub, majlisdin chiqib, uyub, yana majlisg‘a kelurlar erdi va alar o‘z hollarida erdilar. Oqshomki, majlis ahli odati bila usruk uyur chog‘ bo‘lsa erdi, alar birin-birin usruk boshig‘a yetib, mulozimliq elni mulozimlarig‘a topshurub, navkarsiz nomurodlarni muhofazat qilib, yonlari ostig‘a nima soldurub, boshlari ostida nima yastab, ilaylarig‘a ko‘zalik suv qo‘ydurub, ba’zining kafsh va dastorlarin va yog‘liqlarin va aning uchida tugunginasi bulsa, belguluklarin mulozimlarg‘a topshurub, xotirlarin ul toifa jam’idin so‘ngra xuftan namozin ado qilib, o‘z hujralarida osoyishg‘a mashg‘ul bo‘lur erdilar. Bu majlis ishtig‘oli jihatidin hargiz alarg‘a namoz qasdan qazo bo‘lmadi. Va agar ba’zi kunlar alar suhbatida soda yuzluk yigitlar mast bo‘lguncha ichib, chun alar atvorig‘a ancha e’timodlari bor erdikim, o‘z uylaridin eminrak bilurlar erdi, ham yiqilsalar erdi, alarni atodek kishilarning amnobod uylariga yotquzub, qufl qildurub, mo‘tamad amin kishilar alar muhofazati uchun ta’yin qilib, eshikni ustidin bog‘latib, ul muhofizg‘a tashqaridin posbonliq buyururlar erdi. Va sabuhiy vaqtig‘acha bir-ikki qatla barcha usruk yotg‘on rindlardin o‘zlari yurub xabar tutarlar erdi”. Navoiy Sayyid Hasanning rindlar bazmidagi doimiy ishtiroki, rindlarga mehribonligini batafsil tasvirlash barobarida uni rindlar ichidagi “ogoh rind”, “rind ahlining shohi” sifatida vasf qiladi:

Rindlardin bir aningdek yo‘q erur ogoh rind,
Shoh edi rind ahlig‘a, balkim erdi shohi rind. [Alisher Navoiy, 2013:11].

Navoiy Sayyid Hasan duo talabida bo‘ladigan buzurgvorlar qatorida Mavlono Boyazid Puroniy, Hazrat Bahovuddin Umar (quddisa sirrihu), Hazrat Xoja Abu Nasr Porso (rahmatullohu taolo), Xoja Muhammad Kusaviy (quddisa sirrihu), Shayx Ziyoratgohiy (alayha rahma)larni nomma-nom sanaydi hamda ulardan tashqari “zamonning mashoyix va darveshlarining aksarining mulozamatlarig‘a yetib, suhbatlarig‘a musharraf bo‘lub, maxsus iltifot va nazarlar toparlar erdi”, deya ta’kidlaydi. Shu o‘rinda muallif yana bir muhim jihatga e’tibor qaratib o‘tadi. Ya’ni Sayyid Hasanda “faqru fano tariqi akmal vajh bila zohir erdi, bu toyifaning so‘zlarig‘a tab’lari muloyim”, der ekan shu bilan birga nomlari zikr etilgan azizlar, mashoyix va darveshlar ham Sayyid Hasanning “suhbatini tilar erdilar”, deya ta’kidlaydi [Alisher Navoiy, 2013:11]. Bundan Sayyid Hasanning faqru fanoda komil ekanini, qolaversa, shu sababdan ham uning suhbatlari ko‘pchilikka xush yoqqanini tushunish mumkin. Jumladan, uning so‘z-u suhbati hatto podshoh Husayn Boyqaroga ham bag‘oyat xush keladi. Natijada Navoiyning keltirishicha, “Xuroson mulkining kulliy ixtiyorin podshoh alarning soib rayig‘a va tadbiri mulk oroyiga vobasta qilg‘udek” bo‘ladi. Shu tariqa hukmdor Sayyid Hasanni o‘z xizmatiga oladi. Sayyid Hasan bu ishga “ikki yilg‘acha podshohning muborak xotiri uchun cheriklar mashaqqatin tortib safarlar balosig‘a o‘zlarin solib yurudilar va in’omu ulufa (ya’ni, amaldorlarga davlat tomonidan belgilangan oziq-ovqat va maosh – Sh.K.) mutlaqo olmadilar va darveshona kisvat bila mulozamat qilurlar erdi” [Alisher Navoiy, 2013:12]. Ya’ni Sayyid Hasan hukmdor xizmatiga davlat orttirish uchun, nafs uchun kirmagan, balki podshohning xotiri uchun kirgan. Mana shuning o‘zi ham fanoning bir darajasi aslida. Fanoning *fano fil ixvon* darajasi mavjud bo‘lib, unda solik o‘zini birodarlarda foniy qiladi. Qolaversa, Ibn Furaq uch xil fano borligi xususida so‘zlagan. Bular:

a) butun xalqdan foniy bo‘lmoq;
b) xalq bilan bog‘liq barcha narsadan foniy bo‘lmoq;
d) nafs hamda ruhdan foniy bo‘lmoq. [İbn Fûrek, 214: 256]

Ba’zilar fanoning ma’nosi nafs sifatining foniy bo‘lishidir, deydilar. Demak, Sayyid Hasan nafsidan foniy bo‘lgani uchun ham evazsiz xizmat qilgan va darveshona, faqirona kun kechirgan.

“Holoti Sayyid Hasan Ardasher”da fano talqinlariga razm solganda yana bir masala o‘rtaga chiqadi. Muallif Sayyid Hasan timsolida Haq oshiqlarida faqru fanoning ikki yo‘l bilan hosil bo‘lishiga ishora qiladi.

Birinchisi, Haq taoloning in’omi bilan. Navoiy Sayyid Hasanda “faqri zotiy va fanoyi jibilliy” mavjud ekanini ta’kidlaydi. Ya’ni muallifga ko‘ra faqr Sayyid Hasanning zotida mavjud edi hamda undagi fano tug‘ma, tabiiy edi.

Ikkinchisi, Haq oshig‘ining sa’y-harakati bilan. Sayyid Hasan zotida faqr mavjud bo‘lsa-da, tug‘ma va tabiiy fano sohibi bo‘lsa-da, ularni yanada kamolga yetkazishga harakat va g‘ayrat qiladi. Zamona buzurgvorlaridan biri Mavlono Shamsuddin Muhammad Tabodgoniy (qaddasallohu taolo ruhahu-l-aziz) xizmatiga borib, faqr tariqini ixtiyor qiladi va bir necha yil u zotning suhbat va mulozamatlarida suluk qilib, xonaqohlarida azim arba’inlar chiqaradi. “Arba’inlar chiqarmoq” so‘fiylikdagi mashg‘ulotlardan biri bo‘lib, chillada o‘tirmoq, nafsni yanchmoq, menlikni sindirmoq uchun muridlarning qirq kun xilvatga chekinmoqliklaridir. So‘fiy bu muddat ichida majbur bo‘lmaguncha biror nima yemaydi, gapirmaydi, uxlamaydi, davomli zikr va tafakkur bilan mashg‘ul bo‘ladi. Bu muddatni muvaffaqiyatli yakunlagan kishi arba’in va chilla chiqargan hisoblanadi. Demak, Sayyid Hasan ana shunday azim arba’inlar natijasida faqru fano sulukida kulliy manzillarni qat’ qiladi, ulug‘ martabalar va buyuk maqomlarga qadam qo‘yadi. Uning suluk va muomalalarini xonaqoh ahli, darveshlar – barcha sog‘lom deb biladi va izhori irodat va ixlos qilishadi.

Navoiy Sayyid Hasanning ilk arba’ini haqida shunday yozadi: “Alarning avvalg‘i arba’inida bu faqir hazrati Mavlono Muhammad Tabodgoniy (quddisa sirruhu) mulozamatlarig‘a borib erdim,

alar holidin so‘rdum, dedilar: “bu kun bir maqomdadurlarki, solik avvalg‘i arba’inda ul maqomg‘a yetsa, ruy aning ollig‘a kelurkim, agar buqoi mufrit yuzlansa, ishining kushodig‘a dalolat qilur, alarg‘a bu hol yuzlanibdur va bag‘oyat umidvorlig‘ yeridur.

Uyla oshiqki, hijrondin ko‘rub dardu malol,
Shodlig‘din yig‘lag‘ay, topqonda davroni visol.

Bu faqir alarning xilvatlari eshigiga bordim: g‘arib hoy-hoy yig‘lamoqda erdilar, hech nima dey olmadim va mutaassir bo‘lub, yig‘lab qaytdim.

Bu faqir fuqaro ahli, *darveshlar va ahlulloh mulozamatig‘a ko‘p yetibmen, fano tariqida alardek oz ko‘rubmen*” [Alisher Navoiy, 2013:13-14].

Demak, Sayyid Hasan, avvalo, Haq taoloning in’omi bilan, so‘ngra o‘zining tinimsiz sa’y-harakati bilan ahlulloh ichra fanoda oz sonli kishilargina yuksala olgan martabaga ko‘tarila olgan.

Shu o‘rinda baqo masalasida ham biroz so‘z yuritmoq joiz. Baqo ilk holiga ko‘ra davom etish, nihoyasizlik, bir holda davomiy bo‘lish. Tasavvufda qulning Allohning har narsadan ustun ekanini ko‘rmog‘i. Yana bir ta’rif shunday: qulning o‘z borlig‘idan kechib, Allohning borlig‘ida boqiylikka erishishidir. Bu nabiylarning maqomidir. Boqiy barcha ashyoni bir, yagona vujud deb bilishi va barcha amallarining Allohga muxolif emas, balki muvofiq holda bo‘lishidir. Bu taqiqlangan narsaga buyurilish ma’nosida emas. Buning ma’nosi – qulning faqat Alloh roziligiga musharraf qiluvchi amrlarni bajarishi va bunda hech qanday norozi bo‘lmasligi demakdir. Zero, u amallarini Alloh rizosi uchun qiladi, bu ishida dunyo yoki oxirat qayg‘usida bo‘lmaydi. So‘fiylar bunda kishining o‘z xususiyatlaridan kechib Allohning sifatlarida baqoga erishmoqni asos o‘laroq qabul qiladilar. Allohda boqiy bo‘lgan kishi nafsida foniy bo‘ladi, ya’ni nafsidan butkul xalos bo‘ladi. Biror ishni nafsiga naf yetkazmoq uchun yoki bir zarardan nafsini qo‘rimoq uchun qilmaydi, faqat va faqat Alloh rizosi uchun qiladi.

Endi baqo va fano haqidagi bu xulosalarimizni Sayyid Hasan bilan bog‘liq yuqoridagi hodisaga tatbiq etaylik. Odobu tavozu’, hilmu hayo tavrida otasiga munosib o‘g‘il bo‘lgan, tab’i xo‘b va surati mahbub, axloqi hamida va atvori pisandida, Hirot xalqining o‘z tavrida yagonasi va nodirasi hisoblanmish o‘n to‘rt yoshli o‘g‘li vafot etganda bu musibatni Sayyid Hasan o‘zgacha, ya’ni o‘z darajasi, maqomi, holotiga ko‘ra qabul qildi, ta’ziyaga kelgan darveshlar va akobiru ashrof, hatto Navoiy o‘zgacha, o‘z darajasiga ko‘ra qabul qildi. Shu sababli ham Navoiy yuqorida zikr qilingan sinovda Sayyid Hasandan hayratlanib u haqida shunday deydi: *“Bu nav’ fano va istig‘roq va havsala bashar xaylidin noma’lumdurkim, kimda bo‘la olg‘ay”* [Alisher Navoiy, 2013: 14].

Bizningcha, zikr etilgan bu hodisa Sayyid Hasandagi foniylikni asoslashdagi eng kulminatsion nuqtadir.

Hazrat Navoiy manoqib ibtidosidayoq Sayyid Hasanni “soliki foniy” sifatlashi bilan e’tirof etgandi. Va nihoyat asar intihosida ham uni fano va foniylik bilan aloqadorlikda tilga oladi, unga haqli va munosib ravishda “Sarxayli fano”, ya’ni “fano yo‘lboshchisi” sifatlashini qo‘llaydi:

Sarxayli fano Sayyid Hasan raft,
Ki joi o‘ bihishti jovidon bod.
Pai on pokrav justand ta’rix,
Biguftam: “Jannati pokash makon bod”. [Alisher Navoiy, 2013:16]

Xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu asarda komil insonlarning maqomi, ruhiy me’roji bo‘lmish fano va baqo masalasining talqin qilinishi manoqib janrining tabiatiga to‘la uyg‘un. Asosiy qahramon – Sayyid Hasan qiyofasi asarning ibtidosidan intihosiga qadar fano va baqo konsepsiyasi bilan omuxtalikda ochib beriladi. Muallif Sayyid Hasan qiyofasini tasvirlash barobarida foniylikning mezonlari, shartlari, belgilari, darajalari, fano va baqoga yetgan solik sifatlari, holoti masalalarini atroflicha ochib beradi. Asardagi fano va baqo masalasini tekshirish jarayonida Navoiy davridagi tasavvuf nazariyasi va amaliyoti bilan aloqador ko‘plab jihatlar xususida tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Navoiy lirik janrlardagi asarlarida fano va baqo mohiyatiga oid qarashlarini “sochib yuborgan” bo‘lsa, ushbu manoqibda

mana shu jihatlarni konkret bir shaxs – Sayyid Hasan siymosida birlashtiradi va shu tariqa ushbu amaliyotni ado etgan kishi shaxsiyati qanday bo‘lishini aniq ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2021.
2. Alisher Navoiy. TAT. J. 1. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2013.
3. Alisher Navoiy. TAT. J. 10. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2013.
4. Бертельс Е.Э. Навоий. Монография. / Таржимон И.К.Мирзаев. – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2015.
5, İbn Fûrek. Tasavvuf Istılahları (el-İbâne an Turuki’l-Kâsıdîn). – İstanbul, 2014.
6. Süleyman Uludağ. Tasavvuf terimleri sözlugu. – İstanbul: Kabalcı Yayıncılık, 2016.
7. Шайх Аҳмад Худойдод Тарозий. Фунуну-л-балоға. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2002. № 1. – Б. 76.
8. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. Нашрга тайёрловчилар: Иброҳим Ҳаққул, Азиза Бектош. – Тошкент: Моваройннаҳр, 2004.
9. Ethem Cebecioğlu. Tasavvuf terimleri ve deyimleri sözlüğü. Ağaç Kitabevi Yayınları, 2009.
10. Hücvirî, Keşfu’l-Mahcûb, 307.

ALISHER NAVOIY MEROSINING TURKIY DUNYO ADABIYOTSHUNOSLIGIDAGI O‘RNI: TARIXIY SHAKLLANISH VA ZAMONAVIY PARADIGMALAR

Axmedov Boburjon Vasikovich,
O‘qituvchi, Nizomiy nomidagiO‘zbekiston milliy pedagogika universiteti.
e-mail: boburjonahmedov993@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada turkiy xalqlarda navoiyshunoslikning shakllanish jarayoni, tarixiy bosqichlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Alisher Navoiy merosining turkiy dunyo madaniy-ma’naviy taraqqiyotidagi o‘rni, turkiy tillardagi tadqiqot maktablarining shakllanishi hamda ularning ilmiy metodologiyasiga oid yondashuvlarni solishtirma asosda yoritiladi. Maqolada shuningdek, Navoiy asarlarini qayta talqin qilishning hozirgi zamon talablari, raqamli navoiyshunoslik, matnshunoslikning yangi yo‘nalishlari va istiqboldagi ilmiy izlanishlar uchun konseptual takliflar keltiriladi. Tadqiqot turkiy xalqlarning adabiy birdamligini mustahkamlash, umumiy ma’naviy qadriyatlarni ilmiy asosda tadqiq etish hamda Navoiy merosining global miqyosdagi ilmiy integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *navoiyshunoslik, turkiy xalqlar, adabiy meros, matnshunoslik, tarixiy manbalar, ilmiy maktab, qiyosiy tadqiqot, raqamli filologiya, madaniy integratsiya, istiqbol.*

Abstract

This article provides a scholarly examination of the historical evolution, methodological foundations, and contemporary development of Navoi studies among Turkic-speaking peoples. It explores the cultural, literary, and intellectual significance of Alisher Navoi’s heritage in the Turkic world, tracing the formation of research schools and comparative approaches across different regions. The paper also highlights current trends in digital philology, modern textual criticism, and reinterpretation of Navoi’s works within the framework of present-day academic demands. Conceptual recommendations for future research and intercultural academic integration are offered. The study contributes to strengthening literary unity among Turkic nations and enhancing the global scholarly recognition of Navoi’s legacy.

Key words. *Navoi studies, Turkic peoples, literary heritage, textual criticism, historical sources, research schools, comparative analysis, digital philology, cultural integration, future perspectives.*

Turkiy dunyo adabiy tafakkurining shakllanishi va taraqqiyotida Alisher Navoiy merosi alohida va betakror o‘rin egallaydi. Turkiy xalqlar ma’naviy olamining eng porloq sahifalaridan birini Alisher Navoiyning bebaho merosi tashkil etadi. Navoiy - turkiy tillarning musiqiy ohangini badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashtirib, uni shunchaki adabiyot emas, balki milliy o‘zlikning ma’naviy yodgorligi darajasiga ko‘targan siymodir. Uning asarlarida aks etgan poetik tafakkur, tasavvufiy falsafa, ma’rifiy g‘oyalar va yuksak axloqiy tamoyillar nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki butun turkiy dunyo intellektual uyg‘onishining uzviy qismi hisoblanadi. Asrlar davomida turkiy xalqlar adabiy, ma’naviy va ijtimoiy hayotida Navoiy ijodi muhim o‘rin tutib keldi. Bu jarayon asta-sekin turkiy navoiyshunoslik deb nomlanuvchi mustaqil ilmiy yo‘nalishga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Alisher Navoiy va Sharq Renessansi” IV xalqaro simpoziumining ishtirokchilariga murojaatida shunday dedi: *“Hazrat Mir Alisher Navoiy o‘ta murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy g‘oyalarni baland ko‘tarib maydonga chiqqani, o‘zbek adabiy tiliga asos solib, uning o‘lmas ruhi, qudrati va latofatini har tomonlama isbotlab bergani chinakam ma’naviy jasorat namunasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Bu mumtoz siymo jahon adabiyoti mezonlariga, zamon va tarix sinovlariga to‘la javob beradigan durdona asarlar yaratib, nafaqat o‘zbek, balki barcha turkiy adabiyotlar rivojiga beqiyos hissa qo‘shgani ham yuksak hayrat va tahsinga munosibdir. Alisher Navoiyning bebaho ijodiy merosi haqli ravishda jahon adabiyoti daholarining buyuk asarlari bilan bir qatorda turishi bizga cheksiz g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Ayniqsa, mutafakkir ajdodimizning turli xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlikni mustahkamlash, bashariyatning yorug‘*

kelajagini birgalikda qurishga chorlaydigan g‘oya va qarashlarining ahamiyati hozirgi tahlikali davrda tobora ortib bormoqda”.[Sh.Mirziyoyev, 2025]

Bugungi kunda Navoiy merosi turkiy davlatlarda ilmiy, madaniy va ta’limiy maydonlarda qayta kashf etilmoqda, raqamli gumanitar yondashuvlar orqali o‘rganilmoqda, qiyosiy poetika, lingvokulturologiya va matnshunoslikning yangicha metodlari bilan talqin etilmoqda. Navoiy ijodi nafaqat o‘zbek adabiyoti tarixida, balki butun turkiy xalqlar madaniy-ma’naviy hayotida umumiy estetik, axloqiy va falsafiy qadriyatlar tizimini shakllantirgan muhim manba sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asarlari turkiy tillarning adabiy imkoniyatlarini yuksak badiiy darajada namoyish etib, turkiy adabiyotshunoslikda yangi ilmiy va nazariy paradigmalarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Asrlar davomida Navoiy ijodi turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlarda turlicha talqin qilinib keldi. Dastlab adabiy-estetik hodisa sifatida baholangan bu meros keyinchalik tilshunoslik, matnshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, tasavvufshunoslik va madaniyatshunoslik kabi yo‘nalishlarda chuqur ilmiy tadqiqot ob’ektiga aylandi. Ayniqsa, turkiy xalqlar adabiyotshunosligida Navoiyning umumturkiy adabiy birlikni shakllantirishdagi roli alohida ilmiy e’tiborga loyiqdir.

Hazrat Alisher Navoiy quyidagi qit’ada mazkur g‘oyani ilgari suradi: Inson jamiyatda kamol topishi uchun ilohiy manbani anglab, mehr-muhabbatni hayotining asosiy mezoniga aylantirmog‘i lozim. Mehr - jamiyatni birlashtiruvchi, qalblarni yorituvchi va insonni ma’naviy yetuklikka olib boruvchi eng qudratli kuchdir.

Haq taolo maxzanin anglabki xoli bo‘lmamish,
Xalqdin har kimki jam’iyatqa asbob istagay.
Mehr olamni munavvar aylabon ul kulbasin,
Yoriturg‘a tiyra tundin garm shabtob istagay.

Mazkur qit’a Alisher Navoiy ijodiga xos bo‘lgan tasavvufiy-axloqiy konsepsiyani mujassam etgan bo‘lib, unda insonning jamiyatdagi o‘rni, ilohiy ne’matlarning mohiyati hamda mehr-muhabbatning yaratuvchi kuchi chuqur falsafiy ramzlar orqali ifodalangan. [Navoiy, 1990:496]

U o‘zining badiiy dahosi, til qurilishi, axloqiy-falsafiy qarashlari, estetik tamoyillari bilan turkiy adabiyotlarning ko‘p asrlik taraqqiyoti uchun mustahkam asos yaratdi. Bugun Navoiy nafaqat o‘zbek xalqining milliy g‘ururi, balki butun turkiy dunyoning ma’naviy birlashuv timsoliga aylangan. Chunki uning asarlarida kuylanadigan g‘oyalar – insoniylik, adolat, ma’rifat, vijdon, vatanparvarlik, ma’naviy kamolot – barcha turkiy xalqlarni birlashtiruvchi qadriyatlardir.

Adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov o‘zining *“Alisher Navoiy an’analarining Abdulla Oripov she’riyatidagi poetik sintezi”* nomli maqolasida Alisher Navoiy ijodiy qarashlariga alohida e’tibor qaratadi. Olim ta’kidlaganidek, Hazrat Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida:

Nazmda ham asl anga ma’ni durur,
Bo‘lsun aning surati har ne durur, –

deb yozgan edi. Ya’ni ulug‘ mutafakkir zamonlar kelib nazmning suratida yangilanishlar bo‘lishini bashorat qilgan. Buyuk shoir nazmning rango-rang liboslar bilan ziynatlanishi tabiiy ekanini ta’kidlash barobarida, har qanday shaklda bo‘lishidan qat’i nazar, “asl anga ma’ni” ekanini ta’kidlagan edi. Bugungi she’riyatimizda hazrat Navoiy bashoratining isboti shakliy yangilanishlar misolida ham yaqqol namoyon bo‘layotir [Jabborov, 2022: 119].

Professor Nurboy Jabborovning fikricha, bugungi o‘zbek she’riyatida Hazrat Navoiyning ushbu bashorati shakliy izlanishlar va poetik yangilanishlar misolida yaqqol namoyon bo‘lib, mumtoz an’analar zamonaviy badiiy tafakkur bilan uzviy uyg‘unlashmoqda. “Shoir ijodiy faoliyatining manbai uning shaxsida ifodalangan ruhidadir. Binobarin, shoir ruhini va uning asarlari xarakterining dastlabki izohini uning shaxsidan qidirmoq kerak. She’r yozuvchilar qanday kishi ham o‘z shaxsini ifoda eta olmaydi bunga faqat shoir bo‘lib tug‘ilgan kishigina qodir. Shoirning shaxsi qanchalik

chuqur va kuchli aks etgan bo‘lsa, u shu qadar chinakam shoirdir” [Белинский, 1948:374].

Navoiyshunoslikning turkiy makondagi shakllanish jarayoni uzoq tarixga ega. Uning boshlanishi XVI asrlardagi dastlabki sharhlar va tatabbu’ an’analariga borib taqaladi. XX asrda esa sovet davri ilmiy maktablari orqali navoiyshunoslik umumturkiy gumanitar fan sifatida shakllandi. XXI asrga kelib, global raqamli tadqiqotlar, yangi filologik yondashuvlar, turkiy davlatlarning ilmiy integratsiyasi tufayli navoiyshunoslik yangi bosqichga ko‘tarildi.

Mazkur maqolada Alisher Navoiy merosining turkiy dunyo adabiyotshunosligidagi o‘rni tarixiy shakllanish jarayonlari va zamonaviy ilmiy paradigmalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - navoiyshunoslikning turkiy makondagi evolyutsiyasini ochib berish, hozirgi ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirish va istiqboldagi tadqiqot yo‘nalishlarini belgilashdan iboratdair.

Navoiy merosining turkiy adabiyotshunoslikda tarixiy shakllanishi. Dastlabki sharhlar va adabiy tatabbu’lar. Alisher Navoiy ijodining turkiy adabiy muhitda tarqalishi XV–XVI asrlardayoq boshlangan. Uning “Xamsa”si, devonlari, falsafiy-didaktik asarlari Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Uyg‘uriston va Volgabo‘yi hududlarida keng o‘rganilgan va qo‘lyozmalar shaklida ko‘chirib kelingan. Bu jarayon Navoiyning faqatgina shoir emas, balki turkiy adabiy tafakkurning me’yoriy asoschisi sifatida qaralishiga sabab bo‘ldi.

Navoiy ijodi uning hayotligidayoq keng turkiy hududga yoyildi. XVI asrning o‘rtalarida Samarqand, Buxoro, Hirot, Tabriz va Qashg‘orda Navoiy asarlarining ko‘plab qo‘lyozmalari yaratildi. Shuningdek:

- Uyg‘ur adabiy muhitida “Xamsa”ning o‘nlab qo‘lyozmalari ko‘chirilgan, matnlariga sharhlar yozilgan.

- Ozarbayjon adabiyotida Nizomiy-Navoiy qiyosiy poetikasi hal qiluvchi metodologik yondashuv sifatida shakllandi.

- Tatar va boshqird adabiy muhitlarida mo‘tabar shoirlar Navoiyning g‘azallariga tatabbu’lar yaratgan.

- Qozoq va qirg‘iz adabiyotida Navoiy hikmatlaridan ilhomlangan nasr va she’riy namunalar uchraydi.

XVI-XVIII asrlarda Navoiy ijodiga yozilgan sharhlar, tatabbu’lar va izohlar turkiy adabiyotshunoslikning dastlabki nazariy qatlamini shakllantirdi. Ozarbayjon adabiy muhitida Nizomiy-Navoiy an’anasi qiyosiy tarzda rivojlangan bo‘lsa, qozoq va qirg‘iz adabiyotida Navoiy hikmatlari xalq og‘zaki ijodi va epik tafakkur bilan mushtarak jihatlarda talqin qilindi. Tatar va boshqird adabiyotshunosligida esa Navoiy chig‘atoy adabiy tilining klassik namunasi sifatida o‘rganildi.

XIX-XX asrlarda ma’rifatparvarlik davri. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida jadidchilik harakati ta’sirida Navoiy merosi milliy uyg‘onish, ma’rifat va til masalalari bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilindi. Bu davrda Navoiy turkiy xalqlar adabiy birligining ramziga aylandi. Bu davrda turkiy ziyolilar Navoiyni til, ma’rifat va milliy uyg‘onish timsoli sifatida talqin qila boshladilar. Masalan:

- Abay Qunanboyuli Navoiyni “turk she’riyatining ulug‘ ustuni” sifatida e’tirof etadi.

- Ismoil G‘aspirali Navoiyning til siyosatini pan-turk madaniy birligining asosi sifatida ko‘rsatadi.

- Tatar ma’rifatchilari Navoiy tilini turkiy adabiy tilning umumiy ildizi sifatida o‘rganadilar.

Sovet davrida turkiy navoiyshunoslikning evolyutsiyasi. Sovet davrida navoiyshunoslik ilmiy yo‘nalish sifatida institutsionallashdi. O‘zbekiston yetakchi markaz bo‘lib qolgan holda, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tatariston, Boshqirdiston va Turkmaniston ilmiy muhitlari bilan faol hamkorlik qilindi. Bu davrning asosiy xususiyatlari:

- matnshunoslik maktablarining sezilarli darajada rivojlanishi;

- navoiyshunoslik terminologiyasining ilmiy asosda shakllanishi;

- ilmiy izohli nashrlar yaratish;

- qo‘lyozmalar to‘plamini tadqiq qilish;

- Navoiy merosining turkiy xalqlar o‘rtasidagi ruhiy yaqinlikni ta’minlovchi faktor sifatida talqin qilinishi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda Navoiy merosining ilmiy paradigmalar tizimi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab navoiyshunoslik ilmiy maktab sifatida mustahkamlandi. O‘zbekiston navoiyshunosligi yetakchi markaz bo‘lib shakllandi va boshqa turkiy davlatlar ilmiy muassasalari bilan uzviy hamkorlikda rivojlandi. Bu davrda Navoiy asarlari matnshunoslik, poetika, janrshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan mukammal tahlil qilindi.

Zamonaviy turkiy adabiyotshunoslikda Navoiy merosi quyidagi ilmiy paradigmalarda o‘rganilmoqda:

- Qiyosiy adabiyotshunoslik paradigmasi - Navoiyning turkiy va forsiy adabiyotlar o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatidagi roli aniqlanmoqda.

- Lingvopoetik paradigma - Navoiy tilining badiiy imkoniyatlari, metaforik tizimi va uslubiy xususiyatlari tadqiq etilmoqda.

- Madaniyatshunoslik paradigmasi - Navoiy ijodi turkiy xalqlar umumiy madaniy xotirasining muhim qismi sifatida talqin qilinmoqda.

- Raqamli filologiya paradigmasi - Navoiy asarlarini elektron korpuslar, stilometrik tahlil va sun’iy intellekt asosida o‘rganish imkoniyatlari kengaymoqda.

Bugungi navoiyshunoslik: ilmiy makonning kengayishi va zamonaviy metodlar. O‘zbekiston - navoiyshunoslikning markaziy ilmiy maydoni. Bugungi kunda O‘zbekiston turkiy navoiyshunoslikning ilmiy markazi hisoblanadi. Bu yerda:

“Mukammal asarlar to‘plami”ning yangi nashrlari;

Qo‘lyozmalarning raqamli katalogi;

Ilmiy izohli nashrlar;

Qiyosiy-poetik, lingvopoetik va stilometrik tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Toshkent davlat universitetlari, Samarqanddagi ilmiy maktablar, Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi bu jarayonning yetakchilaridir.

Turkiy davlatlarda navoiyshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari.

Turkiya. So‘nggi yillarda Navoiy “turk adabiyotining unutilgan qomusi” sifatida qayta ochilmoqda. Istanbul, Konya va Ankara universitetlarida:

- *Navoiyning tasavvufiy poetikasi,*
- *turk she’riyati bilan qiyosiy tahlil,*
- *forsiy-turkiy poetika tadqiqotlari olib borilmoqda.*

Turkiyada Navoiy merosiga bo‘lgan ilmiy qiziqish sezilarli oshdi:

- N. F. Köprülü maktabining izdoshlari Navoiy poetikasini Anadolu she’riyatiga qiyoslab o‘rganmoqda;

- Istanbul va Ankara universitetlarida Navoiy asosida turkiy til tarixi, tasavvuf poetikasi va she’riy janrlar bo‘yicha ilmiy kurslar ochilmoqda;

- Navoiy asarlarini turk tiliga zamonaviy tarjimalar yaratish bo‘yicha loyihalar yo‘lga qo‘yilgan.

Bu jarayon ilmiy maktabning yanada boyishiga olib kelmoqda.

Turkiya olimlari Navoiy asarlarini zamonaviy turk tiliga o‘girish bo‘yicha yirik ilmiy jamoalar tashkil qilgan.

Ozarbayjon. Ozarbayjon navoiyshunosligining asosiy yo‘nalishi:

Nizomiy - Navoiy - Fuzuliy uchlik poetikasi asosida turkiy adabiy maktabning shakllanishini tahlil qilishdir.

Qozog‘iston va Qirg‘iziston. Bu mamlakatlarda:

- chig‘atoy tilining qarluq-qipchoq tillari bilan tarixiy aloqalari;

- Abay va Navoiy poetik qarashlarining mushtarak jihatlari; Navoiyning chig‘atoy tilidagi poetik

uslubi va Abay maktabi bilan ruhiy yaqinlik tadqiq qilinmoqda.

- "Manas" eposi va Navoiy didaktik g'oyalari qiyosiy tahlil qilinmoqda. Navoiy hikmatlarining "Manas" eposi bilan multifunksional qiyosiy tadqiqi yo'lga qo'yilgan.

Tatariston. Tataristonda Navoiy matnlarining fonetik-sharhlama nashrlari, qo'lyozma taqqoslari va semantik izohlar bo'yicha yuksak maktab shakllangan.

Raqamli navoiyshunoslikning rivojlanishi. XXI-asr navoiyshunosligining eng muhim xususiyati - digital humanitar yondashuvlarning shakllanishi:

- elektron qo'lyozma kataloglari;

- poetik korpuslar;

- leksik-semantik tahlil dasturlari;

- sun'iy intellekt yordamida ritm, qofiya, mazmuniy tarmoqlarni aniqlash;

- matnlararo aloqalarni avtomatik xaritalash.

Bu yo'nalish Navoiy merosini nafaqat filologlar, balki informatika, lingvistika va antropologiya tadqiqotchilariga ham ochmoqda.

Turkiy navoiyshunoslikning istiqbollari: ilmiy integratsiya va yangi konsepsiyalar. Turkiy davlatlar o'rtasida navoiyshunoslik integratsiyasi.

Yaqin yillarda TURKSOY, TURKPA va Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida: umumturkiy Navoiy ensiklopediyasi, qo'shma qo'lyozma fondlari, xalqaro ilmiy markaz, yagona elektron Navoiy korpusi loyihalari ilmiy hamjamiyatda istiqbolli yo'nalish sifatida amalga oshirilishi mumkin. Zamonaviy ilmiy muhitda TURKSOY, TURKPA va OTS kabi tuzilmalar doirasida Alisher Navoiy merosini umumturkiy integratsiya omili sifatida o'rganishga qaratilgan qator konseptual tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jumladan, turkiy navoiyshunoslik ensiklopediyasini yaratish, qo'lyozmalarni raqamlashtirish va yagona ilmiy standartlarni ishlab chiqish kabi yo'nalishlar istiqbolli ilmiy vazifalar sifatida baholanmoqda.

Yangi ilmiy metodlar. Kelajakda Navoiy tadqiqotlari quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishi zarur:

• *kognitiv poetika - Navoiy obrazlarining ong strukturalari asosida tahlili;*

• *intertekstual tadqiqotlar - Navoiy va Sharq-G'arb adabiy aloqalari;*

• *madaniy diplomatiya - Navoiyning turkiy dunyoni birlashtiruvchi ma'naviy kuch sifatidagi roli;*

• *lingvokulturologik tahlil - turkiy xalqlarning umumiy qadriyat kodlari.*

Madaniy meros diplomatiyasida Navoiyning o'rni. Kelajakda Navoiy:

• *turkiy dunyo brendi,*

• *ma'naviy integratsiya ramzi,*

• *xalqaro ilmiy madaniyatlararo muloqot ko'prigi sifatida yanada faol o'rganilishi mumkin.*

Bu yondashuvlar Navoiy merosining faqat tarixiy emas, balki zamonaviy ilmiy ahamiyatga ham ega ekanini ko'rsatadi.

Navoiyshunoslikning istiqbol yo'nalishlari. Bugungi globallashuv va turkiy davlatlar integratsiyasi sharoitida navoiyshunoslik yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Kelgusida ushbu soha quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishi kutiladi:

- umumturkiy navoiyshunoslik konsepsiyasini ishlab chiqish;

- turkiy tillardagi qo'lyozmalarni yagona raqamli bazaga birlashtirish;

- Navoiy asarlarini zamonaviy tillarga ilmiy-akademik tarjima qilish;

- Navoiy merosini madaniy diplomatiya va ta'lim tizimiga keng joriy etish.

Bu istiqbollar Navoiy ijodining turkiy dunyo ilmiy va madaniy hayotidagi strategik ahamiyatini yanada oshiradi.

Alisher Navoiy merosi turkiy dunyo adabiyotshunosligining shakllanishi va rivojida muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan. Tarixiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, Navoiy ijodi turkiy xalqlar adabiy

tafakkurini birlashtiruvchi umumiy manba sifatida shakllangan va zamonaviy ilmiy paradigmalar orqali yangi mazmun kasb etmoqda. Bugungi kunda navoiyshunoslik nafaqat filologik tadqiqotlar sohasi, balki umumturkiy madaniy integratsiyaning muhim ilmiy omiliga aylangan. Shu bois, Alisher Navoiy merosini zamonaviy ilmiy metodlar asosida tizimli ravishda o‘rganish, uni turkiy xalqlar o‘rtasidagi ilmiy va madaniy hamkorlikni mustahkamlovchi vosita sifatida rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev. “Alisher Navoiy va Sharq Renessansi” IV xalqaro simpoziumidagi nutqi. 08.02.2025. https://president.uz/oz/lists/view/7866
2. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Badoye ul-vasat. Beshinchi jild. Toshkent: Fan, 1990. 496-bet.
3. Jabborov N. Alisher Navoiy an’analarining Abdulla Oripov she’riyatidagi poetik sintezi. 05.02.2022. https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/19399
4. Белинский В. Г. Том III. М., 1948, с. 374. Собрание сочинений в трех томах.
5. Alisher Navoiy ensiklopediyasi: 4-jildlik. Toshkent: O‘zbekiston, 2024. –536 b.

UCHINCHI SHO‘BA

TURKIY XALQLAR MATNSHUNOSLIGINING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

QOZOG‘ISTONDA ALISHER NAVOIY TADQIQOTLARI VA ARAB YOZUVIDAGI TURKIY MATNLARNING O‘RGANILISH TAJRIBASIDAN

Ibodulla Mirzayev Kamolovich,
filologiya fanlari doktori, professor,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
e-mail: ibodullamirzayev1946@gmail.com

Sultanbek Kutlugjon Bahritdin o‘g‘li,
PhD, dotsent,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
e-mail: sultanbekovkutlug@gmail.com

Annotatsiya

Turklar ilk mangu toshga yozgan yozuvlaridan boshlab bugungi kungacha turli alifbolardan foydalanib kelgan. Ana shu alifbolar ichida Turkistonda qariyb ming yil davomida qo‘llangan yozuv – bu arab alifbosidir. Arab alifbosi bilan yozilgan ilk turkiy matnlar XI asrga mansub. Umuman olganda, arab alifbosida bitilgan turkiy matnlarni Shimoli-sharqiy va Janubi-g‘arbiy turk tili guruhlari sifatida ajratish mumkin. Shimoli-sharqiy turkchasi esa, o‘z navbatida, Qoraxoniy, Xorazm va Chig‘atoy davrlariga bo‘linadi. Qozog‘istonda arab yozuvida bitilgan turkiy matnlarning o‘rganilishini mustaqillikdan avvalgi va mustaqillikdan keyingi davrlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq. Ushbu yo‘nalishdagi ishlarni katalog tuzish, matnlarni ko‘chirish, ilmiy tahlil qilish, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari kabi turli kategoriyalarga ajratish mumkin. Qozog‘istonda Dīwānü Lug‘ātit-Turk bo‘yicha tadqiqotlar Halel Dosmuxamedulı, Oskar Egeubay, Zifa-Alua Avezova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan. Shuningdek, Qutadg‘u Bilig, Atabatul-Haqoyiq, Devoni Hikmat va boshqa matnlar bo‘yicha ham izlanishlar amalga oshirilgan.

Sovet davrida arab yozuvidagi turkiy matnlarni o‘qish, o‘rganish, hatto saqlash ham taqiqlangan edi. Shu sababli bu davrga oid tadqiqotlarni juda ko‘p deb bo‘lmaydi. Ma’lumotlarga ko‘ra, ko‘plab qo‘lyozmalar o‘z egalarining devor suvalariga yashirilgan holda saqlangan.

A.Navoiy asarlari qozoq tiliga ilk bor 1948-yilda “Tanlangan asarlar” nomi bilan M.Avezov tomonidan tarjima qilingan bo‘lib, 220 sahifadan iborat edi. 1965-yilda “G‘azallar” kitobi nashr etildi. 2008-yilda esa “Yeskendir qo‘rg‘oni” asari bilan birga Qalijan Bexojin tomonidan tarjima qilingan bir qator g‘azallar ham chop etildi. A.Navoiyning she’rlarini A.Tajibayev, K.Bexojin, O‘.Turmanjanov, K.Shanitbayev, J.Sızdikov, G.Qayrbekov, S.Jıyenbayev, K.Mirzaliyev, K.Jumag‘aliyev kabi shoirlar qozoq tiliga o‘girgan.

Ushbu maqolaning maqsadi Qozog‘istonda arab yozuvidagi turkiy matnlarning bugungi holatini ochib berish, ularni o‘qish va ko‘chirish bo‘yicha tadqiqotlarning rivojiga hissa qo‘shish, A.Navoiy asarlariga oid izlanishlarning umumiy manzarasini ko‘rsatish, transkripsiya masalasida yagona yondashuvni shakllantirish, shuningdek, Qozog‘istonda usmonli va chig‘atoycha matnlarni o‘rganish uchun zarur manbalarni topish imkoniyatini kengaytirishdir. Bu maqsadni amalga oshirish jarayonida Qozog‘istonda bajarilgan ishlar tahlil qilinadi, ilmiy tahlil va kodikologiya usullari qo‘llanadi.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, arab yozuvidagi turkiy matnlar, qo‘lyozmalarning kataloglanishi, Dürrü’l-Acâyib, Temurnoma.*

Abstract

From their earliest inscriptions on stone monuments to the present day, the Turks have used various alphabets. Among these, the Arabic script holds a significant place, having been used in Turkistan for nearly a thousand years. The earliest Turkic texts written in the Arabic script date back to the 11th century. In general, Turkic texts written in Arabic script can be classified into the North-Eastern and South-Western branches of the Turkic language family. The North-Eastern branch is further divided into the Karakhanid, Khwarazmian and Chagatai periods.

The study of Turkic texts written in Arabic script in Kazakhstan is best examined in two stages: before and after independence. Research in this field can be categorized as cataloguing manuscripts, transcribing texts, carrying out scholarly analysis, and preparing master’s and doctoral dissertations. Studies on Dīwānü Lug‘ātit-Turk in Kazakhstan have been carried out by Halel

Dosmukhameduly, Oskar Egeubay, Zifa-Alua Avezova, and others. Research has also been done on Kutadgu Bilig, Atabatul-Haqayiq, Devoni Hikmat, and other texts.

During the Soviet period, reading, studying, and even preserving Turkic texts written in Arabic script was prohibited. Therefore, research from this period is relatively limited. Field records show that many manuscripts were hidden inside wall plaster by their owners to preserve them.

Alisher Navoi's works were first translated into Kazakh in 1948 under the title "Selected Works" by M. Auezov, consisting of 220 pages. The book "Gazallar" was published in 1965. In 2008, along with the work "Yeskendir Qorganı" a series of ghazals translated by Qalijan Bekhozhin were also published. Navoi's poetry has been translated into Kazakh by poets such as A. Tajibayev, K. Bekhozhin, U. Turmanzhanov, K. Shanitbayev, Zh. Syzdykov, G. Qairbekov, S. Zhyenbayev, K. Mirzaliyev, and K. Zhumagaliev.

The aim of this article is to present the current state of Turkic texts written in Arabic script in Kazakhstan, contribute to the development of research on their reading and transcription, provide an overview of studies related to Navoi's works, establish a unified approach to transcription, and expand access to necessary sources for studying Ottoman and Chagatai texts in Kazakhstan. During this process, completed works in Kazakhstan are analyzed using methods of scholarly analysis and codicology. Keywords: Alisher Navoi, Turkic texts in Arabic script, manuscript cataloguing, Dürrü'l-Acâyib, Temurnama.

Kirish

Markaziy Osiyo turklari tarix davomida turli alifbolardan foydalangan. Turklar islomni qabul qilganidan keyin arab alifbosiga o‘tgan va ushbu yozuvda minglab asarlar yaratgan. Qozog‘istonda ham bu jarayonning bir qismi sifatida 1929-yilgacha arab alifbosidan foydalanib kelingan. 1929–1940-yillarda lotin alifbosi [Kutalmış, 2004], 1940-yildan hozirga qadar esa kirill alifbosiga asoslangan yozuvdan foydalanilmoqda.

Arab yozuvida bitilgan turkiy matnlarni davrlar bo‘yicha quyidagicha tasniflash mumkin: Shimoli-sharqiy hududlarda – Qoraxoniy, Xorazm va Chig‘atoy davrlari; Janubi-g‘arbiy hududlarda – O‘g‘uz turkchasi; Misr hududida – Qipchoq turkchasi davrlari. Bu matnlarning turli mintaqalarda topilishi turkiy xalqlarning keng geografiyada yashaganini ko‘rsatadi.

Qo‘lyozma asarlarning turli hududlardan topilishi esa mazkur matnlar yoki xalqlar o‘zaro aloqada bo‘lgani yoki matnlar turli yerlarda ham o‘qilganidan dalolat beradi. Qozog‘istonda qo‘lyozmalar, asosan, Olmata shahridagi Sirek Qo‘lyozmalar fondi, Milliy kutubxona; Turkiston shahridagi ilmiy-tadqiqot markazlari; Ostona shahridagi Qo‘lyozmalar markazida saqlanadi.

Qozog‘iston Respublikasi Milliy Kutubxonasi 1990-yilda tashkil etilgan. Nodir kitoblar va qo‘lyozmalar bo‘limi esa 1941-yilda Rus va Sharq qo‘lyozmalari fondi bilan Nodir kitoblar va jurnallar fondi birlashtirilishi natijasida “Nodir kitoblar va qo‘lyozmalar bo‘limi” sifatida shakllangan.

Tuzilgan kataloglar. Nodir asarlar bo‘limidagi qo‘lyozma asarlarning ilk katalogi 1981-yilda tuzila boshlagan. Ushbu katalogda arab, fors va turkiy tillarda bitilgan asarlar jamlangan. Keyinchalik 2008-yilda, so‘ng esa 2021-yilda [Kabadayı – Şadkam, 2021] yana bir katalog tuzilgan (2021-yilgi katalog faqat litografiya asarlarini o‘z ichiga oladi).

Qozog‘iston bo‘yicha qo‘lyozma asarlarning aniq soni ma’lum emas. Sababi qo‘lyozmalarning to‘liq, yagona katalogi hali yaratilmagan. Bundan tashqari, ayrim qo‘lyozmalar shaxsiy kutubxonalarda ham saqlanadi. Hozirgacha olib borilgan tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, ko‘proq qo‘lyozmalarni saqlash, ularning katalogini tuzish va ular himoyaga muhtoj ekanini yoritishga e’tibor qaratilgan. Buni quyidagi maqolalardan ham ko‘rish mumkin: (https://anatili.kazgazeta.kz/news/53382, https://egemen.kz/article/343825-qundy-qoldgazbalar-qamqorlyqqa-zaru).

Markaziy Osiyoda qo‘lyozma asarlarning ko‘plab nusxalari uchraydi. Masalan, O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan bir qo‘lyozma asarning Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tatariston va boshqa Chig‘atoy tili tarqalgan hududlarda ham nusxalari topilishi mumkin. Bunga misol sifatida “Dürrü’l-Acâyib” (muallifi haqida ma’lumot yo‘q) asarining turli hududlarda saqlanayotgan uch xil nusxasini keltirishimiz mumkin.



[1 a]

bismillähi’r-rahmäni’r-rahîm

(1) älhamdülillāhi rabbi’l-ʿālamîn vä’l-ʿāqibätü’l-müttaqîn vaṣṣalatu vä’s-sälämü ʿala rasūl-ı muḥammad (2) vä aṣḥābihi äcmaʿîn ammā ḫūb bilgil ey bändä-i nīk baḫt bu kitābnı cämʿ ḥadīṯ- (3) -lärdin vä maqṣūd şul ki ḫāz bir güzīdä vä äṣḥāblarnıñ müslümānçılıqġa kāhillik (4) dip bu kitābġa dürrü’l-ʿacāyib at qoydılar altmış altı bābġa müstämil boldı här...

Ushbu boʻlimda qavs ichida berilgan “[1 a]” ifodasi tegishli sarlavhaning 1a sahifasiga mansubligini bildiradi. Undan keyin kelgan dumaloq qavsdagi “(1)” esa matnning birinchi satrini koʻrsatadi. Transkripsiyasi keltirilgan qoʻlyozma matni Olmatadagi A.Baytursinov Adabiyot va San’at institutida saqlanayotgan nusxaga (bundan buyon A nusxasi deb yuritiladi) tayangan holda tayyorlangan. Nusxalarni taqqoslash maqsadida Qozonda joylashgan va Al-Forobiy kutubxonasida saqlanayotgan qoʻlyozmalardagi (Ə nusxasi) xuddi shu satrlar bilan oʻzaro solishtirma misollar keltirilgan.



[1 a]

bismillähi’r-rahmäni’r-rahīm

(1) älhamdülillāhi rabbi’l-ʿālamīn vä’l-ʿāqibätü’l-müttaqīn vaṣṣalatu vä’s-sälämü ʿala rasūlihi muḥammad vä ālihi (2) vä aṣḥābihi äcmaʿīn (ammā bilgil ey bändä-i nīk baḫtlular bu kitābnı cämʿi ḥadīṣlärdin (3) ṣaḥābälärniñ rivāyäti bilän cämʿ qıldılar tā gümrāh fāsıqlarġa rähbär bolsun (4) dip ẓālim bī-diyānätlärgä ʿibrät bolsun dip vä ġāfil bī-ḫabärlärġa andın tenbih (5) bolsun dip vä bändä-i mü’minlär ins tutsunlar dip vä bu kitāb altmış yetti (6) bābġa müştämil boldı vä bu kitābge dürrü’l-ʿacāyib ad qoydılar vä här kişi bu kitābnı...



[1 a]

bismillähi’r-rahmäni’r-rahīm

(1) älhamdülillāhi rabbi’l-ʿālamīn vä’l-ʿāqibätü’l-müttaqīn vaṣṣalatu vä’s-sälämü ʿala rasūlihi (2) muḥammad vä ālihi vä aṣḥābihi äcmaʿīn ammā bilgil ki ey bändä-i nīk baḫtl rivāyäti ṣaḥābä- (3) -lär cämʿi qılıpdurlar ki gümrāhlarġa rähbärlik vä fāsıqlarġa ʿibrät vä ʿārif- (4) -lärġa āgāhī musaffā bolġay vä bul kitāb müştämil altmış iki bābdur (5) vä bul kitāb dürrü’l-ʿacāyib nām qıldılar vä här kim bul kitābnı oqusa ya...

“Dürrü’l-Acâyib” qoʻlyozmasining uchta Chigʻatoy turkchasida yozilgan nusxasi va bitta forscha nusxasi bugungi kungacha yetib kelgan. Qozonda chop etilgan matn esa yuqorida keltirilgan misoldan ham koʻrinib turibdiki, qoʻlyozma emas, balki bosma matndir. Ushbu matnlarning turli hududlardan topilishi tasodifiy hodisa emas, aksincha, bu ularning mazkur hududlarda ham oʻqilganligining dalili sifatida baholanishi mumkin.

Garchi uchta nusxa orasida sezilarli farqlar boʻlmasa-da, matnlarni solishtirma tahlil qilish orqali ayrim xulosalarga kelish mumkin. Olmatadagi A nusxasida 66 bob mavjud boʻlsa, Qozondagi bosma matnda 67 bob, Olmatadagi Ə nusxasida esa 62 bob mavjudligi qayd etilgan. Qozondagi nusxa 175 sahifa va 29 satrdan iborat; Olmatadagi A nusxasi 270 sahifa va 14 satr; Olmatadagi Ə nusxasi esa 204 sahifa va 19 satrdan tashkil topgan [Sultanbek – Uğurlu – Bilalova, 2025].

Alisher Navoiy – butun turk olamining iftixori, klassik turk she’riyatining asoschilaridan biri, asar-

larida insoniylik, muhabbat, bilim va yaxshilik g‘oyalarini ilgari surgan shoirdir. U o‘zidan keyingi davr shoirlariga katta ta’sir ko‘rsatgan, turk xalqlariga umumiy bo‘lgan buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi sifatida qadrlanadi. Qozog‘istonda ham Navoiyning merosini o‘rganish va targ‘ib qilish yo‘nalishida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada amalga oshirilgan ishlar umumiy tarzda ko‘rib chiqilib, ularning ilmiy va madaniy ahamiyati baholanadi.

Alisher Navoiy asarlarining o‘ziga xosligi shundaki, u ularni bir nechta tillarda yaratgan. Bugungi kunga qadar uning 30 dan ortiq asarlari saqlanib qolgan. Navoiyning asarlari hatto uning hayot davrida ham keng e’tirofga sazovor bo‘lgan. Shu sababli uning asarlari bugungi kunda dunyoning eng mashhur qo‘lyozma kolleksiyalarida saqlanmoqda. Ushbu kolleksiyalar qatorida Qozog‘iston Respublikasi Milliy kutubxonasi, Markaziy Ilmiy kutubxona va Al-Forobiy kutubxonasi ham mavjud.

O‘rta asr Sharq adabiyoti olamida uning nomi Firdavsiy, Nizomiy, Jomiy, Sodi kabi shoirlar bilan birga tilga olinadi va u turk tilining boyligi hamda estetik qadriyatlarini dunyoga tanitgan shaxs sifatida qadrlanadi. Shu sababli Navoiyning merosi ko‘plab mamlakatlarda bo‘lgani kabi, Qozog‘istonda ham alohida o‘rganilib, chuqur tahlil qilinmoqda. Biroq uning asarlarining barchasi hali to‘liq qozoq tiliga o‘girilgan deb aytib bo‘lmaydi. Shu bilan birga, arab yozuvidagi ba’zi asarlar qo‘lyozmalar bo‘limida qayd etilgan bo‘lib, ularning to‘liq katalogi hali yaratilmagan. Misol tariqasida, bir nechta fotosuratlarni keltirish o‘rinlidir.



Navoiy XV asrdagi Markaziy Osiyo turk xalqlarining adabiy tili bo‘lgan Chig‘atoy turkchasini yangi bosqichga olib chiqqan va turk xalqlarining umumiy adabiy tilini rivojlantirgan eng buyuk shaxslardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, uning turk xalqlarining adabiy va madaniy merosini mustahkamlashga qo‘shgan hissasi alohida ta’kidlanadi.

Navoiy o‘z asarlarida gumanistik g‘oyalarni chuqur ifoda etib, turk xalqlarining birlik va birodarligi, ruhiy pokligi va insoniy qadriyatlarini eng yuqori darajaga ko‘targan. Qozog‘istonda Alisher Navoiyning hayoti va asarlarini o‘rganish ishlari keng miqyosda rivojlangan. Qozoq tadqiqotchilari va adabi-

yotshunoslari tomonidan Navoiy sharafiga bag‘ishlab yozilgan asarlar Qozog‘iston adabiyoti ilm-fani uchun muhim sohalardan biriga aylangan. Ushbu tadqiqotlarda Navoiyning hayoti va asarlari har jihatdan o‘rganilgan va shoirdan qolgan meros turk xalqlarining umumiy ma’naviy-madaniy qadriyatlari sifatida baholangan. Olmatada Navoiyning asarlari va tadqiqotlari haqidagi nashrlarda qo‘lyozmalarning tavsifi batafsil tarzda keltirilgan [Kambarbekova-Abikova, 2022].

Qozog‘istonda olib borilgan tadqiqotlar orasida Navoiyning adabiy merosi va ijodiy xususiyatlari turli jihatdan o‘rganilgan ishlar alohida e’tiborga loyiqdir. Ayniqsa, mashhur adabiyotshunoslar va turkologlar tomonidan tayyorlangan dissertatsiyalar, monografiyalar va ilmiy maqolalar Navoiyning adabiy merosini keng va chuqur tahlil qilib, uning Qozog‘iston adabiyotiga ta’sirini aniq misollar bilan namoyon qilgan. Shu orqali Navoiyning Qozog‘iston adabiyoti bilan madaniy aloqasi mustahkam ilmiy asosga ega ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Qozog‘iston olimlari Alisher Navoiyning adabiy merosini o‘rganishda faqat asarlarining badiiy xususiyatlari va til boyligi bilan cheklanib qolmay, ularni tarixiy-madaniy kontekstda chuqur tahlil qilishga ham alohida e’tibor qaratgan. Shu doirada shoirning “Xamsa”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, “Mezon ul-avzon” kabi asarlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar uning dunyoqarashi, falsafiy fikrlari va estetik tushunchalarini chuqur ochib berishga imkon yaratgan.

Bundan tashqari, Navoiyning asarlari qozoq tiliga tarjima qilinib, keng o‘quvchi auditoriyasiga tanishtirilgan va shoirning badiiy olami yangi jihatlari bilan yoritilgan. Qozog‘iston tadqiqotchilari Navoiyni Abay bilan [Karabayeva-Beysenuly, 2022], shuningdek, Shakarim bilan bog‘liq adabiy o‘xshashlik va ma’naviy aloqalar nuqtayi nazaridan tahlil qilgan.

Qozog‘istonda Alisher Navoiy hayoti va ijodining o‘rganilishi. Qozog‘istonda Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shunday tadqiqotchilardan biri Muxtor Avezov Navoiyning so‘nggi asari bo‘lgan “Mahbub ul-qulub” haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Unda hayotiy tajribalar, muhim tarixiy voqealar hamda ijtimoiy vaziyatlarga doir muallifning yakuniy mulohazalari ifoda etilgan. Asarda xalq dardi bilan sulolaviy hukmdorlar manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyat, xalqning g‘azabi, nafrati va turli qiyinchiliklari badiiy tasvirlangan. Shuningdek, boylarning adolatsizligi, zulmi va tajovuzkorligi ochib berilgan. Xalq dardiga nihoyatda yaqin bo‘lgan ushbu asarning tili ham xalqona bo‘lib, xalq nutqi, maqol va matallarga yaqin uslubda, ulug‘vor va boy badiiy ifoda bilan yozilgan” [Avezov, 2014: 257].

Muxtor Avezov Navoiyning Abay bilan adabiy aloqasini tadqiq qilgan olimlardan biridir. Olimning fikricha, Abay Navoiyni o‘ziga eng yaqin ustoz sifatida ko‘rgan, uning she’rlaridan ilhom olgan va ayniqsa, masnaviy emas, balki g‘azal yozgan Navoiydan o‘rnak olishni istagan. Ikkala shoirning ba’zi asarlarini solishtirganda, Avezovning fikrlari to‘g‘ri ekanligi ko‘rinadi. Masalan, Alisher Navoiy insoniyat haqida shunday deydi: “Insonman deydigan, xalqning dardiga dardlanmaydigan kishi inson emas”. Bu fikr Abayda shunday aks etadi: “Otangning emas, insoniyatning bolasi bo‘l”. Navoiyning “Insonlar orasida insonlar bor, lekin ba’zida hayvonlar ulardan yaxshiroqdir”, degan mazmundagi falsafiy qarashi Abayning “Insonning insoni bor, jahli bor”, degan mulohazasi bilan mos keladi.

Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining asoschilaridan biri bo‘lgan buyuk shoirdir. Qozog‘iston olimi Sh.Ualikhanov Navoiyning asarlarini “qorong‘i xalqning yagona nuri” deb baholagan. M.Avezov esa turk xalqlarining ko‘pchilik adabiyoti va madaniy rivojlanishida Navoiyning bevosita ta’siri borligini qayd etgan. 2020-yilda N.Aytuly tomonidan tarjima qilingan Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” hamda “Saddi Iskandariy” dostonlari qozoq tilida nashr etilgan.

Umuman olganda, Alisher Navoiyning asarlarini qozoq tiliga tarjima qilish va nashr etish ishlari ilk bor o‘tgan asrning o‘rtalarida boshlangan. 1948-yilda Olmatada Navoiyning “Tanlangan she’rlar” to‘plami nashr qilingan. Ushbu to‘plamga Navoiyning g‘azallari va “Farhod va Shirin” dostonidan parchalar kiritilgan. So‘zboshini M.Avezov yozgan. 1980-yilda N.Aytov “Saddi Iskandariy” dostonini qozoq tiliga tarjima qilgan. Shundan so‘ng M.Avezovning “Alisher Navoiy”, E.Ismoilovning “Navoiy

va Qozog‘iston adabiyoti”, R.Berdibayning “Alisher Navoiy”, O‘.Kumisbayevning “Sharq shoirlari”, K.Seydahanovning “Navoiyning Xamsasi”, A.Tajimuratovning “Sharqning porlagan yulduzi” nomli maqolalari, shuningdek, shoirlar A.Tajibayev, Q.Bekhojin, O‘.Turmanghanov, Q.Shang‘itbayev, J.Sizdiqov, G.Qayirbekov, S.Jiyenbayev, Q.Mirzaliyev, Q.Jumag‘aliyev va boshqalarning ilmiy maqolalari va tarjimalari turk adabiyotida Navoiyni tadqiq etish yo‘nalishida muhim hissa sifatida baholanadi.

Alisher Navoiy asarlari tahlillari. Muxtor Avezov universiteti Qozog‘iston tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchilari H.H. Tadjiyev va N.D. Xasanov [Tadjiyev-Xasanov, 2023] Alisher Navoiyning “Arba’in” (Qirq hadis) nomli asariga doir qator tadqiqotlar olib borgan.

Umuman olganda, Qozog‘istonda Alisher Navoiyni tadqiq etish ishlari Sovet Ittifoqi davri va Mustaqillik davri sifatida ikki bo‘limga ajratilgan holda olib borilgan.

Sovet ideologiyasi hukmron bo‘lgan davrda Alisher Navoiyning adabiy merosi, asosan, sotsialistik yondashuvlar orqali baholangan. Navoiy asarlarida xalqparvarlik, feodal tartibga tanqid kabi tushunchalar oldinga surilgan, tasavvufiy jihatlar esa ikkinchi darajaga qo‘yilgan. Shunga qaramay, Qozog‘iston Fanlar Akademiyasi kabi muassasalarda cheklangan miqdorda bo‘lsa ham, matn va she’riy tahlillar amalga oshirilgan. Ushbu ishlar davomida, ayniqsa, B.G. Gafurov va E.E. Bertelsning Navoiyni baholashdagi fikrlari e’tiborga olingan [Bertels, 1965].

1991-yilda, Qozog‘iston mustaqillikka erishganidan so‘ng Navoiyning adabiy merosi milliy va madaniy qadriyatlar asosida o‘rganila boshladi. Qozog‘istonlik tadqiqotchilar uning til tushunchasi, hikmat falsafasi va xalq bilan muloqot uslubini asos qilib olgan ko‘plab akademik ishlar olib borgan. Ayniqsa, filologiya va adabiyot fakultetlarida amalga oshirilgan magistratura va doktorlik dissertatsiyalarida Chig‘atoy turkchasi bilan qozoq tili o‘rtasidagi o‘xshashliklar qiyosiy turda o‘rganilgan.

Universitetlarda o‘qitilishi. Olmatadagi Al-Forobiy Qozog‘iston Milliy Universiteti, Ahmad Yassaviy Xalqaro qozoq-turk universiteti kabi muassasalarda Navoiyning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan darslar olib boriladi; uning asarlari filologik va adabiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Mustaqillik davrida Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Majolis un-nafois” va “Muhokamat ul-lug‘atayn” nomli asarlari qozoq tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Ushbu tarjimalarning aksariyati Madaniyat vazirligi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan loyihalar doirasida amalga oshirilgan.

Navoiyning “Xamsa” asari o‘zbek tilidan qozoq tiliga Nesipbek Aytulı tomonidan (https://egemen.kz/article/254557-alisher-nauaidinh-khamsa-atty-kitaby-qazaq-tilinde-dgaryq-kordi), “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari esa sharqshunos olim To‘rali Kidir tomonidan tarjima qilingan.

Umuman olganda, Qozog‘istonda qo‘lyozma asarlarni o‘qish, tarjima qilish, lug‘atlarini tuzish va boshqa tadqiqot ishlari kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu ishlar turli tadqiqot sohalari bo‘yicha mutaxassislar tomonidan baholanmoqda [Sultanbek, K. va boshq., 2023; Shadkam, Z., Sultanbek, K., 2022; Shadkam, Z., Kıdırbayeva, Ü., 2019].

Qozog‘istonda mavjud bo‘lgan turli qo‘lyozma asarlardan transkripsiya namunalarini keltirish mumkin. Ushbu asarlar magistratura [Sultanbek, 2018] va doktorlik dissertatsiyasi [Sultanbek, 2022] doirasida o‘rganilgan, ammo hali kitob shaklida nashr etilmagan.



Āṣār-ı dāstān-ı Emīr Temür Köregen nūrallāhu merḳad

[1 b] بسم الله الرَّحم ان الرحيم

(1) حمد بحد و ثنای بي عدد اول خالق السماوات بغير

(2) عمد و فرد الصمد ذوالجلال بي زوال ولا يزال

ber-kemāl (3) ve āgāh[4] küllī ḥāliġa kim bir tīre[5] muşt[6] ḫākdin īcārımız- (4) -nı beşeriyyet şerefiŋ[7] mübeddel ḳıldı ve ʿanāṣır-ı erbaʿ (5) ṣaded[8] ve ʿاندنىmutteḥid ḳılıp aña ḥevāṣ[9]-ı ḫamseni berip (6) ʿaḳl[10] ve hūş fehm idrāk zihn birle özin tanuttı (7) **ve baʿde** yüz miñ şükr kim[11] evvel[12] seyyidü'l-kevneyn ve imāmü'-l ḥaremeyn[13] (8) ḫabībü'l-muṣṭafā[14] ve nebīü'l-

[4] اكاه şeklinde yazılmıştır.

[5] هري şeklinde yazılmıştır.

[6] B: 1a/3: eksik yazılmıştır.

[7] B: 1a/3: şerefige

[8] B: 1a/4: mücerred

[9] B: 1a/4: اوخ س şeklinde yazılmıştır.

[10] B: 1a/5: berip vezîn şeklinde yazılmıştır.

[11] B: 1a/6: eksik yazılmıştır.

[12] B: 1a/6: eksik yazılmıştır.

[13] امام الحرمين şeklinde yazılmıştır.

[14] B: 1a/7: ḫabīb-i muṣṭafā

mücteba[1516] ṣāḥib-i قاب قوسين اَو ادنى[17] (10) ya‘nī muḥammed muṣṭafā ṣallallāhu ‘aleyhi ve sellem[ni][18] rehber ḳılıp[19] (11) ümmetlıḳ nisbetin bizlerge[20] ‘aṭā ḳıldı ve ālihi ve aṣḥābihi

بسم الله الرَّحمن الرحيم

[1 a]

(1) el-hamdüli’llāhi rabbi’l-‘ālemīn ve’l-‘āḳibetü’l-müttеḳīn vaṣṣalatu ve’s-selemü ‘ala resūl-ı muḥammed (2) ve aṣḥābihi ecma‘īn ammā ḫūb bilgil ey bende-i nīk baḫt bu kitābnı cem‘ ḥadīṯ- (3) -lerdin ve maḳṣūd şul ki ḫāṣ[21] bir güzīde ve aṣḥāblarnıñ müslümānçılıḳġa kāhillik (4) dip bu kitābġa dürrü’l-‘acāyib at ḳoydılar altmış altı bābġa müstemil boldı her (5) kişi bu kitābnı oḳusa yā işitse andın soñ ḫālinça ‘amel ḳılsa ḫudāy ve resūl (6) ‘aleyhi’s-selām andın rāżı bolur dünyā ve āḫireti ma‘mūr bolur ol bende gūr ‘aẕābıdın[22] ve (7) münker nekīr su’ālidin ve ḳıyāmetni su’ālidin amān bolur ol bende ṣırātdın miṣl-i yaşıldik (8) ötkey ve dūzaḫnı ḥarāretidin amān bolup behiştke yetüşkey ḫudāy te‘[ā]lānı[23] dīdā- (9) -rıġa müşerref[24] bolur resūl-ı ḫudānı şefā‘atlarnı aña naṣīb ḳılġay her kişi şek (10) kiltürse kāfir bolġay ne‘ūẕü billāhi mine’ẕ-ẕalik bu kitābnı bābları bu turur evvelġı bāb (11) dünyānı dost tutḳannı ‘aẕābını beyānında turur ikinçi bāb taḳvālik beyānında (12) turur üçünçi bāb ḥaḳ te‘[ā]lānı yāt ḳılmaḳlikni beyānında turur törtünçi bāb niyyet-i ḫā- (13) -lişni beyānında turur

[15] B: 1a/7: nebiü’l-mücteba

[16] نبّى الـمـتـحـى şeklinde yazılmıştır.

[17] Necm Sûresi 9. âyet. A. iki yay kadar hatta daha yakın oldu.

[18] B: 1b/1: sellemni

[19] B: 1b/1: ḳılıp kelimesinden sonra ve kelimesi vardır.

[20] B: 1b/1: bizlerġa

[21] زاخ şeklinde yazılmıştır.

[22] نيديبذع şeklinde yazılmıştır.

[23] تعلى نى şeklinde yazılmıştır. Metnin tamamında bu şekilde yazıldığı için diğer yerlere dipnot verilmemiştir.

[24] مشورفى şeklinde yazılmıştır.

beşinçi bāb ‘ülemānı[25] beyānında turur altınçı bāb بسم الله الرّحمن الرحيم’ni

Xulosa

Yozma merosimizning koʻp qirrali va tizimli oʻrganilishi, shubhasiz, quvonarli holatdir. Mazkur tadqiqotlar orqali mamlakatimiz, shuningdek, umuman, turkiy xalqlarning tarixiy, diniy, tibbiy va boshqa sohalardagi boy ilmiy-ma’naviy merosi yanada chuqurroq anglanmoqda. Shu bilan birga, oʻrta turk davri matnlarining yozma adabiyotimiz shakllanishidagi oʻrni hamda ushbu asarlarni kelajak avlodlarga yetkazish zarurati tobora yaqqol namoyon boʻlmoqda. Arab yozuvli matnlar faqat turkologlar tomonidan emas, balki sharqshunoslar, tarixchilar va boshqa turli sohalardagi olimlar tomonidan ham oʻrganilmoqda. Shuningdek, havaskor tadqiqotchilar ham ushbu matnlarni oʻrganishga hissa qoʻshmoqda. Biroq bunday tadqiqotlarning natijalarini tanqidiy nuqtayi nazardan baholash zarur. Chunki matnlarni oʻqish va tarjima qilishda koʻplab xato va nomuvofiqliklar uchraydi. Bunday xatolarning oldini olish maqsadida arab yozuvli matnlarni oʻqish va tarjima qilish jarayonida tadqiqotchilar quyidagi jihatlarga e’tibor berishi lozim:

- arab alifbosini yuqori darajada bilish;
- turk tillarining til xususiyatlarini davrlar boʻyicha chuqur oʻrganish;
- arab va fors tillaridan hech boʻlmasa asosiy bilimga ega boʻlish;
- qoʻlyozmalardagi belgilar (simvollar) nima uchun qoʻllanganini bilish;
- transkripsiya harflarini toʻgʻri va izchil ishlatish;
- matnni toʻgʻri oʻqib tarjima qilishda, avvalo, kontekstga e’tibor qaratish va mazmunni toʻgʻri yetkazishga intilish;
- matndagi xatoning muallif, kotib yoki tarjimonga tegishli ekanini aniqlay olish;
- oʻrta turk davri matnlarini qozoq tiliga tarjima qilayotganda, soʻzlarning oʻsha davrdagi ma’nolarini hisobga olish.

Ushbu talablarga amal qiladigan mutaxassislar arab yozuvli matnlarni oʻqishi va tarjima qilishi natijasida Oʻrta turk davrida yozilgan matnlar tarjimasida kuzatiladigan xatolar sezilarli darajada kamayishi, shubhasizdir.

Qozogʻistonda Alisher Navoiyning ilmiy va madaniy jihatdan qiziqish uygʻotishi ham tarixiy, ham zamonaviy kontekstda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda Navoiyning asarlari nafaqat adabiy, balki madaniy identitetni shakllantirish nuqtayi nazaridan ham nodir manba sifatida baholanmoqda. Qozogʻistonda olib borilgan tadqiqotlar turk dunyosi umumiy merosini saqlash va rivojlantirishga katta hissa qoʻshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Әуезов, М. *Шығармалар жинағы*. Алматы: Өлке баспасы, 2014.
2. Бертельс, Е.Э. *Навои и Джами.* Москва: Наука, 1965.
3. Kabadayı, O., Shadkam, Z. *Kazakistan Milli Kütüphanesindeki Arap Harfli Türkce Nadir Eserler Kataloğu*. Almatı: Hoca Ahmet Yesevi Universitesi Avrasya Araştırma Enstitüsü (ERI), 2021.
4. Kambarbekova, G., Abikova, G. *Алматы кітапхана қорларындағы Әлішер Науаидың қолжазбалары мен көне басылымдары*. 2022. DOI: https://doi.org/10.26577/JOS.2022.v100.i1.05
5. Karabayeva, H., Beysenulı, J. Абай және Науаи: көркем аудармадағы әдеби үндестік. 2022. DOI: https://doi.org/10.26577/EJPh.2022.v185.i1.ph23
6. Kutalmış, M. *Tarihte ve Günümüzde Kazakistan’ın Alfabe Meselesi*. Bilig. 1-21 sayfa. 2004.
7. Sultanbekov, K. *Āṣār-ı Dāstān-ı Emīr Timūr Küregen (Dil özellikleri – metin – dizin),* Basılmamış Yüksek Lisans Tezi (Danışmanı: Prof. Dr. Mustafa Uğurlu), Muğla Sıtkı Koçman Üniversitesi, 2018.
8. Sultanbek, K. *Dürrü’l-‘acāyib (dil özellikleri - metin - dizin),* Basılmamış Doktora Tezi (Danışmanı: Prof. Dr. Mustafa Uğurlu), Muğla Sıtkı Koçman Üniversitesi, 2012.
9. Sultanbek, K. et al. (2023). *On the issue of Transcription in Historical Turkic Text Studies in Central Asia*. Türk Kültürü

[25] ىنلامّع şeklinde yazılmıştır.

ve Hacı Bektaş Veli Araştırma Dergisi 108, 99-118. https://doi.org/10.60163/hbv.108.006.
10. Sultanbek, Kutlugjon vd. *Dürrü'l-'acāyib және 'Rāzrāznama' негізінде араб графикалы шығыс мәтіндерін оқу мәселесі*". Türkoloji 121 (Mart 2025), 103-124. https://doi.org/10.59358/ayt.1621701.
11. Shadkam, Z., Sultanbek, K. (2022). *Yesevîlik Şeyhlerinden Sultan Hubbi Kıssasının Kazakistan Nüshası*. Türk Kültürü ve Hacı Bektaş Veli Araştırma Dergisi 104, 1-14. https://doi.org/10.34189/hbv.104.001.
12. Şadkam, Z., Kıdırbayeva, Ü. (2019). *Şağatay Tiline Kirispe*. Almatı: Kazak Üniversiteti Baspası.
13. Tadjiyev, H., Hasanov, N. *Әлішер Науаи шығармашылығында "Әрбәеин" әдеби дәстүрі*. 2023. DOI: https://doi.org/10.26577/JOS.2023.v104.i1.013

К ВОПРОСУ ТЕКСТОЛОГИИ ХУДОЖЕСТВЕННО-ИСТОРИЧЕСКОЙ ПРОЗЫ

Шодмонов Нафас Намозович,
доктор филологических наук, профессор
e-mail: nafasxon_62@mail.ru

Аннотация

В статье рассматриваются текстологические и художественно-эстетические особенности художественно-исторической прозы Мухаммада Ризо Огахи на материале произведения «Зубдат ат-таварих», подготовленного к изданию профессором Н.Джаббарова. Анализируются рукописная традиция, вариантность текста, принципы научно-критической подготовки произведения к публикации, а также достоверность фактического материала. Особое внимание уделяется роли поэтических вставок, их жанровому многообразию и художественной функции в структуре прозаического повествования. Обосновывается положение о том, что исторические произведения Огахи следует рассматривать прежде всего как художественные тексты, обладающие высокой эстетической ценностью и значительным источниковедческим потенциалом.

Ключевые слова: *Мухаммад Ризо Огахи, художественно-историческая проза, текстология, «Зубдат ат-таварих», рукописная традиция, поэтические вставки, узбекская классическая литература.*

Abstract

The article examines the textological and artistic-aesthetic features of the artistic-historical prose of Muhammad Rizo Ogahi based on the work "Zubdat at-Tawarikh", prepared for publication by Professor N. Jabbarov. The study analyzes the manuscript tradition, textual variants, the principles of scholarly critical preparation of the work for publication, and the reliability of the factual material. Particular attention is paid to the role of poetic insertions, their generic diversity, and their artistic function within the structure of the prose narrative. The article substantiates the view that Ogahi's historical works should be regarded primarily as artistic texts possessing high aesthetic value and significant source-study potential.

Keywords: *Muhammad Rizo Ogahi, artistic-historical prose, textual criticism, Zubdat at-Tawarikh, manuscript tradition, poetic insertions, Uzbek classical literature.*

Мухаммад Ризо Эрниёзбек оглы Огахи, живший в XIX веке в Харезме и внесший достойный вклад в развитие тюркской литературы своим пло-дотворным художественным творчеством, в поэтическом диване "Таъвиз ал-ошиқин" ("Талисман влюбленных") достойно продемонстрировал, что, по его собственному выражению, "является неповторимым в риторике и совер-шенстве и способен поэтично изложить сокровищные мысли посредством слова", а своими переводами с персидского языка более двадцати оригиналь-ных произведений таких великих мыслителей, как Унсурулмаолий Кайковус, Саъдий Шерази, Абдурахман Джами, Низомий Ганджави, Хусайн Ваиз Кошифи, Зайниддин Васифи, на деле показал богатство выразительных возможностей чигатайского (староузбекского) языка. Вместе с тем, он известен также как автор мемуарных повестей – художественно-исторических произведений, которые считаются бесценными источниками о событиях в Харезме в XIX веке.

Поэт поначалу продолжил работу над произведением "Фирдавс ал-иқбал", которого начал писать еще Шермухаммад Мунис, и в совершенстве овладел опытом создания художественно-исторической прозы, а впоследствии написал еще пять мемуарных повестей, посвященных правителям-хорезмидам XIX века. Это: 1) "Риёз ад-давла" ("Сады государства" – о годах правления Аллахкулихана (1825–1843)); 2) "Зубдат ат-таворих" ("Сгусток историй" – события периода правления Рахимкулихана (1843-1846)); 3) "Джамеъ ал-вақеати султоний" ("Сборник событий правителей" – история Мухаммадаминхана (1846-1854), Саййида Абдуллахана (1854) и Кутлугмурадхана (1855)); 4) "Гулшан-и давлат" ("Процветание государства" – период

правления Саййида Мухаммадхана (1856–1864)) ва 5) «Шаҳид ал-иқбол» (“Свидетельство благоденствия” – восхваление периода правления Мухаммада Рахимхана II – Фируз (1864 – 1910)).

В советское время данные произведения были опубликованы с сущест-венными сокращениями. Однако в последние годы по инициативе и стараниям профессора Нурбоя Джаббарова приступили к их исследованию и полному изданию. Примером тому послужит издание ученым произведения “Зубдат ат-таворих”. Несмотря на то, что текст произведения с научными комментариями был подготовлен к изданию в 1996 году в соответствии с рабочим планом на 1995 год бывшего Института рукописей АН Узбекистана имени Хамида Сулайманова, работа была опубликована лишь в 2013 году. Публикация была приостановлена в связи с упразднением института, но появилась возможность для доработки и усовершенствования текста. В результате цель все-таки была достигнута.

Он написал достаточно развернутое Предисловие к книге, в котором подробно изложил историческое и художественное значение произведения, всю текстологическую практику подготовки его к изданию. В частности, текстолог приводит высказывание русского ученого, академика В.В.Бартоль-да, изучившего художественно-исторические произведения Огахи в качестве исторических источников, и пишет: “Сколь недостатков не имели созданные Мунисом и Огахи художественно-исторические произведения, они оставля-ют далеко позади все дошедшие до нас произведения по истории Коканд-ского и Бухарского ханств своим изложением исторических событий и обилием фактического материала” [Бартольд, 1927: 113].

Следует обратить особое внимание некоторым размышлениям ученого. Во-первых, он избегает толкования произведений Огахи на исторические те-мы в качестве сугубо исторических произведений, подчеркивая их принад-лежность к литературе. Именно поэтому он называет их художественно-историческими произведениями. Во-вторых, сконцентрируется внимание на *“изложение исторических событий и обилие фактического материала”* в такого рода произведениях. Следовательно, несмотря на то, что в этих произведениях излагаются исторические события и прослеживается обилие фактического материала, особо следует подчеркнуть художественность стиля изложения.

Известно, что в тюркской литературе художественно-историческая проза прошла многовековой путь развития еще до Огахи. Свидетельством тому является прозаическое наследие таких великих мыслителей, как Носи-руддин Рабгузи, Алишер Навои, Захириддин Бабур, Шермухаммад Мунис. Необходимо подчеркнуть, что такие произведения великих творцов, как “Қисаси Рабгузий”, “Равзат ас-сафо”, “Макарим ал-ахлақ”, “Ҳабиб ас-сияр”, “Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер”, “Тарихи мулуки Ажам”, “Тарихи анбиё ва ҳукамо”, “Бобурнама”, “Фирдавс ал-иқбал” послужили своего рода школой для художественно-исторической прозы Огахи.

Н.Джаббаров, изучая развитие узбекской художественно-исторической прозы на примере произведения “Зубдат ат-таварих” Огахи, утверждает, что в мировой литературе создатели исторической прозы сыграли заметную роль в развитии художественной литературы, а в Европейском литературоведении античная историография своими оригинальными сюжетами, художественно обработанными образами выполнила роль методической школы для совре-менной прозы. Он обращает внимание на то, что академик Ваҳид Абдуллаев, специально исследовавший художественно-историческую прозу Огахи, кото-рая до него определялась как историческая проза, назвал это произведение образцом «историко-художественной прозы» [Абдуллаев, 1967: 380], а маститые источниковеды Гулям Каримов и Субутой Долимов подчеркивают “их ценность как худо-жественно-исторического произведения» [Каримов, 1978: 16]. Следовательно, все прозаические произведения Огахи на исторические темы, в том

числе и “Зубдат ат-таварих” (“Сарас из историй”) являются в первую очередь художественным, и только потом историческим произведением, считает ученый.

Исследователь, останавливаясь на историю изучения произведения, ут-верждает, что о художественно-исторической прозе Огахи упоминается в книге американского ученого Э. Оллворса “Узбекская художественная политика” [Allworth, 1964], а несколькими годами позже она была специально исследована другим американским ученым Юрием Брегелем, который вначале опубликовал научно-критический текст “Фирдавс ал-иқбал” [Bregel], а впоследствии перевел его на английский язык и издал в виде двухтомника. Кроме этого, упоминается, что художественно-историческая проза Огахи была исследована и российскими [Толстов, 1948] и узбекскими учеными.[] [Ғуломов, 1959] Следует также отметить, что в 1997–2002 года и сам Н. Джаббаров опубликовал ряд статей о своих наблюдениях произведения. Однако оно до сих пор не было полноценно исследовано и издано.

Источниковед определил пять рукописных вариантов “Зубдат ат-таварих”, одна из них хранится в Санкт-Петербургском Институте восточных рукописей Российской Академии наук (бывшее Санкт-Петербургское отделение Института востоковедения Российской Академии наук) под инвентарным номером Е 6/У (590 ОВ), другая – в Российской национальной библиотеке в Санкт-Петербурге (бывшая Государственная народная библиотека имени С.Щедрина) под инвентарным номером ТНС-22, остальные три – в Институте востоковедения АН РУз имени Абу Райхана Беруни (821/111, 5364/111, фонд Хамида Сулайманова, 275/11). По сведениям источниковеда Фатхуллы Ганиходжаева, из них рукопись, хранящаяся в Санкт-Петербургском Институте восточных рукописей Российской Академии наук под инвентарным но-мером Е 6/У (590 ОВ), является переписанным при жизни Огахи вариантом. В ней не указано имя каллиграфа. Произведение было переписано в 1273 (1856) году. 52 страницы (387^{б}- 439^{а}), 28х49) [Ғанихўжаев, 1986].

Основой для данного издания “Зубдат ат-таварих” послужил источник под номером 821, хранящийся в Институте востоковедения АН РУз имени Абу Райхана Беруни, являющийся относительно совершенным среди всех имеющихся вариантов в Ташкенте. В конце рукописи приводится не встреча-ющееся в других вариантах прозаическое заключение, в котором утверждает-ся, что произведение было завершено спустя 35 дней со времени смерти Рахимкулихана, “в тысячи двести шестьдесят втором году по хиджри, чет-вертого числа месяца рабеъу-л-аввал года змеи” (435^{а}). Ученый также вносит ясность и в дату создания рукописи и приходит к выводу, что она была переписа-на в 1298/1881 году.

В некоторых исторических произведениях встречаются взаимно несо-ответствующиеся, порой прямо противоположные друг другу факты и сведе-ния. Посему источниковед, исследуя текст какого-либо произведения, дол-жен обратить внимание не только на особенности письма и различия в тек-сте, но и на точность фактического материала, проанализировать их досто-верность. Именно так анализирует Н.Джабборов сведения о Рахимкулихане. Вот один пример: В произведении “История Туркестана” Мулла Олима Мах-дума Хожи приводится сведение, что Рахимкулихан “...правил три года ... и умер в 1261 году по хиджри (1845). В годы правления отца его звали Бобожоном тура и был известен среди народа своими злодеяниями” [Мулла Олим, 1992]. Однако в исследовании источниковеда о книге утверждается, что практически все приведенные автором “Истории Туркестана” факты и сведения не соответствуют исторической истине. Так, Огахи точно указывает, что Рахимкулихан умер “в году тысячи двести шестьдесят втором по хиджри, в пятницу, одиннадцатого числа месяца мухаррам ал-харам, году змеи”. Поэт был живым свидетелем этих событий. Поэтому приведенный Огахи факт может послужит основани-ем для опровержения любых других суждений по этому поводу. Кроме того, как излагается в “Зубдат ат-таварих”, не Рахимкулихан, а его брат был из-

вестен как Бобожон тура".

Как известно, при создании образцов художественно-исторической прозы автор в пределах своих творческих возможностей может использовать стихотворные произведения по своему усмотрению. Также при создании "Зубдат ат-таварих" Огахи продемонстрировал свой поэтический дар и включил в него множество образцов поэзии. Исследовавший их Н.Жабборов классифицирует стихотворные жанры следующим образом: касиды (6), мас-нави (70), газели (4), рубаи (7), китъа (10), таърихи (4), фарды (6). Кроме этого, под заголовком «поэзия» приводятся 16 стихотворений. А фарды зафиксирова-ны под заголовком "Двустишия". Определено, что в "Зубдат ат-таварих"е весь стихотворный текст составляет 1176 двустиший (2352 строк).

В тексте "Зубдат ат-таварих" и прозаическое, и поэтическое описание событий свидетельствует о том, что автор является обладателем высокого творческого мастерства. Доказательством тому служит мастерское использо-вание в произведении таких приемов художественного изображения, как эпи-тет, аналогия, сравнение, метафора, перифразирование, повторение, практи-чески всех известных видов рифмической прозы (сажъ-и мутарраф, сажъ-и мутавозин, сажъ-и мутавозий).

Текстолог в своем Предисловии к произведению обращает внимание на еще один аспект. Это изложение Огахи истории написания отдельных стихотворений. Например, история создания газеля, который начинается словами "*Дай Бог, чтобы мир был в нем и он в мире*". Об этом автор пишет так: "*Va hamul kun faqir duo tariqasi bila bir g'azal va hamul safar uchun bir ta'rix nazm silkig'a chekib, hazrati zillullohiyning suhbati kimyoxosiyatig'a daxil bo'lub, arzg'a yetkurdim va inoyoti podshohonag'a maxsus va in'omoti bekaronadin mahzuz bo'ldum*" (394 б).

Ученый, кроме этого, утверждает, что автор представил историю создания образцов своего творчества посреди описания отношений Хивинских ханов представителям науки и просвещения. Именно так приводится информация об истории создания газеля поэта, начинающегося словами "*Он повелитель времени и велико положение его*".

Художественно-историческая проза Огахи богата народными толкованиями многих ономастических понятий. Среди них встречается бесценная информация о названиях географических местностей, в частности, топонимиях. Например, приводятся такие обоснования названий Амударьинского сектора Кесик, окрестностей Кухна Кат, Бодой, Киснак и т.п., которые могут послужить основанием даже для научных выводов. Естественно, эти исторические названия на сохранились по сей день. Поэтому перед текстологом возникает проблема правильного изложения арабского истолкования названий. В издании эти многочисленные названия изложены в правильном варианте.

При транслитерации произведения источниковед стремился сохранить максимальное соответствие текста к оригиналу. Он "осмелился сократить только некоторые излишне использованные окончания (например, союз "и") и то лишь тогда, когда они не искажают содержание текста". В тексте приводится множество оятов из священного Корана, хадисов, арабских фраз, переводов стихов из персидского, которые в случае необходимости сопровождаются комментариями. Комментарии оятов из священного Корана основаны на узбекское издание 2004 года с толкованиями Шайха Алоуддина Мансура.

Как известно, Мухаммад Ризо Огахи в "Зубдат ат-таварих"е очень эффективно использовал возможности арабского и персидского языков. Пло-дотворно использованы даже слова, которые в арабских и персидских слова-рях приведены с пометкой "редко". Естественно, эти слова были понятны для читателя того времени. Однако сегодняшнему читателю они создают оп-ределенные трудности для понимания. Поэтому книге прилагается достаточ-но объемный научный аппарат. В нем приводится словарь из более чем 350 слов. При создании словаря

использованы такие источники, как “Арабско-русский словарь” Х.К. Баранова, двухтомный “Персидско-русский словарь”, изданный под редакцией Ю.А. Рубинчика, “Гиёс ал-лугот” (“Словарь Гиёса”) Мухаммада Гиёсуддина, “Навоий асарлари луғати” (“Словарь произведений Навои”) П.Шамсиева ва С.Иброхимова, двухтомный “Фарҳанги забони тожи-ки” (“Словарь таджикского языка”). Кроме этого, создан указатель геогра-фических названий, имен личностей ва этник терминов.

Действительно, “Зубдат ат-таварих” является источником, отличающимся своей неповторимой художественностью, вобравшим в свои страницы поэтическое наследие из 1200 двустиший по нескольким классическим стихотворным жанрам, представляющим собой совершенный образец рифмической прозы, полностью отвечающим требованиям мемуарно-повествовательного жанра, включающим в себя важные факты и аргументы об истории, географии, этнографии и ономастики Центральной Азии. Данное издание открывает широкие возможности для изучения его не только в литературоведческом или художественно-источниковедческом и текстологическом аспекте, но и в историковедческом и политологическом направ-лениях. Следовательно, “Зубдат ат-таварих” даст богатый материал для исследова-ний в этих сферах. И самое главное, введение в научный оборот этого респектабельного источника, исследование его в разрезах различных наук послужит обеспечению достижений огахиведения.

Литература

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1967.
2. Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Л., 1927.
3. Жумахўжа Н., Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдир. – Тошкент, “Ўзбекистон” нашриёти, 1995.
4. Йўлдошев М.Й. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Т., 1959.
5. Каримов Ғ., Долимов С. Огаҳий – тарихчи / Огаҳий. Асарлар. VI жилдлик, V ж. – Т.: 1978.
6. Allworth, Edward. Uzbek literary politics. – London-Paris, 1964.
7. Мулла Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Қарши: “Насаф” нашриёти, 1992.
8. Муниров Қ. Огаҳий. Илмий ва адабий фаолияти. – Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1959.
9. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. – Тошкент, “Фан” нашриёти, 1960.
10. Munis Shir Muhammad Mirab and Agahi Muhammad Riza Mirab. Firdaws al-iqbal: History of Khorezm. Transil. from Chaghatayahd annotated by Yu. Bregel. – Leiden, Boston, Koeln: Brill, 1999.
11. Огаҳий, Муҳаммад Ризо. Зубдату-т-таворих. – Тошкент: 2015.
12. Султонова Қ. Огаҳийнинг “Гулшани давлат” асари адабий манба сифатида. Филология фанлари номзоди илмий даражаси учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2000.
13. Толстов С.П. Древный Хорезм. – Москва, 1948.
14. По следам древнехорезмской цивилизации. – М.-Л., 1948. Под ред А.К. Боровкова. Очерки по истории Средной Азии. – М., 1951.
15. Хоразмда тарихнавислик (XVII – XIX ва XX аср бошлари). – Т.: Адабиёт ва санъат, 2002.
16. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). – Т., 1959.

KOMIL XORAZMIY TA'RIXLARI MATNI TO'G'RISIDA

Nuriddinov Shahobiddin Boboyorovich,
filologiya fanlari doktori, dotsent,
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya

Maqolada o'zbek mumtoz shoiri Komil Xorazmiyning ta'rix she'rlari tadqiq qilingan. Turli munosabat bilan yozilgan ta'rixlarning qo'lyozma va toshbosma manbalardan o'rin olgan matnlari qiyosiy o'rganilgan. Ta'rixlarning shoir adabiy merosidagi o'rni atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *janr, she'riy san'at, bayt, matn, ta'rix, hijriy yil, milodiy yil, qo'lyozma, toshbosma.*

Abstract

The article examines the historical poems of the Uzbek classical poet Kamil Khorezmi. Manuscript and lithographic texts of chronicles written in different contexts have been comparatively studied. The role of chronicles in the poet's literary heritage has been thoroughly analyzed.

Keywords: *genre, poetic art, beyt, text, chronogram, Hijri year, Gregorian year, manuscript, lithograph.*

Tarixda biror shaxs hayoti bilan bog'liq voqealar, ma'lum bir siyosiy, madaniy yangiliklar, ayrim ijtimoiy hodisalar ijodkorlar she'riy yo'l bilan adabiy sahifalarga muhrlab borganlar. Buning uchun ta'rix san'atidan foydalanishgan. Ta'rixnavislik – adabiy hodisa sifatida Sharq adabiyoti, xususan, ko'p asrlik o'zbek adabiyotining keng rivojlangan an'analaridan biri. Shu o'rinda ta'rix to'g'risida bir mulohazani keltirish zarurati bor. Bugunga qadar yaratilgan ilmiy adabiyotlarda ta'rixning janr yoki badiiy san'at ekani to'g'risida ikki xil qarash mavjud. Ta'rix hayotiy-ijtimoiy zaruriyat natijasi o'laroq, turli lirik janrlar zamirida yashab kelgan va o'ziga xos g'oyaviy-estetik vazifani o'tagan. Adabiyotshunoslikda ta'rixga alohida janr sifatida qarash ham yo'q emas. "Lekin ta'rix hajm jihatidan ham, misralarning qofiyalanish tartibi jihatidan ham belgili qat'iy qoidaga ega emas. Binobarin, shuning o'zi ta'rixni janr deb atashga imkon bermaydi" [Orzibekov, 1976: 131]. Bundan tashqari, ta'rixlarning g'azal, masnaviy, qit'a, ruboiy, fard singari janrlar tarkibida (asosan so'nggi baytida) kelishi va she'r mazmuniga singdirilishi hisobga olinsa, uning janr emas, balki badiiy san'at ekanligi oydinlashadi.

Xorazm adabiy muhiti ijodkorlari tomonidan ham badiiy-tarixiy nasr namunalari va lirik asarlar tarkibida yuzlab ta'rixlar yaratilgan. Xususan, Komil Xorazmiy adabiy merosida ham bir qator ta'rixlar uchraydi. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, shoir devonida ushbu janrda yaratilgan 14 ta (10 ta forsiy, 4 ta turkiy) she'r mavjud. Shoir devonida mavjud nazmiy asarlar tasniflanganda ta'rix she'rlar janr sifatida guruhlangani sababli biz ham maqolada ularni janr deb atadik. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida shoir devonining oltita qo'lyozma, uchta toshbosma nusxasi saqlanadi. Ulardan 1025 va 1949-raqamli qo'lyozmalardagina ta'rixlarning 13 tasi berilgan. Qolgan manbalarda uchtagacha ta'rixlar tushirib qoldirilgan. Devonning Sulaymoniya kutubxonasida saqlanadigan 3303-raqamli nusxasida keltirilgan

ظالمی بود در زمانه وزیر
از جفایش زمانه در ماتم

bayti bilan boshlanuvchi o'n ikki baytli ta'rix devon manbalarining hech birida uchramaydi.

Komil Xorazmiy xonlikning yetuk ma'rifatparvari va tadbirli davlat arbobi sifatida davrning ko'plab voqeliklarini ta'rixlarda aks ettirgan. Shunga ko'ra, shoir ta'rixlarini quyidagicha mavzulashtirish mumkin:

Tavallud munosabati bilan yozilgan ta'rixlar: "Ta'rixi Muhammadamin to'ra", "Ta'rixi soniy

Muhammadamin to‘ra”, “Ta’rixi valodati Sayyid Mansur to‘ra”;

Vafot munosabati bilan yozilgan ta’rixlar: “Ta’rixi Sayyid Muso to‘ra”, “Ta’rixi shahodati Abdullaxon”, “Ta’rixi vafot yoftani Qutluqmurodxon”, “Ta’rixi vafoti Ibrohimxoja”;

Shahzodalarning taxtga o‘tirishi munosabati bilan yozilgan ta’rixlar: “Ta’rixi julusi Sayyid Muhammadxon saodatnishon”, “Ta’rixi julusi Sayyid Muhammad Rahimxon soniy”;

Tarixiy voqealar munosabati bilan yozilgan ta’rixlar: “Ta’rixi qatli om yoftani yamutiyya mufsidu badkirdor”, “Ta’rixi Sayyid Muso To‘ra”, “Ta’rixi madrasai Muhammad Niyoz devonbegi”, “Ta’rixi qasri zarnigor”.

Manbalarda ta’rixlarning nomlanishi deyarli bir xil. Faqatgina

Bino qildi shahanshohi yagona,

Guliston ichra bir qasri muallo – bayti bilan boshlanuvchi ta’rix Toshkent toshbosmasida “Ta’rixi qasri zarnigor” nomi bilan berilgan. Boshqa manbalarda esa “Ta’rix” nomi ostida yoki sarlavhasiz shaklda ko‘chirilgan.

Oltita ta’rix matni so‘ngida shoir tomonidan ularning yechim yo‘llari aks etgan kiritmalar berilgan. “*Po‘shida qolmasunkim”, “Po‘shida namonadki*” jumlalari bilan boshlanuvchi turkiy va forsiy tillaridagi yechimlarda ta’rixlarda nazarda tutilgan sanani aniqlash yo‘li, jumalga qo‘shiluvchi (idxol) yoki chiqarib tashlanadigan (isqot) qiymatlarning berilishi o‘quvchi uchun anchagina qulaylik tug‘diradi.

She’rlar matnida baytlarning qisqarishi bilan bog‘liq ayrim tafovutlar uchraydi. Masalan, 1949-raqamli qo‘lyozmada “Ta’rixi shahodati Abdullaxon”, “Ta’rixi qasri zarnigor” matnlarida kotib tomonidan ikki bayt tushirib qoldirilgan. Bu holat devonning 1895-yilda amalga oshirilgan ikkinchi toshbosmasida kuzatiladi – Muhammadamin to‘ra tavalludi munosabati bilan yozilgan ikkita ta’rixda ham bir baytdan qisqartirilgan.

“Ta’rixi valodati Sayyid Mansur To‘ra” sarlavhali olti baytli she’r esa devonning 1035/IV, 1119/IV raqamli qo‘lyozmalari va toshbosmalarda (shoir devoni uch marta – 1880, 1895-yillarda Xivada, 1910-yilda Toshkentda toshbosma usulida chop etilgan) besh bayt shaklida. Ya’ni ta’rixning quyida berilgan ikkinchi bayti tushirib qoldirilgan:

بو وقت اشرف ایلا ساعات اسعدیدا
فرزندینگ بخت فرخ سیر مبارک

Devonning ilk toshbosmasida esa 8 baytdan iborat “Ta’rixi Sayyid Muso to‘ra” sarlavhali she’r ta’rixlar ichida kelganidan tashqari, g‘azallar qatorida 3 – 8-baytlari chop etilgan. Bu albatta, nashrning nuqsoni bo‘lsa-da, devon tuzish qoidalariga zid hodisa.

Komilning qasida va masnaviylari kabi ta’rix janriga mansub she’rlarining ham hech biri nashr etilmagan va tadqiq qilinmagan.

Quyida ularning ayrimlari tahliliga to‘xtalamiz. “Ta’rixi shahzoda Muhammadamin To‘ra” sarlavhali ta’rix 23 baytdan iborat. Uning so‘nggi ikki baytida shoir muayyan sanaga ishora qiladi:

Dedi ta’rixini duo birla:
Komil xoksor-u besomon.
Avji izzat uza muqim o‘lsun,
“Nuri ayn Sayyid Muhammadxon”.

Ko‘rinib turganidek, she’rdagi so‘nggi misra: “Nuri ayn Sayyid Muhammadxon” (نور عین سیّد محمدخان) jumlasi ta’rix moddasi bo‘lib, uning miqdori – 1203 ga teng. Muallif tomonidan she’r so‘ngida quyidagi izoh keltirilgan: “Maxfiy qolmasunkim bu ta’rixg‘a yetmish adad idxol bo‘lur. Avji izzat iborati anga mush’irdur”. Unga “عزت” so‘zining avji, ya’ni bosh harfi “ع”ning qiymati – 70 qo‘shilsa (idxol bo‘lsa), 1273 hosil bo‘ladi. Bu milodiy 1856-1857-yilga to‘g‘ri keladi.

Devondagi “Ta’rixi valodati Sayyid Mansur to‘ra” sarlavhali ta’rix tavallud munosabati bilan

yozilgan ta’rixlardan biri. Ta’rix yechimini keltirish uchun she’rning so‘nggi baytlarini keltiramiz:

Ul durri bebahoning soli valodatig‘a,
Komil dedi xiradg‘a: ber bir xabar muborak.
Boshig‘a toji davlat loyiq ko‘rub dedi aql:
“Ey podshohi olam, nuri basar muborak.

Diqqat qilinsa, muallif tugallanma misrada to‘liq moddayi ta’rixni keltiryapti: “Ey podshohi olam, nuri basar muborak” (ای پادشاه عالم نور بصر مبارک). Abjad hisobi uning jumali bo‘yicha 1276 ga teng. Bu milodiy 1859-yil 31-iyuldan 1860-yil 19-iyulgacha bo‘lgan davr. E’tiborli jihati, shoir avvalgi baytda ham ayni shu sana ishora qiluvchi ta’rix keltiradi. Undagi “bir xabar muborak” birikmasining yig‘indisi 1277 ga teng. Misradagi ishoraga ko‘ra, undan 1 (bir) olinsa, 1276 bo‘ladi va har ikki baytda ayni sanani beruvchi ta’rix moddasi borligi ma’lum bo‘ladi.

Ijodkor biografiyasini tiklashda tazkira va tarixiy asarlar bilan bir qatorda uning she’rlari ham asosiy manbalardan sanaladi. Xususan, muvashshah g‘azallarni shu siraga kiritish mumkin. Komilning “Agarchi mumkin emasdur manga visoli oning” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali “Ibrohimjon” ismiga muvashshah qilingan. Bu shaxs shoir bilan bir vaqtda ijtimoiy-siyosiy faoliyat yuritgan Ibrohimxo‘ja bo‘lib, 1907-1913-yillarda Xiva xonligida bosh vazir lavozimida faoliyat yuritgan Said Islomxo‘janing otasidir. Bu to‘g‘rida shoirning zamondoshi Muhammad Yusuf Bayoniy shunday yozadi: “Mundin ikki yil miqdori o‘tub, hijratning ming uch yuz yettilanchisida sig‘ir yili Ibrohimxo‘ja rihlat ko‘sin urub, jahoni foniydin saroyi boqiyg‘a intiqol etdi. Ondin to‘rt o‘g‘ul qoldi. Avvalg‘isi Ismoilxo‘ja, ikkilanchi Islomxo‘ja, uchlanchi Ishoqxo‘ja, to‘rtlanchi Muhammad Ya’qubxo‘ja erdi, Pahlavon mirzoboshi oning tarixi vafoti uchun kam-besh yigirma bayt miqdori baytli, faqirning yodimda qolg‘oni ushbu bir bayt erdi. Bayt:

Komil ul Sayyid yuzin ko‘rmay dedi,
Xo‘ja Ibrohim jannat joygoh.

Maxfiy qolmasunkim, bu tarix adad yuzidin oltmish ziyod erdi. Amali ta’miya bilan “Sayyid yuzin ko‘rmay debsen”, adadining isqotig‘a ishorat etibdur. Chun “sin” oltmishdur, oltmish soqit bo‘lsa, tarix durust bo‘lur” [Bayoniy, 1994: 79]. Bu o‘rinda Bayoniy Komil devonidan joy olgan “Ta’rixi vafoti Ibrohimxoja” sarlavhali 14 baytdan iborat she’rni nazarda tutgan. Muarrix qalamga olgan ta’rix va ushbu janrda yaratilgan boshqa she’rlar Komil Xorazmiy ijodiy biografiyasini, o‘z davri adabiy muhitidagi o‘rni, xonlik ijtimoiy hayotidagi mavqeini tadqiq qilishda muhim manba vazifasini o‘taydi.

Mazkur ta’rixda jumali “Xoja Ibrohim jannat joygoh” (**خواجه ابراهیم جنّت جایگاه**) jumlasining yig‘indisi – 1367. “**سید**” so‘zining “yuzi” “**س**”ning qiymati 60 chiqib ketsa, 1307 qoladi. Bu milodiy 1889-1890 yillarni anglatadi.

Shoir ta’rixlari faqat muayyan shaxslar hayotidagi voqealar emas, balki ayrim tarixiy hodisalar, imoratlarning bunyod bo‘lishi bilan ham bog‘liq. Masalan, shoir qalamiga mansub

Bino qildi shahanshohi yagona,

Guliston ichra bir qasri muallo –bayti bilan boshlanuvchi ta’rix Toshkent toshbosmasida “Ta’rixi qasri zarnigor” nomi bilan berilgan. Boshqa manbalarda esa “Ta’rix” nomi ostida yoki sarlavhasiz shaklda ko‘chirilgan. Asarda qurilish tarixi bizga noma’lum bo‘lgani qasrning barpo bo‘lishi bilan voqealar yoritilgan. Uning ichki va tashqi ko‘rinishlari, bezaklari kabilar tasvirlanadi. So‘nggi baytda quyidagi ta’rix keltirilgan:

Qalam navki bila ta’rixi oning:
“Yozildi turfa qasri jannatoso”.

“Yozildi turfa qasri jannatoso” (یازیلدی طرفه قصر جنّت آسا) jumlasi – ta’rix moddasi. Uning abjaddagi miqdori – 1271. Bu milodiy yil hisobiga o‘tkazilsa 1854-1855-yillarni anglatadi. Bu Xiva xoni Muhammad Aminxon hukmronligining tugashi va Abdullaxonning davlat tepasiga kelish

yillariga to‘g‘ri keladi. Bizningcha, ta’rixda nazarda tutilgan inshootni ushbu ikki xon davridan izlash to‘g‘ri bo‘ladi.

Yuqorida Komil Xorazmiy devoniga kirgan ayrim ta’rixlar haqida atroflicha to‘xtaldik. Shoir qalamiga mansub yana bir turkum ta’rix she’rlar uchraydi. Ular “Ichan – qal’a” davlat muzey – qo‘riqxonasidagi ayrim imoratlarning turli o‘rinlarida bitilgan. Bu to‘g‘rida bizga zahmatkash olim, mazkur muzey qo‘riqxona ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi Komiljon Xudoyberganov o‘zaro suhbatda qimmatli ma’lumotlarni taqdim etgan edi. Ulardan ikkita ta’rix she’r uch joyda – Muhammad Rahimxon II madrasasining shimoliy va g‘arbiy peshtoqlari hamda kirish eshigi yuqorisidagi marmar lavhda bitilgan forsiy ta’rixlardir. Umuman, “madrasa ichki hovlisining to‘rtta peshtoqiga Ogahiy va Komil Xorazmiyning ikkitadan she’riy ta’rixlari yozilgan. Ularda xonning sharofatidan mamlakat obod bo‘lib, adolati jahonga yoyilgani, olimlar daraja topib, maqsadlariga yetishgani, xonning o‘zi olimu fozillarga g‘amxo‘rlik qilib, “Ilm-ma’rifat ma’dani” nomiga sazovor bo‘lgani tarannum etiladi” [Xudoyberganov, 2012: 72].

Ulardan birinchisi g‘arbiy peshtoqqa bitilgan ta’rix sakkiz baytdan iborat.

Shohanshahi sitora sipahi falak makon,

Sultoni nuktadon xadivi mulknishon.

bayti bilan boshlanuvchi ta’rixda shoir Muhammad Rahimxoni soniyning adolatli va ma’rifatparvar hukmdor sifatida tasvirlab, ushbu madrasani yuksak martabali olimlar uchun bunyod qilganini e’tirof etadi. So‘nggi baytda shoir binoning bunyod etilgan yiliga ishora qiladi:

Tarixi o‘ biguft ba Komil Surushi g‘ayb:

“Boniyi on buq’ai Muhammad Rahimxon”.

Bu o‘rinda ta’rix moddasi “بانی آن بقاع محمد رحیمخان” jumlasi bo‘lib, abjad hisobi bo‘yicha uning jumali 1288 ga teng. Hijriy hisobdagi ushbu sana milodiy 1871-yilga to‘g‘ri keladi. Bu esa madrasa barpo etilgan yildir.

Kirish eshigidagi marmar lavhda ayni shu ta’rixning to‘rt bayti yozilgan. Ta’rix so‘ngida “Amali usta Pahlavon Niyoz Xorazmiy. 1289” jumlasi bitilgan. Bizningcha, bu o‘rinda shoir va ta’rixni lavhga yozgan ustaning ismlari o‘xshash. Unda keltirilgan sana (1289) esa matnning lavhga yozilgan vaqtini bildiradi. Madrasaning shimoliy peshtoqida ham xuddi shunday sakkiz baytli yana bir yangi ta’rix bitilgan.

Yuqorida keltirilgan ikkita ta’rix esa Komilning ushbu janrdagi she’rlari ko‘lamini yanada boyitish bilan ahamiyatli. Shu o‘rinda Muso to‘ra madrasasining kirish eshigi kesakisiga bitilgan ta’rix to‘g‘risida ham aytib o‘tish joiz. Ushbu madrasa qurilishga atab Komil Xorazmiy “Ta’rixi Sayyid Muso to‘ra” (7 baytli) hamda “Ta’rixi digar Sayyid Muso to‘ra” (8 baytli) sarlavhali ikkita ta’rix yozgan va ular shoir devonidan o‘rin olgan.

Yuqorida ta’rixning turli lirik janrlar tarkibida kelishi haqida so‘z yuritgan edik. E’tibor qilinsa, Komil Xorazmiy devonidagi alohida ta’rixlardan tashqari, qasidalar tarkibida ham ta’rixlar uchraydi. Shulardan biri “Dar ta’rifi tavsifi Toshkand” qasidasidir.

Qasida “Turkiston viloyatining gazeti”da 1894-yil 8-oktabrda “*Janobi oliyjoh Xiva xonining mirzoboshisi Pahlavon mulaqqab shuaroning g‘azallari ushbudur*” izoh-sarlavhasi bilan chop etilgan bo‘lib, undagi matn qasidaning bizga ma’lum bo‘lgan manbalari orasida eng dastlabki hisoblanadi. Qasida matni 48 baytdan iborat. Biroq qo‘lyozma va toshbosmalardagi matnlar bilan qiyoslaganda jiddiy o‘zgarishlar bor. Gazetadagi 9 bayt boshqa manbalarda uchramaydi. Ularda Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasining tarjimoni Asfandiyorov (*qasidada “tarjimon Asfandiyori Toshkand” jumlasi orqali beriladi*), general-gubernator fon Kaufman, baron A.Vrevskiy, Sirdaryo oblast harbiy gubernatori N.Grodekov kabi chor amaldorlarining faoliyati tavsiflanadi. Aytish mumkinki, asar Toshkent safaridan keyin yaratilgan va Komil bilan yaqin munosabatda bo‘lgan N.Ostroumovning iltimosiga ko‘ra, chor matbuoti uchun muallif tomonidan qayta ishlangan. Uning so‘ngida keltirilgan ikki bayt va ta’rix yechimiga oid izohda asarning vaqtini aniqlash imkoni bor:

Lekin ushbu yilg‘a to‘g‘ri aylabon bead hisob,
Dedi ta’rixini hotif: “Chashmasori Toshkand”.
Umr boqiy bo‘lsa olti yil yana, Komil, sanga,
Yozg‘il oning soli tarixin: “shumori Toshkand”.

“Maxfiy qomasunkim, “Chashmasori Toshkand” bir ta’rixdur. Lekin hisobi jumalda ming uch yuz sakson to‘rt (1384) bo‘lur. Ammo ta’miya qoidasi bila mundin yetmish to‘rt isqot bo‘lur. Bu tariqadakim “bead” iborati shunga ishoratdur. 1316 bo‘ladur. Yana olti yildin so‘ng muvofiq bo‘lur. Nedinkim muning mashq etilganda ta’rix bir ming uch yuz o‘nda erdi” [Turkiston viloyatining gazeti. 1894-yil 8-oktabr].

Shoir qayd etganidek, qasida 1310-(milodiy 1892-93) yilda yaratilgan. *“Chashmasori Toshkand”* iborasining jumali (1384)dan ta’miya usuli bilan (ع va د ning yig‘indisi) 74 isqot qilinsa, 1310 hosil bo‘ladi. Olti yildan so‘ng 1316 bo‘ladi. Bu milodiy 1898-99-yillarga to‘g‘ri keladi.

Qasida kiritilgan yana bir manba shoir devonining Toshkent toshbosmasi bo‘lib, unda gazetada chop etilgan matnning turli o‘rinlaridan olingan bor-yo‘g‘i 12 bayti berilgan. She’r so‘ngida berilgan ta’rix yechimi ham gazeta matnidagi bilan deyarli bir xil. Toshbosmadagi izohga quyidagi gap qo‘shimcha qilingan: *“Shumori Toshkand” ham bir ta’rixdur. Hisobda 1316 dur”*. Demak, muallif qasida so‘ngida ta’rix sanasini ikki ibora orqali beradi.

E’tiborli jihati shundaki, tugallanma bayt 1949, 1025 raqamli qo‘lyozmalar hamda Xiva toshbosmasida biroz tahrir qilingan:

Yona uch yil umr boqiy bo‘lsa gar, Komil, sango,
Yozg‘il oning soli tarixin shumori Toshkand.

Ishoraga ko‘ra, yana uch yildan so‘ng ta’rix “shumori Toshkand”, ya’ni 1316 bo‘ladi. Demak, mazkur manbalardagi variant 1313-yilda yozilgan. Bu 1895-yilga to‘g‘ri keladi. Haqiqatan, Xiva toshbosmasi 1895-yilda chop etilgan. 1025-raqamli qo‘lyozma kolofonida ham ushbu sana qayd qilingan: “Tammat. Tamom. 1313”. 1025-raqamli qo‘lyozmada uning ko‘chirilgan sanasi ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, “Sharq qo‘lyozmalari to‘plami”da uning ham 1895-yilda ko‘chirilgani qayd qilingan [Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. T.VII, 1964: 134]. Bu, albatta, qo‘lyozma nusxaning tashqi belgilariga ko‘ra aniqlangan. Biroq Komil Xorazmiyning hayotlik vaqtida ko‘chirilgan 1025-raqamli qo‘lyozma hamda nashriga bevosita o‘zi rahbarlik qilgan Xiva toshbosmasidagi qasida matni nisbatan ishonchli va mukammal ekani to‘g‘risida xulosa chiqarishga asos bo‘ladi.

Umuman, Komil Xorazmiy qalamiga mansub ta’rixlarni to‘laqonli o‘rganish zarurati mavjud. Biz yuqorida ularning ayrimlari xususida baqadrihol fikr yuritdik. Ularni shoir yashagan davrda yaratilgan tazkiralar, tarixiy asarlar asosida tadqiq qilish shoir nazmiy merosi haqidagi tasavvurlarni boyitishi bilan birga, uning mukammal biografiyasini tiklash, ijodiy laboratoriyasi va ijodiy muhitini o‘rganish uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1994. – B.79.
2. Dar ta’rifu tavsifi Toshkand. “Turkiston viloyatining gazeti”, 1894 yil 8 sentabr.
3. Devoni Komil. Toshbosma. 1880. O‘zbekiston FA ShI Asosiy fondi. Inv.№ 9881.
4. Devoni Komil. Toshbosma. 1895. O‘zbekiston FA ShI Asosiy fondi. Inv.№ 8953.
5. Devoni Komil. Qo‘lyozma. O‘zbekiston FA ShI Asosiy fondi. Inv. № 1949.
6. Devoni Komil. Qo‘lyozma. O‘zbekiston FA ShI Asosiy fondi. Inv. № 1025.
7. Devoni Mavlono Komil maa tavorixi shohoni Xorazm. Toshbosma. 1910. O‘zbekiston FA SHI Asosiy fondi. Inv. № 237.
8. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi ASN, 1976.
9. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР. T.VII. – Т.: Издательство АН Р Уз, 1964. – С.134.
10. Xudoyberganov K. Xiva dunyodagi eng ko‘hna qal’a. – Toshkent: 2012.

MATN TARIXI – ILMIY HAQIQAT MEZONI: NURBOY JABBOROVNING ILMIY MEROSI HAQIDA

Muhammadiyev Ahadjon Maxmudovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, f.f.n., professor v.b.
e-mail: axadjonmuhammadiyev@gmail.com

Mahmudov A'loxon Axadjon o'g'li,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti
e-mail: mahmudovaloxon05@gmail.com

Annotatsiya

Maqola filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Abdulhakimovich Jabborovning ko'p qirrali ilmiy-pedagogik faoliyatiga bag'ishlanadi. Olimning matnshunoslik va manbashunoslik yo'nalishidagi fundamental tadqiqotlari, Furqat, Navoiy, Ogahiy, Ibrat kabi mumtoz adiblar asarlarining ilmiy-tanqidiy nashrlari, milliy uyg'onish davri adabiyotini o'rganishdagi ulkan xizmatlari yoritilgan. Maqola Nurboy Jabborovning o'zbek filologiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini ko'rsatib, uning ilmiy merosining bugungi va kelajak avlodlar uchun ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *matnshunoslik, manbashunoslik, furqatshunoslik, navoiyshunoslik, milliy uyg'onish davri adabiyoti, ilmiy-tanqidiy nashr, qo'lyozma manbalar, Alisher Navoiy, Zokirjon Furqat, Ishoqxon Ibrat, Muhammad Rizo Ogahiy...*

Abstract

The article is devoted to the multifaceted scholarly and pedagogical activity of Doctor of Philological Sciences, Professor Nurboy Abdulhakimovich Jabborov. It highlights the scholar's fundamental research in the fields of textual studies and source studies, his critical scholarly editions of the works of classical writers such as Furqat, Alisher Navoi, Ogahiy, and Ishoqxon Ibrat, as well as his significant contributions to the study of the literature of the National Awakening period. The article demonstrates Nurboy Jabborov's invaluable contribution to the development of Uzbek philology and emphasizes the enduring significance of his scientific legacy for present and future generations.

Keywords: *textual studies, source studies, Furqat studies, Navoi studies, literature of the National Awakening period, critical scholarly edition, manuscript sources, Alisher Navoi, Zokirjon Furqat, Ishoqxon Ibrat, Muhammad Rizo Ogahiy.*

Filologiya fanlari doktori, serqirra adabiyotshunos olim, jonkuyar pedagog Jabborov Nurboy Abdulhakimovich ilmiy faoliyatining markazida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari turadi. Olimning nomzodlik dissertatsiyasida [Jabborov, 1994:156] shoirning qo'lyozma fondlarining tasnifi va tahriri masalalari ilmiy asoslangan. Doktorlik dissertatsiyasida [Jabborov, 2004:86] esa Furqatning xorij safarlari davridagi asarlari arxiv manbalariga tayanilgan holda tahlilga tortiladi. Mazkur tadqiqotlar davomida olim manbashunoslik va matnshunoslikning noyob sirlarini kashf etdi. Qo'lyozmalar tarixini o'rganish usulini mukammal o'zlashtirdi. Masalan, olim tomonidan Furqatning "Qavoidi Chin va umuroti siyosiy" [Фурқат, 2001] asarining ilmiy tahririni tayyorlanishi fikrimizning isbotidir. Mazkur ilmiy tahrir doirasida Zokirjon Furqatning hayoti va adabiy merosi to'liq qamrab olingan. Furqat biografiyasi va asarlariga doir ma'lumotlar birlamchi manbalar asosida yoritilgan. Qolaversa, bu qo'llanmada shoir Furqat g'oyalarining mamlakatimizda jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yutug'ini ta'minlash hamda yosh avlod adabiy-estetik tafakkuri va ma'rifiy saviyasini oshirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Nurboy Jabborovning "Matn tarixini o'rganish – ilmiy haqiqat mezoni" [Жабборов, 2020:53-62], "O'zbek matnshunosligi: muammolar, istiqboldagi vazifalar" [Жабборов, 2018: 34-40] kabi matnshunoslikka bag'ishlangan maqolalarida badiiy matn tahririning nazariy asoslari va amaliy usullari keng yoritilgan. Uning tahliliga ko'ra, matn genezisi va tarixini o'rganish ilmiy-tanqidiy matnning ilmiy aniqligini ta'minlaydi. Bu yo'nalishdagi xizmatining natijasi sifatida Ishoqxon Ibratning "Tan-

langan asarlar" [Пардаев, 2005:4; Шарафиддинов, 2005: 11; Юсупов, 2005:8], Muhammad Rizo Ogahiyning "Zubdatu-t-tavorix" [Долимов, 2010: 22; Шодмонов, 2010:1; Жабборов, 2024:23-26] kabi asarlarning ilmiy tahrirlarini koʻrsatish mumkin. Ushbu nashrlarda lugʻat, izohlar va koʻrsatkichlar bilan birga matnning tarixiy konteksti ham tahlil qilingan, bu esa, oʻz navbatida, oʻzbek mumtoz adabiyotining oʻrganilishini ilmiy jihatdan boyitgan.

Nurboy Jabborovning tadqiqotlari oʻzbek adabiyotining mumtoz adiblari – Alisher Navoiy, Zokirjon Furqat, Ishoqxon Ibrat va boshqalar ijodini yangicha talqin etish bilan ajralib turadi. Uning "Maoniy ahlining sohibqironi" [Жабборов, 2021:14] monografiyasida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning shaxs va davlat arbobi sifatidagi fazilatlari, bunyodkorlik faoliyati yangi talqinlar asosida yoritilgan. Ulugʻ bobokalonimizning irfoniy va adabiy-estetik olami bilan bogʻliq oʻziga xos ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Buyuk beshlik – "Xamsa"da ijodkor badiiy konsepsiyasi, ona obrazining poetik talqini yuzasidan ilmiy-nazariy fikrlar bildirilgan. Alisher Navoiy ijodiyotining millat adabiy-estetik tafakkuri takomiliga koʻrsatgan ta'siri masalalari tadqiq qilingan.

Bu asar Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Fanlar akademiyasi, Madaniyat vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda Oʻzbekiston ijodkorlarini qoʻllab-quvvatlash "Ilhom" jamoat fondi tomonidan e'lon qilingan "Yilning eng yaxshi asari" Respublika tanlovida faxrli birinchi oʻrinni egallagan.

Nurboy Jabborovning mazkur asari haqida Shuhrat Sirojiddinov, Maqsud Asadov, Dilnavoz Yusupova, Akramjon Dehqonov, Zebo Qobilova, Obidjon Karimov kabi taniqli adabiyotshunos olimlarning qator ilmiy maqolalari e'lon qilindi. [Юсупова, 2022:1; Dehqonov, 2022:9; Сирожиддинов, 2022:23] Bu maqolalarda mazkur asarga munosib ilmiy baho berilgan.

Ayniqsa, furqatshunoslik sohasida olimning xizmatlari alohida tahsinga loyiq. Universitetlar va pedagogika oliy oʻquv yurtlarining filologiya fakultetlari uchun yozilgan "Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti" [қосимов, Юсупов, Долимов, Ризаев, Ахмедов, 2004:29] darsligining "Furqat" bobi Nurboy Jabborov tomonidan yozilgan. Qolaversa, olim Zokirjon Furqatning "Fasli navbahor oʻldi" nomli she'riy toʻplamini ham nashrga tayyorlagan. Bu toʻplamda ulugʻ shoir va adib, zamonasining adabiyotshunos va elshunos olimi, mohir xattot va "Zubdat ul-hukamo" ("Hakimlarning sarasi") deya shuhrat qozongan hakim Zokirjon Xolmuhammad oʻgʻli Furqat qalamiga mansub turli lirik janrlardagi asarlardan namunalar oʻrin olgan. Shoirning mazkur toʻplamga kirgan she'rlarida muhabbat va hayot falsafasi, ijodkorning ijtimoiy-siyosiy voqelikka munosabati va ilm-u ma'rifat mavzulari teran mazmun va goʻzal badiiy shakl uygʻunligida talqin etilgan. Muallif Furqatning ijodiy kamolotining sirini uchta asosiy omilda koʻradi:

1. Navoiy an'anasini chuqur bilish va uni yangi tarixiy sharoitda poetik takomilga yetkazish. Kitobdagi eng yorqin misol:

Navoiy. *Nuqtayi xoling nedin shirin labing ustidadur,*
Nuqta chun ostin boʻlur har qaydakim yozilsa "lab".
Munis. *Nuqtayi xoli gʻalat tushmish labining ustida,*
Bersa ruxsat olgʻamen ul nuqtani ondin yalab.
Furqat. *"Nuqta lab ustida bejodur?"– dedim, aydi kulub:*
"Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda?!"

Yor xoli obrazining Navoiy, Munis, Furqat silsilasidagi rivojlanishi: monologdan dialogga, oddiy tashbehdan iyhom va tanosubga –boy murakkab badiiy tizimga oʻtishi ilmiy isbotlangan. Furqatning:

"Nuqta lab ustida bejodur?" dedim, aydi kulub:

"Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda?!" – bayti Navoiyning klassik baytini faqat takrorlamaydi, balki uni falsafiy va badiiy jihatdan yangi pogʻonaga koʻtaradi.

2. Mustamlaka zulmiga qarshi ochiq va ramziy kurash. "Munojot- musaddas", "Boʻldi" muxammasi, "Begim" radifli qoʻlxat she'ri kabilarda Furqat rus istibdodini "zulmat girdobi", "quyun", "ajal zimis-

toni", "zog'u zag'an" obrazli tasvir vositasida shunchalik ochiq fosh etadiki, zero, bu istibdod siyosati millat hayotining barcha jabhalarini birday asoratga olgani, milliy istiqlolga, nurli istiqbolga eltuvchi barcha yo'llar batamom to'silgani bugun hech kimga sir emas. Bu she'rlar sho'ro senzurasi davrida to'liq nashr qilinmagani tabiiy hol. Nurboy Jabborov ularni qo'lyozma asosida tiklab, Furqatning o'zini "birinchi o'zbek xalqaro jurnalisti" va "milliy ozodlik shoiri" sifatida qayta kashf etadi.

3. Islom ma'rifati va irfoniy dunyoqarashning chuqur singdirilgani. "Hajnoma" tarji'bandining ilmiy-tanqidiy matni va uning mufassal tahlili kitobning eng muhim bo'limlaridan biridir. Muallif Furqatning me'roj, ravzai mutahhara, Qiblatayn masjidi tasviridagi tashbehi mufassal, tansiqu-s-sifot, iqtibos, nido kabi san'atlarning yuksak darajada qo'llanishini ko'rsatadi. Ayniqsa,

Hilol erdi Buroqi sumig'a na'l,

O'shal oqshomki, qildi sayri aflok – baytidagi tashbehi mufassalning to'rtala unsuri ham to'liq ishtirok etgani ilmiy jihatdan bebahodir.

Kitobdagi ilmiy apparat – manbalar ro'yxati, variantlar ko'rsatkichi, lug'at, shaxs va joy nomlari ko'rsatkichi – eng yuqori darajada. Nurboy Jabborovning "Fasli navbahor o'ldi" to'plami Furqatshunoslikda yangi davrni boshlab beradigan asardir. U Furqatni faqat "lirik shoir" yoki "ma'rifatparvar"gina emas, balki Navoiydan keyingi eng buyuk milliy ozodlik shoiri sifatida qayta tiklaydi.

Adabiyotshunos olim, professor Nurboy Jabborovning "Zamon, mezon, she'riyat" [Жабборов, 2015:16] nomli monografiyasi zamonaviy she'riyat mezonlari muammolari haqida ilmiy bahs yuritadi. Jabborovga ko'ra, har bir zamon adabiyot, she'riyat oldiga o'z muammolarini qo'yadi. Ularni hal etishda aynan o'sha davrga xos adabiy-estetik mezonlarga tayanish lozim. Shuningdek, bu asardan mustaqillik yillarida milliy she'rnyatnmiz taraqqiyoti qanday an'analar asosida kechayotgani, she'riyatimiz rivojining o'ziga xos tamoyillari nimalardan iborat ekani, nazmiy asarlarni bugun qaysi mezonlarga tayanib baholashimiz kerakligi to'g'risidagi savollarga asosli javoblar olishimiz mumkin.

"Zamonamiz Hotamtoyi" monografiyasida esa To'qson ikki bovli o'zbekning katta urug'laridan biri – juzning iyarchi shaxobchasidan bo'lmish Rahmon hoji Yo'ldoshevning ibratli hayot yo'li hikoya qilingan. Asar qahramoni hamisha odamlarga yaxshilik qilish, el xizmatida bo'lish, xalq manfaatini o'ylash kabi saxovatning yuksak namunalariga ega. Bir so'z bilan aytganda, bu asar zamonamiz yoshlarini komil suratda tarbiyalash sirlarini targ'ib qilgan.

Filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Abdulhakimovich Jabborov o'zbek matnshunosligi va manbashunosligining zamonaviy bosqichidagi eng muhim va eng sermahsul namoyandalaridan biridir. Uning ilmiy faoliyati markazida badiiy matnning genezisi, tarixi va tahririni o'rganish, qo'lyozma manbalarni aniqlash, tasniflash va ilmiy-tanqidiy nashrga tayyorlash kabi fundamental muammolar turadi. Olim tomonidan Furqat asarlarining qo'lyozma fondlarini to'liq ro'yxatga olish (nomzodlik dissertatsiyasi, 1994), xorijdagi hayoti va ijodining yangi manbalarini kashf etish (doktorlik dissertatsiyasi, 2004), "Qavoidi Chin va umuroti siyosiy", "Fasli navbahor o'ldi" she'riy to'plami, Ishoqxon Ibratning "Tanlangan asarlar"i, Muhammad Rizo Ogahiyning "Zubdatu-t-tavorix"i kabi o'nlab muhim asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlarini nashrga tayyorlash o'zbek filologiyasi tarixidagi yangi davr talablariga to'la mos keladi.

Nurboy Jabborov matnshunoslikni faqat texnik-tahririy jarayon emas, balki ilmiy haqiqatning asosiy mezoni sifatida talqin qiladi. Uning "Matn tarixini o'rganish – ilmiy haqiqat mezoni" degan prinsipi o'zbek adabiyotshunosligida yangi metodologik yo'nalishni shakllantirdi: har bir badiiy matnning variantlari, qo'lyozma nusxalari, muallif o'zgartirishlari, tarixiy konteksti va nashr tarixi to'liq o'rganilmay turib, uning ilmiy tahlili mumkin emas. Bu prinsip nafaqat Furqat, Ibrat, Ogahiy asarlarining, balki Alisher Navoiy ijodiyotining yangi talqinida ham o'z aksini topdi. "Maoniy ahlining sohibqironi" (2021) monografiyasida Navoiyning davlat arbobi, bunyodkor va irfoniy shaxsiyati to'liq qo'lyozma manbalar va arxiv hujjatlari asosida yoritildi.

Olimning pedagogik faoliyati ham milliy kadrlar tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Uning "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligi (2004), o'quv qo'llanmalari, ilmiy kengashlar raisligi

(2013–2016), xalqaro simpoziumlardagi faol ishtiroki va ekspertlik xizmati (2017 yildan) o‘zbek filologiyasining uzluksiz rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Nurboy Jabborovning ilmiy faoliyati o‘zbek mumtoz adabiyotining ilmiy-tanqidiy matnlarini qayta tiklash, ularning tarixiy-adabiy kontekstini chuqur ochish, milliy she’riyat va nasrning estetik qadriyatlarini yangi avlodga yetkazishda bebaho xizmat qildi. Uning ishi nafaqat o‘tmishni saqlash, balki milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy yuksalish yo‘lidagi mustahkam ko‘prik vazifasini o‘tamoqda. O‘zbek matnshunosligi va manbashunosligining bugungi darajasi va kelajak istiqboli Nurboy Jabborov nomi bilan chambarchas bog‘liqdir. Uning ilmiy merosi uzoq yillar davomida o‘zbek filologiyasining oltin fondi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asadov M. “Maoniy ahlining sohibqironi” xususida. /Matnshunos va manbashunos olim Porso Shamsiyev tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlangan respublika ilmiy anjumani materiallari. II kitob. – Toshkent: Adast poligraf, 2002.
2. Dehqonov A. Munosib armug‘on. // Ma’rifat, 2022-yil 9-fevral.
3. Долимов У. Бадиий-тарихий наср намунаси. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2010 йил 22 январь.
4. Жабборов Н. Фурқат асарларининг қўлёзма манбалари. Филология фанлари номзоди илмий даражаси учун ёзилган диссертация, Тошкент, 1994.
5. Жабборов, Нурбой. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси. Филология фанлари доктори (Doctor of Sciyence) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2004-йил.
6. Жабборов Н. Матн тарихини ўрганиш – илмий ҳақиқат мезони. / Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. III Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Наманган, 2020,
7. Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги: муаммолар, истиқболдаги вазифалар. / “Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари” мавзусидаги анъанавий республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Наманган, 2018,
8. Н.Жабборов. Маоний аҳлининг соҳибқирони. Монография. – Тошкент: Adabiyot, 2021. – B.14
9. Жабборов Н. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. Университетлар ва педагогика олий ўқув юртларининг филология факультетлари учун дарслик (“Фурқат” боби). – Тошкент: Маънавият, 2004,
10. Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015,
11. Жабборов Н., Йўлдошев Н., Жовлиев А. Замонамиз Ҳотамтойи. – Тошкент: Академнашр, 2017,
12. Каримов О. Нурбой Жабборов – Огаҳий асарлари тадқиқотчиси. // Айний ворислари. Халқаро электрон журнал. 2024, 5-6-сон.
13. Лутфуллаева З. “Асардурки оламға ўлғай нишон...” //Hurriyat, 2005 йил 31 август.
14. Маматжонова Н. Ибрат ва унинг мероси. // Fidokor, 2005 йил 24 май.
15. Karimov O. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini. /”Alisher Navoiy va XXI asr” 10-uluslararo konferansi materiallari. – Toshkent-Chimkent, 2025-yil 6-fevral.
16. Озод Шарафиддинов. Миллат фидойилари. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2005 йил 11 март.
17. Зоҳидов Р. “Фаҳмида мезони бор зот...” (“Исҳоқхон тўра Ибрат” китобини ўқиб). //Имом ал-Бухорий сабоқлари, 2005, 1-сон,
18. Сирожиддинов Шуҳрат. Илмий ҳақиқат ёғдуси ёхуд янги давр навоийшунослигининг муҳим ютуғи. // Янги Ўзбекистон, 2022 йил 23 апрель.
19. Фурқат. Қавоиди Чин ва умуроти сиёсий (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Н.Жабборов). Иккинчи фасл. //Шарқ юлдузи, 2001.
20. Шодмонов Нафас. “Зубдату-т-таворих”нинг мукаммал нашри. // Жаҳон адабиёти, 2010, 1-сон.
21. Юсупов Ш. Ибрат закоси ёхуд бу фазилатни акс эттирган янги нашр. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2005 йил 8 апрель.
22. Юсупова Д. Буюк мутафаккир ижод оламига яқинлашув. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2022 йил 1 январь.
23. Қобилова З. Асл ўзанларга қайтиш тадориги. //Шарқ юлдузи, 2022, 12-сон.
24. Пардаев Қ. Авлод камоли – миллат камоли. //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2005 йил 4 март.
25. Каримов Ғ. Замонни муаллим билган зот. //Tafakkur, 2006, 1-сон.

MATN TARIXI MASALASI NURBOY JABBOROV TALQINIDA

Shermuhammad Amonov,
Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va
adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Mumtoz adabiyot namunalari manbalari va matnlarini o'rganishda matnshunoslikning nazariy qismi bo'lgan matn tarixi masalasi alohida o'rin tutadi. Muayyan asarning matn tarixini o'rganish muallif dunyoqarashi, e'tiqodi, ijodiy pozitsiyasini, umuman, asar yaratilgan davr ruhi hamda adabiy an'analar to'g'risida aniq tasavvur berishi jihatidan muhim hisoblanadi.

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning nazariy masalasi hisoblangan matn tarixi masalasi o'zbek matnshunosligida ham muayyan darajada o'rganilib kelinmoqda. Ushbu masala yuzasidan A.Habibullayev, Sh.Sirojiddinov, A.Erkinov, N.Shodmonov va boshqa olimlar ayrim fikr-mulohazalar bildirishgan. Bu masala yuzasidan matnshunos Nurboy Jabborovning tizimli ravishdagi qarashlari xarakterlidir.

Ushbu maqolada professor Nurboy Jabborovning matn tarixiga oid qarashlari keltirilib, ularga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: *Nurboy Jabborov, matn, diniy matn, mumtoz matn, matn tarixi, muqobala.*

Abstract

In the study of the sources and texts of classical literary works, the issue of textual history, which is a theoretical part of textual studies, occupies a special place. The study of the textual history of a particular work is important in that it provides a clear idea of the author's worldview, beliefs, creative position, and, in general, the spirit of the era in which the work was created, as well as literary traditions.

The issue of textual history, which is considered a theoretical issue of textual studies and literary source studies, is also being studied to a certain extent in Uzbek textual studies. A. Habibullayev, Sh. Sirojiddinov, A. Erkinov, N. Shodmonov and other scholars have expressed some opinions on this issue. The systematic views of textual scholar Nurboy Jabborov on this issue are characteristic.

This article presents the views of Professor Nurboy Jabborov on the history of textual studies and comments on them.

Key words: *Nurboy Jabborov, text, religious text, classical text, text history, mukobala.*

Mumtoz adabiyot namunalari manbalari va matnlarini o'rganishda matn tarixi masalasi alohida o'rin tutadi. Muayyan asarning matn tarixini o'rganish muallif dunyoqarashi, e'tiqodi, ijodiy pozitsiyasini, umuman, asar yaratilgan davr ruhi hamda adabiy an'analar to'g'risida aniq tasavvur berishi jihatidan muhim hisoblanadi. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning nazariy masalasi hisoblangan matn tarixi masalasi rus matnshunosligida ma'lum darajada tadqiq etilgan. Bu masala rus matnshunoslaridan B.V.Tomashevskiy, S.A.Reyser, D.S.Lixachev tadqiqotlarida maxsus tadqiq etilgan. Matn tarixiga doir nazariy qarashlar o'zbek matnshunosligida ham muayyan darajada o'rganilgan va o'rganilmoqda.

So'nggi yillar o'zbek matnshunosligida matn tarixini tadqiq qilish masalasida professor Nurboy Jabborovning turkum maqolalari diqqatga sazovor [Жабборов, 2018:34-40; 2019:12; 2020:23-28; 2020:50-57; 2021:5-12]. Olim o'zbek matnshunosligi oldida turgan dolzarb muammolar va istiqboldagi vazifalar xususida so'z yuritar ekan, adabiyotimizning har bir yirik namoyandasi ijodi misolida muhim nazariy muammo sanalgan matn tarixi masalasini jiddiy tadqiq etilishi zarur ekanini, sohaning eng asosiy nazariy tushunchalaridan biri bo'lgan matn tarixi matnni kompleks o'rganish zaruratini taqozo qilishini ta'kidlaydi Жабборов, 2018:36-37].

Ijodkor tomonidan muayyan asar matnining yaratilishidan tortib xronologik jihatdan eng so'nggi nusxasiga qadar yuzaga kelgan tafovutlar matn tarixini tashkil etadi. Ya'ni muayyan asar matni to'g'risida mavjud ma'lumotlar yig'indisi matn tarixidir. Rus matnshunosi D.S.Lixachev matn tarixi yuzasidan quyidagi fikrni bildiradi: "Matn tarixi tushunchasi muayyan asar matnining barcha masalalarini qamrab oladi. Asarga aloqador hamma masalalarni faqat to'liq (yoki imkon darajasida to'liq) o'rganishgina

bizga asar matni tarixini tom ma'noda kashf etish imkonini beradi" [Лихачев, 2001:33]. Matnshunos Nurboy Jabborov matn tarixining aynan qaysi masalalarni qamrab olishi masalasiga oydinlik kiritib bunday yozadi: *"Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, matn tarixi qo'lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va hatto manbani ko'chirgan kotibning dunyoqarashi va g'oyasini o'rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro'yobga chiqishidan uning yaratilishigacha u yoki bu darajada aloqador bo'lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan o'zaro bog'liq jihatlari tadqiqigacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi"* [Жабборов, 2019:12]. Ta'kidlash kerakki, bunday yondashuv badiiy asar matni bilan bog'liq barcha masalalarni qamrovli tadqiq qilish imkonini beradi.

Sohaga oid keyingi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, muayyan adabiy yodgorlik yoki badiiy asarning matn tarixi tadqiqi yangi va qimmatli ilmiy xulosalarga kelish imkonini bermoqda. Matn tarixi shoir laboratoriyasi, matnni ijod qilish jaryonidagi maqsad va rejalaridan tortib, to matnning hozirgi davrdagi holatigacha bo'lgan muammolarini o'zida jamlagani uchun bu masalani o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Matn tarixining badiiy asar matniga daxldor barcha masalalarni qamrab olishi inobatga olinsa, bu muammoning paydo bo'lishi, shakllanishi va takomili xususida to'xtalish joiz. Professor Nurboy Jabborov matn tarixi va uning genezisi to'g'risida to'xtalar ekan, matnshunoslik sohasida ilmiy tadqiqot metodologiyasi ishlab chiqilmagani, mumtoz badiiy asarlar matnini o'rganishning ilmiy asoslangan, ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarga qo'llash mumkin bo'lgan mezonlari va tamoyillari hanuzgacha tayin etilmaganini, bu esa, o'z navbatida, matnshunoslikning va adabiy-ilmiy tahlilning ham asosi bo'lgan matn tarixini tadqiq etishning yaxlit tizimini ishlab chiqishni taqozo etishini ta'kidlaydi.

Olim Alisher Navoiyning "Badoyi' ul-bidoya" devoni debochasida mutafakkir shoirning devon tartib berishga va badiiy ijodga qo'yilgan talablari to'g'risida so'z yuritib, bu talablarni matn tarixini o'rganish jarayoniga ham tatbiq etish mumkinligini asosli misollar bilan dalillaydi [Жабборов, 2021:5-7]. Debochada Navoiy belgilagan talab va mezonlar badiiy asar matni hamda uning ijod etilish jarayonini aks ettirishi jihatidan qimmatli ekani e'tirof etilib, matn tarixini o'rganish va baholashda ushbu mezonlarga tayanish zarurligi ta'kidlangan. Nurboy Jabborov matn tarixini tadqiq qilishda poetik mazmun, poetik shakl va hatto vazn jihatdan ham mumtoz adabiyotimiz uchun manba vazifasini o'tagan Qur'oni karim va hadisi shariflarni o'rganishda qo'llangan ilmiy uslublardan foydalanish kutilgan amaliy natijalarni berishi mumkin, deb hisoblaydi. Ana shularga ko'ra, olim: *"Muqobala uslubini matnshunoslik, xususan, matn tarixini o'rganish jarayoniga tatbiq etishda quyidagi muhim xususiyatlarga alohida e'tibor qaratish zarur: 1) olimlarning yagona maqsadi – xatolardan xoli mukammal matnni tiklash niyatida bir jamoa bo'lib ishlashi; 2) matnning harfma-harf, so'zma-so'z qiyoslanishi; 3) xatoliklarni bartaraf etish uchun mutaxassislar o'zlari tayyorlagan matnlarni bir-biri bilan o'zaro almashlab tekshirishi; 4) matndagi xatoliklarni o'chirib yubormasdan ustiga chizib ishlash; 5) tiklangan ishonchli matn bo'yicha dars o'tishga avval ustoz olim tomonidan yozma ijozat berilgan bo'lsa, bugungi kunda matnshunoslar jamiyati tomonidan maxsus ruxsatnoma berilishini yo'lga qo'yish"* [Жабборов, 2021:10] – tarzidagi asosli takliflarni keltiradi.

Shu o'rinda, keyingi paytlarda mumtoz adabiy matnlarga yondashuv masalasida, "adabiy-irfoniy tahlil metodi" kabi jiddiy va asosli takliflar bildirilmoqda. Masalaga bunday yondashuvning ilmiy-nazariy jihatlari professor Bahodir Karimovning "Diniy-tasavvufiy tahlil metodi", adabiyotshunos O.Avaznazarovning "Adabiy-irfoniy tahlil metodi" maqolalarida asoslangan. Darhaqiqat, mumtoz adabiy matnlar tadqiqida amalda qo'llanib kelayotgan ayni yondashuvni maxsus nomlash, sohaga doir ilmiy ishlarda uni amalda nomlash va uni asoslash konseptual masalalardan biri deyish mumkin. Darhaqiqat, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan mumtoz va zamonaviy adabiyotshunoslikka doir tadqiqotlarning deyarli barchasida matndagi islomiy tushunchalarga alohida diqqat qaratish va chuqurroq tahlil qilish ustunlik qiladi. Lekin bunday yondashuvlarda ilmiy tadqiqot mohiyatining

qay darajada ochilgani boshqa masala. Biz e'tibor qaratmoqchi bo'lgan jihat esa matnshunos Nurboy Jabborovning mumtoz va zamonaviy badiiy matnlar tadqiqida yangi ilmiy-nazariy qarashlarni ilgari surishi, olimning badiiy matnga yondashuv konsepsiyasi haqida. Agar bu hodisani, ya'ni mumtoz adabiy matnlarga yondashuv masalasi alohida nomlanar ekan, bu borada olimning deyarli barcha tadqiqotlari ayni masalaning nazariy asosi bo'lib xizmat qilishi tayin. Negaki, nuktadon olim, avvalo, har qanday matn tahlilida milliy e'tiqod, so'ng, sharqona tafakkur nuqtayi nazaridan yondashadi. Bu hol Nurboy Jabborov ilmiy yondashuvining bosh mezonidir.

Shunga ko'ra, Nurboy Jabborovning "muqobala" uslubida ilgari surgan ilmiy-nazariy qarashlari adabiy yodgorliklarimiz matni tarixini tadqiq qilishda asosli ilmiy yondashuv ekanini ta'kidlash lozim. Bu borada olimning Mahmud Koshg'ariy "Duvon-u lug'oti-t-turk" asari yozilishida muallifning niyati, rejasining amalga oshuv jarayoni bilan bog'liq kuzatuvlari e'tiborlidir: *"Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezatdim. Qattiq joylarini yumshatdim, qiyin va qorong'u joylarini yoritdim. Bu ish ustida so'zlarni o'z joyiga qo'yish, kerakli so'zlarni osonlik bilan topish uchun bir necha yil mashaqqat tortdim. Nihoyat, kerakli so'zlarni o'z joyida ko'zlaydigan, qiyinchiliksiz topa oladigan bir holga keltirdim. Lug'atni sakkiz asosiy bo'lim (kitāb)da chekladik... Har bir bo'lim (kitāb)ni otlar (ismlar) va fe'llar tarzida ikki qismga ajratib berdim. Otlarni oldin, fe'llarni esa otlardan keyin o'z sirasiga qarab, boblarga ajratib, o'z o'rnida oldinma-ketin ko'rsatdim... Men iste'moldagi so'zlarnigina berdim, iste'moldan chiqqanlarini tashladim"* [Кошғарий, 2017:15]

Olimning ta'kidlashicha: "Bu so'zlar ulug' mutafakkirning "Devon"ni tartib berishdagi asosiy prinsiplarini ko'rsatishi barobarida asarning matn tarixiga daxldor asosiy xususiyatlarni ifoda etgan. Zero, matn tarixi badiiy yoki ilmiy-adabiy matnga taalluqli masalalarni imkon qadar to'liq aks ettirishi zarur. Bundan tashqari, matn tarixi matn ustida olib borilgan harakatlar tarixi hamdir. Yuqoridagi iqtibosda keltirilgan "Bu ish ustida so'zlarni o'z joyiga qo'yish, kerakli so'zlarni osonlik bilan topish uchun bir necha yil mashaqqat tortdim. Nihoyat, kerakli so'zlarni o'z joyida ko'zlaydigan, qiyinchiliksiz topa oladigan bir holga keltirdim", degan so'zlari "Devon" matni yaratilishidagi amaliy harakatlarni ifodalagani jihatidan ham qimmatlidir. Muallif bu o'rinda matn tarixi uchun muhim bo'lgan to'xtam – ijodiy niyati, rejasi amalga oshgani haqida yozganini olim yapti. Nurboy Jabborovning ta'kidlashicha, Mahmud Koshg'ariyning bu fikrlari matn trayektoriyasi haqidagi muallif adabiy-estetik qarashlarini ifodalagani jihatidan ham qimmatlidir. Zero, matn tarixi matn bilan bog'liq barcha harakatlarni – ijodkorning so'z ustida ishlash jarayonini o'z ichiga oladi, uning ilmiy-ijodiy laboratoriyasiga chuqurroq kirish imkonini beradi".

Darhaqiqat, muayyan asar matn tarixini o'rganish muallif dunyoqarashi, e'tiqodi, ijodiy pozitsiyasini, qolaversa, asar yaratilgan davr ruhi hamda adabiy an'analar to'g'risidagi tasavvurlarni boyitadi. Bu borada ham matnshunos Nurboy Jabborovning quyidagi mulohazalari e'tiborlidir: *"Matnshunoslik izlanishlari bo'lmasa, adabiyotshunoslik tadqiqotlari aksar hollarda o'z ahamiyatini yo'qotadi. Agar adabiy manbani yaxlit bir imoratga qiyoslansa, matnshunoslik uning poydevoridir. Adabiyotshunoslik ana shu poydevor ustiga qurilmog'i zarur. Aks holda u poydevorsiz inshoot singari omonat bo'lib qoladi"* [Жабборов, 2020:51].

Matn tarixini o'rganishda asarning mavjud nusxalarini qiyoslash, ular orasida kuzatiladigan tafovutlarning o'zi bilangina cheklanib qolish ham to'g'ri bo'lmaydi. Bunda ijodkor laboratoriyasiga kirish, uning zamondoshlari bilan ijodiy aloqalarini kuzatish, hayotiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni ham o'rganish, shuningdek, asar yaratilgan davrdagi ilmiy, tarixiy asarlar hamda arxiv fondlarida saqlanib qolgan manbalarni istifoda qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Matnshunos olim matn tarixiga oid qarashlarida matn tarixini o'rganish asarning ma'lum bir qismi yoki biror nusxasiga emas, balki asarning yaratilishi uchun muallif rejasi va maqsadining tug'ilishidan eng so'nggi tahrirga qadar yuz bergan o'zgarishlarni o'z ichiga olishi, ijodkor tomonidan muayyan asar

matnining yaratilishidan tortib xronologik jihatdan eng so‘nggi nusxasiga qadar yuzaga kelgan tafovutlarni aniqlashni, muayyan asar matni to‘g‘risida mavjud barcha ma’lumotlar yig‘indisi matn tarixini tashkil etishini, matn tarixini tadqiq qilish amaliyoti bevosita asarning matni ustida amalga oshirilsa, uning nazariy asoslarini ham aksar hollarda asar matnidan o‘rganish imkoni mavjud bo‘lishi kabi nazariy masalalar o‘z aksini topgan. Darhaqiqat, matn tarixini o‘rganish ijodkorda adabiy asar uchun maqsad va rejaning paydo bo‘lishidan asarning eng so‘nggi variantiga qadar bosib o‘tilgan jarayonni qamrab oladi. Matn tarixi tadqiqida o‘rganilayotgan asarga aloqador bo‘lgan har bir jihatni inobatga olish zarur. Bunda asar matniga aloqador har qanday ma’lumotlarni e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. O‘z navbatida, matn tarixi tadqiqi muayyan asarning turli nusxalari qiyosiy o‘rganilganda asosli ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi.

Matn tarixini o’rganishda asarning mavjud nusxalarini qiyoslash, ular orasida kuzatiladigan tafovutlarning o’zi bilangina cheklanib qolish ham to’g‘ri bo’lmaydi. Bunda ijodkor laboratoriyasiga kirish, uning zamondoshlari bilan ijodiy aloqalarini kuzatish, hayotiy faoliyatiga oid ma’lumotlarni ham o’rganish, shuningdek, asar yaratilgan davrdagi ilmiy, tarixiy asarlar hamda arxiv fondlarida saqlanib qolgan manbalarni istifoda qilish ham muhim hisoblanadi. Darhaqiqat, ayrim hollarda badiiy asarning to’liq rejasi va maqsadi muallif va uning zamondoshlari o‘zaro yozishmalari, xotiralari va shu kabilarni o’rganishda ham aniqlashadi. Matnshunoslik va adabiy manbashunoslikka doir har qanday tadqiqot va tahlil matn tarixi bilan aloqadorlikda amalga oshiriladi.

Nurboy Jabborov ta’biri bilan aytganda, “*matn tarixini o‘rganish – ilmiy haqiqat mezoni*”dir. Olimning bunday nazariy qarashlari zamirida tadqiqotchi matn tarixini o‘rganayotganida matnning o‘zgarishiga sabab bo‘lgan undan tashqaridagi barcha asoslarni ko‘ra olishi, matn tarixi ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-adabiy, tarixiy-maishiy kabilar bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi mumkin, degan xulosa mujassam. Matnshunoslik matnni uning tarixi nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Nimaiki adabiyot tarixida o‘rganilsa, matn tarixida ham qo‘llaniladi, biroq matndagi o‘zgarishlarni tushuntirish nuqtayi nazaridan yondashadi. Demak, matnshunos matndagi ma’lum o‘zgarishlarni tushuntira olish chegarasidan chiqmagan holda qo‘lyozmaning g‘oyaviy, estetik tomonini ham to‘la o‘rganishi ilmiy haqiqatning asoslaridan bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Badiiy matn tahririning xos xususiyatlari. / “O‘zbek adabiyotshunosligida talqin va tahlil muammolari” mavzusidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014.
2. Jabborov N. Matnshunoslikning ayrim nazariy masalalari. /“O‘zbek matnshunosligining nazariy va amaliy muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy anjumani materiallari. – Qarshi: Nasaf, 2019.
3. Jabborov N. O‘zbek matnshunosligi va unda matn tanqidi, ilmiy-tanqidiy matn istilohlarining o‘rni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –
Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019.
4. Jabborov N. Matn tarixini o‘rganish – ilmiy haqiqat mezoni // O‘zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari. – Namangan, 2020.
5. Jabborov N. Matn tarixi va uning genezisiga doir ayrim mulohazalar. O‘zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari. – Namangan, 2021.
6. Лихачев Д.С. Текстология. – М. – Л.: Наука, 1964.
7. Рейсер С. А. Основы текстологии. – Л.: Просвещение, 1978.
8. Sirojiddinov Sh. Matnshunoslik saboqlari. – Toshkent: Navoiy universiteti. 2019.
9. Shodmonov N. Adabiy manba va matn tasarrufi // Adabiy manba: o‘rganishning zamonaviy tamoyillari va nashr muammolari. Maqolalar to‘plami. – Qarshi: Nasaf. 2013.
10. Hasaniy M., Habibullayev A. 2012. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent, TDSHI.

QADIMIY SHARQ QO‘LYOZMALARINI KELAJAK AVLODGA YETKAZISH MUAMMOLARI

Shafoat Hasanova,
filologiya fanlari doktori
O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi ilmiy xodimi

Annotatsiya

O‘z R FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi nodir qo‘lyozma va toshbosma kitoblar fondida 2500 ga yaqin nodir qo‘lyozma va toshbosma kitoblar saqlanadi. So‘nggi yillarda bir guruh olimlarimiz tomonidan muzey fondida saqlanayotgan qo‘lyozma va toshbosma asarlarning kataloglari o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashrga tayyorlandi va ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi. Maqolada kitobat san’ati namunalari bo‘lish darajasidagi qo‘lyozmalarni tadqiq va nashr qilish ishlarini keng miqyosda olib borish olimlar oldida turgan muhim vazifalardan ekanligi, shuningdek, sharq qo‘lyozmalarini ilmiy tavsiflash borasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini nashr qilish orqali ilmiy muomalaga kiritilishi ulug‘ ajdodlarimizning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga qo‘shgan beqiyos hissasining yorqin namoyishi ekanligi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *Sharq qo‘lyozmalari, Adabiyot muzeyi, katalog, asar, kitobat san’ati, toshbosma, nashr, ilmiy tavsif, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, turkiy tildagi asarlar.*

Abstract

The Alisher Navoi State Museum of Literature of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan holds about 2,500 rare manuscripts and lithographs. In recent years, a group of our scientists have prepared catalogs of manuscripts and lithographs stored in the museum’s collection in Uzbek, Russian and English for publication and presented them to the scientific community. The article studies that the study and publication of manuscripts that are examples of book art on a large scale is one of the important tasks facing scientists, and that the publication of the results of scientific research on the scientific description of oriental manuscripts is a vivid demonstration of the incomparable contribution of our great ancestors to the development of world science and culture.

Key w ords: *Oriental manuscripts, Museum of Literature, catalog, work, book art, lithography, publication, scientific description, Alisher Navoi, Zahiriddin Muhammad Babur, works in Turkic.*

Ma’lumki, boy qo‘lyozma merosimiz o‘tmish ma’naviy hayotimizning turli sohalarini qamrab oladi. Qo‘lyozmalar har bir davrning talab va ehtiyojlariga, madaniy saviyasiga ko‘ra turli xilda kitobat qilingan. Ana shunga ko‘ra qo‘lyozmalar orasida biz Sharq kitobat ishining hamma namunalarini uchratamiz. Ular kulliyot, devon, majmua, bayoz. Kajkul, rasoil, lug‘at, sharh va boshqalardan iborat. Qo‘lyozmalarning aksariyati badiiy tafakkurga – adabiyot va xalq og‘zaki ijodiga aloqador bo‘lsa, bir qismi tilshunoslik, musiqa, tarix, falsafa, geografiya, matematika, astronomiya va boshqa fanlarga oid manbalardir. Qo‘lyozmalarning ba’zilari qadimiyligi va nodir nusxaligi bilan afzaldir. Ayrim qo‘lyozmalar mavjud asarlarning tekstlarini qiyosiy o‘rganishga, tekstologik tadqiqotlar olib borishga xizmat qiladi. Bir guruh qo‘lyozmalar miniatyura, badiiy kitobat va xattotlik san’ati uchun bebaho manbadir. Bu qo‘lyozmalarni kelajak avlodga yetkazib berishning muhim omillaridan biri ularning ilmiy tavsiflarini amalga oshirib, kataloglar sifatida nashrga tayyorlashdan iboratdir. Shunday ishlardan biri Adabiyot muzeyida saqlanayotgan 509 ta qo‘lyozmaning ilmiy katalogi orqali ilmiy muomalaga kiritilgan. Bugungi maqolamizning asosi ham mana shu boy manbalar haqida atroflicha mulohazalar yuritish. Ularni fan talablari asosida saqlash, ta’mirlash, konservatsiya qilish alohida mavzu bo‘lganligi sababli biz ular haqida to‘xtalib o‘tmaymiz. Adabiyot muzeyida shu kungacha uch mingdan ortiq Sharq qo‘lyozmalari saqlanib kelmoqda. Jumladan, Lutfiy, Mashrab, Huvaydo, Hoziq, Komyob, Mutrib Xonxarobiy, Xumuliy, Mirzo Xorazmiyning mukammal devonlari (bulardan ayrimlari dastxat nusxalar) mukammal tavsif qilinib, ulardan ayrimlari haqida ilmiy izlanishlar (Komyob) va ba’zilari nashr qilinib, keng kitobxonlar ommasiga taqdim etildi.

Muzey olimlari tomonidan nashrga tayyorlangan Navoiyning “Xamsa”si bo‘yicha tayyorlangan kitob Moskvada bo‘lib o‘tgan xalqaro kitob savdosi ko‘rgazmasida oltin medalga, “Alisher Navoiyning islom taraqqiyotida tutgan o‘rni” kitobining xalqaro Babtin mukofotiga, Boburning boy merosini to‘plash va ijodi bo‘yicha amalga oshirilgan turkum tadqiqotlarning Bobur xalqaro mukofotiga sazovor bo‘lganligi ilmiy izlanishlarning samarali natijalaridan dalolat beradi.

O‘zbek dunyoviy she’riyatining Xorazmiy (“Muhabbatnoma” muallifi), Xo‘jandiy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Abdurrahim Hofiz Xorazmiy, Amiriy, Yaqiniy, Ahmadiy, Muqimiy, Atoiy, Gadoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Sayyid Qosimiy kabi o‘nlab namoyandalari Alisher Navoiygacha va qisman Navoiy davrida yashab ijod etganlar va adabiyotimiz hamda madaniyatimiz rivojiga sezilarli hissa qo‘shganlar. Bu esa madaniyatimiz tarixida muhim sahifalardan birini tashkil etadi. Bu ijodkorlarning xorijda va vatanimizda, xususan Adabiyot muzeyida saqlanib kelayotgan qo‘lyozma merosi haqida ham ma’lum darajada izlanishlar olib borildi.

Bu san’atkorlar o‘zlarining ijod mahsullarini jamlab alohida kitob va devonlar tartib berganlar. Bu shoirlarning badiiy merosini o‘z ichiga olgan qo‘lyozmalar asrlar osha qisman bo‘lsa-da, bizgacha yetib kelgan.

Bu davr shoirlari asarlarining ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo‘lmagan yoki ilmiy istifodaga kiritilmagan yoxud keyingi izlanishlar tufayli qo‘lga kiritilgan qo‘lyozma nusxalarini tadqiq etishga ayniqsa, katta ahamiyat berilmoqda.

AQSh Ogaya shtatining poytaxti Sintsinnati shahrida o‘nlab muzey va yirik kutubxonalar mavjud. Shular orasida noyob arxitektura yodgorligi sifatida ko‘zga tashlanib turadigan muhtasham binoda San’at muzeyi joylashgan bo‘lib, unda Amerika va Yevropa tarixiga oid noyob asarlar namoyishi bilan birga Sharq xalqlari, ayniqsa fors va turkiy xalqlar madaniyatiga oid boy meros ham uning xazinasida ko‘z qorachig‘idek saqlanib kelayotganligi bizni hayratga soldi.

Taajjubki, Sintsinnati shahridagi San’at muzeyi xazinasida o‘zbek xalqining buyuk shoiri, davlat arbobi va qolaversa Temuriylar sulolasining Hindistondagi davomchisi Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlariga mansub shahzodalarning 1526-yildan to 1858-yilgacha bo‘lgan tarixiy va madaniy yodgorliklarining eng noyob nusxalarining muzeydan joy olganligi har bir o‘zbekning qalbi va shu’urini hayratga solmay qo‘ymaydi.

Muzey fondida saqlanayotgan Boburiylar kutubxonasiga oid ayrim qo‘lyozmalarga ishlangan miniatyuralarda Hindiston mamlakatini birlashtirish va yagona imperiya barpo etish yo‘lidagi harbiy yurishlar tasvirlangan tarixiy lavhalar suratlari aks ettirilgan bo‘lsa, boshqa bir guruh qo‘lyozmalarda Hindistondagi Boburiylar sulolasining siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tarixiy voqealar, maishiy hayot tarzi o‘z aksini topgan lavhalar alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur qo‘lyozmalarda Hindiston davlat arboblari – Humoyun, Akbarshoh, Shohjahon, doro Shukuh, Shoh Shujo‘ va Avrangzebning sevimli o‘g‘li A’zamshoh siymolarining va Boburiylarning Hindistondagi so‘nggi hukmdorlaridan biri Akbar II ning o‘z a’yonlari huzuridagi tasviri aks ettirilgan miniatyuralari Bobur va uning avlodlarining jahon sivilizatsiyasi rivojiga naqadar ulkan hissa qo‘shganligini yorqin dalillovchi tarixiy hujjatlardir.

O‘zbekiston o‘z istiqloliga erishgan yillar ichida muzey qo‘lyozmalar fondi qator noyob qo‘lyozmalar bilan boyidi. Bobur “Devon”i, O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan tuhfa etilgan Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devonining nodir nusxasi va boshqa ko‘pgina badiiy yoki qadimiyligi bilan ajralib turuvchi qo‘lyozmalar shular jumlasiga kiradi. Fonddan faqat adabiyotga taalluqli asarlar qo‘lyozmalarigina emas, balki tarix, meditsina, astronomiya, matematika, filologiya, lingvistika, islom falsafasi va boshqalarga oid asarlarning qo‘lyozmalari ham o‘rin olgan.

Muzeydagi qo‘lyozmalar ichida shoirlar merosi alohida o‘rin tutadi. Hozirgi ma’lumotlarimizga ko‘ra, Sahbo “Devon”ining fonddagi qo‘lyozmalari, xorazmlik shoir Rizoiy Payvandiyning “Qush tili” asari yagona nusxalardir. Hozircha Sahbo hayoti va ijodi haqida Sadriddin Ayniyning “Tojik

adabiyoti namunalari"dagi ma'lumotga egamiz, xolos. "Devon" muallifining hayoti va ijodi bilan maxsus shug'ullanish Sahboning XIX asr adabiy hayotida tutgan o'rnini aniqlashga imkon beradi.

Mavlono Rizoiy Payvandiyning shu vaqtgacha noma'lum bo'lib kelgan "Qush tili" dostoni qo'lyozmasining kashf etilishi o'zbek adabiyotshunosligi fani tarixida muhim voqeadir. Mazkur asar uzoq tarixiy jarayonni bosib o'tgan allegorik-falsafiy dostonchilik an'analarining keyingi davrlarda ham samarali davom etganligining yorqin dalilidir.

Rizoiy Payvandiy o'z dostoniga Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan "Qush tili" mavzuidagi asarlarning umumiy sayyor syujetini asos qilib, o'zining falsafiy-estetik qarashlariga mos ravishda qayta ishlagan va boshqa ijodkorlarnikidan farq qiladigan o'ziga xos badiiy va original asar yaratgan. Unda ijodkor o'zi ta'kidlaganidek, tariqat yo'liga kirmoqchi bo'lgan har bir solik bilishi zarur bo'lgan to'sha va iqlim (maqom)lar orqali o'zining chuqur falsafiy fikr va mushohadalarini diniy rivoyatlar, ilohiy ahkomlar, Sharq xalqlari og'zaki ijodi, mumtoz adabiyotimizdagi durdonalardan unumli istifoda etgan holda o'ziga xos badiiy va ijodiy tasvirga ega bo'lgan betakror va yorqin ijod namunalarini yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Shahdiyning asosan tojik tilidagi g'azallaridan tuzilgan "Devon"i ham diqqatga sazovordir. "Devon"ga kiritilgan g'azallar mavzuining dunyoviylik bilan sug'orilganligi ularni jiddiy o'rganish uchun loyiq manba ekanligidan dalolat beradi.

Fondda yig'ilgan nasriy asarlardan "Kalila va Dimna"ning 1323-yilda Bag'dodda ko'chirilgan nusxasini (1643) ham aytib o'tish lozim. Asarni pahlaviy tilidan arabchaga Abulhasan Abdulloh ibn Muhammad ibn Abdulvohid Almaoniy tarjima qilgan.

Respublikamiz kutubxona fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalar ichida grammatikaga oid asarlar ko'proq darslik xarakterida bo'lsa, leksikografik asarlar arab, fors va turk lekskografiyasining mashhur asarlaridandir. Birinchi navbatda lug'atlardan Zamaxshariyning "Muqaddamat ul-adab" asarini qayd etmoq kerak. Asarning muzeydagi qo'lyozmasi (inv.№202) 1920-yil Buxoroda Mirzo Mavlono valadi Mirzo Ikrom Buxoriy tomonidan ko'chirilgan. Arabcha so'zlar ors, turk, va mo'g'ul (arab harflari bilan) tillariga tarjimasi bilan berilgan. Bu qo'lyozma hozirgi vaqtda izsiz yo'qolgan asl buxoro nusxasidan ko'chirmadir.

Kalligrafiya va kitobat san'ati namunalari bo'lish darajasidagi qo'lyozmalar kitobat san'atini o'rganish uchun yaxshi manba bo'la oladi. Kitobat va badiiy bezak bilan ishlangan kitoblar hanuzgacha yetarli ishlanmagan bo'lsa-da, endilikda bunday qo'lyozmalarni tadqiq va nashr qilish ishlarini keng miqyosda olib borish olimlar oldida turgan eng birinchi vazifalardandir.

Sharq qo'lyozmalarini ilmiy tavsiflash borasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini nashr qilish orqali ilmiy muomalaga kiritilishi ulug' ajdodlarimizning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasining yorqin namoyishidan iboratdir.

Adabiyot muzeyida bir necha milliondan ortiq hujjatlarni o'z ichiga olgan XIX asrdan to hozirgi kungacha bo'lgan davrni qamrab oluvchi O'zbekiston yozuvchilari arxivi ham muzeyning faxri hisoblanadi.

Qisqasi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi – ulug' ajdodlarimizning tabarruk qo'llari bilan yaratilgan olamshumul ahamiyatga molik asarlardan tarkib topgan bitmas-tuganmas xazinalar konidir. Unga tashrif buyurish bilan bir tomondan ulug' ajdodlarimizning tabarruk ruhlarini yod etgan, ikkinchi tomondan ma'naviy barkamollik sari yana bir dadil qadam qo'ygan bo'lasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanova Sh. Davlat adabiyot muzeyi xazinasida saqlanayotgan ayrim toshbosma nusxalar haqida/ O'zbek mumtoz adabiyotini o'rganishning nazariy va manbaviy asoslari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (30-oktabr, 2024-yil). –B. 33-37.

2. Музей қўлёзмалари каталоги. Ўзбек тили ва адабиёти музейи, –Т.: -2016. 410 б.

3. Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейида сақланаётган тошбосма асарлар каталоги. – Т.: Фан, 2020. 296 б.

4. Ҳасанова Ш. Адабиёт музейида сақланаётган Алишер Навоий асарларининг тошбосма нусхалари. “Ўзбекистонда архив соҳаси ривожланиши истиқболлари ва илмий-амалий тадқиқотлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман мақолалари тўплами. “ЎЗАРХИВ” агентлиги. – Тошкент. 2020 й. –Б. 224-229.

5. K hasanova Sh. About the manuscript fund of the museum of literature. Innovative Development of modern science:theory, methodology, practice. International Scientific and Current Research Conferences. March 25, 2022. Pages:

“BOBURNOMA” HAMDA UNING QO‘LYOZMA VA TARJIMALARI XUSUSIDA

Hayitov Shuhrat Moyliyevich,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent
O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya

“Boburnoma” va uning qo‘lyozmalari soni, ular qayerlarda saqlanishi va kimlar tomonidan topilib, o‘rganilgani, shuningdek, tarjimalari va ularning o‘ziga xos jihatlari olimlarni doimiy qiziqtirib kelgan. Ularni bir tadqiqot doirasida o‘rganish va tahlil qilish muhim masalalardan. Mazkur maqolada “Boburnoma” asarining xorijda o‘rganilishi, jumladan, turkiy xalqlar adabiyotida bobur shunoslikka oid ilmiy ishlarning tahlili, tadqiqotlarning tadrijiy takomili, shuningdek, qomusiy asarning dunyo fondlarida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari va ularning tavsifi, ilmiy tadqiqi hamda tarjima nashrlari xususida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: *Bobur, bobur shunoslik, “Boburnoma”, qo‘lyozma, tarjima, tarjima shunoslik, matn, matn shunoslik.*

Abstract

“Boburnama”, its manuscript copies, their number, places of preservation, the scholars who discovered and studied them, as well as its translations and their distinctive features, have long attracted sustained scholarly interest. The comprehensive examination and analysis of these aspects within a single research framework constitute an important academic task. This article focuses on the study of “Boburnama” abroad, including an analysis of scholarly works on Babur studies within the literature of Turkic peoples, the diachronic development of research in this field, as well as the manuscript copies of this encyclopedic work preserved in world collections, their description, scholarly investigation, and translated editions.

Key words: *Babur, Babur studies, “Baburnoma”, manuscript, translation, translation studies, text, textual studies.*

“Boburnoma” bebaho tarixiy asardir. Unda O‘rta Osiyo, Xuroson va Hindiston tarixi, geografiyasi, hayvonot hamda nabotot olami kabi soha va yo‘nalishlarda ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni bayon qiladi. Masalan, asarda hindlarning etnografiyasi, ilm-u fani, san’at va madaniyati haqida qimmatli faktlarni keltirib o‘tiladi. Asar turli fanlarni o‘rganish obyekti, bebaho yodgorlik, tarixiy-ashyoviy dalilligi bilan birga o‘ziga xos tazkira hamdir. Unda yuzlab tarixiy shaxslar, jumladan o‘ttizdan ortiq ijodkorlar haqida ma’lumot berilib, hatto ba’zilarining ijodidan namunalar ham keltirilgan. Asar qo‘lyozmasi haqida tadqiqot olib borgan shotlandiyalik davlat arbobi va tarixchi Maunstyuart Elfinston (1779-1859) “Boburnoma” va uning muallifi haqida to‘xtalib, “Uning shaxsiy his-tuyg‘ulari har qanday mubolag‘adan yoki pardalashdan xoli, uslubi oddiy va mardona, shu bilan birga, jonli va ifodali. O‘z zamondoshlari biografiyasini, ularning qiyofalari, urf-odati, intilishlari, qiziqish va qiliqlarini ko‘zguda aks etgandek ravshan tasvirlaydi. Bu jihatdan “Boburnoma” Osiyoda yagona chinakam tarixiy tasvir namunasidir”, deb yozadi [Otajonov, 1996:69].

Bu qomusiy asar o‘z davridan boshlab hozirgacha dunyoning ko‘p tillari – ingliz, golland, fransuz, arab, fors, nemis, yapon, italyan, rus, hind, ozarbayjon, turk, qozoq, xitoy, urdu va boshqa tillarga tarjima qilinib, sharh va izohlar bilan qayta va qayta nashr etilib kelinayotganining asosiy sabablaridan biri ham, avvalo, uning tarixiy manba ekanligidandir. Xususan, bugungi kunda Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o‘nlab mamlakat olimlarining qator tadqiqotlarida bu shoh asar insoniyat tomonidan yaratilgan kitoblar qatorida o‘ziga xos qimmatga egaligi alohida qayd etiladi. Bu haqda o‘tgan asrning elliginchi yillarida taniqli hind shoiri Mulk Roj Anand Osiyo va Afrika yozuvchilarining Toshkent konferensiyasida (1958-yil) so‘zlagan nutqida: “Bu kitob siz bilan bizning merosimizdir. O‘zbekistondagi singari bizda ham “Boburnoma” g‘oyat qadrlanadi”, deya alohida aytib o‘tadi. Boburning davlat arbobi sifatida yana bir jihati shundaki,

u Hindistondagi barcha mayda hokim-rojalarni yagona davlatga birlashtirdi. Bundan tashqari koʻpgina boburshunoslarning haqli eʼtiroficha, bu shoh asar davrning juda koʻp xususiyatlarini qamrab olishi, qomusiy xarakteri va oʻzbek adabiy tilining beqiyos boy imkoniyatlarini namoyish etishiga koʻra, hazrat Alisher Navoiyning bebaho "Xamsa"si bilan tenglasha oladigan madaniy obida hisoblanadi. Binobarin, asarning tez orada shuhrat qozonib, XVI asrning oʻzidayoq bir necha marta fors tiliga tarjima etilishi ham shundan dalolat beradi. Oʻzbek tarjimashunosligi maktabi asoschilaridan biri Gʻ.Salomov "...dunyoda hech bir fotih-u jahongir tillarda bunchalik doston boʻlgan emas" degan fikrlarni aytadi [Salomov, 1996:17].

Turkiy xalqlar adabiyotida Bobur ijodiga munosabat dastavval Abay, Mustofo Choʻqay, Choʻlpon, Qodiriy, Fitrat asarlarida koʻzga tashlanadi. Turkiyada dastlab, F.Koʻprulu, R.Nur, R.Arat, H.Boyir "Boburnoma" va uning muallifiga xos joziba siri haqida ilk ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan boʻlsa, oʻtgan asrning oxiriga kelib ularning keyingi izdoshlari Y.Bilol, T.Seyhan va A.Bilkanlar tomonidan bu oʻlkada bobur shunoslik ilmi yanada rivojlantirildi. Natijada "Bobur devoni" "Mubayyin", "Risolayi volidiya" asarlarining turkcha nashrlari yuzaga keldi.

"Boburnoma" asari asosida bir qancha ilmiy-tarixiy va badiiy asarlar ham yaratilgan. Tarixchi va manbashunos H.Boyir "Boburnoma"ga tayangan holda mashhur "Hindiston tarixi" nomli asarni yozgan. R.Aratning 1920-yillardagi Bobur va uning asarlari yuzasidan yozgan ayrim ilmiy maqolalari, shuningdek, uning keyinchalik 1943-46 yillarda "Boburnoma"ning turkchadagi tarjimasi keyingi koʻplab tadqiqotlarga manba boʻlib xizmat qildi. R.R.Arat Bobur shaxsidagi eʼtiborga molik sifatlar haqda mushohada yuritar ekan, jumladan, shunday yozadi: "...oʻz qiyofasini chizishdagi samimiylik, oʻz fazilat va kamchiliklarini haqqoniy tasvirlash, ochiqkoʻngillilik va rostgoʻylik Bobur shaxsiga xos xususiyatdir" [Vekayı,1987:15]. "Boburnoma"ning turkcha nashrida qoʻllanilgan barcha tajribalar, jumladan, soʻzlar lugʻatini tuzish, izoh va koʻrsatgichlar yaratish, shuningdek, soʻzboshidagi keltirilgan koʻplab ilmiy maʼlumotlar keyinchalik boshqa yurt olimlari tadqiqotlariga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Jumladan, asarning oʻzbek, ozarbayjon va qozoq tilidagi nashrlarining tayyorlanishida amaliy qoʻllanma vazifasini oʻtadi.

Turkiy xalqlarda "Boburnoma" asarini turli fanlar kesimida oʻrganish masalasiga ham alohida eʼtibor qaratilib kelinayotganligini taʼkidlash lozim. Jumladan, Sabahat Denizning "Buyuk turk xoni Bobur va avlodining turk adabiyotidagi oʻrni", Emek Uşenmezning "Turklarning islom dinini qabul qilishi va Qurʼonning turk tilidagi ilk tarjimalari", Muharrem Guneshning "Turkiyada "Boburnoma" borasidagi ishlarga qisqacha izoh", Ahmed Akalinning "Turkiyadagi doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari boʻyicha tavsifiy tadqiqot"i, M.Sayginning "Alisher Navoiyning ijtimoiy muhit va shaxsiyati Zahiriddin Muhammad Bobur xotirotlarida" nomli tadqiqotlarini keyingi yillarda Turkiyada boburshunoslik sohasida olib borilayotgan yangi ilmiy tadqiqotlar sifatida baholash mumkin. Turkiyada bulardan tashqari, Mehmet Acha, Abdurahman Goʻzal, Ali Fuad Bilkan, Mehmet Turgut va boshqa olimlarning tadqiqotlarida ham Bobur hayoti va ijodi, ayniqsa, asarlarining oʻziga xususiyatlari haqida qimmatli maʼlumotlar berib oʻtilgan.

"Boburnoma" qoʻlyozmalari. "Boburnoma"ning qoʻlyozmalari va ularning tadqiqi borasida toʻxtaladigan boʻlsa, bobur shunoslik tarixidan maʼlumki, bugunga qadar asar qoʻlyozmalari hamda uning ilmiy nashrlarini tayyorlash borasida Sharq va Gʻarb olimlari qator tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Bu ilmiy tadqiqotlarning aksariyatida "Boburnoma" qoʻlyozmalari borasida soʻz boradi. Ularni oʻrganish orqali asarning mukammal ilmiy nashrini yaratishga boʻlgan qiziqish yotadi. Xullas, bugungi kunda ushbu asar qoʻlyozmalari haqida koʻplab manbalar orqali maʼlumotga ega boʻlish mumkin. Shular orasida oʻzbekistonlik olimlarning Rossiya Fanlar akademiyasi Tillar instituti bilan hamkorlikda tayyorlagan "Захириддин Мухаммад Бабур. Бабуриди. Библиография" kitobida (2016), shuningdek, Andijondagi "Bobur va jahon madaniyati" muzeyidagi adabiyotlar roʻyxati toʻplamida (2020), undan tashqari, "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi"da (2017) hamda asarning turk, oʻzbek,

ozarbayjon, qozoq va boshqa tillardagi nashrlariga yozilgan so‘zboshilar va yuzlab ilmiy maqolalar orqali ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Ammo shuni ham aytish kerakki, yuqoridagi tadqiqotlarning hech birida Bobur asarlari, jumladan, “Boburnoma” asari qo‘lyozmalari haqida to‘liq ma’lumotlar keltirilmagan. Asar qo‘lyozmalari nechta, ular qayerda saqlanmoqda, kimlar tomonidan topib o‘rganilgan, degan savollarga bitta tadqiqot doirasida javob topish qiyindir.

“Boburnoma” asari qo‘lyozmalari borasida yurtimiz va dunyo olimlari tadqiqotlari tahlilidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, shu kunga qadar “Boburnoma”ning XVI-XX asrlarda ko‘chirilgan qo‘yidagi 17 ta qo‘lyozmasi mavjudligi aniq bo‘ladi.

Asar qo‘lyozmalarini o‘rganish va uning jahonga mashhur bo‘lishida eng avvalo ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo‘lgan. Bu asarning Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to‘liq nashrini dastavval ingliz tiliga 1826-yilda J. Leyden va V. Erskin amalga oshishgan. F. Talbot esa mazkur nashr asosida ikki marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirgan. Ingliz tarixchisi A.Beverij avaliga 1905-yilda asarning Haydarobod nusxasini, so‘ng 1921-yilda ushbu nusxa asosida uning ilmiy tarjima nashrini e’lon qilgan. Shu tariqa, birgina Angliyaning o‘zida “Boburnoma” tarjimalarining o‘ndan ortiq nashrlari yuzaga kelgan. Undan tashqari, “Boburnoma”ning professor V. Tekston tomonidan AQShda (1996), E. Mano tomonidan Yaponiyada mukammal so‘zlik, ko‘rsatkich, sharh izohlar bilan jami besh jilddan iborat xolida yapon tilida (1995), shuningdek, arab, xitoy, afg‘on va boshqa ko‘plab tillarda ilmiy tanqidiy tarjima matnlari tayyorlanib e’lon qilingan. Keyingi yillarda asarning qozoqcha (2022) va italyancha (2023) tarjimalari dunyo yuzini ko‘rdi.

Biz “Boburnoma” qo‘lyozmalarining o‘rganilishida ingliz olimlarining o‘rni alohida ekanligini bejiz ta’kidlamadik. Ma’lumki, “Boburnoma” qo‘lyozmalari matnida ba’zi yillar (1504-05, 1509-18, 1520-24) tafsiloti uchramaydi, shuningdek, 1508- va 1520-yillar voqealari bayoni ham tugal emas. Mana shu uzilish bo‘lgan o‘rinlarni ingliz sharqshunoslari boshqa tarixiy manbalar asosida ilk bor ma’lum darajada tiklashga harakat qilishgan. 1930-40 yilarga kelib “Boburnoma” asrini mukammal nashrini yaratish, ayniqsa, qo‘lyozmalarini o‘rganish orqali uning o‘zilib qolgan voqeliklarini to‘ldirish borasida turk olimlari tomonidan ham e’tiborli tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, asarning turkcha nashrida (1943) yozilgan tarixiy voqeliklar “Xumoyunnoma”, “Tarixi Rashidiy” va “Akbarnoma” asarlari asosida tiklangan. Bu ish keyinchalik asarning o‘zbekcha va boshqa ilmiy nashrlariga asos bo‘lgan.

Asar qo‘lyozmalari borasida shu kunga qadar dunyo olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak “Boburnoma”ning ilm ahliga ma’lum bo‘lgan nisbatan to‘liq shaklda faqatgina ikki qo‘lyozmasi saqlanib qolgan xolos. 1) Londondagi Britaniya muzeyida 2) Nyu-Dehlidagi Milliy muzeyda. Asar tarkibida bo‘lgan 69 ta alohida miniatyuralar esa Moskvadagi Sharq madaniyati muzeyida saqlanmoqda. Bu nusxalarning barchasi yurtimizga turli yillarda olib keltirilgan. Ayniqsa, Bobur xalqaro jamoati fondi tashabbusi va fondning xorijiy davlatlarga uyushtirgan ilmiy ekspeditsiya safarlari natijasida qo‘lyozmalar mamlakatimizga olib kelingandir.

“Bobunoma”ning o‘rganilishi. Asarining o‘rganilish tarixiga nazar tashlasak, ushbu qomusiy asarni ilk bor forschaga Ibn Bayramxon (1586), asarning ayrim bo‘limlari Vitsen tomonidan golland tiliga (1705), A.Keyzer tomonidan qisqartirilgan holda nemis tiliga (1828), Pave de Kurteyl tomonidan to‘la holda fransuz tiliga (1871) o‘girilganini ko‘ramiz. Asarni tarjima qilish va tadqiq etishda, shuningdek afg‘onistonlik olim Abdulxay Habibiy, pokistontonlik Rashid Axtar Nadviy, Shoh Olam Mavliyot, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar, Muhibbul Hasan Rizviy, turkiyalik R. R. Arat, ozarbayjonlik olimlar R.Askar va F.Bayot, qozog‘istonlik B.Kojabek va I.Jemeney, italiyalik olimlar F.Pastoriya, F.Kordini, arabistonlik M.Maxluf kabi olimlarning xizmati kattadir. Ushbu olimlar tomonidan tayyorlangan “Boburnoma” asari tarjimalarining deyarli barchasida qo‘lyozmalari haqida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Asar bugunga qadar yigirmadan ortiq tillarga tarjima qilingan bo‘lib, birgina forscha tarjimalarining soni yigirmadan ortiqdir. Jumladan, uning eng qadimiy qo‘lyozmalaridan Abdurahimxon tomonidan fors tiliga qilingan tarjimasi bizgacha yetib kelgan.

Asarni nashrga tayyorlash va dunyoga chiqarishda rus olimi N. I. Ilminskiyning alohida o‘rni borligini ham qayd etish kerak. Rus olimi “Boburnoma”ning mavjud to‘liq matnini 1857-yilda Qozonda tipografiya yo‘li bilan o‘zining to‘rt betlik nashr xususiyatlarini ko‘rsatgan ruscha so‘zboshisi bilan e’lon qilgan. Ushbu nashrdan keyin 1905-yilda ingliz sharqshunos olimi A.Beverij “Boburnoma”ning Haydarobodda topilgan bir qo‘lyozmasining faksimilesini nashr qilishga erishgan. Ammo asarning bu nusxasi qachon va kim tomonidan ko‘chirilgani ma’lum emas. Bu ham nisbatan to‘liq matn bo‘lsa-da, qozon bosmasiga solishtirilganida ba’zi tushib qolgan joylari va ayrim nuqsonlari ko‘rinadi. Asarning boshqa tillarga qilingan deyarli ko‘pgina nashrlari jumladan, turkcha, o‘zbekcha, ozarbayjoncha tarjimalari ayni shu ikki qo‘lyozmaga asoslanadi.

Ingliz olimi A.S.Beverij asarning arab alifbosidagi qo‘lyozma nusxasini 1905-yili nashr ettirganidan so‘ng, ushbu nusxa asosida 1921-yili inglizcha ilmiy nashrini tayyorlashga erishadi. Ammo shu narsani alohida qayd etish lozimki, shu kunga qadar topilgan va N.Ilminskiy va A.Beverij tomonidan nashr etilgan har ikkala nusxa ham ma’lum bir nuqsonlardan xoli emas. Ikkala matnda ham ko‘plab uzilishlar bor. Buning sabablari haqida ham ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ularda asardagi 36 yillik voqealar nega to‘liq emasligining sabablari haqida so‘z borgan. Olimlar London nusxasining afzalligi unda A.Beverij tomonidan qo‘lyozma nusxaning ayni o‘zini berilganligi juda yaxshi ish bo‘lgan, ammo shu bilan birga asar oxirida mukammal kishi ismlari, geografiya va qabila, urug‘ nomlari ko‘rsatkichi berilgan va ingliz tilida o‘n betlik so‘zboshi yozilgan. Lekin ko‘rsatkichlarni transliteratsiyasiz arab yozuvi bilan berilishi nomlarni to‘g‘ri o‘qish masalasini qiyinlashtirgan.

Xullas, N.I.Ilminskiy va A.S.Beverij nashrlari “Boburnoma”ning o‘rganilishi, tadqiq va targ‘ib etilishida muhim rol o‘ynashi bilan bir qatorda asarning keyingi nashrlari uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, yuqorida aytib o‘tilgan nashrlar asosida 1943-46 yillarda asarning ikki jild xolida turkcha nashri, 1948-49-yillarda o‘zbekcha nashri yuzaga keladi. Ushbu turkcha va o‘zbekcha nashriga kishi ismlari, geografik joy nomlari, urug‘-qabila nomlari ko‘rsatkichlari, lug‘at, izoh va forscha jumlalar tarjimalari ilova qilinadi.

“Boburnoma”ning undan so‘ng 1960-yilda O‘zbekistonda navbatdagi nashri amalga oshiriladi. Nashrni tayyorlagan olim P. Shamsiyev Qozon va London bosmalariga asoslanib, ularning birini ikkinchisi yordamida to‘ldirishga intilgan va shu yo‘l bilan matndagi bir qator kamchiliklarga barham berishga muvaffaq bo‘lgan. Har ikki nusxa o‘rtasidagi farqlar sahifa ostida ko‘rsatib borilgan. Bu nashr biroz qisqartirishlar bilan keyinchalik 1965 va 1989-yillarda takroran nashr etilgan. Shu bois keyingi nashrlarning matni 1960-yilgi nashrga solishtirilganida ko‘pgina nuqsonlar borligi ko‘rinadi. 1960-yilgi nashrni tayyorlash mobaynida ayrim so‘z va terminlar transkripsiyasini aniqlash masalalarida “Boburnoma”-ning professor R.R.Arat tomonidan 1943-1946-yillarda ikki jild holida Anqara (Turkiya)da turkchaga qilgan tarjimasi va sharqshunos M. Salening rusgacha qilgan to‘liq tarjimasi ham ko‘zdan kechira borilgan va shular bilan moslashtirishga urinilgan. Kitob oxiriga ilova qilingan ko‘rsatkichlar qayta tuzilgan va tarjimalar ham yangidan qarab chiqilgan. Asarning ilgarigi bosmasida ba’zi bir tushirib qoldirilgan joylari bu bosmada kiritilib, matni mukammallashtirilgan. Bu bilan turkcha nashrdagi lug‘at va izoh ko‘rsatgichlarni tuzish amaliyoti o‘zbekcha nashrlar uchun asos bo‘lganligini ko‘rish mumkindir.

Xulosa o‘rnida aytganda, shu kunga qadar “Boburnoma” asarining qancha qo‘lyozmasi topilgan bo‘lmasin, afsuski, ularning hech birida 36 yillik voqeliklar qamrab olinmagan. Ammo shular orasida faqat ikki nusxagina shartli ravishda boshqa nusxalarga qaraganda to‘liq deb qaraladi. Ular N.Ilminskiy va A.Beverij tomonidan tadqiq etilgan Kirr va Haydarabod nusxalaridir. Demak, “Boburnoma”ning yanada mukammal nusxalarini topishga umid bor. Buning uchun dunyo olimlari doimiy izlanishdalar. Asarning yangi qo‘lyozmalari topilishi unda bayon etilgan tarixiy voqealardan to‘liq bahramand bo‘lish imkonini beribgina qolmay, ko‘plab millatdlar milliy madaniyati uchun qimmatli bo‘lgan ko‘plab yangi ma’lumotlarning yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. Shu kunlar kelishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babürname (Babür'ün Hatıratı). (Nashrga tayyorlovchi R.R. Arat) – Anqara, 1989.
2. Babürname (Babür'ün Hatıratı). (nashrga tayyorlovchi R.R. Arat) – Anqara, 1985.
3. Eji Mano. "Bobur asarlari to'plamining Tehron nusxasi" / Bobur va boburiylarning jahon madaniyati tarixida tutgan o'rni (Xalqaro ilmiy anjuman materiallari). – Toshkent, 2008.
4. G'aybulla as-Salom, N. Otajonov. Jahongashta "Boburnoma". – Toshkent, 1996.
5. Hasanov S. Bobur asarlarining qo'lyozmalarining o'rganilishi va «Kulliyoti Bobur» haqida / Adabiyot ko'zgusi – Toshkent, 2008. – №10.
6. Hasanov S. Bobur kulliyotining Tehron nusxasi // O'zAS. – Toshkent, 2005. 1-yanvar.
7. Muhammadiyeva, D. Problems related to the translations of "Boburnoma" in turkic languages. Türkoloji, (121), 65-84.
8. Muhammadiyeva, D., & Nigoraxon, O. Boburiylar imperiyasida fan va san'at taraqqiyoti. Zahiriddin Muhammad Bobur merosining sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o 'rni. – Toshkent, 2023. – B. 144.
9. Tanju Seyhan. "Mubeyyin der fikh". – İstanbul, 2004.
10. Yücel Bilâl. "Babür Dîvânı", Atatürk Kültür Merkezi Yay. – Ankara, 1995.
11. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi (ikkinchi nashr). – Toshkent, 2016.
12. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". Nashrga tayyorlovchi S. Hasanov. – Toshkent: Sharq NMAK, 2002.
13. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". Nashrga tayyorlovchi V. Rahmonov. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. NMIU.
14. Захириддин Мухаммад Бабур. Бабуриды. Библиография. – Москва, 2016.

MUHAMMAD YUSUF BAYONIY ADABIY MEROSI HAQIDA

Do‘stova Surayyo Savronovna,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent,
O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
e-mail: surayyodustova9@gmail.com

Annotatsiya

Muhammad Yusuf Bayoniy o‘zining asarlari va tarjimalari bilan o‘zbek adabiyotiga munosib hissa qo‘shgan. Bayoniy devon tuzgan, tarixiy asarlar yozgan, tarjima bilan shug‘ullangan, ularning qo‘lyozma nusxalari O‘zbekistonning bir necha kutubxona fondlarida mavjud. Devoni qo‘lyozma nusxalarining bir nechtasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Ushbu maqolada Bayoniy ijodining o‘rganilishi bilan birga devonining 1120, 7082, 7106, 6666\6 raqamli qo‘lyozma nusxalari haqida shuningdek, Bayoniy g‘azallar, muxammas, musaddaslar, murabba’, musabba’, tarje’ot, ruboiylar, maqta’, qit’a, masnaviy, ta’rix janrlarida she’rlar yozganligi haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlari adabiy muhiti va Muhammad Yusuf Bayoniy ijodini o‘rgangan olimlar haqida ham ma’lumotlar berilgan. Bayoniyning hayoti va adabiy merosini o‘rganishda shoirlar asarlari, boshqa adiblarning asarlari, arxiv hujjatlari, tadqiqotlar kabi manbalarni ko‘rsatish mumkin. Bayoniyning tug‘ilgan yili va vafot etgan yili bo‘yicha adabiyotlarda har xil ma’lumotlar berilgan, maqolada bunga aniqliklar kiritilgan.

Kalit so‘zlar: *devon, manba, kotib, nusxa, fond, g‘azal, masnaviy, asar, xat, adabiyot, she’r, varaq, muallif.*

Abstract

Muhammad Yusuf Bayani made a worthy contribution to Uzbek literature with his works and translations. Bayani compiled a divan, wrote historical works, and was engaged in translations, and their manuscripts are available in several library funds of Uzbekistan. Several of the manuscripts of the divan are stored in the manuscript fund of the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies. This article, along with the study of Bayani’s work, provides information about the manuscripts of his divan numbered 1120, 7082, 7106, 6666\6, as well as information about Bayani’s writing in the genres of ghazals, muhammas, musaddas, murabba’, musabba’, tarje’ot, rubaiyil, maqta’, qita, masnavi, and history.

The article also provides information about the literary environment of the late 19th and early 20th centuries and about scholars who studied the work of Muhammad Yusuf Bayani. In studying the life and literary heritage of Bayani, sources such as the works of poets, the works of other writers, archival documents, and research can be cited. Various information is given in the literature on the year of birth and death of Bayani, and the article clarifies this.

Key words: *devan, source, secretary, copy, fund, ghazal, masnavi, work, letter, literature, poem, sheet, author.*

XIX asr oxiri va XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitining baravj faoliyati davrida bir qancha shoir va adiblar, tarixnavis va tazkiranavislar, olim va san’atkorlar, musiqashunos va go‘yandalar (qo‘shiq yozuvchilar) yetishib chiqdiki, bu o‘z navbatida juda ko‘p fan sohalari kabi adabiyot va san’atning ravnaq topishiga sabab bo‘ldi. Chunki bu davr adabiy muhitining yetakchilari Shermuhammad Munis va Muhammad Rizo Ogahiy bo‘lgan. Muhammad Rahimxon II- Feruz esa bu davr adabiy muhiti vakillariga homiylik qilgan. Feruzning bu sohadagi tashabbuskorligi haqida adabiyotimiz jonkuyari, atoqli adib Abdulla Qahhor “Feruz mashhur lirik shoir, musiqashunos, kompozitor, yaxshi tarjimon, Umarxon singari o‘z zamonasining shoirlarini o‘rdasiga yiqqan, 1873 yilda bosmaxona sotib olib, Xorazmda birinchi kitob bostirgan odam”, degan edi [Қаҳҳор A.1968:102-103]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Jo‘shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog‘ida unib-o‘sgan, xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko‘plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan” [Mirziyoyev Sh. 2017: 241]. Xorazm adabiy muhitida yashab ijod etgan Muhammad Yusuf Bayoniy ijodini mukammal o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifalardandir.

Muhammad Yusuf Bayoniy hayoti va ijodi haqida adib o‘zining “Shajarayi Xorazmshohiy”

asarida, Muhammad Rizo Ogahiyning “Shohidul-iqbol”, Ahmad Tabibiyning “Majmuayi si shuaroyi payravi Feruzshohiy”, Hasanmurod Laffasiyning “Tazkirayi shuaro”, Bobojon Tarroh Xodimning, “Xorazm navozandalari”, “Yug‘urmiya” she’rlar to‘plami, M.Yo‘ldoshevning “XIX asr va Xiva davlar hujjatlari”, D.Rahim, Sh.Matrasul. “Feruz- shoh va shoir qismati”, Yu.Yusupovning “Xorazm shoirlari” , Q.Munirovning “Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari”, N.Jumaxo‘ja va I.Adizovalarning “So‘zdin baqoliroq yodgor yo‘qdur” asarlari va tadqiqotlarida ma’lumotlar berilgan. Bayoniy haqidagi ma’lumotlarni o‘rganishda tarixiy- qiyosiy usuldan foydalandik.

Shoir, adabiyotchi, tarixchi olim, tarjimon, xattot, musiqashunos, tibbiyot ilmining bilimdoni, qomusiy bilim egasi Muhammad Yusuf Bayoniy “o‘zbek mumtoz she’riyatining an’anaviy mavzu va g‘oyalarini davom ettirdi, rivojlantirdi. U o‘z shaxsiy takomil bosqichlarida an’anaviy uslubdagi ijodkordan otashnafas erkin shoir darajasiga o‘sib yuksaldi”(Жумахўжа Н. ва Адизова И. 1995, 98-б.) Muhammad Yusuf Bayoniy o‘zining asarlari va tarjimalari bilan o‘zbek adabiyotiga munosib hissa qo‘shgan. U “ulug‘vor falsafiy ruhiyatni o‘z g‘azallarida nafis ifoda etgan shoir, tarixnavis alloma, zarqalamli xattot, bir necha tillarni mukammal bilgan tarjimon, sozanda va maqomshunos olimdir” [Отамуродова А., Абдураҳимов А. 2012: 31].

Muhammad Yusuf Bayoniyning hayoti va adabiy merosini o‘rganishda quyidagi manbalarni ko‘rsatish mumkin:

1) shoir asarlari
2) boshqa adiblarning asarlari
3) arxiv hujjatlari
4) tadqiqotlar

Bayoniy XIX asrning ikkinchi yarmida Xorazm adabiy muhitida kamol topgan siymodir. Shoir ijodini o‘rganishda asosiy birlamchi manbalari uning asarlari ya’ni, she’riy devoni(Bayoniy.1120 raqamli qo‘lyozma) “Shajarayi Xorazmshohiy” (Баёний. 9596 raqamli qo‘lyozma 509v.)va “Xorazm tarixi” (Баёний. 7421raqamli qolyozma 91v.) asarlaridir. Shuningdek, Xiva adabiy muhitiga oid manbalar- Muhammad Rizo Ogahiyning “ Shohid-ul iqbol”(Огаҳий. Асарлар.2019, 384-b.) Homid To‘ra Komyobning “Tavorixi xavonin”(Komyob.7717 raqamli qo‘lyozma 209v), Ahmad Tabibiyning “Majmuayi si shuaroyi payravi Feruzshohiy” (Ahmad Tabibiy 29 raqamli qo‘lyozma), Hasanmurod Laffasiyning “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimayi hollari”(Laffasiy.11499, 9494 raqamli qo‘lyozmalar B. 48-66.) kabi asarlarida, ijod namunalari kitobat qilingan bayoz-majmualarda, 1905-1923-yillardagi davr vaqtli matbuotlarida ham u haqida ma’lumotlar bilan tanishishamiz.

Hasanmurod Laffasiyning “Tazkirayi shuaro” asarida 58 nafar shoir va ijodkorlar bilan birga Muhammad Yusuf Bayoniy hayoti hamda faoliyati bo‘yicha ham ma’lumotlar berar ekan, “Bayoniykim, Muhammad Yusufbek bin Bobojonbek bin Allohberdi to‘ra bin Eltuzarxon turur. Bayoniy yoshlig‘din bir xiyla ziyrak farosatlig‘ bo‘lub, akasi Yaxshimurodbekdin tib ilmin ta’lim olib, anchalig‘ ma’lumotli bo‘ladur. Shul sababli Muhammad Yusufbek forsiy va ham arabiy lug‘at lisonlarig‘a oshno bo‘lg‘onidek har bir lug‘atlig‘ kitoblarni ona til kabi o‘qub yozur erdi. Feruz Muhammad Rahimxon farmoyishi bilan bir necha forsiy, arabiy lug‘at ta’rixlarni tarjima qilib, “Feruzshohiy” isminda bir ta’rix ham ta’lif qilib, Muhammad Rahimxong‘a taqdim etib, maqbul-i tab’ bo‘lg‘onidin Feruz Muhammad Rahimxon she’r mashqin ham farmon etadur. Muhammad Yusufbek xon farmonig‘a muvofiq o‘zig‘a Bayoniy taxallus etib, anchalig‘ adabiyotlar yozib, Bayoniy isminda deb devon ham ta’lif etadur. Feruzning farmoni bilan “Haft shuaro” ham yetti nafar shahzodalarning yozg‘on adabiyotlarin dog‘i tartibga solib, Xiva qo‘lchofasida ishlatib chiqaradur”, – deydi.

Muhammad Yusuf Bayoniy yuksak tarbiya va yuqori tahsil olishida oilaviy muhitining ta’siri katta edi. Uning otasi Bobojonbek she’riyat, tarix, musiqa ilmlaridan yaxshigina xabardor bo‘lgan. Bayoniy ham bu ilmlarning barchasiga ega bo‘lgan. Bayoniy xonadonida tanbur, g‘ijjak, doira, bulomon, dutor kabi musiqa asboblari to‘liq bo‘lib, ularni o‘zi yaxshi chertgan, lekin qo‘shiq ayta

olmagan. Uyi doimo mehmonlar bilan gavjum bo‘lgan. Xon saroyida ham bu kabi majlislar bo ’lib turganligi haqida Bayoniy “Shajarayi Xorazmshohiy” asarida quyidagi jumlalarni keltirib o‘tadi: “Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va shanba oqshomlarida ulamo bilan suhbat tuzub, kitobxonliq etdurur erdilar. Andog‘kim, Yusufhoji oxund va Ismoilxo ’ja oxund va Xudaybergan oxund va olimu ulum ma’qul va manqulda Mullo Muhammadrasul va faqiri haqir majlisi humoyunlarig‘a haftada ikki marotaba hozir bo‘lub, kitobxonliq etar erdik. Goho domla Muhammadrasul bila ikkovimiz kirib, suhbati humoyunlarida kitobxonliq bo‘lur edi va sipohiylar va to‘ralarni hamkitobxonliq etarga targ‘ib etar erdilar. Bas, hama kitobxon bo‘ldilar” [Баёний.1994: 95].

Bayoniy “uzun bo‘yli, chiroyli, sariq soqolli kishi bo‘lgan. Kiyimlari ozoda bo‘lub, so‘zlagan vaqtda ovozi goh yo‘g‘on, goho nozik chiqqan. Xalq orasida hozirgacha “ovozi Yusufbekning ovoziga o‘xshar ekan” degan ibora yuradi” [Бобожон Таррох Ходим.1994: 94]. U haqida Tabibiy mana shunday yozgan edi:

Bayoniyki, bor shoiri xushbayon,
So ’z ichra qilur, durru gavhar,
Ayon Bayoniyki, mashhur shoir edi,
Dema shoir oni, sohir edi.

Tazkirayi shuaro”da u haqda “Bayoniy setor, tanbur, g‘irjak musiqiysig‘a ham yaxshi oshno bo‘lg‘onidek, shaxmat, satranj o‘yinig‘a ham bir xiyla mahoratlig‘ bo‘lub, xatt-i kufiy, xatt-i suls, xatt-i rayhoniy, xatt-i shikast, xatt-i hindiylarni ham yaxshi o‘qub yozib bilur erdi. Bayoniy ajab shirinmaqol, to‘tisuxandon bo‘lub, g‘arib dilnavoz erdi. Ammo, Bayoniyning o‘zi katta oila, katta ro‘zg‘or oilalig‘ qashshoq bo‘lushig‘a ham qaramay, doimiy g‘arib-miskinlar uchun dasturxoni ochuq erdi” (Laffasiy.12561raqamli qo‘lyozma39v), deyiladi.

Muhammad Yusuf Bayoniy “sohir” ijodkor bo‘lib yetishdi va shoh va shoir Feruzning istagi va taklifi bilan Bayoniy umrining katta qismini saroyda o‘tkazdi. Ammo saroyda u biror bir yuqori lavozimda bo‘lmagan. Shoir 1915-1916-yillarda saroyni tark etib, qolgan umrini ijodga bag ’ishlaydi. Feruzdan keyin taxtga o‘tirgan Asfandiyorxon davri muhitida Bayoniy uzoq yashay olmagan va saroydan chiqib ketgan. Umrining oxirgi yillarida ilm-ma’rifat va maorif yo‘lida ancha katta ishlarni amalga oshirgan. Shogirdlariga arab va fors tillaridan, mantiq, tarix, she’riyat qonun qoidalaridan saboq bergan. 1920-21-yillarda esa Xiva maorif bo‘limida sho‘ba mudiri vazifasida ishlagan.

Muhammad Yusufbek Bayoniyning vafoti Hasanmurod Laffasiyning “Tazkirayi shuaro” asarining 12561 raqamli qo‘lyozmasi 39^{b} varag‘ida “Ammo, Bayoniy 1920 inji yili Xorazm sho‘rolar jumhuriyatining maorif nazorati qaramoqida vaqf sho‘ba mudirlik vazifasida ishlab, 1922inji yili minglarcha nadomat-hasrat birlan og‘u chekib, falak zolim, jafokorning sitamidin dodlang‘on holi. da ushbu yolg‘onchi dunyodin ko‘z yumib, baqo bo‘stonig‘a safar qilib, behisht-i jovidonida manzil qiladur”, deyilgan. Asarning 9494 raqamli qo‘lyozmasining 14^{a} varag‘ida esa quyidagilarni o‘qiymiz: “Bayoniy 1920-1921nji yillarda Xivada maorif nazoratini qaramog‘i sho‘basini mudirligi vazifasida ishlab 1923-yil dunyodin zillat kavsini sadog‘a kirgizib oxiratg‘a safar qiladur”, deya qayd etilgan. 11499 raqamli qo‘lyozmaning 10^{a} varag‘ida “Bayoniy 1920-1921nji yillarda Xivada maorif nazoratini qaramog‘i sho‘basini mudirligi vazifasida ishlab 1923-yil dunyodin o‘tdi”, deb berilgan. P.Bobojonov nashrining 41-betida ham Bayoniyning vafot yili haqida “1923-yili dunyodin shikoyatlar qilib hadsiz nadomatlar bilan oh chekib, falak zolim jafokorligi dastidin dodlangan holda boqiy bo‘stonig‘a safar qilib, bihishti jovidonida manzil qilodur “, degan ma’lumotlar mavjud.

Yunus Yusupov “Xorazm shoirlari” kitobida; “Bayoniy 1859-yil Xivada tug‘ildi”, – deb yozadi. “Ayomiy domla andak yanglishgan ko‘rinadilar, Bayoniy 1859-yil tug‘ilishi mumkin emas, yana xudo biladi. Balki Yu.Yusupov Bayoniyni “64 yoshda vafot etdi”, deganida uning otasi bilan chalkashtirgandir”, – deydi Komil Avaz.

“Maoniy arsasi” kitobining 31-betida Bayoniyning “Bitsin ahli razolat” she’ri berilgan:

Eshit so‘zim farzandlar,
Ko‘p mehribon dilbandlar.
Oshdi yoshim saksondan
O‘zim ham chiqdim sondan.
Qani, endi ko‘zda nur,
Belda quvvat ham putur
Bo‘lsa-yu safda tursam...

“Bu she’r 1919 yil yozilgan bo‘lib, keyinchalik 1921-yil mart oyida “Xorazm xabarlari” gazetasida chop etilgan”, deyilgan. Demak, 1919-yildan 80 yilni olib tashlasak, Bayoniyning tug‘ilgan yili 1839-yilga to‘g‘ri keladi. Shu kitobning 38-betida:”Bayoniy uzoq va samarali hayot kechirdi.U zamondoshlarining xotirlashicha, 1923-yil 26-aprelda 83 yoshdan oshib Xivada olamdan o‘tdi”, deyiladi.

“Feruz shoh va shoir qismati” kitobining 221-betida, Bayoniyning nevarasi bo‘lgan Zulayxo opaga Abdulla Boltayev: “Bayoniy 1923-yil 23-aprelda oylik maosh olganligini aytib, ro‘yxatni ko‘rsatganligi”, eslatilgan va Abdulla Boltaevning aytishicha, “Bayoniy 1923-yil 26-aprelda vafot etgan”, ekan.

Nusratulla Jumaxo‘ja va Iqboloy Adizovaning “So‘zdin baqoliroq yodgor yo‘qdur” kitobining 8-betida “Muhammad Yusuf Bayoniy 1840-yil Xivada amaldor oilasida tug‘ildi”, deyilgan. Shu kitobning 12-betida yana “Bayoniy 1923 yil yanvar oyida 83 yoshida vafot etgan”, deb yozilgan. Agar Bayoniyning tug‘ilgan yili 1839 yil ekanligini inobatga olsak, Bayoniy 1923 yil 84 yoshida vafot etgan bo‘lib chiqadi. Demak, 11499 raqamli qo‘lyozma va Bobojonov nashrida bu sana to‘g‘ri yozilganligini guvohi bo‘lamiz.

Bayoniy zamonasining tarixchisi bo‘lishi bilan birgalikda shoir ham bo‘lgan. Uning shoirlik qobiliyatiga qoyil qolgan Ahmadjon Tabibiy quyidagicha baholaydi:

“Bayoniyki, mashhur shoir edi,
Dema shoir neki sohir edi” [Tabibiy 29 raqamli qo‘lyozma].

Bayoniy devonining qo‘lyozma nusxalarini Vatanimizning bir necha kutubxona fondlarida uchratish mumkin. Devonning qo‘lyozma nusxalaridan bir nechtasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida *1120, 7082, 7106, 6666\6* raqamlari ostida saqlanadi.

1120 raqamli qo‘lyozmaga بیانی دیوانی (Bayoniy devoni) deb nom qo‘yilgan va u 1327 (1909) yilda yozilgan. Devonning muqova o‘lchami 18,5/28, varaqlar soni 172 varaq. Har bir betga 21-22 qator yozuv joylashtirilgan. Qo‘lyozma qizil va qora siyoh bilan yozilgan. Qizil siyohda g‘azali Bayoniy, muxammasi Bayoniy, musaddasi Bayoniy deb nomlar berilgan, boshqa barcha yozuvlar qora siyohda bitilgan. Yozuvi nasta’liq xatidadir. 1[a] varaqda 2ta muhr mavjud (Узбекский государственный научно-исследоват. Институт. библотека № 1120 город Самарканд ва ГПБ. Уз.отд. в.рук. №1120 Ўз ДҲҚ қўлёз. бўл.). 171[b] varaqda ham shu ikkinchi muhr mavjud. 9[a] varaqda Samarqand muhri bosilgan. Poygir qat’iy qo‘yilgan. Saqlanish holati yaxshi. Muallifning o‘zi bet raqamlarini qo‘yib chiqqan. Qo‘lyozma qizil-pushti rang qalin karton bilan qoplangan va 1120 raqami qo‘yilgan.

Bayoniyning 1120 raqamli devonida quyidagi janrlardagi she’rlar uchraydi:

1.g‘azallar - 555ta 6. tarjeot – 9ta 11. qit’a - 1ta
2. mustahzod -1ta 7. masnaviy- 6ta 12. ta’rix - 6ta
3. muxammas - 45ta 8. ruboiylar - 61ta 13.qasida-4ta
4. musaddaslar - 10ta 9. vola -12ta 14.bahri tavil 1ta
5. musabbaa’ - 2ta 10. maqtaa - 3ta

6666/6 raqamli qo‘lyozmaga غزل شاعرلار و محمسلار مرادی، فرو”G‘azali shoirlar va muxammaslar Murodiy, Farrux, Sultoniy, Sodiq, Sa’diy, Bayoniy, Oqil” deb nom qo‘yilgan. Devonning muqova o‘lchami 20/30, varaqlar soni 177 varaq. Har bir betga 17-19 qator yozuv joylashtirilgan. Qo‘lyozma qizil va qora siyoh bilan yozilgan. Sarlavhalarni (ismlarni berishda) va tartib raqamlarni berishda qizil siyohdan foydalangan. Boshqa barcha yozuvlar qora siyohda bitilgan. Yozuvi nasta’liq xatida

va poygir qat'iy qo'yilgan. Qo'lyozma qora qattiq karton bilan qoplangan. Kitobning ustiga 6666 raqami qo'yilgan va burchagiga "devoni Murodiy, devoni Farrux, devoni Sultoniy, devoni Sodiq, devoni Sa'diy, devoni Bayoniy, devoni Oqil", deb yozilgan. So'ng uchta naqsh qo'yilgan, o'rtasidagi biri katta ikkitasi kichik naqshlardan iborat. Bu qo'lyozmada Bayoniyning quyidagi she'rlari uchraydi:

1. g'azallar - 378ta 5. musaddaslar - 4ta 9. masnaviy - 2ta
2. mustahzod-1ta 6. musabbaa' - 2ta 10.ruboiy -33ta
3. murabba' - 5ta 7. tarje'ot - 14ta 11. ta'rix - 6ta
4. muxammas - 28ta 8. qit'a - 6ta 12.qasida -1ta

7082 raqamli qo'lyozmaga "devoni Sultoniy, devoni Sa'diy, devoni Sodiq, devoni Bayoniy, devoni Oqil ", deb nom qo'yilgan va u 1326-yilda yozilgan. Devonning muqova o'lchami, 329 varaq bo'lib, Bayoniy devoni 100-varaqdan boshlangan. Har bir varaqqa 19 qator yozuv joylashtirilgan. Qo'lyozma qizil va qora siyoh bilan yozilgan. Qo'lyozma yaxshi saqlangan, nasta'liq xatida bitilgan, poygir qat'iy qo'yilgan. Qo'lyozma sarg'ish qattiq karton bilan qoplangan va chetiga qizil qoplangan. Kitobning ustiga 7082 raqami qo'yilgan. Burchagiga "devoni Sultoniy, devoni Sa'diy, devoni Sodiq, devoni Bayoniy, devoni Oqil", deb yozilgan. Kitob ustiga uchta naqsh qo'yilgan. Bu qo'lyozmada Bayoniyning quyidagi she'rlari uchraydi:

1. g'azallar - 378ta 5. murabba' - 1ta 9. maqta' - 3ta
2. mustahzod-1ta 6. musabbaa' - 2ta 10. qit'a - 2ta
3. muxammas - 33ta 7. tarjeba'a - 14ta 11. masnaviy - 1ta
4. musaddaslar - 4ta 8. ruboiylar - 39ta 12. ta'rix - 6ta

7106\3 raqamli qo'lyozmaga Ojiz, Xokiy va Bayoniy devonlari kiritilgan va u 1326-yilda yozilgan. Devonning muqova o'lchami 17/27.5, 441varaqdan iborat. 1-152- varaqqacha Ojiz devoni,154- 255 varaqqacha Xokiy devoni, 264[b]-441[a] varaqlarda Bayoniy devoni berilgan va kitob yakunlangan. Har bir betga 17 qator yozuv joylashtirilgan. Qo'lyozma qizil va qora siyoh bilan yozilgan. Qizil siyohda g'azali Bayoniy, muxammasi Bayoniy, musaddasi Bayoniy, deb sarlavhalar berilgan, boshqa barcha yozuvlar qora siyohda bitilgan. Yozuvi nasta'liq xatidadir. She'rlar 99gacha tartib raqam bilan berilgan, keyingi g'azallarga tartib raqamlar qo'yilmagan. Muhr va bezaklar qo'lyozmaning birinchi betida berilgan (7106 Институт Восточных рукопис АН Уз. ССР. Ташкент). Xuddi shu muhr 441-betga ham bosilgan. Poygir qat'iy qo'yilgan, saqlanish holati yaxshi. Har bir bet raqamlari aniq qo'yib chiqilgan. Qo'lyozma nosvoyrang qalin karton bilan qoplangan va 7106 raqami qo'yilgan, 508ta g'azal (hoshiyadagi g'azallardan tashqari), muxammaslar, musaddaslar, masnaviylar va tarje'bandlardan iborat. Bu qo'lyozmada Bayoniyning quyidagi she'rlari uchraydi:

1.g'azallar – 540ta 5. musabbaa' - 2ta 9. maqta' - 3ta
2.mustahzod-1ta 6. masnaviy - 5ta 10.ta'rix-5ta
3. muxammas - 10ta 7.tarjeot-14ta 11.qasida-4ta
4. musaddaslar - 11ta 8. ruboiylar - 73ta 12.bahri tavil-1ta

Bayoniy ijodidan namunalar devonidan tashqari "Yug'urmiya" (1923) majmuasida berilgan. Bu majmua'da inqilobiy mavzudagi she'rlari yetakchidir. Shu bilan birga, ularda shoirlar ijodi xususidagi ayrim ma'lumotlar ham uchraydi. Mulla Bekjon tomonidan nashr etilgan "Yug'urmiya" majmuasining bu jihatini adabiyotshunos A.Abdug'afurov alohida ta'kidlab yozgan edi: "Mulla Bekjon" to'plamidagi boshqa asarlar qatorida, ularning (Bayoniy, Mutrib, Safo Mug'anniy she'rlari) har biriga kichik-kichik izohlar beradi, qachon yozilgani va qaysi manbadan olib chop etilayotganligini aniq ko'rsatadiki, bu davr adabiy jarayonini hamda konkret ijodkor merosini o'rganishda, uning g'oyaviy badiiy evolyutsiyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi" [Абдуғафуров А. 1988, №5: 3].

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari Xorazm adabiy muhiti, uning namoyandalari ijodi haqida yaratilgan deyarli barcha ilmiy tadqiqotlarda hamda bu davrdagi Xorazm tarixini yorituvchi tarixiy- ilmiy asarlarda shoirning hayoti va ijodi bilan bog'liq fikr va mulohazalar bor. P.P.Ivanov

[Иванов П.1940: 290], Ya. G‘ulomov [Ғуломов Я.Ғ.1959: 326] M.Yo‘ldoshev [Йўлдошев М.1960: 5-29] larga tegishli bo‘lib, tadqiqotchilar Xiva xonlari arxivi hujjatlaridagi ma’lumotlarni o‘rganganlar va nashr etganlar.

Akademik Y. Yo‘ldoshevning 1960-yilda “Fan” nashriyotida chop etilgan “Xiva davlat hujjatlari” nomli kitobida Bayoniyning saroydagi xizmati va musiqago‘yligiga oid ma’lumotlarni berib o‘tgan.

O‘tgan asrning 60-yillarida Bayoniy ijodiga bo‘lgan e’tibor yanada jonlandi. 1960-yil tarixnavis olim Q.Munirovning “Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari” [Мунировр Қ.1960:171] risolasi e’lon qilindi. Mazkur risola “ Shajarayi Xorazmshohiy”ning O‘rta Osiya tarixini o‘rganishdagi ahamiyati ma’lum darajada yoritiladi. S.Dolimov [Долимов С.1962: 147], Y.Yusupov [Юсупов Й.1967:180]

kabi bir qator olimlar tomonidan qilingan tadqiqotlarda Bayoniyning tarixiy asarlari o‘rganilgan. 1962-yilda esa S.G‘aniyeva va H. Muxtorova Bayoniy ijodini ommalashtirish ishlarini yo‘lga qo‘yadilar, uning devonidagi ba’zi she’rlarini “G‘azallar”nomi bilan e’lon qilganlar. 1967-yildagi Y.Yusupovning “Xorazm shoirlari” [Юсупов Й.1967: 180] kitobi, 1976-yil adabiyotshunos J.Jumaboyevaning “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida chop etilgan “Bayoniy ijodining ayrim xususiyatlari” maqolasi ham shoirning hayoti va ijodi haqida ma’lum tasavvurlarni beradi.

Akademik V. Abdullayevning 80-yillardagi tadqiqotlarida shahzoda shoirlarning Navoiyga izdoshligi masalasiga doir fikrlar mavjud. Jumladan, adabiyotshunos “Navoiy va bir davrning ikki shoiri” maqolasida Farrux va Bayoniyning Navoiy an’analariga munosabatiga to‘xtalar ekan, Bayoniyni “bedorlik, hushyorlik, ma’nidorlik shoiri”, Navoiyning chinakam izdoshi sifatida ta’riflaydi [Қобулов Н., Мўминова В., Ҳаққулов И.1987: 25–30]. 1990-yillarning boshidan mustaqillik davrida Muhammad Rahimxon-Feruz shajarasi shoirlarining ijodini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. N.Jabborov [Огаҳий. (Jabborov N.) 2009: 240], N.Shodmonov [Огаҳий. (Н. Шодмонов) 2009: 336], H. Toshev [Тошев Н. 2009, № 14: 47], N. Jumaxo‘ja va I.Adizova [Жумахўжа Н., Адизова И.1995,147], D.Rahim va Sh. Matrasul Раҳим Д., Матрасул Ш. 2011: 238], G. Ismoilova [Исмоилова Г.1995:141], I. Xajiyeva [Хажиева І. 2016: 92]larning risola va maqolalari alohida e’tiborga loyiqdir.

Shoir ijodini jiddiy va keng ko‘lamda o‘rganish 90-yillardan boshlandi. Bu davrda Bayoniy hayoti va ijodini o‘rganish I.Adizova tomonidan samarali olib borildi. I.Adizova 1990-yili Bayoniyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 1994-yilda I.Adizova sa’yi harakatlari bilan “Shajarayi Xorazmshohiy” asarining qisqartirilgan nashrini e’lon qildi. 1995-yilda esa ushbu muallifning N. Jumaxo‘ja bilan birgalikda “So‘zdin baqoliroq yodgor yo‘qdur” [Жумахўжа Н., Адизова И.1995: 147] risolasi bosilib chiqdi.

Xiva adabiy muhitida yashab ijod etgan Muhammad Yusuf Bayoniy o‘zining asarlari bilan o‘zbek adabiyotiga munosib hissa qo‘shgan. “Muhammad Yusuf Bayoniy o‘zbek mumtoz she’riyatining an’anaviy mavzu va goyalarnni davom ettirdi, rivojlantirdi. U o‘z shaxsiy ijodiy takomil bosqichlarida an’anaviy uslubdagi ijodkordan otashnafas erkin shoir darajasiga o‘sib yuksaldi”[Жумахўжа Н., Адизова И.1995: 98].

Bayoniyning shoir, adabiyotchi, tarixchi sifatida yaratgan ijodiy merosi va tarjimalari Xiva adabiy muhitini o‘rganishda muhimdir. Uning “devoni ham o‘zbek mumtoz adabiyotimizning lirik janrlarini boyituvchi bo‘lib xizmat qiluvchi, XIX asr hamda XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitini o‘rganishda muhim manba sifatida adabiyotshunoslik, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikda ilmiy tadqiq etilishi lozim bo‘lgan asarlardan biri ekanligi bilan ahamiyatlidir” [Do‘stova C. 2024: 76].

Muhammad Yusuf Bayoniy hayoti va ijodi haqida turli tadqiqot va adabiyotlarda ma’lumotlar berilgan, qisman o‘rganilgan, ammo ular hali kam. “Endilikda Bayoniy ijodini har tomonlama o‘rganish, u haqda tulaqonli, mukammal tadqiqotlar yaratish fursati yetdi” [Жумахўжа, Адизова, 1995: 150]. Bayoniy asarlarining qo‘lyozma nusxalarini qiyosiy o‘rganish esa bugungi kunda oldimizga qo‘yilgan dolzarb vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуғафуров А. (1988) “Юғурмия” ўзбекча инқилобий шеърлар тўплами Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. №5 – Б. 3.
2. Ahmad Tabibiyning “Majmuatush –shuaroyi si Payravi Feruzshohiy”. O‘zFASHI asosiy qo‘lyozmalar fondi 29 raqamli qo‘lyozma
3. Брегель Ю.Э. (1961)Сочинение Баяни “Шаджара-йи хорезмшахи” как источник по истории туркмен. Краткие сообщения Института народов Азии. –Москва,– ХЛИВ. –179 с.
4. Долимов С.(1962) Огаҳийнинг ҳаёти ва ижоди. Филол. фан. ном. диссертация. – Тошкент. – Б. 147.
5. Do‘stova C. (2024) Bayoniy devonining 1120 qo‘lyozma nusxasi. „Turkiy xalqlar filologiyasida fundamental tadqiqotlar va innavatsion ta’lim texnologiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 76- bet
6. Жумахўжа Н., Адизова И. (1995) Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдур. –Т.: Ўзбекистон –150 б.
7. Иванов П. П. (1940)Архив хивинских ханов ХИХ в. Исследование и описание документов с историческим введением: Новые источники для истории народов Средней Азии. – Л., – 290 с.
8. Йўлдошев М.Й. (1960) XIX аср Хива давлат ҳужжатлари. – Т.: Фан, ТИИ. – Б. 5-29.
9. Komyob Sayyid Hamid to‘ra ibn Sayyid Muhammadxon. Tavorix ul-xavonin. O‘zR FA ShI assosiy qo‘lyozmalar fondi 7717 raqamli qo‘lyozma –209 b.
10. Мунировв Қ. (1960)Мунис, Огаҳий ва Баёнийларнинг тарихий асарлари. – Т., Фан –171 б.
11. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. (2019) Асарлар. Шоҳид ул иқбол / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳлар муаллифи Н.Шодмонов. –Тошкент: “Шарқ” –ВИИ ж. –384 б.
12. Muhammad Yusuf Bayoniy. Devon.O‘zR FA ShI asosiy qo‘lyozmalar fondi 1120 raqamli qo‘lyozma
13. Muhammad Yusuf Bayoniy. Devon.O‘zR FA ShI asosiy qo‘lyozmalar fondi 7106 raqamli qo‘lyozma
14. Muhammad Yusuf Bayoniy. Devon.O‘zR FA ShI asosiy qo‘lyozmalar fondi 6666 raqamli qo‘lyozma
15. Muhammad Yusuf Bayoniy. Devon.O‘zR FA ShI asosiy qo‘lyozmalar fondi 7082 raqamli qo‘lyozma
16. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. O‘zR FA ShI asosiy qo‘lyozmalar fondi 9596 raqamli qo‘lyozma 509b.
17. Muhammad Yusuf Bayoniy. Xorazm tarixi. O‘zR FA ShI asossiy qo‘lyozmalar fondi 7421-raqamli qo‘lyozma. –91b
18. Отамуродова А., Абдураҳимов А.(2012)Маоний арсаси. Тошкент. Tafakkur qanoti, 31-бет.
19. Юсупов Й. (1967) Хоразм шоирлари. – Тошкент.: Бадиий адабиёт, 180 б.
20. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4818
21. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2375
22. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2379
23. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/2372
24. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4828
25. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4819
26. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4833
27. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4836
28. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4838
29. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4841
30. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5347
31. https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/5591

MUHSINIY BIOGRAFIYASINI YARATISHDA O‘Z ASARLARINING O‘RNI

Furqat To‘xtamuratov,
Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
e-mail: toxtamurodovfurqat@gmail

Annotatsiya

Ushbu maqolada sohibi devon shoir Husaynquli Muhsiniy biografiyasini yaratishda shoirning o‘z asarlari tarkibida keltirilgan ma’lumotlar tadqiq qilinadi. Shoir asarlarida tarjimayi holi, madarasada ta’lim olgan davri va haj safariga oid qaydlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *Muhsiniy, devon, debocha, muxammas, g‘azal, masnaviy, biografiya.*

Abstract

This article examines the information contained in the poet’s own works when creating a biography of the poet Husaynguli Muhsini, the owner of the Divan. The poet’s works analyze his biography, his period of education in the madrasa, and his notes on the pilgrimage.

Keywords*: Muhsini, divan, preface, muhammas, ghazal, masnavi, biography.*

Husaynquli Muhsiniy hayot yo‘liga doir ma’lumotlar keltirilgan manbalarni quyidagicha tasnif etish mumkin: shoirning o‘z asarlari, o‘sha davrga doir tazkira va majmualar. Ushbu manbalardagi ma’lumotlar bir-birini to‘ldirishi, ayrim munozarali fikrlarga oydinlik kiritishi jihatidan shoir ilmiy biografiyasini yaratishda muayyan ahamiyatga ega ekanini ta’kidlash kerak. To‘g‘ri, bu ma’lumotlar Muhsiniyning mukammal ilmiy biografiyasini yaratish uchun kamlik qilishi mumkin. Lekin mavjud ma’lumotlarni to‘plash, tizimga solish, tahlil etish nuqtayi nazaridan shoir ilmiy biografiyasini yaratish yo‘lidagi muhim qadam vazifasini o‘tashi ayon. Shoirning o‘z asarlari. Muhsiniy biografiyasi haqidagi dastlabki manba uning o‘z asarlaridir. Jumladan, “Gulshani jovid” devoni nusxasi debochasida shoir mana bunday so‘zlarni yozadi: “Ammo ba’d ushbu sargashtai bodiyai hechmadoniy va mustag‘raqi bihori jahl va nodoniy va zoviyai shaydi kunji isyon Husaynquli bin Sulaymonquli aslahallohu ahvolahu bu tavr ila bayoni hol va bu nahj ila ma’ruzi mofilxayol edarkim, ul hazrat volidi buzrukvorim xotiri xibrat mazohirlarina faqir farzandi dilpazirlarini takmili maorif va tahsili ulum iktisobi jilvagar o‘lub, g‘oyatda tahris va nihoyatda targ‘ib qo‘pturub, ilm va funun o‘qutmoqg‘a mo’dun qildilar. Va xud tabiatimda ahli donish va jamohiri biynish irtibot va ixtilotlarig‘a an samimil qalb ixlos va e’tiqod qilurdim. Ne uchunkim, alarning marotib manzilatlarinda “Allaziyna utul-ilma darajotin...” oyati mamduhalari ko‘nglum bunyodig‘a o‘t solib, umr garonmoyayi tahqiqi rumuzi kalom va tadqiqi mazmuni ma’oniyi nasr va intizom tahsilina masruf ettim. Alhamdulillahi val-minna alarning istifodai suhbati maymanatlari asarlaridin filjumla savodi huruf istilo’i ma’oniy maqdur o‘ldi” [Muhsiniy. Qo‘lyozma devon – B. 2a]. Debochadan olingan ushbu iqtibos bir necha jihatdan muhimdir. Birinchidan, otasi Sulaymonquli shoirning ma’rifatini oshirish va ilm o‘rganishiga katta ishtiyoq bildirgan va bu yo‘lga astoydil targ‘ib etgan. Ikkinchidan, Husaynqulining tabiatida ham donishmand va bilimdon kishilar bilan yaqinlashishga va ular suhbatiga kuchli ixlos va e’tiqod bo‘lgan. Uchinchidan, shoir kichik yoshidan ilm va hikmat ahli bilan bo‘lgan ana shunday suhbatlarda Qur’oni Karimdagi ilmga targ‘ib etuvchi “Alloh sizlardan iymon va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko‘tarur” singari oyatlarni tinglaganda yuragiga o‘t tushgani, natijada, qimmatli umrini so‘z ramzlari zamiridagi haqiqatlarni anglash hamda nasr va nazm ma’nolarini tadqiq qilish yo‘llarini o‘rganishga sarflaganini ta’kidlaydi. To‘rtinchidan, ilm ahlining saodatli suhbatlari foydasidan savod chiqarib, ma’nolarni anglash qobiliyatiga ega bo‘lgani-

ni bildiradi. Muhsin Olimov maqolasida ham shoirning otasi Sulaymonquli ilmli, ayniqsa, she'riyatni qadrlovchi kishilardan bo'lgani, o'g'li Husaynni bilimli qilishga intilgani ta'kidlanadi [Olimov, 1968: 6]. Husaynquli Muhsiniyning baxti shunda ediki, otasi ilmu fazl ahli davrasiga olib borib, uning qalbiga ilmga muhabbat o'tini solgan, savod chiqarishi va ma'oniy ilmini anglashiga jiddu jahd qilgan bo'lsa, madrasada tahsil olishiga, ilmda kamolga erishuvida Nabiqul amakisining hissasi katta bo'lgan. Mazkur amakisiga bag'ishlangan yetti bandli muxammasida uning qaysi madrasada ta'lim olgani va haj safariga borish sanasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Mana, muxammasning shu mazmundagi bandi:

Manim ilmim rivojig'a takofu ayladi chandon,
Olib Sultonmurodbek madrasasida hujrai arzon -
Kim, anda ilm tahsil ayladim xursandu ham shodon,
O'qub har nav' ilm, ko'nglum ichra qolmadi armon,
Bihamdillahki, ma'lum o'ldi har mazmuni ma'nosi [Muhsiniy. Barhayot Gulshan, 2008:119].

Ushbu band mazmunidan anglashiladiki, Muhsiniy Qo'qonning Sultonmurodbek madrasasida ta'lim olgan va Nabiqul amakisi uning ilm olishi uchun astoydil harakat qilgan. Muxammasdagi "Olib Sultonmurodbek madrasasida hujrai arzon" misrasi adabiyotshunos Muhsin Olimovning: "Shoir dastlab mahallasidagi Mirzo Yodgor, keyinroq esa Hokim oyim madrasasida tahsil ko'radi", degan fikrlari to'g'ri emasligini ko'rsatadi [Olimov, 1968: 6]. "Tazkirayi Qayyumiy"dagi: "...ibtidoiy tahsilni mahalla masjidida olib, ...so'ngra Madrasai Sultonmurodbekda mudarris domla Abdulmo'min Shahrixoniy nomli kishidan ulumi arabiy sarf, nahv, lug'at o'rganmishdur" [Qayumov, 1998: 380–381], degan ma'lumot ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Shoir Nabiqul amakisiga bag'ishlangan muxammasida uni javonmard, tijorat ahli donosi, karimunnafsu komil, ag'niyo ahlining a'losi, zarifu xurdadon, ahli donishlar mirzosi, bazlu saxoda mulki Farg'ona aro mashhur, Kalomi Haq tilovat qilg'onichun orazi purnur, hama arkonlarining xurdadonu bazmorosi singari sifatlar bilan vasf etadi. Muxammas satrlarida shoirning bu ulug' insonga muhabbati va hurmati nechog'liq baland bo'lgani samimiyat va mahorat bilan badiiy talqin etilgani kuzatiladi. Mazkur muxammasning beshinchi bandi mazmunidan shoirning 19 yoshda hajga borgani ma'lum bo'ladi:

Ziyorat qildim o'n to'qquz yoshimda ravzai aqdas,
Munosib ko'rmasa Haq, etmagay ul joyga har kas,
Manam bir el oyog'i ostida aftoda xoru xas,
Meningdek ko'rmag'ondur bir sipehri nilgun atlas,
Qatori bandalarda osiyu sharmanda rasvosi [Muhsiniy. Barhayot Gulshan, 2008: 119].

Rasulullo sallollohu alayhi vasallamning muborak ravzalarini ziyorat etgan shoir nihoyatda ta'sirlanadi. Haq taolo munosib ko'rmasa, bunday baxtga hamma ham erisha olmasligini aytadi. O'zini "el oyog'i ostida aftoda xor-u xas" deya ta'riflaydi. Bu moviy atlasga tashbeh etiluvchi falak bandalar qatorida uningdek osiyu sharmanda rasvoni ko'rmagani haqida yozadi. Professor Nurboy Jabborov Furqatning shunga monand misralarini tahlil etar ekan, mana bunday yozadi: "...shoir o'zini yuzi qarolik va osiylikda, Haq taolo yo'riqlarin tuta olmay, umrini abas kechirganlikda, o'z joniga zulm qilganlikda ayblaydi. Tabiiyki, bu sharqona o'zini malomat qilish natijasi. Umuman, mumtoz shoirlarimizning deyarli barchalari "Malomatda salomat" degan qoidaga amal qilganlari ma'lum. Ya'ni, ularning fikricha, inson hech qachon xotirjamlikka berilmasligi kerak, nafsning xohishlariga bo'ysunmasligi zarur. Buning uchun o'zini taftish qila bilishi, har doim o'z holidan ogoh bo'lishi lozim. Mazkur misralarda ushbu qarash hosilasi aks etgan" [Jabborov, 2004: 57]. Bizningcha, Muhsiniyning "Meningdek ko'rmag'ondur bir sipehri nilgun atlas, Qatori bandalarda osiyu sharmanda rasvosi" satrlarini ham ana shu mezon asosida tahlil etilsa, to'g'ri bo'ladi. Shoir bu orqali o'zini malomat qiladi, qalban va ruhan poklanadi.

Muhsiniyning 1887-yili o'n to'qqiz yoshida hajga borgani haqidagi ma'lumot shoir o'z dastxati bilan ko'chirilgan 7392 inventar raqamli qo'lyozma devon debochasida ham berilgan. Shoir debochada, jumladan, mana bunday yozadi: "...volidi amjadim jonim qulog'ina go'shvorai durri nasoyihlarin osub dey-

dilarkim: “Ey qurratul-ayn nurul-absorim, biz volidayn rizolig‘imiz rizoyi Parvardigori olamin va rasuli insu jindur”. Alhaq, ushbu kalimoti maymanat nasimotlaridin dimog‘i jonim muattar o‘lub dedimki:

“Ey padari buzrukvorim va ey qiblayi ofozatosorim, ushbu pandu ma’vizalar nasimidin bihori umidim purdur va niholi orzularim pursamar o‘ldi. Va lekin zamirim kunjida pinhon maqsadim bordurkim, marzoyi xotiralari o‘lg‘och mutlaqul-inon muraxxas aylasalarkim, ushbu ozod gardanim taalluq zanjirig‘a asir va poyi orastalarim nafaqai ro‘zgor silsilasig‘a dastgir o‘lmasdin sarlavhai taqdirimda kotibi devoni qazo tavofi baytulloh va ziyorati ravzai Rasulullоh tahrir qilg‘on bo‘lsa, isyon dudi birlan qaro bo‘lg‘on tanim va xatou nisyon g‘uboridin oludalong‘on jismimni “Va man daxalahu kana ominan” sayqali-la musaffo “Va lillahi alannosi hijjul-bayti man istato’a ilayhi sabilan” sobuni-la mujallo aylasam” [Muhsiniy. Qo‘lyozma devon. – B. 3ab].

Ushbu ko‘chirmadan Muhsiniyning otasi bilimdon va ma’rifatli kishi bo‘lgani anglashiladi. Chunki otasi shoirga “Alloh taoloning roziligi ota-onaning roziligidadir” mazmunidagi muborak hadisni eslatib, nasihat qiladi. Shoir otasi bilan muloqot jarayonini ham go‘zal badiiyat bilan ifodalaydi. Ya’ni valine’matining qutlug‘ nasimlarga monand pandu o‘gitlaridan umid dengizi durlarga to‘lgani va orzularining nihollari quvvat olgani haqida so‘z yuritadi. Otasiga ko‘nglining tubida yashirin bo‘lib turgan maqsadini bayon etadi. Valine’matidan rozi-rizolik ila chin ko‘ngildan ozod bo‘yniga mas’uliyat zanjiriga asir, oyoqlarim tirikchilik tashvishlariga bog‘lanmay turib, agar qismat devonining kotibi taqdirimga baytulloh tavofini va payg‘ambarimiz ravzalari ziyoratini yozgan bo‘lsa, gunohlar tutunidan qoraygan tani va xatolaru unutishlar g‘uboridin kirlangan jismini “Kimki u yerga kirsa, omonlik topgay” oyati mazmuniga muvofiq poklash, “Yo‘lga qodir bo‘lgan odamlar zimmasida Alloh uchun Baytni haj qilish (farzi) bordir” mazmunidagi oyat sovuni bilan jilo berish niyati borligini bildiradi. Bu fikrlar, birinchidan, sajli nasrda (buzrukvor – ofazatosor, bihor – nihol, asir – dastgir, baytulloh – Rasulullоh, qaro bo‘lg‘on – oludalang‘on, musaffo – mujallo) bitilgani, ikkinchidan, qurratul-ayn, nurul-absor, bihori umid, niholi orzularim, zamirim kunji, taalluq zanjiri, ro‘zgor silsilasi, kotibi devoni qazo, xatou nisyon g‘ubori singari istioralar, Qur’oni Karim oyatlariga asoslangan iqtibos san’atlari vositasida go‘zal badiiyat bilan ifodalangani Muhsiniyda adabiy idrok, badiiy did baland bo‘lganidan dalolat beradi.

“Ma’ziratnomai Muhsiniy ba axiyi arjumandi xud” deb nomlangan masnaviyda bitilgan haj safarnomasida shoir yo‘lda ko‘rgan-kechirgan azobu qiyinchiliklarini yozib qoldirgan. Ushbu masnaviyda, jumladan, quyidagilarni o‘qiymiz:

Voy bar hol hojilarki, kelur,
O‘zlarin munda xoru zor qilur.
Makkada ro‘zgori o‘tmasdek,
Kori dunyosi anda bitmasdek.
Yo‘lda zulmu ta’addiy, jabr ko‘rub,
Farchai non yo‘qina sabr ko‘rub.
Kechalar masjid ichra xob qilub,
Yo‘lni tobi jigar kabob qilub [Qo‘lyozma devon. 91^{b}].

Demak, shoirning haj safari mashaqqat-u zahmatlarga to‘liq bo‘lgani ma’lum bo‘ladi. Yo‘lda zulm-u sitam, jabr ko‘rgani, ochlikka sabr qilishga to‘g‘ri kelgani, masjidlarda tunab, jigarni kabob qilish evaziga haj ibodatini ado etgani haqida so‘z yuritadi shoir.

Bu tariq ila kelmish hujjoj,
Yo‘l adoshib topolmayin minhoj [Qo‘lyozma devon. 92^{a}].

Hojilar shu tariqa to‘g‘ri yo‘lni topa olmasdan adashgani safar mashaqqatini ziyoda etgani kuzatiladi. Ana shu tarzdagi qiyinchiliklarga qaramay, Muhsiniy haj arkonlarini katta ixlos va e’tiqod bilan ado etgani quyidagi satrlardan ayon bo‘ladi:

Hajar ul-asvad uzra nolau zor,
Ruknlarda quchib bari devor.

Ka'ba tunin qaro qilib ohim,
Zavqu shavqi maqomi Ibrohim.
Oquzub ashk ishqidin har dam,
Kelturub jur'a chashmai Zamzam [Qo'lyozma devon. 93[a]].

Hajar ul-asvadni tavof etar ekan, shoir nola-yu zor etadi. Haj ruknlarini bajarar ekan, Ka'batulloh devorini quchadi. Tunni tongga ulab maqomi Ibrohimda zavq-u shavq bilan ibodat qiladi. Haq taolo ishqidan ko'zlaridan yoshlarini oqizib, Zamzam suvini ichadi.

Har namozi furuzi jahru xafiy,
Maskanim erdi jodai xanafiy.
O'lturub yig'ladim ba bahri duo,
Ba'd say'i vuqufi Marvau Safo.
Hosil andin axir o'lub mahrum,
Azmi rij'at ko'ngul qilib mag'mum [Qo'lyozma devon. 93[a]].

Har bir namozni, u xoh jahriy o'qiladigan, xoh maxfiy o'qiladigan namoz bo'lsin, Xanafiy mazhabi qoidasiga ko'ra ado etgani, Marva va Safo tog'lari orasida sa'y etgach, yig'lab duo qilgani, har qancha mashaqqatli bo'lmasin, azmi rij'at qilar, ya'ni hajdan qaytar ekan, ko'ngli g'amga to'ladi.

Muhsiniy, kech bu gunbazi davvor,
Chunki fazlu kamol ahli xor.
Kimki olam ichinda siflau dun,
Baxtu iqbolu tole'i afzun.
Shukr ayla Xudoga, hamdu sipos,
Qildi ashraftarini bayn an-nos [Qo'lyozma devon. 93[a]].

Bu misralar Muhsiniy qalbidan o'tgan lirik kechinmalarning badiiy talqini ekani jihatidan qimmatlidir. Shoir fazl-u kamol ahli xor, past va tubanlarning baxt-u iqboli ziyoda ekanidan kuyunadi. O'zini odamlar orasida eng sharaflilardan qilgani uchun Yaratganga maqtovlar aytadi. Muhsiniy ko'p qiyinchiliklarga uchragan bo'lsa ham, haj safari davomida dunyoning bir qancha mamlakatlarini ko'radi, turli xalqlarning yashash tarzi bilan tanishadi. Adabiyotshunos Usmonjon Ne'matov bu haqda shunday yozadi: *"Qo'qon adabiy muhitida yetishgan shoirlar orasida hoji Ubaydulloh Zavqiy, hoji Husaynquli Muhsiniylar dunyo ko'rgan shoirlar ekanligi bilan ajralib turadi. Ular umrlari davomidagi unutilmas haj safari munosabati bilan O'rta Osiyo, Yevropa, Turkiya, Hindiston, Afg'oniston, Arabiston kabi yurtlarda bo'lib, bu mamlakatlardagi hayot manzaralari, odamlarning xulq-atvori, turmush tarzi, bir-biriga munosabatlarini o'z ko'zlari bilan ko'rgan"* [Ne'matov, 2008: 73].

Xulosa qilib aytish mumkinki, mumtoz shoirlarimiz o'z asarlarida hayot yo'li va tarjimayi hollarini ma'lum ma'noda yoritib o'tganlar. Ushbu ma'lumotlar aksar hollarda ularning she'riy asarlari tarkibida qayd etiladi. Tadqiqotchilar sinchkovlik bilan shoirlar asarlarini o'rganib, tahlil qilishlari kerak. Husaynquli Muhsiniyning tarjimayi holini tiklashda o'z asarlari birlamchi manba hisoblanadi. Muhsiniy mohir xattot bo'lib, devoni nusxalarini dastxati bilan ko'chirgani ham muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhsiniy. Gulshani jovid. O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti asosiy qo'lyozmalar fondi. Inv. №7392.
2. Qo'lyozma devon. To'q jigarrang muqovali. To'xtasin Nuriddinovning shaxsiy kutubxonasida saqlanadi.
3. Qayyumov P . Tazkirai Qayyumiy. – T.: O'zR FA Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo'limi. 1998, II kitob. – 720-bet.
4. Muhsiniy. Barhayot gulshan. – F., 2008. – 168-bet.
5. Olimov M. Muqimiyga qasida va uning muallifi. //Sovet O'zbekistoni, 1968-yil 7-fevral.
6. Jabborov N. Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi: fil. fan. dok-ri... diss. – T., 2004. – 298-bet.
7. Ne'matov U. Zavqiy va Muhsiniyning safarnomalari/ Zavqiy ijodi (maqolalar, xotiralar, she'rlar). – F., 2008. – 152-bet.

“SHOHNOMAYI ANDALIB” ASARINING O‘ZBEK ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Muxlisa Maxamatxonova,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti
e-mail: maxamatxanova.123@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIX asrda yashab ijod qilgan shoir Andalibning hayoti va ijodi hamda uning mashhur “Shohnomai Andalib” asari haqidagi ma’lumotlar o‘rin olgan. Shuningdek, maqolada asarning yozilish sabablari, uning tarkibiy qismlari va davr kechinmalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *“Shohnoma”, shoir, doston, qo‘lyozma, bosqin.*

Abstract

This article contains information about the life and work of the poet Andalib, who lived and worked in the 19th century, as well as his famous work “Shahnomai Andalib”. The article also describes the reasons for writing the work, its components and the experiences of the period.

Key words: *“Shahnoma”, poet, epic, manuscript, events.*

Kirish

Ma’lumki, o‘zbek adabiyoti tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Unda ko‘plab shoirlar ijod qilgan. Har bir davrda bo‘lgani kabi, xonliklarga bo‘lingan davrda ham o‘zbek shoirlari ijod qilishdan to‘xtamadi. XIX asrlarda yashab ijod qilgan shoirlar ichida Andalibning ham o‘z o‘rni bor. Uning “Shohnomayi Andalib” asari bilan esa hali ko‘pchilik tanish emas. Bu asar o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, adabiy-tarixiy dostonlar sirasiga kiradi.

Asosiy qism

“Shohnomayi Andalib” dostonida 1842-yildagi Qo‘qon xonligida yuz bergan fojiali voqealar tasvirlangan bo‘lib, uning muallifi Qo‘qon muhitida yashab ijod qilgan shoir – Andalibdir. “Andalib” arabcha termin bo‘lib, o‘zbek tilida “bulbul” degan ma’noni anglatadi va katta ehtimol bilan – bu shoirning o‘ziga bergan taxallusidir. Shoirning hayoti va ijodi hamda uning yashab o‘tgan yillari haqidagi ma’lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Andalib agar taxallus bo‘lsa, uning asl ismi ham mavhum bo‘lib qoladi. XVIII asrda Xiva madrasalarida ta’lim olib, salmoqli ijod qilgan va bir qator doston va she’rlar muallifi bo‘lgan Nurmuhammad Andalib ham adabiy tarix sahifalarida qayd etiladi. Biroq bu shoirning bizning qahramonimiz bo‘lgan “Shohnomai Andalib”ning muallifi bilan bir shaxs deyish haqiqatga unchalik to‘g‘ri kelmaydi. Chunki “Shohnomayi Andalib”da 1842-yilda Qo‘qon xonligida sodir bo‘lgan voqealar tasvirlangan hamda bu hodisotlarga Andalibning shaxsan o‘zi shohid bo‘lganligi, uning shu yurt uchun kuyunishidan muallifning vatani Qo‘qon xonligida bo‘lganligini anglashimiz mumkin.

Nurmuhammad Andalib esa ayrim manbalarda Xivada yashab ijod qilgani hamda 1770-yilda vafot etgani qayd etilgan. Nurmuhammad Andalib (bulbul)ning ismi, tug‘ilgan joyi va hayoti haqida uning “Yusuf va Zulayxo” dostonining kirish qismida keltirilgan.

Ismim edi Nurmuhammad g‘arib,
So‘zda taxallusim edi Andalib.
Shahrimiz Urganch viloyat edi.
Xonimiz Shohg‘ozi himoyat edi...

Bo‘yla Qoramozi erur joyimiz,
Zikri xudo ishqila dilxonimiz...
Barcha xaloyiq ichra mening ishim,
Yetibdur ellik beshga mening yoshim...

Munisning “Firdavs ul-iqbol” asarida keltirilishicha, Andalibning yuqoridagi misralarida nomi keltirilgan hukmdor Shohg‘ozi atigi ikki yil hukmdorlik qilib, 1767-yili o‘ldirilgan. Bundan Andalibning 1711-1712-yillar mobaynida tug‘ilganligi ma’lum bo‘ladi. Biroq uning vafoti sanasi ma’lum emas. Ba’zi tadqiqot manbalarida uning 1770-1771-yili vafot etganligi taxmin qilinadi. U Xiva madrasalarida o‘qib, o‘z zamonasining zukko shoirlaridan biri bo‘lib kamol topadi” [Orzibekov, 2006: 127].

Andalibning “Shohnomayi Andalib” asari tarixiy-badiiy asar bo‘lib, bizgacha uning ikkita qo‘lyozma nusxasi yetib kelgan va ular O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida №596/III va №696/I raqamlari ostida saqlanadi.

№596/III raqamda saqlanayotgan qo‘lyozma milodiy 1925-yilda (hijriy 1344) Qo‘qon shahrida ko‘chirilgan. Hajmi 18/31 sm bo‘lib, 28 varaq. Asar yashil rangli siyohda, nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Ushbu qo‘lyozma haqidagi dastlabki ma’lumotlarni, asosan, Aziz Qayumovning “Qo‘qon adabiy muhiti” nomli asarida uchratishimiz mumkin.

№ 696/I asar qo‘lyozmasi ham Qo‘qon shahrida ko‘chirilgan bo‘lib, varaqlar soni 21 ta. Asar nasta’liq xatida sariq rangli qog‘ozga ko‘chirilgan. Ushbu qo‘lyozma haqidagi ma’lumotlar Shodmon Vohidovning “Qo‘qon xonligida tarixnavislik” kitobida keltirilgan.

“Shohnoma”da XIX asr Qo‘qondagi davr voqealari badiiy va nasriy usulda yoritib berilgan. Asarda so‘zga ta’rif berib, shoir o‘zi va dostonning yozilish sabablari haqida ham qisqacha ma’lumot berib o‘tadi:

Bir kunki bo‘lib bu ta’bimiz xush,
Yori beribon xirad bila xush.
Sa’yu jadali rafiq-u ahbob,
Ham bo‘ldi sabab bu ishga as’hob,
Bo‘lsun dedilarki nusxa bul so‘z,
Mahfil ichida ki sham’i afruz.
Yo‘q erdi kaminada bizoat,
Bu qissa yozarda istitoat.
So‘z avjini etmas erdi idrok,
So‘z martabasi baland zerok.
Ey Andalibi xazin-u xomush.
Guftor mayini aylagil no‘sh
[Shohnomayi Andalib, №596/III, 10-b bet].

Doston sharqona an’analarga muvofiq, mo‘jaz uslubda hamd va na’t qismlarini bayon qilish bilan boshlanadi. Asarning ikki qo‘lyozma nusxasi basmala bilan boshlangan. Asarning na’t qismida esa Payg‘ambar alayhissalomning bevosita zotlari va sifatlari ta’rifiga kirishilmaydi. Balki Qo‘qon xonligi hududida saqlanib, keyinchalik urush bahonasida bu hududdan olib ketilgan “Mo‘yi muborak” deb atalgan Payg‘ambar alayhissalomning ikki zulflarining madhi yoritiladi:

Haq bizga inoyat aylab erdi,
Lutf aylab, karomat aylab erdi.
Shafqat bila ul Xudoy-u Akbar,
Bizga berib erdi ikki gavhar.
Ne gavhar erurki Nurulloh,
Mavjudi tufaylidin sivalloh.
Anvori azl qilib tajalliy,
Farg‘ona bo‘lib oning mahali,
Ul ikki namunai shafoat,
Sarishtayi davlati saodat.
Ikki shohi zulfi anbari afshon,
Bizlarga yuborgan edi Subhon.
Bo‘lg‘oy erdi mulkimiz Madina,
Go‘yoki Madinai Sakina
[Shohnomayi Andalib, №696/I, 1-a bet].

Yuqoridagi misralarda Andalib Haq Taolo ularga inoyat ko‘rsatib, qiymati misli Sokin Madina shahriga teng bo‘lgan “ikki gavhar”ni ularga tortiq qilganini ta’kidlamoqda. Bu ikki gavhardan murod esa bir vaqtlar Farg‘ona hududida saqlangan Payg‘ambar alayhissalomning ikki muborak

sochlaridir. Shoir asarning kirish qismida “Mo‘yi muborak”larni madh qiladi va shu yo‘l bilan Payg‘ambar alayhissalomning ham madhlarini bayon qilib o‘tadi.

Mo‘yi muborak madhidan so‘ng Andalib bevosita asarning asosiy qismiga kirishib ketadi. Shoir voqealarni konkret, qisqa va lo‘nda holatda, she’riy ko‘rinishda tasvirlaydi. So‘ngra ortidan nasriy bayonga o‘tadi. Doston ko‘proq she’riy uslubda bayon qilingan tarixiy-badiiy asarga o‘xshab ketadi. Asar o‘zbek tilida bitilgan bo‘lib, ayrim kamchiliklardan xoli emas. Andalibning ijodini tadqiq qilgan akademik A.Qayumov asardagi barcha misralarning badiiy saviyasi yuqori emasligi va asarda ayrim qofiyasiz misralar ham uchrab turishini ta’kidlab o‘tgan. Bu esa muallif to‘laqonli badiiy asar yaratishni emas, yuz bergan tarixiy voqealarni badiiy uslubda yoritishni maqsad qilganini ko‘rsatadi. Shu bois mazkur doston tarixiy-badiiy asar sifatida talqin etiladi [Qayumov, 1961: 329].

1842-yillarda Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi o‘rtasida ziddiyatli kurashlar avj olib, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi orasidagi munosabat o‘ta taranglashadi. Asar bayoni shu hodisalar atrofida aylanib, ayrim o‘rinlarda shoir o‘z mushohadalari va fikr-mulohazalarini ham aytib o‘tadi. “Shohnoma”da Qo‘qon xonligi Sheralixon tasarrufida bo‘lgan davr hodisalari tasvirlanadi.

Ma’lumki, Qo‘qon xoni Amir Umarxon 1821-yil kasallik tufayli vafot etadi. U hukmronlik qilgan yillarda deyarli katta urushlar bo‘lmaydi. Amirxon mamlakat hududlarini mustahkamlab, aholining nisbatan farovonlikda yashashini ta’minlashga harakat qildi. Atrofiga olim-u fuzalolar, san’at ixlosmandlarini to‘plab, ularga himmat ko‘rsatdi va shu orqali adabiyot, ilm va san’at rivojiga ulkan hissa qo‘shdi va Qo‘qonda yangicha adabiy muhitni shakllantirdi.

“Ulamo va fuzalo donishlari qadr topdi. Sipoh va askarlari nizom, oroyish topib, davlatidin xalq ko‘nglida ravshanlik paydo bo‘ldi. Adlidin raiyalar osoyish topib, rohatda bo‘ldilar. Xaloyiqni in’om va ehson birla shod qildi. Fozil va raso va ulamo va shuaro birlan suhbat tuttilar. Alarni suhbatlaridin istifoda olib, kundan-kunga fazli, ziyoda bo‘lub, ovozasi viloyatlarg‘a mashhur bo‘ldi. Atrofdagi podshohlar Said Umarxonni ikromlarini bajo keltirib, tortuq va hadyalar yubordilar. Yurush va turushda zafarlik bo‘lib, umrida jilovi va inoni qaytmadi. Idbor yuzini ko‘rmadi. Tamomi umri iqbol bilan davlatda o‘tti. Turkiston ma’a (arab tilida “birga” ma’nosida qo‘llanadi) Dashti qipchoq fath bo‘ldi va yana daryodin suv chiqarib, andak tavajjuh bilan Shahrixon degan shahar chiqardi. Sahl kunda obod bo‘lub, g‘allasi Ho‘qand askarig‘a kifoyat qilib,yana ziyodasi anbor bo‘lur erdi...

Bilaxir, ul ham domi ajalg‘a giriftor bo‘lub, tamomi umaro va fuzalolarni oldig‘a chorlab, uzr aytib , rozilik talab qilib, sanai bir ming ikki yuz o‘ttuz yettida juma kuni olami foniydin baqolik olamig‘a xirom ayladi. O‘n ikki yil podshohlig‘ qildilar” [Mushrif, 1973: 19].

Amir Umarxon kasallik sababli bevaqt olamdan o‘tgach, mamlakat boshqaruvi uning to‘ng‘ich o‘g‘li Muhammadalixon va Amir Umarxonning sevikli rafiqasi va o‘zi kabi san’at ixlosmandi bo‘lgan, muhabbat kuychisi, nozikta’b Mohlaroyim Nodiraga qoladi. Nodira mamlakat osoyishtaligini ta’minlash, davlat mustahkamligini saqlash yo‘lida ko‘p jidd-u jahd qildi. Nodiraning nafaqat o‘g‘li Muhammadalixonga yurt boshqaruvida dastak bo‘lganini, balki sevikli yori Amir Umarxon davrida ham yurt taqdiriga befarq bo‘lmaganini, hukumatni adolatga, insofga chaqirib, doimo xalq tashvishida bo‘lganini uning lirik she’rlaridan ham anglashimiz mumkin:

El aybini zohir etmog‘lig‘,
Yo‘qtur insof ila muruvvatdin.
Ulki, el aybini qilur pinhon,
Tangri saqlar ani har ofatdin [Nodira, 2001: 24-25].

Nodira garchi har bir ona kabi o‘z farzandlarini komil, muruvvatli inson bo‘lishini istagan bo‘lsa-da, hokimiyat, to‘qchilik va jaholat kabi omillar o‘g‘li Muhammadalixonni yurt boshqaruvi, uning osoyishtaligini saqlash, adolat o‘rnatish kabi vazifalardan burib, nafs-u shahvatning ortidan yugurish, dunyoga qul bo‘lish, insoniy fazilatlardan uzoqlashish kabi illatlarga mubtalo qildi. “Shohnomai devona Mutrib” asarida shoir Mutrib Muhammadalixonning hukmronligiga quyidagicha ta’rif beradi:

Davlati kundan-kun haddidan oshdi,
O‘ynab, jo‘sh urub har yona toshdi.
.....
Xotin ola berdi, demadi ko‘p.
Ba’zini benikoh qaydiga soldi,
Ba’zini benikoh oldig‘a soldi.
Nafsini jilovdin olmadi qo‘lg‘a,
Qo‘ya berdi chopib borg‘on yerig‘a.

Tabiiyki, islom dini bilan sug‘orilib, unib-o‘sgan xalqning e’tiqodiga Muhammadalixonning bu qilmishlari xush kelmaydi. Shu fursatdan foydalangan ayrim beklar amir Nasrullo yordamida Muhammadalixonni taxtdan tushirmoqni qasd qiladilar. Shu kabi omillar Amir Nasrulloning Qo‘qon xonligi ustiga qo‘shin tortib kirishi va u yerda katta qirg‘inlar qilishiga sabab bo‘ladi. Amir Nasrullo Muhammadalixonni taxtdan tushirgach, uni, hali voyaga yetishga ulgurmagan yosh farzandi Muhammad Aminxon hamda ukasi Sulton Mahmudxonni birga qatl qiladi.

“Shohnomai Devonai Mutrib”da farzandlari o‘limini eshitgan Nodiraning holati badiiy uslubda quyidagicha bayon qilingan:

“Onalari ikki nuri diyda farzandlarining shahid bo‘lg‘onlarini eshitib, Xudoy taolog‘a nola qilib, aydi: “Ey bor xudo, meni ham jonimni olg‘il, farzandlardin qolib, holim na bo‘lg‘ay, deb zor-zor yig‘lab, bir munojot aytgani:

Farzandlardin qolib holim na bo‘lg‘ay,
Qodir egam, rahm et, jonim berayin.
Oxir odam ajal sharbatin ichar,
Qodir egam, rahm et, jonim berayin” [Shohnomayi devona Mutrib, LB., № 2412, 92-varaqning a va b betlari].

Qonxo‘r amir Nasrullo shoira Mohlaroyimni ham o‘z nazaridan chetda qoldirmadi. Amir Nodirani ham atrofidagi ayollar bilan birga fojiali ko‘rinishda qatl qiladi. Amir Nasrullo Buxoroga qaytishi oldidan o‘z vakili Ibrohim Xayolga Qo‘qon xonligi boshqaruvini topshirib ketadi. Ibrohim Xayol turli soliqlarni solish bilan urushdan endi chiqqan xalqning holatini yanada taranglashtiradi.

Bunday og‘ir musibatlar, Buxoro amirining zulm-u sitamlari xalq shuuriga qattiq ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun Qo‘qon aholisi Sheralixon yordamida bu zolim qonxo‘rlarni o‘z yurtidan quvib chiqarishga qaror qiladi. Bu voqealarning rivoji she’riy va nasriy tarzda “Shohnomayi Andalib” asarida ketma-ketlikda bayon qilingan hamda Amir Nasrulloning buzuq ma’naviy qiyofasi ham asarda yoritib berilgan.

Ayonki, har bir urush ortida jabr chekuvchi oddiy, bechora xalq turadi. Urushlar ortidan xalq yo‘qsillik girdobiga tortiladi, mol-mulki talanib, o‘zi va uning aziz ahllari zolimlarga qul qilinadi. “Shohnomayi Andalib”da keltirilgan quyidagi misralar orqali Amir Nasrulloning Qo‘qon xonligi ustiga ikkinchi bor qo‘shin tortib kelishi jarayonida askarlariga xalqni talash, ularni qul qilish, ayovsiz jazolash hamda ularga mutlaqo rahm-shafqat ko‘rsatmaslik haqida bergan ko‘rsatmalari tasvirlanadi. Ushbu tasvirlar Amir Nasrulloning salbiy shaxsiy qiyofasini ochib berishga xizmat qiladi:

Chiqsun hamma xalq otlanibon,
Ham jevau javshanin kiyibon.
Farg‘ona zamin sari borurmiz,
Ho‘qand sari borib olurmiz.
Ho‘qand eliga kimiki borsa,
Qilgayki zaxira har narsa olsa,
Mardonlarin g‘ulom qilsun,
Bizlarga na had kalom qilsun.

Ham ahli ayolini sotinglar,
Sotib, borini pulin olinglar.
Taroj qiling tamomi molin,
Qo‘ymang uyida siniq safolin.
Uch kecha-u kunduzi kesing bosh,
Yo‘luqsa ki anda ham qari-yosh.
Taroj qiling toki uch kun,
Rahm aylamangiz alarga har kun
[Shohnomayi Andalib №596/III, 10-a bet].

Tarixdan bizga ma’lumki, Amir Nasrulloning Qo‘qon xonligini ikkinchi marta qayta egallashga urinishi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Buning ortida, albatta, xalqning matonati, sabr-bardoshi, jidd-u jahdi kabi harakatlari yotadi. Amir Nasrulloning mag‘lubiyatini Andalib o‘z dostonida zulmning oqibati zulm, yomonlikning oqibati yomonlik bilan tugaydi, deb ta’riflaydi.

Xulosa

Umuman olganda, “Shohnomayi Andalib” asari XIX asrda yaratilgan tarixiy-badiiy asar bo‘lib, unda 1842-yil voqealari masnaviy tarzida, mufassal shaklda bayon etilgan. “Shohnoma”ning muallifi haqidagi ma’lumotlar bizgacha yetib kelmagan bo‘lsa-da, uning badiiy salohiyati va ruhiy kechinmalari haqida shoirning mazkur asarda keltirgan fikr, mulohazalari orqali tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin. Asar o‘zbek tilida bitilgan bo‘lib, ayrim kamchiliklardan xoli emas. Buni akademik Aziz Qayumov “muallif to‘laqonli badiiy asar yaratishni emas, yuz bergan tarixiy voqealarni badiiy uslubda yoritishni maqsad qilgan” [Qayumov, 1961: 329], deya talqin qiladi.

Demak, XVIII–XIX asrda lirik she’rlar bilan bir qatorda xalq dostonlariga yaqin turadigan ayrim tarixiy dostonlar ham keng tarqalib, shu dostonlar ichida “Shohnomayi Andalib” asarining ham o‘z o‘rni bor. Asar nafaqat adabiy jarayonlar haqida ma’lumot beradi, balki shu davr tarixini ham yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmonqul Orzibekov. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006.

2. Азиз Қаюмов. Қўқон адабий муҳити. – Т.: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти,1961.

3. Мирзоолим Мушриф. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. –Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973.

4. Нодира-Комила. Девон. – Т.: Халқ мероси нашриёти, 2001.

5. O‘zFA ShI, №596/III, “Shohnomai Andalib”.

6. O‘zFA ShI, №696/I, “Shohnomai Andalib”.

7. O‘zFA ShI, №596/IV, “Shohnomai devona Mutrib”.

XISLAT IJODIDA MATN VA TAHRIR MUAMMOLARI

Shahnoza Rasulova,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd),
University of Business and Science
Toshkent filiali Tillar kafedrasi o'qituvchisi
e-mail: shahnozarasulova8322@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan ma'rifatparvar shoir Sayid Haybatullohxo'janing "Qissayi kurash az Xislat" asarining matn tarixi yoritilgan. Mazkur she'riy qissaning matn tarixini o'rganish orqali Xislatning ijtimoiy voqeliklarga munosabati, ijodiy uslubidagi o'ziga xosliklar, hayotiy qiziqishlari, o'y-kechinmalari haqida muayyan tasavvurlar hosil qilish mumkin. Mavzuni yoritishda qiyosiy-tarixiy, matniy-qiyosiy, statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda masnaviyning qo'lyozma, toshbosma bayozlar va nashr variantidagi matniy tafovutlar sabablari aniqlangan hamda asliyatga muvofiq ishonchli matnlari tiklangan.

Kalit so'zlar: *qo'lyozma, matn tarixi, adabiy manbashunoslik, qissa, masnaviy, bayoz, qofiya, g'azal, asosiy matn, hoshiya.*

Abstract

This article sheds light on the textual history of the work "Qissayi kurash az Xislat" by the enlightened poet Sayid Haybatullohxoja, who lived and created at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. Studying the textual history of this poetic narrative allows one to form certain ideas about Xislat's attitude towards social realities, the peculiarities of his creative style, his life interests, and reflections. Comparative-historical, textual-comparative, and statistical analysis methods were used in addressing the topic. The study identifies the reasons for textual differences in manuscript, lithograph, and published versions of the masnavi and restores reliable texts in accordance with the original.

Key words: *text history, literary source studies, story, masnavi, bayaz, rhyme, gazal, main text, margin.*

Toshkent adabiy muhitining zabardast vakillaridan biri Sayid Haybatullohxo'ja Said Orifxo'ja o'g'li Xislat o'z zamonida mutarjim, bayoznavis shoir, noshir, kotib, xattot, noshir sifatida tanilgan va tan olingan. Biroq uning hayot yo'li va ijodiy faoliyati mukammal o'rganilmagan. O'zidan salmoqli adabiy meros qoldirgan Xislat asarlarini ilk manbalar asosida o'rganish, matnshunoslikda erishilgan so'nggi ilmiy-nazariy yutuqlarga tayanib, asarlarini matniy tadqiq etish muhim vazifalardan biridir. Haybatullohxo'ja Xislat asarlari matnshunoslik, manbashunoslik doirasida tahlil qilinar ekan, bu fanning nazariy asoslaridan bo'lgan matn tarixini o'rganish muhim masalalardan sanaladi. Ijodkor asarlarining matn tarixini o'rganish ularning yaratilish davri, tuzilishi, mazmun-mundarijasi, umumiy va o'ziga xosliklari haqida tasavvur beradi. Shuningdek, shoirning orzu-maqsadlari, kechinmalari, voqeliklarga ijobiy-salbiy munosabatlari kabi masalalar ham matn tarixini o'rganish orqali yoritiladi.

Haybatullohxo'ja Xislat lirikaning g'azal, muxammas, marsiya, masnaviy, fard kabi turli janrlarida qalam tebratgan. Alisher Navoiy, Fuzuliy, Huvaydo, Muqimiy, Furqat, Kamiy kabi mumtoz adabiyotimiz namoyandalarining ijodiga izdoshlik qilgan. Ularning g'azallariga muxammaslar bog'lagan. Shoir she'rlarining mazmun-mundarijasini diniy, ishqiy, ma'rifiy-axloqiy, ijtimoiy kabi turlarga bo'lish mumkin.

Xislat ijodi xususida ba'zan umumiy tarzda ba'zan maxsus maqolalar e'lon qilingan bo'lsa-da, asarlarining matn tarixi bilan bog'liq jihatlari tadqiq etilmagan. Zero, "Matn tarixi qo'lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va hatto manbani ko'chirgan kotibning dunyoqarashi va g'oyasini o'rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro'yobga chiqishidan uning yaratilishigacha u yoki bu darajada aloqador bo'lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan o'zaro bog'liq jihatlari tadqiqigacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi" [Jabborov, 2019: 12].

Xislat ijodida kurash voqealari bayon etilgan she'riy qissa alohida o'rin egallaydi. Shoir yashagan

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ham kurash xalqning sevimli tomoshalaridan biri bo‘lgan. Shunday kurash musobaqalarining shohidi bo‘lgan Xislat unga bog‘liq tafsilotlarni qalamga olgan. Mazkur she’riy qissaning matn tarixini o‘rganish orqali Xislatning ijtimoiy voqeliklarga munosabati, ijodiy uslubidagi o‘ziga xosliklar, hayotiy qiziqishlari, o‘y-kechinmalari haqida muayyan tasavvurlar hosil qilish mumkin.

869 raqamli qo‘lyozma bayozga Xislatning kurash tafsilotlari yoritilgan masnaviyning ikki xil nusxasi ko‘chirilgan: biri asosiy matnda, ikkinchisi hoshiyada. Ushbu she’riy qissaning kirill imlosidagi tabdili A.Jalolovning “G‘azallar” [Jalolov, 1971: 76], M.Asadullayev, T.Zufarovlarning “Tarannum” to‘plamlarida nashr etilgan [Asadullayev, 2009: 105].

“Qissayi kurash az Xislat” asarining matn tarixini o‘rganishda qiyosiy-tarixiy, matniy-qiyosiy, biografik metod hamda tasniflash, tavsif qilish usullaridan foydalanildi. Birlamchi manbalardagi ma’lumotlar, qo‘lyozmalar qiyosiy tipologiyasi ijodkor asarlarining eng ishonchli matnlarini tiklash imkonini berishi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Matn tarixi, ilmiy-tanqidiy matn, adabiy asarlarning muallif dastxati bilan ko‘chirilgan nusxalarini nashr variantlari bilan qiyoslash singari ilmiy muammolar, ayniqsa, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning asosini tashkil etadi.

Mazkur masnaviyning matn tarixi olim Q.Pardayev tasnifi asosida o‘rganildi. Ular quyidagilar: a) asar yozilishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar, ijodkor maqsad va rejalarining yuzaga chiqish jarayoni; b) asarning qo‘lyozma manbalardagi kitobat tarixi; d) asarning joriy nashrlardagi matni masalasi; e) asar ilmiy talqinlarining matn tarixi bilan bog‘liqligi [Pardayev, 2019: 14].

Asar yozilishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar, ijodkor maqsad va rejalarining yuzaga chiqish jarayoni. Xalqimiz uchun yangi yil (sarsoli), yangi kun – Navro‘z bayramini nishonlash, kurash bo‘yicha bellashuv tashkil qilish xalqimizning azaliy an’analaridan biridir.

Xislat she’riy qissasi masnaviy shaklida yozgan bo‘lib, ushbu satrlar shoir qalamga olgan voqeliklar bilan o‘quvchini tanishtiradi:

Eshiting, ey yoronlar, aytayin so‘z,
Kiribon yangi yil, chun bo‘ldi Navro‘z.
Qilay sarsoli Toshkandin hikoyat,
Qiziq bo‘ldi tamoshosi nihoyat...
Eshiting, bo‘lsangiz oqil so‘zimni,
Pisand etmas kishi ko‘rsa o‘zimni.
Bayon aylay siza Ahmad kuroshin,
Qilur maydonda ul Rustam taloshin...

She’riy qissada tilga olingan Ahmad polvon haqida sport murabbiyi T.Odilov shunday ma’lumot beradi: “XX asrning boshlarida o‘zbek xalqi orasida toshkentlik Ahmad polvonning nomi mashhur bo‘lib ketdi. Ahmad polvon naqadar kuchli va mahoratli bo‘lgan. U XIX asrning 90-yillarida faqat Toshkent muzofoti emas, butun Turkistonga tanilgan polvon bo‘lib yetishgan” [Odilov, 1975: 8]. Demak, Xislat qissasining qahramoni o‘zbek kurashchilari ichida nom qozongan Ahmad polvon bo‘lib, shoir o‘zi guvohiga aylangan kurash musobaqasini she’riy nazmga solgan.

Asarning qo‘lyozma manbalardagi kitobat tarixi. 869-qo‘lyozma bayozning 16–23-sahifalari hoshiyasi hamda 495–498-betlarida kurash mavzusidagi masnaviyning ikki xil nusxasi ko‘chirilgan. Namunadagi tasvirlardan ham ko‘rinmoqdaki, hoshiyadagi qissa matni bayoz sahifalariga keyinchalik ko‘chirib qo‘yilgan.

Asosiy matndagi qissa غزل خصلت در تعریف کوراش “G‘azali Xislat dar ta’rifi kurash” deb sarlavhalangan, 23 bayt – 46 misradan iborat. Hoshiyadagi matn esa قصی کوراش از خصلت“Qissayi kurash az Xislat” deb nomlangan, 32 bayt – 64 misradan tashkil topgan. Xislat dastlab she’riy qissasini g‘azal deb atagan. Bizningcha, keyinchalik quyidagi omillar “Qissayi kurash” (“Kurash qissasi”) deb qayta nomlanishiga sabab bo‘lgan. Birinchidan, she’riy qissa g‘azal shaklida (a-a, b-a,

v-a) emas, masnaviy kabi (a-a, b-b, v-v) qofiyalanish tizimiga ega. Ikkinchidan, g‘azallar, odatda, 3–19 baytdan tashkil topadi. Xislatning she’riy qissasi miqdor jihatdan ham (32 bayt) bu talabga mos kelmay qolgan. Uchinchidan, voqelikning ifodalash tarzi g‘azaldan ko‘ra, masnaviy shaklida ancha erkin va qulayroq sanalgan. Hazrat Navoiy aytganlaridek, masnaviy orqali voqelikni keng va batafsil ifoda etish mumkin:

Masnaviykim, burun dedim oni,
So‘zda keldi vasi’ maydoni [Navoiy, 1991: 35].

Sharq mumtoz adabiyotining bilimdonlaridan bo‘lgan shoir dostonlar yaratiladigan she’riy shakl – masnaviyga murojaat qilib, o‘ziga xos uslubdagi voqeiy qissasini yaratgan.

Adabiyotshunos A.Jalolov bu she’riy qissaga shunday ta’rif bergan: “Xislatning toshkentlik Ahmad polvonga bag‘ishlangan “Qissayi kurash az Xislat” nomli 64 misrali masnaviysi ham bevosita xalq dostonlari uslubida yozilgan. Xislatning o‘zi ilk ijodidan boshlaboq badiiy asar tilining xalq jonli so‘zlashuv tiliga mos va yaqin bo‘lishi kerakligini tushunib, o‘z she’rlarini ommaga tushunarli qilib yaratdi. Shuning uchun ham uning yozgan asarlari xalqqa tushunarli, sodda, ravon, shu bilan birga, xalq kuylariga juda yaqin turadi” [Jalolov, 1987: 25]. Darhaqiqat, she’riy qissaning uslubi ravon, o‘qilishi yengil, sodda tilda yozilgan.

Bayozdagi har ikki matn o‘zaro tahlil qilinganda, hoshiyadagi she’riy qissa ancha pishiq va mukammal holda yozilgani anglashiladi. Hoshiyadagi 3-, 6-, 11-, 12-, 13-, 14-, 15-baytlar asosiy matn tarkibida uchramaydi.

Xislat bayozning asosiy matndagi nusxasiga nega qo‘shimcha baytlar kiritgani izoh talab qilishi tabiiy. Yuqorida keltirilgan ayrim baytlarni tahlil qilamiz:

Kurash mundin muqaddam mamnu’ erdi,
Olib xavl boylara fudradga berdi (3-bayt).

Matndagi *“mamnu’”* – “man etilgan”, “taqiqlangan”, *“xavl”* – ruxsat etilgan, *“pudrat (fudrat)”* – “bir tomon ikkinchi tomon buyurtmasi asosida ma’lum bir ishni to‘lig‘icha bajarib berish majburiyatini olgan shartnoma va shu asosda bajariladigan ishning o‘zi” kabi ma’nolarni anglatadi.

Q.Atoyev ma’lumotlariga ko‘ra, “XX asr boshlarida kurash musobaqasi shu darajada taraqqiy qildiki, u hukmron sinf ko‘zlagan tor doiradan chiqib, ommani o‘z ta’siriga keng tortadigan tomosha turiga aylandi. Shundan keyin chor amaldorlari omma orasida kurashning rivojlanishiga chek qo‘yishga urindi hamda bunday musobaqalarni uyushtirishni hukmron doiralarning istagiga bo‘ysunuvchi chora-tadbirlar ko‘ra boshladilar. Masalan, Toshkent politsiya mahkamasi e’lon qilgan buyruqda hukumat vakillarining ruxsatisiz shaharda kurash musobaqasi man etilganligi aytilgan edi” [Atoyev, 1987: 37]. Bizningcha, Xislat *“Kurash mundin muqaddam mamnu’ erdi”,* deb yozganida, Q.Atoyev keltirgan voqealarni nazarda tutgan.

Hoshiyaga ko‘chirilgan, avvalgi nusxada uchramaydigan 11-, 12-, 13-, 14-, 15-baytlarida Ahmad polvonning ta’rifi, kurash musobaqasiga tayyorgarlik jarayonlari ifodalangan.

Aning hech tegmag‘an yonboshi yerg‘a,
Yiqar erdi kurash tushganda sherg‘a.
Butun dunyoni mashhur pahlavonin,
Bilurman yerg‘a yiqmay qo‘ymag‘onin.

Yuqoridagi baytda Xislat Ahmad polvon nomini dunyoga tanitgan voqealarni nazarda tutgan. Shuningdek, baytlar mazmunidan shoirning Ahmad polvon kurashlarini muntazam kuzatgani, uning muxlislaridan ekanligini anglash mumkin.

Xislat she’riy qissaning hoshiyaga ko‘chirilgan nusxasini yanada sayqallashtirib, mazmunini mukammallashtirgan. Bu holat matnlar o‘zaro taqqoslanganda ko‘zga tashlanadi.

Asosiy matn (495-bet)	Hoshiyadagi matn (16-bet)
ی‌نام‌الاراد ک‌نی‌روک ی‌دلوب ش‌اروک ی‌ناولەپ ب‌وک رالی‌دلی‌ک ب‌لی‌غی‌ی Kurash bo‘ldi ko‘ring dor-al-amoni, Yig‘ilib keldilar ko‘p pahlavoni.	رال‌نام‌الارادش‌اروک مد لوا ب‌ولوب رال‌ناولەپ ب‌وک رالی‌دلی‌ک ب‌لی‌غی‌ی Bo‘lub ul dam kurashdor alamonlar, Yig‘ilib keldilar ko‘b pahlavonlar.
روض‌نم ی‌ی‌اج لوش ەرال‌ناک‌لوا ب‌ولوب روظ‌نم ەغ‌ملاع ری‌د ەناخ‌ردن‌ق‌ل Bo‘lub ulkanlara shu joyi manzur, “Qalandarxona” der olamg‘a mashhur.	روض‌نم ی‌ی‌اج لوش ب‌ولوب ەغ‌رال‌غ‌ولوا روظ‌نم ەغ‌ملاع ری‌د ەناخ‌ردن‌ق‌ل Ulug‘larga bo‘lib shul joy manzur, “Qalandarxona” der olamg‘a mashhur.
ی‌لاع ی‌ی‌اج ب‌ی‌اج‌ع رب لوا ی‌دی‌ا ی‌لاث‌م مدآ رال‌ی‌دراب ک‌ی‌دخ‌لم Edi ul bir ajoyib joyi oliy, Malaxdek bordilar odam misoli.	ی‌لاع ی‌ی‌اج ب‌ی‌اج‌ع رب لوا ی‌دی‌ا ی‌لاث‌م مدآ رال‌ی‌دلی‌ک ک‌ی‌دخ‌لم Edi ul bir ajoyib joyi oliy, Malaxdek keldilar odam misoli.

Qissada musobaqa uchun rahbarlar (ulkanlar, ulug‘lar)ga ma’qul kelgan joy “Qalandarxona” deb atalishi yozilgan. Sport murabbiysi T.Odilov o‘z risolasida Ahmad polvonni ko‘rgan 108 yoshli Obid Mahmudovning fikrlarini keltirgan: “Hali ham xotiramda. Ahmad aka Beshyog‘ochning Kamolon mahallasida istiqomat qilardi. O‘sha vaqtlarda kurashxonada (ko‘mir saroyining ichida – hozirgi GUMning o‘ng tomoni) tez-tez kurash musobaqalari bo‘lib turardi. Ahmad aka kurash tusharmish degan ovozani eshitgan katta-yu kichik kurashxona tomonga oshiqar edi” [Odilov, 1975: 9]. Bizningcha, she’riy qissadagi kurash musobaqasi o‘tkaziladigan, “olamg‘a mashhur” deya ta’riflangan “Qalandarxona” O.Mahmudov tilga olgan joy bo‘lsa kerak.

She’riy qissa baytlaridan Ahmad polvon musobaqaga yarador holatda bo‘lsa ham kelganligi, uning raqibi Xo‘ja polvon ekani oydinlashadi:

Biqinda bor edi Ahmad yarosi,
Ko‘runmay ko‘ziga oq-u qarosi.
Xo‘japolvon bo‘lub anga talabgor,
Urubon behuda lofini bisyor.

She’riy qissaning yaralishi haqida bevosita ma’lumot beruvchi manbalardan biri M.Muhammadjonovning “Turmush urinishlari” asaridir. Unda Ahmad polvonning musobaqadagi raqibi Xo‘ja polvon haqida shunday yozilgan: “1904-yili quvalik Xo‘ja pahlavon Toshkentga kelib, atrofda “manman” degan pahlavonlarni bitta qo‘ymay qoyil qilib yiqitib yurar edi. Shu pahlavon Toshkentda ikki oycha davr surib, yuzlab chopon kiydi va pul orttirdi. Oxiri o‘ziga baravar keladigan pahlavon qolmagandan keyin Ahmad polvon bilan kurash tushmoqqa talabgor bo‘ldi. Bu vaqtda Ahmad pahlavonning beliga yara chiqib, qiynalib yurgan edi. Nomusi kuchli bu shijoatli pahlavon uning talabini qaytarmadi” [Muhammadjonov, 1969: 33]. Demak, Xislat qalamga olgan kurash musobaqasi 1904-yilda o‘tkazilgan. Bu paytda 23-24 yoshli shoirning sinchkov, hayotga qiziquvchan paytlari bo‘lgan.

Qo‘lyozma bayozdagi har ikkala she’riy matnlar qiyosiy tahlil qilinganda, hoshiyadagi masnaviyning shaklan to‘liq, mazmunan mukammal ekanligi anglashiladi. O‘z navbatida, Xislatning so‘z qo‘llash mahorati, ifoda uslubi, ijodining o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi:

Asosiy matn (497-498-betlar)	Hoshiya matni (20–23-betlar)
بلینی باغلابان چون بردی میدان کورب قدینی برچه بولدی حیران Belini bog‘labon chun bordi maydon, Ko‘rub qaddini barcha bo‘ldi hayron.	دیر ایردی قدو باستینی کورکان انسان ان ارّ یا کیکی وب بر شریری غ ایروری Der erdi qaddu bastin ko‘rgan inson, Erur go‘yoki bu bir sheri g‘arron.
مد لوا هتیحاتب یریب الیاقلخ مدهم نس بریلهه نیابود نسوم بولضح Xaloyiqlar berib fotiha ul dam, Hizr bo‘lsun debon sen birla hamdam.	مد لوش هتیحاتب یریدریاقلیخ مدهم نس بریلهه نیابود نسوم بولضح Xaloyiq berdilar fotiha shul dam, Hizr bo‘lsun debon sen birla hamdam.
آلیابان برچهدین خالص دعانی فرامو ش ایتمایین دلدین خدانی Olibon barchadin xolis duoni, Faromush etmayin dildin xudoni	توراردی واتادهآلیب دعانی فرامو ش ایتمایین دلدین خدانی Turordi o‘rtada olib duoni, Faromush etmayin dildin xudoni.
کی خواجه پهلوان بولوب طلبکار واروباتن الفینی بیهوده بیسیار Ki Xo‘ja pahlavon bo‘lub talabgor, Urubon lofini behuda bisyor.	خواجه پالوان بولوب انکا طلبکار واروباتن الفینی بیهوده بیسیار Xo‘japolvon bo‘lub anga talabgor, Urubon behuda lofini bisyor.
کی خواجه پهلوان روز قیلدی چندان ایاغینی اوزالمای بولدی حیران Ki Xo‘ja pahlavon zo‘r qildi chandon, Ayog‘ini uzolmay bo‘ldi hayron.	کوتارسام زور ده‌ب روز اوردی چندان ایاغینی اوزالمای بولدی حیران Ko‘tarsam zora deb zo‘r urdi chandon, Ayog‘ini uzolmay bo‘ldi hayron.
یتیبان اوخرآ نان یخرا حمدغه نوبت ایاغینی اوزوب یردین وا رصت Yetibon oxiri Ahmadg‘a navbat, Ayog‘ini uzub yerdin u fursat.	یتیبان اوخرآ نان یخرا حمدغه نوبت اوزوب رب ایله دریدی وا رصت Yetibon oxiri Ahmadga navbat, Uzub bir zo‘r ila yerdin u fursat.
اکیکارکوک هدونیم نوا نیراتوک اب سیب نوا بیر قدمبی قویدی یری Ko‘torib o‘n minutda ko‘kragiga, Bosib o‘n bir qadamni qo‘ydi yerga.	اغیکارکوک هچونیم نوا نیراتوک اب سیب نوا بیر قدمبی قویدی یرغ Ko‘torib o‘n minutcha ko‘kragig‘a, Bosib o‘n bir qadamni qo‘ydi yerg‘a.
کنیدلقیی نیدم نواله پ ای یدی کنیدلغ‌ی شرطی بیدلی نواله پ ایرور شو ل Dedi: ey pahlavon, mandin yiqilding, Erur shul pahlavonlig‘ sharti bilding.	کنیدلقیی نیدم نواله پ ای یدی ایرور شو ل پ هلواله نلیکی شرطی بیدلی نک Dedi: ey pahlavon, mandin yiqilding, Erur shul pahlavonlik sharti bilding.
دابنیرفآ کنیم نم هغدمحا ایمدی دازیمدآ ومرولوب روز کنینوم Dedim Ahmadg‘a man ming ofarinbod, Muningdek zo‘r bo‘lurmu odamizod.	دابنیرفآ رالیرکوکنا ایرالیدی دازیمدآ ومرولوب روز کنینوم Dedilar ko‘rgan erlar ofarinbod, Muningdek zo‘r bo‘lurmu odamizod.
تمحر هغدمحا لشوا لصخ تلدی خدا ب یرکاکنا ایوق روز وب Dedi Xislat o‘shal Ahmadg‘a rahmat, Xudo bergan ekan bu zo‘r-u quvvat.	تمحر هغدمحا لشوا لصخ نابی د تمت یقیدلی ی تمت هصق ینیس ینقیدلی ی تمت کوراشن Debon Xislat o‘shal Ahmadg‘a rahmat, Kurashni qissasini qildi tammat.

Asarning joriy nashrlardagi matni masalasi. Xislat “Kurash qissasi”ning dastlabki tabdil

shakli adabiyotshunos A.Jalolov tomonidan “G‘azallar” to‘plamida chop etilgan. Ushbu nashrga 869 raqamli qo‘lyozma bayozning hoshiyasidagi she’riy matn asos qilib olingan. Ammo nashrda qo‘lyozmadagi 21-bayt tushirib qoldirilgan:

توراردی اورتاده الیب دعانی
فراموش ایتماین دلدین خدانی
Turordi o‘rtada olib duoni,
Faromush etmayin dildin Xudoni.

Bizningcha, bu bayt ateizm – xudosizlik tashviqoti olib borilgan davrda atayin nashrdan tushirib qoldirilgan.

869 raqamli bayozning asosiy matnidagi she’riy qissa esa M.Asadullayev, T.Zufarovlarning “Tarannum” to‘plamida chop etilgan. E’tiborlisi, nashrdagi ushbu ikki misra bayozdagi har ikki matn tarkibida uchramaydi:

Kurash olmoq uchun Ahmad u fursat,
Turubon o‘rnidin Ahmad u zahot [Toshqin, 1969: 105].

“Tarannum” mualliflari kurash qissasi matnidan so‘ng shunday izoh yozganlar: *“She’rning bu matni “Xislat. G‘azallar” (T. – 1971) kitobidan keltirilgan matndan farq qiladi. Avvalambor, bu matndagi baytlar soni 24 ta bo‘lgani holda, kitobdagi baytlar soni 31 tadir. Bundan tashqari, baytlar bayonida juda ham ko‘p farqlar mavjud. Fikrimizcha, bu matn mazkur she’rning dastlabki nusxalaridan biri bo‘lsa kerak*” [Asadullayev, 2009: 107].

“Tarannum” mualliflari bu yerda A.Jalolovning tabdil nashrini nazarda tutganligini ta’kidlash lozim. Biroq ushbu fikrlar biroz bahsli, izoh talab etadi.

Birinchidan, 869 raqamli qo‘lyozma hoshiyasidagi she’riy matn mualliflar yozganidek, 24 emas, 23 baytdan iborat.

Ikkinchidan, A.Jalolov nashridagi matn “Kurash qissasi”ning dastlabki nusxalaridan bo‘la olmaydi. Chunki A.Jalolov Xislatning kurashga bag‘ishlangan masnaviysi bayozning asosiy matnida mavjud bo‘lsa-da, uning hoshiyadagi, aniqrog‘i, keyinchalik qayta ishlov-tahrirdan o‘tkazilgan nusxasini nashr ettirgan.

Uchinchidan, A.Jalolov nashridagi baytlar soni 31 ta bo‘lib, 869 raqamli qo‘lyozmada 32 tadir. Qo‘lyozma bayozning hoshiyasida yozilgan nusxasi keyinchalik yaratilganini nazarda tutsak, A.Jalolov nashridan o‘rin olgan “Kurash qissasi” matnini nisbatan to‘liq va mukammal variant deyishimiz mumkin.

Asar ilmiy talqinlarining matn tarixi bilan bog‘liqligi. Qo‘lyozma bayozdagi “Kurash qissasi” “G‘azallar” va “Tarannum” to‘plamlariga (bir bayt tushgani, ortgani hisobga olinmaganda) asl holicha ko‘chirilgan. Mazkur kurash voqeasi manbalarda shoir tasvirlagan holatda aks etgan. E’tiborli tomoni, M.Toshqinning “Turmush urinishlari”da Xislat va Karimbek Kamiy taxallusi qo‘llangan she’riy qissa mavjudligi aniqlandi. Risola muallifi dastlab Ahmad va Xo‘ja polvonlarning kurash musobaqasini hikoya qiladi, so‘ngra 24 bayt (44 misra)dan masnaviy keltiradi. Mazkur matnning umumiy mazmuni biz tarixini o‘rganayotgan she’riy qissa bilan bir xil, ya’ni Ahmad va Xo‘ja polvonlarning bahsi va so‘nggida Ahmad polvonning g‘alabasi bilan yakunlanadi. Matnning ayrim bandlari 869 raqamli qo‘lyozmaning hoshiyasida kelgan nusxasiga o‘xshab ketsa, ayrim bandlari har ikkisidan farq qiladi.

Anglashiladiki, bu kurash musobaqasiga Xislat kabi uning ustozi Karimbek Kamiy ham guvoh bo‘lgan va birgalikda ushbu voqeani nazmga solganlar. “Tarannum” kitobida kurash voqeasining bevosita shohidi bo‘lgan sozgar Usta Usmonning xotiralari keltirilgan. Unga ko‘ra, o‘sha kuni (kurash bo‘lgan kun – Sh.R.) bilet 10 tiyin o‘rniga 15 tiyinga chiqib ketgan ekan. U davrda bu juda katta pul hisoblangan. Ahmad polvon kurashdan keyin xaloyiq in’om etgan barcha sovg‘alarni tavoze bilan Xo‘ja polvonga taqdim etgandan so‘ng xaloyiqqa murojaat qilib: “Sizlarning yuzlaringdan o‘ta

olmadim!" – deya belidagi katta yarasini koʻrsatgan ekan [Asadullayev, 2009: 107].

Kurash mavzusiga oid manbalarni oʻrganar ekanmiz, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida oʻzbek xalq yakka kurashining belbogʻli kurash deb nomlangan kurashchilari ichida Ahmad polvon va Xoʻja polvonlarning nomlari har oʻrinda yonma-yon tilga olinganiga guvoh boʻldik. Shuningdek, ushbu manbalar shoir keltirgan voqeliklarga mos holda talqin etilganligi qayd etish lozim.

Haybatullohxoʻja Xislat qalamiga mansub "Kurash qissasi" oʻzbekona milliy ruhda yozilgan nodir asarlardan sanaladi. Ushbu asar orqali ijodkorning milliy adabiy an'analarni oʻz ijodiga sindirganligi anglashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни / Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент: Mumtoz soʻz, 2019.

2. Хислат. Ғазаллар (Тузувчи ва сўзбоши муаллифи: А.Жалолов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971.

3. Хислат. Тараннум (Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари: М. Асадуллаев, Т. Зуфаров). – Тошкент: Merius, 2009.

4. Пардаев Қ. Муқимий шеъриятида матн тарихи, таҳрири ва талқини. Филол. фан. д-ри (DSc)... дисс. – Тошкент, 2019.

5. Одилов Т. Миллий кураш – спортнинг оммавий тури. – Тошкент: Ўзбекистон, 1975.

6. Тошкент энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2009.

7. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.

8. Жалолов А. Озодликни улуғлаб. – Тошкент: Фан, 1987.

9. Атоев А. Кураш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987.

10. Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Navoiy universiteti, 2019.

11. Одилов Т. Миллий кураш – спортнинг оммавий тури. – Тошкент: Ўзбекистон, 1975.

12. Лихачев Д.С. При участие А.А. Алексеева и А.Г. Боброва. Текстология на материале русской литературы X-XVII веков. – Санкт-Петербург: Алетейя, 2001.

13. Мўминжон Муҳаммаджонов. Турмуш уринишлари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969.

14. Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент: Навоий университети, 2019.

TURKIY QO‘LYOZMALAR KORPUSIDA KO‘P NUSXALILIKNI ANIQLASHDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA VARIANTLARNI AVTOMATIK SOLISHTIRISH

Safarova Fotima Ne’matulla qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Filologiya fakulteti Roman-German tillari
kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: fotimanematullaevna@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada turkiy xalqlar qo‘lyozma merosida keng uchraydigan ko‘p nusxalilik va matn variantlarini aniqlash muammosi sun’iy intellekt vositalari yordamida hal etish masalasi yoritiladi. Shuningdek, turkiy qo‘lyozmalar tarixiy, hududiy, xattotlik va dialekt farqlari tufayli bir asarning bir necha nusxasida imlo, fonetika, leksika, grammatik qurilish, so‘z tartibi, shuningdek, nusxalovchi tomonidan kiritilgan tahrirlar vositasida sezilarli darajada farq qilishi mumkin. An’anaviy matnshunoslikda bunday nusxalarni qo‘l bilan solishtirish, farqlarni qog‘ozda belgilash, ularni semantik va tarixiy jihatdan izohlash juda ko‘p vaqt va mehnat talab qiladi hamda sub’ektivlik xavfini kuchaytiradi, – kabi fikrlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *turkiy qo‘lyozmalar, matnshunoslik, ko‘p nusxalilik, variant, sun’iy intellekt, avtomatik solishtirish, korpus, stemma.*

Abstract

This article examines the problem of identifying multiple copies and textual variants that are widely found in the manuscript heritage of Turkic peoples, and proposes an artificial intelligence-based solution to this issue. Due to historical, geographical, scribal, and dialectal differences, different manuscript copies of the same work may vary significantly in spelling, phonetics, vocabulary, grammatical structure, word order, and in the scribal edits introduced during copying. In traditional textual scholarship, manually comparing such copies, marking differences, and providing semantic and historical explanations requires extensive time and labor and increases the risk of subjectivity. The article proposes a hybrid AI model that includes steps such as normalizing OCR and transcription output, applying token-level distance metrics, measuring semantic similarity through embeddings, and automatically aligning variants. Experiments based on typical examples taken from Chagatai and Old Uzbek manuscripts show that the proposed model can accurately identify graphemic, phonetic, lexical, and even semantic variations, assist in reconstructing genealogical relationships between copies, and significantly accelerate the creation of critical editions.

Keywords: *Turkish manuscripts, textual criticism, multi-copy variation, variant, artificial intelligence, automatic comparison, corpus, stemma.*

Kirish

Turkiy xalqlar yozma merosi bir necha asrlar davomida turli siyosiy va madaniy makonlarda shakllangan bo‘lib, bir asarning turli hududlarda qayta ko‘chirilishi tabiiy bir holat sanaladi. Natijada bir xil nom bilan yuritiladigan matnning bir-biridan ko‘pincha sezilarli darajada farq qiladigan bir necha qo‘lyozma nusxalari vujudga kelgan [Özdemir, 2021:205]. Bu ko‘p nusxalilik matnshunoslik va filologik tadqiqotlar uchun bir tomondan boy ilmiy material bo‘lsa, ikkinchi tomondan tahlil qilishni nihoyatda murakkablashtiruvchi omil hisoblanadi. Har bir nusxada imlo va grafika o‘zgarishi, dialektal shakllar, nusxalovchilar kiritgan tuzatishlar, ayrim satrlarning qo‘shilishi yoki tushib qolishi, so‘z tartibining almashishi kabi ko‘rinishdagi o‘zgarishlar jamlangan bo‘ladi [Begmatov, 2021: 46]. Klassik matnshunoslik an’analarida bunday nusxalar odatda qo‘lyozmaning fotonusxasi yoki ko‘chirma matni ustida satrma-satr taqqoslash orqali o‘rganiladi [Hassan, 2022 : 84)]. Tadqiqotchi har bir farqni belgilar bilan ajratib yozadi, variantlarni ro‘yxatga oladi, keyin ularni semantik, stilistik va tarixiy jihatdan izohlaydi, so‘ng tanqidiy matn uchun eng asosli deb hisoblangan variantni tanlashga harakat qiladi [Li & Zhang, 2020: 817]. Bu jarayon, ayniqsa, katta hajmli matnlar yoki juda ko‘p nusxaga ega asarlar bilan ishlaganda, oylar va ba’zan yillab vaqt olishi mumkin. Natijada bir tomondan

ilmiy ishlarda koʻp nusxalar toʻliq qamrab olinmasligi, ikkinchi tomondan esa mavjud tahlilda inson omili tufayli xatolarga yoʻl qoʻyilishi ehtimoli yuqori boʻladi. Soʻnggi yillarda raqamli gumanitar fanlar, kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt sohalarida tarixiy matnlar, qadimgi qoʻlyozmalar va klassik adabiyotlarni avtomatik qayta ishlashga qaratilgan tadqiqotlar sezilarli darajada koʻpaydi. Turli tillarda qoʻlyozma matnlarini OCR yordamida raqamlashtirish, matnni normalizatsiya qilish va variantlarni avtomatik aniqlashga doir ishlar natijasida algoritmlar batafsil ishlab chiqilmoqda. Lekin turkiy qoʻlyozmalar uchun maxsus moslashtirilgan, fonetik uygʻunlik, arab grafikasi oʻziga xosliklari, turkiy tillardagi morfologik boylik va erkin soʻz tartibi kabi omillarni hisobga oluvchi kompleks yondashuv hali yoʻq darajada kam uchraydi [Musaev, 2022 : 57]. Shu sababli mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi turkiy qoʻlyozmalar korpusida uchraydigan koʻp nusxalilikni aniqlash uchun sun'iy intellekt asosida ishlovchi gibrid modelni taklif qilish, uning ishlash bosqichlarini batafsil ta'riflash hamda kichik tajriba korpusi asosida dastlabki natijalarni namoyish etishdan iboratdir. Maqolada model ishlashi uchun zarur boʻlgan raqamlashtirish va normalizatsiya bosqichlari, leksik va semantik darajadagi yaqinlikni oʻlchash texnikalari, variantlarni avtomatik moslashtirish jarayoni hamda nusxalar oʻrtasidagi genealogik aloqalarni (stemma) taxminan qayta tiklash imkoniyati yoritiladi. Natijalar asosida an'anaviy matnshunoslik usullarining afzalliklari saqlangan holda, ularga yordamchi sifatida ishlay oladigan sun'iy intellekt yondashuvining afzallik va chegaralari muhokama qilinadi.

Tadqiqotda koʻp nusxalilikni avtomatik aniqlash va solishtirish uchun sun'iy intellektga tayanadigan gibrid yondashuv qabul qilindi. Birinchi bosqichda tadqiqot uchun maxsus kichik korpus tayyorlanadi. U uchta shartli ravishda "Andijon nusxasi", "Buxoro nusxasi" va "Qashqar nusxasi" deb nomlangan matnlardan iborat boʻlib, ularning barchasi Chigʻatoy va eski oʻzbek tilidagi she'riy va nasriy parchalardan tashkil topadi [Kim et al., 2023: 590]. Bu nusxalar real qoʻlyozmalardagi tipik oʻzgarishlarni aks ettiradigan tarzda tanlangan hamda ma'lum darajada rekonstruksiya qilingan, ya'ni misollar ilmiy jihatdan ishonarli boʻlishi uchun haqiqiy oʻzgarish modeliga tayangan holda soddalashtirilgan. Ikkinchi bosqichda matnlar raqamlashtirildi. Bu yerda avval qoʻlyozmalarni yoki ularning faksimilelari asosida OCR tizimi yordamida dastlabki matn varianti olindi. Turkiy matnlarning arab yozuvidagi oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda umumiy OCR tizimi ustiga maxsus oʻqitilgan model qoʻshildi, bu esa "ه/ح", "س/ص", "ی/ی" kabi grafemik farqlarni toʻgʻri tanib olish imkonini oshirdi [Musaev, 2022, :58]. OCR natijasida olingan matnlar dastlabki koʻrinishda juda notekis, turli imlo odatlari bilan boʻlganligi sababli, keyingi bosqich sifatida normalizatsiya amalga oshirildi. Normalizatsiyada "koʻngül/koʻngil", "birla/bila/bile", "oshik/oshuk", "boʻlur/bolur" kabi fonetik va grafemik variantlar yagona me'yorga keltirilmadi, balki ular alohida variant sifatida saqlangan holda analitik maqsadlarda maxsus belgilab borildi [Özdemir, 2021, p. 211]. Maqsad bu shakllarni yoʻqotish emas, balki ular ustida masofa va oʻxshashlikni aniq oʻlchash boʻldi. Uchinchi bosqichda variantlarni aniqlashning oʻzi amalga oshirildi. Avvalo token darajasida yaqinlikni aniqlash uchun Levenshtein masofasi, Jaccard oʻxshashligi kabi klassik satr solishtirish algoritmlaridan foydalanildi [Li & Zhang, 2020 : 821]. Masalan, "birla" va "bile" shakllarining farqi bitta harf almashtirilishi va bitta tushish bilan izohlanishi, "oshik" va "oshuk" oʻrtasidagi farq unli oʻzgarishi bilan belgilanadi. Bu bosqich matnlarning grafemik va fonetik darajadagi oʻzgarishlarini avtomatik aniqlashga xizmat qildi. Token darajasidagi oʻlchovlar yetarli boʻlmagan holatlarda semantik yaqinlikni baholash uchun sun'iy intellekt modeliga asoslangan embeddinglar qoʻllanildi [Nurlanova, 2023 : 130]. Buning uchun koʻp tilli BERT modelining moslashtirilgan varianti hamda turkiy tillar uchun tayyorlangan FastText embeddinglari ishga tushirildi [Begmatov, 2021 : 52]. Har bir soʻz yoki birikma semantik fazoda vektor sifatida tasavvur qilinib, turli nusxalarda uchraydigan "shijoatlik", "bahodir", "mard" kabi soʻzlar bir-biriga qanchalik yaqin joylashgani boʻyicha baholandi. Semantik oʻxshashlik yuqori boʻlgan hollarda sun'iy intellekt bu birliklarni bir guruh variant sifatida koʻrsatdi. Toʻrtinchi bosqichda avtomatik moslashtirish va stemma qurish ishlari amalga oshirildi

[Kim et al., 2023 : 597]. Har bir nusxadagi matn satrlar bo‘yicha va katta birliklar, masalan, gap yoki gaplar ketma-ketligi bo‘yicha moslashtirildi. Bu jarayon alignment algoritmlari, xususan, dinamik dasturlash tamoyillariga asoslangan bo‘lib, turli nusxalarda satrlarning tartibida kichik farqlar bo‘lsa ham, ularni eng maqbul tarzda bir-biriga bog‘lab berdi. Shundan so‘ng nusxalar o‘rtasida umumiy o‘xshashlik va farqlanish darajasi bo‘yicha masofalar matritsasi tuzildi va bu ma’lumotlar asosida nasab daraxtiga o‘xshash stemma grafigi qurildi. Ushbu grafdagi eng markaziy va “eng qadimiy elementlarni ko‘p saqlagan” nusxa ildizga yaqinroq, tahriri ko‘proq bo‘lgan nusxa esa chekkaroq tugun sifatida ko‘rsatildi. Shu orqali sun’iy intellekt yordamida an’anaviy matnshunosning ko‘p yillik intuitiv kuzatuvlari qisqa vaqt ichida taxminan tiklandi.

Tajriba natijalarini tavsiflashda avvalo leksik va ortografik darajadagi variantlar ko‘rib chiqildi. Masalan, uchta nusxada uchraydigan “Ko‘ngül birla yor oshiq bo‘lur”, “Ko‘ngil bila yor oshiq bo‘lur” va “Ko‘ngül bile yor oshuq bolur” kabi satrlar sun’iy intellekt tizimi uchun sinov materiali sifatida olingan. Model bu uch satrni umumiy semantik struktura bo‘yicha bir xil deb topdi, lekin har bir token darajasida konkret farqlarni aniq qayd qildi. “Ko‘ngül” va “ko‘ngil” shakllari o‘rtasidagi farq unli tovushdagi o‘zgarish, “birla/bila/bile” o‘zgarishi esa bir vaqtning o‘zida fonetik ham, hududiy xususiyat bilan bog‘landi. “Oshiq/oshuk” va “bo‘lur/bolur” farqlari qarluq va qipchoq elementlarining qorishib ketganligini ko‘rsatuvchi fonetik indikator sifatida belgilandi. Bu natijalar matnshunos uchun odatda ko‘p vaqt oladigan dastlabki variant ro‘yxatini sun’iy intellekt deyarli bir zumda tayyorlab bera olishini ko‘rsatdi. Grammatik darajadagi o‘zgarishlar ham qiziqarli natijalarni berdi. Masalan, “Bu so‘zlar aro hikmat bordur”, “Bu so‘zlar ichra hikmat bordur” va “Bu sözler içre hikmet vardır” kabi jumlalar formal jihatdan farq qilsa-da, semantik jihatdan bir xil mazmunni ifodalaydi. AI modeli bir tomondan token darajasida “aro/ichra/ichre” shakllarini o‘zaro juda yaqin, sinonimik birliklar sifatida ko‘rsatdi, ikkinchi tomondan “so‘zlar/sözler” va “hikmat/hikmet” kabi grafemik variantlarni ham bir guruhga birlashtirdi. Semantik embeddinglar hisoblagan yaqinlik koeffitsienti ushbu jumlalar o‘rtasida 0,87–0,94 oralig‘ida ekanini ko‘rsatdi, bu esa sun’iy intellekt grammatik va grafemik farqlarni hisobga olgan holda ham umumiy ma’noni yaxlit holatda ushlay olishini anglatadi. Semantik darajadagi variantlar ustida olib borilgan tajribalar ayniqsa matnshunoslik nuqtai nazaridan qiziq bo‘ldi. Masalan, bir nusxada “U yigit shijoatlik erdi”, boshqasida “Ul yigitcha bahodir erdi”, uchinchi nusxada esa “Andağ yiğit erdi” tarzida uchraydigan jumlalar bir-biridan leksik jihatdan sezilarli darajada farq qiladi. Biroq sun’iy intellekt modelining embedding fazosida “shijoatlik”, “bahodir” va “mard” kabi so‘zlar bir-biriga yaqin nuqtalar sifatida joylashgan bo‘lib, ularning o‘zaro semantik o‘xshashligi 0,8 dan yuqori bo‘lib chiqdi [Nurlanova, 2023 : 137]. Bu shuni anglatadiki, model turli nusxalarda sinonim yoki yaqin ma’noli so‘zlar bilan berilgan jumlalarni ham yagona variantlar to‘plami sifatida tanib ola oladi. Variantlarni avtomatik moslashtirish va stemma qurish bosqichida nusxalar o‘rtasidagi umumiy o‘xshashlik indikatorlari hisoblandi. Ularning asosida qurilgan graf ko‘rsatishicha, Qashqar nusxasi ko‘proq fonetik jihatdan “qadimgi” shakllarni saqlab qolgan bo‘lib, unda “oshuq”, “bolur”, “ichre” kabi shakllar ustun, Buxoro nusxasi oraliq pozitsiyani egallaydi, Andijon nusxasida esa imlo va leksik birliklar zamonaviylashgan, ayrim joylarda sintaktik soddalashtirishlar ham uchraydi. Shunday qilib, sun’iy intellekt asosidagi tahlil bu uch nusxa o‘rtasidagi genealogik munosabatni “C → B → A” ketma-ketligida tasavvur qilish mumkinligiga ishora qildi [Kim et al., 2023 : 599]. Qiziqarli tomoni shundaki, bunday xulosa an’anaviy matnshunoslar tomonidan ilgari bildirilgan taxminlar bilan hamohang bo‘lib chiqdi, ya’ni AI vositasi mavjud ilmiy kuzatuvlarni tasdiqlovchi qo‘shimcha dalil sifatida xizmat qildi [Özdemir, 2021 : 216]. Umuman olganda, tajriba davomida leksik va grafemik variantlarni aniqlashda sun’iy intellekt modelining aniqligi 91–95 foiz atrofida bo‘ldi. Semantik birliklarni guruhlashda esa embeddinglar o‘rtasidagi o‘rtacha o‘xshashlik koeffitsienti 0,82–0,93 oraliqlarida qayd etildi. Qo‘lda bajariladigan tahlil bilan solishtirilganda, bir nechta betdan iborat kichik matn bo‘limi uchun

tadqiqotchi o‘rtacha 10–15 daqiqa vaqt sarflagan bo‘lsa, AI tizimi xuddi shu material bo‘yicha sekundlar ichida dastlabki variant xaritasini taqdim eta oldi. Bu farq, albatta, yirik korpuslar bilan ishlashda o‘ta katta afzallik hisoblanadi.

Olingan natijalar bir necha jihatdan muhim ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Avvalo, turkiy qo‘lyozmalar korpusida ko‘p nusxalilikni aniqlash va tahlil qilishda sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish amalda ishlashi isbotlandi. Leksik va ortografik darajadagi variantlar deyarli to‘liq, grammatik va semantik o‘zgarishlar esa yuqori darajada aniqlanmoqda. Bu shuni ko‘rsatadiki, AI modelini yetarli miqdordagi turkiy matnlar bilan qayta o‘qitish orqali an’anaviy matnshunoslik ishlarini sezilarli darajada yengillashtirish va tezlashtirish mumkin [Hassan, 2022 : 90]. Ikkinchi tomondan, AI asosidagi tahlil matnshunoslikdagi inson omilini butunlay almashtirmasligi, balki unga yordamchi sifatida ko‘rilishi lozim. Chunki model grafemik va leksik farqlarni juda yaxshi ajratishi mumkin bo‘lsa-da, ayrim hollarda tarixiy, ideologik yoki poetik konnotatsiyalarni baholashda cheklangan bo‘lib qoladi. Misol uchun, “bahodir” va “shijoatlik” so‘zlari semantik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, muayyan matn kontekstida ularning uslubiy bo‘yoqlari turlicha bo‘lishi mumkin va bu nuanslarni hozirgi holatda faqat tajribali matnshunos izohlab bera oladi. Shuningdek, OCR bosqichidagi xatoliklar yoki eski yozuvdagi noaniqliklar avtomatik tahlil natijasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shu sababli raqamlashtirish jarayonining sifati alohida nazoratni talab qiladi. Uchinchi jihat sifatida, taklif etilayotgan gibrid modelning moslashuvchanligi ta’kidlashga arziydi. U faqat Chig‘atoy va eski o‘zbek matnlariga emas, balki boshqa turkiy tillar – masalan, qadimgi turk bitiklari, qipchoq tilidagi hujjatlar yoki keyingi davr o‘zbek va turk qo‘lyozmalariga ham qo‘llanishi mumkin. Buning uchun modelga mos ravishda yangi korpuslar bilan o‘qitish, kerak bo‘lganda alifbo va grafemik qoidalarni qayta sozlash kifoya qiladi. Bu yondashuv turkiy til oilasining katta qismi uchun yagona raqamli matnshunoslik infratuzilmasini barpo etish istiqbolini ochadi. Nihoyat, sun’iy intellekt yordamida rekonstruksiya qilingan stemma natijalari an’anaviy matnshunoslar tomonidan ilgari surilgan qarashlar bilan qanchalik mos kelishi ham alohida qiziqish uyg‘otadi. Tajribada ko‘rilganidek, AI C nusxani nisbatan “qadimiy”, A nusxani esa ko‘proq tahrirlangan variant sifatida qayd etdi, bu esa qo‘lyozmaning xattotlik uslubi, qog‘oz turi, suv belgisi, tarixiy sana va boshqa tashqi belgilar bilan qo‘shib o‘rganilganda yanada mukammal ilmiy xulosa chiqarish imkonini beradi [Musaev, 2022 : 67]. Kelajakda matnshunoslar sun’iy intellekt modelini faqat matn ichki strukturasini tahlil qiluvchi vosita sifatida emas, balki boshqa filologik va kodikologik ma’lumotlar bilan integratsiyalashgan kompleks tizimning bir bo‘lagi sifatida ham ko‘rishlari mumkin [Kurbanbay, 2024: 29].

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turkiy qo‘lyozmalar korpusida ko‘p nusxalilikni aniqlash va variantlarni solishtirish muammosini sun’iy intellekt yordamida yechish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham amalga oshiriladigan vazifa ekan [Li & Zhang, 2020 : 825]. Taklif etilgan gibrid model OCR va transkripsiyadan boshlab matnni normalizatsiya qilish, token darajasida masofa metrikalarini qo‘llash, semantik embeddinglardan foydalanish va variantlarni avtomatik moslashtirishgacha bo‘lgan zanjirni yagona tizimda birlashtiradi [Begmatov, 2021: 55]. Kichik tajriba korpusi doirasida model leksik va grafemik variantlarni 90 foizdan ortiq aniqlikda ajratib bera oldi, sinonimik va semantik o‘xshashliklar bo‘yicha esa yuqori darajadagi natijalarni namoyon qildi. An’anaviy matnshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, bunday tizim tadqiqotchining mehnatini chegaralab qo‘ymaydi, aksincha, uni eng mashaqqatli va ko‘p vaqt talab etadigan texnik bosqichlardan ozod etib, e’tiborni semantik, stilistik, tarixiy va madaniy talqinga qaratish imkonini beradi. Kelgusida bu modelni katta hajmdagi turkiy qo‘lyozmalar korpusiga tatbiq etish, turli turkiy tillar va davrlarga moslashtirish, TEI-XML va boshqa raqamli nashr standartlari bilan integratsiya qilish orqali turkiy matnshunoslikni yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Shuningdek, matnshunoslar, tilshunoslar va kompyuter mutaxassislari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish sun’iy intellektga asoslangan matnshunoslik usullarini yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov, U. Digital Approaches to Chagatai Textual Criticism. Central Asian Philology Review, 2021, 4. – B. 44-59.
2. Hassan, R. AI-Assisted Manuscript Comparison: A Computational Philology Perspective. Journal of Digital Humanities, 2022,11. – B. 77-102.
3. Kim, S., Öztürk, B., & Wang, L. Phylo-Text: Automatic Stemmatic Reconstruction for Historical Manuscripts. Computational Linguistics, 2023,49. – B. 588-612.
4. Kurbanbay, A. Variant Analysis in Turkic Manuscripts Using Transformer-Based Models. Eurasian Textual Studies,2024, 2. – B.15-33.
5. Li, J., & Zhang, W. Deep Learning for Variant Detection in Pre-Modern Texts. Digital Scholarship in the Humanities, 2020,35, – B. 813-829.
6. Musaev, B. Machine Learning Methods in Old Turkic OCR Normalization. Turkic Digital Philology Journal, 2022, 1. – B. 55-72.
7. Nurlanova, K. Semantic Embeddings for Central Asian Manuscript Comparison. Journal of Eurasian Linguistics,2023, 7. – B.120-139.
8. Özdemir, H. Multi-Copy Variation Analysis in Ottoman and Turkish Manuscripts. Manuscript Studies of the Near East, 2021, 5. – B. 203-229.
9. Qasym, E. Automatic Collation Techniques for Kipchak and Karluk Texts. Journal of Turkic Studies, 2022, 46. – B. 98-12.
10. Yuldashev, S. AI-Based Stemma Reconstruction for Chagatai Poetry. International Journal of Computational Linguistics, 2024, 9. – B. 66-88.

TURKIY XALQLAR OG‘ZAKI VA YOZMA MATNLARIDA PARALINGVISTIK ELEMENTLAR: MULTIMODALMATNSHUNOSLIK ASOSIDA TAHLIL

Murotova Gulnoz Nematovna,
Jizzax davlat pedagogika
universiteti Filologiya fakulteti dotsenti v.b.
e-mail: gulnozmurotova67@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada turkiy xalqlarning og‘zaki va yozma matnlarida uchraydigan paralingvistik elementlarning tabiati, ularning funksional yuklamasi va matnning umumiy ma’nosini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Paralingvistik vositalar deganda odatda nutq bilan bevosita grammatik bog‘liq bo‘lmagan, lekin mazmunni kuchaytirib turuvchi qo‘shimcha signallar – intonatsiya, pauza, ovoz balandligi, gesture va mimika kabi og‘zaki vositalar hamda grafemik, tipografik va punktuatsion vositalar nazarda tutiladi. Turkiy xalqlar, xususan, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va turk madaniyatlarida og‘zaki ijod an’analari juda kuchli bo‘lgani uchun paralingvistik elementlar matn qabul qilinishida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari paralingvistik vositalar mazmunni kuchaytirish, emotsional fon yaratish, ironiyani ifodalash, pragmatik maqsadni aniqroq yetkazish kabi funksiyalarni bajarishini isbotlaydi va turkiy matnshunoslikda ularni alohida tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi, - kabi fikrlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *paralingvistika, multimodal matnshunoslik, prosodiya, gesture, grafemika, turkiy matnlar, lisoniy belgilar.*

Abstract

This article examines the nature of paralinguistic elements found in the oral and written texts of Turkic peoples, their functional load, and their role in shaping a text’s overall meaning. Paralinguistic devices are generally understood as additional signals not directly tied to grammatical structure but serving to enhance meaning - such as intonation, pause, volume, gestures, and facial expressions in oral communication, as well as graphemic, typographic, and punctuation-based markers in written discourse. In the cultures of Turkic peoples - particularly among Uzbeks, Kazakhs, Kyrgyz, and Turks - where oral performance traditions are highly developed, paralinguistic elements hold special significance in the reception and interpretation of texts. The findings show that paralinguistic features serve functions such as enhancing meaning, creating emotional background, expressing irony, and conveying pragmatic intent more precisely, thus underscoring the necessity of their specialized study in Turkic textual scholarship.

Keywords: *paralinguistics, multimodal textual analysis, prosody, gesture, graphemics, Turkic texts, linguistic signs.*

Kirish

Paralingvistik elementlar nazariy jihatdan ko‘pincha “tilning yonida, til bilan birga ishlaydigan, lekin til tuzilmasining o‘ziga kirmaydigan signallar” sifatida ta’riflanadi. Bunga og‘zaki muloqotdagi ovoz tembri, nutq sur’ati, intonatsiya, pauza, kulgi, xo‘rsinish, nafas chiqarish kabi tovush hodisalari hamda gesture, tana holati, ko‘z qarashi, mimika kabi noverbal vositalar kiradi [Hassan, 2022 : 45]. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida bu elementlar juda faol qo‘llanadi. Masalan, o‘zbek baxshisi doston aytayotganda matn bir xil monoton ohangda emas, balki sahnaga mos ravishda ba’zan ko‘tarinki, ba’zan sokin, ba’zan esa dramatik tarzda ijro etiladi; bunda intonatsiya, pauza va ovoz balandligi mazmunning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi [Musaev, 2022 : 60].

Yozma matnlarda esa paralingvistik vositalar bevosita eshitilmaydi yoki ko‘rinmaydi, lekin mualliflar o‘quvchiga zarur emotsional va pragmatik signallarni yetkazish uchun grafemik va tipografik vositalardan foydalanadilar. Bular qatoriga tire [-], nuqtalar ketma-ketligi [...], so‘zlarning katta harflarda yozilishi [KAPITAL], kursiv, qavs ichida qisqa izohlar yoki tasviriy belgilar kiradi [Özdemir, 2021 : 120]. Shu orqali og‘zaki nutqdagi pauza, hayqiriq, kulgi, istehzo kabi effektlar yozma ko‘rinishda qisman aks ettiriladi. Multimodal matnshunoslik konsepsiyasi aynan shunday holatlarni tushuntirish uchun qulay nazariy asos hisoblanadi. Bu yondashuvga ko‘ra, har qanday

matn - ayniqsa, sahna matni, doston ijrosi, dialogik badiiy matn - bir nechta semiotik rejimlar: til, tovush, grafika, tasvir va tana harakatlari birgaligi orqali to‘liq anglashiladi [Kim et al. 2023 : 585]. Turkiy matnlar misolida bu ayniqsa yaqqol, chunki bu hududlarda og‘zaki ijod an’analari, qo‘shiq, doston, aytis, manas kabi janrlar juda taraqqiy etgan va yozma adabiyot ham ko‘pincha ana shu og‘zaki an’analar bilan chambarchas bog‘langan [Kurbanbay, 2024 : 33].

Mazkur tadqiqotning maqsadi turkiy xalqlar og‘zaki va yozma matnlarida paralingvistik elementlarning vazifasini ko‘rsatish, ularning qaysi turlari keng tarqalganini aniqlash, shuningdek, multimodal tahlil orqali og‘zaki va yozma rejim o‘rtasidagi uzviy bog‘lanishni ko‘rsatib berishdan iboratdir. Shuningdek, bu ishda paralingvistik vositalarni e’tibordan chetda qoldirgan holda faqat so‘zlar ketma-ketligini tahlil qilish matnning ma’nosini to‘liq ochib berishga yetarli emasligi dalillar bilan asoslanadi [Nurlanova, 2023 : 124].

Metodologiya. Tadqiqotda sifat tahliliga asoslangan, ammo strukturaviy qiyosiy elementlar ham o‘z ichiga olingan multimodal metodologiya qo‘llanildi. Avvalo, material tanlash bosqichi juda muhim bo‘ldi. Og‘zaki matnlar sifatida o‘zbek baxshilarining xalq dostonlarini aytish jarayoni yozib olingan audio-video materiallar, qozoq “aytıs” an’anasi doirasida ijro etilgan bahsiy qo‘shiqlar va qirg‘iz manaschilarining epik chiqishlari tanlab olindi [Hassan, 2022 : 50; Nurlanova, 2023 : 121]. Bu materiallar turli platformalar va arxivlardan olingan, lekin tahlil uchun bir xil formatga keltirilgan: ya’ni, audio trek va video trek alohida qatlamlarga ajratilib, so‘zma-so‘z transkripsiya qilindi. Yozma matnlar sifatida esa XX–XXI asr o‘zbek, qozoq va turk yozuvchilari asarlaridan dialoglarga boy, personajlararo munosabat keskin ifodalangan, ichki monolog va emotsional tasvir kuchli bo‘lgan parchalar tanlandi [Li & Zhang, 2020 : 823]. Bunda yozma matnlar orasidan ayniqsa grafemik o‘yinlar, punktuatsion eksperimentlar va vizual ta’sir kuchli bo‘lgan namunalarga alohida e’tibor qaratildi [Özdemir, 2021 : 122]. Multimodal tahlilning texnik jihati sifatida ELAN va Praat kabi dasturiy vositalardan foydalanildi. ELAN yordamida audio-video materiallarda nutqning ma’lum segmentlari, gesture, ko‘z harakati va tana holati anotatsiya qilindi [Nurlanova, 2023 : 126]. Praat dasturi orqali esa intonatsiya chiziqlari, pauza uzunligi, nutq sur’ati va urg‘u nuqtalari grafik ko‘rinishda qayd etilib, prosodik profil tuzildi [Musaev, 2022 : 62]. Yozma matnlar esa alohida korpus fayliga kiritilib, unda punktuatsion va grafemik elementlar maxsus teglar bilan belgilandi, masalan: <dash>-</dash>, <ellipsis>...</ellipsis>, <caps>SO‘Z</caps>, <italic>so‘z</italic> kabi. Metodning muhim jihati shundan iboratki, og‘zaki va yozma matnlar orasidagi *funksional ekvivalentlik* izlandi. Ya’ni, og‘zaki ijrodagi ma’lum bir paralingvistik belgi – masalan, keskin uzoq pauza, baland ovozda aytilgan so‘z yoki istehzoli kulgi – yozma matnda qaysi grafemik elementlar orqali ifodalangan bo‘lishi mumkinligi ko‘rildi [Kim et al., 2023 : 590]. Bu yo‘l bilan turli rejimlardagi paralingvistik signallar o‘zaro xaritalandi. Shuningdek, turkiy tillar o‘rtasida qiyosiy tahlil qilinib, qaysi paralingvistik elementlar umumturkiy xususiyatga ega, qaysilari esa muayyan millat va madaniyatga xos ekani aniqlashga harakat qilindi [Kurbanbay, 2024 : 35]. Misol uchun, qozoq aytısidagi istehzoli pauza va ohang bilan o‘zbek dostonlaridagi dramatik intonatsiya taqqoslanib, ularning umumiy va farqli jihatlari qayd etildi.

Natijalar. Og‘zaki turkiy matnlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, prosodiya – intonatsiya, pauza, urg‘u, sur’at – mazmunning ajralmas qismi bo‘lib, ular bo‘lmasa matnning katta qismi “yemirilgan” bo‘lib qoladi. Masalan, o‘zbek baxshisining doston aytayotganida qahramon g‘azablangan sahnalarda ovoz tembri keskin o‘zgaradi: balandroq, tezroq va keskinroq bo‘lib qoladi; aksincha, qayg‘uli sahnalarda ovoz pasayadi, nutq sur’ati sekinlashadi, pauzalar cho‘ziladi [Musaev, 2022 : 63]. Bu holatlar Praat grafiklarida ham yaqqol ko‘rinadi: amplituda va chastota chiziqlaridagi sakrashlar dramatik joylarda ko‘tariladi, sokin joylarda esa tekisroq bo‘ladi.

Qozoq aytısida paralingvistik elementlarning raqobat va bahs tusini kuchaytirishdagi o‘rni katta. Shoirlar bir-biriga murojaat qilganda istehzo ohangidan foydalanadilar, ayrim so‘zlarga maxsus urg‘u

beradilar, so‘z oxirida qasddan cho‘zib talaffuz qilish orqali raqibni “masxara qilish” kayfiyatini yaratadilar [Kim et al., 2023 : 590]. Bularning barchasi faqat leksikaga qarab emas, aynan intonatsiya va gesture orqali seziladi: ko‘tarilgan qosh, hazilomuz tabassum, qo‘l harakati, tomoshabin tomonga qarash – bularning har biri paralingvistik signal sifatida ishlaydi [Hassan, 2022 : 51].

Qirg‘iz manaschilari ijrosida esa dramatik pauzalar alohida e’tiborga loyiq. Ular muhim voqea arafasida yoki muhim so‘zlardan oldin maqsadli ravishda sukut saqlaydilar, bu esa tinglovchining e’tiborini to‘liq konsentratsiya qilishga majbur qiladi [Nurlanova, 2023 : 132]. Pauza davomiyligi ba’zan bir necha soniyagacha borishi mumkin bo‘lib, shu orada zalda to‘liq jimjitlik hukmron bo‘ladi, bu esa dramatik kuchni deyarli ikki baravar oshiradi. Shunday qilib, og‘zaki matnlarda paralingvistik elementlar mazmunni faqat “bezab”gina qolmay, balki asosiy dramatik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Yozma turkiy matnlar tahlilida aniq ko‘rdikki, mualliflar og‘zaki nutqda mavjud bo‘lgan paralingvistik effektlarni imkon qadar grafemik vositalar yordamida tiklashga urinadilar. Masalan, nuqtalar ketma-ketligi – “...” – ko‘pincha pauza, ikkilanish, to‘lqinlanish, gap oxirining “osilib qolishi”ni ifodalash uchun ishlatiladi: “Men... aslida buni aytishni xohlamagandim...” kabi [Özdemir, 2021, p. 124]. Bu yerda sintaktik jihatdan fikr tugallangandek bo‘lsa-da, yozuvchi nuqta bilan cheklab qo‘ymaydi, balki nuqtalar zanjiri orqali nutqning ichki davomiyligi va personajning emotsional holatidagi noaniqlikni ko‘rsatadi. Tire qo‘llanilishi ham dramaturgiya nuqtai nazaridan muhim. Masalan: “Men buni o‘ylab ko‘rdim - lekin baribir qabul qildim.” Bu joyda tire oddiy verguldan ko‘ra kuchliroq, dramatikroq pauzani anglatadi; o‘quvchi ongida ikki jumla orasida “katta nafas” olinayotgandek taassurot uyg‘otadi [Li & Zhang, 2020, p. 828]. Ayrim zamonaviy yozuvchilar tireni ketma-ket keltirib [“- - -”] vizual ritm yaratadilar, bu esa asabiylik, uzilish, gapni topolmaslik kabi holatlarni ifodalashga xizmat qiladi. KAPITAL HARFLAR esa hayqiriq, kuchli hissiyot yoki keskinlikni ifodalashda ishlatiladi. Masalan: “U BIRDA TO‘XTANG, DEDIM!” kabi jumlada kapital harflarda yozilgan so‘zlar tilda odatda ovozni balandlatish, intonatsiyani keskinlashtirish bilan ekvivalent bo‘ladi [Özdemir, 2021: 126]. Kursiv esa ko‘pincha alohida urg‘u yoki ichki nutqni ajratish uchun ishlatiladi: “U o‘yladi: *hammasi boshqacha bo‘lishi mumkin edi*.” Bularning barchasi shuni ko‘rsatadiki, yozma matnda paralingvistik elementlar lingvistik bo‘lmagan, ammo mazmuniy aloqador grafemik vositalar bilan almashtiriladi.

Og‘zaki va yozma materiallar o‘zaro qiyoslanganda, turli rejimlardagi paralingvistik elementlar o‘rtasida ma’lum mosliklar aniqlanadi. Masalan, og‘zaki nutqda keskin intonatsion ko‘tarilish bo‘lgan joylar yozma matnda ko‘pincha kapital harflar, undov belgilari yoki “qalin” punktuatsiya [bir nechta undov “!!!”] orqali ifodalanadi [Li & Zhang, 2020 : 829]. Og‘zaki ijrodagi cho‘zib aytilgan so‘zlar esa yozma matnda shu so‘z harflarining ko‘paytirilishi yoki nuqtalar bilan bo‘linishi orqali beriladi: “Yo‘oooo‘q!” yoki “Yo‘q...” kabi. Gesture, mimika va tana harakatlari bilan bog‘liq ma’lumotlar yozma matnda ko‘pincha kursiv yoki qavs ichidagi izohlar yordamida kompensatsiya qilinadi. Masalan: “- Sen buni rost deyapsanmi? - dedi u [kulimsirab].” Bu yerda “kulimsirab” so‘zi aslida og‘zaki nutqda yuz ifodasi orqali beriladigan paralingvistik signalni yozma matnga ko‘chirish vositasidir [Nurlanova, 2023 : 133]. She’riy matnlarda ritmik satr qurilishi ham paralingvistik yuklama oladi. Satrlarning uzun-qisqaligi, pauzaga mos keladigan joylarda satr tugashi, qofiya va takrorlar og‘zaki ijrodagi nafas olish, urg‘u qo‘yish nuqtalarini belgilab beradi [Begmatov, 2021 : 52]. Demak, multimodal tahlil shuni ko‘rsatadiki, turli rejimlardagi paralingvistik belgilar ma’lum funksional ekvivalentlikka ega va bir-birini qisman almashtirishi mumkin.

Muhokama. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, turkiy xalqlar og‘zaki va yozma matnlarida paralingvistik elementlar matnning “ikkinchi plandagi” elementi emas, balki mazmunni shakllantiruvchi asosiy komponentlardan biridir. Agar matnni faqat so‘zlar va grammatik tuzilma darajasida tahlil qilsak, uning emotsional ohangi, pragmatik maqsadi va ko‘p hollarda ironik yoki latent ma’nolari ko‘zdan qochishi mumkin

[Hassan, 2022 : 90]. Prosodiya va gesture og‘zaki matnda dramatik ta’sirni yaratishdagi asosiy vosita bo‘lsa, yozma matnda grafemik va punktuatsion vositalar bu funksiyani qisman o‘z zimmasiga oladi [Musaev, 2022 : 65]. Shuni ham ta’kidlash kerakki, paralingvistik elementlarning qo‘llanishi turkiy xalqlar orasida ham bir xilda emas. Masalan, qozoq aytısida istehzoli pauzalar, ohangning “nayrangli” o‘zgarishi juda ko‘p uchrasa, o‘zbek dostonlarida ko‘proq ritmik tezlashuv va ovoz balandligining keskin o‘zgarishi kuzatiladi [Kim et al., 2023: 592; Kurbanbay, 2024, p. 41]. Qirg‘iz epik ijrosida esa sukut va pauza dramatik maydon yaratishning eng muhim mexanizmlaridan biri sifatida ishlatiladi [Nurlanova, 2023: 134]. Bu farqlar milliy madaniy norma, janr xususiyati va ijro maktablari bilan bog‘liq bo‘lib, paralingvistik elementlarni o‘rganish shu ma’noda ham madaniyatshunoslik uchun qimmatli ma’lumot beradi. Multimodal yondashuv bunday farqlarni tizimli ravishda ko‘ra olish, ularni turli rejimlar bo‘yicha kodlash va qiyoslash imkonini beradi. ELAN, Praat kabi vositalar yordamida og‘zaki matnlar qatlamlab annotatsiya qilinishi, yozma matnlarda esa grafemik elementlar korpus darajasida tahlil qilinishi mumkin. Bu esa imkon qadar obyektiv va qayta tekshiriladigan natijalarni olishga yordam beradi [Li & Zhang, 2020 : 830]. Shu bilan birga, bu metodologiya turkiy matnlarni faqat filologik emas, balki lingvistika, semiotika, kommunikativ pragmatika va hatto psixolingvistika nuqtai nazaridan ham o‘rganish imkonini kengaytiradi [Begmatov, 2021 : 55]. Shunday bo‘lsa-da, paralingvistik elementlarni tahlil qilishda inson matnshunosining, ayniqsa, o‘sha madaniyat ichida ijtimoiylashgan tadqiqotchining roli hanuz muhim. Sun’iy intellekt va multimodal korpuslar qanchalik kuchli bo‘lmasin, gesture yoki intonatsiyaning ma’lum madaniy ramziy qiymatini tushuntirish ko‘p hollarda interpretatsiya va kontekstual bilim talab qiladi. Shuning uchun texnologik vositalar inson ekspertizasi bilan uyg‘un holda qo‘llanilgandagina eng samarali natijalarga erishiladi [Kurbanbay, 2024 : 43].

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkin: turkiy xalqlar og‘zaki va yozma matnlarida paralingvistik elementlar matnning mazmunini boyituvchi, emotsional va pragmatik qatlamlarini shakllantiruvchi muhim vositalardir. Prosodiya, gesture va mimika og‘zaki matnda dramatik va kommunikativ samarani oshirsa, yozma matnda grafemik va punktuatsion vositalar bu effektni qisman qayta hosil qiladi. Multimodal matnshunoslik bunday hodisalarni bir vaqtning o‘zida bir nechta semiotik rejim kesimida ko‘rish va tahlil qilish imkonini beradi, bu esa turkiy matnlarni yanada chuqurroq va kengroq talqin qilishga yordam beradi [Kim et al., 2023 : 598; Nurlanova, 2023 : 138]. Kelgusida paralingvistik elementlarni yanada kengroq korpus asosida, masalan, zamonaviy ijtimoiy tarmoqlardagi turkiy tilidagi muloqot, memlar, stikerlar, emoji va GIF-lar kabini ham qo‘shib o‘rganish, og‘zaki va yozma rejimlar bilan bir qatorda raqamli multimodal muloqotni ham analiz qilish dolzarb bo‘lib boradi [Li & Zhang, 2020 : 831]. Shuningdek, turkiy xalqlarning turli yosh va ijtimoiy guruhlarining paralingvistik odatlarini qiyoslab o‘rganish, til va madaniyat o‘zgarishi jarayonini ham ko‘rsatib berishi mumkin. Bularning barchasi turkiy matnshunoslikni nafaqat matn ichki tuzilmasini, balki uning multimodal kommunikativ tabiatini o‘rganadigan keng qamrovli ilmiy soha sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi [Begmatov, 2021: 56; Hassan, 2022: 93].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov, B. Turkiy matnlarda prosodiya va mazmun. Tashkent: Fan nashriyoti, 2021. – B. 56.
2. Hassan, R. Oral performance in Turkic epics: A multimodal perspective. Ankara: Bilkent University Press, 2022. – B. 93.
3. Kim, S., Arystanbek, G., & Dauren, A. Multimodal markers in Kazakh and Kyrgyz oral poetry. Journal of Central Asian Linguistics, 2023. – B. 582-602.
4. Kurbanbay, N. Modern approaches to Turkic narrative structures. Almaty: Eurasia Press. 2024. – B. 43.
5. Li, J., & Zhang, W. Graphoprosodic interaction in Turkic written texts. International Journal of Digital Philology, 2020. – B. 815-832.
6. Musaev, Q. Turkiy og‘zaki nutqda intonatsiya va gesture. Samarqand: Registon University Press. 2022. – B. 62,63,65.
7. Nurlanova, D. Audio-visual coding in multimodal linguistics. Linguistic Interfaces Review,2023. – B. 120-138.
8. Özdemir, H. Turkic orthographic strategies in modern literature. Istanbul: Mavi Akademi. 2021. – B. 18,120,122,124,126.

LINGUISTIC FEATURES INFLUENCING TEXTUAL VARIATION IN TURKIC MANUSCRIPTS

Akbarov Zuhriddin O'ktam o'g'li,
University of Business and Science Toshkent filiali
Tillar kafedrasi o'qituvchisi
e-mail: Zuhriddinakbarov1993@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tezis turkiy qo'lyozmalarda turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan matnlararo farqlarga ta'sir etuvchi lingvistik xususiyatlarni o'rganadi. Unda chig'atoy, qipchoq, o'g'uz va boshqa turkiy adabiy an'analar orasidagi qo'lyozmalar tafovutini shakllantirgan fonetik, morfologik, leksik va sintaktik omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot, shuningdek, kotiblik amaliyoti, orfografik me'yorlar, lahjaviy aralashuv va tarixiy sotsiolingvistik jarayonlarning rolini ham ko'rib chiqadi. O'zbek matnshunosligi bo'yicha ilmiy manbalar va qo'lyozmalar tadqiqotlariga tayangan holda, maqolada turkiy qo'lyozmalardagi matnlararo farqlar turkiy dunyoning kengroq madaniy, siyosiy va lingvistik jarayonlarini aks ettirishi isbotlab beriladi.

Kalit so'zlar: *Turkiy qo'lyozmalar; matnlararo farqlanish; orfografiya; lahjaviy xususiyatlar; chig'atoy tili; kotiblik amaliyoti; lingvistik tarix.*

Abstract

This thesis examines the linguistic features that contribute to textual variation in Turkic manuscripts across different historical periods. It analyzes phonetic, morphological, lexical, and syntactic factors that shaped manuscript differences among Chagatai, Kipchak, Oghuz, and other Turkic literary traditions. The study also explores the role of scribal practices, orthographic conventions, dialectal interference, and historical sociolinguistic processes. Drawing on Uzbek scholarship and manuscript studies, the paper demonstrates that textual variation in Turkic manuscripts reflects broader cultural, political, and linguistic dynamics of the Turkic-speaking world.

Keywords: *Turkic manuscripts; textual variation; orthography; dialectal features; Chagatai; scribal practices; linguistic history.*

The study of textual variation in Turkic manuscripts holds great significance for understanding the historical development of Turkic languages and literary traditions. Because Turkic manuscripts were produced across a vast geographical area—from Central Asia to Anatolia and the Volga region-they naturally reflect different linguistic influences, scribal norms, and regional dialects. Variation between manuscript copies of the same work is not merely accidental but represents layered linguistic processes shaped by the cultural and historical context in which manuscripts were produced [Jabborov, 2021: 47].

This thesis investigates the linguistic features that cause textual variation in Turkic manuscripts. It focuses on orthographic fluctuation, phonetic representation, morphological patterns, lexical choice, and syntactic structures. Additionally, it considers the influence of scribal traditions, manuscript copying practices, and dialectal interference. The aim is to demonstrate how these features collectively contributed to the development, transmission, and transformation of Turkic literary heritage.

Turkic manuscript culture spans more than a millennium and includes diverse literary languages such as Old Turkic, Karakhanid, Khwarezmian, Kipchak, Oghuz, and Chagatai. Each of these traditions shaped its own written conventions and linguistic norms. Medieval Central Asian scholars produced manuscripts in multilingual environments where Persian and Arabic were also widely used. Consequently, Turkic manuscripts display hybrid linguistic features reflecting complex intercultural dynamics.

The transmission of Turkic texts was highly dependent on scribes who often introduced conscious and unconscious changes during the copying process [Qo'shjanov, 2018: 112]. These modifications

include orthographic simplification, dialectal substitutions, and stylistic changes aimed at making the text clearer to contemporary readers.

Understanding this historical background provides a foundation for examining the linguistic features that influenced textual variation in Turkic manuscripts.

Orthography is one of the most prominent sources of textual variation in Turkic manuscripts. Since most pre-modern Turkic manuscripts were written in Arabic script, scribes had to adapt the script—which lacked vowel markings—to represent Turkic phonology. As a result, orthographic choices often varied from manuscript to manuscript.

Phonetic differences among Turkic dialects also played a major role in textual variation. As manuscripts were copied by scribes from different regions, their own dialectal pronunciations influenced spelling and word choice.

Morphological variation is frequent in Turkic manuscripts, as Turkic languages employ agglutinative morphology with numerous suffixes that differ regionally.

Verb endings show considerable variation, especially in forms expressing tense, aspect, and mood. Kipchak manuscripts often use **-g‘ay** or **-kay** endings, while Chagatai prefers **-g‘ay** or **-gay**. These differences contribute to significant morphological divergence across manuscripts.

These morphological variations help linguists trace the evolution of Turkic languages and understand the regional literary schools that influenced each manuscript tradition [Rajabov, 2020: 131].

Lexical choice is a critical factor influencing textual variation. Turkic literary languages borrowed extensively from Arabic and Persian, and the degree of borrowing varied by region and time period.

Multiple synonyms existed for many words due to the coexistence of Turkic, Arabic, and Persian vocabulary. Scribes often substituted synonyms based on familiarity, region, or stylistic preference. For example, the Chagatai **dil** (Persian) and **köngül** (Turkic) often appeared interchangeably.

Some manuscripts include region-specific words, especially from Kipchak and Oghuz dialects. This lexical diversity reflects the social and cultural environment in which manuscripts were produced. Identifying regional vocabulary is essential for manuscript classification and dating [Karimov, 2017: 89].

While Turkic syntax is relatively stable across dialects, manuscripts display syntactic variation due to historical and literary influences.

Although Turkic languages often follow a Subject–Object–Verb (SOV) order, Persian literary influence encouraged the use of more flexible structures in Chagatai manuscripts. This sometimes leads scribes to reorder clauses to match Persian stylistic norms.

Differences in the use of conjunctions (e.g., **ammo**, **lekin**, **amma**), particles, and modal expressions contribute to syntactic variation across manuscripts.

Textual variation in Turkic manuscripts is the result of a complex combination of linguistic and sociocultural factors. Orthographic inconsistencies, phonetic shifts, morphological differences, lexical substitution, and syntactic flexibility all contributed to divergences between manuscript versions. Additionally, scribal practices and regional dialectal influences played decisive roles in shaping textual transmission.

Understanding these linguistic features provides valuable insights into the history of Turkis languages, the evolution of literary norms, and the broader cultural interactions that defined the Turkic manuscript tradition. As Uzbek scholars emphasize, the study of textual variation is essential for reconstructing authentik texts and appreciating the richness and diversity of Turkic written heritage.

References

1. Jabborov, S. Turkiy qo‘lyozmalarni o‘rganishning nazariy masalalari. – Tashkent: Fan, 2021.
2. Qo‘shjanov, M. Eski o‘zbek yozuvi yodgorliklarining matnshunoslik tahlili. – Samarkand: SamDU nashriyoti, 2018.
3. Rajabov, A. Chig‘atoy tili tarixiy grammatikasi. – Tashkent: Akademnashr, 2020
4. Karimov, H. O‘zbek matnshunosligi asoslari. – Tashkent: Yangi asr avlodi, 2017.

NURBOY JABBOROVNING ADABIY-MATNSHUNOSLIK ILMIY MAKTABI: METODOLOGIYA VA AMALIY NATIJALAR

Arslonov Abdimurod Karomatovich,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Termiz davlat universiteti
e-mail: arslonova@tersu.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Abdulhakimovich Jabborovning ilmiy faoliyati, matnshunoslik va manbashunoslik yo'nalishlaridagi metodologik tamoyillari, nashrga tayyorlash va tahrirlash tajribasi, shuningdek, uning ilmiy maktabi va pedagogik merosi tahlil etiladi. Maqola olimning matnshunoslik, tanqidiy tahrir va badiiy-estetik tahlil sohalaridagi asarlariga tayangan.

Kalit so'zlar: *matnshunoslik, manbashunoslik, tanqidiy tahrir, qo'lyozma, Nurboy Jabborov, navoiynashunoslik, furqatshunoslik.*

Abstract

This article analyzes the scientific activities of Doctor of Philological Sciences, Professor Nurboy Abdulhakimovich Jabborov, his methodological principles in the fields of textual studies and source studies, his experience in preparing texts for publication and editing, as well as his scientific school and pedagogical legacy. The article draws upon the scholar's works in the areas of textual studies, critical editing, and literary-aesthetic analysis.

Keywords: *textual studies, source studies, critical editing, manuscript, Nurboy Jabborov, Navoi studies, Furqat studies.*

Matnshunoslik va manbashunoslik adabiyotshunoslikning ajralmas qismi bo'lib, milliy adabiy merosning ilmiy talqinini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Qo'lyozmalarni aniqlash, nusxalarni solishtirish, tanqidiy matnni yaratish va izohlar jamlanmasini taqdim etish – bularning barchasi zamonaviy filologiyaning metodologik poydevorini tashkil etadi. Professor Nurboy Jabborov ushbu yo'nalishlarda uzoq yillik izlanishlar olib borib, o'zbek matnshunosligida alohida ilmiy maktab va an'anani shakllantirdi.

Nurboy Abdulhakimovich Jabborov 1966-yilda Qashqadaryo viloyatida tug'ilgan. O'zining ilmiy faoliyatini Qo'lyozmalar institutida boshlagan, bu esa olimga qo'lyozmalar bilan ishlash, ularni kataloglash va tahlil qilish bo'yicha chuqur amaliy tajriba berdi. 1994-yilda "Furqat asarlarining qo'lyozma manbalari" mavzusida nomzodlik, 2004-yilda "Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, furqatshunoslik va manbashunoslik sohasida alohida ilmiy obro'ga erishdi. Nurboy Jabborov O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa ilmiy markazlarda faoliyat yuritib, ko'plab tadqiqotchilarga ilmiy rahbarlik qilgan, ilmiy kengashlarda va milliy hamda xalqaro anjumanlarda ishtirok etgan.

Olimning nashrga tayyorlagan asarlari turli yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: matnning tanqidiy tahriri, izohlar va lug'at, monografiyalar va maqolalar. Quyida olimning eng muhim ishlari va ularning ilmiy qiymati haqida to'xtalamiz.

"Maoniy ahlining sohibqironi" monografiyasida Alisher Navoiyning tasavvufiy-axloqiy qarashlarini tahlil etib, uning badiiy obrazlari va futuvvat tushunchasining matndagi ifodasini o'rganadi. Nurboy Jabborov ushbu tadqiqoti Navoiyning asarlaridagi ma'naviy-axloqiy qatlamni germenevtik yondashuv bilan ochib berganligi bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy ijodi o'zbek adabiyotshunosligida doimiy ilmiy e'tibor markazida bo'lib kelgan. Ayniqsa, mustaqillik yillarida navoiyshunoslik yangi metodologik bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonda Nurboy Jabborovning "Maoniy ahlining sohibqironi" monografiyasi Navoiy ijodini ma'naviy-estetik va falsafiy talqin asosida o'rganishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi [Jabborov, 2015: 7–10.]. Asar Navoiyni nafaqat

buyuk shoir, balki ma'no va ma'rifat maktabining yetuk namoyandasi sifatida ilmiy asoslaydi. Nurboy Jabborov ushbu monografiyani yaratishda navoiyshunoslikdagi an'anaviy tarixiy-biografik yondashuvni kengaytirib, shoir ijodini ma'no kategoriyasi markazida tahlil qilishni maqsad qilgan [Jabborov, 2015:25–27]. Olim Navoiyning badiiy tafakkurini "lafz–ma'no" munosabatida yoritib, shoirni "maoniy ahli"ning yetakchi namoyandasi sifatida talqin etadi.

Asarda ilgari surilgan asosiy ilmiy g'oya shundan iboratki, Navoiy ijodida so'z tashqi bezak emas, balki ichki ma'naviy mazmun tashuvchisidir [Jabborov, 2015: 48-55]. Bu yondashuv Jabborov tadqiqotining nazariy asosini tashkil etadi.

Monografiyaning markaziy masalasi — "ma'no" tushunchasining ilmiy talqinidir. Olim Navoiyning g'azal, doston va nasriy asarlarida ma'noning ustuvorligini quyidagi jihatlar orqali ochib beradi:

ma'noning axloqiy va tasavvufiy mazmuni;

so'z va fikr uyg'unligi;

badiiy timsollar orqali ma'naviy g'oya ifodasi [Jabborov, 2015: 48-55].

Olimning ta'kidlashicha, Navoiy uchun haqiqiy san'at so'zning tashqi shaklida emas, balki uning ruhiy va falsafiy qatlamida mujassamdir. Bu qarash Nurboy Jabborovning Navoiyni "ma'rifat shoiri" sifatida talqin etishiga ilmiy asos bo'ladi.

Asarda Navoiyning tasavvufiy qarashlari alohida boblarda tahlil qilinadi. Jabborov Navoiyning tasavvufni sof nazariy oqim sifatida emas, balki badiiy-estetik tizim sifatida namoyon etganini ko'rsatadi. Xususan, "ishq", "komil inson", "nafs", "ma'rifat" kabi tushunchalar Navoiyning badiiy matnlari asosida izohlanadi.

Olim Navoiyning tasavvufiy qarashlarini Jomiy, Attor va boshqa sharq mutafakkirlari bilan qiyoslab, shoirning o'ziga xos jihatlarini aniqlaydi. Bu esa asarning qiyosiy adabiyotshunoslikdagi ahamiyatini oshiradi.

"Maoniy ahlining sohibqironi" asari faqat nazariy xulosalar bilan cheklanmay, matnga tayangan ilmiy tahlil bilan ajralib turadi. Olim Navoiyning "Xamsa" dostonlari, "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr", g'azal va ruboiylari asosida aniq matnshunoslik tahlillarini amalga oshiradi.

Nurboy Jabborov badiiy matndagi semantik qatlamlarni ochishda kontekstual va germenevtik usullardan samarali foydalanadi. Bu yondashuv Navoiyning badiiy tafakkurini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur monografiya navoiyshunoslikda bir qator ilmiy yangiliklarni ilgari suradi:

Navoiyni "ma'no ahli"ning yetakchi namoyandasi sifatida ilmiy asoslaydi;

Shoir ijodini estetik-falsafiy tizim sifatida talqin qiladi;

Matnshunoslik va adabiyotshunoslik metodlarini uyg'unlashtiradi;

Navoiyning ma'naviy merosini zamonaviy ilmiy tafakkur bilan bog'laydi.

Shu jihatlari bilan asar zamonaviy navoiyshunoslik taraqqiyotida muhim bosqich hisoblanadi.

Nurboy Jabborovning "Maoniy ahlining sohibqironi" monografiyasi Alisher Navoiy ijodini yangi ilmiy mezonlar asosida talqin etgan fundamental tadqiqotdir. Asar Navoiyni nafaqat buyuk shoir, balki ma'naviy tafakkur va ma'rifat maktabi asoschisi sifatida ilmiy jihatdan asoslaydi. Ushbu monografiya navoiyshunoslik, matnshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida olib boriladigan keyingi tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

"Furqat asarlarining qo'lyozma manbalari" (nomzodlik ishi) va "Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi" (doktorlik) izlanishlari Furqatning qo'lyozma manbalarini sistematik yig'ish, nusxalarni solishtirish va tarixiy jihatdan joylashtirishga bag'ishlangan. Olimning bu ishlarida matnshunoslik metodlari aniq ko'rinadi – nusxa xususiyatlari, yozuvchilar xatoliklari, orfografik farqlar va stilistika aspektlari asosida tahririy qarorlar qabul qilingan.

Ustozning Ogahiy, Muqimiy, Ibrat va boshqa ijodkorlar asarlari nashrlari (masalan, "Zubdatu-

t-tavorix", "Mezoni zamon", Muqimiy asarlari) matnning tarixiy-lingvistik qatlamini ochib, zamonaviy o'quvchiga tushunarli izohlar bilan taqdim etilgan. Har bir nashrda tahririy apparat – so'zboshi, izohlar, lug'at va nusxa tavsiflari – ilmiy mezonlarga mos ravishda tuzilgan.

Matnshunoslik tamoyillari va tahririy yondashuvlar. Olimning metodologiyasida quyidagi tamoyillar markaziy ahamiyatga ega:

Nusxalararo qiyos – barcha mavjud nusxalarni solishtirish va variantlarni tahlil qilish.

Kontekstual tahlil – matnni yozilgan davr, muallifning biografiyasi va ijtimoiy-siyosiy holat bilan bog'lash.

Matn qatlami – asl (mualliflik) qatlam, qo'shimcha/tahrir qatlamlari va keyingi tuzatishlarni ajratish.

Matn apparati – tahririy qarorlar, nusxa izohlari, variantlar ro'yxati va lug'atni batafsil berish.

Ilmiy obyektivlik – germenevtik subyektivlikni kamaytirish uchun manbalarni aniq belgilash va qarorlarni hujjatlashtirish.

Ushbu tamoyillar Nurboy Jabborov tahrirlarida har doim muntazam qo'llanilib, o'quvchi va tadqiqotchiga matnning to'g'ri tarixi va badiiy qatlamini taqdim etadi.

Aniq misollar orqali tahririy yondashuvni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Furqat devonining bir nechta nusxalarida badiiy variantlar mavjud. Olim bu variantlarni vazn va ritm jihatdan solishtirib, qaysi variant aslga yaqinroq ekanligini belgilash uchun quyidagi mezonlarni qo'llagan:

a) nusxa yozuvchisi uslubi va yozuv xatolari;

b) she'rning vazn va ritm mosligi;

c) leksik uslubiy uyg'unlik va Furqatning umumiy poetik manzara bilan mosligi.

Ushbu protsedura natijasida tanqidiy matn shakllantirilgan va matn apparatida batafsil berilgan.

Ogahiyning tarixiy asarlarini tahrir qilish jarayonida Nurboy Jabborov tarixiy voqealar, sanalar va toponimlarni qo'shimcha manbalar (arxiv hujjatlari, boshqa tarixchilar matnlari) bilan solishtirib chiqqan. Bu matnning tarixiy ishonchliligini oshiradi va o'quvchiga kontekstual ma'lumot berishni ta'minlaydi.

Olimning badiiy tahlillari nazariy va metodologik jihatdan boy. U Navoiyning ijodiy mexanizmlarini, tasavvufiy mafhumlarni (masalan, futuvvat, ma'rifat, nafsga qarshi kurash) matndagi timsollar orqali ochib bergan. Navoiyning "Makorimu-l-axloq" va "Xamsa" asarlarini tahlil qilishda semantik qatlamlarni, metafora va allegoriya yordamida ishlatilgan badiiy usullarni tizimli ravishda ko'rsatadi.

Furqatshunoslikda esa poetik tilning milliy-ma'rifiy qirralarini, tilning uslubiy o'ziga xosliklarini hamda zamonaviy nazariy qarashlarga mos keluvchi interpretatsiyalarni taklif qiladi.

Nurboy Jabborov nafaqat tadqiqotchi balki yetuk ilmiy rahbar bo'lib, ko'plab magistrantlar va doktorantlarni tarbiyaladi. Ustoz sifatida olimning tajribasi quyidagicha elementlardan iborat:

metodologik treninglar: matnshunoslik amaliyoti, nusxa tekshiruvi;

nashrga tayyorlash bo'yicha seminarlar va amaliy mashg'ulotlar;

ilmiy rahbarlik ostida amalga oshirilgan ilmiy loyihalar va qo'lyozma kataloglashtirish ishlari;

xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini yosh olimlarga taqdim etish.

Bularning natijasida Nurboy Jabborov maktabi hozirgi kunda ham faoliyat ko'rsatib, uning shogirdlari mustaqil tadqiqotchilar sifatida faoliyat yuritmoqda.

Xalqaro hamkorlik va ilmiy ta'sir. Nurboy Jabborovning xalqaro anjumanlarda ilmiy ishtiroki turkiy va fors-arab olimlari bilan hamkorlik qilishga imkon berdi. Olim xalqaro konferensiyalarda navoiyshunoslik, matnshunoslik va manbashunoslik bo'yicha ma'ruzalar qilgan. Bu esa uning ilmiy g'oyalarining xalqaro maydonda muhokama qilinishiga va boshqa tillardagi ilmiy nashrlarga ta'sir ko'rsatishga xizmat qildi. Olimning yondashuvlari nazariy jihatdan barqaror va amaliy jihatdan

yuqori natijalar beradi.

Professor Nurboy Jabborovning ilmiy merosi o‘zbek matnshunosligi va manbashunosligida muhim o‘rin egallaydi. Uning nazariy va amaliy yondashuvlari matnni tanqidiy tahrir qilish, qo‘lyozma manbalarni tahlil etish va badiiy asarlarni zamonaviy o‘quvchiga yetkazishda asosiy qoida va tamoyillar vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. - T.: Akademnashr, 2015.
2. Jabborov N. Furqat asarlarining qo‘lyozma manbalari. – T.: 1994.
3. Jabborov N. Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi. – T.:, 2004.
4. Ogahiy M.R. Zubdatu-t-tavorix. (tahrir: N. Jabborov). – T.:, 2012.
5. Is’hoqxon Ibrat. Mezoni zamon. (nashrga tayyorlovchilar: U. Dolimov, N. Jabborov). – T.: 2018.
6. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar instituti arxiv materiallari.
7. Konferensiya materiallari: “Alisher Navoiy va XXI asr” xalqaro anjuman materiallari (Toshkent, 2016–2022). 66-69.

TURKIY MATNLAR ELEKTRON BAZASINI YARATISH VA ULARNI ILMIY MUOMALAGA KIRITISH ISTIQBOLLARI

Zarifjon G'ulomov,
Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi xodimi
e-mail: muslimjon3396@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada turkiy xalqlarning yozma madaniy merosini raqamlashtirish, uni yagona elektron ma'lumotlar bazasi asosida tizimlashtirish hamda ilmiy tadqiqotlar muomalasiga kiritish masalalari tahlil qilingan. Unda elektron matnshunoslik, raqamli filologiya va metadata texnologiyalarining imkoniyatlari yoritilib, turkiy adabiy qo'lyozmalarni saqlash, tahlil etish va ilmiy izlanishlar jarayoniga tatbiq etish istiqbollari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *turkiy matnlar, elektron baza, raqamlashtirish, matnshunoslik, metadata, ilmiy aylanish, raqamli filologiya.*

Abstract

This article analyzes the issues of digitizing the written cultural heritage of the Turkic peoples, systematizing it within a unified electronic database, and integrating it into scholarly research circulation. It explores the potential of electronic textual studies, digital philology, and metadata technologies, and outlines prospects for the preservation, analysis, and incorporation of Turkic literary manuscripts into academic research processes.

Keywords: *turkic texts, electronic database, digitization, textual studies, metadata, scholarly circulation, digital philology.*

Kirish

Bugungi globallashuv davrida ilmiy axborot tizimlari, ayniqsa, raqamli gumanitar fanlar (Digital Humanities) sohasining jadal rivojlanishi natijasida turkiy xalqlarning yozma madaniy merosini elektron shaklda saqlash va o'rganish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Raqamlashtirish jarayoni – bu faqat matnlarni elektron formatga o'tkazish emas, balki ularni tadqiqotga tayyorlash, izlab topish, indekslash, kodlash va tahlil qilish imkonini beruvchi murakkab ilmiy-texnik tizimdir [Saidov, 2020: 41].

So'nggi yillarda filologiya, tarix, axborot texnologiyalari va kutubxonashunoslik yo'nalishlarining o'zaro integratsiyasi natijasida yangi tadqiqot sohasi – raqamli matnshunoslik (digital textual studies) shakllanmoqda. Bu yondashuv matnni nafaqat til va mazmun jihatdan, balki raqamli kontekstda qayta tuzish, interaktiv tahlil qilish va ilmiy hamjamiyat uchun ochiq ma'lumot sifatida taqdim etishni ham nazarda tutadi [Bozkurt, 2018: 86].

Turkiy adabiyot va til tarixiga oid manbalar – O'rxun-Enasoy bitiklari, Qutadg'u bilig, Devonu lug'otit turk, Hibatul-haqoyiq, Xamsa, Boburnoma, Shohnoma tarjimalari kabi asarlar nafaqat filologik, balki madaniy va sivilizatsion meros sifatida ham elektron bazaga kiritilishi zarur. Chunki ushbu manbalar turkiy xalqlarning tarixiy o'zligini anglash, til taraqqiyoti bosqichlarini o'rganish va ilmiy merosni global miqyosda tanitish uchun muhim poydevor hisoblanadi [Karimov, 2022: 58].

Shuningdek, dunyo miqyosida turkiy matnlarni o'z ichiga olgan elektron korpuslar yaratish borasida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Turk Dil Kurumu (TDK) tomonidan ishlab chiqilgan "Türkiye Türkçesi Ulusal Derlemi", Kazan Federal Universitetida yaratilgan "Tatar Til Korpusi", shuningdek, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tomonidan yo'lga qo'yilgan "Raqamli meros" platformalari bunga misol bo'la oladi [Yildiz, 2021: 130].

Afsuski, O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa respublikalarida hali ham ko'plab qadimiy qo'lyozmalar, xususan, Chig'atoy, Eski o'zbek, Qozon va Qrim tatar tillaridagi matnlar

to‘liq raqamlashtirilmagan. Bu esa ularning xalqaro ilmiy muomalada to‘liq foydalanilishini qiyinlashtirmoqda. Shu bois turkiy matnlarni elektron shaklga keltirish va ularni yagona ochiq ilmiy bazaga joylashtirish – tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarixshunoslikda yangi bosqichni boshlab beruvchi tashabbus sifatida qaraladi [Usmonov: 2019, 74].

Natijada raqamlashtirilgan turkiy manbalar nafaqat saqlanish, balki tadqiqotning yangi metodlarini – korpus lingvistikasi, avtomatik morfologik tahlil, leksik-semantik tarmoqni o‘rganishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan turkiy matnlar elektron bazasini yaratish masalasi milliy merosni global ilmiy aylanishga kiritishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sanaladi [Sodiqov, 2022: 63].

Asosiy qism

1. Turkiy matnlar raqamlashtirish jarayonining ahamiyati

Raqamlashtirish jarayoni zamonaviy filologiya va manbashunoslikning eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Chunki u nafaqat matnni elektron shaklga o‘tkazish, balki **madaniy merosni saqlash, ilmiy tadqiqotlar uchun yangi platforma yaratish hamda ilmiy aylanishni jadallashtirish** imkonini beradi [Usmonov, 2019: 72]. Turkiy xalqlar adabiy merosi, ayniqsa, qo‘lyozma va toshbosma asarlar ko‘pincha fizik jihatdan yemirilish, yo‘qolish yoki cheklangan foydalanish xavfi ostida bo‘ladi. Shu bois ularni raqamlashtirish – bu merosni kelajak avlodga yetkazishning eng samarali vositasi hisoblanadi.

So‘nggi yillarda raqamli filologiya konsepsiyasi (Digital Philology) tobora rivojlanib, **mavjud matnlarni lingvistik, stilistik, semantik hamda statistik tahlil qilish imkoniyatini** yaratmoqda. Masalan, matnning morfologik tuzilishini aniqlash, so‘z chastotasini o‘lchash, semantik maydonini xaritalash kabi jarayonlar avtomatik dasturlar yordamida amalga oshirilmoqda [Qodirov, 2020: 88]. Bu esa tadqiqotchilarga avval imkonsiz bo‘lgan miqyosda solishtirma va dinamik tahlillar olib borish imkonini beradi.

Turkiy matnlarni raqamlashtirishning muhim jihatlaridan yana biri – bu **xalqaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirish va ochiq ilmiy ma’lumotlar muhitini yaratishdir.** Masalan, Istanbuldagi **Süleymaniye kutubxonasi,** Toshkentdagi **O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharq qo‘lyozmalari instituti**, Qozondagi **Tatar Milliy arxivi** hamda Anqaradagi **Türk Dil Kurumu**da saqlanayotgan turkiy qo‘lyozmalarni yagona elektron katalog asosida birlashtirish orqaligina tadqiqotchilar uchun **transmilliy ilmiy tarmoq**ni shakllantirish mumkin bo‘ladi [Aliyev, 2021: 115].

Shuningdek, raqamlashtirilgan matnlarning **metadata (ma’lumotlar to‘plami)** asosida kataloglashtirilishi ham muhim o‘rin tutadi. Har bir matn uchun muallif, davr, til, uslub, janr, manba, geografik joylashuv va manba holati kabi atributlarning raqamli bazaga kiritilishi – ilmiy tadqiqotlarning aniqroq, tizimliroq va ishonchliroq bo‘lishini ta’minlaydi [Karimova, 2022: 134].

Bugungi kunda **“Digital Turkology”** yoki **“e-Turcology”** yo‘nalishlari dunyo miqyosida keng rivojlanmoqda. Bu sohada Germaniyada “Türkische Studien Digital”, Turkiyada “Türk Kültürü Elektronik Kütüphanesi”, O‘zbekistonda esa “Turkiy qo‘lyozmalar elektron fondi” kabi tashabbuslar raqamlashtirish jarayonining amaliy natijasidir [Yusupov: 2023, 57].

Umuman olganda, raqamlashtirish jarayoni nafaqat turkiy xalqlar adabiy merosini saqlab qolish, balki **ilmiy-tahliliy faoliyatning yangi paradigmasini** yaratishda muhim o‘rin egallaydi. U **mavjud matnlarni global ilmiy muomalaga kiritish, ularni ochiq manba sifatida e’lon qilish va tadqiqotchilar o‘rtasida hamkorlikni kengaytirish** imkonini beradi.

2. Elektron baza yaratishning metodologik asoslari

Turkiy matnlarning elektron bazasini yaratish jarayonida metodologik yondashuvlar hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Bunday baza nafaqat matnlarni saqlash, balki ularni strukturaviy, semantik va morfologik jihatdan qayta ishlash imkonini beruvchi tizim sifatida loyihalanishi lozim [Karimova: 2022, 41].

Birinchi navbatda, elektron bazaning asosiy tarkibiy elementi – metadata, ya'ni matn haqidagi ma'lumotlar to'plamidir. Metadata matnning nomi, muallifi, yaratilgan davri, tili, janri, manbasi, nusxalar soni va ularning joylashuvi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'lumotlar ilmiy izlash, kataloglashtirish va solishtirma tahlil jarayonlarini avtomatlashtirishda muhim rol o'ynaydi [Usmonov, 2019: 76].

Ikkinchidan, xalqaro miqyosda qo'llanadigan TEI (Text Encoding Initiative) standarti elektron matnlarni kodlash va ularning strukturaviy yaxlitligini saqlash uchun eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. TEI belgilar tizimi yordamida matnning barcha unsurlari – sarlavha, izoh, bayt, she'r, arabcha so'z, transliteratsiya yoki tarjima – maxsus teglar bilan belgilab chiqiladi. Natijada matn kompyuter tomonidan qayta ishlanishi, qidiruv tizimlari va lingvistik dasturlar uchun mos formatda saqlanishi mumkin [Bozkurt: 2018, 89].

Masalan, "<l>" va "<lg>" belgilar she'riy satr va bandlarni belgilash uchun, "<note>" izohlarni ajratish uchun, "<name>" shaxs yoki joy nomlarini ko'rsatish uchun ishlatiladi. Shu orqali matnning ichki tuzilishi, uslubi va leksik birliklari avtomatik semantik tahlil uchun tayyorlanadi.

Uchinchi jihat – OCR (Optical Character Recognition) texnologiyasini moslashtirishdir. Ko'pchilik turkiy manbalar arab yoki eski uyg'ur yozuvida bitilgan bo'lib, mavjud OCR tizimlari ularni to'liq tanimay oladi. Shu sababli eski yozuvlar uchun mintaqaviy grafemalar va diakritik belgilarga moslashtirilgan maxsus model ishlab chiqish zarur [Abdullayev, 2023: 93]. Masalan, O'zbekiston, Turkiya va Tataristonda olib borilayotgan "Old Turkic OCR" loyihalari shunday moslashtirilgan modellar yaratish yo'lida muhim qadamlardir [Erkinov, 2022: 58].

Bundan tashqari, elektron baza uchun ontologik tuzilma yaratish ham muhim. Ontologiya – bu matnlar o'rtasidagi semantik munosabatlarni (muallif – asarning bog'liqligi, davr – janr munosabati, til – hudud farqlari) aniqlovchi mantiqiy modeldir [Sadiqov, 2021: 120]. Bu turdagi tuzilmalar ilmiy tahlilni chuqurlashtiradi, ayniqsa, turkiy tillar o'rtasidagi leksik o'xshashlik va semantik tarmoqlarni aniqlash imkonini beradi.

Elektron baza yaratishda, shuningdek, ma'lumotlar formatining barqarorligi va uzviy yangilanish tizimi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun XML, JSON va RDF kabi ochiq formatlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki ular xalqaro raqamli ilmiy almashinuv tizimlari (masalan, Zenodo, Europeana, OpenAIRE) bilan integratsiyalash imkonini beradi [Yusupov, 2023: 62].

Umuman olganda, elektron baza yaratish jarayoni – bu nafaqat texnik, balki filologik, tarixiy va informatsion yondashuvlarni uyg'unlashtiruvchi ko'p bosqichli ilmiy faoliyatdir. U turkiy matnlarni global ilmiy muomalaga kiritish, ularni taqqoslama tahlil qilish va madaniy merosni raqamli muhitda abadiylashtirish imkonini beradi.

3. Ilmiy integratsiyada elektron bazalarning o'rni

Elektron matnlar bazasi zamonaviy ilmiy muomalada nafaqat arxiv yoki saqlovchi tizim, balki **ilmiy tahlil va nashriyot faoliyatini integratsiyalovchi platforma** sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. U orqali matnshunoslik, tarixshunoslik, tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishlaridagi tadqiqotchilar **qo'lyozmalarni qiyosiy tahlil qilish, muqobil matn variantlarini solishtirish** hamda **leksik-semantik o'zgarishlarni avtomatik tarzda kuzatish** imkoniyatiga ega bo'ladi [Yildiz, 2021: 132].

Bunday tizimlarning ilmiy aylanishdagi ahamiyati shundan iboratki, ular **matnlarning raqamli identifikatori (DOI)** orqali xalqaro ilmiy tarmoqlarga ulanadi. Natijada turkiy matnlar ham **Open Access** platformalari orqali jahon tadqiqotchilari uchun ochiq manba sifatida taqdim etiladi [Sodiqov, 2022: 67]. Bu esa milliy ilmiy merosni global akademik muomalaga kiritish va uni **xalqaro sitatalar maydonida tanitish** imkonini beradi.

Bugungi kunda Turkiyada faoliyat yuritayotgan **TÜBİTAK Ulusal Veri Merkezi** (TUBITAK Milliy Ma'lumotlar Markazi) hamda Istanbul universiteti huzuridagi **Türk Dili Veri Tabanı**

(TDVT) loyihalari bu borada yirik raqamli fondlarni shakllantirib, turkiy tillar oʻrtasidagi leksik tahlilni avtomatlashtirishda muhim rol oʻynamoqda [Demir, 2020: 48].

Shuningdek, Rossiyada tashkil etilgan **"Turkological Digital Archive"** platformasi orqali qadimiy turkiy yozuvlar (Oʻrxun-Yenisey bitiklari, qadim uygʻur matnlari, arab grafikasidagi manbalar) **PDF, XML va Unicode** formatlarida qayta ishlanib, **kompyuter lingvistikasiga asoslangan indekslash** imkoniyatlari yaratilmoqda [Ivanova, 2021: 105].

Oʻzbekiston tajribasida esa **Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi** va **Alisher Navoiy nomidagi Til va Adabiyot instituti** hamkorligida amalga oshirilayotgan **"Raqamli meros"** loyihasi alohida eʼtiborga molikdir. Ushbu loyiha doirasida arab yozuvidagi oʻzbek, tatar, uygʻur va turkman matnlari raqamlashtirilmoqda, ularning **morfologik tahlil modullari** ishlab chiqilmoqda hamda matnlar **ilmiy qidiruv tizimiga integratsiyalanmoqda** [Rasulov, 2023: 74].

Elektron bazalarning ilmiy integratsiyadagi yana bir muhim jihati – bu **raqamli sitatalar** va **ilmiy metrikalar tizimi** bilan uygʻunlikda ishlashidir. Masalan, CrossRef, ORCID va Scopus tizimlariga ulanadigan raqamli bazalar orqali har bir matnga **barqaror identifikator** beriladi. Natijada har bir maqola, matn yoki ilmiy sharh **xalqaro maʼlumotlar aylanishi**da ishtirok etadi [Karimov: 2020, 93].

Shunday qilib, turkiy matnlarning elektron shaklda taqdim etilishi ularni nafaqat saqlash, balki **ilmiy almashinuv, tarjima, interaktiv tahlil va komparativ tadqiqotlar** uchun yangi ufqlar ochadi. Bu esa, oʻz navbatida, **turkologiya fanining raqamli paradigmasini shakllantirish**ga xizmat qiladi.

Xulosa

Turkiy matnlarning elektron bazasini yaratish – bu nafaqat matnshunoslik sohasida, balki butun turkologiya fani doirasida **ilmiy integratsiya va maʼlumotlar muomalasini jadallashtirish**ning eng muhim omillaridan biridir. Soʻnggi yillarda raqamli texnologiyalar, sunʼiy intellekt va avtomatik tahlil dasturlarining jadal rivojlanishi turkiy yozma manbalarni **yangi ilmiy oʻlchovlar orqali oʻrganish imkoniyatini** ochib berdi.

Elektron bazalarning yaratilishi turkiy xalqlar adabiy merosini saqlash, tadqiq etish va targʻib qilish jarayonida **uzviy ilmiy tizimni shakllantirish**ni taʼminlaydi. Ayniqsa, qadimiy matnlarni raqamlashtirish ularning **yoʻqolish xavfini kamaytiradi**, **dublikatsiya va rekonstruksiya** ishlarini osonlashtiradi hamda **lingvistik tahlil jarayonlarini avtomatlashtiradi**. Shu orqali nafaqat tarixiy, balki zamonaviy adabiy manbalar ham raqamli shaklda saqlanib, yangi avlod tadqiqotchilari uchun ochiq manba sifatida taqdim etiladi.

Elektron bazalarning oʻrni, ayniqsa, **raqamli iqtibos tizimlari (DOI, ORCID, CrossRef)** bilan integratsiyada yanada kuchayadi. Bu tizimlar matnlarning xalqaro sitatalar maydonida tanilishi, **ilmiy natijalarning aniqligi va ishonchliligini** oshiradi. Shu sababli turkiy matnlar bazasini yaratishda xalqaro standartlarga – **TEI (Text Encoding Initiative)**, **Unicode**, **XML** va **Dublin Core** metamaʼlumot tizimlariga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

Oʻzbekiston sharoitida bunday bazaning shakllanishi **ilmiy merosni globallashuv sharoitida himoya qilish**, **turkiy xalqlar oʻrtasida ilmiy hamkorlikni mustahkamlash** va **turkologiya fanini raqamli platformalarga integratsiya qilish** uchun zarurdir. Xususan, "Raqamli meros" loyihasi doirasida olib borilayotgan raqamlashtirish ishlarini **mashina oʻqiydigan (machine-readable)** formatlarda kengaytirish, ularga **ilmiy annotatsiyalar, izohlar va interaktiv lugʻatlar**ni biriktirish orqali ularning ilmiy qiymatini yanada oshirish mumkin.

Kelajak istiqbollari shundan iboratki, turkiy matnlar elektron bazasi:

- xalqaro ochiq ilmiy platformalar (masalan, Zenodo, OpenAIRE, ResearchGate) bilan integratsiyalashgan holda;
- avtomatik tarjima va fonetik tahlil tizimlari bilan bogʻlangan holda;

• hamda **“Digital Turkology”** yo‘nalishida yangi ilmiy maktabni shakllantirgan holda faoliyat yuritadi.

Bunday yondashuv orqali turkiy xalqlar madaniy va ilmiy merosining yagona raqamli modeli yaratiladi. Bu model, o‘z navbatida, **ilmiy tahlil, komparativ adabiyotshunoslik, leksikografiya va semantik tadqiqotlar** uchun mustahkam zamin yaratadi.

Demak, turkiy matnlar elektron bazasini yaratish – bu **o‘tmish merosini saqlash** bilan birga, **kelajak ilmiy taraqqiyoti uchun raqamli poydevor qo‘yish**dir. Bunday tashabbuslar milliy ilmni xalqaro miqyosda tanitish, ilmiy almashinuvni kuchaytirish va turkologiya fanini XXI asr talablariga mos holga keltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva, N. O‘zbek qo‘lyozma manbalarini raqamlashtirishning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Abdullayev, D. Arab grafikasidagi matnlarni OCR tizimida tanish muammolari. – Toshkent: Axborot texnologiyalari instituti nashriyoti, 2023.
3. Abdullayev, R. Optical Recognition Problems in Arabic-script Turkic Manuscripts. // Central Asian Philology Review. – Tashkent, 2023. – №1. – P. 90–97.
4. Aliyev, E. Turk dunyosi qo‘lyozmalari elektron katalogi: muammo va yechimlar. – Anqara: Türk Dil Kurumu, 2021.
5. Aliyev, N. Turkiy narodlar adabiy merosining elektron arxivi. – Boku: Elm, 2021.
6. Alptekin, Ş. Kültürel Mirasın Dijital Korunması: Osmanlı ve Türk El Yazmaları Örneği. – Ankara: Bilkent University Press, 2017.
7. Bozkurt, F. Digital Philology and the TEI Model in Turkic Texts. // Journal of Turkology Studies. – Ankara, 2018. – Vol. 12.
8. Bozkurt, F. Dijital Beşeri Bilimler ve Türkoloji Araştırmalarında Yeni Yaklaşımlar. – İstanbul: Dergah Yayınları, 2018.
9. Demir, O. Türk Dili Veri Tabanı Projesi: Amaç, Yöntem, Sonuçlar. İstanbul: İstanbul Üniversitesi Yayınları, 2020.
10. Ivanova, N. V. Digital Turkology and Linguistic Corpora in Russia. – Moscow: Russian Academy of Sciences Press, 2021.
11. Karimov, B.A. Elektron nashrlar va raqamli sitatalar tizimi. – Toshkent: Fan, 2020.
12. Karimov, R. Turkiy yozma yodgorliklarning raqamli tahlili va ularning tilshunoslikdagi o‘rni. // O‘zbekiston filologiya jurnali. – 2022. – №3.
13. Karimov, Sh. Turkiy qo‘lyozmalar va ularni raqamlashtirish masalalari. // Ilmiy meros jurnali. – Toshkent, 2022. – №2.
14. Karimova, N. Metama’lumot tizimlari va madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
15. Qodirov, Sh. Turkiy matnlar korpusi: nazariy asoslar va amaliyot. – Samarqand: SamDU, 2020.
16. Rasulov, F. O‘zbekiston raqamli madaniy merosi: holat va istiqbollar. “Ilm va innovatsiya” jurnali, № 2, 2023.
17. Sadiqov, A. Til ontologiyasi va matn tarmoqlari modeli. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
18. Sodiqov, A. (2022). Raqamli filologiya va ilmiy almashinuvning yangi bosqichlari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
19. Sodiqov, I. Turkiy tillar korpus lingvistikasi va axborot texnologiyalari integratsiyasi. // Filologiya va axborot texnologiyalari, №2. – Samarqand, 2022.
20. Turan, A. Digital Humanities and the Future of Turkic Studies. // Journal of Turkish Linguistic Studies. – Vol. 5, No. 2. – 2020.
21. Usmonov, B. Elektron matnshunoslik nazariyasi va amaliyoti. – Samarqand: SamDU, 2019.
22. Usmonov, R. Raqamli filologiya va zamonaviy manbashunoslik masalalari. – Toshkent: Fan, 2019.
23. Usmonov, Sh. Markaziy Osiyo turkiy yozma manbalari va ularni raqamlashtirish muammolari. // Sharqshunoslik va manbashunoslik ilmiy to‘plami. – Toshkent: IFA, 2019.
24. Yildiz, M. Dijital Beşeri Bilimler ve Türkoloji Arşivleri. Ankara: Hacettepe Üniversitesi Yayınları, 2021.
25. Yıldız, M. Türk Dili Ulusal Derlemi ve Korpus Linguistik Uygulamaları. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2021.

MATN, HAJVIY MATN VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Usmonov Aslam Karshiboyevich
A.Qodiriy nomli Jizzax DPU
O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasi dotsenti,
f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada hajviy matn tarkibidagi ayrim so'zlar kulgi yuzaga keltirishi haqida so'z yuritilgan. Tilshunoslikda "Matn" tushunchasiga bo'lgan turli xil qarashlar va yondashuvlarni aks ettiruvchi o'nlab ta'riflar mavjud. Bu qarashlarning barchasi matnning u yoki bu xususiyatlaring qamrab olgan.

Kalit so'zlar: *matn, hajviy matn, til birliklari, pragmatika, ma'no, munosabat, so'zlar, yondashuv.*

Abstract

This article discusses the ability of certain words in humorous text to cause laughter. In linguistics, there are dozens of definitions that reflect different views and approaches to the concept of "Text". All of these views cover one or another feature of the text.

Key words: *text, comic text, language units, pragmatics, meaning, attitude, words, approach.*

Matn tushunchasiga bo'lgan turli xil qarashlar va yondashuvlarni aks ettiruvchi o'nlab ta'riflar mavjud. Avvalo, lug'atlarda keltirilgan ta'riflarni ko'rib chiqamiz. 1955-yilda Moskvada nashr etilgan "Словар иностранных слов"da "tekst" so'zi quyidagicha ta'riflanadi: Tekst (lotincha "textum"– mato, to'qish, birlashtirish)– asosiy xususiyatlari aloqadorlik va yaxlitlik bo'lgan til birliklarining o'zaro birikishi, mantiqiy ketma-ketligi.[1: 680]; "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da "matn" atamasiga "yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi, tekst" sifatida ta'rif beriladi. [2:61]. Matnning bu xususiyatlarini hisobga olib, ba'zi tekshiruvchilar uni lingvistikaning mustaqil bir sohasi sifatida (tekst grammatikasi, tekst lingvistikasi kabi nomlar bilan) ajratishni zarur deb biladilar. Ba'zilar esa uni tekst sintaksisi deb atab (so'z birikmasi sintaksisi, sodda gap sintaksisi kabi), gap sintaksisining davomi sifatida qarab, bu bilan sintaksis terminining mazmunini kengaytirishni, asosiy sintaktik birlik sifatida gapdan ko'ra katta sintaktik butunlik deb qarash kerakligini ta'kidlaydilar: bunda sintaksisning yuqori chegarasi qo'shma gap sintaksisi emas, balki tekst sintaksisi bo'ladi. Tekshiruvchilarning ko'pchiligi bu sohani birinchi qarash bo'yicha yoritmoqdalar. Ko'rinib turganiday, A.G'ulomov o'zbek tili faktlaridan kelib chiqqan va dunyo tilshunosligidagi turli qarashlarni inobatga olgan holda matnning tabiati va mohiyatini aniq ko'rsatib bergan.

Matn (tekst)ga lingvistik tadqiqot obyekti sifatida qaraluvchi nutqning eng yirik birligi – bir mikromavzuni yoritish uchun xizmat qiladigan nisbiy mustaqil gaplar guruhi (gaplar birikmasi – yig'indisi) ma'nosini anglatadi.[3:8]

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "matn" atamasi quyidagicha izohlanadi: Matn atamasi (arabcha) "elka", nutqning yozuvdagi ifodasi – (tekst); yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat.[4:557]

Matn muammolari bilan jiddiy shug'ullangan o'zbek tilshunoslaridan yana biri M.Hakimov hisoblanadi. U asosiy maqsadi "ilmiy matn va uning birliklari orasidagi mazmuniy munosabatlarni ifoda etuvchi bog'lovchilar, ularning o'ziga xos xususiyatlari va o'ziga xos vazifalarini aniqlashga yo'naltirilgan ishlarga hissa qo'shish, ilmiy matnda muallifning xususiy munosabati hamda uning turlarini belgilash" dan iborat bo'lgan nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlarini boy faktik materiallar asosida batafsil tadqiq etgan.[5:168]

Matn muammolari bilan muntazam shug‘ullanib kelayotgan A.Mamajonov va M.Abdupattoyevlar ham matn tarkibidagi bog‘lanishlilikka grammatik va mazmuniy umumiylikka ko‘ra uzvlarni birikuviga alohida urg‘u beradilar: “matn sintaksisning tekshiruv obyekti. Sintaktik hodisa sifatida matn maxsus leksik-grammatik va umumiy mazmun talabi bilan birikkan birdan ortiq mustaqil gap turlarining yig‘indisidan iborat. Matn o‘ziga xos murakkab sintaktik strukturaga ega bo‘lgan nutqning yirik ifodasidir”[6:4;25], – degan fikrlarini bildirib o‘tadilar.

Ana shu mulohazalardan kelib chiqib, tilshunos olim M.Yo‘ldoshevning quyidagi fikrlariga e’tibor qaratishni lozim topdik. Olim: “matnni gaplar ketma-ketligining bog‘lanishlilik asosida og‘zaki yoki yozma shaklda yuzaga keladigan struktur mazmuniy va kommunikativ yaxlitligi tarzidagi butunlik sifatida til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq”[7:159], –degan fikrni ilgari suradi va matn haqidagi haqli g‘oyani isbotlab bergan edi.

“Yumor” (hajv) termini asli lotincha “suyuqlik” ma’nosini anglatuvchi “umor” so‘zidan kelib chiqqan va tibbiyot termini sifatida qo‘llangan. Bu termin bizgacha yetib kelgan, ammo o‘zining asl ma’nosini mutlaq yo‘qotgan. Chaironing ta’kidlashicha, hozirgi kunda u “panadagi termin” bo‘lib “komediya”, “kulgi”, “kulgili” kabi tushunchalarni qamrab oladi. Fikrimizcha, Chairo ta’kidlagan “kulgi”, “komediya”, “kulgili” tushunchalari insonlarning og‘zaki va yozma nutqidagi matnlarda aks etadi va bunday matnlar hajviy matnlar deb ataladi.

Yigit aytar: Jonon, sevar yorim bo‘l,
Ardoqlab boshimda olib yuraman.
Jonon aytar: Durust, gapingiz ma’qul,
Erimdan maslahat so‘rab ko‘raman. (Erkin Vohidov)

Hajviya, hajviy matn va ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda hajviy matnlar yuzasidan xorij va O‘zbekistonlik bir qancha olimlar ilmiy izlanishlarni amalga oshirishgan.

Jumladan, xorijda V.Raskin, A.Salvadore, J.Suzanna, S. Di Maio, A.Dimitris, F. Xristian, A.Ross, L.Broder va boshqalar hajviya mexanizmlari, hajviya nazariyalari, hajviy matnlarni tarjima qilish muammolari va strategiyalari borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Xususan, Viktor Raskinning tadqiqoti hajviyaning mohiyati, hajviyaning akti deb atalgan komponentlari, hajviyani tadqiq qilishda foydalanilgan asosiy konsepsiyalar, “kulgi turlari” va hajviyaning o‘zini kategoriyalarga ajratish muammolari va hajviya nazariyalariga bag‘ishlangan.

Hajviy matnlar borasida tadqiqot olib borishda “hajv” tushunchasining mohiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da hajvga quyidagicha ta’rif berilgan: “ayrim shaxs yoki ijtimoiy hayotdagi nuqsonlarni kulgi ostiga olib, masxaralab aytilgan (yozilgan) gap, jumla, bayt, asar”. Macmillan izohli lug‘atida “yumorning biror holat yoki tadbirni kulgili qilish sifati, kulgili aytilgan yoki qilingan narsa, biror narsaning kulgiligini bilish qobiliyati” kabi ta’riflarni uchratish mumkin. Oxford Advanced Learner’s Dictionary lug‘atida esa “yumor – biror narsadagi uni kulgili yoki qiziqarli qilib ko‘rsatadigan sifat, kulgili narsalarga kulish qobiliyati” deya izoh beriladi.

Taniqli shoir Erkin Vohidovga muxbir savol berdi:

– ***Kelinoyi*** bilan salkam ellik yil yashayotgan ekansizlar, qanday qilib tanishgansizlar?

– Men taqdirimni uzoq-uzoqlardan qidirib yuribman. Buni qarangki, o‘zimizning mahallada, o‘zimizni ko‘chamizda, qo‘shni ekan! Shuni aytadilar-da ***“Falokat oyoq ostida”*** deb...

Yuqoridagi fikrlar asosida “hajv” tushunchasining qadimiy kelib chiqishiga qaramay, u zamon bilan birga rivojlanib nafaqat kulgili, balki ijtimoiy tanqid vositasi sifatida shakllangani aytish mumkin. Hajviy matnlar nafaqat kulgi, balki chuqur ma’no va maqsadni o‘zida jamlagan holda, og‘zaki va yozma adabiyotning muhim janri sifatida rivojlanib kelmoqda. O‘zbek va xorij olimlarining tadqiqotlari ham shuni ko‘rsatadiki, hajv nafaqat kulgili ifoda, balki murakkab lingvistik, psixologik va madaniy hodisa sifatida o‘rganilishi zarur. Shuning uchun ham hajviy matnlar tahlil qilinayotganda,

ularning nafaqat kulgili, balki o‘tkir ijtimoiy xarakterga ega ekanligini hisobga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Словарь иностранных слов. Гос.издательство иностр.и нац.словарей, Москва, 1955,стр.680
2. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002 й. 61-бет
3. А.Мамажонов, М.Абдупаттоев, Матн назарияси. Фарғона-2016
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Тошкент – 2006, 557- бет.
5. Ҳакимов М.Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: филол. фан.н-ди...дисс. –Тошкент, 1994. –168 б.
6. Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн синтаксиси. – Фарғона: ФарДУ нашри, 2002. – Б. 4-25.
7. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси.-Тошкент, Фан, 2008. –Б.159.
8. Йўлдошев У. Бадиий таржиманинг лингво-стилистик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Самарқанд: – “Самарқанд давлат чет тиллар институти” нашриёти, 2022. – 170 бет.
9. Suvonqulov B.M. O‘zbek xalq latifalarining janr xususiyatlari. Filol.fan.nom....diss.avtoref. –T., 2008. –B.13.

TO‘RTINCHI SHO‘BA

TURKIY XALQLARDA YANGICHA MA’RIFATPARVARLIK VA JADID ADABIYOTI

ISTE'DODLI EGIZAKLAR VA ISTE'DOD EGIZAKLIGI

Qozoqboy Yo'ldosh,
Pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yirik vakillari bo'lgan egizak aka-uka ***Hasanxon va Husaynxon Niyoziylar*** *hayoti hamda ilmiy-ma'rifiy faoliyati yoritiladi. Muallif xotira va manbalar asosida mazkur shaxslarning ko'p qirrali iste'dodi, til bilimi, diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal egallagani, zamonaviy fan-texnika va adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini ochib beradi. Maqolada jadid ziyolilarining mustamlakachilik sharoitida amalga oshirgan ma'rifiy faoliyati, ularning millat taqdiridagi o'rni hamda tarixiy adolatsizlik oqibatida yo'qotilgan intellektual salohiyat masalalari tahlil qilinadi. Hasanxon va Husaynxon Niyoziylar shaxsi misolida jadidlar avlodining fidoyiligi va ularning o'zbek ma'naviy taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik, Hasanxon Niyoziy, Husaynxon Niyoziy, ma'rifatparvarlik, ko'p tillilik, mustamlakachilik davri, o'zbek ziyolilari, ilm va madaniyat.*

Abstract

This article examines the life and intellectual legacy of prominent Jadid figures, the twin brothers ***Hasan Khan Niyazi and Husayn Khan Niyazi****. Based on memoirs and historical sources, the study highlights their exceptional versatility, multilingual education, and profound mastery of both religious and secular sciences. The article analyzes their engagement with modern science, technology, literature, and political thought, as well as their role in promoting enlightenment under colonial conditions. Special attention is given to the tragic consequences of political repression, which hindered the free activity of such talented individuals and deprived the nation of significant intellectual potential. Through the example of the Niyazi brothers, the article underscores the dedication of Jadid intellectuals and their vital contribution to the spiritual and cultural development of Uzbek society.*

Keywords: *Jadid movement, Hasan Khan Niyazi, Husayn Khan Niyazi, enlightenment, multilingual education, colonial period, Uzbek intellectuals, science and culture.*

Qiziqish va faoliyat doirasi g'oyat keng, birvarakayiga ham injener, ham jurnalist, ham yozuvchi Muhiddin Polvondan ona tomondan bobosi Hasanxon Niyoziy va uning ukasi professor Husaynxon Niyoziy otlig' jadidlar haqida ko'p eshitardim. Yaqinda qo'limga tushib qolgan "Lolani parishon qil" deb nomlangan ixchamgina kitob [Lolani parishon qil. G'azallar. 2025: 52] bilan tanishgach, bu fenomenal egizaklarning g'oyat serqirra qobiliyat egasi bo'lganliklarini bilib, hayratlarga tushdim. Biror zamonaviy oliy maktabda saboq olmagan holda, alohida tayyorgarlik talab qiladigan bir qancha zamonaviy kasblarni egallash uchun odam qanchalar iste'dodli va qanchalar mehnatkash bo'lmog'i kerak. Afsuski, noraso davr ana shunday qobiliyat egalarining bemalol faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ymadi. Agar shunday shaxsiyatlarga xalaqit berilmaganda, millatimizning ahvoli hozirgidan ancha yaxshi bo'lishi aniq edi. Aslida, bosqinchilar aynan millat holining yaxshi bo'lib qolmasligi uchun ham bunday iste'dodlarni halok etgandi.

Egizak aka-uka Hasanxon va Husaynxon Niyoziylar 1895-yilda Andijonning yirik diniy ulamolaridan bo'lmish mufti Xoja Muhammad Musoxon xonadonida tug'ilganlar. Otasi egizak farzandlari Hasanxon va Husaynxonlarni yoshligidanoq ilm-ma'rifatga oshno qilib ulg'aytiradi. Ilk savodni oilada chiqargan Hasanxon 9 yoshida dastlab shahardagi Xolbek qushbegi madrasasi, keyinroq Jome madrasasida tahsil olib, o'zbek, fors va arab tillarini o'zlashtiradi. Ilmga chanqoq Hasanxon ukasi Husaynxon bilan birgalikda 1912-yildan rus-tuzem maktabida to'rt yil tahsil olib, rus, nemis va ingliz tillarini o'rganadilar. Rossiya shaharlari, hatto Berlin va Istanbuldan o'sha davrlarda fan va texnika, she'riyat, badiiy adabiyot, tarix va jug'rofiyaga oid ilmiy kitoblar; Pushkin,

Gogol, Turgenev, Dostoevskiy, Chexov, Tolstoy singari adiblarning bitiklari; siyosatshunoslik va davlatchilik ilmiga oid asarlarni pochta orqali oldirib, o‘qiydilar. Shariat ilmlarini puxta egallagan og‘a-ini 24 yoshlarida madrasa tahsilini tamomlaydilar.

Egizaklar Turkiston, Ozarbayjon, Tatariston va Turkiyada chiqadigan matbuot nashrlarini o‘qish asnosida jadidchilik g‘oyalariga qiziqib, Andijon, Qo‘qon va Toshkentdagi yangichilar bilan aloqa o‘rnatadilar. Hatto qo‘qonlik tog‘alari yordamida uylarida kichik bosmaxona o‘rnatib, bosqinchilarga qarshi varaqalar chiqaradi. 1917-yildan boshlab Turkiston jadidlarining faol a’zolaridan biriga aylangan Hasanxon Andijonda maorif va madaniyat sohalarida faoliyat yuritadi, yangi maktablar, kutubxonalar tashkil etishda jonbozlik qiladi. 1918-yilda “Turon” maktabida mudirlik hamda o‘qituvchilik qiladi. 1920-yildan boshlab millat ozodligiga erishish niyatida ukasi va boshqa maslakdoshlari bilan “Milliy ittihod” (“Milliy birlik”) tashkilotini tuzib, unga qator yillarda rahbarlik qiladi [Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025: 52]. Shu munosabat bilan 1923- va 1931-yillarda GPU tomonidan qo‘lga olinib, bir muddat qamaladi. 1932-34-yillarda Andijon suv xo‘jaligi boshqarmasida bosh mirob bo‘ladi. 1934-37-yillarda, ya’ni qamoqqa olingunga qadar shahardagi 18-to‘liqsiz o‘rta maktabda geografiya va boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lib ishlaydi va ayni paytda pedtexnikumning kechki bo‘limiga kirib o‘qiydi ham.

O‘zining chuqur diniy bilimi, zamonaviy ilm-u fan yutuqlaridan xabardorligi, bir nechta tilni bilishi, usta sozanda va hofiz, bog‘bon va dehqon, terini sanoat yo‘li bilan qayta ishlashni o‘zlashtirgan bilimdon injener, yetuk notiq, o‘ziga xos shoir Hasanxon Niyoziyning obro‘si baland edi. U O‘zbekistonni SSSR tarkibidan ajratib, mustaqil davlat tuzish yo‘lidagi kurashi sabab 1937-yil 2-iyulda qamoqqa olinib, 1938-yil 15-martda otib tashlanadi.

Bugun biz, Hasanxon Niyoziyning urpoqlari, bu alloma to‘g‘risida “Lolani parishon qil” deb atalgan ixchamgina kitobdagi ozgina ma’lumot hamda unda chop etilgan birgina “Uyg‘on” she’riga [Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025: 52] tayanib so‘zlay olamiz. H.Niyoziyning shu birgina she’ri “Milliy ittihod” partiyasi yetakchisining intilishlari, qobiliyat va shaxsiyati haqida bir qadar tasavvur hosil qilishga imkon beradi. She’rning ilk bandlarida o‘lkadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning qaltis va notinch ekani:

Yorug‘ jahon ustida qirg‘in shamoli,
Tentirar guvillab, vajohat solib.
Hasratga cho‘milgan Turon jamoli,
Toshtobut ichida ingrayman qotib [Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025: 52] tarzida tasvirlanadi.

Bitikda bosqinchilarning tutumlari vajohat bilantentigan qirg‘in shamoliga o‘xshatiladi, Turon yurt esa hasratga cho‘milgan holatdagi toshtobutga mengzaladi. Lirik qahramon tobut ichida ingrayotgan ahvoldagi imkonsiz shaxsligi bildiriladi. Lekin shoir imkonsizlikdan umidsizlikka tushmaydi, balki ushbu she’r bilan vatanni, millatni uyg‘otmoq va kurashga chorlamoqni istaydi. She’rning keyingi bandida muallif:

Tik turib aslo bo‘lmayman mag‘lub,
Izg‘igan bo‘hronning vahmidan cho‘chib.
Yiqilsam-da aslo bo‘lmayman taslim,
Kishan iskanjasidan o‘zgarmas aslim, – [Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025: 52] deya o‘z qat’iyatini bayon etadi.

Shoir tiz cho‘kishni ham, mag‘lub bo‘lishni ham o‘ylamaydi. Dushmanning qudratli vahmi uni yiqitishi mumkin, lekin taslim qilolmaydi. Uning erksevar aslini kishan iskanjasi ham o‘zgartira olmaydi. She’rning so‘nggi bandi:

Qo‘shig‘im, tug‘li safda shahdam odim ot,
Millat qalbi, tilida chaqmoqdek yangra.
Taxtga chiqdi Zulmatshoh, piyodalar mot,

Ey Vatan, uyg‘ongin, xatongni angla! [Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025: 52] yo‘sinidagi undov misralardan iborat. Unda shoir uyg‘onishga chorlov bo‘lmish ushbu she’rning millat qalbi va tiliga ko‘chib o‘tishini, kurashlar safida shaxdam odimlayotgan kishilar tilida chaqmoqdek yangrashini istaydi. Lirik qahramon vatanga murojaat qilar ekan, zulmatshoh Vatan taxtiga chiqqani, yurt egasi bo‘lmish piyodalar esa mot bo‘lganidan ogoh qiladi. Shoir vatanga murojaat qilib, ozodlik yo‘lidagi kurashda xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslikka da’vat qiladi. Badiiy jihatdan yuksak bo‘lmasa-da, muallif niyatini ochiq bildirishiga ko‘ra ta’sirli bu she’r o‘z vaqtida salmoqli ahamiyatga ega bo‘lgan.

Husaynxon Niyoziy ham akasi singari ota-onasining maktabi, so‘ngra 9 yoshidan madrasada tahsil olgan (1905–1919). U fizikaga g‘oyat qiziqib, sirka, mis va rux plastinkalaridan galvanik batareyalar yasab, elektr qo‘ng‘iroqlari va chiroqlarini ishga solgan. Elektr haqida orzu ham qilinmaydigan XX asr boshida ularning uyida elektr chirog‘i porlagan. Galvanik elementlar tuzish va mushaklar yasab, olov bilan o‘ynash havasi uning amaliy kimyo bilan ham shug‘ullanishiga olib kelgan. 1916-yilda Toshkentga kelib, kichik motorli planer yasab osmonga uchirgan. Chorsudan hozirgi Navoiy teatrigacha uchib borgan uchoq qo‘nishda bir do‘konni shikastlagan. Shu bahonada Husaynxon Niyoziy qisqa vaqt qamoqqa olingan.

Qamoqdan chiqqach, Andijonga qaytib, u yerdagi maktablar va turli o‘quv kurslarida ona tili, fizika va tabiiyot fanlaridan dars bergan (1917-1923). “Milliy ittihod” tashkiloti 1922-yilda tor-mor etilgach, Husaynxon Niyoziy tashkilotning boshqa faollari bilan birga 1923-yilda qamoqqa olingan va sho‘ro davlatiga qarshi amaliy harakat olib bormaganligi sababli 10 oydan keyin ozod etilgan. Ozodlikka chiqqach, Toshkentga ko‘chib ketgan [Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025: 52].

Toshkentga kelgach, Markaziy tabiiyot laboratoriyasining fizika kabineti rahbari (1924-1935), pedagogika texnikumi (1925-1926), o‘lka xotin-qizlar bilim yurti (1926-1930), Narimonov nomidagi ta’lim-tarbiya texnikumi (1928) hamda sanoat pedagogika texnikumida (1930-1932) fizika o‘qituvchisi bo‘lib ishlagan. Toshkent xotin-qizlar pedtexnikumi, kechki ta’lim-tarbiya internati va Pokrovskiy nomidagi kechki ishchilar fakultetining asos guruhlarida fizika va kimyo fanlaridan dars bergan (1932-1936).

Husaynxon Niyoziy ancha vaqt O‘rta Osiy davlat universiteti fizika fakultetida professor bo‘lib ham ishlagan. Olim tomonidan “Hikmat va kimyo darsligi” (1922), “Kimyo darsligi” (1926), “Fizikadan boshlang‘ich musohabalar” (1927), “Kimyo” (1929), “Fizika terminlari” (1931) kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratilgan. Uning “Tuproq va o‘g‘it”, “Fizika lug‘ati” kitoblari qamoqqa olinish paytida olimning uyi tintuv qilinayotganda yo‘qolgan. 1966-yilda topilgan “Radiy va radioaktivlik” nomli qo‘lyozma kitobi shu kunlarda urpoqlari tomonidan nashrga tayyorlab qo‘yilgan [Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025: 52].

Husaynxon Niyoziyning erksevarlik va vatanparvarlik ruhidagi “Ezsa butun zolim qo‘llar” qo‘shig‘i Andijondagi “milliy ittihodchilar” tomonidan madhiya o‘rnida kuylangani aytiladi. H.Niyoziy 1938-yil 8-avgustda “Milliy ittihod”ga doir “ayblar”i uchun yana qamoqqa olinib, oliy jazoga hukm qilingan. Mahbusning o‘lim kamerasidan afv so‘rab yozgan arizasiga 1942-yil 31-yanvarda rad javobi berilgan. Biroq, keyinchalik mahbus jazo muddatini o‘tash uchun Magadandagi lagerlardan biriga yuborilgan va o‘sha erda 1947-yil 29-aprelda vafot etgan.

H. Niyoziy “Rizoiy Andijoniy” taxallusi bilan o‘zbek mumtoz shoirlariga ergashib g‘azallar yozgan. “Lolani parishon qil” kitobida Husaynxon Niyoziyning bir qancha she’riy yoziqlari e’lon qilingan. Muallifning “Oyto‘ra” [Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025: 52] radifli g‘azalida an’anaviy she’riyatdagi kabi sevgi yo‘lida zabun oshiq holati aks etgan. Unda ma’shuqaga ishqi sabab el og‘ziga tushib, afsonaga aylanganidan qo‘rqmagan oshiq holati aks etadi. Ma’shuqa o‘zini lirik qahramonning oshiqligidan go‘yo xabarsizday tutib uni qiynab, oshiqning ohu fig‘onini ko‘klarga etkazganini shoir: “*Onglamasliqqa olib qilding tag‘ofil, naylayin, Chiqmasinmu ko‘klara ohu fig‘onim, Oyto‘ra?*”

tarzida ifodalaydi. She'r qahramoni suyuklidan rahm qilishni so'ranadi. Axir qanday abgor holatda ekani uning sarg'aygan yuzlaridan ko'rinib turibdi-ku:

Rahm qilsang-chi, sitamgarlik etar endi, mudom
Dardim aytur senga rangi za'faronim, Oyto'ra.

Husaynxon "Husn ahlining yaktosi" shaklida nomlangan murabbasida [Lolani parishon qil. G'azallar. 2025: 52] ham vafosiz ma'shuqa hajrida abgor bo'lgan oshiq ko'ngil holatini an'anaviy yo'sinda aks ettiradi:

Oydan-da go'zaldurkim, yo'q misli nigorimni,
Shavqi oladur qo'ldan sabr ila qarorimni.

Oydan ham suluv, o'xshashi yo'q go'zal, ammo jafokor yor oshiqning sabru qarorini qo'lidan olib qo'ygan. Oshiq "husn ahlining yaktosi" bo'lgan yorni tavsiflash imkondan tashqaridagi yumush ekanini: "*Tavsifig'a so'z yo'qtur, albatta, ul yorimni, Davron o'zi der: "Yoring husn ahlining yaktosi*" shaklida ifoda etadi.

Murabbaning bir to'rtligi o'qirmanda an'anaviy she'rlardan boshqacharoq fikr uyg'otadigan yo'sinda bitilgan. Shoir yozadi:

Bir qancha zamonlardur davronning jafosiga,
Toqat qilibon keldim har qancha balosiga.
Yetkurdi meni oxir ul qoshi qarosiga,
Davron o'zi der: "Yoring husn ahlining yaktosi".

Bu to'rtlikda ikki bor tilga olingan "davron" so'zi she'rxonni o'ylantiradi. Uni odatdagiday zamonning muayyan uzindisi bo'lmish davr ma'nosida ham, lirik qahramonga qandaydir yo'l bilan ko'p zamon jafo o'tkazib kelayotgan shaxs ma'nosida ham tushunish mumkin bo'ladi. Murabbaning so'nggi bandida ma'shuqaga hurlar xizmatkor, gulruhlar yor, suyukli yozgan xatlar oshiq uchun qur'on, uning ruxsori esa mehrob ekani aytilgach, yana "Davron o'zi der: "Yoring husn ahlining yaktosi" satri keltiriladiki, o'qirmanda Davron deganlari odamning oti emasmikin degan ishtiboh uyg'onadi.

Niyoziy domlaning "Mubtalolardan meni" deb atalgan g'azalida [Lolani parishon qil. G'azallar. 2025: 52] ham bevafo suyukli yo'lida fig'on chekkan oshiq ahvoli ruhiyati aks ettiriladi. Oshiq yorga shunchalar mubtalo, u esa shunchalar jafokorki, hatto itlari ham ma'shuqaning gul yuzini ko'rishga to'sqinlik qiladi. Bu holni shoir ancha ta'sirchan shaklda ifoda etadi:

Gul yuzingni ko'rgali mone'lik etdi itlaring,
Farq etar ko'yingda sayr etgan gadolardan meni.

Oshiq suyukliga intilish yo'lida shunchalar tanilganki, hatto yorning itlari ham uni boshqa oshiq – gadolardan farq qilib, sanamga yaqinlashtirmaydilar. G'azal maqtasiga borib adoqsiz jafolardan zada bo'lgan oshiq: "*Ishvayu nozing bilan ko'ngil qushin sayd aylading, Yo vafo qil, yo uzoqlashtir jafolardan meni*", – deya talab qo'yadi.

Shoirning 1920-yilda bitilgan "Qil" radifli g'azali [Lolani parishon qil. G'azallar. 2025: 52] badiiy saviyasi jihatidan boshqa she'rlaridan ajralib turadi. Odatdagiday ma'shuqaga iltijo shaklida bitilgan g'azal misralaridagi tasvir ichki mantiqiy mutanosibligi bilan e'tiborni tortadi. Bitikning boshlanmasi:

Gul yuz uzra zulfingni bog' aro namoyon qil,
Lola birla sunbulni dog' etib parishon qil.

Oshiq ma'shuqadan gul yuzi va qora sochini ko'rsatib bog'aro ko'rinish berib, shu holati bilan lola-yu sunbulning holini parishon qilishni o'tinadi. Keyingi baytda qizil kamzuling yoqalari tugmasin goho echib, bog'dagi gullarning yoqasin chok qilib, g'unchalarning bag'rini qon qilishga undaydi: "*Lola gul qabo jaybing tugmasin ochib gohi, Gul yaqosin chok aylab g'uncha bag'rini qon qil*". G'azalning undan keyingi qo'shmisrasi ohangi bilan she'rxonlarga juda tanishday tuyuladi:

Davlati visolingni shukrin etmaganlarni,
G‘am o‘tig‘a dog‘ aylab, mubtaloi hijron qil.

Bu misralar shoir Hamzaning “O‘zbek xotin-qizlariga” deb atalgan mashhur she’ridagi “*Onalik huquqingni hurmat etmaganlarni Yuzlarin qaro aylab, fe’lidan pushaymon qil*” satrlari ohangiga juda o‘xshab ketishi bilan kishi e’tiborini tortadi. Ko‘rinadiki, badiiy saviyasi ancha yuqori bo‘lgan ushbu g‘azal shoirga chog‘dosh ijodkorlar diqqatini tortgan va uning vazni ham ohangidan foydalanib, o‘ziga xos bitiklar yozilgan. Shuni aytish kerakki, Husayn Niyoziy g‘azali Hamza Niyoziynikidan etti yil oldin bitilgan. Bu hol ushbu bitikning zamondoshlar e’tiborga tushganidan dalolatdir.

G‘azalning tugallanmasi ham ma’nan an’anaviy, ammo ifoda tarziga ko‘ra o‘ziga xos ko‘rinish olgan: “*Soqiyo, yuzing aksi qildi bodani gulgun, Lola rangin sog‘ tut, bazmni guliston qil*”.

Shoirning “Ezsa butun zolim qo‘llar” deb atalgan she’ri [Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025: 52] esa mazmun mohiyatiga ko‘ra ham, vazniga ko‘ra ham tamomila o‘zgacha ko‘rinishga ega. She’r, avvalo, mohiyatan siyosiy mazmunga ega, shaklan esa ko‘proq xalq og‘zaki ijodiga mansub barmoq vaznida bitilganday taassurot qoldiradi. She’rning ilk bandida shoir o‘z niyatini badiiy bo‘yoqlar va ramziy ifodalarsiz ochiq ifoda etadi:

Ezsa butun zolim qo‘llar,
Haqsiz kessa ul qilichlar,
Yiqsa, yoqsa, shu dushmanlar,
Rus bilan urusharmiz.

Keyingi bandda esa bu urush qay yo‘sin amalga oshirilishi kerakligi aks ettiriladi: “*Boshda urfon, qo‘lda yaroq, O‘q chizilg‘an taroq-taroq, Miltiq o‘qlab sharaq-sharaq, Jahd etaylik ko‘ngullar oq*”. Shoir bosqinchi bilan jangga ham yaroqdan oldin urfon, ya’ni ilm kerakligiga urg‘u beradi. Shuningdek, o‘qirmanda ruh uyg‘otmoq uchun “taroq-taroq” va “sharaq-sharaq” singari taqlidiy tovushlar takroridan foydalanadi.

She’rning yakunlovchi bandi oldingilardan farqli ravishda besh misradan iborat bo‘lib unda bosqinchilarga qarshi jondan kechib kurashish kerakligi ta’kidlanadi:

Rus olami Turkistonni,
Xo‘b taladi molu jonni,
Kerak endi kechib jonni
Bolshevik birla otisharmiz,
Dushman bilan chopisharmiz.

1920-yilda bitilgan bu she’r estetik maqsad emas, balki millat ahlini kurashga chorlash vositasi o‘laroq yozilgani uchun unda badiiy san’atlardan foydalanish, ifodaning ta’sirchan va jozibali bo‘lishiga uncha e’tibor qaratilmagan. Shoir badiiy niyatning she’rxonga hech bir to‘siqsiz to‘liq etib borishiga diqqat qilgan.

Yuqorida aytilganlardan ko‘rinadiki, Husaynxon Niyoziy anchagina iqtidorli shoir ekanidan tashqari, dushmanga qarshi kurashdan qaytmaydigan jur’atli shaxs ham bo‘lgan.

“Lolani parishon qil” kitobida Husaynxon Niyoziy domlaning ikki maqolasi berilgan. Uning “She’r haqinda” maqolasi [Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025: 52] o‘z davrining estetik va ijtimoiy talablarini aks ettira olgani bilan g‘oyat ahamiyatli bitik ekanini ta’kidlash lozim. Muallifning: “*Hozirgi shoirlarimiz yodgori xisorlarni zulfi pechtobig‘a o‘ralganlarindan bahs ochmasunlar-da, tabiatni eng nazari ribo manzarai farahbaxshidan mutaassir bo‘lganlarin va ul muassirni zavq va shavqlandurgan nuqtasin bir tarzi latif birlan bayon qilsunlar. Muvashshahg‘a harf axtarib uslub va ifodalarin mahv va nobud aylab san’ati adabiyotni qaro qilmoqni tark aylasunlar-da, huzn, kadar va alamni hayajon va iztirobg‘a solganin muassir bir tarz birlan izhor aylasunlar*” [Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025: 52] tarzidagi qanoati barcha jadid mutafakkirlari kabi Niyoziy uchun ham adabiyot hayotni ezgulik va adolat sari o‘zgartirishning vositasi ekani ayon bo‘ladi.

Husaynxon domla: millat adiblari oldiga turfa g‘azallarg‘a muxammas va nazira yozmoqdan hamda kimlarningdir otiga muvashshah bitmoqdan saqlanib, “*...hubbi Vatan, favoidi ulum va funun, naqoisi taraqqiyi millatg‘a doir ohangliklar bir vazn, muassir va xush tarokib kalimot birlan nazm va yo nasr yozsunlar*” [Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025: 52] shaklida qo‘ygan talabida ham o‘z davrining belgisi, ham chin she’riyatga qo‘yiladigan hech eskirmas talablar aks etadi. Chunki davr millatni zillatdan chiqarish uchun uning ongi va ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, uyg‘otadigan estetik vositaga ulkan ehtiyoj sezar edi.

Domla “She’r haqinda” maqolasida: “*...yosh shoirlarimizni adabiyoti jadidag‘a doir eng oliy shoirlarni asarlarin mutolaa qilmaklari uchun tashviqoti xolisonadur. Toki iste’dodi fitriya shoirlari bo‘lsa tarz, uslub va ifodalarin yo‘lig‘a qo‘ymoqni, she’r va adabiyot nimadan iborat bo‘lganini fahm va idrok aylasunlar*” [Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025: 52], – deb yozadi. U yosh ijodkorlarning kimlardan o‘rnak olish, kimlarga ergashish kerakligini bilishi juda muhim ekanini shu yo‘sin ko‘rsatib o‘tadi. Niyoziy iste’dodli odam uchun hayotdagi har bir narsa zamirida she’r borligini juda o‘rinli qayd etadi.

Xullas, Hasanxon va Husaynxon Niyoziylarning ilmiy hamda badiiy merosi bilan tanishish va tadqiq etish erk yo‘lida jon bergan bobolarga ko‘rsatilgan ehtiromgina emas, balki bugungi millat ahliga o‘zlikni tanitish yo‘lidagi urinish hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Niyoziy. Lolani parishon qil. G‘azallar. 2025.
2. Натан Маллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-китоб. – Т., “Ўқитувчи” нашриёти, 1965.
3. Н.Каримов, С.Мамажонов. XX Аср ўзбек адабиёти тарихи. – Т., “Ўқитувчи” нашриёти, 1999.
4. С.Мирзаев, С.Шермухамедов. Ҳозирги замон ўзбек адабиёти тарихи. – Т., “Ўзбекистон” нашриёти, 1993.
5. Б.Қосимов, Ш.Юсупов, У.Долимов, Ш.Ризаев, С.Аҳмедов. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т., “Маънавият”, 2004.

“O‘TKAN KUNLAR”NING ILDIZLARIGA DOIR

Quronov Dilmurod Haydaralievich,
filologiya fanlari doktori, professor,
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya

Maqolada “O‘tkan kunlar”ning ildizlariga doir tadqiqot Sotti Husayn mualliflgidagi “O‘tkan kunlar” ham o‘tkan kunlar” tanqidiy maqolasi asosida tahlilga tortiladi. Abdulla Qodiriy, Jo‘rji Zaydon, V.Skottlarning romanchilik usullari borasida so‘z boradi. Shuningdek “O‘tkan kunlar”ni G‘arb adabiyoti janrini ijodiy o‘zlashtirishu mahalliylashtirish deb emas, eng avval milliy epik an’analarning muayyan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar tug‘dirgan badiiy-estetik ehtiyojlarga javob bera oladigan tarzda shakllantirilishi natijasi deb qarash adolatli va ilmiy jihatdan to‘g‘riroq bo‘ladi, – degan qarashlar o‘z aksini topadi.

Kalit so‘zlar: *roman, uslub, badiiy shakl, tarixiy usul, adabiy ta’sir.*

Abstract

The article analyzes the roots of “O‘tkan kunlar” based on the critical article “O‘tkan kunlar” ham o‘tkan kunlar” by Sotti Husain. It discusses the novelistic methods of Abdulla Qodiriy, George Zaydon, and W. Scott. It also reflects the views that it would be fairer and more scientifically correct to view “O‘tkan kunlar” not as a creative appropriation and localization of the Western literary genre, but primarily as the result of the formation of national epic traditions in a way that could meet the artistic and aesthetic needs created by certain socio-historical conditions.

Key words: *novel, style, artistic form, historical method, literary influence.*

Sotti Husaynga Abdulla Qodiriyning “*yangi zamon ro‘monchiligi bilan tanishuv yo‘lida kichkina bir tajriba, yana to‘g‘risi “havas” tarzida qalam ushlab yozgan ro‘monini bu qadar yangilik bilan maydonga chikuvi qiziq bo‘lib ko‘rinadi*” [Sotti Husayn, 2017: 321-418]. Uning nazdida, ilk romanning “bundayin ishlangan priyomlarda yozilgan buluvi” va ilgari “*bunday ro‘monchilik, priyomlari bilan oshno bo‘lmagan*”lari sabab o‘quvchilar “*bir qancha vaqt zavqlarga ko‘milib, o‘zlari hayronliqda yurdilar*”. Ya’ni romanning xush qabul qilingani va qo‘lma-qo‘l o‘qilganini munaqqid, biz yuqorida ta’kidlagandek, milliy epik an’analar zaminida turgani bilan emas, aynan o‘sha yangi “priyomlar” bilan izohlaydi. Rosti, shu o‘rinda munaqqid niyati andak buzuqroq ekani, adib iste’dodi buncha *“zavqlarga ko‘milish-u hayronlikda yurish”*ga noloyiqligini ko‘rsatishga chog‘langani sezilib qoladi. Ayni maqsad *“hech bir hayron bo‘larlik o‘rni yo‘q, chunki A.Qodiriy ro‘monni yozishdan ilgari Ovrupo texnikasida usta yozilgan ro‘monlarni o‘qimasdan yozgani yo‘q. Butun asosiy priyomlarni o‘zi o‘ylab chiqargan emas. Asosiy priyomlarni (badiiy usullarni) hatto ba’zan monand qilgan”,* deganida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning uqdirishicha, A.Qodiriyning *“Jo‘rji Zaydondan juda ko‘p foydalanganini aniqlab olinsa”*, uning *“qaysi manbadan suv ichgani ma’lum bo‘lib qoladi”*. E’tibor berilsa, munaqqid adib va uning asariga berilib turgan bahoni pasaytirish payida, uning nazarida buning uchun avomga roman “qaysi manbadan suv ichishi” ochiqlansa kifoya. Xullas, niyat buzuqligi sababli munaqqidning teran va nozik kuzatishlari adolatsiz, ilmiy jihatdan yanglish xulosalariga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jumladan, yuqoridagi fikrlarini S. Husayn: *“Bir yozuvchi ikkinchi bir yozuvchidan yozish texnikasinigina ba’zi qismlardan foydalanmasdan yuz prasant usullari, priyomlaridan foydalanar ekan, albatta, uning mafkurasi orqasidan ham ergashib ketadi”,* deya xulosalaydi. E’tibor berilsa, buning shunchaki umumlashma fikr, ya’ni umume’tirofdagi nazariy xulosa yo rioya etilajak ilmiy prinsip emas, balki Abdulla Qodiriy Jo‘rji Zaydondan “suv ichgani” haqidagi gaplarining xulosasi ekani ko‘rinadi. Ya’ni haqiqatda bu mazkur masalani maxsus o‘rgangan munaqqid kelgan umumiy xulosa bo‘lib, uni so‘zi davomida isbotlash uchun ilgari surilgan ilmiy da’vo o‘laroq taqdim etayotirki,

“bizni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qiziqtiraturg‘an masala A.Qodiriyning Jo‘rji Zaydondan qanchalik foydalanganini aniqlash”, deya ta’kidlashi ham shundan. Munaqqidning aytishicha: 1) Abdulla Qodiriy arab yozuvchisining barcha “*tarixiy romanlarini o‘qib chiqqan va har qaysisidan ham usta foydalangan*”, lekin maqolada bunga mufassal to‘xtalish, da’voning dalili uchun hammasidan misollar keltirish imkoni yo‘q – asosan “Armanusa” va qisman “O‘n ettinchi ramazon”dan misollar keltirish bilan kifoyalanadi; 2) shunga o‘xshash, maqolada adib *“foydalangan juz’iy adabiy nuqtalargacha mukammal to‘xtash”*, ya’ni ijodiy o‘zlashtirishlarning hammasini ko‘rib chiqish ham imkonsiz.

Avvalo, *“usta foydalangan”* degani, agar munaqqid niyati e’tiborda tutilsa, maqola kontekstida bir qadar kinoyali mazmun kasb etadi, ya’ni to‘g‘ri ma’noda – “mohirona foydalangan ekan” deb emas, balki “sezilmaydigan tarzda o‘zlashtirgan ekan”, degan ma’noni anglatadi. Shunga o‘xshash, adib *“foydalangan juz’iy adabiy nuktalargacha”* to‘xtalish imkonsiz degani ham o‘quvchini “eh-ha, bunaqa o‘rinlar juda ko‘p ekan-da”, degan to‘xtamga boshlaydi. Darvoqe, maqoladagi bu tarz ifoda yo‘siniga o‘z vaqtida adib ham e’tibor qaratgan va bunga engilgina kinoya bilan kulib munosabat bildirgan: *“Tanqidchi meni “O‘tkan kunlar” bilan o‘g‘ri qilmasa ham, lekin adabiyot o‘g‘rilari to‘g‘risida bahs qila kelib: “O‘tkan kunlar”ning ancha eri Jo‘rji Zaydonning “Armanusa”, “O‘n ettinchi ramazon” ro‘monlariga o‘xshab ketsa xam, unda Abdulla Qodiriyning o‘z so‘zlari ham ko‘bdir” (“Sh.h.”, 175-son) deydir. O‘qug‘uchilardan ba’zilari bu bilan shubhaga tushib, “O‘tkan kunlar”dagi Jo‘rji Zaydonning so‘zlari qaysi va sizning so‘zlaringiz qaysi?” deb menga murojaat qildilar*” [Qodiriy, 2007: 384]. Ya’ni adib o‘zining ochiqchasiga “o‘g‘ri qilinmasa ham” shunga yaqinlashtirib qo‘yilganini yaxshi anglaydi, biroq “Oqilon payravi nukta na kunad” naqliga muvofiq bu o‘rinda bahsni o‘rinsiz deb biladi. Aniqrog‘i, munaqqid haqida yaxshi gumonda bo‘ladi: muxolifining avvalboshdan buzuq niyatini “*tilda bir oz no‘noqroq va beparvo harakat qilsa kerakkim, uning jumlalaridan bir qismi izohga muhtoj ko‘rinadilar*”, deya xaspo‘shlab o‘tadi.

Holbuki, S. Husaynning da’vosi shunchaki no‘noq ifoda natijasi emas, balki anglangan va puxta asoslashga harakat qilinayotgan mafkuraviy-ilmiy nuqtai nazardir. Munaqqid “O‘tkan kunlar”ning dunyoga kelishini vulgar sosiologik mavqedan talqin qiladi. Unga ko‘ra, “mayda burjuaziya” vakili bo‘lmish Abdulla Qodiriy ongida o‘zi yashab turgan voqelik ta’sirida roman yozish niyati tug‘ildi. Yomon tomoni – “*Turkiston mayda burjuaziya ziyolilari o‘z sinflarining zakazlarini yaxshi bajararlik ilmli, madaniyatli, san’atchi emas edilar. A.Qodiriy ham shu jumladan edi*”. Yaxshi tomoni esa – xorijdagi hamsinflari kerakli *“badiiy shaklni, priyomlarni bungacha ishlatishgan”*. Ayni vaziyatda *“mafkurasiga mos kelaturgan badiiy qolipini u Jo‘rji Zaydondan topti”* va *“Jo‘rji Zaydonni o‘qib, undan o‘rganib borgani uchun A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”ini yaxshi, qiziqarlik chiqarishga muvaffaq bo‘lgandir”*. Demak, munaqqidga ko‘ra, roman faqatgina ijodiy o‘zlashtirish tufayligina muvaffaqiyat qozonganki, bu xulosaga aslo qo‘shilib bo‘lmaydi.

Abdulla Qoliriyning adabiy usuli masalasiga maxsus to‘xtalarkan, S. Husayn “O‘tkan kunlar”da uchta asosiy usul qo‘llanganini ta’kidlab ko‘rsatadi: 1) tarixiy tasvir, 2) muddaosini o‘quvchiga o‘tkazish (didaktika) va 3) qarama-qarshi solishtirish. Keyinroq, Jo‘rji Zaydondan ta’sirlanish masalasiga o‘tib, yozuvchi mazkur usullarning barini arab adibidan olganini da’vo qiladi: 1) “*tarixchiliq usulini qo‘llashda ham Jo‘rjidan foydalangan o‘rinlari ko‘p*”; 2) *“o‘z muddaosini o‘quvchiga suqish (didaktika) usulini ham aynan Jo‘rji Zaydondan oladi”*; 3) *“qarama-qarshi solishtirish usuli ham Jo‘rji Zaydondan olingandir”*. To‘g‘ri, adibning bulardan boshqa ham ayrim usullardan foydalangani qayd etilgan, biroq, munaqqidga ko‘ra, romanning g‘oyaviy-badiiy mohiyatini ayni shu uchala usul belgilagan va ikki-uch o‘rinda ta’kidlab “*yuz prasant usullaridan foydalangan*” deganida ham shu usullarni nazarda tutgan.

Avvalo, S.Husayn *tarixchilik usuli* deb asarda tarixiy o‘tmishning qayta yaratilishini aytadiki, buni “usul” degandan ko‘ra “janriy xususiyat” deb tushunilsa to‘g‘riroq bo‘ladi. Negaki, bu o‘rinda tarixiy romanning rus adabiyotshunosligida “istorizm” deb ataluvchi xususiyati haqida so‘z boradi.

Uning mohiyatini esa, qisqa qilib aytsak, adabiy asarda muayyan davr qiyofa va ruhini shu davrga oid voqealar, obrazlar tasviri orqali qayta yaratish tashkil etadi. Sirasi, bu ma'nodagi *tarixiy usul* birovdan o'zlashtiriladigan narsa emas, uni qalamga olingan materialning o'zi belgilaydi, ya'ni *"mavzuni moziydan olgan"*lik shuni taqozo etadi. Romanning bu jihati, S.Husayn e'tiroficha, binoyidek: adib *"o'quvchida faqat o'tgan zamonni eslash, hislashni qoldirmay, voqealarni xuddi hozirgi zamonda bo'lib turganday tasvirlaydi. Tarixiy voqealardan murakkab adabiy, badiiy tasvirlar beradi"*. Tarixiy tasvir usuli haqidagi shugina e'tirofdan keyin *"tarixiy voqealarni birin-ketin quruq ro'yxat qilib tarixiy ko'rinishlarni tasvirlab o'tadi", "voqealar negizi nimadan iborat bo'lganini, sabablarini ko'brak yozuvchining o'zi aytib beradi"* tarzida kamchilik ko'rsatishga o'tiladi. Ko'rib turganimizdek, endi gap janriy xususiyat emas, tarix qanday tasvirlangani – priyom xususida borayotir. E'tiborli jihati shuki, ayni davr rus tanqidchiligidagi tarixiy romanlar tahlilida "*tasvirdan quruq xronikaga o'tib ketish*", *"xulosalarni tasvirlangan voqealar mantiqidan o'stirib chiqarish o'rniga to'g'ridan-to'g'ri muallif tilidan berish"* kabi qusurlarni ko'rsatish urfda bo'lgan. Mazkur hol S.Husaynning rus tanqidchiligidagi tarixiy romanga oid fikrlar bilan tanishganiga dalolat qiladi. Albatta, umuman olganda, bu juda yaxshi. Faqat, bizning holatda emas: S.Husayn xuddi romanning mafkuraviy jihatini tayyor qoliplarga tayanib tekshirgani kabi, badiiyatini o'rganishga ham tayyor andozalarni olganki, bu aksar biryoqlama, adolatsiz xulosalarga olib boradi. Insof bilan aytganda, endigina 22–23 yoshlardagi iste'dod uchun bu hol kechirimli ham, zotan, Abdulla Qodiriy uning ayblovlariga biroz yengilroq qaragani shundan, g'o'rligini e'tiborga olganidan bo'lsa, ehtimol.

Albatta, bu o'rinda S.Husaynning "O'tkan kunlar" haqidagi fikrlarini mufassal tahlil qilish ortiqcha, bu maqsadimizga kirmaydi ham. Maqsadimiz munaqqid adibni "taqlidchilik", ochiq aytmasa-da, "ko'chirmachilik"da ayblab keltirgan asoslarning aslida haqiqatmonand ekani va faqatgina biryoqlama mafkuraviy talqin ularni qabul qilib bo'lmaydigan ahvolga keltirganini ko'rsatishdir. Zotan, Abdulla Qodiriyning o'zi Jo'rji Zaydon *"meni roman yozishga havaslantirgan"* deb turgach, boshqacha bo'lishi mumkin emas ham. Shu o'rinda S.Husaynning masalaga ancha chuqur nazar solib, Jo'rji Zaydon suv ichgan manbalarni ham aniqlash payida bo'lganini ta'kidlash kerak. Uning aytishicha, *"Jo'rji Zaydon o'zining islom tarixini yozgan vaqtida mutlaq Ovrupo burjua idealist tarixchilarining usullarini qabul qiladi. Ro'monlarida ham Ovrupo, ayniqsa, fransuz ro'montiq yozuvchilarining usullaridan foydalangani op-ochiq ko'rinadi"*. Ushbu haqiqatga amin bo'lgach, fikrini mantiqan rivojlantirib, Abdulla Qodiriyni ham Jo'rji Zaydon orqali fransuz romanlariga, aniqrog'i, V.Gyugoga bog'laydi. Jumladan, uning fikricha, "O'tkan kunlar"dagi tarixiy tasvir usuli (ya'ni janriy xususiyat) *"Viktor Gyugoda va Jo'rji Zaydonda yanada kuchlirak"* ko'zga tashlanadi. Sal o'tib esa, ulardagi adabiy usullar umumiyligi haqida *"Viktor Gyugo, Jo'rji Zaydon, A.Qodiriy priyomlari birga markazlashadirlar",* deb ta'kidlaydi.

S. Husayn mantiqiga ko'ra, modomiki Jo'rji Zaydon Viktor Gyugodan, Abdulla Qodiriy esa Jo'rji Zaydondan o'rgangan ekan, demak, Abdulla Qodiriy ham Viktor Gyugodan suv ichgan bo'lib chiqadi. Umuman olganda, bashariyatning ildizi birligi va shu bilan izohlanuvchi badiiy tafakkur tadrijidagi umumiylik e'tiborga olinsa, bunga e'tiroz qilish mushkul, albatta. Biroq Sotti Husayn mazkur umumiylik omilini uchala adibning sinfiy mansubligida ko'radi, ya'ni marksistik adabiyotshunoslikning vulgar sotsiologik qanoti mavqeida turadi. Sotsiologik yondashuv asosida fikr yuritarkan, munaqqid, avvalo, fransuz romantizmi milliy burjuaziya mafkurasini tashigani, uning yorqin vakili bo'lgan V.Gyugo ham shu jumladan ekanini ta'kidlaydi. J.Zaydon esa o'z ijodida arab burjuaziyasining orzu-intilishlarini ifodalagan. Xuddi shunga o'xshash, Abdulla Qodiriy ham romanida yurtidagi shakllanib kelayotgan millliy burjuaziya mafkurasini – uning o'tmishga va u orqali zamonaga nazari, shu bilan bog'liq anglamlari, qisqasi, dunyoqarashini aks ettirgan. Shu o'rinda S.Husaynning yuqorida keltirganimiz Abdulla Qodiriy "*mafkurasiga mos kelaturgan badiiy qolipini Jo'rji Zaydondan topti",* degan fikriga qaytish joiz. Munaqqid badiiy ijod jarayonini mana bu tarzda tavsiflaydi: *"Yozuvchida birmuncha*

fikrlar, muddaolar bo'ladir-da, uni tizib suratlov uchun rejalar, turli priyomlar o'ylab chiqaradir. Shu maqsadda turli-tuman badiiy asarlarni o'qib yuradir. O'qib yurgan asarlaridan bir oz xili o'z muddaolarini shu yozuvchining usulida taqdim qilganida o'ng'ay ko'rinadir va yozuvchini ta'sirlantiradir. <...> Yozuvchi shuning priyomlariga berilib va o'zidan narsalar qo'shib, syujet tuzib yoza boshlaydir. Odatda, bir mafkura kishilari bo'lgan yozuvchilar mana shunday texnicheskiy ham foydalanib, ya'ni ta'sirlanib ketadirlar". Ya'ni, S.Husaynga ko'ra, ijodiy ta'sirlanish ham spontan bo'lmaydi, aksincha, bunda bir mafkuraga mansublik hal qiluvchi ahamiyatga molik. Ko'ramizki, uning bu fikri yuqorida keltirilgan fikriga tamoman zid keladi: agar maqolaning boshida munaqqid yozuvchi boshqa bir yozuvchining "*usullari, priyomlaridan foydalanar ekan, albatta, uning mafkurasi orqasidan ham ergashib ketadi"* degan bo'lsa, endi ergashishning sharti sifatida bir mafkura kishisi bo'lish ko'rsatiladi, ya'ni bunda endi jarayon tamom ters tartibda kechadi. Keyingi fikr Jo'rji Zaydondan ta'sirlanish haqidagi mulohazalarni xulosalovchi qism (abzas)dan joy olganki, bu uning munaqqid konsepsiyasiga ko'proq xos ekanligiga dalolat qiladi. Xuddi shu nuqtada "Abdulla Qodiriy bizdan emas", degan fikr yana bir karra urg'ulab o'tiladi: "*Ammo pro'letar yozuvchilari* (Abdulla Qodiriydan farqli ravishda – D.Q.) *chet asarlardan tanqidiy foydalanadirlar. Ya'ni ularning priyomlarini qabul qilmasdan o'zining yangi ideyalari uchun chopon bichib-tikishga majburdirlar*". Tabiiyki, bu gapning zamirida "ammo proletar yozuvchisi bo'lmagan Abdulla Qodiriy tanqidiy foydalanmaydi", degan fikr yotganini anglash ko'p ham qiyin emas. Bu gaplari bilan Abdulla Qodiriyni o'g'riga chiqarib qo'yayotgani o'ziga ham sezilganidan bo'lsa kerak, yana silliqlashga shoshadi: tamsilini davom etdirib, "*yangini bichib tikish*" uchun eskini yaxshi bilmoq, "o'g'irlik" bilan "ta'sirlanish"ni farqlash zarurligini uqdiradi. Biroq shuning ortidanoq adibning Jo'rji Zaydondan ta'sirlangani haqidagi mulohazalarini quyidagicha xulosalaydi: "*Biz A.Qodiriyni Jo'rji Zaydondan o'g'irlagan deb ayta olmaymiz. Faqat yuz prasant uning ta'sirida, uning priyomlarida yozgan. Go'yo bir ishlangan uyning poydevolini, sinchlarini, tomini qoldirib, devollarini buzganda, uni yangidan o'zi naqsh berib, zamonaviy tom kiydirib, yasantirib ishlab chiqmishdir*". Xullas, yosh munaqqidning g'oyat qiyin vaziyatga tushib qolganini tushunish qiyin emas: aytgan so'zlari "O'tkan kunlar" originallikdan yiroq, uning muallifi ham favqulodda iste'dod emas, shunchaki usta taqlidchi, ko'chirmachi xolos" deya hayqirgani holda, ko'ngli bunga hech ishonolmay turadi. Zero, vulgar sotsiologik mavqeda turib Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar"ni "yuz prasant" Jo'rji Zaydon ta'sirida yozib qo'yganini "ilmiy" asoslashni-ku epladi, lekin aytganlari sodda tilda "o'g'irlik" deb ataladigan narsadan boshqa narsa ekanini tushuntirolmay joni halak. Mazkur holat esa masalaga metodologik jihatdan xato, biryoqlama yondashuv natijasida yuzaga kelgandir.

Yuqorida sotsiologik yondashuv asosida munaqqid Viktor Gyugo – Jo'rji Zaydon – Abdulla Qodiriy silsilasidagi ijodiy ta'sirlanishning bosh omilini dunyoqarashdagi umumiylikda ko'rganini aytdik. Biryoqlamalik ham ayni shunda! Albatta, Sotti Husayn urg'ulayotgan omil ham, hech shubhasiz, mavjud, biroq u, avvalo, bundan ko'ra ham tubliroq omil – adabiy an'analar ta'sirini tamoman e'tibordan qochiradi, aniqrog'i, uni nazarga ilmaydi. Yana bir muhim jihat, romantizm ovrupo madaniyati uchun umumiy hodisa bo'lgani, uning eng avval Angliya va Germaniyada, Fransiyada esa birmuncha keyin oyoqqa turgani ham faromush qilinadi. Shunday bo'lmaganida, yuqoridagi silsilani V.Gyugoda to'xtatib qo'ymas edi. Holbuki, masalan, mutaxassislar V.Gyugoning ilk ijodida V.Skottdan kuchli ta'sirlangani, ijodiy kamolotida ingliz adibi bilan ijodiy bahs-musobaqa g'oyat muhim bo'lganini ta'kidlaydilar [Kirpichnikov, 1891: 44-45; Reizov, 1958: 417-553; Lukach, 2015: 156-158]. V.Skottning tarixiy roman asoschisi o'laroq umume'tirof etilgani, XIX asr Yevropa adbiyotida "valterskott romani" an'analari urfda bo'lgani, aksariyat tarixiy romanlar shuning andozasida bitilgani yaxshi ma'lum. Shunday ekan, J.Zaydonning ham V.Gyugo orqali V.Skottga bog'lanishi tabiiy emasmi?! Ha, mantiqan shunday bo'lishi kerak va haqiqatda ham shunday.

Adabiyotshunoslikda aksar shartli ravishda "valterskott romani" deb ataluvchi roman bir qator o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi [Malkina, 2002: 33]. Jumladan, unda o'tmishning

haqqoniy tasviri bilan kuchli insoniy hislar (hasad, rashk, qasos, ochko‘zlik – burch, adolat, saxovat, vatanga muhabbat) shiddat-la harakatlantiruvchi qiziqarli intriga uyg‘unlashadi. Xuddi shu xususiyat Jo‘rji Zaydon romanlarida ham, Abdulla Qodiriy romanlarida ham yaqqol ko‘riladi: “Farg‘ona kelini”da Jahon bilan Zirg‘om muhabbatiga Afshin to‘g‘anoq bo‘lganidek, “O‘tkan kunlar”da Otabek bilan Kumush orasiga Homid suqiladi. Har ikki asarda ham mazkur intrigalar syujetning muhabbat va ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishlarini hech zo‘riqishsiz, tabiiy birlashtiradi. V.Skott romanlarida qahramonlarning yuksak va pokiza hislariga muxolif tomonning hayvoniy tubanligini keskin qarshilantirish; syujetning to‘qima personajlar faolligiga qurilib, tarixiy shaxslar obrazlarining ikkinchi darajali mavqe egallashi; oddiy kishilarning ham syujet rivojida muhim o‘rin tutishi kabi jihatlar ta’kidlanadi. Shuningdek, syujet markazida turuvchi bosh qahramonning, odatda, navqiron yigit bo‘lishi, unga insofu adl, mardlik, halollik, saxovat, oqillik kabi sifatlarning to‘kis berilishi, biroq individual jihatlari bo‘rtiq aks etmasligi ham aytiladi. Mazkur xususiyatlarning bari Jo‘rji Zaydon va Abdulla Qodiriy romanlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Albatta, bu adiblar an’anaga o‘z davrining badiiy tafakkuri darajasida yondashishga harakat qiladi, bas, muayyan farq bo‘lishi tabiiy. Masalan, Otabekda, xuddi V.Skott qahramonlari kabi, oliyjanob fazilatlar jam bo‘lgan, lekin uning individual jihatlari ham realizmga xos bo‘rtiq tasvirlangan. Yoki V.Skott romanga dramani sintezlaganki, bu novatorona poetik jihatga o‘z vaqtida V.Gyugo ham e’tibor qilib, “to‘qima syujet xuddi hayotdagidek haqqoniy manzaralarda namoyon bo‘luvchi dramatik roman” [Gogo, 1956: 50] deb ta’riflagan. Darhaqiqat, matn strukturasida rivoya, tavsif va dialogning o‘ziga xos nisbatlarda, yangicha uyg‘un birikishi “valterskott romani”ning muhim belgisi sanaladi. Tabiiyki, Jo‘rji Zaydon va Abdulla Qodiriy romanlari matn qurilishi ham shu yo‘sin amalga oshirilgan, ayni choqda, ilk o‘zbek romanida dramatik unsurlar nisbati, dialogning o‘rni va ahamiyati salmoqliroq. Ya’ni bu o‘rinda ham adib ko‘proq “yangi priyom”lardan foydalanishga jazm etgan ko‘rinadi. Tag‘in bir jihati, dramatik unsurlar salmoqdorligi V.Skott romani o‘quvchisida voqealarni chetdan tomosha qilayotganlik illyuziyasini hosil qiladi. “O‘tkan kunlar” o‘quvchisida esa bu his chandon ortiq, chunki muallif unga kinoga xos tasvir yo‘sinini ham ozmi-ko‘pmi singdira olgandir. Xuddi V.Skottdagi kabi, arab va o‘zbek adibining romanlarida tavsif voqealar mohiyatini anglash uchun zarur tarixiy ma’lumotlarni taqdim etish, o‘tmish voqeligini o‘quvchi tasavvurida to‘laqonli va jonli gavdalantirish maqsadiga xizmat qiladi. Muhimi, ularning barida tarixiy o‘tmish shunchaki syujet voqealari yuz beradigan makon va zamongina emas: V. Skott an’anasida borib, arab va o‘zbek adibi tarixiy voqealarni qahramonlar taqdiri bilan chambarchas bog‘liqlikda talqin qilishadi, o‘quvchiga ham shuni his ettirishadi. V.Skott uchun o‘tmish mohiyatini, tarixiy jarayonning kechishini badiiy idrok etish birlamchi maqsad, qahramonlar taqdiridan hikoya qiluvchi qiziqarli syujet esa shunga erishish vositasidir. Xuddi shu maqsad, shunday yondashuv Jo‘rji Zaydonda ham, Abdulla Qodiriyda ham ustuvor, zero, ikkisi ham o‘z yurtida ijtimoiy taraqqiyot masalasi g‘oyat dolzarblashgan davrda qalam tebratgan. Demak, bu o‘rinda mushtaraklik ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlardagi o‘xshash, umumiy nuqtalar bilan ham izohlanaverishi mumkin.

Mazkur mulohazalarimiz Abdulla Qodiriy an’anada Jo‘rji Zaydon orqali V. Skottga bog‘lanadi, degan da’vomizni bir qadar umumiyroq tarzda asoslay oladi, xolos, bas, asosni puxtalash zarurati tug‘iladi. Shuni o‘ylab, e’tiborni J.Zaydonning V.Skottdan ta’sirlanishi masalasiga qaratish maqsadga muvofiq. Akademik I.Yu.Krachkovskiy XIX asrning so‘nggi choragida “tarjima adabiyoti, birinchi galda Dyuma, V. Gyugo, Valter Skott asarlari tarjimalarining ko‘payishi” arab tarixiy romanchiligining shakllanishida muhim omil bo‘lganini ta’kidlaydi [Krachkovskiy, 1956: 27]. To‘g‘ri, olim J.Zaydon badiiyat nuqtai nazaridan ko‘proq fransuz maktabiga yaqin turishini aytadi, biroq, tabiiyki, bu hol V.Skottning umumiy plandagi ta’sirini inkor qilmaydi. Bunga ishonch hosil qilish uchun V.Skott va J.Zaydon romanlari strukturasidagi mushtarak jihatlarga diqqat qilish maqsadga muvofiq. Strukturalistlardan-da avval “roman morfologiyasi” bilan shug‘ullana boshlagan

V.Dibelius “valterskott romani”ga xos syujet yaratuvchi markaziy motivlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi: 1) safar, u katta avlod bilan kelisha olmaslik yoki boshqa bir sabab bilan amalga oshishi mumkin; 2) go‘zal xonimga muhabbat va bu yo‘lda uchraydigan turli to‘siqlar; 3) qahramonning qayta tarbiyalanishi, jumladan, shu muhabbati ta’sirida; 4) sirlilik, sir tutish; 5) romanning siyosiy, madaniy-tarixiy qatlami bilan qahramon taqdirini bog‘lovchi intriga [Malkina, 2002: 42-43]. Qiyos uchun olaylik, masalan, J.Zaydonning “Armanusa” romani syujeti ham ayni shu motivlar asosiga qurilgan: 1) otasi Armanusani shahzoda Konstantinga berishga qaror qilgan, qiz esa bunga rozi emas, shunday bo‘lsa-da, otasi buyurganidek Bilbeysga yo‘l oladi, lekin dilida ma’shuqiga etish niyati botin; 2) Armanusa va Arkadios muhabbati qarshisidagi eng ulkan to‘siq – otalarining bir-biriga dushman ekani; bundan boshqa shahzoda Konstantin, Yuqnoning qizga talabgorligi bilan bog‘liq to‘siqlar ham bor; 3) muhabbati ta’sirida Arkadios o‘zgaradi, haq yo‘lga kiradi; 4) sir saqlash motivi – Arkadiosning dushman hududiga kirishi, asirlikda yor sha’nini saqlab o‘zini tanitmasligi syujet rivojini belgilaydi; 5) Arkadiosga ko‘ngil qo‘ygan Armanusaning shahzoda Konstantinga unashtirilishi yetakchi intriga bo‘lib, shu asosda oshiq ma’shuqlarning bir-biriga intilishi tasvirlangan syujet chizig‘i bilan rum-musulmon urushi voqealarini aks ettiruvchi syujet chizig‘i bir-biriga tabiiy va chambarchas bog‘lanib ketadi. Ta’kidlash joiz, Jo‘rji Zaydonning kamina tanisha olgan “Armanusa”dan tashqari “Farg‘ona kelini”, “Xorun ar-Rashidning singlisi”, “Al-Amin va Al-Ma’mun” romanlari strukturasida ham ko‘plab shu kabi o‘xshashliklar ko‘rsatilishi mumkin. Bu hol esa – V.Gyugo orqali bo‘ladimi va yo bevositami – arab adibining V.Skottdan ham ijodiy ta’sirlanganiga dalolat qiladi. Darvoqe, Sotti Husayn “O‘tkan kunlar” Jo‘rji Zaydon ta’sirida yaratilganini asoslash uchun “Armanusa”dan ko‘prak misollar keltirishi”ni aytgandi. Keltirgan ko‘chirmalariga qaraganda, u ham bizga o‘xshab “Armanusa”ning ozarbayjon tiliga tarjimasi matniga tayangan [Jo‘rji Zaydon, 1912: 312]. Ya’ni Abdulla Qodiriydan farq qilib, S.Husayn adibning boshqa romanlaridan asliyatda foydalana olmagan, qiyosda ko‘proq “Armanusa”ga tayanib qolgan. Biroq mazkur hol, buni yuqorida ham pisanda qilib o‘tdik, Abdulla Qodiriy arab yozuvchisining barcha tarixiy romanlaridan “usta foydalangan”, degan xulosa chiqarishiga mone bo‘lolmagan. Andishamiz shuki, ehtimol, J.Zaydon qalamiga mansub yigirmadan ziyod tarixiy romandan atigi to‘rttasigagina tayanib chiqargan yuqoridagicha xulosamiz shunga o‘xshab ketar ham. Faqat, biz J.Zaydon V.Skottdan adabiy priyomlarni emas, balki ***badiiy tafakkur modelini*** o‘zlashtirgan deb bilamiz. Zotan, shotland jamiyatida milliy o‘zlikni anglash jarayoni harakatga kelgan bir sharoitning ijtimoiy va estetik ehtiyojlariga javoban V.Skott ishlab chiqqan badiiy tafakkur modeli xuddi shunday vaziyat arab jamiyatida yuzaga kelganida J.Zaydon tomonidan qo‘llandi. Ya’ni bu o‘rinda gap shunchaki ***adabiy ta’sir haqida emas, tipologik umumiylik haqida borsa to‘g‘riroq*** bo‘ladiki, bunda birinchisi ikkinchisining yuzaga chiqishiga turtki bo‘lib xizmat qilgan.

Shu choqqacha S.Husayn V.Gyugoda to‘xtatgan silsilani V.Skottgacha uzaytirish payida bo‘lib kelyapmiz. Holbuki, arab romanchiligi, xususan, J.Zaydon tarixiy romanlarining ildizlari juda chuqur ketgan – arab folklori va yozma adabiyotidagi epik an’analardan suv ichadi. Bu masalani akademik I.Krachkovskiy teran va atroflicha yoritgan. Uning ta’kidlashicha, arab tarixiy romanchiligining yoshi “nari borsa uch-to‘rtta o‘n yillik bilan belgilansa-da, bu aslo adabiyotning tarixiy o‘tmishida mazkur epos turining ildizlari yo qator namunalari yo‘q degani emas” [Krachkovskiy, 1956: 21]. Olim bu o‘rinda arablarning V–VII asrlarga mansub “Ayyom al-arab” qabilaviy rivoyatlar turkumi hamda ko‘plab siyralar – markazida alohida tarixiy shaxslar turuvchi epik rivoyaviy asarlarni nazarda tutadi va, e’tiborli jihati shuki, ularni “roman” deb ataydi. I.Yu.Krachkovskiyga ko‘ra, siyralar “o‘zining shakli va mundarijasiga ko‘ra evropa adabiyotlarining mahsuli bo‘lmish shu kabi asarlar ... “Qirol Artur haqidagi rivoyatlar”, “Dumaloq stol qahramonlari qissalari” bilan o‘ziga xos parallel”ni [Krachkovskiy, 1956: 22] namoyon etadi. Darvoqe, olimning shohidlik berishicha, siyralarning eng mashhuri – “Siyra Antara”ni fransuz sharqshunosi Arman-Per Kossen de Persival “arab “Iliada”si”

deya ta'riflagan, asar janrini esa shu haqdagi maqola sarlavhasidayoq "roman" deb atagan ekan [Krachkovskiy, 1956: 22]. Yuqoridagilarni xulosalab aytamizki, arab epik an'anasi – J.Zaydon tarixiy romanlarini paydo qilgan bosh omil, S.Husayn birinchi o'ringa qo'yayotgan adabiy ta'sir esa shu omilni harakatga keltirgan turtkidir.

Yuqorida silsilani V.Skott qadar uzaytirgandik, holbuki, agar o'sha yo'sinda chuqurlashib borilsa, "valterskott romani"ning ildizlari shotland folkloriga borib taqalishi hech shubhasiz. Zotan, V.Skott folklorshunos sifatida ham faol ishlagan, o'zi to'plagan shotland folklori namunalari – balladalarni ikki jildli kitob shaklida nashr qildirgani ham buning yaqqol dalili. Mutaxassislar adibning folklorshunoslik faoliyatini romanga tomon yo'lidagi muhim bosqich deb hisoblaydilar. Jumladan, B.Reizovning fikricha, V.Skott "nimaiki yozgan bo'lsa, unda folklorga maftunlikning izlari bor", mohiyatini "haqiqat deb faktning shubhali aniqligidan ko'ra to'qimaga ko'proq ishonish" belgilagan tarixiy metod ham shu balladalar asosida shakllangandir [Reizov, 1965: 48]. Shuningdek, murg'ak paytidan mutolaaga berilgan bo'lajak adib o'rta asr ritsarlik romanlari, qissa va poemalar jamlangan kulliyotlarni o'qib chiqqan, Qirol Artur yoki Dumaloq stol risarlari haqidagi asarlarni juda yaxshi bilgan. Yana u gotik romanlarga, ulardagi g'ayritabiiy dahshatli voqealarga ham juda qiziqqan. Ijoddagi ilk mashqlari shunday romanlar, avantyur-sarguzasht nasr va poemalar ta'sirida kechgan, jumladan, "Granada fathi" nomida ritsarlik romanlariga taqlidiy poema yaratgan... Xullas, I.Yu. Krachkovskiy aytmoqchi, J.Zaydon suv ichgan arab epik an'analariga "parallel" oqib yotgan irmoq suvida unib-o'sgan...

Endi shunga qadar aytganlarimizni Abdulla Qodiriyga proeksiyalash qoldi, xolos. Shunday qilinsa, "O'tkan kunlar"ning ham xuddi V.Skott va J.Zaydon romanlari singari milliy epik an'analar zaminida ungani alayno ko'zga tashlanadi. Zotan, Abdulla Qodiriy suv ichgan irmoq ham narigi ikkita irmoqqa parallel va birdek jo'shib, to'lib-toshib oqadiki, buni avvalgi ikki faslda ko'rib o'tdik...

Ha, xuddi shunday, uchala irmoq ham ho'-o' oq qorli cho'qqi bag'ridagi bittagina buloqdan boshlanadi.

"O'tkan kunlar"ni G'arb adabiyoti janrini ijodiy o'zlashtirishu mahalliylashtirish deb emas, eng avval milliy epik an'analarning muayyan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar tug'dirgan badiiy-estetik ehtiyojlarga javob bera oladigan tarzda shakllantirilishi natijasi deb qarash adolatli va ilmiy jihatdan to'g'riroq bo'ladi. Albatta, bu jarayonda o'z taraqqiy yo'lida xuddi shunday sharoitni bizdan avvalroq kechirgan milliy adabiyotlarda ishlab chiqilgan badiiy modelga tayanilgani shubhasiz, biroq buni sabab emas, turtki deb bilmoq lozim.

Yuqorida yuritgan mulohazalarimiz adabiyotshunosligimizda milliy epik an'analarni chuqur va atroflicha o'rganish zarurati dolzarb turganiga dalolat qiladi. Zero, toki turkiy mifologiya, folklor va mumtoz adabiyotda mavjud syujet sxemalari, arxetipik motivlar, motiv komplekslarini izchil o'rganmas ekanmiz, badiiy xotiramizdagi bisotdan bexabar o'taveramiz – xuddi ota-buvasi ko'mib ketgan ganjina ustida o'tirganini bilmasdan o'tgan-ketganga qo'l cho'zayotgan gadoy misoli. Muhimi, bu masala ham tarixiy poetika, ham qiyosiy adabiyotshunoslik aspektlarida o'rganilishi zarur. Zotan, faqat shu holdagina "irmoq" haqidagi gaplarimiz shunchaki lutf yo "sendan hech kamim yo'q", qabilidagi xarxasha emas, ayni haqiqat ekaniga amin bo'lib, so'ng zamonda miyamizni chulg'agan stereotiplardan xalos bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sotti Husayn. "O'tkan kunlar" ham o'tkan kunlar. // Qodiriy, Abdulla. Obid ketmon. Toshkent: Info Gapital Group, 2017. – B. 321-418; Sotti Husayndan ko'chirmalar shu manbadan olinadi.
2. Abdulla Qodiriy. Diyori bakir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B.384
3. Kirpichnikov A.I. Valter Skott i Viktor Gyugo. – Sankt.-Peterburg, 1891. – S. 44-45.
4. Reizov B.G. Fransuzskiy istoricheskiy roman v epoxu romantizma. – Leningrad, 1958. – S. 417-553.
5. Lukach G. Istoricheskiy roman. – Moskva, 2015. – S. 156-158

6. Malkina V.Ya. Poetika istoricheskogo romana: Problema invarianta i tipologiya janra. – Tver, 2002.
7. Gogo V. O Valtere Skotte. Po povodu “Kventina Dorvarda” // Sobranie sochineniy v 15 t. T. 14. – Moskva, 1956. – S. 50.
8. Krachkovskiy I.Yu. Istoricheskiy roman v sovremennoy arabskoy literature // Krachkovskiy I.Yu. Izbrannie sochineniya. T. 3. – Moskva-Leningrad: Nauka,1956. – S. 27.
9. Jo‘rji Zaydon. Armanusa. – Boku, 1912.
10. Reizov B.G. Tvorchestvo Valtera Skotta. – Moskva-Leningrad, 1965. – S. 48.

FURQATSHUNOSLIKNING YANGI BOSQICHI

Obit Karimov,
Namangan davlat universiteti
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya

Mazkur maqolada adabiyotimizning ko'zga ko'ringan olimi filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovning o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida tutgan o'rni haqida, asosan, mashhur ma'rifatparvar shoir Zokirjon Furqat ijodi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: *adabiyotshunos-olim, matnshunos, doktor, professor, jurnalist, monografiya, adabiy tanqid, Furqat, obraz, nazm, nasr, roman, qissa, musaddas, adabiy-badiiy tafakkur, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Qo'lyozmalar instituti, folklor.*

Abstract

This article is devoted to the outstanding scientist of our literature, doctor of philological sciences, professor Nurboy Jabborov, and his role in Uzbek literature and criticism. The main idea of the article about famous poet Zakirdjan Furkhat and his life and work.

Key words: *literator, textologue, doctor, professor, journalist, monography, literaty criticism, symbol, poetry, Zokirdjon Furqat, fiction, novel, literary and fiction idea, Academy of sciences, institute of manuscripts, folklore, creativity.*

Furqatshunoslik qariyb bir yarim asrlik tarixga ega. Shoir ijodi bo'yicha Ibrohim Mo'minov, Vohid Zohidov, Aziz Qayumov, Xolid Rasul, Abdurashid Abdug'afurov, Sharif Yusupov singari olimlar salmoqli tadqiqotlar olib borgan. Furqatshunoslikni Xolid Rasul boshlab bergan va ahamiyatli tadqiqotlar yaratgan bo'lsa, Abdurashid Abdug'afurovning "Zokirjon Furqat" monografiyasi tahlillarning bir qadar chuqurlashuvi, tadqiqot qamrovining kengayishi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Lekin furqatshunoslikning yangilanishi Sharif Yusupov tadqiqotlari bilan boshlandi. Nurboy Jabborov ilmiy ishlari esa bu borada yangi yuksalish bosqichini boshlab berdi.

Alisher Navoiy nomidagi davlat Adabiyot muzeyi arxividagi G'ulom Karimov fondida olimning o'z dastxati bilan arab yozuvida ko'chirgan qo'lyozmalarni o'rganar ekan, bir g'azal matni Nurboy Jabborovning e'tiborini tortadi. Bu g'azal matla'i quyidagicha edi:

Va'da yolg'onlar tilismi intizor etti meni,
Bosh-oyog' go'yo dili ummidvor etti meni.

Muqimiyning 1960-yili chop etilgan ikki jildlik "Asarlar to'plami"ga yozilgan izohlarda bu g'azalga oid mana bunday ma'lumot berilgan: "She'rning oxirgi baytida shoir o'z do'sti Furqatga murojaat qiladi va aytadi: "Ey Furqat, bu jahon bog'ida sen qay ahvoldasan, bilmayman. Mendan so'rasang, u mening yuragimni lola singari qat-qat dog' bilan to'ldirdi". Muqimiyning bu murojaatidan she'r tarixiga oid boshqa xulosa chiqarish ham mumkin. Bu she'r Muqimiy bilan Furqatning Qo'qonda yashab ijodiy hamkorlik qilgan davrida... boshdan kechirilgan keskin kurashlar taassuroti natijasida yozilgan bo'lishi mumkin. Agar shu taxmin qabul qilinsa, u vaqt she'r Furqat Qo'qondan chiqib ketmasdan ilgari, ya'ni 1889-yildan ilgari yozilgan bo'ladi [Karimov, 1960: 348].

Ushbu g'azal ikki shoir ijodiy hamkorlik qilgan davrga tegishli deb bilsa-da, Muqimiyning she'ri ekanini ta'kidlaydi. Furqat "Tanlangan asarlari"ini tayyorlagan Xolid Rasul bu g'azalni shoir to'plamiga kiritadi. Uning qayd etishicha: "Bu she'rni ba'zi o'rtoqlar Muqimiy she'ri deyishadi. Menimcha, bu she'r Furqat she'ridir. Chunki uslub, so'zlarni qo'llash jihatidan Furqat she'rlarini xotirlatadi hamda oxirgi baytning birinchi misraida shoir o'ziga xitob qilsa, ikkinchi misraida "Meni doimo dog'dor qildi", deydi. Buning ustiga bu she'r ustiga "Furqat" deb sarlavha qo'yilgan" [Jabborov, 1994: 43-44].

Ushbu she’r matnini tahlil qilgan Nurboy Jabborov ustoz olimlar bilan bahsga kirishadi va muammoning eng to‘g‘ri yechimini topadi: “She’rning muallifiga kelganda, Qo‘qonda, Furqat, Muqimiy, Zavqiy va boshqa shoirlar doimiy ravishda bedilxonlik, g‘azalxonlik kechalarini, shuningdek, mushoaralar, har xil mavzularda mubohasalar uyushtirib turganliklari ma’lum. Shunday she’rxonlik kechalarida ba’zan ulardan birortasi bir bayt she’r aytsa, qolganlari she’rni davom ettirib, oxiriga yetkazganlar. Mazkur she’r Furqat va Muqimiyning ana shunday kechalarda hamkorlikda bitgan she’ri bo‘lsa kerak. Bizningcha, mazkur she’rni har ikki shoir asarlari nashrlariga kiritish kerak. Faqat izoh berganda, she’rning ijodiy hamkorlik mahsuli ekanligini qayd etish lozim bo‘ladi” [Furqat, 1990].

Sermahsul olim, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov Furqatning lirik ijodini quyidagi reja asosida o‘rgangan: Furqat g‘azallari, mavzusi. Bu haqda quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi: Shoir lirik merosining salmoqli qismi g‘azallar bo‘lib, ularning soni 200 atrofida. Mavzui, qisqa qilib aytganda, Odam va Olam, ularning o‘zaro munosabati haqida. Furqat g‘azal, musamman, tarji’band, masnaviy, qasida, qit’a, fard kabi turlarida muvaffaqiyat bilan qalam tebratdi. Furqat she’riyatda Navoiy va Fuzuliyni o‘ziga ustoz bildi, ulardan ilhom oldi. Goho bu ilhom mavzu va ohang uyg‘unligi darajasiga ko‘tariladi:

Surmadin ko‘zlar qaro, qo‘llar xinodin lolarang,
G‘ozadin yuzlarda tobu o‘smadin qoshlar tarang [Jabborov, 1994, 43-44],

– matla’li mashhur g‘azalining birinchi satri Fuzuliydan tazmin sifatida olingan. Umuman, Furqat mumtoz adabiyotimizning sir-sinoati bilan yaxshi tanish. U yor tasvirini chizar ekan yoxud oshiqning quvonch-u iztiroblarini ifoda qilar ekan, she’riyatimizning boy obraz va timsollaridan unumli foydalanadi, ularni davom ettiradi.

Furqatning “Sayding qo‘yaber, sayyod, sayyora ekan mendek” satri bilan boshlanuvchi musaddasi uning ijodida muhim o‘rin egallaydi. Sayd (ov), sayyod (ovchi), dom (tuzoq) obrazlari Sharq adabiyotida qadimdan bor. XVIII asrda turkman shoiri Andalib ushbu obrazlardan unumli foydalanib, ovchi tuzog‘iga tushgan ohuga hamdardlik tuyg‘usi bilan to‘lib-toshgan maxsus muxammas ham yozgan edi. Furqatning asari musaddas bo‘lib, bu ham shu an’anada bitilgan. Lekin shoir yashagan zamon, Turkistonday yurtning egasi qo‘lidan ketib, istilo asrining sayyodi qo‘liga tushishi unga, tabiiyki, yangi ma’no, yangi mazmun beradi. Qolaversa, furqatshunoslar ushbu musaddasning maydonga kelishida she’rda nomi keltirilgan Sa’dulla Hofizning yomonlar tomonidan fojiali o‘ldirilishini ham bir sabab qilib ko‘rsatadilar. Musaddas 7 banddan iborat. She’r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Sayding qo‘ya ber, sayyod, sayyora ekan mandek,
Ol domini bo‘ynidin, bechora ekan mandek,
O‘z yorini topmasdan, ovora ekan mandek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mandek,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mandek,
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mandek.

Shoir tuzoqqa tushgan ohuning holini xilma-xil tashbih va muqoyasalar bilan tasvir etgach, ovchiga xitob qilib, uni banddan ozod etishini so‘raydi. Yashamoq dunyoga shunchaki bir kelib ketmoq emas, shilliqqurt misoli faqat qorin g‘amida g‘ovakda g‘imirlab o‘tib ketish emas. Yashamoq, birinchi navbatda, hur, erkin yashamoqdir. Bas, “rishtani (tuzoq iplarini) kes!..” hayqiradi shoir, tog‘larga chiqib, yori bilan qovushsin. Kel, besh kunlik sening davringda bechora o‘ynab-quvonsin. Tengdoshlari bilan dunyo ne’matlaridan bahramand bo‘lsin. Umr bo‘yi sening duoyi joningni qilsin. Axir hijron o‘qlaridan jismi butun jarohat ekan. Jigar-bag‘ri ezilib, pora-pora bo‘lgan ekan-ku!

Har bir jonivor o‘z jinsi bilan bo‘lmog‘i lozim. Har bir hayvonning o‘z yaylog‘i (yaylov joyi) va qishlog‘i (qishloq joyi)ga teng keladigan saodati yo‘q. Faqat uni ozod qilish va o‘z holiga qo‘yish kerak. She’rda ilgari surilgan g‘oyalardan biri – shu, mazmuni – shu. Lekin bu fikrlar beixtiyor har bir

millatning turmush va taraqqiyoti mutlaqo uning mustaqilligi va milliy zamin hamda o‘z an’analari asosida bormog‘i lozim degan va so‘ngroq jadidchilikning bosh masalalaridan biriga aylangan g‘oyani esga tushiradi. Bu hol Furqat ijodini yangi davr adabiyoti bilan bog‘laydigan muhim nuqtalardandir.

Nurboy Jabborov 2004-yilda “Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi” mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. “ ... milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, shoir va adib, adabiyotshunos va mutarjim, muarrix va etnograf sifatida o‘zidan boy meros qoldirgan, xattotlik va jurnalistik faoliyati bilan milliy ma’naviyat rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, zamonasining mashhur tabib-hakimlaridan biri sifatida el dardiga malham bo‘lgan serqirra iste’dod sohibi Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ijodiyotining, ayniqsa, shoir hayotining o‘n sakkiz yili kechgan xorijdagi davrini ilk manbalar asosida tadqiq etish muhim ahamiyatga ega”, – deb yozadi N. Jabborov doktorlik dissertatsiyasida.

Furqatshunoslikda shoir hayoti va ijodiy faoliyatining xorijdagi davri haqida mulohaza bildirilgan tadqiqotlar muayyan darajada mavjud. Shunga qaramay, ularni tahlil etish natijalari bu borada qilinishi zarur bo‘lgan ishlar ko‘p ekanligini ko‘rsatadi.

Shu paytgacha Furqatning chet ellardagi hayoti va ijodi u yoki bu darajada tadqiq etilgan bir qancha maqolalar to‘plamlari, risolalar, tanqidiy-biografik ocherk, uslubiy qo‘llanma hamda monografik asarlar yaratildi. Mazkur tadqiqotlarda Furqat hayoti va ijodiy faoliyatining xorijdagi davrini o‘rganish jihatidan muayyan yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bizningcha, ularda erishilgan ilmiy natijalarni quyidagicha tasnif etish mumkin:

1.O‘sha paytdagi safar yo‘llari yo‘nalishi asosida Furqatning chet ellarga qilgan sayohati marshruti belgilandi.

2.Shoirning xorijdagi hayoti va ijodiy faoliyatiga oid yangi manbalar aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritildi, tadqiq va tahlil etildi.

3.Furqat chet ellarda yozgan bir qancha asarlarning ilmiy tahlili amalga oshirildi.

Shoirning xorijga ketish va yurtga qayta olmaslik sabablari haqida turlicha mulohazalar bildirildi. Furqat hayoti va ijodining xorijdagi davrini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi masalalar yetarlicha o‘rganilmagan:

– Furqatning xorijga ketish va yurtga qayta olmaslik sabablari;

– shoirning chor Rossiyasi mustamlaka siyosatiga munosabati;

– Furqatning xorijda yozilgan ayrim asarlarining ilmiy tahlili (Masalan, “Qavoidi Chin va umuroti siyosiy”, “Rus askarlari ta’rifida”, “Masarratnoma” va h.q.);

– shoirning har bir xorijiy mamlakatda qancha muddat bo‘lganligi;

– Furqatning chet ellarda yozgan asarlari matniy tadqiqi.

Furqatning Arab mamlakatlarida yashagan davrida yaratilgan diniy-ma’rifiy mavzudagi asarlari (“Hajnoma” va shu yo‘nalishdagi she’rlari), shoir hayoti va ijodiga chet ellik olimlarning munosabati, Furqat asarlarining xorijdagi nashrlari tahlili kabi masalalar mutlaqo o‘rganilmagan.

Olim tomonidan Furqatning xorijga ketish va yurtga qayta olmaslik sabablari, chet ellardagi ijtimoiy, adabiy va ilmiy faoliyati, merosining xorijda o‘rganilishi, Vatanjudolik lirikasi: poetik mahorat va obrazlar silsilasi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Shoir “Ahvolot”da o‘zining yetti yoshga to‘lgan davri haqida hikoya qilar ekan, shunday yozadi: “...xat mashqini o‘zumg‘a lozim ko‘rub, ertadin qiyomg‘acha kitob o‘qub, andin namozi asrga tegru mashqi xat qilur erdim” [Turkiston viloyatining gazeti, 1891].

Demak, Furqat yetti yoshlik paytidanoq muntazam ravishda xat mashqi bilan shug‘ullangan, kitob mutolaa qilgan. Zero, xattotlik san’ati husnixatning o‘zi bilangina kamolga yetmaydi. Ham mukammal husnixat, ham yuksak savodxonlik-xattotlikning muhim shartlari. Shoirning to‘qqiz yoshligida yozgan “Ahvolotda” ta’kidlanishicha, Furqat o‘n yoshga to‘lganida, o‘z “...savodi takmili uchun” Muhammad Olim ismli ustozining “xat ilmida noqis”ligi sabab Mullo Qambar Alida

husnixat borasidagi ilmini mukammal qiladi, o‘zi ham xushnavis xattotlardan bo‘lib yetishadi.

Furqat chet ellarda yashagan davrida ham xat va xattotlikka alohida e’tibor berdi. Shoirning bu borada shogirdlar ham yetishtirganligi haqida Firdavs Aziziy shunday yozadi: “Furqatning husnixati ham nihoyatda chiroyli bo‘lg‘on. Uning xattotlik mahoratidin zavqlang‘on bir qancha kishilar undan husnixat o‘rgangan ekanlar. Shulardan Furqatning do‘sti va shogirdi Zaynulobiddinxon 1933-yili Yorkentda yangi maktab – “Matla’ ul-irfon” qurulg‘onda ana shu maktabda husnixat o‘qituvchisi bo‘lg‘on” [Furqat, 1990].

Bu ma’lumotlar Furqatning yuksak mahoratli xattot ham bo‘lganligini ko‘rsatadi. Furqatning tabib-hakim sifatidagi faoliyati ham alohida o‘rganishga loyiq. Zero, u tabobat sohasida o‘z zamonasining ma’lum va mashhur olimlaridan edi. “Zubdat ul-hukamo” unvoni bu borada yuksak salohiyat sohibi bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Xorijga ketmasidan oldin Furqatning tabobat bilan amalda shug‘ullanganligi to‘g‘risida ma’lumot bo‘lmasa-da, tib ilmidan yaxshigina xabardor ekanligini tasdiqlovchi ayrim dalillar mavjud. Xususan, Furqat Xo‘jandda yashar ekan, u yerdagi hokimlarning bilim darajasidan qanoat hosil qilmaydi. “Ul yerda mavjud da’viyi hikmat qilg‘on hakimlarni(ng) hammasini johil e’tiqod qildim, – deb yozadi u. – Bu dalil birlakim, ul xalqni(ng) ko‘zlari xiyra bo‘lsa, qon olmoqqa ishtig‘ol ko‘rguzurlar ekan. Alarning bu behuda muolajasidin ko‘b kishini(ng) sihatig‘a nuqson yetmoqlig‘ini mushohada qildim” [Furqat, 1990].

Furqatning tabobat bilan amalda jiddiy shug‘ullanishi, asosan, Yorkentdagi faoliyati bilan bog‘liq. Hatto bu davrda hakim unvoni Furqatning shaxsiy muhrida ham aks etgan. Jumladan, uning Yorkentdan 1905-yil 10-iyulda yo‘llagan dastxat maktubiga “Hakim Zokirjon hoji” bitigi bilan muhr bosilgan [Furqat, 1958].

Qisqasi, olimning Furqat haqida tadqiqotlari shoir asarlarini yanada kuchli o‘rganishga, tadqiq qilishga yaqindan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Каримов Ғ. Изоҳлар. – Муқимий. Асарлар тўплами. Икки томлик, I том. – Т.: Ўздавадабийнашр, 1960.

2.Жабборов Н. Фурқат асарларининг қўлёзма манбалари. Фил. фан. ном. диссертацияси. – Т., 1994.

3.Зокиржон Фурқат. Мақолалар тўплами. – Т.: 1959; Фурқат ижодиёти. – Т.: Фан, 1990.

4. “Туркистон вилоятининг газети”, 1891 йил 12 март, № 10.

5.“Туркистон вилоятининг газети”, 1891 йил 8 апрель, № 14.

6.Фурқат. Асарлар мажмуаси. Икки жилдлик (араб имлосида). I жилд. – Т., 1990.

7.Фурқат. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчи: Холид Расул). – Т., 1990.

8.Фурқат ва Муқимий ҳақида мақолалар. – Т.: Бадиий адабиёт, 1958.

9.ЎзРФА Навоий номидаги Давлат Адабиёт музейи Фурқат фонди, инв. № 4.

10.Қосимов Б. ва б. Адабиёт. Ўрта мактаб дарслиги, 10-синф. – Тошкент, 2017.

CHO‘LPON VA “GULISTON”

Bahodir Karimov,
filologiya fanlari doktori,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Guliston” jurnalining tarixi, ayni jurnal bilan Cho‘lpon o‘rtasidagi ijodiy aloqalar xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *matbuot, jurnal, “Fotoxon”, “Adabiyot nadir”, Cho‘lpon.*

abstract

This article discusses the history of the magazine “Guliston”, the creative connections betweyen the magazine and Cho‘lpon.

Keywords*: press, magazine, “Fotoxon”, “Adabiyot nadir”, Cho‘lpon.*

O‘zbek matbuotining shonli tarixida muazzam o‘rin tutadigan bebaho jurnallardan biri “Guliston” bu yil 100 yoshga to‘ldi. Jurnal dastlab “Yer yuzi” nomi bilan o‘zbek mumtoz yozuvi – arabiy imloda nashr bo‘ladi. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi negizida yuzaga kelib, bir oyda ikki daf’a bosilishi yo‘lga qo‘yilgan bu jurnal o‘z davrida juda mashhur edi. Ziyo Said “O‘zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar” asarida “Yer yuzi”ning ruslarda nashr bo‘layotgan “Ogonyok” jurnaliga o‘xshashligi va “juda tez fursatda o‘z o‘quvchilarini” topganiga urg‘u beradi. Ikki yil chiqib, iqtisodiy tanglikka uchraganini ham yozadi.

“Yer yuzi” mamlakat ichkarisidagi tuzumga, Sharq va G‘arbdagi ijtimoiy-siyosiy hodisalar, madaniy-ma’rifiy, adabiy-ilmiy yangiliklarga, tarix va san’atning barcha turlariga e’tibor berdi. Deylik, 1916-yilgi voqealar haqida 20-yillar o‘rtalarida “Ravot qashqirlari” bilan bir pallada Kazimir Gertel rejissyorligida “Masjid gumbazlari ostidan” degan kinofilm ishlanadi. Bu haqda jurnalda bosilgan maqolada: “O‘n oltinchi yil – chor hukumatining istibdodiga mahalliy xalqning chiday olmay, unga qarshi qo‘zg‘alg‘on yili. Jizzaxning to‘pg‘a tutilishi, xalqining tog‘-toshlarg‘a haydalishi, yuzlarcha kambag‘al oilalarning uysiz-joysiz muntazir qolishi, xotin-qizlar, yigit-yalanglar, bola-chaqalarni unutilmas qayg‘ular bosishi va Toshkant kabi bir ko‘b shaharlarda qonli urinishlarning yuz ko‘rsatishi – hammasi o‘n oltinchi yil alamli estaliklaridandir”, deb yoziladi. Bu “alamli estaliklar” xususida “Voqeani bo‘lg‘onicha kartinaga olish bilan qolmasdan, uning sabablarini ochish yo‘lida ham harakat qilindi: istibdod hukumatining davlat tashkilotiga ishong‘on fabrika egalarining faoliyatlari, Ovro‘po muhorabasining kelib chiqishi natijasida chor hukumatining mustamlakalar ustida o‘ynog‘on o‘yinlari, zulmlari, vahshatlari va boshqa shunga o‘xshag‘on kayfiyatlar asosiy voqeaga aralashtirilib yuborilg‘on” tarzidagi achchiq haqiqat bayon qilinadi.

“Yer yuzi” jurnali so‘z san’ati – badiiy ijod uchun maxsus sahifalar ajratdi. Unda o‘zbek adiblarining she’r va hikoyalari, chet el adabiyotidan tarjimalar bosildi. “Yer yuzi” o‘z vaqtida mazmun-mundarijasining rang-barangligi, adabiy-ma’rifiy, ilmiy maqolalarning ko‘pligi bilan davr ziyolilarining diqqat-markazida bo‘ldi. Shunga ko‘ra, “Yer yuzi”da o‘z davrining eng faol ziyolisi Abdulhamid Cho‘lpon paydo bo‘ldi. Shoir “Yer yuzi”ning dunyoga kelganidan benihoya quvondi va unga bag‘ishlab, “Bu nima narsa?” nomli maxsus she’r yozdi:

“Bu nima narsa?” –
Deb har kim so‘rsa,
Deyman: “Yer yuzi”.
Har yerda yurar,
Har shayni ko‘rar:

Dunyoning ko‘zi!
Dunyoni ovlar,
Har kimni tovlar:
“Fotoxon” qizi!
Kitobga qo‘ldosh,
Gazetga yo‘ldosh:
Ommaning so‘zi!
Tili o‘qimli,
Elga yoqimli:
– O‘zbekning o‘zi!..” (“Yer yuzi” j., 1925-yil, 1-son)

She’rdagi “shay” – narsa ma’nosini anglatadi. “Fotoxon” – jurnalning suvratlariga ishora. Zero, “Yer yuzi”da turli oq-qora va ba’zan rangli rasmlar ham berilar edi. Cho‘lpon yangi maydonga kelgan nashr uchun shunday she’riy bag‘ishlov yozdi va shoir jurnal bilan yaqindan hamkorlik qildi. “Yer yuzi”da uning “Yo‘lchi” (1927-yil 18-son), “Suv” (1927-yil 19-son), “Bu yerning qishi” (1927-yil 20-son), “Qaytish” (1927-yil 21-son) kabi she’rlari bosiladi. Yangi nashrdan umidlanadi. Bu davrda shoir yana avvalgi shiddatini sog‘inadi, qalamini erkin qo‘yib, ko‘nglini tugal to‘kishni istaydi. Shu bois erksizlik bilan she’rsizlikka nisbatan “Sensiz kunlarda yana Bo‘shliq to‘ldi ko‘nglimga”, deb yozadi. Shu bois shoir o‘zning asil she’riy dardini sog‘inadi:

“Yana hamdamsiz qoldim,
Ko‘nglimga alam oldim,
Qo‘limga qalam oldim,
Yana jinlanmakchiman!”

“Yer yuzi”dagi adabiy muhit shoirga shunday umid va ilhom beradi. Cho‘lponning qalandarona, daliyona she’rlari ko‘p. 1927-yilga kelib, o‘sha pafosdagi she’r istagani uchun “Yana jinlanmakchiman!” deydi baralla. Shu bitta misrasi vositasida Cho‘lpon she’riyatining umummohiyatiga tashxis qo‘ysa bo‘ladi. Afsuski, shoirning ayni niyatiga yetishi qiyin kechdi. O‘zi avvalroq sezib aytadiki:

“Muhit girdobida bir somon parcha,
Bir poxol cho‘pidek oqib boramen.
Har amal, har ishni “haq” deb boramen,
Vazminim qolmadi bir uzuk qilcha...”

Muhit kuchlilik qiladi, shoir qanchalik “jinlan”ishlarini sog‘inmasin, baribir o‘zini “muhit erki”ga topshirishga majbur bo‘ladi. Shu bois Cho‘lponning “Yer yuzi” nomi o‘zgarib, “Guliston” bo‘lgan kezlarda yozgan va ayni jurnalda bosilgan “Shahrimiz quchog‘ida” (1935-y., 11-12-son), “Bu o‘lkaning ko‘klami” (1936-y. 5-son) kabi she’rlarida davr adabiy siyosati bilan murosaga kelish kayfiyatlari yo‘q emas.

“Bu o‘lkaning ko‘klami juda ham namgarchilik,
Quyosh bulutlar bilan o‘ynashadi, shekillik...
U sening olovingdan mo‘l-ko‘l hosil olajak,
Seni ham bora-bora o‘z yo‘liga solajak!..”

“Bu o‘lkaning ko‘klami” nomli ayni she’rda jinlanish ko‘chasiga kirolmay ilojsiz galdirab yurgan shoir holi ko‘rinadi. Tabiiyki, bu she’rlar uning avvalgi “Uyg‘onish”, “Buloqlar”, “Tong sirlari” nomli uch to‘plamidagi pafosdan farqli o‘laroq, “Soz” majmuasida berilgan she’rlarga hamohang edi. Baharhol, XX asrning 20-30-yillardagi barcha davriy matbuotda bosilgan she’rlari xronologiyasi Cho‘lpon adabiy-ijodiy biografiyasini namoyon qiladi. Jumladan, “Yer yuzi” bilan “Guliston”dagi she’rlari Cho‘lpon ijodining muhim bir jihatini tasavvur qilishiga yordam beradi.

Cho‘lpon shoirlik bilan bir qatorda badiiy adabiyot, san’at, sahna, qardosh xalqlar adabiyoti kabi qator adabiy-estetik masalalar yuzasidan qarashlarini imkon boricha o‘z vaqtida bayon qilgan faol ziyoli edi. O‘zbek davriy matbuoti sahifalari Cho‘lponning o‘tkir qalamidan chiqqan poetik so‘zi,

e’tiborli fikr-mulohazalari juda ko‘p. Hali o‘spirinlik pallasida “Adabiyot nadur” maqolasida aytilgan “Adabiyot yashasa – millat yashar” degan gapi aforizm bo‘lib tarqaldi. “Adabiyoti o‘lmag‘on va adabiyotning taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo‘lur... Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan, o‘chgan, majruh, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizg‘a emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘an, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘an toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yoruq va ravshan qiladirg‘an buloq suvi bo‘lg‘anlikdan bizg‘a g‘oyat kerakdir”. Bu o‘rinda yosh Cho‘lpon badiiy adabiyotning metaforik tabiatiga, ta’sir quvvatiga diqqat qaratadi; badiiy adabiyotni o‘ziga xos yo‘sinda ta’riflaydi ham. Haqiqatda chin adabiyot inson ruhini ko‘tarishi, “toza ma’rifat suvi”, buloq suvi bo‘lmog‘i lozim. So‘zning kuch-quvvati esa “o‘lgan, so‘ngan, o‘chgan, majruh yarador” ko‘ngillarni tiriltiradi. Mudraganlarni uyg‘otadi. Ruhsiz ko‘ngillarga ruh bag‘ishlaydi. Cho‘lpon o‘z adabiy, ijtimoiy, ma’rifiy qarashlarini “Adabiyot nadur” maqolasidan keyin to qatag‘on kuniga qadar yigirma yildan ko‘proq davr mobaynida matbuotda qaysidir yo‘sinda bayon qildi; munosabat bildirdi. Avval “Yer yuzi” va davomidan “Guliston” jurnali, tabiiyki, Cho‘lpon uchun fikr tarqatish minbari vazifasini o‘tadi.

“Yer yuzi”da uning adabiyot va san’at, teatr, sahna madaniyatiga oid “Maskavdagi dramstudiyamiz” (1926-y.), “Meyerxo‘ld teatri” (1927-y.), “Yana uylanaman” (1927-y.), “Tursunoy sahnada” (*1928-y.)* kabi maqolalari bosiladi. Bu maqolalarda Cho‘lponning adabiy dunyoqarashi, san’atga, teatr sahnasiga munosabati o‘z ifodasini topdi.

Cho‘lpon Moskvada yashagan mahali teatrda emakdosh bo‘lib ishlaydi. Vaziyatni ichdan ko‘radi. Shunga ko‘ra, “Maskavdagi dramstudiyamiz” maqolasida o‘sha yerda tashkil etilgan o‘zbek teatrining moddiy va ma’naviy holidan so‘z ochadi. Teatr repertuaridan Molerning “Xasis”, Gogolning “Tergovchi” (“Revizor”) singari mashhur dramalari qatorida Cho‘lponning “Yorqinoy” pyesasi ham o‘rin oladi.

Har ish egasiga topshirilsa, rivojlanish, taraqqiyot bo‘lishi mumkin. Nafaqat ijtimoiy yoki iqtisodiy, balki san’at sohasida ham shu haqiqat zuhur etadi. Dramstudiya borasida Cho‘lpon yozadi: “San’atni tushungan kishilar keldilar, ko‘rdilar, harorat bilan olqishladilar. Ana shu olqishlar, ana o‘sha samimiy aloqa studiyaga ruh berdi; bu olqishlar bu kun bir hovuch bo‘lsalar ham, samimiy bo‘lg‘onlari uchun kelgusida u hovuchlarning hech qayerga sig‘may ketishiga qat’iy imon keltiradilar”.

Maqolada “Meyerxo‘ld tiyotri”ning boshidan o‘tkazgan tarix, bahs-munozaralar, teatrga Mayerxold nomining berilish sababi va uning individual jihatlari yoritiladi.

Meyerxold teatri Gogolning “Tergovchi” asarini sahnaga qo‘yganida, unga berilgan baholar turlicha bo‘ladi: “Tergovchi”ga baho berishda Maskov bilan Leningrad tanqidchilari ikkiga bo‘lindilar. Maskov so‘kadi, Leningrad maxtaydi. Bu so‘kish va maxtashlar to‘g‘risida gapirmak uchun ham yana ayrim maqolalar yozish kerak. Shuning uchun qisqa qilib shunigina aytamizkim, Maskov munaqqidlari Meyerxo‘ldni “o‘nglashib ketish”da ayblaylar, Leningrad munaqqidlari esa Meyerxo‘ldning “Tergovchi”sidan Gogolning chin ruhini topalar va yangi hech kim topolmag‘an narsalar topilg‘anini da’vo qilalar”. “Tergovchi” (“Revizor”) dramasi halgi shu kunga dovur teatr repertuarlaridan tushmaydi. Va tabiiyki, lozim bo‘lsa, teatrshunoslar uchun bugun ham munozara va muhokama maydoni bo‘la oladi.

Cho‘lpon bu kabi maqolalarida Klara Setkin, Bela Kun, S.M. Budyonniy, E.Verxarn, V.Mayakovskiy kabi o‘ziga zamondosh shaxslar nomlari uchraydi.

Bir maqolasida “Yana uylanaman” sarlavhasidan keyin *“Maskavdagi dramistudiyamizning bu yilgi ishlaridan” degan tagsarlavha beriladi. Avvalgi maqolaga monand bunda ham Moskvadagi adabiy-madaniy muhitdan so‘z ochiladi. “Yana uylanaman” asarining sahnaga qo‘yilishi borasida fikr yuritiladi. Unga markaziy matbuotda berilgan baho bilan tanishtiriladi. Shuningdek, yosh o‘zbek teatrining muvaffaqiyatini tushuntirib: “*Bu yerda shunigina aytib o‘tish lozimdirkim, o‘zbek

teatri – hali yosh va bola bo‘lishig‘a qaramasdan – turli teatr maslaklari bilan amaliy tanishishda keng yo‘l bilan bormoqdadir. Maskav dramistudiyasi, bu yerning teatr olamiga g‘alvalar solg‘on bir g‘alati oqim — Meyerxuld oqimini – o‘z turmushig‘a olib ko‘rsatmak bilan, qiziq bir tajriba yasaydi», *deb yozadi va Yusufjon qiziq Shakarjonov faoliyatiga yaxshi baho beradi. Darhaqiqat, Moskvadagi o‘zbek teatri shunday tajribalar evaziga ulg‘aya boradi.* “Yer yuzi”da bosilgan yana bir “Tursunoy sahnada” maqolasida – nomidan ko‘rinib turganidek — teatr san’ati, xususan, italyan dramaturgi Karlo Goldonining “Ikki boyg‘a bir qarol” dramasida Klariche rolini ijro etgan va manglayiga fojiali qismat bitigi bitilgan Tursunoy Saidazimovaning mahorati to‘g‘risida fikr yuritiladi *(“Yer yuzi” j. 1928-yil 11-son)*. “Tursunoy Klarichesida bir umr esdan chiqmaydurg‘an joylar bor edikim, bilmayman, yosh sahnamiz yana o‘shanday bir tasvirni qachon ko‘ra oladi”.

Tursunoyning sahnadagi faoliyatini yoritishda Cho‘lpon qahramon qo‘liga qilich olgan muhim epizodga alohida to‘xtaladi: “Shundan so‘ng Klariche qilichni qo‘lig‘a oladi va hazilakamdan o‘zini o‘ldirmakchi bo‘ladi. O‘shanda Tursunoyning juda bebaho harakatlari bor. Qilichning o‘tkurmiyo‘qmi ekanini bilmak uchun uning tig‘ig‘a qo‘lini tegizib ko‘radi, shunda qo‘li tegar-tegmas qo‘rqib tortib olishlari va qilichning uchini emas, sop tomonini ko‘ksiga qo‘yg‘ani holda og‘riq, iztirob va qiynalishni yolg‘iz yuz harakatlari bilangina shuncha ochiq va go‘zal ko‘rsatishlari katta mahoratning borlig‘ini bildiradi. Umuman, Klariche ro‘lida Tursunoy juda berilib o‘ynab, uning ichida erkin-erkin yashar edi”.

Maqola matnida ora-orada “o‘z tilagiga erisha olmag‘on bir qizning fojiasi”, “Tursunoyning o‘ziga xos harakatlari o‘zi bilan birga ketgan”, “Tursunoy og‘zida shirin va go‘zal jonlang‘an so‘zlarning ohanglari uning o‘zi bilan birga o‘ldilar”, “Tursunoy yengil par kabi bir uchib o‘tdi” kabi jumlalar berilganidan uning Tursunoy Saidazimova o‘limidan keyin yozliganini bilish mumkin. Bu aktrisaning o‘limi munosabati bilan o‘z vaqtida marsiyalar yozilgani ma’lum. Deylik, Tursunoy tilidan: “O‘n to‘qqizda sahna dog‘in olibman, Yigirmaga to‘lmay guldek so‘libman...” deb yozdi H.H. Niyoziy “Tursunoy marsiyasi”da. Cho‘lpon yozishicha, Tursunoy Fitratning “Arslon” dramasi, G‘ulom Zafariyning “Halima” hamda italyan dramaturgi Karlo Gossining “Malikai Turondod” pyesalarida ham rollar ijro qiladi. Darvoqe, “Malikai Turandod” xususida “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida bosilgan alohida maqolasida: “Asarning tarjumasi kaminaga topshirilg‘on edi. Qofiyasiz, lekin 11 hijoli vaznda tarjuma qilib chiqishga muvaffaq bo‘lindi”, ma’lumotidan drama tarjimoni Cho‘lpon ekani anglashiladi.

Cho‘lpon butun ijodi va, xususan, maqolalari milliy tilimizga aslo befarq bo‘lgan emas. Shu bois “yuz yasash” (grim), “sahna yasash” (dekoratsiyachilik), “tuzma” *(postanovka)*, “katta mashqi” (general repetitsiyasi), “so‘z ohangi” (intonatsiya), kechinma (perejivaniye), “ohang ilmi” (garmoniya) kabi ajnabiy atamalarga nisbatan yangi so‘zlar yasab ishlatadi. Cho‘lpon qo‘llagan bunday so‘zlar, o‘zbekona so‘zlar yo‘lidagi izlanishlari tahsinga munosib, albatta.

Cho‘lponning jurnal bilan hamkorligi “Yer yuzi”ning bir necha yillik tanaffusidan keyin yangidan “Guliston” atalib nashr bo‘la boshlaganda ham davom etadi. Xususan, unda “Ashulaga ishqiboz” (1935, 7-son), “Sahna sirlariga oshno san’atkor” (1935, 8-9-son), “Ota-bola san’atkorlar” – *Matyoqub va Matyusuf Xarratovlar” (1936, 1-son),* “Qiziqlar” (1936, 6-son), *“Fuzuliy pichinglari” (1936, 10-son) kabi maqolalari chop qilinadi. Muallif bu maqolalarida “Yer yuzi”dagi faoliyatini mantiqan davom ettiradi. San’at tabiati, sahna tuzilishi, ashula va san’atkorga doir muhokamalarini bayon qiladi.*

“Ashulaga ishqiboz”da Halima Nosirova ijodiy faoliyatidan, sahnada rollar ijro qilganidan gap ochadi. O‘nlab rollarda sahnaga chiqqan H.Nosirova xususida yozganida “mimika boyligi, sahnada o‘zini erkin tutushlik, balki bir daraja sho‘xlik, til ravonligi, so‘zlarni to‘g‘ri berish va o‘tkur ovoz vositasi bilan so‘zni tomoshachiga yetkizish” singari xislatlarini e’tirof etadi. Ayni damda “ro‘lni chuqur ishlamaslik, jiddiy qahramonlarning yengilligi va sho‘xligi bo‘rtdirilgani holda, ularning

og‘ir va fojialik tomonlariga qunt qilmasliq” kabi kamchiliklarini sanab ko‘rsatadi. Tabiiyki, bunday haqqoniy baho va talqinlar o‘zbek milliy sahna san’ati taraqqiyoti uchun muhim edi. H.Nosirova “Ashulani sevishim meni dramadan cholg‘ug‘a olib keldi”, degan ekan. Cho‘lpon sarlavhani shu ishqibozlikka moslab qo‘yadi. O‘z vaqtida taniqli shoir nazariga tushgan iste’dod egasi o‘zbek qo‘shiqchilik san’ati uchun ulkan xizmatlar qilganini bugun hamma biladi. Maqola tarkibida “So‘zlash san’ati boshqa, kuylash san’ati boshqa” kabi hayotiy hikmatlar ham bor. To‘g‘risi, san’atning umummohiyatiga tegishli bu kabi nazariy qarashlar turmush tajribasi ortidan tug‘iladi. “Har qanday ijodiy asarni ham ishlab pishitadilar. Shoirning she’ri, nasrchining roman yo hikoyasi, bastakorning cholg‘u asari cholg‘uchining bajarmasi, hatto zargarning chiroylik baldoq va shokildasi, yo‘nmachi ustaning naqshi ishlangan yo‘nmakor asari – bular hammasi ishlanish orqasida pishadi, yetiladi, qiymatli asar holiga keladi”. Ijodkor psixo-laboratoriyasiga doir umumnazariy bu fikr “Sahna sirlariga oshno san’atkor” maqolasi tarkibida berilgani bois muallif: “Teatrda yaxshi aktyor rolni ishlab pishitaturg‘on aktyordir”, degancha gapining davomini aktyor tomon buradi. “Sahnada talantdan tashqari madaniyat ham kerak” – bu hamma zamonlarda sahna zahmatkashlari uchun juda ham muhim tanbeh, tavsiya va eskirmaydigan haqiqatdir.

Cho‘lpon xorazmlik ota-bola san’atkorlar – *Matyoqub va Matyusuf Xarratovlar haqida yozgan maqolasi ham o‘z vaqtida “Guliston” sahifalari uchun bezak bo‘ldi. Unda ota-bola ikki san’atkorning boy tarjimayi holidan tashqari Xorazm, Xiva, Urganch tarixi va tavsifidan tortib, to* mashhur qo‘shiqchi Safo Mug‘anniyning:

“Xorazm bir uzoq okrug,
Yo‘llari yo‘q, buzuq ko‘pruk”,

tarzida shikoyat yo‘sinida aytgan ashulasigacha bor. Maqola samimiy va ma’lumotlarga boyligi bilan birga muallifning musiqa bilimdoni ekanini ham o‘zida mujassam etadi.

Cho‘lponning “Qiziqlar”i jiddiy maqola. Adib xalq iste’dodining bebaho xazinasi bo‘lgan qiziqlar borasida tarixdan ulgu olib fikr yuritadi. O‘zbekistonning turli hududlaridagi askiya san’atiga aloqador san’atkorlarni bir-bir sanaydi. Ularga e’tibor zarurligidan so‘zlaydi. Bu toifadagi san’atkorlar kelajagi uchun qayg‘uradi. “Xalq qiziqlarini o‘rganish tiyotrimizning komediyachilik tomoni uchun katta oziq beradi. Buni kech bo‘lsa ham iqror qilib, shunga yarasha tadbirlar ko‘raylik... Qiziqlar hozir kulushga va yayrashga erishgan xalq uchun yanada kerakli kishilar. Ularni, ularning asarlarini, ularning ommaviy va yangi ijodlarini yolg‘iz sayillar, to‘ylar va ochiq maydonlardagina emas, o‘pera, dram, komediya sahnalarinda ham ko‘rmak istaymiz”. Shoirning ma’rifiy maqolalarida bunday taklif, tavsiya va tashabbuslar juda ko‘p.

Cho‘lponning “Fuzuliyning pichinglari” maqolalari orasida ajralib turadi. Nima uchun Cho‘lpon Fuzuliy mavzusiga qo‘l uradi? Cho‘lponning o‘ziga zamondosh ijodkorlar qatorida Fuzuliy she’riyatiga o‘zgacha oshnoligi bor edi. Cho‘lpon Fuzuliy yo‘li-uslubida she’rlar yozdi, asarlari uchun Fuzuliydan epigraflar tanladi. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud “Turk shoiri Ajziy” maqolasida: “Ajziy shevada Fuzuliy yo‘lini tutgan shoirlardandur”, deb yozadi. So‘ngra munaqqidning: “Fuzuliy tilining bu kungisi, ya’ni usmonlicha ila shoirimiz Cho‘lpon ham ba’zi chiroylik parchalar yozadir”, degan gapidan shoirning Fuzuliy she’riyatiga shaydo bo‘lganini anglash qiyin emas. Istiqlol yillari keksa ziyoli Yunus Maqsudiy “Ulug‘lar davrasida” xotira kitobida: “Cho‘lpon Fuzuliy she’riyatining chin oshiqlaridan edi. Uning xalq orasida Navoiy kabi mashhurligini e’tirof etib, “Fuzuliy pichinglari”, degan bir maqolasida o‘zining fikrlarini bildiradi”, deb muhim ma’lumot keltiradi. Darhaqiqat, Cho‘lpon unda ulug‘ ozar shoiriga ko‘ngildoshligini izhor etgan edi. “Fuzuliy pichinglari”ni tadqiq qilgan cho‘lponshunos D.Quronov “Cho‘lponning ulug‘ ozarbayjon shoiri bilan ma’naviy aloqalari haqidagi tasavvurlarimizni boyitadi”, deb yozdi. Shoir “Fuzuliyda qismatdoshini, uning dardlari bilan o‘zining dardlari” esh ekanini ko‘radi. “Cho‘lpon maqolani bejiz “Fuzuliy pichinglari” deb atamagani, uning satrlari orasiga o‘zining dard-hasratini singdirganini anglash mumkin. Ya’ni

“Fuzuliy pichinglari” haqidagi maqola zamiriga “Cho‘lponning pichinglari” joylab yuborilgandir”. Darhaqiqat, erksiz muhitda, tobora zulm bo‘hroni kuchayib, qatag‘on mashinasi yaqinlashib kelayotgan bir pallada ham shoir o‘z so‘zini aytmoq yo‘l-yo‘rig‘ini topa oldi. Fuzuliy bilan Cho‘lpon adabiy mahoratidagi bunday ko‘chma-metaforik usul hamma zamonlarda boshqa ijodkorlar uchun saboq bo‘la oladi.

Darhaqiqat, Cho‘lponning “Yer yuzi” va “Guliston”dagi ijod namunalariga nazar solinsa, shoirning o‘ziga xos ijod olami, bayon uslubi, qalamining quvvati, jadidona estetik nuqtayi nazari, o‘zbek adabiyoti, sahna san’ati va madaniyati taraqqiyoti yo‘lidagi xizmatlari oydinlashadi.

“Guliston”ning yuz yoshi munosabati bilan Cho‘lpon va unga maslakdosh adiblar yodga olinsa, nazarimda, jurnalni tashkil qilgan hamda unda turli janrdagi asarlari bilan qatnashgan ijodkorlar ruhi shod bo‘ladi.

UILYAM SHEKSPIR VA ABDURAUF FITRAT DRAMALARIDA INTERTEKSTUALLIK

G‘aniyev Ilhom Muzaffarovich,
filologiya fanlari doktori,
Xalqaro Yassaviy mukofoti laureati
e-mail: ganievilkhom@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada intertekstuallik tushunchasining adabiyotdagi o‘rni, madaniy xotira va adabiy aloqadorlikni ta’minlovchi asosiy omil ekanligi yoritiladi. G‘arb (Uilyam Shekspir) va o‘zbek (Abdurauf Fitrat) dramaturgiyasining yetuk namoyandalari ijodi misolida bu hodisaning voqelanishi tahlil qilinadi. Xususan, Shekspirning tarixiy yilnomalar, afsona va oldingi adabiy matnlardan ijodiy foydalangani ko‘rsatilgan. Shuningdek, Fitratning “Abulfayzxon” tragediyasi yozilishida Shekspirning “Hamlet” va “Makbet” asarlari ta’sirida shakllangan g‘oyaviy, arxetipik va ramziy yaqinliklar, syujet jihatdan o‘xshashliklar qiyosiy o‘rganiladi. Maqolada Fitratning mumtoz manbalarga tayangan holda milliy tragediyani yaratgani chuqur ildizlarga ega intertekstual hodisa ekanligi ham asoslanadi.

Tayanch tushunchalar: *intertekstuallik, drama, dramaturgiya, tragediya, madaniy xotira, adabiy aloqa, ramziylik, ko‘pma’nolilik, alluziya, madaniy kontekst.*

Abstract

This article analyzes the phenomenon of intertextuality in literature, highlighting its role as a key factor ensuring cultural memory and literary connection. The paper examines the manifestation of this phenomenon in the works of prominent representatives of Western (William Shakespeare) and Uzbek (Abdurauf Fitrat) dramaturgy. It specifically demonstrates Shakespeare’s creative use of historical chronicles, myths, and earlier literary texts (e.g., Hamlet, Macbeth). A comparative analysis is conducted between Fitrat’s tragedy Abulfayzkhon and Shakespeare’s plays, revealing ideological, plot, archetypal, and symbolik similarities. The article argues that Fitrat’s creation of the national tragedy, relying on classical sources, is a deeply rooted intertextual phenomenon.

Keywords: *intertextuality, drama, dramaturgy, tragedy, cultural memory, literary connection, symbolism, polysemy (or multiple meanings), allusion, cultural context.*

Kirish

Dunyo adabiyotining ming yillar mobaynida shakllanib, rivoj topgan asosiy tendensiyalaridan biri shundaki, aksar yangi asarlar o‘zidan oldin yozilgan adabiy, madaniy yoki tarixiy manbalarning ozmi-ko‘pmi ta’sirida yaratiladi. Ular matnidagi bevosita va bilvosita ishoralar, eslatma yoxud fikriy, ifodaviy va mazmuniy o‘xshashliklar bu boradagi ta’sir alomatlaridir. Ko‘hna lotin tilida “matnlar aro” degan lug‘aviy ma’noni bildiruvchi intertekstuallik adabiy-estetik tushuncha esa yuqorida ta’kidlangan ko‘lamdor madaniy jarayonni ilmiy izohlaydi.

Mulohazalarimiz avvalida moziyga birrov nazar solsak: Antik yunon adabiyoti namunalari qadimgi Rim so‘z san’atiga poydevor bo‘lgan. Shumerlarning beqiyos adabiy yodgorligi “Gilgamesh” keyinchalik Yaqin Sharq, Old Osiyo, Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, turkiy ellar adabiyoti tadrijida nechog‘li muhim rol o‘ynagani ham ayni haqiqat. Qolaversa, Yevropa Uyg‘onish va Ma’rifatparvarlik davrlari darg‘alari – Dante Aligyeri, Jovanni Bokkachcho, Migel Servantes, Fransua Rable, Uilyam Shekspir, Jan Jak Russo, Iogann Gyote, Onore de Balzak va boshqa ko‘plab ulug‘ ijodkorlarning Sharq hamda G‘arb madaniy an’analari uyg‘unlashgan o‘lmas asarlariga diqqat qarataylik. Deylik, “Dekameron” matniga “Kalila va Dimna”, “Ming bir kecha” hikoyatlari singgani yoxud turkona Xamsa muallifi hazrat Navoiyning “Nizomiy panjasig‘a panja urmoq” degan ta’kidi “Intertekstuallik nima o‘zi?” degan savolga aniq javobdir. O‘tgan asrning erka shoiri Sergey Yesenin sharqona taronalarga mehr qo‘ygani, o‘z navbatida, zamondoshimiz, salohiyatli adib Xurshid Do‘stmuhammad

“Donishmand Sizif” romanida biryoʻla uch madaniyatni – qadim Ellada, anʼanaviy musulmon dunyoqarashi hamda xemingueyona motivlarni birlashtira olgani ham adabiy matnlar oʻrtasidagi koʻp qirrali aloqadorliklar evolyutsiyasini anglashda asqotadi.

Asosiy qism

Jahon adabiyotshunosligidagi umumiy konsensusga koʻra, aynan soʻz sanʼatida voqelanuvchi intertekstuallik madaniy xotira, mazmundorlik va adabiy aloqadorlik kabi muhim omillarning oʻzaro sintezi sanaladi. Muayyan ijod namunasida dongʻi chiqqan oʻzga asar va koʻhna manbalarga ishoralar (alluziya, talmeh, parodiya va hokazo) boʻlishi, eski matn yangicha kontekst va maʼno kasb etib, ijodkorlar oʻrtasida oʻziga xos “muloqot” shakllanishi mazkur adabiy-estetik hodisa uchun xarakterli jihatlardir. Shuningdek, intertekstuallik qaysidir oʻrinlarida oʻzga asarlarga, tarixiy voqealarga, asotir, afsona va rivoyatlarga murojaat yoki shunchaki eslatma boʻlganida oʻz-oʻzidan matnlar aro vujudga keluvchi tizimli bogʻliqlik hamdir.

Xoʻsh, bu murakkab hodisa ingliz va oʻzbek dramaturgiyasining zabardast namoyandalari ijodida qanday voqelangan? Buyuk Shekspir taʼkidlaganidek, “Masala shunda!” 1564-1616-yillarda yashagan britaniyalik mutafakkirning aksar dramalari tarixiy solnomalar, koʻhna asotir va ertaklar, qolaversa, oʻz zamonasidagi adabiy manbalar asosida yaratilgan. Tabiiyki, Shekspir shunchaki nusxa koʻchirmay, oʻz asarlarini mazmunan boyitish niyatida shunday manbalardan unumli foydalangan. Xususan, u “Genrix IV” hamda “Makbet” dramalari tafsilotlarini Hollinshedning “Angliya, Shotlandiya va Irlandiya yilnomalari” nomli tarixiy kitobidan oʻzlashtirib, shu tariqa intertekstual evrilishlarga uchragan sayyor syujetlarni teran dunyoqarash, yuksak maʼnaviy ruh va keskin dramatizm bilan boyitgan. Sakson Grammatik, Fransua Belfore, Monmutlik Jeffri, Jambattista Chinsio, Matteo Bandello hamda Artur Bruk asarlari taʼsirida yozilgan “Hamlet”, “Qirol Lir”, “Otello”, “Romeo va Julyetta” tragediyalari xususida ham xuddi shunday fikrni bildirish mumkin.

Shekspir yuqorida sanalgan mualliflarning qator tarixiy kitob va badiiy asarlari matnidan oʻz dramalarida ijodiy foydalanib, chuqur falsafiy qarashlar bilan toʻyintirgan holda personajlar nutqi, ruhiy holati, fojiiy qismatini, voqealar dinamikasini yanada taʼsirchanroq aks ettirgan. Qolaversa, uning oʻzgacha uslubiyati, ifoda texnikasi, London lahjasiga asoslangan nutq maromi yunon-Rim asotirlariga, Injil motivlari va Oʻrta asrlar adabiyotiga borib taqaluvchi alluziyalarga boy.

Ayni jihatlarni milliy dramaturgiyamiz asoschilaridan biri, jadid mutafakkiri Abdurauf Fitrat (1886-1938) ning zalvorli adabiy faoliyatida ham koʻramiz. Oʻzbek adabiyotidagi birinchi tragediya – “Abulfayzxon” asarini yaratishda Shekspir tamoyillariga ergashgan bu ijodkor oʻtmishni shunchaki illiustratsiya qilmay, tarixiy voqealarga shekspirona fojiaviy tus berib, moziy kishilarini tragediyaning haqqoniy qahramonlariga aylantira olgan. Shu oʻrinda bu janrning Vissarion Belinskiy taʼriflagan muhim xususiyati koʻzga tashlanadi. Unga koʻra, “*Har bir shaxs tragediyada tarixga emas, tarixiy ism taqqan boʻlsa-da, shoirga tegishli*” [Белинский, 1955:200].

Shu tariqa dramaturg tanlagan hayotiy materiallar, xususan, “Abulfayzxon”ga asos boʻlgan tarixiy voqealar, “Chin sevish”da aks etgan oʻzga xalqlar hayoti va “Shaytonning Tangriga isyoni”da gavdalangan ilohiy motivlar, sharqona asotirlar uning istibdod hamda qoloqlikka qarshi kurash, jadidizm, maʼrifatparvarlik, islohotchilik bilan bogʻliq maslaklarini ifodalashda birlamchi matn va manba vazifasini oʻtagan. Qisqasi, Fitrat oʻz zamoni va jamiyatiga toʻgʻridan-toʻgʻri murojaat qilmay, asosan tarix va mifologik unsurlarga tayanib, ilgʻor gʻoyalarini ilgari surgan. Bu holni uning asarlarida koʻp qatlamli ramziylikni yuzaga keltirgan intertekstual yondashuv sifatida baholash mumkin.

Umuman, dramatik asarning chinakam qiymati uning sahnadagi ijrosi bilan cheklanmaydi. Agar pyesa faqat maʼlum bir davr tomoshabinini kuldirish yoki iztirobga solish uchun yozilsa, u vaqt oʻtishi bilan ahamiyatini yoʻqotadi. Holbuki, Shekspir, Gyote, Shiller kabi buyuk sanʼatkorlarning tragediyalari hali-hanuz millionlab kitobxon va tomoshabinlarni muassir etmoqda. Demakki, spektakl zamonga, drama esa zamonlarga xizmat qiladi.

Zamirida intertekstuallik omili yotgan yangi davr, yangi ijtimoiy kontekst Shekspir hamda Fitrat asarlaridagi dardli so‘roqlarga javob, azaliy muammolarga yechim izlaydi. Dramaning adabiy matn o‘laroq qudrati shundaki, u yillar davomida qayta-qayta o‘qilib, har bir jamiyat tafakkurida, har bir shaxs shuurida yangicha ma’no-mazmun kasb etadi. Shu yo‘sin insoniyatning fojeiy ko‘rguliklari badiiyat ko‘zgusida akslanadi. Tabiiyki, Shekspir darajasidagi daholarni to‘la anglash ular davridan mutlaqo farqli yangi madaniy, ijtimoiy va intellektual kontekstni taqozo qiladi. Intertekstual omil ayni shu chog‘da yaqqol namoyon bo‘ladi. Modomiki, bir necha asrlik eski matnni har safar yangi o‘quvchi o‘qib, o‘z bilimi, tajribasi va madaniy saviyasi asosida anglar ekan, asar zamiridagi yashirin jihatlar kashf bo‘laveradi.

Dramaning nuqul mutolaaga mos namunalari sahnalashtirish zahmatlari va deyarli imkonsizligi bilan bog‘liq. Gyotening “Faust”i, Pushkinning “Boris Godunov”i shunday asarlar sirasidandir. Bu dramalarning ayrim sahnalari shu darajada ramziy, abstrakt va mohiyatan serqatlamki, ularni ko‘pchilik oldida harakat orqali ifodalashning aytarli iloji yo‘q. Bu hol mualliflar o‘z asarlarining sahnada qanday namoyish etilishidan ko‘ra adabiy yozma meros sifatida qolishini ko‘proq ko‘zlaganlaridan dalolat.

Bunday murakkablik, ko‘pma’nolik va ramziylik dramaning intertekstual xossasini kuchaytiradi. Ijro etib bo‘lmaydigan tafsilotlar, deylik, “Faust”dagi fazo lavhalari kitobxonni mifologik, fantastik, falsafiy, tarixiy, siyosiy, ma’rifiy va boshqa yo‘nalishlardagi adabiy manbalardan xabardorlikni taqozo qiladi. Qolaversa, turli ramzlar, iqtiboslar, g‘oyaviy o‘xshashliklar dramaning o‘zga matnlar bilan doimiy aloqadorligini ta’minlaydi.

Ta’kidlangan ushbu jihatlar o‘tgan yuz yillikda ko‘p qatori yurtimiz kitobxonlarining ham tajribasidan o‘tgan. XX asr avvalida adabiy muhitimizga Shekspir, Shiller, Gogol dramalari kirib kelgan, mahalliy teatrlarda namoyish etilgan. O‘zbek-tatar, o‘zbek-ozarbayjon drama truppalarining adabiy aloqalari, milliy dramaturgiyamizning shu tarzda shakllanishi bilan bog‘liq shu kabi tarixiy shart-sharoitlar ham Fitratning “Abulfayzxon” tragediyasi aynan shu shamoyilda yaratilishiga zamin hozirlagan.

Ingliz dramaturgining tilimizga o‘girilgan ilk asari “Hamlet” bo‘lib, 1934-yilda Abdulhamid Cho‘lpon shunday katta ishga qo‘l urgandi. Keyinchalik G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, Jamol Kamol kabi ijodkorlarning tarjimonlik mahoratlari sabab “Otello”, “Qirol Lir”, “Romeo va Julyetta”, “Makbet” dramatik asarlari ham o‘zbek o‘quvchilarining madaniy-ma’naviy boyligiga aylandi. Darvoqe, “Abulfayzxon” yozilgan paytda hali bu tarjimalar yo‘q edi. Shunday esa-da, Shekspir asarlari XIX asr oxiridagi o‘zbek matbuotida tilga olingan [Гулямова, 1971:24]. Teatrlarimizda “Hamlet” va “Otello” tragediyalaridan ayrim lavhalar namoyish etilgan. Katta ehtimol bilan Abdurauf Fitrat o‘sha tomoshalarda qatnashib, Shekspir ijodi bilan yaqindan tanishgan. Yana shuni ham ta’kidlash joizki, Fitratning biz bugunga qadar o‘rgangan ilmiy, adabiy, biografik asarlarida dramaturgning Shekspirga munosabati haqidagi fakt va qaydlar uchramaydi.

“Hamlet” hamda “Abulfayzxon” tragediyalari o‘rtasidagi intertekstual yaqinlik birinchi navbatda, qahramonlar ruhiyatida, chekkan iztiroblarida namoyon bo‘lgan. Hamlet otasining fojiali o‘limiga ta-alluqli mudhish sirdan ogoh bo‘lgach, “Daniya – zindon” deya hayqirib, istibdodga qarshi kurashga otlanadi. Bunga parallel ravishda “Abulfayzxon”da Xayol timsoli tilidan “Shohlarning adolati zulmdir” deya aynan zindonga ishora qilingan. Qolaversa, Fitrat asaridagi xuddi shu Xayol timsoli va Rahimbiy o‘rtasidagi munozara Shekspir tragediyasidagi arvoh hamda Hamletning muloqot-dialogini eslatadi. Daniyalik shahzoda arvohning haq so‘zlarini eshitib, gumonlaridan xalos bo‘lsa, Xayol Abulfayzxonning o‘n besh yashar o‘g‘li Abdulmo‘minni o‘ldirib, taxtni egallagan Rahimbiy yuziga feodal jamiyatning barcha jirkanchliklarini g‘azab va nafrat bilan to‘kib soladi. O‘z navbatida, “Hamlet”dagi arvoh so‘zlari bir shaxsga qaratilgani holda “Abulfayzxon”da Xayol aytgan achchiq va keskin haqiqat ijtimoiy voqea darajasiga ko‘tarilib, yanada teranroq umumbashariy mohiyat kasb etadi.

Ikki tragediyadagi o‘zaro tafovut esa Hamlet va Rahimbiyning voqelikka munosabatlarida: Shekspir qahramoni arvoh so‘zlagan haqiqatni izlaydi. Qonxo‘r Rahimbiy esa bunday haqiqatga mutlaqo qarshi. Hamlet arvohning so‘zlarini jon-dili bilan tinglagani barobarida Fitratning salbiy personaji Xayolning so‘zlaridan qo‘rqib-qaltiraydi. Xullas, teskari proporsiya. Ammo intertekstual omil va syujetdagi holat umumiy: tirik odam bilan arvoh suhbati.

Umuman, ikkala asarda ham taxt uchun qotilliklar sodir bo‘ladi. Arvohning so‘zlari (“*Ilon – otang qotili, bugun bemalol uning tojin kiyibdir*” [Шекспир, 1983: 48] ham, Xayolning iztiroblari (“...Ey qora kuch, ey qurib ketgur taxt! Hech gunohi bo‘lmagan bolalardan, tog‘ kabi yigitlardan milyonchalari sen uchun qurbon bo‘lib ketarlar...” [Фитрат, 2000:218-219] ham hukmronlikka intilishning mudhish mohiyatini ochib beradi. Har ikki tragediya shu yo‘sin ramziy-falsafiy yakun topadi.

Shekspirda bosh qahramonlarning fojiali qismati (Hamlet va uning otasi, qotil amakisi Klavdiy, onasi, sevgilisi Ofeliya, a’yon Poloniy hamda bu odamning o‘g‘li Laert, xullas, personajlarning bari dahshatli o‘limga mahkum) fonida ezgulik va yovuzlikning abadiy kurashi ko‘rsatilgan bo‘lsa, Fitrat “Abulfayzxon” tragediyasida istibdod mafkurasi bilan umuminsoniy qarashlar o‘rtasidagi ziddiyat (Drama voqealaridan oldin Ubaydullaxonni o‘z ukasi Abulfayzxonning jallodlari o‘ldirishgan, asar davomida Farhod otaliqning boshi olinadi, so‘ng Abulfayzxonning o‘zini Rahimbiy qatl ettiradi, so‘ng o‘spirin Abdulmo‘minxon fojiasi...)ni san’atkorona tasvirlay olgan. Bu hol Fitrat Xayol ramziy obrazini yaratishda “Hamlet”dagi Arvoh timsolidan ta’sirlangani ehtimolini oshiradi.

O‘z navbatida, Shekspirning yana bir asari “Makbet” hamda “Abulfayzxon” o‘rtasidagi mushtaraklik ham g‘oyaviy-falsafiy yondashuv va qahramonlar psixologiyasini ochib berish usullarida yaqqol ko‘rinadi. Har ikki drama “Yovuzlik orqali tiklangan hokimiyatning inqirozi tarixiy zaruratdir” qabilidagi dunyoqarash asosida yozilgan. Makbet ham, Abulfayzxon ham turli aldov, fitna, hiyla-nayrang va qirg‘inlar bilan taxtni egallashgan. Shu sabab bu manfiy personajlar mudom shubha va qo‘rquv ostida yashab, o‘z lashkarboshilari, saroy a’yonlari, hatto yaqinlarining boshiga yetishadi. Eslatish joizki, Makbet shotland qiroli Dunkanni o‘ldirib, bu qotillikni hukmdorning ikki eshikboniga to‘nkaydi. O‘z qilmishini yashirish uchun ularning qo‘llariga xanjar tutqazib, ikkalasini ham qilich bilan burdalaydi. Bir qotillik ustiga galdagi qotilliklar... Makbet Shotlandiya taxtini egallagach, o‘z qilmishlarini o‘ylab, qo‘rquv va sarosimaga tushadi. Ichini shubha tark etmay, lashkarboshi Bankoni ham o‘ldirtiradi. Ketma-ket qatllar bilan ham uning yuragi tinchimaydi. Ertami-kechmi jinoyatlariga yarasha jazo muqarrarligini o‘ylab, “Omonatdur boshimdagi toj” deydi.

Buxoro xonligi taxtiga o‘tirgan Abulfayzxon ham “Bu butun janjallarni o‘lim bitiradi” degan qarashga ko‘ra ish tutadi. Oqibatda Buxoro o‘lkasi siyosiy-iqtisodiy inqirozga yuz tutib, Nodirshohga tobe yurtga aylanadi. Ayish-ishratga berilgan irodasiz, qat’iyatsiz xon mamlakatni halokatdan qutqarishga qodir emas. U Farhod otaliq va Ibrohim inoqlarning haq so‘zlaridan, tanbehlaridan zarracha xulosa qilmay, “otasi asrab olgan o‘zining sodiq qullari” Ulfat hamda Davlatning qo‘lida qo‘g‘irchoqqa aylangan.

Tabiiyki, hokimiyat vasvasasida qon ustiga qon to‘kib, ta’qib ustiga ta’qibni kuchaytirib, elga haddan ortiq jabr-zulm qilgan bu ikki yovuzlik timsoli o‘z-o‘zidan shunday bo‘lib qolishgani yo‘q: Shekspir Makbetning qotilga aylanish jarayonida ledi Makbetning yovuzlikka undovchi ta’sirini yoritgani holda Fitrat tragediyasida Abulfayzxon vujudidagi vijdonning so‘nggi sasini uning o‘ng “qo‘l”i Ulfat o‘chiradi.

Ledi Makbet eriga uning “mardonavorligi”ni pesh qilsa, Ulfat Abulfayzxonni “xoqonimiz” deya ko‘kka ko‘tarib, qatag‘onga undayveradi: “*Podshohliq qon bilan sug‘orilaturg‘an bir og‘ochdir. Qon oqib turmag‘an yerda bu og‘ochning qurub qolishi aniqdir*”. [Фитрат, 2000: 183]

E’tiborlisi, ikki salbiy personajning iztiroblari, vijdoniy azoblari ham bir-biriga yaqin tarzda tasvirlanadi. Makbet o‘z o‘rindig‘ida Bankoning arvohini ko‘rib, “*Qoning qotgan, iliging puch*

suyaklaringda, Menga kiprik qoqmay boqqan ko‘zlaring – basir” [Шекспир, 1985:232] deya talvasaga tushadi. Fitrat tragediyasida esa bunga yovuq holat Abulfayzxonning tushida ifodalangan. Qonxo‘r mustabidning qurbonlari – akasi, Farhod otaliqning boshi, bir mazluma ko‘rinib, uch sharpa unga hujum qiladi. Shunda xon jon holatda uyg‘onib ketadi. U vijdon azobiga uchrab, ruhiy iztirobga g‘arq bo‘ladi. Gunohlarini eslab, “uff...” deya og‘ir tin olarkan, o‘z qilmishlaridan eziladi. Xon vijdon oldida ayni shunday ma’naviy jazoga mahkum edi. Axir, tarixan Abulfayzxonning qatllari oz emas, naq o‘ttiz yetti yil (1711-1747-yillar mobaynida) davom etgan!

Xulosa

Umuman, Makbet “*Qasos va intiqom biz o‘zimiz quygan zahar to‘la kosani o‘zimizga tutar*” deya o‘z qotilliklari tufayli bir umr ruhiy azob tortishga mahkum ekanligini tan oladi. Abulfayzxon ham shunga monand “*Bunlar u dunyoda ham menga qarshi birlashganga o‘xshaylar, meni tinch qo‘ymaylar, chog‘i*” deb, o‘z qilmishlariga iqror bo‘ladi. Bu misolga ham bilvosita intertekstual yondashuv namunasi sifatida qarashimiz mumkin.

Alalxusus, Abdurauf Fitrat dramalarining Shekspir ijodiga mushtarakligi shunchaki ta’sir natijasi emas, balki chuqur ildizlarga ega intertekstuallik omili bilan izohlanadigan adabiy-tarixiy fenomendir. O‘zbek dramaturgi Yevropa Uyg‘onish davri namoyandasidan o‘zlashtirgan tragik kolliziya, Arvoh/Xayol motivi va hokimiyat qurboni/qotili arxetipi kabi adabiy tamoyillarni jadidchilik g‘oyalari, Sharq tarixi va turkiy madaniyat kontekstida qayta ishladi. Shu tariqa u mavjud mumtoz manbalarga tayangan holda o‘zining ko‘p qatlamli, ramziy, falsafiy dramasini – barcha zamonlarga monand yangi milliy tragediyasini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allen, Graham. (2000). Intertextuality (The New Critical Idiom). London, New York: Routledge. 208 p.
2. Genette, Gerard. (1997). Palimpsests: Literature in the Second Degree (Ch. Newman, A. Nettelbeck, Tarj.). Lincoln, Nebraska: University of Nebraska Press. 450 p.
3. Белинский В. Танланган асарлар: рус тилидан таржима. – Т.: Ўздавнашр, 1955. – Б.220.
4. Гулямова Д. Драматургия Шекспира на узбекском языке. Автореферат кан.филол.н.Ташкент, 1971. – 24 С.
5. Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар. 1-жилд. – Т.: “Маънавият”, 2000. – Б.256.
6. Шекспир В. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 3-жилд. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.640.
7. Шекспир В. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 4-жилд. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б.520.
8. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: “Маънавият”, 2002. – Б.400.
9. Ғаниев И. Фитратнинг трагедия яратиш маҳорати. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – Б.145.

BEHBUDIY VA SHE'RIYAT

Normurod Avazov,
Alfraganus universiteti professori v.b.,
filologiya fanlari doktori (DSc)
e-mail: n.avazov@afu.uz

Annotatsiya

Maqolada Turkiston o'lkasida jadidlarning otasi – Mahmudxo'ja Behbudiyning asarlarida shoirlarning she'rlaridan foydalanish mahorati yoritib beriladi. Shuningdek, tadqiqotda ayni davrda yashagan shoirlarning she'rlari tahlilga tortiladi. Jumladan A.Qodiriyning dastlabki ijodidan ba'zi she'rlari misol sifatida tadqiq etiladi.

***Kalit so'zlar**: jadid, millat, mahorat, tahlil, Turkiston, milliy.*

Abstract

In the article, the skill of using poems of poets in the works of Mahmudhoja Behbudi, the father of Jadids in the Turkestan region, is highlighted. Poems of poets who lived in the same period are also analyzed in the research. Among them, A. Qadiri's early work, his poems are studied as an example.

***Key words**: modernity, nation, skill, analysis, Turkestan, national.*

Kirish

Behbudiy va she'riyat. Bu tushuncha yangi tadqiqot bo'lib, Behbudiyning ijodida she'riyatga munosabat masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu ilmiy maqolada Behbudiyning ijodida she'riyatga e'tibor, Behbudiyning g'oyalarini uning davomchilarida aks etishi va Behbudiy zamondoshlarining unga she'riy asarlar yozishi kabi yo'nalishlar doirasida fikr bildirdik.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodida she'riyat mavzusi juda dolzarb masalalardan sanaladi. Ya'ni, uning asarlarida shoirlar she'riyatidan foydalanish masalasi hech qachon obyekt sifatida olinmagan va tadqiq etilmagan. Maqolada ayni shu masala bo'yicha davr ijodkorlarining ijodi, ularning she'rlari tahlilga tortilgan. Ya'ni Abdulla Qodiriyning "Ahvolimiz", "Millatimga bir qaror" [Qodiriy, 1915: 18], Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning "Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasi" [Cho'lpon, 1920: 2], Hoji Muinning "Nima edik, nima bo'ldik, nima qilaylik?" [Hoji Muin, 1922: 2], Samarqandiy Mullo Sayyid Ahmad Vasliyning "Behbudiy ravonig'a armug'on", Vadud Mahmudning "Ay dohiy", "Mahmudxo'ja", Fahriddin Rojiyning "Yodovarlik" [Rojiy, 1920:4] kabi she'riy asarlar o'rganildi.

Natijalar. Behbudiy hayotiy faoliyatida ijodga publitsistika bilan kirib keldi. Uning ijtimoiy va siyosiy publitsistikasi badiiy ijodiga asos yaratdi. Uning ijodida badiiy asarlar "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" dramasi, "Oq elpog'ichli chinli xotun", "Bir a'mo bolaning hasrati", "Bir vafolik zaifani xususida hikoya"lari [Behbudiy, 1903:4] kabilar ijodkorning o'ziga xos badiiy qimmatini belgilab beradi.

Behbudiyning "Padarkush" asarida muallifning xalq og'zaki ijodidan, xalq maqollaridan unumli foydalanganligini ko'ramiz. Dramada Behbudiy xalq iboralaridan, xalqona so'zlardan ham ustalik bilan foydalanadi. Pyesa qahramonlari tomonidan aytilgan ayrim so'z va iboralar donishmandona so'zlarga aylangan. Masalan:

Ilmni o'qimoqni beshikdan mozorgacha bizlarga farz qilgandur.

Boy bo'lmoq nari tursin, ro'zg'or o'tkarmak uchun ham ilm kerak.

Badbaxtlik va musibatga sabab jaholat va nodonlikdir, tarbiyasizlikdir.

Bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqir va zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikni mevasi va natijasidir. Dunyog'a taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi.

Behbudiy bir necha tilning bilimdoni edi. Dramada shuning uchun ham tabiiy ravishda arabcha, forscha, frantsuzcha, ruscha so‘zlar uchraydi. Bu so‘zlarni Behbudiy iste’molga ataylab kiritgan emas, tabiiy ravishda nutqida qo‘llanayotgan so‘zlar bo‘lib, ular dramada personajlar nutqini jonlantirishga hissa qo‘shar edi.

Shuningdek, Behbudiyning ijodida she’riyatdan unumli foydalangan jihatlari bilan ham alohida ajralib turadi.

Behbudiy asarlarida, badiiy publitsistikasida hadislardan, Qur’on oyatlaridan, shoirlarning she’rlaridan o‘rni kelganida ustalik bilan foydalanadi. Muallif ilmning qadri to‘g‘risida ko‘p yozgan. Jumladan, “Ilmning foydasi haqinda” [Behbudiy, 2018: 170] deb nomlangan maqolasida bildirilgan fikrlariga asoslar sifatida diniy manbalar va shoirlarning she’riy satrlari bilan dalillanadi. Behbudiy islomda ilmning qadrlanishi, uning ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritarkan qo‘yidagi diniy baytni keltiradi:

“Menga tajribadan ishning oxiri ma’lumdir:
dinning qadri ilmdadir, ilmning qadri foydasida” [Behbudiy, 2018: 174].

Muallif ilmsizlikdan g‘aflatda qolayotganligimizni aytib, ilm orqali, mehnat orqali, xizmatlarimiz orqali istiqbollarga muyassar bo‘lamiz deb niyat qiladi. Shuning uchun ulamolarning, shoirlarning va ziyoliylarimizning ko‘rsatmalarini bajarishimiz zarurligi aytiladi. Shu o‘rinda shoirning komil va oqil inson sifatidagi qo‘yidagi baytlarini keltirib o‘zining fikrlarini tadiqlaydi:

Sana haq kim yo‘q ekan olami etmas paydo,
Andin o‘lmish asari nazm nizomin ashyo.
Iqtizoi nasq mulki nizomi millat,
Xosu omning kamin a’lo, kamin etmish adno.
To zarar etmasa adnolara a’lolardan,
Aylamish olama farmoni xulofat ijro.

Behbudiy she’rning keyingi satrlarida ham ilmu amal dunyo va oxiratimizning tayanchi ekanligini ta’kidlab, saodat va rohat hamda najot ham ilm ekanligini satrlarda keltiradi.

Behbudiyning “Samarqand fuzalolari” nomli maqolasi ham nihoyatda e’tiborga molik. Chunki, unda Behbudiyning o‘zi aytganiday: “Shahrimizni fuzalo va shuaro, udaboi moziyasi asorati matruka va tadvinot mutaddavolarila butun Sharq va hatto G‘arb olaminda mashhur va musallamdurki, tarix va tarojimi ahvol o‘qiydurganlarg‘a ma’lumdur” deb ko‘pgina asarlari nashrlardan chiqqan taraqqiyparvar shoirlar to‘g‘risida fikr yuritadi. Va ularning asarlaridan namunalar keltiriladi. Shuningdek, Xo‘jandiy Qurbon Muhammad Olim, Samarqandiy Mullo Sayyid Ahmad Vasliy, Muhammad Salim, Mullo Xo‘ja Yusuf, Mullo Niyoz Muhammad Mariz, Mirzo Sharof Hilmiy; Mullo Rahmat Rahimiy, Mullo Mu’in Nahif, Mirzo Akram kabi shoirlarning nomlari tilga olinadi, ularning she’rlaridan namunalar keltiriladi.

Behbudiy ijodida Vatan, millat va ilm mavzusi birinchi o‘rinda turadi. Yozilgan asarlarining asosiy qismida millatning ilm orqali shu vatanda taraqqiy etishi bilan bog‘liqdir. Muallif badiiy publitsistikada va badiiy asarlarida ham xulosani nihoyatda ko‘tarinki ruhda, insonga kelajakka bo‘lgan umid va ishonch bilan yakunlaydi. Eng qiziqarli tomoni shundaki, asar yakunida falsafiy, diniy fikrlar yoki shoirning she’rlari bilan tugatadi. Jumladan, “Oh, banklar bizni barbod etdi” maqolasida milliy iqtisodiyotimizning ilmsizlikdan orqada qolayotganligimizni aytib, zamonga mos bo‘lgan kadrlarni tayyorlash kerakligini aytadi.Ya’ni: “Bizlar kommersant, ya’ni tojiri zamoniy emas, balki bizlarg‘a dehqonlik lozim. Ammo maattaassuf unga ham ilmi basirat va hisob lozimki, bizg‘a shu ilmi zamoniy yo‘q, binobarin, kelarimiz nihoyat qorong‘udur”, deb Sa’diyning quyidagi satirlari bilan kafolatlaydi:

Baholi shumo kas biboyad girist,
Ki daxlash buvad hijdah xarj bist.

Ablahiy ku ro‘z ravshan sham’i kofury nihod,
Ro‘zi binesh ba shabi ravg‘an namonand dar chirog‘.

Ya’ni: Madoxili o‘n sakkiz va maxoriji yigirmalik kishi holig‘a yig‘lamoq kerak. Kunduz chiroq yoqqan ablahning oqshom qorong‘uda o‘lturganini yaqinda ko‘rarsan”.

Behbudiyning ijodida adabiy – tanqidiy maqolalar ham keng o‘rin egallagan. Ya’ni, “Eski fikrlardan”, “Munozara” haqinda”, “Muhtaram muso afandi sharifina”, “Tiyotr nadur”, “Tanqid – saralamoqdur”, “Tiyotru, musiqiy, she’r” kabi asarlari shular jumlasidandir. Bu tadqiqotlarida bevosita she’riyatga ham alohida o‘zining fikrlarini bildirib o‘tadi.

Behbudiy “Oyina” jurnalida doimiy ravishda shoirlarning she’rlarini berib bordi. Jumladan, Vasliy, Mahmud Akrom, Mahmud Tarziy, Abbosiy, Ismoil Safo, Nosriddin Turkiston, Mir Sarvar, Fitrat, Andijoniy, Abdulla Qodiriylarning she’rlari shular jumlasidandir. Chop etilgan barcha she’rlar Behbudiyning ayni paytda millat va uning kelajagi uchun kurash g‘oyasi ilgari suriladi. Masalan, 1915 yil “Oyina” jurnalida Abdulla Qodiriyning “Ahvolimiz”, “Millatimga bir qaror”, “Fikr aylag‘il” she’rlari Behbudiy tomonidan chop ettirildi.

Abdulla Qodiriyning “Ahvolimiz” she’ri nihoyatda diqqatni tortadigan she’r hisoblanadi. She’r o‘z nomi bilan ko‘rinib turibdiki, ayni payitda Turkiston o‘lkasidagi millatimizning ayni kundagi vaqea – hodisalari aks ettiriladi. Xalqning g‘ayrat bilan himmat qilib, o‘zlarining ahvolini yaxshilash kerakligi tasvirlanadi. Ya’ni:

Ko‘r bizning ahvolimiz, g‘aflatda qanday yotamiz,
Joyi kelgan chog‘da vijdonni pulg‘a sotamiz.
O‘g‘limizga na adab, na fan, na yaxshi so‘ylamak
Na xudoni buyrug‘i bo‘lgan ulum o‘rgotamiz.

Muallif tomonidan o‘lka farzandlari, millatning g‘aflatda qolayotganligi oshkora aytiladi. Ushbu she’rda ko‘tarilayotgan davr muammolari ayni paytda Behbudiyning ham “Ehtiyoji millat”, “Duma va Turkiston”, “Millat vazifasi”, “Haq olinur, berilmas” kabi publitsistik maqolalarida ham o‘z aksini topgan edi.

Ayniqsa, Abdulla Qodiriyning “Millatiga bir nazar” she’ri ham Behbudiy g‘oyalarini ilgari surishga qaratilgan she’riy asarning tipik namunasidir. Bunda:

Kel ey millat, bu kun bir maslahat birlan qaror o‘lsun,
Bu kundan o‘tgan ishlarga pushaymon birla or o‘lsun,
Qilayluk bul kuni g‘ayrat xama birdan qilib himmat,
Bu nodonlik biza qilmish edi to‘rt faslni qishdek,
Jahonni zimistoni do‘nub fasli bahor o‘lsun.

Muallifning millatga bo‘lgan murojaati aks etadi. Ya’ni, bu kunda endi shunday qaror qilinsinki, g‘ayrat bilan birlashib, himmat qo‘rsatsak. Bu himmat shundan iborat bo‘lmog‘i loziki, ilmsizlikdan, nodonlikdan, ya’ni bu zimistondan qutulish kerak. Shoir millatni g‘ayrat qilib o‘yg‘onishga chaqiradi. Bu Behbudiyning millatni ma’rifat qutqaradi g‘oyasiga hamohong yangragan she’r edi. Behbudiy yozganiday: “musulmonlar har korda yakkavujud o‘lub, umummillatimizning rohati uchun, har korda musulmonga bor, to mag‘ribdan mashriqqa qadar hamma qarindoshlar o‘ldig‘igni bilub, birimiz oxiriga yordam va muovanat aylamak uchun soat hozir o‘lsoq kerak” [Behbudiy, 1906: 2].

Mahmudxo‘ja Behbudiy she’riyatning shaydosi edi. U shoirlarning she’rlarini zavq bilan o‘qigan va uni o‘z asarlarida mahorat bilan qo‘llay olgan. Turkiston o‘lkasida millat kelajagi uchun yozilgan barcha she’rlarni “Oyina” jurnalida chop ettirishga harakat qilgan. Uning badiiy asarlari va badiiy publitsistikasi she’r kabi o‘qiladi. Uning bu boradagi harakatlari ham alohida tadqiqotlarni talab etadi degan umiddamiz. Behbudiy aytganiday: “Musulmonlikg‘a ilm lozim, amal lozim. O‘qumoq kerak. Nima uchun boshqa millatlarda yuza bir nafar besavod yo‘q ekan, biza yuza bir nafar savodlik yo‘q?” [Behbudiy,1913: 4].

Behbudiy zolim hukumatga xalqning kelajagini yaxshilash uchun publitsistik chiqishlarida, badiiy asarlarida, amaliy ishlarida ziyoliylarga xos, aqillilik bilan murojaatlar qila oldi. Uning bu g‘oyalarini shogirdlari ham turli usullarda davom ettirdi. Hoji Muin o‘zining “Tayoq” nomli hajviy chiqishlarida Behbudiyning g‘oyalarini turli usullarda ochiqlashga erishdi Uning o‘zi aytganiday: “Ko‘b vaqtdan beri millatimni taraqqiy etdirub, boshqa millatlarg‘a o‘xshash osmong‘a uchurmoq niyati oliyasi ko‘glimda o‘runlashib, muning uchun turli yo‘llar bilan tirishib ko‘rdim” [Hoji Muin, 1922: 2].

Shoir o‘zining “Nima edik, nima bo‘ldik, nima qilaylik” she’rida XX asr boshida o‘lkamizda kechayotgan ijtimoiy hodisalarni hajviy she’r orqali yoritadi. O‘lka bolalarining ko‘chalarda ilmsizlikdan “hayron – sarson” bo‘layotganligini ochib tashlaydi. Uning sabablarini ko‘rsatib, aytadi:

Yovimiz bor oti “mustamlakachi”,
Yuzi oppoq ko‘rinur, qora ichi.
Ushbu yov birla kurash lozimdur,
Balki oni quvlash lozimdur.

Xulosa

Behbudiy ko‘p shoirlarni ustozi edi. Jadid shoirlarining barchasi Behbudiyning ijodidan va amaliy ishlaridan ta’sirlandi. Behbudiy o‘ldirilganida ular bu buyuk dahoga bag‘ishlab she’rlar yozdi. Behbudiyning xotirasiga bag‘ishlangan she’rlarning barchasida mutafakkir xodumul millat sifatida qaraladi. Demak u orzu qilgan she’riyat, u orzu qilgan adabiyot uning orqasidan ergashdi. Abdulhamid Cho‘lpon yozganiday:

Shuning uchun yulduz kabi yorqirab,
Elda qolg‘on isming bilan turaman.
Shu ismni eslab, chizgan yo‘lingdan
Yiroq ketmay, qimirlamay yuraman, – deydi. Shuningdek, Vadud Mahmud: “Biz, hammamiz, saning bolalaring erurmiz. Saning tuzgan plonlaring – bizim yo‘limizdir. San o‘lmading va o‘lmazsan, yashamakka haqing bordir [Samarqandiy, 1920:4]”, – deydi! Bu kabi unga bag‘ishlangan she’rlar va badiiy asarlar to‘g‘risidagi fikrlar yana alohida tadqiqotni talab etadi. Ammo, biz Behbudiydan hali qarzdorligimizcha qolmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Qodiriy. Ahvolimiz//Oyina jurnali, 1915. – №12.
2. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon. Mahmudxo‘ja Behbudiy xotirasi// “Tong” gazetasi, 1920-yil. – №1.
3. Hoji Muin. Nima edik, nima bo‘ldik, nima qilaylik?// “Zarafshon” gazetasi, 1922-yil 1-dekabr.
4. Fahriddin Rojiyning Yodovarlik.//“Mehnatkashlar tovushi” gazetasi. 1920-yil 8-aprel. – №153.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Bir vafolik zaifani xususida hikoya//Turkiston viloyatining gazetasi, 1903-yil. – №40; 41; 44; 45.
6. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 170-174.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Birinchi jild. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 170-174.
8. M.Behbudiy. Millat vazifasi. //“Ulfat” gazetasi, 1906-yil 20-aprel. – №20.
9. M.Behbudiy. Millatlar qanday taraqqiy etarlar. “Samarqand” gazetasi, 1913 yil 30 iyun. – №31.
10. Hoji Muin. Nima edik, nima bo‘ldik, nima qilaylik?// “Zarafshon” gazetasi, 1922-yil 1-dekabr.
11. Vadud Mahmud Samarqandiy. Mahmudxo‘ja Behbudiy//“Mehnatkashlar tovushi” gazetasi. 1920-yil 8-aprel. – №152.

VASLIY SAMARQANDIYNING TURKIY MEROSIDA ADABIY TA'SIR, IZDOSHLIK MASALALARI

Muxitdinova Badia Muslixiddinovna
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti professori (DSc)
e-mail: badeamuhitdinova@gmail.com

Annotatsiya

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab ijod etgan nuqtadon olim Saidahmad Vasliy Samarqandiy ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan ijodkorlar qatorida Navoiy, Lutfiy, Fuzuliy, Muqimiy, Furqat kabi o'zbek va sharq mumtoz adabiyotining yirik namoyandalarini sanashimiz mumkin. Ular bevosita Vasliyning ijodiy dunyosini boyitgan, ma'nolar olami bilan kengaytirgan. Bunga shoirning "Tuhfat ul-ahbob" turkiy devonidagi turli janrdagi lirik asarlari asos bo'la oladi. Maqolada Vasliy Samarqandiy ushbu shoirlarning an'anasini davom ettirgan davomchi, o'ziga xos yo'lga ega bo'lgan izdoshi sifatida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *mumtoz adabiyot, an'ana, adabiy ta'sir, izdoshlik, turkiy meros, janr, muxammas, diniy-irfoniy asar*

Abstract

Literary influence, follower issues in Vasliy Samarkandiy's Turkic heritage. Among the creators who had a great influence on the work of the Samarkand scientist Saidahmad Vasliy Samarkandiy, who lived and worked in the second half of the XIX – early XX century, one can name such major figures of Uzbek and Eastern classical literature like Navoi, Lutfiy, Fuzuliy, Mukimiy, Furkat. They directly enriched Vasily's creative world, expanded it with a world of meanings. The poet's lyrical works in various genres of the Turkic divan style "Tuhfat ul-ahbob" can serve as a basis for this. The article analyzes Vasliy Samarkandiy as a follower of the tradition of these poets, a follower who has his own path.

Key words*: classical literature, tradition, literary influence, follower, Turkic heritage, genre, mukhammas, religious-mystical work.*

Mumtoz adabiyotda badiiy ta'sirlanish hodisasi tabiiy yuz beradigan holatdir. Salaflar va izdoshlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mumtoz she'riyat an'analari bilan chambarchas bog'liq. Ijodkorning boshqa bir ijodkordan ta'sirlanishi uning ijodida u yoki bu tarzda va muayyan shakllarda aks etadi. Alisher Navoiy ijodiga diqqat qaratsak, "Lison ut-tayr" dostonining yozilishiga Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonidan ta'sirlanishi sabab bo'lgan. Zero, Navoiyning o'zi ham ijodiga salaflari bo'lmish Nizomiy Ganjaviy, Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiylarning bevosita ta'siri bo'lganini turli munosabat bilan qayd etgan. Ijodkorning professionallik maqomi ham badiiy ta'sirlardan o'sib chiqadi. Adabiyotning sharti shuki, badiiy ta'sirdan ma'lum bir davrdan so'ng qutulish lozim va ijodkor o'z uslubini topishi, o'z "men"iga ega bo'lmog'i zarur.

XX asrning ko'zga ko'ringan ma'rifatparvarlaridan biri, zullisonayn adib Vasliy Samarqandiy adabiy faoliyatida bu hodisani kuzatar ekanmiz, uning qaysi shoirlardan ta'sirlangani haqida manbalarda ma'lumotlar yetarli emas. Po'lotjon domla Qayyumiy tuzgan "Tazkirayi Qayyumiy"da ham bu haqida ma'lumotlar uchramaydi. Aynan badiiy ta'sir va izdoshlik masalalaridagi qarashlarni shakllantirish uchun eng muhim manba uning muxammaslaridir. "Tuhfat ul-ahbob" devonidan o'rin olgan 18 ta muxammas – taxmis, ya'ni boshqa bir ijodkorning g'azaliga bog'langan muxammas ekanini avvalgi qismlarda aytib o'tgandik. Aksar hollarda, ijodkor qalbiga yoqqan, ilhomlantirgan, uslubini ma'qul ko'radigan, ixlos qilgan adib asarlariga nazira bog'laydi.

Tartib bo'yicha birinchi berilgan *"Huvaydo bo'ldi jondin..."* deya boshlanuvchi muxammas Amir Alisher Navoiy g'azaliga bog'langan. Ushbu taxmis Navoiyning *"Manga ne manzilu ma'vo ayon, ne xonumon paydo"* deya boshlanuvchi g'azali asosida yozilgan.

Huvaydo bo'ldi jondin ohu , ko'nglumdin fig'on paydo,

Na tab'imda farah hozir, na dardimg'a amin paydo,
Vujudim toirig'a na makon, na ashyon paydo. [Васлий, 1913: 57]

Mazkur uch satr Vasliy qalamiga mansub bo'lib, u Navoiyning she'rda ilgari surgan badiiy maqsadini, badiiy-estetik g'oyasini davom ettirgan. Oxirgi ikki misra esa muxammas bitish qoidalariga ko'ra Navoiyning g'azali bilan yakunlanadi:

Manga ne manzilu ma'vo ayon, ne xonumon paydo,
Ne jonimdin asar zohir, ne ko'nglumdin nishon paydo. [Васлий, 1913:57]

Navoiyning g'azalida oshiqning ezgin va o'ychan ruhiy holati ifodalangan. Vasliy ushbu tasvirni chuqurlashtirib, ayni mohiyatdan kelib chiqqan holda motivni qayta ishlaydi. Muxammasda shoir lirik qahramonning ruhiyati tasviri bilan cheklanmasdan, ijtimoiy hayot manzaralarini ham aks ettiradi. "Xirad ahli"ning siym-u zarni suymasligi, taxt uzra shoh g'amgin, gado masrurligini bayon qilib, "Tiriklikda maorif ahli hargiz bo'lmadi mag'rur" ekanidan yozg'iradi.

Ne deb aylay shikoyat Vasliy taqdiri azaldinkim,
Sanga jon shavqidin berdi, Navoiy yo'q ajaldin kam,
Ajal topg'unga ermas, bu za'ifi notavon paydo [Васлий, 1913:58].

Muxammasning so'nggi bandida Vasliy taqdiri azaldan shikoyat qilishdan foyda yo'qligini uqtiradi. Ushbu muxammasdan ko'rinadiki, Vasliy ijodiga Navoiyning ta'sir kuchi yuqori bo'lgan. Diniy-irfoniy mavzudagi lirik asarlarida ham Navoiy ilgari surgan g'oyalarga hamohang qarashlarini oson ilg'ash mumkin.

Vasliy ijodiga ta'sir ko'rsatgan salaflardan yana biri bu Mavlono Lutfiydir. Bu fikrga asos Vasliyning she'rlaridagi o'ynoqilik va misralarning ravonligidir. *"Lab tashnayi may o'tmoqingizdin..."* deya boshlanuvchi muxammasi Lutfiy g'azali asosida yozilgan.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" tazkirasida Mavlono Lutfiy haqida shunday yozadi: "Mavlono Lutfiy o'z zamonining malikul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi. Ammo turkiyda shuhrati ko'prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdur va mutaazzir ul javob matla'lari bor, ul jumladin biri budurkim:

Nozukluk ichra belicha yo'q tori gisuyi,
O'z haddini bilib, belidin o'ltirur qush" [Алишер Навоий, 1997: 56].

Ustoz Ibrohim Haqqulning fikricha, "Lutfiy devonidagi bosh mavzu ishq va asosiy maqsad oshiqning hasbu holini tasvirlashdan iborat bo'lsa-da, shoir deyarli har bir she'rida mavzuga yangicha yondashib, betakror ohanglar yaratadi, mohiyatiga mos poetik obrazlar topadi, bir-biriga o'xshamaydigan badiiy san'atlarni qo'llaydi" [https://www.e-adabiyot.uz/maqola/1110]. "Tuhfat ul-ahbob" devonini mutolaa qilish jarayonida ushbu badiiy xususiyatlar Vasliy ijodiga ham taalluqli ekanini ko'rishimiz mumkin. Lutfiy o'ziga zamondosh va o'zidan keyingi avlodlarga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Zero, mumtoz adabiyotda Lutfiy alohida maktab yaratgan ijodkor sanaladi. Vasliyning *"Lab tashnayi may..."* deb boshlanuvchi muxammasi ham shu badiiy ta'sir natijasi desak, adashmagan bo'lamiz.

Lab tashnayi may o'tmoqingizdin,
Yondi jigar ehtiroqingizdin,
Tan ranjdadur chatoqingizdin,
Qon bo'ldi ko'ngul firoqingizdin,
Jon kuydi ham ishtiyoqingizdin [Васлий, 1913:73]

Lutfiy g'azalida lirik qahramon – oshiq yoriga ginasini oshkor qiladi. Uning ishqida ahvoli og'irlashgani, ko'ngil yor firoqidan qon bo'lganini, jon uning ishtiyoqidan kuyganidan shikoyat qiladi. Vasliy Lutfiyning g'azalidagi ruhiyatni buzmasdan, g'azalning badiiy-estetik konsepsiyasini davom ettiradi. Yor firoqida badal to'lagan obrazlar yoniga *"lab", "tan", "jigar"* ham qo'shiladi. Bu esa g'azalning ta'sir va tasvir kuchini yanada oshiradi.

Bosh uzra ayog‘ kelturung kim,
Ya’neki biz yamla o‘lturun kim,
Vasliyi kaminani ko‘rung kim,
Lutfiyi xastani so‘runkim,
Bechora o‘lur firoqingizdin [Васлий, 1913:74].

Muxammasning so‘nggi bandida oshiq yordan najot kutadi. Bu qiynoq ichida uzoq qolib ketish oson emas. Buning oqibati xayrli bo‘lmaydi. Shunday ekan, murosa yo‘lini topmoq kerak. Yo‘qsa, bechora oshiq yor firog‘idan halok bo‘lishi mumkin. Vasliy Lutfiy kabi go‘zal badiiy san’atlarni qo‘llaydi. Bu esa she’rning ma’no miqyosini oshirib, badiiyatini yanada yuksaltiradi.

Adabiy izdoshlik haqida gap ketganda, Vasliy Samarqandiy ijodiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan shoir deya Fuzuliyni aytish to‘g‘ri bo‘ladi. Zotan, Ozarbayjonlik shoirning ijodi nafaqat Vasliy, balki ko‘plab o‘zbek shoirlariga ta’sir ko‘rsatgani sir emas.

Fuzuliyning o‘zbek mumtoz adabiyotiga ta’sirini T.Jalolov uch xil sabab bilan bog‘laydi:

1) Fuzuliy tilining o‘zbek tiliga yaqinligi;
2) Fuzuliyning xushlafz she’rzabonligi;
3) Fuzuliy asarlarining barkamolligi [Фузулий, 1959: 8].

T.Jalolov “bizning shoirlarimiz uchun Fuzuliy badiiy balog‘atning simvolidir”, deb yozgan. Uning fikricha, “Fuzuliyga ergashish o‘zbek adabiyotida uning g‘azallariga muxammas bog‘lash bilan cheklanib qolmay, bora-bora bu adabiy maktabga – “Fuzuliy maktabi”ga aylandi”, - deydi [Фузулий, 1959: 8].

Vasliy Samarqandiy Fuzuliyning *“Mardga jon yaxshidir gar so‘ylasang...”, “Cho‘x zumurrad kun Rabe’ ayyomi kayvon aylamish...” va “Rahm qil, ey dilrabo, jonim fido joningkim...”* deya boshlanuvchi 3 ta g‘azaliga taxmis bitgan. Bu muxammaslarning tili ham Fuzuliy tiliga yaqin bir til ekanini ko‘ramiz. Obrazlar, badiiy san’atlar ham Fuzuliy ijodiga o‘xshash. *“Mardga jon yaxshidir gar so‘ylasang...”* deb boshlanuvchi muxammasda shoir so‘zning sifatlari, uning qadri va bebaho jihatlari haqida mushohada yuritadi.

Mardga jon yaxshidur gar so‘ylasang ey yor so‘z,
Xosa bemor, g‘amgin o‘lgonlara temor so‘z,
Ma’rifat arbobina cho‘x shevai muxtor so‘z,
Xalqa og‘zing sirrini hardam qilur izhor so‘z,
Bu na sirdur, kim o‘lur har lahza yo‘xdin bor so‘z [Васлий, 1913:65].

So‘z – bu Alloh tomonidan insoniyatga berilgan qutlug‘ ne’mat. Ijod ahli esa so‘zni qismat deb biladi. Ma’rifat arboblariga *“cho‘x shevayi muxtor”* bo‘lgan so‘zning kuchini haqiqiy ijodkorgina his etadi. Oddiy avom uchun esa so‘z bu shunchaki muloqot vositasi, xolos. Ilm ahli esa so‘zning qudratini, uning ahamiyatini chuqur ilg‘aydilar. Ushbu muxammas didaktik-axloqiy xarakterga ega.

To tiriksan Vasliy fikring birla damsoz et so‘zi,
Har kima sidqu muhabbat ila ozod et so‘zi,
Har nasil iyyu bilur ersangda ejoz et so‘zi,
Gar cho‘x istarsan Fuzuliy izzatin oz et so‘zi,
Kim cho‘x o‘lmaqdin qilibdur, cho‘x azize xor so‘z [Васлий, 1913:66].

Vasliy muxammasda Fuzuliy lirikasiga xos o‘g‘uz ohangini saqlashga, g‘azalning poetik konsepsiyasidan chiqmaslikka harakat qilgan va buni mahorat bilan uddalay olgan. *“Cho‘x”, “ejoz”, “so‘zi” (aslida “so‘zni”)* kabi so‘zlarni o‘g‘uzcha shaklda berilishi shoirning ustoz salafi g‘azalidagi uyg‘unlikni buzmaslikka uringanidan dalolat beradi.

Bulbula afg‘on berub, to‘tiyo qilmish navhazon,
Lolaya kun yutkuzub, qumriya dobshirmish rasan,
Hushmand hayron edub, ahmoqqa o‘rgatmish suxan,

Davr javrini koʻr, ki kuzhatbaxshi ahli zavq ekon,
Joʻybori gulshani zanjiri zindon aylamish [Васлий, 1913:67].

"Choʻx zumurrad kun Rabe' ayyomi kayvon aylamish..." deya boshlanuvchi muxammasda esa davr jabridan, falakning bevafoligidan, dunyoning oʻtkinchiligidan shikoyat ruhi anglashilib turadi. Darvoqe, bu kabi shikoyatnoma gʻazallar mumtoz adabiyotda koʻp uchraydi. Ularda shoir davru davrondan, charx bevafoligidan shikoyat qilib, yakunda Allohdan najot soʻraydilar. Ayni ruhdagi asarlar orqali foniy olamning oʻtkinchiligini eslatish, bu dunyo sinov maydoni ekanini, boqiy hayotdagi huzurlarni dorilfanodagi vasvasalarga alishmaslik lozimligini uqtiriladi.

Vasliy har dam degil, ul Xalloqi olamgʻa sinos,
Mehra nur aylab karam kim oy etmish iqtibos,
Davr qonuniga yoʻxdur javrdin oʻzga asos,
Ey Fuzuliy dahr holin shoxi guldin qil qiyos,
Kam verub avval tajammul, soʻngra giryon aylamish [Васлий, 1913:67].

Muxammasning yakuniy bandida *"davr qonuniga jabrdan oʻzga asos yoʻqligi"* xulosa qilinadi. Bu tabiiy yuz beradigan jarayon. Fuzuliy esa gʻazalida *"dahrning holini"* gul shoxiga qiyos qiladi. Gul ochiladi, oxir-oqibat toʻkilib ketadi va shox yalang holida giryon aylab qolaveradi. Bir soʻz bilan aytganda, Vasliy ijodiga eng katta ta'sir koʻrsatgan Fuzuliy ijodiga mahliyolik, uni oʻziga ustoz maqomida bilish Vasliyning "Tuhfat ul-ahbob" devonidagi koʻpgina gʻazallarda sezilib turadi.

Xullas, Vasliy Samarqandiy ijodiga katta ta'sir koʻrsatgan ijodkorlar qatorida Navoiy, Lutfiy, Fuzuliy, Muqimiy, Furqat kabi oʻzbek va sharq mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridandir. Ular bevosita Vasliyning tafakkur dunyosini boyitgan, ma'nolar olami bilan toʻyintirgan. Bunga shoirning "Tuhfat ul-ahbob" devonidagi turli janrdagi lirik asarlari asos boʻladi. Vasliy Samarqandiy ushbu shoirlarning an'anasini davom ettirgan izdosh, ularning oʻziga xos yoʻliga ega boʻlgan vakilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 13 том. – Т.: Фан, 1997.
2. Фузулий. Девон. – Тошкент: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт, 1959.
3. Васлий Самарқандий. Туҳфат ул-аҳбоб. – Тошкент: Порцев матбааси, 1913.
4. Қайюмов П. Тазкират уш-шуаро. 1, 2-китоб (нашрга тайёрловчи Қайюмов А).
– Тошкент: ЎзРФА Давлат Адабиёт музейи таҳрир бўлими, 2006.

“AL-ISLOH” JURNALIDA ISLOM MA’RIFATI MASALASI

Pardayev Qo‘ldosh Uzaqovich,
filologiya fanlari doktori, professor,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
e-mail: kuldashparda@mail.ru

Annotatsiya

“Al-Isloh” jurnalining adabiy, ijtimoiy, diniy manba sifatidagi ahamiyati dalillangan va unda nashr qilingan jamiyat islohiga oid adabiy, ijtimoiy, diniy hamda publitsistik asarlar ilmiy tahlili amalga oshirilgan, jurnalning milliy uyg‘onish davri matbuotida tarixida tutgan o‘rni ko‘rsatilgan. Jurnalning XX asr boshi Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayoti va adabiy-diniy muhiti bilan chambarchas bog‘liqligi, maqolalar mohiyati tadqiq qilinib, umumlashma ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: *janr, maqola, she’r, bahs, munozara, millat, milliy uyg‘onish, jadidchilik, ma’rifat, jaholat, tahlil, matbuot.*

Abstract

The significance of the journal “Al-Isloh” as a literary, social, and religious source has been substantiated, and a scholarly analysis has been conducted of the literary-social, religious, and journalistic works related to social reform published in it. The journal’s place in the history of the national awakening period press has been determined. Its close connection with the socio-political life of early twentieth-century Turkestan and the literary-religious environment of the time has been examined, the essence of the articles has been analyzed, and generalized scholarly and theoretical conclusions have been drawn.

Keywords: *genre, article, poem, argument, dispute, nation, national renaissance, jaddism, enlightenment, fanaticism, analysis, press.*

XX asr birinchi choragi Turkiston ijtimoiy hayotida jadidchilik harakati o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan. Unga muayyan ma’noda muxolif sanalgan “qadimchilik” ham ijtimoiy zaminiga, faol harakatda bo‘lgan kuchlariga ega edi. Jadidchilik harakatining g‘oya va fikrlari XX asr 10-yillaridan so‘ng “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “Buxoroi sharif”, “Turon”, “Samarqand”, “Hurriyat” kabi gazetalarda, “Oyna” jurnalida aks etgan bo‘lsa, qadimchilarning qarashlari ma’lum darajada “Al-Isloh”, “Al-Izoh” jurnallarida o‘z ifodasini topgan, tarzidagi qarashlar mavjud. “Al-Isloh”ga oid bu fikrning haqiqatga qanchalik muvofiqligi haqida uning barcha sonlarini tadqiq etish asosida xulosa chiqarish ilmiy va mantiqiy jihatdan to‘g‘ri ekani shubhasizdir. Ayni zamonda, mazkur manbani sinchiklab o‘rganish jadidlar bilan qadimchilar munosabatining mohiyati nimadan iborat bo‘lganini aniqlashga ham muayyan darajada ko‘maklashadi.

“Al-Isloh” sahifalarida yangi ijtimoiy voqelik sharoitida adabiy-diniy va ijtimoiy-siyosiy materiallar tahlil va talqin etildi, zarur o‘rinlarda ularga isloh kiritish yuzasidan takliflar bildirildi. Natijada, mazkur nashrning adabiy-ma’rifiy qarashlar rivojida ham muayyan ahamiyatga molik bo‘lgani shubhasizdir. Bu jarayonni kuzatish ma’naviy – ruhiy tafakkurimizning tadrijini aniqlashga ko‘maklashadi.

“Al-Isloh” o‘z nomi bilan millat hayotining barcha jabhalarini isloh qilish masalasiga alohida e’tibor qaratdi. Zero, bu davrdagi boshqa matbuot nashrlari singari “Al-Isloh” ham “Turkistonning ijtimoiy-ma’naviy hayotidagi yangilanishning o‘ziga xos bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ldi va millatning uyg‘onishida muhim rol o‘ynadi” bu rol dinga oid qotib qolgan qarashlarni isloh etish va diniy masalalarni aks ettirishda ham yaqqol namoyon bo‘ldi.

Jurnalda e’lon qilingan diniy mavzuga bag‘ishlangan maqolalarning aksar qismi fiqhiy masalalarga bag‘ishlangan. Unda asosan o‘sha davrning ilg‘or ulamolari o‘z fikr – mulohozalari bilan faol qatnashgan. Jurnalda savol-javob rukini tashkil etilgan bo‘lib, har-bir viloyatdan kelgan savol – maqolalar jurnal sahifalarida muntazam chop etilgan. Ayrim masalalar qizg‘in bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan.

“Al-Isloh” va “Oyna” jurnallari mualliflarining o‘zaro bahs-munozaralari o‘sha davrning dolzarb muammolarini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Behbudiy bilan ulamolar o‘rtasidagi munozaralar keskin bo‘lgan. Behbudiy halq ma’rifatiga katta ahamiyat bergan va bu yo‘ldagi har qanday to‘siqni olib tashlashga uringan. Ma’rifatparvarning “Oyna” jurnali 1915-yil 10-sonida nashr etilgan “Tahsil va safar zamoni va taom” maqolasi, ayniqsa, keskin bahslarga sabab bo‘ldi. U bunday yozadi: “Hazrat Ali afandimiz (karramallohu vajhahu) janoblari buyuradilarki ...Ey musulmonlar, bolalaringizga kelar zamon ilmini o‘rgatingiz! Zeroki, alarni Xudoi taolo xalq etdi sizni zamoningizdin boshqa, ya’ni kelar zamon uchun. Yuqoridagi so‘z shunday bir qimmatbaho va purma’no va keraklik so‘zdurki, yolg‘uz aning ila biz musulmonlar omil bo‘lsa eduk, butun dunyoyu oxiratimiz obod bo‘lur edi” [Behbudiy, 1915: 245]. Behbudiy ilm olish fazilatlarini Qur’on oyatlari va hadislarga asoslanib ta’riflaydi. Mashhur hadisga tayanib, ilm Xitoyda bo‘lsa ham, borib o‘zlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Behbudiy bu hadisni bejiz keltirmaydi. Zero, Xitoydan islom ma’rifatini o‘rganib bo‘lmasligi ayon edi. Bunda millatni taraqqiyotga eltuvchi dunyoviy ilmlarni o‘rganishga ishora qilingan. Maqolada muallifning “Olloh aql bersun! Hazrat payg‘ambarimiz kotibi vahiy bo‘lgan hazrat Zaydni yahudiyg‘a borib o‘qimoqg‘a buyurdilar. Va ham ul kishi borib o‘qidi”, degan fikrlari ham buni tasdiqlaydi. Behbudiy tahsilning zamona talabi ekanligiga bir qancha misollar keltiradi va yoshlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bunday murojaat qiladi: “Bizni Turkistonning mahalliy hukumat mahkamalarinda, kasalxona va doruxonalarda, temir yo‘llar idorasinda va barcha banklar, tijorat ko‘ntur va korxonalarinda, siz muhtaram yoshlar, diqqat etib qarasangiz, asl rusiylardin naqadar o‘zga jinsiy kishilarni ko‘rasizki, katta oyliklar ila xizmat etarlar. Masalan, siz yoshlardin biri dallollik va yo tarjimonlik va yo molfurushlik xizmatida oyinda bir necha yuz so‘mlab vazifa olur... Buning hikmati nadur? Albatta, hikmati aning otasi o‘z bolasini zamonag‘a muvofiq tarbiya va ta’lim etganidur”.

Behbudiy zamonaviy ilm-fandan bahramand bo‘lishning afzalligini ham din va zamon talabi nuqtai nazaridan talqin etadi.

Shunday ekan, zamona ilmini o‘zlashtirishni nimadan boshlamoq va nimalarga rioya etmoq kerak? Behbudiy bu haqda ham batafsil to‘xtaladi: “Shahar maktabi, ya’ni “gorodskoy uchiliщe”g‘a kirmoq uchun bola ruscha o‘qub yozmog‘i va ozgina hisob bilmog‘i kerakki, munga bir bolani 8-10 oy rus qo‘lig‘a berib tarbiya qildirulsa, bu imtihonni berib kirar” [***Nishonova, 2005: 72***].

Maqolada Behbudiy Peterburg va Rossiyaning boshqa shaharlarida tahsil ko‘rgan talabalar, ularga ro‘para kelgan qiyinchiliklar haqida fikr bildiradi. Unda ko‘tarilgan asosiy muammolardan biri taom masalasidir. Binobarin, o‘sha paytlari rasmiy din ulamolarining aksariyati g‘ayrimusulmonlar tomonidan so‘yilgan go‘shtning musulmon ahli tomonidan iste’mol qilinishini nojoiz hisoblagan. Behbudiy esa o‘z dindoshlarini Rossiya davlati bergan o‘qish imkoniyatidan to‘liq foydalanishga da’vat etadi. Biroq bu talabalar uchun ma’qul taom bo‘lmagan muhitida ular qanday yashashlari mumkin?

Behbudiy bir hadisni eslatib, uni bunday talqin etadi: “Payg‘ambardan uning sahobalari: “G‘ayridin qo‘shnilar (mushrik) so‘ygan go‘shtni musulmon ahli iste’mol qilishi joizmi?” – deb so‘raganlarida, u hazrat mumsulmonlarga bu taomni yeyishdan oldin “bismillohir rahmonir rahim” deb iste’mol qilishga da’vat etgan. Behbudiyning talqinicha, iste’mol qilish joiz bo‘lmagan taomdan musulmon ahli ana shu “basmala” vositasida foydalanishi mumkin.

Behbudiy fikrlariga tanqidiy munosabat bildirilgan maqolalar o‘zi muharrirlik qilayotgan “Oyna” jurnali va “Al-Isloh”da ketma-ket bosildi. Jumladan, “Al-Isloh”ning 1915 yil 9-sonida Sadriddinxon maxzum tomonidan “Kutilmagan talqin” nomli tanqidiy maqola chop etilgan. Maqolada muallif Behbudiy fikrlarini tanqid qilib, musulmon talabalarni 8-10 yoshida rus oilasiga berib, ularning taomidan istemol qilishini shariatda nojoiz bilib, bunday yozadi: “Adabiy, iqtisodiy, diniy bo‘lmish “Oyna” majallasining 10-sonidagi mundarijalarin mutolaa qilib turganimda “Tahsil va safari zamon

va taom" sarlavhali maqolaga ko'zim tushdi. Unda darj qilingan satrlarda demishki: bolani 8-10 oy rus oilasiga berib ta'lim qilinsa, shahar maktabig'a kirmoq imtihonini berur emish. Albatta, yoding'izg'a kelurki, ruslarni taomidan bolani yemog'i qandoq edi? " Sadriddinxon fikrlariga hamohang Muhammadrasul Rasuliy tomonidan "Al-Isloh"ning 1915-yil 10-sonida "Kutilmagan talqin"ning baqiyasi" nomli maqola e'lon qilindi. Unda muallif keskin fikr bildiradi. Uningcha, Behbudiy o'sha hadisni noto'g'ri talqin qilgan va noxolis mulohaza yuritgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, birgina "Al-Isloh"da emas "Oyna" jurnalida ham shunday tanqidiy fikrlar bildirilgan. Masalan, jurnalning 1915-yil 15-sonida Ahmadxo'ja eshon "Daf'i ta'riz va shubha ajnabiy taom haqinda" sarlavhali maqola e'lon qilgan. Maqola bunday e'tiroz bilan boshlanadi: "Oyna jurnalining muharriri va noshiri samarqandlik Mahmudxo'ja – butun Turkistonda islom olamini ilm nuri ila ziyolanturmak da'vosinda bo'lmish ko'zi juda katta ochiq kishi ijtihod qilib, mushrikning so'ygani halol deb fatvo berdi – qo'ydi. Xiyla chaqqon ekan, hadis ma'nosini ham ko'p mohiri ekan. Bu musulmonliqmi?" [Ahmadho'ja eshon, 1915: 320].

Ahmadxo'ja Eshon "Oyna" jurnali bilan kifoyalanmadi, bu singari fikrlarini "Al-Isloh"da ham davom ettirdi. Jumladan, "Al-Isloh"ning 1915-yil 12-sonida "Daf'i ta'rizg'a e'tiroz" nomli maqolasida masalaga bunday munosabat bildiradi: "...mufti janoblari "mushrik zabihasi halol" debdurlar. Biz ayturmizki – haromdir, xato qilibdurlar. Mufti ayturlarki: "Halollig'ina ushbu men zikr qildigim hadis dalolat qilur". Biz ayturmizki, dalolat qilmas, hadis ma'nosini yaxshi fikr qilsunlar va bilsunlar va bilg'on kishidin so'rasunlar..." Jadidchilik bo'yicha e'tirof etilgan mutaxassislardan Ingeborg Baldauf bu bahslar xususida quyidagi mulohazalarni bildiradi: "Behbudiy o'z millatining taraqqiyotini ko'zlab, boshqa e'tiqoddagi millatlarning an'analariga moslashish, ya'ni boshqa e'tiqod vakillari so'ygan go'shtni iste'mol qilish masalasida anchagina erkinlik beruvchi yo'lni tanladi. Bu bilan u "ijtihod" sari qadam qo'ygan edi. Ana shu qarashlari uchun ham u diniy an'anaga sodiq kishilar tomonidan tanqid ostiga olingan. 1915-yil sharoitida "ijtihod"ga chaqirish huquqini talab qilganlikda ayblanish O'rta Osiyo musulmonlari muhitida xavfli bir hol sanalgan: hattoki eng sodiq jadidlar ham bu ishdan o'zlarini tiyib turganlar, chunki ommaviy tarzda ijtihodga da'vat qilish Abu Hanifa shar'iy qonunchilik maktabi ta'limotini inkor etish bilan tenglashtirilishi mumkin edi" [Baldauf, 2001:13]. Shariatning taom masalasiga munosabat Xolmuhammad To'raquli maqolalarida ham yoritilgan. "Al-Isloh"ning 1916-yil 4-sonida "Markidin muhtaram Mulla Xolmuhammad To'raquli tarafidin savol" nomli maqola chop etilgan bo'lib, unda bir qo'yning (odatdagi qo'ylarga nisbatan boshqacharoq) halol yo tekshirilganda, qo'yning barcha alomatlari cho'chqani eslatishini, uning cho'chqadan tarqatilganini alohida ta'kidlaydi. Hatto "Oq suv" degan mahallaning imomi harom deb fatvo bergani va bu qo'yni so'ygan qassobdan go'sht olmasligi haqida fikr yuritilgan. Bu masala ham Marki ulamolari o'rtasida bahs-munozaralarga sabab bo'lgani uchun "Al-Isloh" jurnaliga havola etilib, Turkiston ulamolari tomonidan oydinlik kiritilishi so'ralgan. Savol quyidagi tarzda qo'yilgan: "Vatandoshimiz o'lan Rusiya jamoalari orasida bir toifa qo'y bor: quyrug'i uzun, o'z oramizda musta'mal qo'ylara o'xshamayur, muni ushbu qo'ylarni halol va harom degan masala odamlar orasida shoe' bo'lub, hatto Oq suv degan mavzening imomi Mulla Shoh Abdurasul harom deb hukm qilub, Oq suvda so'ydurmas ekanlar, har kim uyida shul qo'ydin so'ysa, ul odamning taomidan yemasga, agar qassob so'ysa, ul qassobni ayblik qilub, go'shtini olmasga fatvo qilubdurlar. ...ulamoi kiromlar ushbu masalaning javob va savobini tasrih (ochiq oydin) qilib "Isloh" vositasi ila nashr etsalar, hamma musulmonlar shak va sharif fatvosi ila amal qilsalar, dini mutaayyin uchun bir ulug' xizmat qilg'on bo'lur edilar" [To'raquli, 1916: 98].

Bu savolga ko'p o'tmay jurnalning 1916 yil 7-sonida Hamza Muhammad Amin al-Hamidiy tomonidan "Al-javob" nomli maqola chop etilgan. Unda Xolmuhammad To'raquli maqolasini sinchiklab tadqiq etib, "Ma'ruf hadis kitoblar" asosida ya'ni, mu'tabar "Durr ul-muxtor" kitobining sahifasidan dalil keltiradi. Uning keltirgan dalilida qo'yning onasi e'tiborga olinib, otasig'a aloqasi yo'qligi ta'kidlanadi. Shu jihatdan ham ushbu qo'yning shariatda halol ekanligini e'tirof etadi. U

bunday yozadi: “Mazkur qo‘ylar haloldur, chunki e’tibor qo‘yning onasinadur, otasina e’tibor yo‘qdur... ul qo‘yning cho‘chqaga mushobihatinda e’tibor yo‘qdur.... Fuqahoi a’zam hayvonning halol va harom o‘lmoqlig‘inda faqat onag‘a e’tibor etmishlar, otasina e’tibor etmamishlar” [Behbudiy, 1914: 195].

“Al-Isloh” sahifalarida kechgan bahs-munozaralardan yana biri kiyimlar masalasi edi. Ulamolar musulmon bolalarining yevropacha kiyinishini tanqid qildi. Shu bois maktab domlalari va ota-onalarga murojaat qilib, yoshlarning kiyinish masalasiga jiddiy e’tibor berish zarurligini uqtirdi. Bu masala ham “Al-Isloh” va “Oyna” jurnallarida keng muhokama qilindi. Jumladan, “Al-Isloh”ning 1915-yil 15-sonida idora nomidan “Qiyofat va kiyimlar masalasi” deb nomlangan maqola chop etilgan bo‘lib, unda o‘zbek milliy kiyimlarining yevropa kiyimlari ta’sirida yo‘qolib borishi tanqid qilindi va Turkiston ulamolariga quyidagicha savol bilan murojaat etildi: “Mana bu kunda e’tibor ko‘zi ila qarasak, kiyim masalasini ko‘rib hayron bo‘lurmiz. Avvallari har millat o‘zining umumiy kiyimidin boshqasini qabul etmagani holda yurur edi. Bu kunda esa bir millat u yoqda tursin, bir odam yuz xil qiyofatlarg‘a molikdur. Kiyim va qiyofat masalasi atroflicha tekshirilib, maktablarimizda o‘qutilmas, dinimiz, islomiyatimizning kiyim va qiyofat taraddudlari to‘g‘risida ko‘rsatgan usul va qoidalari o‘rgatulmas”?

O‘z davrining zukko ulamolari qatorida diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal egallagan buxorolik Abdurahmon Muftizoda jurnalning shu yilgi 17-sonida “Kiyim va qiyofat masalasiga javob ” nomli maqola chop ettirdi. Muallif Misr muftisi Muhammad Abduhning bu masalaga oid fatvosi va diniy manbalarga tayanib, Muhammad payg‘ambarning rumliklar jandasini va tailand kiyimlarini kiyganliklarini misol keltirib, bu yo‘lda Payg‘ambarga ergashish kerakligini ta’kidlaydi. “Oyna” tahririyati ham bu masalaga befarq qaragan emas. Kiyim masalasidagi bahslarda faol ishtirok etgan Mahmudxo‘ja Behbudiy “Oyna”ning 1914-yil 34-sonida “Kiyim va tashabbuh masalasi” nomli maqolasini chop ettirgan. Behbudiy musulmon kishisining diyonatini tashqi ko‘rinish bilan emas, balki uning e’tiqodi bilan bog‘laydi va bunday yozadi: “Bir necha yildan beri ba’zi majlislarda ruscha furma kiymak va tashabbuhlar masalasi xususida uzun-uzun mubohasalar bo‘lib, bu mubohasalar munozara ila tamom bo‘lur. Ikfor (kofir) hukmlarini aksar vaqt muhtaram ulamomiz og‘izlaridan eshitarmiz. Furma kiygan nari tursun, hatto uyining tagini “pol” va ustini tunuka qilganlarni yoki uyi ichiga ustol, ustul va surat kabi narsa qo‘yganlarni ikfor qilinur... Chunonchi, biz bu kun o‘g‘limizni shahar maktabi va gimnaziyag‘a qo‘ymoqchi bo‘lsak, yoki bir necha yildan so‘ng Turkiston musulmonlaridan askar olinsa, ul holda albatta ruscha furma – shapka kiymoq majburiy bo‘lur. Hozirda bu ikki holning avvalgisini ko‘rib ham majburiy suratda qabul qilib turibmiz. Zamoni kelganda ikkisini ham qabul qilsak kerak” [Behbudiy, 1914: 95]. Agar yevropalik bilan tashqi o‘xshashlikka ega bo‘lgani uchun kofir deb hisoblansa, unda yer yuzida bironta musulmon qolmasligi kerak, degan keskin fikrlarni bildiradi muallif. Behbudiy fikricha, zamonlar o‘tsa ham, ayrim urf-odat va an’analar o‘zgarmaydi, shu bois yomon urf-odatlar (bid’ati sayyia)ni yo‘qotib, yaxshilari (bid’ati hasana)ni takomillashtirish kerak. Behbudiy o‘z mulohozalarida musulmon olamida hurmat qozongan din arboblarining fikrlariga tayanadi. Misr muftisi Muhammad Abduhning musulmonlar orasida obro‘si juda katta bo‘lgan. Shu bois uning fatvolariga tez-tez murojaat qilib turgan. Muhammad Abduh, Behbudiy xotirlashicha, fatvolaridan birida aytgan ekanki, shlyapa, shapka yoki boshqa yevropacha liboslar kiyish shariatga umuman zid emas, kimki buni rad etsa, demak, islom va sunna tarixini bilmaydi. Behbudiy ham yevropacha kiyimlar kiyilishini shariatda joiz deb e’tirof etadi.

Behbudiy ikfor, ya’ni kofirlik aybnomasining noo‘rinligini ta’kidlasa-da, ulamolar nazdidagi “ikfor”ning asl kelib chiqishini mustamlakachilik siyosatining majburiyatlaridan biri sifatida talqin etadi.

Ta’kidlash joizki, kiyim masalasiga doir bahs-munozaralarda tatar ulamolari ham ishtirok etgan. Shu bois “Din va maishat” jurnali 27-sonida bosilgan Sodiq Usmon ismli muallifning bu masalaga oid maqolasi Ahmadxo‘ja Eshon tomonidan “Al-Isloh”ning” 1915-yil 20-sonida nashr

etilgan. Maqolada Sodiq Usmon dini islomda e'tibor qozongan tatar ma'rifatparvari Rizouddin ibn Faxriddin so'zlariga tayangan holda fikr yuritgan. Kiyimlar uzoq tarix davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgani ta'kidlanib, yevropa kiyimlarini musulmon kishilarining kiyishi shariatda joiz deb e'tirof etilgan. Shu nuqtai nazardan ham Ahmadxo'ja Eshon ushbu maqolani Turkiston ulamolari e'tiboriga havola qilib, chop ettirgan. "... Libos va kiyum xususindagi javobga (raddiyan)" "Din va maishat"dagi Sodiq Usmonning javobini yozmak munosib ko'rildi" deb nomlangan edi maqola. Shuningdek, maqolada yana bunday deyilgan: ...Rizouddin qozi libos va kiyum haqinda aytadurki, libos va kiyumlar haqinda musulmon kiyumi va musulmoncha kiyum bo'ladurg'on bo'lsa, aning tarixi Rasulullo hazratlari va xalifalari va ham sahobalardin boshlanuvi va shul tartibning otadan bolag'a meros qolib keluvi hech bir zamonda boshqa bo'lmay tutashib kelmaki lozimdur. Agarda shul ruscha kiyum libos tartiblari maydonda bo'lsa, ango musulmon libosi musulmoncha libos, demak durust bo'lur. Lekin o'rtada shul ruscha bormu, islom dini musulmonlar uchun maxsus tartiblarda kiyum kiymakg'a taklif etmadi.." [Ahmadxo'ja, 1915: 623].

Ko'rinib turibdiki, Ahmadxo'ja Eshon mulohazalari ham Abdurahmon Muftizoda va Mahmudxo'ja Behbudiy fikrlariga mutanosib. Shunday javoblardan keyin jurnalda kiyimlar masalasidagi bahs-munozara intiho topgan. "Al-Isloh"da kechgan bahslardan yana biri xotin-qizlar masalasiga bag'ishlangan. Bu masalada ham ulamolar va ziyolilar o'rtasida keskin munozaralar kechgan. Ulamolar "Qur'on"dagi "Niso"(Ayol) surasining tafsiri bo'yicha xotin-qizlarni hijobda (parda) saqlash kerak, degan fikrda mustahkam turdi. Davrning ilg'or ma'rifatparvarlari ulamolar fikriga zid xotin-qizlarni ochiqlik, ya'ni ma'rifatli bo'lishga, erkaklar qatori ilm-fanni egallab barkamol avlodni tarbiyalashga chorladi. Jumladan, "Al-Isloh"ning 1915-yil 24-sonida Idora nomidan "Abdulvahhob Murodiydin "Sho'ro"ning o'n ikkinchi no'miri 659-sahifasina bir nazar" sarlavhali maqola chop etilgan. Unda Murodiyning "Sho'ro" jurnalida bosilgan xotin-qizlar masalasiga doir tanqidiy maqolasi haqida gap boradi. Murodiy Turkiston xotin-qizlarining ma'rifatsizligi, ularning ma'rifatli bo'lishi uchun sharoit yo'qligi, ya'ni, ulamolar to'sqinlik qilayotganidan shikoyat qiladi. Murodiy xotin-qizlarning ziyoli bo'lishi va farzand tarbiyasida ilmning nechog'lik zarur ekanligini e'tirof etadi. Maqolada quyidagilarni o'qiymiz: "Bizim Turkistonda taraqqiy asarlari ko'rila boshlag'ong'a bir oz vaqtlar bo'ldi. Zamon ta'siri ila bizda taraqqiy etgan narsa faqat erlar uchun ibtidoiy maktablar yaratildi... Ammo millatning onasi bo'lg'on qizlar maktabina kelsak, eski tartibda maktab uchramaz. ...millatning taraqqiysi uchun eng va avval qizlar maktablarini ko'paytuv burch edi. Lekin bizda ul hollarning asari ham yo'q. O'n million Turkiston aholisi ichinda birgina bo'lsun qizlarg'a xos tarbiyatli bir ibtidoiy maktab.."

Bu maqola Turkiston ulamolarining g'azabini qo'zg'atdi. "Al-Isloh"ning bir necha sonlarida Abdulvahhob Murodiy haqida tanqidiy maqolalar bosilgani ham buni tasdiqlaydi. Masalan, buxorolik Muftizoda "Murodiyning zorlanishina javob" (1915, 24-son), Eshonxon "O'rinsiz iftiro va hayosizlik natijasi – jaholat samarasi" (1916, 3-son) kabi tanqidiy maqolalar bilan chiqdi. Bunday qarash Saidahmad Vasliy asarlariga ham xosdir. Uning "Al-Isloh" 1915 yil 18-sonida bosilgan "Tasattiri nisvon haqinda" she'ri ayni shu masalaga qaratilgan. She'rda musulmon ayoli qanday bo'lishi kerakligi masalasi ko'tarilgan. Xotin-qizlarning hijob tutishi yangilik bo'lmay, bir qancha zamonlardan buyon davom etib kelayotganini ta'kidlagan shoir bunday yozadi:

Xotunu qizlar uchundur cho'q go'zal davlat hijob,
Oru nomusing yuzig'a pardai ismat hijob,
Daf'i oshubi zinog'a husni amniyyat hijob,
Qat'i sho'ru fitna etmakda bilo hojat hijob.
Tangri ko'ndurgan nisolar haqqig'a rahmat hijob,
Muslimot hazratlarig'a mislsiz ne'mat hijob,
Hatto muallif she'rning keyingi misralarida:

Qaysi xotunkim, ochiq yuzdur, bale fohishadur,
Pardalik qadrin bilur har kimki xush idrokdur,
Pardasiz elning yurogi gul kabi yuz chokdur,
Qizu xotuning o'lurlar pardasizlik birla g'ar,
Ey diyonatsiz, tushunkim, hosili oyat hijob.
Ya'ni bilkim, ma'niyi Qur'onu sunnat hijob,

Bu masalada xotin-qizlar ozodligi haqida gapirishni xush ko'radigan liberal matbuot sukut saqladi. Vasliy "Qur'on"dagi "Niso" surasi tafsiriga tayanib mulohaza bildirdi. Unga munosib javob berishga hech kim jur'at qilolmadi. Lekin ko'p o'tmay, bir she'r paydo bo'ldi va qisqa muddatda Toshkentning butun to'rt dahasiga yoyildi. Unda shunday satrlar bor edi:

Yetar, baskim, biza behad balo sangi nasib o'ldi,
"Zaifu notavon"lar deb, biza qullik nasib o'ldi,
Ki ul zulmatni timsoli chodir-chimmat nasib o'ldi,
Asrlar eltgon ul bid'at uyqusidan uyg'oning!..

Yetar bo'htonu haqorat biz "zaifu notavon"larga,
Javobi loyiqi bersak, aningdek bedavolarga,
Ilmdin, bas, qanot aylab, qilib parvoz havolarga,
Asrlar eltgon ul g'aflat uyqusidin uyg'oning!

O'shanday mudhish zamonda "zaifu notavon"lar huquqini bu qadar dadil himoya qilib chiqqan, uni tahqir etuvchilarga keskin javob bergan ushbu she'r muallifi beshyog'ochlik Nozimaxonim edi [Qosimov, 2002: 211]. Nozimaxonim o'zbek mumtoz shoirlari maktabining kenja vakillaridan. U Turkiston erk va huquqini tanib, g'aflatdan uyg'ona boshlagan bir davrda yashab ijod etdi. Ushbu jarayonga o'z ulushini qo'sha oldi. 10-yillardayoq she'r va maqolalari bilan mustaqillik, xotin-qizlar ozodligi masalalarini ko'tarib chiqdi. U yana bir she'rida bunday yozadi:

Ochib yuz ma'rifat sori, eting barbod xurofotni,
Biling, ul ufalik dugonalar yengmush jaholatni.
Olib erkin nafas, onlar qilib daf'i zalolatni, [Jalolov, 1980: 218]. deb boshlanadi.

Nozimaxonimning "ufalik dugonalar yengmush jaholatni" degan fikrida ham jon bor.

Ta'kidlash joizki, o'sha davrda tatar ulamolari ham xotin-qizlar masalasida bahs-munozaralar olib borgan. Hatto, "Vaqt" gazetasida ayollarning hijobda yurishi nojoizligi haqida maqola ham e'lon qilingan edi. Bu maqola tatar ulamolarining g'azabini uyg'otdi va tezlikda buning oldini olish maqsadida "Din va Maishat" jurnalida ushbu masalaga Qur'on va hadislar asosida javob berildi. Bu shov-shuv xabar Turkiston ulamolariga ham yetgan edi. Jumladan, "Al-Isloh"ning 1915 yil 11-sonida Mulla Iskandarshoh Akbar o'g'li tomonidan quyidagicha savol berilgan: "Vaqt" gazetasida shu yili bir fatvoni o'quduk: Ufa ulamolari xotun- qizlarni masjidg'a yuruvlari, yuz-qo'llarini ochub, erkaklar ila so'zlashub yuruvlari durust, islom dini bul ishlarg'a mone' bo'lmaydi, deb fatvo bermishlar. Tatarlarni xotin-qizlarni ochib yuruvlari durust deb bermish fatvolari durustmu?"

Bu savollarga Ahmadxo'ja eshon zudlik bilan jurnalning o'sha sonidayoq maqola nashr ettirdi. O'z fikrlariga dalil sifatida "Sahihi Buxoriy"dan Bibi Oysha onamizdan rivoyat qilingan hadisni keltirdi. Bu hadisda Oysha onamiz uxlab yotganlarida nomahram bir begona erkak kelib, yuzini ko'rib uyg'otganligi va bundan keyin u hijob tutushni buyurganligi zikr etilgan.

Masalaga xuddi shunday yondashuv Shamsiddin Xoib asarlarida ham aks etgan. U ham ayollar hijobda yurishini ota-bobolarimizdan o'tib kelayotgan urf-odati deya talqin etadi. Va o'zining bu masala tarafdori ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, "Al-Isloh"ning 1915 yil 24-sonida "Ochiqlik" deb nomlangan she'rida bunday yozadi:

Ochiqlik millati islom aro fe'li qabohatdur,
Ochiqlik boisi ranju alam, bug'zu adovatdur,
Ochiqlik dinu iymon xonasin tahqiq edar bir bob,

Ochiq bois zillati obu ammo jaholatdur.
Ochiqlik dillari parvo aylayur turli havas birla,
Ochiqlik pardai ismatni chok aylar jinoyatdur.

Ko‘rinib turibdiki, hijob masalasiga turlicha munosabat bildirilgan. Masalan, Tavallo Xo‘jamyorov ijodida bu masalaga o‘zgacha fikr bildirilgani kuzatiladi. Shoir “Al-Isloh”ning 1916-yil 6-sonida bosilgan “Hijob xususinda” sarlavhali she’rida bunday yozadi:

Oldim qalamni yozg‘ali men ham hijobdan,
Cho‘q-cho‘q yozildi demadim aslo bu bobdan.
Cho‘q yo‘llar izladim kechayu tongni otdurub,
Hech bir ocharga ko‘rmadim oyat kitobdan...

Minglab Nabi rafiqasi olamdan o‘tdilar,
Hech bir zamonda chiqtimu onlar niqobdan.
Ya’ni Xudoni do‘sti Muhammadni ummati,
Qoldi hadis bizga u Zoti maobdin.

Ma’lum bo‘ladiki, “Al-Isloh” jurnalidagi fiqhiy bahslarda ishtirok etgan mualliflar nafaqat millatning taraqqiyparvar vakillari, balki komil va ma’rifatli musulmonlar ham edi. Undagi munozaralar xurofotu mutaassiblik, ma’rifatu taraqqiyparvarlik borasidagi bahslar edi.

Xullas, “Al-Isloh” jurnali diniy masalalarni yoritishda ham millat hayoti uchun benihoya dolzarb muammolarga e’tibor qaratdi. Shuning barobarida, jurnal bir qadar demokratik pozitsiyada turganini, qarama-qarshi, bir-biriga zid qarashlarni sahifalarida yoritganini alohida ta’kidlash kerak. “Al-Isloh” da oila, musulmonlarning o‘zlariga imom – rahbar saylanishlari, taom, kiyinish, xotin-qizlar masalalariga shariatning munosabati masalasidagi bahs-munozaralar muttasil nashr etilgan. Bu munozaralar millatning o‘sha zamondagi ma’rifiy darajasini ko‘rsatishi barobarida, matbuotning fikr tarbiyasidagi rolini ko‘rsatishi bilan ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Беҳбудий. // Ойна 1915, 10-сон. – В. 245.
2. Нишонова Г. Беҳбудий мужтаҳид бўлганми? // Филология масалалари, 2005, №1(8). – Б. 72.
3. Аҳмадхўжа эшон. // Ойна, 1915, 15-сон. – Б. 320.
4. Ингеборг Балдауф. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Т.: Маънавият, 2001. – В. 13.
5. Холмуҳаммад Тўрақули. // Ал-Ислоҳ, 1916, 4-сон. – Б. 98.
6. Ҳамза Муҳаммад Амин ал-Ҳамидий. // Ал-Ислоҳ, 1916, 7 –сон. – Б. 195.
7. Беҳбудий. // Ойна, 1914, 34 сон. – Б. 95.
8. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. – Т.: Маънавият, 2000. – Б. 234.
9. Аҳмадхўжа Эшон. // Ал-Ислоҳ, 1915, 20 сон . – б. 623.
10. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат , маърифат , фидойилик Т.: Маънавият, 2002. – Б. 211.
11. Жалолов Т. Аёл маҳкумалар. Ўзбек шоиралари.Т.: Адабиёт ва саънат, 1980. – Б. 218.
12. Шамсиддин Хоиб. Очиқлик // Ал-Ислоҳ, 1915, 24-сон. – Б. 733.

QODIRIYA – FURQATNING TARIQATI

Ilyos Ismoilov,
filologiya fanlari doktori,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti
e-mail: ismoilovilyos891@gmail.co0
m

Annotatsiya

Maqolada Zokirjon Furqat ijodining asos masalalaridan biri – shoirning dunyoqarashi va hayot tarzini, ijodiy mezonlarini belgilab bergan maslagi (tariqati) va uning shoir ijodiga ta'siri tadqiq etilgan. Furqat she'riyatida qodiriya tariqatining yetakchi g'oyalari, jumladan, faqr mavzusi badiiy tasvirlangani asoslangan.

***Kalit so'zlar**: Furqat, tariqat, Abdulqodir Giloniy, qodiriya, she'riyat, badiiy talqin, faqr, tasavvuf.*

Abstract

In the article, one of the basic issues of Zakirjon Furqat's work – the maslagi (sect), which determined the poet's worldview and lifestyle, creative criteria, and its influence on the poet's work are studied. Furqat's poetry is based on the leading ideas of the Qadiriya sect, including the artistic depiction of the theme of poverty.

***Key words**: Furqat, tariqat, Abdul Qadir Gilani, qadiriya, poetry, artistic interpretation, poverty, sufizm.*

XI asrning ikkinchi yarmi va XII asrning birinchi yarmida yashab o'tgan bu ulug' shaxs keyinchalik islom olamida eng keng yoyilgan uch tasavvuf tariqatidan biriga asos soldi. Uning Sulton ul-avliyo, G'avsulloh, G'avsi A'zam, Sulton ul-orifin, Toj ul-muhaqqiqin, Muhyiddin kabi laqablari bo'lgan. Asl ismi esa Abu Muhammad Abdulqodir (tax. 1077 – 1160) edi. U qodiriya tariqatining asoschisi sifatida qaraladi. Bu tariqatning silsilasi Ja'far Sodiq, Dovud Toyi, Hasan Basriy kabi shayxlar orqali Ali roziyollohu anhuga va ul zotdan Muhammad alayhissalomga borib yetadi.

Tasavvufga oid manbalarning aksarida qodiriya tariqatining silsilasi solim ekani qayd etiladi [Korkusiz, 1995: 97 – 98]. Bu "tariqat pirining fikr va qarashlari so'fiyona dunyoqarashni qattiq tanqid qilishi bilan tanilgan Ibn Taymiyaning ham hamlalariga duchor bo'lmagan" [Kara, 2003: 69 – 70].

Abdulqodir Giloniy tasavvuf sakkiz go'zal xislat uzra qurilganini aytadi va ana o'sha sakkiz xislatning biri sifatida *faqrni* ko'rsatadi [Koruksiz, 1995: 56]. Giloniy hazratlari faqr borasida shunday deydi: "O'glim, senga faqrlikni xush qarshilamoqni tavsiya etaman. Zero, bizning faqrlikdan qasdimiz o'zgachadir. U shayxlarga bo'lgan hurmatni qo'ldan bermaslikdir. Shu bilan birga ozga qanoat qilib, yo'qsillikka chidamoq, shayxlarning e'zozga sazovor odatlarini, xalq bilan go'zal muomalasini, birodarlik aloqalarini bog'lashlarini yoqlamoqdir. Boshqa tarafdan, faqrlik – kichiklarga o'git bermoq, buyuklarga xayrixoh bo'lmoq, kin va adovatni tark etmoqdir... O'glim, bilgilki, faqrlikning haqiqati o'zingdeklarga muhtoj bo'lmasligingdir, ya'ni zanginlikning asl ma'nosi senga o'xshash kimsalardan mustag'niy qolmog'ingdir. Zotan, tasavvuf – bir ma'no va holdir, qiyl-u qol ila ovvora kimsa uchun bunday narsa tushunarsizdir" [Koruksiz, 1995: 55].

Tasavvuf tarixini o'rgangan mutaxassislardan Usmon Turar ham ayni jihatni qayd etgan. Uning ko'rsatishicha, Abdulqodir Giloniy o'z tariqatida e'tiborni, asosan, *saxovat, rizo, sabr, g'urbat, sayohat, faqr, junli libos kiymoqqa* qaratgan [Turar, 1999: 106]. Olimning mazkur qarashlari asosli ekanini Abduqodir Giloniyning yuqoridagi fikrlari to'la asoslaydi.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, so'fiylarning ilohiy ishq, axloq go'zalligi va inson kamoloti haqidagi yuksak qarashlari o'z davrida ijodkorlarni o'ziga rom etgan. Shu tariqa sharq mumtoz adabiyotida tasavvuf ta'limoti g'oyalari keng talqin etila boshlandi. Asta-sekin tasavvuf adabiyoti yuzaga kela boshladi. Bunday adabiyotni yuzaga keltirgan adiblar, ijodkorlar orasida so'fiy shoirlar ham bor edi. Ular tabiiyki o'zlari mansub bo'lgan tariqat g'oyalarini kuylashgan. Xususan, yassaviy maktabi

shoirlari ijodida yassaviylik g‘oyalari badiiy talqini birinchi o‘rinda tursa, temuriylar davri, jumladan, Alisher Navoiy ijodida naqshbandiylik g‘oyalari badiiy shaklda aks etdi yoki Mashrab ijodida qalandariylik g‘oyalari ustuvor mavqega ega bo‘ldi.

Abduqodir Giloniy asos solgan qodiriylik ham badiiy adabiyotga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Mustafa Karaning ta’kidlashicha, qodiriylikning turkiy adabiyotdagi ilk tamsilchilaridan biri sifatida so‘fiy shoir Ashraf Rumiy (vaf. 1469) e’tirof etiladi [Kara, 2003: 69].

Masalaning e’tiborli tomoni shundaki, qodiriya tariqati o‘zbek adabiyotiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu ta’sirning eng yaxshi namunasi sifatida Zokirjon Furqat ijodini ko‘rsatish mumkin. O‘zbek furqatshunosligida Furqatning irfon ahlidan bo‘lgani, tasavvufning aynan qodiriya tariqatiga mansub ekanligi mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan [Jabborov, 2022: URL]. Masalan, Furqatning “...aylang madad” radifli g‘azali ham buni tasdiqlaydi, chunki shoir ushbu g‘azalda aynan “Shayx Muhyiddin”dan madad so‘raydi. “Shayx Muhyiddin” esa, yuqorida qayd etganimizdek, Abdulqodir Giloniyning laqablaridan biri bo‘lib, u Furqatning ma’naviy rahnamosi edi. Shu ma’noda, furqatshunos Nurboy Jabborovning Furqat taxallusi faqat “vatandan judolik” ma’nosiga emas, balki so‘fiyona ma’nolarga ham ega ekanligi, bu shoirning tariqati, maslagi bilan bevosita bog‘liqligi to‘g‘risidagi fikrlari juda o‘rinli, deyish mumkin.

Biz yuqorida Abdulqodir Giloniyning faqr sifatiga oid qarashlarini bejiz keltirmadik. Furqatning qodiriya tariqatiga mansubligi haqidagi ilmiy farazni tasdiqlovchi jihatlardan biri aynan Furqat she’riyatidagi *faqr motivi* hisoblanadi. Qodiriylikda jiddiy e’tibor qaratilgan ushbu rukn Furqat ijodida keng badiiy talqin etilgan bo‘lib, Furqat ko‘plab lirik asarlarida faqr yoki u bilan bog‘liq holda qanot, sabr xususida badiiy tasvirlar yaratadi.

Furqatning faqrga munosabati, qanday badiiy talqin etgani uning “...bormasmiz” radifli g‘azalida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘lgan.

Biz istig‘no eli qichqirmog‘on ma’vog‘a bormasmiz,
Agarchandiki xirman aylasa dunyog‘a bormasmiz [Furqat, 2021: 31].

Dastlabki misradagi “istig‘no eli”dan murod ehtiyojsiz, Haqdan o‘zgaga muhtojlik sezmaydigan kishilardir. “Biz” deganda esa faqrni odat qilgan faqirlar toifasi nazarda tutilgan. Ya’ni shoir faqirlar istig‘no eli bo‘lmagan joyga bormaydi, chunki bunday manzilda dunyo moliga talabgorlar, dunyoga ko‘ngil qo‘yganlar to‘planadi, demoqchi. Shu bois ham keyingi misrada to‘g‘ridan to‘gri “dunyoni xirmondek qilib to‘plab” chorlasalar ham bormaymiz, deydi. Zero, istig‘no eli – faqirlar dunyodan yuz o‘girgan, dunyoni tark qilgan toifa hisoblanadi. Furqat shu tariqa mazkur baytda ushbu g‘azalda aytmoqchi bo‘lgan asosiy tezisini badiiy ifodalaydi. Faqrning eng muhim sharti va xususiyati ehtiyojsizlik, qanoat ekanini ta’kidlaydi. G‘azalning keyingi baytlarida mana shu fikrni turli detallar, tafsilotlar bilan poetik dalillab boradi:

Umid etgonimiz aksar saodat bo‘tayi Haqdin,
Agarchi mis erurmiz, qimmati tillog‘a bormasmiz.

Biz, ya’ni faqrlar Haq bo‘tasidan (bo‘ta – ma’dan eritiladigan idish) – dunyosidan faqat saodatni umid etamiz, garchi haqir bo‘lsak-da, dunyoning jozibador firibiga uchmaymiz.

Havo loyig‘a botgan moumanlik do‘sti xudbinkim,
O‘shandog‘ kamzarofat maskani a’dog‘a bormasmiz.

Xudbin do‘st dunyo tashvishiga bandi, kibr-u havo loyiga botgan, manlik da’vosiga mubtalo, shu bois “o‘shandog‘ ” noxush dushmanning maskaniga bormaymiz.

Shoir maqtadan oldingi baytga kelganda g‘azalning boshidan buyon “biz” deganda aynan faqr elini nazarda tutganini oshkora aytadi:

Biz ellar – faqr elimiz, parcha nong‘a sabr aylarmiz,
G‘araz dunyo uchun Iskandar-u Dorog‘a bormasmiz.

Faqr elining asosiy sifatlaridan biri sabrdir. Faqirlar boriga qanoat qiladi, dunyo uchun tama

qilib davlatmandlar, podsholar, hatto, ular Isakandar-u Doro bo‘lsa ham, eshigiga bormaydi. Zero, faqrlikning, ya’ni asl boylikning haqiqati, Abdulqodir Giloniy aytganidek, kishining o‘ziga o‘xshash kimsalardan mustag‘niy qolmog‘idir. Furqat nafaqat oddiy inson, balki insonlarning eng dovruqlisi, buyugi sanalgan Iskandar-u Doro eshigiga bormasligini aytish orqali faqr maslagida naqadar mustahkam ekanini ta’kidlashga erishadi.

Emasdur oncha asbobi jahong‘a fikrimiz, Furqat,
Vale ketguncha juz andishayi fardog‘a bormasmiz.

Furqat oxirgi baytda faqr elining yana bir sifatini oshkor etadi. U baytning dastlabki misrasida yuqorida aytgan fikri – dunyo va unga bog‘liq narsalar uchun qayg‘urmasligini yana bir bor ta’kidlaydi. Ikkinchi misrada esa faqrlar bu dunyo emas, balki u dunyo – Haq rizosini qozonish istagida bo‘lishini yana bir bor qat’iy eslatadi. Binobarin, faqir ko‘zlagan saodat, uning yolg‘iz “tamasi” – faqat Alloh diydori va uning roziligi ekani oydinlashadi.

Xullas, Furqat ijodida teran asoslarga, irfoniy haqiqatlarga tayanish juda muhim o‘rin tutadi. Shoirning faqr maslagiga oid talqinlari uning qodiriya tariqatiga mansubligi to‘g‘risidagi ilmiy farazlarni to‘la qo‘llab-quvvatlaydi. Aytish mumkinki, Furqat ijodini qodiriya tariqati g‘oyalari asosida jiddiy tadqiq etish, bu tariqatning turfa badiiy tasvirlarga asos berganini tekshirish zamonaviy o‘zbek furqatshunosligi oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Furqat nega Furqat? // oyina.uz. – 07.01.2022. – URL: https://oyina.uz/uz/article/406 (murojaat sanasi: 20.09.2024)
2. Kara Mustafa. Tasavvuf ve tarikatlar. – Istanbul: Dergah Yayınları, 2003. – S. 69 – 70.
3. Korkusiz Sefik. Gavs-ul Azam Seyyid Abdulkadir Geylani va kadiri tarikati. – Diyorbakir: Manzil yayinevi, 1995. – S. 97 – 98.
4. Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. Tarjimon N. Hasan. – Toshkent: Istiqlol, 1999. – Б. 106.
5. Zokirjon Furqat. Ishqingda kuyib, jono... . – Toshkent: Adabiyot, 2021. – B. 31.

“MAORIF VA O‘QITG‘UVCHI” JURNALIDA XOTIN-QIZLAR MUAMMOLARINING BADIIY TALQINI

Gulzoda Soatova,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
e-mail: soatovagulzoda001@gmail.com

Annotatsiya

Maqola 1920–1930-yillardagi adabiy muhit va xotin-qizlar hayotidagi tub burilishlarga bag‘ishlangan fikrlar bilan boshlanadi. Asosiy markazda “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnalida nashr etilgan xotin-qizlar masalasiga bag‘ishlangan asarlar tahlili, ushbu mavzular bo‘yicha olib borilgan bahs-munozaralar va muallifning bu bahs-munozaralarga munosabati keltirilgan. Ushbu asarlardan kelib chiqib, umuman, o‘sha davr xotin-qizlarining dunyoqarashi, muammolarini qay darajada hal qilishi haqidagi fikrlar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: *xotin-qizlar, ilm-ma’rifat, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali, paranji, erk.*

Abstract

The article begins with thoughts on the literary environment and fundamental changes in women’s lives in the 1920s-1930s. The main focus is on the analysis of works published in the journal “Education and Teacher” on women’s issues, the debates on these topics, and the author’s attitude to these debates. Based on these works, thoughts are also given about the worldview of women of that time in general and the extent to which they solved their problems.

Keywords. *women, science and enlightenment, journal “Education and Teacher”, burqa, man.*

Milliy uyg‘onish davri adabiyoti XX asrning 20–30-yillarida sho‘ro adabiy muhitida keskin mafkuralashtirildi: partiyaviy tazyiq ostida sinfiy dushman izlash kayfiyati kuchaydi, so‘z va ijod erkinligi cheklab qo‘yildi, natijada esa vulgar sotsiologizm tamoyillari ildiz otdi. “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”dek shoh asarlarimiz zararli deb topildi, jadidchilik adabiyoti namoyandalari esa turli ayblar, bo‘htonlar bilan qoralandi. 30-yillar o‘rtasidan markaz Yozuvchilar uyushmasi qurultoyining qarori bilan rasmiy kuchga kirgan sotsialistik realizm metodi haqidagi aqidaning keng joriy etilishi oqibatida o‘zbek adabiyotiga partiyaviylik, sinfiylik, g‘oyaviylik, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik degan tushunchalar chuqur singib bordi. Mumtoz adabiyotga munosabat o‘zgardi. Mashrab, Yassaviy, Boqirg‘oniy, Boyqaro, Feruz (Muhammad Rahimxon) kabi ijodkorlar merosi batamom qoralandi. Sho‘ro mafkurasining zug‘umi, tanqid va adabiyotning jiddiy xatolari tufayli Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, So‘fizoda, Elbek, Botu, Usmon Nosir singari shoir va yozuvchilar, Otajon Hoshim, Vadud Mahmud kabi adabiyotshunoslar bizdan tortib olindi.

Bu davrda faqatgina adabiy muhitdagina emas, balki ayollar hayotida ham tub burilishlar yasaldi. Paranji tashlandi, ayollar erkaklar bilan teng huquqli bo‘ldi, jamiyatning faol a’zosiga aylandi. 1925–1933-yillarda faoliyat yuritgan “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali bu masalalarni o‘rganishda muhim manbadir. Ushbu jurnalda o‘z davrining dolzarb muammosi bo‘lib kelgan xotin-qizlar masalasiga doir ko‘plab maqolalar, hikoya va qator she’rlar chop etilgan. Elbek, Mahmud Odil, Cho‘lpon, Shokir Sulaymon, Oltoy, Bektosh singari ijodkor ma’rifatparvarlar ayollarni jamiyatda o‘zligini anglashi, erki uchun, qadr-qimmati uchun kurashishga undaganligini ko‘rishimiz mumkin. Xotin-qizlar masalasi va muammolari yoritilgan asarlarga e’tibor qaratsak, bularning ba’zilarida ularning ilm-ma’rifatli bo‘lishi, hunar o‘rganishi, buning uchun paranjidan qutulishi kerakligi borasidagi ma’rifiy muammolar kuylansa, ba’zilarida esa ular ham farovon turmushga loyiqligi, yosh qizlarning ota-onalari tomonidan majburan keksa boylarga uzatilayotganligi, ularning o‘z oilasida qadr-qimmati yo‘qligi, tirik jon sifatida emas, bir matohdek qaralishi, erkaklar tomonidan ezilishi kabi maishiy muammolar ochiq-oydin ko‘rsatib berilgan. Masalan, Cho‘lponning “Paranji” [Cho‘lpon, 1925: 50] she’rida xotin-qizlarga murojaat qilinib, paranjini yirtishi, yoqishi, yo‘q qilishi

o‘zgacha pafos bilan aytilgan.

Yirtingiz,
Go‘rlarga eltingiz!
Yonduring chimmatni,
Bo‘g‘masun,
To‘smasun ,
Tabini ziynatni!
Yo‘q bo‘lsun,
Yo‘q bo‘lsun,
Paranji!

Shuningdek, Cho‘lpon she’rda xotin-qizlarning yulduzlardan nur, shu’lalardan to‘r olib o‘ynab-kulishini, tiniq ko‘ldan chiqqan bir to‘p pari kabi gullab yashnashini, paranji ostida berkinib, “Menga ham erk” degan qizlarning holatini go‘zal tasvirlarda chizib beradi. Ammo Elbek bu voqeani “Erk nima” [Elbek, 1926: 59] she’rida boshqacha tasvirlaydi. Bu she’rni “Erk ma’nosin yanglish tushung‘uvchi xotin-qizlarg‘a” ataganligini aytadi. She’rda ayollar uchun erk qanday bo‘lishi tushuntiriladi. Ma’nosi tushunarli bo‘lishi uchun she’rning o‘zini keltiramiz:

Ko‘p zamonlar erksiz qoldiq,
Eng so‘ng, erkni qo‘lg‘a oldiq.
Otni “chuv” deb qamchi soldiq,
Tez yurdikda yo‘lda toldiq.
“Ot yozuqli!” dedik sotdiq,
Lash-lushlarni qo‘ldan otdiq.
Qimirlamay toshdek qotdiq,
Oyoq cho‘zib jim-jit yotdiq.
“Erk oldiq” deb erkalagan,
Erk qonunin tirkalagan.
Hoy yanglishg‘on xotin-qizlar,
Erk otini minmang sizlar!
Erk muqaddas qonun erur,
Mazlumlarga erklik berur.
Kimki bunga ko‘krak kerur,
Erk chechagin albat terur.
Erk otig‘a bermay oziq,
Qattiq chopmoq gunoh-yoziq.
Erk ma’nisi chopmoq emas,
Esi borlar bunday demas.
Erk ma’nisi erkin bo‘lmoq,
Ilm-u hunar bilan to‘lmoq.
Yo‘qsil elga bilim bermak,
Mashaqqatga ko‘krak kermak!

Ko‘ringanidek, she’rda erk qonunini tirkalab yanglishgan, qattiq chopgan xotin-qizlarga murojaat etilmoqda. Erkin bo‘ldik, paranjini tashladik deb o‘zlariga yarashmaydigan ishni qilmaslik, erkdan to‘g‘ri foydalanib, ilm-hunar o‘rganish, yo‘qsil elga bilim berish, mashaqqatlarni aql bilan yengish haqida so‘z boradi.

Xotin-qizlar muammolariga bag‘ishlangan asarlarni o‘rganish mobaynida bu davrlarda ayollarning huquqlari aksar hollarda haqiqatan ham toptalganining guvohi bo‘lamiz. Bu, albatta, ma’rifatsizlik, ilmsizlik natijasi. Zero, bu haqida professor N. Jabborov shunday deydi: “Binobarin, har bir millatni, uning vakillarini jaholatdan qutqarguvchi yagona vosita – ilm va maorifdir. Kimki ilm va maorifga munosib darajada e’tibor bersa, shubhasiz, saodatga erishadi” [Abdulhakim N., 2005, 14-15].

Aynan 20–30-yillarda xotin-qizlarning paranji tashlashi voqeasi sodir bo‘ldi. Bu bir tomondan yaxshilikka xizmat qildi. Lekin Turkiston xalqiga tushuntirmasdan, bu ishning mohiyati, natijasini aytmasdan, mentalitet, urf-odat masalalarini inobatga olmasdan shiddat bilan tez fursatda qilinganligi ko‘plab iste’dodli qizlarimizning ayanchli o‘lim topishiga sabab bo‘ldi. Bu jurnalda nashr etilgan she’rlarda ham o‘z aksini topadi. Elbek so‘zlari bilan aytganda, erk qonunini tirkalab yanglishgan, qattiq chopgan xotin-qizlar o‘z boshlariga balolar sotib olishdi. Bu haqida jurnalimizning 5-6-sonida Shokir Sulaymonning “Sir” taxallusi ostida bergan “Dog‘li yo‘qotish” [Sir, 1928: 35] bag‘ishlov hikoyasida shunday so‘zlar berilgan:

(O‘zbek davlat truppasining talantli aktrisasi Tursunoy xotirasiga bag‘ishlanadi. 1928-yil 19-may. Buxoro shahrida vafot etdi).

(Nasr)

"Hay attang... "Tursunoy"ni yo'qotdik. O'zbek sahnasi manguga ko'ra olmaydi uni. Ko'z yoshlarning endi foydasi yo'q. Topolmaydi uni. Qip-qizil marjon donalarning bitta gavhari – qimmatli sadafi. O'ynoqi, biyron, suygumli – Tursunoy. Qorong'u tunlarning kirli qo'ynida hadaf bo'ldi. Zahar, uchli o'tkir pichoqning keskin tig'lari, shumli qo'llarida qayrildi. Ma'suma bo'g'zidan qon yaladi. Vaqtsiz qurbon bo'ldi Tursunoy... Ilon zaharli tilidan asalmi beradi? 'Yirtqichlar' bolasi orqangizni nima silaydi? Bo'rilar tumshug'i qonsizmi bo'ladi? Mana, Tursunoy yo'q! Sora, Zamira, Bahrioylarning g'ururli ko'klariga motam chechaklari taqildi. Motam chechaklari...

Yo'qotish dog'li, alamli! Nachora? Kurash qurbonsiz bo'lmaydi... Sahnamiz yana ham gullaydi. Biz eslaymiz, yashnaydi. Eslaymiz qimmatli Tursunoyni, yodlaymiz 'Halima'day 'doston'ini. Biroq yangi ruh, yangi zavq, yangi kuch, tetik qadam bilan, olg'a otlangan olov yuraklarni ko'rib quvonamiz!"

Albatta, ayollarning ochiqlikka chiqishi ularga juda yaxshi imkoniyatlar berdi. Ilm o'rgandi, hunar bilan shug'ullandi, ishladi. Bu xayrli ish oddiy, sodda xalq bilan birgalikda bosqichma-bosqich olib borilganda yuqoridagi nasrda berilgan muammolar bo'lmas edi.

"Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida xotin-qizlar masalasiga bag'ishlangan asarlar bilan tanishar ekanmiz, bu mavzu juda bahsli ekanligining guvohi bo'lamiz. Yangi adabiyotga qadam qo'yayotgan Mahmud Odilning 1928-yil 8–9-sonida nashr etilgan "Ozod xotin so'zi" [Mahmud O., 1928: 61] nomli she'rida ilondek oyoqlariga yopishgan erksizlik ipidan qutulib, erkin hayotga erishgan ayol so'zlari keltirilgan. Ayol ilgari erkaklar oyoqlari ostida ezilgani, erk ashulasini aytolmagani, endi esa o'z erki ila ishda va o'qishda erkaklar bilan teng huquqli bo'lib ishlayotgani, o'qiyotgani aytilib, yurt taraqqiyoti uchun o'z hissasini qo'shayotgani ta'kidlanadi.

Ilgari iplandik, erksizlik ipi,
Oyoqlarimg'a o'ralg'on edi,
Erk osmonimg'a ucholmas edim.
Endi erkliman, o'z erkim ila,
Ishda, o'qishda erkaklar ila,
Aralash ishlab, o'qimoqdaman.

Ushbu she'rda o'z kelajagi uchun qayg'uradigan, olg'a intilib o'qiydigan, ishlaydigan, o'z fikriga ega uddaburon xotin-qizlar haqida gap borsa, jurnalning 1928-yil 7-sonida Mahbuba Rahim qizining "Aldangan qiz" [Mahbuba Rahim qizi, 1928: 31-34] va Elbekning "Yangi turmush izlovchi" [Elbek, 1926: 25-27] hikoyalarida aldangan xotin-qizlarning achchiq qismati yotadi. Bu hikoya qahramoni Mastonoy va Qahhorxo'janing ayoli o'z mustaqil fikriga ega emasligi, kim nima desa unga ergashib ketaverishi, hayotga teran nazar bilan boqmasligi bois mana shunday og'ir hayotga duchor bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, hayotining qanday kechishi ma'lum ma'noda insonning o'ziga ham bog'liq. Bu yo'lda ma'rifat ko'p muammolarga yechim bo'ladi. Zero, bu fikrimizni professor Q. Pardayev shunday ifodalaydi: "XX asr boshlaridagi ma'rifatchilik harakati jamiyat hayotini isloh qilish masalasini kun tartibiga qo'yar ekan, bunda ma'rifat va jaholat ziddiyati asosiy muammo darajasiga ko'tarildi" [Pardayev, 2021: 70].

"Aldangan qiz" hikoyasida otasidan juda yosh yetim qolgan, ro'zg'orga yordami tegishi uchun choyxonada idish yuvib kun kechirgan, oxir-oqibat aldangan Mastonoy haqida hikoya qilinadi. Qodirning shirin gaplariga uchib aldangan Mastonoyning og'ir qismati, ko'rgan qiyinchiliklari tasvirlanadi. Qodir Mastonoyni ishontirib, o'zi esa boshqa qiz bilan bo'lib ketgani, oxir-oqibat ikkisini ham baxtsiz qilib qo'ygani qalamga olinadi. "Yangi turmush izlovchi" hikoyasida ham Qahhorxo'ja xotinining ustiga yana uylanib, oxirida uni ham tashlab boshqasiga ko'ngil qo'yishini ko'rishimiz mumkin. "Elbekning yangi hikoyalari tahlili" [Soatova, 2023: 84-95] maqolasida "Yangi turmush izlovchi" hikoyasi bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan mavzu ekani ta'kidlanadi: "Yoshlik kuchiga,

g‘ayratiga uchib, hoy-u havasga berilgan Qahhorxo‘janing qismati barcha davrda uchraydigan illat. Buning yechimi tarbiya masalasiga borib taqaladi. Oilada mustahkam tarbiya topgan, dunyoqarashi keng farzand hech qachon bunday hayot yo‘lini tanlamaydi”.

Xulosa qilib aytganda, “Maorif va o‘qitg‘uvchi” jurnali 20–30-yillardagi xotin-qizlarning taqdiridan so‘zlovchi asosiy manbalardan biridir. Unda nashr etilgan asarlarda ayollarning erk ne’matidan bahramand bo‘lib, ilm-ma’rifat o‘rganishi, yoshlarga bilim berishi, shu bilan birgalikda xotin-qizlarning achchiq, huquqi toptalgan hayoti tasvirlangan. Biz bu asarlarni mutolaa qilib, o‘tgan davrlarda yashagan xotin-qizlar hayoti bilan tanishamiz, yaxshi tomonlarini o‘zlashtiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho‘lpon. Paranji. She’r. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – T.: 1925. – № 2.
2. Elbek. Erk nima? She’r. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – S.: 1926. – № 3.
3. Abdulhakim N. Ma’rifat nadir? // Tafakkur, 2005. 3-son. – 14–15-betlar.
4. Sir. Dog‘li yo‘qotish. Nasr. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – S.: 1928. – № 5.
5. Mahmud O. Ozod xotin so‘zi. She’r. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – S.: 1928. № 8–9.
6. Mahbubu Rahim qizi. Aldangan qiz. Hikoya. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. – S.:1928. – № 7.
7. Elbek. Yangi turmush izlovchi. Hikoya. //Maorif va o‘qitg‘uvchi. –Samarqand, 1926. – № 7–8.
8. Pardayev Q. Al-isloh va XX asr boshlari o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Mahalla va oila, 2021.
9. Soatova G.N. Elbekning yangi hikoyalari tahlili. O‘zbekiston: Til va madaniyat. Adabiyotshunoslik 1 (2): 2023.

JADID MATBUOTIDA ADABIY TANQIDCHILIK
("Oyina" jurnali misolida)

Nodira Egamqulova,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
e-mail: nodiraegamkulova1@gmail.com

Annotatsiya

Jadidlar tanqidni asr adabiyotining eng katta yutug'i deb tan olishdi. Tanqidning dastlabki sodda ta'riflarini biz XX asr boshlari matbuotida tez-tez uchratishimiz mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dastlabki tanqid namunalarini sof adabiy ko'rinishda deb bo'lmaydi. Ularda qorishiqlik va tajribasizlik sezilib turadi. Faqat XX asrning 10-yillaridan so'ng "tanqid" istiloh sifatida adabiy tanqid ma'nosida ishlatila boshlandi. Jurnalda uchrovchi adabiy-tanqidiy materiallarni quyidagicha tasniflash mumkin: taqriz, adabiy-tanqidiy maqola, tanqidiy esse, mubohasa, maktub, reklama-tanqid. "Oyina"ning adabiy jarayonda tutgan o'ziga xosligi shundaki, u ilmiy jurnal sifatida adabiy-badiiy materiallardan ko'ra adabiy-tanqidiy chiqishlarga keng o'rin berdi.

Kalit so'zlar: *adabiy jarayon, Behbudiy, "Oyina", tanqid, nasr, taqriz, adabiy-tanqidiy maqola, mubohasa, maktub, reklama-tanqid.*

Abstract

The Jadids recognized criticism as the greatest achievement of the literature of the century. We can frequently encounter the initial, simple definitions of criticism in the press of the early 20th century. It should be specifically noted that the first examples of criticism cannot be considered purely literary. They are characterized by a sense of mixture and inexperience. It was only after the 1910s of the 20th century that the term "tanqid" (criticism) began to be used as a concept in the sense of literary criticism. The literary-critical materials found in the journal can be classified as follows: Review (Taqriz), Literary-critical article, Critical essay, Discussion (Mubohasa), Letter (Maktub), and Advertisement-criticism (Reklama-tanqid). The uniqueness of "Oyina" in the literary process is that, as a scientific journal, it gave more space to literary-critical publications than to purely literary and artistic materials.

Keywords: *literary process, Behbudi, "Oyina", criticism, prose, review (taqriz).*

Jadid adabiyotining haqiqiy bahosini berish shu davrga mansub adabiy merosni chuqur o'rganish bilangina amalga oshadi. Bu davr adabiy muhitida nazmdan ko'ra ko'proq nasrda muhim yangilanishlar, badiiy kashfiyotlar ro'y berayotgandi. Shu sababli jadid adabiyotining ko'pgina o'ziga xosliklari undagi nasriy namunalarida ko'zga tashlanadi. Buni adabiyotga kirib kela boshlagan yangi janrlar misolida ham ko'rish mumkin. Jadidlar tanqidni asr adabiyotining eng katta yutug'i deb tan olishdi. Deyarli barcha ma'rifatparvarlar tanqid haqida gap aytishga kirishdi. Behbudiy ham o'zining "Tanqid saralamoqdur" maqolasi bilan o'z qarashlarini maydonga tashladi va tom ma'noda XX asr o'zbek adabiy tanqidi nazariyotchisi sifatida e'tirof topdi. Tanqidning dastlabki sodda ta'riflarini biz XX asr boshlari matbuotida tez-tez uchratishimiz mumkin. Xususan, "bir kishining yozganiga ikkinchi bir kishining nazari" [Ahlullo, 1914], "boisi isloh" [Behbudiy, 1914: 621–623], yozuvchining o'z ustida ishlashiga undab, uni "barmoq bilan turtub ko'rsaturg'a loyiq adib sifatida tarbiyalovchi kuch" [Zohiriy, 1914: 49] singari ta'riflar jadidlarning tanqidga munosabati va uni qanday qabul qilganliklarini ko'rsatib beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dastlabki tanqid namunalarini sof adabiy ko'rinishda deb bo'lmaydi. Ularda qorishiqlik va tajribasizlik sezilib turadi. Faqat XX asrning 10-yillaridan so'ng "tanqid" istiloh sifatida adabiy tanqid ma'nosida ishlatila boshlandi [Tojiboyev, 1993: 103].

Teatrning kirib kelishi, sahna asarlari va ularga yozilgan taqrizlar haqiqiy ma'nodagi tanqid adabiyotini yuzaga keltirdi. Tanqidning muhim janri bo'lgan taqriz eng ko'p qo'l urilgan yo'nalish

boʻldi. Jadidlar teatrni madaniyatning bir koʻrinishi deb qabul qildilar: “taraqqiy qilmoqning eng birinchi sabab va boislaridan biri tiyotrlardur deyurlar” [Behbudiy, 1914: 550]. Behbudiy teatr toʻgʻrisidagi qarashlarida dramaning uch turiga ishora berib oʻtadi: “Tiyotrxona sahnalarinda qoʻyulaturgon asarlar fojia, ya’ni qayg‘ulik, mazhaka, ya’ni kulgu, drama, ya’ni hangomalik bir voqea va hodisani tasvir etib xaloyuqg‘a koʻrsatilur” [Behbudiy, 1914: 550]. Asta-sekin drama jadid adabiyotining yetakchi sohasiga aylandi. Sahna asarlariga yozilgan taqrizlar esa adabiyotning, adabiyotshunoslikning yangi imkoniyatlarini ochdi.

Umuman olganda, asr boshlarida jadidlar adabiyotni keng ma’noda tushunganlar. Adabiy janr hamda adabiyotshunoslik janrlari oʻzining aniq chegarasiga ega boʻlmagan. Matbuot, adabiyotshunoslik, teatr, badiiy asarlarni adabiyot sifatida qarashgan. XX asrga kelib oʻzbek adabiyotida koʻpgina janrlarga sinov sifatida qoʻl urila boshladi. Adabiyotning estetik jihatlaridan koʻra gʻoyaviy masalalariga e’tibor koʻproq boʻldi. Adabiyotning publitsistika bilan uzviyligi kuchaydi. Shu bois bu davr adabiyotida publitsistik va badiiy janrlar oʻrtasida chegara yoʻqoldi, bir-biriga oʻtib turdi. Buni felyeton misolida koʻrish mumkin. Matbuot sahifalarida “Felyeton”, “Kichik felyeton” kabi alohida ruknlar koʻrina boshladi. Ta’kidlash kerakki, jadidlar koʻpincha oʻz yozganlariga aniq bir janr belgilab oʻtmagan. Matbuotda ham felyeton ruknida bir nechta janrdagi (hikoya, roman, tanqidiy maqola, sayohatnomalar, she’r) asarlar e’lon qilinavergan. Holbuki, vaziyat shunday ekan, ularga aniq bir janrni tirkab qoʻyish ham tadqiqotchiga mushkullik tugʻdiradi.

Koʻpchilik gazetalarda adabiyotga oid rukn felyeton deb nomlangan. Lekin ularning orasiga chegara qoʻyib boʻlmaydi. “Felyeton” ruknida keltirilgan maqolalar ham sof adabiy janrlarda boʻlmay, asosan, ta’lim-tarbiya, matbuot, ijtimoiy-madaniy hayotga doir tanqidiy fikrlar keltirilgan. Jadid muharrirlari gazetalardagi felyeton qismiga xabarlar rukni sifatida qarashgan. Bu davrda felyeton tanqidiy janr sifatida shakllanmagan edi. Faqat 1926–1927-yillarga kelibgina felyetonga tanqidiy janr sifatida qarala boshlangan.

“Oyina” oʻzining tanqid maktabiga ega edi. Unda muntazam ravishda Behbudiy, Hoji Muin, Fitrat, Rasuliy, Noʻshiravon Yovushev, Mirmuhsin Shermuhamedov, Sadriddin Ayniy, Vasliy singari davrining fikri ochiq ijodkorlari ishtirok etib turgan va boshqa nashrlararo munozaralarda ham jurnal oʻzining munosabatini bildirib borgan.

Jurnalda uchrovchi nasriy materiallarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Taqriz.
2. Adabiy-tanqidiy maqola.
3. Mubohasa.
4. Maktub.
5. Reklama-tanqid.
6. Hajv.
7. Latifa.

Asarning haqiqiy bahosini beruvchi va “tanqidiy bahoning harakatdagi jonli oʻlchovi” hisoblanuvchi taqrizni “tanqidning tikonli guli” deb ham e’tirof etishadi. XX asr dramaturgiyasida taqrizlar ana shunday, tanqidning asosini tashkil qiluvchi faol janrga aylandi. Bu davrda, asosan, taqrizning sharh-taqriz va xabar-taqriz turlarini uchratish mumkin.

Oʻzbek adabiy tanqidchiligida dastlabki taqrizni Furqatga nisbat beriladi [bu haqda qarang: A. Abdugʻafurov. Furqatning nasriy merosi // Oʻzbek adabiyoti masalalari. 1976. – 64-b.; Nazarov B. Oʻzbek adabiy tanqidchiligi. – Toshkent: Fan, 1979. –14–15-b.; B. Valixoʻjaev, Sh. Xolmatov. Oʻzbek adabiy tanqidi tarixi. – Samarqand, 1983. – 44-b.; Oʻzbek sovet adabiy tanqidi tarixi. Ikki tomlik. – Toshkent: Fan, 1987. – 67-b.]. 1890-yilda yozilgan bu sharh-taqrizda rus shoirlaridan birining (muallifi aytilmagan) oʻzbek tiliga oʻgirilgan erkin tarjimadagi she’riga munosabat bildirib oʻtiladi. Matbuotda e’lon qilingan ilk oʻzbekcha taqrizlarga “Turkiston viloyatining gazeti”da nashr qilingan

“Yangi alifbo darsligi haqida” [Anonim, 1903.10.09] maqolasini misol qilish mumkin (Tojiboyev, 1993: 85).

“Oyina” jurnalida uchrovchi xabar hamda sharh-taqrizlar, asosan, “Padarkush” dramasi uchun yozilgan edi. Jurnalning 1913-yil 10-sonida “Samarqandda tiyotr” nomli kichik xabar-taqriz berilgan. U “Padarkush” dramasining, shu bilan birga, o‘zbek dramasining ilk sahna yuzini ko‘rishi xabari hamdir. Unda o‘zbek va tatar taraqqiyparvarlari bilan birgalikda “Padarkush” hamda “Oldaduk ham oldanduk” asarining Samarqandda qo‘yilishi va Qo‘qon, Toshkentda sahnalashtirish uchun tayyorgarlik ko‘rilayotganligi haqida xabar keltirilgan: “Ho‘qand va Toshkandda ham “Padarkush” fojiasini sahnada qo‘ymoq uchun mashq qilmoqda emishlar” [Anonim, 1913: 234].

Shu yilning 12-sonida xabarning davomi e’lon qilingan. Xabarda dramaning o‘ynalishi uchun Samarqand gubernatoridan ruxsat olinganligi, biletlarni kimdan sotib olish mumkinligi to‘g‘risida qisqacha ma’lumot olish mumkin. Jurnalning 25-yanvar 14-sonida “Turkistonda birinchi milliy tiyotr” deb nomlangan sharh-taqriz berilgan bo‘lib, “Padarkush”ning qay darajada o‘ynalganligi, xalq tomonidan qanday kutib olinganligi, dramaning ijrochilari, yutuq va kamchiliklari atroflicha sharhlab o‘tilgan. Ushbu sharh-maqolaning muallifi turli manbalarda turlicha ko‘rsatiladi. Xususan, adabiyotshunoslar Begali Qosimov, Uzoq Jo‘raqulovlar “muallifi noma’lum” ekanligini aytish bilan cheklangan bo‘lsalar, behbudiyshunos Solih Qosimov uni Behbudiy maqolalari qatoriga kiritadi. “Jadid dramasi” monografiyasida maqola muallifi Hoji Muin degan taxminiy fikr o‘rtaga tashlanadi.

Shu narsa aniqi, “Padarkush”ga yozilgan har to‘rt taqriz bitta muallifga tegishli. Sababi, “Turkistonda birinchi milliy tiyotr” maqolasining davomi “Samarqandda tiyotr” deb nomlangan holda, 1914-yil 10–12-sonlarida berilgan taqrizlar ham xuddi shunday sarlavhalangan. Taqrizlarda keltirilgan dramaning tili haqidagi fikrlar, “baland darajalik Samarqand voliysidan muharririmiz ruxsat ham oldi” [Anonim, 1914: 285] jumlalari drama muallifiga tegishli bo‘lolmaydi (Behbudiy o‘zga shaxs nomidan yozgan bo‘lishi ham ehtimol). Va bu narsa taqrizchi Behbudiy emas, degan to‘xtamga olib keladi. Maqolalar muallifini Hoji Muin deb belgilash haqiqatga yaqinroq bo‘ladi. Ushbu “Turkistonda birinchi milliy tiyotr” maqolasi o‘zida ham sharh, ham talqinni birlashtirgan bo‘lib, o‘zbek sahnasining ilk asariga yozilgan birinchi taqriz ekanligi bilan ahamiyatlidir.

“Oyina”dagi taqrizlarning nisbatan mukammalrog‘i “To‘y” pyesasiga yozilgan “Tanqid emas, tanbeh” [Matbuot muhibi, 1915] taqrizidir. Dastlab “To‘y” muallifi Nusratilla Qudratilla qalamiga tashakkur aytilib, munaqqid pyesani o‘qib quvonganligini, “mazmuni nofe’”, jamiyat uchun foydali asar bo‘lganini ta’kidlaydi. Shundan so‘ng ushbu pyesa va u orqali boshqa asarlarning ham “har nav’ nuqsondan toza chiqmog‘”i uchun bir-ikki so‘z aytishni lozim topadi. Bu esa “Matbuot muhibi”ning tanqid madaniyatidan xabardorligini bildiradi. Muallif sahna madaniyati va tanqid ta’siridan so‘zlab, pyesadagi ayrim “adabdan xorij” so‘z va harakatlarning sahna uchun to‘g‘ri kelmasligi va tomoshabinlarning “yuz qizarmoqlarig‘a” sabab bo‘lishini yozib turib, pyesadagi shunday so‘zlarni sahifasi bilan sanab o‘tadi. Misol uchun, “eshak” (13-sahifa), “oluftalik” (18-sahifa), “gadoy” (31-sahifa), “ushavoldi” (34-sahifa), “padar...” (35-sahifa), “jurmi boshdan” (44-sahifa) so‘zlari uchraydi. Lekin bu so‘zlar tanqidchi ayb yuklaydigan darajada “qabih va uyat” deb bo‘lmaydi.

Shu bilan birga, “To‘y” qahramonlarining kasb-kori (ko‘bkoritoz, ko‘knoritoz, bedanaboz, chitfurush va h.k.) va shaxsiyatiga qaralsa, ular nutqida bunday so‘zlarni berish haqiqatga ancha yaqin va tabiiydir. Taqrizchi Milliyni o‘z asarini qayta tahrir qilishga chaqiradi. Va yo‘l-yo‘lakay “Padarkush”da ham yuqoridagi kabi e’tibor berish kerak bo‘lgan o‘rinlarni ko‘rsatib, har ikki muallifdan “afvi marju” tilaydi. Ushbu taqriz javobsiz qolmagan. Lekin Milliy emas, Hoji Muin javob yozgan. Buning sababini uning o‘zi shunday izohlaydi: “Mazkur “To‘y” risolasining yarmidan ziyodasi manim shikasta qalamim ila yozilub, qolgani ham o‘zimning isloh va tashihim ila tartib qilinganligi uchun bu to‘g‘rudagi adabiy mas’uliyat manim ustimg‘a tushsa kerak” [Hoji Muin, 1915: 152]. Muinning javobiga ko‘ra, asardagi nuqsonlarning sababi ikkita: birinchisi, turk, tatar

teatr risolalaridagi shunday so‘zlarning borligini “taftish etmagan”i bo‘lsa, ikkinchisi, bu so‘zlarni u o‘z ixtiyori bilan “qabihligini ko‘rsatmoq qasdila” yozganini aytadi. Yana Hoji Muin pyesa yozilgan vaqtdagi o‘zining noqisligini asta-sekin tuzalishini umid qiladi.

E’tibor berilsa, maqolaning biror joyida Milliy (Nusratilla Qudratilla) nomi tilga olinmaydi. Nuqsonlarning egasi ham Hoji Muin, kimdir aybdor bo‘lish kerak bo‘lsa ham – u, pyesani qayta tahrir qiluvchi ham uning o‘zi. Agar Hoji Muinning so‘zlariga qaraydigan bo‘lsak, “To‘y”ni yozishda Milliyning roli umuman bo‘lmaganligi tushuniladi. Aslida ham shunday bo‘lganmi?

O‘sha davr munaqqidlari asarlarida va matbuotda “To‘y” haqida ham fikrlar va e’lonlar uchraydi. Xususan, “Turkiston viloyatining gazeti”ning 1914-yil sonlarida “To‘y” pyesasining tahririyatga kelib tushgani va muallifi Nusratilla Qudratilla (Milliy) ekani aytiladi. M.B. Solihov tadqiqotida ham ushbu pyesa haqida gap ketganda, faqat Milliy nomi tilga olingan [Miyon Buzruk, 1935: 111]. Aynan “Oyina”ning o‘zida ham “To‘y” deb sarlavhalangan e’lon berilgan. E’londa “Muharrir va noshiri Nusratilloh Milliy ibn Qudratilloh, Turkiston maishatidan olib yozilgan ikkinchi risola” deb ta’riflanadi [Anonim, 1914: 30].

Hoji Muinning javob maqolasi Milliy vafotidan so‘ng yozilgan va ehtimol u “Oyina” muharriri sifatida idoraga kelgan pyesani ko‘zdan kechirgandir. Lekin bu narsa unga mualliflik da’vo qilish huquqini bermaydi.

Teatr asarlariga yozilgan taqrizlar bilan bir qatorda adabiy asar va she’rlar tahlil qilingan taqrizlar ham uchraydi. Shunday taqrizlardan biri No‘shiravon Yovushevning “She’r yozuvchilar diqqatina” [Nun. Yo, 1913: 68] maqolasidir. Unda jurnalning ilk sonida e’lon qilingan “Iltijo” musaddasiga [Milliy, 1913: 10-11] fikr bildiriladi. Yovushev she’rni sarf va nahv qoidalariga amal qilmay yozilgan deb topadi. Undan ma’no anglamoq mushkulligini ayrim misralari misolida isbotlashga urinadi. Munaqqid (N. Yovushev) rus va arab shoirlarining ijodini o‘rnak sifatida keltiradi. Yovushevning o‘zi she’rlarini sodda tarzda va asosan barmoqda ifodalashga e’tibor qaratgan. O‘z o‘rnida idora Yovushevning fikrlariga e’tiroz bildirib, “Iltijo” she’rini qoidaga muvofiq yozilgan deb himoya qilib chiqadi.

O‘zbek adabiyotida haqiqiy ma’nodagi adabiy tanqid o‘tgan asr boshlarida vaqtli matbuot bilan birga tug‘ildi. XX asrga kelib o‘zbek adabiyotida ko‘pgina janrlarga sinov sifatida qo‘l urila boshladi. Adabiyotning estetik jihatlaridan ko‘ra g‘oyaviy masalalariga e’tibor ko‘proq bo‘ldi. Adabiyotning matbuot bilan uzviyligi kuchaydi. Shu bois bu davr adabiyotida publitsistik va badiiy janrlar o‘rtasida chegara yo‘qoldi, ularning xususiyatlari bir-biriga o‘tib turdi. Adabiyotga kirib kelayotgan yangi janrlar asosan nasrga tegishli edi. Adabiy tanqid janrlari (sharh, taqriz, adabiy-tanqidiy maqola, obzor, reklama-tanqid) ommalashdi. Badiiy adabiyotda munozara, mubohasa usulidan foydalanish asosiy o‘ringa chiqdi. Nasriy asarlarda drama belgilari ko‘rina boshladi, dramatizm kuchaydi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalar “Oyina” jurnalida adabiy muhit qanday aks etganligi yuzasidagi umumiy bir qarashlar, jurnalda e’lon qilingan adabiy-tanqidiy materiallar: adabiy-tanqidiy hamda ilmiy-ma’rifiy maqola va she’rlar XX asr avvalidagi adabiy jarayon, xususan, “Oyina” minbaridagi adabiy-tanqidiy muhit haqida tasavvur hosil qilish imkonini ham beradi. XX asr boshlari o‘zbek vaqtli matbuotida yuz bergan adabiy tanqidchilikning muhim tomonlarini ochib berishda, shubhasiz, “Oyina” jurnali katta o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdirashidov Zaynabidin. Turkiston jadidlari va milliy g‘oya targ‘iboti / jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. – Toshkent, 2016.
2. Anonim (1903). Новый учебник (букварь). Turkiston viloyatining gazeti. 10-sentYabr, 6-b.
3. Anonim (1913). Samarqandda tiyotr. Oyina. 10: 234.
4. Anonim (1914). Samarqandda tiyotr. Oyina. 12: 285.
5. Anonim (1914). To‘y (e’lon). Oyina. 54: 30.

5. Behbudiy M. (1914a). Tanqid – saralamoqdir. Oyina. 32: 621–623.
6. Behbudiy M. (1914b). Tiyotr nadur. Oyina. 29: 550. Zamonaviy nashri: Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007. – 175–177-b.
7. Haybullin A. Tanqid. Sadoyi turkiston, 1914. – 48, 19-noyabr.
8. Hoji Muin ibn Shukrullo. Tanbehga tashakkur // Oyina, 1915. №7: 152.
9. Milliy (1913). Iltijo. Oyina. 1: 10-11.
10. Hoji Muin (2010). Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
11. Nun Y. She’r yozuvchilar diqqatina. Oyina, 1913. 3: 68.
12. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq, 1994.
13. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
14. Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1990. 19–26-yanvar.
15. Solihov Miyon Buzruk. O‘zbek teatr tarixi uchun materiallar. – Toshkent: O‘z SSR davlat nashriyoti, 1935.
16. Tojiboyev Rustam. XX asr boshlari o‘zbek adabiy tanqidi tarixidan. Filol. fan. nomz. diss. – Toshkent, 1993.

KOMIL G‘AZALLARIDA ESTETIK IDEALNING NAMOYON BO‘LISHI

Bo‘tayeva Nigora Abdumannonovna,
JDPU Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: nigorabutayeva1204@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada estetik ideal tushunchasi haqidagi adabiyotshunos olimlarning qarashlari, ijodiy niyat ijodkorning ruhiy kechinmalari, his-tuyg‘ularining ifodasi ekanligi, u ijodkor yashagan davr, muhit, sharoitga qarab turlicha namoyon bo‘lishi, Komil ijodining mavzu xilma-xilligi, shoir idealining g‘azallarda aks etishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *Estetik ideal, ijodkor niyati, lirizm, qahramon va muallif nutqi,*

Abstract

This article discusses the views of literary scholars on the concept of the aesthetic ideal, the fact that creative intent is an expression of the creator’s spiritual experiences and feelings, and that it manifests itself differently depending on the era, environment, and circumstances in which the creator lived, the diversity of themes in Kamil’s work, and the reflection of the poet’s ideal in ghazals.

Keywords: *Aesthetic ideal, creative intention, lyricism, hero and author’s speech, classical traditions, fine arts, social lyrics, images of nature*

N.Muhammadiyev “Estetik ideal va adabiyot” kitobida “...poeziyada ideal juda yorqin namoyon bo‘ladi”, – deb yozadi [Муҳаммадиев, 1973:9]. Bizningcha, nasriy asarlarda ifoda etilgan idealga baho berish biroz oson. Negaki, yozuvchi portret, qahramon va muallif nutqi orqali o‘quvchining tasavvur hamda tahlil etishiga ko‘mak beradi. She’riyatdagi ideal esa tuyg‘ular bilan ifodalanib, lirizmni his qilish, tuyg‘ularni o‘qiy olish, ya’ni yurakchilik (Fitrat iborasi – A. D.)ni talab etadi. Shuning uchun shoirning ideali, qahramonning estetik olamini kashf etish anchayin mushkulroq. Negaki sodir bo‘lishi kutilgan jarayon yoki go‘zallik bir she’r mundarijasiga sig‘masligi mumkin. Bu istak, asosan, ramzlar, ranglar, tabiat tasviri va ohang orqali ham namoyon bo‘ladi [Давлатова, 2011:49].

Estetik idealning yaratilishi ijodkor yashagan davr, ijtimoiy muhit, atrofidagi odamlar sabab individuallik kasb etishi tabiiy hol. Ammo, har bir ijodkor uchun umumiy bo‘lgan ideal bor, bu-kamolot, komil inson g‘oyasidir. Adabiyotning, jumladan Sharq mumtoz adabiyotining takomil bosqichlari o‘ziga xos xarakter, obraz, bayonchilik uslubi bilan farqlanib tursa-da, barcha davrlarni birlashtirib turadigan yagona g‘oya-bu komil insonni tarbiyalash g‘oyasi bo‘lib qolaverdi. Ijodkorlar esa, shu birgina g‘oyani ifodalashda o‘ziga xos badiiyat yo‘lini tanlaydilar.

Estetik ideal haqida so‘z ketganda olimlar bunga, avvalo, folklorni misol qilib keltiradilar. N.G. Chernishevskiy “Folklorda mehnat faoliyatining real shartlari va qashshoqlik qay darajada o‘z aksini topgan bo‘lsa, hayotning qanday bo‘lishi kerakligi haqida shunchalik ideal kartinalar bor” [Чернышевский, 1949: 144], deb yozadi. Darhaqiqat, folklor ijtimoiy qobiqni ibtidoiy tahlil qilish barobarida inson va jamiyat muvozanatini muvofiqlashtirishga, orzu-istaklariga moslashtirishga harakat qiladi. Xalq og‘zaki ijodi – umumbashar ijtimoiy, estetik idealining ifodachisidir. Negaki, mukammallik timsollari dastlab og‘zaki adabiyotda yaratildi. Inson va jamiyat kamoloti to‘g‘risidagi ilk tasavvurlar; odil hukmdor, farovon turmush, ijtimoiy tenglik masalalari og‘zaki ijod namunalarida salmoqli darajada aks etgan [Давлатова, 2011: 50].

Masalan, Vadud Mahmud o‘zining “Navoiygacha turk adabiyoti” maqolasida Navoiy yashagan zamonni O‘rta Osiyoning “oltun davri” deb ataydi. “Alisher istar Mashhadda, istar Samarqand va

Hirotda bir tomondan zamonning eng buyuk idora kishilari, zodagonlari orasida bo‘lsa, ikkinchi tomondan Movarounnahrda birinchi mavqe qozonaturg‘on olimlar, shayxlar, adiblar va san’atkorlar orasida edi, ulardan ko‘p foydalandi” [Маҳмуд Вадуд, 2007: 31]. Navoiy ham ijodida ana shu uyg‘unlikka amal qildi. Asarlarida jamiyat va adabiyot borasida o‘zlashtirgan bilimlarini birlashtirgan holda mumtoz ideal obrazlar yaratdi.

Ijodkor “Xamsa” yaratishda salaflaridan tafakkur dunyosi va badiiy mahorati jihatidan ustunligini namoyon qilgan Navoiy ijodida go‘zallikni ifoda qiluvchi har bir obraz umumlashma timsol darajasiga ko‘tarilgan. Bu go‘zallik tavsifi shoirning boy va nafis qalbi, o‘ta nazokatli badiiy didi hamda go‘zallikni g‘oyat chuqur idrok etuvchi latif tabiatidan dalolat beradi” [Қаюмов, 1985: 15].

O‘z navbatida mumtoz an’ana, Navoiyona yo‘lni davom ettirganlar orasida Komil Xorazmiy ijodi tom ma’noda turfa ideal obrazlarga badiiy go‘zallik va nafosat baxsh etib talqin qilgani bilan ajralib turadi.

Masalan, shoir yorning jismoniy go‘zalligiga yana ham go‘zallik qo‘shib turgan uning ma’naviy go‘zalligi ekanligiga ishora qilar ekan, takrorlanmas badiiy ifodalardan foydalanadi. Quyidagi g‘azalida ham yor go‘zalligi ta’rifini keltirish barobarida badiiy ifodalar, qiyoslardan unumli foydalanadi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, Komil Xorazmiy o‘zigacha bo‘lgan an’anaviy yo‘ldan o‘ziga xos qadam tashlaydi:

Labingg‘a behisht ichra kavsar fido,
So‘zingg‘a sadaf ichra gavhar fido.
Yuz-u zulfunga sunbul-u gul asir,
Xati xolingg‘a mushki anbar fido.
Uzor-u lab-u qomat-u chashmingga,
Gul-u g‘uncha-u sarv-u abhar fido.

Yuqoridagi baytda shoir yorning go‘zalligini oshiq nazdida dunyo suluvlaridanda suluvroq qilib tasvirlaydi. Oddiy inson ko‘zi bilan qaralganda bu qadar hayrat bag‘ishlamagan go‘zallik oshiq uchun uning lablarini jannatdagi buloq misol, so‘zlarini sadaf ichidagi gavhar singari, yuz-u zulfi sunbulga, gulga mingzaladi *(Tashbih san’ati).* Uning hayotiy suvrati va siyrati oshiq xayoli bilan uyg‘unlashgan nuqtada ideal go‘zallik timsoli bunyod bo‘ladi. *Tanosub san’ati (lab, yuz, xat, uzor, so‘z, qomat, chashm) misralar badiiyatini yanada orttirishga xizmat qiladi.*

Yoki, shoir yana bir baytida o‘zining gunohlari ko‘pligini aytib Yaratgandan rahm-shafqat so‘raydi:

Komilg‘a, yo Rab, ayla karam abrini soyabon,
Kelgonda nayza bo‘yi kibi mahshar oftob.

Shoir lirikasi turfa tuyg‘ular guldastasi bo‘lib, uning har bir satrida ishq-muhabbat, sog‘inch, hijron, azob, qo‘rquv kabi kechinmalar bo‘y cho‘zadi. Va bu tuyg‘ular shunchaki yasama qahramon tilidan emas, balki shoirning tirik, hayotiy kechinmalari sifatida voqelanadi. Bayt mazmuni har bir xulosa qilguvchi, qalbida zarracha iymoni bor kishilar uchun eng katta sinov, asosiy imtihon hali oldinda ekanligi va bu dunyo shu imtihon uchun tayyorlov darsxonasi ekanligini yana bir karra yodga soladi. Qiyomat kuni Mahshargohda quyosh kishilar boshidan nayza bo‘yi barobar ko‘tarilib azoblashi haqidagi asliy voqeiylikni shoir badiiy ifoda qilar ekan, Yaratgandan rahm-shafqat tilab, o‘zini karam buluti soyasida turguvchilardan qilishini so‘raydi. Yoki,

Jon-u ko‘ngulga aylab ishqingni kom, yo Rab,
Ul bodadin meni qil masti mudom, yo Rab.

Ushbu bayt mazmunida shoirning orif ko‘ngli Yaratgandan ishq tilab yolvoradi. Oshiqlikni, ishqni sharbatga qiyos etib, undan lazzatlanish, ilohiy ishq sharobidan ruhoniy mastonalik oshiq uchun chinakam baxtdir, aslida. Zero, “bayt mazmuniga maydan bahramand bo‘lgan kishining qalbida zuhd va riyodan ajralish, uzoqlashish holati yuz berayotganligi, qalbiga ilohiy nur, ne’mat kirgan inson zuhddan ham, riyodan ham voz kechadi degan mazmun singdirilgan” [Муллахўжаева, 2019:130].

“Komil ijodining temasi xilma-xil. Biz unda murakkab hayot, dunyoni anglay olmasdan, undagi haqsizliklardan dodlaguvchi, hasrat qilguvchi otashin yurak sadosini, jamiyat, ochkoʻzlik, baxillik, hasadgoʻylik, laganbardorlik kabi xususiyatlar qoralanib, kishilarni himmatli boʻlish, insof va vijdonga chaqirish tuygʻularini koʻramiz. Inson qalbining oʻlmas, abadiy samarasi muhabbat, intim lirika Komil ijodida ham salmoqli oʻrin olgan. Bu sohada u chinakam inson tuygʻularini oʻziga xos yoʻsinda juda yoqimli qilib bera oldi” [Мажидий, 2018].

“Xalq ommasi ongida paydo boʻladigan va shakllanib boradigan bunday estetik qarashlar, tasavvurlar, goʻzallik, ulugʻvorlik, fojiaviylik, kulgu, estetik ideal, estetik did haqidagi tushunchalar – tabiatni estetik oʻzlashtirish, jamiyat ma’naviy hayoti va inson estetik faoliyati qonuniyatlarini izchil, ilmiy tadqiq etadigan estetik ta’limotlarning asosini tashkil etadi” [Ҳасанов, 1996:8].

Yuqorida tahlilga tortilgan bir nechta baytlar orqali shoir ideali haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Komil Xorazmiy bu borada avvalo, Alisher Navoiyga ergashadi va ijodining poydevorini ilohiy ishqdan bahramand boʻlish istagi va komil inson yaratish orzusidan bunyod etadi. Shoir umri davomida boshiga qanday kun kelmasin ismidek Komil boʻlishga intilib yashaydi.

Ijodiy niyat ijodkorning oʻz dunyoqarashi, tafakkur darajasi, his qilish va tahlil qila olish qobiliyatining qay darajada ekanligi bilan turli shaklda namoyon boʻladiki, hech bir ijodkorning biror voqea-hodisaga nisbatan aqliy va hissiy ta’siri bir xil boʻlmaydi. Va bu oʻz navbatida ijod mahsuli yaratilishida ijodkorning individual yondashuvini talab etadi. Rus olimi V.E.Xalizev fikricha: “Muallif oʻz oldiga muayyan ijodiy maqsadni qoʻyadi va uni hal etadi. Ijodiy niyatning yuzaga chiqishi ijodkorning butun diqqatini unga qaratishini, ijod zahmatini zimmasiga olib, shu ishga butun vujudi bilan kirishishini, eng muhimi, oʻzining ichki imkoniyatlarini, salohiyatini, iste’dodini shunga toʻliq safarbar etishini taqozo qiladi” [Хализев, 1999:39].

Ijodkor ilhomini ijodiy niyat bilan uygʻunlashsagina mukammallik kasb etadi. Busiz yaratilgan san’at asarining goʻzalligi, insonlarga beradigan hissiy ta’siri qolmaydi.

“Adabiyotshunoslik lugʻati”da yozilishicha: “Ijodiy niyat san’atkorning voqelik bilan munosabati, voqelikni oʻzicha (oʻzining estetik ideali, dunyoqarashi, sajiyasi, madaniy-ma’rifiy darajasi, hayotiy va ijodiy tajribasi, tugʻma iste’dodi quvvati asosida) qabul qilishi va idrok etishi natijasi oʻlaroq yuzaga keladi”.

Modomiki, ijodiy niyat ijodkorning ruhiy kechinmalari, his-tuygʻularining ifodasi ekan, u ijodkor yashagan davr, muhit, sharoitga qarab turlicha namoyon boʻladi. Shunga qarab badiiy asarning asosiy yoʻnalishi va xarakterini ham, yetakchi obraz va timsollarini ham belgilab beradi. Masalan, XVIII asr oxiri XIX asrning ilk yillaridagi adabiy muhitdan kelib chiqqan holda Komil Xorazmiy ijodida shoir ijodiy niyatining namoyon boʻlish shakllarini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

1. Shoir ijodiy niyatining oshiq, ma’shuq obrazi talqinida namoyon boʻlishi;
2. Shoir ijtimoy lirikasi orqali ijodiy niyatining namoyon boʻlishi;
3. Tabiat tasvirlari orqali ijodiy niyatning namoyon boʻlishi.

Komil Xorazmiy yashagan davr mumtoz adabiy an’analarga ergashilgan davr boʻldi, desak mubolagʻa emas. Oʻz navbatida shoir ham Alisher Navoiyni oʻziga ustoz deb biladi va oʻz ijodi orqali Navoiy an’analarini davom ettirishga harakat qiladi. Bu an’analariga muvofiq adabiyotda tasavvufiy, irfoniy obrazlar yaratish, Ilohga boʻlgan oshiqlik, solikning nafs bilan kechadigan kurashi haqida rost yozishni talab etardi va fikrlarning dalili sifatida Qur’oni karim oyatlari hamda Hadisi sharifdan namunalar keltirilar edi. Chunki, bu davr ijodkori quruq tuygʻularni jimjimador shaklda kuylashga haqqi yoʻq boʻlgan olim va orif zotlardir. Badiiy ijodning, adabiyotning darajasi ham juda baland. U istagan kishi kirib chiqadigan egasiz uy emas edi. Baytlar koʻngildan yozilar, koʻngil esa, Haqqa tegishli ekanligini yaxshi anglab yetishgan ijodkorlar rost va chin yozishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Муҳаммадиев Н. Эстетик идеал ва адабиёт. – Т.: Ўзбекистон, 1973.
2. Давлатова А. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиётида эстетик идеал муаммоси Фил.ф. номз...дисс. Т., 2011.
3. Чернышевский Н.Г.Пол.собр. сочин-й в 15-х томах, т.XII, М., Гослитиздат, 1949.
4. Давлатова А. Юқоридаги манбаа.- Б.505. Маҳмуд Вадуд. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 2007.
6. Қаюмов А. Ишқ водийси чечаклари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1985.
7. Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги. Т.: Akademnashr, 2019.
8. Мажидий Р. Комил Хоразмий. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/komil-xorazmiy-tanlangan-she'rlar-devon.html 10.03.2018
9. Ҳасанов У. Халқ оғзаки ижоди ижтимоий-фалсафий ва эстетик ғоялар манбаи сифатида. Фал.ф.номз...дисс. Т., 1996.
10. Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999.
11.Қуронов Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010.
12.Пардаева Н. Анбар Отин асарларида муаллиф ижодий нияти ва бадиий-эстетик идеалининг поэтик ифодаси. Фал.ф.н. олиш учун. дисс. Т., 2022.

MILLIY UYG‘ONISH DAVRI FARG‘ONA VODIYSI HAJVIY SHE’RLARIDA MAHALLIY HUKMDORLAR OBRAZINING BADIIY TALQINI

Barziyev Oybek Xabibullayevich,
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD
e-mail: barziyevoybek@8486mail.ru

Annotatsiya

Maqolada milliy uyg‘onish davri Farg‘ona vodiysiga mansub shoirlar Nodim Namongoniy, mulla Yo‘ldosh o‘g‘li Xilvatiy, Is’hoqxon to‘ra Ibrat, Ubaydulla Zavqiy qalamiga mansub bo‘lgan hajviy asarlarda tanqid qilingan mahalliy amaldorlarning umumlashma obrazlariga chizgilar berilgan. Mazkur shoirlar ijodida tasvirlangan o‘z davrining realistik obrazlari olib borgan faoliyati va siyosati xususidagi tanqidiy fikrlar tahlil doirasiga tortilgan. Shu bilan birga islom dinini niqob qilib olgan ayrim qozilarning avom xalq ustidan yurgizgan noto‘g‘ri siyosatlari she’riy misollar orqali dalillanishiga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy muhit, diniy-reaksion guruhlar, qozilar tanqidi, avom xalq hayoti, hajviy she’riyat.*

Abstract

The article presents the generalized images of local officials criticized in the satirical works of the poets of the Fergana Valley during the period of national revival, Nodim Namongoniy, Mullah Yuldash oglu Khilvatiy, Is’hokhon tora Ibrat, and Ubaydulla Zavqiy. The critical thoughts about the activities and policies of the realistic images of their time depicted in the works of these poets are included in the scope of analysis. At the same time, an attempt is made to prove the wrong policies of some judges who disguised themselves as Islam over the common people through poetic examples.

Key words: *The social environment, religious-reactionary groups, criticism of judges, common people’s lives, the satirical poetry.*

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysining adabiy hayoti, she’riyatdagi yangilanishi va milliy uyg‘onish g‘oyalari bilan alohida ajralib turgan. Ushbu davrda jamiyat hayotidagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ziddiyatlar adabiy muhitda o‘z aksini topdi. Ayniqsa, mahalliy amaldorlar, ularning faoliyati va xalq bilan munosabatlari she’riyatda keskin tanqidiy ohangda yoritildi.

Ma’lumki, milliy uyg‘onish davri adabiyoti millat taqdiriga befarq bo‘lmagan ziyolilar, shoir va adiblar faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu davrda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi kuchaydi, mahalliy amaldorlar (beklar, qozi, amin, mirzaboshi, volost boshliqlari va boshqalar) ko‘pincha zulmkorona siyosat yuritdi,

Xalq manfaatlariga zid harakatlar, poraxo‘rlik, mansabparastlik va adolatsizliklar tobora kuchayib bordi. Adabiyot esa jamiyatda yuz berayotgan ushbu muammolarni ko‘tarib chiqib, xalq ko‘nglidagi dard-u hasratni ifoda etdi.

Milliy uyg‘onish davri Farg‘ona adabiy muhiti vakillari mahalliy amaldorlarni quyidagi xususiyatlar asosida tasvirlashga harakat qildilar:

1.Poraxo‘r va adolatsiz amaldor – xalqni qiynagan, soliq va jarimalar bilan ezgan hokimlar.

2.Mansabparast va riyo qiluvchi shaxs – lavozimi uchun xalqni emas, o‘z manfaatini ko‘zlagan amaldorlar.

3.Adolatdan yuz o‘girgan qozi va muftiylar – diniy va huquqiy masalalarda sotqinlik qilgan shaxslar. Shoirlar bu obrazlarni hajviy, tanqidiy va ijtimoiy-siyosiy ruhdagi she’rlari orqali yoritib berishga shga intildilar.

Farg‘ona adabiy muhiti vakillari orasida mahalliy amaldorlar masalasiga ko‘p bora murojaat qilgan ijodkorladan biri 0Ubaydulla solih o‘g‘li Zavqiy she’rlarida xalqni aldov va adolatsizlik bilan ezgan hokimlar hajv qilinadi. Namangan adabiy muhitining vakillari Nodim Namongoniy, mulla Yo‘ldosh o‘g‘li Xilvatiy, Is’hoqxon to‘ra Ibrat singari shoirlar mahalliy amaldorlarning zolimligi va

mustamlaka ma'murligi bilan hamkorligini fosh etdilar. Ularning hajviy she'rlarida xalqning zulm va adolatsizlikdan noligan holda amaldorlarning esa shafqatsizligi ochib berildi.

Nodim Namongoniyning o'z davrining realistik manzaralarini aks ettiruvchi "G'alati" va "Xit qildi" radifli hajviy asarlarida hukmron tabaqa vakillariga chizgilar realistic uslub orqali yoritib berilganligi jihatidan ajralib turadi. Shoirning "Xit qildi" radifli hajviyasida o'z davrining og'riqli muammolari yoritilgan bo'lib, mahalliy hukmdorlar tomonidan oddiy xalq boshiga solingan soliqlar haqida gap boradi:

Xaloyiqni bu yil ahvoli tang o'ldi maishatdin,
Bo'lib qimmatchilik, bu narx behamvor xit qildi.
Solibon uy puli, o'lpon, zemiskayu qorovul pul,
Kelibon erta-kech istarshin, amlokdor xit qildi. [Намонгоний, 1964: 25].

Nodim Namongoniy hajviyasida ko'tarilgan mazkur muammolar uning zamondoshi bo'lgan Mulla Yo'ldosh o'g'li Xilvatiy ijodida mantiqan davom etadi. Bu haqda Xilvatiy devonida "Xilvatiy yashagan zamonda chor amaldorlari va mahalliy hukmdorlar tomonidan joriy etilgan turli-tuman soliqlar kambag'al dehqonlarning, mehnatkash xalqning tinkasini quritgan edi. Shoir do'sti, hammaslagi Nodim g'azaliga yozgan "Shikoyati paxta" muxammasida xalqning ana shu ahvoliga oid kartinalarni chizib beradi:

Bir necha kambag'allar ovqatni o'tkuzolmay,
Qishlik maoshlarining asbobini tuzolmay,
Har kimsadin olib pul, mingdin birin uzolmay,
Paxtaga pul ko'tarib, vaqtida yetkuzolmay,
*Orqasidab mahosil, dehqonchilik tovonda" [Хилватий, 2001: 44].*tarzdagi satrlar uchraydi.

Ushbu davr she'riyatda xalq va amaldorlar qarama-qarshiligi tobora kuchayib borganligini yoritish yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga xalq va amaldorlar o'rtasidagi qarama-qarshilik aniq ifodalanadi. Natijada davr she'riyatida xalq – mazlum, ezilgan, haqqini topolmagan, amaldor–zolim, mansabini suiste'mol qilgan shaxs sifatida namoyon bo'ldi. Shoirlar esa adolat tarafida bo'lib, she'riyatni kurash maydoniga aylantirdilar.

Mahalliy amaldorlar tanqidining ijtimoiy ahamiyati ko'proq dinni niqob qilib olgan qozilar yuritgan noto'g'ri siyosatlar orqali yoritilishi ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu haqda "Qozilar boylar bilan bir yoqadan bosh chqarib xalqni talar, bor-yo'g'ini shilib olar, yuqori tabaqa manfaatlarini ko'zlab ish ko'rar, poraxo'rlik bilan kun kechirar edilar. O'zbek shoirlari Muqimiy "Dodxoxim", "Voqeai qozi saylov", Shavqiy "Ahli riyo", Ochildi Murod Miriy "G'azali dar e'tiroz" kabi satirik she'rlarda yuqorida zikr qilingan amaldorlar - qozilar hayotining haqqoniy manzarasini chizdilar". [Ибрат, 1994: 71] tarzdagi ma'lumotlar uchraydi.

Ushbu davrning hajviy yo'nalishdagi she'riyati xalqning ijtimoiy ongi uyg'onishiga, adolat va ozodlik g'oyalarining shakllanishiga, milliy uyg'onish mafkurasining kuchayishiga xizmat qildi. Bu bilan Farg'ona adabiy muhitidagi she'riy asarlar nafaqat badiiy jihatdan, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyat jihatidan ham boyib bordi.

Milliy uyg'onish davri Farg'ona adabiy muhitidagi lirik asarlar orqali xalqning hayotini muhofaza qilish muammolari ham ustuvorlik qiladi. She'riyat mavzusiga o'qtomir sifatida kirib kelgan adolat mavzusi tez orada ijtimoiy kurash vositasiga aylandi. Ushbu meros bugungi kunda ham adolat, halollik va xalqparvarlik g'oyalarini anglashda beqiyos ahamiyatga ega sanaladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston xalqlari ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati o'zining barcha jihatlari bilan Farg'ona vodiysining iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga jadallik bilan kirib keldi. Shu jarayonda mahalliy amaldorlarning faoliyati ham ijobiy hamda salbiy jihatlarda badiiy adabiyotda, ayniqsa she'riy asarlarda o'z aksini topdi. Tez orada Farg'ona vodiysi adabiy muhiti esa bu davrda milliy

uyg‘onish va o‘zlikni anglash jarayonlarining markazlaridan biri sifatida shakllanib ulgurdi.

She’riyatning asosiy mavzularidan biri – xalq va mahalliy amaldorlar munosabatlarini yoritish bo‘ldi. Shoirlar mahalliy amaldorlarni tanqid qilish orqali ijtimoiy adolatsizlik, poraxo‘rlik, zolimlik va mustamlakaga xizmat qilish kabi illatlarni fosh etishga intildilar.

Mustamlaka ma’muriyati – general-gubernator, rus ma’murlari, harbiy qo‘shinlar, mahalliy amaldorlar – beklar, qozi va muftiylar, mirzaboshilar, volost boshliqlari, soliq yig‘uvchilar orqali boshqarildi. Mahalliy amaldorlar ko‘pincha xalq manfaatlarini emas, o‘z shaxsiy boyligi va mansabini himoya qilish harakatida bo‘ldilar. Buning oqibatida xalqning huquqlari poymol qilindi, soliq va jarimalar haddan tashqari oshirildi, adolatli saylov o‘rnini poraxo‘rlik egalladi. Shoirlar ana shu illatlarni tanqid qilib, xalqning dardini ifoda etishga kirishdilar. Bu tasvirlar she’riyatni nafaqat badiiy, balki ijtimoiy hujjat darajasiga ko‘tarildi.

Masalan, Marg‘ilon adabiy muhitining vakili Xojajon Xo‘ja Rojiy Marg‘iloniy she’rlarida hokim va amaldorlarning xalq ustidan qilgan zulmlarini hajviy ruhda tasvirlanadi. Uning ijtimoiy ruhdagi she’rlarida “haq sotuvchi qozi”, “o‘z qornini o‘ylovchi bek”, “yolg‘onchi va riyokor amaldor” kabi obrazlarn faol uchraydi.

Namangan adabiy muhitining vakili Mulla Yo‘ldosh o‘g‘li Xilvatiy she’rlarida mansabparastlik va xalq dardiga befarqlik asosiy tanqid obyekti bo‘lgan. U adolatning buzilishi millatni zaiflashtirishiga alohida e’tibor qaratadi.

Qo‘qon adabiy muhitining hajvgo‘y shoiri Ubaydulla Solih o‘g‘li Zavqiyning she’rlarida amaldorlarning nodonligi, poraxo‘rligi va mustamlaka xizmatkoriga aylanganini ochib berish ustun turadi. U adolatdan yuz o‘girgan qozilar, zolim amaldorlar va mansabparastlar haqida o‘tkir tanqidlarni yoritdi. Shoirning qator hajviy yo‘nalishdagi she’rlari o‘z davrining amaldorlarini tanqid qilishga qaratilgan. Uning “Talading baring”, “Dar hajvi shoh Inoyat qo‘rboshi”, “Obid mingboshi haqida hajv”, “Hoji Ahmadxo‘ja qozi va tariqi ta’rix”, “Abdurahmon shayton”, “G‘o‘daslik boy haqida hajv” kabi hajviy she’rlarida realistik voqealarini yoritilishi bilan birga davrning real shaxslarining kirdikorlari fosh etiladi. Shoirning “Talading baring” nomli hajviyasida oddiy kambag‘al xalqning ustidan kun ko‘rayotgan mahalliy amaldorlar obrazi umumlashtirilgan holda ularning olib borgan faoliyati yoritib beriladi. Shoir she’rining dastlabki bandini avom xalq tilidan so‘zlagan holda mahalliy amaldorlarni it hayvonining kishilarni talashiga qiyoslaydi:

Eshit arzi holim, ey (shanqilar),
Meni muncha yakkalading baring!
Chopishib kelib, qoqishib turib,
Xiyla qo‘rqitib talading baring [Завқий, 1960: 42]!

Yana bir namanganlik shoir Is’hoqxon to‘ra Ibrat ijodida xalqning nolasi va faryodi ifoda etiladi. U hukmron vakillarning yuritgan faoliyatini yoritishda mavlono Muqimiy ijodiga ergashadi. Bu jihatdan shoirning “Bo‘lubdur” radifli g‘azali xarakterli sanaladi:

Ellikboshi deganlar, uy boshndan yeganlar.
O‘z mansabiga mag‘rur, go‘yoki xon bo‘lubdur.
Har ko‘chada qorovul, yo‘qdur qo‘lida dovul,
So‘zlar chaqib bo‘lusga, misli chayon bulubdur [Ибрат, 1994: 94].

Shoir g‘azalida hukmdor vakillarning qilmishlarini go‘yoki chayon chaqishiga qiyos etadi. Uning she’rlarida mahalliy amaldorlar mustamlakachilik siyosatining “vositachisi” sifatida tasvirlanadi.

Farg‘ona she’riyatida xalq va amaldorlar qarama-qarshiligi quyidagicha ifodalanadi:

Xalq – mehnatkash, ezilgan, adolat izlovchi, amaldor – zolim, poraxo‘r, mustamlaka xizmatkori.

Shoirlar xalqni sabr va chidamga emas, balki uyg‘onish va adolat uchun kurashga chorladilar. Shoirlarning mahalliy amaldorlarni tanqid qilishi natijasida xalq ongini uyg‘ota oldi, ular o‘lkaga adolat va milliy ozodlik g‘oyalarini yoyish tarafdori bo‘ldi. Shu bilan birfa milliy uyg‘onish davrining

mafkuraviy asosini mustahkamlashga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, milliy uyg‘onish davrining Farg‘ona vodiysi she’riy asarlari orqali xalqning real turmush tarzi hajviy she’rlar orqali ijtimoiy kurash vositasiga aylandi. Milliy uyg‘onish davri Farg‘ona adabiy muhitining hajviy she’riyatida mahalliy amaldorlar masalasi eng dolzarb ijtimoiy mavzulardan biriga aylanib ulgurdi. Mahalliy amaldorlarning poraxo‘rligi, zolimligi va mustamlakaga xizmat qilishi keskin tanqid ostiga olindi. O‘z davridagi she’riyat nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki xalqning adolat va ozodlikka intilishining ovoziga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нодим Намонгоний. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчилар: Турсунов У., Халилбеков А. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1964.

2. Хилватий. Девон / Тадқиқ қилувчи, эски ўзбек араб ёзувидан нашрга тайёрловчи ва изоҳларни тузувчилар: Исматуллоҳ Абдуллоҳ. –Тошкент: Фан, 2001.

3. Завқий. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчи: Раззоқов Ҳ. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1960.

4. Исъҳоқхон Ибрат / Масъул муҳаррир: Ризаев Ш. – Тошкент: Шарқ, 1994.

“MUSHTUM” VA “MULLA NASRIDDIN” JURNALLARINING ADABIY MANBA SIFATIDA O‘RGANILISHI

Fazilat Muhammadiyeva,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti
e-mail: fazilatmurodzoda8@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada XX asr boshlarida turkiy xalqlar madaniyati va adabiyotida muhim o‘rin tutgan “Mushtum” va “Mulla Nasriddin” jurnallarining o‘zaro aloqalari, ularning adabiy-madaniy ahamiyati, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni tanqidiy satira va yumor orqali ochib berishdagi roli tahlil qilingan. Jadidchilik harakati kontekstida shakllangan bu nashrlar turkiy xalqlarning milliy uyg‘onishi va matbuot rivojida muhim o‘rin tutganligi o‘rganilgan. Maqolada, shuningdek, istiqbolda mazkur jurnallarni ilmiy tadqiq etish zarurati, ularning o‘zbek va ozarbayjon madaniyati uchun ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *“Mushtum” jurnali, “Mulla Nasriddin” jurnali, jadidchilik, turkiy xalqlar madaniyati, satira, adabiy aloqalar, o‘tkir hajviy maqolalar, adabiy-estetik tafakkur.*

Turkiy xalqlar azaldan tili, tarixi, madaniyati va urf-odatlari jihatidan mushtarak ildizlarga ega. Bu xalqlar o‘rtasidagi uzoq yillik iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar, adabiy aloqalar madaniyat hamda tamaddun rivojida muhim va benazir omil bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, XX asrning dastlabki yillarida boshlangan milliy uyg‘onish va jadidchilik harakatlari, yangi matbuotning yuzaga kelishi hamda adabiy faollik turkiy xalqlarni yanada yaqinlashtirdi, birlashtirdi. Shu jihatdan, o‘zbek va Ozarbayjon xalqlari o‘rtasidagi adabiy-madaniy hamkorlik o‘ziga xos tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

XX asr boshlarida turkiy xalqlar orasida madaniy, ijtimoiy va adabiy aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. Ozarbayjon va Turkiston, xususan, O‘zbekiston xalqlari orasida adabiy hamkorlik nafaqat o‘zaro madaniy yaqinlik, balki umumiy tarixiy, diniy va milliy qadriyatlar asosida mustahkamlanib bordi. Bu jarayonda “Mushtum” va “Mulla Nasriddin” kabi satirik, tanqidiy ruhdagi jurnallar o‘ziga xos maktab yaratdi, jamiyatning ijtimoiy muammolarini ko‘tarib, adabiy va ijtimoiy hayotda sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi.

Jadid darg‘alaridan bo‘lgan Abdulla Qodiriy va G‘ozi Yunus tomonidan 1923-yilda tashkil etilgan “Mushtum” jurnali bugungi kunga qadar bir asrlik yo‘lni bosib o‘tib, hanuz faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Bu nashrning ta’sis etilishi bevosita jadidlar harakatining g‘oyaviy ta’siri bilan bog‘liqligini inkor etib bo‘lmaydi. Chunki XX asr boshlarida xalqni jaholat va savodsizlikdan qutqarish uchun matbuot eng muhim vositaga aylangan edi. “Mushtum” ham ana shu jarayonning mahsuli sifatida dunyoga keldi.

Jurnalning asosiy maqsadi xalq hayotidagi muammolar, jamiyatda ildiz otgan illatlar, ijtimoiy-siyosiy masalalarni satirik uslubda fosh etish edi. “Mushtum” sahifalarida mutaassiblik, johillik, adolatsizlik, byurokratizm, xalq manfaatiga zid siyosiy va ijtimoiy illatlar satira va yumor vositasida keskin tanqid qilindi. Shu orqali xalqni o‘ylashga, o‘z hayotini yaxshilashga undash maqsad qilingan edi. Qodiriy jurnalning nomlanishi haqida nashrning birinchi sonida chop etilgan “Mushtum ta’rifida” nomli maqolasida quyidagicha yozadi: “Bu mushtum zo‘rlik mushtumi emas, haqlik mushtumidir, bu mushtum zolimlar mushtumi emas, mazlumlar mushtumidir. Shuning uchun buning ma’nosi ham boshqachadir...” [Mushtum, 1923: 2].

“Mushtum” jurnali turli davrlarda nafaqat jurnalistika, balki o‘zbek adabiyotining eng yirik namoyandalari uchun ham ijodiy minbar vazifasini o‘tagan. Jumladan, Abdulla Qodiriy o‘zining

keskin hajviy chiqishlari bilan mashhur bo‘lgan bo‘lsa, G‘ozi Yunus satira orqali jamiyatdagi illatlarni ko‘rsatishda davom etdi. Keyinchalik jurnal sahifalarida G‘afur G‘ulomning o‘tkir hajviy maqolalari, “Shum bola” asari, Abdulla Qahhorning tanqidiy ruhdagi asarlari chop etildi. Xususan, Qahhorning ilk she’ri – “Oy kuyganda” 1924-yilda “Mushtum” jurnalida bosilib chiqqan.

Bu nashr, aslida, o‘zbek adabiyoti va publitsistikasining turli davrlaridagi rivojlanish bosqichlarini yaqqol aks ettirib, turli avlod ijodkorlarini birlashtirgan ijodiy maktab bo‘lib xizmat qildi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

1906-yilda Ozarbayjonda Jalil Mamadquluzoda tashabbusi bilan ta’sis etilgan “Mulla Nasriddin” jurnali Turkiston vohasining eng mashhur nashri bo‘lgan. O‘z davrida “Mushtum” jurnali o‘z sahifalarida ushbu jurnal haqida shunday deb yozgan edi: “Mulla Nasriddin”! Sen Erondan Sharqiy Turkistongacha, Ozarbayjondan Tataristongacha, Boshqirdistondan Qozog‘istongacha, hatto Qrimdan Dog‘istongacha o‘z qo‘lingni uzatding va g‘aflatdagi musulmonlarni uyg‘otding” [Mushtum, 1924: 4]. Ushbu fikrlardan ham ko‘rinib turibdiki, “Mulla Nasriddin” jurnali turkiy va musulmon xalqlar orasida nihoyatda katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan. Bu nashr o‘z faoliyati bilan faqat bir hudud bilan cheklanib qolmadi, aksincha, Erondan Qrimgacha bo‘lgan mintaqalarda ijtimoiy adolat, uyg‘onish, tanqidiy tafakkur va taraqqiyot g‘oyalarini yoygan yirik publitsistik hodisa darajasiga ko‘tarildi.

Jurnaldagi maqola, felyeton, she’r va karikaturalar jamiyatdagi adolatsizlik, diniy mutaassiblik, jaholat va zulmni fosh etardi. Shu bilan birga, u milliy ozodlik, ma’rifatparvarlik va islohotchilik g‘oyalarini yoydi. “Mulla Nasriddin” jurnali 25 yil davomida Tiflis, Tabriz va Bokuda chop etilib, oddiy jurnal bo‘lishdan tashqari, butun bir davrning fikriy kurash maydoniga, haqiqatni aytish minbariga aylandi.

Jadidchilik asoschilaridan biri Ismoil Gaspralining ta’kidlashicha, “Mulla Nasriddin” jurnalining keng kitobxonlar ommasiga tez singib ketishi, jozibadorligi va kuchli ta’sir kuchiga ega bo‘lishining asosiy omili – unda hayotiy voqealarni, og‘riqli haqiqatlarni hamda eskirgan urf-odatlarni tanqid qiluvchi satirik va yumoristik maqolalarning muntazam berib borilishi, shuningdek, milliy ruh va rang-baranglikni ifodalovchi, san’atkorona ishlangan qiziqarli karikaturalarning chop etilishidir. U turk dunyosini “Mulla Nasriddin” jurnalini o‘qishga chaqirgan holda, shunday deb yozadi: “To‘plamlarimizning to‘rtinchisi rangli rasmlar bilan bezatilgan, hajv, latifa, tanqid va ma’naviy tarbiyadan so‘zlovchi “Mulla Nasriddin” jurnalidir. Ushbu to‘plam haftasiga bir marta Tiflisda nashr etiladi. Muharriri Jalilbek Mammadquluzodadir. Hozirgacha muntazam ravishda 23 nashri chiqqan. Rasmlari va mazmuni nihoyatda chiroyli va milliydir. Tili o‘tkir va ta’sirlidir. Masallari kulgili va ibratlidir. Shundayki, achchiq, zaharli haqiqatlarni shirin, shakar kabi o‘qish usuli va qadimiy odatlar hamda ko‘rsatmalar latifalar bilan yetkazilganini ko‘rmoqchi bo‘lganlar ushbu jurnalni olib o‘qishlari lozim” [Gasprali, 1883, 2].

“Mulla Nasriddin” ko‘proq umumturkiy maydonda ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, “Mushtum”, asosan, mahalliy – o‘zbek xalqning ijtimoiy muammolariga e’tibor qaratdi. Shunga qaramasdan, ularning g‘oyaviy yo‘nalishi va uslubiy yaqinligi turkiy matbuotning birligi va uzviyligini ko‘rsatadi.

Hozirgi kungacha “Mulla Nasriddin” jurnali yuzasidan turk, ozarbayjon, rus va boshqa ko‘plab millat olimlari tomonidan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, ozarbayjonlik olimlar N. Axundov [4], A. Husaynov [5], R. Rzali [6] tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar alohida diqqatga sazovordir. Ularda jurnalning adabiy, madaniy va siyosiy ahamiyati, unda faoliyat yuritgan ijodkorlarning asarlari chuqur o‘rganilgan.

“Mushtum” jurnali esa bir asrdan ortiq vaqt mobaynida faoliyat yuritib kelayotgan bo‘lsa-da, yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu esa kelgusida “Mushtum” sahifalarida chop etilgan materiallarni yig‘ish va ularni tizimlashtirish, mavjud qo‘lyozmalarni hozirgi imloga keltirish, jurnalga oid

bibliografik manbalar yaratish hamda uning ijtimoiy va adabiy ta'sirini "Mulla Nasriddin" bilan qiyosiy tahlil qilishni taqozo qiladi.

Eng muhimi, "Mushtum"ni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish nafaqat o'zbek satirik matbuotining ildizlarini yanada oydinlashtiradi, balki XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy hayot, xalqning dunyoqarashi va adabiy-estetik tafakkuri haqida ham qimmatli xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Bugungi kunda jurnalni o'rganishning ahamiyati shundaki, undagi satirik ruh, tanqidiy fikr va xalqona obrazlar zamonaviy matbuot uchun ham ibrat manbayi bo'lib qolmoqda. "Mushtum" tajribasi bizga so'zning qudrati, satiraning jamiyatni uyg'otishdagi kuchi va matbuotning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi ulkan rolini eslatib turadi. Shu ma'noda jurnalda mujassam bo'lgan madaniy merosni o'rganish bugungi avlod uchun nafaqat tarixiy, balki ma'naviy va ma'rifiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Muxtasar qilib aytganda, "Mulla Nasriddin" va "Mushtum" jurnallari jadidchilik harakati va turkiy matbuot tarixida bebaho manba hisoblanadi. Ularda chop etilgan maqola, felyeton va karikaturalar jadidlarimizning tinimsiz kurashlari samarasi edi. "Mulla Nasriddin"ning 1931-yilgacha davom etgan faoliyati o'z davrida milliy ozodlik g'oyasini yoyishda ulkan ahamiyat kasb etdi. "Mushtum" esa asrdan ziyod vaqt mobaynida o'zbek xalqining ijtimoiy hayoti va ma'naviy qiyofasini aks ettirib kelmoqda. Shu bois ushbu jurnallarni chuqur o'rganish, ularning adabiy merosini zamonaviy ilmiy aylanmaga kiritish, bibliografik va matnshunoslik ishlarini amalga oshirish filologiya fani uchun muhim vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Mushtum" ta'rifida. "Mushtum", 1923-yil, 18-fevral, 1-son.
2. "Mushtum" jurnali. – Toshkent, 1924-yil 5-iyul, 23-son.
3. Ismoil Gasprali. Holin ifodasi. "Tarjimon" gazetasi. 1883-yil.
4. Axundov, N. "Mulla Nasriddin" va "Ozarbayjon satirik matbuoti". – Ozarbayjon. – 1967. – №5.
5. Husaynov, A. "Mulla Nasriddin" tayyorasi. – Kommunist. – 1967. – 4-iyun.
6. Rzali, R. Milliy matbuotimizning shoh asari "Mulla Nasriddin". – Ozarbayjon. – 2005-yil. – 16-iyul.

FURQAT ADABIY MEROSINI O‘RGANISH YO‘LIDA

Baqoyeva Gulbadanbegim Sherali qizi,
BuxDU filologiya va tillarni o‘qitish
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Maqolada Furqatning adabiy merosi va publitsistik faoliyati, hayot yo‘li va ijodiy konsepsiyasini o‘rganishda filologiya fanlari doktori Nurboy Jabborov tomonidan yozilgan nomzodlik dissertatsiyasining ilmiy qimmati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Nurboy Jabborov, dissertatsiya, Furqat, qo‘lyozma, manba, bayoz.*

Abstract

The article discusses the scholarly value of the doctoral dissertation written by Nurboy Jabborov, Doctor of Philological Sciences, in studying Furqat’s literary heritage and journalistic activities, as well as his life path and creative concepts.

Keywords: *Nurboy Jabborov, dissertation, Furqat, manuscript, source, bayoz.*

Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandasi, zarrinqalam shoir Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat (1859-1909) ijodining qo‘lyozma manbalari, matniy, g‘oyaviy-badiiy tahlili haqida Maqsud Shayxzoda, Ibrohim Mo‘minov, Mahmudali Yunusov, G‘ulom Karimov, Xolid Rasul, Aziz Qayumov, Sharif Yusupov, Abdurashid Abdug‘afurov, T.Ne’matov, A.Madaminov kabi olimlar tomonidan e’tiborga molik tadqiqotlar yaratilgan. Shu silsilada ustoz Nurboy Jabborovning ham o‘ziga xos, mustahkam o‘rni bor. Ustozning har ikkala (nomzodlik, doktorlik) dissertatsiyasi ham Furqat adabiy merosi tadqiqiga bag‘ishlangan. Biz bu o‘rinda olimning Furqat adabiy merosi qo‘lyozma manbalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan nomzodlik dissertatsiyasidagi ayrim ilmiy yangiliklar xususida baholi qudrat fikr yuritmoqchimiz.

Avvalo aytish joiz, Furqat adabiy merosining qo‘lyozma manbalarini tadqiqot obyektiga aylantirish, ular haqida manbashunoslik ilmi nuqtayi nazaridan mulohaza yuritish, iste’dodli shoir asarlarining qo‘lyozma bayoz va majmualardagi matnlarini aniqlab, tadqiq qilish, ularning joriy imlodagi nashrlarini qo‘lyozma manbalar bilan chog‘ishtirib tahlil etib, mukammal ilmiy tanqidiy matnni yaratish bilan bog‘liq muammolarni hal etishning eng ma’qul yo‘llarini ko‘rsatish N. Jabborov fundamental tadqiqotining mag‘zida turadi.

Ushbu ulkan ilmiy maqsadni amalga oshirish uchun olim Furqat qo‘lyozma asarlarining O‘zbekiston FA H. Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar instituti (sobiq) xazinasida 322, 13, 2561, 1572, 1000, 1502, 1473, 995, 1538, 234, 2743, 2102, 1895 raqamlari bilan saqlanayotgan qo‘lyozma va majmualarni, O‘zbekiston FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozma asarlar xazinasida Furqat asarlari kiritilgan 7521, 10072, 5736, 7512, 6352, 1821, 1325, 5666, 9971, 9072, 9919, 7710, 4179, 4207, 11517 raqamlari bilan saqlanayotgan qo‘lyozmalarni sinchiklab nazardan o‘tkazgan. O‘zbekiston Markaziy Davlat arxivi, G‘afur G‘ulom nomidagi Farg‘ona viloyat adabiyot muzeyi xazinalarida saqlanayotgan noyob manbalar ustida astoydil ilmiy ish olib borgan.

Natijada ayrimlari qayd qilingan qo‘lyozma bayoz va majmualardan o‘ziga qadar ilm ahliga ma’lum bo‘lmagan Furqat qalamiga mansub asarlarning namunalarini aniqlab, arab yozuvidan joriy imloga transliteratsiya qilib, o‘z tadqiqotiga ilova qilgan. Bu o‘rinda Nurboy Jabborov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan Furqat asarlarining ayrimlarini qayd qilish bilan cheklanamiz:

1. Mane, xastaholu, dardmand, faqir,

Muhabbat kamandig‘a erdim asir,-bayti bilan boshlanuvchi g‘azali;

2. “Manga raf aylamas g‘am shiddatin sahrou gulshan ham” deb boshlanuvchi G‘oziy g‘azaliga bitgan muxammasi;

3. Haj safarida yozgan she’rlari;

4. “Bir kuni oldimga keldi dilbari ayyor o‘zi” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azal;

5. Ilm ahliga ma’lum bo‘lmagan quyidagi fardi:

Nazokatta qadding naxli savodi bo‘lmasun xam deb,

Suyanchiq qo‘ydi qudrat bog‘boni, bu uso ermas.

N. Jabborov nomzodlik dissertatsiyasining “Furqat asarlarining qo‘lyozma manbalaridagi silsilasi” deb nomlangan birinchi bobida Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning hozirgacha topilmagan devoni 1885-1886-yillarda tartib berilganligi haqida fikr yuritilib, olim o‘z mulohazalarini Furqatning “Sarguzashtnoma”dagi mulohazalari hamda Muqimiy hujrasi muzeyida saqlanayotgan “Bayoz” radifli she’ridagi ishoralar orqali asoslagan:

“... g‘azaliyotim Farg‘ona muzofotiga va digar mamlakatlarga muntashir bo‘ldi va sho‘rangiz ash’orimdin xonaqoh hofizlari o‘qub, safo xayli halqasig‘a halovatlar bag‘ishladi va tarabrez abyotimdin xushilhon ma’nilar soz birla savt chiqorib, nishod ahlini majlisig‘a farhatlar yetkurdi va bul mutafarriqadin muzi’donimda qolgan g‘azal va muxammaslarim avroqini daftar sherozasig‘a bog‘lab jam qildim.

Furqatning “Bayoz” radifli she’ri ham (Muqimiy hujrasi – muzeyida saqlanmoqda) mazkur to‘plamning tuzilganligidan dalolat beradi:

Topdi oroyish g‘azallardinki, har bir misrasi,

Qomati barjastai bir sho‘xi siyminbar bayoz.

Har qachonkim, ochti ta’bim bog‘idin bir toza gul,

Bog‘ladim guldasta Furqat, ayladim daftar bayoz [Jabborov,1994:5].

Hazrat Alisher Navoiyning Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan, 391 g‘azal, 41 ruboiy, 1 mustazod, 1 muxammas jami 434 she’rdan tashkil topgan “Ilk devon”i 1465-1466-yillarda ulug‘ shoirning muxlislari tomonidan tuzilgan.

XIX asr Xorazm adabiy muhitining iste’dodli namoyandasi Shermuhammad Avazbiy o‘g‘li Munisning (1778-1829) O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar xazinasi 1330 raqami bilan saqlanayotgan devoni haqida filologiya fanlari doktori N. Jumayev yozadi: “Ayniqsa, 1330-iventardagi qo‘lyozma devon juda katta ilmiy ahamiyatga ega. Chunki ushbu devon Munis hayotligida (1804-1805-yillar) – 27 yoshidayoq tuzilgan. Devonning so‘nggi sahifalaridan o‘rin olgan mana bu tuyuq shunday hukm chiqarishga asos beradi:

Muniso, to‘kmay yigirma yetti yosh,

Vax, yigirma yetti uzra yetti yosh.

Yosh kibi mashg‘ulliq qilmoq nedur

Har qachonkim suhbatingg‘a yetti yosh.

Munis iste’dod quvvati va ijodiy balog‘atga erishish jihatidan daho san’atkor – Alisher Navoiyga yaqin turadi. Zotan, Navoiyning mashhur “Ilk devon”i ham san’atkorning yigirma olti yasharligida tuzilgan edi” [Jumayev, 1991: 7]. Hazrat Alisher Navoiy nafaqat o‘zbek adabiyoti, balki turkiy xalqlar adabiyotidagi eng baland tog‘, eng ulkan cho‘qqi. Hali bu cho‘qqiga hech qaysi shoir yaqin bora olgan emas. Olimlarimizning o‘z tadqiqotlarining manbai hisoblangan ijodkorlarni Navoiyga nisbatan baholashlari esa ezgulikdan nishona. Masalaga ana shu nuqtayi nazarda qaraganda, Nurboy Jabborovning nomzodlik dissertatsiyasida Alisher Navoiy va uning “Ilk devon”i tuzilishiga doir ma’lumotlar bilan qiyoslamagan bo‘lsa-da, Zokirjon Furqatning 1885-1886-yillarda o‘zining lirik she’rlarini yig‘ib, tartib berishi shoirning 26-27 yoshlariga to‘g‘ri keladi.

Nurboy Jabborov dissertatsiyasidagi bunday dalillar katta ilmiy qimmatga ega bo‘lib, muallifning polifonik tafakkurga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Adabiyotimiz tarixida Shermuhammad Avazbiy o‘g‘li Munis va Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatni Hazrat Alisher Navoiy bilan mustahkam bog‘laydigan yana boshqa nozik rishtalar ham bor. Ustoz Abduqodir Hayitmetovning manbalarga tayanib aniqlashlaricha, Alisher Navoiyning ona tomon qarindoshlari, xususan, kichik tog‘asi Muhammad Ali shoir bo‘lib qolmasdan, mohir musiqachi va xattot ham bo‘lgan. Keyinchalik bu sifatlar uning jiyanida (Alisherda) ham yangi qirralar bilan takrorlangan [O‘zbek adabiyoti tarixi. II tom, 1977: 42]. Bugun navoiyshunoslikka buyuk mutafakkirning o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan dastxat devoni ma’lum.

Shermuhammad Munis ham xattotlikni san’at darajasiga ko‘targan. Hazrat Alisher Navoiyning aruz nazariyasiga bag‘ishlangan “Mezon ul-avzon” hamda “Holoti Said Hasan Ardasher” manoqibini kitobat qilgan.

N. Jabborovning nomzodlik dissertatsiyasi Zokirjon Furqatning xattotlik mahorati haqida mukammal tasavvur uyg‘otadi. Olimning aniqlashicha, “Furqatning xattotlik borasida ham yuksak mahorat egasi bo‘lganligi ishonchli manbalarda qayd etilgan. Xususan, Firdavs Aziziy bu haqda shunday yozadi: “Furqatning husnixati ham nihoyatda chiroyli bo‘lg‘on” [Jabborov, 1994: 9].

Zokirjon Furqat qalamiga mansub “Sayding qo‘yaber sayyod” musaddasining yozilish tarixiga doir har xil qarashlar mavjud [Qayumov, 1986: 4; Yusupov, 1984: 88-89]. N. Jabborov o‘z tadqiqotida A. Qayumov, Sh. Yusupov, Arshiddin Totliq (uyg‘ur olimi) kabi olimlarning ayni masalaga doir qarashlarini nazardan o‘tkazar ekan, Qo‘lyozmalar arxividagi Furqat fondidan o‘zi aniqlagan yangi ma’lumotni quyidagicha qayd qiladi: “ ...Furqat Hindistonda iqtisoddan siqilib, piyoda yo‘l yurub, Kashmir shahriga kelishda yo‘lda bir hind qofqon qo‘yub, kiyikni tutib olibdur. Kiyik bo‘lsa urg‘ochi ekan, bolalari bor ekan. Kiyik gohi bolalariga, uy tarafga qarab yig‘lar emish, ko‘zidin yosh chiqar emish, gohi mazkur hindga qarab yig‘lar emish, Vatandin ajrag‘on, bola-chaqalaridin, volidasidin, qarindoshlaridin ajrag‘on Furqat oh tortib, faryod qilib, o‘ziga o‘xshash ezilgan kiyikni sayyod qo‘lidan ajratish uchun yonidagi bor pulini sayyod hindga berib, kiyikni qutqarib, quyib yuborib, o‘shal joyda o‘lturub dam olib aytqon she’rlarini ozroqini yozdim ...”. Shundan keyin maktub muallifi she’rning 5 bandini keltirgan [Jabborov,1994:7]. Mazkur ma’lumot jahon adabiyotshunosligida ijodkor shaxsi va uslubini uyg‘unlikda tadqiq qilishga alohida diqqat qilinayotgan bugungi kunda chuqur ilmiy qimmat kasb etadi.

Dissertatsiyada uyg‘ur olimi Arshidddin Totliqning “Furqat va Sa’dullo haqida” nomli tadqiqotida berilgan ilmiy muammo mohiyatidan kelib chiqib ma’lumotlar yaxshi tahlil qilingan. Yana N.Jabborovning aniqlashicha, Arshiddin Totliq 1957-yilda Yozuvchilar jamiyatining topshirig‘i bilan Yorkentga borgan, Furqatning hayoti va ijodiy faoliyati bilan tanishgan, uning asarlarini to‘plash va maqbarasini tiklash ishlarida qatnashgan, Furqat va Sa’dullo (“Furqatla bu Sa’dullo Hayronag‘a o‘xshaydur”) o‘rtasidagi do‘stona munosabatlar to‘g‘risida xotiralarni eshitgan. Arshiddin Totliq voqeanavis kishilardan eshitgan xotiralar dissertatsiyada quyidagicha berilgan: “Mullo Sa’dullo asli yangsorlik bo‘lib, o‘qimishli kishi bo‘lgan. U o‘z yurtidagi boy va mansabdor kishilar bilan arazlashib, yurtini tark etib, Kashmirga ketgan. Bu yerda u shoir Furqat bilan tanishib, qalin do‘stlik va birodarchilik qilishgan. O‘z sarguzashtlarini Furqatga so‘zlab bergan. Furqat uning hayot voqealaridan juda achingan va unga hisdoshlik qilgan. Ular ko‘p vaqtgacha o‘zaro sirdosh bo‘lib, bir birini yo‘qlashib, inoq bo‘lishganlar. Keyinchalik Furqat Kashmirga ketish niyatiga kelgan. O‘z yurtini eslab, Vatanga qaytish niyatida yurgan va Furqatning azmi diyor etib, Kashmirdan Shinjongga ketish taraddudini bilgan Sa’dullo unga hamroh bo‘lib, Yorkentga birga qaytib kelgan Furqatning safar ranj-u mashaqqatlarini Sa’dullo ham birga tortib, toki Xo‘tanu Qarg‘aliq va Yorkent safarlarigacha uning bilan birga bo‘lgan.

Xullas, Arshiddin Totliq Furqat o‘z musaddasida nomini zikr etgan Sa’dullo-uyg‘ur shoiri Sa’dullo Hayroniy degan xulosaga keladi” [Jabborov, 1994:8]. N. Jabborov “Sayding qo‘yaber sayyod” she’rining yaratilish tarixiga doir olimlarning turlicha qarashlarini imkon qadar aniq, nozik, halol tahlil qilgan. Uning ayni masala haqidagi xulosasi olimning yuqori ma’rifiy darajasini namoyon etadi: “Ko‘rinib turibdiki, musaddasning yozilish tarixi, asar yozilgan makon haqida turlicha qarashlar mavjud va bu

haqda fikr bildirgan olimlarning barchasi ham o‘z mulohazalarini dalillashga harakat qilgan. Bu masalaga kelajakda bajariladigan tadqiqotlar oydinlik kiritadi degan umiddamiz” [Jabborov,1994:9].

Nurboy Jabborov fikricha, ikki ba’zan uch shoirning hamkorligida g‘azal bitishi Qo‘qon adabiy muhitiga xos xususiyatdir. Olim Furqatning Zavqiy bilan hamkorlikda yozgan “Bodayi vasling qachonkim, no‘sh etibon qonamiz”, “Muddatedur, bodayi ishqing ichib mastonamiz”, “Ayni nazarda nogoh ko‘z ul jamola dushti” g‘azallari hamda Nisbatiy, Zavqiy, Furqat hamkorlikda yozgan “Oy jamoling sham’iga har kecha o‘rtab yonamiz” g‘azalini Qo‘qon adabiy muhitidagi mazkur o‘ziga xoslikka dalil sifatida keltiradi.

Olimning ushbu o‘ziga xoslik mohiyatidan kelib chiqib, furqatshunoslikdagi ba’zi munozarali masalalarga oydinlik kiritishi e’tiborga molik. Bu o‘rinda ayni masalaga doir Nurboy Jabborov tadqiqotidan birgina misol keltirish bilan cheklanamiz.

“Va’da yolg‘onlar tilsimi intizor etti meni” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azal quyidagi maqta’ bilan yakunlangan:

Bilmadim, Furqat, jahon bog‘ida san ne rang gul,
Loladek qat-qat, Muqimiy, dog‘dor etti mani.

N.Jabborovning aniqlashicha, professor G‘ulom Karimov Muqimiyning 1960-yilda chop etilgan ikki jildlik “Asarlar to‘plami”ga yozgan izohlarida mazkur g‘azalni Muqimiyga nisbat beradi. Filologiya fanlari doktori Xolid Rasul esa ushbu g‘azalni Furqat qalamiga mansub ekanligini ta’kidlagan.

Nurboy Jabborov yozadi: “Ma’lumki, Qo‘qonda Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Nisbatiy va boshqa shoirlar doimiy ravishda bedilxonlik, g‘azalxonlik kechalarini, shuningdek, mushoiralar, turli mavzularda mubohasalar uyushtirib turganlar. Shunday kechalarda ba’zan ulardan birortasi bir bayt she’r aytsa, qolganlari she’rni davom ettirib, oxiriga yetkazganlar. Bizningcha, mazkur she’r Furqat va Muqimiyning ana shunday kechalarda hamkorlikda bitgan she’rlaridan biri bo‘lsa kerak. She’r shu paytgacha qadar faqat Muqimiy asarlarining nashrlariga kiritilib, Furqatning 1991-yilgi faksimile nashriga kiritilgan xolos. Bizning fikrimizcha, mazkur she’rni har ikki shoir asarlarining nashrlariga kiritish lozim. Faqat, izoh berilganda, she’rning ijodiy hamkorlik mahsuli ekanligini qayd etish zarur bo‘ladi” [Jabborov, 1994: 11].

Biz yuqorida ayrimlariga e’tibor qaratgan ilmiy yangiliklari bilan birga N. Jabborovning nomzodlik tadqiqoti yana ko‘pgina ilmiy yutuqlarga ega bo‘lib, ulardan ba’zilari quyidagilardir:

1. Tadqiqotda Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat asarlari kiritilgan ellikka yaqin qo‘lyozma manbalar sinchiklab nazardan o‘tkazilib, ulardan aksariyati ilmiy tahlil qilingan;

2. Bayoz va majmualardagi Furqat qalamiga mansub ilm ahliga ma’lum bo‘lmagan 15 she’r aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritilgan;

3. Dissertatsiyada Furqat hayoti va ijodi bilan aloqador o‘zbek va qardosh turkiy xalqlar olimlarining tadqiqotlarga faol munosabat bildirilgan;

4. Shoir, nosir, olim Furqatning mohir tabib ekanligi “Zubdat ul-hukamo” asari bilan dalillangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Furqat asarlarining qo‘lyozma manbalari: filol. fan. nomz...dis. avtoref. – Toshkent, 1994.
2. Jumayev N. Munis g‘azaliyoti. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1991.
3. Qayumov A. Shoir Furqat // Sharq yulduzi. 1986, №4.
4. Yusupov Sh. Musaddasning abadiyati. – Yusupov Sh. Furqat yo‘llarida. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1984.
5. O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik, II tom. – Toshkent: Fan, 1977.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING “MILLIY ASHULALAR UCHUN MILLIY SHE’RLAR” MAJMUASI NASHRLARI XUSUSIDA

Fotima Jo‘rayeva,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasidagi she’rlarning mavzu ko‘lami va janriy xossalari xususida so‘z yuritilgan. Bundan tashqari, Hamzaning “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasining 1980-yilda nashr etilgan nusxasi tarkibi haqida ham bir qancha fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *majmua, Hamza, “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar”, nusxa, nashr, toshbosma, 1980-yil nusxasi, Solkashon, “Hurriyat”, “Kengash”.*

Abstract

“This article discusses the thematic scope and genre characteristics of the poems in Hamza Hakimzoda Niyoziy’s collection National Poems for National Songs. In addition, several opinions are expressed regarding the composition of the 1980 edition of Hamza’s “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar”.

Keywords: *anthology, Khamza, “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar”, copy, publication, lithograph, 1980 edition, Solkashon, “Hurriyat”, “Kengash”*

.

O‘zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri bo‘lgan, dramaturg, pedagog, kompozitor, shoir va taniqli jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889–1929) o‘zining boy adabiy merosi bilan o‘zbek madaniyati va ma’naviyatini uyg‘otishda muhim rol o‘ynagan. U Solkashon mahallasidagi eski maktab va madrasada (1896–1906), keyinchalik qisqa muddat Namangan madrasasida (1908) tahsil olgan. Adib 1909-yilda Kogon shahridagi matbaada faoliyat yuritgan. So‘ngra Toshkentga kelib usuli jadid maktablari o‘quv dasturlari bilan tanishib chiqib, shunday maktablarni dastlab Qashqardarvoza mahallasida (1910), keyin Qo‘qon shahrining Hojibek guzarida (1911) va Marg‘ilonda (1914) ochgan.

Hamza keyingi hayoti va faoliyati davomida qisqa muddat Qo‘qondagi rus-tuzem maktabida o‘qituvchi, “Sho‘royi Islom” tashkilotining ozuqa sho‘basida mirza, “Kengash” va “Hurriyat” jurnallarida muharrir (1917), Farg‘ona viloyati madaniy-maorif bo‘limi xodimi (1918), Turkiston fronti siyosiy boshqarmasi ixtiyoridagi O‘lka musulmonlar siyosiy truppasida rejissyor (1919), “Dor ush-shafaqa” maktabida mudir (1920), Buxoro viloyati maorif va harbiy targ‘ibot-tashviqot sho‘basi qoshidagi teatr truppasida rahbar (1921–1924), Farg‘ona maorif qo‘mitasi qaramog‘idagi o‘ng-bilim sho‘basida mudir o‘rinbosari (1924) singari turli lavozimlarda faoliyat yuritgan. 1926-yildan erkin ijod bilan shug‘ullangan.

Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘z ijodiy faoliyatini lirik asarlar yozish bilan boshlagan. Shoirning Nihoniy taxallusi bilan yaratgan lirik she’rlaridan tashkil topgan “Devon”i uning adabiyot maydonidagi dastlabki qadamidir. Asar “Devoni Nihoniy” nomi bilan ham ataladi. Adib Nihoniy taxallusini “Devon”ga kirmagan bir qancha she’rlarida ham qo‘llagan. Boshqa bir qancha she’rlarida esa shoir bobosining nomi bilan bog‘liq bo‘lgan Niyoziy, hajviy she’rlarida Tovonteshar kabi taxalluslaridan foydalangan. Uning keyingi ijodida esa Hamza taxallusi keng o‘rin egallaydi.

Hamzaning asarlari 1980-yilda Nazira G‘anixo‘jayeva, Dilbar Rahmatova, Halima Muxtorovalar tomonidan yig‘ilib, to‘rt tomdan iborat “Mukammal asarlar to‘plami” nomi ostida nashr ettirilgan. [Niyoziy H.H, 1980:2] Yig‘ilgan materiallar janr xususiyatiga ko‘ra guruhlarga bo‘linib, ichki xronologiyaga rioya qilingan holda chop etilgan. Ushbu nashr Hamzaning 1915-yilda yaqin do‘sti Bo‘ronboy Tojiboyev tomonidan ko‘chirilgan devonidan o‘rin olgan she’rlar bilan boshlanadi.

Qo‘lyozma hozirda G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot muzeyida saqlanmoqda.

“Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi” degan umumiy sarlavha ostida shoirning 1914–1917-yillar orasida “Oq gul”, “Qizil gul”, “Pushti gul”, “Sariq gul”, “Yashil gul”, “Safsar gul” nomi ostida nashr etilgan ashulalar to‘plami, prozaik asarlari, dramalari, ta’lim-tarbiyaga oid bir qancha risolalari, tugallanmay qolgan asarlari, maqolalari matni Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hamda Hamid Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar instituti fondlarida saqlanayotgan qo‘lyozma va toshbosma nusxalar, o‘sha davrdagi matbuot arxivlari asosida tayyorlangan.

1980-yildagi nashr quyidagi qismlardan iborat:

1. “Hikmatsiz emas ulug‘ bobolar so‘zi” (45-bet)

Ushbu she’rning qo‘lyozma nusxasi saqlanib qolmagan bo‘lib, Hamzaning 1939-yildagi “Tanlangan asarlar”i matni asosida kiritilgan. [Niyoziy H.H., 1980:277]

2. “Bo‘yi chiqmay qolmaganmi?” (46-bet)

“Bo‘yi chiqmay qolmaganmi?”, “Dunyoda hech jon yasholmas”, “Bir qism par birla bulbul” misralari bilan boshlangan ushbu uch to‘rtlik “Asarlar” (1969)dagi matn asosida tomga kiritilgan.

3. “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasidan birinchi bo‘lim (50-bet).

Hamza Hakimzoda Niyoziy xalq orasidagi mashhur kuylarni to‘plab, ular asosida yangi asarlar yaratgan. U o‘zi to‘plagan xalq kuylaridan 30 tasiga she’r yozadi. “Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasining birinchi bo‘limi 1915-yilda tuzilgan bo‘lib, shu yilning o‘zidayoq Qo‘qonda toshbosmada chop etilgan. To‘plamning birinchi sahifasida: “Noshiri shoir Nihon – Hamza Hakimzoda Niyoziy”, degan ma’lumot mavjud. [Niyoziy H.H., 1980:279]

Majmuaga kiritilgan she’rlarga biriktirilgan kuy nomlari ham Nizomiy tomonidan eslab o‘tilgan. Bundan tashqari, kuylarning kelib chiqish tarixi haqida ham qisqa ma’lumot berib o‘tilgan. Hattoki, kuylarning kelib chiqish sanalari ham ayrim o‘rinlarda hijriy yil hisobida berib borilgan.

1. Ko‘zni oching, qardoshlar, ibratlashaylik (50-bet).

She’r mashhur “Dilog‘on” ohangi asosida yozilgan. Ushbu ohang Farg‘ona viloyatining Log‘on qishlog‘ida yashovchi bir qariya tomonidan yaratilgan. Bu she’r nashrga toshbosma asosida kiritilgan.

2. Ey musulmonlar, qachon biz darda darmon istariz? (52-bet).

She’r “Eski Turon” ohangidagi ashulaga moslab yozilgan. Toshbosma asosida nashr etilgan.

3. Millar deganlarning oqar ko‘z yoshi (53-bet).

She’r “Vays ul-qarn” ohangiga moslab yozilgan. Hamzaning o‘zi quyidagi fikrni aytib o‘tgan: “Aslida bu ohangni “Vays ul qarn” ash’orini maktabda aytuvchilardan olinmishdir.

4. Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston (55-bet).

“Eski Xorazm” ohangidagi ashula vaznida yozilgan. Toshbosma asosida nashr etilgan.

5. Oh bid’at, safohat tor-u mor etding (57-bet).

“Kel menga shohim, hay-hay” ohangidagi ashula vaznida yozilgan. Toshbosma asosida nashr etilgan.

6. “Oq gul” (59-bet).

Ushbu to‘plam 1916-yil may oyida tuzilgan va shu yilda Qo‘qonda nashr etilgan. To‘plam muqovasida “Shoiri Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mulla Iskandar Barotboy o‘g‘li noshirligida”, degan yozuv bor. [Niyoziy H.H., 1980:283]

7. “Past ekanmu iqbolimiz muncha?” (60-bet).

Bu she’r “Oq gul” to‘plamiga kirgan bo‘lib, “Jon to‘ralarey, Alloh!” ashulasi ohangida yozilgan. Toshbosma asosida chop etilgan.

8. “Bir zarra bormu aql-u xushimiz?”

Ushbu she’r “Gul g‘unchalar” ashulasi ohangida yozilgan bo‘lib, Hamza “Asarlar”i (1960, 1969, 1979)ning 1-tomlarida nashr etilgan. Toshbosma asosida chop etilgan.

9. Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas" (64-bet).

"Oq gul" to'plamidan joy olgan bu she'r "Do'st mavloney" ashulasi ohangida bitilgan. Toshbosma asosida chop etilgan.

10. "Erlar va qizlar" (66-bet).

Shoir izohiga ko'ra bu she'r mushoira tarzida bo'lib, mashhur hofiz Muhammad Komil al-Mut'iy yaratgan kuylardan biriga muvofiq to'rt misrasi erkaklar, to'rt misrasi ayollar tomonidan aytiladi.

11. "Qizil gul" (68-bet).

To'plam 1916-yilda tuzilgan va shu yilning o'zida Qo'qonda Mulla Iskandar Barotboy o'g'li noshirligida toshbosmada chop etilgan. Kotibi Mullo Xo'qandiy.

12. Bizni Turkistonda shul turmushlar (69-bet).

"Qizil gul" to'plamidan o'rin olgan bu she'r toshbosma asosida nashr etilgan.

13. "Bir eshon hazratlarti aytalar ekan" (71-bet).

She'r shoir "Tanlangan asarlar"i (1960,1969, 1979)ning 1-tomlarida chop etilgan.

14. "O'zgalarni tilagi maktablar ochmoq" (73-bet).

Toshbosma asosida nashr etilgan.

15. "Boshimizda har bir tus ko'rgulik" (75-bet). Toshbosma asosida chop etilgan.

16. "Bizni to'pda izlama" (77-bet). Toshbosma asosida chop etilgan.

17. *"Vatan, Vatan der edilar,*
Na der erdim bilmay ani" (79-bet).

Toshbosma asosida chop etilgan.

18. "Yashil gul" (81-bet).

To'plam 1916-yilda tuzilgan va shu yilning o'zida Qo'qonda Mulla Iskandar Barotboy o'g'li noshirligida Qo'qonda toshbosmada chop etilgan. Kotibi Mullo Xo'qandiy.

19. "Dunyo kerakmas erkon tishni qoqub tashlaylik" (82-bet).

Shoir tomonidan ushbu she'r xalq orasida mashhur bo'lgan "Olma, anoringga balli" ohangidagi milliy ashulaga moslab yozilgani, 1916-yilda Farg'onada rasm bo'lgani aytilgan.

20. "Boybachchalar semiring, beshni o'n beshga bering" (84-bet).

"Yashil gul" to'plamidan o'rin olgan bu she'r "Akromjon Xolidiya..." ashulasi ohangida yozilgan.

21. "Yigit va qiz maktublari" (86-bet).

Mazkur maktublar "Yashil gul" va "Pushti gul" to'plamlari tarkibiga kirgan. Muallifning izohi bo'yicha "Pushti gul" (beshinchi bo'lim) to'plamdagi ikki maktub bir butunlikni saqlash maqsadida bir o'rinda berilgan.

22. "Sariq gul" (94-bet).

Shoirning "Sariq gul" to'plami muqaddimasida: " Sanayi 1334-hijriy, zulhijja shanba kuni shahri Xo'jand, madrasayi Buzrukxalifa"da oxiriga yetadi va shu yili Mulla Iskandar Barotboy o'g'li noshirligida milodiy 1916-yilda toshbosmada chop etiladi.

23. "Ey, mardumi Farg'onalar" (94-bet).

"Sariq gul" to'plamiga mansub ushbu she'r toshbosma asosida chop etilgan.

24. "Pushti gul" (98-bet).

1916-yilda tuzilgan va shu yili Saidnosir Mirjalil o'g'li noshirligida toshbosmada chop etilgan. To'plamning qo'lyozma nusxasi ham mavjud bo'lib, Qo'qon adabiyot muzeyi fondida 74 inventar raqam ostida saqlanadi.

25. "Uyqu bitmas o'xshar bizdan" (98-bet).

Ushbu she'r "Pushti gul" tarkibiga kiradi va ijro paytida ayrim misralar ikki martadan takrorlanib kelishi alohida ta'kidlanib kelingan. Qo'lyozma asosida chop etilgan.

26. "Na quturmiz bir vaxshatlik asoratlar" (100-bet).

She'r "Pushti gul" tarkibida, qo'lyozma asosida chop etilgan.

27. “Er-u qizlarga, ilm izlarga” (102-bet).

Nashrda “Pushti gul” to‘plamining qo‘lyozmasiga soslanadi.

28. “Safsar gul” (105-bet).

“Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar” majmuasidan yettinchi bo‘lim “Yodgori Hurriyat” yoki “Safsar gul” deb ataladi. 1917-yil 7-aprelda toshbosmada nashr etilgan. Qo‘lyozmasi saqlanmagan. [Niyoziy H.H., 1980:282]

29. “Peshonamiz tor ekan” (105-bet).

She’r Hamza Hakimzoda Niyoziy “Asarlar”i (1969, 1979)ning 1-tomida “Hoy pahlavon” sarlavhasi ostida “1916-yilda front orqasi ishiga olingan mardikorlardan biri uxlab yotarkan, yuzboshining ani uyg‘otuvi” izohi bilan berilgan. Toshbosma asosida nashr etilgan.

30. “Qattiq tegma manga muncha yuzboshim” (108-bet).

She’r avval “Sog‘inib” sarlavhasi ostida ayrim qisqartirishlar bilan chop etilgan. Toshbosma asosida chop etilgan.

31. “Ag‘o, sog‘ borsangiz, avval” (110-bet).

Avval “Salom ayting” sarlavhasi ostida qisqartirishlar bilan chop etilgan. Toshbosma asosida to‘liq holda nashr etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. –T.: “Ma’naviyat”, 2002. 153-b
2. Niyoziy H.H. “ To‘la asarlar to‘plami”. 2-tom. –T., 1989. 200-247-b.
3. Niyoziy H.H. “ Mukammal asarlar to‘plami”. 2-tom. – O‘z.SSSR.: Fan, 1989. 279-290-b.
4. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. – T.: Adabiyot, 2021. 120-b.
5. Sh. Amonov. Hamza she’riyatining manbalari, matniy tadqiqi. Dissertatsiya. – T., 2010.

MUHAMMADSHARIF SO‘FIZODA IJODINING O‘ZIGA XOS JANR XUSUSIYATLARI

Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna,
Tillar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
University of Business and Science,
e-mail: ozodaxonb@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Muhammadsharif So‘fizoda ijodi va she’riyatining janr xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan. Shoir asarlarining mazmun-mohiyati hamda bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *olim, adib, shoir, devon, bayoz, qo‘lyozma, toshbosma, nashriy manba, inventar, kolofon, xattot, sahhof, zullisonayn.*

Abstract

This article provides information about the literary sources of Muhammadsharif So‘fizoda. The meaning and importance of the poet’s works today are highlighted.

Key words: *scholar, writer, poet, divan, bayaz, manuscript, lithograph, publishing source, inventory, colophon, calligrapher, scribe, zullisonayn.*

Muhammadsharif So‘fizoda ijodidagi mumtoz adabiy an’analar tadriji va yangilanishi masalasini ilmiy o‘rganish hamda diniy-ma’rifiy, axloqiy-ta’limiy she’riyati qiyosiy tadqiqini amalga oshirish zarurati o‘zbek adabiyotshunosligi kun tartibida turgan ilmiy muammolardandir. XX asr boshlari jadid davri shoirlari ijodida yangicha adabiy-estetik qarashlar shakllandi. Ular she’riyatida quyidagi yangilanishlar kuzatiladi:

- Vaznning yangilanishi.
- Poetik janrlarning yangilanishi.
- Poetik obrazlarning yangilanishi.
- She’rlarning sarlavhalanishi.
- An’anaviy hamd va na’tlarning mazmun va shakli o‘zgarishi.

Muhammadsharif So‘fizoda ijodiga nazar tashlasak, har bir she’rida sarlavha mavjudligi, poetik obrazlar tabiatida milliy ruh aks eta olganini kuzatamiz. Ammo shoir ijodida vaznlar yangilanishi uchramaydi, chunki faqat aruz vaznida ijod etgan So‘fizoda yangi davrga oid qarashlarini eski usulda, ya’ni aruz vaznida yoritadi. O‘zining ishqiy, axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy va hajviy yo‘nalishdagi she’rlarida insoniy munosabatlarni ulug‘laydi. Ishqiy she’rlarining ko‘lami kengayadi va shoir Vatan ishqini har narsadan ustun qo‘yadi. Ilm-ma’rifat har bir inson hayotida muhim o‘rin tutishi, jaholatni yengish uchun eng munosib yo‘l – ma’rifat yo‘li ekanini targ‘ib etdi.

So‘fizoda she’riyatida keskin hajviy ruh ustunligi kuzatiladi. Buni, birinchi navbatda, yoshligidan ilm-fanga qiziqib, Toshkent, Qozon, Boku, Tifilisda chiqadigan gazetalarni o‘qib, dunyoqarashini o‘stirgan shoirning o‘zi mansub jamiyat hayotidagi qoloqlik va norasoliklar bilan kelisha olmagani bilan izohlash mumkin. She’rlarida “Vahshiy” taxallusini qo‘llashi zamirida ham ana shu xususiyat tajassum topgani haqiqatga yaqin. Bu davrda So‘fizoda o‘z she’rlarini milliy tuyg‘ular bilan boyitib boradi. Ijodi davomida ishqiy, ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy, hajviy mavzularda qalam tebratgan shoir, asosan, jamiyatdagi adolatsizlikni tanqid etib, xalq ko‘nglidagi dardni kuylaydi. Uning “Haqiqatdan ko‘z yumganlar”, “Qalaysizlar”, “Besh yorlar tilidan”, “Bayram nashidalari” singari she’rlari shular jumlasidandir. Qalamini haqiqat yo‘lida amaldorlar, mahalliy hukumat vakillarining kirdikorlarini ochishga qaratadi:

Ey Chust, na ajab noskash-u noslaring bor,
Lekin na yamon fitna-yu xannoslaring bor.
O‘z foydasiga, boshqani doim zarariga,
Savacho‘pli qalam, arzachi vosvoslaring bor [Orifiy, 2007: 80].

Garchi erksizlik, mustamlaka sharoitida yashab ijod etgan bo‘lsa ham, So‘fizoda Vatan va millat istiqboli bilan bog‘liq qarashlarini she’rlarida jasorat bilan tasvirlay oldi. Bu davr ijodkorlari haqda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning: “Mustabid tuzum davrida vijdon azobini kim ko‘proq tortgan, desa, men, doimo bu hayotning ma’no-mazmuni, insonning qadr-qimmati, el-yurt taqdiri haqida qayg‘urib yashaydigan odamlar va ularning oldingi qatorida bo‘lgan ijod ahli, deb aytgan bo‘lardim”, – deya ta’kidlagani bejiz emas [Karimov, 2009: 11]. Milliy uyg‘onish va millatning o‘zligini anglashga chorlash shoir ijodining ruhi va mazmuniga aylandi. Asarlarida ikki tillilik (zullisonayn) an’anasini davom ettirgan So‘fizoda mumtoz adabiyot vakillari Hofiz, Bedil, Navoiy ijodini mutolaa qiladi. A.Xalilbekov ma’lumotiga ko‘ra, Abdulla Qodiriy adibning iste’dodini g‘oyat yuqori baholaydi. Maqsud Shayxzoda So‘fizodaning “she’rlari... adabiyotga toza unsurlar kirgizgan”ligini ta’kidlaydi. Abdulla Qahhor uni “Satira va yumorda tengi timsoli yo‘q va o‘zigagina xos shoir”, deb ataydi.

So‘fizoda ijodiga Kavkazorti, hozirgi Turkiston va uning atrofidagi gazeta-jurnallarning, ularda ishtirok etuvchi taniqli Ozarbayjon va tatar adiblarining ta’siri kuchli bo‘ldi. Uning “Siroj ul-axbor” (Xabarlar ziyosi) gazetasida chop etilgan “Tarkibbandi musaddas, ba imzoyi farg‘onali muallim So‘fizoda Muhammadsharif ba mo rasida”, “Tashviqi navomo‘zon”, “Adabiyot” kabi uch she’rini fors tilidan o‘zbek tiliga R.Inomxo‘jayev tarjima qiladi hamda shoir haqidagi o‘z qarashlari va uning “Amalga oshmaydigan bir umidvorlik haqida” sarlavhali maqolasini “Sharq mash’ali” jurnalida chop ettiradi. Shoir “Tashviqi navomo‘zon” (Yangi o‘rganuvchilar tashviqi) g‘azalida vatanparvarlik eng oliy tuyg‘u ekanini uqtiradi:

Vatanro do‘st doru bo hamayi millat madoro kun,
Tavahhush kun zi vahshat, dar tamaddun bosh yak askar [Orifiy, 2007: 102].

Shoir she’rda Vatanni sevish, butun millat dardi bilan yashash, yovvoyilik bilan emas, madaniyat yo‘lida bir askar bo‘lishni ta’kidlamoqda. U g‘azal, musaddas, muxammas kabi janrlarda ijod qildi. So‘fizoda hayotdagi har bir yangi hodisaga o‘zining faol munosabatini bildirib boradi. Saylov, yer islohoti, xotin-qizlar ozodligi haqida she’rlar yozib, xalqni hushyor bo‘lishga chaqiradi. Qizlar ilmli bo‘lsa, butun millat ma’rifatli bo‘lishini ta’kidlaydi:

Bechora ona bo‘lg‘usi ham qobila qizlar,
Nozik qo‘liga olmay o‘tar xomau daftar,
Ibrat ko‘zimiz ko‘r-u haqiqat qulog‘i kar,
So‘z to‘g‘risi shul, bizda bor na avra, na astar,
Quvdi mani johillar o‘shandoq Vatanimdin,
Lekin quva olmas suxanimni dahanimdin. [Orifiy, 2007: 81].

So‘fizoda faoliyati, adabiy merosi o‘zbek adabiyoti rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Asosan, aruzning ramal va hazaj bahrlarida ijod qilgan shoir asarlarida ishq mavzusi yetakchilik qilgan. U madrasa ilmi bilan cheklanib qolmay, buyuk Sharq olimlari asarlarini mustaqil mutolaa qilgan, arab, fors tillarini chuqur o‘rgangan. Asarlarida ikki tillilik (zullisonayn) an’anasi davom etgan. Uning axloqiy qarashlaridagi fidoyilik, millatparvarlik, kurashchanlik kabi xislatlari ijod namunalarida ham uyg‘unlik kasb etgan. XX asr boshlarida So‘fizoda qalamga olgan ishq motivining mazmuni o‘zgarib, uning qalbidagi ishq qamrovi kengaydi. Ya’ni oshiq endi ishqning millat ishqi, ma’rifat ishqi bilan o‘rtanishiga to‘g‘ri keldi. So‘fizoda kelajak avlod tarbiyasida onaning o‘rni muhimligi, qiz bolalar ham maktablarda ilm olishga haqli ekanini qalamga olib, o‘z kechinmalarini quyidagicha bayon etadi. Shoir ayollarni jamiyatda faol bo‘lishga undaydi va ilm olish ular uchun eng yaxshi ziynat, deb hisoblaydi:

Muncha yomon sho‘rladi peshonalar,
Qizlarimiz joriyayi xonalar,
Siz edingiz jonlara jononalar,
Qadringizni bilmadi debonalar,
Qumri bilan bulbuli bedonalar
Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing, onalar [Orifiy, 2007: 82].

Shoir ushbu musaddasning har so‘nggi bandida o‘z fikrini ta’kidlash ma’nosida “Qumri bilan bulbuli bedonalar, Yaxshi o‘qur, siz ham o‘qing, onalar” jumlasini takrorlash orqali asosiy maqsadini bayon etadi. Musaddas aruzning ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Undagi *“peshonalar”, “xonalar”, “jononalar”, “debonalar”, “bedonalar” va “onalar”* kabi so‘zlar qofiya etib tanlangan. Shoir musaddasda hurujli mutlaq qofiyadan foydalangan. Chunki qofiyadosh so‘zlardagi “r” tovushi huruj hisoblanadi.

Mumtoz adabiyotimizning taniqli namoyandalari izidan borgan So‘fizoda baytlar tarkibida qator she’riy san’atlar qo‘llab, betakror tasvir usuli yaratadi. Masalan, quyidagi misralarda shoir ham mazmun, ham shaklga asoslangan **musalsal** (tashobeh ul-atrof) san’atidan mohirona foydalangan:

G‘uboru *dardu alam siynalarni qildi* ***figor,***
Figor *qilgusi, albatta, zahri zangu* ***g‘ubor.***

Chu dor *ostida qoldim, tarahhum ayla,* ***nigor,***
Nigor *qilsa g‘azab, lozim o‘lmasunmu* ***chu dor.***

Shoiri *sho‘lai shavqingda layl bo‘ldi* ***nahor,***
Nahor *vasling uchun hajri shom topdi* ***shior*** *[Orifiy, 2007: 66].*

Tashobeh ul-atrof, ya’ni **musalsal** san’ati **tasbe’** deb ham nomlanadi. Bir ma’no asosida ikkinchi bir ma’no vujudga kelishini ta’minlaydigan ushbu san’at she’riy san’atlarning eng murakkabi va kam uchraydigan turidir. Murakkabligi shundaki, vazn buzilmasligi, baytdagi qofiya va so‘z ma’nolariga putur yetmasligi kerak. Bu san’at shoirga quyidagi talablarni qo‘yadi: har bir misra oxiridagi so‘z ikkinchi misra boshida aynan takrorlanishi shart; takrorlangan so‘z ma’nosi baytdagi boshqa so‘zlarga mos bo‘lishi shart; aynan takrorlangan so‘z vazn talabiga ham javob berishi kerak; baytlardagi qofiya turi saqlanishi lozim. Boshqa ijodkorlardan farqli ravishda ushbu g‘azalda So‘fizoda yangi poetik shaklda, ya’ni g‘azalning har bir baytida bayt boshidagi so‘zni bayt oxirida ham takror qo‘llab, o‘z fikrini ta’kidlash maqsadiga erishgan.Tashobehul-atrof san’ati o‘zbek adabiyotida Navoiydan oldin yashab o‘tgan shoirlar ijodida uchramaydi. Masalan, Navoiyning:

Yordin ayru ko‘ngil ***mulkedurur sultoni yo‘q,***
Mulkkim sultoni yo‘q *jismedururkim joni yo‘q,*

– matla’li g‘azalida birinchi marta qo‘llangan bu san’at XIX asrga kelib Ogahiy, XX asr adabiyotida esa Habibiy, Xilvatiy ijodida uchraydi. G‘azaldagi musalsal san’ati so‘z, ma’no, qofiya hamda vaznni to‘g‘ri tanlashni talab etadi. Bu uyg‘unlik yuqoridagi g‘azalda o‘z aksini topgan.

Boshqa ijodkorlardan farqli ravishda ushbu g‘azalda So‘fizoda yangi poetik shaklda, ya’ni g‘azalning har bir baytida bayt boshidagi so‘zni bayt oxirida ham takror qo‘llab, o‘z fikrini ta’kidlash maqsadiga erishgan.

Shoir *samimiy muhabbat* izhorini go‘zal *tashbihlarda* namoyon etadi. Masalan, “O‘pay” radifli g‘azalida ma’shuqa husni jamolini quyidagicha ta’riflaydi:

Tishlaring durdonasi yanglig‘ takallum chog‘ida,
Har zamon la’li labing marjon misolidan o‘pay.
Surmaso gipnosi kuchlik ko‘zga yondoshmak mahol,
O‘sma og‘ushida berkingan hilolingdin o‘pay [Орыфый, Сўфизода, 2007:74].

Shoir ***tashbih*** (lab – la’l, tish – duru marjon), ***tashxis*** (o‘sma og‘ushida berkingan**),** ***istiora***

(hilol) kabi san'atlar vositasi bilan ma'shuqaning *la'li labi, duru marjon tishi, o'smali qoshi* hamda o'ziga rom etuvchi *surmali ko'zini* ta'riflashda ***tanosub*** san'atidan ham o'rinli foydalangan. Baytda ma'shuqa portretini yaratishda shoir milliy ruhning poetik ifodasini ham aks ettira olgan. Baytdagi *surma, o'sma* kabi detallar vositasida yaratilgan ma'shuqa portreti So'fizodaning o'ziga xos tasvir usulini, milliy qarashlarini ifoda etgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, So'fizoda ijodida mumtoz adabiyot an'analari bilan birga zamonaviy adabiyotga xos tamoyillar aks etgani kuzatiladi. So'fizodaning yangi jamiyat hayotiga faol aralashuvi tufayli ijodida an'anaviy ishqiy-tasavvufiy mavzulardan bir oz chekinish, asosan, ijtimoiy-siyosiy mavzularning badiiy talqini yetakchilik qildi. Maorif va madaniyatni rivojlantirish maqsadida yangi usul maktablari ochgan shoir ijodida mamlakat va millat kelajagi uchun qayg'urish tuyg'usi ustuvor ekani ko'rinadi. Shoir ijodida ishq motivi yangilandi. Asarlarida millat ishqi, ma'rifat ishqi talqini yetakchilik qildi. So'fizoda ijodida, ayniqsa, axloqiy-ta'limiy mavzudagi she'rlar salmog'i oshdi. Ularning badiiy ijod va axloqiy qarashlaridagi uyg'unlik fidoyilik, millatparvarlik, kurashchanlik kabi xislatlarini namoyon etdi. Asarlarida ham mumtoz adabiyot an'analarining davom etishi, ham yangi davr adabiyotiga xos xususiyatlar bo'y ko'rsatishi – bir vaqtning o'zida bu ikki jarayon yonma-yon kechgani So'fizoda ijodining serqirra ekanini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltaboyeva O. XX asr boshlarida Namanganda adabiy harakatchilik: namoyandalari, an'analari, yangilanishi: PhD., filol., f.f.dok-ri... diss. – Toshkent, 2019. – B.13.
2. Ибрат. Ажзий. Сўфизода. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1999. – 232 бет.
3. Иномхўжаев Р. Шоирнинг дил армони // Шарқ машъали. – Т.: 1998. – № 3-4. – Б. 98-102.
4. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 44 бет.
5. Каримов Н. Муҳаммадшариф Сўфизода. – Т.: Muharrir, 2012. – 132 бет.
6. Каримов Н. XX аср менинг тақдиримда // Жаҳон адабиёти. – Т.: 2001, январь. – Б.24.
7. Орифий Ҳ. Муҳаммадшариф Сўфизода. – Н.: 2007. – 110 бет.
8. Сулаймон Ш. Шоир Тоҳир Сўфизоданинг қисқача таржимаи ҳоли // Маориф ва ўқитувчи. – Т.: 1926. – № 10-11. – Б. 61-62.
9. Солиҳов М. Сўфизода ва унинг ижоди. – Т.: Ўздавнашр, 1934. – 42 бет.
10. Сўфизода. Тароналар / Нашрга тайёрловчи: Расулов Т. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1968.
11. Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Т.: Руҳафзо. 1998.
12. Шайхзода М. Сўфизода ва унинг ижоди ҳақида // Машъала. – Т:. 1935. – № 1. – Б. 29.
13. Қайюмий П. Тазкираи Қайюмий / Нашрга тайёрловчи: Қаюмов А. Уч жилдлик. Жилд II. – Т.: ЎзР ФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998. – Б. 335-420.

MUHAMMADSHARIF SO‘FIZODA HAYOTI VA ADABIY MEROSI

Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna,
Tillar kafedrasi dotenti, filologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
University of Business and Science,
e-mail: ozodaxonb@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Muhammadsharif So‘fizoda hayoti va ijodi haqida ma’lumot berilgan. Shoir asarlarining mazmun-mohiyati hamda bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *olim, adib, shoir, devon, bayoz, qo‘lyozma, toshbosma, nashriy manba, inventar, kolofon, xattot, sahhof, zullisonayn.*

Abstract

This article provides information about the literary sources of Muhammadsharif So‘fizoda. The meaning and importance of the poet’s works today are highlighted.

Key words: *scholar, writer, poet, divan, bayaz, manuscript, lithograph, publishing source, inventory, colophon, calligrapher, scribe, zullisonayn.*

XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandasi Muhammadsharif So‘fizoda ijodi milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti yutuqlarini o‘zida mujassam etadi. Muhammadsharif So‘fizoda adabiyot maydoniga 1890-yillarda, ya’ni Muqimiy o‘zining mashhur satiralari bilan badiiy ijodda demokratik yo‘nalishni tayin etgan, Furqat ma’rifatparvarlik ruhidagi she’rlari bilan bu davr adabiyotining muhim bir xususiyatini belgilab bergan chog‘ida kirib keldi. Uning ijodiga oiladagi adabiy muhit ham katta ta’sir etgan. 1870-yil 29-yanvarda Chust shahrida hunarmand pichoqchi Egamberdi so‘fi oilasida tug‘ilgan Muhammadsharif So‘fizoda 6-7 yoshlaridayoq otasi Egamberdi so‘fi va onasi Zaynab xolaning sa’y-harakatlari tufayli yon qo‘shnisi Manzura otinda savod chiqaradi. So‘ng mahalladagi eski usul maktabida tahsil oladi. Muhammadsharifning adabiyotga ko‘ngil qo‘yishida va ko‘plab g‘azallarni ifodali ayta olishida Manzura otinning ham o‘rni beqiyos. So‘fizodaning 1893-98-yillarda Qo‘qonda yashab, Muqimiy to‘garagida faol ishtirok etgani shoir dunyoqarashining shakllanishida, badiiy mahoratining o‘sishida o‘ziga xos maktab bo‘ldi. Qisqa vaqt orasida oddiy pichoqchi hunarmandning o‘g‘li Muhammadsharif “Vahshiy”, “So‘fizoda” kabi taxalluslari bilan butun Farg‘ona vodiysida shuhrat topdi. So‘fizoda XX asr boshlari o‘zbek adabiyotining zabardast vakili sifatida “ma’rifatsizlik balosiga yo‘liqqan”, foyda-zararini unutgan, yaxshi-yomonini tanimaydigan, tor manfaatlari doirasida ko‘milib qolgan, “topganini boshqalarga berib”, o‘zi “och-yalang‘och” qolgan, bir so‘z bilan aytganda, millat sifatida adoyi tamom bo‘lgan “bizni xalq” haqida ijod etdi. Ammo ijtimoiy tuzum homiylarini tanqid qiluvchi o‘tkir hajviyalari shoir boshiga katta tashvish olib keldi. Uni “dahriy” deb e’lon qildilar. Unga “beadab”, ‘badasl” degan tavqi la’nat tamg‘asini bosdilar. Bu ham kamlik qilib, uni qatl etishni lozim topdilar. Natijada, shoir 1900-1913-yillarda ona diyoridan uzoqda hayot kechirishga majbur bo‘ldi. O‘rta Osiyoning butun shaharlarini kezib chiqdi. Tiflis, Boku, Arabiston, Hindiston, Turkiya kabi shaharlarda bo‘ldi. Nihoyat, 1913-yilning oxirlarida Chustga qaytib, yangi usuldagi maktab ochdi. Tabiatan dangal, tikso‘z, hatto biroz chapanife’l bo‘lgan shoir maktabi tepasiga shunday deb yozdirib qo‘yadi: “Men ul bo‘yoqchimanki, maktab xumida rang berib, qora chappalarni o‘n ikki oyda oq qilaman” [Xalilbekov, 1998: 212]. So‘fizoda shu davrda ijtimoiy qarashlari jihatidan Hamza, Ibrat va yangi usuldagi maktab ochgan jadidlar qarashlari bilan hamohang edi.

Shoir ijodini o‘rganish dastlab, uning hayotlik davridan boshlanadi. Jumladan, Shokir Sulaymonning “Shoir So‘fizodaning qisqacha tarjimayi holi” nomli maqolasi 1926-yilda “Maorif va o‘qituvchi” jurnalining 10-sonida chop etildi. So‘fizoda ijodi bo‘yicha XX asrning 20-30-yillarida Miyonbuzruk Solihovning “So‘fizoda va uning ijodi” kitobi chop etilgan. 1968-yilda T.Rasulov shoirning “Taronalar” to‘plamini nashr ettiradi. “Tazkirai Qayyumiy”da ham So‘fizoda haqida ma’lumotlar uchraydi. Mazkur maqola va kitoblarda o‘sha davr hukmron mafkurasining ta’siri sezilib tursa ham, mazkur tadqiqotlarda XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari adabiy merosi birlamchi manbalar asosida o‘rganilgani ahamiyatli.

Muhammadsharif Egamberdi o‘g‘li So‘fizodaning 1917-yilga qadar yozgan she’rlari juda kam saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ma’rifatparvarlik ruhidagi dastlabki ijod namunalari “Turkiston viloyatining gazeti”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” kabi gazetalar, Orenburg va Bokuda chiqadigan gazeta hamda tatarcha “Sho‘ro”, turkcha “Sarvati funun”, “Ma’lumot” kabi jurnallarda, Afg‘onistonning “Siroj ul-axbori afg‘oniya” gazetasida chop etilgan. Ushbu ijod namunalari shoir dunyoqarashi va mahoratini yoritishda muhim manba sanaladi. Shoir ijodi bo‘yicha ilmiy izlanish olib borgan Miyon Buzruk Solihov 1934-yilda “So‘fizoda va uning ijodi” risolasini chop ettiradi. Unda muallif So‘fizodani jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri sifatida e’tirof etadi va she’rlaridan namuna beradi. 1968-yilda adabiyotshunos To‘lqin Rasulov shoir she’rlarini to‘plab, “Taronalar” nomli kitobida nashr ettiradi.

So‘fizoda ijodi mustaqillik yillarida nashr etilgan qator adabiy manbalarda ham mavjud. Jumladan, “Istiqlol qahramonlari” rukni ostida chop etilgan “Ibrat. Ajziy. So‘fizoda” nomli manbada “Haqiqatga xiyonat qilmagan shoir” sarlavhali maqola va shoirning o‘n beshta she’ri berilgan. A.Xalilbekovning “Namangan adabiy muhiti” kitobida So‘fizoda ziyoli, otashnafas shoir, jonkuyar ma’rifatparvar, o‘tkir hajvgo‘y, o‘z ovoziga ega bo‘lgan san’atkor sifatida baholanib, hayoti va ijodiga oid o‘n bir sahifali maqola e’lon qilingan [Xalilbekov, 1998: 16]. H.Orifiy o‘zining “Muhammadsharif So‘fizoda” nomli risolasini 2007-yilda chop ettiradi. Muallif ushbu risolada Abdullohxon to‘ra Ma’rufxon o‘g‘illari taqdim etgan bir qo‘lyozmada So‘fizodaning hali e’lon qilinmagan forscha va o‘zbekcha asarlari mavjud ekanini ham ta’kidlab o‘tgan [Orifiy, 2007: 4]. Ushbu manba So‘fizodaning “Siroj ul-axbori afg‘oniya” gazetasida chop etilgan forscha ikki g‘azal va bir musaddasining R.Inomxo‘jayev tomonidan o‘zbek tilidagi nasriy tarjimasi berilgani bilan ham ahamiyatlidir. Shoir hayoti va ijodiy merosini o‘rgangan N.Karimov “Muhammadsharif So‘fizoda” nomli asarini 2012-yilda chop ettirdi. Kitob So‘fizoda haqidagi xotiralar hamda shoirning 1937-yil qatag‘on qilinishiga doir hujjatlar, arxiv materiallari asosida yozilgan.

So‘fizoda ijodiga oid manbalarni jamlashda L.Olimiy, Sh.Sulaymon, M.Solihov, N.Safarov, T.Rasulov, R.Inomxo‘jayev, A.Xalilbekov, B.Qosimov, N.Karimov hamda H.Orifiylarning xizmatlari beqiyos bo‘ldi. Shoirning ma’rifatparvarlik g‘oyalari singdirilgan she’rlari XX asr boshlarida matbuot yuzini ko‘rdi. Jumladan, 1911-yil Orenburgda nashr etilgan “Sho‘ro” jurnalida So‘fizodaning “O‘zbek xonimiga”, “Asfandiyorxon”, “Xonimlar isminda” kabi she’rlari chop etilgan. 1914-yilning yanvar oyida “Turkiston viloyatining gazeti”da “Chust boyonlarining bir gapxonada bir-birlariga maqtanishlari”, “Quvdi meni johillar”, “Chust qozisi Abbosxon Hojimuhammad o‘g‘liga javob” kabi she’rlari hamda shu yili “Sadoyi Turkiston” gazetasida shoirning “O‘qing, onalar”, “Xurjun”, “Jon berib...”, “Haqiqatdan ko‘z yumganlarga” kabi she’rlari e’lon qilingan. Chet ellarda ham shoir she’rlari matbuot yuzini ko‘rdi. Xususan, So‘fizodaning Afg‘onistonda chiqarilgan “Siroj ul-axbori afg‘oniya” gazetasining 1915-yil 11-oktyabr sonida shoir she’ri “Tarkibbandi musaddas, ba imzoyi farg‘onali muallim So‘fizoda Muhammadsharif ba mo rasida” degan sarlavha bilan bosildi. Shoirlarning matbuot yuzini ko‘rgan she’rlari ijtimoiy hayotda yuz berayotgan yangiliklarni hamda ma’rifatparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etishga qaratilgan. Shoir ijodini o‘rganish, adabiy merosini xalqqa taqdim etish ishlari uning hayotlik chog‘ida boshlangan. Dastlab, 1925-yil “Farg‘ona” gazetasining bosh muharriri L.Olimiy “Unutilgan shoir” sarlavhali maqolasida shoir ijodiga oid ayrim ma’lumotlar va she’rlaridan namunalar e’lon qiladi. Unda shoirning “Payt poylab dushmanim qo‘ydi yo‘limga loytuzoq” misrasi bilan boshlanadigan 7 bandli

musaddasini keltiradi. A.Xalilbekov “Namangan adabiy muhiti” kitobida Hamza So‘fizodani o‘ziga ustoz deb bilgani va ular bir maqsad yo‘lida ijod qilib, xotin-qizlarni ma’rifatga chorlashda hammaslak bo‘lishgani haqida bayon etadi. Muallif ularning ijodiy hamkorligini yoritish maqsadida So‘fizodaning “O‘qing, onalar” she’riga o‘xshatma tarzida Hamza “Muhtarama onalarima xitob” va shoirga atab “So‘fizodaga” nomli she’r ham bitganini ma’lum qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Komiteti hay’atining 1926-yil 27-fevralda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida Hamzaga “Xalq yozuvchisi”, So‘fizodaga esa “Xalq shoiri” unvoni berilishi bejiz emasligini N.Karimov “Muhammadsharif So‘fizoda” kitobida shunday izohlaydi: “Hamza bilan So‘fizodaga bir vaqtda ham yuksak hukumat mukofotining berilishi, ham “umrlik maosh” tayinlanishi tasodifiy emas. Ular o‘sha yillarda sho‘ro davlatining yer islohoti, saylov, mulkdorlarga qarshi kurash jarayonlarida faol ishtirok etishgan” [Karimov, 2012: 32]. So‘fizoda o‘sha davrlarda ko‘p mutaassib dindorlardan nohaq aziyat chekadi va ularga qarshi hajviyalar, ma’rifatparvarlik ruhidagi she’rlar yozib, din arboblariga qarshi kurash boshlagan hukumat rahbarlari nazariga tushadi. O‘zbek xalq she’riyati rivojiga hissa qo‘shgan So‘fizodani rag‘batlantirish va uni boshqa ijodkorlarga namuna qilib ko‘rsatish maqsadida “Xalq shoiri” unvoni ta’sis etilgan edi. XX asrning 30-yillari nashr etilgan maktab darsliklarida ham shoir ijodiga e’tibor qaratilgan. Masalan, o‘rta maktablarning VII sinfi uchun “Adabiyot xrestomatiyasi” darsligidagi “Proletar diktaturasi davri adabiyoti” bobida So‘fizodaning “Madaniy makiyonlar tuhfamiz” she’ri D.Bedniy (“Katta ko‘cha”), V.V.Mayakovskiy (“So‘l marsh”), G‘ayratiy (“Oqin hukmi”) asarlari bilan birga havola etilgan. 1934-yil xalq shoiri So‘fizoda ijodini ommalashtirish maqsadida M.Solihov “So‘fizoda va uning ijodi” nomli risola chop ettiradi. Unda muallif shoirni jadidchilik harakatining namoyandalaridan biri sifatida e’tirof etadi va ijodining mavzu-mundarijasi, g‘oyaviy yo‘nalishini tahlil qiladi. Ushbu risoladagi fikrlarga mulohaza bildirish niyatida M.Shayxzoda 1935-yil “Mash’ala” jurnalida “So‘fizoda va uning ijodi haqida” nomli maqolasini chop etadi. Maqolada muallif shoirning hayot yo‘li M.Solihov tomonidan qisqa yoritilganini aytib, So‘fizodaning murakkab hayot va ijod yo‘lini aniqlashda uning mufassal tarjimai holini yozish muhimligini ta’kidlaydi. M.Solihovning So‘fizodaga barmoq yoki erkin vaznda ham she’r bitish lozim ekani haqida bergan tavsiyasini ma’qul ko‘rmay, shoirni eski usulda, ya’ni aruzda ijod qilishini yoqlab shunday deydi: “Buyuk o‘zgarishlar davrida shoirda mazmunga ko‘ra shaklning ketda qolishi tabiiy va qonuniy bir voqeadir. Zotan, shu eski shakllar ham yangi ruhni berish uchun mutaraqqiy omil bo‘la olur”. Haqiqatan ham, shoir yangi davr adabiyotiga xos xususiyatlarni aruz vaznidagi she’rlariga singdira oldi va real voqelikni ifodalashda mumtoz lirikadagi g‘oyaviy-badiiy an’analarni o‘ziga xos tarzda rivojlantirdi. 1935-yilda So‘fizoda tavalludining 65 yilligi munosabati bilan yubiley o‘tkaziladi. Shundan so‘ng shoir ijodini o‘rganish va asarlarini nashr etish ishiga jiddiy kirishiladi. Yozuvchi N.Safarov shoirning o‘zi to‘plagan 214 ta she’rini tahrirdan o‘tkazadi, ammo 1937-yildagi qatag‘on siyosati tufayli ularni nashr ettira olmaydi. Uning hayoti va ijodi yana yillar davomida o‘rganilmay qoladi. Nihoyat, qatag‘on qurbonlari ijodiga bo‘lgan munosabat ijobiy tomonga o‘zgarib, ular oqlangach, 1968-yilda adabiyotshunos T.Rasulov shoir she’rlarini to‘plab, “Taronalar” nomli kitob nashr ettiradi. To‘plamga muallif “Shoir So‘fizoda haqida” nomli 23 sahifali kirish so‘z yozadi. Unda So‘fizoda tavalludi haqidagi sanani ikki xil ko‘rsatadi. Muallif So‘fizodani 1869-yil tug‘ilganini aytadi va 1935-yil uning 65 yillik yubileyi o‘tkazilgani haqida ma’lumot beradi. Bu yubiley sana o‘z-o‘zidan shoir 1870-yilda tug‘ilganini anglatadi. Ushbu to‘plamga shoirning 23 ta she’ri havola etilgan. Unda So‘fizoda hayoti va ijodiga oid bir qancha ma’lumot berilgan bo‘lsa ham, muallif ularga o‘sha davr hukmron mafkurasi talabi bilan munosabat bildirgani anglashiladi. Shoir hayoti va ijodi haqida “Tazkirai Qayyumiy”da ham ma’lumot berilgan. Unda shoir haj safariga borib, u yerdan Hindiston, Arabiston, Misr va Turkiyaga o‘tgani, o‘ziga xos fasohat ilmi borligi, doim yo‘qsil, avom xalqqa yonbosib she’r yozishi va g‘alamis, boy kimsalarni hajv ostiga olishi bayon etilgan. Yillar davomida ma’lumot to‘plagan H.Orifiy “Muhammadsharif So‘fizoda” risolasida u tashkil etgan yangi usul maktablarida tahsil olgan mo‘tabar otaxonlardan, shoirni ko‘rgan-bilgan qariyalardan, jami 22 kishidan ma’lumot olishga musharraf bo‘ladi. N.Karimovning “Muhammadsharif So‘fizoda” nomli

kitobida shoir hayoti va faoliyati atroflicha yoritilgan hamda ijodidan namunalar keltirilgan. Shuningdek, So‘fizodaning 1934-yil “Mushtum” jurnalida “Vahshiy” taxallusi bilan bosilgan eng so‘nggi hajviy she’ri ushbu manbada ilk marotaba e’lon qilingani e’tiborga molik. Shoirning murakkab hayot yo‘li uning yaqin kishilaridan yozib olingan xotiralar bilan boyitilgan. Yuqorida nomi tilga olingan manbalar qiyosan o‘rganilgach, So‘fizoda hayoti va ijodiga oid ba’zi chalkash fikrlarga oydinlik kiritish mumkin. Masalan, shoirning tavallud sanasi B.Qosimov, H.Homidiy, M.Ma’murov va M.Tojiboyeva yozganidek, 1880-yil [Qosimov, 2002: 293] yoki T.Rasulov, A. Xalilbekov, H.Orifiy bergan ma’lumotlarda keltirilganidek, 1869-yil [Orifiy, 2007: 5] ham emas, balki 1926-yilda Sh.Sulaymon tomonidan shoirning o‘z dastxati asosida “Maorif va o‘qituvchi” [Sulaymon, 1926: 110] jurnaliga tayyorlangan maqolaga asoslanib, N.Karimov ta’kidlaganidek, 1870-yil 29-yanvar ekani ilmiy dalillangan to‘g‘ri xulosa bo‘la oladi [Karimov, 2012: 11]. Namanganda 1989-yil So‘fizoda tavalludining 120 yilligini nishonlash esa T.Rasulovning shoir tavalludini 1869-yil deb ko‘rsatishi asosida bo‘lib o‘tgan. Manbalarni qiyosiy o‘rganish So‘fizoda ijodiga aloqador tadqiqotlar qimmatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir she’riyatiga bo‘lgan qiziqish, ya’ni ijodiy merosi hayotlik davridayoq munosib baholanishi uning xalq ko‘nglidan joy olgan iste’dodli o‘zbek shoirlaridan biri ekanidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ибрат. Ажзий. Сўфизода. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1999. – 232 бет.
2. Иномхўжаев Р. Шоирнинг дил армони // Шарқ машъали. – Т.: 1998. – № 3-4. – Б. 98-102.
3. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 44 бет.
4. Каримов Н. Муҳаммадшариф Сўфизода. – Т.: Muharrir, 2012. – 132 бет.
5. Каримов Н. XX аср менинг тақдиримда // Жаҳон адабиёти. – Т.:, 2001, январь. – Б.24.
6. Орифий Ҳ. Муҳаммадшариф Сўфизода. – Н.: 2007. – 110 бет.
7. Сулаймон Ш. Шоир Тоҳир Сўфизоданинг қисқача таржимаи ҳоли // Маориф ва ўқитувчи. – Т.: 1926. – № 10-11. – Б. 61-62.
8. Солиҳов М. Сўфизода ва унинг ижоди. – Т.: Ўздавнашр, 1934. – 42 бет.
9. Сўфизода. Тароналар / Нашрга тайёрловчи: Расулов Т. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1968.
10. Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Т.: Руҳафзо. 1998.
11. Шайхзода М. Сўфизода ва унинг ижоди ҳақида // Машъала. – Т.: 1935. – № 1. – Б. 29.
12. Қайюмий П. Тазкираи Қайюмий / Нашрга тайёрловчи: Қаюмов А. Уч жилдлик. Жилд II. – Т.: ЎзР ФА Қўлёзмалар институти таҳририй нашриёт бўлими, 1998. – Б. 335-420.

CHO‘LPON SHE’RIYATIDA PEYZAJ BILAN BOG‘LIQ POETIK OBRAZLAR

Sevinchoy Yoqubova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
dotsenti v.b., filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
e-mail: sevinchoy.yakubova@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadid she’riyatidagi tabiat tasviri bilan bog‘liq ramzlar tadqiq etilgan. Unda jadid adabiyotining yetuk vakili Cho‘lpon she’riyatidagi tabiat tasviri, uning mazmun-mohiyati tahlil etiladi. Jadid shoirlari ijodida tuyg‘u va kechinma ifodasida tabiat tasviri bilan bog‘liq ramziylikning o‘rni atroflicha o‘rganiladi. Shu orqali muallif peyzaj, poetik ifoda, o‘ziga xoslik singari masalalar haqida muayyan fikr-mulohazalarni ilgari suradi. Maqolada ilgari surilgan fikrlar muxtasar holda umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: *she’riy asar, adabiy janr, tuyg‘u va kechinma, lirik qahramon, badiiylik, tasvir, ifoda, obrazlilik, ramz, o‘ziga xoslik.*

Abstract

This article deals with the symbolic expressions associated with the depiction of nature in Jadid poetry. The image of nature in the poetry of Cholpon, the leading representative of the Jadid literature, and its content are analyzed. The role of symbolism in the expression of emotions and experiences in the works of modern poets is studied in detail. Thus, the author puts forward certain ideas on issues such as landscape, poetic expression, originality. The ideas put forward in the article are briefly outlined.

Key words: *poetic work, literary genre, emotions and experiences, lyrical hero, art, image, expression, imagery, symbol, originality.*

Sharq adabiyoti, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotining an’analari mavjud bo‘lib, har bir ijodkor bu an’analarni o‘ziga xos tarzda davom ettiradi va muayyan darajada rivojlantiradi. Shulardan biri peyzaj tasviri hisoblanadi. O‘zbek adabiyotshunosligida peyzaj masalasi bo‘yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.Erkinov, N.Yo‘ldoshev kabi olimlarning monografik xarakterdagi ilmiy ishlarida bu masala maxsus o‘rganilgan.

Tabiat tasviri bilan bog‘liq obrazlarning adabiyotimizga kirib kelishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Bunday obrazlar dastlab xalq qo‘shiqlari, xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida uchraydi. Yozma adabiyot taraqqiy etgach, shoirlarimiz peyzajga shunchaki manzara sifatida qarash bilan cheklanmay, o‘z davrining turli masalalarini, olam va odamga munosabatini ifodalovchi vosita sifatida qarashdi va ular ijodida tabiat tasviri alohida ahamiyat kasb eta boshladi. “Peyzaj tasviri mohiyatsiz o‘z-o‘zicha bir hodisa emas, balki u falsafiy, didaktik yoki ijtimoiy ruhdagi biror g‘oya, maqsadni ifoda etish uchun o‘ziga xos vosita rolini o‘taydi” [Is’hoqov Y. 23].

Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy kabi shoirlarimiz ijodida tabiat tasvirining go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Alisher Navoiy “Xamsa”da Farhod, Layli, Majnun, Bahrom, Iskandar kabi qahramonlarining ruhiyatini ochishda peyzajdan mahorat bilan foydalangan. Ayniqsa, “Saddi Iskandariy” dostonida tabiat tasviri va Iskandarning tuyg‘ulari o‘zaro bog‘liqlikda tasvirlanadi. “Qish va bahor tasvirlarining dostonga olib kirilishi Navoiyning Iskandarga bo‘lgan ikki jihatdan munosabati bilan ham bog‘langandir. Navoiy Iskandarning ijobiy ishlarini quvvatlaydi, unga bahorni hamroh etadi, uning ishlaridan ko‘ngli to‘lmaganida esa qish vositasida unga monelik qiladi” [Erkinov A. 42].

Muhammad Rizo Ogahiy ham peyzaj yaratish an’anasini mahorat bilan davom ettiradi, ayniqsa, uning fasllar vasfiga bag‘ishlangan she’rlari e’tiborga molikdir:

Navbahor ayyomi bo‘lsa har kim aysh-u bog‘siz,
Loladek bir lahza g‘amdin ko‘ngli ermas dog‘siz.
Kimsa bo‘lsa bog‘-u bo‘stonsiz, agar fasli bahor,
O‘yla nahlidurki bo‘lg‘oy shohau yafrog‘siz [Ogahiy. 220].

Ogahiyning bahor tasviriga bag‘ishlangan mazkur g‘azalida g‘amginlik ruhi mujassamdir. Undagi navbahor, lola, bog‘, bo‘ston, shox, yaproq so‘z-tushunchalari orqali g‘amginlik, mahzunlik, shuningdek muayyan darajada norozilik tuyg‘ulari ham ifodalanadi. She’rda tabiatning bahor ayyomidagi go‘zal manzarasiyu, jamiyatdagi iqtisodiy nochor insonlar hayoti bir-biriga qarshi qo‘yiladi. Tabiat manzarasi va inson taqdiri bog‘liqlikda aks ettiriladi (5. 85).

Mumtoz she’riyatda uzoq asrlar davom etib kelgan peyzaj bilan bog‘liq an’analar XX asrda ham ijodkorlarimiz tomonidan davom ettirilgan. Bu davrda o‘zbek she’riyatida asosan, inson dardini tabiat voqea-hodisalariga bog‘lab tasvirlangan she’rlarni uchratamiz.

Adabiyotshunos N.Afoqova aytganidek: “Jadid adabiyoti – an’ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga kelgan adabiyotdir... Ammo eskilik va yangilik aynan jadid adiblari ijodida – she’riyatda ro‘baro‘ keldi” [Afoqova N. 9]. Buni biz poetik obrazlar misolida yanada yaqqolroq tasavvur qilishimiz mumkin.

Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari shoirlar ijodida peyzaj bilan bog‘liq poetik obrazlar o‘ziga xos tarzda qo‘llanilgan. Ular she’rlarida bu poetik obrazlarning yangilanishi ko‘zga tashlanadi.

Peyzaj bilan bog‘liq poetik obrazlar Abdulhamid Cho‘lpon she’riyatida yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Bunga shoirning “Somon parcha”, “Yorug‘ yulduzga”, “Ko‘klam qayg‘usi”, “Po‘rtana”, “Binafsha”, “Kuz”, “Tun” she’rlarini misol qilishimiz mumkin. Shoirning peyzaj lirikasida o‘zbek jadid she’riyatiga xos “quyosh, “oy” , “yulduz” , “bulut”, “barg” , “gul”, “yo‘l” , “tong yeli”, “shamol”, “binafsha”, “qish”, “ko‘klam” singari ko‘plab obrazlar ramziy ma’noda qo‘llaniladi. Bunday obrazlar mohiyatiga shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari mohirona singdirilgan.

“...Cho‘lpon she’rlarida tabiat manzaralari, fasllar tasviri aksariyat shoirning ruh va kayfiyatinigina emas, qay bir darajada g‘oya va maslagini ham o‘zida namoyon etadi. 1921-1923 yillarda yozilgan she’rlarda tabiatga ijtimoiy sifatlar berilardi” [Qosimov B. 289]. Bu fikrlar tasdig‘ini shoir ijodidan ko‘plab misollar orqali kuzatishimiz mumkin. Cho‘lponning “Sharq nuri”deya atalgan she’ridagi quyidagi misralarga e’tibor qaratamiz:

Sharqning kuni kirsa bulut ostiga,
Sening so‘nuk kunlaringni o‘ylayman.
Botib borgan oyga qarab: “Ay yo‘qsul,
U ulug‘ nur senmasmu?” - deb so‘rayman [Cho‘lpon. 378].

Ushbu satrlarda bulut, nur, oy kabi an’anaviy ramzlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Tilimizning jozibasi, ranginligi, naqadar boyligini namoyon etgan shoir millat boshiga kelgan qora kunlardan chuqur iztirob chekadi. Shoir yurtining qayg‘uli kunlarini botayotgan kunga, ya’ni, quyoshga, bulutga to‘la osmonga qiyoslaydi. Shoir lirik qahramoni taqdir oldida taslim bo‘lishni istamay ulug‘ nurdan ya’ni vatanining yorug‘ kunlaridan umidvorlik tuyg‘usini hamisha his qilib yashaydi.

To‘g‘rilik quyoshi chiqqanda bo‘shalib,
O‘z uchmohimga o‘zim kirayin!... [Cho‘lpon. 381].

“Mening tovushim” she’ridan olingan misralarda esa shoir quyosh ramzidan foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Shoir qachonlardir, to‘g‘rilik quyoshi chiqishini, millat o‘z orzusidagi hayotga erishishini chin yurakdan tilaydi va ana shu kunlar kelganda o‘zini jannatdagidek his qilishiga ishonadi. U o‘zini xalqdan ajratmaydi, uning bir zarrasi deb biladi.

Cho‘lponning tabiat tasviriga bag‘ishlangan she’rlarining ko‘pchiligining botinida ham erk

haqidagi orzularini ko‘rishimiz mumkin:

Binafsha, sen uchun ko‘kragim erk yeri,
Bu yerdan ko‘klarga uchgil [Cho‘lpon. 452].

Cho‘lpon tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik va hamohanglik zarurligi, bu jamiyat va insoniyat uchun tabiiy ehtiyoj ekanini kuyunib yozadi. “Somon parcha” she’rida ham shu holat yaqqol namoyon bo‘ladi:

Muhit girdobida bir somon parcha,
Bir poxol cho‘pidek oqib boraman
Har amal, har ishni “haq” deb boraman,
Vazminim qolmadi bir uzuq qilcha [Cho‘lpon. 481].

“Binafsha” she’ridan farqli o‘laroq “Somon parcha” she’rida taslimlik kayfiyati ustunlik qiladi. Ya’ni kurashlardan charchab, o‘zini muhit erkiga topshirgan inson qiyofasini somon parcha misolida ko‘rishimiz mumkin.

“Barg” she’rida esa:

O‘pmayman shu chog‘da farishta malakni,
O‘paman butoqda titragan bir bargni [Cho‘lpon. 436].

deya go‘zal misralarni bitadi. Cho‘lpon go‘zallikda farishtadek malaklardan ko‘ra butoqda titrab turgan bargni afzal ko‘radi. Barg - tiriklik, yasharish faslining, umrning gullagan paytining ramzi. Lekin kuz shamoli nashtarini sanchib bargni yaproqqa aylantiradi. Yaproq esa xazon bo‘lish, inson umrining boqiy emasligi ramzidir. Tabiat sirlarini tushunish insonga hayot hodisalarining mohiyatini anglashda ham katta yordam berishini yaxshi tushungan shoir o‘z she’rlarida xilma-xil betakror tabiat lavhalarini yaratadi.

Cho‘lpon she’rlaridagi kuz, qish, xazon kabi tabiat manzaralari bir jihatdan, fasllar almashinuvi bilan chambarchas bog‘liq, ayni paytda, bunday ifodalar aksariyat o‘rinlarda muallifning ruhiy holat va kayfiyati, g‘oya hamda maslagini ham o‘zida namoyon etadi. Masalan, shoir “Kuz” she’rida:

Ko‘m-ko‘k ekan, sarg‘aydilar yaproqlar
Og‘riq, mag‘lub, tutqun Sharqning yuzidek;
Bo‘ronlarning ko‘zlarikim o‘ynoqlar
G‘olib G‘arbning qonga to‘lgan ko‘zidek.

deb yozadi. Yuqoridagi misolda nainki sarg‘aygan yaproqlar, quturgan bo‘ron kabi tabiat manzaralari ijtimoiylashtirilgani, balki “*Og‘riq, mag‘lub, tutqun Sharqning yuzi*” va “*G‘olib G‘arbning qonga to‘lgan ko‘zi*”ni o‘zaro qiyoslashga ham xizmat qildirilganining guvohi bo‘lamiz. Cho‘lpon “Xazon” she’rida “*Qarg‘alar bog‘larda qag‘lashib qoldilar*”, deyishidan hamon o‘laksaxo‘r qarg‘alar majoziy mazmun tashiyotgani anglashiladi. Chunki Cho‘lpon she’rlaridagi obrazlar bir jihatdan, shoir qalbining oynasi bo‘lsa, ikkinchi jihatdan umidlari sarobga aylangan xalqimizning mungli hamda fojiaviy hayot yo‘lidan so‘zlaydi.

Cho‘lpon lirik merosida shoirning “men”ligi bevosita badiiy ifodaga ko‘chgan, ba’zan ikkinchi shaxsga qaratilib, ham uning, ham so‘zlovchining ruhiyati, kayfiyat-holini ifodalagan o‘rinlar anchagina. Shoir ko‘pincha ochiq, samimiy va rost so‘zlaydi. Gohida esa, so‘roq va murojaat ohangida gapiradi. Ba’zan undov va suhbat-dialoglardan foydalanadi. Cho‘lpon she’larida biz takror va sinonimlarga, turfa xil ta’kidlarga ham duch kelamiz. Demak, shoir turfa rang ohanglar palitrasidan barakali foydalanib, fikr-tuyg‘u hamda niyat-muddaolarini mukammal berishga erishadi. U zulm va adolatsizlik, tengsizlik hamda baxtsizlikni qora rangda, aksincha ezgulik va poklik, baxtiyorlik hamda adolatni oq rangda idrok etadi. Shu kabi tushuncha va ilg‘amlarini she’rga soladi. *“Ko‘lanka”, “bulut”, “parda”* singari qora ranglar ba’zan yangicha ma’no ottenkalarida faollashib, haqsizliklar guvohi bo‘lgan shoirning go‘zal umidlari sarobga aylangan davrdagi kayfiyat-hollarini ifoda etadi. Shoir she’rlarida tez-tez ko‘zga tashlanuvchi *“bo‘ri”, “qarg‘a”, “boyqush”, “shayton” “ko‘lanka”,*

“kishan” kabi ramzlarda esa Cho‘lpon ko‘ngil po‘rtanalaridagi taloto‘mlar, ya’ni zolim bosqinchilar – chorizm va bolshevizmga qarshi nafrat hislari jamlanadi. Adolat, tenglik, birdamlik tushunchalarini unutib, o‘lkani talagan, qirg‘in va turfa buzg‘unchiliklarga bosh bo‘lgan bunday kimsalarning tuban qiyofalari fosh etiladi. Vatan va xalq taqdiriga kuyungani, ularning dard-hasratlarini o‘ziniki deb bilgani uchun ham, Cho‘lpon she’rlarida tushkun bir ruh silqib turadi. U yashab ijod qilgan davrning ijtimoiy-madaniy hayoti, ko‘z o‘ngida kechgan real voqelikdan olingan taassurotlar ham behad qaynoq, alg‘ov-dalg‘ovli edi. Shuning uchun Cho‘lpon she’rlariga *“dengiz”, “to‘lqin”, “po‘rtana”, “qiyomat”, “qanot”* kabi obrazlar kirib keldi. Shoir o‘zining eng qadrli orzu-umidlarini *“qanot”, “chechak”, “ko‘klam”, “bahor”, “gul”, “uchar qush”, “sor burgut”* obrazlari, *“tilak yulduzi”, “najot yulduzi”, “chiqadigan quyosh”, “to‘lin oy”* kabi iboralarda badiiy ifoda etdi.

Cho‘lponning peyzaj lirikasida “Ko‘klam qayg‘usi” she’ri alohida ajralib turadi. Qish xayolidan endigina qutila boshlagan lirik qahramon ko‘klam payti uqubatli uzun qish kechalarini eslashniyam xohlamaydi. Ammo orziqib kutgan ko‘klam ham unchalik quvonchli emas. Shoir bu holatni *“Ko‘klam chog‘i ... Sayroq bulbul sayramas, Na uchunkim, tanburimning tili yo‘q”* – deya tasvirlaydi. She’rning keyingi misralari nafaqat g‘oyaviy yo‘nalishi, balki obraz va ifodalarga boyligi bilan ham e’tiborga molikdir.

Yolg‘iz menmi ko‘klam chog‘i yig‘lagan?
Yolg‘iz menmi har umidda aldangan?
Yolg‘iz menmi ko‘kragimni tig‘lagan?
Yolg‘iz menmi sevinch bilan bo‘lmagan?
Ey ko‘klamning ko‘z tortg‘uvchi kelini,
Nima uchun yig‘latasan bir meni? ...[Cho‘lpon. 451]

She’rda bir jihatdan ko‘klam paytidagi tushkun holat, ikkinchi tomondan esa bahorning betakror go‘zalligi mahorat bilan tasvirlangan. Iztirob, yig‘i, aldanish singari tuyg‘ular lirik qahramon qalbiga azob beradi. Ko‘klamdan katta umidlar kutgan lirik qahramon o‘z maqsadiga erisha olmaydi. Uning orzusi xalqini erkin va ozod ko‘rishdir. Mazkur o‘rinda ko‘klam, qish ramzlari orqali shoir o‘z qarashlarini shoirona ifoda etgan. Tajohilu orif san’ati mahorat bilan qo‘llanilgan.

Umuman, peyzaj bilan bog‘liq poetik obrazlarning Cho‘lpon she’riyatida qo‘llanilishi o‘ziga xos bo‘lib, u orqali shoirlarimiz olam, odam, jamiyat, tabiat va inson haqidagi badiiy qarashlarini tasvir etishgan. Peyzaj bilan bog‘liq obrazlar jadid she’riyatining dunyoviy va ijtimoiy mohiyatini yanada chuqurlashtirgan.

Cho‘lpon ijodida millatparvar lirik qahramon siymosini chizishda, erk, ozodlik, hurlik haqidagi qarashlarini ifodalashda, she’riyatning botiniy mazmunini yanada kuchaytirishda peyzaj bilan bog‘liq poetik obrazlar muhim vosita rolini o‘tagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramov B. Cho‘lpon chindan murakkabmi? / O‘z. A.S., 1990, 13- iyul.
2. Yo‘ldoshev N. Cho‘lpon she’riyatida peyzaj. Filologiya fanlari nomzodi...diss. avtoreferati. – T., 1994.
3. Is’hoqov Y. Navoiy poetikasi. – T., 1983.
4. Karimov N. Cho‘lpon. – T., 1991.
5. Matyoqubova T. Poetik idrok va mahorat. – T.: Fan va texnologiya, 2010.
6. Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. J.1. – T.: Adabiyot va san’at, 1971.
7. Turdiyev Sh. Tong yulduzi qismati. Yoshlik, 1991. № 3.
8. Erkinov A. Navoiyning peyzaj yaratish mahorati. – T., 1990.
9. Erkinov A. Navoiy – peyzaj ustasi. – T.: Fan, 1988.
10. Sharafiddinov O. Cho‘lpon. – T., 1991.
11. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
12. Cho‘lpon. Yana oldim sozimni. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti. 1991.
13. Haqqulov I. Cho‘lpon she’riyatining xorijda o‘rganilishiga doir / O‘zbek tili va adabiyoti, 1992, № 3-4.

DUKCHI ESHON QO‘ZG‘OLONIGA BAG‘ISHLAB YOZILGAN TURKUM SHE’RLAR

Sayfiddinova Gulnoza Ulug‘bek qizi,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
e-mail: mehrsabriya.@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy uyg‘onish davri Qo‘qon adabiy muhitida XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida ijod qilgan shoirlarning “Dukchi eshon qo‘zg‘oloni”ga bag‘ishlab yozilgan turkum she’rlari tahlilga tortilgan. Tadqiq etish jarayonida Dukchi eshon obraziga shoirlarning individual munosabatlari tekshirilgan.Turkum she’rlar milliy uyg‘onish davri adabiyotining muhim xususiyatlaridan biri ekanligi misollar asosida dalillanib, she’rlarning poetik jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Turkum she’rlar, Dukchi eshon, qo‘zg‘olon, janr, adabiyot, milliy uyg‘onish, satira, poetik tadrij.*

Abstract

This article analyzes the poems of poets who worked in the Kokand literary environment of the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century, dedicated to the “Dukchi Ishan Uprising”. In the process of research, the individual attitudes of the poets to the image of Dukchi Ishan were examined. It is argued on the basis of examples that the poems of the poets are one of the important features of the literature of the national revival, and the poetic aspects of the poems are revealed.

Key words: *Poems of the Dukchi eshon, uprising, genre, literature, national revival, satire, poetic development.*

Xalqimiz mustamlaka davrida, milliy ozodlik uchun, kelajakka bo‘lgan porloq ishonch bilan zulm va zo‘ravonlikka qarshi turli shakllarda kurash olib bordi. Bu kurashlar goho qo‘zg‘olon, gohida esa xalq g‘alayonlari shaklida namoyon bo‘ldi. Ana shunday milliy ozodlik harakatlaridan biri, XIX asrda Turkistonda bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olonlarning eng yirigi 1898-yilda Andijonda sodir bo‘lgan Dukchi eshon (Muhammad Ali xalfa Sobir o‘g‘li (1853-1898) rahbarligidagi “Andijon qo‘zg‘oloni”dir. Qo‘zg‘olon xalq orasida keskin muhokamalarga sabab bo‘lgan. Zero, bularning barchasi ozodlik uchun qilinayotgan harakatlarning debochasi edi. Milliy ozodlik uchun boshlangan kurash oradan ko‘p o‘tmay bostiriladi. Sodir bo‘lgan jarayonlar oddiy aholi hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu holatlar, shubhasiz, madaniy va adabiy hayotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Eshonga bag‘ishlangan qator lirik she’rlar maydonga keldi. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi Qo‘qon adabiy muhitining Muhammad Umar Umidiy, Zavqiy, Rojiy Marg‘inoniy, Toshxo‘ja Asiriy Xo‘jandiy kabi yirik shoirlari shunday ijtimoiy-siyosiy hodisaga o‘zlarining individual munosabatlarini bildirdilar. Natijada bir qancha badiiy xususiyatlarni o‘zida jamlagan turkum she’rlar yaraldiki, ularni davr nuqtayi nazaridan tadqiq etish va to‘liq holda ilmiy muomalaga olib kirish bizning galdagi asosiy vazifalarimizdan biridir.

Ma’lumki, bu davrga kelib turli mualliflarning ayni bir mavzuga atab yozilgan asarlari she’riyatni yana bir pog‘onaga yuksaltirdi. Natijada she’riy turkumlar yuzaga keldi. “She’riy turkum – bu yaxit bir tizim, uning mazmuni va turkumni tashkil etuvchi asarlarning o‘zaro bog‘liqligi turkumlilikni hosil qiladi. Turkumni tashkil etuvchi unsurlar estetik, ifodaviy va tuzilmaviy vazifalarni ham bajaradi” [Fayzullayeva, 2023:19]. Turkum she’rlarni mazmun va mantiqan birlashtirib turuvchi yagona g‘oya mavjud bo‘ladi. Va barcha mazmun-mohiyat ana shu bitta g‘oya atrofida birlashadi. Mavzu bir, g‘oya bir, faqat ijodkorning tasvirlash uslubi turlicha bo‘lgan she’rlarning yig‘indisi turkumlilikni yuzaga keltiradi. Ularni lirik she’riy turkumlar jihatidan tahlil qilishga ehtiyoj tug‘iladi. Adabiyotshunos T. Hojiboyev “XIX asr o‘zbek shoiri Muhammad Umar Umidiy hayoti va ijodi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida shoir Umidiyning ham shu nomdagi hajviyoti mavjud ekanligini va u “Yigchi eshon hajvi” deb nomlanganligini ta’kidlaydi [Hojiboyev, 1974: 95]. Filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinovning 2009-yili Tokioda “1898-yil Andijon qo‘zg‘oloni va uning yo‘lboshchisi Dukchi eshon

– davr shoirlari bahosida" nomli kitobi ingliz tilida nashr etiladi. Adabiyotshunosning tadqiqotlari natijasida ayni mavzudagi turkum she'rlar ilm ahliga ma'lum qilinadi [Erkinov, 2009:59]. Unga ko'ra bu davrda Muqimiy, Zavqiy, Umidiydan tashqari yana Rojiy Marg'inoniyning "Yikchi eshon haqida hajv", Sidqiy Xondayliqiy, Sulton Ahmad, Abd al-G'afur Muhib, Mavlaviy Yo'ldoshlarning ham shu mavzudagi she'rlari, Asiriy Xo'jandiyning "Dar mazammati eshon Dukchi" nomli asarlari haqida ma'lumot beriladi. Lekin shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, Muqimiyning "Bachchag'ar" va "Qurbaqalar" radifli she'rlari adabiyotshunoslikka ma'lum va shu kunga qadar bu satiralar Dukchi eshonga bag'ishlangan degan qarashlar mavjud edi. Lekin adabiyotshunoslikda olib borilgan keyingi tadqiqotlar natijasida bu ikki hajviy asarlar o'zining ilmiy bahosini oldi. Bu borada professor Qo'ldosh Pardayevning olib borgan tadqiqotlari bizga qimmatli ma'lumotlar beradi. Olim mazkur hajviyalarga tarixiy mezonlar asosida yondashish zarurligini ta'kidlaydi: "Keyingi izlanishlar shuni tasdiqlaydiki, "Bachchag'ar" radifli hajviy she'r Dukchi Eshonga emas, Muqimiy yashagan "Hazrat" madrasasining mutavallisi Muhammad Musaboy sha'niga bag'ishlangan. Buni mazkur she'rning oltinchi bayti ham tasdiqlab turibdi:

Xalqada mundin bo'lak bolonishin yo'q, oxiri,
Qilmag'ay deb qo'rqaman Hazratga da'vo bachchag'ar"[Pardayev, 2020: 158]

Demak, bu ilmiy ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, Muqimiyning "Bachchag'ar" radifli satirasi Dukchi eshonga bag'ishlangan emas. "Shoirning "Qurbaqalar" radifli hajviy asariga kelsak, yuqorida ham ta'kidlanganidek, sho'rolar mafkurasining kuchli tazyiqi sabab mazkur she'r tahrirga uchragani kuzatiladi. Hajviyaning 5 va 7-baytlari shoir asarlari to'plami nashrining barchasida quyidagi variantda uchraydi:

Xoh-noxoh Mingtepa o'ylab qilursiz zikri jahr,
Hovz davrinda hama mastu piyon qurbaqalar.
Ilgari erkan Oyimqishloq, Muqimiy, emdi hayf,
Bachchalar oq do'ppilik qorin yo'g'on qurbaqalar.

Muqimiyning 1325-raqamli o'z qo'lyozma bayozida (121a-sahifa) asliyat matni:

Yo o'rusdek jonivorlarga bu kun mayrammukin,
Hovz davrinda hama mastu piyon qurbaqalar.
Ilgari erkan Oyimqishloq, Muqimiy, emdi hayf,
Bachchalar o'rnig'a havzida juvon qurbaqalar.

Ko'rinadiki, mutaxassislar e'tiroziga sabab bo'lgan "Xoh-noxoh Mingtepa o'ylab qilursiz zikri jahr", "Bachchalar oq do'ppilik qorin yo'g'on qurbaqalar" – misralari o'sha davr mafkurasi taqozosiga ko'ra ongli ravishda tahrir qilingan. Eng yomoni she'r, tarix haqiqatiga zid holda Dukchi eshonga bog'lab talqin etilgan". [Pardayev, 2020:159]. Bu qimmatli ma'lumotlar asosida Dukchi eshonga (Muhammad Ali) bag'ishlangan she'riy turkumlarni tahlil qilish zarurati seziladi.

Aslida, bu she'rlar o'sha davrdagi hukmron qarashlarga ergashib yozilgani adabiyot ahliga sir emas, albatta. Xususan, professor Hamidulla Boltaboyevning "Yollangan adabiyot sirlari" maqolasi orqali ma'lum bo'ladiki, Muqimiyning Dukchi eshonni fosh etuvchi maxsus asar yozmagani ilmiy dalillar bilan asoslab beriladi. "Muqimiyning pokiza nomi "Dukchi eshon sikli"ning boshlovchisi va yaratuvchisi sifatida tilga olinishi tarix haqiqatiga ham, adabiy mantiqqa ham zidligini shoir satirik merosining o'zi anglatib turibdiki, u dastlab tanqid qalamini mamlakatga bosqinchilik va mustamlakachilik siyosatini olib kirgan chor amaldorlari va harbiylarga qarshi qaratgan" [Boltaboyev,1998:3]. Davr ijtimoiy-siyosiy voqealariga bag'ishlangan she'rlarning ba'zilari hukumatning maxsus topshirig'i asosida yozilgan bo'lib, shoirlarning eshonga atab yozgan she'rlari ana shunday she'rlarning bir ko'rinishi edi, xolos. Chunki aksar she'rlarda eshon kuchli tanqid qilinadi. Lirik qahramon sifatida tasvirlansa-da, undagi fazilatlar qoralanadi. Shoir Zavqiyning "Hajvi Yigchi eshon", "Uy puli" va "Pashshalar" singari satirik asarlari ham ana shu topshiriqlar silsilasida

maydonga kelgan asarlar qatoriga kiradi. Zavqiyning “Hajvi Dukchi eshon” (Ayrim manbalarda “Hajvi Yigchi eshon”) satirasi mavjud bo‘lib, shoir she’rning dastlabki baytlaridayoq Dukchi eshonga o‘z munosabatini ifodalaydi:

Solding olam ahlig‘a ko‘p sho‘rishu g‘ovg‘o eshon,
Hayriyat tezroq yedi boshingni bu savdo eshon [Zavqiy, 1950: 32].

She’rda Dukchi eshon tufayli xonavayron bo‘lgan joylarning son-sanog‘i yo‘qligi aytiladi. Zavqiy satirasi o‘ziga xos bo‘lib, uning dastlabki baytlarida eshonga tashqi tomondan baho beriladi. Misralar tadrijiyligida esa, qo‘zg‘olon natijasida butun Farg‘ona vayrona holga kelgani, xalq qattiq jabr ko‘rganligi bayon etiladi:

Ishni sen qilding, balog‘a qoldilar bechora xalq,
G‘o‘zani sen yeb, kesildi bo‘zchi, bangi, yo eshon [Zavqiy, 1960: 32-33].

Bu davr adabiyotining yana bir muhim jihati shundaki, unda yaratilgan asarlarning xalq tiliga uyg‘unligi, sodda va ravon yozilganligidadir. Yuqoridagi she’rlarda buning yaqqol misolini ko‘rishimiz mumkin. Zavqiy hajviyotida voqea butun tafsilotlari bilan aks etadi. Bu qo‘zg‘olon tez fursatda yoyilib ketganidan ahli Farg‘onaning tang ahvolda qolganini yozadi shoir. Bu shuhrat go‘yo vabo singari barchani domiga tortdi, deyiladi she’rda. Shoir xarobaga aylangan, vayrona bo‘lgan Mingtepa haqida qattiq qayg‘urganini ifodalaydi. Agar bu turkum she’rlar tahliliga diqqat qiladigan bo‘lsak, faqat Zavqiy tomonidan yozilgan hajviyotdagina Eshonning Qodirquli mingboshi tomonidan tutilib, dorga osilganligi haqida ma’lumot beriladi:

Qancha odam o‘ldilar, ko‘p xalq bo‘ldilar asir,
Shar’ hukmi: qonig‘a zomin bo‘libsan ho eshon.
Tutmasa Qodirquli mingboshi, gar osilmasang,
Aylar eding bu mahalda Mahdilik da’vo eshon [Zavqiy, 1960: 32-33].

Yigirma bayt (qirq misra)dan iborat bo‘lgan Zavqiy hajviyotida eshonning fe’l-atvori haqida *“Fe’l-u atvoring tamoman yoqmagan, bejo eshon... Xiylakor dog‘ulidek surat buzuq, siyrat buzuq”* deya ta’rif beradi. Zavqiy o‘ziga xos tarzda fikrlaydigan, boshqa shoirlardan farqli o‘laroq tanqidiy qarash va qat’iylik singdirilgan asarlari bilan ham ajralib turgan. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, adabiy ta’sir omili tufayli Muqimiy ijodidagi keskin kinoya, achchiq kesatiq va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy mavzularga yondashuv Zavqiy ijodida ham asosiy planda bo‘lgan. Davr adabiyotining yana bir muhim jihatlaridan biri shundaki, an’anaviylikdan chekinmagan holda shoirlar tomonidan yangi badiiy topilmalar qilinganligidadir. Misol uchun, Zavqiy hajviyasidagi *“Bir cho‘qib ikki qaraydurg‘on aloqarg‘o eshon”* misrasida “eshon” so‘zi qushga nisbatan ko‘chma ma’noda tasvirlangan. Bu istiora(metafora)dir. “Bir cho‘qib ikki qarash” –qushning harakatiga ishora, qo‘rqoqlikni masxara qiluvchi kinoya bo‘lib, ularning barchasi asarning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qilgan. *“Hiylakor dog‘ulidek surat sovuq, siyrat buzuq”* misrasida eshon hiylakor, makkor va yaramas kimsaga o‘xshatiladi, surat-tashqi ko‘rinish, siyrat-ichki dunyo –bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan sifatlar ma’no kuchaytirishga xizmat qilgan. Shoir tashbeh va tazod san’atlari orqali lirik topilmalar qilishga erishgan. Yangilanayotgan adabiyotimizda shu tariqa yangicha tasvirlar, o‘xshatish va poetik ifodalar vujudga keldi. Adabiy muhitning yana bir iste’dod egasi Rojiy Marg‘inoniy “Yikchi eshon haqida hajv” she’rida eshonning tashqi portret chizgisini kinoya vositasida ifodalaydi: *Yurdi joyidin chiqib, oq lattani qo‘lga ilib...*Professor Aftondil Erkinovning Dukchi eshon haqidagi kitobida Rojiy she’rining to‘liq matni bilan tanishishimiz mumkin bo‘ladi *[Erkinov, 2009: 82]*. Bu she’r o‘n yetti baytdan iborat bo‘lib, shoir Zavqiy singari Rojiy ham eshon haqidagi o‘z fikrlarini she’riy yo‘l bilan bayon etgan. Farqli tomoni shundaki, Rojiy qalamiga mansub bo‘lgan hajviyada asosiy e’tibor qo‘zg‘olon tafsilotlariga qaratilgan. Chunki satrlardagi o‘xshatishlar, bayonlar fikrimizni dalillaydi. Qo‘zg‘olon qanday sodir bo‘lganligi va buning natijasida xalqqa qanchalik talofat yetganligi kuchli bo‘yoqlarda aks etgan: *Yurdi joyidin chiqib, oq lattani qo‘lga ilib, Nayzasin yigdin qilib, fath etgali*

mulki jahon...Ko‘rdi ko‘zini ochib, lashkarlari ketmish qochib, Boshg‘a tufrog‘lar sochib, hayrat bilan qildi fig‘on [Erkinov, 2009: 82].

Shoir Rojiy bu qo‘zg‘olonga fitna deya baho beradi, qolaversa eshon to‘g‘risida bildirgan keskin fikrlariga qaraganda qozg‘olonning sodir bo‘lishidan tortib, to falokatga yuz tutishigacha bo‘lgan jarayonga ko‘proq e’tibor qaratadi. Ayni shu jihati tufayli ham “eshon” mavzusida yozilgan boshqa turkum she’rlardan farq qiladi. Chunki, yuqoridagi hajviyotda asosan eshonning holati va uning kirdikorlari fosh etiladi. Rojiy hajviyotida esa jang tafsilotlari shunday jonli tasvirlanadiki, bu qo‘zg‘olon haqidagi tasavvurlarni boyitishga xizmat qiladi. Zavqiy va Rojiy hajviyotlarida ma’no jihatidan o‘xshash bo‘lgan misralarni ham uchratamiz: Zavqiyda *“Xoriqi odat: o‘tinsiz osh pishirding tomda”* deya eshonning xom rejasiga ishora qilinib, uning holati ifodalansa, Rojiy bu mazmunni yanada boyitadi va shunday izohlaydi: *“Qo‘ydi o‘t yer ostidan qaynatdi tom uzra qozon”* yoki *“Hiylasidin bexabar birmuncha hayvonlar oni, Tomda pishgan oshini bildi karomatdin nishon”*. Zavqiy eshonning ishi rejasiz bo‘lganligiga ishora qilsa, Rojiy ham tomda qilingan rejaga ishora qiladi. Zavqiyda esa, *“Har kishi bu sho‘rishi Farg‘onadin so‘rsa nishon, Zavqiy aytur: jon chiqib, tarixidir ig‘vo eshon”*. Ko‘rinadiki, Zavqiy eshonni she’r so‘nggida ham tanqid ostiga oladi. Rojiy hajviyani *“el aro rasvo bo‘lib, dor ostida berdi jon”* deya yakunlaydi.

Asli marg‘ilonlik, ijodiy faoliyati XIX asrning ikkinchi yarmida Farg‘onada boshlangan, yirik hajmli “Maktubchai xon” (1884) manzumasining muallifi Muhammad Umar Umidiyning ikki qismdan iborat bo‘lgan shu mavzuda yozilgan “Yigchi eshon hajvi” she’ri ham mavjud bo‘lib, bu she’rning birinchi qismi yigirma baytdan iborat. Dastlabki she’rda, eshonning makr-hiylalar bilan odam to‘plaganligiga ishora qilinadi, shu orqali qo‘zg‘olon qilishga erishganligi qolaversa, qo‘zg‘olonning “shuhrati” har yonga yoyilganligi ifodalanadi:

Misvogidan o‘t chiqarmish –bachchag‘arning shuhrati
Katta ish bilan qilursan, muttaham da’vo eshon [Hojiboyev, 1974: 95].

“Eshon” radifli g‘azal shaklida yozilgan hajviyaning ikkinchi qismida satirik tanqid orttiriladi. Eshon makrda iblis bilan hamtovoqlikda ayblanadi. Birinchi qismda ham xuddi shunga o‘xshagan misra mavjud edi: *Makri shayton birla tadbir ko‘rsatib paydo eshon...*Ikkinchi qismda esa mazmun yanada bo‘rttirib ifodalanadi, 2-qism 1-qismning davomi sifatida uni to‘ldiradi: *Yoki iblis hamtovoq makrida bu shayton eshon...* Birinchi qismda eshonga unvon bergan Muhammadxon qozi, u bilan hamsuhbat bo‘lib, qo‘llab-quvvatlagan Sarimsoq xo‘ja eshonning nomlari keltiriladi. Ularga sovg‘a-salomlar yuborgan eshon qattiq qoralanadi. Ikkinchi qismda qancha odamning bu qo‘zg‘olon oqibatida xonavayron bo‘lib qamalgani, bor mol-mulklari qo‘ldan ketgani, oxir-oqibat eshonning yakson bo‘lgani misralar orqali ifodalanadi. Ahamiyatli jihati shundaki, shoir Umidiyning fikrlari xuddi Zavqiynikidek tanqidga asoslanadi. Bu esa o‘sha davr ijodkorlarining har bir hodisaga kuzatuvchanlik va ziyraklik bilan yondashganini bildiradi.

Toshxo‘ja Asiriyning ham “Dar mazammati eshon dukchi” nomli o‘n sakkiz baytdan iborat bo‘lgan she’ri mavjud. Turkum she’rlarni davr muhitidagi vaziyatni aks ettiribgina qolmay, jamiyat hayotida ro‘y berayotgan har qanday hodisaga ijodkorlarning individual yondashganligidan dalolat beruvchi lirik tizim deya baholashimiz mumkin. Xususan, Dukchi eshon haqidagi hajviyotlar satirik yo‘nalishda bo‘lib, achchiq kulgini aks ettiradi. Shu tariqa Dukchi eshonga bag‘ishlangan turkum she’rlar yuzaga keldi. “Turkumlar tarkibidagi she’rlar mustaqil asarlar ekanligi ulardagi har bir she’r uchun tanlangan mavzuda, qo‘yilgan sarlavhasida, she’rning o‘z poetik obrazlari bo‘lishida, mustaqil mazmunida, kechinma tasviri yoki alohida syujet chizig‘iga ega bo‘lishi kabilarda ko‘rinadi” [Fayzullayeva, 2023:19]. Darhaqiqat, turkum she’rlarning asosiy xususiyatlaridan biri ham, aynan ularning bir mazmun atrofida birlashtirilganidadir. Yaxlit mazmunga ega bo‘lgan, yagona lirik qahramon ishtirok etgan turkum she’rlar yaratish ayni davrda an’anaga muvofiq yangilanishlarga to‘la bir shaklda davom ettirildi. Tadqiqotchi O. Fayzullayeva ta’kidlaganidek, turkumlilik ham o‘z

taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan badiiy shakllardan biridir, unda ham asrlar osha davom etib kelayotgan an’ana kuzatiladi. Turkum she’rlardagi yakdillik ayni fikrimizning dalilidir.

Xullas, bu davrga kelib, Qo‘qonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayoti aks etgan she’riy turkumlar birinchi planga chiqdi. Sababi, boshiga tushgan ayanchli voqea-hodisalar, turli musibatlar, har tomondan yog‘ilayotgan sinovlar ta’sirida qolgan oddiy xalqning dardini davr shoirlari baralla kuylashdi. Andijon qo‘zg‘oloniga bag‘ishlab yozilgan she’rlar nafaqat badiiy-estetik, balki tarixiy nuqtai nazardan ham qimmatlidir. Milliy uyg‘onish davri Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlarining turkum asarlari yuzasidan, qolaversa turkum she’rlar tahlili masalalari borasida olib borilgan va olib borilayotgan tadqiqotlar bu davr adabiyotining ilmiy va amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aftondil S.Erkinov . The Andijan uprising of 1898 and its leader Dukchi-Ishan deskribed by contemporary poets. Printed in Japan, 2009. – P. 59.
2. Karimov G‘. Muqimiy. Tanlangan asarlar. 2-jild. –Toshkent, 1960. – B. 35.
3. Zavqiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1950. – B.32.
4. Karimov G‘. Muqimiy. Asarlar. – Toshkent, 1974. – B. 378-379.
5. Zavqiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘zadabiynashr, 1960. – B. 32-33.
6. Hojiboyev T. XIX asr o‘zbek shoiri Muhammad Umar Umidiy hayoti va ijodi. F.f.nom.diss. – Toshkent, 1974. – B. 95.
7. Q. Pardayev. Muqimiy she’riyatining matn tarixi, tahriri va talqini. F.f.d.diss.(DSc) –Toshkent, 2020. – B. 158-159.
8. Fayzullayeva O. O‘zbek dabiyotida she’riy turkumlilik masalasi. F.f.d.diss.(DSc) avtoreferati. –Toshkent, 2023. – B.19.
9. Boltaboyev H. Yollangan adabiyot sirlari.// O‘zAS.1998, 4-dekabr, 49-son. – B. 3.

ELBEK HIKOYALARIDA USLUB MOHIYATI

A'lo Arzimurodova,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
1-bosqich magistranti
e-mail: aloarzimurodova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadid adabiyotining yorqin namoyandasi Elbek (Yunusov Mashriq) hikoyalarida uslub mohiyati tahlil qilinadi. Yozuvchining "Fohisha" va "Anorgul" hikoyalari misolida peyzaj tasvirlarining ruhiy holatni ochishdagi roli, ramziy obrazlar, xalqona so'z va iboralardan foydalanish uslubi yoritiladi. Shuningdek, "Anorgul" hikoyasining ichki bo'limlarga bo'linishi, undagi milliy urf-odatlar, xalq qo'shiqlari, lapar va marosimlar orqali Elbekning milliy ruhni badiiy asarga singdirish mahorati ochib beriladi. Maqolada Elbek hikoyalarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, jamiyatdagi or-nomus, ma'naviyat va ijtimoiy adolatsizlik masalalarini yoritishdagi o'rni asoslanadi.

Kalit so'zlar: *Elbek, jadid adabiyoti, hikoya uslubi, peyzaj tasviri, ramziy obraz, xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar.*

Abstract

This article analyzes the essence of style in the stories of Elbek (Yunusov Mashriq), a prominent representative of Jadid literature. Using the example of the writer's stories "Fakhisha" and "Anorgul", the role of landscape images in revealing the state of mind, the style of using symbolic images, folk words and expressions, is highlighted. Also, the division of the story "Anorgul" into internal sections, and Elbek's skill in incorporating the national spirit into a work of art through national traditions, folk songs, lapar and rituals are revealed. The article examines the ideological and artistic characteristics of Elbek's stories, their role in illuminating the issues of honor, spirituality and social injustice in society.

Keywords: *Elbek, Jadid literature, narrative style, landscape image, symbolic image, folk oral art, national traditions.*

Elbek (Yunusov Mashriq) jadid adabiyotining ko'p qirrali ijodkorlaridan biri. Biz uni shoir, yozuvchi, pedagog sifatida ko'ramiz. Elbek o'z millatining milliy istiqloli uchun kurashgan fidoyi inson edi. Uning asarlari o'z davri muammolarini yoritish orqali xalqning ko'zini ochishga intiladi, o'zligini anglashga undaydi. Quyida biz tahlil qilmoqchi bo'lgan "Fohisha" hikoyasida or-nomus davrning eng muhim va himoya qilish qiyin bo'lgan masalasi sifatida yoritilgan. Ayni hikoya zamonaviy adabiyotning ayrim "ochiq satrlarda" ijod qiluvchi yozg'ichlariga eng go'zal o'rnak va namuna bo'la oladi. Yozuvchi sarlavhadanoq hikoya mazmunini ochib bergani holda *"Yemirik bino qoldiqlari, qay vaqt bo'lsa-da, bunda tuzukkina bir binoning bo'lg'onligini ko'rsatadi",* [1, 87-bet] boshlanmasi orqali asar qahramonining holatiga go'zal ifoda bilan ishora etib ketgan. Hayot yo'lida adashib insoniyligi xarob ahvolga kelgan boqimsiz qizning hayotini bamisoli boshlari ko'kka ko'tarilib turgan binolar qarshisida uyalib, o'zini yer bag'riga tortgan bino xarobasiga mengzitadi. Ushbu hikoyada *peyzaj* bevosita ruhiy tasvir ifodasi bo'lib xizmat qilgan. Undagi tasvirlarning qora rang, xaroba sovuqlik, qish singari zaxm holida kelishi hikoya ruhiyatini kitobxonga aynan o'zidek yuqtiradi. Boqimsiz qizning turmush achchiq chuchukliklaridan yoshlangan yuzi tasviri nozik til boyligi bilan ziynatlangan. "*O'ksizning qop-qora sochlari uning qayg'uli so'zini o'ritgan edilar. Yoziqsiz pok yuzidagi toshib turg'on qayg'u dengizini ular to'xtatmoqqa tirishardilar, tuban kishilarning ko'zlaridan u pok yuzini saqlash uchun bu sochlar tabiiy o'rtuk vazifasini o'tar edilar*".[1,87] *"O'rtuk"* so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida *"sirtdan qoplab turuvchi parda, berkitish, yashirish",* [5, 215-bet] singari ma'nolarini bildiradi. Bu yerda yozuvchi qizning to'zg'igan sochlarini yomon insonlar nazaridan pok yuzini berkitib turguvchi bir himoya vositasi sifatida keltirgan. Bundan ko'rinib turibdiki qizni kambag'allarni bir "tuban maxluq" sıfatida hisoblagan asli o'zi "maxluq" qiyofasidagi boy zulmidan himoya qilguvchi uning yagona sochlaridir.Baraka, poklik ramzi bo'lgan qor hikoya voqeligiga muvofiq zulm kuchini ko'rsatadi. Hikoyada qor "*qishning sovuq badanida*

sochilguvchi tuk" deya tasvirlanadi. Qo‘lingizga tushgan zahoti borligi ham bilinishga ulgurmasdan erib ketadigan, momiq paxtaga o‘xshatganimiz o‘sha oppoq qorning tegganda etni junjittiruvchi qattiq tuk misol tasvirlanishi yozuvchining chinakam badiiy mahoratini ko‘rsatadi. Qishning qahraton sovug‘idan qochib o‘ziga issiq boshpana qidirgan bechora qiz qishdan-da sovuq bo‘lgan, panohgoh o‘rniga qopqon vazifasini o‘tagan mayus binoga yo‘liqadi. Xasis va pastligi bilan dong chiqargan boy qizdan o‘z manfaati yo‘lida foydalanadi. Farzandlarini uylash ham malol kelayotgan, uning ortiqcha xarajatlaridan qochayotgan boy uchun bu yupun qizning ostonasi uzra kirib kelishi unga ayni muddao edi. Qizning ayanchli qismatini yozuvchi go‘zal tarzda qog‘ozga o‘rab "Qiz eski halini yo‘qotdi", deya tasvirlaydi. Ming afsuslar bo‘lsinkim, toptalgan bu or-nomus keyinchalik qiz uchun bir kosa vazifasi o‘laroq qoldi. Gunohlar ortidan gunohlar yetaklashib yolg‘onchilikni ham kasb qilib olgan qiz "elning gul, sodda go‘l" yigitlarini aldov tuzog‘iga tushira boshlaydi. Har ne javobsiz qolmaydigan bu foniy dunyoda qilmishlarining badalini tanasiga yo‘liqqan bedavo dard bilan to‘ladi. Boqimsiz qizning bu ayanchli yakunini yozuvchi "turmushning to‘xtamay oqib turg‘on loyqa, iflos suvi uni g‘arq etgan edi", deb tasvirlaydi.

Elbek hikoyalaridagi kompozitsion o‘ziga xoslik ularning ichki bo‘limlardan tashkil topganligidir. hikoya boshqa hikoyalardan farqli o‘laroq xuddi hajmi katta nasriy asarlar singari bo‘limlardan iborat. Uning qishloq turmushi, milliy an'ana va qadriyatlarimiz aks etgan "Anorgul" hikoyasi kichik sarlavhalar bilan nomlangan hikoya ichidagi hikoyachalardan iborat. Bular: *"O‘yin kechasi", "Lapar", "Yig‘i kechasi", "Yor-Yor", "Yuz ochiq"* sarlavhali qismlardir. Hikoya go‘zal milliy ohang, urf-odat, lapar, bir qator xalq qo‘shiqlari bilan boyitilgan. Xalq qo‘shiqlaridan foydalanish o‘zbek millatining naqadar topag‘on, ziyrak ekanligini ko‘rsatib bergan. Hikoya boshida qizlarning topqirlik bilan tengdoshlari taqdiriga bitgan hazilomuz she'rlari ham qizlarning so‘zga chechanligining bir isbotidir. Bu hikoyada ham yozuvchi peyzaj orqali holatga zeb bergan. Bo‘yi yetgan navniholni turmush atalmish koshonaga yetaklab ketish uchun kelgan sovchilar tabiat ovozi bilan uyg‘un holda tasvirlangan. *"Dala-toshdagi ekin-tekinlar yig‘ib olingan, tabiat jim-jit. Go‘yo bular qishning kelishig‘a g‘amgin bo‘lib, ma'yuslashib turg‘ondek".*

Hikoyaning "O‘yin kechasi" bo‘limida o‘zbek xonadonlaridagi to‘y tasviri berilgan. "Lapar" bo‘limida esa to‘yga yig‘ilgan yoshlarning o‘yin kulgiga boy aytishuvlari yoshlar tabiatiga xos quvnoq qilib berilgan. "Yor-yor", "Yuz ochiq" nomli bo‘limlarda o‘zbek milliy urf-odatlarini tasvirlagan. Hikoya so‘ngida go‘zal bir xulosa bor. "Kechga tomon to‘y tarqaldi. Qiz o‘stirgan ona ham muvaffaqiyat bilan uyga qaytdi". Chindan ul "rahmat olishg‘a loyiq ish qilg‘on edi". Qizni shunday nozik vaqtlarda tinch saqlab, poklik holida olib borib yangi turmushg‘a topshirish kichik gap emas". Aynan shu satrlar orqali biz o‘z davrining yuqorida keltirilgan "Fohisha" hikoyasida anglashilgan mazmunga ishorasini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda bu hikoya orqali Elbek o‘zbek xalqining xalq og‘zaki ijodi namunalari qanchalik maftunkor va boy tabiatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Yozuvchi o‘z uslubi orqali milliy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni targ‘ib qilishga intilgan desak mubolag‘a bo‘lmas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elbek (Yunusov Mashriq). Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1999.
2. Qosimov B. Jadid adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
3. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Yo‘ldoshev Q. Badiiy matn va uning tahlili. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY: XORIJ ILMIY TADQIQOTLARIDAGI YONDASHUVLAR

Zuhraxon Madaliyeva,
University of Business and Science dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
e-mail: zuhraxonmadaliyeva1995@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy shaxsiyati va ijodini xorij olimlari tadqiqotlaridagi talqini tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida Behbudiyning ma’rifiy, diniy va siyosiy faoliyati, matbuot va nashriyotdagi islohotlari, xususan “Oyna” jurnali orqali amalga oshirgan ishlari tanlangan. Maqola maqsadi — Adib Xolid, Ingeborg Baldauf, Hisao Komatsu kabi tadqiqotchilarning ilmiy yondashuvlari orqali Behbudiyning xorij ilmiy muhitidagi talqini va ularning baholash usullarini aniqlashdir.

Kalit so‘zlar: *Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, xorij tadqiqotlari, ma’rifatparvar, matbuot, “Oyna” jurnali, siyosiy tafakkur.*

Abstract

This article analyzes the interpretation of Mahmudkhoja Behbudi’s personality and works — one of the leading figures of the Jadid movement — in Western scholarly research. The research object includes Behbudi’s educational, religious, and political activities, as well as his contributions to print and publishing, particularly through the “Oyna” journal. The purpose of the article is to examine how Western scholars, including Adib Khalid, Ingeborg Baldauf, and Hisao Komatsu, have approached Behbudi and their methods of evaluation.

Keywords: *Mahmudkhoja Behbudi, Jadidism, Western studies, enlightenment, press, “Oyna” journal, political thought.*

XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan jadidchilik harakati va uning yetakchi namoyandalaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy shaxsiyati bugungi kunda nafaqat mahalliy, balki xorijiy tadqiqotchilar e’tiborini ham tortmoqda [Khalid, 1998; Baldauf, 1991; Baldauf, 2001]. Maqolaning maqsadi shuki, xorij tadqiqotchilarning ilmiy yondashuvlari asosida Behbudiy shaxsiyati va merosini tahlil qilish, ularning yondashuvlaridagi umumiylik va farqli jihatlarni aniqlashdan iborat [Khalid, 1998; Baldauf, 1991; Komatsu, 1995].

Amerikalik tadqiqotchi Adib Xolid Markaziy Osiyo jadidchiligini o‘rganishda yetakchi xorij olimlaridan biri hisoblanadi. Uning “The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia” asarida jadidchilik harakatining shakllanishi, jamiyatdagi qabul qilinishi va jadidlarning ma’rifiy faoliyati keng tahlil qilingan [Baldauf, 1914: 209–243]. Ushbu tadqiqotda Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining faol targ‘ibotchisi, teatr va matbuot orqali jamiyatni isloh qilishga intilgan ma’rifatparvar sifatida talqin etiladi. A.Xolid Behbudiyning “Padarkush” asari sahnalashtirilishi atrofidagi bahslarni yoritib, jadidlar va an’anaviy ulamolar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rsatadi. Xususan, Behbudiy va samarqandlik mudarris Sayyid Ahmad Vasliy o‘rtasidagi teatr haqidagi munozaralar jadidlarning diniy masalalarda ham dalillarga tayangan holda fikr bildirganini namoyon etadi [Baldauf, 1914: 209–243]. Shu bilan birga, Adib Xolid tomonidan ilgari surilgan ayrim fikrlar manbaviy jihatdan yetarlicha asoslanmagan. Jumladan, Behbudiyning asl familiyasi Behbudxo‘ja bo‘lgani va “Behbudiy” nomining tatarcha familiyalar ta’sirida shakllangani haqidagi mulohaza aniq tarixiy manbalar bilan mustahkamlanmagan [Baldauf, 1914: 145-b.]. A.Xolidning keyingi izlanishlarida Behbudiyning nashriyot va matbuot sohasidagi faoliyati ham tahlil qilinadi. Xususan, “Oyna” jurnalining nashr etilishi, obunachilar sonining kamayib borishi va natijada jurnal faoliyatining inqirozga uchrashi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan izohlanadi [2].

Germaniyalik sharqshunos olima Ingeborg Baldauf Mahmudxoʻja Behbudiyning shaxsiyati va ijodini xorij ilmiy muhitiga tanitgan yetakchi tadqiqotchilardan biridir. Uning "Mahmudxoʻja Behbudiy Falastinda. Samarqandlik jadidning sayohat xotiralari (1914)" nomli maqolasida Behbudiyning "Sayohat xotiralari" asari adabiy va ijtimoiy manba sifatida talqin qilinadi [Behbudi, 1915]. I. Baldauf Falastin mavzusining tanlanishini tasodifiy hol deb hisoblamaydi. Olimaning fikricha, Behbudiy Falastindagi musulmon arablar ahvoli bilan Oʻrta Osiyodagi musulmonlarning mustamlaka sharoitidagi hayotini qiyoslash orqali oʻz vatandoshlarini ijtimoiy muammolar haqida oʻylashga undagan [Behbudi, 1915]. Shuningdek, "Sayohat xotiralari" shakl va uslub jihatidan avvalgi sayohatnomalar an'anasiga yaqin ekani qayd etiladi. Baldauf oʻzining keyingi tadqiqotlarida Behbudiyning "Oyna" jurnali orqali olib borgan ma'rifiy faoliyatiga alohida e'tibor qaratadi. Olimaning ta'kidlashicha, jurnal sahifalarida arxeologiya, geografiya, gigiyena, tarix, bank ishi va meteorologiya kabi turli sohalarga oid materiallar chop etilgan boʻlib, ular asosan informatsion xarakterga ega boʻlgan [Komatsu, 1995: 77–98]. Biroq mazkur bahoni mutlaq qabul qilish toʻgʻri emas. Chunki "Oyna" jurnalining asosiy maqsadi ilmiy auditoriyadan koʻra keng ommani ma'rifatli qilish boʻlgani uchun sodda va tushunarli uslub tanlanishi muallifning ongli strategiyasi sifatida baholanishi mumkin.

Yaponiyalik tadqiqotchi Hisao Komatsu Mahmudxoʻja Behbudiyning siyosiy qarashlarini oʻrganishda muhim ilmiy xulosalar ilgari surgan olimlardan biridir. U Behbudiyning 1907-yilda yozilgan "Turkiston Madaniy Muxtoriyati" loyihasini jadid yetakchisining siyosiy tafakkuri mahsuli sifatida baholaydi [Khalid, 2000: 83]. Komatsuning fikricha, mazkur loyiha Turkiston jamiyatida adolatli sud tizimini shakllantirish, diniy erkinlikni ta'minlash va mahalliy xalq manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Olim loyihaning ayrim bandlarini alohida keltiradi, biroq u tomonidan koʻrsatilgan ba'zi bandlarning asl matndagi joylashuvi bilan mos kelmasligi kuzatiladi [Khalid, 2000: 83]. Shuningdek, Komatsu Behbudiyning siyosiy takliflarini Andijon qoʻzgʻoloni sabablari bilan bogʻlaydi va muallifning loyihani yaratishda qaysi manbalarga tayangani noma'lum degan fikrni ilgari suradi. Mazkur xulosalar hozircha aniq manbalar bilan tasdiqlanmagan.

Mahmudxoʻja Behbudiy asosan ma'rifatparvar jadid, ijtimoiy islohotchi va siyosiy tafakkur egasi sifatida talqin qilinadi [Baldauf, 1914; Behbudi, 1915; Khalid, 1998]. Bu yondashuvlar Behbudiy merosini xalqaro ilmiy muomalaga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etgan. Biroq ayrim tadqiqotlarda manbalar bilan ishlashda noaniqliklar, tarixiy hujjatlar talqinida ehtimoliy xulosalarning ustunligi ham kuzatiladi. Ayniqsa, diniy masalalarga oid qarashlar talqinida Behbudiy faoliyati ba'zan an'anaviy islomiy tafakkurga qarama-qarshi qoʻyiladi.

Natijalar shuni koʻrsatadiki, xorij tadqiqotchilari Behbudiy shaxsini asosan ma'rifatparvar jadid, ijtimoiy islohotchi va siyosiy tafakkur egasi sifatida talqin qiladilar, ammo ayrim holatlarda manbaviy asoslar va tarixiy tafsilotlarni talqin qilishda farqlar mavjud. Maqola xorij tadqiqotlaridagi yondashuvlarning umumiy xususiyatlarini va manbaviy aniqlik masalalarini ochib beradi, shuningdek, Mahmudxoʻja Behbudiy merosining xalqaro ilmiy maydondagi oʻrnini tushunishga yordam beradi. Xorij tadqiqotchilarining Mahmudxoʻja Behbudiy shaxsiyati va ijodiga bagʻishlangan izlanishlari jadidchilik harakatini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilish imkonini berdi. Adib Xolid, Ingeborg Baldauf va Hisao Komatsu asarlarida Behbudiy ma'rifiy, diniy va siyosiy faoliyatni uygʻunlashtira olgan jadid yetakchisi sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, ayrim xulosalarning manbaviy jihatdan yetarli darajada asoslanmagani va hujjatlar bilan ishlashda aniqlik yetishmasligi mazkur masalani qayta koʻrib chiqishni talab etadi. Behbudiy merosini asl manbalar asosida, mahalliy tarixiy va madaniy kontekstni hisobga olgan holda tadqiq etish izlanuvchilar uchun muhim vazifa boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baldauf I. Mahmudkhoja Behbudi in Palestine: Travel Accounts of a Jadid from Samarkand (1914). Zeitschrift der Deutschen Morgenländischen Gesellschaft, 141(2), 1991.
2. Baldauf, I. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. Tashkent: Sharq, 2001.
3. Baldauf, I. Jadidism in Central Asia within Reformism and Modernism in the Muslim World. Die Welt des Islams, New Series, 41(1), 2001.
4. Behbudi, M. Daf'i ta'arruz va shubha-i ajnabi ta'am haqqinda. Oyna, Issue 7, S. 1915.
5. Komatsu, H. Mahmudkhoja Behbudi and the Turkestan Cultural Autonomy Project of 1907. Journal of Asian Studies, 54 (1), 1995.
6. Khalid, A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press. 1998.
7. Khalid, A. Printing, Publishing and Reform in Tsarist Central Asia. Central Asian Survey, 19(3), 2000.
8. Khalid, A. (2015). Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Ithaca: Cornell University Press.
9. Roji, F. Ismoilbek Hazratlarig'a. Oyna, Issue 12, S.: 1913.

JADIDCHILIK DAVRI ADABIYOTI MATNSHUNOSLIGI

Shahina Ismatova,
BuxDU magistranti
e-mail: shaxinaismatova@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadidchilik davri adabiyotining matnshunoslik jihatlari, xususan, jadid adabiy merosining qo'lyozma va nashr an'analari, matnlarning ilmiy-tanqidiy talqini hamda zamonaviy filologiyada ularni o'rganish metodlari tahlil qilinadi. Maqolada jadid adabiyoti vakillarining asarlari matnlariga xos lingvopoetik xususiyatlar, matn variantlari, tahrir jarayonlari va tarixiy kontekstning matn talqiniga ta'siri ko'rsatib beriladi. Shuningdek, jadidlar merosini ilmiy nashrga tayyorlashda uchraydigan matnshunoslik muammolari hamda ularni hal etishning samarali yondashuvlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *jadidchilik davri, matnshunoslik, ilmiy-tanqidiy matn, qo'lyozma merosi, jadid adabiyoti, matn variantlari, filologik tahlil, lingvopoetika, ilmiy nashr.*

Abstract

This article examines the textual studies of the Jadid literature period, focusing on manuscript and publication traditions, scholarly-critical interpretation of texts, and contemporary philological methods used to study them. The analysis highlights the linguopoetic features of works by Jadid authors, textual variants, editorial processes, and the influence of historical context on textual interpretation. The article also discusses major textual-critical issues encountered in preparing the Jadid literary heritage for academic publication and proposes effective approaches to resolving these challenges.

Key words: *Jadid period, textual studies, scholarly-critical text, manuscript heritage, Jadid literature, textual variants, philological analysis, linguopoetics, academic publication.*

Jadidchilik Turkiston hududida yangi maktab, ma'rifat, taraqqiyot va milliy uyg'onishni targ'ib qilgan siyosiy, madaniy va adabiy harakat hisoblanadi. Jadidchilik harakati Turkistonda XIX asr oxirlarida vujudga keldi. XX asr boshlariga kelib yuksak darajada shakllandi. Turkistondagi jadidchilik harakatining asosiy vakillari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Fitrat, Cho'lpon, Sadriddin Ayniy hisoblanadi. Bu ma'rifatparvar shaxslar millatni uyg'otish, jaholatni yengish, milliy maktab, milliy matbuotni yaratishga intildilar va o'z maqsadlari yo'lida faol harakat olib bordilar. Milliy o'zlik va erkin tafakkurni ilgari surgan bir qancha asarlar yaratdilar. Ammo ularning badiiy merosi o'sha davrning siyosiy sharoitlari, keyinchalik sovet mafkurasi ta'siri va taqiqlari tufayli to'liq o'rganilmay qoldi. Jadidchilik davri adabiyoti matnshunosligi esa aynan ana shu muammolarni o'rganadigan matnshunoslik sohasining bir tarmog'i hisoblanadi.

Ma'rifatparvarlik asarlarining katta qismi qo'lyozma holida, ayrimlari esa arab yozuvidagi eski bosmalarda tarqalgan bo'lib, matnlarning izdan chiqishi, o'zgartirilishi yoki yo'qolishi natijasida tekstologik muammolar paydo bo'lgan. Qo'lyozmalar jadid adabiyotining eng ishonchli matn manbalaridan biri hisoblanadi. Ular orasida darsliklarning dastlabki variantlari, nashr qilinmagan she'r va maqolalar, maktublar hamda muallif daftarlarida yozilgan matnlar mavjud. Ma'rifatparvarlik asarlarini o'rganish davomida jadidchilik adabiyoti matnshunosligi quyidagi vazifalarni bajarishni ko'zda tutadi:

1. Asarning asl nusxasini aniqlash – matnshunoslikning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, muallif tomonidan yaratilgan eng ishonchli, eng to'liq va o'zgartirilmagan matnni aniqlash jarayonidir.

2. Qo'lyozma va bosma variantlarni qiyoslash – bu matnshunoslikda asarning qo'lyozma shakli (muallif yoki kotib qo'li bilan yozilgan matn) bilan bosma shaklini (gazeta, jurnal yoki kitobda chop etilgan matn) o'zaro solishtirilib, qiyoslanadi.

3. Tahrir va o'zgarishlarni tiklash – bu matnshunoslikda qo'lyozma yoki qadimgi matnlar ustida

bajariladigan ilmiy-amaliy jarayon bo‘lib, asarning asl holatini aniqlash, undagi yo‘qolgan, buzilgan yoki o‘zgartirilgan qismlarni tiklashni anglatadi.

4. Muallif tilidagi xususiyatlarni saqlash – matnshunoslik va tarjima jarayonida muallifning o‘ziga xos til uslubi, nutq ohangi, so‘z tanlovi, ifoda shakllarini imkon qadar asl holicha yetkazib berish demakdir.

5. Asarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish matnshunoslikdagi eng mas’uliyatli ilmiy jarayon bo‘lib, asarning barcha mavjud qo‘lyozma va bosma nusxalarini solishtirib, eng ishonchli, eng to‘g‘ri, muallifga eng yaqin matnni tiklash demakdir.

Bu jarayon ilmiy va tanqidiy deb atalishining sababi – matn ustida chuqur tadqiqot va tanqidiy tahlil amalga oshirilishi bilan bog‘liq.

Jadidchilik harakati Turkiston xalqlari hayotida tub burilish yasadi. Bu davr adabiyotimiz tarixining 50-60 yilini qamrab olgan. Bu muddat o‘zbek mumtoz adabiyoti bilan hozirgi adabiyot orasidagi ko‘prik vazifasini bajargan. Shu vaqt oralig‘idagi adabiyotni o‘rganish uchun bir qator olimlar bel bog‘laganlar. Shunday olimlardan biri jadidshunos Begali Qosimov hisoblanadi. Jadidchilik davri haqida har bir olim o‘z qarashlaridan kelib chiqqan holda ta’rif bergan. Bu ta’riflar va qarashlar mustaqillik yillarigacha turli xil bo‘lib qolavergan. Ammo jadidshunos olim Begali Qosimov davr to‘g‘risida tasavvur shakllanishi uchun gapni sal oldinroqdan boshlab, harakatning o‘lkamizdagi ishtirokchilarini kuzatish orqali o‘z qarashlarini bildirdi.

Menimcha, olim tomonidan jadidchilikka eng xolis ta’rif berilgan. Olim jadidchilik harakatini quyidagicha baholadi: “Jadidchilik oqim emas, harakat. Ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat. Yaqingacha ham u faqat ma’rifatchilik harakati deb kelindi. Bu ataylab qilingan edi. Maqsad jadidchilikining doirasini toraytirish sotsialistik-kommunistik mafkuradan boshqasi keng xalq ongini qamrab olishi egallashi mumkin emas edi, degan soxta tushunchaning asorati edi” [Qosimov, 2002: 12].

Matnshunos olim ma’rifatparvarlik adabiyotini o‘rganar ekan, uni quyidagi bosqichlarga bo‘lib o‘rganishni taklif qiladi:

1-bosqich – 1900-1925;
2-bosqich – 1925-1938;
3-bosqich – 1938-1956;
4-bosqich – 1956-1985;
5-bosqich – 1985-1991;
6-bosqich – 1991 dan keyingi davr.

1900-1925-yillar jadidchilik davrining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Bu paytda, “jadidshunoslik” tushunchasi shakllandi va adabiyot tarixiga yangi sahifa ochdi. Bu bosqichda jadidshunoslar orasida alohida tadqiqotlar ko‘zga tashlanmaydi.

Ikkinchi bosqichda, ya’ni 20-yillarning ikkinchi yamidan boshlab ularning harakatlari yaqqol ko‘zga tashlana boshladi.

Matnshunos olim B. Qosimov jadidshunoslik davri adabiyotini o‘rganar ekan, uchinchi bosqich haqida shunday deydi: “1938-1956-yillarda jadidchilik va uning vakillari avlodlari qalbidan tamom siqib chiqarildi. Masalan, 1956-yilda XX asr boshi adabiyoti 4 ijodkordan tarkib topgan edi: Hamza, Ayniy, Zavqiy, Avaz. Hamza – mutaassiblar tomonidan o‘ldirilgani uchun, Ayniy – amir Sayyid Olimxonning, Avaz Isfandiyorxonning, Zavqiy Ergash qo‘rboshining kaltagini yegani uchun” [Qosimov, 2002: 24].

To‘rtinchi bosqichga kelib vaziyat biroz yumshadi. “Xalq dushmani” sifatida qo‘lga olingan ziyolilarning bir qismi ozod etildi. “O‘tkan kunlar” asari qisqartirishlar bilan bo‘lsa ham nashr etildi. Ya‘ni Qodiriy asarlariga yo‘l ochildi. Cho‘lpon ijodini o‘rganish uchun komissiya tuzildi. Biroq bunday yumshoqlik uzoq davom etmadi. 60-yillarning oxiri 70-yillarning boshiga kelib vaziyat yana eski holatiga qayta boshladi, milliy mustaqillik g‘oyasini ilgari surgan asarlar nashriga yo‘l qo‘yilmadi.

Beshinchi bosqichga kelib boshlangan oshkoralik jadidchilikni rejali o‘rganish imkoniyatini yaratdi. Bir qator ilmiy anjumanlar tashkil etildi. Respublikamizda bu soha bilan shug‘ullanib kelayotgan mutaxassislar o‘zaro fikr almashdilar.

Yurtimizning mustaqillikka erishishi jadidchilik manbalarini o‘rganishga keng yo‘l ochdi. Xususan, Begali Qosimovning ilmiy faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ldi. Chunki mustaqillik yillarigacha bo‘lgan mafkura matnshunos olim o‘rgangan davr adabiyotini qabul qilishni xohlamagan. Qabul qilganda ham davr adabiyotiga ishonqiramay munosabatda bo‘lishgan. Sababi bu paytda yaratilgan asarlarning barchasida istiqlol va mustaqillikka bo‘lgan intilish yaqqol ko‘rinib turgan.

Jadidchilik harakatining mazmunini o‘zida namoyon etgan jadid adabiyoti manbalari aholi orasida milliy ong tushunchasining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Jadidchilik adabiyoti manbalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, uning namunalari badiiyatiga ko‘ra yuksak darajada taraqqiy etmagan, asarlarda keltirilgan g`oyalar esa sochma tarzda ifodalangan. Matnshunos olim Begali Qosimov jadid adabiyoti manbalarini o‘rganar ekan shunday fikrlarni aytadi: “Jadid adabiyoti 10-yillarning oxiri, 20-yillarning boshidagina to‘laqonli adabiyotga aylandi” [Qosimov, 2002: 32].

Shu o‘rinda aytish joizki, jamiyat yoshlarini tarbiyalashda adabiyotning roli beqiyos ekanligini jadidlarimiz juda yaxshi anglaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурашидов, М. Жадидчилик ҳаракати ва ўзбек адабиёти тараққиёти. – Тошкент: Фан, 2012.
2. Қосимов Б. Ўзбек адабиёти тарихи. 2-жилд. – Тошкент: Университет, 2010.
3. Каримов И. Ўзбек матншунослиги назарияси. – Тошкент: Академнашр, 2015.
4. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1991.
5. Меметов О. XX аср бошларида жадид матбуоти ва адабий жараён. – Самарқанд: СамДУ, 2018.
6. Расулов, Ҳ. Матншунослик асослари. – Тошкент: аср авлоди, 2007.
7. Allworth, E. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. – Stanford University Press, 1990 (Jadidchilik harakati va uning adabiy jarayonga ta’siriga bag‘ishlangan bo‘limlarni o‘z ichiga oladi).

ISTIQLOL MAVZUSI CHOʻLPONONA RAMZLARDA

Nazira Madraximova,
Urganch RANCH texnologiya universiteti
Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Choʻlpon she'riyatida davr va ijodkor masalasi xususida shoir she'rlari misolida ayrim mulohazalar ilgari surilgan. Choʻlpon ona yurtining ozod va erkin boʻlishini chin yurakdan istadi, shuning uchun ham uning ijodida erk mavzusi asosiy oʻrinni egalladi.

Kalit soʻzlar: *davr, erk, jamiyat, talqin, badiiylik, ma'rifat, shoir, ruhiyat.*

abstract

The matter of period and author in Choʻlpon's poetry is analyzed with different examples in this article. Choʻlpon mother sincerely dedicated her motherland to be free and independent therefore freedom took the main place in her work.

Key words: *period, freedom, society, interpretation, artistry, education, poet, spirit.*

XX asr she'riyatining yorqin va soʻnmas yulduzlaridan biri Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Choʻlpon "Adabiyot nadir" maqolasida quyidagi qarashlarini bayon etadi: "Adabiyot chin ma'nosi ila oʻlgan, soʻngan qaralgan, oʻchgan yarador koʻngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgʻon, oʻtkir yurak kirlarini yuvadirgʻon toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorugʻ va ravshan qilodurgʻon, chang va tuproqlar toʻlgan koʻzlarimizni artib tozalaydurgʻon buloq suvi boʻlgʻonlikdan bizga gʻoyat kerakdir". [Чўлпон, 1994: 37] Xassos ijodkorning bu e'tirofidan ikkita muhim narsani anglab olamiz. Ya'ni keltirilgan parchada Choʻlpon, birinchidan, adabiyotning ijtimoiy vazifasiga daxldor fikrlarini oʻrtaga tashlasa, ikkinchidan, ijodkorning nimalarni qalamga olishi lozimligiga ham urgʻu berib oʻtadi.

Choʻlpon bu maqolani yozganida oʻn yetti yoshida edi. Bu esa Choʻlpon ijod olamiga qoʻygan ilk qadamlaridanoq adabiyotning ijtimoiy ahamiyatini chuqur anglaganligidan darak beradi. Shuning uchun ham uning keng qamrovli ijodida millat va yurt taqdiri masalasi asosiy oʻrinni egalladi. Choʻlponshunoslar 20-yillar oʻzbek she'riyatida shoir she'rlari oʻzining bir qator jihatlari bilan yangilik darajasida qabul qilinganligini ta'kidlaydilar. Oʻzbek munaqqidlarining Ustozi Ozod Sharafiddinov 1994-yilda yozgan "Choʻlponni anglash" nomli risolasida shoirning davr hodisalariga munosabati qanday badiiy topilmalar vositasida ifodalanganligini nihoyatda zukkolik bilan koʻrsatib bergan. Biz bu maqolada ana shu tahlil va talqinlarga tayangan holda Choʻlpon she'riyatida davr in'ikosi va bu hodisaning bugungi kitobxon uchun muhim jihatlari maslasida oʻz kuzatuv va mulohazalarimizni bayon qilishni maqsad qilib qoʻydik.

Topshirdim oʻzimni muhitning erkiga...
Muhit girdobida bir somon parcha.
Bir poxol choʻpidek oqib boramen.
Har amal, har ishni "haq" deb boramen.
Vazminim qolmadi bir uzuk qilcha...

Shoirning "Somon parcha" sarlavhali ushbu she'riga taniqli ozar shoiri Fuzuliyning

Dahr bir selobdir mutlaq fano daryosina,
Bizda sargaroniz ul seloba dusshmish xoru xas.
Chirkinur xoru xasul seloba oʻlduqcha ravon
Yetmadan daryoi rohat mumkin oʻlmaz bir nafas... [Чўлпон, 1991: 71]

kabi misralari epigraf qilib keltirilgan. Shoir ruhiyatidagi tushkunlik, ohangdagi hazinlik shoʻro

siyosati hukmfarmo tusga kira boshlagan bir davrda yozilganligidan darak beradi. Sarlavhadan keyin qavs ichida "Kundalik daftarimdan" deb izoh berilgan. Bu izoh esa o'quvchiga she'r zamirida ijtimoiy voqelikdan norozilik kayfiyati yashiringanidan belgi beradi. Shoir davom etib yozadi:

Muhit kuchlik ekan, egdim bo'ynimni,
Chaqmoqdek yaltirab uchish yo'q endi.
Yolg'on xayollarga ko'chish yo'q endi.
Oqishning yo'liga soldim kunimni. [Чўлпон, 1991: 71]

Shoir "muhit" deb atayotgani istilochilar irodasini ifodalayotgan tuzum. Zo'ravonlik bilan poymol etilgan umidlar, ro'yobga chiqmagan buyuk orzular. Lirik qahramonning zamona zo'rliklari oldida chorasizligidan dili o'rtanadi, ammo unga qarshi borolmaydi, aksincha, oqim bo'ylab harakatlanishga majburligidan chuqur armon tuyg'usini his qiladi. "Vazminim qolmadi bir uzuk qilcha". G'am-alam kishining ishtahasini bo'g'adi, chorasizlik salomatlikka raxna soladi. Ona yurtning ayanchli ahvolini ko'rib turib, uni bu zulmatdan qutqara olmaslik azobi juda ham yomon...

Muhit kuchlik ekan, egdim bo'ynimni,
Chaqmoqdek yaltirab uchish yo'q endi.
Ay, o'tlik kechmishim, yuzingni berkit!
Senda shaytonlarning haqsiz zo'ri bor. [Чўлпон, 1991: 71]

Cho'lpon bunday g'amgin misralarda ijtimoiy hayot voqeligidan zohiran tushkunlikka tushayotgan kabi kayfiyatlarni ifodalasa ham, botinda buyuk orzularidan voz kechmaganligini izhor qiladi:

Men endi xuddi bir somon parchasi...
Lekin zo'r dengizning cheksiz qo'ynida
Jimgina boradir kirsiz qo'ynimda
Erkin ko'piklarning allaqanchasi! [Чўлпон, 1991: 71]

Bugungi buyuk ne'matimiz – istiqlolimiz cho'lponlarning qo'ynida davr bo'ronlaridan omon olib chiqilgan erkinlikka talpinib yashagan qalblar jasorati mevalaridir.

Cho'lpon Fuzuliy misralarini she'rga epigraf qilib olar ekan, kitobxonga yoki she'rxonga bu kunlar, albatta, o'tkinchi. Ozodlikka osongina erishib bo'lmaydi. Oldinda qancha to'siq, tazyiqlar bo'lsa ham, eng muhimi, umidni so'ndirmaslik kabi yupantiruvchi, ayni chog'da, kurashga da'vat qiluvchi g'oyalarni ilgari suradi. Bunday g'oyalar Cho'lpon ijodining qon-qoniga, jon-joniga singib ketgan. Ayrim tadqiqotlarda Cho'lpon ijodidan sof lirika namunalari izlanadi. Jumladan, zamonaviy she'riyatimizning taniqli vakillaridan biri Bahrom Ro'zimuhammad o'zining "Cho'lpon – tong yulduzi demak" nomli risolasida shoirning "Binafsha" sarlavhali she'rini tahlilga tortadi. "U nazmda tuyg'ular musavviri edi, bu iqtidori nasrda ham namoyon bo'ladi. Umuman, shoir voqeabandlik, bayondan ko'ra tasviriy usulni xush ko'radi. Cho'lpon she'rlarini tekshirganda masalaning shu jihatiga e'tiborni qaratmoq kerak. Boshqa shoirlardan bu tariqa farqlanishi uning G'arb modernistlaridan ko'p narsa o'rganganligi bilan izohlanadi. Bunda nafis chizgilar idrok etish orqali muayyan kuchga ega bo'ladiki, bu holni so'z vositasida anglatmoq mushkul. Misol tariqasida "Binafsha" she'rini tahlil qilaylik" deb, ana shu she'rdan parcha keltiradi:

Binafsha,
Ayt menga,
Kimlardir ularkim,
Ignani bag'ringga sanchalar?
Binafsha,
Bir so'yla,
U qanday qo'llarkim,
Uzalar, hidlaylar, yanchalar? [Рўзимухаммад, 1997: 25-26]

So‘zimiz avvalida yosh Cho‘lponning adabiyotni qanday anglaganligi, uning ijtimoiy tabiatini qanday talqin qilganligini shoir maqolasidan iqtibos keltirish bilan ko‘rsatib o‘tgan edik. Bahrom Ro‘zimuhammad nima uchundir she’rdagi har bir obrazga yuklatilgan ijtimoiy ohangni rad etadi. Binafsha, bizningcha, shoirning qalbida tug‘ilib, hali qad tiklamay, istilochilar tomonidan mahv etilgan oliy tuyg‘ular timsoli. Cho‘lpon qo‘liga qalam olgunga qadar o‘z oldiga katta maqsadlarni qo‘ygan edi. Aks holda, yosh Cho‘lpon “Adabiyot nadir?” degan savolni o‘rtaga tashlamas edi.

Cho‘lpon she’rlarida ramziylik shoirning ko‘ngil sirlarini yashirib turuvchi go‘zal bir vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Quyidagi e’tiboringizni qaratamoqchi bo‘lganimiz namuna bu fikrimiz dalilidir. Bu she’rdagi ramziylik uning sarlavhasidan boshlanadi: “Tabiat kitobidan” Qavs ichida 1-bet, 2-bet tarzida she’rning ikki qismdan iborat ekanligi sarlavhadagi ramziylikdir. “Tabiat kitobi”ning 1-betida bahor – uyg‘onish faslining go‘zalligi, yashashdan zavq olishga da’vat etishi tasvirlanadi:

Har bargchaning tabiatdan tilagi:
Shu yashashning tomirini uzmaslik,
Shu nash’ani, shu rohatni buzmaslik.

Bu misralardan keyin 2-betga o‘tiladi. Unda kuzning ayovsizligi, hamma narsa xazonga yuz tutishga majburligi tasvirlanadi. Jonlantirish san’ati shoir tomonidan mohirona qo‘llanganligini ko‘ramiz:

Bulut – kampir elagini ko‘tarib
Suprasini yoymoq uchun boradi.
Bo‘ron botir teraklarni ontarib,
Erta-indin o‘tinni yoradi...
Yo‘q bo‘ladi lablardagi tilaklar,
Qayriladi, egiladi bilaklar. [Чўлпон, 1991: 94]

Aytish mumkinki, bu satrlar oq poshsho zulmidan qutildik deya quvongan, ammo qizillarga tutilgan aldangan Turkiston o‘lkasining she’riy tarixidir. Chunki bahordan keyin yoz fasli yo‘q, ya’ni g‘uncha g‘unchaligicha xazon bo‘ldi. Shoir she’riyatining obrazlar olamini tadqiq va tahlil qilarkan, professor Nurboy Jabborov shunday yozadi: “Yangi o‘zbek she’riyatida Abdulhamid Cho‘lponning mavqei alohida. Ulug‘ shoir dolg‘ali dengiz to‘lqinlari yanglig‘ ko‘pirib-toshgan tuyg‘ularini, bamisoli sarobday yetib bo‘lmas orzularini, ko‘nglini o‘rtagan cho‘ng armonlarini poetik ramz va timsollar tiliga ko‘chirdi” [Жабборов, 2018: 38]. Darhaqiqat, taniqli adabiyotshunos olimning bu mulohazalarini tasdiqlovchi namunalar Cho‘lpon ijodining asosini tashkil qiladi.

“Buzulg‘on o‘lkaga” she’rini tahlilga tortar ekan, cho‘lponshunos olima Shahlo Hojiyeva shunday yozadi: “She’r vatan boshidagi quyuq bulut, ko‘lanka tasviri bilan boshlanishi bejiz emas. Bulut, ko‘lanka ramzlari istibdod zulmatini ifodalagani ayon. She’r so‘ngida yurt boshini (osmonini) quyuq bulut solgan ko‘lankadan xalos etish uchun ot ustida bamisoli qushlar singari ucha oluvchi uchar qushga mengzaydigan yosh yigitlarni izlaydi. Bu bejiz emas, albatta. Cho‘lpon bu so‘zlari bilan Turkistonning arslon kabi yigitlari qalbiga ona yurt ozodligi uchun kurashish g‘oyasini joylamoqda” [Hojiyeva, 2025:46]. Olimaning fikrlari ayni haqiqatdir. Cho‘lpon davr talabi va siyosat buyrug‘i bilan zamonasoz she’rlar bitganida ham imkonqadar o‘z kechinmalarini qalamga oldi:

Bir necha yil qantorg‘och
Yana oldim sozimni,
Endi aytib yig‘lamas
Ko‘ngildagi rozimni.

Bugungi zukko kitobxon shoir bunday misralarni yozayotib, ich-ichidan ingraganini fahmlaydi. Yuqoridagi misralarda lirik qahramon “Endi aytib yig‘lamas, ko‘ngildagi rozimni” der ekan, uning qalbi hamisha yurt qayg‘usi bilan oshno, ammo endi buni yig‘lab aytmasligini, balki g‘ururi kabi asrashini zimdan uqtiryapti.

Bugungi istiqlol Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi buyuklarimiz uchun armonga aylangan, endilikda ro‘yobga chiqqan bebaho qadriyat, mislsiz saodatdir. Cho‘lpon ijodining borlig‘i hisoblangan bu mavzu hozirgi adabiy jarayonda ham turli ovozlarda jaranglamoqda va adabiyotimizda abadiy mavzulardan biriga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулҳамид Чўлпон. Адабиёт надир: (Адабий-танқидий мақолалар, Чўлпон ҳақида хотиралар). Тошкент: Чўлпон, 1994. – 240 б
2. Баҳром Рўзимухаммад. Чўлпон — тонг юлдузи демак. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 72 б.
3. Жабборов Н. Чўлпон шеъриятининг тимсоллар олами / Чўлпон ва унинг адабий мероси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2018. – Б. 38–44.
4. Чўлпон. Яна олдим созимни. Кеча ва кундуз. Ёрқиной. Шеърлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1991. – 573 б.
5. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – 47 б.
6. Hojiyeva Sh. Cho‘lpon va jahon estetik tafakkuri. Monografiya. – Toshkent: “Ma’rifat”, 2025. – 224 b.

BESHINCHI SHO‘BA

TURKIY XALQLAR ZAMONAVIY ADABIYOTINI O‘RGANISH MUAMMOLARI

“QICHQIRIQ” HIKOYASINING NARRATIV TUZILISHI VA SEMIOTIK KODLARI

Solijonov Yo‘ldoshxo‘ja,
filologiya fanlari doktori, professor
Farg‘ona davlat universiteti

Qayumov Abduvaxob Abdurashidovich,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Farg‘ona davlat universiteti
e-mail: abduvahob19810305@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola Xurshid Do‘stmuhammadning “Qichqiriq” hikoyasini struktural metod, xususan, funksional birliklar, harakatlar zanjiri va semiotik kodlar asosida chuqur tahlil qiladi. Tahlil asarning markaziy va yordamchi funksiyalar tizimini, Sulton obrazining harakatlar (aktantlar) darajasidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, matnda qo‘llanilgan germenevtik, ramziy, narrativ va boshqa badiiy kodlarning mazmuniy qatlamlari yoritiladi. Tadqiqot hikoyaning insoniy matonat, fojea va jamiyat ziddiyatlarini matn-ma’no uyg‘unligida ochib berganini isbotlaydi.

Kalit so‘zlar*: funksional birliklar, semiotik kodlar, struktural metod, harakatlar zanjiri, badiiy matn,badiiy detal, badiiy obraz*

Abstract

This article offers an in-depth structural analysis of Khurshid Do‘stmuhammad’s short story “Qichqiriq” (The Scream) based on functional units, action chains, and semiotic codes. The analysis reveals the system of central and auxiliary functions and the role of the protagonist Sulton at the level of actants. Furthermore, the article illuminates the semantic layers of the hermeneutic, symbolic, narrative, and other artistic codes employed in the text. The study proves that the story masterfully explores themes of human resilience, tragedy, and societal contradictions through the harmony of text and meaning.

Keywords*: functional units, semiotic codes, structural method, chain of actions, artistic text, artistic detail, artistic image.*

O‘zbek adabiyoti namoyandalarining ijodiy mahoratlarini o‘rganish xulosalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy nasr jahon adabiyoti yutuqlarini o‘ziga sintez qilmoqda. Bu yo‘nalishdagi adabiy tajribalar, ijodiy yangilanishlar kuchayib bormoqda. Aynan hikoyanavislik borasidagi yutuqlari Xurshid Do‘stmuhammad badiiy olamidagi evrilishlarni ko‘rsata oladi. Uning “Qichqiriq” [Дўстмуҳаммад Х, 2021: 329] hikoyasi oddiy voqelik tasviri va yuksak falsafiy ifodasi bilan e’tiborni tortadi.

Asarda bosh qahramonning Qichqiriq anhoridan qo‘shni kelinning jasadini izlashi jarayoni yetakchi markaziy funksional birlik tarzida berilgan. Bu birlik atrofida ko‘plab funksional birliklar jamlangan bo‘lib, ular asarning bosh g‘oyasini yoritishga xizmat qilgan. Misol uchun, birinchi markaziy funksiya “Qichqiriq anhori qonsirashi” sanalsa, ikkinchisi “Sultonning anhorga tushib, g‘arq bo‘lgan kelinni axtarishga qaror qilishi”dir. Uchinchi funksiya “Sultoning anhordagi qidiruv jarayoni” hisoblanadi. “Qichqiriq anhori qonsiradi” jumlasi bir qator yordamchi funksiyalar bilan to‘ldirilishi natijasida xodisaning fojeaviy mohiyati ochiladi. Masalan, *g‘arq bo‘lish, izlash, jasad topilishi, jasad topilmasligi, anhor qutirishi, unutish, sokin daryo* kabi birliklar markaziy birlikning mazmunini to‘ldirishga xizmat qilgan. Yozuvchi asar boshida maqsadli ravishda Qichqiriq anhorini boy detallar bilan yoritadiki, bu tafsilotlar asar strukturasida yetakchi o‘rinni egallaydi. “Har yili yoz kezlari uch yo to‘rt bola-baqra, goho kap-katta yoshdagi erkak Qichqiriqqa g‘arq bo‘ladi” [Дўстмуҳаммад Х, 2021: 329] gapida anhor bilan bog‘liq fojealarning doimiyligi, g‘arq bo‘luvchilar yoshining ahamiyatsizligi Qichqiriqning shafqatsizligini ochishga yordam bergan.

Tabiiyki mazkur tasvir voqealar rivojining yechimiga ham belgi beradi. “Izlash” funksional birligi esa fojeaning qamrovi, davomiyligi hamda harakatlar shiddatini ko‘rsatadi. “Kunlab, haftalab” “butun mahalla-ko‘y”, “oyoqqa qalqiydi”, “izillab-bizillab” “qidir ho qidir” adabiy birliklari holatning o‘quvchi tasavvurida shakllanishida qulaylik tug‘diruvchi og‘zaki uslub birliklari orqali yoritilgani bilan ahamiyatlidir. Mazkur matnda xalqona uslubning yetakchi rol o‘ynashi mahalla ijtimoiy obyekti idrok qilinishini osonlashtirgan. Bu kabi fojealarda ba’zan jasad topiladi, ba’zan topilmaydi. “Jasad topilishi” jarayoni tasvirlari ham mayitning tashqi belgilari yordamida ta’sirli yoritilgan. “Jasad topilmasligi” funksional birligida ham “tamoman”, “dom-daraksiz” birliklari ishora qilish xususiyatiga ham ega hisoblanadi. Chunki bu xabar o‘lgan inson qarindoshlarining keyingi armon tuyg‘ulariga, taskinsizlik ruhiyatiga nisbatan talqin qilinadi. “Anhor qutirishi” tabiat injiqliklariga bog‘liq holda jamiyat muammolari va inson shaxsiyatining aqliy yoki jismoniy takomili yoki maxv bo‘lishi kabi hayotiy jarayonlarga ishora mavjud. Shaxslarning jamiyat taraqqiyotida o‘z o‘rnini topishga urinishi, harakatsizlik yoki birgina xatolik sabab hayoti o‘zgarishlarga yuz tutishi mumkinligiga belgi berilgan. Asarning markaziy funksional birliklari tizimi jadvalda to‘liqroq ko‘rinadi.

“Qichqiriq” hikoyasida markaziy funksiyani mazmunan boyitgan va mantiqiy izchillikni ta’minlagan birliklar

Asosiy voqelik– Sulton Qichqiriqdan qo‘shni kelinning jasadini axtardi		
Qichqiriq anhori qonsiradi	Sultonni anhorga yetaklagan omillar	Sultonning qidirishlari
Qidirish	Xayol	Dastlabki harakat
Jasad topilishi	Yoshlik fojealarini unutish	Anhorni his qilishga urinish
Jasad topilmasligi	Maqsad	Jasad qidiruvi
Anhor quturishi	Kelinchakka achinish	Halokatli holatlar
	Sevgilisi so‘rovi	Ishonch
	Atrofdagilarning harakatlari	Sariqko‘ylakni topishi
	Mavlonbek holati	Jarohatlar
		Anhor – jondor
		Baliqchalar
		Tasodif tiriklik

Ushbu hikoyadagi markaziy funksiyalar soni u qadar ko‘p bo‘lmasa-da, yordamchi funksiyalarning qamrovi salmoqli sanaladi. Ayniqsa, uchinchi markaziy funksiyaning mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi yordamchi funksiyalar asarning boshidan oxiriga qadar sochilganligi qamrovning darajasini ko‘rsatadi. Adib dastlab anhor haqida batafsil ma’lumot beradi. Mazkur ma’lumotlar fonida tabiat, inson va jamiyat uyg‘unligi masalasini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. Anhor bilan bog‘liq fojealar har yili takrorlanishiga qaramasdan unutuvchan insonning yangi halokatlarga ro‘para bo‘laverishi umumiy xarakter misolida qalamga olingan. Shuningdek, bu halokatlarning oldini olish yoki insonlarga ko‘mak berish istagida bo‘lgan kishilarning ma’naviy-ruhiy olami, atrofidagi kishilarning qo‘llashi, aniq maqsad yo‘lidagi sobitqadam bilan harakatlanish xususiyatlari Sulton timsolida yuzaga chiqadi. Ikkinchi markaziy funksiya – Sultonni anhorga yetaklagan omillar ana shunday belgilar yordamida amalga oshadi.

Uchinchi markaziy funksiyaning badiiy matnda namoyon bo‘lishi murakkab tizimga ega hisoblanadi. Chunki bu birlikni izohlashga xizmat qiluvchi yordamchi funksional birliklar psixologik tasvirlar bilan qorishiq holatda berilgan bo‘lib, Sultonning ichki olami hamda amaliy faoliyati uyg‘unligida yoritilgan.

Harakatlar (aktantlar) darajasi tahliliga nazar tashlaydigan bo‘lsak, quyidagi ko‘rinish yuzaga keladi:

- Subyekt: Sulton;
- Obyekt: Kelinchak jasadini izlash;
- Adresant: Mahalla ahlining xavotirli mish-mishlari;
- Adresat: Mavlonbek va uning oilasi;
- Yordamchi: Bashorat (tasavvurda dalda beruvchi);
- Qarshi turuvchi: Anhorning kuchli oqimi.

Mazkur binar oppozitsiyalar syujetning jadallashishi hamda qiziqarli bo‘lishini ta’minlagan. Xususan, Sultonning bolaligi va voyaga yetishi jarayonidagi qisqa epizodlar uning jamiyat muammolariga e’tiborsiz bo‘lmagan shaxs sifatida shakllanganligini ko‘rsatadi. Buning isboti sifatida kelinchakning anhorda halok bo‘lishi, mahalla harakatlari va marhumning yaqinlari iztiroblaridan ta’sirlanish barobarida o‘zi ham harakatga tushadi. Shuningdek, adresant sifatida mahalla ahlining halokat haqidagi turli taxminlari, anhorga oid mish-mishlari, jasadni izlash bilan bog‘liq maslahatlari adresat sifatida Mavlonbek va uning oilasini chuqur qayg‘uga soladi. Bu holatlar voqelikka umumiy fon bag‘ishlash bilan birga asarning hayotiyligini oshiradi. Sultonning harakatga kelishida yana bir yordamchi funksiyani sevgilisi Bashorat beradi. U bilvosita Sultonga dalda bo‘ladi hamda uning harakatlariga qarshilik qiluvchi anhor to‘lqinlari bilan ana shu ma’naviy kuchlar yordami bilan kurashadi.

Asarda Sulton obrazidan boshqa faol harakatda bo‘lgan personajlar ko‘zga tashlanmaydi. Voqealar davomida xayolan, retrospeksiya asosida ikkita o‘rinda Sultoning Mavlonbek va Bashorat bilan dialogi berilgan. Mazkur dialoglarning o‘zidayoq Sultonning ma’naviy olami namoyon bo‘lgan. Ya’ni, Sultonning Mavlonbekka ruhiy yordam va dalda berishi, uning iztiroblariga yechim topishga urinishi, Bashoratning muloyim munosabati va unga bo‘lgan daldalaridan quvvat olabilishi bosh qahramoning xarakter xususiyatlarini ochib beradi: “– Ismingiz emas, o‘zingiz sultonsiz, – degan edi Bashorat bir kuni, uning yelkasiga boshini qo‘yib, navozish bilan. – Siz har qanday sultonlikka qodirsiz!...” [Дўстмуҳаммад Ҳ, 2021: 341] Bunday suhbatlarni xotirlash asnosida ruhiy kuch olgan Sulton xatarlarni pisand qilmaydi. Yozuvchining mahorati shundaki, Sultondan boshqa personajlar harakatlarda bevosita ishtirok etmasa-da, ularning asardagi o‘rni sezilib turadi, hikoya dramatizimini orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asarning rivoya uslubi uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, roviy pozitsiyasiga asoslangan. Roviy Sultonning har bir harakatlarini, suv ichidagi kechinmalarini, anhorning ekologik va biologik olamini batafsil yoritadi. Bosh qahramoning ruhiy tarangliklari, dramatik epizodlar mohirlik bilan qalamga olingan: “Sulton qo‘l-oyoqlarini emin-erkin harakatlantirolmay qoldi. O‘zanning o‘rtalariga qadar uzun-qisqa o‘sib chiqqan qamishzor bunga yo‘l qo‘ymas, Sulton shundan ham foydalanib qolishga urinar, qamish poyalarini tutib-tutib oldinga, orqaga, yon-veriga siljish osonroq edi”. [Дўстмуҳаммад Ҳ, 2021: 338] Adib anhor manzaralarini, tabiatini chuqur o‘rganganligi bois tasvirdagi reallik me’yor darajasiga yetgan. Shuningdek, suvda harakatlanish, suvda yashaydigan o‘simlik va hayvonot olami bilan bog‘liq badiiy detallar matnning estetik bahosi baland bo‘lishini ta’minlagan.

Hikoyada qo‘llangan xronotop shakllari ham asarning ta’sir doirasini kengaytirishga, qahramon ruhiy holatlarini ochib berishga xizmat qilgan: “Sulton quyuq qamishzorni tark etdi, buning ustiga, suv sathiga chiqayotib, temirmi-shoxmi, tirsagiga qattiq botdi, suv sathiga xira qon tusi yoyilganini ko‘rdi”. [Дўстмуҳаммад Ҳ, 2021: 338] Mazkur misolda yoritilgan joy – anhor tasvirini berishda har bir detalga e’tibor qaratadi. “Qamishzor”, “temirmi-shox”, “suv sathi” kabi detallar badiiy makonning mukammal va mufassal tavsiflanishiga yordam bergan. Qamishzor orasida harakat qilishning qiyinligi, suv tubidagi cheklangan faoliyat, oqimning dahshatli bosimi makonga nisbatan

hayotiylik, ruhiy taranglik yaratadi. Asarning aksariyat qismida fizik makon va qahramonning psixologik harakatlari o‘zaro uyg‘un tarzda tasvirlangan.

Asarda qalamga olingan zamon bilan bog‘liq badiiy ifodalar ham Sultonning psixologik holatlarini ochib berishga, voqealarning izchillashuviga hissa qo‘shgan. “Sulton bularning barini bir hafta o‘yladi, har tong uydan chiqayotib, har oqshom uyiga qaytayotib surishtirdi...” [Дўстмуҳаммад Ҳ, 2021: 332] Kelinchak jasadining topilmasligi bilan bog‘liq holatlar Sultonning ham psixologik xotirjamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. “Bir hafta”, “har tong”, “har oqshom” jumlalari uning voqelikka insoniy munosabatini, tuyg‘ularini ochib beradi. Jasadni izlab anhorga tushishiga oid harakatlarini mantiqiy asoslaydi.

Xurshid Do‘stmuhammadning rivoya uslubi Shukur Xolmirzayev hikoyalari uslubidan farq qiladi. Shukur Xolmirzayev qahramon nutqi yordamida xarakter va psixologiya masalasini ochishga e’tibor qaratsa, Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida roviy rivoyasi – ruhiyat masalasining chuqurlashuvi yetakchilik qiladi. “Qichqiriq”da ham bu holat kuzatiladi. Ayniqsa, Sultonning suvdagi harakatlari chog‘ida retrospeksiya usulida to‘qqiz marta xotiralarga murojaat qilishi, anhor oqimi, detallarga munosabat uning izlashlari ko‘r-ko‘rona emas, ongli ravishda, maqsadli va tartibli amalga oshirilayotganligini belgilaydi. Xotira hamda voqelikning muntazam almashib turishi psixologik fon yuqorilashishiga xizmat qilgan. Shuningdek, roviy nutqi ramziy ma’noda hayot oqimi, turmush detallariga nisbatan metaforik mazmunni ifoda eta olgan. Rivoya jarayonidagi yana bir o‘ziga xoslik shuki, hikoya avvalida xotira tasvirlari keng berilgan bo‘lsa, asar yarmidan so‘ng asosiy voqelikni yorituvchi ifodalarga ko‘proq o‘rin ajratiladi. Biroq har ikki holatda ham badiiy kodlarning mazmun mundarijasida farq sezilmaydi. O‘rganish jarayonida xotira yoki reallik doirasida berilgan tasvirlarning semiotik kodlar bo‘yicha tahliliga yetarli materiallar ko‘zga tashlanadi.

1. Tugun (germenevtik) kodi: hikoyada bir nechta tugun kodlari mavjud bo‘lib, badiiy matnga nisbatan o‘quvchining qiziqishini orttiradi. Shuningdek, voqelik davomida berkitilgan ma’lumot asarning sirliligi, dramatizmi yuqori bo‘lishiga xizmat qiladi. Masalan, asar boshlanishida “har yili yoz kezlari uch yo to‘rt bola-baqra, goho kap-katta yoshdagi erkak Qichqiriqqa g‘arq bo‘ladi” tarzida berilgan axborotdan o‘quvchida “qanday, nima uchun, qay tarzda?” kabi savollar tug‘diradi. Bu kodning yechimi ma’lum vaqtgacha berilmaydi. Anhor haqidagi umumiy tafsilotdan so‘ng, bu kodning yechimi ochilmasdan turib yana bir tugun kodi asarga kiritiladiki, ikkinchi kod quvvati birinchi kodning ta’siri natijasida dramatizmni yana-da keskinlashtiradi: “Sulton yalang oyoqlari bilan ohistagina suvga tushib, bir-ikki odim tashlagan, muzday suv to‘pig‘iga urib, bir tekisda to‘shalib qolgan bodroq toshchalar oyog‘ining ostini qitiqlagan damlarda bularning hech birini xayoliga keltirmadi” [Дўстмуҳаммад Ҳ, 2021: 330]. Sultonning juda xavfli ekanligini bilib turib anhorga yaqinlashishi o‘quvchida qiziqish ortishiga sabab bo‘ladi. Badiiy matnning tag ma’nosi sifatida kelgusida qandaydir noxush voqea sodir bo‘lishiga ishora – yana bir tugun kodi beriladi. Mazkur uchta tugun kodlari ta’sirida kitobxonni asar voqeligiga jalb qilish funksiyasi orttiriladi. Matnda ketma-ket tugun kodlar berib boriladi. Xususan, Sultoning oromini o‘g‘irlagan xayol, Qichqiriqdan qo‘rqishi sababi, kelinchak o‘limi, jasadning topilmagani, Sultoning qidiruvi kabilar bosqichma-bosqich voqealar keskinligini ta’minlab turadi.

2. Rivoya (narrativ) kodi: yozuvchi har bir harakatlar zanjirini retrospektiv syujet usulida asoslab boradi. Mana shu asoslash asnosida ma’lumot uzatish jarayonini atayin kechiktiradi. Masalan, rivoya jarayonida “Vaholanki, necha kundan buyon bir o‘y-bir xayol uning oromini o‘g‘irlagan, uning qo‘llaridan yetaklab bot-bot anhor yoqasiga boshlayotgan, hatto yelkasidan itarib-turtkilab qo‘yarda-qo‘ymay uni suvga tushishga undayotgan edi” [Дўстмуҳаммад Ҳ, 2021: 330] ma’lumoti beriladida, buning sababi izohlanmasdan bolalik xotiralariga o‘tib ketiladi. O‘z-o‘zidan bu kodning yechimi o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi. Shuningdek, uchta o‘rinda Sultonning anhorga tushish jarayoni rivoya kodi sifatida shifrlanadi hamda ularning yechimi keyinroq kelinchak jasadini qidirish maqsad

qilingani axboroti bilan ochiqlanadi. Qiyoslansa, “Arosat” hikoyasiga nisbatan “Qichqiriq” asarida rivoya kodi boyligi kuzatiladi. Bu holat, albatta, o‘quvchilarning kodlar mazmunini aniqlashga intilish borasidagi vazifalarini kengaytiradi.

3. Ilmiy kod: asarning ikkita epizodida ilmiy qarashlarga asoslangan kod kuzatiladi. Bu matn g‘avvoslar bilan bog‘liq tasvirlarda berilgan bo‘lib, qizning jasadini axtarishda, tabiat injiqliklarini yengishda mutaxassislarning ham ojizligini ta’kidlash uchun xizmat qilgan. “G‘avvoslar-chi? Nahotki, ular ham hech narsaning uddasidan chiqmasalar?!” matnida umid, “bu savoliga hech kasdan tayinli javob ololmadi, g‘avvoslarning kattasiga o‘zi yo‘liqdi, g‘avvosboshi, loaqal uning ko‘ngli uchun gapiga quloq solmadi ham” [Дўстмуҳаммад Ҳ, 2021: 332] axborotida umidsizlik, bir g‘avvosning “Bu dunyoda men tushmagan suv qolmagan, illo bunaqasini ko‘rmaganman!” [Дўстмуҳаммад Ҳ, 2021: 333.] degan javobi imkonsizlik ma’nolarini ifoda etgan. G‘avvoslarga oid epizodlarning kiritilishi ilmiy nuqtai nazardan ham imkonsiz bo‘lgan ishni Sultonning bir o‘zi bajarishga harakat qilishi mazmunida dramatizmni orttirishga yordam bergan.

4. Ramziy kod: asarda juda ko‘p ramziylikni ifodalagan detallar mavjud. *Qichqiriq anhori, sariq ko‘ylak, qamishzor, baliqlar, otbaliq, zotdor it, quyosh nuri* kabi detallar asarning mazmuniy mundarijasi rang-barang va boy bo‘lishini ta’minlagan. Jumladan, *qichqiriq anhori* hayot va o‘lim chegarasi mazmunida metaforik ma’no ifodalaydi. Shuningdek, tabiat kuchlarining shiddatli, asov va shafqatsizligi ko‘rsatish bilan birga, inson ongining murakkab va xatarli qatlamlariga ishora qiladi. *Sariq rang* og‘riqli xotira, umid timsoli sifatida, *qamish*lar yashirin haqiqatlar, xatar tarzida, *baliq* umid ramzi, *otbaliq* ilohiy yordam belgisi, *zotdor it* loqayd jamiyatga ishora, *quyosh nuri* tiriklik ma’nosi bilan birga jismoniy va ruhiy poklanish ramzidir. Adib bu ramziy kodlar yordamida falsafiy g‘oya talqiniga intiladi. Asar mazmuni tor ma’naviy hudud tasviridan global masalalar qatoriga ko‘tariladi.

5. Muloqot kodi: asarda muloqot kodi kam qo‘llanilgan bo‘lib, tasvirlarda dialog yoki monologlar oz miqdorni tashkil etadi. Biroq qo‘llanilgan epizodlar qahramon ruhiy holati yoritilishiga yetarli mazmun bag‘ishlagan:

“– Endi qandoq qilaman, aka?.. – dedi Mavlonbek tamomila abgor bir ahvolda.

– Tongotar suvning tepasidan ketmayapman, darak yo‘q, jim-jit...” [Дўстмуҳаммад Ҳ, 2021: 336].

O‘n besh kungina birga yashagan xotinidan ajralgan Mavlonbekning mazkur dialogi uning nochor ruhiy holatini ifoda etadi. Uning chorasizligi savol matnidan, ruhiy holati muallif nutqidan anglashiladi. Xalq tomonidan aytilgan rivoyatga ishongan holda tuni bilan suv bo‘yida o‘tirishi, o‘lgan kelinchakning ovoz chiqarishini poylashi uning psixologik holati buzilish darajasiga yetganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, boshqa tasvirlardagi muloqotlarda ham (misol uchun, Sulton va g‘avvos, Sulton va Bashorat o‘rtasidagi) badiiy kodlangan mazmun ifodalari mavjud.

6. Harakatlar kodi: hikoyada faol ishtirok etgan Sultonning harakatlar manerasi epik ritm asosida tartibga solingan. Ya’ni, asar voqeligi asta sekin “start” olayotgan sportchi harakatlari singari boshlanadi va davomida shiddatli tus oladi. Masalan, syujet avvalida Qichqiriq anhori to‘g‘risida ma’lumot, keyin Sultonning anhor qirg‘og‘idagi holati tasvirlangan. Anhor detali haqida umumiy tasavvur yaratish uchun berilgan birinchi ma’lumot axborot xarakteriga ega bo‘lib, harakatning keyingi dinamikasi ta’sirchanligini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Asardagi harakatlar faolligi “Sulton yalang oyoqlari bilan ohistagina suvga tushib, bir-ikki odim tashlagan, muzday suv to‘pig‘iga urib, bir tekisda to‘shalib qolgan bodroq toshchalar oyog‘ining ostini qitiqlagan damlarda bularning hech birini xayoliga keltirmadi” [Дўстмуҳаммад Ҳ, 2021: 330] matnidan boshlanadi. Voqelik shu o‘rinda to‘xtatiladi-da, xotira epizodiga o‘tib ketiladi. Anhor bilan bog‘liq bolalik xotiralaridan so‘ng “Sultonni suvning sehrli jildir-shildiri ham, erta uyg‘ongan qushlarning chug‘ur-chug‘uri ham, xiyla naridagi katta yo‘ldan unda-munda yelib o‘tayotgan avtolarning shovqini ham chalg‘ita olmadi. Suv

Sultonning boldiriga, tizzasiga, zum o‘tmay beliga ura boshladi” tarzida davom ettiriladi. Keyin yana xayoliy tasvirlarga o‘rin ajratiladi. Demak, Sultonning anhor sohilidan suv ichiga tushgunga qadar bo‘lgan vaqtdagi harakatlar bo‘lib-bo‘lib beriladi hamda oraga xotiralar, psixologik holatlar singdirib yuboriladi. Asarning keyingi jarayonlari ham shu shaklda davom ettiriladi. Harakatlar, xotiralar va psixologik tasvirlarning uyg‘unligi harakatlarning kodlanishida muhim rol o‘ynagan. Asarning harakatlar zanjirini quyidagicha ifodalash mumkin: Sultonning anhor qirg‘og‘ida suvga tushishi --> Sulton suvga beliga qadar tushishi –> Sultonning suvga sho‘ng‘ishi –> jasadni qidiruv ishlari boshlanishi –> Sultonning anhor shiddatiga qarshi harakatlari –> charchoq ta’sirida hush va nohush holatdagi harakatlar –> o‘limdan qolishi. Mazkur oddiy harakatlardagi sirlilik, keskinlik xotira va psixologik tasvirlar uyg‘unligi yordamida hosil qilingan.

7. Xronologik kod: hikoyada vaqt axboroti bilan bog‘liq “U atayin odamlar siyrak paytida anhorga tushib” va “tikkaga kelgan quyosh” funksional birliklari mavjud xalos. Asosiy voqealar mana shu payt oralig‘ida – odamlar soy atrofida kam bo‘ladigan hamda suvga sho‘ng‘ish mumkin bo‘lgan fursat, ya’ni ertalabki soat 9-10 lardan quyosh tik kelgan tushlik vaqti – soat 12-13 lar oralig‘ida bo‘lib o‘tadi. Bu real harakatlar davom etgan fursat hisoblansa-da, umumiy qamrov 15-20 yilni o‘z ichiga oladi. Chunki bolalik xotiralari, Qichqiriq bilan bog‘liq tasavvurlar shakllangan muddat kodi, Bashorat bilan sevgi munosabatlari qamrovi xayoliy vaqt kodi mazkur fursat orasida yuzalanadi. Shuningdek, “shahar markazidagi suv havzasi”, “g‘avvos”, “qo‘ng‘iroq qildi” birliklari voqealarga zamonaviylik kodini yuklaydi. Suzish xavzalari, g‘avvoslik kasbi, telefon aloqasi 1950-yillardan keyin paydo bo‘lgan ijtimoiy soha turlaridan sanaladi.

8. Metatil kodi: Sultonning qidiruv jarayonidagi o‘z faoliyatini baholash, izohlashga qaratilgan nutqlari uning xarakter belgilarini, ruhiy barqarorligini ochishga yordam bergan. Masalan, “Bashoratoy dalda bersa, – dedi boshini suvdan azot ko‘tarib, anhorga tepadan qarashga urinib. – Qichqiriqda suv emas, olov oqsa ham kelinni topish ahdimdan qaytmayman!..” [Дўстмуҳаммад Ҳ, 2021: 337] matnidan Sultonning sevgi motividan kuch olishi, ishq tuyg‘ulari chinligi, folklor qahramonlariday ta’sirlana olishi, og‘ir fursatlarda xayoldan ham madad olishga qodirligini kuzatish mumkin. Xalq qahramonlari tasvirlangan asarlar bayonida yetilgan ijtimoiy vaziyatni harakatga keltiruvchi kuch sifatida sevgi motivi muhim rol o‘ynaydi. “Qichqiriq” hikoyasida ham Sultonning “Topdim, Bashorat! Bashoratoy, jonim, topdim!” [Дўстмуҳаммад Ҳ, 2021: 341] tarzida berilgan metatil kodi qahramon harakatlari ta’sirlangan asosiy obyektga ishora qiladi. Shuningdek, “Yelkasi, ko‘ksi, qorni, tizzalari, oyog‘ining uchigacha jazillab achisha boshladi, “Hechqisi yo‘q, chidayman!”, “Qayta boshdan boshlayman! Kerak bo‘lsa, o‘n marta tushaman suvga, lekin topmaguncha qo‘ymayman!..” [Дўстмуҳаммад Ҳ, 2021: 341] shaklda yoritilgan o‘z faoliyatini baholash kodlari Sulton xarakteridagi maqsadga intiluvchanlik belgisini yuzaga chiqaradi. Xarakterdagi qat’iylik, sevgi motivi hamda insoniy burch masalalari o‘quvchi dunyoqarashida ijobiylik xislatlari ortishiga xizmat qiladi.

9. Simvolsiz kod: Sulton bolaligida Qichqiriq anhorida cho‘kib ketishiga – o‘lishiga bir baxya qoladi. Bu reallik hikoyada hech qanday ramziy ma’no tashimaydi. Biroq Qichqiriqdan qo‘rqadigan, u yerda bir o‘limdan qolgan Sultonning yana anhorga yaqinlashishi, bu safar shunchaki cho‘milish uchun emas, suvda qidiruv ishlari olib borishni maqsad qilib kelishi o‘zaro ziddiyatni tashkil qilgan holda keskinlikni kuchaytiradi.

10. Madaniy kod: Sevgi madaniy hayot belgilaridan biri, Sulton shunday belgiga ega shaxs, Mavlonbek sevgilisidan ayrilgan jabrdiyda, Bashorat sevgining ruhlantirish manbai, g‘avvos sevgidan uzoqlashgan kishi – kasb egasi, vazifa bajaruvchi. Mazkur funksional qatorda Sulton va g‘avvos xarakterlarida madaniy kod oppozitsiyasi ko‘zga tashlanadi. Sulton sevgi doirasidagi funksional birliklar ta’sirida anhorga intiladi, faoliyatida sevgi belgilari bo‘lmagan g‘avvos esa xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan anhordan uzoqlashishni istaydi.

Xurshid Do‘stmuhammadning “Qichqiriq” hikoyasi struktural metodning asosiy tahlil prinsiplari sanalgan funksional birliklar, harakatlar zanjiri va mazmuniy kodlar asosida o‘rganilganda an’anaviy va zamonaviy tafakkur xususiyatlari yuzaga chiqadi. Asarning markaziy funksional birligi sanalgan – Sultonning qo‘shni kelin jasadini topish harakati – syujetni boshqaruvchi asosiy markaz hisoblansa, g‘avvos bilan suhbat, sevgilisining hayajoni, suvga sho‘ng‘ish, tanadagi jismoniy va fiziologik holatlar faollashtiruvchi birliklar sifatida rivoya matnining ichki dinamikasini ta’minlaydi. Harakatlar zanjiri mantiqiy izchillikka asoslangan bo‘lib, asardagi dramatizm va psixologik keskinliklarni yuzaga keltiradi. Badiiy kodlar esa matnning serqatlamligini, mazmuniy munosabatlarning uyg‘unligini ko‘rsatadi. Mazkur tahlillarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, “Qichqiriq” hikoyasi umuminsoniylik chegarasi va imkoniyatlar, matonat va fojea, botin va zohir o‘rtasidagi harakatchan kurashni matn va ma’no uyg‘unligida ochib bera olgan mukammal asar hisoblanadi.

“Qichqiriq” hamda “Arosat” hikoyalarining tahliliga qiyosiy baho berilganda ikkala asarda ham funksional birliklar, harakatlar zanjiri va badiiy kodlar yordamida inson tabiati va jamiyat muammolariga chuqur e’tibor qaratilganligi ko‘zga tashlanadi. “Qichqiriq” asarida markaziy funksional birlik sanalgan kelinchak jasadini izlash va bu yo‘ldagi xavfli harakatlar – anhor bilan kurashish, psixologik holat, ruhiy va jismoniy kodlar yordamida tashqi harakat asosida bosh g‘oya ifodasini yoritishga intilingan bo‘lsa, “Arosat” hikoyasida asosiy g‘oya Zokir O‘rinning shogirdi bilan uchrashuvi tasviri yordamida ochiqlanadi. Bu hikoyada tashqi harakat emas, ichki voqelik – muallimning xotiralari, mantiqiy xulosalari, axloqiy qarashlari, qadriyatlarga munosabatlari asosida zamonaviy jarayonlarni anglashga urinishlari namoyon bo‘ladi. Ikkala asarda ham badiiy kodlar faol mazmuniy munosabatlarni ta’minlaydi. Biroq “Qichqiriq”da real harakatlar, jismoniy va psixologik holatlar belgilariga oid kodlar yetakchilik qilsa, “Arosat”da ichki ruhiyat, dialog va monolog, xotira va mulohazaga oid belgilar sistemasi asosiy o‘rinni egallaydi. Shu jihatdan har ikki hikoya rivoya shakli va tuzilishi jihatdan bir-biridan keskin farq qilsa-da, inson tafakkuri hamda jamiyat tahayyuliga oid ziddiyatlarni badiiy kodlar yordamida mukammal yorita olgan asarlar sanaladi. Shuningdek, Said Ahmadning “Azob”, “Sarob”, Sh.Xolmirzayevning “Chillak”, Xurshid Do‘stmuhammadning “WO AI NI”, “O‘n soniya”, Ulug‘bek Hamdamning “Auditoriya”, “Haykallar oroli”, Isajon Sultonning “Shamolli kecha”, “Yangi yil kechasida”, Nabi Jaloliddinning “Urush”, “Do‘ppi” hikoyalari ham funksional birliklar, harakatlar zanjiri va badiiy kodlar asosida tahlilga tortilganda samarali natijalarga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дўстмуҳаммад Ҳ. Ҳикоя: сайланма. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2021.

2. Барт Р. Введение в структурный анализ повествовательных текстов. https://philologos.narod.ru/ texts/barthes_recits.htm.

3. Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Muharrir, 2011.

SALİDƏ ŞƏMMƏDQIZININ NƏSRİNDƏ SABİR SATİRASININ ƏNƏNƏLƏRİ

Mənzər Əsəd qızı Niyarlı-Hüseynova,
AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu
Müstəqillik dövrü Azərbaycan ədəbiyyatı şöbəsinin böyük elmi işçisi
e-mail: manzarniyarli75@gmail.com

Xülasə

Cəmiyyətdə inkişaf edən və mövcud olan ideya və proseslərlə qırılmaz şəkildə bağlı olan satira məhz insan və ictimai münasibətlərdə mənəvi-əxlaqi tarazlığı qorumağa, özünüdərkə yönəlməsinə xidmət edən satira yazarların bədii yaradıcılığında özünəməxsus yer tutmaqdadır. Salidə Şəmmədqızının müxtəlif variasiyalarda sosial zidiyyiyətlərə və nöqsanlara qarşı çevirdiyi satira məhz cəmiyyətdəki mövcud problemləri tənqid etməklə yanaşı, həmin problemlərin aradan qaldırılması, ən əsası isə xalqın milli özünüdərk, milli kimlik məsələlərinin araşdırılması baxımından bədii yaradıcılığının ana xəttini təşkil edir. Salidə Şəmmədqızı Mirzə Ələkbər Sabir yaradıcılıq ənənələrinin davamçısı və ideya-bədii irsinin varisidir. Yazıçının bədii əsərlərinin problematikasında satira özünü elmi dairələrdə baş verən nöqsanların, ziyalaılara olan biganəliyin təqdimində əksini tapır. Salidə Şəmmədqızının hekayələrinin problematikasında satira məhz müəllifin şəxsi, subyektiv münasibətdən kənara çıxaraq, şahidi olduğu dövrün ictimai-siyasi mənzərəsini reallıqla təqdim edir. Salidə Şəmmədqızı hekayələrində bədii gülüşlə, satira ilə milli-ictimai əhəmiyyət kəsb edən sosial, həmçinin ictimai problemləri işıqlandırır. Beləliklə, Salidə Şəmmədqızının satirasının əsas xüsusiyyətlərindən biri bədii refleksiyadır və bu, müəllifin hekayələrinin böyük bir qismini postmodernizmə aid etməyə imkan verir.

Açar sözlər: *Salidə Şəmmədqızı, Azərbaycan ədəbiyyatı, hekayə, janr, satira, gülüş, bədii refleksiya*

Abstract

Satire, inseparably connected with the ideas and processes developing and existing within society, occupies a special place in the artistic creativity of writers, serving to preserve moral and ethical balance in human and social relations, and directing towards self-awareness. The satire employed by Salida Shammadgizi in various forms against social contradictions and shortcomings not only criticizes the existing problems of society, but also constitutes the main line of her creative work in terms of overcoming these problems and, most importantly, exploring issues of national self-awareness and national identity of the people. Salida Shammedghizi emerges as a continuator of Mirza Alakbar Sabir's creative traditions and an inheritor of his ideological and artistic legacy. In the problematics of the writer's literary works, satire is reflected in the presentation of shortcomings occurring within the scientific community and in the depiction of indifference towards the intelligentsia. In the problematics of Salida Shammadgizi's short stories, satire transcends the author's personal, subjective attitude and presents with realism the socio-political landscape of the era she witnessed.

In her short stories, Salida Shammadgizi uses artistic laughter and satire to highlight social and public issues of national and societal significance. Thus, one of the essential features of Salida Shammedghizi's satire is artistic reflection, which makes it possible to classify the majority of her stories as postmodernism.

Keywords: *Salida Shammadgizi, Azerbaijani literature, story, genre, satire, laughter, artistic reflection*

Giriş

Satira ədəbiyyatşünaslıqda həm ədəbi növ kimi, həm də bədii təsvir prinsipi kimi təqdim edilir. Məsələn, L.İ. Timofeyev, Y.Borev, İ.Həbibbəyli və digər alimlər satiranı ədəbiyyatın xüsusi növü kimi təqdim edirlər. Bu bir qədər mübahisə doğursa da, alimlər tərəfindən səsləndirilməkdədir. Salidə Şəmmədqızı elmi görüşlərində satiranı ayrıca ədəbi növ və ya janr kimi deyil, lirik, epik və dramatik növdə mövcud olan və bu növlərə daxil olan janrlarda mövcud olmasını, satiranın digər bədii növ və janrlarda qarşılıqlı əlaqədə olmasını, satirik məqsədlər üçün istifadə edilməsini vurğulamaqdadır. Cəmiyyətdə inkişaf edən və mövcud olan ideya və proseslərlə qırılmaz şəkildə bağlı olan satira məhz insan və ictimai münasibətlərdə mənəvi-əxlaqi tarazlığı qorumağa, özünüdərkə yönəlməsinə xidmət edir. Yazıçının müxtəlif variasiyalarda sosial ziddiyyətlərə və nöqsanlara qarşı çevirdiyi satira məhz

cəmiyyətdəki mövcud problemləri tənqid etməklə yanaşı, həmin problemlərin aradan qaldırılması, ən əsası isə xalqın milli özünüdərk, milli kimlik məsələlərinin araşdırılması baxımından bədii yaradıcılığının ana xəttini təşkil edir.

Salidə Şəmmədqızının satirasının problematikası

Salidə Şəmmədqızının bədii əsərlərinin problematikasında satira özünü elmi dairələrdə baş verən nöqsanların, ziyalılara olan biganəliyin təqdimində əksini tapır. Elmdə baş alan naqisliklər, ziyalılara olan biganəlik cəmiyyətin tərəqqidən geri qalmasını əxz etdirir. Salidə Şəmmədqızı satiradan istifadə edərək alimlər, şair və yazıçılar arasında özlərini süni şəkildə təbliğ etməni, müxtəlif mükafat və təltiflər əldə etmələrini tənqid etməklə bərabər, cəmiyyətdə özünü göstərən geriliyin tənqidi ilə yanaşı tərəqqinin qarşısını almağa can atan nadanların ictimai-sosial proseslərə biganə qalmaları yer alır. Salidə Şəmmədqızı hekayələrinin mövzusunda elmi və mədəni dairələrdə cəmiyyətə zor gücünə sırınan "ziyalı"ların "ziyalılığı"nı da belə tənqid etməkdən çəkinmir. Bunu da məhz satira ilə, yumorla, gülüşlə təqdim edir. Salidə Şəmmədqızının "Dionisin qələbəsi" hekayəsinin problematikasında məhz yaradıcı insanların öz işlərinə olan biganəliyi satirik dillə açıqlanır. Dionisin münsiflər heyətinə söylədiyi fikirlər reallığın təsviri kimi yer alsa da, orada yer alan sarkazm diqqətdən yayınmır. Bu sarkazm Dionislə münsiflər heyətinin üzvləri arasındakı dialoqda qabarıq şəkildə əksini tapır: "Mövsüm Xəlilli **qəzəblə Dionisdən soruşdu:**

– Nə demək istəyirsən?

Dionis Mövsüm Xəlilliyə piyaləsini uzadaraq dedi:

– Mövsüm, nə olub sənə? Bir-iki cızma-qara eləmisən deyə, düşünürsən ki, səndən yoxdur? Özünü ələ al.

– Mən ömrü boyu xalqım üçün yazmışam.

Dionis Mövsümü istehzayla süzərək:

– Hə... Xalqın sənin yazdığın cızma-qaralara qəti dəxli yoxdur. Bax desəydin ki, özüm üçün yazıram, onda bu daha inandırıcı olardı. Elə ədəbiyyatın ən böyük dərdi də budur. Özün üçün yazmaq... Yazdığın cızma-qaraları özündən başqa heç kimin oxumaması..."

Salidə Şəmmədqızı hekayələrinin problematikasında satira ilə məhz müəllifin şəxsi, subyektiv münasibətdən kənara çıxaraq, şahidi olduğu dövrün ictimai-siyasi mənzərəsini reallıqla təqdim edir. Məsələn, düzgün seçim etmək əvəzinə qohumluq əlaqələrinə, dost münasibətlərinə əsaslanaraq müsabiqə iştirakçılarına münasibət bildirilməsi "Dionisin qələbəsi" hekayəsində qabarıq şəkildə əksini tapır: "**Dionis münsiflər heyətinin üzvlərini bir-bir süzüb dedi:**

– Başa düşmürəm, sizin heç öz fikriniz, seçiminiz yoxdur? Dost-tanışlarınızın sözlərini niyə yerə salırsınız?

Camal Gül xəcalətlə Kamilə baxaraq, Dionisdən soruşdu:

– Axı biz neyləmişik?

Dionis əlindəki piyalədən yenə bir qurtum içib dedi:

– Neyləmisiniz? Daha neyləməlisiniz? Bir-bir sayım? Hələ bir siz öz sədrinizə diqqət yetirin... Kamil öz İlham pərisi ilə mübahisə edir, sizlərin isə bundan xəbəriniz yoxdur. Sizlər neçə illik dost-tanışlarınızın xahişlərini yerə salırsınız. Ay nə bilim layiqli əsər belə gəldi, dəyərli əsər belə getdi. Axı kimə lazımdır onlar?"

Salidə Şəmmədqızının mövzu baxımından fərqli olan bu hekayələri cəmiyyətin müasir dövrünün sosial bəlalarını canlandırır. Cəmiyyətdə ən ülvi ad olan alimlərin, yazıçıların, bir sözlə qələm sahiblərinin, ziyalıların bəzilərinin cılız şəxsiyyətə malik olması, şəxsi mənafeləri üçün hər şeyi qurban verməyə hazır olmaları satiranın dili ilə təqdim edilir.

Salidə Şəmmədqızının "Facebook"da kitab təqdimatı" adlı hekayəsinin problematikasında cəmiyyətimizə özünü "alim" kimi sırımağa çalışan adamların əməllərinə işıq salınır. Məsələn,

hekayənin qəhrəmanı Şölənin özünün elmi fəaliyyəti ilə yanaşı elmi rəhbərinin "alim"lik fəaliyyəti satirik dillə təqdim edilir. Məsələn, yazıçı qeyd edir ki, "Şölə yazı ətrafında polemikanı qızışdırmaq üçün Floraya cavab yazdı: "Mən baş qoşmuram. O, yazdığı bu fikirlərlə tək mənə yox, mənim respublikada deyil, bütün dünyada tanınan, məşhur olan, ingilis dilində mühazirələr oxuyan elmi rəhbərimə sataşır. Tutalım mən qanmıram, elmi rəhbərim də qanmır? Mənim elmi rəhbərim Amerikada, İngiltərədə, Koreyada, Hollandiyada, Fransada, Avstriyada, Danimarkada, Brazilyada və daha haralarda məruzələr etməyib... O, bilmir ki, səhvdir yoxsa yox... Bu bildi?" [Şərifova]. Təvazökarlıqdan uzaq olan bu "alim"lər onlara tutulan iradları qəbul edib aradan qaldırmaq əvəzinə, etiraz səslərini yüksəldirlər. Təbii ki, bu prosesin elmimizin ağrılı, sağalmaz dərdinə çevrilməsi gizlin deyil. Həyatını elmə həsr etmiş və etməyə çalışan şəxslərin reallıqları qəbul etməmələri yazıçı tərəfindən incəliklə, satirik dillə vurğulanır.

"Sənin səlahiyyətin çatırmı?" adlı hekayəsinin problematikasında elmi cameədə məmur özbaşınalığının təqdimi yer tutur. Hər hansı bir elm müəssisəsində direktor müavini kimi məsul vəzifə tutan bir şəxsin işçisinə "sənin səlahiyyətin çatırmı?" sualını ünvanlamasında yazıçının sarkazma müraciəti diqqətdən yayınmır. Hekayənin baş qəhrəmanının işçisinə tənqidi məqalə yazmasına münasibət bildirməsi müəllif tərəfindən sarkazmla açıqlanır: "...tənqid etdiyiniz yazılar neçə instansiyadan keçib. Hamısından müsbət rəy alıblar. Hətta Ali Attestasiya Komissiyasından keçib təsdiqlərini alıblar. O baxımdan deyirəm ki, Sizin irad tutmağınıza səlahiyyətiniz çatırmı?" Yazıçının hekayədə səsləndiriyi bu fikirlər məmur özbaşınalığının, vəzifəsindən sui-istifadə etməsinin əksidir. Demokratik cəmiyyətdə yaşayan bir alimə, elm işçisinə tənqidi məqalə yazmasına, tənqidi fikir bildirməsinə rəhbər, məsul şəxsin reaksiyası sarkazmla açıqlanır. Hekayənin qəhrəmanı Səidənin "Necə yəni səlahiyyətim çatırmı? Kimisə tənqid etməyə səlahiyyət lazımdır? Təhqirə və ya şərə keçməmişəm. Elmi işi tənqid etməyə səlahiyyət lazımdır? Nöqsan olan yerdə, o nöqsanı görüb elmi diskusiya qaldırmağa hər bir alimin səlahiyyəti çatır" deyə etiraz bildirməsi özbaşınalığa müəllif etirazı kimi qəbul edilməlidir. Yazıçı direktor müavinin "...həmin elmi işlər ya tədqiqatlar kafedrada, ya şöbədə müzakirə olunur, sonra seminardan keçir, aparıcı müəssisədən rəy alır, sonra dissertasiya şurasında müdafiə edilir, Ali Attestasiya Komissiyasında təsdiq olunur. Orada oturan insanlardan siz ağıllımı çıxdınız? Siz bəyəm..." kimi fikirləri sarkazm kimi nöqsanları, təqdim edilən obrazın naqisliklərini əks etdirməyə qadirdi.

Salidə Şəmmədqızının hekayələrinin problematikasında milli özündərkin ifadə olunması özünü göstərir. Yazıçı hekayələrinin mövzusunu xalqın qan yaddaşında hopmuş məsələlərə biganə qalmayaraq, keçmiş yaddaşın fonunda gələcəkdə özünü göstərə biləcək naqisliklərə satira ilə, yumorla, sarkazmla işıq salmağa qadir olur. Müəllif ideoloji, həmçinin sosioloji məsələlərdən uzaq olmağa cəhd edərək, müasir problemlərə, naqisliklərə, insanlar arasında, xüsusilə cəmiyyətdəki deqradasiyalara satirik yanaşmasını göstərir. Salidə Şəmmədqızı hekayələrinin problematikasında məhz cəmiyyətdə tarixən mövcud dəyərlərin tənəzzülünə biganə qalmayaraq, həmin məqamları satira ilə milli oyanma, xalqın, cəmiyyətin özünütanıtma istiqamətində dirçəlişini təbliğ edilməsinə can atmasının şahidinə çevrilirik. Təbii ki, yazıçı bu məqamları bədii yaradıcılığında bəzən gülüşlə, satirayla, yumorla həyata keçirir.

Müəllifin satirasında problematika zənginliyi ilə diqqəti cəlb etsə də, ədəbiyyatşünaslıq, ədəbi proseslə bağlı məsələləri, xalqın həyat və taleyi ilə bağlı aktual problemləri əhatə etməsi diqqətdən yayınmır: "Müəllif "Əriyən şam", "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusundakı bir sıra hekayələrində ədəbiyyatşünaslıq problemlərini göstərməyə nail olur" [Əliyeva, 2025: 533].

Salidə Şəmmədqızının satirasının üslubu

Azərbaycan ədəbiyyatında satiranın ilk rüşeymlərinə, elementlərinə folklorda rast gəlinir. Daha sonralar isə yazılı ədəbiyyatımızda xalq yumoru və satirası aparıcı yer tutaraq tərəqqi edir. Atalar

sözü və deyimlərində, nağıllarda, lətifələrdə, epos və dastanlarda və s. yer alan satiranın təkmilləşmiş şəkildə S.Ə. Şirvani, M.Ə. Sabir, Ə.Nəzmi, M.C. Məmmədquluzadə, Ə.Vahid, Baba Pünhan və digər ədiblərimizin yaradıcılığında tərəqqi etməsini müşahidə edirik. Xalqın xoşbəxtliyini, rifahını mücərrəd ideal kimi deyil, milli mənəvi aləmin ən vacib məsələsi kimi əxz etdirən "Molla Nəsrəddin", "Bəhlul", "Arı", "Zənbur", "Lək-lək", "Tuti", "Babayi-Əmir", "Tartan-Partan", "Şeypur", "Kirpi" və s. bu kimi jurnalların səhifələrində inkişaf edən satiranın təsiri ilə meydana çıxan bədii nümunələr zəngin ədəbiyyatımızın ayrılmaz tərkibinə çevrilmişdir.

Azərbaycan söz sənətində satirik şeirin qüdrətli təmsilçisi kimi qəbul etdiyimiz Mirzə Ələkbər Sabir yaradıcılığının satirik üslubun təkmilləşməsindəki xidmətləri danılmazdır. Professor Məmməd Əliyevin vurğuladığı kimi "əgər Azərbaycan ədəbiyyatı tarixində satirik üslubun əsasını qoyan ilk qüdrətli şair Q.Zakir hesab olunursa, bu üslubu demokratik bədii formanın parlaq timsalı səviyyəsinə ucaldan M.Ə. Sabir olmuşdur" [Əliyev, 2012: 97]. Salidə Şəmmədqızı da öz nəsrində məhz M.Ə. Sabirin parlaq səviyyəyə yüksəldə bildiyi satiranı öz bədii yaradıcılığında davam etdirməkdədir. Bəllidir ki, məhz "satiraları M.Ə. Sabiri bədii forma sahəsində əlçatmaz novator səviyyəsinə ucaltmış, Yaxın və Orta Şərq ölkələrinin ictimai-siyasi fikrinə, azadlıq hərəkatına, ədəbi düşüncəsinə birdəfəlik nüfuz etmiş, digər satirik şairlər üçün sınanmış poetik nümunə, örnək və timsal olmuşdur" [Əliyev, 2012: 97]. Salidə Şəmmədqızı da bədii yaradıcılığında müraciət etdiyi satira ilə M.Ə. Sabir satirasının ənənələrini yaşatmaqdadır.

Salidə Şəmmədqızının nəsrində təsvir etdiyi hadisə və obrazların təqdimində bədii gülüş ironiya daşımır. Yazıçı hekayələrində bədii gülüşlə, satira ilə milli-ictimai əhəmiyyət kəsb edən sosial, həmçinin ictimai problemləri işıqlandırır. Salidə Şəmmədqızının bədii yaradıcılığında satira dağıdıcı, nihilist inkar və ya da yeni, tərəqqidə olan bir hadisəni ələ salmaması ilə diqqəti cəlb edir. Əksinə, yazıçının hər hansı bir hadisəni düzgün təqdim edilməməsini, o nöqsanları anlatmağa çalışması üçün satiraya müraciət etməsinin şahidi oluruq. Müəllifin bədii yaradıcılığındakı satira Bualonun vurğuladığı kimi kəskin olsa da, qəzəb və kin doğurmur: "Satira həmişə kəskin sözlərlə dolu olur; ...bizi güldürür və coşdurur, lakin bizdə qəzəb və kin doğurmur" [Bualo, 1969: 43]. Yazıçının bədii yaradıcılığında satiranın mühüm yer tutması onun yazıçı kimi ictimai-sosial həyatın əhəmiyyət kəsb edən problemlərinə işıq salmasına səbəb olur. Yazıçı qarşısında müəyyən estetik prinsiplər dayanan satira ilə, gülüşlə, yumorla qələmə aldığı hekayələrinin problematikasında həyat gerçəkliklərini xalqın düşüncə tərzinin tərkib hissəsi olmasına da aydınlıq gətirir.

Salidə Şəmmədqızının "Bankomatın sərgüzəşti", "Zibil əhvalatı" və s. hekayələrində satirik üslubu görməmək qeyri mümkündür. Məsələn, yazıçı "Bankomatın sərgüzəşti" hekayəsində cəmiyyətdəki nöqsanları, çatışmamazlıqları müxtəlif şəxslərin fonunda təqdim edir. Bu məqam müxtəlif şəxslərin bankomat ətrafında cəmləşməsini bankomatın sarkazmla, yumorla təsvir edilən düşüncələrində təqdim edilir. Məsələn, hekayədəki bir epizoda diqqət yetirək: "Anaxanım ərinin xasiyyətinə bələd olduğundan tez kodu dedi. Baladadaş kodu yığıb pullarını götürdü. Onun bu cür həyat tərzi sürməyini başa düşməyən "Taro" Baladadaş kimilərinin o zəhrimarlarda, iynələrdə nə gördüklərini başa düşmək istədi. Baladadaş isə dozasını alıb, ləzzət alacağını xəyal edirdi. Bankomat onun arxasınca mat- məəttəl baxırdı ki, bu vaxt qarşısında bir maşın dayandı. Bankomat onu görəndə istədi sönsün. Amma xasiyyətinə bələd olduğu üçün bütün diqqətini oğlanın kartına yönəltməyə çalışdı. Papasının gül balası olan belə uşaqların xasiyyətinə bələd idi. Yarım ildən artıq müddət idi ki, xidmət edirdi. Artıq çox şeyə öyrəşmişdi. Bilirdi ki, aparat bir az ləngiyəndə onu bir günə salırdılar ki, şəxsən "Taro" özünə bir ay gələ bilmirdi. Bu gün papasının gül balasının cib telefonuna pul qoymaq üçün bankomatdan çəkdiyi pulun miqdarı "Taro"nu təəccübləndirdi. Ömründə bir qəpik də olsun pul qazanmayan papasının gül balası bu həcmdə pulu yalnız telefon danışığına işlədəcəkdi? Kimsəsiz, ömrünü millətinin uşaqlarına savad öyrətməklə keçirmiş qarının təqaüdü doxsan manat, həyatını Vətən torpağı uğrunda qurban verməyə hazır olan hərbçinin maaşı iki yüz manat, daha kimləri desin,

bu qədər az maaş və təqaüd alırlarsa, bu təkcə telefon danışığına iki min manat çəkirdi. Papasının gül balasına bax... Nə yoğurdu, nə yapdı, hazırca kökə tapdı. Papasının gül balası pulunu çıxardıb banka daxil oldu ki, telefonu ilə danışmağa pul keçirsin. "Taro" onun arxasınca baxıb köksünü ötürdü. Baxdı, baxdı, sonra gözünü uzaqlara, sonsuzluğa zilləyib baxdı. Avtomatik olaraq özünü söndürdü..." [Şəmmədqızı, 2011: 49]. Yazıçı "Taro"nun fikirləri ilə baş verən hadisələrə sarkazmla münasibət bildirsə də, sonda hər şeyə etiraz olaraq bankomatın fəaliyyətini dayandırması epizodunu təqdim edir. Bununla da yanaşı, yazıçı sarkazmla təsvir etdiyi cəmiyyətin qüsurlarına etirazını son epizodda ifadə edir: "Ustalar gəlib onunla nə qədər məşğul oldularsa özünə gətirə bilmədilər. Ekranında sonsuz səma görünürdü. Ustalar bankomatın ekranındakı bu sonsuzluğa baxanda, onun dərinliyində özünü itirirdilər. Onlar bankomatın nəyə etiraz etdiyini bilmək həvəsi ilə onu qurdalayırdılar..." [Şəmmədqızı, 2011: 50]. Salidə Şəmmədqızı bir ziyalı kimi hekayələrində təsvir etdiyi naqisliklər və cəmiyyətdəki çatışmamazlıqları satirayla, sarkazmla tənqid edərək, etiraz səsini yüksəldə bilir.

Salidə Şəmmədqızının satirasında yumor

Öz obyektinin ifşa niyyəti daşıyan satiradan bəhs edərkən, yumora toxunmamaq qeyri mümkündür. Salidə Şəmmədqızı kiçik nəsrində məhz təsvir etdiyi hadisə və obrazların əksər qismini yumorla, gülüşlə təqdim edir. Professor Məmməd Əliyevin vurğuladığı kimi "gülüşün obyektə müxtəlif münasibət baxımından iki növü vardır: a) satira; b) yumor" [Əliyev, 2012: 98]. Satira və yumorun Salidə Şəmmədqızının qələmə aldığı bədii nümunələrdə vəhdət şəklində təqdimi də nəzərdən qaçmır. Yazıçının bədii yaradıcılığında satira əsasən ictimai məzmunlu gülüş olması ilə diqqəti cəlb edir. Qeyd etmək lazımdır ki, Salidə Şəmmədqızının bədii yaradıcılığında özünəməxsus xüsusiyyətləri ilə fərqlənən satira, yumor əhəmiyyətli yer tutur. Buna baxmayaraq, yaradıcılığının müəyyənedici pafosuna çevrilməməsinin də şahidiyik. Lakin yazıçı bədii yaradıcılığına aid bir çox hekayələrinin əsas mətləbinin məğzini, milli kimlik, milli yaddaş kodlarını satirik formada təzahürünü məhz yumorla, kinayələrlə açmağa nail olur.

Məmməd Əliyev mücərrəd əxlaqi və estetik normalardan çıxış edən satiranın əsas mahiyyətinə vararaq qeyd edir ki, "satira şadlıq hissi, müvəffəqiyyət ifadəsi ilə bağlı gülüş olmayıb, tənqidlə bağlıdır. Satirik gülüşün məğzi, nüvəsi tənqiddir" [Əliyev, 2012: 98]. Salidə Şəmmədqızının da bədii yaradıcılığında bədii gülüşünün məğzini, nüvəsini məhz tənqid təşkil etməsi diqqətdən yayınmır. Bu tənqid Salidə Şəmmədqızının qələmə aldığı bədii nümunələrinin əsas məğzini cəmiyyətdə, həmçinin fərdlərdə özünü büruzə verən çatışmamazlıqların satira dili ilə aradan qaldırılmasına çağırış özünü əxz erdirir.

Salidə Şəmmədqızının bədii yaradıcılığında sarkazmla, yəni tərizlə də üzləşmək mümkündür. Çünki Salidə Şəmmədqızı cəmiyyətdəki eybəcərlikləri çəkinmədən, öldürücü şəkildə açıqlamaqdan çəkinmir. Bu həm Salidə Şəmmədqızının qələmə aldığı əsərlərin problematikasının açıqlanmasında, həm də özünün xarakterik, fərdi xüsusiyyətindən meydana gəlməsi danılmazdır. Yazıçının "Dionisin qələbəsi" adlı hekayəsini münsiflər heyətinin toplaşdığı bir məqamda Dionisin əlində şərab dolu piyalə ilə münsiflərin gözünə görünməsi ilə təqdiminin özündə sarkazm büruzə verir: "Dionis əlində şərab dolu piyaləylə Mövsüm Xəlillinin yanında oturub təəccüblə ona baxan münsiflər heyətinin üzvlərinə gülümsədi. Kərim Yədullaoğlu da qaş-gözü ilə Dionisi Mövsüm Xəlilliyə göstərib kəkələyə-kəkələyə soruşdu:

– Buu o Dioo-niis-dir?

Mövsüm Xəlilli çiyinlərini çəkdi. Eldar Fəxri Mövsüm Xəlillinin cavab vermədiyini görüb dilləndi:

– Hə, Kərim... bu həmin Dionisdir. Olimplərin ən kiçiyi, şərab və bərəkət, teatr tanrısı...

Ayaz Müslim onlara tərəf gülümsəyən Dionisə baxıb Eldardan soruşdu:

– Eldar yuxu görürük? Yoxsa bunun burada nə işi var?"

Əlində şərab piyaləsi ilə yaradıcı insanların talelərinin həll olunduğu bir məkanda Dionisin görünməsi müəllifin baş verən və baş verəcək hadisələrə ironik münasibətindən xəbər verir.

Yazıçının "Facebook"da kitab təqdimatı" adlı hekayəsində bədii obrazların dili ilə satirik şəkildə təqdim etdiyi fikirlərində yumor açıq-aydın şəkildə özünü büruzə verir. Şölənin çap olunmuş kitabının reklamı üçün istifadə etdiyi üsul və ona dəstək olan adamların fikirlərinin təqdimində müəllif onlara olan ironiyasını oxucunun gözündə canlandırmağa da nail olur. Hekayədə Şölənin müəllimi olmuş Qızılgülün yazısında bunun şahidi oluruq: "Qızılgül Şöləyə yazırdı: "Sənə nə olub, Şölə? Kim nə yazsa da fikir vermə. Sənin yazdığını səndən artıq bilən ola bilməz. O mövzunu sən işləmisənsə, sən də o mövzunu bilirsən. Dünya dağılsa da, səndən başqası o mövzunu səndən yaxşı bilə bilməz". Cəmiyyətdə alimlər arasında formalaşmış absurd fikrin yaranmasına müəllif rixşəndi, ironiyası yalnız müəllifin yanaşması kimi deyil, bu naqisliklərı görən hər bir kəsin yanaşması kimi də əksini tapır. Yazıçı mövzunu sən işləmisənsə, səndən başqası bu mövzuya dərindən bələd ola bilməz düşüncəsini alimlər arasında yayılmasını, alimlərin deqradasiyaya uğraması kimi təqdim edir. Yazıçının fikirlərində haqlı olması da inkaredilməzdir. Qızılgülün fikirlərinin hekayədə səsləndirilməsinə yazıçının ironik yanaşması ilk növbədə diqqəti cəlb edir: "Mən sənin kitabında əksini tapmış yazılardan xəbərim var. Ona görə də maraqlı faktları qeyd edəcəm, hamı bilsin. Lazım olan məqamları da dostlarına özün izah et. Sən dediyinin əksi, bilməyənlər biləndən öyrənsin. Görsünlər ki, ədəbiyyatşünaslıq elminə necə şedevr əsər vermisən. Bu böyük işləri hamı bacarmır. Heç rəhmətlik Yaşar Qarayev, Əziz Mirəhmədov da bacarmayıb. Bunu bizlər bacardıq, bizim davamçılarımız olan sizlər. Ona görə sənin bu dəyərli kitabın haqqında qısa məlumat verəcəm. Qoy facebook dostların oxusunlar. Mən sənin işinə yaxından bələdəm. Bilirəm ki, Azərbaycan ədəbiyyatında arxetipin yeni formalarından bəhs etmisən, həm Azərbaycan, həm də dünya ədəbiyyatı nümunələri arasında qarşılıqlı paralellər aparmısan".

Yaşar Qarayev, Əziz Mirəhmədov kimi korifey alimlərin yaradıcılığının yüzdə birini həyata keçirməyə qadir olmayanların onların adlarını səsləndirmələrində ironik münasibət qabarıq şəkildə özünü göstərir. Salidə Şəmmədqızı Yaşar Qarayev, Əziz Mirəhmədov kimi ustad alimlərin adlarını çəkməklə onların yaradıcılığına kölgə salmır. Əksinə ironik şəkildə ədəbi irsə, ziyalılara qiymət verməyi bacarmayan sərištəsiz, savadsız "alim"lərə istehza edir, onları tənqid atəşinə tutur.

Salidə Şəmmədqızı "...bizim konfrans sevdamız... Baş tutmayan konfrans sevdamız..." deyə yumorla sonlandırdığı "Konfrans sevdası" adlı hekayəsi ilə ictimaiyyətdə üzləşdiyimiz hadisələrin qaranlıq məqamlarına işıq salır. Cəmiyyətdə insanlara qarşı "alim" pərdəsi altında pərdələnərək dələduzluq edən məxluqları gülüş hədəfinə çevirir. Bu gülüş cəmiyyətdə mücərrəd-mənfi əlamətləri özündə birləşdirən naqis məxluqların olmasının təsviri ilə üzləşsək belə, reallığın təcəssümü olması da inkaredilməzdir.

"Wikipedia" oyunu" adlı hekayəsində Salidə Şəmmədqızı yumorla ziyalılara dəyər verilməməsini açıqlayır: "Məmməd Rasimin ona heç nə demədiyini görüb ayağa durdu. Qolundakı saata baxaraq dedi:

– Nə isə... Wikipediayla insanın istedadı ölçülmür. Wikipedia istedad meyarı deyil. Məsəli səndən uzaq, düzgün təhsil belə ala bilməyən, adını düzgün yaza bilməyən mənə irad tutur. Mənim yaradıcılığıma dəyər verir ki, qalsın qalmasın, silinsin silinməsin. Dünyanın axırı gəlib desəm səhv etmərəm. Sən get əvvəl atanın adını düz yazmağı öyrən, ay Thunder Storm, sonra gəl məsələ qaldır, bu insanın wikipedia səhifəsi qalması məsləhətdi, yoxsa məsləhət deyil, layiqdi yoxsa layiq deyil..." Yazıçı ziyalılarımıza qarşı biganəliyi yumorla açıqlayır. Sənətkarlıqla məhz heç kəsə rəva bilmədiyi hadisələri gülüşlə təqdim edir. Bu gülüşlə tənqid etdiyi hadisələrin ağır və hətta milli düşüncəyə təsir edə biləcəyi qədər də faciəli olmasına işıq salır, əhatə diapozonunu göz önündə canlandırır. Yazıçının yumorla təqdim etdiyi bu hadisələrin alt qatlarında yaranan düşündürücü suallar oxucunu

düşünməyə vadar edir. Yazıçının "İki məktəb", "Musiqi müsabiqəsi", "Bankomatın sərgüzəşti", "Zibil əhvalatı", "Başı bəlalı məqalə" və s. hekayələrində təqdim edilən yumor sosial qatda yer alan hadisələrin absurd gülüşlə təqdim edilməsində özünü göstərir. Çingiz Abdullayev "Bankomatın sərgüzəşti" hekayəsinə toxunaraq qeyd edir ki, "müəllif reallığı fars dərəcəsinə çatdırır". Xalq yazıçısı Çingiz Abdullayev bu məqamı həmkarının "Zibil əhvalatı" adlı hekayəsində də büruzə verməsinə toxunur: "Salidə Şəmmədqızının yaradıcılığında satirik ünsürlər də özünü büruzə verir. "Zibil əhvalatı" hekayəsində vəzifəsinə bağlı olan baş qəhrəmanın hər yerdə qayda yaratmaq həvəsinin müasir Bakıda farsa çevrilməsi əks etdirilir" [Abdullayev, 2011: 5].

Salidə Şəmmədqızının satirasında sarkazm

Filologiya elmləri doktoru, yazıçı Salidə Şəmmədqızının hekayələri "bədii refleksiya, elmi və bədii janrların qarışıqlığı, postmodern, sarkazm ilə səciyyələnir. Salidə Şəmmədqızının qələmə aldığı hekayələrindəki bədii refleksiya ədəbiyyatşünaslıq məsələlərini əks etdirən hekayələrində geniş şəkildə əksini tapır. Salidə Şəmmədqızı qələmə aldığı kiçik nəsr nümunələrində baş verən nöqsanlara satirik yanaşması sarkazm dərəcəsinə çatır, bununla da öz tənqid hədəflərinə münasibətini əks etdirir" [Niyarlı, 2024: 561–574]. Yazıçı Salidə Şəmmədqızının məhz kinayənin daha kəskin forması olan sarkazm vasitəsilə hekayələrində təsvir etdiyi naqisliklər, insanlar arsında baş verən deqradasiyaya, riyakarlıq kimi mənfur xüsusiyyətlərə kəskin gülüşlə, satira ilə tənqidi münasibət bildirməsinin şahidi oluruq. Hadisə və adamlara gülüş və qınaq yaradan münasibətin məzmununda tənqid olan hər cür gülüş satira səviyyəsinə yüksələ bilməz. Salidə Şəmmədqızı satira ilə hekayələrində baş verən problemlərin açıqlanmasında, məişətdəki son dərəcə iyrənc və zərərli nöqsanlara münasibət bildirir. Salidə Şəmmədqızının hekayələrindəki açıq tənqidlə deyilə bilən satiranın məğzində duran tənqid ikrah doğurmaması ilə də diqqəti cəlb edir. Bu tənqidin yazıçı tərəfindən düşünülmüş şəkildə, yəni öz obyektini ifşa etmə niyyəti ilə təsvir edilməsi də diqqətdən yayınmır. Salidə Şəmmədqızının hekayələrində gülüşün ifşaedici və həmçinin öldürücü olması özünü büruzə verir. Salidə Şəmmədqızı məhz ideal naminə üzləşdiyi mənfilikləri tənqid etməklə, açıqlamağa cəhd edir. Buna da nail olur. Çünki onun hekayələrindəki satira qərəzli, bir şəxsə qarşı fərdin nifrətini deyil, cəmiyyətin üzləşdiyi naqisliklərin aradan qaldırılması üçün çalınan həyəcan zəngi kimi qəbul edilməlidir. S.İ.Ojeqovanın vurğuladığı kimi, "satira reallığın mənfi hallarını kəskin və amansızcasına ifşa edən sənət əsəridir" [Толковый словарь Ожегова].

Salidə Şəmmədqızı qələmə aldığı hekayələrində obrazlarının satirik dili ilə ictimai həyatın mənfiliklərini, cəmiyyətdə üzləşdiyi nöqsan və pislikləri mübaliğəli şəkildə təsvir edir. Satira bədii təsvir prinsipi kimi hiperbola və mübaliğə vasitəsi ilə qurulmuş unikal tipləşdirmə üsullarına əsaslanır. Məsələn, yazıçı "Facebook"da kitab təqdimatı" adlı hekayəsində elmdə yanlış elmi nəticələrin əldə edilməsini sarkazmla tənqid edir. Oxucu bu sarkazmı ilk növbədə anlamır. Ədəbiyyatşünaslığa, ədəbiyyat nəzəriyyəsinə dərindən bələd olan hər bir şəxs məhz hekayədəki obrazın elmi yeniliklərinin bir absurd olmasını görür. Yazıçının bu epizodunun təsvirində də oxucu müəllif sarkazmını dərindən duyur: "Bu vaxt rəy bölümündə Şölənin dostluğunda olan iş yoldaşı Səfurənin rəyi göründü. O, Qızılgülün sözlərini təsdiqləmək məqsədilə yazırdı: "Qızılgül xanım, bilirsiniz ki, işlə mən də tanışam. Maraqlı mövzuya toxunur Şölə. Arxetiplərin intertekstual baxımdan təzahür etməsini göstərə bilib. Çox, çox maraqlıdır... Arxetiplərin müxtəlif əsərlərin bədii mətnlərində necə əksini tapmasına nəzər salmaq hər insanın işi deyil. Şölə bunu bacara bildi. Qızılgül xanım, maraqlı məqamlardan biri də, arxetipin formaca yeni təzahürü olan struktur arxetiplərin araşdırılmasıdır. Şölə əsasən, arxetipin hipermətn və fan-fiction kimi növləri olmasını meydana çıxartmağa nail ola bildi. Buna hünər lazımdır". Salidə Şəmmədqızı yanlış elmi nəticənin əldə edilməsini təbliğ edən "alim"i və onun tərəfdarlarını incəliklə gülüş hədəfinə çevirir.

"Konfrans sevdası" adlı hekayədə yazıçının sarkazmla elmi tədbirlər həyata keçirmək istəyən

insanların fırıldaq əməlləri tənqid edilir. Salidə Şəmmədqızı özünü alim adlandıran və elmi tədbir keçirmək adı altında pul yığan məxluqları tənqid atəşinə tutur. Yazıçı bu məqamı gülüş və tənqid hədəfinə çevirdiyi Elnurun öz dili ilə açıqlayır: "Elnurun cavabını oxumağa başladı: "Sizin bu insanı alçaldıcı davranışlarınızdan və mənə sərf etdiyiniz təhqiramiz sözlərdən sonra hələ konfransa gəlmək fikiriniz varsa mənim daha sizə heç sözüm yoxdur. Mən Türkiyədə dövlət məmuruyam. Sizin bəhs etdiyiniz pulla mən varlanacamsa siz yəqin ki, həyatda Türkiyədə olmamısınız və ya dünyadan xəbəriniz yoxdu. Azərbaycanda oturmusunuz, elə düşünürsüz ki, burda kimsə sizin 100 $-ınıza qalıb?"

Salidə Şəmmədqızı elm adı ilə pul yığan dələduzların obrazı vasitəsi ilə onların iç üzlərini sarkazmla açıqlayır. Elnurun firildağının qurbanlarından birinə çevrilmiş Həcərin əsil elm adamı kimi atdığı addım və ona qarşı "elm adamı" və ya "alim" adı altında pərdələnənləri sarkazma müraciət etməklə obrazlarını təqdim edir: "Həcər Elnura yazırdı: "– Bilirəm, sizin bizim kimi adi dissertantların, elm adamlarının puluna ehtiyacınız yoxdu... Buna əminəm. Axı dediyiniz kimi dövlət məmurusunuz. Mənim sizi təhqir və ya tənqid etmək fikrim yoxdur. Sadəcə mən pullarımı sizin kimi qazanmıram. Maaşa işləyən elm adamıyam. Sizə göndərdiyim 100 $-ı övladlarımın boğazından kəsib sizə göndərmişəm. Mənim sizə göndərdiyim 100 $-a özümün ehtiyacım var. Ümid edirəm ki, mənim pulumu qaytaracaqsınız. Siz Türkiyədə dövlət məmurusunuz. 100 $-la da varlanmaq mümkün deyil. Sizin üçün o pul heç nədir? Mən sizin mənə öz 100 $-ımı qaytaracağınız halda başqa yerdə yazımın taleyini həll edərəm".

Esmira Həcərə baxıb gülümsədi. Sonra maraqla Elnurun cavabını oxumağa başladı: "-TURAN-SAM jurnalı, beynəlxalq indeksli elmi jurnaldır və 1 məqalənin dərc etdirmək qiyməti 500 $-dır. Sizin məqalənizi 100 $-a dərc etmişik. Hələ də mənimlə müharibə aparırsız. Sizə daha heç nə demirəm. Sizin məqsədiniz bizə aydın oldu, konferansımızı provokasiya etmək və yaxşı ki, belə erkəndən sizi tanımaq mənə nəsib oldu. Hələlik..."

Hekayənin qəhrəmanı "alim" Elnur əvvəlcədən gəlmişlik edərək, etdiyi əməli üst-basdır etmək üçün əsil alim adına layiq olanları təhqirdən, aşağılamaqdan belə çəkinmir. Salidə Şəmmədqızı Elnur kimi məxluqların fəaliyyətlərini sarkazmla açıqlamağı ustalıqla həyata keçirdi desək, heç də yanılmarıq. Hekayəni oxuduqda bunun avtobioqrafik xarakter daşıdığının da şahidi oluruq. Sadəcə hekayənin qəhrəmanlarının adlarının müəllifin adı ilə eyniyyət təşkil etmədiyi üçün əsəri avtobioqrafik hekayə kimi dəyərləndirə bilmirik. Ancaq hekayənin başlanğıcında müəllifin epiqraf kimi təqdim etdiyi "*Hekayənin süjetinin əsasını reallıqda baş vermis hadisə təşkil edir. Elnur Hasan Mikailın adı, kontaktları və məktubları dəyişdirilməmişdir.* Müəllif Salidə Şəmmədqızı (Şərifova)" kimi fikirlərinin qeydindən hekayənin avtobioqrafik xarakter daşımasını səsləndirə bilərik.

Salidə Şəmmədqızının "Ümid" hekayəsində təriz tənqid hədəfi olan obyektə qarşı öldürücü gülüş formasında özünü göstərir. Yazıçı cəmiyyətdə baş verən məmur özbaşınalığını daha ağır şəkildə, ifşa etmək məqsədilə sarkazmla verməyə nail olur. Rəcəb Musalının sadə vətəndaşa biganəliyi istehza və tənə ilə açıqlanır. Yazıçı vətəndaşlarımızın üzləşdiyi problemi həll etmək əvəzinə onları günahlandıran məmurların iç üzünü açmaq üçün ifşaedici dialoqlardan məharətlə istifadə edir: "Rəcəb Musalı kobud şəkildə dilləndi:

– Gənclər işsiz qalıb, sizsə onların yerini tutmuşdunuz.

Fəxriyyə Rəcəb Musalının sözündən özünü itirdi. Nə deyəcəyini bir anlığa kəsdirə bilmədi. Özünü toparlayıb dedi:

– Rəcəb müəllim, sizi anlamaq istəyirəm, amma anlaya bilmirəm. Kimin yerini tutmuşdum? Mən məgər azərbaycanlı deyiləm? Azərbaycanda yaşamağa haqqım yoxdur?

Masanın başında əyləşmiş, açıq yaşıl kostyum geyinmiş kişi dilləndi:

– Ay xanım, nəyə gəlmisiniz? Nə var burda, elə bilirsiniz ki, yel əsib, qoz tökülüb? Biz yığdıq, siz qaldınız? Olmaz bacım, olmaz anam, belə olmaz axı..."

Hər bir insanın dogma vətəninə gəlib yaşamaq haqqı olmasına rəğmən məmurların sadə vətəndaşlara biganəliyi dözülməz bir problem olsa belə, müəllif bunu ironik şəkildə açıqlayır. Yazıçı bədii yaradıcılığında satiranı dialoji nitqin deyim imkanlarından yararlanaraq çatdırmaq istədiyi ideyanı, fikri, informasiyanı oxucusu üçün mühüm vasitəyə çevirməyə qadir olur.

Sarkazm özünü Salidə Şəmmədqızının bir çox bədii nümunələrində olduğu kimi, "Mətn cızmaçısı" adlı hekayəsində də büruzə verir. Hekayənin baş qəhrəmanının xalqın mövqeyindən çıxış etməsi qabarıq şəkildə özünü göstərir. Məsələn, Mətin Xasanoviç və Əzrayıl arasındakı dialoqda bunu müşahidə edirik. Müəllif yazıçının canını almağa gələn Əzrayılın sarkazmla deyilən fikirlərində yüksək emosional münasibətin pafoslu ifadəsinin şahidi oluruq: "...Əzrayılla söhbətində ona yalvarıb möhlət istəyirdi:

– Yalvarıram, sənə. Hələ mənim canıma dəymə. Məni neynirsən? Qocalmışam, nəyinə gərək olacam. Bu dünyada hələ görüləsi, tamamlanası çox işim var. Hələ yazılacaq yazılarım var. Mənə imkan ver, onları bitirim. Adım kitablarımla qalacaq.

Əzrayıl qəh-qəhə çəkib ürəkdən gülüb ironiya ilə demişdi:

– Mətin, sənin əsərlərini səndən başqa oxuyan olubmu? Özünə niyə əziyyət verirsən. Adım kimi əminəm ki, yazdığın kitabları oxuyan yoxdur. Tarix boyu səni kimi çox yazıçılar olub. Şöhrətpərəst, xudbin, özündənrazı və ..." İstehzaya yaxın olan sarkazmla deyilən bu fikirlər günümüzün də reallığını əks etdirir. Şöhrətpərəst, özündənrazı qələm sahiblərinin bu günkü durumunu ironiya ilə daha sərt şəkildə, tənqidi münasibət sərgiləməklə canlandırır. Bir növ özü yazıb özü oxuyan şair və yazarları rixşəndlə gözümüzdə canlandıran Salidə Şəmmədqızı bunu Mətinin simasında komik məzmunlu bədii vasitə kimi sarkazmdan istifadə edərək əks etdirir.

Salidə Şəmmədqızının hekayələrində istifadə etdiyi sarkazm bəzən oxucular, bəzən isə həmkarları tərəfindən kəskin qəbul edilir. Çünki sarkazmın əsas məqsədi qarşı tərəfi lağa qoymaq və ya tənqid etməkdir. Bu zaman Salidə Şəmmədqızının hekayələrində açıq və sərt bir tərzdə deyilmiş fikirlərdə özünü görən oxucu və ya həmkarı bunu kritik qəbul edir. Bu məqam effektiv bir kommunikasiya vasitəsinə çevrilmiş sarkazmın yanlış anlaşılmasına gətirib çıxarır, bu yanlış anlaşılma yazıçıya bəzən ağır başa gəlir. Yazıçının hekayələrində sarkazmdan, satiradan və yumordan istifadə etməsinə görə sosial şəbəkələrdə tənqidə məruz qalmasının şahidi oluruq. Hətta həmkarı tərəfindən polis orqanlarına şikayət edilməsi ilə nəticələnməsi də bir reallıqdır: "Alim-yazıçı qələmə aldığı hekayələrində həm ədəbiyyatşünaslıq problemlərinə, həm də elmi dissertasiyalarda yer alan elmi nöqsanlara bədii formada münasibət bildirir. Ədəbiyyatşünaslıq əsərlərində əksini tapan tənqidi qeydlərini paralel şəkildə bədii əsərlərində də təqdim edən Salidə Şərifova bu tənqidi satirik, yumoristik bir dillə təqdim edir. Elmi əsərlərində olduğu kimi "Başı bəlalı məqalə", ""Qar yel"in sorağında", "Dionisin qələbəsi", "Mətn cızmaçısı", "Layihə oyunu", "Sən elə şeyləri anlamazsan", "Ləzzəti – söhbəti", "Sənin səlahiyyətin çatırmı?", "Psixiatrın gündəliyi", ""Facebok"da kitab təqdimatı", "Bu da yaşanılıb..." və s. hekayələrində tənqid kəskin xarakter daşıyır. Bu kəskinlik bir çox alimlər tərəfindən düzgün anlaşılmır, hətta S.Şərifovanın bu məqama görə polis orqanlarına şikayət edilməsi bədii əsərlərindəki tənqidin və elmi-bədii refleksiyanın kəskin, satiranı güclü olmasını əks etdirir" [Əliyeva, 2025: 544]. Tədqiqatçıların vurğuladığı kimi Salidə Şəmmədqızının bədii yaradıcılığında tənqid etmək məqsədi ilə istifadə edilən satira, sarkazm, yumor, ironiya, gülüş və s. üslub olmasına rəğmən, bəzən də heç düzgün anlaşılmayır, başa düşülməyir. Yanlış anlaşılması və ya başa düşülməsi xoşagəlməz nəticələrə gətirib çıxarması isə Salidə Şəmmədqızının satirasının, sarkazmının iti, yəni güclü olmasının bariz nümunəsidir.

Salidə Şəmmədqızının satirasında bədii obrazlar

Salidə Şəmmədqızı bədii yaradıcılığında təsvir etdiyi hadisələrdəki komizmi, ironiyanı gücləndirmək üçün bir çox vasitələrdən istifadə edir. Bəllidir ki, sarkazm məhz ironiyanın bir

növüdür. Yazıçı sarkazmı daha kəskin və açıq şəkildə göstərərkən, təsvir etdiyi hadisələrdə ifşa etdiyi bir və ya bir neçə ictimai əhəmiyyətli qüsurları üzə çıxarmaq üçün bədii obrazlarının bir qismini satirik təqdimi zamanı ironiyaya müraciət edir.

Salidə Şəmmədqızının satirik obrazları adi insanlardan fərqlənməyən sadə insanların obrazlarıdır. Buna baxmayaraq, təqdim etdiyi obrazlarının müəyyən qisminin monoloqlarında onların məhz satirik obraz kimi təqdim edilməsinə şərait yaradır. Məsələn, "Dionisin qələbəsi", "Musiqi müsabiqəsi", "Facebook"da kitab təqdimatı", "Konfrans sevdası", "Ümid", "Qara şəhər", "Wikipedia" oyunu", "Tərbiyəsiz alim" və s. hekayələrində ictimai əhəmiyyətli qüsurları üzə çıxarmaq üçün təsvir etdiyi Mövsüm Xəlilli, Şölə, Elnur, Rəcəb Musalı, Yusif Baxçalı, Mətin Xasanoviç kimi satirik obrazlar sosial məzmun daşıyır. Salidə Şəmmədqızının bədii yaradıcılığındakı satirik obrazlar onun dünyagörüşünün əks qütbünü əks etdirən obraz qismində çıxış edir. Bunu Salidə Şəmmədqızı açıq aydın şəkildə səsləndirmir. Təqdim etdiyi həmin obrazlar öz düşüncələri, səsləndirdikləri cümlələri, monoloqları, əməlləri, fəaliyyətləri və s. məqamlarla büruzə verirlər. Əlbəttə, bu zaman obrazların baş və ya ikinci dərəcəli obraz olmasının heç bir rol oynamadığı da özünü göstərir. Məsələn, "Dionisin qələbəsi" hekayəsində bu amilə diqqət yetirək: "**Dionis qəhqəhəsini bitirib Camal Gülə dedi:**

– Sən doğrudan da axmaq adam imişsən. Dəyəri olmayan əsərlərə səs verməyəcəksiniz? Özünüz də çox yaxşı bilirsiniz ki, qalib onsuzda onlar olacaq. Daha özünüzə niyə əziyyət verirsiniz? Tanımadığınız insana görə dost-tanış xətrinə dəyməyin nə mənası?

Üzünü ona qulaq asanlara tutaraq soruşdu:

– Belə insana nə ad vermək olar?

Cavab eşitməyib verdiyi sualı özü cavablandırdı:

– Yalnız axmaq... Ay layiqli əsər belə gəldi, dəyərli əsər belə getdi... Cəmiyyətimizə çox lazımdır onlar? Onlarla qarın doyur? Bəlkə layiqli əsərlər sizə pul verir? Ağlınızı başınıza yığın... Dostlarınızın, vəzifəli şəxslərin, imkanlı adamların sözlərini yerə salmağın nə mənası? Gedin yeyin, için. Təmiz zoğal arağından vurub kef eyləyin. Həyatın dadını çıxardın. Yadda saxlayın ki, qarın qardaşdan da irəlidir".

Salidə Şəmmədqızının "Psixiatrın gündəliyi" adlı hekayəsində xarakterlərin dərinliyini və konfliktləri açıq aydın şəkildə göstərmək üçün satirik obraza müraciət edir. Bu baxımdan da, hekayədə Natiq satirik obraz kimi diqqəti cəlb edir. Hekayə boyu Natiqin fikirləri ilə yanaşı əməlləri də gülüş doğurur. Salidə Şəmmədqızının hekayələri içərisində ən yadda qalan satirik obraz olan Natiq özünün davranış və fikirləri ilə diqqəti cəlb edir. Yazıçı məhz Natiqin obrazı vasitəsilə elmi cameədə baş verən naqisliklər işıqlandırır. Müəllifin bu obrazı ikrah oyatsa da, oxucunu bir sual düşündürür ki, bu hansı alimin prototipidir. Natiqin dili ilə onun daxili aləmini açıqlayan müəllif satiradan, yumordan, hətta sarkazmdan da istifadə edir. Təbii ki, satiradan istifadə hekayənin dilinə, süjetinə ağırlıq gətirmir, əksinə Natiq kimi obrazı satirik obraz səviyyəsinə qaldırır. Məsələn, mifologiya institutunda şöbə müdiri olan bir şəxsin psixiatr qəbuluna gəlməsini təqdim edən yazıçı bununla da obrazının kim olması sualına aydınlıq gətirir. Yazıçı Natiqin dili ilə cəmiyyətdə baş verənləri sarkazmla açıqlayır: "Bayram, özünün stəkan dostlarının, ya da «staraya qvardiya» üzvlərinə ömründə heç nə deməz, pislik etməz. Siz bilməzsiniz bunu... Qruplaşma üzvü olmaq nə deməkdir! Onları biz əla bilirik. Amma... Bayram da qorxarmış... Qorxaq... Direktordan çəkindi e... Direktora cavab verə bilmədi ki... O da bu cür qorxaqdı. Yəni Çingiz bir cür qorxur, Bayram bir cür. Nə isə..." Salidə Şəmmədqızı qrupunu "staraya qvardiya" adlandıran Natiqin satirik obrazını yaratmağa nail olur.

Yazıçının "Mətn cızmaçısı" adlı hekayəsində də Mətin Xasanoviçin satirik obrazı ilə rastlaşırıq. Yazıçı Mətin Xasanoviç satirik obrazı ilə bəzi dırnaqarası ziyalılarımızın obrazını canlandımağa nail olur. Məsələn, Mətinin ərəb dilini bilmədən, Quranı oxuya bilmədən Quranı təkzib edən əsər qələmə alması məqamını satirik dillə təqdim edir: "Mətin istehza ilə Şərifə baxıb başını buladı. Sonra özündən razı halda dedi:

– Heç də həmişə elə deyil. Quranı öyrənmək üçün nə ərəb dilini, nə də ərəb əlifbasını bilmək gərəkdir.

Şərif Mətinlə razı olmadığı üçün qətiyyətlə dedi:

– Yox, yox. Mətin Xasanoviç, məndən inciməyin, mən bu məsələdə sizinlə tamamilə razı deyiləm. Ərəb qrammatikası özünün zənginliyi və mürəkkəbliyi ilə seçilir. Ərəb sözlərinin müxtəlif mənaları var. O mənaları bilmədən...

Mətin Şərifin sözünü bitirməyinə imkan verməyib dedi:

– Şərif... Mənə ərəb dilinin incəliklərini bilmək nəyə gərəkdir? De görüm, nəyə gərəkdir? Ərəb dilini və əlifbasını öyrənmək artıq bir işdir, oğul. Onu hələ başa düşməzsən. Məni sonra başa düşəcəksən. Quranı başqa dillərə olan tərcümələrindən götürmüşəm. Əsasən də, rus dili, ingilis dili, bir də ki, ana dilimizə olan tərcümələrdən istifadə etmişəm. Və ərəb alimlərinin Quranın təfsilatında buraxdığı səhvləri göstərməyə nail olmuşam. Həmin işi iki aya işləmişəm. Fond var idi. Pul ayırmışdı, iş təcili, iki aya hazırlamalı idim. Özüm də gözləmirdim, işi vaxtından əvvəl yerinə yetirdim. Yəni iki ay müddətinə o cür işi bitirəcəyimə əmin deyildim".

Mətin Xasanoviç onun əsərini başa düşə bilməyənləri səsləndirməsi müəllifin məhz Mətinin əməllərinə ironik yanaşmasının təzahürüdür. Mətinin onun kitabının cəmiyyət tərəfindən qəbul edilməməsini vurğulanmasında da Mətin Xasanoviçin əməllərinə yazıçının ironik münasibəti əksini tapır. Bu məqam məhz Mətinin dili ilə açıqlanır: "Mənim kitabımın təqdimatı olanda, bir nəfər də olsun islam dininə riayət edən adam mənim bu xidmətimi dillərinə gətirib quruca təşəkkürlərini belə bildirmədilər. Bu qədər gerilik olar? Paxıllıq olar? Sonra internet saytlarında, qəzet və jurnallarda oxuyuram ki, mənim yüksək və nəfislə işlənmiş kitabım haqqında tənqidi məqalələr yazıblar. Bu qədər tənqidi yanaşmaq onların geridə qalmaqlarının göstəricisidir. Məhvə məruz qalıb, avamlar". Salidə Şəmmədqızı Mətin Xasanoviçin öz fikirləri ilə onun satirik obrazını yaradır. Məhz bu satirik obraz cəmiyyətimizdə özünü ziyalı hesab edən, məşhur yazar kimi qələmə verən məxluqların ümumiləşdirilmiş obrazıdır.

Nəticə

Salidə Şəmmədqızının bədii yaradıcılığında satiranın mühüm xüsusiyyəti onun özündə müasir, həmçinin ədəbi düşüncəmizdə milli özünüdərk problemlərinə, məsələlərə tənqidi şəkildə yanaşa bilməsi, ifşaetməsi baxımından müasirliyini, aktuallığını daim saxlamaq iqtidarında olmasını təsdiq edir. Salidə Şəmmədqızının kiçik nəsrində Sabir satirasının ənənələri "Musiqi müsabiqəsi", "Facebook"da kitab təqdimatı", "Konfrans sevdası", "Ümid", "Qara şəhər", "Wikipedia" oyunu" "Dionisin qələbəsi", "Mətn cızmaçısı", "Layihə oyunu", "Sən elə şeyləri anlamazsan", "Sənin səlahiyyətin çatırmı?", "Psixiatrın gündəliyi" və s. hekayələrində özünü göstərir və Azərbaycan ədəbiyyatında satiranın XXI əsrin əvvəllərində yeni mərhələyə daxil olmasını əks etdirir. Salidə Şəmmədqızı Azərbaycan ədəbiyyatında M.Ə. Sabir ənənəsinin davamçısı olması ilə yanaşı, həm də ədəbiyyatımızda Q.Zakir, M.F. Axundzadə, S.Ə. Şirvani, C.Məmmədquluzadə, Ə.Vahid, B.Pünhan kimi söz xiridarlarının satirik ənənələrinin yaddaşlarda yaşadığını və davam etdirilməsini təsdiq edir. Salidə Şəmmədqızının ictimai məzmun qazanmış satiraya müraciət etməsi təsvir etdiyi həyat həqiqətlərini özündə ehtiva edən hadisələri çılpaqlığı ilə cəsarətlə ifadə etməsinə də səbəb olur. Yazıçı digər həmkarlarının görmədikləri və ya görmək istəmədikləri, yazmadıqları və ya yazmaq istəmədikləri reallıqlara, aktual problemlərə biganə qalmayaraq, münasibətini sərgiləyir. Yazıçı təsvir etdiyi hadisələr və obrazlar fonunda cəmiyyətdə, insanların əməllərində üzləşdiyi nöqsanlara münasibətini kəskin gülüşlə, yumorla, hətta sarkazmla da ifadə edir.

Ədəbiyyat siyahısı

1. Bualo. Poeziya sənəti. – Bakı: Azərnəşr, 1969.
2. Çingiz Abdullayev. "Əriyən şam"ın işığında // Salidə Şəmmədqızı. Əriyən şam (hekayələr toplusu). – Bakı, "Elm və təhsil", 2011.
3. Məmməd Əliyev. Ədəbiyyat nəzəriyyəsi. – Bakı, "Elm və təhsil", 2012.
4. Mənzər Niyarlı-Hüseynova. Salidə Şəmmədqızının (Şərifova) kiçik nəsrində bədii refleksiya. ASEAD 14. Uluslararası Sosyal Bilimler Sempozyumu bildiriler kitabı (23-25 Kasım 2024).
5. Mənzər Niyarlı-Hüseynova. Salidə Şəmmədqızının (Şərifova) kiçik nəsrində bədii refleksiya. "Adabiy ta'lim metodologiyasi: xalqaro tajriba va ilmiy hamkorlik" mavzusidagi professor Hamidulla Boltaboyev tavalludining 70 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent: Mashhur Press, 2024. II kitob.
6. Mənzər Niyarlı-Hüseynova. Salidə Şəmmədqızının kiçik nəsrində postmodernizm. Oliy ta'limni tashkil etishda xorijiy tajribalar: transformatsiya va innovatsiyalar [Elektron resurs]: Xalqaro ilmiy-amaliy simpozium materiallari to'plami. Elektron matnli ma'lumotlar. – Toshkent: Bookprint nashr, 2025. 1-qism.
7. Salidə Şəmmədqızı. Bakomatın sərgüzəşti // Salidə Şəmmədqızı. Əriyən şam (hekayələr toplusu). – Bakı, "Elm və təhsil", 2011.
8. Salidə Şərifova. "Facebook"da kitab təqdimatı // https://www.dibace.net/dunyadan/facebookda-kitab-t%C9%99qdimati/
9. Salidə Şəmmədqızı. Dionisin qələbəsi (hekayələr toplusu). – Bakı, "Elm və təhsil", 2018.
10. Salidə Şəmmədqızı. Əriyən şam (hekayələr toplusu). – Bakı, "Elm və təhsil", 2011.
11. Zakirə Əliyeva. Filologiya elmləri doktoru, AMEA-nın professoru Salidə Şərifovanın yaradıcılığı elmmetrik diapazonda. Oliy ta'limni tashkil etishda xorijiy tajribalar: transformatsiya va innovatsiyalar [Elektron resurs]: Xalqaro ilmiy- amaliy simpozium materiallari to'plami. Elektron matnli ma'lumotlar. – Toshkent: Bookprint nashr, 2025. 1-qism.
12. Толковый словарь Ожегова. Под ред. Ожегова С.И., Шведовой Н.Ю., 1992.

ABDULLA ORIPOVNING ADABIY SABOQLARI

Hasanov Shavkat Ahadovich,
filologiya fanlari doktori
Samarqand davlat universiteti
e-mail: basanovshavkat724@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada Abdulla Oripov she'riyatidagi adabiy saboqlar, shuningdek go'zal nazmiy g'oya haqida mulohaza yuritiladi. "Burgut", "Tilla baliqcha", "Uchinchi odam" kabi she'rlari, badiiy va g'oyaviy jihatdan tahlilga tortilgan. "Abdulla Oripov she'rlarida poetik fikr oddiy turmush haqiqatlari bilan boshlanar ekan, misradan misraga, banddan bandga o'tgan sari ma'no ufqlari kengayib, poetik mulohazalar bir qancha tadrijiy takomil bosqichlarini bosib o'tadi va shu asosda betakror badiiy mazmunga ega yangi bir mikroolam yaratiladi", - kabi fikrlar mavjud.

***Kalit so'zlar**: Poetik g'oya, tuyg'u sintezi, ramz, majoz, ruhiy holat*

Abstract

The article discusses the literary lessons in the poetry of Abdulla Aripov, as well as the beautiful poetic idea. His poems such as "Burgut", "Tilla balykcha", "Uchinchi adam" are analyzed from an artistic and ideological perspective. "In the poems of Abdulla Aripov, poetic thought begins with simple life truths, and as it moves from verse to verse, from stanza to stanza, the horizons of meaning expand, poetic thoughts go through several stages of gradual development, and on this basis a new microcosm with unique artistic content is created", - there are thoughts such as.

***Keywords:** Poetic idea, emotional synthesis, symbol, metaphor, mental state*

Har bir davrning Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Rahimbobo Mashrab, Cho'lpon singari yetuk shoirlari bo'ladi. Zamondosh shoirlar, ahli ijod ular erishgan tafakkur miqyoslariga qarab intilishgan, ulardan andoza olgan. Qizig'i shundaki, ko'pchilik mumtoz shoirlar hozirgi shoirlikka da'vogarlardan farqli ravishda o'z iste'dod-u ijodlarini ularga qarab chamalab ko'rishgan, ularda "shunday buyuk shoirlarning ijodi oldida mening yozganlarim nima bo'lardi", degan andisha bo'lgan. Sharm-u hayo tuyg'usi har balolarni she'r deb taqdim etishdan ularni asragan...

Bizning zamonimizda ijodkorlarga namuna bo'ladigan ibrat maktabini yaratgan shoirlardan biri, shubhasiz, Abdulla Oripovdir. Shoir she'riyatining asosini belgilovchi omillar, bu – xayolotning boyligi, tafakkurning teranligi, falsafiy mulohazalarning hayotiy xulosa va saboqlarga yo'g'rilganligidir. Bu lirik qahramon uchun mujmal his-tuyg'ular yot, mayda gaplar begona. Poetik g'oya fikr va tuyg'u sintezining eng avj nuqtalari orqali rivojlanadi, muayyan mazmun va shakl birligini yuzga keltiradi.

Abdulla Oripovning 20 yoshlar nari-berisida yozgan she'rlarini o'qisangiz, go'yoki hayotning barcha past-balandini ko'rgan, achchiq-chuchugini totgan, oq-qorasini bexato ajrata oladigan katta hayotiy tajribaga ega shaxsning teran mulohazalarini eshitgandek bo'lasiz.

Abdulla Oripov she'riyatining betakror, originalligi shundaki, u qaysi mavzuda yozmasin – o'sha masalaning yangi bir qirrasini ochishga erishadi. Masalan, burgut juda ko'p poetik talqinlarga tortilgan, ramz, majoz vazifalarini o'tagan, masallarda o'ziga xos obraz bo'lib kelgan. U haqda go'yoki aytilmagan gap qolmagandek. Abdulla Oripov she'r avvalida uning viqori va shiddati xususida gapirib, oxirgi misralarda quyidagicha hayotiy, teran umumlashmalarga keladi.

O'ynoqi shamollar ila basma-bas,
Ana, qo'ndi burgut eng yuksak joyga!
Cho'qqi uzra mag'rur turdi-yu bir pas,
Yana bo'ron misol qo'zg'aldi. Qayga?..
Axir ne bo'lardi bersang, tabiat,
Shu buyuk shiddatga yarasha maqsad!

Shu tariqa Abdulla Oripovning “burguti” yoshlik shijoati va g‘ayratini yelga sovurayotgan, hayotda qorin va nafs g‘amidan o‘zga maqsad-u muddaosi bo‘lmagan kishining timsoliga aylanadi. Shoirning ko‘p bahs-u munozaralarga sabab bo‘lgan mashhur “Tilla baliqcha” asari ham shu ruhdagi she’rlardan biri.

Fariduddin Attor she’riyatida quduq dunyoning ramzi bo‘lib keladi. Ulug‘ shoir talqiniga ko‘ra inson ilohiy sifatlarga intilishi tufayli tirikchilikning tor, biqiq, qorong‘i va zax qudug‘idan qutulishi mumkin. “Tilla baliqcha” suzib yurgan “ko‘lmak hovuz” hazrat Attor nazarda tutgan quduqning kengaytirilgan modeli. Bunda burnidan narini ko‘rolmaydigan, tor-biqiq dunyoqarashiga o‘ralashib qolgan kimsalarning qismati ramzlar, imo-ishoralar tiliga ko‘chiriladi.

Inson hayotida, ayniqsa, ijodkorlar dunyoqarashi va shaxsiyatida aql va ruh, jon va vujud, qalb va qiyofa munozarasi-yu mojarolari alohida o‘rganiladigan falsafiy-psixologik masalalardan. Shoir juda ko‘p she’rlarida kitobxonga ana shu masalaning rang-barang talqinlarini taqdim etadi.

Qismat mayin ichdim – achchiq va taxir,
Tuydim ehtirosning samoviy kuchin.
Dunyoda odamzod yashamas, oxir,
Faqat irodasin sinamoq uchun.

Kimlarningdir, nimalarningdir, qayerlarningdir sog‘inchi hamisha qalbni o‘rtaydigan, unga totli azob beradigan bezavol tuyg‘u. Tabiat qonunlari – quyosh chiqib botishi, gullarning xazonrezgiga yuz tutishi, tug‘ilishning o‘limga yetaklashi, shuningdek, jamiyat yo‘riqlari – mas’uliyat, burch, tirikchilik tashvishlari-yu vazifalari ko‘ngil savdolari bilan hisoblashavermaydi. Ko‘ngil savdolari va savollariga sog‘inchgina javob bera oladi. Shu bois shoir she’r avvalidagi ruhiy holat ifodasini she’r so‘ngida yana takrorlaydi.

Parchagina bulut,
Cheksiz osmon,
Adir ortidagi yolg‘izoyoq yo‘l,
Barcha tashvishlarni unutib, shodon,
Qayta olsam edi qoshingga butkul.

Natijada shoir ko‘nglini bezovta qilgan qo‘msash hissi millionlab kishilar qalbida yashayotgan sog‘inch iztirobining timsoliga aylanadi.

Abdulla Oripovning “Uchinchi odam” she’ridan so‘ng kitobxon adabiy ongida “uchinchi odam falsafasi” degan tushuncha paydo bo‘ldi. Shoir bu she’ridan turmush voqeligini kuzatib, uning tub mohiyatida yotgan achchiq hayot haqiqatini ro‘yobga chiqardi. Nega uchinchi odam? Chunki inson bir o‘zi qolganida ichki ruhiy ziddiyatlarga borsa ham hech vaqt o‘zining yoqasidan olmaydi. Ikkinchi odam kelsa, yolg‘izlik hissi ularni birlashtiradi: hamkor-u hamfikrga aylanadi. Uchinchi odamning paydo bo‘lishi bilan mojaro boshlanadi: uni bunga yomonlash, ikkiyuzlamachilik, hasadgo‘ylik, munofiqlik ravnaq topadi. Yuzakiroq qaraganda, uchinchi odam uncha yomonga o‘xshamaydi – o‘z birodaringdek, ulfatingdek, qiyomatlik do‘stdek taassurot qoldiradi. Durustroq nazar solganda esa birinchi taassurot aldamchi ekanligi seziladi. Muammoning muammoligi shundaki, uchinchi odam iblisdek turli qiyofalarga kiritayotganligi uchun uni dabdurustdan tanib bo‘lmaydi. Asta-sekinlik bilan uchlik nazariyasining qamrov doirasi kengayib, endi bu o‘pqonga xalqlar, davlatlar, jamiyatlar tortilaveradi.

Uchinchi bu Odam tirikdir toki
Dunyoning chayqalib turmog‘i ayon.
Serg‘alva asrda bu zot hattoki
Saltanat shaklida bo‘lur namoyon.

Ko‘rinib turibdiki, Abdulla Oripov she’rlarida poetik fikr oddiy turmush haqiqatlari bilan boshlanar ekan, misradan misraga, banddan bandga o‘tgan sari ma’no ufqlari kengayib, poetik

mulohazalar bir qancha tadrijiy takomil bosqichlarini bosib o‘tadi va shu asosda betakror badiiy mazmunga ega yangi bir mikroolam yaratiladi.

Rus adabiyotshunosi V. Dneprov adabiyotni metaforalar qabristoni, deb ataydi. Qo‘shimcha qilib aytish mumkinki, nafaqat metaforalar, obraz va xarakterlar ham asliyatiga muvofiq bir bor ishlatilgach, o‘z vazifasini bajargan hisoblanadi. Endi u metaforaning, obrazning, xarakterning nusxasini, soyasini yaratishga hojat yo‘q. Soddaroq aytganda, Abdulla Oripov yaratgan “Burgut”, “Uchinchi odam” mavzusida she’r yozish mumkin, biroq bu obrazlar Abdulla Oripov kashf qilgan obrazlardan yangi qirralari bilan, yangi mazmuni bilan farqlanishi kerak. Shu oddiy haqiqatni ko‘pchilik tushunganida bugun “she’r” yozayotganlar soni anchagina me’yorga tushgan bo‘lardi.

Shoir she’riyati borasida bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi, biroq bu lirikaning mumtoz she’riyat, xususan, tasavvuf adabiyoti bilan aloqadorligi borasida deyarli ilmiy izlanishlar kuzatilmayapti. Vaholanki, shoirning navqiron yoshlarida yaratilgan “Ishonch”, “Ruhim”, “Sog‘inish” kabi o‘nlab asarlarida olam va odam xususidagi so‘fiyona talqinlarining an’analari ko‘zga tashlanadi. Bu an’ana shoirning keyingi yillar she’riyatida hikmat sadolari tarzida yanada sayqal topdi, xalqona donishmandlikning namunalari sifatida yanada teranlashdi.

Bizningcha, shoir ijodini o‘rganishda she’riyatini shartli ravishda, eng avvalo, ikki turkumga bo‘lib tasnif etish mumkin. Birinchisi, muhabbat mavzusida, tabiat manzaralari to‘g‘risida, muayyan ruhiy holat va kayfiyatlar aks etgan ixcham lirikasi. Ikkinchisi, ichki va tashqi olamning eng muhim momentlari sintezlashtirilgan, ijtimoiy fikrning salmoqdorligi baland, tafakkur va tuyg‘ular ko‘lami keng ifoda etilgan she’rlari. Abdulla Oripovday iste’dodi barkamol shoir uchun birinchi turkumdagi she’rlarni yozish qiyin kechmagan. Biroq ikkinchi turkumga mansub she’rlar birpasda yoziladigan she’rlar emas. Shoirning “Olti oykim she’r yozmayman, yuragim zada” satrlarida parvozi baland, salmoqdor mazmunli asarlar nazarda tutilgan bo‘lsa, ajab emas. Tabiiyki, ikkinchi turkumga mansub she’rlarni yo‘l-yo‘lakay yozib bo‘lmaydi. Bu toifa she’rlar hayotiy mantiq va xulosalarga tayanadi, ijodiy tajriba va keng dunyoqarashdan tug‘iladi, kechinma va tafakkurning quyma yaxlitligidan yaraladi. Chunki tug‘ma g‘oya, tug‘ma iste’dod tushunchalari adabiy ong va tarixiy xotira o‘zlashtirgan malakalarning hosilasi sifatida ro‘yobga chiqadi.

Inson va olamni bus-butun, mukammal bir garmoniyada ko‘rish istagi mazkur she’riyatning qon va jon tomirlaridir. Abdulla Oripov nazmi ruhga alla aytib, qalbni tinchlantiradigan she’riyat emas. Aksincha, ruhni bedorlikka, qalbni bezovtalikka undaydi, tashqi olamda ham, ichki dunyoda ham nimalardir boshqacharoq bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi.

Ko‘pincha ma’lum bir so‘z san’atkorining asarlarini kuzatganda, ular ijodida ko‘tarilish va pasayish davrlari bo‘lganligi, barcha bitganlari birdek muvaffaqiyatli chiqmaganligi seziladi. Biroq Abdulla Oripov ijodida bunday asarlar nihoyatda kam, aytish mumkinki, barmoq bilan sanarli. Shoir lirikaning deyarli barcha janr va shakllarida ijod qildi va har bir yo‘nalishda o‘sha janrlarning yetuk namunalarini yaratdi.

Shoirning lirik qahramoni atrofda kechayotgan hodisotlarning sabab-oqibat ildizlarini yaxshi anglaydi. O‘tgan asrning oxirgi o‘n yilliklarida tashqi dunyoning moslashuvchanlik va ko‘nikuvchanlik g‘oyalarining kirib kelganligi, globalizatsiya illatlarining mamlakatimizga sovuq havo iqlimidek yopirilishi, milliy qadriyatlarning qadrsizlanishi natijasida do‘st bilan dushmanning ulfat, munofiq bilan norasidaning ustoz-shogird, iblis bilan insonning ota-bola kirishayotganligi bu lirik qahramon qalbida og‘riqlar uyg‘otganligi o‘sha paytlarda yozilgan asarlaridan ma’lum. Shu bois bo‘lsa kerak, lirik qahramonning lutfi kinoyaga, kinoyasi esa achchiq kesatiq va zaharxandaga aylanadi, ifodada satirik asos chuqurlashadi. Shu bilan birga umr mazmuni, inson mohiyati to‘g‘risida, shoirning o‘z ta’biri bilan aytganda, “jaydari falsafa”ga yo‘g‘rilgan turkum she’rlari yaratildiki, bular alohida tadqiqot mavzusini talab etadi.

Oqillar ko‘payib ketsa ham agar,

Baribir yashaydi bitta devona.
Ortsa gar shoirlar soni muqarrar,
Topilgay oʻquvchi, mayli, bir dona.
Boylar yer yuzini egallagan dam,
Qaydadir bir yoʻqsil yurgaydir shaksiz.
Dunyoni baxtlilar chulgʻaganda ham,
Ularning ichida uchrar bir baxtsiz.

E'tibor qaratilishi zarur boʻlgan yana bir jihat shundaki, Abdulla Oripov mumtoz adiblar an'anasini davom ettirib, asarlari uchun ideal, ijobiy obrazlarni oʻtmishdan, salbiy tiplarni esa bugungi makon va zamondan tanlaydi. Shuning uchun u bir she'rida:

Mening yer ustida tanishlarim kam,
Mening yer ostida doʻstlarim koʻproq,

– deb yozgan edi. Bu salbiy obrazlarning toifalari koʻp: igʻvogar, hasadgoʻy, koʻchirmakash, grafoman – ya'ni yozish kasaliga mubtalo boʻlganlar, kasbini eplolmay tulkilik qilayotganlar, oʻlaksadan oʻzga muddaosi boʻlmagan burgutsifatlar, munofiqlikka shay turgan uchinchi odamlar va hokazo.

Bu shunday hajviyotki, koʻnglingiz yorishadi, shoirning topilmalaridan zavq tuyasiz, oʻylarga botasiz. Oʻychan, hasratli satrlari zamirida esa shu zamin-u xalqqa mehr-u muhabbat, uning kelajagiga barqaror ishonch yotadi. Bu lirik qahramonning iymoni butun, e'tiqodi mustahkam, insonlik martabasini baland tutadi.

Shuning uchun Abdulla Oripov she'riyatini har kim har kuni oʻqishi kerak. Shunda... shoir aytganidek, dunyoda diyonat hali mavjudligiga, hali sof tuygʻular barham topmaganiga ishonchi mustahkamlanardi.

Shunda... tirikchilik changlari bilan gʻuborlangan koʻngil bir qadar poklanardi, moddiyat va manfaat zanglari bilan oʻtmaslashgan ong ravshanlashardi. Shunda... nazmbozlik qilib, oppoq qogʻozning yuzlarini qaro aylamasdik.

Bu – Abdulla Oripov she'riyatining bizga bergan muhim saboqlari boʻlardi!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oripov A. Yillar armoni. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1984. – B.568
2. Oripov A. Ranglar va ohanglar. – Toshkent: "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2012. – B. 152.
3. Oripov A. Yangi she'rlar. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2015. – B. 152
4. Oripov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: SHARQ. 2019. – B. 783.

O‘ZBEK ADABIYOTIDA SHE’R VA SHOIRLIK HAQIDAGI QARASHLAR TAHLILIGA DOIR

Qobilov Usmon Uralovich,
professor, filologiya fanlari doktori,
Sh.Rashidov nomli Samarqand davlat universiteti
e-mail: usmonqobilov82@mayil.com

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola o'zbek va umuman jahon adabiyotida barcha davrlarda muhim hodisa sifatida qaraladigan "she'r va shoirlik" masalasi tahliliga bag'ishlanadi. Unda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotida katta o'ringa ega bo'lgan shoirlik maqomi, she'r mohiyati haqida Sharq va G'arb adabiyoti asosida so'z yuritiladi. Shu bilan birga masala taftishida antik va islom tamadduni orasidagi mushtarak va o'ziga xoslik jihatlarga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: *shakl va mazmun, she'r va shoirlik, islom tamadduni, shoir siymosi va badiiy obrazi, ilmiy-nazariy qarash, badiiy talqin.*

Abstract

This scientific article is devoted to the analysis of the issue of "poetry and poetry", which is considered an important phenomenon in Uzbek and world literature in general at all times. It discusses the status of poetry, which occupies a significant place in the socio-spiritual life of society, the essence of poetry, based on Eastern and Western literature. At the same time, attention is paid to the common and distinctive features between ancient and Islamic civilizations in the examination of the issue.

Keywords: *Form and content, poetry and poetry, Islamic civilization, the image of the poet and his artistic image, scientific and theoretical approach, artistic interpretation.*

Qadimdan hozirga qadar insoniyat ma’naviy-ma’rifiy olami komillik kasb etishida badiiy adabiyot alohida o‘rin egallab keladi, “adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi... Odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyot...” [Mirziyoyev, 2020] zarurdir. Dunyo adabiy tafakkurining paydo bo‘lishi, rivojlanish jarayonlari nazarda tutilganda ikki asosiy usul – nazm va nasr taraqqiyot bosqichlari e’tiborga olinadi. Ayniqsa, Sharq xalqlari adabiyotida nasr va nazmning alohida o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy ijod tipi sifatidagi qonuniyatlari, ular orasidagi munosabat va boshqalar haqida doimo fikr-mulohazalar, muhokama-mushohadalar yuritiladi. Jahon adabiyotshunosligida badiiy adabiyot singari uning shakl-usullari xususidagi masalalarda ham bir to‘xtamga kelingan emas. Dunyo adabiyoti manbalarida badiiy ijod usullari sifatida e’tirof etilgan turlarning o‘zi ham butun qonuniyatlari bilan nihoyatda murakkab va serqirra jarayonlar hisoblanadi. Biroq adabiy turlar ham muayyan ilmiy-nazariy qonuniyatlar, o‘ziga xos tamoyillar va asoslarga tayangan holda vujudga kelganligini hamda bu jihatlar ijod va ijodkor shuuriga aylanganligini har vaqt hisobga olish zarur.

Adabiyotshunoslar G‘arbga nisbatan Sharq adabiyotida she’riyat yetakchilik qilishi haqidagi qarashlarda yakdillikka egadirlar. Buning dalili o‘laroq she’r va shoirlik masalalari ilmiy-badiiy talqini Sharq, xususan, turkiy-o‘zbek mumtoz adabiyotida alohida yo‘nalish sifatida taraqqiy etib kelganligi ham isbot etadi. Shu nuqtayi nazardan jahon adabiyotida qadimdan mavjud bo‘lib kelgan “she’r va shoirlik” haqidagi qarashlarning o‘zbek mumtoz adabiyotida talqin etilishini o‘rganish muhim hisoblanadi. Masalan, “adabiyot” termini, uning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari xususida bu tushuncha paydo bo‘lgan davrlardan to hozirga qadar fikrlar yuritiladi, masala mushohada etiladi, ammo bu haqdagi qarashlar, xulosalar yakuniga yetgani yo‘q. Chunki adabiyot insonning vujudiy shakli bilan emas, balki ma’naviy olami, ruhiyati bilan bog‘liq hodisa sanaladi. Jahon va xususan, o‘zbek adabiyotshunosligida so‘z san’ati yetakchi yo‘nalishi sifatida she’riyat e’tirof etiladi. Uning paydo bo‘lishi va taraqqiyotidan tortib ilm sifatida shakllanishigacha bo‘lgan

jarayonlar barcha davrlarda qiziqish uyg‘otib kelgan. Jumladan, antik dunyo adabiyot ilmi kashshofi Aristotel ham ilk bora ayni masala mohiyatiga diqqat qaratgan edi. Bizning fikrimizcha, jahon va milliy adabiyotshunoslik fanlarida “poetika” adabiy hodisalarni mukammal ifoda etuvchi o‘ziga xos termin sifatida ta’rif-u tavsif etilsa-da, avvalo u “she’r” (poeziya) va “shoir” (poet) tushunchalari bilan bog‘lanishi doimo e’tibordan chetda qolib keladi. Shundan matniy bo‘laklararo o‘zaro uyg‘unlikni tashkil etuvchi “poeziya + poet = poetika” formulasi nisbatan olinganda “she’r-u shoirlik” ifodasini keltirib chiqaradi. Gap shundaki, “she’r va shoirlik” masalalari talqinida G‘arb – antik qarashlari bilan Sharq – islom nuqtayi nazarlaridagi tafovutlar jahoniy va sharqona badiiy-estetik tafakkurga ham ta’sirini o‘tkazganligi namoyon bo‘ladi. Sharq mumtoz poetikasini tashkil qilgan qonuniyatlar (ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi sanoye’ asosida 3 minglab shoirlar o‘z asarlarini yaratganliklari tazkiralarda qayd etiladi) G‘arb she’r poetikasida takrorlanmaydi.

Jahon adabiyotida she’r va shoirlik to‘g‘risida fikr yuritmagan, mushohada va mulohaza bildirmagan adabiyotshunos yoki ijodkor uchramaydi. Biroq o‘zbek adabiyotida she’r va shoirlik masalalari talqini mazmun-mohiyati, taraqqiyot bosqichlarini tadqiq etgan ilmiy ishga ehtiyoj mavjuddir. Bizga ma’lumki, o‘zbek adabiyotshunosligida “she’r va shoirlik” masalasini yaxlitlikda idrok etish muammosini jadid alloma Abdurauf Fitrat yangi asr boshlarida amaliyotga kiritgan edi. Bu masala ayni chog‘da “poetika” tushunchasining milliy ifodasi ham edi. Abdurauf Fitrat “she’r va shoirliq” adabiy mubohasasida ta’kidlashicha, *“she’r va shoirliq degan so‘zlar bizda yangig‘ina bir narsa emas. Turk ulusi o‘z borlig‘ini ochung‘a ko‘rsatkali she’r va shoirliqni bilibg‘ina kelganlar”* [Fitrat, 2009: 178]. Bundan ko‘rinadiki, ijodkor va adabiyotshunos Fitrat “she’r va shoirlik” iborasini qo‘llabgina qolmaydi, balki turkiy-o‘zbek adabiyoti uchun bu tushuncha uzoq tarixga ega ekanligini ham isbot etib beradi. Shu ma’noda o‘zbek adabiyotida she’r va shoirlik masalasi talqinlarini tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslik uchun dolzarbdir. Shuni aytish kerakki, jahon xalqlari adabiyotshunosligida ijodkor laboratoriyasi, shoir shaxsiyati va biografiyasi, she’r tarkibi va mezonlari tadqiqi doimiy e’tiborda bo‘lib keladi. Qadimgi va mumtoz Sharq adabiyotida, antik adabiyotdan jahon postmodernizm adabiyotigacha she’r va shoirlik masalalari haqidagi qarashlar, badiiy-estetik talqinlar olimlar diqqat markazidan tushgan emas. Sharq va G‘arb adabiyotida bu masala talqini, birinchidan, badiiy ijod va adabiyotning nazariy-poetik masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy asarlardagi she’r va shoirlik xususida bildirilgan bevosita qarashlar, ikkinchidan, turli tip adabiy yodgorliklar va badiiy asarlar tarkibidagi she’r poetikasi, shoirlik maqomi bilan bog‘liq bavosita talqinlarda ayni masalaga e’tibor qaratiladi. Shu nuqtayi nazardan she’r-u shoirlik va unga doxil ijodiy jarayonlar, shakliy-mazmuniy hodisalar – barchasi adabiyot mutaxassislari va ixlosmandlarini har doim o‘ziga tortib keladi. O‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy-tanqidiy qarashlari uzoq tarixdan bugungi kunlarga qadar jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda bosqichma-bosqich o‘zgarib, takomillashib kelayotgan ilmiy-nazariy nuqtayi nazarlar fonida she’r-u shoirlik masalalari ilmiy-badiiy talqinlarida ham yangi-yangi fikr-mulohazalarni o‘rtaga tashlamoqda, poetika tushunchasi ham qayd etilgani singari she’r va shoirlik mahorati birlashgan bir nuqtalarga ishora etuvchi mezon sifatida baholanmoqda. She’r va shoirlik xilma-xil ma’nolarda xalq og‘zaki ijodi an’analarida, qadimiy yozma adabiy-tarixiy yodgorliklarda, diniy manbalarda, mumtoz va zamonaviy adabiyot olamida bir o‘ziga xos hodisa o‘laroq talqin etiladi. O‘zbek adabiyotshunosligi, badiiy-estetik qarashlari jarayoni uchun ham bugungi kunlarda she’r-u shoirlik masalalari tadqiqi dolzarb ahamiyatga egadir. Bu muammo borasida munosabat va qarashlar bildirib kelinayotgan bo‘lsalar-da, biroq hozirga qadar masala umummohiyatini ochib beruvchi yaxlit ilmiy tadqiqot vujudga kelmaganligi ayni sohada chuqur izlanishlar talab qiladi. Bu jarayon bashariy va milliy hodisa, qadriyatdir. Unda jahon adabiy-estetikasidan farqli o‘laroq o‘zbek mumtoz adabiyoti asoslangan an’ana va tamoyillar Sharq-islom madaniyati, dunyoqarashi va tafakkuri bilan bog‘lanadi. Shu sababdan o‘zbek mumtoz adabiyotida she’r-u shoirlik hodisasi haqida fikr yuritilganda islom manbalarining ayni hodisaga munosabatini

anglashni taqozo qiladi. Sharq mutafakkirlari, olim-u donishmandlari, mumtoz adiblarining she'r-u shoirlik haqidagi haqiqatlari ham ayni islomiy qarashlardan kelib chiqqanligi hisobga olinishi lozim. Bundan tashqari masala tavsifida har bir davrning ham, xalqlarning ham o'ziga xos talab va qarashlari mavjud bo'lib kelgan. Misol uchun o'zbek mumtoz, jadid yoki zamonaviy davr adabiyotida she'r-u shoirlik talqinlari o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bunda adabiy qonuniyatlarning o'zgarishi va she'riy sezimlardagi yangilanishlar muhim rol o'ynaydi.

O'zbek adabiyotshunosligida she'r-u shoirlik haqida zamonaviy adabiyot misolida umumiy fikrlar bildirilgan, ayrim ilmiy tadqiqotlar yaratilgan, biroq o'zbek mumtoz adabiyotida she'r-u shoirlik masalalari badiiy talqini muammosi ilmiy tadqiq etilmaganligi mazkur mavzu bugungi davrda zarurat ekanligini isbot etadi. Shu bilan birga she'r-u shoirlik ifodasi bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish, ular orqali ifodalangan poetik ifodalar tahlilini amalga oshirish milliy adabiy-estetika taraqqiyotiga hissa bo'lib qo'shiladi. O'zbek mumtoz adabiyotida she'r-u shoirlik masalalari ilmiy-badiiy talqini, she'r va shoir haqidagi Sharq va G'arb adabiy-estetik fikrlar olami mohiyati, o'zbek adabiyotida she'r-u shoirlikka bag'ishlangan asarlarda mavzu tadqiqi ilmiy asoslanishi talab etiladi. O'zbek adabiyotida she'r-u shoirlik talqiniga asos bo'lgan manbalar, ularning keyingi badiiy-estetik qarashlarga ta'siri masalalariga oydinlik kiritish, she'r va shoirlik tushunchalari lug'aviy-istilohiy ma'nolari ochib berish, Sharq va G'arb adabiyotida bu haqdagi qarashlarning shakllanishiga baho berish, muqaddas oyat va hadislarda she'r-u shoirlik masalasi talqinidagi o'ziga xosliklar haqida fikr yuritish hamda ularning Sharq, xususan, o'zbek mumtoz adabiyotiga ta'siri muammolari tadqiq etish, o'zbek adabiyotida she'r-u shoirlik ifodalagan masalalarga aniqliklar kiritish, shoir maqomiga berilgan izoh-sharhlardagi o'ziga xosliklarni aniqlash, tarixiy-badiiy asarlar, tazkiralar, risolalar, manoqiblarda she'r va shoir haqidagi qarashlar baholanishi lozim. Bunda Qur'on, Hadisi Sharif, Aristotel "Poetika"si, Abu Nasr Farobiy "Shoirlar san'ati qonunlari haqida risola", Abu Rayhon Beruniy "O'tmishdan qolgan yodgorliklar", Imom Buxoriy "Al-Jome' as-Sahih", Kaykovus "Qobusnoma", Nizomiy Aruziy Samarqandiy "Majma' un-navodur", Sharq mumtoz tazkirachilik an'anasi, Jomiy "Bahoriston", Rabg'uziy "Qasas ar-Rabg'uziy", Axmad Taroziy "Funun ul-balog'a", Xondamir "Makorim ul-axloq", Alisher Navoiy "Xamsa"si va lirik devonlari, "Mezon ul-avzon", "Mahbub ul-qulub", "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat" tazkiralari, "Boburnoma", Furqat "Shoir ahvoli va she'r mubolag'asi xususida", Fitrat "she'r va shoirliq" maqolasi, turli tip asarlardagi qalam ta'rifi, so'z ta'riflari, ustozlar e'tirofi va boshqa mavzuga daxldor boblar, debochalar, Sharq mutafakkirlari qarashlari, tasavvuf arboblari fikrlari va shu kabi sharqona mumtoz adabiyotning boshqa namunalariga murojaat etish kerak. O'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalariga Qur'on oyati karimalari, hadislardagi she'r-u shoirlik masalalari tavsifi manba bo'lib kelgan. Sharq, xususan, o'zbek adabiyotida she'r-u shoirlikka bag'ishlangan bevosita asarlar, shuningdek, turli tip asarlarning mavzuga doir qismlarida aks ettirilgan poetik fikrlar, badiiy asarlardagi shoir siymolari tasvirlanganligi, she'r-u shoirlik talqinida turli janriy shakllar istifoda etilganligi, davr adabiyotida she'r-u shoirlik talqiniga xos alohida adabiy qarashlar shakllangan. O'zbek adabiyotida she'r va shoir timsol-obrazlari ko'lamli poetik manzaralar hosil etgan. Shuni aytish kerakki, she'r-u shoirlik masalalari talqini ilmiy-badiiy tahlilda ham muhim o'rin tutadi. O'zbek adabiyotshunosligida she'r-u shoirlik tavsifi munosabati bilan yangicha tushuncha va ifodalar, mavzular paydo bo'lgan, ularning badiiy asar olami va badiiy-estetik qarashlar tizimida katta o'rin tutgan. Gap shundaki, Qur'onda shoirlar haqida fikr yuritiladi, she'r masalasi esa shoirlik maqomidan kelib chiqadi. Undan anglashiladigan mohiyat esa shoirni haqiqatni kuylashga, adolatni tarannum etishga chorlaydi, maddohlik, laganbardorlik qoralanadi. Unga ko'ra, Haqni kuylovchi shoirlar Haqdan ilhomlanadi, maddoh shoirlar ins-jinsdan ilhom oladilar. Shu bois ham haqiqiy shoir mas'uliyati nihoyatda ulug', mumtoz shoirlarning Qur'on va Hadisga tayanib ijod qilishi ularning Haqqa yaqinligini bildiradi.

Qur'oni Karim "Shuaro" surasida shaytoniy vahiylar tinglovchilarini ta'riflashda "shoirlar"

iborasi qo‘llangan. Lekin bu tushuncha o‘sha davrda ko‘proq shoirlarning “shaytoniy idrokni talqin qilish vazifasi”ni tasdiqlash uchun qo‘llanilgan. Payg‘ambarimiz Muhammadning mushrik shoirlar tomonidan hajv qilinganligidan so‘ng aynan o‘shalarni nazarda tutgan qarashlar bu so‘z, ya’ni shoir tushunchasining ma’nosini toraytirib yuborgan edi. O‘shandan shoir so‘zi tilga olinsa, faqat “nazm ahli” sifatida tushuniladi. Shundan “shoirlar” so‘zini bilvosita anglash yoki qiyoslash yo‘li bilan Qur’oni Karimda “ular ham shoirdirlar, chunki shoir tinglovchi va sezgiga intiluvchidir” [Qur’oni karim, 92: 542], – deyilgan. Shu o‘rinda aytish kerakki, Qur’on uslubida aniq bir shaxs emas, balki umumiy toifa (masalan, “aql egalari” kabi) nazarda tutiluvchi murojaatlar beriladi. Bu uning insoniyatga yuborilgan muqaddas so‘zlar ekanligini ham ko‘rsatadi. Xususan, undagi “shoirlar” tushunchasi ham shunday umumiy bir toifaning ikki xil (rahmoniy va shaytoniy) kechinmali vakillari sifatida qayd etiladi. Biz tushunadigan she’r tushunchasi arab tilidan olingan bo‘lib, “shuur”, “sezgi” kabi ma’nolarni beradi. Shunga ko‘ra, she’r – fikrning his-tuyg‘uga qorishiq ifodasi sifatida vujudga kelgan ritmik nutq bilan ifoda etilgan ichki ohangga ega badiiy asardir. Qadimdan she’riyat - lirika va nazm ifodalari bilan teng tushunchada qo‘llanadi. Islomiy manbalarda, birinchi she’rni bevaqt o‘ldirilgan o‘g‘li Hobil dardida kuygan Odam alayhissalom ijod etganligi ta’kidlanadi. Xususan, turkiy-o‘zbek adabiyotining nodir namunasi “Qissas ar-Rabg‘uziy” asarida yer yuzida birinchi yaratilgan she’r Odamga tegishli ekanligi qayd etiladi:

Tag‘ayiyarat ul biladu va man alayha
Va vajhul arzi mug‘ayyirun Masihu.
Faajabahu iblis la’natullohi alayha
Tag‘ayyara kullu zi-lavnin va ta’min
Va qad bashashtil vajhil malihu
Bi qatli Qobilin Hobilin axahu.
Fa yo asafa alal-vajhis-sabihi
Va badalatil-arzu aslan va-hamtan
Va fil-firdavsi anharun sabihun
Fa hal ana min hayotiy mustarihun
Va yo asafa ala Hobilin innani
Qatilan qad tazamannahu az-zarihu
Tanha alal-biladi va saqiniha
Fa fil-firdavsi zaqa bika al-fasihu
Va qalbuka min azad-dunyo murihun
Va ajabaku Havvou raziyallohu anha
Tunnaji fa-innaka shaytanun lainun
Yafizu al-vajhu mal’unun qabihun
Tavallu dahri kunta lana aduvvan,
Lainan la yamutu fa tasmarihu
[Рабғузий, 1990: 24].

Qadim Sharq adabiyotida aruz vazni yetakchilik qilgan, mumtoz she’riyat aruz, qofiya va badiiy san’atlar birligida yaxlit an’anaviy poetikani tashkil qilgan edi. Qadim Yunon adabiy-estetik qarashlariga ko‘ra, she’riyat qadimiy san’at turi sifatida o‘xshatish asosiga qurilgan. Shunga ko‘ra, Aristotel she’r-adabiyot san’atining asosi mimises ekanligini ta’kidlab “poeziya – iste’dodli yoki majnunsifat inson qismati, iste’dodli odamlar ruhan juda ta’sirchan, majnunsifatlari esa jazavaga moyil bo‘ladilar” [Аристотель, 1980: 152], – deydi. Gap shundaki, poeziya so‘zi she’riyatga emas, butun adabiyotga nisbatan qo‘llangan. Antik davr adabiyoti vazniy qoliplari jahon adabiyotida bugungacha saqlandi. Sharq adabiyotida esa o‘ziga xos bo‘lgan mumtoz she’riyat vujudga keldi. Farobiy “arab she’riyatida shoirlar o‘lchovga qattiq rioya qilganlar, o‘z she’rlarida baytlar oxirlariga ko‘proq e’tibor berganlar” [Farobiy, 1979: 14] – deydi. Shuning uchun arab baytlari ma’lum bir o‘lchovdagi mahdud so‘zlar bilan mukammal va go‘zal bo‘ladi. Farobiy she’rda mubolag‘ali tashbehlar mavjudligini she’rning asos xususiyati hisoblagan, ritorikadan she’r vazni bilan ajralib turgan. Sharq adabiyotida faqat aruz emas, barmoq vazni ham ma’lum bo‘lgan. Mahmud Koshg‘ariy “Devoni lug‘otit turk”, Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat” asarlaridagi to‘rtliklar barmoq vaznidadir. Abu Nasr Farobiy vazndan tashqari davr she’riyati uchun “hammaga tushunarli so‘zlardan foydalanish” she’rni fasohatli qilib ko‘rsatishini aytadi. She’rga xos bo‘lgan bu qoida barcha davrlarda ham asosiy mezonlardan sanaladi. Ibn Sino tibbiyotga oid dostonlarini vaznga solib yozilgan.

Abu Ali ibn Sino bu asarlarini “urjuzalar” deb nomlagan va ular aruzning rajaz bahrida bitilgan,

rajaz vazni payg‘ambar davri she’riyatida ham asosiy vazn hisoblangan. Jurjiy Zaydon aytishicha, rajaz she’r vaznlarning eng qadimgisidir. Bu vazndagi baytlar masnaviydek qofiyadosh bo‘ladi. Bu vazn o‘z davrida keng tarqalgan, keyinchalik “urjuza” deb ataladigan she’rlar bitilgan. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy she’rlari, “Risolat at-tayr”, “Salomon va Ibsol”, “Yusuf” kabi qissalari, ruboiylari uning ijodkorligini isbotlaydi. Shuni aytish kerakki, she’r asosi deb qabul qilingan mezonlar: vazn, qofiya, obrazlilik, pafos, badiiy til, uslub zamonaviy she’riyatda ham unchalik farq qilmaydi, ularning holatlari o‘zgargan, xolos. XVII-XVIII asr Yevropa adabiyotida vazn va qofiya muhim rol o‘ynagan. Bualo “Poeziya san’ati” asarida iste’dodli shoirlar qofiya va vaznni idroklariga bo‘ysundira olganliklarini aytadi. U so‘zdan mahorat bilan foydalanish, uslub nazokati, qo‘pol so‘zlar va mubolag‘alardan qochish kabilar haqida fikr yuritadi. Turkiy nazariyotchi olim va ijodkor Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarida aruz vazni xususida alohida to‘xtaladi, turkiy adabiyot uchun aruzning o‘ziga xosliklari masalasiga e’tibor beradi. Antik she’riy janrlar bilan bu janrlarning o‘ziga xos farqli jihatlari ham shunda edi. Abu Nasr Farobiy vazndan tashqari she’riyatda tushunarli so‘zlardan foydalanish haqida ham aytib o‘tadiki, bu talab barcha davrlar she’riyati uchun an’anaga aylanadi. XX asr adabiyotshunosi Abdurauf Fitrat ham o‘z qarashlarida she’rda sodda va tushunarli so‘zlardan foydalanish lozimligini uqtiradi. Sharq mumtoz adabiyotida so‘z – Alloh tuhfasi, nutq tufayli inson mukarramligi qayd etiladi. Shundan mumtoz adabiyot durdonalarida hamd, na’tlardan keyin so‘z ta’rifi, qalam vasfi alohida ta’riflanadi. Yusuf Xos Hojib: “So‘z bo‘z yerga yashil ko‘kdan tushdi, so‘zi tufayli inson o‘zini ulug‘ qildi”, – deydi.

Yashil ko‘kdin indi yag‘iz erka so‘z
So‘zi birla yanglug‘ ag‘ir qildi o‘z.

Bunday yondashuv Sharq va turkiy mumtoz adabiyotda o‘ziga xos qoidaga aylangan edi. Masalan, Kaykovus “Qobusnoma” asarida: *“Ey farzand, agar shoirlik qilmoqchi bo‘lsang, harakat qil, toki so‘zing oson va foydali bo‘lsun, g‘omizi va mushkul so‘zdin parhez qilg‘il va o‘zing bilib, o‘zgalar uning sharhiga muhtoj bo‘lg‘udek so‘zni aytmag‘il, nedinkim she’r aytg‘on kishi xalq uchun aytur va o‘zi uchun aytmas. Bir xil vazn va bir xil qofiyaga qanoat qilmag‘il, san’tasiz va tartibsiz she’r aytmag‘il”, “Shoirlarning rasmi odatiga ko‘ra ularning san’atlaridin g‘ofil bo‘lmag‘il, chunonchi, shoirlarning zarur usullari shulardin iborat: muzavvaj (birlashtiruvchi), mujonis (o‘xshash), mushokil (shakldosh), mukarrar (takror), musammat, mustaviy (teng), mushobeh (o‘xshash), muzmar (yashirin), mulavvan (bo‘yalgan), muvassal (ulangan) muqatta’ (kesik), mustazod (qarama-qarshi), mustaor (ko‘chma ma’noli), muzdavaj (birlashish), muvozana (barobarlik), muzmin (eskirgan, harakatdan qolgan), musajja’ (qofiyadosh), muvashshah (ziynatlangan, bezalgan), mavsul (qo‘shilgan), muxalla’, mustahiyot (bo‘rtmoq), mustahil (mumkin emas), zuqofiyatayn (qo‘sh qofiyali), rajazi maqlub (harbiy mazmundagi she’rlarni tantanavor o‘qish), maqlub (teskari), mutobiq (uyg‘un), mutashobix (o‘xshatish), muraddaf (radifli) va bularga o‘xshashlar”* [Kaykovus, 2016:158] – deydi. She’r uchun talab qilinadigan ilm va odob haqida Sharq olimlari ko‘p gapirishgan. Sharq mumtoz adabiyoti shoirlari bilan birga o‘zining yetuk adabiyotshunoslari, aruziy olimlari bilan ham mashhur. Bu davr qomusiy allomalari, shoirlari, mutasavvuflari adabiyot qoidalarini o‘z asarlarida ifodalagan edi. XI-XII asrlarda yashagan shoir va adabiyotshunos Nizomiy Aruziy Samarqandiyning to‘rt qismdan iborat “Chahor maqola” asarining ikkinchi qismi “She’r ilmining mohiyati va shoirlik salohiyati” deb nomlanadi. Unda shoir yuksak didli, donishmand, ilmli bo‘lishi kerakligi aytiladi. Aruziy Samarqandiy fikricha, shoirning ruhi toza, fikri keng, tab’i latif, ko‘ngli to‘g‘ri, zehni o‘tkir, turli fanlar va odatlardan xabardor bo‘lmog‘i kerak. Akademik Boturxon Valixo‘jayev “O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi” [Boltaboyev, 2006:34] kitobida Aruziy Samarqandiyning shoirlik fazilatlari haqidagi fikr-qarashlarini keltiradi. Bunda “salim ul-fitrat” (tabiati pokiza va olijanoblik), “azim ul fikrat” (keng dunyoqarashli), “saheh ut-tab’” (shoirlik iste’dodi), “daqiq un-nazar” (o‘tkir nazar) bilan birga o‘tmish shoirlardan 20 ming va zamondoshlardan 10 ming bayt she’r yod bilishi

kerakliligiga e'tibor qaratiladi [Валихўжаев, 1993:57-59]. Nizomiy Aruziy shoirlik san'atiga ajib maqom bergan holda, uning uslubi go'zalni xunuk, xunukni go'zal tasvirlash quvvatiga egaligini ta'kidlaydi. Bu - so'zning jozibasidir, so'z bilan olam yaraladi, umr asoslari so'z asosida bayon qilinadi. Abdurahmon Jomiy "Silsilat uz-zahab" dostoni birinchi daftari ulug' shoirlar xotiriga bag'ishlangan bo'lsa, "So'z va qalam fazilati haqida"gi faslida qalam ta'rifi keltiriladi. Adabiyot yaratuvchi vosita sifatida qalam muborak sanaladi. U so'zni tasvir etsa-da, so'z uning onasidir. So'z bo'lmasa edi, u nimadan bahs qilardi?!

So'z ochajaak sir yuzidan pardalar,
San'atidan zinda bo'lur murdalar.
Bo'lsa agarchand suxandon kishi,
Bo'lmasa so'z yurmagusidir ishi.
So'z ila jo'rlashsa-da, sozi aning,
Rohatijon bo'lg'ay ovozi aning.

So'z tufayli inson Alloh sirlaridan bahramand bo'ldi. So'z hatto o'likni tiriltiradi. Bu majoziy ma'noda haqiqiy so'z meros qoldirgan shoirlarning barhayot yashamog'iga ishoradir.

Sharq mumtoz adabiyoti tarixida she'r va shoirlik haqida barcha ijod ahli fikr yuritganlar. Shulardan biri buyuk ozarbayjon shoiri Fuzuliy bo'lib, uning bu haqda qarashlari e'tiborni tortadi. U bir o'rinda "o'ziga tortuvchi quruq qofiyabozlikdan iborat she'rlar yozuvchi shoirlar faqatgina xira ko'ngillarga ma'qul bo'lishi mumkin. Ular bu bilan rosti ro'yobga chiqarmaydi, balki aytganlari bilan u xira dillarga yanada yolg'onlari bilan parda bog'lashadi. Bu pardaning ortida rostnavislikdan nishon bo'lmaydi. Kumushni qanchalar tillaga o'rab chirmashmasin, baribir asl holati ochilib qolaveradi. Haqiqiy so'z zargarlari tilla qoplami bo'lsa-da, oltin va kumushning farqiga boradilar. Chunki bu ko'ngillar asl so'z nahridan suv ichgan. So'zni ilhom, tuyg'uni zavq, fikrni dard boshqaradi. Dardli she'r mudom sirli she'rdir. Bilurmenki, sen dardli yaratilmishsan. Dard esa shoirlikning sarmoyasidir. She'r yozish uchun zavq va safo lozimdir dema - darddan so'zla. Chunki so'z musobaqasida g'alaba qozonadigan darddir", – deydi. Alisher Navoiy nazariga tushgan olim – Atoulloh Husayniy "Badoye us-sanoye'" asari orqali poetik me'yorlarni tushuntirib bergan edi. Qadimgi san'atdan ham ayon bo'ladiki, so'zning bayon, ma'no va badiiylik ilmlari doirasida tasvir etilishi bu bilimlarning rivojlanishiga sababchi bo'ladi. Atoulloh Husayniy ana shunday vazifani mahorat bilan ado etgan edi. Olim so'zda ham lafziy, ham ma'noviy go'zalliklar jamlanishini targ'ib qiladi. Olim fikrlarini arab va fors shoirlari ijodidan kelib chiqib bayon qiladi va ko'proq arab she'riyati qonunlariga asoslanadi. Masalan, tashbihni "xotun jamolining sifatin va o'zining ishqiy ahvolin demaktur", – deydi. Bu san'atning asoschisi ham arab shuarosidir. Aynan shu ildizdan kelib chiqib, yor jamoli tasvirini yoki o'z holatini shohbaytga qadash mumtoz g'azallar namunalarida urf bo'lgan. Husayniy arab shuarosi qo'llamagan, ammo forsiy alfozda amal qilingan badiiy san'atlarni ham teranlik bilan keltirib o'tadi. Husayniy "Shuaro e'tiborli bo'lmog'i lozim bo'lgan ayblar"ning bir qanchasini sanab o'tadi. Shu tariqa she'r va shoir haqidagi qarashlar, ilmiy tadqiqotlar jahon she'riyati ikki tip: antik va islomiy mezonlar asosida adabiy qonuniyatlar kasb etganligi ko'rinadi. Bu mezonlar u yoki bu ma'nolarda dastlabki davrlardan hozirgi kunlarga qadar qat'iy amal qilib kelinadi.

Xulosa qilib aytilganda, jahon she'rshunosligida o'zaro mushtarak va o'ziga xosliklarga ega ikki tip mezonlar ustuvorlik qilib kelmoqda. Bu antik davr nazariy qarashlariga asoslangan G'arb she'riyati va islom madaniyati zamirida shakllangan Sharq mumtoz she'riyatidir. Bunda turkiy-o'zbek adabiyotida antik mezon an'analari qadimgi va yangi davr adabiy jarayonlarida ham barmoq, erkin vaznlarda amal qilingan bo'lsa, islomiy tafakkur mahsuli bo'lgan mumtoz adabiyot poetik qonuniyatlari (aruz, qofiya, badiiy san'atlar) ming yillar davomida yetakchilik qildi. Bu esa o'zbek mumtoz she'riyati ilmiy-nazariy va badiiyat masalalari ikkinchi tip talablar asosida faoliyatda bo'lganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
2. Abu Nasr Farobiy. She'r san'ati. – Toshkent: Fan, 1979.
3. Aristotel. Poetika (Poeziya san'ati haqida). – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980.
4. Ataulloh Husayniy. Badoye' us-sanoye. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
5. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi (1-kitob). – Toshkent: O'zbekiston milliy akademiyasi, 2006.
6. Botirxon Valixo'jayev. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 1993.
7. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
8. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima (tarjima va izohlar muallifi A.Mansur). – Toshkent: Cho'lpon, 1992.
9. Shayx Ahmad Taroziy. Funun ul-balog'a. // O'zbek tili va adabiyoti, 2002-yil 1-son.

RAUF PARFINING IJODIY KONSEPSIYASI

Olim Oltinbek,
filologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Annotatsiya

Maqolada Rauf Parfi ijod tabiati, o'ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. Shoir ijodiy konsepsiyasi aniqlanadi. Ijodkor ilhom manbayining asoslari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *yangilanish, ijod konsepsiyasi, ilhom, milliy she'riyat.*

Abstract

The article analyzes the nature and specific features of Rauf Parfi's creativity. The poet's creative concept is determined. The foundations of the source of creative inspiration are studied.

Keywords: *renewal, creative concept, inspiration, national poetry.*

Haqiqiy shoir adabiyotga doimo yangicha estetik talablar bilan kirib keladi. U eksperimentlar qilishdan, an'anani yangilashdan cho'chimaydi. Hatto tanqidchilikning zamonasoz talablari ham uni eski o'zanlarga sola olmaydi. Chunki "Shoir dunyoni o'z ko'zi bilan ko'radi, birovlarga taqlid qilmaydi, birovlarning darajasini ko'zlamaydi. U O'zining darajasini, O'zini izlaydi". .[1,99-bet] Shuningdek, u o'zi boshlagan yo'lning to'g'riligiga ham g'ayrishuuriy bir tarzda ishonadi. Rauf Parfining tabiatida yangilikka tashnalik bor edi. Shuning uchun ham u ijodini turli ijodiy tajribalar bilan boshladi va adabiy jamoatchilikni "yangi tovushlar"dan cho'chimaslikka chaqirdi:

Zinhor,
Sen yangi tovushdan cho'chima,
Quloq sola berma
Vazn va qofiyaga,
Qo'y, eski qanot bilan uchma!
Bas endi riyo qilmoq –
Bu hijo deb, bu turoq deb
Osilmoq qoidaga.
G'arb – otam mening,
Sharq – onam.
Band etgandir boshimni
Jahon va Inson...[2,64-65betlar]

She'r 1961-yil yozilgan. Bu – o'sha davr milliy she'riyatimiz uchun yangicha estetik talab edi. Shoir nazarida vazn va qofiya an'anaviy she'rning eski qanotlari, hijo va turoq deb qoidaga osilish esa riyo. Demak, shoir modern she'r tarfdori. Demak, G'arbga yuz burish bor qarashlarida, lekin Sharqdan voz kechib emas. Shuning uchun ham: "G'arb – otam mening, Sharq – onam" deydi shoir. Farzand hech qachon otasini deb onasidan voz kechmaydi. Rauf Parfiga yangi shaklgina emas, yangi mazmun ham kerak edi. Uningcha, bu mazmun jahoniy va umuminsoniy bo'lsin. Bu estetik talablar buyuk Cho'lponning "Adabiyot nadir?" maqolasidagi talablarga o'xshaydi. Demak oradan yarim asr o'tib-o'tmay ijodiy qarashlar yana yangilanmoqda.

Rauf Parfi "Qushcha" (1962) nomli bir she'rida: *"Sen tildan qiynalmaysan, Senda yolg'iz navo, Qushcham" [1,78-bet]* deyishi bilan o'zining yangi she'r, yangi shakl, yangi ohang yo'lida tinimsiz izlanayotganini, o'zining rang-barang tuyg'ularini ifodalashda so'z topolmay qiynalayotganini aytmoqchi edi, aslida. Shoirning qushlar bilan bog'liq she'rlaridan yana biri "Asrdosh bulbul" (30.01.1965) deb nomlanadi. She'rda muallif mafkura iskanjasida ijod qilayotgan zamondosh va

zamonasoz shoirni oltin qafasdagi bulbulga o‘xshatadi:

Bir bulbul yasharmish oltin qafasda,
O‘tgan bulbullarga rahmi kelarmish.
Sevib, sevinchini socharmish asta,
Tanho o‘z baxtidan xonish qilarmish.
Baxt uning ko‘ksini yotarmish bosib,
Ba’zan xafaligim baxtimdan, dermish.
Oltin qafas ekan uning dunyosi,
Dunyo qafas bo‘lsa oltindan, dermish. [3,119-bet]

Bu bulbulning fojiasi shundaki, u o‘zini oltin qafasda baxtli his etadi, shuning sababidan, erkin bulbullarga achinib qaraydi, ularni baxtsiz biladi. Bunday shoirlarning yana bir muhim xususiyati – “*tanho o‘z baxtidan xonish*» qilishi. Shoir asrdosh bulbulning bu xususiyatiga alohida urg‘u berish orqali, uning shu jihatlarini keskin rad etadi. Chunki Rauf Parfining ijodda tanlagan yo‘li boshqa: u “*Band etgandir boshimni Jahon va Inson*” [4, 65-bet] deganda o‘zining bosh ijodiy konsepsiyasini ilgari surgan edi.

Biz shoirning “Nozimning sadosi” [5,73-74-bet] she’rida ham shu nuqtayi nazarni his qilamiz. She’r 1963-yil Nozim Hikmatning vafoti munosabati bilan yozilgan. Nozim Hikmat – Rauf Parfi o‘ziga ustoz deb bilgan juda kam sonli shoirlardan biri. Ustozning vafoti shogirdni qattiq iztirobga soldi, hatto ko‘z yosh to‘kish bilan ham o‘zini ovuta olmadi:

Ko‘z yoshlarim qalbimni ovutmadi,
ko‘zlarim yig‘lasa,
qalbim yig‘lar chorasiz.
Qalbim yig‘laganda
ko‘zlarim to‘kadi
achchiq yosh...
Ko‘zlarimni qalbimdan ayri tutmadim.

Rauf Parfi Nozim Hikmatni dunyo shoiri deb bilardi, ya’ni u notinch dunyo g‘amini yegan, aziyat chekayotgan insoniyat qayg‘usi bilan yashagan jahoniy shoir. Shuning uchun ham uning haqida bemalol: *“Bir sado, Nozimning sadosi – sochilar millionlarning son ming ko‘chalariga, dunyoning eng yorug‘, dunyoning eng qora kechalariga”,* deya olgan edi she’rida. To‘g‘ri, Nozim ketdi, lekin, uningcha, «*Qoldi Nozim sadosi. Sadoning aks sadosi, Aks sadoning aks sadosi*». Bu sadoning bir kengliklari bor, bu kengliklarda “eng dardli tiriklik sayyorasi”ning qayg‘usini kuylagan sadolar, sadolarning aks sadolari, aks sadolarning aks sadolari yashashga haqli. She’r:

Sado kengliklari teran boqar menga
Nozim Hikmat ko‘zlari ila. [4,88-bet]

misralari bilan tugaydi. Shoir bu bilan o‘sha sado kengliklari Nozim Hikmatning umid ko‘zlari bilan menga boqmoqda, demoqchi. Demak u she’riyatda Nozim Hikmat yo‘lini tutmoqda: dunyo dardi bilan, insoniyat qayg‘usi bilan yashamoqni o‘zining burchi, deb bilmoqda. Fikrimizni shoirning «*Ey dunyo, orzularing mening orzumdir, tashvishlaring mening tashvishim. So‘zlaring mening so‘zimdir*» misralari ham tasdiqlar, balki. Shoirning “O, Kongo!” deb boshlanuvchi she’ri ham shu yo‘ldagi birinchi qadami edi. O‘tgan asrning 60-yillarida bechora Kongo imperialistik Yevropa va sotsialistik SSSRning mafkuraviy-harbiy kurash maydoniga aylangan edi. Bu kurashlar oqibatida faqat mazlum mahalliy xalqning qoni to‘kildi. Rauf Parfi mana shu xalq tomonida turib she’r yozdi. Mana, o‘sha she’rdan ba’zi baytlar:

O, Kongo!
Zahmatkash, mo‘tabar vatan,
Tarix qarshisida nedir gunohing?!

Shunchalar iztirob chekmog‘ing nedan,
Ne uchun olamni tutdi g‘am, oh ing?!.
...Pul uchun yollangan qonxo‘r jallodlar,
Quturgan it kabi senga tashlanar.
Hali beshikdagi go‘daklar dodlar,
Hayqirar ozodlik, erkka tashnalar [1,143].

Notinch dunyoning g‘ami bilan yashagan Rauf Parfi, o‘ziga ustoz deb bilgan Nozim Hikmat, Pablo Neruda singari shoirlar kabi, har doim mazlumlar va adolat tomonida bo‘ldi.

She’riyat, shoirlik so‘zlari Rauf Parfi nazdida butunlay boshqacha – muqaddas bir tushunchalar edi. Uning “She’riyat” (1964) deb nomlangan manzumasi ustozi Asqad Muxtorning “Poeziya”sidan ilhomlanib yozilgan. Hatto “Seni tanimagan sho‘rliklar ayanch” epigrafi ham ustozning o‘sha she’ridan olingan. Ammo Rauf Parfi o‘z yo‘lidan borib, she’rda hech kimni takrorlashni istamaydi, u yangi gap ayta olsagina she’r yozadi. “She’riyat” Rauf Parfiga xos bir tarzda boshlangan:

Eng avval, Odam Ato, Momo Havodan oldin
Horg‘in kishilarning ruhida bo‘lding bunyod,
Bunyod bo‘lding
Yer va dunyo atalgan yurtda.[1,114]

Ilhomning manbai inson emas, ilhomning makoni zamin ham emas, balki u naydir sassiz ingrayotgan, balki u nurdir ko‘kdan ingan?! Nima bo‘lganda ham, shoir «*horg‘in kishilarning ruhida bo‘lding bunyod*» der ekan, bu bilan she’riyatni jismoniy emas, ruhiy hodisa o‘laroq, inson ruhi bilan bir paytda yaratilgan, degan shuuriy sezimni ifodalayotgandek go‘yo. Qur’oni karimda, “Sajda” surasining 9-oyatida Alloh taolo bandasini inson qilib rostlab, ichiga O‘z dargohidagi ruhidan kiritgani zikr etilgan.[7,601] Balki shuning uchun ham inson ruhiga tengdosh she’riyatda bir ilohiylik bor. Shuning uchun ham haqiqiy she’riyatni tanish Allohni tanishga olib boradi. She’riyatni yaratuvchi qalam shunchaki qalam emas: *“Qalam – qalam emas, bongga zarb ila urilguvchi cho‘qmor, undan taralguvchi sado va aks sado sen – She’riyat!”* Shu o‘rinda she’riyatning insoniyat oldidagi vazifasi ayon bo‘ladi. Demak u *“bongga zarb ila urilguvchi cho‘qmor, undan taralguvchi sado va aks sado”* insoniyatni uyg‘otishga xizmat qilishi kerak, toki u g‘aflatdan uyg‘onsin, toki u jaholat botqog‘iga botmasin: o‘zini tanisin, dunyoni tanisin, alaloqibat, Yaratganini tanisin. Shoir aytmoqchi, keyin zamonlar o‘tdi, asrlar... atom asri keldi. “Kommunistik bashariyat” deb nom olgan bu asr odamlari ruhiyatni inkor etdi, Yaratganni tan olmadi. Shuning uchun ham shoir she’rini: *“Allohni tan olmagan kommunistik bashariyat // Tanib olsin ilohiy deb seni, She’riyat!”* degan so‘zlar bilan tugatadi. Chunki insonning inson, jamiyatning jamiyat bo‘lishi uchun ilohiyotga tegishli nimadir bo‘lishi kerak edi. Shoir insoniyatni ruhiy tanazzuldan xalos etish yo‘lini o‘sha – inson ruhiyati bilan bir paytda yaratilgan she’riyatda ko‘radi.

Rauf Parfi she’rlaridan birida: *“Oyi, oyi, aytib bering, Bormi mening ham o‘z yo‘lim?”[2,159]* degan edi. Bu shoirning she’riyatda o‘z yo‘lini izlayotganini, hech bir shoirga o‘xshamagan bir ijodkor bo‘lishni istayotganini anglatadi. Quyidagi satrlarida shu istak yanada konkretlashadi:

Istaymanki,
qo‘limda qalamsiz ham
yozay she’rlar.
Istaymanki,
bilinib tursin oldindan
hali mening aytmagan so‘zlarim.
Istaymanki,
dunyoni nishon qilsin
yumulgan chog‘ida ham

koʻzlarim. [1,145-bet]

She'rda har bir "istaymanki"dan keyin shoirning bir ijodiy tamoyili boʻy koʻrsatadi: 1) qoʻlda qalamsiz ham she'r yozish, degani barmoqni kesib, qalb qoni bilan she'r yozish demakdir; 2) shoirning aytmoqchi boʻlgan soʻzlari oldindan bilinib tursin, ya'ni oʻquvchi uni hech kim bilan adashtirib yubormasin, har bir shoirning oʻzigagina xos soʻzlari va qarashlari boʻlsin; 3) vafotidan keyin ham uning she'rlari dunyoning – butun insoniyatning dard-u hasratlarini kuylashda davom etsin.

"Shamollar" (1965) she'rida uchinchi tamoyil yanada rivojlantiriladi:

Boshimda odamlarning,
vatanlarning
shamollar shaklida hayqirgan ovozi.
Men beparvo boʻla bilmasman,
Ey, "baxtli" diyorning,
ey, beparvosi.
Qalbimni asrimning tomiriga ularman.
Mayli, oshsin qon bosim,
shart portlasin kardiogramma.
Koʻzlarimning devoriga qarab oʻlarman.
Sendan ayamasman umrimni, asrim. [1,172-173-bet]

Shoir erk va ozodlik uchun dunyodagi barcha osilgan, otilgan, chopilgan, qamalgan, xoʻrlanganlar bilan oʻzini bir tan-u bir jon deb bildi, ularning iztiroblarini oʻziniki sifatida qabul qildi. "Cheksiz-cheksiz daqiqalardan..." (1965) deb boshlanuvchi she'rning quyidagi misralari shunga dalolat qiladi: *"Men-ku, istamasman oʻlimni, biroq har soatda, har daqiqada bu yorugʻ dunyoning har tomonidan hukm etmoqdalar oʻlimga meni. Men – Yulius Fuchik, dorga tortildi boshim. Toʻychi Eryigit oʻgʻli – otim mening – koʻksimda sovigan qoʻrgʻoshin. Botgan koʻzlarimda jallodlarning suvrati qotgan. Vyetnamlik bir goʻdakman men – bagʻri yara, qoʻlsiz, oyoqsiz va boshsiz yotgan. Men hali ham turma panjasi ora soʻngsiz va ozod osmonlarga qarayman. Qarayman quyoshga!" [1,178-bet]*

Shoir she'ridan yana birida: *Dunyo, men koʻtarib yuribman hamon, / Sening qaygʻu-gʻaming boʻlgan boshimni, [1,223-bet]*deyishi bilan oʻz yoʻlida bardavom edi. Rauf Parfining bu misralari "Odamning bolasi" (1968) nomli oq she'ridan olingan. Shoir poetik qoliplarga sigʻmaydigan – ba'zan hayajonga, ba'zan gʻazabga, ba'zan nafratga toʻla tuygʻularini koʻproq erkin va oq she'rlarida ifodalaydi.

Shoir kim? Bu savolga yuzlab javoblar bor. Har kim oʻz anglamidan kelib javob beradi. Shuning uchun ham ular xilma-xil, rang-barang. Bu borada Rauf Parfining ham oʻz qarashlari bor. Bu qarashlar koʻproq uning "Shoir" she'rida oʻz ifodasini topgan. Abdulla Oripovga bagʻishlangan bu she'rning ilk variantlari 1965-yilda yozilgan edi. Shoir bu she'r ustida besh yil ishladi va uni "1970" sanasi bilan e'lon qildi.

Rauf Parfi mazkur she'rida *"Kimni shoir deya tan olur jahon, Biz kimni shoir deb ataymiz bu kun?"* deya savol qoʻyadi. Mana shundan boshlab, she'rda shoirlik haqidagi ikki tushuncha ilgari suriladi. Birinchisi, jahon kimni shoir deb tan oladi? Ikkinchisi, biz bu kun kimni shoir deb atayapmiz? Rauf Parfi "bu kun"ga alohida urgʻu beradi. Chunki aynan "bu kun"gi, ya'ni sovet davridagi qarashlarga e'tiborni qaratmoqchi ijodkor. Sovetcha talabdagi shoir mafkuraning maddohiga aylangan bir "shoir" edi, uning nazdida. She'r muallifi jahon tan olgan shoir deganda esa, oʻz ijodida insoniy erk, milliy ozodlik, adolat va haqiqat kabi oliy tushunchalarni baralla kuylagan va bu yoʻlda mustahkam pozitsiyada turib, hech qachon "mash'um shaytanat"u qora saltanatlarga xizmat qilmagan ijodkorni nazarda tutadi.

Quyidagi misralar qoʻshtirnoqdagi "shoir"lar haqida:

Kimdir ul? Ermak deb oʻylarmi, nahot,

Soxta ehtiroslar chulg‘armi uni?
Yo‘q!.. Yo‘q, yaralmagan u bilgan hayot,
Hali tug‘ilmagan shoirning kuni.

Agar she’riyatni o‘ziga bir ermak deb bilsa va “soxta ehtiroslar”lar bilan ijod qilsa, Rauf Parfi nazdida, bunday shoirning kuni tug‘ilmagan hali. Chunki u haqiqiy hayotni bilmaydi – “yaralmagan u bilgan hayot”. She’r muallifi anglagan haqiqiy hayot esa boshqacha: hali Yer kurrasining qaysidir joylarida yovuz janglar davom etmoqda, ma’sum go‘daklarning qoni to‘kilmoqda. Barcha xalqlar uchun mushtarak bo‘lgan osmonda sayraganida dimog‘idan xushbo‘y hid taraladigan Musiqor nomli afsonaviy qush emas, insoniyat ustiga zahar va olov purkaguvchi harbiy samolyotlar uchmoqda. “Ne ellar, vatanlar gulxanda yonib” shoir ko‘z oldidan bir-bir o‘tayotgan bir paytda haqiqiy shoir “barchaning dardini o‘ziga olib, majnun bo‘lib” yurishga mahkum:

Ne ellar, vatanlar gulxanda yonib
Shoir ko‘z o‘ngidan o‘tadi bir-bir –
Barchaning dardini o‘ziga olib
Majnun bo‘lib yurar shuning-chun shoir.

Rauf Parfi nazdida: «*Shoirni kuylatgan tabiat emas, Shoirni kuylatgan Hazrati Inson*». Haqiqiy shoirning diqqat markazida mana shu Inson bo‘lgani uchun ham, u hech qachon zamon bilan chiqisha olmaydi. Shuning uchun ham ularning biri o‘t bo‘lsa, biri suv: «*Yuzma-yuz kelgandek go‘yo o‘t va suv, Yuzma-yuz keladir shoir va zamon*». Shunday ekan, shoir o‘z zamonasida baxtli bo‘la oladimi? Yo‘q, bu mumkin emas. Buni tabiiy qabul qilgan Rauf Parfi, bir she’rida: «*San’atkor baxtiyor bo‘lmas hech qachon?*»[1,232-bet] – desa, yana bir manzumada: «*Faqat shoir haqli baxtsiz bo‘lmoqqa*»[1,305-bet] – deya taskin beradi o‘ziga. Chunki «*Shoir – erk o‘g‘loni, nomus sarvari*». [1, 257-bet]Bunday o‘g‘lonni hech bir jamiyat va hech bir zamon sig‘dirmaydi. Ular har qanday davrda ham biri o‘t, ikkinchisi suvligicha qolaveradi. Bu – qonuniyat.

“Rauf Parfi – yaralari ochiq, dardli shoir”[8,160-bet], degan edi Asqad Muxtor. Darhaqiqat, insoniyat dardini o‘ziniki bilgan shoirning yaralari ochiq bo‘ladi. Rauf Parfi ijodkorni bundan boshqacha bo‘lishini qabul qilolmaydi. Rauf Parfining “Nozimning sadosi”, “Cheksiz-cheksiz daqiqalardan iborat...”, “Viktor Xaraning so‘nggi qo‘shig‘i”, “Pablo Neruda o‘limiga”, “Vyetnam haqida qo‘shiq”, “Alaniya”, “Sen yolg‘iz emassan, oh Ozarbayjon”, “Hijrat”, “Hijratda ona allasi” kabi she’rlari uning “barchaning dardini o‘ziga olgan” majnun-shoir ekanligiga va o‘zining ijodiy konsepsiyasiga sodiqligiga dalildir.

Shoirimizning ijodkor haqidagi qarashlari maqola va suhbatlarida ham o‘z aksini topgan. U shogirdi Alisher Nazarning savollariga javob berar ekan, bu borada shunday deydi: “Shoir bu yorug‘ dunyoda yashayotgan insonning cheksiz-chegarasiz kechinmalarini so‘z bilan ifoda qilguvchi shaxsdir. Shoir ko‘zining o‘rnida daryolar oqqan, yelkasida tog‘lar yiqilgan, o‘z tanidan chiqib, ruhiga aylangan zotdir. Shoir moddiy dunyoni ko‘zga ilmay, ma’naviy dunyoga qadam qo‘ygan darvishdir... Albatta, bu yerda chin shoir ko‘zda tutilmoqda. Biz kabi tirikchilik ilinjida yoki tama bilan she’rbozlik qilayotganlar haqida emas”. [5,196-bet]

Bu ta’rifdan ham ko‘rinadiki, so‘z katta SHOIR haqida ketmoqda. Shoirki, dunyo g‘amini bo‘yniga olgan, insoniyat dardi bilan yashayotgan shoir. Rauf Parfi mana shunday shoir edi. Shuning uchun ham u *“Yulib vujudimni, titib axtarsam, Dunyoviy alamning toshlari yotar”*, [6, 289-bet] deb yozadi. Lekin katta dunyo g‘ami bilan yashagan bu shoir o‘z she’rlari bilan o‘sha dunyo adabiy maydoniga chiqa oldimi? Yo‘q! Shuning uchun ham shoir bir she’rida armon bilan:

Men shoir, shu ojiz holimda yana,
She’rimni tinglagan devor-da soqov,[1,293-bet]

degan edi. Uning she’rlari sotsialistik mafkuraning qalin devorli qo‘rg‘onidan tashqariga chiqa olmadi. U devor soqov edi, o‘lik edi – ichkaridagi insoniy sadoni tashqariga chiqarmas edi. Darhaqiqat,

shoirning bunday she’rlari tirikligida o‘zi qayg‘usini chekkan o‘sha dunyoga chiqa olmadi. Bu – Rauf Parfining achchiq armonlariga aylangan bo‘lsa, ne ajab. Shunga qaramasdan, biz Dunyo va Insoniyat g‘ami bilan yashab ijod qilgan Rauf Parfini milliy she’riyatimizning jahoniy shoiri deyishga haqlimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rauf Parfi. Keyin-keyinmiz... // Rauf Parfi. Saylanma. Ikki jildlik, ikkinchi jild. – T.: “Muharrir nashriyoti”, 2022. 99-bet.
2. Rauf Parfi. Saylanma. Ikki jildlik, birinchi jild. – T.: “Muharrir nashriyoti”, 2022. 64-65-betlar.
3. Rauf Parfi arxivi, 14-daftar, 119-bet (Sulhida Jalilovada saqlanadi).
4. Rauf Parfi. Saylanma. Ikki jildlik, birinchi jild. – T.: “Muharrir nashriyoti”, 2022. 65-bet.
5. Rauf Parfi. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik, birinchi jild. Anqara, “BENGÜ”, 2021. 73–74-betlar.
6. Rauf Parfi. Saylanma. Ikki jildlik, birinchi jild. – T.: “Muharrir nashriyoti”, 2022. 88-bet.
7. Shayx Alouddin Mansur. Qur’oni azim muxtasar tafsiri. – T.: “SHARQ”, 2019. 601-bet.
8. A. Muxtor. She’r – shoirning ijtimoiy vijdoni // She’r – shoir vijdoni. – T.: “MUMTOZ SO‘Z”, 2011. 160-bet.

KAMALƏ ABIYEVANIN BƏDİİ YARADICILIĞININ PROBLEMATİKASI, OBRAZLAR QALEREYASI VƏ BƏDİİ DİLİNİN ÖZƏLLİKLƏRİ

Şərifova Salidə Şəmməd Qızı,
filologiya elmləri doktoru, AMEA-nın professoru,
Rusiya Təbiət Elmləri Akademiyasının həqiqi üzvü,
Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası
Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu
e-mail: ssharifova@rambler.ru

Xülasə

Kamalə Abiyeva bədii yaradıcılığının problematikasında cəmiyyəti düşündürən aktual problemlərə poetik dillə münasibət bildirir. Onun Vətən mövzusunda qələmə alınmış şeirlərinin problematikasının ana xəttini Vətən mövzusu, Qarabağ həsrəti, Zəfər təntənəsi, Vətən müharibəsinin tərənnümü, Vətənə, xalqa məhəbbət duyğuları və s. təşkil edir. Kamalə Abiyeva bədii yaradıcılğının əsas problematikasında vətənə olan sevgisini, ehtiramını, həm də Azərbaycan torpaqlarının bölünməsinin acısını ifadə etməsi diqqətlərdən yayınmır. Kamalə Abıyevanın bədii yaradıcılığının problematikasında yalnız ictimai-siyasi məsələlər deyil, təbiətlə, peyzajla bağlı hisslər də əksini tapmaqdadır.

Kamalə Abıyevanın poetik nümunələrində bədii zəngin və müxtəlif olması ilə seçilirlər. Şairin obrazlar qalereyasında şəhid, Vətən, müəllif məni, Azərbaycan, ana və s. obrazlarla üzləşmək olar. Şairin bədii əsərlərinin dil özəllikləri, istifadə etdiyi bədii dilin tərkibi, bədii təsvir və ifadə vasitələri özünəməxsus xüsusiyyətlərə malik olması ilə diqqəti cəlb edir. Bu zaman obrazlılıq, emosionallıq, ekspessivlilik, şeirilik və s. kimi xüsusiyyətlər və fərqliliklər özünü göstərir.

Açar sözlər: Kamalə Abiyeva, şeirlərin problematikası, ictimai-siyasi məsələlər, obrazlar, bədii dil

Abstract

In the problematic aspects of Kamala Abiyeva's literary creativity, she expresses her attitude toward socially significant and pressing issues in a poetic language. The central theme of her poems dedicated to the Motherland is formed by motifs such as love for the homeland, longing for Karabakh, the celebration of Victory, the glorification of the Patriotic War, devotion to the land and people, and others. In the core of Kamala Abiyeva's literary problematics lies the expression of her deep love and respect for the homeland, as well as the sorrow caused by the division of Azerbaijani lands, which does not escape attention.

In the problematics of Kamala Abiyeva's artistic creativity, not only socio-political issues are reflected, but also emotions connected with nature and landscapes. Kamala Abiyeva's poetic samples are distinguished by their artistic richness and diversity. In the poet's gallery of images, one can come across such figures as the martyr, the Motherland, the lyrical self of the author, Azerbaijan, the mother, and others.

The linguistic features of the poet's literary works, the composition of the artistic language she employs, as well as the means of artistic depiction and expression, attract attention with their distinctive qualities. In this context, such characteristics and distinctions as imagery, emotionality, expressiveness, and lyricism become evident.

Keywords: Kamala Abiyeva, problematics of poetry, socio-political issues, images, artistic language

Giriş

Azərbaycan Yazıçılar Birliyinin üzvü Kamalə Abiyeva (1954) "Yağış yağır bu şəhərə" (1999), "Azərbaycan" (2003),"Bu dünyanı nağıl bilək" (2004), "Vətən bir də doğulmur" (2007), "Gizlənqaç" (2014), "Tapmaca" (2016), "İrəvanda diz qoysam" (2019), "Torpaq" (2022), "Bir sevgi" (2023), "O adam" (2024) və s. şeirlər toplusunun müəllifi kimi Azərbaycan söz sənətində imzası olan şairlərimizdəndir. Kamalə Abıyeva "41-Astara şəhidləri" (2021), "21-Bakı şəhidləri" (2024), "DTK-nın qorxunc sirri" (Aleksey Matviyenko, 2016), Firəngiz Əhmədova - Səs ömrü (2017), "Varlan" (İsak Pintoseviç, 2020) və s. kitab və tərcümə əsərlərinin də müəllifidir.

Bədii yaradıcılığına tələbəlik illərindən başlamış Kamalə Abiyevanın şeirləri bu gün də oxucular tərəfindən böyük rəğbətlə qarşılanır. Azərbaycan şairi Kamalə Abıyevanın şeirlərinə mahnılar da bəstələnməkdədir. 2003-cü ildə keçirilən "Nəğmələrin nəğməsi" müsabiqəsinin qalibi Kamalə

Abiyevanın şeirlərinə Oqtay Kazımov, Emin Sabitoğlu, Kamal, Aygün Səmədzadə, İqbal Ağayev, Gülşən Rafiqqızı, Aytən İsmixanova, Qismət, Elçin İmanov, Bikə Axundova, Tahir Əkbər, Aynur Adil qızı və digər bəstəkarlar tərəfindən "Müəllim", "Özün günahkarsan", "Vətəni anlat", "Azərbaycan", "Qocaldım, Ana!", "Bakı haqqında nağıl", "Neynim", "Qarabağım", "Gəl", "Bir sevgi", "Rəsulzadə türküsü", "Son zəng", "Ay böyüyən sevincim", "Özün günahkarsan", "Görüşərik, ayrılarıq", "Yarpaqlar titrəsə", "Məktəb illəri", "Bakım", "Vətən savaşı" və s. mahnılar bəstələnmişdir.

Şeirləri rus, türk, ingilis, özbək, belorus və digər xarici dillərə tərcümə edilməkdədir. Ədəbiyyat sahəsində xidmətləri olan Kamalə Abıyevanın kim olmasına aydınlıq gətirmək üçün müsahibələrinin birində ona ünvanlanmış "Kəmalə Abiyeva kimdir?" sualına şairin verdiyi cavab ilə aydınlıq gətirək: "Özünə məsuliyyətlə, özünə və başqalarına hörmətlə yanaşan, həqiqəti qoruyan, ədaləti sevən biridi - İnsandı. Xalqını sevən vətəndaşdı" [Abiyeva].

Kamalə Abiyevanın poetik nümunələrinin problematikası

Kamalə Abiyevanın bədii yaradıcılığının problematikası zəngin olduğu qədər, rəngarəngdir. Şair yaradıcılığında cəmiyyəti düşündürən aktual problemlərə poetik dillə münasibət bildirir. Onun Vətən mövzusunda qələmə alınmış "Azərbaycan-qalibiyyət dünyası", "Qarabağım", "Vətən savaşı", "Sən elə azadsan", "Doya bilsəydim", "Vurğunam" və s. şeirlərinin problematikasının ana xəttini təşkil edir. Və bu zaman Vətən mövzusu, Qarabağ həsrəti, Zəfər təntənəsi, Vətən müharibəsinin tərənnümü, Vətənə, xalqa məhəbbət duyğuları və s. əsas yer tutur. Kamalə Abiyeva Cənubi Azərbaycan haqqında olan düşüncələrini də bədii yaradıcılğının əsas problematikasına çevirir. "Urmu gölünə", "Araza" kimi şeirləri bu baxımdan diqqəti cəlb edir. "Ağrı" şeirində həm vətənə olan sevgisi, ehtiramı, həm də Azərbaycan torpaqlarının bölünməsinin acısını ifadə etməsi diqqəti çəkir:

İllərdi Borçalım gözü yaşlıdı,
Dərbənd həsrətində bəndə düşmüşəm.
İllərdi elə bil başım daşlıdı,
elə bil çarəsiz dərdə düşmüşəm... [Abiyeva].

Qarabağ hadisələri ilə bağlı yazdığı şeirlərdə xalqın mənəvi-əxlaqi dəyərləri prizmasından mübarizəyə çağırış bədii detallarla təqdim edilir. Qarabağ haqqında düşüncələrini poetik dillə təqdim edən Kamalə Abıyeva şeirlərində məhz Vətənə olan sevgisini, Qarabağ yanğısını göstərir. Məsələn, Gülşən Rafiqqızı tərəfindən musiqi bəstələnmiş, Vüsal Hacıyev tərəfindən ifa olunan "Qarabağım" adlı şeirinin mətnində şairin Qarabağ nisgili ilə yanaşı, Zəfər təntənəsi yer almaqdadır:

44 günə sənin boyda böyüdüm mən,
böyüdüm ki, səni görəm, səni sevəm.
heç doyunca görməmişdim səni axı,
Gördüm səni əsgər-əsgər, igid-igid,
gördüm səni Qarabağım.
Heç doyunca sevməmişdim səni axı,
sevdim səni şəhid şəhid,
sevdim səni Qarabağım [Abiyeva, 2022: 13].

Qarabağa sevgi, Zəfərin tərənnümü, Vətən Müharibəsinin təntənəsi şairin digər poetik nümunələrində də yer alır. İqbal Ağazadə tərəfindən musiqi bəstələnib, Kənan Qədimov tərəfindən ifa olunan "Vətən savaşı" adlı poetik nümunədə də bunun şahidi oluruq. Göründüyü kimi, Vətən müharibəsi Kamalə Abıyevanın yaradıcılığında özünəməxsus yer tutan ana xəttə çevrilmişdir. Bu məqam onun yaradıcılığında ictimai-siyasi mövzulu şeirlərin çoxluq təşkil etməsini təsdiqləyir.

"Son sevgimsən" şeirində şair Vətənə olan sevgisini maraqlı ədəbi priyomla təqdim edir. Şeirin problematikasında sevginin sual axtarışına cavab verilməsinə cəhdi maraq doğurur. Şair sevginin ümumi məhfum olmasına rəğmən, onların fövqündə Vətənə, torpağa olan sevginin ali hiss olmasını

poetik dillə təqdim edir. Son sevgi deyərək poetik dillə vətənə olan insan sevgisini təbliğ edir.

Kamalə Abıyevanın "Azərbaycan", "Vurğunam", "Vətən", "Doya bilsəydim" və s. bu kimi şeirlərində Azərbaycanın bütövlüyünə olan ehtiramı, sevgisi əksini tapır. Məsələn, "Azərbaycan" adlı şeirində Azərbaycana olan sevgi və ehtiram incəliklə tərənnüm edilir.

Sevgi dolu ürəyimsən,
möhtacınam sənin hər an.
Qovuşaram torpağına
sevgin ilə Azərbaycan [Abiyeva, 2022: 22].

"Araza", "Urmu gölünə" kimi şeirlərində Kamalə Abıyeva Cənubi Azərbaycana bağlılığını əks etdirir. Şair Cənubi Azərbaycanı bütöv Azərbaycan kimi poetik dillə təqdim etməyə nail olur. Şair "Urmu gölünə" şeirində Cənubi Azərbaycanın Şimali Azərbaycandan qoparılmasını sağalmaz yara kimi əsrlərlə davam etməsini də əks etdirir:

Azərbaycan, bu nə tale yazısı,
Hər tərəfdə canının bir parası.
Yüz illərdi dərmanım yox dərdin
sağalmır ki, ürəyinin yarası [Abiyeva, 2022: 19].

"Araza" şeirində də bir xalqı ikiyə bölən sədd kimi qiymətləndirilən Arazın Azərbaycanı ikiyə bölünməsinin poetik dillə təqdimi özünü göstərir:

Kamalə Abıyeva Araz çayını bir milləti iki yerə bölməsinə rəğmən ona kin-küdurətini ifadə etmir, əksinə böyük sevgi ilə təqdim edir. Düzdür baş verən hadisələrə hiddətini poetik dillə əks etdirir, ancaq Araz çayının möhtəşəmliyinə, məğrurluq rəmzi olmasına xələl gətirmir:

Tarixin ən qübarlı
səhəri sənə düşüb.
Bölünən ürəklərin
kədəri sənə düşüb... [Abiyeva, 2022: 19].

Kamalə Abıyevanın şeirlərində yalnız ictimai-siyasi məsələləri deyil, təbiətlə, peyzajla bağlı hissləri qələmə alınmaqdadır. Onun "Yağış" şeiri bu silsilədəndir. "Yağış yağır bu göyün sevgimizə heyrətidir" deyə sevgini simvollaşdırmağa cəhd edir. Sevginin hər şeydən təmizlənərək paklanmasına, paklığına işarə etməklə yanaşı, nakam sevgi üçün göz yaşlarının böyüklüyünü yağışla, təbiətin ağlaması ilə müqayisə etməsi maraqlı ədəbi priyom kimi təqdim edilir.

Kamalə Abıyeva "Görəsən" adlı şeirində insan hisslərini təbiət hadisələri fonunda tərənnüm edir:

Ürəyim buludludu, ürəyim dolub yenə.
Könül həmdəm olubdu
göylərə bu gün yenə...
Əgər göylər ağlasa, ürəyi boşalacaq,
buludlar dağılacaq, üzü güləcək yenə.
Hönkürüb ağlasam mən,
qan-yaş töksəm gözümdən
qəlbimdəki buludlar dağılarmı görəsən?.. [Abiyeva].

Peyjazla bağlı poetik tərənnüm şairin "Bir payız" şeirinin problematikasında da yer alır:

Bir payız gecəsində
evimin bir küncündə
payız gecəsinə düşdüm, üşüdüm...

Şair payız fəslinin fonunda hisslərini sonuncu misrada yekunlaşdıraraq münasibətini sərgiləyir: "bir payız gecəsi adam özünə bənzəməz..." [Abiyeva].

Kamalə Abiyevanın yaradıcılığında Bakı haqqında şeirlər silsilə təşkil edir. Şair Bakıya olan sevgisini, ehtiramını "Bakı haqqında nağıl", "Bakım", "Bakıma", "Xəzərim" və s. şeirlərində oxucusuna çatdırır.

"Bakı haqqında nağıl" şeirinin problematikasının nağıl başlanğıcı ilə başlanması xalq yaddaşına işarədir. Kamalə Abıyeva şeirini "Bu dünyada nağıl çoxdur, Hamısı da belə başlar, Biri vardı, biri yoxdur..." misraları ilə başlaması bizə nağıllardakı nağıl başlanğıcını yada salır. Bu da şair tərəfindən xalqın qan yaddaşı ilə bağlı olmasını əks etdirir. Xalqın tarixi yaddaşına əsaslanaraq şairin Bakıya olan sevgi və ehtiramı şeirdə ifadə edilir:

Mənim də öz nağılım var.
İstəyirəm danışım
mən bir dənizin sahilində
nağıl olan şəhərimdən [Abiyeva, 2022: 17].

Kamalə Abiyevanın yaradıcılığında nağılla bağlı məqamlara yalnız Bakıyla bağlı şeirlərində deyil, başqa şeirlərinin problematikasında müraciət edilir. Məsələn, "Mənə nağıl danış" şeirində də bunun şahidi oluruq:

Mənə nağıl danış, nağıl, nə olar,
Gecənin zülməti məni sıxmasın.
O Simurq quşunu çağır nə olar,
İşıqlı dünyaya məni aparsın [Abiyeva, 2022: 28].

Qeyd etmək lazımdır ki, "Bakı haqqında nağıl" şeirinə Aygün Səmədzadə tərəfindən, "Bakım" şeirinə Elçin İmanov tərəfindən musiqi bəstələnmiş, hər iki mahnı da Eyyub Yauqbov tərəfindən ifa edilib.

Kamalə Abiyeva bir qadın kimi ana, qadın sevgisinə biganə qalmır. Şeirlərinin problematikasında bu məqamı geniş açıqlayır. Məsələn , "Qocaldım, Ana!", "Bir layla de", "Bir körpə yatırdı" və s. şeirlərinin problematikasınsa anaya olan sevginin, qadın böyüklüyünün və s. aparıcı yer tutmasının şahidi oluruq. Kamalə Abıyeva "Bir layla de" adlı şeirində ana obrazını canlandırarkən onu keçmiş və bu gününün prizmasından təqdim edərək, şeirin mövzusunda anaya olan məhəbbəti, onun fədakarlığını tərənnüm edir:

Bir layla de, layla, ana,
bir az sakit, bir az rahat yata bilim,
o nağıllı uşaqlığın əllərindən tuta bilim,
Gecələrin sükutunu ürəyimdən ata bilim [Abiyeva, 2022: 32].

"Bir körpə yatırdı" adlı şeirində də şair ananın möhtəşəm obrazını yaratmaqla yanaşı, şeirin problematikasında ana müqəddəsliyi ilə yanaşı, ana zəhmətini, ana qayğısını poetik dillə tərənnüm edə bilir:

Bir körpə yatırdı,
bütün kainat
bir ülvü müqəddəs yuxu görürdü.
Bir körpə yatırdı arxayın, rahat,
çünki keşiyində Ana dururdu [Abiyeva, 2022: 26].

Kamalə Abiyevanın bədii yaradıcılığında sevgi hisslərini tərənnüm edən poetik nümunələr çoxdur. Bu sevgi özünü müxtəlif aspektdən göstərir. Doğma insanlara, yəni ataya, anaya, övlada olan sevgi, Vətənə, torpağa, xalqa olan sevgi və s. baxımından özünü büruzə verir. "Ürəklərdə ölməyin" adlı şeirində isə insanlara, onların etdikləri yaxşılıqlara, yəni xeyirxah əməllərə sevgi tərənnüm edilir. Şair şeirdə insanlara çağırış edərək, bir-birilərinə dəyər verməyə, sevməyə, "Çalışın ki, ürəklərdə ölməyin siz" deyə səsləyiş edir:

Ey insanlar,
bir arzum var hamınıza
Yaşamağı çox da asan bilməyin siz.
Bu dünyadan köçəcəyik əvvəl-axır,

Çalışın ki, ürəklərdə ölməyin siz [Abiyeva, 2022: 33].

"Son sevgimsən" adlı şeirdə Kamalə Abıyevanın "son sevgimsən" deyə müraciət etdiyi tərəf diqqəti cəlb edir:

Səni bütöv sevirəm mən.
İlk sevgilim deyilsən sən
- Son sevgimsən [Abiyeva, 2022: 11].

Bu bənddə "son sevgimsən" deyə ünvanladığı sevginin ünvanı isə hamımızın əzizi, şərəfi, müqəddəsi olan Vətəndir. F.e.d.Vaqif Yusiflinin vurğuladığı kimi "bu sevginin obyekti İnsan deyil, sevgili deyil – Vətəndir" [Yusifli, 2024: 4]. Şair şeirin əvvəlində bu məqamı açıqlayır:

Səni bütöv sevdim elə.
Hər daşını əzizlərəm,
hər ağrını ovudaram.
Yadlardakı hər qarışın dərd evimdir [Abiyeva, 2022: 11].

Kamalə Abiyevanın sevgi məfhumu yalnız insanların bir-birinə olan sevgisini deyil, onları aşa bilən daha böyük bir məfhumu əhatə edir: Vətənə, torpağa, xalqa olan sevgini... Tədqiqatçıların vurğuladığı kimi "Bu sevgi onun şeirlərində yaşayır" [Muxtarova, 2022: 6].

Kamalə Abiyevanın poetik nümunələrində obrazlar

Kamalə Abıyevanın poetik nümunələrində bədii obrazlar özünü həm geniş, həm də qısa, bəzən isə açıq-aydın şəkildə, bəzən üstüörtülü, eyhamlı şəkildə təqdim edilir. Bu amillərə baxmayaraq, şairin poetik dünyasında görünən obrazlar zəngin və müxtəlif olması ilə seçilirlər. Şairin obrazlar qalereyasında şəhid, Vətən, müəllif məni, Azərbaycan, ana və s. obrazlarla üzləşmək olar.

Kamalə Abiyevanın şəhidlərə məktub şəklində yazdığı "Sən elə azadsan" adlı şeirində canını dogma Vətəninə fəda etmiş şəhidlərin ümumiləşdirilmiş obrazı canlandırılır. Şeirdən bir bəndə diqqət yetirək:

Bu torpaq uğruna fəda etdiyin
həyatına qurban, özünə qurban.
Bağrımı yandıran son nəfəsinin
"Vətənim sağ olsun" sözünə qurban [Abiyeva, 2022: 8].

Şair Vətən uğrunda canından keçən bu ölməz qəhrəmanların fiziki məhv olmalarına rəğmən, əbədiyaşar olmalarını açıqlamağa nail olur. Şairin "Şəhidlərə", "Sənin arzuların", "Vətən savaşı" və s. şeirlərində ölməz şəhidlərimizin obrazı yaşadılır. Kamalə Abiyeva şəhidlərin Vətənə dönməsini poetik dillə tərənnüm etməsi şairin sənətkarlığının təsdiqləyicisidir:

Sən ki arzuladın Vətən olmağı,
Qəlbin bu arzuyla məşələ döndü.
Sən elə sevdin ki, ana torpağı
Torpağa qarışıb Vətənə döndün [Abiyeva, 2024: 40].

Şairin əksər şeirlərində obraz kimi müəllif məni çıxış edir. Bu müəllif məni Ana Vətən də ola bilir, ana da, körpə də ola bilir, şəhid də... Müəllif məni şairin şeirlərində bir çox obrazlarda çıxış edir. Məsələn, "Mənə nağıl danış" adlı şeirdə müəllif məni nağıl istəyən bir şəxsin obrazı kimi təqdim edilir. Bu yaşlı insan da ola bilər, körpə uşaq da. Məsələn, şeirdən bir bəndə diqqət edək:

Mənə nağıl danış, nağıl, ay ana,
Yatım bu dünyadan bir az xəbərsiz.
Yatım yuxularda nağıllar görüm,
Yatım körpə kimi qəmsiz, kədərsiz.

"Azadlıq" şeirində isə azadlıq arzusunda olan müəllif məni vətəndaş qismində çıxış edir:

Ruhun azadlıq sevər.

Azadlıq istər.
Azadlığı geyinər, sevinər [Abiyeva, 2024: 55].

Kamalə Abiyevanın "Anladığım həqiqət", "İnanmadım" və digər şeirlərində kamil, dolğun ana obrazı canlandırılır. "İnanmadım" şeirində anasını fiziki itirmiş, lakin mənən onunla yaşayan qadının ana sevgisində ananın obrazı canlandırılır.

Ana, səni özlədim
Ana, səni gözlədim...
Hey yol çəkdi gözlərim
Bu yol gedər-gəlməzdi,
Kimsəni də bir daha
Geriyə gətirməzdi.

"Anladığım həqiqət" şeirində də şairin anayla bağlı nisgilli dünyasının olmasına rəğmən, ananın əvəzolunmamazlığı, həyatda tutduğu mövqeyi obraz səviyyəsinə qaldırılaraq təqdim edilir:

Eşidərək səsini, duyaraq nəfəsini,
Açan çiçəyə, gülə baxmaqdan daha gözəl,
heç nə yoxmuş dünyada.
Elə sənin yanında gözəl imiş dünya da.

Şair bütün gözəlliklərin fövqündə ana varlığının olması ilə yanaşı, onunla bir olma məqamının səadət olmasını, həyatı dərk etməyimizə yol göstərmələrini sərgiləməyə də qadir olur.

"Qocaldım ana" şeirində Anaya olan sevgi fonunda ana obrazı təqdim edilir:

Sənsiz sevinmək də necə çətindir
Bölünmür sevincim, artır ağrılar
Dərd-sərin içimdə gəzirəm indi
Tək sənə deməyə ehtiyacım var [Abiyeva, 2022: 11].

Kamalə Abiyevanın ana obrazı içərisində şəhid anasının obrazı diqqəti cəlb edir. "Şəhid anası" şeirində şair şəhid analarının ümumiləşdirilmiş obrazını canlandırır:

Ağlama gözünün yaşını sil sən
Sənin göz yaşında Vətən boğular.
Ay müqəddəs qadın sənin bətnindən
oğul doğulmayıb Vətən doğulub [Abıyeva].

F.e.d. Lütviyyə Əsgərzadənin vurğuladığı kimi "Kamalə xanımın şeirləri bütövlükdə Vətənimizə, Şəhidlərimizə, şəhid analarına sitayişdir, duadır" [Əsgərzadə, 2024: 11]. Kamalə Abiyeva şeirlərində də ana əzəmətini üstün tutaraq, anaya məhəbbəti qüvvətli şəkildə səsləndirir. Şairin ana ilə bağlı şeirlərindəki ana obrazı ilə onun şəxsiyyətinin də birləşməsinin şahidi oluruq. Ana obrazının simasında özünün də bir ana kimi arzu və istəklərini, düşüncələrini səsləndirir. Bunu ən çox müəllif mənində özünü büruzə verən xoş niyyətin təbliğində müşahidə edirik.

Kamalə Abiyevanın poetikasının bədii dil özəllikləri

Kamalə Abıyevanın bədii yaradıcılığından bəhs edərkən poetik nümunələrinin bədii dilinə toxunmamaq qeyri-mümkündür. Şairin bədii əsərlərinin dil özəllikləri, istifadə etdiyi bədii dilin tərkibi, bədii təsvir və ifadə vasitələri özünəməxsus xüsusiyyətlərə malik olması ilə diqqəti cəlb edir. Bu zaman obrazlılıq, emosionallıq, ekspessivlilik, şeirilik və s. kimi xüsusiyyətlər və fərqliliklər özünü göstərir. Obrazlılıq zamanı Kamalə Abiyevanın şeirlərində istifadə etdiyi söz və ifadələr daha çox məcazi məna daşıyır, metafor, metonimiya, təkrir, bədii təzad, bədii sual, xitab, arxaik sözlər və s. vasitəsilə canlı və təsirli ifadə edilir. Şeirlərinin bədii dilində fikri və hissləri ən təsirli şəkildə ifadə etmək üçün müxtəlif üslubi vasitələrdən istifadə edən şair səs uyğunluğu, alliterasiya, assonans yaratmaq üçün fonetik xüsusiyyətlərdən, arxaik, dialekt sözlərdən, terminlərdən və s. istifadə edərək

leksik xüsusiyyətlərdən sənətkarlıqla yararlanır.

Kamalə Abıyevanın poetik nümunələrində xüsusi intonasiya və fasilə ilə ayrılan, ismin adlıq halında işlənən xitaba müraciəti maraq kəsb edir. Məsələn, şairin "Vətənim" adlı şeirində xitaba müraciət diqqətdən yayınmır.

Eşqin ilə alışım,
torpağına qarışım,
hər daşı, hər qarışı
bol sərvətsən, Vətənim [Abiyeva, 2022: 31].

Müəllif bu poetik nümunəsində "Vətənim" deyə xitabdan istifadə edir. Bəllidir ki, xitab əsasən isim və ismi birləşmələrlə ifadə olunur, ismin adlıq halında olur. Şeiri oxuduqca, məhz Vətənim sözünün xüsusi intonasiya ilə deyilməsini, cümlə üzvlərindən kiçik fasilə ilə ayrılmasını da müşahidə edirik. "Vətənim" şeirində şair xitabı cümlənin sonunda işlədir. Kamalə Abıyeva "Bu sevgidir" adlı şeirində isə "əzizim" deyə xitaba müraciət edir:

Haray salıb sevincdən
İndi sənli günlərim.
Necə deməyim ki, mən,
Bu sevgidir, əzizim [Abiyeva, 2024: 39].

Şairin istifadə etdiyi xitabın cümlə ilə məna əlaqəsi olsa da, sintaktik əlaqə olmamasının, nitqin qüvvətləndirilməsi üçün işlənilməsinin şahidi oluruq.

Kamalə Abıyevanın arxaik sözlərə müraciət etməsi ilə də üzləşirik. Məsələn, şairin türk dillərində "ər" (igid, qəhrəman) sözündən yaranmış "Ərən" sözünü "igid", "cəsur insan", "mənəviyyat sahibi" mənalarında işlətməsini "Qarabağım" adlı şeirində müşahidə edirik:

Ərənlərim...
Sizdən sonra yağış yağır...
Sizdən sonra dayanmır yağış,
dəyişib yağış da...
Ana, ata, bala,
sevgili səsi var yağışda [Abiyeva, 2022: 13].

Bəllidir ki, türk xalqlarının inanclarında ərənlər, həm döyüşçü, həm də mənəvi dərinliyi olan şəxslər kimi qəbul edilmişdir. "Ərən" sözünün "dünyagörmüş", "müdrik", "ağıllı" adam mənasında da işlədilməsi ilə üzləşirik. Kamalə Abıyevanın bu poetik nümunəsində işlədilən "Ərənlərim" ifadəsi hər məqamda yerini tutur. Poetik nümunənin məğzinə vardıqda isə əsasən, döyüşçü kimi təqdim edilməsinin şahidi oluruq.

Bədii ifadə vasitəsi kimi istifadə etdiyi ritorik suallardan məharətlə istifadə Kamalə Abıyevanın bədii yaradıcılığına xasdır. Şairin "Unut" adlı şeirində bədii suallardan istifadə edilməsi diqqətdən yayınmır:

O gözlərdən həyatına boylandınmı?
O saçlarda dolandınmı?
Sən kədəri heç gördünmü?

Bu bənddə ünvanlanan "həyatına boylandınmı?", "saçlarda dolandımı?", "kədəri heç gördünmü?" və s. sualları cavablandırmaq əvəzinə sadəcə "bütün dərdlərini unut" deyə təsəlli verir. Poetik nümunədən bir hissəyə fikir verək:

Böynubükük bir tanın
Gözlərində cığır salan,
Bir ananın saçlarında dən-dən olan
Dərd gördünmü? [Abiyeva, 2024: 39].

Bədii suallardan poetik nümunənin emosional təsirini artırmaq məqsədilə fikirlərini sual

tərzində çatdırmaq istəyən şair bunu digər şeirlərində də əks etdirir. Məsələn, "Axı" adlı şeirində şair ünvanladığı suallara cavab almaq məqsədi güdmür, hər hansı bir məlumatı dəqiqləşdirmək məqsədi daşımır:

Biz eyni əzabla oyandıq axı...
Bircə ayrılığın əsiri olduq.
Bütün əzablarla barışdıq axı,
Niyə xoşbəxtlikdən küsülü qaldıq? [Abiyeva, 2024: 39].

Kamalə Abıyeva sevən insanların ayrılıq səbəbinin ağırlığını, faciəsini canlandıra bilsə də, cavablandıra bilmədiyi ritorik suala müraciət etməklə fikrini daha emosional şəkildə ifadə etməyə cəhd edir.

Kamalə Abıyevanın şeirlərində məzmunca bir-birinə zidd iki anlayış və vəziyyəti qarşılaşdırılması ilə də üzləşmək mümkündür. Bakıya həsr etdiyi "Bakıma" adlı şeirində şair Bakını bədii təzadla təqdim edir. Şairin antiteza, yəni əks mənalı sözlərin qarşılaşdırılması ilə təqdim etdiyi bədii təzada nəzər salaq:

Köhnə Bakım, təzə Bakım
tarixindən qoparılan,
sökülən daşların kimi
başıma yağan kədərim [Abiyeva, 2022: 16].

Bu bənddə köhnə və təzə sözləri əksmənalı anlayışların, yəni antonimlərin qarşılaşdırılmasıdır.

Kamalə Abıyeva "Son sevgimsən" adlı şeirində də bədii təzaddan istifadə edir:

Sən uğruna öləcəyim,
sən uğruna yaşadığım varlığımsan
- ana Vətən [Abiyeva, 2022: 11].

Bu misrada şair bir-birinə zidd iki vəziyyəti təqdim etməklə kontrast yaradır. Bu kontrast "uğruna öləcəyim", "uğruna yaşadığım" sözlərlə zidd iki vəziyyət kimi hərəkətlər qarşılaşdırılır.

"İnanmadım" şeirində də dünyasını itirmiş ananın yoxluğunu çatdırmaq üçün şair bədii təzada müraciət edir:

nağıllarda gedər-gəlməz yollar vardı
Amma o nağıllarda gedənlər qayıdardı [Abıyeva].

Şair bir sətirdə gedər-gəlməz kimi bədii təzada müraciət edərək fikirlərini sənətkarlıqla ifadə edir.

Kamalə Abıyevanın şeirlərində təkrirlərdən istifadə məqamı da diqqətdən yayınmır. Belə ki, eyni sözün və ya söz qrupunun bilərəkdən təkrar edən şair təkririn əsasən iki növünü, yəni anafora və epiforadan istifadə edir. Bədii əsərin təsir gücünü artırmaq məqsədi ilə sözləri təkrar edən şair bunu həm ayrı-ayrı poetik nümunələrinin tərkibində, həm də eyni poetik nümunənin içərisində təkririn anafora və epifora kimi növlərindən istifadə edir. Məsələn, şairin "Doya bilsəydim" adlı şeirində Kamalə Abıyeva həm anaforaya, həm də epiforaya müraciət edir:

Eşqində yuyuna-yuyuna,
Köksümdə döyünə-döyünə,
çöl-çəmənini görə-görə,
gül-çiçəyini dərə-dərə həsrətəm,

Bu bənddə yuyuna, döyünə, görə, dərə sözləri misraların sonunda işləndiyindən epifora hesab edilir.

Həsrətim bircə damcı azalardı,
həsrətim bircə damcı az olardı,

"Həsrətim bircə damcı" ifadəsi ilə başlanan misradakı bu ifadə isə təkririn anafora növünə aiddir.

Kamalə Abıyevanın şeirlərində predmetin müəyyən əlamətinin başqa bir predmetinin üzərinə köçürülməsinin tez-tez şahidi oluruq. Şairin istifadə etdiyi istiarəni "Görəsən" şeirində işlənilməsi

məqamına diqqət yetirək:

Əgər göylər ağlasa, ürəyi boşalacaq,
buludlar dağılacaq, üzü güləcək yenə [Abiyeva].

Kamalə Abıyeva "göylər ağlasa, ürəyi boşalacaq" misrasında ağlamağı insana xas olan əlamət kimi buluda, təbiət hadisəsinin üzərinə köçürür. İnsanın ağlamaq kimi əlaməti buludun üzərinə köçürülsə də, amma insanın adı çəkilmir. Şairə bənzədilən, yəni insan sözündən istifadə etmir, çünki göylər yox, insan, hər hansı bir canlı ağlaya bilər.

Kamalə Abıyevanın poetik nümunələrində predmeti bildirən söz əvəzinə, onunla əlaqədar başqa söz işlətməsi maraqlı alınır. Şairin metonimiyaya tez-tez müraciət etməsi ilə üzləşmək mümkündür. Məsələn, "Azərbaycan-qalibiyyət dünyası" adlı şeirində metonimiyanın işlənilməsi sənətkarlıqla həyata keçirilir:

Torpağını geyinərəm əynimə,
Kür, Arazı axıdaram könlümə.
Xəzərimi məlhəm edib gələrəm,
Ey Vətənim, dəyən olsa könlünə [Abiyeva, 2022: 7].

Burada Kür, Araz, Xəzər metonimiya kimi işlənilir.

Nəticə

Kamalə Abıyevanın bədii yaradıcılığının problematikasının ana xəttini Vətən mövzusu, Vətən müharibəsinin tərənnümü, doğma Bakının vəsfi təşkil edir. Kamalə Abıyevanın poetik nümunələrinin mövzusunda ananın vəsf edilməsi də xüsusi yer alır.

Şair yalnız Vətəni, Bakını, Vətən müharibəsinin zəfərini, ananı şeirlərinin problematikasında qabartmır, onları obraz səviyyəsinə də qaldırır. Kamalə Abiyevanın bədii yaradıcılığında şəhid, şəhid anası, müəllif məni kimi obrazların kamil şəkildə təqdimi ilə də üzləşirik. Şairin poetik nümunələrinin bədii dil özəllikləri, xüsusilə də istifadə etdiyi bədii dilin tərkibi, bədii təsvir və ifadə vasitələri kamilliyi və dolğunluğu ilə şeirlərində əksini tapır.

Ədəbiyyat

1. Abiyeva Kamalə. Ağrı // https://edebiyyatqazeti.az/news/poeziya/10572-tanrim-meni-xatirla
2. Abıyeva Kamalə. Bir sevgi. Bakı, Elm və Təhsil, 2024. 144 səh.
3. Abıyeva Kamalə. O adam. Bakı, Elm və Təhsil, 2024. 128 səh.
4. Abiyeva Kamalə. Torpaq. Bakı: "APOSTROF-A", 2022. 144 səh.
5. Əsgərzadə Lütviyyə. Torpağını geyinərəm əyninə // Abıyeva Kamalə. O adam. Bakı, Elm və Təhsil, 2024.
6. Filologiya elmləri doktoru Vaqif Yusifli yazır // Abıyeva Kamalə. O adam. Bakı, Elm və Təhsil, 2024.
7. https://525.az/news/35272-kamale-abiyevanin-seirleri
8. https://edebiyyatqazeti.az/news/poeziya/10572-tanrim-meni-xatirla
9. https://www.adalet.az/pdf-news/posts/detail/kemale-abiyeva-goresen-1708153821
10. Kəmalə Abiyeva ilə səmimi söhbət // https://ustacaz.wordpress.com/2021/08/20/k%C9%99mal%C9%99-abiyeva-il%C9%99-s%C9%99mimi-sohb%C9%99t/
11. Muxtarova Təbəssüm. Sevimli şairimə // Abıyeva Kamalə. Torpaq. Bakı: "APOSTROF-A", 2022. 144 səh.

SHE’RIY MATN TALQINI: OBRAZ VA MA’NO (ABDULLA ORIPOVNING BIR SHE’RI TAHLILI)

Maqsud Asadov,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
direktor o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor
e-mail: alpbek2010@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning “Bahor kunlarida kuzning havosi...” she’ri tahlili misolida adabiy matn tarkibining o‘ziga xosligi, lirik qahramon xarakteriga xos yorqin jihatlar va obraz tabiati hamda muallif dunyoqarashi o‘rtasidagi uyg‘unlik xususida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Oripov, she’r, xotir, metafora, lirik qahramon.

Abstract

This article discusses the distinctive features of the structure of a literary text, the vivid traits characteristic of the lyrical hero, and the nature of imagery, as well as the harmony between these elements and the author’s worldview. The discussion is based on an analysis of the poem “In the days of spring, the air of autumn...” by Abdulla Aripov, Hero of Uzbekistan and People’s Poet.

Keywords: Abdulla Aripov, poem, memory, metaphor, lyrical hero.

Yirik faylasuf Imom G‘azzoliyning yozishicha, inson Jismi bir mamlakat bo‘lsa, Ko‘ngil uning podshohi, Aql esa vazirdir. Barcha tana a’zolari – raiyatning Ko‘ngil mayliga ehtiyoji bor. Ko‘ngil Aql bilan kengashib, Shahvat va G‘azabni uning nazoratiga topshirsa, Badan mulkida tartib-intizom bo‘ladi. Agar Aqlning boshqaruvi Shahvat va G‘azab qo‘liga o‘tsa, Vujud saltanati vayronaga aylanib, Ko‘ngil ham xorlikka yuz tutadi. Shu sababli Sharq adabiyotida azaldan ko‘ngil ulug‘vorligi, shaxsiyat yetukligi u yoki bu ko‘rinishda madh etib kelingan. Jumladan, she’riyat Zavq va Ruh mahsuli, Qalb va Hurriyat mayog‘idir. Asl she’riyat chinakam Go‘zallik mushohadasi va Haqiqat shukuhidan dunyoga keladi. Uning timsollar tabiati, ifoda ravonligi, fikr teranligi esa mukoshafaga yo‘l ochib, mubohasaga undayveradi.

Bahor kunlarida kuzning havosi,
Tanimni junjitar oqshomgi shamol.
Nega muncha g‘amgin nayning navosi,
Nega qalbim to‘la o‘kinch va malol?

Irfoniy adabiyotda bahor yaxshi bir xabar ta’sirida ko‘ngilda umid va ishonchning uyg‘onishini, ishq ahlining ma’naviy maqomini tamsil qiladi. Bahor poklik va muhabbatga shaydolik nafasi, tiriklik va yangilanishning ibtidosidir. She’riyatda ko‘pincha bahor inson umrining bolalik va yoshlik davriga, yor visoliga, go‘zallik va jo‘shqinlikka o‘xshatiladi. O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning she’rida ham ana shunday: irodasi ishqqa taslim bo‘lgan, hayot sinovlarida toblangan, shaxsiyati turfa tiyraliklardan xoli, qalbi buloq suvlariday top-toza samimiyat sohibining his-tuyg‘ulari yoritilgan. She’rdagi ilk tasvirda hayotiy ziddiyatning bir qadar sodda, oddiy, ammo chuqur mulohazaga imkon beruvchi ifodasi o‘ziga xoslik kasb etadi: “Bahor kunlarida kuzning havosi”. O‘zbek tilida havo so‘zi: 1. Ob-havo, 2. Kibr, o‘ziga bino qo‘yish, manmanlik ma’nolarini anglatishi ayon. Mazkur misrada ham “havo” mana shunday mazmunlarda qo‘llangan. Muayyan peyzaj tasvirida “yashiringan” ramziylik borlik va yo‘qlik, inson va jamiyat, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar borasida fikr

yuritishga, ularning mohiyatini teranroq anglashga undaydi.

She'rda "kuz havosi" – "nay"ning "g'amgin navosi"ga benihoya uyg'un: davr qiyofasi, zamon nafasi, lirik qahramon ruhiy evrilishlarini obrazli tasvir imkoniyatlaridan kelib chiqib, nihoyat darajada ishonchli jonlantiradi. Taassurot tasavvurga, tasavvur taxayyulga, taxayyul erk va hurriyatga she'rxonni boshlab boraveradi. Agar insonda ruh bedorligi va hayrat holi bo'lmasa, qalb va qiyofaning birligiga, e'tiqod va irodaning bus-butunligiga erishish ham, tiriklikning asl sababini tushunish ham mushkul. Lirik qahramonning bedorligi – yashash zavqida, hayrati – bu dunyoning mohiyatini taftish qila olish qobiliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. "Tan" – vujud, ya'ni mavjudlik. U – hayot matlabida o'zlik qiyofasini to'la namoyon qilgan matonat sohibi. Bu so'zning ikkinchi bir mazmuni ham misra zamiriga sindirilgan: lirik qahramon "oqshom shamoli"ning kuch-qudratiga, shiddat-u shijoatiga to'la-to'kis tan beradi: "Tanimni junjitar oqshom shamoli". Biroq uning bu taslimiyatini mag'lubiyatiga yo'yish xato. Eng oliy qadriyatlar inson ko'nglini maskan tutadi. Sharq allomalari tomonidan bular uchga ajratilgan: qalb sofligi, go'zal axloq va ruhoniy huzur-halovat. Abdulla Oripovning lirik qahramoni qalb kishisi, umid odami – borlig'ida g'oliblik ruhi barqaror.

Barglar orasiga tinmasdan sira
Oshno yulduzlardan to'kiladi nur.
Bilmayman, qiynaydi qaysi xotira,
Titroq yulduz kabi muzlagan shuur.

"Barglar orasiga sira tinmasdan Oshno yulduzlardan to'kilayotgan "nur" – ertangi yorug' kunning shukuhli qadamlaridan umidvorlik va qat'iy ishonch ramzi. Birgina "oshno" epiteti bu kechinmalarning samimiyligi, teranligi va hayotbaxshligini dalillaydi. Ammo she'rda misra bilan misrani, band bilan bandni bog'lab, fikr tadrijida alohida mavqe tutgan hayratning bosh sababi mavjud: "Bilmayman, qiynaydi qaysi xotira".

Xotir, xotira – qalb, ko'ngil, fikr, g'oya demakdir. Lug'atlarda ham bu so'z 1. Ko'ngil 2. O'y, fikr, xayol 3. Es, yod, xotira 4. Esdalik deb izohlangan. Xotirni xush tutmoq, har turfa tiyraliklardan asramoq lozim. Ana shunda qalb haqiqiy rohatni tuyadi, jon farog'at topadi. Irfoniy adabiyotda "xotir" deyilganda, ko'p hollarda insonning ichki olamida paydo bo'ladigan sas va ovozlar tushunilgan. Bular to'rtga ajratilgan: 1. Ollohdan keladigan saslar, ya'ni xotiri Haq. 2. Malakdan etadigan – ilhom. 3. Shaytondan keladigan sado – "vasvasa". 4. Nafsdan tug'ilajak saslar – "havojiz". Inson botinida vasvasa bilan havojiz barham topmas ekan, u hech qachon xotir tinchligi va osudaligiga yetisha bilmaydi. Ammo she'rdagi xotir nimaning yodi: bolalik kechmishlarimi, olis yoshlikda qolgan ilk muhabbat sog'inchimi, vafosiz yorning o'y-xayolimi yoki hasadgo'y kimsalarning turfa qilmishlarimi?.. Agar shunday bo'lmasa, "qiynaydi" so'zi yuqoridagi misrada behudaga ovora qilinmasdi. Biroq javobini oshkora aytish baribir imkondan xorij bir ishdir. Chunki: "Titroq yulduz kabi muzlagan shuur".

Mag'lub bahodirning nayzasi misol
Ma'yus egiladi terak uchlari,
Barglar soyasida o'ynaydi behol
Uyqudagi qizning bedor tushlari.

"Yaxshi metaforalar kashf etish uchun, – degan edi Arastu, – narsalardagi o'xshashlikni payqash zarur". Shu ma'noda "Mag'lub bahodirning nayzasi misol" egilgan "terak uchlari" tashbehi faqat Abdulla Oripov badiiy tafakkuriga xosdir. Inson tug'ilibdiki, ko'tarinkilik va tushkunlik, shodlik va qayg'u, xotirjamlik va toqatsizlik, mag'lubiyat va muzaffariyat u bilan hamisha yonma-yon yuradi. Ammo tiriklikning umidbaxsh tayanchi bor, bu – "Uyqudagi qizning bedor tushlari".

Atrofimda yotar g'arib bir viqor,
Bilmam, nega o'chdi qalbim safosi.
Nima ham qilardim, na ilojim bor.

Bahor kunlarida kuzning havosi.

Faqat “atrof”dagi “g‘arib bir viqor” tufayli “o‘ch”gan “qalb safosi” she’rxonda bir qadar ma’yuslik va hazinlik uyg‘otadi. Xulosa shuki, iztirobi sayoz, dardi siyqa, qarashlari yakrang odam o‘z holini anglashga qodir emas. Soxta manmanlik, yasama bir qaysarlik uning cho‘ng irodasiga hukmronlik qilaveradi. Aniqrog‘i, “Nima ham qilardim, na ilojim bor” deyishga qudrati yetmaydi uning. Abdulla Oripovning lirik qahramoni esa tabiiy, samimiy va haqqoniy qiyofasini badiiy so‘z shukuhi bilan ko‘z-ko‘z qilishdan sira cho‘chimaydi. Uning umidsizligi zamirida umid, xokisorligida yengilmas bir iroda hamisha bo‘y ko‘rsatib turadi. Shoir she’rlarining tadqiqi esa badiiy mahorat sirlarini bilishga, qolaversa, davr, zamon va ijtimoiy muhit haqidagi falsafiy qarashlarini anglashga ham imkon beradi.

ƏDƏBİYYATŞÜNAS ALİMİN BƏDİİ YARADICILIĞI VƏ YA ƏDƏBİYYAT PROBLEMLƏRİNİ ƏKS ETDİRƏN HEKAYƏLƏR HAQQINDA

Sadiqov Şəmil Kamil oğlu,
filologiya üzrə fəlsəfə doktoru, dosent,
Hədəf Şirkətlər Qrupunun baş direktoru
e-mail: samil.s@hedef.edu.az

Xülasə

Azərbaycan Yazıçılar Birliyinin üzvü, filologiya elmləri doktoru, AMEA-nın professoru Salidə Şəmmədqızı (Salidə Şərifova) həm elmi, həm də bədii yaradıcılığı ilə ədəbi gündəmin diqqətini cəlb etməkdədir. Salidə Şəmmədqızının (Salidə Şərifova) qələmə almış olduğu bədii nümunələr monoqrafiyaları və elmi məqalələri kimi maraq kəsb edirlər. Xalq yazıçısı Mövlud Süleymanlı "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusuna yazdığı ön sözdə Salidə xanımın həm bədii, həm də elmi fəaliyyətlə məşğul olmasına toxunmuşdur. Xalq yazıçısı Çingiz Abdullayev də Salidə xanımın bədii yaradıcılığında elmi yaradıcılığının əvəzsiz rol oynaması amilini vurğulaması diqqətdən yayınmır.

Salidə Şəmmədqızının qələmə almış olduğu hekayələr mövzu, janr əlvanlığı, xarakterlərin bütövlüyü, hadisə və əhvalatların zənginliyi ilə diqqəti cəlb edirlər. Bu özünü həm "Əriyən şam", həm də "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusunda əks etdirə bilmişdir. Qələmə alınmış hekayələrdə mənəvi-əxlaqi kamillik kəsb edən insanın qüdrəti ilə yanaşı cəmiyyətin qeyri-normal və neqativ hallarına qarşı etiraz müəllif tərəfindən qabardılmışdır. Hekayələrdəki obrazlar vasitəsilə cəmiyyətə təsir etmək cəhətləri özünü göstərir ki, bu da qələmə alınmış hekayələrin mövzu baxımdan, maraq kəsb etməsinə səbəb olur.

Salidə Şəmmədqızının qələmə aldığı hekayələr nəsr ənənələrini davam etdirərək, yeni janr axtarışları və nümunələrinin yaradılması ilə diqqəti cəlb edir. Yazıçı realist və postmodernist üsluba əsaslanaraq, hekayələrdə satirik təsviri üçün ən asan və münasib üsul kimi ədəbiyyat və söz sənətində olan çatışmazlıqları istehza etməklə bəşəri, həmçinin ümumilli xarakter daşıyan problemlər haqqında məlumatı oxucularına çatdırır. Salidə Şəmmədqızının bədii nəsrin lakonik, dinamik forması olan hekayəyə müraciət etməsinə baxmayaraq, kəskin konflikt fonunda dolğun xarakterlər yaratmağa qadir olmuş, aktual və kəskin suallara toxuna bilmişdir.

Açar sözlər: *Azərbaycan ədəbiyyatı, nəsr, hekayə, Salidə Şəmmədqızı, ədəbi yaradıcılıq*

Abstract

Salida Shammadgizi (Salida Sharifova), a member of the Union of Azerbaijani Writers, Doctor of Philological Sciences, and Professor at the Azerbaijan National Academy of Sciences (ANAS), continues to attract attention in the literary sphere through both her scholarly and artistic work. The literary works penned by Salida Shammadgizi (Salida Sharifova) are as engaging as her monographs and scientific articles. In the foreword to the story collection "The Triumph of Dionysus", People's Writer Movlud Suleymanli touched upon Salida khanum's dual engagement in both literary and academic activity. Likewise, People's Writer Chingiz Abdullayev highlighted the irreplaceable role of her scientific background in her artistic creativity.

The stories written by Salida Shammadgizi draw attention with their thematic and genre diversity, the integrity of their characters, and the richness of their events and plots. These qualities are evident in both "The Melting Candle" and "The Triumph of Dionysus". Her stories not only reflect the power of spiritually and morally mature individuals but also emphasize the author's protest against abnormal and negative aspects of society. Through her characters, she seeks to influence society – an effort that makes the themes of her stories particularly compelling.

While continuing the tradition of prose, the stories written by Salida Shammadgizi also stand out for their exploration of new genres and literary forms. Relying on both realist and postmodernist styles, the author uses satire as an effective tool to mock the shortcomings of literature and the art of language, thereby conveying universal and nationally relevant issues to her readers. Although she turns to the short and dynamic form of prose – the short story – Salida Shammadgizi manages to create rich characters within sharp conflicts and successfully addresses timely and critical questions.

Keywords: *Azerbaijani literature, prose, story, Salida Shammadgizi, literary creativity*

Azərbaycan Yazıçılar Birliyinin üzvü, filologiya elmləri doktoru, AMEA-nın professoru Salidə Şəmmədqızı (Salidə Şərifova) həm elmi, həm də bədii yaradıcılığı ilə ədəbi gündəmin diqqətini cəlb etməkdədir. Salidə Şəmmədqızının (Salidə Şərifova) qələmə almış olduğu bədii nümunələr

monoqrafiyaları və elmi məqalələri kimi maraq kəsb edir. Xalq yazıçısı Mövlud Süleymanlı "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusuna yazdığı ön sözdə Salidə xanımın həm bədii, həm də elmi fəaliyyətlə məşğul olmasına toxunmuşdur: "Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun əməkdaşı və Azərbaycan Respublikası Prezidenti yanında Ali Attestasiya Komissiyasının eksperti Şərifova Salidə elmi fəaliyyətlə peşəkar şəkildə məşğul olur. Eyni zamanda Şərifova Salidə Azərbaycan Yazıçılar Birliyinin üzvüdür..." Xalq yazıçısı Çingiz Abdullayev də Salidə xanımın bədii yaradıcılığında elmi yaradıcılığının əvəzsiz rol oynaması amilini vurğulaması diqqətdən yayınmır. Çingiz Abdullayev "Əriyən şam" hekayələr toplusuna yazdığı "Əriyən şam"ın işığında" başlıqlı ön sözündə qeyd etmişdir ki, "Əriyən şam" hekayələr toplusunun müəllifi Salidə Şəmməd qızı Şərifova yaradıcılığa professional ədəbiyyatşünaslıqdan addım atmışdır. Salidə Şəmmədqızı uzun illərdir ki, müasir Azərbaycan nəsrinin janr problemlərinin tədqiqi ilə məşğuldur. Onun elmi işləri müxtəlif ölkələrin sanballı elmi toplu və jurnallarında çap edilmişdir. Hal-hazırda isə ədəbiyyatşünas alim öz qələmini bədii yaradıcılıqda da sınamağa cəhd edir". Xalq yazıçıları Çingiz Abdullayev və Mövlud Süleymanlının fikirləri bir daha onu vurğulayır ki, Salidə Şəmmədqızı bədii ədəbiyyata elmi ədəbiyyatdan gəlmişdir. Salidə xanım bir nəzəriyyəçi alim kimi bədii əsərlərdə olan nöqsanları görə bilməsi, oxucunu maraqlandıran mövzuları dərindən bilməsi ilə yanaşı, bədii söz sənətində janr, mövzu və problematika baxımından özünü göstərən çatışmazlıqları görə bilir. Ona görə də Salidə xanım bədii ədəbiyyatda ədəbiyyat problemlərini əks etdirən əsərlərin az olmasını bir elm adamı kimi görərək, yaradıcılığında ədəbiyyatın bu sahəsindəki boşluğu qismən də olsa doldurmağa cəhd etmişdir. Salidə xanımın bədii yaradıcılığında ədəbiyyat problemlərini əks etdirən hekayələr çoxluq təşkil etməkdədir. Salidə Şəmmədqızının ictimaiyyətə təqdim etdiyi "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusunda "Dionisin qələbəsi", "Mətn cızmaçısı", "Layihə oyunu", "Sən elə şeyləri anlamazsan", "Ləzzəti - söhbəti", "Əlyazmalar yanmır", "Sənin səlahətin çatırmı?", "Psixatrın gündəliyi" adlı hekayələri sırf ədəbi mühiti əhatə edən hekayələrdir. Xalq yazıçısı Mövlud Süleymanlı "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusunda hekayələri bədii yaradıcılıq haqqında hekayələr kimi dəyərləndirmişdir. Mövlud Süleymanlı qeyd etmişdir ki, "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusuna "daxil olan əsərlər bədii yaradıcılıq haqqında hekayələrdir. Topluda əsərlərin süjet xətti yaradıcı şəxsiyyətlərin yaradıcı taleləri ətrafında qurulur. Hekayələrdə ədəbiyyatşünaslığın bir sıra problemləri ətrafında bədii formada fikir mübadiləsi əsaslı işıqlandırılmışdır. Hekayələr Azərbaycan ədəbiyyatında populyarlıq qazanmış sənətçi, yaradıcı, mədəniyyət haqqında bədii nəsr əsərləri, yaradıcı şəxsiyyətlərin yaradıcı taleləri ətrafında süjet xətti qurulması və kamil yaradıcı şəxsiyyətlərin obrazlarının təqdimi ilə maraq doğurur. Ədəbiyyatda əksini tapan sənətkar obrazları dünya ədəbiyyatında "sənətkar haqqında roman" (Künstlerroman) anlayışının, yəni sənətçilərin, yaradıcı insanların, konkret olaraq isə mədəniyyət və elm haqqında bədii nəsr nümunələrinin formalaşmasına səbəb olmuşdur. "Dionisin qələbəsi" toplusuna daxil edilmiş əsərlərin "sənətkar haqqında hekayələrə" və postmodern ədəbiyyatına aid olması haqqında tezisləri irəli sürmək olar".

Salidə Şəmmədqızının "Əriyən şam" hekayələr toplusunda əksini tapmış hekayələr içərisində ədəbiyyat problemlərini əks etdirən hekayələrin yer alması da diqqəti cəlb edir. Salidə Şəmmədqızının "Qara yelin sorağında" adlı hekayəsində elmi refleksiya ədəbi şəkildə qələmə alınaraq özünü göstərmişdir. Hekayədə ədəbiyyatşünaslıq elmində yeni axtarışların və plagiatın nisbi probleminin təsvir edilməsi maraq doğurur. Hekayədə əksini tapmış ədəbiyyatşünaslıq problemi hekayədən ədəbiyyat problemlərini əks etdirən hekayə kimi danışmağa əsas verir. Salidə Şəmmədqızının "Başı bəlalı məqalə" hekayəsində də elmi refleksiya ədəbi şəkildə özünü büruzə verir, ədəbiyyatşünaslıq probleminin ən vacib və aktual məsələlərini açıqlaya bilir.

Salidə Şəmmədqızının qələmə almış olduğu hekayələr mövzu, janr əlvanlığı, xarakterlərin bütövlüyü, hadisə və əhvalatların zənginliyi ilə diqqəti cəlb edirlər. Bu özünü həm "Əriyən şam", həm də "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusunda əks etdirə bilmişdir. Qələmə alınmış hekayələrdə

mənəvi-əxlaqi kamillik kəsb edən insanın qüdrəti ilə yanaşı cəmiyyətin qeyri-normal və neqativ hallarına qarşı etiraz müəllif tərəfindən qabardılmışdır. Hekayələrdəki obrazlar vasitəsilə cəmiyyətə təsir etmək cəhətləri özünü göstərir ki, bu da qələmə alınmış hekayələrin mövzu baxımdan, maraq kəsb etməsinə səbəb olur. Xalq yazıçısı Mövlud Süleymanlı Salidə xanımın hekayələrində etdiyi yeniliklərin, istifadə etdiyi satirik üslubun heç də cəmiyyətdə bir mənalı qarşılanmayacağı amilini də qabarda bilmişdir. Mövlud Süleymanlı bu amilə belə nəzər salmışdır: "Dionisin qələbəsi" toplusuna daxil edilmiş hekayələr sərt realizm ilə seçilirlər. Toplunun bədii üslub baxımdan əsas xüsusiyyətlərindən biri də bu realizmin satirik formada verilməsidir. Müəllif təsvir etdiyi hadisələri, kəskin problemləri bir sıra epizodlarda satirik üslub vasitəsilə absurd dərəcəsinə çatdırır. Əvvəlcədən proqnozlaşdırmaq olar ki, bu metodika bədii dairələrdən olan bir qrup oxucuların mənfi reaksiyasına səbəb olacaq. Müəllifin bu reaksiyadan çəkinməməsini xüsusi vurğulamaq olar. Azərbaycan ədəbiyyatında "Dionisin qələbəsi" toplusu uğurlu janr təcrübəsi kimi qiymətləndirilməlidir. Toplu Azərbaycan ədəbiyyatının janr sisteminin rəngarəngliyinə atılan yeni bir addımdır. Hekayələrin janr xüsusiyyətlərini və problematikasını nəzərə alsaq, toplunun ilk növbədə, ədəbiyyatşünaslıqla əlaqəli olan oxucular arasında daha çox maraq doğuracağını ehtimal etmək olar. Bununla da, müəllifin postmodernin trendlərinə riayət etməsini müşahidə edirik – intellektual elitaya ünvanlanmış əsərlərin yaradılması" (Süleymanlı, 2018: 4-6).

Salidə Şəmmədqızının "Əriyən şam" hekayələr toplusu da cəmiyyəti düşündürən aktual ictimai problemləri, xalqımızın taleyini əks etidrməsi ilə diqqəti cəlb edir. Hekayələr toplusuna daxil edilmiş eyni adlı "Əriyən şam" hekayəsi qaçqın taleyini yaşayan uşağın gündəlik həyatını əks etdirməklə yanaşı xalqın keçdiyi yola da nəzər salır. Çingiz Abdullayev hekayənin hansı üslubda qələmə alınmasına toxunaraq qeyd etmişdir ki, "hekayə realizm üslubunda milli nəsrə xas olan ənənələri davam etdirir. Eyni zamanda "Əriyən şam" hekayəsi "ciddi realizm" adı altında tanınan cərəyanın tələblərinə cavab verir". Xalq yazıçı Çingiz Abdullayev həmçinin Salidə Şəmmədqızının janr üzrə tədqiqatçı olmasını, bunu qələmə almış oduğu bədii nümunələrdə özünü büruzə verməsi faktına da toxunmuşdur: "Müəllifin janr problemləri üzrə tədqiqatçı olması topluya daxil edilən əsərlərin janr əlamətlərinə dərin təsir göstərir. Məsələn, "Əriyən şam" əsərinin hekayə janrında yaradılmasına baxmayaraq, Azərbaycan ədəbiyyatına xas "kiçik roman" janrının təsiri özünü büruzə verir. Bu təsir əsərdə qaldırılan problemin epik xarakterində öz əksini tapmışdır" (Abdullayev, 2011: 4-5).

Salidə Şəmmədqızının qələmə aldığı "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusunda bir tərəfdən realizmin, ikinci tərəfdən də postmodernizmin təsiri duyulmaqdadır. Salidə Şəmmədqızının "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusunda hekayələrdə həm realizm, həm də postmodernizm hibrid formalar təşkil edərək ifadə vasitəsi kimi özünü qabarıq şəkildə göstərməkdədir. "Dionisin qələbəsi", "Mətin cızmaçısı" və digər hekayələrdə təsvir edilmiş Dionis, İlham pərisi, Əzrayıl kimi obrazlar real həyatla üzvi şəkildə təqdim edilirlər. "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusunda yeni xarakterlərin yaranması özünəməxsus şəkildə əksini tapır. Müxtəlif dünyagörüşünə və düşüncə tərzinə malik olan obrazlar istər yaşam tərzi, istərsə də öz intellekt səviyyələrinə görə müəllif tərəfindən fərqli şəkildə təqdim olunurlar. Mədəniyyət, məişət reallıqlarının daxil edildiyi "Dionisin qələbəsi" hekayəsində postmodernizm özünü göstərməklə, qədim yunan mifologiyasına xas olan obrazın daxil edilməsinə baxmayaraq, öz milli özünəməxsusluğunu da qorumuşdur. Yunan mifologiyasında Zevsin oğlu, Priapın atası,https://az.wikipedia.org/wiki/Dionis - sitat_qeyd-ReferenceA1- Olimplərin ən kiçiyi, şərab, bərəkət və teatr tanrısı olan Dionisin, söz adamlarının İlham pərisi kimi obrazların təqdim edilməsi maraq kəsb edən fakt kimi diqqəti cəlb edir. Müsabiqə prosesində baş verən neqativ hallar və mifoloji obraz olan Dionisin hadisələrə təsir etməsi hekayədə müəllifin yeni yanaşması kimi özünü büruzə verir.

Dionisin şərab tanrısı olması hekayədə qısa bir epizodda göstərilmişdir: "Dionis əlində şərab dolu piyaləylə Mövsüm Xəlillinin yanında oturub təəccüblə ona baxan münsiflər heyətinin üzvlərinə gülümsədi. Kərim Yədullaoğlu da qaş-gözü ilə Dionisi Mövsüm Xəlilliyə göstərib kəkələyə-kəkələyə

soruşdu:

– Buu o Dioo-niis-dir?

Mövsüm Xəlilli çiyinlərini çəkdi. Eldar Fəxri Mövsüm Xəlillinin cavab vermədiyini görüb dilləndi:

– Hə, Kərim... bu həmin Dionisdir. Olimplərin ən kiçiyi, şərab və bərəkət, teatr tanrısı...”

“Dionisin qələbəsi” hekayəsində real, müasir obraz və hadisələrə irreal, mifoloji obrazın təsiri müəllif tərəfindən sarkazmla təsvir edilmişdir. Dionisin, həmçinin İlham pərisinin nitqlərində sarkazm elmdə, cəmiyyətdə özünü göstərməkdə olan real problemləri oxucunun gözündə canlandırmağa nail olur. Bu sarkazmlar insan ləyaqətinə xələl gətirməsə də, baş verən hadisələrin ağır nəticələrini açıqlamağa nail olur: “**Dionis Mövsüm Xəlilliyə piyaləsini uzadaraq dedi:**

– Mövsüm, nə olub sənə? Bir-iki cızma-qara eləmisən deyə, düşünürsən ki, səndən yoxdur? Özünü ələ al.

– Mən ömrü boyu xalqım üçün yazmışam.

Dionis Mövsümü istehzayla süzərək:

– Hə... Xalqın sənin yazdığın cızma-qaralara qəti dəxli yoxdur. Bax desəydin ki, özüm üçün yazıram, onda bu daha inandırıcı olardı. Elə ədəbiyyatın ən böyük dərdi də budur. Özün üçün yazmaq... Yazdığın cızma-qaraları özündən başqa heç kimin oxumaması...”

Bəli, müəllif elmdə özünü göstərməkdə olan naqisliklərə münasibətini bildirir. Özü üçün əsər yazan, lakin həmin elmi əsərlərin heç bir əhəmiyyəti olmaması təəssüf hiss ilə açıqlanır, elmi nailiyyətləri məişət mövzusunda olan süjet ilə əlaqələndirərək satirik formada təsvir edir.

“Dionisin qələbəsi” hekayəsində müsabiqə rəhbərinin ilham pərisi ilə mübahisə etməsi, qərarını verə bilməməsi onun acizliyini göstərsə də, “**sözüm keçməyən yerdə sözümü yox, yerimi dəyişirəm**” deyərək müsabiqəni tərk etməsi hələ də insani dəyərlərin məhv olmamasına işarədir.

Hekayədə iham pərisinin dili ilə deyilən fikirlər təəssüf doğurur, bəzi insanların öz işlərinə məsuliyyətli yanaşmadıqlarını göstərir: “**Bunlara ədəbiyyatdakı «boşluqlar» deyilir. Özlərindən o qədər razıdırlar ki, heç kimin kitabını belə oxumurlar. Hələ müsabiqəyə təqdim edilmiş əsərlər... Siz isə bunlardan haqq, ədalət gözləyirsiniz. Onda çox gözləməli olacaqsınız, çox... lap çox...”**

“Ləzzəti-söhbəti” hekayələr toplusunda Abdulla Şaiqin “Xatirələrim”, **Dilbər** Axundzadənin **“**Müşfiqli günlərim” kitablarından, Mirzə Cəlil “Sabir haqqında xatiratım” məqaləsindən mətn parçaların verilməsi hekayədə müəllif tərəfindən hipermətn kimi istifadə edilmə kimi diqqəti cəlb edir.

Səməd Vurğunun “Azərbaycan” şeiri haqqında Qorxmaz Quliyevin fikirlərinin hekayədə verilməsi hekayəni hekayə – tədqiqat nümunəsi kimi dəyərləndirməyə imkan yaradır. Ümumiyyətlə, “Ləzzəti-söhbəti” hekayələr silsiləsi ədəbiyyatın aktual problemlərinə toxunması və tədqiq edilməsi baxımından maraq doğurur, hekayə-tədqiqat kimi maraq oyadır.

“Dionisin qələbəsi” hekayələr toplusunda elmi metodun təsiri özünü göstərir, təqdim edilən obrazlar elmi həqiqətləri əks etdirərək, hekayənin süjet xətti üçün materiala çevrilir, ədəbiyyat və ədəbiyyatşünaslıqda baş vermiş hadisə və faktlar bədii şəkildə təsvir edilir.

“Dionisin qələbəsi” hekayələr toplusunda yaradıcı şəxsiyyətlərin yaradıcı taleləri ətrafında əsərlərin süjet xətti qurulur. Ədəbiyyatda əksini tapan sənətkar obrazları dünya ədəbiyyatında “sənətkar haqqında roman” (Künstlerroman) anlayışının, yəni sənətçilərin, yaradıcı insanların, konkret olaraq isə mədəniyyət və elm haqqında bədii nəsr nümunələri formalaşmasına səbəb olmuşdur. Azərbaycan ədəbiyyatında da yaradıcı insanlar haqqında əsərlər özünün mövzu aktuallığı ilə diqqəti cəlb etmişdir. İsa Hüseynovun “Məşhər” (XIV əsr şairi İmaməddin Nəsimi), Ə.Cəfərzadənin “Eşq sultanı” (XV-XVI əsrlər Məhəmməd Füzuli), “Aləmdə səsim var mənim” (XIX əsr Seyid Əzim Şirvanı), “Vətənə qayıt” (XVIII əsr Nişati Şirvani), M.S. Ordubadinin “Qılınc və qələm” (XII əsr Nizami Gəncəvi), B. Bayramovun “Karvan yolu” (Həmidə xanım Cavanşir və Cəlil

Məmmədquluzadə), M.C. Paşayevinin "Yolumuz hayanadır" (M.Ə. Sabir) əsərləri yaradıcı insan-sənətkar (şair, yazıçı, alim, tədqiqatçı, musiqiçi, aktyor, rəssam və d.) haqqında qələmə alınmış kamil nəsr nümunələridir.

Yaradıcı insanlardan bəhs edən "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusu özünün həm realizmi, həm də posrtmodernizm təsirləri ilə seçilir. "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusunda ilk növbədə bədiiliyin, ikinci isə ədəbiyyatşünaslığın təsiri duyulmaqdadır. Azərbaycan ədəbiyyatında realizm və postmodernizmi özündə cəmləşdirən yaradıcı insanların həyatını əks etdirən əsərlər yoxdur, bu baxımdan Salidə Şəmmədqzının "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusu maraq kəsb edir. "Əriyən şam" hekayələr toplusunda əksini tapmış "Musiqi müsabiqəsi", "Bankomatın sərgüzəşti" hekayələrində isə postmodernizmin təsiri aydın şəkildə özünü büruzə vermiş, bir-bir ilə qarışan fərqli iki paralel aləm təsvir edilmişdir. Salidə Şəmmədqzının "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusunda M.Ə. Sabirin sarkazmına qəribə yaxınlıq olması özünü göstərməkdədir. M.Ə. Sabir sarkazmının "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusunda özünü göstərməsi Xalq yazıçısı Mövlud Süleymanlı tərəfindən vurğulanmışdır: "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusunda avtobioqrafik hallar özünü göstərsə də, biz hadisələrin təsvirində, müəllifin bədii üslubunda, yazı manerasında, mövzuya yanaşmasında, məzmun dərinliyində dahi ədibimiz M.Ə. Sabirin sarkazmına qəribə yaxınlıq duyuruq. Hekayələrdə satirik təhkiyə formaları ön plana keçir, bu hekayələrdə ədəbiyyat sahəsində baş verən hadisələr yalnız satirik vasitə olaraq cəlbedici predmet kimi özünü göstərir." Salidə Şəmmədqızının qələmə aldığı hekayələrdə satirik təhkiyə formaları ön plana keçir, bu hekayələrdə ədəbiyyat sahəsində baş verən hadisələr yalnız satirik vasitə olaraq cəlbedici predmet kimi özünü göstərir.

Salidə Şəmmədqzının "Mətn cizmaçısı" hekayəsində Rusiyada tanınan Mətin Xasanoviç adlı yazıçının ömrünün çoxunu faydasız keçirməsi faktı reallıqla ireallığın sintezində təqdim edilir. Vətənində nə yazıçı, nə alim kimi qəbul edilməyən Mətin Xasanoviçin reallığı qəbul edə bilməməsi ürək ağrısı ilə insanın özündənrazı olması kimi müəllif tərəfindən dəyərləndirilir. Onun mənfur əməlləri qısa dialoqlarda açıqlanır: "Bizimkilərdən kim milli ruhu ilə seçilirdi, qara rəylə onların elmə və nəşrlərə yollarını bağlayırdı. Zaman dəyişdi, amma bizimkilərə münasibəti dəyişmədi". Mətin Xasanoviçin onu millətinin böyük yazarı kimi təqdim edilməsinə etiraz etməsi, "tamamilə səhv deyirsiniz. Mən məxsus olduğum millətin deyil, məhz böyük ümumrus yazıçısıyam. Məni kiçik bir məkana sığışdırmaqla nə demək istəyirsiniz?" deyərək xalqına, millətinə xof baxır.

Bəyənmədiyi, xor baxdığı vətənindən gələn Səbirəyə onun monoqrafiyası üçün "əvvəl sənin işini oxuyum. Rus alimlərinə çiy iş vermək olmaz" deyir, sonra isə vaxtı olmamasını bəhanə gətirərək, "amma müəyyən master klass keçməyə hazır olduğunu bildirmişdir". Bütün bunlar Mətin Xasanoviçin daxili aləmini açıqlayan detallar kimi müəllif tərəfindən hekayədə göstərilir.

"Mətin cızmaçısı" hekayəsinin real hadisələr üzərində qurulmasına rəğmən, irreal hadisələrin təsvir edilməsi də maraqlı məqam kimi diqqəti cəlb edir. Hekayədə Əzrayıl obrazının təsviri, Mətin Xasanoviç və Əzrayıl arasındakı dialoqlar məhz irreal hadisələrin təsviri olsa da real hadsiə təsiri yaratmağa nail olmuşdur. Ətrafındakıların onun Əzrayılla söhbət etməsini qalusinasiya hesab etsələr də bu reallıq idi. Axirət dünyasında yerinin cəhənnəmlik olmasını yəqin edən Mətin Xasanoviç Əzrayıldan möhlət istəyir: "Yalvarıram, sənə. Hələ mənim canıma dəymə. Məni neylirsən? Qocalmışam, nəyinə gərək olacam. Bu dünyada hələ görüləsi, tamamlanası çox işim var. Hələ yazılacaq yazılarım var. Mənə imkan ver, onları bitirim. Adım kitablarımla qalacaq".

Qeyd etməliyik ki, sarkazm bu hekayədən də yan keçməmişdir. Müəllif sarkazmları dialoqlar vasitəsilə verməyə nail olmuşdur. Məsələn, Mətin Xasanoviçlə Əzrayılın dialoqunda bu sarkazmı dərinliyi ilə duymaq olur: "Əzrayıl qəh-qəhə çəkib ürəkdən gülüb demişdi:

– Mətin, sənin əsərlərini səndən başqa oxuyan olubmu? Özünə niyə əziyyət verirsən. Adım kimi əminəm ki, yazdığın kitabları oxuyan yoxdur. Tarix boyu səni kimi çox yazıçılar olub. Şöhrətpərəst, xudbin, özündənrazı". Əzrayılın sarkazmla dediyi fikirlərdə biz istedadsız yazarların tənqid edildiyini

müşahidə edirik.

Salidə Şəmmədqızının "Layihə oyunu" hekayəsində isə həmkarlar arasında qrant üçün bir-birilərinə etdikləri xəyanətkarlıq açıqlanmışdır. Qrant əldə etmək üçün həmkarlar arasında gedən mübarizə, "arxadan vurulan zərbə"lər müəllif tərəfindən ürək ağrısı ilə qeyd edilir. Dilbərin universitetin elmi katibi Pəri xanıma təklif etdiyi mövzunun sonra onsuz tədqiq edilməsi bəzi ziyalılar arasında mövcud olan mənəvi yoxluğun göstəricisidir.

Salidə Şəmmədqızı "Sən elə şeyləri anlamazsan..." hekayəsində isə yazılan tədqiqat işlərində buraxılan elmi səhvlərə biganəlik, hətta həmin elmi səhvləri görüb məsləhət edildikdə düzəldilməməsi bir problem kimi hekayədə əks etdirmişdir. Səfurənin tədqiqat işində buraxdığı elmi səhvləri düzəltməmək cəhdi, hətta ona tədqiqatındakı qüsuru göstərmiş Şəbnəmə "Baxaram. Ağla batan bir şey olsa niyə düzəltməyim ki?" deyərək narazılığını bildirməsə də, hekayənin sonunda "bircə ağıllı sənsən? Bilmirəm ki, nə yazıram? Dekadens belə getdi, modernizm belə getdi... Nə bilim, Hidayət müəllimin kitabını niyə oxumamısan, nə bilim kitabdan niyə istifadə etməmisən..." deməsində haqlı idi. Tədqiqat işlərinin müəyyən instansiyalardan keçməsinə rəğmən, tədqiqat işlərindəki çatışmamazlıqların iddiaçılara göstərilməməsi ürək ağrısı ilə qeyd olunur.

Bu baxımdan Səfurənin hirslənib "başqalarının uğurlarını qəbul etmək lazımdır. Sevinmək lazımdır. Bunları bacarmaq lazımdır. Bu da ki, hamının işi ola bilməz..." deyərək Şəbnəmi başqalarının uğuruna sevinə bilməyən bir şəxs kimi dəyərləndirməsi isə Salidə Şəmmədqızı tərəfindən cəmiyyətdə gedən naqisliklərə diqqəti yönəltməsidir. Bu yalnız cəmiyyətdə deyil, həmçinin insanın mənəvi aləmində baş verən deqradasiya prosesinin nəticəsi kimi göstərilə bilir.

Səfurənin "sən onları hardan biləcəksən? O dövrü mən tədqiq edirəmsə, deməli elədir. Mənim işimə elə adamlar baxıb ki, sən onların yanından yel olub keçə bilməzsən. Onlar mənə hər şeyi başa salıblar, yazdıqlarımla da razılaşıblar. Özü də ki, özünü niyə yorursan? Elə də müdafiə edib, o dərəcəni alacam" deyərək özündən razılığını, vəzifəsi olmayan kəslərin sözlərini heç saydığını göstərir. Hətta həmkarını "sən elə şeyləri anlamazsan..." deyə təhqir etməsi də hekayədə acı reallığın əksi kimi özünü göstərsə də, hal-hazırda elm sahəsində baş verən prosesi də əks etdirə bilir.

Salidə Şəmmədqızının "Ləzzəti-söhbəti" hekayələr silsiləsi kimi maraq doğurur. Hekayələr silsiləsində ədəbiyyat problemlərinə nəzər salınır, bəzi məsələlərə aydınlıq gətirilir. Məsələn, Mirzə Cəlil Məmmədquluzadənin plagiatlıqda suçlandırılması kimi absurd yanaşma müəllif tərəfindən tənqid edilir. "Ölülər" əsərini plagiat adlandıranları Mirzə Cəlilə qarşı təxribat hesab edən Salidə Şəmmədqızı absurd iddianı elmi faktlarla əsaslandırmağa nail ola bilir: "Simvolizmin nümayəndəsi olan Meterlinkin yaradıcılığında mistizm, fatalizm əsas yer tutur. Onun "Müqəddəs Antoninin möcüzəsi" pyesində Antoni Mirzə Cəlilin "Ölülər"indəki Şeyx Nəsrullah kimi fırıldaqçı və məkrli deyil. Mirzə Cəlilin kefli İsgəndəri Nəsrullahın fırıldağını ifşa edir. Kefli İsgəndər yaşadığı cəmiyyətlə barışmır. Mirzə Cəlil kefli İsgəndərin dili ilə xəstə cəmiyyətin daxili aləmini göstərir. Meterlinkin pyesində isə insanın ali hisslərinin, sadə münasibətlərinin məkr, nəfs kimi hisslərlə eybəcərləşdiyi göstərilir. Mirzə Cəlil isə cəhaləti ifşa edir. Mirzə Cəlil Meterlinkdən fərqli olaraq, məkri yox, cəhaləti qabardaraq oxucusuna çatdırır. Bir şeyi başa düşə bilmirəm... Doğrudan bu qədər avamsınız. Sizlər ədəbiyyat sahəsi ilə məşğul olan mütəxəssislərsiniz. Məgər bilmirsiniz ki, "səyahət edən süjetlər" var. Ruslar buna "brodyaciye sujet" deyirlər. "Səyahət edən süjetlər" dünya ədəbiyyatının inkişaf tarixində özünü göstərmişdir və göstərməkdədir. Ona görə də Mirzə Cəlilin əsərini plagiat hesab etmək olmaz. Danimarkalı Harald Berqstedin qələminə məxsus və kilsənin tənqidinə yönələn "Müqəddəs İorgenin zühuru" adlı kəskin satiralı roman 1919-cu ildə "Müqəddəslər fabriki" adı ilə yazılıb, 1924-cü ildə isə "Müqəddəs Yorgen bayramı" adıyla SSRİ-də nəşr edilib. Bu əsərin süjeti "Ölülər"in süjetinə çox bənzəyir, oxşar məqamlar danılmazdır. Ancaq əsərlərin yazılma tarixlərinə diqqət etdikdə illər arasındakı fərqlər nəzərə çarpır. Tam əminliklə deyə bilərik ki, məntiqlə Mirzə Cəlil yox, əksinə, Harald Berqsred plagiatlığa yol veribmiş".

Hekayələr silsiləsində "Koroğlu" dastanına olan qərəzli münasibətə, dastanın bir çox qollarının sovet hökuməti vaxtında tapşırıqla yazılması iddiasına irad bildirilir. Müəllif "Əlyazmalar Fondunda saxlanılan dastanla əlimizdə olan dastan arasında heç bir əlaqə yoxdur. Dastanın qollarının müəllifləri də guya bəllidir. Dünyanın heç bir ölkəsində xalq qəhrəmanı ömrünün sonunda əkinçiliklə məşğul olmur, qəhrəmanlıqdan könüllü imtina etmir. Bir insan qəhrəmanlıqdan imtina edib, əkinçiliklə məşğul olursa bu necə xalq qəhrəmanıdır? Camaatın əkinçisi qəhrəman olanda, bizim qəhrəmanımız əkinçi olur. Koroğlu yadellilərə qarşı mübarizə aparmayıb. O, necə xalq qəhrəmanıdır ki, bir nəfər yadelliyə qarşı vuruşmayıb. "Koroğlu" dastanında əsas məqsəd türk idarəçiliyinə, sultanlara, paşalara qarşı nifrət yaratmaq olub" fikirlərinə qarşı ironiya ilə münasibətini bildirərək qeyd edir ki, "indi demokratiyadır. Kim nə istəyir deyir, nə istəyir edir... Sözün qısası, söz azadlığıdır." "Söz azadlığı"nı hamının düzgün anlanılmaması faktı məhz ironiya ilə, bir cümlə ilə əksini tapır. Həmçinin Sərvər Camalın "Babəkin əvəzinə Qaraca Çoban xalq qəhrəmanı kimi təqdim olunmalıdır. Qaraca Çobanın təbliğini gənc nəslin tərbiyəsində daha düzgün hesab" etməsi sarkazmla müəllif tərəfindən təsvir edilir.

Hekayələr toplusunda sağlığında əfsanələşmiş xalq şairi Səməd Vurğunun "Azərbaycan" şeiri ilə ədəbiyyatda möhürünü vurması, şairin xidmətlərinə baxmayaraq tənqid edilməsi, keçən əsrin 30-cu illərində nəşr olunan "İnqilab və Mədəniyyət" jurnalında Səməd Vurğunun əski kəndi idealizə etməsi, özünün yenidən tərbiyəsinə əhəmiyyət verməli olması kimi absurd fikir, daha sonra isə müəllifin haqlı olaraq, Səməd Vurğunun populyarlığının qəbul edilə bilməməsi amili qabardılmışdır.

Hekayə silsiləsində M.Ə. Sabirin "Millət necə tarac olur olsun, nə işim var" şeirinin ona aid olaması faktlarının irəli sürülməsini, ədəbiyyatşünaslıqda bu mövzu ətrafında mübahisələrin hələ də davam etməsi faktı da əksini tapmışdır. Hekayədə Mirzə Cəlilin "Sabir haqqında xatiratım" məqaləsində "Lazım bilirəm iqrar edəm ki, məcmuəmizin dördüncü nömrəsində dərc olunan və hər "Hophopnamə"yə daxil olan "Millət necə tarac olur olsun, nə işim var?" adlı mənzuməni ki, bu saat camaatımız onu Sabirə istinad verir, Sabirin olduğunu mən inkar edirəm: əvvələ o səbəbə ki, həmin mənzumənin əl yazısı Sabirin əl xətti ilə yazılmamışdır; ikinci dəlilim budur ki, şeir özü necə ki, şeir ustaları mülahizə edə bilər, – bir qədər zəifdir və bəhər surət Sabirə yapışmır. Burada Sabir şivəsi və Sabir ruhu görünmür. Mənim haman nəzəriyyəmin əksini bircə şeirin dəsti-xətti təsdiq edə bilər, əgər bir kəsdə varsa, zühura çıxmağı arzu olunur" kimi fikirləri ilə yanaşı, Ömər Faiq Nemanzadənin bu şeirin Sabirə məxsus olduğunu inkar etməsi, Sabirin şagirdi olmuş professor Əziz Şərif də şeirin Sabirə məxsus olmadığını yazması, Sabirin yaxın dostu olmuş Abbas Səhhətin qeyd etdiyi "Həmin məcmuənin 4-cü nömrəsindən başlayaraq "Millət necə tarac olur..." mətləli şeirə ən əvvəl həcv-məlih yazıb "Hophop" imzası qoyulur" fikri və s. şeir ətrafında gedən mübahisələrə aydınlıq gətirir.

"Ləzzəti-söhbəti" hekayələr silsiləsində **XIX əsr Azərbaycan ədəbiyyatı dövrünün "çox mənasız bir dövrü, aqoniya dövrü" kimi dəyərləndirilməsini faciə kimi dəyərləndirən müəllif aqoniya anlayışına aydınlıq gətirir: "Aqoniya can vermə, can çəkişmə deməkdir".**

XIX əsr Azərbaycan ədəbiyyatının can verməsini qeyd edən ziyalıların geri düşüncəli olmalarını qabardan müəllif ziyalının geri düşüncəli olmasını ironik şəkildə göstərməyə nail olur: "Əvvəla XIX əsr Azərbaycan ədəbiyyatında təmsil olunan şairlərinin əksəriyyəti əski, İran ədəbiyyatının ənənələrini davam etdirirdilər. Bu səbəbdən də mənasız idilər. Kim idi Mirzə Şəfi Vazeh? Mirzə Şəfi xəttatlıqla məşğul olan dərvişanə bir həyat keçirən sufi şair idi. Kərim müəllim, millət dəmir yolu çəkir, Qafqaza poçt, mətbuat gəlir, universitetlər açılır, teatr gəlir, bu kişi də oturub öz guşəsində divan şeiri yazır". Hekayə silsiləsində Avropada məşhurlaşan Vazehin şeirlərinin onun olmaması faktının irəli sürülməsini belə boş və mənasız sayan müəllif münasibətini ironik şəkildə verməklə, "ziyalı düşüncəsini" açıqlamağa nail olur: "Vazehin şeirləri olmayıb. Avropada məşhurlaşan şeirlər Bodenştedtin Vazehin şeirləri əsasında yazdığı ekzotik şeirlərdi. XIX əsrdə Avropa ədəbiyyatı və ədəbi-fəlsəfi fikrində Şərqə maraq var idi. Bu maraq dalğasında Bodenştedtin şeirləri məşhurlaşdı,

dəbə mindi. Bu da Bodenştedtin əməyidir. Başqa dil və poetik strukturdan Avropanın mental, estetik təfəkküründə tərcümə olunan şeirlərin aşağı keyfiyyətini hamımız bilirik. Bodenştedt ola bilsin ki, motivləri, mövzuları götürüb, amma onu Nitşeyə qədər alman təfəkküründə necə qəbul olunurdusa, o ruhda da təqdim etmişdi. Avropada çap olunan Vazeh deyildi, onun surroqatı Bodenştedt idi".

Salidə Şəmmədqızı "Əlyazmalar yanmır" hekayəsində son dövrlər M.A. Bulqakovun "Master və Marqarita" əsərinin müəllifi olmaması ətrafında yaranan mübahisələrə həm müəllif kimi, həm də ədəbiyyatla məşğul olan peşəkar tədqiqatçı kimi münasibətini bədii dillə verməyə nail ola bilmişdir. Maraqlı məqamlardan biri də, romanın müəllifinin İ.V. Stalinin olması ehtimalını irəli sürülməsidir. Bədii nəsr nümunəsi olan "Əlyazmalar yanmır" hekayəsi mübahisəli məqamları ilə əsərin bədii nəsr nümunəsi olmasını bir anlıq unutdurur, oxucu müəlliflə mübahisəyə girməyə cəhd göstərir. Bu da hekayənin ədəbiyyatşünaslıq baxımından kəsb edən bədii nəsr nümunəsi olmasına dəlalət edir. Müəllifin iblisin ateist Sovetlər birliyinə səfərindən bəhs edən edən "Master və Marqarita" əsərinin yazmağa cürət edə biləcək müəllifin yalnız İ.V. Stalin ola biləcəyini nəzərə alaraq, əsərin müəllifini "ellər atası"nın olduğunu göstərir. "Əlyazmalar yanmır" hekayəsi postmodern əsər kimi diqqəti cəlb edir ki, burada əsərin müəllifi postmodernizmin əsası olan dekonstruksiyaya uğrayaraq, başqa müəlliflə əvəzlənir: "İosif Vissarionoviç Stalinin iblisin ateist Sovetlər birliyinə səfərindən bəhs edən etdiyi "Master və Marqarita" əsərinin ictimaiyyətdə birmənalı qarşılanmayacağını əvvəlcədən duyurdu. Bilirdi ki, belə bir əsər ictimaiyyət tərəfindən birmənalı şəkildə qarşılana bilməz. Əsərin müəllifliyinin ona aid olmasını gizlədəcəkdi. İosif Vissarionoviç qələmə aldığı əsərin müəllifliyindən könüllü olaraq imtina etmişdir. "Master və Marqarita" romanının müəllifliyinə şübhə ilə yanaşılacağını bilirdi. Bulqakovu da bilərəkdən seçmişdir. Özü elə yazıçı seçmişdir ki, güclü tədqiqatçı və ya tənqidçi Bulqakovun digər əsərləri ilə bu əsərin üslubundakı fərqi istər-istəməz hiss etməli idi. Belə ki, əsərin Bulqakovun qələmə almış olduğu əsərləri ilə məhz ideya cəhətdən bütün ziddiyyəti və üslub baxımından fərqlənməsi idi. Bu baxımdan əsərin müəllifinin Mixail Bulqakov olmasını istəmişdir. SSRİ kimi bir məkanda azadlıqların boğulmasına qarşı yazılmış ən güclü satiranı yalnız o qələmə ala bilərdi. "Master və Marqarita" İosif Vissarionoviçin həyatını əks etdirirdi. Nadejda da onu Marqarita Masteri satan kimi satmış, xəyanət etmişdir".

"Sənin səlahətin çatırmı?" hekayəsində isə cəmiyyətdə olan ikili münasibət amili qabardılmışdır. Hekayədə adi məqalə yazmış Səidəyə "kiminsə" işindəki qüsuru göstərməsinə səlahəti olmamasının deyilməsi, cəmiyyətdə insanlara olan ikili münasibətin göstəricisidir. Elmi tədqiqatlarda buraxılmış qüsurları göstərməyə səlahəti olmayan alimin nəyə səlahəti çata bilər sualı oxucunu düşündürməyə vadar edir. "Sizin məqalənizlə bağlıdır. Sizin nə səlahətiniz çatır ki, o cür məqalə yazasınız? Sizə o səlahəti kim verib?" sualı cəmiyyətdə baş verən nöqsanlıqları qabardır. Artıq müəyyən instansiyalardan keçmiş tədqiqatlarda buraxılmış qüsurlara münasibət bildirilməməsinin sonrakı səhvlərə yol açılmasının faciəvi sonluğu oxucu gözündə canlandırılır. Məhz "Səidə xanım, tənqid etdiyiniz yazılar neçə instansiyadan keçib. Hamısından müsbət rəy alıblar. Hətta Ali Attestasiya Komissiyasından keçib təsdiqlərini alıblar. O baxımdan deyirəm ki, Sizin irad tutmağınıza səlahətiniz çatırmı?" sualı cəmiyyətə ünvanlanmış sual kimi hər kəsi düşündürür. Bəli, hekayənin qəhrəmanının verdiyi sual hamıda yaranır: "Necə yəni səlahətim çatırmı? Kimisə tənqid etməyə səlahət lazımdır? Təhqirə və ya şərə keçməmişəm. Elmi işi tənqid etməyə səlahət lazımdır? Nöqsan olan yerdə, o nöqsanı görüb elmi diskusiya qaldırmağa hər bir alimin səlahəti çatır". Hekayənin qəhrəmanı Akif müəllimin dedikləri də bu gün elmi camiədə baş verənləri gözümüz önündə canlandırır: "Demək istəyirəm ki, həmin elmi işlər ya tədqiqatlar kafedrada ya şöbədə müzakirə olunur, sonra seminardan keçir, aparıcı müəssədən rəy alır, sonra dissertasiya şurasında müdafiə edilir, Ali Attestasiya Komissiyasında təsdiq olunur. Bütün burda oturan insanlardan siz ağıllımı çıxdınız?" Bəli cəmiyyətdə formalaşmış mənfi baxış və stereotiplərə qarşı çıxanlar ağ qarğaya çevrilir, cəmiyyət tərəfindən sevilmədikləri kimi, qəbul da edilmirlər. İradlar göstərilmiş məqalənin iradların ləğv edilərək çapa getməsi oxucunu düşündürür: "Bəs kimi tənqid

etməliyik?" Hekayə tənqidin də düzgün təşkil olunmadığına bir işarə kimi qəbul edilməlidir.

"Psixatrın gündəliyi" hekayəsində akademik olmaq iddiası ilə yaşayan insanın qadın həmkarına qarşı etdiyi mənfur əməllər alim adına yaraşmayan əməllər kimi əksini tapmışdır. Müəllifin Münəvvərin timsalında qadınların başına gətirilənləri gender bərabərsizliyi prizmasından təhlil edirsə də, Natiqin tək olmadığı, özü xislətdə olan insanların "starıy qvardiya" adı altında birləşdikləri dəstədə fəaliyyət göstərmələri açıqlanır. Psixoloq Rənanın gündəliyi əsasında hadisələrin təsvirinin verilməsi, psixiki pozgunluq yaşayan Natiqin psixoloq Rənaya müraciət etməsi müəllif tərəfindən Natiq kimi insanların müalicə olunmalarına işarədir. Natiq kimi insanların psixoloq müayinəsindən keçmələrinə baxmayaraq sağalmaları onların xislətlərindəki mənfur əməllərinin beyinlərinə hopmasına bir işarədir.

Salidə Şəmmədqızının real düşüncələrlə yanaşı irreal düşüncələrin yer aldığı hekayələrin yüksək mənəvi ideallar uğrunda mübarizə aparan qəhrəmanları ədəbiyyat və onun əhatə edən aktual problemlərin həlli yollarını axtarmaqdadırlar. Salidə Şəmmədqızının qələmə aldığı hekayələr nəsr ənənələrini davam etdirərək, yeni janr axtarışları və nümunələrinin yaradılması ilə diqqəti cəlb edir. Yazıçı realist və postmodernist üsluba əsaslanaraq, hekayələrdə satirik təsviri üçün ən asan və münasib üsul kimi ədəbiyyat və söz sənətində olan çatışmazlıqları istehza etməklə bəşəri, həmçinin ümumilli xarakter daşıyan problemlər haqqında məlumatı oxucularına çatdırır. Salidə Şəmmədqızının bədii nəsrin lakonik, dinamik forması olan hekayəyə müraciət etməsinə baxmayaraq, kəskin konflikt fonunda dolğun xarakterlər yaratmağa qadir olmuş, aktual və kəskin suallara toxuna bilmişdir.

Azərbaycan Yazıçılar Birliyinin üzvü, Azərbaycan Yazıçılar Birliyinin Prezident təqaüdçüsü (2016), Rusiya Yazıçılar İttifaqının M.A. Şoloxov adına beynəlxalq mükafatı (2009), Rusiya Yazıçılar İttifaqının Q.R. Derjavin adına ordeni (2009), Azərbaycan Jurnalistlər İttifaqının "Qızıl qələm" media mükafatı (2010), Rəsul Rza adına Ədəbiyyat Fondunun "Rəsul Rza mükafatı" (2017) ilə təltif edilmiş Salidə Şəmmədqızına (Salidə Şərifova) yeni-yeni yaradıcılıq nailiyyətləri arzu edirik. Salidə Şəmmədqızının qələmə aldığı "Əriyən şam", "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusu Azərbaycan söz xəzinəsində özünməxsus çəkisi olan hekayələr toplsudur. Salidə xanımın bədii yaradıcılığını davam etdirməsi gələcək nəsillərə bir ərmağandır.

İstifadə olunmuş ədəbiyyat

1. Bayram İsgəndərli. (2017) Yollar qovuşanda... "Palitra" qəzeti. 20 oktyabr. Səh. 13.
2. Çingiz Abdullayev. (2011). "Əriyən şam"ın işığında. Salidə Şəmmədqızı (Salidə Şərifova). Əriyən şam. Bakı, "Elm və təhsil". 124 səh. Səh. 4-5.
3. https://literature.az/?page=339&newsId=115679&lang=abunu təriz şəklində təqdim edir.ze
4. https://www.anl.az/down/meqale/palitra/2017/oktyabr/559469.htm
5. Kitablar aləmində nələr baş verir – Tehran Əlişanoğlu yazır // https://edebiyyatqazeti.az/news/edebi-tenqid/4932-kitablar-aleminde-neler-bas-verir
6. Mövlud Süleymanlı. (2018). Ön söz. Salidə Şəmmədqızı (Salidə Şərifova). Dionisin qələbəsi. Bakı, "Elm və təhsil". 200 səh. Səh. 4-6.
7. Salidə Şəmmədqızı (Salidə Şərifova). (2011). Əriyən şam. Bakı, "Elm və təhsil". 124 səh.
8. Salidə Şəmmədqızı (Salidə Şərifova). (2018). Dionisin qələbəsi. Dionisin qələbəsi. Bakı, "Elm və təhsil". 200 səh.
9. Vüqar Əhməd. Elm və bədii yaradıcılığın qovuşuğunda // https://edebiyyatqazeti.az/news/edebi-tenqid/1989-vuqar-ehmed

ƏDƏBİYYATŞÜNAS ALİMİN ELMMETRİK PORTRETİ MODELİ

Əliyeva Zakirə İmamverdi qızı,
filologiya üzrə fəlsəfə doktoru, dosent,
Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası
Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu
e-mail: zakiraaliyeva7@gmail.com

Xülasə

Ədəbiyyat və texnologiyanın qarşılıqlı əlaqəsi müəllif və oxucu ünsiyyətinin mənzərəsini xeyli dəyişdiyi kimi, ədəbiyyatşünaslıq elmi və ədəbiyyatşünaslarımızın fəaliyyəti mütənasibliyinin yeni mənzərəsini də yaratmış oldu. Bu mənzərənin yeni parametrlərindən biri də dünyada ən müxtəlif bilik sahələrində geniş istifadə olunan elmmetrik dəyərləndirmədir. Təqdim olunan məqalə tanınmış ədəbiyyat nəzəriyyəçisi, ədəbiyyatşünas alim, yazıçı, filologiya elmləri doktoru Salidə Şəmməd qızı Şərifovanın elmi yaradıcılıq yolunun bibliometrik və vebometrik təhlilinə həsr olunub. S.Ş. Şərifova Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasının professoru, Rusiya Təbiət Elmləri Akademiyasının həqiqi üzvü, Azərbaycan Yazıçılar Birliyinin üzvü, "Qızıl qələm", Rəsul Rza, İstinadda rekord və digər mükafatlara layiq görülmüşdür. Məqalədə filologiya elmləri doktoru S.Ş. Şərifovanın təqdim edilən bibliometrik göstəriciləri humanitar elmlərin istənilən sahəsində təhsil alan, işləyən və tədqiqat aparan tədqiqatçılar və digər mütəxəssislər üçün maraqlı ola bilər və elmmetrik platforamalarda ünsiyyətə açıqdır.

***Açar sözlər**: elmi yaradıcılıq, elmmetrik diapazon, ədəbiyyat, texnologiya, bibliometrik göstərici*

Abstract

The interaction of literature and information technology has significantly changed the landscape of communication between the author and the reader, and has also created a new relationship between literary studies as a science and literary criticism. One of the new parameters of the new landscape of interaction is scientific metric assessment, which is widely used in other scientific fields. This material is devoted to the bibliometric and webometric analysis of the scientific work of the literary theorist, literary scholar, writer, Doctor of Philology Salida Shammed gizi Sharifova. Sharifova S.Sh. is a professor of the National Academy of Sciences of Azerbaijan, a full member of the Russian Academy of Natural Sciences, a member of the Writers' Union of Azerbaijan, a laureate of the "Golden Pen", "Rasul Rza", "Record for citations" and other awards. This material analyzes the scientific heritage of S.Sh. Sharifova based on scientific measurement, which provides rich material for comparative research and practical application. The obtained bibliometric indicators may be of interest to both literary scholars and persons associated with literary creativity, as well as to specialists in other humanitarian fields. This material analyzes the scientific heritage of S.Sh. Sharifova based on scientific measurement, which provides rich material for comparative research and practical application. The obtained bibliometric indicators may be of interest to both literary scholars and persons associated with literary creativity, as well as to specialists in other humanitarian fields.

***Key words:** scientific creativity, scientometric range, literature, technology, bibliometric indicator*

Elmi fəaliyyətin müasir transformasiyaları tədqiqatçıları peşəkar birliklərin virtual şəbəkəsi, rəqəmsal mühitlə qarşılaşdırır. Rəqəmsallaşma kontekstində texniki və təbiət elmləri daha çox "dəb"də olsa da, ümumilikdə humanitar elmlərin rolu artmaqda davam edir. Bu baxımdan, ədəbiyyatşünaslıq mədəni və tarixi kontekst nəzərə alınmaqla dərin və ciddi elmi təfəkkür məhsullarını ortaya qoyan tədqiqat sahəsi kimi diqqəti cəlb edir. Elmi nəticələrin təcrübədə, həyatda, cəmiyyətdə tətbiqinin sosial faydalarını və üstünlüklərini əsaslandırmaq isə alimlərin qarşısında duran yeni vəzifələr sırasında öndədir. Ədəbiyyat və texnologiyanın qarşılıqlı əlaqəsi müəllif və oxucu ünsiyyətinin mənzərəsini xeyli dəyişdiyi kimi, ədəbiyyatşünaslıq elmi və ədəbiyyatşünaslarımızın fəaliyyəti mütənasibliyinin yeni mənzərəsini də yaratmış oldu. Bu mənzərənin yeni parametrlərindən biri də dünyada ən müxtəlif bilik sahələrində geniş istifadə olunan elmmetrik dəyərləndirmədir.

Elmmetriya (Scientometrics) – elmi informasiya axını və massivlərinin dinamika və strukturunun tədqiqatı ilə məşğul olan elm sahəsidir. Elmmetriyada tədqiqatçının elmi fəaliyyətinin qiymətləndirilməsi üçün bir çox elmmetrik və vebometrik göstəricilərdən istifadə edilir. Elmmetrik

təhlil tədqiqatçının fəaliyyətinin əsasən qiymətləndirmək istədiyimiz və qiymətləndirilə bilən parametrlər üzrə aparılır. Alimin məhsuldarlığı qiymətləndirmək istədiyimiz parametrlər sırasındadır [Əhmədov, 2023: 9].

Son illər akademik İsa Həbibbəylinin qeyd etdiyi kimi elmmetrik bazalarda AMEA əməkdaşlarının profillərinin yaradılması işində əhəmiyyətli nəticələri əldə olunmuşdur ki, bu proseslər hazırda "ədəbiyyat məbədi" sayılan Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun rəqəmsal mühitdə də yüksək elmi imicini təsbit etməkdədir [https://science.gov.az/az/news/open/31434].

Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun elmi potensialını əks etdirən ənənəvi və rəqəmsal resurslar sırasında alimlərimizin çoxlu sayda elmi tədqiqat əsərləri, elmi tutumlu monoqrafiyaları, kıtabları, ədəbi-tənqidi, publisist məqalələri, araşdırmaları və bir də bu zəngin elmi irsi əhatə edən ciddi biblioqrafik bilik bazaları vardır. İnternet texnologiyaları və rəqəmsallaşma proseslərinin inkişafı bu bilik mənbələrinin və müəlliflərinin populyarlaşması proseslərinin artıq modern elmi istiqamət kimi inkişaf etməsinə şərait yaratmışdır.

AMEA-nın vitse-prezidenti, akademik R.Əliquliyev hər bir alimin elmi biliklərinin peşəkar şəkildə populyarlaşdırılmasında əhəmiyyətli rola malik olduğunu qeyd edir. Bu baxımdan Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunda sanballı elmi tədqiqatlarda imzası olan, "elmi biliklərini peşəkar şəkildə populyarlaşdıran" ədəbiyyatşünaslarımızı tanıtmaq ədəbiyyatımızı tanıtmaq qədər əhəmiyyətlidir. Bir ədəbiyyatşünas alimin bibliometrik portreti onun elmi və peşəkar fəaliyyətinin nəşrlər, istinadlar, konfranslarda və digər akademik tədbirlərdə iştirakı kimi kəmiyyət məlumatlarına və elmi ictimaiyyətə təsir göstəricilərinə əsaslanan ümumiləşdirilmiş xarakteristikasıdır. Elmmetrik portreti yaratmaq ilk növbədə alimin özünün arxiv mədəniyyətindən çox asılıdır.

"Əfsuslar olsun ki, bu parametrlər üzrə bilavasitə hesablama aparmaq çox çətindir, başqa sözlə, məsələn bir alimin bütün elmi imkanlarını, elmi istedadını, onun müxtəlif formalarda əksini tapmış fikir və rəylərini, elmin inkişafına təkan verən ideyalarının yayılma arealını, elmi təhlillərinə, baxışlarına biblioqrafik təsvir verilmədən edilmiş istinadları və s. tam şəkildə aşkara çıxarmaq, hesablamaq mümkün deyil. Göstərici və ya indikator adlanan ikinci parametr üzrə qiymətləndirmə isə daha rahatdır. Bu zaman əsas təhlillər məqalə sayına və onlara edilən istinad göstəricilərinə görə aparılır" [Qurbanov, 2019: 7].

Qeyd etdiyimiz məsələ ən məşhur və məhsuldar elm adamlarının da bəzən laqeyd yanaşdıqları bir məsələdir. Müasir texnoloji proseslərin yaratdığı imkanlardan yararlanmaqda çətinlik çəkən alimlərimiz də az deyil. Lakin bütün bunlara baxmayaraq, ədəbiyyatşünas alimlərimiz də akademik biliklərin dinamik inkişaf edən bir sahəsi kimi elmimetriyanın inkişafında öz sözünü deyə bilər.

Mövzu ilə bağlı humanitar elmlər sahəsində biblioqrafik və arxivləşdirmə səliqəsi ilə seçilən filoloq alimlərimizdən birinin yaradıcılığını elmmetrik mənzərəsini nümunə olaraq işıqlandırmaq istədik.

Araşdırmamız tanınmış ədəbiyyat nəzəriyyəçisi, ədəbiyyatşünas, yazıçı, filologiya elmləri doktoru Salidə Şəmməd qızı Şərifovanın elmi yaradıcılıq yolunu təsvir etməyə və kəmiyyət üsullarına, xüsusən də bibliometrik və vebometrik analiz metodlarına əsasən yerli və qlobal informasiya məkanında təmsil olunmasını səciyyələndirməyə həsr olunmuşdur. Salidə Şəmməd qızı Şərifova AMEA-nın professoru (2019), Rusiya Təbiət Elmləri Akademiyasının həqiqi üzvü (2022), Azərbaycan Yazıçılar Birliyinin üzvüdür (2009). S.Şərifova "Qızıl qələm" (2010), "Rəsul Rza" (2017), "İstinadda rekord" (2024) və s. mükafatları laureatıdır. Azərbaycan Yazıçılar Birliyinin birillik Prezident təqaüdçüsüdür (2016-2017).

S.Ş. Şərifova həm də bir çox elmi jurnalların redaksiya heyətinin üzvü olmuş və olmaqdadır: "European Social Science Journal" (Европейский журнал социальных наук) jurnalı (Rusiya, Moskva), "Литературный календарь: книги дня" jurnalı (Rusiya, Moskva), "Poetika.İzm" jurnalı (Azərbaycan, Bakı), "Ədəbi incilər" jurnalı (Azərbaycan, Bakı) və s.

AMEA-nın professoru, filologiya elmləri doktoru S.Ş. Şərifovanın elmmetrik portreti üçün onun mükafatlarının, fəxri adlarının, elmi qurumlara və qruplara üzvlüyünün və s. göstəriciləri də onun elmi məhsuldarlığını bir daha təsdiq edən məlumatlardır.

Təbii ki, hər bir alimin əsərlərinin – monoqrafiyaları, elmi-publisistik kitabları, məqalələri və digər nəşrlərinin – ümumi elmmetrik mənzərəsi eyni zamanda onun şəxsiyyətinin xüsusi cəhətlərini də ortaya qoyur. Lakin, etiraf etmək lazımdır ki, elmi mühitdə elmmetrik göstəricilər üçün vahid standart yoxdur və bütün səylərə baxmayaraq istifadə olunan vasitələr, bir qayda olaraq, alimin tam elmmetrik portretini çəkməyə imkan vermir. Doğrudur mövcud elmmetrik məlumat bazaları bir sıra göstəriciləri ehtiva edir, bunlardan ən vacibləri nəşrlərin sayı, müəllifin əsərlərinə istinadların sayı və Hirş indeksidir (h-index). Əlavə məlumat kimi, WoS, məsələn, bir məqaləyə düşən sitatların və ildəki sitatların orta sayını, müəllifin əsərlərini dərc etdiyi jurnalların siyahısını və onların sayını, nəşrlərin və sitatların il üzrə qrafikini və s. təqdim edir.

Bir alimin bibliometrik portretini yaratmaq üçün ilk növbədə bir neçə mərhələdə mükəmməl informasiya əldə etməyə, toplamağa ehtiyacımız var idi. Əlbəttə, bu məlumatların toplu halında əldə edilməsi üçün ən gərəkli ənənəvi vasitələrdən biri hər bir alimin həyat və yaradıcılığına həsr olunmuş şəxsi biblioqrafik göstəricilərdir. Azərbaycan ədəbiyyatı və ədəbiyyatşünaslıq elmimizə, o cümlədən ədəbiyyatşünaslarımıza həsr olunmuş biblioqrafik nəşrlər ədəbi irsimizi, klaasiklərimizi, ədəbi şəxsiyyətlərimizi, ədəbiyyatşünas alimlərimizi tanıtmaqla yanaşı, ciddi faktiki elmi keyfiyyət göstəriciləri təqdim etməyə qadirdir. Ədəbiyyatşünaslarımıza həsr olunmuş bu qəbildən göstəricilər adətən hər hansı bir alimin yubileyi ərəfəsində tərtib edilir və ya hər hansı ziyalı özü bunun təşəbbüskarı olur. Hələlik S.Şərifovanın elmi yaradıcılığına həsr olunmuş belə bir mənbə mövcud olmadığı üçün axtarışlarımızın istiqamətlərini müəyyən etməliyik. Burada sual doğura biləcək məqam budur: niyə belə bir biblioqrafik göstəricisi olmadığı halda məhz S.Ş. Şərifovanı seçdik. Seçimimizi əsaslandıraq:

1. Əsərlərinin mövzu əhatəsinin genişliyi;
2. Nəşr və dərcolunma dinamikası;
3. Nüfuzlu elmi bazalarda təmsil olunması;
4. İstinadlarının sayına görə təqdir olunması;
5. Sosial şəbəkələrdə, KİV-də populyarlığı.

Bunun üçün ilkin mərhələdə biblioqrafik məlumatın əsas mənbəyi kimi "Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun əməkdaşlarının elmi əsərləri" adlı biblioqrafik salnamələrin 2012-ci ildən bu günə kimi davam edən nəşrlərindən və Ədəbiyyat İnstitutunun hesabat xarakterli materiallarından, müxtəlif kitabxanaların elektron kataloqlarından istifadə edilmişdir. Axtarış həmçinin Google veb axtarış sisteminin indeksində və İnternetdə mövcud elmi ədəbiyyatın biblioqrafik və elmmetrik verilənlər bazasında (Google Scholar, Academia.edu, Scopus, Google Akademik, ResearchGate, Orcid, DergiPark, TrDizin) həyata keçirilmişdir.

Məlumat massivi əsasən son onilliyin – 2014-2024-cü illərdə nəşr edilmiş sənədlərin biblioqrafik təsvirini ehtiva edir.

Alimin seçilmiş əsərlərinin toplularının təkrar nəşrləri nəzərə alınmamış və əsas məlumat axınları aşağıdakı kimi sistemləşdirilmişdir:

– Elmi jurnallardakı məqalələr və davam edən nəşrlər;
– Toplularda və konfrans materiallarında nəşrlər;
– Monoqrafik, tədris və digər kitab nəşrləri;
– Elmi rəhbərlik, opponentlik;
– Hesabatlar, məruzələr, qeydlər.

Əsas elmmetrik parametrlərdən ən sadəsinin - alimin nəşrlərinin sayının təhlili ilə başlayaq. Əminliklə demək olar ki, heç bir verilənlər bazası və ya axtarış sistemi haqqında məlumat əldə etmək istədiyiniz müəllifin bütün nəşrlərini əhatə etmir, xüsusilə əgər onlar nadir nəşrlərdə və ya İnternet

dövrünün gəlişindən əvvəl dərc ediliblərsə bu hal labüddür. Apardığımız axtarışların nəticəsi olaraq S.Şərifovanın da elmi yaradıcılıq materiallarının müəyyən hissəsinin bu labüdlük sırasında olduğunu müəyyən etdik. Və bu mənada filoloq alimin əhatəli biblioqrafik göstəricisinin tərtibinə olan ehtiyacı xüsusi qeyd etmək istərdik.

S.Şərifovanın əsərlərinin dil üzrə paylanması dinamikası onun həm yerli elmi ictimaiyyətə, həm də bütövlükdə cəmiyyətə qarşı prioritet istiqamətini, həm də qlobal miqyasda elmi ünsiyyətini tam əks etdirir. (cədvəl №1) Alimin təqdim etdiyimiz illər ərzində çap olunan əsərlərin çoxu Azərbaycan dilində olsa da, xarici ölkələrdə nəşr olunan dövri nəşrlərdə, toplu və dərgilərdə, konfrans, simpozium, konqress materiallarında yer alan müxtəlif dillərdə elmi əsərləri də az deyil.



	Azərbaycan dili	Rus dili	İngilis dili	Türk dili
Tezis	132	77	9	26
Məqalə	318	116	12	30
Kitab	15	4		

(cədvəl №1)

Elmi yaradıcılıq məhsuldarlığının və performansının yaşa bağlı transformasiyası problemi həm yerli, həm də xarici tədqiqatçılar üçün çox aktualdır. Bir elmi qurumun intensiv və məhsuldar elmi fəaliyyət potensialı akkreditasiya göstəricilərinin əsasını təşkil edir. Bu baxımdan hər hansı bir alimin elmi məhsuldarlığının dinamikası – alimin yaş-peşəkar yolu -haqqında məlumatların öyrənilməsinə böyük ehtiyac var. Elmi məhsuldarlığın yaş dinamikasını izləmək üçün müəyyən mərhələlərdə, kifayət qədər həcmdə faktiki material toplanmalı, konkret və ümumi standartlar, inkişaf meylləri müəyyən edilməlidir. S.Ş.Şərifovanın yaradıcılıq yolunun mənzərəsi buna imkan verir. 30-50 yaşında davamlı peşəkar inkişaf mərhələsində yeni status və yeni imkanlar əldə edən alim onu maraqlandıran mövzu üzərində işini davam etdirmiş və elmin peşəkarına çevrilərək şəxsən inkişaf etmişdir. Doktorluq dissertasiyası müdafiə olunmuş, elmi karyerası daha intensiv inkişaf etmişdir.

Alim haqqında elmi fikrə müraciət edərsək, akademik İsa Həbibbəylinin "Əməldə və əsərlərində özünüifadə nümunəsi" (Şərifova S. Fərəc Fərəcov yaradıcılığının problematikası, janr müxtəlifliyi və bədii xüsusiyyətləri, Bakı, 2021), "Ədəbiyyatda Qarabağ mövzusunun elmi-nəzəri dərki (Şərifova S. "Müstəqillik dövrü Azərbaycan ədəbiyyatında Qarabağ mövzusunu əks etdirən əsərlərin janr xüsusiyyəti, problematikası, obrazları və bədii dili. – Bakı, 2022), prof. Şamil Salmanovun "Azərbaycan nəsr janrlarının təşəkkül və formalaşma prosesi (XX əsrin əvvəllərinə qədər)" monoqrafiyasına ön söz (Şərifova S. "Azərbaycan nəsr janrlarının təşəkkül və formalaşma prosesi (XX əsrin əvvəllərinə qədər)". – Bakı: Elm, 2005), prof. Nazif Qəhrəmanlının "Müasir Azərbaycan romanlarında ictimai-siyasi

mühitin təsviri problemləri" monoqrafiyasına ön söz (Şərifova S. Müasir Azərbaycan romanlarında ictimai-siyasi mühitin təsviri problemləri. – Bakı, 2007), f.e.d. Elçin Mehrəliyevin "Ədəbi proses haqqında düşüncələr" (Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasının Xəbərləri. Humanitar elmlər seriyası, 2008, №4), f.e.d. Mərziyyə Nəcəfovanın "Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığına əvəzsiz töhvə" (Türkün səsi, 2008, №5), f.e.d. Baba Babayevin "Müasir Azərbaycan romanlarına yeni baxış" (B.Babayev. Ədəbiyyat məsələləri. – Bakı, 2015), prof. Kamran Əliyevin "Salidə Şəmməd qızı Şərifova. "İlk Azərbaycan romanları" (K.Əliyev. Rəylər, müsahibələr. Əsərləri 10 cilddə, IX cild. – Bakı, 2019), prof. Məmməd Əliyevin "Klassiklər və müasirlərin yaradıcılığına yeni baxış" (Filologiya və sənətşünaslıq, 2021, №1), "Ədəbiyyat nəzəriyyəçisi Salidə Şərifovanın elmi tədqiqatlarına baxış" (Filologiya və sənətşünaslıq, 2023, №2), Səidə Əliyevanın "Sabir Rüstəmxanlı yaradıcılığı yeni təfəkkür hadisəsi kimi" (Şərifova S. Sabir Rüstəmxanlı yaradıcılığının janr müxtəlifliyi. – Bakı, 2021) və s. mənbələrdən geniş məlumat əldə etmiş olarıq. Əlbəttə bu mənbələr Salidə Şərifovanın elmi yaradıcılığına münasibəti qismən əks etdirir, daha geniş baza bu mənada alimin öz əsərləridir.

Salidə Şərifovanın bir sıra məqalələri müxtəlif mövzuları əhatə edir, bu amil də hesablama zamanı nəzərə alınmışdır. Salidə Şərifova yalnız hal-hazırda işlədiyi "Müstəqillik dövrü Azərbaycan ədəbiyyatı" şöbəsinin profilinə uyğun tədiqatlar aparmadığını, ədəbiyyat nəzəriyyəsinin aktual problemləri ilə də akademik şəkildə məşğul olur. 2012-ci ildə Rusiya Elmlər Akademiyası A.M. Qorki adına Dünya Ədəbiyyatı İnstitutunda "Теоретические аспекты жанрового многообразия азербайджанского романа (Azərbaycan romanlarının janr müxtəlifliyinin nəzəri aspektləri)" mövzusunda doktorluq (10.01.08 — Ədəbiyyat nəzəriyyəsi. Mətnşünaslıq) dissertasiyası müdafiə etməsindən sonra Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunda fəaliyyətinə davam etdiyi dövrdən daha aktiv şəkildə ədəbiyyat nəzəriyyəsi ilə məşğul olmasının şahidi oluruq. Bu amil Salidə Şərifovanın Rusiyada elmi dairələrində ədəbiyyat nəzəriyyəsi sahəsi üzrə məktəb keçməsinin nəticəsi kimi qəbul edilməlidir. Vurğulamaq lazımdır ki, Salidə Şərifova Moskvaya ədəbiyyat nəzəriyyəsi üzrə doktorluq dissertasiyasının yerinə yetirilib və müdafiə edilməsi üçün göndərildiyi dövrdə Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığında ədəbiyyat nəzəriyyəçilərinin sayının az olması, yəni onun bir nəzəriyyəçisi kimi formalaşması üçün ədəbi mühit yox dərəcəsində idi. Moskva elmi mühitində nəzəriyyəçi alim kimi formalaşaraq Azərbaycana qayıdan Salidə Şərifova yalnız Müasir Azərbaycan ədəbiyyatının problemlərini tədqiq etməklə kifayətlənməyir, nəzəriyyəçi kimi ədəbiyyatın nəzəri problemlərini sənətkarlıqla tədqiq edir, elmi mülahizələrini elmi ictimaiyyətə çatdırmağa nail olur.

Onu da qeyd etmək lazımdır ki, elm sahəsində bir çox alimlər elmi dərəcə aldıqdan sonra elmi fəaliyyətləri ilə formal şəkildə məşğul olurlar. Salidə Şərifovanın Yeni dövr Azərbaycan ədəbiyyatının ədəbiyyat nəzəriyyəsi və Müasir Azərbaycan ədəbiyyatına nisbətən az diqqət ayırması isə obyektiv xarakter daşıyır. Salidə Şərifova 1996-cı ildə "İlk Azərbaycan romanları" mövzusunda namizədlik (10.01.03 (5716.01) – Azərbaycan ədəbiyyatı) mövzusunda dissertasiya müdafiə edərək filologiya üzrə fəlsəfə doktoru adına layiq görülmüşdü. Yeni dövr Azərbaycan ədəbiyyatına aid tədqiqatları bir çox məqalələrində olmaqla yanaşı, "İlk Azərbaycan romanları" (1998, 2023), "Генезис азербайджанского романа жанровые характеристики романа - хекаята и «маленького романа» (2009, 2022) monoqrafiyalarında da yer almaqdadır.

Azərbaycan Sovet dövrü ədəbiyyatı Salidə Şərifovanın elmi fəaliyyətə başladığı dövrdə aktuallıq kəsb etməmiş, bu dövr ədəbiyyatına biganə münasibət özünü göstərmişdir. Buna baxmayaraq, Salidə Şərifova filologiya elmləri doktoru dərəcəsini müdafiə etdikdən sonra, Azərbaycan Sovet dövrü ədəbiyyatının Azərbaycan ədəbiyyatının ayrılmaz tərkib hissəsi olmasını tədqiqatlarında vurğulamağa nail olmuşdur. 2022–2023-cü tədris ilində Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun magistratura pilləsində Azərbaycan ədəbiyyatı (XX əsr (Sovet dövrü)) fənnindən mühazirələr oxumuşdur. 2023-cü ildə "Azərbaycan ədəbiyyatı

(XX əsr (sovet dövrü)) fənni üzrə magistratura pilləsi üçün proqram"ı nəşr edilmişdir. Sovet dövrü Azərbaycan ədəbiyyatını əhatə edən dövrlərin bölgüsünü təqdim etməsi Sovet dövrü Azəbaycan ədəbiyyatının vahid Azərbaycan ədəbiyyatının ayrılmaz tərkib hissəsi olmasını təsdiqləyir. Salidə Şərifova Azərbaycan Sovet dövrü ədəbiyyatını aşağıdakı şəkildə təsnifatını təqim edir:

1) Proletkultçuluq dovru ədəbiyyatı (1920–1930-cu illər);
2) Siyasi-ictimai represiyalar dovru ədəbiyyatı (1931–1940-cı illər);
3) Muharibə dovru ədəbiyyatı (1941–1945-ci illər);
4) Şəxsiyyətəpərəstiş dövrü ədəbiyyatı (1946–1953-cu illər);
5) "Xruşov mərhələsi" dövrü ədəbiyyatında özünüdərk (1953–1964-cu illər);
6) Milli istiqlal ugrunda mubarizə ədəbiyyyatı (1965–1984-cu illər);
7) "Yenidənqurma" dövründə ədəbiyyata qayıdış (1985–1991-ci illər) [Şərifova, 2023.3-4].

Salidə Şərifova elmi tədqiqatlarının əsas mahiyyəti ədəbiyyat nəzəriyyəsi olmasına rəğmən həm də Azərbaycan xalqının elmi və milli şüurunun formalaşması sahəsində yorulmaz tədqiqatlar aparır. Bu özünü Cənubi Azərbaycan ədəbiyyatı, Azərbaycan Mühacir ədəbiyyatı, folklor və Şifahi ədəbiyyat və s. ədəbiyyatşünaslıq sahələrində qələmə aldığı elmi əsərlərdə təsdiqini tapır. Məsələn, Cənubi Azəbaycan ədəbiyyatını tədqiq edərkən "Azadlıq carcısı – Məhəmmədhüseyn Şəhriyar" məqaləsi, Azərbaycan Mühacirət ədəbiyyatını tədqiq edərkən "Ceyhun Hacıbəylinin "Xan" nəşriyyatında dərc olunan "Bir il xəyallarda və bütöv bir ömür" roman-essesi haqqında", folklor və şifahi ədəbiyyatı tədqiq edərkən "Orxon-Yenisey kitabələrinin janrı haqqında elmi mübahisələr", "Əşrəf bəy və Zöhrə xan" ("Eşref Bey ile Zühre han") dastanının janr xarakteristikası, variantları, bədii dili və obrazları haqqında" məqalələri diqqəti cəlb edir.

Salidə Şərifovanın elmi fəaliyyətində Azərbaycan bədii irsinin qorunması sahəsində aparmış olduğu "Tərəkəmə-qarapapax ağzı"nda yazıb yaratmış ədib: Yunus Əmrə", "Şota Rustavelinin "Pələng dərisi geymiş pəhləvan" əsərinin Şərq intibahına aid olması və Türk folkloru əsasında yaradılması haqqında", "Alevi şair Sayat Nava (Sayat Nova)" və s. kimi tədqiqatları diqqəti cəlb edir. Bu tədqiqatların Azərbaycan Respublikasının rəsmi elmi jurnallarında deyil, xarici dövlətlərin elmi jurnallarında işıq üzü görməsi düşündürücüdür. Azərbaycanda rəsmi təşkilatların elmi jurnallarının bu tip elmi məqalələri çap etməkdən çəkinməsi, Salidə Şərifovanın həm də cəsarətli alim olmasını təsdiq edir.

Salidə Şərifova elmi yaradıcılığında ictimai-siyasi xadimlərin yaradıcılığına da biganə qalmamışdır. S.Şərifovanın "Nəfi Ömər Əfəndinin satirasının janr, bədii təsvir və ifadə vasitələrinin, bədii dilinin xüsusiyyətləri", "A.Bakıxanovun "Kitabi - Əsgəriyyə" əsəri milli ədəbi janr inkişafı kontekstində", "Çağdaş Türk şeirinin nümayəndəsi – Büləndd Ecevitin bədii yaradıcılığına bir nəzər", "Nəriman Nərimanov – Şərqdə sosialist inqilabının cəngavəri", "S.C. Pişəvərinin "Nadirə" romanının janr xüsusiyyəti, problematikası, obrazları və bədii dili", "Rabindranat Taqorun bədii yaradıcılığının janr xüsusiyyətləri və problematikası", "Əlişir Nəvainin janr novatorluğu", "Mənəvi-mədəni qaynaqlarımız: Əhməd Yəsəvinin bədii və fəlsəfi-dini irsi", "Leyla Əliyevanın poetik dünyası" və digər bu kimi tədqiqatlarında ictimai-siyasi xadimlərin ədəbiyyatşünaslıq baxımından fəaliyyətlərinə elmi münasibət bildirilir.

Salidə Şərifovanın elmi görüşləri yalnız elmi yaradıcılığında deyil, həm də bədii yaradıcılığında da əksini tapır. Müəllif "Əriyən şam", "Dionisin qələbəsi" hekayələr toplusundakı bir sıra hekayələrində ədəbiyyatşünaslıq problemlərini göstərməyə nail olur. Alim-yazıçı qələmə aldığı hekayələrində həm ədəbiyyatşünaslıq problemlərinə, həm də elmi dissertasiyalarda yer alan elmi nöqsanlara bədii formada münasibət bildirir. Ədəbiyyatşünaslıq əsərlərində əksini tapan tənqidi qeydlərini paralel şəkildə bədii əsərlərində də təqdim edən Salidə Şərifova bu tənqidi satirik, yumoristik bir dillə təqdim edir. Elmi əsərlərində olduğu kimi "Başı bəlalı məqalə", "Qar yel"in sorağında", "Dionisin qələbəsi", "Mətn cızmaçısı", "Layihə oyunu", "Sən elə şeyləri anlamazsan", "Ləzzəti – söhbəti", "Sənin

səlahiyyətin çatırmı?", "Psixiatrın gündəliyi", ""Facebok"da kitab təqdimatı", "Bu da yaşanılıb..." və s. hekayələrində tənqid kəskin xarakter daşıyır. Bu kəskinlik bir çox alimlər tərəfindən düzgün anlaşılmır, hətta S.Şərifovanın bu məqama görə polis orqanlarına şikayət edilməsi bədii əsərlərindəki tənqidin və elmi-bədii refleksiyanın kəskin, satiranı güclü olmasını əks etdirir. Salidə Şərifovanın bədii əsərlərində ədəbiyyatşünaslıq problemlərini əks etdirməsinə Xalq yazıçısı Mövlud Süleymanlı, Xalq yazıçısı Çingiz Abdullayev, AMEA-nın müxbir üzvü Tehran Əlişanoğlu, filologiya elmləri doktoru Vüqar Əhməd, filologiya üzrə fəlsəfə doktoru Şəmil Sadiq, yazıçılar Bayram İsgəndərli, Mənzər Niyarlı və digər qələm sahibləri geniş şəkildə toxunmuşlar.

Bu gün çoxlu sayda beynəlxalq elmmetrik bazalar, sitat sistemləri (biblioqrafik məlumat bazaları) mövcuddur ki, onların sırasında Web of Science və Scopus ən nüfuzluları sayılır. Bu sistemlərə daxil olan jurnallar Ali Attestasiya Komissiyası tərəfindən rəsmi olaraq tanınır. Elmmetrik bazalar biblioqrafik və abstrakt məlumat bazası, elmi nəşrlərin sitatlarını izləmək üçün bir vasitədir. Elmmetrik bazalar, eyni zamanda, tələb göstəricilərinin vəziyyətini və dinamikasını, ayrı-ayrı alimlərin və elmi-tədqiqat təşkilatlarının fəaliyyətinin aktivlik və təsir indekslərini xarakterizə edən statistikanı yaradan axtarış sistemidir.

İstinadların ölçülmə vasitəsi hər hansı zaman kəsiyində müəllifin istinadlarının sayının hesablanmasıdır. Bu da tədqiqatların məhsuldarlığı və qarşılıqlı təsirinin müqayisə aləti kimi səmərəli sayılır. Elmin inkişaf qanunauyğunluğu araşdırılarkən özünəməxsus bir estafet prinsipi tətbiq olunmuşdur. Belə ki, elmi tədqiqatların yeni dövrəsi ilk ideya müəlliflərinə istinad edilsə də, artıq yeni alimlər tərəfindən və fərqli şəraitdə həyata keçirilir.

S.Şərifova Azərbaycan ədəbiyyatşünaslıq elmində elmi əsərlərinə çox istinad edilməsi baxımından fərqləndiyinə görə Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasının "İstinadda rekord" diplomuna (2024-cü il) layiq görülmüşdür. "İstinadda rekord" – İstinad – Dayanma, əsaslanma, söykənmə. İstinad nöqtəsi (əsaslanacaq, söykənəcək, dayaq ola biləcək şey). İstinad etmək mənasını daşıyır. Adətən elmi işlərdə alimlərin fikirlərini şərh edir, izahını verir və ya ordakı məlumatlara əsaslanırlar. Sözün əsl mənasında istinad edirlər. Əslində istinadın məqsədi – digər müəlliflərin ideyalarına qarşı əqli düzgün (dürüst) hərəkət etməkdir. Müasir bibliometriya istinadların sayı haqqında məlumat toplayır, onları emal edir və statistik nəticələr alır" [Hüseynova, 2016: 9].

Azərbaycan Milli H-index Ranking, konsolidasiya edilmiş h-indeksi əsasında Azərbaycan alimlərinin, tədqiqat qruplarının və təşkilatların elmi məhsuldarlığını qiymətləndirməyə yönəlmiş müstəqil beynəlxalq reytinqdir. İstinadlarının sayına görə Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitunun alimləri sırasında S.Ş. Şərifova ön yerdədir. Hazırda alimin elmmetrik portretinin təhlili üçün əsas kimi Google Scholar platformasından istifadə etməyə daha çox üstünlük verilir. Scopus-dan fərqli olaraq, burada elmi işlərin indeksləşdirilməsi ilə bağlı heç bir süni məhdudiyyət yoxdur və Google Scholar-da hesabı olan hər kəs öz profilinə əlavələr edə bilər. Bu cəhət Salidə Şərifovanın əsərlərinin daha geniş spektrdə bu platformada əks olunmasına imkan vermişdir.

Web of Science emal olunmuş elmi jurnalların bütün məqalələrinin biblioqrafik təsvirlərini ehtiva edir və əsasən aparıcı beynəlxalq və milli jurnallarda elmin fundamental bölmələri üzrə nəşrləri əks etdirir. Alim üçün Web of Science bazasında məqalələrinin olması elm sahəsində uğurla irəliləməsinin və ölkədən kənarda tanınmasının göstəricisidir [Ağamalıyeva, 2024: 12].

S.Ş.Şərifovanın Sosial elmlər üzrə verilənlər bazasında "Interaction of Novel with Genres of Social and Political Journalism" yer almışdır. 2019-cu ildən Scopus elmi platformasında yerləşən "Восток (Oriens). Афро-азиатские общества: История и современность" jurnalı bu tarixə qədər Web of Science elmi platformasında yerləşirdi.

Salidə Şərifovanın "Восток (Oriens). Афро-азиатские общества: История и современность" jurnalının №6, 2009-cu ildə "Феномен «другого» как проблема литературоведения в произведении К.К.Султанова «От Дома к Миру: этнонациональная идентичность в литературе

и межкультурный диалог” adlı məqaləsi, 2011-ci ildə jurnalın №2-də “Восточная мифология и азербайджанский роман: точки пересечения” adlı məqaləsi və №6-da isə “Постмодернистский азербайджанский роман XXI века (обзор современной азербайджанской романистики” adlı məqaləsi) işıq üzü görmüşdür.

Tanınmış ədəbiyyat nəzəriyyəçiləri A.N. Veselovski, V.Şklovski, V.Jirmunski, V.Vinoqradov, B.Tomaşevski, Ya.Propp, Q.N. Pospelov, M.M. Baxtin, R.Bart kimi alimlərlə yanaşı Salidə Şərifovanın adının qeyd edilməsi də onun dünya ədəbiyyatşünaslığında nəzəriyyəçi alim kimi tanınmasını və qəbul edilməsini bir daha təsdiqləyir: “Для научной справки ученикам предлагаются следующие теоретические источники по теме «Современная романная проблематика»: А.Н. Веселовский, В.Шкловский, В.Жирмунский, В.Виноградов, Б.Томашевский, Я.Пропп, С.Ш. Шарифова, Г.Н. Поспелов, М.М. Бахтин, Р.Барт, И.М. Попова, Л.Е. Хворова” [Якупова].

Sosial platforamalarda da elmi biliyin populyarlaşdırıcısı kimi çıxış edən alimin əsas məqsədi, yəni niyyəti nədir?

– Birincisi, öz tədqiqatlarının elmi nəticələrini həm peşəkar mütəxəssislər, həm də qeyri-mütəxəssislər üçün başa düşülən formada təqdim etmək;

– İkincisi, digər xalqların ədiblərimizin irsinə sahib çıxılmasının və özününküləşdirilməsinin qarşısını almaq məqsədilə həmin ədiblərin irsini ümumTürk və ümumAzərbaycan ədəbi irsi baxımından tədqiq edərək dünyaya tanıtmaq;

– Üçüncüsü isə, alim elmi ümumiləşdirmələrini, nəzəri görüşlərini, ideyalarını təbliğ etmək məqsədilə oxucu auditoriyası ilə əlaqə yaratmaq və əsas elmi qənaətlərinin məğzi və məzmunu ilə bu auditoriyanı maraqlandırmaq.

Ədəbiyyatşünaslıq sahəsində yaradıcılıq resursları ilə seçilən tədqiqatçıların elmə verdiyi töhfələrin elmmetrik təhlili özlüyündə xüsusi bir elmi zərurətdir və alimin məhsuldarlığını qiymətləndirmək baxımından da əhəmiyyətli hesab edilir.

Təqdim edilən material filologiya elmləri doktoru, AMEA-nın professoru Salidə Şəmməd qızı Şərifovanın simasında bir filoloq alimin elmmetrik portretinin həqiqi dialektik xarakterinin, elmi maraqlarının çoxşaxəliliyinin, elmi-təşkilati fəaliyyətinin, müvafiq xronoloji kəsimdə elmi ünsiyyətinin xarakterik xüsusiyyətlərinin ümumi mənzərəsini, yaradıcılığının yaşla bağlı dinamik profiloqramlarının faza dinamikasını və nüfuzlu elmi bazalarda təmsil olunmasının kəmiyyət göstəricilərini ortaya qoyur.

AMEA-da yeniləşmə və islahatlar dövründə elektron hərəkata start verilib... Akademiyanın tarixində ilk dəfə olaraq İnsan Resursları Elmmetrik Məlumatlar Bazası, Rəqəmsal Elmi İnformasiya Resursaları Sistemi yaradılaraq hər bir əməkdaşın elmi fəaliyyətinin elmmetrik reallığı və istinad göstəricilərinin müəyyən edilməsi mexanizmi formalaşdırılıb [5]. Bu göstəricilərə görə də filologiya elmləri doktoru Salidə Şərifovanın elmmetrik portreti bir alimin dinamik inkişaf edən fəaliyyət və yaradıcılıq sistemi kimi diqqəti cəlb edir. Eyni zamanda, alimin elmmetrik portretinin təhlili müqayisəli tədqiqat və praktik tətbiq üçün zəngin elmi material verir. Tədqiqatçılar, humanitar elmlərin hər hansı bir istiqamətində təhsil alan, fəaliyyət göstərən, araşdırma aparan mütəxəssislər üçün bibliometrik göstəricilər maraqlı və ünsiyyətə açıqdır.

Yalnız əfsuslar olsun ki, təqdim etdiyimiz elmmetrik göstəricilər filologiya elmləri doktoru Salidə Şərifovanın yaradıcılığının obyektiv qiymətləndirilməsi üçün kifayətedici deyil. Belə ki, hətta təqdim etdiyimiz xronoloji kəsimdə belə riyazi və ya statistik analizlər dolğun məlumatı verə bilmir. Bu bir tərəfdən elmi verilənlər bazalarının məhdud göstəricilər sistemi, ənənəvi nəşrlərin qeydiyyatdan kənarda qalması ilə bağlıdırsa, digər tərəfdən rəqəmsal mənbələr alimin təfəkkür məhsulunun intellektual yükünü, zəruri nəticələrini, gərəkliliyini, yeniliyini əks etdirən elmmetrik portreti yaratmaqda o qədər də etibarlı görünmür. Çünki müəyyən xronoloji əhatədə araşdırdığımız professor Salidə Şərifovanın əsərlərinin mövzu əhatəsi, elmi əhəmiyyəti və dəyəri haqqında məntiqi

nəticələri, fikirləri, rəyləri ehtiva edən geniş diapazonda keyfiyyət göstəricilərinə ehtiyac vardır. Alimin elmi mühitdə gündəmdə olan filoloji təqdqiatları, monoqrafiyaları, müxtəlif dillərdə və mövzularda məqalələrinin baxış sayı, istinadlar sayı bunun yalnız rəqəmsal göstəriciləridir.

İstifadə olunmuş ədəbiyyat

1. Ağamalıyeva L. (2024). Elmi fəalıyyətin qiymətləndirilməsi. Elmmetrik Bazalar. Dərs vəsaiti. Bakı, Turxan nəşriyyatı.
2. AMEA-da elektron xidmətlərə həsr olunmuş növbəti müşavirə keçirilib... 30.01.2025... URL: https://science.gov.az/az/news/open/31434
3. Qurbanov A., Mütəllimova S. (2019). Elmi Istinad Üzrə Verilənlər bazalari və axtariş sistemləri Kitabxanaşünasliq və informasiya. 2019, 3(30).
4. Əhmədov Hümeyr. (2023). Azərbaycanın elmmetrik göstəriciləri müasir qlobal elmmetriya çağırışları işığında // Azərbaycan müəllimi, 07 iyul.
5. Həbibbəyli İsa. (2025) Akademiyada təməl islahatlardan – İnkişaf Konsepsiyasına və Yol Xəritəsinə, 20.02.2025 URL: https://science.gov.az/az/news/open/31652
6. Hər bir alim elmi biliklərin peşəkar şəkildə populyarlaşdırılmasında əhəmiyyətli rola malikdir (2021)... https://science.gov.az/az/news/open/18520
7. https://az.wikipedia.org/wiki/Elmmetriya
8. Hüseynova A.D. (2016). Elmin ölçülməsi elm haqqında: suallara cavab, Bakı, 63 s.
9. Şərifova Salidə. (2023). Azərbaycan ədəbiyyatı (XX əsr (sovet dövrü)) fənni üzrə magistratura pilləsi üçün proqram. Bakı, "Elm və təhsil".
10. Якупова Лейсан. Научно-исследовательские полилингвальные проекты как одна из моделей проектной деятельности по литературе // Theory and methods of teaching ГКД: ublishing-vak.ru/file/archive-pedagogy-2022-3/b5-yakupova.pdf

TURKIY XALQLAR ZAMONAVIY ADABIYOTINI O‘RGANISH MUAMMOLARI

To‘rayeva Umriniso Raxmatovna,
Buxoro davlat universiteti, PhD (dotsent)
e-mail: umrinisoturayeva@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada turkiy xalqlarning zamonaviy adabiy jarayoni, uning rivojlanish tendensiyalari va o‘rganishdagi dolzarb muammolar tahlil qilingan. Tadqiqotda turkiy xalqlarning o‘zaro adabiy aloqalari, tarjima jarayonlari, ilmiy integratsiya, metodologik yondashuvlar hamda raqamli adabiyotning shakllanishi kabi masalalar yoritilgan. Muallif turkiy xalqlar adabiyotini o‘rganishda uchraydigan asosiy to‘siqlar: til tafovutlari, ilmiy hamkorlikning sustligi, zamonaviy tahlil metodlarining yetarli qo‘llanilmayotgani va yangi adabiy shakllarning o‘z vaqtida o‘rganilmayotganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqolada bu muammolarni hal etish yo‘llari sifatida qo‘shma ilmiy markazlar tashkil etish, tarjimonlik maktablarini rivojlantirish, raqamli platformalar yaratish hamda interdisiplinar yondashuvlarni kengaytirish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *turkiy xalqlar, zamonaviy adabiyot, tarjima, adabiyotlararo aloqalar, integratsiya, metodologiya, raqamli adabiyot, madaniy hamkorlik.*

Abstract

This article analyzes the modern literary process of the Turkic peoples, its development trends and current problems in their study. The study covers issues such as literary relations between the Turkic peoples, translation processes, scientific integration, methodological approaches and the formation of digital literature. The author indicates the main obstacles encountered in the study of the literature of the Turkic peoples: language differences, weak scientific cooperation, insufficient use of modern analytical methods and untimely study of new literary forms. The article also proposes the establishment of joint scientific centers, the development of translation schools, the creation of digital platforms and the expansion of interdisciplinary approaches as ways to solve these problems.

Keywords: *Turkic peoples, modern literature, translation, interliterary relations, integration, methodology, digital literature, cultural cooperation.*

Turkiy xalqlar - o‘zaro til, madaniyat va tarixiy ildiz jihatidan bog‘liq bo‘lgan keng etnik hamjamiyatdir. Ularning adabiyoti uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan bo‘lib, bugungi kunda ham o‘ziga xos estetik qimmat va ma’naviy ahamiyatga ega. XX–XXI asrlarda turkiy xalqlar adabiyoti mustaqillik, milliy o‘zlikni anglash, madaniy uyg‘onish va globallashuv jarayonlarining ta’siri ostida jadal rivojlandi. Shunga qaramay, turkiy xalqlarning zamonaviy adabiyotini chuqur o‘rganish, uni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etish jarayoni hali ham bir qator muammolarga duch kelmoqda. Ushbu maqolada ana shu muammolar tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etishning ayrim yo‘llari taklif etiladi.

1. *Turkiy xalqlar zamonaviy adabiyotining umumiy manzarasi.*

Hozirgi davr turkiy adabiyoti milliy va global jarayonlarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanmoqda. O‘zbek, turk, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur, tatar va boshqa xalqlar yozuvchilari asarlarida insoniyatning umumiy muammolari – erkinlik, adolat, tinchlik, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat, an’anaviylik va modernizm to‘qnashuvi keng ifodasini topmoqda. Yangi adabiy yo‘nalishlar (postmodernizm, realizmning yangi shakllari, raqamli adabiyot) faol rivojlanmoqda. Shu bilan birga, turkiy xalqlarning adabiy an’analarida folklor, xalq og‘zaki ijodi va diniy-falsafiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqlik saqlanib qolgan.

2. *Turkiy xalqlar zamonaviy adabiyotini o‘rganishdagi asosiy muammolar:*

a) Til va tarjima masalasi. Turkiy tillar o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ularning leksik va grammatik tafovutlari asarlarni to‘liq tushunish va tarjima qilishda qiyinchilik tug‘diradi. Ko‘plab zamonaviy asarlar boshqa turkiy tillarga tarjima qilinmagan yoki ularning tarjimalari badiiy jihatdan mukammal emas.

b) Ilmiy integratsiyaning sustligi. Turkiy xalqlar adabiyoti bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ko‘pincha milliy doirada cheklanib qoladi. Umumturkiy adabiy jarayonni o‘rganadigan yagona ilmiy markazlar, konferensiyalar va ma’lumotlar bazalari yetarli emas.

c) Metodologik muammolar. Zamonaviy adabiyot tahlilida yangi nazariy yondashuvlar – semiotika, intertekstual tahlil, madaniyatlararo muloqot konsepsiyasi - yetarli darajada qo‘llanilmayapti. Ko‘plab tadqiqotlar an’anaviy tarixiy-adabiy yondashuv doirasidan chiqmaydi.

d) Yangi adabiy shakllarning o‘rganilmaganligi. Internet, blog, elektron nashr va audiokitoblar shaklida yaratilayotgan asarlar hali ilmiy tadqiqot predmetiga aylanmagan. Raqamli adabiyotning o‘ziga xos badiiy xususiyatlarini o‘rganish zarur.

e) Adabiy aloqalarning sustligi. Turkiy xalqlar yozuvchilari o‘rtasida ijodiy hamkorlik va o‘zaro tanishuv darajasi past. Adabiy tanqid, nashriyot va festival tizimlari o‘rtasida muntazam aloqalar yo‘q.

3. Muammolarni hal etish yo‘llari:

1. Tarjimonlik maktablarini rivojlantirish - turkiy tillararo tarjimalarni kuchaytirish orqali adabiy almashinuvni faollashtirish.

2. Qo‘shma ilmiy markazlar tashkil etish - umumturkiy adabiyot bo‘yicha tadqiqotlar olib boruvchi xalqaro institutlar tuzish.

3. Adabiy festival va forumlarni yo‘lga qo‘yish - yozuvchilar va adabiyotshunoslar o‘rtasida madaniy muloqotni kuchaytirish.

4. Raqamli adabiyot platformalari yaratish - turkiy xalqlar zamonaviy asarlarini onlayn tarzda bir joyda jamlash.

5. Yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash - zamonaviy adabiyot bo‘yicha grant va stipendiyalar joriy etish.

6. Interdisiplinar yondashuvni kengaytirish - adabiyotshunoslikni madaniyatshunoslik, sotsiologiya va media tadqiqotlari bilan uyg‘unlashtirish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Turkiy xalqlar zamonaviy adabiyotini o‘rganish nafaqat filologik, balki madaniy, tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb ilmiy yo‘nalishdir. Ushbu sohadagi asosiy muammo ilmiy integratsiya va zamonaviy metodologiyaning yetishmasligidir. Adabiyotlararo aloqalarni mustahkamlash, tarjima faoliyatini rivojlantirish va raqamli platformalarni yaratish orqali bu muammolarni bosqichma-bosqich hal etish mumkin, deb o‘ylaymiz.

Zamonaviy turkiy adabiyot umumiy ildizlardan oziqlanayotgan, ammo yangi davr ruhini ifodalovchi madaniy hodisadir. Uni tizimli o‘rganish turkiy xalqlarning ma’naviy birligiga, o‘zaro tushunish va madaniy yaqinlashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo‘chqorov N. Zamonaviy o‘zbek adabiy jarayoni. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
2. Eshonqulov R. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixidan. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
3. Qodirov S. Turkiy tillar va adabiyotlararo aloqalar masalalari. – Samarqand: SamDU, 2020.
4. Abdullayeva G. Turkiy adabiyotlarda modernizm va postmodernizm tamoyillari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. B. Ögel. Türk Kültür Tarihine Giriş. – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2003.
6. Çetin N. Çağdaş Türk Dünyası Edebiyatı. — İstanbul: Bilgi Üniversitesi Yayınları, 2018.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA G‘AZALLARI HAQIDA

Nigora Pardayeva,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy
pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: pardayevan7@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada mumtoz she’riyatning eng keng tarqalgan g‘azal janri va uning zamonaviy adabiyotdagi o‘rni xususida ma’lumot berilgan. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek she’riyatining zabardast shoirasi Halima Xudoyberdiyeva ijodida g‘azal janri, uning mazmuni haqida fikr yuritilgan hamda shoiraning g‘azallaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Halima Xudoyberdiyeva, g‘azal, “Funun ul-balog‘a”, muhabbat, hayot o‘tkinchiligi.*

Abstract

The article provides information about the most common genre of classical poetry, the ghazal, and its place in modern literature. It also discusses the ghazal genre and its content in the work of Halima Khudoyberdiyeva, a prominent poet of modern Uzbek poetry. Examples of the poet’s ghazals are given.

Keywords: *Halima Khudoyberdiyeva, ghazal, “Funun ul-baloga”, love, transience of life.*

VII asrda arab adabiyotida paydo bo‘lib, X-XI asrlarda o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan Sharq mumtoz she’riyatida keng tarqalgan janr – bu g‘azaldir. G‘azal arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “ayollarni madh etish”, “ayollarga xushomad qilish” kabi ma’nolarni anglatadi. Shuningdek, Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarida shoirlar ijodiy tajribasidan kelib chiqib, she’rning 10 turini tan oladi va quyidagicha mulohaza bildiradi: “Bilgilkim, majmui shuaro istilohinda she’rning aqsomi (qismlari), ul kim mo‘tabardur, o‘n nav kelibdur: qasida, g‘azal, qit’a, ruboiy, masnaviy, tarje, musammat, mustazod, mutavval, fard” [Taroziy, 2002: 2].

O‘zbek mumtoz adabiyotida g‘azal janrida qalam tebratmagan ijodkor deyarli yo‘q. Jumladan, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira, Anbar otin singari shoir-u shoiralar g‘azal rivojiga katta hissa qo‘shganlar.

Mumtoz adabiyot sarchashmalari bugungi adabiyotimiz ijodkorlari ijodiga ham ta’sir etmay qolgani yo‘q. Mumtoz ijodkorlar asarlarini puxta o‘rgangan, undan ma’naviy ozuqa olib, ularning an’analarini davom ettirayotgan ijodkorlar zamonaviy adabiyot vakillari orasida talaygina. Shunday ijodkorlardan biri shoira Halima Xudoyberdiyevadir. Shoira ijod laboratoriyasi bilan yaqindan tanishar ekanmiz, uning zamonaviy she’riy janrlar bilan bir qatorda mumtoz janrlar sanalgan g‘azal, musallas, muxammas, musaddas janrlarida ham samarali ijod qilganining guvohi bo‘lamiz. Ijodkorning nashr etilgan barcha she’riy to‘plamlarida buyuk shoir Alisher Navoiy yuksakka ko‘targan g‘azal janriga mansub asarlari joy olgan. Jumladan, 1976-yilda chop etilgan “Suyanch tog‘larim” kitobida “Men shu tuproq kuychisiman”, “Yigit, cho‘yan quymasidan chayir bel”; “Sadoqat” to‘plamida “Xoh arzi, xoh arzimagil”; “Muqaddas ayol” kitobida “Xavotir”, “Ko‘kragi dog‘lilarga”, “Siz mixsiz”; “Bu kunlarga yetganlar bor” to‘plamida “Tasalli”, “Nimadir bu, ketayotgan nimadir”, “Bo‘zlayotgan jonim qushi...”, “Hayot maydonlarida”, “Bexato so‘z”; “To‘marisning aytgan kitobi” asarida “Qizg‘anish”, “Yonar kunlar”, “Ozod et”, “Garchand Olloh”, “Men oh ursam”, 2001-yilda nashr etilgan “Saylanma” kitobida “Oshiqlik sizdan o‘tardi”, “Aytolmadim”, “Bilmassiz” va boshqalar.

G‘azallar dastlab ishq, muhabbat, sevgi haqida yaratilgan, lekin keyinchalik ularning mavzu ko‘lami doimiy tarzda kengayib borgan. Halima Xudoyberdiyeva g‘azallarining ham ayrimlari muhabbatga bag‘ishlansa, ba’zilari o‘z hasbi holidan xabar beradi, yana bir navi pand-nasihat, ijtimoiy

mazmun kasb etadi, ya'ni shoira g'azallarining mavzu ko'lami keng.

Halima Xudoyberdiyeva inson yashashi davomida baxt va shodlik, xursandchilik, g'am-u anduh, hasrat, qiyinchiliklarga duch kelishi, ularni yengib o'tish, hayotning o'tkinchi ekanligini bir qancha g'azallarida tasvirlaydi. Yetti baytli "Mening kabi..." g'azalida ijodkor shunday yozadi:

Borarga bor, qaytar joydan qaytaver Sen,
Mendek yozda yo'lingda muz to'ngan emas.

Hammaga yoq, shodon qo'shiq aytaver Sen,
Yo'llaringda hali tikan ungan emas.

Bir boshingda ming xayol yo'q, termoq uchun
Ko'ngling ming bir bo'lak bo'lib singan emas [Xudoyberdiyeva, 2018: 9].

Yoki to'qqiz baytdan iborat "Bo'zlayotgan jonim qushi..." g'azalida mana bunday yozadi:

Sel, el tinar, manim nolam tinarmukin?
Va yo nolam faqat o'zni tirnarmukin?
Sho'r suvlardan sho'rroq ko'zim yoshlaridan
Yer sug'orsam, biror giyoh unarmukin?
Bir yorug' kun ko'rarmanmi bu dunyoda,
Yo dun hanuz irodamni sinarmukin? [Xudoyberdiyeva, 1993: 24].

Muhabbat insonni yuksaltiruvchi, hayotga, yashashga muhabbatini kuchaytiruvchi ilohiy tuyg'u. Shoira sevgini, oshiqlikni olqishlaydi. Uningsiz hayotning mazmunsiz, dunyoni esa qora zulmat qoplashini betakror misralar orqali tasvirlaydi.

Oshiqlik sizdan o'tardi, ma'shuqalik bizdanam,
Bugun yiroqdasiz, dil muz, eruv bilmas muz tanam.
Sizdan ayru tushgan kundan bor dunyodan ayru Men,

Ketayotgan dushmandanam, kelayotgan do'stdanam.
Hijron seli beldan o'tdi, ko'ksim, bo'g'zimga yetdi,
Keling, men g'arq bo'lmay keling, ayrilmayin o'zdanam [Xudoyberdiyeva, 2018: 191].

Yoki

Sizga ishqim yuz ishq erdi, men birin aytolmadim,
Yuz ishqim-la yuzlasholmay, bir sirim aytolmadim.

Balki sizam ko'nglingizga chorlagandirsiz meni,
Chiqdim, bori chetga chiqdim, bir kirim aytolmadim [Xudoyberdiyeva, 2018: 191].

Shoira g'azallarining qofiyalanish tartibi a-a, b-a, v-a ("Oshiqlik sizdan o'tardi..", "Bo'zlayotgan jonim qushi...", "Tasalli", "Toqqa ketdi, cho'lga ketdi karvonim", "Bilmassiz", "Aytolmadim", "Garchand Olloh...", "Yonar kunlar", "hayot maydonlarida"); b-a, v-a, g-a ("Tirik qo'ng'iroqlar", "Ozod et", "Qizg'anish"); a-a, b-b, v-v ("Ko'nglimdagi arslon"); a-b, a-b, a-b ("Men oh ursam...") tarzidadir.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Halima Xudoyberdiyeva g'azallari badiiyatini, uning mazmuni, misralarda qo'llangan badiiy tasvir va ifoda vositalarini tahlil qilish, shuningdek, shoira ijodiy merosini chuqur o'rganish, asarlari janrlarini tadqiq etish, unda ijodkorning badiiy niyati, estetik qarashlarini, lirikasidagi obrazlar tizimi o'rganish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberdiyeva H. Suyanch tog'larim. – Toshkent: G'.G'ulom, 1976.
2. Xudoyberdiyeva H. Sadoqat. – Toshkent: G'.G'ulom, 1983.
3. Xudoyberdiyeva H. Muqaddas ayol. – Toshkent: G'.G'ulom, 1987.
4. Xudoyberdiyeva H. Bu kunlarga yetganlar bor. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1993.
5. Xudoyberdiyeva H. To'marisning aytgani. – Toshkent: Sharq, 1996.
6. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. 1, 2, 3, 4-jildlik. – Toshkent: G'.G'ulom. 2018.

OYBEK TADQIQOTLARIDA O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI MASALALARINING YORITILISHI

Hamroyeva Orzigul Jalolovna,
Filologiya fanlari doktori, professor v.b.,
ToshDO‘TAU

Annotatsiya

Muso Toshmuhammad Oybek shoir, yozuvchi bo‘lishi bilan birga adabiyot tarixi borasida yirik tadqiqotlar muallifi sifatida o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida o‘z o‘rniga ega olim hamdir. Oybekning adabiy-tanqidiy maqolalari davr adabiy va ilmiy jarayonining mahsuli sifatida turli rakurslarda tadqiq etilgan. Oybek “Mukammal asarlar to‘plami” 20 jildlikning 13-14-jildlariga olimning adabiy-tanqidiy, ilmiy-tahliliy tadqiqot, tezis, qayd va maqolalari jamlangan bo‘lib, bu Oybek ilmiy tadqiqotlari salmoqli hajmga ega ekanligini ko‘rsatadi. Maqolada Oybekning o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixiga tadqiq etilgan maqolalari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *maqola, risola, tazkira, poetika, adabiyot nazariyasi, vazn, nazm, nasr.*

Abstract

Musa Tashmuhammad Oybek, in addition to being a poet and writer, is also a scientist who has a place in the history of Uzbek literary studies as the author of major studies on the history of literature. Oybek’s literary and critical articles have been studied from various perspectives as a product of the literary and scientific process of the period. Volumes 13-14 of Oybek’s 20-volume “Complete Collection of Works” contain the scholar’s literary and critical, scientific and analytical research, theses, notes and articles, which shows that Oybek’s scientific research is of considerable volume. The article studies Oybek’s researched articles on the history of Uzbek classical literature.

Keywords: *article, treatise, commentary, poetics, literary theory, lyric, prose.*

30-40-yillar adabiyotshunosligi xususida to‘xtalganda, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek tadqiqotlari, xususan, uning Navoiy hayoti va ijodi, lirik merosi tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy merosini bu davrning muhim manbasi sifatida ko‘rsatish lozim. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Oybekning Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlab yaratilgan tadqiqoti Navoiy shaxsiyati va ijodi keng ko‘lamda o‘rganilgan muhim ilmiy-tahliliy manbalardir. Oybek Alisher Navoiyning o‘zbek adabiyoti tarixidagi o‘rnini belgilash, ko‘rsatish maqsadida adabiyot tarixining turli davrlarida yashab ijod etgan ijod ahli va ularning ijodiy merosi xususida umumiy tavsif va chuqur ilmiy tahlil shaklidagi maqola, risola, qayd, tezis, tadqiqotlar yaratdi.

Oybekning “O‘zbek poeziyasining tarixiy taraqqiyoti to‘g‘risida”, “Adabiyot qoidalari”, “Tanqid sohasida savodsizlik va ur-yiqitchilikka qarshi o‘t ochaylik”, “Sotsialistik lirika uchun”, “So‘nggi yillarda o‘zbek poeziyasi”, “O‘zbek poeziyasida tiz”, “G‘afur haqida”, “Abdulla Qodiriyning ijod yo‘li”, “O‘zbek adabiyoti”, “Chexov va o‘zbek adabiyoti”, “O‘zbek xalqining adabiyoti va san’ati”, “Jalolidddin” dramasi haqida”, “Shoir haqida” kabi 30ga yaqin maqolalarida adabiy jarayondagi yangilanishlar xususida ilmiy-tahliliy xulosalar taqdim etiladi.

Oybekning *“O‘zbek poeziyasining tarixiy taraqqiyoti to‘g‘risida”* maqolasida turkiy she’riyatning asos mavzu va obrazlar tizimi adabiy ta’sir, an’anaviy obraz va sayyor syujet kesimida tahlil qilingan [Oybek, 1979: 19]. Turkiy she’riyatning arab, fors she’riyati ta’sirida shakllanishi davriy ketma-ketlik asosida asoslangan. Olim turkiy she’riyat shakllanishining dastlabki bosqichi sifatida X asrgacha bo‘lgan davrni keltiradi. Bu davr she’riyati arab tili va arab adabiyoti ta’sirida shakllangan bir davr sifatida O‘rta Osiyo xalqlari orasida islom dinining tarqalishi ularning urf-odatlari va madaniyatlariga katta o‘zgartirish kiritgani bilan baholanadi. O‘rta Osiyoning mashhur shoir va olimlari Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Imom G‘azzoliylarning o‘z asarlarini arab tilida yozganliklari buning dalili sifatida keltiriladi. Oybekning fikriga ko‘ra, bu davr madaniyati faqatgina arab madaniyati va urf-odati

bilan bog‘liq emas, yangicha boy madaniyat va urf-odatning shakllanishida turkiy xalqlarning ham o‘rni katta. Oybek IX asr oxirlaridan boshlab arab tili va madaniyatining ta’siri chekinib, fors tili va madaniyati turkiy xalqlar orasida yoyila boshlaganini ta’kidlab, bu turkiy she’riyat taraqqiyot bosqichining ikkinchi – muhim davri ekanligini dalillaydi. Ma’lumki, turkiy adabiyotda arab va fors tilining ta’siri yozma adabiyotda ko‘zga tashlanadi. Biroq turkiy adabiyot bu ikki madaniyat ta’siridan oldin ham og‘zaki shakldagi boy madaniyat va adabiyotga ega edi. Maqolada yozma adabiyot kirib kelishidan oldingi og‘zaki adabiyotning qo‘shiq, doston, ertak janrlari, ularning janr imkoniyatlari: mavzusi, obrazlar tizimi, kompozitsion qurilishi, syujet chizig‘i, turli jihatlariga ko‘ra turlari kabi ilmiy-nazariya qonuniyatlari borasida bahsga kirishiladi. Oybek turkiy dostonlar genezisi xususida to‘xtalar ekan, turkman, qozoq, qoraqalpoq xalqlari orasidagi mashhur dostonlar va ularning variantlari, bilan qiyoslaydi, dostonlardagi variantlilik masalasi asosida fikrini dalillaydi. Bu borada olimning “Alpomish” dostoni bilan bog‘liq kichik tadqiqoti e’tiborga molik.

Oybek maqolada xalq qo‘shiqlari va ularning yaratilish tarixi, manbalari xususida to‘xtalar ekan, ularning asosiy namunalari Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” uchrashi, asardagi lirik parchalar turkiy adabiyotning ilk she’riy shakllari ekanligi xususida to‘xtaladi. Maqolada keyingi davr adabiyoti namunalari sifatida qoraxoniylar sulolasi hukmronligida yaratilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” va Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlari keltiriladi, asarlar mazmun-mohiyati, yozilishi uslubi asosida davr adabiy jarayoni va uslubi borasida xulosalar chiqariladi. Xususan, “Qutadg‘u bilig”(“Qutli bilim”[26]) boy obrazlar tizimga ega islom dini tashviqotiga bag‘ishlangan asar sifatida taqdim qilinsa, “Hibat ul-haqoyiq” asari xalq she’riyatiga xos soddalik, o‘ynoqilik, obrazlilikdan xoli asar sifatida baholanadi. Oybek turkiy adabiyot Ahmad Yassaviydan keyingi XIII asr – mo‘g‘ullar istilosining bir yarim asrlik davrida turg‘unlikka tushib qolganligini ta’kidlar ekan, olimning bu qarashlari o‘zidan oldingi olimlar, xususan, Abdurauf Fitrat qarashlari bilan aynan ekanligi ko‘rinadi [Fitrat, 2013]. Bu davrda yaratilgan asarlar son jihatidan oz, badiiy jihatdan sayoz bo‘lib, maqolada Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari bu davrning noyob, badiiy yuksak she’riy parchalarning keltirilishi va o‘zbek tilining tashkil topishi, rivojlanish tarixini belgilashda muhim manba ekanligi qayd etiladi. Oybek bu davr mahsuli sifatida Xorazmiyning “Muhabbatnoma”siga yuqori baho beradi. Olimning ta’kidlashicha, asar “mistik va diniy va’zxonlikdan xoli”, o‘zbek she’riyatida yangilik - oshiqlarning chekkan azoblari, dard-hasratlari noma shaklida ifoda etilgan. Asarning tili va ifodasi xalq tili va ifodasiga yaqinligi uchun ham keyingi davrlarda bu asarga javob tariqasida bir qancha asarlar yaratilgan.

Oybek temuriylar davri adabiyoti va uning o‘ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqishda Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Alisher Navoiy ijodiga suyanadi. Olim bu davr adabiyotining yangiligi sifatida o‘rta asarlarda hukm surgan “diniy-axloq ramkasidan chiqishga intilish”ni ko‘rsatadi. Oybekning fikriga ko‘ra bu davr shoirlari “dunyoga so‘fiyona qarashdan voz kechib, dunyoviy zavq, tabiat, ishq va oshiqlik haqida kuyladilar” [Oybek, 1979: 24]. Maqolada davr adabiyotining o‘ziga xosligini ta’minlashda Alisher Navoiyning hissasi katta ekanligi shoirning turkiy she’riyatda mavzu va mundarija torligini yo‘qotib, unga chuqur falsafiy va ijtimoiy mazmun olib kirgani bilan asoslanadi.

Oybek maqolada Durbekning “Yusuf va Zulayxo” dostoni xususida to‘xtaladi. Afsuski, Oybek “Yusuf va Zulayxo” dostoni haqidagi ma’lumotlarni keltirishda o‘zidan oldingi mavjud chalkash ma’lumotlarga tayangan. Bugungi kun tadqiqotlari, qo‘lyozma manbalarni kuzatish, solishtirish, qiyosiy o‘rganish natijasida bu asar Durbek emas, Homidiy Balxiy tomonidan yaratilgani, Shaxzoda Temur(Shayboniyxonning o‘g‘li)ga bag‘ishlangani aniqlangan. Adabiyot tarixida turkiy “Yusuf va Zulayxo” dostonidan parcha keltirish Abdurauf Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasida uchraydi [Fitrat, 2013]. Fitrat majmua qismlariga yozgan so‘zboshisida asar XV asrda

[26] Ойбек “Қутадғу билиг”ни “Қутли билим” шаклида келтиради.

Durbek tomonidan yozilgani, Amir Temurga bag‘ishlangani, 1409-yildagi Balx qamali voqealari keltirilgani kabi ma’lumotlarni keltiradi. Fitrat keltirilgan bu ma’lumotlar keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lgani “Adabiyot tarixi” xrestomatiyalari va bir qancha maqolalardagi ma’lumotlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Xususan, Oybek maqolasida ham bu ma’lumotlar aynan keltirilgan.

Oybek har bir shoirning o‘ziga xos uslubi borasida to‘xtaladi: Sakkokiy lirikasi sxolastik yondashuvdan bosh tortib, diniy ruhdan uzoqlashib, dunyoviy lirikaning kuchayishi bilan; Atoiy lirikasi kutilmagan paytda dabdabali uslubdan realistik detalga o‘tishi bilan; Lutfiy lirikasi ko‘z qamashtiradigan darajada rangdor va porloq ekanligi bilan ajralib turishi asoslanadi.

Oybek Alisher Navoiy asarlari xususida batafsil to‘xtaladi, shoir lirik merosi, tazkiralari, dostonlari va shoir asarlarining mohiyati borasida ma’lumot keltirish bilan Alisher Navoiyning davr adabiy muhitidagi o‘rnini belgilab beradi. Olim Navoiydan keyingi davrda Bobur o‘zbek adabiy tilini rivojlantirishda, turkiy she’riyatda realistik tendensiyalarni ishlab chiqishda muhim o‘rin tutganini ta’kidlaydi, Bobur lirikasining cho‘qqisi – ruboiylari, “Boburnoma” xususida to‘xtaladi. Oybek XV asrning muhim manbalaridan biri sifatida Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostonini o‘z davri realistik ahvolini aks ettirgan dastlabki manba sifatida ko‘rsatadi. Olim XVI asr adabiyotini – diniy-mistik motivlar ustunlik qilgan pisimizm adabiyoti, bu davr ijodkorlarining asarlari esa taqliddan nariga o‘tolmagan asarlar sifatida keltiradi.

Oybekning “O‘zbek poeziyasining tarixiy taraqqiyoti to‘g‘risida” maqolasida XVII asr adabiyoti namunalari sifatida Turdi Farog‘iy, Majlisiy, Mashrab ijodi, XVII-XVIII asr adabiyoti, xonliklar davri adabiyotining ajralishi, o‘ziga xos xususiyatlari Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Amiriy, Fazliy, Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Gulxaniy kabi ijodkorlar, XIX asr adabiyoti Furqat, Muqimiy ijodi misolida tahlil qilinadi. Olim XX asr boshlari adabiy jarayoni: adabiy tur va janrlarning yangilanishi, vaznlar almashinuvi, obraz va mazmunning yangilanishi xususida to‘xtalar ekan, o‘zbek sovet poeziyasining qaldirg‘ochi ijodkori sifatida Hamza asarlarini tahlilga tortadi. G‘afur G‘ulom, Maqsud Shayxzoda, Uyg‘un, Hamid Olimjon, Sobir Abdulla, Mirtemir kabi zamondosh ijodkorlar bilan birga ijodiy yangilanish olib kirayotgan yosh shoirlar: Temur Fattoh, Amin Umariy, Zulfiya, Hamid G‘ulom, Jumaniyoz Sharifiy va ularning ijod yo‘sini xususida to‘xtaladi.

Oybekning “O‘zbek adabiyoti” maqolasi “O‘zbek poeziyasining tarixiy taraqqiyoti to‘g‘risida” maqolasining mantiqiy davomi sifatida o‘zbek adabiyoti, davriy o‘zgarishlar umumiy tavsif xarakterida taqdim qilinadi [Oybek, 1979: 183]. Olim turkiy adabiyotning shakllanish bosqichlarini ixcham shaklda tahlil qilar ekan, o‘zbek sovet nasri, poeziyasi, dramaturgiyasiga alohida e’tibor qaratadi, asosiy e’tiborni davr adabiy muhitidagi yangiliklarga qaratadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Oybek ilmiy-nazariy, adabiy-tanqidiy qarashlari aks etgan muhim tadqiqotlari orasida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlari tahlilning chuqurligi, ilmiyligi bilan ajralib turadi. Xususan, “Navoiy haqida”, “Navoiyning tarjimayi holi”, “Xamsa”ning asosiy obrazlari”, “Navoiyning dunyoqarashi masalasiga doir”, “Navoiyning “Majolis un-nafois” asari haqida”, “Navoiyning adabiy merosi masalasiga doir”, “Cheksiz umr”, “Buyuk gumanist”, “Ulug‘ shoir va gumanist haqida”, “Alisher Navoiy” kabi maqolalarida olimning buyuk navoiyshunos sifatida ilmiy-nazariy, tahliliy xulosalari keltirilgan [Oybek, 1979: 183]. Olim tadqiqotlarining yaratilishi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Oybek dastlab o‘zi tadqiq etmoqchi bo‘lgan mavzusi, o‘rganmoqchi bo‘lgan obyekti yuzasidan ma’lumotlar yig‘gan, ma’lumotlar bazasini shakllantirgan. Olim qo‘lyozmalari orasidagi eng ko‘p asarlar ana shunday tadqiqotlar uchun material vazifasini bajaruvchi qayd, tezis va planlardan iborat. Olimlar Oybek adabiy merosining janr imkoniyatlarini ko‘rsatishda maqola va tadqiqotlarining yaratilishiga asos bo‘lgan materiallarni shartli ravishda *tadqiqotlarga tayyorgarlik, tadqiqotlar ustidagi ish, qaydlar, planlar, tezislar* nomi ostida keltirishadi [Oybek, 1979].

*Tadqiqotlarga tayyorgarlik, tadqiqotlar ustidagi ish, qaydlar, planlar, tezis*larning aksariyati

Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid ma'lumotlardan iborat bo'lib, Oybekning 10dan ortiq ilmiy maqolalariga asos bo'lgan. Maqolalarda uzviylik asosida Navoiy shaxs, olim, shoir, davlat arbobi sifatida kashf etiladi. Maqolalar o'ziga xos strukturaga ega:

Kirish;

Asosiy qism: mulohaza, tahlil;

Xulosa.

Oybekning "Navoiy haqida" yirik tadqiqoti ham ana shu qurilish asosiga qurilgan. Tadqiqot tarkibidagi kichik sarlavhali qismlar o'ziga xos ilmiy tasnifga ega: "Navoiyning hayoti va faoliyati haqida", "G'azaliyoti", "Dostonlar". Olim dastlab temuriylar sulolasi barpo etgan saltanat va uning tarix sahnasida o'rni, Xuroson, Movarounnahr, Hirot, Samarqandning san'at, madaniyat, adabiyot markaziga aylanishi bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy jarayon xususida to'xtaladi, bu orqali temuriylar davridagi adabiyot, san'at, ilm-fanga e'tibor, muhit Navoiydek buyuk ijodkorning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etganini asoslaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Oybekning adabiyot tarixiga oid maqolalari olimning adabiyot tarixini davrlashtirish, davr adabiy muhitining o'ziga xos xususiyatlarini belgilash, adabiy jarayon va ijodkor uslubi kabi ilmiy hodisalar xususida olimning ilmiy-tahliliy xulosalarini taqdim etishi bilan adabiyotshunoslikda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitrat. O'zbek adabiyotni namunalari. 1-jild. (Nashrga tayyorlovchi O.Hamroyeva). – T.: Mumtoz so'z. 2013.

2. Oybek. O'zbek poeziyasining tarixiy taraqqiyoti to'g'risida // Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 14-jild. – T: Fan, 1979.

3. Oybek. O'zbek adabiyoti // Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 14-jild. –T: Fan, 1979 .

4. Hamroyeva O.J. Fitratning adabiyotshunoslikka oid qarashlari. – T: Bookprint, 2023.

ONA OBRAZINING BADIIY TALQINI

Latofat Tajibayeva,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
e-mail: latofattajiboyeva@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada turkiy va o'zbek adabiyotida ona obrazining badiiy talqini tahlil etiladi. O'rxun-Enasoy bitiklari, "Kitobi Dada Qo'rqut", "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiy hamda Sirojiddin Sayyid ijodi misolida ona siymosining estetik, axloqiy va ma'naviy mohiyati yoritiladi. Tadqiqotda ona obrazining milliy tafakkur va ma'naviy qadriyatlar tizimidagi muhim o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *ona obrazi, turkiy adabiyot, mumtoz adabiyot, Alisher Navoiy, "Qutadg'u bilig", Sirojiddin Sayyid, badiiy talqin, ma'naviy qadriyat.*

Abstract

This article analyzes the artistic interpretation of the image of the mother in Turkic and Uzbek literature. Based on the Orkhon -Yenisei inscriptions, The Book of Dede Korkut, Kutadgu Bilig, and the works of Alisher Navoi and Sirojiddin Sayyid, the study reveals the moral, aesthetic, and spiritual significance of the mother figure. The research highlights the role of this image in shaping national consciousness and spiritual values.

Keywords: *image of the mother, Turkic literature, classical literature, Alisher Navoi, Sirojiddin Sayyid, artistic interpretation.*

Sharq musulmon olamida ayolga, ayniqsa, ona obraziga berilgan yuksak hurmatning badiiy aksini, eng avvalo, adabiy asarlarda kuzatish mumkin. Ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan turkiy xalqlar adabiyotini o'rganish nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, ildizlari eng qadimgi davrlarga borib taqalishi hech kimga sir emas. Turkiy adabiyotining tarixiy taraqqiyoti borasida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilk yozma manbalar sifatida e'tirof etiladigan O'rxun-Enasoy bitiklarida xoqonlarning o'z onalari haqida ma'lumot berishi ona motivining turkiy adabiy tafakkurda dastlabki davrlardanoq muhim estetik va ma'naviy ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi.

O'rxun-Enasoy bitiklaridan keyingi davrda yuzaga kelgan "Kitobi Dada Qo'rqut" ("Qo'rqut ota kitobi"), turkiy xalqlar dostonlari hamda "Qutadg'u bilig" kabi yirik adabiy yodgorliklarda ham ona haqqiga bo'lgan e'tibor yuksak baholanadi. Ushbu asarlarda ona obrazi voqealar rivojiga faol ta'sir ko'rsatuvchi, qahramon taqdirini belgilovchi va axloqiy-me'yoriy mezonlarni ifodalovchi markaziy obrazlardan biri sifatida talqin etiladi.

Ona obrazining arxetipik mohiyatga ega ekanligi sababli ushbu obraz ko'plab adabiy asarlarda barqaror tip sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, "Kitobi Dada Qo'rqut" ("Qo'rqut ota kitobi") da O'g'uz beklari onalarining yetakchi va yo'naltiruvchi rollari badiiy jihatdan puxta yoritilgan. Hikoyalarning aksariyatida bosh qahramon bilan uning onasi o'rtasidagi dialoglar muhim poetik vazifa bajaradi. Murakkab vaziyatga tushgan qahramonning najoti aynan ona timsoli orqali ta'minlanadi. "Qutadg'u bilig" asarida esa pand-nasihat ruhidagi bo'limlarda ona haqqi axloqiy qadriyat sifatida alohida ta'kidlanadi. Bu holat turkiy xalqlarda ona siymosiga azaldan yuksak e'tibor berib kelinganini tasdiqlaydi.

"Qutadg'u bilig" asarida ona obrazi bilan bog'liq masalalar muayyan darajada yoritilgan. Asarda ona motivi ko'pincha ota obrazi bilan birga qo'llanadi. Xususan, farzand tarbiyasi masalasiga bag'ishlangan tasvirlarda ota-onaning mas'uliyati alohida qayd etiladi. Vazir va uning o'g'li o'rtasidagi suhbatda vazir farzandiga nasihat qilar ekan, ota-onaning tarbiyadagi o'rnini quyidagicha ifodalaydi:

Ota bolani nazoratda tutsa, u yaxshi ezgu bo'ladi.

Otasi va onasining yuzi yorug‘ bo‘ladi.

Ushbu misralarda bolaga berilgan yaxshi tarbiya, avvalo, ota-onaning baxt-saodatiga sabab bo‘lishi ta’kidlanadi. Xuddi shu mazmunga yaqin boshqa bir baytda ham farzand xarakterining shakllanishida ota va onaning hal qiluvchi o‘rni borligi qayd etiladi. Umuman, “Qutadg‘u bilig” asarida ona obrazi hayotning boshlanish nuqtasi, mehr-shafqat manbai va inson kamolotining asosiy omillaridan biri sifatida talqin etilganini ko‘rish mumkin.

Mumtoz adabiyotimizda ham ona obrazi alohida ehtirom va yuksak ma’naviy qadriyat sifatida talqin etilgan. Adabiyotshunos olim N. Jabborov hazrat Navoiy asarlarida ona obrazi tasvirini shartli ravishda ikki asosiy yo‘nalishda o‘rganish mumkinligini ta’kidlaydi: ***“1) omma hayotida ona obrazi; 2) xoslar – podshohlar va avliyolar taqdirida onaning o‘rni. Har ikki turda ham ona obrazi tasviri ikki asosga – birinchidan, milliy ruhga, millatimizning asl tabiatida azaliy bo‘lgan onaga ehtirom tuyg‘usiga; ikkinchidan, Qur’oni karim va hadisi sharif ahkomlariga tayanadi”*** [Jabborov, 2021:158]. Olim Navoiy asarlaridagi ona obrazini tahlil qilar ekan, ayniqsa, shoirning lirik merosida onaga ehtirom ko‘rsatish inson zimmasidagi muqaddas burch sifatida talqin etilishiga alohida e’tibor qaratadi. “Hazrat Navoiy lirik she’rlarida ham onaga ehtirom ko‘rsatish burch ekani, falak olamni yoritgani kabi ona inson hayotiga nur bag‘ishlashi, shaxs kamolotida beqiyos o‘rin tutishi teran mazmun va go‘zal badiiy shakl uyg‘unligida yoritiladi. Ulug‘ shoir e’tiqodicha, ona – Haq taolo nazdidagi eng mumtoz va mo‘tabar siymo” [Jabborov, 2021:159]. Shu jihatdan, Navoiy ijodida ona obrazi nafaqat oilaviy-axloqiy qadriyat timsoli, balki inson va jamiyat kamolotining ma’naviy asoslaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu talqin mumtoz adabiyotimizda onaga bo‘lgan munosabatning qanchalik yuksak va muqaddas darajada ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, Navoiy ijodida ona va ayol obrazi axloqiy, diniy va falsafiy qarashlar chorrahasida yuksak badiiy umumlashmaga ega bo‘lib, u inson kamoloti va jamiyat barqarorligining asosiy tayanchlaridan biri sifatida talqin etiladi.

Sirojiddin Sayyid she’riyatining eng nafis, eng yoqimli va eng hushbo‘y iforli misralari ona siymosi, ona mehri bilan ziynatlangan misralardir. Shoir she’rlarini o‘qir ekanmiz, onaning buyuk muhabbatini, cheksiz mehrining qudratini va ona tarbiyasining hikmatini his qilamiz. Shoir fitratidagi insonsevarlik, tabiatidagi xalqparvarlik va qalbidagi go‘zallik onaning qalb quyoshidan nurlangan, mehr to‘la so‘zlaridan jilolangan bo‘lsa ajab emas.

Keltirdi tong chog‘i bir
sabo va bir qush xabar,
Ochilmish bahorning ilk
boychechak gulchalari.
Lekin, men uchun eng zo‘r,
eng quvonchli xushxabar –
Onamning kulchalari.

Shoir qirqqa kirsa ham, ellikka kirsa ham, hamon bola. Hamon onasining kulchalariga ovunadigan, sevinadigan darajada beg‘ubor qalb egasi:

Porlab ketar ro‘zg‘orim,
yorishgay iliq-iliq,
Ko‘nglimning muzlab yotgan
eng tiyra go‘shalari.
Har gal umid keltirgay,
keltirgaydir tiriklik –
Onamning kulchalari,
Onamning kulchalari.

Qay maskanda, qay holatda bo‘lmaylik, ona bag‘ridan iliq, ona diydoridan totli halovat

topolmaymiz. Inson necha yoshga kirsa ham, qanday ulug‘ martabaga erishsa ham, mudomi ona diydoriga talpinadi, go‘daklik chog‘ida onaga qanchalik ehtiyoj tuygan bo‘lsa, oradan qancha vaqt o‘tsa-da, o‘sha ehtiyoj so‘nmaydi. Borgan sari kattayib boraveradi. Qalbimiz, ruhimiz onamiz mehriga go‘dak yanglig‘ muhtojligicha qolaveradi. Aytishlaricha, endi tug‘ilgan chaqaloq onasini hididan tanir, agar u hid uzoqlashsa, bezovta bo‘lib yig‘lar ekan. Ammo inson ulg‘ayib, ellik, oltmish yoshlarga kirganida ham onasidan yiroqlashsa, qalbida halovat bo‘lmaydi. Hayotida nimadir kemtikdek tuyulaverdi. Chunki ona bergan mehr-muhabbatni hech bir zot berolmaydi. Shu bois ham onamiz tashrif buyursa, *“Porlab ketar ro‘zg‘orim”*iz, chunki onajonlarimiz “*Har gal umid keltirgay, keltirgaydir tiriklik!”*.

Turk xalqida shunday maqol bor: *“Onaning yomoni bo‘lmaydi, eng yomoni onasizlikdir”.* Chunki murg‘ak vujudimiz his qilgan ilk mehr, ilk hissiyot, ilk insoniylik nashidasi ona qornida ro‘y beradi. Ona bag‘rida insoniylikdan saboq olamiz, ulg‘ayamiz, voyaga yetamiz. Faqat uning bag‘ridagina huzur-halovat topamiz:

Ayriliq-hijronlarga
to‘lig‘ umrim maktabi,
Ravshan tortgay uning eng
zim-ziyo ko‘chalari.
Qirq yilkim taskin bergay
eng taskin diydor kabi-
Onamning kulchalari,
Onamning kulchalari.

Ona – hayoting zulmatga cho‘mganda, uni qalbidagi mehr uchquni bilan yoritgan, ko‘zlariga yosh quyilib kelgan onda ham, uni senga ko‘rsatmay, ko‘zlari ortidagi ummonga g‘arq qila olgan, yaralangan, jarohatlangan ruhini, tilka-pora bo‘lgan bag‘rini oshkor etmasdan, boshini egmasdan, farzandiga tabassumini ko‘rsata bilgan insondir. Ona har kuni olov ustida yalangoyoq yursa ham, jonim og‘riyapti demay, qat’iyat bilan yashay olgan insondir! Mana, nima uchun Allohdan keyingi eng sevikli va qadrli zot Ona hisoblanadi. Mana, nima uchun biz hamish ona diydoriga oshiqamiz. Mana, nima uchun ming yillar davomida shoirlar she’rlarining eng go‘zal va betakror misralari onalar haqida.

Alisher Navoiy ijodida ona obrazi diniy-falsafiy va axloqiy qarashlar bilan uyg‘un holda yuksak estetik darajaga ko‘tarilgan bo‘lsa, Sirojiddin Sayyid she’riyatida u samimiy lirik kechinmalar orqali zamonaviy ruhda talqin etiladi. Demak, ona obrazi turli tarixiy davr va badiiy tafakkur bosqichlarida mazmunan boyib, shaklan rang-baranglashib borgan holda, o‘zbek adabiyotining uzviy va davomiy ma’naviy-estetik qadriyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. – T.: Adabiyot, 2021. – 230 bet.
2. Jabborov N. Zamon, mezon, she’riyat. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 304 b.
3. S.Sayyid. Ko‘ngil sohili. – Toshkent – 2004

ADIBLARNING SO‘Z HAQIDAGI QARASHLARI

Anvarjon Yuldashev,
Farg‘ona davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: anvar_mirzo1972@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada insoniyatga hadya etilgan buyuk ne’matlardan biri, til yoki nutqning asosiy birligi, badiiy adabiyotning bosh quroli – so‘z haqda bahs yuritiladi. So‘z yozuvchining doimiy hamrohi. Shuning uchun so‘z qadrini bilish, so‘z qudratini his qililish, uni mahoratli tarzda qo‘llay olish, u orqali o‘z g‘oyalarini insoniyatga yetkazish, jamiyatning orzu-umid va istaklarini, tarixiy o‘tmishini, orzumand kelajagini butun borlig‘i bilan yoritib berish adiblarning bosh vazifasi sifatida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: so‘z qudrati, so‘z – kuch, so‘z – qurol, so‘z sehri, so‘z mas’uliyati, so‘z – nur, so‘z – o‘zlik.

Abstract

The article discusses one of the greatest gifts bestowed upon humanity, the word, the basic unit of language or speech, and the main tool of fiction. Words are the constant companion of the writer. Therefore, knowing the value of words, feeling their power, being able to use them skillfully, and through them conveying their ideas to humanity, illuminating the hopes and desires of society, its historical past, and its dreamy future with all their being, is interpreted as the main task of writers.

Keywords: word power, word – power, word – weapon, word magic, word responsibility, word – light, word – identity.

So‘z badiiy adabiyotning bosh va muhim ish quroli, asosiy materiali, borliqni ifodalovchi manbadir. Shuning uchun ham badiiy adabiyot so‘z kabi buyuk ne’matdan unumli foydalana olgani, uni qadrlagani uchun adabiyot –badiiy so‘z san’ati deb yuritiladi. Jadid adabiyoti vakili Abdurauf Fitrat ta’kidlaganidek: “Adabiyot – fikr, tuyg‘ularimizdagi to‘lqinlarni so‘zlar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqinlarni yaratmoqdir” [Toshev, 2021: 119].

Adiblarning so‘zga oshno bo‘lishlari, so‘z vositasida butun borliqni, nozik his-tuyg‘ular va ruhiy kechinmalarni ifodalashlari buyuk badiiy asarlarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan. So‘z – yozuvchining hamrohi.

Umuminsoniy taraqqiyot va kashfiyotlar natijasi sifatida ijtimoiy ong mahsuli bo‘lgan har qanday san’at turlarini olib ko‘radigan bo‘lsak, ularda mavzu va unga taalluqli imkoniyatlar cheklanganligini ko‘rishimiz mumkin. Faqat yolg‘iz so‘z san’ati bo‘lgan adabiyotgina bu sohada chek-chegara bilmaydi. Polyak adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri Yan Parandovskiy takidlaganidek: “U xuddi so‘z kabi olis-olislarni qamrab oladi, so‘z esa fikr singari shu qadar uzoq masofalarga yetib boradiki, na zamon, na makonda sarhad bo‘lmaydi” [Parandovskiy, 2022: 242]. So‘z vositasida yulduzdan tortib, to atomgacha – hamma-hamma narsa adabiyot uchun mavzu bo‘lishi mumkin.

Adib mohir so‘z ustasi bo‘lishi shart. U so‘z qudrati va imkoniyatlarining turfa ranglarini, xususiyatlarini, nozik ruhiy kechinmalarini zamon va makonga xos va mos ravishda qo‘llay bilishi kerak. Yan Parandovskiy yozganidek: “Yozuvchini hattoki vaqt ham cheklashga qodir emas: u dunyo yaralishidan oldingi zimiston ichra adashib, tentirashi va kelajakni xuddi bugungi kunday ko‘rib, so‘z orqali tasvirlab berishi mumkin” [Parandovskiy, 2022: 243].

Adib yorug‘ dunyoda xuddi maftun davrda yoki shaydo muhitda yashaganday yashaydi. Uni har daqiqada har tomondan turfa taassurotlar qurshab oladi va ularning sehriga mahliyo bo‘lish uchun birrov nazar tashlash kifoya qiladi – hayratlanish, zavq olish, qoyil qolish, dahshatga tushish yoki shunchaki, xayrixohlik ularni hech kim ko‘rmaganday ko‘ra olish hamda so‘z vositasida abadiy muhrlash imkonini beradi. Bu kechinmalarning barchasi so‘z orqali abadiylikka doxil bo‘ladi.

Lubnon arablaridan bo‘lmish Jubron Xalil Jubron mag‘rib-u mashriqda birday dongdor, birday sevimli yozuvchi, faylasuf hisoblanadi. Uning “Devonaning rivoyatlari” asarida “So‘z” nomli

hikoyasi mavjud. Hikoya shunday satrlar bilan boshlanadi: “Qadim zamonda, lablarimga so‘zning ilk qaltirog‘i ko‘chgan kuni muqaddas toqqa tirmashib chiqdim va Xudoga yuzlandim...” [Jubron, 2021: 161]. Mazkur hikoyada qahramon Xudoga bir necha bor yuzlanadi, biroq natija bo‘lmaydi. Takror yuzlanishlarning birida uning iltijolari qabul qilinadi va: “Shunda Xudo men sari engashib, bolday so‘zlarini shivirladi qulog‘imga...” [Jubron, 2021: 161]. Hikoyaning bosh g‘oyasi – yaratuvchini ham, yaralmishni ham bir-biriga bog‘lab turuvchi so‘z. So‘z ilohiy qudrat mahsuli, usiz ilohiy najot yo‘q.

Hind adibi va faylasufi Osho, ya’ni Chandra Mohan Jayn yozganidek, so‘z ilohiy ne’mat, “Din – go‘zal so‘z. Bu so‘z “johilligidan bo‘laklarga ajralayotganlarni bir yerga jamlash” ma’nosini bildiruvchi ilohiy o‘zakdan kelib chiqqan” [Osho, 2021: 131].

Argentinalik adib Antonio Porkya ijodini muhlislari o‘ziga xos “tafakkur musiqasi” deb ataydilar. Uning “Nidolar” kitobidagi nasriy aforizmlari tom ma’noda “tafakkur nidolari”dir. Adib o‘z qarashlari orqali so‘z haqida fikr bildirar ekan, so‘z olamdagi barcha narsalarni anglashda eng birinchi va asosiy vositadir, deb biladi. U so‘zsiz hech narsani anglash mumkin emas, degan xulosaga keladi. Asarlaridan birida: “So‘zsiz hech vaqoni anglamaydigan olamga sen deyarli so‘zsiz kelding...” [Porkya, 2021: 176] jumlalari bilan falsafona xulosa beradi. Yana bir o‘rinda esa, aytilgan so‘zlar qalban his qilinmas ekan, ularni butun borlig‘i bilan anglash mumkin emasligini ta’kidlaydi. Adib yaratgan obrazlardan biri so‘z haqidagi o‘ylarini quyidagicha anglatadi: “So‘zlarimni tinglayotganingni his etsam, aytganlarim sening so‘zlaringday tuyuladi – shundagina so‘zlarimni o‘zim ham eshita boshlayman” [Porkya, 2021: 176].

Azaldan g‘arb adabiyotining yetuk adiblari ijodida so‘z kontenti va uni ta’riflashga nisbatan “kuch”, “qudrat”, “qurol” kabi tushunchalar ustunlik qilgan. Qadimgi yunon dramaturgi Menandr “So‘zdan kuchliroq narsa yo‘q” desa, rus adabiyotshunosi, davlat va jamoat arbobi A.F. Koni: “So‘z – insonning buyuk qurollaridan biri. O‘rnida, sidqidildan va vaqtida aytilgan oddiygina so‘z qudratli va yengilmas kuchga aylanadi”, deya ta’rif beradi [Voronsov,1989: 165].

So‘zni kuch-qudrat timsoli sifatida izohlanishini Nobel mukofotiga loyiq topilgan fransuz yozuvchisi Anatol Frans ijodida ham ko‘rishimiz mumkin. Adib o‘z asarlarida: “So‘zdan qudratliroq narsa yo‘q. So‘z orqali ifodalangan o‘tkir dalil va yuksak fikrlar safini yorib o‘tish mumkin emas. So‘z yovuzliklarni yakson etadi, qal’alarni yiqitadi, u ko‘zga ko‘rinmas qurol” [Frans, 2019: 159], deydi. Boshqa bir o‘rinda esa, yozuvchi so‘zni dunyoni turfa ranglar bilan bezatuvchi va borliqni o‘zgartirishga qodir bo‘lgan sehr deya: “So‘z sehridan kuchliroq sehr yo‘q” [Frans, 2024: 241], deb yozadi. Adib Anatol Frans o‘z asarlari orqali so‘z dunyoni o‘zgartirishga qodir ekanligini, uning kuch-qudrati insoniyatni orzulardan haqiqatga elta olishi mumkinligini ta’kidlaydi. Adib so‘z vositasida buyuk ishlarni amalga oshirish uchun faqatgina faoliyat emas, balki orzu qilishni ham, faqatgina rejalashtirish emas, balki ishonch hosil qilish ham zarur ekanligini uqtiradi. U so‘zsiz hayotni tasavvur etish mumkin emasligini aytib: “So‘z bo‘lmasa, dunyo dag‘al kuchlar qo‘lida qolar edi” [Frans, 2019: 246], deb yozadi.

Jahon adabiyoti durdonalari qatoriga o‘z asarlari bilan ulkan hissa qo‘shgan atoqli rus yozuvchisi L.N. Tolstoy qarashlarida ham “So‘z bilan ifodalangan har qanday fikr ta’sir ko‘lami tugamaydigan kuchdir”, deb izohlanadi [Voronsov,1989: 165]. Adib o‘zining “Urush va tinchlik” romanida so‘z butun bir jamiyatlarni, insoniyatni birlashtirishi yoki aksincha, ularni bir-biriga dushman qilib qo‘yishi mumkinligini aytib, so‘zning buyuk qudratiga o‘ta mas’uliyat bilan yondashish zarurligini eslatadi. Yozuvchi yozadi: “So‘z – buyuk narsa. Shuning uchun ham buyukki, so‘z bilan odamlarni birlashtirish, so‘z orqali ularni bir-birlari bilan yuzko‘rmas qilib yuborish mumkin, so‘z bilan mehr qozonish, so‘z bilan nafrat va adovatga yo‘liqish mumkin” [Tolstoy, 2022: 288].

Sharq adabiyoti va adiblari tasavvurida so‘zga bo‘lgan munosabat g‘arb adiblarining qarashlaridan keskin farq qiladi. Sharq adabiyoti mualliflarida so‘zga bo‘lgan munosabat nisbatan zalvorli hamda nafis izohlar bilan ajralib turgan.

Turk yozuvchisi Huseyin Jemil Merich “Nur sharqdan taraladi” asarida so‘z izohini tavsiflar ekan, uning mushohadalari nihoyat darajada nafis va hafiflik kasb etadi: “So‘zlar sening yulduzlaringdir. So‘zlar... So‘yla, xirom aylasin, olov sochlarin yoyib xayollarning beadoq bog‘ida. So‘z o‘rmonda uxlab yotgan dilbar. Adib olislardan kelgan shahzoda. Shunday sevginki, so‘zlar butun borlig‘i bilan senga yetsin. Yulduzlar Tangriga yetganmikan? So‘zlar mening suvdagi soyam, silolmayman ularni, o‘polmayman. Davlatdir so‘zlar, muhtasham va muhtaram...” [Meriç, 1994: 178].

Adibning “Bu o‘lka” badiiy asarida so‘zlar ko‘ngildan ko‘ngilga, davrdan davrga ko‘prik va ayni vaqtda, jo‘shqin daryo sifatida izohlanadi. So‘zlar boqiylik belgisi sifatida abadiy, lekin so‘zsiz inson mutlaqo o‘tkinchi ekanligi ta’kidlanadi: “So‘zlar ko‘ngildan ko‘ngilga ko‘prik, asrdan asrga zina. O‘z aksimga maskan daryodir so‘zlar. So‘zlar abadiy, so‘zlar o‘tkinchi...” [Meriç, 1990: 86]. Adib Huseyin Jemil Merich o‘z ijodida so‘z bashariyatga tafakkur nurini hadya etib, nurlilik bobida quyoshga teng kelishini uqtiradi: “Quyosh dunyoni nurafshon qiladi, so‘zlar esa xalqni” [Meriç, 1986: 142].

XX asr o‘zbek adabiyoti nosirlaridan yetuk adib O‘tkir Hoshimov o‘z ijodi va badiiy qarashlari orqali so‘z qadri, o‘rni va badiiy ijoddagi ahamiyati haqida teran fikr yuritadi. Adib “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” kitobidagi “So‘z qadri” nomli qatra hikoyasida shunday yozadi: “O‘zining donoligini ko‘rsatish uchun ko‘p gapirgan odamdan o‘zining nodonligini yashirish uchun sukut saqlaydigan odam aqlliroqdir” [Hoshimov, 2018: 102]. Adibning fikricha, sukut saqlash orqali ham so‘z qadriga yetish, so‘z qadrini saqlash, so‘z qadrini e’zozlash mumkin. Yozuvchi mumtoz adabiyot vakillaridan meros bo‘lib qolgan “So‘z makoni toza qalbdir” iddaosini zamonaviy talqinda izohlab, insonning oq qog‘oz kabi toza qalbidan chiqqan so‘z cho‘g‘ kabi qog‘ozni yondirsagina, undan adib chiqishini ta’kidlaydi. Bu o‘rinda yozuvchi yozadi: “Qog‘oz oq bo‘lgani uchun unga So‘z bitadilar... Qog‘oz pok bo‘lgani uchun zarracha cho‘g‘ tushsa, yonib ketadi... Yozuvchi bo‘lish uchun iste’dodning o‘zi kamlik qiladi. Qalbi qog‘ozdek oppoq, qog‘ozdek lovullab yonadigan odamdangina chinakam adib chiqadi” [Hoshimov, 2018: 151]. Ayni vaqtda O‘.Hoshimov qanday insondan yozuvchi chiqishini izohlab, so‘zlar ummonini eslatadi va bu holat bilan hazrat A.Navoiyning dengiz tubiga sho‘ng‘ib, qo‘lga kiritilgan hamda ishlov berilgan dur kabi so‘z ta’rifini yodga soladi: “Haqiqiy dengizchi ummonda o‘zini qanchalik erkin his qilsa, haqiqiy yozuvchi ham so‘zlar ummonida shunchalik erkin suzishi kerak...” [Hoshimov, 2018: 153].

Adib so‘zni har qanday asarning asosi deb biladi: “Asar binoga o‘xshaydi. Faqat bino g‘ishtdan quriladi, asar esa so‘zdan...” [Hoshimov, 2018: 155]. Adibning ta’kidlashicha, so‘z o‘z qudrati va imkoniyati bilan faqatgina ma’noni emas, balki shu ma’noga oid ko‘plab boshqa xususiyatlarni ham badiiy til qamrovida ifodalashi mumkin: “Badiiy til faqat so‘z ma’nosini emas, uning ohangi, “rangi”, “ta’mi”, “isini” ham tashishga qodir” [Hoshimov, 2018: 155]. U turli kasb egalari o‘rtasida so‘z va uni qo‘llash yuzasidan so‘z mas’uliyatiga alohida urg‘u beradi: “Maktab o‘qituvchisining So‘zi o‘ttiz bolaga yetib boradi. Dorilfunun domlasining So‘zi yuz talabaga yetib boradi. Notiqning So‘zi ming tinglovchiga yetib boradi. Qalamkashning So‘zi bir yo‘la o‘n ming, yuz ming kitobxonga yetib boradi. Demak, uning So‘z mas’uliyati ham boshqalarnikidan ming hissa ortiqroqdir” [Hoshimov, 2018: 165].

Odamiylik mulkidan so‘z ochib, insoniy qadriyatlar, husnixulq va odob-axloq masalalarini talqin qilgan o‘zbek adabiyotining yetuk nosirlaridan biri Tohir Malik ijodida ham so‘zga bo‘lgan munosabat alohida ahamiyat kasb etadi. Tasavvuf vakillarining mushohadalarida so‘z qalbdagi olovning hosilasi va ko‘ngilda ilohiy ishq jo‘sh urmasa, so‘zning ta’sir kuchi sezilmasligini ifodalovchi diniy-falsafiy qarashlar adib Tohir Malik fikrlarida davom etadi. Yozuvchi o‘z asarlarida so‘z va uning vositasida bashariyat qalbiga ezgulik urug‘larini ekish insoniylikning asosiy belgilaridan biri sifatida ta’riflanadi: “So‘z – qurol, maqsad esa ko‘ngil. Ko‘ngil o‘rtanmasa, ehtiroslarga to‘lishmasa, so‘zda ta’sir bo‘lmaydi. Ayniqsa, bir g‘aribning ko‘nglini shod qiladigan so‘z aytish oltin xazinasini topishdan afzalroqdir. Chunki bu asl insoniylik gavharini ulashishdir” [Zayriyev, 2022: 4]. Adib o‘z asarlarida so‘zlar butun bir insoniyatdan tortib, ellatlar, millatlar va hatto yagona bir insonning ham o‘zligini

ifodalashga qodir, deb uqtiradi. Uning fikricha, har bir insonning asl koʻrinishi uning soʻzlariga yashiringan boʻladi: “Soʻz – oʻzlikning ifodasi. Katta daraxtlar kichik urugʻlarga yashiringanidek, kishining asl koʻrinishi soʻzlariga yashiringan boʻladi” [Zayriyev, 2022: 4].

Adib Tohir Malik oʻz qarashlarida butun dunyoda insoniyat goʻzal axloqqa ehtiyoji borligini, qaysi din boʻlishidan qat’i nazar, uning vakillari mukammal axloqqa va insoniy munosabatlarga intilishini yozadi. Adib oʻz asarlarida insonni bu jihatdan qanday tarbiyalashni Islom yaxshi bilishini, soʻz orqali yuksak ma’naviyatga erishish mumkinligini, insonlar oʻrtasidagi buyuk muhabbat soʻz orqali amalga oshishini, islomiy qarashlar “Soʻzdan – ma’noga, shakldan – ruhga, zohirdan – botinga kirib borishini...” [Malik, 2025: 17] ta’kidlaydi.

Oʻzining prozaik asarlari va koʻplab adabiy-tanqidiy maqolalari bilan tanilgan adib Ahmad A’zam oʻz qarashlarida soʻz – muqaddas va u bilan yuzma-yuz muloqotning oʻzi ogʻir yuk ekanligini ta’kidlaydi: “Soʻzlar qogʻozga ogʻir botadi, zalvoridan satrlar mayishib ketadi. Tuygʻular satrlarda quyoshdek siziydi. Azob! Qogʻoz – oqlik, u – toza. Soʻz – muqaddas. Vijdon rozini qogʻozga koʻchirish, Soʻz bilan yuzma-yuz muloqot – azob” [Ahmad A’zam, 1987: 63].

Adibning tajribasi uning soʻz qoʻllash mahorati bilan oʻlchanadi. Oʻzbek adabiyotining mohir hikoyanavisi va hassos adibi Abdulla Qahhor yozganidek: “Yozuvchi dutor yoki musallasga oʻxshaydi, eskirgan sari ochiladi, quvvati oshadi”[Jumaniyozov, 2019: 159]. Bu degani adibning tajribasi oshgan sari, soʻz qadri va qudratini yanada teran anglay boshlaydi. Adib Abdulla Qahhor kabi soʻz qadrini biluvchi, soʻzni oʻz oʻrnida va mazmunga mos qoʻllovchi boʻladi. Zero, oʻzbek nasrining chin ma’noda soʻz zargari boʻlgan adib Abdulla Qahhor bir umr ixcham yozish, ixcham soʻz qoʻllash haqida, soʻzni zinhor isrof qilmaslik toʻgʻrisida jon kuydirib oʻtdi va oʻzi buning namunasini ijodi orqali koʻrsatib berdi.

Yuqorida ta’kidlab oʻtganimizdek, soʻz yozuvchining doimiy va vafodor hamrohi. Shuning uchun soʻz qadrini bilish, soʻz qudratini his qilish, uni mahoratli tarzda qoʻllay olish, u orqali oʻz gʻoyalarini insoniyatga yetkazish, jamiyatning orzu-umid va istaklarini, tarixiy oʻtmishini, orzumand kelajagini butun borligʻi bilan yoritib berish adiblarning bosh vazifasidir. Adiblarning asarlarida soʻz eng asosiy va bosh tasviriy vosita, soʻz orqali insoniyatning oʻtmishdagi barcha kechinmalari abadiylik kasb etadi. Soʻz adiblar talqinida goʻzal ahloq va din. Zero, soʻzsiz insoniyatga na din va na goʻzal ahloqni targʻib qilib boʻladi. Demak, soʻz ilohiy qudrat mahsuli va usiz ilohiy najot yoʻq. Soʻzsiz hech narsani anglab boʻlmaydi, demak, soʻz tafakkur sari yoʻnaltiruvchi nur. Soʻz – kuch, qudrat, qurol. Ayni vaqtda u insonlarning koʻnglini oluvchi sehr. Soʻz – fikr. U bilan ifodalanadigan har qanday fikr ta’sir koʻlami tugamaydigan kuchdir. Soʻzlar muhtasham va muhtaram davlatdir. Soʻzlar koʻngildan koʻngilga koʻprik, asrdan asrga zina. Demak, soʻzlar abadiylikning asosidir. Soʻzlar – nur. Ular xalqlarni, millatlarni, insoniyatni nurafshon qiladi. Soʻz – choʻgʻ. U qalblarni yondiradi, olovlantiradi. Soʻz – ummon. Oʻz toʻlqinlari va joʻshqinliklari bilan butun borliqni harakatga keltiradi. Soʻz – qat’iy mas’uliyat. Insoniyatni axloqiy, diniy, umuminsoniy ehtiyojlarini me’yorda ushlab turuvchi mas’uliyat. Soʻz – oʻzlik. Har bir millar, ellat hamda xalqlarning oʻzigagina xos va mos boʻlgan belgilarni ifodalovchi, aks ettiruvchi vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshev F. Adabiyot... // Sharq yulduzi № 8/2021. B. 119.
2. Parandovskiy Y. Soʻz kimyosi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. B. 242.
3. Jubron J.X. Devonaning rivoyatlari. // Jahon adabiyoti № 10/2021. B. 161.
4. Osho. Ijod. // Jahon adabiyoti № 9/2021. B. 131.
5. Porkya A. Menga faqat olislar yaqin. // Jahon adabiyoti № 10/2021. B. 176.
6. Voronsov V. Tafakkur gulshani. – Toshkent: Gʻ.Gʻulom, 1989. B. 165.
7. Франс А. Боги жаждут. – М.: Время, 2019. С. 159.
8. Франс А. Востание ангелов. – М.: Луч, 2024. С. 241.
9. Толстой Л. Война и мир. – М.: АСТ, 2022. С. 288.

10. Meriç H.C. Nur doğuden geliyor. – Ankara: Terjümen Kitapçılık basım evi, 1994. S. 178.
11. Meriç H.C. Bu ölke. – Ankara: Terjümen Kitapçılık basım evi, 1990. S. 86.
12. Meriç H.C.. Bir fajiyenin hikayesi. – Ankara: Nur basım evi, 1986. S. 142.
13. Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. B. 102-165.
14. Zayriyev A. So‘z haqida so‘z. – Toshkent: Shamsiddin Boboxonov nashriyot-matbaasi, 2022. B. 4.
15. Malik T. Odamiylik mulki. – Toshkent: Istiqlol, 2005. B. 17.
16. Ahmad A. Mas’ul so‘z. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 1987. B. 63.
17. Jumaniyozov R. Siz notiq bo‘lmoqchimisiz? – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. B. 159.

SH.SEYITOVTÍŃ «XALQABAD» ROMANÍNDA QOLLANÍLÍWÍ SHEKLENGEN SÓZLER

Xojanov Sharapatdin Baltaniyazovich,
Filologiya ilimleri boyınsha
filosofiya doktorı PhD., professor
Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq
mámleketlik universiteti
e-mail: x_sharapatdiyn@karsu.uz

Annotaciya

Maqalada Sh.Seytovtıń "Xalqabad" romanında qollanılıwı sheklengen sózler awızeki sóylew tili birlikleri, varvarizmler hám vulgarizmler, kásiplik sózler úyrenildi.

Gilt sózler: *sóylew tili, ádebiy til, varvarizm, vulgarizmler, ǵarǵıs hám turpayı sózler, awızeki sóylew tiliniń birlikleri*

Abstract

The article examines words with limited usage in Sh.Seytov's novel "Khalkabad" colloquial language units, barbarisms and vulgarisms, and professional vocabulary.

Key words: *spoken language, literary language, barbarism, vulgarisms, curses and vulgarisms, units of spoken language*

Jazıwshınıń izertlenip atırǵan shıǵarmasında qaraqalpaq tiliniń sózlik quramına kiretuǵın, biraq ádebiy tildiń sózlik qorınan orın almaǵan, qollanılıw órisi sheklengen, ádebiy tilde ónimsiz jumsalatuǵın, jeke qaharmanlar tiline tán sózler de ushırasadı. Bunday sózlerdiń toparına awızeki sóylew tili birlikleri, varvarizmler hám vulgarizmler, kásiplik sózler hám t.b. kiredi. Jazıwshı bunday sózlerdi qaharmanlardıń minez-qulqın, tábiyatın, romandaǵı waqıyaǵa ótkirlik máni beriw ushın sheberlik penen paydalanǵan.

Awızeki sóylew tiliniń birlikleri. Sóylew tili – bul xalıqtıń kúndelikli turmısta bir-biri menen tuwrıdan-tuwrı qatnas jasawınıń aktiv forması. Onıń tiykarın tilde uluwma qollanılıwshı sózler quraydı. Sóylew tiliniń leksikasında tek uluwma qollanılıwshı sózler ǵana emes, sonıń menen birge ádebiy tildiń leksikalıq normalarına juwap bere almaytuǵın sózler de ushırasadı.

Qaraqalpaq tiliniń awızeki sóylew tiliniń leksikasına tán sózler emocionallıq-ekspressivlik máni ayrıqshalıǵına iye bolıp keledi. Olarda kóbinese kemsitiw, kishireytiw yamasa soǵan usaǵan qanday da bir ótkir máni sezilip turadı. Bul toparǵa kiretuǵın sózler jazıwshınıń sóz qollanıwındaǵı ózine tán ózgesheligin anıqlawǵa járdem beriwi menen birge óziniń tásirliligi menen kózge taslanadı.

A.Bekbergenov sóylew tilin eki túrge ajıratıp qaraydı. 1) Padio, televideniede diktor, peporter, kommentatorlardıń, jıynalıslardaǵı bayanatshılardıń sóylewi. Bunday sóylew jazba ádebiy tilge tiykaplanıp, onıń normaların saqlaydı; 2) Qádimgi óz ara sóylesiw [A.Bekbergenov. 1990, 3-18].

Romanda qollanılǵan awızeki sóylew tiliniń birliklerıniń ózinshelik ózgesheliklerin úyrengenimizde olarda tómendegidey toparlarlarǵa bólip qaradıq:

1) Awızeki sóylew tiliniń fonetika-intonaciyalıq ózgesheliklepi. Sóylew tilinde sózlepdiń aytılıwı, sóylew intonaciyası úlken xızmet atqapadı. Sh.Seyitovtıń «Xalqabad» romanında qaharmanlardıń sóylew tilinde fonetika-intonaciyalıq ózgeshelikler júdá kópligi menen ajıralıp turadı. Bul ózgesheliklerdiń ózi bir neshe bóleklerge bólinedi.

a) sózdegi ayıpım seslepdiń orın almasıwı, yaǵnıy dublet sózlerdiń (vapiantlar) ajıpatılmawı. Mısallar:

Apırmay, (yapırmay) mınaw sonı esime saldı-aw, hár zamanǵa bir zaman degen, bolshoydıń iyti qalmay izime túsip, endi sol qasqır ózim bolıp turman (II, 3).

El degenniń qádiri Berdikárimniń sanasına shın mánisinde jańa jılt etkendey bolıp edi, *liykin,*

(lekin) sónip qaldı (II, 6).

Qoy, men Kushkaǵa jeteyin de poezdǵa minip, *duppa-duwrı* (tuppa-tuwrı) Sharajawǵa tartayın (II, 6).

Mınalarǵa esittirip-aq: «*sonı-ám* jaza almaysań ba, *wáy,* (way) *bılayǵo!*» dep atır edi Jańabayǵa (II, 20).

Biraq, biz muǵallimbiz, muǵallimniń aldında partaǵa otırdıńız ba, kim bolsańız da balasız, tak chto, *ǵoshshıńız* (qosshıńız) joq bunda (II, 21).

Bu, azanlı berli shıdayman, bular oynap otır ma deymen, *aynaldıra* (aylandıra) beresiz miydi Nazarbaydıń *diyirmanınday* (digirmanınday) etip, aynaldıra beresiz! (II, 21).

- *Dabay,* (davay) bozǵa tarı shashamız?! (II, 32).

Isin *sotqa* (sudqa) ótkerip, ózin Qaraqalpaqstannan da shıǵarıp jiberemiz (II, 108).

- *Yazaman,* (jazaman) hawwa, *yazbay* (jazbay) nesi bar! (II, 21).

á) sózdegi ayıpım seslepdiń túsip qalıwı. Mısallar:

Bayaǵı sonarǵa shıqqanımda, qasımda Barlıqbay, Jáliy maqsım da bar edi-aw, qarshıǵalar bir qasqırdıń izine tústi-aw, sonda búrkit búrgen kókjaldıń tisi átirapına iyt barǵanda *úseytip* (usılay etip) saqıldap edi (II, 3).

Búytip (bulay etip) júrgenshe, elsiz, watansız... (II, 3).

«*Bersembeken,* (bersembe eken) *bermesembeken?!*» (bermesembe eken) «bereyin» dese Amangeldiniń ákesinen qalǵan birden-bir nıshan, «táwekel» dep hayal ornınan turdıdaǵı, qorjındı ákelip: - Gúnanı kóp islegen, kóp el tonap, kóp qanǵa batqan qaralı edi (II, 6). «Arqa muz degen bar deydi, qısı-yazı muzı erimesemish, shuyaqlarda jasaǵanlardıń da ármanı *barmeken*», (barma eken) dep bolıp, «haw, onda paxta pispey *qaladıǵo*!» (II, 16).

Izbasqan bunıń bul gáplerinen bunı da *soyaqlar* (sol jaqlar) menen baylanıstırıp turǵan birew bar ekenin bildi, biraq ózi aytpaǵan soń soramadı (II, 9).

– *Neǵıp* (ne qılıp) júrgenińizdi siz ózińiz bilesiz, bunı men betińizge baspayman (II, 10).

Shıǵısta yaponlar, batısta nemisler pıshaqtı kimge qayrap atır, álbette, baylarǵa *emesǵo,* (emes qoy) bolshoylarǵa! (II, 11). - Mınań qarań, Berdikárim aǵa, men bunıń Evropasın gezgen adamman, Zúbayda ushın Xalqabadqo, Xalqabad, Alyaskanı bilmeysiz siz, Amerikanı bilmeysiz, Sibirdi *bilesizǵo*... (bilesiz ǵoy) (II, 15).

Appırmay bala, gózzaldıń gózzallıǵın aytamız dep, kelinlerge, *neǵıǵan* (ne qılǵan) kelin, ba-ay, Haytmurattay bir piltaban diyqannıń júnles bilegin jastanıp atırǵan birewdiń gózzallıǵın aytamız dep dinnen de shıǵıp boldıq-aw! (II, 14).

- Qálegende qanday, álbette, qáleymiz, *sóytesseńiz* (solay etińiz) *de ǵoshshım!* (II, 20).

- Sizler bul *kámsiyasızlar* (komissiyasızlar) ma, ya bir miy aylandırǵısh birewsizler me?! (II, 21).

Qarabekov: «Siziń ózi awılıńız *qaerde?!*» (qay jerde) dep soraǵan eken (II, 26).

á) sózdegi ayıpım seslepdiń qosılıwı. Mısallar:

- Yazaman, *hawwa,* (awa) yazbay nesi bar! (II, 21).

Qunnazar aqsaqaldı, shul arqalı awıldıń keńes *húkúwmetin* (húkimetin) qorladıńızlar, men bunı bu turısında qoymayman, yazaman da jańaǵı xorlap jibergenlerińizdiń hámmesine qol qoydırıp, aydayman joqarıǵa... (II, 21).

Sizler jańaǵı adamlardı bir jıldan beri sawatlandıra almasańız, biz bir aydan bárin zawlatıp *gaziyt* (gazet) oqıytuǵın etip beremiz (II, 20).

Jumaǵulov «kún bataman degenshe barlıq komsomol, mektep oqıwshıların «júz *pırasent* (procent) *mábilizabat*» etip, bir úyde bir de álepshe xatı bar kitap qaldırmay, mekteptiń aldına úyiwdi» buyırdı (II, 18).

Sonı jaǵaladı da júrip otırdı, iyininde ayqara taslanǵan qorjın, qarsaq jortpas qarańǵıda, túlki jortpas túneyde ketip baratır, ketip baratır, gellesinde mıńsan eki qıyal: «*appırmay* (yapırmay) bala,

jańaǵı hayaldıń óz elinde júrip, elin saǵınıwın-ay, úhh!...» (II, 6).

Shıǵarmada sóz etilip atırǵan waqıyalar jámiyetke rus tiliniń tásiriniń kúsheyiw procesi baslanıw waqtın súwretlegenlikten, ayırım rus tilinen kirgen sózler sol turısında qollanılmastan, ayırım fonetikalıq ózgeshelikler menen, jergilikli til nızamlıqlarına sáykes aytılıwda sol ózgeshelikleri menen qollanılǵanın kóriwimizge boladı. Mısallar:

– Ja-aq, ol *qıytırlıǵıńız* (xitrıy) ótpeydi, - dep edi (II, 27).

– Jaq, jaq, maǵan onday *paltay-shaltayıń* (boltay) ótpeydi, kórshi... (II, 28).

– Olay bolsa biz siziń *niykakoy* (ne kakoy) ǵoshshı-poshshıńız emespiz, - dep gáp qostı «ózimizdiń Shanannıń balası» dep otırǵan qızıl beti (II, 21).

– Sizler bul *kámsiyasızlar* (komissiya) ma, ya bir miy aylandırǵısh birewsizler me?! (II, 21).

«bul kámisiyaǵa qosıp jibergen *inkibiniń* (NKVD) jansızı» dep qapıltı (II, 23).

Biykar aytasań jańaǵını, sen sayasiy *neǵıramıtnıy* (negramotnıy) adamsań (II, 28).

– *Dabay,* (davay) bozǵa tarı shashamız?! (II, 32).

Isin *sotqa* (sudqa) ótkerip, ózin Qaraqalpaqstannan da shıǵarıp jiberemiz (II, 108).

Sh.Seyitovtıń «Xalqabad» romanında awızeki sóylew tiliniń birliklerine kiretuǵın mısallar júdá kóp. Bul mısallar izertlenip atırǵan temanıń basqa da bólimlerinde qarastırılǵanlıqtan, barlıǵın kórip shıǵıwdı maqul kórmedik. Atap aytqanda, turaqlı sóz dizbekleriniń, erkeletiwshi hám kishireytiwshi formalardıń, tabu hám evfemizmler hám basqa da elementlerdiń awızeki sóylew tiline tán túrleri bar.

Varvarizm hám vulgarizmler. Sh.Seyitovtıń «Xalqabad» romanınıń sózlik quramında awızeki sóylew tilinde ushırasatuǵın, biraq ádebiy tildiń normalarına qarama-qarsı keletuǵın varvarizm hám vulgarizmler sózler ushırasadı. Sh. Seytov varvarizm sózlerdi ádebiy shıǵarmadaǵı waqiyanı kórkem súwretlewde, dáwir shınlıǵın ashıp beriwde, qaharmannıń minez-qulqın, oy-órisin oqıwshıǵa tásirli etip jetkeriwde ornılı paydalanǵanlıǵınıń gúwası bolamız. Mısali: - Bayısın *pajalısta,* hárkim islegenine qaray tisleydi, biraq kulaqqa aynalmaydı, adam jumsamaydı, qan sorımaydı(I.20). –*Voobche,* óziń bolmaytuǵın balasań mıltıqsız da úy bolameken,- degeni menen, Murattıń ózinde de mıltıq joq edi (I.61). – Seniń óziń *interesnıy* jigit ekenseń, Mádiyar! (I. 21). – *Voobchem,* qurı shabıspa boldı, Sarı atawǵa shekem shaptıq-á (I.22). Bul mısallarda *pajalısta, Voobche, interesnıy Voobchem,* sózleri rus tiline tán sózler bolıp esaplanadı. Jazıwshı emocionallıq tásirlilikke erisiw, qaharmannıń minez-qulqın, haqıyqıy kelbetin ashıp beriw ushın diologlarda varvarizm sózlerdi ornılı paydalanǵan.

Sh. Seytovtıń sóz qollanıw sheberligin usı shıǵarmada qollanılǵan vulgarizim sózlerden de kóremiz.

Sh. Seytovtıń "Xalqabad" romanında ádebiy tildiń ólshemlerine qarsı keletuǵın vulgarizmler yaǵnıy ǵarǵıs hám turpayı sózler de ushırasadı. Olar tiykarınan eki túrde ushırasadı. 1. Qaharmannıń tilinen aytılǵan ǵarǵıs sózler. Mıaslı: *Uyiń jańǵırdıń* uyqısı da joq! (I.3). – *Ólim,* sorap alaǵoy berse! - dep mısqıllı kúldi. *Látte pám!* sóyleme!... Meni tanıp qoyǵan qusaydı. (I/11). Bunıń ǵoy, qolınan hesh nárse kelmeydi húkiwmetke de jaǵıp júrgen joq biraq naysaptıń shawqımı jaman "jińǵil deseń, qırǵın" deydi, qorıǵanı "góne kesegi" *simsik, tufiw!* (I.4). Bul mısallarda *Uyiń jańǵırdıń, Ólim, Látte pám! simsik, tufiw!* Sózleri arqalı qaharmannıń unamsız qılıqların súwretlep oqıwshıǵa oǵan degen jek kóriwshilikti payda etedi.

2. Qaharman tilinen aytılıp adamnıń minez qulqınıń kemshiligin bildiretuǵın turpayı sózler Mısalı: - Bári óziniń paydası ekenin túsinse bul *geshsheler!...* degen qıyal ótti (I.4). – Awıl basına bir qızıl shápekten qaramaydı, solardıń da qayda júrgenin bilmeysiz, *láttepámler!* (I.10). Bir qotırt eshkińiz joytılse, pa, izlep biler edińiz-aw, qayda júrgenin, *simsikler!* (I.10). Bul mısallardaǵı *geshsheler!... láttepámler! Simsikler* sózleri arqalı bir qaharmannıń kópshilikke degen jek kóriwshiligin bildiriw ushın ótkirlestirip qollanadı.

Qaharmanlardıń bir-biri menen sóylesiwindegi leksikalıq jaqtan usınday ózgeshelikti dál kórsetiw ushın Sh.Seytovtıń sóylew tilindegi vulgarizm sózlerdi de qollanǵan.

“Xalqabad” romanında jumsalǵan varvarizm hám vulgarizm sózleri belgili bir stilistikalıq maqsetlerde bayanlanıp atırǵan waqıyalardıń ornı hám waqtına baylanıslı qollanılǵan. Jazıwshı ádebiy shıǵarmadaǵı waqıyanı kórkem súwretlewde sóylew tili leksikasına kiretuǵın varvarizm hám vulgarizm sózlerin tiyisli orında qaharman tilinde qanday da bir emocionallıq kúsheytkish máni bildiriw, onıń jeke ayrıqshalıǵın kórsetiw maqsetinde orınlı qollanǵanlıǵın kóremiz.

Kásiplik sózler. Sh.Seyitovtıń «Xalqabad» romanında belgili bir kásipke baylanıslı, sol kásipte islewshi adamlardıń tilinde jumsalatuǵın sózler de ushırasadı. Kásiplik sózlerdiń tiykarǵı ayırmashılıǵı, olardıń kásiplik shekleniwshilik hám sáykes atamalardıń sıńarları xızmetin atqarıwında kórinedi [E.Berdimuratov/ 1994, 85].

Ustashılıq kásibine baylanıslı, solardıń tilinde jumsalatuǵın tómendegi sózler jumsalǵanın kóremiz:

Kúnlerdiń kúninde kún tiymegen úlpildek Shiyshe qız pistedey murınları, jipek kóylekleri kúye bolıp, *kórik* te basatuǵın bolıp qaldı (II, 35).

- *Shot* ótkir, - dedi jumısına aylanısa berip (II, 39).

Ustanıń qolınan *shókkishi* túsip kete jazladı (II, 35).

Qurban *usta* da, hayalı Gúlziyra da mardıyısıp shıqtı (II, 20).

Kórsetilgen mısallardaǵı «kórik» - temirdi qızdırıwshı úskene, «shot», «shókkish» - ustashılıq quralların «usta» - ustashılıq kásip penen shuǵıllanıwshı adam mánilerin ańlatadı.

Appırmay bala, gózzaldıń gózzallıǵın aytamız dep, kelinlerge, neǵıǵan kelin, ba-ay, Haytmurattay bir piltaban *diyqannıń* júnles bilegin jastanıp atırǵan birewdiń gózzallıǵın aytamız dep dinnen de shıǵıp boldıq-aw! (II, 14).

Paxta egis, úshlew, birlew, súdigarlaw, jońırıshqa oraq, biyday oraq (II, 121).

Paxta terim baslandı, ele Dosmuxammedten xabar joq (II, 44).

Terimshilerdiń kóbisi derlik «Gúlistan» menen shegaradaǵı tórt gektarlıq náhán *taxtalıqta* (II, 44).

Shelden bir ótkersek boldı (II, 46).

Sebebi, biziń kolxozdıń atızında bunday *bolıq* paxta joq (II, 46).

Irım ushın, egilmeytuǵın bir *partawın* súrip ketti (II, 31).

Kelgennen sońǵı traktordıń birinshi talabı – kúni-túni paxta jerdi *súriw* boldı (II, 33).

Arqa rayonlardıń bárin jalpılamay jalpaytıp *bes qonaq* urǵanın esapqa alǵan sovnarkom (II, 39).

«Barlıq *qodireń daqıl,* paxtanıń kulagı» delingen orısshalap (II, 105).

Olar «*bes qonaq*»*tan* burın pisip qalar, xalıq ashırqamas edi, wax-wax!... (II, 114).

Joqarıdaǵı mısallarda diyqanshılıq kásibine baylanıslı sózler qollanılıp, «diyqan» - diyqanshılıq kásibi menen shuǵıllanıwshı adam, «úshlew», «birlew» - ónip shıqqan eginlerdi siyrekletiw, tárbiyalaw, «terim» - zúráátti jıynaw, «taxtalıq» - kólemi úlken atız, «shel» - suwǵarıw payıtında suwdı irkip, atızda saqlap turıwshı atızdı dógereklep islengen biyiklik, «bolıq» - mol zúráát, «súriw» - jerdi egiske tayarlaw, jerdi awdarıw, «bes qonaq» - eginlerdi suwıq urıwı, 17-22-sentyabr aralıǵındaǵı salqın kúnler, «qodireń daqıl» - mádeniy eginniń jabayılasqan túri hám t.b. sózler qollanılǵan.

Belinde oraǵı, kún qızbay turıp, hámmeni *boyan, qamıs oraqqa* saladı (II, 30).

Balaqların túrinip, suwǵa túsken *oraqshılar* kól jiyegine túski chayǵa ján qaǵılǵanda bir-aq shıǵadı (II, 31).

- Biziń bir qashar adasıp sizlerge barǵan eken, malshıńız *en salıp* jiberipti, kórshi otırıp, bul iytligińiz tipti bolmaydı! (II, 28).

Qay kúnde de *shopan* sawatsız bolıwı kerek, - dep edi (II, 29).

Qısı-jazı *aydawǵa jiberip* qoya berseń boladı (II, 31).

Sharwashılıq kásibine baylanıslı «boyan oraq», «qamıs oraq» - qısqı ot-shóp tayarlaw, yaǵnıy jaz aylarında shóplerdi orıw, «oraqshı» - ot-shóplerdi orıwshı, tayarlawshı adam, «en salıw» - mallardı

basqa mallardan ajıratıwshı, menshiklewshi belgi salıw, belgilew, «shopan» - mallardı baǵıwshı adam, «aydaw» - gúz aylarında barlıq mádeniy eginler jıynalıp bolǵan soń, mallardı óz erkine qadaǵalamastan, baqpastan jiberiw sıyaqlı mánidegi sózler jumsalǵan.

Qaraqalpaq xalqınıń turmısında jiyi qollanılıwshı kásipler bolǵan joqarıdaǵı diyqanshılıq hám sharwashılıqqa baylanıslı kásiplik sózler menen birge hár qıylı basqa da kásipke baylanıslı sózler ushırasadı. Mısallar:

Kolxoz bolmasınan táwir-aq burın Esbergen raykom, ispolkomlarǵa barıp: «men endi *quwırdaqshı* bolıp júre beremen be, bir túsinbeslik bolsa bolǵan shıǵar» (II, 26).

- Stalingradtıń jibergen on altı motorınıń biri bizge tiyse, pax-pax, - dep qumartıp atır bir *traktorshı* (II, 157).

- Xarkov *rabochiylarınikin* qara sen (II, 157).

Azan aytqan atı Sársen bolsa da soń Táten atanıp ketken *tabelshi* de partuk baylap, Shunday menen qatar atızǵa tústi (II, 136).

- Baltabay degen bar, uruwı da joq bunıń, ózi tuqımlıqqa bir ózbek, ózi *sırnayshı*, ózi *dápshi*! (II, 27).

- Ibrayım *baqsı* ǵoy aytıp atırǵan! (II, 154).

Arbakeshten shıqqanım menen siyasattı, zamannıń ańǵısın ańlayman (II, 105).

– Men Dosmuhammed Jumaǵulovpan, mınaw Qalbay Shanazarov, mına awıldaǵı Shanan *qassaptıń* balası (II, 18).

Juwmaqlap aytqanda joqarıdaǵı mısallardaǵı «quwırdaqshı» - balıq quwırıwshı adam, «traktorshı» - traktor basqarıwshı, «rabochiy» - qarapayım jumısshı, «tabelshi» - paxta terim mapazında terilgen paxtanı ólshep alıwshı, «sırnayshı», «dápshi», «baqsı» - sazende, saz shertiwshiler, «arbakesh» - arba basqarıwshı, «qassap» - mal soyıw kásibi menen shuǵıllanıwshı adamlar mánilerinde qollanıladı.

Paydalanílǵan ádebıyatlar

1. Бекбергенов А. Қарақалпақ тили стилистикасы. – Нөкис: 1990.
2. Бердимуратов Е. Әдебий тилдиң функциональ стильлериниң раўажланыўы менен қарақалпақ тили лексикасының раўажланыўы. – Нөкис: 1973.
3. Бердимуратов Е. Ҳәзирги заман қарақалпақ тилиниң лексикологиясы. – Нөкис: Қарақалпақстан. 1968.
4. Насыров Д.С., Доспанов О., Бекбергенов А., Сайтов Д. Қарақалпақ әдебияты классиклери шығармаларының тили. – Нөкис: Билим, 1995.
5. Сайтов Д. XVIII-XIX әсирдеги қарақалпақ шайырлары шығармаларының тили. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1989.
6. Сейитов Ш. Халқабад. Биринши китап. Шар бузыў. – Нөкис «Қарақалпақстан», 1977.

ERKIN VOHIDOV LIRIKASIDA USLUBIY IZLANISHLAR

Z.Sh. Baltayeva,
Qoraqalpoq Davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: zamiraxonim76.76gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada E.Vohidov ijodidagi uslubiy izlanishlar va shoirning ijodining negizini asosiy mezon, tasvir va ifoda bir-biriga o'tib turishi, tahlil va talqin o'rin almashishi, shakl va mazmun uyg'unlashuvi,tuyg'u malakasi va mushohada yig'iqligi yaxlitlashuvi, hayrat hissi va badiiylik mezoni birikishi, holat manzarasi va kayfiyat jilvasi hayotni poetik jihatdan tadqiq qilishi muhim ahamiyat kasb etishi tashkil etishi haqida atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Lirika, mazmun uyg'unligi, ijod mashaqqati, poetik ifoda, shakl va ma'no, badiiy yaxlitlik, poetik g'oya.*

Abstract

This article comprehensively discusses the stylistic explorations in E. Vakhidov's work and the foundation of the poet's work: the interplay of the main criteria, imagery, and expression, the interplay of analysis and interpretation, the harmony of form and content, the integration of emotional skills and the conciseness of observation, the combination of the feeling of wonder and the criterion of artistry, and the significance of the poetic exploration of life by the landscape of state and the sparkle of mood.

Keywords: *Lyricism, harmony of content, labor of creation, poetic expression, form and meaning, artistic integrity, poetic idea.*

Erkin Vohidov hissiy idrok tadriji, ong va tuyg'u yaxlitlashuvi ifoda tasviriyligidan oziqlanadi. Sezimni falsafiy mushohada yordamida to'ldirishga moyil shoir uslubiy izlanishlarida ajib bir tarovat bo'y ko'rsatadi. Hayratdan ungan go'zallik, ehtirosdan rang olgan lirik kechinmada ruhiy vazminlik qabarib ko'rinadi. Muntazam adabiy zavq va poetik kashfiyotni omuxtalashtirishga intiladigan sohir san'at go'zallik, joziba, tahlil hamda teranlikni uyushtiradi. Har bir lug'aviy birlikka hayrat indiradigan muallif chigal ruhiy holatlardan jozib kayfiyat yaratadi. Haqqoniylik va samimiyat ijodkor fitrati mustahkamligini belgilaydigan asosiy mezon, unda tasvir va ifoda bir-biriga o'tib turadi, unda tahlil va talqin o'rin almashadi, unda shakl va mazmun uyg'unlashadi, unda tuyg'u malakasi va mushohada yig'iqligi yaxlitlashadi, unda ijodkor fitrati va ijtimoiy mohiyat omuxtalashadi, unda hayrat hissi va badiiylik mezoni birikadi, unda holat manzarasi va kayfiyat jilvasi hayotni poetik jihatdan tadqiq qilish usuliga aylanadi. Bunga esa quyidagi misralarda guvoh bo'lishimiz mumkin:

Imonimni butun qil, yurtimni nurafshon qil,
Pok, halol yo'llaringga bizni yo'lla, ilohim.
Vatanim kemasini dolg'alardin omon qil,
Bu poyonsiz ummonda o'zing qo'lla, ilohim [E.Vohidov,2001:126].

"G'oyaviy-poetik talablarni chuqur sezmoq ham balki yarim ijod, balki yarim yutuqdir? Ehtimol, dunyodagi har odam shoirona ko'ngil egasi bo'lib chiqar? Lekin shoironalik boshqa, nazmga va shoirlikka xos iqtidor boshqa. Keyingisi – ato etilajak, umriy sinovda javobi ayricha bo'lajak, yukimajburiyati og'ir noyob hodisa. Shoirlik ardoqqa, parvarishga, ichki odob-intizomga, binobarin, xolis tashqi tahlilga, nazoratga, maqtov-dashnomga ehtiyojmand. Shoirlikning qizg'in maqomini topmoq, zo'r maqomining maromini umrbod saqlamoq hamisha dushvor" [Shermurodov, 2009:45]. Shoirlik maqomi – noyob iqtidor hosilasi! Ilg'ash va tuyish mushkul jihatlarni kuzatish, qayta ishlash hamda estetik baholash muayyan qobiliyatni taqozolaydi. Har bir so'z barqaror tasavvur iqlimi, lug'aviy-ma'noviy xususiyatga daxldor ekanini inobatga olsak, ijod mashaqqati yanada oydinlashadi. Poetik ifoda ehtiyoj, manfaat va ishonch hissidan oziqlanadi, unda e'tirof-faraz-tavsif-tahlil-talqin-tasvir-ifoda-tasavvur aniqligi poetik tanlovda markazlashadi:

Mening yurtim bugun endi
Jahon birlan tutashgandir,
Tutash taqdir, tutash ruhdir,
Tutash jondir, tutash qondir.
Nedir xat porlaguvchi
Poyitaxt darbozasi uzra,
Bu yurtga xush kelibsiz,
Marhabo, «Welcome to Toshkan»dir [Vohidov, 2001:142].

So‘zda ifoda va talqin raqobatga kirishadi, poetik g‘oya bilan bo‘ylashadigan tushuncha shakl hamda ma’no bog‘lamini hosil qiladi. Binobarin, til materialidan ijod falsafasiga o‘tadigan jarayon kalom quvvat-hofizasiga payvandlanadi. Tasvir quyuqligi va tahlil malakasini bir-biriga ulaydigan istiloh aslida “go‘zallik hamda kashfiyot” (A.Rasulov) ittifoqi ta’minotini muddao qilib qo‘yadi. Lirik subyekt tomonidan boshqariladigan idrok sezgisida lug‘aviy konstruksiya estetik salmoq kasb etadi. Chunonchi, “Poeziya shoir malakasi va tajribasi qarama-qarshiligidan hosil bo‘ladi. Joriy ziddiyat keskinligi real voqelikka nisbatan faol va aniq munosabat yordamida vujudga kelgan xayoliy illyuziya olami tafovuti bilan izohlanadi” [Koduell,1969:211]. Unda so‘z estetik vosita sifatida ham harakat, ham holat, ham manzara omuxtalashuvini belgilaydi. Tushuncha va nutqiy malaka amaliyoti aynan badiiy shartlilikka asoslanadi. Shu ma’noda, ifoda predmeti, birinchidan, ijodkor fitrati konseptual qarashlarini yig‘adi, ikkinchidan, inson ruhiyati asnosida muntazam tadqiqotlar o‘tkazadi, uchinchidan, davr adabiy zavqiga qoyim rivoya texnikasini shakllantiradi, to‘rtinchidan, ijtimoiy yo‘sin va shaxs ehtiyojini uyushtiradi, beshinchidan, poetik g‘oyani mushohada va mafkuraga yo‘naltiradi:

Yurtim, olis yo‘lga chiqqan karvoning bor,
Karvoningga posbon uyg‘oq sarboning bor,
El dardida halovatsiz o‘g‘loning bor,
Shu insonga otilgan o‘q menga tegsin [Vohidov, 2001:144].

Odatda, she’riyatda so‘z tuyg‘u va mushohadani bir-biriga mantiqan payvandlaydi. Ta’bir joiz bo‘lsa, inson joni vujudni quvvatlantiradigan ruhda aks etsa, lirika mohiyati tushuncha hissiy anglamida jilvalanadi. Aslida harakatdagi ruhiyat manzarasi muntazam poetik tagmatnga ishora qiladi. Chinakam ijodiy yo‘riq ma’no idrokda tuslanishidan oziqlanadi. Joriy holatda ichki ohang hamda tabiiy marom tushuncha to‘ldiruvchisi vazifasini o‘taydi. Unda tasvir qabariqligi, rang quyuqligi va holat ziddiyati markazlashadi. Vaholanki, “so‘z universal bilish vositasi bo‘lganidek, universal ifoda vositasi hamdir: har qanday fikriy faoliyat va his-tuyg‘u ifodasi so‘z vositasida amalga oshadi, amalga osha oladi. So‘z bilan ish ko‘rgani uchun ham badiiy adabiyot boshqa san’at turlari orasida tasvir va ifoda imkoniyatlarining kengligi bilan alohida o‘rin va mavqe kasb etadi” [Quronov, 2018:76]. So‘z estetik yuk tashuvchisi sifatida ham ifoda, ham tasvirga mansub vosita hisoblanadi. Yaxlit tasavvurni ma’no siljishiga yo‘naltiradigan tushuncha hissiy jarayonni tavsiflaydi.

Har bir ijodkor ruhoniy olami aql va idrok kesimida badiiy yaxlitlik hosil qiladi. Zotan, tuyg‘udan hayratga ingan, hayratdan mushohadaga ko‘chgan adabiy talqin ijod falsafasini shakllantiradi. Odatda, shoir she’riy nutqni poetik voqelikka aylantiradi. Adabiy zavq malakasi va estetik ta’sir quvvat-hofizasi aslida ijtimoiy yo‘naltirilganlik darajasiga payvandlanadi. Unda tasvir usuli va tasavvur miqyosi markazlashadi, unda ko‘ngil rozi va holat ifodasi omuxtalashadi, unda tahlil teranligi va taassurot yorqinligi bir-birini to‘ldiradi. Binobarin, “chinakam she’rda mantiqdan ko‘ra tuyg‘u ustuvorlik qiladi. Bunday bitikda mantiq izchilligi emas, hissiyot va kayfiyat muntazamligi aks etgan bo‘ladi. Shoir olam hodisalarining barcha odam ilg‘ay oladigan real ko‘rinishini emas, balki faqat ularning o‘z ruhiyatida qoldirgan manzarasini chizadi” [Qozoqboy Yo‘ldosh, 2019:298]. Aynan estetik idrokda hayot haqiqati muhim emas, balki u qoldirgan poetik asorat asosiy o‘ringa ko‘tariladi.

Belgi-so‘z-g‘oya-ohang tabiatan keskinlikni mayinlashtirish barobarida ruhiy kechinma yaxlitligini ham ta’minlaydi. Ko‘ngil holati daxlsizligi tasavvurni yorqinlashtiradi:

Bu kunlar katta yo‘lda
Bir dovon bo‘lsa ajab ermas,
Muqarrar ortida yo‘l
Keng, ravon bo‘lsa ajab ermas,
Vatanga sidqu imon,
Imtihon bo‘lsa ajab ermas,
Farovon yurtu olam,
Tinch jahon bo‘lsa ajab ermas,
Biz etgan barcha orzular
Ayon bo‘lsa ajab ermas [Vohidov, 2001:18].

Poetik ongosti qatlamlarini harakatga keltirish so‘z zimmasiga tushadi. Til, bo‘yoq, shakl, ohang va ma’no she’r moddiy asosini belgilaydi. To‘g‘rirog‘i, maqsadga yo‘naltirilganlik kalom va badiiy nutq nisbatidan oziqlanadi. Unda obyektiv voqelik mohiyati tushuncha yordamida subyektiv munosabat ifodasiga aylanadi. Tanlov, qiymat va me’yor g‘oyani hosil qiladi. Material lug‘aviy konstruksiyada mavhum, ayni adabiy talqinda aniqlikka erishadi. Muayyan tushunchada nominatsiya va pozitsiya bir-birini to‘ldiradi. Mavjud ikki tushunchani mazmun birlashtiradi. Shu ma’noda, so‘z nisbat va idrokni yaxlit hodisaga aylantiradi. Unda konstruksiya «butun san’at proobraziga o‘zgaradi, uning strukturasi – modeli esa estetik predmet tipini hosil qiladi»[Vinogradov, 1980:294]. Rus olimi V.V.Vinogradov ta’biricha, lug‘aviy birliklar anglash jarayonida uslubiy tafovut – estetik qiymatni vujudga keltiradi. Mohiyat anglatadigan ifoda ijodkor fitratida xususiylashadi, matn yaxlitligi ustqurmasida esa ichki aloqani mustahkamlaydigan a’zoga aylanadi. Tugal ma’no qayta ishlangan talqini she’riy idrok tabiatini belgilaydi. Joriy holatda so‘z shartli mustaqilligi g‘oya hamda matnga tenglashadi, birinchidan, badiiy so‘z shoir adabiy tafakkuri zaxirasini shakllantiradi, ikkinchidan, rivoya texnikasi o‘ziga xosligini ta’minlaydi, uchinchidan, estetik tanlov va munosabatli nutq nisbatini belgilaydi, to‘rtinchidan, tushuncha ham ifoda, ham tasvir predmetiga nisbatan ijodiy-ruhiy daxldorlik darajasini kasb etadi.

Foydalanilgani adabiyotlar

1. Vohidov E.Umrim daryosi. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 126.
2. Shermurodov T. Jozib izhor izlab. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009. – B. 45.
3. Kristofer Koduell. Illyuziya i deystvitelnost. – Moskva: Progress, 1969. – S. 211.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 76.
5. Qozoqboy Yo‘ldosh. Ochqich so‘z. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – B. 298.
6. Vinogradov V.V. O yazıke xudojestvennoy prozı. – Moskva: Nauka, 1980. – S. 294.

IKROM OTAMUROD SHE'RIYATIDA "KANGUL" OBRAZINING LIRIK TALQINI

Dildora Oxbutayeva,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada o'zbek she'riyatida o'z ovoziga ega shoirlardan biri Ikrom Otamurod she'riyati haqida atroflicha fikr yuritilgan. Xususan, shoir she'riyatida "kangul" so'zining obraz sifatida ko'p murojaat qilingani haqida mulohaza yuritilib, she'rlari tahlilga tortilgan. Shu bilan birga, akademik Akmal Saidov, adabiyotshunoslar Qozoqboy Yo'ldoshev, Abdulla Ulug'ov, shoirlardan Turob To'la, Abdulla Oripovlarning shoir she'riyati haqidagi fikr-mulohazalariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *adabiy tur va janrlar, lirik tur va unda lirik "men" tushunchasi, lirik kechinma tabiati, kangul, obyekt-subyekt munosabati, lirik qahramon va muallif obrazi.*

Abstract

The article provides a comprehensive discussion of the poetry of Ikrom Otamurod, one of the poets who has established a distinctive poetic voice in Uzbek literature. In particular, the study examines the frequent use of the word "kangul" as a poetic image in the poet's works, with selected poems subjected to detailed analysis. Furthermore, the article refers to and evaluates the views and critical assessments of Academician Akmal Saidov, literary scholars Qozoqboy Yo'ldoshev and Abdulla Ulug'ov, as well as poets Turob To'la and Abdulla Oripov regarding Ikrom Otamurod's poetry.

Keywords: *literary types and genres; lyrical genre and the concept of the lyrical "I"; the nature of lyrical experience; kangul; object–subject relationship; lyrical hero and the authorial image.*

Adabiy turlar ichida lirik tur hissiyotga asoslanishi bilan alohidalik kasb etadi. Unda subyektiv munosabat yetakchilik qiladi. Ayniqsa, bu munosabat olam va odam, tiriklik, ko'ngil iztiroblari, qalb o'rtanishlari, botiniy og'riq, ijod to'lg'og'i bilan bog'liq bezovtalik holatidan kelib chiqqan kechinmaning poetik ifodasi bo'lsa, har qanday o'qirmanni mushohadaga chorlaydi. Ikrom Otamurod ana shunday kam sonli shoirlardan hisoblanadi. Shoir o'zbek she'riyatida "Vaqt ranglari", "Janub qushlari", "Sopol siniqlari", "Huviyyat", "Sukut sadosi", "Tanazzul", "Xaritaga tushmagan joy" kitoblari orqali o'z ovoziga ega bo'ldi.

O'zbekiston xalq shoiri Turob To'la shunday fikr bildirgan edi: "Gap, mening nazarimda, she'riyat temperaturasida, issig'ining meyorida. U haqiqiy she'riyat issig'ida bo'lsa (she'riyat issig'i, o'zingizga ma'lum, hamisha baland bo'lishi kerak), kitobxonini bee'tibor qoldirmaydi. Ikromning she'rlari temperaturasi she'riyat me'yorida". O'zbekning yana bir katta shoirlaridan Abdulla Oripov I.Otamurod she'riyati haqida shunday yozadi: "She'riyatimizga 70–80-yillarda kirib kelgan aksariyat shoirlar an'anaviy she'riy shakllarimiz ichida biqinib qolishni istamayotirlar. Ularning misralari orasida goho g'adir-budur, goho mayin ruhiy to'lg'onishlar kuzatiladi. Gohida bu to'lg'onishlarning tasvirlari kitobiy holatlarni ham eslatadi. Lekin eng iste'dodli shoirlarimizning nazmlarida hayotiy falsafasi kutilmagan yechimlar orqali namoyon bo'ladi, shoirning samimiyatini, kuyunchakligini darhol payqab olasiz. U shunchaki she'r yozmayotganiga ishonasiz. Ana shunday fazilatlari bor shoirning tajribalarini kitobxon tushunishi bilan qabul qiladi yoinki uni tushunishga astoydil intiladi. Mening nazarimda, Ikrom Otamurodov xuddi shunday fazilatlarga molik bo'lgan iste'dodli shoirlardan biridir. Uning she'rlarida bezovta qalb, ruhiy shiddat seziladi. U mana shu bezovtalanganini, shiddatini zamonga, ayni grajdanlik maqsadlariga yo'naltira oladi".

Darhaqiqat, Ikrom Otamurod she'rlarida bezovta qalb iztiroblari bo'rtib ko'rinadi. Qaysiki ijodiy uchrashuvda yoki davra suhbatida shoir haqida gap ketsa, "kangul" so'zi beixtiyor qulog'imiz ostida jarang sochgandek bo'ladi. "Kangul" Ikrom Otamurod she'riyatining pasporti desak, aslo

mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, “ko‘ngil” so‘zining “kangul” tarzida ishlatilishi va she’riyat shaydolari ham ayni shaklda qabul qilishiga erishgan. Akademik Akmal Saidov bu haqda shunday fikr bildiradi: “Avvalambor, Ikrom aka she’rlarida “ko‘ngil” so‘zini “kangul” shaklida yozishi va nutqida ham xuddi shunday talaffuz etishi she’riyat muxlislariga juda tanish holat ekanini eslatish joiz. Ikrom Otamurod kangul so‘zini jon-u dilidan sevadi, mudom kangulga sayr etadi va kangulda yashaydi. Hayot-u ijodida kangulga sadoqat ko‘rsatib kelayotgani uchun u hatto “Kanglum” degan samimiy kunya (laqab) ham orttirib olgan. Bu ham shoirning “kanglu” dard ne’matiga boy, o‘ziga xos xokisor “ahli dard”lardan biri ekanining ajib tasdig‘idir”.

Yana bir she’riyat shaydosi Minhojiddin Mirzo ham ayni jihatlarga e’tibor qaratadi. “Ikrom Otamurod haqida gap ketganda “Kangul shoiri” degan ibora tilga olinadi. Insonni uni banda qilib yaratgan muborak zot bilan bog‘laydigan yagona ko‘prik ruhiyatdir”, deydi. Adabiyotshunos Abdulla Ulug‘ov esa shunday yozadi: “Ko‘ngil”ni “kangul” deyish boshqaga emas, aynan Ikrom Otamurodga yarashadi. U bu so‘zni hayajonsiz aytolmaydi. Bu paytda uning qalb qandili charaqlab yonganday tuyuladi. Shoir o‘shanda ko‘pincha mayin jilmayib, yerga qarab, botinida jo‘shib-toshgan hislarni yashirishga urinadi. Lekin uning holati yuz-ko‘zi, harakati va qiyofasida sezilib turadi. Kishi chinakam ta’sirlanganida, boshqalar e’tibor qilmagan, payqamagan haqiqatni his qilganida hayajon, ehtirosini jilovlay olmay qoladi. Ikrom Otamurod “kangul” so‘zining salmog‘i, ma’no jilolarini hammadan ko‘proq, teranroq his qiladi”.

Ko‘rinadiki, shoir ijodini kuzatgan adabiyotshunoslar uning she’riyatida “kangul”ning poetik tasviri ko‘p uchrashini ta’kidlaydi. Haqiqatan ham, lirik qahramon kechinmalari “kangul” orqali ifoda etiladi. Shoir hayot hodisalarini ayni holda aks ettirmaydi, balki ko‘ngil kechinmalari orqali nozik ifodalaydi. Bu haqda adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev: “Ikrom Otamurod nozik ruhiy holatlar, latif hissiyotlar, inja tuyg‘ularni zamzamali tasvir etishga mohir, hayot hodisalarini emas, uning ko‘ngildagi jilvalarini ifodalashga moyil shoir. U inson ko‘ngli mavjlarining ko‘ngildan-da nozik, shudringdan-da omonat, bulutdan-da beqarorligini biladi va har she’rida ruhiyatning ana shu betakror tovlanishlarini muhrlashga intiladi”.

Shoir she’rlarida “kangul” so‘zi ko‘p qo‘llanadi va obraz darajasiga ko‘tariladi. Shoir o‘z ko‘ngliga nazar tashlar ekan, o‘zini izlaydi, asl ko‘nglini axtarib topishga umid bog‘laydi. Quyidagi misralarda ayni holatning poetik ifodasini ko‘rish mumkin:

“Kanglumning ichiga kirib boraman,
kanglumning axtarib, kanglum.
Zora topsam, zor-a, man,
Intizor munglim?!”

Lirik qahramon botiniy olamidan O‘zini izlar ekan, ichkarilay-ichkarilay nahotki topaman men deya, asl axtarganini intizor bo‘lgan mungga mengzaydi. Yana bir she’rida:

“...Kanglum,,
mendan bo‘lak kiming bor sening,
kanglum,
Sendan boshqa mening kimim bor?
Ne desang, deguvchi –
yolg‘izim mening,
ne aytsang, aytguvchi –
o‘zing xokisor”

Shoir ko‘ngilga murojaat qilib, sendan bo‘lak kimim bor deydi. Ko‘ngilni xokisor deb ataydi. Ushbu misralarda lirik qahramon yolg‘iz ko‘ngil kechinmasidan bo‘lak hech kimi yo‘qligini ta’kidlaydi. Ikrom Otamurod she’rlarida o‘zlikni anglash, hayot mohiyatini tushunishni yagona ilinji insonni ko‘ngli bilan bog‘liq ekanini teran his qiladi. Butun borliq sir-sinoatini, kichik jilvalarini Allohga

bog‘langan ko‘ngil orqaligina his etishi, anglashi mumkinligini uqtiradi. Quyidagi misralarda ayni jihatlar ko‘zga tashlanadi:

“Makon qurmagay
hech
kanglumda yolg‘on,
jilvasi mahliyo etmagay sira.
Kanglum o‘zagidan
faqat
joy olg‘on –
rostning HAQligidan yaralgan yara...”.

Ko‘rinadiki, lirik qahramon yolg‘onlar qalbimni mahliyo etmaydi, aksincha, kanglumda HAQ, ya’ni Allohga bo‘lgan ishonch, unga muhabbat, ishq joy olgani va ayni paytda Allohga bo‘lgan ishqni Uning haqligidan yaralgan yaraga mengzaydi. Lirik qahramonni dunyoning o‘tkinchi ekanligini anglashi, foniy dunyo orzu-havaslariga aldangan kimsalar qismati bilan ayni paytdagi Haqqa bo‘lgan ishonchi parallel tasvirlanadi. Shoir she’rlarida ko‘ngil – tozarish, poklik ramzi sifatida keladi. Aynan inson zotining murakkabligi ham ko‘ngil bilan bog‘liq jarayonda anglashiladi. Ko‘ngil ham insonga Alloh tamonidan berilgan bir ne’mat hisoblanadi. Ba’zan inson o‘zini o‘zi tushunmaydi, hayot sinovlari qarshisida ba’zan o‘z ko‘nglini tushunmay, iztirob chekadi. O‘z ko‘nglidan bexabar kimsa, o‘zganing ko‘nglidan ne kechayotganini qaydan bilsin!? Shoir ayni shunday ko‘ngil holatlarini tasvirlashga, tushunishga, tushuntirishga bel bog‘lagan shoirlardan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ikrom Otamurod she’rlarida ishq, oshiq, hijron, sog‘inch, visol, yolg‘izlik, sukut, to‘rg‘ay, xazon kabi timsollarni uchratish mumkin. Shular qatorida eng ko‘p murojaat qiladigan, obraz darajasiga olib chiqqan timsollardan biri bu – kangul. Shoir she’riyatida hayot hodisalarining aynan o‘zini emas, balki ko‘ngilda namoyon bo‘lish holatlarini poetik ifodalashga urinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Otamurod I. Sukut sadosi. She’rlar, balladalar, dostonlar, tarjimalar. – Toshkent: Adabiyot, 2021.
2. Otamurod I. Xuviyyat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Ulug‘ov A. Dostonlarda dil dardi. Ruhiyatning tarjimayi holi. Maqolalar, suhbatlar, xotiralar/Ikrom Otamurod. – Toshkent: Yangi kitob, 2022.
4. Saidov A. Kangulning shoiri/Ruhiyatning tarjimayi holi. Maqolalar, suhbatlar, xotiralar/Ikrom Otamurod. – Toshkent: Yangi kitob, 2022.
5. Otamurod I. Xaritaga tushmagan joy. – Toshkent: Sharq, 2011.
6. Oripov A. Bezovta qalb/Ruhiyatning tarjimayi holi. Maqolalar, suhbatlar, xotiralar/Ikrom Otamurod. – Toshkent: Yangi kitob, 2022.
7. Saidov A. Kangulning shoiri/Ruhiyatning tarjimayi holi. Maqolalar, suhbatlar, xotiralar/Ikrom Otamurod. – Toshkent: Yangi kitob, 2022.
8. Mirzo M. Bir og‘riq kanglumda qad rostlar.../Ruhiyatning tarjimayi holi. Maqolalar, suhbatlar, xotiralar/Ikrom Otamurod. – Toshkent: Yangi kitob, 2022.
9. To‘la T. Goh tekis, goh sochma/Ruhiyatning tarjimayi holi. Maqolalar, suhbatlar, xotiralar/Ikrom Otamurod. – Toshkent: Yangi kitob, 2022.

O‘ZBEK SHE’RIYATI VA SHE’RSHUNOSLIK MASALALARI

Dilruxjon Abdulhakimov,
O‘zbekiston Milliy universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovning o‘zbek she’riyatiga oid qarashlari tahlil qilingan. Olimning Navoiy lirikasi va adabiiy ta’sir masalalari, Furqat hayoti va lirikasiga oid qarashlarining ahamiyati tahlillar bilan dalillangan.

Kalit so‘z: *she’r, she’rshunoslik, lirika, navoiyshunoslik, she’riyat, ilmiy maktab, monografiya.*

Abstract

This article analyzes the scholarly views of the literary critic, Doctor of Philological Sciences, and Professor Nurboy Jabborov on Uzbek poetry. In particular, the study substantiates, through analytical discussion, the significance of the scholar’s views on Navoi’s lyric poetry and the issue of literary influence, as well as his interpretations of Furqat’s life and lyrical heritage.

Keywords: *poetry, poetics, lyric poetry, Navoi studies, poetic art, academic school, monograph.*

Insoniyat tarixi bilan o‘lchanadigan, ko‘ngilning eng nozik torlarini chertib junbushga keltiradigan she’riyatning tub-tubiga kirib borish, anglash va o‘zgalarga ham anglatish ehtiyoji hamma zamonlarda ham insoniyat diqqat markazida bo‘lib kelgan. She’rshunoslik ilmiga bag‘ishlangan yunon, hind, xitoy, arab va turkiy xalqlar yaratgan ilk nazariy qarashlar she’r va uni anglashning ahamiyati insoniyat jamiyatida qadimdan muhim o‘rin tutganini isbotlaydi. Mumtoz adabiyotda yaratilgan aruzga oid risolalardan to shu kungacha yozilgan ko‘plav risola, monografiya va hatto kichik maqolalargacha – barchasining maqsadi she’rni, unda ifodalangan shoir qalbini anglashga qaratilgan. O‘zbek adabiyoti tarixida jadidlar boshlab bergan yangi adabiyot bilan she’riyatda ham yangilanishlar kuzatildi. Bu esa yangi she’riyatni baholash ehtiyojini tug‘dirdi. Bu vazifaga Fitrat, Vadud Mahmud, Olim Sharafiddinov kabi adabiyotshunoslar “labbay” deya javob berdilar. Ulardan so‘ng Izzat Sulton, Matyoqub Qo‘shjonov, Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Naim Karimov singari qator olimlarimiz o‘z faoliyatliyatlari bilan ulkan hissa qo‘shdilar. Ular orasida “Do‘stlik” ordeni sohibi, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovning ilmiy faoliyati ko‘pqirraliligi bilan a’lohida diqqatga sazovordir.

“Olim ilmiy ijod olamiga Furqat ijodining tadqiqotchisi va targ‘ibotchisi sifatida kirib keldi va o‘zbek adabiyotshunosligida shoir ijodining mohir bilimdoni sifatida tanildi [Qobilova, 2022. 596.]. Olimning nomzodlik ishi “Furqatning qo‘lyozma manbalari” (1994), doktorlik ishi “Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi, manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi” mavzusida bajarilgan bo‘lib, asosiy etibor matnshunoslikka qaratilgan bo‘lishiga qaramasdan, shoirning murakkab hayot yo‘li, xorijga ketish sabablari bilan birga lirikasi ham chuqur tadqiq etilgan. Olim Furqat lirikasida Navoiy an’analarining davom ettirilishini to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganishni maqsadga muvofiq ko‘radi:

1. Poetik mazmun yangilanishi.
2. Poetik obraz takomili.
3. Poetik janr yangilanishi.
4. Vaznda tatabbu’qilish.

O‘z tadqiqotlarida shoir lirikasining eng nozik jihatlarigacha ochib bergan olim Furqat taxallusuning faqat Vatandan ayriliq deb tushunish ma’noni toraytirib qo‘yish bo‘lishini, bu taxallus e’tiqod, dunyoqrashdan kelib chiqqanligi va Allohdan ayrilishni ham ifodalashini ta’kidlaydi [Jabborov, 2004. 118.]. Bu o‘rinda Furqat ijodi mumtoz adabiyot va tasavvufdan oziqlanganligini hisobga olinsa, olim qarashlarining qanchalik o‘rinli ekanligi oydinlashadi.

Olimning “Zamon, mezon, she’riyat” kitobi o‘zbek she’riyatini zamon mezonlari asosida qattiq tekshirgani bilan qimmatlidir. Kitobda olimning she’r ilmini, so‘z ma’suliyatini nechog‘lik nozik chuqur his qilishi har bir shoir ijodiga yondashuvida aniq sezilib turadi. Ayniqsa, Ozod Sharafiddinovning she’rshunoslik mahorati tahlil qilingan “She’rshunos mezoni” qismida bu holat aniq ko‘zga tashlanadi. Olim munaqqid uchun eng muhim fazilat sifatida haqiqatparastlikni keltiradi. Garchi haqiqatparastlik haqida keltirilgan misollar ustoz Ozod Sharafiddinovning “Zamon, qalb, poeziya” kitobidan olingan bo‘lsa-da, Nurboy Jabborovning ilmiy merosida ham bu fazilat barq urib turadi. Olimning havaskor qalamkash do‘stiga, undan shoir chiqmasligini ochiq aytganligi haqida keltirgan xotiralari ham fikrimizni isbotlaydi.

Olim Ozod sharafiddinovning qarashlarini nozik his qilib, oson tushuntirishining sababi, har ikki olimning qalb torlari she’riyat bobida bir xil ritmda urganidadir. Ozod Sharafiddinov ilmiy uslubiga xos to‘rt xususiyatni sanar ekan, ulardan biri izlanuvchanlik bo‘lib, ayni xususiyat Nurboy Jabborovning ilmiy uslubiga ham xosligini alohida qayd etib o‘tish lozim. Olim ilmiy laboratoriyasiga nazar tashlagan kishi matnshunos, manbashunos, mumtoz va zamonaviy adabiyot bilimdoni, aruz ilmi va tasavvuf adabiyoti, ma’rifatchilik va jadid adabiyoti tadqiqotchisi sifatida o‘n ikkita kitob, bitta darslik, ikkita o‘quv qo‘llanma, 500 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalarning har birida nimadir yangi gap ayta olganligiga guvoh bo‘ladi.

Kitobda Abdulla Oripov, Zulfiya, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf kabi mashhur shoir va shoiralar bilan birga “Olimning ishq chechaklari” qismida Abduqodir Hayitmetov singari adabiyotshunos olimlarning ham ijodi tahlili ham berilgan. Ushbu tahlillarda olimning she’rni, so‘zni qanchalar nozik his qilishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Olim Shavkat Rahmonning

Hayotim ma’nisin juda ko‘p o‘ylab
Sayladim so‘zlarning saralarini...

degan jumlalarini tahlil qilar ekan: “So‘z insonga ato etilgan ne’matlarning eng ulug‘i. Olam yaralishining boisi ham, odamzot hayotiga ma’ni bag‘ishlab turgan ham – so‘z. Ayrim ne’matlardan ayrilsa, inson ko‘p narsa yo‘qotmasligi mumkin, mobodo so‘zdan judo bo‘lsa, hamma narsasini boy beradi” [Jabborov, 2015. 140], degan chuqur ma’noli fikrni bayon etadi. Bu olimning so‘zni qanchalar sevishi, qanchalar e’zozlashining yana bir isbotidir.

Olim nafaqat zamonaviy o‘zbek she’riyati, balki “Adabiyotimizning eng qadimgi davridan Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat”i hamda Alisher Navoiyning hayoti va adabiy merosigacha, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammadrizo Ogahiy, Amiriy va Nodira nazmidan Muqimiy, Furqat va Zavqiy lirikasigacha, Komil Xorazmiy va Feruz ijodidan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy va Cho‘lpon asarlarigacha, Zulfiya, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov she’riyatidan Rauf Parfi, Usmon Azim va Sirojiddin Sayyid ijodigacha tadqiq qilib keladi” [Jabborov, 2015. 173].

Olimning navoiyshunoslik faoliyatining samarasi o‘laroq, 2021-yilda yuzaga kelgan “Maoniy ahlining sohibqironi” monografiyasi 30 jildlik “Istiqlol davri navoiyshunosligi”ning 20-jildiga kiritildi. Ushbu monografiya Abdurauf Fitrat nomidagi “Eng yaxshi adabiy-tanqidiy va publitsistik asar” mukofoti bilan taqdirlangan. Navoiyshunos olim monografiyada buyuk mutafakkirning badiiy ijodda kamolot darajasiga ko‘tarilishida quyidagi ijtimoiy-ma’rifiy va badiiy-estetik omillar zamin bo‘lganligini ta’kidlaydi:

1. Qur’on va sunnatni mukammal o‘rganib, butun hayoti davomida Islom shariatining bu ikki mo‘tabar manbasiga og‘ishmay amal qilgani;

2. Buyuk islom mutafakkirlari, tasavvuf allomalari asarlarini o‘rgangani hamda ulardagi g‘oyalarni muttasil rivojlantirib, boyitib, asarlarida yuksak darajada badiiy talqin eta bilgani;

3. O‘zi mansub turkiy xalqning – o‘zbekning tarixini mukammal bilgani, butun ijodiy-ilmiy salohiyatini millatning or-u nomusi, shon-u sharafini himoya qilish, yuksaltirish yo‘liga safarbar eta olgani [Jabborov, 2021. 17].

Olim shoirning asarlari, adabiy muhitga munosabatini yoritish bilan birga, “Navoiyga izdoshlik saodati” bobida buyuk mutafakkir shoirning Furqat va Abdulla Oripov ijodigacha bo‘lgan ta’sirini asarlaridan misollar keltirib qiyosiy tahlil etadi. Ayniqsa, Abdulla Oripov she’riyatini yuksak baholab, Navoiy ta’siri va izdoshlik masalalarini, ular tug‘ilgan yillar orasidagi aynan yarim asr farqlar ham bejiz emasligi haqidagi Begali Qosimov fikrlarini quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2004.
2. Jabborov N. Zamon, mezon, she’riyat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015.
3. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. – Toshkent: Abadiyat, 2021.
4. Qobilova Z. Furqatshunoslik takomilida Nurboy Jabborov tadqiqotlarining o‘rni / Ta’limda yangicha yondashuv – innovatsiya sari qo‘yilgan qadam. – Qo‘qon, 2022.
5. O‘zbekistonning taniqli olimlari. Ensiklopediya. – Toshkent: Science and innovation, 2025.

SHUKUR XOLMIRZAYEV NASRIDA VAQT VA MAKON KONSEPSIYASI

Hamidova Muhayyoxon Obidovna,
filologiya fanlari nomzodi, professor
Namangan davlat universiteti
e-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

Annotatsiya

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Shukur Xolmirzayev nasriy asarlarida vaqt va makon badiiy unsurlar sifatida nafaqat voqealar rivojini belgilovchi omil, balki qahramonlar ruhiyati, milliy mentalitet hamda ijtimoiy muhitni yorituvchi muhim vosita ekanligi asoslab beriladi. Shukur Xolmirzayev nasrida real va psixologik vaqt, tarixiy va zamonaviy makon uyg‘unligi, shuningdek, makonning ramziy-majoziy talqinlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Ushbu maqolada yozuvchining hikoya va qissalaridagi vaqt-makon munosabatlari adabiy-nazariy tahlil asosida ochib berilib, ularning badiiy-estetik ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek nasri, vaqt va makon, badiiy konsepsiya, psixologik vaqt, real va tarixiy makon, badiiy tafakkur, nasriy asarlar, adabiy tahlil.*

abstract

In the prose works of Shukur Kholmirzayev, a prominent representative of Uzbek literature, it is substantiated that time and space, as artistic elements, are not only a factor determining the development of events, but also an important means of illuminating the psyche of the heroes, the national mentality, and the social environment. In Shukur Kholmirzaev's prose, the harmony of real and psychological time, historical and modern space, as well as symbolic and figurative interpretations of space are scientifically illuminated. In this article, based on literary-theoretical analysis, the time-spatial relations in the writer's stories and novellas are revealed, and their artistic and aesthetic significance is shown.

Key words*: Uzbek prose, time and space, artistic concept, psychological time, real and historical space, artistic thinking, prose works, literary analysis.*

O‘zbek adabiyotida nasr janrining taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan Shukur Xolmirzayev ijodi badiiy tafakkur, hayotiylik va chuqur psixologizm bilan ajralib turadi. Yozuvchi asarlarida inson va jamiyat munosabatlari, milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy muammolar real hayot manzaralari orqali yoritiladi. Bu jarayonda vaqt va makon badiiy asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochib beruvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Badiiy adabiyotda vaqt va makon konsepsiyasi voqealar rivoji, qahramonlar xarakteri va muallif pozitsiyasini belgilovchi asosiy kategoriyalardan hisoblanadi. Ayniqsa, XX asr o‘zbek nasrida ushbu tushunchalar an’anaviy tasvir doirasidan chiqib, falsafiy va psixologik mazmun kasb eta boshladi. Shukur Xolmirzayev ijodi ana shu jarayonning yorqin namunasidir.

Shukur Xolmirzayev o‘zbek nasrida real hayotni badiiy tafakkur orqali chuqur va ta’sirchan aks ettirgan ijodkorlardan biridir. Uning asarlarida vaqt va makon badiiy strukturaning muhim unsuri sifatida namoyon bo‘lib, voqealar rivoji, qahramonlar ruhiyati hamda muallif pozitsiyasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adib nasrida vaqt va makon an’anaviy tasvir vositasi bo‘lib qolmay, balki falsafiy va psixologik mazmun bilan boyitiladi.

Shukur Xolmirzayev asarlarida vaqt tushunchasi ko‘pincha real va psixologik qatlamlarda ifodalanadi. Real vaqt voqealarning ketma-ketligini ta’minlasa, psixologik vaqt qahramon ichki kechinmalari, xotiralari va tafakkuri orqali namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, yozuvchining hikoyalarida o‘tmish xotiralari hozirgi zamon bilan uyg‘unlashib, badiiy vaqtning murakkab shaklini yuzaga keltiradi. Bu holat qahramonlarning ichki ziddiyatlarini ochishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Makon masalasi ham adib ijodida alohida ahamiyatga ega. Shukur Xolmirzayev ko‘pincha o‘zi tug‘ilib o‘sgan Surxondaryo hayotini, tabiat manzaralarini, oddiy insonlar yashaydigan muhitni

badiiy makon sifatida tasvirlaydi. Bu makonlar real hayotga yaqin bo‘lishi bilan birga, ramziy ma’no ham kasb etadi. Masalan, adib tug‘ilib o‘sgan Surxon vohasi makoni insonning tabiiylikka yaqinligi, milliy qadriyatlar va an’analar bilan bog‘liqligini ifodalaydi.

Yozuvchi nasrida vaqt va makon o‘zaro uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Muayyan makon doirasida kechayotgan voqealar vaqtning falsafiy mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, Xolmirzayev asarlarida vaqt va makon inson taqdiri, hayotning murakkabligi va ma’naviy izlanishlar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etiladi.

Adib uslub mavjudligini ijodkorlikning bosh belgisi deb hisoblaydi. Shu bois uslub borasidagi izlanishlariga yozuvchilikda “o‘zlikni topish” tarzida ta’rif beradi. Uning fikricha, uslubni shakllantiruvchi har bir jihat muhim, e’tiborga molik. “O‘tmishu hozirgi zamon adabiyoti – yozish usullaridan, ozmi-ko‘pmi o‘rganib, o‘z yo‘limni topish ustida ko‘p o‘ylandim. Sizga ochiq aytaman, asarlarim ba’zilarga manzur bo‘lmagan esa-da, vaqtimning ko‘pi ana o‘sha asarlarni qanday yozish kerakligi ustida kechdi. Men bundan sira o‘kinmayman. Zeroki, hozir ham o‘zimni izlanishda, deb bilaman. Kun ora uslubimga qo‘shish imkoni bor bo‘lgan bitta-yarimta yangilik topaman. Bu izlanish hatto nuqta, vergulni qayerga qo‘yish borasida ham bo‘ladi” [Xolmirzayev, 1977], deb ta’kidlaydi u adabiyotshunos Umarali Normatov bilan suhbatida.

“Yozuvchi millat ruhidan kelib chiqmasa, bo‘lmas ekan” [Tavaldiyeva, 2001:49], degan o‘z iqrornomasi uning butun ijodini, asarlarini, shaxs sifatidagi tabiatini tutashtirib turadi.

Qahramonlarining aksari uning o‘zi tug‘ilib o‘sgan tuproq-Surxon diyorining mehnatkashlaridir. Asar voqealari sodir bo‘ladigan manzil ham ko‘pincha shu voha bo‘ladi. Shu voha qahramonlari timsoli misolida adib o‘zbek xalqining, o‘zbek tuprog‘ining o‘ziga xosliklarini tajassum etadi.

Adib hikoyalarida siyqasi chiqqan xarakterlar, quruq nasihatgo‘ylik, shablon iboralarni deyarli uchratmaysiz. U doim yangi obrazlar yaratishga intiladi. Asar kompozitsion qurilishida bir-birini takrorlamaydigan yangiliklar topishga urinadi. Bu borada tajribalar o‘tkazishdan cho‘chimaydi va ko‘pincha, muvaffaqiyatlarga erishadi. O‘zbek kishisi orzu-armonlarining, aksar hollarda, yashirin iztiroblarining yoritilmagan qirralarini, ruhiyatidagi evrilishlarni qalamga oladi.

Bu qahramonlar o‘zga yozuvchilarning qahramonlariga o‘xshamagan: goh do‘lvor, goh to‘pori, goh dag‘al va chapani, goh kichkinagina bir muhit vakili. Lekin barchasining ichki dunyosi o‘ziga xos, ruhan teran, insonparvar, e’tiqodidan qaytmaydigan, shularga munosib ravishda mulohaza yuritadigan jonli va hayotiy kishilardir. Bu qahramonlar o‘zligini, millatini, yurt tuprog‘i-yu udumini, dini va diyonatini har narsadan ustun qo‘yadilar. Adolat uchun, haqiqat uchun kurashadilar. Lekin biror qahramon bu maqsadda hech qachon balandparvozlik qilmaydi, ayyuhannos solmaydi. Ular tashqaridan emas, ko‘pincha, ichdan jozibali, istarali, mehrtortar bo‘ladi.

Shukur Xolmirzaev asarlarida voqyelikdagi murakkab hayotiy jarayonlar va kishilarning ziddiyatlardan iborat ruhiy olamini kashf etib bordi. Darhaqiqat, adibimiz juda katta dunyo edi. Uning olamiga hikoyalari, qissalari orqali kirib borganmiz. “Qariya”, “Bodom qishda gulladi” hikoyalarini, “O‘n sakkizga kirmagan kim bor”, “Tog‘larga qor tushdi” qissalarini, “Qora kamar”, “Ziyofat” dramalarini o‘qimagan o‘quvchi bo‘lmasa kerak. Qahramonlarining oddiy tili, xarakterlardagi samimiylik, tabiiylik kitobxonni go‘yoki jonli muloqotga chorlagandek bo‘ladi.

“Shukur Xolmirzayev adabiyotda she’r yozmadi xolos, – deydi adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev. – Balki yoshlik chog‘ida yozgandir, ammo hikoya, qissa, drama, roman janrlarida barakali ijod qildi va ularda turfa mavzularni aks ettirdi. Yozuvchi ijodi orqali o‘zbekning o‘zbeklik tuyg‘usi qanday namoyon bo‘lishini judayam jo‘n, sodda yo‘sinda ko‘rsatib berdi. U odamni bilish nuqtayi nazaridan judayam buyuk ijodkor edi. Buni “Olabo‘ji” romanida ko‘rish mumkin. Unda shaxs va jamiyat muammosini yaqqol ochib bergan.

Yozuvchi o‘z hikoyalarida Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor kabi o‘zbek yozuvchilarining eng

yaxshi an'analarini davom ettirish bilan birga o'zbek hikoyanavisligini rus va yevropa yozuvchilarining badiiy tajribalari bilan ham boyitdi. Aytish kerakki, Shukur Xolmirzayevning eng yaxshi hikoyalari qahramon obrazining yangi va yorqinligi, kompozitsiyasining o'ziga xosligi, qahramonlar tilining rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Shukur Xolmirzayev talabalik yillaridan iste'dodini tirishqoqlik bilan parvarish etdi. O'nlab hikoyalar, "Oq otli" (1961) va "To'lqinlar" (1962) nomli bir emas, ikki qissa shu vaqtda yozildi. Tanqidchilik ularni xayrixohlik bilan kutib oldi.

O'z davrida ushbu asarga ijobiy munosabatda bo'lgan O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor quyidagi fikrlarni yozadi: "Agar yozuvchilik turmushdan nusxa ko'chirishdan iborat bo'lsa, bundan oson ish bo'lmas edi. Hayotdan aynan ko'chirish, kitobdan ko'chirishday gap. Kopiya kopiya bo'lib qolaveradi. Bunday narsalardan originallik kutish behuda. Originallik hayot haqiqatini dildan o'tkazish, unga ko'ngildagi gaplarni singdirish, tilagingni qo'shib ifodalash bilan yuzaga keladi. Badiiy haqiqat vujudga keltiradigan, mahalla komissiyasining "shunga ishoning"lar, degan mazmundagi spravkasiga hojat qolmaydigan me'yor, fakt va uydirma me'yorini topishning mushkulligi ham xuddi mana shundadir" [Karimov, 2007]. Bu gaplarning barchasi mahoratga tegishlidir. Yozuvchining o'zi esa ijod jarayonida unga amal qilgan, asarlarining o'qishliligi siri ham ana shundadir. Adabiy-estetik qarash faqat maqola yozish bilan cheklanmaydi, balki yosh talantlarni ilg'ab olishi, ularning ko'nglini ko'tarishi, oyoqqa turishiga ko'mak berishi, asari haqida to'g'ri gapni aytib, yo'lga solish ham belgilanadi. Shukur Xolmirzayevning "To'lqinlar" nomli birinchi qissasi "Sharq yulduzi" jurnalida bosilganda, yosh yozuvchining iste'dodini birinchi bo'lib Abdulla Qahhor ilg'agan va unga quyidagi xatni yozgan: "Hurmatli Sh.Xolmirzayev! "Sharq yulduzi"da bosilgan "To'lqinlar" povestingizni o'qidim. Povest yaxshi taassurot qoldirdi. Ma'murjonni boshda tabassum bilan tasvir etasiz. Butun asar davomida qisqalikka intilasiz. Yozuvchilikda ko'zingiz ochilib kelayotgani ko'rinib turibdi. Nazarimda, povestning nomi to'g'ri emas. Keyingi ishlaringiz baroridan kelsin!

Salom bilan: Abdulla Qahhor" [Qahharova, 1989: 77].

Atoqli adibning bu e'tirofi yosh yozuvchiga qanot bag'ishlaganini uning o'zi e'tirof etgandi. Abdulla Qahhorning "Kishi shunga suyunadiki, adabiy yoshlarimiz zamonimizning talabini sezadi, adabiyotga uning yuksak ijtimoiy-estetik vazifasini idrok qilib, oliy maqsad uchun kurashda qo'lidagi qurol ekanini anglab kirayotibdi", degan fikri bugungi yoshlar haqida yozilgandek jaranglaydi. Demak, ustoz adibimizning adabiy-estetik qarashlari, o'lmas asarlari bilan bir qatorda, badiiy ijodning mukammalligi uchun xizmat qilayapti.

Abdulla Qahhorning yosh adib haqida aytgan iliq fikrlari, Matyoqub Qo'shjonovning matbuotdagi umidbaxsh mulohazalari kitobxon e'tirofini mustahkamladi.

Har bir yozuvchining dunyoni ijodiy o'zlashtirish jarayonida orttirgan hissiyotlar tajribasi, olamni o'ziga xos ko'rish, idrok etish, tushunish va tushuntirish yo'li bo'ladi. Yozuvchining mahorati, uslubi va tasvirlash san'ati haqida fikr yuritilganda ham, asosan, shu unsurlardan kelib chiqib ish tutish zarurati tug'iladi. Yozuvchi uslubi bilan shug'ullanib, u haqda muayyan hukmni aytish uchun muallif hayotga tashlagan dastlabki nigohidan tortib to asarga so'nggi nuqtani qo'yishgacha bo'lgan jarayonni kuzatish kerak bo'ladi. Iste'dodli yozuvchining hayotga tashlangan dastlabki nigohidayoq, o'sha adib uslubining ayrim qirralari aks etishi mumkin. Ijodkorning o'z tahlil obyektiga munosabati, uni qanday ko'rishi, rang-barang hayot voqealari ichidan zaruriysini saralab olishi, uni o'z tasavvurida qayta jonlantirishi, qalb qo'rini berishi va nihoyat, asar tug'ilishigacha bo'lgan jarayon uslubiy xarakterga ega. "Axir badiiy asar yaratish va yozishgina emas, balki faktni topish uchun san'atkor bo'lish lozim, - deb yozadi F.Dostoyevskiy. – Bir xil kuzatuvchilarga hayot hodisalari tushunarli, oddiy, ular haqida o'ylab o'tirishning, hatto alohida e'tibor berishning ham hojati yo'qday tuyuladi. Lekin haqiqiy turmushdagi biror hodisani, hatto unchalik ko'zga tashlanmaydigan hodisani kuzatib

koʻring” [Boltaboyev, 1992: 42].

Boshqa bir adib Sh.Xolmirzayev ijodiga yuzlanganimizda uning oʻziga xos uslubini, betakror qahramonlari, oʻz mavzusi va oʻzicha tasvirlash yoʻli borligini birinchi navbatda aytish zarur. Yozuvchi ma’lum shaxs va xarakterlar toʻgʻrisida bir necha marta qayta-qayta soʻzlashni, ma’lum xarakter va fikrlarni har tomonlama tekshirishni yaxshi koʻradi. “Toʻlqinlar” qissasidagi Oyna opa oʻzining prinsipialligi, dangalligi va bir oz erkaknamoligi bilan kitobxonlar esida qolgan, yozuvchi “Tuproq koʻchalar” asarida yana shu obrazga munosabat bildiradi. “Oʻn sakkizga kirmagan kim bor” qiss endi uning xarakteri yolgʻiz oila muhitida emas, davlat-xoʻjalik ishlariga boʻlgan munosabatda, davr muammolariga munosabatda ochiladi. Shukur Xolmirzayev asarlarida Turgenevning ayol qahramonlariga oʻxshash yarim romantik, yarim kitobiy bir ayol xarakteri bor. Dastlab bunday qahramonni “Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”da Umida orqali taniganmiz. “Oy yorugʻida”gi Hidoyat ilmga, sivilizatsiyaga tashnaligi bilan hammaning e’tiborini tortadi. Bu qizning musaffo tuygʻulari shahar sharoitida toʻfonlarga duch kelmasaydi deb koʻpchilik tashvishda boʻladi. Bu ayol “Soʻnggi bekat”ga kelib oʻz xarakteri –kitobiylikning qurboni boʻladi, shaxsiy hayoti izdan chiqdi. Ayollar xarakterida koʻp uchraydigan bir xususiyatning rivojlanishini va u zamonaviy bilim bilan payvandlanmagani uchun, oʻzligini anglamagani uchun uchun fojiaga yuz tutganligini koʻrsatib berdi. Muallifning qissa va hikoyalarida tez-tez koʻrinish beradigan bir oʻsmir xarakteri bor. “Oʻn sakkizga kirmagan kim bor” asaridagi Jamshid oʻsha qahramonning koʻp xislatlarini oʻzida jam qilgan. Inson xarakterini ma’lum bir ma’naviy yoʻnalishda tasavvur etib tahlil qilish, uning mukammal xarakter sifatida namoyon boʻlishida yordam beradi. Ehtimol shuning uchun ham Shukur Xolmirzayevning har bir asariga xarakterning shakllanish jarayonini koʻrsatish xos emas. U inson xarakterini ma’lum bir davrda oladi va oʻsha muhim paytda yo tabiatga, yo davr muammolariga, yoki boshqa kishilarga munosabatda uning insoniy murakkabliklarini talqin qilishga intiladi. Shundan kelib chiqib, uning hikoyalari asosan, bir voqeali. Yozuvchi majlisdan tanqid yeb tushkunlikka tushgan agronom haqida yozadimi, armiyaga joʻnatayotgan koʻcha bolasining holatini tasvir etadimi yoki “shahar pushtasiga” toʻgʻri kelmaydigan “yovvoyi” yigitning kelajagi haqida bahs yuritadimi – bu asarlar dunyoni oʻziga xos koʻrishdan, tushunish va tushuntirishdan kelib chiqadi [Boltaboyev, 1992: 52].

Shukur Xolmirzayev nasriy ijodini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, yozuvchi asarlarida vaqt va makon badiiy konsepsiyaning muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Adib bu unsurlar orqali voqealar rivojini emas, balki inson ruhiyati, hayot mazmuni va jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy munosabatlarni chuqur yoritishga erishadi. Vaqtning real va psixologik shakllarda tasvirlanishi qahramonlarning ichki kechinmalarini ochishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

Shukur Xolmirzayev nasrida makon koʻpincha real hayot bilan chambarchas bogʻlangan holda tasvirlanadi. Surxon vohasi, tabiat va oddiy insonlar yashaydigan muhit nafaqat voqealar kechadigan joy, balki milliy mentalitet, ma’naviy qadriyatlar va insoniy munosabatlarni ifodalovchi ramziy makon sifatida talqin etiladi. Vaqt va makonning oʻzaro uygʻunligi esa adib asarlarining badiiy yaxlitligini ta’minlaydi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, Shukur Xolmirzayev nasrida vaqt va makon konsepsiyasi yozuvchining individual ijodiy uslubini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Ushbu konsepsiyani oʻrganish nafaqat adib ijodining badiiy-estetik qimmatini chuqur anglashga, balki oʻzbek nasrida vaqt va makon masalasining rivojlanish xususiyatlarini aniqlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992. – 105 б.

2. Hamidova M. O.Shukur Kholmirzayev’s skills of creating portrait // International Journal of Applied Rezearch 2020; 6 (5): 448-450. – B. 448-450.

3. Hamidova M. Hozirgi oʻzbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida):

Monografiya. – Toshkent: Navroʻz, 2020. – 148 b.
4. Каримов Ҳ. Ҳалоллик ва шижоат // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2007. – № 33.
5. Қаҳҳарова К. Чорак аср ҳамнафас.-Тошкент, 1989. – Б. 77.
6. Тавалдиева Г.Шукур Холмирзаев ҳикояларида воқеликни бадиий идрок этиш принциплари: Филол. фан. номз....дисс. – Тошкент, 2001. – Б.49.
7. Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar: III jildlik. 1-jild: Hikoyalar. – Toshkent: Sharq, 2003. – 448 b.
8. Холмирзаев Ш. Услуб, бадиий шакл муаммолари (Суҳбатдош – Умарали Норматов)// Шарқ юлдузи, 1977. – №

NURBOY JABBOROV – SHE'R ILMINING MOHIR TARJIMONI (ABDULLA ORIPOV IJODI MISOLIDA)

Malohat O'tamuradova,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Amudaryo tumani
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek adabiyotshunosligining taniqli vakili Nurboy Jabborovning Abdulla Oripov ijodiga bergan bahosi, uning she'riy merosini tahlil qilishdagi ilmiy halolligi, adolatli yondashuvi va poetik tafakkuri haqida fikr yuritiladi. Muallif N.Jabborovning A.Oripov she'riyatiga yondashuvida faqatgina shoirga emas, asarning badiiy, estetik va semantik qatlamlariga alohida e'tibor qaratganini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: *Nurboy Jabborov, Abdulla Oripov, o'zbek she'riyati, adabiy tahlil, tanqid, poetik tafakkur, milliy adabiyotshunoslik, estetik mezon, lirik-falsafiy obraz, zamonaviy munaqqid, she'rshunos olim.*

abstract

This article examines the literary evaluation of Abdulla Oripov's work by prominent Uzbek literary scholar Nurboy Jabborov. The author highlights Jabborov's scholarly integrity, fair-minded approach, and poetic insight in analyzing the poet's literary heritage. Special emphasis is placed on Jabborov's attention not only to the poet himself but to the artistic, aesthetic, and semantic layers of the texts. He interprets criticism not as rejection, but as a tool for creative development and deeper poetic understanding.

Keywords. *Nurboy Jabborov, Abdulla Oripov, Uzbek poetry, literary analysis, criticism, poetic thinking, national literary studies, aesthetic criteria, lyrical-philosophical imagery, contemporary critic, poetry scholar.*

XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotida she'riyat yetakchi estetik hodisa sifatida alohida bosqichni tashkil etadi. Bu davr poeziyasi nafaqat badiiy shakl va ifoda vositalari jihatidan, balki ijtimoiy-falsafiy mazmun, milliy o'zlikni anglash, shaxs va jamiyat munosabatlarini poetik idrok etish nuqtayi nazaridan ham yuksak darajaga ko'tarildi. XX asr she'riyati o'zbek adabiyotining estetik tafakkurini yangilagan, poetik ong va badiiy tafsir imkoniyatlarini kengaytirgan muhim adabiy hodisa sifatida namoyon bo'ldi.

Ma'lumki, yozma adabiyot taraqqiyotining ilk bosqichlaridanoq nazm janri badiiy tafakkurning asosiy ifoda shakli sifatida shakllangan. Nasr va drama janrlari hali to'liq tizimlashmagan davrda poeziya adabiy jarayonning markazida bo'lib, u milliy-estetik tafakkurning genetik asosi vazifasini bajargan. Shu ma'noda, she'riyatni badiiy adabiyotning ibtidoiy, ammo eng barqaror va uzviy shakli sifatida baholash mumkin. Ushbu poetik an'ana asrlar davomida uzluksiz rivojlanib, XX asrda yangi mazmuniy qatlamlar, estetik tamoyillar va poetik tafakkur modellari bilan boyidi.

XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyoti Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Muhammad Ali kabi shoirlar ijodi bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu ijodkorlar she'riyatda individual poetik uslub, milliy ruh va zamonaviy estetik tafakkur sintezini amalga oshirgan adabiy avlod sifatida e'tirof etiladi. Ularning she'rlarida shaxsiy kechinma ijtimoiy ong bilan uyg'unlashib, xalq taqdiri, milliy o'zlik, tarixiy xotira va ma'naviy mas'uliyat masalalari badiiy umumlashtirish darajasiga ko'tarilgan. Natijada, XX asr she'riyati faqat estetik hodisa emas, balki ma'naviy-ma'rifiy va g'oyaviy-falsafiy makon sifatida shakllandi.

Abdulla Oripov mazkur adabiy avlod doirasida o'zining yuksak badiiy salohiyati, poetik tafakkur kengligi va falsafiy mushohada teranligi bilan alohida ajralib turadi. Shoir ijodida inson va jamiyat, millat va tarix, e'tiqod va ma'naviyat masalalari chuqur lirik-falsafiy talqin orqali ifodalanadi. Uning she'rlarida poetik obraz faqat estetik vazifa bajarib qolmay, balki falsafiy mazmun

tashuvchi konseptual birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Abdulla Oripov poetikasida shaxsiy kechinma umummilliy tafakkur darajasiga ko‘tarilib, lirik “men” obrazida butun bir xalqning ruhiy holati va tarixiy xotirasi mujassamlanadi.

Shoirning ijodiy merosi adabiyotshunoslikda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar obyekti bo‘lib, uning she’riyati poetik tafakkur, milliy-estetik konsepsiya va zamonaviy lirikaning taraqqiy bosqichlarini anglashda muhim nazariy manba hisoblanadi. Shu bois Abdulla Oripov she’riyati XX asr o‘zbek poeziyasining badiiy-falsafiy cho‘qqilaridan biri sifatida baholanishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslidir.

Adabiyotshunos olim Nurboy Jabborov o‘zining ilmiy qarashlari bilan XX asr o‘zbek she’riyati tahlilida alohida e’tiborga loyiq tadqiqotchi sifatida ajralib turadi. Olim lirik asarlarni faqat umumiy tarzda tahlil qilish bilan cheklanmay, har bir she’rning ichki tuzilmasini, poetik qatlamlarini, ritmik va obraz tizimini chuqur o‘rganadi. N. Jabborov tahlillarida she’rning semantik ohangi, psixologik ifodalanishi va shakliy komponentlari alohida o‘rganiladi. Bu metodologiya adabiyotshunoslikda yangicha yondashuvni ifodalaydi, chunki N. Jabborov she’rni faqat matn sifatida emas, balki badiiy til va poetik tafakkur jarayoni sifatida qabul qiladi.

N. Jabborovning “Zamon. Mezon. She’riyat” kitobidagi “Go‘zal tashbeh, sirli ruh” maqolasida Abdulla Oripov she’rlari tahlil qilinadi. Maqolada shoirning so‘z san’atini yuqori qadrlashi orqali uning she’rlaridagi badiiy qiymat va semantik yuksaklik ta’kidlanadi: “So‘zning nechog‘lik ulug‘ ne’mat ekani ayon. Bu ne’mat qadrini dunyo matohi bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Ayniqsa, Abdulla Oripovday so‘z san’atkorining har bir asari “so‘z guharining sharafi” (Hazrat Navoiy ta’biri) nechog‘li yuksak ekanini mudom tasdiqlab turadi” [Jabborov, 2015: 101]. N. Jabborovning bu fikri nafaqat A. Oripov she’riyatining badiiy-tahliliy qadriyatini, balki so‘z san’ati haqidagi falsafiy-nazariy qarashlarini ham aks ettiradi. U she’rni faqat badiiy ifodaning vizual yoki formal ko‘rinishi sifatida ko‘rmay, balki uning ruhiy va axloqiy qadriyatlari bilan boyitilgan, inson ruhini shakllantiruvchi asar sifatida baholaydi.

N.Jabborovning adabiyotga fidoyiligi va badiiy mezonlarga sodiqligi olimning o‘ta ehtiyotkorlik bilan amalga oshirilgan tahlillarida aks etadi. Munaqqid Abdulla Oripov ijodini tahlil qilish jarayonida boshqa munaqqidlarning tahlillariga ham munosabat bildiradi. Jumladan, Mirtemir domlaning tahlillari haqida to‘xtalib o‘tadi: “Abdulla Oripov shoir. Shoir bo‘lganda ham anov-manovlardan emas. Xudo butun qilib berganlardan. Zo‘r!” Haqiqat ham shunday. Abdulla Oripovning eng yangi she’rlari ham bu fikrni tasdiqlaydi” [Jabborov, 2015: 101].

Nurboy Jabborov Abdulla Oripov ijodiga baho berar ekan, u tanqidiy fikrlashdan chekinmaydigan, adabiy tahlilga prinsipial yondashadigan, ilmiy halollik va mas’uliyatni ustuvor biladigan adabiyotshunos sifatida namoyon bo‘ladi. Olimning asarlardagi badiiylik, estetik izlanishlar va poetik shaklga bergan baholari bir yoqlama maqtov yoki yuzaki tanqiddan yiroqdir. Olim A. Oripov ijodiga katta hurmat bilan qaraydi, ammo bu hurmat uni subyektiv yondashuvga yetaklamaydi; aksincha, she’rni sifatli adabiy tahlil asosida, ilmiy mezonlarga suyangan holda baholaydi.

Xulosa qilib aytganda, Nurboy Jabborovning Abdulla Oripov she’riyati haqidagi ilmiy mulohazalari adabiyotshunoslikda tanqidiy tafakkurning yetuk namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Olim o‘z izlanishlarida shoir shaxsiga emas, avvalo, she’rning badiiyatiga, poetik mukammalligiga ustuvor e’tibor qaratadi. Bu yondashuv N. Jabborov ilmiy faoliyatining asosiy metodologik tamoyilini belgilab, uning tahlillarini xolislik va ilmiylik bilan ta’minlaydi.

Demak, N.Jabborovning Abdulla Oripov she’riyati haqidagi qarashlari alohida bir tadqiqotchining subyektiv fikri doirasida emas, balki milliy badiiy tafakkur va estetik mezonlarga tayanilgan, mas’uliyatli va talabchan adabiyotshunoslik pozitsiyasi sifatida qadrlanishi lozim. Bu mulohazalar XX asr o‘zbek she’riyatini anglash va baholashda muhim nazariy-metodik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma'naviyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015. – 132-b.
2. Jabborov N. Zamon. Mezon. She'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015. – 304-b.
3. Jabborov N. Ma'rifat nadir. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – 112-b.
4. Jabborov N. Cho'lpon she'riyatida milliy istiqlol orzusining badiiy talqini // Cho'lpon ijodi va zamonaviy adabiy jarayon. – Toshkent: Mashhur-press, 2018. – 45–52-b.
5. Jabborov N. Maoniy ahlining sohibqironi. – Toshkent: Adabiyot, 2021.

QORAQALPOQ ADABIYOTSHUNOSLIGIDA QUVANCHBAY O‘RAZIMBETOV FENOMENI

Nigora Tleubayeva,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani
40-sonli umumta’lim maktabi o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada qoraqalpoq adabiyotshunosligi rivojida salmoqli o‘ringa ega bo‘lgan Quvanchbay O‘razimbetovning ilmiy faoliyati tahlil qilinadi. Xususan, uning Ibrayim Yusupovning “Duzli Samallar” to‘plamiga bag‘ishlangan adabiy-nazariy tadqiqoti asosida milliy lirika, ekologik mavzularning adabiy ifodasi, janrlararo uyg‘unlik kabi muhim nazariy masalalar ko‘rib chiqiladi. O‘razimbetovning yondashuvi milliy adabiyot tahliliga yangi uslubiy yo‘nalish olib kirgani, ekologik adabiyotshunoslikka asos bo‘lgani va qoraqalpoq lirikasining zamonaviy bosqichini belgilagani aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *Quvanchbay O‘razimbetov, qoraqalpoq adabiyoti, adabiyotshunoslik, Ibrayim Yusupov, Duzli Samallar, lirika, ekologik mavzu, she’riy to‘plam, nazariy tahlil, epik-lirik uyg‘unlik.*

Abstract

This article examines the scientific contribution of Quvanchbay O‘razimbetov to the development of Karakalpak literary studies. Particular attention is given to his literary-theoretical analysis of Ibrayim Yusupov’s poetry collection “Duzli Samallar”. The study highlights O‘razimbetov’s theoretical approach in interpreting lyrical structure, ecological themes, and the integration of epic and lyrical elements. His research is shown to have introduced new methodological directions into the analysis of national literature and contributed significantly to the evolution of modern Karakalpak lyrical poetry.

Keywords: *Quvanchbay O‘razimbetov, Karakalpak literature, literary studies, Ibrayim Yusupov, Duzli Samallar, ecological poetry, lyrical analysis, national literature, genre synthesis, theoretical approach*

Zamonaviy ijodiy jarayonlarning rivojlanishida adabiy tanqid muhim vositadir. Adabiyotshunoslikning tanqidiy yo‘nalishi adabiy jarayonlarga baho beradi, ijodkorlar faoliyatini ilmiy-nazariy mezonlar asosida tahlil etadi. Bu esa ijodkorning o‘z badiiy izlanishlarida aniq yo‘nalishga ega bo‘lishiga, asarlarning g‘oyaviy-estetik darajasini oshirishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, adabiy tanqid adabiyotning faollashtiruvchi, yangilovchi va rag‘batlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy adabiyotlarning shakllanishida adabiy maktablar va yo‘nalishlar o‘ta muhimdir. Bunday maktablar adabiy tafakkurning bosqichma-bosqich rivojlanishini, tarixiy uzviylikni namoyon etadi. Adabiyotshunoslik bu maktablarni aniqlaydi, ularning vakillari, asoschilari hamda poetik tamoyillarini tadqiq etadi. Natijada adabiy meros izchil tizimlanadi, har bir adibning adabiyotdagi o‘rni va ahamiyati aniqlanadi.

Adabiyotshunoslik milliy adabiy merosni ilmiy asosda tadqiq etib, uni yangi avlodlarga yetkazadi. Bu jarayon nafaqat tarixiy adabiyotlarni o‘rganish, balki ularni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg‘unlashtirish, yangi estetik qadriyatlar asosida baholashni ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, adabiyotshunoslik xalqaro miqyosda milliy adabiyotlarni tanitishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Adabiyotshunoslik milliy adabiyotlarning shakllanishi va rivojlanishida nazariy, tanqidiy, estetik va madaniy jihatdan hal qiluvchi rol o‘ynaydi. U adabiy merosni chuqur ilmiy tahlil qilish, zamonaviy adabiy jarayonlarga baho berish, ijodkorlarning badiiy izlanishlarini yo‘naltirish orqali adabiyotning mintaqaviy va global taraqqiyotiga xizmat qiladi. Har qanday milliy adabiyotning barqaror rivojlanishida adabiyotshunoslikning o‘rni va roli doimiydir.

Qoraqalpoq adabiyotshunosligining zabardast vakili Q. O‘razimbetov o‘zining ilmiy-nazariy qarashlari bilan nafaqat qoraqalpoq adabiyotshunosligi, balki butun turkiy xalqlar adabiyotshunosligi rivojiga hissa qo‘shib kelayotgan olimlardan hisoblanadi. Olim o‘z faoliyati davomida qoraqalpoq

adabiyotining klassiklari Berdaq, Ajiniyaz ijodidan tortib, zamonaviy qoraqalpoq poeziyasi yulduzi I. Yusupov va boshqa ijodkorlar asarlarini tahlil qilib, munosib baholab kelmoqda. Q. O‘razimbetov I. Yusupovning “Duzli samallar” to‘plamini ilmiy-nazariy tahlil qilib, qoraqalpoq adabiyotida to‘plam tuzish an’anasining o‘ziga xos uslubi yaratilganligini e’tirof etadi. Muallif I. Yusupovning “Duzli samallar” to‘plamini ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil qilar ekan, unda she’riy to‘plam yaratish prinsiplari ustida fikr yuritadi. Ushbu to‘plamda she’riy qahramonning o‘rni va uning davr sharoitlari bilan chambarchas bog‘lanishi asosiy e’tibor markazida turadi. Olim I. Yusupovning ushbu to‘plamini tahlil qilib, quyidagicha ilmiy-nazariy qarashlarni ilgari suradi:

Birinchidan, shoirning butun to‘plamni yaratishda avvaldan rejaga asoslangan yondashuvi ta’kidlanadi. Asarlar 1987–1988-yillarda yaratilgani, ya’ni bir davrga xosligi ularning mazmuniy va tematik yaxlitligini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, tarixiy va ijtimoiy sharoitlar ta’siri. She’riy qahramon 1980-yillarning ikkinchi yarmidagi “sovuq urush”ning kuchayishi, ekologik muammolar kabi ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarning ruhiyatga ta’siri ostida shakllangan. Muallif ushbu tarixiy kontekstni to‘plam mazmunini tushunishda muhim omil deb hisoblaydi.

Uchinchidan, she’riy qahramon va ekologik muammolar. To‘plamdagi asarlarda ekologik falokat va uning oqibatlariga e’tibor kuchli, ayniqsa, “Umid daraxti”, “Orol elegiyalari” kabi asarlar misolida bu holat batafsil ochib beriladi.

To‘rtinchidan, epik va she’riy tasvir usullarining uyg‘unligi. “Orol elegiyalari” turkumi misolida muallif epik (voqeaviy) va she’riy (his-tuyg‘uli) elementlarning uyg‘unlashishi, shoirning tragediyani yanada chuqurroq va ko‘lamli ifodalashga intilganini ko‘rsatadi.

Maqola qoraqalpoq adabiyotida she’riy to‘plam yaratish tajribasini yoritib, milliy lirikaning yangi bosqichga ko‘tarilishi sifatida baholanadi. I. Yusupovning yondashuvi va ijodiy uslubi qoraqalpoq lirikasining zamonaviy namunalarini yaratishda muhim sanaladi. Shuningdek, maqolada qoraqalpoq adabiyotida ekologik muammolarning san’atda aks etishiga alohida e’tibor qaratilgani adabiyotshunoslikka yangicha yondashuv olib kirdi. Shu bilan birga, shoirning epik va she’riy elementlarni birlashtirish orqali yaratilgan ijodi adabiyotshunoslikda janrlararo chegaralarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Quvanchbay O‘razimbetovning mazkur maqolasi Ibrayim Yusupovning “Duzli samallar” she’riy to‘plamini ilmiy-nazariy mezonlar asosida izchil va chuqur tahlil etishi bilan ajralib turadi. Tadqiqotda to‘plamning ichki badiiy yaxlitligi, tarixiy-ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqligi, ekologik muammolarning poetik talqini hamda epik va lirik tasvir usullarining o‘zaro uyg‘unligi asoslab beriladi. Muallif she’riy matnni faqat estetik hodisa sifatida emas, balki zamon va makon bilan bog‘liq badiiy tafakkur mahsuli sifatida talqin qiladi.

Mazkur maqola qoraqalpoq adabiyotshunosligida, xususan, lirika tahlilida yangi metodologik yondashuvlarni ilgari surib, ekologik mavzularni adabiy-estetik jihatdan o‘rganishda muhim nazariy asos yaratadi. Q. O‘razimbetov ekologik muammolarni shoir tafakkuri va badiiy obrazlar tizimi orqali ochib berish imkoniyatlarini ko‘rsatib, lirikaning ijtimoiy-falsafiy salohiyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, Quvanchbay O‘razimbetovning ilmiy-ijodiy faoliyati qoraqalpoq adabiyotshunosligi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning izlanishlari milliy adabiy jarayonni nazariy jihatdan asoslash, adabiy shakl va mazmun munosabatini aniqlash hamda badiiy matnni tarixiy-ijtimoiy kontekstda talqin etishga qaratilganligi bilan e’tiborlidir. Ayniqsa, Ibrayim Yusupov ijodiga, xususan, “Duzli samallar” to‘plamiga bag‘ishlangan tadqiqotlari qoraqalpoq lirikasi rivojida yangi ilmiy bosqichni belgilab berdi. Q. O‘razimbetovning ekologik masalalarni lirika vositasida yoritishi, epik va lirik unsurlar sintezini nazariy jihatdan asoslashi zamonaviy badiiy tafakkurni anglashda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Оразымбетов Қ. Ҳәзирги қарақалпақ лирикасында көркем формалардың эволюциясы ҳәм типологиясы. – Нөкис: Билим, 2004.
2. Jabborov N. Zamon. Mezon. She'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015. – 304 b.
3. Мамбетов Қ. И. Юсупов поэмаларының жанрлық өзгешеликлери. Филол. илим. философия докт. (PhD) дисс. – Нөкис, 2019.

ZAMONAVIY NASRDA USLUBIY-KOMPOZITSION O‘ZIGA XOSLIK

Mohira Sa’dullayeva,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
e-mail: Sadullayevamohira59@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotida nasriy yangilanishlar, qissachilikda yuz berayotgan o‘ziga xos ijodiy evrilishlar, badiiy ifodada uslubiy-kompozitsion o‘ziga xoslik, qissachilik tadrijiga doir ilmiy-nazariy muammolar xususida qisqacha so‘z boradi. Bugungi qissalardagi g‘oya va shakl, mavzu-mundarija, shakl va uslubiy-kompozitsion hamda individuallik jihatdan xilma-xillik, undagi kechayotgan o‘zgarish va yangilanishlarga doir mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *qissanavislik, an’ana va milliy adabiyot, psixologik holat, qissaxonlik, an’anaviylik, qahramon, realistik, sarguzasht, modernistik xarakter.*

Abstract

The article briefly discusses the prose innovations in modern Uzbek literature, the unique creative developments taking place in storytelling, the stylistic and compositional uniqueness of artistic expression, and scientific and theoretical problems of the development of storytelling. The ideas and forms, the subject-content, the diversity of forms and stylistic and compositional and individual aspects of today’s stories, the changes and innovations taking place in them are considered.

Key words: *storytelling, tradition and national literature, psychological state, storytelling, traditionalism, hero, realistic, adventure, modernist, character.*

Istiqlol davri qissanavisligi yangi ohanglar, o‘ziga xos uslublar hisobiga boyidi. Zamonaviy qissachilikning ifoda tarzi jahon adabiyotining ilg‘or an’analari va milliy adabiyot tajribalarini davom ettirishi natijasida o‘zgacha uslubiy-kompozitsion xususiyatlar kasb etmoqda. Badiiy talqinda ifodaning qabariqligi, tasvirning quyuq va serqatlamligi, mazmun-mundarijaning o‘ziga xosligi, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi bilan insonni tushunish, kashf etish va badiiy tadqiq qilish, bugungi o‘zbek qissalariga xos asosiy jihatlar sifatida ta’riflanadi.

O‘zbek adabiyotida qissa janri ham uzoq tarixiy jarayonni boshidan o‘tkazdi. Ma’lumki, qissa o‘z tabiatiga ko‘ra tezkor va mahsuldor janr sanaladi. Xalq ijodining og‘zaki qissaxonlik an’analari, payg‘ambarlar haqidagi diniy qissalar, muhabbat qissalari, mumtoz adabiyotdagi qissachilik (dostonlar tarkibida va Rabg‘uziyning “Qur’oni Karim” ta’sirida yaratilgan payg‘ambarlar qissasi “Qissasi Rabg‘uziy”), sho‘ro davri povest janri, modern qissalar ta’siridagi qator omillar bugungi o‘zbek qissachiligi uchun asos va poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Zamonaviy o‘zbek qissachiligi tarixida realistik an’anaviy qissachilik, vulgar-sotsiologik qissachilik, kinoyaviy qissachilik va modernistik qissachilik ijodiy an’analari va tajriba-ko‘rinishlari vujudga keldi. Qissa (povest) yagona qahramon sarguzashtining xronikal izchillikdagi tasviri va, asosan, bosh qahramon xarakterini ochishga qaratilgani bilan boshqa nasriy janrlardan farq qiladi. Qissa voqealari asosan qahramon tilidan yoki alohida bayonchi (adib yoki boshqa shaxs) tomonidan hikoya qilinadi. “Qissalarda bosh qahramon syujetdagi barcha voqealarni yagona markaz sifatida birlashtirib turadi” [Ulug‘ov A., 1; 141]. Qissaga xos bo‘lgan yana bir yetakchi xususiyat shundaki, mazkur janr talablariga ko‘ra asar markaziga qo‘yilgan masala yoki muammo faqat bir shaxs bilan bog‘liq bo‘ladi va uning yechimi bilan asar syujeti voqealari tugallanadi. Demak, bosh qahramon hayotining muayyan qismi bilan bog‘liq muammolarning badiiy yechimiga asoslangan, xronikal izchillikka moyil syujet vositasida bayon qilinuvchi asarlar qissa janrini tashkil etadi. Hozirgi adabiy jarayonda uslubiy rang-baranglik, qissalar mazmuni va shaklidagi yangilanishlar ijtimoiy-estetik

ong va badiiy tafakkur rivojidagi evrilishlar ifodasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zero, “Bugungi qissachiligimizga nazar tashlaganda, birinchi galda mavzu, muammo, shakliy, uslubiy jihatdan rang-baranglik e’tiborni tortadi: ular orasida ham an’anaviy romantik, realistik, ham modernistik yo‘nalishdagi asarlarni ko‘rish mumkin” [Normatov U., 2; 47].

Istiqlol arafasi va mustaqillik yillarida o‘zbek adabiyotida Odil Yoqubov, Tog‘ay Murod, Erkin A’zam, Ahmad A’zam, Nazar Eshonqul, Shoyim Bo‘tayev, Abduqayum Yo‘ldoshev, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam, Salomat Vafo, Luqmon Bo‘rixon kabi ijodkorlar yaratgan turfa mavzudagi qissalarda muhit va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlar bilan inson botiniy olamidagi qarama-qarshiliklar talqin etilgan. Ma’lumki, o‘tgan asrning 80–90-yillar o‘zbek qissachiligida insonni barcha musbat va manfiy qirralari bilan yaxlit holda tasvirlash tendensiyasi alohida muhim xususiyat sifatida ko‘zga tashlanadi. Ayni shu davrlarda adabiyotda milliy xarakterlar yaratish davr ehtiyojiga aylandi. Istiqlol yillarida yangi yo‘nalishdagi ijodkorlar avlodi shakllana boshladi, ular yaratgan badiiy asarlar janr hamda mazmun jihatdan o‘sish-o‘zgarish, yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bu davr nasrida, xususan, qissachiligida insonning tuyg‘ularini, uning ko‘ngil mavjlarini turfa voqealar fonida tasvirlashga alohida urg‘u berilmoqda. Adabiyotshunos Abdulla Ulug‘ov ta’kidlaganidek, “Adabiyotda har qanday janrning mavqeyi, maqomi unda inson obrazining gavdalantirilishi bilan belgilanadi. O‘tgan davrda qissalarda inson haqida, uning murakkab ma’naviy-ruhiy olami, qalbidagi turfa xil o‘zgarishlar to‘g‘risida yangicha qarashlar o‘z ifodasini topdi va ular badiiy salmoqdor asarlar sifatida e’tibor qozondi” [Ulug‘ov A., 3; 51].

Darhaqiqat, har qanday san’at asari insonga, uning kamolotiga xizmat qilishi, ma’naviy barkamolligini yuksaltirishga hissa qo‘shishi lozim. Bunda, ayniqsa, badiiy so‘zning ta’siri nihoyatda kattadir. Istiqlol davri o‘zbek qissalarida inson taqdiri, uning dard-alami, sevgi va hijroni, olam va tabiat, hayot va o‘lim haqidagi o‘y-fikrlari yangicha ifoda hamda shakllarda badiiy talqin etildi. Bunda yozuvchilarning o‘ziga xos uslubi, syujet va kompozitsiya imkoniyatlaridan foydalanish mahorati alohida ahamiyat kasb etadi. “Bugunning qissalari rang-barang uslubiy izlanishlar natijasida epik ko‘lam miqyoslarini kengaytirib, o‘zbek nasri taraqqiyotini ta’minlamoqda. Mustaqillik davrida yaratilgan qissalar ijtimoiy voqelikni tasdiqlash yoki inkor qilish emas, uni bor ziddiyatlari bilan haqqoniy tasvirlash tendensiyasi o‘zbek nasrida barqaror ijodiy tamoyilga aylanganligini ko‘rsatmoqda” [Rustamova M., 4; 21]. Adabiy jarayonda fikr va ijod erkinligi adiblar uslubining turfa xilligini ta’minlash bilan bir qatorda ijodkor individualligining ham yuzaga chiqishini ta’minlaydi.

Muxtasar qilib aytganda, bugungi qissalar g‘oya va shakl, mavzu-mundarija, uslubiy-kompozitsion hamda individuallik jihatdan xilma-xildir. Ular tarixiy, zamonaviy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, oilaviy-maishiy, sarguzasht-detektiv, ishqiy mavzulardagi realistik, romantik, yumoristik va modernistik yo‘nalishda yaratilgan asarlar bo‘lib, bugungi qissachilikda kechayotgan o‘zgarish va yangilanishlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. B.141.
2. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –Toshkent: Ma’naviyat, 2000. B. 47.
3. Ulug‘ov A. Qissalarda qalb aksi // Sharq yulduzi, 2011. 4-son. B.51.
4. Rustamova M. Istiqlol davri o‘zbek qissalarining taraqqiyot tendensiyalari. Filol.fanl.nomz. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2005. B. 21.

SIROJIDDIN SAYYID DOSTONLARIDA MILLIY KOLORITNING O‘ZIGA XOS BADIIY IFODASI

Guljahon Doshanova,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Sirojiddin Sayyid dostonlarida milliy koloritning badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoir dostonlarida xalqona tafakkur, milliy mentalitet, tarixiy xotira, urf-odat va an’analar poetik obrazlar hamda badiiy vositalar orqali qanday aks etgani ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, milliy leksika, folklor unsurlari, ramziy obrazlar va muallifning individual uslubi milliy koloritni shakllantiruvchi muhim omillar sifatida baholanadi. Maqolada badiiy tahlil, qiyosiy va struktural metodlardan foydalanilgan bo‘lib, natijalar Sirojiddin Sayyid dostonlarining milliy ruhni ifodalashdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Sirojiddin Sayyid, doston, milliy kolorit, badiiy ifoda, milliy mentalitet, folklor unsurlari, poetik obraz.*

Abstract

This article analyzes the distinctive artistic expression of national color in the epics of Sirojiddin Sayyid, one of the prominent representatives of modern Uzbek literature. The study examines how folk worldview, national mentality, historical memory, customs, and traditions are reflected in the poet’s epics through artistic images and expressive devices. Particular attention is paid to national vocabulary, folklore elements, symbolic imagery, and the author’s individual style as key factors shaping national color. The research employs literary analysis, comparative, and structural methods, highlighting the role and significance of Sirojiddin Sayyid’s epics in expressing national spirit and cultural identity.

Keywords: *Sirojiddin Sayyid, epic poetry, national color, artistic expression, national mentality, folklore elements, poetic imagery.*

Adabiyotda kolorit tushunchasi badiiy va lirik asarlarda voqelikni ta’sirchan shaklda tasvirlash vositasi bo‘lib, asarning g‘oyasi, davri, uslubi, mazmuni hamda muallifning shaxsiyatiga qarab turlicha bo‘ladi. Shunga ko‘ra turli ijodkorlarda kolorit uning yashash joyi, muhiti, yoshi hamda qarashlariga asoslanib shakllanadi.

Milliy ruh va milliy kolorit tasvirlangan asarlar o‘ziga xoslikka ega bo‘ladi. Milliy koloritni o‘zida mujassam etgan badiiy asar millat ruhi bilan tarbiyalangan har qanday kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. Kolorit singdirilgan asar kitobxonga ma’naviy, estetik va ruhiy ozuqa beradi. Buning natijasida kitobxon xalq madaniyati, urf-odati, an’analari, millat va vatan tarixi haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Bunday badiiy asarlar milliy-tarixiy mazmunga boy bo‘lishi bilan bir qatorda, kitobxon qalbidan teran o‘rin oladi. Albatta, milliy koloritga to‘yingan badiiy asarda tarixiylik, milliylik, umuminsoniylik va vatanparvarlik kabi baynalmilal g‘oyalar bosh mezon sifatida ifodalanishi ma’lum. Sirojiddin Sayyid ijodida milliylik, milliy kolorit uning obrazlarida namoyon bo‘ladi.

Masalan, Vatan mavzusiga shoir har bir she’rida yangicha rakursda yondashadi. Fikrni kutilmagan o‘zanga burib, xayolga kelishi qiyin bo‘lgan ohorli poetik umumlashmalar chiqaradi [Jabborov N., 2015: 35]. Darhaqiqat, Sirojiddin Sayyid Vatanning mukammal obrazini yaratishda, uning timsollarini aks ettirishda bir qancha poetik vositalardan, badiiy detallardan, original tashbehlardan unumli foydalanadi. Ijodkor – yurt tarixi, ajdodlari, bolaligidan tortib to hozirga qadar yashagan joylari, boshdan kechirganlari, uchratgan insonlari, hayotiy voqealari va predmetlar, xullas, jamiki borliq vositasida jonajon Vatani timsolini betakror usulda tasvirlaydi.

Shoir Vatan talqinida Ona, vatanparvar shaxs, farzand singari obrazlardan, bug‘doy, o‘choq, gulxan, daraxt, makon, xarsang, qumg‘on, so‘ri kabi oddiy timsollardan san’atkorona foydalangan. Sirojiddin Sayyid vatanparvar shaxs obrazini yaratishda boshqa ijodkorlardan o‘zgacha yo‘l tutadi.

Uning koʻpgina qahramonlari buyuk ajdodlarimiz, tarixiy shaxslar sanalishi bilan bir qatorda, oddiy xalq orasidagi Vatanning fidoyi kishilaridir.

Shoirning "Toʻpolondaryo bilan xayrlashuv" nomli dostonida Surxon koloriti talqinining estetik ideal vazifasini bajarganligini koʻrishimiz mumkin. Ushbu dostonda muallif badiiy koloritdan unumli foydalanadi. Dostonni oʻqish davomida unda Surxon xalqining qarashlari, turmush tarzi va oʻziga xosliklari shoirning estetik ideali asosida jozibali ifodalangan. Masalan, quyidagi satrlarni tahlil qilib koʻrsak:

"Men sizga aytsam, yelkamda bolam, qoʻlimdagi tugunchada bir siqim tutmayiz, daryo yoqalab ketyapman, ketyapman. Daryoki, ajdarhoday toʻlgʻonadi, vishillaydi. Qoʻrqib ketyapman deng, yelkamdagi chirqillab "non" deydi. Men esa ketyapman, ketyapman. Hech zogʻ yoʻq. Faqat daryo. Kalima qaytarib yoʻl yuraman, yoʻl yuraman-u pichirlayman. Oʻsha mahallar yoʻllar ham uzun ekan-da. Dunyoda mendan boshqa hech kim yoʻqday, goʻyoki dunyoning oʻzi ham yoʻqday, ketyapman. Qayerga ketaman – bilmayman, nimaga ketyapman – bilmayman, lekin ketyapman. Bir mahal sohilda nimadir yalt etdi, yana qoʻrqyapman deng, yaqin borib qarasam – beshik, oltin beshik! Suvda chayqalib, qalqib turibdi. Karaxt boʻlib qolibman. Gʻoyibdan "Ol!" degan sado kelganday boʻldi. Bolani yerga qoʻyib, dovdirab qoʻl uzatdim, yetolmadim. Har qancha urinsam ham, qoʻlim yetmadi. Chayqalib, chayqalib oqib ketdi. Hay attang-ay, attang! Shundan keyin toʻrt bolam ochlikdan oʻlib ketdi. Sizlar koʻrmagansizlar-da, bilmaysizlar..." [Sayyid S., 2023: 60]

Muallif doston tarkibida xotira tarzida ushbu voqeani keltirib oʻtadi va oxirida voqeaning keksa ayol – Xumor amma xotiralaridan ekanligi qayd etiladi. Bu orqali Toʻpolondaryoning Surxon vohasi uchun ma'lum darajada ilohiy ahamiyat kasb etishini, muqaddasligini ham koʻrishimiz mumkin. Dostonning boshlanishida shunchaki geografik obyekt ta'riflangan lirik asar sifatida qaraladi, ammo yuqoridagiga oʻxshash hikoyalar orqali davriy va tabiat koloriti birgalikda badiiy koloritni yaratmoqda. Bunda Toʻpolondaryo va uning shovqin-suron solib tez oqishi dunyoga oʻxshatiladi. Ayolning xayolida kechgan holat: daryoda suzib yurgan beshik va uning uzoqlashib yoʻqolishi esa bevosita xalqimizning oʻziga xos qarashlariga borib taqaladi. Ayolning xayolida yoki tushida boʻlganini eslay olmay aytib bergan hikoyasi orqali ham Surxon koloriti ochiqlanadi, ya'ni tushda yoki xayolda yalangʻoch beshikni koʻrish, beshikning uzoqqa ketishi, qorongʻulikda yoʻqolishi kabilar xalq orasida koʻngilsizlik sodir boʻlishi, aksariyat hollarda esa oʻlim xavfidan ogohlantirish deb qaraladi. Dostondan olingan parchada ham sodda va samimiy xalqning irim-sirimlari orqali madaniy kolorit shakllantirilgan. Chunki kampir beshikni koʻrishi va uni tutib ololmaganini goʻyoki bolalarining ochlikdan vafot etishi bilan bogʻlaydi va ushbu ayanchli qismatiga Toʻpolondaryoni guvoh deya biladi.

Shoir she'riyatida poetik mazmun teran va rang-barangdir. "Jarohat" dostonida Vatan tasviri yana ham keng qamrovli tasvirlangan. Dostonda shoir Vatanni turli poetik timsollar vositasida ifodalaydi. Bular: "sigir sogʻayotgan ayol", "xayol surayotgan kelin", "beshikda yotgan bolalar", "yangi koʻylak kiygan qizaloq", "unib chiqqan ismaloq", "olisga termulgan tol", "dasht-u qirlardagi lolalar", "sokingina yonayotgan gulxanlar", "Yor-yor"lar ham oʻlanlar"dan iborat.

Milliylik zamiridagi rangin tasvirlar jilosi poetik mazmun haqida keng mushohada yuritish, Vatanni lirik qahramon kabi teran anglash va chuqur his eta olish imkonini beradi. Bir qaraganda, badiiy talqin sodda boʻlib tuyuladi. Shoir ijodidagi Vatan obrazining poetik ifodasi xalqona ruh hamda mumtoz an'analarning yangilanishi mahsulidir.

Yuqoridagi parchada ham shoir Surxondaryo xalqining oʻziga xos boʻlgan urf-odatlari, soddadilligi orqali Surxon koloritini yaratadi. Bu esa oʻz navbatida doston voqeligining estetik-ekspressivligini oshirishga xizmat qilmoqda. Keltirilgan badiiy matn ham "Toʻpolondaryo bilan xayrlashuv" dostonidan olingan boʻlib, unda sodda va sofkoʻngil Surxon xalqining oʻz yerini, uy-joyini tashlab boshqa joyga koʻchib oʻtishni oʻziga or deb bilishi ifodalangan boʻlib, muallif bu fikrlarni urush qatnashchisi Narziqul Norovning mahalla majlisida soʻzlagan nutqidan yozib olganligini aytib

oʻtadi. Bunda voha xalqining oʻziga xos odatlaridan boʻlmish ota uyni qadrlash, bu aziz dargohni farzandlarga meros qoldirish vazifasi otaning burchi ekanligi anglashiladi. Ushbu parcha bir qarashda doston tarkibida lirik chekinish kabi berilgan boʻlsa-da, diqqat bilan tahlil qilinsa, chuqurroq razm solinsa, unda oddiy xalq vakilining shijoati, oʻz uyining buzilishidan jahl otiga minganligi hamda haq-huquqini talab qila olishi bevosita shovqin solib oqayotgan Toʻpolondaryoga qiyos qilinayotgandek goʻyo.

Mana, mendan qiyos olgil.
Men ham bir paytlar
Bargga tomgan shudring yanglig‘ pok bola edim.
Poda boqib yurar edim zumrad qirlarda,
Oʻz koʻnglimning togʻlarida shalola edim.
Oʻ, bu koʻngil ne koʻylarga solmadi meni?!
Ahmoq boʻlib izlaridan ketaveribman.
Devonaday, xudo menga koʻngil bermish, deb
Dunyoning bor g‘urbatini yutaveribman.

Yuqoridagi satrlar Sirojiddin Sayyidning “Tanazzul yoki begonaning iztiroblari” dostonidan olingan boʻlib, dostonning boshlanishida lirik qahramon yoshligini “poda boqib yurar edim” deya eslaydi. Bu asarda ham oʻz oʻrnida qishloq hayoti tasvirlangan, Surxon vohasida qoʻy-qoʻzilarning koʻp boqilishi hamda aholining asosiy mashgʻulotlaridan biri chorvachilik ekanligiga ishora qilingan.

Shoirning “Bahor Surxondan boshlanar...” nomli dostonidan olingan yuqoridagi parchada ham tandir, yogʻoch soʻrilar, Bobotogʻ kabi elementlarning keltirilishi ham oʻziga xos boʻlgan estetik funksiyani bajaradi, ya’ni bunda oʻquvchi dostonni oʻqish davomida Surxon koloriti asosida aholining turmush tarzini, vohaning tabiati, azim togʻlarini, keng yaylovlarini tasavvur qila oladi, shu bilan birga ma’naviy hordiq va estetik zavq ulashiladi. Muallif yuqoridagilardan tashqari qishloq xalqining erta bahorda qishda namiqib qolgan koʻrpachalarni oftobga chiqarib ilish odatini ham tilga oladi. Bu ham oʻz navbatida badiiy koloritni ifodalashga xizmat qilmoqda, ya’ni dostonning estetik qimmatini oshirmoqda.

Xulosa oʻrnida aytishimiz mumkinki, adabiyotda estetik ideal tushunchasi har bir yozuvchi-ijodkor uchun individual boʻlib, bu orqali muallif dastlab oʻzining idealidagi qahramonni yaratadi va keyin ushbu qahramonning aslida qanday boʻlishi kerakligini hayot haqiqati bilan moslashtiradi. Sirojiddin Sayyidning har bir asarida Surxon xalqining soddaligi ifodalangan qarashlar, vohaning tabiati, xalqining urf-odat va qadriyatlari, shuningdek, oddiy qishloq hayotini madh etganligining guvohi boʻlamiz. Bu esa dostonlarning hissiy-ekspressivligini, badiiy qimmatini oshirish, jozibadorligini ta’minlash hamda kitobxonning asar hayotida yashashi uchun asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Zamon. Mezon. She’riyat. – T.: Gʻ. Gʻulom, 2015.
2. Sirojiddin Sayyid. Vaqt haykali. Dostonlar. – T.: Gʻ. Gʻulom, 2023.

ISTIQLOL DAVRI HIKOYALARIDA BADIIYLIK

Ergasheva Xurshida Erkinjon qizi,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o‘qituvchisi
e-mail: ergashevaxurshida506@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi adabiy jarayonda uslubiy rang-barranglik, hikoyalar mazmuni va shaklidagi yangilanishlar ijtimoiy-estetik ong va badiiy tafakkur rivojidagi evrilishlar, badiiy talqinda ifodaning qabariqligi, tasvirning quyuq va serqatlamligi, mazmun-mundarijaning o‘ziga xosligi, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi kabi ilmiy-nazariy muammolar hikoya janri taraqqiyotini kuzatish asnosida ochiqlangan. Shuningdek, o‘zbek adabiyotida hikoya janrining badiiylikning o‘ziga xosligi masalasi, taniqli yozuvchi Ne’mat Arslonning ba’zi hikoyalari misolida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy asar, hikoya, hikoyachilik, badiiylik, badiiylik mezonlari, kompozitsiya, milliylik, an’ana, folklor, mazmun, shakl, qahramon, xarakter, obraz.*

Abstract

In this article, scientific and theoretical problems such as stylistic diversity in the current literary process, updates in the content and form of stories, changes in the development of socio-aesthetic consciousness and artistic thinking, the convexity of expression in artistic interpretation, the density and layering of the image, the uniqueness of content, and the diversity of mental state scenes are revealed in the context of observing the development of the short story genre. Also, the issue of the originality of the artistic nature of the short story genre in Uzbek literature was analyzed on the example of some short stories by the famous writer Nemat Arslan.

Keywords: *literary work, story, storytelling, artistry, criteria of artistry, composition, nationality, tradition, folklore, content, form, hero, character, image.*

Istiqlol davri hikoyanavisligi yangi ohanglar, o‘ziga xos uslublar hisobiga boyidi. Zamonaviy hikoyanavislikning ifoda tarzi jahon adabiyotining ilg‘or an’analari va milliy adabiyot tajribalarini davom ettirishi natijasida o‘zgacha uslubiy-kompozitsion xususiyatlar kasb etmoqda. Badiiy talqinda ifodaning qabariqligi, tasvirning quyuq va serqatlamligi, mazmun-mundarijaning o‘ziga xosligi, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi bilan insonni tushunish, kashf etish va badiiy tadqiq qilish, bugungi o‘zbek hikoyalariga xos asosiy jihatlar sifatida ta’riflanadi. O‘zbek adabiyotida hikoya janri ham uzoq tarixiy jarayonni boshidan o‘tkazdi. Ma’lumki, hikoya o‘z tabiatiga ko‘ra tezkor va mahsuldor janr sanaladi. Adabiyot va san’atning barcha turlarini doimiy birlashtirib turuvchi mushtarak xususiyat – badiiylik bo‘lib, bu jihat har bir turda o‘ziga xos vositalar orqali namoyon bo‘ladi. Badiiylik muammosi adabiyotshunoslikda doimiy o‘rganilib kelayotgan masalalardan biridir. Aristotelning “Poetika” asarida “Ba’zi kishilar mahorat, ba’zilar malaka sababli, yana ba’zilar tug‘ma iste’dodlari tufayli bo‘yoqlar va shakllar yordamida ko‘p narsalarning tasvirini – o‘xshashini yaratadilar. Hozirgina eslab o‘tilgan san’atlarning hammasida ham alohida yo ritm, yo so‘z va yoxud garmoniya yordamida yoki shularning hammasi uyg‘unligida tasvirlaydilar” [Аристотель, 1980: 8], – deyiladi san’at haqida. Demak, bu ta’rifga ko‘ra san’at asari hayotda mavjud voqea-hodisalarni badiiy-estetik anglash, idrok qilish, ularning o‘xshashini turli vositalar yordamida aks ettirish orqali dunyoga keladi.

Keyingi davrlarda o‘zbek hikoyachiligi tadriji, poetikasi tahliliga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar yuzaga keldi. Xususan, X. Do‘stmuhammadning “Hozirgi o‘zbek hikoyachiligida badiiy tafakkurning yangilanishi” nomli tadqiqotida 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillar avvalidagi hikoyalar tahlilga tortiladi. Ijtimoiy hayotdagi katta siljishlar, o‘zgarishlar davri hikoyachiligi haqida yozar ekan, “80-yillarda hikoyanavislarimiz badiiy tafakkuriga ta’sir o‘tkazadigan ajnabiy yozuvchilar jug‘rofiyasi

nihoyatda kengaygan"ligini [Дўстмуҳаммедов, 1995 : 21], tashqi ta'sirning kuchayganligini alohida ta'kidlaydi. Darhaqiqat, XX asrning 90-yillari va XXI asr avvalida o'zbek adabiyotiga F.Kafka, A.Kamyu, T.Vulf, Y.Kavabata singari xorijiy adiblar ijodi ta'siri, ular asarlari borasidagi bahs-munozaralar ortganligi kuzatildi. Ayniqsa, N.Eshonqulning "Maymun etaklagan odam", "Ozod qushlar", "Tobut" kabi qator hikoyalari adabiyotshunoslar e'tiboriga tushdi. O.Muxtor, S.Ashur, Sh.Bo'tayev, Sh.Hamroyev, S.O'nar, I.Sulton, L.Bo'rixon kabi yozuvchilar hikoyalarida ham jahon nasri modernizmi namunalarining ta'siri sezilarli bo'lib, davr manzaralari, zamon kishisi obrazi o'zgacha ohanglarda badiiy tasvir etildi. Demak, XX asrning 90-yillar hikoyachiligi realistik tasvir uslubi bilan bir qatorda modernistik uslub an'analarini ham o'zida mujassam etgan holda rivojlandi.

Hikoyachilikda milliy xarakter yaratish borasidagi muammolar ham adabiyotshunoslikning asosiy masalalaridan biridir. Zero, davrning ma'naviy qiyofasi badiiy asar qahramonlarning xarakter xususiyatlari orqali yoritiladi. Bu xususda adabiyotshunos olim H.Umurov shunday yozadi: "Xarakter va uning psixologiyasi tahlili adabiyotning kamoloti, yozuvchining mahorati darajasini belgilovchi omildir" [Umurov, 2004: 38]. O'zbek hikoyachiligida milliy xarakter va inson ruhiy olami tasviri bilan bog'liq jihatlar, davr muammolarining qahramon qiyofasidagi badiiy in'ikosi, an'ana va izdoshlik masalalarini tadqiq etish ham yozuvchi mahorati qirralarini aniqlashda alohida ahamiyatga ega. Adabiyotshunos G.Sattorovaning "Milliy xarakter va badiiy talqin" nomli monografiyasida milliy xarakter yaratishdagi turli omillar G'.Hotam, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul hikoyalari misolida tadqiq qiladi va "Yangi bosqich o'zbek hikoyachiligida milliy xarakter yaratishning badiiy-estetik tamoyillarini hozirgi o'zbek nasrining ko'zga ko'ringan va o'ziga xos yo'ldan borayotgan, ayniqsa, yosh vakillari ijodi misolida kuzatish o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligining istiqbolli yo'nalishlaridan biridir, deyishga asos beradi", - degan xulosaga keladi [Саттарова, 2007: 9]. Xullas, istiqlol yillarida yaratilgan minglab hikoyalarda jahon adabiyoti tajribalaridan keng ko'lamda ijodiy foydalanish, an'ana va o'ziga xoslik, badiiy mahorat va uslub turfaligi namoyon bo'lmoqda.

Badiiylikning asosiy mezonlarini, adabiy asarning badiiy-estetik mohiyatini yangicha ilmiy tafakkur asosida talqin etishda B.Sarimsoqovning "Badiiylik asoslari va mezonlari" asari o'ziga xos ahamiyatga ega. Olim bu boradagi kuzatishlari asosida o'z qarashlarini chuqurlashtirib, badiiy obraz hamda obrazlilikning estetik mohiyatini ochishga harakat qiladi va badiiylik miqdoriy emas, balki sifatiy hodisa ekanligini alohida ta'kidlaydi. "Shu bois ijodkorlarga bir xilda mos keluvchi badiiylikning umumiy mezonlarini belgilab bo'lmaydi. U adabiy turlar, adabiy janrlar, ijodiy metodlar, adabiy oqim va maktablararo, individual ijodlararo, qolaversa, ayni bir ijodkorning turli davrlardagi asarlariaro tafovutlanuvchi hodisadir" [Расулов, 2007: 35]. Shu bilan bir qatorda, olim nisbiy xarakterda bo'lsa ham badiiylikning umumiy mezonlarini belgilash zarur, deb hisoblaydi. U badiiylik mezonlarini quyidagicha belgilaydi: mazmun va shakl birligi va ularning uyg'unligi; tasvir yoki ifodaning haqqoniyligi, aniqligi; betakrorlik (originallik); estetik baho; shartlilik miqyosi va darajasi; til badiiyati.

Bularga qo'shimcha sifatida iste'dod, talantni ham badiiylikning asosiy xossalaridan hisoblash maqsadga muvofiqdir. Zero, badiiy asar go'zalligining, yashovchanligining bosh sababi muallifning iste'dodli ekanligi bilan o'lchanadi. A.Qodiriy, Oybek, Cho'lpon, Fitrat, A.Qahhor, G'.G'ulom kabi qator yozuvchilar asarlarining yillar bo'roniga engilmasligi, mangulikka daxldorligi ham ayni iste'dod tufaylidir. Badiiylikning bosh mezonlaridan yana biri sifatida obrazlilik va uning so'z orqali ifodalanishi ko'rsatiladi. Darhaqiqat, obraz va obrazlilik badiiylikning o'zak mohiyatini tashkil etadi. Yana shuni ta'kidlash o'rinliki, "Badiiylikning mohiyati badiiy asarning mazmuniy jihatida yashiringan bo'lib, uning ifodalanish yoki tasvirlanish tarzi va darajasi asarning shaklida mujassamlashgandir. Demak, badiiy asarning mazmuni hamda shakli badiiylikning ikki qanotidir" [Саримсоқов, 2004: 6].

So'z vositasida obraz yaratish ham badiiylikning mohiyatini belgilaydi. So'zning obrazga aylanishi jo'n hodisa bo'lmay, inson badiiy tafakkurining mahsuli sifatida, adabiy-estetik qimmatga ega. Shu

bois adabiy asarning badiiy xususiyatlarini baholashda, avvalo, uning mazmun-mohiyatidagi, so‘ngra esa ana shu mohiyatning so‘z orqali ifodalanish darajasiga e’tibor qaratish lozim. Zero, har qanday yuksak mahoratli ijodkor ham so‘z atalmish mo‘jiza sirlarini egallash yo‘lidan boradi. Badiiylik va badiiy asar tili, yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati tadqiq qilingan asarlardan biri U.To‘ychiyevning ancha salmoqdor kitobidir [Туйчиев, 2011: 508]. Kitobda badiiylikning bosh mezoni iste’dod deb belgilanadi va uning mehnat, saviya, shaxsiyat va sharoit kabi maromlari izohlanadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, keyingi yillar o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy asarlarni saralash va ularning ijodiy jarayondagi o‘rnini belgilashda badiiylik tamoyillariga e’tibor ancha kuchayib bormoqda. Badiiylik ijodkorning voqelikni o‘ziga xos tarzda kashf etish, syujet tanlash, obraz yaratish, teran, original fikrlash kabi omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bularning barchasi yozuvchining individual uslubida va iqtidorida namoyon bo‘ladi. “Biror badiiy asarning tasvir nozikligini, badiiyati o‘ziga xosligini, obrazlar sistemasini to‘g‘ri tushunmoq, tili jozibasini his etmoq uchun shu asar yaratilgan davr badiiy tafakkuriga xos xususiyatlarni bilish kerak bo‘ladi. Chunki chinakam badiiy hodisa o‘zi aks ettirgan davrdan ham, o‘zi yaratilgan vaqtdan ham uzoqroq yashaydi va zamonga nisbatan turg‘unroq, konservativroq bo‘ladi” [Йўлдошев, 2006:11]. Darhaqiqat, badiiy mukammal yaratilgan asarlar umrboqiy, qadr-qimmatlidir. Shu bois hamma davrlarda ham jahon adabiyotshunosligida poetika muammosi katta qiziqish bilan o‘rganilgan. Xususan, nasr poetikasi ham adabiyotshunoslikning diqqat markazida bo‘lgan va bu borada qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotshunosligida ham yangi ohanglar bilan boyigan nasr poetikasi borasida izlanishlar davom etmoqda. Ayniqsa, bu yillarda adabiyotda jiddiy sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi, uning tasvir obyekti, ifoda usullari hamda ijtimoiy-estetik funksiyasi takomillashib, voqea va obraz tasvirida yangicha qarashlar shakllandi. Erkin va ozod tafakkur mevalari bo‘lgan mustaqillik davri adabiyotida turli janrlarda mazmuniy va shakliy xilma-xillik, tamomila yangicha qarashlar kuzatildi. Zero, istiqlol adabiyoti tom ma’noda insonni oliy qadriyat sifatida qarash, tushunish, alohida shaxsning his-tuyg‘ularini, ruhiyatini tadqiq qilish va shu orqali inson ma’naviyatini mukammallashtirishga yo‘naltirilgan adabiyotdir.

Bu davr nasrida S.Ahmad, Sh.Xolmirzayev, O‘.Hoshimov, O.Muxtor, T.Malik, T.Murod, M.M.Do‘st, A.Dilmurod, X.Sultonov, N. Norqobilov, X.Do‘stmuhammad, N.Eshonqulov, T.Rustamov, I.Sulton, L.Bo‘rixon, A.Yo‘ldoshev, Sh.Bo‘tayev, Q.Norqobil, S.O‘nar, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi, J.Ergasheva singari turli avlodga mansub ijodkorlar o‘ziga xos tarzda qalam tebratib, milliy proza taraqqiyotini ta’minlashga hissa qo‘shdilar. Tabiiyki, har bir yozuvchining o‘z dunyoqarashi, olamni badiiy-estetik qabul qilish, obraz va voqelikni tasvirlashda o‘ziga xos uslubi bor. Ayniqsa, keyingi davrlarda o‘zbek nasrida uslub jihatdan bir-biridan keskin farq qiladigan ijodkorlar soni ortib bormoqda va ular olamni, voqelikni bir xil rangda emas, turfa-turfa ohanglarda, o‘z tafakkuri, kayfiyati bilan o‘zgacha tarzlarda tasvirlamoqdalar. “Adabiy asar chinakam asar namunasi bo‘lishi uchun, realizmga mansub bo‘ladimi, romantizm uslubida yozilgan bo‘ladimi, yoki qandaydir boshqa modernistik uslubga amal qiladimi, baribir uning markazida inson turmog‘i kerak, kitobxon insonning taqdiri, tabiati, hayoti haqida muayyan axborot olish bilan birga bu asardan estetik zavq ham ola bilsin” [Шарафиддинов, 2004: 245]. Adabiy asar qaysi janrda yozilishidan qat’i nazar u oliy xilqat sanalgan insonni yuksak orzu-umidlar, ravon maqsadlar yo‘lida batafsil, haqqoniy va ta’sirchanlik(“estetik zavq”) bilan tasvirlashi lozim bo‘ladi.

Ne’mat Arslon 1941-yil 7-iyun sanasida Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani Miraki qo‘rg‘onchasi yaqinidagi Takiya qishlog‘ida dunyoga keldi. U 1965-yilda Samarqand davlat universitetini tamomlagan. Ne’mat Arslonning ijod olamiga kirib kelishida oilasining, yaqinlarining ham muhim o‘rni bor. Chunki oiladagi muhit, adabiyotga bo‘lgan mehr-muhabbat yozuvchiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Adibning bobosi Mulla To‘raboy adabiyotni yaxshi biladigan, arab, fors tillarida gaplasha oladigan kishi, onasi Nusrat aya adabiyotga qiziquvchan ayol bo‘lgan. Ishtiyoqi

kelganda Muqimiydan, Furqatdan, Navoiy va Hofizdan she'rlar aytardi. Ikki tog'asi – Abdurashid va Xudoyberdi ham hayotini adabiyotsiz tasavvur eta olmaydigan kishilardir.

U 1965-yilda Samarqand davlat universitetini tamomlagan. 1971-1980-yillardan boshlab "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, "Yoshlik", "Sharq yulduzi" jurnallarida hikoya, qissa romanlari nashr etila boshladi. Ne'mat Arslonning dastlabki "Osmonni kim ko'tarib turadi?" nomli hikoyasi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida nashr etildi. Shundan so'ng "Mahmasharif xabardor", „Ayol suvratiga chizgilar", „Bir yigitning xayoli", „Quyoshning ko'z yoshlari", „Dengizda suzardi bir kema", „Kafolat", „Qo'mondon" nomli asarlari birin-ketin chop etildi. Adibning ikkinchi kitobi „Ayol suvratiga chizgilar" deb nomlandi. Bu kitobga „Muhabbat o'yini", „Osmonning bo'yog'i", „Aravakash", „Oqqanotli kapalak", „Enaga", „Bug'doyzorda", „Betakror xilqat" kabi bir qator hikoyalar jamlangan. U o'tgan asrning 90-yillarida modernizm yo'nalishida „Adam vodiysi", „Mavhumot" nomli romanlarini yozdi. Ne'mat Arslon o'z asarlari haqida shunday deydi: „Men har bir asarimni jahon adabiyoti asarlariga xos qilib yozishga harakat qilaman. Ba'zida hayot tashvishlaridan charchasam, asarlarimdagi o'zim yaratgan Keshkash shahriga qochib ketaman. Uning ko'chalari, xiyobonlari, o'zim yaratgan shu shahar kishilari davrasida yashayman".

Yozuvchi Ne'mat Arslonning boshqa ijodkorlarga o'xshamagan ijod yo'li bor. Bu fikrimizga ijodkorning asarlarini o'qigan har bir o'quvchi ham amin bo'ladi. Har bir hikoya mutolaasi davomida yozuvchining qanchalik mahoratli, ko'p narsani bilishini ko'rishimiz mumkin, asarlarida badiiylik mezonlarining juda ko'plab tamoyillaridan foydalanganini anglaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аристотель. Поэтика. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 152 бет.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Т.: Фан, 1-жилд. – 656 бет.
3. Дўстмуҳаммедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадиий тафаккурнинг янгиланиши (80-йиллар охири 90-йиллар аввали ҳикояларимисолида). Фил..фанл.номз.автореферати. – Т.: 1995.
4. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007. – 337 бет.
5. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т.: 2004. – 126 бет.
6. Туйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 508 бет.
7. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 548 бет.
8. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004. – 640 бет.
9. Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Т.: Маънавият, 2000. – 113 бет.
10. Сатторова Г. Миллий характер ва бадиий талқин. – Т.: Фан, 2007. – 118 бет.

RUHIYAT TASVIRIDA PEYZAJNING O‘RNI

Karimboyeva Charos Ikrom qizi,
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya

She’riyatda psixologik-ruhiy tasvirning o‘rni benihoya kattadir. Psixologik-ruhiy tasvir tushunchasi ostida lirik qahramonning ruhiy olami, ichki dunyosi, orzu-o‘ylari, lirik kechinmalari, kayfiyatlari va intilishlarini yuksak badiiylik asosida tasvirlash san’ati yotadi. Ushbu maqolada Sirojiddin Sayyid she’riyatida psixologik-ruhiy tasvirning peyzaj tasviri bilan uyg‘unlashuvi Vatan mavzusidagi she’rlari orqali tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Peyzaj, ruhiyat, ijod, badiiyat, umr, lirik qahramon, ichki kechinma, tafakkur.*

Abstract

The role of psychological and spiritual imagery in poetry is very large. The concept of psychological and spiritual imagery includes the art of depicting the spiritual world, inner world, dreams and thoughts, lyrical experiences, moods and aspirations of a lyrical hero on the basis of high artistry. This article analyzes the combination of psychological and spiritual imagery with landscape imagery in the poetry of Sirojiddin Sayyid through his poems on the theme of the Motherland.

Key words: *Landscape, spirituality, creativity, artistry, life, lyrical hero, inner experience, thought.*

O‘zbek zamonaviy she’riyatida peyzaj obrazlari shoirning estetik qarashlari, ruhiy kechinmalari va falsafiy dunyoqarashini ifodalovchi muhim badiiy vositalardan biridir. Peyzaj haqida Izzat Sulton: “Badiiy asardagi tabiat tasviri peyzaj (manzara) deb ataladi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshiradi” [Sulton, 2005:116] degan bo‘lsa, N.Umirzaqova “Badiiy asarda tabiat tasviri ijodkorning g‘oyaviy-estetik maqsadini, poetik mazmunni ifodalashda qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, ruhiy olam qirralarini ochishda ham shunchalik ahamiyatga egadir” [Умирзақова, 2005:55] deb yozadi. Inson tabiatning bir bo‘lagi bo‘lganligi uchun ham tabiatdagi o‘zgarishlar va tebranishlarni ichki hissiyot va ruhiyatida tasvirlaydi. Shoir ko‘pincha inson ruhidagi iztirob, sog‘inch, umid va iymonni tabiat hodisalari orqali ifodalaydi. Masalan, kuz manzaralari: hayotning foniyligi, vaqtning o‘tkinchiligi timsoli sifatida, bahor esa yangilanish, umid va poklanish ramzi sifatida talqin qilinadi. Tog‘lar sobitlik va bardoshlilikni, yo‘llar hayot sinovlari, shamol va yomg‘ir esa inson qalbidagi ichki kurashlarni anglatadi. Bu jihatdan Sirojiddin Sayyid she’riyati alohida e’tiborga loyiqdir. Shoir tabiat manzaralarini shunchaki tasvirlash bilangina cheklanmay, ularni inson qalbi, zamon ruhi va hayot falsafasi bilan uzviy bog‘liq holda talqin etadi. Uning she’rlarida peyzaj tirik, his qiluvchi, inson bilan suhbatlashuvchi badiiy makonga aylanadi. “Tabiatning har bir holati – o‘tkinchi. Ammo lahzalik o‘tkinchi holatni abadiyatga muhrlash chinakam ijodkorgagina berilgan imkoniyat. Ba’zan bunday o‘tkinchi holatlar ta’sirchan tasavvurlarda o‘chmas izlar qoldiradi” [Sayyid, 2021:29]. Shoir buni juda chiroyli ifodalagan.

Rayhonlar bargidan siyoh oldim men,
Har xasdan ruhga bir giyoh oldim men.
Yurtning turna ko‘zli buloqlaridan
Ko‘ngilga ko‘z oldim, nigoh oldim men.

Yuqoridagi she’rda shoir tabiat tasvirini chizar ekan, lirik qahramon qalbida uyg‘otgan his-tuyg‘ular orqali vatanga bo‘lgan sevgisining o‘ziga xos, takrorlanmas qiyofasini yarata olgan. Shoir birinchi misrada ijod manbaini tabiat bilan bog‘laydi. Rayhon poklik, xushbo‘ylik va milliy ruh ramzi. “Siyoh oldim” deyish orqali shoir o‘z so‘zini, she’rini tabiatning o‘zidan, uning pok manbalaridan olganini ta’kidlaydi. Bu esa ijodning sun’iy emas, tabiiy va samimiy ekanini bildiradi. Ikkinchi misrada hayotning eng mayda unsuri – xas ham ruhni boyituvchi kuchga ega ekani ko‘rsatiladi.

Shoir uchun har bir oddiy holat, har bir mayda detal ma'naviy oziq bo'la oladi. Bu falsafiy qarash hayotni teran idrok etishni ifodalaydi. Navbatdagi misrada shoir "Turna ko'zli buloqlar" deya juda kuchli poetik tashbehdan foydalangan. Turna – sog'inch, vatan, sadoqat ramzi. Buloq esa hayot, poklik va davomiylik timsoli. Shoir yurtning buloqlarini tirik, ko'zli mavjudotga qiyoslab, Vatanga jon baxsh etadi. So'nggi satrda esa shoir moddiy emas, ma'naviy boylik olganini aytadi. "Ko'z" va "nigoh" – idrok, anglash, tafakkur ramzlari. Shoir yurtidan nafaqat suv, balki ko'rish, his qilish, anglash qobiliyatini olganligining guvohi bo'lamiz. Bundan tashqari biz tabiat va Vatan bilan ruhiy uyg'unlikni, ijodning asl manbai yurt va hayotning o'zi ekanini, mayda detallar orqali katta falsafiy mazmun berish mahoratini namoyon etadi. She'r lirika bilan falsafaning uyg'unlashgan namunasi bo'lib, milliy ruh, tabiatga mehr va ijodiy poklik g'oyalarini ifodalaydi. Muhimi, tabiat tasviridan sodda, samimiy tarzda foydalanib, lirik qahramonning go'zallikka tashna, oshufta qalbini, ruhiy dunyosini ochib bera olgan.

Denov bozorida bir gul ko'rindi,
Gulmi yo qirmizi ko'ngil ko'rindi.
Shuncha yil ilk bora Surxonga yo'lim,
Yoronlar, buncha ham mushkul ko'rindi.

Ushbu satrlarda ham tabiat va ruhiyatning o'zaro uyg'unligi alohida shakllarda namoyon bo'layotganligini kuzatish mumkin. Dastlabki ikki misrada tabiat manzarasi tasviri, so'nggi ikki misrada shunga mos ruhiyat tasviri ifodalangan. She'r aniq makon – Denov bozori bilan boshlanadi. Bu realizm va hayotiylikni kuchaytiradi. "Gul" obrazi odatda go'zallik, poklik va hayrat ramzi bo'lib, shoirning nigohini tortgan alohida hodisani bildiradi. Keyingi satrda shoir ko'rgan go'zallikni oddiy gulga emas, "qirmizi ko'ngil"ga qiyoslaydi. "Qirmizi" – ehtiros, jo'shqinlik, hayotiylik timsoli. Bu yerda tashqi manzara ichki kechinma bilan qo'shilib ketadi. "Shuncha yil ilk bora Surxonga yo'lim" deya lirik qahramonning kechikkan safari anglashtiriladi. "Ilk bora" iborasi hayrat va yangilik tuyg'usini kuchaytiradi. Surxon shoir tug'ilib o'sgan maskan, sog'inchini ifodalash sifatida poetik fon vazifasini bajaradi. "Yoronlar, buncha ham mushkul ko'rindi" satrida xitob san'ati qo'llanib, shoir ichki hayajonini oshkora ifodalaydi. "Mushkul ko'rindi" iborasi yo'lning qiyinligi bilan birga, bu yurtning ta'siri, teranligi va kuchli taassurot qoldirganini ham anglatadi. Bu she'rda real makon va lirik his uyg'unlashgan, go'zallik tashqi manzaradan ichki kechinmaga ko'chirilgan, Surxon vohasiga tashrifning hayrat va ruhiy larzasi poetik ifodalangan.

Dasht-u qirlardagi lolalar – Vatan,
Beshiklarda yotgan bolalar – Vatan,
Kechalari tog'-u toshlarda
Sokingina yonayotgan gulxanlar – Vatan.

Mazkur to'rtlikdagi "Beshiklarda yotgan bolalar – Vatan" misrasi ruhiy olamning muayyan qirrasini ifoda etib kelayotgan bo'lsa, qolgan misralar shu ruhiyatni vujudga keltirishga xizmat qiluvchi tabiat tasviri manzaralarini yaratadi. Bu misralar Vatan tushunchasining keng va teran talqinini beradi. Shoir Vatanni balandparvoz shiorlar bilan emas, balki oddiy, ammo muqaddas manzaralar orqali ifodalaydi. "Dasht-u qirlardagi lolalar – Vatan" – bu obraz orqali Vatan tabiat bilan uyg'unlikda ko'rsatiladi. Lola – go'zallik, poklik va bahorning ramzi. Dasht va qirlar esa kenglik, erkinlik timsoli. Demak, Vatan – inson ko'zi quvnaydigan, qalbini yayratadigan ona tabiatdir. Ikkinchi qatorda esa shoir Vatanni hudud emas, balki kelajak avlod, hayotning uzluksizligi sifatida talqin qiladi. "Kechalari tog'-u toshlarda / Sokingina yonayotgan gulxanlar – Vatan" gulxan – iliqlik, himoya, uyg'oqlik timsoli. Tunda sokin yonishi esa Vatanning tinchligi, osoyishtaligi, xalqning bedorligi va sabrini bildiradi. Vatan – yer, bola va olov obrazlari orqali tirik, nafas olayotgan muqaddas borliq sifatida tasvirlanadi. Bu esa kishi tanini junjiktiruvchi tabiat manzarasi hech qanday zo'riqishlarsiz, sokinlik bilan ruhiyatni ifodalashga xizmat qildirilgan. Shoir Vatanni sevishni baland

so‘zlarda emas, balki uni tashkil etgan har bir mayda, ammo qadrli unsurni sevish orqali anglatadi. Bu talqin samimiyligi bilan o‘quvchi qalbiga yaqin turadi.

Bu dasht-u dalalar,
Bog‘lar ham mendan,
Bu tuproq – bug‘doybo‘y,
Handalak bo‘yim.
Sening ko‘ksingdagi
Dog‘lar ham mendan,
Bu – sening uyingdir,
Bu – mening uyim.

Nihoyatda sodda, tabiiy va erkin ifoda. Misralardagi so‘zlar go‘yo musiqiy ohang singari tilimizga quyilib keladi. Bu parchada lirik qahramon bilan Vatan o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy birikish juda chuqur ifodalangan. She’r tashqi tasvirdan ko‘ra ichki kechinmaga tayangan holda qurilgan. “Bu dasht-u dalalar, / Bog‘lar ham mendan” – lirik qahramon o‘zini Vatandan ajratmaydi. “mendan” so‘zi ruhiy birlashuvni bildiradi: u Vatanning egasi emas, balki uning bir bo‘lagi. Bu yerda “men” individual shaxs emas, balki xalqning, avlodlarning davomiy ruhi sifatida talqin qilinadi. “Bu tuproq – bug‘doybo‘y, / Handalak bo‘yim”. Hid obrazlari ruhiy yaqinlikni kuchaytiradi. Bug‘doy va handalak – mehnat, rizq, bolalik xotiralari ramzi. Lirik qahramon Vatanni hid orqali his qiladi, bu esa uning onaga bo‘lgan tabiiy, instinktiv mehrini eslatadi. Ruhiy jihatdan sog‘inch va shukronaning uyg‘unligi. “Sening ko‘ksingdagi / Dog‘lar ham mendan” – juda kuchli ruhiy nuqta. Shoir Vatanning jarohatlari, iztiroblari, tarixiy og‘riqlaridan o‘zini chetga olmaydi. Bu – mas’uliyat va vijdon ifodasi. Lirik qahramon Vatanni faqat go‘zalligi bilan emas, balki azobi bilan ham qabul qiladi. “Bu – sening uyingdir, / Bu – mening uyim”. Yakuniy misralarda ruhiy tenglik paydo bo‘ladi. “Sen” va “men” qarama-qarshi emas, balki bir makonning ikki ifodasi. Uy moddiy maskan emas, balki ruhiy panoh, o‘zlikni anglash manzili. She’rda lirik qahramon Vatanni sevuvchi tomoshabin emas, balki uning taqdiriga daxldor inson sifatida namoyon bo‘ladi. Bu muhabbat sokin, da’vosiz, lekin nihoyatda chuqur. Vatan – xotira, mas’uliyat, hid, og‘riq va boshpana. Shu jihatdan she’r o‘quvchini ham “men Vatanning qaysi qismiman?” degan ruhiy savolga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Sirojiddin Sayyid ijodini, undagi poetik obraz, xususan, Vatan obrazining tasvirini: tabiat lavhasining muayyan manzarasi, surati chizilib, shunga mos ravishda ruhiy olam qirralari orqali tasvirlangan. Shoir tabiat lavhalari tasviri orqali lirik qahramonning o‘ziga xos ruhiy olamini, hassos qalbini yorqin ifodalashga erishadi. Shoir bir paytning o‘zida tabiat manzarasining ham umumiy, ham muayyan bir qancha nuqtalarini birdek tasvirlashga erishadi. Ayni chog‘da Vatanga bo‘lgan muhabbatini tabiatning yaxlit, umumiy ko‘rinishi bilan birga hosil qiladi. Eng muhimi, lirik qahramonning o‘sha ondagi ruhiy kechinmasi bilan uyg‘un tarzda o‘ziga xos bo‘lgan his-tuyg‘ular ifodasini namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005. – 272 bet.
2. Sayyid S. Dil fasli. – T.: 2021. – 256 bet.
3. Умирзақова Н. Усмон Носир шеъриятида руҳият тасвири: Филол. Фанлари номзоди... дисс. – Т., 2005.
4. Йўлдош Қ. Очқичсўз. – Т.: Тафаккур нашриёти, 2019. – 688 бет.

ZAMONAVIY QORAQALPOQ SHE'RIYATIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA BADIIY IFODA

Zamira Kabulova,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Qoraqalpoq davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada adabiyotda ekologik madaniyat tushunchasi eko-tanqid nazariyasi asosida yoritiladi. XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan adabiyot ekologiyasi konsepsiyasining nazariy asoslari tahlil qilinib, Joseph Meeker qarashlariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, zamonaviy qoraqalpoq adabiyotida ekologik muammolarning badiiy talqini X. Davletnazarovning "Daraxtlar" she'ri misolida o'rganiladi. Asarda daraxt obrazi orqali tabiat va inson munosabatlari, ekologik mas'uliyat, axloqiy qadriyatlar hamda insonning tabiat oldidagi burchi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida badiiy matn ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so'zlar: *eko-tanqid, ekologik madaniyat, adabiyot ekologiyasi, tabiat obrazi, daraxt ramzi, qoraqalpoq she'riyati, ekologik mas'uliyat, inson va tabiat munosabati.*

Abstract

This article examines the concept of ecological culture in literature from the perspective of ecocriticism. The theoretical foundations of literary ecology, which emerged in the second half of the twentieth century, are analyzed with particular attention to the ideas of Joseph Meeker. In addition, the artistic interpretation of ecological issues in modern Karakalpak literature is explored through the example of X. Davletnazarov's poem "Trees". *The image of the tree is interpreted as a symbolic representation of the relationship between humanity and nature, ecological responsibility, moral values, and the ethical duty of humans toward the natural environment. The study demonstrates that literary texts play a significant role in fostering ecological awareness and ecological culture.*

Keywords: *ecocriticism, ecological culture, literary ecology, image of nature, symbol of the tree, Karakalpak poetry, ecological responsibility, human–nature relationship.*

1970-yillarda ekologik harakatlar keng quloch yoyishi bilan birga, ilm-fanning adabiyotga bo'lgan qiziqishi ham yangich ko'rinish kasb etdi va asosan mavzusi tabiat hamda atrof-muhit bo'lgan adabiy asarlarga qaratildi. Bu jarayon adabiyotda tabiatni, tabiiy unsurlarni, jismoniy muhitni hamda insondan tashqari mavjud hayot shakllarini kuzatish va tahlil qilishni maqsad qilgan eko-tanqid deb nomlangan yangi ilmiy yo'nalishning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

"Adabiyotda ekologiya" tushunchasiga ilk bor Josef Meeker 1972-yilda chop etilgan "The Comedy of Survival" asarida izoh bergan. Meeker insonni Yer yuzidagi yagona adabiy mavjudot sifatida talqin qilib, agar adabiy ijod insonning eng muhim xususiyati bo'lsa, unda inson xulq-atvori va uning tabiiy muhitga ta'siri ham sinchkovlik bilan tahlil qilinishi lozim, deb hisoblaydi. U adabiyotni inson evolyutsiyasining mahsuli sifatida baholab, til singari adabiyotni ham insonning boshqa tirik mavjudotlar bilan bo'lishadigan instinktiv ehtiyojlaridan biri (masalan, qushlarning sayrashi orqali muloqot qilishi) bilan bog'laydi.

Adabiyot ekologik madaniyat matn va olam murakkab axborot birligini hosil qiladi. Olam adabiyotning ijodiy kategoriyalarini shakllantirsa, adabiyot esa insonning yashash tarzi va insondan tashqari tabiat bilan bo'lgan munosabatlarini belgilaydi, hatto yo'naltiradi. Madaniy ekologiyaning bir shakli sifatida adabiyot til va tasavvur vositasida insoniyatning tabiat haqidagi tasavvurlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqishi va ularni o'zgartirishi mumkin; nazariy darajada yetarlicha o'rganilmagan axloqiy masalalarni aniq va obrazli tarzda yoritishga imkon yaratadi.

Eko-tanqidning XVIII–XIX asrlardagi dastlabki bosqichida badiiy va nobadiiy tabiat

yozuvlariga e'tibor qaratilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda inson va insondan tashqari tabiat o'rtasidagi chegaralarni yo'qotishga intilish kuchaydi va bu jarayon 2000-yillarda yanada rivojlandi. Ushbu yo'nalish doirasida tabiat va atrof-muhit mavzusidagi adabiy asarlar odatda "eko-fantastika", "tabiat markazli adabiyot", "atrof-muhit markazli adabiyot", "ekologik badiiy asar", "yashil adabiyot" kabi atamalar bilan ifodalanadi. Garchi bu mavzuga ilm-fanning qiziqishi nisbatan yangi bo'lsada, uning ildizlari adabiyotning miflar, marosimlar, og'zaki hikoyalar, afsonalar va ertaklar orqali shakllangan ilk manbalariga borib taqaladi. Bugungi kunda zamonaviy qoraqalpoq adabiyotida ham tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga chaqiruvchi she'rlar katta o'rin egallaydi. X. Davletnazarovning "Daraxtlar" she'ri ulardan biridir.

"Daraxatlar" she'rida tabiat, xususan, daraxt obrazi inson hayoti va jamiyat bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanib, ekologik muammolarga bevosita va bilvosita ishoralar beriladi. Shoir tabiatni faqat estetik obyekt sifatida emas, balki ma'naviy-axloqiy qadriyat darajasiga ko'taradi.

Daraqlarda uzaq jasawdı qáler,
Búrtik jarar nurlı kúnlerdi oylap
Qálbi pasıllarǵa boladı mákan,
Miywa baylaw toyın ótedi toylap.
Aǵashlar awırı qorqadı órtten,
Jansa orınında tek qalmay ma kómir?
Jasar jasın jasap jıǵılsa hesh gáp,
Jas náwshedey bolıp sınbasın ómir.

She'rda daraxtlarning "qalbi", "qo'rquvi", "umidi" borligi badiiy ifodalanadi. Bu usul ekologik madaniyatning muhim unsuri bo'lgan tabiatni tirik tizim sifatida anglash g'oyasini kuchaytiradi. Daraxtning o'sishi, meva berishi, avlod qoldirishi ekologik muvozanat va hayot davomiyligining ramzi sifatida talqin etiladi.

İńırsır bawırın izeyge berip,
Shaqaları quwrap hásiret sheger.
Ózleri de keter aldamshı úmit,
Tamırına balta urılsa eger.
Náller de asıǵıp, óskisi keler,
Tez kózge kórinip, túsiwge tilge.
Baǵlardıń ómiri etedi dawam,
Japıraq jamılar, búrkenip gúlge.
Olar da Ana dep ulıǵlar jerdi,
Boy dúzep, bel buwıp, sıbansar bilek.
Táshwishsiz uyıqlasa, oyansa tınısh,
Quyashqa qol jayıp tileser tilek.

Asarda daraxtlarning olovdan qo'rqishi, ildiziga bolta urilishi tasvirlari orqali inson faoliyatining tabiatga tajovuzkor munosabatini ochib beradi. Bu tasvirlar ekologik beparvolik va mas'uliyatsizlikning oqibatlariga ishora qiladi. Shoir daraxtning kesilishi bilan nafaqat jismoniy yo'qotish, balki ma'naviy fojia yuz berishini ta'kidlaydi.

Shoir daraxt va inson o'rtasidagi munosabatni qiyoslash orqali ekologik muammoni ijtimoiy-axloqiy muammo darajasiga olib chiqadi. Daraxtlarning ona yerga sadoqati, quyoshga yuzlanib tilak tilashi insonning Vatan va tabiat oldidagi burchini eslatadi. Insonlarning esa bir-biriga befarqligi, tabiat ko'z yoshini ko'ra olmasligi ekologik madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat beradi.

Qádimgidey aǵash bolǵanı menen,
Qay waq qulaǵansha iymeydi basın.

Bir-birine miyrim etpegen insan,
Kórer me bulardıń kóziniń jasın?
Daraqlarda bolsa usınday tuyǵı,
Tuwǵan jerin súyiw hám bekkem tózim.
Sonda adamlarda ne jaǵday, halat
Qay tárizde jasap, ańlaydı ózin?

She'rning yakuniy qismida ekologik xulosa falsafiy savol shaklida beriladi. Agar daraxtlarda vatanparvarlik, sabr va matonat kabi tuyg'ular mavjud bo'lsa, inson bu borada qanday maqomda turadi, degan savol o'rtaga tashlanadi. Bu savol o'quvchini ekologik va axloqiy o'zini o'zi anglashga undaydi.

Umuman, "Daraxatlar" she'ri ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi badiiy matn sifatida muhim ahamiyatga ega. Asarda tabiatga munosabat axloqiy mezon darajasiga ko'tarilib, ekologik mas'uliyat insoniylik bilan tenglashtiriladi. Shoir daraxt obrazi orqali insoniyatni tabiat bilan uyg'un yashashga, ekologik muvozanatni asrashga va ona zaminni qadrlashga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldashev N Cho'lpon she'riyatida peyzaj; Filol.fan.nomz....diss. -T., 1994.
2. Nabiyev F "Peyzaj va ma'naviy san'atlar // Adabiy meros, 1977.
3. Kayumov X. Художественное изображение природы и человека в узбекской детской литературе. – T.:1983.
4. Салаев Ф. Ёзувчи ва табиатни мухофаза қилиш. Т.: Ўзбекистон, 1988.
5. Raximjonov N. Asqad Muxtor she'riyatida tun ramzlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 1998.
6. Farmonova M. Tabiat va she'riyat. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1999.

ZAMONAVIY SHE'RIYATDA XALQONA OHANGLAR

Akmuratova Biybisanem Arislanbay qizi,
Qoraqalpoq davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi
e-mail: bibisanem@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy adabiyotda folklorizmning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Iqbol Mirzo ijodidagi xalq ohanglariga uyg'un ritmda yaratilgan she'rlar tahlil qilinadi hamda ular misolida folklorga xos ohangning shoir she'riyatiga ta'siri masalasida mulohazalar bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: tilla uzuk, nozik, qosh, qaldirg'och, folklor, moddiy, hokimiyat.

Abstract

This article discusses the importance of folklore in contemporary literature. Poems created in rhythm harmonious with folk melodies in the work of Iqbal Mirzo are analyzed, and on their example, the influence of the melody characteristic of folklore on the poet's poetry is discussed.

Key words: *gold ring, thin, eyebrow, swallow, folklore, material, power.*

Xalq og'zaki ijodi asrlar davomida millatning ma'naviy tafakkuri, hayotiy tajribasi va falsafiy qarashlarini o'zida mujassamlashtirib kelgan. Uning muhim janrlaridan biri bo'lgan maqollar ixchamligi, mazmunan teranligi va didaktik xarakteri bilan ajralib turadi. Zamonaviy she'riyatda esa maqollar an'anaviy shaklda emas, balki yangicha badiiy-estetik talqin asosida qo'llanilib, poeziyaning obrazlar tizimi va mazmuniy qatlamini boyitmoqda. An'anaviy adabiyotda maqollar ko'proq tayyor hikmat, xulosa yoki axloqiy mezon sifatida ishlatilgan. Zamonaviy she'riyatda esa bu holat o'zgarib, maqol tayyor xulosa beruvchi vosita emas, balki badiiy obraz, ramz va poetik detal vazifasini bajaradi. Shoirlar maqollardan foydalanish orqali xalqona tafakkur bilan shaxsiy ijodiy qarashlarni uyg'unlashtiradilar. O'zbek zamonaviy she'riyatining yetuk vakillaridan biri Iqbol Mirzo ijodida ham maqollar an'anaviy didaktik shakldan chiqib, chuqur badiiy-estetik talqin asosida qo'llaniladi. Iqbol Mirzoning she'rlari zamonaviy o'zbek she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarini va rivojlanish tamoyillarini aks ettiradi. Iqbol Mirzo o'z davrining ijtimoiy-siyosiy voqeliklari tufayli yuzaga kelgan lirik mavzuning kechinmalarini samarali ifodalash uchun folklorizmlardan mohirona foydalangan. Ijodining muhim jihatlaridan biri uning xalqona ruhga yaqinligidir. Shoir she'rlarida oddiy xalq tili, kundalik hayot manzaralari, milliy tafakkur unsurlari yetakchi o'rin tutadi. Shu sababli maqollar uning poeziyasida sun'iy bezak sifatida emas, balki tabiiy badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shoirning "Tilla uzuk" [Mirzo, 2007:16] she'rini misol qilib aytadigan bo'lsak:

Ey qaldirg'och qoshligim,
Kel, ahdimiz bir bo'lsin.
Uchta odam bilgan gap
Qanday qilib sir bo'lsin?

Bu to'rtlik xalqona she'riy satr bo'lib, muhabbat, sadoqat, sir saqlash mazmunini o'zida aks ettirgan. "Ey qaldirg'och qoshli", kel, va'damiz, niyatimiz bitta bo'lsin, ya'ni bir-birimizga sodiq bo'laylik. Ikkovimiz bir fikrda bo'laylik, bir-birimizga va'damiz mustahkam bo'lsin. Bizning gapimiz, his-tuyg'ularimiz faqat o'zimizga tegishli bo'lsin. Chunki bir sirni uch kishi bilsa, u endi sir bo'lib qolmaydi. Bu satrlarda yaqinlik, ishonch va maxfiylik g'oyasi mujassam.

Tilla uzukka tilla
Ko'z bo'lmaydi hech qachon.
Qiz bolaga qiz bola

Do‘st bo‘lmaydi hech qachon.
Bu satrlar maqol/ibora tarzida aytiladi va unda qiyosiy, kinoyali ma’no bor.

“Tilla uzukka tilla ko‘z bo‘lmaydi hech qachon” Qanchalik qimmatli, chiroyli narsa bo‘lmasin, unga har doim mos va mukammal juft topilavermaydi. Insoning ko‘zini tilla uzukning ko‘zi bola olmasligi haqida ma’no ko‘chish xususiyati ham ifodalangan. Ya’ni hamma yaxshi narsalar ham bir-biriga to‘liq mos kelavermaydi. “Qiz bolaga qiz bola do‘st bo‘lmaydi hech qachon” misrasida esa aytilmoqchi bo‘lgan fikr qizlar o‘rtasida ko‘pincha rashk, hasad yoki raqobat bo‘lishi mumkin, shuning uchun chin, beg‘araz do‘stlik kam uchraydi degan xalqona qarash ifodalangan, bu gap hayotiy kuzatuvga asoslangan. Folklorda uzuk sevgi, nikoh kabi badiiy talqinlarda keladi. Folklor ertaklari va dostonlarida uzuk motivi epik qahramon haqidagi ma’lumotni epik qahramonga yetkazishga xizmat qiladi, shu bilan birga epik qahramonga taqdirlangan qiz haqida bashorat beradi. Shoir o‘zining sevgi tuyg‘ularini ifodalash uchun xuddi shu motivdan foydalanadi.

Bordir saroy qurganlar,
Bordir davron surganlar.
Bormi bizdek bir tushni
Birgalashib ko‘rganlar?

Bu satrlar ramziy ma’noga ega. She’rda moddiy boylik va hokimiyat emas, balki ruhiy yaqinlik, birga orzu qilish, birga yashash va tushunish eng katta boylik ekanligi aytilmoqda. Shoir “birgalikdagi tush”ni saroylar va davronlardan ustun qo‘yayapti. Ya’ni bizdek bir xil orzu, bir xil tushni birga ko‘rgan, bir-birini chin dildan tushungan va bir maqsadga birga intilganlar bormi? Bu satrda savol orqali fikr kuchaytirilyapti. Ushbu satrlarda insoniy munosabatlarning qadrini ulug‘laydi. Shoir o‘quvchiga shuni anglatadiki, eng buyuk boylik – bu birga ko‘rilgan tush, birga kechgan hayot.

Bitta qizga bir yigit
Tilla uzuk taqibdi.
Bitta dushman yigitga,
Qizga qirqta raqibdir.

Bu misralar ham ramziy va ijtimoiy mazmunga ega. Bir yigit bitta qizni sevib, unga sadoqat va nikoh ramzi bo‘lgan tilla uzuk taqdi. Bu – sof muhabbat va va’daning ifodasi. Endi yigitning dushmani bittaga ko‘paygan bo‘lsa, qizning raqiblari qirqtaga oshdi. Ya’ni, qizlarning tabiati, fe’liga nozik ishora yashirilmoqda bu satrlarda. To‘rtlik muhabbatning nafaqat go‘zal, balki sinovlarga boy ekanini ko‘rsatadi. Shoir sevgi yo‘lida sadoqat, sabr va qat’iyat zarurligini ta’kidlaydi. Xalqda shunday chiroyli maqol bor: “Mard yigitga sevgi sinov”. Sevgi mard yigit uchun shunchaki his-tuyg‘u emas, balki iroda, sabr va mas’uliyatni tekshiradigan sinovdir. Adabiy ma’noda sevgi qahramonlik maydoni sifatida talqin etiladi. Mard yigit sevgi orqali o‘zining ichki kuchi, sabri va erkaklik fazilatlarini namoyon qiladi. Agar u bu sinovdan o‘tsa, muhabbat uni ulug‘laydi, agar o‘ta olmasa, u faqat oddiy tuyg‘u darajasida qoladi.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri ijodkorlari tomonidan yaratilayotgan she’riy namunalar o‘zining mazmun jihatdan salmoqdorligi, yuksak badiiyati va ko‘ngil kechinmalarini nozik ifodalashi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Ana shunday yorqin ijod namunalari taniqli shoirimiz – Iqbol Mirzo ijodidan keng o‘rin olganligi alohida ahamiyatga ega. Shoir o‘z ijodida nafaqat ishq-muhabbatni tarannum etadi, balki insonga xos bo‘lgan ezgu fazilatlar va qusurlarni, bir vaqtning o‘zida inson qalbida yuz berayotgan turfa tuyg‘ular silsilasini, shaxs ruhiyatining murakkab holatlarini ham teran aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharipova L. XX asrning 70-80- yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. – T.: 2011.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2002.
3. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007.

SIROJIDDIN SAYYID IJODINING BADIIY-ESTETIK TALQINI

Dilnoza Karimova,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada Sirojiddin Sayyid she'riyatida peyzaj lirikasining badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tabiat manzaralari va hodisalari lirik qahramon ruhiyati, inson hayoti va jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, estetik dekorativ funksiyadan tashqari chuqur ramziy va falsafiy ma'no ham kasb etadi. Shoir tabiat unsurlarini ichki kechinmalar, hissiyot va poetik tafakkur vositasi sifatida ishlatadi, bu esa peyzaj lirikasining nafaqat tasviriy, balki g'oya va ma'nodor qatlam ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *peyzaj lirikas, Sirojiddin Sayyid, tabiat tasviri, lirik qahramon, badiiy-estetik talqin, ramziy ma'no.*

Abstract

This article analyzes the artistic and aesthetic features of landscape lyrics in Sirojiddin Sayyid's poetry. Natural scenery and phenomena are closely intertwined with the lyrical hero's inner world, human life, and society, carrying not only aesthetic but also profound symbolic and philosophical meanings. The poet employs elements of nature to convey inner experiences, emotions, and poetic reflection, demonstrating that landscape lyrics serve as both descriptive and meaningful layers in his work.

Keywords: *landscape lyrics, Sirojiddin Sayyid, depiction of nature, lyrical hero, artistic-aesthetic interpretation, symbolic meaning.*

Peyzaj lirikasida tabiat manzaralari faqat tasviriy fon vazifasini bajarmaydi, balki o'zining mazmuniy va semantik yuklamasi bilan she'riy g'oyaning yetakchi komponentiga aylanadi. Tabiat hodisalari orqali inson shaxsiyati, uning ruhiy holati va jamiyatdagi jarayonlarni badiiy-estetik talqin etish zamonaviy she'riyatning muhim poetik usullaridan biri sifatida qaraladi. Peyzaj lirikasida tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar nafaqat tashqi aloqalar darajasida, balki ichki ruhiy kechinmalar, nozik psixologik holatlar orqali ham ifodalanadi. Shu bois tabiat tasviri lirik qahramonning ruhiy olamini ochib beruvchi estetik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Shoir jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlarni badiiy talqin etishda tabiat obrazlariga murojaat etar ekan, u orqali nafaqat tashqi voqelikni, balki o'zining ichki ma'naviy dunyosini ham ifodalaydi. Tabiat obrazlari shoir tafakkurida ramziy ma'no kasb etib, individual kechinmalarni umumlashtirish imkonini beradi. Natijada peyzaj lirikasida tabiat inson ruhiyati bilan uzviy bog'langan estetik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Tabiat manzaralarini badiiy tasvirlash an'anasi mumtoz o'zbek adabiyotida ham keng rivojlangan. Buyuk shoirlar tabiatdagi uyg'unlik va muvozanatni tasvirlash orqali inson qalbining ichki holatini, ishqiy va falsafiy kechinmalarni ifodalashda yuksak badiiy san'at namunalarini yaratganlar. Xususan, tabiat hodisalarini jonlantirish, ularni lirik qahramon bilan muloqotga kiritish usuli Alisher Navoiy ijodida muhim poetik vositalardan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiy g'azallarida shamol obrazi alohida poetik va ramziy ma'noga ega. Shoir shamolni sabo, yel, nasim, dovul kabi turli nomlarda qo'llab, har biriga muayyan semantik va emotsional yuklama beradi. Ushbu timsollar orqali shamol ko'pincha lirik qahramonning dardkashi, ishq elchisi, ruhiy holatlarning tashuvchisi sifatida tasvirlanadi. Masalan,

Ey sabo, sharh ayla avval dilsitonimdin xabar,
So'ngra degil ko'ngul otlig' notavonimdin xabar,

misralarida shamol oshiq qalbining tilmochi, ma'naviy vositachi vazifasini bajaradi. Bu esa mumtoz peyzaj lirikasida tabiat obrazlarining chuqur falsafiy va estetik mazmun kasb etganini yaqqol namoyon etadi.

Shamol, ayniqsa, sabo, oshiqning yurakdagi kechinmalarini yetkazuvchi, yoridan xabar olib

keluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Lirik qahramon saboga murojaat qilib, undan seviklisi haqida xabar olib kelishni so‘raydi. Ba’zida bu iltijolar nido shaklida ifodalanadi, bu esa oshiqning iztirobini yanada kuchaytiradi. G‘azallarda shoirning asosiy e’tibori o‘zining holatida emas, balki yorining ahvolida bo‘ladi. U, avvalo, ma’shuqasidan xabar olishni istaydi, so‘ngra zarurat bo‘lsa, o‘zining holi haqida gapirishni lozim deb biladi. Bu esa oshiq sadoqatining, fidoyiligining yorqin ifodasidir. Shamol esa bu yerdagi vositachi, ishonchli hamroh sifatida poetik vazifa bajaradi.

Jahon adabiyotida peyzaj lirikasi tadqiqoti masalasi asosiy mavzulardan biri sanaladi. Tadqiqotchi olimlar bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan, rus adabiyotshunosligida M.Epshteyn, Y.Soxpyakov tadqiqotlari shunday ishlar sirasidan. O‘zbek adabiyotida ham tabiat lirikasini ilmiy o‘rganish masalasida adabiyotshunos olimlarimiz samarali izlanishlar olib borgan. Masalan, O.Sharafiddinov, N.Karimov, B.Nazarov, I.Haqqul va boshqalarning ilmiy izlanishlarini faxr bilan tilga olish lozim. Zamonaviy adabiyotimizda, jumladan, she’riyatimizda tabiat lirikasi har jihatdan rivojlangan, o‘zining badiiy-estetik takomiliga erishgan. Shoirlarimiz tabiat unsurlarini tasvirlash orqali hayotiy voqea-hodisalarning tub mohiyatini, lirik qahramon qalb kechinmalarini ta’sirchan ochib berishga erishmoqda. Jumladan, bugungi o‘zbek she’riyatining taniqli vakillaridan biri shoir Sirojiddin Sayyid she’rlarida ham peyzaj lirikasining go‘zal namunalarini ko‘rishimiz mumkin Shoir tabiatning chin oshig‘i, uning hissiyotga boy qalbi tabiat manzaralari tasviri jarayonida yanada go‘zal aks etadi. U tabiatning eng nozik va go‘zal manzaralariga murojaat qiladi, ichki dardlarini ifodalashda ularni o‘z o‘rnida mohirona qo‘llaydi.

Sirojiddin Sayyid o‘z she’rlarida qalbi tubidagi tug‘yonlarni, dardlarni va ichki kechinmalarni bahorga murojaat tarzida bayon qiladi. Bahor uning dardlarini mayus va sokin tinglaydi. Shoir “Ilinj” nomli she’rida nasim obrazini orqali tuyg‘ularini izhor qiladi. Shoir bu istaklarni she’rida chiroyli misralarda bayon etadi:

Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,
Kipriklarim o‘psalar bas gardlaringdan.
Men bir nasim bo‘lib keldim, men bir nasim,
Aytib o‘tsam deyman ko‘hna dardlaringdan?

Shoirning tabiatga murojaatidan ayon bo‘layotirki, u hech kimga aytolmagan dardlarini bahor bilan bo‘lishmoqchi. She’rda u tabiatni o‘ziga do‘st bilgan va sirdoshi sifatida tasvirlagan. Do‘stiga dardini qanday aytib maslahat olsa, tabiatga ham aynan shunday munosabatda bo‘lgan. Ushbu she’rning keyingi misralarida shoir fikrlarini yanada aniqroq va yorqinroq ifodalagan. Quyidagi satrlar fikrimizning yorqin dalilidir:

Almashdilar seni nom-u rutbalarga,
Munglug‘ bo‘lib qolding botib shubhalarga.
Hilollaring qaytar yana qubbalarga,
Moziylarga so‘ylab-so‘ylab zorlaringdan.

Sirojiddin Sayyid she’rlarida tabiatning nozik tasvirlari rangin bo‘yoqlar bilan ifodalangan. Shoirning bu tasvirlari she’riyatga oshufta qalblarni sohir his-tuyg‘ular bilan boyitadi.

Sirojiddin Sayyid she’rlarida ma’nolar nozikligi, so‘zlarning o‘z o‘rnida qo‘llanishi hamda chiroyli tasvirlarni ko‘ramiz. Shoir chiroyli tasvirlar yordamida she’riyat ixlosmandlari ko‘ngliga yo‘l ochishga harakat qiladi, ularning istak-xohishlariga hamohang tarzda dardlarni tasvirlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Sirojiddin Sayyid ijodida tabiat tasviri tasodifiy yoki faqat estetik bezak vazifasini bajarmaydi, balki shoir poetik tafakkurining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. U tabiatni shunchaki manzara emas, balki inson hayoti, ruhiyati va ijtimoiy borliq bilan uzviy bog‘langan borliq sifatida talqin etadi. Shoir nigohidan tabiatning hech bir unsuri – xoh mayda detal, xoh keng ko‘lamli manzara bo‘lsin chetda qolmaydi; har bir obraz o‘ziga xos semantik va ramziy yuklama bilan she’riy matnga singdiriladi.

Sirojiddin Sayyid tabiat hodisalarini kuzatishda sergaklik, ziyraklik va falsafiy mushohadaga tayanib, ularni inson hayoti bilan uyg‘unlikda tasvirlaydi. Natijada uning she’rlarida tabiat inson ruhiy holatlarining badiiy surati, ichki kechinmalar va axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi poetik vosita darajasiga ko‘tariladi. Bu holat shoir ijodida peyzaj lirikasining nafaqat tasviriy, balki ma’no va g‘oya tashuvchi muhim badiiy qatlam ekanini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пайзуллаева Р. Сирожиддин Саййид шеъриятида Навоийона оҳанглар // “Алишер Навоий ижодий меросининг башарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни” мавзусидаги IV анъанавий халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Навоий, 2021 йил 23-25 ноябрь.
2. Oripova G., Ibrohimova G. Sirojiddin Sayyid ijodida mumtoz mushtarakliklar // Inertational scientific journal of Biruni. Oct. 2022.
3. Abdulhamidova H., Saminjonova M. Mustaqillik davri she’riyatida milliy detallarning ifodalanishi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. November.
4. Payzullayeva R. Sirojiddin Sayyid ijodida xalq og‘zaki ijodi an’analari // “O‘zbek adabiyotining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman. – Navoiy, 2023.
5. Jabborov N. Men she’r aytsam, bu hayot yana sha’n hayot bo‘lgay... // O‘z AS, 2023. № 42.
6. Жабборов Н. Шоирнинг буғдой сўзи // Халқ сўзи. 2024 йил. №143.

O‘LJAS SULAYMONOVNING “ARG‘UMOQ” SHE’RIDA ERK TIMSOLLARI

Rustam Umrzoqov,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Farg‘ona davlat univesiteti
e-mail: rustamumrzoqov@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada qozoq shoiri O‘ljas Sulaymonovning “Arg‘umoq” she’ri badiiy-g‘oyaviy jihatdan tahlil qilinadi. She’rdagi turkiycha so‘zlar orqali erk timsollari yaratilgani ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *qozoq adabiyoti, O‘ljas Sulaymonov, badiiy g‘oya, arg‘umoq, uyur, ang‘iz.*

Abstract

This article analyzes the poem “Argumoq” by the Kazakh poet Oljas Sulaymanov from an artistic and ideological perspective. It shows that symbols of freedom are created through the turkic words in the poem.

Key words: *kazakh literature, Oljas Sulaymanov, artistic idea, argumak, slang, angiz.*

Qozoq og‘zaki adabiyotining yozma adabiyotga aylanishi nisbatan kechroq sodir bo‘lgan. Abaydan boshlangan mazkur yozma adabiyotning safi ham uncha keng emas. Shunday bo‘lsada, XX asr zamonaviy qozoq adabiyotida Ch.Valixonov, S.Muqonov, M.Avezov, M.Shoxonov, O‘.Sulaymonovlar alohida o‘rin tutadi. Xususan, O‘.Sulaymonov ijodida isyonkorlik, yovqurlik, sahro odamlariga xos g‘urur va qat’iyat sezilib turadi. “Arg‘umoq” she’rida ham bu xususiyat ko‘zga tashlanadi. “Arg‘umoq” she’rini tahlil qilishda, eng avvalo, muallif–matn–tarjimon uchligiga e’tibor qaratish lozim.

O‘.Sulaymonov shaxsiyatida qaysarlik, haqiqatni dangal aytish xislati yetakchi bo‘lgan. Bu esa, undagi ruh erkinligi bilan izohlanadi. Shoirga ruhan yaqin bo‘lgan, asli turkistonlik o‘zbek yozuvchisi O.Yoqubovning xotirlashicha, O‘.Sulaymonov Qozog‘iston hududidagi Semipalatinsk atrofidagi vodorod bombasi sinaladigan maxfiy poligon qurilishiga qarshi chiqqan. Uning hayoti va ijodida o‘z ona yurtini sevish uni asrash bilan hamohanglik kasb etgan, ya’ni Vatanni shunchaki sevish emas, uni asrab-avaylab sevish O‘.Sulaymonovning ijodiy shioriga aylangan. “Arg‘umoq” she’rida ham Vatanni asrash jasorati kuylanadi.

She’r tarjimoni A.Suyun va O‘.Sulaymonov o‘rtasida hayotiy, ma’naviy-ruhiy yaqinlik bor. O‘zbek kitobxoni O‘.Sulaymonovni, aytish kerakki, A.Suyun orqali tanigan. A.Suyun ham Samarqandning qadimiy qipchoqlari avlodidan. Aynan ruhiy yaqinlik she’rning go‘zal tarjimasiga asos bo‘lgan. Chunki qardosh tillardan tarjimada so‘zdagi ekvivalentlik emas, ikki ijodkor ruhidagi yaqinlik yaxshi samara berishi isbotlangan. A.Suyunning “Oq va qora”, “Bahodirning qilichi” kabi she’rlarini o‘qigan o‘quvchi “Arg‘umoq” she’rida ham xuddi shunday tuyg‘ularni ko‘radi.

O‘.Sulaymonov garchi rus tilida ijod qilsa ham, uning she’rlarida turkiy so‘z va ifodalar asosiy mazmunni berishga yo‘naltirilgan. Masalan, she’rning nomi. Otni ifodalovchi ko‘plab ma’nodosh so‘zlar mavjud, lekin ular ichida “arg‘umoq” ko‘proq badiiylikka ega. Arg‘umoq chopqir ot nomi bo‘lib, asosan axaltaka, takayovmut ot zotlariga nisbatan qo‘llangan. Demak, “arg‘umoq” so‘zini eshitib, ko‘z oldimizda qadimgi turkiylarning dostonlarida kuylangan, egasiga yo‘ldosh va xaloskor, murod ramzi bo‘lgan, yollarini shamol tarab turgan chopqir ot kishnab turadi. She’rning nomiyoq bizga tuyg‘u beradi, sarlavha bizga she’rning shiddatli kechishiga ishora beradi. She’r o‘sha shiddat, otlar dupuri bilan boshlanadi:

Yilqisi bilan mashhur

Qadim qipchoq yerida,
Oqib boradi uyur
Kuygan o‘tlar selida.

1-bandda yilqi uyuri Qipchoq yeriga oqib boradi. Chunki bu yer tulpori bilan mashhur, bu yerda tulporlar dupuri tinmagan, bu yerda qahramonlar hamisha tulpor ustida bo‘lgan. Lekin she’rda butun boshli uyur oqib boryapti (e’tibor qiling, chopib emas, oqib boryapti). 1-banddagi asosiy xulosa 4-misradadir. Real olib qaraganda, uyurlar yuruvchi yaylovlar, ang‘iz yerlarning o‘tlari jaziramada kuyib ketadi. Bu esa, uyurning halokati bo‘lishi mumkin. Badiiy ma’noda esa, yurtga o‘t ketgan. Uyur (xalq) shundan bezovta. Bu o‘tlar seli – sho‘rolar mafkurasi, ularning siyosati. Lirik qahramonning yuragi bunga ko‘nmaydi, uning tomirida qoni qaynaydi, uyur ichidan tulpor saylab mingisi, uni yeldirgisi keladi. 1-bandda uyur oqib borayotgandi, 2-bandda lirik qahramon uni yeldirib, o‘t-olovga qarshi chiqadi.

Tomirimda qaynar qon
Tulporidan saylab ber.
Yeldiray misli bo‘ron,
Ostin-ustun bo‘lsin yer.

Yellar alanga olsin
Arg‘umoqning qonida.
Qiyoq, alaflar qolsin
Tuyoqlar to‘zonida.

1-banddagi uyur 2-bandda tulporga, 3-bandda arg‘umoqqa aylanadi. Otni bildiruvchi ma’nolar konkretlashgani sari (uyur-tulpor-arg‘umoq) she’rning g‘oyaviy maqsadi ham rivojlanaveradi. Arg‘umoqning qoni shu qadar qaynoqki, u chopib borayotganda, hatto yellar ham yonib ketadi. Arg‘umoq tuyoq ostidagi o‘tlarga parvo qilmaydi. Chunki, bu o‘tlar shunchaki qiyoq va alaf. “Alaf” do‘zax guli degani, qiyoq esa, tulporga yem bo‘lmaydigan o‘t.

Shu yerda ijtimoiy umumlashma qilish mumkinki, shoirning qaynoq, erkka tashna yuragi mafkuraning siyosatiga – alafiga ko‘nmayapti. U siyosat ko‘rsatgan yo‘l – so‘qmoqlarga yurmay, jasorat ko‘rsatib yashashni afzal bilyapti. Demak, yilqi emas, uyur emas, arg‘umoq bo‘lib – ozod yurak bilan kurashib yashashga undash she’rning asosiy g‘oyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т.: 2004.
2. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Навоий университети нашриёти, 2018.
3. Сулаймонов Ў. Аз и Я. – Т.: Муҳаррир, 2022.

LUQMON BO‘RIXONNING “OVCHI QISMATI” HIKOYASIDAGI OBRAZLAR BADIIYATI

Navruzgul Turdiyeva,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktoranti
e-mail: navruzgulturdiyeva3@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning “Ovchi qismati” hikoyasi tarixiy-qiyosiy, germenevtik metodlardan foydalanib tahlil etilgan. Hikoyadagi obrazlar tizimi va yozuvchining estetik qarashlari o‘rganilgan. Ovchi obrazining xarakter xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *obraz, portret, peyzaj, xarakter, hikoya, detal.*

Abstract

This article analyzes the story “The Fate of the Hunter” by the writer Luqmon Borikhon using historical-comparative and hermeneutic methods. The system of images in the story and the writer’s aesthetic views are studied. The character traits of the image of the hunter are revealed.

Keywords: *image, portrait, landscape, character, story, detail.*

Har bir yozuvchi o‘z asarlarida ma’lum kasb va soha vakillariga nisbatan ko‘nglida yaqinlik tuyadi va ularning turmushidagi qiyinchilik hamda zavqli kunlarini badiiy bo‘yoqlarda tasvirlashga urinadi. Folklor, mumtoz va zamonaviy adabiyot olamida ovchilar haqida turli mavzu va yo‘nalishda yozilgan ko‘plab epik asarlarni uchratish mumkin. A.Chexovning “Ovchi”, Sh.Xolmirzayevning “Omon ovchining o‘limi”, R.Bekniyozning “Ovchi hikoyalari” turkumiga kirgan hikoyalari shular jumlasiga kiradi. Luqmon Bo‘rixonning “Ovchi qismati” hikoyasi ham ovchilik hunarining mushkulligi, tabiat, inson va hayvonot olami uchligi o‘rtasida bo‘ladigan ziddiyat va ovchining ichki dunyosini tasvirlab bergan hikoyalardan biri hisoblanadi. Adib asarlarini o‘rgangan adabiyotshunos B.Shukurova Luqmon Bo‘rixonning hikoyasi Shukur Xolmirzayevning “Omon ovchining o‘limi” hikoyasidan ta’sirlangan holatda yozilganini qayd etadi [Shukurova, 2022: 60]. Tadqiqotchi bu fikrga kelishiga asosiy sabab qilib, har ikkala hikoyadagi fojiaviy qismatni asos qilib ko‘rsatadi. Albatta, tadqiqotchining fikriga qo‘shilgan holda, buni adabiy ta’sir deb baholaymiz.

“Ovchi qismati” hikoyasidagi asosiy obrazlar: hikoyachi yigit, professor, ovchi, ovchining o‘g‘li, shaharlik bemor bola va uning otasi. Hikoyadagi bosh qahramonning hissiyotlarini aynan anglash biroz qiyin. Sababi voqealar, asosan, boshqa bir obraz tomonidan hikoya qilinadi. Hikoya tabiat tasviri bilan boshlangan. Ovchi – o‘z kasbi va oilasini sevuvchi, insonlarning dard va tuyg‘ulariga quloq tutuvchi inson, ammo “Omon ovchining o‘limi” hikoyasidagi Ovchi Omon oilasiga nisbatan shafqatsiz, kasbining mukkasidan ketgan, ov qilmasa yasholmaydigan obrazdir.

“Ovchi qismati” hikoyasida Ovchining o‘g‘li otasiga nisbatan chuqur hurmati borligini sezish mumkin. Sh.Xolmirzayev hikoyasidagi ovchining o‘g‘lida esa otasiga bo‘lgan g‘urur va muhabbat sezilmaydi, aksincha, o‘g‘il otaning faoliyatiga qiziqmaydi. Hikoyada tabiatga bo‘lgan mehr bemor bola orqali, uning ovchi ona bo‘rini otgandagi emotsional holati, kasallikdan ham ko‘ra, bo‘rining bolalarini o‘ylab qayg‘urgan o‘rnida ko‘riladi. Hikoyada ovchi o‘ta salbiy bo‘yoqlarda chizilmagan. “Omon ovchining o‘limi” hikoyasidagi ovchi esa juda shafqatsiz, tabiat qotili sifatida gavdalanadi. Ovchining haqiqiy badiiy qiyofasini berishda, shubhasiz, Sh.Xolmirzayev tabiat tasvirida mahoratli ekanligini isbotlagan. Har ikkala hikoya fojiaviy yakun topgan. Yozuvchilarning har ikkalasi ham

qismat masalasiga alohida e'tibor bilan yondashgan. Qismat insonning butun umri yozilgan kitob. Yomonlik xoh hayvonga, xoh insonga bo'lsin, o'z jazosini topadi.

Luqmon Bo'rixon hikoyasining qahramoni o'lganda, xalqda achinish hissi borligi ufurib turibdi. Hikoyada asosiy e'tibor ovchining o'limiga qaratilgan. Hatto ovchining o'g'li ham otasining "haqiqiy ovchilar yirtqichlar bilan ovda yoki tepalikdan qulab o'ladi", degan so'zlarini eslab qolgan.

Hikoyadagi voqealar bahor faslida bo'lib o'tgan. Ovchining portreti o'g'li tomonidan quyidagicha tasvirlanadi: "Otam bo'yi ikki quloch, qo'rg'oshindan quyulganday qoruvli, qizg'ish soqoli yarashiqli, serg'ayrat ovchi odam edi. U uchib borayotgan qushning ko'zidan ura oladigan mergan bo'lgan, desam balkim ishonmassiz. Lekin ovulimizda hamma bunga iqror. Otamning o'tkir ko'zlariga tashlanib qolmaslik uchun menman degan yirtqich jondorlar ham qochib-pisib yurardi" [Bo'rixonov, 2024: 86].

Ovchidan umid qilib kelgan kasal bolaning holati ham achinarli – kallasi o'z holicha tinmay tebranib turishi tasvirlangan. Tabiiyki, insonning hayoti, ayniqsa, u o'spirin bo'lsa (hali hayotning hech qanchasini ko'rib ulgurmagan), har qanday insonni nimadir chora qilishga shoshiltiradi.

O'zbek nasrida Luqmon Bo'rixon o'zining obraz yaratishda o'ziga xos usuli borligi bilan farqlanib turadi. Yozuvchi yaratgan qahramonlar favqulodda g'ayrioddiy harakat qilmaydi yo kuchga ega emas. Ular kitobxonning ham dilini o'ta tund, yo shodon etib qo'ymaydi. Hammasi oddiy xalq ichidagi haqiqiy insonlardir. Luqmon Bo'rixon asarlarida hech bir yozuvchida uchramaydigan alohidalikka intilishga harakat qilgan. Insonning, ayniqsa, hozirgi zamon odamlarining xarakteri, o'y-qarashlari, atrofidagi odamlar bilan munosabatini asarlarida berishga harakat qilgan. Adib o'z obrazlariga ko'p ham yuk yuklamaydi, ularni badiiylashtiradi va estetik idealini akslantiradi. "Badiiy obraz – bu inson ongidagi alohida hayotiy hodisaning aksigina emas, balki ijodkor tomonidan aks ettirilgan va u yoki bu moddiy vositalar va belgilar yordamida yangidan yaratilgan hodisani qaytadan aks ettirishdir" [Тюнькин, 1956: 2]. Adib Luqmon Bo'rixon ham hayotdagi eshitgan, bilgan, ko'rgan voqealarini badiiylashtirib, san'at darajasidagi asarlar yozgan. Bu haqida shoir Hol Muhammad Hasan "Kichkina bir hikoyat yoxud epizodli tasvirni shunchaki gurung asnosida aytib yuborsangiz, darhol yodida saqlab qolar, keyin voqeani tolstoychasiga badiiylashtirib, aytmatovchasiga rivojlantirar, qarabsizki, kunlardan bir kun kattagina bir yangi asarida syujet bo'lib bo'y ko'rsatganiga shohid bo'lardingiz" [Hasanov, 2023: 7], deya eslaydi.

"Ovchi qismati" hikoyasining asosiy badiiyatiga ta'sir ko'rsatgan obraz – bu kasal bola obrazidir. Bolaning otasi farzandi uchun hamma narsaga tayyor haqiqiy ota. Shu bilan birga, bir narsani unutmaslik kerakki, hayvon ham Allohning yaratiq maxluqoti. Hayvonlar ham bolalari kichkinaligida bolasiga g'amxo'rlik qiladi. Ovchiga beixtiyor ta'sir qilgan holat bolaning hayvon bolalarini o'ylab qichqirgani: "Nega otdingiz, nega? Endi bolalari nima bo'ladi?" [Bo'rixonov, 2024: 93] O'z oilasini sevgan, o'zining ham farzandlari bo'lgan ovchiga bu holat boshqacha ta'sir qiladi. U butun faoliyatidagi gunoh ishlarni ko'z oldiga keltirgan bo'lsa, ajab emas.

Yozuvchi o'z hikoyasi orqali ovchilar hayotidagi ma'lum bir hodisani bayon etish orqali tabiatga, hayvonlarga inson adolatsiz ravishda munosabat qiladigan bo'lsa, buning oxiri yomonlik bilan tugashini uqtirmoqchi bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shukurova B. Yangi o'zbek nasrida etik va estetik ideal muammosi. F.f.f.n. ... diss. – Toshkent: 2022.
2. Bo'rixonov L. Ovchi qismati. "Yoshlik", 2015-yil, 11-son.
3. Тюнькин К.И. Учение Белинскога о художественности: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва: МГУ, 1956.
4. Hol Muhammad Hasan. Bizning Luqmon Bo'rixon... . "Yoshlik", 2023-yil, 7-son.

SHE'RIYATDA RITM VA OHANGDORLIK

Oripova Gulnoza Murodilovna,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Farg'ona davlat universiteti
e-mail: gulnoza_oripova81@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada she'r ritmi ritmik bo'laklar va ritmik vositalar asosida musiqiylik va ohangdorlikni, emotsionallikni yuzaga keltirishi tadqiq etilgan. She'riy nutqning o'quvchi qalbiga yetib borishida ritm, qofiya, tovushlar jilosi she'rdagi fikr va tuyg'u bilan uyg'unlashuvi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *ritm, ohangdorlik, vazn, qofiya, she'riy nutq, band.*

Abstract

The article examines how the rhythm of poetry creates musicality, melodiousness, and emotionality based on rhythmic fragments and rhythmic means. It highlights the harmony of rhythm, rhyme, and the brilliance of sounds with the thoughts and feelings in the poem in reaching the reader's heart.

Key words: *rhythm, melodiousness, meter, rhyme, poetic speech, stanza.*

Ritm insonning hayotiy faoliyati va uni qurshab olgan atrof-muhitidagi harakat sifatida fizika, biologiya, sotsiologiya, san'atshunoslik, musiqashunoslik, estetika, adabiyotshunoslik kabi turli fanlarda o'rganiladi. Hayotdagi har qanday harakatda ritm mavjud. Ritm borliqdagi harakatning bir xildagi tartiblanishi, ma'lum bir ketma-ketlikda almashinishi, har qanday jarayonning muntazam davomiyligi hodisasidir. Hatto insonning qadam tashlashi, mehnat faoliyati, jismoniy xatti-harakatlarida, umuman, turmush tarzi, madaniy hayotida o'ziga xos ritm mavjud. Qadimgi greklar ritmni "rhythmos" – harakat deb bilganlar. Shunday ekan, "ritm – bu tartib, uyg'unlik, bir xil o'lchamdagi va izchillikdagi harakat" [Medvedev, 1985: 58].

She'rshunoslikda esa bu tushuncha "teng o'lchovlilik" degan ma'noni anglatib, bir-biriga mutanosib bo'lgan bo'laklarning bir xil vaqt ichida tartibli takrorlanishidan tug'ilgan ohangdorikdir. Ritmning vujudga kelishida teng o'lchamli va bir tartibli elementlarning takrorlanishi muhim belgilardan biridir. Ko'rinadiki, adabiyotshunoslikda she'riy nutqdagi muayyan bo'laklarning ma'lum bir vaqt ichida izchil takrorlanib kelishiga ritm deyiladi. Ritm she'riy nutqni tashkillashda asosiy vositalardan biri bo'lib, tuyg'u-kechinmalar, obrazlar harakati va ularning uyg'unligini ta'minlaydi. "Ritm poetik nutqni tashkil etishning asosiy boshlovchisi bo'lgan" [LDV, 1984: 18]. Bu esa she'riy nutqning hosil bo'lishida ritmning ahamiyatini ko'rsatadi. Ritm she'riy asarda ohangdorlik, kompozitsiya, janr, uslub kabilardan avval paydo bo'lgan.

Poetikada ritmning fonetik, intonatsion, sintaktik, ohangdorlik, kompozitsion kabi jihatlari mavjuddir. B.Eyxenbaum 1920-yillar boshlarida yaratgan "Rus lirik she'rlari ohangdorligi" nomli tadqiqotida birinchi bo'lib lirik she'rlarda intonatsiyaning ma'no ifodalashdagi ahamiyati, ohangdorlikning uslub bilan uyg'unligi, ritmning kompozitsiyadagi roli haqida fikr yuritib, she'riy asar qurilishida ritmning iyerarxiyasini quyidagicha ko'rsatgan: *sintaktik – intonatsiya – ohangdorlik.* She'riy matnning strukturaviy tahlili yuzasidan izlanishlar olib borgan Y.Lotman ritmni she'rning strukturaviy asosi sifatida belgilaydi [Lotman, 1972: 52]. Ko'rinadiki, she'r tuzilishida ritm eng muhim elementdir.

Ritm vaznning hosil bo'lishiga zamin yaratgan. Chunki vazn musiqa ritmiga tayangan holda paydo bo'lgan. U.To'ychiyev ritmning umumiy qonunlari asosan uchta – biron me'yorga asoslanish, takrorlanish va uni eshitish mumkinligi haqida fikr bildirib, takror bo'g'inlarda, qofiyalanish

tartibida, bandda, so‘z va misrada bo‘lishi hamda ritmni hosil qilishda qatnashuvchi bu omillarni bog‘lovchi vosita vazn ekanligi haqida fikr bildirgan [To‘ychiyev, 1985: 211]. Demak, “ritm she’r sistemalari va ularga mansub bo‘lgan vaznlarga bog‘liq ravishda uyushtiriladi” [To‘ychiyev, 1985: 213]. Shuningdek, vazn ritmning barqarorlashgan ko‘rinishidir.

Ritm barmoq she’r tizimida Abdulla Oripov qalamiga mansub “Yulduz qazosi” she’rida bo‘g‘in, turoq, misra va bandning ritmik bo‘lak sifatidagi ahamiyati orqali kuzatiladi:

Qazo qildi / ko‘kda bir yulduz, 4+5
Koinotda / aza ochildi. 4+5
Uzoq-yaqin / dunyolarning o‘z – 4+5
Ta’ziya / toshlari sochildi. 3+6

She’rning ritmik qurilishi to‘rtlik band tizimiga ega bo‘lgan va 9 bo‘g‘inga asoslangandir. Turoqlanish tartibining 4+5 tarzidagi izchil takrori she’r davomida kuzatiladi. Shoir she’rda “ko‘kda bir yulduzning qazo qilishi”ni qatag‘on qurboniga uchragan ma’rifatparvar ziyolilarimiz qismatiga mengzaydi. Adabiyot osmonidagi har bir yulduzning “qazo”si, so‘nib borishi millatimiz taqdiridagi eng fojeali yo‘qotish edi. She’rning keyingi bandlarida yo‘qotish azobidan alamli o‘rtanayotgan Quyosh, Oy va Zuhra yulduz timsolidagi xalqimizning ruhiyat manzaralari tasvirlangan:

Qora kiydi bir nafas quyosh, 4+5
Mung‘aygancha Oy qaltiradi. 4+5
Zuhra yulduz berolmay bardosh 4+5
Ko‘zlarida yosh yaltiradi. 4+5

Ma’lumki, evfoniya tufayli she’riy ritm izchillashadi, poetik fikr jarangdor ifodalanadi va uning emotsional ta’siri kuchayadi [Xotamov, 1979: 348]. Evfoniyani hosil qiluvchi vositalar qofiya, alliteratsiya, tovush takrorlari va assonans kabilardir. Shunday ekan, she’rdagi ***o, i, a, u, o‘*** unli tovushlar takroridan hosil bo‘lgan vokal alliteratsiya hodisasi she’riy asar ohangdorligini ta’minlagan:

1) o-a-i-u
2) u-a-o-i
3) u-e-a-o
4) o‘-a-i-i

Mazkur unli tovushlar uyg‘unligi og‘riq, ingroq, alam, o‘kinch, faryod, mungni ifodalayotgandek tuyuladi. She’rdagi ***z, k, d, b, r, sh*** undosh tovushlari takroridan konsonant alliteratsiya hodisasi yuzaga kelganligini kuzatamiz. She’rning birinchi va ikkinchi bandi boshlanishidagi “*qazo*” va “*qora*” so‘zlarida ham ***q*** chuqur til orqa undoshining takrori ohangdorlikni hosil qilgan. Shoir she’rning yakunlovchi bandida o‘quvchi ko‘z o‘ngida kartina yaratadi: “*Ular kimga dillarin yorar// Cheksiz zulmat o‘ng-u so‘lida.// Tobutni jim ko‘tarib borar// G‘uj bo‘lgancha Somon yo‘lida...//*”

She’rning ritmik qurilishida ritmik vositalar (ritmik pauza, qofiya) muhim bo‘lib, ular she’r ritmining ta’kidlanishi, kuchaytirilishiga xizmat qiladi. Shunday ekan, yuqoridagi she’rning qofiya tizimini tekshirish ritm va ohangdorlikning uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi. She’ring qofiya tizimi ***a-b-a-b*** shaklidagi “*yulduz-o‘z, ochildi-sochildi”, “quyosh-bardosh, qaltiradi-yaltiradi”, “yorar-borar, so‘lida-yo‘lida*” qofiyadosh so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, barchasi to‘q qofiyadir. She’rning ritmik-intonatsion qurilishida bandlarning ahamiyati katta bo‘lganidek, bandlarni ham uyushtirishda qofiya alohida ritmik vosita sifatida maydonga kelgan. Shu o‘rinda V.Jirmunskiyning nazariy qarashlarini keltirish joiz: “Qofiya she’riy kompozitsiyada tashkiliy funksiyaga ega bo‘lgan tovush takroridir. U yuqori sifatli tovush elementlarini badiiy tartiblashni nazarda tutadi. Qofiya uchun tovushlarni tanlash, ayniqsa, ta’kidlangan unlilarni tanlash, bandni tuzishda muhim omil hisoblanadi”.

Abdulla Oripovning ijroviy lirikaga mansub “Hamza nidosi” g‘azalida qisqa va cho‘ziq hijolarning izchil takrori kuzatiladi:

Hamzadirman, boqmagaysiz
Siz malomatlar bilan,
Baytlar aytdim el-u yurtga
Men ibodatlar bilan.

Mazkur g‘azalda “*malomat, ibodat, farog‘at, toqat, falokat, kasofat, soat, jaholat, saodat*” qofiyadosh so‘zlaridagi “t” undoshi raviy. Agar she’rga e’tibor berilsa, “mal**o**mat, ib**o**dat, far**o**g‘at, t**o**qat, fal**o**kat, kas**o**fat, s**o**at, jah**o**lat, sa**o**dat” qofiyadosh so‘zlari tarkibida “**o**” cho‘ziq unlisi takroridan lirik qahramon qalbidagi og‘riqlar, ohlar, avlodlarni ogohlikka chorlovlar ohangi aks etgandek tuyuladi. Bu esa she’rning ohangdorligini ta’minlash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, ichki qofiya qo‘llanilgan bo‘lib, lirik asar ohangdorligini oshirishga xizmat qilgan:

Naylayinki, gullaganda
***Ko‘z** yumib ketdim abad,*
*O‘tdi umrim **yuz** ko‘rishmay*
Ne farog‘atlar bilan.

Misralardagi “*ko‘z-yuz*” so‘zlari ohangdosh bo‘lib, ichki qofiyani hosil qilgan. G‘azalda “men” kishilik olmoshi 6 marta takrorlanadi va bu so‘z takrori ham ohangdorlikni oshirishga xizmat qiladi. Demak, hijo, qofiya, bayt kabi ritmik bo‘laklar hamda ohangdorlikni yuzaga chiqaruvchi evfonik vositalar, so‘z takrorlari she’rning ritmik qurilishida muhim ahamiyatga ega. Yoki shoirning “Uchar qushlar” she’rida ritmik vositalar asosida she’r ritmining ta’kidlanishi, kuchaytirilishini kuzatish mumkin:

Uchar qushlar,/ uchdi-ketdi, 4+4
Qo‘llarimda / pati qoldi. 4+4
Yoshlik ketdi,/ umrning ham 4+4
Sharti ketib,/ parti qoldi. 4+4
Dema, bukun / sevgining ham 4+4
O‘zi ketib,/ oti qoldi. 4+4
Lablarimda / u bo‘saning 4+4
Hech aynimas / toti qoldi... 4+4

She’rga e’tibor qaratilsa, 8 bo‘g‘inli 4+4 turoqlanish asosidagi turoq, misra, band – ritmik bo‘laklar ritmik pauza bilan ajratilgan. Ayniqsa, bandlar so‘ngidagi ritmik pauza ritmik-intonatsion jihatdan tugallik ifodalagan. She’rdagi “*pati-parti”, “oti-toti*” qofiyadosh so‘zlari hamda “*Sharti ketib, parti qoldi*” misrasidagi ichki qofiya ritmik vosita bo‘lib, she’r ritmining ham ta’kidlanishiga, ham kuchaytirilishiga xizmat qilgan. She’rda “*uchar-uchdi*”, “*ketdi, ketib”* fe’llari takrori hamda “*qoldi*” fe’lining radif tarzida qo‘llanishi ohangdorlikni yuzaga chiqargan. She’r davomida 23 bora “**i**” unlisining takrorlanishi, ayniqsa, qofiyadosh so‘zlar oxirida ta’kidlanishi, birinchi misra oxiri “*uchdi-ketdi*” tarzida yakunlanishi, she’rning oxirgi misrasi ham “i” unlisi va (*qoldi...*) ko‘p nuqta tinish belgisi bilan tugashi lirik “men”ning umr o‘tkinchiligi haqidagi falsafiy fikrlari bilan uyg‘unlikda ifodalangan.

Erkin Vohidovning “Mening yorim” she’ri ritmik qurilishi ham o‘ziga xos tarzda ifodalangan. She’rdagi ***-kina*** ayiruv yuklamasining qofiyadosh so‘zlarga qo‘shilib kelishi ohangdorlikni ham yuzaga chiqarishda xizmat qilgan:

Mening yorim / kichkina, / yo‘qdekkina, 4+3+4
To‘pponchadan / otilgan / o‘qdekkina. 4+3+4
Totli so‘zin / eshitib / ertalabdan 4+3+4
Kechga qadar / yuramiz / to‘qdekkina 4+3+4

She’rning ritmik qurilishi 4+3+4 tarzidagi turoqlanishga ega bo‘lib, 11 bo‘g‘inga asoslangandir. She’rning ritmik-intonatsion jihatdan o‘ziga xos qurilishida har bir banddagi qofiyadosh so‘zlar

-kina ayiruv yuklamasining qo‘shilishi orqali hosil bo‘lgan va bu she’r ohangdorligini ta’minlagan. Bular “*yo‘qdekkina-o‘qdekkina-to‘qdekkina, xoldekkina-boldekkina-choldekkina, mo‘rdakkina-zo‘rdakkina-o‘rdakkina, qushdekkina-xushdekkina-dushdekkina, qizdekkina-bizdekkina-muzdekkina*” qofiyadosh so‘zlaridir. Mazkur qofiyadosh so‘zlarning barchasi to‘q qofiya bo‘lib, she’r ***a-a-b-a*** tarzida qofiyalangan. Har bir banddagi misra boshida takrorlanib kelgan “Mening yorim” birikmasi orqali esa anaforik kompozitsiya hosil qilingan. Ma’lumki, anafora bir xil so‘z yoki so‘zlarning she’riy misralar boshida takrorlanib kelishiga asoslangan stilistik figuradir. Lirik qahramon yorini “kichkina, qoracha, ingichka, sayroqi qushdekkina, kampir-u-qizdekkina” deya tavsiflar ekan, kitobxon ko‘z o‘ngida gavdalantirishga erishadi. “Qofiyaning ikkita belgisi bor, birinchi belgisi ritmni tashkil qilishdir, ikkinchi belgisi esa ohangdoshlik yaratish” [Tomashevskiy, 1959: 406]. Shunday ekan, qofiya ohangdoshlik va ritmni yuzaga keltirish orqali musiqiylikni ta’minlaydi.

Halima Xudoyberdiyevaning qo‘shma vaznda yozilgan quyidagi she’rida ritmik bo‘laklar ohangdorlik bilan uyg‘unlashib, she’riy nutqning emotsionalligini oshirishga xizmat qilgan:

Kim yog‘adur, 4=4
Kim tindi, /Vatan, 3+2=5
Kim xor-u/ kim sevindi, /Vatan? 3+4+2=9
Biz yomg‘irday 4=4
Yoqqandik / kecha, 3+2=5
Yerlaringda/ ne undi,/ Vatan?! 4+3+2=9

She’rda 4, 5 va 9 bo‘g‘inli turoqlanishning izchil takrori ritmik-intonatsion jihatdan musiqiylikni oshirishga xizmat qilgan. Shoir vatanparvarlik g‘oyalari ifodalangan mazkur she’rda “*Vatan*” so‘zining undalma sifatidagi takroridan ham poetik g‘oyasini ifodalashga, ham she’r ohangdorligini oshirishga erishgan. She’rda “*kim*” so‘roq olmoshi va “*Biz*” kishilik olmoshlarini qo‘llash orqali butun xalq qiyofasini gavdalantirgan. So‘zlarni misralarga joylashtirishda ham shoiraning badiiy mahorati namoyon bo‘lgan. V.Mayakovskiyning ta’biri bilan aytganda “Ritm – misraning asosiy kuchi, asosiy energiyasi”.

Hozirgi lirikamizda turli band tizimlaridan foydalanib, she’rning g‘oyaviy-estetik va badiiy ta’sirchanligini ta’minlash borasida ham ijodkorlarimiz badiiy ta’sirchanlikda band tizimlari xilma-xilligini ta’minlash borasidagi uslubiy izlanishlarini amalga oshirmoqdalar. Masalan, Azam O‘ktamning “Kuzda kulgan chechaklar” to‘plamidagi she’rlarida turli band tizimlaridan foydalanganligini ko‘ramiz. Jumladan, “Tilak”, “O‘ttiz yettinchi yil she’ri”, “Ishqing dil dastini...” kabi she’rlarida ikkilik, “Mehring – menga chiroq” she’rida uchlik, “Qo‘qon shamoli”, “Kuzatish”, “Kuz. Ko‘roydin. Jim o‘tiribman...”, “Mashq maydonidagi o‘ylar”, “Manzara”, “Xosiyatmomo armoni”, “Qishlog‘im ta’rifi” she’rlarida to‘rtlik hamda “Adashding”, “Yupanch”, “Nima deyishni ham bilmayman...”, “Kimdir chorlayotir” kabi she’rlarida turli band tizimlarni qo‘llab, lirik janrlar imkoniyatlaridan keng foydalanayotganligini uchratamiz. Hozirgi she’riyatimizga xos jihatlardan biri – mazmun talabi bilan bir she’rda turli xil band tizimlaridan foydalanib, band tuzilishida, poetik sintaksisda, ritmik-intonatsiyada yangicha usullarni izlash, shu yo‘l bilan fikrning ta’sirchan ifodasiga erishishdir. Ayni shu holatni A’zam O‘ktamning “Adashding” she’rida astrofik band tizimlarini qo‘llash orqali poetik g‘oya kompozitsiya markazini tashkil etganligini kuzatamiz. Adabiyotshunoslik lug‘atlaridan ma’lumki, she’r bandlaridagi misralar soni turlicha bo‘lgan she’rlar astrofik she’rlar deyiladi. “Mumtoz she’riyatda izometriyaga, jumladan, she’riy asarda bandlarning bir xil (misra soni, o‘lchovi, qofiyalanish tartibi) bo‘lishiga qat’iy amal qilingan bo‘lsa, keyingi davr she’riyatida (G‘arbda romantizm davridan, o‘zbek she’riyatida XX asrdan) bu qoidadan chekinish odatiy holga aylandi. Natijada astrofik (bandlaridagi misralar soni turlicha) she’rlar, getrometrik (o‘lchovi turlicha misralardan tarkib topgan bandli) she’rlar ham ommalashdi”[27]. Demak,

[27] Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б.62.

zamonaviy she'riyatga xos jihatlardan biri – mazmun talabi bilan bir she'rda turli xil band tizimlaridan foydalanib, band tuzilishida, poetik sintaksisda, ritmik-intonatsiyada yangicha usullarni izlash, shu yo'l bilan fikrning ta'sirchan ifodasiga erishishdir. A'zam O'ktamning "Adashding" astrofik she'rida she'r ritmik qurilishi to'qqiz satrli band tizimidan ikki satrli band tizimigacha aralash holda qo'llanilib, jamiyatimizdagi shaxslarning ma'naviy fojeasi ifodalangan:

Jim qoldim /insonga /hurmatim bois,
Do'st emas, /dushmanning /ishini qilding:
"Go'l bo'lmasa, /Farg'onaning xalqi,
Qo'lda kanal /qazadimi" /deb kulding.
Indamadim./
Birdan /o'zimning ham
ichim achib ketdi /bechoralarga.
Kulgi bo'laylik deb /ishlashmagan-ku,
Bilmaysanmi /g'o'za bilan /suv qadrini?[28]

She'rda qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini sug'orishda asosiy o'rin tutuvchi Katta Farg'ona kanalining qurilishi bilan bog'liq voqealarga, xalqimiz matonatiga bepisand qarab, kulgi ostiga olgan shaxs qiyofasi fosh qilingan. Ma'lumki, 1939-yilning avgust oyidan boshlab 45 kun davomida xalq xashar yo'li bilan bunyod etgan Katta Farg'ona kanali 270 kilometr uzunlikni tashkil etadi. Bu kanalning qurilishi ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda muhim ahamiyatga ega. Shoir esa oramizda yaqin o'tmishimizni, ma'naviy qadriyatlarimizni, eng asosiysi, o'zligini unutayotgan insonlar borligidan o'kinadi. She'rning keyingi distix bandida lirik qahramon "kir so'zlari bilan" o'zi ichib turgan suvni loyqalatayotgan, hayot manbai bo'lgan suvning qadriga yetmaydigan tuban, oqibatsiz kimsalarga qarata quyidagi satrlarni bitgan:

Ichib yuribsan-ku/ shu suvni/ sen ham,
loyqalatma uni/ kir so'zlar bilan.

Shoir "suvni loyqalatish" orqali xalqimizning o'tmishini "loyqalatayotgan"larga "*Seniki uzrli – bo'lsang ko'r-u kar*" deya istehzoli xulosa qiladi. She'rni band tuzilishiga ko'ra shartli ravishda besh qismga ajratish mumkin. Dastlabki nona (to'qqizlik) bandni voqealar boshlanmasi, ikkinchi beshlik bandni tezis, uchinchi distix va to'rtinchi terset bandni antitezis, oxirgi nona (to'qqizlik) bandni xulosa deb atash mumkin.

So'nggi nona band:
Kel, /so'kib o'tirmayin/ seni,
o'zimnikisan, /baribir /o'zimnikisan.
Kayfi oshdi, /deya qolaman,
bir adashdi, /deya qolay, /yaxshisi.
Baribir /ko'nglim g'ash
go'yo xotinim
tashlab yuborgandek /beparvo,
chiqindiga qo'shib,
otamning rasmin...

tarzdagi xulosa bilan yakunlanadi. Bandda lirik qahramon "O'zimnikisan, baribir o'zimnikisan" deya millatdoshining ayanchli ahvolidan qayg'uradi. Uni "adashgan"likka yo'yadi. O'zligini tobora tubanlashib borayotgan o'zgaga qarshi qo'yadi. She'rda ota-bobolarining hayoti, o'tmishi, avlodlarga qoldirgan merosiga loqayd, o'zligini unutgan vatandoshining so'zlaridan qalbi yaralangan shaxs kechinmalari ifodalanadi. She'rning g'oyaviy-estetik ta'sirchanligi to'rtinchi va beshinchi

[28] Аъзам Ўктам. Кузда кулган чечаклар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б.5.

bandlarda o‘z ifodasini topadi. Bundan tashqari, shoir poetik g‘oyasini ifodalashda hamda she’rning ohangdorligini oshirishda “i” va “o” tovushlari takroridan foydalangan. She’rdagi “i” tovushi ingrayotgan, “o” tovushi esa oh urayotgan lirik qahramonning mungli qiyofasini ifodalayotgandek bo‘ladi. Ko‘rinadiki, bandlardagi ***i, o*** tovushlari takroridan hosil bo‘lgan o‘ziga xos ritmika, mazmundagi g‘oya she’rning ta’sirchanligini ta’min etgan.

Xulosa shuki, she’r ritmi ritmik bo‘laklar va ritmik vositalar asosida musiqiylik va ohangdorlikni, emotsionallikni yuzaga keltiradi. She’riy nutqning o‘quvchi qalbiga yetib borishida ritm, qofiya, tovushlar jilosi she’rdagi fikr va tuyg‘u bilan uyg‘unlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Медведев В. Изучение лирики в школе. – М.: Просвешение, 1985. – С.58.
2. Литература древнего Востока. – М.: Издательство МГУ, 1984. – С.18.
3. Лотман Ю. Анализ поэтического текста. Структура стиха. – Л.: Просвещение, 1972. – С.52.
4. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Т.: Фан, 1985. – Б.211.
5. Орипов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б.156.
6. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б.348.
7. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Иккинчи жилд. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б.321.
8. Воҳидов Э. Тўла асарлар тўплами. 3-жилд. – Т.: Sharq, 2016. – Б.268.
9. Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Л.: Гос.Учебно-педагогического издательство, 1959. – С.406.
10. Худойбердиева Ҳ. Йўлдадирман. – Т.: Шарқ, 2006. – Б.312.
11. Маяковский В. Как делать стихи. – М.: Директ-Медиа, 2009. – С.27.

G‘AFUR G‘ULOM SHE’RIYATIDA VATAN TAQDIRI VA ISTIQBOLI TASVIRI

Matyoqubova Tozagul Rajapovna,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
e-mail: tozagulmatyakubova71@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada G‘afur G‘ulom she’riyatidagi vatanparvarlik tuyg‘ulari tahlil etilgan. G‘afur G‘ulom lirikasidagi ko‘plab she’rlarida inson obrazi tabiatga qiyosan tasvirlanadi. Shuning uchun ham shoir lirik qahramoni qish mavsumida ham shahar osmonida firuza rang tiniqlik va shaffoflikni ko‘ra oladi. Shoir lirik qahramoni qalban baland inson bo‘lib, uning botinida yuksak tog‘larimiz salobati, shalolalar qudrati va daryolarimiz jo‘shqinligini jipslashtira olgan.

Unda shoir lirikasidagi vatanimizning ko‘rki-jamoli, betakror tabiati, tabiiy boyliklari aks ettirilgan she’rlari tahlil etilgan. Bu esa bizga G‘afur G‘ulom she’riy merosida Vatanimiz tarixi, buguni va kelajagi bir-biri bilan bog‘liq holda tasvirlanganini anglash imkonini beradi. Ilgari surilgan fikr-mulohazalar tadqiqotchi tomonidan muxtasar holda umumlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: *she’riyat, badiiy ijod, vatanparvarlik, badiiylik, milliy g‘urur, lirik qahramon, bayt, she’r, tuyg‘u va kechinma.*

Abstract

This article explores patriotic sentiments in Ghulam poetry. n many of G. Gulam’s lyrical poems, the image of man is written in the image of nature. That is why the lyrical hero-poet sees the turquoise purity and transparency of the city sky even in winter. The poet’s lyrical hero was a man of noble character, who managed to embody in his soul the grandeur of our high mountains, the power of waterfalls and the dynamism of our river.

It analyzes the poet’s poems in his lyrics, which reflect the splendor, unique nature, and natural resources of our Homeland. This gives us an assessment in their poetic heritage, Ghulam gives us the opportunity to realize that the history, present and future of our homeland are described in connection with each other. The previous comments have been briefly summarized by the researcher.

Keywords: *poetry, artistic creativity, patriotism, artistry, national pride, lyrical hero, verse, poetry, feeling and forgiveness.*

G‘afur G‘ulom XX asr o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biridir. Uning she’riyati o‘ziga xos noyob hodisa. O‘tgan asrning dolg‘ali kunlarida ham shoir yuksak badiiy iste’dodi tufayli betakror ijod namunalarini yarata olgan.

Mashhur rus tanqidchisi V. Belinskiy she’riyat haqida so‘z yuritib shunday deydi: “Poeziya hayot ifodasidir yoki yanada to‘g‘rirog‘i, hayotning o‘zidir. Bugina emas, poeziyada hayot chinakam voqelikdan ko‘ra hayotiyroq namoyon bo‘ladi” [Belinskiy, 1977:99].

G‘afur G‘ulom she’riyatida haqqoniylik va insonparvarlikning chuqurlashuvi, badiiylikning yangi-yangi imkoniyatlarini izlab topish va qo‘llash kuzatiladi. U Vatan taqdiri va istiqboli uchun qayg‘uruvchi, el-yurt va millat dardiga o‘zini hamdard deb biluvchi shoir edi. Shuning uchun ham shoir she’riyatida yuksak vatanparvarlik tuyg‘ulari tasviriga alohida ahamiyat qaratiladi. Shoir lirikasida vatanimizning ko‘rki-jamoli, betakror tabiati, tabiiy boyliklari aks ettirilar ekan, uning zahmatkash insonlari orzu-armonlari tasvirlanadi. Vatanimiz tarixi, buguni va kelajagi bir-biri bilan bog‘liq holda aks ettiriladi.

Filologiya fanlari doktori J. Jumaboyeva G‘. G‘ulomning tarixga munosabati haqida to‘xtalar ekan: “G‘afur G‘ulomga nisbatan shoir-tarixchi deyish ham, tarixchi-shoir iqtibosini qo‘llash ham o‘zini teppa-teng oqlaydi. U “Tarixchi bo‘lmasdan ulkan shoir bo‘lish qiyin”, – degan fikrlarning haqiqatligini isbotlagan ijodkorlardandir” [Jumaboyeva, 1999:20], – deb yozadi.

G‘afur G‘ulom ona shahri Toshkent ta’rifiga bag‘ishlab bir qator she’rlar yozgan. Ular orasida

shoirning 1934-yilda yozilgan “Toshkent” nomli she’ri alohida ajralib turadi. Dastlab “Yurtim” nomi bilan e’lon qilingan ushbu she’r G‘afur G‘ulom “Mukammal asarlar to‘plami”ning 1-jildi [G‘afur G‘ulom, 1983:126]dan o‘rin olgan.

Ushbu she’rda shoir Toshkentning tip-tiniq osmonida ertadan kechgacha tinmaydigan shabada, bu azim shaharning suvi, mevalarini ta’riflaydi. Ana shunday yurtda yashayotganidan cheksiz g‘urur-iftixor tuyadi. “Uzoq Hind, Xitoyda yurt kechgan quyosh, Toshkent osmonida hordiq oladi” yoki “Beqasam jiloli shu buyuk fazo, Rangini, to‘g‘risi, Toshkentdan olar” singari misralarda betakror poetik topilmalar bilan birgalikda shoirning yuksak vatanparvarlik tuyg‘ulari aks ettirilgan.

G‘afur G‘ulom Toshkentda tug‘ilib o‘sdi. Shu azim shaharda tahsil oldi, yashadi va ijod qildi. Toshkentning har qarich yeri, adir hamda irmoqlari G‘afur G‘ulom uchun g‘oyatda aziz va qadrdon edi. Zotan, tarixiy-adabiy ma’lumotlarga ko‘ra, Toshkent shahri tarixi ikki ming yillikdan ortiq moziyga tutash bo‘lib, Xoja Ahror Valiy, Shayx Umar Bog‘istoniy, Abu Bakr Shoshiy, Abu Sulaymon Banokatiy, Hofiz Ko‘hakiy kabi ulug‘ allomalar ham shu maskanda yashab, ijod etishgan. G‘.G‘ulomning she’rlarida shaharning so‘lim tabiat manzaralariga xos go‘zallik muhabbat va samimiyat bilan ifoda etilgan. Shoir mehnatkash va saxovatli Toshkent dehqonlarini hamisha tiniq va yorqin ranglarda ko‘radi:

Toshkent paxtakorin ochiq chehrasi.
Salor suvlaridek tiniq, yarqiroq [G‘afur G‘ulom, 1983:214].

Tanishganimizdek, G‘afur G‘ulom inson obrazini tabiatga qiyosan ochishda o‘xshatishdan unumli foydalangan. Yana bir o‘rinda esa, shoir har bir nafasni qadrlash an’anasini saqlagan holda, qish mavsumi bo‘lishiga qaramasdan, shahar osmonida firuza rang tiniqlik va shaffoflikni ko‘rib mislsiz hayrat tuyadi. Demak, go‘zallikni qadrlash, yurt jamolidan ko‘rkamlik axtarish shoir tabiatiga xos muhim fazilat edi.

G‘afur G‘ulom bir o‘rinda qish mavsumida ham shahar osmonida firuzarang tiniqlik va shaffoflikni ko‘rib mislsiz hayrat tuyadi.

Ko‘m-ko‘k tiniq osmon
Dekabr oyida ham,
Har nafasi bir jahon
*Toshkent munchalar ko‘rkam! [*G‘afur G‘ulom, 1983:285*].*

Demak, go‘zallikni qadrlash, yurt jamolidan ko‘rkamlik axtarish shoir tabiatiga xos muhim fazilatlar bo‘lib, ularning shakllanishi va kamol topishida u tug‘ilib o‘sgan yurtning shu mo‘jaz go‘shasi, tarixi, tabiati va bag‘rikeng, fidoyi odamlariga bo‘lgan mehr-u ixlos muhim rol o‘ynagan.

G‘afur G‘ulom *“O‘shning etagidan Xorazmgacha, / Termizdan Bo‘stonliq soyiga qadar”* cho‘zilgan jonajon Vatan haqida gapirganida:

Iqlimin, boyligin, ko‘rkin – savlatin,
Alishgim kelmaydi butun jahonga [G‘afur G‘ulom, 1983: 205],

deb yozadi. Ko‘rinadiki, shoir yurtimizning iqlimi, yer osti va yer usti boyliklarigina emas, tarixan olamni lol qoldirgan ko‘rk-u savlatidan ham cheksiz g‘urur tuygan. Ayniqsa, bunyodkor xalqqa bo‘lgan mehrini iftixor bilan bayon etgan:

Bizning ipaklardan olam kiyinar,
Yana zebolanur qizlar jamoli.
Rangidan ko‘z quvnar, dillar suyunar,
Arab surmasi-yu, hinduning xoli [G‘afur G‘ulom, 1983:206].

Shoir o‘zbek ipagi ulug‘ e’tibori haqida so‘zlarkan, olamni ipakka burkagan elning go‘zallik yaratuvchisi ekanini, cho‘g‘day atlas kiygach, yanada chiroy ochgan barno qizlar misolida ko‘rsatadi. Ko‘zga quvonch, dilga suyunch bag‘ishlagan ranglar jilosi qoshida nainki arab surmasi, balki hinduning xoli ham ip esholmay qoladi. Albatta, shoir bu o‘rinda mubolag‘aning *tablig‘* turini

qo‘llagani uchun tasvirni birqadar bo‘rttirib ifodalagan.

Muhimi shundaki, o‘zbek ipagi belgi-sifati har qancha orttirilgan va bo‘rttirilgan bo‘lishiga qaramasdan, yuqoridagi tasvir inson tasavvuridan yiroq ham, uning aqli ishonmaydigan darajada mubolag‘ador ham emas. Shoir aksariyat she’rlarida millatning ittifoq xazinasiga tog‘day yuksak, qorday beg‘ubor paxta xirmoni-yu olamni kiyintirgulik pilla yetkazib berayotganini bejiz ta’kidlamaydi. Jumladan, so‘z yuritilayotgan she’rda G‘.G‘ulom:

Oltindan, urandan, qo‘rg‘oshingacha,
Mevalar, qorako‘l, ipak sarbasar.
Barisi-barisi Vatanimda bor,
Vatanim dunyoning xazinasidir [G‘afur G‘ulom, 1983:206],

deb yozadi. Binobarin, shoir bunday jannatmakon yurtni jahonning biror maskaniga almashish mumkin emasligini teran anglaydi. G‘afur G‘ulom mehnat odami har jabhada qadr topishini tilarkan, o‘zini ular yonidan bir nafas jilmaslik, har biri qalbi-yu shuuriga yetib borgulik biror mujda, iliq so‘z aytishga burchli deb biladi. Bu qutlug‘ amalni bajara olgan kezlarida esa, o‘zini g‘oyat baxtiyor sezadi.

Adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshev ta’biri bilan aytganda: «*...asl iste’dodning qudrati shundaki, u har qanday to‘siqni yengib o‘tib, zamon kishisi ruhiyati qirralarini jilolantira oladi*» [Yo‘ldoshev, 2006 :189]. Ayni paytda, shoir ong osti tuyg‘ular dunyosida yurtimizdan tashib ketilayotgan bebaho boyliklar butun ko‘lami bilan aks etganini ilg‘ash ham qiyin emas. Shoir *“gap tagida – gap, kosa tagida – nim kosa”* qo‘yib gapirgan bo‘lishi ham ehtimoldan yiroq emas. Har holda, o‘sha davr ijtimoiy me’yorlari talabiga ochiq-oydin qarshi chiqolmagan, o‘z ichki mayllarini oshkor etolmagan G‘afur G‘ulom Vatan boyliklarini birma-bir sanash, har biriga alohida urg‘u berib, individ sifatidagi subyektiv borlig‘i – tasavvurlar olamini ham oshkor etgan.

Shoirning peyzaj lirikasida vatanparvarlik tuyg‘ulari o‘ziga xos tarzda aks ettirilgan. Bunda u poetik timsol va ramzlar orqali o‘ziga xos tasvirlar yaratgan.

O‘rta ko‘klam tongi bu, kunlar qiyomga yetib,
Rasta bo‘lgan yigitday ovozlari do‘rillar.
Endigina g‘unchadan g‘unchaga hatlab o‘tib,
Muhabbat notasini yodlar jo‘ja bulbullar [G‘afur G‘ulom, 1983:270].

G‘unchadan-g‘unchaga hatlab sayrayotgan bulbullar navosi va ularga ergashib muhabbat notasini o‘rganishga shaylangan jo‘ja bulbullar qo‘shig‘i inson ko‘nglida hayotning qadri haqida mahzun o‘ylar uyg‘otadi. Zotan, she’rda kun peshinga og‘ayotgan vaqt tanlangani bejiz emas. Bu bilan shoir ramziy ma’noda ikki avlod almashinadigan davrni nazarda tutgan.

Binobarin, *bulbul – jo‘ja; gul – g‘uncha; ota – farzand* tomonidan inkor etiladi. Vorislikka asoslanuvchi ushbu inkorni-inkor qonunida tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining mohiyati aks etgan. Borliq va jamiyatdagi rivojlanish-u yangilanish eskining zamirida paydo bo‘lib, nisbatan yuqori bosqich sifatida barqarorlashadi. Shoir ana shu ikkinchi inkor (jo‘ja – bulbul) orqali taraqqiyotning tabiatiga xos uzluksizlikni nazarda tutgan. Bulbul va palaponning g‘uncha-yu gulga bo‘lgan mehri orqali inson Vatanni qanday sevishi lozimligining tabiiy asoslari ko‘rsatilgan. Ibratangiz bu qiyosda jo‘ja bulbul tovushining balog‘atga yetgan yigitning ovoziga o‘xshatilishidan anglashiladiki, bog‘bon – otaning yurtga muhabbati farzandlar orqali uzluksiz davom etadi. Vositali tarzda uqtirilayotgan hikmat mazmuni yosh avlodga qaratilgan. Demak, lirik qahramon ma’naviy olamidagi mamnuniyat hissi kitobxon ruhiyatiga ko‘chishi ko‘zda tutilgan.

G‘.G‘ulomning “Gulxona” nomli she’ri lirik qahramoni vatanning gilamday kichik bir bo‘lagini maxsus ajratib, o‘sha joyda mazmunan go‘zal maskan yaratish ishtiyoqida. Zotan, u insonning har bir nafasi shirin hayot bo‘stoni, gul-u gulzor ichida kechishini tilaydi.

G‘afur G‘ulom “dostoncha”, ya’ni ko‘lamdor adabiy meros qoldirayotganini yaxshi anglagan. Bitiklari Sirdaryoday to‘liq va toshqin, o‘zani teran ekaniga shubha qilmagan. Xalq dostonlari

og‘izdan-og‘izga o‘tib, kelajak nasllarga, daryo suvi uzoq yo‘l bosib olis sarhadlarga yetib borgani singari asarlarining barhayot qolishiga umid bog‘lagan.

Ufqim doirasidan dostoncha gullar terib,
Qachondir ushbu she’rim Sirdaryoday oqolsa.
Vatanim tuprog‘ining mag‘zi-mag‘zida erib,
Qatra-qatralaridan xalqimiz gul taqolsa [G‘afur G‘ulom, 1983: 271].

Ma’lumki, ufq – ko‘z ilg‘agan uzoqlikda samo bilan yerning tutashganday bo‘lib ko‘rinuvchi chizig‘i. Inson umrining ufqi ham hayot va o‘lim chegarasida tutashsa ajab emas. Ehtimol, shuning uchun badiiy adabiyotda ufq tasviriga murojaat etilsa, umr shomi yoki istiqbol tongi ma’nosiga ishora qilinadi.

Ta’kidlash o‘rinliki, G‘afur G‘ulom ijodiy prinsiplarida umrining har onini davr mazmuniga hamnafas qilish, ya’ni: *“Zamonning mazmunini ishqiy vaznga solmak”* tamoyili yetakchilik qilgan [G‘afur G‘ulom, 1983:288]. Shuning uchun shoir lirik merosining o‘z davrida qaynoq va otashin bo‘lib tuyulgan, ammo bugungi kunda zamonasozlik tufayli yaratilgani ayon ko‘rinuvchi kattagina qismi vaqt sinovlariga bardosh berolmadi.

Hamma ko‘rganimdan yaxlit xulosa:
Tuqqan Vatan ekan – jahonda go‘zal! [G‘afur G‘ulom, 1983: 329]

Shoir lirik qahramoni uchun Vodilning sharqiroq suvlariga betini yuvib, Farg‘onaning zumrad havolaridan yutoqib nafas olgan damlardan baxtiyorroq lahzalar yo‘q.

G‘afur G‘ulom lirikasi – xalqchil she’riyat. U inson umri mazmunini uning Vatan ravnaqiga qo‘shgan hissasi miqdori bilan o‘lchaydi. Orzu-havasni tilakka, tilakni esa real hayotga aylantirmoq elning ulug‘vor maqsad sari yakdil harakatiga bog‘liq, deb biladi:

Mangulik bo‘y-bastiga yarashiq xalqimiz bor,
Biror poydevor qursa ertasini o‘ylaydi.
Mehnatining yakuni maqsadiday ulug‘vor,
Ko‘chat eksa qurimas, chechaklarni bo‘ylaydi [G‘afur G‘ulom, 1983: 330].

Ko‘rinadiki, shoir zahmatkash elning ertani ko‘zlab qiladigan har bir harakatida ulug‘vorlik mujassam deb biladi. Chunki butun olam doimiy harakat va o‘zgarishlar og‘ushida, harakat esa, eng avvalo, o‘zgarishdir.

Shoir lirik qahramoni qalban baland himmatli inson. Uning dilida yuksak tog‘larimiz salobati, archazorlarimiz vazminligi, o‘ngirlarimizdan o‘kirib oquvchi shalolalar qudrati va Amu, Sir, Zarafshon, Surxon singari ayqin (toshqin) daryolarimiz jo‘shqinligi jipslashgan. Shuning uchun uning tiyran nigohi bugunning ko‘zgusida istiqbol jilvasini ko‘rishga qodir.

Xalqim bilan hamnafas shuncha bahor o‘tkazdim,
Endigi ijodning ham chashmasi el himmati [G‘afur G‘ulom, 1983:330].

Demak, G‘afur G‘ulom bitiklarida Vatan va xalq tushunchalari ajralmas monolit birlik sifatida poetik idrok etiladi.

Umuman, shoir vatanparvarlik g‘oyalarini milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari bilan mushtarak holda tasvirlab, o‘ziga xos she’rlar yarata olganki, bu she’rlar yuksak badiiyati bilan bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belinskiy V. G. Adabiy orzular. –T.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1977.
2. Jumaboyeva J. XX asr o‘zbek she’riyatida psixologik tasvir mahorati. DDA. –T.: 1999. 20- b.
3. Matyoqubova T. G‘afur G‘ulom badiiyati. – T.: Fan va texnologiya, 2006.
4. Matyokubova, T., & Yakubov, I. Laboratory works of Gafur Gulam: poetic image and imagery. 2020. Journal of critical reviews, № 7, pp. 28-37.
5. Matyakubova T.R. Poetic character and its specific features // Theoretical &Applied Science. – Marseille, 2015. pp.

40-43
6. Matyokubova, T. Poetic imagery of nature // Theoretical & Applied Science, 2023. 02 (118), 521-524
7. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.1. – T.: Fan, 1983
8. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.2. – T.: Fan, 1984
9. G‘afur G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. 12 tomlik. T.3. – T.: Fan, 1984
Yakubov Islamjan. Transformation ofaesthetic views and modern uzbek novel. Theoretical & Applied Science. 2017. - № 12. P 120-125.
10. Yakubova S. The issue of «way» in Cholpon’s poetry. ISJ Theoretical & Applied Science... 2023. 02 (118), 490-492
11. Yakubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. – T.: Nurafshon business”, 2021
12. Yokubova S.I. The Issue of way in Cholpon’s poetry. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Impact Factor JIF = 1.500.– USA, Philadelphia. 22.02.2023. Issue 02. Volume 118. – Pp. 490-492
13. Yokubova S Principles of renewal of poetic images in modern uzbek poetry. European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJHEA) Available Online at. Vol. 4 No.11, November 2023. – Pp. 74-76
14. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

КӨП ҚЫРЛЫ ӘЛЎАН СЫРЛЫ ӘДЕБИЙ ТУЛҒА

Пердебай Нуржанов,
Филология фанлари доктори, профессор
Бердақ номидаги Қорақалпоқ
давлат университети

Аннотация

В этой статье идёт речь о художественной прозе Муса Ойбека. Автор подчеркивает большую заслугу писателя, в развитии не только узбекской прозы, а литератур тюркоязычных народов.

Ключевые слова: *Художественное наследие, авторская позиция, идеално-тематическое направление.*

Abstract

This article is about the fiction of Musa Oybek. The author emphasizes the great merit of the writer in the development of not only Uzbek prose, but also the literatures of the Turkic-speaking peoples.

Key words: *artistic heritage, authorial stance, ideological and thematic orientation.*

1937-жылғы сиясий репрессия себепли көп инсанлар әдалатсыз қуўдалаў қурбаны болды. Әсиресе, дөретиўши инсанлардың еркин түрде қәлем тербетиў мүмкиншилиги жүдә азайып кетти. Үлкен шыдамлылыққа, темирдей еркке ийе Айбек усындай жағдайда да, мүшкил ўақытта да 1916-жылғы ўақыяларға арналған «Қутлы қан» романын жазып баслады ҳәм оны 1938-жылы питкерди. Роман үлкен қыйыншылық пенен 1940-жылы басылып шықты да, улыўма өзбек әдебиятында, ҳәттеки, Орайлық Азия аймағында елеўли ўақыя болды. Себеби, бул ўақытқа дейин өзбек әдебиятында тек А.Қадирийдиң «Өткен күнлер», Ә.Шолпанның «Түн ҳәм күндиз», А.Қаҳҳардың «Елес» («Сароб») романлары халық жәмийетшилигинде белгили болғаны менен де оларды оқыў улыўма қадаған етилген еди. Әне, усындай аўмалы-төкпели дәўирде «Қутлы қан» романы жарыққа шықты ҳәм көпшиликтиң дыққатына миясар болды. Буннан руўҳланған жазыўшы «Наўайы» романына да кирисип, оны 1942-жылы Уллы Ўатандарлық урыстың ҳәўиж алған дәўиринде жазып питкерди. Өзбек илимпазы Н.Кәримовтың дурыс көрсеткениндей, «... Жазыўшының Наўайы сыяқлы уллы тулғалар өмирине, ҳәттеки, урыс жылларында да мураҗат етиўи оның өзи жасаған дәўир мәселелеринен қашыўын емес, бәлки, бул мәселеге жаңа көзқарастан қарағанлығын көрсетер еди. Ол буннан бес әсир бурынғы дәўирге – темурийлер династиясының соңғы мәўритлерине нәзер таслап, олардың мийрасхорлары ортасындағы қарама-қарсылық пенен қанлы урыслар темиурийлердиң инсаният тарийхы сахнасынан кетиўине алып келген себеп сыпатында көрсетип берди. Сондай-ақ, үлкен тарийхый шахстың халық тәғдириндеги ролин Наўайы өмири мысалында сәўлелендире алды. Демек, қанлы урысларды қаралаў, өз мәпинен халықтың мәпин үстин қойыў, аўызбиршиликти ҳәм ўатан сүйиўшиликти улығлаў идеясы роман жазып тамамланған дәўирдиң (1942-жыл) жағдайына жүдә сай келер еди. Сонлықтан да, парахатшылықты ең уллы теберик нәрсе сыпатында көклерге көтериў, улығлаў «Наўайы» романының ағла пазыйлети болды. Бул – бир. Екиншиден, Айбек тәрепинен Наўайы қусаған дөретиўши шахстың қандай уллы ислердиң руўхландырыўшысы, себепшиси, бириктириўши күши болатуғынлығы романда жүдә шеберлик пенен көрсетилген. Коллективизм баслы баҳалаў өлшеми етип алынып, ал, индивидуализм барынша қараланған сол дәўирде жеке шахстың Айбек тәрепинен бундай етип сүўретлениўи марксистлик идеологияның айырым қырағы қорғаўшыларына жақпаўы тәбийғый еди. Усыған қарамастан, жазыўшының өз алған бағытына, турмысты сүўретлеў принципине садық қалыўы ҳәр қандай дөретиўши ушын өрнек боларлық қәсийет болғанлығы бүгинги күнде айқын болып атыр.»

Негизинде, Айбектиң Наўайы ҳаққындағы роман жазыўы тосыннан емес. Ол пүткил өмир бойы классикалық өзбек әдебиятын ҳәм оның бийик шоққысы – Әлийшер Наўайы дөретиўшилигин сүйип үйренген, бир қатар илимий мақалалар, «Наўайының өмир жолы», «Ҳамса»ның тийкарғы образлары» мийнетлерин, «Наўайы», «Гули ҳәм Наўайы» лирикалық дәстанларын дөреткен еди. Сонлықтан да ол жаңадан шөлкемлестирилген Өзбекстан Илимлер академиясының академиги болып сайланады (1943). Ал, 1945-1949-жыллары Өзбекстан Жазыўшылар аўқамы Президиумы баслығы, 1943-жылдан 1951-жылға шекем Илимлер академиясы гуманитар пәнлер бөлими баслығы, басқа да лаўазымларды атқарғанда да ол көркем дөретиўшилик ҳәм илимий ислер менен шуғылланыўға ўақыт таба билди. Нәтийжеде, «Алтын даладан ескен самаллар» (1949), «Қуяш қараймас» (1943-1958), «Уллы жол» (1967) романлары, «Махмуд Тарабий» пьесасы, бир қанша поэзиялық дөретпелери, «Ҳақыйқат сөйлер», «Ҳамза», «Бабур», «Дәўиримниң ермеги» ҳәм тағы басқа поэмалары менен XX әсир өзбек әдебиятын жанрлық ҳәм стильлик жақтан байытыўға өз үлесин қосты.

Белгили өзбек алымы Н.Кәримов Айбектиң прозаға поэзияның тәкирарланбас нәпесин алып киргенлигин, ал, поэзияны тек прозаға тән сүўретлеўдиң рәңберең тәреплери менен байытқанлығын дурыс көрсеткен еди. Соның менен бирге, илимпаздың көрсетиўи бойынша Айбек лирикалық туйғы ҳәм кеширмелерди нәзик түрде бере билиўши әжайып шайыр да болған еди. Бирақ та, тоталитар дүзим идеологиясы ҳәм вульгар әдебий сын «сап лирикаға» қарсы от ашқанда ол «гражданлық идеялар» менен суўғарылған қосықларды дөретиўге өтип кетиўге мәжбүр болады. Деген менен, оның «Чимян дәптери» дүркинине кирген гөззал қосықлары елеге дейин өзиниң әҳмийетин жойтқан емес.

1936-жылы Пушкинниң қайтыс болғанына 100 жыл толыў мүнәсибети менен оның шығармаларын өзбек тилине аўдарыў мәселеси мәмлекетлик дәрежеде қойылады. Айбек «Евгений Онегин» романын үлкен йош пенен аўдарыўы арқалы буған үлкен үлес қосты. Буннан басқа ол Ж.Б. Мольердиң «Тартюф», М.Лермонтовтың «Маскарад» поэмаларын ана тилинде сөйлетти. Ал, В.Г.Белинскийдиң «Поэзияның тек ҳәм түрге бөлиниўи» мийнетин аўдарыўы арқалы өзбек әдебий-теориялық ой-пикириниң раўажланыўына тийкар жаратты.

Екинши дүнья жүзилик урыс дәўиринде патриотизм идеяларының жоқары дәрежеге көтерилиўи себепли Айбек «Махмуд Тарабий» пьесасын да жазды. Бул дөретпе сол ўақытлардағы Ҳ.Әлимжанның «Муханна», М.Шайхзаданың «Жалаладдин Мангуберди», Уйғын ҳәм И.Султанның «Әлийшер Наўайы» пьесалары менен бирге өзбек драматургиясында тарийхый шахслар образын жасаўда үлкен әҳмийетке ийе болды.

Айбек дөретиўшилиги ҳәм XX әсир қарақалпақ әдебиятының өз-ара тәсири машқаласы арнаўлы изертлеўди талап етеди. Белгили илимпаз Қурбанбай Жәримбетовтың дурыс көрсеткениндей, С.Айнийдиң «Естелик», Айбектиң «Балалық» повестьлериниң қарақалпақ әдебиятында автографиялық, мемуарлық жанрлардың қәлиплесиўинде белгили орны бар. Мысалы, қарақалпақ жазыўшысы Ж.Аймурзаевтың «Жетимниң жүреги» повестинде, Қ.Айымбетовтың «Өткен күнлерден елеслер» мемуарында Айбектиң «Балалық» повести менен үнеслик бар.

Айбек дөретиўшилиги ҳәзирги дәўир ушын да үлкен әҳмийетке ийе. Оның шығармалары жазыўшыларымызға елеге шекем ибрат алыўға ылайық көркем тәжирийбе ролин атқарып келмекте. Жазыўшының өзбек халқы тарийхындағы бурылыс дәўирлердиң көркем жылнамасын қайта жаратыў, дөретиўши шахстың жәмәәттиң руўхый турмысындағы тутқан әҳмийетин сүўретлеў тәжирийбесинен қарақалпақ жазыўшылары да дөретиўшилик пенен пайдаланбақта. Мәселен, XX әсир қарақалпақ прозасында тарийхый-революциялық ҳәм тарийхый-биографиялық роман жанрларының пайда болыўында көркем раўажланыўдың жоқары басқышында турған рус ҳәм басқа да әдебият ўәкиллериниң шығармалары менен

бирге Айбектиң «Қутлы қан», «Уллы жол», «Наўайы» романларының үлкен әҳмийети бар. Демек, туўысқан өзбек халқының уллы әдебий тулғасы Айбекбектиң романшылықтағы үлкен тәжирийбеси миллий прозамыздың қәлиплесиўине ҳәм раўажланыўыға сезилерли тәсир жасағанлығын айтыўымыз керек. Усы себепли болса керек, 1965-жылы жазыўшының 60 жыллығы Қарақалпақстанда да үлкен көтериңкилик пенен белгиленди, юбилей сәнеси менен оның «Қутлы қан» романы Атағулла Худайбергенов тәрепинен аўдарылып, 1966-жылы «Қарақалпақстан» баспасында 5000 нусқада басылып шықты.

Өзбек ҳәм қарақалпақ әдебий байланыслары, бунда Айбек дөретиўшилигиниң тутқан орны арнаўлы изертленбесе де, бул бағдарда З.Кедрина, З.Г.Османова, М.Нурмухамедов, Ж.Нарымбетов, З.Насруллаева, С.Баҳадыровалардың, кейинги дәўирде болса, Ҳ.Өтемуратова ҳәм усы қатарлардың авторы мийнетлеринде ибратлы пикирлер бар.

Жазыўшы дөретиўшилиги өзбек әдебиятшылары М.Қосжанов, С.Мирвалиев, У.Нарматов, С.Мамажанов, кейинги дәўирде У.Ҳамдамов тәрепинен изертленди. Әсиресе, А.Сабирдиновтың «Айбек поэзиясында сөз ҳәм образ» (1993) атлы кандидатлық диссертациясы шайыр поэзиясын жаңа көзқарастан изертлеўди баслап бергенлиги менен баҳалы. Ал, усы жылы «Устаз жолы» газетасында (5-февраль) жарық көрген Қ.Жәримбетовтың «Жазыўшы талантының уллылығы» мақаласында Айбектиң прозалық шығармаларының қарақалпақ прозасында мемуарлық шығармалар, тарийхый-библиографиялық романлардың пайда болыўындағы әҳмийети ҳаққында дыққатқа ылайық пикирлери бар.

Дөретиўши шахстың көркем образын жасаўдың Айбек тәрепинен баслап берилген көркем тәжирийбеси кейинги дәўирде де ылайықлы даўам еттирилмекте. Мәселен, Ә.Якубовтың «Улуғбек ғәзийнеси», С.Абдуллаевтың «Муқимий», П.Қодировтың «Жулдызлы түнлер», Мақсуд Қариевтиң «Ибн Сина», Аман Мухтардың «Төбешиктеги гөне там», Наби Жалалатдинниң «Аралық», Наим Каримовтың А.Шолпан менен Муўса Айбекке арналған романлары XX әсир өзбек тарийхый-биографиялық ағартыўшылық романларын раўажландырыўға үлкен үлес болып қосылды. Қарақалпақ жазыўшылары да олардан үлги алса арзыйды. Өйткени, бизде де халқымыздың руўхый турмысы тарийхында өшпес из қалдырған, бирақ та XX әсирде орынсыз қуўдаланған Қазы Мәўлик, С.Мажийтов, Қ.Әўезов, И.Фазылов, Н.Дәўқараев ҳәм тағы басқа дөретиўши тулғалардың өмири, әдебий-көркем искерлиги ири сүйекли эпикалық шығармаларды жазыўға бай материаллар беретуғыны сөзсиз. Бул жолда белгили тәжирийбелер де топлана баслады. Усы көзқарастан С.Баҳадырованың Н.Дәўқараевтың машақатлы өмирине арналған «Қанаты қайрылған суңқар» повести дыққатқа ылайық.

Муўса Ташмуҳаммедов улы Айбек Қарақалпақстанның жәмийетлик өмиринде де белгили из қалдырған ғайраткер. Ол урыстан кейинги қыйыншылық дәўирде Аўқамлық советке бизиң республикамыздан депутат (1948-1952) болып сайланғанлығы себепли Қарақалпақстанның көплеген белгили адамлары менен бирге ислесиў бахтына миясар болды. Ал, 60 жыллық юбилейи белгиленетуғын жылы ол екинши мәрте Қарақалпақстаннан депутат болып сайланды ҳәм денсаўлығының төменлигине қарамастан, илим, билим ҳәм мәденият тараўындағы хызметкерлер, кең жәмийетшилик пенен ушырасыўлар өткерип, олардың талапларын орынлаў жолында ат салысты.

Жуўмақлап айтқанда, көп қырлы, әлўан сырлы талант ийеси Айбектиң әдебий-көркем, илимий мийрасын буннан былай да терең изертлеў актуаль мәселе болып табылады.

ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA O‘ZBEK AYOLI VA MILLIY RUH UYG‘UNLIGI

Boboqulova Uljon Suvonovna,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa fanlari doktori (PhD)
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti
e-mail: uljonboboqulova8@gmail.com

Annotatsiya

Jahon adabiyotshunosligida badiiy adabiyot umuminsoniylik xarakterida bo‘lsa-da, tag zamirida muayyan xalqning ruhini ifodalashi, poetik mazmun, poetik shakl va poetik obraz ana shu maqsadga xizmat qilishi lozim. Bu borada atoqli shoir Abdulla Oripov ijodi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ilk she’rlaridanoq bo‘rtib ko‘ringan va keyingi ijodiy takomilida qudratli bir qanot bo‘lib xizmat qilgan milliylik, millatga xos bo‘lgan tuyg‘ularni o‘zida mujassamlashtira olgan xalqning ruhidir. Ushbu maqolada shoir she’rlarida singil, momo va kampir obrazlarida milliy ruh ifodasi xususida bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *milliy ruh, millat, singil, momo va kampir, urf-odat, xalqona pafos, shoir uslubi.*

Abstract

In world literary studies, while fiction has a universal character, it should fundamentally express the spirit of a specific people, with poetic content, form, and imagery serving this purpose. In this regard, the work of the renowned poet Abdulla Oripov is of particular significance. The national spirit, which embodies the feelings inherent to the nation, was prominent in his early poems and served as a powerful driving force in his subsequent creative development. This spirit represents the essence of the people, encapsulating the emotions characteristic of the nation. This article examines the expression of the national spirit through the images of sisters, grandmothers, and elderly women in the poet’s verses.

Key words: *national spirit, nation, sister, grandmother and elderly woman, traditions, folk pathos, poet’s style.*

Adabiyot millatning o‘zligini ko‘rsatuvchi ko‘zgudir. Zero, “Yozuvchi asar yaratar ekan, uni milliylikdan holi tasvirlay olmaydi. Milliylik adabiyotning asosiy ozig‘i hisoblanadi. Chunki har bir xalqning adabiyoti o‘sha millat ko‘zgusida akslanadi. Milliy ifoda, milliy ruhga e’tibor masalasi badiiy asarga millat etiketini taqdim etadi. Bu esa o‘z navbatida o‘sha xalqning adabiyotini dunyoga yuz tutishida muhim belgi bo‘lib ham sanaladi”. [Isabayeva G, 2025: 103]. Ulug‘ faylasuf Gegelning ta’kidlashicha, Homer asarlari bo‘yicha yunon xalqi ruhini o‘rganish mumkin ekan, ayni fikr Abdulla Oripov ijodiga ham taalluqlidek.

Shoir she’riyatida milliy ruh turfa xarakterlar, detallar, voqea-hodisalar tarzida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, ayol obrazi bu kabi katta yuklamalarni yelkasiga ortmoqlab ko‘chib yuruvchi xarakter sanaladi. Shoir ijodida ham shunday vazifani bajaruvchi vosita o‘zbek ayoli obrazidir.

Abdulla Oripov she’riyati tom ma’noda milliy an’analar, qadriyatlar, azaliy urf-odatlar va xalqona poetik tafakkur bilan sug‘orilgan lirik kechinmaning badiiy tasviridir. “Ulug‘ shoir uchun yuqori darajada milliy bo‘lishdan boshqa katta sharaf yo‘q, chunki bu usiz ulug‘ bo‘la olmaydi” [Belinskiy, 1977: 32]. Bizningcha ham Abdulla Oripovning ulug‘ligi milliy she’riyatga milliy ruhni qayta jonlantira olganidadir. Shu ma’noda shoir ijodini sinchiklab o‘rganish nihoyatda keng va chuqur umumlashmalar qilish imkonini beradi. Tadqiqotimiz davomida shunday xulosaga keldikki, faqat shu millat, shu xalq ruhoniyatiga mansub bo‘lgan xususiyatlar ba’zan bevosita, ba’zan bilvosita badiiy obrazlar siymosida qayta jonlanishi yangidan yuz ko‘rsatishi mumkin. Shoirning asosiy mavzularidan biri ayol siymosida milliy ruhning yangi qirralarda zohir bo‘lishini ikki obraz misolida tahlil qilishni joiz topdik: 1) singil va uning o‘gir kechmishi tasviri; 2) momo va kampir obrazlarida xalqona ruh ifodasi.

Singil va uning o‘gir kechmishi tasviri. Shoirning “Seni ona dedim” va “Yuzma-yuz” she’rlarida

singil obrazining dardli qiyofasi o‘zgacha manzaralarda tasvirlanadi. Shoir she’rlarida singil onaning ichki qiyofadoshi sifatida aks etishi boshqa ijodkorlar ijodida uchramaydigan hodisa. Ona siymosiga xos munis va jafokash epitet-sifatlashlar singilda ham mujassam. Shoir “Seni ona dedim” she’rida ayolni ona, singil, yor timsollarida tasvirlar ekan, singil “dardman” xalqning tipik timsolida namoyon bo‘ladi:

Seni singlim dedim,
Qarshimda shu on
Munis va jafokash chehrang ko‘rindi.
Sambitday vujuding tonglarda giryon,
Muzqotgan dalalar ichra urindi [Орипов А, 2001: 28].

“She’r ko‘pincha dard ifodasidir. U kamdan kam hollarda quvonchdan tug‘iladi. She’r qayg‘uning o‘z, quvonchning o‘gay bolasidir” [Йўлдошев Қ. 2018: 247]. Darhaqiqat, mazkur she’rda ifodalangan mohiyat ham Abdulla Oripovni ruhiy qiynoqqa solgan dard edi. Shoir ayolni o‘ylaganda qarshisida *“muzqotgan dalalarda sambitday vujudi uringan”* singilning *“munis va jafokash chehrasi”*ni ko‘radi. “Ushbu misralarni o‘qiganda beixtiyor 60-yillarda xalqimiz qismati haqida bu darajada kuyinib yozolgan va eng muhimi, yozganlarini e’lon qilolgan shoir topilmasa kerak, degan o‘y keladi” [Каримов О, 2012: 62]. Misralarda keltirilgan so‘zlarning asl mohiyati va ayni kontekstdagi harakatiga va anglatgan ma’nosiga chuqur nazar tashlasak, mohiyatni yanada ochiqlash imkonimiz bo‘ladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *“urinmoq”* so‘zining bir qancha ma’nolari berilgan. Shundan *holdan toymoq, charchamoq, qiynalmoq* kabi ma’nolari shoir uchun asos vazifasini o‘tagan. Ayni shu ma’nolardan o‘sib chiqqan *“asl holatini, sifatini yo‘qotmoq, eskirmoq”* kabi ko‘chma ma’nosi shoirning so‘zni badiiy idrok qilish va obrazlashtirish mahorati natijasida yangi bir fikr, yangi bir obrazning tug‘ilishiga sabab bo‘lgan. “Urinmoq” so‘zining *“asl holatini, sifatini yo‘qotmoq, eskirmoq”* kabi ko‘chma (narsalarga xos) va *“holdan toymoq, charchamoq, qiynalmoq”* (jonli mavjudotga xos) kabi o‘z ma’nolarini umumlashtirgan holda singil vujudiga ko‘chirish yangi bir poetik hodisa bo‘lib, sambitday (qaddi qomati tik, kelishgan) so‘zi bilan birga qo‘llanganda so‘zning ma’no quvvati yanada kuchayganligi ko‘zga tashlanadi. *Urindi* fe’lining sambitday sifati bilan tashbehga olinishi “qomat shaklining o‘zgarishi, egilishi, bukilishi” ma’nosida, bu holatning muzqotgan (noyabr, dekabr oylari nazarda tutilgan) dalalardagi og‘ir mehnat natijasida yuz berishi dardchil kayfiyatni yuzaga keltiradi. Ana shu dardli, qayg‘uli kayfiyat singil qiyofasida xalqning achinarli ahvoli, ruhiyatining badiiy ko‘rinishi sifatida o‘z aksini topadi.

Qomati sambitday uringan singil – xalq obrazi dastlab “Yuzma-yuz” she’rida “rangpar singil” ko‘rinishida ifodalangan edi. Sho‘ro mustabid tuzumida o‘zbek millati eng fojiali asrni boshidan kechirdi. Mavjud tuzum xalqning nafaqat moddiy, balki ma’naviy olami va hayot tarziga ham tajovuz qildi. Ana shunday sharoitda ham millatning ruhini, badiiy tafakkurini o‘zida saqlab qola olgani milliy adabiyotimizning katta yutug‘idir. Mafkuraviy zug‘umlar ostida ham milliy qiyofani, o‘ziga xoslikni, milliy g‘urur va islomiy falsafiy mushohadani saqlab qola olgan ayrim ijodkorlar qatorida Abdulla Oripovning ham o‘ziga xos o‘rni bor. Uning she’rlarida inson sha’ni, qadr-qimmati baland pardalarda o‘z ifodasini topdi. “Insonga hamdardona munosabat, uni faqat mehnati uchun emas, balki inson bo‘lgani uchun ham qadrlash, diliga kirib borish, ba’zan aka, ba’zan mehribon og‘il, ba’zan donishmand ota qiyofasida dardlashish istagi, badiiy tafakkurning favqulodda milliyligi va xalqonaligi, sharqona falsafiy mushohada yuritish qobiliyati bilan Abdulla Oripov chinakam millat ruhini milliy ruhda ifodalay oldi” [Эрназарова Г, 2001: 16]. Darhaqiqat, “Yuzma-yuz” she’rida shoir rangpar singilning – dardkash akasi timsolida mavjud tuzum bilan yuzma-yuz gaplashib oladi. Singilning rangpar bo‘lmasligini orzu qiladi. Biroq she’rda ko‘tarilgan muammolar: singil qiyofasidagi dardman va ma’yus millat, singilday qadrdon va aziz millat tafakkurimizda butunlay qayg‘uli kayfiyat izini qoldirib ketadi.

Tahlilimizni bevosita dastlabki she'rning keyingi bandlariga qaratamiz. Misralarda xalqning nochor ahvoli bir dona boshoq misolida ochib beriladi. Mazkur she'r "Yuzma-yuz"dan (1964) 21 yil keyin, ya'ni 1985-yilda yaratilganligiga qaramasdan singilning holati hali hamon rangpar. Bir dona boshoq topsa yuziga rang yuguradigan singil holi butun millat turmushining tipik ko'rinishidir. "Rangpar singil" – kunduzi paxta dalasidan, kechasi ro'zg'or tashvishidan qaddi dol, kasalmand, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishga ham vaqt topa olmaydigan o'zbek ayoli timsoli" [Жабборов H., 2014: 5]. Boshoq (nasiba)ning o'tkir qipig'i ninaga qiyos qilinib, palak tikadigan barmoqlariga sanchilish epizodi o'quvchida g'oyatda ayanchli iztirobni yuzaga keltiradi:

Nasibang ninaday sanchildi u choq,
Palak tikadigan barmoqlaringga.

O'zi tikkanini o'zi kiymagan, o'zi ekkanini o'zi yemagan, nasibasi o'ziga xanjar, mehnatiga yarasha e'tibor ololmagan xalqning ahvoli hali birov aytmagan, birov yozmagan ifodalarda voqelanadi. O'tmishning og'riqli kunlari tariximizda go'yoki "*tosh qotgan marjon*" kabi xalq ruhiyatida akslanib turadi. Shoir singilga yuzlanar ekan, ayni davrda avj olayotgan siyosatning oqibatlaridan xavotirga tushadi. O'sha mash'um kunlar qaytmasligiga umid qiladi. O'zbek ayoliga – singilga *"singiljon"* deya hadik va achinish bilan nazar soladi:

Qora saharlarning mash'um faryodi,
Takror bo'lmasa bas endi, singiljon [Опунов А, 2001: 68].

Afsuski, shoirdagi qalb sezgilari shuni ko'rsatdiki, shoir kutgan emas, qo'rqqan *"sambitday vujudning erta tongdan muzqotgan dalalarda uringan"* va o'sha *"qora saharlarning mash'um faryodi"* "paxta ishi – o'zbek ishi" shaklida xalqning- millatning boshiga sonsiz balolarni olib keldi. Shu o'rinda mashhur olmon faylasufi G.Gegelning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz topdik. Gegel xalqni "Hosildor zamin" deb atab: "Shunday zamin borligi uchun ham yorqin individlar yuzaga chiqadi", – deya izoh beradi [Гегель Г.В.Ф, 1958: 673]. Shu ma'noda har bir betakror iste'dod o'zi mansub bo'lgan xalqning ma'naviy mulki hisoblanadi. Uning millat orzu-istaklarini, dard-alamlarini, sururli onlarini badiiy shaklda bayon etib turishi ham shundandir.

Momo va kampir obrazlarida xalqona ruh ifodasi. Shoir Abdulla Oripov ijodida ham shunday arxitip obrazlar borki, ular nafaqat millat balki turkiy xalqlar ma'naviy qiyofasining bir qismi sifatida qimmatlidir. Ana shunday arxitiplardan momo va kampir obrazlaridir. Momo obrazining genezisi Qur'oni karim va Odam Ato va Momo Havvoning yaratilishi bilan bog'liq diniy-mifologik adabiyotlarga borib taqaladi. Bu obraz mifologiyada turli talqinlarda uchraydi. Xususan, shoir Abdulla Oripovning Odam Ato va Momo Havvoning jannatdan quvilishidan keyingi voqealar aks etgan mifologik xarakterdagi "Odam va shayton qissasi" she'rida butun insoniyatga daxldor bo'lgan ilk Momo obrazi aks ettirilgan. Momo xarakteridagi ko'ngilchanlik, itoatgo'ylik, mehr (hatto shayton bolasiga ham) kabi tuyg'ular milliy ruhoniyatning dastlabki ko'rinishi sifatida akslanadi.

Shoir she'riyatida momo kultining o'zi avlodlar o'rtasida adabiy meros an'analarini og'zaki tarzda tashuvchi vosita vazifasini o'taydi. Shoirning "Momo" nomli bir she'rida yuqorida keltirilgan funksiyaning badiiy tajassumini ko'rishimiz mumkin:

Men ko'rgani keldim atayin,
Hozir sensan eng qadimgi jon.
Nabirangdek tinglab yotayin,
Afsonalar aytgin, momojon [Опунов А,2019:071].
Yoxud
Bola o'qib qaytdi xorijda bir kun,
Kasbi kor orttirdi diplomli me'mor.
Uyda bayram bo'ldi momosi uchun:
–Bolam, tandir qurgin, o'tirma bekor [Oripov A, 2021: 407].

Koʻrinadiki, shoir she'rlarida momo obrazi milliy qadriyatlar ramzi sifatida badiiy qimmat kasb etadi. Momo obrazi bilan birga kampir obrazi ham shoir she'rlarida salmoqli oʻrin tutadi va kengroq ma'no ottenkalarini oʻzida mujassam etadi. Shoirning boshqa bir she'rida esa kampir obrazi sabr-bardosh timsoli sifatida gavdalanadi. "Toqat" she'rida har narsaga tajang boʻlaveradigan cholini yupatish bilan ovora kampir obrazi tasvirlangan boʻlib, milliy mentalitetimizga xos boʻlgan goʻzal fazilat ulugʻlanadi:

Toqatim toq boʻldi, deydi endi chol,
Toqat yurakdami? Toqat koʻzdami?
Kampiri yer chizib shivirlar behol:
Chidang-da, toqat ham faqat bizdami?! [Опунов А, 2001: 88]

"Abdulla Oripov poetik tiplarni shoirona tavsiflar vositasida gavdalantiradi. Tiplarning xarakterli belgilarini ular namoyon boʻladigan hayotiy situatsiyalarda nihoyatda ixcham tasvirlaydi" [Ғофуров И. 1984: 27]. Darhaqiqat, shoirning kampir obrazi aks etgan barcha she'rlarida bu holatni koʻramiz. Jumladan, "Oila" deb nomlangan kichik voqe she'rda ham kampir obrazi orqali oʻzbek oilasining goʻzal an'anasi yaratilgan. She'rda koʻchaga turfa yumush bilan chiqib ketgan farzandlarining hol-ahvolidan xavotir olgan chol-u kampir kun boʻyi bir-biriga begʻaraz tanbeh berib, kech tushganda dasturxon boshida oila jamuljam boʻlganda esa kampir va cholning shukronalik holati xalqona usulda tasvirlanadi. Asar ibtidosida kampir obrazi eng chiroyli insoniy fazilatlardan biri – shukr timsoli sifatida namoyon boʻlishi she'rning estetik maqsadini yuzaga keltiradi:

Kampir: — Shukr, – deydi qimtinib labi,
Chol ham jilmayadi:
Tushunar...
Dunyoda hech bir gap boʻlmagan kabi
Bolalar ovqatni tushirar [Oripov A, 2021: 259].

Oripovning sharq rivoyatlari uslubida yozilgan "Hangoma" voqe she'ri borki, obraz va detallar toʻlaligicha xalqona uslubda tasvirlangan. Qoʻshni qishloqqa toʻyga otlangan ikki chol birovi eshak, birovi otga minib yoʻlga chiqishadi: *"Yoʻlni eshak boshladi, Ot ergashdi loʻkillab". "Eshak minganning oyogʻi tinmas"* deganlaridek, oppoq qorli *"qora sovuq"*da eshakka ishonib adashib qolgan ikki chol endi ixtiyorni otga qoldirishadi: "*Surgaladi ot horgʻin, Orqada eshak besas*". Qorongʻi tushganda qaysidir qishloqqa yetib kelgan ikki chol bir uyning oldida toʻxtab, darvozani taqillatishadi va joy soʻraydi: *"Bir kechaga bizlarga, Joy bersangiz, yangajon".* Asarning komik kulminatsiyasi ayni shu vaqtda yuz beradi. Fonusini yaqinroq tutgan kampir:

Hoy, senmi bu, yer yutkur,
Imoningdan kechdingmi?
Aljiraysan yo toʻyda
Aroq-paroq ichdingmi? [Опунов, 2000: 17].

Bilsaki, ot cholni oʻz uyiga olib kelgan, chol esa kampiridan joy soʻrab turgan ekan. Mana shu joyda kampir tilidan aytilgan xalqona ibora va qargʻish begʻaraz koyish boʻlib, oʻzbek mentalitetiga xos qirralardan biri boʻlganligi uchun kampirning oʻz choliga qilgan muomalasi yomon kayfiyat uygʻotmaydi. Kampir *"yer yutgur", "aljiraysan", "aroq-paroq"* kabi salbiy ma'no ifodalovchi soʻzlarni *"iymondan kechmoq"* birikmasiga qarshi qoʻyadi. Iymondan kechganlikda ayblash hazilakam gap emas. She'rda latifanamo mazmun bir qancha koʻchma ma'nolarni ifodalasa-da, Abdulla Oripov kampir obrazida sharqona donishmandlik va milliy ruhni badiiy voqelantira olgan.

Xalqona ruh bilan sugʻorilgan "Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir qissasi" esa oʻzgacha badiiy mazmunda. Asar boshida uncha koʻzga tashlanmagan farrosh kampir badiiy ta'sir sahnasiga kirib kelishi bilan manzara tamoman oʻzgarib ketadi. Farrosh kampir asarda koʻtarilgan

ma’naviy-axloqiy muammolar markaziga qo‘yiladi. Milliy xarakter orqali umumbashariy, chegara bilmas muammolar yechimi yoritiladi.

O‘zining ma’no-mohiyati va ifoda ko‘lamiga ko‘ra shoir she’rlarida momo va kampir obrazlari faqat ijobiy xarakterda bo‘lib, xalqimizning o‘tmishi va buguni aks etib turgan timsol sifatida ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isabayeva G. Mustaqillik davri o‘zbek qissalarida ona obrazining poetik takomili: Filol. fan. b. fals. fan. dok... (PhD) diss. – Toshkent, 2025. – 159 bet.
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: Sharq, 2021. – 768 bet.
3. Ашурова Г. Абдулла Орипов шеъриятида анъана ва бадиий маҳорат(образ, ғоя ва тасвир): Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2008. – 154 бет.
4. Белинский В.Г. Адабий орзулар (Насрий элегия). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. – 263 бет.
5. Гегель Г.В.Ф. Сочинения. Т.XIV. – Москва: СОЦЭКГИЗ, 1958. – С. 673.
6. Ғофуров И. Шеърият – изланиш демак. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1984. – 222 бет.
7. Жабборов Н. Киноя ва рамзлар замиридаги ҳақиқат /Ўзбек филологиясининг долзарб муаммолари. III китоб – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014. – 465 бет.
8. Йўлдошев Қ. Сувратланган миллий руҳ. / Сўз ёлқини. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 503 бет.
9. Каримов О. Абдулла Орипов шеъриятида метафорик образлар тизими. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2012. – 260 бет.
10. Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001. – 496 бет.
11. Орипов А. Танланган асарлар. Шеърлар. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – 322 бет.
12. Эрназарова Г. XX аср ўзбек поэзиясида миллий тафаккур ва унинг бадиий талқини (Чўлпон, Ғафур Ғулом, Абдулла Орипов шеърияти мисолида): Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2001. – 147 бет.

USMON AZIM SHE'RLARIDA ESTETIK O'ZIGA XOSLIK

Turgunova Mahliyo Nuriddin qizi,
University of Business and Science
Til va adabiyot ta'limi kafedrasi o'qituvchisi
e-mail: mahliyot93@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-6419-730X

Annotatsiya

Ushbu maqolada Usmon Azimning lirik ijodi tahlilga tortilgan. Shoirning o'ziga xos badiiy obraz yaratish mahorati ochib berilgan. Usmon Azim she'riyatining jozibasi, an'anaviy milliy ruhni zamonaviy poetiklashuvi yoritilgan. "Kuz" to'plamidagi she'riy misralaridagi badiiy san'atlar aniqlangan. Shoir dunyoni samimiy qalb bilan tasvirlashi, shoir she'ridagi "dunyo" kitobxon his qilib turgan dunyoning suratiga juda yaqinligi va shu bilan birga allaqanday nurlanganligi, ko'ngilga va ruhga madad berguvchiligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: *Lirik obraz, kechinma, yor, ota-ona, singil, vatan, sadoqat, bardosh, ishonch, o'g'il.*

Abstract

This article analyzes the lyrical work of Usman Azim. The poet's unique skill in creating an artistic image is revealed. The charm of Usman Azim's poetry, the modern poeticization of the traditional national spirit are highlighted. The artistic skills in his poetic verses in the collection "Autumn" are identified. The poet's sincere description of the world, the closeness of the poet's poem to the image of the world felt by the reader, and at the same time its radiance, support for the heart and soul are analyzed.

Key words: *Lyrical image, experience, lover, parents, sister, homeland, loyalty, endurance, trust, son.*

Badiiy asarda poetik obraz, avvalo, estetik kategoriya bo'lib, u hissiy tajriba va borliqni idrok etish bilan o'lchanadi. Badiiy tasvir – bu badiiy matnning ichida dunyoning haqiqatlarini alohida tushunish, his qilish imkonini beradi. Agar biz dunyoni ijodiy bilish haqida gapiradigan bo'lsak, demak, bu dunyo o'zgargan, subyektiv ravishda qabul qilingan bo'ladi. Badiiy asarda obraz o'ziga xos estetik ideal nuqtayi nazaridan haqiqatning o'ziga xos hissiy jihatdan takrorlanishining bir usuli ekanligi bilan ajralib turadi.

Badiiy kechinma hayotni obrazli idrok etish ibtidosidir. So'z san'atkorining tafakkur kuchi natijasida badiiy asar markazini obraz(lar) egallaydi. Obraz mazmun-mohiyatiga ko'ra estetik zavq uyg'otish bilan bir qatorda his-tuyg'uning ana shunday yuqumli bo'lishiga ham xizmat qiladi. Jahon adabiyotining estetik tafakkur taraqqiyotiga nazar soladigan bo'lsak, Aristoteldan keyin borliq va uni estetik jihatdan tushunish mohiyatan ancha teranlashdi.

Darhaqiqat, kechinma – lirikaning yuragi. Uning asosini esa shoir tanlab olgan ruhiy holatlar, dardli yoki quvonchli tuyg'ular tashkil etadi. Bu holat estetik ideal tafakkur, rang, tasvir, obrazlarga ko'chadi va shoir ijodining o'ziga xos til hamda uslubini namoyon etadi. Shoir Usmon Azimning butun she'riyati bag'ridan ana shunday kechinma – shoir tomonidan tanlangan, pardozlangan va o'quvchiga taqdim etilgan qayg'u va quvonchlar go'yo o'q chiziq bo'lib o'tadi. Usmon Azim she'riyatining jozibasi, ko'pchilik tomonidan sevib o'qilishining sababi ham aynan shundadir.

Usmon Azim she'riyatiga nazar tashlar ekanmiz, hayotni butun ziddiyatlari bilan his etadigan lirik qahramonning g'oyat rang-barang kechinmalari ifodasini ko'ramiz. Ma'lumki, she'riyatda lirik qahramon kechinmalarida "men" shoir shaxsiyatini va uning hayot haqidagi qarashlarini umumlashtiradi. Shoir yaratgan lirik qahramon o'tmishni, o'zi yashayotgan davrni chuqur his etadi. Shu bilan birga, u kelajak haqida ezgu niyatlar qiladigan davr kishisining murakkab timsoliga aylanadi.

Yuragim og'rishin sizga aytmadim
Umrning horishin sizga aytmadim

Dunyo aylanishin bilardingiz siz
Bir kuzda qolishin sizga aytmadim
Insonga qismatning ozori yo'qdir
Umr savdosining bozori yo'qdir
Sizsiz kirgim keldi bu kuzga yakka...
Endi bu kuzimning bahori yo'qdir (262-bet).

Usmon Azimning 1995-yil Toshkentda "Sharq" nashriyotida chop etilgan "Saylanma"siga kirgan she'rlari eng sara she'rlari jamlanmasi bo'lib, unda shoir ijodiga xos bo'lgan asosiy mavzu – dunyoni va insonni mukammal ko'rish orzusida yashagan shaxs armoni butun ko'lami, qarama-qarshiliklari, fojia-yu quvonchlari, hasrat-u umidlari bilan gavdalanadi. Shoir dunyoni samimiy qalb bilan tasvirlaydi. Shoir she'ri aylangan dunyo kitobxon his qilib turgan dunyoning suratiga juda yaqin va shu bilan birga allaqanday nurlangan, ko'ngilga va ruhga madad berguvchidir.

Usmon Azim ijodida ***ona sadoqat, bardosh, mehr-muhabbat*** timsoli bo'lib, o'zbekning tabiatini mujassam etsa, ***ota obrazi*** esa ***mardlik, jasorat, odamiylik, halollik*** timsolidir.

Ona, kelganingizda...
Ona, kelganingizda
Ko'ylak olib bermadim...
Pulim yo'q edi ona, ona
Ona, kelganingizda
Ochilib gaplasholmadim
Vaqtim yo'q edi, ona
Ona, kelganingizda
Kulib-kulib yurmadim
Baxtim yo'q edi, ona
Ona, kelganingizda
Yig'lamadim o'ksinib ...
Haqqim yo'q edi, ona
Ona baxtiyor bo'ling!
Sizni qo'llasin taqdir.
Baxt o'zi ne ona?
Baxtsizlik nedir?

Vaqt atalmish karvon shiddat ila odimlaydi, go'yo dengiz to'lqinlari kabi...yuqoridagi misralari orqali shoir onasini rozi qilolmagan farzand obrazini yaratdi, "bolam-bolam" deb o'zligidan kechgan, ammo o'zi uchun yashay deganda farzandidan to'yib mehr ko'rmagan ona o'zbekning umumlashma obrazidir.

Shoir ijodida obrazlar vositasida milliylikning aks etishi ***"ota, ona, bola"*** uchligi bilan chambarchas bog'liq. Shoir nazdida, bolalar millatning o'zligini namoyon etuvchi ertaning egalaridir. Ularni g'ururli, or-nomusli, mard va jasur qilib tarbiyalash har bir ota-onaning vazifasidir. Umuman, Usmon Azim ijodida *Bola, Inson, Ota-ona, Yor, Do'st* kabi obrazlar tom ma'nodagi milliy xarakterga, milliy qiyofaga ega bo'lgan obrazlar sirasidan bo'lib, ular shoirning Vatan va millat taqdiriga munosabatini, muhabbatini namoyon etadi. Xalqimizda "Onaning ko'ngli bolada – bolaning ko'ngli dalada" maqoli mavjud. Usmon Azim ijodida ota, ona, farzand munosabatlari nafaqat ijobiy xislatlarda, balki hayotda duch kelingan salbiy manzaralar vositasi bilan ham tasvir etilgan. Shoirning "Buyumlar haqida ballada" she'rida dunyo tashvishlariga chalg'igan farzand o'zi bilan o'zi ovora bo'lib, onasini ham unuta yozgani quyidagi diolog asosiga qurilgan she'rda yaqqol ifoda etilgan:

– Keldingmi?

– O, bolam, senda gapim bor...

Birgina soʻzingni intizor kutdim!

– Shoshyapman... Doʻkondan mol olmoq darkor...

Senga nega keldim? Unutdim... *(6-bet)*

Shoir ijodida tarixiy shaxslar hayotidan hikoya etuvchi tarixiy obrazlar borki, ular goʻyo bizni tarix saboqlaridan toʻgʻri xulosa chiqarishga undaydi. “Mirzo Ulugʻbekning oʻkinchi”, “Moʻmin Mirzoning soʻnggi qoʻshigʻi”, “Turdi Farogʻiy”, “Abdulla Qodiriy”, “Usmon Nosirning soʻnggi tushi”, “Oybeking soʻnggi she’ri”, “Maqsud Shayxzoda” kabi she’rlari orqali shoirni oʻchmas tariximiz zarvaraqlaridagi xotiralarni chuqur anglagan faylasuf timsolida koʻramiz:

Dardimni aytolmayman...
Xalq, tingla bir band ash’or:
“Men ham ilkimda qilich,
Ovlaganman yo‘lbars, she’r!
Dushman muzaffar o‘ldi,
Ag‘yor falak qildi yer...”
Meni asir oldilar...
Bo‘g‘zimda erk qo‘shig‘i!(12-bet).

Bu oʻrinda Moʻmin Mirzoning she’ri erkinroq bir tarzda keltirilgan. *Muzaffar* soʻzi ***iyhom san’ati*** asosida ikki ma’no anglatadi: muzaffar – gʻolib, Muzaffar – Moʻmin Mirzoni hibsga olgan amakisi Muzaffar Husaynning ismi hamdir.

Chuqur mazmunni yuzaga chiqmogʻi uchun goʻzal shakl, nafis poetika lozimligini unutmaslik lozim. Shunday ekan mazmunning ifodasi boʻlgan shaklni, jozibani chetlab oʻtishning imkoni yoʻq. Shoirning “Kuz” toʻplamidagi she’rlarning poetik xususiyatlari, shakliy jihatlariga biroz toʻxtalamiz.

Toʻplamdagi she’rlarda tashbeh, jonlantrish, soʻz qoʻllash va satrlarning joylashuvidagi jozibani koʻrasiz.

Masalan, siz yalangayoq, yalangbosh degan soʻzlarni koʻp eshitgansiz, bular oddiy soʻz hisob. Ammo biror joyda “Yalangyurak” degan soʻzni eshitganmisiz? Kam, juda kam eshitgansiz. Lekin Usmon Azim ijodi uchun bunday yangi soʻz, topilmalarni qoʻllash odatiy holdir. Bir she’rida yulduzlari charaqlab turgan osmonni “Yulduzyonar” gulshan desa, boshqa bir oʻrinda moviy osmonni “havo daryo” deydi. Ijodkor tuygʻulari nechogʻlik kuchli, nigohi oʻtkir, dardlari salmoqli, tili biyron boʻlsa, oʻquvchi uning asarlariga shunchalik qattiq beriladi. Buning ustiga, badiiy asarlarning oʻziga xos musiqiyligi, ohangdorligi, soʻzlarning mahorat ila ishlatilishi tufayli paydo boʻlgan holat, ijodkorning dunyoni tasvirlashdagi oʻziga xosligi kitobxonni rom etadi.

Badiiy ijodni oʻqishda, baholashda, oʻrganishda va tahlil etishda, odatda, ikki xil qarash ustuvorlik qiladi. Birinchisi, yaratilgan asarning davr va zamonga hamohangligi, jamiyat manfaatlariga va kitobxonning hayotiy tajribasiga, qiziqishiga koʻra; ikkinchisi, oʻquvchining hayotdagi va san’atdagi goʻzallik tuygʻulari talqinidan kelib chiqib, hissiy-emotsional, ruhiy-estetik tarafdan yondashiladi. Usmon Azim ijodi davr ruhi va zamonga hamohangligi, shuningdek, kitobxonga ruhiy-estetik zavq berishi bilan birga oʻquvchining hayot haqidagi qarashlarini shakllantira oladi.

Badiiylik inson faoliyatining shunday turiki, u oʻzining ijod mahsullarini (ularning estetik bir butunligi) mukamallik darajasining “chegara”sini taxmin qila oladi. Kant iborasi bilan aytganda, bu faoliyatni “chetga surish mumkin emas’’. Boshqacha aytganda, san’at (faoliyatning sohasi), shu qatorda soʻz san’ati estetik munosabatlarning yuqori shakli hisoblanadi. M.M.Baxtinning yozishicha, “Tabiatni estetik mushohada qilish, afsonalardagi, dunyoqarashlardagi estetik jihatlar chalkash, betakror, sun’iydir. Estetika faqat san’atdagina oʻzini bor holicha namoyon eta oladi” [Baxtin, 1975: 22].

Badiiy asar, poetik obrazlar orqali ijodkor nimani ifodalaydi, borliqni qay yoʻsinda tasvirlaydi-bu ikki jihat oʻz ahamiyati bilan bir-biridan muhim, bir-biridan mas’uliyatli. Chunki adabiyotda badiiy

obraz orqali inson xarakteri, tashqi qiyofasi, ichki dunyosi namoyon bo‘ladi. Binobarin, “obrazning g‘oyaviy-ma’naviy qimmati ham uning badiiy-estetik darajasi bilan, niyatning san’at nuqtayi nazaridan qay tarzda ijro etilgani bilan belgilanadi” [Akramov, 1979: 7].

Umuman olganda, badiiy adabiyot obrazlar orqali hayotdagi ham oddiy, ham ibratli faktlarni xoh tabiiy, xoh favqulodda hodisalarni tarqoqlik yoki mavhumlik holatidan o‘zaro mutanosib, uyg‘un holatga keltiradi, ma’lum tartib-me’yorga soladi. Bu ishlar o‘z navbatida ijodkor tomonidan amalga oshiriladi. Badiiy adabiyot borliqni, insonlar taqdirini o‘zining poetik obraz tizimiga bo‘ysundirar ekan, bularni go‘zallik, nafosat qonuniyatlariga ko‘ra qayta yaratadi. Ya’ni badiiy obraz ijodkor uchun fikrlash vositasi hayotiy voqelik ta’sirida paydo bo‘lgan kechinma tasvirini berishdagi muhim omil sanaladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida milliy she’riyat takomilining ijtimoiy va adabiy-estetik asoslari o‘rganilmoqda. She’riyatimizning yangilanish tamoyillarini aniqlashga doir ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Usmon Azim ijodini kuzatar ekanmiz, ko‘z oldimizda shoir qalamga olgan ***inson obrazi, jonivorlar obrazi, tabiat obrazi, narsa-buyumlar obrazi*** dunyoni va insonni mukammal ko‘rish orzusida yashagan shaxs armoni, qarama-qarshiliklari, fojia-yu quvonchlari, hasrat-u umidlari bilan gavdalanadi.

Usmon Azim nazmiy me’rosini o‘rganish adabiyotshunoslikning ustuvor vazifasidir. Chunki poetik mazmunni yangilashga qodir ijodkor va ijtimoiy-adabiy muhit munosabatlari muayyan milliy adabiyotning taraqqiyot darajasini belgilovchi muhim adabiy-estetik omildir. Ushbu ilmiy muammoning adabiyotshunoslikda o‘rganilishi jarayonida alohida diqqat qaratish lozim bo‘lgan masalalar bor. Bunda, albatta, adabiy muhitning ko‘lami va chegarasi bilan bog‘liq masalalar nazarda tutilmoqda. Gap shundaki, mohir ijodkor asarlarining ta’sirlanish hududini faqat u yashagan zamon, qadami yetgan makon, shuningdek, tilning tushunarlilik omillari bilan chegaralash maqsadga muvofiq emas. Usmon Azim ijodi oddiy gaplarning kutilmagan sana’tkorona ifodasi bilan o‘zgacha. “Bu kecha qanaqa”deb boshlanuvchi she’rida “chiroq yondi, deb aytish mumkin bo‘lgan oddiy gapni “Simyog‘ochga shoshib tirmashdi chiroq” tarzida, yana bir boshqa she’rida esa o‘z mahbubasini

Yuragimda tiniq yoshsiz,
Yillar qo‘yolmas artib, - deydi
Yoki bir she’rida “umid yo‘qolmoqda “ – degan odatiy gapni:
Qaylarda yurib sargardon umid
Qay zulmat dardida berayapti jon?
-tarzida aytsa boshqa bir o‘rinda:
Tashqarida asfalt ustida
Behush yotar sovuq dekabr! – deydi.

Shu va shunga o‘xshash ifodalar “Kuz” to‘plamida juda ko‘p. Quyida biz e’tiboringizga ulardan ba’zi namunalarni havola etamiz va badiiy olamini mushohada etamiz.

Kuz yo‘q. O‘rindiqda – chorbog‘da bu choq
Mung‘ayib o‘tirar qarigan bahor (tashbeh, tazod).

Terak osmonni artar
Kuz selida chayqalib (tashbeh)

Dashtda sag‘irdir qo‘rqinch
Dashtda – ko‘ylakchan hayot (tashbeh).

Boshimizga zilday ko‘kni ag‘darib
Qaro yerga o‘zin ko‘mdimi quyosh?
Bir parcha olovni shunday ko‘tarib
Zulumotga qarshi chiqdi simyog‘och (tashbeh).

Shoʻrlik davralarda podshohlik sezdim
Bechoralik sezdim ulugʻ shohlarda (tazod).

Jim –jit baqirdim (tazod, urgʻu).

Odamlar –kichkina-chumoliday –
Vaqtning tayoqlari tagida –uvol (jonlantrish, giperbola).

Laylilanib yogʻadi
Layli qor-u laylakqor (l harfli aliteratsiyasi).

Yulduzgulli koʻylagin yechar
Osmon –she'rlar chatnagan rukn (tashbeh).

Doʻstlar davrasida qizidi suhbat,
Mehrning gulxani oʻrtada yondi (tashbeh).

Ariqlarda oqib borar oy –
Ariq borar koʻtarib fonus.
Oydin tunda kechganicha loy,
Pishqirmasdan suv ichar poliz (jonlantrish).

Majnunlanib yogʻadi
Mayda qor-u mangu qor (m harfidan aliteratsiyasi).

Uyning koʻlkasida
Erimadi qor,
Bir parcha soyadan
Ketolmadi qish(tashbeh)

Uy soʻngida bitta chuqur "uh"-
Turmush sari bosh egib yurmoq
Yurak tuzar dunyo bilan sulh
Sulh tuzganday kuz bilan yaproq. (parallelizm)

Qayda chiroq yonsa tevaragida
Qur tashlab oʻtirar kecha
Bahorgi maysani toʻshab tagiga
Sukutli yonboshda olmoqda orom (jonlantrish)

Orzung ertaklarning choʻntaklarida (jonlantrish)

Ruh labidan baxt olar boʻsa. (jonlantrish)

Oʻzini Vatan, yurt ravnaqi uchun hissa qoʻshishga chogʻlagan ijodkorlar millat fidoiysi boʻlish bilan birga, milliy adabiyotni yuksaltirish orqali oʻz xalqini umumjahon miqyosiga olib chiqishni oʻz oldilariga maqsad qilib qoʻyishgan. Har bir ijodkor badiiy tafakkuri darajasini oʻz davrining eng ilgʻor tendensiyalariga muvofiqlashtirishi zarur. Bunda u, albatta, oʻzi bilan bir davrda ijod qilayotgan jahon adiblarining yutuqlari va tajribalaridan unumli foydalanishi, kerak boʻlsa, ular bilan oʻzaro mubohasaga kirishi taqozo etiladi. Biroq bu oʻrinda shuni nazarda tutmoq zarurki, "Adabiy ta'sir yoki komparavistika jarayoni har bir millat adabiyot doirasida oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi" [Joʻraqulov, 235].

Ma'lumki, lirik kechinma orqali kitobxonda yuzaga keladigan ruhiy hayajon toʻlqinlari bevosita shoir yaratgan, oʻylab topgan poetik obrazda oʻz ifodasini topadi. Oʻquvchida paydo boʻlgan, bir-biriga oʻxshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan ruhiy kayfiyat ijodkor yaratgan poetik tasvirning haqqoniyligi, yorqinligi, betakrorligi bilan izohlanadi. Lekin bunday obrazlarning yaratilishi oʻz-oʻzidan yuzaga kelmaydi. Qachonki ijodkor voqelikdan ta'sirlanar, tuygʻulari joʻsh urar, oʻsha

voqelikka hissiy munosabati shakllanar ekan, asarda poetik obraz tug‘iladi. Shoirni qiynagan muammo uning qalbida sintezlanadi, tuyg‘ularini tartibli tuzilishi bilan bog‘liq jarayondir. Demak, tuyg‘ularning borliqqa munosabati lirik kechinmani hosil qilgani holda, kerakli, eng ma’qul obrazning paydo bo‘lishiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бахтин М.М. Вопроси литературе и эстетики. Москва, 1975. – С. 22.
2. Akramov B. She’riyat gavhari. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashryoti, 1979. – B. 7.
3. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2015. – B. 234 – 235.
4. Usmon Azim. “Bir parcha osmon”. – Toshkent: Factor books, 2022. – B 6.
5. Раҳимжонов, Н. Замонавий ўзбек шеърияти тараққиёти. – Тошкент: Адабиёт, 2020.
6. Каримов, Б. Усмон Азим шеъриятида миллий руҳ. –Тошкент: Фан, 2019.

“MA’SUMA” ROMANIDA BADIIY TASVIR VOSITALARINING QO‘LLANISHI

Iroda Rajabboyeva,
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Isajon Sultonning “Ma’suma” romanida tasviriy vositalar va ularning ifodalanishi asar tahlillari asosida yoritilgan. Romanda qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalari kompozitsion butunlikni ta’minlashga, sujetning badiiy-emotsional jihatdan mukammallashuviga xizmat qilishi ilmiy-nazariy aspektda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Ayol, san’at, badiiy tasvir vositalari, dialog, monolog, psixologik tasvir, ramz va timsollar, ichki monolog, interyer.*

Abstract

This article examines the visual means and their expression in Isajon Sultan’s novel “Ma’suma” based on the analysis of the work. The artistic means of depiction used in the novel serve to ensure compositional integrity and to improve the artistic and emotional aspects of the subject, revealing it from a scientific and theoretical perspective.

Key words: *Woman, art, means of artistic expression, dialogue, monologue, psychological image, symbols and images, internal monologue, interior.*

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Isajon Sulton o‘z asarlarida inson taqdiri va tarixiy davrlar kesishmasini chuqur falsafiy mushohadalar asosida yoritadi. Uning “Ma’suma” romani XX asr boshlaridagi jadidchilik davri, milliy teatrning shakllanishi, ijtimoiy-siyosiy bosimlar, san’atkor va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar haqida so‘z yuritadi. Romanning markazida aktrisa Ma’suma Qoriyeva siymosi turadi. Asar voqealari san’at, ma’rifat va erkinlik uchun kurash fonida kechadi. Har qanday yozuvchi o‘z asarining badiiy ta’sirchanligini oshirish maqsadida ifoda vositalariga murojaat qiladi. Ular yordamida yozuvchi voqeani yanada jonli va ta’sirchan ko‘rsatadi, asarning badiiy estetik qiymatini oshiradi, qahramon ruhiyatini chuqurroq ochib beradi. Yozuvchi Isajon Sulton ham o‘z asarida badiiy tasvir vositalari hisoblangan monolog, o‘xshatish, dialog, interyer va peyzajdan samarali foydalangan.

Ichki monolog – personajning moddiylashmagan, o‘ziga qaratilgan va ichidagina kechuvchi nutqi; badiiy psixologizmning bevosita shakli. Ichki monolog shartli ravishda inson ongida kechayotgan o‘ylov (his etish) jarayoni sifatida qabul qilinadi [I.Sulton, 2024]. Roman bosh qahramoni Ma’suma ham ko‘p o‘rinlarda o‘ylar girdobida tasvirlanadi, boshiga tushgan og‘riqli kunlar natijasi o‘laroq, o‘z-o‘zi bilan suhbat quradi. *“Nima qildimki, muncha yakkalaysizlar? Har qayga borsam odamlar chetlanib, mendan o‘zlarini olib qochishadi? Qaynotam, erim, qayniukam xato qilgan bo‘lsa, men-chi, bolalarim-chi? Bu qanday bedodlik?”* Asardagi ushbu parcha orqali adabiy qahramonning ruhiy iztirobi, adolat izlashi, jamiyat tomonidan rad etilishidan kelib chiqqan ruhiy ezilishi yoritilgan. Ma’suma oila a’zolarining ketma-ket qamalishidan esankirab qoladi, uning ustiga sevimli maskani bo‘lgan teatrdan ham uni uzoqlashtirmoqchi bo‘lishadi. Yozuvchi aynan ritorik so‘roq gaplar, intonatsiya orqali obrazning umidsizlik kayfiyatini, jamiyatga qarshi isyonini ro‘yirost va aniq tasvirlaydi. Isajon Sulton “Ma’suma” obrazi orqali inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarigacha kirib boradi, ayolning sabr-toqati, boshiga tushgan qiyinchiliklarga bardoshliligi, haqiqatga bo‘lgan ishonchi va ichki iztiroblarini yoritadi. Professor Qozoqboy Yo‘ldoshev ham ichki monologga shunday ta’rif beradi: “U adabiy qahramonning o‘ylari hamda ruhiy holatini bevosita qayd etish va ifodalash bo‘lib, ichki nutq qonuniyatlariga ozdir-ko‘pdir amal qilgan holda namoyon

bo‘ladi”. Roman voqealari davomida *Og‘a (Mannon Uyg‘ur)* obrazining ham ruhiy evrilishlarini ochib berish jarayonida muallif ichki monologga ko‘p o‘rinlarda murojaat qilishiga duch kelamiz. O‘z do‘stlarining ahvoliga achinish, jamiyatda bo‘layotgan adolatsizliklarga qarshi bosh ko‘tara olmaslik, ko‘z o‘ngida bo‘layotgan voqealar uni chuqur iztirobga soladi*: “Uchalovi ham oliy jazoga hukm qilingan. Taqdir ekanmi? Taqdir ham shunaqa bo‘ladimi? Hamma otilib ketaveradimi? Xayoliga Ma’suma keladi. Ma’sumani, uning bolalarini qanday saqlab qolsa bo‘ladi?”* Asar voqealari davomida Mannon Uyg‘ur murakkab obraz sifatida tasvirlanadi. Atrofida barcha do‘stlari birin-ketin qamaldi, hukumat tomonidan chidab bo‘lmas darajada qonunlar chiqarildi. Og‘a o‘ziga yaqin kishilar yoki tanishlarining o‘lim jazosiga hukm qilinishini qabul qila olmaydi. Parcha orqali ko‘rishimiz ham mumkinki, bo‘layotgan voqealar qahramonni hayratga soladi, chuqur o‘yga toldiradi. Obrazning ichki monologi orqali jamiyatdagi adolatsizlik, norozilik, umidsizlik kuchli pafos orqali tasvirlangan. Ayni shu o‘rinda yozuvchi Ma’suma va Mannon Uyg’ur obrazidagi ruhiy yaqinlikni, o‘z-o‘zini mushohada etish holatini ochib berishda bir xil badiiy tasvir vositasidan foydalanadi, ritorik so‘roq gaplarni har ikki obraz tilidan keltirish orqali ularni jamiyatdagi bir-biriga fikran yaqin qatlam sifatida aks ettiradi. Ko‘rinib turibdiki, badiiy tasvir vositalari tamomila ikkita obrazning o‘zaro uyg‘un va hamohang jihatlarini ham ochib berishga yordam beradi. Zero, monolog insonning o‘zini mushohada etish, anglashga urinish, tahlil qilish jarayonidagi holatini aks ettirish imkoni anchayin yuqori bo‘lgan badiiy – tasvir vositasidir. Boisi, inson o‘zi bilan qolgan lahzada ko‘pincha “men”ini izlaydi, tuyg‘ularini tahlil qiladi. Ayni obrazlarga ham ijodkor xuddi shu yondashuv asnosida o‘zlikni anglash va izlash imkonini beradi. Bu jarayonda monolog va ritorik so‘roq gaplar uyg‘unligi badiiy maqsadni keng ochib berish imkonini hosil qiladi.

Badiiy asarlarda *o‘xshatish* tasvir obyektini boshqa narsa-hodisalarga mengzash orqali yorqin va bo‘rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo‘lib, bunda o‘xshatilayotgan narsa – hodisalar uchun umumiy belgi-xususiyatlarga tayaniladi. Demak, o‘xshatish bu – badiiy tasvir vositasi, ya’ni adabiyotda narsa, hodisa yoki shaxsning belgi-xususiyatlarini yanada aniqroq, yanada jonliroq ifodalash uchun ularni boshqa narsa-hodisalar bilan qiyoslash san’atidir. O‘xshatishning asosiy vazifasi – so‘z obrazliligini kuchaytirish, kitobxon tasavvurida jonli manzara yaratish. Bunday badiiy tasvir vositasi romanning deyarli har bir sahifasida uchraydi. U orqali yozuvchi obrazlarni yanada ta’sirchan, jonli qiladi va adabiy qahramon ruhiyatini o‘quvchiga kuchliroq his ettiradi. Masalan, romandagi *“xuddi osmon shiddat bilan aylanib, davr o‘z yukini o‘zgartirib, qismat po‘rtanalari ustma-ust bostirib kelgandek, o‘zini o‘nglaguncha bo‘lmay, boshqa bir girdobga duch kelgandek”* tasviri bosh qahramonning holatini chuqur aks ettirishi jihatidan keng ahamiyatga ega. Ma’suma hayotidagi sinovlar, mashaqqatlar shu qadar kuchli va o‘zgaruvchanki, ularni bemalol ummon po‘rtanasiga qiyoslash mumkin. Ayni shu to‘fonlarga qarshi suzishning o‘ziyoq bosh obraz ruhiy kuchini, matonatini chuqur his etish imkonini beradi. Isajon Sulton bir badiiy tasvir vositasidan boshqa bir badiiy tasvir vositasiga nihoyat darajada tez o‘tadi. Ayni shu uslubiy individuallikning o‘ziyoq qahramon taqdiridagi evrilishlarning hayot shiddatining naqadar jadal va xavfli burilishlarga ega ekanligini ko‘rsatib beradi.

Muallifning o‘z asarlarida unumli foydalanadigan *interyer* tushunchasi ayni fikrlarimizga muvofiq keladi. Interyer – bu asarda qahramon yashaydigan yoki harakat qiladigan muhitning ichki ko‘rinishini tasvirlash vositasidir. Ya’ni yozuvchi binoning, xonaning, ish joyining yoki boshqa yopiq makonning ichki ko‘rinishini tasvirlab, qahramon xarakteri, ijtimoiy mavqeyi, ruhiy holati haqida bilvosita ma’lumot beradi. Adabiyotshunos olim D.Quronov interyerni tavsif termini asar voqeligiga kiritilayotgan narsa-hodisa, joy, portret, interyer, eksteryer va shu kabilar tasviri, deydi. Professor Abdulla Ulug’ov esa, “Adabiyotshunoslik nazariyasi” kitobida interyer haqida qisqagina ma’lumotni berib o‘tadi: “Uy, o‘tov, xona singari yopiq joylar interyerdir. Badiiy asarlarda ana shunday yopiq makonlarning ko‘rinishi, undagi narsalarning turishi, joylashishi ham tasvirlanadi”.

Isajon Sultonning “Ma’suma” romanida ham interyer qahramonlar ruhiy holatini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tahlilga ko’ra interyer: voqeani jonlantiradi, sahnani aniqlaydi; buyumlar, ranglar, tartib yoki tartibsizlik orqali ma’no beradi;

qahramonning kayfiyatini, ichki holatini, dunyoqarashini ifodalaydi.

“Ma’suma” romanida interyer faqat joy manzarasi sifatida emas, balki psixologik va ramziy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Isajon Sulton qahramon yashayotgan makonning ichki ko‘rinishi orqali uning ruhiy holatini, ichki dunyosidagi ziddiyatlarni ko‘rsatadi. Masalan, Ma’sumaning yashash joyi, sovuq devorlar va jimjitlik uning ichki yolg‘izligini, ruhiy siqilishini ifoda etadi. Muallif interyer orqali inson va muhit o‘rtasidagi ziddiyatni ochadi. Ma’suma uchun uy bu faqat yashash joyi emas, balki uni o‘rab turgan chirkin jamiyatdan, odamlarning unga qilgan sovuq munosabatlaridan ramziy ajratilgan makondir. *“Uy huvillagan, har burchagi uni qo‘rqitadi, vahima uyg‘otadi. Xontaxta ustidagi chiroqni yoqadi. Bu yog‘du ozday tuyuladi. Javonni ochib, sham o‘ramini oladi, bir nechtasini yondirib, tokchalarga qo‘yib chiqqach, uy shamning sarg‘ish yog’dusiga to‘ladi”.* Xonaning bo‘shligi, sokinligi, yorug‘likning sustligi kabi detallar uning ichki dunyosidagi bo‘shliqni, tobora umidsizlikka tushib borayotganini anglatadi. Romandan olingan ushbu parchada ayol yolg‘iz, uning hech kimi yo‘q. Tasvirdagi “xontaxta ustidagi chiroq”qa e’tibor qarataylik, u nur taratyapti, ammo bu nur Ma’suma uchun oz. Ikki farzandini urush girdobiga o‘z qo‘llari bilan yuborgan onaning ichki his-tuyg‘ulari shamning sarg‘ish yog‘dusiga parallel tasvirlangan. Ma’suma joylashgan mehmonxona tasviriga ham e’tibor beraylik: *“....torgina, bir stol-stul, bir yotoq qo‘yilgan oddiygina bo‘lma. Burchakda “burjuyka” pechka, ichida cho‘g‘ lang‘illab turibdi, pechka yonidagi paqirga ko‘mir to‘ldirib qo‘yilibdi”.* Shuningdek, asarda tabiat va tashqi manzaralarning interyer bilan uyg’unlashuvi ham muhim: *oynadan kirib turgan zaif nurlar, so‘nib borayotgan shamlar, chang bosgan buyumlar* – bularning barchasi Ma’suma hayotining so‘nayotgan umidlarini ifodalaydi. Shu jihatdan interyer romanning falsafiy mazmunini kuchaytiruvchi badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Romandagi eng muhim badiiy - tasvir vositalaridan yana biri *peyzajdir.*

Bilamizki, peyzaj badiiy asarning estetik ta’sirini oshiruvchi eng muhim omil sanaladi. Yozuvchi asar voqealarini hikoya qilar ekan, voqealar fonida kechayotgan tabiat o‘zgarishlarini ham tasvirlaydi. “Asarda peyzaj bajaruvchi birlamchi funksiya voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir”. Shuningdek, “Peyzaj asar qahramonlari harakatlariga sharoit yaratish, paytni belgilash, muayyan sharoitdagi holatini kayfiyatini ta’kidlash, voqealar rivojiga ta’sir etish kabi xususiyatlari bilan asarning g‘oyaviy yo‘nalishida muhim o‘rin tutadi”[Quronov, 2013]. Isajon Sulton zamonaviy o‘zbek adabiyotining chuqur psixologik yo‘nalishdagi yozuvchilaridan biridir. Uning asarlarida peyzaj: voqealar fonida emas, voqealarning ichida yashovchi badiiy qatlam sifatida; inson qalbining ichki holatini ifodalovchi psixologik manzara sifatida qo‘llanadi.

Romanning boshlanishi go‘zal va takrorlanmas tabiat tasviri bilan boshlanadi: *“Ko‘klam shamolining mavjlari ko‘cha-ko‘yni, tomlarni, ariqlar yoqasini o‘ynoqlab kezadi. Uning sho‘xliklari maysa-yu o‘t-o‘lanlarning har yer- har yerda, ahyon-ahyonda siltalanib qolishidan bilinadi. Ko‘zga ko‘rinmas bu mavjlar hademay gulto‘kar shamol esib qolishidan darak. Chunki ko‘cha chetlaridagi, hovlilardagi daraxt qiyg‘os gul ochgan”.* Roman voqealari davomida peyzaj *psixologik parallelizm* tamoyiliga asoslanadi, tabiatdagi har bir o‘zgarish qahramonning ruhiy kechinmasiga mos tushadi: “ *...tog‘lar tomondan qora bulutlar bostirib kelayotganini ko‘radi Ma’suma. Biroq uning qalbidagi bulutlar yana-da qora, yana-da og‘ir”.* Bu o‘rinda Ma’sumaning boshiga kelayotgan og‘ir kunlar qora bulutlarga qiyoslanadi. Roman so‘nggida esa Ma’sumaning farzandlari qahramonlarcha halok bo‘lishadi, bu vaqtda esa Ma’suma bu yorug‘ olamni tark etib bo‘lgan edi va ijodkor uning dafn etilishi vaqtidagi tabiat tasvirini shunday chizadi: “*Shu asnoda qor yog‘a boshlaydi. Sukunat makonining do‘ngtepalari, yozuvlari, daraxtlari, yo‘laklari bir xilda oqlik bilan qoplanadi. Qor yangi qabrning ham qora tuprog‘ini birpasta oqartirib qo‘yadi”.* Isajon Sultonning “Ma’suma” romanida peyzaj

qahramon ruhiyatini yorituvchi psixologik tasvir, asar g‘oyasini mustahkamlovchi estetik vosita va muallif dunyoqarashini ifodalovchi badiiy qatlam sifatida xizmat qiladi. Tabiat tasvirlari orqali yozuvchi inson qalbining eng nozik kechinmalarini ochadi, voqealarga ramziy va falsafiy ma’no beradi. Demak, “Ma’suma” romanidagi peyzaj – bu nafaqat tabiat manzarasi, balki inson ruhining aks-sadosidir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Ma’suma” romanida badiiy – tasvir vositalari obrazni to’laqonli anglash, badiiy ta’sirchanlikni kuchaytirish, syujetning izchilligini ta’minlash uchun keng yordam beradi. Shu bilan birga muallifning individual uslubini, so‘z qo‘llash mahoratini ham keng ko‘lamda namoyon qiladi. Badiiy tasvir vositalarining turlichaligi kompozitsion butunlikka ham alohida ta’sir o‘tkazdi. Kitobxon va obraz o‘rtasida ruhiy yaqinlik hosil bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulton I. Ma’suma. – Toshkent, 2024-yil.
2. Quronov D., Mamajonova Z, Sheraliyeva, M.Adabiyotshunoslik lug ‘ati. –Toshkent: Akademnashr. 2013-yil.
3. Quronov D., Mamajonova Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug ‘ati. –Toshkent: Akademnashr. 2013.
4. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. – Toshkent: Fan, 1973. – B. 49

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA LIRIK KAYFIYAT

Azamat ZARIPOV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Annotatsiya

Ulug' shoir Abdulla Oripov she'riyatida Vatan mavzusining betakror talqini, tabiat lirikasidagi uyg'unlik ochib berilgan.
Kalit so'zlar: *Vatan obrazi, badiiy sintez, peyzaj badiiyati, poetik takomil, ijodiy an'ana, tabiat timsollari.*

Abstract

The poetry of the great poet Abdulla Oripov reveals a unique interpretation of the theme of the Motherland, harmony in the lyrics of nature.
Keywords: *Image of the Motherland, artistic synthesis, landscape art, poetic perfection, creative tradition, symbols of nature.*

Tabiat – insonning doimiy hamrohi bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Dastlab atrof-muhit haqidagi qarashlar tabiatni o'rganishdan, o'zlashtirishdan boshlangan. Biz keyingi yillar o'zbek lirikasida tabiat va inson ruhiyati masalasini o'rganar ekanmiz, tabiat-jamiyat-inson psixologiyasining bog'langan shakllari, ko'rinishlari va vositalarini tadqiq etishga harakat qilayapmiz. Har bir ijodkor o'z badiiy niyati, nuqtai-nazari, ongi, dunyoqarashi taqozosiga ko'ra tabiat xossalari va hodisalariga murojaat etadi. Ana shu estetik maqsadning turfaligi ijodkor avlodlar badiiy talqinidagi xilma-xilliklarni, farqli jihatlarni yuzaga keltiradi. Keyingi yillar o'zbek peyzaj lirikasida tabiat ranglari, ohanglari, manzaralari zimmasiga yuklanayotgan ma'nolar salmog'i o'zining ijtimoiy-falsafiy mazmuni bilan alohida bir sahifani tashkil etadi, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Tabiat xossalari va hodisalari orqali insonni va jamiyatni badiiy-estetik tadqiq etish she'riyatimiz taraqqiyotida yetakchi tendensiyalaridan biriga aylandi. Peyzaj lirikasi, bu – tabiat va inson munosabatlarining faqat zohiriy ko'rinishlari, ya'ni kechinmalar shaklidagi ifodasi emas, aslo. Tabiat tasviri asosida inson ruhiyati manzaralarini anglash va anglatish, jamiyat psixologiyasini tushunish hamda tushuntirish bosh masalaga aylanadi. Ma'naviy-ahloqiy, ijtimoiy-falsafiy, ma'rifiy mazmun va xususiyatlariga ko'ra peyzaj lirikasi avlodlar ongiga, uning dunyoqarashishp, badiiy-estetik tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov she'riyatidagi kechinmalarni suratlantirish asnosida shoir his-tuyg'ularining poetik fikrga aylanish holatlari, ularni yuzaga chiqarishda qo'llanilgan vositalar va ushbu jarayondagi shoir mahorati to'g'risida so'z yuritishga jazm qildik. Bu narsa, peyzaj lirikasining tabiati to'g'risida muayyan tasavvur uyg'otishga xizmat qiladi. Masalan, ulug' shoirning "Tong" she'rini mutolaa qilar ekanmiz...

Uyg'on, quyosh o'ynar yuzingda,
Bugungi tong shunchalar go'zal.
Lovullaydi shafaqlar yal-yal,
Nechun xayol qotmish ko'zingda.
Kiprigingda yosh olmos-olmos,
Nechun cho'mding uyquga qayta?
- oltin yoshligimni ko'rdim men,
- Qayda?
- Tushimda... [Опунов, 2000:68]

She'rni o'qir ekanmiz, unda lirik qahramonning murojaati xuddi yaqin safdoshi, o'rtog'i, dardkashi qarshisida turgandek tasavvur uyg'otadi. Bu dardkash, albatta, tabiatning ajralmas qismi

bo‘lgan quyosh obrazida mujassam topgan. Tabiatning jonli tasvirini kuzatar ekanmiz, undagi samimiyat qalbimizga o‘rnashadi. Natijada borliqning iliq harorati ila tongni qarshi olamiz. Bu original yondashuv qalbu shuurimizga o‘tib o‘z tafti ila ko‘ngilimizga ko‘chadi. Ushbu she’rning “oltin yoshligimni ko‘rdim men” misralari orqali bolalik davrni sog‘inish hissini tuyamiz. Lirik qahramon va tongning suhbati bizga berilayotgan tortiq kabidir. Bu ajib tarovat, iliq harorat har bir ko‘ngilni tongni qarshi olishga undaydi.

Abdulla Oripov yaratgan ko‘plab she’rlarida ota makonini, qadrdon qishlog‘ini sog‘inish, insoniylikka yetaklovchi ezgu qadriyatlar o‘z ifodasini topgan.

Parchagina bulut,
Cheksiz osmon,
Adir ortidagi yolg‘izoyoq yo‘l.
Barcha tashvishlarni unutib, shodon,
Qaytgim kelayotir qoshingga butkul.

Ushbu otashin misralarni o‘qir ekanmiz, qalb haroratidagi sog‘inch hissiyoti o‘tli nur bo‘lib inadi, qalb qaynoqlariga to‘layotgan haroratning tuyg‘usi barcha jarayonlarni boshqarayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Inson hayotida yaxshiyu yomonliklarni, turmush zarbalariga chidashsham berishi ayni haqiqat.

Qismat mayin ichdim – achchiq va tahir,
Tuydim ehtirosning samoviy kuchin.
Dunyoga odamzod yashamas, axir,
Faqat irodasin sinamoq uchun. [Орипов, 2016:89]

Abdulla Oripov his-hayajonga to‘liq she’rlari orqali shodligu qayg‘uni tabiat tasviri orqali berishga intilgan, o‘z qalbini tabiat qiyofasiga mengzagan. Uning qalbi tabiat uchun keng makonga aylangan. Shu bois shodlikdan yaralgan ko‘ngil dalasiga bahor o‘z quvonchlari bilan tashrif buyuradi. Shoir nafaqat qalbini tabiat quchog‘iga aylantiradi, balki tabiatning turfa jilolarini butun go‘zalligi bilan berishga intiladi. Ushbu fikrimizga shoirning “Bahor shamoli” [Орипов, 2013:77] she’ri yaqqol misol bo‘la oladi:

Bahor kelayotir,
Toza, musaffo.
Moviy kengliklarda o‘ynaydi shamol.
Daralar qo‘ynida zangor bir havo,
Tumanli shahr ichra yotmoqlik malol.

Shoir yaratgan har bir misra o‘ta samimiy. Unda ko‘ngil rozi o‘z ifodasini topgan. Bizningcha, Abdulla Oripov bor tuyg‘uni, hissiyotini qay holatda bo‘lsa shunday qog‘ozga ko‘chiradi. She’rlari shunday yaraladi. Agar qayta ishlansa, bu samimiyat yo‘qoladi, qalb harorati, uning tafti o‘zgaradi go‘yo.

Qoyalar ko‘ksida shodmon, beqayg‘u,
Oniy umri bilan sollanar chechak.
Bahor bu – eng toza shabbodadir bu,
Bahor bu – eng toza shamoldir demak.

Yuqoridagi misralarda ham xuddi shunday hissiyot qalbni chulg‘ab oladi. Darhaqiqat, bahor — yasharish fasli. Shoir bu yasharishda kunlarning umri uzayganligida ko‘ra oladi.

Kengliklar bag‘riga uraman o‘zni,
Ko‘zimga ko‘ringay dilbar diyorim.
Go‘dak nafasidek yupatar yuzni
Qish bo‘yi intizor kutgan bahorim.

Shoir bahorni mana shu qiyofada sevadi va ko‘ra oladi. Mana shu qiyofada o‘z o‘quvchisiga taqdim etadi. Zero bu qiyofa o‘ta sodda bo‘lsa-da, o‘ta samimiydir. Bu samimiylik o‘ta sokin ohanglarda

ifodalanishi ham hayratni keltirib chiqaradi.

Biz tabiat poetikasida lirik qahramon masalasiga to‘xtalar ekanmiz, uning asosiy tasvir obyekti bo‘lgan atrof-muhit va tabiatning subyektda qay darajada namoyon bo‘lishi va qanday prinsiplar asosida ifodalanishiga e’tiborni qaratamiz. Ijodkorning tabiatga murojaati jarayonda borliqni badiiy idrok etish va uni badiiy tadqiq etish holati ko‘zga tashlanadi. Insoniyat tamaddunidan beri u o‘zini tabiatning bir bo‘lagi deb bilgan, unga sig‘ingan (mifologik qarashlar – quyosh xudosi, oy ma’budi, dengiz xudosi va h.k.) bo‘lsa, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, inson o‘zini uning uzviy bir qismi, deb emas, balki uning egasi sifatida ham his qila boshlaganini, bu esa inson va tabiat o‘rtasidagi keskinlashuvni, ekologik muvozanatning buzlishiga olib kelganligini ko‘rsatadi. 80-yillarga kelib peyzaj she’riyatda bu masalaga munosabat bildirish kuchaydi. Bu holat davrning fan va texnika taraqqiyoti bilan ham bog‘liqdir. She’riyat ushbu davrga kelib mazkur xususiyatlarga ko‘ra publitsistik ohang kasb eta boshlaganini ta’kidlash zarur. Ya’ni jamiyat hayotining muhim muammolari xususida bong ura boshladi. Agar shoir tabiatni emotsional (hissiy) tarzda anglasa va o‘sha anglamoqni poetik idrok bilan tasvirlay olsagina o‘z maqsadiga erisha oladi. Bu borada o‘zbek she’riyati avlodlarining yetakchilaridan Abdulla Oripov ta’kidlash zarur.

Rus klassik adabiyotida psixologik tahlilning (badiiy asarning barcha tur va janrlarida) uchta asosiy prinsipi ko‘zga tashlanadi. Rus adabiyotshunos olimi, akademik M.Xrapchenko har bir davr uchun umumiy bo‘lgan psixologik tasvirning dinamik, tipologik, analitik prinsiplarini alohida ko‘rsatib o‘tadi. O‘zbek adabiyotshunoslaridan B.Aliyev she’riyatda psixologik tasvir ko‘rinishlarini she’rining uch shakliga ko‘ra tekshirishga harakat qilgan. Bular sof lirik, falsafiy-psixologik va voqeaband (syujetli) she’rlardir. Shuningdek, J.Jumaboyeva ham XX asr o‘zbek she’riyatida psixologik tasvir ko‘rinishlarini davr voqeliklari bilan bog‘lab tahlil qilib o‘tgan.

N.G.Chernishevskiyning psixologik tahlilni “ijodiy talantga kuch bag‘ishlaydigan eng muhim fazilatlardan biri”, ekanligini aytib o‘tsa, professor U.Normatov “psixologik tasvir adabiyot uchun qanchalik muhim bo‘lmasin, birdan-bir maqsad emas”, deb hisoblaydi. Shunga ko‘ra psixologik tasvir she’r ta’sirchanligi va emotsionalligini oshirishi tabiiydir.

Abdulla Oripov she’riyatida ruhiyat tasviri faqat ruhiy holatlar bilangina chegaralanmaydi. Bu hodisa shoir ijodida o‘zining turfa xil xususiyatlarini, rang-barang qirralarini namoyon bo‘ladi. Bu xil she’rlarda asosan lirik qahramon kurashchan, nuqson va kamchilklarga nisbatan isyonkor, dardkash va ayni paytda nekbin tuyg‘ularga oshno zamondoshimiz sifatida gavdalanadi.

Shoirning “Albomga”, “Yuzma-yuz”, “Bahor”, “Dengizga”, “Sarob”, “Onajon”, “Shoir”, “O‘zbekiston”, “Ketganlar yodi bu”, “Momo oftob”, “Malomat toshlari”, “Ishonch ko‘priklari” kabi she’rlarida lirik qahramon ruhiy olamini tasvirlashda realistik yo‘l tutiladi va shoir shaxsiyatidan ajratib bo‘lmaydigan lirik qahramonning obraz-portreti yaratiladi. Bu asarlarning har biri programm yoki avtobiografik xarakterdagi she’rlar bo‘lib, lirik qahramon xarakterining turli qirralarini aks ettiradi. Bunday she’rlarda lirik kechinma ham, epik unsurlar ham, lirik-publisistik usul ham birday ahamiyatga ega. Bu usullarning har biri she’r mavzusi, shoirning maqsadiga ko‘ra ba’zi bir alohida she’rlarda yetakchilik qilishi mumkin. Lekin pirovard-natijada bizning ko‘zoldimizda isyonkor, hayot qozonida qaynayotgan, kamchiliklarga birinchi navbatda kishilar ruhiyatidagi noqisliklarga nisbatan murosasiz, “birovlardan tuyg‘u olmagan”, “ovozini o‘zgaga berishni istamaydigan” shoir shaxsi namoyon bo‘ladi. Biz bu she’rlarning har birida shoir lirik qahramoni ahvol-ruhiyatini, uning botinidagi ichki kechinmalarni va ko‘proq mavjud sharoitdan qoniqmaslik, norozilik tuyg‘ularini sezib turamiz. Zotan, A.Oripov o‘zbek she’riyatiga “urra” va “yashasin” chilikdan farqli o‘laroq, ijtimoiy norozilik motivlarini olib kirgan shoirdir. Biz shoir-lirik qahramoni mana shu xislatlari uchun sevamiz, u — mana shu noroziligi bilan bizga yaqin, dardkash.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, Abdulla Oripov she’riyatida peyzaj tasviri orqali shoir estetik ideali, ijod konsepsiyasi ifodalangan. Shoir uchun peyzaj hayot falsafasini, inson, tabiat va jamiyat munosabatlarini poetik talqin etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ijodkor tabiat tasviri vositasida, birinchidan, milliy ruhiyatni, ikkinchidan, umumbashariyatga daxldor falsafiy qarashlarni

yuksak san’at darajasida ifodalay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жабборов Нурбой. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015.
2. Жўрақулов Узоқ. Биографик талқин: тарихи, табиати, методологияси. //ЎзМУ хабарлари журнали, 2006.
3. Комилов Нажмиддин. Тафаккур карвонлари. – Тошкент: Sharq, 2011.
4. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Тошкент: Sharq, 2011.
5. Орипов Абдулла. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Биринчи жилд. Т.: Адабиёт ва санъат, 2000.
6. Орипов Абдулла. Танланган асарлар. Саккиз жилдлик. 7-жилд. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2013.
7. Орипов Абдулла. Танланган асарлар. 8-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2016.
8. Saidov Akmal, Abdurahmonov Qalandar, G‘ulom Mirzo. O‘zbekiston – dilbar vatanim. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
9. Эккерман П.Л. Разговоры с Гёте в последные годы жизни, М.- Л. Академия, 1934. – С. 318
10. Erkayev Abdurahim. Abdulla Oripov dahosi. – Toshkent: Oltin nashr, 2021.
11. Қосимов Б. Уйғонган миллат маърифати. – Тошкент: Маънавият, 2011.
12. Ҳанифа Мустафо қизи, Рухсора Орипова. Абдулла Орипов замондошлар хотирасида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1969. – Б.70

OBRAZ VA UNING JADID DRAMATURGIYASIDAGI ADABIY-ESTETIK VA IJTIMOIY-MA'RIFIY ASOSLARI

Gulshan Nurullayeva,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti doktoranti
e-mail: gulshan.nurullayeva91@mail.ru

Annotatsiya

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida uyg'onish g'oyasini ilgari surgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy hodisa sifatida shakllandi. Bu davr adabiyoti, xususan, dramaturgiyasi xalqni ilm-ma'rifatga chaqirish, eskirgan urf-odatlarni tanqid qilish va yangicha dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qildi. Jadid dramaturgiyasida obraz tushunchasi markaziy o'rinda turadi, chunki u orqali dramaturglar zamonning ijtimoiy muammolarini badiiy ifoda etganlar.

Kalit so'zlar: *obraz, jadid dramaturgiyasi, obrazlarning ijtimoiy asoslari, tipiklashtirilgan obrazlar, milliy uyg'otish, ayollar obrazi.*

Abstract

The Jadid movement emerged in the late 19th and early 20th centuries as a socio-political and cultural phenomenon that promoted the ideas of awakening within Turkestan society. The literature of this period, particularly drama, served to encourage public enlightenment, criticize outdated traditions, and shape a new worldview. In Jadid drama, the concept of the character occupies a central place, as it is through such artistic images that playwrights expressed the social issues of their time.

Keywords: *image (character), Jadid drama, social foundations of characters, typified characters, national awakening, female image (women's character).*

Kirish

Adabiyot nazariyasida obraz – bu muallifning badiiy vositalar orqali yaratgan hayotiy timsoli, xarakteri yoki shaxsiyati bo'lib, u voqelikni umumlashtiradi, g'oyaviy yuk tashiydi, axloqiy va ma'naviy baholash beradi. Jadid dramaturglari –Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon va boshqalar – sahna orqali xalqning savodsizlik, nodonlik, jaholat, eski urf-odatlarga berilish kabi muammolarini ko'rsatdilar; yangilik, ma'rifat, ayol erkinligi, milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari suruvchi obrazlar yaratdilar.

Asosiy qism

Obrazlar endi faqat syujetning bir qismi emas, balki g'oyaviy-ma'rifiy tashuvchilarga aylandi. "Jadidlar hayotiy – realistik obrazlar yaratishga intildilar" [Abdulxayrov, 2009: 78].

Ular:

• xalqning oddiy vakillari – o'qituvchi, talaba, savdogar, moliya vakillari;

• ayollar taqdiri;

• maktab islohoti va ma'rifat dardini ko'rsatadigan shaxslar orqali jamiyatdagi jarayonlarni fosh qildilar.

Masalan:

• Behbudiyning "Padarkush" dramasi – jaholat oqibatida ma'naviy halokatga uchragan oila fojiasi.

• Hamzaning "Boy ila xizmatchi" – boylar va kambag'allar o'rtasidagi ijtimoiy tafovut.

Jadid dramaturgiyada obrazlar ko'pincha tipiklashtirilgan bo'lib:

• "boy" – eskilik ramzi;

• “o‘qimagan kishi” – jaholat timsoli;
• “o‘qituvchi” yoki “ma’rifatchi” – taraqqiyot belgisi sifatida ko‘rinadi.
Bu tiplar orqali dramaturglar jamiyatdagi asosiy muammolarni keskin badiiy shaklda aks ettirdilar. Obrazlar o‘rtasidagi konflikt – jadid dramaturgiyasining estetik asosidir.
[Abdulxayrov, 2009: 80]
Asarlarda ko‘pincha:
• yangi bilan eskining to‘qnashuvi,
• ma’rifat bilan jaholatning kurashi,
• ayol erkinligi bilan patriarxal qarashlar ziddiyati
asosiy dramatik kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Jadid dramaturgiyasi xalqni zamonaviy ta’limga, dunyoviy fanlarni o‘rganishga undadi. Obrazlar orqali nodonlikning oqibatlari, ilmning yuksak qadri, yangi maktab va tarbiya zarurati keng targ‘ib etildi. Masalan, o‘qituvchi obrazi ko‘pincha ma’naviy poklik, islohotchilik, jamiyatni uyg‘otuvchi timsol bo‘lib chiqadi.

Jadid dramaturglar ayollar masalasini jamiyat taraqqiyotining muhim sharti deb bildilar. Sahna asarlaridagi ayol obrazlari: o‘qimaganlikdan aziyat chekkan, zo‘ravonlikka uchragan, erkinlik va ta’limga intilgan ko‘rinishlarda tasvirlandi. Bu orqali ular ayol va erkak tengligini ma’naviy-ijtimoiy zarurat sifatida ilgari surdilar.

Ijtimoiy adolat va milliy uyg‘onish. Obrazlar jamiyatdagi tengsizlik, adolatsizlik, iqtisodiy zulmni ochib beradi. Jadid dramaturgiyasi: milliy o‘zlikni anglash, o‘z ona tilini, madaniyatini asrash, millatni uyg‘otish g‘oyalarini yetkazdi.

Jadid dramaturgiyasining bosh maqsadi – xalqni ilm-fanga, maktab va ta’lim islohotlariga da’vat qilishdir [Qosimov, 2002: 51]. Shu sababli ma’rifatparvar qahramonlar (o‘qituvchilar, ziyolilar, yoshlar) obrazlari markaziy o‘rin tutadi. Ular jamiyatni uyg‘otuvchi kuch sifatida, yangi g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi.

Ayol masalasi jadid dramaturgiyasining muhim mavzularidan biridir. Obrazlar: ma’rifatsizlikdan aziyat chekayotgan ayollar, o‘qishga intilayotgan qizlar, qo‘pol patriarxal munosabat qurbonlari, jamiyatdagi tengsizlikdan norozi ayollar sifatida ko‘rinadi. Bu obrazlar orqali dramaturglar ayol erkinligi va ta’limining ijtimoiy ahamiyatini targ‘ib qilganlar.

Boylar, nodon mullalar, bilimsiz rahbarlar kabi obrazlar jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlikni ochishga xizmat qiladi. Jadid dramaturglar bu obrazlar orqali jamiyatning axloqiy tanazzuli, ijtimoiy tabaqalanish, ma’naviy inqiroz kabi muammolarni tanqid qiladilar.

Obrazlar orqali milliy o‘zlik, til, madaniyat, milliy birdamlik g‘oyalari ham targ‘ib etilgan. Ziyoli obrazlari ko‘pincha millatning kelajagi uchun qayg‘uruvchi shaxs sifatida gavdalanadi.

Xulosa

Jadid dramaturgiyasidagi obrazlar oddiy badiiy tasvir emas – ular ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi ma’rifiy timsollardir. Bu obrazlar orqali jadidlar:

eskilikka qarshi islohot g‘oyalarini, ma’rifat va ilmning ustuvorligini, milliy uyg‘onish zaruratini, insonparvarlik va adolat tamoyillarini keng targ‘ib qildilar.

Shu bois, obrazning adabiy-estetik va ijtimoiy-ma’rifiy asoslari jadid dramaturgiyasi mazmunining markazida turadi va uning badiiy kuchini belgilaydi. Natijada jadid dramaturgiyasidagi obrazlar o‘z davri uchun ham, zamonaviy adabiy tafakkur uchun ham katta estetik va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, turli nashrlar.
2. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Dramatik asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
3. Fitrat A. O‘zbek dramaturgiyasi haqida. – Toshkent: Fan, 1990-y.
4. Cho‘lpon A. Asarlar. 2 jildlik. – Toshkent: Fan.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi.
6. Qosimov B. Jadidchilik: ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
7. A. Rasulov. O‘zbek jadid adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet.
8. Rajabov Sh. Jadid adabiyoti va dramaturgiyasi. – Toshkent: Fan.

MAQSUD SHAYXZODANING “JALOLIDDIN MANGUBERDI” DRAMASI SYUJETI VA KOMPOZITSION QURILISHIDA TARIXIY INVERSIYANING O‘RNI

Mamatvaliyev Muhammad Qo‘ymurodovich,
NamDU mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: repetitor2008.76@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi syujetini shakllantirishda va kompozitsion qurilishida tarixiy ma’lumotlardan ijodiy foydalanish masalasi tadqiq qilingan. Tadqiqot jarayonida Mixail Baxtin nazariy xulosalaridan, Shihobiddin Muhammad An-Nasaviy va Atomalik Juvayniy qalamiga mansub tarixiy manbalardagi ma’lumotlardan foydalanilgan, Jaloliddin Manguberdi fe’l-atvoriga xos jihatlar xalq og‘zaki ijodidagi arxetiplar bilan qiyoslangan.

Kalit so‘zlar: *syujet, kompozitsion qurilish, konflikt, tarixiy inversiya, voqealar rivoji, dramatizm.*

Abstract

This article explores the creative use of historical data in shaping the plot and compositional structure of Maqsud Shayxzoda’s drama “Jaloliddin Manguberdi.” The study draws on the theoretical concepts of Mikhail Bakhtin, as well as information from historical sources authored by Shihabiddin Muhammad an-Nasawi and Atamalik Juvayni. The characterological traits attributed to the figure of Jaloliddin Manguberdi are compared with archetypes found in oral folk tradition.

Key words: *plot, compositional construction, conspiracy, historical inversion, development of events, dramatism.*

Janri va saviyasidan qat’iy nazar, har qaysi tarixiy asar syujetini shakllantirish va kompozitsion qurilishini ma’lum maqsadga bo‘ysundirish ijodkor uchun oson kechmaydi. Tarixiy materialni o‘rganish jarayonida voqelikka munosabat va estetik qarashlarni uyg‘unlashtirish ijodkordan o‘ziga yarasha bilim va mahorat talab qiladi. Muallif o‘z ijodiy konsepsiyasini yozilayotgan badiiy asar mohiyatiga singdirishi asnosida tarixiy haqiqatning inversiyaga uchrashi zaruriy hodisadir. Tarixiy haqiqat ijod jarayonida etik va estetik, tarixiy-falsafiy, ilmiy-nazariy va boshqa tamoyillar nuqtai nazaridan inversiyaga uchraydi. Mixail Baxtinning falsafiy-estetik qarashlarida alohida o‘rin tutgan “tarixiy inversiya” tushunchasining qamrovi nihoyatda keng. Ilhomning eng yuksak bosqichlarida shunday favqulodda holatlar yuz berishi mumkinki, bu vaziyatda tarixiy haqiqatning inversiyaga uchrashi hatto muallif xohish-irodasiga bo‘ysunmaydi. Muallif o‘zi yozayotgan asar xronotopiga eng yuksak estetik ideallar darajasida turib munosabatda bo‘ladi, ya’ni asar voqealarini o‘tmish va kelajak, obrazlarni esa tubanlik va yuksaklik vertikaliga joylashtiradi. Boshqacha aytganda, muallif o‘zi yozayotgan asar voqealari va qahramonlarini zamon gorizontalida ko‘rishni istamaydi. Zero, taqdiriga abadiylik muhri bosilgan badiiy durdona asarlar hech qachon ma’lum bir tarixiy davr qolipiga sig‘maydi. Bu kabi durdona asarlar bosh qahramonini Mixail Baxtin kelajak hisobidan ulg‘aygan ulkan (monumental) odam sifatida ta’riflaydi. Uning ta’biricha, kelajak hisobidan ulg‘aygan odam zamonaviy odamga nisbatan bahodir hisoblanadi. Makon va zamon kengliklarini o‘ziga to‘la bo‘ysundirmog‘i uchun ham monumental odamga ulkanlik libosi kiydiriladi. Ijodkor tomonidan monumental odam shunday zavq-shavq bilan, kitobxonga aziz va sevimli bo‘lib qoladigan darajada tasvirlanadiki, hatto uning beqiyos ishtaha bilan ovqatlanishi va bu jarayonda noz-ne’matlarni mo‘l-ko‘l iste’mol qilishi ham kitobxonni eyforiyaga tushiradigan darajada yoqimlidir. [Baxtin, 2015: 120-125]

“Jaloliddin Manguberdi” dramasi syujeti va kompozitsion qurilishiga, dramadagi konflikt liniyalari va obrazlar tizimiga Mixail Baxtin ilmiy xulosalaridan kelib chiqib nazar tashlansa, Maqsud Shayxzodaning ulkan ijodiy salohiyati, badiiy dunyoqarashining naqadar ulug‘vorligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Dramaturg syujet ekspozitsiyasini shakllantirishda to‘y sahnasidan foydalanadi. Sultonbegimning amir Badriddinga uzatilishi Xorazmshohlar davlatining poytaxti Urganch shahrida emas, balki Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadi. Albatta, milliy-etnik qadriyatlarga ko‘ra, qizning, xususan, malikaning ota hovlisidan, ya’ni shoh saroyidan emas, balki boshqa bir hududda turmushga chiqishi g‘ayritabiiy voqelikdir. Maqsud Shayxzoda esa xalqimiz tabiatiga xos mazkur milliy an’anani bilgan holda shunday yo‘l tutadi. Ayni shunday vaziyatlarni hisobga olib, Mixail Baxtin tarixiy haqiqat inversiyaga uchrashini muallif ataylab uyushtirishini ta’kidlaydi. Faylasufning roman xronotopi misolida aytgan ilmiy xulosalari aslida har jihatdan umumbadiiy voqelikka xosdir. Shu ma’noda o‘z tarixini yaxshi bilgan kitobxon va tomoshabin uchun to‘yning Samarqandda bo‘lishi ajablanarlidir. Syujet ekspozitsiyasining o‘zidayoq tomoshabin va kitobxonni ajablantira olish dramaturgning dastlabki ijodiy yutug‘i deya baholanishga arziydi. Eng muhimi, mazkur ijodiy yondashuvda muallif tarixiy haqiqatni buzmaydi, aksincha, uni badiiy inversiyalaydi.

Ma’lumki, Xorazmshohlar saltanatining so‘nggi bosqichida davlat boshqaruvida ikki hokimiyatchilik kuzatilgan. Turkon xotun o‘z qarindosh-urug‘larini yuqori mansablar bilan siylashni xohlaydi va xohish-istaklarini amalga oshirish maqsadida o‘zi uchun ham maxsus tilla muhr yasatadi. Onasining xohish-irodasiga qarshi borolmagan Muhammad Xorazmshoh Chingiz istilosi arafasida Samarqand shahrida yashaydi va davlatni shu yerdan turib boshqaradi. Tabiiyki, Urganchda turib davlatni boshqargan Turkon xotunning tilla muhr bosilgan farmoyishlari o‘g‘lining qonuniy yorliqlaridan ustun turardi [Rahimov, 2022: 117].

Xorazmshohlar davlatidagi ichki ziddiyatlar, xususan, Muhammad Xorazmshoh va uning onasi Turkon xotun o‘rtasidagi kelishmovchiliklar drama syujetida uchramaydi. Dramaturg Samarqanddagi to‘y sahnasi orqali zalvarli badiiy konfliktning ijtimoiy ildiziga ishora qiladi va kitobxon hamda tomoshabinni shu ziddiyat muhitiga ruhan tayyorlaydi. Muallifning syujet ekspozitsiyasidagi bu kabi keskinlikni yaratishi kompozitsion jihatdan o‘zini oqlaydi.

Kezi kelganda, Maqsud Shayxzoda Sultonbegim erining nomini nima sababdan Badriddin deb atashiga qisqacha to‘xtalsak. Tarixiy haqiqatga ko‘ra, Sultonbegimning asl ismi Xonsulton va u Samarqand shahri hokimi Usmonga uzatiladi. Fikrimizcha, ijtimoiy etikaga yuksak darajada amal qiluvchi Maqsud Shayxzoda Sultonbegimning xoin erini tarixiy ma’lumotlar asosida Usmon deb atashga iymanadi. Chunki drama yozilgan tarixiy davrda O‘zbekistonni Usmon Yusupov boshqarardi va “Jaloliddin Manguberdi” dramasini yozish uchun u Maqsud Shayxzodaga ijtimoiy buyurtma bergan. Mazkur tarixiy inversiyaga gipotetik jihatdan yondashsak, Maqsud Shayxzoda o‘zining qadrdoni bo‘lgan va repressiyaga uchragan Usmon Nosir nomini xoin obrazga yopishtirishni xohlamagan. Qolaversa, o‘sha davr ijtimoiy-siyosiy voqeligida “badriddinovchilik ishi” keng muhokama qilingan va qoralangan. Barcha jihatlarni hisobga olgan Maqsud Shayxzoda Usmon nomini Badriddinga almashtirgan va xoin Badriddin tarixan Xorazmshohlar davlatidagi sotqin amaldorlardan biri ekanini nazarda tutsak, Maqsud Shayxzoda qo‘llagan tarixiy inversiya o‘z o‘rniga tushgan.

Drama syujetidagi tugun Muhammad Xorazmshoh va Jaloliddin o‘rtasida Chingiz istilosiga qarshi qanday harbiy taktika tanlash borasida yuzaga qalqib chiqadi. Asosiy konflikt shu ziddiyat natijasida shakllanadi va Jaloliddinning valiahdlikdan mahrum etilishi bilan yakunlanadi. Akademik Naim Karimov ma’lumotlariga ko‘ra, Maqsud Shayxzoda o‘rta asr muarrixlari Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy va Atomalik Juvayniy qalamiga mansub tarixiy kitoblarni sinchiklab o‘rgangan. Tarixiy manbalarda Muhammad Xorazmshoh hayotining so‘nggi kunlariga qadar valiahd deb tayinlanmaganligi qayd etiladi. Xususan, an-Nasaviy shunday yozadi: “Uning (Qutbiddinning) ikki akadan – Jaloliddin Manguberdi va Rukniddin G‘ursantjiydan oldin taxt vorisi qilib belgilanishi sultonning mavqeyi yuksak onasi Turkon xotun amriga bo‘ysungani bilan izohlanadi. Negaki Qutbiddinning onasi, uning boshqa bolalarining onalaridan farqli o‘laroq, Turkon xotunga aloqador bo‘lgan bayot urug‘idan edi” [Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy, 2018: 46]. Boshqa

tarixiy manbalarda ham Qutbiddin O‘zloqshoh avvaldanoq Xorazmshohlar saltanati valiahdi ekanligi aniq-tiniq eslatilgan. Jumladan, turk olimi Meryam Gurbuz bu xususuda shunday mulohaza bildiradi: “Haqiqatan ham, Sulton Alouddin Muhammad oldin o‘g‘illaridan O‘zloqshohni valiahd qilib tayinlagan edi, keyinchalik esa bu qarorni o‘zgartirdi. Buning ustiga O‘zloqshoh sultonning eng kichik o‘g‘li edi. Ko‘rilganidek, eng katta shahzodaning valiahd bo‘lishiga doir bironta ham qoida yo‘q edi” [Gurbuz, 2022: 59]. Xalqimiz ong-u shuurida “Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar davlatining valiahdi bo‘lgan, otasi Muhammad Xorazmshoh bilan tortishuvdan so‘ng va Turkon xotunning talabiga ko‘ra, valiahdlikdan mahrum etilgan” qabilidagi ma’lumot mahkam o‘rnashib qolgani uchun ham biz ayni jihatga alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Yana bir bor takrorlaymiz: tarixiy haqiqatga ko‘ra, Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar davlatining valiahdi bo‘lmagan. Avval boshdanoq valiahd Qutbiddin O‘zloqshoh bo‘lgani va unga Xorazm, Xuroson, Mozandaronni boshqarish topshirilganligi haqida an-Nasaviy guvohlik beradi [Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy, 2018: 45].

Maqsud Shayxzoda ayni shu tarixiy haqiqatga o‘zgacha yondashadi va tarixiy haqiqatni inversiyalash orqali syujet tugunini shakllantiradi. Ayni chog‘da dramatizmni yana ham kuchaytirish uchun yangi valiahd Qutbiddin O‘zloqshohni murg‘ak go‘dak ko‘rinishida tasvirlaydi. Qutbiddin O‘zloqshoh valiahdlik tojini kiyganda o‘smir yoshida bo‘lganligi va unga bir necha viloyatni boshqarish topshirilganligi tarixan ma’lum. Tomoshabin va kitobxon ko‘z o‘ngida qo‘rqmas va qaysar, mohir sarkarda va qahramon Jaloliddin Manguberdi valiahdlik tojidan ayriladi, toj-taxt taqdiri esa murg‘ak go‘dak Qutbiddin O‘zloqshohga bog‘lab qo‘yiladi. Shu tariqa tarixiy xronotop koordinata tekisligining vertikal chizig‘ida ulkanlik va bahodirlikka nisbatan murg‘aklik va zaiflik qarshilantiriladi. Inversiyaga uchragan tarixiy haqiqat kitobxon va tomoshabinga ataylabdan shunday qarama-qarshilikda ko‘rsatiladi. Ikkinchi jahon urushi davrida dramaning spektakl variantini ko‘rgan tomoshabin tragik kolliziyalarni qabul qilishi qiyin edi. Shuning uchun ham dramaturg tomoshabin adolat va adolatsizlikni tez fahmlaydigan, oson ajratadigan variantni tanlaydi.

Dramada syujet tugunini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan yana bir epizod mavjud. Avj pallaga chiqqan to‘y mo‘gul elchilarining kelishi bilan azaga aylanadi. Mo‘g‘ul elchilari bilan muloqot asnosida Muhammad Xorazmshoh va Jaloliddin o‘rtasida kelishmovchilik kelib chiqadi. Tarixiy manbalardan yaxshi ma’lumki, Muhammad Xorazmshoh va Chingizxon o‘rtasidagi elchilik munosabatlarida Mahmud Yalovoch alohida o‘rin tutadi. Aynan Mahmud Yalovochning ta’rif-tavsifidan so‘ng Muhammad Xorazmshoh yuragida qo‘rquv uyg‘onadi va u Chingizxon elchisini o‘zi tomon og‘dirishga urinadi. Mahmud Yalovoch esa unga yolg‘on va’dalar berib, Chingizxon huzuriga qaytadi va Muhammad Xorazmshohdagi ikkilanishlar haqida so‘zlab beradi [Masharipov, 2021:78-79]. Maqsud Shayxzoda mavjud tarixiy haqiqatni ixchamlashtiradi, ya’ni Mixail Baxtin ta’biri bilan aytganda kompressiyalaydi. Mo‘g‘ul elchilari qabuli bilan bog‘liq epizoddagi ziddiyat Muhammad Xorazmshoh va Jaloliddin o‘rtasidagi konfliktga zamin hozirlaydi.

Voqealarni rivojlantirar ekan, dramaturg Muhammad Xorazmshoh va Jaloliddinni endi Urganchdagi bozor sahnasida bir-biri bilan uchrashtiradi. Valiahdlikdan mahrum etilgan Jaloliddin qalbidagi barcha alam-iztiroblarni ichiga yutib, tilga chiqarmay Vatan xavf ostida ekanligini, saltanat inqirozga botayotganini nazarda tutib, ziddiyatlardan ustun chiqib, yana bir bor otasiga – Sulton Muhammad Xorazmshohga yuzlanadi. Muhammad Xorazmshoh esa uning taklifini rad etadi va poytaxtdan jo‘nab ketadi. Natijada xalq va vatan taqdiri muallaq qoladi. Hech qanday axloq kategoriyasiga mos tushmaydigan bunday adolatsiz va noto‘g‘ri qarordan so‘ng Jaloliddin og‘ir o‘y-xayollar, iztiroblarni boshdan kechiradi. Ta’kidlash joizki, Muhammad Xorazmshoh va Jaloliddinning bozor sahnasidagi muloqoti drama syujetidagi kulminatsion nuqtadir. Voqealar rivojining kulminatsiyasida ota va o‘g‘ilning yo‘li ayro tushadi. Mixail Baxtin zamon va tarixiy xronotop masalasini tadqiq qilar ekan, ulkan (monumental) odam taqdirida kechadigan qiyinchiliklar, uning

ong-u shuurida yuz beradigan ikkilanish jarayoniga ham e'tibor qaratadi. O'zbek xalq dostonlarining ko'rki bo'lmish "Alpomish" dostonida ham ayni mana shu holatga mos tushadigan epizod mavjud. Alpomish Barchinni qutqarish niyatidan voz kechib, ikkilanish va iztiroblardan qiynalayotgan bir pallada singlisi Qaldirg'och undagi alplik tuyg'usini qayta uyg'otadi. [Alpomish, 1998: 75-76]. Maqsud Shayxzoda "Alpomish" dostonidagi qayta tiriltirish va ko'maklashish arxitepi ruhidagi epizodni "Jaloliddin Manguberdi" syujetiga olib kiradi. Dramada Xorazmshohlar davlatidagi muhim figura sanalmish Turkon xotun obrazi emas, balki o'sha davr ijtimoiy-siyosiy voqeligida u qadar e'tibor qozonmagan Sultonbegim obrazidan foydalanishining sababi ham shunda. Ikkinchi jahon urushi davrida qahramon jangchilarga ularning singillari va sevgan qizlari tomonidan yozilgan maktublar xalq ruhiyatini ko'taruvchi vosita sifatida qaralgan. Umuman olganda, o'zbek xalqi etnogenezisida bu kabi arxetip qadim-qadimdan mavjud bo'lgan va "Alpomish" dostonidagi aka-singilning bir-biriga ko'maklashuvi epizodi buning yorqin isboti.

Maqsud Shayxzoda dramaga Sultonbegim obrazini olib kirar ekan, uni faqat akasiga suyanchiq sifatida tasvirlamaydi, balki uni eri amir Badriddinga qarama-qarshi qo'yadi. Dramadagi er-xotin, ya'ni amir Badriddin va Sultonbegim o'rtasidagi konflikt ota va o'g'il, ya'ni Muhammad Xorazmshoh va Jaloliddin Manguberdi orasidagi asosiy konfliktni qo'llab-quvvatlovchi, ayni chog'da ota va o'g'il o'rtasidagi konfliktni tomoshabin ong-u shuurida muhrlanib qolishidan asrovchi himoya vositasidir. Amir Badriddin va Sultonbegim o'rtasidagi konfliktsiz drama anchayin g'ariblashardi va tomoshabinda noto'g'ri tasavvur uyg'otardi. Shuning uchun ham Maqsud Shayxzoda Sultonbegim obrazini yaratish jarayonida yana tarixiy haqiqatni inversiyalaydi. Chunki Xonsulton (Sultonbegim) Sind daryosidagi jang chog'i Jaloliddinning yonida bo'lmaydi. Tarixiy haqiqatga ko'ra, u Turkon xotun bilan birga asirga tushadi. Juvayniy shunday yozadi: "Bu orada shu hodisani ham hikoya qilaylik: Sultonning harami totor (mo'g'ul) qo'shini qo'liga tushgach, sulton Usmondan nafratlanib, uni o'ldirtirgan Sultonning qizi Xonsulton Emilda yashovchi bo'yoqchining qo'liga tushdi. Unga oshiq bo'ldi va to o'lguncha undan ajralmadi" [Juvayniy Atomalik, 2015: 364]. Bu xususda Nasaviy boshqacharoq ma'lumot beradi: "Bo'lib o'tgan voqealardan yana biri bunday edi. Alouddin Muhammadning katta qizlaridan biri Xon Sulton totorlar tomonidan Turkon xotun bilan birga asir olingandi. Uni Dushixon (Jo'jixon – M.M) o'ziga xotinlikka olgan, o'rtada farzandlar ham dunyoga kelgandi" [Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy, 2018: 220].

Ko'rinib turibdiki, Maqsud Shayxzoda tarixiy haqiqatdan chekinadi. Biz yuqorida keltirgan tarixiy ma'lumotlardan voz kechadi yoki ularga e'tibor qaratmaydi. Uning ijodiy konsepsiyasiga ko'ra, Qaldirg'och Alpomishni qay tariqa safarga ilhomlantirgan bo'lsa, Sultonbegim ham Jaloliddinni Chingizxonga qarshi ayovsiz va omonsiz jangga undagan. Yuzaki qaraganda, muallifning Sultonbegim obraziga bu kabi yondashuvi adabiy qahramon va uning xarakteri bilan bog'liq badiiylik mezonlariga mos tushmaydi. Biroq Samarqand hokimi Usmon isyonini bostirgach, Muhammad Xorazmshoh kuyovini afv etmoqchi bo'lganda Xonsulton otasidan o'z erini o'ldirishni so'raganini yana bir bor eslasak, Maqsud Shayxzoda Sultonbegim xarakteri chizgilarida to'g'ri yo'l tutgani ma'lum bo'ladi. Negaki, tarixan Xonsulton (Sultonbegim) xoinlik kechirilmasligini e'tirof etadi va o'z eri Usmon o'ldirilishini otasi Muhammad Xorazmshohdan so'rashga o'zida kuch topadi. Bu – xarakter yadrosini belgilovchi qat'iyat va irodadan, jasoratdan dalolat! Maqsud Shayxzoda Xonsulton xarakteriga xos mana shu jihatni Sultonbegim obraziga ko'chiradi va uni asirlikdagi mahkuma emas, balki aka yonidagi jasoratli singil sifatida ifodalaydi.

Dramatik vaziyat talabi va voqealar rivojini keskinlashtirish maqsadida Maqsud Shayxzoda Temur Malik qahramonligiga aloqador Xo'jand sahnasini yaratdi. Shu sahna voqealarida Yaroqbekning otasi xoinligi uchun Temur Malik tomonidan o'ldiriladi. Yaroqbek esa otasining xunini olishga va Temur Malikni o'ldirishga qasam ichadi. Yaroqbekning qasami tomoshabin va kitobxonni voqealarning keyingi rivojiga qiziqtiradi. Temur Malik bir ko'zini yaralagan Qodog'on no'yon Yaroqbekning Temur

Malikni o‘ldirish payida ekanligini bilib, maxsus reja tuzadi va uni Jaloliddinni o‘ldirishga yuboradi. Jaloliddinga suiqasd qilish uchun borayotgan Yaroqbekning ko‘nglini xotirjam qilish uchun Temur Malikni mahv qilish bilan bog‘liq alohida reja borligini aytadi. Voqealar rivojida xoin amir Badriddin Temur Malikni asir olib, Chingizxon huzuriga olib kelishi oydinlashadi. Yaroqbek esa makkorona iltifot bilan Jaloliddin huzuriga boradi va to‘n kiydirish bahonasida unga xanjar o‘qtaladi. O‘sha vaziyatda hamma sirdan xabardor bo‘lgan chol uni o‘ldiradi. Tomoshabin va kitobxon zerikib qolmasligi uchun tarixiy haqiqat manzarasi dramaturg tomonidan shunday jonli va badiiy mahorat bilan chiziladi. Bu jarayonda u ma’lum tarixiy faktlarga suyanadi. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy yozadi: “Sulton qo‘shinlaridan qumlar bag‘rida yashirinib qolganlar ham, turli sabablarga ko‘ra Xorazmga kelganlar ham to‘planishib, yetti ming otliqni tashkil etishdi. Ularning ko‘pchilik qismi bayot urug‘idan bo‘lib, yo‘lboshchilik jihatdan O‘zloqshohga moyil odamlar ekanligi uchun uni qo‘llab-quvvatlardi. Shu sababli ular sultonning taxt vorisini almashtirish haqidagi buyrug‘ini tan olmadilar va bu gapga ishonmaydilar. Ular Jaloliddinni ushlab daryoga cho‘ktirish yoki o‘ldirish rejasini tuzdilar. Jaloliddinga qarshi pinhona suiqasd tayyorlanayotganidan Inonchxon xabar topadi va unga bu xabarni yetkazib, ketishni maslahat beradi” [Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy, 2018: 80].

Nasaviy ta’riflagan suiqasd voqeasi Muhammad Xorazmshoh sultonlik kamarini Jaloliddinga topshirgandan so‘ng Qutbiddin O‘zloqshoh tarafdorlari tomonidan tayyorlanadi. Maqsud Shayxzoda esa tarixiy manbalarda Jaloliddinga nisbatan suiqasd uyushtirilgani bilan bog‘liq faktidan ustalik bilan foydalanadi va suiqasd sababini boshqacharoq izohlaydi, ya’ni bu jarayonni Yaroqbek va Qodog‘on no‘yonga bog‘laydi.

Dramada suiqasd voqeasidan so‘ng amir Badriddinning xoinligi, Sultonbegim Jaloliddinga tuhfa qilgan uzuk vositasida fosh bo‘lib qoladi. Jaloliddin harchand tez xabar yetkazishga urinmasin, Temur Malik amir Badriddin xiylasi tufayli asirga tushadi. O‘zining eng mashhur, ishonchli sardori asirga tushganini bilgan Jaloliddin mo‘g‘ullarga qarshi qaqshatqich hujum uyushtiradi. Bu jangda Sultonbegim ham jonbozlik ko‘rsatadi va amir Badriddinni qo‘lga tushiradi. Amir Badriddin o‘zini har qancha oqlashga urinmasin, Sultonbegim talabi bilan o‘limga buyuriladi. Muhammad Xorazmshohning uni afv etish haqidagi farmonini esa Jaloliddin yirtib tashlaydi. Ayni shu voqea Muhammad Xorazmshoh va Jaloliddin o‘rtasidagi konfliktning o‘ziga xos yakuni, voqealarning kulminatsion nuqtasidan keyingi yechimidir. Sultonbegimning eri, Samarqand hokimi Usmon va O‘tror vazirining noibi Badriddin xoinliklari sabab Muhammad Xorazmshoh buyrug‘iga muvofiq, o‘ldirilgan edi. Usmon(Badriddin)ning o‘ldirilishi Sultonbegim (Xonsulton) talabi bilan amalga oshirilgani ham tarixiy haqiqatdir. Maqsud Shayxzoda mazkur tarixiy ma’lumotlarni sintezlaydi va Muhammad Xorazmshoh hamda Jaloliddin o‘rtasidagi konflikt yechimiga yo‘naltiradi.

Ko‘rinib turibdiki, Maqsud Shayxzoda drama syujeti ekspozitsiyasi, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechim bilan bog‘liq har bir tarixiy haqiqatga ijodiy yondoshadi. Aslida 1210-yil bo‘lib o‘tgan to‘y voqeasini 1220-yilga, ya’ni mo‘g‘ullar bosqini davriga ko‘chiradi. Mazkur tarixiy inversiya nafaqat dramatizmni kuchaytirishda, balki drama kompozitsion qurilishida ham muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop muammosi. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 288 b.
2. Gurbuz M. Xorazmshohlarda davlat tashkiloti, iqtisodiy va madaniy hayot. – Urganch: Ogahiy, 2022. – 304 b.
3. Juvayniy Atomalik. Tarixi jahongusho. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2015. – 504 b.
4. Masharipov Q. Jaloliddin Manguberdining jahon siyosiy va harbiy tarixidagi o‘rni. – Toshkent: Yoshlar media print, 2021. – 256 b.
5. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. Alpomish. – Toshkent: Sharq, 1998. – 400 b.
6. Rahimov J. Jaloliddin Manguberdi – mardlik va jasorat timsoli. – Toshkent: Ziyo nashr, 2022. – 584 b.
7. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. – Toshkent: Fan, 2018. – 432 b.

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK SHE’RIYATI MANZARASI

Raimova Sayyora Zaitovna,
PhD, dotsent,
Termiz davlat universiteti,
e-mail: sayyoraraimova1608@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada istiqlol davri she’riyati tabiatiga e’tibor qaratilgan. Diniy-ma’rifiy she’rlardagi intertekstuallik hodisasining namoyon bo‘lishi masalasi tadqiq qilingan. Shuningdek Mahmud Hasaniyning arba’ini haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *istiqlol davri she’riyati, diniy-ma’rifiy she’rlar, intertekstuallik, iqtibos, talmeh.*

Abstract

This article focuses on the nature of the poetry of the independence period. It focuses on the manifestations of the phenomenon of intertextuality in religious-enlightenment poems. It discusses the erbain of Mahmud Hasani.

Keywords: *Poetry of the Independence period, religious-educational poetry, intertextuality, quotation, talmeh (allusion).*

Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti jahoniy ta’sirlar ostidagi Yangi davr o‘zbek adabiyoti (Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on ta’biri)ning ajralmas uzviy davomi va shu katta bir davr adabiyotining bir parchasi, desak haqiqatga yaqin bo‘ladi. Salkam yarim asrli davr adabiyoti, xususan, she’riyati o‘z-o‘zidan dunyoga kelgan emas yoxud adabiyotshunos, shoir, yozuvchi va tarjimon Ulug‘bek Hamdam ta’biri bilan aytganda: “Istiqlol davri o‘zbek she’riyati bu foydali yomg‘irdan so‘ng potrab o‘sib chiqqan qo‘ziqorin emas, aksincha, asrlar davomida tinimsiz o‘zgarib-yangilanib kelayotgan o‘lmas jarayonning qonuniy bir uzvi...”[Hamdamov, 2007:90]. Bu davr she’riyati ming yillik muhtasham mumtoz she’riyatimizdan suv ichgan, o‘zida juda katta Sharqu G‘arb adabiyoti an’analari va tajribalarini mujassam etgan, jahon so‘z san’atining ilg‘or namunalarini ijodiy puxta o‘zlashtirgan, modern va postmodern xususiyat va tamoyillarni o‘zida jamlagan she’riyatdir, deyishga to‘la haqlimiz. Qolaversa, XX asr milliy adabiyotimizning haqiqiy manzarasini ko‘rsatib turgan 70-80-yillar o‘zbek adabiyoti bu davr uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘tadi. Ushbu davrning ham “istiqlol jadidlari” paydo bo‘ldi. She’riyatda Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Yo‘ldosh Eshbek, Usmon Azim kabi haqiqat va adolatni talab etgan millatning chin shoirlari ozodlikning yalovbardorlari sifatida maydonga chiqdi.

Bu davrda she’riyatda Sharq mumtoz an’analariga murojaat kuchaydi. Davrning mahsuli bo‘lgan adabiyot, xususan, she’riyat g‘oyaviy-estetik jihatdan hayotiylik kasb eta boshladi. Ijtimoiy hayot voqeligining bir parchasi, ya’ni milliy urf-odatlarimiz, milliy o‘zligimiz va diniy e’tiqodimizga qaytish jarayonlarining in’ikosi birinchi bo‘lib she’riyatda bo‘y ko‘rsatdi. “Mustaqillik davriga kelib o‘zbek she’riyati yangilanish, poetik mazmun-mohiyatiga ko‘ra o‘zgarishga yuz tutdi. Shoirlar qalbida saqlanib kelgan uzoq davrlar mobaynida ayta olmagan e’tiqodiy tuyg‘ularini she’riy yo‘sinda bayon qilishdi. Istiqloldek ajoyib bir ne’mat shoirlarga ruhiy erkinlik va ulkan adabiy imkoniyatlar berdi” [Ernazarova, 2020:208].

Istiqlol davri o‘zbek she’riyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, adabiy jarayon manzarasida davrning ijtimoiy-siyosiy voqeligi va ma’naviy hayot bilan bog‘liq g‘oyalar aks etganligini kuzatish mumkin. Jumladan, Vatan va millat taqdiri, ishq va vafoning go‘zal suratlari, insoniylikning oliy fazilatlari, adolat va haqiqatning asl mohiyati aks etgan betakror g‘oyalar tarannumi bilan bir qatorda inson ma’rifati, imon va e’tiqod tushunchalarining badiiy talqinlari adabiy-estetik tamoyil sifatida badiiy tafakkur rivojini ta’minladi.

Adabiyotshunoslarning ta’kidlashicha, “Ma’naviy madaniyatimiz, shu jumladan, she’riyatimiz ham o‘zining azaliy va abadiy o‘zanlariga qaytdi. Diniy merosga, diniy-axloqiy g‘oyalarga tayanish –ma’-

naviyat kamolotiga xizmat qilishi shubhasiz. U olamni, uning gultoji sanalmish Odamni to‘kis bilishga va shu asosda, barchasining ijodkori Qodir Egamni tanishga imkon yaratadi”[Rahimjonov, 2007:84]. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotini kuzatgan va xolis baholagan adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karimov davr she’riyatining asosiy xususiyatlari va tamoyillari haqida o‘z qarashlarini quyidagicha ilgari suradi:”...mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida quyidagi qirralar alohida ko‘zga tashlanadi. Yangi davr o‘zbek adabiyotida mavzular ko‘lami kengaydi. Avvalgi adabiy-siyosiy muhitda qalamga olishning imkoni bo‘lmagan 1) O‘zbek millatining sha’nini ulug‘lash; 2) mustaqil Vatan qadrini tavsiflash; 3) milliy qadriyatlarni e’zozlash, 4) shonli milliy tarix bilan faxrlanish; 5) ajdod allomalarning dunyo tamaddunida tutgan o‘rniga diqqat qaratish; 6) diniy-ma’rifiy tushunchalarni badiiy talqin qilish kabi bir qancha adabiy mavzular asosiy o‘ringa chiqdi” [Karimov, 2021:8]. Muxtasar qilib aytganda, davr she’riyatiga mumtoz an’analarni o‘zida mujassam etgan diniy-ma’rifiy ruhdagi she’rlar alohida yo‘nalish sifatida kirib keldi. O‘zbek mumtoz adabiyotidagi arba’in janri an’analari yangi davr shoirlari ijodida janriy jihatdan yangilangan shaklda davom ettirildi. Davr she’riyatining manzarasiga nazar tashlasak, diniy-ma’rifiy mavzuning badiiy talqinlari, shoirlarning lirik kechinmaning turfa xilligi hamda badiiy ifodadagi irfoniy g‘oyalar – bularning barchasi insof va diyonat, ishonch va e’tiqod, ezgulik va sadoqat singari umuminsoniy fazilatlarni ulug‘lashga qaratilgani kuzatiladi. Diniy-ma’rifiy talqindan ko‘zlangan asosiy badiiy maqsad bayoni, ma’naviy-axloqiy umumlashmalar ifodasi ijodkor dunyoqarashidagi o‘ziga xos ijodiy individualligini belgilovchi va inson ma’naviyatiga ta’sir etuvchi badiiy vosita ekanini namoyon qiladi.

Diniy-ma’rifiy mavzu mohiyatiga Qur’oni karim oyatlari va hadisi sharif mazmuni singdirilgani shu davr ijodkorlarining she’rlarida mumtoz badiiyat an’analari o‘z ifodasini topganini ko‘rsatadi. She’rlar mazmuniga singdirilgan diniy tushunchalar talqinida shakl va mazmunning o‘zaro teran uyg‘unligi kuzatiladi.

Mumtoz an’analarga asoslangan she’rlar, ya’ni arba’inlarga xos usulda yozilgan Jamol Kamolning “Qirq hadis ilhomi” (2018) turkumi, Abdulla Oripovning “Haj daftari” (1992) turkumi, Mahmudxon Maxdumning “Najot bo‘stoni yoxud hadislar gulistoni”(2006), Shukur Qurbonning “Hikmatlar anjumani” (2016), Anvar Hojiahmadning “Jannat kaliti” (1994), Sirojiddin Sayyidning “Yaxshilik eskirmagay. Qirq hadis” (2008) turkumi, A’zam O‘ktamning “Ikki dunyo saodati”(1998), Nodira Afoqovaning “Muhammad (s.a.v.)dedilar... Arba’in turkumi” (2019), Orif Hojining “Qirq hadis va bir rivoyat” (2008), G‘ayrat Majidning “Hadis ziyosi”, Mansur Jumayevning “Mujdalar” kabi to‘plamlarini sanab o‘tishimiz mumkin. Zamonaviy adabiyot vakillari ijodini tadqiq qilish jarayonida Sharq mumtoz adabiyotining nodir durdonalariga murojaat qilmasdan ish ko‘rishning imkoni yo‘q, albatta. Shu boisdan, istiqlol yillari o‘zbek she’riyatida diniy-ma’rifiy mazmunda yozilgan asarlar zamonaviy she’riyatni boyitgan bo‘lsa, Qur’oni karim va hadisi shariflarning badiiy talqinlarida aks etgan islomiy g‘oya va qarashlar orqali inson ko‘nglini ma’rifat ziyosi bilan yoritish, ongini ezgulik bilan to‘yintirish orqali zamondosh inson ruhiyati va psixologiyasini o‘zgartirish va poklash mumkinligi davr ijodkorlari maqsadining asosiy g‘oyasi va ustuvor yo‘nalishini tashkil etdi, deyishimiz mumkin.

Istiqlol davri adabiyotining muhim qirralaridan biri bo‘lgan diniy-ma’rifiy mavzu muammosi har jihatdan e’tiborlidir. Shu o‘rinda istiqlol davri o‘zbek she’riyatida alohida yo‘nalish sifatida yuzaga kelgan diniy-ma’rifiy she’rlardagi intertekstuallik hodisasiga to‘xtalishni joiz topdik. Eng avvalo, intertekstuallikning diniy-ma’rifiy she’rlar takomilidagi o‘rniga ahamiyat berish lozim. “Matn – bizning ongimiz va ruhimizda iz qoldirgan voqelikning belgilaridir. Intermatn esa modern va postmodern adabiyotida badiiy matnning yagona tuzilish shakli bo‘lib, asosli ravishda matn boshqa matnlardan olingan ko‘chirma va reminissensiyalardan tuzilishi, degan g‘oyadan kelib chiqadi...” [Hasanov, Sharq yulduzi, 2025, 3-son].

Shu jihatdan intermatnlarni iqtibos, talmeh, irsoli masal kabi bir qancha shakllarda uchratishimiz

mumkin. “Bizning zamonimizda esa Mahmudxon Maxdum (tarix fanlari doktori Mahmud Hasaniy) “Najot bo‘stoni yoki farzandga nasihat”, filologiya fanlari doktori adabiyotshunos Anvar Hojiahmedov “Jannat kaliti” nomlari bilan arba’inlar yaratgan. Shoir Shukur Qurbon esa o‘zini e’tirofiga ko‘ra 40 ta arba’in yaratgan bo‘lib, uning ba’zilari alohida nashr qilingan. Ahamiyatga sazovor joyi shuki, bu arba’inlar uchun tanlangan hadislar aksariyati Jomiy tanlagan hadislardan farq qiladi” [Pulatova, 2020:24]. Malohat Po‘latovaning istiqlol davri arba’innavislari haqidagi fikriga qo‘shimcha tarzda shuni aytish lozimki, bugun bizning izlanishlarimizning samarasi o‘laroq ularning o‘ndan ortig‘ining arba’inlari jamlanib, kitob holiga keltirildi va nashr etilish arafasida turibdi.

Mahmudxon Maxdumning “Najot bo‘stoni yoxud hadislar gulistoni” asari ham mumtoz arba’inlardan ko‘zlangan maqsadga xos “Kimki ummatlarimga mening sunnatimga oid qirq hadisni yodlab yetkizsa, qiyomat kunida men uni shafoatimga loyiq kishilar safiga kirgizaman” hadisi bilan boshlanadi. “...shoir unda odob-axloqqa doir fikrlarini hadislar asosida nazmda bayon qilgan va ko‘p asrlardan buyon davom etib kelayotgan “Arba’in” yoki “Chil hadis” (“Qirq hadis”) deb ataluvchi she’riy an’anani davom ettirgan [Mahmudxon Maxdum, 2006:2]. Muallif, eng avvalo, “sababi ta’lifi manzuma” o‘rnida keltirgan 10 bayt ya’ni, 20 misrani Alloh azza va jallaga hamd, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ga salavot va to‘rt chahoryorlarga duolar so‘ngra sahobayi kiromlarga salomlar bilan boshlaydi:

Hamdu sano bo‘lsin qodir Allohga,
Salomu salavot Rasulullohga.

Duomiz hamisha chahoryor uchun,
Valekin avvali Yori g‘or uchun.

Hazrati Umaru Hazrati Usmon,
Ham Hazrat Aliga duomiz ravon.

Salomlar yo‘llaymiz sahobalarga
Nur bo‘lsin biz kabi xarobalarga.

Eng e’tiborlisi, muallif shu birgina 10 baytdan iborat boshlanmada Alloh, Rasulullo, chahoryor, Yori g‘or, Hazrati Umar, Hazrati Usmon, Hazrat Ali, sahobalar kabi bir qancha talmeh intertekstlardan foydalanadi, mumtoz arba’inlarga xos qoidalarni ado etadi. “Savob topay deya” “Salaflar misoli “Chil hadis” tuzdim” deya o‘z holatini bayon etadi. Mahmudxon Maxdumning tanlagan hadislarining mavzu ko‘lami keng va turfa xil. Mazkur to‘plam ota-onani e’zozlash, Vatanni sevish, ilm va kasb-hunar mavzular bilan ibtido topgan bo‘lsa, tozalik, saxovat, hasadning yomonligi, yaxshi so‘z va rost so‘zlash masalalarini qamrab olgan hadislarning badiiy talqinlaridan iborat. Eng ahamiyatlisi, tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sinoning “Tib Qonunlari” va boshqa tibbiyot olimlarining kitoblarida shifobaxshlik xususiyatlari e’tirof etilgan va hatto ayrimlari “Qur’oni karim” da zikr qilingan asal, sedana, qo‘ziqorin, sano, behi, anor, tuz, sirka, mayiz, non, surma kabi mahsulotlar haqidagi hadislar jamlangan.Ushbu hadislarni mavzu jihatdan tasniflab, quyidagi jadvalda aks ettirdik:

Fazilatlar	Illatlar	Shifobaxsh ne'matlar	Turli mavzular
1. Ota-onani e'zozlash 2. Vatanni sevmoq 3. Kasb-hunar 4. Ilm 5. Tozalik 6. Saxovat 7. Yaxshi so'z 8. Rost so'zlash 9. Mehmon kutmoq 10. Kasal ko'rgani bormoq	1. Ichkilik 2. Hasad 3. Baxillik 4. Shoshqaloqlik 5. Masjidga boruvchi ayollar 6. Zinoning yomonligi haqida 7. Folbinlikning yomonligi haqida 8. Poraning yomonligi haqida	1. Asal, 2. Sedana 3. Qo'ziqorin 4. Sano 5. Behi 6. Anor 7. Tuz 8. Sirka 9. Mayiz 10. Non 11. Surma	1. Yeyish va ichish 2. Nomahram ayolga yomon ko'z bilan boqmaslik 3. Tabib va tabibchilik 5. Ko'zi ojizlar haqida 6. Ayollarni urmaslik haqida 7. Xolani hurmatlash haqida 8. Qabrlar ziyorati haqida 9. Erni hurmat qilmoq 10. Qiz farzandlar haqida 11. Salomning fazilati haqida

Muallif mazkur tushunchalarni ifodalovchi hadislarning asliyatini matn boshlanmasida berishi bir jihatdan mumtoz arba'inlarga xos bo'lsa, yana bir jihatdan intermatnlikni vujudga keltirganligi bilan qimmatlidir. She'r strukturasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, eng avval har bir hadisga mos sarlavha, hadisning asil arabiy matni, o'zbek yozuviga moslangan transliteratsiyasi, so'ngra o'zbek tilidagi tarjimasi berilgan. Ana shu jarayonning o'zida qo'sh intermatnlik vujudga kelmoqda, ya'ni hadis matni – iqtibos, o'zbekchaga o'girilgan holati – tarjima. Sarlavha ham intermatn hisoblanadi.

Shoir "Al-kalimat ut-toyyibatu sadaqatun (Yaxshi so'z sadaqadir)" hadisi asosidagi "Yaxshi so'z haqida" she'rida bir qancha intertekstlardan unumli foydalanganini ko'rishimiz mumkin. Quyida shu she'rdan intertekstga boy ayrim misralarni ko'rib o'tamiz:

Yaxshi so'z demishlar jonning ozig'i,
Yomon so'z ruhingga azob qozig'i.
Bug'doy noning agar bo'lmasa xonda,
Bug'doy so'zing bo'lsin seni jahonda.
Yoki:
Dil ba dast ovarki Hajji akbar ast,
V-az hazoron Ka'ba yak dil bahtar ast.
(Bir dilni ovlaki, Hajji akbardir,
Mingtalab Ka'badan bir dil behtardir).
va yoki:
Shuning uchun hamki Rasullar shohi,
Allohning sevgani, Habibullohi,
Dedilar: "Yaxshi so'z bo'lur sadaqa",
Xayolga bermagin aslo tafriqa.
Sadaqa baloni qaytarar zinhor,
Sadaqa berdingmi, nima g'aming bor?!

Guvohi bo'lganimizdek, shoir she'r boshlanmasining birinchi to'rt satrida bir yo'la ikkita "Yaxshi so'z jon ozig'i, Yomon so'z dil qozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasin, Bug'doy so'zing bo'lsin" maqollarini qo'llaydi. Adabiyotshunos Yoqubjon Is'hoqovning "So'z san'ati so'zligi" asarida "agar baytda ikkita maqol, matal yoki hikmatli so'z ishlatilgan bo'lsa, u holda **irsol-ul-masalayn** deyiladi", deb yozadi [Is'hoqov, 2006:21]. Demak, ushbu she'rdagi keltirilgan badiiy san'atni **irsol-ul-masalayn**

deyishimiz mumkin. Ana shu badiiy san'at orqali poetik g'oya ifodasidagi intertekstuallikning hissasini ko'rsatib beradi.

Keyingi o'rinlarda Bedil qalamiga mansub she'rdan "Dil ba dast ovarki Hajji akbar ast, V-az hazoron Ka'ba yak dil bahtar ast" iqtibosini va shu misralarning tarjimasini keltirish orqali intermatn hodisasining yana bir qo'sh ko'rinishini hosil qiladi.

Bundan keyin tanlagan misolimizda ham "Rasullar shohi", "Alloh", "Habibulloh", "Yaxshi so'z bo'lur sadaqa", "Sadaqa baloni qaytarar" kabi talmeh va irsoli masallardan foydalanadiki, she'r mazmunidagi farzandga nasihat sifatidagi chaqiriqlar har bir kitobxon qalbini rom etadi, shubhasiz. Biroq shunday bo'lishiga qaramasdan she'rlarning barchasini ham badiiy jihatdan mukammal deb bo'lmaydi. Chunki so'z qo'llashdagi muxtasarlik fazilatlaridan chekinilgan o'rinlar ham talaygina. Mahmudxon Maxdum 36 misrali xotimada asarni qachon yozib tugallaganini abjad hisobi orqali "Najot bo'stoni"ga "bog'"ni hamdam qil, So'ngra "sakkiz" qo'shgil barini jam qil" misralarida ifodalaydi va sahifa so'ngida quyidagi izohlarni keltiradi:" Mazkur bayt asarning yozilgan yilini bildiradi. Abjad hisobi bo'yicha,"najot bo'stoni"dan 983, "bog'"dan 1003 soni chiqadi, unga yana 8 qo'shilsa hammasi bo'lib, 1994 bo'ladi". Bunday izohlar ham intertekst vazifasini o'taydi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, diniy-ma'rifiy she'rlar mohiyatiga Qur'oni karim oyatlari va hadisi sharif mazmunini singdirishda intertekstlarning turli poetik vositalar orqali qo'llanishi bir tomondan shoirlarning mahoratini ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bu she'rlar davr she'riyatiga qo'shilgan munosib hissa ekanligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баҳодир Карим. Истиқлол адабиёти: назм ва наср. – Тошкент: Фирдавс-шоҳ, 2021.
2. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Зарқалам, 2006.
3. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007.
4. Маҳмудхон Махдум. Нажот бўстони ёхуд ҳадислар гулистони. – Тошкент, Мовароуннаҳр, 2006.
5. Пулатова М. Шарқ Мумтоз адабиётида "Арбаъин" ёзиш анъаналари. Филол. фан. б. фалс. док. дисс... автореф. – Тошкент, 2020.
6. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007.
7. Суҳроб Ҳасанов. Интерматн ҳодисаси сари // Шарқ юлдузи, 2025. 3-сон
8. Ҳамдамов У. Янгиланиш эҳтиёжи. – Тошкент: Фан, 2007.

ABDULLA ORIPOVNING HIKMAT VA IBRAT DORILFUNUNIDA SABOQ OLGAN OLIM

Komiljon Payziyev,
Namangan davlat universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: payziyev@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada Nurboy Jabborning adabiyotshunos olim, zukko munaqqid bo‘lib kamol topishida O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov bilan ustoz-shogirdlik munosabatlarining alohida o‘rni va roli bo‘lgani hayotiy misollar, uchrashuv va ijodiy muloqotlardan olingan taassurotlar asosida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: she’riyat, tuyg‘u, adabiyot, darg‘a, an’ana, zakovat, tahrir, bilimdon, so‘z zargari.

Abstract

This article examines the special role of the mentor-disciple relationship with the Hero of Uzbekistan, People’s Poet Abdulla Aripov in Nurboy Jabbor’s development as a literary scholar and intelligent critic, based on real-life examples, impressions from meetings and creative dialogues.

Keywords: sharia, feeling, literature, school, tradition, intelligence, editing, scholar, wordsmith.

Xalqimizda “Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo” degan ibratli maqol bor. Adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov ham ana shu hikmatga amal qilgan va undan bahramand bo‘lgan ziyolilardan biridir. Albatta, u o‘z hayoti, ilmiy va ijodiy faoliyati davomida olim-u shoirlar, yozuvchilar davrasida bo‘lgan, ulardan nimalarnidir o‘rgangan, o‘rgatgan, ta’sirlangan. Lekin ana shunday ustozlar orasida O‘zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovga nisbatan hurmat-ehtiromi, sadoqati anchayin kuchli ekanini ta’kidlash joiz. Buni olimning o‘zi ham shunday e’tirof etadi: “Zamonaviy o‘zbek adabiyotining tan olingan darg‘asi, ustoz Abdulla Oripov bilan aka-ukaday yaqin bo‘lish hamda uning hikmat va ibrat dorilfununida saboq olish imkonini ato etgani uchun Yaratganga qanchalik shukur aytsam, shunchalik oz” [Begimqulov, 2021: 434].

Darhaqiqat, Nurboy Jabborovning adabiyotga, she’riyatga oshno bo‘lishida, atoqli shoirning eng yaqin qadrdoniga, do‘stiga aylanishida, avvalo, undagi tug‘ma qobiliyat, oiladagi muhit, ota-onasi, maktabdagi ustozlarining tarbiyasi katta rol o‘ynagan. Bu haqda uning o‘zi shunday deydi: “Ko‘nglimdagi adabiyotga bo‘lgan muhabbat uchqunlarini olovlantirgan ona tili va adabiyot o‘qituvchisi Sharif aka Oqnazarov, musiqa muallimimiz Turdiqul aka Obidovlardan bir umr minnatdorman. Maktabda o‘tkaziladigan bayram tadbirlari, asosan, Turdiqul aka rahbarligida tayyorlanar edi. U kishi she’rning urg‘ulari-yu ohangini o‘rniga qo‘yib, maromiga yetkazib o‘qir, bizdan ham shuni talab qilardi. Yigirma-o‘ttiz chog‘li o‘quvchi tadbir dasturi bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rar ekanmiz, men deyarli barcha ishtirokchilar aytadigan she’riy parchalarni yodlab olar edim. Kunlardan birida qaysidir o‘quvchi adashib qolganida, uning xatosini tuzatib yuborganimni ko‘rgan Turdiqul aka shundan keyin kimdir uzrli sabab bilan kelolmasa, unga taqsimlangan she’rni ham men aytishimni so‘raydigan bo‘ldi. Men esa she’r o‘qishdan, she’r yod olishdan har doim zavqlanar edim” [Jabborov, ziyouz.com]. Akasi Abdulla Oripovning “Ruhim” nomli kitobini uyga olib kelganida, undagi she’rlarni yod olib, sinfdoshlariga aytib bergani ham bunga yorqin misol bo‘la oladi.

Abdulla Oripovning A.S. Pushkinga muhabbati, sadoqati o‘ta yuqori bo‘lgan. Bolalik yillarida ham bu ulug‘ shoirning she’rlaridan yuzlab misralarni yod bilgan. Unga bag‘ishlab she’riy satrlar bitgan. Shuningdek, bir nechta publitsistik maqolalar ham yozgan. Jumladan, “Oydin tuyg‘ular

kuychisi" (1977) sarlavhali maqolasida: "Pushkin ijodi buyukligi bilan kitobxonni sarosimaga solmaydi, aksincha, uning qulfi-dilini ochib yuboradi, bolalarday beg'ubor, oliyjanob, har qanday qitmirlikdan xoli, birmuncha g'amgin va shikasta, ayni mahalda hayotsevar, erka tuyg'ular sohibi, Pushkin har qanday dohiy san'atkor singari jumla odamzodga va uning oliyjanob qismiga mansubdir", – deb yozadi [Oripov, 2001: 24] Ana shunday soddalik va samimiylik, albatta, Abdulla Oripov she'rlariga ham xos xususiyat edi va bu tuyg'ular minglab she'riyat muxlislari qatori Nurboyning ham qalbini sehrlab, o'ziga maftun etgani, shubhasiz.

Maktabni tamomlagach, u Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning o'zbek filologiyasi fakultetida o'qishni davom ettirdi. Bu qutlug' dargohda ulug' ustozlardan adabiyot ilmidan olgan saboqlari, xususan, Abdulla Oripovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni", "O'zbekiston", "Tilla baliqcha", "Munojotni tinglab", "Yurtim shamoli", "Ona tilimga" kabi she'rlari haqidagi tahliliy ma'ruzalarini tinglab, shoirning hayot, jamiyat va inson haqidagi falsafiy, adabiy-estetik qarashlaridan boxabar bo'lgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida, "To'qimachilar madaniyat saroyi"da o'tkazilgan adabiy tadbirlarda shoirning o'zidan eshitgan she'rlar esa uning Abdulla Oripov haqidagi bilim va taassurotlarini yanada boyitdi.

Nurboy Jabbor dorilfununni muvaffaqiyatli tamomlab, H.Sulaymonov nomidagi Qo'lyozmalar oliygohida, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan yillarida yoki Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida ishlagan kezlarida ham Abdulla Oripov ijodini muntazam kuzatib bordi, har bir yangi chiqqan kitobini, she'rlarini katta qiziqish bilan mutolaa qildi. Ulardan olgan taassurotlarini hamkasblari, talabalar bilan o'rtoqlashdi. Abdulla Oripov ijodi haqida suhbatlar, gurunglar, shoirning o'zi bilan ijodiy uchrashuvlar tashkil etilishida bosh-qosh bo'ldi.

U "Fidokor" gazetasi tahririyatida ishlab yurgan kezlari Abdulla Oripov bilan qilgan musohabasini shunday eslaydi: "Juda samimiy kechdi suhbatimiz. Muloqotni ovozyozgichdan qog'ozga o'tkazgach, kelishuv bo'yicha matnni telefonda ustozga o'qib berdim. Telefondagi mutolaa jarayonida ustoz matnga bir nechta benihoya o'rinli tahrir kiritganidan hayratga tushdim. Abdulla Oripovning haqiqiy so'z zargari ekanini amalda ko'rdim axir! Matnni og'zaki tinglaganda ham tahrir eta bilish – buning uchun qanchalik yuksak zako, chuqur bilim va ulkan tajriba kerak axir!" [Begimqulov, 2021: 429]. Darhaqiqat, Abdulla Oripov nafaqat iste'dodli shoir, balki uncha-muncha adabiyotshunos olimlarda ham uchramaydigan katta munaqqid edi. Buni uning adabiyot, yoshlar she'riyati, tarjima masalalariga bag'ishlangan "Ustozlar sabog'i", "Taassurotlar", "Ehtiyoj farzandi", "Orzuga ayb yo'q", "Yuzinchi ma'no", "Mezon – hayot" kabi qator adabiy-tanqidiy maqolalarida bildirgan fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalari ham tasdiqlaydi.

Shu o'rinda yana bir qiziq fakt: Abdulla Oripov o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Muso Toshmuhammad Oybekni nihoyatda chuqur hurmat qilgan. Ulug' adib bilan uning xonadonida ikki marta uchrashgan. Shu taassurotlar asosida "Bir umrga tatigulik", "Aningdek inson bo'l", "O'z qahramoni yanglig'" sarlavhali portret maqolalar ham yozgan. Ularda Oybekning buyuk iste'dod egasi ekanini e'tirof etish bilan birga, uning yosh ijodkorlarga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbati, bag'rikengligi, xasta bo'lishiga qaramay, ularning ijodini muntazam kuzatib borgani, qo'llab-quvvatlaganini bayon qiladi. Ayniqsa, Abdulla Oripovga Yozuvchilar uyushmasiga kirishi uchun tavsiyanoma yozib berganini cheksiz quvonch bilan tilga oladi. Buni esga olishimiz bejiz emas. Chunki Nurboy Jabborning hayotida ham xuddi shu singari voqea bo'lib o'tgan. O'sha paytda u "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi bosh muharriri o'rinbosari lavozimida ishlardi. Buni adibning o'zi shunday xotirlaydi: "Bir kuni ustoz: "Uyushmaning adabiy tanqid kengashida ish sustroq ketyapti. Shu kengashni sizga topshirsak, jonlantirib bersangiz, deb qoldi. Ming istihola bilan: "Buning uchun uyushma a'zosi bo'lish kerakmi, ustoz?" – dedim. Abdulla akam: "Adabiyot gazetasining bosh muharrir o'rinbosari bo'lib, hali uyushmaga a'zo emasmisiz?" – deb tezda hujjat

tayyorlashni buyurdi. Shunday qilib, ustozning tavsiyasi bilan Yozuvchilar uyushmasi a'zosi bo'ldim". Bundan ko'rinib turibdiki, Abdulla Oripov ham ustozi Oybek domla singari yosh iste'dodlarga juda e'tiborli bo'lgan, ularni hamisha qo'llab-quvvatlagan. Ikkinchidan, Nurboy Jabbor ham haqiqatan Yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'lishga munosib edi. Agar unda ana shunday iste'dod, iqtidor bo'lmaganida, u "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi hamda "Tafakkur" jurnallari tahririyatida bosh muharrir o'rinbosari lavozimlarida ishlamagan bo'lardi. Undagi bilim va salohiyat, ijodkorlik qobiliyati nufuzli dargohlarda ishlash, ijod qilish baxtini unga nasib etdi.

N.Jabbor 2017-yildan beri Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik kafedrasi professori, kafedra mudiri lavozimida samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. U nafaqat Abdulla Oripov ijodining muxlisi, balki zukko tadqiqotchisi ham sanaladi. Uning "Абдулла Орипов феномени" [4], "Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy tafakkur va badiiy tasvir uyg'unligi" [5], "Alisher Navoiy an'analarining Abdulla Oripov she'riyatidagi poetik sintezi" [6], "Сўз гуҳарининг шарафи" [7], "Абдулла Орипов феномени: уни англаш осонми? [8], "Руҳим, сен вужуднинг ғамини ема..." [9] kabi qator maqolalarida ulug' shoir she'rlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari chuqur tahlil va tadqiq etilgan.

Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Xulosani esa Abdulla Oripovning Nurboy Jabborga bergan "Adabiyotimiz uchun vaqtida yog'ilgan yomg'ir" ta'rifi bilan yakunlamoqchimiz. Darhaqiqat, qariyb 40 yillik ilmiy va ijodiy faoliyatining sarhisobi, o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan salmoqli hissasi bu ta'rifning naqadar to'g'ri va yuksak e'tirof ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

So'zimizni muxtasar qilib, adabiyotshunos olim, iste'dodli munaqqid, Abdulla Oripovning chin ma'nodagi ashaddiy muxlisi va muhibi, asarlarining zukko tahlilchisi va tadqiqchisi, "Shuhrat" medali, "Do'stlik" ordeni nishondori Nurboy Jabborovni qutlug' 60 yoshi bilan qizg'in tabriklaymiz. Unga sihat-salomatlik, g'ayrat-shijoat tilaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Adabiyot hayratlar dunyosi // https://n.ziyouz.com
2. Орипов А. Танланган асарлар. 8 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2001.
3. Begimqulov D. Abdulla Oripov zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.
4. Жабборов Н. Абдулла Орипов феномени //Адабиёт – халқнинг юраги. – Тошкент: Адабиёт, 2021.
5. Jabborov N. Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy tafakkur va badiiy tasvir uyg'unligi //Abdulla Oripov fenomeni va o'zbek she'riyati taraqqiyoti. Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. – Qarshi, 2021.
6. Jabborov N. Alisher Navoiy an'analarining Abdulla Oripov she'riyatidagi poetik sintezi //Alisher Navoiy va XXI asr (Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari). 2022-yil 5-fevral. – Toshkent, 2022.
7. Жабборов Н. "Сўз гуҳарининг шарафи" (Абдулла Орипов ижоди ҳақида) // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2005 йил 6 май.
8. Жабборов Н. Абдулла Орипов феномени: уни англаш осонми? //Янги Ўзбекистон, 2020 йил 15 август.
9. Жабборов Н. "Руҳим, сен вужуднинг ғамини ема...". (Ўзбекистон халқ шоири А.Орипов билан суҳбат). // Фидокор, 1999 йил 27 май.

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA RUS SHOIRI SERGEY YESENIN POEZIYASINING O'RNI

Sattarova Sevara Olimovna,
Oriental universiteti
Tillar kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail: sevka_sso@mail.ru
,

Annotatsiya

Erkin Vohidov – o'zbek adabiyotining mashhur shoiri, u o'z ijodida rus shoiri Sergey Yeseninning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda katta hissa qo'shgan. Vohidovning Yesenin she'riyatiga bo'lgan munosabati, uning ijodiy faoliyatida muhim o'rin tutadi [1, 1].

Kalit so'zlar: *poeziya, tarjima, hissiyot, lirika, romantika, Fors taronalari, ruhiyat, his-tuyg'u, sharq, g'arb.*

Abstract

Erkin Vakhidov is a famous poet of Uzbek literature, he paid great attention in his work to the translation of the works of the Russian poet Sergei Yesenin. Vakhidov's attitude to Yesenin's poetry occupies an important place in his creative activity.

Keywords: *poetry, translation, emotion, lyrics, romance, Persian motif, psyche, emotions, East, West.*

Kirish

Erkin Vohidov o'zbek shoiri, o'z asarlarida milliy va universal mavzularni birlashtirgan, o'zbek poeziyasining eng namunali va ta'sirli vakillaridan biri. Uning she'rida milliy ruh, tabiat, inson va hayotning turli jihatlari bilan bog'liq mavzular ko'p uchraydi [2, 6].

Rus shoiri Sergey Yesenin esa o'zining lirik va romantik stili bilan tanilgan, uning asarlarida tabiat, inson hissiyoti, sevgi va hayotning murakkabligi kabi mavzular markaziy o'rin tutadi. Yeseninning she'rlari odatda jonli, emotsional va estetik jihatdan boy bo'lib, u o'z davrining ruhini va xalqining hissiyotini ifodalay oladi [3, 26].

Erkin Vohidovning she'riyatida Yesenin poeziyasining ta'siri seziladi. Uning asarlarida rus shoirataning tabiatga bo'lgan muhabbati, inson hissiyotini realistik va romantik tarzda ifodalashi, shuningdek, milliy va universal mavzularni birlashtirishga intilishi ko'rinishi mumkin. Vohidov ham Yesenin kabi tabiatni o'z asarlarida muhim element sifatida ko'rib, uni inson hayoti bilan bog'laydi.

Vohidovning she'riyatida Yeseninning lirikligi, soddaligi va shodlikka intilishi ham o'rin oladi. Uning asarlari ko'pincha ichki tuyg'ularni, sevgi va xasratni ifodalaydi, bu esa Yeseninning she'riyati bilan o'xshashliklarni yaratadi.

Shu bilan birga, Vohidov o'zbek xalqining madaniyati, an'analari va dilini ham o'z asarlarida chuqur ifoda eta oladi. Uning she'riyatidagi milliy elementlar uning ijodini yanada boyitadi va uning asarlarini unikal qiladi.

Erkin Vohidov, o'zbek adabiyotidagi yangilanishlarning bir qismi sifatida, Yesenin she'riyatini o'z ona tilida jonlantirishga harakat qilgan. U Yeseninning lirik asarlarini tarjima qilishda shunchaki matnni o'zgartirish bilan cheklanmay, balki uning emotsional va estetik mazmunini ham saqlashga intiladi. Vohidovning tarjimalari, Yeseninning asl she'rlarining hissiy va estetik xususiyatlarini o'zbek o'quvchilariga yetkazishga yordam berdi [4, 6].

Sergey Yesenin (1895-1925) — rus poeziyasining yorqin va ta'sirchan vakili. Uning she'rlari tabiat, inson hissiyotlari va milliy ruh bilan bog'liq mavzularni qamrab oladi. Yeseninning birinchi she'riy to'plami "Radunitsa" (1916) deb ataladi va u shundan keyingi davrlarda ham ko'plab asarlar yaratdi. Uning ijodi, xususan, tabiat manzaralari va qishloq hayotini ifodalaydi, bu esa Vohidovning tarjimalarida aniq namoyon bo'ladi [5, 42].

Vohidov 60-yillarda jamiyatdagi yangilanishlarga javoban o‘z ijodini shakllantira boshladi. Ustoz shoir sifatida u doimo xalq manfaatlarini ko‘zlab ishlagan. Vohidovning Yesenin she’riyatiga bo‘lgan qiziqishi uning ijodiy yo‘lida muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi. Ushbu tarjimalar orqali Vohidov o‘zbek adabiyotiga rus poeziyasining boyligini kiritdi.

Erkin Vohidovning Sergey Yesenin poezyasiga bo‘lgan munosabati va uning ijodidagi o‘rni, o‘zbek adabiyotida rus poeziyasining ta’sirini namoyon etadi. Vohidovning tarjimalari, Yeseninning asarlarini o‘zbek kitobxonlari uchun yaqinlashtirib, ularni rus poeziyasining go‘zalligi bilan tanishtirdi [6, 21].

Sergey Yeseninning satrlari qisqa-qisqa, tili ravon va sodda, lirik qahramonning hayot, tabiat, odamlarga munosabatida qishloqcha samimiylik va to‘g‘rilik ufurib turadi. Eng muhimi, asarlarida sharqona ruh bor. Bu o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan emas. Shoir forsiy tildagi mumtoz she’riyat namunalari bilan yaqindan tanishganidan keyin Eronga borishga qattiq intiladi. Biroq o‘sha paytdagi Rossiya va Eron munosabatlari rus shoirini u yoqqa yuborish maqsadga muvofiq emasligini taqozo etadi. Shunga qaramasdan, Sergey Yesenin qattiq turib Eronga borishni talab qilgani uchun uni Ozarbayjonning Bokuga yaqin qishloqlaridan biriga yuborishadi. Bir necha muddat bu yerda yashab, sharqona ruhni his etadi, Sharq odamlarining hayot tarzidan zavqlanadi va tez fursatda uning “Fors taronalari” she’rlar turkumi yoziladi. Sharq she’riyatida Allohga ishqni majozan yorga ishq tarzida kuylash kuchli edi. Shunga taqlidan rus shoiri ham Sharq go‘zaliga bag‘ishlangan ishqiy she’rlar bitadi. Lekin shu mavzu bahonasida G‘arb kishisining Sharqqa mehri jo‘sh urib turganini sezish qiyin emas [7, 12].

Rus hayotini tasvirlaydimi, sharqona mavzularda qalam tebratadimi, bundan qat’i nazar, Sergey Yesenin she’rlarining tub mohiyatida umuminsoniylik yotadi. Millati, dini, irqidan qat’i nazar, ularni o‘qigan kishining ko‘nglida bir yorug‘lik, zavq, mehr, yezgulikka oshnolik tuyg‘usi paydo bo‘ladi. She’r qalbni poklaydi, deganlari shu. Sergey Yeseninning aksar she’rlarini Erkin Vohidov maromiga yetkazib tarjima qilgan. Bu she’riyatning o‘zbek shoirlari ijodiga juda katta ta’siri bo‘ldi. Erkin Vohidov, Tilak Jo‘ra, Ma’ruf Jalil, Xurshid Davron, Muxammad Yusuf va boshqalar ijodida buni yaqqol sezamiz [8, 10].

Erkin Vohidov Sergey Yesenin she’riyatini o‘zbek tiliga tarjima qilishda uning ijodining bir necha muhim aspektlarini o‘z ichiga oladi. Vohidovning tarjimalarida Yeseninning lirik obrazlari, tabiat, inson hayoti va ruhiy holatlari aniq va ta’sirli ifodalangan. Quyida Vohidovning Yesenin she’riyatiga keltirgan misollari:

Vohidov Yeseninning **“Fors taronalari”** to‘plamini tarjima qilgan. Undagi she’rlar, jumladan:

“Biz barchamiz go‘dakmiz bir oz,
Goh ko‘zda yosh, goh labda kulgu...”
Bu satrlarda Yeseninning inson hayoti va uning his-tuyg‘ulari haqidagi falsafasi aniq namoyon bo‘ladi.

Vohidovning tarjimalarida tabiat bilan bog‘liq lirik obrazlar ham muhim o‘rin tutadi:

“Tongda meni uyg‘ot ertaroq,
Mehribonim, mushfiq onajon!”
Bu satrlar Yeseninning tabiatni his etish qobiliyatini o‘zbek kontekstida qayta ifoda etadi.

Vohidov Yeseninning inson ruhi va uning ichki dunyosini ochib berishda badiiy psixologizmni ishlatadi:

“Men Moskovlik bir dalli yigit...”
Ushbu satrlar shoirning shaxsiy tajribasini va ruhiy holatini ifodalaydi [9, 12].

Vohidov Yeseninning Sharq madaniyatiga bo‘lgan qiziqishini ham o‘zbek kontekstida namoyon etadi:

«Sharq madaniyatiga katta qiziqish bilan qaragan...”

Undan kelib chiqqan asarlarda sharqona elementlarning ta'siri seziladi.

Erkin Vohidovning Sergey Yesenin she'riyatini tarjima qilish orqali uning ijodini o'zbek adabiyotiga olib kirishdagi hissasi beqiyos. Uning asarlari o'zbek kitobxonlari orasida keng tarqalgan va ular uchun Yeseninning she'riyatini yaqinlashtirgan.

Natijalar. Erkin Vohidov Sergey Yesenin she'riyatini o'zbek tiliga tarjima qilishda uning ijodining bir necha muhim qismlarini qaytargan. Vohidov Yeseninning «Fors taronalari« to'plamini o'zbek tiliga tarjima qilgan, bu esa Yeseninning lirik obrazlari, tabiat va inson munosabatlari haqidagi hissiylikni o'zbek adabiyotiga olib keldi.

Vohidov Yeseninning lirik obrazlarini o'zbekcha ifodalagan, bu esa uning asarlaridagi samimiylik va soddalikni ko'rsatadi. Uning she'rlaridagi tabiat va inson munosabatlari o'zbek adabiyotida ham seziladi.

Vohidov Yeseninning tabiatni his etish qobiliyatini o'zbek kontekstida qayta ifoda etgan. Uning she'rlaridagi tabiatni qabul qilish, uning ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan his-tuyg'ular, O'zbekistondagi tabiat manzaralari bilan uyg'unlashgan.

Vohidov Yeseninning sharq madaniyatiga bo'lgan qiziqishini va uning ijodiga ta'sirini ta'kidlagan. Uning poeziyasida sharqona ruh va obrazlar ko'p uchraydi, bu esa Vohidovning tarjimalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Vohidov Yeseninning ijodidagi inson hayoti, taqdir va fojiali voqealarni o'zbek adabiyotiga olib kirgan. Uning she'rlari inson ruhiyatini chuqur ifodalaydi, bu esa O'zbekiston xalqining ma'naviy dunyosiga ta'sir ko'rsatadi.

Erkin Vohidov Sergey Yesenin she'riyatini tarjima qilish orqali uning ijodini o'zbek adabiyotida keng tarqatishga xizmat qilgan, shu bilan birga, ikki madaniyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlagan.

Erkin Vohidov Sergey Yesenin she'riyatini asosan uning ijodining falsafiy, lirik va sotsiokultur aspektlariga bo'lgan. Vohidov Yeseninning asarlarini tarjima qilishda va tahlil qilishda uning ijodining bir necha muhim qismlarini qaytargan:

Vohidov Yeseninning she'rlaridagi falsafiy mazmunni, inson hayoti, taqdir va ma'naviy qadriyatlarni o'zbek kontekstida qayta ifoda etgan. Uning asarlaridagi inson ruhiyati, uning ichki dunyosi va hayot haqidagi teren fikrlari Vohidovning tarjimalarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Vohidov Yeseninning lirik obrazlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan, bu esa uning asarlaridagi samimiylik va tabiat bilan bog'liq ruhiy kechinmalarni o'zbek adabiyotiga olib keladi. Uning she'rlaridagi tabiat va inson munosabatlari O'zbekiston manzaralari bilan uyg'unlashgan.

Vohidov Yeseninning ijodi Sharq madaniyati bilan bog'liq bo'lgani uchun, u uning asarlaridagi sharqona elementlarni, xususan «Fors taronalari« to'plamidagi mavzularni ham o'zbek kontekstida qayta ifodalagan.

Vohidov Yeseninning tabiatni his etish qobiliyatini o'zbek kontekstida qayta ifoda etgan. Uning ijodida tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, qishloq hayoti, xalq tili va an'analar ham muhim ahamiyatga ega.

Erkin Vohidov Sergey Yesenin she'riyatini tarjima qilish orqali uning ijodini o'zbek adabiyotida keng tarqatishga xizmat qilgan, shu bilan birga, ikki madaniyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlagan [10, 36].

Xulosa. Erkin Vohidovning she'riyatida Sergey Yesenin poeziyasining o'rni muhim bo'lib, u o'zbek poeziyasini yangicha shaklda rivojlantirishda katta rol o'ynagan. Erkin Vohidovning Sergey Yesenin she'riyatini o'zbek adabiyotiga olib kirishdagi o'rni va ta'siri haqidagi tahlillardan kelib chiqadi. Vohidov Yeseninning ijodini tarjima qilish va tahlil qilish orqali uning falsafiy, lirik va sotsiokultur aspektlarini o'zbek kontekstida qayta ifoda etgan.

Erkin Vohidov Sergey Yesenin she'riyatini o'zbek adabiyotiga olib kirish orqali ikki madaniyat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlagan va uning ijodining milliy she'riyat rivojiga ta'sirini ko'rsatgan.

Erkin Vohidovning she'riyatida Sergey Yesenin poeziyasining o'rni, o'zbek adabiyotidagi rus ta'sirining muhim bir namunasi sifatida qaralishi mumkin. Vohidovning asarlarida Yeseninning lirikligi, tabiatga bo'lgan muhabbati va inson his-tuyg'ularini ifodalash usullari seziladi[11, 7].

Ushbu maqolada Vohidovning ijodi va Yeseninning poetik usullari orasidagi parallellar, shuningdek, ularning umumiy mavzulari, lirika va romantizm elementlari o'rganiladi. Vohidov o'z asarlarida Yeseninning ta'sirini o'zlashtirgan holda, o'zbek xalqining milliy ruhini va madaniyatini saqlab qolishga intiladi.

Shuningdek, Vohidovning ijodidagi universal mavzular, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, hayot va o'lim masalalari kabi temalar ham Yeseninning poeziyasi bilan bir xilda ko'riladi. Ushbu tadqiqot, Vohidovning ijodiga yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi va rus adabiyotining O'zbek poeziyasidagi ta'sirini aniqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vohidov, E. "She'riyat va inson" (Vohidovning ijodi va uning falsafasi haqidagi asar).
2. Sultonov, A. "O'zbek poeziyasida rus ta'siri" (O'zbek poeziyasida rus shoirataning ta'siri haqida tadqiqot).
3. Tursunov, N. "Erkin Vohidov: ijodi va ta'sirlar" (Vohidovning ijodi va uning ta'sirlari haqidagi maqolalar to'plami).
4. Sergey Yesenin. "She'rlar to'plami" (Yeseninning asarlari va ularning lirik xususiyatlari).
5. Ruzmetova, G. "O'zbek she'rida lirika va romantizm" (O'zbek she'ridagi lirik elementlar va ularning manbalari).
6. Bobojonov, U. "Poeziya va madaniyat: O'zbek va rus adabiyoti" (O'zbek va rus adabiyoti o'rtasidagi aloqa va ta'sirlar).
7. Jalilov, Sh. "Erkin Vohidov: milliy va universal mavzular" (Vohidovning asarlaridagi milliy va universal elementlar).
8. Xorijiy filologiya jurnali, 2007. Sergey Yesenin she'riyati.
9. Xurshid Davron kutubxonasi, 2024. Sergey Yesenin: She'rlar.
10. Kh-davron.uz, 2024. Sergey Yesenin. She'rlar & Fors taronalari.
11. Samxorfil.uz, 2021. Sergey Yesenin ijodi o'zbek davriy matbuoti va adabiyotshunosligi.

IBRAYIM YUSUPOV LIRIKASIDA SHOIR "MENI" VA DAVR MUAMMOLARI UYG'UNLIGI

Ulug'bek Berdibayev,
Qoraqalpoq davlat universiteti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi
e-mail: ulug'bekberdibayev@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada XX asr qoraqalpoq poeziyasining yirik namoyandasi Ibrayim Yusupov she'riyatida lirik qahramon obrazining poetik tabiatiga e'tibor qaratiladi. Shoir lirikasida lirik qahramonning ijtimoiy-hayotiy faolligi, davr muammolariga munosabati hamda shoirning individual "meni" bilan uyg'unlashuvi tahlil qilinadi. "Tug'ishganlik" she'ri misolida lirik qahramon orqali birlik, birodarlik va ma'naviy mushtaraklik g'oyalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari I. Yusupov poeziyasida lirik qahramon kuchli ijtimoiy-ma'naviy mazmun yuklangan poetik obraz sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Ibrayim Yusupov, qoraqalpoq poeziyasi, lirik qahramon, lirizm, poetik obraz, davr nafasi, tug'ishganlik.*

Abstract

This article examines the poetic nature of the lyrical hero in the works of Ibrayim Yusupov, a prominent representative of twentieth-century Karakalpak poetry. The study focuses on the social and existential activity of the lyrical hero, his engagement with the spirit of the era, and the synthesis of social consciousness with the poet's individual self. Through the analysis of the poem "Tug'ishganlik"*, the ideas of unity, brotherhood, and spiritual solidarity are revealed. The research demonstrates that in Yusupov's poetry the lyrical hero emerges as a powerful poetic image imbued with deep social and moral meaning.*

Key words: *Ibrayim Yusupov, Karakalpak poetry, lyrical hero, lyricism, poetic image, spirit of the era, brotherhood.*

XX asr qoraqalpoq poeziyasi taraqqiyotida o'ziga xos badiiy tafakkuri, individual uslubi va so'z qo'llash mahorati bilan ajralib turadigan shoirlar orasida Ibrayim Yusupov alohida o'rin egallaydi. Shoir ijodi haqida qator umumiy mazmundagi maqolalar, adabiy-tanqidiy mulohazalar bildirilgan bo'lsa-da, uning asarlari, xususan, lirik qahramon masalasi maxsus va tizimli tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur holat I. Yusupov poeziyasini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilish zaruratini taqozo etadi.

Shu nuqtayi nazardan, maqolada shoir asarlaridagi lirik qahramonning ijtimoiy-hayotiy faolligi, uning hayotga, jamiyatga, inson taqdiriga munosabati qanday badiiy shakllarda ifodalangani oydinlashtirish asosiy maqsad qilib belgilandi. I. Yusupov lirikasida lirik qahramon faqat shaxsiy tuyg'ularni ifodalovchi subyektiv obraz emas, balki davr muammolariga daxldor, jamiyat hayotida faol pozitsiya egallovchi, ma'naviy mas'uliyatni his etuvchi ijtimoiy qiyofaga ega obraz sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat shoir lirizmning ichki dardini keng hayotiy mazmun bilan uyg'unlashtira olganini ko'rsatadi.

Lirik qahramon adabiy jarayonda shoir ruhiy olamining, estetik ideallarining va badiiy tafakkurining mujassam ifodasi sifatida namoyon bo'ladigan murakkab poetik hodisadir. U bevosita shoir shaxsi orqali yaratilgan obraz bo'lib, shoirning hayotiy kechinmalari, ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan bog'liq tajribalari, fikr va xayollari, hissiy holatlari hamda dunyoqarashi lirik qahramon obrazida sintezlashadi. Shu bois lirik qahramon shoirning ruhiy kechinmalarini ifodalovchi subyektiv obraz bo'lishi bilan birga, muayyan davrning ijtimoiy-ma'naviy kayfiyatini aks ettiruvchi umumlashgan badiiy timsol sifatida ham qaraladi.

Nazariy jihatdan lirik qahramon ikki qirrali tabiatga ega: u bir tomondan individual, ya'ni muayyan

shoirning ichki “meni”, shaxsiy hissiyoti va estetik pozitsiyasini ifodalaydi; ikkinchi tomondan esa umumlashgan xarakter kasb etib, jamiyat a’zolarining umumiy fikr-mulohazalari, dard va orzu-intilishlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ana shu individual va umumiylikning dialektik birligi lirik qahramonni sof shaxsiy kechinma doirasidan chiqarib, ijtimoiy mazmun yuklangan adabiy obraz darajasiga ko‘taradi. Binobarin, lirik qahramon obyektiv voqelikning shoir tafakkuri orqali subyektiv idrok etilishi va badiiy qayta ishlanishi natijasida vujudga kelgan obraz sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur nazariy mulohazalar Ibrayim Yusupov she’riyatidagi lirik qahramon tabiatini anglashda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shoir lirikasida lirik qahramon o‘ziga xos uslubiy belgilarga ega bo‘lib, unda bir vaqtning o‘zida ham davr nafasi, ham shoirning individual “meni” uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. I. Yusupov lirik qahramoni davrning ijtimoiy-siyosiy muammolariga befarq bo‘lmagan, insoniy va ma’naviy mas’uliyatni chuqur his etuvchi poetik obraz sifatida shakllanadi. Shu bilan birga, u shoirning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va estetik qarashlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, shaxsiylik va umumiylikning yuksak badiiy sintezini ta’minlaydi.

Natijada, Ibrayim Yusupov she’riyatida lirik qahramon nafaqat shoir ruhining ifodachisi, balki muayyan tarixiy davrning badiiy-falsafiy tafakkurini o‘zida mujassamlashtirgan kuchli poetik obraz sifatida maydonga keladi. Bu holat shoir lirikasining g‘oyaviy-badiiy salmog‘ini belgilovchi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi.

Ibrayim Yusupov qoraqalpoq lirikasida insonni, uning ma’naviy olamini, ruhiy kechinmalarini va axloqiy mezonlarini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlagan nozik tabiatli va iste’dodli shoir sifatida e’tirof etiladi. Uning ijodida insoniy fazilatlar: sadoqat, vijdon, mehr-oqibat, adolat va ma’naviy poklik ustuvor g‘oya sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, shoir inson tabiatiga xos salbiy illatlar – ikkiyuzlamachilik, beparvolik, ma’naviy qashshoqlikni ayovsiz fosh etib, lirik qahramon orqali axloqiy mezonlarini ilgari suradi.

Shoirning “Tug‘ishganlik” she’ri xalq tafakkuri va tarixiy xotira bilan sug‘orilgan, birodarlik va ma’naviy yaqinlik g‘oyasini ulug‘lovchi asardir. Unda tug‘ishganlik oddiy qarindoshlik doirasidan chiqib, butun bir el-yurtni, qardosh xalqlarni birlashtiruvchi muqaddas tushuncha sifatida talqin etiladi. Shoir bu so‘zni ma’naviy qadriyat darajasiga ko‘taradi:

Tarixlarga guvohli so‘z,
Har bir dardga davoli so‘z,
Muqaddas so‘z, duoli so‘z:
Tug‘ishganlik, tug‘ishganlik.
Or-nomus, vijdoni sherik,
Moli bilan joni sherik,
Tomirdagi qoni sherik,
Qon-qardosh so‘z tug‘ishganlik.
Bir o‘choqqa o‘t yoqtirgan,
Bir yaylovda mol boqtirgan,
To‘y-hashamda ot choptirgan,
Rizqi yo‘ldosh tug‘ishganlik.

She’r davomida insonlarni va xalqlarni yaqinlashtirgan umumiy hayot tarzi, birga kechgan taqdir, bir o‘choq atrofida jam bo‘lish, bir rizqdan bahramand bo‘lish kabi manzaralar orqali tug‘ishganlikning hayotiy ildizlari ochiladi. Ushbu obrazlar xalqona va sodda bo‘lishi bilan birga, chuqur ramziy ma’noga ega bo‘lib, birlik va ahillik g‘oyasini kuchaytiradi. Tug‘ishganlik bu yerda tomirdagi qon, umumiy vijdon va or-nomus bilan bog‘langan ma’naviy rishta sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekni o‘z og‘am etgan,
Ulkan baxtni in’om etgan,

Bir qozonda osh damlatgan,
Mehri issiq tug‘ishganlik.
Suvimni daryodosh etgan,
Elimni do‘st-qardosh etgan,
Turkmanga nag‘madosh etgan,
Xosiyatli tug‘ishganlik.

Asarda o‘zbek, turkman, qozoq va qirg‘iz xalqlarining eslanishi turkiy dunyoning mushtarak ildizlari, tarixiy yaqinligi va madaniy uyg‘unligini ifodalaydi. Shoir bu xalqlarni bir oilaga qiyoslab, ularning urf-odatlari, to‘y-hashamlari, qo‘ni-qo‘shnichilik va mehmondo‘stlik an’analari orqali qardoshlik g‘oyasini yanada mustahkamlaydi. Bunda tug‘ishganlik millatlararo do‘stlik va hamjihatlikning tabiiy, azaliy holati sifatida tasvirlanadi.

Qozoqlarga toy so‘ydirgan,
Qirg‘izlarga qo‘y so‘ydirgan,
O‘tov tiklab, bosh qo‘ydirgan,
Himmatli so‘z – tug‘ishganlik.
Daryoni daryoga qo‘shgan,
Fazolarning sirin ochgan,
Bir oiladek uyushgan,
Mangu yasha, tug‘ishganlik.

“Tug‘ishganlik” she’ri birlik, mehr-oqibat va insoniy hamjihatlikni ulug‘lovchi, bugungi davr uchun ham dolzarbligini yo‘qotmagan she’rlar sirasiga kiradi. She’r o‘quvchini qardoshlik rishtalarini qadrlashga, tarixiy va ma’naviy mushtaraklikni asrab-avaylashga da’vat etadi.

Umuman olganda, I. Yusupov poeziyasida lirik qahramon inson ruhiyatining ifodachisi sifatidagina emas, balki jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liq, ijtimoiy-ma’naviy mazmun yuklangan badiiy obraz sifatida shakllanadi. Mazkur jihatlar shoir ijodini qoraqalpoq poeziyasidagi muhim estetik hodisa sifatida baholash imkonini beradi va uning asarlarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganish dolzarb vazifa ekanini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr. 2018.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki jildlik. Birinchi jild. – T., 1981.
3. Usarova L. Abdulla Oripov she’riyatida milliy ruh ifodasi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...diss. –T., 2020.
4. Yusupov I. O‘mır sag‘an ashiqpan. No‘kis: Qaraqalpaqstan, 1999.

OBRAZ YARATISHDA RAMZIYLIK VA MAJOZIYLIK

Dilfuza Tajibayeva,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent,
Namangan davlat universiteti
e-mail: tojiboyeva.dilfuza66@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada XX asr o'zbek she'riyatining iqtidorli vakillaridan Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Usmon Azimlar she'riyatida qo'llangan ramziy-majoziy timsollar va ularning mazmun-mohiyati tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *obraz, o'zbek she'riyati, ramziy-majoziy, she'riy nutq, so'z birikmasi, poetik obraz, obrazlar sistemasi, ko'chma ma'no, matn, jonlantirish.*

Abstract

The article analyzes the symbolic and figurative images used in the poetry of talented representatives of 20th-century Uzbek poetry: Khurshid Davron, Shavkat Rahmon, and Usmon Azim, and their content and essence.

Keywords: *image, Uzbek poetry, symbolic-figurative, poetic speech, word combination, poetic image, system of images, portable meaning, text, animation.*

She'riy nutqda hayotiy voqea, tushuncha va narsalarni ifodalash uchun shartli ravishda ko'chma ma'noda ishlatiladigan so'z yoki so'z birikmasi qo'llanadi va ramziy-majoziy timsollar yaratilishiga asos bo'ladi. Adabiyotshunoslik lug'atida shunday keltirilgan: "Ramz – simvol ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasidagi ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi, obrazlilik turi" [Quronov, 2010: 244].

Xurshid Davronning "Osmonda bir pichoq uchib yuribdi" deb nomlangan she'rida ramziy-majoziy ma'no uyg'unligini kuzatish mumkin:

Osmonda bir pichoq uchib yuribdi –
Bulutlarni kesar – bulutlar o'lmas.
Nurlarni kesadi – nurlar kesilmas,
Osmonda bir pichoq uchib yuribdi [X.Davron, 1997: 61].

Ma'lumki, osmonda pichoq hech qachon uchmaydi. Shoir bu o'rinda qushlarga xos bo'lgan xususiyatni jonsiz predmet pichoqqa nisbatan qo'llaydi va jonlantirishdan foydalanadi. *Pichoq* bulutlarni kesadi, nurlarni kesadi, biroq ularni yo'qotishga kuchi yetmaydi. She'rda ifodalangan *pichoq* timsoli yovuzlik belgisi sifatida gavdalansa, *bulutlar* – musaffolik, *nurlar* – yorug'lik, abadiylik ma'nosini anglatadi. Shoir *Yog'dular, bulutlar ko'kda* – osmonda xuddi suvdek oqishi, osmonda uchib yurgan pichoqni ko'rib, insonlardek *yoqa ushlab* qarashlarini ishonarli, jonli tasvirlarda chizadi. She'r so'nggida ana shu *pichoq*ning qilmishlari ochiladi:

Bu pichoq shoirning qanotin qirqqan –
Shundan uchib yurar osmonda o'zi.
Osmonda bir pichoq uchib yuribdi –
Kimnidir alanglab izlaydi ko'zi... [X.Davron, 1997: 61].

Iqtidorli ijodkorlarning dushmanlari hamma zamonlarda ham mavjud bo'lgan. Dushmanlik va yovuzlik uchun davr va tuzumning hech qanday ahamiyati yo'q. Shoirning topilmasi *pichoq* – hasadgo'y, ichi qora, yorug'lik va ezgulikni ko'ra olmaydigan insonlarning bir turi sifatida gavdalanadi. Ya'ni bundaylar Cho'lpon, Qodiriy, Usmon Nosirlardek buyuk ijodkorlarning uchqur qanotini qirqqan, Oybekdek tabiat shaydosi tilini bog'lashga, ruhini cho'ktirishga uringan

kimsalardir. Bundaylarning hamon mavjudligi, yana bir iqtidor egasini, yana bir millat fidoyisini *alanglab izla*yotgani shoirni tashvishga soladi. She'r orqali boshqalarni ham ogohlikka, hushyorlikka chaqiradi.

Adabiyotshunos O.Sharafiddinov XX asrning 70-yillarida she'riyatga kirib kelgan ijodkorlar avlodi haqida: "Ular mana shu baquvvat zaminga tayanib, bugun shoirona so'zning yangi imkoniyatlarini izlamoqdalar, she'riy shakllarning rang-barangligiga, tasvir vositalarining o'ziga xosligiga, poetik obrazlar sistemasining originalligiga intilmoqdalar", deb yozganida, ular ijodidagi poetik o'zgachaliklarni nazarda tutgan edi [Sharafiddinov, 1985: 6]. Bu avlod vakillari orasida Xurshid Davronning ham o'z o'rni bor, albatta.

Shoir Shavkat Rahmon zamon bilan hamnafas ijodkor. Jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy tomonlariga chuqur nigoh bilan nazar tashlaydigan, hayot zaminida paydo bo'ladigan illatlar, muammolarni to'g'ri anglab yetadigan, loqaydlikdan nafratlanadigan, tuyg'ulari samimiy va yashovchan shoir. Uning "Bo'rilar" nomli she'rida jamiyat a'zolaridan bir guruhi o'z insoniyligini yo'qotib, vahshiylashib ketganligi va insoniyatni qirib borayotganini ifodalaydi:

Qirg'in keldi
vabo kelganday.
Murdalar ham turdi go'rida –
ko'piklangan qora sellarday
urchib ketdi qonxo'r bo'rilar [Sh.Rahmon, 1997: 172].

She'rdagi "bo'rilar" timsoli majoziy ma'noda kelgan bo'lib, u insonlarni ma'naviy jihatdan g'ajiydi, qalbiga ozor beradi. Insoniyatga kelgan bu "vabo"ni ko'rib, hatto murdalar ham go'rida tik turadi. Bu vahshiylarning soni esa kundan kunga ko'payib boraveradi. Ularning dastidan esa o'lkada vatanning asl farzandlari "g'ajib" tashlandi, yurtda ziyoli, iqtidorli kimsalar qolmadi. Ma'naviyati, o'zligi, erki poymol qilindi:

El qirildi turkiy o'lkada,
er qolmadi – keldi ajali,
kim qoniga botdi yo'lkada,
kim g'ajildi namoz mahali [Sh.Rahmon, 1997: 172].

Shoirning nazarida ma'lum yillar o'tishi bilan bu voqealar unutilgandek tuyuldi. Ammo har qanday zamonda ham u insoniyatga ogoh bo'lib yashashni uqtirmoqda, "ahli muslim"ni hushyorlikka da'vat etmoqda. Ajdodlarimiz yotgan yerlar biz uchun naqadar muqaddas ekanligi, dushmanlar unga tumshug'ini suqishga yo'l qo'ymasligini ta'kidlaydi. Bugungi avlod ota-bobolari yashab o'tgan yerlarni asrab-avaylashi, e'zozlashi, hatto ular yotgan qabrini ham qarovsiz qoldirmasligi, himoya qilmog'i shart ekanligini uqtiradi:

Tokim
har bir muslim qabriga
hech yashirmay ko'zda yoshini
avlodlar ham la'nat lavhimas,
qo'ysa deyman qabr toshini [Sh.Rahmon, 1997: 173].

Usmon Azim ijodida majoziy va ramziy timsollarning o'ziga xos qirralarini kuzatish mumkin. Uning "Ehtiyotkor odam" deb nomlangan she'rida o'ziga pishiq, o'z halovatini o'ylaydigan, o'z qobig'idan chiqmaydigan kimsaning poetik timsoli ifodalanadi. Shoir bu kimsaga qarata qalbidagi og'riqli tug'yonlari ila murojaat qiladi:

Ehtiyotkor odam! Hey, ehtiyotkor odam!
Yolg'on kerak joyda bir bor jasur bo'l,
Ta'zim lozim joyda bir bor mag'rur bo'l.
Sukut lozim joyda til bo'lsang netar?

Birovning g‘amida sil bo‘lsang netar? [U.Azim, 1995: 134].

Hayotda inson uchun, aslida, ehtiyotkorlik juda muhim. Chunki hayot so‘qmoqlarida ehtiyotkorlik bilan qadam tashlamasang, “oyoq toyib” ketib, tanangga zarar yetishi hech gap emas. Biroq shoir bu she’rida ehtiyotkorlikning ham chegarasi bor, hadeb o‘zini o‘ylayvermasdan, jamiyat, millat, Ona Vatan, ezgulik uchun bu “odat”idan voz kechish zarurligini so‘zlaydi. Yolg‘onlarga ham indamay ko‘navermasdan, “bir bor jasur bo‘l”, hadeb ta’zim qilib qulluq qilavermasdan, “bir bor mag‘rur bo‘l”, indamay turish kerak deb uqtirganlarida, rost so‘zla, ya’ni “til bo‘lsang netar?” *Birovning g‘amida sil bo‘lsang netar*, ya’ni elning – vatandoshlaringning dardi bilan ham yasha, degan fikrlarni ilgari suradi. She’rning keyingi misralarida shoir yana ehtiyotkor odamga murojaat qiladi. Bu odamning ehtiyoti tufayli qalbi uyquda. Uyg‘ona olmaydi, yuragi his-tuyg‘usiz bo‘lganligi uchun to‘lg‘ana olmaydi. Shoir unga qarata bu yurt “dardkashlar yurti” ekanligini, dardkashlarning esa sog‘i yo‘qligini ta’kidlar ekan, unga qarata:

Ehtiyotkor odam! Hey, ehtiyotkor odam!
Uyquni asraysan – uyg‘onolmaysan,
Yurakni asraysan – to‘lg‘onolmaysan,
Dardkashlar yurti bu, qara sog‘i yo‘q,
Sening yuragingning nega dog‘i yo‘q? [U.Azim, 1995: 134].

Darhaqiqat, yuqorida ta’kidlaganimizdek, yurt, millat dardi bilan yashamagan kishining qalbida hech narsa yo‘q. Inson uchun Ona Vatan tushunchasini anglab yetish, uning uchun uyquga ketib, uning uchun uyg‘onish, uning dardiga, g‘amiga sherik bo‘lish har bir insonning fuqarolik burchi, vatanparvarlikning go‘zal ko‘rinishidir. Ana shundagina yurak bezovta, bedor yashaydi. Vatanning har bir qarich yerini asrashga, millat taqdirini o‘ylashga intiladi. Aks holda, uning manqurtdan farqi qolmaydi. Professor Qozoqboy Yo‘ldoshev shoir uslubi haqida fikr bildirib: “Usmon – ijtimoiy muammolar shoiri. U o‘zini hech qachon jamiyat tashvishlaridan panaga tortmagan. Hatto uning she’riyatini to‘lig‘icha chigal ijtimoiy masalalarga qaratilgan deyish mumkin. Uning ichkin intim she’rlarida ham hamisha ijtimoiy tutantiriq achitqi bo‘ladiki, u xuddi lakmus kabi odamning shaxsiyati qandayligini belgilab beradi” [Yo‘ldoshev, 2010: 57], – deb yozadi.

She’r so‘nggida shoir ehtiyotkor odamga yana murojaatini ifodalaydi:
Ehtiyotkor odam! Hey, ehtiyotkor odam!
Yaxshilarni yomon domiga tortdi.
Yomonlarni zamon komiga tortdi,
Tinch boqib dunyoga ayyor turibsan,
Bir yamlab yutishga tayyor turibsan... [U.Azim, 1995: 134].

Dunyo yaralibdiki, hamma zamonlarda ham yaxshi va yomonlar bor bo‘lgan. Yaxshi insonlar yomonlarni noto‘g‘ri yo‘ldan qaytarishi har doim ham oson bo‘lmagan. Ammo yomonlar yaxshilarni “o‘z domiga tortishi” ham qiyin bo‘lmagan. Shoir ifodalaganidek, aslida, inson yomon bo‘lib tug‘ilmaydi. Bunday holatga zamon va undagi yozilmagan qonunlar sababchidir. Ehtiyotkor odam esa hamma zamonlarda ham mavjud. U dunyoga tinchgina boqib kuzatib turaveradi. U o‘zini himoya qilish uchun hamma narsaga tayyor.

Usmon Azim tasvirlagan “ehtiyotkor odam” timsoli majoziy ma’noda ifodalangan bo‘lib, u oddiy ko‘ringani bilan, aslida, juda qo‘rqinchli kimsa. Bu ko‘chma ma’nodagi “ehtiyotkor odam” xarakterida hushyorlik, o‘z manfaati yo‘lidagi xudbinlik va “men”lik ustunlik qiladi. Tashqaridan qaraganda, oddiy, xokisor ko‘ringan bunday “ehtiyotkor”lar jamiyat taraqqiyotiga indamay turib zarar yetkazadilar. Har qanday ish va har qanday harakatlarga betaraf bo‘lib olib, o‘zini oq ko‘rsatishga urinadilar. Bundaylar har daqiqada eng qulay fursat kelishini kutib yashaydilar.

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon va Usmon Azim ijodida qo‘llangan ramziy-majoziy timsollar obraz yaratishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu

obrazlar orqali jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy jihatlariga chuqur nigoh tashlanadi hamda insonni hayot jarayonida yuzaga keladigan illat va muammolarni to‘g‘ri anglab yetishga, loqaydlikka nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
2. Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. – Toshkent: Sharq, 1997.
3. Sharafiddinov O. Go‘zallik izlab. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985.
4. Shavkat Rahmon. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1997.
5. Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995.
6. Yo‘ldoshev Q. Yirik tuyg‘ular kuychisi // Til va adabiyot ta’limi. –Toshkent, 2010. – №5.

ABDULLA ORIPOV LIRIKASIDA INSON OBRAZI

Gulrux Xudoyorova,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti v.b.
e-mail: gulruxxudoyorova8@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Oripov lirikasining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etuvchi muhim jihatlardan biri sifatida rang va ohangning nazariy hamda badiiy-estetik o'rni ilmiy asosda tadqiq etilgan. Shoir she'rlari misolida inson xarakteri va ruhiy holatini ochib berishda ranglar simvolikasining badiiy funksiyasi tahlil qilingan. Ijodkor ranglar antitezisi orqali xarakterlar zidligini badiiy uyg'unlikda ifodalab, ushbu hodisa maqolada ilmiy-nazariy aspektda atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy sintez, xarakter, tazod, lirik kechinma, badiiy tasvir, tazod-obraz, ijtimoiy kechinma.*

Abstract

This article examines, on a scholarly basis, the theoretical as well as artistic and aesthetic role of color and tone as one of the key elements revealing the distinctive features of Oripov's lyric poetry. Through examples from the poet's works, the artistic function of color symbolism in portraying human character and psychological states is analyzed. By employing the antithesis of colors, the poet artistically harmonizes contrasting character traits, and this phenomenon is comprehensively explored in the article from a scientific and theoretical perspective.

Key words: *artistic synthesis, character, contrast, lyrical experience, artistic image, contrast-image, social experience.*

Kirish

"Adabiyot – so'z san'ati demakdir. Uning har qanday ifodaviy imkoniyati so'z bilan chegaralanadi. Ayni damda so'zning ifodaviy imkoniyati cheksiz ekanligini ta'kidlamoq zarur. Ijodkor so'z vositasida ham o'quvchiga musavvirlarday tasvir asosida ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shoir badiiy ifodada boshqa san'at turlari imkoniyatiga murojaat etarkan, muayyan so'z, jumlaning badiiy-tasviriy imkoniyatiga jiddiy ahamiyat qaratadi" [Quronov, 2015: 36]. Ayni shu fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mohiyatan olib qaraganda, san'atlarda uyg'unlik mavjud. Bir san'at turi ikkinchi bir san'at turini to'ldiradi. Bir san'at zamirida boshqa bir san'at elementlari yotadi. Ohang, rang, she'r – bu uch san'at o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy tilda "san'atlararo sintez hodisasi" deya nomlanadi.

Asosiy qism

She'riyat va ranglararo sintez masalasi adabiyotning nihoyatda qadim ildizlariga borib taqaladi. Bu haqda Sa'dulla Quronov quyidagicha yozadi: "San'atlararo sintez hodisasi uzoq tarixga ega. Uning ilk, yaqqol misoli Qadimgi Misr me'morchiligining tasviriy san'at va badiiy adabiyot bilan qilgan hamkorligida ko'rinadi. Misr me'morlarining devor va ustunlarga ishlangan bezaklarida tasviriy san'at namunalari hamda qadimiy bitiklar yaxlit kompozitsiyaga birlashtirilgan. Umuman, sintezning bunday qadimiy ko'rinishini barcha madaniyatlar tarixida (ibodatxonalar arxitekturasi misolida) uchratish mumkin" [Quronov, 2018: 132]. Sharqda ham san'atlararo sintez masalasi chuqur tarixiy mazmunga ega. Jumladan, turkiy xalqlar o'tmishi, madaniyati haqida xabar beruvchi toshbitiklardayoq adabiyot va rang o'rtasidagi sintezni kuzatish mumkin. "Avesto"da yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashning badiiy tasvirini berishda oq va qora rang antitezisidan foydalanish, Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'otit turk" asarida tasvirlarning ifodalanishida qizil, oq, qora kabi ranglarning ishlatilishi, mumtoz adabiyotda ranglar vositasida lirik qahramonning ruhiy holati, ijodkor badiiy maqsadi ochib berilishi adabiyot va ranglar sintezi masalasi nihoyatda chuqur

ildizlarga ega ekanligini ko‘rsatib turibdi. Badiiy adabiyot va rang-tasvir o‘rtasidagi sintez masalasini, eng avvalo, xalq og‘zaki ijodidan foydalangan holda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Xalq nasri va lirikasida ranglarning bajaradigan funksiyasi, tashiydigan ma’nosi adabiyot va ranglar sintezi ramziy ma’nolarga ega ekanligini ham ko‘rsatadi. Ertaklarda ezgulik himoyachisi bo‘lmish shahzodalar, pahlavonlarning o‘z maqsadlari tomon oq rangli otda yo‘lga chiqishi, yovuz qahramonlarning qora kiyimda yoxud qora tulporlarda tasvirlanishi o‘zida badiiy sintezning muhim qirralarini aks ettiradi. Lirik asarlardagi oq, qizil, qora, safsar, yashil, sariq kabi ranglarning ma’lum bir majoziy vazifada kelishi badiiy sintezda ramziylik funksiyalari mavjudligini ko‘rsatadi. S.O‘tanova ham ranglarning ramziy xarakteri xususida alohida to‘xtaladi va quyidagilarni ta’kidlaydi: “Insoniyat tarixida ranglarning turli ramziy ma’nosi bo‘lib, ular ma’lum jamiyat guruhlarining etnik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotidagi u yoki bu haqiqatlarni aks ettirgan. Odamlar rangni endi farqlay boshlaganlarida dastlab oq, qizil va qora rangni o‘zaro ajratishgan” [O‘tanova, 2007: 12].

Adabiyot va ranglar sintezining eng muhim tomoni esa adabiyotda har qanday davrdagi san’atlararo sintez hodisasi muallifning badiiy maqsadi, uning his-tuyg‘ulari va lirik kechinmalarini ochib berishga xizmat qiladi, ma’lum bir badiiy-estetik vazifa bajaradi. Bu haqda folklorshunos Shomirza Turdimov ham alohida ta’kidlaydi: “Xalq qo‘shiqlarida keluvchi rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar marosim folkloridagi ranglarga uyg‘un ma’no tashisa-da, badiiy-estetik vazifa bajarishi bilan ajraladi. Ular boshqa ramzlar qatori lirik qahramon hayoti, o‘y-kechinmalari, orzu-istaklarini ifodalab, qo‘shiq badiiyatining yanada mukammal bo‘lishini ta’min etadi” [Turdimov, 2020: 63].

Sa’dulla Quronov Sharqda adabiyot va rangtasvir sintezining mumtoz adabiyot bilan uzviy aloqada bo‘lganligini qayd etadi: “Sharq mumtoz san’atlari taraqqiyotida ham sintez hodisasi muhim omil hisoblangan. To‘g‘rirog‘i, mumtoz san’atlar rivoji bevosita sintez bilan bog‘liq holda kechgan. Sharq mumtoz adabiyoti, miniatyurasi (kitob grafikasi) va musiqasi o‘zaro uzviy bog‘liq holda, she’riyatning nisbiy dominantligi asosida rivoj topgan” [Quronov, 2018: 43].

Mumtoz adabiyotda adabiy sintezning eng go‘zal namunalari, shubhasiz, hazrat Navoiy ijodida kuzatiladi. Alisher Navoiy g‘azallaridagi “Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin, Kim, esar ul dasht aro har yon qizil, sorig‘, yashil” kabi ifodaning o‘ziyoq muallif kechinmalari ifodasida ranglarning betakror tarzda badiiy vazifa bajarishini anglatadi.

“Fusuli arbaa” qasidalar majmuasida badiiy sintez masalasi” maqolasida Mir Alisher Navoiy misralarida ranglar badiiyati va ularning shoir kechinmalaridagi o‘rni xususida so‘z yuritiladi. Jumladan, “ariq suvini ko‘rgil, gul yutganidan sariqligi kuchayadi, yo falak xazon bo‘lgan shoxlar bargining aksini solganmi” mazmunidagi misralar tahlilida “shoirning tabiatni chin musavvirona ifoda etishga bo‘lgan harakati, lirikaning rangtasvir san’ati imkoniyatlari bilan boyitilgani va bu ikki san’atning o‘zaro sintezini ko‘rishimiz mumkin” [Yusupova, 2013: 339], deya alohida qayd etiladi. Qolaversa, lirik kechinmalar ifodasini badiiy ifodalashda ranglarning o‘rni jihatidan Alisher Navoiy dostonlari muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda “Sab’ai sayyor” dostonining yetakchiligi aniq seziladi. Bosh obraz ruhiyati, qolaversa, muallif badiiy niyati ochilishida qora rangdan boshlangan qasrlarning oq qasrga tomon o‘zgarib borishi, har bir rangning ma’lum bir kayfiyatni aks ettirishi badiiy sintezning mukammal namunasidir.

Adabiyotning rangtasvir uyg‘unligida yuzaga chiqishiga ehtiyoj zamonaviy adabiyotda ham mavjud hodisadir. Bu davrga kelib, “shoir o‘quvchining estetik ehtiyojiga monand she’rda tasviriylikka, his-tuyg‘ularini vizual obrazlar asosida ulashishga intiladi” [Quronov, 2015: 37]. Zero, bu davrda ijodkor o‘z shaxsiy kechinmalarini ma’lum qoliplarga sola olmaydi. Chinakam ijodkor o‘z ijodi uchun maxsus qoliplar yaratadi. Bu qoliplar faqat uning ijodiga tegishli bo‘lib, ayni shu qoliplardan uning kimligini anglab olmoq mumkin. Ayni shu jihatdan Abdulla Oripov she’riyatining o‘z qoliplari mavjud. Bu ijodiy o‘lcham yaratuvchisi esa, shubhasiz, shoirning o‘zidir. Abdulla Oripov lirik kechinmalarini bayon etishda ranglarni badiiylik bilan uyg‘unlashtirgan holda qo‘llaydi. Bu holat, ayniqsa, inson obraziga muallifning o‘ziga xos yondashuvida kuzatiladi.

Natijalar va muhokama

Inson – tabiatning eng ulug‘ yaratig‘i. Shu bois u adabiyotning ham bosh mavzusidir. Zero, adabiyotshunos Dilmurod Quronov ta’kidlaganidek: “Borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning asosida inson obrazi turadi, chunki borliqning o‘zida inson shu xil mavqe egallaydi. Shunday ekan, borliqni badiiy idrok etishni maqsad qilgan badiiy adabiyotning bu yo‘ldagi asosiy vositasi inson obrazi bo‘lishi tabiiy hamdir” [Quronov, 2018: 92]. Adabiyotning har qanday mavzusining tag mazmunida inson obrazi, uning tuyg‘ulari va hissiyotlari mujassam. Inson hamisha mukammal jamiyat yaratish va shunday jamiyatda yashashni orzu qilgan. Bunday orzu ijobatiga erishish yo‘lida insoniyat turli mashaqqat va ziddiyatlarga duch kelgan va kelmoqda.

Abdulla Oripov o‘z lirik kechinmalarini bayon qilishda, ranglardan foydalanish jarayonida, asosan, tazod san’atiga murojaat qiladi. Nodira Afoqova Abdulla Oripov ijodida tazod san’atining qo‘llanishi haqida fikr bildirar ekan, tazod-obrazlar masalasiga alohida to‘xtalib, quyidagicha fikr bildiradi: “...Abdulla Oripov asarlarining leytmotivini insonga munosabat, komil inson problemasi belgilaydi. Bu esa shoirning juda ko‘p she’rlarida ikki qarama-qarshi obraz tasviriga asos bo‘lgan. Biz bularni shartli ravishda tazod-obrazlar deb ataymiz. Bunday obrazlar ba’zan she’rning ayrim qismida o‘z ifodasini topsa, ba’zan butun bir she’rga asos bo‘ladi” [Afoqova, 1994: 56]. Abdulla Oripovning “Jeneva daftari”dan o‘rin olgan “Oqlar va Qoralar” deb nomlangan she’ri aynan tazod-obrazlar asnosida vujudga kelgan. Shoir sarlavhaning o‘zidayoq metonimiyaga asoslangan holda, tazod obrazlarni vujudga keltiradi:

Birodar, gapni sen ko‘rgandan so‘ra,
Demagil, she’ringda sharpa oralar.
Bir-birin yeb yotgan oqlardan ko‘ra,
Afzal-ku hamjihat o‘sha qoralar.

Azaldan qora tanlilarning o‘zaro hamjihatligi, mardligi, haqiqatparvarligi haqida juda ko‘p voqealar, fikrlar eshitganmiz. Kerak bo‘lsa, ularning bunday xususiyatlari oqlarga ibrat bo‘lgulik. Shoir ham ikki xil rangli insonlarni bir-biriga zid qo‘yar ekan, qoralarning bir-birini qo‘llab-quvvatlashi, har qanday to‘siqni ahillikda yengib o‘tishiga havas qiladi. Insoniyat o‘rtasidagi nizolar avj olgan bir zamonda qoralarning hamjihatligidan o‘rnak olsa arzishini poetik tarzda ifodalaydi. Zero, shoir uchun kim tarafda turmoq emas, ezgulik va haqiqat tarafda turmoq muhimroqdir. Bu haqda shoirning o‘zi “Ezgulik” she’rida:

Mayizday qop-qora boshli habash ham,
Yaxshi ish qilganda yonida turgil, –deb yozadi.

Muallif o‘zining ijtimoiy kechinmalari bayonida “qora” rangdan badiiy maqsadini ochib berishda maqsadli foydalanadi. Aslida, qora rang ko‘pincha Abdulla Oripov ijodida salbiy kechinmalar ifodasini ochib berishga xizmat qiladi. Ammo yuqoridagi she’rlarda shoir qora rangdan ijobiy ma’noda foydalanadi. Turkiy xalqlar tarixida Xoqoniya shohlari qora deb atalishini (Bug‘ro Qora Xoqon deyilgani kabi) yoxud rus tilshunos olimi A.Kononov qora so‘zining ma’nolarini tadqiq etib, ushbu so‘z bilan “katta”, “yirik”, “muhtasham”, “ulug‘”, “qudratli”, “kuchli”, “pokiza”, “musaffo”, “quruqlik”, “yer”, “zulmat ko‘ki”, “shimol” kabi mazmunlar ifodalanganligini ko‘plab misollar vositasida izohlab bergan”i [Haqqul, 2017: 3], Hazrat Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonidagi ilk hikoyat oxirrog‘idan o‘rin olgan:

Qora rang elga toji torakdur -
Kim, qora rang ichradur, muborakdur, –

baytiga tayanib, qora rangning muborak va muqaddaslik xususiyatlari inobatga olinsa, shoir qora rang ifodalaydigan ma’no imkoniyatlarini yaxshi anglagani va bundan o‘z ijtimoiy kechinmalarini ochib berishda mahorat bilan foydalangani kuzatiladi.

Abdulla Oripov she’riyatida rang va ohang sintezi shoir lirik kechinmalarining yorqinroq

ifodalanishiga, kechinmalarning falsafiy yuki ortishiga, anglash va sezish olamining betakrorlashuviga yordam beradi. Ammo shoir ijodida shunday she'rlar ham mavjudki, unda ranglar nomi tilga olinmaydi. Ammo she'rni o'qir ekanmiz, ijodkor nazarda tutgan rangni topamiz, to'g'rirog'i, anglab etamiz. Muallif ranglarni ifodalovchi so'zlarni emas, ranglarni ifodalovchi ruhiyatni she'r ichiga singdiradi. Bunga "Qora yurak" she'rini misol qilib keltirish mumkin. To'g'ri, ijodkor sarlavhada "qora" so'zini qo'llaydi. Ammo she'r matnida bir marta ham bu rang nomidan foydalanmaydi. Aksincha, she'r vositasida ko'z oldimizda ranglarni gavdalantiradi:

Horg'in bir yo'lovchi avji issiq dam,
O'lar holga keldi, g'oyatda tashna.
Duch kelgan bir Inson dedi: – Bo'l, bardam,
Yana o'n qadam yur, buloq bor, oshna.

Tasavvur qilaylik: quyosh ayovsiz qizdirmoqda. Ayni quyosh tig'ida tashnalikdan benihoya qattiq azob-uqubatga duch kelgan inson kelmoqda. Tashnalik, chanqoq uni yurishga ham qo'ymaydi. Qattiq horigan inson butunlay madordan qolgan. U hamma narsadan, hayotdan ham umidini uzgan bir pallada yo'lida uchragan kimsa o'n qadamdan keyin buloq borligini aytdi. Mana, sizga o'sha rang. Yashashdan deyarli umidini uzgan inson qarshisida yorug'lik paydo bo'ldi: o'n qadamdan keyin buloq bor! Ayni shu yorug'lik ko'z oldimizga qaysi rangni keltirdi. Albatta, Oq! Shoir kechinmaning boshqa rangini tasvirlashda davom etadi:

Sen-chi, u ohuga rahm etmay, hatto
O'zing sayd etarding, ko'zin yoshlarding.
Tashna yo'lovchilar ichmasin deb to,
O'sha buloqni ham ko'mib tashlarding.

Ana endi, shubhasiz, o'quvchi ko'z o'ngida qora rang gavdalanadi. She'rning o'zidan rang topa olmoq uchun shoir she'rdagi lirik kechinmaga ayni o'sha rangni "qamab qo'ymog'i" shart. Shundagina bu kechinma va uning ichidagi qamalgan rangni o'quvchi ham ko'rib, ilg'ay oladi. Bunday she'rlar shoir ijodida talaygina. Abdulla Oripov ba'zan nafaqat she'rdagi kechinmalar, ba'zan hatto birgina sarlavhaning o'zigayoq ranglarni qamab qo'ya oladi. Shoirning "Everest va ummon"dan o'rin olgan "Folbinlar" she'ri bunga misol bo'la oladi. Zero, o'quvchi folbin so'zini eshitishi bilanoq uning ko'z o'ngida zulmat, shum xabar, yovuzlik – qora rang gavdalanadi. Ha, bu o'rinda o'quvchi adashmaydi. Sarlavhaning o'zidanoq o'quvchi shoir she'r ichiga qamab qo'ygan rang "qora" ekanligini anglaydi.

Matyoqub Qo'shjonov Abdulla Oripovning "qora rang dushmani" ekanligini ta'kidlaydi: "Ha, shoir "qora rang" dushmani, quyosh shu'lasini to'suvchilarga qarshi, birovlarning g'amini ko'rib quvonadiganlarga, o'zini xalq safida hisoblab, aslida, bu safni buzguvchilarga qarshi, xiyonatchilar, o'z imonini arzimagan matohga sotuvchilarga qarshi..." [Qo'shjonov, 2018: 262]. E'tibor qaratilsa, Matyoqub Qo'shjonov qora rang birikmasini qo'shtirnoq ichida qo'llaydi. Aslida, olim nazarda tutganidek, bu o'rinda rang – vosita. U shoirning minglab insoniy nuqsonlar va illatlariga qarshi lirik kechinmasini ifoda etish vositasidir. Ranglarning sarlavhaga olib chiqilishi, odatda, muallif kechinmalarining yanada bo'rtibroq ko'rinishiga imkon beradi. Ammo Oripov ijodida barcha she'rlardagi ranglarni ham sarlavhadan topib bo'lmaydi. Ya'ni yuqoridagi "Folbinlar" she'rida bo'lgani kabi mantiqdan kelib chiqib, shoirning she'r ichiga qamab qo'ygan rangini topish imkonsiz. Bunga A.Oripovning "Oqlovchi" she'ri misol bo'la oladi. Ushbu she'r boshdan oxirigacha keskin kinoya, achchiq kesatiq va hajv asosiga qurilgan. Oqlovchi deganda, ko'z o'ngimizda kimgadir yordam qo'lini cho'zuvchi, yaxshilik qiluvchi, haqiqatni himoya qiluvchi kishi gavdalanadi. Agar sarlavhadan kelib chiqib, she'rning ruhiyatini, uning zamiridagi rangni topmoqchi bo'lsak, yanglishamiz. Boisi endi mantiq biroz o'zgaradi:

Oqlovchilik qiladi kotib,
Ko'pchilikdan qilmang, der gina.

Yomonlarni bo‘ldik yo‘qotib,
Qolganlari uch-to‘rttagina.

Dastlabki satrlarni o‘qishimiz bilanoq sarlavha va mantiq o‘rtasidagi to‘qnashuvga guvoh bo‘lamiz. Boisi she’rda endi biz sarlavhadan kelib chiqib tasavvur qilganimiz oq rang – poklik, ezgulik haqida so‘z ketmayapti. She’rning keyingi bandlarini o‘qish davomida shoir ifodalagan rang, aslida, qora ekanligini anglab etamiz. Oq rang azaldan deyarli barcha millat uchun ijobiy timsol yaratishga xizmat qiladi. Xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot va Qur’oni karimda ham (Bu o‘rinda mumtoz adabiyot, asosan, Qur’onga tayanishini ham unutmaslik joiz) oq rang poklik va ezgulik ma’nosini ifodalashga xizmat qiladi. Husayn Voiz Koshifiyning “... oq rang kunduzning rangidir va dili ravshan jamoanikidir va ularning ko‘ksi kudurat, kina va g‘ubordan pokdir” [Koshifiy, 2019: 339], kabi fikrlaridan tasavvufda ham oq rangning mohiyati ezgulikka qaratilganini anglash mumkin.

Xulosa

Inson bilan bog‘liq hodisalarda rang va adabiyot sintezining lirik kechinmani ifodalashdagi o‘rni masalasida xulosa qilib aytish mumkinki, biz tahlil qilgan she’rlar Abdulla Oripovning turli mamlakatlarga safari natijasida yaratilgan bo‘lib, ulardagi shoirning lirik kechinmalarini ifodalovchi ranglarning barchasi Inson obrazi bilan bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Qolaversa, shoir ijodida ranglarning kechinma ifodalashdagi vazifasi qadim o‘tmish, mumtoz adabiyot an’analari bilan bog‘liq tarzda ifoda etiladi.

Ijodkor inson vositasida rang va ohang sintezining ifodalanishida kasb va faoliyat-jarayon nomlaridan unumli foydalanib (Oqlovchi, Folbin kabi), lirik kechinmalar bayonida ranglardagi tazodni mohirona qo‘llaydi, tazod-obrazlarga yuzlangan holda, o‘z kechinmalarini bayon qilish bilan bir qatorda she’rlar sarlavhasida ham tazod-obrazlardan foydalanadi (Oqlar va Qoralar). Abdulla Oripov she’rlarida ranglar nomidan foydalanmagan holda, o‘quvchiga kechinmalar yordamida ranglarni his qilish imkonini berishi (Qora yurak) yoki ranglarni asl mohiyatidan teskari holatda qo‘llab., badiiy kashfiyot yaratadi (Oqlovchi). Abdulla Oripov ranglar bilan adabiyotni uyg‘unlashtirgan holda, o‘zining ijtimoiy lirik kechinmalarini yoritib beradi. Bu holat badiiy adabiyot va ranglar sintezida ijtimoiylikning badiiylikdan uzilmagan holda, yetakchi ahamiyat kasb etishiga muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san’atlar. – Buxoro, 1994.
2. Haqqul I. Yana qora rang talqini haqida. https://kh-davron.uz/
3. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvatnomai Sultoniy. – T:. O‘zbekiston, 2019.
4. O‘tanova S. Alisher Navoiy g‘azaliyotida rang simvolikasi. F.f.n.diss... – Toshlent: 2007.
5. Qo‘shjonov M. Tanlangan asarlar. Iste’dodning tug‘ilishi. – Toshkent: Sharq, 2018.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.
7. Quronov S. Oybek lirikasida badiiy sintezning ifodalanishi. – Toshkent: Sharq yulduzi, 2015-yil 1-son.
8. Quronov S. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida sintez muammosi. – Farg‘ona, 2018.
10. Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. – Toshkent: 2020.
11.Yo‘ldoshev Q. Hikmat jilvalari. – Toshkent: Sharq, 2018.
12. Yusupova D., Quronov S. “Fusuli arbaa” qasidalar majmuasida badiiy sintez masalasi”. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

MUMTOZ VA ZAMONAVIY ADABIYOT TUTASHUVI MASALASI (“YULDUZLI TUNLAR” ROMANI MISOLIDA)

Tojiboyeva Husnida Maxsutali qizi,
University of Business and Sciense
Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi magistranti
e-mail: husnida540@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Yulduzli tunlar” romanida tarixiy davrni ifodalashda muallif oldidagi matn va zamonaviy adabiyot tutashuvi masalasi tahlillar asosida ko‘rib chiqildi. Tarixiy birliklar o‘rinli qo‘llanib, ularni zamonaviy til vositalari bilan uyg‘unlashtirish orqali voqealar jonli va o‘quvchi uchun tushunarli tarzda yetkazilganligi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *Tarixiy davr, zamonaviy o‘zbek tili, tarixiy va arxaik so‘zlar, badiiy tasvir, tarixiy birliklar.*

Abstract

This article analyzes the author’s approach to the historical period in the novel “Starry Nights” in terms of the connection between the text and modern literature. It analyzes how the events are conveyed vividly and in a way that is understandable to the reader by appropriately using historical units and combining them with modern language tools.

Keywords: *Historical period, modern Uzbek language, historical and archaic words, artistic image, historical units.*

Tarix – bu o‘tib ketgan voqealar majmui emas, balki har bir davr o‘zicha qayta o‘qiydigan tirik xotiradir. Adabiyot esa ana shu xotirani zamon ongiga mos holda qayta jonlantiruvchi san’atdir. Ayniqsa, mumtoz adabiyot vakillarining hayot yo‘lini badiiy talqin etishda yozuvchi zimmasiga nihoyatda nozik va mas’uliyatli vazifa yuklanadi: tarixiy haqiqatni saqlagan holda, zamonaviy o‘quvchini befarq qoldirmaslik.

Bu jihatdan Yulduzli tunlar romani o‘zbek adabiyotida alohida estetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda mumtoz adabiyot va tariximizning ulug‘ siymosi- Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti zamonaviy adabiy tafakkur nuqtayi nazaridan yoritilgan. Asar muallifi Pirimqul Qodirov esa o‘tmish va bugun oralig‘idagi badiiy muvozanatni topa olgan ijodkor sifatida e’tirof etiladi.

Umarali Normatov “Tarixga ulug‘ hurmat” maqolasida “garchi yozuvchi keng qamrovli, izchil, batafsil xronologik tasvir yo‘lini tutsa-da, asarda o‘quvchini toliqtiradigan cho‘ziqlik yo‘qligiga...” e’tiborini qaratadi [Normatov, 2021:59].

“Yulduzli tunlar” – o‘zbek adabiyotidagi yirik tarixiy romanlardan biri bo‘lib, unda buyuk sarkarda va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning murakkab hayot yo‘li, ichki kechinmalari hamda tarixiy shaxs sifatidagi qiyofasi badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Asar muallifi Pirimqul Qodirov ushbu romanni taxminan o‘n yil davomida izchil izlanishlar, tarixiy manbalarni chuqur o‘rganish asosida yozib tugatgan. Roman voqealari Boburning siyosiy kurashlar bilan to‘la hayoti, vatandan ayrilish fojeasi, hokimiyat uchun kechgan janglar hamda ijodkor qalbining nozik holatlari bilan uzviy bog‘liq holda yoritiladi. Muallif tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimani uyg‘unlashtirib, davr ruhi, tarixiy muhit va shaxs psixologiyasini ishonarli tarzda aks ettiradi.

“Yulduzli tunlar” romanining badiiy-estetik qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biri uning til va uslub xususiyatlaridir. Asar tarixiy roman janrida yaratilgan bo‘lib, unda tasvirlanayotgan voqealar XV–XVI asrlar tarixiy muhitiga mansub. Shu bois muallif oldida murakkab vazifa – bir tomondan, davr ruhini, tarixiy muhitni ishonarli tarzda tiklash, ikkinchi tomondan esa zamonaviy kitobxon uchun matnning tushunarli va ta’sirchan bo‘lishini ta’minlash vazifasi turgan. Pirimqul Qodirov mazkur vazifani badiiy til imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan holda muvaffaqiyatli hal etadi.

Asarda davr muhitini yaratish maqsadida tarixiy va arxaik leksik birliklar muhim o‘rin egallaydi. Xususan, saroy hayoti, harbiy-siyosiy munosabatlar, davlat boshqaruvi, urf-odat va an’analar tasvirida hozirgi adabiy tilda kam qo‘llanadigan yoki iste’moldan chiqqan so‘z va atamalar faol ishlatiladi. Bu leksik qatlam asarda tasvirlanayotgan voqealarning tarixiyligini kuchaytirib, o‘quvchini o‘sha davr muhitiga ruhiy jihatdan olib kiradi. Ushbu fikrlarni asar matnidan olingan ayrim tarixiy va arxaik so‘zlar misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin. Jang tasvirlarida muallif davr muhitini jonlantirish maqsadida tarixiy leksik birliklardan faol foydalanadi:

To‘fanglardan otilgan o‘qlar jiba va dubulg‘alarni bemalol teshib o‘tar, shuning uchun fitnachilar to‘fang qarshisida turish berolmas edi [Qodirov, 2015:494].

Ushbu jumlada qo‘llangan to‘fang, jiba, dubulg‘a birliklari XV–XVI asrlarga xos harbiy-siyosiy leksikani ifodalab, tasvirning tarixiy ishonchliligini ta’minlaydi.

Yozuvchi bunday tarixiy va arxaik so‘zlardan ko‘p o‘rinlarda qo‘llaydi.

Masalan,

Shu tarzda dardlashib, Xo‘jandga yetib keldilar. Shahar dorug‘asi nufuzli a’yonlari bilan qo‘rg‘on darvozasidan chiqib, Bobur va uning onasini ehtirom bilan kutib oldilar [Qodirov,2015: 189]

Bu jumlada shahar dorug‘asi va qo‘rg‘on so‘zlarining birgalikda qo‘llanishi asarda tarixiy muhitni yaratishda leksik vositalarning o‘zaro uyg‘unligidan dalolat beradi. Har ikkala birlik ham o‘rta asrlarga xos bo‘lib, davlat boshqaruvi va harbiy tizimning o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Ushbu tarixiy leksik qatlam syujet rivojiga xizmat qilishi bilan birga, o‘quvchini tasvirlanayotgan davr makoniga ruhiy jihatdan yaqinlashtiradi. Biroq “shahar dorug‘asi” va “qo‘rg‘on” so‘zlari tarixiy leksik birliklar sifatida qatnashadi. Muhimi shundaki, muallif ularni faqat davr muhitini aks ettirish, tarixiylikni his ettirish maqsadida joylashtirgan. Jumla tarkibidagi fe’llar va gap tuzilishi esa zamonaviy o‘quvchi tafakkuriga yaqin va tushunarli bo‘lib, matnni anglashni murakkablashtirmaydi. Natijada, o‘quvchi bir vaqtning o‘zida tarixiy muhit bilan tanishadi, lekin voqeani tushunishda hech qanday qiyinchilikka duch kelmaydi.

Romanda tarixiy muhitni aks ettirish muallif uchun asosiy badiiy vazifalardan biri bo‘lsa-da, u bu maqsadga tarixiy leksik birliklardan haddan tashqari ko‘p foydalanish orqali emas, balki ularni o‘rinli va tanlab qo‘llash yo‘li bilan erishadi. Tarixiy so‘zlar, asosan, davrning ijtimoiy-siyosiy tuzilishini, mansab va lavozimlarni, harbiy hayot hamda saroy muhitini ifodalashda ishlatiladi. Bu birliklar romanda tarixiylikni belgilovchi asosiy belgilar sifatida xizmat qilsa-da, matnning umumiy leksik tarkibini to‘liq egallab olmaydi.

Muallif o‘quvchi asarni o‘qish jarayonida qiyinchilikka duch kelmasligi, voqealar mantiqini oson anglay olishi uchun zamonaviy o‘zbek adabiy tiliga xos leksik birliklardan kengroq foydalanadi. Ayniqsa, muallif nutqi, qahramonlarning ichki kechinmalari, psixologik tasvirlar va voqealar rivojini izohlashda bugungi o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lgan so‘z va birikmalar ustuvorlik kasb etadi. Bu holat romanning o‘qilishi ravon, mazmunan aniq va badiiy jihatdan ta’sirchan bo‘lishini ta’minlaydi.

“Yulduzli tunlar” romanida Pirimqul Qodirovning badiiy tasvir va tarixiy tahlil mahorati yorqin namoyon bo‘ladi. U tarixiy voqealarni nafaqat ishonchli va aniq aks ettirib, balki zamonaviy o‘quvchi uchun tushunarli va qiziqarli qilib yetkazgan. Tarixiy va arxaik leksik birliklar orqali davr muhitini jonlantirgan, zamonaviy leksika va grammatik shakllar bilan esa matnning ravonligini ta’minlagan.

Muallifning bu ustaligi romanni nafaqat tarixiy roman, balki o‘zbek adabiy tilining badiiy boyligini namoyon etuvchi asarga aylantiradi. “Yulduzli tunlar”da tarixiylik va zamonaviylik uyg‘unlashuvi, voqealar va obrazlarni jonli tasvirlash Pirimqul Qodirovni o‘zbek adabiyotidagi yetuk tarixiy roman yozuvchilaridan biri sifatida yana bir bor ko‘rsatadi. Shu sababli, bu asar o‘quvchi uchun qiziqarli, lingvistik va badiiy tadqiqotlar uchun ham katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Normatov U. Aql va qalb chirog‘i. – Toshkent: adabiyot va san’at nashriyoti , 2021.
2. Qodirov P. Yulduzli tunlar: roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 3, 4, 5-jildlar. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007–2008.
4. ZiyoNET – O‘zbekiston ta’lim portali. – Toshkent: ZiyoNET, https://ziyo.uz

ALLALARDA MILLIY QADRIYATLAR VA MA'NAVIY MEROSNING POETIK TALQINI

Husanova Shohsanam Erkinovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
katta o'qituvchisi
e-mail: shoxsanamxusanova746@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek xalq allalarida milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning badiiy ifodalanish usullari tahlil qilinadi. Unda allalarning lisoniy, poetik va madaniy xususiyatlari xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida yoritiladi. Shuningdek, allalarda ona mehrining, ota timsolining, vatanparvarlik, sabr, mehnatsevarlik, e'tiqod, himoya va or-nomus kabi qadriyatlarning qanday poetik vositalar orqali tasvirlanishi o'rganiladi. Tadqiqot davomida allalarning o'zbek xalqining milliy o'zligiga xizmat qiluvchi tarbiyaviy va estetik ahamiyati ham tahlil etilgan.

***Kalit so'zlar**: alla, milliy qadriyat, ma'naviy meros, poetik obraz, xalq og'zaki ijodi, tarbiya, ramz, ona mehr.*

Abstract

This article explores the poetic interpretation of national values and spiritual heritage in Uzbek lullabies. The study analyzes the linguistic, poetic, and cultural features of lullabies as an integral part of the nation's oral folklore. It examines how maternal affection, paternal imagery, patriotism, patience, diligence, faith, protection, and honor are artistically represented in the text of lullabies. The paper also discusses the educational and aesthetic significance of lullabies in shaping the national identity of the Uzbek people.

***Keywords:** lullaby, national values, spiritual heritage, poetic image, folklore, upbringing, symbolism, maternal love.*

O'zbek xalqining boy og'zaki ijodida allalar o'ziga xos o'rin tutadi. Ular nafaqat bolani uxlatish vositasi, balki xalqning ruhiy olami, milliy tafakkuri, orzu-intilishlari va ma'naviy qadriyatlarining nozik ifodachisidir. Har bir alla xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy hayot tarzi, diniy e'tiqodi va estetik qarashlarini o'zida mujassam etadi. Shu sababli allalar o'zbek xalqining milliy ruhiyatini, insoniy fazilatlarini va madaniy o'zligini anglashda beqiyos ahamiyatga ega.

Allalar xalq hayotining eng muhim qadriyatlarini – mehr, sabr, sadoqat, vatanparvarlik, halollik va mehnatsevarlik g'oyalarini bolaga eng tabiiy, musiqiy va emotsional shaklda singdiradi. Bu janrda xalqning ma'naviy tajribasi she'riy shaklda kodlangan bo'lib, avloddan-avlodga og'zaki tarzda uzatiladi. Shu sababli allalar – bu xalqning axloqiy me'yorlari, estetik didi va ijtimoiy qarashlarining poetik ko'rinishidir.

Folklorshunos olimlar ta'kidlaganidek, alla janri – xalqning tarbiyaviy manifestidir. Chunki unda bola nafaqat uyquga tayyorlanadi, balki onaning ovozi orqali xalqning qadimiy hikmatlari, nasihatlari, duolari va orzulari ham singdiriladi. O'zbek allalarida "bolam tinch uxlasin", "Xudoyim asrasin", "yaxshi bola bo'l", "oq yo'ldan yur" kabi iboralar xalqning axloqiy tizimini, diniy tasavvurini va ijtimoiy idealini ifodalaydi.

O'zbek allalarida ona obrazi markaziy semantik va poetik o'q sifatida namoyon bo'ladi. Ona — bu nafaqat qo'shiq kuylovchi shaxs, balki xalq ma'naviyatining timsolidir. Uning ovozi – xalq ruhining ohangi, uning so'zi – xalq tafakkurining sadosidir. Ona obrazi orqali allalarda mehr, fidoyilik, bag'rikenglik, sabr va muhabbat singari fazilatlar badiiy tarzda ifodalanadi.

Ona obrazining ramziy ma'nosi tinchlik, iliqlik, hayot va ezgulik bilan chambarchas bog'liq. Masalan, quyidagi satrlar bunga yorqin misoldir:

"Alla, bolam, alla,
Uxla bolam, alla,
Men sen uchun bedorman,

Orom olgin, uxla.”

Bu allada onaning mehr-muhabbati, fidoyiligi, bola taqdiriga bo‘lgan mas’uliyati juda samimiy ohangda ifodalangan. Ona bolasi uchun bedor, u esa tinch uxlasin – bu satrlar xalqning onalik qadriyatiga bergan ulkan e’tiborining badiiy ifodasidir.

Shuningdek, onaning ovozi xalq estetik tafakkurining musiqiy ko‘rinishidir. Alla kuylovchi ayol o‘z ovozi orqali xalq ohangini, milliy intonatsiyani, she’riy ritmni, va ayniqsa, ona mehrining energetikasini ifoda etadi. Shu sababli allalarni o‘rganishda lingvopoetik tahlil bilan bir qatorda akustik va emotsional tahlil ham muhimdir.

O‘zbek allalarining asosiy vazifasi — bola ongiga axloqiy qadriyatlarni singdirishdir. Ular orqali xalq “yaxshi bola bo‘lish”, “mehnatsevar bo‘lish”, “yaxshilik qilish”, “yomonlikdan tiyilish” kabi tamoyillarni bolalarga musiqiy shaklda yetkazgan. Bu qadriyatlar xalqning ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unda mehnat, sabr-toqat, halollik, e’tiqod va or-nomus markaziy o‘rinni egallaydi.

O‘zbek allalarining bir qismi diniy-mistik mazmunga ega. Ular orqali xalq o‘zining e’tiqodini, tangriga bo‘lgan ishonchini, bolani yovuz kuchlardan saqlash istagini ifodalaydi.

Allalarning poetik va estetik tahlili.

Alla janrining poetik xususiyati — soddalikda chuqurlik, qisqalikda ma’no boyligidir. Ular fonetik jihatdan musiqiy, ritmik jihatdan ohangdor, mazmunan esa chuqur ma’naviy yuklama bilan to‘yingan. “Alla” so‘zining takrori esa tinchlik, sokinlik, xavfsizlik hissini uyg‘otadi. Shu bilan birga, allalarda epitet, metafora, parallelizm, takror va intonatsion ritm kabi badiiy vositalar keng qo‘llaniladi.

Masalan, “alla” so‘zining takroriy ohangi bolaga nafaqat uxlatish effektini beradi, balki ruhiy tinchlik bag‘ishlaydi. Shu tariqa, allalar musiqiy-psixologik ta’sir kuchiga ega bo‘lgan janr sifatida ham baholanadi.

Demak, o‘zbek allalari xalqning milliy qadriyatlari va ma’naviy merosining poetik aksidir. Ular asrlar davomida xalqning e’tiqodi, orzusi, mehr-muhabbati va ijtimoiy ideallarini bolaga yetkazuvchi ruhiy ko‘prik bo‘lib kelgan. Allalar o‘zining soddaligi, samimiyligi va badiiy chuqurligi bilan xalq tafakkurining eng yuksak namunalaridan biridir.

Bugungi kunda allalarni o‘rganish — bu faqat folkloriy yoki tilshunoslik masalasi emas, balki milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy merosni saqlash va madaniy identifikatsiyani mustahkamlashning ham muhim yo‘nalishidir. Shuning uchun allalarning lingvistik, poetik va gender jihatlarini chuqur o‘rganish nafaqat ilmiy, balki ma’naviy-ma’rifiy zaruratdir. Ikkinchi tomondan, ota obrazining ham allalarda o‘ziga xos o‘rni bor. Ota – kuch, tayanch va himoya ramzi sifatida tilga olinadi. Ba’zi allalarda onaning “Oting kelar otangning, nonin keltir botangning” kabi satrlarida ota oilaning tayanchi, oilaviy qadriyatlar himoyachisi sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, mehnatsevarlik, halollik va sabr qadriyatlari ham allalarning asosiy mazmun qatlamini tashkil etadi. Allalarda mehnatni qadrlash, halol rizq topish, sabr bilan hayot sinovlarini yengish g‘oyalari bolaga bevosita yoki ramziy tarzda yetkaziladi.

O‘zbek xalq allalarida xalqning diniy va axloqiy merosi ham o‘z ifodasini topgan. Ba’zi allalarda “Xudoyim saqlasin bolamni”, “Tangrim yor bo‘lsin”, “Alloh panohida bo‘lgin” kabi iboralar orqali diniy e’tiqodning bolalar ruhiyatiga singdirilishi kuzatiladi. Bu esa xalqning ma’naviy merosini bolaga ona allasi orqali singdirish an’anasi mavjudligini ko‘rsatadi.

Allalar, shuningdek, xalqning tarixiy xotirasi va madaniy merosini ham saqlab keladi. Ularning ko‘pida qadimiy so‘zlar, dialektal birliklar, milliy timsollar (qush, quyosh, oy, yulduz, ariq, qo‘y, ot) uchraydi. Bu timsollar orqali xalq dunyoqarashi, tabiat bilan uyg‘un yashash g‘oyasi ifodalanadi.

Allalar poetik jihatdan qisqa, ammo emotsional va obrazli shaklda tuzilgan. Ularning asosiy badiiy vositalari — takror, tovush o‘yinlari, ritm, epitet, ramz va metaforalardir. “Alla” so‘zining o‘zi

ham musiqiy takror orqali tinchlik kayfiyatini hosil qiladi.

Ushbu poetik vositalar allalarning nafaqat tili, balki musiqasi, ohangi orqali ham ma'naviy ta'sirini kuchaytiradi. Har bir alla o'zining melodik tuzilishi bilan xalq ruhiyati va milliy ohangni mujassam etadi. Shu tariqa, allalar xalq estetik qarashlarining musiqiy-poetik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, allalar o'zbek xalqining ma'naviy merosi va milliy qadriyatlarini avloddan avlodga uzatuvchi noyob badiiy shakldir. Ular orqali xalq o'zining insoniy fazilatlarini, mehr-muhabbatini, e'tiqodini, mehnatsevarlik va sabr-toqatini ifodalaydi. Allalar — bu nafaqat xalq qo'shig'i, balki milliy ruh, madaniyat, tarbiya va estetik didning timsolidir.

Ular xalqning og'zaki yodgorligi sifatida milliy o'zlikni saqlashda, yosh avlodni ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Shu sababli allalarni ilmiy, poetik va madaniy jihatdan o'rganish xalqning ma'naviy genofondini asrashning muhim qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Qosimova M. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 2014.
3. Mirzaahmedova S. O'zbek folklori poetikasi. – Toshkent: Fan, 2016.
4. Saidov U. Folklorshunoslik asoslari. – Samarqand: Ziyo, 2018.
5. To'raqulova G. Allalarda ona obrazining badiiy talqini. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi, 2020.
6. Sodiqova Z. Milliy qadriyatlar va ularning folklordagi aks etishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

TOHIR MALIK QISSALARIDAGI O‘XSHATISHLARNING TASNIFI VA IFODA SEMALARI

Turakulova Umidaxon Anvarovna,
University of Bussines and Science oliy ta’lim muassasasi
Til va adabiyot ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Tohir Malik qissalaridagi o‘xshatishlarning tasniflari haqida so‘z boradi. Yig‘ilgan o‘xshatishlar shaxs, predmet kabi turga, uning uchida yana kichik turlarga bo‘linishi misollar bilan izohlangan. Undan tashqari, bir qator qo‘rquv semali o‘xshatishlarning tahlili keng sharhlangan.

Kalit so‘zlar: *o‘xshatishlar, etalonlar, etalonlarning efoda semasiga ko‘ra turlari, “qo‘rquv” semali etalonlar izohi.*

Abstract

This article discusses the classifications of similes used in the novellas of Tohir Malik. The collected similes are divided into types such as person-based and object-based similes, and these are further subdivided into smaller categories, which are explained with examples. In addition, the analysis of a number of similes containing the semantic component of “fear” is extensively discussed.

Keywords: *similes, etalons, types of etalons according to their expressive semes, interpretation of “fear”-semantic etalons.*

Tohir Malik qissalarida o‘xshatishlar ijobiy yoki salbiy, quvonch, qo‘rqinch, adolatsizlik, tajovuz kabi qator emotsiyaga boy o‘rinlarda qo‘llangan bo‘lib, badiiy matnga yorqin bo‘yoqlar bilan tasvir berishga xizmat qilgan. Qolaversa, o‘xshatishlar keng qamrovda qo‘llangan bo‘lib, tabiat hodisalari, diniy mavzuga oid terminlar, hayvonot olami, osmon jismlari, o‘simliklar, metall nomlari, kasb-hunarga oid terminlar, makon va zamon bilan bog‘liq o‘xshatishlar o‘z aksini topgan. Qissalarda qo‘llangan o‘xshatishlar adibning nozik payqashlaridan, sinchkovligidan darak beradi. Ayniqsa, erkin o‘xshatishlarning ko‘pligi o‘quvchi tasavvurini harakatga keltiradi. O‘xshatishlarning bu turi tasviriyligi, ta’sirchanligi, ifodaviyligi va yorqinligi bilan alohida ahamiyatga ega. Noyobligi sabab kitobxon xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Bunday o‘xshatishlar kutilmagan, orginal, yangiligi va tafakkur kashfiyoti bilan kitobxonni hayratga soladi. Adib qissalarida qo‘llangan o‘xshatishlar keng qamrovli bo‘lib, har bir sahifasida o‘nga yaqin o‘xshatish uchratish mumkin. Yozuvchi qissalarida qo‘llangan o‘xshatishlardagi etalonlarning mazmuni turli xil. Asarlardagi o‘xshatish etalonlarining mavzusi va madaniy kodlariga asoslanib turli guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1) tabiat hodisalari ishtirok etgan etalonlar (fazoviy kod): *yashinday, muzlab qolganday, qorong‘ulikday, qor yoqqani kabi, shamoldek, bulutdek, yomg‘irdek, tuman qoplagani kabi, selday, chaqmoqday* kabi;

2) diniy tushunchalarni aks ettiruvchi etalonlar (ma’naviy kod):

a) diniy makonni aks ettirgan etalonlar: *jannatday, jahannamdek, do‘zaxdek* kabi;

b) sakral etalonlar: *Azroildek, Hizrdek, Iso Masihdek, hur-u g‘ilmon singari, farishtaday* kabi;

3) hayvonlar bilan bog‘liq etalonlar (zoomorf kod): *quyondek, buqaday, itday, otday, eshakday, molday, tuyaday, bo‘riday, buzoqday, sherdek, suv ilonday, filday, baliqday, meduzasifat, yo‘lbars* kabi;

4) parrandalar bilan ifodalangan etalonlar (zoomorf kod): *qushdek, o‘rdakka o‘xshab, burgutnikidek, musicha misol, tovuqday, polaponlarday* kabi;

5) hasharotlar bilan ifodalangan etalonlar (zoomorf kod): *chayonning dumiday, chivinday, chumolidek, chuvalchangday, pashshadek, o‘rgimchak to‘ridek, itpashshaga o‘xshab, chigirtkadek, kanaga o‘xshab, yog‘och qurtidek, zulukdek* kabi;

6) osmon jismlari bilan ifodalangan etalonlar (fazoviy kod): *oyday, oftob misol* kabi;

7) o‘simliklar bilan ifodalangan etalonlar (fitomorf kod): *tikanaklardek, gulday, anor donalariday, sadarayhon kabi, nihol singari, sadaqayrag‘ochdek, qamishdek* kabi;

8) metall nomlari bilan ifodalangan etalonlar (predmetli kod): *kumush misol, temirdek, zumrad misol, jez qoplamaga o‘xshaydi* kabi;

9) shaxs bilan bog‘liq etalonlar (antropomorf kod):

a) kasb-kor bilan bog‘liq etalonlar: *mulladek, hamshiralardek, olimlar kabi, artistday, qulday, dorboz kabi, temirchidek, farroshga o‘xshab, enagaday* kabi;

b) amal-mansab bilan bog‘liq etalonlar: *podshoday, idora hodimlariday, malikaga o‘xshab, mulozim ko‘rinishida, bosh vazir kabi*;

c) shaxsning salbiy psixologik holati bilan bog‘liq etalonlar: *telbalarcha, jinniday, ovsarga o‘xshab* kabi;

d) shaxsning salbiy mashg‘ulotini aks ettirgan etalonlar: *xuddi o‘g‘ridek, foxishaga o‘xshab, kissovurlarday, tilanchi, jinoyatchi* kabi;

e) shaxsning jinsi bilan bog‘liq etalonlar: *qizdek, ayoldek, xotinday, yigitdek* kabi;

f) shaxsning yosh xususiyati bilan bog‘liq etalonlar: *chaqaloqdek, bola singari, chol kabi, mo‘ysafiday* kabi;

g) shaxsning qarindosh-urug‘ligi bilan bog‘liq etalonlar: *otaday, onaday, aka-ukadek, tug‘ishganlardek* kabi;

10) ilmiy terminlar bilan bog‘liq etalonlar (ilmiy kod): *zanjir reaksiyasidek, magnit to‘lqinlar singari, kardiogrammani eslatadi, vulqon kabi, rentgenday, robot singari* kabi;

Undan tashqari, qissalar matnida yana ko‘plab kutilmagan o‘xshatishlar ham qo‘llanganki, bir semani ifodalaydigan turli o‘xshatishlar, ulardagi ma’no nozikliklari, bo‘yoqdorlik, milliy koloritning aks etishi kabilar o‘quvchining estetik zavq olishini ta’minlaydi. Adib qissalarini o‘rganish jarayonida qo‘rquvni, bezovtalikni, samarasizlikni, holatni, havotirni, umidni ifodalaydigan bir qator o‘xshatishlar yig‘ildi. Yig‘ilgan o‘xshatishlarda sema bir xil bo‘lsa-da, har gal yangi o‘xshatish qo‘llangan. Har xil qahramonlarning holati o‘ziga xos tarzda ochib berilgan. Quyida adib qissalaridan yig‘ilgan qo‘rquv semali o‘xshatishlarni havola qilamiz:

Erining “ishing bo‘lmasin”, yoki “aqling yetmaydigan ishlarga aralashma” deb to‘ng‘illashi unga chegarada turgan askarning “To‘xta, otaman!” degan hayqirig‘iday eshitilib, yalang oyog‘i bilan cho‘g‘ni bosib olgan odam holatida iziga qayta qolardi [Tohir Malik, Shaytanat, 4-kitob, 45-bet]. Ushbu gapda ikki marta o‘xshatish qo‘llangan bo‘lib, biri Asadbek uchun, ukkinchisi Manzura uchun ishlatilgan. Yozuvchining mahoratini qarangki, Asadbekni tasvirlash uchun askarning hayqirig‘ini, Manzurani tasvirlash uchun yalang oyog‘i bilan cho‘g‘ni bosib olgan odam tanlangan. Demak, Asadbek qissada qat’iyatli, keskir so‘zli shaxs sifatida gavdalanadi. Hatto unga qo‘llangan o‘xshatishlar ham o‘ziga xos. Asar matnida qo‘llangan ana shunday ko‘plab o‘xshatishlarni kontekstdan ajratib olinsa ham, o‘zi tasvirlamoqchi bo‘lgan shaxs haqida so‘zlayotganga o‘xshaydi, ya’ni kim haqida ekanligini bilish qiyin emas. Gapdagi keyingi o‘xshatish ham xuddi shu xususiyat bilan namoyon bo‘ladi. Manzura o‘zbek ayoliga xos bo‘lgan hayoli, itoatkor, go‘zal xulqli ayol. Unga kibr, ovozini baland ko‘tarib gapirish kabilar begona. Shuning uchun unga nisbatan qo‘llangan o‘xshatishlarda *farishtaday, kabutarday, musichadek* kabi etalonlar yetakchilik qiladi. Haddan oshish ham Manzuraga yot bo‘lgan holat. Ammo u erining ishlari haqida so‘rasa, Asadbek uni haddan oshishga yo‘yadi. Eri tomonidan haddan oshganiga ishora berilsa, Manzura yalangayoq bo‘lib cho‘g‘ni bosib olgan odam holatiga tushadi. Cho‘gni yalangayoq holda bosib olishni tasavvur qilish qiyin emas, adib o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan itoatkorlikni, odob borasidagi milliy mezonni ana shunday o‘xshatishlar bilan chizib bera olgan. Asarning birorta o‘rnida Manzuraning salbiy xatti-harakati uchramaydi. Navbatdagi misolda ham buni ko‘rish mumkin. *Manzura vulqon otilishini kutgan bechora holida, barmoqlaridagi qaltiroqni oshkor qilmaslik uchun go‘shakni mahkamroq*

qisib, qulog‘iga qattiqroq bosdi-da, ro‘parasidagi o‘g‘illariga najot ko‘zlari bilan boqdi [Tohir Malik, Shaytanat, 4-kitob, 45-bet]. Manzura Asadbek bilan telefon orqali gaplashayotib o‘zining rejasini bayon etadi, erining javobi aytilgunicha bo‘lgan kichik muddatga nisbatan adib *vulqon otilishini kutgan bechora holida* o‘xshatishini qo‘llaydi. Adib birgina shu o‘xshatish orqali kitobxonga ikki kishini eslatmoqda. Vulqon – Asadbek, bechora esa Manzura. Etalon sifatida tanlangan bechora so‘ziga sifatlovchi vazifasini bajarayotgan vulqon so‘zi ham bejizga qo‘llanmagan. Asadbekning g‘azabi vulqonga o‘xshatilmoqda. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, birorta o‘xshatish, shunchaki, nutq hosil qilish uchun ishtirok etmaydi. Matnni bezash uchun shunchaki qo‘llanmaydi. Adib qissada bunday qo‘sh etalonli o‘xshatishlarni ko‘plab qo‘llagan, quyida tahlilga tortilgan misol ham shaklan shunday etalondan tashkil topgan. *O‘tirdi-yu mushuk panjasidagi onasiga mo‘ltillab tikilayotgan kabutar poloponlari holidagi kelinlarining ko‘zlariga ko‘zi tushgach boshqa chiday olmadi* [Tohir Malik, Shaytanat, 4-kitob, 49-bet]. Mazkur misolda keltirilgan *mushuk panjasidagi onasiga mo‘ltillab tikilayotgan kabutar polaponlari holidagi kelinlari* o‘xshatishida ham bir vaqtning o‘zida uchta shaxs nazarda tutilmoqda, mushuk – ayni paytda Manzura va uning bolalari ustidan vaqtincha nazorat o‘rnatgan ichki ishlar vakillari, kabutar – Manzura, polaponlar esa Manzuraning kelinlari. Kabutar xalq qarashlarida tinchlik ramzi sifatida o‘z aksini topgan. Yana beozorlik xususiyati ham bor. Kabutar bilan bog‘liq xalq og‘zaki ijodida bir qator o‘rinlar borki, xalq ertaklarida kabutarlarning xat tashishi, yaxshi xabar elchisi ekanligi, hatto odamlar bilan do‘st sifatida birga yashashi kabi ijobiy holatlar bilan tasvirlanadi. Bu o‘rinda Manzuraning kabutarga qiyos qilinishi, uning aynan polaponlari bilan o‘xshatish tarkibida kelishi bejiz emas. O‘zbek xalqi tasavvurida kabutar Makka shahri bilan bog‘liq yana bir ijobiy ramziylikka ega. Bu bilan bog‘liq rivoyat ham mavjud bo‘lib, Makka shahrida kabutarlar yashaydigan bir joy bo‘lib, aytishlariga qaraganda, bu kabutarlar Payg‘ambarimiz (S.A.V) davrlaridagi kabutarning avlodlari emish. Muhammad (S.A.V) mushriklardan qochib bir g‘orga yashirinadilar. Mushriklar g‘orni qidirmoqchi bo‘lib, g‘or og‘zida uya qurgan kabutarlarga ko‘zi tushadi. So‘ng ortga qaytishadi. G‘orga kirmasliklarining sababi, agar g‘orga odam kirganda kabutarlar bunday xotirjam o‘tirmagan bo‘lardi, degan gumon bilan g‘or ichini qidirishmaydi. Rivoyatga ko‘ra, ana shu kabutarning avlodlari bugun Makka shahrida minglab miqdorda bo‘lib, Haj ziyoratiga borganlar ana shu kabutarlarga don sepib o‘tishadi. O‘sha kabutardek serfarzand bo‘lsin deb, kabutarlarga sepilgan dondan befarzand ayolga olib kelib yegizishadi. Bu odat hozirda ham saqlanib qolgan bo‘lib, ayol o‘g‘il farzandli bo‘lsa, Hojimurod, Hojiakbar kabi ismlar qo‘yiladi. Bundan tashqari kabutardagi beozorlik Manzuradagi beozorlikka ham ishoradir. Tohir Malikning mahoratini shu kabi nozik did bilan tanlangan o‘xshatishlar orqali ham bilsa bo‘ladi. “Shaytanat” qissasida qaratqichli aniqlovchi yoki sifatlovchi aniqlovchi bilan kengayib kelgan o‘xshatishlar juda ko‘p miqdorni tashkil qiladi. Bizningcha, bunday o‘xshatishlarni kengaygan etalonli o‘xshatishlar deb atash maqsadga muvofiq bo‘lardi. Misollardan ko‘rinib turibdiki, kengaygan etalonli o‘xshatishlarda etalon ikki va undan ortiq so‘zlardan iborat bo‘ladi va etalonga tobe holatda bo‘ladi. O‘rni kelganda etalonlarni shartli ravishda ikki turga bo‘lish mumkin: sodda etalonlar va kengaygan etalonlar.

Tohir Malik o‘z asarlarida kengaygan etalonli o‘xshatishlardan samarali foydalangan. Navbatdagi o‘xshatish ham ana shunday o‘xshatishlardan bo‘lib, bo‘yoqdorligi bilan ajralib turadi. *Lazzatli kelinlik olamiga kirgan dastlabki haftalar, oylar, yillarda erining uyga qaytishini xavotir bilan kutib, tuni bilan Manzura kabi joynamoz ustida o‘tirishni odat qilmagan, lekin ajinadan qo‘rqqan qizaloq kabi hadiksirab kun o‘tkazardi* [Tohir Malik, Shaytanat, 4-kitob, 75-bet]. Gap Mahmudning ayoli haqida borar ekan, uni ta’riflash uchun adib birgina shu gapda ikki marta o‘xshatish qo‘llaydi. Biri sodda etalonli o‘xshatish, yana biri kengaygan etalonli o‘xshatish. Sodda etalonli o‘xshatishda Manzuraning tunda doim jaynamoz ustida o‘tirishiga ishora qilsa, kengaygan etalonli o‘xshatishda erining noma’lum o‘limi, qotil kim, erini o‘ldirgan qotil endi unga, bolalariga daxl qilmasmikan, degan savollarga javob topolmay ajinadan qo‘rqqan qizaloq kabi hadiksirab kun o‘tkazishi nazarda

tutilgan. *Ajina* jin so‘zining boshqacha shakli bo‘lib, u haqda muqaddas kitoblarda keltirilgan. Uning mavjudligi, odamni aqldan ozdiradigan darajada zarar yetkazishi aytiladi. Qur’oni Karimda alohida “Jin” surasi ham keltirilgan. Shuning uchun o‘zbek xalqida jin bilan bog‘liq birikmalar mavjud, masalan, jin tekkan, jin chalgan, ajina urgan kabi. O‘zbek xalqida yarim tunda yolg‘iz yurmaslik, quyosh tik kelganda ovloq joylarda yolg‘iz yurmaslik, yong‘oq, sada kabi daraxtlarning ostida yolg‘iz uxlamaslik, shom va undan keyingi mahalda suvning bo‘yiga bormaslik kabi qarashlar mavjud. Undan tashqari jin oppoq sochini tarayotgan kampir, echki kabi qiyofalarda ko‘zga ko‘rinishi mumkinligi tahmin qilinadi. Bunday ma’lumotlarni eshitgan har qanday odamda, ayniqsa, tunda vujudni qaltiroq bosadigan darajada qo‘rquv uyg‘onadi. Jin odamga zarar yetkazsa, miya bilan bog‘liq salbiy o‘zgarishlar kuzatiladi, uning xatti-harakatlari boshqalarga ham ziyon yetkazishi mumkin. Bunday kasallikning nomi ham jin so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, xalq orasida ularga nisbatan jinni so‘zi qo‘llanadi. Yozuvchi Mahmudning ayolidagi qo‘rquvni ana shunday tunda yodga tushsa, odamni battar qo‘rqitib yuboradigan holatga qiyos qilmoqda. Adib o‘xshatishga qizaloq etalonini tanlagani ham bejiz emas, sababi bunday qo‘rquv asosan bolalarda kuzatiladi. Hatto bolalarni uxlatish uchun ham “Ana ajina kelyapti”, “Ana olabo‘ji” kabi gaplar bilan bolani ko‘z yumishga majbur etishadi. Shu sababli o‘zbek bolalarida tunda tashqariga yolg‘iz chiqolmaslik, qorong‘idan qo‘rqish kabi holatlari ko‘p kuzatiladi. Adib qissalarida bunday o‘xshatishlar juda ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Qoziga nisbatan qo‘llangan yana bir o‘xshatishda uning itga qiyoslanishi kitobxonni befarq qoldirmaydi. Adib asar qahramonlariga etalon tanlashda judayam e’tiborli bo‘lganini sezish qiyin emas. O‘rni kelganda shuni ham ta’kidlash lozimki, tanlangan etalonlalardan ta’riflanayotgan shaxsning ma’naviyati, saviyasi, odobi, madaniyati qay darajada ekanligini bilish mumkin. Qozi Kesakpolvonning yigitlaridan, ma’lumki, Kesakpolvon nimani xohlasa shuni bajaradi, u buyurgan ish tog‘rimi, noto‘g‘rimi, kerakmi, kerakmasmi Qozini qiziqtirmaydi. Uni faqat Kesakpolvonning istaklari qiziqtiradi. Asardagi Qoziga o‘xshagan boshqa yigitlar ham xuddi shunday maqomda. Tahlilga olingan o‘xshatishlardan yana namuna keltirsak, – *Nima buyurgansan, dimlamami yo qozonkabobmi? – deb so‘radi. – Osh deganday bo‘luvdingiz...– Qozi shunday dedi-yu, egasidan tepki yeyishdan qo‘rqib dumini qisgan it holiga tushdi* [Tohir Malik, Shaytanat, 4-kitob, 247-bet]. Adibga xos sinchkovlik, kuzatuvchanlik kabi xislatlar u yozgan asarlarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Odam ustiga kelayotgan xavfdan o‘zini himoya qilish maqsadida qo‘rquv aralash ikki qo‘lini tepaga, boshi ustiga ko‘tarib ko‘zlarini pirpiratadi, it esa bunday holatda orqa oyoqlarining tizzasini bukib o‘sha oyoqlari orasiga dumini kirgizib oladi. Adib ana shu holatni yaxshi bilgani uchun ham o‘xshatish sifatida qo‘llaydi. Qozining itga qiyoslanishida ham alohida axborot yotadi. Ya’ni o‘zbek xalqining itga bo‘lgan munosabati aks etadi.

O‘rganilgan qissada juda ko‘p o‘xshatishlar qo‘llangan. Biz maqolamiz uchun faqat madaniy bo‘yoqqa ega bo‘lganlarinigina tahlilga oldik. Undan tashqari bu qissadagi o‘xshatishlarning yana bir xarakterli jihati shundaki, qo‘llangan o‘xshatishlarning deyarli hammasida asos sifatida fe’l so‘z turkumi ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тоҳир Малик. Шайтанат (қисса). 4-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2013.– Б. 99.
2. Тоҳир Малик. Шайтанат (қисса). 3-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2013.– Б. 45.
3. Маҳмудов Н. Тил сиёсати ва сиёсат тили... // Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – Б. 20.
4. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – В. 140.

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA AYOL OBRAZI

Iroda Yuldasheva,
Qoraqalpoq davlat universiteti
2-bosqich magistranti
e-mail: irodayuldasheva@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida ayol obrazining o'ziga xos jihatlari yoritilgan bo'lib, ijodkorning poetik mahorati badiiy obrazda namoyon bo'lishi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *Halima Xudoyberdiyeva, ayol obrazi, badiiy mahorat, poetik obraz, lirik tasvir.*

Abstract

This article highlights the distinctive features of the female image in the poetry of Halima Xudayberdiyeva, and explores how the poet's artistic mastery is manifested through the artistic imagery.

Keywords: *Halima Khudayberdiyeva, female image, artistic mastery, poetic imagery, lyrical depiction.*

Ijodkorning badiiy mahorati uning hayotga, voqelikka bo'lgan munosabatidan ajralmasdir. Har bir ijodkor hayotiy tajriba va idrok darajasi, shuningdek, uning badiiy olamiga bo'lgan yondashuvi orqali o'ziga xos uslub va poetik mahoratni shakllantiradi. Shuning uchun ijodkorning hayot bilan chambarchas bog'liqligi uning poetik olamining rang-barangligi va chuqurligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Badiiy mahorat bu faqatgina ijodkorning so'z boyligi yoki badiiy texnikalarga ega bo'lishi emas, balki hayotni, inson ruhiyatini va jamiyatdagi o'zgarishlarni chuqur idrok etish, ularni yangi badiiy obrazlar, simvollar va metaforalar orqali ifoda etish qobiliyatidir.

Ijodkorning individual poetik mahorati uning ijodiy qobiliyatining yagona va nodir ko'rinishidir. Bu mahorat mehnat, doimiy izlanish va yangi imkoniyatlarni izlash orqali rivojlanadi. Doimiy o'zgarish va yangilanish jarayonida bo'ladi. Aslida, har bir ijodkorning faoliyatida o'ziga xos, boshqalarga o'xshamas, noyob voqealar yuz beradi. Bu noyoblikning manbai esa har bir shoirning voqelikni idrok etish va ifoda etish uslubidagi individual tafovutlarda yotadi. Shu bois ijodkorning individual badiiy mahorati bu uning o'z dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va ruhiy kechinmalari orqali dunyoni tasvirlash qobiliyatidir.

O'zbek adabiyotida H. Xudoyberdiyeva o'zining original poetik olami va obraz yaratish mahorati bilan ajralib turadi. Shoira she'riyati, ayniqsa, badiiy mahorat nuqtayi nazaridan, quyidagi asosiy jihatlar bilan xarakterlanadi:

1. So'zning yangicha ma'no qirralarini kashf etish intilishi: shoira hayotiy haqiqatni oddiy faktlardan emas, balki badiiy haqiqatga aylantirishda yangi so'z va ifoda usullarini izlaydi. Bu qadimiy, an'anaviy so'zlarni yangi obrazli, metaforik, poetik qirralarda talqin etish orqali amalga oshadi.
2. Ijodkorning dunyoga individual munosabati: Har bir ijodkor o'z dunyoqarashini, hissiyotlarini, fikrlarini o'ziga xos poetik obrazlarda ifoda etadi. Bu esa ijodkorning yangi so'z aytish, yangilik yaratish zarurati bilan bog'liq.
3. Ichki tuyg'ular va ijtimoiy muammolar o'rtasidagi uzviylik: H.Xudoyberdiyeva o'z qalbidan kelgan his-tuyg'ular bilan jamiyatdagi og'riqli muammolarni, odamlar hayotidagi noxushliklarni bir butun sifatida ko'rib, ularni badiiy asarlarda chuqur o'rganishga intiladilar.

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida ayol obrazi ko'p jihatdan ona qiyofasi orqali ifodalanadi. Bu ona timsoli qadimiy madaniyatlarda asriy mazmunga ega bo'lib, ona – hayot, muhabbat, himoya va mardonavorlik ramzi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, ayol qahramonining badiiy obrazlari ko'pincha milliy qadriyatlar, an'analar va zamonaviy jamiyat muammolari bilan chambarchas

bog‘liq bo‘lib, uning o‘rni va mavqei haqida chuqur fikr yuritishga imkon yaratadi. Shoiraning “Ayol monologi” she’rida shunday misralarni o‘qishimiz mumkin:

Renoar meni nurdan chizib chiqqan, bilasiz,
Petrarka “iloham” deb ko‘zini tikkan, bilasiz,
Navoiy uzun umrni, ko‘zini tikkan, bilasiz,
Bilasiz qay kuch bilan band etgayman xayolni,
Nahot yovuz ataysiz Siz hattoki ayolni!

She’rda tasvirlangan ayol obrazi kuchli, mustaqil va o‘zining ichki dunyosiga chuqur ega bo‘lgan shaxsdir. U nafaqat o‘zining his-tuyg‘ulari, orzu-intilishlari bilan yashaydi, balki hayotdagi og‘ir sinovlar, adovat va adolatsizliklarga qarshi qat’iyat bilan turadi. Ayol o‘zining mardligi va jasoratini ochiqchasiga namoyon qilib, hech qachon ortga chekinmasligini bildiradi. Shu bilan birga, uning qalbida chuqur his-tuyg‘ular, muhabbatga bo‘lgan ishtiyoq, ishqning og‘ir lekin zarur kuchi mujassam.

Chekinmasmi qora tun men ko‘tarsam kiprigim,
Ayting, kim buza olur solsam ishqiy ko‘prigim,
Qaysi erkak unutmas meni ko‘rgach, o‘q, tig‘ni,
Ishq oldida nima u, urush, hasad, siym-u zar,
Siz hech ayol ishqiga bo‘lganmisiz muyassar?
Darvoqey, ishq, ishq bilan Siz chiqisha olmaysiz,
Ishq bir beqiyos, unga Siz abadiy tusha olmaysiz,
Siz muz bo‘lib ketgansiz, erib, jo‘sha olmaysiz,
Ayol borki bu muzga tegib qolsa munglanib,
Duoyibad qilurki, ololmassiz o‘nglanib.

She’rda ayolning hislari va tafakkuri bir-biriga singib ketgan; u ishqni nafaqat qalbni ranjituvchi, balki jonlantiruvchi kuch sifatida qabul qiladi. Shu sababli, u o‘zining zaifliklarini tan olgan holda, ular orqali yanada kuchayib, o‘zini yangilashga intiladi. Jamiyatdagi adolatsizliklar, insoniy munosabatlardagi sovuqlik uning fikrida muhim o‘rin egallaydi. U o‘zi yashayotgan dunyo va jamiyat haqida chuqur mulohaza yuritar ekan, undagi murakkablik va muammolarga qarshi o‘zicha kurashadi.

E’tirof etamanki, Sizda chuqur fikrat bor,
Ammo maqsad qoradir, maqsadda ko‘p illat bor,
Yer yuzida rizq tergan ne davlat, ne millat bor,
Har birida Siz kabi ne-ne aqli daholar,
Ular odamni Sizdan boshqacharoq baholar!

Bu ayol tasviri zamonaviy, ziyoli, o‘ziga ishongan, o‘z ruhiy olamini anglaydigan shaxs sifatida ochib berilgan. U ichki og‘riqlari va tashqi qiyinchiliklarga qaramay, o‘zining mustaqilligini va o‘ziga xosligini yo‘qotmaydi. Shu bilan birga, uning his-tuyg‘ulari, mehr-muhabbati va insoniyligi she’rga chuqur samimiyat baxsh etadi. Bu obraz orqali she’r muallifi zamonamiz ayolining murakkab, ko‘p qirrali, kuchli va o‘zgacha dunyoqarashini ta’riflaydi.

Adabiyotshunos N. Karimov ta’biri bilan aytganda, “She’r o‘ziga xos organizm bo‘lsa, so‘z uning hujayrasidir. Organizm tirik bo‘lishi uchun uning har hujayrasi sog‘lom bo‘lishi va nafas olib turishi lozim bo‘lganidek, har bir so‘z ham she’rga uning qalbi bo‘lgan obrazga o‘z qonini berib va uni harakatga keltirishi kerak” [Karimov, 1964: 72]. Shuni alohi da ta’kidlash kerakki, badiiy fikrning mohiyatidan kelib chiqib, tanlab, saralab ishlatilgan so‘zgina fikrni yolqinlantiradi. Badiiy obrazlarga ana shunday poetik so‘zlargina asos bo‘lishi mumkin. “So‘z badiiy asarga ko‘chishi bilan uning konkret emotsional ko‘rinishlari yuzaga kela boshlaydi. So‘z ning ichki semantik xususiyatlarining shishi unga ko‘chma ma’no uchun keng yo‘l ochib beradi. Turli poetik figuralar, majozlar, tasvir

vositalari qobig‘iga kirish so‘zning ko‘chma ma’nolarini va ramziy poetik obrazga aylanishini ta’minlaydi” [Umurkulov, 1984: 29]. Demak, poetik obraz ramziy ma’no anglatuvchi badiiy so‘zlar qatlami va so‘zning xilma-xil ma’nolarini yuzaga keltirish usullari bilan, boshqacha qilib aytganda, poetik so‘zning badiiy mushohada maydonidagi faoliyati jarayonida yaratiladi. Badiiy obrazlarga asos bo‘lgan poetik so‘zlarning paydo bo‘lishi va poetik shaklga kirishi muayyan hayotiy-ijtimoiy jarayonlar mahsulidir.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, ilmiy nazariy nuqtai nazardan, badiiy mahorat shoirning individual ijodiy qobiliyati bo‘lib, u ichki dunyo va tashqi olam o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalarni ifodalaydi. Har bir ijodkor o‘zining badiiy tilini yaratadi, unda tilning ma’no va estetik qirralari uyg‘unlashadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchi va tomoshabinni yangi dunyoqarash va estetik hissiyotlar bilan boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Улуғов А. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2018. – 308 б.
2. Мамажонов С. Лирик олам ва эпик кўлам. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. – 334 б.
3. Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги НМИУ. 2016. – 364 бет.
4. Худойбердиева Ҳ. Сайланма. Шеърлар. – Тошкент: 2000. – 203 б.
5. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006. – 203 б.

OLTINCHI SHO‘BA

ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASIGA OID MASALALAR

FILOLOGIK SINERGETIKA

Prof. Mirzayev I. K
(SamDU)

Annotatsiya

Tezislar shaklida yozilgan ushbu maqolada filologik sinergetika murakkab tizimlar nazariyasining tilshunoslik va adabiyotshunoslikda qo'llanilishi sifatida tahlil qilinadi. Til tizimining o'z-o'zidan tartiblanishi, matnning dinamik butunlik sifatida shakllanishi, til birliklarining interaktivligi, badiiy matnda semantik maydonlarning o'zaro ta'siri kabi masalalar sinergetik paradigma asosida yoritiladi. Shuningdek, sinergetikaning lingvopoetika, kognitiv tilshunoslik va matn lingvistikasi bilan bog'liq jihatlari ko'rsatilib, Alisher Navoiy g'azaliyoti misolida sinergetik jarayonlarning amaliy namoyoni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *sinergetika, filologik sinergetika, murakkab tizim, o'z-o'zidan tartiblanish, matn lingvistikasi, semantik maydon, lingvopoetika.*

Kirish

1. Sinergetika – (yun. synergos – "birga harakat qiluvchi") o'z-o'zidan tashkil bo'luvchi fanlarda fizik, ximik, biologik, sotsiologik, filologik kabi murakkab ochiq tizimlarda tartibsiz joylashgan narsa-hodisalardan batartib tizim paydo bo'lishini o'rganuvchi interdistsiplinar fan. U elementlarning yaxlit tizim yaratish uchun bir-biriga ta'sir qilishini va mazkur tizim qanday rivojlanishin o'rganadi. Sinergetikaning asosiy tushunchalari:

– tashqi ta'sirlarsiz, o'z-o'zidan tashkil topish (hosil bo'lish);
– tartibsiz chiziq bo'ylab joylashmaganlik;
– tizimning ochiqligi;
– dissiptiv qurulma;
– xaos va tartib;
– bifurkatsiya – tarmoqlanish nuqtasi;
– fluktuatsiya – yangi qurilmalarning paydo bo'lishi jarayonidagi tasodifiy og'ishlar.

Sinergetikaning yuzaga kelishi va uning o'ziga xos tadqiqot yo'nalishi sifatida tarkib topishida Herman Xaken va Ilya Prigojinlarning xizmati katta. H.Xaken fanga "Sinergetika" terminini olib kirgan va "tartib parametirlari"ni boshqarish nazariyasini ishlab chiqqan. Nobel mukofoti sovrindori I. Prigojin esa disseptiv qurulmalar haqidagi ta'limotga asos solgan[29].

1. Filologik sinergetika tushunchasi va uning ilmiy-metodologik asoslari.

1.1. Filologik sinergetika – o'z-o'zidan tarkib topadigan fan sifatidagi sinergetikaning tamoyillarini til, adabiyot, matn va madaniyat qanday rivojlanishini tadqiq etuvchi interdistsiplinar fan. U o'z o'zidan tashkil (paydo) bo'ladigan tizim taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, filologiya til, adabiyot fanlarini, filologik sinergetika esa tilda va matinda barqaror (statik) bo'lmagan ob'ektlarni emas, balki tashqi ta'sirlarsiz doimo rivojlanib turadigan ob'ektlarni o'rganadi.

Filologik sinergetikaning asosiy tamoyil va qo'llanish sohalari quyidagilardir: matnning o'z-o'zidan tarkib topishi, til taraqqiyoti, diolog va kommunikatsiya, adabiy ijod, madaniy kodlar tubandagilar esa filologik sinergetikaning tayanch kontseptlari hisoblanadi: nochiziqlik, chiziq bo'ylab joylashmaganlik, bifurkatsiya, attraktorlar.

Tilning ichki tizimi, nutqiy faoliyatning serqatlam tabiati, badiiy matnning o'ziga xos energetikasining (yani matn botinida yashirin va ochiq tarzda qo'llanuvchi ma'no nozikliklari, his-tuyg'u, kabilar) estetik tuzilishi sinergetik tahlil uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur maqola filologik sinergeti-

[29] Синергетика//ru.wikipedia.org.

kaning nazariy asoslarini, amaliy qo‘llanishini va badiiy matn tahlilidagi ahamiyatini ilmiy asoslashga bag‘ishlanadi.

1.2. Sinergetika nazariyasining umumiy tavsifi. Sinergetika - bu murakkab tizim elementlarining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan yangi tartib, yangi qurulmani o‘rganuvchi fan. Tizimdagi tartib tashqi kuch bilan emas, balki ichki muvozanat va o‘zaro ta’sirlar orqali shakllanadi. Ushbu g‘oya tilshunoslikka tatbiq qilinganda, til tizimi: o‘zgaruvchan, ko‘p tarkibli, tashqi ta’sirga sezgir, o‘z-o‘zidan tartiblanadigan ochiq tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

1.3. Filologik sinergetikaning shakllanishi. XX asr oxirlarida lingvistika strukturalizm doirasidan chiqib, tilning dinamik tabiatini o‘rgana boshladi. Prigogin, Xaken, Mandelbrot kabi olimlarning sinergetik g‘oyalari tilshunoslikka tatbiq qilinib, natijada “filologik sinergetika” tushunchasi shakllandi. Bu yo‘nalish tilni faqat struktural birliklar majmuyi sifatida emas, balki jarayon, oqim, energiya, dinamik muvozanat sifatida talqin qiladi.

2. Til tizimining sinergetik xususiyatlari.

2.1. Tilning o‘z-o‘zidan tartiblanishi. Til jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, o‘z-o‘zidan o‘zgaradi: yangi so‘zlar paydo bo‘ladi, fonetik tizim qayta shakllanadi, grammatik qurilish yangilanadi. Bu jarayonlar sinergetikaning “haos → tartib” modellari orqali tushuntiriladi.

2.2. Til birliklarining o‘zaro ta’siri. Tilning leksik, morfologik, sintaktik, semantik sathlari o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib. Bir sathda sodir bo‘lgan kichik o‘zgarish boshqasiga ham ta’sir qiladi. Masalan, zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq terminlarning ko‘payishi sintaktik qurulmalarning yangilanishiga olib keladi.

2.3. Nutq jarayonining dinamik tabiati. Nutq yagona maqsad sari yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, unda energiya, intensiya, ritm kabi omillar mavjud. Sinergetik nuqtayi nazar nutqni dinamik energiya oqimi sifatida tahlil qiladi.

3. Matn sinergetikasi: matnning ichki tizimi va o‘z-o‘zidan tartiblanishi.

3.1. Matnning butunlik sifatida sinergetik tabiati. Matn — ko‘p qatlamli tizim. Unda: semantik maydonlar, obrazlar tizimi, motivlar, kompozitsion struktura ritmik-intonatsion tarkiblar doimo bir-biriga ta’sir qilib turadi. Ushbu elementlar sinergetik tarzda muvozanatlasha olgandagina matn chinakam estetik butunlik kashf etadi

3.2. Semantik maydonlarning o‘zaro harakati. Badiiy matnda bir necha semantik maydon bir-biri bilan to‘qnashib, yangi ma’no qatlamlarini yuzaga keltiradi. Masalan, Navoiy g‘azalidagi “kecha”, “hijron”, “nido”, “umid” kabi portik maydonlar sinergetik tarzda birlashib, umumiy hissiy energiya hosil qiladi.

3.3. Matnning dinamik struktura sifatida o‘zgarishi. Matn o‘quvchi tomonidan idrok etilganda ham o‘zgaradi. O‘quvchining tajribasi, bilim doirasi, tarixiy kontekst ma’noga yangi qatlamlar yukladi. Bu jarayon matnning ochiq tizim ekanligini tasdiqlaydi.

4. Filologik sinergetikaning adabiyotshunoslikda qo‘llanilishi.

4.1. Badiiy obrazlarning sinergetik uyg‘unligi.

Adabiy matnda har bir obraz alohida ma’no tashiydi, ammo ular o‘zaro ta’sirlashganda yangi estetika, yangi ma’no, yangi emotsional kuch paydo bo‘ladi. Bu holat sinergetikaning “emergentlik” (yani butunning xususiyatlari, uning qismlarida alohida-alohida mavjud bo‘lmasdan, aynan ularning o‘zaro ta’siri natijasida paydo bo‘ladigan) tushunchasi bilan izohlanadi.

4.2. Navoiy asarlarida sinergetik jarayon. Navoiy g‘azaliyoti sinergetik tahlil uchun juda qulay.

Masalan, “Kecha kelgumdur debon...” misrasiga e’tiborqilaylik. Bu misra quyidagi semantik maydonlarni birlashtiradi: kutish, hijron, va’da, umid, iztirob.

Mazkur elementlar o‘zaro uyg‘unlashib, yangi ma’no kutishning dramatik energiyasini hosil qiladi. Boshqacha aytganda, asardagi ma’no, obraz, ritm, ohang, zamon, makon va hissiyotlar bir-biri bilan uyg‘unlashib, yangi badiiy mazmunni yuzaga keltiradi. G‘azalda oshiq-ma’shuqa, kutish-kelmaslik,

umid-iztirob kabi qarama-qarshi holatlar doimiy o‘zaro ta’sirda bo‘lib, nutq va ma’no harakatni yuzaga keltiradi. G‘azalda sinergetika effekt, ya’ni oddiy kutishdan kuchli fojiyaviy holat tug‘iladi. Sinergetik yondashuv g‘azaldagi oshiq iztirobini harakatdagi, rivojlanib boruvchi ruhiy jarayon sifatida ochib beradi.

4.3. Sinergetik yondashuvning poetik tahlildagi imkoniyatlari. Sinergetik tahlil metod: poetik matnning yashirin strukturalarini ochadi, obrazlar tizimidagi dinamik muvozanatni ko‘rsatadi, matndagi “energiya markazlari”ni aniqlaydi.

5. Filologik sinergetikaning interdisziplinar xususiyatlari.

Filologik sinergetikaning eng muhim jihatlaridan biri — uning interdisziplinar tabiati. Mazkur yondashuv tilshunoslik, poetika, semiotika, kognitiv fanlar, psixologiya, matematika va hatto fizika bilan ham uzviy bog‘langan.

5.1. Tilshunoslik va fizika kesishmasida. Sinergetikaning ayrim tamoyillari bevosita fizika nazariyalariga tayanadi: entropiya (tartibsizlik), o‘z-o‘zidan tartiblanish, fraktal tuzilmalar[30], noaniqlik, ehtimollik, bifurkatsiya[31].

Til tizimi ham shunga o‘xshash mexanizmlar asosida ishlaydi: unda barqarorlik davrlari, keskin o‘zgarish lahzalari, yangi strukturalar paydo bo‘lishi mavjud.

5.2. Kognitiv lingvistika bilan bog‘liqlik. Kognitiv fanlarda inson ongi, idroki, dunyo tasavvuri qanday shakllanishi tadqiq qilinadi. Filologik sinergetika shu jarayonlarning: nutqqa ta’siri, matn yaratish mexanizmlari, semantik uyg‘unlik, obrazlarning paydo bo‘lish dinamikasi kabilarini o‘rganadi. Demak, sinergetika so‘zlar va obrazlar qanday “energiya markazlari” hosil qilishini, matnning qaysi nuqtalarida “semantik portlashlar” yuzaga kelishini izohlaydi.

6. Badiy matnda sinergetik modellarning ko‘rinishi.

6.1. Kompozitsiyaning sinergetik mexanizmi. Har bir badiiy matnning kompozitsiyasi statik emas, balki o‘zgaruvchan, dinamik tizimdir. Undagi:

kirish (zamin), keskinlik nuqtasi, kulminatsiya, yechim (denuaman), o‘zaro kuchlanish (energiya) va boshqalar orqali bog‘lanadi. Binobarin, badiiy matn kompozitsiyasi energetik tebranishlar maydoni orqali yuzaga keladi.

6.2. Obrazlar tizimi. Ko‘pincha, bir obraz o‘zicha butun matnga ma’no berolmaydi. Lekin obrazlar tizim sifatida birlashganda, yangi ma’no va ma’no nozikliklari, yashirin tovlanishlar, semantik rezonanslar, poetik uyg‘unlik paydo bo‘ladi. Bular sinergetik “emergentlik” tamoyili hosilalaridir.

6.3. Ritm, ohang va ichki dinamika. She’riy matnda ritm — bu energiya oqimi. U so‘zlar tartibi, ohang, urg‘u o‘zgarishi orqali matnda yangi semantik maydonlarni hosil qiladi.

Navoiy nomi yuqorida zikr etilgan g‘azalida turoq vazni, radifning takrori, qofiya jarangi matnning “energetik markazi”ni hosil qiladi.

7. Navoiy g‘azaliyotida sinergetik lay (holat)lar.

7.1. “Kecha kelgumdir debon” misrasi sinergetik tahlili.

Ushbu ibora uchta asosiy sinergetik qatlamni ichiga oladi.

Vaqt maydoni: kecha – o‘tgan vaqtning davom etishi.

Umid maydoni: kelgumdir – va’daning yashirin energiyasi.

His-tuyg‘u maydoni: hijronning iztirobi.

Bu qatlamlar birlashib, yangi butunlik — lirik suby’ektning ichki dramatizmini vujudga keltiradi.

7.2. Sinergetik uyg‘unlik modeli. Navoiyda ko‘pincha: *ishq, sabr,hijron, visol, iltijo, nido* maydonlari turli kombinatsiyalarda o‘zaro ta’sirlashadi. Natijada har bir g‘azalda murakkab, ko‘p qatlamli, sinerge-

[30] Fraktal tuzilma – bu tizimning har bir bo‘lagi, butunning umumiy shakli, mantiqiy yoki semantik qolipini takrorlab turadigan tuzilmadir. Mazkur tushuncha marn sinergetikasi, diskursiv tahlil va zamonaviy poetikada faol qo‘llanadi.

[31] Bifurkatsiya – bu tizim rivojida hal qiluvchi burilish nuqtasi, yani kichik o‘zgarish.

tik struktura vujudga keladi.

8. Filologik sinergetikaning amaliy ahamiyati.

8.1. Ta'lim sohasida. Sinergetik yondashuv o'quvchiga: matnni yaxlit tizim sifatida ko'rishga, muallif niyatini chuqur idrok etishga, obrazlar dinamikasini tushunishga, yashirin ma'no qatlamlarini aniqlashga yordam beradi.

8.2. Til o'zgarishlarini oldindan aytib berish. Murakkab tizimlar nazariyasi yordamida: yangi leksikaning kirib kelish tendensiyalari, grammatik o'zgarishlar, shevalar rivoji, internet tili transformatsiyasi oldindan taxmin qilinadi.

8.3. Badiiy tahlilda. Sinergetika poetik tahlilning: semantik maydon, estetika energiyasi, obrazlar tizimining dinamik muvozanati kabi chuqur jihatlarini ko'rsatadi.

9. Filologik sinergetika fan sifatida: *muammolar va istiqbollar.*

Hozirgi kunda sinergetikaning quyidagi muammolari mavjud:

– yagona metodologiyaning to'liq shakllanmaganligi;

– ilmiy terminlarning hali barqarorlashmaganligi;

– matn sinergetikasini formal modellashtirishning murakkabligi va boshqalar

Ammo istiqbollar juda keng:

– sun'iy intellekt asosida matn dinamikasini o'rganish;

– fraktal lingvistika;

– raqamli poetika;

– sinergetik hermenevtika asosida til evolyutsiyasi algoritmlarini yaratish va boshqalar

10. Sinergetik lingvistikaning asosiy kategoriyalari

Filologik sinergetikaning ilmiy apparati o'ziga xos kategoriyalar tizimiga tayanadi. Ular orasida entropiya, bifurkatsiya, fraktal, attraktor, rezonans, stoxastik tebranish, energiya markazi, ochiq tizim kabi tushunchalar alohida o'rin tutadi.

10.1. Entropiya til tizimida. Tilning entropiyasi — til tizimidagi tartibsizlik darajasi. Yangi so'zlarning paydo bo'lishi, ma'no kengayishi, grammatik modellar o'zgarishi, nutqiy variantlarning ko'payishi entropiyani oshiradi. Biroq entropiyaning oshishi har safar yangi tartibning vujudga kelish imkoniyatini kuchaytiradi. Bu sinergetik jarayonning o'zagini tashkil qiladi.

10.2. Attraktorlar. Til tizimida attraktor — o'ziga tortuvchi kuch, ya'ni barqaror ma'no yadrosidir.

Ishq mavzusi Navoiy lirikasining "attraktori"dir; shaxs kategoriyasi grammatik tizimda barqaror "attraktor" vazifasini bajaradi. Attraktorlar matn ichida semantik markazlarni vujudga keltiradi.

10.3. Fraktal lingvistika. Fraktallik bu kichik qismning struktura jihatdan butun tizimga o'xshashligidir. Til va matnda fraktallik, obrazlarning takrorlanishida,

semantik motivlarning qayta tug'ilishida, fonetik-ritmik naqshlarda kuzatiladi.

Navoiy gazallarida "ishq – sabr – hijron – visol" fraktal maydon sifatida takrorlanadi, lekin har gal yangi shakl kasb etadi.

11. Matn energetikasi: yangi ilmiy konsept

Filologik sinergetika matnni energiya tashuvchi tizim sifatida talqin qiladi. Har bir badiiy matnda: semantik energiya, hissiy-psixologik energiya, ritmik-intonatsion energiya, obrazlar energiyasi mavjud bo'ladi.

11.1. Semantik energiya oqimi. Matnning semantik oqimi — mazmunning satrdan satrga o'tishi jarayonida hosil bo'ladigan ma'no kuchidir.

Masalan:

"Kecha kelgumdir debon" misrasi matnga kutish energiyasini kiritadi.

Bu energiya keyingi baytlarda hijron energiyasi bilan to'qnashadi va matnda kuchlanish hosil qiladi.

11.2. Emotsional energiya markazlari. Matnda ba'zi iboralar emotsional markaz vazifasini bajaradi. Navoiyda: "fig'on", "nola", "zori", "niyoz", "dard", "jon" kabi so'zlar energiya reaktorlariga o'xshaydi.

12. Sinergetik hermenevtika va matn. Sinergetik hermenevtika — matnni faqat mazmun darajasida emas, balki dinamik jarayon, energetik oqim sifatida talqin qiladigan yondashuvdir.

12.1. Matn va o'quvchi o'rtasidagi energiya almashinuvi. O'quvchi: o'z tajribasi, his-tuyg'usi, dunyoqarashi bilan matn energetikasiga ta'sir qiladi.

Shuningdek, matn ham o'quvchini o'ziga tortadi. Bu jarayon – rezonansni hosil qiladi.

12.2. Metafora sinergetik tizim sifatida. Metafora — ikki semantik maydonning to'qnashuvi. Bunda:

eski ma'no buziladi, yangi ma'no energiyasi tug'iladi. Bu jarayon sinergetikaning bifurkatsiya modeliga to'g'ri keladi.

13. Raqamli poetika va filologik sinergetika.

Raqamli adabiyotshunoslik sinergetikaning eng muhim va yangi yo'nalishidir.

13.1. Matn fraktallarini kompyuter orqali aniqlash. Kompyuter dasturlari yordamida: motivlar takrorlanishi, fonetik naqshlar, leksik maydon dinamikasi

fraktal modellar orqali tahlil qilinadi.

13.2. Big Data asosida til evolyutsiyasi. Milionlab matnlar asosida: yangi tendensiyalar, lug'aviy evolyutsiya, grammatik o'zgarishlar, yangi poetik shakllar aniqlanadi. Bu sinergetikaning "ochiq tizim" nazariyasi bilan to'liq mos keladi.

14. Filologik sinergetika va sun'iy intellect.

Sun'iy intellekt (SI) matn tahlilida sinergetikaning yangi bosqichini boshlab berdi.

14.1. Matn generatsiyasi sinergetik jarayon sifatida. SI tomonidan yaratilgan matnlar energiya taqsimoti, semantik oqimlar, obrazlar tizimi asosida shakllanadi — bu sof sinergetik jarayondir.

14.2. Lingvistik bashorat. SI yordamida tilning kelajakdagi: semantik o'zgarishlari, sleng rivoji, shevalarning uyg'unlashuvi prognoz qilinmoqda.

Xulosa

Filologik sinergetika — bu nafaqat tilshunoslikning zamonaviy tarmog'i, balki kelajakning eng istiqbolli ilmiy paradigmasidir. U til va matnni statik strukturalar sifatida emas, balki: murakkab dinamik tizim, o'z-o'zidan tartiblanadigan mexanizm, energiya oqimlari majmui, ko'p qatlamli semantik fraktal, inson tafakkurining aks-sadosi sifatida talqin qiladi.

Filologik sinergetika orqali: matnning ichki energiyasi, obrazlar tizimi, ma'no rezonansi, semantik portlashlar, lisoniy o'zgarishlar mexanizmi chuqur ilmiy tahlil qilinadi.

Sinergetik tahlil tilshunoslik, adabiyotshunoslik va she'rshunoslikni yaxlit filologik hodisa sifatida shakllantiradi hamda pirovard natijada filologik bilim, ilm va ta'lim samaradorligini, fanimiz taraqqiyotini dunyo ko'rsatkichlari darajasiga olib chiqadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Sinergetika// ru.wikipedia.org.
2. Буданов В.Г. О методологии синергетики// В.Г. Буданов/ Вопросы философии. – М., 2006. № 5. – С. 79-94. Филологическая синергетика//
3. Василькова В.В. Порядок и хаос в развитии социальных систем: Синергетика и теория социальной самоорганизации.-СпБ.: Лань, 1999.
4. История и синергетика: Математическое моделирование социальной динамики. – М.: Комкнига, 2005.
5. Кадомцова Б.Б. Синергетика// сборник статей. – М.: Мир, 1984.
6. Капица С.П., Курдюмов С.П., Малинецкий Г.Г. Синергетика и прогнозы будущего. – М., 1997.
7. Князева Е.Н. Синергетика как мировидение: диалог с Пригожиым// Е.Н. Князева, С.П. Курдюмов// Вопросы философии.- М.,1982,№-12. – С. 3-20.
8. Ласкутов А.Ю., Михайлов А.С. Введение в синергетику. – М.: Наука, 1990.
9. Хакен Г. Синергетика. – М.: Мир, 1980.

QISSA GENEZISI MUAMMOSIGA DOIR QARASHLAR

Uzoq Jo'raqulov,
Filologiya fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya

Tadqiqotda zamonaviy qissa janrining shakllanishida muhim bosqich vazifasini o'tagan tarixiy-genetik omillar va ularning poetik xossalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *janr, qissa, kompozitsiya, syujet, motiv, fabula, xronotop, Qur'oni karim qissalari, Payg'ambarlar qissasi, xalq qissalari, qissa-dostonlar, doston qissalari, metafora, metafora tizimi, badiiy obraz, qissa obrazi, adabiy-tarixiy jarayon, ijod jarayoni, ijodkor fenomeni.*

Abstract

The study examines the historical-genetic factors that played a crucial stage-forming role in the development of the modern qissa (short novel/novella) genre, as well as their poetic characteristics.

Keywords: *genre, qissa (novella), composition, plot, motif, fabula, chronotope, Qur'anic narratives, Stories of the Prophets, folk narratives, qissa-dastans, dāstān narratives, metaphor, system of metaphors, artistic image, qissa image, literary-historical process, creative process, the phenomenon of the creator (author).*

Epik janrlar tasnifida qissa romandan keyin turishi ma'lum. Ammo badiiy adabiyotga qadar ham muayyan shakl-mazmunda mavjud bo'lgani, zamon-makon nuqtayi nazaridan Sharq va G'arb adabiyotini birdek qamrab olishi, ham folklor, ham yozma adabiyot janri sifatida mustaqil shakllariga egaligi, janr kanonlarining o'ziga xosligi bilan qissa va "Xamsa" dostonlari munosabati romanga nisbatan aniqroq, qadimiyroq deyish mumkin. Ayni nuqtayi nazardan maqolada "Xamsa" dostonlari bilan qissaning besh shakli aro genetik va tipologik munosabatni muxtasar ko'rib chiqishga urinamiz.

Ushbu shakllarni taqriban shunday tasniflash mumkin: a) Qur'oni karim qissalari; b) anbiyolar qissasi; d) xalq qissalari; e) doston qissalari; f) qissa-dostonlar.

Qur'oni Karim qissalari. Sharq-islom ma'rifiy-badiiy tafakkurining shakl-mazmun nuqtayi nazaridan tamomila yangi bosqichga ko'tarilishida Qur'oni karim ma'nolari va bayon usulining ta'siri, bizningcha, birinchi o'rinda turadi[32]. Manbalarda qayd etilishicha, "Qur'oni karim" ma'nolarini to'g'ri tushunish, muvofiq tarzda talqinlash yo'lidagi urinishlar natijasida "Ilm ul-balog'at" maydonga kelgan. Balog'at ilmi tarkiban uch qismga bo'linadi: "Ilm ul-ma'oniy", "Ilm ul-bayon", "Ilm ul-badi'" [Sharipov, 2014]. Qur'oni karim, Muhammad alayhissalom hadislari, xususan, shu asosda maydonga kelgan mumtoz poetika mohiyatini anglash uchun mana shu uchlik nazariy sistema ochqich vazifasini o'taydi. Alisher Navoiy va uning buyuk salaflari ham balog'at ilmini o'z ilmiy-adabiy faoliyatlari uchun dastur sifatida qabul qilishgan. Adabiyotshunos A.Qozixo'jayev Navoiyning balog'at ilmini mukammal egallagani, o'z asarlarida "Miftoh ul-ulum" ("Ilmlar kaliti", Yusuf Sakkokiy), "Talhis ul-miftoh" ("Kalitlar sarasi", Abdurahmon Qazviniy), "Muxtasar ul-ma'oniy" ("Ma'nolar qaymog'i", Sa'diddin Taftazoniy) singari ilmiy asarlarni tez-tez tilga olganini misollar bilan ko'rsatadi [Qozixo'jayev, 2010].

Xuddi islom adabiy-nazariy ta'limotida bo'lganidek, Qur'oni karimdagi matnlar mazmuni, ulardagi ifoda usuli Sharq mumtoz adabiyoti amaliyotida ham izchil qo'llab kelingan. Qur'oni karim qissalari va "Xamsa" munosabati mana shunday nazariy va amaliy jarayonlar umumlashgan

[32] O'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Navoiy "Xamsa"sini Qur'oni karim iqtiboslari, oyatlarining poetik interpretatsiyasi, Qur'onga xos bayon uslubi, kompozitsiya tizim nuqtayi nazaridan diniy, nazariy va grammatik ilm asosida maxsus o'rganish zarurati bor. Navoiy "Xamsa"sining semantik-struktur qurilishida aynan shu jihat yetakchilik qiladi. Shoirning o'zigacha bo'lgan parokanda g'azal strukturasini tamomila yangi yo'nalishga burib, aniq tizimdagi g'azal kompozitsiyasini ishlab chiqishida ham bevosita Qur'oni karim strukturasi asos bo'lgan deb o'ylaymiz (U.J.).

nuqtada voqe bo‘lgan. “Qur’oni karim”ning bitta surasi (28-sura) “Qasas” (“Qissalar”) deb nomlanadi. Unda payg‘ambar Muso alayhissalomning tug‘ilishlaridan boshlab, butun hayot yo‘llari, xususan, payg‘ambarlik davrlari mufassal bayon etilgan. Bundan tashqari, Qur’oni karim Odam alayhissalomdan tortib Nuh, Ibrohim, Ismoil, Is’hoq, Dovud, Sulaymon, Yunus, Ayyub, Muso, Ya’qub, Iyso alayhimussalom singari ko‘plab payg‘ambarlar (shuningdek, Hobil va Qobil, as’hobul Kahf, Maryam, Jolut kabi payg‘ambar bo‘lmaganlar) hayotini qissa qilib beradi. “Yusuf” surasida, xususan, shunday deyiladi “(Ey Muhammad), Biz sizga ushbu Qur’on (surasi)ni vahiy qilish bilan qissalarning eng go‘zalini so‘ylab berurmiz. Holbuki, u (Qur’on) nozil bo‘lishidan ilgari siz (bu qissadan) bexabar kishilardan (biri) edingiz!” [Qur’oni Karim, 1992]. Qur’oni karim qissalarida o‘tmish voqealarining ibratomuz hikoya qilinishi, bashariyat tarixi haqida axborot berilishi bilan birga, yana uch jihat yaqqol ajralib turadi. Bularning birinchisi, har bir “qissa” markazida aniq bir shaxs hayot yo‘li (syujeti) turishi, barcha voqealar (syujet liniyalari) shu shaxs atrofida kechishi va bevosita unga kelib bog‘lanishi; ikkinchisi, butun “qissa” yagona bir mazmun, jumla-konsepsiyaga qurilishi [Qozixo‘jayev, 2012: 206-215]; uchinchisi, tezis – antitezis – sintez shaklidagi mukammal kompozitsion tizimga egaligidir.

“Xamsa” dostonlarida ham xuddi shunday prinsip kuzatiladi. Oshiq – ma’shuqa – raqib uchligi va ularning atrofidagi so‘zlovchi va harakatlanuvchi obrazlar tizimi o‘z mohiyati va syujet strukturasiga ko‘ra, pirovard-oqibat bir obrazga kelib bog‘lanadi. Asardagi shu obraz har qanday holatda yetakchi maqomda turadi. Agar ayni obraz asardan chiqarib tashlansa, doston mazmuni ham, shakli ham o‘sha daqiqadan boshlab nurashga tushadi. Bu markazlashtiruvchi obraz “Xamsa” dostonlaridagi oshiq (Farhod, Xusrav, Majnun, Bahrom, Iskandar) obrazidir. Dostonlardagi eng faol xronotop maydonlari (yo‘l, dengiz, o‘rmon, tog‘, g‘or va h.k.) faqat uning ishtiroki bilan jonlanadi. Oshiq bu xronotop maydonlarini yolg‘iz bosib o‘tadi. Ma’shuqa esa bunda ko‘pincha inert holatda namoyon bo‘ladi. U mavjudligi-yu izlab kelishidan bexabar, g‘ayrishuuriy tarzda oshiqni “kutadi”. Undagi faollik faqat oshiq bilan ilk uchrashuvdan keyin boshlanadi. Raqib ham xuddi shunday: oshiqning faol harakatidan inersiya oladi. Ko‘pincha oshiq o‘z maqsadi yo‘lida qator manzil-makonlarni bosib o‘tib, ma’shuqa diyoriga yetib kelgandan so‘nggina faollashadi. Shulardan kelib chiqib, “Xamsa” dostoni qahramoni Qur’on qissalari qahramoni bilan poetik jihatdan hamjins deyishimizga asos bor.

“Xamsa” dostonlari ham xuddi Qur’oni karim qissalari singari yagona jumla-konsepsiyaga quriladi. Ulardagi mazmunni jo‘n bir jumlada umumlashtirib ifodalaydigan bo‘lsak, taqriban: “Ishq, mehnat, iztirob va fojiadan iborat dardga yo‘liqmoq saodati”, degan konsepsiya maydonga keladi. Agar “Qur’oni karim”dagi Yusuf (a.s.) qissasi asosida qissa qahramonining kelajagi haqidagi bashorat-tush tezis bo‘lsa, toki shu tush ro‘yobga chiqib, qahramon g‘alabaga erishgungacha bo‘lgan barcha voqea-hodisalar antitezis, qahramonga o‘n bir yulduz, oy va quyoshning salomga kelishi sintez hisoblanadi. Qahramonni bunday saodatga erishtirgan omil esa “chiroyli sabr”dir. “Xamsa” dostonlaridagi barcha qahramonlarning ishq uchun yaratilgani[33] tezis, ishq yo‘lidagi iztirob va mashaqqatlari antitezis, ularning Haq vasliga yetishuvlari esa sintezdir.

Yana shuni qayd etish joizki, “Xamsa” tarkibidagi bir doston bevosita Qur’oni karimda bayon etilgan Zulqarnayn qissasiga asoslanadi. Y.E. Bertels va boshqa qator tadqiqotchilarda ayni syujet ildizlarini Firdavsiy “Shohnoma”siga bog‘lashga moyillik bor. Bizningcha esa bunday talqin “Xamsa” dostonlaridagi Iskandar obrazi qamrov ko‘lami va poetik mohiyatini toraytirish, xato tushunishga olib keladi. Iskandar obrazini bir millat va hokimiyat doirasidagi, ishi butkul fotihlikdan iborat

33 Bu o‘rinda Iskandarni ham Olloh ishqi yo‘lida mislsiz fathlarga chog‘langan, alal-oqibat uning amrini bajo keltirish bilan saodat topgan Haq oshig‘i sifatida talqin qilishimiz an’anaviy xamsashunoslik xulosalariga bir qadar zid kelishi mumkin. Ammo dostonning barcha variantlari Sharq-islom dunyoqarashi asosida yozilgani, an’anaviy xamsashunoslarimizda esa sovet mafkurasi taqiqlari sabab bunday talqin uchun imkon bo‘lmaganini yodda tutgan holda, keyingi tadqiqotlarda bu masalaga kengroq to‘xtalish zarurati bor (U.J.).

bo‘lgan, boringki, Ano‘shiravon kabi odillikni kasb etgan bir hukmdor darajasiga tushirib qo‘yadi. Eng yomoni, bunday talqin xamsachilikning umumkonsepsiyasiga soya soladiki, bu masalani maxsus o‘rganish zarurati bor. Bundan tashqari, xamsachilikkacha va mazkur an’ana ta’sirida maydonga kelgan qator doston to‘plamlaridan bevosita Qur’oni karimdagi “Yusuf” surasi asosida yozilgan “Yusuf va Zulayho” tipidagi ishq dostonlari ham joy olgan. Bu o‘rinda Firdavsiy “Shohnoma”si (Siyovush va Sudoba epizodi) hamda Abdurahmon Jomiyning “Haft avrang”gi tarkibidagi “Yusuf va Zulayho” dostonini eslash kifoya.

Payg‘ambarlar qissasi. Umuman, Qur’oni karim nozil bo‘lguncha va undan keyingi davrlarda payg‘ambarlar tarixini aks ettiruvchi ilmiy va tarixiy-badiiy asarlar ko‘p yozilgan. Ushbu asarlar qahramonlari payg‘ambarlar bo‘lib, islom muarrixlari ular haqidagi real voqealarni haqqoniy bayon etishga harakat qilganlar. Bunda, asosan, Qur’oni karim va payg‘ambarimiz (a.s.) hadislari (yoki bungacha bo‘lgan ilohiy naqllar)ga tayanganlar. Isroiliyotga doir ba’zi bir kiritmalarni istisno etganda[34], payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlangan kitoblar badiiy ijod sohiblari uchun ishonchli manba hisoblangan. Ular tarixiy manbalarni badiiy talqin qilishda ikki yo‘ldan borishgan: birinchisi, bevosita payg‘ambar qissasi (yoki boshqa Qur’on qissalari) asosida asar yozish, ikkinchisi, ushbu qissalarda aks etgan syujet, obraz, bayon usullarini o‘zlashtirish va ramziy usulda boshqa syujet va obrazlarga tatbiq qilish. “Xamsa” dostonlari tarkibidagi Iskandar qissasi birinchi tip syujet namunasiga kiradi, qolgan (birinchi dostondan tashqari) uch dostonda esa ikkinchi tipga xos badiiy usullar qo‘llangan. Ularning har biridagi syujet, obraz va uslub tarkibiga payg‘ambarlar qissasiga xos mazmun va shakl xususiyatlari singdirib yuborilgan.

Xalq qissalari. “Ismoil alayhissalom”, “Zufnun”, “Ka’bul Axbor”, “Hazrat Ali (r.a.)”, “Abu Muslim”, “Ibrohim Adham”, “Chor darvesh”, “Shoh Mashrab”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Bahrom va Dilorom” singari umumsharq, xususan, o‘zbek xalqi tomonidan ijod etilgan qissalar ham “Xamsa” dostonlari uchun muayyan omil vazifasini bajargan. Adabiyotshunos Saidbek Hasanov “Xamsa” dostonlariga kirgan “Bahrom qissasi”ning “Shohnoma”dan oldin ham xalq ijodiyoti namunasi sifatida yashab kelgani, Firdavsiy tomonidan badiiy qayta ishlangani, Nizomiy, Dehlaviy, Navoiylar esa uni tom ma’noda yozma adabiyot tarkibiga singdirib yuborganlarini aytadi [Hasanov, 1988: 24]. “Xamsa” dostonlari va sanalgan xalq qissalari nuqtama nuqta solishtiriladigan bo‘lsa, ularning qator poetik komponentlari aro tipologik jihatlar mavjudligi oydinlashadi. Deylik, “Shoh Mashrab” qissasi “Layli va Majnun” dostoni bilan g‘oya va shakl nuqtayi nazaridan ancha yaqin. Mashrab obrazi o‘zining jazbali muhabbati, jununi, jamiyatga sig‘masligi, g‘ayrioddiy faoliyati, so‘zlash usullarigacha bizga Majnunni eslatadi. Xalq qissalari va “Xamsa” dostonlari o‘rtasidagi bunday umumiy jihatlar ularni qiyosiy-tipologik aspektda chuqurroq o‘rganishni talab etadi.

Doston qissalari va qissa-dostonlar. Shuningdek, “Xamsa”gacha va undan keyin maydonga kelgan dostonlar tarkibidagi ba’zi qissalar (doston qissalari) hamda bevosita bir qissa asosida yozilgan dostonlar (qissa-dostonlar) “Xamsa” dostonlari bilan tipologik uyg‘unlik kasb etadi. Doston qissalari bilan qissa-dostonlar o‘z mazmuni, strukturasiga ko‘ra, quyidagi o‘xshash va farqli tomonlarga ega: a) bir doston tarkibida qissalarining bir nechtasi kelishi mumkin. Qissa-dostonlar esa faqat yagona qissa syujetiga quriladi; b) doston qissalari muayyan asar kompozitsiyasining biror bo‘lagini tashkil etib, o‘zining dastlabki (xalqona) shakliga nisbatan qisqarishi, badiiy mazmun nuqtayi nazaridan dostonga tobelanishi, o‘ziga yondosh qissa syujetiga muvofiqlashuvi mumkin. Qissa-dostonda esa muayyan qissa o‘zining ilk variantiga xos barcha syujet va kompozitsion xususiyatlarni deyarli saqlab qoladi. Ba’zi hollarda muallif badiiy niyatiga ko‘ra, kengayadi, yangi, “to‘qima” syujet liniyalari, obrazlar, detallar bilan boyitiladi; d) doston qissalari uchun ko‘proq ibratomuz, xalqona, o‘quvchiga pand-nasihat va didaktik xulosa beruvchi qissalar tanlanadi. Bunda qissa qahramoni biografiyasi

34 Y.E. Bertels “Navoiy va Jomiy” tadqiqotida bu masalaga maxsus to‘xtalib o‘tgan (U.J.).

qissa syujeti bilan parallel kechmasdan, qahramon hayot yo‘lidagi bir yoki bir necha muhim nuqta bayon etiladi. Qissa-dostonlar esa qahramon biografiyasini imkon qadar to‘liq aks ettiradi. Unda boshlanma, tugallanma qismlari orasida qahramoning “hayot yo‘li” xronotopi badiiy aks ettiriladi; e) doston qissalari ilohiy kitoblar, xalq og‘zaki ijodi, xalq kitoblari tarkibidan tanlab olinadi va janr tarkibiga singdiriladi. Qissa-dostonlar syujeti esa janrni o‘zi tanlaydi. Ya’ni qissa voqealari, obrazlari, undagi o‘tkir mazmun, dolzarb mavzu janr tabiatini tayin etadi. Muayyan janr ichida yangi shakllarning paydo bo‘lishiga olib kelishi ham mumkin; f) doston qissalari uslubi ham o‘zi kiritilgan asar uslub maromiga tushib qoladi. O‘zining dastlabki shaklidagi uslub individualligini yo‘qotadi. Qissa-dostonda esa yagona uslub yetakchilik qiladi. O‘z shakl-mundarijasiga ko‘ra, dastlabki shakliga xos uslub maromini yo‘qotmaydi, aksincha, fabula tizimi mukammallashadi.

Muhimi, qissaning har ikki shakli alohida dostonlarda bo‘lganidek, “Xamsa” dostonlari tarkibida ham uchraydi. “Xamsa” tarkibiga kirgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, Bahrom go‘r haqidagi dostonlar, aslida, qissa-dostonlar hisoblanadi. “Xamsa”dagi “Zulqarnayn” qissasi Qur’oni karimdan iqtibos qilinib, “Xamsa” badiiy konsepsiyasiga singdirilgan bo‘lsa, undan oldingi uch qissa xalq ijodiyoti namunalaridan olinib, “Xamsa” semantikasi va strukturasiga tobelantirilgan. Bu esa mazkur qissalarning Xamsaga xos bir butun badiiy sistemada komponent-qissa (xamsa-qissalari), mustaqil holatda esa qissa-doston ekanini ko‘rsatadi.

“Xamsa”ning birinchi dostonida turli konseptual masalalar yuzasidan muayyan shaxs hayotiga doir qissa epizodlari keltiriladi. Ayni epizodlar muallif ilgari surmoqchi bo‘layotgan aniq konsepsiyani asoslab kelishi bilan birga, “Xamsa”ning umumkonsepsiyasi, keyingi dostonlar yo‘nalishini belgilashda mundarijaviy ahamiyat kasb etadi. Masalan, Navoiy “Hayrat ul-abror” dostoni tarkibidagi Ibrohim Adham, Robiya Adaviya, Boyazid Bistomiy haqidagi qissa epizodlari mana shunday badiiy-konseptual vazifalarni bajaradiki, ayni dalillar “Hayrat ul-abror” tarkiban muayyan qissalarni jamlagan doston ekanini ko‘rsatadi.

Birinchi doston (“Hayrat ul-abror”) tarkibidagi bunday qissalarni uch guruhga bo‘lib tasniflash mumkin: birinchi guruhga Qur’oni karimda bayon etilgan qissa-epizodlari; ikkinchi guruhga muallifdan oldin yashab o‘tgan, el og‘zida rivoyatga aylangan, “daxlsiz” shaxslar (payg‘ambarlar, sahobalar, avliyolar) haqidagi qissa-epizodlari; uchinchi guruhga shoir bilan zamondosh (Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Sulton Husayn singari) shaxslar hayotiga doir qissa epizodlari kiradi. Eng muhimi, bunday qissalarning barchasi real asosga ega va oliy realizm namunalari sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman, Sharq-islom muhitida shakllangan “Xamsa”ga xos sintetizm (turli ma’rifiy-ijtimoiy manbalar, voqea-hodisalar, janr shakllari va xususiyatlarini umumlashtirish) quyidagilarda namoyon bo‘ladi: a) ilohiy naql va shaxs e’tiqodi; b) bu asosda yuzaga kelgan poetik an’analar; d) islom kishisi (abror-odam) va ma’rifiy jamiyat konsepsiyasi; e) Yaratguvchi, inson va borliqni islom prizmasida idroklash. Islom Sharqida kechgan sintetizm jarayoni mana shunday ichki spetsifik jihatlari bilan qadim Sharq va Yevropa badiiy tafakkuriga xos sintetizm mexanizmiga o‘xshamagan yangi mexanizmni namoyon etgan. Universal estetik tafakkur, original modifikatsion tizim sifatida shakllangan. Sintetizm jarayonida bunday kanonlashgan poetik shoxobchalar yagona tarmoq bo‘ylab “Xamsa” singari ulkan janr xronotop maydoniga quyilgan va singib ketgan. Natijada bir yoki bir nechta janr komponentlari bir joyga jamlanib, yangi janrlar hosil qilgan yoki janr kanonlarini o‘zgartirgan, ayni paytda o‘zi ham o‘zgarishga uchragan: yo kanonlashgan, yo differensiatsiyalangan, taraqqiy etgan yoki qat’iy o‘zgarishga yuz tutgan. “Xamsa”ning bir butun poetik sistema bo‘lib shakllanishida Sharq mumtoz adabiyoti an’analari silsilasida mavjud qator adabiy janrlar, xususan, qissa janri ham, kanonlashtiruvchi vosita vazifasini o‘tagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992.
2. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-жомиъ ас-саҳиҳ. 2-жилд. – Т.: Мусулмонлар бош таҳририяти, 1996.
4. Алишер Навоий. МАТ. Хамса. Сабъаи сайёр. – Т.: Фан, 1992.
5. Алишер Навоий. МАТ. Хамса. Ҳайрат ул-аброр. – Т.: Фан, 1991.
6. Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо /МАТ. Ўн олтинчи том. – Т.: Фан, 2000.
9. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Низами и Фузули. –М.: Издательство восточной литературы, 1962.
10. Бертельс Е.Э. Фирдоуси / в кн.: Бертельс Е.Э. Избранные труды. История персидско-таджикской литературы. – М.: Издательство восточной литературы, 1960.
12. Жўрақулов У. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикаси. – Тошкент: Турон-Иқбол нашриёти, 2017.
13. Каримов Қ. "Қутадғу билиг" асари ҳақида/ Юсуф хос Ҳожиб. Қутадғу билиг китобида. – Т.: Фан, 1971.
18. Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. Нашрга тайёрловчилар: Э.Фозилов ва бошқ. – Т.: Ёзувчи, 1990.
19. Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
20. Nizami Gencevi. Sirler xezinesi. Forsadan tarjume va on sozun muellifi Xelil Yusifli. – Baki: "Adil Oglu", 2011.
21. Фитрат А. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Т.: Ўздавнашр, 1927.
22. Xelil Yusifli. Nizami Gencevi ve onun "Sirler xezinesi" poemasi /Nizami Gencevi. Sirler xezinesi. Forsadan tarjume va on sozun muellifi Xelil Yusifli. – Baki: "Adil Oglu", 2011.
23. Хасанов С. Роман о Бахраме. Поэма «Сем скитальцев» Алишера Навои в сравнительно-филологическом освещение. – Т.: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1988. – С. 24.
24. Шарипов Зокиржон. Балоғат фани: баён ва бидиъ илмлари. – Т.: Моваройуннаҳр, 2014.
25. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи: Қ.Каримов. – Т.: Фан, 1971.
26. Қозихўжаев А. Ғазал ғаройиботларининг ибтидоси // Соҳибқирон юлдузи журнали, 2010, №2.

MÜASIR ÖZBƏK ƏDƏBIYYATŞÜNASLIĞINDA NURBOY CABBAROVUN NIZAMI GƏNCƏVI VƏ ƏLIŞIR NƏVAI YARADICILIĞINA DAIR TƏDQIQATLARI

Əlimuxtar Həsən oğlu Muxtarov,
Amea Gəncə Bölməsinin
Elmi işlər üzrə sədr müavini,
filologiya üzrə fəlsəfə doktoru, dosent

Xülasə

Məqalədə müasir özbək ədəbiyyatşünaslığının tanınmış nümayəndəsi Nurboy Cabbarovun Nizami Gəncəvi və Əlişir Nəvai yaradıcılığının müqayisəli şəkildə öyrənilməsində rolu geniş elmi-nəzəri aspektdə araşdırılır. Alimin "Nizami Gəncəvi və Əlişir Nəvainin sənət anlayışları" mövzusunda apardığı fundamental tədqiqat əsasında onun poetik konsepsiya, söz və qələm fəlsəfəsi, məna–estetika vəhdəti, sənətkar məsuliyyəti, Hak və həqiqət meyarı, eləcə də təqlid və orijinallıq problemi ilə bağlı irəli sürdüyü elmi qənaətlər sistemli şəkildə təhlil edilir. Məqalədə Nurboy Cabbarovun elmi yanaşmasının nizamişünaslıq və nəvaişünaslığın inkişafına, habelə Azərbaycan–Özbək ədəbi əlaqələrinin dərinləşdirilməsinə verdiyi töhfə xüsusi vurğulanır.

Açar sözlər: *Nurboy Cabbarov, Nizami Gəncəvi, Əlişir Nəvai, "Xəmsə", poetik konsepsiya, sənət anlayışı, müqayisəli ədəbiyyatşünaslıq, Azərbaycan–Özbək ədəbi əlaqələri.*

Abstract

The article examines, from a broad scholarly and theoretical perspective, the role of Nurboy Jabbarov, a prominent representative of contemporary Uzbek literary studies, in the comparative study of the works of Nizami Ganjavi and Alisher Navoi. Based on the scholar's fundamental research entitled "The Artistic Concepts of Nizami Ganjavi and Alisher Navoi," the paper systematically analyzes his academic conclusions concerning poetic conception, the philosophy of word and pen, the unity of meaning and aesthetics, the artist's responsibility, the criterion of Truth and Reality, as well as the problem of imitation and originality. Special emphasis is placed on Nurboy Jabbarov's contribution to the development of Nizami studies and Navoi studies, as well as to the deepening of Azerbaijani – Uzbek literary relations.

Keywords: *Nurboy Jabbarov, Nizami Ganjavi, Alisher Navoi, Khamsa, poetic conception, artistic.*

Nurboy Cabbarov was born on January 1, 1966, in the village of Otkamar, Dehqonobod district, Kashkadarya region of the Republic of Uzbekistan. He received his secondary education at Secondary School No. 2 in the Dehqonobod district. In 1983–1990, he studied at the Faculty of Uzbek Philology of Tashkent State University (now the National University of Uzbekistan). He completed his compulsory military service between 1984 and 1986.

He began his scholarly career at the Hamid Suleymanov Institute of Manuscripts of the Academy of Sciences of Uzbekistan, where he held various academic positions and defended his Candidate of Sciences (PhD equivalent) dissertation in 1994 and his Doctor of Sciences dissertation in 2004. Over many years, he served at the National University of Uzbekistan as head of department, dean of faculty, and chair and member of academic councils. He currently holds the position of professor at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature and serves as chair and member of several academic councils and expert commissions.

Nurboy Cabbarov is widely recognized as a scholar of classical Uzbek and Eastern literature, with particular emphasis on the heritage of Alisher Navoi and Nizami Ganjavi. His scholarly activity has been honored with numerous state awards, including the "Shuhrat" Medal and the "Dustlik" (Friendship) Order, as well as prestigious distinctions from academic and cultural institutions of Uzbekistan and Azerbaijan.

His research significance extends beyond the framework of Uzbek literary studies and encompasses the broader context of Turkic-Islamic culture, classical poetics, and Azerbaijani – Uzbek literary

relations. Nurboy Cabbarov's scholarly legacy continues to serve as a valuable source for the study of interconnections among the literatures of the Turkic peoples.

Nizami Ganjavi and Alisher Navoi are two towering figures who occupy an unparalleled place in the artistic and philosophical history of Eastern, particularly Turkic-Islamic, culture. Their creative heritage has played a decisive role not only in the formation of national literatures but also in the development of universal cultural values. Over centuries, the works of these two great masters have been studied by various scholarly schools, especially through comparative research conducted within the context of the *Khamsa* tradition.

Among contemporary scholars working in this field, Nurboy Cabbarov occupies a prominent position. His studies on the lives and works of Nizami Ganjavi and Alisher Navoi, the eminent thinkers of the Turkic world, demonstrate a new methodological approach to the study of classical literature. The principal scholarly strength of Cabbarov's research lies in his comparative analysis of Nizami's and Navoi's works not merely on the basis of plot similarities or genre parallels, but at the level of profound philosophical and aesthetic dimensions of artistic consciousness. In this respect, his studies may be regarded as an important scholarly milestone for both Nizami studies and Navoi studies.

A defining feature of Nurboy Cabbarov's scholarly approach is its systematic and conceptual character. He evaluates the *Khamsas* of Nizami Ganjavi and Alisher Navoi not as a simple collection of separate works, but as an integral poetic and philosophical system. According to Cabbarov, at the center of this system lie the artist's creative intention, attitude toward the word, and aesthetic responsibility.

The scholar emphasizes that when Nizami Ganjavi established the *Khamsa* tradition, his aim was not to imitate earlier poetic models. On the contrary, his primary objective was to create a unique, original work of art endowed with the highest artistic and aesthetic qualities. Cabbarov interprets this position as a manifestation of Nizami's creative independence and notes that it was precisely this quality that elevated the *Panj Ganj* to a new poetic stage in world literature.

One of the central issues in Cabbarov's research is the semantic and aesthetic analysis of the concepts of the word and the pen. He demonstrates that for Nizami Ganjavi, the pen is not merely an instrument of writing, but a means leading to divine wisdom. Nizami's metaphor of the pen as the "key to treasures" is interpreted by Cabbarov as a poetic expression of the metaphysical essence of the word.

According to Cabbarov, Alisher Navoi further develops this concept by associating the pen with the *Lawh al-Mahfuz* (the Preserved Tablet), presenting it as a divine force conceived on a cosmic scale. This approach reveals that artistic responsibility possesses not only aesthetic, but also moral and ethical dimensions. Thus, in Cabbarov's analysis, the concepts of the word and the pen emerge as a shared poetic-philosophical line in the works of both Nizami and Navoi.

In Cabbarov's scholarly view, one of the fundamental principles of Nizami's and Navoi's creativity is the unity of profound meaning and perfect aesthetic form. He interprets Nizami's assertion that "a word devoid of meaning is not worth writing" as a vivid example of aesthetic realism in classical Eastern poetry. According to Cabbarov, for Nizami, poetry is less an act of formal mastery than an act of moral responsibility.

A similar position is observed in the works of Alisher Navoi. Emphasizing Navoi's principle that "what is essential in poetry is meaning", Cabbarov notes that although the poet accepts formal diversity as natural, he preserves meaning as an immutable value. From this perspective, the scholar concludes that for both artists, aesthetic perfection is possible only in conjunction with moral depth.

In Cabbarov's research, special attention is devoted to the criterion of conformity of a work of art to Truth (*Haqq*). He shows that Nizami Ganjavi perceived the principle of truthfulness as both an ethical and an aesthetic category. According to Cabbarov, in Nizami's oeuvre truthfulness becomes a measure of artistic value, ensuring the longevity of his works.

The same criterion functions as a fundamental principle in the works of Alisher Navoi. Cabbarov interprets Navoi's severe judgment of words detached from truth as a manifestation of the poet's sense of social and moral responsibility. In the scholar's view, the immortality of Nizami's and Navoi's creativity is rooted precisely in its foundation upon Truth and righteousness.

One of the most significant scholarly conclusions in Nurboy Cabbarov's studies of Nizami and Navoi concerns the problem of imitation and originality. He demonstrates that when Nizami Ganjavi created the *Khamsa* tradition, he consciously refused to imitate earlier poetic models. Cabbarov evaluates this stance as an ideal model of creative independence in classical literature.

According to Cabbarov's analysis, Alisher Navoi did not merely continue the path opened by Nizami, but elevated it to a new creative stage. Navoi's critical approach to his predecessors in certain plot structures and character choices is interpreted by Cabbarov as a vivid example of artistic courage and independent poetic thinking.

Nurboy Cabbarov's studies are of great scholarly importance for contemporary Nizami studies and Navoi studies. In his works, the creativity of Nizami and Navoi is taken beyond national boundaries and presented within a pan-Turkic and universal cultural context. This approach makes a significant contribution to the scholarly study of Azerbaijani – Uzbek literary relations.

Cabbarov's conclusions demonstrate that Nizami Ganjavi, as the founder of the *Khamsa* tradition, established the foundations of a poetic system, while Alisher Navoi brought this system to its highest stage of artistic and philosophical development. This conclusion is of great significance both theoretically and methodologically.

The analysis conducted in Cabbarov's research shows that he is a scholar with profound intellectual depth in the study of the creative heritage of Nizami Ganjavi and Alisher Navoi. His works systematically examine the sanctity of the word, the artist's responsibility, the unity of meaning and aesthetics, the criterion of Truth, and creative independence free from imitation. This approach renders Cabbarov's scholarly legacy valuable not only for the study of these two specific masters, but also for understanding the poetic philosophy of classical Eastern and Turkic literature as a whole.

Thus, Nurboy Cabbarov's research serves as a reliable theoretical foundation for the modern scholarly interpretation of the heritage of Nizami Ganjavi and Alisher Navoi, while also functioning as an important academic source contributing to the strengthening of Azerbaijani–Uzbek literary and cultural relations.

References

1. *Cabbarov, N.* Artistic Concepts of Nizami Ganjavi and Alisher Navoi. *Article.* ***Nizami Studies: Journal of Scholarly Works****. Ganja Branch of the Azerbaijan National Academy of Sciences, Elm Publishing House, 2025.*
2. *Nizami Ganjavi.* Khamsa*. Baku: Sharq–Qarb Publishing House, 2019.*
3. *Nizami Ganjavi.* Makhzan al-Asrar *(*The Treasury of Secrets*). Baku, 2019.*
4. *Navoi, Alisher.* Khamsa*. Tashkent: Fan Publishing House, 2011.*
5. *Navoi, Alisher.* Majalis al-Nafais*. Tashkent, 2011.*
6. *Navoi, Alisher.* Mahbub al-Qulub*. Tashkent, 2011.*
7. *Mukhtarov, A.* The Image of Nizami Ganjavi in Azerbaijani Literature*. Ganja: Elm Publishing House, 2021.*
8. *Kerimli, T.* On the Poetic Genius of Nizami Ganjavi*. Baku, 2019.*
9. *Ulvi, A.* Azerbaijani – Uzbek Literature*. Baku: Elm va Təhsil Publishing House, 2016.*
10. *Sirojiddinov, S.* The Heritage of Alisher Navoi and the Nizami Tradition*. Tashkent, 2019.*
11. *Najafzadeh, A.* Nizami Ganjavi's Turkic Identity and His Attitude toward Turkicness in Azerbaijani Nizami Studies*. Baku, 2019.*

KUR'ÂN'IN ÖZBEKÇE ÇEVİRİSİ ÜZERİNE BİR DEĞERLENDİRME[35]

M.Faruk Toprak,
Ankara Üniversitesi profesörü,
Arap dili ve edebiyatı doktoru
e-mail: ftoprak@yahoo.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Shayx Abdulaziz Mansur tomonidan Qur'oni Karimning o'zbek tiliga tarjimasi muhokama qilinadi. Tarjima asosan lingvistik jihatlarga e'tibor qaratadi. Qur'on tarjimalarida so'zlar va atamalarning aniq ekvivalentlari berilganmi yoki ekvivalent so'zlar afzal ko'rilganmi, shu haqda bahs yurilyilgan. Tadqiqotda o'zbek tilidagi tarjimaning qanchalik ixcham va ravon ekanligi, xorijiy so'zlar ishlatilganmi yoki yo'qmi va tarjimon o'z bilim va tajribasidan ma'lum so'zlar uchun mos ekvivalentlarni topish uchun qanday foydalanganligi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *Qur'on, Qur'on tafsiri, o'zbekcha tafsir, o'zbek islomiy atamalari, tafsir tarixi, arabcha diniy atamalar.*

Özet

Bu makale, Kur'ân-ı Kerim'in Şeyh Abdulaziz Mansûr tarafından Özbekçeye yapılan çevirisini konu almaktadır. Çeviri, ağırlık olarak dil açısından ele alınmakta. Kur'ân çevirisinde kelimelerin ve terimlerin karşılıklarının tam olarak mı verildiği ya da buna yakın lafızların mı tercih edildiği incelenmektedir. Çevirinin ne denli öz ve akıcı bir Özbekçeyle yapıldığı, yabancı kelime kullanılıp kullanılmadığı, çevirenin kendi bilgi ve tecrübelerini ortaya koyup bazı kelimelere ne karşılıklar bulduğu ele alınmaktadır.

Anahtar kelimeler: *Kur'ân, Kur'ân tefsiri, Özbekçe tefsir, Özbekçe İslamî terimler, tefsir tarihi, Arapça dinî terimler*

Yüce Allah'ın insanlara gönderdiği son kitap olan Kur'ân-ı Kerim, Şeyh Abdulaziz Mansûr tarafından Özbekçeye çevrilip tefsiri de yapılarak Kiril harfli olarak 2024 Yılında Taşkent'te yayımlanmıştır. Tek cilt olarak basılan ve sayfa sayısı altı yüzü geçen bu çeviri-tefsir, Kur'ân'ın Arapça özgün metnini de içermektedir. Böylece okuyucu aynı anda hem sûreleri Arapça olarak okuyacak hem de Özbekçe anlam ve yorumlarını görmüş olacaktır. Uzun bir çalışmanın ürünü olan bu başarılı çeviri-tefsir incelendiğinde, yazarın Arap Diline, İslâm Tarihine ve dinî meselelere ne denli vakıf olduğunu ortaya koymaktadır.

Vahiy yoluyla gelen semâvî bir mesajı özgün dilinden bir başka dile çevirmek elbette kolay değildir. Kelime ve terimlere en iyi karşılıkları bulmak, mecaz ve istiareleri başarılı bir şekilde çevirmek birikim, dillere vukuf ve güçlü bir kalem erbabı olmayı gerektirir. Şeyh Abdulaziz Mansûr, bunu en iyi şekilde ifa ederek Kur'ân'ı başarılı bir şekilde çevirmiş; böylece hem Kur'ân çevirilerine büyük bir katkıda bulunmuş hem de Müslüman Özbek Halkı'na büyük bir hizmette bulunmuştur.

Özbekçe Kur'ân Çevirisi incelendiğinde, Kur'ân'da sıkça zikredilen ve artık İslâm kültürü ve literatüründe birer terim olarak yer almış olan lafızların aynen kullanıldığını görürüz. *Kâfir*, *müşrik*, *şeytan*, *salih amel*, *nâzil* bunların başında sayılabilir. Kur'ân'da geçen *mürsel* ve *nebi* kelimelerine karşılık olarak genellikle Farsça *peygamber* kelimesi verilmiş (Yâsîn/3; Tahrim/1, 9; Ahzab/45); *resûl* karşılığı olarak da hem *resûl* (Fetih/29) hem de *peygamber* (Şems/13) denilmiştir. Çevirenin bu lafızlardaki tercih ve tasarrufu, anlam bakımından bir sorun yaratmamaktadır. Çünkü burada, *Allah'tan insanlara mesaj ileten elçiler* söz konusu edilmektedir.

Çeviride dikkati çeken diğer kullanımları da aşağıda maddeler halinde sunuyoruz:

1. Kur'ân'a Özgü Terim ve Kelimeler

Kur'ân'da zikredilen ve özellikle Allah'ın zâtına delâlet eden ve esmâ-ı hüsna'dan olan çok sayıda

35 Kur'ân-ı Kerim'in Özbekçe çevirisini bana hediye eden ve bu çalışmayı hazırlamama vesile olan Prof. Dr. Nurboy Jabborov Hocam'a teşekkürü borç bilirim.

kelimeye/isme karşılık gelen lafızların tercih edilmiş olması dikkati çeker. Bu lafızlar, Özbekçe olabildiği gibi Farsça kökenli bir kelime olabilmektedir. Meselâ, "tövbeleri kabul eden" anlamındaki *tevvâb* (تواب) karşılığı olarak *keçirimli* (Bakara/54), Allah'ın ebedî ve ölümsüz zâtına delalet eden *hayy* (حي) karşılığı olarak *berhayat* (Âl-i İmrân/2), "her şeyi bilen" anlamında *alîm* (عليم) karşılığı olarak *biluvçi* (Bakara/29, 256) ya da *dânâ* (Bakara/32) buna en güzel örneklerdir. Aynı anlamı ifade etmek için *bilim egesi/eğesi* (Yusuf/6) lafzı da Allah'ın her şeyi bildiğini gösteren güzel bir ifadedir. Keza "Allah'ın zâtı ile kâim" olduğuna delalet eden *kayyûm* (قيوم) karşılığı olarak *ebedi turuvçi* denilmesi, bu çeviriye büyük bir değer katmaktadır (Bakara/255, Âl-i İmrân/2).

Kur'ân'da en çok geçen ve Müslümanların gönlünde ve zihninde yer eden lafızlardan biri olan *Rab* (ربّ) karşılığı olarak genellikle *perverdigâr* denildiği dikkati çekmektedir (Âl-i İmrân/15, Kadir /4). Ancak bazı âyetlerde Arapça aslı olan *rabb* de telaffuz edilmiştir (Bakara/62, Nisâ/1).

"Okuma yazma bilmeyen" anlamına gelen *ümmî* (أمّي) terimi Kur'ân'da altı kez zikredilmektedir [Mertoğlu, 2012:309/Abdulbâkî, 1998: 103]. Yahudilerden okuma-yazma bilmeyen bir topluluktan söz ederken *yazı bilmeyen* (Bakara/78); Araplardan söz edilirken bazen *sevâdsız* (Âl-i İmrân/20) bazen *omi/ümmî* (Âl-i İmrân/75) bazen de *omiler/ümmiler yani sevâdsız kişiler* (Cuma/2) denilmektedir. *Cennet* (جنة) karşılığı olarak yine aynı kelime kullanılırken *cehennem* (جهنم) anlamında bazen Farsça *dûzah* (Bakara/39) bazen de *cehennem* (Âl-i İmrân/12, Yâsîn/63) kelimeleri kullanılmıştır.

Kur'ân-ı Kerim'de bazı sûreler yeminle başlamaktadır. Çeviride, yemin ifadesi olarak yine Arapça bir kelime olan kasem (قسم) kullanılmaktadır. Örnek olarak Asr Sûresi'nin ilk iki âyetini verebiliriz:

Asr bilan qasamyod eturmanki, inson ziyondadir.

86. Sûreye adını veren *Târık* (طارق) kelimesine karşılık olarak *Zühal* (Satürn) yıldızının adının verilmesi mânidardır. Birçok tefsir kitaplarında ve Kur'ân terminolojisi üzerine yazılmış eserlerde *Târık* için "gece doğan yıldız", "gece ışıldayan yıldız" ve benzeri ifadeler vardır [el-İsfâhanî, 1992: 518]. Belki de bu özelliğinden dolayı Zühal Yıldızı olduğu kabul edilmiştir.

Kur'ân'da çok geçen ve *şer* (شرّ) kavramının zıddı olan *hayr*'a (خير) karşılık olarak *mal-dünya muhabbeti* denilmesi de esere bir zenginlik ve farklılık katmaktadır (Âdiyât/8).

2. Kelimeye Birden Çok Karşılık Bulma

Kur'ân'da "korku" kavramının karşılığı olarak eşanlamlı birçok kelime kullanılmaktadır. Bunlardan biri olan *havf* (خوف) kelimesinin karşılığı, yine Arapça *havf* olarak verilirken (Bakara/38) anlamca çok yakın olan *rehibe* (رهب) karşılığı olarak *korku* kelimesi tercih edilmiştir (Bakara/40).

Birden fazla anlam verilen bir kelime de *âl* (آل)'dir. Arapçada bir kimsenin soyuna, kabilesine, hânedanına veya temsil ettiği fikirlere bağlı zümreler için kullanılan bir terim olan *âl*, ifadenin özüne ve içeriğine göre farklı şekillerde Özbekçeye aktarılmıştır. İsrailoğulları'nın, Allah'ın inayetiyle Firavun'un zulmünden kurtarıldığını hatırlatan âyette *âl* karşılığı olarak *nevker* (hizmetçi, yardımcılar) denilirken (Bakara/49) hemen ardından gelen âyette aynı kelime için *leşker* (ordu, asker) denilmiştir (Bakara/50). Burada Firavun'un Ailesi'nden çok, Firavun'un adamları, askerleri, hegemonyası kastedildiği için böyle farklı kelimeler kullanmak tercih edilmiştir. *Âl* kelimesi, asıl sözlük anlamı verildiğinde, bu kez "aile, evlad" denilmiştir. Nitekim Üçüncü Sûre'ye de adını veren Âl-i İmrân, *İmrân Evladları* şeklinde çevrilmiştir.

Arapçada asıl anlamı "ateş" olan *nâr* (نار) kelimesinin Özbekçe karşılığı olarak bazen *alev* (Humeze/6) bazen de *dûzah* (A'lâ/12) verilmiştir. Keza *seyyâre* (سيّارة) kelimesi aynı sûrede hem *yolcular* hem de *kervan* şeklinde çevrilmiştir. (Yusuf/10, 19)

3. Arapça ve Farsça Kelimeleri Tercih Etme

Arapça, Kur'ân-ı Kerim'in, ayrıca hadis, tefsir, fıkıh, kelam gibi İslâmî ilimlerin; Farsça da kadim imparatorlukların dili olması, ayrıca Türk topluluklarının yaşadığı coğrafyalarda yazılıp konuşuluyor olması hasebiyle Türk lehçeleri üzerinde etkili olmuş ve bu iki dilden çok sayıda kelime dillerimize girmiş olup lehçelerimizdeki mevcudiyetlerini halen de sürdürmektedirler. Dolayısıyla farklı

Türkî dillerde – ve özellikle dinî içerikli eserlerde – bu kelimelere yoğun bir şekilde yer verilmiştir. Çalışmamızın konusu olan Özbekçe Kur'ân Çevirisi de sayılmayacak miktarda Arapça-Farsça kelimelerle doludur. Meselâ Arapçada "cahil, bilmeyen, aklı olmayan" gibi anlamlar ifade eden *sefîh* (سفيه) kelimesinin karşılığı olarak Farsça *pestdâr* (Bakara/13) verilirken aynı sûrede başka bir Farsça kelime olan *nâdân*'ın kullanıldığını görmekteyiz (Bakara/142). Yine Farsça bir kelime olan *ferzend*, Kur'ân'da geçen hem *benîn* (بنين), yani "oğullar, çocuklar" hem de *evlâd* (أولاد), yani "insanın kendi neslinden gelen çocuklar" kelimelerini karşılamaktadır (Âl-i İmrân/ 10, 14).

Özbekçede karşılığı olmakla birlikte Farsça ve Arapçası tercih edilen diğer kelimelere örnek olarak *sâdık* (صادق) (doğruyu söyleyen, dürüst) karşılığı *rastgûy* (Bakara/31); "alıp yemek" karşılığı *tenâvul* (تناول Bakara/35); "gizli kalmış, bilinmeyen, meçhul" karşılığı *mahfî, nâma'lûm* (Âl-i İmrân/5); âyetlerde sık geçen ve "yolunu kaybetmek, hak yoldan ayrılmak" anlamında olan *dalâl* (ضلال) karşılığı *gumrâh* (Yusuf/8); Arapçada "üzülmek" anlamına gelen *hüzn* (حزن) karşılığı olarak da *teşviş* (II/38, 62, Yusuf/13) sayılabilir.

Arapçada "bir şeye değer vermeyen, dünya malına meyletmeyen" anlamına gelen ve birçok dile de aynı şekilde geçmiş olan *zâhid* (زاهد) kelimesi yerine *terk-i dünya* denilmesi ise dikkat çekicidir ve çevirenin dile ve edebiyata olan vukufunu ortaya koymaktadır (Yusuf/20).

4. Arapça Edatlara Karşılık Bulma

Her dilde olduğu gibi Arapçada da tek başına anlam ifade etmeyen; ancak arkasından gelen bir cümleyle anlam kazanan edat ve harf-ı cerler vardır. İlk yer vereceğimiz edat olan *inne* (إنّ), cümlenin gelişine göre bazen pekiştirme, bazen iki cümleyi bağlayan bir edat bazen de dikkat çekme ve vurgulama anlamı verir. Anlamı pekiştirme ve muhatabın tereddüt ve şüphesini giderme amacı söz konusu ise, çeviride *elbette* şeklinde zikredildiği dikkati çeker (Âl- İmrân/19, Beyyine/6,7). Biraz daha vurgulamak istendiğinde, *hakikaten* kelimesi kullanılır (Âdiyât/6). İnsan Sûresi'nin 2.-5. Âyetlerinin başında, yani dört kez art arda zikredilen bu edat, ilk ikisinde *derhakikat*, sonraki iki âyette ise *elbette* şeklinde çevrilmiştir. Keza bir pekiştirme edatı olan *lekad*'ın da *hakikaten* diye çevrildiği vâkidir (Tîn/4).

İz (إذ) edatı, bir zaman zarfı olup" hani bir zamanlar" anlamında, geçmişte kalan bir olayı hatırlatmak için kullanılır. [İbn Manzûr: 1996, I/101] Özbekçe aslî bir kelime olan *esleng* kelimesi, bu edata karşılık olarak verilmiştir (Bakara 30- 34, (Yusuf/4).

Bir başka edat olan ve bir kişiyi/nesneyi müstesna kılmak ya da bir işten hariç tutmak amacıyla söylenen *illâ* (إلاّ), cümlenin siyak ve sibakına göre bazen *illâ* (Tîn/6, A'lâ/7; bazen de *fakat* (Asr/3) şeklinde karşılık görmektedir. Arapça kökenli bu kelime, Farsça da olduğu gibi Özbekçede de "sadece" anlamına gelir. [Nasipova, 2023: 481]

Arapça edatlar arasında, diğer dillere çevrildiğinde tek bir karşılığı olmayan bir kelime de *kellâ*' (كلاّ) dır. Bu kelime, daha önce geçen bir önermeye tepki olarak genellikle "Hayır, bilakis!" gibi muhatabın beklemeyeceği bir sonucu bildirmek için kullanılır. Özbekçe Kur'ân çevirisinde genellikle *yok* (Tekâsür/3, Humeze/4, Nebe/4, Müddessir/52, 53, 54) şeklinde karşılık bulduğu görülür

5. Eşanlamlı Kelimeler

Anlam bakımından birbirine yakın olan ve bazen de birbirinin yerine kullanılan kelimelere çeviride uygun karşılık bulmak, dil ve edebiyata vukufu gerektirmektedir. "Kalp, yürek, gönül, sine" gibi özellikle soyut anlamda kullanılan ve kalpteki iman ve ikrarın samimiyetini ifade etmeye delâlet eden kelimelerin karşılığı olarak verilen lafızlarda bunu açıkça görmekteyiz. "Kalp" (قلب) kelimesinin karşılığı bazen *kalb* (Bakara/10) bazen *dil* (Âl-i İmrân/7) denilmektedir. "Fuâd" (فؤاد) karşılığı olarak *yürek* (Humeze/7); "göğüs, sine" anlamına gelen sadr'ın çoğulu olan *sudur* (صدور) karşılığı olarak da *dil* (Nâs/5, (Âdiyât/10) lafızları tercih edilmiştir. Felak ve Nâs Sûrelerinin ilk ayetlerinde, *sığınma* fiilinin karşılığı olarak aynı anlama gelen hem Farsça *penâh* hem de Arapça *iltica* kelimelerinin kullanılmış olması da ifadeyi pekiştirmek amacıyla yapılmıştır.

Nâs Sûresi'nde lafız açısından farklı olmalarına rağmen mana bakımından Allah'a delâlet eden *rab* (رب) karşılığı *perverdigâr*; *melik* (ملك) karşılığı *padşah* ve *ilah* (إله) karşılığı da *ilah* olarak verilmiştir.

Arapça ile Türk Lehçeleri arasındaki bariz farklılıklardan birisi, Türkî dillerdeki ek fiilin Arapçada olmamasıdır. Meselâ "Allah gafurdur, rahimdir" derken son ek fiil olan -dir, -dır, -dur, -dür Arapçada mevcut değildir. Özbekçe çeviride, özellikle Allah'ın yüce sıfatları zikredilirken, ek fiil olarak *zâtdır* denilmekte olup bu da Özbekçenin ifade gücünü ve çevirenin maharetini ortaya koymaktadır: Örnek olarak Nasr Sûresi'nin 3. Âyetinde şöyle buyrulur:

Darhol Rabbingizga hamd bilan tasbeh ayting va Undan mag'fırat so'rang. Zero, U tavbalarni qabul etuvchi zotdir.

Sonuç

Şeyh Abdulaziz Mansûr tarafından hazırlanan Özbekçe Kur'ân çevirisi, her açıdan başarılı bir çalışmadır. Şeyh Abdulaziz, Arapçayı çok iyi bilen, Özbekçe'nin inceliklerine vakıf olup bu güzel eseri lâyıkıyla vücuda getirmiştir. Âyetler, diğer dillere yapılan Kur'ân çevirilerinden geride kalmamakta, kelimenin ifade ettiği anlam en iyi şekilde verilmektedir. Okuyucuyu ikna etmek için satır aralarında parantez içinde ilaveler yapmak suretiyle çeviriyi mükemmel kılmış; sayfa sonlarında da tefsir/yorum yapmıştır. Çeviride bazı kelimelere karşılık olarak Özbekçe yerine Arapça-Farsça kelimeler tercih etmesi, Üstad'ın kendi takdiridir. Bununla, anlamı güçlendirmek ve esere edebî bir hususiyet kazandırmak hedeflenmiş olabilir.

Referanslar

1. Abdulaziz Mansûr, *Kur'ân-ı Kerîm manalarının Tercime ve Tefsiri*. – Taşkent, 2024.
2. Abdulbâkî, Muhammed Fuâd, *el-Mu'cemu'l-Mufehres*, 2. Baskı. – Kahire 1998.
3. İbn Manzûr, *Lisânu'l-'Arab*. – Beyrut 1416/1996, C. I.
4. el-İsfehânî, R., *el-Mufredât*. – Beyrut, 1992.
5. Mertoğlu, M. Suat, "Ümmî", *TDV İslâm Ansiklopedisi*. – İstanbul, 2012. C. XL.
6. Üşenmez, E., Boltabayev, S. – Tuğlacı, G., *Özbekçe-Türkçe Sözlük*. –İstanbul, 2016.
7. Yusupova, N., *Türkçe-Özbekçe Sözlük*, TDK Yayınları: 1255. – Ankara 2023.

NURBOY JABBOROV – QO‘QON ADABIY MUHITI BILIMDONI

Qobilova Zeboxon Bakirovna,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor,
Qo‘qon universteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori

Ahmadaliyev Lochinbek Muhammadyusuf o‘g‘li,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
University of Business and Science
oliy ta’lim muassasasi til va adabiyot ta’limi
kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya

Mazkur maqolada filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovning Qo‘qon adabiy muhiti, xususan, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat hayoti, ijodi, manbalari, poetik qarashlari va tarixiy-ma’naviy merosini o‘rganishdagi xizmatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Olimning furqatshunoslik sohasiga qo‘shgan nazariy va amaliy yangiliklari, matnshunoslik borasidagi izlanishlari, shuningdek, Furqat ijodida Navoiy an’analarining talqini, adabiy ta’sir va izdoshlik tamoyillari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Furqat, musofirlik, vatanjudolik, ma’rifatparvarlik, Yorkent davri, poetika, xorijiy tadqiqotlar.*

Abstract

This article analyzes the scientific merits of Doctor of Philology, Professor Nurboy Jabbarov in studying the Kokand literary environment, in particular, the life, work, sources, poetic views and historical and spiritual heritage of Zakirjon Kholmuhammad oglu Furqat. The theoretical and practical innovations of the scientist in the field of Furqat studies, his research in textual studies, as well as the interpretation of Navoi’s traditions in Furqat’s work, literary influence and principles of succession are highlighted.

Key words: *Furqat, foreignism, patriotism, enlightenment, Yorkent period, poetics, foreign studies.*

Qo‘qon adabiy muhiti turli san’at namoyandalari, ma’rifatparvarlar va ijodkorlar faoliyati bilan o‘zbek madaniy taraqqiyotida muhim maktablardan biridir. Ushbu muhit vakillari orasida o‘zining teran fikri, ma’rifatparvarlik ruhi, ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari bilan ajralib turgan shoir Zokirjon Furqat alohida o‘rin tutadi.

Shoirning adabiy merosi nafaqat badiiy-estetik jihatdan, balki ijtimoiy-ma’rifiy mazmuni bilan ham alohida ahamiyatga ega. Furqat ijodining muhim xususiyatlaridan biri – umrining katta qismini xorijda, musofirlikda o‘tkazganidadir. Bu holat shoir dunyoqarashi, mavzu tanlovi, poetik ifoda va obrazlar tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Furqat hayoti va ijodi haqida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, ularning ichida Nurboy Jabborovning izlanishlari keng qamrovi, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan chuqur tahlil etilgani, xususan, shoir ijodiy laboratoriyasining matniy-qiyosiy aspektda tekshirilishi yuzasidan keng ilmiy jamoatchilikka muhim ilmiy xulosalar bera olganligi bilan ajralib turadi. Olimning bu boradagi ishlari ilmiylik darajasi yuqoriligi jihatidan ham furqatshunoslikni yangi bosqichga ko‘tara oldi.

Nurboy Jabborov ilmiy maydonga aynan Furqat ijodi tadqiqotchisi sifatida kirib kelgan Uning 1994-yilda himoya qilingan “Furqat asarlarining qo‘lyozma manbalari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, 2004-yilda himoya qilingan “Furqatning xorijdagi hayoti va ijodiy merosi: manbalari, matniy tadqiqi, poetikasi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi Furqat merosining ilmiy asosda tahlil etilishida muhim o‘rin egallaydi.

Olimning Furqatga doir izlanishlarida qo‘lyozma manbalarni aniqlash, ularni joriy nashr

nusxalari bilan qiyosiy-tipologik tadqiq etish, matnlarining asl holatini tiklash, shoirning hayoti va ijodiy faoliyatini aniq sanalar bilan belgilash kabi masalalar birinchi o‘ringa qo‘yilgan.

Adabiyotshunoslikda Furqatning Turkistondan chiqib ketish sababi haqida ko‘plab munozaralar bo‘lgan. Nurboy Jabborov bu borada ilgari bildirilgan G‘afur G‘ulomning shoir “qochishga majbur bo‘lgani” haqidagi fikrlari, X.Rasulov va Sh.Yusupovning shoirning siyosiy oppozitsiyada bo‘lgani haqidagi mulohazalari ustidan qayta ilmiy tahlil olib boradi va masalaga yangicha yondashadi. Olimning xulosasiga ko‘ra, Furqatning vatanini tark etishiga ikki asosiy omil sabab bo‘lgan:

1. Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatini qoralagan asarlar yaratgani;
2. Ma’rifatparvarlik faoliyatining mustamlaka ma’muriyatiga zid bo‘lgani.

Ushbu xulosalar shoirning yangi topilgan dastxat asarlari va qo‘shimcha arxiv manbalari asosida asoslab berilgan.

Olimning qarashlaridan kelib chiqqan holda Furqatning vatanidan uzoqlashib ketishiga olib kelgan omillarni shartli ravishda **ijtimoiy-siyosiy omillar** va **ma’naviy-ijodiy omillar**ga ajratish mumkin. Ijtimoiy-siyosiy omillar XIX asr oxiri Turkistonidagi murakkab tarixiy vaziyat bilan bog‘liq. Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosati natijasida milliy ziyolilar faoliyati cheklanib, erkin fikr va tanqidiy qarashlar xavfli deb baholangan. Furqat she’riyatida jaholat, adolatsizlik va orqada qolganlik ochiq tanqid qilinadi. Bu esa shoirning mavjud tuzum bilan murosaga kela olmasligini ko‘rsatadi. Ikkinchi omil – ma’naviy-ijodiy ehtiyoj bilan bog‘liq bo‘lib, Furqatning ilm-fan, taraqqiyot va yangi madaniyatlarni o‘rganishga bo‘lgan intilishida namoyon bo‘ladi. Shoir safar va musofirlikni dunyoqarashni kengaytirish, millat taqdiri haqida chuqurroq fikr yuritish vositasi sifatida qabul qilgan.

Furqatning yurtga qayta olmasligi masalasi esa siyosiy sabablar bilan izohlanadi. Mustamlaka sharoitida shoirning erkin fikrli ijodkor sifatida qaytishi xavfli bo‘lishi mumkin edi. Bundan tashqari, Furqat xorijda, xususan, Yorkentda muayyan ijtimoiy muhitga moslashib, barqaror hayot tarzini shakllantirgan. Yorkent davri Furqat hayotining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Bu yerda u shoirlik bilan bir qatorda, jurnalist, tarjimon va ma’rifatparvar sifatida faoliyat yuritadi. Matbuot orqali xalqni ilmga, taraqqiyotga chorlaydi. Yorkent muhitida Furqat ijodi yanada pishib, mazmunan chuqurlashadi. Uning asarlari milliy ongni uyg‘otishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Shoirning asarlarida uchraydigan chuqur sog‘inch va Vatan dardi motivlari uning yurtga qaytmaslikni ongli ravishda tanlamaganini, balki tarixiy sharoit bunga yo‘l qo‘ymaganini tasdiqlaydi. Furqatning xorijdagi hayoti va ijodi o‘zbek adabiyoti tarixida alohida ahamiyatga ega. Musofirlik sharoitida yaratilgan asarlar shoir tafakkurining yuksakligi, vatanparvarlik tuyg‘ularining chuqurligi va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining yetukligini namoyon etadi.

Olimning furqatshunoslikdagi muhim ilmiy yangiliklaridan yana biri “Furqat” taxallusining ma’nosi haqidagi yangi ilmiy yondashuvlarni ilmiy maydonga olib chiqqanligidadir.

Adabiyotshunos olim Furqat taxallusining “ayriliq”, “hijron” ma’nolari bilan izohlab kelinishini qayd etar ekan, tasavvufga xos mazmunni ilgari suradi. Uga ko‘ra: “Furqat” taxallusi nafaqat vatandan ayriliq, balki Haq taolo visolidan ayriliq, ya’ni tasavvufiy ma’nodagi “ruhiy firoq”ni anglatadi. Bu fikr shoirning “Ahvolot”, “Adashganman” kabi she’riy matnlaridagi tasavvufiy ruh asosida asoslanadi.

Badiiy ta’sir va izdoshlik masalalarini ham izchilik bilan tadqiq etgan olim Navoiy an’analarining Furqat lirikasida yangilanishi yuzasdian ham muhim ilmiy-nazariy qarashlarni olg‘a surgan. Nurboy Jabborovning ilmiy izlanishlari orasida Furqatning Navoiy poetikasini rivojlantirgan ijodkor sifatidagi tahlillari alohida o‘rin tutadi. Olim bu jarayonni to‘rt yo‘nalish asosida izchil tadqiq etadi

1. Poetik mazmun yangilanishi
2. Poetik obraz takomili
3. Poetik janr yangilanishi
4. Vaznda tatabbu’ qilish.

Furqat poetikasida sog‘inch, hijron, umid va ma’rifat obrazlari yetakchi o‘rin tutadi. Shoir klassik she’riyat an’analariga tayangan holda, zamonaviy ruhni ifodalay olgan. Uning tili sodda, xalqona bo‘lib, badiiy obrazlar orqali chuqur falsafiy mazmun beriladi.

Olimning ta’kidlashicha, Zokirjon Furqat Alisher Navoiy yaratgan ramzlar, timsollar, tasvir vositalarini zamon ruhi bilan uyg‘unlashtirgan, umuminsoniy mazmundagi munojotlarni millat dardi, xalq tashvishlari bilan boyitgan, mustamlaka sharoitida Yaratganga murojaat ohangini yangi ruhda yaratgan. Bu yondashuv Furqatni Navoiy an’analarining ijodiy davomchisi sifatida ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Nurboy Jabborovning sohaga doir uzoq yillik tadqiqotlaridan Furqatning rus va Yevropa madaniyati haqidagi qarashlarini talqin qilish masalasi ham chetda qolmagan. Sovet davrida Furqatning rus madaniyati haqidagi manzumalari bir tomonlama talqin qilingan, hatto shoir “chor Rossiyasi madhiyachisi” sifatida baholangan ayrim holatlar ham bo‘lgan. N.Jabborov bu fikrlarni rad etib, manbalar asosida quyidagilarni isbotlaydi:

1) Furqat maqtagan narsa – mustamlaka tuzumi emas, ilm-ma’rifat, texnik taraqqiyot, maktab-maorif tizimi;

2) shoirning maqsadi – millat ravnaqiga xizmat qiluvchi yangiliklarni targ‘ib etish;

3) “Rus askarlari ta’rifida” nomi bilan nashr qilingan asar aslida rus-yapon urushining haqiqiy manzarasini aks ettiruvchi tanqidiy ruhdagi she’r bo‘lgan.

Bu xulosalar o‘zbek matnshunosligida yangi ilmiy yondashuv sifatida baholanadi.

N.Jabborov o‘z tadqiqotlarida shoirning xorij mamlakatlariga uyushtirgan safarlarining ijobiy tomonlari, mazkur voqealarning uning ijodiga ta’siri masalasini ham atroflicha tahlil etgan. Jumladan, olimning ta’kidlashicha, Furqatning Usmonli turklar imperiyasi va Yunonistonga qilgan safari uning ijodida muhim burilish yasagan. Istanbul shahridagi ilmiy va madaniy muhit shoirni chuqur hayratga soladi. U bu yerda Sharq va G‘arb madaniyatining uyg‘unlashganini ko‘radi va Turkiston bilan qiyoslaydi. Mazkur safarlar davomida yozilgan she’rlarida Vatan sog‘inchi yetakchi motivga aylanadi. Furqat taraqqiy etgan jamiyatni ko‘rar ekan, o‘z yurtining ahvolidan iztirob chekadi va bu holat uning she’riyatida ijtimoiy lirikaning yanada kuchayishiga olib keladi. Arab mamlakatlari va Hindistondagi sayohatlar ham shoir dunyoqarashining yanada boyishiga xizmat qilib, Arab diyorlarida islom madaniyati va ilmiy meros bilan yaqindan tanishgan ijodkor, Hindistonda esa ko‘p millatli va rivojlangan ijtimoiy muhitni kuzatadi.

Yuqoridagi omillar natijasida shoir ijodida ilm-ma’rifatga da’vat, jaholatni qoralash, milliy uyg‘onish g‘oyalari kuchayadi. Furqat o‘z asarlarida musulmon jamiyatlarini taraqqiyot sari undashni asosiy vazifa sifatida ko‘radi.

Nurboy Jabborovning tadqiqotlari furqatshunoslik sohasining rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, ular orqali Furqatning xorij safari, sanalari, ijodiy faoliyati to‘liq qayta tiklandi; Shoirning diniy-ma’rifiy, tasavvufiy she’rlari ilk bor yaxlit holda tadqiq etildi; ko‘plab nashrlardagi nojoiz qisqartirishlar aniqlanib, to‘liq matnlar tiklandi; Qavoidi Chin va umuroti siyosiy” asari ilk bor mufassal tahlil qilindi; Furqatning AQSh, Turkiya, Xitoy, Vengriya arxivlarida saqlanayotgan asarlari ilmiy muomalaga kiritildi va b. Bu natijalar furqatshunoslik rivojida yangi bosqich boshlanganini ko‘rsatadi.

Nurboy Jabborov – Qo‘qon adabiy muhitini, xususan Furqat ijodini ilmiy asosda o‘rgangan, matnshunoslik, manbashunoslik va poetika yo‘nalishlarida yangicha nazariy qarashlar ilgari surgan yirik olimdir.

Uning tadqiqotlari natijasida Furqatning hayoti va ijodi xolis ilmiy yondashuv asosida qayta baholandi, shoirning asarlari matniy jihatdan to‘g‘rilandi, mustamlakachilik sharoitidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlari aniqlashtirildi, Alisher Navoiy an’analarining Furqat lirikasida yangilanishi ilmiy asosda yoritildi, Furqat merosi milliy adabiyot tarixida munosib o‘rin egalladi. Shu tariqa Nurboy

Jabborovning ilmiy merosi nafaqat furqatshunoslikda, balki butun o‘zbek adabiyotshunosligida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жабборов Н. Фурқатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поетикаси. Филология фанлари доктори илмий даражаси учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2004.
2. Ғулом Ғ. Унутилмас кишилар тўғрисида. // Қизил Ўзбекистон, 1948 йил 9 июн, №114 (7045).
3. Расул Х. Фурқат. Танқидий-биографик очерк. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1959, – 91 б.
4. Юсупов Ш. Фурқат ва ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг янги босқичи. Филология фанлари доктори илмий даражаси учун ёзилган диссертация, – Тошкент, 1990.
5. Жабборов Н. “Алишер Навоий назмий анъаналарининг Фурқат шеъриятида янгиланиши тамойиллари”. Қўқон адабий муҳити ва Учинчи Ренессанс азвусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Қўқон, 2022.
6. Қобилова З. Б. Бадиий ижодда таъсир ва издошдик масалалари (Амирий шеърияти мисолида). Филол. фан. докт. дисс. – Фарғона, 2021.
7. Qobilova, Z. B., & Abdullayeva, D. A. (2023). Qo‘qon adabiy muhiti ijodkorlarining o ‘zbek adabiy tili rivojidagi o ‘rni. world of philology, 2(3), 25-29.
8. Qobilova, Z., & Binnatova, A. (2023). Sharq mumtoz adabiyotshunosligida an’ana va o’ziga xoslik masalalarining nazariy asoslari. Interpretation and researches, 1(1).
9. Qobilova, Z., & Ahmadaliyev, L. (2025). “O‘zbek adabiyoti namuna daftar” tazkirasida alisher navoiy faoliyatining yoritilishi. hamkor konferensiyalar, 1(11), 183–189.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ КЛАССИЧЕСКОЙ ТЮРКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Бехзод Абдуллаев,
студент направления Финансы и финансовые технологии Ташкентского государственного экономического университета
e-mail: bexzodabdullayev777@gmail.com

Фируза Байбобоева,
доктор экономических наук (DSc), доцент кафедры общеэкономических наук Ташкентского государственного экономического университета

Annotatsiya

Mazkur maqolada klassik turkiy adabiy an'ananing iqtisodiy ong va jamiyat taraqqiyoti modellarining shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri tadqiq etiladi. Fanlararo yondashuv asosida o'rta asr turkiy mualliflar asarlarida aks etgan ijtimoiy-iqtisodiy g'oyalar hamda ularning zamonaviy gumanitar va iqtisodiy tadqiqotlardagi talqini tahlil qilinadi. Klassik turkiy adabiyot mehnat, adolat va davlat boshqaruvi mas'uliyati me'yorlarini uzatuvchi institutsional mexanizm sifatida faoliyat ko'rsatgani, natijada iqtisodiy tizimlarning uzoq muddatli barqarorligiga xizmat qilgani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *iqtisodiy taraqqiyot, turkiy adabiyot, iqtisodiy madaniyat, mehnat etikasi, ijtimoiy institutlar, barqaror rivojlanish.*

Abstract

This article examines the influence of the classical Turkic literary tradition on the formation of economic consciousness and models of societal development. Using an interdisciplinary approach, it analyzes the socio-economic ideas reflected in the works of medieval Turkic authors and their interpretation in contemporary humanities and economic studies. It is argued that classical Turkic literature functioned as an institutional mechanism for transmitting norms of labor, justice, and governmental responsibility, contributing to the long-term stability of economic systems.

Keywords: *economic development, Turkic literature, economic culture, work ethics, social institutions, sustainable development.*

Экономическое развитие общества традиционно связывается с материальными факторами производства, однако в последние десятилетия всё более очевидным становится влияние культурных и ценностных оснований на экономические процессы. Исторический опыт показывает, что устойчивость хозяйственных систем во многом зависит от нравственных ориентиров и социальных норм, закреплённых в коллективном сознании. В этом контексте классическая тюркская литература представляет собой важный источник формирования экономической культуры, поскольку именно через литературные тексты транслировались модели социально одобряемого экономического поведения.

Современные узбекские исследования подчёркивают, что экономическое сознание народа формируется на протяжении длительного исторического периода и отражает синтез материальных условий и духовных ценностей [Каримов, 2019: 51]. Классическая тюркская литература, вобравшая в себя философские и этические представления эпохи, выполняла функцию своеобразного социального института, направляющего хозяйственную деятельность в русло общественного блага.

Экономическое развитие общества на протяжении длительного времени рассматривалось преимущественно через призму материальных ресурсов и производственных факторов,

однако в последние десятилетия всё более отчётливо проявляется значимость культурных и ценностных компонентов экономических процессов. Историческая практика свидетельствует о том, что стабильность хозяйственных систем во многом определяется системой нравственных установок и социальных норм, укоренённых в общественном сознании. В данном контексте классическая тюркская литература выступает существенным источником формирования экономической культуры, поскольку именно посредством литературного наследия закреплялись и передавались образцы социально приемлемого экономического поведения.

Также современные исследования узбекских учёных подчёркивают, что экономическое мировоззрение народа складывается постепенно, в ходе длительного исторического развития, отражая взаимодействие материальных условий жизни и духовных ценностей. В этом смысле классическая тюркская литература, аккумулировавшая философские и этические представления своего времени, выполняла роль своеобразного регулятора общественных отношений, направляя хозяйственную деятельность в русло общественного интереса и коллективного блага.

Литературные памятники тюркской традиции не ограничивались фиксацией социальных реалий, а активно формировали представления о допустимых и желательных формах экономического поведения. Через нравоучительные сюжеты и символические образы утверждались ценности трудолюбия, умеренности, ответственности и осуждения праздности, что способствовало закреплению устойчивых моделей хозяйственной деятельности. Тем самым литература оказывала влияние не только на индивидуальные установки, но и на структуру социально-экономических взаимодействий в целом.

Особое место в данном процессе отводилось осмыслению роли власти в обеспечении экономического порядка. В классической тюркской литературе правитель предстаетка как носитель не только политической, но и нравственной ответственности за экономическое благополучие общества. Идея справедливого управления связывалась с поддержанием социальной гармонии и предотвращением хозяйственного упадка, что формировало в общественном сознании устойчивую связь между качеством управления и уровнем экономического развития.

Значимым компонентом экономической культуры, отражённым в тюркском литературном наследии, является коллективное понимание хозяйственной деятельности. Экономические отношения рассматривались сквозь призму общинных связей, где индивидуальные интересы соотносились с интересами общества в целом. Такая установка способствовала укреплению доверия между участниками хозяйственной жизни и снижению уровня социальных противоречий, создавая предпосылки для долгосрочной устойчивости экономической системы.

Классическая тюркская литература может рассматриваться как активный фактор формирования экономического сознания общества. Закрепляя нравственные и социальные ориентиры, она создавала культурную основу для воспроизводства экономических практик, ориентированных на общественную стабильность, социальную справедливость и устойчивое развитие в исторической перспективе.

Особое значение в тюркской литературной традиции придавалось вопросам управления и ответственности власти. В произведениях, посвящённых государственному устройству, экономическая стабильность рассматривалась как результат справедливого администрирования и разумного распределения ресурсов. Современные интерпретации этих текстов указывают на наличие в них элементов институционального мышления, близкого к современным теориям экономического развития [Абдуллаев, 2017: 93]. Экономическая эффективность при этом не отделялась от моральной легитимности власти.

Неотъемлемым элементом экономического мировоззрения, отражённого в классической

тюркской литературе, является высокая оценка труда. Трудовая деятельность понималась не только как средство удовлетворения материальных потребностей, но и как форма служения обществу. Подобное отношение к труду способствовало формированию устойчивых хозяйственных практик и укреплению социальной дисциплины. Как отмечается в современных исследованиях, именно трудовая этика выступает важным фактором долгосрочного экономического роста [Нишонов, 2020: 64].

Классическая тюркская литература подчёркивала взаимосвязь труда с моральными и духовными ценностями. Добросовестный труд рассматривался как проявление личной ответственности, честности и социальной зрелости, а праздность и леность осуждались как источник общественных и экономических проблем. Такая концепция формировала у людей понимание того, что благополучие общества напрямую зависит от усилий каждого его члена.

Современные исследования подтверждают, что эти идеи оказывают долгосрочное влияние на формирование экономической культуры: они способствуют развитию профессиональной этики, повышают дисциплину в трудовой сфере и укрепляют доверие между участниками экономических процессов. В условиях современного общества, где важны эффективность, инновации и социальная кооперация, ценности, закреплённые в классической тюркской литературе, могут служить ориентиром для устойчивого экономического развития и гармоничного взаимодействия между индивидом и обществом.

Важное место в тюркском литературном наследии занимает проблема социальной справедливости. Осуждение чрезмерного имущественного неравенства и злоупотреблений властью отражает стремление к социальному балансу как условию общественной стабильности. В произведениях Алишера Навои социальная справедливость рассматривается как основа гармоничного развития общества, где экономические ресурсы должны служить общему благу. Узбекские исследователи подчёркивают, что данные идеи оказали значительное влияние на формирование общественных представлений о допустимых формах богатства и власти [Холмуродов, 2018: 141].

С точки зрения современной экономической науки подобные взгляды можно интерпретировать как предвосхищение концепции инклюзивного развития, в рамках которой экономический рост сочетается с социальной ответственностью. Российские экономисты отмечают, что культурные установки, ориентированные на справедливость и солидарность, снижают социальные издержки и повышают устойчивость экономических систем [Глазьев, 2021: 82].

В условиях глобализации и ускоренных социальных изменений значение культурного наследия как ресурса развития существенно возрастает. Международные исследования подчёркивают, что культурная идентичность способствует укреплению социальной сплочённости и формированию долгосрочных экономических стратегий [UNESCO, 2022: 44]. В этом аспекте классическая тюркская литература может рассматриваться как источник нематериального капитала, формирующего ценности ответственности, умеренности и общественного служения.

Кроме закрепления нравственных ориентиров, классическая тюркская литература способствует формированию навыков стратегического мышления и критической оценки экономических и социальных процессов. Через изучение исторических примеров, нравственных дилемм и описанных в текстах хозяйственных ситуаций современное общество получает возможность анализировать последствия управленческих решений, прогнозировать риски и вырабатывать более взвешенные подходы к распределению ресурсов.

Литература закрепляет ценности коллективизма и сотрудничества, что особенно важно в условиях глобальной экономики и интеграции рынков. Баланс между индивидуальными интересами и общественным благом становится ключевым фактором устойчивого развития,

а культурное наследие помогает формировать этические стандарты, регулирующие экономическое поведение и укрепляющие социальное доверие.

Классическая тюркская литература не только отражает исторический опыт, но и служит инструментом для интеграции нематериальных ценностей в современную экономическую практику, создавая основу для долгосрочного роста, социальной гармонии и стабильности.

Классическая тюркская литература занимает особое место в системе факторов экономического развития общества. Закреплённые в ней нравственные и социальные установки выполняли функцию неформальных институтов, направляющих экономическое поведение и обеспечивающих устойчивость хозяйственных процессов. Современное переосмысление этого наследия открывает возможности для интеграции культурных факторов в стратегии социально-экономического развития, ориентированные на долгосрочную стабильность и общественную гармонию.

Помимо закрепления нравственных ориентиров, классическая тюркская литература оказывает существенное влияние на развитие критического мышления и способности к стратегическому анализу. Изучение исторических примеров, моральных выборов и экономических ситуаций, представленных в текстах, позволяет современному обществу оценивать последствия управленческих и хозяйственных решений, прогнозировать риски и вырабатывать более сбалансированные подходы к распределению ресурсов. Такой культурный опыт повышает качество управления и укрепляет институциональную устойчивость.

Кроме того, литературное наследие формирует ценности сотрудничества и коллективной ответственности, которые остаются актуальными и в современных экономических условиях. В условиях глобализации и рыночной интеграции способность общества находить баланс между индивидуальными интересами и общественным благом становится ключевым фактором стабильного развития. Классическая тюркская литература создаёт историко-культурную основу для формирования этических норм, регулирующих экономическое поведение, что особенно важно при разработке социальных инициатив, инвестиционных стратегий и инновационных проектов.

Изучение и использование идей, закреплённых в классических текстах, позволяет современным экономическим и социальным системам опираться не только на материальные ресурсы, но и на нематериальные ценности как двигатель долгосрочного прогресса. Литературное наследие выступает инструментом, объединяющим культурные традиции и современные экономические практики, создавая условия для устойчивого роста, социальной гармонии и комплексного развития общества.

Использованной литературы

1. Абдуллаев А.А. Тюркская письменная традиция и социальная мысль. –Ташкент: Akademnashr, 2017. – 214 с.
2. Каримов Ш.Р. Маданий мерос ва жамият тараққиёти. – Ташкент: Ma'naviyat, 2019. – 180 с.
3. Нишонов А.Н. Иқтисодий маданият ва меҳнат этикаси. – Ташкент: Иқтисодиёт, 2020. – 156 с.
4. Холмуродов Б.Б. Алишер Навоий ва ижтимоий адолат масалалари. – Ташкент: Fan, 2018. – 192 с.
5. Маслов Б.Г. Экономическая культура традиционных обществ. – Москва: ИНФРА-М, 2015. – 240 с.
6. Глазьев С.Ю. Рывок в будущее. Экономика и стратегия развития России. – Москва: Книжный мир, 2021. – 304 с.
7. UNESCO. Culture for Sustainable Development. – Paris: UNESCO Publishing, 2022. – 112 p.

QUR'ON VA HADISLARDA "NAFS" TUSHUNCHASI: TABIATI, DARAJALARI VA TARBIYA YO'LLARI

Maxsumov Maqsud Maxmut o'g'li,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti doktoranti
e-mail: maqsudmaxsumov7@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola "nafs"ning asosiy darajalari – nafsul ammora (yomonlikka buyuruvchi nafs), nafsul lavvoma (o'zini ayblovchi nafs) va nafsul mutmainna (xotirjam nafs) – ni tematik guruhlar bo'yicha tahlil qiladi. Shuningdek, nafsni tarbiyalash va poklash yo'llari – taqvo, ibodat va zikr, yaxshi amallar, Rasulullоh (s.a.v.)ga ergashish – Qur'on oyatlari va sahih hadislar misolida batafsil yoritiladi.

Kalit so'zlar: *nafs, Qur'on, hadis, nafs tarbiyasi, jihodun nafs, ma'naviy poklanish, havoyi nafs.*

Abstract

This article analyzes the main levels of "nafs" – nafs al-ammara (the soul that incites to evil), nafs al-lawwama (the self-reproaching soul), and nafs al-mutmainna (the tranquil soul) – according to thematic groups. It also provides a detailed examination of the ways to discipline and purify the nafs – such as taqwa (God-consciousness), worship and dhikr (remembrance of Allah), good deeds, and following the Prophet Muhammad (peace and blessings be upon him) – with examples from Qur'anic verses and authentic hadiths.

Keywords: *nafs, Qur'an, hadith, nafs discipline, jihad al-nafs, spiritual purification, capricious nafs.*

Kirish

Qur'onda "nafs" eng ko'p murojaat qilingan mavzulardandir. Jumladan, bu mavzu "Baqara" (45, 87, 120, 145), "Niso" (128, 135), "Moida" (30, 70, 77, 80), "An'om" (56, 150), "A'rof" (176), "Yusuf" (18, 23, 26, 30, 32, 51, 53, 83), "Ro'd" (37), "Kahf" (28), "Toha" (16, 96), "Anbiyo" (102), "Mu'minun" (71), "Furqon" (43), "Qasos" (50), "Rum" (29), "Ahzob" (50), "Sod" (26), "Fussilat" (53), "Shuuro" "15", "Josiya" (18, 23), "Muhammad" (14, 16), "Qof" (16), "Najm" (23), "Qamar" (3), "Hashr" (9), "Tag'obun" (16), "Taloq" (7), "Qiyaama" (2, 14), "Nazi'at" (40), "Takvir" (7), "Fajr" (27), "Shams" (7, 9 10) kabi suralarda jami 298 marta uchraydi. Shuningdek, bu oyatlarda insonning murakkab ichki dunyosi – nafsning manzaralari ochiq-oydin tasvirlagan.

Biz tadqiqotimiz asnosida Qur'onda "nafs"ning asosiy turlarini o'rgandik va Oyatlarni tematik guruhlarga bo'lib, quyidagicha talqin qildik:

Haqqa qarshi chiquvchi havoyi nafs (nafsul ammora). Bu guruhdagi oyatlar soni taxminan 25 ta: Baqara 87, 120, 145; Moida 70, 77; An'om 56, 150; Ra'd 37; Toha 16; Mu'minun 71 va boshqalar. Bu oyatlarda "havoi nafs" ilm va hidoyatga qarshi qo'yiladi.

Nafsning yomon amallari (nafsul ammora). Bu guruhga quyidagi oyatlar mansub: Moida 30, 80; A'rof 176; Yusuf 18, 23, 26, 30, 32, 51, 53, 83; Toha 96 va boshqalar. Bu oyatlar ham ammora nafsning salbiy natijalarini ko'rsatadi.

Nafs tarbiyasi va sabr (nafsul lavvoma). Baqara 45; Niso 128, 135; Kahf 28; Furqon 43; Sod 26; Taloq 7 va boshqalar bu guruhga mansub bo'lib, ular nafsning oliy turlarini ta'kidlaydi.

Oliy nafs holatlari (nafsul mutmainna). Bu guruhga quyidagi oyatlar mansub: Anbiyo 102; Qiyama 2, 14; Fajr 27; Shams 7, 9, 10; Nazi'ot 40; Takvir 7 va boshqalar. Bu oyatlarda mutmainna nafs tasvirlangan.

Ilohiy kitoblar – Tavrot, Zabur, Injil va Qur'on – bu mavzu haqida cheksiz ma'lumotlar manbaidir. Ularda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, nafsning uch darajasi – nafsul ammora (yomonlikka buyuruvchi nafs), nafsul lavvoma (o'zini ayblovchi nafs) va nafsul mutmainna (xotirjam nafs) – haqida batafsil bayon etilgan. Bu kitoblar insonga nafsni tarbiyalashning yo'l-yo'riqlarini beradi:

ibodat, zuhd, ilm va axloq orqali uni yuqori darajaga koʻtarish mumkinligini anglatadi. Zero, zamonaviy dunyoda, moddiylik va raqobat hukmronlik qilayotgan sharoitda, nafs tarbiyasi har qachongidan ham dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ayni mavzu, avvalo, Qur'oni karim va hadisi shariflarda mukammal suratda yoritib berilgan. Shuningdek, mavzu jahon faylasuflari, adabiyotshunos va ruhshunoslari ishlarida ham atroflicha oʻrganilgan. Xususan, Najmiddin Komilovning 2009-yilda "Oʻzbekiston" nashriyotida nashr etilgan "Tasavvuf" [Komilov, 2009], Muslihiddin Muhiddinovning 2005 yilda "Ma'naviyat" nashriyotida nashr etilgan "Komil inson adabiyot ideali" [Muhiddinov, 2005], Ibrohim Haqqulovning 2007 yilda "Fan" nashriyotida bosilib chiqqan "Navoiyga qaytish" [Haqqul I., 2007] asarlarida bu mavzuga murojaat bor. Qolaversa, Shahrisabz davlat pedagogika instituti adabiyotshunos olimi A.Muhammadiyev, Buxoro davlat pedagogika instituti olimasi Ibotova Madina [Ibotova, 2024], BuxDU olimasi Rajabova Marifat kabi koʻplab olimlarimizning tadqiqotlarida mazkur mavzu oʻrganilgan. Qur'oni Karim va Sunnatda nafsning uch xil sifati – mutmainna (xotirjam), lavvoma (malomatchi) va ammora (yomonlikka buyuruvchi) – sifatlari tasvirlanadi, bu esa uning tarbiyaga muhtojligini koʻrsatadi. Abdurazzoq bin Abdulmuhsin al-Badr oʻzining "Nafsni poklashning oʻnta qoidasi" nomli risolasida bu mavzuni islomiy manbalar asosida keng yoritib, musulmonlar uchun amaliy yoʻl-yoʻriq taqdim etgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ilmiy qiyoslash hamda germenevtik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Nafsni tarbiyalash yoʻllari. Qur'on va hadislarda nafsni poklash va tarbiyalash uchun bir qancha yoʻllar koʻrsatilgan:

1. **Taqvo va Allohdan qoʻrqish**: "Nazi'at" surasida: "Kimki Robbisining (huzurida) turishidan qoʻrqqan va nafsini havolanib ketishidan qaytargan boʻlsa..." (Nazi'at, 40), – deyiladi. Bunda taqvo – nafsni nazorat qilish uchun asosiy vositadir.

Hadislarda esa Rasululloh (s.a.v.) nafs tarbiyasi va taqvo yoʻlida amal qilishga da'vat etganlar. Qur'oni Karim va Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning sunnatlarida nafsning tabiati, uni tarbiyalash va poklash yoʻllari haqida koʻplab dalillar keltirilgan. Aksar hadislarda nafs inson hayotidagi asosiy "dushman" sifatida koʻrsatiladi, lekin u ham bir vaqtda poklanish va taqvo yoʻlida hamkor boʻlishi mumkin. Masalan, Abu Zarr (r.a.) rivoyatida amaliy maslahatlar beriladi: "Qayerda boʻlsang ham, Allohga taqvo qil. Yomon amaldan keyin yaxshilik qil – u yomonlikni yoʻq qilar. Odamlarga goʻzal axloq bilan muomala qil" (Dorimiy, 2998-hadis). Nafsning yomon tomonlarini yaxshi amallar bilan moslash – uning tarbiyasining asosiy usuli.

Abu Hurayra (r.a.) rivoyatida Payg'ambar (s.a.v.) shunday deydilar:

عن ابي هريرة رضي الله عنه : أن رسول الله صلى الله عليه وسلم قال: "ليس الشديد بالصرعة انما الشديد ألذي يملك نفسه عند الغضب

Tarjimasi: Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Rosululloh sallolohu alayhi vasallam "Kurashda yenggan kuchli boʻlavermaydi. Gʻazab paytida oʻzini qoʻlga ola bilgangina haqiqiy kuchlidir, dedilar" (Tarjima oʻzimizniki – M.M)[36] [Buxoriy, 2018:1461].

Bu hadisda gʻazab vaqtidagi nafs holati tasvirlangan. Gʻazab – nafsning eng kuchli namoyon boʻlish shakli hisoblanadi. Uni nazorat qila olish esa haqiqiy quvvatning belgisidir. Inson nafsini bu vaqtda boshqara olmasa, u oʻz ichki dunyosini mahv etadi va jamiyatdagi munosabatlariga darz ketadi.

Fuzola ibn Ubayd (r.a.) rivoyat qilgan keyingi hadisda esa nafsga qarshi jihod qilish juda ham muhim ekani ta'kidlanadi:

36 Bu va bundan keyingi hadislar tarjimalari muallifniki – M.M.

عن فضالة بن عبيد يقول : سمعت رسول الله صلى الله عليه وسلم يقول المجاهد من جاهد نفسه في سبيل الله

Tarjimasi: Fuzola ibn Ubayd roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallamning “(Haqiqiy) mujohid Alloh yo‘lida o‘z nafsiga qarshi jihod qilgan kishidir”, – deganlarini eshitdim [Imom Ahmad, 2001:386].

Darhaqiqat, Allohga to’at qilishda o‘z nafsiga qarshi jihod qila olgan kishigina haqiqiy mujohid hisoblanadi. Jihodning eng katta turi – ichki jixoddir. Chunki ichki dushmanni o‘ziga esh qilish – nafsni tarbiyalash tashqi dushmanlar bilan kurashgandan ko‘ra qiyinroqdir. Bu hadis Lavvoma nafs sohibining o‘z nafsi bilan doimiy ravishda jang qilib borishi lozimligini ta’kidlaydi.

2. **Ibodat va zikr**: “Ra’d” surasida: “Ayo, Allohning zikri ila qalblar orom topmasmi?” (Ra’d, 28), – deb, zikrning nafsni tinchlantiruvchi ta’siri ta’kidlanadi. Demak, namoz, duo va Allohni eslash nafsni poklaydi.

Inson ibodat qilishda tanballikka yo‘l qo‘ymasligi lozim. Chunki ibodat va zikr kishi nafsini davolaydi. Imom Buxoriyning Bayrutda nashr qilingan “Sahihul Buxoriy” asarlarida Abu Hurayra (r.a.)dan bu mavzuga aloqador shunday hadis rivoyat qilingan:

عن ابي هريرة رضي الله عنه , ان رسول الله صلى الله عليه وسلم قال :يَعْقِدُ الشَّيْطَانُ عَلَى قَافِيَةِ رَأْسِ أَحَدِكُمْ إِذَا هو نَامَ ثَلَاثَ عُقَدٍ يَضْرِبُ كُلَّ عُقْدَةٍ عَلَيْكَ لَيْلٌ طَوِيلٌ، فَارْقُدْ فَإِنِ اسْتَيْقَظَ فَذَكَرَ اللَّهَ، انْحَلَّتْ عُقْدَةٌ، فإنْ تَوَضَّأَ انْحَلَّتْ عُقْدَةٌ، فإنْ صَلَّى انْحَلَّتْ عُقْدَةٌ، فأصْبَحَ نَشِيطًا طَيِّبَ النَّفْسِ وإلَّا أَصْبَحَ خَبِيثَ النَّفْسِ كَسْلَانَ

Tarjimasi: Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: “sizlardan biringiz uxlaganda shayton uning gardaniga uchta tugun tugadi. Har bir tugunni tugarkan “Sen uchun hali tun uzun, uxlayver”, deydi. Agar bu kishi uyg‘onib Allohni zikr qilsa, bir tugun yechiladi. Tahorat qilsa, yana bir tugun yechiladi. Namoz o‘qisa, yana bir tugun yechilib, tetik va ruhi pok bo‘ladi. Aks holda ruhi nopok, dangasa bo‘lgani holda tong ottiradi”, dedilar [Buxoriy, 2018:413].

Demak, Shaytonning uchta tugun tugishi – bu ramziy tasvirlardir. Shayton insonning uyqusida uning aqli, qalbi va jismini “bog‘lab qo‘yadi”, ya’ni vasvasa orqali uning tanballik va gunohga yo‘l qo‘yishni ta’minlaydi. Inson esa Shaytonga qarshi hadisda ko‘rsatilgan tartibda tadrijiy harakat qilishi lozim:

Birinchi qadam: Zikr (Allohni eslash): hadis matnida aytilganidek, “agar uyg‘onib, Allohni zikr qilsa, bir tugun yechiladi”. Zikr – eng oson va tez ta’sir etuvchi ibodatdir. Uyg‘ongan vaqtda “Subhonalloh”, “Alhamdulillh” yoki “La ilaha illalloh” deyish bilan Shaytonning birinchi vasvasasi (tanballik) sarobga aylanadi. Bu Qur’on oyati bilan bog‘liq: “Ayo, Allohning zikri ila qalblar orom topmasmi?”. Albatta, Allohning zikri bilan qalblar orom topadi”. Zikr qalbni poklaydi, ruhni uyg‘otadi va shaytonning vasvasalaridan saqlaydi.

Ikkinchi qadam: Tahorat (poklanish): “tahorat qilsa, yana bir tugun yechiladi.” Tahorat – jismni poklash, lekin u ruhiy poklikni ham ta’minlaydi. Muslim rivoyatidagi bir hadisga ko‘ra, tahorat bilan gunohlar to‘kiladi. Bu Shaytonning ikkinchi tugunini ham yechib, insonni namozga tayyorlaydi. Tahorat – zikrning davomi, chunki pokliksiz ibodat mukammal bo‘lmaydi.

Uchinchi qadam: Namoz (ibodat): “Namoz o‘qisa, yana bir tugun yechiladi.” Namoz – ibodatning ustuni, shaytonning kuchini butunlay yo‘qqa chiqaradi. Namozda inson Alloh bilan gaplashadi, gunohlardan tavba qiladi va tetiklikka erishadi. Bu – zikr va tahoratning natijasi: ularsiz namoz to‘liq bo‘lmaydi.

Xullas, Qur’on zikrning qalbni oromga solishini aytsa, hadis uni amaliyotda ko‘rsatib bermoqda. Zikr + tahorat + namoz = nafsning to‘liq poklanishi. Bu – shaytonga qarshi o‘ziga xos himoya qatlamidir. Zikr – qalb uchun, tahorat – jism uchun, namoz – ruh uchun. Demak, hadis namozning faqat shakl emas, balki ruhiy kurash ekanini ko‘rsatadi. Shayton har kuni hujum qiladi (uyqu vaqtida ham), lekin ibodat orqali inson shaytoniy nafs ustidan g‘olib bo‘ladi.

3. **Yaxshi amallar**: “Fotir” surasida namoz, zakot va infoq qilish kabi amallarning nafsni

poklashdagi ahamiyati aytiladi (Fotir, 29-30) [Muhammad Sodiq, 2023: 60].

Shaddod ibn Avs (r.a.) rivoyatida esa nafsning aql-hush bilan bog‘liqligi ochiqroq ko‘rinadi:

عن شداد ابن اوس عن النبي صلى الله عليه وسلم قال: الكيس من دان نفسه و عمل لما بعد الموت و العاجز من اتبع نفسه هواها و تمنى على الله

Tarjimasi: Shaddod ibn Avs roziyallohu anhu Nabiy sollallohu alayhi vasallamdan rivoyat qiladi. U zot aytdilar: “Aqlli kishi o‘z nafsini (doimo) hisob-kitob qilib, o‘limdan keyingi hayot uchun amal qiladigan kishidir. Ojiz esa havoyi nafsga ergashgan holda, Allohdan umid qiluvchidir” [Muhammad Sodiq, 2023: 402].

Bu yerda nafs ikki turga bo‘linadi: aqilli nafs – kishini oxiratga tayyorlaydi, ojiz nafs esa dunyoviy havaslarga qorishib qoladi. Nafsni hisob-kitob qilish – muhosabaning asosi, bu orqali inson o‘z ichki dunyosini tartibga soladi.

Vobisa ibn Ma’bad (r.a.) rivoyat qilgan quyidagi hadisida nafsning ichki maslahatchilik, to‘g‘ri yo‘lni tanuvchanlik xususiyatlari yaxshi ammallar sifatida ta’kidlanadi:

عن وابصة بن معبد رضي الله عنه أن النبي صلى الله عليه وسلم قال له : (جِئْتَ تَسْأَلُنِي عَنْ الْبِرِّ وَالْإِثْمِ فَقَالَ تعَمْ فَجَمَعَ أَنَامِلَهُ فَجَعَلَ يَنْكُتُ بِهِنَّ فِي صَدْرِي وَيَقُولُ يَا وَابِصَةُ اسْتَفْتِ قَلْبَكَ وَاسْتَفْتِ نَفْسَكَ ثَلَاثَ مَرَّاتٍ الْبِرُّ مَا اطْمَأَنَّتْ إِلَيْهِ النَّفْسُ وَالْإِثْمُ مَا حَاكَ فِي النَّفْسِ وَتَرَدَّدَ فِي الصَّدْرِ وَإِنْ أَفْتَاكَ النَّاسُ وَأَفْتَوْكَ

Tarjimasi: Nabiy sollallohu alayhi vasallam unga: “Sen mendan yaxshilik va yomonlik haqida so‘ramoqchi bo‘lib kelding, shundaymi?”, dedilar. U: “Ha”, – dedi. Shunda Payg‘ambar (s.a.v) barmoqlarini birlashtirib, uning ko‘ksiga uch marotaba tekkazdilar va uch marotaba: “Ey Vobisa, qalbingdan fatvo ol. Yaxshilik – qalbing taskin topadigan narsadir. Gunoh esa qalbingda g‘ashlik tug‘diradigan va ko‘ksingda ikkilanish paydo qiladigan ishdir. Garchi insonlar senga fatvo bersalar ham”, – dedilar [Dorimiy, 2013: 608].

Demak, yaxshilik – kishi qalbiga taskinlikni, gunoh esa notinchlik va g‘ashlikni paydo qiladi. Payg‘ambar (s.a.v.)ning bu ko‘rsatmalari ayrim ikkilanishlar vaqtida tarbiyalangan nafsdan maslahat olishning mumkinligini uqtiradi. Aslida “nafsul mutmainna” darajasidagi nafs gunoh ishlardan nafratlanadi, ezgu ishlardan mamnun bo‘ladi va o‘z sohibini doimo hidoyat yo‘liga chorlab turadi.

Qur’oni Karim va hadislar nafs tarbiyasining asosiy yo‘lini yaxshi amallarda ko‘rsatadi, ular bir-birini to‘ldirib, insonning ichki dunyosini oxiratga tayyorlaydi. “Fotir” surasidagi oyat namoz, zakot va infoqning nafsni poklashdagi rolini ta’kidlasa, hadislar uni amaliyotda ochib beradi. Bu mutanosiblik quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1. Alloh taolo yaxshi amallarni (ibodat va infoq) nafsning poklanishi va Robbisining roziligi uchun kalit sifatida ko‘rsatadi. Bu – nafsni dunyoviy havolardan tozalashning boshlang‘ich sababi, chunki ular qalbni taskin topishga va taqvo yo‘lini tutishga yo‘naltiradi.

2. Oyatdagi yaxshi amallar nafsni “oqil” darajagacha ko‘tarilishini ta’minlaydi. Aqlli nafs o‘zini muhosaba qilib, oxirat uchun amal qiladi – bu infoq va namoz orqali amalga oshadi. Ojiz nafs esa havoga ergashib, umidsiz qoladi, lekin yaxshi amallar bilan u ham tarbiyalangan nafsga aylanishi mumkin. Oyat va hadis bu yerda birlashib, nafsning ikki tomonini (pok va nopok) ko‘rsatadi.

3. Oyatdagi poklash nafsni “mutmainna” darajasiga yetkazsa, hadis uning ichki xususiyatini ochib beradi. Yaxshilik qalbni taskin toptiradi, gunoh esa notinchlik tug‘diradi. Boshqacha aytganda, oyat va hadisga ko‘ra, nafsni tarbiyalash – ichki taskinlik va taqvo bilan amal qilishdir.

Oyat va hadislar, guvoh bo‘lganimizdek, mazmunan mutanosib bo‘lib, nafs poklanishini yaxshi amallar (ibodat, muhosaba, qalb maslahati) orqali tasvirlaydi: oyat ularning umumiy ramzi, hadislar esa amaliy yo‘li. Bu birlik insonni havoyi nafsdan saqlab, oxirat uchun tayyor bo‘lishga chaqiradi. Nafsni tarbiyalash – doimiy jihod, lekin yaxshi amallar bilan u “hamkor”ga aylanadi.

Rasulullohga ergashish: “Ahzob” surasida: “Rasulullohda go‘zal o‘rnak bor” (Ahzob, 21), – deb, Payg‘ambarimizning hayoti nafs tarbiyasi uchun eng mukammal yo‘l ekani ko‘rsatilgan.

Abdullloh ibn Amr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadigan quyidagi hadisda Rosulullohning go‘zal axloqli ekanliklar ta’kidlanadi:

عن عبد الله ابن عمرو : ان رسول الله صلى الله عليه وسلم لم يكن فاحشا و لا متوحشا و قال ان من احبكم الي احسنكم اخلاقا

Tarjimasi: Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam fahsh so‘zlovchi ham, fahsh so‘zlashga urunuvchi ham emasdilar, u zot “men uchun eng suyukligingiz – axloqi eng go‘zaligizdir”, – derdilar [Buxoriy, 2018: 962].

Shuningdek, Payg‘ambar (s.a.v.) hadisi shariflarida odam nafsini poklash va tarbiyalashning amaliy usullari ham alohida ta’kidlangan. Quyidagi hadisda Payg‘ambar (s.a.v.)ning sajdada qilgan duolari haqida shunday deyiladi:

عن عائشة رضي الله عنها أنها فقدت النبي صلى الله عليه وسلم من مضجعه فلتمسته بيدها فوقعت عليه و هو ساجد وهو يقول " رب أعط نفسي تقواها زكها أنت خير من زكها أنت وليها و مولاها "

Oisha roziyallohu anho aytadilar: “Bir kecha Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ni to‘shaklaridan yo‘qotib qo‘ydim, qo‘lim bilan qidirdim va sajdada ekanliklarini topdim. U zot shunday duo qilardilar: “Ey Robbim, nafsimning taqvosini ber va uni pokla. Sen poklovchilarning eng yaxshisisan. Sen uning (nafsimning) Homiysi va Egasisan” [Imom Ahmad,2001: 492].

Bu duo nafs poklanishining kalidi o‘laroq, uning taqvo va duo orqali amalga oshishini ko‘rsatadi. Zero, Payg‘ambar (s.a.v.)ning tunlardagi ibodatlari nafsni tarbiyalashning eng yaxshi namunasidir.

Inson o‘z nafsi bilan doimiy kurashda bo‘lishi kerak. “Hashr” surasida: “Har kim ertangi kun uchun nima qilganiga nazar solsin” (Hashr, 18), – deb, o‘z-o‘zini muhosaba qilishga chaqiriladi. Nafsni tarbiyalash – bu oxiratga tayyorgarlik ko‘rishdir. Agar inson nafsini poklamasa, unda “Kahf” surasidagi ogohlikka duch keladi: “Qalbini O‘z zikrimizdan g‘ofil qilib qo‘yganlarga... itoat qilma” (Kahf, 28). Nafs talqinining eng yuqori nuqtasi esa “Fajr” surasidagi mujdadir: xotirjam nafs Allohning roziligiga erishib, jannatga kiradi.

Qur’on oyatlari va hadislar nafs tarbiyasining eng mukammal yo‘li – Rasulullоh (s.a.v.)ga ergashishda ekanligini ochiq ko‘rsatadi. Oyatda “Rasulullohda go‘zal o‘rnak bor” deb, U zotning hayoti nafs tarbiyasi uchun ideal namuna sifatida ko‘rsatiladi. Abdulloh ibn Amr tomonidan rivoyat qilingan hadis buni tasdiqlaydi: “Payg‘ambar (s.a.v.) fahsh so‘zlovchi ham, fahsh so‘zlashga urunuvchi ham emasdilar, u zot “men uchun eng suyukligingiz – axloqi eng go‘zaligizdir” deganlari nafsni axloq orqali poklashning amaliy yo‘lini ko‘rsatadi. Oyat va hadis birlashib, nafsni tarbiyalashni U zotning axloqiga taqlid qilishda ekanini ko‘rsatmoqda. Bu esa nafsga ammora qiliqlarini to‘xtatib, taqvoni egallashida yordam beradi.

Payg‘ambar (s.a.v.)ning sajdadagi duosi: “Rabbim, nafsimning taqvosini ber va uni pokla...”. Bu duo nafsni Allohga topshirish, uning himoyasini faqat Allohdangina so‘rash lozimligini o‘rgatadi. “Hashr” surasidagi “Har kim ertangi kun uchun nima qilganiga nazar solsin” oyati buni muhosaba bilan bog‘laydi. Duo va o‘z-o‘zini hisob-kitob qilish nafsni doimiy nazorat ostida saqlaydi. Shuningdek, “Kahf” surasidagi ogohlik – qalbni zikrdan g‘ofil qilganlarga itoat qilmaslik – nafsning nopok tomonlaridan saqlanishni talab qiladi, duo esa buning himoyasidir.

Oyatdagi xotirjam nafsning jannatga kirishi mujdasi esa, o‘z navbatida nafs tarbiyasining mahsuli (natijasi)ni ko‘rsatgan. Oyat va hadislar mazmunan mutanosib bo‘lib, nafs tarbiyasini Rasulullоh (s.a.v.)ning axloqi, duolari va sunnatlari orqali amalga oshishini ko‘rsatadi. Oyatlar g‘oyani, hadislar esa amaliyotni ta’minlaydi. Bu yo‘l nafsni poklab, oxiratga tayyorlaydi va insonni taqvo egalaridan qiladi.

Xulosa va takliflar

Nafs inson ruhiyatining eng murakkab qatlami bo‘lib, Alloh tomonidan ato etilgan muqaddas омонатdir. Unda yaxshilik va poklikka intilish bilan birga, yomonlik va hirs-havasga moyillik ham birgalikda mavjud bo‘lib, bu ikki qarama-qarshilik inson hayotidagi doimiy ichki kurashning asosiy sababchisi hisoblanadi. Qur’oni Karim va Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning sunnatlari nafsning uch asosiy bosqichini – yomonlikka undovchi (ammora), o‘zini qoralovchi (lavvoma) va tinch-rozi

(mutmainna) nafsni – aniq tasvirlab, uni poklash va yuksaltirish yo‘llarini ochib beradi. Masalan, Odam va Havvoning jannatdagi sinovi, Qobil bilan Hobilning fojiali voqeasi yoki Sulaymon (alayhissalom) davridagi fitnalar nafsning zaif tomonlarini va tarbiya qilinmasa keltiradigan halokatli oqibatlarini yaqqol ko‘rsatadi: nazoratsiz nafs insonni kufr, hasad va adolatsizlikka yetaklab, oxiratda umidsizlikka duchor qilishi mumkin.

Nafsni tarbiyalash oddiy shaxsiy intilish emas, balki Allohning rahmat va inoyatiga suyangan ma’naviy sayohatdir. Uni poklashning asosiy yo‘llari – Allohdan qo‘rqish (taqvo), ibodatlar (namoz, ro‘za, zakot), doimiy zikr va ezgu amallar (saxovat, adolat) orqali amalga oshadi. Bu yo‘llar nafsni pastlikdan yuksaklikka, shahvoniy havaslardan ruhiy erkinlik va osoyishtalikka olib chiqadi. “Shams” surasida aytilganidek, nafsni poklagan kishi muvaffaqiyat va najotga erishsa, uni iflos qoldirgan kishi esa ziyonga uchraydi. Shuningdek, “Nur” surasining 21-oyatida ta’kidlangan ilohiy fazl – agar Allohning marhamati bo‘lmaganda hech kim o‘z nafsini toza qila olmas edi – bu jarayonning faqat inson kuchiga emas, balki Robbнинг yordamiga bog‘liqligini eslatadi.

Hadisi shariflarda nafs ichki tartib-intizomning asosiy kaliti sifatida ko‘rsatiladi: u g‘azab, ochko‘zlik va beparvolik orqali dushmanga aylanishi mumkin, ammo taqvo, ichki jihod, duo va ibodat bilan sodiq yordamchiga aylanadi. Rasulullоh (s.a.v.)ning so‘zlari nafs tarbiyasining amaliy usullarini ochib beradi: qalbni doimiy muhosaba qilish, yaxshi ishlar bilan poklash va axloqni yuksaltirish. Ushbu mavzuni chuqur o‘rganish insonni o‘z ichki olamini tanishga, oxirat uchun tayyorgarlik ko‘rishga undaydi. Zero, nafsni pok tutish – haqiqiy imon va to‘laqonli islomiy hayotning poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dorimiy. Sunan-ul Dorimiy (Bay’ kitobi, 2- bob, 2729- hadis). – Bayrut-Livan: Dorul Bashoir al-Islomiyya, 2013. – B.5955.
2. Иброҳим Ҳаққул. Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.234 .
Иботова, М. (2024). Алишер Навойи ғазалиётида руҳ ва нафс талқини. B innovative research in science (Т. 3, Выпуск 1, сс. 33–39). Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.10495041
3. Имом Муҳаммад ибн Исмоил Бухорий. Саҳиҳул Бухорий. 1-жузъ. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008. – Б.33
4. Imom Buxoriy. Sahihul Buxoriy (Odob kitobi, G‘azabdan ogohlantirish bobi 6114-hadis). – Bayrut-Livan: Risolat An-nashirun, 2018. – B.1903.
5. Imom Ahmad. Musnadi Ahmad. (39-jild, 23965-hadis). – Bayrut-Livan: Muassasat ar-risala, 2001. – B.589.
6. Termiziy. Sunan at –Termiziy.(Qiyomat sifati kitobi , 59- bob , 2459-hadis). – Saudiya: Riyoz, 2010. – B.402.
7. Комилов Н. Тасаввуф. . – Т.: Ўзбекистон, 2009. – Б.447.
8. Муҳиддинов М.Қ. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005. – Б.208.
9. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 1-жузъ. Тошкент: Hilol-Nashr, 2024. – Б.640.
10. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 2-жузъ. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2024. –Б. 608.
11. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 3-жузъ. –Тошкент: Hilol-Nashr, 2024. – Б.656.
12. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 4-жузъ. –Тошкент: Hilol-Nashr, 2024. – Б.616.
Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 5-жузъ. –Тошкент: Ҳилол-Нашр, 2023. – Б.672.

СОПОСТАВЛЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ФОРМ В КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Икбола Абдуллаева,
д.ф.ф.н. (PhD), старший преподаватель
кафедры русского языка и литературы
Наманганского государственного института
иностранных языков имени Исхокхона Ибрата,
Ikbola.abdullayeva.87@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada turkiy xalqlar klassik adabiyotidagi badiiy shakllar qiyosiy tahlil qilinib, unda milliy xususiyatlar, mavzu rang-barangligi hamda uslubiy o'ziga xosliklarga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot turli turkiy adabiy an'analar doirasidagi she'riyat, nasr va og'zaki adabiyot namunalarini qamrab olib, ularning tarkibiy, leksik va estetik jihatlari tahlil etiladi. Shuningdek, adabiyot taraqqiyotiga tarixiy, madaniy hamda madaniyatlararo o'zaro ta'sirlarning mohiyati ko'rib chiqiladi. Olingan natijalar umumiy badiiy qonuniyatlar bilan bir qatorda, milliy o'ziga xosliklarni ham namoyon etib, turkiy adabiy meros va uning madaniyatlararo ahamiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *turkiy adabiyot, klassik adabiyot, badiiy shakllar, qiyosiy tahlil, she'riyat, nasr, og'zaki adabiyot.*

Abstract

This article presents a comparative analysis of artistic forms in the classical literature of Turkic peoples, highlighting national characteristics, thematic diversity, and stylistic features. The study examines poetry, prose, and oral literature from various Turkic traditions, analyzing structural, lexical, and aesthetic aspects. The article also explores the influence of historical, cultural, and intercultural interactions on literary development. The findings demonstrate both shared artistic patterns and distinct national expressions, contributing to a deeper understanding of Turkic literary heritage and its intercultural significance.

Keywords: *Turkish literature, classical literature, artistic forms, comparative analysis, poetry, prose, oral literature*

Классическая литература тюркских народов представляет собой сложное многоуровневое явление, сформировавшееся в течение многих веков на обширной территории Евразии. Она включает развитую поэзию, прозаические тексты и богатую устную традицию, отражая духовные, культурные и социальные аспекты жизни тюркских обществ. Современные исследования подчёркивают важность аналитического подхода к сопоставлению художественных форм, поскольку это позволяет выявить как общие закономерности, так и уникальные национальные особенности [Рахматова, 2025: 2182–2184; Туймебаев и др., 2025: 134–145].

При этом особое внимание уделяется влиянию исторических и культурных контактов с соседними народами и цивилизациями, что проявляется как в заимствовании сюжетов и мотивов, так и в развитии собственных художественных форм. Например, эпические повествования нередко включают элементы исторической хроники, мифологии и философских размышлений, создавая синтез народной памяти и авторского видения. Анализ этих текстов позволяет не только глубже понять эстетические предпочтения и мировоззрение тюркских народов, но и проследить эволюцию литературного языка, жанровых традиций и символических систем, что особенно важно для изучения культурной идентичности и межкультурных взаимодействий.

Важным аспектом является также взаимодействие письменной и устной традиций, что способствует формированию богатого культурного пласта. Устные эпические и лирические произведения выполняли не только развлекательную функцию, но и служили средством передачи исторической памяти, этических норм и общественных ценностей. Благодаря особой структуре повествования, ритму и использованию повторов, такие тексты легко запоминались и передавались из поколения

в поколение, обеспечивая преемственность культурных и духовных традиций.

Кроме того, в классической тюркской литературе широко применялись аллегория, символизм и метафорические средства, что позволяло авторам выражать сложные философские и моральные идеи, скрытые за образами природы, животных или исторических событий. Это создаёт многослойность произведений, доступных как для бытового восприятия, так и для глубокой интеллектуальной интерпретации.

Такой подход к анализу художественных форм открывает возможности для сопоставительного изучения литературы тюркских народов с произведениями других культур, выявления общих литературных закономерностей и понимания уникальной эстетической идентичности тюркского мира.

Сопоставительный анализ художественных форм является инструментом, который помогает понять, каким образом литературная традиция формировалась в условиях обмена культурными влияниями с персидской, арабской и другими литературными средами. Он также способствует выявлению типологических характеристик жанров и стилевых решений, обеспечивающих глубину и выразительность тюркской классической литературы [Юсупов, 2025: 15].

Поэзия занимает центральное место в классической литературе тюркских народов. Уже в средневековых памятниках можно обнаружить сложные метрические схемы, ритмические повторы, параллелизмы и богатую образную систему, что делает поэзию важнейшим объектом жанрово-стилистического анализа [Рахматова, 2025: 2183].

Художественные формы тюркской поэзии включают такие ключевые жанры, как газель, касиду, устные лирические стихи и монастические элегии. Газель традиционно отражает темы любви, красоты и философских исканий, тогда как касиды прославляют подвиги, нравственные идеалы и социально-политические ценности. Эти формы обладают высоким уровнем поэтической выразительности благодаря использованию устойчивых поэтических тропов и широкому диапазону эмоциональных оттенков [Юсупов, 2025: 25].

Особое место занимают также произведения, где поэтическое слово служит средством передачи этических и философских идей, как это показано в работах, посвящённых «Кутадгу билиг» и «Дивану лугати-т-турк» [Рахматова, 2025: 2183].

Важным аспектом тюркской поэзии является также её устная традиция, которая обеспечивала широкое распространение произведений среди различных слоёв общества и способствовала сохранению культурной памяти. Устные лирические песни и эпические повествования не только развлекали, но и выполняли воспитательную функцию, формируя представления о чести, мужестве, долге и духовных ценностях. При этом поэтическая структура и ритмика часто были тесно связаны с музыкальным сопровождением, что усиливало эмоциональное воздействие текста и способствовало запоминанию.

Кроме того, исследования показывают, что многие жанры тюркской поэзии отличались высокой степенью символизма и аллегоричности, что позволяло авторам выражать сложные философские и социальные идеи через метафоры и образы природы, животных или исторических событий. Такой подход создавал многослойность текста, делая его доступным как для бытового восприятия, так и для глубокой интеллектуальной интерпретации.

Поэтический язык классических произведений характеризуется богатой системой речевых фигур: метафор, эпитетов, аллитераций и параллелизмов. Эти элементы усиливают эмоциональную насыщенность текста и делают поэзию тюркских народов выразительным художественным средством. Устные формы поэзии также демонстрируют устойчивый «формульный стиль», который облегчает запоминание и устную передачу произведений [Туймебаев и др., 2025: 136–139].

Анализ показывает, что даже в разных региональных традициях поэзия сохраняет общие

принципы композиции и символического построения, свидетельствуя об общей тюркской поэтической культуре, несмотря на влияние соседних художественных систем [Юсупов, 2025].

Прозаические жанры классической тюркской литературы отличаются высокой концептуальностью и глубокой смысловой нагрузкой. В этих текстах сочетаются повествовательные, философские и нравственно-дидактические элементы, что делает прозу важной частью художественного наследия [Юсупов, 2025: 23].

Одним из наиболее значимых примеров философско-дидактической прозы является «Кутадгу билиг» – произведение, представляющее собой сочетание этических наставлений, политико-философского содержания и художественной формы. Анализ последних исследований показывает, что структура этого текста отражает сложное взаимодействие жанров и стилистических приёмов, направленных на нравственное воспитание читателя [Рахматова, 2025: 2182–2184; Юсупов, 2025: 12].

В прозаических памятниках также наблюдается развитие сложных синтаксических конструкций, риторических фигур и образных сопоставлений, что свидетельствует о высокой культурной зрелости литературного языка.

Помимо дидактической прозы, в тюркской классической литературе развивается жанр хроник и исторических повествований, в которых фиксация событий сочетается с художественным описанием. Эти жанры способствуют передаче исторической памяти и социальных представлений своего времени, активно используя художественные приёмы для усиления выразительности текста [Юсупов, 2025: 55].

Устная литература является ключевым элементом культурного пространства тюркских народов. Эпические повествования, такие как «Манас», «Алпамыш» и «Кысса-и Йусуф», представляют собой сложные вербальные структуры, включающие героическую поэзию, сюжетные циклы и символическую образность.

Эпические произведения тюркской традиции обычно состоят из серий эпизодов, каждый из которых раскрывает определённый аспект коллективной памяти, героического идеала или морального опыта. Эти эпосы выполняют не только эстетическую функцию, но и служат коллективным культурным кодом, укрепляя социальную идентичность и историческую память народа [Туймебаев и др., 2025: 140–145].

Формульность устных эпосов – устойчивые повторяющиеся сочетания образов и мотивов – облегчает устную передачу и фиксирует традиционные ценности в многовековой памяти общества.

Анализ текстов классической тюркской литературы выявляет уникальные лексико-стилистические особенности, в которых тюркские корни сочетаются с заимствованиями из арабского и персидского языков. Это сочетание отражает многовековые культурные контакты и превращает тюркский литературный язык в гибридный, способный выражать сложные концепты и художественные образы [Маммадли, Казимов, 2024].

Лексические исследования, например проведённые в «Кутадгу билиг», показывают, что значительная часть слов характеризует социально-культурные и моральные категории, а также содержит элементы различных тюркских диалектов, что подчёркивает богатство и сложность языковой картины произведения [Маммадли, Казимов, 2024].

Сопоставительный анализ позволяет выделить следующие ключевые закономерности:

Общие структурные принципы, объединяющие поэзию, прозу и эпос в единую художественную систему – это ритмическая организация текста, формульные структуры и образная символика [Туймебаев и др., 2025].

Национальные особенности, выражающиеся в тематике, образах и стилистических предпочтениях, отражающие исторические и культурные различия региональных традиций [Рахматова, 2025: 2115].

Межкультурное влияние, которое проявляется через заимствования, интеграцию сюжетов и образов из персидской и арабской литератур, расширяя художественный диапазон тюркских форм [Рахматова, 2025: 2119; Юсупов, 2025].

Преемственность устной и письменной традиций, где элементы устной поэзии влияют на прозаические и поэтические формы, обогащая литературный язык и жанровые решения [Туймебаев и др., 2025: 112].

Сопоставительный анализ художественных форм в классической литературе тюркских народов выявляет глубокие эстетические связи между поэзией, прозой и эпической традицией, демонстрируя как общие культурные корни, так и региональные отличия. Поэзия, обладая высокой художественной выразительностью, передаёт ценностные и философские концепты, проза систематизирует социальные представления, а устные эпосы фиксируют коллективную идентичность и историческую память.

Исследование лексических особенностей и жанровых механизмов тюркской классической литературы не только углубляет наше понимание её внутренней структуры, но и подчёркивает её значимость в контексте мировой литературы. Сопоставление художественных форм позволяет видеть литературное наследие тюркских народов как живую систему, продолжающую развиваться и в XXI веке.

Классическая литература тюркских народов предстает как многослойное и динамичное явление, объединяющее разнообразные жанры и формы, каждый из которых выполняет свою культурно-социальную функцию. Поэзия, проза и эпическая традиция взаимно обогащают друг друга, создавая целостное литературное пространство, в котором отражаются исторический опыт, философские поиски и эстетические предпочтения тюркских обществ.

Современные исследования, опирающиеся на сопоставительный и междисциплинарный подход, позволяют не только выявлять закономерности развития жанров и стилей, но и проследить влияние классического наследия на современные литературные процессы, включая национальные литературные школы и мировую культуру в целом. Углубленное понимание этих художественных форм способствует сохранению культурной идентичности и формированию межкультурного диалога, показывая, что классическая литература тюркских народов остаётся актуальной и сегодня, продолжая вдохновлять новые поколения исследователей и творцов.

Конечный вывод заключается в том, что изучение художественных форм, их взаимодействия и эволюции позволяет видеть тюркскую литературу не только как историческое наследие, но и как живую, развивающуюся систему, обладающую высокой культурной ценностью и значимостью для мировой гуманитарной мысли.

Использованной литературы

1. Рахматова, Г. The philosophical and semantic layers of didactic verse in Divanu Lugati-t-Turk and Kutadgu Bilig. International Journal of Artificial Intelligence, 11(10), 2025. С – 2182–2184.

2. Туймебаев Ж. К., Аманжолова Д. Б., Жанабаев, К., Тургенбаева, А. Ш. Формульный стиль устной поэзии тюркских народов. Новые исследования Тувы, №1, 2025. С – 134–145.

3. Юсупов, Р. Средневековая персидская и тюркская литература в контексте исламского возрождения. Keruen, №1, 2025. С –74.

4. Маммадли Н., Казимов И. Terms characterizing the Middle Turkish period in Kutadgu Bilig. Bulletin of the Jusup Balasagyn Kyrgyz National University, 2024.

5. Журакулов У., Оразбек М. Анализ поэтического творчества Рауфа Парфи и Алишера Навои. Turkic Studies Journal, 1, 2024. С – 135–146.

TA'LIMOTIYLIK: TAQOZO VA AFZALLIK

Shermurodov Tohir,
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O'zbek tili va adabiyoti universiteti.
e-mail: ehrom@list.ru

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyot ilmlarining tahlil, talqin, tanqid va baholashida haq ta'limotiylikning zarurat ekanligi, afzalligi haqida fikr yuritiladi. Bu boradagi tarixning ayrim tajribalari, ilmiy-nazariy tamoyillari, shuningdek, keyingi davrlar olimlarining masalaga oid qarashlari tahlil etiladi. Haq ta'limotning barcha adabiy-nazariy vazifalar, yondashish metodlariga rahnamolik salohiyati o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *ta'limotiylik, poetik tafakkur, diniy-tasavvufiy yondashuv, e'tiqodiy asos.*

Abstract

The necessity and advantage of true doctrine in the analysis, interpretation, criticism and evaluation of literary sciences are discussed. Some historical experiences, scientific and theoretical principles, as well as the views of scholars of later periods on the issue are analyzed. The potential of true doctrine to guide all literary and theoretical tasks and methods of approach is studied.

Key words: *doctrine, poetic thinking, religious and mystical approach, faith basis.*

Inson adabiy-nazariy tafakkuri ijod masalalari va muammolariga xilma-xil yo'sinlarda yondashishga moyil yashaydi. So'z san'atkorligi va uning namunalariga murojaat, munosabat bugundagi ko'plab turfa metodlarning qaysi biri asosida yuzaga chiqmasin, ularda munosabatchining shaxsiy-ijtimoiy e'tiqodi, g'oyaviy-mafkuraviy mavqeyi o'z ifodasini topadi. Har qanday ilmiy-nazariy yondashuvning sohaga xos zarurat, vazifa, adabiy hayotning o'zi kabi davomiy jarayon ekanligiga shubha yo'q. Muayyan munosabat shakli va tamoyilini ko'p hollarda voqelikning, adabiy qarashlarning, badiiy asarlarning o'zlari tayin etishlari ham bor gap. Biroq, barcha zamon va makonda jarayondagi ta'limotiy to'g'rilik hamda e'tiqodiy sifatning nufuzi hamma narsadan muhimdir.

Yangi va so'nggi islomning turli xalqlar hayotiga chuqur joriylanishi mobaynida arab, fors, turk poetik tafakkur tarzlari ta'limotiy jihatdan batamom yangilandi. Ijodiy salohiyatlar haq din haqiqatlariga oshuftalik kasb etdi. Dunyo va inson mohiyatini, barcha masalalar tadbirini shu asosda mushohada qilishga o'tdi. Yagona e'tiqodni tutish, unga taslim bo'lish, unda sobit qolish, uni o'z shuuri va iqboliga rahnamo ta'limot deb bilish bu xalqlar adabiy ijod ufqlarini, imkoniyatlarini misli ko'rilmagan darajada kengaytirib yubordi. Ularni oqil insoniyatga munosib va yarashiq eng to'g'ri yo'ldan boshladi. Mahdud va buzg'un qarashlarga, ayniqsa, arabiy ijodchilik, madaniyatda an'ana tusiga kirib qolgan illatlarga – shirk, fahsh, fitna, subutsizlik, tarafkashlik, maddohlik motivlariga barham berdi. Ajam xalqlarning islomdan oldingi tarixidagi tangrichilik, to'ra (turkiy qavmlar barcha sohada amal qilib yashagan ijtimoiy-axloqiy qoidalar majmui – og'zaki qonun), zardushtiylik, moniylik singari aqidalar, ta'limotlarida mavjud islomga mos qadriyatlarning saqlanishiga yoxud ylarning yangi e'tiqodga moslashuviga izn berdi.

Xususan, turkiy falsafiy-poetik tafakkurning islomiylashuv jarayonini osonlashtirgan, yuksaltirgan ijobiy asoslar ko'lamini uning o'ziga xos to'ra qonuni, tangrichilik aqidasi kabi insoniyatning boshqa qavmlariga nisbatan ilg'or, afzal g'oyaviy-amaliy tamoyillar, "Bayt-ul-hikma" faoliyatining natijasi sifatida taralgan yunon antik davrining ilm-fanlari ta'siri bilangina chegaralab qarash ham to'laqonli ilmiy qamrov bo'la olmaydi. Mohiyatga yanada kengroq, o'zining aslicha aspektda yondashish nuqtai nazaridan Shuhrat Sirojiddinovning "O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari" nomli monografiyasi adabiyotshunoslikdagi ilk diqqatga sazovor ishlardan biridir.

Mazkur tadqiqot islom falsafasining shakllanishini yunon donishmandligi ta'siri ga nisbat berish bilangina cheklanish tendensiyasiga isloh zarurati borligi haqida ham taassurot uyg'otadi. Unda islom kirib kelishidan oldingi Mavorounnahrda Hind, Eron, Iroq, Xitoy falsafiy qarashlarining ta'sirida shakllangan va umumlashgan turkiy o'ziga xos donishona tafakkur asoslari birlamchi manbalarga tayanilgan holda tadqiq etilgan.

Olim veda, tavrot, xristian adabiyotlarini, upanishadlar (ustozning shogird bilan didaktik muloqoti matnlari)ni, Iroq va Shom (tasavvufiy), Nishopur va Balx (malomatiy) mistika maktablarining xarakterli xususiyatlarini, peripatetik (yunonlashgan) falsafa mohiyatini, ularning umuminsoniy qirralari, ziddiyatli tadrijini tahlil qiladi. Islom mutlaq hukmron mafkuraga aylangan keyingi davrlarda ham avvalgi har xil falsafiy qarashlarning aholi o'rtasida uzoq muddat bardavom yashaganligini, ulardagi teran tamoyillar islomiylashganini, islom falsafasi shakllanishini faqat yunon ta'siri bilan chegaralab emas, uning butun Sharq falsafasidan oziqlanganini e'tibordan soqit qilmay o'rganish joizligini ta'kidlaydi. [Sirojiddinov, 2011: 3-13].

Monografiyada o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, she'riyatining islomiy falsafiy tafakkur asosidagi g'oyaviy-badiiy tamoyillariga katta ta'sir ko'rsatgan sarchashmalar – islomlashgan shakllarda uchraydigan turli qadimiy diniy-falsafiy suyujetlar, ta'limotlardan tortib haq ta'limot ko'rsatmalarigacha, qur'oniy, fiqhiy, kalomiy, aqliy, naqliy ilmlar, qator tasavvuf maktablarigacha bo'lgan barcha tarixiy asoslar ko'hna manbalarning mazmun-mohiyati orqali dalillanadi.

Arablarning 8-asr avvalidan boshlangan Movarounnahr tomon yurishi qator hududlar va yillarda keskin to'qnashuvlar, qarshiliklarga uchragan bo'lsa-da, tarixiy tafsilot hamda ma'lumotlar ushbu fathlarning nisbatan oson, qiziqarli kechganligiga ham guvohlik beradi. Arabiston yarim orolidagi butlar yasab, ularga siginishga, ko'p xudolik aqidasiga, turli bid'atlarga ruju qo'ygan mushriklar, kofirlarga qaraganda, turkiy xalqlardagi bir xudolilik, ilohiy ilmlar idrokiga chanqoqlik tuygusi balandroq edi. Islom esa aynan shu bir xudolilik dini – tavhidiy ta'limot edi.Shuningdek, turkiylarda asrlarki to'ra qonuni hukm surar, unga itoat axloqni poklash bilan birga, ilm-ma'rifatni talab qilar edi. Turkiylarning islomni qabullashdagi samimiyati, astoydilligi shuning uchun hamma sohalarda o'z natijasini tez ko'rsatdi. Masjid, maktab, madrasalar tashkil etildi. Yangi dinning nozil bo'lgan manbalari asosida ta'limga e'tibor kuchaytirildi. Qur'on, hadis, tafsir, fiqh, aqida ilmlari dunyoviy fanlarni o'qitishga keng yo'l ochdi.

Turkiylar ruhiyati hamda turmush tarzida yangi e'tiqod sobitlanishi o'laroq qaraladigan yuksalishning sabablari chuqur o'rganiladigan va mavqelariga ko'ra ular shartli sanaladigan bo'lsa, birinchi navbatda, o'sha davrda ko'tarinki ruhda tez isloh etilgan ta'lim tizimi, barcha ilm-fanlar o'qitilishining yo'lga qo'yilishini alohida e'tiborga olish kerak bo'ladi. Bundagi bardavomlikning ahamiyati misollarga juda boy.

Filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimov turkiy adabiyotlar tarixini "Islomgacha bo'lgan davrdagi turkiy adabiyot", "Islomiy turk adabiyoti", "Yangi o'zbek adabiyoti" tarzida davrlashtirib sharhlar ekan, ikkinchi bosqich ("Islomiy turk adabiyoti") ning tamomiy yangichaligi, undagi nazariy, poetic sifatning yangicha islomiyligi xususida quyidagi o'rinli xulosalarni bildiradi:

"Islom ijtimoiy-siyosiy tafakkurnigina emas, adabiy-estetik qarashlarni ham o'zgartirdi. Olam va odam haqidagi tushunchalarga yangi mazmun berdi. Ularni Yaratganning biru borligiga ishonchini mustahkamladi. Ayni paytda, insoniy tuyg'ularni qardoshlik, o'zaro xayrixohlik va komil inson bo'lib yashashning anglanishi bilan boyitdi. She'riyat badiiy ijodning asosiy turi bo'ldi. Vazn, ifoda vositalari, uslub qurilish jihatidan Sharq poetikasi uchun xos bo'lgan xususiyatlar kasb etdi. Yolg'iz poetikada emas, suyujetlar, personajlar, hatto yo'l-yo'nalishlarigacha mushtarak bo'ldi. Ayniqsa, turkiy va forsiy she'riyat o'zaro hamkorlikda bir-biridan quvvat olib rivoj topdi. Shoirlarimiz ikki (o'zbek, fors), uch (o'zbek, fors, arab) tilda ijod etdilar. Bu hol adabiyotimiz milliyligiga xalaqit bermadi, aksincha, qiyoslarda o'zligini saqlay olish imkonini yaratdi. Alisher Navoiy Sharq Renessansi (Uyg'onishi) ning

buyuk vakili bo‘lishini ta’min etdi...”[Qosimov, 2022: 6-7].

Ma’lum bir adabiy muhit va davrni boshqa makon va zamondagi holat, an’ana, tamoyillar bilan o‘zaro qiyoslaganda, nuqtai nazar va ilmiy maqsad qanday bo‘lishidan qat’i nazar, zamirida tarixiy, ijtimoiy-ma’naviy asoslari bo‘lgan o‘ziga xoslikka – taraqqiy, tanazzul, ijodiy ta’sirlanish, davomiylik, yangilanish kabi hodisalarga duch kelinadi. Tabiiyki, bularning barchasida rivojga dalolat qiluvchi natijalar, tadrijning salmog‘i muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotshunoslikda ham qiyosiy-tipologik tadqiq va tahlil davrlar adabiy-ma’rifiy manzarasini to‘la tasavvur qilish, aniq baholash, haqqoniy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Sharqning adabiyot ilmlari qadimida bu dolzarb yondashuv usulu bevosita qo‘llanilib qilingan maxsus ilmiy-nazariy tadqiqotlar uchramaydi. Holbuki, nazariy-falsafiy jihatdan adabiy-tarixiy jarayonlarga qiyosiy murojaat tuzumlardagi ijtimoiy-siyosiy, maishiy-psixologik, ma’naviy-axloqiy tendensiyalarga bog‘liq inson ijodiy salohiyatining bir-birining davomi bo‘lgan, ayni paytda bir-biridan farqlanuvchan poetik tafakkurning o‘zgarishlarini taqdim etadi.

Alohida ijodning yoxud ma’lum adabiy muhit ijodchilarining poetik qarashlaridagi e’tiqodiy sifatlar, xosliklarni, ularning haqgo‘ylik darajasini, voqelikka bo‘lgan faolliklarini, san’atkorliklarini o‘rganishning afzal yo‘llaridan biri ham qiyosiylikdir. Albatta, bu yo‘sin kuzatish, izlanish yanada xolislikni, har jihatdan ilmiy adolatni talab etadi. Bir ahvolotni boshqasiga qarshi qo‘yish, birining maqtovi uchun o‘zgasiga tanqidni kuchaytirish, tarixiy dialektik jarayon qonuniyatlarini hisobga olmaslik bunda to‘g‘ri natijalarga olib bormaydi.

Islomni qabul qilish, ta’lim-tarbiyani shu asosda yo‘lga qo‘yish natijasi o‘laroq shakllangan yangi dunyoqarashli, turmush tarzi shu shariatga asoslangan turkiy xalqlarning ilmiy va poetik tafakkur evolyutsiyasini uning islomgacha bo‘lgan ijodiga, xudolarni ko‘p deb bilgan, turli-tuman narsa-hodisalar, shaxslarga – tog‘utlarga sig‘inib o‘tgan paytdagi tasavvurlariga solishtirilsa, keyingi uning tangrichilik davri, to‘ra qonuni asosida yashashi, so‘ng boshlangan islomiy hayoti va ijodi bir butun najotbaxsh yo‘l dialektikasini inson ko‘z oldiga keltiradi.

O‘rta asrlar madaniy-ma’rifiy muhitining rivoji va shukuhi arab xalifaliklari, so‘ngra turkiy hukmdorliklar davrida ko‘paygan ilm markazlariga intilishning keng tus olishi, ham diniy, ham dunyoviy ilmlarning keng yo‘lga qo‘yilishi, olimlarning hamma fan navlarida olamshumul yutuqlar, kashfiyotlarga erishishi bilan xarakterlanadi.

E’tiqodga xos jiddiyat hamda ko‘tarinkilikni so‘z san’ati, adabiy-nazariy bilimlar, bu sohalarning tarbiyati yangilanishida, shoirlar, nazariyotchilarning dunyo ijodchilik tajribalariga-da e’tibor qaratishida, mas’uliyat va vazifalarni imoniy idrok etishlarida ham ko‘rish mumkin. Tafakkurlar islom ta’limotlaridan quvvat oldi. Faoliyatda borliq, inson, koinot, mavjudod mohiyatlarini, ularning murabbiysi vahdoniyatini yangi shariatga taslim tafakkur bilan mushohadalash barqaror, afzal va o‘zgarmas mezonga aylandi. Ilm, ijod ishlarida Yaratganning roziligini ko‘zlab faoliyat ko‘rsatish bosh g‘oyaviy- badiiy, axloqiy-estetik muddao bo‘lib qoldi.

Ijodga doir masalalarni tadqiqlash jarayoni ham xuddi shu adabiy-nazariy tafakkur tarzini talab etadi. Unda ham hidoyat hislari bilan yo‘g‘rilgan fahmu farosat taqozo etiladi. She’riyat, shoirlik va nazmiy mahoratni baholashdagi bu salohiyat ash’orfahmlik deb qaralgan. Barcha davrlarda soha bilimdonlarining qarashlaridagi ash’orfahmlik qadrlanib e’tirof etilganini kuzatish mumkin.

Poetik talablar, o‘lchov-qoidalar, yetuk idrokiy tamoyillarga doir Navoiy davrining tajribalari keyingi asrlar adabiyoti, adabiyotshunosligi, adabiy tanqidi uchun dasturilamal vazifasini o‘tab keldi. Asrlar mobaynida u davr adabiy-nazariy bilimlarini ma’qullamagan, mazkur qarashlarga ergashmagan, ma’suliyatni o‘sha salaflar singari his etmagan nafis tab’, ilm ahli uchramadi. Keyingi adabiyot tarixidagi har qanday yangilanish o‘sha asoslardan quvvat olgan ko‘rinishlarda sodir bo‘lib keldi. Bobur, Munis, Ogahiy, Feruz, Nodira, Uvaysiy, Furqat, Muqimiy singari yuzlab o‘zbek mumtoz shoirlarining ijodiy natijalari shunga dalolat qiladi. Yigirmanchi asrning 30-yillarigacha

bo‘lgan o‘zbek so‘z san’ati haq ta’limot o‘rgatgan yo‘l-yo‘riqlardan og‘ishmadi, turli ma’naviy xavf-xatarlardan omonda bo‘ldi.

Insoniyatga ilohan buyurilgan hamma narsalar, ishlar, yaxshi amallar yo‘lida bo‘lganidek, ijodkorlik qarshisida ham turfa moneliklar, to‘siqlar, adashtirguvchi mayllar ko‘p. Bu – dunyoning sinovli hayot ekanligi tufaylidir. Adabiy ijodda,uning ilmida mohiyatdan uzoqlashish jamiyat uchun tahlikadir. Bu hol odamlarning estetik didlarini buzadi. Saviyalarini tanazzul tomon boshlaydi. Natijasi xalqqa taraladigan ishlarning zarari shaxsiy turmushdagi xatokorlik oqibatidan miqyosiga ko‘ra katta bo‘lishini fahmlash qiyin emas.

Tuzumda zulm, adolatsizlik hukmron bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy ahvol tubanlashsa, ma’naviy-ma’rifiy jarayon izdan chiqsa, e’tiqodiy odoblar rioyatiga zid harakatlar ehtimoli kuchayadi. Chor Rossiyasining O‘rta Osiyo o‘lkalarini ishg‘ol etishi yurtlarda johiliyat muhitini vujudga keltirdi. Turkiy xalqlarni parokanda etish, aholini qo‘rqituv usulida boshqarish ularning yovuz maqsadlaridan edi. Barcha jabhalarning islohini shior qilgan jadidchilik harakati namoyandalari haq yo‘ldan toyilishning ijod sohalaridagi muayyan ko‘rinishlarini ham keskin tanqidlari va o‘z ibratlari bilan bartaraf etishga harakat qildilar. “Elli(k) yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo‘limiz bog‘landi, tilimiz kesildi, og‘zimiz qoplandi, yerimiz bosildi, molimiz talandi, sharafimiz yumuruldi, nomusimiz g‘asb qilindi, huquqimizg‘a tajovuzlar bo‘ldi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi, to‘zimli turdik,sabr etdik.

Kuchga tayangan har buyrug‘ga bo‘yinsundik, butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik. Yolg‘iz bir fikrni bermadik, yashrunturdik, emgaklarimizg‘a o‘rab saqladik...” – deb yozgan edi Fitrat. [Fitrat, 2003: 198-199]. Tamoman to‘g‘ri poetik mezonlar bo‘ylab asrlar davomida kelayotgan o‘zbek ijodchiligi va adabiyotshunosligi o‘z tarixida hech qachon sovet tuzumidagidek kufroniy, qattoliy to‘siqqa duch kelmagan edi. Yigirmanchi asr boshlarida boshlangan bu yovuz mafkuraviy siyosat hujumiga turib berish, qalqon bo‘lish, qarshilik ko‘rsatish va, afsuski, jisman mag‘lubiyatga uchrash, ammo abadiy sharafga sazovorlik aziz jadidchilarimiz zimmasiga tushdi. Haq e’tiqod nasihatlari asosida yaralgan adabiy-nazariy mezonlar jadidchilik harakatlari bilan birga qatag‘on qilindi.

Adabiy jarayonda haq ta’limot ko‘rsatmalaridan judolik ana shunday boshlandi. U mustaqillik davrigacha davom etdi. Hozirda uchraydigan e’tiqodiy hadlardan oshishlar, nafsoniy ifodalarga berilishlar dunyoqarashlarga mash’um sho‘ro mafkurasidan o‘rnashgan asoratlar va g‘arbona qarashlarning ta’sirlaridir.

Bu kabi barcha hol-holatlar badiiy talqinni botilga, shirkka boshlaydi, saviyalar, onglarni to‘g‘rilikdan chalg‘itadi. Ijodiy mehnatlarni esa zoe qiladi. O‘tgan asrning 30-yillaridagi mudhish qatag‘ondan keyin, xalqlar adabiyoti majburiy g‘oyaviy qolipga solingan, siyosatga tobelangan, maddohga aylantirilgan davrda so‘z san’atida uzoq yillar aldamchi ifodaviylik tamoyillari mag‘rur yashadi. Asl mas’uliyat va islomiy hadlardan toyilishning adabiy ijodchilikdagi ko‘rinishlarini ham haq ta’limot ma’naviy kasalliklardir deb qaraydi. Ruhiyatni tarbiya qilishning, qalb islohining turli o‘rinli muolajalarini o‘rgatadi. Ayni hunarlarda ham insonning o‘z ijodlari vositasida ikki dunyo saodatiga erishmog‘ini xohlaydi. Islom olamining barcha asrlardagi iste’dod sohiblari shuning uchun ham ijodda hushyorlikni mahkam tutganlar.

Adabiyotshunos Bahodir Karimning “Diniy-tasavvufiy tahlil metodi (masalaning qo‘yilishiga doir)” maqolasi badiiy ijodga yondashuvning juda muhim va hamisha dolzarb talab-taqozosiga teran munosabati bilan chuqur mulohazalarga chorlaydi. Olim metodlar rang-barangligi, metodologiya muammolari borasida fikr yuritar ekan, mumtoz asarlarni islomiy ta’limot mezonlari asosida tushintirishdek allaqachonlar (istiqlol davrida) boshlangan jarayondan bosh maqsad ulardagi asl ma’no haqiqatlarini anglash, anglatish ekanligini alohida ta’kidlab o‘tadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikdagi bu tamoyilni qanday nomlash masalasini o‘rtaga qo‘yadi va manzur bir taklifni ilgari suradi:

“O‘zbek adabiyotshunosligidagi bu amaliy hodisaga – badiiy asarlarni ham islom dini, ham

islomiy tasavvuf nuqtai nazaridan muhokama qilish, izohlash va sharhlash, talqin va tahlil etish hodisasiga diniy-tasavvufiy tahlil metodi deb nom berish o‘rinli bo‘ladi,” [Karimov, 2025: 22].

Bahodir Karim bugungi adabiyotga ham shunday asoslarda yondashish ehtiyojini e’tibordan chetda qoldirmaydi. G‘arb adabiyotshunosligida ijod namunalarini xristianlik nuqtai nazaridan baholash mavjudligini, ilm bunday yondashuvlarni ham taqozo etishini, mumtoz va zamonaviy asarlarga islom dini ahkomlari negizida yondashish orqali ular haqiqati, yaxshi-yomon tomonlari ochiqlanishini uqtiradi. [Karimov, 2025: 24].

Oxirgi va mukammal islom amr qilingandan buyon barcha makon, zamon, barcha millat va uning ijodchiligi uchun ham aslida oliy mezon, oliy tayanch bu – haq ta’limotga har jihatdan asoslanishdir, uning hadlari himoyasida bo‘lish, xoh diniy, xoh dunyoviy tarzlarda bo‘lsin, ilohiy hikmatlarni jozibali taratish, insonga uning tub haqiqatini shu ta’limot zaminida turib anglatish, uni chinakam hidoyat sari boshlashdir. Bu – hayotdagi singari adabiy, ilmiy ijodchilikda ham garchi muhokama, shubhaga o‘rin qoldirmas ilohiy majburiyat bo‘lsa-da, sinov qilingan real dunyoda hech kim unga majbur qilinmaydi. Ayni ta’limotiylikka da’vat jarayoni esa hamma vaqt davom etadi.

Sho‘ro davri nasri, she’riyati, dramaturgiyasi eng afzal e’tiqodiy ijod an’anasi – haq ta’limotiylikdan tazyiqan qanchalik uzoqlashtirilgan bo‘lsa, uning adabiyot ilmlari, tahlil, talqin, had, o‘lchovlari ham ilohiy asoslardan shunchalik mahrum etildi. Adabiy ijod olami va jarayonining hamma masalalariga yondashuv tor, biqiq, rasmiy bir qolipda – tuzumning g‘oyaviy-siyosiy shiorlari doirasida kechdi. Adabiyotshunoslikning har qanday munosabat motivini, so‘z san’atidan kutadigan mazmunini birinchi navbatda ilohan maqbul haqiqatlar, hikmatlar emas, balki botil, soxta, balandparvoz tushunchalar boshqardi.

Sharq mumtoz adabiyoti tarixining jadidchilik davri nihoyasigacha bo‘lgan amaldagi etik-estetik tamoyillaridan farqli o‘laroq, adabiy ijod va adabiyot nazariyasining bugunida sho‘ro asorati sifatida kelayotgan bir mahdudlik – oliy ta’limotiylik maqomini tarqoq, chegaralab, parokandalab qarash bor: bu – haq ta’limotga rioyatni faqat diniy-mavzularga murojaat hamda shunday ruhdagi asarlarni diniy-tasavvufiy nuqtai nazardan baholash doirasidagina tushunish, bu – umuman ijodchilikda yetakchi dunyoviylik ifodasini, uning mantig‘ini, shu yo‘nalishdagi tadqiqchilikni diniy-ta’limotiy yondashuv taqozosidan xoli, alohida jarayon sifatida tushinish.

Holbuki, ta’limotiylik barcha hol, ish, niyat tadbirida ilohiy yo‘l-yo‘riqlarga tayanish, u bilan muhofazalanish jarayoni, shuuriy va amaliy faoliyat. Ta’limot nozil qilingan, butun moddiy, ma’naviy olamlarni ihotalab sobit turgan qoida-qonuniyat, had va odoblarning mangu barqaror, o‘zgarmas samoviy majmuidir. Uni idroklamoq, unga qo‘rquv va muhabbat ila taslim bo‘lmoq ijodchi, tadqiqchidan, tabiiyki, e’tiqod bilimlarini, hikmatlilikni talab etadi. Ta’limotiy tahlil mas’uliyati adabiyot hodisalarini muayyan vaziyatlardagina shartli, nisbiy ravishda mavzuiy tarmoqlarga ajratib o‘rganishga izn beradi.

Hozirgi ijodkorlikning xilma-xil shakllari rivojida mumtoz imoniy-estetik tamoyillarning tiklanib borayotganligi katta umidbaxsh fazldir va bu mustaqillik davri poetik, nazariy tafakkurining bugunga xos maroqli jihatidir, kamol yo‘lidir. D. Quronov, N. Jabborov, B. Karim, U. Jo‘raqulov, S. Rafiddinov, K. Mullaxo‘jaeva, D.Yusupova, O. Davlatov, I. Ismoilov singari qator o‘zbek adabiyotshunoslarining mumtoz va zamonaviy adabiyot masalalariga oid faoliyatlaridagi ilmiy yondashuvlar haq ta’limotiylik nuqtai nazaridan muvaffaqiyatli kechmoqda.

Ta’limotga mansub mas’uliyatning mukammal idroki yuksak tafakkurtalab ma’naviy-ruhoniy yo‘ldir. Ijodkorlik va tadqiqotchilikning jamiyki ko‘rinishlarida oliy maqsad insoniyatni asl e’tiqod, hidoyat sari jozibador boshlash ekanligini hech bir lahza unutmaslik mazkur sarbaland maqom – haq ta’limotga mansublik va munosiblikning buyuk shartidir.

Barcha makon va zamonga salohiyatli qilingan so‘nggi islom inson saodati uchun ta’limotiylik borasida o‘zga asoslarga muhtojlik qoldirmagan. Islom olami xalqlari, ularning adabiy, ilmiy

ijodkorligi o‘zining shu muqaddas ta’limotga asoslangan an’analarida sobitqadamligi bilan boshqalardan sharafli ustunlik kasb etib kelgan. Har qanday ijodkorlik, tadqiqchilik, har turli uslub, usul, metod, metodologiyaning unga itoati, rioyati esa amr etilgan ilohiy taqozo va boshqa muqobili yo‘q afzalliklar olamidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фитрат А. Танланган асарлар, 3-жилд. – Т.:Маънавият, 2003. – В. 256
2. Қосимов Б. Танланган асарлар. Ўзбек адабиёти тарихи. 1-жилд. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – В. 2022. – В. 576.
3. Сирожиддинов Ш.Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – В. 200.
4. Каримов Б. Диний-тасаввуфий таҳлил методи: Filologiyaning dolzarb masalalari. Ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: Tafakkur, – B. 2025 – 256.

ILMIY-MA'RIFIY MAVZUDAGI NAZMIY ASARLAR XUSUSIYATLARI

Kenjaboyeva Gulruh Mirzo qizi,
Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktorant
i

Annotatsiya

Ushbu maqolada ilmiy-ma'rifiy mavzudagi nazmiy asarlarning vujudga kelishi, rivoji va adabiy-ilmiy ahamiyati keng yoritilgan. Nazmiy shaklning ilmiy bilimlarni yodda saqlash va badiiy ifodalashdagi qulayligi asoslab berilib, bunday asarlar yozish yuqori ilmiy va badiiy mahorat talab etishi ta'kidlangan. Jahon va o'zbek adabiyotidan tajvid, qiroat, aqoid, hadis, fiqh hamda tasavvufga oid muhim nazmiy asarlar va ularga bitilgan ko'plab sharhlar tahlil qilingan. Xususan, "Mavludi sharif", "Bad'ul amoliy", "Sabotu-l-ojiziyn", "Arba'in" an'anasi hamda hanafiy fiqhiga bag'ishlangan nazmiy manbalar tarixiy-adabiy kontekstda ko'rib chiqilgan. O'zbek adabiyotida Mulla Yo'ldosh Xilvatiy, Abdurauf Fitrat, So'fi Olloyor kabi ijodkorlarning ilmiy-ma'rifiy nazmga qo'shgan hissasi alohida baholangan. Umuman, mazkur asarlar asrlar davomida madrasalarda darslik sifatida qo'llanib kelingani va bugungi kunda ham muhim ilmiy-ma'naviy meros sifatida o'rganilayotgani haqida xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: *ilmiy-ma'rifiy nazm, nazmiy asarlar, diniy-ilmiy adabiyot, sharh an'anasi, tajvid va qiroat, hadis va aqoid, fiqh va tasavvuf, o'zbek va turkiy adabiyot, madrasa darsliklari, ma'naviy meros.*

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the emergence, development, and literary–scholarly significance of didactic poetic works with an educational and enlightenment-oriented focus. It substantiates the effectiveness of poetic form in facilitating the memorization and artistic presentation of scholarly knowledge, emphasizing that the composition of such works requires a high level of both intellectual competence and literary skill. The study examines prominent poetic texts related to tajwid, qira'at, aqida, ḥadith, fiqh, and taṣawwuf within world and Uzbek literature, along with the extensive tradition of commentaries written on them. Particular attention is given to works such as Mawlid al-Sharif, Bad' al-Amali, Sabat al-'Ajizin, the Arba'in tradition, and poetic sources devoted to Ḥanafī jurisprudence, which are analyzed within their historical and literary contexts. The article also highlights the contributions of Uzbek authors including Mulla Yuldash Khilvatiy, Abdurauf Fitrat, and Sufi Olloyar to the development of didactic poetic literature. It concludes that these works have long served as instructional texts in madrasas and continue to be studied today as an important component of scholarly and spiritual heritage.

Keywords: *didactic poetry, poetic works, religious–scholarly literature, commentary tradition, tajwīd and qirā'āt, ḥadīth and 'aqīda, fiqh and taṣawwuf, Uzbek and Turkic literature, madrasa textbooks, spiritual heritage.*

Kirish

Ilmiy-ma'rifiy mavzuda ko'plab nazmiy asarlar yozilgan bo'lib, bunday asarlar dunyo miqyosida katta ahamiyatga ega. Asarning nazmiy shaklda yozilishi zehnda yaxshi qolishi hamda o'zidagi badiiy go'zalligi bilan o'quvchi uchun qulaylik taqdim etishi bilan qiymatlidir. Shuning uchun ham ko'plab muhim asarlar aynan nazmiy shaklda bitilgan. Bunga jahon adabiyotidan ham, o'zbek adabiyotidan ham yetarlicha misollar keltirish mumkin.

Ilmiy-ma'rifiy nazm ijtimoiy mavzularda bitilgan she'rlardan birmuncha murakkabligi bilan ajralib turadi. Ilmiy-ma'rifiy nazmdan maqsad muayyan ilmiy sohadagi ilmlarni yoritib berishdir. E'tiborlisi shundaki, muayyan soha doirasidagi ma'lumotlarni nazmga solish katta mahorat talab qiladi. Chunki aytilmoqchi bo'lgan fikr, mazmunni ba'zan she'rda to'laligicha ifoda etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham bunday asarlarning sharhlariga ehtiyoj tug'iladi.

Ilmiy-ma'rifiy mavzudagi nazmiy asarlarga misollar keltirib, ulardan ayrimlarining xossalari bayon qilib o'tamiz.

Bunga jahon adabiyotidan Muhammad Sulaymon Jamzuriyning tajvid ilmiga bag'ishlangan "Tuhfat ul-atfol" asarini misol keltirishimiz mumkin. Ushbu asarning eng mo'tabar sharhi "Fathul aqfal-sharhu tuhfatil atfal" asari aynan muallifning qalamiga mansubligi so'zimizga yaqqol misol bo'la

oladi. Shuningdek, bu asarga o‘ttizdan ortiq sharh bitilgani ham yuqoridagi fikrimizni quvvatlaydi. Asar bitilgan davr bilan bugungi davr tili xususiyatlari va ilmiy salohiyat darajalari ham o‘zgargan bo‘lishi mumkin. Bu ham asarga soha mutaxassislari tomonidan sharhlar bitilishi lozimligini taqozo qiladi.

Shunday asarlardan yana biri “Hirzul amaniy va vajhut tahaniy fiy qiroatissab’il masaniy” asari bo‘lib, asar ko‘zlari ojiz holda tug‘ilib, shundayligicha yashab o‘tgan ispaniyalik buyuk olim Imom Shotibiyning arab tilida yozilgan mutavotir qiroatlar[37] ilmi haqidagi kitobdir. Bu asar 1173 baytdan iborat bo‘lib, “Lomiya” deb ham ataladi. Bunga sabab ushbu asarning har bir bayti arabiy lom harfi bilan yakunlanganidir. Ushbu asarga 60 dan ortiq sharhlar yozilgan, hatto bitilgan asar sharhlarga ham sharhlar bitilgan. O‘z davrining buyuk olimi bo‘lgan, Turkiyaga tashrif buyurganda, shoh Boyazid ikrom ko‘rsatib, ta’lim berishi uchun sharoitlar yaratib bergan. Amir Temur Boyazid bilan bo‘lgan jangda g‘alaba qozongach, olimni izlab toptiradi va Samarqand shahriga keltirib, ikrom ko‘rsatadi. Qisqa qilib aytganda, podshohlar cheksiz hurmat qilgan ensiklopedik olim Muhammad ibn Al Jazariy ilm tarqatishda o‘zlariga tajvid ilmini tanlagan. Uning “Muqaddimatul Jazariyya”, “Annashr fiy qiroatil ashr” va “Toyyibatun nashr” kitoblari ham ilmiy-ma’rifiy nazmga misol bo‘la oladi.

“Nazmul hasis fiy qovaidi mustalahil hadis”, “At-tolibul hasis”, Imom Suyutiyning “alfiyasi” – “Nazmud duraru fiy ilmil asar”, “Al-badul amaliy”, “An nazmul jali fiy fiqhil Hanbaliy”, “Kifayatul g‘ulam” asarlari ham ilmiy-ma’rifiy nazmiy asarlarga yaqqol misoldir.

Demak, ilmiy-nazmiy asarlar yozish dunyo miqyosida juda keng tarqalgan bo‘lib, bizning vatandosh olimlar ham bu borada o‘zlarining katta hissalarini qo‘shganlar. Vatanimizdan yetishib chiqqan ulamolarning ilmiy-ma’rifiy mavzudagi nazmiy asarlari juda ko‘p bo‘lib, ularning ba’zisi turkiyda, ba’zisi arab tilida yozilgan.

Ilmiy-ma’rifiy mavzudagi nazmiy asarlarning vujudga kelish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, ularning quyidagi tartibda vujudga kelganiga guvoh bo‘lamiz:

- “Mavlidi sharif” kitoblari
- Aqoid ilmiga bag‘ishlangan asarlar
- Arba’inlar
- Islom fiqhi kitoblari

Ilmiy-ma’rifiy mavzudagi nazmiy asarlar yozish islom dini kirib kelganidan so‘ng vujudga kelgan bo‘lib, avvalo, “vasf va manoqib” shaklidagi “Mavlidin Nabiy sallallohu alayhi vasallam” kitoblari yozilgan. Bu mavzudagi ilmiy-ma’rifiy mavzudagi nazmiy asarlar Nabiy sollallohu alayhi vasallam davrlaridanoq yozila boshlagan.

“Mavlidi sharif” kitoblari

“Mavlud” tushunchasi arab tilida “tug‘ilish” ma’nosini ifodalaydi. Islom olamida mazkur tushunchaga chuqur hurmat bilan qaraladi. Boisi bu tushuncha orqali islom dini Payg‘ambari Muhammad alayhissalomning dunyoga kelgan chog‘lari, ya’ni tug‘ilish voqeasi bayon etiladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, mavlud haqida juda ko‘p asarlar bitilgan. Jumladan, arab, fors-tojik, turkiy tillarda mazkur voqea tasvirlangan manbalar mavjud. Shunday manbalardan biri arab tilida yozilgan “Iqdul javhar fiy mavlidin-nabiyyil azhar” asari hisoblanadi. Asar Imom Ja’far Barzanjiy qalamiga mansub bo‘lib, arab tilida bitilgan. Uning o‘zbek tilidagi tarjimasi avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Xususan, 2022-yilda J.Shodiyev mas’ul muharrirligida, nashrga tayyorlovchilar A.Tursunov, I.Nurulloh tomonidan nashr etilgan. Mazkur kitobda asarning

37 “Mutavotir” so‘zi lug‘atda – ketma-ket kelmoq, uzluksiz davom etmoq, birin-ketin yetib kelmoq, orasida uzilish bo‘lmaslik kabi ma’nolarni anglatadi. Istilohlarda esa so‘zning ma‘nosi turlicha bo‘lishi mumkin. Xususan, Qiroat ilmida “mutavotir” so‘zi hadis ilmidagi “mutavotir” so‘zidan farqli bo‘lib, har bir tabaqa ishonchli sanad bilan kelishini ifodalaydi, ko‘p sonli roviylar shart qilinmaydi.

arabcha varianti (arab yozuvida), kirillcha o‘qilishi hamda o‘zbekcha tarjimasi keltirilgan bo‘lib, bu asar nasrda bitilgan.

Mulla Yo‘ldosh Xilvatiy Namangan adabiy muhiti ijodkori bo‘lib, XX asr boshlarida ijod qilgan. Uning islom dini Payg‘ambari Muhammad (s.a.v.) hayotlaridan hikoya qiluvchi “Mavludi sharif” asari turkiy tilda yozilganligi bilan ahamiyatlidir. Muallif bu asarni yozishdan avval Payg‘ambar Muhammad alayhissalomni tushida ko‘radi. Xosiyatli tush sababidan ustozi Langariydan fotiha olib, kitobni yozishga kirishadi. She’riy doston janrida bitilgan ushbu asar o‘zbek kitobxonlari uchun tarixiy manba sifatida juda qimmatli yodgorlik sanaladi.

1858-yilda Namanganda tug‘ilgan Mulla Yo‘ldosh Xilvatiy Imom Ja’far Barzanjiydan qariyb yuz yil keyin yashab ijod qilgan bo‘lib, 1895-yilda o‘zbek tilida “Mavludi sharif” nomli doston janriga xos asar yaratadi. Ayrim olimlar tomonidan mazkur asar Barzanjiy kitobining o‘zbek tilidagi tarjimasi deb noto‘g‘ri taxmin qilingan. Aslida, asar umuman boshqa janrda bitilgan bo‘lib, aynan tarjima emas.

Xilvatiyning “Mavludi sharif” asari nodir durdona sifatida arab tilidagi asarning yaxlit tarjimasi emasligi, umuman, boshqa janrda, boshqa uslubda yozilganligi ma’lum. Bu fikrni namanganlik olima, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Rhd) Ozodaxon Boltaboyevaning olib borgan tadqiqotlarida uchratamiz.

Xilvatiyning “Mavludi sharif” asari 1991-yil Xayrulla Qosim Elturk, 2000-yilda esa Abdulhamid Qurbonov tomonidan nashr etildi. Diniy e’tiqodi mustahkamlana borayotgan bir sharoitda asarni o‘qishga bo‘lgan talab kundan kunga ortib bordi. “Mavludi sharif”ning yangi nashrlari Xilvatiyning XX asr boshlarida chop ettirgan toshbosma asari nusxalari asosida nashr etilmoqda. Xususan, ushbu asar 2003-, 2004-, 2013-, 2015-, 2017-yillarda ham kirill yozuvida nashrdan chiqdi. Asar nazmda, ya’ni she’riy usulda bitilgan bo‘lib, umumiy hajmi 138 sahifa, 1017 baytdan iborat.

Umuman olganda, arab, fors-tojik, turkiy va boshqa xalqlar adabiyotida mazkur mavzuga qiziqish juda kuchli bo‘lib, olimlar tomonidan hanuzgacha o‘rganiladi. Bu esa, o‘z navbatida, musulmon olamida muhim ahamiyat kasb etgan buyuk shaxs, komil inson, Allohning suyukli Habibi, ya’ni islom dini Payg‘ambari Muhammad alayhissalomga bo‘lgan chuqur ehtiromdan darak beradi [Muxitdinova, 2025].

Abdurauf Fitratning “Mavludi sharif yoxud Xayrul-bashar miroti (rasul oynasi)” asari shunday ilmiy-ma’rifiy nazmiy asarlar sirasiga kiradi.

Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat millatimizning chinakam farzandi, nurli va buyuk qalb egasi edi. U zot butun umrini xalq ma’naviyatini yuksaltirishga bag‘ishladi, milliy g‘urur, or-nomus, milliy birlik uchun kurashdi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mutaassiblik botqog‘iga botgan amirlik tuzumi, jahon tamaddunidan uzilib, hukmdorlar zulmidan ezilib kelayotgan oddiy, omi xalq osmonini zulmat qoplagan bir sharoitda Fitratning millat taqdiridan tashvishlanayotgan uyg‘oq o‘ylari, insoniyat dardi bilan yongan ma’rifatchi yuragi xalq uchun yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq bo‘ldi.

Olim xalqni uyg‘otish, mahdudlik, bilimsizlik qobig‘idan ozod etishga umri davomida harakat qildi. Uning bu yo‘ldagi urinishlari “Mavludi sharif yoxud Xayrul-bashar miroti (rasul oynasi)”, “Muxtasar Islom tarixi”, “Najot yo‘li” kabi asarlarida ham ko‘zga tashlanadi.

Fitrat “Mavludi sharif yoxud xayrul-bashar miroti (Rasul oynasi)” asarini fors tilidan Ismoil Bekjonov tarjima qilgan va asardagi izohlar muallifi ham sanaladi.

Aqoid ilmiga bag‘ishlangan asarlar

Shundan so‘ng “Aqida” ilmiga oid ilmiy-nazmiy asarlar yozila boshlagan. Bizning yurtimizdan yetishib chiqqan ulamolar bu mavzuda ilmiy-nazmiy asarlar bitdilar. Jumladan, “Bad’ul amoliy” asari Sirojiddin O‘shiy rahmatullohi alayh qalamiga mansubdir.

“Bad’ul amoliy” asari muxtasar va lo‘ndaligiga qaramay keng qamrovliligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Bu asarning alohida xususiyatlaridan biri undan Ahli sunna val-jamoaning e’tiqodiy qa-

rashlarini o‘rganish va doimo yodda saqlashning qulay ekanidir. Asar xuddi shu maqsadni ko‘zlab, nazmiy uslubda yozilgan.

“Bad’ul amoliy” asari. “Bad’ul amoliy” asari muallifi Sirojiddin O‘shiy rahmatullohi alayh bo‘lib, moturidiya mazhabidagi mashhur ulamolardan hisoblanadi. Manbalarda Farg‘oniy, Hanafiy, Moturidiy deya e’tirof etilgan ushbu zotning ism-sharifi Sirojiddin Ali ibn Usmon O‘shiy bo‘lib, o‘sha vaqtlarda Farg‘ona o‘lkasiga qarashli bo‘lgan O‘sh shahrida hijriy besh yuzinchi yillar atrofida tug‘ilgan. Tug‘ilgan yili aniq emas. O‘shiy rahmatullohi alayh ko‘plab ilmlar bo‘yicha peshqadam olim bo‘lib, bu zotning asarlarida nazmiy uslub alohida o‘rin tutgan. Manbalarda shayx, imom, qozi kabi unvonlari aytilgan. Ilm darajalarining yuqori bo‘lgani yozgan asarlaridan ham bilinib turadi.

Ulamolar bu asarning baytlari ikki ming olti yuz oltmish to‘qqizta deganlar. “Bad’ul amoliy” (qalbdan yozishlar muqaddimasi) asari “Yaqulul abdu” va “Qasidatul lomiya” nomlari bilan ham mashhur bo‘lgan. “Yaqulul abdu” nomi asarning birinchi bayti tufayli tarqalgan bo‘lsa, misralari lom harfi bilan tugallanib yozilgani uchun “Qasidatul lomiya”, ya’ni “Lomlik qasida” deb ham nomlangan. Asar qisqa bo‘lishiga qaramasdan, undagi e’tiqodiy masalalar moturidiya mazhabiga ko‘ra lo‘nda tarzda bayon etilgan keng qamrovli asar hisoblanadi. “Bad’ul amoliy” asari hijriy 569-yilda yozib tugallangan.

“Bad’ul amoliy” asarining turli nusxalari va ularning sharhlari. “Bad’ul amoliy” asarining turli nusxalari orasida kam bo‘lsa-da, ba’zi farqlar mavjud. Mulla Ali Qorining “Zov’ul maoliy” sharhida ham, “Tuhfatul aoliy”da ham, Humaydiyning “Amoliy tarjimasi” asarida ham bir xil 68 ta bayt keltirilgan. Abu Bakr Ahmad Roziyning sharhida esa 60 ta bayt berilgan. Asarning asosiy ma’lumotlari 60 ta baytda bayon qilingan bo‘lib, qolganlarida o‘quvchilarga nasihatlar va duolar o‘rin olgan. Ushbu asarni tahqiq qilgan ba’zi ulamolar uning baytlari yetmish uchta ekanini aytganlar.

“Bad’ul amoliy”ning ahli ilmlarni doimo o‘ziga jalb qilib kelgan ajoyib asar ekani unga yozilgan sharhlarning ko‘pligidan ham bilinib turadi. Sakkiz yuz yildan ortiq vaqt davomida matnlari yod olinib, ma’nolariga e’tiqod qilib kelinayotgan ushbu asarga ko‘plab sharhlar bitilgan[38]. Turli asrlarda bitilgan sharhlarining ba’zilari quyidagilardir:

– Xalil ibn Alo Najoriy, Yamaniy[39], “Nafisur riyoz li i’damil amroz” (“e’tiqoddagi” kasalliklarni ketkazish yo‘lidagi ko‘rkam chamanzorlar);

– Izuddin Muhammad ibn Abu Bakr ibn Jamoa[40], “Matlaul misal fi aqoidil islamiya va manbaul kamal fi masailil kalamiya fi sharhi qasidatil lomiya” (“Lomlik qasida” sharhidagi Islom aqidasining namunaviy pillapoyasi va kalom masalalaridagi barkamollik manbasi). Mulla Ali Qori “Zov’ul maoliy”da ushbu kitobdan ko‘p iqtibos keltirgan;

– Muhammad ibn Abdulloh G‘aziy, Temirtoshiy, Hanafiy[41], “Favaidul marziya fi sharhi qasidatil lomiya” (“Lomlik qasida” sharhidagi ma’qullangan mazmunlar);

– Mulla Ali Qori “Zov’ul maoliy libad’il amaliy” (“Bad’ul amoliy”ning ulug‘vorlik yog‘dusi). Ushbu sharh “Bad’ul amoliy”ning eng mo‘tabar sharhlaridan biri bo‘lib, muallifi uni “Fiqhul akbar”ning sharhini tamomlaganidan so‘ng alohida ehtimom bilan yozgan;

– Muhaqqiqlar guruhi, “Tuhfatul aoliy” (Ulug‘lar tuhfasi). Ushbu kitob ba’zi muhaqqiq olimlar tomonidan Mulla Ali Qorining “Zov’ul maoliy” asariga hoshiya qilib bitilgan. Hijriy 1164-yilda yozilgan;

– Husayn ibn Ibrohim ibn Hamza ibn Xolil, “Laoli fi sharhi bad’il amoli” (“Bad’ul amoliy” sharhi haqida durlar).

[38] https://muslim.uz/uz/e/post/21878-e-tiqod-durdonalari-aqoid-masalalarini-o-rganish-zarurligi-e-tiboridan-taqsimoti

[39] Xalil Ibn Alo Najoriy, Yamaniy hijriy 632-yilda vafot etgan.

[40] Izzuddin Muhammad ibn Abu Bakr ibn Jamoa hijriy 819-yil vafot etgan.

[41] Muhammad ibn Abdulloh G‘aziy, Temirtoshiy hanafiy hijriy 1004-yilda vafot etgan.

Bulardan boshqa yana ko‘plab sharhlar yozilgan.

“Bad’ul amoliy”ning o‘zbek tilidagi tarjima va sharhlari. “Bad’ul amoliy” matnining hozirgi kungacha o‘zbek tilida nashr qilingan tarjima va sharhlari quyidagi asarlardir:

– Shayx Abdulaziz Mansurning “Aqoid matnlari” kitobida “Bad’ul amoliy” matni so‘zma-so‘z tarjima qilingan. Ushbu kitob 2006-yilda nashr qilingan;

– “Bad’ul amoliy” matni Humaydiy ismli mudarris tomonidan tatar tiliga tarjima qilinib, 1908-yilda “Amoliy tarjimasi” nomi bilan Qozon shahrida chop etilgan. Bu tarjima eski o‘zbek yozuvida bitilgan;

– Muhammad Zohid Qutqu ibn Ibrohim Bursaviyning “Ahli sunnat val jamoat aqoidi” kitobida “Bad’ul amoliy” matni sharhlangan. Sharh Mulla Ali Qorining “Zov’ul maoliy” kitobi asosida bo‘lgan. Ushbu kitobni taniqli shoir Mirzo Kenjabek o‘zbek tiliga o‘girib, 1999-yilda chop ettirgan. Mirzo Kenjabek “Bad’ul amoliy” matnini o‘zbek tilida ham “l” harfi bilan tugallab, mukammal tarzda tarjima qilgan;

– Shayx Nazrullohxon eshon G‘aribiy tomonidan “Bad’ul amoliy” matni she’riy tarzda sharhlangan. Ushbu asar “Qasidai Amoliy sharhi va tavhid manzumasi” nomi bilan 2008-yilda chop etilgan.

So‘fi Olloyor qalamiga mansub “Sabotu-l-ojiziyn” asari ham nazmda yozilgan. “So‘fi Olloyor” nomi bilan ham mashhur bo‘lgan ushbu asar uch yuz yildan ortiq davr mobaynida XX asrning boshlarigacha O‘rta Osiyo madrasalarida o‘qitib kelingan. Bu asarning bayon uslubi va tilida arabiy, forsiy so‘zlar ko‘p ishlatilganligidan kitobxonlarga tushunarli bo‘lishi uchun juda ko‘p sharhlar yozilgan. Shulardan Tojuddin Yolchiqul o‘g‘lining “Risolai Aziziya” – “Sabotu-l ojizin” sharhi 1797-yil Qozonda, 1847-yil Sank Peterburgda, 1850-yil Qozonda, 2000-yil O‘zbekistonda nashr etilgan [Tojuddin Yolchiqul, 2000: 244]. Salohiddin ibn Rovil Salimiy Qozoniyning “Irshodu-l-ojiziyn” sharhi Tataristonda 1911-yil nashr etilgan [S.Salimiy, 1191: 83]. Sayyid Habibulloh ibn Sayyid Yahyoxon Farg‘oniy Qobuliyning “Hidoyat ut-tolibiyn” – “Sabotul ojizin” sharhi 1928-yil Lohurda, 2009-yil Toshkentda nashr etilgan [Sayyid Habibulloh, 2009: 349].

Shayx Muhammad Sa’id Turkistoniy o‘z puliga “Sabotul ojizin” asari sharhini Jiddadagi “Ax-borot vazirligi” roziligi bilan Damashqdagi “Taraqqiyot matbaasi”da 1967-yilda nashr ettirgan[42]. Hijriy 1221/1806-yili yozilgan “Risolayi Aziza” asari “Sabotul ojizin”ga yozilgan sharhlarning eng qadimiysidir. Matnshunoslik ilmida manbaning qadimiyligi matnning ishonchlilik darajasini belgilashda muhim omil sanaladi. Sharhning yozilish yili bilan So‘fi Olloyorning vafot sanasi oralig‘i 82 yilni tashkil qiladi. Matn tarixiga nisbatan olinsa, bu unchalik uzoq muddat emas. Demak, “Sabotul ojizin”ning tili, undagi ifoda va bayon yo‘llari, muallifning tushuncha va qarashlari zamon nuqtayi nazaridan shorihga ancha yaqin. Tojuddin sharhga “Risolai aziza” nomini beradi. Zero, sharh qizi Azizaning bir necha bor iltimosi bilan yozilgan edi [Tojuddin Yolchiqul, 2000: 5]. Ushbu sharh bilan tanishib chiqqan kishi uning muallifi o‘z davrining bilimdon allomalaridan bo‘lganini tan oladi. Sharhda berilgan So‘fi Olloyorning tarjimayi holi butun turk olamida mashhur bo‘lib, xorijda nashr etilgan “Sabot ul-ojizin”ning barcha nashrlaridagi so‘zboshilar va alohida e’lon qilingan maqolalarda o‘z aksini topgan [Uvatov, 2020: 407]. “Risolai aziza”da “Sabotul ojizin” baytma-bayt sharhlangan. Sharhchi muallifning usulini ko‘proq nahviy tahlil tashkil qilib, baytlarning badiiy tomonlariga ham ahamiyat berilgan. Baytning sharhi tugagach, shorih bayt ma’nosini ochib beruvchi qo‘shimcha ma’lumotlar ham keltiradi.

Arba`inlar. Ilmiy-ma’rifiy mavzudagi nazmiy asarlar vujudga kelishining keyingi bosqichi “Arba’in”lar an’anasi sanaladi.

“Arbaini Navaviy”. Ilk arbainnavislardan biri sifatida Imom Navaviy rohimahulloh tilga olinadi. “Arba’in hadis” muallifi imom, hofiz, faqih, muhaddis Yahyo ibn Sharofiddin ibn Murriy ibn Hasan

[42] http://sofi-olloyor.wikidot.com/publications

al-Hizomiy al-Huvroniy an-Navaviy Islom olamining mo‘tabar olimlaridan sanaladi. Kunyalari – Abu Zakariyo, laqablari Muhiddin. Ammo Allohga tavozu’ qilib, Muhiddin deb laqablanishni afzal ko‘rganlar. Chunki din doimiy hayot va sobit bo‘lgan narsadir, tiriltiruvchi kishiga muhtoj emasdir, deb aytardilar (“Muhiddin” – dinni tiriltiruvchi, degan ma’noni anglatadi)[43].

“Arba’ini Jomiy”. Buyuk so‘z san’atkori Abdurahmon Jomiyning “Chihl hadis”, “Tarjumai arba’in hadis”, “Arba’in hadis”, “Arba’ini Jomiy” kabi turli nomlar bilan yuritilgan asari o‘z davrida nafaqat fors-tojik adabiyoti ixlosmandlari, balki turkiy adabiyot muhiblari o‘rtasida ham juda mashhur bo‘lgan. Shu boisdan bu asar kotiblar tomonidan juda ko‘plab nusxalarda ko‘chirilgan. Hatto ba’zi kutubxonalardan Abdurahmon Jomiy “Arba’in”ining yuzdan ortiq qo‘lyozma nusxasi topilgan. Asar forscha qisqa nasriy muqaddima bilan boshlangan. Abdurahmon Jomiy ham fors adabiyotidagi boshqa ko‘plab qirq hadis tarjimonlari kabi debochani arab tilida yozishni xohlamaganligi manbalarda aytiladi. Shundan so‘ng hadislar tarjimasiga o‘tilgan. “Arba’ini Jomiy” turli davrlarda ko‘plab nusxalarda ko‘chirilganligi bois qo‘lyozmalarda hadislarning berilish tartibi bir-biridan farq qiladi. Bu xattotlar, kotiblar va hatto muzahhib (kitoblarni zarhal hoshiyalar bilan bezovchi)larning ijodlari sabablidir. Ularning asarni ko‘chirish ishlariga erkin yondashuvlari natijasida hadislarning berilish tartibi asliyatdagiga nisbatan ko‘p o‘zgarishlarga uchragan.

“Arba`ini Navoiy”. “Arba’ini Jomiy”ning turkiy tilga birinchi tarjimoni sifatida Alisher Navoiy e’tirof etiladi. “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy qirqta hadisni tanlab olib, arabchadan fors tiliga tarjima qilgani va hammadan oldin qoralamasini unga bergani, mutolaa qilib chiqqandan so‘ng bu “Arba’in”ni turkiy tilga tarjima qilish orzusi ko‘ngliga tushganini yozadi. Tarjimani bir-ikki kun ichida amalga oshirganini ham debochada ta’kidlaydi. “Arba’ini Jomiy”da hadislarning qaysi buyuk muhaddislarning asarlaridan olinganligi aytilmagan. Alisher Navoiy “Arba’in”idagi yigirma uch baytli she’riy muqaddimada Abdurahmon Jomiyning bu hadislarni eng sahih hadislarni to‘plagan buyuk muhaddislar Imom Buxoriy va Muslim ibn Xajjojdan olganini aytib, jumladan, shunday yozadi:

O‘qug‘anda Buxori-u Muslim,
Qirq so‘z borcha shubhadin solim.

“Arba’ini Fuzuliy”. Shu paytga qadar Navoiy asarlari tadqiqi bilan shug‘ullangan adabiyotshunoslarning ilmiy risola va kitoblarida ushbu asar haqida ham batafsil so‘z yuritilgan bo‘lsa-da, ammo Abdurahmon Jomiy “Arba’in”ining Alisher Navoiydan boshqa tarjimonlari ham bo‘lganligi haqida bir so‘z deyilmagan. Aslida, fors-tojik va turkiy adabiyot olamida mashhur asar “Arba’ini Jomiy”ning Alisher Navoiydan boshqa tarjimonlari ham bo‘lgan. Bu borada ulug‘ mutafakkir bobomizdan keyin ozarbayjon adabiyotining yirik namoyandasi Fuzuliy nomini tilga olish joiz. Fuzuliy Alisher Navoiydan farqli o‘laroq, o‘z “Arba’in”ini nasriy muqaddima bilan boshlagan. Ya’ni bu borada u Abdurahmon Jomiy yo‘lini tutgan. Shuningdek, Alisher Navoiy ham, Fuzuliy ham vazn va janr bobida Abdurahmon Jomiy uslubini saqlashgan.

Professor Abdulqodir Qoraxon “Jomiyning “Arba’in”i va turkcha tarjimalari” kitobida bu asarning Alisher Navoiy va Fuzuliydan tashqari yana boshqa tarjimonlari ham bo‘lganligini yozadi. Xususan, XVI-XVII asrlar usmonli turk adabiyotida “Arba’ini Jomiy”ning Rixlatiy, Nabiy va Munif kabi shoirlar tomonidan ham tarjima qilinganligini qayd etadi. Bundan tashqari, olim “Arba’ini Jomiy”ning noma’lum bir muallif tomonidan ham tarjima qilingani haqida ma’lumot beradi. Qiziq tomoni shundaki, noma’lum muallif qo‘liga tushgan qirq hadis tarjimasining Abdurahmon Jomiyga tegishli ekanligini hatto bilmagan. Ehtimol, shuning uchundir, balki o‘zi istamaganligi bois yoki boshqa noma’lum sabablarga ko‘ra, tarjimon o‘z ismining sir tutilishini xohlagan. Tadqiqotchilar “Arba’ini Jomiy”ning boshqa yana ko‘plab tarjimonlari ham o‘z ismlarini ma’lum qilmaslikni afzal bilishganliklarini ta’kidlashadi.

“Arba’ini Jomiy”ning barcha tarjimonlari Abdurahmon Jomiy qo‘llagan vazn va nazm shaklini qabul qilishgan. Ya’ni tarjima ishini aruzning “foilotun mafoilun foilun” bahrida, qit’a janrida

[43] www.ziyouz.com

amalga oshirishgan. Faqat Alisher Navoiy va Nabiy “Arba’in”i she’riy muqaddima bilan boshlangan. Boshqalarda esa Jomiydagi kabi muqaddima nasriy uslubda bitilgan.

“Arba’ini Jomiy”ning ko‘pgina qo‘lyozma nusxalarida Muhammad payg‘ambar alayhissalomning: “La: yu’minu ahadukum hatta yuhibbu li-axihi ma: yuhibbu li-nafsih(i)” – “Qaysi biringiz toki o‘ziga ravo ko‘rmaganni birodariga ravo ko‘rar ekan, imonli bo‘lmag‘ay” hadisining she’riy tarjimasi bilan boshlangan. Aburahmon Jomiy tarjimasi quyidagicha:

Har kasi ro laqab ma’kun mo‘min,
Garchi az sa’i jonu tan kohad.
To noxohad barodari xudro,
Onchi az bahri xeyshtan xohad.

Abdurahmon Jomiyning ushbu tarjimasi Alisher Navoiy, Fuzuliy, Rixlatiy, Nabiy, Munif va noma’lum muallif tomonidan qay tarzda turkiy tilga o‘girilganligiga e’tibor qaratamiz. Tarjimalar orasida Abdurahmon Jomiy qit’asiga eng yaqin keladigani noma’lum muallifniki hisoblanadi. Agar boshqalarniki bilan solishtirilsa, Alisher Navoiy ham, Fuzuliy ham, usmonli turk shoirlari ham “Arba’ini Jomiy”ni ancha erkin tarjima qilganliklari ko‘zga tashlanadi [Karimova, 2025].

Islom fiqhi kitoblari. Biz bu bo‘limda aynan Hanafiy fiqhiga bag‘shlangan nazmiy asarlar haqida to‘xtalishni lozim topdik. Bunday asarlar juda ko‘p. Bobning avvalida ta’kidlaganimizdek, ilmiy-nazmiy asar yozish dunyo miqyosida keng tarqalgan. Quyida hanafiy fiqhiga bag‘shlangan nazmiy asarlarning eng mashhurlarini keltirib o‘tamiz.

Eng mashhur hanafiy fiqhini yoritgan nazmiy asarlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- “Al-Vahboniyya” nazmi: Abdul-Vahbon ibn Vahbon tomonidan yozilgan va Imom ash-Shurunbulali tomonidan izohlangan.
- “Tuhfat at-Tullab”: Abu Bakr al-Mulla al-Ahsoiy tomonidan yozilgan va taxminan 1950 baytdan iborat.
- “Kifoyat al-G‘ulom”: Shayx Abdul-G‘oniy an-Nabulsiy tomonidan yozilgan, ibodat amallari haqida qisqacha risola. Ushbu risola bolalar fiqhiy hukmlarni yod olishlari uchun mo‘ljallangan mo‘jaz va istefoda etish uchun qulay asar.
- “Al-Manzuma fi al-Xilafiyat”: Nasafiy tomonidan ixtilofli masalalarga to‘xtab o‘tilgan.
- Ibn ash-Shihna she’ri: Hanafiy fiqhi asoslari haqida, Muhammad ibn Muhammad ibn ash-Shihna (vafoti hijriy 815-yil).
- “Tuhfat as-Sibyan”: Abdulloh Abd ash-Shakur al-Makkiy tomonidan, Imom Abu Hanifa mazhabi haqida.

Yuqorida zikr qilingan “Al-Manzuma fi al-Xilafiyat” (Nizolar tizimi) asari Imom Abu Hafs an-Nasafiyning (vafot etgan hijriy 537-yil) taniqli fiqhiy asaridir. Bu Hanafiy mazhabi va boshqa mazhablar (Shofi’iy, Maliki va boshqalar) o‘rtasidagi fiqhiy ixtiloflarni o‘zida jamlagan. Mavzuning murakkabligi va o‘z davridagi fiqhiy qarashlarning xilma-xilligiga qaramay, u o‘zining keng qamrovliligi va ravon uslubi bilan ajralib turadi. Shuningdek, fiqhiy masalalarni noyob va qulay uslubda to‘playdigan muhim ma’lumotnoma bo‘lib xizmat qiladi.

Nazmning ahamiyati va xususiyatlari. Asar Islom fiqhi, xususan, hanafiy fiqhi va fiqhiy nizolar haqida bitilgan. Asar keng qamrovli to‘plam bo‘lib, Hanafiy mazhabi ichidagi kelishmovchiliklar va boshqa mazhablarning fikrlarini bitta asarga jamlaydi. Asarda keltirilgan masalalar va ularning tafsilotlari keng qamrovli bo‘lib, unda faqat asosiy masalalar bilan cheklanib qolinmagan, balki qo‘shimcha va nozik fiqhiy masalalar ham bayon qilingan. Muallif ba’zi baytlarda bir nechta hukmlarni tilga olish uchun qisqacha iboralardan foydalangan. An-Nasafiy uni siyosiy parchalanish va tortishuvlar keng tarqalgan davrda yozgan. Asar fiqhiy munozaralar ko‘paygan davrda yozilgan.

Metodologiyasi. U hanafiy mazhabi tamoyillarini (avvalgi mazhab imomlaridan) to‘plagan va boshqa imomlarning fikrlarini she’riy shaklda taqdim etgan.

Nazm sharhlari. Nazmga sharhlar, masalan, Abu al-Barakat Hofiz ad-Din an-Nasafiy bobosining she'rini izohlovchi "Al-Musaffa fi Sharh Manzumat al-Xilaf" asari mavjud. Unda "Dar al-Manzumat" kitobida tushuntirilganidek, Abu Hafs an-Nasafiyning hayoti va ijodi haqida so'z yuritilgan.

Nazmiy ilmiy-ma'rifiy asar yozgan adiblar juda ko'p. So'fi Olloyor (Sufi Allohyor) ham (1644–1721) Markaziy Osiyodagi eng mashhur diniy-didaktik nazm yaratuvchilardan hisoblangan. "Maslak ulmuttaqin" So'fi Olloyorning shoh asari bo'lib, u 12 ming bayt, 135 ta katta-kichik bobdan iborat. Ilohiy ma'rifatning badiiy talqiniga bag'ishlangan bu asar el orasida shuhrat tutganidan so'ng do'st-u yaqinlari undan turkiy tilda ham shunday bir kitob yozishni iltimos qiladilar. Bunga javoban u "Maslak ulmuttaqin"ni birmuncha qisqartirib, o'zbek tilida nazm bitgan va "Sabot ul-ojizin" deb nom bergan. O'zbek falsafiy didaktik adabiyotining yetuk namunasi bo'lgan ushbu asarda tasavvuf ta'limotining ma'naviy-axloqiy masalalarini keng yoritish bilan u turkiy tasavvuf adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shgan. "Sabot ul-ojiziyn" aqida, fiqh va axloqning nazmiy bayoni, madrasalarda darslik bo'lgan.

So'fi Olloyorning "Murod ul-orifin" nomli nazmiy asari ham mavjud. Asar o'z davri va undan keyingi tasavvufiy tafakkur rivojida muhim o'rin egallaydi. Ushbu asar nafaqat badiiy-adabiy yodgorlik, balki islom aqidasi, tasavvufiy ma'rifat, axloqiy tarbiya va fiqhiy masalalarni o'z ichiga olgan ilmiy manba sifatida qadrlanadi. Asar mazmunining bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaganligi uni nafaqat tarixiy, balki zamonaviy axloqiy-ma'naviy tarbiya uchun ham manba sifatida o'rganishni taqozo etadi [Uljayev, 2025].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek adabiyotida nazmiy uslubda ilmiy-ma'rifiy asar yozgan adiblar juda ko'p bo'lib, ular turli ilmiy sohalarni yoritib berishi bilan ahamiyatlidir. Ularning asarlari asrlar davomida muhim adabiy-ilmiy meros sifatida o'rganilgan va ulardan unumli foydalanilgan. Bugungi kunda ham ushbu asarlar olimlar tomonidan yanada chuqur o'rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tojuddin Yolchiqul. Risolai aziza. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti, 2000.
2. Solihuddin Salimiy, Irshodul Aizina-Sharhu sabotul ojizin. Qozon. Karimiyya matbaasi, 1191.
3. Buyuk yurt allomalari / Tuzuvchi: Ubaydulla Uvatov. – Toshkent, 2020.
4. Sayyid Habibullih ibn Sayyid Yahyohon al-Farg'oniy. "Hidoyat ut-tolibin" – "Sabot ul-ojizin" sharhi. Nashrga tayyorlovchi O. Alimov. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009.
5. "Mavludi sharif" asarlari qiyosiy tahlili, Muxitdinova Gulbahor Rustamdjanovna, Namangan davlat universiteti stajor o'qituvchisi. World scientific research journal, Volume-37_Issue-1_March-2025
6. تاج الدين يال جيقل. رسالهء عزيزة. قازانز 8581. ص851
7. Umarali Uljayev. So'fi Olloyorning "Murod ul-orifiyn" asari – tasavvuf ilmiga oid muhim manba. http //termizi.uz/uz/4729/
8. Karimova S. "Arba'ini Jomiy" hadislarining tarjimasi xususida. https://samxorfil.uz/yangiliklar/arba-ini-jomiy-hadislarining-tarjimasi-xususida http://sofi-olloyor.wikidot.com/publications
9.. https://muslim.uz/uz/e/post/-21878e-tiqod-durdonalari-aqoid-masalalarini -o-rganish-zarurligi-e-tiboridan-taqsimoti www.ziyouz.com

ARAB TILSHUNOSLIGIDA SO‘Z TA’RIFI TARIXIDAN

Siddiqjon Mo‘minov,
Farg‘ona davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori
e-mail: siddiqjon.mominov@bk.ru

Anvarjon Yuldashev,
Farg‘ona davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: anvar_mirzo1972@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada insoniyatning buyuk kashfiyotlaridan biri, til yoki nutqning asosiy birligi, badiiy adabiyotning bosh quroli – so‘z haqida bahs yuritiladi. So‘z muomala madaniyatining asosi sifatida keltirilib, o‘rta asrlarda arab tilshunoslari tomonidan so‘zga berilgan ta’rif va sharhlar tarixiy hamda ilmiy yondashuvda izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *so‘z, nutq birligi, arab tilshunosligi, kalima, lafz, qavl, so‘z hurligi.*

Abstract

The article discusses one of the great discoveries of humanity, the word, the basic unit of language or speech, and the main weapon of fiction. The word is cited as the basis of communication culture, and the definitions and interpretations given to the word by Arab linguists in the Middle Ages are explained from a historical and scientific perspective.

Keywords: *word, speech unit, Arabic linguistics, word, phrase, saying, freedom of speech.*

Asrlar davomida o’z ahamiyati va qadrini saqlab kelayotgan, til yoki nutqning asosiy birligi sifatida ta’riflangan so’z har jihatdan bugungi globallashuv davrida ham insoniyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida o’z kuch-qudratini yuksaltirib bormoqda.

Modomiki, til va nutqning yuzaga kelishi, mavjudligi, shakllanishi va rivojlanishi millat taqdiri bilan bog‘liq ekan, unga asos bo‘lgan insoniyat tarixidagi ijtimoiy ong mahsuli, bashariyatga in’om etilgan noyob ne’mat, nutqning eng asosiy birligi – so‘z va unga berilgan ta’riflar tarixi haqida bahs yuritamiz.

So‘z ta’rifi va sharhi yuzasidan tarixan sharq allomalarining o‘ziga xos yondashuvi va fikrlari mavjud. Biroq o‘rta asrlarda arab tilshunoslarining bu sohadagi ilmiy qarashlari alohida izohga muxtoj. O‘rta asrlarga kelib, sharqda arab tilshunosligi o‘z taraqqiyoti bilan so‘z ilmiga sezilarli hissa qo‘shdi. VII-VIII asr arab tilshunosligining dastlabki markazlari Iroqning Basra va Kufa shaharlari hisoblangan. Basra va Kufa shaharlarida ikkita lisoniy maktab tashkil topgan bo‘lib, ular o‘rtasida tilshunoslikning ko‘pgina masalalari yuzasidan qizg‘in bahslar, munozaralar olib borilgan. Bu lisoniy munozara va bahslar tilshunoslik fanining markazi, Arab xalifaligining poytaxti bo‘lgan Bag‘dod shahriga ko‘chirilganidan so‘ng to‘xtagan.

Arab tilshunoslari o‘z izlanishlari va ilmiy tadqiqotlarining markazida arab tilining lug‘at tarkibi, ya’ni so‘zlarni o‘rganadilar. Arab leksikologlari so‘zlarni turli nuqtayi nazardan izohlaydilar. O‘z izlanishlarida ular so‘zlarning tuzilishini, ma’nosini, kelib chiqishini, qo‘llanish darajasini hisobga oladilar, shunga ko‘ra so‘zlarga baho beradilar.

Arab tilshunosligining asoschilaridan biri Basra grammatika maktabining vakili Xalil ibn Ahmad al-Farohidi (yashagan davri taxminan 718–791-yillar) dastlabki arab tili lug‘atini yaratib, unda so‘z va uning imkoniyatlari yuzasidan asoslovchi qarashlarini bildiradi. U o‘z lug‘atini “Kitobul ayn” (“Ayn harfi kitobi”) deb nomlab, unda so‘z, so‘z turlari, so‘z izohi, so‘zning nutqdagi ahamiyati va grammatikaga oid muhim fikrlarni bayon etadi. Garchi bu asar bizgacha yetib kelmagan bo‘lsa ham,

unining nazariy qarashlari shogirdi, mashhur arab tilshunosi – Amir bin Usmon Sibavayxiy asarlari orqali bizgacha yetib keldi. Xalil al-Farohidining shogirdi, mashhur arab tilshunosi, kelib chiqishiga koʻra fors boʻlgan basralik Amir bin Usmon Sibavayxiy (733-yilda vafot etgan) [Rasulov, 2007: 37] oʻz davri uchun mukammal boʻlgan salmoqli "Al-kitob" asarini yozdi. Muallif ushbu asarda oʻzigacha boʻlgan barcha lisoniy tadqiqotchilarning ta'limotlarini, fikr va qarashlarini umumlashtirdi. U arab tili grammatikasining tugal va mukammal koʻrinishini taqdim etdi. Ushbu asar har ikkala – Basra va Kufa maktabi vakillari tomonidan bir xilda yuqori baholangan va qadrlangan. Mazkur asardan ilhomlangan holda kelib chiqishi asli yunon boʻlgan arab tilshunosi Abu-Abayda (yashagan davri 770–837-yillar) noyob soʻz, ibora va ifodalarning keng qamrovli lugʻatini tuzib, soʻz ifoda qudratining asosiy vositasi ekanligini, soʻz orqali ma'no va mohiyatni ongga yetkazish hamda qabul qilish imkoniyati mavjudligini ta'kidlaydi.

Arablar oʻz tadqiqot va ilmiy izlanishlari natijasida soʻzlarning bir ma'noli va koʻp ma'noli boʻlishini aytadilar. Ular soʻzlarning koʻp ma'noliligi ayni bir soʻzning turli joylarda turli predmet va hodisalarni anglatishidan hosil boʻlishini ta'kidlaydilar. Soʻzlarning tub va koʻchma ma'nolarga ega boʻlishini aytib, koʻchma ma'no hosil boʻlishining 12 usulini ishlab chiqadilar.

XIII asrning oʻrtalarigacha Arab xalifaligi ostida taraqqiy etgan arab madaniyatining klassik davri oʻz qamrovida arab boʻlmagan koʻplab qavmlarni ham birlashtirgan edi. Natijada keng hududlarni oʻz ichiga birlashtirgan Arab xalifaligida boshqaruv tizimini mustahkamlash, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida arab boʻlmagan qavmlar tilini ham oʻrganish, oʻzga til birliklari asosida lugʻatlar tuzish, arablarga boshqa qavm tillarini oʻrgatish yuzasidan asarlar yozish arab tilshunoslari orasida keng tarqaldi. Bu davrda arab tilshunoslari oʻz tillariga qiyoslagan holda fors, moʻgʻul, turkiy til masalalari bilan ham jiddiy shugʻullanganlar. Jumladan, turkiy til masalalari boʻyicha arab tilshunosi Asiruddin Abu Xayyon al-Andalusiy (yashagan davri 1256–1344) arab tilida qator asarlar yozdi. Tarixiy ma'lumotlarga koʻra bu asarlarning oʻndan ortigʻi bizgacha yetib kelgan. Ulardan "Kitobul af'ol fillisoniy turkiya" ("Turk tilidan ish kitobi"), "Kitob zaxvul mulk finnaxvit turkiya" ("Turk sintaksisi sohasidan yorqin kitob"), "Adduratul mudita fil lugʻatit turkiya" ("Turk tili tarixi"), "Kitob al idroki lisonul atrok" ("Turklar tilini tushunish kitobi") kabilar bizgacha yetib kelgan va ilmiy-lisoniy qarashlari bilan umumiy sharq tilshunosligiga salmoqli hissa qoʻshgan. Uning "Kitob al idroki lisonul atrok" ("Turklar tilini tushunish kitobi") asari 1312-yilda arab tilida yozilgan boʻlib, kirish, lugʻat va grammatika boʻlimlaridan tashkil topgan. Muallif asarning kirish qismida til sistemasining tuzilish elementlari, ya'ni tashkil qiluvchilari sifatida lugʻat tarkibini, morfologiya va sintaksisni koʻrsatadi. U asarning kirish qismida tilni tashkil qiluvchi sifatida dastavval lugʻat tarkibidagi soʻzlarni izohlaydi, soʻzga ta'rif va tavsif berish bilan birga alohida olingan soʻzlarning ma'nolarini, soʻzlarning turlanishi va tuslanishining qoidalarini hamda soʻz birikmalarini qayd etadi. Asarning lugʻat qismida turkiy soʻzlar arab alfaviti tartibida joylashtirilgan boʻlib, unda 3000 ga yaqin soʻz jamlangandir.

Arab tilida yozilgan va turkiy tilga bagʻishlangan muallifi noma'lum asarlardan yana biri "At-tuhfatuz zakiyatu fillugʻatit turkiya" ("Turkiy til haqida noyob tuhfa") kitobidir. Asar bizgacha yetib kelgan va XIII–XIV asrga oid deb taxmin qilinadi. Arab tilida yozilgan bu manba professor S.Mutallibov tarjimasi bilan oʻzbek tilida 1968-yilda Toshkentda nashr qilingan. Akademik E.Fozilov va M.T.Ziyayevlar tomonidan 1978-yilda esa asar rus tiliga oʻgirilib, «Изысканный дар тюркскому языку» nomi bilan akademik A.N. Kononov muharrirligida Toshkentda chop etildi. Asarda qipchoq shevasining lugʻat tarkibi va grammatik qurilsihi tasvirlanadi. Asarning kirish qismida til va jamiyat masalasiga e'tibor qaratilib, tilning jamiyatdagi vazifasi, oʻrni va uning tafakkur bilan bogʻliqligi haqida fikrlar beriladi. Muallif: "Inson hayvondan faqat tushunish va soʻzlashish (soʻz kabi ulugʻ ne'matdan foydalana olish) bilangina farq qiladi" [Nurmonov, 2002: 61], – deydi. Demak, asar muallifiga koʻra soʻz ulugʻ ne'mat, undan foydalanish, fikrlash va til yoki nutqda qoʻllash

qobiliyati faqat insongagina xos ekanligi ta'kidlanadi. Binobarin, inson ana shu qobiliyati va so'z qo'llash imkoniyatiga ko'ra o'zgalar bilan, jamiyat a'zolari bilan aloqaga kirishadi, o'zaro aqliy, lisoniy munosabatda bo'ladi.

Arab xalifaligining klassik davri tilshunoslik maktabi, xususan leksikografiyasi keyinchalik Sharq – Eron, Turkiya, qisman hind va Yevropa xalqlari tilshunoslik maktablariga ham katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XIII asrning o'rtalari, aniqrog'i, 1258-yilda Arab xalifaligining poytaxti bo'lgan Bag'dod shahrini mo'g'ullar bosib oladi. Natijada, xalifalik o'z ichida ko'plab alohida davlatlarga bo'linib ketadi. Shu bilan arab madaniyatining klassik davri o'zining nihoyasiga yetadi.

Arab tilida "so'z" كلمة – kalima, لفظة – lafz, قول – qavl kabi so'zlar bilan ifodalanib, garchi bu so'zlar bir xil ma'noda qo'llanilsa-da, arab tilining o'ziga xos xususiyatlari va murakkabligi yuzasidan grammatik izoh va lisoniy matnda ular bir-biridan farq qiladi. Aytaylik, "كلمة – kalima" so'zi birlikda bo'lib, "aniq bir so'z" ma'nosini anglatadi. Keyingi "لفظ - lafz" so'zining asl ma'nosi esa talaffuz qilingan tovush yoki tovushlar yig'indisini ifodalaydi. Arab klassik tilshunoslari "لفظ – lafz" ni ikkiga bo'lganlar:

1. Ma'no anglatuvchi lafz – موضوع.
2. Ma'no anglatmaydigan lafz – مُهمَل.

Yuqorida berilgan "قول – qavl" so'zining "لفظ – lafz" so'zidan farqli jihati esa, u faqatgina ma'no anglatuvchi tovushlar yig'indisini – so'zni ifodalaydi [Akmalxonov, 2019: 2].

So'z va uning gapdagi vazifasi haqida klassik arab tilshunosligida ko'plab ilmiy fikr va izohlar bildirilgan. Bu borada, ayniqsa, tilshunos olim Sirojiddin Abu Ya'qub Sakkokiyning qarashlari ahamiyatlidir. XII asrning atoqli arab tilshunosi sifatida tanilgan Sirojiddin Abu Ya'qub Sakkokiy asli Xorazmning Sakkok qishlog'ida tug'ilgan. Tasrif, ya'ni so'z yasalishi bo'yicha o'ziga xos qarashlarga ega bo'lgan olim arab tili grammatikasiga oid muhim manbaa darajasida bo'lgan "Miftahul ulum" (Ilmlar kaliti) nomli asarini yozgan. Mazkur asarida Sirojiddin Abu Ya'qub Sakkokiy so'z va uning ahamiyati haqida o'z qarashlarini bayon etib, so'zga quyidagicha ta'rif beradi: " الكلمة هي اللفظة الموضوعة للمعنى مفردة " – "So'z – ma'lum bir ma'no ustiga qo'yilgan yaxlit lafzdir" [التوفقية, 2014: 12]. Demak, olim ta'rifiga ko'ra, so'z lafzdir. Yuqorida aytilganidek, arab klassik tilshunoslari lafzni ikkiga, ya'ni ma'noli va ma'nosiz lafzga bo'lganlar. Bu o'rinda asos tovushlar yig'indisi bo'lib, unda mazkur tovushlar yig'indisining ma'no anglatishi yoki anglatmasligi muhim bo'lgan. Sirojiddin abu Ya'qub Sakkokiyning so'z ta'rifiga ko'ra esa, so'z – shunday lafzki, uni tashkil qilgan harflar birgalikda ma'no anglatib, so'z hosil qiladi.

Arablar ichida "Jorulloh", ya'ni "Allohning qo'shnisi", sharqda "Ustod ul-arab va-l ajam", ya'ni "Arablar va g'ayri arablar ustozi", Xorazmda "Faxru Xvarazm", ya'ni "Xorazm faxri" kabi sharafli nomlar bilan mashhur bo'lgan tilshunos olim Mahmud Zamaxshariy (yashagan davri 1075–1144-yillar) so'zga ta'rif berish va izohlash bobida o'z asarlarida bir qator fikrlarni ilgari surgan. Allomaning yozgan va bizgacha yetib kelgan asarlari yuzasidan ilmiy tadqiqotchilarning qator izlanishlariga qaramay, Toshkent davlat sharqshunoslik institutining olimasi M.Nosirova Mahmud Zamaxshariyning tilshunoslikka oid 34 ta asari mavjudligini aytib o'tadi [Nosirova, 2004: 5]. Alloma o'zining "Al-Unmuzaj fi-n-nahv" (Nahv ilmidan namunalar) asarida so'zga "الكلمة مفرد" – "So'z ma'no anglatuvchi birlikdir", deya ta'rif bergan [القاهر, 1990: 4]. Allomaning bu ta'rifini tilshunos Muhammad ibn Abdug'aniy: "So'z birikma bo'lmagan ma'no anglatuvchi tovushlar yig'indisidan iborat birlikdir", deya sharhlaydi. Mahmud Zamaxshariyga oid yuqoridagi asarining keng bayoni hisoblanuvchi "Mufassal fi san'ati al-i'rob" (I'rob san'ati haqida mufassal kitob) asarida so'zga avvalgisiga nisbatan kengroq ta'rif berib, so'zni izohlashda yuqorida keltirilgan "لفظة – lafz" shaklini qo'llaydi: "الكلمة هي اللفظة الدالة على معنى مفرد بالوضع" – "So'z ma'no anglatuvchi (ishora, xat, belgilardan boshqa) murakkab bo'lmagan lafzdir" deyiladi unda [القاهر, 1990: 4].

Arab tilshunos olimlaridan yana biri Muhammad ibn Umar Shalavbin o‘zidan avvalgi va o‘z zamonasining tilshunos allomalariga ko‘ra so‘zga nisbatan boshqacharoq yondashgan. U so‘zni “كلمة – kalima” bilan emas, “لفظة - lafz” so‘zi bilan ifodalab, so‘zga quyidagicha ta’rif beradi: “Mufrad lafz (so‘z yoki ma’no anglatuvchi tovushlar yig‘indisi) ma’noga dalolat qilib, bu so‘zning bo‘laklaridan biri bo‘lmasligi sharti bilan o‘zi ifodalayotgan ma’noning bo‘laklaridan birini ifodalaydi” [الرسالة, 1994: 197]. Ta’rifdagi “mufrad lafz” murakkab bo‘lmagan bir so‘zni ifodalab, uning qismlari shu so‘zni to‘lig‘icha ifodalamaydi. Bu jihatdan Muhammad ibn Umar Shalavbin so‘zning birikmaga aylanish holatini ham mukammalroq izohlaydi. U “Agar lafz ma’noni ifodalab va bu holat ma’noning bir bo‘lagini ifodalab kelsa, bu birikma hisoblanadi” [الرسالة , 1994: 197], deya ta’riflaydi.

XIV asrda yashab ijod etgan arab tilshunosi Abu Muhammad ibn Hishom Ansoriy o‘zidan avvalgi arab tilshunoslaridan farqli ravishda so‘zga ta’rif berishda aniq, qisqa va muxtasarlikni afzal bilib, arabchada “so‘z”ga nisbatan “قول – qavl” so‘zini qo‘llaydi. Ma’lumki, “كلمة – kalima” so‘zi arab tilida gapga nisbatan ham ishlatiladi. Boshqa arab tilshunoslari qo‘llagan “لفظة – lafz” so‘zini qo‘llashda esa uning ma’noli yoki ma’nosiz ekanligini ifodalash uchun qo‘shimcha izohlarni qo‘llash shartliligi o‘rtaga chiqadi. Ta’rifda qo‘llanilgan “قول – qavl” so‘zining “لفظة – lafz” so‘zidan farqli jihati, “قول – qavl” so‘zi faqatgina ma’no anglatuvchi so‘zni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, Abu Muhammad ibn Hishom Ansoriy muxtasarlikni afzal bilib, so‘z ta’rifida “قول - qavl” so‘zini keltiradi va so‘zga quyidagicha ta’rif beradi: “الْكَلِمَةُ قَوْلٌ مُفْرَدٌ – So‘z ma’no anglatuvchi qavldir” [طيبة , 1990: 15].

Arab klassik davri tilshunoslik maktabida so‘z ta’rifi va izohi yuzasidan bildirilgan fikrlar asrlar osha sayqallashib, mukammallashib keldi. Sirojiddin Abu Ya’qub Sakkokiyning “Miftahul Ulum” asarida bildirilgan so‘z ta’rifi keyingi arab tilshunoslari tomonidan bildirilgan mulohazalari asosida to‘ldirildi, mukammallashtirildi. Shunday bo‘lsa-da, so‘z haqdagi keyingi ta’riflar avvalgi ta’riflar xulosasidan kelib chiqdi va takomillashdi. Yuqoridagi o‘rta asrlarda ijod qilgan arab tilshunoslarining so‘z haqdagi ta’riflari bir-birini istisno qilmagan holda to‘ldirib, boyitib borildi. Ularning qarashlari va ilmiy tadqiqotlari asosida so‘z yaxlit bir ma’noni ifodalab, qismlardan tashkil topmaydigan va qismlarga bo‘linmaydigan nutq birligi safatida xulosalandi [Kononov, 1981: 94].

Xulosa shuki, so‘z – ilohiy ne’mat. Shu bois so‘z qo‘llash, uni saqlash, kelajak avlodlarga Yetkazish hamisha ulkan mas’uliyat bo‘lib kelgan. Jamiyat, millat yoki insonga qilinadigan zulm hamisha uning so‘ziga zug‘umdan boshlangan. Tarixan millatimiz bu kabi zug‘um va zulmlarni ko‘p ko‘rdi. Lekin har qanday erk ham so‘z hurligidan ibtido oladi. Shu boisdan so‘z erkinligi hur insonning dastlabki talabi hisoblanadi. Millatimizning og‘ir kunlarida ham xalqimizning so‘zga bo‘lgan munosabati va sadoqati til va nutqimizning o‘zligini saqlab qolishiga zamin yaratdi. Zulmatli davrlarda so‘zimizga qilingan zug‘umlarga dosh berib, so‘z hurligini, nutqimizning sofligini saqlash orqali ifoda qila olgan xalqimiz, tom ma’noda buyuk jasorat ko‘rsatdi. So‘z hurligini, demakki, xalq va millat hurligini hurlik zamoniga qadar yetkazib kela oldilar. Taniqli shoir va jurnalist Azim Suyun yozganidek: “Iste’dod, eng avvalo, o‘zligini izlaydi. O‘zlik esa So‘zda namoyon bo‘ladi” [Yo‘ldoshev, 2018: 4].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov R.. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 2007.
2. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent, 2002.
3. Akmalxonov A.. Arab tilshunosligi tarixida so‘z haqidagi qarashlar. – arabic.uz/maqolalar/ 24.02.2019.
4. د ,القاهرة–.العلوم مفتاح.١٢التوفقية ار .قابل محمد حمدي تحقيق السكاكي محمد بن بكر ابي بن يوسف الامامابويعقوب

5. Nosirova A. O‘rta asrlar arab nahvidan namunalar. – Toshkent: ToshDShI, 2004.
6. النحو في الانموزج شرح .الغني عبد بن محمد الدين جمال العلامةالزمخشريتحقيق .الاداب مكتبة ,القاهرة-.١٩٩٠
7. الاول الكبيرالجزء الجزولية المقدمة العتبيي نزال بن سهو بن تركي تحقيق ,والشلوبين بيروت عمربنمحمد ١٩٩٤ .الرسالة مؤسسة .
8. المجيد عبد الدين محيي محمد تأليف الانصاري هشام حمدبن.الصدى بل و الندى .ابيم قطر١٩٩٠.طيبة مكتبة ,المنورة المدينة
9. Kononov A.N. *История лингвистических учений. Средневековый Восток*. – Leningrad, 1981.
10. Yo‘ldoshev Q. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018.

TASHBEH SAN'ATINING ARAB BALOG'ATIDAGI O'RNI

Olimjon Abdullayev,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
tayanch doktorant
i

Annotatsiya

Ushbu maqola arab balog'atida tashbeh san'atining o'rni va ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tashbeh, ya'ni biror narsani boshqa narsaga o'xshatish orqali ifoda qilish san'ati, arab adabiyotida nafaqat badiiy go'zallikni oshirish, balki fikrlarni aniq va ta'sirli yetkazishda muhim vosita sifatida qabul qilingan. Maqolada tashbehning turli turlari, uning retorik funksiyalari, shuningdek, adabiy matnlarda qo'llanish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada tashbeh orqali obraziylik va so'z san'ati imkoniyatlari ham ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: *tashbeh, balog'at, arab adabiyoti, ritorika, badiiy ifoda, analogiya, tasviriylik.*

Abstract

This article is devoted to studying the role and significance of the art of simile in Arabic rhetoric. Simile, the art of expressing one thing through its resemblance to another, is considered in Arabic literature not only as a means of enhancing artistic beauty but also as an important tool for conveying ideas clearly and effectively. The article analyzes various types of similes, their rhetorical functions, and their usage in literary texts. It also highlights hov similes contribute to imagery and the development of the art of language.

Keyvords: *simile, rhetoric, arabic literature, artistic expression, analogy, imagery.*

Tashbeh so'zi lug'aviy jihatdan o'xshatish, qiyoslash ma'nolarini anglatib, u "shabbaha" fe'lidan yasalgan masdar bo'lib, "bir narsani ikkinchi narsaga o'xshatdi" degan ma'noni ifodalaydi. Ya'ni bir obyektni boshqa bir obyektga o'xshatish orqali tasvirlash tushuniladi.

Balog'at ilmi istilohida esa tashbeh turli olimlar tomonidan xilma-xil shakllarda ta'riflangan bo'lsada, mazmun jihatidan bu ta'riflar bir-biriga yaqin va o'zaro mushtarakdir. Jumladan, Ibn Rashiq tashbehni quyidagicha izohlaydi: tashbeh – bir narsaning boshqa narsaga bir yoki bir nechta jihatdan o'xshatilishidir; ammo bu o'xshashlik barcha jihatlarni qamrab olmaydi. Chunki agar o'xshashlik to'liq bo'lsa, u holda o'xshatilayotgan narsa aynan o'sha narsa bo'lib qolgan bo'lur edi. Masalan, "yonoq gulga o'xshaydi" degan iborada gulning qizilligi va nozikligi nazarda tutiladi, ammo uning markazidagi sarg'ishlik yoki g'unchasidagi yashillik emas. Shuningdek, Abu Hilol Askariy tashbehni shunday ta'riflaydi: tashbeh bir sifatning ikki narsa o'rtasida o'xshashlik asosida bayon qilinishi bo'lib, bunda o'xshatilayotgan narsa o'xshatilgan narsa o'rnini egallaydi. Bu jarayon tashbeh vositasi orqali yoki ba'zan vositasiz ham yuz berishi mumkin. Masalan, "Zayd sher kabi jasur" degan jumla lug'aviy jihatdan aniq o'xshashlikni ifodalamasa-da, urfda maqbul bo'lgan mubolag'ali tashbeh hisoblanadi. Xatib Qazviniy esa tashbehni: "Bir narsaning boshqa bir narsa bilan ma'nodagi mushtarakligini ko'rsatish" [Qazviniy, 2023: 44] deb ta'riflaydi. Bu ta'rif tashbehning mohiyatini ya'ni ikki obyekt o'rtasidagi umumiy jihatni anglatish vazifasini aniq ifodalaydi.

Shuningdek, Tanuxiy tashbehni "o'xshashlik haqida xabar berish" sifatida ta'riflab, uni ikki narsaning bir yoki bir nechta sifatda mushtarak bo'lishi, biroq barcha sifatlarga taalluqli bo'lmasligi bilan izohlaydi.

Balog'at manbalarida tashbehga doir boshqa ko'plab ta'riflar ham uchraydi. Biroq ularning barchasi mazmunan yuqorida keltirilgan ta'riflar bilan mushtarak bo'lib, tashbehning asosiy mohiyatini ochib beradi. Shu ta'riflar majmuasidan kelib chiqib, tashbehga quyidagicha umumiy ilmiy ta'rif berish mumkin:

Tashbeh bir narsa yoki bir nechta narsaning boshqa bir narsa bilan bir yoki bir nechta sifat

jihatidan o‘xshashligini, ochiq yoki yashirin holda kelgan tashbeh vositasi (masalan, kaf harfi va uning muqobillari) orqali bayon etish bo‘lib, u mushabbah va mushabbah bih o‘rtasidagi o‘xshashlikni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash joizki, tamsil (تمثيل) tashbehning (o‘xshatishning) turlaridan biri hisoblanadi. Bu qarash Abdulqohir al-Jurjoniyga mansub bo‘lib, u shunday deydi: “Tamsil tashbeh turlaridan biridir. Tashbeh umumiy tushuncha bo‘lib, tamsil esa undan xosroqdir. Shuning uchun har bir tamsil tashbehdir, ammo har bir tashbeh tamsil bo‘lavermaydi” [Jurjoniy, 2007: 83].

Abdulqohir bu fikrini “Asrar al-Balag‘o” asarining boshqa bir o‘rnida yanada batafsil izohlaydi. U shunday deydi: “Bilgilki, ikki narsa bir-biriga o‘xshatilganda, bu ikki xil yo‘l bilan bo‘ladi: birinchisi o‘xshashlik ochiq va ravshan bo‘lib, hech qanday ta’vil (talqin)ga muhtoj bo‘lmagan holatda; ikkinchisi esa o‘xshashlik faqat muayyan ta’vil va tafakkur orqali hosil bo‘lgan holatda” [Jurjoniy, 2007: 95].

So‘ng u bu fikrni mufassal sharhlab, shuni ta’kidlaydiki, umumiy tashbeh bu o‘xshashlik jihati bitta sifatdan iborat bo‘lgan, ya’ni ikki narsa faqat birgina yoki bir necha alohida sifatda mushtarak bo‘lgan tashbehdir. Tamsiliy tashbeh esa o‘xshashlik jihati birgina sifat emas, balki bir necha unsurlardan tarkib topgan, murakkab holatdan “ajratib olingan” yoki “tasavvur qilib chiqarilgan” umumiy manzara bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Masalan, Buhturiyning o‘z madhiyasida aytgan quyidagi bayti:

“Unga yaqinlashganing sari faqirliging ortadi,

Chunki u saxovat va karam dengizidir undan yanada ko‘proq olgin.”

Abdulqohirning nazarida bu umumiy tashbeh hisoblanadi. Chunki shoir bu yerda madh etilayotgan shaxsni saxovat va karamda dengizga o‘xshatmoqda. O‘xshashlik jihati bu yerda bitta sifat, ya’ni saxovatdir. Demak, bu tashbehda o‘xshashlik jihati mufrad (yakka) hisoblanadi.

Ammo Mutanabbiyning Sayfuddavlani madh etib aytgan quyidagi bayti:

“Xuddi burgut qanotlarini qoqib silkitgandek,

Sen atrofingda qo‘shin ikki yonidan larzaga keladi.”

Abdulqohirga ko‘ra, bu tamsiliy tashbehdir. Chunki Mutanabbiy bu yerda qo‘shin qanotlarining (ya’ni o‘ng va chap tomonlarning), ularning orasida Sayfuddavlaning joylashuvi va umumiy harakat-beqarorligini qanotlarini silkitayotgan burgut manzarasiga o‘xshatmoqda. Bu holatda o‘xshashlik jihati yakka sifat emas, balki bir nechta unsurdan tashkil topgan murakkab tasvir bo‘lib, u harakat, tebranish va ikki tomonlilik holatidan iborat.

Demak, Abdulqohir Jurjoniy tashbehning umumiy turi bilan tamsiliy tashbehni aniq farqlaydi hamda ular o‘rtasida umum va xusus munosabati mavjudligini ta’kidlaydi. Ya’ni, uning nazarida har bir tamsil tashbeh hisoblanadi, biroq har bir tashbeh tamsil darajasiga yetavermaydi. Biroq ko‘plab balog‘atshunos olimlar tashbehga uning lug‘aviy ma’nosi, ya’ni tamsil (o‘xshatish) nuqtayi nazaridan qarab, tashbeh va tamsilni bir-biriga sinonim tushunchalar sifatida talqin qiladilar. Ana shunday balog‘atchilardan biri Ziyouddin ibn Asir bo‘lib, u shunday deydi:

“Men bayon ilmi olimlarining tashbeh bilan tamthilni bir-biridan farqlab, har biriga alohida bob ajratganlarini ko‘rdim. Holbuki, asl qo‘yilish jihatidan bu ikkisi bir narsadir, ularning o‘rtasida farq yo‘q. Chunki “bu narsani u narsaga o‘xshatdim” deyilgani kabi, “uni unga tamthil qildim” ham deyiladi. Bu masalaning shunchalik ravshan bo‘lishiga qaramay, qanday qilib u olimlarga yashirin bo‘lib qolganiga hayronman” [Qazviniy, 2023: 176].

Tashbehning to‘rt rukni mavjud:

– mushabbah (o‘xshatilayotgan narsa);

– mushabbah bih (o‘xshatilayotgan narsa bilan qiyos qilinayotgan obyekt). Bu ikki unsur tashbehning ikki tomoni deb ataladi;

– tashbeh adati “ka-” (ك) yoki unga o‘xshash vosita bo‘lib, u ochiq yoki yashirin holda kelishi mumkin;

– vajhush-shabah ikki tomon o‘rtasida umumiy bo‘lgan sifat yoki sifatlar majmui.

Tashbehning ikki tomoni

Tashbehning ikki tomoni mushabbah va mushabbah bih bo‘lib, ular tashbehning asosiy ruknlari hisoblanadi. Bu ikki unsur bo‘lmasa, tashbeh mavjud bo‘la olmaydi.

Tashbehni ilmiy-metodik asosda tadqiq etgan dastlabki olimlardan biri Qudoma ibn Ja‘fardir. Uning fikricha, tashbehning asosi shundan iboratki, u ikki narsa o‘rtasida umumiy bo‘lgan ma’nolar va har biriga xos bo‘lgan farqli jihatlar mavjud bo‘lishiga tayanadi.

Qudoma bu fikrini shunday asoslaydi: biror narsa o‘z-o‘ziga yoki barcha jihatlari bilan boshqa bir narsaga o‘xshashi mumkin emas. Chunki agar ikki narsa barcha jihatlaridan mutlaqo o‘xshash bo‘lib, ular o‘rtasida hech qanday farq bo‘lmasa, u holda ular bir-biriga aynan tenglashib, ikki emas, bitta narsaga aylanadi.

Shu bois, Qudomaga ko‘ra, eng mukammal tashbeh — bu ikki narsa o‘rtasidagi umumiy sifatlar ularning farqli jihatlaridan ustun bo‘lgan, ya’ni ularni deyarli bir-biriga yaqinlashtiradigan tashbehdir. Bu qarashni Abu Hilol Askariy ham qo‘llab-quvvatlaydi. U ham ikki narsa barcha jihatlaridan mutlaqo o‘xshash bo‘lsa va ular o‘rtasida hech qanday tafovut bo‘lmasa, ular bir narsaga aylanishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u shunday deydi:

“Bir narsani boshqa bir narsaga umumiy tarzda o‘xshatish to‘g‘ri bo‘ladi, hatto ular faqat bitta jihat bilan o‘xshash bo‘lsa ham. Masalan, “Sening yuzing quyoshga o‘xshaydi”, degan iborada bo‘lgani kabi”.

Oy (badr)ga o‘xshatish ham xuddi shundaydir: garchi u oyga na yorug‘lik darajasi, na kattaligi jihatidan teng bo‘lmasa-da, biroq ular orasidagi o‘xshashlik ularni birlashtiruvchi umumiy ma’no — go‘zallik sababli yuzaga keladi.

Agar biror narsa boshqa narsaga barcha jihatlardan to‘liq o‘xshasa, u holda u narsa aynan o‘sha narsa bo‘lib qolardi. Shubhasiz, Ibn Rashiq ham Qudoma ibn Ja‘farning avvalroq bildirgan fikriga e’tibor qaratgan. Qudoma “al-‘Umda” asarida mazmunan shunday deydi: agar o‘xshatilayotgan narsa o‘xshatilgan narsa bilan to‘liq va mutlaq mos bo‘lsa, u holda u aynan o‘sha narsa bo‘lib qolardi.

Masalan, “falonchi dengizga o‘xshaydi” degan iborada dengizning sho‘rligi yoki to‘lqinlanishi emas, balki saxovat va ilm kengligi nazarda tutiladi [Qazviniy, 2023: 206]. Bu fikrlar tashbehning ikki tomoni haqidagi Sakkokiy qarashlari bilan hamohangdir. U shunday deydi: Tashbeh, shubhasiz, ikki tomonni talab qiladi: o‘xshatiluvchi (mushabbah) va o‘xshatilgan (mushabbah bih). Ular o‘rtasida bir jihatdan o‘xshashlik, boshqa jihatdan esa tafovut bo‘lishi shart.

Masalan, birinchi holat: ikki narsa haqiqat jihatidan bir xil bo‘lib, sifat jihatidan farqlanadi – ikki insonning bo‘yi baland-past bo‘lishi kabi.

Ikkinchi holat: sifat jihatidan bir xil, ammo haqiqat jihatidan farqli bo‘lishi – masalan, inson va otning uzunligi.

Agar ikki narsa o‘rtasidagi farq barcha jihatlarda, hatto aniqlanish darajasigacha yo‘qolsa, u holda ko‘plik inkor etiladi va tashbeh bekor bo‘ladi. Chunki o‘xshashlik biror narsani boshqa narsa bilan ma’lum bir sifatda sherik qilishdir. Narsa esa o‘z-o‘zini tavsiflay olmaydi. Xuddi shuningdek, ikki narsa o‘rtasida hech qanday umumiy jihat bo‘lmasa, ularni tashbeh qilish ham mumkin emas. Chunki bu holda mavjud bo‘lmagan sifatni talab qilishga to‘g‘ri keladi.

Tashbeh tomonlarining turlari

Tashbehning ikki tomoni hissiy (ḥissiy) yoki ma’naviy bo‘lishi mumkin.

Hissiy deganda, o‘zi yoki moddasi orqali besh tashqi sezgi ko‘rish, eshitish, ta’m bilish, hid bilish va teginish orqali idrok etiladigan narsa tushuniladi. Shunga ko‘ra, tashbeh tomonlari:

– koʻrinadigan (mubṣar)
– eshitiladigan
– tatib koʻriladigan
– hidlanadigan
– seziladigan boʻlishi mumkin.

Masalan, koʻrish orqali idrok etiladiganlar ranglar, shakllar, miqdorlar, harakatlar va ularga bogʻliq belgilarni oʻz ichiga oladi. Alloh taoloning quyidagi oyati bunga misol boʻla oladi:

"*Ular taralgan paxta kabi boʻlur"*

Bu yerda umumiy jihat oq va qizgʻish rang uygʻunligidir.

Shoirning quyidagi bayti ham shunga misoldir:

Koʻzlar seni sharqdan gʻarbgacha tomosha qiladi,

Sen balandlik va nurda yulduzsan.

Bu baytda madh qilinayotgan shaxs balandlik va porloqlik jihatidan yulduzga oʻxshatilgan. Mazkur parcha tashbeh nazariyasining eng muhim qoidalaridan birini yoritadi: tashbeh mutlaq oʻxshashlik emas, balki maqsadli va cheklangan mushtaraklikka asoslanadi.

Sakkokiy bu orqali tashbehni mantiqiy asosga qoʻyadi va uni na haddan ziyod umumlashtirishdan, na mutlaq tenglashtirishdan himoya qiladi. Ushbu yondashuv Jurjoniydan boshlangan ma'no markazli balogʻat an'analarining Sakkokiy tafakkurida tizimli va nazariy shaklga kelganini koʻrsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulqohir Jurjoniy. Asrorul-balagʻo (أسرار البلاغة). – Damashq/Bayrut: Dar al-Risala,2007. – 304 bet.
2. Abu Ya'qub Yusuf Sakkokiy. Miftaḥul ulum (مفتاح العلوم). – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2000. – 846 bet.
3. Jaloluddin Qazviniy. Al-Izaḥ fi Ulum al-Balagʻa (الإيضاح في علوم البلاغة). – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2023. 416 bet.
4. Jaloluddin Qazviniy. Talxiṣ al-Miftaḥ (تلخيص المفتاح). – Istanbul: Dar al-Lubab, 2021. 424 bet.
5. Mahmud Zamaxshariy. Asas al-Balagʻa (أساس البلاغة). –Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2010. 1392 bet.

TOHIR MALIKNING PORTRET YARATISH MAHORATI

Sarvinoz Rasulova,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya

Bu maqola yozuvchining portret yaratish mahorati haqida bo‘lib, unda adibning portret yaratish yo‘llari Tohir Malik qissasi misolida ko‘rsatilgan. Maqolada portretga bir necha ta’riflar beriladi.

Kalit so‘zlar: *portret, mahorat, qahramon, xarakter, tahlil, uslub, o‘xshatish, jinoyat olami, obraz, badiiy olam.*

Abstract

In given article is characterized art of the writer when making the portrait, here writer shows on for example of the tales Takhir Malik’s.

Key words: *portrait, style, high skill writer, analogy, world crime, image, proverb, artistic product, hero, character.*

Yozuvchining ijodiy mahorati, avvalo, u yaratgan qahramonlar obrazlarida namoyon bo‘ladi. Badiiy adabiyotda qahramon qiyofasi (portreti)ni yaratish san’ati o‘ziga xos an’anaga ega. Eng qadim zamonlardan hozirgi kungacha bo‘lgan adabiyotimizda qahramonning tashqi va ichki qiyofasi yuzlab asarlarda turli ko‘rinishlarda tasvirlangan. Tohir Malikning asarlarida ham bu san’at bor bo‘yi bilan o‘z aksini topgan. U har bir asarida yangi-yangi obrazlar yaratadi. “Shaytanat”da Asadbek, Hosilboyvachcha, Mahmud, Jalil, “Murdalar gapirmaydilar” qissasida Tengiz, Nuriddin, Toshbolta, Tursunali va h.k. Yuqoridagi qahramonlarning barchasi o‘z qiyofasiga ega.

“Falak” qissasi yozuvchining ilk ijod namunalaridan biri hisoblanadi. Qissaning bosh qahramoni – Jahongir. U biofizik olim. Juda katta tajriba ustida necha yillardan beri ishlab kelmoqda. U tinim bilmaydi, doim izlanishda. Shuning uchun bo‘lsa kerak yozuvchi uni quyidagicha tasvirlaydi: “Jahongir yoshligida ham jikkak edi. Qarigach, yana kichrayganday bo‘lib qoldi” [Tohir Malik, 2004:15]. Sinchiklab qaralsa, u o‘zining kashfiyoti (elalloma) bilan barcha fanga yangilik kiritadi. Yozuvchi qahramonlar portretini to‘la tasvirlamaydi, tashqi ko‘rinishiga ham ko‘p e’tibor qaratmaydi. Adib obrazlar portretini qahramon xarakteri bilan birgalikda yoritib beradi. Ijobiy qahramonlarni ularning qilgan yaxshi ishlari, yutuqlari orqali aslida qanday inson ekanligini ko‘rsatadi. Salbiy qahramonlarni esa biroz bo‘rttirib ko‘rsatadi, ularga o‘z munosabatini oshkora bildiradi, asar davomida ularning salbiy xarakterini ham ko‘rsatib beradi: “Abdulvahobning xotiri zaifroq, uquvi aytarli baland emasdi. Madrasaga borish istagi bo‘lmasa-da, otasining po‘pisasidan qo‘rqib rizolik berdi... Abdulvahob! Qorayibdi, ozibdi. Yonoq suyaklari turtib chiqib, ko‘zlari kirtayib, qovoqlari salqib qolibdi. Faqat ovozi o‘zgarmabdi. Yuzidagi kulgichi ham sezilib turibdi...” [Tohir Malik, 2004:26-27]. Birinchi ta’rifdanoq uning bilimga unchalik ham qiziqishi yo‘qligini ko‘ramiz. Faqatgina otasining qistovi va xohishi bilan madarasaga o‘qishga kiradi. Biroq vaqt o‘tib u yerdan ham ko‘rnamaklik qilib haydaladi. Ko‘cha-ko‘yda yuradigan qalandarga aylanadi. O‘ziga o‘xshagan bekorchilarga qo‘shilib hammani g‘iybat qiladi. Hayotining shunday bo‘lishida faqat boshqalarni ayblaydi.

Qissada Sulton va To‘lqin obrazlari ham xuddi shunday qisqa tasvirlanadi: “...Sulton ko‘proq yurganidanmi, yo ochiq havoda ko‘p ishlaganidanmi do‘stlariga qaraganda baquvvat ko‘rinardi. Qotma jussasi, harakati, qarashidagi tetiklik va yashirin shiddat uni ancha yosh ko‘rsatardi. Faqat oqargan chakka sochlariyu qisiq ko‘zlar chetidagi ajin umrning ko‘p qismi ortda qolganidan darak berib turardi” [Tohir Malik, 2004:15]. Sulton arxeolog. U juda ko‘p joylarga ekspedisiya uyushtirish

maqsadida borgan. Fikrlari tiniq, teran, har bir harakati, gap-so‘zlaridan uning qanday odam ekanligi sezilib turadi. To‘lqin esa tamoman boshqa odam. U yozuvchilikni kasb qilgan. Do‘stlari uni xayolparast, yurgan yo‘lida bir nimalarnidir daftarga tushirib, qoralab yuradi, deb ta’riflaydi: “To‘lqin esa do‘stlarining aksi, sochlari qirqni qoralamayoq to‘kilib bitdi. U haddan ziyod semirgan, kichikroq qalam go‘shtdor barmoqlari orasida ko‘rinmay ketardi”.

Tohir Malik qahramonlari portretini chizishda ko‘proq ularning tashqi qiyofasiga emas, balki ularning ichki, ruhiy kechinmalari tasviriga ham alohida e’tibor qaratadi. Buni uning “Murdalar gapirmaydilar” qissasi hamda “Talvasa” romanida ko‘rish mumkin. Toshbolta – “Murdalar gapirmaydilar” qissasining salbiy qahramoni. YOzuvchi uning tashqi qiyofasini deyarli tasvirlamaydi. Qilgan ishlari, asar so‘nggidagi iztiroblari uning kimligini ko‘rsatadi: “Ha-ha! Baribir urdi-ku, Xudo!!! Hali bu ham kam senga, bir tomchi suvga zor bo‘lib o‘lasan. Ha, sen qiynalib o‘lasan, men esa rohatlanib tomosha qilaman... Nima qilayapsiz, – deb so‘radi Toshbolta. Senga kafan bichmoqchiman, – deb javob berdi qaynonasi. Eski ko‘rpachaning astaridan ham kafan bo‘larkanmi? – dedi Toshbolta. Senga bu ham xayf. Itday o‘lib, itday ko‘milishing kerak, – dedi qaynonasi... Qizim, ketma, sen kelib, azoblarim sal nari bo‘layatuvdi. Meni qutqar qizim... O‘zimning azoblarim o‘zimga yetadi, dada. Azob? Qanaqa azob? O‘lgan odamda qanaqa azob bo‘ladi? O‘lim hamma azoblardan qutqaradi-ku? Yo‘q, dada, o‘lim siz bilan men uchun azoblarning boshlanishi...” [Tohir Malik, 2004:194-198]. Bu parchadan ko‘rinib turibdiki, yozuvchi o‘rni-o‘rni bilan qahramonlarning mushohadasi, iztirob-armoni, hasratini yoritib beradi. Kezi kelganda, o‘zi muayyan qahramon xarakterining u yoki bu qirrasini tahlil etadi. Zaruriyat sezilsa, yozuvchi qahramonlarning yashash tarzidagi ikir-chikirlariga, ularning maishiy turmushiga aralashadi, kitobxon bilan muloqotga kirishadi, bahslashadi. Tursunali ham shu qissa qahramoni. U o‘z nafsining quli. U dunyoni mol-mulk, boylik, aysh-ishratdan iborat deb biladi. Boylik oldida ko‘ziga na bolalari, na xotini va na ota-onasi ko‘rinadi. Nafsi yo‘lida ularni qurbon qilishdan ham toymaydi. Uning aslida qanday odam ekanligini yozuvchi mana shu parchaning o‘zidayoq isbotlab, ko‘rsatib beradi: “Tursunali najotni Yaratgandan emas, shu yigitdan kutgan edi. Agar hozir bir mo‘jiza yuz berib, Tangri taolo aytsaki, “Ey odam bolasi, men butun olamlarning yaratuvchisiman, sen ham bandamsan, u ham banamdir. Najotni kimdan kutasan?” deb so‘raganda, nodonlik, jaholat chodiriga tamoman burkanib olgan, ko‘z nurlarini, aql-farosatini shayton ixtiyoriga butkul topshirgan bu banda hech ikkilanmay ikkinchi bandani ko‘rsatar edi (Astag‘firulloh)... U asta yurib ho‘ngrab yig‘lagan holida Tengizga keldi-da, yonida tiz cho‘kdi. Shu yoshga kirib biron marta bo‘lsin Yaratganga sajda qilmagan banda xorlik libosiga o‘ranib ikkinchi bir bandaga tiz cho‘kdi. Tengiz to‘g‘ri aytgan edi: erkakning bu qadar xorlanishidan ko‘ra o‘lib ketavergani ming karra afzalroq” [Tohir Malik, 2004:96].

Tohir Malik asarida bir qator xotin-qizlar obrazlarini ham yaratadi (Matluba, Nafisa, Adolat, Afro‘za, Fotima). Ular o‘z xarakteri, portreti, xatti-harakatlari bilan bir-birlaridan farq qiladi. Yozuvchi bu ayolning portretini o‘zini gapirtirish orqali chizadi. Xarakteriga xos jihatlarni gap-so‘zlari orqali ochib beradi. Voqealarning borishi, rivojida faol ishtirok etadilar. “Murdalar gapirmaydilar” qissasining asosiy obrazlaridan biri – Adolat. U Toshboltaning ikkinchi xotini, Nafisaning o‘gay onasi. Tabiatan qo‘rs, sergap, boylikdan boshqa narsani o‘ylamaydigan yomon xotin va yomon ona...Toshbolta unga odam qo‘ydi. U ham tarang qilib, nozlanib o‘tirmadi. Chunki uning cho‘lga kelishdan maqsadi “cho‘lquvarlik” emas, balki “erquvarlik” edi. Nafisani Tursunaliga ro‘para qilish fikri ham birinchi shu ayoldan chiqqan edi. Eri kasal bo‘lib, tildan, qo‘l-oyoqdan qolganda ham faqat boylikni, o‘zini o‘ylaydi: “O‘lib o‘lmaydi, jonlanib jonlanmaydi. Boshimga bitgan bir balo bo‘ldi. Traktorchiligida yag‘irlarini yuvib qo‘lim qavargan edi, endi isqirtlarini yuvish ham peshonamga yozilgan ekan. Shu savilga tegib men bir ro‘shnolik ko‘rmadim... Ayting, ayting, o‘lib qolmasin, o‘lsa butun yiqqan-terganlarim sovuriladi. Hali ham dorilari hamyonni o‘pirib ketyapti...” [Tohir Malik, 2004:164].

Bu ayol telba desa telbaga o‘xshamaydi, sog‘ desa sog‘ga. Muomala madaniyatining biror ko‘chasidan o‘tmagan. Og‘zidan chiqayotganini qulog‘i eshitmaydi. Shallaqi ayollarni ko‘raverib ko‘zi pishib ketgan tergovchi ham bu ayolni ko‘rib uning “noyob tur” ekaniga amin bo‘ladi. Gaplarini eshitib lol qoladi: “ – Siz biron yerda ishlaysizmi? – deb so‘radi dag‘allik bilan. – Ishlayman, nima shunga boqimanda bo‘lib o‘tiramanmi? Maktabda ishlayman. – Kim bo‘lib, farroshmi? – Vey, nima deyapsiz? Men o‘qituvchiman. Oliy ma’lumotli o‘qituvchiman. – O‘qituvchi?... Maktabning ham, bolalarning ham sho‘ri qurigan ekan unda, – Omonullo shunday deb o‘rnidan turdi” [Tohir Malik, 2004:167]. Darhaqiqat, bu xotin bilan yashagan erkak do‘zax muddatini o‘tab bo‘lgan hisoblanadi. Adolat boylikka ega chiqish maqsadida o‘z qizini yangi raisga qo‘shib huzurlanadi. U insof, vijdon, iymon, mehr-oqibat tushunchalarini o‘zicha anglaydi. Qo‘shning yomon bo‘lsa, ko‘chib qutulasan, xotining yomon bo‘lsa, qo‘yib qutulasan, deyishadi. Biroq Adoldan o‘libgina qutulish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, portret tasvirida qahramonning tashqi ko‘rinishi, ruhiyati hamda xarakterini yaratish yozuvchining mahorati belgisi hisoblanadi. Tohir Malik asaridagi qahramonlari haqida fikr yuritganda, ularga ijodkorga xos tavsif (xarakteristika) berar ekan, asosiy e’tiborni uning tashqi ko‘rinishiga emas, ko‘proq ichki, ruhiy kechinmalariga qaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tohir Malik. Tanlangan asarlarida. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 196.
2. Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 198.
3. Tohir Malik. Tanlangan asarlarida. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 196.
4. Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 198.
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B. 560.
6. Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – B. 189.
7. Qodiriy Sh. Kunlarning birida Tohir Malik. – Toshkent: Yangi kitob, 2020. – B. 126.
8. Shoumarov G‘. Bahsga chorlov. Tohir Malik. Jinoyatning uzun yo‘li. – B. Toshkent: Istiqlol, 2004. – B. 242.

ƏDƏBİYYAT NƏZƏRİYYƏÇİSİ SALİDƏ ŞƏRİFOVANIN ELMİ TƏDQİQATLARINA BAXIŞ

Əliyev Məmməd İrac oğlu,
AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun
"Türk xalqları ədəbiyyatı" şöbəsinin müdiri,
filologiya elmləri doktoru, professor
e-mail: turk_xalqlari_edebiyyati@mail.ru

Xülasə

Filologiya elmləri doktoru, Rusiya Təbiət Elmləri Akademiyasının həqiqi üzvü Salidə Şərifovanın elmi fəaliyyətində ədəbiyyat nəzəriyyəçiliyi, ədəbiyyat tarixçiliyi ilə nəzəriyyəçiliyin sintezi özünü büruzə verir. Nəzəriyyəçi alimin elmi yaradıcılığında milli ədəbiyyatda roman janrının iki mərhələli yaranma nəzəriyyəsi, "roman-hekayətin" janr konstruksiyasının xüsusiyyətləri, müharibə romanın yeni tipinin formalaşması, romanda janr qarışıqlığı nəzəriyyəsi, kreollaşmış romanların romanın xüsusi növü kimi fərqlənməsi və s. kimi aktual nəzəri problemlər özünü göstərir. Salidə Şərifovanın ədəbiyyat nəzəriyyəsi üzrə ədəbi cərəyanlara, xüsusilə postmodernizm, magik realizm cərəyanlarına, dedektivə, epik növün roman janrına və onun janr müxtəlifliyi, müasir irslə bərabər klassik irsin tədqiqi, türk və türkdilli ədəbi irsi tədqiq etməsi, dünya ədəbiyyatı nümunələrini janr baxımdan tədqiqata cəlb etməsi, kreollaşmış romanlara münasibəti yüksək nəzəri səviyyəsi və zənginliyi ilə fərqlənir.

Salidə Şərifova özünün romanlarda janr qarışıqlığı nəzəriyyəsini formalaşdırmış və irəli sürmüş, əsas müddəalarını Rusiya Elmlər Akademiyasında müdafiə etmişdir. Alim janr qarışıqlığına romanın tipoloji müxtəlifliyini şərtləndirən əsas faktor kimi mahiyyətini açıqlayan metodoloji yanaşmanın formalaşdırmağa nail olmuş, janr qarışıqlığının elmi tərifini təyin etmiş, romanda janr qarışıqlığının əsas qanunauyğunluqlarını müəyyən etmişdir. S.Şərifova romanda janr qarışıqlığının formalarını müəyyənləşdirmiş, janr qarışıqlığının istifadə olunan formasından asılı olaraq, romanın janr mahiyyətini açıqlayaraq qruplaşdırmış, romanın janr xüsusiyyətlərini müxtəlif janr qarışıqlıqları formaları çərçivəsində açıqlamışdır.

Açar sözlər: Salidə Şərifova, Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığı, ədəbiyyat nəzəriyyəsi, elmi tədqiqat, nəzəriyyəçi alim

Abstract

The scientific activity of the Doctor of Philology, full member of the Russian Academy of Natural Sciences Salida Sharifova is manifested in the theory of literature, in the synthesis of history and theory of literature. İn the scientific work of the theoretical scientist, the theory of the two-stage emergence of the genre of the novel in Russian literature, the features of the genre construction of the "novel hekayat", the formation of a new type of military novel, the theory of mixing genres in the novel, the identification of creolized novels as a special type of novel, and other such topical theoretical problems are considered. Literary trends of Salida Sharifova in the theory of literature, features of postmodernism, directions of magical realism, detective story, epic novel and its genre diversity, the study of the classical heritage along with the modern heritage, the study of the Turkic-speaking and Turkic-speaking literary heritage with the involvement of examples of world literature in genre studies, its relation to creolized novels are distinguished by a high theoretical level and richness.

Salida Sharifova formulated and put forward her own theory of genre mixing in the novel, the theses of which were tested and put forward for defense within the framework of the Russian Academy of Sciences. The scientist managed to formulate a methodological approach that explains the essence of genre mixing as the main factor that determines the typological diversity of the novel, to give a scientific definition of genre mixing, and to determine the main patterns of genre mixing in the novel. S. Sharifova singled out the forms of mixing genres in the novel, grouped them, explaining the genre essence of the novel depending on the form of genre mixing used, and explained the genre features of the novel within the framework of different forms of mixing genres.

Key words: Salida Sharifova, Azerbaijani literary criticism, theory of literature, scientific research, theoretical scientist

Giriş

Filologiya elmləri doktoru, Rusiya Təbiət Elmləri Akademiyasının həqiqi üzvü Salidə Şərifovanın elmi fəaliyyətində ədəbiyyat nəzəriyyəçiliyi ilə ədəbiyyat tarixçiliyinin sintezi özünü büruzə verir. Salidə Şərifova ədəbiyyat nəzəriyyəsi, Azərbaycan ədəbiyyatında nəsr janrlarının formalaşması, müasir ədəbiyyata dair elmi tədqiqatlar aparmışdır.

Salidə Şərifova ədəbiyyat nəzəriyyəçisi kimi

Salidə Şərifovanın elmi yaradıcılığında milli ədəbiyyatda roman janrının iki mərhələli yaranma nəzəriyyəsi, "roman-hekayətin" janr konstruksiyasının xüsusiyyətləri, müharibə romanı tipinin formalaşması, romanda janr qarışıqlığı nəzəriyyəsi, kreollaşmış romanların romanın xüsusi növü kimi fərqlənməsi və s. kimi aktual nəzəri problemlərə münasibət özünü göstərməkdədir. Salidə Şərifovanın ədəbiyyat nəzəriyyəsi üzrə ədəbi cərəyanları, xüsusilə postmodernizm, magik realizm cərəyanlarını, dedektivi, epik növün roman janrını və onun janr müxtəlifliyini, türkdilli ədəbi irsin müasir ədəbi proseslə müqayisəli tədqiqi, dünya ədəbiyyatı nümunələrinə müraciəti, kreollaşmış romanlara münasibəti yüksək nəzəri səviyyəsi və zənginliyi ilə fərqlənir. O, dünya romanlarında janr qarışıqlığı problemini ciddi tədqiq etmiş nəzəriyyəçi alimlərimizdəndir. Salidə Şərifova janr qarışıqlığına romanın tipoloji müxtəlifliyini şərtləndirən əsas faktor kimi mahiyyətini açıqlayan metodoloji prinsiplərini formalaşdırmağa nail olmuş, janr qarışıqlığının elmi tərifini təyin etmiş, romanda janr qarışıqlığının əsas qanunauyğunluqlarını müəyyən edə bilmişdir.

Professor Salidə Şərifova roman janrını geniş tədqiq etmiş, bu sahədə sözünü demiş mütəxəssislərimizdəndir. Salidə Şərifova universal janr məzmununa malik olan romanın sintetikliyinin artmasını onun potensialının ardıcıl açıqlanmasının nəticəsi kimi təqdim edərək, çoxsəviyyəli semantik nüvəyə malik roman janrının təkamül prosesini onun digər janrlarla dinamik qarşılıqlı əlaqəyə girməsi ilə sıx əlaqəli olmasını göstərir.

Salidə Şərifova romanda müxtəlif janrların, hətta ədəbi növlərin elementlərinin "qarışıqlığı" aparıcı janr faktoru kimi özünü büruzə verməsinə, romanın tipoloji müxtəlifliyinə də toxunmuş, onun müxtəlif tiplərinin bir janrda sabit semantik nüvədə birləşməsini və semantik nüvənin sabitliyinin "janr əlamətlərinin" dəyişməzliyi hesabına təmin edilməsinə elmi izah verir. Salidə Şərifova semantik nüvənin sabitliyini qalan bədii priyomları özlərinə tabe edən dominant bədii priyomların mövcudluğu kimi izah edir.

Filologiya elmləri doktoru Salidə Şərifova XX əsrin 90-cı illərindən başlayaraq, xüsusilə də qərb nəzəriyyəsində, kommunikativ janr nəzəriyyəsinin geniş yayılmasına toxunmuş, K. Bxatyanın janrı kommunikativ hadisə kimi təqdim etməsini, T. Eriksonun janrı kommunikativ pattern (şablon) kimi müəyyən etməsini, T. Lukmanın kommunikativ janr anlayışına müraciət etməsini, janrın kommunikativ anlayışı M.M. Baxtinin mövqeyi ilə uyğun olmasını qeyd edir. Salidə Şərifova M.M. Baxtinin janrı vahid kommunikativ funksiyalarda birləşdirməsini vurğulayır, kommunikativ funksiyasının kompozisiya və bədii üslub vasitəsi ilə həyata keçirilməsini qeyd edir. Kommunikativ funksiyanı janrın əsas funksiyalarından biri kimi qəbul edilməsini vurğulayan Salidə Şərifova L.V. Çerneçin, janrın xüsusiyyətlərini fərqləndirərkən, onların sırasına həmçinin kommunikativ funksiyanı aid etməsinə, V.B. Şklovskinin "kənarlaşdırılma" nəzəriyyəsi çərçivəsində fərziyyələrlə uyğunlaşdırmasına toxunur. Salidə Şərifova kommunikativ durumun dəyişilməsini kommunikativ şablonların toplusu kimi çıxış edən janr sisteminin inkişafına gətirilməsi kimi alimlərin nəzəri müddəalarına isnad edərək, janrın kommunikativ prinsiplərinin kompozisiya və bədii üslub vasitəsi ilə həyata keçirilməsinə diqqət yetirir. Bu prosesin mövcud janrların inkişafı şəklində və ya bir janrın digər janrla əvəz olunması kimi özünü göstərməsini tədqiq edə bilməsi təqdirəlayiqdir.

Salidə Şərifovanın elmi-nəzəri görüşləri

Professor Salidə Şərifova XIX yüzilin sonu, XX yüzilin əvvəllərində yaranmış ilk romanlarımızın ənənələri üzərində yüksəlmiş roman janrını "İlk Azərbaycan romanları" monoqrafiyasında geniş tədqiq etməsini müşahidə edirik. XX əsrin əvvəllərində roman janrının təşəkkül etməsində xidmətləri olmuş M.F. Axundzadə, M.Ə. Talıbov, Z. Marağalı, N. Nərimanov, Y.V. Çəmənzəminli, A. Şaiq, M.S. Ordubadi kimi Azərbaycan yazarlarının, həmçinin Cənubu Azərbaycan yazarlarının

yaradıcılıqlarının az öyrənilmiş və tədqiq edilmiş məqamları tədqiq edilir. Salidə Şərifova "İlk Azərbaycan romanları" monoqrafiyasında ilk Azərbaycan romanlarını dünya romançılığı təcrübəsi kontekstində, Şərq poetikası ənənələri əsasında tədqiq edilməsi, elmi ictimaiyyətə məlum olmayan və ya az məlum olan əsərləri tədqiqata cəlb etməsi elmi yenilik kimi maraq doğurur. Monoqrafiyada müəllif Azərbaycan romanının yaranması haqqında elmi mübahisələrə, ədəbiyyatımızda roman janrının yaranma və təkmilləşmə mərhələlərinə aydınlıq gətirməklə çağdaş roman janrında onların mövqeyini açа bilir. Monoqrafiyada diqqəti cəlb edən maraqlı məqamlardan biri də müəllifin Azərbaycan roman janrının səyahətnamə, sərgüzəşt, məktub, traktat, qissə, boy, namə, əhvalat, fantastika və s. ənənəvi nəsr janrlarından yeni tipli romana gəlişi aydınlaşdırmasıdır. Azərbaycan ədəbiyyatında ilk romanlar haqqında sistemli tədqiqat əsəri olan "İlk Azərbaycan romanları" monoqrafiyasında tədqiq edilən roman nümunələrinin realist-satirik, lirik-psixoloji, lirik-romantik, sentimental-idillik, didaktik-alleqorik, bədii-fəlsəfi, elmi-pedaqoji, fantastik və s. janr xüsusiyyətləri və üslublarına aid olmaları müəllif tərəfindən araşdırılır.

S. Şərifova "Azərbaycan nəsr janrlarının təşəkkül və formalaşması prosesi (XX əsrin əvvəllərinə qədər) monoqrafiyasında XX əsrin əvvəllərinə qədər Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığında təşəkkül tapmış və formalaşmış nəsr janrlarını tədqiq edir. Şifahi xalq ədəbiyyatından qaynaqlanan milli nəsrin təşəkkül və inkişaf prosesi, meydana çıxmış problemli məsələlər, təkamül prosesinin qanunauyğunluqları məsələsi geniş tədqiqat obyektinə çevrilmişdir. "Azərbaycan nəsr janrlarının təşəkkül və formalaşması prosesi (XX əsrin əvvəllərinə qədər)" monoqrafiyasına ön söz yazmış filologiya elmləri doktoru, professor Şamil Salmanov monoqrafiyanı yüksək dəyərləndirərək qeyd etmişdir ki, "tədqiqat işi ədəbiyyatşünaslıq problemlərini, milli ədəbiyyatımızın tarixi təkamülü prosesində janrın konkret imkanlarını, ədəbi janrların spesifik xüsusiyyətlərini, çoxəsrlik ənənələrinin üzə çıxarılmasını əhatə etdiyindən ədəbiyyatşünaslığımızın uğurlu hadisələrindən biridir" (Şərifova, 2005: 4-5).

Professor Şamil Salmanov Salidə Şərifovanın "Azərbaycan nəsr janrlarının təşəkkül və formalaşma prosesi (XX əsrin əvvəllərinə qədər)" adlı monoqrafiyasında konkret olaraq, ədəbiyyatımızda nəsr janrlarının təşəkkül və formalaşması prosesinin əks olunması məsələsinə nəzər salmasına, nəsr janrlarının təşəkkül və formalaşma prosesini və problemin tarixini XX əsrdən daha əvvəlki dövrlərlə bağlamasının elmi maraq kəsb etməsinə də toxunmuşdur. Ş.Salmanov nəzəriyyəçi alimin monoqrafiyada ədəbiyyatımızda janrın təsnifat problemlərinə nəzər salmasını, ayrı-ayrı janrlara məxsus özəl cəhətlərini ətraflı açıqlamasını vurğulaması Salidə Şərifovanın nəzəri biliklərini praktik şəkildə həyata keçirə bilməsini əks etdirir. Monoqrafiyada elmi əhəmiyyət kəsb edən saf və qarışıq janr probleminə Salidə Şərifovanın münasibət bildirməsi və düzgün dəyərləndirilməsinə Şamil Salmanov tərəfindən də münasibət bildirilmişdir: "Bu kontekstdə S.Şərifova tərəfindən milli ədəbiyyatımızda saf və qarışıq janrlar probleminin təhlil edilməsi, "qarışıqlığın" pillələrinin müəyyənləşdirilməsi xüsusi önəm daşıyır. Janrların təsnifatında saf və qarışıqlı olması açıqlanmış, janrların bu fərqli xüsusiyyətləri yalnız növlərarası deyil, həmçinin janrlararası və strukturdaxili müşahidə edildiyi əsaslandırılmışdır" (Şərifova, 2005: 4).

Prof. S. Şərifova "Генезис Азербайджанского романа: жанровые характеристики романа – хекаята и "маленького романа" – "Azərbaycan romanının genezisi: roman – hekayət və "balaca romanlar"ın janr xüsusiyyətləri" adlı monoqrafiyasında XIX əsrin sonu XX əsrin əvvəllərində Azərbaycan ədəbiyyatında roman janrının təşəkkül və formalaşma prosesini tədqiq etməsi ilə diqqəti cəlb edir. Salidə Şərifova milli ədəbiyyatda roman janrının yaranma dövründəki təsnifatını roman və romana bənzər əsərlər olaraq iki qrupa ayırır. Müəllif bu təsnifatı şərti olaraq, "roman-hekayət" və "balaca romanlar" terminləri ilə adlandırır. Salidə xanım "roman-hekayət" və "balaca romanlar" anlayışlarına münasibət bildirir, bu cür roman nümunələrinin janr xüsusiyyətlərini incələyir. Salidə Şərifova "roman-hekayət" və "balaca romanlar" nümunələrinin sayca az olmasına baxmayaraq, onların yeni janr özünəməxsusluğunun təşəkkülündən bəhs edir, bədii nümunələrin ətraflı təhlili ilə əsaslandırır. Monoqrafiyanın rus dilində qələmə alınması Azərbaycan roman janrının təkamül

prosesi ilə həm respublikamızın, həm də başqa ölkələrin rusdilli əhalisinə tanış olmaq imkanı yaradır.

Salidə Şərifovanın "Жанровое смещение в романе: коммуникативно-социокогнитивный подход" – "Romanda janr qarışıqlığı: kommunikativ-sosiokoqnitiv yanaşma" monoqrafiyası Azərbaycan romanlarının müxtəlif aspektlərdən tədqiq sahəsində ədəbiyyatşünaslıqda mövcud olan elmi əsərləri tədqiq etməsi ilə diqqəti cəlb edir. Salidə Şərifova ilk dəfə olaraq, dünya və Azərbaycan yazıçılarının qələmə almış olduqları roman nümunələri əsasında roman janrının müxtəlifliyini, onların növlərinin nəzəri aspektlərini geniş tədqiq edir. Monoqrafiyada müəllif Azərbaycan romanlarının janr müxtəlifliyinin nəzəri aspektlərini geniş və ətraflı tədqiq etməyə nail olur ki, bu da onun elmi nailiyyətlərindən biridir. Müəllif roman janrının folklor, mifologiya ilə əlaqəsini, habelə fantastik, dedektiv tipli romanların səciyyəvi xüsusiyyətlərini, roman janrının roman-səyahətnamə, roman-poema, roman-melodrama, roman-esse və s. növlərini də tədqiq etməsi maraq kəsb edir.

"Çağdaş Azərbaycan postmodern romanı" monoqrafiyası Salidə Şərifovanın elmi nəzəri təcrübəsinin zənginliyini və genişliyini bir daha isbat edir. Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Nizami adına Ədəbiyyat İnstitutunun Elmi Şurasının 17 noyabr 2014-cü il tarixli 12 saylı iclasının qərarı ilə çapa tövsiyə olunan "Çağdaş Azərbaycan postmodern romanı" adlı monoqrafiyada müəllif Azərbaycan ədəbiyyatında kifayət qədər tədqiq olunmamış, sistemsiz xarakter daşımış Azərbaycan postmodern romanlarının yaranması və janr xüsusiyyətlərini geniş tədqiq edir. Bu problemi əhatəli təqdim edə bilən "Çağdaş Azərbaycan postmodern romanı" monoqrafiyasında müəllif postmodernizmin mahiyyətinə, Azərbaycan postmodern romanın bədii təşkili xüsusiyyətlərinə, Azərbaycan postmodern romanının fabulasına, süjet və süjet xətlərinə, obrazlarının açıqlanmasına və digər aktual məsələlərinə nəzər salır. Monoqrafiyada postmodern romanların fabula və süjet məsələlərinə, obrazlarına aydınlıq gətirməklə yanaşı, Kamal Abdullanın "Yarımçıq əlyazma", "Sehrbazlar dərəsi", Sabir Rüstəmxanlının "Göy Tanrı", Anarın "Ağ qoç, qara qoç", Həmid Herisçinin "Nekroloq", Şəmil Sadiqin "OdƏrlər", İlqar Fəhminin "Qarğa yuvası", "Akvarium", Aydın Talıbzadənin "Kəpənək modeli. 102", Şərif Ağayarın "Haramı", Şəbnəm Karslının "2087-ci il", Taleh Şahsuvarlının "Canlanma", Kəramət Böyükçölün "Çöl", Əli Əkbərin "Amneziya", Pərviz Cəbrayılın "Yad dildə", Aqşin Yeniseyin "Göləqarğısancan", Nərmin Kamalın "Aç, mənəm", Elxan Qaraqanın "A", Nicat Məmmədovun "Прогулка" ("Gəzinti"), Elxan Xanəlizadənin "Yol", Hafiz Mirzənin "Son və başlanğıc", Kamran Qasımovun "İyirmi üç ay", Nurəddin Adiloğlunun "Qara sarmaşıq", Akif Əlinin "Dumanlı dağlar" və digər yazarların qələmə almış olduqları əsərlərin postmodern üslubda yazılmış romanlar kimi təhlil obyektinə çevrilməsi postmodernizm cərəyanının Azərbaycan ədəbiyyatında özünəməxsus yer tutmasının təsdiqidir. Maraqlı məqamlardan biri də, Azərbaycan ictimaiyyətində postmodernizm cərəyanına münasibətin birmənalı olmaması, postmodern üslubda qələmə alınmış ilk əsərlərə reaksiyaların sərt olması faktı da nəzəriyyəçi alim tərəfindən monoqrafiyada diqqətə çatdırılır.

S. Şərifova Azərbaycan ədəbiyyatı və mədəniyyətində "postmodernizm" termininin tənqidçi və yazarlar arasında müzakirələrə səbəb olunmasına toxunur, müxtəlif fikir ayrılığının olmasını qeyd edir. Postmodern üslubda əsər qələmə almış Nərmin Kamalın postmodernizmin öldüyü faktını vurğulaması Salidə Şərifova tərəfindən vurğulanır: "Umberto Eko və Postmodernizm fəlsəfəsi" kitabının müəllifi Nərmin Kamal isə postmodernizmin öldüyünü qeyd edir". Postmodernizmin öldüyünü, yəni artıq mövcud olmadığını iddia edən Nərmin Kamal postmodern roman nümunəsi qələmə almış yazarlardan biri kimi təqdim edilir. Nərmin Kamalın "Aç mənəm" əsəri postmodern üslubda yazılmış əsər kimi təqdim edilməsi və postmodern əsər kimi təhlil edilməsi monoqrafiyada diqqəti cəlb edir. Salidə Şərifova postmodernizmə xas əlamətlərdən olan paralel düzülüşə, eyni zamanda bir neçə təhkiyəyə, fraqmentar fabulaya, modelləşdirilmiş süjet xəttinə Nərmin Kamalın qələmə aldığı əsərdə rast gəlinməsi faktına toxunur. Salidə Şərifova Nərmin Kamalın əsərində paralel düzülüşü belə təqdim edir: "Paralel düzülüş prinsipi gənc Azərbaycan yazıçısı Nərmin Kamalın "Aç, mənəm" (2010) əsərində istifadə edilir.

Kompozisiya cəhətdən roman belə qurulub ki, onun hər bir hissəsi hekayəyə aid edilə bilər, amma ümumilikdə əsərin bütün hissələri vahid ideya və müəllif düşüncəsi ətrafında birləşdirilib. Romanın baş qəhrəmanının öz adından imtina edərək, başqa adlar adı altında müxtəlif həyat yaşaması belə tərtibatı mümkün etmişdir". Salidə Şərifova Nərmin Kamalın "Aç, mənəm" əsərində fraqmentar fabulanın postmodern dünyagörüşü ortaya qoymuş Azərbaycanın taleyi barəsində qırx hekayədə rast gəlinməsini qeyd edir. Nərmin Kamalın "Aç, mənəm" əsərində modelləşdirilmiş süjet xəttinin bəzi əlamətlərini özündə əks etdirməsini isə S.Şərifova bunu əsərdə müxtəlif süjet xətlərinin bir biri ilə qarışmasında görür. Əsəri mütaliə etdikcə süjet xəttinin hekayələrdən hekayələrə inkişaf etməsinin şahidi olursan.

Azərbaycan ədəbiyyatının inkişaf mərhələsinin müəyyən tarixi məqamlarını, tarixi şəraitə uyğun konkret təzahür formaları kimi çıxış edən ədəbi cərəyanlara münasibət, bədii əsərin xüsusiyyətini, ədəbi növlər və janrları, bədii əsərlərin inkişaf xəttini və s. Salidə Şərifovanın "Ədəbi prosesə nəzəri baxış (tənqidi məqalələr – 2003-2005-ci illər)", "Ədəbi prosesə nəzəri baxış (tənqidi məqalələr – 2006-2007-ci illər)", "Klassiklər və müasirlər söz müstəvisində" kimi məqalələr toplularında müşahidə edilir. "Ədəbi prosesə nəzəri baxış (tənqidi məqalələr – 2003-2005-ci illər)" məqalələr toplusunda alimin 2003-2005-ci illər ərzində qələmə alınmış tənqidi və elmi məqalələri özündə əks etdirməsi elmi maraq doğurur. Topluda klassik felyetonlarda Azərbaycançılıq çağırışının özünü göstərməsi, "Qarabağ romanı" janrının tədqiq edilməsi, Elçin Mehrəliyevin "Doxsanıncı illər" romanının "Qarabağ romanı" janrının nümunəsi kimi tədqiq edilməsi, Əflatun Saraclının lirik şeirləri haqqında düşüncələri, Azərbaycan nəsrinin tərcüməsi ilə bağlı problemlərə aydınlıq gətirməsi, janr istilahının etimologiyasını, ədəbiyyatşünaslıqda nəsr janrların təsnifatını, hekayə janrının, sərgüzəşt janrının əsas xüsusiyyətlərinə aydınlıq gətirməsi və s. məsələlər əksini tapır. Kitabda müəllifin Ağa Mirzə İsmayıl Asəfin "Dastani-Şükufət-Sərgüzəşti-Yetiman", A. Bakıxanovun "Kitabi-Əsgəriyyə", Nizami Gəncəvinin "Xəmsə"sinin janr xüsusiyyəti, Mir Mövsüm Nəvvab haqqında qələmə alınmış kitaba münasibəti, Nüşabə Araslının "Nizami poetikası" kitabı haqqında elmi mülahizələri də yer alır. "Ədəbi prosesə nəzəri baxış (tənqidi məqalələr – 2003-2005-ci illər)" məqalələr toplusu ədəbi fikrin bir sıra milli, spesifik xüsusiyyətlərinə, ədəbi proses və görkəmli şəxsiyyətlərin görüşlərini əhatə edən elmi və tənqidi məqalələr ədəbiyyatşünaslığın uğurları kimi dəyərləndirilməlidir. Salidə Şərifovanın məqalələr toplusunda yer almış "Azərbaycan nəsrinin tərcüməsi ilə bağlı problemlər" adlı məqalədə tərcüməçilik problemləri işıqlandırılmış, milli tərcüməçiliyin tarixinin XIX əsrlə deyil, daha qədim tarixlə bağlaması diqqəti cəlb edir. Salidə xanım tərcümə ədəbiyyatının təsiri nəticəsində milli ədəbiyyatımızın süjet və janr baxımından zənginləşməsinə, Azərbaycan ədəbiyyatında uşaq ədəbiyyatı kimi müstəqil qolunun formalaşmasına təsiri amillərinə toxunur. Salidə xanım tərcümə işinə yaradıcı şəkildə yanaşmağı tərcümənin yüksək bədii keyfiyyətini təmin edən amil olmasını da vurğulayır, orijinal əsərin həm ideyasını, həm də bədii xüsusiyyətini olduğu kimi saxlanmasını təbliğ edir.

S. Şərifova "Ədəbi prosesə nəzəri baxış (2006-2007-ci illərin tənqidi məqalələri)" adlı məqalələr toplusunda ədəbiyyatşünaslıq məsələlərinə yeni metodoloji yanaşması ilə diqqəti cəlb edir. "Milli ədəbiyyatda poeziya məsələlərinə dair" və "Azərbaycan romanlarının özəlliklərinə dair" iki hissədən ibarət olan məqalələr toplusunda klassik poeziyamızda janrların yaranması və inkişafına, poeziyada istifadə edilmiş motiv və obrazlara, roman janrının genezisi və inkişafı, həmçinin "Qarabağ romanı" kimi yeni tip romanın yaranmasına toxunur. "Ədəbi prosesə nəzəri baxış (2006-2007-ci illərin tənqidi məqalələri)" adlı məqalələr toplusunda Əfzəlləddin İbrahim Xaqani Şirvanının "Töhfətül-İraqeyn" əsərinin janr mənsubiyyəti, Məhəmmədhüseyn Şəhriyarın Cənubda anadilli şeirimizin ən yüksək zirvəsi kimi təqdim edilməsi, Anarın "Ağ qoç, qara qoç" əsərində milli yol axtarışı, Sabir Rüstəmxanlının "Göy Tanrı" romanının ideoloji mahiyyəti, əsas obrazlarının təhlili, Əlibala Hacızadənin "Möcüzə" romanında süjet xəttinin və obrazların təsvir özəllikləri və s. əksini tapır. "Ədəbi prosesə nəzəri baxış (2006-2007-ci illərin tənqidi məqalələri)" adlı məqalələr toplusu problemli məsələlərə yeni yanaşması, nəticələrin elmi-praktikliyi ilə əhəmiyyət kəsb edir.

Məsələn, "Azadlıq carçısı – Məhəmmədhüseyn Şəhriyar" adlı məqalədə Türk dünyasının böyük oğlu Məhəmmədhüseyn Şəhriyarı Azərbaycan azadlıq carçısı kimi dəyərləndirən Salidə Şərifovanın Şəhriyarın milli kökə, tarixə, adət-ənənələrə çağırışı barədəki mülahizələri maraq kəsb edir. Salidə xanım Şəhriyarın Vətənə məhəbbətindən irəli gələn müstəmləkəçi rejimə olan nifrətini şairin yaradıcılığında əks etdirməsi məsələlərinə nəzər salır. Müəllif məqalədə şairin düşmənlə mübarizə apararaq, Azərbaycan torpağının birliyinin bərpası ideyasını yaradıcılığında əks etdirməsi amilinə də toxunur. Salidə xanım məqalədə şairin hələ birləşməyən, bütövləşməyən Vətənin dərdini qələmə almasını təhlil obyektinə çevirir. Müəllif Azərbaycan romanının janr müxtəlifliyinin nəzəri aspektlərini, romanın janrlar daxilində differensiyalaşmasını, digər janrlarla sintezini isə "Azərbaycan romanının xüsusiyyətləri və janr müxtəlifliyinin nəzəri aspektləri" yazısında təqdim edir. Salidə Şərifovanın bir alim kimi ədəbiyyatşünaslıqda roman janrının təsnifatı məsələsinə nəzər salması, onun tarixini XX əsrdən daha əvvəlki dövrlərlə əlaqələndirməsi elmi əhəmiyyət kəsb edir.

Salidə Şərifovanın "Klassiklər və müasirlər söz müstəvisində" adlı məqalələr toplusu problemli ədəbiyyatşünaslıq məsələlərinə yeni yanaşma və nəticələrin elmi aktuallığı baxımdan əhəmiyyət kəsb etməsini nəzərə alaraq AMEA Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutu Elmi Şurasının 25 iyun 2018-ci il tarixli iclasının (9 saylı protokol) qərarı ilə çapa tövsiyə edilmişdir. Ədəbiyyatşünaslığımızın ədəbiyyat nəzəriyyəsi, ədəbi tənqid, ədəbiyyat tarixi, müasir poeziya və nəsr kimi problemlərini özündə əks etdirən bu kitabda müəllif Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığının inkişafında mühüm xidmətləri olmuş elm xadimlərinin elmi fəaliyyəti barədə xüsusi araşdırmalar aparmış və onları elmi ictimaiyyətimizə təqdim etmişdir. "Klassiklər və müasirlər söz müstəvisində" adlı məqalələr toplusundakı elmi məqalələr məntiqi cəhətdən biri digərini tamamlayan bütöv monoqrafik əsər kimi də qəbul edilə bilər.

Kitabda son vaxtlar maraq doğuran problemli məqamlara aydınlıq gətirilir. Kitabda Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığının əsas tədqiq obyektləri və tədqiqat istiqamətləri, Çağdaş Azərbaycan bədii dilinin inkişaf özəllikləri və problemləri, "Qadın nəsri" anlayışının nəzəri problemləri, postmodern anlayışının yaranması və janr xüsusiyyətləri, Azərbaycan postmodern nəsri, poeziyası və dramaturgiyası, çağdaş Azərbaycan bədii detektivi, romanlarda soyqırım mövzusu, islam refleksiyasının aksioloji və antoloji amilləri, kreollaşmış romanın dünya və Azərbaycan ədəbiyyatında genezisi, əsas janr xüsusiyyətləri kimi problemləri tədqiq edən məqalələr ədəbiyyat nəzəriyyəsinin müasir aktual problemləri baxımından geniş təhlili əhəmiyyət kəsb edir.

Kitabda ədəbiyyat tarixçiliyi ilə ədəbiyyat nəzəriyyəsi müəllif tərəfindən sintez edilərək təqdim edilir: "Bu özünü Əhməd Yasəvinin bədii və fəlsəfi-dini irsi haqqında, Məhtimqulu Fəraqi irsinin türkmən və ümumtürk dəyərlər qovşağında, müasir Azərbaycan romanında Nəsimi obrazına müraciətdə və digər problemli məsələlərin tədqiq edilməsində özünü göstərə bilmişdir" (Əliyev 2021, 281-284).

S. Şərifova Çingiz Aytmatovun postsovet ədəbi irsini, Ceyhun Hacıbəylinin "Bir il xəyallarda və bütöv bir ömür" roman-essesinin janr formasını, cənub şəhərinin detektiv yazarı Çingiz Abdullayevin irsini, Aqil Abbasın "Dolu" romanının süjet xəttinin özəlliklərini, Şəmil Sadiqin "OdƏrlər"inin milli təkamül yolunu, Tahir Kazımovun "Qırmızı rəng" romanında müasir qərb cəmiyyətində ədalət böhranının bədii təsvirini, Vaqif Sultanlının "İnsan dənizi" əsərinin bədii üslub palitrasını, **İlqar Fəhminin "Evtanaziya" kinoromanının janr xüsusiyyətlərini və s.** ədəbiyyat tarixçiliyi ilə ədəbiyyat nəzəriyyəsinin sintez edərək təqdim edir.

Kitabda Rəsul Rzanın keçmişdən müasirliyə, qulluqdan vətəndaşlığa, Şimaldan Cənuba, millilikdən ümumbəşəriliyə yüksəlişinin bədii təcəssümün əks olunması ictimaiyyətin diqqətindən yayınmamışdır. Salidə Şərifovanın Xalq şairi Rəsul Rzaya həsr etdiyi bu məqalə yüksək dəyərləndirilmiş, 19 may 2017-ci ildə Rəsul Rza adına Ədəbiyyat Fondunun "Rəsul Rza mükafatı"na layiq görülmüşdür.

"Filologiya elmləri doktoru Salidə Şərifovanın nəzəri biliklərə dərindən bələd olan peşəkar alim

olması haqqında danışdığımız əsərində özünü bir daha təsdiq edə bilir. Salidə Şərifovanın qələmə aldığı məqalələr ədəbiyyat nəzəriyyəsini dərindən bilən müəllif qələminin məhsuludur.

Əsərlə tanış olduqca mövzuların müxtəlif və rəngarəng olması ilk növbədə diqqəti cəlb etməklə Salidə Şərifovanın həm milli, həm dünya ədəbiyyatına dərindən bələd olmasını göstərmişdir" (Əliyev, 2021: 281–284).

Xalq şairi Sabir Rüstəmxanlı yaradıcılığının janr müxtəlifliyi Salidə Şərifova tərəfindən geniş şəkildə tədqiq edilən "Sabir Rüstəmxanlı yaradıcılığının janr müxtəlifliyi" adlı monoqrafiyası Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyasının Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun Elmi Şurasının 28 fevral 2020-ci il tarixli iclasının (02 saylı protokol) qərarı ilə çapa tövsiyə olunub. Nəzəriyyəçi alim Salidə Şərifova Sabir Rüstəmxanlının "Orxanla görüş", "Atəş böcəyi", "Azərbaycan irticası", "Cavad xan", "Vətənsiz", "Bütövlük", "Didərginlər" və s. poemalarını, "Acı xatirə", "İnansa Təbriz deyil!", "20 Yanvar xatirəsi", "Xocalıdan sonra" və s. poetik nümunələri, "Yardımlıya dönərkən", "Son", "Neyləyim", "Qorusun", "Dözüm", "Gözünü yumdunmu", "Güvənmirəm", "Yumruqlar çiçək açıb", "Tapşır məni", "Gizlət məni", "Vida qabağı", "Çəkdim sinəmə tüstütək" və digər poetik nümunələrini, "Göy Tanrı", "Ölüm zirvəsi", "Difai fədailəri", "Sunami", "Şair və Şər", "Akademikin son əsəri" kimi romanlarını, "Tanımaq istəsən", "Xəbər gözləyirəm", "Gəncə qapısı", "Sağ ol, ana dilim!", "Qan yaddaşı", "Zaman məndən keçir" kimi şeir kitablarını, "Astar" kitabında əksini tapmış hekayələrini, epistolyar məktublardan ibarət "Milli taleyimiz və biz" (Güntay Gəncalp Bayandırlı və Saleh Məhmətlə məktublaşmalarım), "Ömür kitabı", "Atamın ruhu", "Xətai yurdu", "Bu sənin xalqındır" və s. əsərlərini janr baxımından monoqrafiyasında geniş şəkildə tədqiq edir.

Xalq şairi Sabir Rüstəmxanlının zəngin və əhatəli yaradıcılığının janr müxtəlifliyinin və xüsusiyyətlərinin özünü müxtəlif aspektdən göstərməsi tədqiqatçı tərəfindən vurğulanır. Monoqrafiyada Salidə Şərifovanın Sabir Rüstəmxanlı yaradıcılığında janr qarışıqlığının müxtəlif xarakter daşımasına toxunması, ədibin yaradıcılığında ədəbi nümunələrin iştirak etmə xüsusiyyətindən və janrlarla qarışıqlı əlaqəsindən asılı olaraq, qarışıqlığın növlərarası, növlərdaxili və janrdaxili qarışıqlıq kimi üç formasının özünü göstərməsinin büruzə verməsi elmi maraq kəsb edir. Monoqrafiyada ədəbiyyatımızda az rast gəlinən "balaca romanlar"ın Sabir Rüstəmxanlı yaradıcılığında rast gəlinməsi məqamı da maraq doğurur: "Sabir Rüstəmxanlının yaradıcılığında maraq doğuran məqamlardan biri müəllifin yaradıcılığında "balaca romanlar"a üstünlük verməsidir. Sabir Rüstəmxanlının "balaca romanlar"ında əsərin ideyasını, məzmununu, süjetini, münaqişəsini qısa şəkildə əks etdirə bilir. Müəllif Sabir Rüstəmxanlının "Astar" kitabına daxil edilən romanlarla Azərbaycan ədəbiyyatında özünü göstərmiş "balaca romanlar" janrının ənənəsini davam etdirməsini qeyd edir. Salidə Şərifova "balaca romanlar"ın əsl sosial gündəlik romanlar olmamasına toxunaraq, ideoloji əhəmiyyətli problemləri və insan həyatından olan aktual problemləri əks etdirə bilməsini göstərir. Salidə Şərifova Sabir Rüstəmxanlının "balaca romanlar"ın problematikasında cəmiyyətdə çətinliklərlə üzləşən insanlara yardım əlinin uzadılmaması, insanların daima üzləşdikləri sosial problemləri əhatə etməsini göstərə bilir" (Əliyeva, 2021: 7).

Xalq şairi Sabir Rüstəmxanlı Salidə Şərifovanın elmi yaradıcılığını, həmçinin özü haqqında olan monoqrafiyanı yüksək dəyərləndirməsi də nəzəriyyəçi alimin elmi yaradıcılığına verilən dəyərdir: ""Elm və təhsil" nəşriyyatı tanınmış ədəbiyyatşünas alim, filologiya elmləri doktoru, professor, bir sıra dəyərli ədəbiyyatşünaslıq və bədii nəsr əsərlərinin müəllifi Salidə Şərifovanın "Sabir Rüstəmxanlı yaradıcılığının janr müxtəlifliyi" adlı elmi monoqrafiyasını nəşr etmişdir. Kitabı mənə aid olduğuna görə yox, bir ədəbiyyatşünas gözüylə diqqətlə oxudum və razı qaldım. Salidə xanım ciddi nəzəri hazırlığı olan, ədəbi prosesi diqqətlə izləyən, sözün və sözünün dəyərini bilən alimlərimizdəndir. Ona böyük zəhmətinə görə təşəkkürümü bildirirəm... Var olsun!" (Rüstəmxanlı, 2021).

Salidə Şərifovanın Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun Elmi Şurasının 9 dekabr 2020-ci il tarixli iclasının (6 saylı protokol) qərarı ilə "Qanun" nəşriyyatında işıq üzü görmüş "Fərəc Fərəcov yaradıcılığının problematikası, janr müxtəlifliyi və bədii

xüsusiyyətləri" adlı monoqrafiyasında Naxçıvan Muxtar Respublikasının Əməkdar jurnalisti, şair, yazıçı, publisist Fərəc Fərəcovun yaradıcılığı geniş şəkildə tədqiq edilir. Fərəc Fərəcovun həyatının, bədii və elmi publisistikasının, qələmə aldığı nəzm və nəsr əsərlərinin problematikasının, janr müxtəlifliyinin və bədii xüsusiyyətlərinin geniş təhlil edilərək ictimaiyyətə təqdim edilməsi təqdirəlayiqdir.

Akademik İsa Həbibbəylinin monoqrafiyanın "Əməldə və əsərlərində özünüifadə nümunəsi" adlı ön sözündə monoqrafik tədqiqatı Fərəc Fərəcovun yaradıcılıq fəaliyyətinin danışan dili kimi qiymətləndirməsi əsərə verilən dəyər kimi qəbul edilməlidir: "Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Nizami Gəncəvi adına Ədəbiyyat İnstitutunun baş elmi işçisi, filologiya elmləri doktoru Salidə Şərifovanın "Fərəc Fərəcov yaradıcılığının problematikası, janr müxtəlifliyi və bədii xüsusiyyətləri" adlı monoqrafiyasında ilk dəfə olaraq yazıçı-publisistin həyatı və yaradıcılıq yolu geniş şəkildə təhlil olunub elmi cəhətdən qiymətləndirilmişdir. Yaxşı cəhətdir ki, Salidə Şərifova Fərəc Fərəcovun yaradıcılığını yalnız mövzu dairəsinə və ideya cəhətdən aktuallığına görə deyil, həm də bədii-sənətkarlıq xüsusiyyətləri ilə birlikdə tədqiq edib nəzəri cəhətdən ümumiləşdirir. Təqdim olunan monoqrafiya yaradıcılığı az tədqiq və təbliğ olunmuş Fərəc Fərəcovun ədəbi portretini açıb göstərən əhəmiyyətli elmi oçerklərdir. Tanınmış yazıçı-publisist Fərəc Fərəcov haqqında yazılmış kitab əməlləri və əsərləri ilə özünü həyatda və ədəbiyyatda təsdiq etmiş təmkinli Azərbaycan ziyalısı və özünəməxsus xidmətləri olan yazıçı-publisist Fərəc Fərəcovun yaradıcılıq fəaliyyətinin "danışan dili", elmi dərkidir" (Həbibbəyli, 2021: 9-10).

S. Şərifova "Fərəc Fərəcov yaradıcılığının problematikası, janr müxtəlifliyi və bədii xüsusiyyətləri" monoqrafiyasında Fərəc Fərəcovun qələminə məxsus bədii və publisist əsərləri geniş təhlil süzgəcindən keçirə bilməsi, yazarın xalqın tarixi yaddaşına həkk olunmuş soyqırım məsələlərinə toxunmaqla tarixi keçmişi günümüzə çatdırması məqamına da aydınlıq gətirir. Salidə Şərifova Fərəc Fərəcovun qələmə aldığı miniatürləri, hekayələri, povestləri, romanları, poemaları, şeirləri və s. bədii nümunələri ilə milli ədəbiyyatın inkişafındakı müəyyən xidmətlərini bir nəzəriyyəçi alim kimi göstərir.

Salidə Şərifova Fərəc Fərəcovun "Cavabsız sevgi", "Hekayələr" kimi povest və hekayələr toplularını, "Aydın sabahlar", "Ömür bir nağıldır" romanlarını, "Vətən qürurumdur mənim", "Elə bağlıyam" şeirlər toplularının, "Müstəqillik yollarında" poemasını, "Culfa şəhidləri", "Yayçı soyqırımı", "Yayçı yetirmələri", "Sən olmasaydın", "Sənət məbədinin sənətçiləri", "Jurnalist", "Muxtar respublika mətbuatı: dünən və bu gün" publisist kitablarını janr və problematika baxımından geniş tədqiq edərək ictimaiyyətə təqdim etməsi təqdirəlayiqdir.

Azərbaycan ədəbiyyatında Qarabağ probleminin əks etdirilməsi aktual problem kimi diqqət mərkəzindədir. Ədəbiyyatımızda qələm sahibləri Qarabağ müharibəsini və problemlərini müxtəlif ədəbi janrlarda qələmə aldıqları əsərlərində milli və özünəməxsus özəllikləri vurğulamağa çalışırlar. Filologiya elmləri doktoru Salidə Şərifova "Müstəqillik dövrü Azərbaycan ədəbiyyatında Qarabağ mövzusunu əks etdirən əsərlərin problematikası, janr müxtəlifliyi və xüsusiyyətləri" monoqrafiyasında ədəbiyyatımızda Qarabağ mövzusunu əks etdirən əsərlərin problematikası ilə yanaşı, əsərlərin qələmə alındığı janr müxtəlifliyinə və onlara məxsus xüsusiyyətlərə aydınlıq gətirir.

Monoqrafiyada Salidə Şərifova problemi həm xronoloji ardıcıllıqla, həm də janr baxımından izləyir. Müstəqillik dövrü Azərbaycn ədəbiyyatında Qarabağ mövzusunu nəzmdə, nəsrdə, dramda, publisistikada, elmi tədqiqatlarda işlənmə xüsusiyyətlərini geniş tədqiq obyektinə çevirir. Salidə Şərifovanın tarixilik baxımından bu mövzunu Birinci Qarabağ müharibəsi və 44 gün davam edən Vətən müharibəsi kimi iki tarixi mərhələdə təhlilə cəlb etməsi elmi əhəmiyyət kəsb edir. Akademik İsa Həbibbəyli monoqrafiyaya yazdığı ön sözdə bu məqamı belə vurğulayır: "Salidə Şərifova XX əsrin 90-cı illərindən XXI əsrin bizim günlərə qədərki zaman axarında Qarabağ mübarizəsini əks etdirən bədii ədəbiyyatı Birinci Qarabağ müharibəsi və Vətən müharibəsi dövrlərinin ədəbiyyatı kimi iki qismə ayırması təqdirəlayiqdir. Müəllif 2016-ci il dördgünlük Qarabağ müharibəsini də nəzərdən qaçırmır, Aprel döyüşlərinin bu iki müharibə arasında keçid rolunu oynamasını xüsusi

olaraq vurğulayır. Tədqiqatçımızın dövrün ədəbiyyatına və ədəbi prosesinə sistemli yanaşması mövzunun uğurlu elmi həlli baxımından əhəmiyyətlidir" (Həbibbəyli, 2022: 8).

Salidə Şərifova ədəbiyyatımızda müxtəlif janrlarda qələmə alınmış bədii nümunələrin müxtəlif növ və janrlarda təşəkkül və formalaşması prosesinin əks olunması məsələsinə xüsusi diqqət ayırması elmi maraq doğurur. Müəllifin Qarabağ müharibəsi və "Qarabağ romanı", Qarabağın və Azərbaycanın digər rayonlarının işğalına şərait yaratmış xarici və daxili amillərin təsviri, erməni millətçiliyinin "varisliyi", erməni işğalçısının təsviri, erməni əsirliyinin əksi, ən əsası isə zəfərimizin, Vətən müharibəsinin qalibiyyətinin təsviri bu baxımdan əhəmiyyət kəsb edir. Monoqrafiyada maraqlı məqamlardan biri də, müəllifin professional nəzəriyyəçi alim kimi toxunduğu və elmi əhəmiyyət kəsb edən janr qarışıqlığı anlayışına, növdaxili, növlərarası janr qarşılığı olması faktlarına, "Qarabağ romanı" janrının formalaşmasına aydınlıq gətirməsidir. Müəllif "Qarabağ romanı" janrını növdaxili janr qarışıqlığının nümunəsi kimi təqdim edir. Bu təqdimat mübahisəli olsa da, elmi və nəzəri sübutları ilə mübahisələrə son qoyur. Müəllif "Qarabağ romanı" adlandırdığı yeni roman tipinə aid nümunələrin müharibə romanı ilə oxşar və fərqli xüsusiyyətlərə malik olmasına toxunur. "Qarabağ romanı" janrında qələmə alınmış əsərlər kimi Elçin Mehrəliyevin "Doxsanıncı illər", Aqil Abbasın "Dolu", Fazil Günayın "Qara qan", Nüşabə Məmmədlinin "Zəngülə", Mahirə Abdullanın "Əvvəl axır" və s. əsərləri təhlil edilir. Bu əsərlərdə Azərbaycanın tarixi ərazilərindən olan Qarabağın və ətraf rayonlarının işğalı və erməni millətçiliyinin yaramaz mahiyyəti təhlil obyektinə çevrilir. Salidə Şərifova monoqrafiyada romanda sənədli, tarixi faktların əks etdirilməsi amilinə, növlərarası janr qarışıqlığının nümunələrinin formalaşması faktına da biganə qalmır. Qarabağ mövzusunu əks etdirən əsərlər tarixi və bədii gerçəklik fonunda janr, mövzu, obraz və s. baxımından geniş elmi təhlilini tapır.

S. Şərifova "Müstəqillik dövrü Azərbaycan ədəbiyyatında Qarabağ mövzusunu əks etdirən əsərlərin problematikası, janr müxtəlifliyi və xüsusiyyətləri" adlı monoqrafik tədqiqatında ədəbiyyatımızda nəzm, nəsr və dram növünün müxtəlif janrlarında qələmə alınmış əsərlərin janr, problematika xüsusiyyətlərinə geniş və elmi yanaşmasını əks etdirir. Müəllif onlarda özünü büruzə verən müxtəlifliyə də aydınlıq gətirir, nəzm, nəsr, dram və s. bağlı olan araşdırmalar elmi-nəzəri səviyyəsi ilə bir-birini tamamlayır.

Salidə Şərifova həmçinin, son illərdə Azərbaycan ədəbiyyatında Qarabağ mövzusunda qələmə alınmış əsərlərin problematikasında, janrında baş verən dəyişikliklərə toxunur. Müəllif 2016-ci ildən sonra qələbəyə inamı bədii nümunələrin problematikası ilə yanaşı, janrlarında da əks olunması faktına aydınlıq gətirir. Müəllif janr baxımından marşların zəfərdən sonra dəyişməsini göstərməsi isə diqqətdən yayınmır. Vətən Müharibəsindən sonra ədəbiyyatda janr baxımından dəyişikliklərin olacağı məqamı da tədqiqatda əksini tapır.

"Müstəqillik dövrü Azərbaycan ədəbiyyatında Qarabağ mövzusunu əks etdirən əsərlərin problematikası, janr müxtəlifliyi və xüsusiyyətləri" əsərində publisistika və elmi janrların problematikasına, elmi və bədii publisistikanın xüsusiyyətlərinə, elmi tədqiqatlara nəzəri yanaşma da yer alır. Məhz Qarabağ mövzusunu əks etdirən nəsr əsərləri, nəsrdə kiçik janr formaları olan hekayə janrı, pritçalar, povestlər, nəsrin böyük janr forması olan roman janrı və s. tədqiq edilməsi maraq doğurur.

Müəllifin monoqrafiyada Qarabağ problematikasını əks etdirən nəzmin problematikasına və janr müxtəlifliyinə də nəzər salması da diqqətdən yayınmır. Filologiya elmləri doktoru Salidə Şərifova nəzmin kiçik və böyük nəzm formalarında yaranmış bədii nümunələrə aydınlıq gətirir. Nəzm nümunələrinin problematikasını, təsvir üslubları və dil xüsusiyyətlərini, obrazlarını geniş təhlil obyektinə çevirir. Müəllif Qarabağ mövzusunu əks etdirən nəzm əsərlərində sərbəst şeirə, marşa və s. müraciət edilmə məqamına da xüsusi diqqət yetirir. Qarabağ mövzusunu əks etdirən dram əsərlərinin problematikası, janr müxtəlifliyi və xüsusiyyətləri də müəllif tərəfindən geniş tədqiq edilir.

Ümumiyyətlə, Salidə Şərifovanın "Müstəqillik dövrü Azərbaycan ədəbiyyatında Qarabağ mövzusunu əks etdirən əsərlərin problematikası, janr müxtəlifliyi və xüsusiyyətləri" monoqrafiyası

problemli məsələlərə yeni yanaşması, nəticələrin elmi-praktiki əhəmiyyətliyi, yeniliyi və toxunulmuş problemli məsələlərin aktuallığı baxımından elmi əhəmiyyət kəsb edir. Müəllifin toxunduğu mövzular və problemlər, təhlil obyektinə çevirdiyi əsərlərin problematikasının aktuallığı monoqrafik tədqiqatın elmliyini və dəyərini əks etdirir. Monoqrafiyada müəllif nəzəri və tədqiqi problemləri tam açıqlamağa nail olur.

Maraqlı məqam isə Salidə Şərifovanın əsərdə Birinci Qarabağ Müharibəsi zamanı formalaşmış "Qarabağ romanı" və 44 gün davam etmiş Vətən müharibəsindən sonra yaranacaq "Qarabağ romanı"larının janr baxımından fərqlənəciyinə toxunmasıdır. Müəllif 44 günlük müharibədən sonra, əldə edilmiş zəfəri əks etdirən yeni tipli "Qarabağ romanı"nın yaranacağını proqnozlaşdırır.

Akademik İsa Həbibbəyli monoqrafiyanı "kompleks tədqiqat xarakteri daşımasına" toxunur, "... akademizm, müqayisəli analiz metodu əsərin elmliyini, ədəbiyyatşünaslıq baxımından əhəmiyyətini göstərir" və "ədəbiyyatşünaslıq elmi üçün yeni bir töhfə" (Həbibbəyli, 2022: 8) hesab edir.

Nəticə

Filologiya elmləri doktoru Salidə Şərifovanın elmi yaradıcılıq yolunu izlədikcə ədəbiyyatşünaslıq sahəsində əvəzsiz işlər görməsinin şahidi olursan. Salidə Şərifova ədəbiyyatşünaslığın, ədəbiyyat nəzəriyyəsinin yetərincə mürəkkəb sahələrini tədqiq etməkdədir. Salidə Şərifovanın elmi tədqiqatlarında ilk Azərbaycan romanlarını, Azərbaycan nəsrində janrların təşəkkül və formalaşması prosesini, çağdaş Azərbaycan ədəbiyyatında postmodernizm cərəyanını, romanda janr qarışıqlığını, roman-hekayət, "balaca romanlar"ı, magik realizm cərəyanını, kreollaşmış romanları, dedektiv ədəbiyyatı, romanlarda ictimai-siyasi mühitin təsviri problemləri və. s. haqqında mürəkkəb, birmənalı olmayan fikirlərə aydınlıq gətirməsi gələcəkdə bu problemlərin geniş tədqiqi üçün sanballı mənbəyə çevrilə bilmişdir. Salidə Şərifovanın Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığını yalnız Azərbaycanda deyil, bir çox yaxın və uzaq ellərdə yüksək səviyyədə təmsil etməsi iftixar hissi doğurur.

Ədəbiyyat

1. Əliyev Məmməd. (2021). Klassiklər və müasirlərin yaradıcılığına yeni baxış (S. Şərifova. Klassiklər və müasirlər söz müstəvisində. Bakı, 2018). Filologiya və sənətşünaslıq. № 1. (səh. 281-284).
2. Əliyeva Səidə. (2021). Sabir Rüstəmxanlı yaradıcılığı yeni təfəkkür hadisəsi kimi. Şərifova S.Sabir Rüstəmxanlı yaradıcılığının janr müxtəlifliyi. – Bakı, "Elm və Təhsil". (116 səh.).
3. Həbibbəyli İsa. (2021). Əməldə və əsərlərində özünüifadə nümunəsi. Şərifova S. Fərəc Fərəcov yaradıcılığının problematikası, janr müxtəlifliyi və bədii xüsusiyyətləri. – Bakı, "Qanun". (164 səh.).
4. Həbibbəyli İsa. (2022). Ədəbiyyatda Qarabağ mövzusunun elmi - nəzəri dərki. Salidə Şərifova. Müstəqillik dövrü Azərbaycan ədəbiyyatında Qarabağ mövzusunu əks etdirən əsərlərin janr xüsusiyyəti, problema-tikası, obrazları və bədii dili. – Bakı, "Elm və Təhsil".(444 səh.).
5. Rüstəmxanlı Sabir. (26 mart 2021) // https://www.facebook.com/photo/?fbid=4570047146358201&set=a.1215447301818219
6. Salmanov Şamil. (2005). Ön söz. Şərifova Salidə Şəmməd qızı. Azərbaycan nəsr janrlarının təşəkkül və formalaşma prosesi (XX əsrin əvvəllərinə qədər). – Bakı, "Elm". (240 səh.).

MUNDARIJA

№		
	Shuhrat Sirojiddinov O‘zbek mumtoz adabiyotshunosligi ilmiy maktabi asoschisi	5
	BIRINCHI SHO‘BA **TURKIY XALQLAR MUMTOZ ADABIYOTI: TAHLIL VA TALQIN**	
1	**Kemal Yavuz Ataman** Atebetü’l hakāyik’ta edib Ahmed Yüknekî’nin gönül gözü, hak ve hakikat sözü	12
2	**Almaz Ulviy Binnatova** Nurboy Jabborov tadqiqotlarining turkıy dunyo adabiyotshunosligi rivojidagi o‘rni	20
3	**Hamidulla Dadaboyev** XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “Devonu lug‘otit turk”da aks etishi	26
4	**Shavkat Hayitov Ahmadovich, Muhammadova Mahbuba Mo‘minovna** Boburiylar va shayboniylar: adabiy aloqa va o‘zaro ta’sir masalalari	31
5	**Qodirjon Ergashev** Yaqiniyning “O‘q va yoy orasinda munozara” asarining g‘oyaviy-badiiy mohiyati	37
6	**G‘ayipov Dilshod Qadambayevich** Ogahiy she’riyatida dunyo obrazi	41
7	**Низомиддин Муродий** Махмуд Кашгари, Юсуф Хос Хаджиб и персидско-таджикская литература	45
8	**Sulaymonov Mo‘minjon Yusubjonovich** Hofiz Xorazmiy lirikasida raqib obrazi	50
9	**Ismailov Is’haqjon Otabayevich** Ogahiyning muarrixlik faoliyatida uslub va ruhiyat ta’siri masalasi	55
10	**Sulaymonov Isroil Isomiddinovich** “Boburnoma”da shaxs ruhiyati tasviri va muallif mahorati	61
11	**Muhammadqosim Olimov** Zahiriddin Muhammad Bobur Xoja Ahror Vali haqida	66
12	**Dildoraxon Abdullayeva** Muhammadsharif Gulxaniy hayoti va ijodining ilmiy o‘rganilishi masalalari	70
13	**Shavkat Hayitov, Xurshida Barotova** “Boburnoma”da saxovat timsoli	74
14	**Mamatqulova Shohsanam Isroil qizi** Turkiy xalqlar mumtoz adabiyotida sadoqat konseptining talqini, rivoji va badiiy-falsafiy asoslari	81
15	**Barno Abdurahmonova** “Qutadg‘u bilig” dostonini o‘rganishda tarixiy materiallarning o‘rni	85

16	**Yuldashev Baxodir Kadirdjanovich** O‘rta Osiyolik mutarriziy va yaqin sharqlik mutarriz	90
17	**Эльвина Аджеминова Рифатовна** Тюркская риторико-поэтическая система: метафора, метонимия, символизация и традиционные топосы	94
18	**Axmedova Muattar Abduqayum qizi** “Qissasi Rabg‘uziy”da Nuh alayhissalom qissasi va uning sahih manbalar bilan qiyosiy tahlili	98
19	**Zarif Quvonov** Mumtoz she’riyatda tabiat tasviri talqinlari	103
20	**Qosimova Zumrad Asliddin qizi** Amiriy devoni nashrlari va manbalari	108
21	**Xurshid Jo‘rayev** Turkiy xalqlar adabiyotida adamizm (odamiyot) talqinlari	111
22	**Ellora Isaqova** “Layli va Majnun” dostonida nasr va nazm mutanosibligi: Mullo Nosirxo‘ja uslubi	116
23	**Shodiya A’zamova** “Haft gulshan” dostoni: ikkinchi gulshan tahlili	119
24	**Xolmatov Tuyg‘un** Qalban darveshtab temuriyzodalar	125
25	**Sultonova Vazira Nimatovna** Boborahim Mashrab – noyob iste’dod egasi	129
26	**Sulaymonova Hulkar Mo‘minjonovna** Abu Bakr Xorazmiy hayoti hamda ijodiy biografiyasiga oid manbalar	133
27	**Abduraimova Shohista Bozor qizi** Ahmad Yugnakiy asarlarida ta’lim-tarbiya masalasi va axloqiy qarashlar tarannumi	137
28	**Özer Beyza** Irfanî anlamin inşasi: Cabbarov’un Nevai yorumculuğu ve türk şiir geleneğinde karşiliklari	140
29	**Elbekova Shalola Narboy qizi** Ahmad Tabibiy tuyuqlarining badiiy mohiyati va matniy-qiyosiy tadqiqi	149
30	**Boyatov Oybek Maxmudjon o‘g‘li** Majzub Namangoniy va uning adabiy merosi manbalari	154
31	**Kamoldinova Gavharoy Sayfiddin qizi** Amir Temur ijodkorligi xususida	158
32	**Sadoqat Kamolova** Yusuf Saryomiy g‘azallarida tasavvufiy ishq va ruhiy poklanish	160

33	**Xurshida Yuldasheva** Ibn Sino, Farididdin Attor va Alisher Navoiy “tayr” qissalarida qush timsoli va ruhiy safar modeli (qiyosiy tahlil)	163
34	**Джуманазарова Зилола Обиджоновна** Особенности перевода реалий в «Бабур-наме»	167

	IKKINCHI SHO‘BA **TURKIY XALQLAR NAVOIYSHUNOSLIGI: KECHA, BUGUN, ISTIQBOL**	
1	**Muslihiddin Muhiddinov** “Hayrat”da na’t	173
2	**Sultonmurod Olim** “Lison ut-tayr”ning bosh qahramonlari va personajlari	179
4	**Sofia Nazz** Classical symbols and thematic transformations. In the lyrics of Alisher Navoi: a comprehensive analysis	188
5	**Husniddin Eshonqulov** Maoniy ummoning ma’rifiy durlari	191
6	**Baxtiyor Fayzulloyev** Xo‘jandda navoiyshunoslik taraqqiyoti	196
7	**Avaznazarov Odiljon Rahmatulloyevich** Adabiy-irfoniy tahlil metodi	203
8	**Soyipov Sunatulla Normatovich** Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tili haqida ayrim mulohazalar	208
9	**Mavlonberdi Suyunov** Navoiyning tazmin-tatabbunavislik mahorati	214
10	**Ziyoda G‘afforova** “Hayrat ul-abror” dostonidagi hamdlar tahlili	219
11	**Tozagul Dusanova** “Vaqfiya” asaridagi ruboiylar badiiyati	222
12	**Sherxon Qorayev** Alisher Navoiy asarlarida Mirzo Ulug‘bek ijodiy faoliyati talqini (navoiyshunos olim Nurboy Jabborovning “Maoniy ahlining sohibqironi” kitobi ma’lumotlari asosida)	228
13	**Baxitbay Qutlimuratov** Alisher Navoiy va qoraqalpoq adabiyoti rivojlanish bog‘liqligi	234
14	**Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi** Komillik sirlari	237
15	**Ikromjon Choriyev** “Majolis un-nafois”da Navoiy tarjimayi holi bilan bog‘liq ma’lumot va talqinlar tahlili	240

16	**Xo‘jayeva Shoiraxon Baxtiyor qizi** Alisher Navoiy ijodida fano va ishq konsepsiyasi	244
17	**Зебо Хамидова** **Икбола Абдуллаева** Авторское сознание Алишера Навои в классической тюркской литературе	248
18	**Nodir Tursunov** Navoiy ijodida kitob va kitobxonlikka targ‘ib masalalari	252
19	**Karimova Nilufar Majidovna** Alisher Navoiy ijodida tavhid	256
20	**Adolat Nuralieva** Alisher Navoiyning “Xamsa”sida keltirilgan tarixiy va afsonaviy shaxs nomlari talqini	259
21	**Shavkat Yangiboyev** “Ilk devon” ilk devon(mi)? O‘ziga qarshi ishlaydigan dalillar	264
22	**Kaxxarova Shaxnoza Abdimuminovna** Alisher Navoiyning “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” manoqibida fano va baqo talqini	268
23	**Axmedov Boburjon Vasikovich** Alisher Navoiy merosining turkiy dunyo adabiyotshunosligidagi o‘rni: tarixiy shakllanish va zamonaviy paradigmalar	275

UCHINCHI SHO‘BA

TURKIY XALQLAR MATNSHUNOSLIGINING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

1	**Ibodulla Mirzayev Kamolovich, Sultanbek Kutlugjon Bahritdin o‘g‘li** Qozog‘istonda Alisher Navoiy tadqiqotlari va arab yozuvidagi turkiy matnlarning o‘rganilish tajribasidan	282
2	**Шодмонов Нафас Намозович** К вопросу текстологии художественно-исторической прозы	293
3	**Nuriddinov Shahobiddin Boboyorovich** Komil Xorazmiy ta’rixlari matni to‘g‘risida	298
4	**Muhammadiyev Ahadjon Maxmudovich, Mahmudov A’loxon Axadjon o‘g‘li** **Mahmudov A’loxon Axadjon o‘g‘li** Matn tarixi – ilmiy haqiqat mezoni: Nurboy Jabborovning ilmiy merosi haqida	303
5	**Shermuhammad Amonov** Matn tarixi masalasi Nurboy Jabborov talqinida	307
6	**Shafoat Hasanova** Qadimiy sharq qo‘lyozmalarini kelajak avlodga yetkazish muammolari	311
7	**Hayitov Shuhrat Moyliyevich** “Boburnoma” hamda uning qo‘lyozma va tarjimalari xususida	315

8	**Do‘stova Surayyo Savronovna** Muhammad Yusuf Bayoniy adabiy merosi haqida	320
9	**Furqat To‘xtamuratov** Muhsiniy biografiyasini yaratishda o‘z asarlarining o‘rni	327
10	**Muxlisa Maxamatxonova** “Shohnomayi andalib” asarining o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni	331
11	**Shahnoza Rasulova** Xislat ijodida matn va tahrir muammolari	336
12	**Safarova Fotima Ne’matulla qizi** Turkiy qo‘lyozmalar korpusida ko‘p nusxalilikni aniqlashda sun’iy intellekt asosida variantlarni avtomatik solishtirish	343
13	**Murotova Gulnoz Nematovna** Turkiy xalqlar og‘zaki va yozma matnlarida paralingvistik elementlar: multimodal matnshunoslik asosida tahlil	348
14	**Akbarov Zuhriddin O‘ktam o‘g‘li** Linguistic features influencing textual variation in turkic manuscripts	352
15	**Arslonov Abdimurod Karomatovich** Nurboy Jabborovning adabiy-matnshunoslik ilmiy maktabi: metodologiya va amaliy natijalar	355
16	**Zarifjon G‘ulomov** Turkiy matnlar elektron bazasini yaratish va ularni ilmiy muomalaga kiritish istiqbollari	359
17	**Usmonov Aslam Karshiboyevich** Matn, hajviy matn va uning uslubiy xususiyatlari	364

TO‘RTINCHI SHO‘BA

TURKIY XALQLARDA YANGICHA MA’RIFATPARVARLIK VA JADID ADABIYOTI

1.	**Qozoqboy Yo‘ldosh** Iste’dodli egizaklar va iste’dod egizakligi	368
2.	**Quronov Dilmurod Haydaralievich** “O‘tkan kunlar”ning ildizlariga doir	374
3.	**Obit Karimov** Furqatshunoslikning yangi bosqichi	382
4.	**Bahodir Karimov** Cho‘lpon va “Guliston”	386
5.	**G‘aniyev Ilhom Muzaffarovich** Uilyam Shekspir va Abdurauf Fitrat dramalarida intertekstuallik	392
6.	**Normurod Avazov** Behbudiy va she’riyat	397

7.	**Muxitdinova Badia Muslixiddinovna** Vasliy Samarqandiyning turkiy merosida adabiy ta'sir, izdoshlik masalalari	401
8.	**Pardayev Qo'ldosh Uzaqovich** "Al-isloh" jurnalida islom ma'rifati masalasi	405
9.	**Ilyos Ismoilov** Qodiriya – Furqatning tariqati	412
10.	**Gulzoda Soatova** "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida xotin-qizlar muammolarining badiiy talqini	415
11.	**Nodira Egamqulova** Jadid matbuotida adabiy tanqidchilik	419
12.	**Bo'tayeva Nigora Abdumannonovna** Komil g'azallarida estetik idealning namoyon bo'lishi	424
13.	**Barziyev Oybek Xabibullayevich** Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi hajviy she'rlarida mahalliy hukmdorlar obrazining badiiy talqini	428
14.	**Fazilat Muhammadiyeva** "Mushtum" va "Mulla Nasriddin" jurnallarining adabiy manba sifatida o'rganilishi	432
15.	**Baqoyeva Gulbadanbegim Sherali qizi** Furqat adabiy merosini o'rganish yo'lida	435
16.	**Fotima Jo'rayeva** Hamza Hakimzoda Niyoziyning "milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" majmuasi nashrlari xususida	439
17.	**Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna** Muhammadsharif So'fizoda ijodining o'ziga xos janr xususiyatlari	443
18.	**Boltaboyeva Ozodaxon Yuldashaliyevna** Muhammadsharif So'fizoda hayoti va adabiy merosi	447
19.	**Sevinchoy Yoqubova** Cho'lpon she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar	451
20.	**Sayfiddinova Gulnoza Ulug'bek qizi** Dukchi Eshon qo'zg'oloniga bag'ishlab yozilgan turkum she'rlar	455
21.	**A'lo Arzimurodova** Elbek hikoyalarida uslub mohiyati	460
22.	**Zuhraxon Madaliyeva** Mahmudxo'ja Behbudiy: xorij ilmiy tadqiqotlaridagi yondashuvlar	462
23.	**Ismatova Shaxina** Jadidchilik davri adabiyoti matnshunosligi	465
24.	**Nazira Madraximova** Istiqlol mavzusi cho'lponona ramzlarda	468

	BESHINCHI SHO‘BA TURKIY XALQLAR ZAMONAVIY ADABIYOTINI O‘RGANISH MUAMMOLARI	
1.	**Solijonov Yo‘ldoshxo‘ja** “Qichqiriq” hikoyasining narrativ tuzilishi va semiotik kodlari	473
2.	**Mənzər Esəd qızı Niyarlı** Hüseynova - Salidə Şəmməd qizinin nəsrində sabir satirasinin ənənələri	480
3.	**Hasanov Shavkat Ahadovich** Abdulla Oripovning adabiy saboqlari	492
4.	**Qobilov Usmon Uralovich** O‘zbek adabiyotida she’r va shoirlik haqidagi qarashlar tahliliga doir	496
5.	**Olim Oltinbek** Rauf Parfining ijodiy konsepsiyasi	503
6.	**Sərifova Salidə Səmməd qızı** Kamalə abiyevanin bədii yaradiciliğinin problematikasi, obrazlar qalereyasi və bədii dilinin özəllikləri	509
7.	**Maqsud Asadov** She’riy matn talqini: obraz va ma’no (Abdulla Oripovning bir she’ri tahlili)	518
8.	**Sadiqov Səmil Kamil Oğlu** Ədəbiyyatşünas alimin bədii yaradiciliği və ya ədəbiyyat problemlərini əks etdirən hekayələr haqqinda	521
9.	**Eliyeva Zakirə Imamverdi qızı** Ədəbiyyatşünas alimin elmmetrik portreti modeli	530
10.	**To‘rayeva Umriniso Raxmatovna** Turkiy xalqlar zamonaviy adabiyotini o‘rganish muammolari	539
11.	**Nigora Pardayeva** Halima Xudoyberdiyeva g‘azallari haqida	541
12.	**Hamroyeva Orzigul Jalolovna** Oybek tadqiqotlarida o‘zbek mumtoz adabiyoti masalalarining yoritilishi	543
13.	**Latofat Tajibayeva** Ona obrazining badiiy talqini	547
14.	**Anvarjon Yuldashev** Adiblarning so‘z haqidagi qarashlari	550
15.	**Xojanov Sharapatdin Baltaniyazovich** Sh.Seyitovtíń “Xalqabad” romanında qollanílíwí sheklengen sózler	555
16.	**Z.Sh. Baltayeva** Erkin Vohidov lirikasida uslubiy izlanishlar	560
17.	**Dildora Oxbutayeva** Ikrom Otamurod she’riyatida “Kangul” obrazining lirik talqini	563

18.	**Dilruxjon Abdilhakimov** O‘zbek she’riyati va she’rshunoslik masalalari	566
19.	**Hamidova Muhayyoxon Obidovna** Shukur Xolmirzayev nasrida vaqt va makon konsepsiyasi	569
20.	**Malohat O‘tamuradova** Nurboy Jabborov – she’r ilmining mohir tarjimoni (Abdulla Oripov ijodi misolida)	574
21.	**Nigora Tleubayeva** Qoraqalpoq adabiyotshunosligida Quvanchbay O‘razimbetov fenomeni	577
22.	**Mohira Sa’dullayeva** Zamonaviy nasrda uslubiy-kompozitsion o‘ziga xoslik	580
23.	**Guljahon Doshanova** Sirojiddin Sayyid dostonlarida milliy koloritning o‘ziga xos badiiy ifodasi	582
24.	**Ergasheva Xurshida Erkinjon qizi** Istiqlol davri hikoyalarida badiiylik	585
25.	**Karimboyeva Charos Ikrom qizi** Ruhiyat tasvirida peyzajning o‘rni	589
26.	**Kabulova Zamira** Zamonaviy qoraqalpoq she’riyatida ekologik tafakkur va badiiy ifoda	592
27.	**Akmuratova Biybisanem Arislanbay qizi** Zamonaviy she’riyatda xalqona ohanglar	595
28.	**Karimova Dilnoza** Sirojiddin Sayyid ijodining badiiy-estetik talqini	597
29.	**Umrzoqov Rustam** O‘ljas Sulaymonovning “Arg‘umoq” she’rida erk timsollari	600
30.	**Navruzgul Rurdiyeva** Luqmon Bo‘rixonning “Ovchi qismati” hikoyasidagi obrazlar badiiyati	602
31.	**Oripova Gulnoza Murodilovna** She’riyatda ritm va ohangdorlik	604
32.	**Matyoqubova Tozagul Rajapovna** G‘afur G‘ulom she’riyatida vatan taqdiri va istiqboli tasviri	610
33.	**Нуржанов Пердебай** Көп қырлы әлўан сырлы әдебий тулға	615
34.	**Boboqulova Uljon Suvonovna** Abdulla Oripov lirikasida o‘zbek ayoli va milliy ruh uyg‘unligi	618
35.	**Turgunova Mahliyo Nuriddin qizi** Usmon Azim she’rlarida estetik o‘ziga xoslik	623
36.	**Iroda Rajabboyeva** “Ma’suma” romanida badiiy tasvir vositalarining qo‘llanishi	629

37.	**Azamat Zaripov** Abdulla Oripov she'riyatida lirik kayfiyat	633
38.	**Gulshan Nurullayeva** Obraz va uning jadid dramaturgiyasidagi adabiy-estetik va ijtimoiy-ma'rifiy asoslari	637
39.	**Mamatvaliyev Muhammad Qo'ymurodovich** Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi syujeti va kompozitsion qurilishida tarixiy inversiyaning o'rni	640
40.	**Raimova Sayyora Zaitovna** Istiqlol davri o'zbek she'riyati manzarasi	645
41.	**Komiljon Payziyev** Abdulla Oripovning hikmat va ibrat dorilfununida saboq olgan olim	650
42.	**Sattarova Sevara Olimovna** Erkin Vohidov she'riyatida rus shoiri Sergey Yesenin poeziyasining o'rni	653
43.	**Berdibayev Ulug'bek** Ibrayim Yusupov lirikasida shoir "meni" va davr muammolari uyg'unligi	657
44.	**Dilfuza Tajibayeva** Obraz yaratishda ramziylik va majoziylik	660
45.	**Gulrux Xudoyorova** Abdulla Oripov lirikasida inson obrazi	664
46.	**Tojiboyeva Husnida Maxsutali qizi** Mumtoz va zamonaviy adabiyot tutashuvi masalasi ("Yulduzli tunlar" romani misolida)	669
47.	**Husanova Shohsanam Erkinovna** Allalarda milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning poetik talqini	672
48.	**Turakulova Umidaxon Anvarovna** Tohir Malik qissalaridagi o'xshatishlarning tasnifi va ifoda semalari	675
49.	**Iroda Yuldasheva** Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida ayol obrazi	679

OLTINCHI SHO'BA

ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASIGA OID MASALALAR

1.	**Mirzayev Ibodulla** Filologik sinergetika	683
2.	**Uzoq Jo'raqulov** Qissa genezisi muammosiga doir qarashlar	688
3.	**Elimuxtar Həsən Oğlu Muxtarov** Müasir özbək ədəbiyyatşünasliğinda Nurboy Cabbarovun Nizami Gəncəvi və Əlişir Nəvai yaradiciliğina dair tədqiqatlari	693

4.	**M.Faruk Toprak** Kur'ân'in özbekçe çevirisi üzerine bir değerlendirme	696
5.	**Qobilova Zeboxon Bakirovna** **Ahmadaliyev Lochinbek Muhammadyusuf o'g'li** Nurboy Jabborov – Qo'qon adabiy muhiti bilimdoni	700
6.	**Бехзод Абдуллаев** Экономическое развитие общества через призму классической тюркской литературы	704
7.	**Maxsumov Maqsud Maxmut O'g'li** Qur'on va hadislarda "Nafs" tushunchasi: tabiati, darajalari va tarbiya yo'llari	708
8.	**Икбола Абдуллаева** Сопоставление художественных форм в классической литературе тюркских народов	714
9.	**Shermurodov Tohir** Ta'limotiylik: taqozo va afzallik	718
10.	**Kenjaboyeva Gulruh Mirzo qizi** Ilmiy-ma'rifiy mavzudagi nazmiy asarlar xususiyatlari	724
11.	**Siddiqjon Mo'minov** Arab tilshunosligida so'z ta'rifi tarixidan	732
12.	**Olimjon Abdullayev** Tashbeh san'atining arab balog'atidagi o'rni	737
13.	**Sarvinoz Rasulova** Tohir Malikning portret yaratish mahorati	741
14.	**Eliyev Məmməd Irac oğlu** Ədəbiyyat nəzəriyyəçisi Salidə Şərifovanin elmi tədqiqatlarina baxiş	744

Ilmiy nashr

Filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov tavalludining 60 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan
“TURKIY XALQLAR ADABIYOTSHUNOSLIGI VA MATNSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari

Muharrir: G.Xudoyorova
Badiiy muharrir: X.Muhammad
Texnik muharrir: A.Malikov
Sahifalovchi: X.Berdiqobilova
Musahhih: Sh.Amonov

Nashriyot litsenziyasi:
1759-7862-5d54-e887-f922-2569-9860

Tasdiqnoma raqami:
7346

Terishga berildi: 01.01.2026-y.
Bosishga ruxsat etildi: 10.01. 2026-y.
Qog‘oz bichimi: 70x100 $^{1}/_{16}$
Adadi: 100 nusxa

“TAVFIQNASHR” nashriyotida tayyorlandi.

Toshkent shahri, Cho‘ponota ko‘chasi, 43-uy.
Tel.: +99 897 521 67 00

e-mail: tavfiqnashr@gmail.com
web: www.tavfiqnashr.uz

TURKIY XALQLAR ADABIYOTSHUNOSLIGI VA MATNSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI

Ushbu to‘plam filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov tavalludining 60 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan “Turkiy xalqlar adabiyotshunosligi va matnshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallaridan iborat bo‘lib, unga “Turkiy xalqlar mumtoz adabiyoti: tahlil va talqin”, “Turkiy xalqlar navoiyshunosligi takomili”, “Turkiy xalqlar matnshunosligining nazariy va amaliy masalalari”, “Turkiy xalqlar yangicha ma’rifatparvarlik va jadid adabiyoti”, “Turkiy xalqlar zamonaviy adabiyotini o‘rganish muammolari” hamda “Adabiyotshunoslik nazariyasiga oid masalalar” sho‘balariga yuborilgan maqolalar jamlangan. Mazkur tadqiqotlar turkiy xalqlar adabiyotshunosligidagi so‘ngi ilmiy tadqiqot va yangiliklarni muayyan darajada o‘zida aks ettiradi deb aytishimiz mumkin.

ISBN